O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA’LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali

2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*
Mas'ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov*
Mas'ul muharrir o'rinbosari0: *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev*

T A H R I R H A Y ' A T I

Aniq va tabiiy fanlar: *k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.*
Texnika fanlari: *t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.*
Ijtimoiy-gumanitar fanlar: *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.*
Pedagogika fanlari: *p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d.,dost. M.Asqarova, PhD S.Jamoldinova, PhD, dots. M.Asranboyeva.*
Filologiya fanlari: *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.*

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Pochta indeksi: 160136, ***Faks:*** (0369) 227-27-21,
Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi ***Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi*** *asosida chop etiladi. Jurnal* ***Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha*** *falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.*

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2026

MAXSUSLIKKA EGA ISSIQLIK TARQALISH TENGLAMASI UCHUN ARALASH MASALA YECHIMINING KORREKTLIGI

Abdulxamidov Ulug'bek Abdulpatto o'g'li,
Osiyo Xalqaro Unversiteti magistranti
E-mail: abdulhamidovbek80@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada koeffitsiyenti $k(x) = |x - x_0|^\alpha$ ko'rinishidagi darajaviy maxsuslikka (degeneratsiyaga) ega issiqlik tarqalish tenglamasi uchun aralash (boshlang'ich-chegaraviy) masala yechimining korrektligi tadqiq qilinadi. Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentining soha ichidagi yoki chegarasidagi nuqtada nolga aylanishi klassik nazariya natijalarini bevosita qo'llash imkonini cheklaydi; shu bois maxsuslik holida yechimning mavjudligi, yagonaligi va ma'lumotlarga uzluksiz bog'liqligini asoslash dolzarb muammo bo'lib qoladi. Tadqiqotning maqsadi — ushbu masalaning Adamar ma'nosida korrektligini funksional analiz usullari yordamida isbotlashdan iborat. Ishda vaznga ega Sobolev fazolari, energetik baholash usuli, Galyorkin yaqinlashishi hamda Obyen–Lions kompaktlik lemmasi qo'llanilgan. Asosiy natija sifatida $0 < \alpha < 2$ diapazonda maxsuslik darajasi α ga bog'liq bo'lmagan, oshkor konstantali aprior energetik baho olindi va u vaznli Hardy hamda Poincaré tengsizliklari bilan asoslandi. Ushbu bahodan zaif yechimning mavjudligi va yagonaligi, shuningdek boshlang'ich ma'lumot, manba va koeffitsiyentga nisbatan Lipshits turg'unligi kelib chiqadi; natijada masalaning to'liq korrektligi isbotlanadi. Bundan tashqari, xos qiymatlarning maxsuslik darajasi bo'yicha monotonligi aniqlandi. Nazariy natijalar aniq misollar va sonli hisoblar bilan tasdiqlangan.*

Kalit so'zlar: *maxsuslikka ega tenglama, issiqlik tarqalish tenglamasi, aralash masala, korrektlik, zaif yechim, vaznli Sobolev fazolari, energetik baho, Galyorkin usuli.*

КОРРЕКТНОСТЬ СМЕШАННОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТЕПЛОПРОВОДНОСТИ С СИНГУЛЯРНОСТЬЮ

Аннотация: *В статье исследуется корректность смешанной (начально-краевой) задачи для уравнения теплопроводности со степенной сингулярностью (вырождением) коэффициента вида $k(x) = |x - x_0|^\alpha$. Обращение коэффициента теплопроводности в нуль в точке внутри области или на её границе ограничивает прямое применение результатов классической теории, поэтому обоснование существования, единственности и непрерывной зависимости решения от данных остаётся актуальной проблемой. Цель исследования — доказать корректность данной задачи в смысле Адамара с помощью методов функционального анализа. В работе применяются весовые пространства Соболева, энергетический метод оценок, аппроксимация Галёркина и лемма о компактности Обэна–Лионса. В качестве основного результата получена априорная энергетическая оценка с явной константой, не зависящей от степени сингулярности α,*

обоснованная весовыми неравенствами Харди и Пуанкаре. Из этой оценки следуют существование и единственность слабого решения, а также липшицева устойчивость; в результате доказывается полная корректность задачи. Полученные результаты подтверждены примерами и численными расчётами.

Ключевые слова: *сингулярное уравнение, уравнение теплопроводности, смешанная задача, корректность, слабое решение, весовые пространства Соболева, энергетическая оценка, метод Галёркина.*

WELL-POSEDNESS OF A MIXED PROBLEM FOR A HEAT CONDUCTION EQUATION WITH A SINGULARITY

Abstract: *This article investigates the well-posedness of a mixed (initial-boundary) problem for a heat conduction equation with a power-type singularity (degeneracy) of the coefficient of the form $k(x) = |x - x_0|^\alpha$. The vanishing of the thermal conductivity coefficient at a point inside the domain or on its boundary limits the direct application of classical results; therefore, establishing the existence, uniqueness, and continuous dependence of the solution on the data in the singular case remains a relevant problem. The aim of the study is to prove the well-posedness of this problem in the Hadamard sense using methods of functional analysis. The work employs weighted Sobolev spaces, the energy estimation method, the Galerkin approximation, and the Aubin–Lions compactness lemma. As the main result, an a priori energy estimate with an explicit constant independent of the singularity degree α is obtained for the range $0 < \alpha < 2$ and justified by means of weighted Hardy and Poincaré inequalities. From this estimate follow the existence and uniqueness of a weak solution, as well as Lipschitz stability with respect to the initial data, source, and coefficient; consequently, the full well-posedness of the problem is proved. In addition, the monotonicity of the eigenvalues with respect to the singularity degree is established. The theoretical results are confirmed by specific examples and numerical computations.*

Keywords: *singular equation, heat conduction equation, mixed problem, well-posedness, weak solution, weighted Sobolev spaces, energy estimate, Galerkin method.*

KIRISH

Issiqlik tarqalish tenglamasi matematik fizikaning fundamental tenglamalaridan biri bo'lib, issiqlik o'tkazuvchanlik, diffuziya va filtrlash jarayonlarini modellashtirishda keng qo'llaniladi. Klassik holda, ya'ni issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti musbat va uzluksiz bo'lganda, boshlang'ich-chegaraviy masalalar nazariyasi yetarli darajada to'liq ishlab chiqilgan. Biroq ko'plab amaliy masalalarda koeffitsiyent k(x) ning fazoviy o'zgaruvchiga bog'liq holda biror nuqtada nolga aylanishi tenglamaning maxsuslikka

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

(degeneratsiyaga) ega bo'lishiga olib keladi va bu hol klassik natijalarni bevosita qo'llash imkonini cheklaydi. Bunday maxsuslik g'ovak muhitlarda filtrlash, kompozit materiallarda issiqlik tarqalishi hamda fazaviy o'tish hodisalarida tabiiy ravishda yuzaga keladi. M.V. Keldish koeffitsiyentning chegarada degeneratsiyasi masala qo'yilishiga jiddiy ta'sir qilishini ko'rsatgan. Maxsuslikka ega tenglamalar uchun yechimning korrektligi — ya'ni mavjudligi, yagonaligi va boshlang'ich ma'lumotlarga uzluksiz bog'liqligi — J. Adamar tomonidan kiritilgan tushuncha bilan chambarchas bog'liq bo'lib, matematik modelning fizik jarayonga mosligini ifodalaydi. Mazkur maqolada $k(x) = |x - x_0|^{\alpha}$ $(0 < \alpha < 2)$ ko'rinishidagi darajaviy maxsuslikka ega tenglama uchun aralash masala yechimining korrektligi tadqiq qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — maxsuslikka ega issiqlik tarqalish tenglamasi uchun aralash masala yechimining mavjudligi, yagonaligi hamda ma'lumotlarga uzluksiz bog'liqligini funksional analiz usullari yordamida asoslashdan iborat. Bunda alohida amaliy ahamiyatga ega jihat shundaki, har qanday sonli usulning ishonchliligi avvalo masalaning nazariy korrektligiga bog'liq: agar masala nokorrekt bo'lsa, hatto eng aniq sonli sxema ham ishonchsiz natija berishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA NAZARIY ASOS

Degenerativ parabolik tenglamalar nazariyasiga O.A. Ladyzhenskaya, V.A. Solonnikov va N.N. Uraltseva, E. DiBenedetto, shuningdek O.A. Oleinik va E.V. Radkevich salmoqli hissa qo'shgan. Vaznga ega Sobolev fazolari apparati A. Kufner va V.V. Zhikov ishlarida rivojlantirilgan. Zaif yechimlar nazariyasi va Galyorkin usuli J.-L. Lions, L.C. Evans hamda H. Brezisning monografiyalarida bayon etilgan; nokorrekt masalalarni regulyarizatsiya qilish nazariyasi esa M.M. Lavrentev va A.N. Tixonov tomonidan asoslangan. G'ovak muhit tipidagi degenerativ tenglamalar J.L. Vázquez tomonidan atroflicha o'rganilgan. So'nggi yillarda maxsuslik-degenerativ koeffitsiyentli parabolik tenglamalar nazariyasi jadal rivojlanmoqda. Jumladan, vaznli fazolarda mavjudlik, yagonalik va regulyarlik baholari J. Fang va T. Phan hamda T. Phan va H.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tran ishlarida divergent ko'rinishdagi koeffitsiyentlar uchun olingan; bir o'lchamli degenerativ masalalar korrektligi esa G. Floridia va hammualliflar tomonidan $1/k \in L^1$ integrallanuvchanlik sharti asosida tahlil qilingan — bu mazkur ishdagi shartga bevosita mos keladi. Shunga qaramay, ichki nuqtada darajaviy maxsuslikka ega aniq model uchun mavjudlik, yagonalik va turg'unlikni yagona energetik yondashuvda to'liq va tizimli asoslash masalasi yetarlicha yoritilmagan. Mazkur ish aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

MASALANING QO'YILISHI VA TADQIQOT USULLARI

$\Omega = (0,1)$ chegaralangan soha va $Q_t = \Omega \times (0,T)$ bo'lsin. Quyidagi aralash (boshlang'ich-chegaraviy) masala qaraladi:

$$ut - (k(x)\, ux)x = f(x,t), \quad (x,t) \in QT, \qquad (1)$$

$$u(x,0) = u0(x), \quad x \in \Omega; \qquad u(0,t) = u(1,t) = 0, \quad t \in (0,T), \qquad (2)$$

bu yerda koeffitsiyent maxsuslikka ega:

$$k(x) = |x - x0|\alpha, \quad 0 < \alpha < 2, \quad x0 \in [0,1]. \qquad (3)$$

Maxsuslik nuqtasi x_0 da koeffitsiyent nolga aylanadi: $k(x_0) = 0$. Shu sababli yechim klassik emas, balki vaznga ega Sobolev fazosida zaif ko'rinishda izlanadi. $V = H^1_0(\Omega; k)$ vaznli fazoda ixtiyoriy sinov funksiyasi $v \in V$ uchun zaif formulalash quyidagi ko'rinishni oladi:

$$(ut, v) + a(u, v) = (f, v), \quad a(u, v) = \int\Omega\, k(x)\, ux\, vx\, dx. \qquad (4)$$

Masalani tadqiq qilishda funksional analizning quyidagi usullari qo'llanildi: vaznga ega Sobolev fazolari nazariyasi, energetik baholash usuli, Galyorkin yaqinlashishi hamda Obyen–Lions kompaktlik lemmasi. Vaznli fazolarni tanlash tenglamaning maxsuslik xususiyatini hisobga olish imkonini berdi; energetik usul esa mavjudlik, yagonalik va turg'unlikni yagona apparat doirasida isbotlashga asos bo'ldi. Yordamchi vositalar sifatida vaznli Hardy va Poincaré tengsizliklari, Laks–Milgram teoremasi va Grönwall lemmasidan foydalanildi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Maxsuslikning kuchini tavsiflovchi muhim ko'rsatkich — koeffitsiyentga teskari funksiyaning integrallanuvchanligidir: $\int_a dx/k(x) < \infty$ sharti aynan $\alpha < 1$ bo'lganda bajariladi. Maxsuslik nuqtasi atrofida yechimning xulq-atvori esa $\beta(\beta - 1 + \alpha) = 0$ indikator tenglamasi orqali aniqlanadi; bu zaif yechimning vaznga ega Sobolev fazosiga tegishliligini belgilaydi.

ASOSIY NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotning markaziy natijasi — maxsuslik darajasi α ga bog'liq bo'lmagan aprior energetik bahodir. Aynan shu baho mavjudlik, yagonalik va turg'unlik zanjirining poydevorini tashkil etadi.

Teorema 1 (aprior baho). Agar $f \in L^2(Q_t)$ va $u_0 \in L^2(\Omega)$ bo'lsa, (1)–(3) aralash masalaning ixtiyoriy zaif yechimi u uchun quyidagi baho o'rinli: $\|u\|2C([0,T];\ L2(\Omega)) + \|\sqrt{k}\cdot ux\|2L2(Q_T) \le C\ (\ \|u0\|2L2(\Omega) + \|f\|2L2(Q_T)\ ),$ (5) bu yerda C konstanta maxsuslik darajasi α ga ($0 < \alpha < 2$ oralig'ida) bog'liq emas. Ushbu baho zaif formulada sinov funksiyasi sifatida yechimning o'zini (v = u) olish, so'ngra vaznli Hardy va Poincaré tengsizliklarini hamda Grönwall lemmasini qo'llash orqali keltirib chiqariladi. Bahodagi konstanta vaznli Hardy ko'rsatkichi $2 - \alpha$ orqali oshkor ifodalanadi.

Teorema 2 (mavjudlik). $0 < \alpha < 2$ bo'lganda (1)–(3) masalaning kamida bitta zaif yechimi mavjud. Isbot Galyorkin yaqinlashishiga asoslanadi: aprior baho (5) yaqinlashmalar ketma-ketligining bir tekis chegaralanganligini ta'minlaydi, Obyen–Lions kompaktlik lemmasi esa undan yaqinlashuvchi qism ketma-ketlik ajratib, cheksiz o'lchamli zaif yechimga limitga o'tish imkonini beradi.

Teorema 3 (yagonalik). Yuqoridagi shartlarda zaif yechim yagona. Isbotda ikki yechimning ayirmasi nol ma'lumotli bir jinsli masalani qanoatlantirishi va aprior baho (5) bo'yicha uning normasi nolga aylanishidan foydalaniladi; maxsuslik bu o'rinda qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki dissipativ had faqat nomanfiyligi bilan ishtirok etadi.

Teorema 4 (turg'unlik). Masalaning yechim operatori $S: L^2(\Omega) \times L^2(Q_t) \to C([0,T]; L^2(\Omega))$

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

chiziqli va chegaralangan, ya'ni Lipshits ma'nosida uzluksiz akslantirishdir. Demak, yechim boshlang'ich ma'lumot, manba funksiyasi va koeffitsiyentdagi kichik o'zgarishlarga uzluksiz (hatto Lipshits) bog'liqdir.

Teorema 5 (korrektlik). Mavjudlik, yagonalik va turg'unlik shartlari birgalikda bajarilgani uchun $0 < \alpha < 2$ bo'lganda (1)–(3) maxsuslikka ega aralash masala $L^2(\Omega) \times L^2(Q_t)$ ma'lumotlar fazosida Adamar ma'nosida korrekt qo'yilgan. Bu — ishning asosiy yakuniy natijasidir.

Taklif (spektral xossa). Vaznli Shturm–Liuvill masalasining har bir xos qiymati $\lambda_n(\alpha)$ maxsuslik darajasi $\alpha \in (0, 2)$ bo'yicha monoton kamayuvchi funksiyadir. Bu maxsuslikka ega model spektrining yangi sifat xossasi bo'lib, analitik isbotlanib, sonli hisob bilan tasdiqlangan. Olingan natijalarning ilmiy yangiligi shundaki, aprior baho konstantasining maxsuslik darajasi α dan mustaqilligi va uning vaznli Hardy ko'rsatkichi $2 - \alpha$ orqali oshkor ifodalanishi ushbu ishda birinchi marta to'liq isbotlandi. Klassik adabiyotda (Oleinik–Radkevich, DiBenedetto) degenerativ tenglamalar korrektligi umumiy shartlar ostida ma'lum bo'lsa-da, aynan darajaviy maxsuslik uchun konstantalarning oshkor hisoblanishi va mavjudlik–yagonalik–turg'unlikning bitta energetik apparatdan birga keltirib chiqarilishi mazkur tadqiqotning o'ziga xos hissasidir. Nazariy natijalar aniq misollar va sonli hisoblar bilan tasdiqlandi. Xususan, vaznli masalaning xos qiymatlari λ_n taxminan n^2 tartibida o'sadi, shu sababli yuqori modalar tez so'nadi va yechim $t > 0$ da silliqlashadi — bu energetik bahodagi energiya dissipatsiyasining sonli ifodasidir. Oshkormas chekli ayirmalar va vaznli chekli elementlar usullari maxsuslik holiga moslashtirilib, ular bergan natijalar nazariy baholarga to'liq mos keldi. Shuningdek, maxsuslik kuchaygan sari (α ortishi bilan) yechim sekinroq so'nishi kuzatildi, bu maxsuslik nuqtasi atrofida diffuziyaning susayishi bilan izohlanadi.

XULOSA

Mazkur ishda koeffitsiyenti $k(x) = |x - x_0|^{\alpha}$ ko'rinishidagi darajaviy maxsuslikka ega issiqlik tarqalish tenglamasi uchun aralash masala yechimining korrektligi to'liq asoslandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, koeffitsiyent ichki yoki chegaraviy nuqtada nolga aylanishiga qaramay, vaznga ega Sobolev fazolari va energetik usullar to'g'ri tanlanganda masala $0 < \alpha < 2$ diapazonda korrekt qo'yilgan bo'lib qoladi. Ishning metodologik ahamiyati shundaki, korrektlikning uchala sharti — mavjudlik, yagonalik va turg'unlik — yagona energetik yondashuv doirasida izchil isbotlandi. Energetik usulning universalligi (dissipativ hadning faqat nomanfiyligidan foydalanish) uni maksimum prinsipi qo'llanilmaydigan kengroq tenglamalar sinfiga ham tatbiq etish imkonini beradi. Nazariy korrektlikning sonli tajribalar bilan tasdiqlanishi esa chekli ayirmalar va chekli elementlar usullarining barqarorligini kafolatlaydi. Kelgusi tadqiqotlarni quyidagi yo'nalishlarda davom ettirish mumkin: bir jinsli bo'lmagan va Neyman tipidagi chegaraviy shartlar; ko'p o'lchamli sohalar va sirt bo'ylab maxsuslik; kvazichiziqli degenerativ tenglamalar; $\alpha \geq 2$ holidagi kuchli maxsuslik, bunda Hardy tengsizligi buzilib, masala sifat jihatdan o'zgaradi; hamda maxsuslik nuqtasi atrofida adaptiv to'rli yuqori aniqlikdagi sonli usullarni ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ladyzhenskaya O.A., Solonnikov V.A., Ural'tseva N.N. Lineynye i kvazilineynye uravneniya parabolicheskogo tipa. — M.: Nauka, 1967. — 736 s.
2. DiBenedetto E. Degenerate Parabolic Equations. — New York: Springer-Verlag, 1993. — 387 p.
3. Oleinik O.A., Radkevich E.V. Second Order Equations with Nonnegative Characteristic Form. — Providence: AMS, 1973. — 259 p.
4. Keldysh M.V. O nekotorykh sluchayakh vyrozhdeniya uravneniy ellipticheskogo tipa na granitse oblasti // Doklady AN SSSR. — 1951. — T. 77, № 2. — S. 181–183.
5. Hadamard J. Sur les problèmes aux dérivées partielles et leur signification physique // Princeton University Bulletin. — 1902. — Vol. 13. — P. 49–52.
6. Evans L.C. Partial Differential Equations. — 2nd ed. — Providence: AMS, 2010. — 749 p.
7. Lions J.-L. Quelques méthodes de résolution des problèmes aux limites non linéaires. — Paris: Dunod, 1969. — 554 p.
8. Brezis H. Functional Analysis, Sobolev Spaces and Partial Differential Equations. — New York: Springer, 2011. — 599 p.

9. Kufner A. Weighted Sobolev Spaces. — Leipzig: Teubner, 1985. — 152 p.
10. Zhikov V.V. On weighted Sobolev spaces // Sbornik: Mathematics. — 1998. — Vol. 189, No. 8. — P. 1139–1170.
11. Vázquez J.L. The Porous Medium Equation: Mathematical Theory. — Oxford: Clarendon Press, 2007. — 624 p.
12. Fang J., Phan T. Well-posedness for a class of parabolic equations with singular-degenerate coefficients. — arXiv:2510.20051. — 2025. — 38 p.
13. Floridia G. [et al.] Nonnegative controllability for a class of nonlinear degenerate parabolic equations with application to climate science. — arXiv:2003.04966. — 2020. — 30 p.
14. Abdulxamidov U.A. Maxsuslikka ega issiqlik tarqalish tenglamasi uchun aralash masala yechimining korrektligi // O'zbekiston matematika jurnali. — 2025. — №2. — B. 45–54.

TALABALARNING KIBERIJTIMOIYLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PEDAGOGIK OMILLAR

Ishmuradov Bunyodjon Farxodovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi,
E-mail: bunyodjon8892@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada talabalarning kiberijtimoiylashuvining ijtimoiy-pedagogik mohiyati yoritilib, uning zamonaviy raqamli muhitdagi o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, kiberijtimoiylashuvning konstruktiv va destruktiv yo'nalishlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *kiberijtimoiylashuv, talaba, raqamli muhit, raqamli identifikatsiya, raqamli kompetensiya.*

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА КИБЕРСОЦИАЛИЗАЦИЮ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В статье раскрывается социально-педагогическая сущность киберсоциализации студентов и анализируются её специфические особенности в современной цифровой среде. Также освещаются конструктивные и деструктивные направления киберсоциализации.*

Ключевые слова: *киберсоциализация, студент, цифровая среда, цифровая идентификация, цифровая компетенция.*

SOCIO-PEDAGOGICAL FACTORS AFFECTING THE CYBERSOCIALIZATION OF STUDENTS

Abstract. *The article highlights the socio-pedagogical essence of students' cybersocialization and analyzes its specific characteristics in the modern digital environment. It also reveals the constructive and destructive directions of cybersocialization.*

Keywords: *cybersocialization, student, digital environment, digital identity, digital competence.*

KIRISH

Kiberijtimoiylashuvning asosiy muhiti virtual makon hisoblanadi. Uni insoniyat tomonidan yaratilgan va doimiy ravishda takomillashtirib borilayotgan, noosferaning virtual tarmoqli axborot mujassamiga aylangan, o'zining "yashovchi-aholisi" va

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kiberkommunikatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan yangi hayot faoliyati makoni sifatida tavsiflash mumkin.

Zamonaviy “kiberijtimoiylashuv” fenomini V.A. Pleshakov, M.S. Chvanov, R.M. Aysina, S.V. Nikitina, S.N. Vereykina, A.M. Baliqina asarlarida o‘rganilgan.

Hozirgi vaqtda “kiberijtimoiylashuv” fenomeni talabalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining asosiy omili sifatida turli fan sohalari olimlarining tadqiqot predmetiga aylanib bormoqda.

Xorijiy ijtimoiy psixologiyada “kiberijtimoiylashuv” atamasi ancha keng ma’noda qo‘llaniladi. U insonning elektron kommunikatsiya madaniyatiga, shuningdek, kibermakondagi muloqotning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilovchi qadriyatlar, me’yorlar va qoidalarga jalb etilishi bilan bog‘liq hodisalar majmui sifatida talqin qilinadi.

Sotsiologiya fanlari doktori S.V. Bondarenko virtual olamda ijtimoiylashuvni foydalanuvchining kommunikatsiya texnologiyalari, axborot madaniyati, ijtimoiy navigatsiya, elektron savodxonlik, shuningdek, ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar va rollarga qo‘yiladigan talablarni o‘zlashtirish orqali elektron ijtimoiy-madaniy muhitga integratsiyalashuvi jarayoni sifatida talqin qiladi.

R.M. Aysina va A.A. Nesterova o‘z tadqiqotlarida kiberijtimoiylashuvning ikki turini ajratib ko‘rsatadilar:

Birinchisi, ijobiy kiberijtimoiylashuv – foydalanuvchining kibermakonni xavfsiz o‘zlashtirishi, uning ko‘plab afzalliklaridan to‘laqonli foydalanishi hamda virtual muhitda egallangan foydali tajribani real hayotdagi muammolarni hal etishga tatbiq etishi bilan bog‘liq jarayonlar majmuidir.

Ikkinchisi salbiy kiberijtimoiylashuv bo‘lib, foydalanuvchining virtual kommunikatsiyalarga yuqori darajada jalb etilishi bilan bir qatorda, tarmoq resurslaridan foydalanishda o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatining pastligi, internet muhitidagi muloqot jarayonida deviant xulq-atvor andozalarining mavjudligi va/yoki

tajovuzkor tarmoq intervensiyalariga nisbatan yuqori darajadagi zaiflik bilan tavsiflanadi[1:49].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, hozirgi kunga qadar talabalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvi muammosi T.V. Balanditseva, L.S. Elgina, V.V. Lagerev, M.G. Magomedova, E.V. Osipchukova, N.M. Smyslova kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda, talabaning kiberijtimoiylashuvini faqat uning internet va raqamli texnologiyalardan foydalanishi bilan cheklab bo‘lmaydi. Mazkur jarayon real va virtual ijtimoiy muhitlarning o‘zaro ta’siri sharoitida yuzaga kelib, shaxsning ijtimoiy tajribasi, qadriyatlari, identifikatsiyasi, kommunikativ strategiyalari va faoliyat shakllarining o‘zgarishini qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan, talabaning kiberijtimoiylashuvi real va virtual ijtimoiy tajribaning bir-birini mukammalashtiruvi asosida amalga oshadigan, kommunikativ, axborot-kognitiv, motivatsion, identifikatsion va faoliyat-kompetensiyaviy o‘zgarishlarni qamrab oluvchi pedagogik jarayon sifatida talqin qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi ta’rif kiberijtimoiylashuvni uch jihatdan tavsiflash imkonini beradi: birinchidan, uning ijtimoiy-kommunikativ jihati virtual muloqot va ijtimoiy aloqalarni o‘zlashtirishni; ikkinchidan, shaxsiy-rivojlantiruvchi jihati qadriyatlar, identifikatsiya va kommunikativ strategiyalarning shakllanishini; uchinchidan, faoliyat-kompetensiyaviy jihati raqamli muhitda mustaqil faoliyat yuritish, axborotni tanlash va qayta ishlash, hamkorlik qilish hamda raqamli mahsulotlar yaratish ko‘nikmalarining rivojlanishini anglatadi.

Kiberijtimoiylashuv jarayoni talabaning bo‘sh vaqtini tashkil etishga, axborotdan foydalanish va ta’lim olish tajribasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga chuqur kirib kelishi natijasida dam olish va hordiq

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

chiqarishning an'anaviy shakllari bilan bir qatorda virtual kontent iste'moli, onlayn muloqot, raqamli ko'ngilochar xizmatlar va interaktiv platformalar ham ommalashmoqda. Shu bilan birga, ta'lim jarayonining mazmuni tashkil etilishida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Internet resurslari mustaqil ta'lim, masofaviy o'qish, elektron kutubxonalar, ochiq ta'lim platformalari va turli raqamli kurslar orqali shaxsning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Internet muhiti talabaning ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishi va yangi qadriyatlarining shakllanishiga ham ta'sir etuvchi muhim ijtimoiylashtiruvchi makonga aylanib ulgurdi. Bugungi talabalar raqamli kontentlar orqali turli madaniyatlar bilan tanishib, ijtimoiy guruhlarda vaqtini o'tkazib virtual dunyoda yashashga qisman o'rganib qolishgan.

Natijada internet norasmiy ta'lim va ma'rifatning o'ziga xos platformasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Biroq mazkur jarayonda axborotning sifati, ishonchliligi va ijtimoiy mazmunini tanqidiy baholash qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki raqamli makonda foydali bilim bilan bir qatorda noto'g'ri, manipulyativ yoki destruktiv axborot ham mavjud.

Zamonaviy talaba hayotining muhim xususiyatlaridan biri axborotga asoslangan hayot tarzining tobora kuchayib borayotganidir. Talabaning kundalik faoliyati, kasbiy munosabatlari, ta'lim olishi, bo'sh vaqtini tashkil etishi va ijtimoiy aloqalarining sezilarli qismi raqamli vositalar bilan amalga oshmoqda. Bu esa talaba ijtimoiylashuvining an'anaviy mexanizmlariga qo'shimcha ravishda raqamli muhitda kechadigan yangi ijtimoiylashuv mexanizmlarini ham shakllantirmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy real ijtimoiy muhitning stressogen omillari tobora ko'payib borayotgani talabaning virtual makonga munosabatini tushunishda muhim omil sifatida qaralishi mumkin. Yuqori raqobat, tezkor hayot sur'ati, ijtimoiy va kasbiy talablarning ortishi, doimiy axborot oqimi hamda shaxs oldidagi turli mas'uliyatlar psixologik zo'riqishni kuchaytirishi mumkin. Bunday sharoitda virtual makon ayrim

talaba-yoshlar uchun kundalik hayot bosimidan vaqtincha uzoqlashish, dam olish va o‘zini erkinroq his qilish imkonini beruvchi muhit sifatida qabul qilinadi.

Talabaning virtual olamning virtual ijtimoiylashtiruvchi muhitidagi faolligi uning faqat tomoshabin, o‘quvchi yoki tinglovchi sifatidagi ishtiroki bilan cheklanib qolmaydi. U jarayonlarni mustaqil ravishda tashkil etishi, ularga faol qo‘shilishi va sodir bo‘layotgan voqealarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xayoliy, fantastik olamning real hayot qonuniyatlari asosida faoliyat yuritishi bilan uyg‘unlashuvi virtual dunyoni talaba uchun nihoyatda jozibador qiladi.

Talabaning kiberijtimoiylashuvi jarayonida virtual muhit uning faqat axborot iste’molchisi sifatidagi ishtiroki bilan cheklanib qolmaydi. Zamonaviy raqamli platformalar talabaga kommunikatsiya qilish, ta’lim olish, ijodiy faoliyat yuritish, ijtimoiy guruhlarga qo‘shilish, o‘z fikrini ifodalash va turli ijtimoiy rollarni sinab ko‘rish imkonini beradi. Shu jihatdan kiberijtimoiylashuv talabaning raqamli muhit bilan faol o‘zaro ta’siri jarayonida kechadigan ko‘p qirrali ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda talabalar kiberijtimoiylashuvi turli funksional raqamli muhitlarda amalga oshmoqda. Xususan, Telegram va Discord kabi kommunikativ platformalar, Instagram, TikTok va YouTube kabi ijtimoiy media hamda kontent platformalari, onlayn o‘yinlar, Moodle, Google Classroom va boshqa elektron ta’lim platformalari ta’lim, muloqot, hamkorlik va ijtimoiy tajriba almashishning muhim vositalariga aylangan. Shuningdek, sun’iy intellektga asoslangan zamonaviy vositalarning ta’lim, ijodkorlik, axborot izlash va kommunikatsiya jarayonlariga kirib kelishi talabaning raqamli muhitdagi faoliyat shakllarini yanada kengaytirmoqda.

Mazkur platformalarning har biri talabaning kiberijtimoiylashuviga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ijtimoiy media platformalarida talaba o‘zini namoyon etish, turli ijtimoiy guruhlar bilan tanishish va jamoatchilik fikriga munosabat bildirish tajribasini egallaydi. Onlayn o‘yinlar va virtual jamoalarda hamkorlik, strategik fikrlash, rolli xatti-

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

harakatlar va guruhiy o‘zaro ta’sirning turli shakllari shakllanishi mumkin. Virtual personajlar va raqamli identifikatsiya ham ushbu jarayonning muhim jihatlaridan biridir. Talaba avatar, profil, nickname yoki boshqa raqamli belgilar orqali o‘zining virtual “Men”ini shakllantiradi va namoyon etadi. Bunday raqamli identifikatsiya shaxsga o‘zining turli jihatlarini sinab ko‘rish, yangi kommunikativ strategiyalarni o‘zlashtirish va muayyan ijtimoiy guruhlarga mansubligini ifodalash imkonini beradi. Shu bilan birga, virtual identifikatsiya real shaxsiy identifikatsiyadan keskin ajralib ketgan holatlarda shaxsning o‘zini anglash jarayonida muayyan ziddiyatlarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Shu sababli zamonaviy talabaning kiberijtimoiylashuvini alohida bir internet platformasi yoki texnologiyasi bilan bog‘lash to‘g‘ri emas. U kommunikativ platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, ta’limga oid raqamli muhitlar, virtual hamjamiyatlar, onlayn o‘yinlar va sun’iy intellekt vositalarini o‘z ichiga oluvchi ko‘p komponentli raqamli makonda amalga oshadi. Bu muhitlarning ijtimoiylashtiruvchi ta’siri esa ulardan foydalanish maqsadi, davomiyligi, mazmuni, foydalanuvchining raqamli savodxonligi va real ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabati kabi omillarga bog‘liq.

A.V. Mudrik ta’kidlaganidek, kompyuter o‘yinlari foydalanuvchiga o‘zini ideal obraz sifatida his qilish imkonini berishi mumkin[2:257]. Shu nuqtayi nazardan, virtual personaj ayrim hollarda shaxsning o‘zida mavjud bo‘lmagan yoki yetarlicha rivojlanmagan sifatlarni virtual faoliyat orqali sinab ko‘rish vositasiga aylanishi mumkin. Biroq virtual identifikatsiyaning real shaxsiy identifikatsiyadan keskin ajralib ketishi yoki virtual muhitning real hayotdagi muammolardan qochish vositasiga aylanishi kiberijtimoiylashuvning destruktiv yo‘nalishlarini kuchaytirishi ehtimolini ham yuzaga keltiradi. Demak, virtual personaj va raqamli “men”ni kiberijtimoiylashuvning mustaqil mazmuni sifatida emas, balki uning identifikatsion komponentini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Biroq kiberijtimoiylashuvni faqat xavf va muammolar doirasida talqin qilish ham ilmiy jihatdan to‘gri emas. Axborot-

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talaba faoliyatining mazmunini o‘zgartirib, yangi bilim, ko‘nikmalarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Raqamli muhitda talaba axborotni mustaqil izlash, tanlash va qayta ishlash, masofadan hamkorlik qilish, virtual jamoalarda ishlash, raqamli mahsulotlar yaratish va o‘z faoliyatini onlayn tarzda boshqarish kabi yangi kompetensiyalarni egallamoqda.

Shu jihatdan kiberijtimoiylashuvning ijtimoiy-pedagogik salohiyati uning shaxsni raqamli jamiyat hayotiga tayyorlash imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Internet muhiti to‘g‘ri tashkil etilgan taqdirda ta’lim va tarbiya jarayonining qo‘shimcha resursiga aylanishi, mustaqil ta’limni rag‘batlantirishi, ijodkorlikni rivojlantirishi, ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashi va turli guruhlar o‘rtasidagi muloqotni kuchaytirishi mumkin.

Shu sababli ta’lim tizimida internet imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish alohida ahamiyatga ega. Pedagoglar va ta’lim muassasalari ma’muriyati tematik veb-resurslar, virtual muhokama klublari, forumlar, interaktiv o‘quv materiallari, ta’limga oid o‘yinlar, videomateriallar va boshqa raqamli vositalardan foydalanish orqali talabalarning nafaqat bilim olish, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishlari mumkin.

Demak, internet muhiti zamonaviy pedagogik faoliyat uchun bir vaqtning o‘zida ta’lim, muloqat, tarbiyaviy va ijtimoiylashtiruvchi makon vazifasini bajarmoqda. Uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish kiberijtimoiylashuvning konstruktiv jihatlarini kuchaytirishi, raqamli muhitning destruktiv ta’sirlarini esa pedagogik profilaktika va raqamli savodxonlik vositalari orqali kamaytirish imkonini beradi.

Shunday qilib, kiberijtimoiylashuvning mohiyati talabaning virtual makonda mavjud bo‘lishi bilangina belgilanmaydi. U talabaning raqamli muhit bilan faol o‘zaro ta’siri natijasida ijtimoiy tajribasi, ehtiyojlari, qadriyatlari, identifikatsiyasi, kommunikativ strategiyalari va faoliyat shakllarining transformatsiyasini ham qamrab oladi. Shu sababli kiberijtimoiylashuvni zamonaviy jamiyatda shaxs rivojlanishining

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

muqarrar yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘rganish, uning ijobiy imkoniyatlarini pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash va ehtimoliy salbiy oqibatlarini oldindan aniqlash dolzarb ilmiy vazifalardan biridir. Yuqoridagi nazariy yondashuvlarni umumlashtirish talabaning kiberijtimoiylashuvini bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir nechta tarkibiy komponentlar orqali tavsiflash imkonini beradi. Mazkur komponentlar talabaning raqamli muhitdagi kommunikativ faoliyati, axborot bilan ishlashi, qadriyat va motivatsiyalarining shakllanishi, raqamli identifikatsiyasi hamda amaliy faoliyatini qamrab oladi. Shu asosda muallif tomonidan talabaning kiberijtimoiylashuvini tavsiflovchi besh tarkibiy komponentdan iborat ijtimoiy-pedagogik model taklif etiladi.

Birinchi, kommunikativ komponent bo‘lib, talabaning virtual muloqot, tarmoqli hamkorlik va raqamli kommunikatsiyaning turli shakllarini o‘zlashtirishini ifodalaydi. Talaba ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, virtual hamjamiyatlar, videokonferensiyalar va boshqa raqamli kommunikatsiya vositalari orqali turli shaxslar va ijtimoiy guruhlar bilan muloqotga kirishadi. Natijada uning fikr almashish, hamkorlik qilish, o‘z pozitsiyasini ifodalash va boshqa shaxslarning nuqtayi nazarini tushunish bilan bog‘liq kommunikativ tajribasi kengayadi.

Ikkinchi, axborot-kognitiv komponent bo‘lib, talabaning raqamli muhitda axborotni izlash, tanlash, tekshirish, tahlil qilish, baholash va qayta ishlash qobiliyatlarini qamrab oladi. Internetdagi axborot hajmining keskin ortishi sharoitida talabaning ishonchli va ishonchsiz manbalarni farqlashi, manipulyativ yoki noto‘g‘ri axborotni aniqlashi hamda olingan ma’lumotlardan ongli foydalanishi kiberijtimoiylashuvning muhim shartlaridan biriga aylanadi.

Uchinchi, qadriyat-motivatsion komponent bo‘lib, raqamli muhitda mavjud bo‘lgan ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar, xulq-atvor qoidalari va motivlarning o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq. Talaba turli raqamli va ijtimoiy guruhlar bilan o‘zaro ta’sir jarayonida muloqot madaniyati, raqamli etika, o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik, ijtimoiy mas’uliyat va axborotdan foydalanish me’yorlarini egallaydi. Shu bilan birga, raqamli

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

muhitda uchraydigan destruktiv qadriyat va xulq-atvor modellariga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish ham mazkur komponentning muhim jihatini tashkil etadi.

To‘rtinchi bilganini amalda bajara olish va natija ko‘rsatish komponenti bo‘lib, talabaning raqamli muhitda faol subyekt sifatida ishtirok etishini tavsiflaydi. Bunda talaba tayyor axborotni iste’mol qilish bilan cheklanmay, raqamli mahsulotlar yaratadi, virtual loyihalarda ishtirok etadi, onlayn hamkorlikni amalga oshiradi, ijtimoiy tashabbuslarni ilgari suradi va o‘z faoliyatini raqamli vositalar yordamida tashkil etadi. Natijada raqamli kompetensiyalar bilan bir qatorda mustaqillik, tashabbuskorlik, mas’uliyat va ijtimoiy faollik kabi sifatlar ham rivojlanishi mumkin.

Shunday qilib, taklif etilayotgan modelda kommunikativ, axborot-kognitiv, qadriyat-motivatsion, identifikatsion va kompetensiyaviy komponentlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o‘zaro bog‘liq tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, talabaning virtual muloqotdagi ishtiroki uning axborotni baholash qobiliyatiga, o‘z navbatida, axborot bilan ishlash tajribasi uning qadriyatlari va qarorlariga, mazkur jarayonlarning barchasi esa raqamli identifikatsiyasi va faoliyat strategiyalariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

XULOSA

Biroq kiberijtimoiylashuvning natijalari har doim ham konstruktiv xarakterga ega bo‘lavermaydi. Raqamli muhit bilan o‘zaro ta’sirning mazmuni, davomiyligi, foydalanish maqsadi, shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish darajasi va ijtimoiy-pedagogik sharoitlariga qarab uning salbiy oqibatlari ham yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatda kiberijtimoiylashuvning destruktiv yo‘nalishlari sifatida kiberqaramlik, destruktiv kontent ta’siri, deviant xulq-atvor modellarini o‘zlashtirish, kiberagressiya, ijtimoiy izolyatsiya hamda virtual va real ijtimoiy hayot o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi namoyon bo‘lishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, kiberijtimoiylashuvning pedagogik samaradorligini faqat talabaning raqamli muhitdan foydalanish darajasi bilan emas, ushbu muhitdagi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

faoliyatining mazmuni, yo‘nalishi va natijasi bilan baholash lozim. Konstruktiv kiberijtimoiylashuvda raqamli tajriba talabaning real ijtimoiy faoliyatini boyitadi, uning kommunikativ va raqamli kompetensiyalarini rivojlantiradi hamda mustaqil, mas’uliyatli va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Aksincha, virtual tajriba real ijtimoiy munosabatlarni siqib chiqara boshlagan holatda kiberijtimoiylashuvning kvaziijtimoiylashuvga aylanish xavfi ortadi.

Demak, talabaning kiberijtimoiylashuvini kommunikativ → axborot-kognitiv → qadriyat-motivatsion → identifikatsion → faoliyat-kompetensiyaviy komponentlarning o‘zaro ta’siri asosida kechuvchi dinamik ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida ko‘rish mumkin.

Bu komponentlarning uyg‘un rivojlanishi kiberijtimoiylashuvning konstruktiv natijalarini kuchaytirsa, ularning buzilishi yoki salbiy raqamli ta’sirlar bilan ustunlashishi destruktiv oqibatlar va kvaziijtimoiylashuv xavfini oshiradi.

Virtual dunyoda kechadigan ijtimoiylashuv jarayoni talabaning turli ijtimoiy rollar, xulq-atvor strategiyalari va kommunikativ modellarni sinab ko‘rishi uchun o‘ziga xos tajriba maydoni bo‘lib xizmat qiladi. Virtual muhit unda qaror qabul qilish, hamkorlik qilish, o‘z faoliyatini baholash va yangi ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Biroq virtual tajriba real hayotdagi ijtimoiy faoliyatni siqib chiqargan taqdirda, kiberijtimoiylashuvning destruktiv yo‘nalishlari kuchayishi mumkin.

Shu sababli kiberijtimoiylashuv jarayonida talabaning erkin, mustaqil fikrlaydigan va mas’uliyatli raqamli subyekt sifatida shakllanishiga e’tibor qaratish muhimdir. Internetning anonimlik, kommunikativ masofa va axborotning tezkor tarqalishi kabi xususiyatlari raqamli muhitda erkinlik va mas’uliyat uyg‘unligini ta’minlashni talab etadi. Talaba o‘z harakatlarining boshqa shaxslar va ijtimoiy muhitga ta’sirini anglagan holda raqamli muloqot va faoliyatni amalga oshirishi lozim.

Internet kommunikatsiyasining o‘ziga xos shakllari shaxsning o‘zini anglash jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi yangi madaniy vositalar sifatida ham namoyon

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bo‘lmoqda[3:38]. Zamonaviy raqamli kommunikatsiya vositalari matnli muloqot, vizual kontent, qisqa videolar va boshqa raqamli vizual media vositalari talabaning o‘zini ifodalash va ijtimoiy mansubligini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu jihatdan kiberkommunikatsiya texnik aloqa vositasigina emas, talabaning o‘zini anglash, ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish va boshqa guruhlar bilan identifikatsiya qilishiga ta’sir etuvchi madaniy-kommunikativ muhit sifatida namoyon bo‘ladi. Kiberijtimoiylashuvning mazmuni va natijasi talabaning individual xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi, ehtiyojlari, qadriyatlari va raqamli savodxonligiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois uning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishda individual-differensial yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, kiberijtimoiylashuvni zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida shaxsning real va virtual ijtimoiy tajribalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish jarayoni sifatida baholash mumkin. Uning konstruktiv yo‘nalishi shaxsga mustaqil fikrlash, tanlov qilish, kommunikativ tajriba orttirish, yangi ijtimoiy rollarni sinab ko‘rish, bilim va madaniy resurslardan foydalanish hamda o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkonini beradi. Virtual muhitning real hayot o‘rnini bosishi, ijtimoiy aloqalarning torayishi yoki destruktiv xulq-atvor modellarining o‘zlashtirilishi kiberijtimoiylashuvning kvaziijtimoiylashuvga aylanish xavfini yuzaga keltiradi.

Demak, virtual olam talabaning zamonaviy ijtimoiylashuvi kechadigan yangi makon sifatida qabul qilish, undagi ijtimoiylashtiruvchi va tarbiyaviy imkoniyatlardan maqsadli foydalanish hamda shaxsning real hayotdagi ijtimoiy faoliyatini virtual tajriba bilan uyg‘unlashtirish zamonaviy ijtimoiy-pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir. Bunda asosiy maqsad talabani virtual muhitga shunchaki moslashtirish emas, uni raqamli makonda erkin, ongli, mas’uliyatli va ijtimoiy jihatdan faol subyekt sifatida shakllantirishdan iborat bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Айсина Р.М., Нестерова А.А. Киберсоциализация молодежи в информационно-коммуникационном пространстве современного мира: эффекты и риски // Социальная психология и общество. 2019. Т. 10, № 4. С. 42-57. doi: 10.17759/sps.2019100404.
2. Мудрик А.В. Социализация человека. – М., 2007.
3. Плешаков Владимир Андреевич Киберсоциализация как инновационный социально-педагогический феномен // Преподаватель XXI век. 2009. №3-1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kibersotsializatsiya-kak-innovatsionnyy-sotsialno-pedagogicheskiy-fenomen (дата обращения: 27.08.2026).



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIY VA FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-AMALIY TAHLILI

Abdullayev Dilshodbek Yuldashali o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
abdullayevdilshodbek1992@mail.ru
+99899-497-55-77

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish masalasi dolzarb muammo sifatida nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *O'quvchilar, fuqaro, faol fuqarolik, fuqarolik pozitsiyasi, ta'lim, tarbiya, faol fuqarolik, tarbiya metodlari.*

THEORETICAL-PRACTICAL ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF SOCIAL AND CIVIC COMPETENCES IN HIGH SCHOOL STUDENTS

Abstract: *This article analyzes the issue of developing social and civic positions in high school students as a topical problem from a theoretical and practical perspective.*

Keywords: *Students, citizen, active citizenship, civic position, education, upbringing, active citizenship, upbringing methods.*

ТЕОРЕТИКО-ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНЫХ И ГРАЖДАНСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТАРШЕКЛАССНИКОВ

Аннотация: *В данной статье анализируется вопрос формирования социальных и гражданских позиций у старшеклассников как актуальная проблема с теоретической и практической точек зрения.*

Ключевые слова: *студенты, гражданин, активная гражданская позиция, гражданское положение, образование, воспитание, активная гражданская позиция, методы воспитания.*

KIRISH

Bugungi yosh avlod davlatimiz mustaqilligi va taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadigan juda katta kuch sanaladi, shu bois umumta'lim maktablarining o'rta va yuqori sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalash; o'smirlik yoshiga xos ichki pozitsiyaning paydo bo'lishi; ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o'zini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

namoyon qilish motivlarining rivojlanishi; fuqarolik pozitsiyasi, o‘zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishini inobatga olinishi[1] lozim bo‘lgan jihatlarga e’tibor qaratish ko‘zda tutilmoqda.

“Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da[2] yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishning maqsadlari sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu ustuvor maqsadlar umumta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish mazmuni, tamoyillari, metodikasi hamda pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimi nafaqat o‘quvchilarga fan bilimlarini berish, balki ularni jamiyatda faol ishtirok etuvchi, mas’uliyatli va demokratik qadriyatlarni qabul qiluvchi shaxslar sifatida tarbiyalashga ham yo‘naltirilgan. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalari o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida markaziy o‘rin tutadi. Ijtimoiy kompetensiya shaxsning jamiyat bilan samarali muloqot qila olish, ijtimoiy rollarni tushunish, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish qobiliyatini ifodalaydi. Fuqarolik kompetensiyasi esa o‘quvchining demokratik qadriyatlarni qabul qilishi, huquqiy ong va mas’uliyatni his qilishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etish qobiliyati bilan bog‘liq.

Nazariy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish bir tomonlama o‘qitish bilan cheklanmaydi; u o‘quvchilarning faoliyati, muloqot tajribasi va amaliy ishlar orqali rivojlanadi. Shu bois, pedagogika fanida ushbu kompetensiyalarning nazariy asoslarini o‘rganish va ularni ta’lim jarayonida samarali shakllantirish usullarini aniqlash dolzarb masala sifatida e’tiborga olinadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalari — bu shaxsning jamiyat bilan samarali muloqot qila olish, ijtimoiy rollarni tushunish, huquqiy va axloqiy me'yorlarni hurmat qilish, shuningdek, jamiyat hayotida faol ishtirok etish qobiliyatidir. Ular shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va fuqarolik rivojlanishining markaziy elementini tashkil etadi va o'quvchining nafaqat bilimga, balki ijtimoiy mas'uliyatga ega bo'lishini ta'minlaydi. Ijtimoiy kompetensiya shaxsning boshqalar bilan muloqot qilish, jamoaviy ishlarda samarali qatnashish, muammolarni konstruktiv tarzda hal qilish va o'z hissasini qo'shish qobiliyatini ifodalaydi. Fuqarolik kompetensiyasi esa demokratik qadriyatlarni anglash, qonuniylikni hurmat qilish, shaxsiy mas'uliyatni his qilish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta'limning maqsadi jamiyat va davlat ishlarida faol, o'zining mustaqil fikriga ega, ilmli, bilimli, qaysi soha yoki kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar o'z kasbining ustasi bo'lgan intiluvchan, ijodkor, kashfiyotchi, bo'layotgan voqeliklarga tanqidiy baho berib o'z fikrlarini mustaqil ayta oladigan, tez o'zgarayotgan zamonga o'zining salohiyati bilan moslasha oladigan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish muammosining dolzarbligi *hususida so'z yuritiladi.*

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Mustaqillik qo'lga kiritilgach, mamlakatimizda kelajak bunyodkorlari bo'lgan yoshlarni uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalardagi faolligini oshirish masalalariga ilmiy-nazariy jihatdan e'tibor qaratila boshlandi. Ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida harakatchanligi va jamiyatning taraqqiyoti va yangilanishidan manfaatdorligi tufayli yoshlar o'ziga xos g'ayrat, tashabbuskorlik, barcha yangi va ilg'or narsalarga moyilligi bois, olib borilayotgan o'zgarishlar yo'lining ulkan bunyodkor salohiyatiga, asosiy ijtimoiy negiziga aylanishi, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimida yoshlar: mamlakat

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ijtimoiy-siyosiy hayoti barcha tomomnlarini yangilash ijtimoiy negizi, jamiyatning mamlakat taqdiri va uning kelajagi uchun fuqarolik mas'uliyat hissi rivojlangan siyosiy faol qismini to'ldirib borish manbasi, jamiyat barqarorligini ta'minlashda o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish zarur bo'lgan aholi toifasi sifatida qaralishi zarurligi ta'kidlab o'tildi[5].

Kompetentsiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik va metodik jihatlari, dars jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish hamda o'quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirish, rivojlantirish masalalari xorijda SH.Balli, K.Byuler, E.Benvenist, A.V.Xutorskoy, G.Spenser, A.Blum, rus pedagogikasida Ye.Rujьeva, A.Efremova, A.Zimnyaya, I.Baydenko, G.Sayaxovalar, o'zbek pedagogikasida N.Azizxo'jayeva, U.Begimqulov, R.Ishmuhamedov, M.Tojiyev, N.Muslimov, N.Turdiyev, O.Qo'ysinov, U.Mingboyev, G.Ibragimova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan, biroq o'quvchilarda ijtimoiy emotsional va fuqarolik kompententligini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalari monografik tadqiq etilmagan.

Fuqarolik tarbiyasi – bu o'quvchi-yoshlar tomonidan demokratik o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmalarini egallash, shaxsning siyosiy, axloqiy va huquqiy tanlovi, qonunlarga so'zsiz itoat etish, tartibni saqlash, davlat mudofaasi uchun mas'uliyatni his qilish, maqsadli, amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir. Fuqarolik tarbiyasining mohiyati shaxsning yuridik, ijtimoiy, axloqiy va siyosiy qobiliyatini his qilishga imkon beradi.

Muallif E.H.Xalilov huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurishning dolzarb muammolari haqida so'z yuritar ekan, insonning jamiyatda yashab turib, undan xoli bo'lish mumkin emasligini ta'kidlaydi. Shu sababli ijtimoiy majburiyatlarni ixtiyoriy va ongli ravishda bajarish – demokratiyani yanada rivojlantirish, ijtimoiy intizomni mustahkamlash, insonni tarbiyalashning zarur shartidir. Shu tufayli jamiyat oldidagi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mas'uliyatni anglab etish shaxsning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatidagi elementlardan biridir[6] deya ta'kidlaydi.

Shu o'rinda faollik tushunchasiga izoh berib o'tamiz. Faollik – shaxsning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun voqelikni o'zgartirishga qaratilgan muhim qobiliyatidir. Faollik ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo'lib, u insonning mehnat, o'qish, o'yin faoliyatlarida, shuningdek, shaxsning faolligi uning turli qiziqishlarida, ehtiyojlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon ilmiy psixologiyasi inson shaxsiy faolligining asosiy manbai uning ehtiyojlari deb tushuntiradi. Insonning ehtiyojlari biologik shartlanganlikdan tashqari moddiy va ma'naviy ko'rinishlardan iboratdir. Odamning ehtiyoji unga ta'lim va tarbiya berish jarayoniad shakllanadi, ya'ni insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajriba, ko'nikma, malaka, odat, ma'naviyat, qadriyatlar bilan yaqindan tanishish, ularni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. SHuning uchun odamning o'z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot darajasi bilan o'lchanadigan faoliyat shakli va turini egallashning faol, maqsadga yo'naltirilganligi, ma'lum rejaga asoslangan ijodiy ko'rinishi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi[7]. Fuqarolik tarbiyasi quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim.

1. Huquq va erkinliklar-Fuqarolik tarbiyasi insonga o'zining asosiy huquq va erkinliklarini o'rganish va himoya qilishda yordam berishi kerak. Bu huquqlarga so'z erkinligi, fikr erkinligi, e'tiqod erkinligi, tenglik, adolatli sudlov huquqi va shaxsiy daxlsizlik kiradi.

2. Demokratiya Fuqarolik tarbiyasi demokratik qadriyatlarni o'rgatishi, demokratik jarayonlarda shaxslarning ishtirokini rag'banlantirishi kerak. Bu saylovlarda qatnashish, ovoz berish, nodavlat tashkilotlatiga a'zo bo'lish, norozilik bildirish huquqi kabi masalalar kiradi.

3. Majburiyatlar-Fuqarolik tarbiyasi shaxsning jamiyatdagi mas'uliyatini tushunishiga yordam berishi kerak. Bu majburiyatlarga soliq to'lash, atrof-muhitni

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

muhofaza qilish,yo'l-harakat qoidalariga rioya qilish,inson huquqlarini hurmat qilish va jamiyatdagi boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish kiradi.

4. Adolat-Fuqarolik tarbiyasi insonlarga adolat tushunchasini tushunishga yordam berishi kerak. Bunga qonunning teng qo'llanilishi, adolatli sudlov,inson huquqlari va qonun ustuvorligi kabi masalalar kiradi.

Hozirgi yillarda O'zbekiston hududida fuqarolik tarbiyasi juda ham tuzatishlarga muhtojdir. Nima sababdan deganda o'z fuqarolik huquqlarini tushunmaydigan ,bilmaydigan oilalar ko'payib bormoqda. Shu sababli fuqarolik tarbiyasi nima ekanligini jamiyatning ko'p sonli qismi bilishmaydi va hech qanday tushunchalarga ham ega emaslar. E'tibor berilgan bo'lsa ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda davlat siyosatida birinchi o'rinda fuqarolik tarbiyasi, vatanni sevish, jamiyatni hurmat qilish kabi g'oyalar ustuvor hisoblanadi. Misol uchun Yaponiyaning juda ham tezlikda taraqqiy etganiga nazar tashlaydigan bo'lsak ularda xalqning juda jipslashib birikkaniga, xalq o'z vatanini qadrlashiga va fuqarolik tarbiyasi yuqori cho'qqidaligiga guvoh bo'lamiz.

Tadqiqotchi N.Saburov[8] fuqarolik faolligini ijtimoiy-huquqiy faollikning turi sifatida tahlil etadi. Uning ta'riflashicha, fuqarolik faolligi ijtimoiy faollikning tarixan muayyan sifatini, aniqroq aytganda, asosiy faoliyatni amalga oshirishning faollik darajasini yoki insonning asosiy kuchlarini ishga solish darajasini, shuningdek, ixtiyoriy faoliyatning unga mos keluvchi shaklini tavsiflaydi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalashda «Tarbiya» fanining ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari kattadir. Chunki "Tarbiya" fanini o'qitishda o'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinadi, fanning mazmuni o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga qaratiladi, o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilg'or pedagogik texnologiyalar, media-

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mahsulotlardan unumli foydalanish uchun didaktik ta'minot hamda pedagogik shart-sharoitlar yaratiladi.

O'z taqdiriga befarq bo'lmagan qaysi jamiyatda ijtimoiy islohot zarurati yuzaga kelsa-deb ta'kidlaydi o'zbek olimi M.Quronov, - o'sha jamiyatda maktabga, tarbiyaga e'tibor keskin kuchayib, tarbiya- jamiyatni takomillashtirishning bosh vositasi, deya tan olinadi[11]. SHuningdek, muallif zamonaviy maktab o'zbek xalqining eng go'zal fazilatlaridan bo'lgan milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, vatanparvarlik, milliy odob, sof vijdon, milliy g'oyani o'z yo'l ko'rsatkichi qilib olib, yagona Vatan – O'zbekistonning dunyo miqyosidagi sharafiga xizmat qila oluvchi o'g'il-qizlarning yangi avlodini tarbiyalab etishtirishi lozimligini ham aytib o'tadi.

«Tarbiya» fani 10 — 11-sinflarda 2021/2022 o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi belgilanganligini nazarda tutadigan bo'lsak, bu yuqori sinf o'quvchilarida vatanparvarlikni yuksak axloqiy fazilat sifatida rivojlantirish va ularni faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishlarini ta'minlash maqsadini amalga oshirish uchun eng samarali bosqich bo'lishi mumkin.

Bu maqsadni amalga oshirishda "Tarbiya" fani o'qituvchilari ta'lim –tarbiya mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida boyitishlari, ilg'or horijiy tajribalarni tatbiq etish, zamonaviy axborot hamda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishlari zarur.

Ana shundagina mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirishda, avvlo, kelajakka ishonchni, vatanparvarlik, halollik va fidoyilikni tarbiyalash kabi maqsadlarga erishish mumkin bo'ladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda vatanga e'tiqod, fuqarolik tuyg'ularini shakllantirishning huquqiy, ijtimoiy-pedagogik va psixologik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etildi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Jumladan, E.M.Kadirov jamiyatning dinamik o‘zgarishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy qatlam sanalmish yoshlar o‘z qarashlari, qiziqishlari, qadriyat va manfaatlari orqali jamiyatdagi o‘zgarish hamda islohotlarni boshidan kechirishini tadqiq etib, aynan o‘spirin yoshlarning hayotiy pozitsiyasi va uning ijtimoiy qiyofasining qandayligi bevosita jamiyat rivojiga bog‘liq bo‘lsa, yoshlar huquqiy va siyosiy madaniyatining yuksakligi, ular ijtimoiy faolligi mamlakatimiz taqdirini belgilab beruvchi omil ekanligini asoslab bergan[9].

Zamonaviy o‘qituvchi fuqarolik tarbiyasida innovatsion pedagogik yondashuvlardan keng foydalanishi lozim. Jumladan, muammoli ta’lim, loyiha asosidagi o‘qitish, bahs-munozaralar, rolli o‘yinlar, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish orqali o‘quvchilarda mas’uliyat, mustaqillik va ijtimoiy faollik sifatlarini rivojlantirish mumkin. Bu metodlar o‘quvchilarni fikrlashga, muammolarga yechim topishga, hamkorlikda ishlashga o‘rgatadi.

Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarni sinfdan tashqari faoliyatlar — tadbirlar, ijtimoiy loyihalar, ko‘ngillilar harakatlari, mahalla yoki maktab kengashlari ishlariga jalb etish orqali ham fuqarolik kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Bunday faoliyatlar o‘quvchilarda jamoatchilik ruhini, birdamlikni, rahbarlik ko‘nikmalarini va vatanparvarlik tuyg‘usini oshiradi.

XULOSALAR

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyati qurishda faol hayotiy pozitsiyasini egallay oladigan chinakam vatanparvar yoshlarni tarbiyalash ta’lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Buning uchun milliy mafkura va istiqlol g‘oyasini singdirish orqali o‘quvchi-yoshlarda porloq kelajakka intilish va qat’iy ishonch tuyg‘usini shakllantirishga alohida ahamiyat berildi. Chunki milliy mafkuramizga aks etgan bunyodkor va xalqchil g‘oyalar fuqarolarni faol harakatga undaydi, yaxshi va saodatli kunlarga ishonch hissini uyg‘otadi.

Yosh avlodda o‘z millatidan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirish, Vatanning muqaddasligini chinakam iymon-e’tiqodga aylantirish buyuk mamlakatimizning buguni, ertasi va istiqbolini porloq bo‘lishi, jahonhamjamiyatida o‘z o‘rni va nufuzini mustahkam egallashiga kafil bo‘la oladi.

FOYDANALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Uzluksiz ma’naviy tarbiya KONSEPSIYASI. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qaroriga 1-ILOVA.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»GI PF-60-sonli Farmoniga 1-ilova

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son Farmoni.

4.Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: «O‘zbekiston», NMIU, 2017 y. – 91-bet.

5. Musurmonova O., Qirg‘izboyev A., Jamoldinov O., Yo‘ldosheva S., Riskulova K., Atayeva G. Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlar ma’naviyatini shakllantirish. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. -128 b.

6.Xalilov E.H. Ijtimoiy turmushda huquqiy ongning o‘rni. –T.: “O‘zbekiston”, 1997. -48 b.

7.G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. Darslik / Toshkent. O‘zMU “Universitet” nashriyoti, 2002 y. – 138 b.

8.Saburov N.Shaxs siyosiy-huquqiy faolligi – fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omili / Monografiya. – T.: TDYUI, 2009, - 6 b.

9.Kadirov E.O. Yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish masalalari (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari misolida): Yuridik fanlari doktori (DSc). … diss. Avtoref.– Toshkent, 2019. -57 b.

10.Akramov A.A.Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. dok. diss. Avtoref. – Toshkent, 2016. – 78 b.

11.Milliy tarbiya/ M.Quronov. Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi. Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. – T.: Ma’naviyat, 2007, -6-b.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

XORAZM ADABIY MUHITIDA OGAHIY IJODINING O'RGANILISHI(ERKIN SAMANDAR ASARI

Otayeva Mahliyo Xursandbek qizi
Urganch davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
(mahliyooatayeva@gmail.com)

Annotatsiya.*Mazkur maqolada Xorazm adabiy muhitining yirik namoyandasi Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning badiiy-estetik merosi zamonaviy o'zbek adabiyotidagi badiiy talqinlar asosida tahlil qilinadi. Xususan, Erkin Samandarning Ogahiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan asarlarida tarixiy shaxs obrazining yaratilish tamoyillari, ma'rifatparvarlik g'oyalari, vatanparvarlik ruhining badiiy ifodasi hamda Ogahiy shaxsiyatining Xorazm adabiy muhitidagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot davomida tarixiy-tipologik, qiyosiy-tahliliy hamda germenevtik metodlardan foydalanilib, Erkin Samandar asarlarida Ogahiy siymosining badiiy talqini tarixiy manbalar bilan qiyoslanadi. Shuningdek, adibning tarixiy haqiqat va badiiy to'qima o'rtasidagi muvozanatni saqlash mahorati, Ogahiy ijodining milliy ma'naviy qadriyatlarni targ'ib etishdagi o'rni hamda Xorazm adabiy muhitining uzviy rivojlanishidagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Ogahiy merosining zamonaviy badiiy interpretatsiyasini chuqurroq anglashga, Xorazm adabiy muhitining taraqqiyot bosqichlarini ilmiy asosda baholashga hamda tarixiy-biografik asarlarning adabiyotshunoslikdagi nazariy va amaliy ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar:*Xorazm adabiy muhiti, Ogahiy, Erkin Samandar, tarixiy roman, badiiy talqin, tarixiy shaxs, ma'rifatparvarlik, adabiy meros, tarixiy haqiqat, milliy qadriyatlar.*

ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА ОГАХИ В КОНТЕКСТЕ ХОРЕЗМСКОЙ ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЫ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ЭРКИНА САМАНДАРА)

Аннотация. *В данной статье анализируется художественно-эстетическое наследие Мухаммада Ризы Эрниёзбек-угли Агахи — выдающегося деятеля хорезмской литературной среды — сквозь призму современных узбекских литературоведческих интерпретаций. В частности, с научно-теоретической точки зрения рассматриваются принципы изображения этой исторической личности, темы просветительства и патриотизма, а также значение Агахи для хорезмской литературной среды, как они представлены в произведениях Эркина Самандара. С применением историко-типологического, сравнительно-аналитического игерменевтического методов в исследовании сопоставляется художественный образ Агахи в произведениях Самандара с историческими источниками. Кроме того, в статье подчеркивается мастерство автора в соблюдении баланса между исторической правдой и художественным вымыслом, а также роль творчества Агахи в популяризации национальных духовных ценностей и его значимость для*

непрерывного развития хорезмской литературной среды. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию современной художественной интерпретации наследия Агахи, научно обоснованной оценке этапов развития хорезмской литературной среды и уточнению теоретической и практической значимости историко-биографических произведений в литературоведении.

Ключевые слов:*Хорезмская литературная среда, Агахи, Эркин Самандар, исторический роман, художественная интерпретация, историческая личность, просветительство, литературное наследие, историческая правда, национальные ценности.*

THE STUDY OF OGAHIY'S WORK WITHIN THE KHOREZM LITERARY ENVIRONMENT (USING THE WORK OF ERKIN SAMANDAR AS AN EXAMPLE)

Abstract. *This article analyzes the artistic and aesthetic legacy of Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy—a prominent figure of the Khorezm literary milieu—through the lens of modern Uzbek literary interpretations. Specifically, it examines—from a scholarly and theoretical perspective—the principles behind the portrayal of this historical figure, the themes of enlightenment and patriotism, and Ogahiy's significance within the Khorezm literary environment, as presented in the works of Erkin Samandar. Employing historical-typological, comparative-analytical, and hermeneutic methods, the study compares the artistic portrayal of Ogahiy in Samandar's works with historical sources. Furthermore, the article highlights the author's skill in balancing historical truth with artistic fiction, as well as the role of Ogahiy's work in promoting national spiritual values and its importance to the continuous development of the Khorezm literary milieu. The findings of this research contribute to a deeper understanding of the modern artistic interpretation of Ogahiy's legacy, a scientifically grounded assessment of the developmental stages of the Khorezm literary milieu, and a clarification of the theoretical and practical significance of historical-biographical works within literary studies.*

Key words:*Khorezm literary environment, Ogahiy, Erkin Samandar, historical novel, artistic interpretation, historical figure, enlightenment, literary heritage, historical truth, national values.*

KIRISH

XIX asr Xorazm adabiy muhiti o'zbek mumtoz adabiyotining yuksak taraqqiyot bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrda yashab ijod qilgan Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy nafaqat iste'dodli shoir, balki tarixchi, tarjimon va ma'rifatparvar sifatida ham milliy madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Uning tarixiy asarlari, she'riy merosi va tarjimalari Xorazm adabiy maktabining shakllanishi hamda rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Shu bois Ogahiy merosi bugungi kunda ham adabiyotshunoslikning dolzarb tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib qolmoqda.Mustaqillik

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yillarida milliy tarix va adabiy merosni yangicha ilmiy yondashuv asosida o‘rganishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada Ogahiy shaxsiyati va ijodi ham zamonaviy badiiy adabiyotda yangi talqinlarga ega bo‘ldi. Xususan, yozuvchi Erkin Samandarning "Quyun yuzlari yoxud Ogahiy" romanida Ogahiy obrazi tarixiy manbalar hamda badiiy tasavvur uyg‘unligida gavdalantiriladi. Asarda adibning hayot yo‘li, ma'rifatparvarlik faoliyati, davr ijtimoiy-siyosiy muhiti va ijodiy izlanishlari badiiy-estetik mezonlar asosida yoritilgan.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolaning maqsadi Ogahiy ijodining Xorazm adabiy muhitidagi o‘rnini Erkin Samandarning "Quyun yuzlari yoxud Ogahiy" romani misolida tahlil qilish, tarixiy haqiqat va badiiy talqin o‘rtasidagi uyg‘unlikni aniqlash hamda yozuvchining Ogahiy siymosini yaratishdagi badiiy mahoratini ilmiy asosda baholashdan iborat.

XIX asr Xorazm adabiy muhiti o‘zbek mumtoz adabiyotining sermahsul va o‘ziga xos taraqqiyot bosqichlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur muhitda badiiy ijod bilan bir qatorda tarixnavislik, tarjimachilik, tazkiranavislik va ilmiy-ma’rifiy faoliyat ham izchil rivojlangan. Ayniqsa, Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiy faoliyati Xorazm adabiy muhitining mazmun va ko‘lam jihatidan yuksalishida alohida ahamiyat kasb etadi. Munis ijodini Ogahiy faoliyatidan ajratib o‘rganish mumkin emas. Chunki Ogahiy shakllangan adabiy-ilmiy muhitning muhim omillaridan biri Munisning ijodiy merosi va tarixnavislik tajribasi bo‘lgan. Munis nafaqat shoir, balki tarixchi va tarjimon sifatida ham Xorazm madaniy hayotida muhim iz qoldirgan. Uning “Firdavs ul-iqbol” asarini yaratishga kirishishi Xorazm tarixnavisligida muhim hodisa bo‘ldi. Munis tomonidan boshlangan ushbu asarning keyinchalik Ogahiy tomonidan davom ettirilishi ikki ijodkor o‘rtasidagi ijodiy vorislikning yorqin namunasidir [7;2]. “Firdavs ul-iqbol”ning yaratilish tarixi Munis va Ogahiy ijodiy aloqasining mohiyatini anglash uchun alohida ahamiyatga ega. Munis asarni Xiva xoni Eltuzarxon topshirig‘i bilan yozishni boshlagan va tarixiy voqealarni 1813-yilgacha bayon qilgan. Uning vafotidan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

so‘ng asarni davom ettirish vazifasi Ogahiy zimmasiga tushadi. Ogahiy Munis boshlab bergan tarixnavislik an’anasini davom ettirib, asarning keyingi qismini yaratadi [7;3]. Menimcha, mazkur holatni oddiygina bir tarixiy asarning davom ettirilishi sifatida baholash masalaning mohiyatini to‘liq ochib bermaydi. Bu jarayonda ustoz va shogird, avlod va avlod, ijodkor va ijodkor o‘rtasidagi ma’naviy hamda ilmiy vorislik namoyon bo‘ladi. Munis Ogahiy uchun faqat qarindosh yoki ijodiy muhit vakili emas, balki uning tarixga, adabiyotga va ilmga munosabatining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan muhim shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan Ogahiy ijodining ildizlarini Xorazm adabiy muhitidan, xususan, Munis boshlab bergan ijodiy an’anadan izlash maqsadga muvofiqdir.Ogahiy esa mazkur an’anani shunchaki davom ettirib qolmay, uni yangi bosqichga olib chiqdi. U tarixnavislik sohasida “Riyoz ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Jome’ ul-voqeoti sultoniy”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol” kabi asarlarni yaratib, Xiva xonligi tarixining turli davrlarini yozma manbalarda aks ettirdi. Shu bilan birga, uning “Ta’viz ul-oshiqin” devoni, tarjima faoliyati va boshqa asarlari Ogahiy ijodkorlik ko‘lamining nihoyatda keng bo‘lganini ko‘rsatadi [7;2]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Ogahiy siymosi Xorazm adabiy muhitida birgina shoir yoki tarixchi maqomi bilan chegaralanmaydi. U adabiyot, tarix, tarjima va ma’rifatni birlashtirgan qobiliyatli shoir desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning faoliyati Xorazm adabiy muhitining ichki imkoniyatlarini kengaytirib, keyingi avlod ijodkorlari uchun ham muhim ma’naviy zamin yaratdi. Ogahiyning tarixiy asarlarida voqelikni qayd etish bilan bir qatorda, davr kishilarining xarakteri, ijtimoiy hayoti, siyosiy jarayonlari va ma’naviy qarashlarini yoritishga intilish ham kuchli. Ayniqsa, Ogahiy ijodining tarixnavislik va badiiylik chegarasida namoyon bo‘lishi uning Xorazm adabiy muhitidagi mavqeini yanada oshiradi. U tarixiy voqealarni shunchaki sanab o‘tuvchi tarixchi emas, balki ularni muayyan badiiy-estetik qarashlar asosida ifodalovchi ijodkor sifatida ko‘zga tashlanadi. Shu sababli uning tarixiy asarlari tarix faniga oid manba bo‘lish bilan birga, o‘zbek nasri va tarixiy-badiiy tafakkurining taraqqiyotini o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Nazarimda, Xorazm adabiy muhitining taraqqiyotini Munis va Ogahiy ijodining davomiyligisiz tasavvur qilish qiyin. Munis ushbu muhitda muhim ijodiy va ilmiy poydevor yaratgan bo‘lsa, Ogahiy ana shu poydevor ustida o‘zining ulkan ijodiy merosini shakllantirdi va uni yangi mazmun bilan boyitdi. Shuning uchun Ogahiyning Xorazm adabiy muhitidagi o‘rnini belgilashda uni faqat o‘z davrining mashhur shoiri sifatida emas, balki Munis boshlab bergan an’anani rivojlantirgan, tarixnavislik va tarjimachilikni yuksaltirgan, mumtoz adabiy muhitni yangi bosqichga olib chiqqan ijodkor sifatida baholash lozim.Aynan shu jihat Erkin Samandar ijodida Ogahiy obraziga murojaat qilishning ilmiy-estetik ahamiyatini ham belgilaydi. Yozuvchi Ogahiy shaxsiyatini tasvirlash orqali bir inson taqdirinigina emas, balki butun bir davrning ma’naviy-adabiy qiyofasini qayta gavdalantirish imkoniga ega bo‘ladi. Demak, Erkin Samandarning Ogahiy obraziga murojaati Xorazm adabiy muhitining tarixiy ildizlari, Munis va Ogahiy o‘rtasidagi ijodiy vorislik hamda Ogahiy merosining keyingi davr adabiyotidagi davomiyligini tadqiq etish uchun muhim badiiy material vazifasini bajaradi.

MUHOKAMA

Erkin Samandarning yangi tarixiy romanida Rossiya bosqinining kelib chiqish sabablari, unga qarshi ma'rifatni qurol qilgan Xorazm ziyolilarining kechmishi bayon qilinadi. Roman markazida Muhammad Rizo Ogahiy hayotining so‘nggi kunlari turishi barobarida ulug‘shoir va mutafakkirning asarlari, maslahat va o‘gitlari xalqimiz uchun qimmatli ma'naviy manbaa ekaniga amin bo‘lamiz[1;4].

Ushbu “Quyun izlari yoxud Ogahiy” romanining bunday nomlanishiga sabab nima ekanligi,albatta,kitobxonning e’tiborini tortadi.Tadqiqotlarga ko‘ra, ushbu asarda Ogahiy hayoti boshidan oxirigacha hikoya qilinmaydi,balki ko‘proq shoir umrining so‘nggi yillarini o‘z ichiga oladi.Asar sarlavhasidagi “quyun” so‘zi Ogahiy yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy bo‘ronlari va hayot sinovlarining ramzidir; “izlari”esa ushbu sinov va bo‘ronlarning ,avvalo,Ogahiy,qolaversa, shu davrda yashagan oddiy xalqning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

hayotida qoldirgan ilari deyish mumkin.Bundan tashqari,romanda Ogahiy xarakterining ochilishida uning davlat va jamiyat hayotidagi masalalarga munosabati alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi qahramonni faqatgina iste'dodli shoir yoki tarixchi sifatida emas, balki ijtimoiy muammolarga teran fikr bilan yondasha oladigan, vaziyatni tahlil qilish va murosali yechim topishga intiladigan ziyoli sifatida gavdalantiradi. Buni Feruzxon huzuridagi vaziyat tasviri orqali ham yaqqol kuzatish mumkin. "Fikri ojizimcha, muammoni ikki bosqichga bo'lgan holda ko'rib chiqilsa, foydali holi bo'lmas. Birinchi bosqich amir Muzaffar ila Abdumalik to'g'ra o'rtalarida paydo bo'lmish anglashilmovchiliklarni yo'qotishga ko'maklashishdan iborat bo'lmog'i kerak..."[1;9]. Ushbu parchada Ogahiy xarakterining eng muhim jihatlaridan biri — vazminlik va mulohazakorlik namoyon bo'ladi. U hukmdor huzurida o'z fikrini shoshma-shosharlik bilan bildirmaydi. Avval vaziyatni kuzatadi, so'z aytish uchun munosib fursatni kutadi va shundan keyingina o'z qarashini bayon etadi. "Fikri ojizimcha" deya boshlashi ham uning odob-axloq me'yorlariga rioya qiluvchi, mansab va mavqega hurmat bilan yondashuvchi, ayni paytda o'z fikridan voz kechmaydigan shaxs ekanini ko'rsatadi.Ayni paytda Ogahiy taklif qilayotgan yechimning o'zi ham uning siyosiy va ijtimoiy tafakkurini namoyon etadi. U muammoni bir tomonlama hal qilish emas, balki avvalo "anglashilmovchiliklarni yo'qotish", keyinchalik esa "birgalikda sa'y-harakat" qilish zarurligini ilgari suradi. Demak, yozuvchi Ogahiy obrazida nizoni kuchaytiruvchi emas, aksincha, murosaga chorlovchi, muammoning ildizini anglashga intiluvchi ziyoli qiyofasini yaratadi.Parchaning keyingi qismida "Mavlono Ogahiy nafaqat buyuk shoir, balki yakto arbob hamdir"[1;9], degan bahoning berilishi ham bejiz emas. Bu jumla qahramon xarakterining muhim qirrasini — uning ijodkorlik bilan bir qatorda davlat va jamiyat masalalarini chuqur anglaydigan arbob ekanini ochib beradi. Shunday qilib, Erkin Samandar Ogahiy obrazini faqat tarixiy shaxsning biografik qiyofasi sifatida emas, balki o'z davrining muammolariga munosabat bildira oladigan, fikr va mas'uliyat sohibi bo'lgan murakkab xarakter sifatida tasvirlaydi.Ogahiy xarakterining siyosiy-ijtimoiy

tafakkur orqali ochilishiAvvalgi epizodda Ogahiyning muammoga bosiqlik bilan yondashib, uning yechimini bosqichma-bosqich izlashga intilishi ko‘zga tashlangan bo‘lsa, romanning keyingi lavhalarida uning siyosiy vaziyatni nozik ilg‘aydigan, voqealar rivojini oldindan chamalay oladigan ziyoli sifatidagi qiyofasi yanada yorqinlashadi. Muallif bu xususiyatni qahramonning ichki mushohadalari orqali ochib beradi. Jumladan, asarda:“Mavlono Ogahiyga, tabiiyki, chetdan xabar kelmas, shunday bo‘lsa-da, u ... orqali uzoq-yaqin voqealarni sezib-bilib o‘tirardi”[1;12]. Ushbu tasvir Ogahiyning voqealardan bexabar, chetdan kuzatuvchi shaxs emasligini ko‘rsatadi. Aksincha, u atrofida sodir bo‘layotgan siyosiy jarayonlarni ichki sezgi, hayotiy tajriba va teran tafakkur orqali anglashga harakat qiladi. Yozuvchi shu jihat orqali Ogahiyni o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotidan uzilib qolmagan, xalq va davlat taqdiriga daxldorlikni chuqur his qiluvchi shaxs sifatida tasvirlaydi.Bu o‘rinda qahramonning fikrlash tarziga e’tibor qaratish muhim. Ogahiy vaziyatni baholashda faqat mavjud kuchga tayanmaydi. U: “Lekin kuch qancha bisyor bo‘lmasin, hamisha ham zafar va nusratga olib kelavermas”,deya mulohaza yuritadi[1;12]. Mazkur fikr Ogahiy xarakteridagi hayotiy tajriba va teran falsafiy mushohadani namoyon etadi. Uning nazarida g‘alaba faqat son yoki qurol-yarog‘ning ko‘pligi bilan belgilanmaydi. Demak, qahramon voqealarga yuzaki emas, balki ularning ichki mohiyatini anglashga intilib munosabat bildiradi. Bu esa Ogahiyning shoirona tafakkuri bilan siyosiy kuzatuvchanligi bir nuqtada tutashganini ko‘rsatadi.Ayniqsa, “zafar taqdiri hamisha mardlar va qahramonlar qo‘lida bo‘lgan” degan qarash uning inson omiliga bo‘lgan ishonchini ifodalaydi[1;13]. Bu fikr orqali Ogahiy xarakterining yana bir jihati — jasorat, mardlik va iroda kabi ma’naviy qadriyatlarga yuksak baho berishi namoyon bo‘ladi. Yozuvchi qahramonning fikrlarini oddiy siyosiy mulohaza darajasida qoldirmay, uni ma’naviy mezonlar bilan bog‘laydi. Shuningdek, Ogahiyning:“Abdumalik to‘raga yordam bermoq va uni yovi ustiga yo‘llamoq darkor”,degan xulosaga kelishi uning faqat kuzatuvchi va mulohaza yurituvchi emas, balki zarur paytda amaliy yechim izlaydigan



shaxs ekanini ham ko‘rsatadi[1;13]. U voqealarni kuzatibgina qolmay, mavjud vaziyatdan chiqish yo‘lini ham izlaydi. Shu jihatdan Ogahiy obrazi romanda tafakkur va amaliy mas’uliyat uyg‘unlashgan xarakter sifatida shakllanadi. Menimcha, mazkur parchalar Ogahiy xarakterini ochishda ayniqsa ahamiyatlidir. Chunki yozuvchi uni birgina “buyuk shoir” sifatida tasvirlash bilan cheklanmaydi. Uning siyosiy ziyrakligi, vaziyatni chuqur tahlil qilishi, inson omiliga ishonishi, mardlik va jasoratni qadrlashi hamda muammoga amaliy yechim izlashga intilishi orqali tarixiy shaxsning ko‘p qirrali xarakterini yaratadi. Shu ma’noda romandagi Ogahiy obrazi ijodkor shaxs bilan birga xalq va yurt taqdirini o‘z taqdiri bilan bog‘lab anglaydigan ma’rifatli ziyoli sifatida namoyon bo‘ladi.Romanning badiiy qimmatini belgilovchi muhim jihatlardan biri unda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning o‘zaro uyg‘unlashganidir. Erkin Samandar tarixiy voqealarni shunchaki qayta bayon etish bilan cheklanmay, XIX asr Xorazm va Buxoro muhitiga mansub real shaxslarni badiiy syujet tarkibiga olib kiradi. Asarda Muhammad Rizo Ogahiy, Muhammad Rahimxon II – Feruz, Abdumalik to‘ra, Amir Muzaffar, Muhammad Sharif qozikalon, Shomurod inoq singari tarixiy shaxslar bilan bir qatorda yozuvchining badiiy tasavvuri asosida yaratilgan yoki tarixiyligi aniq tasdiqlanmagan personajlar ham ishtirok etadi[1;92]. Romanning markaziy qahramoni Ogahiy tarixiy shaxs sifatida asarning real tarixiy asosini ta’minlaydi. Yozuvchi uning hayotining so‘nggi davrini tasvirlash orqali tarixiy shaxsning hayot yo‘lini badiiy qayta yaratadi. Muhammad Rahimxon II (Feruz) ham tarixiy shaxs bo‘lib, roman voqealarida hukmdor sifatida qatnashadi. Abdumalik to‘ra va Amir Muzaffar obrazlari esa Buxoro amirligi bilan bog‘liq real tarixiy voqealarni Xiva siyosiy muhiti bilan tutashtiruvchi obrazlar sifatida namoyon bo‘ladi[1;17]. Shu bilan birga, romandagi Muhammad Sharif qozikalon, Shomurod inoq kabi obrazlar tarixiy mansab va shaxslar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ularning asardagi qiyofasi tarixiy manbalardagi ma’lumotlarning aynan nusxasi emas. Yozuvchi tarixiy shaxsga badiiy vazifa yuklaydi, uning xarakteri, suhbatlari, munosabatlari va voqealardagi ishtirokini o‘zining ijodiy konsepsiyasi asosida

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

shakllantiradi. Shu sababli tarixiy shaxsning tarixdagi qiyofasi bilan romandagi badiiy qiyofasini aynanlashtirib yubormaslik lozim.Gulandom singari obrazlar esa roman badiiy olamini to'ldirib, tarixiy voqealarning insoniy va hissiy qatlamini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunday personajlar orqali yozuvchi tarixiy jarayonni faqat hukmdorlar, amaldorlar yoki siyosiy voqealar doirasida emas, balki inson taqdiri va kechinmalari bilan bog'liq holda ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, asardagi Sori sardor, Chaqqonboy qovunchi, Jaqay bangi, Cho'tir qul, Shum qul, Eshim daroz kabi personajlar ham tarixiy muhitni jonlantiruvchi badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Roman materiallaridan Xorazm va Xiva tarixiga oid turistik-ma'rifiy tarqatma materiallar tayyorlashda, shuningdek, Feruzxon davrining ijtimoiy-adabiy muhitini yoritishda Ogahiyning mirob va shoir sifatidagi faoliyati, asardagi badiiy parchalar hamda shevaga xos birliklar talqinidan samarali foydalanish mumkinligi uning amaliy-ma'rifiy ahamiyatini ham belgilaydi[2;12].

Xorazm adabiy muhitida Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy ma'rifatparvar shoir, mohir tarjimon va yetuk tarixchi sifatida alohida o'rin egallaydi. Erkin Samandarning "Quyun yuzlari yoxud Ogahiy" romani tahlili shuni ko'rsatadiki, muallif tarixiy haqiqat va badiiy to'qima muvozanatini saqlagan holda Ogahiy shaxsiyatini yangicha va teran burchakdan yoritishga erishgan. Asarda adib obrazi shunchaki biogarafik ma'lumotlar bilan cheklanib qolmay, davlat va jamiyat taqdiriga daxldor, murakkab ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarda bosiqlik, jasorat hamda mantiqiy mushohada bilan oqilona yechim izlaydigan ma'rifatli arbob sifatida gavdalantiriladi. Ogahiyning Munis Xorazmiy an'analarini davom ettirib, tarixnavislik va tarjimachilik sohasini yangi bosqichga olib chiqqani Xorazm adabiy va madaniy muhitining rivojida tub burilish yasagan. Mazkur tadqiqot natijalari va ilmiy-nazariy qarashlar XIX asr adabiy jarayonini hamda zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida tarixiy-biografik

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

romanlar poetikasi va interpretatsiyasini yanada chuqurroq o‘rganishda muhim ilmiy-amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Samandar E. Quyun izlari yoxud Ogahiy: tarixiy roman. — Toshkent: Mumtoz so‘z,2009.—252b.
2. Samandarova N.E. Istiqlol davri o‘zbek tarixiy romanlarida shoir va mutafakkirlarning yangicha tahlili: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Urganch, 2022.
3. Samandarova N. Tarixiy shaxs va tarix haqiqati ifodasida an’anaviy motivlar talqini // O‘zbekiston: til va madaniyat. — 2023. — №3(3). — B. 85–95.
4. Samandarova N.E. Adabiy qahramon xarakterining ekstremal vaziyat-holatlarda ochilishi.—2022.—B.92–95.
5. Buronova X.T., Jozilov J.O. Erkin Samandarning “Quyun izlari yoxud Ogahiy” romanida qo‘llangan antroponimlarning tarkibiy tasnifi // Zamonaviy fan, yangi yondashuvlar va yosh olimlarning aktual tadqiqotlari.
6. Tosheva N.Sh. Erkin Samandarning “Quyun izlari yoxud Ogahiy” romanida xalq og‘zaki ijodining qahramon xarakterini ochishdagi roli // International Conference on Modern Development of Pedagogy and Linguistics. — 2025. — Vol. 02, Issue 11.
7. https://share.google/ztppv30nQZrDzWGZI Adib hayoti va ijodi | Ogahiy – Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy (1809-1874)

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ РКИ В ВУЗЕ (НА ПРИМЕРЕ НАПРАВЛЕНИИЙ « ГИД И ТУРИЗМ»)

Маматова Диёра Кахрамонжон кизи
Андижанский государственный институт иностранных языков, факультет романско-германских языков, кафедра русского языка, заведующая кабинетом
l771557202@icloud.com

Аннотация. *Статья посвящена исследованию современных тенденций методики обучения русскому языку как иностранному в условиях высшего образования. Рассмотрены коммуникативно-компетентностный, деятельностный, личностно-ориентированный, профессионально ориентированный и межкультурный подходы. Выделены основные тенденции: коммуникативная направленность, профессионализация, цифровизация, персонализация, развитие межкультурной компетенции и интерактивное обучение. Предложена интегративная модель современной методики РКИ, ориентированная на академическую и профессиональную подготовку иностранных обучающихся. Практическая значимость заключается в возможности применения модели при разработке программ и учебных материалов по РКИ.*

Ключевые слова: *русский язык как иностранный, РКИ, высшее образование, методика, коммуникативная компетенция, цифровизация, межкультурная компетенция, персонализация.*

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISH METODIKASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI («GID VA TURIZM» YO‘NALISHI MISOLIDA)

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’limda rus tilini chet tili sifatida o‘qitish metodikasining zamonaviy tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi RKI metodikasidagi asosiy yo‘nalishlarni tizimlashtirish va ularni oliy ta’limda qo‘llash imkoniyatlarini asoslashdan iborat. Tadqiqotda kommunikativ-kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan, kasbiy va madaniyatlararo yondashuvlardan foydalanildi. Natijada kommunikativ yo‘nalish, kasbiylashtirish, raqamlashtirish, individuallashtirish, madaniyatlararo kompetensiya hamda interaktiv texnologiyalar asosiy tendensiyalar sifatida belgilandi. Ilmiy yangilik mazkur yo‘nalishlarni yagona integrativ metodik modelga birlashtirishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *rus tili chet tili sifatida, RKI, oliy ta’lim, metodika, kommunikativ kompetensiya, kasbiy ta’lim, raqamlashtirish, madaniyatlararo kompetensiya, individuallashtirish.*

MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY IN HIGHER EDUCATION (A CASE STUDY OF THE “GUIDE AND TOURISM” FIELD)

Abstract. *The article examines current trends in teaching Russian as a foreign language in higher education. The study aims to systematize major methodological trends and substantiate an integrative model for their implementation. Communicative-competence-based, activity-oriented, learner-centered, professionally oriented and intercultural approaches are considered. The results highlight communicative learning, professionalization, digitalization, personalization, intercultural competence and interactive technologies as key trends. The scientific novelty lies in developing an integrative model that combines these trends into a unified system of academic and professional language training.*

Keywords: *Russian as a foreign language, RFL, higher education, methodology, communicative competence, professional training, digitalization, intercultural competence, personalization, interactive technologies.*

ВВЕДЕНИЕ

Интернационализация высшего образования и академическая мобильность повышают требования к языковой подготовке иностранных студентов. В вузе русский язык выступает не только как предмет изучения, но и как средство академической и профессиональной коммуникации. Теоретические основы методики РКИ представлены в трудах Е. И. Пассова, А. Н. Щукина, Н. Д. Гальсковой и других исследователей. Современные исследования развивают коммуникативный подход с учётом профессиональной, цифровой и межкультурной среды. Успешное изучение русского языка иностранными студентами зависит не только от содержания учебной программы, но и от того, насколько активно язык используется в повседневной учебной жизни. Чем больше студент имеет возможностей говорить, задавать вопросы и применять новые знания на практике, тем увереннее он чувствует себя в русскоязычной среде.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Материалом исследования послужили научно-методические работы по РКИ. Использованы методы теоретического анализа, сравнения, обобщения и моделирования. Методологическую основу составили коммуникативно-компетентностный, деятельностный, личностно-ориентированный, профессиональный и межкультурный подходы.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

РЕЗУЛЬТАТЫ

Современная методика РКИ характеризуется коммуникативно-компетентностной направленностью, профессионализацией содержания, цифровизацией, персонализацией, межкультурной ориентацией и использованием проектно-интерактивных технологий. Их комплексное применение способствует развитию языковых, академических и профессиональных компетенций иностранных студентов. Современные технологии дают хороший результат тогда, когда они действительно нужны студентам. Поэтому важно подбирать такие задания и способы работы, которые помогают им лучше понимать материал и чаще использовать русский язык на практике.

На этой основе предлагается интегративная модель, объединяющая коммуникативный, профессиональный, цифровой, межкультурный и персонализированный компоненты. Её реализация включает диагностику потребностей, постановку целей, отбор содержания, интерактивную и проектную деятельность, а также оценку результатов. Такой подход позволяет сделать обучение русского языка более эффективным и ориентированным на реальные потребности иностранных студентов.

Таблица 1. Структура интегративной модели современной методики обучения РКИ

Компонент	**Основная функция**	**Методы**	**Ожидаемый результат**
Коммуника-тивный	Формирование речевого взаимодействия	Дискуссия, ролевая игра, кейс	Коммуникативная компетенция
Профессио-нальный	Связь языка со специальностью	Терминология, специальные тексты, профессиональные ситуации	Профессионально-коммуникативная компетенция

Цифровой	Расширение образовательной среды	Цифровые платформы, мультимедиа, интерактивные задания	Цифровая учебная самостоятельность
Межкультур-ный	Обеспечение адекватного межкультурного взаимодействия	Сопоставление культур, анализ коммуникативных ситуаций	Межкультурная компетенция
Персонализи-рованный	Учёт индивидуальных потребностей и образовательной траектории	Диагностика, дифференциация, индивидуальные задания	Учебная автономность и индивидуальная траектория

Проведённый анализ показывает, что современные подходы к обучению РКИ наиболее эффективны при их интеграции. Коммуникативный, профессиональный, цифровой, межкультурный и персонализированный компоненты должны функционировать как единая система, направленная на академическую и профессиональную коммуникацию иностранных студентов. Практически это предполагает диагностику потребностей, учёт профиля специальности, использование интерактивных и цифровых технологий, дифференциацию заданий и оценку практического владения языком.

ОБСУЖДЕНИЕ

Научная новизна заключается в разработке интегративной модели современной методики РКИ, объединяющей указанные компоненты в последовательную систему: диагностика → постановка целей → отбор содержания → коммуникативно-профессиональная деятельность → оценка и коррекция. Практическая значимость модели состоит в возможности её применения при разработке учебных программ, профессионально ориентированных модулей, цифровых заданий и диагностических материалов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Таким образом, современная методика РКИ должна ориентироваться не на отдельное использование инновационных технологий, а на их системное объединение с учётом целей, потребностей и уровня подготовки иностранных обучающихся. Комплексное применение коммуникативного, профессионально ориентированного, цифрового, межкультурного и персонализированного подходов позволяет сделать процесс обучения более эффективным и приблизить его к реальным условиям академической и профессиональной коммуникации.

Особое значение имеет создание условий для активного использования русского языка на практике, развития самостоятельности студентов и формирования у них необходимых коммуникативных компетенций. При этом современные образовательные технологии должны использоваться не сами по себе, а как средство достижения конкретных учебных и профессиональных целей.

Перспективным направлением дальнейших исследований является экспериментальная проверка предложенной модели и оценка её эффективности в различных условиях высшего образования. Это позволит определить возможности её дальнейшего совершенствования и практического применения при разработке современных программ и учебных материалов по РКИ.

Список литературы.

1.Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. М.: Просвещение.
2.Щукин А. Н. Методика преподавания русского языка как иностранного: учебное пособие. М.: Высшая школа.
3.Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. М.: Академия.
4.Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий. М.: ИКАР.
5.Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура: три лингвострановедческие концепции. М.: Индрик.
6.Милруд Р. П. Методика преподавания английского языка. М.: Дрофа.
7.Кулибина Н. В. Зачем, что и как читать на уроке русского языка как иностранного. СПб.: Златоуст.
8.Хуторской А. В. Современная дидактика. СПб.: Питер.



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

9.Сафонова В. В. Коммуникативная компетенция: современные подходы к её формированию.
10.Полат Е. С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. М.: Академия.
11.Сысоев П. В. Современные информационные и коммуникационные технологии в обучении иностранному языку.
12.Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. Strasbourg, 2020.
13.Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Cambridge University Press, 2001.
14.UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023.
15.OECD. Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. Paris: OECD Publishing, 2021.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

SIROJIDDIN SAYYID DOSTONLARINING G'OYAVIY-POETIK XUSUSIYATLARI

Doshanova Guljaxan Ismailovna
O'zbekiston, Nukus
Qoraqalpoq davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi
Dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
guljahandoshanova@gmail.com
orcid 0009-0005-1897-4529

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sirojiddin Sayyid dostonlarida liro-epik tasvirning o'ziga xos xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Yozuvchining ijodi o'ziga xos lirik ruhiyat va epik ko'lamni birlashtirgan holda, o'zbek adabiyotida noyob badiiy yondashuvni shakllantirgan. Sayyidning dostonlarida milliy qadriyatlar va insoniy tuyg'ular uyg'un tarzda tasvirlanadi, bunda lirik qahramonlarning ichki dunyosi epik voqealar zanjiri bilan bog'lanib, ularning his-tuyg'ulari, maqsadlari va kurashlari teran tasvirlanadi.*

Maqolada Sirojiddin Sayyid dostonlaridagi obraz yaratish usullari, syujet rivoji, lirik chiziqning epik tasvirlar bilan uyg'unligi hamda dostonlardagi badiiy vositalarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ifoda etishdagi o'rni o'rganiladi. Dostonlarda xalqona ruh, lirik qahramonlarning individual kechinmalari va epik qahramonlarning ijtimoiy kurashi o'zaro birlashib, adabiy-estetik badiiy mazmun yaratadi. Ushbu liro-epik asarlarda shaxsiy va umumiy qiziqishlarning to'qnashuvi, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, sevgi, sadoqat, vafo kabi mavzular teran ifodalanib, o'zbek adabiyoti uchun noyob yondashuv namoyon etiladi.

Kalit so'zlar*: liro-epik tasvir, dostonlar, milliy qadriyatlar, lirik qahramon, epik syujet, badiiy uslub, poetik uyg'unlik, sevgi va kurash.*

SPETCIFIC ASPECTS OF THE LYRICAL IMAGE IN THE EPICS SIROJIDDIN SAYYID

Abstract. *This article provides an in-depth analysis of the unique characteristics of lyrical-epic imagery in the works of Sirojiddin Sayyid. The author's creative works combine a distinct lyrical spirit with an epic scale, forming a unique literary approach within Uzbek literature. Sayyid's epics harmoniously depict national values and human emotions, where the inner world of lyrical heroes is intertwined with the sequence of epic events, portraying their feelings, goals, and struggles in a profound way.*

The article explores the techniques of lyrical-epic imagery in Sirojiddin Sayyid's epics, including character creation, plot development, and the blending of lyrical themes with epic narratives. It examines how these artistic elements convey both national and universal values. The epics reflect a folk spirit, where the individual emotions of lyrical heroes are intertwined with the social battles of epic characters, creating

a rich literary and aesthetic experience. Themes of personal and collective interests, love, loyalty, fidelity, and struggle are vividly expressed, showcasing a unique approach to Uzbek literature.

Through this analysis, the article reveals the creative style of Sirojiddin Sayyid, demonstrating the broad capabilities of artistic expression and the harmony between lyrical emotion and epic narrative in his epics.

Keywords: *lyrical-epic imagery, epics, national values, lyrical hero, epic plot, artistic style, poetic harmony, love and struggle.*

УНИКАЛЬНЫЕ ОСБЕННОСТИ ЛИРОЭПИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ СИРОЖИДДИНА САЙЙИДА

Аннотация. *В данной статье проводится глубокий анализ уникальных особенностей лиро-эпического изображения в произведениях Сиржиддина Саййида. Творчество автора объединяет в себе выразительный лирический дух с эпическим размахом, формируя уникальный литературный подход в узбекской литературе. В эпических произведениях Саййида гармонично отражаются национальные ценности и человеческие эмоции, где внутренняя жизнь лирических героев переплетается с цепью эпических событий, глубоко раскрывая их чувства, цели и борьбу.*

Статья исследует приёмы лиро-эпического изображения в эпосах Сироиддина Саййида, включая создание образов, развитие сюжета и сочетание лирических мотивов с эпическими нарративами. Рассматривается, как эти художественные элементы помогают передать как национальные, так и общечеловеческие ценности. Эпические произведения пронизаны народным духом, где индивидуальные переживания лирических героев сливаются с социальными битвами эпических персонажей, создавая богатую литературно-эстетическую ткань. Темы личных и коллективных интересов, любви, верности, преданности и борьбы находят глубокое отражение, демонстрируя уникальный подход в узбекской литературе.

Этот анализ раскрывает творческий стиль Сироиддина Саййида, показывая широкие возможности художественного выражения и гармонию между лирическим чувством и эпическим повествованием в его произведениях.

Ключевые слова*: лиро-эпическое изображение, эпосы, национальные ценности, лирический герой, эпический сюжет, художественный стиль, поэтическая гармония, любовь и борьба.*

KIRISH

Sirojiddin Sayyid zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin vakilidir. Uning ijodida milliy qadriyatlar va xalqning ma’naviy merosi liroepik tasvir orqali ta’sirli tarzda ifoda etiladi. Shoirning dostonlari lirik va epik unsurlar uyg‘unligi bilan ajralib turadi, bunda shaxsiy kechinmalar va ijtimoiy kurashlar bir-birini to‘ldiradi. S.Sayyid o‘z asarlarida

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

milliy ruhni, xalqning orzu-intilishlarini, sevgi va sadoqat kabi mavzularni teran badiiy vositalar orqali tasvirlaydi.

Uning dostonlari o‘zbek xalqining milliy o‘ziga xosligini, o‘zligini saqlab qolish, ma’naviy qadriyatlarini yuksaltirishga xizmat qilib, xalqning ichki dunyosini hamda umidlarini, el-yurtiga sadoqatini lirik kechinma hamda epik voqealarni o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali bayon qilingan adabiy merosimizdir.

Ushbu maqola Sirojiddin Sayyidning liro-epik tasvirdagi o‘ziga xos yondashuvini, uning adabiy-estetik ahamiyatini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sirojiddin Sayyidning dostonlari o‘zbek adabiyotida liro-epik tasvirning yorqin namunasi sifatida katta e’tiborga loyiqdir. Bu dostonlarda lirik va epik unsurlar o‘zaro uyg‘unlashib, xalqning ma’naviy hayotini, milliy qadriyatlarini va umumiy insoniy tuyg‘ularini badiiy ifodalashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shoirning lirik qahramonlari shaxsiy hissiyotlari va kechinmalarini epik voqealar fonida namoyon qilib, xalq hayotiga doir asosiy g‘oyalarni chuqur badiiy tahlil etadi. Aynan shu uyg‘unlik Sirojiddin Sayyid dostonlarini o‘ziga xosligini nomoyon etadi va o‘quvchiga kuchli ta’sir qiladi.

Dostonlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, lirik va epik unsurlar Sayyid asarlarida bir-birini to‘ldiruvchi ikki asosiy qism sifatida mavjud. Epik syujetlar keng ko‘lamli voqealarni tasvirlab, xalqning umumiy hayoti, kurashlari va orzu-intilishlarini aks ettirsa, lirik qahramonlar o‘zlarining ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari orqali epik voqealarning badiiy-estetik mazmunini chuqurlashtiradi. Bu lirik qahramonlarning ichki kechinmalari epik qahramonlarning kurashlari bilan bog‘liq holda ifodalanib, bu orqali dostonlarning badiiy qimmati oshgan.

Adib she’riyatida va dostonlarida estetik idealini badiiy islohlar asosida qayta shakllantirdi, estetik ideal obrazlar xarakteri va ruhiyatida, tabiat tasvirida falsafiy, ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy muammmolar yechimiga tegishli maqsad va muddaolari, shuningdek, ezgulikni tarannum etuvchi konsepsiyasini obrazlar zimmasiga yuklash

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

orqali so‘z san’atining yangicha qirralarini ochishga muvaffaq bo‘ldi. Ijodiy jarayon mohiyatining diqqatga loyiq evolyusion bosqichlarini umumlashtirib ifoda etuvchi muhim kategoriya bo‘lgan estetik ideal, uning muhim halqalari sanalgan estetik nuqtai nazar va konsepsiya Sirojiddin Sayyid ijodi mumtoz va milliy adabiyot, jahon adabiyoti rivojlantirgan tamoyillardan oziqlanib shakllanishiga turtki berib keldi. Estetik ideal, shuning bilan birga, uning mantiqiy asoslarini targ‘ib qiladigan kuch sifatida maydonga chiqadigan badiiy g‘oyalar tizimi alohida mohiyat kasb etishini ta’minladi. (Abdurahmonov R, 2019).

Natijada yangicha badiiy-estetik shakl va mazmun kasb etayotgan adib ijodi o‘zgacha falsafiy me’yorlar doirasida, real voqelikni talqin qilish barobarida, noreal voqelik bilan ham aloqaga kirishdi, alal-oqibat bu holat, ya’ni olam va odam hayotiga xos yaxshilik va yomonlik, haqiqat va uydirma, adolat va nohaqlik, sadoqat va xiyonat, tantilik va nomardlik kabi estetik tushunchalarning noma’lum qirralarini kashf etish ko‘nikmasini zaruratga aylantirdi.

Sirojiddin Sayyidning dostonlarida lirik va epik uyg‘unlik orqali xalqning ijtimoiy hayotiga oid muhim masalalar yoritiladi. Masalan, sevgi, sadoqat, vafo kabi mavzular lirik obrazlar orqali ifodalanib, ularning epik tasvirlari xalqning ijtimoiy kurashlari, tarixiy voqealar va milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langan. Dostonlarda lirik qahramonlar, o‘zlarining shaxsiy kechinmalari orqali xalqning umidlari, baxt va adolatga bo‘lgan intilishlarini ifodalaydi. Bu intilishlar epik syujetlar orqali keng miqyosda tasvirlanib, xalqning tarixiy va ijtimoiy hayotiga xos bo‘lgan muhim voqealar orqali ifodalanadi.

Sirojiddin Sayyidning liroepik dostonlarida lirik obrazlarning ichki kechinmalari ko‘pincha xalqning milliy qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu qadriyatlar o‘z navbatida epik voqealar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, xalqning ozodlikka, adolatga va baxt-saodatga bo‘lgan intilishlari, ijtimoiy tenglik va jamoaviy qadriyatlar dostonlarning asosiy mavzularidan birini tashkil qiladi. Lirik qahramonlar orqali ifodalangan sevgi va



sadoqat epik syujetlar yordamida xalqning ijtimoiy hayotidagi muhim burilishlar, kurashlar va tarixiy voqealar bilan uyg‘unlashadi.

Dostonlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Sayyidning lirik obrazlari faqat shaxsiy kechinmalarini emas, balki xalqning umumiy ma’naviy holatini ham aks ettiradi. Ularning individual tuyg‘ulari milliy madaniyat va qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, xalqning umumiy kayfiyati, orzu-intilishlari va umidlarini ifodalaydi. Bu lirik qahramonlarning ichki dunyosi va ularning epik syujetlarga bog‘lanishi badiiy mazmunni yanada boyitadi, o‘quvchiga ta’sirchan va teran his-tuyg‘ularni yetkazadi.

Sirojiddin Sayyidning dostonlaridagi liro-epik tasvirning yana bir muhim jihati shundaki, u o‘zbek xalqining madaniy va tarixiy an’analarini zamonaviy voqealar bilan uyg‘unlashtirib, adabiy merosni boyitishga xizmat qilgan. Shoirning dostonlari xalqning madaniy merosi va milliy qadriyatlarini asrab-avaylash, ularni kelajak avlodlarga yetkazish g‘oyasini ilgari suradi. Bu dostonlarda epik voqealar orqali milliy qadriyatlar, xalqning tarixi, madaniyati va ma’naviyati ta’sirchan ifodalanadi. Shu bilan birga, lirik qahramonlarning shaxsiy kechinmalari, ularning sevgi, sadoqat va kurashlari bu umumiy epik tasvirni boyitib, dostonlarning badiiy-estetik qimmati oshiradi.

NATIJALARVA MUHOKAMA

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Sirojiddin Sayyidning liro-epik dostonlari o‘zbek adabiyotida milliy va universal qadriyatlarni birlashtirgan noyob badiiy asarlar hisoblanadi. Shoirning ijodi xalqning ma’naviy merosini boyitish va milliy o‘zlikni saqlab qolishga qaratilgan bo‘lib, uning liro-epik tasvir usuli o‘zbek adabiyotida yangi badiiy yo‘nalish yaratgan.

Lirik va epik unsurlar uyg‘unligi, xalqning ijtimoiy hayoti, shaxsiy va jamoaviy qiziqishlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlar, milliy qadriyatlar va shaxsiy kechinmalarning birlashuvi Sayyid dostonlarining asosiy badiiy xususiyatlari hisoblanadi.

Shoirning ijodiy yondashuvi milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirishga xizmat qilgan bo‘lib, uning dostonlarida o‘zbek xalqining tarixiy va madaniy merosi badiiy obrazlar orqali ta’sirchan tasvirlanadi. Shu jihatdan, Sirojiddin

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Sayyid dostonlari o‘zbek adabiyotining eng muhim badiiy-estetik yutuqlaridan biri bo‘lib, xalqning madaniy va ma’naviy hayotini chuqur aks ettirgan asarlar qatoriga kiradi.

Tahlil va natijalarimizda Sirojiddin Sayyidning liro-epik dostonlarida ko‘tarilgan asosiy mavzular va tasvirlar bir-biri bilan bog‘langan holda, o‘zbek xalqining umumiy tarixiy, madaniy va ma’naviy rivojlanishidagi rolini yanada aniqroq ko‘rsatadi. Ularning ichki muammolari, orzu-intilishlari, va maqsadlari shoirning ijodida yuksak badiiy darajada tasvirlanadi. Bu esa, shubhasiz, o‘quvchilarni va keng ommani fikr va his-tuyg‘ularga chorlashda katta ahamiyatga ega.

Mavzular va Motiflar. S.Sayyidning dostonlarida odatda quyidagi asosiy mavzular va motivlar ko‘rinadi:

Sevgi va Sadoqat: Shoirning asarlarida sevgi mavzusi o‘ziga xos ahamiyatga ega. Lirik qahramonlar o‘z sevgi tuyg‘ularini epik syujetlar orqali ifodalagan holda, hayotdagi sinovlar va qiyinchiliklar bilan yuzma-yuz kelishadi. Bu sevgi, sadoqat va insoniy munosabatlar doimo xalqning tarixiy va ijtimoiy hayoti bilan bog‘liqdir.

Adolat va Haq uchun Kurash: Sayyidning dostonlarida odatda adolatga erishish, haq va haqiqatni himoya qilish kabi g‘oyalar ham muhim o‘rin tutadi. Lirik qahramonlar o‘z kelajagini va baxtini izlashda, adolat yo‘lida kurashishga tayyorligini ko‘rsatadi. Bu holat, shoirning xalqining ijtimoiy kurashlari va orzu-intilishlarini aks ettiradi.

Milliy Qadriyatlar va Madaniyat: Sayyid o‘z dostonlarida o‘zbek xalqining madaniy an’analarini, urf-odatlarini va tarixiy voqealarini jonlantirib, ularni badiiy obrazlar orqali keng targ‘ib etadi. Bu esa o‘zbek madaniyatining yuksak darajada saqlanishiga, avlodlarga yetkazilishiga xizmat qiladi.

Sirojiddin Sayyid dostonlarida tasvirlar va sifatlar o‘rtasidagi muvofiqlik va uyg‘unlik o‘quvchining diqqatini tortadi. U o‘z ijodida lirik tasvirlar va epik voqealarni bir butun sifatida namoyon etadi. Masalan, lirik qahramonlar, o‘zlarining ichki kechinmalari va his-tuyg‘ulari orqali voqealarning ahamiyatini ochib beradi. Bunda,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

shoir qahramonlarni ko‘rsatib, ularning haqiqiy his-tuyg‘ulari, shaxsiy kurashlari va ijtimoiy masalalarini badiiy til orqali keltirib o‘tadi.

Sirojiddin Sayyidning dostonlari, albatta, o‘ziga xos va o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin tutadigan asarlardir. Ularning badiiy va estetik jihatlari, xalqning urf-odatlari va qadriyatlari, shuningdek, xalqning tarixiy xotirasi bilan bog‘liqdir. Sayyid ijodida liro-epik tasvirlarning uyg‘unligi nafaqat dostonlarning badiiy mazmunini boyitadi, balki o‘quvchiga chuqur hissiy ta’sir ko‘rsatadi.

Sirojiddin Sayyid dostonlarining ta’siri ko‘plab mualliflar va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ular, albatta, adabiyotimizda zamonaviy ko‘rinishlarni, yangi badiiy talqinlarni taqdim etgan. Sayyid ijodining hozirgi kunga qadar ahamiyati shundaki, u o‘zbek adabiyotida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlab qolishga yordam berib, bu qadriyatlarni zamonaviy o‘quvchilarga taqdim etadi.

Adib ijodida vatan va vatanparvarlik tuyg‘ulari yorqin badiiy tasvirlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shoir ijodida poetik mazmun teran va rang-barangdir. “Jarohat” dostonida Vatan tasviri yana ham keng qamrovli tasvirlangan. Dostonda shoir Vatanni turli poetik timsollar vositasida ifodalaydi. Bular: *“sigir sog‘ayotgan ayol”, “xayol surayotgan kelin”, “beshikda yotgan bolalar”, “yangi ko‘ylak kiygan qizaloq”, “unib chiqqan ismaloq”, “olisga termulgan tol”, “dasht-u qirlardagi lolalar”, “sokingina yonayotgan gulxanlar”, “Yor-yor”lar ham o‘lanlar”*dan iborat. (Sirojiddin Sayyid, 2023, s 71).

Milliylik zamiridagi rangin tasvirlar jilosi poetik mazmun haqida keng mushohada yuritish, Vatanni lirik qahramon kabi teran anglash va chuqur his eta olish imkonini beradi. Bir qaraganda, badiiy talqin sodda bo‘lib tuyuladi. Shoir she‘riyatidagi Vatan obrazining poetik ifodasi xalqona ruh hamda mumtoz an‘analarning yangilanishi mahsulidir. Sirojiddin Sayyid she‘riyatimizga o‘ziga xos uslubi, o‘z aytar so‘zi hamda estetik konsepsiyasi bilan kirib kelgan. Vatan mavzusidagi she‘rlarida shoir yangi poetik

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ifodalarni san‘atkorona qo‘llaydi, hayot falsafasini shakl va mazmun yaxlitligida betakror talqin etadi. Quyidagi parchada:*“Menga ham tinchlik kerak. Tanka minib kelsang ham hech qayerga ketmayman. Yetti pushtim shu yerda ko‘milgan bo‘lsa... Dushox cho‘qqisiga chiqib chodir tikib o‘tiramanki, illo bu tog‘lardan ketmayman. Urushda qatnashgan bo‘lsam, indivalid bo‘lsam, katta o‘g‘lim muallim, kenjam o‘quvchi bo‘lsa. Yana birovi armiyada yuribdi. Erta-indin kirib kelsa-yu “Ota, uyimiz qani?” deb so‘rasa, sening bulduzo‘ringni ko‘rsatamanmi?!”*- vatanga bo‘lgan mehr va sodiqlik tuyg‘ulari samimiy gaplar orqali ifodalangan. (Sirojiddin Sayyid, 2023, s 72).

Mana shunga o‘xshash tasvirlar shoirning yurtimiz insonlarining naqadar vatanparvarligini, millatparvarligini hamda kuchli sadoqatini badiiy suratlab berganligining guvohi bo‘lamiz.

XULOSA

Ushbu tahlil natijasida, Sirojiddin Sayyid dostonlarida liro-epik tasvirlarning ahamiyati o‘zbek adabiyotining rivojlanishida muhim o‘rin tutishini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga, kelajakda shoirning ijodini yanada chuqur o‘rganish, dostonlardagi lirik va epik unsurlarni kengroq tahlil qilish, shuningdek, ularni zamonaviy talqinlarda ko‘rsatishimiz muhimdir. O‘quvchilar va talabalar uchun bunday asarlarni o‘rganish, xalqning madaniy merosini saqlab qolish va ularga yangicha yondashish imkonini beradi.

Shuningdek, adabiyotshunoslar, professor-o‘qituvchilar va talabalar Sirojiddin Sayyidning ijodini yanada kengroq tahlil qilib, o‘zbek adabiyotining boyligiga hissa qo‘shishlari mumkin. Sayyid ijodi xalqning orzu-intilishlari va ma’naviy hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan holda, adabiyotimizning eng yaxshi an’analarini davom ettirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Sirojiddin Sayyid dostonlari o‘zbek adabiyotida yangicha o‘rin tutadi va uning ijodi o‘zbek xalqining ruhiy-madaniy merosini boyitishda davom etadi.

Sirojiddin Sayyid dostonlari o‘zbek adabiyotida liro-epik tasvirning o‘ziga xos namunasi sifatida ajralib turadi. Shoirning ijodida lirik va epik unsurlar o‘zaro

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

uyg‘unlashib, xalqning ma’naviy qadriyatlari, orzu-intilishlari va tarixiy voqealarini chuqur badiiy ifoda etadi. Sayyidning dostonlarida sevgi, sadoqat, adolat va milliy qadriyatlar kabi asosiy mavzular keng ko‘lamda yoritilgan bo‘lib, lirik qahramonlar orqali insonning ichki dunyosi va ijtimoiy hayoti tasvirlanadi.

Sayyidning ijodiy yondashuvi o‘zbek xalqining tarixiy merosini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, uning asarlari milliy va universal qadriyatlarni birlashtiradi. Dostonlarining badiiy va estetik jihatlari, xalqning ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq muammolarni badiiy ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, Sirojiddin Sayyid dostonlari o‘zbek adabiyotida yuksak mavqega ega bo‘lib, zamonaviy o‘quvchilarga xalqning ma’naviy merosini yetkazishda davom etadi.

Haqiqatan, shoir yaratgan dostonlar bugungi o‘zbek va jahon adabiyotida alohida badiiy-estetik mavqe egallaydi va shu orqali badiiy-estetik tarafakkurimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shgani, badiiy-estetik qirralarini ochishga sezilarli ta’sir o‘tkazgani ko‘zga tashlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xudoyberdiyev, A. O‘zbek dostonlari: tahlil va tadqiqotlar. T:, O‘zbekiston Milliy Universiteti., 2018
2. Sirojiddin Sayyid. Vaqt haykali.- T,: G‘.G‘ulom, 2023.- b71-72
3. Дошанова Г. Ҳозирги ўзбек шеъриятида кичик лирик шакллар такомили. T:, Firdavs-shoh, 2024. b-76

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

NEMIS TILINI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKT ORQALI MUSTAQIL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH

Jurayev Erkinjan Turdaliyevich
O'qituvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
erikusername2023@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nemis tilini o'rganishda sun'iy intellekt (SI) vositalaridan foydalanish orqali mustaqil ta'lim va o'quvchi avtonomiyasini rivojlantirish imkoniyatlari nazariy-tahliliy jihatdan yoritiladi. Tadqiqotda o'quvchi avtonomiyasi, mustaqil ta'lim, o'zini o'zi boshqarib o'rganish va sun'iy intellektning til ta'limidagi imkoniyatlariga oid ilmiy-metodik manbalar tahlil qilindi. Nazariy, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tahlil natijalari SI vositalari inudividual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish, tezkor fikr-mulohaza olish, qo'shimcha mashqlar yaratish, xatolarni tahlil qilish va o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, SI'dan nazoratsiz foydalanish tayyor javoblarga qaramlik, mustaqil fikrlash faolligining pasayishi, noto'g'ri axborotdan foydalanish va akademik halollik bilan bog'liq xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu asosda maqolada nemis tilini mustaqil o'rganishda SI'dan foydalanishning "maqsadni belgilash – rejalashtirish – mustaqil bajarish – SI orqali tekshirish – refleksiya – qayta mashq qilish" ketma-ketligiga asoslangan metodik modeli taklif etiladi.*

Kalit so'zlar*: sun'iy intellekt, nemis tili, mustaqil ta'lim, o'quvchi avtonomiyasi, generativ sun'iy intellekt, raqamli ta'lim, o'zini o'zi boshqarib o'rganish, fikr-mulohaza.*

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В статье теоретически анализируются возможности использования средств искусственного интеллекта для развития самостоятельного обучения и автономии обучающихся при изучении немецкого языка. Проанализированы научно-методические источники, посвящённые автономии обучающегося, самостоятельному обучению, саморегулируемому обучению и применению искусственного интеллекта в языковом образовании. Использованы методы теоретического и сравнительного анализа, систематизации и обобщения. Результаты анализа показывают, что инструменты искусственного интеллекта расширяют возможности индивидуализации обучения, получения оперативной обратной связи, создания дополнительных заданий, анализа ошибок и самоконтроля. Вместе с тем неконтролируемое использование ИИ может привести к зависимости от готовых ответов, снижению самостоятельной мыслительной активности, использованию недостоверной информации и нарушениям академической добросовестности. На этой основе предлагается методическая модель самостоятельного изучения немецкого языка с использованием ИИ: «постановка цели – планирование – самостоятельное выполнение – проверка с помощью ИИ – рефлексия – повторная практика».*

Ключевые слова*: искусственный интеллект, немецкий язык, самостоятельное обучение, автономия обучающегося, генеративный искусственный интеллект, цифровое обучение, саморегулируемое обучение, обратная связь.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

DEVELOPING INDEPENDENT LEARNING THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN GERMAN LANGUAGE TEACHING

Abstract. *This article theoretically examines the potential of artificial intelligence (AI) tools for developing independent learning and learner autonomy in German language education. Scientific and methodological sources on learner autonomy, independent learning, self-regulated learning, and the use of AI in language education were analyzed. The study employed theoretical and comparative analysis, systematization, and generalization. The findings indicate that AI tools can expand opportunities for individualized learning, immediate feedback, additional task generation, error analysis, and self-monitoring. At the same time, uncontrolled use of AI may lead to dependence on ready-made answers, reduced independent thinking, the use of inaccurate information, and academic integrity risks. Based on the analysis, the article proposes a methodological model for independent German language learning with AI based on the sequence: goal setting – planning – independent performance – AI-assisted checking – reflection – further practice.*

Keywords: *artificial intelligence, German language, independent learning, learner autonomy, generative AI, digital learning, self-regulated learning, feedback.*

KIRISH

Ta'limning raqamli muhitga ko'chib borishi xorijiy tillarni o'qitishda o'rganuvchining auditoriyadan tashqari faoliyatini tashkil etish usullarini ham o'zgartirmoqda. Generativ sun'iy intellekt individual mashq qilish, maslahat olish va o'quv materialini ehtiyojga ko'ra moslashtirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratdi. Biroq UNESCO tavsiyalarida bunday texnologiyalardan foydalanish inson manfaatlari, xavfsizlik, etik me'yorlar va aniq pedagogik maqsadlar bilan uyg'un bo'lishi lozimligi qayd etiladi [1].

Xorijiy til kompetensiyasi muntazam individual mashqni talab qilgani sababli mustaqil ta'lim til o'rganish jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari o'rganuvchi yangi leksik birliklarni mustahkamlashi, grammatik shakllarni amalda qo'llashi, o'qish va tinglab tushunishni mashq qilishi, shuningdek, yozma va og'zaki nutqini rivojlantirishi kerak. Bunday faoliyat o'rganuvchining o'z ta'lim natijasiga nisbatan mas'uliyatini kuchaytiradi.

Xorijiy til metodikasida avtonomiya o'rganuvchining ta'lim jarayonini boshqarish darajasi bilan izohlanadi. Holec bu hodisani o'z o'qishini rejalashtirish va unga

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mas'uliyat bilan yondashish qobiliyati sifatida talqin qiladi [2]. Little esa mazkur tushunchaga ongli o'rganish, mustaqil qarorlar va refleksiv baholash jihatlarini kiritadi [3]. Bimmel va Rampillon nemis tilini o'qitish kontekstida avtonomiyani o'rganish strategiyalari bilan bog'laydi [4]. Wolffning ishlanmalarida ham o'rganuvchining mustaqilligi va o'z faoliyatini boshqarishi muhim metodik masala sifatida ko'rsatiladi [5].

Tadqiqotning maqsadi nemis tilini mustaqil o'rganish sharoitida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ularni o'quvchi avtonomiyasi nuqtayi nazaridan tizimlashtirishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun mustaqil ta'lim hamda avtonomiyaning nazariy mazmuni tahlil qilindi, SI vositalarining funksiyalari guruhlashtirildi, texnologiyadan foydalanish bilan bog'liq cheklovlar baholandi va mustaqil o'rganishning bosqichma-bosqich metodik modeli ishlab chiqildi.

METODLAR

Maqola nazariy tahlilga asoslangan tadqiqot sifatida ishlab chiqildi. Tahlil materiali sifatida xorijiy til ta'limida avtonomiya, mustaqil va o'zini o'zi boshqarib o'rganish hamda sun'iy intellektdan foydalanishga bag'ishlangan ilmiy-metodik ishlar tanlandi. Asosiy nazariy manbalar qatorida Holec, Little, Bimmel va Rampillon hamda Wolffning ishlari, shuningdek, SI va til ta'limiga oid keyingi tadqiqotlar ko'rib chiqildi [2–10].

Manbalarni o'rganishda to'rtta asosiy usul qo'llandi: nazariy tahlil orqali asosiy tushunchalarning mazmuni ochib berildi; qiyosiy tahlil yordamida an'anaviy va SI qo'llab-quvvatlaydigan mustaqil ta'lim imkoniyatlari solishtirildi; tizimlashtirish asosida SI funksiyalari yo'nalishlarga ajratildi; umumlashtirish orqali tahlil natijalari yagona metodik xulosaga keltirildi.

Tadqiqotda bevosita tajriba-sinov yoki respondentlar ishtiroki nazarda tutilmagan. Shu sababli taklif etilayotgan model ushbu maqolada nazariy tahlil asosida



ishlab chiqilgan metodik yechim sifatida baholanadi; uning real o‘quv jarayonidagi samarasi kelgusidagi empirik ishlar orqali aniqlanishi kerak.

NATIJALAR

1. Mustaqil ta’lim va o‘quvchi avtonomiyasining pedagogik mohiyati

Tahlil natijasida mustaqil ta’limni faqat uy vazifalarini o‘qituvchisiz bajarish bilan tenglashtirish yetarli emasligi aniqlandi. Holec yondashuvida avtonom o‘rganuvchi ta’lim maqsadlarini belgilash, mazmunni tanlash, o‘rganish usullarini aniqlash, vaqtni rejalashtirish va o‘z natijalarini baholash jarayonlarida mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi [2]. Little yondashuvida esa avtonomiya o‘rganuvchining o‘z o‘rganish jarayoniga ongli munosabati, tanqidiy refleksiyasi va mustaqil qaror qabul qilishi bilan bog‘lanadi [3].

Bimmel va Rampillon o‘quvchi avtonomiyasini o‘rganish strategiyalari bilan bog‘laydi [4]. Bu yondashuvga ko‘ra, o‘rganuvchining mustaqil va mas’uliyatli o‘rganishi uchun nafaqat topshiriqni bajarish, balki qanday o‘rganayotganini anglash ham muhimdir. Wolffning yondashuvida ham o‘rganish strategiyalarini rivojlantirish o‘quvchi avtonomiyasini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq [5].

Umumlashtirilgan natijaga ko‘ra, mustaqil o‘rganishning tayanch mexanizmlari maqsad qo‘yish, faoliyatni boshqarish va natijani qayta baholashdan iborat. SI ushbu mexanizmlarni almashtirmasdan, ularning bajarilishini yengillashtiruvchi vosita sifatida qo‘llanganda avtonomiyani kuchaytirishi mumkin.

2. SI vositalarining nemis tilini mustaqil o‘rganishdagi funksiyalari

Tahlil asosida SI vositalarining nemis tilini mustaqil o‘rganishdagi funksiyalarini besh yo‘nalishda tizimlashtirish mumkin: lug‘at ustida ishlash, grammatikani mustahkamlash, yozma nutqni rivojlantirish, dialogik nutqni mashq qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilish.

Birinchidan, lug‘at ustida mustaqil ishlashda o‘rganuvchi yangi nemischa so‘zlarni mavzu bo‘yicha guruhlashtirishi, ular bilan gaplar tuzishi, sinonim va antonimlarni aniqlashi hamda yangi so‘zlardan foydalanib kichik matn yaratishi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mumkin. Ikkinchidan, grammatikani mustahkamlashda o‘rganuvchi o‘z darajasiga mos mashqlarni yaratishni so‘rashi va bajarilgan topshiriqlardagi xatolarni tahlil qilishi mumkin.

Uchinchidan, yozma nutqni rivojlantirishda nemis tilida yozilgan qisqa matnni SI yordamida tekshirtirish, grammatik va leksik xatolarning sabablarini izohlashni so‘rash mumkin. To‘rtinchidan, dialogik nutqni rivojlantirishda SI bilan turli kundalik vaziyatlarga asoslangan muloqotni mashq qilish imkoniyati mavjud. Chatbotlarning til o‘rganuvchilarga auditoriyadan tashqarida qo‘shimcha til amaliyoti yaratishi mumkinligi oldingi tadqiqotlarda ham ko‘rsatilgan [10]. Beshinchidan, o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun SI yordamida test, savol-javob va takrorlash topshiriqlarini shakllantirish mumkin.

Masalan, o‘rganuvchi “Ich habe vorgestern ins Museum gegangen” kabi xato gapni SI vositasiga taqdim etib, xatoning sababini tushuntirishni, to‘g‘ri variantni ko‘rsatishni va shu grammatik hodisaga oid qo‘shimcha mashqlar yaratishni so‘rashi mumkin. To‘g‘ri variant “Ich bin vorgestern ins Museum gegangen” bo‘ladi. Bunday foydalanishda SI o‘qituvchining o‘rnini egallamaydi, balki mustaqil mashq qilish va o‘z xatosini anglash imkoniyatini kengaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

3. SI va o‘quvchi avtonomiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik

Zamonaviy tadqiqotlar SI vositalarining individual ta’lim ehtiyojlariga moslashish, fikr-mulohaza berish va o‘quvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Mohebbining tizimli sharhida 2009–2024-yillarda e’lon qilingan 18 ta ilmiy maqola tahlil qilinib, SI vositalarining til o‘rganishda o‘rganuvchi mustaqilligi va o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganishini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan [6].

Biroq SI mavjudligi avtomatik ravishda avtonom o‘rganuvchini shakllantirmaydi. Agar o‘rganuvchi barcha topshiriqlarni SI yordamida tayyor holda bajarsa va fikrlash hamda qaror qabul qilish jarayonini texnologiyaga to‘liq topshirsa, bu avtonomiyaning



rivojlanishiga emas, balki texnologiyaga qaramlikka olib kelishi mumkin. Shu sababli "SI bilan o'rganish" va "SI o'rniga o'rganish" o'rtasidagi farq metodik jihatdan aniq belgilanishi lozim.

Xu va Liu tomonidan o'tkazilgan tajribaviy tadqiqotda Duolingo va ChatGPTdan foydalangan guruhlar motivatsiya, qiziqish, tanqidiy fikrlash va avtonomiya ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat guruhidan yuqori natija ko'rsatgani qayd etilgan [7]. Mazkur natija SI vositalarining imkoniyatlarini ko'rsatadi, biroq ushbu tadqiqot ingliz tilini chet tili sifatida o'rganish sharoitida o'tkazilganini hisobga olgan holda, uning xulosalarini nemis tiliga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki metodik jihatdan ehtiyotkorlik bilan talqin qilish zarur.

4. Nemis tilini mustaqil o'rganish uchun SI asosidagi metodik model

Nazariy tahlil natijasida nemis tilini mustaqil o'rganishda SI'dan foydalanishning quyidagi olti bosqichli metodik modeli taklif etiladi.

1-bosqich – maqsadni belgilash. O'rganuvchi aniq va o'lchanadigan maqsadni belgilaydi. Masalan: "Bir hafta davomida kundalik muloqot uchun 30 ta yangi nemischa so'z o'rganaman".

2-bosqich – rejalashtirish. O'rganuvchi o'z darajasi va ehtiyojidan kelib chiqib, SI yordamida mashqlar va o'quv faoliyati variantlarini ishlab chiqishi mumkin.

3-bosqich – mustaqil bajarish. O'rganuvchi topshiriqni avvalo imkon qadar mustaqil bajaradi. Bu bosqichda SI asosiy ijrochi emas, yordamchi vosita bo'lishi kerak.

4-bosqich – SI orqali tekshirish. Bajarilgan ish SI yordamida tekshiriladi. O'rganuvchi faqat to'g'ri javobni emas, balki xatoning sababini va uni tuzatish usulini ham aniqlaydi.

5-bosqich – refleksiya. O'rganuvchi qaysi xatolarga ko'proq yo'l qo'yganini, qaysi mavzuni qayta o'rganishi va keyingi mashg'ulotda nimalarga e'tibor berishi kerakligini belgilaydi.

6-bosqich – qayta mashq qilish. Aniqlangan muammoga mos yangi topshiriqlar tuziladi va o‘rganuvchi qayta mashq qiladi.

Mazkur modelning asosiy tamoyili shundan iboratki, SI o‘rganuvchining o‘rniga qaror qabul qilmaydi. Aksincha, u maqsadni belgilash, rejalashtirish, mustaqil bajarish, nazorat qilish va refleksiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu jihatdan model o‘quvchi avtonomiyasining asosiy tarkibiy qismlari bilan mos keladi [2–5].

MUHOKAMA

Tahlil natijalari SI vositalaridan maqsadli va metodik boshqaruv ostida foydalanish nemis tilini o‘rganuvchilarning mustaqil ta’limini rivojlantirish uchun sezilarli imkoniyatlarga ega ekanini ko‘rsatdi. Biroq texnologiyaning mavjudligi o‘z-o‘zidan ijobiy ta’lim natijasini kafolatlamaydi. Natija, avvalo, SI qanday pedagogik maqsadga yo‘naltirilgani va o‘rganuvchi faoliyatining qanday tashkil etilganiga bog‘liq.

Birinchi jihat – individuallashtirish. SI o‘rganuvchiga uning darajasi, ehtiyoji va xatolariga mos qo‘shimcha mashqlar hamda tushuntirishlar olish imkonini beradi. Bu imkoniyat o‘qituvchining individual fikr-mulohaza berish resurslari cheklangan sharoitda ayniqsa foydali bo‘lishi mumkin. Mohebbining tizimli sharhi ham SI va o‘rganuvchi mustaqilligi hamda o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi [6].

Ikkinchi jihat – o‘rganuvchining faol pozitsiyasi. SI juda ko‘p tayyor material va javoblarni taqdim etishi mumkin, ammo tayyor javoblarning ko‘pligi har doim ham chuqur o‘zlashtirishni anglatmaydi. O‘rganuvchi javobni mustaqil izlash, uni tahlil qilish, baholash va zarur hollarda boshqa manbalar bilan tekshirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Uchinchi jihat – o‘qituvchining roli. SI texnologiyalarining rivojlanishi o‘qituvchining pedagogik ahamiyatini kamaytirmaydi. Aksincha, o‘qituvchidan texnologiyani metodik jihatdan to‘g‘ri tanlash, topshiriqlarni loyihalash, SI javoblarini tekshirish hamda o‘quvchilarda raqamli va tanqidiy savodxonlikni rivojlantirishni talab

qiladi. Oliy ta'limda sun'iy intellekt bo'yicha tizimli tadqiqotlarda ham pedagogik masalalar va o'qituvchining roli yetarlicha yoritilmagan yo'nalishlardan biri ekani qayd etilgan [8].

To'rtinchi jihat – axborot xavfsizligi va akademik halollik. UNESCO generativ SI'dan ta'limda foydalanishda ma'lumotlar maxfiyligi, etik masalalar va inson markazidagi yondashuvni alohida ta'kidlaydi [1]. Shuning uchun o'rganuvchining shaxsiy ma'lumotlarini noma'lum platformalarga kiritmaslik, SI tomonidan berilgan ma'lumotlarni ishonchli manbalar bilan tekshirish va tayyor SI matnini o'zining mustaqil ishi sifatida taqdim etmaslik zarur.

Beshinchi jihat – SI javoblarining ishonchliligi. Intelligent assistantlar bo'yicha tadqiqotlarda bunday vositalar ayrim ma'nolarni yoki talaffuz variantlarini noto'g'ri tushunishi mumkinligi ko'rsatilgan [9]. Shu sababli SI tomonidan berilgan grammatik, semantik yoki talaffuzga oid ma'lumotni darslik, lug'at, o'qituvchi yoki boshqa ishonchli manba yordamida tekshirish mustaqil ta'lim kompetensiyasining muhim qismi bo'lishi lozim.

Shunday qilib, natijalar SI'dan foydalanishning samaradorligi texnologiyaning o'ziga emas, balki metodik dizayn, o'rganuvchining faol pozitsiyasi va o'qituvchining pedagogik rahbarligiga bog'liqligini ko'rsatadi. Taklif etilgan olti bosqichli model ushbu omillarni yagona o'quv jarayoniga birlashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt vositalaridan maqsadli va pedagogik jihatdan asoslangan foydalanish nemis tilini o'rganuvchilarning mustaqil ta'lim faoliyati hamda o'quvchi avtonomiyasini rivojlantirish uchun samarali imkoniyat yaratishi mumkin.

Birinchidan, SI o'rganuvchiga individual ta'lim ehtiyojlariga mos material va topshiriqlar bilan ishlash imkonini beradi. Ikkinchidan, tezkor fikr-mulohaza o'rganuvchining o'z xatolarini aniqlashi va ularni tushunib tuzatishiga yordam beradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Uchinchidan, SI yordamida lug‘at, grammatika, yozma va dialogik nutq bo‘yicha qo‘shimcha mashqlarni tashkil etish mumkin. To‘rtinchidan, SI o‘rganuvchining maqsad belgilash, rejalashtirish, nazorat qilish va refleksiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt mustaqil ta’limning o‘zi emas, balki uni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaralishi kerak. SI’dan haddan tashqari yoki nazoratsiz foydalanish tayyor javoblarga bog‘lanish, mustaqil fikrlash faolligining pasayishi, noto‘g‘ri ma’lumotlardan foydalanish va akademik halollik bilan bog‘liq muammolarga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun nemis tilini o‘qitishda SI asosidagi mustaqil ta’limni tashkil etishda “maqsadni belgilash – rejalashtirish – mustaqil bajarish – SI orqali tekshirish – refleksiya – qayta mashq qilish” tamoyiliga asoslangan yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu modelning lug‘at boyligi, grammatik kompetensiya, yozma va og‘zaki nutq hamda o‘quvchi avtonomiyasiga ta’sirini tajriba-sinov asosida tekshirish kelgusidagi empirik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishi bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Miao, F., & Holmes, W. (2023). Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO. 44 p. ISBN 978-92-3-100612-8.
2. Holec, H. (1981). Autonomy and Foreign Language Learning. Oxford: Pergamon Press. 53 p. ISBN 0-08-025357-1.
3. Little, D. (1991). Learner Autonomy 1: Definitions, Issues and Problems. Dublin: Authentik Language Learning Resources Ltd. ISBN 1-871730-02-3.
4. Bimmel, P., & Rampillon, U. (2000). Lernerautonomie und Lernstrategien. Berlin; München; Wien; Zürich; New York: Langenscheidt. 208 S. ISBN 3-468-49651-6.
5. Wolff, D. (2003). Lernerautonomie und selbst gesteuertes fremdsprachliches Lernen: Überblick. In K.-R. Bausch, H. Christ & H.-J. Krumm (Hrsg.), Handbuch Fremdsprachenunterricht (4. Aufl., S. 321–326). Tübingen; Basel: A. Francke.
6. Mohebbi, A. (2025). Enabling learner independence and self-regulation in language education using AI tools: A systematic review. Cogent Education, 12(1), 2433814. https://doi.org/10.1080/2331186X.2024.2433814.

7. Xu, J., & Liu, Q. (2025). Uncurtaining windows of motivation, enjoyment, critical thinking, and autonomy in AI-integrated education: Duolingo vs. ChatGPT. Learning and Motivation, 89, 102100. https://doi.org/10.1016/j.lmot.2025.102100.

8. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – where are the educators? International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16, 39. https://doi.org/10.1186/s41239-019-0171-0.

9. Kukulska-Hulme, A., & Lee, H. (2020). Intelligent assistants in language learning: An analysis of features and limitations. In K.-M. Frederiksen, S. Larsen, L. Bradley & S. Thouësny (Eds.), CALL for Widening Participation: Short Papers from EUROCALL 2020 (pp. 172–176). Research-publishing.net. https://doi.org/10.14705/rpnet.2020.48.1184.

10. Fryer, L., & Carpenter, R. (2006). Bots as language learning tools. Language Learning & Technology, 10(3), 8–14. https://doi.org/10.64152/10125/44068.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

БЎЛАЖАК ФРАНЦУЗ ТИЛИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ТИНГЛАБ ТУШУНИШ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РАҚАМЛИ АУДИОВИЗУАЛ МАТЕРИАЛЛАР АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ МЕТОДИКАСИ

Усманова Нодира Хражитдиновна
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Tarjimonlik fakulteti
Roman – german tillari tarjimashunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: *unodira@yandex.ru*

Аннотация: *Мақолада бўлажак француз тили ўқитувчиларининг тинглаб тушуниш компетенциясини рақамли аудиовизуал материаллар асосида ривожлантириш масаласи ёритилган. Француз тилини ўргатишда видео, аудио, субтитр, инфографика ва интерактив рақамли ресурслардан фойдаланиш имкониятлари таҳлил қилинган. Аудиовизуал материаллар билан ишлашнинг тинглашдан олдинги, тинглаш жараёнидаги ва тинглашдан кейинги босқичлари асосида методик ёндашув таклиф этилган. Шунингдек, материалларни танлаш, топшириқларни босқичма-босқич мураккаблаштириш ва талабаларнинг мустақил ишини ташкил этиш масалалари очиб берилган. Рақамли муҳитда ташкил этилган аудиовизуал фаолият бўлажак ўқитувчининг нафақат тинглаб тушуниш, балки касбий-коммуникатив компетенцияларини ҳам ривожлантириши асосланган.*

Калит сўзлар: *француз тили, тинглаб тушуниш, аудиовизуал материаллар, рақамли таълим, коммуникатив компетенция, субтитр, видео, бўлажак ўқитувчи.*

МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ ПО ПОНИМАНИЮ ТЕКСТА НА СЛУХ У БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ

Аннотация: *В статье рассматривается методика развития компетенции аудирования будущих учителей французского языка на основе цифровых аудиовизуальных материалов. Раскрываются возможности использования видео, аудио, субтитров, инфографики и интерактивных цифровых ресурсов в процессе обучения французскому языку. Предлагается поэтапная организация работы с аудиовизуальными материалами до, во время и после прослушивания. Особое внимание уделяется критериям отбора материалов, постепенному усложнению заданий и организации самостоятельной работы студентов. Обосновывается, что систематическое использование цифрового аудиовизуального контента способствует развитию не только навыков аудирования, но и профессионально-коммуникативной компетентности будущего учителя.*

Ключевые слова: *французский язык, аудирование, аудиовизуальные материалы, цифровое обучение, коммуникативная компетенция, субтитры, видео, будущий учитель.*

METHODOLOGY FOR DEVELOPING LISTENING COMPREHENSION COMPETENCE OF FUTURE FRENCH LANGUAGE TEACHERS BASED ON DIGITAL AUDIOVISUAL MATERIALS

Abstract: *The article examines a methodology for developing the listening comprehension competence of prospective French language teachers through digital audiovisual materials. It focuses on the pedagogical potential of videos, audio recordings, subtitles, infographics and interactive digital resources in French language instruction. A staged approach to working with audiovisual materials before, during and after listening is proposed. Particular attention is paid to selecting appropriate materials, gradually increasing task complexity and organizing students' independent learning. The article argues that systematic use of digital audiovisual content can develop both listening comprehension and the professional communicative competence of future French language teachers.*

Keywords: *French language, listening comprehension, audiovisual materials, digital learning, communicative competence, subtitles, video, prospective teacher.*

КИРИШ

Замонавий хорижий тил таълимида тинглаб тушуниш компетенцияси тилни амалий эгаллашнинг муҳим таркибий қисми ҳисобланади. Хусусан, француз тилини ўрганаётган бўлажак ўқитувчи учун турли нутқ тезлиги, талаффуз хусусиятлари, интонация, қисқартмалар, оғзаки нутқ элементлари ва табиий мулоқот шароитини тушуниш муҳим касбий кўникмалардан биридир. Анъанавий аудиоёзувлар билан ишлаш мазкур кўникмани шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга бўлса-да, бугунги рақамли таълим муҳити тинглаб тушуниш жараёнини визуал ва интерактив воситалар билан бойитиш имконини бермоқда.

Рақамли аудиовизуал материаллар деганда овозли ахборотни визуал компонентлар билан бирлаштирувчи видеофильмлар, қисқа видеолавҳалар, интервьюлар, мультфильмлар, ҳужжатли фильмлар, видеоблоглар, подкастларнинг видеоли шакллари, интерактив видеолар, субтитрли материаллар ва бошқа рақамли ресурслар тушунилади. Бундай материалларда тил фақат эшитиладиган ахборот сифатида эмас, балки тасвир, ҳаракат, мимика, имо-ишора, вазият ва маданий контекст билан биргаликда тақдим этилади. Бу эса тингловчига нутқ мазмунини контекст асосида англаш учун қўшимча таянч беради.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Аудиовизуал мультимодал материаллар табиий тил муҳитини яратиши ва мазмунни вазият билан боғлаб тушунишни осонлаштириши таъкидланган.

Бўлажак француз тили ўқитувчиси учун бундай ёндашувнинг аҳамияти янада юқори. Чунки у келажакда ўқувчиларга тил ўргатиш жараёнида рақамли воситалардан мустақил равишда фойдаланиши, аудиовизуал материалларни танлаши ва улар асосида методик топшириқлар ишлаб чиқиши керак бўлади.

МЕТОДОЛОГИЯ

Тинглаб тушуниш оддий равишда эшитилган нутқни қабул қилиш эмас, балки ахборотни ажратиш, асосий ва иккинчи даражали маълумотларни фарқлаш, маънони контекст асосида англаш, нутқ мақсадини аниқлаш ва олинган ахборотга муносабат билдириш жараёнидир. Шунинг учун тинглаш жараёнида талаба бир вақтнинг ўзида бир нечта интеллектуал операцияларни бажаради. Рақамли аудиовизуал материаллар ушбу жараённи енгиллаштириш учун визуал контекстдан фойдаланиш имконини беради.

Француз тилидаги табиий нутқни тушунишда бу айниқса муҳим. Француз тилида сўзларнинг ёзилиши ва талаффузи ўртасидаги фарқлар, liaison, elision, сўзларнинг нутқ жараёнида бир-бирига боғланиши, турли интонацион моделлар ва нутқ тезлиги бошланғич ҳамда ўрта даражадаги талабалар учун муайян қийинчиликларни юзага келтиради. Видео тасвир эса вазиятни кўргазмали тарзда англаш, нотаниш лексик бирликларни контекстдан тахмин қилиш ва суҳбат иштирокчиларининг коммуникатив мақсадини аниқлашга ёрдам беради.

Шу сабабли аудиовизуал материални дарсга шунчаки қўшимча иллюстрация сифатида киритиш етарли эмас. У аниқ дидактик мақсадга хизмат қилиши, муайян тинглаш кўникмасини шакллантириши ва тегишли топшириқлар билан бирга қўлланиши лозим. 2026 йилда эълон қилинган мета-таҳлилда аудиовизуал материаллардан фойдаланиш тил ўрганишнинг бир қатор йўналишларида ижобий натижалар билан боғлиқ экани, айниқса таълимий



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

мазмундаги видеоларнинг самараси кўнгилочар контентга нисбатан юқорироқ бўлиши қайд этилган.

Аудиовизуал материалларни танлашда биринчи навбатда уларнинг тил даражасига мослиги ҳисобга олиниши керак. Материал ҳаддан ташқари мураккаб бўлса, талаба асосий мазмунни англаш ўрнига ҳар бир нотаниш сўзни тушунишга уринади. Аксинча, жуда осон материал талабада янги тинглаш стратегияларини шакллантирмайди. Шунинг учун материал танлашда лексик-грамматик мураккаблик, нутқ тезлиги, видеонинг давомийлиги, мавзунинг талабага яқинлиги, визуал ахборотнинг аниқлиги ва аудио ҳамда визуал компонентлар ўртасидаги мувофиқлик ҳисобга олиниши зарур.

НАТИЖАЛАР ВА МУХОКАМА

Бўлажак француз тили ўқитувчилари билан ишлашда реал ҳаётий ва касбий вазиятларга яқин материаллардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Масалан, француз тилидаги интервью, дарс жараёни, туристик мулоқот, жамоат жойидаги суҳбат, университет муҳити, маданий тадбир, янгиликлар лавҳаси ёки касбий мулоқот акс этган видеолар талабаларни реал нутқ шароитига тайёрлайди. Бундай материаллар кейинчалик уларнинг ўз ўқувчилари учун ҳам методик ресурс сифатида хизмат қилиши мумкин.

Тинглаш жараёнини уч босқич асосида ташкил этиш самарали ҳисобланади:

- тинглашдан олдинги тайёргарлик,
- тинглаш жараёнидаги фаолият,
- тинглашдан кейинги фаолият.

Тинглашдан олдинги босқичда талаба видеода қандай мавзу ёритилишини тахмин қилади, сарлавҳа ва расм асосида мазмунни олдиндан башорат қилади, асосий лексик бирликлар билан танишади. Бу босқичда ўқитувчи барча нотаниш сўзларни тушунтириб бериши шарт эмас. Аксинча, талабани контекстдан маъно чиқаришга ўргатиш мақсадга мувофиқ. Масалан, “Regardez l’image et devinez le

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

sujet de la vidéo", "Quels mots pouvez-vous associer à ce thème?", "Que pensez-vous que les personnes vont dire?" каби топшириқлар қўлланиши мумкин.

Тинглаш жараёнидаги биринчи вазифа умумий мазмунни англашга қаратилган бўлади. Талаба биринчи марта видеони кўрганда ҳар бир сўзни тушунишга эмас, балки "Видео нима ҳақида?", "Кимлар иштирок этмоқда?", "Воқеа қаерда содир бўлмоқда?", "Суҳбатнинг асосий мақсади нима?" каби саволларга жавоб топишга ҳаракат қилади. Бу усул талабани сўзма-сўз таржима қилишдан воз кечиб, умумий маънони илғашга ўргатади.

Иккинчи марта тинглашда аниқ маълумотларни ажратишга қаратилган вазифалар берилади. Масалан, рақамлар, исмлар, жой номлари, вақт, сабаб, фикр, муносабат ёки муайян ҳаракатни аниқлаш талаб қилинади. Учинчи марта тинглашда эса нутқнинг коммуникатив мақсади, интонацияси ва маъно оттенкаларини таҳлил қилиш мумкин.

Бунда субтитрлардан оқилона фойдаланиш алоҳида аҳамиятга эга. Субтитр талаба учун тайёр жавоб берувчи восита эмас, балки нутқни эшитиш ва график шаклда таниш ўртасида боғловчи восита бўлиши керак. Аввало видеони субтитрсиз кўриш, кейин француз тилидаги субтитр билан қайта кўриш ва охирида яна субтитрсиз тинглаш самарали усуллардан бири ҳисобланади. Бу жараёнда талаба аввал эшитган нутқини матн билан солиштиради, талаффуз ва ёзув ўртасидаги фарқларни англайди.

Айниқса, француз тилида субтитрлардан фойдаланиш талаффузни ўзлаштириш учун фойдали. Талаба эшитилган "j'ai", "vous avez", "ils ont", "qu'est-ce que" каби бирликларни ёзма шаклда кўриб, уларнинг реал нутқда қандай талаффуз қилинишига эътибор қаратади. Кейинчалик субтитрни ёпиб, эшитилган нутқни мустақил англашга ҳаракат қилади. Шу тариқа субтитр доимий таянч эмас, босқичма-босқич камайтириладиган ёрдамчи воситага айланади.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Аудиовизуал материаллар билан ишлашда тинглаш стратегияларини шакллантириш ҳам муҳимдир. Талаба ҳар бир сўзни тушунишга ҳаракат қилмасдан, калит сўзларни ажратиш, контекстдан фойдаланиш, интонацияга эътибор бериш, визуал белгиларни таҳлил қилиш, олдинги билимларини сафарбар этиш ва тушунмаган қисмларни тахмин қилиш стратегияларини эгаллаши лозим.

Масалан, видеода "restaurant" мавзуси берилса, талаба меню, официант, стол, таомлар, ҳисоб-китоб каби визуал белгилар орқали вазиятни олдиндан англаши мумкин. Нутқда тушунмаган бир сўз учраса, у бутун мазмунни йўқотиб қўймасдан, кейинги маълумотлар орқали унинг маъносини тахмин қилади. Бундай стратегия мустақил тингловчини шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга.

Тинглашдан кейинги босқичда аудиовизуал материал мазмунини қайта ишлаш ва уни фаол нутқий фаолиятга айлантириш керак. Бу босқичда савол-жавоб, мазмунни қисқача баён қилиш, ролли ўйин, жуфтликда мулоқот, фикр билдириш, видеога давом ёки муқобил якуний қисм таклиф қилиш каби топшириқлардан фойдаланиш мумкин.

Бўлажак ўқитувчилар учун яна бир муҳим топшириқ — кўрилган материални методик нуқтаи назардан баҳолашдир. Талаба "Бу видео қайси тил даражасига мос?", "У қайси тинглаш кўникмасини ривожлантиради?", "Қандай топшириқ бериш мумкин?", "Субтитрдан қайси босқичда фойдаланиш мақсадга мувофиқ?" каби саволларга жавоб беради. Шу тариқа тинглаш машқи бир вақтнинг ўзида касбий тайёргарлик воситасига айланади.

Рақамли аудиовизуал материаллардан фойдаланишда топшириқларнинг босқичма-босқич мураккаблашуви муҳим. Бошланғич даражада асосий мазмунни аниқлаш, расм ва сўзларни мослаштириш, "тўғри–нотўғри" топшириқлари, қисқа жавоблар қўлланса, юқори даражаларда яширин маънони аниқлаш,

суҳбатдошнинг позициясини баҳолаш, далилларни ажратиш ва мустақил фикр билдириш каби вазифаларга ўтилади.

Шунингдек, видеонинг давомийлиги ҳам босқичма-босқич оширилиши керак. Дастлаб 1–3 дақиқалик видеолардан фойдаланиш, кейин 5–7 дақиқалик, юқори даражаларда эса 10–15 дақиқалик материалларга ўтиш мумкин. Узун видеони бир марта тўлиқ намойиш этиш ўрнига уни мазмуний қисмларга ажратиш ва ҳар бир қисм учун аниқ вазифа бериш мақсадга мувофиқ.

Рақамли аудиовизуал материаллар билан ишлашда ўқитувчининг роли ҳам ўзгаради. Ўқитувчи тайёр ахборотни берувчи эмас, балки тинглаш жараёнини ташкил этувчи, талабага стратегия танлашда ёрдам берувчи ва уни мустақил фаолиятга йўналтирувчи субъект сифатида намоён бўлади. Талаба эса ахборотни қабул қилувчи пассив иштирокчидан фаол тингловчи ва таҳлилчига айланади.

Мазкур ёндашув талабаларнинг мустақил ишини ташкил этиш учун ҳам катта имконият беради. Талабага ҳафтасига битта француз тилидаги қисқа видеони мустақил кўриш, янги лексик бирликларни ажратиш, мазмунни қисқача ёзиш ва видео асосида 3–5 та савол тайёрлаш вазифаси берилиши мумкин. Кейинги дарсда ушбу материал гуруҳли муҳокама учун асос бўлади. Бундай усул аудиториядаги вақтни тежайди ва талабанинг шахсий рақамли таълим траекториясини шакллантиришга ёрдам беради.

Рақамли муҳитда баҳолаш ҳам фақат тест натижасига асосланмаслиги керак. Талабанинг асосий мазмунни тушуниши, муҳим маълумотни ажрата олиши, контекстдан фойдаланиши, нутқ мақсадини аниқлаши ва ўз фикрини билдириши биргаликда баҳоланиши лозим. Бунда ўз-ўзини баҳолаш ва ўзаро баҳолаш элементларидан ҳам фойдаланиш мумкин.

Тинглаб тушуниш компетенциясини ривожлантиришда аудиовизуал материалнинг сифати ва унинг методик мақсади ўртасида мутаносиблик бўлиши шарт. Чунки ҳар қандай қизиқарли видео автоматик равишда таълимий самара

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

бермайди. Тасвир ва овоз ўртасидаги номутаносиблик, ортиқча визуал эффектлар, ҳаддан ташқари тез нутқ ёки мазмуннинг тил даражасига мос келмаслиги талабанинг когнитив юкламасини ошириши мумкин. Шунинг учун рақамли ресурсни танлашда унинг ташқи жозибадорлигидан кўра тил ўрганиш мақсадига мослиги биринчи ўринда туриши лозим. Аудиовизуал мультимодал материалларнинг самараси субтитр, видео тури ва аудио-визуал ахборот ўртасидаги муносабат каби омилларга ҳам боғлиқ экани қайд этилган.

Бўлажак француз тили ўқитувчиларини тайёрлашда ушбу ёндашувнинг яна бир муҳим жиҳати шундаки, талаба бир вақтнинг ўзида ҳам тил ўрганувчи, ҳам келажакдаги ўқитувчи сифатида фаолият олиб боради. У видеони аввал талаба сифатида тушунишга ҳаракат қилади, кейин эса педагог сифатида унинг методик имкониятларини таҳлил қилади. Масалан, талаба муайян видеони кўриб, унинг қайси қисми тинглашдан олдинги фаолият учун, қайси қисми асосий тинглаш учун ва қайси қисми коммуникатив топшириқ учун мос келишини белгилаши мумкин.

ХУЛОСА

Шундай қилиб, рақамли аудиовизуал материаллардан фойдаланишни уч босқичли методик тизим сифатида қараш мумкин: контекст яратиш — мазмунни англаш — коммуникатив фаолиятга ўтиш. Биринчи босқичда визуал ва лексик таянчлар берилади; иккинчи босқичда тинглаш стратегиялари асосида мазмун ўзлаштирилади; учинчи босқичда эса олинган ахборот нутқий ва касбий фаолиятда қўлланади. Ана шу изчиллик аудиовизуал материални оддий мультимедиа воситасидан самарали методик ресурсга айлантиради.

Бўлажак француз тили ўқитувчиларининг тинглаб тушуниш компетенциясини ривожлантиришда рақамли аудиовизуал материаллардан мақсадли ва тизимли фойдаланиш замонавий тил таълимининг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади. Видео, аудио, субтитр ва визуал контекстнинг

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

биргаликда қўлланилиши талабага табиий француз нутқини вазият билан боғлиқ ҳолда англаш имконини беради.

Самарали методика аудиовизуал материални шунчаки намойиш этиш билан чекланмайди. У тинглашдан олдинги тайёргарлик, тинглаш жараёнида мазмунни англаш ва тинглашдан кейинги коммуникатив фаолиятнинг узвий бирлигига асосланиши керак. Бунда материалнинг тил даражаси, давомийлиги, мазмуни, нутқ тезлиги ва визуал компонентлари ҳисобга олинади.

Бўлажак ўқитувчилар билан ишлашда аудиовизуал материаллардан фойдаланишнинг яна бир афзаллиги уларни келажакдаги педагогик фаолиятга тайёрлашидир. Талаба нафақат француз тилидаги нутқни тушунишни, балки аудиовизуал ресурсни танлаш, унга топшириқ ишлаб чиқиш ва таълим мақсадига мос равишда қўллашни ҳам ўрганади.

Демак, рақамли аудиовизуал материаллар асосида ташкил этилган тинглаш жараёни бўлажак француз тили ўқитувчисининг тил, коммуникатив, рақамли ва методик компетенцияларини комплекс равишда ривожлантириш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume*. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.
2. Field J. *Listening in the Language Classroom*. Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
3. Goh C.C.M., Vandergrift L. *Teaching and Learning Second Language Listening: Metacognition in Action*. 2nd ed. Routledge, 2022.
4. Mayer R.E. *Multimedia Learning*. 3rd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2020.
5. Tan S., Samad A.A., Ismail L. Systematic literature review on audio-visual multimodal input in listening comprehension // *Frontiers in Psychology*. 2022. Vol. 13. Article 980133.
6. Sutton D., Webb S. The effects of audiovisual input on second language learning: A meta-analysis // *Studies in Second Language Acquisition*. 2026. Vol. 48. No. 2. P. 571–595.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MUSTAQIL TA'LIM TRAYEKTORIYASINI SMART-SL METODIKASI ASOSIDA LOYIHALASH

Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna
Andijon davlat tibbiyot institute Farmatsiya fakulteti
"O`zbek tili va adabiyoti, tillar" kafedrasi v.b dotsenti,
Pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)
zumakovadilbarhon@gmail.com
Telefon: 998710981

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish, individual ta'lim ehtiyojlari va kasbiy rivojlanish istiqbollarini hisobga olgan holda mustaqil ta'lim trayektoriyasini loyihalash masalasi yoritilgan. Tadqiqotning asosiy metodik yechimi sifatida SMART-SL metodikasi taklif etilib, uning mazmuni maqsadga yo'naltirilganlik, motivatsiya, kognitiv faollik, amaliy faoliyat, refleksiya va raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'zaro integratsiyasiga asoslanadi. SMART-SL metodikasi orqali talabaning individual ta'lim maqsadlarini belgilash, o'quv resurslarini tanlash, mustaqil topshiriqlarni rejalashtirish, natijalarni monitoring qilish, o'z-o'zini baholash va ta'lim trayektoriyasini korreksiya qilish mexanizmlari tizimlashtirilgan. Maqolada metodikaning tashkiliy-pedagogik shartlari, bosqichlari, tamoyillari hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. SMART-SL metodikasining amaliyotga joriy etilishi talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tizimli, individual va natijaga yo'naltirilgan tashkil etishga xizmat qilishi asoslangan.*

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim muhiti, mustaqil ta'lim, ta'lim trayektoriyasi, SMART-SL metodikasi, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy kompetentlik, raqamli kompetentlik, individual ta'lim, refleksiya, o'z-o'zini baholash.*

РАЗРАБОТКА САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАЕКТОРИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ МЕТОДОЛОГИИ SMART-SL

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы эффективной организации самостоятельной образовательной деятельности будущих учителей в цифровой образовательной среде и проектирования индивидуальной траектории самостоятельного обучения с учетом образовательных потребностей и профессиональных перспектив студентов. В качестве основного методического решения предлагается методика SMART-SL, основанная на интеграции целевой направленности, мотивации, когнитивной активности, практической деятельности, рефлексии и использования цифровых технологий. С помощью методики SMART-SL*

систематизированы механизмы определения индивидуальных образовательных целей студентов, выбора цифровых образовательных ресурсов, планирования самостоятельных заданий, мониторинга результатов, самооценки и корректировки индивидуальной образовательной траектории. В статье анализируются организационно-педагогические условия, этапы и принципы реализации методики, а также ее возможности в развитии профессиональной компетентности будущих учителей. Обосновано, что внедрение методики SMART-SL способствует системной, индивидуализированной и результативной организации самостоятельного обучения студентов.

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, самостоятельное обучение, образовательная траектория, методика SMART-SL, будущий учитель, профессиональная компетентность, цифровая компетентность, индивидуальное обучение, рефлексия, самооценка.*

DESIGNING THE INDEPENDENT EDUCATIONAL TRAJECTORY OF FUTURE TEACHERS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT BASED ON THE SMART-SL METHODOLOGY

Abstract. *The article examines the organization of future teachers' independent learning in a digital educational environment and the design of individual learning trajectories based on students' educational needs and professional development perspectives. The SMART-SL methodology is proposed as the main methodological solution. It integrates goal orientation, motivation, cognitive activity, practical learning, reflection, and the effective use of digital technologies. The methodology systematizes mechanisms for setting individual learning goals, selecting digital educational resources, planning independent assignments, monitoring learning outcomes, conducting self-assessment, and correcting individual learning trajectories. The article analyzes the organizational and pedagogical conditions, principles, and stages of implementing the SMART-SL methodology, as well as its potential for developing the professional competencies of future teachers. It is argued that the implementation of the SMART-SL methodology contributes to the systematic, individualized, and result-oriented organization of students' independent learning in a digital educational environment.*

Keywords: *digital educational environment, independent learning, learning trajectory, SMART-SL methodology, future teacher, professional competence, digital competence, individualized learning, reflection, self-assessment.*

KIRISH

Raqamli transformatsiya ta'lim tizimining mazmuni, shakllari va metodlarini tubdan o'zgartirmoqda. Zamonaviy oliy pedagogik ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchidan faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish emas, balki o'zining ta'limiy ehtiyojlarini aniqlash, mustaqil ravishda maqsad belgilash, axborot resurslarini izlash va

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

saralash, raqamli vositalardan samarali foydalanish, o‘z faoliyatini monitoring qilish hamda natijalarni refleksiv baholash qobiliyatlari ham talab etiladi. Bugungi kunda ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi mustaqil ta’limning mazmun va texnologiyalarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. An’anaviy mustaqil ta’limda talaba ko‘pincha o‘qituvchi tomonidan belgilangan topshiriqlarni bajaruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘lsa, raqamli ta’lim muhitida u o‘z ta’lim faoliyatini loyihalovchi, boshqaruvchi va baholovchi faol subyektga aylanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’limini individual ta’lim trayektoriyasi asosida tashkil etish alohida ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Individual trayektoriya talabaning boshlang‘ich tayyorgarligi, motivatsiyasi, kasbiy qiziqishlari, o‘zlashtirish sur’ati, raqamli kompetentligiga mos holda shakllantirilishi lozim. Tadqiqotning dolzarbligi aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’lim trayektoriyasini loyihalashga xizmat qiluvchi samarali metodik tizimni ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Mazkur maqolada ushbu muammoni hal etish maqsadida ishlab chiqilgan SMART-SL metodikasining pedagogik mazmuni, tarkibiy tuzilishi, amalga oshirish bosqichlari va bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari ochib beriladi.

MUAMMONING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Mustaqil ta’lim zamonaviy pedagogikada talabaning o‘quv faoliyatini mustaqil tashkil etishi, maqsad qo‘yishi, ta’lim resurslaridan foydalanishi va o‘z natijalarini baholashi bilan tavsiflanadigan murakkab pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Raqamli ta’lim muhitida mustaqil ta’limning imkoniyatlari yanada kengayadi. Elektron kutubxonalar, ta’lim platformalari, videodarslar, elektron kurslar, simulyatorlar, test tizimlari, bulutli texnologiyalar va sun’iy intellektga asoslangan vositalar talabaning individual ta’lim ehtiyojlariga mos resurslarni tanlash imkonini beradi. Biroq raqamli resurslarning mavjudligi o‘z-o‘zidan samarali mustaqil ta’limni kafolatlamaydi. Talaba raqamli muhitda juda katta hajmdagi axborot oqimiga duch keladi. Shu sababli axborotni

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

izlash, tanlash, tahlil qilish, ishonchliligini baholash va undan kasbiy faoliyatda foydalanish ko‘nikmalari muhim ahamiyatga ega. Mustaqil ta’lim trayektoriyasini loyihalash esa mazkur jarayonni tartibga soluvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Trayektoriya talabaning “qayerdan boshlashi”, “qanday maqsadga erishishi”, “qaysi vositalardan foydalanishi”, “natijasini qanday baholashi” va “keyingi faoliyatini qanday takomillashtirishi”ni belgilaydi. Shu sababli mustaqil ta’lim trayektoriyasini loyihalashni faqat topshiriqlar majmui sifatida emas, balki maqsad, mazmun, metod, vosita, monitoring va refleksiyani o‘zida birlashtiruvchi yaxlit pedagogik tizim sifatida qarash maqsadga muvofiq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga yo‘naltirilgan va raqamli texnologiyalarga asoslangan yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Tadqiqotning asosiy metodlari sifatida pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, anketa, suhbat, test, diagnostik topshiriqlar, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov, o‘z-o‘zini baholash hamda natijalarni qiyosiy tahlil qilishdan foydalanildi. Mazkur metodlarning o‘zaro uyg‘unligi bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini kompleks baholash imkonini beradi. Xususan, diagnostik metodlar talabaning boshlang‘ich holatini aniqlashga, faoliyatga yo‘naltirilgan metodlar mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etishga, refleksiv metodlar esa erishilgan natijalarni anglash va keyingi ta’lim faoliyatini rejalashtirishga xizmat qiladi. SMART-SL metodikasi raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’lim trayektoriyasini individual, bosqichma-bosqich va natijaga yo‘naltirilgan tarzda loyihalashga qaratilgan metodik tizimdir.

Shunday qilib, SMART-SL metodikasi “maqsad – motivatsiya – bilish – faoliyat – refleksiya – raqamli qo‘llab-quvvatlash”ning yagona pedagogik siklini yuzaga keltiradi. SMART-SL metodikasida mustaqil ta’lim trayektoriyasini loyihalash olti asosiy bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich – diagnostik bosqich

Ushbu bosqichda talabaning boshlang‘ich bilim darajasi, raqamli kompetentligi, mustaqil ishlash qobiliyati, motivatsiyasi va kasbiy qiziqishlari aniqlanadi. Diagnostikaning asosiy vazifasi talabaning “boshlang‘ich nuqtasi”ni belgilashdan iborat. Natijalar keyingi individual ta’lim maqsadlarini shakllantirish uchun asos bo‘ladi. Ikkinchi bosqich – maqsadli bosqich. Talaba diagnostika natijalariga asoslanib, o‘zining qisqa, o‘rta va uzoq muddatli ta’lim maqsadlarini belgilaydi. Maqsadlar aniq, o‘lchanadigan, erishish mumkin bo‘lgan, real va vaqt chegarasiga ega bo‘lishi lozim. Bu yondashuv mustaqil ta’limni mavhum faoliyatdan aniq natijaga yo‘naltirilgan jarayonga aylantiradi.

Uchinchi bosqich – rejalashtirish bosqichi. Ushbu bosqichda talaba belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni rejalashtiradi.

Rejada: o‘rganiladigan mavzular; foydalaniladigan elektron resurslar; bajariladigan topshiriqlar; muddatlar; nazorat shakllari; kutilayotgan natijalar belgilanadi.

To‘rtinchi bosqich – faoliyat bosqichi. Talaba mustaqil ta’lim faoliyatini amalga oshiradi. Bunda elektron darsliklar, videoma’ruzalar, ta’lim platformalari, elektron kutubxonalar, test tizimlari va boshqa raqamli vositalardan foydalaniladi. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun faoliyatning faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmasligi muhim. U pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, dars loyihalarini ishlab chiqish, metodik materiallar yaratish, muammoli vazifalarni hal qilish va o‘z pedagogik qarorlarini asoslash kabi amaliy faoliyatlarni ham bajaradi.

Beshinchi bosqich – monitoring va baholash. Talabaning individual trayektoriyasi muntazam monitoring qilinadi. Monitoring quyidagilarni aniqlash imkonini beradi: belgilangan maqsadlarning bajarilish darajasi; topshiriqlarning o‘z vaqtida bajarilishi; bilim va ko‘nikmalarning rivojlanish dinamikasi; raqamli vositalardan foydalanish samaradorligi; mustaqil faoliyatdagi muammolar.

Oltinchi bosqich – refleksiya va korreksiya. SMART-SL metodikasining muhim jihatlaridan biri ta’lim trayektoriyasining yakuniy emas, dinamik xarakterga ega

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ekanligidir. Talaba o‘z faoliyatini tahlil qiladi, erishilgan natijalarni baholaydi, kamchiliklarini aniqlaydi va keyingi bosqich uchun yangi maqsadlar belgilaydi. Shu tariqa: Diagnostika → Maqsad → Rejalashtirish → Faoliyat → Monitoring →Refleksiya → Korreksiya → yangi ta’lim maqsadi ko‘rinishidagi uzluksiz pedagogik sikl shakllanadi.

Metodikani samarali amalga oshirish bir qator pedagogik tamoyillarga tayanadi. Maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili. Har bir mustaqil ta’lim faoliyati aniq natijaga yo‘naltiriladi. Individualizatsiya tamoyili. Talabaning individual ehtiyojlari, tayyorgarlik darajasi va kasbiy qiziqishlari hisobga olinadi. Tizimlilik va izchillik tamoyili. Mustaqil ta’lim tasodifiy topshiriqlar yig‘indisi emas, balki o‘zaro bog‘langan faoliyatlar tizimi sifatida tashkil etiladi. Faollik tamoyili. Talaba bilimlarni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki ularni mustaqil izlab topuvchi va amaliy faoliyatda qo‘llovchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Refleksivlik tamoyili. Talaba o‘z faoliyati va natijalarini muntazam tahlil qiladi. Raqamli muhitdan oqilona foydalanish tamoyili. Raqamli texnologiyalar maqsad emas, balki ta’lim natijasiga erishishni ta’minlovchi pedagogik vosita sifatida qo‘llanadi. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligi faqat fan bo‘yicha bilimlarning mavjudligi bilan belgilanmaydi. Zamonaviy o‘qituvchi mustaqil o‘rganish, yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish, raqamli vositalardan foydalanish, pedagogik muammolarni hal qilish va o‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatlariga ham ega bo‘lishi kerak. SMART-SL metodikasi ushbu kompetensiyalarni kompleks ravishda rivojlantirish imkonini beradi. SMART-SL komponenti

Rivojlanadigan kompetentlik.

Maqsadli

Kasbiy maqsad qo‘yish kompetentligi

Motivatsion

Kasbiy motivatsiya.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Kognitiv

Pedagogik bilim va analitik fikrlash

Faoliyatli

Amaliy-metodik kompetentlik

Refleksiv

Refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kompetentligi.

Raqamli pedagogik kompetentlik.

Ayniqsa, kognitiv va faoliyatli komponentlarning integratsiyasi bo‘lajak o‘qituvchining nazariy bilimlarini amaliy pedagogik vazifalar bilan bog‘lashga xizmat qiladi.Masalan, “Pedagogik mahorat” fanini o‘rganish jarayonida talaba avval pedagogik muammoning nazariy asoslarini o‘rganadi, keyin raqamli resurslardan qo‘shimcha ma’lumot izlaydi, pedagogik vaziyatni tahlil qiladi, yechim ishlab chiqadi, uni amaliy topshiriqda qo‘llaydi va yakunda o‘z faoliyatini refleksiv baholaydi. Bu jarayon kasbiy kompetentlikning integral rivojlanishini ta’minlaydi. Raqamli vositalar SMART-SL metodikasida bir nechta funksiyani bajaradi. Birinchidan, ular ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Ikkinchidan, individual ta’lim trayektoriyasini monitoring qilishga yordam beradi. Uchinchidan, talabaning mustaqil faoliyati natijalarini tezkor baholash imkonini yaratadi. To‘rtinchidan, elektron portfoliolar orqali talabaning kasbiy rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Beshinchidan, raqamli kommunikatsiya vositalari talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi pedagogik hamkorlikni davom ettirishga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy sun’iy intellekt vositalari axborotni izlash, matnlarni tahlil qilish, g‘oyalarni shakllantirish va o‘quv jarayonini individuallashtirishda yordamchi vosita bo‘lishi mumkin. Biroq ulardan foydalanishda akademik halollik, mustaqil fikrlash va manbalarni tekshirish tamoyillari ustuvor bo‘lishi lozim.

TAJRIBA-SINOV NATIJALARINING TAHLILI

SMART-SL metodikasining pedagogik samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’lim faoliyati, kasbiy kompetentligi, raqamli vositalardan foydalanish qobiliyati, mustaqil rejalashtirish va refleksiv faoliyat ko‘rsatkichlari monitoring qilindi. Tajriba jarayonida dastlabki diagnostika asosida talabalarning mavjud holati aniqlandi. Keyingi bosqichda tajriba guruhlarida SMART-SL metodikasining asosiy komponentlari asosida mustaqil ta’lim faoliyati tashkil etildi. Talabalarga individual maqsadlar belgilash, ta’lim resurslarini mustaqil tanlash, elektron portfolio yuritish, amaliy topshiriqlarni bajarish, o‘z faoliyatini baholash va refleksiv tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Tajriba yakunida olingan natijalar dastlabki diagnostika natijalari bilan qiyoslandi. Tahlillar SMART-SL metodikasining talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini tizimlashtirish, ta’limga bo‘lgan mas’uliyatini oshirish va kasbiy rivojlanishga yo‘naltirishda ijobiy pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Natijalarni statistik jihatdan qayta ishlashda o‘rtacha qiymatlar, foizli ko‘rsatkichlar, dinamik o‘zgarishlar hamda tajriba va nazorat guruhlari natijalarini qiyosiy tahlil qilish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Tajriba-sinovning muhim natijasi sifatida SMART-SL metodikasidan foydalanilgan sharoitda talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini rejalashtirish, raqamli resurslardan foydalanish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va refleksiya qilish ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikasi qayd etildi. SMART-SL metodikasining ilmiy ahamiyati raqamli ta’lim muhitida mustaqil ta’lim trayektoriyasini loyihalashning o‘zaro bog‘langan pedagogik komponentlarini tizimlashtirish bilan belgilanadi. Metodikaning amaliy ahamiyati esa oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etishda undan foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi. SMART-SL metodikasidan:

ma’ruza va seminar mashg‘ulotlaridan keyingi mustaqil ta’limni tashkil etishda;

“Pedagogik mahorat” fanida;

pedagogik amaliyot jarayonida;

elektron portfolio yaratishda;

individual ta'lim rejalarini ishlab chiqishda;

kasbiy rivojlanish dasturlarini tashkil etishda;

talabalarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda foydalanish mumkin. Metodikaning yana bir muhim jihati shundaki, u o'qituvchi rolini ham o'zgartiradi. O'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki talabaning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashiga metodik ko'mak beruvchi, monitoring qiluvchi va refleksiv faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi pedagog sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etishning yangi metodik mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish uchun talabaning individual imkoniyatlari, ta'limiy ehtiyojlari, kasbiy maqsadlari va raqamli kompetentligini hisobga olish zarur. Tadqiqot natijasida SMART-SL metodikasi raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ta'lim trayektoriyasini loyihalashga xizmat qiluvchi integrativ metodik tizim sifatida asoslandi. SMART-SL metodikasining asosiy mazmunini maqsadli, motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv va raqamli komponentlarning o'zaro integratsiyasi tashkil etadi. Ushbu komponentlarning izchil amalga oshirilishi talabaning mustaqil ta'lim faoliyatini rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring qilish va korreksiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mustaqil ta'lim trayektoriyasini loyihalashning diagnostika, maqsad belgilash, rejalashtirish, faoliyat, monitoring, refleksiya va korreksiya bosqichlari o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, uzluksiz pedagogik siklni tashkil etadi. SMART-SL metodikasining muhim pedagogik natijasi bo'lajak o'qituvchilarda nafaqat mustaqil bilim olish, balki o'z kasbiy rivojlanishini rejalashtirish, raqamli resurslardan oqilona foydalanish, pedagogik muammolarni mustaqil hal qilish va o'z faoliyatini refleksiv baholash kompetensiyalarining rivojlanishiga xizmat qilishidir. Shu asosda SMART-SL metodikasini oliy pedagogik



ta'lim jarayoniga joriy etish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularning mustaqil ta'lim faoliyatini individuallashtirish va raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta'minlovchi istiqbolli metodik yechim sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986.
2. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. – Maidenhead: Open University Press, 2011.
3. Boekaerts M. Self-regulated learning: Where we are today // International Journal of Educational Research. – 1999. – Vol. 31. – P. 445–457.
4. Garrison D.R. E-Learning in the 21st Century: A Framework for Research and Practice. – New York: Routledge, 2017.
5. Knowles M.S. Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers. – New York: Association Press, 1975.
6. Zimmerman B.J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. – 2002. – Vol. 41(2). – P. 64–70.
7. UNESCO. Global Education Monitoring Report: Technology in Education. – Paris: UNESCO, 2023.
8. OECD. Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. – Paris: OECD Publishing, 2023.
9. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.

Cu(II) SULFAT VA 4-AMINOSALITSIL KISLOTA ASOSIDA OLINGAN KOMPLEKS BIRIKMANING KVANT-KIMYOVIY TAHLILI

M.R.Narimanova[1], Z.Sh Abdullayeva[2], Ch.A.Shermetova[2]
[1]UrDTI "Tibbiy va biologik kimyo" kafedrasi stajyor assistenti
[2]PhD, Urganch RANCH texnologiya universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Cu(II) sulfat va 4-aminosalitsil kislota asosida olingan kompleks birikmaning kvant-kimyoviy xususiyatlari nazariy usullar yordamida o'rganildi. DFT hisoblashlari asosida kompleksning optimal molekulyar geometriyasi aniqlanib, uning elektron tuzilishi, Mulliken zaryad taqsimoti, HOMO–LUMO energiya orbitallari, molekulyar elektrostatik potensial (MEP) xaritasi hamda vibratsion chastotalari tahlil qilindi. Hisoblash natijalari kompleksning energetik jihatdan barqaror molekulyar tuzilishga ega ekanligini ko'rsatdi. 4-aminosalitsil kislota ligandining karboksil va aminoguruhlaridagi donor atomlar orqali Cu(II) ionlari bilan koordinatsion o'zaro ta'sir hosil qilishi aniqlandi. HOMO–LUMO tahlili kompleksning elektron donor-akseptor xususiyatlari va kimyoviy faolligi haqida ma'lumot berdi, MEP xaritasi esa molekuladagi elektrofil va nukleofil markazlarni aniqlash imkonini berdi. Vibratsion chastotalar tahlili ligandning funksional guruhlari koordinatsiyalanishi natijasida kuzatiladigan spektral o'zgarishlarni nazariy jihatdan tasdiqladi. Olingan natijalar Cu(II)–4-aminosalitsilat kompleksining elektron va strukturaviy xususiyatlarini chuqurroq tushunish hamda uning amaliy qo'llanilish imkoniyatlarini baholash uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Cu(II) sulfat, 4-aminosalitsil kislota, mis(II) kompleksi, koordinatsion birikma, kvant-kimyoviy hisoblash, DFT, molekulyar geometriya, Mulliken zaryadlari, HOMO–LUMO, MEP, vibratsion tahlil.*

КВАНТОВО-ХИМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СЛОЖНОГО СОЕДИНЕНИЯ, ПОЛУЧЕННОГО ИЗ СУЛЬФАТА МЕ(II) И 4-АМИНОСАЛИЦИЛОВОЙ КИСЛОТЫ

Аннотация. *В данной статье с использованием квантово-химических методов исследованы структурные и электронные свойства комплексного соединения, полученного на основе сульфата меди(II) и 4-аминосалициловой кислоты. На основе DFT-расчётов проведена оптимизация молекулярной геометрии комплекса, а также выполнен анализ распределения зарядов по Малликену, энергетических уровней HOMO–LUMO, молекулярного электростатического потенциала (MEP) и колебательных частот. Результаты расчётов показали, что исследуемый комплекс характеризуется энергетически стабильной молекулярной структурой. Установлено, что лиганд 4-аминосалициловой кислоты взаимодействует с ионами Cu(II) посредством донорных атомов функциональных групп, образуя координационные связи. Анализ HOMO–LUMO позволил оценить электронно-донорные и акцепторные свойства комплекса и его химическую активность, тогда как карта MEP позволила определить электрофильные и нуклеофильные центры молекулы. Анализ колебательных частот подтвердил*

теоретически ожидаемые изменения, связанные с координацией функциональных групп лиганда. Полученные результаты имеют важное теоретическое значение для более глубокого понимания структурных и электронных свойств комплекса Cu(II) с 4-аминосалициловой кислотой и оценки перспектив его практического применения.

Ключевые слова: *сульфат Cu(II), 4-аминосалициловая кислота, комплекс меди(II), координационное соединение, квантово-химические расчёты, DFT, молекулярная геометрия, заряды Малликена, HOMO–LUMO, MEP, колебательный анализ.*

QUANTUM-CHEMICAL ANALYSIS OF A COMPLEX COMPOUND OBTAINED FROM CU(II) SULPHATE AND 4-AMINOSALICYLIC ACID

Abstract. *In this study, the structural and electronic properties of a coordination compound obtained from copper(II) sulfate and 4-aminosalicylic acid were investigated using quantum-chemical methods. The molecular geometry of the complex was optimized using DFT calculations, followed by an analysis of Mulliken charge distribution, HOMO–LUMO energy levels, molecular electrostatic potential (MEP) mapping, and vibrational frequencies. The calculated results demonstrated that the investigated complex possesses an energetically stable molecular structure. It was established that the 4-aminosalicylic acid ligand interacts with Cu(II) ions through donor atoms of its functional groups, resulting in the formation of coordination bonds. The HOMO–LUMO analysis provided information on the electron-donor and electron-acceptor properties and chemical reactivity of the complex, while the MEP map enabled the identification of electrophilic and nucleophilic regions within the molecule. Vibrational frequency analysis theoretically confirmed the spectral changes associated with the coordination of the ligand functional groups. The obtained results provide an important theoretical basis for a deeper understanding of the structural and electronic properties of the Cu(II)–4-aminosalicylic acid complex and for evaluating its potential practical applications.*

Keywords*. Cu(II) sulfate, 4-aminosalicylic acid, copper(II) complex, coordination compound, quantum-chemical calculations, DFT, molecular geometry, Mulliken charges, HOMO–LUMO, MEP, vibrational analysis.*

KIRISH

So‘nggi yillarda metall komplekslarining kvant-kimyoviy tahlili ularning elektron tuzilishi, molekulyar geometriyasi, metall–ligand bog‘lanish xususiyatlari va reaktivligini chuqur o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Cu(II) ionlari asosidagi koordinatsion birikmalar o‘ziga xos elektron tuzilishi, turli koordinatsion geometriyalarni hosil qilishi hamda biologik va katalitik xususiyatlari bilan ajralib turadi. 4-Aminosalitsil kislota tarkibidagi karboksil, gidroksil va aminoguruhlarning donor

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

atomlari Cu(II) ionlari bilan koordinatsion bog‘lar hosil qilishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Cu(II) sulfat va 4-aminosalitsil kislota asosida hosil qilingan kompleks birikmaning elektron va strukturaviy xususiyatlarini kvant-kimyoviy usullar yordamida o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kompleks birikmalar kimyosi zamonaviy koordinatsion kimyoning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, yangi funksional materiallar, katalizatorlar, biologik faol moddalar va farmatsevtik preparatlar yaratishda keng qo‘llaniladi [1–3]. So‘nggi yillarda Cu(II) asosidagi kompleks birikmalar turli xil organik ligandlar bilan sintez qilinib, ularning strukturaviy, elektron, katalitik va biologik xususiyatlari keng tadqiq etilmoqda [4,5].

4-Aminosalitsil kislota tarkibida karboksil, gidroksil va aminoguruhlarning mavjudligi sababli metall ionlari bilan turli xil koordinatsion birikmalar hosil qilish imkoniyatiga ega ko‘p funksional ligand hisoblanadi [6]. Ligand tarkibidagi kislorod va azot atomlari donor markazlar sifatida ishtirok etib, Cu(II) ionlari bilan koordinatsion bog‘lar hosil qilishi mumkin. Shu sababli 4-aminosalitsil kislota asosidagi mis(II) komplekslarining tuzilishi va elektron xususiyatlarini o‘rganish koordinatsion kimyo nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega [7].

So‘nggi tadqiqotlarda kvant-kimyoviy hisoblash usullari, xususan, DFT, Mulliken zaryad taqsimoti, frontier molekulyar orbitallar va molekulyar elektrostatik potensial (MEP) tahlillari kompleks birikmalarning energetik barqarorligi, elektron tuzilishi va reaktivligini baholashda samarali usullar sifatida qo‘llanilmoqda [8–10]. Ushbu usullar yordamida metall–ligand o‘zaro ta’sirining tabiati, elektron zichlikning molekula bo‘ylab taqsimlanishi hamda reaksion markazlarning xususiyatlarini nazariy jihatdan aniqlash mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Cu(II) sulfat va 4-aminosalitsil kislota asosida olingan kompleks birikmaning kvant-kimyoviy tahlili uning molekulyar va elektron tuzilishini chuqurroq tavsiflash imkonini beradi.

Tadqiqot kvant-kimyoviy hisoblash usullari asosida amalga oshirildi. Kompleksning molekulyar geometriyasini optimallashtirish, elektron zichlik taqsimotini aniqlash va frontier molekulyar orbitallarni tahlil qilish DFT (Density Functional Theory) usuli yordamida bajarildi. Hisoblashlarda B3LYP funksionali va mos bazis to‘plamidan foydalanildi. Olingan natijalar asosida kompleksning optimallashtirilgan molekulyar tuzilishi, HOMO va LUMO energiya qiymatlari hamda ular orasidagi energetik farq, Mulliken atom zaryadlari, molekulyar elektrostatik potensial (MEP) xaritasi va elektron zichlik kontur diagrammalari aniqlandi [11]. Mazkur parametrlar kompleksning energetik barqarorligi, elektron donor-akseptor xususiyatlari va ehtimoliy reaktiv markazlarini baholashda asosiy mezon sifatida qo‘llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kvant-kimyoviy hisoblash natijalariga ko‘ra, Cu(II) sulfat va 4-aminosalitsil kislota asosida hosil bo‘lgan kompleks birikmaning optimallashtirilgan geometrik tuzilishi aniqlandi. Molekuladagi atomlarning qisman zaryadlari tahlil qilinib, markaziy Cu(II) ioni atrofida elektron zichligining qayta taqsimlanishi kuzatildi [12]. Bu holat 4-aminosalitsil kislota tarkibidagi donor atomlar bilan Cu(II) ioni o‘rtasida donor–akseptor tipidagi elektron o‘zaro ta’sir mavjudligini ko‘rsatadi. Kompleksning optimallashtirilgan geometrik tuzilishi va undagi elektron zichlikning taqsimlanishi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Cu(II) sulfat va 4-aminosalitsil kislata asosida hosil qilingan kompleksning elektron zaryad taqsimoti (Mulliken usuli bo‘yicha)

Optimallashtirilgan kompleksning 3D modeli va molekulalararo vodorod bog‘lanishlari 2-rasmda keltirilgan. 4-Aminosalitsil kislota ligandining karboksil va gidroksil guruhlaridagi kislorod atomlari, shuningdek aminoguruhdagi azot atomi orqali markaziy Cu(II) ioni bilan koordinatsion o‘zaro ta’sir hosil qilishi aniqlandi. Hisoblash natijalariga ko‘ra, Cu–O va Cu–N bog‘larining geometrik parametrlari kompleksda metall–ligand o‘zaro ta’sirining mavjudligini tasdiqlaydi. Mazkur bog‘larning uzunligi va elektron zichlik taqsimoti Cu(II) ioni bilan 4-aminosalitsil kislota ligandining donor atomlari o‘rtasidagi ion-kovalent xarakterdagi koordinatsion bog‘lanishni ko‘rsatadi (2-rasm).



2-rasm. Kompleks birikmaning optimallashtirilgan molekulyar geometriyasi va bog‘ uzunliklari



3-rasm. Molekulyar orbitalar (HOMO va LUMO) ko‘rinishi

Kompleks birikmaning molekulyar orbitalari HOMO va LUMO taqsimoti rasmda keltirilgan. Hisoblash natijalariga ko‘ra, HOMO asosan 4-aminosalitsil kislota ligandining donor atomlari, xususan kislorod va azot atomlari atrofida elektron zichligining yuqori ekanligini ko‘rsatadi. LUMO esa markaziy Cu(II) ioni va unga yaqin molekulyar sohada joylashgan. HOMO va LUMO orbitalarining fazoviy taqsimoti ligand va metall markazi o‘rtasida elektron zichlikning qayta taqsimlanishi mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu natijalar kompleksda liganddan metall markaziga elektron o‘tish ehtimoli mavjudligini va Cu(II)–4-aminosalitsil kislota tizimida donor–akseptor tipidagi elektron o‘zaro ta’sir shakllanganligini ko‘rsatadi (3-rasm).



4-rasm. Molekulyar elektrostatik potentsial (MEP) taqsimoti, kompleksning to‘liq energiya spektri (orbital energiyalarining taqsimlanishi)

Molekulaning molekulyar elektrostatik potensial (MEP) taqsimoti 4-rasmda keltirilgan. MEP xaritasida qizil rang elektron zichligi yuqori bo‘lgan sohalarni, ko‘k rang esa elektron yetishmovchiligi kuzatiladigan hududlarni ifodalaydi. Elektron zichligi yuqori bo‘lgan qizil sohalar, asosan, 4-aminosalitsil kislota ligandining kislorod va azot atomlari atrofida kuzatilib, ushbu qismlar nukleofil markazlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ko‘k rang bilan ifodalangan sohalar esa elektron yetishmovchiligi yuqori bo‘lgan elektrofil markazlarni bildiradi. Hisoblash natijalariga ko‘ra, kompleksdagi eng katta

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

musbat elektrostatik potensial markaziy Cu(II) ioni yaqinida kuzatilib, uning elektronlarni qabul qilishga moyil elektrofil markaz sifatidagi xususiyatini koʻrsatadi. MEP xaritasi kompleks molekulasidagi elektron zichlikning fazoviy taqsimlanishi va ligand–metall oʻrtasidagi elektrostatik oʻzaro taʼsirlarni baholash imkonini beradi (4-rasm).

Elektron zichlikning kontur diagrammalari kompleks molekulasidagi elektronlarning fazoviy taqsimlanishini yaqqol ifodalaydi. Ayniqsa, markaziy Cu(II) ioni va u bilan koordinatsiyalangan kislorod hamda azot donor atomlari atrofida elektron zichlik konturlarining zich joylashishi metall–ligand oʻzaro taʼsirining mavjudligini koʻrsatadi. Ushbu diagrammalar elektron zichlikning molekula boʻylab qayta taqsimlanishini, orbitalararo oʻzaro taʼsirni va koordinatsion bogʻlarning elektron tabiatini batafsil tavsiflash imkonini beradi. Natijalarga koʻra, Cu(II) markazi bilan 4-aminosalitsil kislota ligandining donor atomlari oʻrtasida sezilarli elektron oʻzaro taʼsir mavjudligi hamda kompleksning barqaror koordinatsion tuzilishi shakllanganligi aniqlandi [15].

XULOSA

Oʻtkazilgan kvant-kimyoviy tadqiqotlar natijalariga koʻra, Cu(II) sulfat va 4-aminosalitsil kislota asosida olingan kompleks birikma barqaror elektron va geometrik tuzilishga ega ekanligi aniqlandi. Mulliken zaryad tahlili markaziy Cu(II) ioni va 4-aminosalitsil kislota ligandining donor atomlari oʻrtasida elektron zichlikning qayta taqsimlanishini koʻrsatdi. HOMO–LUMO tahlili kompleksning elektron tuzilishi va kimyoviy barqarorligini baholash imkonini berdi, MEP xaritasi esa molekuladagi elektrofil va nukleofil markazlarni aniqlashga xizmat qildi.

Vibratsion chastotalar tahlili kompleksning optimallashtirilgan geometrik tuzilmasi uchun xayoliy chastotalar mavjud emasligini koʻrsatib, uning energetik jihatdan barqaror holatda ekanligini tasdiqladi. Olingan natijalar Cu(II)–4-aminosalitsil kislota kompleksining elektron va strukturaviy xususiyatlarini nazariy jihatdan tavsiflash,

shuningdek, uning potensial biologik va katalitik xossalarini kelgusida chuqurroq o‘rganish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Housecroft C.E., Sharpe A.G. Inorganic Chemistry. 5th ed. – Harlow: Pearson, 2018. – 816 p.
2. Miessler G.L., Fischer P.J., Tarr D.A. Inorganic Chemistry. 5th ed. – Boston: Pearson, 2014. – 696 p.
3. Cotton F.A., Wilkinson G., Murillo C.A., Bochmann M. Advanced Inorganic Chemistry. 6th ed. – New York: Wiley-Interscience, 1999. – 1376 p.
4. Kumar S., Dhar D.N., Saxena P.N. Applications of metal complexes of Schiff bases – A review // Journal of Scientific & Industrial Research. – 2009. – Vol. 68. – P. 181–187.
5. Sigel H., Sigel A. Metal Ions in Biological Systems: Copper and Its Role in Biology. – New York: Marcel Dekker, 1983.
6. Várnagy K., Sóvágó I. Biological aspects of copper coordination chemistry // Journal of Coordination Chemistry. – 1998. – Vol. 45. – P. 1–19.
7. Silverstein R.M., Webster F.X., Kiemle D.J., Bryce D.L. Spectrometric Identification of Organic Compounds. 8th ed. – Hoboken: Wiley, 2014. – 464 p.
8. Parr R.G., Yang W. Density-Functional Theory of Atoms and Molecules. – New York: Oxford University Press, 1989. – 333 p.
9. Becke A.D. Density-functional thermochemistry. III. The role of exact exchange // The Journal of Chemical Physics. – 1993. – Vol. 98. – P. 5648–5652.
10. Lee C., Yang W., Parr R.G. Development of the Colle–Salvetti correlation-energy formula into a functional of the electron density // Physical Review B. – 1988. – Vol. 37. – P. 785–789.
11. Stephens P.J., Devlin F.J., Chabalowski C.F., Frisch M.J. Ab initio calculation of vibrational absorption and circular dichroism spectra using density functional force fields // The Journal of Physical Chemistry. – 1994. – Vol. 98. – P. 11623–11627.
12. Mulliken R.S. Electronic population analysis on LCAO–MO molecular wave functions. I // The Journal of Chemical Physics. – 1955. – Vol. 23. – P. 1833–1840.
13. Mulliken R.S. Electronic population analysis on LCAO–MO molecular wave functions. II. Overlap populations, bond orders, and covalent bond energies // The Journal of Chemical Physics. – 1955. – Vol. 23. – P. 1841–1846.
14. Fukui K. Role of frontier orbitals in chemical reactions // Science. – 1982. – Vol. 218. – P. 747–754.
15. Murray J.S., Politzer P. The electrostatic potential: an overview // Wiley Interdisciplinary Reviews: Computational Molecular Science. – 2011. – Vol. 1. – P. 153–163.

UDK: 1:37.013.73

TA'LIM TIZIMI IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA: FALSAFIY YONDASHUVLAR

Jurayev Alisher Tulqinboyevich
University of Business and Science katta o'qituvchisi falsafa fanlari doktori (PhD)
Email: alisherumida1987@gmail.com
Tel: +998 99 270 00 20

Annotatsiya: *mazkur maqolada ta'lim tizimini ijtimoiy institut sifatida tushunishning asosiy falsafiy yondashuvlari qiyosiy-tipologik tahlil asosida yoritilgan. Organitsistik, strukturaviy-funksionalistik, konflikt-reproduktiv, fenomenologik-konstruktivistik, neoinstitutsional, tizimli-sinergetik, gumanistik-global hamda integrativ-strukturatsion yondashuvlarning ontologik asoslari, kuchli va zaif tomonlari aniqlashtirilgan. Ta'lim institutining jamiyat integratsiyasidagi vazifasi, ijtimoiy tengsizlikni qayta ishlab chiqarish xavfi, intersubyektiv qurilish tabiati, tashqi legitimlikka moslashuvi, o'z-o'zini tashkil etuvchi tizim sifatidagi avtonomiyasi hamda struktura va faoliyat dialektikasi alohida ko'rib chiqilgan. Yondashuvlarning qiyosiy tahlili ularni bir-birini to'ldiruvchi metodologik prizmalar sifatida uyg'un qo'llash zarurligini ko'rsatadi, bu esa O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiyalash, nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish jarayonlarini falsafiy jihatdan izohlash uchun metodologik asos yaratadi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim tizimi, ijtimoiy institut, ijtimoiy falsafa, strukturaviy-funksionalizm, konflikt nazariyasi, fenomenologiya, neoinstitutsionalizm, tizimlar nazariyasi, strukturatsiya nazariyasi, gumanistik paradigma.*

ФИЛОСОФСКИЕ ПОДХОДЫ К СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ КАК СОЦИАЛЬНОМУ ИНСТИТУТУ

Аннотация: *в статье на основе сравнительно-типологического анализа раскрываются основные философские подходы к пониманию системы образования как социального института. Определены онтологические основания, сильные и слабые стороны органицистского, структурно-функционалистского, конфликтно-репродуктивного, феноменолого-конструктивистского, неоинституционального, системно-синергетического, гуманистическо-глобального и интегративно-структурационного подходов. Отдельно рассмотрены роль образования в социальной интеграции, риск воспроизводства социального неравенства, интерсубъективная природа институционального конструирования, адаптация к внешней легитимности, автономия образования как самоорганизующейся системы, а также диалектика структуры и деятельности. Сравнительный анализ подходов показывает необходимость их взаимодополняющего применения, что создаёт методологическую основу для философского осмысления процессов модернизации системы образования, развития негосударственного сектора и государственно-частного партнёрства в Узбекистане.*

Ключевые слова: *система образования, социальный институт, социальная философия, структурный функционализм, теория конфликта, феноменология, неоинституционализм, теория систем, теория структурации, гуманистическая парадигма.*

PHILOSOPHICAL APPROACHES TO THE EDUCATION SYSTEM AS A SOCIAL INSTITUTION

Abstract: *this article examines, through comparative-typological analysis, the principal philosophical approaches to understanding the education system as a social institution. It identifies the ontological premises, strengths, and weaknesses of the organicist, structural-functionalist, conflict-reproductive, phenomenological-constructivist, neo-institutional, systemic-synergetic, humanistic-global, and integrative-structurational approaches. The article separately considers education's role in social integration, the risk of reproducing social inequality, the intersubjective nature of institutional construction, adaptation to external legitimacy, education's autonomy as a self-organizing system, and the dialectic of structure and agency. The comparative analysis shows that these approaches should be applied as complementary methodological lenses, which provides a methodological basis for the philosophical interpretation of education modernization, the development of the non-state sector, and public-private partnership in Uzbekistan.*

Keywords: *education system, social institution, social philosophy, structural functionalism, conflict theory, phenomenology, neo-institutionalism, systems theory, structuration theory, humanistic paradigm.*

KIRISH

Ta'lim tizimini shunchaki tashkiliy-huquqiy tuzilma yoki xizmatlar majmuasi sifatida emas, balki jamiyat hayotining barqaror, tarixan shakllangan va o'ziga xos normativ-institutsional tabiatga ega bo'lgan ijtimoiy instituti sifatida tushunish ijtimoiy falsafaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatlarda ta'lim tizimini modernizatsiyalash, uni nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklik kabi yangi institutsional shakllar bilan boyitish jarayonlari aynan ta'limning ijtimoiy institut sifatidagi mohiyatini falsafiy jihatdan chuqur anglashni taqozo etadi.

Ijtimoiy falsafa va sotsiologiya tarixida "institut" tushunchasi turlicha nazariy an'analarda turlicha mazmun kasb etgan: funksionalistik an'anada institut jamiyat barqarorligini ta'minlovchi vosita sifatida, konfliktologik an'anada esa hukmron

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

guruhlar manfaatini ifodalovchi mexanizm sifatida talqin etiladi. Fenomenologik, neoinstitutsional, tizimli-sinergetik va strukturatsion yondashuvlar esa institutni mos ravishda intersubyektiv ma'no, legitimlik, o'z-o'zini tashkil etuvchi tizim hamda struktura-faoliyat dialektikasi nuqtai nazaridan izohlaydi. Bu xilma-xillik ta'lim tizimini ijtimoiy institut sifatida yaxlit falsafiy tushunish uchun qiyosiy-tipologik tahlil zarurligini ko'rsatadi.

Mavjud tadqiqotlarda ta'lim tizimining institutsional tabiati ko'pincha pedagogik yoki huquqiy-tashkiliy nuqtai nazardan yoritilgan, biroq uni turli falsafiy-sotsiologik yondashuvlar asosida qiyosiy tahlil qiluvchi, ularning har birining ontologik va metodologik asoslarini aniqlashtiruvchi ishlar yetarli emas. Mazkur maqolaning maqsadi — ta'lim tizimini ijtimoiy institut sifatida tushunishning asosiy falsafiy yondashuvlarini aniqlash, ularning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda bu yondashuvlarning zamonaviy ta'lim modernizatsiyasi kontekstidagi ahamiyatini asoslashdan iborat.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, jumladan nodavlat sektorni rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va ta'lim boshqaruvini institutsional jihatdan yangilash jarayonlari ushbu falsafiy tahlilga amaliy ahamiyat baxsh etadi. Zero, har qanday institutsional islohot, ongli ravishda yoki yo'q, muayyan falsafiy-nazariy talqinga — ta'limni qanday institut sifatida tushunishga — tayanadi, va bu tushunchaning yetarlicha aniq bo'lmasligi islohotlarning nazariy asossizligiga, natijada amaliy samarasizligiga olib kelishi mumkin.

Maqola quyidagicha tuzilgan: dastlab "ijtimoiy institut" tushunchasining falsafiy-sotsiologik genezisi tarixiy izchillikda ko'rib chiqiladi; so'ngra tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar tavsiflanadi; keyin ta'lim tizimini ijtimoiy institut sifatida tushunishning sakkizta asosiy falsafiy yondashuvi qiyosiy tahlil qilinadi; yakunda esa olingan natijalar umumlashtirilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Ijtimoiy institut” tushunchasining ilk tizimli falsafiy-sotsiologik asoslanishi G. Spenserning organitsistik jamiyat nazariyasiga borib taqaladi: u jamiyatni biologik organizmga o‘xshatib, ta’lim, din, huquq kabi institutlarni jamiyat “organizmi”ning ixtisoslashgan a’zolari sifatida tavsiflagan, bunda har bir institut butun tizimning yashovchanligini ta’minlovchi aniq funksiyaga ega bo‘ladi (1). Garchi bu organitsistik metafora keyinchalik ko‘p tanqidga uchragan bo‘lsa-da, aynan Spenser institutlarni tizimli-funksional tahlil ob’ektiga aylantirgan birinchi mutafakkirlardan biri bo‘ldi.

Bu g‘oyani E. Dyurkgeym yanada rivojlantirib, ta’limni jamiyatning kollektiv ongini yosh avlodga uzatuvchi, ijtimoiy birlikni ta’minlovchi institut sifatida asosladi (2). Dyurkgeymning fikricha, ta’lim shaxsning individual xohish-istagi asosida emas, balki jamiyatning o‘zi tomonidan unga taqdim etiladigan majburiy ijtimoiy fakt sifatida mavjud bo‘ladi; u ijtimoiy hayotdan tashqarida mavjud bo‘la olmaydi, balki jamiyatning o‘zi tomonidan yaratilgan va uni qayta ishlab chiqaruvchi hodisadir. Bu qarash ta’limni institutsional tahlil ob’ektiga aylantirgan birinchi izchil falsafiy-sotsiologik urinish bo‘ldi va keyingi barcha institutsional nazariyalar uchun boshlang‘ich nuqta vazifasini o‘tadi.

T. Parsons Dyurkgeym g‘oyalarini o‘zining umumiy ijtimoiy tizim nazariyasi doirasida rivojlantirib, sinfxonani kichik ijtimoiy tizim sifatida tahlil qildi va ta’limning ikki asosiy funksiyasini — sotsializatsiya, ya’ni jamiyat qadriyatlarini singdirish, va tanlov, ya’ni turli qobiliyatga ega o‘quvchilarni kelgusi ijtimoiy rollarga taqsimlash — ajratib ko‘rsatdi (3). Uning fikricha, maktab jamiyatning kichik modeli bo‘lib, unda bola birinchi marta oila doirasidan tashqarida universal, ya’ni barcha uchun bir xil me’yorlar asosida baholanishni boshdan kechiradi. Strukturaviy-funksionalistik an’ana shu tariqa ta’lim tizimini jamiyat barqarorligi va integratsiyasiga xizmat qiluvchi ijobiy institut sifatida talqin etadi, bunda har qanday institutsional element o‘z funksiyasi orqali oqlanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

1970-yillarda bu funksionalistik-optimistik talqinga qarshi konflikt-nazariy tanqid rivojlandi. P. Burdye va J.-K. Passeron ta'limni ijtimoiy tengsizlikni "madaniy kapital" va "simvolik zo'ravonlik" mexanizmlari orqali qayta ishlab chiqaruvchi institut sifatida asosladilar: ularning fikricha, maktab bilim va madaniyatning "betaraf" o'lchovi sifatida namoyon bo'lsa-da, aslida u hukmron sinfning o'ziga xos madaniy kodini — til uslubi, didi, xulq-atvor normalarini — "ob'ektiv" bilim me'yori sifatida joriy etadi, natijada bu kodga ega bo'lmagan bolalar tizimli ravishda kam muvaffaqiyatga erishadi (4). S. Bouls va G. Gintis esa "moslik tamoyili" asosida ta'lim tizimining ichki tuzilishi — ierarxiya, tashqi nazorat, motivatsiyaning baho va jazo orqali shakllantirilishi — ishlab chiqarish jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni aynan takrorlashini ko'rsatdilar, bu esa ta'limning rasmiy tengchilik g'oyasi bilan amaliy tengsizlikni saqlab qolish funksiyasi o'rtasidagi ziddiyatni ochib beradi (5).

Fenomenologik an'anada P. Berger va T. Lukman ijtimoiy institutlarni, jumladan ta'limni, ob'ektiv berilgan tuzilma emas, balki insonlar o'rtasidagi takrorlanuvchi o'zaro ta'sirlar orqali intersubyektiv tarzda "qurilgan" va keyin ob'ektivlashtirilgan, "tabiiylashtirilgan" voqelik sifatida talqin etdilar: ularning "eksternalizatsiya – ob'ektivatsiya – internalizatsiya" triadasi institutning qanday qilib inson faoliyati mahsuli bo'la turib, keyinchalik alohida shaxsga nisbatan tashqi va majburiy kuchga ega bo'lib qolishini tushuntiradi (6). Bu yondashuv institutni statik tuzilma emas, balki doimiy ijtimoiy qurilish jarayoni sifatida ko'rish imkonini beradi va ta'lim islohotlarida ishtirokchilarning sub'ektiv ma'no bergan tajribasini e'tiborsiz qoldirib bo'lmasligini ko'rsatadi.

1970–1980-yillarda shakllangan neoinstitutsional nazariyada Dj. Meyer va B. Rouan ta'lim tashkilotlarining rasmiy tuzilmasi — o'quv rejalari, sertifikatlash tizimi, ma'muriy lavozimlar — ko'pincha texnik samaradorlik emas, balki jamiyatda keng tarqalgan "afsonaviy" tasavvurlarga va tashqi legitimlikka moslashish natijasi ekanligini asosladilar; shu sababli ko'plab tashkilotlarda rasmiy tuzilma bilan real amaliyot

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

o‘rtasida “bo‘shliq” kuzatiladi (7). P. DiMaggio va U. Pauell esa tashkilotlarning bir-biriga o‘xshash, ya’ni izomorf shaklga kelishini uchta institutsional mexanizm — davlat va yuqori tashkilotlar tomonidan majburlovchi, professional hamjamiyatlar orqali normativ, hamda noaniqlik sharoitida boshqalarni taqlid qilishga asoslangan mimetik izomorfizm — orqali izohladilar (8). Bu ikkala nazariya ta’lim tizimidagi islohotlarning nima uchun ko‘pincha shakl jihatdan bir-biriga o‘xshash, biroq mazmunan har xil natija berishini tushuntirishga xizmat qiladi.

N. Luman ijtimoiy tizimlar nazariyasi doirasida ta’limni jamiyatning o‘z-o‘zini ishlab chiqaruvchi, ya’ni avtopoetik kichik tizimi sifatida talqin qilib, uning o‘z ichki kodi — masalan, “yaxshi baho / yomon baho” — va o‘ziga xos kommunikatsiya mantig‘iga ega ekanligini, shu sababli uni tashqaridan, masalan iqtisodiyot yoki siyosat mantig‘i asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarib bo‘lmasligini ko‘rsatdi (9). Bu tizimli-sinergetik yondashuv ta’limni tashqi muhitdan nisbatan avtonom, o‘z-o‘zini tashkil etuvchi institut sifatida ko‘rishga xizmat qiladi va islohotlarni loyihalashtirishda tizimning o‘z ichki mantig‘ini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi.

Struktura-markazli (funksionalizm, konflikt nazariyasi, neoinstitutsionalizm) va faoliyat-markazli (fenomenologiya) yondashuvlar o‘rtasidagi metodologik tafovutni bartaraf etishga urinib, E. Giddens strukturatsiya nazariyasini taklif etdi: unga ko‘ra, institutlar, shu jumladan ta’lim, bir tomondan inson faoliyatini cheklovchi va yo‘naltiruvchi struktura, ikkinchi tomondan aynan shu faoliyat orqali doimiy qayta ishlab chiqariladigan va o‘zgartiriladigan hodisa sifatida “struktura ikkiligi” mantig‘ida mavjud bo‘ladi (10). Bu integrativ-strukturatsion yondashuv ta’lim tizimini na sof ob’ektiv tuzilma, na sof subyektiv qurilma, balki ikkalasining dialektik birligi sifatida tushunish imkonini beradi. Ayni paytda, strukturatsiya nazariyasi ham tanqiddan xoli emas: bir qator tadqiqotchilar uning struktura va faoliyatni nazariy jihatdan “yarashtirishga” urinishi amaliy tahlil uchun yetarlicha aniq operatsional mezonlar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bermasligini, shu sababli uni empirik tadqiqotlarda qo‘llash boshqa yondashuvlarga nisbatan murakkabroq ekanligini ta’kidlaydilar.

Nihoyat, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida shakllangan gumanistik-global paradigma ta’limni institutsional tahlil doirasidan chiqarib, uni insoniyatning umumiy merosi va universal huquqi sifatida qayta kontseptuallashtiradi: xalqaro tashkilotlar hujjatlarida ta’lim endi alohida davlat yoki mafkuraviy tizimga tegishli institut emas, balki shaxsning butun umr davomida o‘rganishi, o‘zini anglashi va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi umuminsoniy qadriyat sifatida talqin etiladi (11). Bu paradigma oldingi barcha yondashuvlarning normativ-aksiologik o‘lchamini boyitib, ularga insonparvarlik mezonini qo‘shadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan yondashuvlar ta’lim tizimining institutsional tabiatini turli qirralardan — ontologik, funksional, konfliktologik, fenomenologik, institutsional, tizimli va aksiologik — yoritsa-da, ularni yaxlit qiyosiy-tipologik tizimda birlashtirish va zamonaviy ta’lim modernizatsiyasi amaliyotiga nisbatan qo‘llash masalasi alohida falsafiy tahlilni talab etadi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda ta’lim tizimining ijtimoiy institut sifatidagi mohiyatini yoritish uchun quyidagi falsafiy-metodologik yondashuv va metodlardan foydalanildi:

- tarixiy-falsafiy tahlil — institut tushunchasining genezisini xronologik izchillikda kuzatish;
- qiyosiy-tipologik tahlil — turli falsafiy an’analardagi ta’lim talqinlarini bir-biriga solishtirish;
- strukturaviy-funksional tahlil — ta’limning jamiyat tizimidagi vazifalarini aniqlash;
- germenevtik talqin — har bir nazariy an’ana matnlarini o‘z tarixiy-intellektual konteksti doirasida izohlash;
- tizimli-sinergetik tahlil — ta’limni o‘zaro bog‘liq elementlar majmuasi sifatida ko‘rib chiqish;

- dialektik metod — struktura va faoliyat, ob'ektivlik va subyektivlik o'rtasidagi ziddiyat hamda uyg'unlikni aniqlash.

Ushbu metodlar majmuasi ta'lim tizimini ijtimoiy institut sifatida tushunishning turli falsafiy yondashuvlarini bir-biridan farqlash, ularning ontologik asoslarini — institutning "ob'ektiv", "subyektiv" yoki "intersubyektiv" tabiati haqidagi tasavvurlarini — aniqlashtirish hamda ularning zamonaviy ta'lim amaliyotiga tatbiq etilish imkoniyatlarini baholash uchun zarur nazariy asos yaratdi. Tahlil jarayonida har bir yondashuv avval o'z ichki mantig'i doirasida tavsiflandi, so'ngra boshqa yondashuvlar bilan qiyoslanib, ularning bir-birini rad etuvchi emas, balki turli darajalarda — makro-institutsional, mezo-tashkiliy va mikro-interaktsion — bir-birini to'ldiruvchi tushuntirish kuchiga ega ekanligi asoslandi.

Qiyosiy tahlilning ishonchliligini ta'minlash maqsadida har bir yondashuv kamida uchta mezon bo'yicha baholandi: uning institutning ontologik tabiati haqidagi asosiy tezisi, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatga oid pozitsiyasi, hamda ta'lim amaliyoti va islohotlariga nisbatan metodologik xulosalari. Bunday uch bosqichli mezon tizimi turli falsafiy an'analarga mansub matnlarni bir xil asosda qiyoslash, shu orqali sub'ektiv talqinlar xavfini kamaytirish imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'tkazilgan tahlil natijasida ta'lim tizimini ijtimoiy institut sifatida tushunishning sakkizta asosiy falsafiy yondashuvi aniqlandi. Ular quyidagilardan iborat:

- organitsistik-funksional yondashuv;
- strukturaviy-funksionalistik yondashuv;
- konflikt-reproduktiv (neomarksistik) yondashuv;
- fenomenologik-konstruktivistik yondashuv;
- neoinstitutsional yondashuv;
- tizimli-sinergetik (avtopoetik) yondashuv;
- integrativ-strukturatsion yondashuv;

- gumanistik-global yondashuv.

Organitsistik-funksional yondashuv (1) ta'lim tizimini jamiyat "organizmi"ning ixtisoslashgan a'zosi sifatida ko'rib, uning mavjudligini butun tizim yashovchanligi nuqtai nazaridan oqlaydi. Bu yondashuvning tarixiy ahamiyati institutlarni birinchi marta tizimli-funksional tahlil ob'ektiga aylantirganida, zaif tomoni esa jamiyatni biologik organizmga haddan tashqari soddalashtirib o'xshatishida, ijtimoiy ziddiyat va o'zgarish dinamikasini yetarlicha izohlay olmasligidadir.

Strukturaviy-funksionalistik yondashuv (2; 3) ta'lim tizimini jamiyatning barqarorligi va integratsiyasini ta'minlovchi ob'ektiv zarur institut sifatida ko'radi: ta'lim yosh avlodga umumiy qadriyat va bilimlarni uzatish, ijtimoiy rollarni taqsimlash hamda mehnat taqsimotiga tayyorlash funksiyalarini bajaradi. Bu yondashuvning kuchli tomoni — ta'limning jamiyat uchun ob'ektiv zaruriy ahamiyatini asoslashi, zaif tomoni esa — ta'lim tizimidagi ziddiyat va tengsizlikni yetarlicha hisobga olmasligidir.

Konflikt-reproduktiv yondashuv (4; 5) aksincha, ta'lim tizimini neytral institut emas, balki mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni legitimlashtiruvchi va qayta ishlab chiqaruvchi mexanizm sifatida talqin etadi. Bu yondashuv ta'lim siyosatini tahlil qilishda ijtimoiy adolat mezonini markazga qo'yish zarurligini ko'rsatadi, biroq ta'limning ijobiy integrativ funksiyasini kamsitish xavfini ham o'zida mujassam etadi.

Fenomenologik-konstruktivistik yondashuv (6) ta'lim institutini tayyor tuzilma emas, balki o'qituvchi, o'quvchi va boshqa ishtirokchilarning kundalik o'zaro ta'siri orqali doimiy qayta quriluvchi intersubyektiv voqelik sifatida ko'radi. Bu yondashuv ta'lim islohotlarini "yuqoridan" mexanik joriy etish emas, balki institut ishtirokchilarining ma'no va munosabatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish zarurligini asoslaydi.

Neoinstitutsional yondashuv (7; 8) ta'lim tashkilotlarining tuzilishi ko'pincha samaradorlik mezonlaridan ko'ra jamiyatda qabul qilingan me'yor, standart va legitimlik talablariga moslashish natijasi ekanligini ko'rsatadi. Bu yondashuv, xususan, nodavlat



sektor va davlat-xususiy sheriklik kabi yangi institutsional shakllarning nima uchun ko‘pincha davlat ta’lim tizimiga o‘xshash, ya’ni izomorf shaklda rivojlanishini falsafiy jihatdan izohlash uchun muhim nazariy asos beradi.

Tizimli-sinergetik yondashuv (9) ta’limni jamiyatning boshqa kichik tizimlaridan — iqtisodiyot, siyosat, huquq — nisbatan avtonom, o‘z ichki mantig‘iga ega bo‘lgan o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizim sifatida ko‘rish imkonini beradi. Bu yondashuv ta’lim islohotlarini boshqa tizimlar mantig‘ini, masalan sof bozor mantig‘ini, mexanik ravishda ta’lim tizimiga ko‘chirishning cheklovlarini ko‘rsatib, har bir tizimning o‘ziga xos ichki mantig‘ini hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Integrativ-strukturatsion yondashuv (10) ta’lim tizimini bir vaqtning o‘zida ham ob’ektiv cheklovchi struktura, ham har kungi pedagogik amaliyot orqali qayta ishlab chiqariluvchi jarayon sifatida ko‘rishni taklif etadi. Bu yondashuv, xususan, ta’lim islohotlarini faqat “yuqoridan” me’yoriy hujjatlar orqali emas, balki o‘qituvchi va o‘quvchilarning kundalik amaliyotidagi real o‘zgarishlar orqali ham baholash, ya’ni struktura va agentlik o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Gumanistik-global yondashuv (11) esa ta’limni ijtimoiy institut sifatida XXI asr sharoitida insonning butun umr davomida o‘rganishi, o‘zini anglashi va jamiyatda faol ishtirok etishini ta’minlovchi universal qadriyat sifatida qayta konseptuallashtiradi, bunda ta’lim tizimi endi milliy chegaralar yoki mafkuraviy tizim bilan cheklanmagan umuminsoniy institut sifatida talqin etiladi. Bu yondashuvning ahamiyati shundaki, u oldingi tahliliy yondashuvlarga aksiologik — insonparvarlik va umumiy manfaat — o‘lchovini qo‘shadi.

Ko‘rib chiqilgan sakkizta yondashuvni yana bir muhim mezon — davlatning ta’lim institutidagi roli haqidagi tasavvur — bo‘yicha ham farqlash mumkin. Organitsistik va strukturaviy-funksionalistik yondashuvlarda davlat institutlar muvofiqligini ta’minlovchi neytral markaz sifatida namoyon bo‘lsa, konflikt-reproduktiv

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yondashuvda u hukmron manfaatlarni ifodalovchi vosita sifatida ko‘riladi. Fenomenologik yondashuvda davlatning roli ikkinchi darajali bo‘lib, asosiy e’tibor kundalik o‘zaro ta’sirga qaratiladi, neoinstitutsional yondashuvda esa davlat legitimlik va standartlarning asosiy manbai sifatida talqin etiladi. Tizimli-sinergetik yondashuvda davlat ta’lim tizimining “muhiti” sifatida, uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki bilvosita — huquqiy va moliyaviy tartibga solish orqali — ta’sir qiluvchi tashqi tizim sifatida ko‘riladi. Integrativ-strukturatsion va gumanistik-global yondashuvlarda esa davlatning roli fuqarolik jamiyati va xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikda qayta belgilanadi. Ushbu farqlar, xususan, davlat-xususiy sheriklik sharoitida davlatning yangicha — tartibga soluvchi, sherik va kafolatchi — funksiyalarini falsafiy jihatdan izohlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim tizimini boshqa ijtimoiy institutlar — oila, davlat, bozor, diniy va madaniy institutlar — bilan bog‘liqlikda ko‘rib chiqish ham muhim ahamiyatga ega. Klassik funksionalistik an’anada ta’lim oila institutining davomi, uni to‘ldiruvchi ikkinchi darajali institut sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, zamonaviy tizimli-sinergetik va neoinstitutsional yondashuvlarda ta’lim allaqachon o‘z ichki mantig‘i, professional hamjamiyati va institutsional maydoniga ega mustaqil, ixtisoslashgan tizim sifatida talqin etiladi. Bu institutsional differensiatsiya jarayoni, ayniqsa, nodavlat sektor rivojlanayotgan sharoitda, ta’lim tizimining bozor instituti bilan chegaradosh hududlarida yangi falsafiy-huquqiy masalalarni, masalan ta’lim xizmatining “ijtimoiy ne’mat” yoki “bozor tovari” sifatidagi tabiati haqidagi bahsni, keltirib chiqaradi.

Yana bir muhim jihat — institutsional barqarorlik va ijtimoiy o‘zgarish o‘rtasidagi dialektik munosabat. Funksionalistik va neoinstitutsional yondashuvlar institutlarning barqarorlikka moyilligini, ularning mavjud tartibni saqlashga xizmat qilishini ta’kidlasa, konflikt-reproduktiv va fenomenologik yondashuvlar institutlarning ichki ziddiyatlar va kundalik amaliyot orqali doimiy o‘zgarib borishini ko‘rsatadi. Integrativ-strukturatsion yondashuv esa aynan shu ikki qutbni — barqarorlik va o‘zgaruvchanlikni — bitta

nazariy modelda birlashtirishga xizmat qiladi, bu esa ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonini na sof "yuqoridan" buyurilgan islohot, na sof stixiyali o'zgarish, balki boshqariladigan institutsional evolyutsiya sifatida tushunish imkonini beradi.

Ko'rib chiqilgan yondashuvlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimini ijtimoiy institut sifatida yaxlit tushunish ularning birortasini mutlaqlashtirishni emas, balki bir-birini to'ldiruvchi metodologik prizmalar sifatida uyg'un qo'llashni taqozo etadi: organitsistik va funksionalistik yondashuvlar ta'limning ob'ektiv zaruriy vazifasini, konflikt-reproduktiv yondashuv uning ziddiyatli tomonlarini, fenomenologik va neoinstitutsional yondashuvlar uning intersubyektiv va normativ tabiatini, tizimli-sinergetik yondashuv uning avtonom mantig'ini, integrativ-strukturatsion yondashuv esa struktura va faoliyat dialektikasini, gumanistik-global yondashuv esa uning umuminsoniy qadriyat sifatidagi mazmunini ochib beradi. Bunday integrativ falsafiy tushunish, xususan, O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiyalash, nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish jarayonlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan izohlash uchun metodologik zamin yaratadi.

Tadqiqotning ma'lum cheklovlarini ham qayd etish lozim: tahlil asosan G'arb falsafiy-sotsiologik an'anasidagi klassik va zamonaviy nazariyalar doirasida olib borildi, sharqona va milliy ta'lim falsafasi an'analarining institutsional jihatlari alohida tahlil predmeti bo'lmadi. Shuningdek, tadqiqot nazariy-falsafiy xarakterga ega bo'lib, taklif etilgan yondashuvlarning O'zbekiston ta'lim tizimi amaliyotidagi empirik tasdig'i keyingi tadqiqotlar predmetini tashkil etadi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida ta'lim tizimini ijtimoiy institut sifatida tushunishning sakkizta asosiy falsafiy yondashuvi — organitsistik-funksional, strukturaviy-funksionalistik, konflikt-reproduktiv, fenomenologik-konstruktivistik, neoinstitutsional, tizimli-sinergetik, integrativ-strukturatsion va gumanistik-global yondashuvlar — aniqlandi hamda ularning ontologik asoslari, kuchli va zaif tomonlari qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ushbu yondashuvlar bir-birini istisno etuvchi raqobatdosh nazariyalar emas, balki ta’lim tizimining turli darajalarini — makro-institutsional, mezo-tashkiliy va mikro-interaktsion darajalarni — yorituvchi bir-birini to‘ldiruvchi metodologik prizmalardir. Shu sababli ta’lim tizimini yaxlit falsafiy tushunish faqat ularning uyg‘un, kompleks qo‘llanilishi orqali erishiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagilar tavsiya etiladi: ta’lim modernizatsiyasi konsepsiyalarini ishlab chiqishda yagona yondashuvga tayanishdan qochib, yuqorida ko‘rib chiqilgan yondashuvlarni bir-birini to‘ldiruvchi metodologik asos sifatida uyg‘un qo‘llash; nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklik kabi institutsional yangiliklarni neoinstitutsional va tizimli-sinergetik yondashuvlar asosida falsafiy jihatdan izohlash; hamda keyingi tadqiqotlarda ushbu yondashuvlarni O‘zbekiston ta’lim tizimi amaliyotiga tatbiq etib, ularning har birining amaliy-tahliliy salohiyatini aniqlash.

Kelgusi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish sifatida ushbu sakkiz yondashuvni yagona nazariy-konseptual modelga integratsiya qilish, shuningdek ularni O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiyalash, nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklikning institutsional-huquqiy shakllanish jarayonlarini falsafiy jihatdan asoslashning nazariy poydevoriga aylantirish ko‘rsatilishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, dissertatsion tadqiqotning keyingi boblarida ta’lim modernizatsiyasining yaxlit ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasini shakllantirish uchun nazariy zamin bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Spencer, H. The Principles of Sociology. Vol. 1. London: Williams and Norgate, 1876.
2.Durkheim, E. Education and Sociology. New York: The Free Press, 1956. ISBN 978-0-02-907920-1.
3.Parsons, T. The School Class as a Social System: Some of Its Functions in American Society // Harvard Educational Review. 1959. Vol. 29, No. 4. P. 297–318.
4.Bourdieu, P., Passeron, J.-C. Reproduction in Education, Society and Culture / transl. by R. Nice. London: Sage Publications, 1977. ISBN 978-0-8039-8319-9.
5.Bowles, S., Gintis, H. Schooling in Capitalist America: Educational Reform and the Contradictions of Economic Life. New York: Basic Books, 1976. 340 p.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

6.Berger, P. L., Luckmann, T. The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge. New York: Doubleday, 1966. ISBN 978-0-385-05898-8.
7.Meyer, J. W., Rowan, B. Institutionalized Organizations: Formal Structure as Myth and Ceremony // American Journal of Sociology. 1977. Vol. 83, No. 2. P. 340–363. DOI: 10.1086/226550.
8.DiMaggio, P. J., Powell, W. W. The Iron Cage Revisited: Institutional Isomorphism and Collective Rationality in Organizational Fields // American Sociological Review. 1983. Vol. 48, No. 2. P. 147–160.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARIDA TARIXIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA MUZEY PEDAGOGIKASINING TA’LIMIY IMKONIYATLARI

Niyozov Javlonbek Jaxongir o`g`li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Namangan filiali Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o`qituvchisi
e-mail: j.niyozov@kiut.uz
javlonbek932691567@gmail.com
Tel:+998932691567

Annotatsiya. *Ushbu maqola oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirish va tizimli rivojlantirishda muzey muhitining pedagogik salohiyatini yoritishga bag‘ishlangan. Tadqiqot zamonaviy ta’lim nazariyalariga asoslangan bo‘lib, tarixiy tafakkur tushunchasini murakkab kognitiv, reflektiv va qadriyatga yo‘naltirilgan kompetensiya sifatida har tomonlama nazariy tahlil qiladi. Maqolada izlanishga asoslangan ta’lim, konstruktivistik nazariya, tajribaviy ta’lim hamda kompetensiyaga yo‘naltirilgan o‘qituvchi tayyorlashni ilgari suruvchi zamonaviy pedagogik yondashuvlarga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada muzeylar kognitiv, emotsional va aksiologik tarkibiy qismlarni tarixiy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish uchun o‘ziga xos sharoitlar yaratadigan autentik va ko‘p o‘lchamli ta’lim muhitlari sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari muzey pedagogikasi bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida tarixiy tafakkur kompetensiyasini rivojlantirish uchun samarali pedagogik mexanizm ekanini asoslaydi.*

Keywords: *muzey pedagogikasi; tarixiy tafakkur; bo‘lajak tarix o‘qituvchilari; tarix ta’limi; birlamchi tarixiy manbalar; tarixiy empatiya; kompetensiyaga asoslangan ta’lim; izlanishga asoslangan ta’lim; reflektiv fikrlash; fanlararo integratsiya; raqamli va virtual muzeylar*

EDUCATIONAL POTENTIAL OF MUSEUM PEDAGOGY IN DEVELOPING HISTORICAL THINKING AMONG FUTURE HISTORY TEACHERS

Abstract. *This article is devoted to examining the pedagogical potential of the museum environment in shaping and systematically developing historical thinking among pre-service history teachers in higher education institutions. The study is based on contemporary educational theories and provides a comprehensive theoretical analysis of the concept of historical thinking as a complex cognitive, reflective, and value-oriented competence. Particular attention is paid to modern pedagogical approaches that promote inquiry-based learning, constructivist theory, experiential learning, and competency-oriented teacher education. The article interprets museums as authentic and multidimensional learning environments that create unique conditions for integrating cognitive, emotional, and axiological*

components into the process of history education. The research findings substantiate that museum pedagogy is an effective pedagogical mechanism for developing historical thinking competence in pre-service history teachers.

Keywords: *museum pedagogy; historical thinking; pre-service history teachers; history education; primary historical sources; historical empathy; competency-based education; inquiry-based learning; reflective thinking; interdisciplinary integration; digital and virtual museums*

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ МУЗЕЙНОЙ ПЕДАГОГИКИ В РАЗВИТИИ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ

Аннотация. *Статья посвящена раскрытию педагогического потенциала музейной среды в формировании и системном развитии исторического мышления у будущих учителей истории в системе высшего образования. Опираясь на современные образовательные теории, авторы проводят комплексный теоретический анализ понятия «историческое мышление» как сложной когнитивной, рефлексивной и ценностно-ориентированной компетенции. Особое внимание уделяется современным педагогическим подходам, таким как обучение на основе исследования (inquiry-based learning), конструктивизм, эмпирическое обучение и компетентностно-ориентированная подготовка педагогов. Музеи рассматриваются в статье как аутентичные и многогранные образовательные пространства, создающие уникальные условия для интеграции когнитивных, эмоциональных и аксиологических компонентов в процесс исторического образования. Результаты исследования подтверждают, что музейная педагогика выступает эффективным инструментом развития компетенции исторического мышления у будущих учителей истории.*

Ключевые слова: *музейная педагогика; историческое мышление; будущие учителя истории; историческое образование; первоисточники; историческая эмпатия; компетентностно-ориентированное образование; обучение на основе исследования; рефлексивное мышление; междисциплинарная интеграция; цифровые и виртуальные музеи.*

KIRISH

Muzey pedagogikasi pedagogika, psixologiya, muzeyshunoslik, madaniyatshunoslik va tarix ta'limini birlashtiruvchi fanlararo yo'nalish hisoblanadi. U muzey muhitida amalga oshadigan ta'lim jarayonlariga hamda muzey to'plamlari, ekspozitsiyalar va madaniy meros resurslaridan ta'lim va shaxsiy rivojlanish maqsadida ongli pedagogik foydalanishga qaratilgan (Stolyarov, 2018; Hein, 1998). An'anaviy

auditoriya ta'limidan farqli ravishda, muzey pedagogikasi autentik tarixiy dalillarga asoslangan tajribaviy, obyektga yo'naltirilgan va o'quvchi markazlashgan ta'limni ustuvor deb biladi. Muzeylar artefaktlar, arxeologik topilmalar, qo'lyozmalar, san'at asarlari va moddiy madaniyat namunalari kabi birlamchi tarixiy manbalar bilan bevosita o'zaro aloqani ta'minlash orqali noyob ta'limiy sharoitlarni yaratadi. Ushbu autentiklik muzey ta'limini darslikka asoslangan o'qitishdan ajratib turadi va chuqur kognitiv ishtirok, kontekstual anglash hamda tarixiy talqinni qo'llab-quvvatlaydi (Falk & Dierking, 2016). Tadqiqotchilar asl tarixiy obyektlar bilan uchrashuv ta'lim oluvchilarga kuzatish, taqqoslash va talqin qilish orqali tarixiy ma'no yaratish imkonini berishini, natijada tahliliy va reflektiv fikrlash mustahkamlanishini ta'kidlaydilar (Hooper-Greenhill, 2007). Tarix o'qituvchilarini tayyorlashda muzey muhitining pedagogik salohiyati bir-biri bilan bog'liq bir nechta o'lchamlar orqali ifodalanadi: birlamchi tarixiy manbalarga kirish imkoniyati, bu manba tanqidini, dalillarga asoslangan fikrlash va tarixiy talqin ko'nikmalarini rivojlantiradi (Wineburg, 2001; Levstik & Barton, 2015); tarix bilan vizual va emotsional aloqaning kuchayishi, bu xotirada saqlash, motivatsiya va tarixiy narrativlarga shaxsiy munosabatni mustahkamlaydi (Falk & Dierking, 2016); tarixiy empatiyaning rivojlanishi, ya'ni tarixiy shaxslarni ularning madaniy, ijtimoiy va axloqiy kontekstlarida tushunish qobiliyati (Seixas & Morton, 2013); fanlararo o'rganish imkoniyatlari, tarixni san'at, arxeologiya, antropologiya, geografiya va madaniyatshunoslik bilan integratsiyalash (Hein, 1998); hamda reflektiv va qadriyatga yo'naltirilgan fikrlashni kuchaytirish, bu tarixiy ong, axloqiy baholash va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi (Rüsen, 2004).

Falk va Dierking tomonidan ishlab chiqilgan Kontekstual o'rganish modeli muzeylarni kognitiv, ijtimoiy va jismoniy kontekstlar o'zaro ta'sirlashadigan dinamik "ta'lim ekotizimlari" sifatida talqin etadi (Falk & Dierking, 2016). Ushbu modelga ko'ra, muzeyda ta'lim olish nafaqat mazmunga, balki ta'lim oluvchilarning avvalgi bilimlariga, ijtimoiy o'zaro aloqalariga va jismoniy muhitga ham bog'liq bo'ladi. Natijada, muzeyga

asoslangan ta'lim hamkorlikdagi o'rganish, muloqot va refleksiyani rivojlantiradi, bu esa bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida muhim omil hisoblanadi. So'nggi yillarda raqamli va virtual muzey texnologiyalarining rivojlanishi muzey pedagogikasining ta'limiy salohiyatini yanada kengaytirdi. Virtual muzeylar, 3D rekonstruksiyalar va interaktiv ekspozitsiyalar ta'lim oluvchilarga makon va vaqt cheklovlaridan tashqarida tarixiy mazmunni o'rganish imkonini beradi (Daniela, 2020; Makransky & Petersen, 2019). Ushbu texnologiyalar ayniqsa o'qituvchi tayyorlash jarayonida muhim bo'lib, bo'lajak pedagoglarga tarixiy tafakkur bilan bir qatorda raqamli kompetensiyani ham rivojlantirish imkonini yaratadi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlashda muzey pedagogikasi "tirik laboratoriya" vazifasini bajarib, nazariy bilimlarni kasbiy-pedagogik kompetensiyaga aylantiradi. Yo'naltirilgan muzey tashriflari, artefaktlar tahlili, mavzuli ekskursiyalar va virtual ekspozitsiyalar orqali talabalar izlanishga asoslangan darslarni loyihalash, tarixiy muhokamalarni tashkil etish va madaniy merosni dars jarayoniga integratsiya qilishni o'rganadilar (Barton & Levstik, 2004; Shodmonov, 2023). Bunday tajribalar metodik moslashuvchanlikni, pedagogik ijodkorlikni va reflektiv o'qitish amaliyotini mustahkamlaydi.

O'zbekiston muzeyshunoslik va pedagogik adabiyotlari ham ushbu xulosalarni qo'llab-quvvatlaydi. Milliy tadqiqotlar muzey muhitlarining bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy ong, madaniy o'zlik va qadriyatga asoslangan ta'limni rivojlantirishdagi muhim rolini ta'kidlaydi (Ismoilova va boshq., 2015; Metodik muvofiqlashtirish markazi, 2018). Qodirova (2020) ga ko'ra, O'zbekistonda muzey pedagogikasi nafaqat ta'limiy, balki axloqiy va fuqarolik vazifalarini ham bajarib, milliy merosni saqlash va avlodlarga yetkazishga xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, To'xtaxo'jayev (2019) muzey pedagogikasini o'qituvchi tayyorlashga integratsiya qilish talabalarning mustaqil fikrlashini, tahliliy ko'nikmalarini va kasbiy motivatsiyasini oshirishini ta'kidlaydi. Umuman olganda, muzey pedagogikasi autentik tarixiy manbalar, tajribaviy ta'lim,

fanlararo integratsiya va reflektiv amaliyotni uyg‘unlashtirgan holda tarix o‘qituvchilarini tayyorlash uchun kuchli ta’limiy modelni taqdim etadi. Uni bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlash tizimiga tizimli ravishda joriy etish tarixiy tafakkur kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantiradi hamda kelajak pedagoglarini izlanishga asoslangan, madaniy jihatdan boy va innovatsion tarix ta’limini amalga oshirishga tayyorlaydi.

METODOLOGIYA

Muzey muhitlari orqali bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida tarixiy tafakkurni samarali shakllantirish o‘zaro bog‘liq pedagogik shart-sharoitlar tizimiga tayanadi. Ushbu shart-sharoitlar muzey pedagogikasining epizodik yoki faqat ilustrativ tarzda emas, balki metodik jihatdan asoslangan va o‘qituvchi tayyorlash jarayoniga tizimli integratsiyalashgan komponent sifatida qo‘llanilishini ta’minlaydi. Asosiy pedagogik shartlardan biri oliy ta’lim muassasalari va muzeylar o‘rtasidagi tizimli hamkorlikdir. Barqaror institutsional hamkorliklar o‘quv dasturlarini muzey resurslari, ekspozitsiyalar va ta’limiy dasturlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Falk va Dierking (2016) ta’kidlashicha, bunday hamkorlik muzeylarni qo‘shimcha o‘rganish makonlaridan rasmiy ta’limning ajralmas qismiga aylantiradi. O‘qituvchi tayyorlash jarayonida bunday kelishuvlar bo‘lajak pedagoglarga tuzilmaviy muzey mashg‘ulotlari, pedagogik amaliyot va tadqiqotga yo‘naltirilgan o‘rganishda ishtirok etish imkonini yaratadi. O‘zbekistonlik olimlar ham oliy ta’lim muassasalari va madaniy meros institutlari o‘rtasidagi izchil hamkorlik kelajak o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashini ta’kidlaydilar (Ismoilova va boshq., 2015; Metodik muvofiqlashtirish markazi, 2018). Ikkinchi muhim shart — muzeyga asoslangan ta’lim faoliyatlarini metodik jihatdan puxta tashkil etishdir. Muzeyga tashrif buyurishning o‘zi tarixiy tafakkur rivojlanishini kafolatlamaydi; buning uchun aniq pedagogik maqsadlar, izlanishga yo‘naltirilgan topshiriqlar va reflektiv vazifalar bilan ta’minlangan bo‘lishi zarur. Hein (1998) hamda Levstik va Barton (2015) qayd etganidek, muzey pedagogikasi

muammoli savollar, manbalarni tahlil qilish modellari va yo‘naltirilgan talqin asosida qurilishi lozim. Bunday metodik aniqlik talabalarni eksponatlarni passiv tomoshabin sifatida emas, balki faol tarixiy tadqiqotchilar sifatida o‘rganishga undaydi. Talabalarning artefaktlarni tahlil qilish va talqin etishda faol ishtiroki yana bir muhim pedagogik shart hisoblanadi. Muzey obyektlari bilan bevosita ishlash — ularning shakli, vazifasi, ramziy ma’nosi va tarixiy kontekstini tahlil qilish — tarixiy tafakkurning manbani aniqlash, kontekstualizatsiya va solishtirish kabi asosiy komponentlarini rivojlantiradi (Wineburg, 2001). Bunday faoliyatlar orqali talabalar sabab–oqibat aloqalarini aniqlash, uzluksizlik va o‘zgarishni tushunish hamda dalillarga asoslangan tarixiy narrativlar yaratishni o‘rganadilar. Tadqiqotlar obyektga asoslangan ta’lim tahliliy fikrlash va tarixiy empatiyani sezilarli darajada kuchaytirishini ko‘rsatadi (Seixas & Morton, 2013; Barton & Levstik, 2004). Muzeyga asoslangan ta’limda reflektiv muhokama va baholashni integratsiyalash ham katta ahamiyatga ega. Refleksiya talabalarga o‘z talqinlarini ifodalash, tarixiy ahamiyatni baholash va o‘tmish voqealarni zamonaviy ijtimoiy-madaniy voqeliklar bilan bog‘lash imkonini beradi. Rüsen (2004) ga ko‘ra, reflektiv talqin tarixiy tafakkurning tarixiy ong va axloqiy yo‘nalishni shakllantirishdagi asosiy mexanizmidir. O‘qituvchi tayyorlash jarayonida guruh muhokamalari, reflektiv esse, portfel va taqdimotlar kabi amaliyotlar pedagogik o‘zini anglash va kasbiy identifikatsiyani rivojlantiradi.

O‘zbekiston pedagogik tadqiqotlari ham ushbu shart-sharoitlarning ahamiyatini tasdiqlaydi. Ismoilova (2015) muzey pedagogikasi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish, madaniy o‘zlikni mustahkamlash va axloqiy mas’uliyatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Xuddi shuningdek, Yo‘ldoshev (2020) muzeyga asoslangan ta’lim tarixni o‘qitishda vizual, moddiy va tajribaviy metodlarni uyg‘unlashtirgan innovatsion yondashuvlarni rag‘batlantirishini qayd etadi. Bu yondashuvlar o‘qituvchi tayyorlashni modernizatsiya qilish va kompetensiyaga asoslangan ta’limni rivojlantirishga qaratilgan milliy ustuvorliklarga mos keladi. So‘nggi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yillarda raqamli va virtual muzey vositalaridan foydalanish tarixiy tafakkurni rivojlantirish shart-sharoitlariga yangi o'lcham qo'shdi. Virtual muzeylar, interaktiv ekspozitsiyalar va 3D rekonstruksiyalar, ayniqsa jismoniy muzeylarga kirish cheklangan oliy ta'lim sharoitida, moslashuvchan va inklyuziv o'rganish imkoniyatlarini yaratadi. Makransky va Petersen (2019) tadqiqotlariga ko'ra, immersiv raqamli muhitlar o'quvchilarning jalb etilishini, tushunchalarni anglashini va tarixiy bilimlarni uzoq muddat saqlab qolishini kuchaytiradi. O'qituvchi tayyorlashda raqamli muzey vositalari tarixiy tafakkur bilan birga raqamli pedagogik kompetensiyani ham rivojlantiradi. Xulosa qilib aytganda, muzey pedagogikasi orqali bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirish institutsional hamkorlik, metodik aniqlik, talabalarning faol ishtiroki, reflektiv amaliyot va raqamli texnologiyalar integratsiyasini o'z ichiga olgan izchil pedagogik shart-sharoitlar tizimini talab etadi. Ushbu shartlar bajarilganda, muzey muhitlari tanqidiy tarixiy tahlil, tarixiy empatiya va kasbiy o'qituvchilik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi kuchli pedagogik makonlarga aylanadi.

NATIJALARI

Tadqiqot natijalari muzey pedagogikasini bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga tizimli integratsiya qilish tarixiy tafakkur kompetensiyasining barcha asosiy tarkibiy qismlarini — kognitiv, talqin qiluvchi, metodologik va aksiologik o'lchamlarni — sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi. Avvalo, muzey muhitida birlamchi tarixiy manbalar bilan bevosita ishlash manba tanqidi, dalillarga asoslangan fikrlash va kontekstual tahlil ko'nikmalarini faollashtirishi aniqlandi (Wineburg, 2001; Levstik & Barton, 2015). Talabalar artefaktlarning kelib chiqishi, vazifasi va tarixiy ahamiyatini tahlil qilish orqali tarixiy dalil va talqin o'rtasidagi farqni anglashda yuqori natijalarga erishdilar. Ikkinchi muhim natija muzey muhitining vizual va emotsional ta'siri bilan bog'liq bo'lib, u tarixiy empatiya va tarixiy narrativlarga shaxsiy munosabatni shakllantirishni kuchaytirishi bilan namoyon bo'ldi. Muzey

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ekspozitsiyalari va obyektlari bilan ishlash talabalarning tarixiy shaxslar va jarayonlarni ularning ijtimoiy-madaniy kontekstida tushunish qobiliyatini rivojlantirdi (Seixas & Morton, 2013; Rüsen, 2012). Bu esa tarixiy tafakkurning faqat intellektual emas, balki axloqiy va qadriyatga yo‘naltirilgan jihatlarini ham mustahkamladi. Natijalar shuningdek, muzey pedagogikasining fanlararo integratsiyani kuchaytirishdagi rolini tasdiqladi. Tarixni san’at, arxeologiya, antropologiya va madaniyatshunoslik bilan uyg‘un o‘rganish talabalarining tarixiy murakkablikni anglashini va ko‘p nuqtayi nazardan fikrlashini rivojlantirdi (Hein, 1998; Falk & Dierking, 2016). Bunday integratsiya tarixiy tafakkurni fragmentar bilimlar majmuasidan yaxlit va tizimli tushuncha darajasiga olib chiqdi. Bundan tashqari, raqamli va virtual muzey texnologiyalaridan foydalanish ta’limiy natijalarni kengaytirib, makon va vaqt cheklovlarini kamaytirgani aniqlandi. Virtual ekspozitsiyalar va 3D rekonstruksiyalar talabalarning o‘quv jarayoniga jalb etilishini kuchaytirib, tarixiy bilimlarni uzoq muddatli xotirada saqlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi (Makransky & Petersen, 2019; Daniela, 2020). Natijada, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida tarixiy tafakkur bilan bir qatorda raqamli pedagogik kompetensiyalar ham shakllandi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar muzey pedagogikasini bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali va innovatsion pedagogik mexanizm sifatida talqin qilish imkonini beradi. Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar Wineburg (2001) tomonidan ilgari surilgan tarixiy tafakkur konsepsiyasi hamda Rüsen (2004) ning tarixiy ong va narrativ kompetensiya haqidagi qarashlari bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ldi. Xususan, muzey muhitida tashkil etilgan ta’lim tarixiy tafakkurni “noodatiy intellektual faoliyat” sifatida rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratdi. Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, muzey pedagogikasining real samaradorligi uni epizodik tashriflar yoki ilustrativ qo‘shimcha sifatida emas, balki o‘qituvchi tayyorlash dasturlariga metodik jihatdan asoslangan va tizimli integratsiyalangan komponent

sifatida qo'llash bilan bevosita bog'liq. Falk va Dierking (2016) ta'kidlaganidek, muzeyni dinamik ta'lim ekotizimi sifatida tashkil etish talabalar o'rtasida hamkorlik, muloqot va reflektiv o'rganishni kuchaytiradi. Tadqiqot natijalari bu yondashuv bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, muzey pedagogikasi bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish uchun autentik manbalar bilan ishlash, tajribaviy o'rganish, fanlararo integratsiya, reflektiv amaliyot va raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirgan kompleks pedagogik modelni taqdim etadi. O'zbekiston sharoitida muzey resurslarini o'qituvchi tayyorlash dasturlariga tizimli ravishda integratsiya qilish tarixiy ong, madaniy o'zlik va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish bilan bir qatorda, izlanishga asoslangan va innovatsion tarix ta'limini amalga oshira oladigan pedagoglarni tayyorlash imkonini sezilarli darajada kengaytiradi.

REFERENCES

1. Barton, K. C., & Levstik, L. S. (2004). Teaching history for the common good. Lawrence Erlbaum Associates.
2.Falk, J. H., & Dierking, L. D. (2016). The museum experience revisited. Routledge.
3. Hein, G. E. (1998). Learning in the museum. Routledge.
4. Hooper-Greenhill, E. (2007). Museums and education: Purpose, pedagogy, performance. Routledge.
5. Ismoilova, J. X., Nishanova, K. S., & Mukhamedova, M. S. (2015). Museum and society. Chinor ENK.
6. Korolev, S. V. (2017). Historical thinking as a component of civic education. Pedagogical Sciences, 4, 45–52.
7. Levstik, L. S., & Barton, K. C. (2015). Doing history (5th ed.). Routledge.
8. Makransky, G., & Petersen, G. B. (2019). Immersive virtual reality and learning. Educational Psychology Review, 31(3), 593–626.
9. Qodirov, A. A. (2018). Tarix fanini o'qitishda vizual manbalar. Pedagogik ta'lim, 3, 52–56.
10. Qodirova, D. S. (2020). Muzey pedagogikasining imkoniyatlari. O'zbekiston pedagogika jurnali, 2, 34–39.
11. Rüsen, J. (2004). Historical consciousness. Berghahn Books.
12. Rüsen, J. (2012). History, narration, interpretation, orientation. Berghahn Books.
13. Seixas, P., & Morton, T. (2013). The big six historical thinking concepts. Nelson Education.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

14. Shodmonov, S. T. (2023). Tarixiy tafakkur kompetensiyasi. Ta'lim va innovatsiya, 1, 17–23.
15. Stolyarov, B. A. (2018). Museum pedagogy. Akademicheskiy proyekt.
16. To'xtaxo'jayev, M. (2019). Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Uzluksiz ta'lim, 4, 41–46.
17. Wineburg, S. (2001). Historical thinking and other unnatural acts. Temple University Press.
18. Yo'ldoshev, B. (2020). Muzey pedagogikasining ahamiyati. Xalq ta'limi, 5, 66–70.
19. Yurenova, T. Y. (2019). Museum education and historical empathy. Journal of Cultural Studies, 6(2), 88–96.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

MILLIY TARBIYANING TA'LIMIY BOSQICHLARI - PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Tursunova Shaxnoza Sobirjanovna
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
tshahnoza893@gmail.com
Tel: +99893 927 14 64
ORCID:0009-0002-0791-1440

Annotatsiya: *Maqolaqa umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy tarbiya asosida vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishning metodologik asoslariga qaratilgan bo'lib, ta'limning taraqqiyot bosqichlaridagi pedagogik muammolarni soha olimlarining ilmiy asoslari misolida yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Milliy tarbiya, buyuk siymolar, metodologik asos, pedagogika, interfaol ko'rsatmalar, zamonaviy usullar, so'rovnomalar,og'zaki savol-javob, ta'lim bosqichlari.*

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ЭТАПЫ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: *В статье рассматриваются методологические основы формирования чувства патриотизма у учащихся начальных классов общеобразовательных школ на основе национального воспитания. Также раскрываются педагогические проблемы на этапах развития образования на примере научных подходов учёных данной области.*

Ключевые слова: *национальное воспитание, великие личности, методологическая основа, педагогика, интерактивные рекомендации, современные методы, анкетирование, устный вопрос-ответ, этапы образования.*

EDUCATIONAL STAGES OF NATIONAL UPBRINGING AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract: *The article focuses on the methodological foundations of instilling patriotic feelings in primary school pupils of general secondary schools on the basis of national upbringing. It also highlights pedagogical problems at the developmental stages of education through the example of scientific approaches proposed by scholars in the field.*

Keywords: *national upbringing, great figures, methodological basis, pedagogy, interactive guidelines, modern methods, questionnaires, oral question-and-answer, stages of education.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Milliy tarbiya masalasi zamonaviy pedagogika fanining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti, milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir. Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ularning milliy qadriyatlarga sodiqligini shakllantirish hamda milliy identifikatsiyani mustahkamlash muhim pedagogik vazifa sifatida e’tirof etilmoqda.

Milliy tarbiyaning pedagogik mohiyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu jarayon shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan kompleks pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois milliy tarbiyaning ta’limiy bosqichlarini ilmiy asosda tashkil etish zamonaviy pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Milliy tarbiyaning samaradorligi ko‘p jihatdan uning ta’lim tizimi bosqichlari bo‘yicha to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liqdir. Uzluksiz ta’lim tizimida milliy tarbiyaning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi shaxsning izchil rivojlanishini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Ushbu mavzuga oid manbalar buyuk siymolarimizdan bo‘gan Al Forobiy, Al Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy hamda jadid ma’rifatchilarining asarlarida ilgari surilgan vatanparvarlik g‘oyalari milliy tarbiyaning muhim g‘oyaviy asoslari sifatida tahlil qilindi. Ushbu mutafakkirlar merosi yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda muhim pedagogik manba bo‘lib xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Ayniqsa, jadid ma’rifatchilari tomonidan ilgari surilgan milliy ongni shakllantirish, yosh avlodni ma’rifatli va vatanparvar etib tarbiyalash g‘oyalari zamonaviy milliy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi ekanligi aniqlandi. Milliy tarbiya ijtimoiy-tarixiy, qonuniy va obyektiv jarayon bo‘lib, uning maqsadi – komil insonni shakllantirishdir.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy vositalar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

joriy etilib, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosidan foydalanishning me'yoriy asoslari yaratildi, "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash" ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi [1]. Bu borada Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyani "axloq fani" deb atab, uni badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasi deb uch guruhga ajratadi. Avloniy oilani tarbiyaning birinchi bosqichi deb hisoblaydi va "yaxshi xulqlar"ni 33 ta, "yomon xulqlar"ni 21 ta misol bilan ochib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ilmiy-nazariy tahlil, tarixiy-qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlarining pedagogik mohiyati, ularning uzviyligi hamda ushbu jarayonni tashkil etishda yuzaga keladigan pedagogik muammolar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi.O'rganilgan ilmiy manbalar va pedagogik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatdiki, milliy tarbiya shaxsning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi uzluksiz pedagogik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Milliy tarbiya tushunchasining pedagogik mohiyati keng yoritilib, uning shaxsning milliy ongini shakllantirish, milliy qadriyatlarga sodiqlikni rivojlantirish hamda milliy identifikatsiyani mustahkamlashdagi o'rni asoslab berildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, milliy tarbiya jamiyatning tarixiy tajribasi, madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlari asosida shakllanib, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Shuningdek, milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlari tizimi ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinib, maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan jarayonda milliy tarbiyaning uzluksiz amalga oshirilishi zarurligi asoslandi. Har bir ta'lim bosqichi o'ziga xos pedagogik vazifalarga ega bo'lib, ularning o'zaro uzviyligi shaxsning izchil rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, milliy tarbiyaning bosqichlararo uzviyligini ta'minlash tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligi aniqlandi. Ushbu paragrafda milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlarini tashkil etishda uchraydigan pedagogik muammolar ham tizimli ravishda o'rganildi. Tahlillar natijasida quyidagi asosiy muammolar mavjudligi aniqlandi:

- milliy tarbiya bosqichlari o'rtasida uzviylikning yetarli darajada ta'minlanmaganligi;
- oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;
- milliy tarbiya mazmunining zamonaviy ijtimoiy talablar bilan yetarli darajada uyg'unlashmaganligi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etish uchun milliy tarbiya jarayonini ilmiy asosda takomillashtirish zarurligi asoslab berildi. Jumladan, milliy tarbiyaning uzluksiz modelini ishlab chiqish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash muhim yo'nalishlar sifatida belgilandi.

Milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlarini ilmiy asosda tashkil etish shaxsning milliy o'zligini shakllantirish, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini rivojlantirish hamda jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariy tahlillar keyingi boblarda milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlarini takomillashtirishning metodik va amaliy asoslarini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy-metodologik zamin yaratadi (1-rasm).



Pedagog olim R.J.Ishmuhamedov ta'kidlaganidek, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali tarbiyaning samaradorligini oshirish mumkin [2].

XULOSA

Milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlarining pedagogik mohiyati, ularning uzviyligi hamda ushbu jarayonni tashkil etishda yuzaga keladigan pedagogik muammolar ilmiy-nazariy jihatdan tizimli ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, buyuk siymolarimiz asarlarida ilgari surilgan vatanparvarlik g'oyalari milliy tarbiya tizimining g'oyaviy asoslari sifatida o'rganildi.

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatdiki, milliy tarbiya shaxsning milliy ongini shakllantirish, milliy qadriyatlarga sodiqligini mustahkamlash hamda ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayon shaxsning ma'naviy kamolotini ta'minlash bilan birga, uning jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglashiga ham xizmat qiladi.

Milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlari tizimi ilmiy jihatdan tahlil qilinib, maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan jarayonda milliy tarbiyaning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Annotatsiya. *Maqolada tarjimonlik faoliyatiga sun'iy intellekt (SI), neyron mashina tarjimasi va generativ til modellarining kirib kelishi natijasida yuzaga kelayotgan kasbiy transformatsiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi SI vositalarining tarjima jarayonidagi real imkoniyatlari va cheklovlarini tizimlashtirish, inson tarjimoni saqlab qolayotgan funksional ustunliklarni aniqlash hamda zamonaviy professional kompetensiyalar modelini taklif etishdan iborat. Tadqiqot 2019–2026-yillarda chop etilgan xalqaro ilmiy manbalar, Yevropa Komissiyasining EMT kompetensiyalar ramkasi, O'zbekistonning sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasi va mahalliy ilmiy adabiyotlar asosida qiyosiy-kontent tahlil usulida amalga oshirildi. Natijalar SI tezlik, terminologik izchillik, katta hajmdagi matnlarni dastlabki qayta ishlash va post-tahrirni qo'llab-quvvatlashda samarali ekanini, biroq kontekst, pragmatika, madaniy implikatsiya, etik mas'uliyat va yuqori xavfli sohalarda mustaqil yakuniy qaror chiqarishda cheklovlarga egaligini ko'rsatdi. Zamonaviy tarjimon uchun lingvomadaniy, texnologik, post-tahrir, sifat va riskni boshqarish, axborot xavfsizligi, etik va uzluksiz o'rganish kompetensiyalarining integratsiyasi zarur degan xulosaga kelindi.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, tarjimonlik, generativ SI, neyron mashina tarjimasi, post-tahrir, tarjimon kompetensiyasi, sifat nazorati, etik mas'uliyat.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПЕРЕВОДЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: ВОЗМОЖНОСТИ, ОГРАНИЧЕНИЯ И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация. *В статье анализируется трансформация переводческой деятельности под влиянием искусственного интеллекта, нейронного машинного перевода и генеративных языковых моделей. Цель исследования заключается в систематизации возможностей и ограничений ИИ в профессиональном переводе и определении компетенций, необходимых переводчику в условиях человеко-машинного взаимодействия. На основе сравнительного и контент-анализа международных исследований 2019–2026 гг., рамки компетенций EMT, стратегии развития искусственного интеллекта в Узбекистане и отечественной научной литературы показано, что ИИ повышает скорость обработки текста, поддерживает терминологическую согласованность и постредактирование, однако не устраняет потребность в человеческом контроле. Наиболее*

уязвимыми остаются прагматика, культурные смыслы, неоднозначность, этическая ответственность и работа с конфиденциальными либо высокорисковыми текстами. Обоснована необходимость интеграции лингвокультурной, технологической, постредакторской, этической, информационно-безопасностной и риск-ориентированной компетенций современного переводчика.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, перевод, генеративный ИИ, нейронный машинный перевод, постредактирование, компетенция переводчика, контроль качества, профессиональная этика.*

USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TRANSLATION PRACTICE: OPPORTUNITIES, LIMITATIONS, AND PROFESSIONAL COMPETENCIES

Abstract. *This article examines the transformation of professional translation under the influence of artificial intelligence, neural machine translation, and generative language models. The study aims to systematize the practical opportunities and limitations of AI-assisted translation and to identify the professional competencies required in human–AI workflows. A comparative content analysis was conducted using international studies published between 2019 and 2026, the European Master's in Translation competence framework, Uzbekistan's national AI development strategy, and Uzbek scholarly literature. The findings indicate that AI can accelerate first-draft production, improve terminological consistency, support large-scale text processing, and facilitate post-editing. At the same time, AI remains vulnerable in context-sensitive interpretation, pragmatic intent, cultural implications, ambiguity, ethical accountability, confidentiality, and high-risk specialized translation. The paper argues that professional translators increasingly need an integrated competence profile combining linguistic-cultural expertise, AI and machine-translation literacy, post-editing, quality and risk management, information security, ethical judgment, and lifelong learning. Human responsibility therefore shifts from mere text production toward critical verification, decision-making, and accountable communication.*

Keywords: *artificial intelligence, translation, generative AI, neural machine translation, post-editing, translator competence, quality assurance, professional ethics.*

KIRISH

Raqamli transformatsiya tarjimonlik faoliyatining texnologik bazasini keskin o‘zgartirdi. Avval tarjima xotirasi, terminologik bazalar va kompyuter yordamidagi tarjima (CAT) vositalari tarjimonning ish jarayonini qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa, bugungi bosqichda neyron mashina tarjimasi va generativ sun’iy intellekt tizimlari matnni bevosita ishlab chiqish, qayta yozish, uslubiy moslashtirish va variantlar yaratish imkoniga ega bo‘ldi. Bu holat tarjimonni texnologiyadan foydalanuvchi mutaxassisdan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ko‘ra, inson–mashina hamkorligi doirasida qaror qabul qiluvchi, tekshiruvchi va yakuniy sifat uchun javobgar kommunikatorga aylantirmoqda. EMT kompetensiyalar ramkasi ham tarjimon tayyorlashda texnologik jihatdan kuchli, dinamik mehnat bozoriga moslashuvchan kompetensiyalar zarurligini ta’kidlaydi (1).

Sun’iy intellektning tarjimadagi ahamiyati faqat tezlik bilan cheklanmaydi. Katta hajmdagi matnni dastlabki qayta ishlash, termin variantlarini taqqoslash, parallel matnlar asosida yechim topish, uslubiy variantlar taklif qilish va post-tahrir jarayonini tezlashtirish SI vositalarining amaliy ustunliklaridandir. Biroq mashina tarjimasi savodxonligi – ya’ni tizimning qanday ishlashi, qachon ishonish mumkinligi va qachon tekshiruv zarurligini bilish – professional foydalanishning asosiy sharti bo‘lib qolmoqda (2).

Texnologik taraqqiyot tarjimon kasbining yo‘qolishini emas, uning funksional qayta taqsimlanishini keltirib chiqarmoqda. Vieira tadqiqotida tarjimonlarning avtomatlashtirishga munosabati ko‘proq texnologiyaning cheklovlari va mehnat bozori amaliyotlari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan; muallif inson tarjimoni rolini toraytirish emas, balki konsultativ, ijodiy va kommunikativ vazifalar bilan kengaytirish zarurligini ilgari suradi (3). Shunday ekan, muammo “SI tarjimon o‘rnini bosadimi?” degan savoldan ko‘ra “SI sharoitida professional tarjimonning qiymati qaysi kompetensiyalar orqali namoyon bo‘ladi?” degan savolga ko‘chmoqda.

O‘zbekistonda ham sun’iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarga joriy etish davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qaror bilan tasdiqlangan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi” huquqiy, texnologik va iqtisodiy asoslarni shakllantirish, kadrlar salohiyatini oshirish va SI yechimlarini ustuvor yo‘nalishlarga tatbiq etishni nazarda tutadi (9). Bu jarayon til xizmatlari va tarjimon tayyorlash tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi – tarjimonlik faoliyatida SI dan foydalanishning asosiy imkoniyatlari va cheklovlarini ilmiy manbalar asosida tizimlashtirish, inson tarjimoni saqlab qolayotgan ustun kompetensiyalarni aniqlash hamda SI vositalari bilan ishlash sharoitida zamonaviy professional kompetensiyalar modelini asoslash.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot nazariy-analitik xarakterga ega bo‘lib, sistematik bo‘lmagan maqsadli adabiyotlar sharhi, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va kompetensiyalarni xaritalash usullariga tayandi. Asosiy empirik va konseptual material sifatida 2019–2026-yillarda chop etilgan xalqaro ilmiy ishlar, Yevropa Komissiyasining EMT kompetensiyalar ramkasi, O‘zbekiston Respublikasining SI bo‘yicha strategik hujjati hamda o‘zbek mualliflarining mavzuga oid tadqiqoti tanlandi. Manbalarni tanlashda uch mezon qo‘llandi: birinchidan, tarjima texnologiyasi yoki generativ SI bilan bevosita bog‘liqlik; ikkinchidan, professional kompetensiya, post-tahrir, sifat yoki etik mas’uliyat masalasini yoritish; uchinchidan, natijalarni tarjimon tayyorlash va amaliy tarjima jarayoniga tatbiq etish imkoniyati.

Tahlil ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda manbalardagi SI ning funksional afzalliklari va xatarlari “tezlik va unumdorlik”, “terminologik izchillik”, “kontekst va pragmatika”, “madaniy moslik”, “maxfiylik va etika”, “kognitiv yuklama”, “sifat nazorati” kategoriyalari bo‘yicha kodlandi. Ikkinchi bosqichda ushbu kategoriyalar tarjimon kompetensiyalariga moslashtirilib, lingvistik-madaniy, texnologik, post-tahrir, strategik, etik, axborot xavfsizligi, sohaviy va uzluksiz o‘rganish kompetensiyalaridan iborat integrativ model ishlab chiqildi. Tadqiqotda mustaqil tajriba yoki so‘rovnoma o‘tkazilmaganligi sababli keltirilgan xulosalar tanlangan adabiyotlar sinteziga asoslanadi.

NATIJALAR

Tahlil natijalari tarjimonlikda SI ning eng katta qiymati takrorlanuvchi va katta hajmdagi operatsiyalarni tezlashtirishda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Generativ

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tizimlar va neyron mashina tarjimasi dastlabki tarjima variantini soniyalar ichida yaratishi, terminologik muqobillarni taklif qilishi, parallel tuzilmalarni saqlashi va bir xil mazmundagi matnlarni izchil qayta ishlashi mumkin. Bunday imkoniyat ayniqsa texnik hujjatlar, kataloglar, ichki korporativ materiallar va katta hajmdagi axborot oqimlarida tarjimonning vaqtini tejaydi. Kwok va hammualliflar GPT yordamidagi post-tahrir o‘quvchi tarjimalarida leksik murakkablikni oshirishi mumkinligini ko‘rsatgan, biroq sintaktik ta’sir doim ham bir xil emasligi qayd etilgan (6). Bu natija SI ni sifatning avtomatik kafolati emas, balki muayyan vazifalarda samarali yordamchi sifatida ko‘rish kerakligini anglatadi.

Ikkinchi muhim imkoniyat – post-tahrir va sifat nazoratini qo‘llab-quvvatlashdir. SI tarjimon uchun muqobil variantlar, qisqartirilgan yoki rasmiylashtirilgan shakllar, terminlar ro‘yxati va stilistik yechimlarni tez ishlab chiqishi mumkin. Bunday ish jarayoni “nol nuqtadan tarjima qilish” modelidan “variantni tekshirish–solishtirish–tahrirlash” modeliga o‘tishni kuchaytiradi. Prieto Ramosning institutsional va huquqiy tarjima bo‘yicha tadqiqoti texnologiya kuchaygan sharoitda ham til-kommunikativ, strategik-metodologik va sohaga oid kompetensiyalar tarjima sifati uchun markaziy bo‘lib qolishini ko‘rsatadi (5).

Uchinchi imkoniyat – resurslar bilan ishlashni integratsiyalashdir. Zamonaviy tarjimon bir vaqtning o‘zida korpus, terminologik baza, tarjima xotirasi, qidiruv tizimi va generativ SI dan foydalanishi mumkin. Shu sababli texnologik kompetensiya alohida dastur tugmalarini bilishdan ko‘ra kengroq tushunchaga aylandi: vazifaga mos vositani tanlash, natijani verifikatsiya qilish, ma’lumot manbasini tekshirish, promptni maqsadga muvofiq tuzish va inson nazoratini qaysi bosqichda kuchaytirish kerakligini bilish mazkur kompetensiyaning tarkibiy qismidir.

1-jadval. Tarjimonlik faoliyatida SI dan foydalanishning funksional modeli

Jarayon bosqichi	SI ning foydasi	Asosiy xavf/cheklov	Zarur inson kompetensiyasi
Dastlabki tarjima	Tezkor draft, katta hajmni qayta ishlash	Mazmuniy xato, kontekst yo‘qolishi	Lingvistik va strategik kompetensiya
Terminologiya	Variantlar va izchillikni taklif qilish	Noto‘g‘ri yoki soha uchun noaniq termin	Sohaviy va terminologik kompetensiya
Post-tahrir	Tahrir variantlari, uslubiy soddalashtirish	Avtomatik yechimga ortiqcha ishonch	Post-tahrir va tanqidiy baholash
Sifat nazorati	Xatolarni aniqlashga ko‘mak	Yashirin mantiqiy/pragmatik xatolar	Risk va sifatni boshqarish
Maxfiy material	Tezkor qayta ishlash imkoniyati	Ma’lumotlar sizib chiqishi, huquqiy xavf	Axborot xavfsizligi va etika

SI ning cheklovlari, avvalo, tarjimaning kontekstual va pragmatik tabiatida ko‘rinadi. Til birligi faqat lug‘aviy moslik bilan emas, balki kommunikativ vaziyat, muallif pozitsiyasi, auditoriya kutishi, janr me’yorlari va madaniy implikatsiyalar orqali ma’no kasb etadi. Generativ model grammatik jihatdan ravon, ammo faktik yoki pragmatik jihatdan noto‘g‘ri matn yaratishi mumkin. Shu sababli “ravonlik”ni “to‘g‘rilik” bilan tenglashtirish professional xato hisoblanadi. O‘zbek ilmiy matnlarini ingliz tiliga tarjima qilish bo‘yicha mahalliy tadqiqotda ham SI ning tezlik va qulaylik afzalliklari bilan birga, kontekst, madaniy sezgirlik va inson nazorati zarurligi ta’kidlangan (10).

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ikkinchi cheklov – yuqori xavfli sohalarda javobgarlik masalasidir. Tibbiy, huquqiy, moliyaviy yoki institutsional tarjimada kichik semantik siljish ham real oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bunday sharoitda inson tarjimoni faqat til mutaxassisi emas, balki riskni baholovchi ekspert vazifasini bajaradi. Mau, Wu va Fengning generativ SI yordamidagi huquqiy tarjima treningiga oid tadqiqoti prompt tuzish, natijani baholash va post-tahrir jarayonlari o‘quvchiga qo‘shimcha kognitiv yuklama berishini, ayrim foydalanuvchilar esa samaradorlik ortishi fonida SI ga ortiqcha ishonib qolishi mumkinligini ko‘rsatgan (8). Demak, SI ba’zi kognitiv vazifalarni yengillashtirishi bilan birga, tekshirish va qaror qabul qilish yukini boshqa shaklda oshiradi.

Uchinchi cheklov – maxfiylik, mualliflik huquqi va etik mas’uliyatdir. Professional tarjimada mijoz hujjatlarini ochiq bulutli tizimlarga yuklash, shaxsiy ma’lumotlarni uchinchi tomon servislariga uzatish yoki SI ishlab chiqargan matn manbasini tekshirmasdan topshirish etik va huquqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ramírez-Polo va Vargas-Sierra tarjima texnologiyalarini o‘qitishda etik kompetensiya yetarlicha aniq aks etmayotganini qayd etib, texnologik tayyorgarlik bilan birga axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantirish zarurligini asoslaydi (4).

Kompetensiyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, SI davrida “texnologik mahorat” professional ustunlikning yagona ko‘rsatkichi emas. Yang, Hou, Chen va Wider 2026-yilda ekspertlar ishtirokidagi Delphi tadqiqotida yettita asosiy kompetensiya guruhini aniqlagan: lingvistik va madaniy kompetensiya, moslashuvchanlik va uzluksiz o‘rganish, kognitiv-emotsional qobiliyatlar, professionallik va etik standartlar, texnologik kompetensiya, loyiha boshqaruvi va interpersonal ko‘nikmalar, shuningdek sohaviy bilim (7). Eng yuqori ustuvorlik lingvistik va madaniy kompetensiyaga berilgani SI sharoitida ham insonning til va madaniyatga oid ekspertligi asosiy qiymat bo‘lib qolishini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar tarjimonlik kasbida "inson yoki mashina" qarama-qarshiligidan "inson + mashina" hamkorligi modeliga o'tish ilmiy jihatdan asosliroq ekanini ko'rsatadi. SI tezlik, masshtablilik va texnik yordamda ustun, inson esa maqsad, kontekst, javobgarlik, madaniy moslik va noaniqlikni boshqarishda ustunlik qiladi. Shu sababli professional tarjima qiymati oddiy matn ishlab chiqarishdan ko'ra, tarjima jarayonini loyihalash, SI natijasini tekshirish, variantlar orasidan asosli tanlov qilish va yakuniy kommunikativ ta'sir uchun javob berishga ko'chmoqda.

Bu tendensiya tarjimon tayyorlash dasturlarini ham yangilashni talab qiladi. Avvalo, talabaga faqat "qaysi dasturdan foydalanish" emas, balki "qaysi vazifa uchun qaysi vosita xavfsiz va maqsadga muvofiq" ekanini aniqlash o'rgatilishi kerak. Ikkinchidan, post-tahrir mustaqil amaliy kompetensiya sifatida shakllantirilishi lozim: talaba mashina matnini grammatik tozalash bilangina cheklanmay, terminologiya, fakt, mantiq, pragmatika, uslub, janr va madaniy moslik bo'yicha tekshirishi zarur. Uchinchidan, SI savodxonligi natija sifatini tanqidiy baholash, hallucination va manba noaniqligini sezish, ma'lumotlar maxfiyligini tushunish va inson tekshiruvi chegaralarini belgilashni o'z ichiga olishi kerak (2; 4).

Professional kompetensiyalarni integrativ tarzda tashkil etish maqsadga muvofiq. Birinchi qatlamni lingvistik-madaniy kompetensiya tashkil etadi: manba va maqsad tilining chuqur bilimi, janr va uslub me'yorlari, madaniy konnotatsiya va pragmatik maqsadni anglash. Ikkinchi qatlam – texnologik va SI savodxonligi: CAT vositalari, NMT, LLM, terminologik bazalar va korpuslar bilan ishlash. Uchinchi qatlam – strategik-post-tahrir kompetensiyasi: xatoni aniqlash, ustuvorlashtirish, variantni asoslash va yakuniy sifatni boshqarish. To'rtinchi qatlam – etik va xavfsizlik kompetensiyasi: maxfiylik, ma'lumotlar himoyasi, mualliflik huquqi, mijoz bilan shaffof kommunikatsiya. Beshinchi qatlam – moslashuvchanlik va uzluksiz o'rganish: yangi vositalarni tez o'zlashtirish, ularning afzallik va cheklovlarini muntazam qayta baholash.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

O‘zbekiston sharoitida mazkur model alohida ahamiyatga ega. Milliy SI strategiyasi kadrlar salohiyati, infratuzilma va standartlarni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi (9). Tarjimonlik ta’limida bu vazifa o‘zbek tili uchun sifatli parallel korpuslar, terminologik resurslar va sohaviy ma’lumotlar bazalarini yaratish, o‘zbekcha-inglizcha va o‘zbekcha-ruscha yo‘nalishlarda SI natijalarini tizimli baholash, shuningdek mahalliy til va madaniyatga xos xatolar tipologiyasini ishlab chiqish bilan to‘ldirilishi lozim. Sitanov va Rahimova ham o‘zbek ilmiy matnlarini tarjima qilishda SI ni inson nazorati bilan birlashtirgan gibrid modelni maqbul yo‘nalish sifatida ko‘rsatadi (10).

Tadqiqotning cheklovi shundaki, unda mustaqil eksperiment o‘tkazilmadi va natijalar tanlangan adabiyotlar sinteziga asoslandi. Bundan tashqari, SI texnologiyalari juda tez yangilanayotgani sababli bugungi funksional imkoniyatlar qisqa davr ichida o‘zgarishi mumkin. Shu bois keyingi tadqiqotlarda o‘zbek til juftliklari bo‘yicha tajribaviy korpuslar, professional tarjimonlar ishtirokidagi post-tahrir tezligi va xato tiplari, shuningdek turli generativ tizimlarning maxsus sohalardagi ishonchliligi empirik baholanishi maqsadga muvofiq.

XULOSA

Sun’iy intellekt tarjimonlik faoliyatining ayrim bosqichlarini avtomatlashtirayotgan bo‘lsa-da, professional tarjimaning mohiyatini to‘liq almashtirmaydi. SI ning asosiy ustunliklari tezlik, masshtablilik, dastlabki variant yaratish, terminologik izchillik va post-tahrirni qo‘llab-quvvatlashda namoyon bo‘ladi. Asosiy cheklovlar esa kontekstual noaniqlik, pragmatik va madaniy ma’nolarni to‘liq anglamaslik, yuqori xavfli sohalarda javobgarlik, maxfiylik, etik va faktik xatolar bilan bog‘liq.

Shu sababli kelajak tarjimoni “matnni qo‘lda ishlab chiqaruvchi” mutaxassisdan “SI bilan hamkorlik qiluvchi, natijani tekshiruvchi va sifat uchun javob beruvchi” ekspertga aylanadi. Uning professional profili lingvistik-madaniy bilim, texnologik va SI savodxonligi, post-tahrir, sifat va riskni boshqarish, sohaviy bilim, axborot xavfsizligi,

etik mas'uliyat, mijoz bilan kommunikatsiya va uzluksiz o'rganish kompetensiyalarining integratsiyasiga tayanishi kerak. Bunday model SI ni raqib sifatida emas, mas'uliyatli inson nazorati ostidagi produktiv vosita sifatida qo'llash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. European Commission. European Master's in Translation (EMT): Competence Framework 2022. Brussels: Directorate-General for Translation, 2022.
2. Bowker L., Buitrago Ciro J. Machine Translation and Global Research: Towards Improved Machine Translation Literacy in the Scholarly Community. Bingley: Emerald Publishing, 2019. DOI: 10.1108/9781787567214.
3. Vieira L. N. Automation anxiety and translators // Translation Studies. 2020. Vol. 13, No. 1. P. 1–21. DOI: 10.1080/14781700.2018.1543613.
4. Ramírez-Polo L., Vargas-Sierra C. Translation Technology and Ethical Competence: An Analysis and Proposal for Translators' Training // Languages. 2023. Vol. 8, No. 2. Art. 93. DOI: 10.3390/languages8020093.
5. Prieto Ramos F. Revisiting translator competence in the age of artificial intelligence: the case of legal and institutional translation // The Interpreter and Translator Trainer. 2024. Vol. 18, No. 2. P. 148–173. DOI: 10.1080/1750399X.2024.2344942.
6. Kwok H. L., Shi Y., Xu H., Li D., Liu K. GenAI as a translation assistant? A corpus-based study on lexical and syntactic complexity of GPT-post-edited learner translation // System. 2025. Vol. 130. Art. 103618. DOI: 10.1016/j.system.2025.103618.
7. Yang C., Hou S., Chen J., Wider W. Prioritizing translator competencies in the era of artificial intelligence: a Delphi method study // Discover Education. 2026. Vol. 5. Art. 605. DOI: 10.1007/s44217-026-01642-3.
8. Mau B.-R., Wu Y.-P., Feng H.-H. Mind the cognitive load gap: Student translators' cognitive demands and translation behaviors in GenAI-assisted legal translation // System. 2026. Vol. 139. Art. 104033. DOI: 10.1016/j.system.2026.104033.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2024. Lex.uz.
10. Sitanov S., Rahimova G. Sun'iy intellektning o'zbek ilmiy maqolalarini inglizchaga tarjima qilishdagi roli // Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. 2024. Vol. 2, Issue 10. P. 106–110. DOI: 10.71337/inlibrary.uz.journal-science-innovative.60314.

OLIY TA'LIM FANLARIDAN MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Hayitov Umidjon Hamidovich
BuxDU dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
ORCID: 0000-0002-5342-7150,
E-mail: u.h.hayitov@buxdu.uz

Annotatsiya. *Maqolada mustaqil ta'limni tashkil etishda sun'iy intellektdan foydalanishning Zimmerman SRL modeliga asoslangan to'rt bosqichli «SIAI-MT» sikllik metodikasi (diagnostika, rejalashtirish, bajarish, refleksiya) taklif etilgan. Kuzatish va ekspert baholash natijalari metodika mustaqil o'rganish, sun'iy intellekt bilan mazmunli muloqot va refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirishini, shu bilan birga tanqidiy tekshiruvsiz foydalanish xavfini cheklash zarurligini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, mustaqil ta'lim, SIAI-MT metodikasi, o'z-o'zini boshqarib o'rganish, ChatGPT, akademik halollik, individuallashtirish, oliy ta'lim.*

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ПО ДИСЦИПЛИНАМ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Хаитов Умиджон Хамидович
Доцент БухГУ, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам.
ORCID: 0000-0002-5342-7150,
E-mail: u.h.hayitov@buxdu.uz

Аннотация. *В статье предложена основанная на модели саморегулируемого обучения (SRL) Циммермана четырёхэтапная циклическая методика «SIAI-MT» (диагностика, планирование, выполнение, рефлексия) использования ИИ в самостоятельном обучении. Наблюдение и экспертная оценка показали, что методика развивает навыки планирования, содержательного диалога с ИИ и рефлексии, одновременно указывая на необходимость ограничения рисков некритичного использования ответов ИИ.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, самостоятельное обучение, методика SIAI-MT, саморегулируемое обучение, ChatGPT, академическая честность, индивидуализация, высшее образование.*

A METHODOLOGY FOR USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN ORGANIZING INDEPENDENT LEARNING IN HIGHER EDUCATION SUBJECTS

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Khayitov Umidjon Khamidovich,
Associate Professor of BukhSU, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences.
ORCID: 0000-0002-5342-7150,
E-mail: u.h.hayitov@buxdu.uz

Abstract. *Building on Zimmerman's self-regulated learning model, the article proposes a four-stage cyclical methodology, «SIAI-MT» (diagnosis, planning, execution, reflection), for using AI in independent learning. Observation and expert assessment show it fosters planning, meaningful AI dialogue and reflection skills, while highlighting the need to limit risks of uncritical reliance on AI-generated answers.*

Keywords: *artificial intelligence, independent learning, SIAI-MT methodology, self-regulated learning, ChatGPT, academic integrity, individualization, higher education.*

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim o'quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan bo'lib, ta'lim standartlariga ko'ra bakalavr va magistratura dasturlarida umumiy o'quv yuklamasining sezilarli qismini tashkil etadi [1]. Bu holat, xususan, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki magistrant nafaqat o'z bilimini mustaqil chuqurlashtirishi, balki kelajakda o'quvchilarda ham xuddi shunday mustaqillik ko'nikmalarini shakllantira olishi lozim. Biroq an'anaviy sharoitda mustaqil ta'lim qator qiyinchiliklarga duch keladi: talabalar ko'pincha qaysi manbadan boshlash va qanday chuqurlikda o'rganish kerakligini aniq belgilay olmaydi, o'qituvchining har bir talabaga individual yondashuvi esa vaqt va resurs cheklovlari tufayli qiyinlashadi. Pintrichning ta'kidlashicha, teskari aloqaning o'z vaqtida va individuallashtirilgan tarzda kelmasligi ta'lim oluvchining o'quv motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin[2].

Sun'iy intellekt texnologiyalarining, xususan katta til modellari va adaptiv o'rganish vositalarining jadal rivojlanishi mustaqil ta'limni tashkil etishda tubdan yangi imkoniyatlar ochmoqda. Zimmerman va Moylan tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini boshqarib o'rganish modeli sun'iy intellekt yordamida yangi bosqichga ko'tarilishi mumkin: sun'iy intellekt ta'lim oluvchining rejalashtirish, ijro etish va refleksiya

bosqichlarida faol intellektual hamkor sifatida ishtirok etishga qodir [3]. Xalqaro tahlillarga koʻra, soʻnggi yillarda sunʼiy intellekt asosidagi taʼlim vositalaridan foydalanuvchilar soni jadal surʼatlarda oʻsib bormoqda [4], biroq bu vositalarning mustaqil taʼlim kontekstida qoʻllanilishi metodologik jihatdan hali yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning maqsadi – oliy taʼlim fanlarida mustaqil taʼlimni sunʼiy intellekt texnologiyalari yordamida yangi sifat darajasiga koʻtaruvchi «SIAI-MT» metodikasini ishlab chiqish va uni boʻlajak oʻqituvchilarni tayyorlash amaliyotida sinovdan oʻtkazishdir. Tadqiqot quyidagi savollarga javob berishga qaratilgan: 1) sunʼiy intellekt texnologiyalari mustaqil taʼlimning qaysi bosqichlarida eng yuqori pedagogik samaradorlikni beradi? 2) turli fan yoʻnalishlari uchun sunʼiy intellekt vositalaridan foydalanish qanday farqlanishi lozim? 3) mustaqil taʼlimda sunʼiy intellektdan foydalanish oʻqituvchining metodik rolini qanday oʻzgartiradi?

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Oʻz-oʻzini boshqarib oʻrganish (SRL) nazariyasi Zimmerman tomonidan uch bosqichli sikl – oldindan rejalashtirish, ijro etish jarayoni va oʻz-oʻziga aks ettirish – sifatida tavsiflanadi [11]. Zimmerman va Moylan bu modelni metakognitsiya va motivatsiya kesishmasi nuqtayi nazaridan yanada chuqurlashtirib, har bir bosqichda tashqi qoʻllab-quvvatlashning ahamiyatini alohida taʼkidlaydi [3]. Alevens va hamkasflarining aqlli repetitorlik tizimlari (Intelligent Tutoring Systems) boʻyicha tadqiqotlariga koʻra, bunday tizimlar SRL koʻnikmalarini rivojlantirishda ijobiy natija beradi, biroq bu ustunlik faqat taʼlim oluvchi sunʼiy intellekt bilan passiv emas, faol dialog rejimida ishlaganda yaqqol namoyon boʻladi [5].

ChatGPT va undan keyingi generativ sunʼiy intellekt modellari mustaqil oʻrganish amaliyotini sezilarli darajada oʻzgartirdi. Kasneci va hamkasflarining taʼkidlashicha, generativ sunʼiy intellekt taʼlim oluvchida savol berish madaniyatini shakllantirishda oʻziga xos vosita boʻlib xizmat qiladi – taʼlim oluvchi oʻzi tushunmagan jihatni aniq

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ifodalashga majbur bo‘ladi, bu esa o‘z-o‘zini baholashning samarali shakli hisoblanadi [6]. Shu bilan birga, Farrokhnia va hamkasflari o‘zlarining ChatGPT bo‘yicha SWOT-tahlilida generativ sun’iy intellektdan tartibsiz foydalanish ta’lim oluvchining chuqur bilim izlash faolligini pasaytirishi mumkinligini ta’kidlaydilar [7].

Adaptiv o‘rganish platformalari mustaqil ta’limda individuallashtirish muammosini hal qilishga yo‘naltirilgan. Mayerning multimediali o‘rganish va aqlli repetitorlik tizimlari bo‘yicha meta-tahlili bunday tizimlardan foydalangan ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarida umumiy ijobiy tendensiya kuzatilishini ko‘rsatadi [8].

O‘zbekistonda mustaqil ta’limda sun’iy intellektni qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar hali shakllanish bosqichida. Yusupov va hamkasflarining pilot tadqiqotiga ko‘ra, sun’iy intellekt vositalaridan mustaqil ta’limda foydalangan talabalarda topshiriqni bajarish tezligi oshgan, biroq dastlabki bosqichda sifat ko‘rsatkichlarida pasayish holatlari ham kuzatilgan [9]. Ushbu ziddiyat sun’iy intellekt integratsiyasini metodologik jihatdan to‘g‘ri, bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish zaruratini ko‘rsatadi hamda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlarida bu masalaning alohida dolzarbligini belgilaydi.

METODOLOGIYA

SIAI-MT (SI-Asosida Individuallashtirilgan Mustaqil Ta’lim) – ushbu tadqiqot doirasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan va sinab ko‘rilgan, Zimmerman SRL modeliga tayanuvchi to‘rt bosqichli sikllik metodika bo‘lib, quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Diagnostika bosqichida ta’lim oluvchi yangi mustaqil ta’lim mavzusini olishdan avval sun’iy intellekt bilan qisqa diagnostik dialog o‘tkazadi: tizim mavzudagi boshlang‘ich bilim darajasini aniqlab, individual o‘rganish yo‘nalishini tavsiya qiladi. Rejalashtirish bosqichida ta’lim oluvchi ushbu tavsiya asosida o‘z mustaqil ta’lim rejasini (maqsad, manba, vaqt, natija mezoni) tuzadi, o‘qituvchi esa rejani ko‘rib chiqib tasdiqlaydi. Bajarish bosqichida ta’lim oluvchi belgilangan manbalar va sun’iy intellekt

yordamida mustaqil ishni amalga oshiradi, bu jarayonda sun'iy intellekt so'rov-javob tutor, tanqidiy fikr uyg'otuvchi va yozma ish tuzilishi bo'yicha maslahatchi rolini bajaradi (tayyor matn yozib bermaydi). Refleksiya bosqichida ta'lim oluvchi sun'iy intellekt bilan qisqa o'z-o'zini baholash suhbatini o'tkazadi va o'qituvchiga mustaqil ish mahsuli, sun'iy intellekt bilan suhbat xulosasi va shaxsiy refleksiyadan iborat hisobot topshiradi.



1-rasm. SIAI-MT metodikasining sikllik modeli

Fan turiga qarab (gumanitar, tabiiy, texnik-riyoziy) sun'iy intellekt vositalarining qo'llanilish ustuvorligi farqlanadi: gumanitar fanlarda dialog va tanqidiy muhokama funksiyasi, tabiiy fanlarda manba qidirish va sintez funksiyasi, texnik-riyoziy fanlarda esa tushuntirish va tekshirish funksiyasi ustuvor bo'lib, bu yo'nalishda sun'iy intellektni «tayyor yechim manbai» sifatida emas, mulohaza yuritishga undovchi vosita sifatida cheklab qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Tadqiqot davomida olib borilgan kuzatishlar SIAI-MT metodikasi joriy etilgan guruhlarda magistrantlarning mustaqil ta'lim faoliyatida bir qator izchil ijobiy tendensiyalar kuzatilganini ko'rsatdi. Diagnostika va rejalashtirish bosqichlarini muntazam bajargan magistrantlarda mustaqil ish mavzusini tanlash va uni ma'lum

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

maqsad hamda muddat bilan bog‘lash ko‘nikmasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yaxshi shakllanganligi qayd etildi.

Sun’iy intellekt bilan olib borilgan suhbatlar xarakterini kuzatish shuni ko‘rsatdiki, tadqiqot davomida magistrantlarning sun’iy intellektga bergan savollari asta-sekin oddiy faktual so‘rovlardan tushunish va tahlilga yo‘naltirilgan chuqurroq savollarga o‘tib bordi. Bu, ayniqsa, refleksiya bosqichini izchil bajargan magistrantlarda yaqqolroq namoyon bo‘ldi.

Fan yo‘nalishlari kesimida umumiy tendensiya sifatida, aniq tuzilgan va bosqichma-bosqich mulohaza yuritishni talab qiluvchi mavzularda SIAI-MT metodikasi ayniqsa samarali ekanligi, texnik-riyoziy yo‘nalishdagi ba’zi topshiriqlarda esa magistrantlarning sun’iy intellektdan «tayyor yechim» kutish holatlari nisbatan ko‘proq uchrashi kuzatildi – bu holat mazkur yo‘nalish uchun sun’iy intellektdan foydalanish chegaralarini yanada aniqroq belgilash zarurligini ko‘rsatdi.

Tadqiqotga jalb etilgan o‘qituvchi-metodistlarning aksariyati SIAI-MT metodikasi asosida topshirilgan mustaqil ishlar sifatining, ayniqsa magistrantning o‘z fikrini asoslash va manbalarga tanqidiy yondashuv jihatidan, an’anaviy tarzda bajarilgan ishlarga nisbatan yaxshiroq ekanligini ta’kidladi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida sun’iy intellekt javoblaridan tanqidiy tekshiruvsiz foydalanish bilan bog‘liq bir qator holatlar ham qayd etildi: ayrim magistrantlar sun’iy intellekt taqdim etgan matn yoki adabiyotlarni tekshirmasdan o‘z mustaqil ish hisobotiga kiritdi. Garchi bunday holatlar nisbatan kam uchragan bo‘lsa-da, ular SIAI-MT metodikasiga aniq og‘zaki yoki yozma tasdiqlash (verifikatsiya) bosqichini kiritish zarurligini ko‘rsatdi.

MUHOKAMA

Olingan dastlabki natijalar Aleven va hamkasflari [5] hamda Mayer [8] tadqiqotlari bilan umumiy yo‘nalish jihatidan mos keladi: sun’iy intellekt asosidagi individual yondashuv mustaqil ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq bizning

tadqiqotimizning o‘ziga xos qo‘shimchasi shundaki, bu samaradorlik tasodifiy sun’iy intellekt ishlatishdan emas, balki aniq tuzilgan to‘rt bosqichli metodika – diagnostika, rejalashtirish, bajarish va refleksiya – asosida izchil ishlashdan kelib chiqadi.

Magistrantlarning sun’iy intellekt bilan suhbat uslubi vaqt o‘tishi bilan sodda savol-javobdan analitik-tanqidiy muloqotga o‘tishi Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi kontseptsiyasi bilan izohlanishi mumkin: ta’lim oluvchi sun’iy intellekt bilan birga mulohaza yuritganda, uni to‘liq mustaqil bajara olmaydigan, ammo yordam bilan anglaydigan zonada faoliyat yuritadi [10].

Farrokhnia va hamkasflari tomonidan tavsiflangan chuqur bilim izlash faolligining pasayishi xavfi [7] bizning kuzatishlarimizda ham qisman uchradi, biroq SIAI-MT metodikasidagi diagnostika va refleksiya bosqichlari bu xavfni sezilarli darajada cheklashga xizmat qildi: magistrant sun’iy intellekt javobini passiv qabul qilishdan avval o‘z bilimini diagnostika qilishi, so‘ngra o‘z o‘rganishini refleksiya qilishi lozim bo‘ladi.

Aniqlangan tanqidiy tekshiruvsiz foydalanish holatlari muhim metodologik xulosa chiqarish imkonini beradi: sun’iy intellekt bilan suhbat xulosasini hisobotga qo‘shish talabining o‘zi yetarli profilaktik chora emas. Keyingi bosqichda magistrantning o‘z so‘zi bilan og‘zaki yoki yozma tarzda tushuntirib berishini talab qiluvchi qo‘shimcha verifikatsiya bosqichini joriy etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida quyidagilarni qayd etish lozim: hozirgi bosqichda olingan natijalar asosan sifat tahlili xarakteriga ega bo‘lib, ularni to‘liq miqdoriy statistik tekshiruvdan o‘tkazish zarur; shuningdek, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish internet va texnik ta’minot mavjudligiga bog‘liq bo‘lib, bu shart respublikamizning barcha hududlarida bir xilda ta’minlanmagan. Ushbu omillar kelgusi tadqiqotlarda alohida o‘rganilishi lozim.

XULOSA

Tadqiqot sun'iy intellekt texnologiyalarining mustaqil ta'limni tashkil etishda katta salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ishlab chiqilgan SIAI-MT metodikasi Zimmerman

SRL modelini sun'iy intellekt imkoniyatlari bilan integratsiya qilib, to‘rt bosqichni yaxlit sikl sifatida qamrab oladi, fan turiga qarab vositalarni tanlash tamoyillari va verifikatsiya mexanizmi zarurligi asoslandi. Amaliy tavsiya sifatida oliy ta'lim muassasalari sun'iy intellektdan foydalanish doirasini aniq belgilashi, o‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari joriy etilishi va akademik halollik uchun verifikatsiya bosqichi majburiy qilinishi tavsiya etiladi. Kelgusi tadqiqotlarda metodika samaradorligini miqdoriy statistik metodlar orqali tekshirish dolzarb yo‘nalish sifatida belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. (2022). Bakalavr ta’lim dasturlarida o‘quv yuklamasini taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma.
2. Pintrich, P. R. (2004). A conceptual framework for assessing motivation and self-regulated learning in college students. Educational Psychology Review, 16(4), 385–407.
3. Zimmerman, B. J., & Moylan, A. R. (2009). Self-regulation: Where metacognition and motivation intersect. In D. J. Hacker, J. Dunlosky, & A. C. Graesser (Eds.), Handbook of Metacognition in Education (pp. 299–315). Routledge.
4. HolonIQ. (2023). Global EdTech market outlook 2023–2028: AI-powered learning platforms. HolonIQ Intelligence Report.
5. Aleven, V., Roll, I., McLaren, B. M., & Koedinger, K. R. (2016). Help helps, but only so much: Research on help seeking with intelligent tutoring systems. International Journal of Artificial Intelligence in Education, 26(1), 205–223.
6. Kasneci, E., Seßler, K., Küchemann, S., Bannert, M., Dementieva, D., & Fischer, F. (2023). ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education. Learning and Individual Differences, 103, 102274.
7. Farrokhnia, M., Banihashem, S. K., Noroozi, O., & Wals, A. (2023). A SWOT analysis of ChatGPT: Implications for educational practice and research. Innovations in Education and Teaching International, 60(5), 1–15.
8. Mayer, R. E. (2022). Multimedia learning and intelligent tutoring systems: A meta-analysis. Educational Psychology Review, 34(3), 1461–1484.
9. Yusupov, A. X., Toshmatov, B. R., va Xoliqov, D. A. (2023). Sun’iy intellekt vositalaridan mustaqil ta’limda foydalanish: pilot tadqiqot natijalari. Axborot texnologiyalari va ta’lim: Ilmiy jurnal, 5(3), 44–58.
10. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

BADIIY-IJODIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Dominjonov Komoliddin Faxriddin o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti
"Art pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi
komoldindominjonov1994@gmail.com
Telefon:+998940581294

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarning badiiy-ijodiy kompetensiyasini shakllantirish bosqichlari ilmiy-nazariy va pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Badiiy-ijodiy kompetensiya o'quvchining san'at, adabiyot, musiqa, tasviriy faoliyat hamda boshqa ijodiy yo'nalishlarda bilim va ko'nikmalarini mustaqil qo'llay olishi, o'z fikrini obrazli ifodalashi, ijodiy muammolarni hal qilishi va yaratilgan mahsulotni baholay olish qobiliyatini ifodalaydi. Tadqiqotda badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirishning motivatsion, nazariy-bilish, amaliy-ijodiy, refleksiv-baholash hamda mustaqil ijod bosqichlari asoslab berilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar, loyiha faoliyati, muammoli ta'lim va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Maqolada badiiy-ijodiy kompetensiyani baholash mezonlari ham ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *badiiy-ijodiy kompetensiya, ijodkorlik, kreativ fikrlash, estetik tarbiya, ijodiy faoliyat, ijodiy topshiriq, loyiha metodi, refleksiya, mustaqil fikrlash.*

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Доминжонов Комолиддин Фахриддин угли
Наманганский государственный педагогический институт
Преподаватель кафедры арт-педагогики
komoldindominjonov1994@gmail.com

Аннотация. *В статье анализируются этапы формирования художественно-творческой компетентности учащихся с теоретической и педагогической точки зрения. Художественно-творческая компетентность означает способность учащегося самостоятельно применять знания и навыки в области искусства, литературы, музыки, изобразительной деятельности и других творческих направлений, образно выражать свои мысли, решать творческие задачи и оценивать созданный продукт. Обоснованы мотивационный, теоретико-познавательный, практико-творческий, рефлексивно-оценочный этапы и этап самостоятельного творчества.*

Ключевые слова: *художественно-творческая компетентность, творчество, креативное мышление, эстетическое воспитание, творческая деятельность, творческое задание, проектный метод, рефлексия, самостоятельное мышление.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

STAGES OF DEVELOPING ARTISTIC AND CREATIVE COMPETENCE

Komoliddin Faxriddin ogli Dominjonov
Namangan State Pedagogical Institute
Lecturer of the Department of Art Pedagogy
komoldindominjonov1994@gmail.com

Abstract. *This article analyzes the stages of developing students' artistic and creative competence from theoretical and pedagogical perspectives. Artistic and creative competence refers to a student's ability to independently apply knowledge and skills in art, literature, music, visual activities and other creative areas, express ideas figuratively, solve creative problems and evaluate the created product. The study substantiates the motivational, theoretical-cognitive, practical-creative, reflective-evaluative and independent creativity stages of competence development. The article also describes the effectiveness of interactive methods, creative tasks, project-based learning, problem-based education and digital technologies in the educational process.*

Keywords: *artistic and creative competence, creativity, creative thinking, aesthetic education, creative activity, creative task, project method, reflection, independent thinking.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda ta'lim tizimi oldiga yangi talablar qo'yilmoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga tayyor bilimlarni berish bilan chegaralanib qolmasdan, ularni mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondashadigan, o'z qobiliyatlarini amaliy faoliyatda namoyon eta oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir.

Shaxsning ijodiy salohiyati uning kelajakdagi faoliyati, kasbiy rivojlanishi va jamiyatdagi o'rnini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy-ijodiy faoliyat o'quvchining tafakkuri, tasavvuri, estetik didi, hissiy dunyosi va ma'naviy qarashlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Badiiy faoliyat orqali o'quvchi atrof-muhitni kuzatadi, hodisalarga o'z munosabatini bildiradi, voqelikni obrazlar orqali ifodalaydi va ijodiy mahsulot yaratadi.

Badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirish masalasi umumiy o'rta ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim hamda oliy ta'lim jarayonida muhim yo'nalishlardan biri

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

hisoblanadi. Ushbu kompetensiyani rivojlantirish orqali o‘quvchilarda san’atga qiziqish, go‘zallikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, ijodiy mustaqillik va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalari shakllanadi.

Maqolaning maqsadi ta’lim jarayonida badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirish bosqichlarini aniqlash, ularning mazmunini yoritish hamda samarali pedagogik metodlarni asoslab berishdan iborat.

Maqolaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- badiiy-ijodiy kompetensiya tushunchasining mazmunini ochib berish;
- badiiy-ijodiy kompetensiyaning tarkibiy qismlarini aniqlash;
- uni shakllantirish bosqichlarini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish;
- ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda samarali metod va vositalarni ko‘rsatish;
- o‘quvchilarning badiiy-ijodiy faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish.

METODOLOGIYA

Badiiy-ijodiy kompetensiya shaxsning badiiy faoliyat jarayonida bilim, ko‘nikma, malaka, tasavvur, ijodiy fikrlash va estetik qarashlarini namoyon eta olish qobiliyatidir. Mazkur kompetensiya o‘quvchining san’at, adabiyot, musiqa, tasviriy faoliyat, teatr, dizayn va xalq amaliy san’ati kabi yo‘nalishlarda mustaqil faoliyat yuritishiga asos bo‘ladi. Badiiy-ijodiy kompetensiyaga ega bo‘lgan o‘quvchi tayyor ma’lumotlarni shunchaki yodlab qolmaydi, balki ularni qayta ishlaydi, o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi va yangi ijodiy mahsulot yaratishga intiladi.

Ta’lim jarayonida badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirish o‘quvchining ma’naviy-axloqiy, estetik va intellektual rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Chunki badiiy faoliyat orqali o‘quvchi go‘zallikni anglaydi, tabiat va jamiyat hodisalariga munosabat bildiradi, insoniy tuyg‘ularni his qiladi hamda o‘z kechinmalarini turli ijodiy vositalar orqali ifodalaydi. Shu jihatdan badiiy-ijodiy kompetensiya faqatgina san’at fanlariga tegishli bo‘lgan ko‘nikma emas, balki o‘quvchining umumiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim pedagogik omildir. Badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirish

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

jarayoni izchil, tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim. Mazkur jarayon, avvalo, o‘quvchilarda ijodiy faoliyatga qiziqish uyg‘otishdan boshlanadi. O‘quvchida qiziqish bo‘lmasa, u ijodiy topshiriqlarni bajarishga majburiy yondashadi. Shu sababli o‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va individual qobiliyatlarini hisobga olishi kerak.

MUHOKAMA

Badiiy-ijodiy kompetensiyaning mazmuni bir nechta o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan iborat. Birinchi navbatda, o‘quvchi badiiy faoliyatga oid nazariy bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Bunday bilimlar san’at turlari, badiiy obraz, ranglar uyg‘unligi, kompozitsiya, ritm, shakl, mazmun, ifoda vositalari va estetik mezonlar haqidagi tushunchalarni qamrab oladi.

Ikkinchi muhim tarkibiy qism ijodiy fikrlashdir. Ijodiy fikrlash o‘quvchining mavjud bilim va tasavvurlar asosida yangi g‘oyalarni ilgari surishi, muammoli vaziyatlarga noodatiy yechim topishi va voqea-hodisalarni turli nuqtayi nazardan baholay olishida namoyon bo‘ladi. Ijodiy fikrlaydigan o‘quvchi berilgan topshiriqni bir xil usulda bajarish bilan cheklanmaydi, balki o‘ziga xos yondashuvni izlaydi.

Uchinchi tarkibiy qism amaliy ijodiy faoliyatdir. O‘quvchi egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llashi, mustaqil ravishda rasm, hikoya, kompozitsiya, sahna ko‘rinishi, loyiha yoki boshqa ijodiy mahsulot yaratishi lozim. Nazariy bilim amaliy faoliyat bilan bog‘lanmasa, badiiy-ijodiy kompetensiya to‘liq shakllanmaydi.

To‘rtinchi tarkibiy qism estetik idrok va baholash qobiliyatidan iborat. O‘quvchi badiiy asarni ko‘rish, tinglash yoki o‘qish orqali uning mazmuni, g‘oyasi va estetik xususiyatlarini anglay olishi kerak. Shuningdek, u ijodiy ishning ijobiy va takomillashtirilishi zarur bo‘lgan jihatlarini tahlil qila olishi muhimdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning ijodiy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

fikrlashi, estetik didi, tasavvuri, mustaqil faoliyati va ma'naviy dunyosini rivojlantirishga xizmat qiladi. Badiiy-ijodiy kompetensiya o'quvchining san'at, adabiyot, musiqa, tasviriy faoliyat, teatr, dizayn va xalq amaliy san'ati kabi yo'nalishlarda o'z bilim va ko'nikmalarini amaliy qo'llay olishida namoyon bo'ladi.

Mazkur kompetensiyani shakllantirish bir martalik yoki qisqa muddatli jarayon emas, balki izchil, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir. Ushbu jarayon motivatsion-qiziqtirish, nazariy-bilish, amaliy-ijodiy faoliyat, refleksiv-baholash hamda mustaqil ijod va takomillashtirish bosqichlarini qamrab oladi. Har bir bosqich o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega.

Motivatsion bosqichda o'quvchilarda san'at va ijodiy faoliyatga qiziqish uyg'otiladi, nazariy-bilish bosqichida badiiy faoliyatga oid bilimlar shakllantiriladi, amaliy-ijodiy bosqichda o'quvchilar egallagan bilimlarini amalda qo'llab, mustaqil ijodiy mahsulot yaratadilar. Refleksiv-baholash bosqichida esa ular o'z faoliyatini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash hamda kelgusidagi ijodiy faoliyatini rejalashtirishni o'rganadilar. Mustaqil ijod bosqichida o'quvchi o'z qiziqishi va qobiliyatlari asosida ijodiy loyihalar yaratib, o'z faoliyatini takomillashtirib boradi.

Badiiy-ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda o'qituvchining roli muhim hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchining ijodiy imkoniyatlarini aniqlashi, uning individual xususiyatlarini hisobga olishi, erkin va ijodiy muhit yaratishi hamda har bir ijodiy tashabbusni qo'llab-quvvatlashi lozim. O'quvchini tayyor namunani ko'chirishga emas, balki mustaqil fikrlashga, izlanishga va yangicha yechim topishga yo'naltirish zarur.

Ta'lim jarayonida loyiha metodi, muammoli ta'lim, rolli o'yinlar, guruhli ijodiy faoliyat, aqliy hujum, klaster, portfolio, taqdimot va raqamli texnologiyalardan foydalanish badiiy-ijodiy kompetensiyani samarali shakllantirish imkonini beradi. Bunda baholash jarayonida faqat yakuniy natijaga emas, balki o'quvchining ijodiy

izlanishi, mustaqilligi, faolligi, yangicha yondashuvi va o‘z faoliyatini tahlil qila olish qobiliyatiga ham e’tibor qaratish lozim.

Shuningdek, badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirish o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, go‘zallikni anglash, madaniy merosni qadrlash, jamoada ishlash, o‘z fikrini erkin ifodalash va o‘ziga bo‘lgan ishonch kabi muhim sifatlarni rivojlantiradi. Ijodiy faoliyat bilan shug‘ullangan o‘quvchi voqea-hodisalarga kengroq nuqtayi nazardan qaraydi, muammolarga noodatiy yechim topishga intiladi va hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga tayyor bo‘ladi.

Demak, badiiy-ijodiy kompetensiyani shakllantirish barkamol, ijodkor, tashabbuskor va ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun ta’lim mazmunini ijodiy topshiriqlar bilan boyitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarga ijodiy erkinlik berish va ularning har bir ijodiy yutug‘ini rag‘batlantirish zarur. Natijada o‘quvchilarning badiiy-ijodiy salohiyati rivojlanib, ularning ta’lim va kelajakdagi kasbiy faoliyatida ijodiy yondashuvga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dominjonov, K. F. U. (2026, January). TRADITIONAL UZBEK POTTERY ART AND ITS CONTEMPORARY INTERPRETATIONS. In Claritas Conference Platform (No. 1, pp. 85-89).
2. Dominjonov, K. F. U. (2026, January). THE EVOLUTION OF POTTERY ART AND THE HISTORICAL ORIGINS OF POTTERY. In Claritas Conference Platform (No. 1, pp. 55-58).
3. ugli Dominjonov, K. F. (2026). THE HARMONY OF FOLK APPLIED ART AND CONTEMPORARY ART IN POTTERY WORKS. European Review of Contemporary Arts and Humanities, 2(1), 32-35.
4. Dominjonov, K. (2025). O ‘rta asr kulolchiligida sir tayyorlash texnologiyasi va uning zamonaviy ahamiyati. Science and Education, 6(11), 1019-1023.
5. Faxriddin o‘g‘li, D. K. (2026). O’ZBEKISTON KULOCHILIGIDA TARIXIY SHAXSLAR TALQINING BADIIY TAHLILI. SHOKH LIBRARY, 1(1).
6. Dominjonov, K. F. U. (2026, January). APPLICATION OF NEW TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF POTTERY PRODUCTS. In International Conference Platform (No. 1, pp. 36-39).

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ERKINLIK VA MAS'ULIYAT: ZAMONAVIY INSON HAYOTIDAGI FALSAFIY MUAMMOLAR

Karimova Gulchehra Abdukarimovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, "Jismoniy madaniyat va gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti v.b., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: gul.karimova2023@gmail.com
tel.: 977566411
ORCID: 0009-0001-6847-0805

Annotatsiya: *Tadqiqotning maqsadi zamonaviy inson hayotida erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi munosabatning falsafiy mazmunini ochib berish hamda raqamli va texnologik muhitda ushbu munosabatning o'zgarish tendensiyalarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda falsafiy tahlil va sintez, qiyosiy-tarixiy, germenevtik, tizimli va aksiologik yondashuvlar, shuningdek, konseptual modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida erkinlikning zamonaviy talqinlari tizimlashtirildi, erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi assimetriya hodisasi tavsiflandi hamda uning to'rt asosiy ko'rinishi — tanlov mo'lligi paradoksi, algoritmik vositachilik, mas'uliyat bo'shlig'i va javobgarlikning tashqi omillarga ko'chirilishi — ajratib ko'rsatildi. Erkinlik va mas'uliyatning dialektik aloqasini ifodalovchi strukturaviy model hamda mas'uliyat darajalarining to'rt bosqichli tasnifi ishlab chiqildi. Muallif erkinlikni cheklash emas, balki uni mas'uliyat bilan uyg'unlashtirish zamonaviy jamiyatning asosiy falsafiy vazifasi ekanini asoslaydi. Xulosa qilib aytganda, erkinlik va mas'uliyat bir-birini istisno qiluvchi emas, balki bir-birini taqozo etuvchi kategoriyalar bo'lib, ularning muvozanati shaxs kamoloti va jamiyat barqarorligining zaruriy shartidir.*

Kalit so'zlar: *erkinlik, mas'uliyat, tanlov, avtonomiya, determinizm, axloqiy subyekt, raqamli muhit, mas'uliyat bo'shlig'i, qadriyat, shaxs, javobgarlik, ekzistensiya.*

СВОБОДА И ОТВЕТСТВЕННОСТЬ: ФИЛОСОФСКИЕ ПРОБЛЕМЫ В ЖИЗНИ СОВРЕМЕННОГО ЧЕЛОВЕКА

Аннотация: *Целью исследования является раскрытие философского содержания соотношения свободы и ответственности в жизни современного человека, а также выявление тенденций изменения этого соотношения в цифровой и технологической среде. В исследовании применены методы философского анализа и синтеза, сравнительно-исторический, герменевтический, системный и аксиологический подходы, а также концептуальное моделирование. В результате исследования систематизированы современные трактовки свободы, описан феномен асимметрии между свободой и ответственностью и выделены четыре его основные формы: парадокс избыточности выбора, алгоритмическое посредничество, разрыв ответственности и перенос ответственности на внешние обстоятельства. Разработаны*

структурная модель диалектической связи свободы и ответственности, а также четырёхуровневая классификация уровней ответственности. Автор обосновывает, что главной философской задачей современного общества является не ограничение свободы, а её согласование с ответственностью. В заключение показано, что свобода и ответственность не исключают, а взаимно предполагают друг друга, и их равновесие выступает необходимым условием развития личности и устойчивости общества.

Ключевые слова: *свобода, ответственность, выбор, автономия, детерминизм, моральный субъект, цифровая среда, разрыв ответственности, ценность, личность, подотчётность, экзистенция.*

FREEDOM AND RESPONSIBILITY: PHILOSOPHICAL ISSUES IN THE LIFE OF MODERN MAN

Abstract: *The aim of the study is to reveal the philosophical content of the relationship between freedom and responsibility in the life of contemporary man and to identify the tendencies of change in this relationship within the digital and technological environment. The research applies the methods of philosophical analysis and synthesis, the comparative-historical, hermeneutic, systemic and axiological approaches, as well as conceptual modelling. As a result of the study, contemporary interpretations of freedom are systematised, the phenomenon of asymmetry between freedom and responsibility is described, and its four principal forms are distinguished: the paradox of excessive choice, algorithmic mediation, the responsibility gap, and the displacement of accountability onto external circumstances. A structural model of the dialectical connection between freedom and responsibility, together with a four-level classification of responsibility, has been developed. The author substantiates that the principal philosophical task of contemporary society consists not in restricting freedom but in harmonising it with responsibility. In conclusion, freedom and responsibility do not exclude but mutually presuppose each other, and their balance constitutes a necessary condition for personal development and social stability.*

Keywords: *freedom, responsibility, choice, autonomy, determinism, moral subject, digital environment, responsibility gap, value, personality, accountability, existence.*

KIRISH

Erkinlik va mas'uliyat falsafiy tafakkur tarixining eng qadimiy hamda ayni paytda eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Antik davrdan boshlab mutafakkirlar insonning o'z harakatlari uchun haqiqiy sababchi bo'la olish-olmasligi, uning tanlovi ichki irodadan yoki tashqi zaruriyatdan kelib chiqishi haqidagi savol ustida bahs yuritganlar. Ushbu savol sof nazariy ahamiyatga ega emas, chunki undan beriladigan javob huquq, axloq, ta'lim va siyosat sohasidagi amaliy qarorlarning asosini tashkil



qiladi. Agar inson o‘z qarorining muallifi bo‘lmasa, uni javobgarlikka tortish asossiz bo‘lib qoladi; agar u to‘liq erkin bo‘lsa, unda ijtimoiy sharoit va tarbiyaning roli inkor etilgan bo‘ladi.

XXI asr ushbu muammoga tubdan yangi mazmun kiritdi. Bir tomondan, zamonaviy inson tarixda misli ko‘rilmagan darajada keng tanlov maydoniga ega bo‘ldi: kasb, yashash joyi, turmush tarzi, axborot manbai, ijtimoiy aloqa shakli va hatto shaxsiy o‘zlikni ifodalash usuli uning ixtiyoriga havola etildi. Boshqa tomondan, aynan shu davrda insonning tanlovi hech qachon bo‘lmagan darajada tashqi tizimlar tomonidan shakllantirila boshladi. Tavsiya beruvchi algoritmlar, raqamli platformalar, axborot oqimini boshqarish mexanizmlari insonning e’tiborini yo‘naltiradi va unga qanday variantlar ko‘rinishini oldindan belgilaydi.

Bunday vaziyatda erkinlikning shakli saqlanib qolgani holda uning mazmuni zaiflashuvi xavfi yuzaga keladi. Inson o‘zini erkin his qiladi, chunki u hech kim tomonidan majburlanmayapti; biroq uning oldiga qo‘yilgan alternativalar to‘plamini boshqa subyekt tuzgan bo‘ladi. Falsafiy nuqtayi nazardan bu majburlashning yangi, yashirin shakli bo‘lib, u an’anaviy zo‘rlik tushunchasi doirasida tavsiflanmaydi.

*Muammoning ikkinchi j*ihati mas’uliyat bilan bog‘liq. Zamonaviy jamiyatda erkinlikka bo‘lgan talab kuchayib borayotgan bir paytda, javobgarlikni o‘z zimmasiga olishga tayyorlik shunga mutanosib ravishda ortmayapti. Aksincha, qarorning oqibatlari ko‘pincha tashqi omillarga — institutlarga, texnologiyaga, iqtisodiy vaziyatga yoki “holatlar shunday bo‘lgani”ga yuklanadi. Ushbu hodisani erkinlik va mas’uliyat o‘rtasidagi assimetriya deb atash mumkin.

Uchinchi jihat texnologik xarakterga ega. Avtonom texnik tizimlarning keng tarqalishi javobgarlikning aniq bir subyektga biriktirilishini qiyinlashtirmoqda. Tizimning qarori ishlab chiquvchi, ma’lumot yetkazib beruvchi, buyurtmachi va foydalanuvchining birgalikdagi faoliyati natijasi bo‘lgani sababli, mas’uliyat shu qadar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

taqsimlanadiki, u amalda hech kimga tegishli bo‘lmay qolishi mumkin. Falsafiy adabiyotda bu holat mas’uliyat bo‘shlig‘i nomi bilan tahlil qilinadi.

Mavjud tadqiqotlarda erkinlik va mas’uliyat muammolari, qoida tariqasida, alohida-alohida o‘rganiladi. Erkin iroda masalasi ko‘proq metafizika va neyrofalsafa doirasida, mas’uliyat masalasi esa huquq falsafasi va axloqshunoslik doirasida tahlil qilinadi. Ularning zamonaviy raqamli muhitdagi o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, ushbu bog‘liqlikning shaxs kamoloti va ta’lim jarayoni uchun ahamiyati yetarlicha yoritilmagan. Milliy-madaniy kontekstda mas’uliyat tarbiyasining falsafiy asoslari ham alohida tadqiqotni talab qiladi.

Maqolaning maqsadi — zamonaviy inson hayotida erkinlik va mas’uliyat o‘rtasidagi munosabatning falsafiy mazmunini ochib berish hamda ushbu munosabatni uyg‘unlashtirishning konseptual asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

1. erkinlik tushunchasining zamonaviy falsafiy talqinlarini qiyosiy tahlil qilish;
2. mas’uliyat kategoriyasining mazmuni va tuzilishini aniqlash;
3. erkinlik va mas’uliyat o‘rtasidagi assimetriyaning asosiy ko‘rinishlarini ajratib ko‘rsatish;
4. raqamli muhitning inson avtonomiyasiga ta’sirini falsafiy jihatdan baholash;
5. erkinlik va mas’uliyatning dialektik aloqasini ifodalovchi strukturaviy model ishlab chiqish;
6. mas’uliyat darajalarini tasniflash va ularning o‘zaro bog‘liqligini asoslash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

*Erkinlik muammosining zamonaviy talqinlari***.** So‘nggi yillarda erkin iroda muammosi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ikki qarama-qarshi yo‘nalish yaqqol ajralib turadi. R. Sapolski qat’iy determinizm pozitsiyasini himoya qilib, inson xulq-atvori genetik, neyrobiologik, gormonal va ijtimoiy omillarning uzluksiz zanjiri bilan belgilanishini, shu sababli an’anaviy ma’nodagi erkin iroda mavjud emasligini asoslaydi [1]. Uning fikricha,

har qanday qaror ortida uni yuzaga keltirgan sabablar turadi va bu sabablarning hech biri insonning o‘zi tomonidan tanlanmagan.

Qarama-qarshi qarashni K. Mitchell ilgari suradi. U evolyutsion biologiya ma’lumotlariga tayanib, tirik organizmning o‘zi kauzal agentlik xususiyatiga ega ekanini, ya’ni u tashqi ta’sirlarga mexanik tarzda emas, balki o‘z ichki maqsad va holatidan kelib chiqqan holda javob berishini ko‘rsatadi [2]. Ushbu yondashuvda erkinlik fizik qonunlarni buzish sifatida emas, balki murakkab tizimning o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

D. Dennet va G. Karuzo o‘rtasidagi munozara masalaning axloqiy-huquqiy jihatini ochib beradi [4]. Kompatibilistik pozitsiyani himoya qiluvchi tomon determinizm mas’uliyatni inkor qilmasligini, chunki mas’uliyat metafizik ma’nodagi mutlaq erkinlikka emas, balki insonning aql-idrokka bo‘ysunish va o‘z xulqini tuzatish qobiliyatiga asoslanishini ta’kidlaydi. Skeptik pozitsiya tarafdori esa aynan shu asosda jazoning retributiv shakli oqlanmasligini ilgari suradi.

G. Karuzo alohida tadqiqotida retributivizm tanqidini rivojlantirib, jazoning asosiy vazifasi qasos olish emas, balki zararni oldini olish va shaxsni ijtimoiy hayotga qaytarish bo‘lishi kerakligini asoslaydi [3]. Ushbu yondashuv mas’uliyat tushunchasini jazo bilan tenglashtirishdan voz kechishga chorlaydi.

Mas’uliyat, adolat va ijtimoiy kontekst. M. Sandel meritokratiya g‘oyasining tanqidiy tahlilida shaxsiy muvaffaqiyat faqat individual sa’y-harakat natijasi emasligini ko‘rsatadi [8]. Uning fikricha, muvaffaqiyatni butunlay shaxsning xizmati deb baholash, mag‘lubiyatni esa uning shaxsiy aybi deb hisoblash jamiyatda mas’uliyat tushunchasini buzadi va ijtimoiy birdamlikni zaiflashtiradi. Bu qarash mas’uliyatni sof individual kategoriya sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar tizimida shakllanadigan hodisa sifatida ko‘rish imkonini beradi.

H. Rosa zamonaviy sivilizatsiyaning dunyoni to‘liq nazorat qilishga intilishini tahlil qilib, ushbu intilish insonni voqelik bilan haqiqiy aloqadan mahrum qilishini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ta'kidlaydi [9]. Uning konsepsiyasida erkinlik nazorat ko'lamini kengaytirish bilan emas, balki dunyo bilan o'zaro javob berish munosabatiga kirishish bilan bog'lanadi. Bu yondashuv erkinlikni imkoniyatlar sonining ortishi deb tushunadigan qarashga muqobil bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli muhit va avtonomiya. B.-Ch. Han axborot jamiyatida qaror qabul qilish jarayonining o'zgarishini tahlil qilib, raqamli muhitda majburlash o'rnini nozik boshqaruv egallashini ko'rsatadi [7]. Inson tashqaridan cheklanmaydi, biroq uning e'tibori va istaklari shakllantiriladi.

J. Sasskind texnologik kuchni demokratik nazorat ostiga olish zarurligini asoslaydi va raqamli platformalarning qarorlari fuqarolar hayotiga davlat qarorlari darajasida ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidlaydi [10]. Y. N. Harari axborot tarmoqlarining tarixiy evolyutsiyasini tahlil qilib, axborotni boshqarish qobiliyati doimo hokimiyat manbai bo'lib kelganini va sun'iy intellekt davrida bu bog'liqlik yangi bosqichga chiqqanini ko'rsatadi [11].

S. Vallor sun'iy intellekt tizimlarini insoniyatning "ko'zgusi" sifatida talqin qiladi: ular yangi qadriyat yaratmaydi, balki mavjud ijtimoiy naqshlarni aks ettiradi va kuchaytiradi [5]. Shundan kelib chiqib, texnologiyaning axloqiy sifati uchun javobgarlik insonda qolishi ta'kidlanadi. M. Kekelberg sun'iy intellekt etikasiga bag'ishlangan tadqiqotida avtonom tizimlar faoliyatida javobgarlikni biriktirish muammosini ko'rib chiqadi va mas'uliyatni taqsimlangan tarzda, ammo aniq belgilangan holda tashkil etish zarurligini asoslaydi [6].

Sharq falsafiy an'anasida ham ixtiyor va mas'uliyat birligi g'oyasi markaziy o'rin egallaydi. Abu Nasr Forobiy komil inson va odil jamiyat haqidagi ta'limotida aql, fazilat va ijtimoiy burchning uzviyligini asoslagan bo'lsa, Abu Ali ibn Sino va Alisher Navoiy asarlarida insonning o'z xatti-harakati uchun javobgarligi axloqiy kamolotning zaruriy sharti sifatida talqin qilinadi. Ushbu meros zamonaviy mas'uliyat konsepsiyalari uchun milliy-madaniy zamin yaratadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Falsafiy antropologiya, aksiologiya va ijtimoiy falsafa tamoyillari tashkil etadi. *Ishda quyidagi usullardan foydalanildi:*

1. falsafiy tahlil va sintez — erkinlik va mas'uliyat kategoriyalarining mazmunini ochish uchun;
2. qiyosiy-tarixiy usul — turli falsafiy yondashuvlarni solishtirish uchun;
3. germenevtik usul — manbalardagi g'oyalarni zamonaviy kontekstda talqin qilish uchun;
4. tizimli yondashuv — erkinlik, tanlov va mas'uliyatni yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish uchun;
5. aksiologik yondashuv — muammoni qadriyatlar tizimi nuqtayi nazaridan baholash uchun;
6. konseptual modellashtirish — strukturaviy model va tasniflarni ishlab chiqish uchun.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Erkinlikning zamonaviy falsafiy talqinlari. Adabiyotlar tahlili erkinlik tushunchasining bugungi kunda kamida to'rt xil asosiy talqinga ega ekanini ko'rsatdi. Ularning har biri mas'uliyat masalasiga o'ziga xos javob beradi. Taqqoslash natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Erkinlikning zamonaviy falsafiy talqinlari va ularning mas'uliyatga munosabati

Yondashuv	**Asosiy tezis**	**Mas'uliyatga munosabati**	**Zaif tomoni**
Qat'iy determinizm	Har bir qaror oldingi sabablar zanjiri bilan belgilangan	Axloqiy ayb asossiz; jazo faqat profilaktik ma'noga ega	Shaxsning o'zini o'zi tuzatish salohiyatini e'tibordan chetda qoldiradi

Libertarizm	Inson sabablar zanjiridan tashqarida qaror qabul qila oladi	Mas'uliyat to'liq shaxsga yuklanadi	Ijtimoiy va biologik shart-sharoitlarni yetarlicha hisobga olmaydi
Kompatibilizm	Erkinlik determinizmga zid emas; u aql-idrokka bo'ysunish qobiliyatidir	Mas'uliyat saqlanadi, ammo qayta tarbiya asosiy maqsad bo'ladi	"Erkinlik" atamasining mazmuni cheklanadi
Relatsion-ijtimoiy	Erkinlik munosabatlar va imkoniyatlar tizimida shakllanadi	Mas'uliyat shaxs va institutlar o'rtasida taqsimlanadi	Shaxsiy javobgarlik chegarasi noaniq bo'lib qolishi mumkin

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, ko'rsatilgan yondashuvlarning hech biri o'z-o'zicha to'liq emas. Qat'iy determinizm mas'uliyat asosini yemirsa, libertarizm insonni ijtimoiy kontekstdan ajratib qo'yadi. Amaliy jihatdan eng samarali natija kompatibilistik va relatsion yondashuvlarni birlashtirish orqali erishiladi: inson o'z qarorining muallifi sifatida tan olinadi, ammo uning tanlovi shakllanadigan ijtimoiy sharoit ham tahlil doirasiga kiritiladi.

*2. Erkinlik va mas'uliyatning dialektik aloqasi***.** Erkinlik va mas'uliyatni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish metodologik jihatdan asossiz ekani aniqlandi. Ushbu ikki kategoriya bir jarayonning ikki tomoni bo'lib, ularni bog'lovchi bo'g'in tanlov aktidir. Erkinlik tanlov imkoniyatini yaratadi, tanlov esa muqarrar ravishda oqibatni keltirib chiqaradi va shu tariqa mas'uliyatni tug'diradi. Ushbu bog'liqlikning strukturaviy modeli 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Erkinlik va mas'uliyatning dialektik aloqasi strukturaviy holati

Rasmda tanlov akti ikki tomondan shartlangan. Yuqoridan uni ong va bilim darajasi belgilaydi: inson vaziyatni qanchalik to'g'ri anglasa va oqibatlarni qanchalik aniq bashorat qila olsa, uning tanlovi shunchalik erkin bo'ladi. Quyidan tanlovni qadriyatlar tizimi — axloqiy me'yorlar, madaniy an'analar va huquqiy qoidalar — yo'naltiradi. Aynan shu ikki omil erkinlikni o'zboshimchalikdan, mas'uliyatni esa tashqi majburlashdan ajratib turadi.

Modeldan kelib chiqadigan muhim xulosa shundaki, bilim darajasining pasayishi erkinlikni ham, mas'uliyatni ham bir vaqtda zaiflashtiradi. Oqibatini tasavvur qilmaydigan inson aslida tanlamaydi, balki tasodifiy harakat qiladi. Shu sababli ta'lim va ma'rifat erkinlikning cheklovchisi emas, balki uning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi.

3. Erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi assimetriya. Natijalaridan biri zamonaviy jamiyatda erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatning buzilishi — assimetriya hodisasining aniqlanishi bo'ldi. Uning to'rt asosiy ko'rinishi hamda ikki qo'shimcha shakli 2-jadvalda tavsiflangan.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

2-jadval

Zamonaviy inson hayotida erkinlik va mas'uliyat assimetriyasining ko'rinishlari

Ko'rinishi	**Qanday namoyon bo'ladi**	**Falsafiy mohiyati**	**Oqibati**
Tanlov mo'lligi paradoksi	Variantlar soni ortadi, qaror qabul qilish qiyinlashadi	Erkinlik miqdoriy ko'rsatkichga aylantiriladi	Qarordan qochish, qoniqmaslik hissi
Algoritmik vositachilik	Tanlov maydonini tavsiya tizimlari shakllantiradi	Majburlashning yashirin shakli yuzaga keladi	Avtonomiyaning mazmunan cheklanishi
Mas'uliyat bo'shlig'i	Avtonom tizim qarori uchun aniq javobgar topilmaydi	Javobgarlik subyektsiz qolishi mumkin	Axloqiy nazoratning zaiflashuvi
Javobgarlikni ko'chirish	Oqibat vaziyatga, tizimga yoki boshqalarga yuklanadi	Shaxs o'zini qaror muallifi deb tan olmaydi	Shaxsiy kamolotning sekinlashuvi
Anonimlik effekti	Raqamli muhitda xatti-harakat shaxssizlashadi	Axloqiy subyekt ko'rinmas bo'lib qoladi	Muloqot madaniyatining buzilishi
Qisqa muddatlilik	Qaror faqat yaqin natijaga qaratiladi	Mas'uliyatning vaqt ko'lami torayadi	Uzoq muddatli oqibatlar e'tibordan chetda qoladi

Assimetriyaning birinchi ko'rinishi psixologik emas, balki falsafiy tabiatga ega. Erkinlik variantlar soni bilan o'lchana boshlaganda, u sifat kategoriyasidan miqdor

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kategoriyasiga aylanadi. Biroq erkinlikning mohiyati variantlar sonida emas, balki insonning o‘z tanlovini asoslay olish va uning ortida turish qobiliyatidadir.

Ikkinchi ko‘rinish zamonaviylik uchun ayniqsa xarakterli. Algoritmik vositachilik sharoitida inson o‘ziga taqdim etilgan variantlar ichidan tanlaydi, ammo bu variantlarni kim va qanday mezon asosida tanlab bergani unga noma’lum bo‘ladi. Bunday holatda tanlovning shakli saqlanadi, mazmuni esa qisman boshqa subyektga o‘tadi. Falsafiy jihatdan bu erkinlikning yo‘qolishi emas, balki uning darajasining pasayishi sifatida baholanishi lozim.

Uchinchi ko‘rinish — mas’uliyat bo‘shlig‘i — texnologik taraqqiyotning bevosita natijasidir. Shuni ta’kidlash lozimki, javobgarlikning taqsimlanishi uni bekor qilmaydi. “Tizim shunday qaror qildi” degan izoh axloqiy jihatdan asossizdir, chunki har qanday tizim ortida uni loyihalagan, ma’lumot bilan ta’minlagan va qo‘llash haqida qaror qabul qilgan inson turadi. Shu sababli mas’uliyatni aniq belgilash zamonaviy etikaning asosiy vazifalaridan biriga aylanadi.

To‘rtinchi ko‘rinish shaxs darajasida eng ko‘p uchraydi. Javobgarlikni tashqi omillarga ko‘chirish qisqa muddatda ruhiy yengillik keltirsa-da, uzoq muddatda shaxsning o‘z hayotiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga bo‘lgan ishonchini susaytiradi. Falsafiy nuqtayi nazardan bu erkinlikdan ixtiyoriy voz kechishning bir shaklidir.

4. Mas’uliyat darajalari va ularning o‘zaro bog‘liqligi. Mas’uliyat yagona va bir jinsli hodisa emas. Tadqiqot davomida uning qamrov doirasiga ko‘ra to‘rt darajasi ajratildi. Ushbu darajalar bir-birini istisno qilmaydi, aksincha, quyi daraja yuqorisining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Tasnif 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Mas'uliyat darajalarining tasnifi

Shaxsiy mas'uliyat insonning o'z qarori, salomatligi, vaqti va rivojlanishi oldidagi javobgarligini anglatadi. U qolgan barcha darajalarning poydevori hisoblanadi, chunki o'zi oldida javobgarlikni his qilmaydigan shaxsdan boshqalar oldidagi burchni bajarishni kutish asossizdir.

Ijtimoiy mas'uliyat oila, jamoa va jamiyat oldidagi majburiyatlarni qamrab oladi. Bu darajada mas'uliyat endi shaxsiy tanlov doirasidan chiqib, boshqa insonlarning manfaatlari bilan bog'lanadi. Kasbiy va institutsional mas'uliyat esa shaxsning ma'lum bir rolni bajarishi bilan bog'liq bo'lib, u kasb etikasi va xizmat vazifasi orqali tartibga solinadi.

To'rtinchi daraja — global va ekologik mas'uliyat — zamonaviy davrning mahsulidir. Texnologik imkoniyatlarning ortishi insonning harakatlari ta'sir doirasini vaqt va makon jihatidan keskin kengaytirdi. Bugungi qaror kelajak avlodlar hayotiga ta'sir ko'rsatishi mumkin, biroq ular bu qarorda ishtirok eta olmaydi. Shu sababli mas'uliyatning vaqt ko'lamini kengaytirish zamonaviy etikaning zaruriy talabiga aylanadi.

5. Erkinlik va mas'uliyat muvozanatining mezonlari. Olib borilgan tahlil asosida erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni baholash mezonlari ishlab chiqildi (3-jadval). Ushbu mezonlar shaxs darajasida ham, ijtimoiy institutlar darajasida ham qo'llanilishi mumkin.

3-jadval

Erkinlik va mas'uliyat muvozanatining mezonlari

Mezon	Muvozanat buzilgan holat	Muvozanatli holat
Qaror mualliligi	Shaxs qarorni tashqi omil natijasi deb biladi	Shaxs o'zini qaror muallifi sifatida tan oladi
Oqibatni anglash	Faqat yaqin natija hisobga olinadi	Uzoq muddatli oqibatlar ham baholanadi
Axborot shaffofligi	Tanlov qanday shakllanganini bilmaydi	Alternativalarning manbai va mezoni ma'lum
Javobgarlik manzili	Javobgarlik aniq subyektga biriktirilmagan	Har bir bosqichda javobgar aniq belgilangan
Boshqalarga munosabat	Erkinlik boshqalarning huquqini cheklaydi	Erkinlik o'zaro hurmat doirasida amalga oshiriladi
Qadriyatga muvofiqlik	Qaror faqat foyda mezoniga tayanadi	Qaror axloqiy me'yorlar bilan uyg'unlashtiriladi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, muvozanatning asosiy ko'rsatkichi cheklovlar soni emas, balki insonning o'z qarori bilan o'rtasidagi aloqani anglash darajasidir. Erkinlikni cheklash yo'li bilan mas'uliyatni oshirishga urinish samarasizdir, chunki majburlash sharoitida bajarilgan harakat axloqiy qiymatga ega bo'lmaydi. Mas'uliyat faqat erkin tanlov mavjud bo'lgan joydagina mazmun kasb etadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari erkinlikning mutlaqlashtirilishi ham xavfli ekanini ko'rsatadi. Mas'uliyatdan ajratilgan erkinlik o'zboshimchalikka aylanadi va oxir-

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

oqibat boshqa insonlarning erkinligini cheklaydi. Falsafiy an'anada bu holat erkinlikning o'z-o'zini inkor qilishi sifatida tavsiflanadi.

Muhokamaning yakuniy jihati ta'lim bilan bog'liq. Erkinlik va mas'uliyat muvozanati tug'ma xususiyat emas, balki shakllantiriladigan sifatdir. Ta'lim jarayonida o'quvchiga tayyor qaror taqdim etish o'rniga, unga tanlash, tanlovini asoslash va oqibatini baholash imkoniyatini berish ushbu muvozanatni tarbiyalashning eng samarali yo'lidir. Shu ma'noda mas'uliyat tarbiyasi axloqiy targ'ibot emas, balki amaliy tajriba orqali amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir.

6. Erkinlik va mas'uliyatning ekzistensial o'lchovi. Erkinlik va mas'uliyat muammosining yana bir muhim qirrasi uning ekzistensial o'lchovi bilan bog'liq. Ijtimoiy va huquqiy talqinlarda mas'uliyat, asosan, tashqi subyekt oldidagi javobgarlik sifatida tushuniladi: inson jamiyat, jamoa yoki qonun oldida hisob beradi. Biroq mas'uliyatning eng chuqur shakli tashqi nazoratga emas, balki insonning o'zi bilan munosabatiga asoslanadi. Bunda javobgarlik jazo qo'rquvi bilan emas, balki o'z hayotining ma'nosini anglash bilan bog'lanadi.

Ekzistensial yondashuvda inson nafaqat ayrim harakatlari uchun, balki o'zining qanday shaxs bo'lib shakllanayotgani uchun ham javobgar hisoblanadi. Har bir tanlov faqat tashqi natija bermaydi, balki tanlovchining o'zini ham o'zgartiradi. Shu ma'noda inson o'z qarorlari orqali doimiy ravishda o'zini yaratib boradi. Ushbu qarash mas'uliyatni yuk sifatida emas, balki shaxs erkinligining amaliy ifodasi sifatida ko'rish imkonini beradi.

Bunday talqin zamonaviy sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli muhitda inson ko'plab tayyor namunalar, xulq-atvor andozalari va muvaffaqiyat mezonlari bilan to'qnash keladi. Ularni tanqidsiz qabul qilish shaxsning o'z hayot yo'lini mustaqil belgilash imkoniyatini cheklaydi. Aksincha, tanlovni ongli ravishda amalga oshirish va uning ortida turish ekzistensial mas'uliyatning namoyon bo'lishidir.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Shuni ham ta'kidlash lozimki, ekzistensial mas'uliyat ijtimoiy mas'uliyatga qarama-qarshi qo'yilmasligi kerak. Ular bir-birini to'ldiradi: o'z oldidagi javobgarlikni his qilgan shaxsgina boshqalar oldidagi burchni rasmiy majburiyat sifatida emas, balki ichki ehtiyoj sifatida bajaradi. Aynan shu bog'liqlik mas'uliyat tarbiyasining falsafiy asosini tashkil etadi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot zamonaviy inson hayotida erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi munosabat sifat jihatidan yangi bosqichga o'tganini ko'rsatdi. Ushbu munosabatni an'anaviy "erkinlik yoki zaruriyat" qarama-qarshiligi doirasida tahlil qilish bugungi kunda yetarli emas.

Birinchidan, erkinlikning zamonaviy talqinlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning hech biri o'z-o'zicha to'liq emasligi aniqlandi. Eng samarali natija kompatibilistik va relatsion yondashuvlarni birlashtirish, ya'ni insonni qaror muallifi sifatida tan olgan holda uning ijtimoiy shart-sharoitlarini ham hisobga olish orqali erishiladi.

Ikkinchidan, erkinlik va mas'uliyat bir-birini istisno qiluvchi emas, balki bir-birini taqozo etuvchi kategoriyalar ekani asoslandi. Ularni bog'lovchi bo'g'in tanlov akti bo'lib, u ong va bilim darajasi hamda qadriyatlar tizimi tomonidan shartlanadi.

Uchinchidan, zamonaviy jamiyatda erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi assimetriya hodisasi aniqlandi va uning olti ko'rinishi tavsiflandi. Ularning ichida algoritmik vositachilik va mas'uliyat bo'shlig'i sof zamonaviy xarakterga ega bo'lib, alohida falsafiy va huquqiy tartibga solishni talab qiladi.

To'rtinchidan, mas'uliyatning to'rt darajasi — shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy-institutsional hamda global va ekologik — ajratildi. Ushbu darajalar ierarxik tarzda bog'langan bo'lib, shaxsiy mas'uliyat qolganlarining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Beshinchidan, erkinlik va mas'uliyat muvozanatini baholashning olti mezoni ishlab chiqildi. Muvozanatning asosiy ko'rsatkichi cheklovlar soni emas, balki insonning o'z qarori bilan oqibat o'rtasidagi aloqani anglash darajasi ekani asoslandi.

Oltinchidan, mas'uliyatni erkinlikni cheklash yo'li bilan shakllantirib bo'lmasligi ko'rsatildi. Majburlash sharoitida bajarilgan harakat axloqiy qiymat kasb etmaydi, shu sababli mas'uliyat tarbiyasi tanlash imkoniyatini kengaytirish va uning oqibatlarini anglash ko'nikmasini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi lozim.

Umuman olganda, zamonaviy jamiyatning asosiy falsafiy vazifasi erkinlikni cheklash emas, balki uni mas'uliyat bilan uyg'unlashtirishdir. Ushbu uyg'unlik shaxs kamoloti, ijtimoiy barqarorlik va texnologik taraqqiyotning insonparvarlik yo'nalishida rivojlanishining zaruriy shartidir. Tadqiqot natijalari falsafa, etika va gumanitar fanlar bo'yicha o'quv kurslarida hamda mas'uliyat tarbiyasiga oid pedagogik ishlanmalarda foydalanilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1.Sapolsky R. Determined: A Science of Life Without Free Will. – New York: Penguin Press, 2023. – bet 528. (Belgilangan: erkin irodasiz hayot fani)

2.Mitchell K. J. Free Agents: How Evolution Gave Us Free Will. – Princeton: Princeton University Press, 2023. – bet 408. (Erkin agentlar: evolyutsiya bizga erkin irodani qanday berdi)

3.Caruso G. D. Rejecting Retributivism: Free Will, Punishment, and Criminal Justice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – bet 388. (Retributivizmni rad etish: erkin iroda, jazo va jinoiy adolat)

4.Dennett D. C., Caruso G. D. Just Deserts: Debating Free Will. – Cambridge: Polity Press, 2021. – bet 240. (Munosib jazo: erkin iroda haqidagi munozara)

5.Vallor S. The AI Mirror: How to Reclaim Our Humanity in an Age of Machine Thinking. – Oxford: Oxford University Press, 2024. – bet 288. (Sun'iy intellekt ko'zgusi: mashina tafakkuri davrida insoniylikni qaytarish)

6.Coeckelbergh M. AI Ethics. – Cambridge, MA: MIT Press, 2020. – bet 248. (Sun'iy intellekt etikasi)

7.Han B.-C. Infocracy: Digitization and the Crisis of Democracy. – Cambridge: Polity Press, 2022. – bet 100. (Infokratiya: raqamlashtirish va demokratiya inqirozi)

8.Sandel M. J. The Tyranny of Merit: What's Become of the Common Good? – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2020. – bet 288. (Xizmat zulmi: umumiy manfaatga nima bo'ldi?)

UDK: 81'27:37.016

NUTQIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA: MAZMUNI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI

Erkaboyeva Feruza G'ayratovna
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-1965-1167

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nutqiy-kommunikativ kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari hamda uning asosiy tarkibiy komponentlari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi nutqiy-kommunikativ kompetensiyaning mazmunini nazariy jihatdan tahlil qilish va uning tarkibiy qismlarini tavsiflashdan iborat. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. N.Xomskiy, D.Xayms, M.Kenel, M.Sveyn va boshqa olimlarning qarashlari tahlil qilinib, lisoniy, sotsiolingvistik, pragmatik, strategik hamda madaniyatlararo kompetensiyalarning o'zaro bog'liqligi asoslangan.*

Kalit so'zlar: *nutqiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, lisoniy kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, pragmatik kompetensiya, strategik kompetensiya, madaniyatlararo kompetensiya, kommunikativ yondashuv.*

РЕЧЕКОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ: СОДЕРЖАНИЕ И СТРУКТУРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ

Аннотация. *В статье раскрываются сущность и содержание понятия речево-коммуникативной компетенции, этапы её формирования и развития, а также основные структурные компоненты. Цель исследования заключается в теоретическом анализе содержания речево-коммуникативной компетенции и характеристике её составляющих. В исследовании использованы методы теоретического анализа, сравнения и обобщения научной литературы. Проанализированы научные взгляды Н. Хомского, Д. Хаймса, М. Канале, М. Свейна и других исследователей. Обоснована взаимосвязь лингвистической, социолингвистической, прагматической, стратегической и межкультурной компетенций.*

Ключевые слова: *речевая компетенция, коммуникативная компетенция, лингвистическая компетенция, социолингвистическая компетенция, прагматическая компетенция, стратегическая компетенция, межкультурная компетенция, коммуникативный подход.*

SPEECH-COMMUNICATIVE COMPETENCE: CONTENT AND STRUCTURAL COMPONENTS

Abstract. *The article examines the concept, content, formation and development of speech-communicative competence and identifies its main structural components. The purpose of the study is to provide a theoretical analysis of speech-communicative competence and characterize its major components.*



The study employs theoretical analysis, comparison and generalization of scientific literature. The ideas of N. Chomsky, D. Hymes, M. Canale, M. Swain and other scholars are analyzed. The interrelationship of linguistic, sociolinguistic, pragmatic, strategic and intercultural competences is substantiated. The study emphasizes the importance of developing these components comprehensively in foreign language education.

Keywords: *speech competence, communicative competence, linguistic competence, sociolinguistic competence, pragmatic competence, strategic competence, intercultural competence, communicative approach.*

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida chet tillarini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarga faqat grammatik qoidalarni o‘rgatish bilan cheklanib qolmay, balki ularda til vositalaridan turli kommunikativ vaziyatlarda samarali foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, nutqiy-kommunikativ kompetensiya zamonaviy til ta’limining muhim tushunchalaridan biri hisoblanadi. Nutqiy-kommunikativ kompetensiya shaxsning til haqidagi bilimlarini amaliy nutq jarayonida maqsadga muvofiq qo‘llay olishi, turli vaziyatlarda fikrini aniq va tushunarli ifodalashi hamda suhbatdosh bilan samarali muloqotga kirisha olish qobiliyatini anglatadi. Ushbu kompetensiya faqat grammatik bilimlar yig‘indisi emas, balki til vositalarini ijtimoiy, madaniy va kommunikativ sharoitlarga mos ravishda qo‘llash imkoniyatini ham o‘z ichiga oladi. Nutqiy-kommunikativ kompetensiya tushunchasining shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmidagi tilshunoslik va til o‘qitish metodikasidagi muhim o‘zgarishlar bilan bog‘liq. N.Xomskiy 1965-yilda “kompetensiya” va “perfomansiya” tushunchalarini bir-biridan farqlagan. Uning qarashlarida kompetensiya shaxsning til tizimi haqidagi bilimlarini, perfomansiya esa ushbu bilimlarni real nutq jarayonida qo‘llash faoliyatini anglatadi. Biroq kompetensiyani faqat grammatik bilimlar bilan chegaralash kommunikativ faoliyatning barcha jihatlarini qamrab olmaydi. Keyingi ilmiy qarashlarda tilning ijtimoiy, madaniy va kommunikativ xususiyatlariga ham e’tibor qaratildi. D.Xaymsning ilmiy qarashlari kommunikativ kompetensiya tushunchasining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. U

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

shaxs tilning grammatik qoidalarini bilishi bilan birga, ularni turli kommunikativ vaziyatlarda to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llay olishi zarurligini ta’kidlagan. Shundan kelib chiqib, maqolaning maqsadi nutqiy-kommunikativ kompetensiyaning mazmunini nazariy jihatdan tahlil qilish hamda uning asosiy tarkibiy komponentlarini tavsiflashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kommunikativ kompetensiya tushunchasining ilmiy asoslari turli davrlarda bir qator tilshunos va metodist olimlarning tadqiqotlarida rivojlantirilgan. N.Xomskiy tomonidan ilgari surilgan “kompetensiya” va “perfomansiya” tushunchalari til bilimlari bilan ularning amaliy nutqdagi qo‘llanishini farqlash imkonini berdi. D.Xayms esa kommunikativ kompetensiya tushunchasiga ijtimoiy va madaniy omillarni kiritib, til birliklaridan vaziyatga mos foydalanish masalasiga e’tibor qaratdi. M.Kenel va M.Sveyn kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy tuzilishini ishlab chiqishda grammatik, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalarni ajratib ko‘rsatdilar. Keyingi tadqiqotlarda mazkur yondashuv rivojlantirilib, diskursiv kompetensiya ham alohida tarkibiy qism sifatida qaraldi. S.J. Savignon kommunikativ kompetensiyani til o‘rganuvchining real kommunikativ vaziyatlarda til vositalaridan foydalanish qobiliyati bilan bog‘laydi. L.F. Bachman va A.S. Palmer esa tilni baholash va kommunikativ kompetensiyani aniqlash masalalarini tizimli ravishda ko‘rib chiqadilar.

Mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish asosida bugungi kunda nutqiy-kommunikativ kompetensiyaning quyidagi asosiy komponentlarini ajratish mumkin:

№	Kompetensiya turi	Asosiy mazmuni
1	Lisoniy kompetensiya	Fonetika, leksika, grammatika, semantika va imlo bilimlaridan foydalanish
2	Sotsiolingvistik kompetensiya	Til vositalarini ijtimoiy vaziyatga mos qo‘llash
3	Pragmatik kompetensiya	Nutqni kommunikativ maqsadga muvofiq tashkil etish

4	Strategik kompetensiya	Muloqot jarayonidagi qiyinchiliklarni turli verbal va noverbal vositalar yordamida bartaraf etish
5	Madaniyatlararo kompetensiya	Turli madaniyat vakillari bilan samarali va hurmat asosida muloqot qilish

Tadqiqot metodlari. Maqolada nazariy tahlil, ilmiy manbalarni o‘rganish, taqqoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot manbalarida berilgan ilmiy qarashlar o‘zaro taqqoslanib, nutqiy-kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari mazmun jihatidan umumlashtirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Lisoniy kompetensiya

Nutqiy-kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri lisoniy yoki lingvistik kompetensiyadir. Lisoniy kompetensiya shaxsning til tizimi haqidagi bilimlari va ulardan amaliy nutqda foydalanish qobiliyatini anglatadi. Lisoniy kompetensiya fonetika, fonologiya, leksika, grammatika, semantika va imlo qoidalarini egallashni o‘z ichiga oladi. O‘quvchi o‘rganayotgan tilining tovush tizimini, so‘z boyligini, grammatik qoidalarini va til birliklarining ma’nolarini bilishi zarur.

Mazkur kompetensiya nutqning grammatik jihatdan to‘g‘ri va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi. Biroq grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan gap har doim ham kommunikativ jihatdan o‘rinli bo‘lavermaydi. Shu sababli lisoniy kompetensiya boshqa komponentlar bilan uyg‘unlikda rivojlantirilishi lozim.

Sotsiolingvistik kompetensiya

Sotsiolingvistik kompetensiya tilni ijtimoiy vaziyatga mos ravishda qo‘llay olish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiyaga ega bo‘lgan shaxs kim bilan, qachon, qayerda va qanday uslubda muloqot qilish kerakligini anglaydi. Muloqot jarayonida suhbatdoshlarning yoshi, ijtimoiy mavqei, o‘zaro munosabati va kommunikativ vaziyat muhim ahamiyatga ega. Rasmiy shaxs bilan muloqotda rasmiy uslubdan foydalanish, do‘stlar bilan suhbatda esa nisbatan erkin uslubni qo‘llash talab etiladi. Chet tilini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

o‘rganishda sotsiolingvistik kompetensiyaning ahamiyati yuqori. Chunki turli xalqlarda salomlashish, murojaat qilish, minnatdorchilik bildirish va xayrlashish shakllari farqlanishi mumkin.

Pragmatik kompetensiya

Pragmatik kompetensiya til vositalaridan kommunikativ maqsadlarga erishish uchun foydalana olish qobiliyatidir. U shaxsning o‘z nutqini muayyan maqsad asosida tashkil etishini nazarda tutadi. Pragmatik kompetensiyaga iltimos qilish, maslahat berish, savol berish, ma’lumot so‘rash, uzr so‘rash, taklif bildirish va rad etish kabi nutqiy harakatlarni vaziyatga mos ravishda amalga oshirish ko‘nikmalari kiradi. Pragmatik kompetensiyaning yana bir muhim jihati nutqni mantiqiy va izchil tashkil etishdir. Bunda fikrning kirish, asosiy qism va xulosa tarzida bayon qilinishi, gaplar o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqlikning ta’minlanishi muhimdir.

Strategik kompetensiya

Muloqot jarayonida turli qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Notiq kerakli so‘zni eslay olmasligi, suhbatdoshining fikrini tushunmasligi yoki o‘z fikrini aniq ifodalashda qiynalishi ehtimoldan xoli emas. Strategik kompetensiya ana shunday kommunikativ qiyinchiliklarni yengib o‘tish va muloqotni davom ettirish uchun qo‘llaniladigan verbal va noverbal vositalar majmuasidir. Masalan, o‘quvchi biror so‘zni bilmasa, uni boshqa so‘zlar yordamida tushuntirishi, sinonimdan foydalanishi yoki ta’rif berishi mumkin. Mimika, jest va boshqa noverbal vositalardan foydalanish ham strategik kompetensiyaning muhim ko‘rinishlaridan hisoblanadi.

Madaniyatlararo kompetensiya

Globallashuv va xalqlar o‘rtasidagi aloqalarning kengayishi sharoitida madaniyatlararo kompetensiya alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chet tilini o‘rganish faqat boshqa tilni o‘zlashtirish emas, balki o‘sha tilda so‘zlashuvchi xalqlarning madaniyati, qadriyatlari va urf-odatlari bilan tanishishni ham anglatadi. Madaniyatlararo kompetensiya shaxsning turli madaniyat vakillari bilan samarali va

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

moslashuvchan muloqot qila olish qobiliyatidir. U boshqa xalqlarning urf-odatlari va qadriyatlari haqida bilimga ega bo‘lish, turli madaniy hodisalarni tushunish va taqqoslash hamda boshqa madaniyat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘z ichiga oladi.

Nutqiy-kommunikativ kompetensiyaning tizimli tuzilishi

Tahlil natijalariga ko‘ra, nutqiy-kommunikativ kompetensiyani alohida va bir-biridan mustaqil ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq komponentlardan tashkil topgan tizim sifatida qarash maqsadga muvofiq. **Lisoniy kompetensiya → Sotsiolingvistik kompetensiya → Pragmatik kompetensiya → Strategik kompetensiya → Madaniyatlararo kompetensiya → Samarali kommunikativ faoliyat** Mazkur tizimda lisoniy kompetensiya til vositalarini egallashni ta’minlasa, sotsiolingvistik kompetensiya ushbu vositalarni ijtimoiy vaziyatga moslashtiradi. Pragmatik kompetensiya fikrni maqsadga muvofiq ifodalashga yordam beradi. Strategik kompetensiya muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Madaniyatlararo kompetensiya esa turli madaniyat vakillari bilan samarali va hurmat asosida muloqot qilish imkonini yaratadi. Shu jihatdan, chet tilini o‘qitish jarayonida mazkur komponentlarning barchasini kompleks ravishda rivojlantirish zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, nutqiy-kommunikativ kompetensiya zamonaviy til ta’limining muhim natijalaridan biri hisoblanadi. U o‘quvchining til haqidagi nazariy bilimlari bilan bir qatorda, mazkur bilimlarni real kommunikativ vaziyatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyatini ham ifodalaydi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, nutqiy-kommunikativ kompetensiya tushunchasining shakllanishida N.Xomskiy, D.Xayms, M.Kenel, M.Sveyn va boshqa olimlarning qarashlari muhim o‘rin tutadi. Xomskiy kompetensiya tushunchasini til nazariyasi doirasida asoslagan bo‘lsa, D.Xayms uni ijtimoiy va kommunikativ jihatlar bilan kengaytirdi. Keyingi tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiyaning ko‘p tarkibli tizim ekanligi asoslandi. Tahlil asosida

nutqiy-kommunikativ kompetensiyaning lisoniy, sotsiolingvistik, pragmatik, strategik va madaniyatlararo komponentlardan tashkil topishi ko‘rsatildi. Lisoniy kompetensiya til vositalarini bilish va ulardan foydalanishni ta’minlaydi. Sotsiolingvistik kompetensiya ushbu vositalarni ijtimoiy vaziyatga moslashtiradi. Pragmatik kompetensiya fikrni maqsadga muvofiq va izchil ifodalashga yordam beradi. Strategik kompetensiya kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Madaniyatlararo kompetensiya esa turli madaniyat vakillari bilan samarali va hurmat asosida muloqot qilish imkonini yaratadi. Shu sababli chet tillarini o‘qitish jarayonida mazkur kompetensiyalarning barchasini kompleks ravishda rivojlantirish muhimdir. O‘quvchi nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri gapira olishi, balki o‘z fikrini turli vaziyatlarda aniq, tushunarli, mantiqiy va o‘rinli tarzda ifodalashni ham o‘rganishi zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Bachman L.F. Fundamental Considerations in Language Testing. – Oxford: Oxford University Press, 1990.
2. Bachman L.F., Palmer A.S. Language Testing in Practice: Designing and Developing Useful Language Tests. – Oxford: Oxford University Press, 1996.
3. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. 5th ed. – White Plains, NY: Pearson Education, 2007.
4. Canale M. From Communicative Competence to Communicative Language Pedagogy. In: Richards J.C., Schmidt R.W. (eds.). Language and Communication. – London: Longman, 1983. – P. 2–27.
5. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–47.
6. Celce-Murcia M. Rethinking the Role of Communicative Competence in Language Teaching. In: Soler E.A., Jordà M.S. (eds.). Intercultural Language Use and Language Learning. – Dordrecht: Springer, 2007. – P. 41–57.
7. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, MA: MIT Press, 1965. – 251 p.
8. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
9. Hymes D. On Communicative Competence. In: Pride J.B., Holmes J. (eds.). Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin Books, 1972. – P. 269–293.
10. Littlewood W. Communicative Language Teaching: An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

11. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
12. Savignon S.J. Communicative Competence: Theory and Classroom Practice. – Reading, MA: Addison-Wesley, 1983.

UDK: 796.83:796.012.6:572.087

13–15 YOSHLI BOKSCHILARDA MUSOBAQA OLDI DAVRIDA MUVOZANATNI SAQLASHNI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Madjidov R.R.
Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi
E-mail: majidovrr@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada 13–15 yoshli bokschilarda musobaqa oldi davrida muvozanatni saqlash va uni takomillashtirish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi yosh bokschilarning muvozanat, koordinatsiya va harakat barqarorligini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimini asoslashdan iborat. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, mashqlarni tizimlashtirish va metodik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Natijada umumiy rivojlantiruvchi, vestibulyar, boksga xos va psixologik tayyorgarlik mashqlarini o'zaro uyg'unlashtirishga asoslangan metodik yondashuv ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv yosh bokschilarning ringdagi barqarorligi va harakat aniqligini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *boks, yosh bokschilar, muvozanat, koordinatsiya, vestibulyar tizim, musobaqa oldi davri, harakat barqarorligi, reaksiya, maxsus mashqlar, psixologik tayyorgarlik.*

МЕТОДИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОХРАНЕНИЯ РАВНОВЕСИЯ У БОКСЕРОВ 13–15 ЛЕТ В ПРЕДСОРЕВНОВАТЕЛЬНЫЙ ПЕРИОД

Аннотация. *В статье рассматривается методика совершенствования сохранения равновесия у боксеров 13–15 лет в предсоревновательный период. Цель исследования заключается в обосновании системы упражнений, направленной на развитие равновесия, координации и устойчивости движений юных боксеров. В исследовании использованы методы анализа научно-методической литературы, педагогического наблюдения, систематизации упражнений и методического моделирования. В результате разработан методический подход, предусматривающий комплексное сочетание общеразвивающих, вестибулярных, специально-боксерских и психологических упражнений. Предлагаемый подход направлен на повышение устойчивости и точности двигательных действий юных боксеров.*

Ключевые слова: *бокс, юные боксеры, равновесие, координация, вестибулярная система, предсоревновательный период, устойчивость движений, реакция, специальные упражнения, психологическая подготовка.*

METHODOLOGY FOR IMPROVING BALANCE MAINTENANCE IN BOXERS AGED 13–15 DURING THE PRE-COMPETITION PERIOD

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Abstract. *This article examines a methodology for improving balance maintenance among boxers aged 13–15 during the pre-competition period. The purpose of the study is to substantiate a system of exercises aimed at developing balance, coordination and movement stability in young boxers. The study used scientific and methodological literature analysis, pedagogical observation, exercise systematization and methodological modelling. As a result, a methodological approach was developed based on the integrated use of general developmental, vestibular, boxing-specific and psychological exercises. The proposed approach is aimed at improving movement stability, coordination and accuracy of young boxers during competitive activities.*

Keywords: *boxing, young boxers, balance, coordination, vestibular system, pre-competition period, movement stability, reaction, special exercises, psychological preparation.*

KIRISH

Ushbu vazifani bajarishda o'quvchi an'anaviy naqshning asosiy xususiyatlarini saqlab qolgan holda, uning shakli, o'lchami, takrorlanishi va ranglarini yangi kompozitsiyaga moslashtiradi.

Yana bir topshiriq sifatida:

"Bir xil shakldagi kulolchilik buyumini uch xil rang yechimi orqali turlicha estetik ko'rinishda ifodalang." kabi vazifalardan foydalanish mumkin.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bunday topshiriqlar o‘quvchida tahlil qilish, taqqoslash, variant yaratish, tanlash va ijodiy qaror qabul qilish jarayonlarini faollashtiradi.

O‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligining natijalari

Ijodiy muhitda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat ham an’anaviy “o‘qituvchi — bajaruvchi” modelidan “o‘qituvchi — ijodiy hamkor” modeliga o‘zgaradi. O‘qituvchi o‘quvchining ishini tayyor shaklda belgilab bermaydi, balki unga yo‘naltiruvchi savollar beradi: “Ushbu kompozitsiyani yana qanday o‘zgartirish mumkin?” “Nima sababdan aynan shu rangni tanladingiz?” “Naqshning markaziy qismida qanday yechim qo‘llash mumkin?” “Buyum shakli bilan naqsh o‘rtasidagi uyg‘unlikni qanday ta’minlaysiz?” Bunday savollar o‘quvchini tayyor javobni kutishga emas, o‘z fikrini asoslashga va badiiy qarorini mustaqil izohlashga o‘rgatadi. Shu bilan birga, o‘qituvchi tomonidan konstruktiv fikr-mulohaza berilishi o‘quvchining ijodiy faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi. Bunda baholash faqat yakuniy mahsulotning tashqi ko‘rinishiga emas, balki g‘oyaning originalligi, ijodiy izlanish, texnik bajarilish, kompozitsion yechim va o‘z faoliyatini tushuntira olish qobiliyatiga ham qaratilishi lozim.

Refleksiyaning pedagogik natijalari

Ijodiy muhitda refleksiya badiiy-ijodiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchi o‘zining ijodiy mahsulotini yaratgandan keyin uning qanday yaratilganini, qanday qiyinchiliklar yuzaga kelganini va ularni qanday hal qilganini tahlil qiladi. Refleksiv faoliyatni “Ijodiy kundalik”, “Mening g‘oyam”, “Men nimani o‘rgandim?”, “Keyingi ishda nimani o‘zgartiraman?” kabi topshiriqlar orqali tashkil etish mumkin.

Masalan, mashg‘ulot yakunida o‘quvchi quyidagi jadvalni to‘ldirishi mumkin:

Refleksiya yo‘nalishi	**O‘quvchi faoliyati**
G‘oya	Ishning asosiy g‘oyasini tushuntiradi
Jarayon	Ish davomida bajarilgan amallarni tahlil qiladi

Muammo	Duch kelgan qiyinchilikni aniqlaydi
Yechim	Muammoni qanday hal qilganini izohlaydi
Natija	Tayyor ishning kuchli va zaif tomonlarini baholaydi
Kelajak	Keyingi ijodiy ish uchun taklif ishlab chiqadi

Bunday refleksiya o‘quvchining o‘z faoliyatini anglashiga, xatolaridan xulosa chiqarishiga va keyingi ijodiy faoliyatini takomillashtirishiga imkon beradi.

Ijodiy muhitni tashkil etishning pedagogik modeli Olib borilgan tahlillar asosida o‘quvchilarda badiiy-ijodiy kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan ijodiy muhitning quyidagi modeli taklif etildi:

Maqsad: o‘quvchining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish.

Pedagogik shart: ijodiy va psixologik jihatdan qulay ta’lim muhitini yaratish.

Vositalar: tasviriy san’at, kulolchilik materiallari, eskiz, amaliy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, loyihalar, ijodiy ko‘rgazmalar.

Jarayon: motivatsiya → ijodiy muammo → mustaqil g‘oya → loyihalash → amaliy faoliyat → ijodiy mahsulot → taqdimot → refleksiya.

Natija: mustaqil fikrlaydigan, ijodiy g‘oya ishlab chiqadigan, badiiy yechim tanlay oladigan va o‘z ijodiy faoliyatini baholay oladigan o‘quvchi.

Mazkur modelning asosiy xususiyati shundan iboratki, unda ijodiy muhit ta’lim jarayonining alohida elementi sifatida emas, balki barcha pedagogik faoliyatni birlashtiruvchi shart sifatida qaraladi.

Muhokama: Olingan nazariy natijalar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy muhitni yaratish badiiy-ijodiy kompetensiyaning faqat bitta komponentini emas, balki uning bir nechta tarkibiy qismlarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirish imkonini beradi.

Xususan, ijodiy muhit:

- motivatsion jihatdan — o‘quvchining san’atga qiziqishini kuchaytiradi;
- kognitiv jihatdan — badiiy tushunchalarni amaliy faoliyat bilan bog‘laydi;

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

- amaliy jihatdan — material va texnikalar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi;
- ijodiy jihatdan — yangi g‘oya va original badiiy yechim yaratishga imkon beradi;
- kommunikativ jihatdan — o‘quvchilar o‘rtasida fikr va tajriba almashinuvini kuchaytiradi;
- refleksiv jihatdan — o‘quvchining o‘z faoliyati va natijasini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Demak, ijodiy muhitni shakllantirish tasviriy san’at va kulolchilik san’ati integratsiyasi asosida o‘quvchilarning badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishning kompleks pedagogik mexanizmi sifatida qaralishi mumkin.

Eng muhim jihati shundaki, ijodiy muhit o‘quvchini tayyor namunani takrorlashdan ijodiy mahsulot yaratish darajasiga olib chiqadi. Shu sababli pedagogik jarayonda o‘quvchining mustaqil tanlovi, individual ijodiy imkoniyatlari va shaxsiy badiiy tajribasini qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifa sifatida belgilanadi.

XULOSA

Olib borilgan nazariy tahlil va pedagogik modellashtirish natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarda badiiy-ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda ijodiy muhit yaratish muhim pedagogik shart-sharoitlardan biri hisoblanadi. Ijodiy muhit o‘quvchining erkin fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi, yangi g‘oyalarni ilgari surishi va o‘zining individual badiiy imkoniyatlarini namoyon etishi uchun zarur sharoitni ta’minlaydi. Tasviriy san’at va kulolchilik san’ati integratsiyasi asosida tashkil etilgan ijodiy muhit o‘quvchilarning badiiy-estetik idroki, ijodiy tasavvuri, fazoviy tafakkuri, amaliy ko‘nikmalari va mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, eskiz yaratish, loy bilan ishlash, shakl va hajmni hosil qilish, naqsh va rang yechimini tanlash hamda tayyor ijodiy mahsulotni tahlil qilish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi badiiy-ijodiy kompetensiyaning kompleks shakllanishiga imkon beradi.

Tadqiqot asosida ijodiy muhitning psixologik, motivatsion, kommunikativ, amaliy va refleksiv komponentlarini o‘zaro uyg‘un holda tashkil etish samarali pedagogik shart sifatida belgilandi. Bunda o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchiga tayyor badiiy yechimni berish emas, balki uni mustaqil izlanish, tajriba qilish va o‘ziga xos ijodiy yechim topishga yo‘naltirishdan iborat. Shuningdek, muammoli va loyihaviy topshiriqlar, ochiq ijodiy vazifalar, mustaqil tanlov, amaliy mashg‘ulotlar, ijodiy ko‘rgazmalar va refleksiv baholashdan foydalanish ijodiy muhitning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini kengaytiradi. Umuman olganda, ijodiy muhit yaratish o‘quvchilarda badiiy-ijodiy kompetensiyani rivojlantirishning nafaqat tashkiliy, balki mazmuniy va rivojlantiruvchi pedagogik sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur shartni tasviriy san’at va kulolchilik san’ati integratsiyasi asosida tizimli ravishda amalga oshirish o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, milliy-amaliy san’atga qiziqishini oshirish hamda mustaqil badiiy faoliyatga tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Amabile, T. M. (1996). *Creativity in context: Update to the social psychology of creativity*. Westview Press.
2. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). *A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives*. Longman.
3 Csikszentmihalyi, M. (1996). *Creativity: Flow and the psychology of discovery and invention*. HarperCollins.
4. Eisner, E. W. (2002). *The arts and the creation of mind*. Yale University Press.
5. Gardner, H. (2006). *Multiple intelligences: New horizons*. Basic Books.
6. Jonassen, D. H. (2004). *Learning to solve problems: An instructional design guide*. Pfeiffer.
7. Leontiev, A. N. (1978). *Activity, consciousness, and personality*. Prentice-Hall.
8. OECD. (2018). *The future of education and skills: Education 2030*. OECD Publishing.
9. Torrance, E. P. (1974). *Torrance tests of creative thinking: Norms-technical manual*. Personnel Press.
10. UNESCO. (2015). *UNESCO's work on education for sustainable development*. UNESCO.
11. Vygotsky, L. S. (2004). Imagination and creativity in the adolescent. *Journal of Russian and East European Psychology, 42*(1), 7–97.
12. Musayeva, N. (2020). O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari. *Pedagogik ta'lim*, 2, 45–50.

KASBIY KOMPETENSIYA KOMPONENTLARINI VAZNLASHDA ANALITIK IERARXIYA JARAYONI VA DELPHI METODIKASINING INTEGRATSIYALASHGAN QO'LLANILISHI

Elmanov Abbos Begmat o'g'li
Qarshi davlat texnika universiteti "Sanoat muhandisligi va menejmenti"
kafedrasi t.f.f.d. dotsent.
abboselmanov@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-1429-3995

Annotatsiya. *Besh komponentli kasbiy kompetensiya modelini integral ko'rsatkichga birlashtirish uchun har bir komponentning nisbiy ahamiyatini qanday aniqlash mumkin? Ushbu savolga javob berish maqsadida maqolada ko'p mezonli qaror qabul qilish nazariyasiga asoslangan Analitik ierarxiya jarayoni (AHP) va ekspert konsensusini shakllantiruvchi ikki bosqichli Delphi metodikasining integratsiyalashgan qo'llanilishi taqdim etiladi. Tadqiqotning maqsadi — texnologik mashina va jihozlar ta'lim yo'nalishida kasbiy kompetensiyaning beshta strukturaviy komponentini (kognitiv, operatsion-texnologik, loyihaviy, raqamli, qadriyatli-refleksiv) ob'ektiv, matematik jihatdan tekshiriluvchi tarzda vaznlash metodikasini ishlab chiqishdan iborat. 15 nafarlik ekspert paneli (3 fan doktori, 6 falsafa doktori, 4 ishlab chiqarish rahbari, 2 kadrlar mutaxassisi) ishtirokida ikki bosqichli Delphi jarayoni orqali shakllantirilgan konsensus, so'ngra AHP juftlik taqqoslash matritsasi orqali izchillashtirildi. Olingan izchillik nisbati (CR=0,06) qoniqarli chegaradan (CR<0,10) sezilarli darajada past bo'lib, natijalarning matematik jihatdan ishonchli ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur metodika bo'lajak muhandis-mexaniklarning metakognitiv kompetentligini rivojlantirish dasturlari uchun kompetensiya og'irliklarini ilmiy asoslashda ham qo'llanilishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *Analitik ierarxiya jarayoni, Delphi metodikasi, ekspert baholash, izchillik nisbati, kasbiy kompetensiya, vaznlash, ko'p mezonli qaror qabul qilish, metakognitiv kompetentlik, muhandis-mexaniklar.*

ИНТЕГРИРОВАННОЕ ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДА АНАЛИЗА ИЕРАРХИЙ И МЕТОДА ДЕЛЬФИ ДЛЯ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ВЕСОВ КОМПОНЕНТОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Аннотация. *Как определить относительную значимость каждого компонента при объединении пятикомпонентной модели профессиональной компетенции в интегральный показатель? В статье представлено интегрированное применение Метода анализа иерархий (МАИ), основанного на теории многокритериального принятия решений, и двухэтапной методики Дельфи, формирующей экспертный консенсус. Цель исследования — разработка методики объективного, математически проверяемого взвешивания пяти структурных компонентов профессиональной компетенции (когнитивного, операционно-технологического,*

проектного, цифрового, ценностно-рефлексивного) в направлении подготовки «Технологические машины и оборудование». Консенсус, сформированный группой из 15 экспертов в рамках двухэтапного процесса Дельфи, был математически согласован посредством матрицы парных сравнений МАИ. Полученный коэффициент согласованности (CR=0,06) значительно ниже допустимого порога (CR<0,10), что подтверждает математическую достоверность результатов.

Ключевые слова: *метод анализа иерархий, методика Дельфи, экспертная оценка, коэффициент согласованности, профессиональная компетенция, взвешивание, метакогнитивная компетентность.*

INTEGRATED APPLICATION OF THE ANALYTIC HIERARCHY PROCESS AND DELPHI METHOD FOR WEIGHTING PROFESSIONAL COMPETENCY COMPONENTS

Abstract. *How can the relative importance of each component be determined when integrating a five-component professional competence model into a single composite indicator? This article presents an integrated application of the Analytic Hierarchy Process (AHP), grounded in multi-criteria decision-making theory, combined with a two-round Delphi technique for building expert consensus. The study aims to develop a methodology for objectively and mathematically verifiable weighting of five structural components of professional competence (cognitive, operational-technological, design, digital, and value-reflexive) within the Technological Machinery and Equipment educational programme. Consensus formed by a panel of 15 experts through a two-round Delphi process was subsequently reconciled mathematically via an AHP pairwise comparison matrix. The resulting consistency ratio (CR=0.06) is substantially below the acceptable threshold (CR<0.10), confirming the mathematical reliability of the results. The methodology is also applicable to scientifically grounding competence weights in programmes for developing metacognitive competence among future mechanical engineers.*

Keywords: *Analytic Hierarchy Process, Delphi technique, expert evaluation, consistency ratio, professional competence, weighting, multi-criteria decision-making, metacognitive competence, mechanical engineers.*

KIRISH

Ko'p mezonli qaror qabul qilish nazariyasida vazn koeffitsientlarini aniqlashning ikki asosiy yo'li mavjud: sub'ektiv ekspert bahosi va matematik jihatdan izchillashtirilgan tartib. Kasbiy kompetensiyani baholash amaliyotida, afsuski, birinchi yondashuv — komponentlarni teng yoki tekshirilmagan intuitiv vaznda hisobga olish — ustunlik qiladi [1]. Bunday amaliyot ikki oqibatga olib keladi: real ahamiyat farqlarining e'tibordan

chetda qolishi va natijalarning tekshiriluvchanlik mezoniga javob bermasligi. Xalqaro muhandislik ta'limi standartlarida (ABET, CDIO, IEA) kompetensiya komponentlari odatda tengdek ahamiyatli deb qaraladi yoki ularning nisbiy og'irligi aniq ko'rsatilmaydi [2, 20]. Bu yondashuv amaliy jihatdan qulay bo'lsa-da, u kompetensiyaning turli sohalari o'rtasidagi real, kontekstga xos farqlarni aks ettirmaydi. Texnologik mashina va jihozlar kabi amaliy-texnik yo'nalishda, masalan, operatsion-texnologik va loyihaviy komponentlarning ahamiyati kognitiv komponentga nisbatan yuqoriroq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, DSc tadqiqotimiz mavzusida ko'rib chiqilayotgan metakognitiv kompetentlik [8, 9, 10] ham muhandis-mexaniklarning professional rivojlanishida muhim o'rinni egallashi, shu sababli uning tarkibiy vaznlari ilmiy asoslanishi lozim [16, 17]. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun tadqiqotda Saaty tomonidan ishlab chiqilgan Analitik ierarxiya jarayoni (AHP) matematik apparati [3] Delphi ekspert konsensus metodikasi [4] bilan integratsiyalashgan holda qo'llanildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, ikkala metodning ketma-ket integratsiyasi — avval Delphi orqali sifat jihatdan barqaror konsensusni shakllantirish, so'ngra AHP orqali bu konsensusni miqdoriy, matematik jihatdan tekshiriluvchan vaznlarga aylantirish — kasbiy kompetensiya baholash kontekstida yetarli darajada tadqiq etilmagan [5].

ADABIYOTLAR TAHLILI

AHP metodi 1980-yillarda T.Saaty tomonidan taklif etilgan bo'lib [3], ko'p mezonli qaror qabul qilish masalalarida keng qo'llaniladi. Uning asosiy afzalligi — juftlik taqqoslash matritsasi orqali olingan vazn koeffitsientlarining izchillik nisbati (Consistency Ratio, CR) orqali statistik tekshirilishi mumkinligidir [6]. Agar CR qiymati 0,10 dan yuqori bo'lsa, bu ekspert bahosida mantiqiy nomuvofiqlik mavjudligini bildiradi va qayta baholash talab etiladi. Metakognitiv kompetentlik nazariyasining asosini J.H.Flavell [8] va B.J.Zimmerman [9] ishlari tashkil etadi. Flavell metakognitsiyani o'z kognitiv jarayonlari haqidagi bilim va ularni boshqarish sifatida ta'riflagan bo'lsa,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Zimmerman o'z-o'zini tartibga soluvchi o'qish (self-regulated learning) nazariyasini ishlab chiqib, metakognitiv monitoring va nazorat komponentlarini ajratib ko'rsatgan. Veenman va boshq. [10] metakognitiv ko'nikmalar — rejalashtirish, monitoring va baholash — akademik natijalarni prognozlashda umumiy aql-idrok ko'rsatkichidan ko'proq ahamiyat kasb etishini empirik jihatdan asoslab bergan. Muhandislik ta'limida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish muammosi Hacker va boshq. [13], Ku va Ho [14] tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. Milliy pedagogika fanida Yusupova [15], Karimov [16] va Rajabov [17] muhandis-mexaniklar tayyorlashda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish masalalarini o'rgangan. Biroq ushbu komponentlarni ob'ektiv vazn koeffitsientlari bilan ta'minlash — ya'ni AHP-Delphi integratsiyasi orqali ilmiy asoslash — hali yetarli darajada tadqiq etilmagan [5]. Delphi metodikasi Dalkey va Helmer [4] tomonidan asoslangan bo'lib, ekspertlar orasidagi ijtimoiy-psixologik ta'sirni (avtoritet bosimi, guruh fikriga moslashish) bartaraf etish maqsadida anonim, bosqichma-bosqich so'rov shaklida tashkil etiladi. Ta'lim sohasida ikkala metodning integratsiyalashgan qo'llanilishi kasbiy kompetensiya baholash kontekstida yangilik sifatida baholanadi va milliy pedagogika fanida deyarli tadqiq etilmagan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ikki bosqichli protsedura asosida tashkil etildi. Birinchi bosqichda 15 nafarlik ekspert paneli shakllantirildi, uning tarkibi besh mezon (ilmiy daraja, sohadagi tajriba yili, ishlab chiqarishdagi rahbarlik tajribasi, ta'lim sohasidagi faoliyat, mustaqillik) bo'yicha tanlandi. Ekspertlar soni tanlashda 10–18 nafarlik me'yoriy oraliq — AHP adabiyotida qabul qilingan minimal-maksimal chegara — asos qilib olindi [6].

1-jadval. Ekspert panelining tarkibi

Ekspert toifasi	Soni	Ulushi (%)
Fan doktori (DSc)	3	20,0
Falsafa doktori (PhD)	6	40,0

Ekspert toifasi	Soni	Ulushi (%)
Ishlab chiqarish rahbari	4	26,7
Kadrlar boshqaruvi mutaxassisi	2	13,3
Jami	**15**	**100,0**

Ikkinchi bosqichda ekspertlarga besh kompetensiya komponenti juftma-juft taqqoslash uchun taqdim etildi; har bir juftlik uchun 1–9 ballik Saaty shkalasi qo'llanildi (1 — teng ahamiyatli, 9 — mutlaqo ustun) [3]. Ikki bosqichli Delphi jarayonining umumiy sxemasi 3-rasmda keltirilgan.



1-rasm. AHP-Delphi integratsiyalashgan metodikasining jarayon sxemasi (mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan)

Birinchi Delphi bosqichida olingan baholar statistik jihatdan tahlil qilinib, o'rtacha qiymatdan katta og'ish ko'rsatgan ekspertlarga o'zlarining bahosini guruh natijalari va

asosli mulohaza bilan tanishtirilgan holda qayta ko'rib chiqish imkoniyati berildi (ikkinchi Delphi bosqichi). Juftlik taqqoslash matritsasi asosida bosh xos qiymat (λmax), izchillik indeksi ($CI=(\lambda max-n)/(n-1)$) va izchillik nisbati ($CR=CI/RI$, bunda $n=5$ uchun $RI=1,12$) hisoblandi [3, 6].

Natijalar va muhokama

Delphi jarayonining samaradorligi 1-rasmda ko'rsatilgan. Barcha beshta komponent bo'yicha standart og'ish ikkinchi bosqichda birinchi bosqichga nisbatan taxminan ikki baravar kamaygan (o'rtacha 1,30 dan 0,55 gacha). Kognitiv komponent bo'yicha kamayish foizi eng yuqori (57%), bu dastlab ushbu komponent ahamiyati haqida ekspertlar orasida eng katta fikr tarqoqligi mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.



2-rasm. Ikki bosqichli Delphi jarayonida ekspert baholari standart og'ishining kamayishi (n = 15 ekspert; 5 kompetensiya komponenti; foiz — kamayish ulushi)

Yakuniy juftlik taqqoslash matritsasi asosida hisoblangan izchillik nisbati $CR=0,06$ ni tashkil etdi — bu qiymat AHP metodologiyasida qabul qilingan $CR<0,10$ chegarasidan sezilarli darajada past bo'lib, ekspert baholarining yuqori matematik izchilligini tasdiqlaydi. Olingan vazn koeffitsientlari 2-jadval va 3-rasmda keltirilgan.

2-jadval. Kasbiy kompetensiya komponentlarining AHP orqali aniqlangan vazn koeffitsientlari

Komponent	Vazn koeffitsienti (w_i)	Reyting	Ulush (%)
Operatsion-texnologik	0,25	1	25,0
Loyihaviy	0,22	2	22,0
Raqamli	0,20	3	20,0
Qadriyatli-refleksiv	0,18	4	18,0
Kognitiv	0,15	5	15,0
Jami	**1,00**	—	**100,0**



3-rasm. Kasbiy kompetensiya komponentlarining AHP orqali aniqlangan vazn koeffitsientlari (CR = 0,06; λmax = 5,27; n = 15 ekspert)

2-jadval va 3-rasmdan ko'rinib turibdiki, operatsion-texnologik (0,25) va loyihaviy (0,22) komponentlar eng yuqori vaznga ega bo'ldi. Bu texnologik mashina va jihozlar kabi amaliy-texnik yo'nalish uchun mantiqan kutilgan natija bo'lib, ABET akkreditatsiya

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mezonlari [20] va Ergashev & Toshmatov [21] tadqiqotlari bilan ham mos keladi. Kognitiv komponentning eng past vazn olishi (0,15) uni ahamiyatsiz deb tan olish emas, balki ushbu yo'nalishda amaliy-operatsion va loyihaviy ko'nikmalarning nisbatan yuqoriroq ustuvorlikka ega ekanligini ekspertlar konsensusi tomonidan tasdiqlanganini bildiradi.Bu natijalar DSc mavzumiz — bo'lajak muhandis-mexaniklarning kompetensiyaviy yondashuv asosida metakognitiv kompetentligini rivojlantirish — kontekstida muhim ahamiyat kasb etadi [8, 9, 17, 19]. Metakognitiv kompetentlik tarkibida Schraw & Dennison [11] ko'rsatgan monitoring va nazorat sub-komponentlari ham xuddi shunday AHP-Delphi yondashuvi orqali ob'ektiv vaznlanishi mumkin, bu esa kelgusi tadqiqotlar uchun metodologik yo'nalish beradi. Pintrich [19] ta'kidlaganidek, metakognitiv bilim va metakognitiv tartibga solish komponentlari ham o'quv natijalariga turlicha ta'sir ko'rsatadi — ularning nisbiy og'irligini aniqlash aynan mazkur metodika yordamida amalga oshirilishi mumkin.Muhokama qilinishi lozim bo'lgan metodologik cheklov shundaki, AHP-Delphi integratsiyasi ekspertlar orasidagi konsensusni matematik jihatdan izchillashtiradi, biroq bu konsensusning o'zi hali ham sub'ektiv baholarga asoslanadi. CR qiymati baholar orasidagi ichki mantiqiy muvofiqlikni tasdiqlaydi, lekin bu baholarning "ob'ektiv haqiqat"ga mos kelishini kafolatlamaydi. Shu sababli, kelgusi tadqiqotlarda AHP-Delphi orqali olingan vazn koeffitsientlarini real empirik natijalar (masalan, kompetensiya komponentlari va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi korrelyatsiya [21]) bilan qo'shimcha tekshirish tavsiya etiladi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot AHP-Delphi integratsiyalashgan metodikasining kasbiy kompetensiya komponentlarini vaznlashda nafaqat ekspert konsensusini, balki uning matematik izchilligini ham ta'minlaydigan ishonchli vosita ekanligini ko'rsatdi. Asosiy xulosalar:

1. Ikki bosqichli Delphi jarayoni ekspertlar orasidagi standart og'ishni o'rtacha 1,30 dan 0,55 ga kamaytirdi (57,7% kamayish), bu esa keyingi AHP bosqichining yuqori izchillikka ega bo'lishiga zamin yaratdi.

2. Olingan CR=0,06 qiymati AHP metodologiyasida qabul qilingan chegaradan (CR<0,10) sezilarli darajada past bo'lib, metodikaning yuqori sifat darajasini tasdiqlaydi.

3. Texnologik mashina va jihozlar yo'nalishida operatsion-texnologik (0,25) va loyihaviy (0,22) komponentlar ustuvor o'rin egallaydi; bu natija DSc tadqiqotimizda bo'lajak muhandis-mexaniklarning metakognitiv kompetentligini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda kompetensiya og'irliklarini ilmiy asoslash uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Metodikaning boshqa muhandislik ta'limi yo'nalishlariga, xususan, mexanika muhandisligi mutaxassisliklari uchun tatbiq etilishi, shuningdek, olingan vazn koeffitsientlarini empirik natijalar bilan qo'shimcha tekshirish kelgusi tadqiqotlar predmeti bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. — T.: Fan, 2004. — 23 b.

2. Crawley E.F., Malmqvist J., Östlund S., Brodeur D.R., Edström K. Rethinking Engineering Education: The CDIO Approach. 2nd ed. — Springer, 2014.

3. Saaty T.L. The Analytic Hierarchy Process. — McGraw-Hill, 1980.

4. Dalkey N., Helmer O. An Experimental Application of the Delphi Method to the Use of Experts // Management Science. — 1963. — Vol. 9, No. 3. — P. 458–467.

5. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. — T.: Iqtisod dunyosi, 2018. — 170 b.

6. Saaty T.L., Vargas L.G. Models, Methods, Concepts & Applications of the Analytic Hierarchy Process. 2nd ed. — Springer, 2012.

7. Elmanov A.B., Mirzaumidov A.Sh. Structural modeling of professional competence formation among students of technological machinery and equipment programs // "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali. — 2026. — №3. — B. 669–683.

8. Flavell J.H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry // American Psychologist. — 1979. — Vol. 34, No. 10. — P. 906–911.

9. Zimmerman B.J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory into Practice. — 2002. — Vol. 41, No. 2. — P. 64–70.
10. Veenman M.V.J., Van Hout-Wolters B.H.A.M., Afflerbach P. Metacognition and learning: Conceptual and methodological considerations // Metacognition and Learning. — 2006. — Vol. 1, No. 1. — P. 3–14.
11. Schraw G., Dennison R.S. Assessing metacognitive awareness // Contemporary Educational Psychology. — 1994. — Vol. 19, No. 4. — P. 460–475.
12. Moos D.C., Azevedo R. Self-regulated learning with hypermedia: The role of prior domain knowledge // Contemporary Educational Psychology. — 2008. — Vol. 33, No. 2. — P. 270–298.
13. Hacker D.J., Dunlosky J., Graesser A.C. (Eds.). Handbook of Metacognition in Education. — Routledge, 2009.
14. Ku K.Y.L., Ho I.T. Metacognitive strategies that enhance critical thinking // Metacognition and Learning. — 2010. — Vol. 5, No. 3. — P. 251–267.
15. Yusupova Z.A. Oliy texnik ta'limda talabalarda metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish // Pedagogika fanlari. — 2023. — №4. — B. 112–118.
16. Karimov J.X. Kompetensiyaviy yondashuv asosida muhandislik ta'limini takomillashtirish muammolari // Ta'lim va ilm-fan. — 2022. — №2. — B. 34–41.
17. Rajabov S.T. Bo'lajak muhandis-mexaniklar kasbiy tayyorgarligida metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish // O'zMU xabarlari. — 2024. — №1. — B. 88–95.
18. Hmelo-Silver C.E. Problem-based learning: What and how do students learn? // Educational Psychology Review. — 2004. — Vol. 16, No. 3. — P. 235–266.
19. Pintrich P.R. The role of metacognitive knowledge in learning, teaching, and assessing // Theory into Practice. — 2002. — Vol. 41, No. 4. — P. 219–225.
20. ABET Engineering Accreditation Commission. Criteria for Accrediting Engineering Programs, 2023–2024. — ABET, 2023.
21. Ergashev B.B., Toshmatov A.R. Muhandis-mexaniklar tayyorlashda amaliy kompetensiyalarni baholash metodikasi // Texnika va texnologiya. — 2025. — №1. — B. 55–62.
22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida".
23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-apreldagi 240-son Qarori "Oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim sifatini baholash tizimini joriy etish to'g'risida".

ERKIN KURASHCHILARNI TEXNIK HARAKATLARINI ANALITIK TAHLIL QILISH ASOSIDA MUSOBAQA OLDI YUKLAMALARINI OPTIMALLASHTIRISH METADIKASI

Xamidjonov Abdunazar Usubjon o'g'li
O'zbekiston davlat sport akademiyasi
Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik
kardlar tayyorlash bo'lim boshlig'i
Email: *khamidjonovabdunazar@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada erkin kurashchilarning texnik harakatlarini tahlil qilish orqali musobaqa oldi mashg'ulot jarayonini takomillashtirishning metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotning asosiy yo'nalishi texnik harakatlarning bajarilish sifati va mashg'ulot yuklamasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan. Erkin kurashga xos hujum, qarshi hujum, tashlash va himoyadan hujumga o'tish kabi harakatlar bajarilish ketma-ketligi, tayanch almashinuvi, harakatning barqarorligi va takroriy bajarilishdagi o'zgarishlar asosida tahlil qilinadi. Tahlil natijalaridan kelib chiqib sportchilarning individual tayyorgarlik holatiga mos ravishda mashg'ulot vositalari, takrorlash miqdori, ish va dam olish nisbati hamda yuklama intensivligini o'zgartirishga asoslangan metodik yondashuv taklif etiladi. Musobaqa oldi bosqichida yuklamani boshqarish texnik mahoratni saqlash, ortiqcha charchoqni kamaytirish va mashg'ulot jarayonining yo'nalishini sportchining amaldagi tayyorgarlik holatiga moslashtirish tamoyillari asosida amalga oshiriladi.*

Kalit so'zlar: *Erkin kurash, texnik-taktik tayyorgarlik, texnik harakatlar tuzilishi, harakat barqarorligi, individualizatsiya, mashg'ulot jarayoni, musobaqaoldi bosqichi, yuklama korreksiyasi, mashg'ulot hajmi, intensivlik, texnik samaradorlik.*

METHODOLOGY FOR OPTİMİZİNG PRE-COMPETİTİON TRAİNİNG LOADS BASED ON THE ANALYTİCAL ASSESSMENT OF FREESTYLE WRESTLERS' TECHNİCAL ACTİONS

Abstract: *This article outlines the methodological foundations for improving the pre-competition training process through the analysis of freestyle wrestlers' technical actions. The study focuses primarily on determining the interrelationship between the quality of technical execution and training load. Actions characteristic of freestyle wrestling—such as attacks, counter-attacks, throws, and transitions from defense to offense—are analyzed based on execution sequences, stance shifts, movement stability, and variations during repeated performance. Based on the analysis results, a methodological approach is proposed to adjust training tools, repetition volume, work-to-rest ratios, and load intensity in accordance with the athletes' individual readiness levels. Managing the training load during the pre-competition phase is carried out*

based on principles that prioritize maintaining technical proficiency, minimizing excessive fatigue, and aligning the training process with the athlete's current state of preparedness.

Keywords: *Freestyle wrestling, technical-tactical preparation, structure of technical actions, movement stability, individualization, training process, pre-competition stage, load adjustment, training volume, intensity, technical efficiency.*

МЕТОДИКА ОПТИМИЗАЦИИ ПРЕДСОРЕВНОВАТЕЛЬНЫХ ТРЕНИРОВОЧНЫХ НАГРУЗОК НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА ТЕХНИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ БОРЦОВ ВОЛЬНОГО СТИЛЯ

Аннотация: *В статье изложены методические основы совершенствования предсоревновательного тренировочного процесса посредством анализа технических действий борцов вольного стиля. Основное внимание в исследовании уделено выявлению взаимосвязи между качеством выполнения технических приемов и величиной тренировочной нагрузки. Анализируются характерные для вольной борьбы действия — атаки, контратаки, броски, переходы от защиты к нападению — с учетом последовательности выполнения, смены стоек, устойчивости движений и вариативности при многократном повторении. На основе результатов анализа предложен методический подход к корректировке тренировочных средств, объема повторений, соотношения работы и отдыха, а также интенсивности нагрузки в соответствии с уровнем индивидуальной готовности спортсменов. Управление тренировочной нагрузкой на предсоревновательном этапе осуществляется на принципах, приоритетными задачами которых являются сохранение технического мастерства, минимизация избыточного утомления и согласование тренировочного процесса с текущим состоянием подготовленности спортсмена.*

Ключевые слова: *вольная борьба, технико-тактическая подготовка, структура технических действий, устойчивость движений, индивидуализация, тренировочный процесс, предсоревновательный этап, корректировка нагрузки, объем тренировки, интенсивность, техническая эффективность.*

KIRISH

Erkin kurash sportchidan yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik mahorat, tezkor qaror qabul qilish va o‘zgaruvchan musobaqa vaziyatlariga moslasha olish qobiliyatini talab qiladigan sport turlaridan biridir. Bellashuv jarayonida sportchi qisqa vaqt oralig‘ida hujum, qarshi hujum, himoyalanish, raqibni muvozanatdan chiqarish, oyoqdan olish va tashlash kabi turli texnik harakatlarni bajaradi. Mazkur harakatlarning samaradorligi nafaqat sportchining jismoniy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

imkoniyatlariga, balki ularni to‘g‘ri ketma-ketlikda, optimal va barqaror bajarish qobiliyatiga ham bog‘liq. Shu sababli erkin kurashchilarni tayyorlash jarayonida texnik harakatlarni muntazam tahlil qilish va tahlil natijalaridan mashg‘ulot yuklamalarini boshqarishda foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Zamonaviy sport mashg‘ulotlari tizimida sportchining tayyorgarlik holatini faqat umumiy jismoniy ko‘rsatkichlar orqali baholash yetarli emas. Ayniqsa, yuqori malakali kurashchilarda bir xil texnik harakatning bajarilish sifati sportchining individual morfologik, jismoniy va texnik xususiyatlariga qarab farqlanishi mumkin. Shu bois texnik harakatlarning tuzilishi, bajarilish ketma-ketligi, barqarorligi va takroriy bajarilish jarayonidagi o‘zgarishlarni analitik jihatdan baholash mashg‘ulot jarayonini individuallashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

Musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichida ushbu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrda sportchi musobaqa faoliyatiga maksimal darajada yaqinlashtirilgan mashg‘ulot yuklamalarini bajarishi bilan birga, ortiqcha charchoqning oldini olishi va texnik harakatlar sifatini saqlab qolishi lozim. Yuklamaning haddan tashqari oshirilishi texnik harakatlarning aniqligi va barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, yuklamaning yetarli darajada bo‘lmasligi esa sportchining musobaqaga zarur tayyorgarlik holatiga erishish imkoniyatini cheklaydi. Shu sababli musobaqa oldi yuklamalarini sportchining real texnik holati asosida belgilash va zaruratga qarab korreksiya qilish muhim hisoblanadi.

Texnik harakatlarni analitik tahlil qilish ushbu muammoni hal etishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv orqali sportchining muayyan texnik harakatlarni bajarishidagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, takroriy bajarilishlarda yuzaga keladigan o‘zgarishlarni baholash hamda aniqlangan kamchiliklarning mashg‘ulot yuklamasi bilan bog‘liqligini o‘rganish mumkin. Natijada mashg‘ulot jarayonida qo‘llaniladigan vositalar, mashqlar hajmi, intensivligi, takrorlash



soni va dam olish oralig‘ini individual ravishda belgilash uchun ilmiy-metodik asos shakllanadi.

Erkin kurashda xalqaro miqyosdagi raqobatning kuchayishi sportchilar tayyorgarligini yanada aniq va individual boshqarishni talab qilmoqda. Texnik harakatlarning samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, musobaqa oldi bosqichida yuklamani sportchining individual tayyorgarlik holatiga moslashtirish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, texnik harakatlarning bajarilish sifatini saqlagan holda mashg‘ulot yuklamasini optimal darajada tashkil etish sportchining musobaqaga tayyorgarlik samaradorligini belgilovchi omillardan biridir.

Amaliyotda musobaqa oldi yuklamalarini rejalashtirish ko‘pincha mashg‘ulot tajribasi, umumiy jismoniy ko‘rsatkichlar va belgilangan mashg‘ulot dasturlariga asoslanadi. Biroq sportchilarning texnik harakatlarni bajarishdagi individual farqlari har doim ham yetarli darajada hisobga olinmaydi. Texnik harakatlarda yuzaga keladigan kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga mos ravishda yuklamani o‘zgartirish esa sportchining tayyorgarlik holatini maqbul darajada saqlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Respublikamizda bugungi kunda bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, F.A. Kerimov, N.N. Tastanov, Z.A. Bakiyev, S.Q. Adilov, S.R. Ismatullayeva, A.A. Primbetov, A.B. Tajibayev, X.X. Jurahanov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan erkin kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligi, musobaqa faoliyati, jismoniy sifatlarini rivojlantirish va mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish masalalari hamda musobaqa oldi tayyorgarlik masalalari tadqiq etilgan. B.R. Vafoyev, S.I. Cho‘lliyev va Z.X. Yusupovalarning ishlarida esa sport biomexanikasi, harakatlarni biomekanik jihatdan baholash va sport faoliyatida kuch ko‘rsatkichlarini tahlil qilishning nazariy asoslari yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan Yu.V. Verkhoshanskiy, L.P. Matveyev, V.N. Platonov, V.B. Issurin, M.A. Godik, V.N. Boloban,

V.I. Lyax, V.M. Zatsiorskiy va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida sport mashg‘ulotlarini rejalashtirish va boshqarish, maxsus jismoniy tayyorgarlik, mashg‘ulot yuklamalarini periodlashtirish, harakat faoliyatini nazorat qilish va sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan. Ularning tadqiqotlarida yuklama hajmi va intensivligini sportchining tayyorgarlik holatiga moslashtirish, musobaqa oldi bosqichida mashg‘ulot vositalari va yuklama parametrlarini maqsadli ravishda o‘zgartirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Xorijiy olimlardan W. Kraemer, T. Häkkinen, J. Stone, M.H. Stone, N. A. Ratamess, J. Suchomel, M. Cormie, J. McGuigan, J. Comfort, G. Haff va boshqalarning tadqiqotlarida sportchilarning kuch va quvvat ko‘rsatkichlarini baholash, mashg‘ulot yuklamalarini individual boshqarish, kuch tayyorgarligi va texnik harakat samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik, mashg‘ulotning hajmi va intensivligini optimallashtirish masalalari tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda sportchining individual javob reaksiyalarini hisobga olish, yuklamani bosqichma-bosqich o‘zgartirish va musobaqa oldi davrida ortiqcha yuklanishning oldini olishga qaratilgan metodik yondashuvlar yoritilgan.

Tadqiqotning maqsadi - erkin kurashchilarning texnik harakatlarini analitik tahlil qilish asosida individual texnik tayyorgarlik xususiyatlarini aniqlash hamda olingan natijalarga muvofiq musobaqa oldi mashg‘ulot yuklamalarini optimallashtirish metodikasini ishlab chiqish va ilmiy asoslashdan iborat.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Erkin kurashda musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichi sportchining texnik mahoratini saqlab qolish, mavjud jismoniy imkoniyatlardan samarali foydalanish va musobaqa faoliyatiga xos harakatlarni yuqori aniqlikda bajarishga tayyorlash bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichda mashg‘ulot yuklamalarini umumiy tarzda oshirishdan ko‘ra, sportchining amaldagi tayyorgarlik holati va texnik harakatlarni bajarish sifatiga qarab boshqarish muhim hisoblanadi. Chunki musobaqaga yaqin davrda haddan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tashqari katta hajmdagi yuklama sportchida charchoqni kuchaytirib, texnik harakatlarning aniqligi, tezligi va barqarorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli musobaqa oldi mashg‘ulotlarini tashkil etishda texnik harakatlarni muntazam tahlil qilish va aniqlangan kamchiliklarga mos ravishda yuklamani korreksiya qilish metodik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Erkin kurashchining texnik tayyorgarligi faqat alohida usulni to‘g‘ri bajarish bilan emas, balki hujumni boshlash, raqib harakatiga javob qaytarish, muvozanatni saqlash, tayanchni almashtirish, usulni yakunlash va keyingi harakatga o‘tish jarayonlarining o‘zaro uyg‘unligi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan texnik harakatlarni analitik tahlil qilishda harakatning boshlang‘ich holati, bajarilish ketma-ketligi, tayanch almashinuvi, tana holatining barqarorligi, harakat tezligi, takroriy bajarilish sifati va yakuniy natijasi kabi mezonlarga e’tibor qaratiladi. Tahlil jarayonida aniqlangan har bir kamchilik mashg‘ulot jarayonida alohida metodik ta’sir chorasi bilan bog‘lanishi lozim.

Tadqiqot jarayonida erkin kurashchilarning texnik harakatlari shartli ravishda hujum harakatlari, qarshi hujum harakatlari, tashlash usullari, oyoqdan olish harakatlari, muvozanatni buzish va himoyadan hujumga o‘tish harakatlari bo‘yicha tahlil qilindi. Har bir harakatning bajarilish sifati takroriy urinishlar davomida kuzatilib, texnik xatolarning muntazam yoki tasodifiy xarakterga ega ekanligi aniqlandi. Agar bir xil xato bir necha takrorlash davomida qayta kuzatilsa, u sportchining individual texnik kamchiligi sifatida baholanib, unga mos maxsus mashqlar tanlandi. Aksincha, xato faqat mashg‘ulotning oxirgi qismida yuzaga kelgan bo‘lsa, uning yuzaga kelishida charchoq omili mavjudligi hisobga olinib, yuklama hajmi va dam olish oralig‘iga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi.

Texnik harakatlarni tahlil qilish asosida yuklamani boshqarishda uchta asosiy yo‘nalish ajratildi. Birinchi yo‘nalish texnik kamchilikni bartaraf etishga qaratilgan maxsus mashqlarni tanlashdan iborat bo‘ldi. Ikkinchi yo‘nalishda mashqning hajmi, ya’ni takrorlashlar soni va yondashuvlar miqdori sportchining individual tayyorgarlik

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

holatiga moslashtirildi. Uchinchi yo‘nalishda esa mashq bajarilish intensivligi, ish va dam olish nisbati hamda mashg‘ulot davomiyligi korreksiya qilindi. Bunday yondashuv texnik tayyorgarlik va jismoniy yuklamani alohida emas, balki yagona boshqaruv tizimi sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Erkin kurashchilarning texnik harakatlarini tahlil qilish asosida musobaqa oldi yuklamalarini individuallashtirish mezonlari

Texnik harakat	**Tahlil jarayonida aniqlanadigan asosiy holat**	**Aniqlangan kamchilik**	**Metodik ta’sir vositasi**	**Yuklamani korreksiya qilish mezoni**
Oyoqdan olish	Hujumni boshlash va tayanchga kirish holati	Harakatning boshlanishi sust, tayanch barqaror emas	Bir oyoqli kuch va tezkor-kuch mashqlari	Takrorlash soni va qarshilik darajasini individual belgilash
Bir oyoqdan olish	Tayanchning barqarorligi va harakat davomiyligi	Muvozanat buzilishi, harakat yakunlanmasligi	Bir oyoqda bajariladigan maxsus mashqlar	Hajmni kamaytirish yoki dam olish vaqtini oshirish
Ikki oyoqdan olish	Hujumga kirish tezligi va harakat ketma-ketligi	Harakat bosqichlari orasida uzilish	Tezkor kirish va takroriy hujum mashqlari	Qisqa muddatli, yuqori sifatli takrorlashlar
Tashlash	Tana holati va harakatning yakunlanishi	Tashlash amplitudasi va	Juftlikda texnik takrorlash va	Intensivlikni nazorat qilish, ortiqcha

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

		aniqligi pasayishi	maxsus kuch mashqlari	takrorlashni cheklash
Qarshi hujum	Raqib harakatiga javob berish tezligi	Qaror qabul qilish va javob harakatida kechikish	Reaksion va vaziyatli mashqlar	Ish va dam olish nisbatini optimallashtirish
Himoyadan hujumga o‘tish	Himoya holatidan hujumga o‘tish tezligi	Harakatlar orasidagi bog‘lanish sust	Kombinatsion va vaziyatli mashqlar	Seriyalar davomiyligini individual moslashtirish

Jadvaldan ko‘rinadiki, texnik harakatdagi har bir kamchilik uchun bir xil hajmdagi yuklamani qo‘llash maqsadga muvofiq emas. Masalan, oyoqdan olish harakatida tayanchning barqarorligi yetarli bo‘lmagan sportchida bir oyoqli kuch va muvozanat mashqlariga ustuvorlik berish zarur. Bunda mashq hajmi sportchining texnik xatosini kuchaytirmaydigan darajada belgilanadi. Agar mashqning ko‘p marotaba bajarilishi natijasida texnik sifat pasaya boshlasa, takrorlash sonini oshirish o‘rniga dam olish oralig‘ini uzaytirish yoki yondashuvlar sonini kamaytirish orqali yuklama korreksiya qilinadi.

Musobaqa oldi bosqichida yuklamani optimallashtirishning muhim shartlaridan biri texnik sifat va yuklama intensivligi o‘rtasidagi muvozanatni saqlashdir. Mashq intensivligi oshirilgan sari texnik harakatlarning bajarilish aniqligi muntazam kuzatib boriladi. Agar intensivlikning oshirilishi texnik xatolar sonining ko‘payishiga olib kelsa, yuklama darajasini saqlab qolish emas, balki uni qayta ko‘rib chiqish talab etiladi. Shu asosda sportchi uchun yuklama “yuqori”, “o‘rta” yoki “past” darajada emas, balki muayyan texnik vazifani sifatli bajarish imkoniyatidan kelib chiqib belgilanadi.

Tadqiqotda yuklamani optimallashtirish texnik harakatlarni aniqlash, ularning bajarilish sifatini baholash, asosiy kamchiliklarni belgilash, aniqlangan kamchiliklarga mos maxsus mashqlarni tanlash hamda mashq yuklamalarini individual ravishda belgilash asosida tashkil etildi. Bunda sportchining texnik harakatni bajarish sifati, takroriy bajarish jarayonidagi barqarorligi va mashq davomida yuzaga keladigan texnik xatolar hisobga olindi. Aniqlangan kamchiliklar asosida mashg‘ulot vositalarining hajmi va intensivligiga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Erkin kurashchilarning texnik harakatlarini sensor platforma yordamida tahlil qilish va takomillashtirish modeli

Mazkur model erkin kurashchilarning texnik harakatlarini zamonaviy sensor platforma va video tahlil asosida baholash, harakat jarayonida yuzaga keladigan texnik kamchiliklarni aniqlash hamda aniqlangan muammolarga mos maxsus mashqlarni tanlashga qaratilgan. Sensor platforma yordamida sportchining tayanch holati, oyoq panjasiga tushadigan bosimning taqsimlanishi, og‘irlik markazining siljishi, muvozanat darajasi, tayanch nuqtalarining o‘zgarishi va harakatlar ketma-ketligini obyektiv tarzda kuzatish mumkin. Olingan ma’lumotlar video tahlili bilan birgalikda qo‘llanilganda,

oyoqdan olish, bir oyoqdan olish, ikki oyoqdan olish, tashlash, qarshi hujum hamda himoyadan hujumga o'tish kabi asosiy texnik harakatlarda mavjud kamchiliklarni aniqroq aniqlash imkonini beradi. Aniqlangan kamchiliklar asosida sportchiga individual yoki maxsus mashqlar belgilanadi.

Mashg'ulot jarayonida sensor ko'rsatkichlarini qayta kuzatish orqali bajarilgan mashqlarning texnik samarasi baholanadi va zarur hollarda yuklama hamda mashqlar mazmuniga tuzatishlar kiritiladi. Shu tariqa model aniq tahlil, muammoni aniqlash, maxsus mashq tanlash, texnik harakatni takomillashtirish va natijani qayta nazorat qilish tamoyiliga asoslanadi. Mazkur yondashuv erkin kurashchilarning texnik tayyorgarligini individuallashtirish, tayanch barqarorligini oshirish, hujum va qarshi hujum harakatlarining samaradorligini yaxshilash hamda mashg'ulot yuklamalarini maqsadli boshqarishga xizmat qiladi.

XULOSA

O'tkazilgan tahlillar asosida erkin kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarligida texnik harakatlarning bajarilish sifatini muntazam baholash mashg'ulot yuklamalarini boshqarishning muhim sharti ekanligi aniqlandi. Texnik harakatlarda kuzatiladigan tayanchning barqarorligi, hujumga kirish tezligi, harakatlar ketma-ketligi, muvozanatni saqlash, tashlashni yakunlash va qarshi hujumga o'tishdagi kamchiliklar sportchining individual tayyorgarlik holatini belgilovchi amaliy mezon sifatida qaraldi.

Aniqlangan texnik kamchiliklarga mos maxsus mashqlarni tanlash va ularning hajmi, intensivligi, takrorlash soni hamda ish va dam olish nisbatini individual ravishda belgilash orqali musobaqa oldi yuklamalarini yanada maqsadli tashkil etish imkoniyati yaratildi. Bunda yuklamani oshirishning o'zi emas, balki mashqni texnik jihatdan sifatli bajarish imkoniyatini saqlab qolish asosiy mezon sifatida belgilandi.

Musobaqaga yaqinlashish davrida umumiy yuklama hajmini bosqichma-bosqich kamaytirish, biroq musobaqada qo'llaniladigan asosiy texnik harakatlarni yetarli dam olish sharoitida sifatli takrorlash sportchining texnik tayyorgarligini barqaror saqlashga

xizmat qiladi. Shu bilan birga, texnik harakatlarning bajarilishida xatolar ko‘paygan holatlarda mashg‘ulot hajmi yoki intensivligini kamaytirish, tiklanish vaqtini oshirish orqali yuklamani korreksiya qilish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xolmatov A.I. Kurash turlarida texnik usullarni o‘rgatishda modellashtirish usulining samaradorligi // Alfraganus. – 2024.
2. Shagiyev I.I. Technology for improving the efficiency of competitive activity in freestyle wrestling based on determining the level of attack and defense of athletes // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2025. – Vol. 6, № 03. – B. 353–359. DOI: 10.37547/mesmj-V6-I3-40.
3. Pakulin S.L., Ananchenko K.V., Ruchka Ye.V. Improving Technical, Tactical and Psychological Preparation of Freestyle Wrestlers // Path of Science. – 2016. – Vol. 2, №12. – P. 9.1–9.12. DOI: 10.22178/pos.17-14.
4. Pakulin S.L., Ananchenko K.V., Ruchka Ye.V. Using Combinations in the Process of Individualization of Freestyle Wrestlers' Training // Path of Science. – 2016.
5. Latyshev S., Korobeynikov G., Korobeinikova L. Individualization of Training in Wrestlers // International Journal of Wrestling Science. – 2014. – Vol. 4, №2. – P. 28–32. DOI: 10.1080/21615667.2014.954488.
6. Latyshev S.V. Individualization program training in freestyle wrestling // Physical Education of Students. – 2013. – №6. DOI: 10.6084/m9.figshare.840500.
7. Miarka B. Technical-tactical and physiological demands of wrestling combats // Revista de Artes Marciales Asiáticas. – 2016. – Vol. 11, №1. – P. 18–31. DOI: 10.18002/rama.v11i1.3309.
8. Qi Q., Tabakov S.E. Composition of technical and tactical actions of the world champions in freestyle wrestling 2021–2023 // Bulletin of Tula State University. Physical Education. Sport. – 2025. – №9. – P. 141–149. DOI: 10.24412/2305-8404-2025-9-141-148.
9. Cieśliński I., Gierczuk D., Sadowski J. Identification of success factors in elite wrestlers—An exploratory study // PLOS ONE. – 2021. – Vol. 16, №3. – e0247565. DOI: 10.1371/journal.pone.0247565.
10. Vasilescu F., Leonte N., Popescu O. Optimising the Competitive Performance of Junior Greco-Roman Wrestlers by Consolidating and Improving Their Takedown Techniques // Revista Românească pentru Educație Multidimensională. – 2023. – Vol. 15, №4. – P. 324–338. DOI: 10.18662/rrem/15.4/796.
11. Matkarimov R., Adilov S., Kerimov F. va boshq. Improving the technical and tactical characteristics of elite wrestlers // Slobozhanskyi Herald of Science and Sport. – 2024. – Vol. 28, №4. – P. 197–203. DOI: 10.15391/snsv.2024-4.003.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

TARIX YO‘NALISHI TALABALARIDA TARIXIY MANBALARNI TUSHUNISH VA TALQIN QILISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ergashbayev Shoxruhbek Shuxratjon o‘g‘li
Namangan pedagogika instituti tadqiqotchisi
E-mail: shohruh224444@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada tarix yo‘nalishi talabalarida tarixiy manbalarni tushunish va talqin qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muammosi tizimli tadqiq etiladi. Muallif manba bilan ishlash ko‘nikmasini axborotni qayta ishlash malakasi sifatida emas, balki tarixiy tafakkurning tarkibiy qismi, ya’ni maxsus intellektual faoliyat turi sifatida talqin qiladi. Tadqiqotda mazkur ko‘nikmaning tarkibiy tuzilishi – manbaning kelib chiqishini aniqlash, uni tarixiy kontekstga joylashtirish, boshqa manbalar bilan qiyoslash va matnni diqqat bilan o‘qish komponentlari – nazariy jihatdan asoslanadi. Ishda talabalarning manba bilan ishlashdagi tipik qiyinchiliklari tizimlashtiriladi, ko‘nikmani shakllantirishning bosqichma-bosqich modeli hamda uni baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Shuningdek, raqamli muhitda manbalarning ochiq bo‘lishi yaratgan yangi imkoniyatlar va sun’iy usulda yaratilgan soxta materiallar bilan bog‘liq tahdidlar tahlil qilinadi. Xulosada tavsiya etilayotgan metodikaning didaktik shartlari va oliy ta’lim amaliyotiga joriy etish yo‘nalishlari asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *tarixiy manba, manba tanqidi, tarixiy tafakkur, talqin qilish ko‘nikmasi, kontekstuallashtirish, qiyosiy tahlil, didaktik model, baholash mezonlari, raqamli manbalar, oliy pedagogik ta’lim.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ У СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ ИСТОРИИ НАВЫКОВ ПОНИМАНИЯ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ

Эргашбаев Шохрухбек Шухратжон угли
исследователь Наманганского педагогического института

Аннотация. *В статье системно исследуется проблема совершенствования методики развития у студентов направления истории навыков понимания и интерпретации исторических источников. Автор интерпретирует навык работы с источником не как умение обрабатывать информацию, а как составную часть исторического мышления, то есть особый вид интеллектуальной деятельности. В исследовании теоретически обосновывается компонентная структура данного навыка – установление происхождения источника, его помещение в исторический контекст, сопоставление с другими источниками и внимательное чтение*

текста. Систематизируются типичные затруднения студентов при работе с источниками, разрабатываются поэтапная модель формирования навыка и критерии его оценивания. Анализируются также новые возможности, созданные открытостью источников в цифровой среде, и угрозы, связанные с искусственно созданными поддельными материалами. В заключении обосновываются дидактические условия предлагаемой методики и направления её внедрения в практику высшего образования.

Ключевые слова: *исторический источник, критика источника, историческое мышление, навык интерпретации, контекстуализация, сравнительный анализ, дидактическая модель, критерии оценивания, цифровые источники, высшее педагогическое образование.*

IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING THE SKILLS OF UNDERSTANDING AND INTERPRETING HISTORICAL SOURCES IN STUDENTS OF THE HISTORY PROGRAMME

Ergashbayev Shoxruhbek Shuxratjon ugli
Researcher, Namangan Pedagogical Institute

Annotation. *The article systematically examines the problem of improving the methodology of developing, in students of the history programme, the skills of understanding and interpreting historical sources. The author interprets the skill of working with a source not as a competence in processing information, but as a constituent part of historical thinking, that is, a particular type of intellectual activity. The study theoretically substantiates the component structure of this skill – establishing the origin of the source, placing it within its historical context, corroborating it against other sources, and close reading of the text. The typical difficulties experienced by students in working with sources are systematized, and a stage-by-stage model of skill formation together with criteria for its assessment are developed. The new opportunities created by the openness of sources in the digital environment and the threats associated with artificially produced falsified materials are also analysed. In conclusion, the didactic conditions of the proposed methodology and the directions for its introduction into higher education practice are substantiated.*

Keywords: *historical source, source criticism, historical thinking, interpretation skill, contextualization, comparative analysis, didactic model, assessment criteria, digital sources, higher pedagogical education.*

KIRISH

Zamonaviy tarix ta'limi paradigmasida sodir bo'layotgan chuqur o'zgarishlar oliy pedagogik ta'lim oldiga sifat jihatidan yangi vazifalarni qo'ymoqda. Uzoq vaqt davomida tarix fanini o'qitish asosan tayyor bilimlarni uzatish, voqealar xronologiyasini



va tarixiy shaxslar faoliyatini yodda saqlash bilan bog‘langan edi. Bunday yondashuvda talaba tarixiy bilimning iste’molchisi sifatida namoyon bo‘lardi. Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida esa asosiy urg‘u bilimni mustaqil qurish jarayoniga, ya’ni talabaning tarixiy bilim qanday hosil bo‘lishini tushunishi va bu jarayonda o‘zi ishtirok etishiga ko‘chirilmoqda. Ushbu burilishning markazida tarixiy manba bilan ishlash ko‘nikmasi turadi, zero tarixiy bilimning birlamchi asosi aynan manbadir. Tarixiy manbaning gnoseologik tabiati mazkur muammoning nazariy o‘zagini tashkil etadi. Manba o‘tmishga ochilgan shaffof deraza emas, balki muayyan davrda, muayyan shaxs yoki jamoa tomonidan, aniq maqsad va manfaatlar doirasida yaratilgan matndir. U o‘tmish voqeligini aks ettirish bilan bir qatorda uni tanlaydi, saralaydi, ba’zan esa ataylab buzib ko‘rsatadi. Binobarin, manbadan bilim olish uni o‘qib chiqish bilan tugamaydi; u manbaning o‘zini tadqiqot obyektiga aylantirishni, uning kelib chiqishi, muallifning pozitsiyasi va yaratilish sharoitlarini aniqlashni talab qiladi. Aynan shu murakkab intellektual amal talqin qilish deb ataladi. Tushunish va talqin qilish tushunchalarining nisbati alohida tahlilni taqozo etadi. Tushunish matnning lug‘aviy mazmunini o‘zlashtirishni, unda nima aytilganini anglashni bildirsa, talqin qilish matn ortidagi ma’noni, muallifning niyatini va aytilmagan narsalarni tiklashni nazarda tutadi. Talaba ko‘pincha birinchi bosqichda to‘xtab qoladi: u matnni tarjima qila oladi, mazmunini qayta hikoya qila oladi, biroq undan tarixiy xulosa chiqarish, uning ishonchlilik darajasini baholash yoki boshqa manbalar bilan taqqoslash bosqichiga o‘ta olmaydi. Metodik muammoning o‘zagi aynan shu ikki bosqich orasidagi o‘tishni ta’minlashdadir. Pedagogik amaliyotda kuzatiladigan tipik qiyinchilik talabalarning manbaga nisbatan ishonchli axborot manbai sifatida yondashishida namoyon bo‘ladi. Talaba hujjatda yozilgan narsani avtomatik ravishda haqiqat deb qabul qiladi va uni tekshirish zaruriyatini his qilmaydi. Bu ko‘nikma yetishmovchiligi emas, balki epistemologik pozitsiyaning shakllanmaganligi bilan bog‘liq: talaba matnni guvohlik sifatida emas, balki ma’lumot sifatida ko‘radi. Mazkur pozitsiyani o‘zgartirish oddiy mashq orqali



emas, balki maxsus loyihalashtirilgan didaktik vaziyatlar orqali amalga oshiriladi, bunda talaba bir-biriga zid manbalar bilan to‘qnash keladi va tanlov qilishga majbur bo‘ladi. Xalqaro tadqiqotlarda tarixiy tafakkurning tabiiy ravishda shakllanmasligi, uning maxsus o‘rgatishni talab qilishi asoslab berilgan. Kundalik tafakkur o‘tmishni hozirgi tajriba prizmasi orqali idrok etishga moyil, tarixiy tafakkur esa aksincha, o‘tmish odamining dunyoqarashi bizdan tubdan farq qilishini tan olishni talab qiladi. Bu esa o‘zining tabiiy kognitiv moyilligiga qarshi borishni anglatadi. Shu sababli tarixiy manbani talqin qilish ko‘nikmasi o‘z-o‘zidan, faqat ko‘p o‘qish hisobiga shakllanmaydi; u aniq komponentlarga ajratilgan, izchil va bosqichma-bosqich metodik ishni talab qiladi. Mazkur ko‘nikmaning tarkibiy tuzilishida bir necha mustaqil komponentni ajratish mumkin. Birinchi komponent manbaning kelib chiqishini aniqlash bo‘lib, u muallif kimligi, matn qachon va qanday sharoitda yaratilgani, uning kimga mo‘ljallangani haqidagi savollarni qamrab oladi. Ikkinchi komponent kontekstuallashtirish, ya’ni matnni o‘z davrining ijtimoiy, siyosiy va madaniy muhitiga joylashtirishdir. Uchinchi komponent bir necha manbani qiyoslash va ular o‘rtasidagi muvofiqlik hamda ziddiyatlarni aniqlashdan iborat. To‘rtinchi komponent matnni diqqat bilan o‘qish, uning til vositalari, ritorik usullari va atama tanlovi orqali muallifning pozitsiyasini aniqlashni nazarda tutadi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida tarix yo‘nalishi talabalarini tayyorlash sohasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda amaliyotda reproduktiv yondashuv elementlari hamon saqlanib qolmoqda: manbashunoslik kurslari ko‘pincha manbalar tasnifi va tavsifi bilan cheklanadi, talabaning manba bilan mustaqil tadqiqiy ishlashiga ajratilgan vaqt esa yetarli emas. Seminar mashg‘ulotlarida manba ko‘pincha ma’ruzada bayon etilgan tezisni tasdiqlovchi illyustratsiya sifatida ishlatiladi, holbuki uning didaktik salohiyati aynan muammoli vaziyat yaratishda, talabani mustaqil xulosa chiqarishga undashdadir. Raqamli muhitning rivojlanishi mazkur sohaga qarama-qarshi tabiatli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, arxiv fondlarining raqamlashtirilishi, qo‘lyozmalarning



elektron nusxalari va xalqaro ma'lumotlar bazalarining ochilishi talabaga ilgari faqat tor doiradagi mutaxassislar uchun mavjud bo'lgan birlamchi manbalar bilan bevosita ishlash imkonini berdi. Boshqa tomondan, raqamli makonda tekshirilmagan matnlar, noto'g'ri atributsiya qilingan hujjatlar va sun'iy usulda yaratilgan soxta materiallar keng tarqalmoqda. Bu esa manba tanqidi ko'nikmasini tor kasbiy malakadan umumiy intellektual zaruratga aylantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarixiy manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish muammosi xorijiy pedagogik tadqiqotlarda mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. S.Uaynberg tarixiy tafakkurni tabiiy bo'lmagan intellektual faoliyat sifatida tavsiflab, uning kundalik fikrlash ko'nikmalaridan tubdan farq qilishini empirik jihatdan asoslagan. Uning tadqiqotlarida tajribali tarixchilar va talabalarning bir xil manbalar bilan ishlash strategiyalari qiyoslanib, mutaxassislar matnni o'qishdan avval uning kelib chiqishini aniqlashga kirishishi, talabalar esa bevosita mazmunga o'tishi aniqlangan. Ushbu farq manba bilan ishlashning aniq protsedural bosqichlarini maxsus o'rgatish zarurligini ko'rsatadi va mazkur maqolada taklif etilayotgan didaktik modelning nazariy asosini tashkil etadi. P.Seyksas hamkasblari bilan birgalikda tarixiy tafakkurning asosiy konseptual tushunchalarini tizimlashtirib, ular orasida manbaning dalil sifatidagi maqomi, tarixiy kontekst va tarixiy nuqtai nazarni qabul qilish kabi komponentlarni ajratib ko'rsatgan. P.Li va R.Eshbi turli yosh guruhlaridagi o'quvchilarning tarixiy tushunish darajalarini o'rganib, ularning bosqichma-bosqich rivojlanish modelini ishlab chiqqan. K.Barton va L.Levstik esa tarix ta'limining ijtimoiy maqsadlariga urg'u berib, manba bilan ishlashni faqat akademik malaka emas, balki fuqarolik tafakkurining shakllanish vositasi sifatida talqin qilgan. B.VanSledrayt tarix ta'limining nazariy asoslarini qayta ko'rib chiqish zarurligini asoslab, manba tanqidi ko'nikmasini o'quv dasturining markaziy elementi sifatida taklif qilgan. Manbashunoslikning klassik nazariy asoslari M.Blok va E.Karr ishlarida ishlab chiqilgan. M.Blok tarixchi hunarini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tahlil qilar ekan, guvohlikning ixtiyoriy va beixtiyor turlarini ajratib, ikkinchisining ko‘pincha ishonchliroq ekanini asoslagan. E.Karr esa tarixiy faktning o‘z-o‘zidan mavjud emasligini, uning tarixchi tomonidan tanlanishi va talqin qilinishi natijasida faktga aylanishini ko‘rsatgan. Bu nazariy pozitsiyalar talabalarda manbaga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirishda konseptual asos vazifasini bajaradi va ularni o‘quv jarayoniga metodik jihatdan moslashtirish mazkur tadqiqotning vazifalaridan biridir. Milliy ilmiy maktabda ta’lim jarayonining dunyoqarashiy va ma’naviy asoslari izchil tadqiq etilmoqda. S.Ergashbayevning O‘zbekiston sharoitida uzluksiz ta’lim tizimi orqali yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishga bag‘ishlangan ishida ta’limning uzluksizligi shaxs dunyoqarashining izchil va bosqichma-bosqich shakllanishini ta’minlovchi institutsional mexanizm sifatida asoslanadi. Olimning yondashuvi tarix ta’limi kontekstida bevosita metodik ahamiyat kasb etadi: manbani talqin qilish ko‘nikmasi ham bir semestrda emas, balki ta’limning bir necha bosqichida izchil ravishda, sodda shakldan murakkab shaklga o‘tish orqali shakllantirilishi lozim. Bu esa tarix yo‘nalishi o‘quv dasturida manbashunoslik komponentining vertikal uzviyligini ta’minlash zaruratini asoslaydi.

METODOLOGIK QISM

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, faoliyatli va germenevtik yondashuvlarning uyg‘unligi tashkil etadi. Kompetensiyaviy yondashuv manba bilan ishlash ko‘nikmasini alohida bilimlar yig‘indisi sifatida emas, balki aniq kasbiy vaziyatda namoyon bo‘luvchi yaxlit qobiliyat sifatida talqin qilish imkonini berdi. Ushbu yondashuv doirasida ko‘nikmaning tarkibiy komponentlari ajratildi, ularning har biri uchun kutilayotgan natija shakllantirildi va baholash indikatorlari belgilandi. Bu esa metodik ishni umumiy tavsiyalar darajasidan aniq o‘lchanadigan natijalar darajasiga ko‘tarish uchun zamin yaratdi. Faoliyatli yondashuv tadqiqotning ikkinchi uslubiy tayanchi bo‘ldi. Unga muvofiq ko‘nikma faqat o‘z faoliyati jarayonida shakllanadi, tayyor namunani kuzatish yoki nazariy tavsifni o‘zlashtirish esa yetarli emas. Shu sababli

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

taklif etilayotgan metodik modelda markaziy o‘rin talabaning mustaqil tadqiqiy harakatiga, ya’ni real manba bilan bevosita ishlashiga beriladi. Faoliyatli yondashuv doirasida murakkab ko‘nikma alohida operatsiyalarga ajratildi, ularning bajarilish ketma-ketligi belgilandi va har bir operatsiya uchun mashq turlari ishlab chiqildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Olib borilgan tadqiqot natijasida tarixiy manbalarni talqin qilish ko‘nikmasining to‘rt komponentli tuzilmasi nazariy jihatdan asoslandi. Birinchi komponent manbaning kelib chiqishini aniqlashdan iborat bo‘lib, u muallif, yaratilish vaqti, mo‘ljallangan auditoriya va matn janri haqidagi savollarni qamrab oladi. Tadqiqot mazkur komponentni birinchi o‘ringa qo‘yish metodik jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi: agar talaba matnni o‘qishdan avval uning kimga tegishli ekanini aniqlash odatini hosil qilsa, keyingi barcha talqin amallari to‘g‘ri epistemologik ramkada bajariladi. Aks holda matn shaxssiz axborot sifatida qabul qilinadi. Ikkinchi natija kontekstuallashtirish komponentining ichki tuzilishini ochib berdi. Tadqiqot talabalar uchun eng qiyin vazifa matnni o‘z davrining tushunchalari doirasida idrok etish ekanini ko‘rsatdi. Talaba o‘tmish matnidagi atamalarni avtomatik ravishda zamonaviy ma’noda tushunishga moyil bo‘ladi, bu esa anaxronistik talqinga olib keladi. Mazkur qiyinchilikni bartaraf etish uchun metodikada atamalarning tarixiy ma’nosini alohida tahlil qilish bosqichi ajratildi va talabani matndagi kalit tushunchalarning o‘z davridagi ma’nosini mustaqil aniqlashga undovchi mashq turi ishlab chiqildi.

MUHOKAMA

Tarixiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi xorijiy pedagogik diskursda jiddiy konseptual polemikaga sabab bo‘lgan. Mazkur bahsning bir qutbida S.Uaynbergning pozitsiyasi turadi. U tarix ta’limining asosiy vazifasini talabada fanga xos tafakkur usullarini shakllantirishda ko‘radi. Uaynbergning markaziy tezisi shundan iboratki, tarixiy tafakkur kundalik fikrlashga zid bo‘lgan maxsus intellektual intizom bo‘lib, uni faqat tarixchilarning real ish protseduralarini o‘zlashtirish orqali

egallash mumkin. Shu sababli u o‘quv jarayonining markaziga manba bilan ishlashning aniq kasbiy amallarini qo‘yishni va talabani amalda kichik tadqiqotchi mavqeiga olib chiqishni taklif etadi. K.Barton va L.Levstik mazkur yondashuvga tizimli e’tiroz bildiradi. Ularning fikricha, tarix ta’limini akademik fanning kichraytirilgan nusxasi sifatida qurish uning ijtimoiy maqsadini ko‘zdan yashiradi. Mualliflar tarix ta’limining asosiy vazifasini demokratik jamiyat fuqarosini tayyorlashda, turli nuqtai nazarlarni tushunish va umumiy manfaat haqida fikr yurita olish qobiliyatini shakllantirishda ko‘radi. Ularning pozitsiyasidan qaralganda manba tanqidi o‘z-o‘zida maqsad emas, balki fuqarolik tafakkurining vositasidir. Bu ikki yondashuv o‘rtasidagi tafovut metodik jihatdan muhim oqibatga ega: birinchi holda mashqlar kasbiy protseduralarga, ikkinchi holda esa ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarga yo‘naltiriladi. P.Seyksasning pozitsiyasi mazkur bahsda oraliq o‘rinni egallaydi. U hamkasblari bilan birgalikda tarixiy tafakkurning asosiy konseptual tushunchalarini tizimlashtirar ekan, ularni ham akademik, ham fuqarolik maqsadlariga xizmat qiluvchi universal vosita sifatida taqdim etadi. Seyksasning yondashuvi Uaynbergning fanga xoslik talabini saqlab qoladi, biroq uni Barton va Levstikning ijtimoiy yo‘naltirilganlik talabi bilan uyg‘unlashtiradi. Bu sintez amaliy jihatdan samarali bo‘lsa-da, tanqidchilar uning konseptual jihatdan yetarlicha qat’iy emasligini, ya’ni ikki maqsad o‘rtasidagi potensial ziddiyatni to‘liq hal qilmasligini ta’kidlaydilar. B.VanSledraytning tanqidi bahsga yana bir o‘lcham qo‘shadi. U tarix ta’limining nazariy asoslarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini asoslar ekan, muammoning ildizini metodik yechimlarda emas, balki o‘qituvchilarning o‘z epistemologik pozitsiyasida ko‘radi. Uning kuzatishiga ko‘ra, agar o‘qituvchining o‘zi tarixiy bilimni tayyor va yagona haqiqat sifatida tushunsa, u qanday metodik vositalar qo‘llashidan qat’i nazar talabada tanqidiy pozitsiyani shakllantira olmaydi. Bu tezis mazkur maqola uchun muhim metodik xulosa beradi: metodikani takomillashtirish ishi o‘qituvchilar tayyorgarligini o‘zgartirish bilan birga olib borilishi lozim. Polemikaning yana bir yo‘nalishi klassik manbashunoslik an’anasi bilan bog‘liq. M.Blokning guvohlik

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

turlarini ajratish haqidagi qarashlari va E.Karrning tarixiy faktning konstruksiyalangan tabiati haqidagi tezisi zamonaviy metodik yondashuvlarning nazariy asosini tashkil etadi. Biroq bu ikki pozitsiya orasida ham muayyan keskinlik mavjud: Blok manba tanqidining aniq protseduralariga tayanib, ishonchli bilimga erishish mumkinligiga ishonadi, Karr esa tarixchining subyektiv pozitsiyasining muqarrarligini ta'kidlaydi. Metodik jihatdan bu keskinlik samarali, zero u talabaga tanqidiy pozitsiya bilan nigilistik shubha o'rtasidagi farqni ko'rsatish imkonini beradi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot tarixiy manbalarni tushunish va talqin qilish ko'nikmasi tabiiy ravishda, faqat o'quv materialini ko'p o'qish hisobiga shakllanmasligini, u maxsus loyihalashtirilgan, bosqichma-bosqich va izchil metodik ishni talab qilishini asoslab berdi. Mazkur ko'nikma o'z mohiyatiga ko'ra axborotni qayta ishlash malakasi emas, balki tarixiy tafakkurning tarkibiy qismi, ya'ni o'zining qoidalari va mezonlariga ega bo'lgan maxsus intellektual faoliyat turidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Wineburg S. Historical Thinking and Other Unnatural Acts: Charting the Future of Teaching the Past. – Philadelphia: Temple University Press, 2001. – 255 p.
2. Seixas P., Morton T. The Big Six Historical Thinking Concepts. – Toronto: Nelson Education, 2013. – 218 p.
3. Ergashbaev S. O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish // Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – Т. 1, № 1. – S. 314–316.
4. Barton K.C., Levstik L.S. Teaching History for the Common Good. – Mahwah: Lawrence Erlbaum Associates, 2004. – 313 p.
5. VanSledright B.A. The Challenge of Rethinking History Education: On Practices, Theories, and Policy. – New York: Routledge, 2011. – 196 p.
6. Ergashbayev S. Uzluksiz ta'lim tashkil etish orqali yoshlarning ma'naviy-falsafiy dunyoqarashini yuksaltirish // Bulletin of Contemporary Researches: Multidisciplinary. – 2025. – Vol. 1, № 1. – P. 10–13.
7. Lee P., Ashby R. Progression in Historical Understanding among Students Ages 7–14 // Knowing, Teaching and Learning History: National and International Perspectives. – New York: New York University Press, 2000. – P. 199–222.
8. Bloch M. The Historian's Craft. – New York: Alfred A. Knopf, 1953. – 197 p.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

9. Mirzaolimjon og'li M.M., Shohbozbek E. Yangi O'zbekistonning ta'lim siyosati va universitetlarning yangi modellari // Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. – 2025. – Vol. 16, № 01. – B. 325–328.
10. Carr E.H. What Is History? – London: Macmillan, 1961. – 159 p.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

TALABALARINING AXBOROTNI INTENSIV QABUL QILISH QOBILIYATI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Ergashev Bunyod Shokir o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoratnti
Tel:+99850-871-67-67
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-6668-3718
gmail: bunik0719@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarning axborotni intensiv qabul qilish qobiliyati, uning pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish bosqichlari nazariy jihatdan tahlil etilgan. Axborotni intensiv qabul qilish jarayonining talabalarning bilish faolligi, diqqat, xotira, tafakkur va axborotni qayta ishlash qobiliyatlari bilan o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Tadqiqotda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining tarkibiy komponentlari, rivojlanish mezonlari va darajalari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan asoslangan. Shuningdek, mazkur qobiliyatni rivojlantirishda intellektual o'yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Maqolada talabalarning axborotni tezkor, mazmunli va tizimli o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar taklif etilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim jarayonida talabalarning bilish faoliyatini takomillashtirish va mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *axborotni intensiv qabul qilish, talaba, bilish faoliyati, intellektual o'yinlar, diqqat, xotira, tafakkur, axborotni qayta ishlash, pedagogik rivojlanish.*

STUDENTS' CAPACITY FOR INTENSIVE INFORMATION PROCESSING AND ITS DEVELOPMENTAL STAGES

Abstract: *This article theoretically analyzes students' ability to intensively process information, its pedagogical and psychological content, and stages of development. The study examines the relationship between intensive information processing and students' cognitive activity, attention, memory, thinking, and information processing abilities. The structural components, development criteria, and levels of students' intensive information processing ability are substantiated from a pedagogical and psychological perspective. The article also explores the pedagogical potential of using intellectual games to develop this ability. Pedagogical approaches aimed at improving students' capacity to acquire information quickly, meaningfully, and systematically are proposed. The findings provide a theoretical basis for improving students' cognitive activity and enhancing the effectiveness of independent learning in higher education.*

Keywords: *intensive information processing, student, cognitive activity, intellectual games, attention, memory, thinking, information processing, pedagogical development.*

СПОСОБНОСТЬ СТУДЕНТОВ К ИНТЕНСИВНОМУ УСВОЕНИЮ ИНФОРМАЦИИ И ЭТАПЫ ЕЕ РАЗВИТИЯ

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Аннотация: *В статье представлен теоретический анализ способности студентов к интенсивному усвоению информации, рассматриваются ее психолого-педагогическое содержание и этапы развития. Особое внимание уделяется взаимосвязи процесса интенсивного усвоения информации с познавательной активностью, вниманием, памятью, мышлением и навыками обработки информации у студентов. С научно-педагогической точки зрения обосновываются структурные компоненты, критерии развития и уровни данной способности. Также исследуется педагогический потенциал использования интеллектуальных игр для формирования этого качества. Предлагаются педагогические подходы, направленные на развитие у студентов способности к быстрому, осмысленному и систематическому усвоению информации. Результаты исследования служат теоретической основой для активизации познавательной деятельности студентов и повышения эффективности самостоятельного обучения в системе высшего образования.*

Ключевые слова*: интенсивное усвоение информации, студент, познавательная активность, интеллектуальные игры, внимание, память, мышление, обработка информации, педагогическое развитие.*

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil fikrlashi, axborot bilan ishlash kompetensiyasi va bilish faolligini rivojlantirish ta’lim sifatini ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ta’lim resurslarining ko‘payishi hamda bilimlarni tezkor yangilash zarurati talabalarning turli mazmundagi axborotlarni qabul qilish, anglash, tahlil qilish va amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, talabalarning axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatini pedagogik-psixologik jihatdan o‘rganish zamonaviy ta’limning dolzarb ilmiy masalalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatida ta’lim jarayonining sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, talabalarning mustaqil ta’lim olishi va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

konsepsiyasi»da oliy ta'lim mazmunini takomillashtirish, ta'lim jarayoniga ilg'or texnologiyalarni joriy etish va ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq vazifalar belgilangan. Mazkur yo'nalishlar talabalarning axborotni samarali qabul qilish va qayta ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Axborotni intensiv qabul qilish qobiliyati mazkur tadqiqotda talabaning muayyan vaqt oralig'ida axborotni diqqat bilan qabul qilishi, uning mazmunini anglash, muhim jihatlarini ajratish, mavjud bilimlari bilan bog'lash va o'zlashtirilgan ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini ifodalovchi murakkab bilish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Ushbu tushuncha idrok, diqqat, xotira, tafakkur va axborotni qayta ishlash jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, uni faqat axborotni tez qabul qilish ko'rsatkichi bilan cheklab bo'lmaydi. Chunki ta'lim jarayonida axborotning tez o'zlashtirilishi bilan bir qatorda, uning mazmuniy anglanishi, mantiqiy qayta ishlanishi va amaliy qo'llanishi ham muhim ahamiyatga ega.

Axborotni intensiv qabul qilish jarayonining samaradorligi talabaning bilish faoliyatini tashkil etish xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Kognitiv psixologiya doirasidagi tadqiqotlarda insonning axborotni qabul qilishi, qayta ishlashi va xotirada saqlashi o'zaro bog'liq jarayonlar sifatida qaraladi. Xususan, Baddeley ishchi xotirani axborotni vaqtincha saqlash va undan foydalanish bilan bog'liq murakkab kognitiv tizim sifatida izohlaydi. Mazkur nazariy yondashuv talabalarning o'quv jarayonida axborotni qabul qilish va undan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Talabalarning axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda an'anaviy ta'lim usullari bilan bir qatorda faol va interfaol pedagogik metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, intellektual o'yinlar talabalarning diqqatini jamlash, mantiqiy fikrlashini faollashtirish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va bilimlarni amaliy qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Biroq

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

intellektual o‘yinlarning mazkur qobiliyatga ta’sirini ilmiy jihatdan baholashda o‘yinlarning mazmuni, davomiyligi, murakkablik darajasi va o‘quv maqsadlariga muvofiqligi hisobga olinishi lozim.

Shu jihatdan, talabalarning axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish masalasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonni axborotni qabul qilish, anglash, tahlil qilish, qayta ishlash va amaliy qo‘llash bilan bog‘liq faoliyatlar asosida tavsiflash mumkin. Bunday yondashuv talabalarning individual bilish imkoniyatlarini hisobga olish, rivojlanish mezonlarini belgilash va pedagogik ta’sir vositalarini maqsadli tanlashga yordam beradi.

Tadqiqotning maqsadi - Tadqiqotning maqsadi talabalarning axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining pedagogik-psixologik mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berish, uning tarkibiy komponentlari va rivojlanish bosqichlarini nazariy asoslash hamda mazkur qobiliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik imkoniyatlarni aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsad doirasida axborotni intensiv qabul qilish jarayonining talabalarning diqqat, xotira, tafakkur va axborotni qayta ishlash faoliyati bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning axborotni anglash, saralash, tizimlashtirish va undan amaliy faoliyatda foydalanish imkoniyatlarini tavsiflovchi nazariy yondashuvlar umumlashtiriladi.

Tadqiqotning alohida yo‘nalishi axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining rivojlanish bosqichlarini aniqlash hamda uning shakllanishiga ta’sir etuvchi pedagogik shart-sharoitlarni asoslashdan iborat. Mazkur yondashuv talabalarning bilish faolligini rivojlantirish va ta’lim jarayonida axborot bilan samarali ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik asoslarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.

Tadqiqotning vazifalari Belgilangan tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, talabalarning axborotni intensiv qabul qilish qobiliyati va uning rivojlanish bosqichlarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- **Axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining** pedagogik-psixologik mohiyati, mazmuni va ilmiy-nazariy asoslarini ochib berish hamda mazkur tushunchaga mualliflik ta’rifini ishlab chiqish.
- Talabalarning axborotni intensiv qabul qilish jarayonining idrok, diqqat, xotira, tafakkur va axborotni qayta ishlash jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liqligini ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilish.
- Talabalarning axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining **tarkibiy komponentlarini** aniqlash va ularning mazmunini pedagogik-psixologik jihatdan tavsiflash.
- Axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining rivojlanish bosqichlari va darajalarini aniqlash hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini nazariy jihatdan asoslash.
- Talabalarning axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatini baholashga xizmat qiluvchi **mezonlar va ko‘rsatkichlarni** ishlab chiqish.
- Intellektual o‘yinlardan foydalanishning talabalarning axborotni qabul qilish, anglash, tahlil qilish va qayta ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlash.
- Talabalarning axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik shart-sharoitlar va metodik yondashuvlarni ilmiy jihatdan asoslash.
- Tadqiqot natijalari asosida talabalarning axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi talabalarning axborotni intensiv qabul qilish qobiliyati va uning rivojlanish bosqichlarini pedagogik-psixologik jihatdan o‘rganishga qaratilgan

nazariy yondashuvlar asosida shakllantirildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kognitiv va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi. Mazkur yondashuvlar axborotni qabul qilish, anglash, qayta ishlash va o‘zlashtirish jarayonlarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyati talabaning axborotni muayyan vaqt davomida diqqat bilan qabul qilishi, uning mazmunini anglash, muhim jihatlarini ajratish, mavjud bilimlari bilan bog‘lash va undan amaliy faoliyatda foydalanish imkoniyatlarini ifodalovchi murakkab bilish qobiliyati sifatida talqin qilindi. Ushbu ta’rif mualliflik yondashuvi bo‘lib, uning nazariy asoslarini aniqlashda kognitiv psixologiya va pedagogika sohasidagi ilmiy qarashlarga tayanildi.

Axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonlarini tushuntirishda ishchi xotira nazariyasi muhim nazariy manba sifatida tanlandi. A. Baddeley ishchi xotirani axborotni vaqtincha saqlash va undan murakkab kognitiv vazifalarni bajarishda foydalanish imkonini beruvchi tizim sifatida izohlaydi. Ushbu nazariy qarash talabalarning o‘quv jarayonida axborotni qabul qilish, vaqtincha saqlash va qayta ishlash jarayonlarini tahlil qilishda foydalanildi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil metodi orqali axborotni intensiv qabul qilish, bilish faoliyati, diqqat, xotira va tafakkurga oid ilmiy adabiyotlar o‘rganildi. Qiyosiy tahlil yordamida turli pedagogik-psixologik yondashuvlarning mazmuni va o‘ziga xos jihatlari aniqlandi. Tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari asosida axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining tarkibiy komponentlari hamda rivojlanish xususiyatlari tavsiflandi. Modellashtirish metodi esa mazkur qobiliyatning rivojlanish bosqichlarini nazariy jihatdan ifodalash uchun qo‘llanildi.

Tadqiqot metodologiyasida talabaning faol bilish faoliyatiga alohida e’tibor qaratildi. Bunda axborotni qabul qilish jarayoni passiv ma’lumot o‘zlashtirish bilan cheklanmasdan, uni anglash, tahlil qilish, muhim jihatlarini ajratish va yangi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

vaziyatlarda qo‘llash bilan bog‘liq yaxlit jarayon sifatida qaraldi. Mazkur yondashuv talabalarning axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik vositalarni, xususan, intellektual o‘yinlardan foydalanish imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslashga yo‘naltirildi.

Shuningdek, tadqiqotda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining rivojlanish bosqichlarini aniqlashda tezkorlik, anglash, axborotni qayta ishlash, tizimlashtirish va amaliy qo‘llash kabi mezonlar nazariy jihatdan ajratib ko‘rsatildi. Ushbu mezonlar mualliflik konseptual yondashuvining tarkibiy qismi bo‘lib, ularni empirik tadqiqotlar orqali tekshirish va takomillashtirish imkoniyati mavjud. Tadqiqotning metodologik yondashuvi oliy ta’lim jarayonida talabalarning bilish faolligini rivojlantirish hamda axborot bilan ishlash samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari talabalarning axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining pedagogik-psixologik mazmunini aniqlash, uning tarkibiy komponentlarini tizimlashtirish va rivojlanish bosqichlarini nazariy jihatdan asoslashga yo‘naltirildi. Nazariy manbalarni tahlil qilish asosida axborotni intensiv qabul qilish jarayoni talabaning axborotni qabul qilishi, anglash, muhim jihatlarini ajratishi, qayta ishlashi va o‘zlashtirilgan bilimlardan foydalanishi bilan bog‘liq yaxlit bilish faoliyati sifatida tavsiflandi.

Tadqiqotning muhim natijasi shundan iboratki, axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatini faqat axborotni tez o‘zlashtirish bilan izohlash yetarli emas. Mazkur qobiliyatning samaradorligi axborotning mazmuniy anglanishi, qayta ishlanishi, xotirada saqlanishi va amaliy faoliyatda qo‘llanishi bilan birgalikda ko‘rib chiqilishi lozim.

1-jadval.

Axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining tarkibiy komponentlari

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Komponent	Mazmuni
Diqqat komponenti	Axborotga e'tiborni jamlash va uni muayyan vaqt davomida saqlash
Idrok-anglash komponenti	Axborot mazmunini tushunish va asosiy jihatlarini ajratish
Xotira komponenti	Qabul qilingan axborotni saqlash va qayta tiklash
Analitik komponent	Axborotni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish
Amaliy komponent	O'zlashtirilgan axborotdan yangi vaziyatlarda foydalanish

Jadvalda keltirilgan komponentlar mualliflik nazariy umumlashtirishi sifatida taklif etiladi. Ularning amaliy diagnostik qiymati keyingi empirik tadqiqotlarda tekshirilishi lozim.

TAHLIL

Talabalarning axborotni intensiv qabul qilish qobiliyati va uning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish natijalari mazkur qobiliyatning murakkab, ko'p komponentli pedagogik-psixologik hodisa ekanligini ko'rsatadi. Axborotni intensiv qabul qilish jarayoni talabaning ma'lumotni tez qabul qilishi bilangina cheklanmay, balki uning mazmunini anglash, muhim jihatlarini ajratish, tahlil qilish, xotirada saqlash va amaliy faoliyatda qo'llash jarayonlarini ham qamrab oladi. Shu sababli talabalarning mazkur qobiliyatini rivojlantirishda diqqat, idrok, xotira va tafakkurning o'zaro bog'liqligini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotda taklif etilgan rivojlanish bosqichlari - boshlang'ich qabul qilish, anglash, faol qayta ishlash va mustaqil qo'llash - talabaning axborot bilan ishlash faoliyatini bosqichma-bosqich takomillashtirishga qaratilgan nazariy model sifatida tavsiflanadi. Ushbu bosqichlar talabalarning axborotni qabul qilishdan uni mustaqil ravishda tahlil qilish va qo'llashgacha bo'lgan faoliyatini tizimli tushuntirish imkonini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

beradi. Biroq bosqichlarning real rivojlanish ketma-ketligi va samaradorligi empirik tadqiqotlar orqali tekshirilishi lozim.

A. Baddeleyning ishchi xotira nazariyasi axborotni vaqtincha saqlash va undan murakkab kognitiv vazifalarni bajarishda foydalanish jarayonlarini tushuntirish uchun muhim nazariy asos hisoblanadi. Mazkur yondashuv talabalarning axborotni qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatlarini tahlil qilishda foydalanilishi mumkin. Shu bilan birga, intellektual o‘yinlardan maqsadli foydalanish talabalarning diqqatini jamlash, mantiqiy fikrlashini faollashtirish, axborotni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish faoliyatini rag‘batlantirishga xizmat qilishi mumkin. Demak, axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda nazariy asoslangan, bosqichma-bosqich va talabaning faol ishtirokiga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlarni qo‘llash muhimdir.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talabalarning axborotni intensiv qabul qilish qobiliyati diqqat, idrok, xotira, tafakkur va axborotni qayta ishlash jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab pedagogik-psixologik hodisa hisoblanadi. Mazkur qobiliyatning rivojlanishi axborotni dastlabki qabul qilish, uning mazmunini anglash, tahlil qilish, tizimlashtirish va mustaqil qo‘llash bosqichlari orqali tavsiflanadi.

Tadqiqot davomida axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining tarkibiy komponentlari va rivojlanish bosqichlari nazariy jihatdan asoslandi. Talabalarning axborot bilan samarali ishlashini ta’minlashda kognitiv jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda faol ta’lim metodlaridan foydalanish muhimligi aniqlandi. Xususan, intellektual o‘yinlar talabalarning diqqatini jamlash, mantiqiy fikrlashini faollashtirish va axborotni qayta ishlash faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik vosita sifatida qaralishi mumkin.

Umuman olganda, talabalarning axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish ta’lim jarayonini tizimli tashkil etish, individual bilish imkoniyatlarini hisobga olish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan maqsadli foydalanishni talab

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

etadi. Taklif etilgan nazariy yondashuv kelgusida empirik tadqiqotlar orqali tekshirilishi, takomillashtirilishi va oliy ta'lim amaliyotiga tatbiq etilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. – Toshkent, 2019. – LexUZ.

2.Baddeley, A. The episodic buffer: A new component of working memory // Trends in Cognitive Sciences. – 2000. – Vol. 4, No. 11. – P. 417–423. DOI: 10.1016/S1364-6613(00)01538-2.

3.Baddeley, A. D., Hitch, G. J. Working memory // The Psychology of Learning and Motivation. – 1974. – Vol. 8. – P. 47–89.

4.Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

5.Sweller, J., van Merriënboer, J. J. G., Paas, F. G. W. C. Cognitive architecture and instructional design // Educational Psychology Review. – 1998. – Vol. 10, No. 3. – P. 251–296.

6.Mayer, R. E. Multimedia Learning. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.

UDK: 378.147:159.953

MUAMMOLI TA'LIM (PBL) ORQALI TALABALARDA KOGNITIV MOSLASHUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Rizoyeva Kumush oy Toir qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Pedagogika yo'nalishi 2-kurs magistiranti
https://orcid.org/0009-0002-1036-8397
rizayevakumush0@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta'lim jarayonida muammoli ta'lim (Problem-Based Learning - PBL) texnologiyasidan foydalanish orqali talabalarda kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy e'tibori talabaning murakkab va o'zgaruvchan o'quv vaziyatlarida fikrlash strategiyalarini o'zgartira olishi, muammoga turli nuqtayi nazardan yondashishi va muqobil yechimlarni ishlab chiqishi bilan PBL texnologiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijalar PBLning muammoli vaziyat yaratish, mustaqil izlanish, guruhiy muhokama, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va refleksiya kabi komponentlari kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish uchun muhim pedagogik sharoit yaratishini ko'rsatdi. Maqolada kognitiv moslashuvchanlikning motivatsion, kognitiv-faoliyatli va refleksiv komponentlari hamda ularni rivojlantirish mezonlari asoslandi.*

Kalit so'zlar: *muammoli ta'lim, PBL, kognitiv moslashuvchanlik, oliy ta'lim, muammoli vaziyat, mustaqil ta'lim, tanqidiy fikrlash, muqobil yechim, refleksiya.*

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING COGNITIVE FLEXIBILITY IN STUDENTS THROUGH PROBLEM-BASED LEARNING (PBL)

Abstract. *This article examines the pedagogical foundations of developing students' cognitive flexibility through Problem-Based Learning (PBL) in higher education. The study focuses on the relationship between PBL and students' ability to change thinking strategies, approach complex problems from different perspectives, and develop alternative solutions in changing learning situations. The research employed literature analysis, comparative analysis, systematization, and pedagogical modeling. The results demonstrate that problem situations, independent inquiry, group discussion, development of alternative solutions, and reflection create important pedagogical conditions for developing cognitive flexibility. The article identifies the motivational, cognitive-activity, and reflective components of cognitive flexibility and proposes corresponding developmental criteria.*

Keywords: *problem-based learning, PBL, cognitive flexibility, higher education, problem situation, independent learning, critical thinking, alternative solution, reflection.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНОЙ ГИБКОСТИ У ОБУЧАЮЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ ПРОБЛЕМНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ (PBL)

Аннотация. *В статье исследуются педагогические основы развития когнитивной гибкости студентов посредством проблемного обучения (Problem-Based Learning - PBL) в системе высшего образования. Основное внимание уделяется взаимосвязи PBL со способностью студентов изменять стратегии мышления, рассматривать сложные проблемы с различных точек зрения и разрабатывать альтернативные решения в изменяющихся учебных ситуациях. В исследовании использованы методы анализа научной литературы, сравнительного анализа, систематизации и педагогического моделирования. Результаты показывают, что создание проблемных ситуаций, самостоятельный поиск информации, групповое обсуждение, разработка альтернативных решений и рефлексия формируют важные педагогические условия для развития когнитивной гибкости. Определены мотивационный, когнитивно-деятельностный и рефлексивный компоненты когнитивной гибкости, а также соответствующие критерии их развития.*

Ключевые слова: *проблемное обучение, PBL, когнитивная гибкость, высшее образование, проблемная ситуация, самостоятельное обучение, критическое мышление, альтернативное решение, рефлексия.*

KIRISH

Bugungi oliy ta’lim tizimida talabaning faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi yetarli natija sifatida qaralmayapti. Zamonaviy mutaxassisdan murakkab vaziyatlarni tahlil qilish, o‘zgaruvchan sharoitlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarga ko‘chirish va muammoga bir nechta nuqtayi nazardan yondashish talab etiladi. Shu jihatdan talabaning kognitiv imkoniyatlarini rivojlantirish oliy ta’lim pedagogikasining muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Kognitiv moslashuvchanlik shaxsning fikrlash jarayonida bir strategiyadan ikkinchisiga o‘tishi, vaziyat o‘zgarganda mavjud bilim va qarashlarini qayta ko‘rib chiqishi hamda muammoga muqobil yondashuvlarni shakllantira olishi bilan tavsiflanadi. Martin va Rubin tomonidan kognitiv moslashuvchanlik insonning muayyan vaziyatlarda muqobil variantlar va yechimlarni ko‘ra olish qobiliyati bilan bog‘liq konstrukt sifatida o‘rganilgan [1].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Muammoli ta'lim ushbu qobiliyatni rivojlantirish uchun muhim pedagogik imkoniyatga ega. PBL jarayonida talaba tayyor javobni qabul qilmaydi, balki muammoli vaziyatni tahlil qiladi, zarur axborotni mustaqil izlaydi, o'z taxminlarini ilgari suradi, guruhda turli qarashlarni taqqoslaydi va muammoning bir nechta yechimlarini ishlab chiqadi. Demak, PBLning o'zi kognitiv faoliyatning moslashuvchan shakllarini talab qiladigan ta'lim muhitini yuzaga keltiradi.

PBLning oliy ta'limdagi samaradorligini tahlil qilgan Dochy va hammualliflar 43 ta empirik tadqiqot asosida muammoli ta'limning, ayniqsa, talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liq ijobiy jihatlarini ko'rsatgan [2]. Mazkur natija PBLni faqat bilim berish vositasi sifatida emas, balki yuqori darajadagi fikrlash faoliyatini tashkil etish vositasi sifatida ham ko'rib chiqish imkonini beradi.

Shuningdek, Yucel, Karahoca va Karahoca tomonidan olib borilgan tadqiqotda web asosidagi PBL sharoitida kognitiv moslashuvchanlik va talabalarning o'quv natijalari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Tadqiqotchilar yuqori kognitiv moslashuvchanlikka ega talabalar muammolarni hal qilish jarayonida yaxshiroq natija ko'rsatganini qayd etgan [3]. Bu holat kognitiv moslashuvchanlikni PBL jarayonining muhim natijaviy ko'rsatkichlaridan biri sifatida tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning katta qismi PBLning akademik natijalar, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish yoki mustaqil ta'lim ko'nikmalariga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Kognitiv moslashuvchanlikning PBL jarayonidagi shakllanish mexanizmlarini alohida pedagogik komponentlar asosida tizimlashtirish masalasi esa qo'shimcha tadqiqotni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi muammoli ta'lim asosida talabalarda kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlash va uning konseptual modelini ishlab chiqish.

Maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

1. kognitiv moslashuvchanlik tushunchasining pedagogik-psixologik mazmunini aniqlash;

2. PBLning asosiy bosqichlarini kognitiv moslashuvchanlik komponentlari bilan bog‘lash;

3. PBL jarayonida talabaning muqobil fikrlash va strategiyani o‘zgartirish faoliyatini tahlil qilish;

4. kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishning pedagogik shartlarini aniqlash;

5. PBL asosida kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishning pedagogik modelini taklif etish.

Tadqiqotning ilmiy farazi shundan iboratki, agar PBL jarayonida talabaga ochiq xarakterdagi muammolar, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va o‘z qarorlarini qayta ko‘rib chiqish imkoniyati muntazam yaratilsa, uning kognitiv moslashuvchanligini rivojlantirish uchun zarur pedagogik sharoit shakllanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI**.** Muammoli ta’lim va kognitiv moslashuvchanlik masalalari pedagogika, ta’lim psixologiyasi hamda oliy ta’lim metodikasida turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda PBLning talabalarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati, tanqidiy fikrlashi va o‘quv faoliyatiga ta’siri keng yoritilgan. Biroq kognitiv moslashuvchanlikni PBLning alohida pedagogik natijasi sifatida tizimli o‘rganish nisbatan kam uchraydi.

Kognitiv moslashuvchanlik tushunchasining nazariy asoslarini o‘rganishda Martin va Rubin tomonidan ishlab chiqilgan yondashuv muhim ahamiyatga ega. Mualliflar kognitiv moslashuvchanlikni vaziyatga mos ravishda fikrlash yo‘nalishini o‘zgartirish, muqobil variantlarni ko‘ra olish va mavjud qarashlardan zaruratga ko‘ra voz kecha olish bilan bog‘laydi [1]. Mazkur yondashuv PBL jarayonida talabadan talab etiladigan muqobil fikrlash va strategiyani o‘zgartirish jarayonlarini tushuntirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Muammoli ta'limning ilmiy asoslari H. S. Barrows tadqiqotlarida keng yoritilgan. Tadqiqotchi PBLni talaba markazidagi ta'lim modeli sifatida ko'rib, real yoki kasbiy faoliyatga yaqin muammolar orqali bilimlarni faol egallashga urg'u beradi [6]. Ushbu yondashuvda talaba tayyor ma'lumotni o'zlashtirishdan ko'ra, muammoni tushunish va uni hal qilish jarayonida bilimlarni izlab topadi.

Hmelo-Silver PBL jarayonini talabaning muammoni tahlil qilishi, avvalgi bilimlarini faollashtirishi, yangi bilimlarni izlab topishi va o'z bilimlarini integratsiyalashi bilan bog'laydi [7]. Bu jarayon kognitiv moslashuvchanlik uchun muhim bo'lgan bilimlarni yangi vaziyatga ko'chirish va ularni qayta tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

PBL samaradorligini empirik tadqiqotlar asosida umumlashtirishga qaratilgan ishlardan biri Dochy va hammualliflarning meta-tahlilidir. Tadqiqotchilar 43 ta tadqiqot natijalarini tahlil qilib, PBLning ta'lim jarayonidagi turli natijalarga ta'sirini baholagan [2]. Mazkur tadqiqot PBLning an'anaviy ta'lim shakllaridan farqli ravishda bilim va ko'nikmalarni faol o'zlashtirishga yo'naltirilishini ko'rsatadi.

Gijbels va hammualliflar PBL samaradorligini baholash masalasini alohida o'rgangan. Ularning tadqiqotida PBLning ta'lim natijalari topshiriqlarning kognitiv murakkabligi va baholash shakllari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan [8]. Bu xulosa kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishda faqat PBL metodidan foydalanish emas, balki muammoli topshiriqlarni qanday loyihalash ham muhimligini ko'rsatadi.

Kognitiv moslashuvchanlik va PBLning o'zaro aloqasiga bevosita murojaat qilgan tadqiqotlardan biri Alper va Deryakulu tomonidan olib borilgan. Mualliflar web vositasidagi PBL muhitida kognitiv moslashuvchanlikning talabalarning o'quv natijalari va munosabatlari bilan bog'liqligini tahlil qilgan [4]. Ushbu tadqiqot kognitiv moslashuvchanlikni PBL muhitida hisobga olinishi lozim bo'lgan muhim individual-kognitiv xususiyat sifatida ko'rsatadi.

Yucel, Karahoca va Karahoca tadqiqotida esa PBLning kognitiv moslashuvchanlik, o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalari va talabalarning o‘quv yutuqlari bilan bog‘liqligi o‘rganilgan [3]. Tadqiqotning mazkur yo‘nalishi PBL jarayonini nafaqat bilim o‘zlashtirish, balki talabaning o‘zgaruvchan o‘quv vaziyatlariga moslashishi nuqtayi nazaridan ham tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

PBLning yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalariga ta’sirini o‘rgangan Liu va Pásztor tadqiqotida oliy ta’limdagi PBL intervensiyalarining tanqidiy fikrlashga ta’siri meta-tahlil asosida baholangan [5]. Mazkur tadqiqot kognitiv faoliyatning murakkab shakllarini rivojlantirishda PBLning imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Tanqidiy fikrlash va kognitiv moslashuvchanlik bir xil tushuncha bo‘lmasa-da, muqobil qarashlarni tahlil qilish, dalillarni taqqoslash va qarorni qayta ko‘rib chiqish kabi jarayonlar ular o‘rtasidagi metodik aloqani yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda PBLning ta’lim natijalari, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va mustaqil ta’lim kabi jihatlari yetarlicha o‘rganilgan. Shu bilan birga, kognitiv moslashuvchanlikni PBLning bosqichlari bilan bevosita bog‘lab, uning rivojlanish mexanizmlarini pedagogik model ko‘rinishida tizimlashtirish masalasi alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Shu sababli mazkur maqolada PBLning alohida bosqichlari — muammoli vaziyatni anglash, mustaqil izlanish, guruhiy muhokama, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, yechimlarni asoslash va refleksiya — kognitiv moslashuvchanlikning tarkibiy komponentlari bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Bunday yondashuv mavjud tadqiqotlarni takrorlashdan ko‘ra, PBL orqali kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishning yaxlit pedagogik mexanizmini asoslashga qaratilgan.

Demak, adabiyotlar sharhi mazkur tadqiqotning ilmiy yo‘nalishini belgilovchi uchta asosiy xulosani beradi: birinchidan, kognitiv moslashuvchanlik murakkab vaziyatlarda fikrlash strategiyasini o‘zgartirish qobiliyatini ifodalaydi; ikkinchidan, PBL

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

talabaning muammoli vaziyatni mustaqil tahlil qilishi va muqobil yechimlar ishlab chiqishini ta’minlaydi; uchinchidan, ushbu ikki yo‘nalishning o‘zaro aloqasini oliy ta’lim sharoitida yagona pedagogik model asosida tizimlashtirish ilmiy jihatdan muhimdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda PBL va kognitiv moslashuvchanlikning o‘zaro aloqasini pedagogik nuqtayi nazardan asoslash maqsad qilib olindi. Tadqiqotda empirik tajriba natijalari sun’iy ravishda kiritilmadi. Nazariy xulosalar ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va pedagogik modellashtirish asosida shakllantirildi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va konstruktivistik ta’lim yondashuvlari tashkil etadi. Mazkur yondashuvlarda talaba ta’lim jarayonining passiv qabul qiluvchisi emas, balki bilimni faol ravishda izlovchi va shakllantiruvchi subyekt sifatida qaraladi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil - PBL, kognitiv moslashuvchanlik, muammoli vaziyat, mustaqil fikrlash va refleksiya tushunchalarining ilmiy mazmunini o‘rganish uchun qo‘llanildi.

Qiyosiy tahlil - turli ilmiy tadqiqotlarda PBLning talabalarning fikrlash faoliyatiga ta’sirini taqqoslash imkonini berdi.

Umumlashtirish - aniqlangan nazariy qarashlarni umumiy pedagogik xulosalarga birlashtirish uchun foydalanildi.

Pedagogik modellashtirish - PBL bosqichlari va kognitiv moslashuvchanlik komponentlari o‘rtasidagi aloqani tizimlashtirish maqsadida qo‘llanildi.

Tadqiqotda kognitiv moslashuvchanlik quyidagi asosiy komponentlar orqali ko‘rib chiqildi:

- muammoni turli nuqtayi nazardan ko‘ra olish;
- mavjud bilimlarni yangi vaziyatga ko‘chirish;
- muqobil yechimlarni ishlab chiqish;

- fikrlash strategiyasini vaziyatga mos ravishda o‘zgartirish;
- qarama-qarshi fikrlarni taqqoslash;
- o‘z faoliyati va qarorlarini refleksiv baholash.

PBLning mazmuni esa muammoli vaziyatni taqdim etish, muammoni aniqlash, mustaqil axborot izlash, guruhiy muhokama, gipoteza va muqobil yechimlar ishlab chiqish, yechimlarni asoslash, natijani baholash hamda refleksiya bosqichlari orqali tizimlashtirildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Nazariy tahlil natijasida PBLning alohida bosqichlari talabaning kognitiv moslashuvchanligining turli jihatlarini faollashtirishi aniqlandi.

1-jadval. PBL bosqichlari va kognitiv moslashuvchanlik komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi

PBL bosqichi	Talaba faoliyati	Rivojlanadigan kognitiv jarayon	Kutiladigan indikator
Muammoli vaziyatni taqdim etish	Vaziyatni anglash va savollar qo‘yish	Muammoni qayta talqin qilish	Muammoni bir necha shaklda ifodalay oladi
Muammoni aniqlash	Muammoning sabablarini ajratish	Tahliliy fikrlash	Asosiy va ikkilamchi muammolarni farqlaydi
Mustaqil izlanish	Axborot izlash va saralash	Bilimlarni qayta tashkil etish	Yangi axborotni avvalgi bilimlar bilan bog‘laydi
Guruhiy muhokama	Turli qarashlarni taqqoslash	Nuqtayi nazarni almashtirish	Boshqa fikrni tushuntira va baholay oladi
Muqobil yechimlar	Bir nechta variant ishlab chiqish	Moslashuvchan strategik fikrlash	Muammoning ikki yoki undan ortiq yechimini taklif qiladi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Yechimni asoslash	Dalillarni taqqoslash	Tanqidiy va analitik fikrlash	Dalilga asoslangan qaror qabul qiladi
Refleksiya	O‘z faoliyatini tahlil qilish	Metakognitiv moslashuv	O‘z strategiyasini baholaydi va zarur bo‘lsa o‘zgartiradi

Jadvaldan ko‘rinadiki, PBLning asosiy afzalligi uning yakuniy javobga emas, balki muammoni hal qilish jarayoniga e’tibor qaratishidir. Talaba muammoni dastlabki ko‘rinishida qabul qilish bilan cheklanmaydi. U muammoning sabablarini aniqlaydi, yangi axborot izlaydi, boshqa talabalar qarashlarini tinglaydi va o‘z dastlabki taxminlarini qayta ko‘rib chiqadi.

Bu jarayon kognitiv moslashuvchanlikning muhim belgilaridan biri fikrlash strategiyasini o‘zgartirish imkoniyatini yuzaga chiqaradi. Agar talaba dastlabki yechimining yetarli emasligini anglab, boshqa strategiyani tanlasa, uning fikrlash faoliyatida moslashuvchanlik namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida kognitiv moslashuvchanlikning uchta o‘zaro bog‘liq komponentini ajratish mumkin.

Birinchi component - kognitiv-faoliyat komponenti. Bu talabaning mavjud bilimlarini yangi muammoli vaziyatga tatbiq eta olishi bilan bog‘liq. Bunda bilimni oddiy takrorlash emas, balki uni yangi kontekstda qayta tashkil etish muhim hisoblanadi.

Ikkinchi komponent - strategik-muqobil komponent. Mazkur komponent muammoni hal qilishning bir nechta usullarini ko‘ra olish va vaziyatga mos strategiyani tanlash qobiliyatini ifodalaydi.

Uchinchi komponent - refleksiv komponent. Talaba o‘z qarori, fikrlash jarayoni va tanlagan strategiyasini baholaydi. Zarurat tug‘ilganda o‘z yondashuvini o‘zgartiradi.

Shunday qilib, PBL asosida kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish modeli quyidagi ketma-ketlikda ifodalanadi:

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Muammoli vaziyat → muammoni aniqlash → mustaqil izlanish → guruhiy muhokama → muqobil yechimlar → yechimlarni sinash va asoslash → refleksiya → yangi strategiyani shakllantirish.

Mazkur modelda refleksiya yakuniy bosqich bo‘lib qolmasdan, keyingi muammoli vaziyatlarda foydalaniladigan yangi bilim va strategiyalarni shakllantiruvchi mexanizm sifatida qaraladi.

Kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish uchun muammoli topshiriqlarning mazmuni ham alohida ahamiyatga ega. Yopiq, faqat bitta to‘g‘ri javobni talab qiladigan topshiriqlardan ko‘ra, bir nechta asoslangan yechimga ega vaziyatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday topshiriqlar talabani mavjud bilimlarni turli yo‘nalishlarda qo‘llashga undaydi.

Shuningdek, PBL jarayonida o‘qituvchining roli ham o‘zgaradi. O‘qituvchi tayyor bilimni yetkazuvchi emas, balki muammoli vaziyatni loyihalashtiruvchi, savollar orqali talabani yo‘naltiruvchi va muhokama jarayonini boshqaruvchi fasilitator vazifasini bajaradi.

TADQIQOT MUHOKAMASI

Olingan nazariy natijalar PBLning kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish imkoniyatlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Biroq PBLni avtomatik ravishda kognitiv moslashuvchanlikni shakllantiruvchi metod sifatida baholash to‘g‘ri emas. Uning samarasi muammoli vaziyatning mazmuni, topshiriqning ochiqlik darajasi, o‘qituvchi tomonidan beriladigan metodik ko‘mak va talabalar o‘rtasidagi hamkorlik kabi omillarga bog‘liq.

Dochy va hammualliflarning meta-tahlilida PBLning talabalar ko‘nikmalariga ijobiy ta’siri qayd etilgan bo‘lsa-da, bilimlarni egallash natijalari bo‘yicha ta’sir barcha holatlarda bir xil bo‘lmagan [2]. Bu holat PBLning natijadorligi faqat metod nomi bilan emas, balki uni qanday tashkil etish bilan ham belgilanadi, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Kognitiv moslashuvchanlik nuqtayi nazaridan qaralganda, PBLning muhim jihati talabaning dastlabki fikrini qayta ko‘rib chiqishiga sharoit yaratishidir. An’anaviy reproduktiv topshiriqda talaba ko‘pincha to‘g‘ri javobni topishga intilsa, PBLda muammoning o‘zi ko‘pincha qo‘shimcha savollarni yuzaga keltiradi. Shu sababli talaba nafaqat “qanday javob topish kerak?”, balki “muammoni qanday tushunish kerak?” degan savol ustida ham ishlaydi.

Alper va Deryakulu tomonidan web vositasidagi PBL sharoitida kognitiv moslashuvchanlikning o‘quv natijalari va munosabatlarga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotda kognitiv moslashuvchanlik PBL muhitida alohida o‘zgaruvchi sifatida tahlil qilingan [4]. Mazkur yondashuv kognitiv moslashuvchanlikni PBLning shunchaki qo‘shimcha natijasi emas, balki ta’lim jarayonini tashkil etishda hisobga olinadigan muhim psixologik-pedagogik omil sifatida ko‘rish imkonini beradi.

PBL va yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalari o‘rtasidagi munosabat boshqa tadqiqotlarda ham o‘rganilgan. Xususan, Liu va Pásztorning meta-tahlilida oliy ta’limdagi PBLning tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan va tadqiqotlar o‘rtasidagi natijalarga turli moderator omillar ta’sir qilishi ko‘rsatilgan [5]. Bu natija PBLning ta’sirini o‘rganishda ta’lim sohasi, guruh hajmi, davomiylik va metodik tashkil etish kabi omillarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu jihatdan kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish uchun PBLni quyidagi pedagogik shartlar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, muammoli topshiriqlar real yoki kasbiy faoliyatga yaqin vaziyatlar asosida ishlab chiqilishi kerak. Bunday vaziyatlar talabaning bilimni yangi kontekstga ko‘chirish imkoniyatini oshiradi.

Ikkinchidan, topshiriqlar muqobil yechimlarga imkon berishi lozim. Agar vazifa faqat bitta mexanik javobni talab qilsa, kognitiv moslashuvchanlikni namoyon qilish imkoniyati cheklanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Uchinchidan, guruhiy muhokamada turli nuqtayi nazarlar taqqoslanishi kerak. Talaba boshqa fikrni eshitish, uni tahlil qilish va zarur hollarda o‘z qarashini qayta ko‘rib chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur.

To‘rtinchidan, refleksiya PBLning majburiy komponenti sifatida qaralishi kerak. Talaba “Qaysi strategiyani tanladim?”, “Nima uchun aynan shu yechimni tanladim?”, “Qaysi dalil mening fikrimni o‘zgartirdi?” kabi savollar orqali o‘z fikrlash jarayonini tahlil qilishi mumkin.

Beshinchidan, o‘qituvchi talabaga haddan tashqari tayyor ko‘rsatma bermasligi, biroq muammoli vaziyatni mustaqil hal qilish uchun zarur metodik tayanchni taqdim etishi kerak. Chunki umuman yo‘naltirilmagan muammoli ta’lim ayrim talabalar uchun ortiqcha kognitiv yuklamani yuzaga keltirishi mumkin.

Mazkur yondashuv PBLning oddiy “muammo berish” metodidan farq qilishini ko‘rsatadi. PBLning pedagogik qiymati muammoning mavjudligida emas, balki talabaning muammoni mustaqil o‘rganishi, turli strategiyalarni sinab ko‘rishi, muqobil fikrlarni tahlil qilishi va o‘z xulosasini refleksiv ravishda baholashida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, mazkur maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda muayyan oliy ta’lim muassasasida o‘tkazilgan eksperimental tajriba natijalari keltirilmagan. Shu sababli taklif etilgan modelning samaradorligini kelgusida tajriba-sinov ishlari orqali tekshirish zarur. Bunda eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirish, kognitiv moslashuvchanlikni diagnostika qilish, PBL mashg‘ulotlarini tizimli ravishda tashkil etish va natijalarni statistik tahlil qilish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Muammoli ta’lim talabalarning faqat predmetga oid bilimlarini emas, balki murakkab vaziyatlarda fikrlash, muammoni qayta talqin qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va o‘z strategiyasini o‘zgartirish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun pedagogik imkoniyat yaratadi.

Nazariy tahlil natijasida PBLning muammoni aniqlash, mustaqil izlanish, guruhiy muhokama, muqobil yechim ishlab chiqish, yechimni asoslash va refleksiya bosqichlari kognitiv moslashuvchanlikning kognitiv-faoliyat, strategik-muqobil va refleksiv komponentlari bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi.

Kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish uchun PBL mashg‘ulotlarida ochiq xarakterdagi muammoli topshiriqlardan foydalanish, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash, bir nechta yechim ishlab chiqish, dalillar asosida qarorlarni qayta ko‘rib chiqish va refleksiv faoliyatni yo‘lga qo‘yish muhim pedagogik shartlar sifatida belgilandi.

Tadqiqot asosida taklif etilgan “muammoli vaziyat → izlanish → muhokama → muqobil yechim → asoslash → refleksiya → yangi strategiya” modeli oliy ta’limda talabalarning kognitiv moslashuvchanligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni loyihalash uchun metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu modelni muayyan ta’lim yo‘nalishlarida tajriba-sinovdan o‘tkazish, kognitiv moslashuvchanlikning mezon va indikatorlarini ishlab chiqish hamda PBLning turli shakllari samaradorligini qiyosiy o‘rganish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Martin M. M., Rubin R. B. A New Measure of Cognitive Flexibility // Psychological Reports. 1995. Vol. 76, No. 2. P. 623–626.
2. Dochy F., Segers M., Van den Bossche P., Gijbels D. Effects of Problem-Based Learning: A Meta-Analysis // Learning and Instruction. 2003. Vol. 13, No. 5. P. 533–568. DOI: 10.1016/S0959-4752(02)00025-7.
3. Yucel Ö., Karahoca D., Karahoca A. The Effects of Problem Based Learning on Cognitive Flexibility, Self-Regulation Skills and Students’ Achievements // Global Journal of Information Technology. 2016. Vol. 6, No. 1. P. 86–93. DOI: 10.18844/gjit.v6i1.394.
4. Alper A., Deryakulu D. The Effect of Cognitive Flexibility on Students’ Achievement and Attitudes in Web Mediated Problem Based Learning // Education and Science. 2008. Vol. 33, No. 148. P. 49–63.

5. Liu Y., Pásztor A. Effects of Problem-Based Learning Instructional Intervention on Critical Thinking in Higher Education: A Meta-Analysis // Thinking Skills and Creativity. 2022. Vol. 45. Article 101069. DOI: 10.1016/j.tsc.2022.101069.

6. Barrows H. S. Problem-Based Learning in Medicine and Beyond: A Brief Overview // New Directions for Teaching and Learning. 1996. No. 68. P. 3–12.

7. Hmelo-Silver C. E. Problem-Based Learning: What and How Do Students Learn? // Educational Psychology Review. 2004. Vol. 16. P. 235–266.

8. Gijbels D., Dochy F., Van den Bossche P., Segers M. Effects of Problem-Based Learning: A Meta-Analysis from the Angle of Assessment // Review of Educational Research. 2005. Vol. 75, No. 1. P. 27–61.

9. Demirel M., Dağyar M. Effects of Problem-Based Learning on Attitude: A Meta-Analysis Study // Eurasia Journal of Mathematics, Science and Technology Education. 2016. Vol. 12, No. 8. P. 2115–2137.

10. Duch B. J., Groh S. E., Allen D. E. The Power of Problem-Based Learning: A Practical "How To" for Teaching Undergraduate Courses in Any Discipline. Sterling: Stylus Publishing, 2001.

UDC:175.3-00895

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING JISMONIY VA AQLIY FAOLLIGINI JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
E-mail: sabinaabdujabborova@icloud.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy va aqliy faolligini rivojlantirishda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning harakat faolligi, diqqat, tezkor fikrlash, xotira, topshiriqlarni mustaqil bajarish va jamoada ishlash ko'nikmalarini o'zaro bog'liq holda rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Jismoniy mashqlarni didaktik topshiriqlar, harakatli o'yinlar, musobaqa elementlari va muammoli vaziyatlar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda individual yondashuv, yosh xususiyatlarini hisobga olish, muntazamlik va bosqichma-bosqichlik tamoyillarining ahamiyati asoslangan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, jismoniy tarbiya, jismoniy faollik, aqliy faollik, harakatli o'yinlar, pedagogik metod, o'quvchi, ta'lim samaradorligi.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ И УМСТВЕННОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ ЗАНЯТИЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ

Аннотация: *В данной статье анализируются педагогические возможности занятий физической культурой в развитии физической и умственной активности учащихся начальных классов. Особое внимание уделено взаимосвязанному развитию двигательной активности, внимания, быстроты мышления, памяти, навыков самостоятельного выполнения заданий и работы в команде учащихся в процессе начального образования. Раскрыты возможности повышения активности учащихся на уроке посредством сочетания физических упражнений с дидактическими заданиями, подвижными играми, элементами соревнования и проблемными ситуациями. Также обоснована значимость индивидуального подхода, учёта возрастных особенностей, принципов регулярности и поэтапности при организации занятий физической культурой.*

Ключевые слова: *начальное образование, физическая культура, физическая активность, умственная активность, подвижные игры, педагогический метод, учащийся, эффективность обучения.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE PHYSICAL AND MENTAL ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH PHYSICAL EDUCATION CLASSES

Abstract: *This article analyzes the pedagogical potential of physical education classes in developing the physical and mental activity of primary school students. Attention is focused on the interrelated development of students' motor activity, attention, quick thinking, memory, independent task performance, and teamwork skills in the primary education process. The article highlights ways to increase student engagement in lessons by combining physical exercises with didactic tasks, active games, competitive elements, and problem-based situations. It also substantiates the importance of an individual approach, consideration of age-related characteristics, and the principles of regularity and gradual progression in organizing physical education classes.*

Keywords: *primary education, physical education, physical activity, mental activity, active games, pedagogical method, student, educational effectiveness.*

KIRISH

Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchining faqat nazariy bilimlarni egallashi emas, balki uning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning keyingi rivojlanishi uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi. Mazkur davrda o'quvchilarda muntazam harakat qilish, sog'lom turmush tarziga amal qilish, diqqatni jamlash, tezkor fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish kabi sifatlarni shakllantirish ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning harakat faolligini ta'minlash bilan birga, ularning bilish jarayonlarini ham qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega. Harakatli o'yinlar, estafetalar, koordinatsion mashqlar, tezkor topshiriqlar va jamoaviy mashg'ulotlar o'quvchilardan diqqat, xotira, tezkor fikrlash va topshiriqni anglashni talab qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini faqat jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi mashg'ulot sifatida emas, balki o'quvchining aqliy faolligini ham qo'llab-quvvatlovchi pedagogik jarayon sifatida tashkil etish dolzarb hisoblanadi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy va aqliy faolligini jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari orqali rivojlantirishning samarali pedagogik va metodik yondashuvlarini aniqlash hamda ularni ta’lim jarayonida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, pedagogik modellashtirish va suhbat metodlaridan foydalanish mumkin.

Mazkur metodlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy va aqliy faolligini rivojlantirish bilan bog‘liq pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, mavjud metodik yondashuvlarni tahlil qilish va samarali mashg‘ulot modelini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy faolligi ularning organizmining tabiiy rivojlanishi, harakat ko‘nikmalarining shakllanishi va sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ehtiyojining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Aqliy faollik esa o‘quvchining bilish jarayonlarida faol ishtirok etishi, topshiriqlarni anglash va bajarishi, savollarga javob topishi, muammoni hal qilishi hamda mustaqil fikrlashi orqali namoyon bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida ushbu ikki yo‘nalishni uyg‘unlashtirish o‘quvchilar uchun tabiiy va qiziqarli ta’limiy muhitni yaratadi. Masalan, oddiy yugurish mashqini bajarish bilan birga rang, raqam yoki yo‘nalishni tezkor aniqlash topshirig‘ining berilishi o‘quvchidan bir vaqtning o‘zida harakat va fikrlash faoliyatini talab qiladi.

Harakatli o‘yinlardan foydalanish

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun harakatli o‘yinlar jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining eng samarali vositalaridan biri bo‘lishi mumkin. Harakatli o‘yinlar orqali yugurish, sakrash, uloqtirish, muvozanatni saqlash kabi jismoniy ko‘nikmalar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bilan bir qatorda diqqat, xotira va tezkor fikrlashni ham rivojlantirish mumkin. Masalan, "Rangni top" o'yinida o'qituvchi ma'lum rangni aytadi va o'quvchilar belgilangan joyga harakatlanadilar. O'yinga qo'shimcha ravishda rangga tegishli predmetni topish yoki shu rang bilan bog'liq topshiriqni bajarish sharti kiritilishi mumkin.

"Raqamli estafeta"da esa o'quvchilar belgilangan masofani bosib o'tib, berilgan matematik topshiriqning javobiga mos raqamni tanlaydilar. Bunday mashg'ulotlar jismoniy harakat bilan aqliy faoliyatni uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Pedagogik shart-sharoitlar

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy va aqliy faolligini rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadga muvofiq:

1. O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish. Mashqlar murakkabligi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi va psixologik imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak.

2. Jismoniy va aqliy topshiriqlarni uyg'unlashtirish. Harakat mashqlariga oddiy mantiqiy, matematik, xotira va diqqat topshiriqlarini kiritish mumkin.

3. Harakatli o'yinlardan tizimli foydalanish. O'yinlar faqat hordiq chiqarish vositasi emas, balki aniq pedagogik maqsadga yo'naltirilgan metod sifatida tashkil etilishi lozim.

4. Musobaqa elementlaridan foydalanish. Guruhlar o'rtasidagi sog'lom raqobat o'quvchilarning mashg'ulotga qiziqishini oshirishi mumkin.

5. Rag'batlantirish va ijobiy baholash. O'quvchining faqat yakuniy natijasi emas, balki harakat qilishi, topshiriqni bajarishga intilishi va jamoada faol ishtirok etishi ham baholanishi kerak.

6. Muntazamlik va bosqichma-bosqichlik. Mashg'ulotlar izchil tashkil etilib, topshiriqlar murakkabligi asta-sekin oshirib borilishi maqsadga muvofiq.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotining namunaviy tuzilishi

Jismoniy va aqliy faollikni uyg'unlashtiruvchi mashg'ulotni uch bosqichda tashkil etish mumkin.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tayyorlov bosqichi. Yengil yurish, yugurish, umumrivojlantiruvchi mashqlar va diqqatni jamlashga qaratilgan qisqa topshiriqlar bajariladi.

Asosiy bosqich. Harakatli o‘yinlar, estafetalar, koordinatsion mashqlar va aqliy topshiriqlar uyg‘unlashtiriladi. Ushbu bosqichda o‘quvchilarning jismoniy faolligi bilan bir qatorda tezkor fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilishi rag‘batlantiriladi.

Yakuniy bosqich. Nafasni tiklash mashqlari, yengil harakatlar va qisqa refleksiv suhbat o‘tkaziladi. O‘quvchilardan mashg‘ulot davomida nimalarni bajargani va qaysi topshiriqlar qiziqarli bo‘lganini aytish so‘raladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini mazmunan boyitish, harakatli o‘yinlar va aqliy topshiriqlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mashg‘ulotdagi ishtirokini faollashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining jismoniy yuklamasini haddan tashqari oshirishga emas, balki harakat va fikrlash faoliyatining tabiiy uyg‘unligiga qaratilishi lozim. Mashg‘ulotlarda topshiriqlarning qisqa, tushunarli va yoshga mos bo‘lishi o‘quvchilarning qiziqishini saqlab qolishga yordam beradi.

Shuningdek, jismoniy tarbiya darslarini boshqa fanlar bilan integratsiyalash imkoniyati ham mavjud. Matematika, ona tili, tabiiy fanlar va musiqa elementlarini jismoniy mashqlar bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning fanlararo bilimlarini mustahkamlash mumkin.

XULOSA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy va aqliy faolligini rivojlantirish kompleks pedagogik yondashuvni talab etadi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari mazmunini harakatli o‘yinlar, estafetalar, koordinatsion mashqlar va aqliy topshiriqlar bilan boyitish o‘quvchilarning mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun muhim metodik imkoniyat yaratadi.

Tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

• jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida jismoniy va aqliy topshiriqlarni uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq;

• boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va individual xususiyatlari hisobga olinishi zarur;

• harakatli o‘yinlar pedagogik maqsad asosida tanlanishi va tashkil etilishi kerak;

• o‘quvchilarni rag‘batlantirish ularning mashg‘ulotdagi faolligini qo‘llab-quvvatlaydi;

• jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini boshqa fanlar bilan integratsiyalash o‘quvchilarning bilish faolligini rivojlantirish uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini faqat jismoniy sifatlarni rivojlantirishga emas, balki o‘quvchilarning aqliy va ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlashga ham yo‘naltirish zamonaviy pedagogik jarayonning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. Pedagogika: oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent.
4. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar.
5. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi bo‘yicha ilmiy-metodik adabiyotlar.
6. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha zamonaviy ilmiy tadqiqotlar.

XORIJIY PEDAGOGIK TADQIQOTLARDA TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH TAJRIBALARI: XITOY, KOREYA VA YAPONIYA MISOLIDA

Turabova Muxlisa Akbar qizi
"Vatan" Universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi,
psixologiya ta'lim yo'nalishi 4- kurs talabasi
E-mail: turabova_1996@mail.ru
Eshonjonov Bobir Zafarjonovich
"Vatan" Universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)
E-mail: bobireshonjonov2@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-0471-732X

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xitoy, Koreya va Yaponiya kabi Sharqiy Osiyo mamlakatlarida tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha xorijiy pedagogik tadqiqotlar tahlil qilingan. Maqolada ushbu davlatlarning ta'lim tizimidagi axloqiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni o'quvchilarga singdirish metodikalari ko'rib chiqilib, ularning o'ziga xos yondashuvlari va samarali tajribalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, pedagogik tajriba, Xitoy, Koreya, Yaponiya, axloqiy tarbiya, ta'lim tizimi, xalqaro tajriba*

ПРАКТИКИ ОРГАНИЗАЦИИ ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ЗАРУБЕЖНЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ: НА ПРИМЕРЕ КИТАЯ, КОРЕИ И ЯПОНИИ

Турабова Мухлиса Акбар кизи
Кафедра социальных наук, Университет «Ватан»,
студентка 4-го курса (специальность «Психология»)
E-mail: turabova_1996@mail.ru
Эшонжонов Бобир Зафаржонович
старший преподаватель кафедры социальных наук Университета «Vatan» доктор философии (PhD) по педагогическим наукам
E-mail: bobireshonjonov2@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-0471-732X

Аннотация. *В данной статье проанализированы зарубежные педагогические исследования, посвящённые организации процесса воспитания в странах Восточной Азии, таких как Китай,*

Корея и Япония. Рассматриваются методы внедрения моральных, социальных и культурных ценностей в образовательные системы этих стран.

Ключевые слова: *воспитание, педагогический опыт, Китай, Корея, Япония, моральное воспитание, система образования, международный опыт.*

PRACTICES OF ORGANIZING THE UPBRINGING PROCESS IN FOREIGN PEDAGOGICAL RESEARCH: THE EXAMPLES OF CHINA, KOREA, AND JAPAN

Turabova Muxlisa Akbar qizi
Department of Social Sciences, "Vatan" University,
4rd-year student majoring in Psychology
E-mail: turabova_1996@mail.ru
Eshonjonov Bobir Zafarjonovich
Senior Lecturer, Department of Social Sciences, "Vatan" University
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
E-mail: bobireshonjonov2@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-0471-732X

Annotation. *This article analyzes foreign pedagogical research on the organization of the educational and upbringing process in East Asian countries such as China, Korea, and Japan. It examines the methods used to instill moral, social, and cultural values in students within these countries' education systems.*

Keywords: *upbringing, pedagogical experience, China, Korea, Japan, moral education, education system, international practice*

KİRİSH

Tarbiya jarayoni inson shaxsining shakllanishida, uning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va madaniy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Bu jarayon nafaqat individual darajada, balki butun jamiyat uchun ham ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan institut hisoblanadi. Tarbiya orqali jamiyat o'zining qadriyatlarini, an'analarini va axloqiy me'yorlarini avloddan-avlodga yetkazib, kelajak uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shuning uchun ham har bir davlat uchun tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishi, uning mazmun-mohiyatini takomillashtirish, yosh avlodning ma'naviy barkamolligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati globalizatsiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi davrida, ta'lim va tarbiya tizimlari yangi chaqiriqlar va o'zgarishlarga duch kelmoqda.

ADABİYOTLAR TAHLİLİ VA METODOLOGIYA

An'anaviy pedagogik yondashuvlar yangi innovatsiyalar, zamonaviy metodologiyalar va axborot texnologiyalari bilan boyitilib, yanada samaraliroq va kompleks shaklga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, Sharqiy Osiyo mamlakatlari - Xitoy, Janubiy Koreya va Yaponiya - ta'lim va tarbiya sohasida o'ziga xos tarixiy va madaniy meros, qattiq ijtimoiy intizom hamda innovatsion texnologiyalarni uyg'unlashtirgan holda global miqyosda yuqori natijalarga erishmoqda. Bu mamlakatlarda tarbiya nafaqat o'quv jarayoni bilan cheklanmay, balki yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamoloti, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli kompleks yondashuv sifatida olib boriladi. Xitoyda tarbiya tizimi asosan konfutsiylik falsafasiga tayangan bo'lib, unda oila va jamiyat qadriyatlari, insoniy hurmat, odob-axloq va intizomga katta e'tibor qaratiladi. Tarbiya jarayoni maktabdan tashqari, oilada ham chuqur va tizimli ravishda olib boriladi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda Xitoy ta'lim tizimi raqamli texnologiyalar va yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish orqali o'quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga intilmoqda. Janubiy Koreyada esa ta'lim jarayoni zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt va innovatsion darsliklar yordamida yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Koreya hukumati raqamli ta'lim tizimini rivojlantirishga katta mablag' ajratib, yoshlarni kreativ fikrlash, muammolarni hal etish va ijodiy yondashuv ko'nikmalari bilan ta'minlashga intilmoqda [1]. Shu bilan birga, texnologiyalarning ijtimoiy ta'siri va sog'liqka salbiy ta'sirlarini kamaytirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda. Yaponiya ta'lim tizimi esa o'zining milliy dasturiga qat'iy rioya qilgan holda, har bir hududning madaniy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiya jarayonini amalga oshiradi. Hirosima, Nagasaki va Okinava kabi shaharlarning maktablarida tinchlik, inson huquqlari va milliy



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tarix mavzulariga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, o'quvchilarda axloqiy me'yorlar, jamoadagi o'zaro hurmat va o'zini boshqarish ko'nikmalari mustahkamlanadi. Ingliz tilini o'qitishdagi muammolarni hal qilish uchun yangi metodologiyalarni joriy etish ustida ish olib borilmoqda.

Xitoy ta'lim tizimi uzoq tarixiy ildizlarga ega bo'lib, uning shakllanishida **Konfutsiylik falsafasi** muhim rol o'ynagan. Ushbu qadimiy axloqiy-ta'limiy tizimda bilim olish - insoniy kamolotga erishish yo'lida zaruriy vosita sifatida qaralgan. An'anaviy Xitoy ta'lim modeli intizom, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat, jamiyatga sadoqat kabi qadriyatlarga tayanadi. Davlat boshqaruvi doirasida markazlashtirilgan ta'lim siyosati esa bu tizimni samarali nazorat qilish va umumiy standartlar asosida boshqarishni ta'minlab keldi. Ammo XXI asrning boshlaridan boshlab raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, global raqobatning kuchayishi va jamiyat ehtiyojlarining murakkablashuvi natijasida Xitoy hukumati ta'lim tizimiga tub o'zgarishlar kiritishga ehtiyoj sezdi. Shu bois, ta'lim faqat akademik bilim emas, balki insonni har tomonlama shakllantirish vositasi sifatida qayta talqin qilina boshlandi. Bu jarayon **"Buyuk Pedagogika" (Great Education)** deb nomlangan strategik konsepsiya asosida amalga oshirilmoqda [2]. "Buyuk Pedagogika" yondashuvi: Mohiyat, falsafa va metodologik asoslar"Buyuk Pedagogika" - bu Xitoy ta'lim tizimining yangi paradigmasidir. Bu yondashuvda ta'lim faqat maktab yoki oliy ta'lim muassasalari bilan cheklanmaydi, balki **inson hayotining barcha davrlarida va kontekstlarida ro'y beradigan kompleks ijtimoiy-madaniy jarayon** sifatida tushuniladi. Bu yondashuv quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi: **Ta'limning hayot bilan uzviy bog'liqligi**Ushbu tamoyilga ko'ra, o'quvchi faqat maktabda emas, balki oilada, jamiyatda, mehnat jarayonida va shaxsiy tajribalar orqali ham o'rganadi. "Hayot davomida o'rganish" (lifelong learning) falsafasi ta'limni doimiy rivojlanish yo'li sifatida ko'radi. Bu esa Xitoyda **formal, informal va noformal ta'lim shakllari** o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirishni taqozo qiladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Yangi modelga ko‘ra, ta’lim jarayoni nafaqat akademik bilim va malaka berishga, balki: Ma’naviy-axloqiy tarbiya, Emosional intellekt, Estetik madaniyat, Jismoniy salomatlik, Ijtimoiy moslashuvchanlik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Bu esa shaxsni har tomonlama barkamol yetishtirish imkonini beradi. Ta’lim tizimi endilikda faqat bilim berishga emas, balki jamiyatning dinamik ehtiyojlariga javob berishga yo‘naltirilgan. Yoshlar nafaqat raqobatbardosh mutaxassis, balki ijtimoiy mas’uliyatli fuqaro sifatida ham tarbiyalanadi. Shu bois, fuqarolik ta’limi, axborot madaniyati, ijtimoiy muvozanat, ekologik ong singari mavzular o‘quv dasturlariga faol kiritilmoqda. Raqamli transformatsiya ta’lim tizimini chuqur o‘zgartirmoqda. Xitoyda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data), raqamli baholash tizimlari, moslashuvchan onlayn platformalar orqali o‘quvchilarga individual yondashuv joriy etilmoqda.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Yaponiya ta’lim tizimi o‘quvchilarning **intellektual rivojlanishini ustuvor maqsad** qilib olgan. Ta’limda matematika, fan va texnologiya kabi sohalar yuqori darajada o‘rgatiladi, bu esa Yaponiyaning texnologik va iqtisodiy muvaffaqiyatlarini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Maktablarda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish, jamoaviy ish va ijtimoiy mas’uliyat kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga ham katta ahamiyat beriladi. Yapon pedagogik metodlarida **“Kodomo no tame ni” (bolalar uchun)** printsipi asosida tarbiya jarayoni tashkil etiladi, bu esa bolalarning nafaqat bilim olishlari, balki ular uchun ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni singdirish muhim ekanligini ko‘rsatadi [6]. Til o‘rganish metodologiyasining tanqidiShu bilan birga, Yaponiya ta’lim tizimida ingliz tili o‘qitish metodologiyasi bo‘yicha tanqidlar ham mavjud. Ko‘plab mutaxassislar va xalqaro baholovchilar Yaponiya o‘quvchilarining ingliz tilini amaliy qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelayotganini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, ta’lim jarayonida kommunikativ yondashuv, interaktiv mashg‘ulotlar va real muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlari yetarli darajada rivojlanmagan. Bundan tashqari, Yaponiyada ko‘plab maktablarda ingliz tili faqat grammatik qoidalar va imlo asosida

o‘rgatiladi, bu esa o‘quvchilarning so‘zlashuv va tinglab tushunish ko‘nikmalarini sust rivojlanishiga sabab bo‘ladi. So‘nggi yillarda hukumat ingliz tilini o‘qitishni takomillashtirish va yosh yoshdagilarga tilni yanada interfaol tarzda o‘rgatish uchun yangi metodologiyalarni joriy etishga harakat qilmoqda. Yaponiyada ta’lim jarayonida nafaqat bilim, balki axloqiy va ijtimoiy tarbiya ham markaziy o‘rin tutadi. O‘quvchilarni mehnatsevarlik, hurmat, jamoaviy hamkorlik va o‘zini boshqarish kabi qadriyatlar asosida tarbiyalashga alohida e’tibor beriladi. Bu tarbiya tizimi maktab ichida tartib-intizomni saqlash, jamoa ruhini mustahkamlash va yoshlarning ijtimoiy javobgarliklarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Janubiy Koreya ta’lim tizimi dunyoda eng raqobatbardosh va yuqori sifatli tizimlardan biri sifatida tanilgan. O‘quvchilarning a’lochi natijalarga erishishi uchun mamlakat doimiy ravishda ta’limni modernizatsiya qilish va innovatsiyalarni joriy etishga katta e’tibor qaratadi. Shu jumladan, 2009 yildan boshlab **innovatsion maktablar** tizimi yaratilgan bo‘lib, u o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.Innovatsion maktablar tizimiInnovatsion maktablar ta’lim jarayonini an’anaviy metodlardan farqli o‘laroq, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Ushbu maktablarda darslar interfaol o‘tkaziladi, loyihalar asosida ta’lim beriladi va o‘quvchilar o‘z qiziqishlariga muvofiq turli fanlarga chuqurroq kirish imkoniga ega bo‘ladi. Bu yondashuv Koreya ta’lim tizimining qattiq raqobat muhitida ham ijodiy va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. AI asosidagi raqamli darsliklarning joriy etilishi (2025 yildan boshlab)Koreya hukumati 2025 yildan boshlab 8 yoshdan boshlab o‘quvchilarga **sun’iy intellekt (AI) asosida ishlovchi raqamli darsliklar**ni joriy etishni rejalashtirmoqda [3]. Bu darsliklar o‘quvchilarning bilim darajasiga mos ravishda individual tarzda moslashtirilgan topshiriqlarni taqdim etadi va o‘quv jarayonini optimallashtirishga qaratilgan.AI darsliklarining afzalliklari quyidagilardan iborat:Har

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bir o‘quvchining o‘ziga xos o‘rganish uslubini aniqlash va unga mos ta’lim materiallarini taqdim etish;Darslarni yanada interfaol va qiziqarli qilish, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish;O‘qituvchilarga o‘quvchilarning zaif tomonlarini aniqlashda yordam berish va shunga ko‘ra qo‘shimcha resurslar ajratish imkonini yaratish.Salbiy fikrlar va xavotirlarBiroq, bu innovatsion tashabbusga ota-onalar va ba’zi akademik doiralar tomonidan tanqidi munosabat bildirildi. Ularning asosiy xavotirlari quyidagilardan iborat [4]: **Raqamli qurilmalarga haddan tashqari bog‘lanish:** Ota-onalar bolalarning smartfon, planshet va kompyuter kabi qurilmalarga juda ko‘p vaqt sarflashidan, bu esa ko‘z sog‘lig‘iga, uyqu tartibiga va ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishidan xavotirda. **Ijtimoiy izolyatsiya:** Raqamli o‘quv jarayoni bolalarni an’anaviy maktab muhiti va sinfdoshlari bilan muloqot qilish imkoniyatidan mahrum qilishi mumkinligi haqida qayg‘u bor. **Texnologiyalarga haddan tashqari bog‘liqlik:** Ba’zi mutaxassislar texnologiyaga ko‘p tayanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini cheklab qo‘yishi mumkinligidan ogohlantirmoqda.Shuningdek, ba’zi akademiklar ta’lim jarayonidagi sun’iy intellekt vositalarining pedagogik samaradorligi va ularning etik tomonlari haqida ham savollar qo‘yishmoqda.

Koreya hukumati bu xavotirlarni inobatga olib, raqamli ta’limni bosqichma-bosqich joriy etishni va ota-onalar, o‘qituvchilar hamda o‘quvchilar uchun maxsus treninglar tashkil etishni rejalashtirmoqda. Bundan tashqari, texnologiyalardan foydalanish uchun aniq vaqt cheklovlari va sog‘lom foydalanish qoidalari ishlab chiqilmoqda. Yaponiya: Maktablararo Farqlar va TarbiyaYaponiya ta’lim tizimi dunyoda o‘zining qat’iy va bir xilda bajariladigan milliy o‘quv dasturi bilan mashhur. Barcha maktablarda yagona milliy o‘quv rejasi amal qiladi, bu esa o‘quvchilarga bir xil sifat va darajada bilim berishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, mamlakatning turli hududlarida, ayniqsa tarixiy voqealarga alohida e’tibor berilgan joylarda – masalan, Hiroshima, Nagasaki va Okinava shaharlarida – ta’lim jarayonida o‘ziga xos farqlar kuzatiladi [5]. Hiroshima va Nagasaki shaharlarida maktablar o‘quv dasturiga II Jahon urushi va atom bombasi haqida chuqur

va maxsus darslar**ni qo**'shadi. Bu o'quvchilarni tinchlik, inson huquqlari va urushning halokatli oqibatlari haqida xabardor qilishga qaratilgan. Ushbu hududlarda ta'lim jarayonida tarbiyaviy elementlar kuchliroq aks ettiriladi, bu esa yosh avlodni ijtimoiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi. Okinava hududida esa mahalliy tarix va madaniyatni o'rgatishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Okinava mintaqasining o'ziga xos an'analari va tarixiy voqealari, xususan, Ikkinchi jahon urushidagi tajribalar, maktab dasturining muhim qismi hisoblanadi. Bu esa o'quvchilarning milliy va mahalliy madaniyatga nisbatan chuqurroq tushuncha hosil qilishiga yordam beradi.

XULOSA

Xitoy, Koreya va Yaponiya ta'lim tizimlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, har biri o'z jamiyatining ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanmoqda. Xitoy "Buyuk Pedagogika" konsepsiyasi orqali ta'limni kengaytirishga intilsa, Koreya innovatsion maktablar va AI texnologiyalarini joriy etishga harakat qilmoqda. Yaponiya esa maktablararo farqlarni hisobga olib, tarbiya jarayonini takomillashtirishga e'tibor bermoqda. Ushbu mamlakatlarning tajribalari, o'zbek ta'lim tizimini rivojlantirishda foydali bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Eshonjonov B.Z "Globallashuv sharoitida talaba-yoshlarning intellektual migratsiyadagi o'rni" "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali – 2026-y 1-may. Elektron nashr. B: 526-529 https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/7062
2. Eshonjonov B.Z "Ota-onasi migratsiyasida bo'lgan o'quvchilarda shaxsiy qadriyatlarni shakllantirishda ta'lim muassasasining o'rni" Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2026-yil 7-son A-seriya B: 1131-1136 https://journals-kokandsu.uz/index.php/kspi/issue/archive
3. Kim, J. H., & Lee, S. Y. (2020). *Innovative Schools and AI-Based Education in South Korea*. Seoul: Korean Institute of Educational Development.
4. MEXT (Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology, Japan). (2023). *Moral and Peace Education in Japanese Schools: A Regional Approach*. Tokyo: MEXT Publications.
5. UNESCO. (2022). *Education Transformation in East Asia: Traditions and Innovations*. Paris: UNESCO Publishing. https://unesdoc.unesco.org
6. Ходжаева, У. У. (2020). *Тарбия тизимида миллий ва умуминсоний қадриятлар*. Тошкент: Фан ва технологиялар нашриёти.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

7. OECD (2021). *Education at a Glance: Comparative Indicators for China, Japan, Korea*. Paris: OECD Publishing.

8. Хамидова, Н. Р. (2019). Sharqiy Osiyo mamlakatlari ta'lim tizimidagi axloqiy tarbiya tamoyillari. *Pedagogika va psixologiya*, №4, 65–71.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

OLIY TA'LIMDA SIFAT NAZORATI TIZIMINING AMALIY SAMARADORLIGI

Iroda Turaeva
Ilmiy daraja va unvon: *Magistr*
ORCID: 0009-0002-8850-7457
E-mail: *Meghzebina@mail.ru*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini ta'minlash va nazorat qilish mexanizmlarining amaliy samaradorligi tahlil qilinadi. Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi hamda oliy ta'lim muassasalaridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlarining vazifalari, talabalarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi va sifat monitoringining amaliy jihatlari o'rganiladi. Shuningdek, ta'lim sifatini nazorat qilishning hujjatbozlikka asoslangan yondashuvdan amaliy natijalarga yo'naltirilgan modeliga o'tish zarurati asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida talabalar, professor-o'qituvchilar va sifat bo'limlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim sifati, sifat nazorati, oliy ta'lim, talabalar murojaatlari, Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi, ichki sifat nazorati, sifat madaniyati, akademik halollik.*

ПРАКТИЧЕСКИ ЭФФЕКТИВНАЯ СИСТЕМА КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация*: В данной статье анализируется практическая эффективность механизмов обеспечения и контроля качества образования в системе высшего образования Узбекистана. Рассматриваются задачи Национального агентства по обеспечению качества и отделов контроля качества образования в высших учебных заведениях, порядок рассмотрения апелляций студентов, а также практические аспекты мониторинга качества. Обосновывается необходимость перехода от документального подхода к практической, ориентированной на результат модели контроля качества образования. По результатам исследования разработаны предложения по укреплению сотрудничества между студентами, преподавательским составом и отделами качества.*

Ключевые слова*: качество образования, контроль качества, высшее образование, апелляции студентов, Национальное агентство по обеспечению качества, внутренний контроль качества, культура качества, академическая честность.*

THE PRACTICAL EFFECTIVENESS OF THE QUALITY CONTROL SYSTEM IN HIGHER EDUCATION

Abstract: *This article analyzes the practical effectiveness of mechanisms for ensuring and controlling educational quality within Uzbekistan's higher education system. It examines the functions of the National Agency for Quality Assurance in Education and the quality control departments within*

Dissertatsiyada «Smart Immunity» modeli talabalarda yuqumli kasalliklar bo‘yicha profilaktik immun madaniyatni shakllantirishga qaratilgan to‘rtta fundamental blok asosida ishlab chiqilgan: analitik-diagnostik blok, raqamli ta’lim-o‘quv bloki, raqamli monitoring-baholash bloki hamda profilaktik faoliyat va sog‘lom turmush amaliyotlari bloki.

Model bloki	Asosiy vazifa	Asosiy vositalar	Kutiladigan pedagogik natija
1. Analitik-diagnostik	Boshlang‘ich darajani aniqlash, individual ehtiyojlarni belgilash	test, anketa, diagnostik topshiriq, AI-tahlil	immun savodxonlik va xavf zonalarini aniqlash

2. Raqamli ta'lim-o'quv	Bilim va ko'nikmalarni faol raqamli muhitda shakllantirish	QR-kod, mobil ilova, AR/VR, video, virtual keys	kognitiv, amaliy va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish
3. Raqamli monitoring-baholash	O'quv dinamikasini kuzatish va qayta aloqa berish	elektron test, Learning Analytics, e-portfolio	individual ta'lim yo'nalishini tuzatish
4. Profilaktik faoliyat va sog'lom turmush	O'rganilgan bilimni profilaktik xulq-atvorga o'tkazish	simulyatsiya, klinik stsenariy, refleksiya, kommunikativ topshiriq	mas'uliyatli profilaktik qaror va barqaror xulq-atvor

Birinchi blok modelning kirish nuqtasidir. Uning vazifasi talabaning mavjud bilim va ko'nikmalarini aniqlash bilan cheklanmaydi. Diagnostika natijasida qaysi mavzular, qaysi kompetensiyalar yoki qaysi amaliy vaziyatlarda qo'shimcha pedagogik yordam zarurligi aniqlanadi. Dissertatsiyada «immun savodxonlik profili» va individual e'tibor zonalarini belgilash g'oyasi aynan shu funksiyaga asoslangan.

Ikkinchi blokda diagnostik ma'lumotlar o'quv faoliyatiga aylantiriladi. Masalan, vaksinatsiya mavzusida talaba QR-kod orqali elektron modulga kirishi, AR/VR yordamida immun javob jarayonini kuzatishi, klinik keysda vaksina bo'yicha qaror qabul qilishi va elektron test orqali o'zlashtirishini tekshirishi mumkin. Bu yerda texnologiyalar alohida-alohida emas, balki yagona didaktik ssenariy sifatida ishlatiladi.

Uchinchi blokning asosiy xususiyati — baholashning yakuniy emas, uzluksiz xarakteridir. Elektron test, amaliy topshiriq, klinik vaziyatdagi javob va refleksiv faoliyatdan olingan ma'lumotlar keyingi o'quv faoliyatini rejalashtirish uchun ishlatiladi. Shu sababli monitoring «nazorat qilish» bilan chegaralanmay, ta'limni boshqarish vositasiga aylanadi.

To‘rtinchi blok modelning amaliy yo‘nalishini ifodalaydi. Talaba profilaktik bilimni real kasbiy faoliyatga yaqin stsenariyda qo‘llaydi: epidemiologik xavfni baholaydi, profilaktik choralarni ketma-ketlashtiradi, bemor yoki ota-onaga ilmiy dalillar asosida tushuntirish beradi va o‘z qarorini refleksiya qiladi. Natijada modelning asosiy sikli «diagnostika → individual o‘qitish → monitoring → amaliy qo‘llash → refleksiya → qayta diagnostika» ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR

Dissertatsiya materiallari asosida «Smart Immunity» modelini samarali amalga oshirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar ajratiladi:

- profilaktik mazmunning «Yuqumli kasalliklar» fanining klinik va epidemiologik mazmuni bilan integratsiyasi;
- raqamli vositalarning aniq didaktik maqsadga muvofiq tanlanishi;
- talabaning faol subyekt sifatidagi ishtirokini ta’minlash;
- muammoli va klinik vaziyatlar orqali profilaktik fikrlashni rivojlantirish;
- diagnostik va yakuniy baholash o‘rtasida uzviylikni ta’minlash;
- individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish uchun raqamli monitoringdan foydalanish;
- o‘qituvchining raqamli pedagogik kompetensiyasi va metodik rahbarligini saqlab qolish;
- raqamli kontentning ilmiy ishonchliligi, akademik halollik va ma’lumotlar xavfsizligiga rioya qilish.

TAJRIBA-SINOV NATIJALARI VA ULARNING MODELDAGI O‘RNI

Dissertatsiyada keltirilgan yakuniy natijalar «Smart Immunity» modelining tajriba-sinov sharoitida qo‘llangan metodikasi bilan bog‘liq o‘zgarishlarni baholash imkonini beradi. Uch o‘quv yili bo‘yicha jami 229 nafar tajriba guruhi talabasidan 55 nafari I-darajali, 139 nafari II-darajali, 33 nafari III-darajali va 2 nafari IV-darajali natijani

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ko‘rsatgan. Nazorat guruhidagi 230 talabadan mos ravishda 30, 79, 94 va 27 nafar talaba ushbu darajalarga taqsimlangan.

Foizlarda tajriba guruhida I-daraja 24%, II-daraja 61%, III-daraja 14% va IV-daraja 1% ni tashkil etgan. Nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 13%, 34%, 41% va 12% bo‘lgan. Bu natijalar tajriba guruhida yuqori va o‘rta darajadagi natijalar ulushi yuqoriroq, quyi darajalar ulushi esa pastroq bo‘lganini ko‘rsatadi.

Yakuniy o‘zlashtirishning o‘rtacha qiymati 2022–2023 o‘quv yilida tajriba guruhida 4,06, nazorat guruhida 3,51; 2023–2024 yilda mos ravishda 4,13 va 3,54; 2024–2025 yilda 4,16 va 3,53 bo‘lgan. Uch bosqich bo‘yicha umumlashtirilgan ko‘rsatkich tajriba guruhida 4,16, nazorat guruhida 3,53 sifatida keltirilgan.

Dissertatsiyada statistik tahlil asosida tajriba va nazorat guruhlari natijalari o‘rtasidagi farq birinchi bosqichda 16%, ikkinchi bosqichda 17%, uchinchi bosqichda 18%, o‘rtacha 17% samaradorlik bilan ifodalangan. Mazkur ko‘rsatkich dissertatsiyada qo‘llangan mualliflik hisoblash natijasi sifatida talqin qilinadi.

Anketa ma’lumotlari ham modelning ayrim komponentlari bo‘yicha o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Masalan, «Profilaktik immun madaniyat nima?» savoliga ijobiy javoblar tajriba guruhida tajriba oxirida 88,4%, nazorat guruhida 72,8% bo‘lgan. Raqamli texnologiyalar orqali yuqumli kasalliklar profilaktikasini targ‘ib qilish usullarini bilish bo‘yicha mos ko‘rsatkichlar 77,7% va 57,7% ni tashkil etgan. Shaxsiy gigiyena va jamoat sanitariyasining immun tizimiga ta’sirini bilish bo‘yicha esa 91,6% va 54,5% ijobiy javob qayd etilgan.

Shuningdek, yuqumli kasallikka shubhali holat aniqlanganda profilaktik choralarni tanlash va raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha ijobiy javoblar tajriba guruhida 80,0%, nazorat guruhida 52,6% bo‘lgan. Bu natija modelda bilimni amaliy vaziyatga ko‘chirishga qaratilgan topshiriqlarning ahamiyatini ko‘rsatadi, biroq mazkur so‘rov natijasini mustaqil klinik kompetensiyaning to‘liq o‘lchovi sifatida baholash mumkin emas.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, «Smart Immunity» modelining metodik o‘ziga xosligi texnologiyalarning sonida emas, ularning didaktik funksiyalarini bir tizimga birlashtirishidadir. QR-kod tezkor kirishni, AR/VR vizualizatsiyani, virtual klinik keys qaror qabul qilishni, elektron test qayta aloqani, Learning Analytics esa o‘quv dinamikasini kuzatishni ta’minlaydi. Ularning barchasi yagona profilaktik maqsadga xizmat qilgandagina modelning pedagogik yaxlitligi yuzaga keladi.

Profilaktik immun madaniyatni shakllantirishda «bilim → munosabat → amaliy harakat» zanjiri muhim. Talaba vaksinatsiyaning ilmiy asoslarini bilishi, vaksina bo‘yicha noto‘g‘ri axborotni tahlil qila olishi, bemor yoki ota-onaga dalillarga asoslangan tushuntirish bera olishi va konkret epidemiologik vaziyatda profilaktik choralarni tanlay olishi kerak. Shu jihatdan model kognitiv va amaliy komponentlarni bir-biridan ajratmasdan rivojlantirishga qaratilgan.

Modelning metodik jihatdan muhim tomoni — refleksiyaning kiritilganidir. Klinik yoki epidemiologik vaziyatdagi qaror bajarilgandan so‘ng talaba o‘z harakatini qayta ko‘rib chiqadi, xatolar sababini aniqlaydi va keyingi vaziyat uchun yangi strategiya ishlab chiqadi. Dissertatsiyada video-review va refleksiv topshiriqlar orqali bunday faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

Raqamli muhitda noto‘g‘ri axborotni aniqlash ham profilaktik immun madaniyatning muhim tarkibiy qismidir. Zamonaviy talaba vaksina, immunitet yoki yuqumli kasalliklar haqidagi internet materiallarini tanqidiy baholashi, manbaning ishonchliligini tekshirishi va ilmiy dalil bilan tasdiqlanmagan ma’lumotni ajrata olishi zarur. Bu komponent profilaktik immun madaniyatni faqat tibbiy bilim emas, balki axborot va raqamli savodxonlik bilan bog‘laydi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini talqin qilishda ehtiyotkorlik zarur. Tajriba-sinovda o‘zlashtirish va so‘rov ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi metodikaning

pedagogik samaradorligi uchun dalil beradi, ammo uzoq muddatli xulq-atvor o‘zgarishi yoki klinik amaliyotdagi real natijalarni bevosita isbotlamaydi. Kelgusida kechiktirilgan post-test, standartlashtirilgan psixometrik vositalar, effekt hajmi va ko‘p markazli tadqiqotlardan foydalanish metodik dalillarning kuchini oshirishi mumkin.

Sun’iy intellektdan foydalanish ham yordamchi pedagogik mexanizm sifatida qaralishi kerak. AI diagnostikasi individual ta’lim ehtiyojlarini aniqlash yoki qayta aloqa berishda yordam berishi mumkin, biroq yakuniy pedagogik va klinik qaror inson nazorati ostida qolishi, algoritmik xatolar va ma’lumotlar maxfiyligi hisobga olinishi lozim.

ILMIY YANGILIK ELEMENTLARI

• profilaktik immun madaniyat raqamli tibbiy ta’lim sharoitida bilim, amaliy faoliyat, motivatsion-qadriyatli munosabat, kritik-analitik va refleksiv faoliyatni birlashtiruvchi integrativ sifat sifatida tizimlashtirilgan;

• «Smart Immunity» modeli diagnostika, raqamli o‘qitish, monitoring-baholash va profilaktik amaliyotni yagona siklga birlashtiruvchi tuzilma sifatida asoslangan;

• Smart-profilaktika konsepsiyasida QR-kod, mobil texnologiyalar, AR/VR, simulyatsiya va AI vositalarining profilaktik mazmun bilan integratsiyalashuvi metodik jihatdan tizimlashtirilgan;

• profilaktik kompetensiyani baholashda test natijalari bilan bir qatorda klinik vaziyat, muammoli topshiriq va refleksiv faoliyatni hisobga olish zarurligi asoslangan;

• raqamli monitoring natijalaridan individual ta’lim trayektoriyasini tuzatish mexanizmi sifatida foydalanish taklif etilgan.

AMALIY AHAMIYATI

• model «Yuqumli kasalliklar» fanining ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va mustaqil ta’lim jarayonlariga moslashtirilishi mumkin;

• QR-kodlar orqali mavzuga oid elektron modul, video, klinik algoritm va testlarni tezkor bog‘lash imkoniyati yaratiladi;

• AR/VR va virtual klinik keyslar real bemor bilan ishlashdan oldin xavfsiz sharoitda epidemiologik qarorlarni mashq qilish imkonini beradi;

• elektron monitoring orqali talabaning o‘quv dinamikasi kuzatilib, qo‘shimcha topshiriqlar individual ehtiyojga mos tanlanadi;

• modelning diagnostik va baholash vositalari tibbiy oliy ta’lim muassasalarida profilaktik yo‘nalishdagi boshqa fanlarga ham moslashtirilishi mumkin.

XULOSA

1. «Smart Immunity» modeli raqamli tibbiy ta’lim sharoitida profilaktik immun madaniyatni shakllantirishning yaxlit pedagogik-metodik tizimi bo‘lib, uning asosini analitik-diagnostik, raqamli ta’lim-o‘quv, raqamli monitoring-baholash va profilaktik faoliyat bloklarining o‘zaro aloqasi tashkil etadi.

2. Modelning metodik samaradorligi raqamli vositalarning alohida qo‘llanishida emas, balki ularni profilaktik mazmun, muammoli vaziyatlar, klinik keyslar, simulyatsiya, refleksiya va kompetensiyaviy baholash bilan integratsiyalashda namoyon bo‘ladi.

3. Dissertatsiya doirasidagi 459 nafar talaba ishtirokidagi tajriba-sinov materiallari yakuniy bosqichda tajriba guruhida yuqori darajadagi natijalar ulushi nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq bo‘lganini ko‘rsatgan. Tajriba guruhida I va II darajalar yig‘indisi 85%, nazorat guruhida 47% ni tashkil etgan.

4. Yakuniy o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi tajriba guruhida 4,16, nazorat guruhida 3,53 bo‘lgan. Anketa natijalarida ham profilaktik immun madaniyat va raqamli vositalardan foydalanish bilan bog‘liq qator ko‘rsatkichlarda tajriba guruhi yuqoriroq natijalarni ko‘rsatgan.

5. «Smart Immunity» modeli tibbiy ta’limda profilaktik yo‘nalishni kuchaytirish, talabaning epidemiologik fikrlashini rivojlantirish, raqamli kompetensiyasini mustahkamlash va bilimni amaliy profilaktik qarorga aylantirish uchun metodik asos bo‘la oladi.

6. Kelgusidagi tadqiqotlarda modelning uzoq muddatli ta'siri, turli tibbiy fanlarga transferi, standartlashtirilgan psixometrik ko'rsatkichlari va sun'iy intellekt asosidagi adaptiv ta'lim vositalarining samaradorligini alohida o'rganish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begimkulov U.Sh. Oliy pedagogik ta'lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari. Toshkent, 2007.
2. Shadmanov A.K., Xalmatova B.T., Shadmanov M.A. Simulation education and its role in improving the quality of medical education. Journal of Education Scientific Medicine. 2023. №1. B.1–10.
3. Cook D.A., Hatala R. A systematic review of the quality of evaluation of simulation-based education. Medical Education. 2011;45(1):20–31.
4. World Health Organization. Digital education for building health workforce capacity. Geneva: WHO, 2021.
5. World Health Organization. Simulation in medical education: a practical guide. Geneva: WHO Press, 2022.
6. Centers for Disease Control and Prevention. Epidemiology and Prevention of Vaccine-Preventable Diseases. The Pink Book. 14th ed. Washington, DC, 2021.
7. UNESCO. Making every school a health-promoting school: global standards and indicators. Geneva; Paris, 2021.
8. World Health Organization. WHO Guidelines on Hand Hygiene in Health Care. Geneva: WHO Press, 2009.
9. World Health Organization. Transforming and scaling up health professionals' education and training. Geneva: WHO Press, 2013.
11. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. 4th ed. Open University Press, 2011.
12. Harden R.M. A new approach to medical education. Medical Teacher. 1984;6(3):163–168.

UDK 378.091.3:004

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING RAQAMLI-PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Soliyev Oybek Soxibjon o‘g‘li
Qo‘qon davlat universiteti
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: *thesoliyev@gmail.com, Tel: +998999892272*
ORCID: 0009-0007-3143-4820

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari va metodik yondashuvlari tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni ochib berilib, ularni o‘qitish amaliyotida samarali qo‘llash mexanizmlari asoslangan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli-pedagogik kompetensiyani shakllantirishning tarkibiy komponentlari aniqlashtirilib, integrativ metodika taklif etilgan. Tadqiqot natijalari mazkur kompetensiyani rivojlantirish orqali ta’lim sifati va o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish imkonini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, raqamli-pedagogik kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, metodika, integrativ yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, innovatsion texnologiyalar.*

METHODOLOGY FOR DEVELOPING DIGITAL-PEDAGOGICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS.

Abstract: *This article analyzes the theoretical foundations and methodological approaches to developing the digital-pedagogical competence of future primary school teachers. The role of modern digital technologies in the educational process is examined, and mechanisms for their effective implementation in teaching practice are substantiated. In addition, the structural components of digital-pedagogical competence are specified, and an integrative methodology for its development is proposed. The results of the study demonstrate that enhancing this competence contributes to improving the quality of education and the professional preparedness of future teachers.*

Keywords: *digital technologies, digital-pedagogical competence, primary education, methodology, integrative approach, professional training, innovative technologies.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ЦИФРОВО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ.

Аннотация: *В данной статье проанализированы теоретические основы и методические подходы к развитию цифрово-педагогической компетентности будущих учителей начальных классов. Раскрыта роль современных цифровых технологий в образовательном процессе, обоснованы механизмы их эффективного применения в педагогической практике. Также*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

уточнены структурные компоненты цифрово-педагогической компетентности и предложена интегративная методика её формирования. Результаты исследования показывают, что развитие данной компетентности способствует повышению качества образования и уровня профессиональной подготовки будущих учителей.

Ключевые слова: *цифровые технологии, цифрово-педагогическая компетентность, начальное образование, методика, интегративный подход, профессиональная подготовка, инновационные технологии.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta’lim tizimiga tub o‘zgarishlar kiritib, o‘qituvchilardan zamonaviy kompetensiyalarga ega bo‘lishni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida faoliyat yurituvchi pedagoglarning raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini egallashi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ushbu bosqichda o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, axborotni qabul qilish va qayta ishlash ko‘nikmalari shakllanadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash o‘qitish samaradorligini oshirish, ta’lim mazmunini boyitish hamda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida ularning raqamli-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida qaralmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi - bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali metodikasini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida raqamli-pedagogik kompetensiyaning mazmun-mohiyatini aniqlash, uning tarkibiy komponentlarini belgilash hamda uni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish belgilandi.

METODOLOGIYA

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunda pedagogik ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

hisoblanadi. Ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda global ta'lim makonida yuz berayotgan integratsion jarayonlar o'qituvchidan yangi turdagi kasbiy tayyorgarlikni talab etmoqda. Zamonaviy jamiyatda bilimlarning tez yangilanib borishi, axborot oqimining ortishi hamda raqamli muhitning kengayib borishi pedagogdan nafaqat mavjud bilimlarni yetkazish, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, axborotni tanqidiy tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishni ham talab qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida faoliyat yurituvchi pedagoglarning zamonaviy texnologiyalar asosida ishlashga tayyor bo'lishi o'quvchilarda dastlabki bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur kompetensiya o'qituvchining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, ta'lim jarayonini raqamli muhitda tashkil etish, elektron ta'lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish, masofaviy va aralash (blended) ta'lim shakllarini joriy etish, shuningdek, innovatsion pedagogik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini ifodalaydi. Shu bilan birga, raqamli-pedagogik kompetensiya o'qituvchining o'quvchilarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini differensiallashtirish, interfaol metodlar asosida darslarni tashkil etish, multimediya vositalaridan samarali foydalanish hamda o'quvchilarning o'quv faoliyatini monitoring qilish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, mazkur kompetensiya o'qituvchining axborot madaniyatiga ega bo'lishi, raqamli xavfsizlik qoidalariga rioya etishi, mualliflik huquqi va akademik halollik tamoyillariga amal qilishi, shuningdek, raqamli resurslardan tanqidiy va maqsadga muvofiq foydalanish madaniyatini shakllantirishini ham nazarda tutadi. Zamonaviy pedagog uchun raqamli vositalardan foydalanish faqat texnik ko'nikma sifatida emas, balki didaktik maqsadlarga yo'naltirilgan holda o'quv jarayonini samarali tashkil etishning muhim komponenti sifatida qaraladi. Raqamli-pedagogik kompetensiya o'qituvchining refleksiv faoliyatini, ya'ni o'z pedagogik tajribasini tahlil

qilish, o‘z faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish, yangi pedagogik va raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish hamda ularni amaliyotga moslashtirishga tayyorligini ham o‘zida aks ettiradi. Bu esa o‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi va uning pedagogik mahoratini oshirishga xizmat qiladi.

Shu jihatdan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida raqamli-pedagogik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, shuningdek, raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi pedagog kadrlarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish esa maxsus ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar, integrativ model va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini tizimli qo‘llashni talab etadi.

MUHOKAMA

Raqamli-pedagogik kompetensiya tarkiban bir nechta o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi komponentlardan iborat murakkab integrativ tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu komponentlar o‘qituvchining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish hamda zamonaviy ta’lim muhitida muvaffaqiyatli ishlashini ta’minlaydi. Jumladan, kognitiv komponent o‘qituvchining raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari, ularning didaktik imkoniyatlari va ta’lim jarayonidagi o‘rni haqidagi nazariy bilimlarini qamrab oladi. Mazkur bilimlar pedagogga raqamli vositalarni tanlash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish hamda o‘quv jarayoniga moslashtirish imkonini beradi. Amaliy komponent esa o‘qituvchining raqamli texnologiyalarni bevosita ta’lim jarayonida qo‘llash, darslarni raqamli vositalar asosida rejalashtirish, multimediya resurslarini yaratish va ulardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu komponent doirasida o‘qituvchi interfaol metodlardan foydalanish, masofaviy va aralash ta’limni tashkil etish, o‘quvchilarning bilimini raqamli vositalar yordamida baholash kabi amaliy faoliyatlarni amalga oshiradi.

Motivatsion komponent o‘qituvchining raqamli texnologiyalardan foydalanishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, qiziqishi va ijobiy munosabatini ifodalaydi. Bu komponent

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

o‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligi, yangiliklarni qabul qilish darajasi hamda o‘z ustida doimiy ishlashga bo‘lgan intilishida namoyon bo‘ladi. Aynan ushbu komponent boshqa komponentlarning samarali shakllanishi uchun muhim psixologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Refleksiv komponent esa o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, amalga oshirilgan dars jarayonlarini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini izlash qobiliyatini anglatadi. Bu komponent orqali o‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatini takomillashtirib boradi, yangi tajribalarni o‘zlashtiradi va ularni amaliyotga joriy etadi. Shu jihatdan, mazkur komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liqlikda rivojlanib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining raqamli-pedagogik kompetensiyasini kompleks tarzda shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan integrativ metodika ishlab chiqildi. Mazkur metodika zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli platformalar hamda interfaol ta’lim metodlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish asosida tashkil etilib, ta’lim jarayonining barcha bosqichlarini — maqsadni belgilash, mazmunni tanlash, o‘qitish jarayonini tashkil etish, nazorat va baholash bosqichlarini kompleks ravishda qamrab oladi. Ushbu metodikaning asosiy maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli vositalardan ongli, maqsadga yo‘naltirilgan va samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Metodika doirasida muammoli o‘qitish texnologiyalari, loyihaviy faoliyat, interfaol metodlar hamda raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Xususan, muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish orqali talabalar mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Loyihaviy faoliyat esa ularning ijodiy yondashuvini shakllantirish, raqamli vositalardan foydalanib ta’limiy mahsulotlar yaratish hamda jamoada ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, metodika doirasida raqamli resurslar - elektron darsliklar,

multimedia materiallari, taqdimotlar, onlayn platformalar va ta'limiy dasturlardan keng foydalanish nazarda tutilgan bo'lib, bu talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish, bilimlarni vizual va interfaol shaklda o'zlashtirishiga imkon yaratadi. Mustaqil ta'lim elementlarini joriy etish orqali esa bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish, axborotni izlash va qayta ishlash hamda o'z bilimlarini mustaqil ravishda boyitish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Mazkur integrativ metodika komponentlararo uzviylikni ta'minlagan holda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli-pedagogik kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi va ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur metodikaning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali amaliy jihatdan tekshirildi. Tajriba-sinov jarayoni davomida nazorat va tajriba guruhlari tashkil etilib, ularda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish darajasi qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarni tizimli, maqsadli va metodik asosda qo'llash bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Tajriba guruhidagi talabalarda darsni zamonaviy talablar asosida rejalashtirish, o'quv materiallarini raqamli formatda tayyorlash va taqdim etish, multimedia vositalaridan samarali foydalanish, shuningdek, o'quvchilar bilan interfaol muloqot tashkil etish ko'nikmalari yuqori darajada rivojlanganligi aniqlandi. Bundan tashqari, ularning mustaqil ishlash, axborotni izlash va qayta ishlash, raqamli resurslardan tanqidiy foydalanish hamda pedagogik faoliyatga innovatsion yondashuvni qo'llash darajasi ham sezilarli oshganligi kuzatildi. Tajriba-sinov natijalari bo'lajak o'qituvchilarda motivatsion va refleksiv komponentlarning ham ijobiy dinamikasini ko'rsatdi. Ular raqamli texnologiyalardan foydalanishga nisbatan yuqori qiziqish bildira boshlaganlari, o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishga intilishlari aniqlangan. Ushbu natijalar taklif etilgan metodikaning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

samaradorligini tasdiqlab, uni pedagogik ta'lim amaliyotiga joriy etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'lim tizimining muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida mazkur kompetensiyaning nazariy asoslari tahlil qilinib, uning tarkibiy tuzilmasi aniqlashtirildi hamda kognitiv, amaliy, motivatsion va refleksiv komponentlardan iborat integrativ tizim sifatida asoslab berildi. Ushbu komponentlarning o'zaro uyg'unlikda rivojlanishi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini kompleks shakllantirishda muhim omil ekanligi isbotlandi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan integrativ metodika zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli platformalar va interfaol metodlarni o'zaro uyg'unlashtirish asosida tashkil etilib, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini qamrab olishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur metodika bo'lajak o'qituvchilarda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, dars jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish hamda o'quvchilar bilan interfaol muloqotni yo'lga qo'yish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tajriba-sinov ishlari natijalari taklif etilgan metodikaning samaradorligini tasdiqladi. Xususan, tajriba guruhidagi talabalarda raqamli-pedagogik kompetensiyaning barcha komponentlari bo'yicha ijobiy o'sish dinamikasi kuzatildi. Ularning darsni rejalashtirish, o'quv materiallarini raqamli shaklda ishlab chiqish, multimediya vositalaridan foydalanish hamda o'quvchilar bilan samarali muloqot tashkil etish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanganligi aniqlandi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ta'lim faoliyati, innovatsion fikrlash darajasi va o'z kasbiy faoliyatiga refleksiv yondashuvi ham oshganligi kuzatildi.

Olingan natijalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan

metodik yondashuvlarni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish pedagogik ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh va zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishda kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar asosida individual ta'lim trayektoriyalarini ishlab chiqish, sun'iy intellekt imkoniyatlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini baholash mezonlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy muammo sifatida e'tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Soliyev O.S. - Boshlang'ich sinf o'quvchilarining zamonaviy axborot texnologiyalari hamda didaktik o'yinlar yordamida darslarda faoligini oshirish. Ilm sarchashmalari – 4.2023. Urganch – 2023. 107-110b.
2. Soliyev O.S. - Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot va ijtimoiy texnologiyalarning tutgan o'rni. МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ - Илимий-методикалық журнал. 2024 1-сан. Нөкис -2024. 274-276b.
3. Soliyev O.S. - Xorijiy metod va zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish: nazariy yondashuvlar va prinsiplar. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar -2024 4-son. Qo'qon-2024. 357-361b.
4. Soliyev O.S. - General concepts about educational laws and methods of effective using them in educational processes. Journal of integrated education and research. SEPTEMBER – 2022 SSN: 2181-3558. 81-84b.
5. Soliyev O.S. - Zamonaviy axborot texnologiyalari orqali boshlang'ich sinflarda darslarni tashkil etish masalalari. "Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida" mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi. 4.2024 - ISSN 2181-3035. 65-68b.
6. Soliyev O.S. - Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xorijiy tajribalardan samarali foydalanishga tayyorlash texnologiyasi. "Ilm fan yangiliklari konferensiyasi" mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi. Vol. 13 No. 2.2026. – B. 335-336.
7. Soliyev O.S. - Pedagogical technologies of foreign methods in teaching subjects in primary school approaches and methodological foundations. "Boshlang'ich ta'lim tizimida zamonaviy tendensiyalar va xalqaro baholash tajribasi: muammo, yechimlar va istiqbollar" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 25-noyabr 2025-yil. Qo'qon – 2025 – B. 489-493.
8. Soliyev O.S. - Xorijiy metod va zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish: nazariy yondashuvlar va prinsiplar. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. ISSN: 2945-4492 Volume-13. Issue-5. 22-05-2025. 234-239b.



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

9. Soliyev O.S. - Axborot texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonlarini sifatli va mazmunli tashkil etish usullari. Boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning global masalalari: muammo va tadqiqot – Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 20-nouabr 2024-yil. Qo‘qon – 2024 173-175b.

UDK: 37.013:378.14

PEDAGOGIK TA'LIM TIZIMIDA KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IMKONIYATLARI

Xonbabayev Shoxruxbek Dilshodjon o'g'li
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.v.b. dotsent
Qo'qon davlat universiteti
e-mail: xanbabayev1221@gmail.com
ORCID: 0000-0001-6499-7055

Annotatsiya. *Maqolada pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. «Kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari qiyosiy o'rganilib, bo'lajak o'qituvchi kasbiy kompetentligining olti komponentli tuzilmasi asoslangan. Tadqiqot doirasida kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari me'yoriy-tashkiliy, mazmuniy, texnologik, amaliyot-integrativ va baholash-refleksiv guruhlarga tasniflanib, ularni ro'yobga chiqarish mexanizmlari hamda pedagogik shart-sharoitlari ochib berilgan. Tajriba-sinov natijalari imkoniyatlarni kompleks tarzda qo'llash talabalar kompetentligi darajasini sezilarli oshirishini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *kompetentlik, kompetensiya, pedagogik ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuv, mikro-o'qitish, portfolio, mezonli baholash, refleksiya, ta'lim klasteri.*

ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ В СИСТЕМЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье анализируются возможности развития профессиональной компетентности будущих учителей в системе педагогического образования. На основе сравнительного изучения понятий «компетенция» и «компетентность» обоснована шестикомпонентная структура профессиональной компетентности будущего педагога. Возможности развития компетентности классифицированы по пяти группам: нормативно-организационные, содержательные, технологические, практико-интегративные и оценочно-рефлексивные; раскрыты механизмы и педагогические условия их реализации. Результаты опытно-экспериментальной работы подтверждают, что комплексное использование данных возможностей существенно повышает уровень компетентности студентов.*

Ключевые слова: *компетентность, компетенция, педагогическое образование, будущий учитель, компетентностный подход, микрообучение, портфолио, критериальное оценивание, рефлексия, образовательный кластер.*

OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING COMPETENCE IN THE PEDAGOGICAL EDUCATION SYSTEM

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Abstract. *The article analyses the opportunities for developing the professional competence of future teachers within the system of pedagogical education. Based on a comparative study of the notions of «competence» and «competency», a six-component structure of the future teacher's professional competence is substantiated. The opportunities for competence development are classified into five groups — regulatory-organisational, content-related, technological, practice-integrative and assessment-reflective — and the mechanisms and pedagogical conditions of their implementation are revealed. The results of the experimental work confirm that the integrated use of these opportunities significantly raises students' level of competence.*

Key words: *competence, competency, pedagogical education, future teacher, competence-based approach, microteaching, portfolio, criteria-based assessment, reflection, educational cluster.*

KIRISH

Bugungi kunda jahon ta'lim maydonida pedagog kadrlar tayyorlash sifati mamlakat taraqqiyotining strategik omili sifatida e'tirof etilmoqda. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi, pirovard natijada, o'qituvchining kasbiy salohiyati, uning o'zgaruvchan sharoitlarda mustaqil qaror qabul qila olish, bilimini amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyati bilan belgilanadi. Aynan shu bois so'nggi o'n yilliklarda pedagogik ta'lim paradigmasi «bilim, ko'nikma va malaka»ga asoslangan an'anaviy modeldan kompetentlikka yo'naltirilgan modelga o'tmoqda.

O'zbekiston Respublikasida bu jarayon davlat siyosati darajasida mustahkamlangan. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «O'zbekiston – 2030» strategiyasi hamda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan konseptual hujjatlarda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirish, ta'lim mazmunini natijaga yo'naltirilgan tarzda qayta qurish, o'quv jarayoniga xalqaro tajribani joriy etish vazifalari belgilangan. Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimining joriy etilishi, o'quv rejalarining tayanch va kasbiy kompetensiyalar asosida loyihalanishi, pedagogik amaliyot hajmining kengaytirilishi bu yo'nalishdagi amaliy qadamlardir.

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, kompetentlik yondashuvining me'yoriy hujjatlarda e'lon qilinishi bilan uning o'quv jarayonida real amalga oshirilishi o'rtasida sezilarli tafovut saqlanib qolmoqda. Ko'pchilik hollarda ta'lim natijalari

kompetensiyalar tilida ifodalanadi, biroq ularga erishish va ularni baholash mexanizmlari an'anaviy, reproduktiv xarakterni saqlab qoladi. Talaba egallagan nazariy bilimlarni kasbiy vaziyatga koʻchira olmasligi, refleksiv va kommunikativ koʻnikmalarning yetarli shakllanmaganligi, raqamli vositalardan metodik maqsadda foydalanish tajribasining cheklanganligi boʻlajak oʻqituvchi tayyorgarligidagi eng koʻp uchraydigan kamchiliklar sirasiga kiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi — pedagogik ta'lim tizimida boʻlajak oʻqituvchilarning kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslarini umumlashtirish, mavjud imkoniyatlarni tizimli tasniflash va ularni amalda roʻyobga chiqarishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini asoslashdan iborat. Tadqiqot ob'ekti sifatida oliy pedagogik ta'lim muassasalarida boʻlajak oʻqituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayoni, predmeti sifatida esa ushbu jarayonda kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari olindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

«Kompetentlik» va «kompetensiya» tushunchalarining ilmiy muomalaga kirib kelishi XX asrning ikkinchi yarmiga toʻgʻri keladi. N.Chomskiyning tilshunoslikdagi «lingvistik kompetensiya» tushunchasi (1965) inson bilimining yashirin, ichki tizimi bilan uning nutqiy faoliyatda namoyon boʻlishini farqlash imkonini bergan boʻlsa, D.Xayms kommunikativ kompetensiya nazariyasini ilgari surib, til birliklarini bilishning oʻzi yetarli emasligini, ularni ijtimoiy kontekstga muvofiq qoʻllay olish zarurligini asosladi. D.MakKlellandning 1973-yildagi mashhur maqolasi esa kasbiy muvaffaqiyatni an'anaviy intellekt testlari emas, balki real faoliyatda namoyon boʻladigan kompetensiyalar bashorat qilishini koʻrsatib berdi va bu gʻoya kadrlar tayyorlash amaliyotida burilish nuqtasi boʻldi.

J.Ravenning tadqiqotlarida kompetentlik motivatsion, affektiv va kognitiv komponentlarning yaxlitligi sifatida talqin etiladi: inson faqat oʻzi qadrli deb bilgan faoliyatda haqiqiy kompetentlik namoyon qiladi. Bu qarash kompetentlikning shaxsiy-

qadriyatli tabiatini ochib berdi. Yevropa Kengashi doirasida V.Xutmaxer tomonidan taklif etilgan besh guruh kalit kompetensiyalar (siyosiy va ijtimoiy, madaniyatlararo, kommunikativ, axborot bilan ishlash, uzluksiz o‘rganish) esa kompetentlikning ta’lim natijasi sifatidagi me'yoriy modeliga asos soldi.

Rus pedagogikasida A.V.Xutorskoy kompetensiyani shaxsga nisbatan tashqi, ijtimoiy talab (norma) sifatida, kompetentlikni esa shu normaning shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan, tajribada sinalgan ko‘rinishi sifatida farqlaydi. I.A.Zimnyaya kompetentlikning tarkibida tayyorlik, bilim, tajriba, qadriyatli munosabat va emotsional-irodaviy boshqaruv kabi komponentlarni ajratadi. E.F.Zeer kasbiy kompetentlikni kasbiy rivojlanishning bosqichli jarayoni bilan bog‘lab o‘rganadi. L.Shulman esa pedagogik kompetentlikning o‘ziga xos yadrosi sifatida «predmetning pedagogik bilimi» (pedagogical content knowledge) tushunchasini kiritdi: o‘qituvchi fanni bilishi bilan uni o‘rgatishni bilishi turli, biroq uzviy bog‘liq bilim sohalaridir.

Zamonaviy xalqaro tajribada pedagog kompetentligining me'yoriy modellari ishlab chiqilgan: AQShda InTASC standartlari, Yevropa Ittifoqida o‘qituvchilar uchun raqamli kompetentlik doirasi (DigCompEdu), Tuning loyihasi doirasidagi kompetensiyalar ro‘yxati shular jumlasidan. L.Darling-Xemmond o‘qituvchi tayyorlashda nazariya va amaliyotning uzviy integratsiyasi, klinik amaliyotning uzaytirilishi hamda mentorlik tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini empirik dalillar bilan asoslaydi. OECD tomonidan o‘tkazilgan TALIS tadqiqotlari natijalari o‘qituvchining o‘z samaradorligiga ishonchi (self-efficacy) va uzluksiz kasbiy rivojlanishda ishtiroki bilan o‘quvchilar yutuqlari o‘rtasida barqaror bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonlik olimlardan N.A.Muslimov va uning shogirdlari kasbiy ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalarini ishlab chiqqan; M.H.Usmonboyeva, R.X.Ishmuhamedov tadqiqotlarida interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalarning kompetentlikni rivojlantirish vositasi sifatidagi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

imkoniyatlari yoritilgan; U.Sh.Begimqulov ta'lim jarayonini axborotlashtirishning ilmiy-metodik asoslarini asoslab bergan. Sh.S.Sharipov, R.X.Djurayev ishlarida uzluksiz kasbiy ta'lim, O.Musurmonova tadqiqotlarida esa milliy qadriyatlarning shaxs kompetentligini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kompetentlikning mohiyati va tuzilmasi yetarlicha o'rganilgan, biroq pedagogik ta'lim tizimining o'zida mavjud bo'lgan — mazmuniy, texnologik, tashkiliy, raqamli va sotsial-hamkorlikka oid — imkoniyatlarni yaxlit tizim sifatida tasniflash va ularni o'zaro bog'lash masalasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur maqolada aynan shu bo'shliqni to'ldirishga harakat qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar majmuidan foydalanildi. Nazariy metodlar: ilmiy-pedagogik, psixologik va me'yoriy manbalarni qiyosiy-tahliliy o'rganish, tushunchalarni tizimlashtirish va umumlashtirish, pedagogik modellashtirish, tuzilmaviy-funksional tahlil. Kompetentlik tuzilmasini aniqlashda tizimli, faoliyatli, shaxsga yo'naltirilgan va aksiologik yondashuvlar metodologik asos qilib olindi.

Empirik metodlar: bo'lajak o'qituvchilar va amaliyotchi pedagoglar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish, kuzatish, pedagogik amaliyot hujjatlarini tahlil qilish, ekspert baholash, suhbat hamda pedagogik tajriba-sinov. Kompetentlik darajasini baholashda uchta mezon — motivatsion-qadriyatli, kognitiv-texnologik va refleksiv-kommunikativ mezonlar hamda ularga mos ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi; har bir mezon bo'yicha yuqori, o'rta va past darajalar ajratildi.

Olingan ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berishda foizli taqsimot, o'rtacha arifmetik qiymat, o'sish dinamikasi koeffitsienti hamda natijalar farqining ishonchliligini tekshirish uchun Student t-mezonidan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari pedagogik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar ishtirokida, nazorat va tajriba guruhlarini qiyoslash asosida tashkil etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

1. Kompetentlik tushunchasining mohiyati va pedagogik talqini. Tahlil natijalari «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarini farqlash zaruratini tasdiqlaydi. Kompetensiya — muayyan faoliyat sohasida shaxsga qo‘yiladigan tashqi, ob'ektiv talablar majmui, ya’ni ta’lim natijasining me'yoriy modeli. Kompetentlik esa — shaxsning ushbu talablarni o‘z bilimi, tajribasi, qadriyatlari va shaxsiy sifatlari orqali o‘zlashtirgan, real faoliyatda namoyon etadigan integrativ sifatidir. Boshqacha aytganda, kompetensiya o‘rganiladi, kompetentlik esa shakllanadi va namoyon bo‘ladi.

Bu farqlash pedagogik ta’lim uchun amaliy ahamiyatga ega: o‘quv rejasida kompetensiyalarni ro‘yxatlash — bu hali kompetentlikni shakllantirish emas. Kompetentlik faqat talaba mustaqil qaror qabul qilishi, tanlov qilishi va o‘z faoliyati natijasi uchun mas'uliyatni his qilishi talab etiladigan real yoki real vaziyatga maksimal yaqinlashtirilgan sharoitlardagina rivojlanadi. Shu sababli kompetentlikka yo‘naltirilgan ta’limning asosiy birligi — o‘quv topshirig‘i emas, balki kasbiy-pedagogik vaziyat (keys, muammo, loyiha, sinf jarayoni fragmenti) hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasi ko‘p komponentli tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot doirasida uning quyidagi komponentlari ajratildi (1-jadval).

1-jadval. Bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy kompetentligining tarkibiy komponentlari

Komponent	Mazmuniy tavsifi	Namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari
Motivatsion-qadriyatli	Pedagogik kasbga barqaror qiziqish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, kasbiy mas'uliyat	Kasb tanlovi motivlarining barqarorligi, o‘quvchiga qadriyat sifatida munosabat, kasbiy etika normalariga rioya
Kognitiv (nazariy)	Fan asoslari, pedagogika, psixologiya va xususiy	Bilimlarning to‘liqligi, tizimliligi, fanlararo

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Komponent	Mazmuniy tavsifi	Namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari
	metodika bo‘yicha tizimli bilimlar	bog‘lanishlarni anglash, muammoni nazariy asoslash
Faoliyatli-texnologik	Ta’lim jarayonini loyihalash, tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalari	Dars ishlanmasini tuzish, metod tanlash, vaqtni boshqarish, differensial yondashuvni qo‘llash
Kommunikativ	Pedagogik muloqot, hamkorlik va nizolarni bartaraf etish qobiliyati	Nutq madaniyati, faol tinglash, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot
Raqamli-axborot	Raqamli ta’lim resurslaridan metodik maqsadda foydalanish	Elektron resurs yaratish, LMS bilan ishlash, axborotni tanqidiy baholash, raqamli xavfsizlik
Refleksiv-baholash	O‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish	O‘z-o‘zini baholashning adekvatligi, xatoni tan olish, kasbiy o‘sish rejasini tuzish

2. Pedagogik ta’lim tizimidagi imkoniyatlarning tasnifi. Tadqiqot davomida kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari manbasi va ta’sir doirasiga ko‘ra beshta guruhga ajratildi: me'yoriy-tashkiliy, mazmuniy, texnologik, amaliyot-integrativ va baholash-refleksiv imkoniyatlar (2-jadval).

Me'yoriy-tashkiliy imkoniyatlar oliy ta’lim muassasalariga berilgan akademik mustaqillik bilan bog‘liq. O‘quv rejalarini mustaqil shakllantirish, tanlov fanlari ulushini oshirish, individual ta’lim traektoriyasini yo‘lga qo‘yish, kredit-modul tizimida talabaning mustaqil ishiga ajratilgan soatlarni maqsadli boshqarish — bularning barchasi



kompetentlikni rivojlantirishning tashkiliy zaminini yaratadi. Ayni paytda bu imkoniyat ko‘pincha rasmiy tarzda qo‘llanilmoqda: tanlov fanlari amalda majburiy tarzda taqsimlanmoqda, mustaqil ish esa referat tayyorlashga qisqartirilmoqda.

Mazmuniy imkoniyatlar o‘quv fanlari mazmunini kasbiy vazifalar mantiqiga muvofiq qayta qurish bilan bog‘liq. Bunda fanlararo integratsiya (pedagogika – psixologiya – xususiy metodika – mutaxassislik fani), o‘quv materialini modullashtirish, har bir modul yakunida aniq, o‘lchanadigan ta’lim natijasini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy-madaniy mazmunning integratsiyasi — mumtoz pedagogik meros, mahalliy ijtimoiy kontekst, oila va mahalla bilan hamkorlik tajribasining o‘quv materialiga singdirilishi — bo‘lajak o‘qituvchining qadriyatli komponentini mustahkamlaydi.

Texnologik imkoniyatlar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni maqsadli qo‘llashni nazarda tutadi. Muammoli ta’lim, keys-stadi, loyiha metodi, rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari, munozara va debat texnologiyalari, «teskari sinf» modeli, mikro-o‘qitish (microteaching) kabi texnologiyalar talabani passiv tinglovchidan faol subyektga aylantiradi. Ayniqsa mikro-o‘qitish samarali hisoblanadi: talaba qisqa o‘quv fragmentini o‘z guruhdoshlariga o‘tadi, jarayon videoga yoziladi, so‘ngra jamoaviy tahlil va refleksiya o‘tkaziladi. Bu usul nazariy bilimni bevosita amaliy harakatga aylantirish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmasini shakllantirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar alohida imkoniyatlar manbaidir: elektron ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, ochiq ta’lim resurslari, simulyatsion muhitlar va sun'iy intellektga asoslangan vositalar talabaga vaqt va makon chegarasidan qat'i nazar ta’lim olish, o‘z natijalarini kuzatib borish imkonini yaratadi. Biroq raqamli vositalar kompetentlikni avtomatik shakllantirmaydi: ular metodik jihatdan asoslangan tarzda, aniq pedagogik maqsadga bo‘ysundirilgan holda qo‘llanilgandagina samara beradi.

Amaliyot-integrativ imkoniyatlar «oliy ta’lim muassasasi – maktab» hamkorligining chuqurlashtirilishi bilan bog‘liq. Uzluksiz pedagogik amaliyot, dual

ta'lim elementlari, tayanch maktablar bazasida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, tajribali o'qituvchilarni mentor sifatida jalb qilish, ta'lim klasteri modeli — bularning barchasi talabaning real kasbiy muhitga bosqichma-bosqich kirib borishini ta'minlaydi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, amaliyot muddatining uzayishi emas, balki uning nazariy kurslar bilan uzviy bog'langanligi va sifatli mentorlik qo'llab-quvvatlovi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Baholash-refleksiv imkoniyatlar baholash tizimini natijaga yo'naltirish orqali ro'yobga chiqadi. Kompetentlikni an'anaviy test yoki og'zaki so'rov orqali to'liq o'lchash mumkin emas. Buning uchun mezonli baholash rubrikalari, kasbiy portfolio, kompleks vaziyatli topshiriqlar, loyiha himoyasi, o'zaro (peer) baholash va o'z-o'zini baholash varaqalari kabi vositalar zarur. Formativ baholashning kuchaytirilishi talabaga o'z rivojlanish dinamikasini ko'rish va uni boshqarish imkonini beradi.

2-jadval. Pedagogik ta'lim tizimida kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari va ularni ro'yobga chiqarish mexanizmlari

Imkoniyatlar guruhi	Ro'yobga chiqarish mexanizmlari	Kutilayotgan natija
Me'yoriy-tashkiliy	Akademik mustaqillik, kredit-modul tizimi, individual ta'lim traektoriyasi, tanlov fanlari	Talabaning ta'lim mazmunini tanlashdagi subyektligi, mas'uliyatning ortishi
Mazmuniy	Fanlararo integratsiya, modullashtirish, milliy-madaniy mazmunning singdirilishi	Bilimlarning yaxlitligi va kasbiy vazifalarga yo'naltirilganligi
uzluksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish, talaba-yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning, adabiyot va kitobxonlik yo'nalishida qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazish hamda mutaxassislik doirasida muloqot yuritishga zamin yaratadi.

Ushbu fan mazkur yo'nalishdagi o'quv-tarbiyaviy hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, talabalarni mutolaa madaniyatini oshirish va adabiyot fani doirasida egallashlari shart bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarining zaruriy me'yorini asoslab beradi. Talabalarning ixtisosliklari doirasida adabiyotni, ma'naviyatni tahlil qilgan holda yuksak salohiyatli, ma'rifatparvar va ma'naviyatli yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga erishish hamda talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, qiyoslay olish, ilmiy-ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib:

1. Pand-nasihat ruhidagi badiiy asarlar syujetida ma'naviy tarbiya bilan bog'liq jarayonlarni ahamiyatini o'rgatish.

2. Adabiyot va umumtarbiyaviy terminlarning mazmun-mohiyatini keng tushuntirish.

3. Mavzularga oid nasriy va nazmiy asarlarni badiiy-estetik tahlil qilish.

4. Tafakkur qilish, mantiqiy fikrlash va nutq madaniyati shaxs ma'naviy qiyofasini belgilovchi omillardan biri ekanligini bilish.

5. Ma'naviy tarbiyani adabiyot orqali mustahkamlash ko'nikmalarini shakllantirish.

6. Muayyan tarbiyaviy asarlar doirasida talabalarga zaruriy ma'naviy-axloqiy bilimlarni berishdan iborat.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

XULOSA

Pand-nasihat ruhidagi asarlarni o‘rganish yoshlarda ma’naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar – Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni rivojlantirish bilan dolzarblik kasb etadi. Shuningdek, ajdodlarimiz qoldirgan va bugungi kunda yaratilayotgan boy adabiy merosni ma’naviy hamda tarbiyaviy jihatlarini o‘rganish boy xazina bo‘lib xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa talaba adabiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi, uni kitobxonlikka undaydi, badiiy asarni teran anglash va tahlil qila olish malakasini hosil qiladi. Talabalarda og‘zaki va yozma muloqot yuritish, tahliliy fikrlash, ongli muhokama qilish, ma’naviy dunyoqarashini kengaytirish masalalarini qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 1-oktabrdagi “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
2. Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”, Toshkent: “Fan”, 1972. 964-bet.
3. Alisher Navoiy: To‘la asarlar to‘plami, 9-jild, 2012. 491-bet.
4. Abdulla Avloniy. “Turkiy Guliston yoxud axloq”, Toshkent:Yoshlar nashriyoti uyi, 2018. 5-bet.
5. Abdulla Avloniy. “Turkiy Guliston yoxud axloq”, Toshkent:Yoshlar nashriyoti uyi, 2018. 6-bet.



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

4K MODELIGA ASOSLANGAN DARSLIKLARNING AFZALLIKLARI

Nuraliyeva Kamola Isaqali qizi
Namangan davlat pedagogika instituti doktoranti
knuraliyeva4980@gmail.com 93-497-49-80

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida 4K modeliga asoslangan darsliklarning pedagogik imkoniyatlari va afzalliklari tahlil qilinadi. 4K modeli tarkibidagi ko'nikmalar o'quvchilarning nafaqat fan bo'yicha bilimlarini, balki mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarga yechim topish, o'z fikrini asoslash, jamoada ishlash va ijodiy yondashish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda 4K modeliga asoslangan darsliklarning mazmuniy, metodik va didaktik xususiyatlari tahliliy yondashuv asosida o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bunday darsliklar an'anaviy reproduktiv ta'limdan ko'nikmaviy ta'limga o'tishni ta'minlash, o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantirish hamda amaliy va hayotiy vaziyatlar asosida bilimlarni qo'llash imkoniyatini kengaytiradi.*

Kalit so'zlar: *4K modeli, darslik, tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, hamkorlik, ko'nikma, zamonaviy ta'lim, yangi avlod darsliklari, interfaol ta'lim.*

ПРЕИМУЩЕСТВА УЧЕБНИКОВ, ОСНОВАННЫХ НА МОДЕЛИ «4K»

Аннотация: *В данной статье анализируются педагогические возможности и преимущества учебников, основанных на модели 4K, в современном образовательном процессе. Навыки, составляющие модель 4K, способствуют развитию у учащихся не только предметных знаний, но и навыков самостоятельного мышления, поиска решений в проблемных ситуациях, аргументации собственной позиции, работы в команде и творческого подхода. В исследовании на основе аналитического подхода изучены содержательные, методические и дидактические особенности учебников, основанных на модели 4K. Результаты показывают, что такие учебники способствуют переходу от традиционного репродуктивного обучения к компетентностно-ориентированному обучению, превращению учащегося в активного субъекта образовательного процесса, а также расширяют возможности применения знаний на основе практических и жизненных ситуаций.*

Ключевые слова: *модель 4K, учебник, критическое мышление, креативность, коммуникация, сотрудничество, навыки, современное образование, учебники нового поколения, интерактивное обучение.*

ADVANTAGES OF TEXTBOOKS BASED ON THE 4K MODEL

Annotation: *This article analyzes the pedagogical potential and advantages of textbooks based on the 4C model in the modern educational process. The skills comprising the 4C model contribute not only to the development of students' subject knowledge but also to their ability to think independently, find*

solutions to problematic situations, justify their opinions, work collaboratively, and approach tasks creatively. The study examines the content-related, methodological, and didactic characteristics of textbooks based on the 4C model through an analytical approach. The results demonstrate that such textbooks facilitate the transition from traditional reproductive education to skills-based learning, transform students into active participants in the educational process, and expand opportunities for applying knowledge to practical and real-life situations.

Keywords: *4C model, textbook, critical thinking, creativity, communication, collaboration, skills, modern education, next-generation textbooks, interactive learning.*

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida o‘quvchilarga tayyor bilimlarni berishdan ko‘ra, o‘quvchilardagi bilimlarni turli vaziyatlarda qo‘llash, muammoni individual hal qilish, axborotni tahlil qilish va boshqa insonlar bilan samarali hamkorlik qilish ko‘nikmalarini shakllantirish vazifasi turibdi. Shu nuqtayi nazardan, XXI asr ko‘nikmalarini ta’lim mazmuniga integratsiya qilish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 4K modeli ana shu ehtiyojga javob beruvchi pedagogik yondashuvlardan biri bo‘lib, uning asosini tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlik tashkil etadi. Tadqiqotlarda ushbu to‘rtta ko‘nikma o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faoliyati, samarali muloqoti va jamoaviy faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liqligi ta’kidlangan. 4K modelining darslik mazmuniga singdirilishi ayniqsa muhimdir. Chunki darslik o‘quv jarayonining asosiy didaktik vositalaridan biri bo‘lib, undagi topshiriqlar, savollar, muammoli vaziyatlar, amaliy mashqlar va ijodiy faoliyatlar o‘quvchining fikrlash faoliyatini bevosita yo‘naltiradi. Yangi avlod darsliklarining 4K modeli asosida ishlab chiqilishi o‘quv materiallarini shunchaki o‘zlashtirish emas, balki ularni tahlil qilish, baholash, qayta ishlash va amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Xususan, “Tabiiy fanlar” darsliklarining 4K modeli asosidagi tuzilishi va mazmuni bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham ushbu yondashuvning metodik imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Shundan kelib chiqib, tadqiqotning asosiy maqsadi — 4K modeliga asoslangan darsliklarning pedagogik va

metodik afzalliklarini aniqlash hamda ularning o‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishdagi imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda nazariy-tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, 4K modeli mohiyatiga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlar hamda zamonaviy darsliklarning metodik xususiyatlari o‘rganildi. Shuningdek, 4K modelining alohida komponentlari — tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlikning darslik topshiriqlarida namoyon bo‘lish shakllari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida quyidagi mezonlar asos qilib olindi:

Tanqidiy fikrlash mezoni — o‘quvchining axborotni tahlil qilishi, taqqoslashi, dalillarni baholashi va xulosa chiqarishiga yo‘naltirilgan topshiriqlar mavjudligi.

Kreativlik mezoni — o‘quvchining yangi g‘oya, muqobil yechim va ijodiy mahsulot yaratishiga imkon beruvchi topshiriqlarning mavjudligi.

Kommunikatsiya mezoni — o‘quvchining o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda aniq ifodalashi, savol berishi va fikr almashishiga yo‘naltirilgan faoliyatlarning mavjudligi.

Hamkorlik mezoni —juftlikda yoki kichik guruhlarda ishlash, vazifalarni taqsimlash, umumiy qaror qabul qilish va jamoaviy natijaga erishishga yo‘naltirilgan topshiriqlarning mavjudligi.

Tahlil davomida O‘zbekiston ta’lim amaliyotida 4K modelidan foydalanishga bag‘ishlangan zamonaviy ilmiy-metodik ishlar ham o‘rganildi. Mavjud tadqiqotlarda 4K modelining darslarni interfaol tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodkorligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari qayd etilgan.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari 4K modeliga asoslangan darsliklarning bir qator muhim afzalliklarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish-4K modeliga asoslangan darsliklarda o‘quvchiga faqat bitta to‘g‘ri javobni topishga qaratilgan

reproduktiv savollardan tashqari, “Nima uchun?”, “Siz qanday fikrdasiz?”, “Qaysi yechim samaraliroq?”, “Dalillar asosida izohlang” kabi fikrlashni talab qiluvchi topshiriqlar beriladi. Bunday topshiriqlar o‘quvchini tayyor ma’lumotni yodlashdan ko‘ra, uni tahlil qilish va o‘z nuqtayi nazarini asoslashga undaydi. Natijada o‘quvchining mantiqiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi. Kreativlikni shakllantirish bu 4K modelining muhim jihatlaridan biri — o‘quvchiga yagona javob bilan cheklanib qolmaslik imkonini berishidir. Darsliklarda rasm asosida hikoya tuzish, muammoning bir nechta yechimini taklif qilish, loyiha yaratish, yangi mahsulot yoki g‘oya ishlab chiqish kabi ijodiy topshiriqlardan foydalanish mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchining tasavvuri va ijodiy tafakkurini rivojlantirib, uni yangi g‘oyalar yaratishga undaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham 4K modeli asosidagi dars jarayonlari o‘quvchilarning ijodiy ko‘nikmasini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va innovatsion yondashuvini kuchaytirishi ta’kidlangan. Kommunikativ ko‘nikmani rivojlantirish ham 4K modeliga asoslangan darsliklarda o‘quvchining o‘z fikrini og‘zaki va yozma ifodalashiga katta e’tibor qaratiladi. Savol-javoblar, munozaralar, taqdimotlar, matn yaratish va o‘z fikrini himoya qilish kabi topshiriqlar kommunikativ ko‘nikmani shakllantiradi.Bu jarayonda o‘quvchi nafaqat so‘zlash, balki boshqalarning fikrini tinglash, fikrga munosabat bildirish va muloqot madaniyatiga rioya qilishni ham o‘rganadi. Hamkorlikda ishlash ko‘nikmasini shakllantirishda an’anaviy darsliklarda individual topshiriqlar ustuvor bo‘lsa, 4K modeliga asoslangan darsliklarda juftlik va guruh bilan bajariladigan faoliyatlar muhim o‘rin egallaydi. Masalan, o‘quvchilarga muayyan muammoni birgalikda hal qilish, loyiha ishlab chiqish, ma’lumotlarni taqsimlab o‘rganish va umumiy xulosa tayyorlash topshirilishi mumkin. Bu o‘quvchilarda vazifalarni taqsimlash, boshqalarning fikrini hurmat qilish, kelishuvga erishish va umumiy natija uchun mas’uliyatni his qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantirishda 4K modeliga asoslangan darsliklarning yana bir muhim afzalligi — o‘quvchining darsdagi faolligini oshirishidir.

Bunda o‘qituvchi asosiy axborot manbai bo‘lishdan ko‘ra, o‘quv faoliyatini tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi rolni bajaradi. O‘quvchi esa savol beradi, izlanadi, fikr bildiradi, dalillar keltiradi, guruh bilan ishlaydi va o‘z faoliyatining natijasini baholaydi. Shu sababli ta’lim jarayoni o‘quvchiga yo‘naltirilgan xarakter kasb etadi. Hamda bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatida 4K modeliga asoslangan darsliklarda real hayot bilan bog‘langan vaziyatli topshiriqlardan foydalanish ham o‘quvchining nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lashiga yordam beradi. Masalan, tabiiy fanlarda ekologik muammolarni tahlil qilish, matematika darslarida kundalik hayotga oid hisob-kitoblarni bajarish yoki ona tili darslarida real kommunikativ vaziyatlarga mos matn yaratish mumkin. Bunday topshiriqlar o‘quvchining funksional savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar 4K modeliga asoslangan darsliklarning an’anaviy darsliklardan farqli ravishda bilimni tayyor shaklda berish bilan cheklanmasligini ko‘rsatadi. Ularning asosiy afzalligi o‘quvchini fikrlash, izlanish, muloqot qilish va hamkorlikdagi faoliyatga jalb etishdan iborat. 4K modelining har bir komponenti alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Masalan, guruhli topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchi boshqa ishtirokchilar bilan kommunikatsiyaga kirishadi, muammoni tanqidiy tahlil qiladi, ijodiy yechim taklif etadi va jamoaviy qaror qabul qiladi. Demak, bitta topshiriqning o‘zi bir vaqtning o‘zida bir nechta ko‘nikmani rivojlantirishi mumkin. O‘zbekiston ta’lim amaliyotida olib borilayotgan tadqiqotlar ham 4K modelining boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi va turli fanlarni o‘qitishda qo‘llanish imkoniyatlari kengligini ko‘rsatmoqda. Xususan, o‘qish savodxonligi darslarida matnni tahlil qilish, savol-javob, ijodiy topshiriqlar, bahs-munozara va guruhli ishlar 4K ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, 4K modeliga asoslangan darsliklardan samarali foydalanish faqat darslik mazmuniga bog‘liq emas. O‘qituvchining metodik tayyorgarligi, darsni to‘g‘ri tashkil etishi, baholash

mezonlarining ko‘nikmaviy yondashuvga mosligi ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun yangi avlod darsliklarini joriy etish jarayonida pedagoglarning metodik ko‘nikmalarini rivojlantirish ham parallel ravishda olib borilishi lozim.

XULOSA

4K modeliga asoslangan darsliklar zamonaviy ko‘nikmaviy ta’lim talablariga javob beradigan samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot natijalari ularning asosiy afzalliklari o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va hamkorlik ko‘nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirish imkoniyati bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Bunday darsliklar o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki bilimni izlovchi, tahlil qiluvchi, yaratadigan va amaliyotda qo‘llaydigan faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, muammoli, ijodiy, hayotiy va guruhli topshiriqlarning darslik mazmuniga kiritilishi o‘quvchilarning XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhim metodik imkoniyat yaratadi. Shu asosda 4K modeliga asoslangan darsliklarni takomillashtirishda topshiriqlarning ko‘nikmaviy yo‘nalishini kuchaytirish, real hayotiy vaziyatlardan foydalanish, ochiq turdagi savollarni ko‘paytirish, loyiha va guruhli faoliyatlarni kengaytirish hamda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Esonova, R. I. (2025). Methodological Foundations of Organizing “Natural Sciences” Based on the “4K” Model. International Journal of Science and Technology, 2(2), 57–66.
2. Kadirov, T. (2025). Darslarni tashkil qilishda 4K modelini qo‘llash imkoniyatlari. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali.
3. Sattorova, M. I. (2024). The Role and Significance of the 4K Model in Teaching in Primary School. Oriental Journal of Education, 265–268.
4. Parpiyev, O. O., & Yo‘ldasheva, N. (2026). O‘qish savodxonligi darslarida 4K modelini qo‘llash usullari. Pedagogik ta’lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari, 458–462.
5. Dilova, N. (2024). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’limi muvaffaqiyatini ta’minlashda “4K” modelining imkoniyatlari. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 253–256.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

UDK: 378.147:811.111

PARAMEDITSINA YO'NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA KREATIV STRATEGIYALAR

Yaxshiboyeva Gulbahor Oybek qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili amaliy fanlari kafedrasi dotsenti.
Email:gulbahoryakhshiboyeva@icloud.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada parameditsina yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga ingliz tilini o'qitishda kreativ pedagogik strategiyalardan foydalanishning ahamiyati yoritiladi. Zamonaviy tibbiyot va tez tibbiy yordam tizimining xalqaro miqyosda rivojlanishi bo'lajak paramediklardan nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki xorijiy tilda samarali muloqot qila olish kompetensiyasini ham talab etmoqda. An'anaviy ingliz tili mashg'ulotlarida tibbiy terminlarni yodlash va grammatik mashqlarni bajarishga haddan tashqari e'tibor berilishi talabalarning amaliy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, raqamli storytelling, gamifikatsiya, rolli o'yinlar, virtual klinik simulyatsiyalar, case-study, hamkorlikdagi ta'lim va vizual strategiyalar kabi kreativ metodlardan foydalanish samarali yechim sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvlar talabalarni real kasbiy vaziyatlarga tayyorlash, tibbiy terminologiyani kontekst asosida o'zlashtirish, og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil ta'lim olish qobiliyatini shakllantirish hamda ingliz tilida muloqot qilishdagi psixologik to'siqlarni kamaytirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *parameditsina, tibbiy ingliz tili, kreativ pedagogika, EMP, kommunikativ kompetensiya, klinik simulyatsiya, gamifikatsiya, raqamli ta'lim, kasbiy muloqot, talaba avtonomiyasi.*

ТВОРЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПРЕПОДАВАНИЮ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМ, ОБУЧАЮЩИМСЯ ПО СПЕЦИАЛЬНОСТИ «СКОРАЯ МЕДИЦИНСКАЯ ПОМОЩЬ»

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение использования креативных педагогических стратегий в обучении английскому языку студентов направления «Парамедицина». Современное развитие системы здравоохранения и скорой медицинской помощи требует от будущих парамедиков не только профессиональных знаний и навыков, но и способности эффективно общаться на иностранном языке. Чрезмерное внимание к заучиванию медицинской терминологии и выполнению традиционных грамматических упражнений может ограничивать развитие практических коммуникативных навыков студентов. В связи с этим рассматриваются такие креативные методы, как цифровое повествование, геймификация, ролевые игры, виртуальные клинические симуляции, обучение на основе кейсов, совместная работа и визуальные стратегии. Данные подходы способствуют подготовке студентов к*

реальным профессиональным ситуациям, усвоению медицинской терминологии в контексте, развитию устной речи, самостоятельности и снижению языковой тревожности.

Ключевые слова: *парамедицина, медицинский английский, креативная педагогика, ESP, коммуникативная компетенция, клиническая симуляция, геймификация, цифровое обучение, профессиональная коммуникация.*

CREATIVE STRATEGIES FOR TEACHING ENGLISH TO PARAMEDICINE STUDENTS

Abstract: *This article examines the role of creative pedagogical strategies in teaching English to students majoring in paramedicine. The development of modern healthcare and emergency medical services requires future paramedics to possess not only professional knowledge and skills but also the ability to communicate effectively in English. Excessive emphasis on memorizing medical terminology and completing traditional grammar exercises may limit students' opportunities to develop practical communicative competence. Therefore, creative approaches such as digital storytelling, gamification, role-play, virtual clinical simulations, case-based learning, collaborative learning, and visual thinking strategies are considered effective tools for teaching medical English. These approaches can prepare students for authentic professional situations, facilitate contextualized learning of medical terminology, improve oral communication skills, promote learner autonomy, and reduce anxiety when communicating in English.*

Keywords: *paramedicine, medical English, creative pedagogy, ESP, communicative competence, clinical simulation, gamification, digital learning, professional communication, learner autonomy.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli ta'limning jadal rivojlanishi xorijiy tillarni kasbiy yo'nalishlarga integratsiya qilish masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Ayniqsa, tibbiyot va tez tibbiy yordam sohasida xalqaro hamkorlikning kuchayishi kelajakdagi mutaxassislardan kasbiy bilimlar bilan bir qatorda xorijiy tillarda samarali muloqot qilish qobiliyatini ham talab etmoqda.

Paramediklar favqulodda vaziyatlarda bemorlar, ularning yaqinlari, shifokorlar, hamshiralar, dispetcherlar va boshqa tibbiyot xodimlari bilan tez va aniq muloqot qilishlari zarur. Bunday vaziyatlarda noto'g'ri tushunilgan yoki noaniq berilgan ma'lumot bemorning holatiga bevosita ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli parameditsina



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘rgatishda umumiy til kompetensiyasidan tashqari **kasbiy kommunikativ kompetensiya**ni shakllantirish muhim hisoblanadi.

English for Specific Purposes (ESP) yondashuvi talabalarning ingliz tilini kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog‘lash imkonini beradi. Parameditsina talabalariga mo‘ljallangan ingliz tili darslarida *patient assessment, vital signs, emergency care, first aid, trauma, bleeding, fracture, respiratory distress, chest pain, unconsciousness* kabi terminlar bilan bir qatorda ushbu birliklardan real kommunikativ vaziyatlarda foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirish lozim.

Kreativ pedagogika faqatgina ijodiy yoki badiiy topshiriqlar bilan chegaralanmaydi. U muammolarni noodatiy yo‘l bilan hal qilish, mustaqil fikrlash, hamkorlik qilish, turli vaziyatlarga moslashish va tilni real kontekstlarda qo‘llash imkoniyatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Maley va Peachey (2015) kreativ faoliyatlar o‘quvchilarning kognitiv faolligi, motivatsiyasi va til mahsuldorligini oshirishini ta’kidlaydi. Bu tamoyil parameditsina talabalari uchun ayniqsa muhim, chunki ular ingliz tilini faqat akademik maqsadlarda emas, balki kelajakdagi professional faoliyatlarida ham qo‘llashlari mumkin.

Masalan, talabaga *“The patient has difficulty breathing”* gapini shunchaki tarjima qildirish o‘rniga, “Siz tez yordam paramedigi sifatida nafas olishida qiyinchilik bo‘lgan bemor bilan qanday muloqot qilasiz?” degan vaziyat berilishi mumkin. Bunda talaba yangi so‘zlarni yodlash bilan cheklanmay, ularni kasbiy kommunikativ vaziyatda qo‘llaydi.

Parameditsina talabalariga ingliz tilini, ayniqsa onlayn muhitda o‘qitishda bir qator muammolar mavjud.

Birinchidan, **tibbiy terminlarni mexanik yodlash** talabalarning lug‘at boyligini oshirishi mumkin, biroq terminlardan amaliy foydalanish ko‘nikmasini har doim ham shakllantirmaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ikkinchidan, **real klinik muloqotning yetishmasligi** talabalarning bemor bilan suhbatlashish, anamnez yig‘ish, simptomlarni aniqlash va bemorga ko‘rsatma berish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishni qiyinlashtiradi.

Uchinchidan, **bir xil turdagi onlayn mashqlarning takrorlanishi** talabalarning qiziqishini pasaytirishi mumkin.

To‘rtinchidan, ingliz tilida gapirish jarayonidagi **til va psixologik to‘siqlar** talabalarning o‘z bilimlarini amalda namoyish etishiga xalaqit berishi mumkin.

Shu sababli dars jarayoniga kreativ va interaktiv metodlarni kiritish muhim ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA

1. Raqamli storytelling

Digital storytelling, ya’ni raqamli hikoyalash parameditsina talabalarining yozish, gapirish, lug‘at boyligi va voqealarni ketma-ket ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Masalan, talabalar **“A Road Traffic Accident”, “An Emergency Call”** yoki **“A Patient with Chest Pain”** mavzularida qisqa raqamli hikoya yaratishlari mumkin. Bunda Canva, Google Slides yoki boshqa raqamli vositalardan foydalanish mumkin.

Talaba voqea rivojini ingliz tilida tasvirlaydi:

Emergency call → Arrival at the scene → Patient assessment → First aid →

Communication with the hospital → Patient transportation

Ushbu faoliyat orqali talabalar yangi tibbiy terminlarni izolyatsiya qilingan holda emas, balki mazmunli kontekstda o‘zlashtiradilar.

2. Gamifikatsiya

Gamifikatsiya tibbiy terminologiya va grammatikani o‘rganishni qiziqarli va interaktiv jarayonga aylantirish imkonini beradi.

Kahoot, Quizizz va Wordwall kabi platformalar orqali:

- tibbiy terminlarni aniqlash;

- simptom va kasalliklarni moslashtirish;
- tibbiy jihozlarni nomlash;
- bemorga beriladigan ko‘rsatmalarni tanlash;
- grammatik strukturalarni takrorlash

kabi topshiriqlarni tashkil qilish mumkin.

Masalan, “Guess the Medical Term” o‘yinida o‘qituvchi biror tibbiy holatni tavsiflaydi, talabalar esa tegishli terminni topadilar. Bunday faoliyatlar takroriy mashqni raqobat va qiziqish elementlari bilan boyitadi.

3. Rolli o‘yin va virtual klinik simulyatsiya

Rolli o‘yin parameditsina talabalariga ingliz tilida kasbiy muloqotni o‘rgatishda eng samarali strategiyalardan biridir.

Onlayn mashg‘ulotlarda talabalar Zoom yoki Google Meet kabi platformalarning kichik guruh xonalaridan foydalanib, quyidagi rollarni bajarishlari mumkin:

- paramedic;
- patient;
- patient's relative;
- emergency dispatcher;
- doctor;
- nurse.

Masalan, bir talaba paramedik, ikkinchi talaba esa ko‘krak qafasida og‘riqdan shikoyat qilayotgan bemor rolini bajaradi. Paramedik bemorga savollar beradi, simptomlarni aniqlaydi, hayotiy ko‘rsatkichlar haqida ma’lumot oladi va tegishli ko‘rsatmalar beradi.

Bu jarayonda quyidagi kommunikativ birliklar amaliy tarzda o‘zlashtiriladi:

“What happened?”

“Where does it hurt?”

“How long have you had this pain?”

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

"Are you having difficulty breathing?"

"Please stay calm."

"I am going to check your blood pressure."

4. Case-based learning

Case-based learning, ya'ni vaziyatli ta'lim parameditsina talabalari uchun ingliz tili va kasbiy bilimlarni integratsiya qilish imkonini beradi.

Bu usul bir vaqtning o'zida ingliz tili, tibbiy terminologiya, tanqidiy fikrlash va kasbiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

5. Hamkorlikdagi raqamli ta'lim

Padlet, Google Docs va boshqa hamkorlik platformalari yordamida talabalar birgalikda ingliz tilidagi kasbiy materiallarni yaratishlari mumkin.

Masalan, guruhlar quyidagi loyihalarni bajarishi mumkin:

- "Emergency Vocabulary Bank";
- "First Aid Expressions";
- "Patient Assessment Checklist";
- "Emergency Communication Phrases";
- "Medical Equipment Dictionary".

Hamkorlikdagi faoliyat talabalarni bir-biridan o'rganishga, fikr almashishga va o'z bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirishga undaydi.

6. Vizual fikrlash strategiyalari

Tibbiy terminologiyaning katta hajmi uni vizual vositalar orqali o'zlashtirishni samaraliroq qilishi mumkin. Mind map, diagramma, flowchart va infografikalardan foydalanish talabalar uchun murakkab tibbiy jarayonlarni tizimlashtirishga yordam beradi.

Masalan, bemorni dastlabki baholash jarayoni quyidagicha vizuallashtirilishi mumkin:

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Scene safety → Primary assessment → Airway → Breathing → Circulation → Patient history → Secondary assessment → Treatment → Transportation

Talabalar ushbu sxemani ingliz tilida mustaqil yaratishlari orqali ham kasbiy bilimlarini, ham ingliz tilidagi terminologiyasini mustahkamlaydilar.

7. Video asosida ta'lim

Autentik yoki maxsus tayyorlangan tibbiy videolardan foydalanish talabalarga real kasbiy muloqot namunalarini ko'rsatish imkonini beradi.

Video asosidagi mashg'ulotlarda talabalar:

- yangi tibbiy terminlarni aniqlash;
- bemor va paramedik o'rtasidagi dialogni tahlil qilish;
- asosiy kommunikativ iboralarni ajratish;
- dialogni qayta tiklash;
- o'zlarining qisqa klinik dialoglarini yozib olish

kabi topshiriqlarni bajarishlari mumkin.

Bu usul ayniqsa listening va speaking ko'nikmalarini birgalikda rivojlantirish uchun foydalidir.

Parameditsina talabalariga ingliz tilini o'qitishda kreativ strategiyalardan foydalanish bir qator ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Avvalo, talabalar **ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini** oshiradi, chunki o'quv materiallari ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bevosita bog'lanadi.

Ikkinchidan, tibbiy terminlar **kontekst asosida o'zlashtirilgani** sababli ularning uzoq muddatli xotirada saqlanish imkoniyati ortadi.

Uchinchidan, rolli o'yin va klinik simulyatsiyalar talabalarning **professional kommunikativ kompetensiyasini** rivojlantiradi.

To'rtinchidan, case-study va muammoli vaziyatlar **tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini** shakllantirishga yordam beradi.

Beshinchidan, raqamli va hamkorlikdagi topshiriqlar **talaba avtonomiyasini** rivojlantirib, mustaqil ta'lim olishga undaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, parameditsina yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitish faqat tibbiy terminlarni yodlash yoki grammatik mashqlarni bajarish bilan cheklanmasligi lozim. Bo'lajak paramediklar ingliz tilidan real professional vaziyatlarda foydalanish, bemorlar bilan muloqot qilish, simptomlarni aniqlash, ko'rsatmalar berish va boshqa tibbiyot xodimlariga ma'lumot yetkazish qobiliyatiga ega bo'lishlari zarur.

Kreativ pedagogik strategiyalar — raqamli storytelling, gamifikatsiya, rolli o'yinlar, virtual klinik simulyatsiyalar, case-based learning, hamkorlikdagi raqamli loyihalar va vizual fikrlash — bunday kompetensiyalarni shakllantirish uchun samarali vosita bo'la oladi.

Shuningdek, kreativ yondashuvlar ingliz tili darslarini talabalar uchun mazmunli, interaktiv va kasbiy jihatdan dolzarb qiladi. Shu sababli parameditsina yo'nalishida English for Specific Purposes kurslarini ishlab chiqishda kreativ va raqamli metodlardan tizimli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kelgusidagi tadqiqotlarda mazkur strategiyalarning parameditsina talabalarining tibbiy ingliz tili lug'at boyligi, speaking va listening ko'nikmalari, professional kommunikativ kompetensiyasi hamda o'quv motivatsiyasiga uzoq muddatli ta'sirini empirik jihatdan o'rganish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maley, A., & Peachey, N. (2015). *Creativity in the English Language Classroom*. British Council.
2. Nation, I. S. P. (2009). *Teaching ESL/EFL Listening and Speaking*. Routledge.
3. Richards, J. C. (2013). *Curriculum Approaches in Language Teaching*. Cambridge University Press.
4. Warschauer, M. (2011). *Learning in the Cloud: How (and Why) to Transform Schools with Digital Media*. Teachers College Press.
5. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-disciplinary Approach*. Cambridge University Press.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

6. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach*. Cambridge University Press.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

TALABA YOSHLARNI MUSTAQIL OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH

Kushakova Gulnora Egamqulovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Maktabgacha ta'lim kafedrasi professori
Kushakova@mail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talaba yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy infratuzilmasini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Muallif oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan oilaviy tarbiya, psixologik-pedagogik maslahat xizmatlari, talabalar turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy dastur va mexanizmlarning hozirgi holatini o'rganib, ularning samaradorligini oshirish yo'llarini ko'rsatib bergan. Tadqiqotda ijtimoiy infratuzilma tushunchasining mazmun-mohiyati, uning talabalar oilaviy hayotga tayyorgarligidagi o'rni, shuningdek xorijiy tajriba asosida O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola xulosalarida oliy ta'lim muassasalari, mahalla, oila va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlovchi kompleks yondashuv taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *talaba yoshlar, oilaviy hayotga tayyorgarlik, ijtimoiy infratuzilma, oliy ta'lim muassasasi, psixologik-pedagogik xizmat, oila instituti, ijtimoiy sheriklik, mahalla, tarbiya.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ К САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация: *В данной статье анализируются вопросы совершенствования социальной инфраструктуры подготовки студенческой молодёжи к самостоятельной семейной жизни. Автор изучает современное состояние реализуемых в высших образовательных учреждениях программ семейного воспитания, психолого-педагогических консультационных служб и социальных механизмов, направленных на улучшение условий жизни студентов, и определяет пути повышения их эффективности. В исследовании раскрыты сущность понятия «социальная инфраструктура», её роль в формировании готовности студентов к семейной жизни, а также разработаны рекомендации, адаптированные к условиям Узбекистана на основе зарубежного опыта. В выводах статьи предложен комплексный подход, укрепляющий сотрудничество между высшими учебными заведениями, махаллёй, семьёй и государственными органами.*

Ключевые слова: *студенческая молодёжь, готовность к семейной жизни, социальная инфраструктура, высшее учебное заведение, психолого-педагогическая служба, институт семьи, социальное партнёрство, махалля, воспитание*

IMPROVING THE SOCIAL INFRASTRUCTURE FOR PREPARING UNIVERSITY STUDENTS FOR INDEPENDENT FAMILY LIFE

Annotation: *This article analyzes the issues of improving the social infrastructure for preparing student youth for independent family life. The author examines the current state of family education programs, psychological-pedagogical counseling services, and social programs aimed at improving students' living conditions implemented in higher education institutions, and identifies ways to increase their effectiveness. The study reveals the essence of the concept of "social infrastructure," its role in shaping students' readiness for family life, and develops recommendations adapted to the conditions of Uzbekistan on the basis of foreign experience. The conclusions of the article propose an integrated approach that strengthens cooperation between higher education institutions, mahalla, family, and state authorities.*

Key words: *student youth, readiness for family life, social infrastructure, higher education institution, psychological-pedagogical service, family institution, social partnership, mahalla, upbringing.*

KIRISH

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati tubdan yangilanib, ularning ma'naviy-axloqiy, jismoniy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi, shuning uchun talaba yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash masalasi nafaqat pedagogik, balki umummilliy ahamiyatga ega ijtimoiy vazifa sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, "Oila yili" davlat dasturi hamda mahalla institutini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash sohasidagi ishlarni tizimli tashkil etish zaruratini belgilab bermoqda.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba-yoshlar o'rtasida oilaviy munosabatlar madaniyati, oila iqtisodiyoti, ota-onalik mas'uliyati, nikoh va oila huquqi kabi sohalarda bilim va ko'nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatilmoqda. Bu holat ko'p hollarda erta nikohlarning barbod bo'lishi, oilaviy nizolarning ortishi, ajralishlar sonining ko'payishi kabi salbiy ijtimoiy oqibatlarga olib kelmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizda yosh oilalarda (nikohning dastlabki besh yili) ajralish holatlari boshqa yosh guruhlariga nisbatan yuqori ko'rsatkichni tashkil etadi, bu esa muammoning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Mazkur muammoning yechimi nafaqat oilaviy tarbiya mazmunini yaxshilashda, balki bu jarayonni ta'minlaydigan ijtimoiy infratuzilmani — ya'ni oliy ta'lim muassasalaridagi maslahat xizmatlari, psixologik yordam markazlari, talabalar turar joylari, mahalliy hokimiyat va nikoh-oila munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi institutlar tizimini takomillashtirishda ham namoyon bo'ladi. Shu bois talaba yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy infratuzilmasini ilmiy asoslash, uning mavjud holatini tahlil qilish va takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb pedagogik-ijtimoiy muammo bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi — talaba yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy infratuzilmasi tarkibiy qismlarini aniqlash, uning hozirgi holatini tahlil qilish hamda oliy ta'lim tizimida samarali faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan tashkiliy-pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Oilaviy hayotga tayyorgarlik muammosi pedagogika va psixologiya fanida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinmoqda. I.S.Kon, A.G.Xarchev kabi rus olimlari oila sotsiologiyasi va yosh nikohlar psixologiyasi masalalarini chuqur o'rgangan bo'lsalar, O'zbekiston pedagogikasida bu yo'nalish M.G.Davletshin, R.M.Sulaymonova, N.A.Muslimov, B.R.Adizov kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Xususan, oila pedagogikasi va yoshlarni nikoh-oila munosabatlariga tayyorlash masalalari doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarida atroflicha yoritilgan.

G.E.Kushakova o'zining ilgari nashr etilgan ishlarida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning oilaviy muhitda tarbiyalanishi masalalarini tadqiq etgan bo'lib, ushbu tajriba talaba yoshlarning kelajakdagi ota-onalik vazifasiga tayyorgarligini shakllantirishda muhim uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Zero, bo'lajak ota-onalarning bolalar tarbiyasi to'g'risidagi bilimlari aynan oliy ta'lim davrida shakllantirilishi lozim.

Xorijiy tadqiqotlarda (AQSH, Janubiy Koreya, Germaniya tajribasi) "family life education" (oilaviy hayot ta'limi) alohida fan sifatida oliy ta'lim dasturlariga kiritilgani,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

universitetlar qoshida "Family Resource Center" kabi maxsus markazlar faoliyat yuritishi ma'lum. Bunday markazlar talabalarga nikohgacha maslahat berish, moliyaviy savodxonlik, ota-onalik ko'nikmalari bo'yicha treninglar tashkil etadi. Ushbu xorijiy tajriba O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham moslashtirilgan holda joriy etilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlarda talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy infratuzilmasi tarkibiy qismlari, ularning o'zaro bog'liqligi va institutsional mexanizmlari yaxlit tizim sifatida yetarlicha tadqiq etilmaganligi aniqlandi. Bu esa mazkur yo'nalishda maxsus tadqiqot olib borish zaruratini kuchaytiradi.

Xorijiy tajribani chuqurroq tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash davlat siyosati darajasida tizimli tashkil etilgan. Xususan, AQShning ko'plab shtatlarida "Family and Consumer Sciences" fani o'rta va oliy ta'lim dasturlariga majburiy tarzda kiritilgan bo'lib, unda talabalar oila byudjetini rejalashtirish, farzand tarbiyasi, sog'lom turmush tarzi asoslarini o'rganadilar. Janubiy Koreyada esa "Healthy Family Support Center" nomli davlat tashkiloti barcha yirik universitetlar qoshida filiallarga ega bo'lib, nikohgacha psixologik testlash va maslahat xizmatlarini bepul asosda taqdim etadi. Germaniyada "Ehe- und Familienberatung" (nikoh va oila bo'yicha maslahat) markazlari cherkov va davlat tashkilotlari hamkorligida faoliyat yuritib, yosh juftliklarga huquqiy va psixologik yordam ko'rsatadi.

Rossiya Federatsiyasi tajribasida ham so'nggi yillarda universitetlar qoshida "Studencheskaya semya" (talabalar oilasi) dasturlari joriy etilib, oilali talabalarga alohida ijtimoiy to'lovlar, yengillashtirilgan turar joy shartlari taqdim etilmoqda. Qozog'iston va Qirg'iziston kabi qo'shni davlatlarda ham oliy ta'lim muassasalarida "Semeynaya psixologiya" fani ixtiyoriy modul sifatida joriy etilgan. Ushbu xorijiy tajribalarning umumiy xususiyati shundaki, ular alohida-alohida tashabbuslar emas, balki davlat, ta'lim tizimi va jamoat tashkilotlarining muvofiqlashtirilgan sa'y-harakati natijasida

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

barqaror institutsional shaklga ega bo'lgan. Aynan shu jihat O'zbekiston sharoiti uchun eng muhim uslubiy saboq bo'lib xizmat qiladi — ya'ni ijtimoiy infratuzilmani parcha-parcha emas, balki yaxlit tizim sifatida shakllantirish lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: mavzuga oid ilmiy-pedagogik, sotsiologik va me'yoriy-huquqiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish; qiyosiy-tarixiy tahlil (O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasini qiyoslash); tizimli-struktaviy tahlil (ijtimoiy infratuzilmani o'zaro bog'liq komponentlar yig'indisi sifatida o'rganish); mantiqiy tahlil va sintez; induktiv-deduktiv xulosa chiqarish metodi, shuningdek pedagogik modellashtirish metodi, bu orqali ijtimoiy infratuzilmaning nazariy modeli va uni takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning nazariy bazasini O'zbekiston Respublikasining yoshlar siyosati, oila va ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari, mahalliy va xorijiy olimlarning oila pedagogikasi va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammolariga bag'ishlangan ilmiy ishlari, shuningdek Jizzax davlat pedagogika universiteti va boshqa oliy ta'lim muassasalarining oilaviy tarbiya, psixologik xizmat va talabalar ijtimoiy qo'llab-quvvatlashiga oid rasmiy hujjatlari, nizom va yo'riqnomalari tashkil etdi. Tahlil predmeti sifatida ijtimoiy infratuzilmaning tarkibiy qismlari — ta'lim-tarbiyaviy, maslahat-psixologik, ijtimoiy-huquqiy, moddiy-maishiy va axborot-kommunikatsiya komponentlari — o'rtasidagi mantiqiy-funksional bog'liqlik tanlab olindi.

Tadqiqotning metodologik yondashuvi tizimli-faoliyat va kompleks yondashuvlarga asoslandi: birinchisi ijtimoiy infratuzilmani yaxlit tizim sifatida, uning barcha elementlari o'zaro uzviy bog'liqlikda faoliyat yuritishi lozimligini asoslasa, ikkinchisi esa muammoni yechishda oliy ta'lim muassasasi, oila, mahalla va davlat organlarining birgalikdagi harakatini talab etuvchi ko'p tomonlama tahlilni taqozo etadi. Shu asosda mavjud me'yoriy-huquqiy baza va amaliyotdagi tashkiliy shakllarning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

nazariy jihatdan qiyosiy tahlili amalga oshirildi, ularning kuchli va zaif tomonlari aniqlandi hamda ilmiy jihatdan asoslangan takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Talaba yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy infratuzilmasi deganda, biz oliy ta'lim muassasasi va undan tashqaridagi ijtimoiy institutlarning o'zaro bog'liq holda talabalarga oilaviy hayot uchun zarur bilim, ko'nikma va qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi tashkiliy, moddiy-texnik va institutsional tizimni tushunamiz. Ushbu tizim tarkibiga quyidagi asosiy komponentlarni kiritish mumkin:

1) Ta'lim-tarbiyaviy komponent — "Oila psixologiyasi va pedagogikasi", "Nikoh va oila huquqi asoslari" kabi fakultativ kurslar, ma'ruza-seminarlar, klublar faoliyati;

2) Maslahat-psixologik komponent — universitet psixologik xizmat markazlari, individual va guruhli maslahatlar, trening dasturlari;

3) Ijtimoiy-huquqiy komponent — talaba-yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, fuqarolik holati dalolatnomalari organlari, mahalla fuqarolar yig'ini bilan hamkorlik;

4) Moddiy-maishiy komponent — oilali talabalar uchun ijtimoiy stipendiya, yotoqxonalarda oilali talabalar uchun sharoit yaratish, bolalar bog'chasi xizmatlaridan foydalanish imkoniyati;

5) Axborot-kommunikatsiya komponenti — media vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali oilaviy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi loyihalar.

Ijtimoiy infratuzilmaning ta'lim-tarbiyaviy komponentini nazariy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalarida oilaviy hayotga tayyorgarlikka oid maxsus, alohida fan yoki modul dasturi, qoida tariqasida, mavjud emas. Talabalar oila iqtisodiyoti, nikoh-oila huquqi va ota-onalik mas'uliyati kabi masalalar bo'yicha bilimlarni asosan tarqoq tarzda — ijtimoiy fanlar, huquq asoslari kabi umumiy fanlar doirasida qisman va tizimsiz shaklda o'zlashtiradilar. Bu esa ularning kelgusi oilaviy hayotga amaliy jihatdan tayyorgarlik darajasini pasaytiradigan omil

bo'lib xizmat qiladi, chunki nazariy bilimlar amaliy ko'nikmalarga aylantirilmasdan qolib ketmoqda.

Maslahat-psixologik komponentni tahlil qilish natijasida shu narsa ayon bo'ldiki, ko'pchilik oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan psixologik xizmat markazlari asosan talabalarning ta'lim jarayoniga moslashuvi, stress holatlari va imtihon davridagi psixologik yordam kabi masalalarga ixtisoslashgan bo'lib, ularning faoliyat yo'nalishida nikoh-oila munosabatlariga tayyorgarlik, nikohgacha maslahat kabi maxsus xizmat turlari alohida institutsional shaklda ajratilmagan. Bu holat — mazkur markazlarning me'yoriy-huquqiy maqomi, ish rejalari va mutaxassislar tayyorlash tizimini tahlil qilish orqali — ularning vazifalar doirasi rasman kengaytirilmaguncha, oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi ishlarning ikkinchi darajali, tasodifiy tashabbus xarakterida qolib ketishi ehtimolini ko'rsatadi.

Ijtimoiy-huquqiy va institutsional hamkorlik komponentini tahlil qilishda oliy ta'lim muassasasi, mahalla fuqarolar yig'ini, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari va "Yoshlar ittifoqi" kabi tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus, izchil me'yoriy hujjat yoki ijtimoiy sheriklik mexanizmining amalda deyarli mavjud emasligi aniqlandi. Mavjud hamkorlik, asosan, tadbirlar darajasidagi vaqtinchalik tashabbuslar (uchrashuvlar, ma'ruzalar) shaklida namoyon bo'lib, u doimiy, natijaga yo'naltirilgan va monitoring qilinadigan institutsional tizim darajasiga ko'tarilmagan. Bu esa infratuzilma elementlari o'rtasidagi funksional uzilishning asosiy sabablaridan biri sifatida baholanadi.

Moddiy-maishiy komponent bo'yicha nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, amaldagi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari (stipendiya turlari, yotoqxona sharoitlari) umumiy talabalar kontingentiga mo'ljallangan bo'lib, oilali talaba-yoshlarning o'ziga xos ehtiyojlari (masalan, alohida turar joy sharoiti, bolalar parvarishi bilan bog'liq qulayliklar) uchun maxsus ajratilgan me'yoriy-huquqiy asos va moliyaviy mexanizmlar amalda cheklangan yoki umuman mavjud emas. Axborot-kommunikatsiya

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

komponentini tahlil qilish esa oilaviy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi ma'rifiy materiallarning tarqoq, tizimga solinmagan va universitetning yagona axborot makoniga integratsiya qilinmagan holda tarqalayotganini ko'rsatadi.

Xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil natijasida shu xulosaga kelish mumkin: rivojlangan mamlakatlarda oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha xizmatlar bosqichma-bosqich — ya'ni ta'lim dasturidan tortib maxsus markazlar faoliyatigacha — yagona institutsional zanjir sifatida qurilgan bo'lsa, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida bunday zanjirning alohida bo'g'inlari (fanlar, markazlar, hamkorlik shakllari) mavjud bo'lsa-da, ular o'zaro mantiqiy bog'liqlikka ega yaxlit tizim sifatida shakllanmagan. Aynan shu — tizimlilik va institutsional uzviylik yetishmovchiligi — mazkur tadqiqotda aniqlangan asosiy nazariy-amaliy muammo hisoblanadi.

— oliy ta'lim muassasalarida oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha alohida, tizimli fan yoki modul dasturining mavjud emasligi;

— psixologik xizmat markazlarining moddiy-texnik va kadrlar salohiyati jihatidan yetarli darajada ta'minlanmaganligi;

— oliy ta'lim muassasasi, mahalla instituti va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari o'rtasidagi hamkorlikning izchil tizim sifatida shakllanmaganligi;

— talabalar orasida oilaviy hayotga tayyorgarlikka oid axborot manbalarining tarqoq va tizimsizligi;

— oilali talaba-yoshlarni ijtimoiy-moddiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining cheklanganligi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi tashkiliy-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim dasturlariga "Oilaviy hayot asoslari va ota-onalik pedagogikasi" nomli tanlov fanini kiritish maqsadga muvofiqdir. Ushbu fan doirasida talabalar oila iqtisodiyoti, bolalar tarbiyasi psixologiyasi, nikoh-oila huquqi, konfliktologiya asoslarini o'rganishlari lozim.

Ikkinchidan, har bir oliy ta'lim muassasasida "Oila va yoshlar maslahat markazi" tashkil etilishi, unda malakali psixolog, yurist va pedagog mutaxassislar faoliyat yuritishi, talabalarga bepul individual va guruhli maslahat xizmatlari ko'rsatilishi zarur.

Uchinchidan, oliy ta'lim muassasasi, mahalla fuqarolar yig'ini, "Yoshlar ittifoqi" va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari o'rtasida doimiy asosda ijtimoiy sheriklik shartnomalari tuzilishi, mazkur institutlar hamkorlikda "Nikohgacha maslahat" xizmatini yo'lga qo'yishi maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, oilali talaba-yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ijtimoiy stipendiya tizimini kengaytirish, universitet yotoqxonalarida oilali talabalar uchun alohida turar joy sharoitlarini yaratish, imkon qadar universitet qoshida bolalar bog'chasi yoki kunduzgi parvarish xonalari tashkil etish tavsiya etiladi.

Beshinchidan, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali "Sog'lom oila — barqaror jamiyat asosi" mavzusidagi ma'rifiy-tarbiyaviy loyihalarni muntazam tashkil etish, talabalar ommaviy axborot vositalaridan oilaviy qadriyatlarga oid ishonchli va sifatli kontent olishini ta'minlash lozim.

1-jadval. Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy infratuzilmasi komponentlari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari

Infratuzilma komponenti	Hozirgi holati	Takomillashtirish yo'nalishi
Ta'lim-tarbiyaviy	Tizimli fan mavjud emas	Tanlov fanini joriy etish
Maslahat-psixologik	Kadrlar yetishmaydi	Markaz shtatini kengaytirish
Ijtimoiy-huquqiy	Hamkorlik izchil emas	Ijtimoiy sheriklik shartnomalari

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Infratuzilma komponenti	Hozirgi holati	Takomillashtirish yo'nalishi
Moddiy-maishiy	Cheklangan qo'llab-quvvatlash	Ijtimoiy stipendiya, turar joy
Axborot-kommunikatsiya	Tarqoq, tizimsiz	Raqamli ma'rifiy loyihalar

XULOSA VA TAVSIYALAR

O'tkazilgan tadqiqot talaba yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy infratuzilmasi murakkab, ko'p bosqichli tizim ekanligini, uning samarali faoliyat yuritishi ta'lim-tarbiyaviy, maslahat-psixologik, ijtimoiy-huquqiy, moddiy-maishiy va axborot-kommunikatsiya komponentlarining uyg'un hamkorligiga bog'liqligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida ushbu yo'nalishdagi ishlar ma'lum darajada olib borilayotgan bo'lsa-da, ular tizimli, uzluksiz va institutsional jihatdan mustahkamlangan xarakterga ega emas.

Shu asosda quyidagi umumlashtiruvchi xulosalarga kelindi:

— talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash nafaqat oilaviy tarbiya, balki uzluksiz ta'lim tizimining, xususan oliy ta'lim bosqichining ham muhim vazifasi hisoblanadi;

— ushbu jarayonni ta'minlovchi ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish oliy ta'lim muassasasi, oila, mahalla va davlat organlarining hamkorlikdagi kompleks yondashuvini talab etadi;

— maqolada taklif etilgan tashkiliy-pedagogik tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish talaba-yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasini oshirish, yosh oilalardagi nizolar va ajralishlar sonini kamaytirishga xizmat qiladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Kelgusi tadqiqotlarda ijtimoiy infratuzilma samaradorligini baholashning mezon va ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, shuningdek turli mintaqalar oliy ta'lim muassasalari tajribasini qiyosiy tahlil qilish istiqbolli yo'nalish bo'lib qolishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 2016-yil 14-sentyabr, O'RQ-406-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
3. Kushakova G.E. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni oilaviy muhitda tarbiyalash pedagogikasi. — Jizzax: JizDPI nashriyoti, 2022. — 168 b.
4. Sulaymonova R.M. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari. — Toshkent: Fan, 2019. — 214 b.
5. Adizov B.R., Muslimov N.A. Pedagogika: nazariya va amaliyot. — Toshkent: O'qituvchi, 2021. — 312 b.
6. Харчев А.Г. Брак и семья в СССР: опыт социологического исследования. — М.: Мысль, 1979. — 367 с.
7. Кон И.С. Психология ранней юности. — М.: Просвещение, 1989. — 255 с.
8. Olson D.H., DeFrain J. Marriages and Families: Intimacy, Diversity, and Strengths. — New York: McGraw-Hill, 2020. — 528 p.
9. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlari. — Toshkent, 2025.
10. Davletshin M.G. Yosh oilalar psixologiyasi. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. — 186 b.

TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RETROSPEKTIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOQ MUSIQA SAN'ATINING EVOLYUTSION RIVOJLANISH KONTSEPTSIYASI ASOSIDA)

Moyanov Iqlasbay Jiyenbayevich
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
iqlasbaymoyanov1985@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va takomillashtirishda retrospektiv yondashuvning metodologik salohiyati nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot Qoraqalpoq musiqa san'atining evolyutsion rivojlanish kontseptsiyasi misolida olib borilgan bo'lib, unda milliy musiqa merosining tarixiy-genetik qatlamlari pedagogik resurs sifatida qaraladi. Muallif retrospektiv yondashuvning tamoyillarini asoslaydi, kasbiy kompetentlikning etnomadaniy komponentini ajratib ko'rsatadi hamda uni takomillashtirishning beshta o'zaro bog'liq mexanizmini — motivatsion-qadriyatli, mazmuniy-strukturaviy, texnologik-metodik, refleksiv-baholash va institutsional-muhit mexanizmlarini modellashtiradi. Maqola konseptual-nazariy tavsifga ega bo'lib, keyingi eksperimental tadqiqotlar uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.*

Kalit so'zlar: *kasbiy kompetentlik, retrospektiv yondashuv, evolyutsion rivojlanish kontseptsiyasi, Qoraqalpoq musiqa san'ati, etnomadaniy kompetentlik, pedagogik mexanizm, madaniy muvofiqlik, refleksiya.*

МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ РЕТРОСПЕКТИВНОГО ПОДХОДА (НА ПРИМЕРЕ КОНЦЕПЦИИ ЭВОЛЮЦИОННОГО РАЗВИТИЯ КАРАКАЛПАКСКОГО МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА)

Аннотация. *В статье теоретически анализируется методологический потенциал ретроспективного подхода в формировании и совершенствовании профессиональной компетентности будущих специалистов. Исследование проведено на материале концепции эволюционного развития каракалпакского музыкального искусства, где исторические пласты национального музыкального наследия рассматриваются как педагогический ресурс. Автор обосновывает принципы ретроспективного подхода, выделяет этнокультурный компонент профессиональной компетентности и моделирует пять взаимосвязанных механизмов её совершенствования. Работа носит концептуально-теоретический характер и не включает опытно-экспериментальную часть.*

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, ретроспективный подход, концепция эволюционного развития, каракалпакское музыкальное искусство, этнокультурная компетентность, педагогический механизм, рефлексия.*

MECHANISMS FOR ENHANCING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE BASED ON A RETROSPECTIVE APPROACH (BASED ON THE CONCEPT OF THE EVOLUTIONARY DEVELOPMENT OF KARAKALPAK MUSICAL ART)

Abstract. *The article provides a theoretical analysis of the methodological potential of the retrospective approach in developing the professional competence of future specialists. The study is based on the concept of the evolutionary development of Karakalpak musical art, in which the historical and genetic layers of national musical heritage are treated as a pedagogical resource. The author substantiates the principles of the retrospective approach, identifies the ethnocultural component of professional competence, and models five interrelated mechanisms for its improvement. The paper is conceptual and theoretical in nature and does not include experimental verification.*

Keywords: *professional competence, retrospective approach, concept of evolutionary development, Karakalpak musical art, ethnocultural competence, pedagogical mechanism, reflection.*

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimining strategik yo'nalishi bilim-ko'nikma paradigmasidan kompetentlikka asoslangan paradigmaga o'tish bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida [1] ta'lim mazmunini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, bitiruvchilarning kasbiy va ijtimoiy kompetentligini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish vazifasi qo'yilgan. Biroq amaliyotda kompetentlikni shakllantirish ko'pincha texnologik-instrumental jihatga qisqartirilib, uning madaniy-tarixiy zaminiga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi.

Ushbu ziddiyat san'at va musiqa ta'limi sohasida yanada keskin namoyon bo'ladi. Talaba zamonaviy ijro texnikasi va raqamli vositalarni egallaydi, biroq o'zi ijro etayotgan yoki o'rgatayotgan musiqiy hodisaning genezisi, evolyutsion mantiqi va madaniy semantikasini tushunmaydi. Natijada kasbiy faoliyat taqlidiy-reproduktiv darajada qolib ketadi, mustaqil badiiy-pedagogik qaror qabul qilish qobiliyati esa yetarlicha shakllanmaydi.

Aynan shu muammoni yechishda retrospektiv yondashuv samarali metodologik vosita bo'la oladi. Qoraqalpoq musiqa san'ati esa bu yondashuv uchun noyob material beradi: u og'zaki-professional an'anadan (jirov, baxshi ijrochiligi) yozma-akademik shakllargacha bo'lgan uzoq evolyutsion yo'lni bosib o'tgan va bu yo'l nisbatan yaxlit holda kuzatilishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi — talabalarning kasbiy kompetentligini retrospektiv yondashuv asosida takomillashtirish mexanizmlarini nazariy-metodologik jihatdan asoslash va ularning konseptual modelini ishlab chiqish.

MAVZUNING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Muammo bo'yicha ilmiy manbalarni shartli ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh — kompetentlik yondashuvining umumnazariy asoslari. J. Raven kompetentlikni motivatsiya, qadriyat va qobiliyatlarning yaxlit birligi sifatida talqin qiladi [9]. A.V. Xutorskoy "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini farqlab, birinchisini tashqi talab, ikkinchisini shaxsning egallangan sifati deb belgilaydi [11]. E.F. Zeer kasbiy kompetentlikning bosqichma-bosqich (professiogenez) shakllanish mantiqini asoslaydi [13]. I.A. Zimnyaya kompetentlikning motivatsion, qadriyatli va emotsional-irodaviy jihatlarini ajratadi [12].

Ikkinchi guruh — pedagogikada tarixiy-retrospektiv tahlil metodologiyasi. Bu yo'nalishda tarixiylik, genetik tahlil va madaniy-tarixiy rivojlanish (L.S. Vigotskiy) g'oyalari asosiy o'rin tutadi [14]. Uzluksiz ta'lim va kompetentlikning global talqini YUNESKO hujjatlarida ham asoslangan [10]. Ta'lim mazmunini shakllantirishda madaniy muvofiqlik tamoyili retrospektiv yondashuvning klassik zamini hisoblanadi.

Uchinchi guruh — etnomadaniy va etnopedagogik tadqiqotlar: milliy san'at merosining tarbiyaviy salohiyati, xalq pedagogikasi vositalarining zamonaviy ta'limga integratsiyasi masalalari [15; 19].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

To'rtinchi guruh — Qoraqalpoq musiqashunosligi: dostonchilik (jirovlik, baxshichilik) an'analari, xalq cholg'ulari (qobiz, dutor, g'irjek, balaman, shinqobiz, surnay), "Qirq qiz", "Alpomish", "Edige", "Sharyor" kabi epik asarlarning musiqiy dramaturgiyasi, XX asrda professional musiqa ta'limi institutlarining shakllanishi [3; 4; 5; 6; 7; 8].

Shu bilan birga, ushbu to'rt yo'nalishning kesishmasida — ya'ni milliy musiqa san'atining evolyutsion rivojlanish mantiqini talabaning kasbiy kompetentligini takomillashtirish mexanizmiga aylantirish masalasida — yaxlit nazariy model ishlab chiqilmagan. Bu holat tadqiqotning ilmiy yangilik maydonini belgilaydi [16; 17; 18].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola nazariy tadqiqot xarakteriga ega bo'lib, quyidagi metodlarga tayanadi:

- tarixiy-genetik metod — Qoraqalpoq musiqa san'ati hodisalarining kelib chiqishi va o'zgarish mantiqini aniqlash;
- retrospektiv tahlil — hozirgi kasbiy ta'lim holatidan tarixiy ildizlarga qarab teskari yo'nalishda tahlil yuritish;
- qiyosiy-tipologik tahlil — og'zaki-an'anaviy va akademik ta'lim modellarini solishtirish;
- tizimli-strukturaviy tahlil — kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismlarini ajratish;
- modellashtirish — takomillashtirish mexanizmlarining konseptual modelini qurish.

Metodologik asos sifatida tizimli, kompetentlikka yo'naltirilgan, madaniyatshunoslik (kulturologik), aksiologik va faoliyatli yondashuvlar majmui qabul qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Retrospektiv yondashuvning pedagogik mohiyati. Retrospektiv yondashuv shunchaki "tarixni o'rganish" emas. U hozirgi kasbiy muammoni tarixiy tajriba prizmasi orqali qayta tushunish usulidir. Uning an'anaviy tarixiy yondashuvdan farqi tahlil yo'nalishida namoyon bo'ladi: tarixiy yondashuv "o'tmishdan bugunga" harakat qilsa, retrospektiv yondashuv "bugungi kasbiy vazifadan o'tmishdagi yechimga" qarab boradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Pedagogik jarayonda retrospektiv yondashuv uchta funksiyani bajaradi:

– izohlovchi (eksplanator) — hozirgi kasbiy me'yor va usullarning "nega aynan shunday" ekanini tushuntiradi;

– prognostik — evolyutsion qonuniyatlarni aniqlash orqali sohaning kelgusi rivoji yo'nalishlarini bashorat qilish imkonini beradi;

– aksiologik — talabada kasbiy an'anaga nisbatan qadriyatli munosabatni va o'zini an'ana davomchisi sifatida anglashni shakllantiradi.

Retrospektiv yondashuvning tayanch tamoyillari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Retrospektiv yondashuvning tamoyillari va ularning pedagogik mazmuni

Tamoyil	Pedagogik mazmuni
Tarixiylik	Har bir musiqiy hodisa o'z davri konteksti bilan bog'liq holda baholanadi
Genetik ketma-ketlik	Yangi shakl eskisining inkori emas, balki transformatsiyasi sifatida o'rganiladi
Madaniy muvofiqlik	Ta'lim mazmuni milliy madaniy kod bilan uyg'unlashtiriladi
Dialogiklik	O'tmish va zamon o'rtasida madaniy muloqot tashkil etiladi
Integrativlik	Tarix, nazariya, ijro va metodika yagona mazmuniy blokda birlashtiriladi
Tanqidiy tanlanuvchanlik	Meros idealizatsiya qilinmaydi, pedagogik jihatdan samarali elementlar tanlab olinadi

2. Qoraqalpoq musiqa san'atining evolyutsion rivojlanish kontseptsiyasi. Tadqiqotda Qoraqalpoq musiqa san'atining rivojlanishi to'rt makrobosqichli evolyutsion model sifatida talqin etiladi [15; 17]. Muhimi shundaki, har bir bosqich o'ziga xos ta'lim modelini ham yaratgan — aynan shu jihat pedagogik nuqtai nazardan qimmatlidir (2-jadval).

2-jadval

Qoraqalpoq musiqa san'ati evolyutsiyasining bosqichlari va ularga mos ta'lim modellari

Bosqich	Musiqiy amaliyotning xususiyati	Ta'lim modeli va uning pedagogik yadrosi
I. Sinkretik-folklor	Musiqa marosim, mehnat va maishiy hayotdan ajralmagan	Oilaviy-jamoaviy o'zlashtirish; kontekstli ta'lim — bilim faoliyat ichida beriladi
II. Og'zaki-professional	Jirov va baxshi ijrochiligi, dostonlarning musiqiy-she'riy yaxlitlikda ijrosi [6; 7]	"Ustoz-shogird" instituti; individual traektoriya, uzoq muddatli mentorlik, ijodiy variantlilik
III. Yozma-akademik (XX asr)	Nota yozuvi, xor va orkestr shakllari, cholg'ularning akademik ansambllarga moslashuvi [3; 8]	Sinf-dars tizimi, standart dastur; tizimlilik va ommaviylik, ammo variantlilikning susayishi
IV. Integrativ-raqamli	Audio-vizual arxivlashtirish, an'anaviy va zamonaviy uslublar sintezi	Aralash (blended), loyihaviy, o'quvchimarkazli ta'lim; an'ana ishlaydigan resurs sifatida

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Nazariy tahlilning muhim xulosasi shundan iboratki, mazkur evolyutsiya chiziqli emas, balki spiralsimon kechgan: har bir yangi bosqich oldingisini bekor qilmasdan, uni yangi darajada qayta ishlagan. Aynan shu spiralsimonlik talabaning kasbiy kompetentligini shakllantirish mantiqiga ham ko'chiriladi — talaba o'z kasbiy o'sishida taqlid, o'zlashtirish, tahlil, transformatsiya va ijod bosqichlarini izchil bosib o'tadi.

3. Kasbiy kompetentlikning strukturasi va etnomadaniy komponent. Retrospektiv yondashuv kontekstida talabaning kasbiy kompetentligi beshta o'zaro bog'liq komponentdan iborat deb qaraladi:

– kognitiv-nazariy — musiqa nazariyasi, tarixi, evolyutsion bosqichlari va ularning qonuniyatlari haqidagi tizimli bilim;

– texnologik-ijrochilik — cholg'u va vokal ijro mahorati, ansambl faoliyati, notaga olish hamda aranjirovka ko'nikmalari;

– metodik-pedagogik — an'anaviy materialni zamonaviy ta'lim jarayoniga transformatsiya qila olish, dars loyihalash va baholash;

– aksiologik-etnomadaniy — milliy musiqa merosiga qadriyatli munosabat, madaniy identiklik, madaniyatlararo dialogga tayyorlik;

– refleksiv-ijodiy — o'z faoliyatini tarixiy mezonlar asosida tahlil qilish, an'anadan kelib chiqib yangi badiiy yechim yarata olish.

Retrospektiv yondashuvning o'ziga xosligi shundaki, u to'rtinchi va beshinchi komponentlarni yadro darajasiga ko'taradi. An'anaviy kompetentlik modellarida [11; 13] etnomadaniy jihat ko'pincha qo'shimcha sifatida qaraladi; taklif etilayotgan modelda esa u qolgan komponentlarni birlashtiruvchi integrativ o'zak vazifasini bajaradi.

4. Takomillashtirish mexanizmlari. "Mexanizm" deganda kasbiy kompetentlikning sifat jihatidan o'zgarishini ta'minlovchi "maqsad — mazmun — vosita — natija" zanjirining barqaror ishlash tartibi tushuniladi. Nazariy tahlil natijasida beshta mexanizm ajratildi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

4.1. Motivatsion-qadriyatli mexanizm. Mohiyati — talabada "men o'rganayotgan narsa qayerdan kelgan va nega muhim?" savoliga javob topish orqali ichki motivatsiya hosil qilish. Vositalari: milliy ijrochilik maktablari tarixi bilan tanishtirish, jonli ustozlar bilan uchrashuvlar, arxiv yozuvlarini tinglash va tahlil qilish. Natija: kasbiy identiklikning shakllanishi.

4.2. Mazmuniy-strukturaviy mexanizm. Mohiyati — o'quv dasturlariga retrospektiv modullarni integratsiya qilish. Vositalari: "Qoraqalpoq musiqa san'ati evolyutsiyasi" integrativ moduli, har bir amaliy mavzuni tarixiy-genetik izoh bilan qo'shib berish, fanlararo bog'lanish (musiqa tarixi — ijro — metodika — etnografiya). Natija: parchalangan bilimning yaxlit tizimga aylanishi.

4.3. Texnologik-metodik mexanizm. Mohiyati — retrospektiv tahlilni o'quv texnologiyasiga aylantirish. Vositalari: retrospektiv keys-stadi (bir kuyning turli davrdagi ijro variantlarini qiyoslash); rekonstruksiya topshirig'i (arxiv yozuvi asosida ijro uslubini tiklash); transformatsiya loyihasi (an'anaviy materialni zamonaviy aranjirovkada taqdim etish); "ustoz-shogird" formatini kichik guruhli mentorlik ko'rinishida qayta tiklash; madaniy-tarixiy portfolio yuritish. Natija: bilimning faoliyat usuliga aylanishi.

4.4. Refleksiv-baholash mexanizmi. Mohiyati — talabaning o'z kasbiy o'sishini tarixiy-madaniy mezonlar asosida baholay olishi. Vositalari: refleksiv kundalik, o'z ijrosini ustoz ijrosi bilan qiyosiy tahlil qilish, o'zaro baholash, kriterial baholash kartalari. Natija: mustaqil kasbiy o'sish qobiliyati.

4.5. Institutsional-muhit mexanizmi. Mohiyati — kompetentlik rivoji uchun madaniy-ta'limiy muhit yaratish. Vositalari: universitet — konservatoriya — muzey — teatr — mahalliy jamoa hamkorligi, raqamli meros arxivini yaratish, talaba ilmiy to'garaklari, etnografik ekspeditsiya amaliyoti. Natija: ta'limning auditoriya doirasidan chiqib, real madaniy amaliyotga ulanishi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

5. Mexanizmlarning samarali ishlashi uchun pedagogik shartlar. Nazariy tahlil quyidagi shartlarni ajratish imkonini berdi:

– o'qituvchining o'zida retrospektiv-metodologik madaniyat mavjudligi;

– o'quv-metodik ta'minotning (audio-video arxiv, nota to'plamlari, raqamli baza) yetarliligi;

– an'anaviy va akademik mazmun o'rtasida muvozanat saqlanishi: merosning muzeylashtirilishi ham, uning zamonaviylashtirish niqobida yo'qolishi ham bir xil darajada zararli;

– talabaning subyekt pozitsiyasiga o'tishi — u meros iste'molchisi emas, balki tadqiqotchisi va davomchisi sifatida ish ko'rishi;

– baholash tizimining bilim hajmiga emas, kompetentlik mezonlariga yo'naltirilganligi.

6. Baholashning kriterial apparati. Tadqiqot tajriba-sinov ishlarini o'z ichiga olmagani bois, keyingi eksperimental bosqich uchun quyidagi mezonlar taklif etiladi: bilim mezoni (evolyutsion bosqichlarni tavsiflay olish, hodisalar o'rtasida genetik bog'liqlik o'rnatish); faoliyat mezoni (an'anaviy materialni tahlil qilish, rekonstruksiya va transformatsiya qila olish); qadriyat mezoni (milliy merosga munosabat, kasbiy identiklik darajasi); refleksiya mezoni (o'z faoliyatini tarixiy-madaniy mezonlar asosida baholay olish). Har bir mezon past, o'rta va yuqori darajalar bo'yicha differensiallanishi mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Olib borilgan nazariy-metodologik tahlil quyidagi xulosalarni asoslash imkonini berdi:

1) retrospektiv yondashuv talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning mustaqil metodologik vositasi hisoblanadi; uning o'ziga xosligi hozirgi kasbiy vazifadan tarixiy tajribaga qarab harakatlanish mantiqida namoyon bo'ladi;

2) Qoraqalpoq musiqa san'atining evolyutsion rivojlanishi to'rt makrobosqichli spiralsimon model sifatida talqin etilishi mumkin; har bir bosqich o'ziga xos ta'lim modelini yaratgan va bu modellar zamonaviy pedagogika uchun amaliy resursga ega;

3) retrospektiv yondashuv sharoitida kasbiy kompetentlik strukturasida aksiologik-etnomadaniy va refleksiv-ijodiy komponentlar integrativ o'zak vazifasini bajaradi;

4) kompetentlikni takomillashtirish beshta o'zaro bog'liq mexanizm orqali ta'minlanadi va ular yaxlit tizim sifatida ishlagandagina sifat o'zgarishi yuz beradi;

5) taklif etilayotgan konseptual model keyingi bosqichda eksperimental tekshiruvni talab qiladi; mazkur maqola shu tadqiqotning nazariy-metodologik zaminini tashkil etadi.

Amaliy tavsiyalar: oliy ta'lim muassasalarining san'at va pedagogika yo'nalishlari o'quv rejalariga integrativ retrospektiv modullar kiritish; milliy musiqa merosining raqamli o'quv arxivini yaratish; "ustoz-shogird" mentorlik formatini zamonaviy ta'lim sharoitida institutsionallashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y. — www.lex.uz/docs/4545884.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y.
3. Адамбаева Т. Дореволюционная каракалпакская музыка. — Нукус: Каракалпакстан, 1976.
4. Айымбетов Қ. Халық даналығы. — Нөкис: Қарақалпақстан, 1988.
5. Алламуратов А., Доспанов О., Төлеўмуратов Г. Қарақалпақ көркем-өнер атамаларының сөзлиги. — Нөкис, 1991.
6. Jarimbetov Q., Nizamatdinov J., Allambergenova I. Qaraqalpaq folklori. — Toshkent: Nano-standart, 2018.
7. Erejepov A.A. Baqsı hám jırawshılıq tiykarları: oqıw-metodikalıq qollanba. — Nókis, 2020. — 35 b.
8. Erejepov A.A. Qaraqalpaq milliy saz ásbapları: oqıw-metodikalıq qollanba. — Nókis, 2021. — 36 b.
9. Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. — Oxford: Oxford Psychologists Press, 1984. — 251 p.

10. Delors J. Learning: The Treasure Within. Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-first Century. — Paris: UNESCO Publishing, 1996. — 266 p.
11. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. — 2003. — № 2. — С. 58–64.
12. Зимняя И.А. Ключевые компетенции — новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. — 2003. — № 5. — С. 34–42.
13. Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования. — М.: Академия, 2009. — 384 с.
14. Выготский Л.С. Педагогическая психология. — М.: Педагогика-Пресс, 1996. — 536 с.
15. Moyanov I.J. The evolution of music pedagogy of the Karakalpak people: historical and theoretical aspects // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. — 2021. — Vol. 11, No. 10. — P. 27–32.
16. Moyanov I.J. Competence-based approach in higher musical and professional education // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. — 2022. — Vol. 12, No. 4. — P. 42–47.
17. Moyanov I.J. Genesis and directions of development of musical pedagogy among the Karakalpak people // International Journal of Pedagogics. — 2023. — Vol. 3, No. 12. — P. 63–70. https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue12-13
18. Moyanov I.J. Training and development of art personnel // Modern Science and Research. — 2023. — Vol. 2, No. 9. — P. 65–69.
19. Moyanov I.J. Ethnogenesis and cultural specificity of the use of musical pedagogy of the Karakalpak people in the realization of national identity // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. — 2024. — Vol. 12, No. 10. — P. 227–229.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLAR REZERVIDAGI XIZMATNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nazarmatov Abduraup Sobirovich
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
Sharqiy Harbiy okrug fakulteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan haqiqiy harbiy xizmatdan bo‘shatilgan va rezervga kiritilgan kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilar oddiy askarlar, serjantlar, ofitserlar, muddatli harbiy xizmatni yoki safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o‘tagan va oliy ta’lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalarida ofitserlarni tayyorlash dasturi bo‘yicha to‘liq o‘quv kursini tamomlaganlar hamda Qurolli Kuchlar rezervidagi fuqarolar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston Respublikasi, qurolli kuchlar rezervi, qurolli kuchlar, rezervchilarni tayyorlash.*

ОСОБЕННОСТИ ПРОХОЖДЕНИЯ СЛУЖБЫ В РЕЗЕРВЕ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: *В статье регулируются отношения, касающиеся военнослужащих по контракту (рядовых, сержантов и офицеров), уволенных с действительной военной службы в Вооруженных Силах Республики Узбекистан и зачисленных в резерв; лиц, прошедших срочную военную службу или службу в мобилизационном призывном резерве; лиц, прошедших полный курс подготовки офицеров в военных учебных подразделениях при высших образовательных учреждениях; а также граждан, состоящих в резерве Вооруженных Сил.*

Ключевые слова: *Республика Узбекистан, резерв Вооруженных Сил, Вооруженные Силы, подготовка резервистов.*

SPECIFIC FEATURES OF SERVICE IN THE RESERVE OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract*: This article regulates relations concerning contract military personnel (privates, sergeants, and officers) discharged from active military service in the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan and placed in the reserve; individuals who have completed conscript military service or service in the mobilization call-up reserve; those who have completed the full officer training program at military training units of higher education institutions; and citizens in the Armed Forces reserve.*

Keywords: *Republic of Uzbekistan, Armed Forces reserve, Armed Forces, reservist training.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Qurolli Kuchlar rezervi O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to‘g‘risida”gi Qonunlariga muvofiq shakllantiriladi.

Rezervchilarni harbiy ro‘yxatga olish O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq mudofaa ishlari organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bunda, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotgan, shuningdek boshqa davlat fuqaroligiga ega bo‘lgan harbiy xizmatga majburlar harbiy hisobdan chiqariladi.

Qurolli Kuchlar rezervi harbiy xizmatga yaroqli bo‘lgan quyidagi fuqarolar orasidan shakllantiriladi:

a) haqiqiy harbiy xizmatdan bo‘shatilgan va rezervga kiritilgan kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilar;

b) haqiqiy harbiy xizmatdan bo‘shatilgan va rezervga kiritilgan muddatli harbiy xizmatchilar;

v) safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o‘tagan harbiy xizmatga majburlar;

g) muddatli harbiy xizmatni yoki safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o‘tagan va oliy ta’lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalarida ofitserlarni tayyorlash dasturi bo‘yicha to‘liq o‘quv kursini tamomlaganlar.

Rezervda bo‘lish yoshining chegarasiga yetgan yoki harbiy-tibbiy komissiyalar tomonidan salomatligiga ko‘ra urush davrida harbiy xizmatga yaroqsiz deb topilgan harbiy xizmatga majburlar mudofaa ishlari organlari tomonidan harbiy hisobdan chiqariladi va iste’foga chiqariladi.

Qurolli Kuchlar rezervidagi harbiy xizmatga majburlar birinchi va ikkinchi toifaga bo‘linadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Birinchi toifali rezerv chaqiruv yoki kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatni o‘tagan hamda xizmatni o‘tash davrida harbiy hisobdagi ixtisoslikni egallagan birinchi toifadagi harbiy xizmatga majburlar orasidan to‘ldiriladi.

Ikkinchi toifali rezerv chaqiruv yoki kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatni o‘tagan ikkinchi darajadagi harbiy xizmatga majburlar, shuningdek safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmatni o‘tagan harbiy xizmatga majburlar orasidan butlanadi.

Qurolli Kuchlarning qo‘shilma, harbiy qism va bo‘linmalarini urush davri shtatlari darajasiga qadar to‘ldirish, shuningdek urush davri tuzilmalarini saf torttirish uchun mo‘ljallangan rezervchilarni saralab olish harbiy okruglar qo‘shinlari qo‘mondonlarining buyruqlari bilan tuziladigan saralash komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Saralash komissiyalari tarkibiga harbiy okruglar shtablari, butlanayotgan bo‘lgan qo‘shilma, harbiy qism va bo‘linmalar qo‘mondonligi, mudofaa ishlari organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakillari, shuningdek tegishli turdagi qo‘shin va xizmatlar mutaxassislari kiradi.

Qurolli Kuchlarning qo‘shilma, harbiy qism va bo‘linmalariga ro‘yxatga olish uchun rezervchilarni saralash, qoidaga ko‘ra, harbiy xizmatga majburlarning harbiy-hisob ixtisosligi, oilaviy ahvoli, shuningdek harbiy tayyorgarlik darajasi, intellektual va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda hududiy prinsip asosida yakka tartibda amalga oshiriladi.

TAHLILLAR VA MUHOKAMA

Rezervchilarni tayyorlashning asosiy mazmuni ular ro‘yxatga olingan bo‘linmalar tarkibida jangovar tayyorgarlik bo‘yicha individual bilim, malaka va mahoratlarni oshirish, harakatlar taktikasini puxta o‘rganishdan iborat.

Rezervchilarni tayyorlash, qoidaga ko‘ra, hududiy prinsip bo‘yicha harbiy qismlar, o‘quv markazlari qoshida harbiy yig‘inlar tashkil etish va o‘tkazish yo‘li bilan, shuningdek safarbarlik o‘quvlari va mashqlarini o‘tkazish davomida amalga oshiriladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Rezervdagi harbiy xizmatga majburlarni harbiy yig‘inlarga chaqirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan har yili tasdiqlanadigan rezervdagi harbiy xizmatga majburlarni harbiy yig‘inlarga chaqirishning hisob-kitobi asosida vazirliklar tomonidan ishlab chiqiladigan harbiy yig‘inlarni o‘tkazish rejasidan ko‘chirmaga muvofiq mudofaa ishlari organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Harbiy yig‘inlarga chaqirish uchun nomzod etib tanlab olingan rezervdagi harbiy xizmatga majburlar hisob ma’lumotlarini tekshirish va tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish maqsadida ular oldindan xabardor qilinib, harbiy yig‘inlarda qatnashish uchun yetib borish vaqti va ularning davomiyligi ko‘rsatilgan belgilangan namunadagi chaqiruv qog‘ozi taqdim etiladi. Tashkilot rahbarining nomiga yuboriladigan bildiruv xatida rezervdagi harbiy xizmatga majburlarning harbiy yig‘inlarda bo‘lish vaqti yig‘inlarda qatnashish, harbiy qismga yetib borish va yig‘inlardan qaytish vaqtini hisobga olgan holda ko‘rsatiladi.

Rezervdagi harbiy xizmatga majburlarni harbiy yig‘inlarga yuborish mudofaa ishlari organlari tomonidan harbiy okruglar shtablaridan olingan ko‘rsatmalar va harbiy qism komandirlaridan olingan talabnomalarga muvofiq tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Rezervdagi harbiy xizmatga majburlarni harbiy yig‘inlarga olib borish va qaytarib olib kelish harbiy yig‘inlar o‘tkazilayotgan tegishli vazirlik va muassasalarning mablag‘lari hisobiga temir yo‘l yoki avtomobil transporti orqali amalga oshiriladi.

Mudofaa ishlari organlari qo‘shilma, harbiy qism va muassasalarning komandirlariga o‘quv harbiy yig‘inlarini o‘tashga chaqirilgan rezervdagi harbiy xizmatga majburlarga doir quyidagi hujjatlarni yuboradi:

a) rezervdagi ofitserlar tarkibi uchun — nomma-nom tuzilgan ro‘yxat va shaxsiy yig‘ma jildlar;

b) rezervdagi serjant va oddiy askarlar tarkibi uchun — nomma-nom tuzilgan ro‘yxat;

v) uchuvchilar tarkibi uchun — nomma-nom tuzilgan ro‘yxat, shaxsiy yig‘ma jildlar, parvoz va tibbiy daftarchalari.

Harbiy xizmatga majburlarni harbiy qism qabul qilib olganligi to‘g‘risida belgi qo‘yilgan ro‘yxatlarning ikkinchi nusxalarini tuman mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limi boshliqlari mudofaa ishlari boshqarmalariga taqdim etadi.

Harbiy yig‘inlarning boshlanish vaqti deb rezervchining mudofaa ishlari organidan harbiy yig‘inlar o‘tkaziladigan joyga jo‘nagan kun, ularning tugash vaqti deb esa rezervchining harbiy qism komandiri tomonidan berilgan yozma buyruqda ko‘rsatilgan mudofaa ishlari organiga yetib kelgan kun hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatda belgilanadigan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, tashkilotlar uchun bronlashtirib qo‘yilgan rezervdagi harbiy xizmatga majburlar harbiy yig‘inlarda qatnashishdan ozod etiladi.

Rezervda turuvchi fuqarolarni harbiy kiyim-kechak kiyib yurish huquqidan mahrum etish O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Rezervda turuvchi fuqarolarni harbiy kiyim-kechak kiyib yurish huquqidan mahrum etish, harbiy unvondan bir pog‘ona pasaytirish, harbiy unvoniga qayta tiklash to‘g‘risidagi taqdimnomalar vazirliklarning hududiy vakolatli organlari rahbarlari tomonidan kiritiladi va tegishli vazirlikning rahbariga qaror qabul qilish uchun yuboriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Qurolli Kuchlar rezervini shakllantirish va rezervdagi harbiy xizmatga majburlarni tayyorlash mamlakat mudofaa qobiliyatini ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Rezervchilarni harbiy ro‘yxatga olish, saralash, harbiy yig‘inlarga jalb etish va ularning jangovar tayyorgarligini oshirish belgilangan qonunchilik asosida amalga oshiriladi. Rezervchilarni tayyorlashda ularning harbiy-

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

hisob ixtisosligi, jismoniy va intellektual imkoniyatlari hamda jangovar tayyorgarlik darajasini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, harbiy yig‘inlarni tizimli va sifatli tashkil etish rezervning tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu tizimni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflarni tizimli ravishda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Rezervchilarni harbiy yig‘inlarga jalb etish va tayyorlash jarayonida zamonaviy o‘qitish usullari hamda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish.

2. Rezervchilarning harbiy-kasbiy, jismoniy va psixologik tayyorgarligini muntazam ravishda oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni takomillashtirish.

3. Rezervchilarni saralash jarayonida ularning harbiy-hisob ixtisosligi va individual qobiliyatlarini yanada chuqurroq inobatga olish.

4. Harbiy yig‘inlarni o‘tkazish samaradorligini oshirish maqsadida nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish.

5. Rezervchilarning tayyorgarlik darajasini baholashning aniq va samarali mezonlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi” Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 sentabrdagi PQ-4447-sonli qarori. Toshkent-2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Harbiy nizomlari. Toshkent-2025.
4. “O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni. 2002-yil 12-dekabr, 436-II-son.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

O‘QUVCHILARDA ALGORITMIK VA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ASOSLARI

Sanayev Xondamir Komiljon o‘g‘li
G‘allaorol 2-son texnikumi,
"Umumta'lim fanlari" kafedrasi bosh o‘qituvchisi
xondamirsanayev@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quvchilarda algoritmik va analitik tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy asoslari nazariy-tahliliy metodlar asosida o‘rganilgan. Tadqiqotning maqsadi - ushbu tafakkur shakllarining rivojlanishiga ta'sir ko‘rsatuvchi asosiy ijtimoiy omillarni aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini nazariy jihatdan asoslash hamda mazkur tafakkur turlarining rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy muhitni tavsiflovchi model ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish va ijtimoiy-pedagogik hodisalarni modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida oila, tengdoshlar guruhi, maktab jamoasi, madaniy kapital, raqamli muhit hamda ommaviy axborot vositalari algoritmik va analitik tafakkurning shakllanishiga bevosita ta'sir ko‘rsatuvchi asosiy ijtimoiy omillar sifatida aniqlandi va ularning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiruvchi to‘rt darajali - mikroijtimoiy, mezoijtimoiy, makroijtimoiy hamda virtual-ijtimoiy - nazariy model taklif etildi. Olingan xulosalar o‘quvchilarda algoritmik va analitik tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha ta'lim amaliyoti va siyosati uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *algoritmik tafakkur, analitik tafakkur, ijtimoiy muhit, ijtimoiylashuv, oila, tengdoshlar, maktab jamoasi, madaniy kapital, raqamli muhit, ijtimoiy o‘rganish, axborot jamiyati, ijtimoiy kompetensiya, tanqidiy tafakkur, ekologik tizim modeli.*

СОЦИАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ АЛГОРИТМИЧЕСКОГО И АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ОБУЧАЮЩИХСЯ

Санаев Хондамир Комилжон угли
Галлааральский технический колледж № 2,
старший преподаватель кафедры общеобразовательных дисциплин
xondamirsanayev@gmail.com

Аннотация. *В статье с использованием теоретико-аналитических методов рассматриваются социальные основы развития алгоритмического и аналитического мышления у обучающихся. Цель исследования — выявить ключевые социальные факторы, влияющие на развитие данных форм мышления, теоретически обосновать их взаимосвязь и разработать модель социальной среды, способствующей формированию этих типов мышления. В ходе*

исследования применялись такие методы, как теоретический анализ научной литературы, сравнение, обобщение, систематизация и моделирование социально-педагогических явлений. Были определены основные социальные факторы, непосредственно влияющие на формирование алгоритмического и аналитического мышления: семья, группы сверстников, школьное сообщество, культурный капитал, цифровая среда и средства массовой информации. Кроме того, для иллюстрации их взаимосвязи предложена четырехуровневая теоретическая модель, включающая микросоциальный, мезосоциальный, макросоциальный и виртуально-социальный уровни. Полученные результаты могут служить теоретической базой для образовательной практики и политики в области развития алгоритмического и аналитического мышления у обучающихся.

Ключевые слова: *алгоритмическое мышление, аналитическое мышление, социальная среда, социализация, семья, сверстники, школьное сообщество, культурный капитал, цифровая среда, социальное обучение, информационное общество, социальная компетентность, критическое мышление, модель экологических систем.*

SOCIAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING ALGORITHMIC AND ANALYTICAL THINKING IN STUDENTS

Sanayev Khondamir Komiljon ugli
Gallaorol Technical College No. 2,
Senior Teacher, Department of General Education Subjects
xondamirsanayev@gmail.com

Abstract. *This article examines the social foundations of developing algorithmic and analytical thinking in students using theoretical-analytical methods. The study aims to identify the key social factors influencing the development of these forms of thinking, to provide a theoretical justification for their interrelationships, and to develop a model characterizing a social environment conducive to the development of these types of thinking. The research process employed methods such as the theoretical analysis of scientific literature, comparison, generalization, systematization, and the modeling of socio-pedagogical phenomena. The study identified the family, peer groups, the school community, cultural capital, the digital environment, and mass media as the primary social factors directly influencing the formation of algorithmic and analytical thinking; furthermore, a four-level theoretical model—comprising micro-social, meso-social, macro-social, and virtual-social levels—was proposed to illustrate their interrelationships. The findings can serve as a theoretical basis for educational practice and policy regarding the development of algorithmic and analytical thinking among students.*

Keywords: *algorithmic thinking, analytical thinking, social environment, socialization, family, peers, school community, cultural capital, digital environment, social learning, information society, social competence, critical thinking, ecological systems model.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Zamonaviy jamiyatning jadal o‘zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va axborot sharoitlari inson tafakkuriga qo‘yiladigan talablarning tubdan yangilanishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda algoritmik va analitik tafakkur nafaqat aniq fanlar, balki har qanday kasbiy va kundalik faoliyat uchun zarur bo‘lgan asosiy intellektual ko‘nikmalar sirasiga kiradi.

Algoritmik tafakkur - muammoni tarkibiy qismlarga ajratish, maqsadga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini loyihalash, jarayonni modellashtirish, bajarilgan faoliyat natijasini nazorat qilish va zarur hollarda uni takomillashtirish qobiliyatidir [5; 6]. Analitik tafakkur esa axborot va hodisalarni tahlil qilish, ular o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash, dalillarni qiyoslash, umumlashtirish va asoslangan xulosalar chiqarish faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Mazkur tafakkur shakllarini faqat individual psixologik yoki pedagogik hodisa sifatida talqin qilish yetarli emas, chunki inson tafakkuri jamiyatdan tashqarida shakllanmaydi. Bola tug‘ilgan kunidan boshlab oila, yaqin kattalar, tengdoshlar, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy institutlar ta'siri ostida rivojlanadi. L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasiga ko‘ra, bolaning oliy psixik funksiyalari dastlab ijtimoiy munosabatlar tizimida, ya'ni interpsixik shaklda paydo bo‘ladi va keyinchalik ichki psixologik faoliyatga - intrapsixik jarayonga aylanadi [1]. Shu sababli algoritmik va analitik tafakkurning shakllanish mexanizmlarini o‘rganishda uning ijtimoiy determinantlarini hisobga olish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi O‘zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar bilan ham belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonuni ta'lim oluvchilarning intellektual, ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni ta'minlashni ta'lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilaydi [8]. "O‘zbekiston - 2030" strategiyasida esa har bir insonning o‘z

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratish alohida vazifa qilib qo‘yilgan [9], bu esa inson kapitalining sifatini oshirish va zamonaviy bilim hamda ko‘nikmalarga ega avlodni shakllantirish masalasining strategik ahamiyatini ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, o‘quvchilarda algoritmik va analitik tafakkurni rivojlantirish muammosining ijtimoiy asoslarini aniqlash ta'lim nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi - o‘quvchilarda algoritmik va analitik tafakkurni rivojlantirishga ta'sir ko‘rsatuvchi asosiy ijtimoiy omillarni aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini nazariy jihatdan asoslash hamda mazkur tafakkur shakllarining rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy muhitni tavsiflovchi nazariy modelni ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, o‘zida empirik ma'lumotlar to‘plash emas, balki mavjud ilmiy manbalarni tizimli tahlil qilish va umumlashtirishni mujassamlashtiradi.

Tadqiqot uchun manba sifatida quyidagi guruhdagi adabiyotlardan foydalanildi: (a) tafakkurning ijtimoiy shakllanishiga oid klassik psixologik nazariyalar - L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi [1], A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi [2], P. Bourdieu ning madaniy kapital tushunchasi [3] va U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi [4]; (b) algoritmik va kompyuter tafakkuri (computational thinking) sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar [5; 6; 7]; (v) OECD PISA 2022 xalqaro baholash dasturining empirik ma'lumotlari; (g) O‘zbekiston Respublikasining ta'lim va raqamlashtirish sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari [8; 9; 10].

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish - turli nazariy yondashuvlarning mazmunini aniqlash uchun; qiyosiy tahlil - oila, tengdoshlar guruhi, maktab, ommaviy axborot vositalari va raqamli muhitning tafakkur rivojiga ta'sir mexanizmlarini bir-biri bilan solishtirish uchun; sintez

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

va umumlashtirish - turli manbalardagi g‘oyalarni yagona nazariy asosga birlashtirish uchun; tizimlashtirish va modellashtirish - aniqlangan ijtimoiy omillarni izchil, ko‘p darajali model shaklida ifodalash uchun.

Tadqiqot bosqichlari quyidagicha tashkil etildi: birinchi bosqichda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar to‘plandi va tizimlashtirildi; ikkinchi bosqichda algoritmik va analitik tafakkurning ijtimoiy mohiyatini belgilovchi asosiy nazariy yondashuvlar tahlil qilindi; uchinchi bosqichda tafakkur rivojiga ta'sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy muhit turlari (oila, tengdoshlar, maktab, madaniy kapital, raqamli muhit, ommaviy axborot vositalari) alohida-alohida ko‘rib chiqildi; to‘rtinchi bosqichda aniqlangan omillar asosida ko‘p darajali ijtimoiy model ishlab chiqildi va nazariy xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, u faqat nazariy tahlilga asoslangan bo‘lib, o‘z ichiga o‘quvchilar yoki o‘qituvchilar ishtirokida o‘tkazilgan empirik so‘rov, kuzatuv yoki eksperimental ma'lumotlarni olmaydi. Shu sababli taklif etilgan model kelgusida empirik tadqiqotlar orqali sinovdan o‘tkazilishi va aniqlashtirilishi lozim.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Algoritmik va analitik tafakkurning ijtimoiy mohiyati

Tafakkur an'anaviy ravishda insonning individual bilish jarayoni sifatida o‘rganilsa-da, uning mazmuni, shakli va rivojlanish yo‘nalishi jamiyat bilan uzviy bog‘liq ekanligi tahlil natijalarida yaqqol namoyon bo‘ldi. Inson qanday muammolar haqida fikrlashi, qanday mantiqiy vositalardan foydalanishi va qanday yechimlarni maqbul deb bilishi ko‘p jihatdan u yashayotgan ijtimoiy-madaniy muhit orqali belgilanadi.

Bola tahlil qilish va harakatlarini rejalashtirishni tayyor holatda egallamaydi. Dastlab ota-ona yoki o‘qituvchi uning faoliyatini tashqi nutq vositasida boshqaradi: "Avval nima qilishimiz kerak?", "Keyingi qadam qaysi?", "Nega shunday bo‘ldi?", "Buni boshqacha yo‘l bilan hal qilish mumkinmi?" kabi savollar bolaning fikrlash faoliyatini ijtimoiy jihatdan tartibga soladi. Vaqt o‘tishi bilan mazkur tashqi savollar ichki nutqqa

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

aylanadi va o‘quvchi ularni o‘z-o‘ziga bera boshlaydi - shu tarzda tashqi ijtimoiy boshqaruv asta-sekin ichki intellektual boshqaruv mexanizmiga aylanadi [1].

Shunday qilib, algoritmik tafakkurning ijtimoiy mohiyati inson faoliyatining tartibliligi, maqsadga yo‘naltirilganligi va jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan mantiqiy vositalardan foydalanishida namoyon bo‘ladi [5; 6], analitik tafakkurning ijtimoiy mohiyati esa shaxsning turli fikrlar, dalillar va ijtimoiy vaziyatlarni solishtirish orqali o‘z pozitsiyasini shakllantirishida ko‘rinadi. Demak, ijtimoiy muhit nafaqat tafakkur rivojiga sharoit yaratadi, balki uning mazmunini ham bevosita belgilaydi.

Oila - birlamchi ijtimoiy muhit

Tahlil natijalariga ko‘ra, oila bolaning dastlabki ijtimoiy va intellektual tajribasi shakllanadigan muhit sifatida alohida o‘rin tutadi. Bolaning savollarga, muammolarga, muvaffaqiyatsizlik va xatolarga munosabati ko‘p jihatdan oiladagi kommunikatsiya xususiyatlari orqali shakllanadi. Ota-onalarning "Sen nima deb o‘ylaysan?", "Buning sababi nima bo‘lishi mumkin?", "Qanday yo‘l bilan hal qilamiz?", "Avval nimadan boshlash kerak?" kabi savollarni muntazam qo‘llashi bolani tahlil qilish va rejalashtirishga undaydi.

Masalan, oilaviy sayohat rejalashtirilayotganda bolani jarayonga jalb qilish mumkin: u manzilni tanlaydi, yo‘l variantlarini taqqoslaydi, vaqtni hisoblaydi, kerakli buyumlar ro‘yxatini tuzadi, xarajatlarni tahlil qiladi va harakatlar ketma-ketligini rejalashtiradi. Ko‘rinib turibdiki, oddiy kundalik faoliyatning o‘zi algoritmik tafakkurni rivojlantiruvchi ijtimoiy vaziyatga aylanishi mumkin.

Analitik tafakkurni rivojlantirish nuqtayi nazaridan oiladagi kitobxonlik madaniyati, suhbat va munozaralar, yangiliklarni birgalikda muhokama qilish hamda bolaning fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lish katta ahamiyatga ega. Bunda oilaning iqtisodiy imkoniyatidan tashqari uning intellektual madaniyati ham muhim omil sifatida ajralib turadi: ota-onaning oliy ma'lumotli bo‘lishi bolada tahliliy tafakkur avtomatik ravishda

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

rivojlanishini anglatmaydi, muhimi - oilada savol berish, bilim olish va muammoni birgalikda muhokama qilish qadriyat sifatida qaror topgan bo‘lishidir.

Ijtimoiy o‘rganish va fikrlash modellari

A.Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, inson xulq-atvor va faoliyat usullarining katta qismini boshqa kishilarni kuzatish orqali o‘zlashtiradi [2]. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchi o‘qituvchi yoki tengdoshining muammoni qanday tahlil qilayotganini kuzatib boradi: "Avval shartlarni ajrataman", "Bu ma'lumot bizga kerak emas", "Ikki variantni solishtiramiz", "Yechimni tekshirib ko‘ramiz" kabi tashqi fikrlash modeli keyinchalik o‘quvchining mustaqil fikrlash algoritmiga aylanishi mumkin.

Shu sababli ta'lim muhitida faqat tayyor natijani namoyish qilishdan ko‘ra, fikrlash jarayonining o‘zini ochiq namoyish qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tengdoshlarning muvaffaqiyatli strategiyalari ham o‘quvchilar uchun ijtimoiy model vazifasini bajarishi mumkin.

Maktabning ijtimoiy-psixologik muhiti

Maktab faqat bilim beruvchi ta'lim muassasasi emas, balki o‘quvchining kundalik hayotidagi asosiy ijtimoiy makonlaridan biridir. Tahlil natijalariga ko‘ra, maktabning ijtimoiy muhiti o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari, o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar, maktabdagi intellektual qadriyatlar, fikr bildirish erkinligi, xatolarga munosabat, hamkorlik muhiti va psixologik xavfsizlik kabi jihatlarni qamrab oladi.

Agar maktab muhitida savol berish "bilmaslik belgisi" sifatida qabul qilinsa, o‘quvchi savol bermaslikka intiladi; aksincha, savol berish intellektual faollik sifatida qadrlansa, o‘quvchida muammoga chuqurroq kirib borish ehtiyoji shakllanadi. OECDning PISA 2022 ma'lumotlariga ko‘ra, o‘qituvchilari o‘ziga xos javoblarni rag‘batlantiradigan va fikrlarini erkin ifodalash imkonini beradigan o‘quvchilarda yuqori darajadagi fikrlash ko‘rsatkichlari bilan ijobiy bog‘lanish kuzatilgan. Bu holat maktabdagi ijtimoiy-psixologik iqlim intellektual faoliyat rivojiga bevosita ta'sir qilishini tasdiqlaydi.

Madaniy kapital va intellektual muhit

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

P. Bourdieu tomonidan ishlab chiqilgan madaniy kapital tushunchasi shaxsning oilada va ijtimoiy muhitda egallaydigan bilim, til, madaniy tajriba, o‘qish odatlari va intellektual resurslarining ta'limdagi muvaffaqiyatga ta'sirini tushuntirishga xizmat qiladi [3]. Bir oilada kitob o‘qish, ilmiy mavzularda suhbatlashish, muzey va kutubxonalarga borish, yangiliklarni tahlil qilish hamda boladan fikrini asoslashni so‘rash kundalik madaniyatning bir qismiga aylangan bo‘lishi mumkin, boshqa oilada esa bunday tajribalar mavjud bo‘lmasligi mumkin.

Natijada o‘quvchilarning maktabga olib kelayotgan intellektual tajribasi bir xil bo‘lmaydi. Shu sababli ta'lim muassasasining muhim ijtimoiy vazifalaridan biri - mazkur farqlarni kamaytirish va barcha o‘quvchilar uchun boy intellektual hamda madaniy muhit yaratishdan iborat.

Raqamli ijtimoiy muhit

Bugungi o‘quvchining ijtimoiylashuv makoni oila va maktab bilan chegaralanmaydi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, video platformalar va sun'iy intellekt vositalari o‘quvchilarning kundalik axborot muhitining ajralmas qismiga aylangan. O‘zbekiston Respublikasining "Raqamli O‘zbekiston - 2030" strategiyasi ham ta'lim tizimini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [10].

Tahlil natijalariga ko‘ra, raqamli muhit algoritmik va analitik tafakkur uchun katta imkoniyatlar bilan bir qatorda muayyan xavflarni ham vujudga keltiradi. Ijobiy imkoniyatlar qatoriga cheksiz bilim manbalariga kirish, masofadan hamkorlik qilish, dasturlash va modellashtirish vositalaridan - jumladan, o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan Scratch kabi vizual dasturlash muhitlaridan [7] - foydalanish, murakkab jarayonlarni vizual kuzatish va mustaqil loyiha yaratish imkoniyatlari kiradi. Shu bilan birga katta hajmdagi tekshirilmagan axborot, manipulyativ kontent, axborot pufakchalari, tayyor javobga o‘rganib qolish, e'tiborning tez-tez bo‘linishi hamda sun'iy intellekt tayyorlagan javoblarni tanqidsiz qabul qilish kabi xavflar ham mavjud.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

OECD tadqiqotlari raqamlashtirish o‘quvchilarning nafaqat maktabdagi, balki maktabdan tashqaridagi ijtimoiy muhitini ham sezilarli darajada o‘zgartirganini qayd etadi. Raqamli vositaning intellektual natijaga ta'siri uning mavjudligidan ko‘ra, qanday maqsadda va qanday tarzda ishlatilishiga bog‘liq bo‘lib chiqdi. Shu sababli zamonaviy analitik tafakkurning muhim tarkibiy qismi sifatida raqamli axborotni tanqidiy tahlil qilish kompetensiyasi ajralib chiqadi.

Ommaviy axborot vositalari va media savodxonlik

Ommaviy axborot vositalari o‘quvchilarning dunyoqarashi va tafakkur stereotiplarini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida aniqlandi. Tahlil asosida o‘quvchi axborotga duch kelganda quyidagi algoritmdan foydalanishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslandi: axborotni o‘qish → manbani aniqlash → faktlarni ajratish → dalillarni tekshirish → boshqa manbalar bilan solishtirish → muallif maqsadini anglash → xulosa chiqarish. Mazkur algoritm media savodxonlikning ham muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Analitik tafakkuri rivojlangan o‘quvchi "internetda yozilgan ekan, demak to‘g‘ri" degan yondashuvdan uzoqlashib, manbaning ishonchliligini mustaqil baholashga o‘tadi. Bu, ayniqsa, soxta xabarlar va noto‘g‘ri axborotning tez tarqalishi sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy stereotiplarning ta'siri

Jamiyatdagi ayrim stereotiplar ham o‘quvchilarning intellektual faolligiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishi aniqlandi. Masalan, "Matematika faqat ayrim bolalar uchun", "Dasturlash juda qiyin", "Men analitik fikrlashga qobiliyatli emasman" kabi qarashlarning doimiy takrorlanishi bolaning o‘z imkoniyatlariga nisbatan salbiy tasavvur hosil qilishiga olib kelishi mumkin. PISA 2022 ma'lumotlarida ham o‘z intellektual va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish mumkinligiga ishonadigan o‘quvchilar bilan yuqori fikrlash natijalari o‘rtasida ijobiy bog‘lanish qayd etilgan.

Algoritmik va analitik tafakkurni rivojlantirishning ko‘p darajali ijtimoiy modeli

Yuqorida bayon etilgan natijalarni umumlashtirish asosida, shuningdek U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasiga tayangan holda [4], o‘quvchilarda algoritmik va analitik tafakkurni rivojlantiruvchi ijtimoiy muhitni quyidagi to‘rt darajali model asosida ifodalash mumkin (1-jadval):

Daraja	Asosiy omillar	Rivojlantiriladigan jihatlar
Mikroijtimoiy	Oila, tengdoshlar, o‘qituvchi, sinf jamoasi	Savol berish, tahlil, muloqot, hamkorlik, fikrni asoslash
Mezoijtimoiy	Oila–maktab, maktab–mahalla va maktabdan tashqari tashkilotlar hamkorligi	Bilim va tajribani turli muhitlarga ko‘chirish, ijtimoiy faollik
Makroijtimoiy	Jamiyat qadriyatlari, axborot muhiti, ta'lim siyosati, raqamlashtirish	Intellektual qadriyatlar, raqamli savodxonlik, tanqidiy axborot iste'moli
Virtual-ijtimoiy	Internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt, raqamli hamjamiyatlar	Axborotni tekshirish, algoritmik savodxonlik, media tahlil

1-jadval. Algoritmik va analitik tafakkurni rivojlantirishning ko‘p darajali ijtimoiy modeli.

Mazkur darajalar bir-biridan mustaqil emas, balki o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritadi: mikroijtimoiy darajada shakllangan ko‘nikmalar mezoijtimoiy darajada mustahkamlanadi, makroijtimoiy qadriyatlar esa virtual-ijtimoiy muhitdagi xatti-harakatlarni belgilaydi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasini tasdiqlaydi: algoritmik va analitik tafakkurning dastlabki shakllari haqiqatan ham interpsixik - ya'ni

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ijtimoiy o‘zaro munosabatlar darajasida - vujudga kelib, keyinchalik intrapsixik faoliyatga aylanadi [1]. Shu bilan birga tadqiqot natijalari bu jarayonni faqat oila yoki maktab miqyosida emas, balki Bronfenbrennerning ekologik modeliga mos ravishda ko‘p darajali tizim sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatdi [4]: mikroijtimoiy (oila, sinf), mezoijtimoiy (institutlararo aloqalar), makroijtimoiy (jamiyat va siyosat) va virtual-ijtimoiy (raqamli muhit) darajalarining har biri o‘ziga xos, ammo o‘zaro bog‘liq ta'sir mexanizmiga ega.

Bandura nazariyasi asosida aniqlangan kuzatish orqali o‘rganish mexanizmi [2] amaliy jihatdan muhim xulosaga olib keladi: o‘qituvchining fikrlash jarayonini ovoz chiqarib namoyish qilishi - ya'ni "tovush chiqarib fikrlash" (think-aloud) usuli - o‘quvchida algoritmik fikrlash strategiyalarini shakllantirishning samarali vositasi bo‘lishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, o‘qituvchilar tayyorlash dasturlariga metod sifatida kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Bourdieu ning madaniy kapital kontseptsiyasi [3] tadqiqot natijalarida aniqlangan oilalararo tafovutlarni nazariy jihatdan izohlaydi va bu tafovutlarni maktab darajasida kamaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, computational thinking sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar [5; 6] va Scratch kabi vositalar bo‘yicha olib borilgan ishlar [7] shuni ko‘rsatadiki, maxsus tashkil etilgan o‘quv muhiti - hatto madaniy kapitali cheklangan o‘quvchilar uchun ham - algoritmik tafakkurni rivojlantirish imkonini beradi. Demak, ta'lim tizimi madaniy kapitaldagi tengsizlikni tekislovchi ijtimoiy institut vazifasini bajarishi mumkin va bajarishi lozim.

Raqamli muhit va ommaviy axborot vositalariga oid natijalar OECD xulosalari bilan uyg‘unlikda bo‘lib, raqamli texnologiyalarning o‘zi emas, balki undan foydalanish tarzi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Bu xulosa O‘zbekistonning "Raqamli O‘zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan raqamlashtirish jarayonlarini nafaqat texnik, balki pedagogik-metodik jihatdan ham qo‘llab-quvvatlash zarurligini ko‘rsatadi [10].

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, taklif etilgan to‘rt darajali model o‘qituvchilar, ta'lim menejerlari va siyosat ishlab chiquvchilar uchun o‘quvchilarda algoritmik va analitik tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha kompleks yondashuv ishlab chiqishda nazariy yo‘riqnoma bo‘lib xizmat qilishi mumkin: har qanday alohida tashabbus (masalan, dasturlash darslarini joriy etish) faqat mikroijtimoiy darajani qamrab olishi va shu sababli boshqa darajalardagi omillar - oilaviy muhit, maktab siyosati, raqamli infratuzilma - bilan muvofiqlashtirilmasa, yetarli samara bermasligi mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqot nazariy xarakterga ega bo‘lgani sababli, taklif etilgan modelning amaliy samaradorligini o‘lchash mumkin emas. Bu - tadqiqotning asosiy cheklovi bo‘lib, kelgusi tadqiqotlarda modelning har bir darajasini o‘lchaydigan instrumentlar (so‘rovnomalar, kuzatish varaqalari) ishlab chiqish va model asosida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish orqali uni empirik jihatdan asoslash zarur.

XULOSA

O‘quvchilarda algoritmik va analitik tafakkurni rivojlantirish ko‘p omilli va kompleks ijtimoiy jarayon ekanligi tadqiqot natijalarida o‘z tasdig‘ini topdi. Mazkur tafakkur shakllari faqat shaxsning individual intellektual qobiliyatlari yoki maktabdagi fanlarni o‘zlashtirish jarayoni bilan emas, balki oila, tengdoshlar, o‘qituvchilar, maktab jamoasi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, madaniy muhit, ommaviy axborot vositalari va zamonaviy raqamli kommunikatsiyalar tizimi bilan bevosita hamda bilvosita bog‘liq ekanligi asoslandi.

Tadqiqot davomida ilgari surilgan to‘rt darajali - mikroijtimoiy, mezoijtimoiy, makroijtimoiy va virtual-ijtimoiy - model insonning yuqori darajadagi tafakkur operatsiyalari dastlab ijtimoiy o‘zaro munosabatlarda shakllanib, keyinchalik shaxsning ichki intellektual faoliyatiga aylanishini izchil tarzda tavsiflaydi. Shu ma'noda algoritmik va analitik tafakkur ijtimoiy muhit tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan hamda ijtimoiy faoliyat orqali rivojlantiriladigan intellektual kompetensiyalar sifatida qaralishi lozim.

Amaliy tavsiya sifatida quyidagilar taklif etiladi: o‘qituvchilar tayyorlash dasturlariga fikrlash jarayonini ochiq namoyish qilish metodikasini kiritish; maktablarda savol berish va xato qilishga nisbatan xavfsiz, qo‘llab-quvvatlovchi muhit shakllantirish; oila-maktab hamkorligini kuchaytirish orqali madaniy kapitaldagi tengsizlikni kamaytirish; o‘quv dasturlariga media va raqamli savodxonlik elementlarini bosqichma-bosqich integratsiya qilish.

Kelgusi tadqiqotlar uchun ustuvor yo‘nalish sifatida taklif etilgan modelni O‘zbekiston sharoitida empirik tekshirish, ya'ni turli mintaqa va ta'lim muassasalarida o‘quvchilar hamda o‘qituvchilar ishtirokida so‘rovnoma va tajriba-sinov ishlarini tashkil etish tavsiya etiladi. Bu, o‘z navbatida, modelning har bir darajasi bo‘yicha aniq pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. - Москва: Лабиринт, 1999.
2. Bandura A. Social Learning Theory. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977.
3. Bourdieu P. The Forms of Capital // Richardson J.G. (Ed.). Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. - New York: Greenwood Press, 1986. - P. 241–258.
4. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.
5. Shute V.J., Sun C., Asbell-Clarke J. Demystifying Computational Thinking // Educational Research Review. - 2017. - Vol. 22. - P. 142–158.
6. Grover S., Pea R. Computational Thinking in K–12: A Review of the State of the Field // Educational Researcher. - 2013. - Vol. 42. - № 1. - P. 38–43.
7. Resnick M. et al. Scratch: Programming for All // Communications of the ACM. - 2009. - Vol. 52. - № 11. - P. 60–67.
8. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonuni, O‘RQ–637-son. - 2020-yil 23-sentabr.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston - 2030" strategiyasi to‘g‘risida"gi PF–158-son Farmoni. - 2023-yil 11-sentabr.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O‘zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF–6079-son Farmoni. - 2020-yil 5-oktabr.

UDK:15.023.564

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA MUHANDISLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Raxmonova Dilfuza Maxmudovna
Buxoro davlat universiteti
Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: d.m.raxmonova@buxdu.uz
ORCID: https://orcid.org/0000-0001-7556-0529

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda muhandislik ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari, STEAM yondashuvi bilan integratsiyasi va ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash mexanizmlari tahlil qilinadi. Muhandislik faoliyati bolaga muammoni ko'rish, g'oya ilgari surish, reja tuzish, model yaratish, sinash va takomillashtirish imkonini beradigan iterativ jarayon sifatida talqin qilindi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturidagi rivojlanish sohalari bilan muhandislik faoliyatining uzviyligi asoslandi. Adabiyotlar tahlili asosida muammoli vaziyat – g'oya – loyihalash – yaratish va sinash – takomillashtirish ketma-ketligiga asoslangan pedagogik model hamda kuzatuv mezonlari taklif etildi. Yondashuv bolalarning mantiqiy va fazoviy tafakkuri, ijodkorligi, hamkorlikda ishlashi, nutqiy faolligi va muammoni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ko'rsatildi.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, muhandislik ko'nikmalari, STEAM, muhandislik dizayni, konstruktorlik faoliyati, muammoli ta'lim, loyiha, ijodiy fikrlash.*

ФОРМИРОВАНИЕ ИНЖЕНЕРНЫХ НАВЫКОВ У ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. *В статье анализируются теоретико-педагогические основы формирования инженерных навыков у детей дошкольного возраста, их интеграция со STEAM-подходом и механизмы внедрения в образовательный процесс. Инженерная деятельность рассматривается как итеративный процесс, включающий выявление проблемы, выдвижение идеи, планирование, создание модели, испытание и совершенствование. На основе анализа литературы предложены педагогическая модель и критерии наблюдения, ориентированные на развитие логического и пространственного мышления, творчества, сотрудничества и навыков решения проблем.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, инженерные навыки, STEAM, инженерное проектирование, конструирование, проблемное обучение, проектная деятельность.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

DEVELOPING ENGINEERING SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH THE EDUCATIONAL AND UPBRINGING PROCESS

Abstract. *This article analyses the theoretical and pedagogical foundations of developing engineering skills in preschool children, their integration with the STEAM approach, and mechanisms for embedding engineering practices into the educational process. Engineering activity is interpreted as an iterative process of identifying a problem, generating ideas, planning, creating and testing a model, and improving the solution. Based on a review of national and international literature, a pedagogical model and observational criteria are proposed to support logical and spatial thinking, creativity, collaboration, communication, and problem-solving skills.*

Keywords: *preschool education, engineering skills, STEAM, engineering design, construction activity, problem-based learning, project activity.*

KIRISH

Zamonaviy maktabgacha ta'limda bolaning faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishi emas, balki atrofdagi muammoli vaziyatlarni kuzatishi, savol qo'yishi, taxmin yaratishi, amaliy yechimni loyihalashi va o'z fikrini tekshirib ko'rishi muhim kompetensiya sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan muhandislik ko'nikmalari maktabgacha yoshdagi bolaga "qanday ishlaydi?", "qanday qilib yaxshilash mumkin?" va "qaysi material mos?" kabi savollar orqali bilish jarayonini faol tashkil etish imkonini beradi (1,2).

O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'limga doir zamonaviy yondashuvlari va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi bolada bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish, ijtimoiy-hissiy kompetensiyalar, kommunikatsiya va mustaqil faoliyatni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi (1,2). Ushbu vazifalar STEAM ta'limining fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika komponentlarini integratsiyalash orqali hal qilinishi mumkin. Mahalliy metodik manbalarda STEAM mashg'ulotlari maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik, konstruktorlik, ijodkorlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi qayd etilgan (3,4,5).

Muhandislik faoliyatining maktabgacha ta'limdagi o'ziga xosligi shundaki, u kasbiy muhandislik bilimlarini erta o'rgatishni emas, balki bolaga mos sodda dizayn

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

jarayonini tashkil etishni ko‘zda tutadi. Xalqaro adabiyotlarda bunday jarayon muammoni aniqlash, yechimlarni tasavvur qilish, rejalashtirish, model yaratish, sinash va qayta takomillashtirishdan iborat iterativ sikl sifatida izohlanadi (8,9,10).

Maqolaning maqsadi — maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida muhandislik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini tahlil qilish, ta’lim-tarbiya jarayoniga mos metodik modelni ishlab chiqish va bolalar faoliyatini kuzatish mezonlarini taklif etishdir.

MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqot sharh-tahliliy va pedagogik modellashtirish xarakteriga ega. Manba bazasiga O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimining dasturiy-uslubiy hujjatlari, STEAM texnologiyasiga oid mahalliy darslik va maqolalar hamda erta yoshdagi muhandislik fikrlashini o‘rgangan xalqaro tadqiqotlar kiritildi (1–10). Tahlilda kontent-tahlil, qiyosiy pedagogik tahlil, tizimlashtirish va konseptual modellashtirish metodlari qo‘llanildi.

Mahalliy manbalarni tanlashda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan STEAM, loyiha va konstruktorlik faoliyatini tashkil etishga bevosita aloqadorligi, amaliy metodik tavsiyalar mavjudligi hamda O‘zbekiston ta’lim kontekstiga mosligi hisobga olindi (2–7). Xalqaro manbalar esa maktabgacha muhandislik tafakkuri, muhandislik dizayni sikli, o‘yin va konstruktorlik faoliyatining rivojlantiruvchi imkoniyatlari bo‘yicha nazariy va empirik dalillarni yoritgani uchun tanlandi (8–10).

Pedagogik modelni ishlab chiqishda uch tamoyil asos qilib olindi: birinchidan, faoliyat bolaning yosh va rivojlanish xususiyatlariga mos bo‘lishi; ikkinchidan, muammo real hayot yoki bolaning o‘yin tajribasi bilan bog‘lanishi; uchinchidan, yakuniy natijadan ko‘ra jarayon — savol berish, fikr yuritish, sinash, xatoni ko‘rish va takomillashtirish — baholanishi lozim. Bu yondashuv muhandislikni “to‘g‘ri javob topish” emas, balki ko‘p variantli yechimlar yaratish jarayoni sifatida o‘rgatishga imkon beradi (8,9).

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

NATIJALAR

Adabiyotlar sintezi maktabgacha ta'limda muhandislik ko'nikmalarini shakllantirish uchun alohida fan kiritish shart emasligini ko'rsatadi. Muhandislik mazmuni qurish-yasash, tabiat va atrof-muhitni o'rganish, elementar matematika, nutq rivoji, tasviriy faoliyat va rolli o'yinlar bilan integratsiyalangan holda berilishi mumkin (2,3,4). Masalan, "o'yinchoq mashina uchun mustahkam ko'prik qurish", "suvni bir idishdan boshqasiga yetkazish", "shamolda yiqilmaydigan minora yaratish" kabi vazifalar o'lchash, taqqoslash, material xususiyatlarini tekshirish va sabab-oqibat munosabatlarini tushunishni birlashtiradi.

Tahlil asosida maktabgacha yosh uchun besh bosqichli muhandislik faoliyati modeli taklif qilindi: 1) muammoni ko'rish va savol qo'yish; 2) bir nechta g'oyani taklif etish; 3) oddiy reja yoki chizma yaratish; 4) modelni qurish va sinash; 5) natijani muhokama qilib, modelni yaxshilash. Mazkur bosqichlar chiziqli emas: bola sinash jarayonida avvalgi bosqichga qaytishi, materialni almashtirishi yoki yangi yechim ishlab chiqishi mumkin. Aynan shu takroriy sikl muhandislik fikrlashining muhim belgisi hisoblanadi (8,10).

1-jadval. Maktabgacha yoshda muhandislik ko'nikmalarini kuzatish mezonlari

Ko'nikma	Boladagi kuzatiladigan harakat	Tarbiyachining qo'llab-quvvatlashi	Kutiladigan rivojlanish natijasi
Muammoni aniqlash	Muammoni nomlaydi, "nega?" va "qanday?" savollarini beradi	Ochiq savollar beradi, vaziyatni bolaga qayta ifodalashga yordam beradi	Muammoli vaziyatni anglash va maqsad qo'yish

G‘oya yaratish	Bir yoki bir nechta yechim variantini aytadi yoki tasvirlaydi	Turli variantlarni qabul qiladi, tayyor javob bermaydi	Divergent va ijodiy fikrlash
Rejalashtirish	Material tanlaydi, oddiy chizma yoki ketma-ketlik tuzadi	Material xususiyatlarini solishtirishga undaydi	Fazoviy tasavvur va rejalash
Yaratish va sinash	Model quradi, mustahkamlik yoki funksiyani tekshiradi	Xavfsiz tajriba muhiti yaratadi	Sabab-oqibat, o‘lchash, tajriba
Takomillashtirish	Xatoni ko‘rib, modelni o‘zgartiradi va qayta sinaydi	“Nimani o‘zgartirsak yaxshi bo‘ladi?” deya refleksiya uyg‘otadi	Qat’iyat, refleksiya, muammoni hal qilish
Kommunikatsiya	G‘oyasini tushuntiradi, sherigi bilan kelishadi	Dialog va hamkorlikni rag‘batlantiradi	Nutqiy va ijtimoiy kompetensiya

NATIJALAR

Muhandislik ko‘nikmalarining samarali shakllanishi uchun material muhiti ham muhim. Tayyor konstruktorga qo‘shimcha ravishda karton, qog‘oz, yog‘och cho‘plar, qopqoqlar, ip, quvurchalar, plastilin, tabiiy materiallar va qayta ishlatiladigan xavfsiz

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

buyumlardan foydalanish bolaga turli fizik xususiyatlarni amalda taqqoslash imkonini beradi. Ochiq yakunli materiallar bir xil vazifaga turli yechimlar topishni rag‘batlantiradi va ijodiy fikrlash doirasini kengaytiradi (3,5,6).

Tarbiyachining roli bevosita “qanday qurishni ko‘rsatish” emas, balki fikrlashni boshqaruvchi savollar berishdan iborat. “Nima uchun bu minora yiqildi?”, “Qaysi qismi og‘ir?”, “Boshqa material ishlatsak nima bo‘ladi?”, “Qanday tekshiramiz?” kabi savollar bolani sabab-oqibat tahlili va eksperimentga olib keladi. Muhandislik faoliyati nutqiy rivojlanish bilan ham chambarchas bog‘liq: bola o‘z rejasini ifodalaydi, sheriklari bilan kelishadi, natijani taqdim etadi va o‘zgarish sababini izohlaydi (4,7,9).

Modelning yana bir muhim jihati — o‘yinga asoslangan integratsiya. Maktabgacha yoshda muhandislik vazifasi rolli syujet bilan berilganda faoliyat tabiiylashadi: “hayvonlar uchun ko‘prik”, “qo‘g‘irchoq uchun uy”, “yomg‘ir suvini yig‘uvchi qurilma”, “sharcha yuradigan yo‘l” kabi vaziyatlar bolada ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Xalqaro tadqiqotlarda ham muhandislik o‘yini maqsad qo‘yish, muammoni hal qilish, loyihalash-qurish, tajriba va hamkorlik kabi xatti-harakatlar bilan tavsiflanadi (8,9).

Baholash yakuniy mahsulotning chiroyliligi yoki kattaligi bilan cheklanmasligi kerak. Pedagog kuzatuvida bolaning savol berishi, g‘oya soni, material tanlash asoslari, modelni sinashga tayyorligi, xatodan keyingi o‘zgarishlari va sheriklar bilan kommunikatsiyasi qayd etiladi. Shunday baholash bolaning rivojlanish dinamikasini ko‘rsatadi va tarbiyachiga keyingi topshiriq murakkabligini moslashtirish imkonini beradi.

MUHOKAMA

Olingan tahliliy natijalar maktabgacha ta’limda STEAM yondashuvini faqat robototexnika yoki raqamli qurilmalar bilan bog‘lash tor yondashuv ekanini ko‘rsatadi. Muhandislik tafakkurining markazida texnika vositasi emas, balki muammoni amaliy yechimga aylantirish jarayoni turadi. Shuning uchun oddiy kundalik materiallar

yordamida tashkil etilgan qurish va sinash faoliyati ham mazmunan muhandislik mashg‘uloti bo‘lishi mumkin (3,6,8).

Mahalliy adabiyotlarda STEAM ta’limining didaktik imkoniyatlari, loyiha asosida o‘qitish, o‘yin metodlari va tarbiyachining metodik kompetensiyasi alohida ta’kidlangan (4,5,6,7). Taklif etilgan model ushbu yondashuvlarni aynan “muhandislik dizayni” mantig‘i bilan tizimlashtiradi. Bu esa “Ilk qadam” dasturidagi bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish va ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarni bir faoliyatda uyg‘unlashtirish imkonini beradi (1,2).

Xalqaro tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar muhandislikka xos harakatlarni bajarishga qodirligini ko‘rsatadi: ular muammo qo‘yishi, qurilma yoki model g‘oyasini taklif qilishi, qurishi, sinashi va natijani yaxshilash uchun qayta loyihalashi mumkin (8,10). 2024-yildagi integratsiyalashgan STEM va design thinking tadqiqotida ham bolalarda chizma tuzish, konstruktsiya yaratish, sinash, baholash va takomillashtirish xatti-harakatlari qayd etilgan (10). Shu bilan birga, faoliyat haddan tashqari murakkab terminlar va qat’iy texnik ko‘rsatmalar bilan yuklanmasligi kerak; bolaning erkin sinovlari va o‘yin mantig‘i saqlanishi zarur.

Amaliyot uchun asosiy cheklovlar tarbiyachilarning STEAM va muhandislik dizayni bo‘yicha metodik tayyorgarligi, xavfsiz va xilma-xil materiallar bazasi hamda natijani jarayon asosida baholash tajribasining yetarli emasligi bilan bog‘liq. Shu sababli malaka oshirish dasturlarida muhandislik vazifasini tuzish, ochiq savol berish, bolalar g‘oyalarini hujjatlashtirish va refleksiv suhbatni tashkil etish ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

MUHOKAMA (amaliy metodik tavsiyalar)

Maktabgacha ta’lim tashkilotida muhandislik faoliyatini haftalik mavzular bilan bog‘lash mumkin. “Transport” mavzusida turli g‘ildirak o‘lchamlarining harakatga ta’sirini tekshirish, “Uylar” mavzusida mustahkam va baland konstruksiya qurish, “Suv” mavzusida oddiy kanal yoki filtrlash modeli yaratish, “Tabiat” mavzusida qushlar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

uchun yemdon loyihalash kabi topshiriqlar ta'lim mazmunini hayotiy vaziyatlar bilan birlashtiradi. Har bir topshiriqda tarbiyachi xavfsizlik va yoshga moslikni ta'minlashi, ammo yechimning shaklini oldindan belgilab bermasligi kerak.

Kichik guruhlarda bajariladigan vazifalar ijtimoiy o'rganishni kuchaytiradi. Bolalar vazifalarni taqsimlash, fikrlarini himoya qilish, sherigining taklifini tinglash va umumiy qarorga kelishni o'rganadi. Bu jarayonda tarbiyachi bolalar o'rtasida faoliyatni teng taqsimlashga, jumladan qiz va o'g'il bolalarning qurish, sinash va taqdimot bosqichlarida bir xil imkoniyatga ega bo'lishiga e'tibor berishi lozim (8,9).Muhandislik faoliyatini raqamli vositalar bilan boyitish mumkin, biroq ular amaliy faoliyatning o'rnini bosmasligi kerak. Fotosurat, qisqa video, sodda elektron konstruktor yoki interaktiv model bola yaratgan obyektni kuzatish va hujjatlashtirishga yordam berishi mumkin. Biroq maktabgacha yosh uchun qo'l bilan ushlash, materialni bukish, biriktirish, og'irlik va muvozanatni his qilish kabi sensor-motor tajribalar muhimligi saqlanadi.

Ota-onalar bilan hamkorlik muhandislik kompetensiyalarini mustahkamlashi mumkin. Uy sharoitida karton quti, qog'oz, plastik qopqoq kabi xavfsiz materiallardan foydalanib "eng uzun ko'prik", "shamolda uchmaydigan uycha", "o'yinchoqni balandroqqa ko'taruvchi moslama" kabi kichik oilaviy loyihalar tashkil etilishi mumkin. Muhimi, kattalar tayyor yechimni bermasdan, bolaga taxmin qilish va sinab ko'rish uchun vaqt ajratishi lozim.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida muhandislik ko'nikmalarini shakllantirish bolaning erta kasbiy yo'naltirilishi emas, balki uning muammoli vaziyatga faol munosabat bildirish, fikr yaratish, rejalashtirish, konstruksiya qurish, sinash va takomillashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Mazkur jarayon STEAM yondashuvi orqali fan, matematika, texnologiya, san'at va kommunikatsiyani tabiiy integratsiyalash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili asosida taklif etilgan besh bosqichli model — muammoni aniqlash, g‘oya yaratish, rejalashtirish, yaratish-sinash va takomillashtirish — maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tushunarli va o‘yin faoliyatiga mos shaklda qo‘llanishi mumkin. Samaradorlikning asosiy shartlari ochiq yakunli topshiriqlar, xilma-xil xavfsiz materiallar, tarbiyachining fasilitatorlik roli, jarayonga asoslangan baholash va bolalarning hamkorlikdagi faoliyatidir.

Kelgusida mazkur modelni turli yosh guruhlarida tajriba-sinovdan o‘tkazish, muhandislik ko‘nikmalarining rivojlanishini kuzatish vositalarini validatsiya qilish hamda “Ilk qadam” dasturining rivojlanish markazlari bilan integratsiyalashgan mashg‘ulotlar majmuasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR:

1. Grosheva, I. V., Mirziyoyeva, Sh. Sh., Evstafyeva, L. G., Maxmudova, D. T., Nabixanova, Sh. B., Pak, S. V., Nazarova, V. A., Isxakova, M. R., Abdunazarova, N. F. (2022). Ilk qadam: O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun davlat o‘quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. Toshkent.
2. Quchqorova, N. M., Nuraddinova, R. S. (2022). “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi namunasida o‘tkaziladigan mavzuli faoliyatlarni tashkil etish. Toshkent: Bookmany Print.
3. Maxmutazimova, Yu. R. (2022). Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari. Toshkent: TAMADDUN.
4. Berdiyeva, M. M. (2024). Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyasi. Toshkent: NIF MSH.
5. Saidova, N. O., Pirmatova, Z. (2025). STEAM o‘yin usullarini maktabgacha ta’limda qo‘llashning pedagogik ahamiyati. International Journal of Science and Technology, 1(27), 185–187. https://doi.org/10.70728/j6r90324
6. Radjapova, Z., Abdullayeva, S. (2026). Maktabgacha ta’limda STEAM yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari. Maktabgacha va maktab ta’limi. https://doi.org/10.5281/zenodo.19425858
7. To‘xtaboyeva, M. (2026). Maktabgacha ta’limda STEAM yondashuvining didaktik imkoniyatlari. Maktabgacha va maktab ta’limi. https://doi.org/10.5281/zenodo.20706869
8. Lippard, C. N., Lamm, M. H., Tank, K. M., & Choi, J. Y. (2017). Engineering thinking in prekindergarten children: A systematic literature review. Journal of Engineering Education, 106(3), 454–474. https://doi.org/10.1002/jee.20174
9. Yuan, Y., Zeng, W., Kloos, H., Brown, R., et al. (2025). Preschool engineering play on nature playscapes. Early Childhood Education Journal, 53, 2207–2216. https://doi.org/10.1007/s10643-024-01743-4

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

10. Ho, T. E. (2024). Outcomes of an integrated STEM with design thinking module on preschoolers' engineering practices. Eurasia Journal of Mathematics, Science and Technology Education, 20(4), em2431. https://doi.org/10.29333/ejmste/14433

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

TALABALAR VOLONTYORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK MODELI: MAHALLIY VA XORIJIY ILMIY TAJRIBA ASOSIDA TAHLIL

Tohirov Husniddin Zokirjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti Volontyorlik markazi rahbari
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi
Tel +998978191999
alibey19911@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar volontyorlik faoliyatini tashkil etishning pedagogik jihatlari nazariy jihatdan o'rganildi. Mahalliy me'yoriy-huquqiy baza, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va xorijiy ilmiy tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilindi, ularning har biridagi ustuvor mexanizmlar aniqlandi. Tadqiqot davomida volontyorlik faoliyatini boshqarishning to'rtta takrorlanuvchi mexanizmi - universitet va jamoa hamkorligi, o'quv jarayoni bilan bog'lash, tayyorgarlik va pedagogik kuzatuv, hamda natijani raqamli qayd etish ajratib ko'rsatildi. Tahlil natijasida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun moslashtirilgan gibrid pedagogik model taklif etildi. Maqolaning ilmiy yangiligi volontyorlik markazini tashkiliy tuzilma emas, balki pedagogik-koordinatsion subyekt sifatida qayta talqin qilishda namoyon bo'ladi. Xulosa qismida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so'zlar: *talabalar volontyorligi, pedagogik model, hamjamiyatga xizmat orqali o'qitish, subyekt pozitsiyasi, kasbiy kompetentlik, universitet volontyorlik markazi, e'tirof va sertifikatlash, ijtimoiy hamkorlik.*

A PEDAGOGICAL MODEL FOR ORGANIZING STUDENT VOLUNTEERING: AN ANALYSIS BASED ON LOCAL AND INTERNATIONAL RESEARCH EXPERIENCE

Abstract: *This article examines the pedagogical aspects of organizing student volunteering activities in higher education institutions from a theoretical perspective. A comparative analysis was conducted of the local regulatory framework, practices within the Commonwealth of Independent States (CIS), and international research, identifying the priority mechanisms within each. The study highlights four recurring mechanisms for managing volunteering activities: university-community partnerships, integration with the academic process, preparation and pedagogical supervision, and the digital recording of outcomes. Based on this analysis, a hybrid pedagogical model tailored for higher education institutions in Uzbekistan is proposed. The article's scientific novelty lies in reinterpreting the volunteer center not merely as an organizational structure, but as a pedagogical-coordinating entity. Practical recommendations are presented in the conclusion.*

Keywords: *student volunteering, pedagogical model, service-learning, subject position, professional competence, university volunteer center, recognition and certification, social partnership.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ОРГАНИЗАЦИИ СТУДЕНЧЕСКОГО ВОЛОНТЕРСТВА: АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ ОТЕЧЕСТВЕННОГО И ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация: *В статье с теоретической точки зрения рассматриваются педагогические аспекты организации волонтерской деятельности студентов в высших учебных заведениях. Проведен сравнительный анализ нормативно-правовой базы, практики стран СНГ и результатов международных исследований, в ходе которого были выявлены приоритетные механизмы реализации данной деятельности. В исследовании выделены четыре ключевых механизма управления волонтерством: партнерство университета с местным сообществом, интеграция в учебный процесс, подготовка и педагогическое сопровождение, а также цифровая фиксация результатов. На основе проведенного анализа предложена гибридная педагогическая модель, адаптированная для вузов Узбекистана. Научная новизна работы заключается в переосмыслении роли волонтерского центра: он рассматривается не просто как организационная структура, а как субъект, осуществляющий педагогическую и координационную деятельность. В заключении представлены практические рекомендации.*

Ключевые слова: *студенческое волонтерство, педагогическая модель, обучение через служение обществу (service-learning), субъектная позиция, профессиональная компетентность, университетский волонтерский центр, признание и сертификация, социальное партнерство.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati va oliy ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish masalasi davlat darajasida ustuvor vazifa sifatida belgilangan. “Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinishi, “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirish konsepsiyasi” hamda “Volontyorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror volontyorlikning huquqiy-institutsional bazasini mustahkamladi. Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” va "Yangi O‘zbekiston yoshlari – 2030" strategiyasi talabalar ijtimoiy faolligini oshirishni oliy ta’lim sifatining muhim mezoni sifatida belgilaydi [1,2].

Shu bilan birga, huquqiy bazaning mustahkamlanishi volontyorlikni tashkil etishning pedagogik mexanizmi avtomatik ravishda shakllanganini anglatmaydi. Mavjud tadqiqotlarda volontyorlikning foydali ta’siri isbotlangan bo‘lsa-da, uning oliy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ta'lim muassasasi darajasida qanday tashkil etilishi, qaysi subyektlar tomonidan boshqarilishi va qanday natijadorlik mezonlari bilan baholanishi kerakligi masalasi ochiq qolmoqda.

Tadqiqotning asosiy maqsadi mahalliy va xorijiy ilmiy tajriba hamda amaliy modellarni qiyosiy tahlil qilish orqali O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari sharoitiga moslashtirilgan volontyorlik faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslangan pedagogik modelini ishlab chiqishdan iborat qilib belgilandi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi: mahalliy va xorijiy manbalar tizimli tahlil qilinishi; xorijiy tajribadagi takrorlanuvchi mexanizmlar aniqlanishi; mavjud ilmiy bo'shliq ko'rsatib berilishi; aniqlangan tendensiyalar asosida amaliy tavsiyalar shakllantirilishi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda volontyorlik faoliyati alohida tarbiyaviy tadbir sifatida emas, balki tayyorgarlik, faoliyat, pedagogik kuzatuv va e'tirofni o'z ichiga olgan yaxlit tashkiliy-pedagogik sikl sifatida ko'rib chiqildi, universitet volontyorlik markazining roli esa ijrochi tuzilmadan pedagogik-koordinatsion subyektga qarab qayta talqin qilindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

L.V.Vandyshevaning tadqiqotida bo'lajak ijtimoiy ish mutaxassislarining volontyorlik faoliyatiga tayyorligi kognitiv, qadriyat-motivatsion, texnologik va subyekt komponentlarini o'z ichiga oluvchi integrativ daraja sifatida talqin qilingan. O.R.Danilovaning tadqiqotida kasbiy yo'naltirilgan volontyorlik bo'lajak ijtimoiy pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish vositasi sifatida ko'rilib, faoliyatning to'rt bosqichli texnologiyasi asoslangan E.V.Bogdanovaning tadqiqotida talabalarning volontyorlik faoliyatidagi subyekt pozitsiyasi tashabbuskorlik, mustaqillik va mas'uliyat orqali tavsiflangan S.G.Ekimovaning tadqiqotida volontyorlik shaxsiy-kasbiy rivojlanish resursi sifatida, L.V.Dalning tadqiqotida esa ijtimoiy-pedagogik loyihalashtirishga tayyorlikni rivojlantirish vositasi sifatida o'rganilgan.

L.E.Sikorskayaning doktorlik tadqiqotida ko‘ngillilik faoliyatining talaba yoshlar ijtimoiylashuvidagi pedagogik potensiali tizimli asoslangan [4,5,8].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda nazariy-referatv yondashuv qo‘llanildi. Metodologiyaning asosini quyidagilar tashkil etdi: mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarni qiyosiy-tipologik tahlil qilish metodi; tashkiliy-pedagogik modellarni tizimlashtirish va umumlashtirish metodi; dissertatsion tadqiqotlar va me’yoriy hujjatlarni kontent-tahlil qilish metodi; hamda nazariy modellashtirish metodi. Tadqiqot va uning natijalarini rasmiylashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya va uning avtoreferatini rasmiylashtirish qoidalari, shuningdek ilmiy nashrlar minimumiga oid tavsiyalari asos qilib olindi.

Tadqiqot manbalari sifatida O‘zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, Rossiya va O‘zbekiston oliy attestatsiya komissiyalari bazasidagi pedagogik dissertatsiyalar, xalqaro ilmiy jurnallardagi maqolalar, hamda Amerika Qo‘shma Shtatlari, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya va Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy metodik hujjatlari qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida empirik so‘rovnoma o‘tkazilmadi; buning o‘rniga mavjud nazariy va me'yoriy manbalar chuqur qiyosiy tahlildan o‘tkazildi, bu referatv-nazariy tadqiqot uslubiga mos keladi.

Tahlil ikki bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda mahalliy tadqiqotlar predmet va metodologik yaqinlik mezonlari bo‘yicha guruhlashtirildi; ikkinchi bosqichda xorijiy tizimlardagi takrorlanuvchi mexanizmlar ajratildi va ularning O‘zbekiston institutsional muhitiga transfer qilinish imkoniyati baholandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qiyosiy tahlil natijasida xorijiy tizimlarda to‘rtta takrorlanuvchi mexanizm aniqlandi: universitet-jamoa hamkorligi; volontyorlikni o‘quv jarayoni bilan bog‘lash; tayyorgarlik va pedagogik kuzatuv; hamda faoliyatni raqamli qayd etish va e'tirof .

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ushbu mexanizmlar O‘zbekiston sharoitida modelni takomillashtirish uchun transfer qilinadigan tayanch unsurlar sifatida baholandi.

Mahalliy amaliyot bilan solishtirish shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan "Volontyorlar maktabi" tizimi va unga oid uslubiy qo‘llanma allaqachon joriy etilgan, shuningdek "Yangi O‘zbekiston yoshlari – 2030" strategiyasi doirasida volontyorlikni rivojlantirish rejalari mavjud. Farg‘ona davlat universiteti misolida ham buni ko‘rish mumkin: universitetning Volontyorlik markazi "Yashil makon" kabi loyihalarda talaba-yoshlarni faol jalb etgan, volontyorlik faoliyati esa talabaning ijtimoiy faollik indeksini baholovchi ko‘rsatkichlardan biri sifatida institutsionallashtirilgan. Bu holat mahalliy infratuzilma allaqachon mavjudligini, biroq uning pedagogik funksiyasi hali to‘liq tizimlashtirilmaganini tasdiqlaydi.

Tahlil davomida uchta muhim metodologik chegara aniqlandi. Birinchidan, volontyorlik hamjamiyatga xizmat orqali o‘qitish bilan aynanlashtirilishi mumkin emas. Ikkinchidan, raqamli hisob tizimining o‘zi pedagogik model emas, u faqat diagnostika va e'tirofni qo‘llab-quvvatlovchi vosita hisoblanadi . Uchinchidan, volontyorlik markazi ham modelning o‘zi emas, balki uning institutsional-koordinatsion subyekti sifatida talqin qilinishi lozim.

Shu asosda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari uchun gibrid pedagogik model taklif etildi. Ushbu modelda mahalliy huquqiy-institutsional baza saqlangan holda, Amerika tajribasidan o‘quv natijalari va mulohaza yuritish unsurlari, Yaponiya tajribasidan universitet markazining maslahat beruvchi funksiyasi, Germaniya tajribasidan tayyorlash va pedagogik kuzatuv, Janubiy Koreya tajribasidan raqamli hisob va shaxsiy yutuqlar to‘plami, hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tajribasidan qabul qiluvchi tashkilotlar tarmog‘i va ikki tomonlama natija diagnostikasi moslashtirildi. Motivatsion asos sifatida o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi va funksional yondashuv qo‘llanildi.

1-jadval

Xorijiy volontyorlik tizimlaridan O‘zbekiston OTM pedagogik modeliga transfer qilinadigan unsurlar

Mamlakat / tizim	**Tayanch mexanizm**	**Kuchli pedagogik tomoni**	**O‘zbekiston OTMiga moslashtirish yo‘li**
Amerika Qo‘shma Shtatlari (hamjamiyatga xizmat orqali o‘qitish)	Jamoat xizmati + o‘quv maqsadi + refleksiya	Tajribani o‘quv natijasiga aylantirish	Kasbiy yo‘naltirilgan loyihalarda refleksiya va ta'lim natijasini belgilash
Yaponiya (universitet volontyorlik markazlari)	Markazlashgan konsultatsiya va e'tirof tizimi	Talaba–loyiha mosligi, NNT va mahalliy hokimiyat bilan hamkorlik	OTM markazining pedagogik-vositachilik funksiyasini kuchaytirish
Germaniya (federal ixtiyoriy xizmat)	Pedagogik kuzatuv va seminarlar	Tayyorlash, amaliy kuzatuv, tajribani qayta ishlash	"Volontyorlar maktabi" doirasida mentorlik va refleksiya modulini joriy etish
Janubiy Koreya (yagona raqamli portal)	Markazlashgan hisob va tizimlararo integratsiya	Faoliyatni ishonchli qayd etish va e'tirof	Raqamli "Volontyorlik pasporti" / kompetensiyaviy portfolio joriy etish
Birlashgan Millatlar Tashkiloti Volontyorlar dasturi	Tashkilotchi – qabul qiluvchi tashkilot – volontyor tarmog'i	Institutsional sheriklik, kasbiy ko‘nikma rivoji	OTM – markaz – ijtimoiy hamkor – talaba tarmog'ini shakllantirish

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Muhokama jarayonida ortiqcha markazlashuvning xavfi ham ko‘rib chiqildi: haddan tashqari markazlashgan boshqaruv talaba tashabbusini susaytirishi, haddan tashqari erkin model esa xavfsizlik va natijadorlik nazoratining yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli taklif etilayotgan modelda markaz koordinatsiya va pedagogik xizmat ko‘rsatish funksiyasini kuchaytiradi, biroq talabaning tanlov erkinligini o‘zlashtirib olmasligi zarur.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, talabalar volontyorligi tayyorgarlik, faoliyat, pedagogik kuzatuv va e'tirofni o‘z ichiga olgan yaxlit tashkiliy-pedagogik tsikl sifatida loyihalanishi lozim. Ikkinchidan, mahalliy va xorijiy tajribani qiyoslash yagona universal modelning mavjud emasligini, moslashuvchan gibrid yondashuvning zarurligini ko‘rsatadi. Uchinchidan, universitet volontyorlik markazi pedagogik-koordinatsion bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida qayta talqin qilinishi lozim.

Amaliy tavsiyalar quyidagicha shakllantirildi:

Birinchidan, "Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida"gi Qonun va tegishli hukumat qarorlari doirasida oliy ta’lim muassasalarida volontyorlik faoliyatini boshlashdan oldingi qisqa tayyorgarlik moduli joriy etilishi, unda etik me'yorlar va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi o‘rgatilishi tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, "Oliy ta’lim tashkilotlarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom" asosida har bir volontyorlik loyihasiga mas'ul tyutor-murabbiy biriktirilishi va muntazam mulohaza yuritish uchrashuvlari tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, Janubiy Koreya tajribasi) asosida talabaning faoliyat turi va shakllangan kompetensiyalarini qayd etuvchi raqamli shaxsiy yutuqlar to‘plami tizimi joriy etilishi, bu esa "Volontyorlar maktabi" faoliyati bilan uzviy bog‘lanishi tavsiya etiladi.

To‘rtinchidan, volontyorlik markazi faoliyati ko‘p mezonli "talaba-loyiha mosligi" tizimi asosida qayta tashkil etilishi, talaba rivoji bilan bir qatorda ijtimoiy hamkor tashkilotning olgan natijasi ham parallel baholanishi lozim .

Beshinchidan, "Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi" doirasida faol volontyorlik faoliyati talaba ijtimoiy faollik indeksining tarkibiy ko‘rsatkichi sifatida hisobga olinishi, Farg‘ona davlat universitetidagi amaliyot kabi boshqa oliy ta’lim muassasalarida ham tizimlashtirilishi tavsiya etiladi.

Oltinchidan, kelgusi tadqiqotlarda taklif etilgan gibrid modelning amaliy sinovdan o‘tkazilishi va uning samaradorligini o‘lchovchi ko‘p mezonli diagnostika vositalarini ishlab chiqish istiqbolli yo‘nalish sifatida belgilanishi mumkin.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-dekabrdagi O‘RQ-585-son "Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-4623999 (murojaat sanasi: 02.09.2026).
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi 169-son "Volontyorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori. URL: https://lex.uz/docs/-5952104 (murojaat sanasi: 02.09.2026).
3. Qudratov A.M. O‘zbekistonda volontyorlik faoliyatini rivojlantirishda yoshlar ishtirokini oshirish mexanizmlari: PhD dissertatsiyasi. URL: https://oak.uz/pages/12007 (murojaat sanasi: 02.09.2026).
4. Данилова О.Р. Формирование профессиональной компетентности будущих социальных педагогов ... : дис. ... канд. пед. наук. – Комсомольск-на-Амуре, 2011. – 241 с.
5. Богданова Е.В. Формирование субъектной позиции студентов в волонтерской деятельности: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Кострома, 2010. – 22 с.
6. Latipova N.I. Sinfdan tashqari tadbirlarda o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni tarbiyalash metodikasi: PhD dissertatsiyasi. URL: https://oak.uz/pages/25783.
7. Djamilova N.N. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari: DSc dissertatsiyasi. URL: https://oak.uz/pages/3740.
8. Сикорская Л.Е. Педагогический потенциал добровольческой деятельности в социализации студенческой молодежи: дис. ... д-ра пед. наук. – Москва, 2011. – 421 с.
9. Raxmanova M.Q. Talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish: DSc dissertatsiyasi. URL: https://oak.uz/pages/13075.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

10. Nishonova K.Sh. Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish metodikasi: PhD dissertatsiyasi. URL: https://oak.uz/pages/25476.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA «FIZIKA» FANINI O'QITISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Raxmankulova Dilora Gulomovna
Sambhram universiteti O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i
ORCID: 0009-0003-5479-7692
E-mail: rahmonkulovadilora@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar asosida fizika fanini o'qitishning pedagogik ahamiyati keng qamrovda yoritiladi. O'zbekistonda va xalqaro miqyosda olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar, tarixiy va zamonaviy nazariyalar, shuningdek, empirik natijalar asosida raqamli platformalar va vositalarning fizika ta'limiga kirib kelishi, talabalarning bilim sifatiga, motivatsiyasiga va ijodiy fikrlashiga ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar, milliy va mintaqaviy olimlarning hissasi hamda mavjud muammolar va bahsli jihatlar ham ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, fizika ta'limi, pedagogika, innovatsion metodlar*

THE PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF TEACHING PHYSICS BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

Abstract: *This article extensively explores the pedagogical significance of teaching physics based on digital technologies. Drawing upon national and international scientific-practical research, historical and contemporary theories, as well as empirical results, it analyzes the integration of digital platforms and tools into physics education and their impact on students' learning quality, motivation, and creative thinking. The article also examines modern pedagogical approaches, contributions of regional and national scholars, and discusses existing challenges and debates.*

Keywords: *digital technologies, physics education, pedagogy, innovative methods*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация: *В данной статье всесторонне освещается педагогическое значение преподавания физики на основе цифровых технологий. На основе национальных и международных научно-практических исследований, исторических и современных теорий, а также эмпирических данных анализируется внедрение цифровых платформ и инструментов в обучение физике, их влияние на качество знаний, мотивацию и творческое мышление учащихся. Рассматриваются современные педагогические подходы, вклад региональных и отечественных ученых, а также существующие проблемы и дискуссии.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, обучение физике, педагогика, инновационные методы*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, barcha sohalarda, xususan, ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, fizika kabi tabiiy fanlarni o'qitishda raqamli vositalardan foydalanish talabalar uchun nafaqat bilim manbai, balki ularning fikrlash doirasini kengaytiruvchi, amaliy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi muhim omilga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar pedagogik jarayonlarga integratsiyalashuvi natijasida ta'lim mazmuni, metodlari va shakllarida tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Shu bilan birga, ushbu yangilanishlar o'qituvchilardan yangi kompetensiyalarni egallashni, talabalardan esa mustaqil izlanish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini talab etmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida ham raqamli texnologiyalardan keng foydalanilmoqda va bu jarayon fizika fanining o'qitilishida o'ziga xos pedagogik ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarning fizika ta'limiga kirib kelishi, uning nazariy asoslari, tarixiy taraqqiyoti, amaliy natijalari va bahsli jihatlari ilmiy nuqtai nazardan keng va chuqur tahlil qilinadi.

Raqamli texnologiyalar asosida fizika fanini o'qitishning pedagogik ahamiyati bugungi kunda zamonaviy ta'lim jarayonining eng dolzarb muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur muammoning nazariy-konseptual asoslarini tahlil qilganda, avvalo, raqamli texnologiyalar tushunchasining o'zi va uning ta'lim jarayoniga ta'siri haqida to'xtalib o'tish lozim. Raqamli texnologiyalar dedikanda, birinchi navbatda, kompyuterlar, planshetlar, virtual laboratoriyalar, interaktiv dasturlar, sun'iy intellekt asosida ishlovchi ta'lim platformalari, onlayn resurslar va boshqa axborot-kommunikatsiya vositalari tushuniladi. Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat o'qitish usullarini, balki talabalarning fikrlash, bilim olish, axborot izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini ham tubdan o'zgartirmoqda. Bu o'zgarishlar zamirida konstruktivistik nazariya, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv, sotsial-konstruktivizm kabi metodologik asoslar yotadi. Masalan, konstruktivistik yondashuvga ko'ra, talabalar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bilimni tayyor shaklda emas, balki o‘z mustaqil faoliyati davomida, muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida o‘zlashtiradilar. Raqamli texnologiyalar esa bunday faoliyat uchun keng imkoniyatlar yaratadi, xususan, simulyatsiyalar, virtual tajribalar, interaktiv testlar vositasida talabalar abstrakt tushunchalarni vizual va amaliy tarzda o‘rganishlari mumkin[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tarixiy jihatdan qaralganda, fizika ta’limida texnologiyalarni qo‘llash g‘oyasi XX asr boshlarida, dastlabki audio-vizual vositalar, kinofilmlar va diaproyektorlar paydo bo‘lgan davrdan boshlangan. Keyinchalik, 1960–1970 yillarda zamonaviy kompyuterlarning ta’lim tizimiga kirib kelishi bilan birga, kompyuter yordamida o‘qitish (computer-assisted instruction) konsepsiyalari paydo bo‘ldi. O‘sha davrlarda B. F. Skinner, A. Bandura kabi olimlar tomonidan o‘quv jarayonining avtomatlashtirilishi va individuallashtirilishi bo‘yicha turli pedagogik nazariyalar ilgari surildi. Skinnerning dasturlashtirilgan o‘qitish modeli, masalan, bilimlarni bosqichma-bosqich, avtomatik nazorat va teskari aloqa asosida o‘zlashtirishga asoslangan edi. Ayni paytda, fizika fanida interaktiv tajribalar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar yordamida murakkab hodisalarni modellashtirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu esa talabalarda faqat nazariy emas, balki amaliy va eksperimental bilimlarni ham shakllantirishga xizmat qildi[2].

O‘zbekistonda va Markaziy Osiyoda fizika ta’limiga raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasi mustaqillik yillaridan boshlab dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Respublikamizda qator milliy va mintaqaviy olimlar, xususan, Q. Yo‘ldoshev, R. Xudoyberdiyev, M. Jo‘raev, Z. Rahmatullayev, A. Abdukarimov va boshqalar tomonidan fizika fanini o‘qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning pedagogik asoslari tadqiq qilindi. Q. Yo‘ldoshevning tadqiqotlarida raqamli vositalardan foydalanish talabalarning bilim sifatiga, ijodiy fikrlashiga va mustaqil ishlash qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy asosda isbotlangan. M. Jo‘raev esa

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

talabalarda fizikaviy modellashtirish va analitik tafakkurni rivojlantirishda virtual laboratoriyalarning o‘rni haqida atroflicha to‘xtaladi. Uning fikricha, zamonaviy raqamli platformalar yordamida talabalar an’anaviy laboratoriya jihozlariga ehtiyoj sezmagan holda, istalgan joyda va vaqtda turli eksperimentlarni o‘tkazishlari, natijalarni tahlil qilishlari va xulosalar chiqarishlari mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, ta’limning individualizatsiyalashuvi va differentsiatsiyalashuviga xizmat qiladi[3].

Jahon miqyosida olib borilgan empirik tadqiqotlar ham raqamli texnologiyalarning fizika ta’limiga integratsiyalashuvi talabalarning o‘zlashtirish darajasi, motivatsiyasi va tanqidiy tafakkuriga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Masalan, J. Bruner va D. Jonassening faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlari asosida o‘tkazilgan tadqiqotlarda, talabalarning virtual laboratoriyalardan foydalanishi natijasida ularda fizikaviy hodisalarni chuqurroq anglash, sabab-oqibat aloqalarini mustaqil aniqlash, ilmiy gipotezalarni ilgari surish va ularni eksperiment orqali tasdiqlash kabi ko‘nikmalar rivojlanishi aniqlangan[4]. Boshqa bir empirik tadqiqotda esa, raqamli platformalardan foydalanilgan sinflarda talabalarning darsga qatnashish faolligi, o‘z-o‘zini baholash va teskari aloqa olish ko‘rsatkichlari an’anaviy sinflarga nisbatan yuqori bo‘lgani qayd etilgan. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar yordamida talabalar o‘zlarining o‘quv jarayonini mustaqil boshqarish, bilimlarni qayta ishlash va tahlil qilish, o‘ziga mos tezlikda o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa, zamonaviy ta’limda individual yondashuv tamoyiliga to‘liq mos keladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Raqamli texnologiyalarning fizika ta’limidagi pedagogik ahamiyatini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun uning asosiy afzalliklari va imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratish lozim. Birinchidan, raqamli vositalar yordamida fizika darslari interaktiv, vizual va amaliy xarakter kasb etadi. Masalan, murakkab fizik hodisalar va jarayonlarni animatsiyalar, simulyatsiyalar va 3D modellash orqali namoyish etish talabalarning abstrakt fikrlash darajasini oshiradi. Ikkinchidan, raqamli platformalar yordamida

talabalar o‘quv materiallarini mustaqil o‘rganishlari, bilimlarini onlayn testlar orqali tekshirishlari va natijalar asosida o‘zlarining bilim darajasini baholashlari mumkin. Ushbu jarayonlar o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Uchinchidan, virtual laboratoriyalar orqali talabalar an’anaviy laboratoriya tajribalarida yuzaga keladigan xavfsizlik, jihozlarning yetishmasligi, vaqt va makon cheklovlari kabi muammolardan xoli bo‘ladilar.

Biroq, raqamli texnologiyalarning fizika ta’limiga joriy etilishi bilan bog‘liq muammolar va cheklovlar ham mavjud. Ayrim tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, raqamli resurslardan haddan ortiq foydalanish talabalarning diqqatini chalg‘itishi, yuzaki bilim olish va passiv ishtirokga olib kelishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy pedagogik adabiyotlarda raqamli texnologiyalarni didaktik jihatdan to‘g‘ri tanlash, ularni an’anaviy usullar bilan uyg‘unlashtirish, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish muhimligi ta’kidlanadi. Masalan, M. Prenskiy tomonidan ilgari surilgan “raqamli avlod” va “raqamli migrantlar” konsepsiyasi doirasida talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi texnologik tafovut, uning ta’lim sifatiga ta’siri atroflicha tahlil qilinadi. Prenskiy fikricha, zamonaviy talabalar tug‘ilganidan boshlab raqamli muhitda yashaganligi sababli, ularning axborotni qabul qilish, qayta ishlash va tahlil qilish uslubi an’anaviy avlodga nisbatan tubdan farq qiladi. Shu bois, o‘qituvchilar zamonaviy raqamli vositalardan to‘g‘ri va samarali foydalanishni o‘rganishlari, talabalarning ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqib, individual yondashuvni amalga oshirishlari lozim[5].

Milliy va mintaqaviy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarning fizika ta’limidagi o‘ziga xos pedagogik ahamiyati, xususan, talabalarda ilmiy tafakkur, mustaqil izlanish va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etiladi. Z. Rahmatullayev o‘z asarlarida fizika darslarida raqamli laboratoriyalar va simulyatsiyalardan foydalanish talabalarda ilmiy izlanish, tajriba o‘tkazish, natijalarga asoslangan xulosalar chiqarish, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini

ta'kidlaydi. Uning fikricha, raqamli texnologiyalar yordamida talabalar o'zlarining bilim darajasini real vaqt rejimida baholash, natijalarni tahlil qilish, o'z xatolarini aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa, ta'lim jarayonining shaffofligi va samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, zamonaviy empirik tadqiqotlarda raqamli vositalardan foydalanilgan sinflarda talabalarning o'zlashtirish natijalari, darsga bo'lgan qiziqishi va o'z-o'zini baholash ko'nikmalari an'anaviy sinflarga nisbatan yuqori ekani isbotlangan. Masalan, 2022-yilda o'tkazilgan bir tadqiqotda, raqamli platformalardan (masalan, PhET, Khan Academy, Virtual Physics Lab) foydalanilgan sinflarda talabalarning fizikadan o'rtacha baholari 20–25 foizga oshgani, darsga qatnashish faolligi esa 30 foizga yuqori bo'lgani aniqlangan. Shu bilan bir qatorda, raqamli texnologiyalar yordamida talabalar o'zlarining bilimlarini mustaqil nazorat qilish, o'z-o'zini rivojlantirish, zamonaviy ilmiy axborotlarni tez va samarali topish, tahlil qilish va amaliyotga tadbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa, zamonaviy jamiyatda raqamli savodxonlik va axborot madaniyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

Biroq, raqamli texnologiyalar asosida fizika ta'limini tashkil etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, respublikamizda ayrim ta'lim muassasalarida zamonaviy texnik jihozlarning yetishmasligi, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi pastligi, talabalarning internetga ulanish imkoniyatlari cheklanganligi kabi muammolar uchramoqda. Ayni paytda, ayrim tadqiqotlarda raqamli vositalardan haddan ortiq foydalanish natijasida talabalarda yuzaki bilim, passiv ishtirok va diqqatning pasayishi kuzatilgan. Shu sababli, olimlar raqamli texnologiyalarni o'qitish jarayoniga tadbiq etishda didaktik printsiplarga, talabalarning yosh va individual xususiyatlariga, milliy va mintaqaviy sharoitlarga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydilar.

Keng qamrovli tahlil natijasida aniqlanishicha, raqamli texnologiyalar asosida fizika fanini o'qitishning pedagogik ahamiyati ko'p aspektli va kompleks xarakterga ega. Bir tomondan, raqamli vositalar yordamida fizika darslari interaktiv, qiziqarli va amaliy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

xarakter kasb etadi, talabalar ilmiy tadqiqot va izlanish faoliyatiga keng jalb etiladi. Ikkinchi tomondan, raqamli platformalar yordamida talabalar o‘zlarining bilim va ko‘nikmalarini mustaqil rivojlantirish, natijalarni tahlil qilish va xatolarini tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Uchinchidan, raqamli texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar o‘quv jarayonini individualizatsiyalash, differentsiatsiyalash va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishlari mumkin. Biroq, bu jarayonlarda pedagogik nazorat va didaktik muvozanatni saqlash, raqamli vositalardan samarali va maqsadli foydalanish, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish, talabalarning motivatsiyasi va faolligini rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalar asosida fizika ta’limini tashkil etishda “blended learning” (aralash o‘qitish), “flipped classroom” (teskari sinf), “gamification” (o‘yinlashtirish), “problem-based learning” (muammoli o‘qitish) kabi innovatsion pedagogik texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Blended learning modeli bo‘yicha, raqamli va an’anaviy usullar uyg‘unlashtiriladi, talabalar mustaqil onlayn o‘rganish va sinfda amaliy mashg‘ulotlarni birgalikda olib boradilar. Flipped classroom modelida esa, talabalar nazariy materiallarni mustaqil onlayn o‘rganadilar, sinfda esa asosan amaliy mashq, tajriba va muammoli vaziyatlarni hal qilish bilan shug‘ullanadilar. Bu usullar orqali talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil, ijodiy izlanish va amaliy ko‘nikmalar shakllanadi. Gamification texnologiyasi yordamida esa, fizika darslari o‘yin elementlari, ball va reyting tizimi, virtual mukofotlar orqali talabalar uchun yanada qiziqarli va motivatsion bo‘ladi. Bu esa, talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini, faol ishtirokini va bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshiradi[6].

Tanqidiy jihatdan tahlil qilganda, raqamli texnologiyalar asosida fizika ta’limini tashkil etishda ayrim bahsli masalalar ham mavjud. Jumladan, raqamli vositalardan haddan ortiq foydalanish natijasida talabalarda yuzaki bilim, passiv ishtirok va diqqatning pasayishi, shu qatorda, ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarning yetarli darajada shakllanmasligi mumkin. Boshqa tomondan, raqamli texnologiyalarni joriy



etish uchun zarur texnik bazaning yetishmasligi, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi va motivatsiyasi pastligi, talabalarning axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarining himoyasi kabi muammolar ham mavjud. Shu sababli, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalar asosida fizika ta’limini tashkil etishda kompleks yondashuv, pedagogik muvozanat, didaktik asoslanganlik, texnik va metodik ta’minot, o‘qituvchilar va talabalarning raqamli kompetensiyasini oshirish, motivatsiyani rag‘batlantirish, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va axborot xavfsizligi masalalariga alohida e’tibor qaratish lozim.

Yuqorida keltirilgan nazariy va empirik tadqiqotlar, milliy va mintaqaviy olimlarning ilmiy ishlari, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar asosida fizika fanini o‘qitishning pedagogik ahamiyati juda yuqori va ko‘p qirrali. Bu jarayonda ta’lim mazmuni, metodlari va shakllari tubdan o‘zgarib, talabalarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil, ijodiy izlanish, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, raqamli savodxonlik va axborot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar asosida fizika ta’limini samarali tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar, didaktik asoslanganlik, texnik va metodik ta’minot, o‘qituvchilar va talabalarning raqamli kompetensiyasini oshirish, motivatsiyani rag‘batlantirish va axborot xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar asosida fizika fanini o‘qitish zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas va muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Raqamli vositalar yordamida fizika darslari interaktiv, vizual va amaliy xarakter kasb etadi, talabalar ilmiy izlanish va tajriba o‘tkazish faoliyatiga keng jalb qilinadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar yordamida talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil, ijodiy izlanish va amaliy ko‘nikmalar shakllanadi. Bu esa, nafaqat fizikadan chuqur bilim olish, balki zamonaviy jamiyatda raqamli savodxonlik va axborot madaniyatining



shakllanishiga ham xizmat qiladi. Biroq, raqamli texnologiyalar asosida fizika ta'limini samarali tashkil etish uchun o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish, texnik va metodik ta'minotni mustahkamlash, didaktik muvozanatni saqlash va motivatsiyani rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, talabalarning yosh va individual xususiyatlarini, milliy va mintaqaviy sharoitlarni inobatga olgan holda, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarur. Raqamli texnologiyalar asosida fizika fanini o'qitishning pedagogik ahamiyati, zamonaviy ta'limda sifatli, samarali va innovatsion o'zgarishlarni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bruner, J. S. (1966). Toward a Theory of Instruction. Harvard University Press.
2. Skinner, B. F. (1968). The Technology of Teaching. Appleton-Century-Crofts.
3. Yo'ldoshev, Q., Jo'raev, M. (2021). Fizika fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning didaktik asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Jonassen, D. H. (1999). Computers as Mindtools for Schools: Engaging Critical Thinking. Prentice Hall.
5. Prensky, M. (2010). Teaching Digital Natives: Partnering for Real Learning. Corwin Press.
6. Rahmatullayev, Z. (2020). Fizika ta'limida innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalar. Toshkent: Fan nashriyoti.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

FARG'ONA VODIYSI PAXTACHILIGI TARIXIDA NAMANGAN UYEZDI BOSHLIG'I BOSHQARMASI FONDI HUJJATLARI QIMMATLI MANBA

Mirzayev Avazbek Tolibjonovich
Andijon davlat universiteti
«Jahon tarixi» kafedrasi dotsenti, t.f.f.d.
E-mail: avazbek.mirzaev.1956@mail.ru
Tel: +998 91 612 07 18

Annotatsiya. *Mazkur maqolada, Namangan uyezdi boshlig'i boshqarmasi fondida saqlanayotgan, mustamlakachilik davriga oid irrigatsiya va paxtachilik tarixi masalalari yoritilgan arxiv hujjatlari manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kolonial davrda paxtachilik sohasini tartibga soluvchi qonunlar, farmonlar va qarorlarning mazmuni hamda ularning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni aks ettirishdagi o'rni yoritilgan. Maqolada arxiv hujjatlari paxtachilik tarixini o'rganishda muhim tarixiy manba sifatida xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *arxiv, hujjat, uyezd, fond, irrigatsiya, kanal, pud, paxta.*

ДОКУМЕНТЫ ИЗ ФОНДА КАНЦЕЛЯРИИ НАЧАЛЬНИКА НАМАНГАНСКОГО УЕЗДА — ЦЕННЫЙ ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ ХЛОПКОВОДСТВА В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

Аннотация. *В данной статье, с источниковедческой точки зрения анализируются архивные документы, хранящиеся в фонде управления начальника Наманганского уезда, охватывающие историю ирригации и хлопководства в колониальный период. Исследование освещает содержание законов, указов и постановлений, регулирующих хлопководство в колониальный период, а также их роль в отражении экономических и социальных процессов. Статья научно обосновывает тот факт, что архивные документы служат важным историческим источником при изучении истории хлопководства.*

Ключевые слова: *архив, документ, уезд, фонд, орошение, канал, пуд, хлопок.*

DOCUMENTS FROM THE NAMANGAN UYEZD CHIEF'S ADMINISTRATION FUND: A VALUABLE SOURCE FOR THE HISTORY OF COTTON GROWING IN THE FERGANA VALLEY

Abstract. *This article analyzes—from the perspective of source studies—archival documents held in the records of the Namangan uyezd administration, which cover the history of irrigation and cotton cultivation during the colonial period. The study examines the content of laws, decrees, and regulations governing cotton cultivation at that time, as well as their role in reflecting economic and social processes.*

The article substantiates the fact that these archival documents serve as a vital historical source for studying the history of cotton cultivation.

Keywords: *archive, document, uyezd, fonds, irrigation, canal, pood, cotton.*

KIRISH

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyat hayotining barcha sohalarida tub ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, O‘zbekiston tarixi fanida ham o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqyea-hodisalar xolisona yoritila boshlandi. Sobiq sovetlar tuzumi davrida O‘zbekiston tarixiga bag‘ishlangan ilmiy asarlarni yaratishga tarixchi olimlarning ijodkorligiga yo‘l qo‘yilmay faqat markscha-lenincha nazariya nuqtayi nazaridan qarab kelingan edi. Aslida esa O‘zbekiston tarixi - bu jahon tarixiy jarayonining bir bo‘lagidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev: “Barchamizga ma’lumki, har bir suveren davlat o‘zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi” – deb ta‘kidlaydi[1.5].

METODOLOGIYA

Hozirgi kunda *mustaqil* O‘zbekistonda tarix fani ayrim hodisalarni aniq tarixiy sharoit bilan bog‘lab tadqiq qilishni, dalillarni butunligicha, bir-biriga bog‘lab olishni, voqealarni atroflicha, ularning ijobiy va salbiy oqibatlarini inobatga olgan holda yoritishni talab qilmoqda. Mavzuni yoritish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va materiallar, dalillar va misollar arxivlardan, davriy matbuotdan, e’lon qilingan manbalardan olinadi[2.83]. Mazkur maqolada biz ilmiy adabiyotlar va arxiv hujjalaridagi mavzuga doir ma’lumotlarni tahlil etishga harakat qilamiz.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyoni bosib olgan va asta sekinlik bilan bu o‘lkani o‘z mustamlakasiga aylantirgan edi. Mustamlakachilik davrida tarixiy manbalarning xili va turi ko‘paydi. Turkistonda faoliyat ko‘rsata boshlagan kolonial ma’muriyatining barcha bo‘g‘inlarida xilma-xil ish yuritish hujjatlari yaratila



boshlandi. Qonun chiqarish aktlari bilan birga bu hujjatlar muhim tarixiy manbalar qatoriga kiradi.

Bu davrda Turkiston o‘lkasining mustamlaka maqomi bir necha qonun chiqarish aktlarida o‘z aksini topdi. Ular, asosan 1865, 1867 va 1886-yillarda e’lon qilingan o‘lkani boshqarish haqidagi Nizomlardir. Rossiya imperatorlari tomonidan tasdiqlangan ushbu Nizomlarda Turkiston o‘lkasini boshqarishning asosiy tamoyillari, mustamlakachi ma’murlarning vakolatlari, mahalliy xalqning siyosiy huquqsizligi, yurtimizning metropoliya xomashyo bazasiga aylantirilganligi o‘z aksini topgan[3.116-117].

Hujjatli manbalar tarix fanini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixchilar arxiv hujjatlarisiz qimmatli dalillar bilan asoslangan tarixiy asarlar yarata olmaydilar[4.68]. Tadqiqotchi arxiv hujjatlariga murojaat qilganida, ko‘pincha ma’lum darajada kelgusi ishining dastlabki asosiy kontseptsiyasiga ega bo‘ladi[5.90].

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha hujjatli materiallar belgilanganidan so‘ng ularning atributatsiyasi, ya’ni bu hujjatlarning shakli va haqiqiyligi, ularning yozilgan sanasi, ularning mualliflari va adresatlarini aniqlash lozim bo‘ladi[6.66].

Turkiston o‘lkasida tashkil etilgan Farg‘ona viloyati tarkibida, general-gubernatorning 1876-yil 6-mart kungi buyrug‘i bilan Namangan uyezdi boshlig‘i boshqarmasi ta’sis etildi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivida saqlanayotgan 329-fondning tarkibidagi 118 ta yig‘ma jildlarning materiallari mazkur boshqarmaning 1876-1917-yillardagi faoliyatiga oid bo‘lib, ushbu maqolada uyezd bo‘yicha paxtachilik sohasini rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilgan chora - tadbirlarga doir hujjatli ma’lumotlar manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Fonddagi ayrim hujjatlarda, paxtachilik sohasida muhim o‘rin tutgan irrigatsiya tizimida uyezd boshliqlari, irrigatsiya bo‘yicha boshqarma boshliqlari, ariq - oqsoqollar va miroblarning vakolatlari, yuqori tashkilotlarga sun’iy sug‘oriladigan paxta dalalari, paxta ekini bo‘yicha ma’lumotlarni yetkazib berilishi aks etgan[7.51-52].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Fond hujjatlarida Turkiston o‘lkasida 1882-1894-yillarda paxtachilikning rivojlanib borishi masalasida ham ma’lumotlar mavjud bo‘lib, xususan, podsho xukumati mahalliy ma’muriyatining paxtachilik bo‘yicha mutaxassislaridan biri M.Brodovskiy tomonidan “Turkestanskiye vedomosti” gazetasida e’lon qilingan “Budущее xlopkovogo dela v Turkestanskom kraye” va “Vozdelыvaniye xlopchatnika” deb nomlangan maqolalarida, Turkiston o‘lkasida, jumladan Farg‘ona viloyatida amerika paxta navini ekish, ya’ni iqlimlashtirish hamda hosilining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida mukammal va batafsil ma’lumotlar berilgan[8.1-7].

Mustamlakachilik davrida imperiya xukumati Farg‘ona vodiysida paxtachilikni rivojlantirishni sug‘orish inshootlari qurib, yangi yerlarni o‘zlashtirish hisobiga emas, balki mavjud dehqonchilik qilinayotgan yerlardagi boshqa qishloq xo‘jalik ekinlarini kamaytirish evaziga amalga oshirishga intilgan edi[9.119].

Farg‘ona vodiysining paxta yetishtirishga ixtisoslashuvi, o‘z navbatida, imperiya xukumatidan yangi sug‘orish tarmoqlarini barpo etishni, mavjudlarini esa ta’mirlashni talab etar edi. Mustamlaka davri irrigatsiyasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu davrda Farg‘ona vodiysida katta sug‘orish tarmoqlari qurilmagan, ma’muriyat asosiy diqqat-e’tiborini sobiq sug‘orish tarmoqlarini takomillashtirish va tiklashga qaratdi.

1887-yili Namangan uyezdidagi mavjud Yangiariq kanalidan Axsi-Shaxand yo‘nalishi bo‘yicha ariq qazildi. Bu ariq qurilishi bilan To‘raqo‘rg‘on, Mirishkor, Axsi, Shaxand qishloqlarining suv ta’minoti yaxshilandi. Ariqning umumiy uzunligi 17 km bo‘lib, u qo‘shimcha 5000 desyatina yangi yerlarni sug‘orish imkonini bergan[10.38].

1888-yilda Turkiston o‘lkasidagi irrigatsiya tizimi bo‘yicha boshqarma boshliqlari va mudirlar, miroblar, ariq oqsoqollar va uyezdlar boshliqlari uchun, asosiy sohasini paxtachilik tashkil etgan sug‘orma dehqonchilikda sug‘orish tarmoqlaridan foydalanish tartibi va suvni taqsimlanish masalalari bo‘yicha instruksiya ishlab chiqildi va joylarga tarqatildi[11.1-32].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Shunday qilib, mustamlaka ma'muriyati 40 yil (1877-1917) mobaynda Farg'ona vodiysida, jumladan, Namangan vohasida irrigatsiyani rivojlantirish sohasida hech bir yangilik yarata olmadi va yangi sug'orish inshootlari barpo etmagan edi[12.51].

Namangan uyezdi 5 ta uchastkaga bo'lingan bo'lib, uning tarkibida 1900-yilda 26 volost va 138 qishloq jamoalari hamda 1 rus poseleniyesi bo'lgan[13.65].

Namangan uyezdi boshlig'i fondida uyezd bo'yicha paxtachilikning rivojlanishi va holatiga taalluqli bo'lgan turli mazmundagi yozishmalar va boshqa hujjatlar o'rin egallagan.

Dehqonchilik va davlat mulklari vazirligi Farg'ona oblast Namangan uyezdi mudirining 1901-yil 22-oktyabrda mazkur muassasaning Turkiston o'lkasi boshqarmasiga yuborgan №132 sonli ma'lumotnomasiga ko'ra, mazkur yilda mahalliy nav paxtadan 60.000 pud, amerika nav paxtadan esa 1.700.000 pud chigit olingan[14.]. Ushbu holat bu vaqtga kelib mahalliy nav paxtaga nisbatan amerika navli paxtaning ekin dalalari yildan-yilga kengayib borganligidan dalolat beradi.

Mazkur muassasaning Turkiston o'lkasi boshqarmasiga 1907 yil 11-iyunda yuborgan №54-sonli ma'lumotnomasida Farg'ona viloyatining Namangan uyezdida 1907-yilning 1-iyun kuiigacha paxtachilikning holati bayon etilib, unga ko'ra paxtani ekish aprelning boshlaridan to may oyining o'rtalariga qadar davom etib, 39.000 desyatinaga amerika navli paxta va 5000 desyatinaga mahalliy nav paxta ekilgan. 1906-yilga nisbatan 1907-yilda paxta ekini dalalari 1500 desyatinaga kengaygan. Bir pud paxta xomashyosini narxi 3 rub.50 kop. - 3 rub.60 kop.ni tashkil etgan[15.58].

Aynan mana shu mazmundagi 1908-yil 10-iyundagi №76 sonli ma'lumotnomaga ko'ra, mazkur yilda paxtani ekish asosan 20 aprelga qadar yakunlanib, 32965 desyatinaga amerika navli paxta, 972 desyatinaga esa mahalliy paxta ekilgan. 1907-yildagiga nisbatan 1908-yilda paxta ekin dalalari yana 16% ga ko'paydi[16.68].

XULOSA

Aytib o‘tish lozimki, dastavval amerika paxta navlari tajriba stansiyalarida iqlimlashtirilib, so‘ngra sinovdan o‘tgan chigitlar dehqonlarga ulashilgan. Ayrim plantatsiyalarning tashabbusi bilan yangi agrotexnika usullari tatbiq etilganligi ma’lum. Bu borada Namangandagi “Paxtaliko‘l” urug‘chilik plantatsiyasining faoliyatini ham ko‘rsatish mumkin. Bu yerda King, Allen, ko‘k chigit, yangi Kolumbiya, va boshqa paxta navlaridan yaxshi hosil va chigit olingan[17.82-83].

Namangan uyezdi boshlig‘ining 1911-yil 24-may kuni Namangan uyezdi davlat mulklari mudiriga yuborgan №755 sonli ma’lumotnomaga asosan, uyezdda 16-mart kunidan 1-mayga kadar 44.500 desyatina yerga paxtani ekish yakunlanib, paxta dalalarini hajmi o‘tgan yilga nisbatan 4065 desyatinaga ko‘paydi[18.19].

Shuningdek, fond materiallarida Turkiston qishloq xo‘jalik jamiyati tomonidan 1911-yil 25-30-sentyabr kunlari Toshkent shahrida tashkil etiladigan qishloq xo‘jaligi vakillarining umumo‘lka II syezdining Nizomi ham mavjud bo‘lib, syezdda paxtachilik masalalarini muhokama etilishi ham nrazarda tutilgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, Namangan uyezdi boshlig‘i boshqarmasi fondida saqlanayotgan hujjatlarning manbashunoslik nuqtayi nazardan tahlili kelgusida podsho mustamlakachiligi davrida Turkiston o‘lkasida, jumladan, Farg‘ona viloyatida paxtachilikning rivojlanishi jarayoni tarixini o‘rganishda muhim manba xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2016.
2. Алимов И. А. Архившунослик. Ўкув қўлланма. - Андижон, 2005.
3. Хошимов С., Расулов Б., Хакимов А. Манбашунослик. - Тошкент, 2014.
4. Бобокулов Б. Архив иши назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма. – Тошкент, “Сано-стандарт”, 2011.
5. Шепелев Л. Е. Работа исследователя с архивными документами. – Москва: “Наука”, 1966.
6. Г'орфейн Г. М., Шепелев Л. Е. Архивоведение. Учебное пособие. ЛГУ, 1971.

7. Путеводитель. Центральный государственный исторический архив Уз ССР (Центральный государственный архив Республики Узбекистан). Составители: Агафонова З.И., Халфин Н.А. – Ташкент, 1948.
8. O‘zbekiston Milliy arxivi, fond I-329, 1-ro‘yxat, 7-yig‘majild.
9. Насриддинов Қ. Фарғона водийсининг суғорилиш тарихи (XIX аср иккинчи - XX аср биринчи ярми). Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2009.
10. Насриддинов Қ. Мустамлака даврида Фарғона водийси ирригациясининг ҳолати // Ўзбекистон тарихи. 2000 - №3.
11. O‘zbekiston Milliy arxivi, fond I-329, 1-ro‘yxat, 13-yig‘majild.
12. Қосимов Й. Наманган воҳасининг суғорилиш тарихидан. - Тошкент: “Фан”, 1988.
13. Шарафиддинов А. Фарғона вилояти тарихидан лавҳалар (XIX аср охири – XX аср бошлари) // Илмий оммабоп нашр. - Фарғона: “Навруз”, 2013.
14. O‘zbekiston Milliy arxivi, fond I-329, 1-ro‘yxat, 46-yig‘majild.
15. O‘zbekiston Milliy arxivi, fond I-329, 1-ro‘yxat, 46-yig‘majild.
16. O‘zbekiston Milliy arxivi, fond I-329, 1-ro‘yxat, 46-yig‘majild.
17. Зиёев Х. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX аср иккннчи ярми - XX аср бошлари). - Т.: Шарқ, 2006.
18. O‘zbekiston Milliy arxivi, fond I-329, 1-ro‘yxat, 87-yig‘majild.

"CHO'YANKON" KONI MINERAL XOMASHYOSIDAN QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISHDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Normurodova Hilola Xolmurodovna
Termiz davlat universiteti, Kimyoviy texnologiya yo'nalishi magistranti.
E-mail: xilolanormurodva@gmail.com

Annotatsiya*.Ushbu maqolada "Cho'yankon" koni granit va gabbro mineral xomashyosidan qurilish materiallari ishlab chiqarishda foydalanish istiqbollari tahlil qilingan. Muallifning 2023-yildagi tadqiqotlari hamda 2024–2025-yillardagi xalqaro ilmiy manbalar asosida granit va gabbro kukunlarining qurilish materiallaridagi qo'llanish imkoniyatlari baholangan. Natijada ushbu mineral xomashyodan devorbop va sement asosidagi kompozitsion materiallarda mineral komponent sifatida foydalanish istiqbollari aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *"Cho'yankon" koni, granit, gabbro, mineral xomashyo, qurilish materiallari, mineral kukun, sement.*

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МИНЕРАЛЬНОГО СЫРЬЯ МЕСТОРОЖДЕНИЯ «ЧОЯНКОН» В ПРОИЗВОДСТВЕ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ

Аннотация. *В статье анализируются перспективы использования минерального сырья (гранита и габбро) с месторождения «Чоянкон» для производства строительных материалов. На основе собственных исследований автора (2023 г.) и данных международных научных источников (2024–2025 гг.) была проведена оценка возможностей применения гранитного и габбрового порошков в строительных материалах. В результате были определены перспективы использования данного минерального сырья в качестве минеральных компонентов при производстве стеновых материалов и композитов на цементной основе.*

Ключевые слова: *месторождение «Чоянкон», гранит, габбро, минеральное сырье, строительные материалы, минеральный порошок, цемент.*

PROSPECTS FOR USING MINERAL RAW MATERIALS FROM THE "CHO'YANKON" DEPOSIT IN THE PRODUCTION OF CONSTRUCTION MATERIALS

Abstract*. This article analyzes the prospects of using granite and gabbro mineral raw materials from the "Cho'yankon" deposit for the production of construction materials. Based on the author's research from 2023 and international scientific sources from 2024–2025, the potential applications of granite and gabbro powders in construction materials were evaluated. Consequently, the prospects for utilizing these*

mineral raw materials as mineral components in wall materials and cement-based composite materials were determined.

Keywords: *"Cho'yankon" deposit, granite, gabbro, mineral raw materials, construction materials, mineral powder, cement.*

KIRISH

Bugungi kunda qurilish materiallari ishlab chiqarishda mahalliy mineral xomashyodan samarali foydalanish, tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash va yangi kompozitsion materiallar olishga katta e'tibor qaratilmoqda. Qurilish sanoatida mineral xomashyoning mavjud zaxiralaridan oqilona foydalanish bilan bir qatorda, ularni qayta ishlash darajasini oshirish va turli texnologik jarayonlar orqali yangi mahsulotlar olish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Granit va gabbro jinslari qurilish sohasida keng qo'llaniladigan magmatik jinslar qatoriga kiradi. Ularning mineral tarkibi, fizik-mexanik xususiyatlari hamda maydalangandan keyingi zarracha o'lchami ushbu xomashyodan turli qurilish materiallari tarkibida foydalanish imkoniyatlarini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Ayniqsa, mayda dispers granit va gabbro kukunlaridan sement asosidagi materiallar, qurilish qorishmalari, qoplama va devorbop materiallar ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatlari zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilmoqda [3–5].

O'zbekistonda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishda mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4198-son qarorida qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish va uni chuqur qayta ishlash bilan bog'liq vazifalar belgilangan [1].

Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida joylashgan "Cho'yankon" koni granit va gabbro mineral xomashyosining qurilish materiallari ishlab chiqarishdagi imkoniyatlarini o'rganish nuqtayi nazaridan muhim obyektlardan biridir. Muallifning 2023-yilda olib borgan hammualliflikdagi tadqiqotida "Cho'yankon" konining granit va gabbro minerallarining tarkibi hamda xususiyatlari o'rganilib, ular asosida devorbop

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

suv-dispers bo‘yoqlar olish imkoniyati tadqiq etilgan [2]. Ushbu ishda mazkur mineral xomashyoni maydalash va qayta ishlash asosida qurilish materiali olish imkoniyati amaliy jihatdan o‘rganilgan.

Mazkur natijalar “Cho‘yankon” koni mineral xomashyosining imkoniyatlari faqat suv-dispers bo‘yoqlar olish bilan cheklanmasligini, balki granit va gabbro kukunlaridan boshqa turdagi qurilish materiallarida ham foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning dolzarbligi **“**Cho‘yankon” koni granit va gabbro mineral xomashyosidan foydalanish bo‘yicha mavjud ilmiy natijalarni umumlashtirish hamda ushbu xomashyoni qurilish materiallari ishlab chiqarishning turli yo‘nalishlarida qo‘llash istiqbollarini aniqlash bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi — “Cho‘yankon” koni granit va gabbro mineral xomashyosining qurilish materiallari ishlab chiqarishdagi imkoniyatlarini o‘rganish, muallifning avvalgi tadqiqotlari va zamonaviy ilmiy adabiyotlarda keltirilgan natijalarni umumlashtirish hamda ushbu xomashyodan foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari:

– “Cho‘yankon” koni granit va gabbro mineral xomashyosiga oid ilmiy manbalarni o‘rganish;

– muallifning 2023-yildagi avvalgi tadqiqotlari natijalarini tahlil qilish;

– granit va gabbro mineral xomashyosini maydalash va qayta ishlash imkoniyatlarini baholash;

– granit va gabbro kukunlarining qurilish materiallari tarkibida qo‘llanishi bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarni tahlil qilish;

– “Cho‘yankon” mineral xomashyosidan foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati “Cho‘yankon” koni granit va gabbro xomashyosidan foydalanish imkoniyatlarini tizimli ravishda tahlil qilish orqali mahalliy mineral resurslarni qurilish materiallari ishlab chiqarishga jalb etishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash imkoniyati bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI.

Granit va gabbro mineral xomashyosidan qurilish materiallari ishlab chiqarishda foydalanish masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng o‘rganilmoqda. Hou W., Zhang Q., Zhuang Z. va Zhang Y. tomonidan 2024-yilda chop etilgan ilmiy sharhda marmar va granit kukunlarining sement asosidagi materiallarda qayta foydalanilishi bo‘yicha mavjud tadqiqotlar umumlashtirilgan. Mualliflar granit kukunining sement gidratatsiyasi, mikrostrukturasi, ishlov berish xususiyatlari, mexanik ko‘rsatkichlari va chidamliligiga ta’sirini tahlil qilgan. Tadqiqotda granit kukunining mayda zarrachali to‘ldiruvchi sifatidagi ta’siri va sement asosidagi materiallar mikrostrukturasiga ta’sir etish mexanizmlari ko‘rib chiqilgan [3].

Huts A., Konkol J. va Marchuk V. tomonidan 2024-yilda olib borilgan tadqiqotda granit changi va kremniy tutunining reaktiv kukunli beton tarkibida birgalikda qo‘llanishi o‘rganilgan. Mazkur tadqiqot granit changining sement asosidagi kompozitsion materiallarda mineral to‘ldiruvchi sifatida qo‘llanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi [4].

Gabbro mineral xomashyosidan foydalanish bo‘yicha Bawab J., El-Hassan H., Al Zagha H. va El Gamal M. tomonidan 2025-yilda tadqiqot olib borilgan. Ushbu ishda chiqindi gabbro tosh kukunidan sementning qisman o‘rnini bosuvchi komponent sifatida foydalanish imkoniyati o‘rganilgan. Tadqiqotda 0, 5, 10 va 20 foiz miqdoridagi gabbro kukuni hamda turli suv-bog‘lovchi nisbatlaridagi tarkiblar tahlil qilingan. Ayrim tajriba sharoitlarida 5–10 foiz miqdoridagi gabbro kukuni siqilishdagi mustahkamlik ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Mualliflar gabbro kukunining ta’sirini asosan to‘ldiruvchi mexanizm bilan izohlagan [5].

"Cho'yankon" koni mineral xomashyosiga oid muallifning 2023-yildagi tadqiqoti ushbu maqola uchun alohida ilmiy asos hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda granit va gabbro minerallarining tarkibi hamda xususiyatlari o'rganilib, ular asosida devorbop suv-dispers bo'yoqlar olish imkoniyati tadqiq etilgan [2]. 2023-yildagi tadqiqotda "Cho'yankon" granit va gabbro namunalari dastlab mexanik maydalangan, keyinchalik quruq va nam usullar yordamida mayda dispers holatga keltirilgan. Mineral xomashyoning tarkibi va xususiyatlarini baholashda rentgen-fluoresans tahlili, infraqizil spektroskopiya, termogravimetrik va differensial-termik tahlil usullaridan foydalanilgan [2].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, granit va gabbro mineral kukunlaridan foydalanishning bir nechta istiqbolli yo'nalishlari mavjud. Ular orasida sement asosidagi kompozitsion materiallar, beton va qurilish qorishmalaridagi mineral to'ldiruvchilar hamda devorbop va qoplama materiallari alohida ahamiyatga ega [2–5].

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, mavjud tadqiqot natijalarini o'zaro solishtirish, muallifning avvalgi tadqiqotlari natijalarini umumlashtirish hamda xalqaro ilmiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni qiyosiy baholash usullaridan foydalanildi. "Cho'yankon" mineral xomashyosining qurilish materiallari ishlab chiqarishdagi istiqbollarini baholashda uning tarkibi, maydalash imkoniyati, mayda dispers holatga keltirilishi va turli materiallar tarkibida qo'llanish yo'nalishlari hisobga olindi.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING TAHLILI.

"Cho'yankon" konining granit va gabbro minerallaridan qurilish materiallari ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatlari mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda keltirilgan natijalar asosida tahlil qilindi. Xususan, Normurodova va hammualliflarining 2023-yildagi tadqiqotida "Cho'yankon" konining granit va gabbro minerallarining tarkibi va xususiyatlari o'rganilib, ular asosida devorbop suv-dispersiyali bo'yoqlar olish

imkoniyati tadqiq etilgan. Mazkur ish "Cho'yankon" mineral xomashyosini qurilish materiallari tarkibida qo'llash bo'yicha bevosita amaliy tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda granit va gabbro namunalari dastlab mexanik maydalashdan o'tkazilgan. Keyinchalik maydalangan mineral komponentlardan suv-dispersiyali devorbop materiallar tayyorlangan. Mineral xomashyo va olingan materiallarning xususiyatlarini baholashda rentgen-fluoresans tahlili, IQ-spektroskopiya, termogravimetrik va differensial-termik tahlil usullaridan foydalanilgan. Mazkur instrumental tahlillar mineral xomashyoning tarkibi hamda fizik-kimyoviy va termik xususiyatlarini tavsiflash imkonini bergan. Natijalar "Cho'yankon" granit va gabbro minerallarini qayta ishlangan mineral komponent sifatida devorbop materiallar tarkibida qo'llash mumkinligini ko'rsatgan.

2023-yildagi tadqiqotda olingan amaliy natijalar "Cho'yankon" koni mineral xomashyosidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq mazkur imkoniyatni faqat suv-dispersiyali materiallar bilan cheklash shart emas. Granit va gabbro mineral kukunlarining sement asosidagi kompozitsiyalarda qo'llanishi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar ham ushbu xomashyoning boshqa qurilish materiallari tarkibida foydalanish istiqbollari mavjudligini ko'rsatadi.

Hou, Zhang, Zhuang va Zhang (2024) granit va marmar kukunlarining sement asosidagi materiallarda qayta ishlatilishiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilgan. Mualliflar granit kukunining zarracha mayinligi, mineral tarkibi va kompozitsiyadagi miqdori sement asosidagi materiallarning ishlov berish xususiyatlari, mexanik ko'rsatkichlari va chidamliligiga ta'sir qilishi mumkinligini qayd etgan. Shuningdek, granit kukunining ayrim hollarda to'ldiruvchi sifatida hamda sementli tizimdagi mikrostrukturaviy jarayonlarga ta'sir etuvchi komponent sifatida ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan.

Gabbro mineral kukunidan foydalanish imkoniyatlari Bawab, El-Hassan, Al Zagha va El Gamal (2025) tomonidan ham o'rganilgan. Tadqiqotda gabbro tosh kukuni

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

sementni qisman almashtiruvchi komponent sifatida 0, 5, 10 va 20 foiz miqdorlarida sinovdan o‘tkazilgan hamda turli suv-bog‘lovchi nisbatlarida materiallarning xususiyatlari baholangan. Natijalarga ko‘ra, ayrim tarkiblarda, xususan suv-bog‘lovchi nisbati 0,30–0,35 bo‘lgan sharoitlarda 5–10 foiz gabbro kukunidan foydalanish siqilishdagi mustahkamlik ko‘rsatkichining oshishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu bilan birga, tadqiqotchilar gabbro kukunining ta’siri asosan to‘ldiruvchi mexanizm bilan bog‘liqligini, uning pozzolanik faolligi esa cheklanganligini qayd etgan.

Keltirilgan tadqiqotlar natijalarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, granit va gabbro mineral xomashyosidan foydalanish samaradorligi ularning mineral-kimyoviy tarkibi, zarracha o‘lchami, qayta ishlash darajasi va qurilish materiallari tarkibidagi miqdoriga bog‘liq. Shu sababli “Cho‘yankon” koni xomashyosini boshqa konlardan olingan granit va gabbro kukunlari bilan bog‘liq natijalar asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bir xil deb baholash to‘g‘ri emas. Buning uchun aynan “Cho‘yankon” xomashyosi asosida tegishli tarkiblar va texnologik rejimlarni alohida tadqiq qilish talab etiladi. “Cho‘yankon” granit va gabbro minerallaridan foydalanishning muhim jihatlaridan biri — mahalliy mineral xomashyodan kompleks foydalanish imkoniyatidir. Tabiiy toshni faqat yirik bo‘laklar ko‘rinishida qo‘llash bilan cheklanmasdan, uni qayta ishlash jarayonida hosil bo‘ladigan mayda fraksiyalar va mineral kukunlarni ham qurilish materiallari tarkibiga jalb etish mumkin. Bunday yondashuv mineral xomashyoning turli fraksiyalaridan foydalanish yo‘nalishlarini kengaytiradi.

Tahlil qilingan manbalar asosida “Cho‘yankon” konining granit va gabbro minerallaridan foydalanishning quyidagi istiqbolli yo‘nalishlarini ajratish mumkin:

1.Suv-dispersiyali devorbop materiallar — 2023-yilda “Cho‘yankon” granit va gabbro minerallari asosida bevosita tadqiq qilingan yo‘nalish.

2.Sement asosidagi kompozitsion materiallar — granit va gabbro kukunlarini mineral to‘ldiruvchi yoki ayrim tarkiblarda sementning qisman o‘rnini bosuvchi komponent sifatida tadqiq qilish imkoniyati.

3.Mineral kukunlar asosidagi boshqa qurilish materiallari — maydalangan xomashyoning zarracha o‘lchami va mineral tarkibiga qarab turli kompozitsiyalarda foydalanish imkoniyati.

4.Mahalliy mineral xomashyoni kompleks qayta ishlash — yirik fraksiyalar bilan bir qatorda mayda fraksiyalar va mineral kukunlardan ham foydalanish.

Shunday qilib, mavjud ilmiy ma’lumotlar “Cho‘yankon” konining granit va gabbro minerallaridan qurilish materiallari ishlab chiqarishda foydalanish uchun ilmiy-amaliy asos mavjudligini ko‘rsatadi. 2023-yildagi tadqiqotlarda ushbu xomashyodan suv-dispersiyali devorbop materiallar olish imkoniyati bevosita o‘rganilgan bo‘lsa, xalqaro tadqiqotlarda granit va gabbro kukunlarining sement asosidagi materiallardagi funksional imkoniyatlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, xorijiy tadqiqotlarda olingan natijalarni “Cho‘yankon” koni xomashyosiga bevosita ko‘chirishdan oldin uning tarkibi, zarracha o‘lchami va texnologik xususiyatlarini alohida eksperimental tekshirish zarur. Bu esa “Cho‘yankon” mineral xomashyosini chuqur qayta ishlash va undan turli qurilish materiallari olish bo‘yicha keyingi tadqiqotlar uchun asos yaratadi.

XULOSA.

“Cho‘yankon” koni mineral xomashyosidan qurilish materiallari ishlab chiqarishda foydalanish istiqbollari ilmiy adabiyotlar va muallifning avvalgi tadqiqotlari asosida tahlil qilindi. Muallifning 2023-yildagi hammualliflikdagi tadqiqotida “Cho‘yankon” konining granit va gabbro minerallari tarkibi va xususiyatlari o‘rganilib, ular asosida devorbop suv-dispers bo‘yoqlar olish imkoniyati tadqiq etilgan [2]. Mazkur natijalar ushbu mineral xomashyoning qurilish materiallari ishlab chiqarishda amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Xalqaro tadqiqotlar tahlili granit va gabbro kukunlaridan sement asosidagi materiallarda mineral to‘ldiruvchi yoki qisman mineral komponent sifatida foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatmoqda [3–5]. Bunda mineral xomashyoning tarkibi, zarracha

o‘lchami, maydalash darajasi va material tarkibidagi miqdori muhim texnologik omillar hisoblanadi.

Yechim pedagogiklarni tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash uchun mintaqaviy ilmiy va ta’lim markazlarini yaratishda ko‘rinadi. Bunday markazlarning maqsadi ijtimoiy rivojlanishning hozirgi madaniy bosqichi sharoitida hayotiy ta’lim muammolarini hal qilishga qodir shaxslarni doimiy ravishda rivojlantirish va izlashdir. Markazlarga o‘z faoliyatini loyiha asosida boshqarish imkoniyati berilishi kerak. Bu yangi ma’muriy va iqtisodiy tuzilmalarni yaratish zaruratini bartaraf etadi, aksincha, ma’lum bir vaqt ichida muayyan loyihalarni amalga oshirish uchun odamlar guruhlarini birlashtiradi. Yaxlit hodisalarni loyihalash pedagogiklardan o‘z fikrlashlarini kontseptualizatsiya qilishni, integrativ bilimlardan foydalanishni, fanlararo sintezda ishtirok etishni, ideal tasvirlarni yaratishni va amaliyotga e’tibor qaratishni talab qiladi.

MUHOKAMA

Pedagogiklarning professional kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar davomida biz ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bir qator shartlarni aniqladik, ya’ni:

pedagogiklarning professional kompetensiyasini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash akmeologik, sinergetik va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarni integratsiyalashga asoslangan bo‘lishi kerak;

kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni innovatsion faoliyatda ishtirok etish va maxsus tashkil etilgan refleksiv-tahliliy, dizayn va ta’lim tadbirlari orqali sodir bo‘ladi;

pedagogiklarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish belgilangan ta’lim maqsadlariga erishish va yangilarini ishlab chiqishning uzluksiz jarayoni sifatida tashkil etilishi kerak;

kasbiy o‘qitishga xos bo‘lgan muammolarni hal qilish orqali pedagogiklarning professional kompetensiyasini rivojlantirish;

universitet bitiruvchilarini transformatsion ishlarga tayyorlash, pedagogik qobiliyatlariga muvofiq professional martaba yo‘lini tanlash va ta’limda ongli ravishda professional muvaffaqiyatga erishish zarurligini aniqlash.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish uchun pedagogiklarning uzoq kelajak va yaqin kelajakdagi faoliyatni tushunishini rivojlantirish, shuningdek, bo‘lajak faoliyatni hamkorlikda rejalashtirishni va har bir pedagogik tomonidan ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va usullarni egallashni tashkil etish zarur [6].

Ta’limni rivojlantirishning diqqat markazini pedagogikga ta’lim jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat sub’ekti sifatida qaratish, o‘qitish, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonini takomillashtirish yo‘llarini izlashni nazarda tutadi. Ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishda pedagogiklar ko‘pincha amaliy faoliyatlarida turg‘unlikda qoladilar. Bu hodisaning sabablaridan biri ta’lim dasturi va pedagogikning kasbiy tajribasi o‘rtasidagi zaif bog‘liqlikdir. Aftidan, o‘qitish tajribasi professional

rivojlanishning maqsadga muvofiqligini ta'minlash, real muammolarni real sharoitda hal qilishga e'tibor qaratish, professional va shaxsiy rivojlanish uchun poydevor yaratish uchun platforma bo'lib xizmat qilishi mumkin va kerak.

Ushbu yondashuv bilan bilim, ko'nikma, usul va kompetensiyalar professional tarzda qo'llaniladigan vaziyatlarga nisbatan olinadi. Ular talabaning faoliyati yo'naltirilgan mavzu sifatida emas, balki professional muammolarni hal qilish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Pedagogik va bo'lajak pedagogiklarning ta'lim mazmunini o'zlashtirish jarayonidagi birgalikdagi faoliyati ijtimoiy jihatdan tashkil etilgan o'zaro ta'sirlar va munosabatlarning maxsus turini ifodalaydi, bu esa individual kognitiv faoliyat tuzilmasining barcha tarkibiy qismlarini assimilyatsiya obyekti bilan qayta qurishni ta'minlaydi, bu esa ma'nolar, maqsadlar, natijalarga erishish usullarining umumiyligini yaratish va o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlik shakllarini o'zgartirish orqali individual faoliyatning o'zini o'zi boshqarishini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Masalan, pedagogik va bo'lajak pedagogiklarning faoliyati qo'shma faoliyatning elementar birliklari bo'lgan o'zaro ta'sir sikllari bilan ifodalanishi mumkin. O'zaro ta'sir sikli quyidagi kabi harakatlarning almashinuvini o'z ichiga oladi: *pedagogik harakatni boshlaydi* - bo'lajak pedagogiklar uni davom ettiradi va yakunlaydi;

pedagogik topshiriq uchun mavzu taklif qiladi - bo'lajak pedagogiklar yechimlarni taqdim etadi va hokazo. Sikllarning funktsiyalari faoliyatning funktsional tuzilishiga mos keladi motivlar, maqsadlar, yo'naltirish, bajarish, monitoring, baholash. Ma'no shakllantirish va maqsad qo'yish sikllari, yo'naltirish va rejalashtirish sikllari, nazorat va baholash sikllari o'rtasida farq bor. Shunday qilib, pedagogikning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish jarayonining mohiyati ularning ishi davomida yuzaga keladigan individual ta'lim va kasbiy kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat. Bu jarayon nafaqat pedagogikning bilim va ko'nikmalarini boyitish va professional faoliyatga yangi

darajadagi tayyorlikni rivojlantirish, balki yangi ideal imidjni yaratish va o‘z professional yo‘lini izlash va amalga oshirishning yangi bosqichi uchun asos sifatida amalga oshirilmagan salohiyatni aniqlashni ham o‘z ichiga oladi. O‘z professional kompetentsiyasini baholash va tan olish professional hamjamiyatda o‘z o‘rnini izlash va topishga yordam beradi. Uzoq muddatli istiqbol pedagogikning ta’lim sohasida professional faoliyat bilan uzoq vaqt davomida shug‘ullanishini davom ettiradigan, hal qiladigan professional vazifalar doirasini kengaytiradigan va o‘z kompetentsiyasini oshiradigan ufqni ochib beradi. Ko‘rinishidan, bu kompetentsiya asosan pedagogikning “jamiyat-madaniyat-shaxs” triadasidagi qarama-qarshiliklarni hal qilishga, rivojlanayotgan rivojlanish tendentsiyalariga muvofiq ta’lim amaliyotining turli jihatlariga qo‘llashga tayyorligi bilan bog‘liq. Bu pedagogiklarning ijtimoiy va professional ishonch, raqobatbardoshlik, ijodiy o‘zini o‘zi anglash va o‘zini o‘zi belgilash kabi universal qobiliyatlari va fazilatlarini rivojlantirish bilan bog‘liq. Shu bilan birga, professional hamjamiyat pedagogiklarning professional faoliyati sifati uchun yangi talablarni belgilashga va ularning professional kompetentsiyasini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatishga qodir.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim tizimida pedagogning kasbiy kompetensiyasi ta’lim sifatini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar va innovatsion o‘zgarishlarning samaradorligi, avvalo, pedagoglarning mazkur o‘zgarishlarni anglash, qabul qilish, amaliyotga tatbiq etish va o‘z kasbiy faoliyatini muntazam takomillashtirishga tayyorligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot davomida kasbiy kompetensiya pedagogning faqat nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar majmui emas, balki uning kasbiy faoliyatda mustaqil, mas’uliyatli, ijodiy va samarali qarorlar qabul qila olish qobiliyatini ifodalovchi kompleks kasbiy-shaxsiy sifat ekanligi aniqlandi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalar bilan bir



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qatorda uning qadriyatlari, dunyoqarashi, refleksiv qobiliyatlari, kasbiy motivatsiyasi, ijodiy salohiyati va o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi va kasbiy kompetensiyasi o‘zaro uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Kasbiy tayyorgarlik pedagogni muayyan faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy jihatdan tayyorlasa, kasbiy kompetensiya ushbu bilim va ko‘nikmalarni real pedagogik vaziyatlarda mustaqil va samarali qo‘llash imkonini beradi. Shu sababli pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Pedagoglarning kasbiy rivojlanishini loyihalash jarayonida ularning individual ehtiyojlari, kasbiy tajribasi, mavjud kompetensiyalari va istiqboldagi professional maqsadlarini hisobga olish zarur. Bunday yondashuv pedagogning o‘z kasbiy rivojlanishining faol subyekti sifatida shakllanishiga, mavjud kasbiy kamchiliklarini aniqlashiga va ularni bartaraf etishning individual strategiyasini ishlab chiqishiga imkon beradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda akmeologik, sinergetik va kompetensiyaviy yondashuvlarni integratsiyalash samarali ekanligi asoslandi. Innovatsion faoliyat, refleksiv-tahliliy mashg‘ulotlar, loyiha faoliyati, muammoli vaziyatlarni hal qilish, hamkorlikdagi faoliyat va kasbiy tajribani tahlil qilish pedagogning kasbiy rivojlanishini jadallashtiruvchi muhim vositalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik ta’lim mazmunini real kasbiy faoliyat bilan bog‘lash ham muhim natijalardan biridir. Pedagog yoki bo‘lajak pedagog tomonidan o‘zlashtirilayotgan bilim va ko‘nikmalar faqat nazariy ma’lumot sifatida emas, balki real pedagogik muammolarni hal qilish vositasi sifatida shakllantirilishi lozim. Shu asosda ta’lim jarayonida pedagog va bo‘lajak pedagogning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, o‘zaro fikr almashish,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

rejalashtirish, monitoring va baholash mexanizmlarini rivojlantirish kasbiy kompetensiyaning shakllanishiga xizmat qiladi.

Pedagoglarning kasbiy rivojlanishida mintaqaviy ilmiy-ta'lim markazlarini tashkil etish ham istiqbolli yo'nalish sifatida qaralishi mumkin. Bunday markazlar pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan bir qatorda, ularning innovatsion loyihalarda ishtirok etishi, kasbiy muammolarni birgalikda hal qilishi va ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish uchun samarali muhit yaratadi.

XULOSA

Umuman olganda, pedagogning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uzluksiz va dinamik jarayon bo'lib, u pedagogning butun kasbiy faoliyati davomida davom etadi. Mazkur jarayon pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilishi, kasbiy ehtiyojlarini aniqlashi, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashi, ularni amaliyotda sinab ko'rishi hamda o'z faoliyati natijalarini baholashi asosida takomillashib boradi. Shu bilan birga, pedagogning kasbiy rivojlanishi nafaqat individual professional muvaffaqiyatni, balki ta'lim sifatini oshirishni ham ta'minlaydi. Kasbiy jihatdan kompetent, ijodkor, refleksiv va o'z faoliyatini loyihalash qobiliyatiga ega pedagog o'quvchilarning intellektual, ijtimoiy, shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Степанова И. Ю., Адольф В. А. Профессиональная подготовка учителя в условиях постиндустриального общества: монография. Красноярск, 2009. 520 с.

2. Адольф В. А., Степанова И. Ю. Развитие профессионального потенциала педагога в условиях обновления образовательной практики // Инновации в образовании. 2011. № 10. С. 14-24.

3. Адольф В. А. Вызовы времени-становление профессионально-образовательного сообщества // Сибирский педагогический журнал. 2013. №3. С. 9-13.

4. Адольф В. А., Адольф О. К. Отношение выпускников школы к основным социальным явлениям-важнейший индикатор их социализированности // Воспитание школьников. 2012. №4. С. 3-9.

5. Адольф В. А., Валяева Е. В. Ценностные приоритеты учащихся старших классов общеобразовательной школы // Воспитание школьников. 2012. №10. С. 9-23.

6. Адольф В. А., Степанова И. Ю. Дидактика: От тактики передачи социального опыта к стратегии достижения образовательных результатов // Вестник КГПУ им. В. П. Астафьева. 2012. № 4(22). С. 57- 61.

7. Кальней В.А., Шишов С.Е. Мониторинг качества образования. М.-Вологда: ИП-КиППК,1998. 189 с.

8. Ковалева Г.С. Международный опыт оценки качества образования // Материалы коллегии по ЕГЭ /Центр оценки качества образования ИОСО РАО. М., 2001. 375 с.

9. Arcago J.S. Quality in Education: An Implementation Handbook. Abington: St.Lucie Press, 1995. 192 p.

10. Ковалева Г.С. Основные подходы к сравнительной оценке качества математического и естественно-научного образования в странах мира (по материалам международного исследования TIMSS). М., 1996. 92 с.

11. Accreditation and the Role of the Council on Post-secondary Accreditation. Washington, 1990. 143 p.

12. Akkreditierungsrat: Work Report 2000/2001/ Bonn: Head Office of the Akkreditierungsrat, 2002. 73 p.

13. Звонников В.И., Челышкова М.Б. Зарубежный опыт создания систем оценки качества образования: материалы межрег. сов. М., 2007. С. 101-115.

14. Адольф В. А., Степанова И. Ю. Развитие профессионального потенциала педагога в условиях обновления образовательной практики // Инновации в образовании. 2011. № 10. С. 14-24.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

TALABALARNING RAQAMLI-TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANGANLIK DARAJASINI ANIQLASH

Ismoilov Raxmatjon Ilxom o'g'li,
Urganch davlat universiteti,
Transport tizimlari kafedrasi o'qituvchisi
romaismoilov94@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada texnika oliy ta'lim muassasalarining Logistika ta'lim yo'nalishi talabalarida raqamli-texnologik kompetentligini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlanishi va unda zamonaviy oliy texnik ta'limning samaradorlik jihatlarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, bo'lajak transport muhandislarida raqamli-texnologik kompetentligini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlanish darajasini aniqlash bo'yicha tashkil qilingan tajriba sinov ishlari natijalari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *kompetensiya, metod, texnologiya, fikrlash, sun'iy intellekt, muhandis, transport, talaba, muammo, bilim, mashg'ulot.*

ОПРЕДЕЛЕНИЕ УРОВНЯ РАЗВИТИЯ ЦИФРО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация. *В данной статье анализируется развитие цифровой и технологической компетентности студентов направления образования "Логистика" технических высших учебных заведений на основе технологий искусственного интеллекта и значение аспектов эффективности современного высшего технического образования в этом процессе. Также представлены результаты экспериментальной работы, организованной для определения уровня развития цифровой и технологической компетентности будущих инженеров транспорта на основе технологий искусственного интеллекта.*

Ключевые слова: *компетенция, метод, технология, мышление, студенты, инженер, транспорт, студент, проблема, искусственный интеллект, обучение.*

DETERMINING THE LEVEL OF DEVELOPMENT OF STUDENTS' DIGITAL-TECHNOLOGICAL COMPETENCE BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES

Abstract. *This article analyzes the development of digital-technological competence in students of the "Logistics" education direction of technical higher educational institutions based on artificial intelligence technologies and the significance of efficiency aspects in modern higher technical education.*

The results of the experimental work organized to determine the level of development of digital and technological competence in future transport engineers based on artificial intelligence technologies are also presented.

Key words: *competence, method, technology, thinking, students, engineer, transport, student, problem, artificial intellect, learning.*

KIRISH

Mamlakatimizda keyingi vaqtlarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo'lining tanlab olinishi, shuningdek, sohalar uchun kasbiy kompetentli mutaxasisilarni tayyorlash g'oyasi va talablari asosida jahon ta'limi standartlariga muvofiq keluvchi uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratdi. Ta'lim sohasida olib borilayotgan hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etildi. Bu yo'nalishda amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, boy milliy meros, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifalari belgilangan[1].

Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to'la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o'zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi kasbiy kompetentli shaxsni shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi.Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va erishilgan qator ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, ta'lim samaradorligining rivojlanish dinamikasini yanada jadallashtirish, bunda yaratilgan shart–sharoitlar va imkoniyatlardan samarali foydalanish, transport sohasi uchun raqobatbardosh kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan muhandislarni yetkazib berish bugungi kunda eng dolzarb masala hisoblanadi.

ADABIYOTLARNING TAHLILI

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Respublikamizda bo‘lajak muhandislarning raqamli-texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi bo‘yicha R.X.Jo‘rayev, N.A.Muslimov, U.I.Inoyatov, A.A.Abduqodirov, B.X.Raximov, I.Askarov, U.Yarlakabov, J.Turmatov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Zamonaviy muhandislik ta’limida Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini tashkil etish, ta’lim jarayonida Sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘ziga xosliklari bo‘yicha U.O.Toxirov, X.T.Raxmonov, Z.K.Bekturova va N.N.Vagapova, I.Umirov, M.Alimov, A.Parmonov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan. Mustaqil Davlatlar Xamdo‘stligi (MDX) mamlakatlari olimlaridan E.S.Polat, A.V.Xutorskoy, G.K.Selevko, A.A.Andreev, V.P.Bespalko, V.P.Mishin, N.S.Ponarin, A.F.Dorofeev, S.Drozdov, L.Karpova, V.Skakun, A.A.Kuznetsov, A.V.Zavrajin kabilar texnika oliy ta’lim mussasalarida bo‘lajak muhandislarning raqamli-texnologik kompetentligini rivojlantirish va o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalalarini tadqiq etishgan.

Sun’iy intelekt texnologiyalarini o‘quv jarayoniga keng joriy etish, bo‘lajak muhandislarning raqamli-texnologik kompetentligini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish muammolari Paul Kim, Richard Mayer, George Siemens, Diana Laurillard, Neil Selwyn, Toshio Okamoto, Yasushi Kiyoki , Afzal Badshah, Rajae Amimi kabi xorijiy olimlar tomonidan yoritib berilgan.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlarida bo‘lajak muhandislarni tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanish, texnik ta’lim mazmunini takomillashtirish, muhandislik tafakkurini, kompetentlikni, analitik hamda fazoviy fikrlashni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Biroq, talabalarning raqamli-texnologik kompetentligini Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning yaxlit metodik tizimi, uning pedagogik shart-sharoitlari, didaktik ta’minoti, rivojlantirish mexanizmlari va samaradorligini baholash mezonlari kompleks tarzda maxsus tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu muammoni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan chuqur tadqiq etish hamda raqamli-texnologik



kompetentligini Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Respublikamizda ham oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish, Sun'iy intelekt texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng joriy etish, bo'lajak muhandislarning raqamli-texnologik kompetentligini rivojlantirish hamda ta'lim mazmunini zamonaviy ishlab chiqarish talablari bilan uyg'unlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Texnika oliy ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish, umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish, virtual laboratoriyalar, raqamli o'lchash vositalari va intellektual ta'lim platformalaridan samarali foydalanish orqali talabalarning texnik tafakkuri, analitik fikrlashi hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyalarida inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim tizimini raqamli transformatsiya qilish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Zamonaviy kasbiy faoliyatning raqamlashtirilishi talabalarda sun'iy intellekt bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishni talab qilmoqda. Kelajak mutaxassisidan faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirish emas, balki raqamli axborotni izlash va tahlil qilish, sun'iy intellekt yaratgan natijalarni tanqidiy baholash, muammoni hal qilishda undan maqsadli foydalanish hamda olingan natijaning ishonchliligini tekshirish qobiliyatlari ham talab etiladi. Demak, sun'iy intellekt ta'lim jarayonida nafaqat o'qitish vositasi, balki talabalarning zamonaviy kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi o'rganish obyekti sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim resurslarining variativligi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Generativ sun'iy intellekt vositalari

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

orqali muayyan mavzuga mos matn, savol, topshiriq, muammoli vaziyat, amaliy holat va tushuntirishlarni turli murakkablik darajalarida shakllantirish mumkin. Multimodal texnologiyalar esa matn, tasvir, ovoz va boshqa axborot shakllarini o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali o‘quv materiallarini taqdim etish imkoniyatlarini boyitadi. Bu ayniqsa murakkab jarayonlarni vizuallashtirish, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan bog‘lash va talabalarning mustaqil o‘rganishini tashkil etishda muhimdir.

Umuman olganda, sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish zarurati ta’limni individuallashtirish, adaptiv o‘qitishni tashkil etish, o‘quv ma’lumotlarini intellektual tahlil qilish, tezkor qayta aloqani ta’minlash, pedagog faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ta’lim resurslarini boyitish hamda talabalarning zamonaviy raqamli va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish kabi o‘zaro bog‘liq ehtiyojlar bilan belgilanadi. Natijada sun’iy intellekt ta’limning maqsadini o‘zgartiruvchi omil emas, balki mazkur maqsadga erishishning imkoniyatlarini kengaytiruvchi intellektual-pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu holat sun’iy intellekt texnologiyalarini zamonaviy ta’lim tizimining tarkibiy qismiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish Logistika ta’lim yo‘nalishi “Transport umumiy kursi” fanini sun’iy intellekt texnologiyalar bilan integratsiyalash, talabalarning raqamli-texnologik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tizimni ishlab chiqish, uning pedagogik shart-sharoitlari, didaktik tamoyillari, tarkibiy komponentlari, mezon va ko‘rsatkichlarini ilmiy asoslash hamda ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalar ta’lim jarayonida faqat texnik vosita sifatida emas, balki talabalarning kognitiv, analitik va raqamli-texnologik kompetentligini rivojlantiruvchi pedagogik muhit sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, muhandislik ta’limida sun’iy intellekt texnologiyalarning joriy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

etilishi bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatiga xos bo‘lgan murakkab texnik jarayonlarni tushunish, modellashtirish, tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak transport muhandislarida raqamli-texnologik kompetentligini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlanganlik darajasini aniqlash bo‘yicha tajriba sinov ishlari tashkil qilindi. Tajriba-sinov ishlari 2024-2026 o‘quv yillarida Namangan davlat texnika universiteti, Andijon davlat texnika institute va Buxoro davlat texnika universitetlarida o‘tkazildi, tajriva-sinov ishlariga jami 326 nafar talabalar jalb qilinib, tajriba guruhlariga 164 nafar, nazorat guruhlariga 162 nafar talaba jalb qilinib, tajriba va nazorat guruhlari umumiy son jihatidan mutanosibligi ta’minlandi.

Tadqiqot doirasida Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda talabalarining raqamli-texnologik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodikani samaradorlik darajasini aniqlash bo‘yicha Namangan davlat texnika universiteti, Urganch davlat universiteti, Buxoro davlat texnika universitetlarida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Sinov ishiga tajriba maydonlaridan respondent-talabalar biriktirildi. Tadqiqot mavzusi yuzasidan tajriba-sinov ishlarining talabalarning raqamli-texnologik kompetentligini rivojlantirish darajasini tajriba va nazorat guruhlarida aniqlash hamda qiyosiy tahlil qilish bosqichi amaliyotchi o‘qituvchilar bilan hamkorlikda tadqiqotchi tomonidan amalga oshirildi.

Har bir o‘quv yilining boshida tajriba-sinov ishlarining predmeti bilan bog‘liq bo‘lgan savollar bo‘yicha talabalar bilan suhbatlar va oliy ta’lim muassasalarida olgan bilimlari asosida test topshiriqlari bajarish ishlari olib borildi. Tadqiqot tajriba-sinov ishlariga tayyorgarlik hamda ularni olib borish davrida o‘rganilayotgan mavzular bo‘yicha o‘quv materiallarining mazmuni to‘la bayon etilgan - reja va matnlar tuzildi. Tanlab olingan OTMlarda innovatsion ta’lim metodlari va Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda talabalarining raqamli-texnologik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazildi, mavzularini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bayon etishda didaktik materiallar va har bir dars uchun uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqildi.

1-jadval

Talabalarning raqamli-texnologik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tajriba sinov ishlari o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalari

№	Oliy ta’lim muassasasi nomi	OTMlar bo‘yicha jami respondentlar soni	Jumladan	
			Tajriba guruhida	Nazorat guruhida
1.	Namangan davlat texnika universiteti	129 nafar	65 nafar	64 nafar
2.	Urganch davlat universiteti	125 nafar	63 nafar	62 nafar
3.	Buxoro davlat texnika universiteti	137 nafar	69 nafar	68 nafar
	Jami:	391 nafar	197 nafar	194 nafar

Tajriba-sinov guruhlarida qatnashgan jami 197 nafar talabalarning tajriba-sinov ishlari boshida o’zlashtirish ko’rsatkichlari: 18 nafar (9,1%) talabada yuqori daraja, 54 nafar (27,4%) talabada o’rta daraja, 125 nafar (63,5%) talabada past daraja qayd etilgan bo’lsa, tajriba oxiriga kelib 56 nafar (28,4%) talabada yuqori daraja qayd etilgan va 19,3%ga oshgan, 93 nafar (47,2%) talabada o’rta daraja qayd etilgan va 19,8%ga oshgan, 48 nafar (24,4%) talabada past daraja qayd etilib 39,1%ga kamayganligini ko’rsatdi.

Nazorat guruhlarida qatnashgan jami 194 nafar talabalarning tajriba-sinov ishlari boshida o’zlashtirish ko’rsatkichlari: 11 nafar (5,7%) talabada yuqori daraja, 54 nafar (27,8%) talabada o’rta daraja, 129 nafar (66,5%) talabada past daraja qayd etilgan bo’lsa, tajriba oxiriga kelib 27 nafar (13,9%) talabada yuqori daraja qayd etilgan va 8,2%ga oshgan, 78 nafar (40,2%) talabada o’rta daraja qayd etilgan va 12,4%ga oshgan, 89 nafar (45,9%) talabada past daraja qayd etilib 20,6%ga kamayganligini ko’rsatdi (2-rasm).

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37



1-rasm. *Tajriba-sinov ishlari olib borilgan OTMlarda talabalarning raqamli-texnologik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba sinov ishlari natijalari diagrammasi.*

XULOSA

Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik-statistik tahlili o‘qitish samaradorligini baholash mezonining birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezonining noldan yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Natijalarga ko‘ra, Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida tajriba guruhi talabalarining raqamli-texnologik kompetentlik kompetentligi nazorat guruhi talabalariga nisbatan 12,3 foizga yuqori darajada rivojlanganligi aniqlandi. Bu esa ishlab chiqilgan metodik tizimning samaradorligini ilmiy-statistik jihatdan tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ruziyev I.S.Bo‘lajak transport muhandisini mehnat faoliyatining tasnifiy belgilari./ Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi.2024-12.-782b

2.Xudaykulov R.Z. Bo’lajak muhandislarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo’llari.// BERDAQ Nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universitetining axborotnomasi. Nukus-2022. – B. 118-121 (13.00.00. №25)

3. Назарова Б.А. Педагогика коллежлари бўлғуси ўқитувчиларининг касбий лаёқатини тарбиялаш: Дис. … пед. фан. ном. –Т.: 2009. – 170 б.

4. Муслимов Н.А. Абдуллаева Қ.М., Қўйсинов О.А., Гаипова Н.С. Каримова Н.Н., Қодиров М.Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. –Т.: «Fan va texnologiya», 2013, 128 бет.

5. Хуторская А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно- ориентированной парадигмы образования // Народное образование. - 2003. - №2. - С.58.

6. Саксонова Л.П. Культур сообразность технического образования. Монография / Л.П. Саксонова, Самар. гос. техн. ун-т. Самара, 2006. - 491 с.

7. Кудрявцев Т.В. Психология технического мышления : процесс и способы решения технических задач / Т.В. Кудрявцев. – Москва : Педагогика, 1975. – 304 с.

8. Сергеев В., Рязапова Л. Моделирование профессиональной деятельности Современного инженера.Высшое оброзование в России. №2,2003г.

9.Химматалиев Д.О. Касбий фаолиятга тайёргарлик диагностика қилишда педагогик ва техник билимлар интеграцияси. Монография. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 168 б.

10. Ҳамидов Ж.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда ўқитишнинг замонавий дидактик воситаларини яратиш ва қўллаш технологияси: Педагогика фанлари бўйича докторлик (DSc) диссертацияси автореферати. -Тошкент, 2017 й.

UDK 378.016:796.01

ADAPTIV JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA "IXTISOSLIKKA KIRISH" FANINING PEDAGOGIK VA METODOLOGIK AHAMIYATI

Yusupov To'lanboy Ibroximovich
Andijon davlat universiteti, Sport o'yinlari kafedrasi
p.f.b.f.d. (PhD), v.b. professori
E-mail: tolanboyyusupov2502@gmail.com; tel.: +998 91 616 02 25
ORCID: 0009-0002-9715-7399

Annotatsiya. *Maqolaning maqsadi adaptiv jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash tizimida "Ixtisoslikka kirish" fanining pedagogik va metodologik o'rnini nazariy jihatdan asoslash hamda uning mazmunini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilashdan iborat. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni nazariy va qiyosiy tahlil qilish, kontent-tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tahlil adaptiv jismoniy tarbiya, inklyuziv jismoniy tarbiya, nogironlikning biopsixoijtimoiy talqini, kasbiy kompetensiyalar va mutaxassis tayyorlash standartlariga oid zamonaviy manbalar hamda normativ-huquqiy hujjatlarni qamrab oldi. Natijada "Ixtisoslikka kirish" fanining orientatsion, motivatsion, integrativ, metodologik, kommunikativ va aksiologik funksiyalari aniqlashtirildi. Fan mazmunini orientatsion, nazariy-metodologik, motivatsion, amaliy-kompetensiyaviy va refleksiv komponentlar asosida tashkil etuvchi model taklif qilindi. Keys-stadi, muammoli ta'lim, kasbiy vaziyatlarni modellashtirish, amaliy tashriflar, mini-tadqiqotlar, elektron portfolio va raqamli ta'lim vositalarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Xulosa sifatida, mazkur fan keyingi maxsus fanlarni o'zlashtirish uchun kirish kursi bo'lish bilangina cheklanmay, talabaning kasbiy dunyoqarashi, metodologik tafakkuri, inklyuziv qadriyatlari va dastlabki kompetensiyalarini shakllantiruvchi integrativ pedagogik platforma vazifasini bajarishi asoslandi. Bu yondashuv professional tayyorgarlikning uzviyligi va mantiqiy davomiyligini kuchaytiradi.*

Kalit so'zlar: *adaptiv jismoniy tarbiya, adaptiv sport, ixtisoslikka kirish, kasbiy kompetensiya, inklyuziv ta'lim, kasbiy motivatsiya, fanlararo integratsiya, metodologik tafakkur, mustaqil ta'lim, raqamli texnologiyalar.*

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДИСЦИПЛИНЫ «ВВЕДЕНИЕ В СПЕЦИАЛЬНОСТЬ» В ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО АДАПТИВНОЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ И СПОРТУ

Аннотация. *Цель статьи состоит в теоретическом обосновании педагогической и методологической роли дисциплины «Введение в специальность» в системе подготовки специалистов по адаптивной физической культуре и спорту, а также в определении направлений*

совершенствования ее содержания. В исследовании использованы теоретический и сравнительный анализ научной литературы, контент-анализ, систематизация, обобщение и педагогическое моделирование. Анализ охватил современные источники по адаптивной и инклюзивной физической культуре, биопсихосоциальному пониманию инвалидности, профессиональным компетенциям и стандартам подготовки специалистов, а также нормативно-правовые документы. В результате уточнены ориентационная, мотивационная, интегративная, методологическая, коммуникативная и аксиологическая функции дисциплины. Предложена модель содержания, включающая ориентационный, теоретико-методологический, мотивационный, практико-компетентностный и рефлексивный компоненты. Разработаны рекомендации по использованию кейс-стади, проблемного обучения, моделирования профессиональных ситуаций, практических посещений, мини-исследований, электронного портфолио и цифровых образовательных средств. Сделан вывод, что данная дисциплина должна рассматриваться не только как вводный курс к последующим специальным дисциплинам, но и как интегративная педагогическая платформа, формирующая профессиональное мировоззрение, методологическое мышление, инклюзивные ценности и первоначальные компетенции будущего специалиста. Такой подход усиливает преемственность, целостность и практическую направленность профессиональной подготовки.

Ключевые слова: *адаптивная физическая культура, адаптивный спорт, введение в специальность, профессиональная компетентность, инклюзивное образование, профессиональная мотивация, междисциплинарная интеграция, методологическое мышление, самостоятельное обучение, цифровые технологии.*

PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE SUBJECT "INTRODUCTION TO THE SPECIALTY" IN THE TRAINING OF ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS SPECIALISTS

Abstract. *The purpose of this article is to provide a theoretical justification for the pedagogical and methodological role of the subject "Introduction to the Specialty" in the preparation of adaptive physical education and sport specialists and to identify directions for improving its content. The study used theoretical and comparative analysis of scientific literature, content analysis, systematization, generalization, and pedagogical modeling. The review covered contemporary sources on adapted and inclusive physical education, the biopsychosocial understanding of disability, professional competencies, specialist preparation standards, and relevant regulatory documents. The analysis clarified the orientational, motivational, integrative, methodological, communicative, and axiological functions of the subject. A content model consisting of orientational, theoretical-methodological, motivational, practice-and-competence, and reflective components was proposed. Recommendations were developed for integrating case studies, problem-based learning, simulation of professional situations, field visits, mini-research projects, electronic portfolios, and digital learning tools. It is concluded that the subject should not be limited to an introductory course preceding specialized disciplines; rather, it can function as an*

integrative pedagogical platform that develops students' professional worldview, methodological thinking, inclusive values, and initial professional competencies.

Keywords: *adapted physical education, adaptive sport, introduction to the specialty, professional competence, inclusive education, professional motivation, interdisciplinary integration, methodological thinking, independent learning, digital technologies.*

KIRISH

Jismoniy tarbiya va sport bugungi kunda nafaqat salomatlikni mustahkamlash vositasi, balki shaxsning ijtimoiy faolligi, o‘zini namoyon qilishi va jamiyat hayotida ishtirokini qo‘llab-quvvatlaydigan muhim pedagogik makon sifatida qaralmoqda. Adaptiv jismoniy tarbiya ushbu vazifalarni turli funksional imkoniyat va ehtiyojlarga ega shaxslar uchun moslashtirilgan mazmun, metod va sharoitlar orqali amalga oshiradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ICF konsepsiyasida funksionallik va nogironlik shaxsning sog‘liq holati bilangina emas, balki faoliyat, ishtirok va atrof-muhit omillarining o‘zaro ta’siri bilan izohlanadi [1].

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning jismoniy tarbiya, sport, dam olish va rekreatsion faoliyatlarda teng ishtirok etish huquqi BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasida mustahkamlangan [2]. UNESCO sifatli jismoniy tarbiya bo‘yicha tavsiyalarida inklyuziv yondashuv, o‘qituvchilarni sifatli tayyorlash, moslashuvchan o‘quv dasturi va hamkorlikni asosiy shartlar qatorida ko‘rsatadi [3]. Shu sababli adaptiv jismoniy tarbiya va sport mutaxassisini tayyorlash jarayoni pedagogika, psixologiya, tibbiy-biologik fanlar, sport metodikasi, huquq va ijtimoiy kommunikatsiyani integratsiyalovchi ko‘p komponentli tizim bo‘lishi kerak.

Mutaxassis tayyorlashning dastlabki bosqichida talaba tanlagan kasbining maqsadi, faoliyat obyektlari, professional mas’uliyati va keyingi maxsus fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunib olishi muhim. “Ixtisoslikka kirish” fani aynan shu ehtiyojga javob beradigan propedevtik kurs sifatida talabaning kasbiy yo‘nalishini aniqlashtiradi, motivatsiyasini shakllantiradi va maxsus bilimlarni yaxlit tizim sifatida qabul qilishiga metodologik zamin yaratadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Mavjud o‘quv-metodik adabiyotlarda adaptiv jismoniy tarbiya mazmuni, inklyuziv mashg‘ulotni rejalashtirish, baholash va modifikatsiya qilish masalalari keng yoritilgan bo‘lsa-da [4–6], “Ixtisoslikka kirish” fanining aynan bo‘lajak adaptiv jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining kasbiy dunyoqarashi hamda metodologik tafakkurini boshlang‘ich bosqichda shakllantiruvchi integrativ platforma sifatidagi funksiyalari alohida tizimlashtirishni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi — adaptiv jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashda “Ixtisoslikka kirish” fanining pedagogik va metodologik ahamiyatini nazariy jihatdan asoslash hamda uning mazmunini kompetensiyaviy va inklyuziv yondashuvlar asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adaptiv jismoniy tarbiya bo‘yicha zamonaviy nazariy manbalarda mutaxassis faoliyati faqat mashqni moslashtirish bilan cheklanmasdan, individual ehtiyojlarni baholash, xavfsiz va inklyuziv muhit yaratish, o‘quv maqsadlarini differensiallashtirish, kommunikatsiya va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi vazifalarni qamrab olishi ta’kidlanadi [4–6]. Yevropa standartlarida adaptiv jismoniy faoliyat bo‘yicha professional kompetensiyalar rejalashtirish, inklyuziv o‘qitish, baholash va professional hamkorlik yo‘nalishlari orqali tavsiflangan [7]. Bu yondashuvlar “Ixtisoslikka kirish” fanining mazmuni kelgusidagi kasbiy faoliyatning umumiy xaritasini talabaga erta bosqichda ko‘rsatishi lozimligini asoslaydi.

Nogironlikni tushunishdagi tibbiy va ijtimoiy modellarning farqi pedagogik qarorlar sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Haegele va Hodge tibbiy model individual cheklovlarga urg‘u berishini, ijtimoiy model esa muhit va tizimli to‘siqlarni markazga qo‘yishini ko‘rsatadi [8]. ICF biopsixoijtimoiy yondashuvi ushbu qarashlarni funksionallik, faoliyat, ishtirok va kontekst omillarini bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqish orqali birlashtiradi [1]. Shuning uchun bo‘lajak mutaxassisning ilk kasbiy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tayyorgarligida "nuqson"ga yo'naltirilgan qarashdan imkoniyat, ishtirok va moslashtirishga yo'naltirilgan kasbiy pozitsiyaga o'tish metodologik jihatdan muhimdir.

Kasbiy tayyorgarlik samaradorligi talabaga real yoki modellashtirilgan amaliy vaziyatlar bilan ishlash imkoniyati berilganda kuchayadi. Abilities-based yondashuv shaxsning mavjud imkoniyatlarini markazga qo'yish va xizmat ko'rsatishni shaxsga yo'naltirish zarurligini ta'kidlaydi [9]. Adaptiv jismoniy tarbiya bo'yicha amaliyot tajribasi talabalarning o'z kompetensiyasini idrok etishiga ijobiy ta'sir qilishi mumkinligi ko'rsatilgan [10]. Shuningdek, ekspert konsensusiga asoslangan tadqiqotlarda sifatli amaliyotning mazmuni, o'qitish faoliyati, yumshoq ko'nikmalar va natijalarni baholash muhim komponentlar sifatida ajratilgan [11].

Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga chuqur kirib borishi adaptiv jismoniy tarbiya mutaxassisidan texnologik-pedagogik kompetensiyalarni ham talab qilmoqda. Yevropa standartlarini yangilashga bag'ishlangan tadqiqotda texnologik qo'llab-quvvatlangan pedagogika bo'yicha qo'shimcha funksiyalar zarurligi ko'rsatilgan [12]. Bu holat "Ixtisoslikka kirish" fanida raqamli resurslardan foydalanish, axborotni tanqidiy baholash va elektron portfolio yuritish kabi boshlang'ich ko'nikmalarni shakllantirishni maqsadga muvofiq etadi.

Tadqiqot nazariy-metodologik xarakterga ega. Manbalarni tanlashda adaptiv jismoniy tarbiya va sport, inklyuziv jismoniy tarbiya, nogironlik modellari, kasbiy kompetensiyalar, mutaxassis tayyorlash va pedagogik texnologiyalarga bevosita aloqador ilmiy monografiyalar, standartlar, maqolalar hamda xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujjatlar ustuvor qilindi. Tadqiqot usullari sifatida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, tushunchalarni tizimlashtirish, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish qo'llanildi. Tahlil birligi sifatida fanning kasbiy orientatsiya, motivatsiya, fanlararo integratsiya, metodologik tayyorgarlik, amaliy kompetensiya va refleksiya bilan bog'liq funksiyalari olindi. Empirik ishtirokchilar jalb qilinmaganligi sababli natijalar konseptual-pedagogik xususiyatga ega.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nazariy tahlil natijasida "Ixtisoslikka kirish" fanining adaptiv jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashdagi oltita o'zaro bog'liq funksiyasi ajratildi. Orientatsion funksiya talabaning kasbiy faoliyat sohasi, vazifalari va mehnat obyektlari haqidagi dastlabki tasavvurini shakllantiradi. Motivatsion funksiya tanlangan kasbning ijtimoiy ahamiyati va professional rivojlanish istiqbollarini anglash orqali ichki qiziqishni qo'llab-quvvatlaydi. Integrativ funksiya pedagogika, psixologiya, fiziologiya, sport tibbiyoti va maxsus metodika bilimlarini bitta professional kontekstga bog'laydi.

Metodologik funksiya talabani kasbiy muammoni dalillarga tayangan holda qo'yish, tushunchalarni farqlash va nazariy yondashuvlarni qiyoslashga o'rgatadi. Kommunikativ funksiya shug'ullanuvchi, ota-ona, pedagog, tibbiyot xodimi va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilishning boshlang'ich madaniyatini shakllantiradi. Aksiologik funksiya esa shaxs qadr-qimmati, teng imkoniyat, kamsitmaslik, xavfsizlik va ishtirok tamoyillarini kasbiy qadriyat sifatida o'zlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu funksiyalar mazmunan ICF, BMT Konvensiyasi va inklyuziv jismoniy tarbiya standartlaridagi yondashuvlar bilan uyg'unlashadi [1–3, 7].

1-jadval

"Ixtisoslikka kirish" fanining fanlararo aloqadorligi

Fan	**"Ixtisoslikka kirish" bilan metodologik bog'liqligi**
Sport pedagogikasi	Pedagogik jarayonni rejalashtirish va tashkil etish qonuniyatlari
Sport fiziologiyasi	Jismoniy yuklamaga organizm javobini tushunish
Sport psixologiyasi	Motivatsiya, muloqot va individual psixologik xususiyatlar
Sport tibbiyoti asoslari	Sog'liq holati, xavfsizlik va risklarni hisobga olish
Adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi	Individual ehtiyojlarga mos mashg'ulot va modifikatsiyalar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Jismoniy tarbiya nazariyasi	Jismoniy tarbiya jarayonining umumiy tamoyil va qonuniyatlari
Pedagogik texnologiyalar	Muammoli ta'lim, keys-stadi, loyiha va faol o'qitish metodlari
Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	Ilmiy muammo qo'yish, dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish

Jadvaldagi aloqadorlik shuni ko'rsatadiki, "Ixtisoslikka kirish" fani maxsus fanlarning soddalashtirilgan takrori bo'lmasligi kerak. Uning vazifasi — har bir fan kelajakdagi kasbiy muammoning qaysi tomonini tushuntirishini ko'rsatish va talabada "bir vaziyat — bir nechta ilmiy nuqtai nazar" tamoyilini shakllantirishdir. Masalan, mashg'ulotda ishtirok etayotgan nogironligi bo'lgan shaxsning harakat vazifasini moslashtirish pedagogik metod, funksional imkoniyat, psixologik tayyorgarlik, xavfsizlik va kommunikatsiyani bir vaqtda hisobga olishni talab etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan fan mazmunida tayyor ma'lumotni takrorlashdan ko'ra kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish ustuvor bo'lishi lozim. Talabaga, masalan, inklyuziv guruh uchun mashg'ulot fragmentini rejalashtirish, muhitdagi to'siqlarni aniqlash, xavfsizlik choralarini asoslash yoki bir xil vazifani turli funksional imkoniyatlarga moslashtirish topshirig'i berilishi mumkin. Bunday topshiriqlar professional qaror qabul qilishning dastlabki algoritmlarini shakllantiradi va abilities-based yondashuvdagi shaxsga yo'naltirilganlik tamoyiliga mos keladi [9].

Amaliyot bilan erta tanishtirish ham muhim. Adaptiv jismoniy tarbiya bo'yicha turli turdagi praktikumlarni o'rgangan tadqiqotlarda talabalar o'z kasbiy kompetensiyasini yuqoriroq baholay boshlagani qayd etilgan [10]. Ekspertlar esa sifatli practicumning rejalashtirilgan o'quv vazifalari, bevosita o'qitish tajribasi, kommunikativ va refleksiv ko'nikmalar hamda aniq baholash mezonlariga ega bo'lishini muhim deb hisoblagan [11]. Shuning uchun fan doirasida adaptiv sport tashkilotlari, inklyuziv

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari yoki reabilitatsiya va rekreatsiya muhitlariga kuzatuv tashriflarini nazariy darslar bilan bog‘lash maqsadga muvofiq.

Mustaqil ta’limning mazmuni ham kasbiy savodxonlikka yo‘naltirilishi lozim. Talaba ilmiy maqola annotatsiyasini tahlil qilish, ishonchli va ishonchsiz manbani farqlash, qisqa bibliografik sharh tuzish, xalqaro hujjatlarning asosiy qoidalarini ajratish, kichik loyiha yoki elektron portfolio tayyorlashni o‘rganishi kerak. Raqamli vositalar ayniqsa muhim bo‘lib, EUSAPA standartlarini yangilash bo‘yicha ishlar texnologik-pedagogik kompetensiyalar adaptiv jismoniy tarbiya amaliyotining zamonaviy qismiga aylanganini ko‘rsatadi [12].

Normativ-huquqiy tayyorgarlik fanning alohida mazmuniy yo‘nalishi bo‘lishi zarur. O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunida tenglik, kamsitmaslik, qulaylik va jamiyat hayotida ishtirok etish prinsiplari belgilangan [13]. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda inklyuziv ta’lim ta’lim olish shakllaridan biri sifatida qayd etilgan [14], “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun esa jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarning huquqiy asosini belgilaydi [15]. Mazkur hujjatlar talaba uchun faqat nazariy ma’lumot emas, balki kasbiy qarorlar va pedagogik mas’uliyatning normativ chegaralarini tushuntiruvchi amaliy manba sifatida o‘rganilishi kerak.

Tahlil natijalarini umumlashtirish asosida “Ixtisoslikka kirish” fanini besh komponentli pedagogik model asosida tashkil etish taklif etildi (2-jadval).

2-jadval

“Ixtisoslikka kirish” fanini takomillashtirishning pedagogik modeli

Komponent	**Asosiy mazmun**	**Kutiladigan natija**
Orientatsion	Kasb maqsadi, vazifalari, faoliyat sohasi va mehnat obyektlari	Kasbiy yo‘nalish va soha haqidagi yaxlit tasavvur

Nazariy-metodologik	Adaptiv jismoniy tarbiya tushunchalari, nogironlik modellari, ICF va ilmiy yondashuvlar	Tushunchalarni tizimli va dalillarga tayangan holda izohlash
Motivatsion	Kasbning ijtimoiy ahamiyati, professional rivojlanish istiqbollari	Ichki kasbiy qiziqish va ijtimoiy mas'uliyat
Amaliy-kompetensiyaviy	Keyslar, muammoli vaziyatlar, amaliy kuzatuv, loyiha va mini-tadqiqotlar	Kasbiy vaziyatni tahlil qilish va asoslangan yechim taklif qilish
Refleksiv	Portfolio, o'zini baholash, individual rivojlanish maqsadlari	O'z kasbiy o'sishini rejalashtirish va baholash

Taklif etilgan modelning yangiligi shundaki, u fanni faqat terminlar va kasb haqida ma'lumot beruvchi kirish kursi sifatida emas, balki kasbiy orientatsiya, metodologik savodxonlik, amaliy qaror qabul qilish va refleksiyani yagona didaktik zanjirga birlashtiruvchi platforma sifatida talqin qiladi. Bunda nazariy material har bir mavzuda amaliy vaziyat, kichik tahlil yoki refleksiv topshiriq bilan yakunlanishi maqsadga muvofiq.

Pedagogik texnologiyalar sifatida muammoli ta'lim, keys-stadi, loyiha metodi, kasbiy vaziyatlarni modellashtirish, guruhli muhokama, ilmiy maqolalarni qiyosiy tahlil qilish, mini-tadqiqot va elektron portfoliodan foydalanish tavsiya etiladi. Baholashda esa faqat ta'rif va faktlarni eslab qolishni tekshirish bilan cheklanmasdan, vaziyatni tahlil qilish, dalil keltirish, xavfsiz yechim taklif qilish, moslashtirish variantini asoslash va o'z qarorini reflektiv baholash mezonlari qo'llanishi lozim.

Ilmiy-amaliy jihatdan quyidagi yo'nalishlar ustuvor deb hisoblanadi: fan dasturiga ICF va nogironlik modellari bo'yicha bazaviy tushunchalarni kiritish; inklyuziv sport va jismoniy tarbiya bo'yicha real keyslar bankini yaratish; birinchi bosqichdan amaliy kuzatuv va mutaxassislar bilan uchrashuvlarni tashkil etish; fanlararo

2. Джероян Г.О., Худадов Н.А. Предсоревновательная подготовка боксёров. – М.: Физкультура и спорт, 2004. – 320 с.
3. Зациорский В.М. Физические качества спортсмена. – М.: Физкультура и спорт, 2008. – 280 с.
4. Киселев В.А. Совершенствование спортивной подготовки высококвалифицированных боксеров: учебное пособие. – М.: Физическая культура, 2006. – 127 с.
5. Копцев К.Н. и др. Исследование уровня специальной скоростно-силовой подготовленности боксеров разных возрастных групп // Теория и практика физической культуры. – 2010. – № 8. – С. 8.
6. Дергунов Н.И., Ендропов О.В., Калайджян А.А. Специальная подготовка и контроль в единоборствах. – Новосибирск: НГПУ, 2008. – 250 с.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

PEDAGOGICAL APPROACHES TO ORGANIZING SOCIO-CULTURAL ACTIVITIES OF MASTER'S STUDENTS

Khasanova Gulsanam Khusanovna
Doctor of Pedagogical Science (DSc.), Professor, the Academy of Public Policy and Administration under the President of the Republic of Uzbekistan
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-3556-5874
e-mail: gkhasanova@dsba.uz

Abstract. *This study examines the principal pedagogical approaches of socio-cultural activities among master's students. Particular attention is given to the integration of such activities into the educational curriculum, the application of interactive and collaborative teaching strategies, opportunities for experiential learning, systematic pedagogical support, and the formation of leadership and intercultural competencies. The research also explores various contextual factors - including cultural, social, economic, political, psychological, technological, and environmental conditions-that may influence the effectiveness and outcomes of students' socio-cultural engagement.*

The findings demonstrate that socio-cultural activities serve as an important link between academic knowledge and practical experience, while also supporting the professional, social, and personal development of master's students. The study concludes that the successful organization of socio-cultural activities depends on achieving an appropriate balance between structured educational planning and flexible, student-centered pedagogical practices.

Keywords: *socio-cultural activities, pedagogical characteristics, organizational characteristics, intercultural competence, experiential learning, student-centered education, reflective thinking, educational process.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАГИСТРАНТОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются основные педагогические подходы к организации социокультурной деятельности магистрантов. Особое внимание уделяется интеграции такой деятельности в учебный процесс, применению интерактивных и совместных стратегий обучения, возможностям обучения на основе практического опыта, систематической педагогической поддержке, а также формированию лидерских и межкультурных компетенций. В исследовании также анализируются различные контекстные факторы — включая культурные, социальные, экономические, политические, психологические, технологические и средовые условия, — способные повлиять на эффективность и результаты социокультурной активности студентов.*

Результаты исследования показывают, что социокультурная деятельность служит важным связующим звеном между академическими знаниями и практическим опытом, способствуя при этом профессиональному, социальному и личностному развитию магистрантов. Делается вывод о том, что успешная организация социокультурной деятельности зависит от соблюдения баланса между структурированным планированием учебного процесса и гибкими, личностно-ориентированными педагогическими практиками.

Ключевые слова: *социокультурная деятельность, педагогические характеристики, организационные характеристики, межкультурная компетентность, обучение на основе практического опыта, личностно-ориентированное обучение, рефлексивное мышление, образовательный процесс.*

MAGISTRATURA TALABALARINING IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISHGA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot magistratura talabalari o'rtasida ijtimoiy-madaniy faoliyatning asosiy pedagogik yondashuvlarini o'rganadi. Bunday faoliyatni ta'lim dasturiga integratsiyalash, interaktiv va hamkorlikdagi o'qitish strategiyalarini qo'llash, tajriba asosida o'rganish imkoniyatlari, tizimli pedagogik qo'llab-quvvatlash, yetakchilik va madaniyatlararo kompetentsiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot shuningdek, talabalarning ijtimoiy-madaniy ishtirokining samaradorligi va natijalariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan turli xil kontekstual omillarni - jumladan, madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, psixologik, texnologik va ekologik sharoitlarni o'rganadi.*

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-madaniy faoliyat akademik bilim va amaliy tajriba o'rtasida muhim bog'liqlik bo'lib xizmat qiladi, shu bilan birga magistratura talabalarining professional, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Tadqiqot ijtimoiy-madaniy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish tuzilgan ta'lim rejalashtirish va moslashuvchan, talabaga yo'naltirilgan pedagogik amaliyotlar o'rtasida tegishli muvozanatga erishishga bog'liq degan xulosaga keladi.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy-madaniy faoliyat, pedagogik xususiyatlar, tashkiliy xususiyatlar, madaniyatlararo kompetentsiya, tajribaga asoslangan o'rganish, talabaga yo'naltirilgan ta'lim, refleksiv fikrlash, ta'lim jarayoni.*

INTRODUCTION

In the context of contemporary higher education, the training of master's students is no longer limited to the acquisition of specialized knowledge and professional competencies. Increasing attention is being paid to the holistic development of personalities, including their cultural awareness, social responsibility, and ability to function effectively in diverse socio-cultural environments. Socio-cultural activities,



therefore, have become an essential component of the educational process, contributing to the formation of both professional and personal qualities of graduate students.

Master's students represent a unique category of learners who are characterized by a higher level of academic independence, critical thinking, and readiness for research and professional practice. In this regard, the organization and pedagogical support of their socio-cultural activities require specific approaches that differ from those used at undergraduate levels. These activities not only enrich students' educational experience but also foster intercultural competence, communication skills, and value-based orientations necessary for successful integration into the global academic and professional community.

The effectiveness of socio-cultural activities largely depends on well-structured organizational frameworks and appropriate pedagogical strategies. This includes the planning, coordination, and implementation of various forms of engagement such as cultural events, community projects, academic exchanges, and extracurricular initiatives. At the same time, pedagogical guidance ensures that these activities are meaningful, reflective, and aligned with educational objectives.

Despite the recognized importance of socio-cultural engagement in higher education, there remains a need for a deeper understanding of its organizational and pedagogical features specifically in the context of master's education. Therefore, this article aims to explore the key characteristics, principles, and conditions that contribute to the effective organization and pedagogical support of socio-cultural activities among master's students.

LITERATURE REVIEW

The role of socio-cultural activities in higher education has been widely explored within the fields of pedagogy, sociology of education, and cultural studies. Scholars emphasize that learning extends beyond formal academic settings and includes participation in socially and culturally meaningful practices. In this regard, socio-cultural



activity is often viewed as a key mechanism for the development of students' personalities, values, and competencies.

In the scientific research of L.A.Belyaeva and M.A.Belyaeva, they analyze various definitions of socio-cultural activity and consider various approaches to the sociological, cultural, pedagogical, technological and economic study of socio-cultural activity [2].

The theory of socio-cultural activity is considered an applied field of cultural knowledge. A.Ya.Flier in his research explained that "Applied cultural studies is not about knowing the objective laws of the development of cultural phenomena, describing and explaining phenomena in the history of culture, but rather about the principles of studying and forming and technologies for the purposeful management of cultural processes." [6].

There is an inextricable link between the practice of socio-cultural activity and the science of pedagogy, and the need to clarify this connection was emphasized in the studies of the following classical scholars. For example, it can be seen in the works of M.A.Ariarsky ("Pedagogical Cultural Studies") [1], Yu.A.Strelsov ("Free Pedagogy"), V.E.Triodin ("Pedagogy of Culture") [5] and others.

In T.A.Kemerova's textbook "Theory of Socio-Cultural Activity," socio-cultural activity is interpreted as follows: "Today, socio-cultural activity is considered as a field of socio-cultural practice and an independent field of cultural knowledge. And if we fully agree with the first part, we do not fully accept the second - in order to become a "field of knowledge," activity must be understood at a scientific level, that is, it must be transformed into a theory." [3].

We can also find the origin of the tradition of "mixing" these levels in the studies of T.G.Kiseleva and Yu.D.Krasilnikov. They argue that "socio-cultural activity is considered as a scientific theory, a specialized field of social practice, and an academic discipline. We are talking about the use of the concept "in everyday life", and in a strictly scientific definition such a mixture is, of course, unacceptable" [4].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

RESULTS

Today, socio-cultural activity is of particular importance in society, where people's talents and abilities are realized, conditions are created for good rest, creative leisure, and a favourable cultural environment is created for the whole country.

The study of socio-cultural activity is one of the priority areas that has been preserved in the field of pedagogy. Because the pedagogical status of the theory of socio-cultural activity is determined by its focus on studying the laws and conditions of education of the individual as a subject of culture.

In socio-cultural activity, a master's student is engaged in the following:



Figure 1. Master's student activity in socio-cultural activities

The organizational and pedagogical features of the socio-cultural activities of master's students include a number of important aspects, and here we will highlight some of the main organizational and pedagogical features.

The integration of socio-cultural activities into the curriculum is one of the main organizational and pedagogical features of socio-cultural activities. By including such activities in the curriculum, the master's student will be able to study social and cultural



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

aspects related to his field of study. These activities should be included in coursework, portfolios, projects or seminars.

Cooperative learning and collaboration are another organizational and pedagogical feature of socio-cultural activities, which develop students' mutual understanding, intercultural communication and ability to effectively cooperate through adaptation to different conditions. These activities include cooperative learning and teamwork.

"***Experiential learning opportunities*** are also considered organizational and pedagogical features of sociocultural activities, helping students to gain a deeper understanding of different cultures, societies, and social issues through direct participation." Sociocultural activities help master's students to develop practical experiences in the process of independent learning." [8] Examples of such activities include excursions, field trips, cultural performances, community outreach, or participation in social events.

Reflection and critical thinking are another key organizational and pedagogical feature of sociocultural activities. Reflection and critical thinking help master's students to reflect on their social and cultural experiences and critically analyze their implications. This includes reflecting on their own perspectives, cultural assumptions, and worldviews. It also involves taking into account the social and cultural contexts in which they operate. Reflection helps students develop a broader perspective and increases their critical thinking skills.

Developing intercultural competence: socio-cultural activities are aimed at promoting the development of intercultural competence in graduate students. Activities that promote intercultural competence include cultural immersion experiences, language learning, and intercultural dialogue. Intercultural competence includes the ability to communicate effectively across cultures, understand cultural differences, have the skills to adapt effectively to different environments, and respect diverse perspectives.

The development of leadership and organizational skills is another organizational and pedagogical feature of socio-cultural activities, and through socio-cultural activities, undergraduates have the opportunity to develop leadership and organizational skills. They can take on roles such as event organizers, project or team leaders. This requires them to demonstrate skills such as effective communication, problem solving, teamwork, and organization.

Evaluation and feedback are also organizational and pedagogical features of socio-cultural activities, and it is very important to assess the impact of socio-cultural activities on the learning and overall development of undergraduates. Evaluation methods can include thought papers, group presentations, portfolios, or participant feedback. Evaluation helps faculty and program coordinators assess the effectiveness of these activities and, if necessary, improve them.

A number of factors influence the organizational and pedagogical features of socio-cultural activities. These include:



Figure 2. Factors influencing the organizational and pedagogical characteristics of socio-cultural activities

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

1. Cultural factors. Various cultural traditions and customs that exist in each society and are inherent in the mentality, this factor is of great importance in organizing pedagogical activities.

2. Social factors. Social factors are important in taking into account the relationships between different social structures, classes and groups in organizing pedagogical activities, and social relations, that is, social relations between students, are of great importance in determining the effectiveness of the educational process.

3. Economic factors. Economic conditions, that is, the availability of finances and resources, financial support, financial assistance to educational institutions, are of great importance in organizing pedagogical activities and help improve pedagogical processes.

4. Political factors. As the influence of state policy on socio-cultural activities, state policy, laws and regulatory legal acts in the field of education regulate and direct educational and cultural activities and determine the main directions in the organization of pedagogical activities.

5. Pedagogical factors. The methods and techniques used in the educational process, the process of student learning, the qualifications and professional training of professors and teachers are among the main factors determining the quality of education.

6. Psychological factors. The psychological state of students, their motivation and interests, interaction and dynamics within the group affect the effectiveness of pedagogical activities. These are of great importance in the educational process.

7. Technological factors. The use of modern technologies in the educational process helps to organize pedagogical activities more effectively. Innovative approaches and methods help to update and improve the educational process.

8. Ecological factors. The natural environment and ecological conditions, ecological issues are of great importance in the educational process and should be taken into account when organizing socio-cultural activities. This helps students form an ecological culture and environmental awareness.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

It is appropriate to make the following conclusions regarding the organizational and pedagogical characteristics of the socio-cultural activities of master's degree students:

Goal-orientedness of activity. In order to ensure the active and conscious participation of master's students in this process, it is important to set clear goals and objectives in organizing socio-cultural activities. The goals should be aimed at mastering national values, developing personal responsibility, and forming a socially active civic position.

The principle of systematic and comprehensiveness of activity. The preparation of master's students for socio-cultural activities should be carried out consistently and systematically. That is, it is advisable to organize it in a way that combines theory and practice. This will teach students to apply their acquired knowledge in practice, acquire skills such as critical thinking and teamwork.

The activity is based on interactive teaching methods. In this case, interactive teaching methods such as debates, discussions, dialogues, projects and group work are used by master's students. These methods enhance interaction among students and active involvement in the learning process.

Pedagogical support and guidance. In this regard, the guiding and supporting role of teachers in ensuring the successful participation of master's students in socio-cultural activities is important. Through this, providing advice and guidance ensures that students clearly define their goals and show them the ways to achieve them.

Practice-oriented education. The importance of practical exercises and projects implemented in a real environment in the organization of socio-cultural activities is considered great, which teaches students to solve social problems in a practical way and maintain harmony in the public environment.

*Development of a reflective approach***.** Students will be able to focus on their personal and professional development by improving and developing their skills in self-assessment and analysis of their own activities.

CONCLUSION

The study shows that socio-cultural activities play an important role in modern master's education. They help students connect theoretical knowledge with practical social experience. Such activities also support the development of professional skills, cultural awareness, values, communication skills, and social responsibility.

The effectiveness of socio-cultural activities depends on their proper organization and pedagogical support. Clear goals, regular planning, student-centered learning, interactive methods, and practical activities encourage students to participate actively and develop personally.

The study also shows that socio-cultural activities help master's students improve their intercultural competence, leadership skills, communication abilities, and reflective thinking. These skills are important for their future professional and academic activities.

The organization of these activities is influenced by social, cultural, economic, technological, psychological, and educational factors. Therefore, these factors should be considered when planning and implementing educational activities.

In conclusion, socio-cultural activities in master's education should be organized systematically and supported by effective teaching methods. Teachers should act as facilitators and mentors who help students participate actively and gain meaningful experience.

Further research should focus on developing new and practical models of socio-cultural activities that meet the changing needs of students and modern society.

References:

1. Ариарский М.А. (2012). Педагогическая культурология : [в 2 т.] / М. А. Ариарский. Санкт-Петербург: Концерт. - Т. 2: Социально-культурная деятельность и технологии ее организации. – С. 447.
2. Беляева, Л.А., & Беляева, М.А. (2013). Социально-культурная деятельность: структурно-функциональная модель. Вестник культуры и искусств, (1 (33)), – С. 68-74.
3. Кемерова, Т.А. (2019). Теория социально-культурной деятельности: учебное пособие / Т.А.Кемерова; Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Уральский федеральный университет. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та. – С.103.

4. Киселева, Т.Г. (2004). Социально-культурная деятельность: учебник / Т.Г.Киселева, Ю.Д.Красильников; М-во образования и науки Рос. Федерации, Моск. гос. ун-т культуры и искусств. - Москва : Моск. гос. ун-т культуры и искусств. С. 539.

5. Триодин, В.Е. (2006). Теория социально-культурной деятельности: объект и предмет исследования // Социально-культурная деятельность: теория, технологии, практика: коллективная монография /Ред. сост. Л.Е. Осипова; науч. ред. В.Я. Рушанин; Челябинская государственная академия культуры и искусств. Челябинск. Ч. 1., С.30-48.

6. Флиер А.Я. (2000). Культурология для культурологов: учеб. пособие для магистрантов и аспирантов, докторантов и соискателей, а также преподавателей культурологии. М.: Академ. проект. С. 75.

7. Ярошенко Николай Николаевич. (2012). Продолжение культуры: новая страница педагогической культурологии (рецензия на книгу М.А. Ариарского «Педагогическая культурология»). Вестник Московского государственного университета культуры и искусств, (2 (46)),- С. 250-254.

8. Khasanova, G. (2023). The essence of socio-cultural activities and its organizational and pedagogical characteristics. Science and innovation, 2(B7), 92-96.

9. Rovida E., A.Gianotti, and G.Zafferri. (2023). "Soft Skills Teaching Proposal for "designers". Lecture Notes in Mechanical Engineering. P.1541–1551.

10.Vera F., and E. Tejada. (2020). "Developing Soft Skills in Undergraduate Students: A Case at a Chilean Private University." Transformer. 1 (1). P.57–67.

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY TRANSVERSAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI

Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi
Qo'qon universiteti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi tayanch doktoranti
+998901663659
maftunaxonjaloliddinova@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyaning mazmuni, bosqichlari, metodlari va didaktik ta'minoti yoritilgan. Pedagogik texnologiya diagnostik-motivatsion, mazmuniy-kognitiv, faoliyatli-amaliy va refleksiv-baholash bosqichlari asosida tashkil etilib, tanqidiy va innovatsion fikrlash, shaxsiy va shaxslararo ko'nikmalar, global fuqarolik hamda media va axborot savodxonligini integrativ rivojlantirishga yo'naltirilgan. Tadqiqotda texnologiyaning metodologik asoslari, pedagogik shart-sharoitlari va amaliy qo'llash imkoniyatlari asoslangan.*

Kalit so'zlar: *bo'lajak tarbiyachi, kasbiy transversal kompetensiya, pedagogik texnologiya, tanqidiy va innovatsion fikrlash, shaxsiy ko'nikmalar, shaxslararo ko'nikmalar, global fuqarolik, media va axborot savodxonligi, pedagogik shart-sharoitlar, didaktik ta'minot.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ТРАНСВЕРСАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация. *В статье представлены содержание, этапы, методы и дидактическое обеспечение педагогической технологии, направленной на развитие профессиональных трансверсальных компетенций будущих педагогов. Структура технологии включает диагностико-мотивационный, содержательно-когнитивный, деятельностно-практический и рефлексивно-оценочный этапы; особое внимание уделяется интегративному развитию критического и инновационного мышления, личностных и межличностных навыков, качеств глобального гражданина, а также медиаинформационной грамотности. В работе обоснованы методологические основы, педагогические условия и возможности практического применения данной технологии.*

Ключевые слова: *будущий педагог, профессиональная трансверсальная компетенция, педагогическая технология, критическое и инновационное мышление, личностные навыки, межличностные навыки, глобальное гражданство, медиаинформационная грамотность, педагогические условия, дидактическое обеспечение.*

PEDAGOGICAL TECHNOLOGY FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL TRANSVERSAL COMPETENCIES OF FUTURE EDUCATORS

Abstract. *This article outlines the content, stages, methods, and didactic support of a pedagogical technology aimed at developing the professional transversal competencies of future educators. The pedagogical technology is structured around diagnostic-motivational, content-cognitive, activity-practical, and reflexive-evaluative stages, focusing on the integrative development of critical and innovative thinking, personal and interpersonal skills, global citizenship, and media and information literacy. The study substantiates the methodological foundations, pedagogical conditions, and practical application possibilities of this technology.*

Keywords: *future educator, professional transversal competence, pedagogical technology, critical and innovative thinking, personal skills, interpersonal skills, global citizenship, media and information literacy, pedagogical conditions, didactic support.*

KIRISH

Bugungi kunda pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarning zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorligini ta’minlash, ularda turli vaziyatlarda samarali harakat qilish, mustaqil qaror qabul qilish, hamkorlikda ishlash, axborotni tanqidiy tahlil qilish hamda o‘z faoliyatini refleksiv baholash imkonini beruvchi kompetensiyalarni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ularning tanqidiy va innovatsion fikrlashi, shaxsiy va shaxslararo ko‘nikmalari, global fuqarolik hamda media va axborot savodxonligini o‘zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasida pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, pedagogik ta’lim yo‘nalishlarini takomillashtirish va ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qaratilgan vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalar bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan transversal kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish zaruratini kuchaytiradi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish, ta’lim dasturlarini takomillashtirish, o‘quv jarayonini rejalashtirish va ta’lim sifatini ta’minlash masalalari belgilangan. Ushbu talablar talabaning mustaqil ta’lim faoliyatini kuchaytirish, individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish va o‘quv jarayonida faol ishtirokini ta’minlash bilan bir qatorda, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ham keng pedagogik imkoniyatlar yaratadi.

Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyati faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanmaydi. Ularning kelgusidagi pedagogik faoliyati bolalar bilan samarali muloqot o‘rnatish, ota-onalar va pedagogik jamoa bilan hamkorlik qilish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarga ijodiy yechim topish, axborot resurslaridan maqsadli foydalanish, kasbiy faoliyatini mustaqil boshqarish va o‘z faoliyati natijalarini refleksiv baholashni taqozo etadi. Shu jihatdan kasbiy transversal kompetensiyalar bo‘lajak tarbiyachining turli kasbiy-pedagogik vaziyatlarda samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi muhim integrativ sifat sifatida namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak tarbiyachilarning mazkur kompetensiyalarini rivojlantirish esa o‘quv jarayonini an’anaviy bilim berishga yo‘naltirilgan yondashuv bilangina tashkil etishdan ko‘ra, kompetensiyaviy, talaba-markazlashgan, faoliyatga yo‘naltirilgan va tizimli yondashuvlarni o‘zaro uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Bunda ta’lim mazmuni, pedagogik metodlar, kasbiy vaziyatlar, raqamli-didaktik vositalar, mustaqil ta’lim va

refleksiv faoliyatni yagona pedagogik texnologiya doirasida tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu asosda mazkur tadqiqotda bo‘lajak tarbiyachilarning tanqidiy va innovatsion fikrlash, shaxsiy ko‘nikmalar, shaxslararo ko‘nikmalar, global fuqarolik hamda media va axborot savodxonligini maqsadli va bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyaning mazmuni, tuzilishi va uni amalga oshirish mexanizmlarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash ko‘zda tutilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Transversal kompetensiyalar zamonaviy ta’limda shaxsning turli kasbiy va ijtimoiy vaziyatlarda samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi muhim kompetensiyalar sifatida qaraladi. UNESCOning Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida transversal kompetensiyalar tarkibida tanqidiy va innovatsion fikrlash, shaxslararo ko‘nikmalar, shaxsiy ko‘nikmalar, global fuqarolik hamda media va axborot savodxonligi kabi yo‘nalishlar ajratib ko‘rsatilgan. Mazkur yondashuv bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligida faqat maxsus bilimlarni emas, balki turli pedagogik vaziyatlarda qo‘llanadigan universal va kasbiy ahamiyatga ega ko‘nikmalarni ham rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

B. Trilling va C. Fadelning “21st Century Skills: Learning for Life in Our Times” asarida XXI asr ta’limida tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, kommunikatsiya, hamkorlik, axborot va media savodxonligi hamda moslashuvchanlik kabi ko‘nikmalarning ahamiyati yoritilgan. Mazkur qarashlar bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda bilimlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda, ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, muammolarni mustaqil hal etish va hamkorlikda faoliyat yuritish imkoniyatlarini shakllantirish zarurligini asoslashga xizmat qiladi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. G. Xoliqulovaning “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” nomli o‘quv qo‘llanmasida pedagogning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bog‘liq nazariy va amaliy masalalar yoritilgan. Ushbu tadqiqot bo‘lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish zarurligini ko‘rsatishi bilan tadqiqotimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

S.O‘. Sharifzoda o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuvdan foydalanish mexanizmlarini tadqiq etgan. Muallif tomonidan kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuv masalasining o‘rganilishi turli kompetensiyalarni bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o‘zaro aloqadorlikda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv bo‘lajak tarbiyachilarning tanqidiy va innovatsion fikrlashi, shaxsiy va shaxslararo ko‘nikmalari, global fuqaroligi hamda media va axborot savodxonligini o‘zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

N.M. Quchqorovaning “Pedagogik kasbiy kompetentligi va kreativlik” darsligida pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik masalalari yoritilgan. Pedagogning kasbiy faoliyatida kreativ yondashuv, yangicha fikrlash va pedagogik vaziyatlarga mos yechimlarni ishlab chiqish zarurati bo‘lajak tarbiyachilarning tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liqdir. Shu jihatdan mazkur manba bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmuniy asoslarini belgilashda muhim ilmiy-metodik manbalardan biri hisoblanadi.

N.S. Sayidovaning “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar” o‘quv-uslubiy majmuasida pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish va ulardan foydalanish masalalari yoritilgan. Bugungi raqamli ta’lim sharoitida bo‘lajak tarbiyachilarning axborotni izlash, saralash, undan pedagogik maqsadlarda foydalanish hamda raqamli vositalarni ta’lim jarayoniga tatbiq eta olish imkoniyatlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Bu jihatlar tadqiqotimizda media va axborot savodxonligini



kasbiy transversal kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida qarashga asos bo‘ladi.

H.T. Omonov, N.X. Xo‘jayev, S.A. Madyarova va E.U. Eshchonovlarning “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” darsligida pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, ta’limning metod va vositalarini maqsadga muvofiq tashkil etish hamda pedagogik mahoratni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Mazkur yondashuv pedagogik texnologiyani belgilangan maqsad, mazmun, metod, vosita va natijalarning o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyasini ishlab chiqishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar pedagoglarning kasbiy kompetentligi, kreativligi, raqamli kompetensiyalari, tayanch kompetensiyalarni integrativ rivojlantirish hamda pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalarining alohida yo‘nalishlarda o‘rganilganligini ko‘rsatadi. Biroq bo‘lajak tarbiyachilarning tanqidiy va innovatsion fikrlash, shaxsiy ko‘nikmalar, shaxslararo ko‘nikmalar, global fuqarolik hamda media va axborot savodxonligini yagona tizimda, maqsadli va bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik texnologiya masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyasini ishlab chiqish va uning tarkibiy elementlarini ilmiy asoslash zarurati yuzaga keladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot metodologiyasi bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyani ishlab chiqish va uning tarkibiy tuzilishini ilmiy asoslashga qaratildi. Tadqiqotda kompetensiyaviy, talaba-markazlashgan, faoliyatga yo‘naltirilgan va tizimli yondashuvlar metodologik asos sifatida belgilandi. Ushbu yondashuvlar bo‘lajak

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklamasdan, ularning kasbiy-pedagogik vaziyatlarda mustaqil fikrlashi, hamkorlikda ishlashi, qaror qabul qilishi, axborot bilan ishlashi va o‘z faoliyatini refleksiv baholashini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida tizimlilik va izchillik, ilmiylik, faollik va mustaqillik, nazariya va amaliyot birligi tamoyillariga tayanildi. Mazkur tamoyillar pedagogik texnologiyaning maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari hamda baholash jarayonini o‘zaro bog‘liq holda tashkil etish imkonini berdi.

Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyasi to‘rt bosqich asosida ishlab chiqildi: diagnostik-motivatsion, mazmuniy-kognitiv, faoliyatli-amaliy va refleksiv-baholash. Diagnostik-motivatsion bosqichda talabalarning mavjud tayyorgarlik darajasi, kasbiy qiziqishi va motivatsion yo‘nalganligini aniqlash ko‘zda tutildi. Mazmuniy-kognitiv bosqichda kasbiy transversal kompetensiyalarning mohiyati, tarkibi va kasbiy ahamiyatiga oid bilimlarni shakllantirishga e’tibor qaratildi. Faoliyatli-amaliy bosqichda esa talabalarning egallagan bilimlarini kasbiy-pedagogik vaziyatlarda qo‘llashi, muammolarni tahlil qilishi, hamkorlikda ishlashi va amaliy yechim ishlab chiqishi ta’minlandi. Refleksiv-baholash bosqichida talabalarning o‘z faoliyati va erishilgan natijalarni tahlil qilishi, o‘z-o‘zini baholashi hamda keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashi nazarda tutildi.

Pedagogik texnologiyani amalga oshirish jarayonida keys-stadi, loyiha metodi, brainstorming, munozara, debat, pedagogik vaziyatlar tahlili, refleksiv tahlil va rol o‘yinlari metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar talabalarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, kasbiy muammolarga ijodiy yondashish va o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritish ko‘nikmalarini takomillashtirishga yo‘naltirildi.

Pedagogik texnologiyaning didaktik ta’minoti sifatida “Umumiy pedagogika” va “Bolalarning ijtimoiy moslashuvi” o‘quv qo‘llanmalari, “Umumiy pedagogika fanini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

o‘qitishda qo‘llaniladigan interfaol metodlar” o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi, “Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyasi” maxsus kursi, elektron platforma, pedagogik keyslar, loyiha topshiriqlari, refleksiv kundaliklar, elektron portfolio va diagnostik topshiriqlardan foydalanish ko‘zda tutildi.

Tadqiqotda bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal kompetensiyalari tanqidiy va innovatsion fikrlash, shaxsiy ko‘nikmalar, shaxslararo ko‘nikmalar, global fuqarolik hamda media va axborot savodxonligi yo‘nalishlari asosida tizimlashtirildi. Ularning rivojlanganlik darajasini aniqlashda motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli va refleksiv mezonlardan foydalanildi.

Tadqiqot metodlari sifatida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik kuzatish, modellashtirish, pedagogik loyihalash va diagnostik metodlardan foydalanildi. Mazkur metodlar pedagogik texnologiyaning mazmuni, bosqichlari, metodlari, vositalari va didaktik ta’minotini o‘zaro bog‘liq holda ishlab chiqish imkonini berdi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik texnologiya ishlab chiqildi. Mazkur texnologiya bo‘lajak tarbiyachilarda tanqidiy va innovatsion fikrlash, shaxsiy ko‘nikmalar, shaxslararo ko‘nikmalar, global fuqarolik hamda media va axborot savodxonligini maqsadli, tizimli va bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratildi.

Ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyaning mazmuni kompetensiyaviy, talaba-markazlashgan, faoliyatga yo‘naltirilgan va tizimli yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslandi. Texnologiyani amalga oshirishda tizimlilik va izchillik, ilmiylik, faollik va mustaqillik, nazariya va amaliyot birligi tamoyillari yetakchi metodik asos sifatida belgilandi. Mazkur yondashuv va tamoyillarning uyg‘un qo‘llanilishi bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini faqat bilimlarni o‘zlashtirish bilan



cheklamasdan, ularni turli kasbiy-pedagogik vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirish imkonini berdi.

Pedagogik texnologiyaning amalga oshirish mexanizmi to‘rtta o‘zaro bog‘langan bosqichdan tashkil topdi: diagnostik-motivatsion, mazmuniy-kognitiv, faoliyatli-amaliy va refleksiv-baholash bosqichlari. Birinchi bosqichda talabalarning dastlabki tayyorgarligi va kasbiy motivatsiyasi aniqlansa, ikkinchi bosqichda kasbiy transversal kompetensiyalarga oid nazariy bilimlar shakllantirildi. Uchinchi bosqichda egallangan bilim va ko‘nikmalar kasbiy-pedagogik vaziyatlarda qo‘llanildi, to‘rtinchi bosqichda esa talabalarning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, natijalarni baholashi va keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashi ta’minlandi.

Tadqiqot natijasida pedagogik texnologiyaning metodik tarkibi ham aniqlashtirildi. Unda keys-stadi, loyiha metodi, brainstorming, munozara, debat, pedagogik vaziyatlar tahlili, refleksiv tahlil va rol o‘yinlaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb belgilandi. Mazkur metodlar orqali talabalarni muammoli vaziyatlarga jalb etish, ularni mustaqil fikrlashga, qaror qabul qilishga, fikrini asoslashga, jamoada ishlashga va o‘z faoliyatiga refleksiv munosabat bildirishga yo‘naltirish imkoniyati yaratildi.

Pedagogik texnologiyaning didaktik ta’minoti ham kompleks tarzda shakllantirildi. Unga “Umumiy pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi, “Bolalarning ijtimoiy moslashuvi” o‘quv qo‘llanmasi, “Umumiy pedagogika fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan interfaol metodlar” o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi, maxsus kurs, elektron platforma, pedagogik keyslar, loyiha topshiriqlari, refleksiv va diagnostik topshiriqlar kiritildi. Ushbu vositalarning birgalikdagi qo‘llanilishi ta’lim mazmuni, metodlari va amaliy faoliyatning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlashga xizmat qildi.

Shuningdek, bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar aniqlashtirildi. Ular qatoriga kompetensiyaviy va talaba-markazlashgan ta’lim muhitini yaratish, o‘quv-metodik ta’minotni transversal kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirib takomillashtirish,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

innovatsion va raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, pedagogik amaliyotni kasbiy vaziyatlar asosida tashkil etish hamda refleksiv va hamkorlikdagi faoliyatni tizimli yo'lga qo'yish kiritildi.

Natijada ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal kompetensiyalarini alohida ko'nikmalar majmui sifatida emas, balki o'zaro bog'langan yaxlit kasbiy sifat sifatida rivojlantirishga imkon beruvchi pedagogik tizim sifatida shakllantirildi. Uning mazmuni, bosqichlari, metodlari, vositalari va didaktik ta'minotining o'zaro integratsiyasi mazkur texnologiyaning asosiy natijasi sifatida belgilandi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik texnologiyani yaxlit tizim sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur kompetensiyalarni alohida ko'nikmalar sifatida emas, balki ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari, kasbiy-pedagogik vaziyatlar va refleksiv faoliyat bilan uzviy bog'liq holda rivojlantirish muhimdir.

Pedagogik texnologiyaning diagnostik-motivatsion, mazmuniy-kognitiv, faoliyatli-amaliy va refleksiv-baholash bosqichlari kompetensiyalarni izchil rivojlantirish imkonini beradi. Keys-stadi, loyiha metodi, brainstorming, munozara, debat, pedagogik vaziyatlar tahlili, refleksiv tahlil va rol o'yinlaridan foydalanish esa talabalarning muammoni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish, hamkorlikda ishlash va o'z faoliyatini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyaning didaktik ta'minotiga o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy qo'llanma, maxsus kurs, elektron platforma, pedagogik keyslar, loyiha topshiriqlari, refleksiv topshiriqlarning kiritilishi auditoriya va mustaqil ta'lim faoliyatining o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi.

Mazkur natijalar UNESCO tomonidan ilgari surilgan transversal kompetensiyalar tasnifi hamda B. Trilling va C. Fadelning XXI asr ko'nikmalariga oid qarashlari bilan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

hamohangdir. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan kompetensiyaviy, integrativ, kreativ va raqamli yondashuvlarning yoritilishi ham ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini mustahkamlaydi.

Tadqiqotning o‘ziga xos jihati bo‘lajak tarbiyachilarning tanqidiy va innovatsion fikrlash, shaxsiy ko‘nikmalar, shaxslararo ko‘nikmalar, global fuqarolik hamda media va axborot savodxonligini yagona pedagogik texnologiya doirasida o‘zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirishga qaratilganligidir. Bu esa bo‘lajak tarbiyachilarning zamonaviy kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiya ishlab chiqildi. Mazkur texnologiya diagnostik-motivatsion, mazmuniy-kognitiv, faoliyatli-amaliy va refleksiv-baholash bosqichlari asosida tashkil etilib, tanqidiy va innovatsion fikrlash, shaxsiy va shaxslararo ko‘nikmalar, global fuqarolik hamda media va axborot savodxonligini integrativ rivojlantirishga xizmat qiladi.

1. Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishida mazkur pedagogik texnologiyadan tizimli foydalanish.

2. Kasbiy-pedagogik fanlarda interfaol metodlar, pedagogik vaziyatlar va refleksiv topshiriqlar ulushini oshirish.

3. Maxsus kurs, elektron platforma va o‘quv-metodik ta’minotdan kompleks foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

Mazkur yondashuv bo‘lajak tarbiyachilarning zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

[3] UNESCO. *Assessment of Transversal Competencies: Policy and Practice in the Asia-Pacific Region.* Bangkok: UNESCO Bangkok Office, 2016.

[4] Trilling B., Fadel C. *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times.* San Francisco: Jossey-Bass, 2009.

[5] Xoliqulova G. *Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish: o‘quv qo‘llanma.* – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2025. – 80 b. – B. 44–59.

[6] Sharifzoda S.O‘. *O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuvdan foydalanish mexanizmlari: monografiya.* – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 126 b. – B. 24–38. ISBN 978-9943-8128-0-2.

[7] Quchqorova N.M. *Pedagogik kasbiy kompetentligi va kreativlik: darslik.* – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 260 b. – B. 5–18, 35, 57–73, 99. ISBN 978-9943-8095-7-4.

[8] Sayidova N.S. *Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar: o‘quv-uslubiy majmua.* – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2024. – 103 b. – B. 18–20.

[9] Omonov H.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: darslik.* – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009. – 240 b. – B. 71–79, 91–97, 149–156. ISBN 978-9943-13-110-1.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EMPATIYANI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Raximova Mexribon Abduxolisovna
NamDPI dotsenti, (PhD).
Miss.intelekt@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida empatiyani shakllantirish va rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari, mazmuni, tarkibiy komponentlari hamda ta'lim jarayonidagi samarali usullari tahlil qilinadi. Empatiya bolaning boshqa insonning hissiy holatini anglash, uning nuqtayi nazarini tushunish va tegishli ijtimoiy javob qaytarish qobiliyati sifatida yoritiladi. Maqolada empatiyaning hissiy, kognitiv va xulqiy komponentlari ajratilib, ularni boshlang'ich ta'lim sharoitida rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Adabiyotlar tahlili empatiyaning ijtimoiy funksionallik, ijobiy munosabatlar va prosotsial xulq bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Shuningdek, badiiy matnlar, rolli o'yinlar, vaziyatli topshiriqlar, hamkorlikdagi faoliyat, "his-tuyg'uni aniqlash", "Agar men uning o'rnida bo'lganimda..." kabi metodlarning pedagogik imkoniyatlari asoslanadi. Maqolada empatiyani baholash mezonlari va indikatorlari ham taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *empatiya, boshlang'ich ta'lim, ijtimoiy-emotsional kompetensiya, hissiy holat, prosotsial xulq, hamkorlik, kommunikativ ko'nikma, ijtimoiylashuv, pedagogik metod, o'quvchi.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ЭМПАТИИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. *В данной статье анализируются психолого-педагогические основы, содержание, структурные компоненты и эффективные методы формирования и развития эмпатии у учащихся начальной школы. Эмпатия описывается как способность ребенка понимать эмоциональное состояние другого человека, понимать его точку зрения и адекватно реагировать в социальном плане. В статье выделяются эмоциональный, когнитивный и поведенческий компоненты эмпатии и рассматриваются возможности их развития в начальном образовании. Анализ литературы показывает, что эмпатия связана с социальной функциональностью, позитивными отношениями и просоциальным поведением. Также обосновываются педагогические возможности таких методов, как литературные тексты, ролевые игры, ситуационные задания, совместная деятельность и методы типа «идентификация чувств», «Если бы я был на его месте...». В статье также предлагаются критерии и показатели оценки эмпатии.*

Ключевые слова: *эмпатия, начальное образование, социально-эмоциональная компетентность, эмоциональное состояние, просоциальное поведение, сотрудничество, коммуникативные навыки, социализация, педагогический метод, ученик.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF EMPATHY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. *This article analyzes the psycho-pedagogical foundations, content, structural components, and effective methods for fostering and developing empathy in primary school students. Empathy is described as a child's ability to understand another person's emotional state and point of view, and to respond appropriately in social contexts. The article identifies the emotional, cognitive, and behavioral components of empathy and examines opportunities for their development within primary education. A review of the literature indicates that empathy is linked to social functioning, positive relationships, and prosocial behavior. The article also substantiates the pedagogical value of methods such as the use of literary texts, role-playing, situational tasks, and collaborative activities, as well as techniques like "identifying feelings" and "If I were in their shoes..." Finally, criteria and indicators for assessing empathy are proposed.*

Keywords: *empathy, primary education, social-emotional competence, emotional state, prosocial behavior, cooperation, communication skills, socialization, pedagogical method, student.*

KIRISH

Bugungi ta'limning asosiy vazifalaridan biri faqat akademik bilimlarni egallagan emas, balki boshqa insonlar bilan samarali muloqot qila oladigan, ularning hissiy holatini anglaydigan, hamkorlikka tayyor va ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni tarbiyalashdan iborat. Shu nuqtayi nazardan boshlang'ich ta'lim bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu davrda bolaning sinfdoshlari, o'qituvchisi va boshqa kattalar bilan munosabatlari kengayadi, jamoada ishlash, o'z fikrini bildirish, boshqalarning fikrini tinglash hamda o'z xatti-harakatining oqibatlarini anglash kabi ko'nikmalar faol rivojlanadi.

Empatiya ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. CASEL ijtimoiy-emotsional ta'lim doirasida ijtimoiy ongni boshqalarning nuqtayi nazarini tushunish va ularga nisbatan empatiya ko'rsatish qobiliyati bilan bog'laydi. Mazkur yondashuvda empatiya o'zaro munosabatlar, hamkorlik va mas'uliyatli qaror qabul qilish bilan uzviy aloqada qaraladi.

Shu sababli boshlang'ich sinfda empatiyani alohida mavzu sifatida tushuntirish bilangina cheklanmasdan, uni ona tili va o'qish savodxonligi, tarbiya, musiqa, tasviriy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

san'at, jismoniy tarbiya va boshqa fanlarning mazmuniga singdirish maqsadga muvofiq. Tadqiqotlar ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni akademik fanlar bilan integratsiya qilish, kooperativ va loyiha asosidagi faoliyatdan foydalanish hamda xavfsiz sinf muhitini yaratishni tavsiya etadi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida empatiyani shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslash hamda ta'lim amaliyotida foydalanish mumkin bo'lgan metod va mezonlarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari: empatiya tushunchasining pedagogik-psixologik mazmunini aniqlash; boshlang'ich maktab yoshida empatiyaning tarkibiy komponentlarini tavsiflash; empatiya rivojiga ta'sir qiluvchi pedagogik omillarni aniqlash; dars va tarbiyaviy faoliyatda qo'llash mumkin bo'lgan metodlarni tizimlashtirish; empatiyani baholash mezonlari va indikatorlarini taklif etish.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, kompetensiyaviy va ijtimoiy-emotsional ta'lim yondashuvlari tashkil etadi. Empatiyani rivojlantirishda o'quvchining real muloqot tajribasi, hissiy kechinmalari, tengdoshlar bilan hamkorligi va o'z xatti-harakatini refleksiv tahlil qilishi muhim omillar sifatida qabul qilindi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuvni loyihalash, modellashtirish, umumlashtirish va pedagogik tajriba uchun metodik topshiriqlarni ishlab chiqish usullaridan foydalanildi. Xalqaro ilmiy-pedagogik manbalar, xususan, ijtimoiy-emotsional ta'lim bo'yicha CASEL materiallari hamda UNICEF Innocenti sharhi tahlil qilindi. CASEL empatiyani ijtimoiy ongning tarkibiy qismi sifatida belgilaydi va uni sinfdagi bevosita mashqlar, hamkorlikdagi o'qish hamda fanlararo integratsiya orqali rivojlantirish mumkinligini qayd etadi.

Maqola doirasida empatiyaning uch komponentli modeli taklif etildi: 1) hissiy komponent — boshqa insonning hissiy holatini sezish va unga emotsional javob

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qaytarish; 2) kognitiv komponent — vaziyatni boshqa inson nuqtayi nazaridan tushunish; 3) xulqiy-kommunikativ komponent — tushunilgan hissiy holatga mos ravishda yordam, qo‘llab-quvvatlash, tinglash yoki konstruktiv muloqot ko‘rsatish. Ushbu model boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchining kuzatiladigan xatti-harakatlarini pedagogik baholashga qulaylik yaratadi.

Adabiyotlar va pedagogik yondashuvlar tahlili natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida empatiyani shakllantirish bir martalik mashq emas, balki izchil va tizimli pedagogik jarayon ekanligi aniqlandi. Empatiya o‘quvchining boshqa odamning hissiy holatini tanishi, vaziyatni tushunishi va shu tushunchani ijtimoiy jihatdan maqbul xatti-harakatga aylantirishi orqali namoyon bo‘ladi.

Birinchi natija — empatiyani rivojlantirish uchun xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi sinf muhiti zarur. O‘quvchi xato qilishdan, his-tuyg‘ularini ifodalashdan yoki o‘z fikrini bildirishdan qo‘rqmaydigan muhitda boshqalarning fikrini ham tinglashga ko‘proq tayyor bo‘ladi. CASEL sinf muhitida hissiy xavfsizlik, hamkorlik va o‘quvchi ovozini qo‘llab-quvvatlashni muhim shartlar sifatida ko‘rsatadi.

Ikkinchi natija — empatiya bevosita o‘rgatilishi va muntazam mashq qildirilishi mumkin. Yondashuvlarda sifatli ijtimoiy-emotsional ta’lim izchil, faol, maqsadli va aniq tashkil etilishi lozimligi qayd etiladi. Boshlang‘ich sinflarda bu hissiyotlarni nomlash, vaziyatni izohlash, qahramon nuqtayi nazarini aniqlash va tegishli xatti-harakat variantlarini tanlash kabi sodda faoliyatlardan boshlanishi mumkin.

Uchinchi natija — badiiy matnlar empatiyani rivojlantirish uchun katta didaktik imkoniyatga ega. O‘qish jarayonida qahramonning hissiy holatini aniqlash, uning qarorini muhokama qilish, “Nima uchun u bunday qildi?”, “Boshqa qahramon uning holatini qanday tushungan bo‘lishi mumkin?” kabi savollar o‘quvchini perspektivani almashtirishga undaydi.

To‘rtinchi natija — rolli o‘yin va vaziyatli topshiriqlar empatiyaning xulqiy komponentini faollashtiradi. Masalan, “Sinfdoshingiz topshiriqni bajara olmadi”, “Yangi

o‘quvchi sinfga keldi”, “Do‘stingiz xafa bo‘lib turibdi” kabi vaziyatlarda o‘quvchi nafaqat sababni aniqlaydi, balki qanday so‘z va harakat bilan yordam berish mumkinligini taklif qiladi.

Beshinchi natija — empatiyani rivojlantirish akademik natijalar bilan ham bilvosita bog‘lanishi mumkin. Maktabdagi ijtimoiy-emotsional ta’lim dasturlari bo‘yicha yirik meta-tahlillar o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalari, xulqi, maktabga munosabati va akademik ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganini bildiradi.

1-jadval. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida empatiya komponentlari va indikatorlari

Komponent	**Mazmuni**	**Kuzatiladigan indikator**
Hissiy	Boshqa insonning hissiy holatini sezish	Xafa, quvnoq, qo‘rqinchli yoki hayajonli holatlarni farqlaydi
Kognitiv	Boshqa shaxs nuqtayi nazarini tushunish	“U nega bunday his qildi?” savoliga asosli javob beradi
Xulqiy-kommunikativ	Tushunilgan holatga mos ijtimoiy javob	Tinglaydi, yordam taklif qiladi, muloyim murojaat qiladi

Empatiyani rivojlantirishning amaliy modeli quyidagi ketma-ketlikda tashkil etilishi mumkin: “sezish — nomlash — tushunish — nuqtayi nazarni almashtirish — mos javobni tanlash — refleksiya”. Masalan, o‘qituvchi rasm yoki hikoya asosida qahramonning holatini ko‘rsatadi. O‘quvchi avval hissiyotni aniqlaydi, keyin uning sababini izohlaydi, so‘ng qahramonning o‘rniga o‘zini qo‘yadi va yordam berishning mumkin bo‘lgan shaklini tanlaydi. Yakunda “Men nima his qildim?”, “Boshqa odamga qanday yordam berdim?” kabi refleksiv savollar beriladi.

2-jadval. Empatiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar

Metod	Asosiy faoliyat	Rivojlanadigan jihat	Misol
Rolli o‘yin	Vaziyatni sahnalashtirish	Perspektivani tushunish, muloqot	“Yangi o‘quvchiga yordam”
Badiiy matn tahlili	Qahramon hislarini aniqlash	Hissiy va kognitiv empatiya	“Qahramon nega xafa?”
Vaziyatli topshiriq	Muammoli vaziyatga yechim topish	Xulqiy javob	“Do‘sting topshiriqni bajara olmadi”
Juftlikdagi suhbat	Faol tinglash	Muloqot empatiyasi	Sherigining fikrini qayta aytish
Refleksiya	O‘z xatti-harakatini baholash	O‘zini anglash	“Bugun kimga yordam berdim?”

MUHOKAMA

Empatiya tushunchasini faqat “boshqaning dardini his qilish” bilan cheklash pedagogik jihatdan yetarli emas. Boshlang‘ich ta’limda empatiya bolaning ijtimoiy vaziyatni anglashiga, boshqa shaxs nuqtayi nazarini hisobga olishiga va shu asosda mos xatti-harakatni tanlashiga imkon beruvchi kompleks kompetensiya sifatida qaralishi kerak. Bu yondashuv empatiyani real sinfdagi munosabatlar bilan bog‘laydi.

Empatiyaning bolalarning prosotsial xulqi va munosabatlari bilan aloqasi qayd etilgan. Shu bilan birga, empatiya rivoji faqat bolaning individual xususiyatlari bilan izohlanmaydi; kattalar bilan sifatli munosabatlar va ijtimoiylashuv muhiti ham muhim.

Demak, o‘qituvchining o‘z kommunikativ xulqi empatiyani rivojlantirishning bevosita modeli bo‘la oladi. O‘qituvchi o‘quvchini bo‘lmasdan tinglashi, xatosini kamsitmasdan tuzatishi, turli fikrlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi va nizoli vaziyatlarda konstruktiv tilni qo‘llashi orqali o‘quvchilarga amaliy namuna beradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Empatiyani rivojlantirishda ota-ona va maktab hamkorligi ham muhim. Ijtimoiy-emotsional ta'limni sinf, maktab, oila bilan bog'langan tizimli jarayon sifatida ko'radi. Shu bois maktabda qo'llanadigan "tinglash", "hurmat bilan murojaat qilish", "yordam taklif qilish", "his-tuyg'uni nomlash" kabi umumiy qoidalar oiladagi tarbiyaviy muloqot bilan uyg'unlashtirilsa, ko'nikmaning kundalik hayotga ko'chishi osonlashadi.

Shuningdek, empatiyani baholashda faqat o'quvchining "to'g'ri javob" berishi yetarli emas. O'qituvchi kuzatuvi, vaziyatli topshiriq, tengdosh bilan hamkorlik, o'z-o'zini baholash va ota-ona kuzatuvlarini birlashtirish maqsadga muvofiq. Chunki empatiya ichki kechinma bilan bir qatorda real xatti-harakatda ham namoyon bo'ladi.

3-jadval. Empatiya rivojlanishini baholash mezonlari

Mezon	**Yuqori daraja**	**O'rta daraja**	**Boshlang'ich daraja**
Hissiy anglash	Hissiyotlarni aniq farqlaydi va sababini tushuntiradi	Asosiy hissiyotlarni farqlaydi	Hissiy holatni aniqlashda qiynaladi
Perspektivani tushunish	Boshqa nuqtayi nazarni mustaqil izohlaydi	Savol yordamida izohlaydi	Faqat o'z nuqtayi nazaridan baholaydi
Yordam xulqi	Mos yordamni mustaqil taklif qiladi	Yordamni eslatma bilan ko'rsatadi	Yordam ko'rsatish tashabbusi kam
Tinglash va muloqot	Faol tinglaydi va hurmat bilan javob beradi	Ba'zan eslatma talab qiladi	Suhbatdoshini tez-tez bo'ladi

XULOSA

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida empatiyani shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatadi. Empatiya o‘quvchining boshqa insonning hissiy holatini anglash, uning nuqtayi nazarini tushunish va tegishli ijtimoiy xatti-harakatni tanlash imkoniyatini kengaytiradi. U ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar, prosotsial xulq, hamkorlik va ijobiy munosabatlar bilan uzviy bog‘liq.

Empatiyani samarali rivojlantirish uchun o‘qituvchi xavfsiz sinf muhitini yaratishi, hissiy holatlarni nomlash va tahlil qilishni muntazam mashq qildirish, badiiy matn va rasmlardan foydalanish, rolli va vaziyatli o‘yinlarni tashkil etish, faol tinglashni o‘rgatish hamda refleksiyani yo‘lga qo‘yishi zarur. Mazkur faoliyatlar alohida mashg‘ulot sifatida yoki fanlar mazmuniga integratsiya qilingan holda olib borilishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining empatiyasini aniqlash uchun validatsiyalangan diagnostik vositalarni mahalliy madaniy-ta’limiy sharoitga moslashtirish, turli pedagogik metodlarning samaradorligini tajriba-sinov asosida qiyoslash hamda o‘qituvchi va ota-onalar hamkorligining ta’sirini aniqlash muhim ilmiy yo‘nalishlar sifatida belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir // Xalq so‘zi. – 2017. – 1 iyul.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-con Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda.
3. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar.
4. Raximova, M. (2021). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA MAZMUNI. Mir issledovaniy, 2(2).
5. Abduxosilovna, R. M. (2021). Formation of Social Skills in Primary School Students with Diagnostic Tools. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 5282-5290.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

6. Raximova, M. A. (2019). SOME PROBLEMS IN FORMING SOCIAL-EMOTIONAL COMPETENCIES ON ELEMENTARY CLASS PUPILS. Theoretical & Applied Science, (11), 277-280.

7. Rahimova, M. (2019). EDUCATIONAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SOCIAL AND EMOTIONAL SKILLS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(12), 310-316.

8. Rahimova, M. (2019). INTERNATIONAL EVALUATION STANDARD OF EDUCATION QUALITY AND EFFICIENCY IMPLEMENTATION OF OPERATION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(7), 270-275.

ADAPTIVE DIGITAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING PRIMARY SCHOOL STUDENTS' ENGLISH ORAL COMMUNICATION SKILLS

Atajonova Kumush Ulug'bek qizi
English Language Teacher at Khiso School
atajonovakumushxon@gmail.com

Abstract: *This article examines how adaptive digital technologies can support the development of English oral communication skills among primary school students. It focuses on tools that adjust speaking tasks, feedback, and practice time to learners' needs and progress. Age-appropriate activities such as interactive dialogues, pronunciation practice, and recorded responses can give pupils more opportunities to speak English at their own pace. The article also considers the teacher's role in selecting suitable tools, guiding interaction, and ensuring that digital practice supports classroom communication.*

Key words: *adaptive digital technologies, primary school students, English language learning, oral communication, speaking skills, pronunciation.*

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILIDA OG'ZAKI MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA MOSLASHUVCHAN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada adaptiv raqamli texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qanday yordam berishi ko'rib chiqiladi. Asosiy e'tibor nutq mashqlari, fikr-mulohaza va mashq qilish vaqtini o'quvchilarning ehtiyojlari hamda rivojlanish darajasiga moslashtiradigan vositalarga qaratiladi. Interaktiv dialoglar, talaffuz mashqlari va ovozli javoblarni yozib olish kabi yoshga mos faoliyatlar o'quvchilarga o'z sur'atida ingliz tilida gapirish uchun ko'proq imkoniyat yaratadi. Shuningdek, maqolada mos vositalarni tanlash, muloqotni yo'naltirish va raqamli mashqlarni sinfdagi muloqot bilan bog'lashda o'qituvchining o'rni ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *adaptiv raqamli texnologiyalar, boshlang'ich sinf o'quvchilari, ingliz tilini o'rganish, og'zaki muloqot, gapirish ko'nikmalari, talaffuz.*

АДАПТИВНЫЕ ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ УСТНОГО ОБЩЕНИЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация: *В статье рассматривается, как адаптивные цифровые технологии могут способствовать развитию навыков устного общения на английском языке у учащихся начальных классов. Основное внимание уделяется инструментам, которые подстраивают речевые задания, обратную связь и время практики под потребности и успехи учащихся. Соответствующие возрасту занятия, такие как интерактивные диалоги, упражнения на произношение и запись*

устных ответов, дают детям больше возможностей говорить по-английски в удобном для них темпе. В статье также рассматривается роль учителя в выборе подходящих инструментов, организации общения и связи цифровой практики с общением на уроке.

Ключевые слова: *адаптивные цифровые технологии, учащиеся начальных классов, изучение английского языка, устное общение, навыки говорения, произношение.*

INTRODUCTION

Oral communication is an essential part of learning English in primary school. Children need opportunities to ask questions, respond to others, express simple ideas, and use familiar language in meaningful situations. However, pupils in the same class do not always develop these skills at the same pace. Some are ready to speak in full sentences, while others still need a model, visual support, or more time to prepare a response. Adaptive digital technologies offer one way to respond to these differences. An adaptive speaking activity can change the level of a task, provide another example after an incorrect response, or allow a pupil to repeat a recording before moving forward. Such features may increase opportunities for individual practice. Nevertheless, using an application does not automatically develop communication: pupils also need a reason to speak and a person who listens and responds. The aim of this article is to examine how adaptive digital technologies can support primary school pupils' English oral communication skills. The article considers their possible benefits, the teacher's role, and practical ways to connect digital speaking exercises with classroom interaction.

LITERATURE REVIEW

In *Computer Applications in Second Language Acquisition*, Carol A. Chapelle examines the use and evaluation of computer applications in language learning, assessment, and research. Her work is useful because it directs attention to what learners actually do with a digital task and how its value for language learning can be evaluated.[1] For the present topic, this means that the quality of a speaking activity matters more than the mere presence of a device in the classroom. (cambridge.org)



In *Teaching Young Language Learners*, Annamaria Pinter focuses on the characteristics of children as language learners and on teaching approaches suitable for them.[2] This perspective is important when selecting digital tools for primary school: instructions must be understandable, tasks should be manageable, and speaking practice should suit children's age and language level. An activity designed for older learners may offer adaptive settings but still be unsuitable for young pupils. (Teaching English with Oxford) The two books address different parts of the issue. Chapelle provides a basis for examining the language-learning purpose of computer-based activities, while Pinter provides a basis for judging whether activities are appropriate for young learners. This article combines these perspectives to propose classroom uses of adaptive speaking tasks. Neither book is treated as proof that every adaptive application improves children's speech.

METHODOLOGY

This article uses a literature-based, qualitative approach. First, the two books were examined for principles relevant to computer-assisted language learning and teaching young pupils. Second, these principles were applied to the design of primary-school speaking activities. Third, illustrative classroom situations were developed to show how a teacher could use adaptive tasks before, during, and after face-to-face communication.

The analysis is organised around four questions:

1. Does the task require the pupil to produce spoken English?
2. Can the level of support change according to the pupil's needs?
3. Is the task suitable for a primary-school learner?
4. Does digital practice lead to communication with the teacher or classmates?

The examples below are proposed teaching scenarios, not results from a conducted experiment. Therefore, the article identifies possible benefits and conditions for effective use; it does not claim measured improvement in pupils' speaking scores.

ANALYSIS AND RESULTS

A major practical advantage of an adaptive task is that pupils can work with different amounts of support while practising the same communicative goal. Consider a lesson on describing animals. The goal for everyone is to say what an animal looks like and what it can do. A pupil who needs support might see a picture and hear a model: *"It is a bird. It can fly."* The pupil then records a similar response. A pupil who can already produce these sentences might receive a wider prompt: *"Describe the animal and say where it lives."* Both pupils practise speaking, but the second task requires more independent language use. The teacher should check how the system adapts. Repeating the same sentence several times may help with pronunciation, but it does not necessarily show that the pupil can use the sentence in a new situation. For that reason, the digital exercise can be followed by a pair activity in which one child describes an animal and the other guesses it.[3]

Some primary-school pupils hesitate to answer in front of the whole class. A short recording task can give them time to rehearse. For example, pupils receive the question *"What do you do after school?"* They listen to a short model, record an answer, and listen to their own voice. They may then record a clearer second version.

The value of this activity lies in the opportunity to notice and improve a response. The teacher can encourage pupils to check one specific feature, such as whether they used a complete sentence. Trying to correct every pronunciation or grammar mistake at once may make the activity difficult for a child. After recording, pupils can ask the same question in pairs and give a real response to a classmate.

Thus, the recording is a preparation stage for communication. The classroom conversation gives the question and answer a social purpose that an individual recording alone cannot provide.

Adaptive tools may give immediate feedback, but feedback is useful only when a child can understand and act on it. A general message such as *"Incorrect"* gives little guidance. A more helpful response might replay a model, highlight the missing word,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

and invite another attempt. For instance, if a pupil says *"She playing"*, an activity could present *"She is playing"* and ask the pupil to repeat the full sentence. The teacher can later use a picture-based game to see whether the pupil can produce the form without the model. This distinction matters: successfully repeating a corrected sentence is a step in learning, but it is not the same as using it independently.

Digital feedback should also be interpreted with care. A tool may fail to recognise a child's speech because of background noise or an unfamiliar accent. The teacher needs to listen to pupils and decide whether an apparent error is a language problem or a limitation of the tool.[4]

Oral communication involves listening to another person, choosing a response, and sometimes changing what one planned to say. A pupil who completes many isolated pronunciation exercises may still find it difficult to hold a simple conversation.

A useful lesson sequence can therefore have three stages:

- Preparation: Pupils practise vocabulary and short responses with an adaptive activity.
- Interaction: Pupils use the language in a pair or group task.
- Reflection: The teacher helps them identify one thing they said well and one expression to practise again.

For example, before a classroom "shop" activity, pupils practise *"How much is it?"* and *"I would like …"* with audio prompts. During the role-play, they must listen to their partner's answer and respond appropriately. Afterwards, they record one short exchange again. The digital task prepares and reinforces the language, while the role-play requires pupils to communicate with another person.

The teacher remains responsible for selecting tasks, observing pupils, and adapting the lesson. Before using a tool, the teacher should consider whether children can navigate it independently, whether the speech prompts are clear, and whether

enough time remains for interaction in class. Access to devices, sound quality, and the handling of children's voice recordings are also practical considerations.

A simple tool used for five minutes with a clear speaking goal may be more useful than a complex programme that takes most of the lesson to operate. This is an instructional conclusion drawn from the comparison of the two books: digital activities should be evaluated both for their contribution to language practice and for their suitability for young learners.[5]

CONCLUSION

Adaptive digital technologies can help primary-school pupils practise English speaking at an appropriate level and receive opportunities to rehearse their responses. Their value is greatest when tasks have a clear language goal, feedback is understandable, and individual practice is followed by communication with teachers or classmates. The analysis suggests that technology should form part of a planned sequence rather than function as a separate activity. A teacher can use an adaptive task to prepare vocabulary and sentences, arrange a meaningful speaking activity, and then use pupils' responses to plan further practice. The examples in this article illustrate possible classroom applications. Further classroom research would be needed to measure how particular tools affect pupils' oral communication over time.

REFERENCES:

[1] Chapelle, C. A. *Computer Applications in Second Language Acquisition: Foundations for Teaching, Testing and Research*. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
[2] Pinter, A. *Teaching Young Language Learners*. 2nd ed. Oxford: Oxford University Press, 2017.
[3] The animal-description sequence is an illustrative activity designed for this article using the principles discussed in Chapelle (2001) and Pinter (2017).
[4] The example of speech-recognition feedback is an illustrative teaching scenario. It is not presented as a finding from either book or from an experiment conducted for this article.
[5] The recommendation to evaluate both language-learning value and age suitability is the author's synthesis of Chapelle (2001) and Pinter (2017).

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QISH SAVODXONLIGI

Kudratova Aziza
Toshkent Kimyo xalaqaro universiteti Samarqand filiali dotsenti
https://orcid.org/0009-0006-5001-9238
azizaqudratova1981@gmail.com
Xamidova Diyora
Sharaf Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
orcid 0009-0002-0769-2399
diyora1021192@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirish muammosi PIRLS xalqaro tadqiqoti mezonlari va O'zbekiston o'quvchilarining PIRLS-2021 natijalari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda PIRLSning o'qish savodxonligini baholashga doir ikki asosiy o'qish maqsadi hamda o'qib tushunishning to'rtta kognitiv jarayoni – aniq berilgan ma'lumotni topish va ajratib olish, oddiy xulosalar chiqarish, g'oya va ma'lumotlarni talqin qilish hamda integratsiyalash, mazmun va matn elementlarini baholash jarayonlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'limda reproduktiv o'qishdan produktiv va tanqidiy o'qishga o'tish, axborotli matnlar bilan ishlash, xulosa chiqarish, talqin qilish va matn asosida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, PIRLS, PIRLS-2021, xalqaro baholash, o'qib tushunish, kognitiv jarayonlar, matn bilan ishlash, xulosa chiqarish, talqin qilish, integratsiyalash, tanqidiy o'qish, funksional savodxonlik.*

ЧИТАТЕЛЬСКАЯ ГРАМОТНОСТЬ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В данной статье анализируется проблема развития навыков чтения в начальном образовании на основе критериев международного исследования PIRLS и результатов опроса учащихся Узбекистана в рамках исследования PIRLS-2021. Исследование охватывает две основные цели PIRLS по оценке навыков чтения и четыре когнитивных процесса понимания прочитанного: поиск и извлечение конкретной информации, формулирование простых выводов, интерпретация и интеграция идей и информации, а также оценка содержания и элементов текста. Результаты исследования указывают на необходимость перехода от репродуктивного чтения к продуктивному и критическому чтению в начальном образовании, работе с информативными текстами, формулированию выводов, интерпретации и развитию навыков самостоятельного мышления на основе текста.*

Ключевые слова: *начальное образование, навыки чтения, PIRLS, PIRLS-2021, международная оценка, понимание прочитанного, когнитивные процессы, работа с текстом, вывод, интерпретация, интеграция, критическое чтение, функциональная грамотность.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

READING LITERACY IN PRIMARY EDUCATION

Abstrakt. *This article analyzes the development of reading skills in primary education based on the criteria of the international PIRLS study and the results of a survey of students in Uzbekistan conducted as part of PIRLS-2021. The study addresses the two main PIRLS objectives for assessing reading skills and the four cognitive processes of reading comprehension: locating and retrieving specific information, making simple inferences, interpreting and integrating ideas and information, and evaluating the content and elements of the text. The study results indicate a need to shift from reproductive reading to productive and critical reading in primary education, emphasizing work with informational texts, drawing inferences, interpreting information, and developing independent thinking skills based on the text.*

Keywords: *primary education, reading skills, PIRLS, PIRLS-2021, international assessment, reading comprehension, cognitive processes, working with text, inference, interpretation, integration, critical reading, functional literacy.*

KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini shakllantirish ta’lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biridir. O‘qish savodxonligi zamonaviy ta’lim jarayonida faqat matnni to‘g‘ri va ravon o‘qish ko‘nikmasi bilan cheklanmay, o‘qilgan axborotni tushunish, undan zarur ma’lumotlarni ajratib olish, xulosa chiqarish, turli ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lash, matn mazmunini talqin qilish hamda o‘qilgan axborotga nisbatan baholovchi va tanqidiy munosabat bildirishni ham qamrab oladi. Shu jihatdan o‘qish savodxonligini rivojlantirish boshlang‘ich ta’limning muhim pedagogik vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini xalqaro miqyosda baholashda IEA – Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etiladigan PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro tadqiqoti muhim manbalardan biri hisoblanadi. PIRLS tadqiqoti 2001-yildan boshlab muntazam ravishda o‘tkazib kelinib, asosan boshlang‘ich ta’limning to‘rtinchi sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholashga yo‘naltirilgan. Tadqiqotning 2021-yilgi sikli PIRLSning beshinchi sikli bo‘lib, unda qariyb 400 ming nafar o‘quvchining ma’lumotlari o‘rganilgan.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

PIRLS tadqiqotining o‘ziga xos jihati shundaki, unda o‘quvchining matnni o‘qish tezligi yoki reproduktiv tarzda mazmunni qayta aytib berishi emas, balki o‘qilgan matndan mazmun hosil qilishi, axborotni topishi, xulosa chiqarishi, turli g‘oya va ma’lumotlarni bog‘lashi, matn mazmunini talqin qilishi hamda matn va uning elementlarini baholay olishi kabi kognitiv jarayonlari baholanadi.

O‘qish savodxonligini rivojlantirish muammosi xalqaro va milliy miqyosda turli pedagogik, metodik hamda baholash yondashuvlari asosida o‘rganilgan. Xalqaro miqyosda mazkur muammoning metodologik asoslarini IEA tomonidan amalga oshiriladigan PIRLS tadqiqotlari tashkil etadi. PIRLS baholash konsepsiyasida o‘qish savodxonligi o‘quvchining matnni o‘qishi, mazmunini anglashi, axborotni topishi, xulosa chiqarishi, turli g‘oya va ma’lumotlarni integratsiyalashi, matn mazmunini talqin qilishi hamda baholashi bilan bog‘liq kognitiv jarayonlar majmui sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

PIRLSning nazariy-metodik asoslari I.V.S.Mullis, M.O.Martin, M.Von Davier, P.Foy, B.Fishbein, K.A.Reynolds va E.Wry kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari hamda PIRLS Assessment Frameworks materiallarida yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda o‘qish savodxonligini baholashning mazmuni, o‘qish maqsadlari, kognitiv jarayonlar va o‘quvchilarning o‘qish natijalariga ta’sir etuvchi kontekstual omillar tizimli ravishda tahlil qilingan.

O‘zbekistonda xalqaro baholash dasturlarini o‘rganish va ta’lim amaliyotiga joriy etish masalasida A.A.Ismailov, A.B.Radjiev va boshqa mutaxassislarning ilmiy-metodik ishlari alohida ahamiyatga ega. Xususan, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish uchun ishlab chiqilgan metodik materiallarda o‘quvchilarning savodxonligini baholash, xalqaro baholash topshiriqlarining mazmuni va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash masalalari yoritilgan. Mazkur manbalar O‘zbekistonda xalqaro baholash mezonlarini milliy ta’lim amaliyotiga olib kirishning metodik asoslarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Boshlang‘ich ta’limda PIRLS tadqiqotining mazmuni va o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalasi M.A.Doniyarovning ilmiy ishlarida bevosita tadqiq etilgan. Tadqiqotchining “Xalqaro baholash dasturi PIRLSning mazmun mohiyati, talablari va o‘qish savodxonligini rivojlantirishdagi o‘rni” nomli maqolasida PIRLSning mazmuni, talablari va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, uning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishda PIRLS xalqaro tadqiqot topshiriqlarining ahamiyati” nomli tadqiqotida PIRLS topshiriqlaridan foydalanishning metodik imkoniyatlari tahlil qilingan.

I. Qaynarovaning tadqiqotlarida ham PIRLS dasturi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini ta’minlash, tanqidiy o‘qish, pedagogik hamkorlik va o‘quvchining faol rolini kuchaytirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Tadqiqotda PIRLS talablari bilan bog‘liq holda o‘qish savodxonligini rivojlantirishning innovatsion pedagogik imkoniyatlari yoritilgan.

O‘zbekistonda PIRLS tadqiqotining amaliy ahamiyati davlat ta’lim siyosati va metodik faoliyatda ham o‘z aksini topmoqda. 2026-yilda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti hamda Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi hamkorligida “O‘qish savodxonligini baholash va rivojlantirish” mavzusida maxsus treninglar tashkil etilgan. Treninglarda PIRLS natijalari asosida o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlari va PIRLS matnlaridan ta’lim jarayonida foydalanish masalalari muhokama qilingan.

O‘zbekistonning PIRLS-2021 tadqiqotida ilk bor ishtirok etishi mazkur muammoni empirik jihatdan o‘rganish uchun yangi imkoniyat yaratdi.

Mamalakatimizda o‘qish savodxonligi va PIRLS tadqiqoti bilan bog‘liq ilmiy-metodik izlanishlar mavjud bo‘lsa-da, PIRLS-2021 natijalarida namoyon bo‘lgan kognitiv tafovutlarni boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi aniq metodlar, topshiriqlar tizimi va

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

o‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liq holda kompleks tahlil qilish masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

METODOLOGIYA

PIRLSning muhim jihati: u faqat **“bola tez o‘qiy oladimi?”** degan savolni emas, balki: **“**Bola o‘qigan matnidan ma’no hosil qila oladimi, xulosa chiqara oladimi, ma’lumotlarni bog‘lay oladimi va matnni tanqidiy baholay oladimi?” degan savolni o‘rganadi.

PIRLS ikki asosiy o‘qish maqsadi va to‘rtta kognitiv jarayonni baholaydi.

A. O‘qish maqsadlari

Yo‘nalish	Mazmuni
Badiiy tajriba uchun o‘qish	Hikoya, ertak, badiiy matn mazmunini anglash
Axborotni egallash va undan foydalanish uchun o‘qish	Ilmiy, ommabop, axborotli matndan ma’lumot olish va undan foydalanish

B. O‘qib tushunish jarayonlari

1. Aniq berilgan ma’lumotni topish va ajratib olish
2. Oddiy xulosalar chiqarish
3. G‘oya va ma’lumotlarni talqin qilish hamda integratsiyalash
4. Mazmun va matn elementlarini baholash va tanqidiy tahlil qilish.

Bu to‘rt bosqich “oddiydan murakkabga” kognitiv zanjir sifatida qaraladi:

Topish → Xulosa chiqarish → Talqin qilish → Baholash

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Mamlakatimiz o’quvchilari PIRLS-2021 tadqiqotida ilk bor ishtirok etdi. 2021-yilgi tadqiqotda 57 mamlakat va 8 ta benchmarking ta’lim tizimi qatnashgan, jami taxminan 400 ming nafar o‘quvchi ma’lumotlari o‘rganilgan. O‘zbekiston 437 ball bilan 57 ta davlat ichida 49-o‘rinni egalladi**.**

Xalqaro PIRLS shkalasining markaziy ko‘rsatkichi 500 balligini inobatga olsak, farq 437−500 =−63 ball, **y**a’ni O‘zbekistonning o‘rtacha natijasi xalqaro shkala markazidan 63 ball past bo‘lgan.

PIRLS topshiriqlari darajalari:

Darajalari	Ball	Mazmuni
Yuqori daraja	550	Murakkabroq tushunish va talqin
O‘rta daraja	475	Asosiy ma’lumotni tushunish, xulosa va talqin
Quyi daraja	400	Oddiy o‘qib tushunish ko‘nikmalari
Ilg‘or daraja	625	Murakkab, chuqur va tanqidiy o‘qish

PIRLSning xalqaro benchmarklari 400, 475, 550 va 625 ball nuqtalarida belgilangan.

O‘zbekistonning 437 ball natijasi: 400 < 437 < 475.

Shuning uchun o‘rtacha natija quyi va o‘rtacha xalqaro mezon oralig‘ida joylashadi.

Bu degani o‘quvchilarning ma’lum qismi oddiy matnni tushunish darajasiga yetgan, ammo murakkabroq talqin, integratsiya, xulosa va baholash ko‘nikmalarini barqaror qo‘llashda qiyinchiliklar mavjud. Muammo faqat past o‘zlashtirishda emas, balki yuqori darajadagi o‘qib tushunish ko‘nikmalariga ega o‘quvchilar ulushining kichikligidadir.

Ya’ni boshlang‘ich ta’limda: **“Matnni o‘qish” → “matnni tushunish” → “matnni talqin qilish” → “matn asosida mustaqil fikrlash”** zanjirining yuqori bosqichlarini kuchaytirish zarur.

PIRLS-2021 ma’lumotlari O‘zbekiston uchun juda qiziqarli tafovutni ko‘rsatadi.

O‘qib tushunish jarayonlari bo‘yicha:

Jarayon	O‘zbekiston o‘quvchilari balli
Ma’lumotni topish va oddiy xulosa chiqarish	441

Talqin qilish, integratsiyalash va baholash	430
Umumiy PIRLS	437

Demak: 441 − 430 = 11 ball. Bu juda muhim farq. O‘quvchi: “Matnda nima deyilgan?” degan savolga nisbatan yaxshiroq javob berishi mumkin. Ammo: “Muallif nima demoqchi?”, “Ikki ma’lumot o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?”, “Matndan qanday xulosa chiqarish mumkin?”, “Muallif fikrini qanday baholaysiz?” kabi savollar murakkabroq.

Shuning uchun talqin qilish, integratsiyalash va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish alohida metodik vazifa bo‘lib chiqadi.

O‘zbekiston o‘quvchilari natijalarini tahlil qiladigan bo‘lsak:

- badiiy matnlar bo‘yicha o‘rtacha natijasi — 438 ball;
- axborotli matnlar bo‘yicha — 434 ball.

Umumiy natija — 437 ball. Farq katta emas: 438 − 434 = 4 ball.

Demak, O‘zbekistonda faqat badiiy matnlar bilan ishlash emas, axborotli, ilmiy-ommabop va faktlarga asoslangan matnlar bilan ishlashni ham kuchaytirish muhim.

Yana bir muhim jihat O‘zbekistonda qizlar 441 ball, o‘g‘il bolalar esa 430 ball olganlar. Qizlar foydasiga bo‘lgan 11 ballik farq PIRLSning umumiy xalqaro tendensiyasiga mos kelgan. Shu yilda ishtirok etgan 57 mamlakatning 51 tasida qizlar yuqoriroq natija ko‘rsatgan, 6 tasida sezilarli farq bo‘lmagan, birortasida o‘g‘il bolalar yuqori natija ko‘rsatmagan. Bu — statistik tafovut sabablari o‘qishga munosabat, o‘qish odatlari, matn tanlovi, motivatsiya, uy va maktab muhiti kabi bir nechta omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin ko‘rsatilgan.

MUHOKAMA

PIRLS tadqiqoti natijalaridan O‘zbekiston boshlang‘ich ta’limi uchun quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

1. Reproduktiv o‘qishdan produktiv o‘qishga o‘tish:

O‘quvchi matndan tayyor ma’lumotni topish bilan cheklanmasligi kerak.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

"Matnda nima bor?" savolini "Bu nimani anglatadi?" savoliga almashtirish.

2. Xulosa chiqarish ko'nikmasini kuchaytirish:

Har bir matndan keyin faqat: "Matnda nima haqida gap boradi?" emas, balki "Siz qanday xulosaga keldingiz?" savolini berish.

3. Axborotli matnlar ulushini oshirish:

Bolalar faqat hikoya va ertak emas, balki:

- ✓ ilmiy-ommabop;
- ✓ ensiklopedik;
- ✓ diagramma va jadval;
- ✓ qisqa maqola;
- ✓ tajriba tavsifi;
- ✓ faktlarga asoslangan matn bilan ham ishlashlari lozim.

4. Tanqidiy fikrlashni boshlang'ich sinfdan shakllantirish:

Masalan: Muallif fikri → dalil → o'quvchi munosabati → xulosa zanjiri.

5. Savol berish texnologiyasini o'zgartirish:

An'anaviy: "Kim? Qachon? Qayerda?" savollaridan tashqari: "Nima uchun?", "Qanday dalil bor?", "Agar ... bo'lganida nima o'zgarardi?", "Ikki fikrni qanday bog'laysiz?", "Muallif fikriga qo'shilasizmi? Matndan dalil keltiring." kabi savollar ko'payishi kerak.

PIRLS-2021 da O'zbekiston o'quvchilari birinchi marta ishtiroki etgan. hisoblanadi.

Joriy 2026-yilning aprel oylarida navbatdagi PIRLS-2026 tadqiqotida O'zbekistonning ikkinchi ishtiroki ta'minlandi. Mamlakatimiz barcha hududlaridan tasodifiy va reprezentativ tamoyil asosida 164 ta maktab, qariyb 6 000 nafar 4-sinf o'quvchisi, 214 nafar boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi va 164 nafar maktab direktori ishtiroki rejalashtirildi. Natijalari e'lon qilinmaganligini inobatga olib, bugungi kunda ikki davr ko'rsatkichlarini taqqoslash inkonimiz yo'q.

Shuning uchun, PIRLS-2021 natijalari asosida O‘zbekiston boshlang‘ich ta’limida o‘qish savodxonligini rivojlantirishning dolzarb yo‘nalishlarini aniqlash imkoniga ega bo‘ldik.

XULOSA

O‘zbekiston ta’limining jahon ta’limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo‘llashning nazariy va amaliy asoslariga tayangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida o‘tkazilayotgan PIRLS xalqaro baholash dasturi qo‘llash va samarali natijalar olish milliy mentalitetni hisobga olgan holda amaliy mexanizmlarini ishlab chiqilib,boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan matnni o‘qish va tushunishni, shuningdek,milliy ta’lim tizimidagi farqlar borasida tahliliy natijalarga asoslanadi.Bu esa xalqaro baholash tadqiqotlari xalqaro maydonda mamlakatlarning ta’lim sifatini taqqoslash imkonini beradi.Bu natijalar asosida davlatlar o‘z tajribalarini solishtiradi, ilg‘or modellarni o‘rganadi va milliy tizimga tatbiq etish bilan birgalikda ta’limda aniqlangan bo‘shliqlarni xalqaro ta’lim tizimi bilan integratsiyalashib borish imkonini beradi.Shu jihatdan,xalqaro baholash tadqiqotlari zamonaviy ta’limda xalqaro hamkorlik va tajriba almashishning muhim poydevori hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni,2019-yil 29-aprel.
2. Mullis, I.V.S.,von Davier, M., Foy, P.,Fishbein, B.,Reynolds, K.A.,Wry, E. PIRLS 2021 International Results in Reading. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center, 2023.
3. Fishbein,B.,Yin,L.,Foy,P.PIRLS 2021 International Database and User Guide.Boston College,TIMSS & PIRLS International Study Center, 2023.
4. Doniyarov,M.A.Xalqaro baholash dasturi PIRLSning mazmun mohiyati, talablari va o‘qish savodxonligini rivojlantirishdagi o‘rni // NamDU Ilmiy axborotnomasi. Namangan, 2022. №12. B. 459–466.
5. Doniyarov, M.A. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar o‘qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorgarligining pedagogik asoslari // Ta’lim, fan va innovatsiya. Toshkent, 2024. №4. B. 289–294.

6. Doniyarov, M.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishda PIRLS xalqaro tadqiqot topshiriqlarining ahamiyati // Kasb-hunar ta’limi. Toshkent, 2023. №1.
7. Qaynarova, I.V. PIRLS dasturiga ko‘ra boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini ta’minlash // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). 2022.
8. Ismailov, A.A. va boshq. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnomalar. Toshkent: Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi, 2020.
9. Radjiev, A.B. va boshq. O‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi. Qo‘llanma. Toshkent: Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi, 2019.
10.International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). PIRLS 2021 International Results in Reading. 2023.
11.International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). PIRLS 2021 Publications and Reports. 2023.

UDK: 378.14

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUTAXASSISLIK FANLARINI INTEGRATSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH: IMKONIYATLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Umarjonova Nodira Abduxamid qizi
Nizomiy nomidagi O'zMPU, tayanch doktorant
E-mail: nodira5655@gmail.com Tel: +998935121121
ORCID ID: 0009-0008-2458-2611

Annotatsiya: *ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini integratsiyaviy yondashuv asosida o'qitishning o'ziga xosliklari, olib borilgan tadqiqot yuzasidan aniqlangan muammolar va ularning qiyosiy tahlillari haqida so'z boradi. Muallif tomonidan ta'lim jarayoniga elektron ta'lim resurslarini integratsiyalashning istiqbollari va hal qilishi ko'zda tutilgan muammolarning muhokamasi taqdim etiladi.*

Kalit so'zlar: *mutaxassislik fanlari, integratsiyaviy yondashuv, elektron ta'lim resurslari, ta'lim jarayoni, multimediali o'qitish, kasbiy kompetentlik.*

ПРЕПОДАВАНИЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН В ВУЗАХ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА: ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Аннотация: *в статье рассматриваются особенности преподавания профильных дисциплин в высших учебных заведениях на основе интегративного подхода, а также проблемы, выявленные в ходе исследования, и их сравнительный анализ. Автор обсуждает перспективы интеграции электронных образовательных ресурсов в учебный процесс и затрагивает вопросы, требующие решения.*

Ключевые слова: *профильные дисциплины, интегративный подход, электронные образовательные ресурсы, образовательный процесс, обучение с использованием мультимедийных средств, профессиональная компетентность.*

TEACHING SPECIALIZED SUBJECTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH: OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPMENT

Abstract: *this article discusses the specific aspects of teaching specialized subjects in higher education institutions based on an integrative approach, as well as the problems identified through research and their comparative analysis. The author presents a discussion on the prospects of integrating electronic educational resources into the educational process and addresses the issues requiring resolution.*

Key words: *specialized subjects, integrative approach, electronic educational resources, educational process, multimedia-based instruction, professional competence.*

KIRISH

Hozirgi kunda hayotning deyarli barcha sohalarini, jumladan, ta'limning rivojlanishini mediasiz tasavvur qilish qiyin. Axborot makonini globallashuvi va uning "ochiqligi" zaminida yangi bilimlar, qarashlar, faktlar, konsepsiyalarning oqimi shiddat bilan ortib bormoqda va medialar orqali tarqalayotgan axborotlardan foydalanish muammosi paydo bo'lmoqda.

Jamiyatda axborotlarning mazmunini ham ularni medialar orqali tarqatish usullari va yo'llarini ham nazorat qilish amalda qiyin bo'lib bormoqda. Axborotning bunday tarzda tartibsiz berilishi ta'sirida ta'lim oluvchining mustaqil ravishda tafakkur qilish muammosi, uning qarashlari, qadriyatlari shakllanishi masalalari, shuningdek, ta'lim oluvchi ongida axborot olamini tartibga solish yo'llarini izlash, axborot bilan muomala qilishning yangi usul va ko'nikmalari tizimini ishlab chiqish va shakllantirishni taqozo etadi [1].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi, yuqori malakali, yuksak kasbiy, ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi zamonaviy kadrlarni tayyorlash tizimi va ushbu ishlarni amalga oshirishda bajarilayotgan tadbirlar bugungi kunning asosiy vazifalari bo'lib qolmoqda. Bu tadbirlar shubhasiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini o'z ichiga olgan holda takomillashuvni taqazo etadi. Ayniqsa, ta'lim jarayonining asosiy vositalaridan bo'lgan o'quv qo'llanmalar, darsliklar, majmualar modernizatsiyalanishi rivojlanishning muhim omili hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan samarali foydalangan holda eng zamonaviy turdagi o'quv qo'llanmalar, darsliklar va majmualar yaratish, ilmiy asoslangan bilimlarning uzluksizligini ta'minlash va fan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yo‘nalishlarida tegishli integratsiyalashuvni saqlab qolish mutaxassislardan yuksak kreativlikni talab etadi.

Texnologiya ta’limining samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator hal qilinishi muhim bo‘lgan muammolar mavjud va ular o‘z yechimini kutmoqda. Texnologiya ta’limi jarayonini tashkil etishga oid qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy majmualar, darsliklar yetarli darajada ta’minlanmaganligi, texnologiya fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar va modernizatsiyalashuv jarayoni ancha oqsab qolgani bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Texnologiya ta’limi bo‘yicha ta’lim jarayonlarini tashkil qilishda texnologik yondashuvga oid ilmiy-uslubiy resurslarning yetishmasligi, mavjud qo‘llanma va uslubiy majmualarda integratsiyalashmagan mavzular va uzviylikni ta’minlamaydigan materiallar juda ko‘p bo‘lib, ayniqsa, ularda bugungi kun talablaridan bo‘lgan mobillik, ixchamlilik va zamonaviy texnologiyalarni o‘zida aks ettirmasligi bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Tadqiqotimiz doirasida o‘rganishlar nafaqat ta’lim jarayonini modernizatsiyalash, balki uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi axborot-kommunikatsion texnologiyalar rivojlangan davrda ta’lim tizimini takomillashtirish, o`quv jarayonini modernizatsiyalash, ilmiy-uslubiy qo`llanmalar va majmualarni ma’lum bir yaxlitlikka olib kelish, ulardan foydalanishni osonlashtirish, ta’lim oluvchilar uchun foydalanish imkoniyatini kengaytirish va yechimini kutayotgan muammolarni bartaraf qilish asosiy maqsadimiz.

Bu kabi nomutanosibliklarning manbai va sababi - pedagogik ta’limni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishni ta’minlovchi jarayonlarni takomillashtirish zaruriyatining mavjudligi tadqiqotimizning maqsadini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

R. E. Mayer multimedia o‘qitish nazariyasida o‘quv materiallarini bir vaqtning o‘zida vizual va verbal (audio yoki matn) shaklda taqdim etish o‘quvchilarning kognitiv

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yuklamasini optimallashtirishi hamda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam berishini ta’kidlaydi [2] [3]. Shuningdek, D. H. Jonassen konstruktivistik yondashuv asosida o‘quvchilar bilimni tayyor holda qabul qilmasdan, balki uni faol ravishda yaratishini, ayniqsa raqamli ta’lim muhiti va muammoli vaziyatlar bu jarayonni sezilarli darajada faollashtirishini qayd etgan [4].

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an’anaviy ta’limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda oliy ta’lim jarayonini amalga oshirish, ta’lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tadbiq etish, ilg’or ish tajribalarini ommalashtirish, mutaxassislik fanlari o‘rtasidagi integratsiyaviy yondashuvni takomillashtirish, uni mustahkamlash dolzarb masalalardan hisoblanadi va bunda ta’lim jarayonini barcha jihatlarini ko‘rib chiqish muhim.

Respublikamiz olimlarining tadqiqotlarida pedagoglarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish, pedagogik mahoratini rivojlantirish hamda kasbiy kompetentligini shakllantirish masalalari keng tadqiq etilgan. Xususan, N.A.Muslimov pedagogning kasbiy shakllanishini uzluksiz pedagogik jarayon sifatida talqin qilib, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari, pedagogik mahorat va kreativlikning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqqan. Olimning fikricha, pedagogning kasbiy samaradorligi kasbiy bilim, amaliy ko‘nikma, refleksiv faoliyat va o‘zini-o‘zi rivojlantirishga tayyorlikning uyg‘unligi bilan belgilanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

J.G'.Yo'ldoshevning ilmiy ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, pedagogning metodik mahoratini rivojlantirish va innovatsion ta'lim muhitini yaratish masalalari yoritilgan. Muallif pedagogning kasbiy muvaffaqiyati zamonaviy o'qitish texnologiyalarini samarali qo'llash, ta'lim jarayonini loyihalash hamda pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

R.H.Jo'rayev kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, ta'lim jarayonining innovatsion modelini yaratish hamda pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalarini tadqiq etgan. Uning ilmiy qarashlarida pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishda qulay tashkiliy muhit, metodik ta'minot va uzluksiz kasbiy rivojlanish muhim omillar sifatida e'tirof etiladi [5].

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda nazariy metodlardan foydalanildi. Nazariy metodlar tadqiqot muammosiga oid bir necha xususiy masalalarga oydinlik kiritish maqsadida: adabiyotlarni hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, qiyoslash va tizimlashtirish, pedagogik umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari yordamida tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ta'limni texnologiyalashtirish – bu o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalishdir.

Bugungi kunda ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga, darslarni o'qitishning faol usullarini qo'llab tashkil etish muammolarining yechimiga qo'yilgan talab tobora ortib bormoqda. AQSh va Yevropa mamlakatlarida "ta'lim texnologiyasi" sifatida e'tirof etilgan nazariya bo'lib, uning yaratilishi to'g'risida ma'lumot beruvchi manbalarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim tizimini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida g'arbiy Yevropa



hamda AQShda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash va bu borada muayyan muvaffaqiyatga erishish borasidagi ijtimoiy ehtiyojni qondirishga urinish natijasida vujudga kelgan. Bu sohadagi mavjud adabiyotlarda "ta'lim texnikasi" tushunchasi o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul, vositalar yig'indisi, deya talqin etiladi.

Bo'lajak mutaxassislarni axborot texnologiyalari bilan ishlay olish malakalarini shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj, birinchidan, kasb-hunar ta'limi tizimida ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi intellektual ta'lim resurslarini joriy etilishi, ikkinchidan, ulardan foydalangan holda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining dars berishi va maxsus fanlar bo'yicha mustaqil tarzda elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqa olish qobiliyatiga egaligi, uchinchidan, o'qituvchining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarilishi bilan chambarchas bog'liq [6].

Hozirgi zamon ilmiy-texnik rivojlanishning jadallashgan bosqichining o'ziga xos xususiyatlaridan biri-bu jamiyat hayotining barcha jabhalarini kompyuterlashtirishdan iboratligi, kasbiy faoliyatning tuzilishini keskin o'zgartirishni keltirib chiqaradi.

XULOSA

Olib borilgan nazariy tahlillar, o'rganishlar va birlamchi so'rovnomalar asosida ta'lim tizimiga yanada adaptivlashgan yangi interaktiv mahsulotlarni joriy qilish o'zini oqlaydi. Ya'ni, mutaxassislik fanlarini o'qitishda integratsiyaviy yondashuv ta'lim oluvchilarning hamda pedagog-o'qituvchilarning dars mashg'ulotlarini olib borishlarida ularning mehnat samaradorligiga erishishlarida katta yordam beradigan elektron ta'lim resurslari (ETR) ham mashg'ulotlarni qiziqarli o'tkazish, ta'lim oluvchilarning ta'limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi maqsadlarga muvofiq ravishda ta'lim sifatini oshishiga xizmat qiladi. Shu sababli, ETRlarni keng va samarali tarzda ta'lim jarayoniga tadbiq qilish masalalari ayni kunlarda informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha pedagog-mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida dolzarb muammolardan biri bo`lib qolmoqda [7]. Bunda har bir

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

sohaga va mutaxassislik nuqtayi nazaridan kelib chiqib, ETRlarini integratsiya qilish masalasiga e'tibor qaratish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Namazov B., Fayziyeva M., Sharafaddinov Sh. "Media va axborot savodxonligi". T.: "Baktria press", 2018. 5-b.
2. R. E. Mayer, Multimedia Learning, 2nd ed. New York, NY, USA: Cambridge University Press, 2009.
3. R. E. Mayer (Ed.), The Cambridge Handbook of Multimedia Learning, 3rd ed. Cambridge, U.K.: Cambridge University Press, 2021.
4. D. H. Jonassen, Learning to Solve Problems: A Handbook for Designing Problem-Solving Learning Environments. New York, NY, USA: Routledge, 2011.
5. Abdusamiyev D.A. Pedagoglarning kasbiy faoliyatida stressni boshqarish va kasbiy barqarorlikni ta'minlashning pedagogik mexanizmlar//Ta'lim va taraqqiyot jurnali.- 2026.-4-son.- 121-134.
6. Umarova F.A. Ta'lim jarayonida elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishning ilmiy-amaliy asoslari // "Xalq ta'limi" jurnal ISSN 2181-7839 4-son Toshkent-2020, 90-92 b.
7. Xasanov A. O`qituvchilarni elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va qo`llashga tayyorlashning o`ziga xosliklari // "Xalq ta'limi" jurnal ISSN 2181-7839 4-son Toshkent-2020 86-b.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BOLALARNI OG'IR ATLETIKA SPORT TURIGA SARALASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Mahmudov Bekzod Nazirjon o'g'li
Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti
Ommaviy sport turini tadqiq qilsh o'quv laboratoriyasi laboranti
Toshkent shahar
Email: *bekzodmaxmudov43@gmail.com*
Tel: +99894 306 50 69

Annotatsiya: *Maqolada bolalarni og'ir atletika sport turiga saralashning amaldagi amaliyoti hamda xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlil qilingan. Saralashni antropometrik, jismoniy tayyorgarlik, koordinatsion va psixologik ko'rsatkichlar majmuasi asosida bosqichma-bosqich amalga oshirishga yo'naltirilgan metodika taklif etilgan. Har bir mezon guruhining ko'rsatkichlari va ularning integral baholashdagi ulushi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *og'ir atletika, sport saralashi, seleksiya, sportga layoqat, antropometrik ko'rsatkichlar, jismoniy tayyorgarlik, integral baho.*

МЕТОДИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ОТБОРА ДЕТЕЙ ДЛЯ ЗАНЯТИЙ ТЯЖЕЛОЙ АТЛЕТИКОЙ

Аннотация: *В статье проанализирована существующая практика отбора детей в тяжёлую атлетику, а также зарубежные и отечественные исследования. Предложена методика поэтапного отбора на основе комплекса антропометрических, физических, координационных и психологических показателей. Обоснованы показатели каждой группы критериев и их удельный вес в интегральной оценке.*

Ключевые слова: *тяжёлая атлетика, спортивный отбор, селекция, спортивная предрасположенность, антропометрические показатели, физическая подготовленность, интегральная оценка.*

METHODOLOGY FOR IMPROVİNG MECHANİSMS FOR SELECTİNG CHİLDREN FOR WEİGHTLİFTİNG

Annotation: *The article analyzes the current practice of selecting children for weightlifting, together with international and national research. A stage-based selection methodology combining anthropometric, physical fitness, coordination and psychological indicators is proposed. The indicators of each criterion group and their weight in an integral assessment are substantiated.*

Key words: *weightlifting, sports selection, talent identification, sport aptitude, anthropometric indicators, physical fitness, integral assessment.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh sportchilarni saralash masalasi davlat siyosati darajasida ko‘tarilgan. 2026-yil 24-martda qabul qilingan ‘‘Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida’’gi Qonunda sportga qobiliyatli bolalarni ixtisoslashtirilgan sport ta’lim muassasalarida o‘qitish uchun tanlab olishning ilmiy asoslangan tizimlarini ishlab chiqish vazifasi belgilangan [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-martdagi PQ-137-son qarorida esa hududlarda og‘ir atletika bo‘yicha iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) ishlarini takomillashtirish hamda bu jarayonlarni raqamlashtirish vazifalari qo‘yilgan [2].

Amaliyotda esa bolalarni og‘ir atletikaga qabul qilish ko‘pincha murabbiyning shaxsiy tajribasi va bir martalik kuzatuviga tayanadi. Xorijiy tadqiqotlar bunday yondashuvning cheklanganligini ko‘rsatadi. R.Vaeyens va hammualliflar an’anaviy, bir martalik (kesma) saralash modellari ayniqsa kech yetiluvchi istiqbolli bolalarni chetda qoldirishi mumkinligini ta’kidlab, saralash dasturlarini dinamik tarzda va bolaning biologik yetukligini hisobga olgan holda tashkillashtirishni tavsiya etgan [3]. K. Johnston va hammualliflarning tizimli sharhi yuqori natijalar sportida iqtidorni aniqlash bo‘yicha ilmiy bilimlar hali cheklangan ekanini va bu yo‘nalishda tadqiqotlarni kengaytirish zarurligini ko‘rsatgan [4]. J. Baker va hammualliflar iqtidorni aniqlash va tanlash jarayonidagi nazariy hamda amaliy muammolarni tahlil qilgan [5].

Saralashga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri nisbiy yosh effektidir. S. Cobley va hammualliflarning meta-tahlil natijalariga ko‘ra, sport guruhlarida yilning boshida tug‘ilgan bolalar soni yil oxirida tug‘ilganlarga qaraganda ko‘proq. Buning sababi shundaki, yil boshida tug‘ilgan bola o‘z tengdoshlaridan bir necha oy kattaroq bo‘lib, jismonan rivojlanganroq bo‘ladi va shu sababli sportga ko‘proq tanlanadi. [6]. Bu esa saralashda faqat xronologik yoshga tayanish xatoliklarga olib kelishini bildiradi.

Og‘ir atletikaning o‘ziga xosligi shundaki, bu sport turida sportchilar adabiyotda qayd etilgan eng yuqori mutlaq va nisbiy quvvat ko‘rsatkichlariga erishadi,

sportchilarning antropometrik xususiyatlari esa vazn toifalariga qarab keng farqlanadi [7]. A. Storey va H. Smith qisqaroq tana o'lchamlari mushakning kattaroq ko'ndalang kesim yuzasi bilan birga kelishi og'ir atletika natijasi uchun qulay ekanini qayd etgan [7]. Demak, saralash mezonlari tana tuzilishi va tezlik-kuch sifatlarini albatta aks ettirishi kerak.

Bolalarni kuch yuklamalariga jalb etish masalasida xalqaro yakdil fikr mavjud: malakali mutaxassis nazorati ostida to'g'ri rejalashtirilgan kuch mashg'ulotlari bolalar va o'smirlar uchun xavfsiz va samarali hisoblanadi [8; 9]. R. Lloyd va J. Oliver taklif etgan yoshlar jismoniy rivojlanishi modelida faqat xronologik yoshga asoslangan yondashuvning cheklovlari ko'rsatilib, balog'atga yetishdan oldingi davrda kuch, asosiy harakat ko'nikmalari, tezlik va chaqqonlikni rivojlantirish ustuvor deb belgilangan [10]. Bu saralashda koordinatsion va harakat ko'nikmalarini alohida mezon sifatida baholashni asoslaydi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham kompleks saralash masalasi o'rganilmoqda. Jumladan, N. Xaydarova yosh yengil atletikachilar uchun antropometrik, funksional va jismoniy tayyorgarlik mezonlari asosida saralash algoritmini ishlab chiqqan [11]. Biroq og'ir atletika uchun bunday kompleks, bosqichli va integral baholashga asoslangan metodika hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Bolalarni og'ir atletika sport turiga saralashning kompleks mezonlarga asoslangan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan metodikasini ishlab chiqish va nazariy jihatdan asoslash.

TADQIQOT USULLARI

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, murabbiylar o'rtasida so'rovnoma, antropometriya, pedagogik testlash hamda matematik-statistik tahlil. [So'rovnomada ishtirok etgan murabbiylar soni, sport maktablari nomi va tadqiqot o'tkazilgan davrni kiriting.]

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bolalarni og‘ir atletikaga saralash bo‘yicha amaldagi amaliyot va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish. Saralash mezonlari guruhlarini va ularning ko‘rsatkichlarini aniqlash. Bosqichli saralash metodikasi va integral baholash formulasini ishlab chiqish.

TADQIQOT NATIJALARI VA UNING MUHOKAMASI

Adabiyotlar tahlili asosida amaldagi saralash amaliyotining uchta asosiy kamchiligi ajratildi: saralash bir martalik tekshiruv bilan cheklanadi; asosan kuch ko‘rsatkichlari baholanib, tana tuzilishi va koordinatsion qobiliyatlar yetarlicha hisobga olinmaydi; natijalarni yagona ko‘rsatkichga keltiradigan integral baholash tizimi mavjud emas. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun saralashni to‘rt mezon guruhi bo‘yicha olib borish taklif etiladi (1-jadval).

1-jadval

Og‘ir atletikaga saralash mezonlari va ularning integral bahodagi ulushi

№	Mezon guruhi	Asosiy ko‘rsatkichlar	Integral bahodagi ulushi, %
1.	Antropometrik	tana uzunligi, tana vazni, qo‘l uzunligining tana uzunligiga nisbati, vazn-bo‘y indeksi	30
2.	Jismoniy tayyorgarlik	joyidan uzunlikka sakrash, 30 m ga yugurish, tortilish, qo‘llarni bukib-yozish	35
3.	Koordinatsion va texnik layoqat	muvozanat testi, harakatni takrorlash aniqligi, gimnastik tayoq bilan harakatlar	25
4.	Psixologik	motivatsiya darajasi, diqqat barqarorligi	10

Mezonlar ulushi dastlabki taklif sifatida berilgan bo‘lib, ular ekspert baholash va pedagogik tajriba natijalari asosida aniqlashtiriladi. Taklif etilayotgan saralash metodikasi quyidagi bosqichlardan iborat.

1. **Dastlabki saralash** (umumta'lim maktablari va sport to‘garaklarida): tibbiy ko‘rik va antropometrik o‘lchovlar orqali og‘ir atletikaga mos tana tuzilishiga ega bolalarni aniqlash.

2. **Asosiy saralash** (2–3 oylik sinov mashg‘ulotlari davomida): jismoniy tayyorgarlik va koordinatsion testlarni o‘tkazish, bolaning mashg‘ulot yuklamasiga moslashuvini kuzatish.

3. **Integral baholash:** har bir ko‘rsatkichni 100 ballik shkalaga o‘tkazish, mezonlar ulushini hisobga olib umumiy ball chiqarish va bolalarni layoqat darajasi bo‘yicha (yuqori, o‘rta, past) guruhlash. Bunda bolaning tug‘ilgan oyi va biologik yetuklik darajasi ham qayd etiladi, chunki nisbiy yosh va yetuklikdagi farqlar saralash natijasiga ta'sir qiladi [3; 6].

4. **Yo‘naltirish va monitoring:** yuqori va o‘rta layoqatli bolalarni boshlang‘ich tayyorlov guruhiga qabul qilish, ularning ko‘rsatkichlarini har 6 oyda qayta baholab borish.

Integral ball quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$IB = 0{,}30 \cdot A + 0{,}35 \cdot J + 0{,}25 \cdot K + 0{,}10 \cdot P$$

bu yerda A, J, K, P — mos ravishda antropometrik, jismoniy tayyorgarlik, koordinatsion va psixologik mezonlar bo‘yicha 100 ballik shkaladagi o‘rtacha ball.

Taklif etilayotgan metodikaning afzalligi shundaki, u saralashni bir martalik tekshiruvdan uzoq muddatli kuzatuv jarayoniga aylantiradi, murabbiy qarorini aniq raqamli ko‘rsatkichlarga tayantiradi va PQ-137-son qarorda belgilangan saralash jarayonlarini raqamlashtirish vazifasi bilan uyg‘un keladi [2]. [Pedagogik tajriba natijalari mavjud bo‘lsa, shu yerga nazorat va tajriba guruhlari ko‘rsatkichlarini hamda ishonchlilik darajasini (p) kiriting.]

XULOSA

Bolalarni og‘ir atletikaga saralashning amaldagi amaliyoti ko‘pincha bir martalik va asosan kuch ko‘rsatkichlariga tayanadi, bu esa xorijiy tadqiqotlarda asoslangan dinamik yondashuv talablariga javob bermaydi. Saralashni antropometrik, jismoniy tayyorgarlik, koordinatsion va psixologik mezonlar majmuasi asosida, nisbiy yosh va biologik yetuklikni hisobga olgan holda o‘tkazish bolaning istiqbolini ancha to‘liq baholash imkonini beradi. Taklif etilgan to‘rt bosqichli metodika va integral baholash formulasi murabbiylarga layoqatli bolalarni asosli tanlash va ularni maqsadli yo‘naltirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida"gi Qonuni. 24.03.2026-yil, O‘RQ-1123-son. – https://www.lex.uz/uz/docs/-8093787

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Og‘ir atletika sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori. 20.03.2024-yil, PQ-137-son. – https://www.lex.uz/uz/docs/-6845429

3. Vaeyens R., Lenoir M., Williams A.M., Philippaerts R.M. Talent identification and development programmes in sport: current models and future directions // Sports Medicine. – 2008. – Vol. 38, No. 9. – P. 703–714. – DOI: https://doi.org/10.2165/00007256-200838090-00001

4. Johnston K., Wattie N., Schorer J., Baker J. Talent identification in sport: a systematic review // Sports Medicine. – 2018. – Vol. 48, No. 1. – P. 97–109. – DOI: https://doi.org/10.1007/s40279-017-0803-2

5. Baker J., Schorer J., Wattie N. Compromising talent: issues in identifying and selecting talent in sport // Quest. – 2018. – Vol. 70, No. 1. – P. 48–63. – DOI: https://doi.org/10.1080/00336297.2017.1333438

6. Cobley S., Baker J., Wattie N., McKenna J. Annual age-grouping and athlete development: a meta-analytical review of relative age effects in sport // Sports Medicine. – 2009. – Vol. 39, No. 3. – P. 235–256. – DOI: https://doi.org/10.2165/00007256-200939030-00005

7. Storey A., Smith H.K. Unique aspects of competitive weightlifting: performance, training and physiology // Sports Medicine. – 2012. – Vol. 42, No. 9. – P. 769–790. – DOI: https://doi.org/10.1007/BF03262294

8. Faigenbaum A.D., Kraemer W.J., Blimkie C.J., Jeffreys I., Micheli L.J., Nitka M., Rowland T.W. Youth resistance training: updated position statement paper from the National Strength and Conditioning Association // Journal of Strength and Conditioning Research. – 2009. – Vol. 23, No. 5 Suppl. – P. S60–S79. – DOI: https://doi.org/10.1519/JSC.0b013e31819df407

9. Lloyd R.S., Faigenbaum A.D., Stone M.H., Oliver J.L., Jeffreys I., Moody J.A., et al. Position statement on youth resistance training: the 2014 International Consensus // British Journal of Sports Medicine. – 2014. – Vol. 48, No. 7. – P. 498–505. – DOI: https://doi.org/10.1136/bjsports-2013-092952

10. Lloyd R.S., Oliver J.L. The Youth Physical Development Model: a new approach to long-term athletic development // Strength and Conditioning Journal. – 2012. – Vol. 34, No. 3. – P. 61–72. – DOI: https://doi.org/10.1519/SSC.0b013e31825760ea

11. Xaydarova N.R. Yosh yengil atletikachilarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari asosida saralash algoritmini ishlab chiqish // Research Focus International Scientific Journal. – 2025. – Vol. 4, No. 5. – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15665392

OLIY TA'LIMDA TARIXIY-MADANIY MEROS VOSITASIDA AXBOROT-TAHLILIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH: XALQARO TAJRIBA VA INNOVATSION METODIK YONDASHUV

Oybek Davlatov,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Maqolada tarixiy-madaniy merosdan oliy ta'lim jarayonida axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirish vositasi sifatida foydalanishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilinadi. O'zbekistonning qadimiy yozma yodgorliklari, jadidlar davri milliy matbuoti, davlat arxiv hujjatlari va mustaqillik yillari manbalari ta'limiy resurs sifatida ko'rib chiqiladi. Xalqaro pedagogik amaliyotda tarixiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan Sem Vaynbergning "Tarixchi kabi o'qish", Piter Seyksas va Tom Mortonning "Tarixiy fikrlash konsepsiyalari" modellari hamda Jorn Rusenning tarixiy ong konsepsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida tarixiy manbalar bilan ishlashga asoslangan "SMART-tarix" innovatsion didaktik modeli taklif etiladi. Model talabalarning raqamli muhitda axborotni mustaqil izlash, tizimli boshqarish, tanqidiy tahlil qilish, akademik formatda taqdim etish va analitik xulosalarni amaliyotda qo'llash kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *tarixiy-madaniy meros, axborot-tahliliy kompetensiya, manbashunoslik, tarixiy fikrlash, "SMART-tarix" modeli, Sem Vaynberg, Piter Seyksas, raqamli ta'lim, oliy ta'lim metodikasi.*

DEVELOPING INFORMATION-ANALYTICAL COMPETENCE IN HIGHER EDUCATION THROUGH HISTORICAL-CULTURAL HERITAGE: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND AN INNOVATIVE METHODOLOGICAL APPROACH

Abstract. *The article analyzes the theoretical and methodological foundations of using historical and cultural heritage as a tool for developing information-analytical competence in higher education. Uzbekistan's ancient written monuments, Jadid-era national press, state archival documents, and independence-era sources are examined as educational resources. International pedagogical concepts for developing historical thinking are analyzed, including Sam Wineburg's "Reading Like a Historian" approach, Peter Seixas and Tom Morton's "Historical Thinking Concepts" model, and Jörn Rüsen's historical consciousness concept. As a result, the innovative didactic model "SMART-History" is proposed, which is based on working with historical sources. The model serves to step-by-step develop students' competencies in independently searching for information in the digital environment, systematically managing it, critically analyzing it, presenting it in academic format, and applying analytical conclusions in practice.*

Keywords: *historical and cultural heritage, information-analytical competence, source criticism, historical thinking, "SMART-History" model, Sam Wineburg, Peter Seixas, digital education, higher education methodology.*

РАЗВИТИЕ ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ИННОВАЦИОННЫЙ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Аннотация. В статье анализируются теоретико-методологические основы использования историко-культурного наследия как средства формирования информационно-аналитической компетентности в процессе высшего образования. В качестве образовательных ресурсов рассматриваются древние письменные памятники Узбекистана, национальная пресса эпохи джадидизма, документы государственных архивов и источники периода независимости. Также анализируются международные педагогические модели, направленные на развитие исторического мышления: подход Сэма Вайнбурга «Чтение как историк» (Reading Like a Historian), концепция «Понятия исторического мышления» Питера Сейксаса и Тома Мортона, а также концепция исторического сознания Йорна Рюзена. По итогам исследования предложена инновационная дидактическая модель «SMART-History», основанная на работе с историческими источниками. Данная модель способствует поэтапному развитию у студентов компетенций по самостоятельному поиску, систематизации и критическому анализу информации в цифровой среде, а также по ее представлению в академическом формате и практическому применению аналитических выводов.

Ключевые слова: историко-культурное наследие, информационно-аналитическая компетентность, источниковедение, историческое мышление, модель «SMART-History», Сэм Вайнбург, Питер Сейксас, цифровое образование, методология высшего образования.

KIRISH

O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasi beshigi sifatida ulkan tarixiy-madaniy va boy manbashunoslik merosiga ega mamlakatdir. Xalqimizning qadimgi yozma yodgorliklari, jadidlar davri milliy matbuoti, davlat arxiv hujjatlari hamda mustaqillik yillari manbalari fundamental tarixiy bilimlar bazasi bo‘lish bilan birga, ulkan ma’naviy-tarbiyaviy va analitik salohiyatga ega unikal ilmiy meros hisoblanadi [1].

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida madaniy meros obyektlari tarixiy, ilmiy, badiiy yoki boshqa madaniy qimmatga ega bo‘lgan yodgorliklar, ansambllar va diqqatga

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

sazovor joylar sifatida belgilangan; ular qatoriga arxeologiya, epigrafika, etnografiya, fotografiya, audiovizual yozuvlar, arxiv va qo‘lyozma hujjatlar ham kiritilgan [2]. Bu holat ta’limda manbalarni bir necha kanal orqali o‘rganish imkonini beradi.

Biroq, oliy ta’lim tizimi tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur fundamental manbalarning boy ta’limiy-didaktik imkoniyatlaridan, ayniqsa, talabalarda zamonaviy axborot-analitik kompetensiyani tizimli rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish darajasi va uning metodik ta’minoti hozircha yetarli emas. Oliy ta’lim amaliyotida ushbu boy manbalar ko‘p hollarda faqat tayyor faktologik ma’lumotlarni yodlash uchun qo‘llanilib, ularning talabadagi tanqidiy fikrlashni, ma’lumotlarni interpretatsiya qilish va mustaqil analitik xulosalar chiqarish qobiliyatini o‘stirishdagi metodologik imkoniyatlari e’tibordan chetda qolmoqda [3].

METODOLOGIYA

Maqolaning dolzarbligi aynan shu ziddiyatda – milliy manbalar bazasining ulkan ta’limiy salohiyati va undan amaliy foydalanish darajasining pastligi o‘rtasidagi tafovutda namoyon bo‘ladi. Bu ziddiyat milliy manbalarni zamonaviy raqamli ta’lim formatiga ko‘chirish va ular vositasida talabalarning axborot-analitik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion metodik tizimini ishlab chiqish zaruratini tug‘diradi.

Tadqiqotning maqsadi – tarixiy-madaniy merosdan ta’lim resursi sifatida foydalanish asosida oliy ta’limda axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish va “SMART-tarix” innovatsion didaktik modelini ilmiy asoslash.

Tadqiqot vazifalari: 1) tarixiy-madaniy merosning ta’limiy axborot resursi sifatidagi xususiyatlarini aniqlash; 2) xalqaro pedagogik amaliyotda tarixiy fikrlashni rivojlantirish konsepsiyalarini tahlil qilish; 3) oliy ta’limda tarixiy manbalar bilan ishlashning hozirgi holatini baholash; 4) “SMART-tarix” didaktik modelining tarkibiy tuzilmasini va metodik shartlarini ishlab chiqish; 5) manbaga asoslangan amaliy topshiriqlar tizimini taklif qilish.

Tadqiqot metodologiyasi nazariy-analitik xususiyatga ega bo‘lib, unda ilmiy adabiyotlar va rasmiy hujjatlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, manbashunoslik yondashuvi, tizimli yondashuv hamda pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

1. Tarixiy-madaniy merosning ta’limiy axborot resursi sifatidagi xususiyatlari

Tarixiy-madaniy meros tushunchasi moddiy obyektlar bilan cheklanmaydi. UNESCOning nomoddiy madaniy merosga oid yondashuvida an’ana, bilim va ko‘nikmalarning avlodlararo uzatilishi ta’lim bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida qaraladi. UNESCO ta’lim nomoddiy merosni asrashga xizmat qilishi, nomoddiy meros esa ta’lim mazmuni va pedagogikasini kontekstuallashtirishi mumkinligini ta’kidlaydi [4; 5].

Mazkur manbalarni ta’lim jarayonida shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1) Moddiy meros – arxeologik va me’moriy obyektlar, amaliy-badiiy buyumlar. Bu obyektlar vizual va predmetli axborot manbai sifatida ta’lim oluvchining kuzatish, tasvirlash va interpretatsiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2) Nomoddiy meros – urf-odat, og‘zaki an’ana, musiqa, raqs, marosim va bilim-ko‘nikmalar. Nomoddiy meros ta’lim oluvchini kontekstual tahlilga, madaniy kodlarni tushunishga va an’analarning tarixiy ildizlarini izlashga undaydi.

3) Hujjatli va ilmiy-tarixiy meros – arxiv hujjatlari, qo‘lyozmalar, kitoblar, ilmiy, tarixiy, biografik va geokosmografik asarlar. Bu guruh matnli tahlil, manba tanqidi va dalillarni baholash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun eng boy materialni taqdim etadi [2; 4; 6].

UNESCOning 2015 yilda qabul qilingan hujjatli merosni saqlash va undan foydalanishga oid tavsiyasi hujjatli merosni inson tafakkuri, tarix, til va madaniyat taraqqiyotini qayd etuvchi muhim bilim resursi sifatida ko‘radi. Hujjatli merosning raqamli shakllarini uzoq muddat saqlash va ularga kirishni ta’minlash ham alohida vazifa sifatida belgilangan [6].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tarixiy-madaniy merosni ta'limga integratsiya qilishda UNESCO "meros haqida o'qitish" (teaching about heritage) va "meros bilan o'qitish" (teaching with heritage) o'rtasida muhim farq qiladi: birinchi holatda merosning o'zi o'rganish obyekti bo'lsa, ikkinchi holatda meros boshqa fan va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ta'limiy resurs sifatida ishlatiladi [5]. Axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirish nuqtai nazaridan ikkinchi yondashuv ayniqsa ahamiyatli, chunki ta'lim oluvchi meros obyekti yoki hujjati bilan ishlash jarayonida axborotni tahlil qilish amaliyotini bevosita egallaydi.

2. Xalqaro pedagogik amaliyotda tarixiy fikrlashni rivojlantirish konsepsiyalari

Dunyo pedagogikasi va tarix ta'limi amaliyotida tarixiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga oid qator nufuzli ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqilgan.

Sem Vaynbergning "Tarixchi kabi o'qish" (Reading Like a Historian) yondashuvi. Stanford universiteti professori Sem Vaynberg tarixiy manbalarni o'qishning uchta asosiy strategiyasini ajratadi: sourcing (manbani aniqlash – kim yozgan, qachon, nima maqsadda), corroboration (tasdiqlash – boshqa manbalar bilan solishtirish) va contextualization (kontekstuallashtirish – voqeani tarixiy kontekstga joylashtirish) [7]. Vaynberg tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, professional tarixchilar va oddiy o'quvchilar manbalar bilan ishlashda tubdan farq qiladi: tarixchilar avvalo manbaning kelib chiqishini tekshiradi, o'quvchilar esa matnni darhol "haqiqat" sifatida qabul qilishga moyil. "Tarixchi kabi o'qish" yondashuvi aynan shu farqni bartaraf etishga qaratilgan.

Piter Seyksas va Tom Mortonning "Tarixiy fikrlash konsepsiyalari" (Historical Thinking Concepts) modeli. Kanadalik olimlar oltita asosiy konsepsiyani ajratadilar: tarixiy ahamiyatni baholash (historical significance), birlamchi manbalardan dalil sifatida foydalanish (evidence), uzluksizlik va o'zgarishni aniqlash (continuity and change), sabab va oqibatni tahlil qilish (cause and consequence), tarixiy empatiya (historical perspective-taking) va tarixiy axloqiy mulohaza (ethical dimension of history) [8]. Bu model tarixiy manbalar bilan ishlashni faqat faktlarni o'rganish bilan cheklamaydi, balki murakkab intellektual operatsiyalar tizimini shakllantiradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Jorn Rusenning tarixiy ong konsepsiyasi. Nemis tarixchisi va pedagogi Jorn Rusen tarixiy ongning uchta asosiy operatsiyasini belgilaydi: tajribani interpretatsiya qilish, o‘tmishni ma’noli tarzda tushunish va kelajakka yo‘naltirilgan xulosa chiqarish. Rusen fikricha, tarixiy ong shaxsning o‘zini vaqt ichida joylashtirish va o‘tmish tajribasidan hozirgi va kelajakdagi qarorlar uchun foydalanish qobiliyatidir [9].

MUHOKAMA

Mazkur fundamental yondashuvlarning umumiy jihati shundaki, ular tarixiy manbalar orqali shakllanadigan analitik va tanqidiy ko‘nikmalar talabaning kelgusidagi boshqa kasbiy va ijtimoiy faoliyat sohalariga ham muvaffaqiyatli transfer qilinishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Ya’ni, manba tanqidi, dalillarni baholash va kontekstual tahlil ko‘nikmalari nafaqat tarix fanida, balki huquq, jurnalistika, boshqaruv, tibbiyot va boshqa sohalarda ham qo‘llanilishi mumkin.

3. Oliy ta’limda tarixiy manbalar bilan ishlashning hozirgi holati

Oliy ta’lim amaliyotini o‘rganish va o‘tkazilgan diagnostik tahlillar natijalari bugungi kunda talabalarning birlamchi tarixiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmalari hamda axborot-analitik kompetensiya darajasi tizimli va yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatmoqda [3].

Talabalarning salmoqli qismi raqamli muhitda axborotni tanqidiy tahlil qilish, manbalarning haqiqiyligi va ishonchliligini baholash, turli formatdagi ma’lumotlarni integratsiyalash hamda mustaqil ilmiy-analitik xulosalar chiqarish borasida jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Professor-o‘qituvchilarning aksariyati esa oliy ta’lim darslarida birlamchi tarixiy manbalar bilan ishlashning innovatsion metodikasi hamda zamonaviy raqamli vositalardan didaktik maqsadlarda foydalanish bo‘yicha yaxlit metodik ta’minot va konseptual modellar mavjud emasligini qayd etishadi [3].

Bu holat quyidagi obyektiv sabablar bilan izohlanadi: birinchidan, an’anaviy ta’limda tarixiy manbalar ko‘pincha “tayyor fakt” sifatida taqdim etiladi va talabadan mustaqil tahlil talab qilinmaydi; ikkinchidan, raqamli arxivlar va elektron manbalar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bazasidan didaktik maqsadlarda foydalanish metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan; uchinchidan, tarixiy manbalar bilan ishlashni axborot-analitik kompetensiya bilan bog‘lovchi konseptual model mavjud emas.

4. “SMART-tarix” innovatsion didaktik modeli

Yuqoridagi tahlillar asosida muallif tomonidan “SMART-tarix” didaktik modeli ishlab chiqildi. Modelning nomi har bir bosqichning bosh harflaridan tashkil topgan bo‘lib, quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega:

S – Search (Izlash): Ta’lim oluvchi raqamli va an’anaviy muhitda tarixiy manbani maqsadli izlashni o‘rganadi. Bu bosqichda qidiruv strategiyasini belgilash, kalit so‘zlarni tanlash, elektron kataloglar, raqamli arxivlar va ilmiy bazalardan foydalanish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

M – Manage (Boshqarish): Topilgan manbalar tizimlashtiriladi, bibliografik ma’lumotlar qayd etiladi, manbalar turlari (birlamchi/ikkilamchi, moddiy/nomoddiy/hujjatli) bo‘yicha tasniflanadi. Bu bosqich axborotni tartibga solish va boshqarish madaniyatini shakllantiradi.

A – Analyze (Tahlil qilish): Manbaning muallifi, yaratilish sharoiti, maqsadi, konteksti va dalillar bazasi tanqidiy tahlil qilinadi. Vaynbergning sourcing, corroboration va contextualization strategiyalari aynan shu bosqichda qo‘llaniladi [7]. Ta’lim oluvchi matndagi faktlarni muallif talqinidan ajratadi, qarama-qarshi ma’lumotlarni aniqlaydi va manbaning ishonchlilik darajasini baholaydi.

R – Represent (Taqdim etish): Tahlil natijalari akademik uslubda – maqola, esse, taqdimot yoki infografika shaklida bayon etiladi. Bu bosqich ilmiy yozuv madaniyatini, argumentatsiya ko‘nikmasini va axborotni vizual taqdim etish qobiliyatini rivojlantiradi.

T – Transfer (Qo‘llash): Olingan analitik xulosalar va shakllangan ko‘nikmalar boshqa kontekstlarga – yangi tarixiy masalalarga, zamonaviy axborot muhitiga yoki kasbiy faoliyatga transfer qilinadi. Bu bosqich Rusenning tarixiy ong konsepsiyasiga mos

kelib, o‘tmish tajribasidan hozirgi va kelajakdagi qarorlar uchun foydalanish qobiliyatini shakllantiradi [9].

“SMART-tarix” modeli bosqichma-bosqich xarakterga ega bo‘lib, har bir keyingi bosqich oldingisiga asoslanadi. Modelning asosiy pedagogik xususiyati shundaki, u tarixiy-madaniy merosni faqat tarbiyaviy mazmun sifatida emas, balki axborot bilan ishlashni o‘rgatuvchi “tirik” o‘quv resursi sifatida ko‘radi. Bunda tarixiy obyekt yoki hujjat ta’lim oluvchi uchun tayyor xulosa emas, balki savol qo‘yish va dalil izlashga undaydigan manbaga aylanadi.

5. Manbaga asoslangan amaliy topshiriqlar tizimi

“SMART-tarix” modeli doirasida axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirish uchun quyidagi topshiriqlar tizimi taklif etiladi:

“Manbani aniqla” (S bosqichi): Obyekt, hujjat yoki folklor namunasining nomi, turi, yaratilgan vaqti, joyi va saqlanish manbaini aniqlash. Ta’lim oluvchi raqamli katalog yoki arxiv orqali manbani mustaqil topadi.

“Manba pasporti” (M bosqichi): Muallif, yaratuvchi/ijodkor, manbaning maqsadi, auditoriyasi, janri va konteksti bo‘yicha qisqa pasport tuzish. Manba birlamchi yoki ikkilamchi ekanligi belgilanadi.

“Ikki manba – bir masala” (A bosqichi): Bir voqeaga oid ikki manbani qiyoslash va o‘xshash hamda farqli da’volarni jadvalashtirish. Ta’lim oluvchi Seyksas va Morton modelidagi “dalil” (evidence) konsepsiyasidan foydalanadi [8].

“Dalil va talqin” (A bosqichi): Manbadagi faktga oid ma’lumotlarni muallifning talqini yoki bahosidan ajratish. Bu Vaynbergning contextualization strategiyasiga asoslanadi [7].

“Raqamli tekshiruv” (A bosqichi): Internetda uchraydigan tarixiy ma’lumotni rasmiy muzey, arxiv, ilmiy nashr yoki institutsional katalog bilan tekshirish. UNESCO hujjatli merosni analog va raqamli shakllarda saqlash masalasini alohida ko‘rsatganligi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

sababli [6], ta'lim oluvchi raqamli nusxaning asl manbaga munosabatini ham tahlil qilishi lozim.

"Akademik taqdimot" (R bosqichi): Tahlil natijalarini 500–800 so'zli ilmiy esse yoki taqdimot shaklida bayon etish, barcha da'volarni manbalar bilan asoslash.

"Mini-tadqiqot" (T bosqichi): Ta'lim oluvchi mustaqil tadqiqot savolini qo'yadi, kamida birlamchi va ikkilamchi manbalardan foydalanadi, dalillarini tizimlaydi va xulosa chiqaradi. Olingan ko'nikmalarni zamonaviy axborot muhitidagi boshqa masalalarga (masalan, ijtimoiy tarmoqdagi tarixiy kontentning ishonchliligini baholash) qo'llaydi.

Bunday topshiriqlar ta'lim oluvchini tayyor ma'lumotni qayta bayon qilishdan tadqiqotga yaqin bo'lgan faoliyatga olib o'tadi. UNESCOning nomoddiy meros bilan o'qitish bo'yicha materiallarida ham mahalliy meros elementlarini turli fanlarga integratsiya qilish orqali o'quv mazmunini kontekstuallashtirish va ta'lim natijalarini boyitish imkoniyati ko'rsatilgan [4; 10].

XULOSA

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy va manbashunoslik merosi oliy ta'limda axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirish uchun ulkan, ammo hali to'liq ishga solinmagan pedagogik resurs hisoblanadi. Xalqaro pedagogik konsepsiyalar – Vaynbergning "Tarixchi kabi o'qish", Seyksas va Mortonning "Tarixiy fikrlash konsepsiyalari" va Rusenning tarixiy ong nazariyasi – tarixiy manbalar bilan ishlashning universal intellektual ko'nikmalarni shakllantirishdagi funksional o'rnini ilmiy jihatdan isbotlagan.

Maqolada taklif etilgan "SMART-tarix" innovatsion didaktik modeli (Search – Manage – Analyze – Represent – Transfer) tarixiy manbalarni axborot-analitik kompetensiya rivojlantirish vositasiga aylantirishning tizimli mexanizmini taqdim etadi. Modelning asosiy pedagogik g'oyasi tarixiy-madaniy merosni "tirik" o'quv resursi

sifatida ko‘rishdan iborat: tarixiy hujjat yoki obyekt tayyor xulosa emas, balki savol qo‘yish, dalil izlash va mustaqil fikrlashga undaydigan manbadir.

Kelgusida ushbu modelni oliy ta’lim muassasalarida tajriba-sinov asosida tekshirish, uning samaradorligini eksperimental baholash, shuningdek, raqamli ta’lim platformalari uchun “SMART-tarix” modeliga asoslangan interaktiv topshiriqlar bazasini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Fan, 2020. – 680 b.
2.O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”, 269-II-son, 30.08.2001; amaldagi tahrir. LexUZ. https://www.lex.uz/uz/acts/-25461
3.Davlatov, O.G‘. Talabalarda axborot xavfsizligini ta’minlash kompetentligini tarixiy-madaniy meros vositasida rivojlantirish: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – T., 2018. – 177 b.
4.UNESCO. Safeguarding Intangible Cultural Heritage in Education. – UNESCO Intangible Cultural Heritage. https://ich.unesco.org/en/education
5.UNESCO. About Living Heritage and Education. – UNESCO Intangible Cultural Heritage. https://ich.unesco.org/en/about-01159
6.UNESCO. Recommendation concerning the Preservation of, and Access to, Documentary Heritage Including in Digital Form. Adopted 17 November 2015. https://unesdoc.unesco.org/
7.Wineburg, S. Historical Thinking and Other Unnatural Acts: Charting the Future of Teaching the Past. – Philadelphia: Temple University Press, 2001. – 254 p.
8. Seixas, P., Morton, T. The Big Six Historical Thinking Concepts. – Toronto: Nelson Education, 2013. – 232 p.
9.Rüsen, J. Historical Consciousness: Narrative Structure, Moral Function, and Ontogenetic Development // Historical Thinking: Concepts and Practices / Ed. by P. Seixas. – Toronto: University of Toronto Press, 2004. – P. 63–85.
10. Pillai, J., Achilles, V. Learning with Intangible Heritage for a Sustainable Future: Guidelines for Educators in the Asia-Pacific Region. – UNESCO Bangkok Office, 2015. https://ich.unesco.org/en/documents/learning-with-intangible-heritage-for-a-sustainable-future-guidelines-for-educators-in-the-asia-pacific-region-47687
11. Davlatov, O.G‘. Tarixiy-madaniy meros vositasida talabalarda axborot xavfsizligini ta’minlash kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi. – T.: Fan va ta’lim poligraf, 2019. – 62 b.
12. Association of College and Research Libraries (ACRL). Framework for Information Literacy for Higher Education. Adopted January 11, 2016. – American Library Association. https://www.ala.org/acrl/standards/ilframework

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

13. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers / Wilson, C., Grizzle, A., Tuazon, R., Akyempong, K., Cheung, C.K. – UNESCO, 2011. – ISBN 978-92-3-104198-3. https://www.unesco.org/en/articles/media-and-information-literacy-curriculum-teachers

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA HAMKORLIKNI YO'LGA QO'YISH TEXNOLOGIYASI

Sobirova Mahbuba Yusupdjanovna,
pedagogika fanlari doktori, professor.
Namangan davlat pedagogika instituti
+99899-519-05-54 *davronjon.uzb@gmail*

Annotatsiya: *maqolada raqamli vositalar, onlayn platformalar va mobil ilovalarning ko'payishi bilan endi interaktiv, moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribalaridan misli ko'rilmagan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lingani, mamlakatimizda ham ta'lim tizimini sun'iy intellekt asosida yangilashga qaratilgan izchil sa'y-harakatlar, bu borada olib borilgan tadqiqotlar, kelgusida qilinadigan vazifalar, mobil texnologiyalarning didaktik va uslubiy vazifalari, sun'iy intellektga asoslangan individual ta'limning metodik tizimi kabi masalalar yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, raqamli vositalar, onlayn platformalar, mobil ilovalar, mobil texnologiyalarning didaktik va uslubiy vazifalari, sun'iy intellektga asoslangan individual ta'lim, metodik tizim.*

ТЕХНОЛОГИЯ НАЛАЖИВАНИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА НА ОСНОВЕ ИСКУСТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация: *в статье освещаются такие вопросы, как беспрецедентные возможности использования интерактивного, гибкого и персонализиро- ванного опыта обучения, появившиеся благодаря росту числа цифровых средств, онлайн-платформ и мобильных приложений; последовательные усилия, направленные на обновление системы образования в нашей стране на основе цифровых технологий; проведённые в этой области исследования и задачи на перспективу; дидактические и методические функции мобильных технологий; методическая система индивидуального обучения на основе искусственного интеллекта.*

Ключевые слова: *цифровые средства, онлайн-платформы, мобильные приложения, дидактические и методические функции мобильных технологий, индивидуальное обучение на основе искусственного интеллекта, методическая система.*

TECHNOLOGY FOR ESTABLISHING COOPERATION BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Abstract: *the article examines the unprecedented opportunities for interactive, flexible, and personalized learning experiences that have emerged with the proliferation of digital tools, online platforms, and mobile applications; the consistent efforts aimed at modernizing the education system in our country on the basis of digital technologies; research conducted in this area and tasks for the future; the didactic and*

methodological functions of mobile technologies; and the methodological system of individualized learning based on artificial intelligence.

Keywords: *digital tools, online platforms, mobile applications, didactic and methodological functions of mobile technologies, AI-based individualized learning, methodological system.*

KIRISH

Ma'lumki, o'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday kechishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish, qay tarzda olib borish kerakligini belgilab beradi. Jahonda rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya vositalarining keng qo'llanishi natijasida yuz berayotgan globallashuv jarayoni mustaqil o'zlashtirishga bo'lgan talabni yanada kuchaytirmoqda. Raqamli vositalar, onlayn platformalar va mobil ilovalarning ko'payishi bilan endi interaktiv, moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribalaridan misli ko'rilmagan foydalanish imkoniyatiga ega bo'linmoqda. Axborot-kommunikatsiya vositalarining til o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qilib, o'rganuvchilarga istalgan vaqtda, istalgan joyda mashq qilish imkonini beradi.

Virtual sinflardan tortib til o'rganish ilovalarigacha texnologiya integratsiyasi an'anaviy usullarni o'zgartirib yubordi. Bu odamlarga tilni o'zlashtirishni osonlashtirdi va bugungi o'zaro bog'langan dunyoda o'zlarining lingvistik ko'nikmalarini oshirishda mobil ilovalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi.

Dunyo miqyosida axborot texnologiyasining rivojlanishi nafaqat ona tilini, hatto chet tilini o'rganishda katta ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa ta'lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qilish imkonini beradi. Tillarni o'rganish va o'rgatish maqsadida axborot texnologiyalardan keng qo'llanilmoqda, jumladan, mobil texnologiyalardan keng foydalanilib, bu boradagi mavjud muammolar jadal sur'atlar bilan tadqiq etilmoqda. Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya, Hindiston, Afrika, Rossiya, Germaniya, Avstraliya, Xitoy masofaviy ta'lim markazi kabi tashkilotlar ushbu sohada yetakchi bo'lib, ta'lim jarayonlarini masofadan boshqarish va texnologiyalardan keng foydalanishni ta'minlashga katta hissa qo'shishmoqda. Shu sababli, ta'limga mo'ljallangan mobil



ilovalarni ishlab chiqish va tatbiq etish metodologiyasini takomillashtirishga, pirovardida yanada dinamik va jozibador o‘quv muhitini yaratish ustida jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyati bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizda ham ta’lim tizimini raqamli texnologiyalar asosida yangilashga qaratilgan izchil sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda. “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi”. Yangi O‘zbekistonning ertangi kuni egalari bo‘lgan yoshlarning tarbiyasi bugungi zamonaviy ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligiga bog‘liq. O‘zbekistonda ta’lim tizimiga doir islohotlar doirasida oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “Ta’lim sifatini yaxshilash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini jadallashtirish va o‘qitish usullarini takomillashtirish”[1], raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ularning iqtisodiyotning rivojlanishiga munosib hissa qo‘shishi, ta’lim tizimidagi islohotlar natijasida oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bundan kelib chiqadiki, oliy ta’lim tizimida bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘qitishning multimediali kompyuter texnologiyalarni qo‘llash kechiktirib bo‘lmas vazifa hisoblanadi.

Mamlakatimizda A.Abduqodirov[2], M.Fayziyeva[3], D.Sultanova[4], M.Avazmatova[5], A.Nurmatov[6], M.Sobirova[14,15,16,17,18,19,20] va boshqa pedagog-olimlar va tadqiqotchilar o‘z ilmiy izlanishlari doirasida masofaviy tarzda o‘qitishning afzalliklari, masofaviy ta’lim asosida o‘qitish masalalari, o‘qitish vositalari, metodik tamoyillarni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Xorijiy mamlakatlarda mobil o‘qitish yuzasidan A.Kukulska-Hulme[7], Dorian B.Brown[8], Christopher G.Krueger[9], B.Klimova[10], F.Q.Kasi[11], B.Reichelt[12] va

boshqa ko‘plab pedagog-olimlar hamda tadqiqotchilar tomonidan ta’lim samaradorligini oshirish bilan bog‘liq bir qator muammoga bag‘ishlangan nazariy-metodologik va eksperimental tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada raqamli vositalar, onlayn platformalar va mobil ilovalarning ko’ayishi bilan endi interaktiv, moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan o‘rganish tajribalaridan misli ko‘rilmagan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lingani, mamlakatimizda ham ta’lim tizimini sun’iy intellekt asosida yangilashga qaratilgan izchil sa’y-harakatlar, bu borada olib borilgan tadqiqotlar, kelgusida qilinadigan vazifalar, mobil texnologiyalarning didaktik va uslubiy vazifalari, sun’iy intellektga asoslangan individual ta’limning metodik tizimi kabi masalalar o‘rganiladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tahlillar ko‘rsatishicha, mobil o‘qitish orqali o’quvchilarda mustaqil o‘zlashtirish samaradorligini oshirishda bir qator vazifalar qo‘yish va uning yechimlarini topish zarur. Bu vazifalar quyidagilardan iborat:

- o’quvchilarga mutaxassislik fanlarini o‘qitish muammosini pedagogik-psixologik va metodik nuqtai nazardan o‘rganish, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash hamda axborot-didaktik talab hamda ta’minotini mazmunan takomillashtirish;
- o’quvchilarga mobil o‘qitishning maqsadi, shakli, integratsion modelini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;
- mobil ilova yordamida o’quvchilarga beriladigan mustaqil ta’lim topshiriqlarining blended-learning, flipped-learning texnologoyalarga asoslangan o‘quv-metodik va didaktik ta’minotini ishlab chiqish;
- sun’iy intellekt elementlariga asoslangan didaktik modelni takomillashtirish hamda mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etishning samaradorligini aniqlash.

O’qituvchining o’z bilganlarini o’quvchilariga yetkaza olish darajasigina emas, hatto uning o’zini tutishi, nutqi ham katta ahamiyat kasb etadi. M.V.Klarin bu haqda



shunday deydi: «o'qituvchi tomonidan qo'llanadigan pauzaning davomiyligi singari «mayda narsa» o'quv dialogining, sinfdagi o'zaro hamkorlikning xarakteriga sezilarli ta'sir o'tkazadi.» Psixolog-metodist Ye.V.Korotaeva bu mavzuga doir shunday yozadi: «Agar «javobni kutuvchi pauza» o'qituvchi tomonidan uch sekunddan besh sekundgacha cho'zilsa, mulohazalar soni ortadi, javoblarning davomiyligi ko'payadi, o'quvchilarning o'zlariga bo'lgan ishonchlari ko'tariladi, ularning mulohazalarida dalillar kuchayadi, muhokamaga o'qish darajalari unchalik yuqori bo'lmagan o'quvchilar ham qo'shila boshlaydi, bolalar orasidagi o'zaro hamkorlik kuchayadi va boshqalar.» Bugungi kun o'qituvchisi o'qitish samaradorligiga erishishda o'qituvchining o'quvchilar bilan, o'quvchilarning o'quvchilar bilan o'zaro sherikligi qanday o'rin tutishini; adabiy ta'lim, birinchi navbatda, o'quvchilarning tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatish orqali ularda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirish vositasi ekanini chuqur anglashi kerak.

Insoniyat bilim olish va bilim berishning shunday bosqichiga yetdiki, endilikda necha ming yillardan buyon foydalanib kelinayotgan o'qitish usullari yetarli bo'lmay qoldi. Bugun o'qitishning turli-tuman innovatsion ko'rinishlari yuzaga kelmoqda.

Bugun mobil texnologiyalar zamonaviy ta'limda muhim o'rin egallab, o'quv jarayonini samaradorlik va moslashuvchanlik jihatidan yangi darajaga olib chiqmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mobil ta'lim texnologiyalari ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning bilimlarni qabul qilish jarayonini tezlashtirishga qodir. Mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda "mobil ta'lim" kabi iboralarning turli xil tushunchalarini topish mumkin.

YUNESKO materiallarida mobil ta'lim quyidagicha ta'riflangan: "Noutbuklar, MP3 pleerlar, smartfonlar va mobil telefonlar[12] kabi mobil texnologiyalar orqali ta'limni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy usullari", Kuklev V.A tadqiqotlarida "o'quvchining joylashuvi yoki o'zgarishi bilan cheklanmagan mobil qurilmalardan foydalangan holda elektron ta'lim", D.V.Pogulyayev mobil ta'limni "mobil hisoblash qurilmalari va simsiz

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

aloqadan foydalanishga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish shakli" kabi ta’riflar va ilmiy fikrlar keltirilgan. Xorijiy mualliflar El-Hussein, M., & Cronje, J. mobil ta’lim - bu o‘quvchi qurilmasi uzluksiz uzatish signallarini qabul qila oladigan joyda cho‘ntagiga solib qo‘yilishi mumkin bo‘lgan simsiz texnologik qurilmalar yordamida o‘rganishdir. Bernacki,M., Greene, J., & Crompton, H. «mobil ta’lim bir nechta kontekstlarda ta’lim olish, ommaviy axborot vositalari, o‘qituvchilar, tengdoshlar, ekspertlar va butun dunyo bilan muloqot qilish uchun shaxsiy elektron qurilmalardan foydalanish» deb ta’riflagan. V.A.Bekmansurova, mobil ta’lim - bu zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun o‘quv, ilmiy va boshqaruv faoliyatini integratsiyalashgan holda ta’lim faoliyatini kompleks, tizimli axborotlashtirishni tashkil etish va hal qilish, deb takidlagan.

Bizningcha, mobil ta’lim masofaviy ta’limning bir texnologiyasi bo‘lib, mobil qurilmalardan foydalangan holda mustaqil o‘zlashtirishga mo‘ljallangan fanlarni mustaqil o‘rganish jarayonidir. U o‘rganuvchilarga istalgan vaqtda va istalgan joyda o‘qish imkoniyatini beradi. Xususiyatlarga interaktiv viktorinalar, o‘yinlar, moslashtirilgan darslar, multimedia integratsiyasi va real vaqtda fikr-mulohazalar kiradi. Mobil ilovalar ko‘pincha ijtimoiy o‘rganish imkoniyatlarini, motivatsiya uchun o‘yinlarni va iqtisodiy jihatdan samarali yechimlarni taqdim etib, til o‘rganishni moslashuvchan, qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

O‘quvchilar mobil qurilmalar orqali o‘quv materiallariga istalgan joyda va vaqtda kirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa ta’lim jarayonini moslashuvchan va qulay qiladi.

Mobil texnologiyalar orqali o‘quv materiallarini matn, grafik, video va audio shakllarida saqlash va uzatish mumkin, bu esa o’quvchilarning turli ta’lim uslublariga moslashish imkoniyatini beradi.

O'quvchilar o'quv materiallariga sharhlar qoldirish yoki tarkibni o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa o'quv jarayonining interaktiv va dinamikligini ta'minlaydi.

Mobil qurilmalar axborot va ma'lumot manbalari sifatida xizmat qiladi, o'quvchilarga tez va qulay ko'rinishda kerakli ma'lumotlarni topishlariga va ulardan foydalanishga imkoniyatni beradi.

Mobil texnologiyalarning didaktik vazifalari quyidagilar:

O'quv materiallarini raqamli shaklda saqlash, ulashish va tahlil qilish orqali ta'lim jarayonining axborotlashuvini ta'minlash.

O'quvchilar onlayn forumlar, chatlar va boshqa tarmoq vositalari orqali bilimlarni almashishlari, boyitishlari va muhokamalar o'tkazishlari mumkin.

O'quvchilar guruhda yoki individual ravishda loyihalar ustida ishlashlari, natijalarni baham ko'rishlari va o'z loyihalarini taqdim etishlari mumkin.

Mobil texnologiyalar yordamida o'quvchilar tez va samarali ravishda kerakli ma'lumotlarni qidirishlari hamda tadqiqot ishlarini olib borishlari mumkin.

O'quvchilar mobil qurilmalar orqali mustaqil ravishda o'qishlari va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.

Mobil texnologiyalar yordamida o'quvchilar birgalikda o'rganish va hamkorlikda bilim olish jarayonini amalga oshiradilar.

Interaktiv ilovalar va vositalar yordamida o'quvchilar bilim olish jarayonida faolroq ishtirok etadilar.

Mobil texnologiyalar yordamida o'quvchilar o'z sohalarida kerakli kasbiy ko'nikmalarni rivojlantiradilar va amaliyotda qo'llaydilar.

Mobil texnologiyalarning uslubiy funksiyalari:

Nutq faoliyatining mahsuldorligi (gapirish, yozish) va retseptiv (tinglash va o'qish) turlarini rivojlantirish. Mobil texnologiyalar orqali o'quvchilarga gapirish va yozishni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari taqdim etiladi, shuningdek, tinglash va o'qish

ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Interaktiv ilovalar va audio-video materiallar yordamida bu ko‘nikmalar samarali rivojlantiriladi.

Mobil ilovalar yordamida o’quvchilar grammatik qoidalar va leksik birliklarni amaliyotda qo‘llash orqali mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ilovalar tezkor fikr-mulohaza va mashqlar bilan o’quvchilarga o‘z bilimlarini sinab ko‘rishga va yaxshilashga yordam beradi.

Kasbiy faoliyatga oid so‘z boyligini oshirish bugungi kunda mobil ilovalar orqali yanada osonlashmoqda. Mobil ilovalar foydalanuvchilarga soha bo‘yicha maxsus lug‘atlar, atamalar, va professional iboralarni o‘z ichiga olgan interaktiv darslar va mashqlar taqdim etadi. Bu jarayon nafaqat lug‘at boyligini oshirishga, balki kasbiy terminlarni o‘zlashtirishga va ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

Sun’iy intellektga asoslangan individual ta’limning quyidagi metodik tizimi mustaqil ta’lim samaradorligini oshiradi:



Sun’iy intellektga asoslangan individual ta’limning metodik tizimi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

O'quvchilarga og'zaki va yozma nutq, leksik va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mobil o'quv materiallarining pedagogik-psixologik va metodik jihatlari, pedagogik shart-sharoitlari, axborot-didaktik talablari asosida istalgan joyda va vaqtda kirish, shaxsiylashtirilgan darslar, interaktiv mashg'ulotlarda fikr almashinish imkonini beruvchi mobil o'quv dasturiy ta'minotning yaratilishi; Blended-learning, Flipped-learning texnologiyalariga asoslangan mobil ilova, onlayn vositalar (Kahoot, Quizlet, Padlet, Jamboard), multimedia resurslari yordamida mustaqil ta'limni qiziqarli va samarali tarzda tashkil etishga ustuvorlik berish asosida o'quv-metodik va didaktik ta'minotning takomillashtirilishi Respublikamizda yuksak malakali, mustaqil qaror qabul qila oladigan, tanqidiy fikrlovchi, zamonaviy texnologiyalarga tez moslashadigan va mas'uliyatli mutaxassislarini tayyorlashda qo'l keladi. Mutaxassislar tomonidan raqamli texnologiyalar asosida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini takomillashtiruvchi mobil ilovalarning yaratilishi bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga hamda zamon talabi darajasidagi yetuk kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

XULOSALAR

Sun'iy intellekt asosida hamkorlikni yo'lga qo'yish quyidagi natijalarni beradi:

- o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlar shaklanishiga sabab bo'ladi;
- har qanday badiiy asarni o'quv yoki ilmiy tahlilga torta olish imkoni tug'iladi;
- saboqlarda noyob asarlar borasidagi qarashlarning bir xil emasligi anglanadi;
- o'rganilayotgan asar yuzasidan aytilgan fikr-mulohazalarni, ularga qo'shilmagan taqdirda ham, xotirjam qabul qila olish ko'nikmalari shakllanadi;
- badiiy asardagi muhim unsurlarni nomuhimlaridan ajrata olish malakalari rivojlanadi.

Hamkorlikni yo'lga qo'yish jarayonida quyidagi tavsiyalar e'tiborga olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

- boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus ta'lim bosqichlarida sun'iy intellekt asosida samarali adabiy ta'lim metodlarini qo'llash malakasini shakllantirish;

- hamkorlikda o'qitish usullarini qo'llay olish malakasini o'qituvchilarda shakllantirish;

-istalgan bilim darajasiga ega auditoriya o'quvchilari bilan o'qituvchining aloqaga kirisha bilish;

- hamkorlikda o'qitish usullarini muntazam takomillashtirib borish;

-hamkorlikda o'qitish jarayonida sun'iy intellekt asosida o'quvchilar bilimini xolis baholay bilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24- yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O"zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to"g"risida"gi Farmoni.
2. Abduqodirov A., Pardayev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – T., "Fan", 2009. – B. 28-33.
3. Fayziyeva M. O'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimni yaratishning ilmiy-metodik asoslari/ Monografiya. – T., «Sano-standart», 2016. – B. 48-50.
4. Sultonova D. Analysis of useful methods of distance learning//Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Vol. 1, Iss. 8. 2021. – P. 236-240.
5. Avazmatova M.M. Ingliz tilini o'qitishda an'anaviy va onlayn ta'lim samaradorligini oshirish metodikasi. (Phd). Diss. – Ch.2023. – 159 b.
6. Nurmatov A.Y. Masofaviy ta'limda ingliz tilini o'qitish metodikasi. (PhD) diss.avtoref. – T., 2024. – 63 b.
7. Kukulska-Hulme A, Will mobile learning change language learning?. Cambridge University Press, - (2) 21, 2009. P. 157-169.
8. Dorian B.Brown, Mobile learning for communicative language teaching: an exploration of how higher education language instructors design communicative mall environments // Dissertation, - The University of Memphis, 2014. P. 138-145.
9. Christopher G. Krueger, Exploring the relationship between the instructional use of mobile technology and social media and student foreign language learning // Dissertation, - University of Massachusetts, 2014. P.40-50.
10. B.Klimova, Mobile application for foreign language learning by cognitively unimpaired seniors // Procedia, - Computer Science, 2023. P. 218.
11. F.Q.Kasi, Meta-analysis of the effects of mobile apps' interventions on second language

learners// Dissertation, - Indiana University of Pennsylvania, 2023. P. 42-58.
12. B.Reichelt, College-level foreign language instructor's perceptions on the incorporation of mobile technology devices and their learning applications in curricula: a collective case study // Dissertation, - Liberty University, 2023. P. 32-70.
13. YUNESKO ICT in Education. Mobile Education. www.unesco.org/new/en/unesco/themes/icts/m4ed
14. Sobirova M. Tillarni o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaralari. "Oliy ta'limda tillarni o'qitishning zamonaviy tendensiyalari: yangicha yondashuv va tadqiqotlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konf. materiallari. 1-to'plam. – Namangan. 28-fevral 2025-yil. – B. 74-80.
15. Sobirova M. Antroposentrik yondashuv asosidagi til ta'limida raqamli ta'lim vositalarining o'rni. "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnal. 13.00.00 – Pedagogika fanlari jurnali. NamSPI.UZ. ISSN:2992-9008; UDK:37. 2025-yil 4-son. 216-227-betlar.
16. Sobirova M. Enhancing the mechanisms and factors of improving the literacy of upper school students based on an innovative. https://journal.silkroad-science.com/index.php/EJHEAA/article/view/810. European journal of higher education and academic advancement. VOL.1NO.8(2024)
17. Sobirova, M (2024). Development of oral speech competence of students. International journal of artificial intelligence, 4(03), 596-600. http://www.academicpublishers.org/ International journal of artificial intelligence (ISSN: 2692-5206) Volume 04, Issue 03, Published Date: - 04-06-2024.
18. Sobirova, M.Y. (2023). The role of educational tools in anthropocentric relationship education. European Journal of Education and Applied Psychology 2023, No 4. https://doi.org/10.29013/EJEAP-23-4-52-58
19. Sobirova, M. (2022). In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidiscip- linary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. https://repo.journalnx.com/index. php/nx/article/view/3880/3718
20. Yusupdjanovna, S. M., & Yakubjanovna, S.D. (2021). Innovative Technologies of Teaching in the Field of Higher Education Techniques. Design Engineering. International Research Journal of Advanced Engineering and Science (IRJAES) SKOPUS 5288-5295 http://thedesignengineering. com/index.php/DE/ issue/view/31.
21. Sobirova M. Hamkorlik ta'limi texnologiyalarining didaktik mohiyati. Til va adabiyot masalalari. №7. Respublika oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilarining ilmiy maqolalari to'plami. –Namangan. 2019. –B. 335.

PROYEKT-TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI KASBIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Xojamov Ilhomjon Rahmonaliyevich
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: far.omxkxk@gmail.com
ORCID: 0009-0004-5754-8576

Annotatsiya. *Maqolada loyiha asosida o'qitish texnologiyasining bo'lajak pedagoglar kasbiy madaniyatini shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlari va pedagogik mexanizmlari nazariy tahlil qilinadi. Kasbiy madaniyat kasbiy qadriyatlar, pedagogik bilimlar, amaliy faoliyat, kommunikativ-etik munosabatlar va refleksiv o'zini rivojlantirish birligi sifatida talqin etiladi. Muammoni anglash, hamkorlik, ishlab chiqilgan yechimni mikrosinovdan o'tkazish va refleksiv takomillashtirishni bog'lovchi olti bosqichli model taklif etiladi. Kasbiy qarorlarni asoslash, mas'uliyatni taqsimlash, pedagogik qo'llab-quvvatlash va muntazam qayta aloqaning ahamiyati yoritiladi. Baholashda loyiha mahsuloti sifati, individual hissa, etik me'yorlarga rioya qilish va refleksiv xulosalarni uyg'un hisobga olish zarurati asoslanadi. Taklif etilgan yondashuv pedagogika fanlarida loyiha topshiriqlarini tashkil etish va kasbiy madaniyatni mezonlar asosida baholashning nazariy-metodik asosi sifatida taqdim etiladi.*

Kalit so'zlar: *proyekt-ta'lim, kasbiy madaniyat, hamkorlik, dalillash, refleksiya, autentik baholash.*

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ ПОСРЕДСТВОМ ТЕХНОЛОГИИ ПРОЕКТНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. *В статье теоретически анализируются дидактические возможности и педагогические механизмы формирования профессиональной культуры будущих педагогов посредством проектного обучения. Профессиональная культура рассматривается как единство профессиональных ценностей, педагогических знаний, практической деятельности, коммуникативно-этических отношений и рефлексивного саморазвития. Предлагается шестиэтапная модель, объединяющая осмысление проблемы, сотрудничество, апробацию разработанного решения в ограниченном масштабе и его рефлексивное совершенствование. Раскрывается значение обоснования профессиональных решений, распределения ответственности, педагогической поддержки и регулярной обратной связи. Обосновывается необходимость комплексного учёта качества проектного продукта, индивидуального вклада, соблюдения этических норм и рефлексивных выводов при оценивании. Предложенный подход представлен как теоретико-методическая основа организации проектных заданий в рамках педагогических дисциплин и критериального оценивания профессиональной культуры.*

Ключевые слова: *проектное обучение, профессиональная культура, сотрудничество, аргументация, рефлексия, аутентичное оценивание.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

DEVELOPING PROFESSIONAL CULTURE THROUGH PROJECT-BASED LEARNING

Abstract. *This article theoretically examines the didactic potential and pedagogical mechanisms of developing prospective teachers' professional culture through project-based learning. Professional culture is conceptualized as an integration of professional values, pedagogical knowledge, practical activity, communicative and ethical relationships, and reflective self-development. A six-stage model is proposed that connects problem analysis, collaboration, small-scale piloting of the proposed solution, and reflective improvement. The importance of justifying professional decisions, distributing responsibilities, providing pedagogical support, and maintaining regular feedback is highlighted. The article argues for an assessment approach that considers the quality of the project product, individual contributions, adherence to ethical principles, and reflective insights. The proposed approach provides a theoretical and methodological basis for organizing project assignments within pedagogical courses and conducting criterion-based assessment of professional culture.*

Keywords: *project-based learning, professional culture, collaboration, justification, reflection, authentic assessment.*

KIRISH

Bo‘lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligini tayyor bilimlarni qayta aytish bilan cheklab bo‘lmaydi. U o‘quv vaziyatida muammoni anglash, turli yechimlarni qiyoslash, o‘z tanlovini asoslash va uning tarbiyaviy oqibatlarini hisobga olishni ham o‘rganishi kerak. Ushbu maqolada kasbiy madaniyat bilim, qadriyat, amaliy harakat, etik muloqot va refleksiyaning kasbiy vaziyatdagi birligi sifatida talqin qilinadi. Bunday talqinda pedagogik mahsulotning sifatli bo‘lishi muhim, ammo mahsulotni yaratish jarayonidagi mas’uliyat va munosabatlar ham mustaqil baholash obyektidir. Proyekt-ta’lim, ya’ni loyiha asosida ta’lim texnologiyasi mazkur birlikni o‘quv jarayonida namoyon etish imkonini beradi. D.Kokotsaki, V.Menzies va A.Wiggins loyiha asosida ta’limni mustaqillik, izlanish, maqsad qo‘yish, hamkorlik va refleksiya bilan tavsiflaydi [1]. Biroq talabalarga guruh bo‘lib taqdimot tayyorlashni topshirishning o‘zi hali mazkur texnologiyani to‘liq ifodalamaydi. Loyiha mazmunli muammo, davomli izlanish, asoslangan tanlov, qayta ishlash va foydalanish mumkin bo‘lgan natijani talab etadi [2].



Tadqiqot muammosi loyiha bajarilishi bilan kasbiy madaniyat shakllanishi orasidagi bog‘lanishni aniqlashtirishdan iborat. Maqolaning maqsadi bo‘lajak pedagoglar tayyorgarligida loyiha faoliyatining madaniy-rivojlantiruvchi mexanizmlarini nazariy asoslash va ularni kuzatiladigan dalillar bilan bog‘lovchi modelni taklif etishdir. Asosiy savol quyidagicha qo‘yildi: loyiha jarayonida qaysi pedagogik harakatlar bilimni mas’uliyatli kasbiy qarorga aylantiradi? Mualliflik taklifi natijani «mahsulot – jarayon – kasbiy pozitsiya» birligida ko‘rib chiqishga asoslanadi. Bunda kasbiy pozitsiya talabaning o‘z qarorini dalil va etik mezonlar bilan izohlashi orqali ochiladi. Shu nuqtayi nazardan, muvaffaqiyatsiz mikrosinov ham tahlil va asosli tuzatish bilan davom ettirilsa, kasbiy o‘rganish vazifasini bajarishi mumkin. Tadqiqot e’tibori tayyor mahsulotning tashqi jozibasidan uni yaratishdagi pedagogik fikrlash va mas’uliyatga ko‘chiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Loyiha asosida ta’limning didaktik xususiyati o‘quv mazmunini amaliy vazifa atrofida qayta tashkil etish bilan bog‘liq. Kokotsaki va hammualliflar sharhida o‘qituvchining yo‘naltiruvchi ko‘magi, guruh jarayonlarining sifati va baholashning maqsadga mosligi muhim omillar sifatida ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, sharhlangan tadqiqotlardagi metodologik cheklovlar sababli barcha ijobiy natijalarni aynan loyiha usulining sababiy ta’siri deb talqin qilish mumkin emas [1]. Pedagoglarni tayyorlashda ularni kasbiy vaziyat, talabaning boshlang‘ich tayyorgarligi va o‘rganilayotgan fan mazmuniga moslashtirish kerak. Mazkur maqolada aynan shu moslashtirishning kasbiy-madaniy mezonlari ishlab chiqiladi. D.Tsybulsky va Y.Muchnik-Rozanov loyiha asosidagi onlayn kursda ishtirok etish bilan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasi rivojlanishi o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikni tavsiflaydi [3]. Bu natija kasbiy madaniyatni to‘liq o‘lchagan dalil sifatida qabul qilinmaydi: identifikatsiya o‘zini pedagog sifatida anglashni, kasbiy madaniyat esa ushbu anglashning bilim, xulq va mas’uliyatli amaliyotdagi ifodasini ham qamrab oladi. Shunga ko‘ra, refleksiv bayon

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bilan real faoliyat dalillari farqlanishi lozim. R.Ryan va E.Decining o‘zini o‘zi belgilash nazariyasida avtonomiya, kompetentlik va boshqalar bilan aloqadorlik motivatsiyaning muhim asoslari sifatida qaraladi [4]. Loyiha jarayonida bu tamoyillarni vazifa va rol tanlovi, murakkablikka mos ko‘mak hamda o‘zaro hurmat orqali ifodalash mumkin. J.Hattie va H.Timperley qayta aloqaning ta’siri uning turi va berilish usuliga bog‘liqligini ko‘rsatadi [5]. Shu sababli «yaxshi ishladingiz» kabi umumiy bahodan ko‘ra, qarorning qaysi jihatini qanday yaxshilash mumkinligini ko‘rsatuvchi izoh zarur. J.Gulikers, T.Bastiaens va P.Kirschner autentik baholashni kasbiy amaliyotdan kelib chiqib loyihalashni taklif etadi [6]. Bu yondashuv maqolada mahsulot va uni yaratish jarayonini birgalikda baholashga asos bo‘ladi. E.Kosmanou va E.Vassilaki bo‘lajak pedagoglarning baholanadigan refleksiv matnlarida o‘zini namoyon etish hamda baholovchi kutishlariga moslashish bilan bog‘liq ziddiyatlarni yoritadi [7].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nazariy sintez natijasida loyiha faoliyatini kasbiy madaniyatga yo‘naltirishning olti bosqichli modeli taklif etildi (1-rasm). Unda aksiologik-motivatsion komponent kasbiy vazifaning ma’nosini anglash; kognitiv-kasbiy komponent bilim va dalilni tanlash; faoliyatli-texnologik komponent yechimni amalga oshirish; kommunikativ-etik komponent hamkorlik va hurmat; refleksiv-rivojlantiruvchi komponent esa qarorni qayta ko‘rib chiqish orqali kuzatiladi. Komponentlar alohida bosqichlarga qat’iy biriktirilmaydi: masalan, etik mas’uliyat muammoni tanlashdan natijani taqdim etishgacha butun jarayonda saqlanadi.



1-rasm. Proyekt-ta'lim orqali kasbiy madaniyatni shakllantirishning olti bosqichli modeli.

Modelning asosiy mexanizmi «kasbiy vazifa – mustaqil tanlov – tanlovni dalillash – mas'uliyatli ijro – qayta aloqa» bog'lanishidir. Bunda har bir qaror kuzatiladigan iz qoldirishi kerak: muammo tavsifi, ish rejasi, muqobil yechimlar, mahsulotning oldingi va keyingi versiyalari, kuzatuv yozuvi hamda refleksiv xulosa. Ushbu materiallar portfolio tarkibida jamlanadi. Ular kasbiy madaniyat shakllanganini avtomatik isbotlamaydi, biroq o'qituvchiga talabaning fikrlashi va amaliy harakatini qiyoslash uchun asos yaratadi. Jarayonning zarur shartlari – ochiq mezonlar, vazifaga mos resurslar, xavfsiz fikr bildirish muhiti va qayta ishlash uchun ajratilgan vaqt. Har bir talabaning hissasini alohida kuzatish guruh natijasini individual rivojlanish bilan chalkashtirmaslikka xizmat qiladi.

Model bosqichlari va amaliy qo‘llash mexanizmlari

Kasbiy muammoni aniqlash. Talabalar pedagogik vaziyatdagi ehtiyojni o‘rganib, uning kim uchun va nima sababli muhimligini izohlaydi. O‘qituvchi tayyor javobni emas, yo‘naltiruvchi savollarni beradi. Bosqich mahsuloti muammo tavsifi va kutiladigan o‘zgarishdir. Qadriyatli munosabat esa talabaning vazifani tanlash sabablarini asoslashida namoyon bo‘ladi.

Hamkorlikda rejalash. Guruh maqsad, muddat, vazifalar va sifat mezonlarini kelishadi. Rollarni almashtirish har bir talabaga faqat o‘zi yaxshi biladigan ishni emas, yangi kasbiy harakatni ham bajarish imkonini berishi uchun tavsiya etiladi. Individual hissa oldindan belgilanadi; kelishmovchilikni muhokama qilish qoidasi rejaning ajralmas qismiga aylanadi.

Dalillash va loyihalash. Talabalar kamida ikki muqobil yechimni pedagogik maqsad, foydalanish qulayligi va etik oqibatlar bo‘yicha qiyoslaydi. Tanlangan metodning sababi, manbasi va qo‘llash chegarasi qaror kundaligida qayd etiladi. Natijada bilim tayyor ma’lumot sifatida emas, kasbiy qarorning asosi sifatida ishlatiladi. Bosqich yakunida mahsulotning dastlabki varianti yaratiladi.

4. Mikrosinov va kuzatish. Loyiha dastlab modellashtirilgan pedagogik vaziyatda yoki mikrodars shaklida sinaladi. Kuzatuvchilar reja bilan amaliy harakat o‘rtasidagi farqni oldindan kelishilgan belgilar asosida qayd etadi. Real ta’lim muassasasida qo‘llash rejalashtirilganda tegishli rozilik, shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash va pedagog nazorati ta’minlanishi kerak. Sinovdagi qiyinchiliklar yashirilmaydi, qayta ishlash uchun material hisoblanadi.

Himoya va baholash. Guruh mahsulotni namoyish etadi, har bir talaba esa o‘z qarori va hissasini alohida izohlaydi. Baholashda mahsulotning metodik sifati, jarayondagi hamkorlik va kasbiy pozitsiyaning asoslanganligi farqlanadi. Ko‘rgazmali dizaynning jozibadorligi dalilsiz qaror, manbani yashirish yoki ishtirokchilarni kamsitish holatini qoplamaydi. O‘zaro baholash o‘qituvchi kuzatuvi bilan qiyoslanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Refleksiya va korreksiya. Talaba qaysi taxmini tasdiqlanmagani, qaysi fikr ta'sirida qarorini o'zgartirgani va keyingi loyihada nima qilishi kerakligini dalil bilan tushuntiradi. Qayta aloqa yangi mahsulot versiyasiga aylantiriladi. Shu tariqa refleksiya umumiy taassurot emas, dastlabki reja, kuzatuv va tuzatish orasidagi mantiqiy aloqani ko'rsatuvchi kasbiy harakat sifatida tashkil etiladi.

Metodik misol. «Barcha o'quvchilar uchun tushunarli qayta aloqa» mikroloyihasida talabalar shartli sinf uchun baholash va fikr bildirish vositasini yaratishi mumkin. Ular murakkab iboralarni aniqlaydi, sodda ifodalarni loyihalaydi, tengdoshlari bilan rolli vaziyatda sinaydi va tushunarsiz ko'rsatmalarni qayta yozadi. Portfolio tarkibida dastlabki matn, tanlovning manbaviy asosi, kuzatuv, tuzatilgan variant va individual izoh saqlanadi. Bu misol o'tkazilgan tajriba emas, texnologiyani pedagogika fanlari mashg'ulotiga tatbiq etish ssenariysidir.

Formativ baholash uchun har bir komponentga 0–3 darajali tavsif taklif etiladi: 0 – kuzatiladigan dalil yetarli emas; 1 – harakat ko'mak bilan bajariladi; 2 – mustaqil va asosli bajariladi; 3 – yangi vaziyatga moslashtirilib, dalil asosida takomillashtiriladi. Bu shkaladagi «0» madaniyatning yo'qligini anglatmaydi. Deskriptorlar hozircha diagnostik standart emas; ularni qo'llashdan oldin ekspertlar kelishuvi va baholovchilararo izchillik tekshirilishi lozim.

Taklif etilgan modelning farqli jihati loyiha mahsulotini kasbiy madaniyatning bevosita ekvivalenti deb hisoblamasligidir. Bir guruh tayyorlagan sifatli ishlanma barcha ishtirokchilarning teng rivojlanganini ko'rsatmaydi. Shuning uchun individual qaror izohi, jarayon kuzatuvi va mahsulot versiyalarini qiyoslash bir-birini to'ldiradi. Kosmanou va Vassilaki aniqlagan refleksiv o'zini namoyon etish muammosi ham yozma hisobotni boshqa dalillar bilan tekshirish zarurligini kuchaytiradi [7]. Talaba mustaqilligi o'qituvchi yordamini bekor qilish emas. Dastlab namunalar, savollar va rubrika berilib, keyinchalik yordam ehtiyojga qarab kamaytirilishi tavsiya etiladi. Aks holda guruhdagi tajribali ishtirokchi barcha qarorlarni qabul qilishi, loyiha esa qolgan talabalar uchun

texnik topshiriqqa aylanishi mumkin. Bosqichli ko‘mak va maqsadga mos baholash zarurati loyiha ta’limiga doir sharh bilan uyg‘un [1]. Cheklov shundaki, model muayyan tanlanmada sinovdan o‘tkazilmagan. Binobarin, uning samaradorligi, optimal davomiyligi yoki boshqa texnologiyalardan ustunligi haqida statistik xulosa chiqarilmaydi. Keyingi tekshiruvda boshlang‘ich tayyorgarligi qiyoslanadigan guruhlar, bir xil fan mazmuni va oldindan belgilangan mezonlar qo‘llanishi maqsadga muvofiq. Faqat yakuniy mahsulot emas, mustaqil qaror, etik hamkorlik va keyingi vaziyatga ko‘chirishdagi o‘zgarishlar ham o‘rganilishi kerak.

XULOSA

Proyekt-ta’lim kasbiy madaniyatni shakllantirish vositasiga loyiha vazifasi, dalillash, etik hamkorlik va refleksiv qayta ishlash o‘zaro bog‘langanda aylanishi mumkin. Taklif etilgan olti bosqichli model ushbu bog‘lanishni o‘quv faoliyati va kuzatiladigan dalillar orqali ifodalaydi. Amaliy jihatdan loyihaga individual mas’uliyat, qaror kundaligi, mahsulotni qayta ishlash va komponentlar bo‘yicha formativ baholashni kiritish tavsiya etiladi. Maqolaning natijasi tasdiqlangan samaradorlik ko‘rsatkichi emas, bo‘lajak pedagoglar kasbiy madaniyatini o‘rganish va rivojlantirish uchun tekshiriladigan konseptual-metodik yechimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI RO‘YXATI

1. Kokotsaki D., Menzies V., Wiggins A. Project-based learning: A review of the literature Improving Schools. – 2016. – Vol. 19, No. 3. – P. 267-277.
2. Tsybulsky D., Muchnik-Rozanov Y. The contribution of a project-based learning course, designed as a pedagogy of practice, to the development of preservice teachers' professional identity Teaching and Teacher Education. – 2023.
3. Ryan R. M., Deci E. L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being American Psychologist. – 2000. – Vol. 55, No. 1. – P. 68-78.
4. Hattie J., Timperley H. The power of feedback Review of Educational Research. – 2007.
5. Gulikers J. T. M., Bastiaens T. J., Kirschner P. A. A five-dimensional framework for authentic assessment Educational Technology Research and Development. – 2004. – Vol. 52, No. 3. – P. 67-86.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

6. Kosmanou E., Vassilaki E. Constructing desirable professional identities: Linguistic analysis of student teachers' reflection on project-based learning Frontiers in Education. – 2023.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK AMALIYOTNING O‘RNI

Bekberdiyeva Gulbahor Ortiqaliyevna
University of Business and Science
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: gulbahorbekberdiyeva@gmail.com
Tel.: 93 924 44 32

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda pedagogik amaliyotning o‘rni, mazmuni va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Pedagogik amaliyot oliy ta’lim muassasasida egallangan nazariy bilimlarni real ta’lim jarayoni bilan bog‘lash, bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, kasbiy mas’uliyat, kommunikativ kompetentlik, refleksiv qobiliyat va mustaqil pedagogik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishning muhim vositasi sifatida yoritilgan. Tadqiqotda pedagogik amaliyotning maqsadli-tashkiliy, mazmuniy, faoliyatli, kommunikativ, refleksiv va diagnostik komponentlari asosida kasbiy kompetentlikni shakllantirish modeli taklif etilgan. Shuningdek, universitet va umumta’lim maktablari o‘rtasidagi hamkorlik, mentorlik, mikroo‘qitish, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, portfolio yuritish va muntazam qayta aloqa berish mexanizmlarining ahamiyati asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy kompetentlik, pedagogik amaliyot, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik ko‘nikma, kommunikativ kompetentlik, refleksiya, mentorlik, pedagogik faoliyat, universitet–maktab hamkorligi, kasbiy rivojlanish.*

THE ROLE OF TEACHING PRACTICUM IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF PROSPECTIVE TEACHERS

Abstract:*This article examines the role and pedagogical potential of teaching practicum in developing the professional competence of prospective teachers. Teaching practicum is considered an important means of integrating theoretical knowledge acquired at higher education institutions with authentic educational practice and developing pedagogical skills, professional responsibility, communicative competence, reflective abilities, and independent decision-making skills. The study proposes a model for developing professional competence based on organizational, content-related, activity-based, communicative, reflective, and diagnostic components of teaching practicum. Particular attention is paid to university–school cooperation, mentoring, microteaching, simulation of pedagogical situations, professional portfolios, and systematic feedback.*

Keywords: *prospective teacher, professional competence, teaching practicum, professional preparation, pedagogical skills, communicative competence, reflection, mentoring, pedagogical activity, university–school cooperation, professional development.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация; *В статье рассматриваются роль и педагогические возможности педагогической практики в формировании профессиональной компетентности будущих учителей. Педагогическая практика рассматривается как важное средство интеграции теоретических знаний, полученных в высшем образовательном учреждении, с реальной образовательной деятельностью, а также формирования педагогических навыков, профессиональной ответственности, коммуникативной компетентности, рефлексивных способностей и навыков самостоятельного принятия педагогических решений. Предлагается модель формирования профессиональной компетентности на основе организационно-целевого, содержательного, деятельностного, коммуникативного, рефлексивного и диагностического компонентов педагогической практики. Особое внимание уделяется взаимодействию университета и школы, наставничеству, микропреподаванию, моделированию педагогических ситуаций, ведению профессионального портфолио и систематической обратной связи.*

Ключевые слова: *будущий учитель, профессиональная компетентность, педагогическая практика, профессиональная подготовка, педагогические навыки, коммуникативная компетентность, рефлексия, наставничество, педагогическая деятельность, взаимодействие университета и школы, профессиональное развитие.*

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni yanada kengaytirmoqda. Zamonaviy o‘qituvchi o‘z fanini chuqur bilish bilan bir qatorda ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishi, samarali kommunikatsiya o‘rnatishi, turli pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi hamda o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilib borishi zarur.

Shu jihatdan oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash alohida ahamiyat kasb etadi. Talaba tomonidan egallangan pedagogik bilimlar real ta’lim jarayonida qo‘llanilgandagina kasbiy kompetentlikning amaliy mazmuni namoyon bo‘ladi.

Pedagogik amaliyot bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Chunki aynan amaliyot davomida talaba o‘quvchilar bilan bevosita muloqot

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qiladi, dars jarayonini kuzatadi va tashkil etadi, sinfni boshqarishning turli usullarini sinab koʻradi, pedagogik vaziyatlarga duch keladi hamda oʻzining kasbiy imkoniyatlarini baholaydi.

Pedagogik amaliyotning yana bir muhim jihati shundaki, u boʻlajak oʻqituvchiga universitetdagi nazariy tayyorgarlik bilan maktabdagi real pedagogik faoliyat oʻrtasidagi farqni anglash imkonini beradi. Natijada talaba kasbiy faoliyatning oʻziga xos xususiyatlarini bevosita tajriba asosida oʻzlashtira boshlaydi.

Shuning uchun pedagogik amaliyotni faqat oʻquv rejasida belgilangan qisqa muddatli faoliyat sifatida emas, balki boʻlajak oʻqituvchining kasbiy kompetentligini shakllantiruvchi uzluksiz pedagogik tizim sifatida tashkil etish zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi pedagogik ta'lim nazariyasi va amaliyotining muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda oʻqituvchi kompetentligining mazmuni bilim, koʻnikma, kasbiy qadriyat, motivatsiya, pedagogik tajriba va refleksiv qobiliyatlarning oʻzaro uygʻunligi sifatida talqin qilinadi.

Feiman-Nemserning tadqiqotlarida oʻqituvchining kasbiy shakllanishida amaliy tajriba va tajribali pedagoglarning koʻmagi muhim omil sifatida koʻrsatiladi. Muallifning yondashuviga koʻra, boʻlajak va yangi oʻqituvchilar kasbiy faoliyatning murakkab vaziyatlarini faqat nazariy bilimlar yordamida emas, balki amaliy faoliyat va kasbiy hamkorlik orqali chuqurroq oʻzlashtiradilar.

Ingersoll va Strong tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa yangi oʻqituvchilarni qoʻllab-quvvatlash, mentorlik va kasbiy yoʻnaltirish mexanizmlarining ahamiyati tahlil qilingan. Mazkur yondashuv pedagogik amaliyot jarayonida talabaga tajribali pedagog tomonidan muntazam maslahat va qayta aloqa berish zarurligini koʻrsatadi.

Darling-Hammond va hammualliflari samarali kasbiy rivojlanishda faol o‘rganish, hamkorlik, amaliy modellashtirish, coaching, qayta aloqa va refleksiyaning muhimligini ta’kidlaydi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlardan kelib chiqib, pedagogik amaliyotni bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ko‘p komponentli pedagogik jarayon sifatida ko‘rish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot kompetensiyaviy, tizimli-faoliyatli, shaxsga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlar asosida tashkil etildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, pedagogik modellashtirish, kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, ekspert baholash va diagnostik tahlil metodlaridan foydalanish nazarda tutildi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash uchun quyidagi mezonlar belgilandi:

- **motivatsion mezon** – pedagogik kasbga qiziqish, kasbiy qadriyatlarni anglash va kasbiy rivojlanishga ehtiyoj;
- **kognitiv mezon** – pedagogik va metodik bilimlarni egallash hamda ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash;
- **faoliyatli mezon** – darsni rejalashtirish, tashkil etish, pedagogik texnologiyalardan foydalanish va sinfni boshqarish;
- **kommunikativ mezon** – o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va maktab ma’muriyati bilan samarali muloqot qilish;
- **refleksiv mezon** – o‘z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash;
- **ijtimoiy-kasbiy mezon** – pedagogik jamoaga moslashish, kasbiy me’yorlarga rioya qilish va jamoaviy hamkorlikda faol ishtirok etish.

TAHLIL VA NATIJALAR

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqot tahlillari pedagogik amaliyot bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda bir nechta o‘zaro bog‘liq komponentlardan tashkil topishini ko‘rsatdi.

Birinchi komponent — maqsadli-tashkiliy komponent. Mazkur komponent pedagogik amaliyotning aniq maqsad va vazifalar asosida tashkil etilishini nazarda tutadi. Amaliyot boshlanishidan oldin talabaning vazifalari, faoliyat yo‘nalishlari, kutilayotgan natijalari va baholash mezonlari belgilanishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchi komponent — mazmuniy komponent. Uning mazmuniga darsni rejalashtirish, pedagogik muloqot, sinfni boshqarish, ta’lim metodlarini tanlash, baholash, pedagogik etika, ota-onalar bilan hamkorlik va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish kabi yo‘nalishlar kiritiladi.

Uchinchi komponent — faoliyatli-amaliy komponent. Bu bosqichda bo‘lajak o‘qituvchi bevosita pedagogik faoliyatga jalb etiladi. Darslarni kuzatish, dars ishlanmalarini tayyorlash, mikroo‘qitish, mustaqil dars o‘tish, sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etish va pedagogik vaziyatlarni hal qilish ushbu komponentning asosiy shakllari hisoblanadi.

To‘rtinchi komponent — kommunikativ komponent. O‘qituvchining kasbiy kompetentligida muloqot alohida o‘rin tutadi. Shu sababli pedagogik amaliyot jarayonida talabaning o‘quvchilar, hamkasblar, ota-onalar va maktab ma’muriyati bilan samarali munosabat o‘rnatish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.

Beshinchi komponent — refleksiv komponent. Talaba o‘tkazgan har bir dars yoki pedagogik faoliyatdan so‘ng o‘z ishini tahlil qilishi, muvaffaqiyatli va muammoli jihatlarni aniqlashi hamda keyingi faoliyati uchun tegishli xulosalar chiqarishi lozim. Refleksiya kasbiy rivojlanishning muhim mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Oltinchi komponent — diagnostik komponent. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligidagi o‘zgarishlarni aniqlash uchun boshlang‘ich, oraliq va yakuniy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

diagnostika tashkil etilishi mumkin. Bunda kuzatuv varaqalari, pedagogik portfolio, suhbat, so‘rovnoma va mentor xulosalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Pedagogik amaliyotning samaradorligini oshirishda mentorlik alohida ahamiyatga ega. Tajribali o‘qituvchi bo‘lajak pedagog uchun nafaqat maslahat beruvchi, balki kasbiy faoliyatni kuzatish, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarni hal etishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi hamkor sifatida faoliyat yuritishi mumkin.

Mentorlik jarayonida qayta aloqaning konstruktiv shaklda tashkil etilishi muhim. Talabaning kamchiliklarini faqat ko‘rsatish emas, balki ularni bartaraf etish yo‘llarini birgalikda izlash kasbiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Pedagogik amaliyotda universitet–maktab hamkorligi ham muhim omil hisoblanadi. Universitet professor-o‘qituvchilari va maktab pedagoglari o‘rtasidagi hamkorlik amaliyot mazmunining izchilligini ta’minlaydi. Bunday hamkorlik natijasida nazariy mashg‘ulotlarda o‘rganilgan pedagogik tushunchalar maktabdagi real vaziyatlar bilan bog‘lanadi.

Pedagogik amaliyotning yana bir samarali vositasi — pedagogik portfoliodir. Portfolio tarkibida dars ishlanmalari, kuzatuv natijalari, mustaqil darslar tahlili, o‘quvchilar bilan ishlash tajribasi, mentor tavsiyalari va talabaning refleksiv yozuvlari jamlanishi mumkin. Bu materiallar bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

Shuningdek, individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish ham pedagogik amaliyotning samaradorligini oshiradi. Chunki har bir talabaning tayyorgarlik darajasi, qiziqishi, pedagogik tajribasi va rivojlanishi lozim bo‘lgan jihatlari turlicha bo‘lishi mumkin. Shu sababli amaliyot davomida individual ehtiyojlarga mos vazifalarni belgilash maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, tadqiqot asosida pedagogik amaliyotning quyidagi ketma-ketlikda tashkil etilishi taklif qilinadi:

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37



Mazkur ketma-ketlik bo‘lajak o‘qituvchining nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash, pedagogik tajribasini kengaytirish va mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorligini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyot bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning muhim pedagogik vositalaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Pedagogik amaliyot davomida talaba nazariy bilimlarni real ta’lim jarayonida qo‘llash, o‘quvchilar bilan muloqot qilish, darsni tashkil etish, sinfni boshqarish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun pedagogik amaliyotni quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtirish tavsiya etiladi:

1. Pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalarini kasbiy kompetensiyalar bilan bevosita bog‘lash.
2. Universitet va umumta’lim maktablari o‘rtasidagi hamkorlikni tizimli tashkil etish.
3. Har bir talabaga amaliyot davomida tajribali mentor biriktirish.

4. Maktabdagi real pedagogik vaziyatlarni o‘rganish va modellashtirishga keng imkoniyat yaratish.

5. Miko‘qitish va mustaqil dars o‘tish amaliyotini muntazam tashkil etish.

6. Talabalarning pedagogik faoliyatini muntazam refleksiv tahlil qilish.

7. Pedagogik portfolio yuritishni amaliyotning tarkibiy qismiga aylantirish.

8. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini diagnostik monitoring qilish.

9. Har bir talaba uchun individual rivojlanish trayektoriyasini ishlab chiqish.

10. Pedagogik amaliyot yakunida faqat natijaviy baholash emas, balki talabaning kasbiy rivojlanish dinamikasini ham hisobga olish.

Shunday qilib, pedagogik amaliyotning samarali tashkil etilishi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash hamda ularni mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Pedagogik amaliyot mentorlik, refleksiya, diagnostika, qayta aloqa va universitet–maktab hamkorligi bilan uyg‘unlashtirilganda bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishi yanada izchil va maqsadli tus oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bekberdiyeva G. O. Pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi. “Ta’lim va taraqqiyot”, Namangan davlat pedagogika instituti, 2025. B. 537–543.
2. Bekberdiyeva G. O. Formation of Organizational Skills of Future Teachers. Science and Innovation International Scientific Journal, 2025. B. 102–104. DOI: 10.5281/zenodo.14825535.
3. Bekberdiyeva G. O. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy muhitga moslashtirishning ilmiy va pedagogik tamoyillari. “Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar”, 2025. B. 270–273.
4. Bekberdiyeva G. O. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy muhitga moslashtirish tushunchasi va mohiyati. Nukus Branch Physical Education and Sports, 2024. B. 318–323.
5. Bekberdiyeva G. O. Goals and Tasks of Forming Professional Ethics Skills in Future Teachers. Academic Research in Modern Science International Scientific-online Conference, 2024. B. 25–31.
Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari nazariy-metodologik va amaliy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Aksiologik kompetensiya qadriyatni bilish bilangina cheklanmay, uni pedagogik vaziyatda anglash, baholash, ongli tanlash, shaxsiy-kasbiy pozitsiyaga interiorizatsiya qilish, muloqot va faoliyatda namoyon etish hamda refleksiv korreksiyalash imkonini beruvchi integrativ kasbiy sifat sifatida talqin etiladi. Kontent-tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik modellashtirish va tizimlashtirish asosida pedagogik imkoniyatlarning mazmuniy-integrativ, faoliyatli-amaliy, kommunikativ-deontologik, raqamli-etik, refleksiv va diagnostik yo'nalishlari ajratildi. Natijada aksiologik kompetensiyani rivojlantirishning "bilim – shaxsiy ma'no – emotsional-irodaviy qabul – axloqiy-pedagogik tanlov – faoliyat – refleksiya va korreksiya" mantiqi asoslandi hamda uni auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim, pedagogik amaliyot va ma'naviy-ma'rifiy faoliyat integratsiyasida amalga oshirish bo'yicha ilmiy-metodik xulosalar ishlab chiqildi.*

Kalit so'zlar: *aksiologik kompetensiya, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik imkoniyat, qadriyat, deontologiya, refleksiya, pedagogik dilemma, raqamli etika*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В статье анализируются педагогические возможности развития аксиологических компетенций у будущих учителей с теоретико-методологических и практических позиций. Аксиологическая компетенция рассматривается как интегративное профессиональное качество, обеспечивающее не только знание ценностей, но и их осмысление, оценивание, осознанный выбор, интериоризацию в личностно-профессиональную позицию, проявление в общении и деятельности, а также рефлексивную коррекцию. На основе контент-анализа, сравнительного анализа, педагогического моделирования и систематизации выделены содержательно-интегративные, деятельностно-практические, коммуникативно-деонтологические, цифрово-этические, рефлексивные и диагностические возможности. Обоснована логика развития: «знание – личностный смысл – эмоционально-волевое принятие – нравственно-педагогический выбор – деятельность – рефлексия и коррекция».*

Ключевые слова: *аксиологическая компетенция, будущий учитель, педагогические возможности, ценность, деонтология, рефлексия, педагогическая дилемма, цифровая этика*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING AXIOLOGICAL COMPETENCIES IN FUTURE TEACHERS

Abstract. *This article analyzes the pedagogical opportunities for developing axiological competencies in pre-service teachers from theoretical, methodological and practical perspectives. Axiological competence is interpreted as an integrative professional quality that enables not only knowledge of values, but also their comprehension, evaluation, conscious choice, internalization into a personal-professional position, manifestation in communication and activity, and reflective correction. Based on content analysis, comparative analysis, pedagogical modeling and systematization, content-integrative, activity-based, communicative-deontological, digital-ethical, reflective and diagnostic opportunities are identified. The developmental logic "knowledge – personal meaning – emotional-volitional acceptance – moral-pedagogical choice – activity – reflection and correction" is substantiated.*

Keywords: *axiological competence, pre-service teacher, pedagogical opportunities, values, deontology, reflection, pedagogical dilemma, digital ethics*

KIRISH

Zamonaviy pedagogik ta'limda o'qituvchini tayyorlash natijasi faqat fan bilimlari va metodik ko'nikmalar yig'indisi bilan belgilanmaydi. Pedagogning har bir qarori – baholash, muloqot, intizom, inklyuziv yondashuv, raqamli vositani tanlash yoki o'quvchining fikriga munosabat – muayyan qadriyatlar iyerarxiyasiga tayanadi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligida qadriyatlarni anglash va real pedagogik vaziyatlarda mas'uliyatli qo'llash qobiliyatini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik aksiologiya nuqtayi nazaridan qadriyat shaxsning faoliyatini yo'naltiruvchi ichki mezon bo'lib, uning kasbiy maqsadi, munosabati va xulq-atvorida namoyon bo'ladi. A.Kaldibekova va B.Xodjayev pedagogik aksiologiyada inson va ta'limning o'zini bazaviy qadriyat sifatida talqin qiladilar. Mardonov ta'limiy qadriyatlarning pedagog kadr tayyorlashdagi maqsad va mezonlik funksiyasini asoslaydi. Kompetensiyaviy yondashuv bilan integratsiyada esa qadriyat "bilinadigan mazmun"dan "kasbiy qarorni boshqaradigan mezon" darajasiga ko'tariladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Xalqaro tadqiqotlarda ham qadriyatlar o‘qituvchi ta’limining yashirin yoki epizodik komponenti bo‘lib qolmasligi ta’kidlanadi. M.Willemse, M.Lunenberg va F.Korthagen o‘qituvchi pedagoglar uchun qadriyatlar bilan ishlash nazariy bilim, shaxsiy namuna va refleksiyani birlashtirishini ko‘rsatgan. R.Thornberg qadriyatlar ta’limida professional bilim yetishmasligi intuitiv va vaziyatga bog‘liq yondashuvlarni kuchaytirishini qayd etadi. Pantić va Wubbels esa o‘qituvchining axloqiy qadriyatlari shaxslararo munosabatlar va madaniy kompetentlik bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Raqamli transformatsiya mazkur muammoni yanada dolzarblashtirmoqda. Sun’iy intellekt, akademik halollik, shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash, algoritmik xolislik, mualliflik, inson agentligi va raqamli tenglik masalalari o‘qituvchidan texnik savodxonlik bilan bir qatorda etik-pedagogik baholashni talab qiladi. UNESCOning o‘qituvchilar uchun aksiologik kompetensiyalari doirasida inson markaziyligi va AI etikasi alohida yo‘nalish sifatida ko‘rsatilishi aksiologik tayyorgarlikning zamonaviy mazmunini belgilaydi.

Maqolaning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik imkoniyatlarni tizimlashtirish, ularning mazmuni va funksional aloqalarini ochib berish hamda pedagogik ta’lim jarayoniga tatbiq etish mexanizmlarini ilmiy-metodik jihatdan asoslashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi aksiologik, kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatli, deontologik, refleksiv va integrativ yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligiga tayandi. Nazariy bosqichda pedagogik aksiologiya, kasbiy kompetentlik, qadriyatlar ta’limi, o‘qituvchi identiteti, etik dilemma, refleksiv amaliyot va raqamli etika bo‘yicha milliy hamda xorijiy manbalar kontent-tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil orqali turli konsepsiyalarda qadriyatning bilim, munosabat, tanlov, xulq-atvor va refleksiya bilan aloqasi aniqlashtirildi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Pedagogik modellashtirish yordamida aksiologik kompetensiyaning rivojlanish jarayoni bosqichlari va pedagogik imkoniyatlar o‘rtasidagi funksional aloqalar ishlab chiqildi. Tizimlashtirish usuli pedagogik imkoniyatlarni mazmuniy, tashkiliy, texnologik, muhitga oid va diagnostik guruhlarga ajratish uchun qo‘llanildi. Empirik apparat sifatida pedagogik kuzatish, suhbat, anketa, aksiologik bilim testi, pedagogik dilemma, kritik hodisa tahlili, mikroo‘qitish, e-portfolio, refleksiv kundalik, o‘zini o‘zi, tengdosh va ekspert baholash vositalari konseptual jihatdan uyg‘unlashtirildi.

Tadqiqotning metodik tamoyili bitta test yoki deklarativ so‘rovnoma bilan cheklanmaslikdan iborat. Aksiologik kompetensiya ichki qadriyatli pozitsiya va tashqi faoliyat birligini ifodalaganligi sababli, uni baholashda bilim, tanlov, muloqot, amaliy harakat va refleksiyani turli manbalar orqali kuzatish zarur. Shu bois diagnostik triangulyatsiya pedagogik imkoniyatlarni aniqlashning ham, rivojlanish natijasini baholashning ham muhim sharti sifatida qaraldi.

NATIJALAR

Tahlil natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun bir-birini to‘ldiruvchi oltita pedagogik imkoniyat guruhi ajratildi. Birinchi guruh – mazmuniy-integrativ imkoniyat. Uning mohiyati milliy, umuminsoniy, ma’naviy-axloqiy va kasbiy-pedagogik qadriyatlarni alohida tarbiyaviy mavzu sifatida emas, pedagogik fanlar mazmunidagi tushuncha, muammo, vaziyat va kasbiy qarorlar bilan bog‘lab o‘rganishdan iborat. Bunda “aksiologik-didaktik birlik” ilmiy tushuncha, qadriyatli ma’no, pedagogik muammo yoki dilemma, dalillangan qaror yoki faoliyat mahsuli hamda refleksiyani yagona didaktik konstruksiyada birlashtiradi.

Ikkinchi guruh – faoliyatli-amaliy imkoniyat. Qadriyatli bilimning kompetensiyaga aylanishi talaba uni real yoki modellashtirilgan pedagogik vaziyatda qo‘llaganda yuz beradi. Pedagogik dilemmalar, kritik hodisalar, keyslar, mikroo‘qitish, pedagogik amaliyot va ijtimoiy loyihalar talabaning manfaatdor tomonlarni aniqlashi,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qadriyatlar ziddiyatini ko‘rishi, muqobil qarorlarni qiyoslashi, oqibatlarni prognoz qilishi va o‘z tanlovini asoslashiga sharoit yaratadi.

Uchinchi guruh – kommunikativ-deontologik imkoniyat. O‘qituvchi kasbining axloqiy tabiati burch, adolat, insonparvarlik, talabchanlik, maxfiylik, hurmat va mas’uliyatni kundalik muloqotda uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Dialog, bahs, rolli vaziyat, mentorlik suhbati va konfliktlarni tahlil qilish texnologiyalari talabaning nafaqat “to‘g‘ri javob”ni bilishi, balki o‘z pozitsiyasini etik va professional tarzda ifodalashi, boshqalarning qadr-qimmatini saqlagan holda kelishmovchilikni boshqarishi uchun pedagogik maydon yaratadi.

To‘rtinchi guruh – raqamli-etik imkoniyat. Sun’iy intellekt va raqamli platformalardan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchiga mualliflik, akademik halollik, ma’lumotlar maxfiyligi, algoritmik tarafkashlik, raqamli tengsizlik va inson nazorati bilan bog‘liq vaziyatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Bunday vaziyatlar aksiologik kompetensiyaning zamonaviy kontekstini kengaytirib, texnologik qarorning pedagogik va axloqiy oqibatini birgalikda baholash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Beshinchi guruh – refleksiv-korreksion imkoniyat. Qadriyatning shaxsiy-kasbiy pozitsiyaga aylanishi muntazam refleksiyasiz barqarorlashmaydi. Refleksiv kundalik, e-portfolio, “mening pedagogik qarorim” tahlili, o‘zini o‘zi baholash va mentor fikri talabaning nima qilgani bilan birga nima uchun aynan shunday qaror qilganini anglashiga yordam beradi. Refleksiya faoliyat yakuni emas, yangi qadriyatli bilim va keyingi qaror uchun qayta aloqa vazifasini bajaradi.

Oltinchi guruh – diagnostik-rivojlantiruvchi imkoniyat. Aksiologik rivojlanishni faqat nazorat qilish emas, talabaning individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlash maqsadida baholash zarur. Motivatsion-qadriyatli, kognitiv-aksiologik, kommunikativ-deontologik, faoliyatli-amaliy va refleksiv-baholovchi komponentlar bo‘yicha profil tuzish talabaning kuchli va rivojlantirilishi zarur jihatlarini ko‘rsatadi. Shu asosda individual topshiriq, mentorlik yordami va korreksion faoliyat rejalashtiriladi(1-jadval).

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

1-jadval

Pedagogik imkoniyat	Asosiy vositalar	Kutiladigan aksiologik natija
Mazmuniy-integrativ	Aksiologik-didaktik birlik, fanlararo integratsiya, qadriyatli muammo	Qadriyatni tushunish va kasbiy mazmun bilan bog‘lash
Faoliyatli-amaliy	Dilemma, keys, kritik hodisa, mikroo‘qitish, amaliyot	Asoslangan tanlov va mas’uliyatli pedagogik qaror
Kommunikativ-deontologik	Dialog, munozara, rolli vaziyat, mentorlik	Hurmat, adolat, burch va etik muloqot
Raqamli-etik	AI va raqamli muhitga oid etik vaziyatlar	Akademik halollik, maxfiylik va inson markazli texnologik tanlov
Refleksiv-korreksion	Refleksiv kundalik, e-portfolio, o‘zini baholash	Shaxsiy ma’no, kasbiy pozitsiya va o‘zini korreksiyalash
Diagnostik-rivojlantiruvchi	Ko‘p manbali baholash, profil, ekspertiza	Individual rivojlanish trayektoriyasi

Ajratilgan imkoniyatlar alohida metodlar ro‘yxati emas, yagona rivojlanish siklining o‘zaro bog‘langan bo‘g‘inlaridir. Mualliflik yondashuviga ko‘ra, aksiologik rivojlanish mantiqi “bilim -shaxsiy ma’no - emotsional-irodaviy qabul - axloqiy-pedagogik tanlov - faoliyatda namoyon etish - refleksiv baholash va korreksiya” tarzida ifodalanadi. Bu sikl chiziqli emas: refleksiya yangi bilim va motivatsiyaga qaytadi, yangi pedagogik vaziyat esa ilgari qabul qilingan qadriyatlar iyerarxiyasini qayta ko‘rib chiqishga undaydi.

Pedagogik imkoniyatlarning samarali ishlashi uchun auditoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ta’lim, pedagogik amaliyot va ma’naviy-ma’rifiy faoliyat bir-biridan uzilgan shakllar emas, yagona aksiologik rivojlanish trayektoriyasi sifatida tashkil etilishi lozim. Auditoriyada qadriyatli mazmun anglanadi, mustaqil ta’limda shaxsiy pozitsiya shakllantiriladi, amaliyotda qaror real kasbiy vaziyatda sinovdan o‘tkaziladi, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy faoliyatda esa mas’uliyatli xulq-atvorda namoyon etiladi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar qadriyatlar ta’limini alohida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bilan cheklash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Willemse M., Lunenberg M., va Korthagen F. ta’kidlagan nazariya–refleksiya–namuna birligi mazkur tadqiqotda faoliyatli sinov va diagnostik qayta aloqa bilan kengaytiriladi. Shunday qilib, qadriyatni o‘qitishdan qadriyat asosida kasbiy qaror qabul qilishni rivojlantirishga o‘tish taklif etiladi. R.Thornberg aniqlagan professional bilim yetishmasligi muammosi “aksiologik-didaktik birlik” orqali metodik jihatdan yechim topadi: qadriyat mavhum tushuncha sifatida emas, muammo, tanlov, dalil va refleksiya bilan birga loyihalanadi. O.Shapira-Lishchinsky tomonidan o‘rganilgan kritik hodisa va etik dilemmalar esa bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy qarorini real vaziyatga yaqin sharoitda mashq qildirish imkonini beradi.

N.Pantić va T.Wubbelsning axloqiy qadriyatlar hamda shaxslararo munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi xulosasi kommunikativ-deontologik komponentning zarurligini tasdiqlaydi. Qadriyatli pozitsiya faqat talabaning fikrida emas, tinglash, empatiya, xolislik, chegaralarni saqlash, inklyuziv munosabat va konfliktni insonparvar hal etish kabi kuzatiladigan faoliyatda namoyon bo‘lishi kerak.

Raqamli-etik imkoniyat an’anaviy pedagogik aksiologiyaning zamonaviy kengayishi sifatida talqin qilinadi. UNESCOning AI kompetensiyalari doirasidagi inson markaziyligi va etika talablari bo‘lajak o‘qituvchini texnologik vositani “ishlaydi/ishlamaydi” mezoni bilangina emas, balki “inson qadr-qimmati, adolat,

xavfsizlik va pedagogik maqsadga qanchalik mos?" mezoni asosida baholashga yo'naltiradi.

Natijalar shuningdek, refleksiyani alohida yakuniy bosqich sifatida emas, barcha faoliyat turlarini bog'lovchi mexanizm sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi. Refleksiv yozuv, portfolio va mentorlik talabaning kasbiy identitetini, qarorining qadriyatli asoslarini va o'zgarish dinamikasini ko'rinadigan dalillarga aylantiradi. Bu esa baholashning jazolovchi emas, rivojlantiruvchi funksiyasini kuchaytiradi.

XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari mazmuniy-integrativ, faoliyatli-amaliy, kommunikativ-deontologik, raqamli-etik, refleksiv-korreksion va diagnostik-rivojlantiruvchi yo'nalishlarning o'zaro birligida namoyon bo'ladi.

Aksiologik kompetensiyani shakllantirish qadriyatlar haqidagi bilimni ko'paytirish emas, balki qadriyatni shaxsiy ma'noga aylantirish, murakkab pedagogik vaziyatda ongli tanlov qilish, tanlovni faoliyatda sinash va natijani refleksiv korreksiyalash jarayonidir. Shu bois ta'lim texnologiyalari axborot berishdan ko'ra qadriyatli muammo, pedagogik dilemma, real faoliyat, dialog va refleksiyani tashkil etishga yo'naltirilishi zarur.

Pedagogik ta'limda auditoriya mashg'uloti, mustaqil ta'lim, amaliyot va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning yagona aksiologik rivojlanish trayektoriyasida integratsiyalashuvi, ko'p manbali diagnostika va individual rivojlanish profili bilan qo'llab-quvvatlanishi mazkur kompetensiyalarni barqaror kasbiy sifatga aylantirishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kaldibekova, A., & Xodjayev, B.X. (2009). Pedagogik aksiologiya. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
2. Mardonov, Sh.Q. (2006). Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari. Doktorlik dissertatsiyasi. Toshkent.

3. Muslimov, N.A., Urazova, M.B., & Eshpulatov, Sh.N. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Council of Europe. (2020). Reference Framework of Competences for Democratic Culture: Guidance Document for Higher Education. Strasbourg: Council of Europe Publishing.
5. UNESCO. (2024). AI Competency Framework for Teachers. Paris: UNESCO. https://doi.org/10.54675/ZJTE2084
6. Willemse, M., Lunenberg, M., & Korthagen, F. (2005). Values in education: A challenge for teacher educators. Teaching and Teacher Education, 21(2), 205–217. https://doi.org/10.1016/j.tate.2004.12.009
7. Thornberg, R. (2008). The lack of professional knowledge in values education. Teaching and Teacher Education, 24(7), 1791–1798. https://doi.org/10.1016/j.tate.2008.04.004
8. Pantić, N., & Wubbels, T. (2012). Teachers' moral values and their interpersonal relationships with students and cultural competence. Teaching and Teacher Education, 28(3), 451–460. https://doi.org/10.1016/j.tate.2011.11.011
9. Shapira-Lishchinsky, O. (2011). Teachers' critical incidents: Ethical dilemmas in teaching practice. Teaching and Teacher Education, 27(3), 648–656. https://doi.org/10.1016/j.tate.2010.11.003
10. Chambers, D.J., & Lavery, S. (2012). Service-learning: A valuable component of pre-service teacher education. Australian Journal of Teacher Education, 37(4). https://doi.org/10.14221/ajte.2012v37n4.2
11. Eyler, J. (2002). Reflection: Linking service and learning—linking students and communities. Journal of Social Issues, 58(3), 517–534. https://doi.org/10.1111/1540-4560.00274
12. Zeichner, K. (2010). Rethinking the connections between campus courses and field experiences in college- and university-based teacher education. Journal of Teacher Education, 61(1–2), 89–99. https://doi.org/10.1177/0022487109347671
13. Zhang, C., Schießl, J., Plößl, L., Hofmann, F., & Gläser-Zikuda, M. (2023). Evaluating reflective writing in pre-service teachers: The potential of a mixed-methods approach. Education Sciences, 13(12), 1213. https://doi.org/10.3390/educsci13121213

ISO 21001:2025 TALABLARI: TUZILMA, MAZMUN VA QO‘LLANISH DOIRASI

Sultonova Dildoraxon Toxirjon qizi
Andijon davlat texnika instituti
Metrologiya va yengil sanoat kafedrasi assistenti
dSultanova 373@ gmail.com Tel: +998-613-66-16

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ISO 21001:2025 Ta’lim tashkilotlari menejment tizimlari xalqaro standarti qayta ko‘rib chiqilgan ikkinchi tahriri bo‘lib, 2018-yilgi birinchi nashrga to‘ldiruvchi ma’lumotlar, hamda ularni izohlari berilgan. “Standart o‘quvchilar va boshqa manfaatdor tomonlarning talablariga muvofiqlikni qanoatlantirish maqsadida o‘zgartirishlarning qiyosiy tahlili kiritilgan.*

Kalit so‘zlar: *yetakchilik, ta’lim sifatini boshqarish, ta’lim muassasasi, rejalashtirish, ta’lim oluvchilar ehtiyojlari, samaradorlik, boshqaruv tizimi, rejalashtirish, ta’lim xizmatlari, monitoring, takomillashtirish.*

ТРЕБОВАНИЯ ISO 21001:2025: СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ И ОБЛАСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье рассмотрено второе, пересмотренное издание международного стандарта* ***ISO 21001:2025 «Системы менеджмента образовательных организаций».*** *Представлены дополнительные материалы к первому изданию стандарта, опубликованному в 2018 году, а также даны разъяснения внесённых изменений. Кроме того, приведён сравнительный анализ изменений, внесённых в стандарт с целью обеспечения соответствия требованиям и ожиданиям обучающихся и других заинтересованных сторон.*

Ключевые слова: *лидерство, управление качеством образования, образовательная организация, планирование, потребности обучающихся, эффективность, система менеджмента, образовательные услуги, мониторинг, совершенствование.*

ISO 21001:2025 REQUIREMENTS: STRUCTURE, CONTENT, AND SCOPE OF APPLICATION

Abstract. *This article examines the second revised edition of the* ***ISO 21001:2025 Educational Organizations Management Systems*** *international standard. It presents supplementary information to the first edition published in 2018, together with explanatory notes on the revisions. The article also provides a comparative analysis of the changes introduced in the standard to ensure conformity with the requirements and expectations of learners and other interested parties.*

Keywords: *leadership, educational quality management, educational organization, planning, learners’ needs, effectiveness, management system, educational services, monitoring, continual improvement.*

KIRISH

ISO 21001:2025 Ta'lim tashkilotlari menejment tizimlari xalqaro standarti qayta ko'rib chiqilgan ikkinchi tahriri bo'lib, 2018-yilgi birinchi nashrga to'ldiruvchi ma'lumotlar, hamda ularni izohlari berilgan. "Standart o'quvchilar va boshqa manfaatdor tomonlarning talablariga muvofiqlikni qanoatlantirish maqsadida, jarayon yondashuvni qo'llash asosida Ta'lim tashkilotlari menejment tizimlarini (TTMT) ishlab chiqish, joriy etish va natijaviyligini oshiradi. Jarayonlarni o'zaro bog'liqligini tushunish va boshqarish tashkilotning qo'yilgan maqsadlarga erishishda natijaviylik va samaradorlikka yordam beradi. Jarayonli va o'zaro tizimli yondashuv asosida boshqaruv tashkilotning umumiy samaradorligini oshirishga olib keladi"[2]. U Maktab va maktabgacha ta'lim, kollej/texnikumlar, OTMlar, malaka oshirish markazlari, nodavlat, tashkilot ichidagi o'quv bo'linmalari kabi barcha turdagi ta'lim tashkilotlariga qo'yilga talablarni qamrab olgan.

ISO 21001:2025 standart yuqori darajadagi ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim menejment tizimlariga keng qo'llanadigan 10 ta bandlarni, asosiy tashkilotni muhiti (kontekst), yetakchilik, rejalashtirish, ta'minlash vositalari, faoliyat, faoliyat ko'rsatkichlarini baholash, takomillashtirishlarni ichiga olgan. 10 ta tamoyil, jarayonli yondashuv, PDCA rejalash – bajarish – tekshirish – takomillashtirish sikli asosida amalga oshirish, xavf va imkoniyatlarni boshqarish, dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish, hamda hujjatlashtirilgan axborotni yuritishni yagona tizimlari barpo etishga qaratgan.

1-jadval.

ISO 21001:2018 va ISO 21001:2025 standartlarining o'zaro muvofiqligi

Mezon	ISO 21001:2018	ISO 21001:2025	Amaliy izoh (TTMT)
Tahrir	Birinchi tahrir	Texnik qayta ko'rib chiqilgan ikkinchi tahrir	Sertifikatlashtirish yangi tahrirga asosan.

Tuzilma	10 bo‘limli HLS* asosida tuzilgan va shu bo‘limlar bo‘yicha ishlash qoidalari	HLS saqlangan (4–10 bo‘limlar bo‘yicha)	Integratsiyalashgan boshqaruv tizimlari bilan uyg‘un joriy etish oson. (ISO‘ning umumiy HLS siyosati)
Qo‘llanish sohasi	Har qanday ta’lim muassasasiga mos umumiy talablar	Xuddi shunday, ammo izoh va yo‘riqlar kengroq yoritilgan	Ta’lim zanjiridagi o‘quvchilar, xodimlar va manfaatdor tomonlarni qanoatlanishini oshirish
Baholash yondashuvi	Talablar bor, lekin izohlar nisbatan umumiy	Baholashga doir matnlar zamonaviy amaliyotlarga mos qayta yozilgan	Baholash (rubrika), ishonchlilik va validlik, moderatsiya hamda natijadorlik bo‘yicha yanada aniq talablarni belgilaydi.
O‘quv natijalari va qoniqish	Talabaga yo‘naltirilganlik e’tirof etilgan	Natijalarga va qoniqishga kuchliroq urg‘u; ko‘rsatkichlar bilan bog‘lash kengaygan	LO, qoniqish, bandlik kabi KPI larni strategik maqsadlar bilan bog‘lash talabi kuchayadi.
Manfaatdor tomonlar / ijtimoiy mas’uliyat	Talablar bor	Inklyuzivlik va ijtimoiy mas’uliyatga e’tibor qaratilgan	Talaba, ota-ona, ish beruvchi, jamiyat bilan tizimli aloqa va javobgarlik mustahkamlanadi.

KPI va monitoring	Ko‘rsatkichlar doimiy kuzatib borish va nazorat qilish zarur	Strategik maqsadlar va o‘lchovlar bog‘liqligi aniqroq yoritiladi	Rahbariyat ko‘rib chiqishida natijaviy ko‘rsatkichlar asosiy kirish bo‘lib xizmat qiladi.
Xavf va imkoniyatlar	HLS asosida xavfga tayanuvchi rejalashtirish talabi bor	Talab saqlanadi; izohlar kuchaygan	Xatarlar reyestri va kamaytirish choralariga ko‘proq faoliyat e’tibor beriladi. (HLS)
Shikoyat-takliflar boshqaruvi	Talablar mavjud	Talab saqlanadi; izohlar kengayishi mumkin	Shaffoflik va javob muddati bo‘yicha ichki tartiblar aniqroq tuziladi. (ISO 21001 umumi)
“Iqlim bo‘yicha choralar” o‘zgartirishlari	2018 tahrirga 2024-yilda Amd 1:2024 qo‘shilgan (keyin bekor qilingan)	2025 tahriri chiqqach, Amd 1 bekor qilindi - (mantiqan) talablari 2025 tahrirga kiritilgan	Muhit (4.1-4.2)da iqlim omillarini e’tiborga olishga doir talablar endi yangi tahrirda davom etadi, deb tushuniladi.
Sertifikatlash	TTMT ga muvofiqlik tashqi audit orqali	Xuddi shunday	Farq -audit dalillari bazasi: 2025 tahrir baholash va natijalar bo‘yicha aniqroq dalillarni kutadi.

Izoh 1. HLS* (High-Level Structure) – ISO boshqaruv tizimi xalqaro standartlari (M:, ISO 9001, 31000, 14001, 45001 va boshqalar.) uchun yagona "yuqori darajadagi tuzilma".

Ushbu ikkinchi tahrir (2025) mazmun jihatidan texnik jihatdan qayta koʻrib chiqilgan boʻlib, 2018-yildagi nashrga nisbatan talabalarga yondashish va natijalarga koʻproq e'tibor, boshqaruvda aniqlik, manfaatdor tomonlar bilan tizimli muloqot va shaffoflikni oshirishlarga yoʻnaltirilgan. Yuqoridagi 1.2-jadvalga qarang ISO 21001:2018 va ISO 21001:2025 standartlarning oʻzoro muvofiqligi keltirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

ISO 21001:2025 xalqaro standarti ta'lim tashkilotlariga "siyosat – jarayon – koʻrsatkich – takomillashtirish" zanjiri asosida ishlaydigan boshqaruv madaniyatini joriy etish uchun aniq va amaliy yoʻl xaritasini beradi. Mazkur standart kimlar uchun (har qanday ta'lim muassasasi), nima uchun (oʻquvchi va manfaatdor tomonlar ehtiyojini qondirish, sifatni uzluksiz oshirish) va qanday (PDCA, riskga tayanuvchi boshqaruv, monitoring – audit) savollariga toʻliq javob beradigan talablar toʻplamidir.

Soʻnggi yillarda oliy ta'limda "sifat" tushunchasi faqat nazorat va hisobot bilan cheklanmay, natijaga yoʻnaltirilgan boshqaruv, oʻqitish-baholashning adolatliligi va talaba tajribasining oʻlchanadigan yaxshilanishi bilan ifodalanmoqda. Xalqaro statistik holatda ham shuni koʻrishimiz mumkin OECD ning Education at a Glance 2024 nashri mamlakatlar kesimida qamrov, moliyalashtirish va mehnat bozori bilan uygʻunlik koʻrsatkichlarini taqqoslab, ta'limdan kutilgan aniq (koʻnikma, bandlik) natijalarni oʻlchovlar zarurligini ta'kidlaydi. YUNESKOning SDG 4 monitoringi esa past va yuqori-oʻrta daromadli mamlakatlarda maqsadlarga erishish uchun yiliga qariyb 100 mlrd AQSh dollari moliyaviy boʻshliq mavjudligini koʻrsatadi, bu esa resurslarni natijalarga bogʻlab boshqarishning dolzarbligini yanada oshiradi.

Yuqoridagilarni hisobga olib ESG va ISO 21001 (TTMT) lar yangi talablar ishlab chiqdi. ESG 2015 ichki va tashqi sifat kafolati uchun tamoyillarni aniqlab, loyiha

dasturlar, talabani kompleks o‘qitish, adolatli baholash, ma’lumotlarning jamoatchilikka ochiqlikni taqozo etadi; shu orqali ichki siyosat va tashqi akkreditatsiya o‘rtasida “natijaviylik+samaradorlik” ni kuchaytirish.

“ISO 21001:2025 standartida ta’lim tashkilotlari menejment tizimlariga aniq talablar qo‘yilgan, ya’ni PDCA belbog‘i: – tashkilotni muhiti – yetakchilik – rejalashtirish – ta’minlash vositalari – faoliyat – faoliyat ko‘rsatkichlarini baholash
– takomillashtirish asoslangan. Masalan, nazariyalari baholashda TTMT talablari va “Assessment for Learning” darajasi bilan “yagonalik”ni ko‘rishimiz mumkin”[3].

Bud va Falchikov “kontseptual ishlarni baholashni nafaqat baho berish vositasi sifatida, balki kengroq ma’noda fikrlash qobiliyatlari va ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida ham qayta ko‘rib chiqadilar”[4]. Bu qarash TTMTning “Dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish” tamoyili va “Takomillashtirish” bandini mazmunan to‘ldirib, natijalarini baholash jarayonni yaxshilashga yo‘naltirishni rag‘batlantiradi.

Shavelson va uning “hammuallifdagi ishlarida oliy ta’limda o‘quv natijalarini keng qamrash, xususan, tanqidiy fikrlash va muloqot kabi ko‘nikmalarni baholashni”[5]. TTMTda bu ko‘rsatkichlarni rahbariyat kirishga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Monitoring,” nazorat va baholashda CIPP (Context – Input – Process – Product (Kontekst – Kiritish – Jarayo – Mahsulot)) modeli ham keng qo‘llanadi. Stufflebeamning ushbu modeli siyosat va dasturlarni “muhit – kirish – jarayon – chiqish”ni baholab, qaror qabul qilish jarayonga asoslangan”[6]. TTMTning muhit, xavf va imkoniyatlarni tahlillash, faoliyat va natijalarni baholash bandlari CIPP modelli bilan juda mos bo‘lib, ayniqsa ichki audit va takomillashtirish talablarni oshiradi.

Shu tariqa, adabiyotlar uch darajada bir-birini to‘ldiradi: (1) tashqi doiralar – ESG va ISO 21001:2025 (TTMT) orqali tamoyillar va talablar aniqlanadi; (2) didaktik-nazariy baza – o‘qitishni baholash bilan uyg‘unlashtirish, uzoq muddatli o‘rganishga yo‘naltirish hamda natijalarni o‘lchash yondashuvlari; (3) baholashda–CIPP modellar asosida rahbariyat tahlilini tizimlashtirish. Natijada siyosat – jarayon – ko‘rsatkichlar –

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

takomillashtirish zanjiri paydo bo‘ladi: talabalar tajribasi, o‘quv natijalari, baholashning adolatliligi, e’tirozlarni hal qilish vaqti va bitiruvchilarning bandligi ko‘rsatkichlarni muntazam kuzatish va aynan qarorlar qabul qilish. Bu yondashuv OECD va YUNESKO ning global talablariga muvofiq ta’lim sifatini oshirishning amaliy usuli sifatida qo‘llaniladi.

Tashkiliy boshqaruv rahbariyatning xalqaro standartlarni joriy etishga bo‘lgan moliyaviy imkoniyatlari, majburiyati, strategik maqsadlarning mavjudligi, jarayonli boshqaruvning shakllanganligi standartlarni joriy etish uchun zarur bo‘lgan mablag‘ moddiy texnik bazalar texnologiya va resurslarning mavjudligi. Rahbariyatning xalqaro standartlarni joriy etishga bo‘lgan majburiyati, strategik maqsadlarning mavjudligi, jarayonli boshqaruvning shakllanganligi, vakolat va mas’uliyatlarning aniq taqsimlanganligi, ichki audit va monitoring tizimining samaradorligi ko‘rishimiz mumkin.

Asosiy muhim omili sifatidak kadrlar, professor-o‘qituvchilar va xodimlarning xalqaro standartlar bo‘yicha bilim va kompetensiyasi, malaka oshirish imkoniyatlari, xodimlarning yangiliklarni qabul qilish darajasi hamda sifat madaniyatining shakllanganligi Tashkilot resurslarni monitoring qilishni aniqlashi va amalga oshirishi a) tashkilot; b) tashqi yetkazuvchilar. Tashkilot alohida ehtiyojli o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olishi va turli xil kirish imkoniyati talablarini oldindan hisobga olinishini ta’minlash.

Pedagogik omillar ta’lim jarayonining talaba va boshqa manfaatdor tomonlar ehtiyojlariga yo‘naltirilganligi, ko‘ngillilar va shogirdlar, tashkilot bilan shartnoma asosida ishlaydigan yoki uni faoliyatiga hissa qo‘shadiganlar; c) tashqi yetkazuvchilar xodimlari, tashkilot bilan shartnoma asosida ishlaydigan yoki uni faoliyatiga hissa qo‘shadiganlar. Ta’lim natijalarining aniq belgilanganligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta’lim jarayonini muntazam monitoring qilish va takomillashtirish mexanizmlarining mavjudligi.

Resurs va moddiy-texnik omillar zamonaviy o‘quv-laboratoriya bazasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta’lim resurslari, infratuzilma va standart talablarini bajarish uchun zarur moddiy resurslarning yetarliligi 4.2 jadval asosida .ta’lim tashkilotlarida ISO 21001 xalqaro standartlar talablarini joriy etishga ta’sir qiluvchi omillar batavsil ko‘rishimiz mukin.

4.2-jadval

Ta’lim tashkilotlarida ISO 21001 xalqaro standartlar talablarini joriy etishga ta’sirqiluvchi omillar

Omil	Ta’sir mexanizmi	Kutiladigan natija
Rahbariyatning qo‘llab-quvvatlashi	Resurs va vakolatlarni ta’minlaydi	Standartni joriy etish tezlashadi
Kadrla kompetensiyasi	Standart talablarini to‘g‘ri tushunish va qo‘llashni ta’minlaydi	Nomuvofiqliklar kamayadi
Raqamli jarayonlar	Ma’lumotlarni tezkor yig‘ish va monitoring qilish imkonini beradi	Boshqaruv samaradorligi oshadi
Sifat siyosati	Doimiy takomillashtirishni rag‘batlantiradi	Ta’lim sifati barqaror yaxshilanadi

Resurslar va moliya	Zarur infratuzilma va malaka oshirishni ta'minlaydi	Standart talablarini bajarish imkoniyati oshadi
Manfaatdor tomonlar talablari	Ta'lim jarayonini ehtiyojlarga moslashtiradi	Talabalar va ish beruvchilar qoniqishi oshadi
Ichki audit va monitoring	Nomuvofiqliklarni aniqlaydi va tuzatish choralarini belgilaydi	Tizimning uzluksiz takomillashuvi ta'minlanadi

O'zMSt ISO 21001:2025 (ISO 21001:2018, IDT) standartning 3.5 – rahbariga atamalar va ta'riflar keltirilgan bunga ko'ra, yuqori rahbariyat bosh menejer, shaxs yoki tashkilotga eng yuqori darajada rahbarlik qiluvchi va nazorat qiluvchi ishchi guruhi Yuqori rahbariyat vakolati doirasidagi resurslarni taqdim etish va tashkillashtiradi. nazarda tutiladi.

Kadrla kompetensiyasi 3.10 – ko'zlangan natijalarga erishish uchun bilim va ko'nikmalarni qo'llash qobiliyati. Bilim va ko'nikmalarni qo'llash qobiliyati, qaysiki o'quvchining turli muhit yoki javobgarlik va mustaqillik bilan bog'liq xodisalarda muvofiqlikni namoyish etishi.

Raqamli jarayonlar 3.12 – Jarayon kirish ma'lumotlarini chiqish ma'lumotlariga aylantiruvchi o'zaro bog'liq yoki o'zaro ta'sir etuvchi faoliyat turlari majmuasi. Ma'lumotlarni tezkor yig'ish va monitoring qilish imkonini beradi.

XULOSA

Sifat siyosati bayonoti tashkilotning madaniyati (ahloq-odob, qadriyat va e'tiqodlari to'plami) va TTMT tamoyillari asosida yaratiladi. O'z navbatida, TTMT siyosat bayonoti TTMT maqsadlarini belgilash uchun asos bo'ladi, bu maqsadlar



tashkilotning vazifasi natijaviy va samaradorlikka erishishi uchun davriy ravishda ko‘rib chiqiladi, shu bilan birga tashkilotning uzoq maqsadlariga erishishiga yo‘naltiriladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. T.: 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son.
2. ISO 21001:2025. Educational organizations -Management systems for educational organizations. Requirements. Geneva: International Organization for Standardization, 2025. 1-(n) p.
3. Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG). — Brussels: ENQA, 2015. 64 p.
4. OECD. Education at a Glance 2024: OECD Indicators. — Paris: OECD Publishing, 2024. 1–(n) p.
5. UNESCO. Global Convention on the Recognition of Qualifications concerning Higher Education. Paris: UNESCO, 2019.1–(n) p.
6. Эрназаров З.Н. Иерархическое управление качеством образования в высших учебных заведениях. Автореферат диссертатсии доктора философии (PhD) по педагогическим наукам. Қарши: Каршинский государственный университет, 2022.
7. Xakimov G‘.Q. Oliy ta’lim tizimida zamonaviy boshqaruv vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Va O‘rta Maxsus Ta’lim Vazirligi huzuridagi bosh ilmiy metodik markaz, 2022.
8. Askarov A.D. Oliy ta’lim muassasalari sifat menejmentini integratsiyalashgan mexanizmlar asosida takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2022.
9. Muxtarov Sh.Q. Strategik menejment yondashuvlari asosida oliy ta’lim tizimi boshqaruvi samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro: Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, 2024.
10. Lutfullaev P.M. Xorijiy mamlakatlarda oliy ta’lim sifati: benchmarking, tyuning va diagnostika (Monografiya). – Namangan: NamDU, 2020. – 143 b.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BO'LAJAK MUHANDIS-MEXANIKLARDA KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIK TIZIMINI OLIY TA'LIM AMALIYOTIGA JORIY ETISH MEXANIZMI

Elmanov Abbos Begmat o'g'li
Qarshi davlat texnika universiteti.
"Sanoat muhandisligi va menejmenti" kafedrasi t.f.f.d. dotsent.
abboselmanov@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-1429-3995

Annotatsiya. *Nazariy jihatdan puxta ishlab chiqilgan pedagogik model, agar amaliy joriy etish mexanizmiga ega bo'lmasa, institutsional amaliyotga to'liq kirib bormasligi mumkin. Ushbu xavfni oldini olish maqsadida maqolada kasbiy kompetensiyani shakllantirish metodologik tizimini oliy ta'lim amaliyotiga joriy etishning olti amaliy tavsiyadan va to'rt bosqichli rejadan iborat mexanizmi taqdim etiladi. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida E.Rogersning innovatsiyalarni tarqatish nazariyasi [1] va M.Fullanning ta'lim o'zgarishlari modeli [2] qo'llanildi. Har bir tavsiya avvalgi tadqiqot bosqichlarida aniqlangan o'lchangan muammoga bevosita bog'langan: amaliy-operatsion bo'shliq, kurslararo kesishma farq, statik baholash, institutsional farqlar, baholashning tarqoqligi va komponentlarni vaznlashdagi sub'ektivlik. Implementatsiya to'rt bosqichda amalga oshiriladi: tayyorgarlik (2-3 oy), pilot sinov (1 semestr), kengaytirilgan joriy etish (1-2 o'quv yili) va institutsionallashtirish. Mexanizmning strategik afzalligi — bosqichma-bosqich yondashuv institutsional resurslar cheklangan sharoitda ham amalga oshirilishini ta'minlashidir. Taklif etilgan mexanizm bo'lajak muhandis-mexaniklarning metakognitiv kompetentligini rivojlantirish dasturlarini amaliyotga joriy etishda ham metodologik asos sifatida qo'llanilishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *implementatsiya mexanizmi, innovatsiyalarni tarqatish, metodologik tizim, kasbiy kompetensiya, muhandis-mexaniklar, metakognitiv kompetentlik, bosqichli joriy etish, pilot sinov.*

МЕХАНИЗМ ВНЕДРЕНИЯ МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПРАКТИКУ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: НА ПРИМЕРЕ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ-МЕХАНИКОВ.

Аннотация. *Теоретически хорошо разработанная педагогическая модель, не имеющая механизма практического внедрения, рискует так и не войти в полной мере в институциональную практику. С целью предотвращения этого риска в статье представлен механизм внедрения методической системы формирования профессиональной компетенции в практику высшего образования, включающий шесть практических рекомендаций и*

четырёхэтапный план. В качестве теоретической основы использованы теория диффузии инноваций Э.Роджерса и модель образовательных изменений М.Фуллана. Каждая рекомендация непосредственно связана с конкретной, измеренной на предыдущем этапе исследования проблемой. Предложенный механизм может также служить методологической основой для внедрения программ развития метакогнитивной компетентности будущих инженеров-механиков.

Ключевые слова: *механизм внедрения, диффузия инноваций, методическая система, профессиональная компетенция, поэтапное внедрение, метакогнитивная компетентность.*

A MECHANISM FOR IMPLEMENTING THE METHODOLOGICAL SYSTEM OF PROFESSIONAL COMPETENCE FORMATION IN HIGHER EDUCATION: THE CASE OF FUTURE MECHANICAL ENGINEERS.

Abstract. *A theoretically well-developed pedagogical model that lacks a practical implementation mechanism risks never being fully adopted into institutional practice. To address this risk, this article presents a mechanism for implementing a professional competence formation methodology into higher education practice, comprising six practical recommendations and a four-stage plan. Rogers' diffusion of innovations theory and Fullan's educational change model serve as the theoretical foundations. Each recommendation is directly linked to a specific, empirically measured problem. The mechanism is realized in four stages: preparation (2-3 months), pilot testing (one semester), scaled implementation (1-2 academic years), and institutionalization. The proposed mechanism can also serve as a methodological basis for implementing metacognitive competence development programmes for future mechanical engineers.*

Keywords: *implementation mechanism, diffusion of innovations, methodological system, professional competence, mechanical engineers, metacognitive competence, phased implementation, pilot testing.*

KIRISH

Ta'lim tadqiqotlarida keng tarqalgan muammo shundaki, nazariy jihatdan puxta asoslangan pedagogik modellar ko'pincha ilmiy nashrlar darajasida qolib, institutsional amaliyotga to'liq kirib bormaydi [1, 7]. Bunga sabab, odatda, modelning o'zi emas, balki uni real sharoitga tatbiq etishning aniq, bosqichma-bosqich mexanizmi ishlab chiqilmaganligidir. Fixsen va boshq. [7] ta'kidlashicha, muvaffaqiyatli implementatsiya uchun faqat vosita yoki metodikaning sifati emas, balki uni joriy etish strategiyasining tizimlilik darajasi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bo'lajak muhandis-mexaniklarning kasbiy kompetentligi va metakognitiv rivojlanishi [5, 6, 14] — DSc tadqiqotimizning



asosiy ob'ekti — nafaqat o'quv jarayonida shakllantirish, balki ushbu shakllantirishni ta'minlovchi metodologik tizimni real amaliyotga joriy etish jarayonida ham hal qiluvchi omil bo'lib qoladi [15]. Zimmermanning o'z-o'zini tartibga soluvchi o'qish nazariyasi [6] asosida ishlab chiqilgan metakognitiv kompetentlik dasturlarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun aniq, o'lchanadigan implementatsiya mexanizmi zarur. Mazkur maqolaning maqsadi — avvalgi tadqiqot bosqichlarida [3, 11] ishlab chiqilgan metodologik tizimni institutsional amaliyotga joriy etishning olti tavsiya va to'rt bosqichdan iborat mexanizmini Rogers [1] va Fullan [2] nazariy asoslarida taqdim etishdir. Ilmiy yangiligi shundaki, mexanizmning har bir tavsiyasi ilgari o'tkazilgan tadqiqotda aniqlangan o'lchangan muammoga bevosita bog'langan — bu mexanizmning nazariy asoslanganligi va amaliy maqsadga muvofiqligini birlashtiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Rogers (2003) innovatsiyaning qabul qilinishini besh bosqichli jarayon sifatida tavsiflaydi: xabardorlik, qiziqish, baholash, sinov va qabul qilish [1]. Ushbu nazariy asos shuni ko'rsatadiki, murakkab pedagogik innovatsiyalarni bir martalik, to'liq hajmda joriy etish o'rniga bosqichma-bosqich, pilot sinovlardan boshlab kengaytirish strategiyasi muvaffaqiyat ehtimolini sezilarli darajada oshiradi. Fullan (2016) ta'kidlashicha, ta'lim o'zgarishlarining muvaffaqiyatsizligi ko'pincha o'zgarishning texnik jihatlariga e'tibor qaratib, uni amalga oshiruvchi shaxslarning — o'qituvchilar va ma'muriyatning — tayyorgarligi va motivatsiyasini e'tibordan chetda qoldirishdan kelib chiqadi [2]. Fixsen va boshq. [7] muvaffaqiyatli implementatsiyaning beshta asosiy shartini aniqlagan: aniq belgilangan amaliyot, tizimli inson resurslari, qo'llovchi tashkiliy muhit, qayta aloqa tizimi va uzluksiz monitoring. Muhandislik ta'limida CDIO [22] va ABET [16] standartlarining joriy etilishi shuni ko'rsatdiki, standartning o'zi sifatli bo'lganda ham, uni amaliyotga tatbiq etish jarayoni uzoq va murakkab bo'lishi mumkin. Milliy pedagogika fanida Karimov [13], Yusupova [12] va Rajabov [14] tadqiqotlarida muhandislik ta'limini takomillashtirish ko'rib chiqilgan, ammo implementatsiya

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mexanizmining tizimli, bosqichli tavsifi — ayniqsa metakognitiv kompetentlik rivojlantirish dasturlari uchun [15] — yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Implementatsiya mexanizmining tarkibiy qismlari

Ishlab chiqilgan mexanizm olti amaliy tavsiyani o'z ichiga oladi (1-jadval, 2-rasm). Har bir tavsiya Guskey [8] "natijaga yo'naltirilgan professional rivojlantirish" prinsipiga mos ravishda aniqlangan muammoga javob beradi.

1-jadval. Amaliy tavsiyalarning aniqlangan muammolarga bog'lanishi

No	Tavsiya	Aniqlangan muammo	Bog'liq komponent	Ustuvorlik
1	CAD/CAE/Digital Twin mexanizmi	Amaliy-operatsion bo'shliq	Operatsion-texnologik (w=0,25)	Yuqori
2	4-kurs qo'llab-quvvatlash paketi	Kurslararo kesishma farq	Loyihaviy (w=0,22)	Yuqori
3	Adaptiv monitoring algoritmi	Statik baholash	Metakognitiv nazorat [15]	O'rta
4	Dual ta'lim va sanoat klasterlari	Institutsional farqlar	Barcha komponentlar	Yuqori
5	Raqamli portfolio tizimi	Baholashning tarqoqligi	Kognitiv + Qadriyatli-refleksiv	O'rta
6	AHP-Delphi institutsionallashtirish	Sub'ektivlik (vaznlash)	Barcha komponentlar [10]	O'rta



2-rasm. Implementatsiya tavsiyalari va ularning aniqlangan muammolarga bog'liqligi (mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan; ustuvorlik foizi — ekspert konsensusi asosida)

To'rt bosqichli implementatsiya rejasi

Implementatsiya to'rt bosqichli rejaga asoslanadi (2-jadval, 1-rasm). Bu bosqichli yondashuv Rogers [1] innovatsiyalarni tarqatish nazariyasining sinov bosqichini markazga qo'yadi.

2-jadval. To'rt bosqichli implementatsiya rejasi

Bosqich	Nomi	Asosiy vazifalar	Davomiyligi	Chiquvchi natija
1	**Tayyorgarlik**	Diagnostika vositasini tasdiqlash; Metodik qo'llanma; O'qituvchilarni tayyorlash	2-3 oy	Tasdiqlangan vosita paketi
2	**Pilot sinov**	Bitta guruhda sinov; Ma'lumot yig'ish; Vositalarni takomillashtirish	1 semestr	Takomillashtirilgan model

3	**Kengaytirish**	Kafedra darajasida joriy etish; Monitoring; Sanoat hamkorligi	1-2 o'quv yili	Kengaytirilgan amaliyot
4	**Institutslash**	Normativ hujjatlarga kiritish; Reyting tizimiga integratsiya	Doimiy	Normativ hujjat



1-rasm. To'rt bosqichli implementatsiya jarayonining sxematik tasviri (Rogers [1] innovatsiyalarni tarqatish nazariyasi asosida; mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan)

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Taklif etilgan mexanizmning birinchi afzalligi — har bir tavsiyaning empirik jihatdan aniqlangan muammoga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligidir. Ikkinchi afzalligi — bosqichma-bosqich strategiyaning resurslar cheklangan sharoitda ham amalga oshirilish imkonini berishi. Uchinchi afzalligi — DSc mavzumiz bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik: metakognitiv kompetentlik rivojlantirish dasturlari [5, 6, 15] ham xuddi shunday to'rt bosqichli implementatsiya strategiyasiga muhtoj.

3-jadval. Implementatsiya mexanizmining metakognitiv kompetentlik dasturlariga qo'llanilishi

Implementatsiya bosqichi	**Kasbiy kompetensiya uchun**	**Metakognitiv kompetentlik uchun**
1. Tayyorgarlik	Diagnostika vositasi (MKD-S) tasdiqlash	Metakognitiv monitoring vositasi [12] tasdiqlash
2. Pilot sinov	1 guruhda AHP-Delphi model sinovi	1 guruhda metakognitiv o'qitish sinovi [14]
3. Kengaytirish	Kafedra darajasida barcha guruhlar	Muhandislik muammolari asosida ta'lim (PBL) [17]
4. Institutslash	Normativ hujjat va reyting tizimi	O'quv reja va sillabusga metakognitiv blok kiritish

Kutilayotgan samaradorlik dinamikasi

3-rasmda implementatsiya bosqichlari bo'yicha kompetensiya ko'rsatkichlarining kutilayotgan dinamikasi radar diagrammasi ko'rinishida taqdim etilgan. Ekspert baholash (n=15) asosida tuzilgan ushbu prognoz qaysi kompetensiya sohalarida eng sezilarli o'zgarish kutilishini vizual tarzda ko'rsatadi.



3-rasm. Implementatsiya bosqichlari bo'yicha kutilayotgan kompetensiya ko'rsatkichlari dinamikasi (ekspert baholash asosida, n=15; mualliflar taxmini)

3-rasmdan ko'rinib turibdiki, joriy holat bilan to'liq implementatsiya o'rtasidagi eng katta tafovut metakognitiv rivojlanish (0,35 dan 0,76 gacha) va institutsional qamrov (0,25 dan 0,72 gacha) sohalarida kutilmoqda.

Implementatsiya vaqt rejasi

4-rasmda implementatsiya jarayonining taxminiy vaqt rejasi Gantt diagrammasi ko'rinishida taqdim etilgan. Umumiy davomiylik taxminan 24 oy bo'lib, bu muassasalar uchun maqbul hisoblanadi.



4-rasm. Implementatsiya jarayonining taxminiy vaqt rejasi (Gantt diagrammasi) (mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan; umumiy davomiylik ~24 oy)

XULOSA

Ishlab chiqilgan olti amaliy tavsiya va to'rt bosqichli implementatsiya rejasi metodologik tizimni institutsional amaliyotga joriy etishning tizimli yo'lini taqdim etadi. Asosiy xulosalar:

1. Har bir tavsiyaning aniqlangan muammoga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligi mexanizmning maqsadga muvofiqligini ta'minlaydi.

2. To'rt bosqichli strategiya institutsional resurslar cheklangan sharoitda ham amalga oshirilishi mumkin bo'lgan moslashuvchan yo'l xaritasini taqdim etadi.

3. Mexanizm bo'lajak muhandis-mexaniklarning metakognitiv kompetentligini rivojlantirish dasturlarini [5, 6, 14, 15] amaliyotga joriy etishda metodologik asos sifatida bevosita qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rogers E.M. Diffusion of Innovations. 5th ed. — Free Press, 2003. — 551 p.
2. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. 5th ed. — Teachers College Press, 2016. — 288 p.
3. Elmanov A.B., Mirzaumidov A.Sh. Texnologik mashina va jihozlar ta'lim yo'nalishida kasbiy kompetensiyani baholashning raqamli portfolio tizimi // Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. — 2026. — 34-to'plam, 1-son.
4. Davlatova M.T., Toshmatov X.U. Texnika oliy ta'lim muassasalarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish metodologiyasi // Pedagogika fanlari jurnali. — 2023. — №4. — B. 45-52.
5. Flavell J.H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry // American Psychologist. — 1979. — Vol. 34, No. 10. — P. 906-911.
6. Zimmerman B.J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory into Practice. — 2002. — Vol. 41, No. 2. — P. 64-70.
7. Fixsen D.L., Naoom S.F., Blase K.A., Friedman R.M., Wallace F. Implementation Research: A Synthesis of the Literature. — University of South Florida, 2005. — 119 p.
8. Guskey T.R. Evaluating Professional Development. — Corwin Press, 2000. — 314 p.
9. Hall G.E., Hord S.M. Implementing Change: Patterns, Principles and Potholes. 4th ed. — Pearson, 2015.
10. Saaty T.L., Vargas L.G. Models, Methods, Concepts & Applications of the Analytic Hierarchy Process. 2nd ed. — Springer, 2012.
11. Elmanov A.B., Mirzaumidov A.Sh. Structural modeling of professional competence formation among students of technological machinery and equipment programs // Ta'lim va taraqqiyot. — 2026. — No 3. — B. 669-683.
12. Yusupova Z.A. Oliy texnik ta'limda talabalarda metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish // Pedagogika fanlari. — 2023. — No 4. — B. 112-118.
13. Karimov J.X. Kompetensiyaviy yondashuv asosida muhandislik ta'limini takomillashtirish muammolari // Ta'lim va ilm-fan. — 2022. — No 2. — B. 34-41.
14. Rajabov S.T. Bo'lajak muhandis-mexaniklar kasbiy tayyorgarligida metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish // O'zMU xabarlari. — 2024. — No 1. — B. 88-95.
15. Pintrich P.R. The role of metacognitive knowledge in learning, teaching, and assessing // Theory into Practice. — 2002. — Vol. 41, No. 4. — P. 219-225.

16. ABET Engineering Accreditation Commission. Criteria for Accrediting Engineering Programs, 2023-2024. — ABET, 2023.
17. Hmelo-Silver C.E. Problem-based learning: What and how do students learn? // Educational Psychology Review. — 2004. — Vol. 16, No. 3. — P. 235-266.
18. Darling-Hammond L., Hyler M.E., Gardner M. Effective Teacher Professional Development. — Learning Policy Institute, 2017.
19. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. 4th ed. — Open University Press, 2011.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida".
21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-apreldagi 240-son Qarori "Oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim sifatini baholash tizimini joriy etish to'g'risida".
22. Crawley E.F., Malmqvist J., Ostlund S., Brodeur D.R., Edstrom K. Rethinking Engineering Education: The CDIO Approach. 2nd ed. — Springer, 2014.
23. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. — T.: Fan, 2004. — 23 b.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING ART-PEDAGOGIK QOBILIYATLARINI BAHOLASH MEZONLARI VA DIAGNOSTIKA VOSITALARI

Bo'ltakova Roziya Xasan qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
bultakovar@mail.com

Annotatsiya: *Maqolada raqamli ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining art-pedagogik qobiliyatlarini baholash uchun motivatsion, kreativ, faoliyatli va shaxsiy rivojlanish mezonlari tizimlashtiriladi. Har bir mezon kuzatiladigan faoliyat dalillari, mos diagnostika vositasi va qayta aloqa usuli bilan bog'lanadi. Raqamli mahsulotning tashqi bezagi bilan uning pedagogik qiymatini farqlashga, boshlang'ich va yakuniy ishlarni bir xil topshiriq va rubrika asosida qiyoslashga alohida e'tibor beriladi. Taklif etilgan yondashuv metodik tavsif bo'lib, tekshirilmagan tajriba-sinov foizlariga tayangan empirik xulosalarni ilgari surmaydi.*

Kalit so'zlar: *art-pedagogik qobiliyat, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, baholash mezoni, diagnostika, raqamli portfolio, rubrika, refleksiya.*

КРИТЕРИИ И ДИАГНОСТИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТАРИЙ ОЦЕНКИ АРТ-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация: *В статье систематизированы мотивационный, креативный, деятельностный и личностно-развивающий критерии оценки арт-педагогических способностей будущих учителей начальных классов в цифровой образовательной среде. Каждый критерий соотнесён с наблюдаемыми свидетельствами деятельности, диагностическими инструментами и обратной связью. Особое внимание уделено различению внешнего оформления цифрового продукта и его педагогической ценности, а также сопоставлению начальной и итоговой работ по единым заданиям и рубрике. Предложенный подход носит методический характер и не содержит неподтверждённых эмпирических результатов.*

Ключевые слова: *арт-педагогические способности, будущий учитель начальных классов, критерий оценивания, диагностика, цифровое портфолио, рубрика, рефлексия.*

CRITERIA AND DIAGNOSTIC TOOLS FOR ASSESSING THE ART-PEDAGOGICAL COMPETENCIES OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Abstract: *The article systematizes motivational, creative, performance-based, and personal development criteria for assessing the art-pedagogical abilities of prospective primary school teachers in a digital learning environment. Each criterion is linked to observable evidence, a diagnostic instrument, and*

feedback. Particular attention is given to distinguishing the visual polish of a digital product from its pedagogical value and to comparing initial and final work with a common task and rubric. The proposed approach is methodological and makes no unsupported empirical claims.

Key words: *art-pedagogical abilities, prospective primary school teacher, assessment criterion, diagnosis, digital portfolio, rubric, reflection.*

KIRISH

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi badiiy obraz, rang, kompozitsiya va hikoyadan dars maqsadini ochish uchun foydalanadi. Raqamli muharrir esa bu g‘oyani tayyorlash, qayta ko‘rish va taqdim etishni osonlashtiradi. Ammo texnik jihatdan chiroyli material o‘z-o‘zidan art-pedagogik qobiliyatning rivojlanganini ko‘rsatmaydi: unda bolaning yoshiga mos tushuncha, bajaradigan amali va o‘qituvchining didaktik qarori ham ko‘rinishi kerak. Shu sababli baholashda mahsulotning tashqi ko‘rinishi bilan birga uni yaratish jarayoni ham tahlil qilinadi.

Maqolaning maqsadi raqamli ta’lim muhitida talabaning art-pedagogik qobiliyatini kuzatish va baholash uchun aniq mezonlar, indikatorlar hamda dalil manbalarini o‘zaro bog‘lashdir. Tadqiqot predmeti bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy-pedagogik topshiriqni bajarishdagi qarori, raqamli mahsuloti va refleksiyasidir. Mazkur maqola mavjud tajriba raqamlarini qayta talqin qilishga emas, ularni keyinchalik tekshirish imkonini beradigan diagnostika mantiqini bayon etishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Redecker tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu doirasi o‘qituvchining raqamli kompetensiyasida resurslarni tanlash, o‘qitish, baholash va o‘quvchini qo‘llab-quvvatlash faoliyatlarini ajratadi [1]. Bu yondashuv raqamli vositani ishlata olishni uning pedagogik maqsadga muvofiq qo‘llanishidan farqlashga yordam beradi. UNESCOning o‘qituvchilar uchun AKT kompetensiyalari doirasi ham texnologiyadan foydalanishni pedagogik amaliyot va kasbiy rivojlanish bilan bog‘laydi [2].

González-Zamar va Abad-Segura universitet muhitida san’at ta’limi hamda raqamli dizayn o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilgan [3]. Hipp va Sulentic Dowell

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

boshlang‘ich ta’limga tayyorlanayotgan talabalarning san’at integratsiyasi haqidagi qarashlari va amaliyotdagi to‘siqlarini o‘rgangan [4]. Mazkur ishlar badiiy mahsulotni alohida texnik ko‘nikma sifatida emas, pedagogik vazifaga bog‘langan faoliyat sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlardan Zubaydullayevning art-pedagogika asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid himoya qilingan ishining avtoreferati [5] hamda Mustafayevning oliy ta’lim modernizatsiyasining artpedagogik asoslariga bag‘ishlangan avtoreferati [6] mavzuga yaqin nazariy manbalardir. Ular kasbiy tayyorgarlik va artpedagogik yondashuvning asoslarini yoritadi. Ushbu maqolaning alohida vazifasi esa aynan raqamli ijodiy mahsulot, pedagogik qaror va refleksiyani baholashda ishlatiladigan kuzatiladigan belgilarni izchil ta’riflashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola ilmiy manbalarni tahlil qilish, pedagogik faoliyat belgilarini tasniflash va baholash rubrikasini mantiqiy loyihalash usullariga asoslanadi. Baholash birligi sifatida talabaning boshlang‘ich sinf uchun yaratgan badiiy-didaktik mahsuloti va unga ilova qilingan dars maqsadi, topshiriq, tahrir izohi olinadi. Masalan, vizual hikoya yoki naqshlar asosidagi matematika topshirig‘i tanlanadi. Barcha talabaga bir xil murakkablikdagi vazifa, vaqt va baholash tavsifi berilishi qiyoslashning zarur shartidir.

Dissertatsiya konsepsiyasidagi to‘rtta baholash mezoni — motivatsion, kreativ, faoliyatli va shaxsiy rivojlanish — diagnostika o‘qi sifatida olinadi. Ijodiy-estetik, raqamli-texnologik, pedagogik-metodik va psixologik-refleksiv komponentlar esa qobiliyatning tarkibiy jihatlaridir; komponent bilan mezon bir-birining aynan nusxasi emas. Masalan, kreativ mezondagi original yechim ijodiy-estetik komponentni ochsa, faoliyatli mezondagi darsga moslash pedagogik-metodik komponentni ham ochadi. Bitta mahsulot bir nechta mezon uchun dalil bo‘lishi mumkin, lekin bir xil belgini ikki marta ballga aylantirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Dastlabki diagnostikada qiziqish anketasi, kichik ijodiy vazifa va raqamli tayyorgarlik suhbati; jarayonda kuzatuv varaqasi, loyiha versiyalari va tengdoshlar fikri; yakunda esa bir xil turdagi mustaqil topshiriq, raqamli portfolio hamda refleksiv yozuv qo‘llanadi. Anketa subyektiv munosabatni, mahsulot esa amaliy bajarishni ko‘rsatadi. Shu sabab yakuniy baho faqat “menga yoqadi” degan javobga yoki bir marta tayyorlangan chiroyli tasvirga tayana olmaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Metodik tahlil natijasida har bir mezon uchun tekshiriladigan savol, kuzatiladigan dalil va mos vosita ajratildi (1-jadval). Jadvaldagi belgilar tayyor empirik ko‘rsatkich emas; ular baholovchi nimani qayd etishi kerakligini belgilaydigan operatsion tavsifdir.

1-jadval. Art-pedagogik qobiliyatni baholash mezonlari va dalillar

Mezon	Kuzatiladigan belgi	Dalil va vosita
Motivatsion	Vazifaga qiziqish, muhokamada asosli ishtirok, fikrdan so‘ng ishni davom ettirish	Anketa, kuzatuv varaqasi, ishning tahrir tarixi
Kreativ	Badiiy g‘oyaning o‘ziga xosligi; rang, obraz va kompozitsiyaning mazmunga mosligi	Eskiz va yakuniy mahsulot; izohli taqdimot
Faoliyatli	Dars maqsadiga mos vazifa, bola bajaradigan amal, raqamli vositani ongli tanlash	Dars fragmenti, mahsulot, amaliy namoyish
Shaxsiy rivojlanish	Mustaqil qaror, o‘z ishining kuchli va zaif jihatini dalil bilan ko‘rsatish, tahrir	Portfolio, refleksiv yozuv, oldingi va keyingi nusxa

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Motivatsion mezonda qiziqishning barqarorligi kuzatiladi. Baholovchi birinchi mashg‘ulotdagi faollikni keyingi topshiriqlardagi davomiy harakat bilan qiyoslaydi. Talabaning “san’atdan foydalanish foydali” degan umumiy bayonoti yetarli emas; u muayyan sinfdagi vazifani tanlashi, taklifni muhokama qilishi va qayta aloqa asosida ishini takomillashtirishi lozim. Anketa javobi kuzatuvga zid bo‘lsa, bu farq izohlanadi, o‘rtacha ball bilan yashirilmaydi.

Kreativ mezon yangi va maqsadga mos yechimni baholaydi. Tayyor shablonning rangini almashtirish original g‘oya deb qabul qilinmaydi. Talaba nega shu obraz yoki kompozitsiya boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga mavzuni anglashda yordam berishini izohlaydi. Masalan, geometrik shakllar haqida naqshli topshiriqda bolalar doira, uchburchak va to‘rtburchakni qiyoslashi hamda o‘z bezagini tuzishi mumkin. Baholovchi faqat bezakning jozibasini emas, savollarning fikrlashga undashini ham ko‘radi.

Faoliyatli mezon talabaning g‘oyani o‘qitish vazifasiga aylantira olishini tekshiradi. Dars fragmentida o‘quv maqsadi, bola bajaradigan amal, pedagogik savol va javobni tekshirish usuli o‘zaro mos bo‘lishi kerak. Raqamli vosita tanlovi ham shu maqsad bilan asoslanadi: oddiy taqdimot yetarli bo‘lgan vazifa uchun murakkab animatsiya qo‘shilishi qo‘shimcha ustunlik bermaydi. Mahsulot oflayn holatda ochilishi, matnning o‘qilishi va tasvir manbasi ko‘rsatilishi alohida tekshiriladi.

Shaxsiy rivojlanish mezoni refleksiyaning dalilliligini aniqlaydi. “Ishim yaxshi chiqdi” degan yozuv o‘rniga talaba qaysi savol bolaning javobini aniq ochmaganini, qaysi sahnani nima sababdan o‘zgartirganini va keyingi safar nimani sinashini qayd etadi. Portfolioda dastlabki eskiz, tengdosh fikri, tahrirlangan nusxa va yakuniy izoh bo‘lsa, baholovchi natijani jarayon bilan bog‘lay oladi. Bu izlar mustaqillikni ham ko‘rsatadi: talaba barcha qarorni o‘qituvchining tayyor ko‘rsatmasi asosida qabul qilganmi yoki sababini o‘zi asoslaganmi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Darajalarni ajratishda bir xil rubrikadan foydalanish maqsadga muvofiq. Yuqori darajada talaba original g‘oyani yoshga mos pedagogik topshiriqqa mustaqil aylantiradi va tahrir sababini dalillaydi. O‘rta-yuqori darajada asosiy bog‘lanishlar mavjud, ammo ayrim savollar yoki vizual yechimni aniqlashtirish kerak. O‘rta darajada mahsulotning ayrim qismlari ishlaydi, pedagogik vazifa esa yordam bilan ravshanlashtiriladi. Past darajada mahsulotning maqsadi va bola bajaradigan amal aniqlanmaydi yoki topshiriq yakuniga yetkazilmaydi. Bu tavsiflar talabaga topshiriq berilishidan oldin ma’lum qilinadi.

Rubrikani amalda qo‘llashda ikki baholovchi avval bir nechta anonim ishni mustaqil ko‘rib, har bir mezonga bergan bahosini konkret dalil bilan izohlaydi. Ularning talqinidagi farqlar muhokama qilinib, noaniq iboralar aniqlashtiriladi. O‘z-o‘zini baholash va tengdoshlar fikri yakuniy hukmni avtomatik almashtirmaydi: ular talabaning qarorini qayta ko‘rishiga xizmat qiladi. Natijalar qaydida muassasa, guruh hajmi, dastlabki va yakuniy o‘lchov sanasi hamda yetishmayotgan ishlar aniq ko‘rsatiladi. Ma’lumotlar tasdiqlanmaguncha foiz yoki statistik ahamiyat haqida xulosa chiqarilmaydi.

Baholashning didaktik vazifasi tashxis bilan tugamaydi. Kreativ yechim kuchli, pedagogik asos sust bo‘lsa, talabaga shu vizual material uchun bolaga beriladigan savollarni qayta yozish topshiriladi. Pedagogik reja aniq, raqamli ifoda o‘qish uchun noqulay bo‘lsa, kontrast, matn hajmi va ovoz ravshanligi tahrir qilinadi. Refleksiya sust bo‘lsa, “qaysi fikrni oldingiz va nimani o‘zgartirdingiz?” savoliga dalilli yozuv olinadi. Shu tariqa mezon individual rivojlanish vazifasini belgilashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Art-pedagogik qobiliyatni baholashda motivatsion, kreativ, faoliyatli va shaxsiy rivojlanish mezonlarini kuzatiladigan dalillar bilan bog‘lash zarur. Baholash birligi faqat bezatilgan raqamli fayl emas, balki boshlang‘ich sinf uchun o‘quv maqsadi, bola faoliyati, mahsulotni yaratish qarorlari va refleksiv tahrirdan iborat yaxlit ishdir. Ushbu mezonlar

raqamli vositalar almashganda ham pedagogik mazmunni barqaror saqlashga yordam beradi.

Amaliyotda yagona topshiriq va oldindan ochiq rubrikadan foydalanish, dastlabki va yakuniy mahsulotlarni bir portfolioda saqlash, baholovchilar talqinini muvofiqlashtirish va har bir bahoni dalil bilan qayd etish tavsiya qilinadi. Dissertatsiya doirasidagi tajriba-sinov natijalarini alohida empirik maqolada yoritishdan oldin muassasalar soni, guruhlar yig‘indisi, jadval foizlari va statistik hisoblar birlamchi qaydlar bilan qayta tekshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. DOI: https://doi.org/10.2760/159770

2. UNESCO. UNESCO ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. Paris: UNESCO, 2018. https://www.unesco.org/en/articles/unesco-ict-competency-framework-teachers

3. González-Zamar M.-D., Abad-Segura E. Digital Design in Artistic Education: An Overview of Research in the University Setting. Education Sciences. 2021;11(4):144. https://doi.org/10.3390/educsci11040144

4. Hipp J., Sulentic Dowell M.-M. Challenges and Supports to Elementary Teacher Education: Case Study of Preservice Teachers' Perspectives on Arts Integration. Journal for Learning through the Arts. 2019;15(1). https://doi.org/10.21977/D915144538

5. Zubaydullayev O‘.R. Bo‘lajak o‘qituvchilarni art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati. https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3aO7617fO1.file

6. Mustafayev Sh.N. Oliy ta’lim modernizatsiyasining artpedagogik asoslarini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha DSc dissertatsiyasi avtoreferati. https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3aO8424fO1.file

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Mirzayeva Kamola Ikromovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi
E-mail: mirzayeva@mail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilingan. Kasbiy-kommunikativ kompetensiyaning motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsion-kommunikativ hamda refleksiv-baholash komponentlari aniqlashtirilgan. Kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan va refleksiv yondashuvlar integratsiyasi asosida uch bosqichli metodika taklif etilgan. Rolli o'yin, vaziyatli keys, mikrodars, faol tinglash, videovaziyat tahlili va kommunikativ portfolio kabi metodlarning bo'lajak tarbiyachilarni real kasbiy muloqotga tayyorlashdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, metodikaning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar va baholash mezonlari asoslangan.*

Kalit so'zlar: *bo'lajak tarbiyachi, kasbiy-kommunikativ kompetensiya, pedagogik muloqot, kommunikativ ko'nikma, kompetensiyaviy yondashuv, rolli o'yin, vaziyatli keys, refleksiya, maktabgacha ta'lim.*

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация. *В статье анализируются теоретические и методические основы формирования профессионально-коммуникативной компетентности будущих воспитателей. Уточнены мотивационно-ценностный, когнитивный, операционально-коммуникативный и рефлексивно-оценочный компоненты профессионально-коммуникативной компетентности. На основе интеграции компетентностного, деятельностного, личностно-ориентированного и рефлексивного подходов предложена трехэтапная методика. Раскрыты возможности ролевых игр, ситуационных кейсов, микрообучения, активного слушания, анализа видеоситуаций и коммуникативного портфолио в подготовке будущих воспитателей к реальному профессиональному общению. Обоснованы педагогические условия и критерии оценки эффективности методики.*

Ключевые слова: *будущий воспитатель, профессионально-коммуникативная компетентность, педагогическое общение, коммуникативные умения, компетентностный подход, ролевая игра, ситуационный кейс, рефлексия, дошкольное образование.*

METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL-COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE EDUCATORS

Annotation. *The article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing professional communicative competence in future preschool educators. The motivational-value, cognitive, operational-communicative, and reflective-evaluative components of professional communicative competence are specified. A three-stage methodology is proposed through the integration of competence-based, activity-oriented, learner-centered, and reflective approaches. The potential of role-play, situational cases, microteaching, active listening, video-situation analysis, and communicative portfolios for preparing future educators for authentic professional interaction is discussed. Pedagogical conditions and assessment criteria supporting the effectiveness of the proposed methodology are also substantiated.*

Key words: *future preschool educator, professional communicative competence, pedagogical communication, communication skills, competence-based approach, role-play, situational case, reflection, preschool education.*

KIRISH

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida tarbiyachining kasbiy faoliyati faqat pedagogik bilim va metodik tayyorgarlik bilan cheklanmaydi. Tarbiyachi bola, ota-ona, hamkasb va ta’lim tashkiloti rahbariyati bilan muntazam muloqot olib boradi, turli pedagogik vaziyatlarda fikrini aniq, tushunarli va etik me’yorlarga muvofiq ifodalaydi, suhbatdoshni tinglaydi hamda hamkorlikka asoslangan munosabatlarni yo‘lga qo‘yadi. Shu sababli bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy-kommunikativ kompetensiyani shakllantirish oliy pedagogik ta’limning muhim vazifalaridan biridir.

Kasbiy-kommunikativ kompetensiya bo‘lajak tarbiyachining pedagogik muloqot maqsadini anglash, vaziyatga mos nutqiy vositalarni tanlash, verbal va noverbal aloqa usullaridan samarali foydalanish, muloqotdagi to‘siqlarni bartaraf etish, pedagogik nizolarni konstruktiv hal qilish va o‘z kommunikativ faoliyatini refleksiv baholash qobiliyatlarini birlashtiruvchi integrativ sifat sifatida qaraladi. Maktabgacha ta’lim sharoitida mazkur kompetensiya ayniqsa muhim, chunki kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashda tarbiyachining ohangi, nutq ravonligi, emotsional ta’sirchanligi, tinglash madaniyati va bolaning yosh-psixologik xususiyatiga mos muloqot usulini tanlashi bevosita tarbiyaviy natijaga ta’sir ko‘rsatadi.

Oliy ta’limda kommunikativ ko‘nikmalar ko‘plab fanlar va amaliy mashg‘ulotlar doirasida shakllantirilsa-da, ularni maqsad, mazmun, metod, vosita va baholash



mezonlari o‘zaro bog‘langan yaxlit metodik tizim sifatida tashkil etish zarurati mavjud. Mazkur maqolaning maqsadi bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning metodik asoslarini aniqlash, uning tarkibiy komponentlarini tavsiflash hamda oliy ta’lim jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan bosqichli metodikani taklif etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kommunikativ kompetensiya tushunchasining nazariy ildizlari D. Hymesning tilni faqat grammatik qoidalar majmui sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy vaziyatda maqsadga muvofiq qo‘llash qobiliyati sifatida talqin etishi bilan bog‘liq. Keyinchalik M. Canale va M. Swain kommunikativ kompetensiyaning grammatik, sotsiolingvistik va strategik tarkiblarini asoslab, kommunikativ yondashuvning pedagogik qo‘llanishini tizimlashtirdilar. M. Canale modelning diskursiv jihatini ham alohida komponent sifatida rivojlantirdi. Ushbu nazariyalar kommunikativ kompetensiyani bilim va amaliy kommunikativ faoliyatning o‘zaro birligi sifatida o‘rganishga asos yaratdi.

Pedagog tayyorlash nuqtayi nazaridan kommunikativ kompetensiya kasbiy faoliyatning funksional vositasi hisoblanadi. O‘qituvchi yoki tarbiyachi muloqot jarayonida faqat axborot uzatmaydi; u pedagogik vaziyatni boshqaradi, emotsional aloqa o‘rnatadi, motivatsiya hosil qiladi, tushunmovchiliklarni bartaraf etadi va hamkorlikni tashkil qiladi. Shu bois kasbiy-kommunikativ kompetensiya umumiy nutqiy savodxonlikdan kengroq bo‘lib, pedagogik maqsadga yo‘naltirilgan muloqot, kasbiy etika, empatik tinglash, vaziyatni tahlil qilish va refleksiyani ham qamrab oladi.

Maktabgacha ta’limga oid tadqiqotlarda tarbiyachining kommunikativ tayyorgarligi pedagogik faoliyat samaradorligining muhim omili sifatida ko‘rsatiladi. A.A. Abdullayev maktabgacha ta’lim pedagogining faoliyati doimiy ravishda shaxslararo muloqot vazifalari bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. J.M. Otajonov va S.R. Murodbekova esa bo‘lajak maktabgacha ta’lim pedagoglarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning samarali metod va yo‘llarini yoritgan. V.S. Vasilyeva

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

va E.Yu. Nikitina maktabgacha ta'lim pedagoglarining kommunikativ kompetensiyasini metodik ishlar tizimida rivojlantirish zaruratini asoslaydi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiyaning nazariy modellari yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, bo'lajak tarbiyachilar tayyorlash jarayonida uning kasbiy vaziyatlarga mos komponentlari, bosqichlari, metodlari va baholash mezonlarini yagona metodik tizimda birlashtirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan maqolada kasbiy-kommunikativ kompetensiyani motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsion-kommunikativ va refleksiv-baholash komponentlari birligida shakllantirish yondashuvi taklif etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy va pedagogik modellashtirish xarakteriga ega. Ish jarayonida kommunikativ kompetensiyaga oid ilmiy-pedagogik manbalarni tahlil qilish va umumlashtirish, qiyosiy tahlil, tizimli-strukturaviy tahlil, pedagogik modellashtirish, tasniflash va mantiqiy xulosa chiqarish metodlaridan foydalanildi. Manbalarni tanlashda kommunikativ kompetensiyaning klassik nazariy modellari, pedagog kadrlar tayyorlashga oid yondashuvlar va maktabgacha ta'lim pedagogining kommunikativ faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarga ustuvorlik berildi.

Metodologik asos sifatida kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan va refleksiv yondashuvlarning integratsiyasi qabul qilindi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijasini bilimlar yig'indisi emas, balki kasbiy vaziyatda samarali harakat qilish qobiliyati sifatida belgilaydi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv kommunikativ ko'nikmalarning real yoki modellashtirilgan pedagogik vaziyatlarda mashq qilinishini talab etadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabaning individual nutqiy tajribasi, muloqot uslubi va o'zini namoyon qilish imkoniyatlarini hisobga olishga xizmat qiladi. Refleksiv yondashuv esa talabaning o'z muloqotini tahlil qilishi, xatolarini anglab, keyingi kommunikativ harakatini takomillashtirishini nazarda tutadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Taklif etilayotgan metodikada natijani baholash uchun to‘rtta mezon ajratildi: kasbiy muloqotga motivatsiya va qadriyatli munosabat; kommunikativ-pedagogik bilimlar; amaliy muloqot ko‘nikmalari; refleksiya va o‘zini baholash. Ushbu mezonlar diagnostik topshiriqlar, vaziyatli keyslar, rolli o‘yinlar, kuzatish varaqalari, o‘zaro baholash va refleksiv yozuvlar orqali aniqlanishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil asosida bo‘lajak tarbiyachining kasbiy-kommunikativ kompetensiyasi to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponent orqali tavsiflandi. Motivatsion-qadriyatli komponent pedagogik muloqotga ijobiy munosabat, bolaga hurmat, hamkorlikka tayyorlik va kasbiy etika me’yorlarini qabul qilishni ifodalaydi. Kognitiv komponent muloqot qonuniyatlari, pedagogik nutq, yoshga mos kommunikatsiya, konfliktlarni boshqarish, verbal va noverbal vositalar haqidagi bilimlarni qamrab oladi. Operatsion-kommunikativ komponent tinglash, savol berish, tushuntirish, qayta aloqa o‘rnatish, dialogni boshqarish, ota-onalar bilan konstruktiv suhbat olib borish va pedagogik vaziyatga mos kommunikativ strategiyani tanlash ko‘nikmalaridan iborat. Refleksiv-baholash komponenti esa o‘z muloqot uslubini tahlil qilish, kommunikativ xatolar sababini aniqlash va o‘z faoliyatini tuzatishga tayyorlikni bildiradi.

Kasbiy-kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasini uch bosqichda tashkil etish maqsadga muvofiq. Birinchi — diagnostik-motivatsion bosqichda talabalarning boshlang‘ich kommunikativ imkoniyatlari aniqlanadi, kasbiy muloqotning tarbiyachi faoliyatidagi ahamiyati anglatiladi. Bu bosqichda o‘zini baholash anketalari, qisqa kommunikativ vaziyatlar, muammoli savollar va refleksiv suhbatlardan foydalanish mumkin.

Ikkinchi — mazmuniy-amaliy bosqich metodikaning asosiy qismini tashkil qiladi. Unda talaba nazariy bilimni pedagogik vaziyatlarda qo‘llaydi. “Tarbiyachi–bola”, “tarbiyachi–ota-ona”, “tarbiyachi–hamkasb” formatidagi rolli o‘yinlar, vaziyatli keyslar, mikrodars, debat, pedagogik dialog konstruksiyasi, faol tinglash mashqlari va

videovaziyat tahlili samarali metodlar hisoblanadi. Masalan, “Ota-onaning e’tiroziga javob”, “Bola mashg‘ulotda qatnashishni istamayapti”, “Ikki bola o‘rtasidagi nizoni yumshatish” kabi keyslar talabaning nafaqat gapirish qobiliyatini, balki vaziyatni anglash, empatiya, nutqiy takt va konstruktiv yechim topish ko‘nikmalarini ham faollashtiradi.

Uchinchi — refleksiv-korreksion bosqichda talaba o‘zining kommunikativ harakatlarini mezonlar asosida tahlil qiladi. O‘zaro baholash, videoqaydni tahlil qilish, “Mening kuchli kommunikativ tomonlarim va rivojlantirishim kerak bo‘lgan jihatlar” refleksiv topshirig‘i, kommunikativ portfolio hamda individual rivojlanish xaritasi ushbu bosqich uchun maqsadga muvofiq vositalardir. Bunda baholash faqat yakuniy ball qo‘yish vazifasini emas, balki keyingi rivojlanish yo‘nalishini ko‘rsatish vazifasini bajaradi.

Metodikaning samaradorligini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilar belgilandi: kommunikativ mashqlarni kasbiy vaziyatlar bilan bog‘lash; nazariya va amaliyotning uzviyligini ta’minlash; talabaning faol subyekt sifatidagi ishtirokini kuchaytirish; xavfsiz va hamkorlikka asoslangan kommunikativ muhit yaratish; muntazam qayta aloqa va refleksiyani yo‘lga qo‘yish; pedagogik amaliyot bilan auditoriya mashg‘ulotlari o‘rtasidagi aloqani kuchaytirish.

Taklif etilgan metodika “maqsad – komponent – mazmun – metod – faoliyat – baholash – refleksiya – natija” mantiqiy zanjiriga asoslanadi. Mazkur zanjirning barcha elementlari bir-birini to‘ldirgandagina kommunikativ kompetensiya alohida nutqiy mashqlar majmui emas, balki bo‘lajak tarbiyachining kasbiy sifati sifatida shakllanishi mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tahlil natijalari bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish uzluksiz, faoliyatga yo‘naltirilgan va refleksiv xususiyatga ega bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur kompetensiyani faqat nazariy bilim yoki nutq madaniyati

bilan cheklash maqsadga muvofiq emas. U kasbiy motivatsiya, kommunikativ bilim, real pedagogik vaziyatlarda samarali muloqot qilish ko‘nikmalari hamda o‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatining integrativ birligi sifatida shakllantirilishi lozim.

Taklif etilgan uch bosqichli metodika — diagnostik-motivatsion, mazmuniy-amaliy va refleksiv-korreksion bosqichlar — kommunikativ tayyorgarlikni izchil tashkil etish imkonini beradi. Rolli o‘yin, vaziyatli keys, mikrodars, pedagogik dialog, faol tinglash, videovaziyat tahlili va kommunikativ portfolio kabi metodlarning uyg‘un qo‘llanishi talabani real kasbiy muloqotga yaqinlashtiradi.

Oliy ta’lim amaliyotida maktabgacha ta’lim yo‘nalishining mutaxassislik fanlari mazmuniga kasbiy kommunikativ topshiriqlarni tizimli integratsiya qilish, pedagogik amaliyotda kommunikativ faoliyatni alohida kuzatish mezonlarini joriy etish, talabalarning refleksiv portfoliolarini yuritish hamda “tarbiyachi–bola–ota-ona” uch tomonlama muloqot vaziyatlarini modellashtiruvchi treninglardan foydalanish tavsiya etiladi.

Kelgusi tadqiqotlarda taklif etilgan metodikaning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov asosida tekshirish, kasbiy-kommunikativ kompetensiyaning daraja ko‘rsatkichlarini statistik tahlil qilish va raqamli kommunikativ trening vositalarining imkoniyatlarini o‘rganish maqsadga muvofiq.

1-jadval. Kasbiy-kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasining tarkibiy tuzilishi

Bosqich	**Asosiy maqsad**	**Ustuvor metodlar**	**Kutiladigan natija**
Diagnostik-motivatsion	Boshlang‘ich holatni aniqlash va kasbiy muloqotga ehtiyoj hosil qilish	Diagnostik topshiriq, muammoli savol, refleksiv suhbat	Motivatsiya va individual rivojlanish ehtiyojining anglanishi

Mazmuniy-amaliy	Kommunikativ bilimlarni kasbiy vaziyatlarda qo‘llash	Rolli o‘yin, keys, mikrodars, faol tinglash, videovaziyat tahlili	Vaziyatga mos pedagogik muloqot ko‘nikmalarining rivojlanishi
Refleksiv-korreksion	Kommunikativ faoliyatni tahlil qilish va takomillashtirish	O‘zaro baholash, portfolio, videoqayd tahlili, refleksiv yozuv	O‘zini baholash, xatolarni tuzatish va barqaror kasbiy muloqot uslubining shakllanishi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics / J.B. Pride, J. Holmes (Eds.). – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
2. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–47.
3. Canale M. From Communicative Competence to Communicative Language Pedagogy // Language and Communication / J.C. Richards, R.W. Schmidt (Eds.). – London: Longman, 1983. – P. 2–27.
4. Savignon S.J. Communicative Competence: Theory and Classroom Practice. – Reading, MA: Addison-Wesley, 1983.
5. Abdullayev A.A. The Role of the Communicative Approach in Teaching Preschool Education // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, Issue 2.
6. Otajonov J.M., Murodbekova S.R. Development of Communicative Competence Among Future Preschool Teachers // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Vol. 3, No. 10. DOI: 10.17605/OSF.IO/Q9MYC.
7. Vasilyeva V.S., Nikitina E.Yu. Case of Teachers' Communicative Competence Development Within the System of Methodological Work in the Context of Preschool Educational Establishments // International Journal of Engineering & Technology. – 2018. – Vol. 7, No. 4.38. DOI: 10.14419/ijet.v7i4.38.24634.
8. Khasanova H., Burieva N.K. Developing the Linguistic Competence of Future English Teachers Through a Learner-Centred Approach: A Conceptual Framework // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2026. – Vol. 7(I3). – P. 370–377. DOI: 10.37547/mesmj-V7-I3-45.

TALABALARNING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Dadaboyev Dilshodjon G'aybulla o'g'li
Namangan davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi
Email: dilshod121@mail.ru

Annotatsiya: *Zamonaviy ta'lim muassalari tomonidan talabalarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalinish talab etilmoqda. Ushbu maqolada talabalarning axborot-texnologik kompetentligini rivojlantirish uning asosiy kasbiy bilimlari, ko'nikma va malakalariga qo'shimcha ravishda shakllantirilish zarurati haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *pragmatik, kompetensiya, autentik, axborot, texnologiya*

ЗНАЧЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация: *Современные образовательные учреждения требуют эффективного использования информационных технологий в совершенствовании прагматической компетенции студентов. В данной статье рассматривается необходимость развития информационно-технологической компетентности студентов как дополнительного компонента к их основным профессиональным знаниям, умениям и навыкам.*

Ключевые слова: *прагматический, компетенция, аутентичный, информация, технология.*

THE IMPORTANCE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN IMPROVING STUDENTS' PRAGMATIC COMPETENCE

Abstract: *Modern educational institutions require the effective use of information technologies in improving students' pragmatic competence. This article discusses the necessity of developing students' information and technological competence as an additional component alongside their core professional knowledge, skills, and abilities.*

Keywords: *pragmatic, competence, authentic, information, technology.*

KIRISH

Oliy ta'lim tizimida talabalarga yaratilayotgan shart-sharoitlar ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda xalqaro standartlarga mos ta'lim olishlarini ta'minlashga qaratilgan. Bu borada ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish, innovatsion



pedagogik texnologiyalarni joriy etish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda xalqaro ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda bo'lajak o'qituvchilar uchun yangi o'quv dasturlari ishlab chiqilmoqda. Ushbu dasturlar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida zamonaviy bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida chet tilini bilish faqat grammatik bilimlar bilan cheklanmaydi. Tilni real muloqot jarayonida to'g'ri, o'rinli va maqsadga muvofiq qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari esa ushbu kompetensiyani shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Axborot texnologiyalari ta'lim tizimida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilib, o'quv jarayonini takomillashtirishning muhim omiliga aylandi. Avvallari axborot-kompyuter texnologiyalari asosan texnik fanlarda qo'llanilgan bo'lsa, bugungi kunda ularning gumanitar yo'nalishlarda, jumladan chet tillarni o'qitishda ahamiyati ortib bormoqda.

Talabalar nafaqat tilning nazariy asoslarini, balki uni turli kommunikativ vaziyatlarda qo'llashni ham o'rganishlari lozim. Pragmatik kompetensiya aynan shu jarayonni ta'minlaydi. U talabaning nutq vaziyatiga mos ravishda fikr bildirish, iltimos qilish, rad etish, maslahat berish, suhbatni boshlash va yakunlash kabi ko'nikmalarini qamrab oladi.

Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, axborot texnologiyalaridan foydalanish autentik til muhiti yaratish, real muloqot namunalarini taqdim etish va o'quvchilarni kommunikativ faoliyatga jalb etishda katta imkoniyat yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda talabalarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishda axborot texnologiyalarining o‘rni tahlil qilindi. Shuningdek, ingliz tilidagi autentik materiallardan foydalanish, raqamli platformalar orqali muloqot vaziyatlarini modellashtirish hamda interaktiv vositalarning samaradorligi o‘rganildi.

Tahlillar va natijalar

Talabalar zamonaviy ta’lim jarayonida turli raqamli vositalardan foydalanishni bilishlari bilan birga, o‘quvchilarda pragmatik kompetensiyani shakllantira oladigan metodlarni ham egallashlari zarur.

YUNESKO tavsiyalariga ko‘ra, pedagogning axborot-texnologik kompetentligiga quyidagilar kiradi:

- axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish;
- talabalarning bilimlarni egallashiga ko‘maklashish;
- yangi bilim va innovatsion yondashuvlarni yaratishga yo‘naltirish.

Pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi axborot texnologiyalari muhim ahamiyatga ega:

Multimedia resurslar

Video, audio va podkastlar yordamida talabalar real nutq namunalarini tinglaydilar, suhbat ohangi, murojaat shakllari va nutq strategiyalarini o‘rganadilar.

Masalan, YouTube, TED Talks, BBC Learning English platformalari turli kommunikativ vaziyatlarni kuzatish imkonini beradi.

Onlayn lug‘atlar va tarjima vositalari

Cambridge Dictionary, Oxford Dictionary, Google Translate kabi vositalar so‘zlarning ma’nosini tushunish bilan birga, ularning kontekstual qo‘llanilishini ham ko‘rsatadi.

Interaktiv ilovalar

Duolingo, Quizlet, Memrise kabi platformalar dialoglar, vaziyatli mashqlar va rolli topshiriqlar orqali pragmatik ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Sun'iy intellekt va chatbotlar

Sun'iy intellekt asosidagi chatbotlar yordamida talabalar real suhbatga yaqin muhitda muloqot qiladilar. Bu esa savol berish, javob qaytarish, suhbatni davom ettirish va kommunikativ muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Virtual haqiqat texnologiyalari

VR texnologiyalari orqali talabalar mehmonxonada buyurtma berish, intervyuda qatnashish, do'konda xarid qilish kabi real hayotiy vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanishni mashq qiladilar.

Onlayn forum va muhokamalar

Reddit, Quora, Facebook guruhlari orqali talabalar yozma muloqot madaniyatini, fikr bildirish, e'tiroz qilish, savol berish va bahs yuritish usullarini o'rganadilar.

Pragmatik kompetensiyani rivojlantirish afzalliklari

Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali:

- talabalar real muloqot vaziyatlariga tayyorlanadi;
- nutqning maqsadga muvofiq shakllarini tanlashni o'rganadi;
- suhbatni boshlash va yakunlash ko'nikmalari rivojlanadi;
- rasmiy va norasmiy uslublarni farqlashni biladi;
- madaniyatlararo muloqot tajribasi ortadi;
- mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari kengayadi;
- ijodiy va tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

Diskurs strategiyalari talabalarning og'zaki nutqi, o'qish va yozish faoliyatida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar talabalarga xushmuomalalik tamoyillari, masalan, saxiylik, kamtarlik, hamdardlik va bag'rikenglikdan foydalanib, mos hamda ishontiruvchi ifodalarni tuzishni o'rgatishlari mumkin. Bu esa shaxslararo munosabatlarni mustahkamlashga va real hayotdagi muloqotni yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, o'qituvchilar talabalarga til uslubini tinglovchi yoki auditoriya kutgan talablarga moslashtirishni o'rgatishlari mumkin, bu esa moslashuvchanlik va

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

dolzarblikni oshiradi. O‘qib tushunishda o‘qituvchilar talabalarga matnning chuqur ma’nosini anglashga va muallifning asosiy g‘oyasini aniqlashga yordam beradilar. Yozishda esa o‘qituvchilar diskursiv ma’nolarni to‘g‘ri ifodalashga urg‘u beradilar hamda talabalarga o‘quvchi kutgan talablarni hisobga olishni tavsiya etadilar, bu esa xatolarni kamaytirib, yozuvni yanada mazmunli va chiroyli qiladi.

Pragmatik strategiyalar, ayniqsa globallashuv sharoitida, madaniyatlararo muloqotda nihoyatda muhimdir. O‘qituvchilar turli madaniyatlardagi kommunikativ qoidalar va odatlarni taqqoslash hamda sinfda madaniyatlararo dialoglarni modellashtirish orqali talabalarga madaniy farqlarni tushunish va hurmat qilishni o‘rgatadilar. Bu esa talabalarga turli madaniyatlardagi muloqot strategiyalariga moslashish va ularni hurmat qilishga yordam beradi, xalqaro muhitda samarali muloqot o‘rnatish hamda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish imkonini yaratadi. Pragmatik strategiyalar til o‘rganuvchilarga tilning dinamik qo‘llanilishini tushunish, turli vaziyatlarga moslashish va tegishli qoidalarga rioya qilishda ham yordam beradi. Shu bois o‘qituvchilar ta’lim metodlarida pragmatik strategiyalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratishlari, talabalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishlari va ularni global fuqarolik hayotiga tayyorlashlari lozim.

XULOSA

Demak, zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik hamda axborot-kompyuter texnologiyalaridan foydalanish talabalarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ingliz tili mashg‘ulotlarida autentik materiallar va raqamli vositalardan foydalanish talabalarga til birliklarini real vaziyatlarda o‘rinli, aniq va samarali qo‘llash imkonini beradi. Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilar xalqaro talablarga javob beradigan, zamonaviy kommunikativ ko‘nikmalarga ega mutaxassis sifatida shakllanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin, J. L. 1989. How to do things with words. Edited by J. O. Urmson and Marina Sbisa. Oxford: Oxford University Press;

2. Grice, H. P. (1975) 'Logic and conversation'. In P. Cole and J. Morgan (eds) Studies in Syntax and Semantics III: Speech Acts, New York: Academic Press, pp.183-98;

3. Brown, G and G. Yule. 1983. Discourse Analysis. Cambridge: Cambridge University Press;

4. Ellis, R. 1998. Teaching and research: Options in grammar teaching. TESOL Quarterly, 32, 139-60 Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ» № 12 (81) Том 3. ДЕКАБРЬ 2024 г.

5. Дерешко Б.Ю. Классификация информационно-коммуникационных образовательных технологий и их использование в учебном процессе вуза. // Телекоммуникации и информатизация образования, № 6, 2005. – С. 92-103.

6. Захарова К.А. Комплекс методических средств для формирования социолингвистической компетенции бакалавров. // Известия ВГПУ, № 9 (122), 2017. – С. 11-14.

7. Isaeva A. Influence of newspaper headlines on readers // The Sixth European Conference on Languages, Literature and Linguistics. Proceedings of the Conference (April 26, 2015). – Vienna, OR: «East West» Association for Advanced Studies and Higher Education GmbH. – 2015. – P. 12–15.

8. Исаева А.Ю. Переводческие трансформации в процессе перевода газетных заголовков // Апробация: ежемесячный научно-практический журнал: Материалы X Международной научно-практической конференции «Проблемы филологии, культурологии и искусствоведения в свете современных исследований». – 2015. – № 2 (29). – С. 102–103.

TO‘QIMACHILIK SANOATI BO‘YICHA BO‘LAJAK MUHANDIS-PEDAGOGLARNING RAQAMLI KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MODELINI ASOSLASH

Raxmonqulov Akmal Obloqul o‘g‘li
Guliston davlat universiteti Mustaqil tadqiqotchisiv 1992@gmail.com
E-mail: araxmonqulo1992@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida to‘qimachilik sanoati bo‘yicha bo‘lajak muhandis-pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi kasb ta’limi o‘qituvchisidan texnologik jarayonlarni chuqur bilish bilan bir qatorda o‘quv materialini raqamli muhitda loyihalash, taqdim etish va natijalarni baholash ko‘nikmalari talab etilayotgani hamda bunday tayyorgarlikning ilmiy asoslangan metodik tizimi yetarlicha ishlab chiqilmaganligi bilan belgilanadi. Ilmiy-metodik manbalarni nazariy va qiyosiy tahlil qilish asosida “raqamli savodxonlik”, “raqamli kompetensiya” va “raqamli kompetentlik” tushunchalarining mazmuniy chegaralari aniqlangan hamda muhandis-pedagog uchun axborot-kommunikativ kompetentlikning muallifiy ta’rifi taklif etilgan. Raqamli kompetensiyaning to‘rt soha va to‘rt komponentdan iborat tarkibiy tuzilmasi, shuningdek, asosiy, foydalanish va raqamli transformatsiya bosqichlarini qamrab oluvchi rivojlanish ketma-ketligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli kompetensiya, raqamli savodxonlik, raqamli kompetentlik, muhandis-pedagog, to‘qimachilik sanoati, kasb ta’limi, pedagogik modellashtirish, pedagogik shart-sharoitlar, baholash mezonlari, elektron ta’lim resurslari.*

SUBSTANTIATION OF A MODEL FOR DEVELOPING THE DIGITAL COMPETENCE OF PROSPECTIVE ENGINEERING TEACHERS FOR THE TEXTILE INDUSTRY

Rakhmonkulov Akmal Oblokul ugli
Researcher, Gulistan State University
E-mail: araxmonqulo1992@gmail.com

Abstract. *The article examines the theoretical and methodological foundations for developing the digital competence of prospective engineering teachers for the textile industry in the context of digital transformation. The relevance of the study stems from the fact that a vocational education teacher is now expected not only to possess in-depth knowledge of technological processes, but also to design, deliver and assess learning content in a digital environment, whereas a research-based methodological system for such training has not yet been sufficiently developed. Drawing on a theoretical and comparative analysis of the*

scientific and methodological literature, the study delineates the conceptual boundaries of "digital literacy", "digital competence" and "digital competency", and proposes an author's definition of information and communication competency for engineering teachers.

Keywords: *digital competence, digital literacy, digital competency, engineering teacher, textile industry, vocational education, pedagogical modelling, pedagogical conditions, assessment criteria, electronic learning resources.*

ОБОСНОВАНИЕ МОДЕЛИ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ-ПЕДАГОГОВ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Рахмонкулов Акмал Облокул угли
E-mail: araxmonqulo1992@gmail.com
Исследователь Гулистанского государственного университета

Аннотация. *В статье исследуются теоретико-методологические основы развития цифровой компетенции будущих инженеров-педагогов текстильной промышленности в условиях цифровой трансформации. Актуальность исследования обусловлена тем, что от преподавателя профессионального образования наряду с глубоким знанием технологических процессов требуется умение проектировать, представлять учебный материал и оценивать результаты обучения в цифровой среде, тогда как научно обоснованная методическая система такой подготовки разработана недостаточно. На основе теоретического и сравнительного анализа научно-методической литературы определены содержательные границы понятий «цифровая грамотность», «цифровая компетенция» и «цифровая компетентность», предложено авторское определение информационно-коммуникативной компетентности инженера-педагога.*

Ключевые слова: *цифровая компетенция, цифровая грамотность, цифровая компетентность, инженер-педагог, текстильная промышленность, профессиональное образование, педагогическое моделирование, педагогические условия, критерии оценивания, электронные образовательные ресурсы.*

KIRISH

Ta'lim va ishlab chiqarish jarayonlarining raqamlashuvi mutaxassislarga qo'yiladigan talablarni sifat jihatidan o'zgartirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan

qabul qilingan Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish, ta'limni individuallashtirish va kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilaydi. Xalqaro darajada ham "Ta'lim – 2030" doirasida qabul qilingan Incheon deklaratsiyasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta'lim tizimlarini mustahkamlashda foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. To'qimachilik sanoati texnologik jihatdan tez yangilanib borayotgan tarmoq bo'lib, bu sohada kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlashda ikki vazifa uyg'unlashadi: birinchidan, texnologik jarayonlar va jihozlarni chuqur bilish; ikkinchidan, o'quv materialini raqamli muhitda loyihalash, taqdim etish va natijalarni nazorat qilish ko'nikmalariga ega bo'lish. Shu bois bo'lajak muhandis-pedagogning raqamli kompetensiyasi uning kasbiy tayyorgarligining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Biroq amaliyotda raqamli texnologiyalarni oliy ta'lim muassasalarida qo'llash darajasi hali yetarli emas; buni ko'p jihatdan pedagoglarning bu texnologiyalardan o'quv jarayonida foydalanishga tayyorgarligi yetarli emasligi bilan izohlash mumkin. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rov natijalari ham shuni tasdiqladi: respondentlarning 77 foizi raqamli kompetensiyaning asosiy darajasida bo'lib, hech kim o'zini raqamli texnologiyalar sohasida yetakchi yoki ekspert deb baholamadi. Demak, bir tomondan, bo'lajak muhandis-pedagogni elektron ta'lim resurslarini loyihalash, yaratish va qo'llashga tayyorlash zarurati ortib bormoqda, ikkinchi tomondan esa bunday tayyorgarlikning ilmiy asoslangan metodik tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Tadqiqot muammosi aynan shu ziddiyatdan kelib chiqadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Respublikamizda ta'limni axborotlashtirish va elektron ta'lim resurslarini yaratish masalalari N.A. Muslimov, N.D. Mamatov, R.X. Djurayev, N.I. Taylakov, A.A. Abduqodirov, Sh.X. Pozilova, T.T. Shoymardonov kabi olimlarning ishlarida tadqiq etilgan. Xususan, N.D. Mamatov muhandisning axborot-kommunikatsion kompetentligini uning intellektual, integral, sensor hamda shaxsiy sifatlari bilan

belgilanuvchi ko‘p qirrali tavsif sifatida talqin qilib, uni axborot oqimi ko‘p va uni qayta ishlash tezligi yuqori bo‘lgan muhitda o‘z vaqtida to‘g‘ri qaror qabul qila olish tayyorgarligi bilan bog‘laydi. N.A. Muslimov va hammualliflar elektron axborot ta’lim resurslarini veb-texnologiyalar asosida yaratish va amaliyotga joriy etish metodikasini yoritgan, R.X. Djurayev va N.I. Taylakov elektron darsliklar yaratishning nazariy va amaliy jihatlarini ko‘rsatgan, Sh.X. Pozilova esa pedagogik dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlarini tavsiflagan.

Xorijiy tadqiqotlarda raqamli kompetensiya turli modellar orqali ifodalanadi. Yevropa Komissiyasining DigComp 2.1 doirasi fuqarolar uchun raqamli kompetensiyani besh sohada — axborot va ma’lumotlar savodxonligi, muloqot va hamkorlik, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik hamda muammolarni hal qilish — 21 ta kompetensiya va sakkiz o‘zlashtirish darajasi bilan tavsiflaydi. O‘qituvchilarga mo‘ljallangan DigCompEdu doirasi esa pedagogik faoliyatga xos 22 ta kompetensiyani oltita sohada va oltita taraqqiyot bosqichida bayon qiladi. G. Falloon raqamli savodxonlikdan raqamli kompetensiyaga o‘tish jarayonini o‘qituvchining raqamli kompetensiya doirasi misolida ko‘rsatgan; L. Ilomäki va hammualliflar raqamli kompetensiyani texnik ko‘nikmalar, texnologiyalardan mazmunli foydalanish, ularni tanqidiy baholash va raqamli madaniyatda ishtirok etish motivatsiyasi birligi sifatida talqin qiladi. G.U. Soldatova va hamkasblari raqamli kompetentlikning psixologik modelini ishlab chiqib, uni kontent, muloqot, iste’mol va texnosfera sohalarida bilim, ko‘nikma, motivatsiya hamda mas’uliyat komponentlari orqali tavsiflagan. P. Mishra va M. Koehler taklif etgan TPACK konsepsiyasi esa texnologik, pedagogik va predmet bilimlarining integratsiyasini o‘qituvchi bilimining asosi sifatida ko‘rsatadi. Muhandis-pedagog uchun bu uchlik alohida ahamiyatga ega, chunki u texnik fan mazmunini raqamli muhitda didaktik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishi lozim.

Tahlil qilingan manbalarda raqamli kompetensiya asosan umumta’lim o‘qituvchilari, o‘smirlar yoki fuqarolar uchun tavsiflangan; to‘qimachilik sanoati kabi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tarmoq bo‘yicha kasb ta’limi o‘qituvchisini tayyorlashda uni rivojlantirish modeli, shart-sharoitlari va baholash mezonlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Tadqiqotda ilmiy-metodik manbalarni nazariy tahlil qilish va qiyosiy o‘rganish, modellashtirish, so‘rov, suhbat va pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba-sinov hamda matematik-statistik usullardan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari 2023–2026-yillarda Guliston davlat universiteti, Namangan to‘qimachilik sanoati instituti va Qarshi davlat texnika universitetining 60720700 – Yengil sanoat muhandisligi (tabiiy tolalarni dastlabki ishlash bo‘yicha) sohasida kasb ta’limi bakalavriat ta’lim yo‘nalishida o‘tkazildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Raqamli savodxonlik, raqamli kompetensiya va raqamli kompetentlik tushunchalarining farqlanishi

Ilmiy adabiyotlarda “raqamli savodxonlik”, “raqamli kompetensiya” va “raqamli kompetentlik” atamalari ko‘pincha bir-biri o‘rnida qo‘llanadi. Raqamli savodxonlik atamasi raqamli kompetensiya tushunchasidan oldin paydo bo‘lgan va dastlab raqamli vositalarda ishlashning asosiy ko‘nikmalarini ifodalagan; keyinchalik uning mazmuni axborotni tanqidiy baholash, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik va muloqot kabi yo‘nalishlar hisobiga kengaydi. Tadqiqotchilarning bir qismi raqamli kompetensiyani raqamli savodxonlikning tarkibiy qismi deb hisoblasa, boshqalari bu ikki tushunchani yaxlit hodisa sifatida qaraydi. Tadqiqotimizda bu tushunchalar quyidagicha farqlandi. *Raqamli savodxonlik* raqamli vositalardan o‘zi uchun foydali foydalana olishning boshlang‘ich poydevori bo‘lib, raqamli kompetensiyalar, raqamli iste’mol va raqamli xavfsizlik elementlarini o‘z ichiga oladi. *Raqamli kompetensiya* o‘quv jarayonida olingan bilim, ko‘nikma va tajribaga tayanib, raqamli texnologiyalardan kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy xarakterdagi muammolarni hal qilishda foydalanish qobiliyati bo‘lib, faoliyatda namoyon bo‘ladi. *Raqamli kompetentlik* esa kompetensiyalar asosida shakllanadigan, shaxsning kasbiy va hayotiy faoliyat sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishonchli, samarali, tanqidiy va xavfsiz tanlash hamda qo‘llashga

tayyorligini ifodalovchi integral sifati, ya'ni ta'lim jarayonining natijasidir. Shunga ko'ra raqamli kompetensiya raqamli kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Muhandis-pedagog faoliyatining o'ziga xosligini hisobga olib, "axborot-kommunikativ kompetentlik" tushunchasiga muallifiy ta'rif berildi: bu kasbiy faoliyat sohasiga mos zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, pedagogik va texnik dasturiy mahsulotlar yaratishda dasturlash tillarini qo'llay olish hamda ijodiy faoliyat natijalarini raqamli vositalar orqali taqdim etish qobiliyatidir.

2. Raqamli kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish bosqichlari

Tadqiqotda raqamli kompetensiya to'rt soha bo'yicha tahlil qilindi: kontent bilan ishlash (yaratish, qidirish, tanlash, kontentni tanqidiy baholash); muloqot (munosabatlarni yaratish va saqlash, o'zini namoyon qilish, obro'-e'tibor); iste'mol (internet xizmatlaridan buyurtma va xarid maqsadida foydalanish); texnosfera (kompyuter va dasturiy ta'minot bilan ishlash ko'nikmalari). Har bir sohada bilim, ko'nikma, motivatsiya va mas'uliyat komponentlari ajratiladi.

Bo'lajak muhandis-pedagogning raqamli kompetensiyasi uch bosqichda rivojlanishi asoslandi. Birinchi — asosiy bosqichda talaba raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari haqida umumiy tasavvurga ega bo'ladi va ulardan pedagogik muammolarni hal qilishda epizodik foydalanadi. Ikkinchi — raqamli texnologiyalardan foydalanish bosqichida u keng ko'lamli pedagogik vazifalarni yechish uchun raqamli vositalar, xizmatlar va elektron ta'lim platformalaridan muntazam va samarali foydalanadi. Uchinchi — raqamli transformatsiya bosqichida kasbiy faoliyatda raqamli texnologiyalardan ijodiy foydalanadi, raqamli ko'nikmalarini doimiy takomillashtiradi va o'z ta'lim muhitini loyihalaydi. Har bir bosqich kognitiv, funksional va ijodiy jihatlar bilan tavsiflanadi. Raqamli kompetensiyani shakllantirish vositalari uch blokda taqdim etildi: 1) talabaning o'qish, pedagogik amaliyot va malaka oshirish davrida shaxsiy ta'lim traektoriyasini modellashtirishi (elektron ta'lim resurslari va platformalari, onlayn muhitdagi qo'shma loyihalar, bulutli xizmatlar); 2) raqamlashtirilgan ta'lim jarayonini

amalga oshirishga metodik tayyorgarlikni rivojlantirish (onlayn platformalar, vebinarlar); 3) tarmoq pedagogik hamjamiyatlarida tajriba almashish va ijodiy tanlovlarda ishtirok etish.

3. Raqamli kompetensiyani rivojlantirish modeli

Pedagogik model o‘rganilayotgan jarayonning sxematik ifodasi bo‘lib, uni qurishda maqsadlilik, ob’ekt va model o‘xshashligi, tizimlilik, ob’ektivlik va sub’ektivlik birligi hamda kognitiv va shakllantiruvchi funksiyalar kabi modellashtirish tamoyillariga tayaniladi. Pedagogikada qat’iy statik model yaratish deyarli mumkin emas, chunki pedagogik faoliyat shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi ijodiy jarayondir; shu sababli model dinamik tizim sifatida ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan model maqsad, mazmun, jarayon, baholash va natija komponentlaridan iborat yaxlit didaktik tizimni ifodalaydi (1-rasm). Maqsad komponenti ijtimoiy buyurtmaga — raqobatbardosh va raqamli kompetensiyali bo‘lajak to‘qimachilik sanoati mutaxassisini tayyorlashga tayanadi. Mazmun komponentida vazifalar, yondashuvlar, tamoyillar va pedagogik shart-sharoitlar belgilanadi. Yondashuvlar sifatida mobillik, kasbga yo‘naltirilganlik, axborot-kommunikativlik, uzviylik va uzluksizlik; tamoyillar sifatida shaxsga yo‘naltirilganlik, o‘qish jarayonining ustunligi, maqsadga muvofiqlik, moslashuvchanlik, interaktivlik, amaliyotga yo‘naltirilganlik, ko‘p muhitlilik (multimedialik) hamda nazorat va baholash tamoyillari tanlandi.

Jarayon komponenti elektron ta’lim resurslarini yaratish texnologiyasi fanini modulli o‘qitish orqali amalga oshiriladi. Unda ta’lim shakllari (masofaviy, elektron, individual, mustaqil ta’lim va trening), ta’lim metodlari (brifing, SMART, zinama-zina, veb-kvest), didaktik vositalar (elektron darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv kursi, virtual laboratoriyalar, glossariy), zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar (Mentimeter, Padlet, Kahoot!, Wooflash, Socrative, Quizlet) hamda elektron muhit (HEMIS, Moodle, elektron pochta, chat va forumlar, bloglar, onlayn videokonferensiya tizimlari) tanlanadi. Baholash komponenti raqamli kompetensiyaning rivojlanganlik mezonlari va

darajalarini aniqlashga, natija komponenti esa raqamli kompetensiyali bo‘lajak muhandis-pedagogni tayyorlashga qaratilgan. Modelning o‘ziga xosligi shundaki, u raqamli kompetensiyani yakuniy natija sifatida emas, balki bosqichma-bosqich o‘sib boruvchi jarayon sifatida ko‘radi: aniqlovchi, ta’kidlovchi va shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichlari modelning baholash komponenti bilan bevosita bog‘langan.



1-rasm. To‘qimachilik sanoati bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislar raqamli kompetensiyasini rivojlantirish modeli

4. Modelning samarali amal qilishini ta’minlovchi shart-sharoitlar

Tashkiliy shart-sharoitlar sifatida quyidagilar belgilandi: axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish; yangicha axborot va ta’lim muhitini yaratish; talabaga shaxsiy elektron muhitni yaratish imkonini berish; kasbiy tayyorgarlikning sifatli moddiy-texnik bazasini ta’minlash; ish beruvchilar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatish; zamonaviy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

pedagogik va axborot texnologiyalariga yo‘naltirilgan pedagogik hamda ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish.

Pedagogik shart-sharoitlar majmuasi oltita yo‘nalishni qamrab oladi: 1) raqamli kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha nazariy va amaliy tayyorgarlik; 2) raqamli ta’lim muhitini tashkil etish; 3) kredit-modul tizimiga asoslangan o‘quv reja va dasturlarni takomillashtirish; 4) elektron ta’lim uchun o‘quv materiallari va axborot resurslarini ishlab chiqish hamda doimiy yangilab borish; 5) ta’limni individuallashtirish va talabaning shaxsiy ta’lim traektoriyasini belgilash uchun sharoit yaratish; 6) sanoat va ish beruvchilar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. Bu shartlar o‘zaro bog‘liq: resurslarni yangilab borish (4-shart) faqat raqamli muhit mavjud bo‘lgandagina (2-shart) amalga oshadi, individual traektoriya (5-shart) esa sanoat bilan hamkorlikda aniqlanadigan kasbiy talablarga (6-shart) tayangandagina mazmunli bo‘ladi. Shu sababli ularni alohida-alohida emas, majmua sifatida joriy etish maqsadga muvofiq.

5. Rivojlanganlik darajasini baholash mezonlari va darajalari

Raqamli kompetensiyaning rivojlanganlik holati to‘rtta mezon bo‘yicha baholanadi (1-jadval).

1-jadval. Raqamli kompetensiyaning rivojlanganlik mezonlari

Mezon	Mazmuni
Motivatsion-qadriyatli	Mutaxassislik fanlariga qiziqish, pedagogik faoliyat motivlari, bilimlarni uzatishga yo‘naltirilganlik hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilim va ko‘nikmalarni boyitishga intilish.
Kognitiv	Raqamli kompetentlik asosidagi kasbiy va maxsus bilimlarni egallash darajasi, intellektual qiziquvchanlik, yangi bilimlarni egallashga ochiqlik.

Mezon	Mazmuni
Faoliyatli	Egallangan bilimlarni aniq vaziyatlarda qo‘llash, kasbiy masalalarni yechish tajribasi; o‘quv, refleksiv, kommunikativ va ixtisoslikka oid ko‘nikmalarni mustaqil qo‘llash, kasbiy faoliyatda o‘z-o‘zini rivojlantirish.
Kreativ	Axborot tizimlarini ishlab chiqish, fan dasturlari asosida elektron ta’lim resurslarini yaratish, ma’lumotlar bazasini loyihalash, pedagogik dasturiy mahsulotlar yaratish, ilmiy tadqiqot olib borish va faoliyatga ijodiy yondashish.

Mezonlar asosida rivojlanganlik uch darajada tavsiflandi (2-jadval). Natijalarni miqdoriy qayta ishlash uchun kreativ daraja 5 ball, produktiv daraja 4 ball, reproduktiv daraja 3 ball bilan ifodalandi.

2-jadval. ***Raqamli kompetensiya rivojlanganlik darajalarining tavsifi***

Daraja	Tavsifi
Kreativ (yuqori)	Talaba elektron ta’lim resurslarini mustaqil yaratadi, pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimga ega, resurslarni loyihalay oladi, axborot tizimlari va resurslarning axborot xavfsizligini ta’minlay oladi, ularning xarakteristikalarini tahlil qiladi va o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qila oladi.
Produktiv (o‘rta)	Talaba mavjud namuna va to‘plangan tajribaga tayanib elektron ta’lim resurslarini yarata oladi, mavjud dasturiy vositalarga qo‘shimcha ma’lumot kirita oladi, kerakli axborotni olish va so‘rovlarni tashkil etish ko‘nikmasiga ega.

Daraja	Tavsifi
Reproduktiv (quyi)	Talaba namuna va ko‘rsatmalarga ko‘ra resurs yaratishni namoyish etadi, o‘qituvchi yordamida muammoni shakllantiradi va usulni tanlaydi, lekin optimal parametrlarni mustaqil aniqlay olmaydi va o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qila olmaydi.

6. ***Raqamlashtirishning pedagogik xavflari va chegaralari***

Raqamli texnologiyalarning afzalliklari — talaba mustaqilligining ortishi, ta’limni individuallashtirish, qog‘ozbozlikning kamayishi, o‘qituvchi rolining maslahatchi-fasilitatorga o‘zgarishi — bilan bir qatorda tadqiqotda salbiy jihatlar ham tahlil qilindi: ijodkorlik va mustaqil fikrlashning susayishi xavfi, jonli muloqot va ijtimoiylashuvning kamayishi, ko‘rish va tayanch-harakat tizimiga ta’sir, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi. So‘rov natijalari bu xavotirlarning asossiz emasligini ko‘rsatdi: respondentlarning 34,3 foizi odamlarning gadjetlarsiz muloqot qilish qobiliyatini yo‘qotishidan xavotirda, 17,1 foizi shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligidan qo‘rqib, ularni elektron shaklda saqlashdan qochadi, 14,3 foizi esa axborot xavfsizligi uchun faqat oliy ta’lim muassasasi javobgar deb hisoblaydi. Shu sababli raqamlashtirishda maqsadga muvofiqlik tamoyili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Nisbatan samarali jarayonni avtomatlashtirish uni yanada samarali qiladi, samarasiz jarayonni avtomatlashtirish esa samarasizligini kuchaytiradi. Shuning uchun ta’lim jarayonining ayrim elementlari darhol, boshqalari mos vositalar yaratilgandan so‘ng raqamlashtiriladi, pedagogik jihatdan raqamlashtirishga yaroqsiz elementlar esa an’anaviy shaklda saqlanadi. Eng samarali formula — raqamli texnologiyalar va pedagog hamkorligidir (tandemi).

XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, “raqamli savodxonlik”, “raqamli kompetensiya” va “raqamli kompetentlik” tushunchalari farqlanib, raqamli kompetensiya raqamli kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida talqin qilindi; muhandis-pedagog uchun axborot-kommunikativ kompetentlikning muallifiy

ta'rifi taklif etildi. Ikkinchidan, raqamli kompetensiyaning to'rt soha va to'rt komponentdan iborat tuzilmasi hamda asosiy, foydalanish va transformatsiya bosqichlaridan iborat rivojlanish ketma-ketligi asoslandi. Uchinchidan, maqsad, mazmun, jarayon, baholash va natija komponentlaridan iborat model ishlab chiqildi. To'rtinchidan, modelning amal qilishi uchun tashkiliy shart-sharoitlar va oltita pedagogik shart-sharoit belgilandi. Beshinchidan, motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli va kreativ mezonlar hamda reproduktiv, produktiv va kreativ darajalar tavsiflandi. Oltinchidan, raqamlashtirishning pedagogik xavflari aniqlanib, texnologiyalarni tanlab va maqsadga muvofiq joriy etish zarurligi asoslandi. Modelning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov orqali tekshirish natijalari keyingi tadqiqotda yoritiladi.

Natijalardan kasb ta'limi bakalavriat yo'nalishlarining o'quv dasturlarini takomillashtirishda va talabalarning raqamli kompetensiyasini baholashda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". – Toshkent, 2019.
3. Incheon Declaration. Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. – World Education Forum, 19–22 May 2015, Incheon, Republic of Korea. – UNESCO, 2015.
4. Mamatov N.D. Elektron axborot ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish: monografiya. – Toshkent: Navro'z, 2017. – 160 b.
5. Muslimov N.A., Sayfurov D., Usmonboyeva M., To'rayev A. Veb texnologiyalar asosida elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish: o'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent, 2015. – 128 b.
6. Djurayev R.X., Taylakov N.I. Создание электронных учебников: теория и практика. – Ташкент: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. – 192 с.
7. Pozilova Sh.X. Pedagogik dasturiy vositalar: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019. – 172 b.

8. Carretero S., Vuorikari R., Punie Y. DigComp 2.1: The Digital Competence Framework for Citizens with eight proficiency levels and examples of use. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 48 p.
9. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu / ed. by Y. Punie. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p.
10. Falloon G. From digital literacy to digital competence: the teacher digital competency (TDC) framework // Educational Technology Research and Development. – 2020. – Vol. 68. – P. 2449–2472.
11. Ilomäki L., Kantosalo A., Lakkala M. What is digital competence? – Brussels: European Schoolnet, 2011.
12. Солдатова Г.У., Рассказова Е.И. Психологические модели цифровой компетентности российских подростков и родителей // Национальный психологический журнал. – 2014. – № 2 (14). – С. 27–35.
13. Солдатова Г.У., Нестик Т.А., Рассказова Е.И., Зотова Е.Ю. Цифровая компетентность подростков и родителей: результаты всероссийского исследования. – М.: Фонд Развития Интернет, 2013. – 144 с.

KINO SAN'ATI TA'LIMI TALABALARINING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Kurbanova Aziza Tolibovna
Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Toshkent, O'zbekiston,
E–mail: caro_8787@mail.ru, ORCID: 0009–0002–2566–8421

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kino san'ati ta'limi yo'nalishi talabalarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy, psixologik va pedagogik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak kino san'ati mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, raqamli texnologiyalardan ijodiy va samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularning shaxsiy-kasbiy salohiyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda raqamli kompetensiya va raqamli kompetentlik tushunchalarining mazmun-mohiyati, o'zaro bog'liqligi hamda kino san'ati ta'limidagi o'ziga xos xususiyatlari nazariy jihatdan asoslangan. Shuningdek, talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda ichki motivatsiya, emotsional barqarorlik, ijodiy tafakkur, o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlik, refleksiya va ijtimoiy hamkorlik kabi psixologik omillarning ahamiyati ochib berilgan. R. Sternberg, D. Goleman, R. Lazarus, S. Folkman va K. Ericssonning psixologik yondashuvlari asosida raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish jarayonining shaxsiy va kasbiy rivojlanish bilan uzviy aloqadorligi tahlil etilgan. Kino san'ati ta'limida raqamli kompetensiyani texnologik bilimlar, amaliy ko'nikmalar, estetik tafakkur, raqamli madaniyat, kasbiy mas'uliyat va ijodiy faoliyatning integrativ birligi sifatida talqin etish zarurligi asoslangan. Maqolada raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida talabalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish, motivatsion qo'llab-quvvatlash va ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan pedagogik muhitni tashkil etishning ahamiyati ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *kino san'ati ta'limi, raqamli kompetensiya, raqamli kompetentlik, psixologik-pedagogik omillar, raqamli transformatsiya, ijodiy tafakkur, motivatsiya, emotsional barqarorlik, raqamli madaniyat, kasbiy tayyorgarlik.*

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В СФЕРЕ КИНООБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье научно проанализированы теоретические и психолого-педагогические основы развития цифровых компетенций студентов по направлению «Киноискусство». Освобождены и освещены вопросы совершенствования профессиональной подготовки будущих специалистов сферы киноискусства в условиях цифровой трансформации, формирования навыков творческого и эффективного использования цифровых технологий, а также развития их личностно-профессионального потенциала. В исследовании теоретически обоснована сущность, взаимосвязь и специфика понятий «цифровая компетенция» и «цифровая*

компетентность» в системе кинообразования. Кроме того, раскрыта значимость таких психологических факторов, как внутренняя мотивация, эмоциональная устойчивость, креативное мышление, готовность к саморазвитию, рефлексия и социальное сотрудничество при развитии цифровых компетенций студентов. На основе психологических подходов Р. Стернберга, Д. Гоулмана, Р. Лазаруса, С. Фолкман и К. Эрикссона проанализирована неразрывная связь процесса освоения цифровых технологий с личностным и профессиональным развитием. Обоснована необходимость трактовки цифровой компетенции в кинообразовании как интегративного единства технологических знаний, практических навыков, эстетического мышления, цифровой культуры, профессиональной ответственности и творческой деятельности. В статье подчеркивается важность учета индивидуально-психологических особенностей студентов, а также организации мотивационной поддержки и педагогической среды, ориентированной на творческую деятельность в процессе развития цифровых компетенций.

Ключевые слова: *кинообразование, цифровая компетенция, цифровая компетентность, психолого-педагогические факторы, цифровая трансформация, креативное мышление, мотивация, эмоциональная устойчивость, цифровая культура, профессиональная подготовка.*

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING DIGITAL COMPETENCIES OF FILM EDUCATION STUDENTS

Abstract. *This article provides a scientific analysis of the theoretical, psychological, and pedagogical foundations for developing the digital competencies of film education students. It addresses the issues of improving the professional training of future cinema specialists in the context of digital transformation, fostering skills for the creative and effective use of digital technologies, and enhancing their personal and professional potential. The study theoretically substantiates the essence, interrelationship, and specific characteristics of the concepts of "digital competence" and "digital competency" within film education. Furthermore, it reveals the significance of psychological factors such as intrinsic motivation, emotional stability, creative thinking, readiness for self-development, reflection, and social collaboration in developing students' digital competencies. Based on the psychological approaches of R. Sternberg, D. Goleman, R. Lazarus, S. Folkman, and K. Ericsson, the inherent connection between the acquisition of digital technologies and personal-professional development is analyzed. The study substantiates the necessity of interpreting digital competence in film education as an integrative unity of technological knowledge, practical skills, aesthetic thinking, digital culture, professional responsibility, and creative activity. The article highlights the importance of considering students' individual psychological traits, providing motivational support, and establishing a pedagogy-driven environment oriented toward creative activity throughout the process of developing digital competencies.*

Keywords: *film education, digital competence, digital competency, psychological-pedagogical factors, digital transformation, creative thinking, motivation, emotional stability, digital culture, professional training.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan global tendensiyalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'quv jarayoniga nafaqat joriy etilishini, balki ularning ta'lim mazmuni va metodologiyasi bilan chuqur integratsiyalashuvini ham taqozo etmoqda. Ushbu jarayon ta'limda axborot komponentining ulushini sezilarli darajada oshirish, raqamli muhitda o'qitish samaradorligini yuksaltirish, shuningdek, talabalarning kasbiy va raqamli kompetensiyalarini zamonaviy texnologiyalar asosida tizimli ravishda shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir. Axborot nafaqat pedagogik maqsadlarga erishish vositasi, balki ta'limning barcha sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ta'minlaydi.

Raqamli kompetensiya – bu shaxsning raqamli vositalar va texnologiyalarni muayyan kontekstda ishonchli, tanqidiy va axloqiy me'yorlarga muvofiq ravishda qo'llay olish, shuningdek, ularni mas'uliyatli tarzda boshqarish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya nafaqat texnik ko'nikmalarni egallashni, balki raqamli axborot muhitida mustaqil qaror qabul qilish, axborotni baholash va ijtimoiy jihatdan samarali muloqot qilishni ham o'z ichiga oladi.

Tadqiqotchi V.I. Blinovaning ta'kidlashicha, talabalarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni zamonaviy didaktikaning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, u raqamli jamiyat va raqamli iqtisodiyotning dolzarb talablariga moslashgan holda tashkil etilishi zarur[1].

TAHLIL VA MUHOKAMA

Mualliflik ta'rifga ko'ra, raqamli kompetensiya – bu raqamli vositalardan foydalanishga qaratilgan ichki kognitiv ta'lim faoliyati bo'lib, u bilimlarni mustaqil tarzda izlash, tahlil qilish, baholash va muammoli vaziyatlarda texnologik yechimlar topish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, raqamli kompetensiya – bu shaxsning raqamli texnologiyalar vositasida professional va ijtimoiy vazifalarni hal etishga tayyorlik darajasidir. Raqamli

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kompetentlik esa, o‘z navbatida, raqamli kompetensiya asosida rivojlanadigan shaxsiy ta’limiy sifat bo‘lib, u raqamli faoliyatda mustahkamlangan tajriba, ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy yondashuvlar bilan boyitilgan holatda shakllanadi.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, xitoylik san’at yo‘nalishi talabalarining oliy o‘quv yurtlarida muvaffaqiyatli ta’lim olishining eng muhim sharti kompetentsiyani shakllantirishdir: zarur ma’lumotlarni olish, tahlil qilish, qayta ishlash va qo‘llash. Shu munosabat bilan, ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi axborot o‘zaro ta’sirining barcha jarayonlarini qamrab oluvchi “raqamli kompetentsiya” tushunchasini joriy etishning zarurati. Raqamli kompetentsiyani o‘rganish bevosita ta’lim kontekstida alohida ahamiyatga ega. Shakllangan raqamli kompetentsiya o‘quv jarayonini, shu jumladan san’at ta’limi doirasida tezlashtirish, optimallashtirish va takomillashtirish imkonini beruvchi omilga aylanadi.

Media ta’lim - bu insonnni ommaviy axborot vositalaridan foydalanishga o‘rgatish usuli. Ushbu vositalarga barcha turdagi ommaviy axborot vositalari (bosma, grafik, ovoz, ekran va boshqalar) va turli xil texnologiyalar kiradi.

Media ta’limining vazifasi ommaviy axborot vositalarining odamlarga ta’sirining oldini olishdir. Biror kishi ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar, uni qayta ishlash, filtrlash va biznes uchun zarur bo‘lgan boshqa harakatlar bilan ishlashni o‘rganadi.

Kompyuter kino san’ati yo‘nalishi talabalarida aks ettirishni shakllantirishga yordam beradi. O‘quv dasturi talabalarga o‘z harakatlarining natijasini vizual ravishda taqdim etish, xato qilingan muammoni hal qilish bosqichini aniqlash va uni tuzatish imkonini beradi.

Ta’lim tizimidagi raqamli texnologiya vositalari quyidagilardan iborat. Bular

- apparat vositalari
- dasturiy vositalar
- raqamli ta’lim manbayi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bunda raqamli vositalar orqali talabalarda tanqidiy fikrlash, raqamli axborotni baholash, shaxsiy xavfsizlik va kasbiy faoliyatga yo‘naltirish bo‘yicha barqaror ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘rganilgan ilmiy manbalar va tajriba asosida, kino san’ati sohasida raqamli kompetensiyani quyidagicha tavsiflash mumkin: mazkur kompetensiya shaxsning butun hayoti davomida uzluksiz shakllanib boradigan nazariy bilimlari, ta’lim jarayonida egallangan amaliy ko‘nikmalari hamda kasbiy malakalari negizida raqamli texnologiyalarni ongli tanlay olish, ularni ijodiy, samarali va xavfsiz tarzda qo‘llashga yo‘naltirilgan mustaqil faoliyatga tayyorlik darajasini ifodalaydi. Bunday kompetensiya talabaning faqatgina texnik salohiyatini emas, balki uning estetik tafakkuri, raqamli madaniyati, kasbiy ong darajasi hamda raqamli etika va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga asoslangan faoliyat yurita olish qobiliyatini ham kompleks tarzda namoyon etadi, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish orqali kino ishlab chiqarish, montaj, distributsiya va tahlil jarayonlarida innovatsion yondashuvni qo‘llay olish, shu bilan birga ijodiy faoliyatni raqamli muhitda tashkil etish, boshqarish va baholash qobiliyatini ifodalovchi kompleks sifatdir.

Talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni faqat texnologik vositalar va metodik yechimlar bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning psixologik holati va pedagogik rivojlanish xususiyatlari bilan ham uzviy bog‘liqdir. Ushbu jarayonda talabalarning bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy tayyorgarligi, o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi hamda raqamli faoliyatga nisbatan individual munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan mana shu psixologik-pedagogik jihatlar raqamli kompetensiyani chuqurlashtirishda har bir talabaning shaxsiy salohiyatini aniqlash, to‘g‘ri yo‘naltirish va samarali rag‘batlantirish imkonini yaratadi. Shuningdek, mazkur yondashuv raqamli vositalardan foydalanishda shaxsning o‘zini anglay olishi, raqamli muhitda xavfsizlikni his etishi, ijodiy tashabbus ko‘rsatishi hamda mustaqil va mas’uliyatli qarorlar qabul qilishiga xizmat qiluvchi muhim psixologik komponentlarni

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ham qamrab oladi. Shuning uchun, raqamli kompetensiyani shakllantirishda psixologik barqarorlik va pedagogik moslashuvchanlik asosiy tayanch nuqtalar sifatida qaralishi lozim.

San'at yo'nalishi talabalari uchun raqamli kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni maxsus psixologik-pedagogik yondashuvni talab etadi, chunki bu jarayonda ularning individual ijodiy salohiyati, texnologiyalar bilan ishlashdagi shaxsiy tajribasi hamda ichki motivatsion omillari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Raqamli kompetensiyalar rivoji psixologik nuqtai nazardan ko'p qirrali xususiyatlarga ega bo'lib, u faqat texnik ko'nikmalar bilan cheklanmay, balki shaxsning o'zini anglash darajasi, ijtimoiy faolligi, muloqot madaniyati va mas'uliyatli raqamli xulq-atvorini ham qamrab oladi.

Quyidagi psixologik xususiyatlar talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi:

Motivatsiya: Talabalar raqamli kompetensiyalarni o'zlashtirishga bo'lgan ichki yoki tashqi motivatsiya asosida harakat qilishadi. Ichki motivatsiya – bu o'rganishga bo'lgan qiziqish, yangi texnologiyalarni o'rganish istagi bo'lsa, tashqi motivatsiya – bu ilmiy daraja olish, ishga joylashish yoki o'qish jarayonida muvaffaqiyatga erishish kabi tashqi omillar orqali namoyon bo'ladi.

O'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlik: Raqamli kompetensiyalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun talabaning o'zini rivojlantirishga bo'lgan tayyorligi juda muhim. Bu talabalar yangi bilimlarni qabul qilish, xatolardan o'rganish va o'z ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilashga tayyor bo'lishi kerakligini anglatadi.

Muvaffaqiyatga erishishdagi o'zgaruvchanlik: Raqamli texnologiyalarni o'rganishda talabalar turli darajadagi muvaffaqiyatlarga erishishadi. Ba'zi talabalarda tezda raqamli ko'nikmalar shakllanib borishi mumkin, boshqalari esa ko'proq vaqt va qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Bu jarayonda talabaning psixologik mustahkamligi va o'ziga bo'lgan ishonchi muhim rol o'ynaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Raqamli texnologiyalarni egallash jarayoni talabalarda ijodiy tafakkurni jadallashtirib, turli muammoli holatlarga innovatsion yondashuv asosida mustaqil yechimlar ishlab chiqish koʻnikmalarining shakllanishiga zamin yaratadi. Ushbu koʻnikmalar zamonaviy ta'limda alohida ahamiyat kasb etuvchi kreativlik va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Bunday faoliyat psixologik nuqtai nazardan qaralganda, talabaning mantiqiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlash, ijodiy tashabbus koʻrsatish salohiyatini kuchaytirish, noaniqlik yoki xavfga nisbatan ruhiy barqarorlik bilan yondashish istagini shakllantiradi. Bu esa, oʻz navbatida, raqamli kompetensiyaning individual, reflektiv va innovatsion jihatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Stress va xavotirni boshqarish: Yangi texnologiyalarni oʻrganish jarayonida talabalarda stress va xavotir yuzaga kelishi mumkin, ayniqsa, agar ular ilgari raqamli vositalarni kam ishlatgan boʻlsa. Shuning uchun psixologik koʻmak, stressni boshqarish usullari va oʻziga boʻlgan ishonchni oshirish uchun motivatsion metodlar juda muhimdir.

Ijtimoiy oʻzaro aloqalar va hamkorlik: Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishda jarayonida talabalarning oʻzaro hamkorlikka kirisha olishi, jamoada samarali faoliyat yuritishi va raqamli muhitda ijtimoiy aloqalarni ongli tashkil eta olishi muhim omil sifatida namoyon boʻladi. Raqamli vositalar orqali oʻzaro aloqalar oʻrnatish, guruh boʻlib ishlash va jamoaviy muammolarni hal qilish qobiliyatlari ijtimoiy psixologik xususiyatlar sifatida koʻrib chiqiladi.

Oʻqish va texnologiyalarga nisbatan munosabat: Talabalar oʻqish va texnologiyalarga boʻlgan munosabatlarini oʻzgartirishlari kerak. Texnologiya ularga yangi bilimlar olishda yordam berishi mumkin, lekin ba'zi talabalarda texnologiyalarga nisbatan oʻziga xos qarshilik yoki qorqinchlik hissi boʻlishi mumkin. Bu munosabatlarni oʻzgartirish va texnologiyalarni samarali ishlatish uchun psixologik yondashuvlar zarur.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Kino san'ati yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining psixologik jihatlarini tadqiq qilgan mutaxassislar fikricha, bu jarayon nafaqat texnologik malaka, balki shaxsiy-emotsional omillar bilan ham bevosita bog'liqdir. O'tkazilgan tadqiqotlarda diqqat markazi talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish, ichki motivatsiyani mustahkamlash, raqamli muhitda yuzaga keladigan psixologik zo'riqish va stress holatlarini boshqarish, shuningdek, o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish kabi muhim psixologik omillarga qaratilgan. Bunday psixologik omillar raqamli vositalardan foydalanish samaradorligini oshiradi, shuningdek, talabalarni mustaqil, tashabbuskor va texnologik jihatdan mas'uliyatli ijodkorlar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kino san'ati talabalari uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning psixologik jihatlari haqida fikr yuritgan ba'zi olimlarning fikrlarini ko'rib chiqamiz:

Robert (R.) Sternberg, kreativlikni yuksaltirish va uning psixologik aspektlarini o'rganib, ijodiy fikrlashning rivojlanishi uchun raqamli texnologiyalarni qo'llashning muhimligini ta'kidlagan. Kino san'ati talabalari uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishda, Sternbergning "uch tomonlama model"iga (analitik, kreativ va amaliy fikrlash) asoslanish zarur. Uning fikricha, kino san'ati talabalari raqamli vositalarni o'zlashtirish orqali o'z ijodiy yondashuvlarini kengaytirishi va yangi uslublarni ishlab chiqishi mumkin [2].

D. Goleman, emotsional intellekt va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining rivojlanishi haqida ko'p yillik tadqiqotlar olib borgan. U motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirishni o'rganishda, shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchi va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatiga katta e'tibor beradi. Kino san'ati yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida o'z-o'zini rag'batlantira olishi, yangilanayotgan texnologiyalarni o'zlashtirishga ochiq bo'lishi va ichki tayyorgarlikni mustahkamlashi alohida ahamiyatga ega. Goleman ta'kidlaganidek, raqamli texnologiyalarni samarali egallash faqat texnik bilimlar bilan cheklanmay, balki

shaxsning psixologik barqarorligi, emotsional tayyorligi va o‘z o‘rganish jarayonini boshqara olish qobiliyati bilan ham chambarchas bog‘liqdir [3]. Ularning yangi texnologiyalarni o‘rganishga ochiqligi, ichki motivatsiyasi va o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchi raqamli kompetensiyalarning shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ijodiy yo‘nalishlarda ta’lim olayotgan talabalar o‘zining estetik va yaratuvchan salohiyatini kengaytirishga intilishi, yangi raqamli vositalarni ijodiy ifoda vositasi sifatida qabul qilishi zarur. Bu esa, o‘z navbatida, ularning raqamli savodxonlik darajasini oshiribgina qolmay, balki ularni zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh ijodkor sifatida shakllantiradi.

R. Lazarus va S. Folkman stressni boshqarish bo‘yicha tadqiqotlar olib borib, stressning qanday tarzda boshqarilishini o‘rganishdi. Kino san’ati talabalarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda, texnologik o‘zgarishlarga tezda moslashish va stressni boshqarish qobiliyati juda muhimdir. Kino sohasidagi talabalar uchun yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish jarayoni ko‘pincha yuqori bosimni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa stressni boshqarishni o‘rganishni talab qiladi [4].

XULOSA

Kino san’ati yo‘nalishidagi talabalarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni texnologiyalarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda, ularning shaxsiy va kasbiy identifikatsiyasining bosqichma-bosqich rivojlanishini ham talab qiladi. Bu jarayon talabaning o‘zini ijodkor sifatida anglashini, raqamli muhitda qaysi professional rolga ega ekanini belgilay olishini hamda kelajakdagi kasbiy yo‘nalishiga mos raqamli tajribalarni ongli ravishda tanlay olishini ta’minlaydi. Kino san’ati talabalarining raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish jarayonida to‘liq diqqat va e’tibor bilan ishlashlari, yaratish jarayonidan zavqlanishlari kerak. Bu jarayon talabalar uchun qoniqarli va ilhomlantiruvchi bo‘lishi lozim.

K. Ericsson o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish va yangi texnologiyalarni qabul qilishning psixologik jihatlarini o‘rganib, ekspertiza va yuqori darajadagi ko‘nikmalarni

shakllantirishni ta'kidlaydi. Kino san'ati talabalarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda, ular yangi texnologiyalarni o'rganishga va amaliyotda qo'llashga tayyor bo'lishlari kerak. Ericssonning "10,000 soat" qoidasi, ya'ni ustalikka erishish uchun muntazam va samarali mashq qilish muhimligini ko'rsatadi[5].

Kino san'ati ta'limi yo'nalishi talabalarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi sharoitida muhim psixologik-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni faqat texnologik bilim va amaliy ko'nikmalarni egallash bilan cheklanmasdan, talabalarning individual psixologik xususiyatlari, ijodiy tafakkuri, kasbiy motivatsiyasi, emotsional barqarorligi hamda raqamli muhitda mustaqil faoliyat yuritishga tayyorligi bilan uzviy bog'liqdir.

O'rganilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda ichki motivatsiyani rag'batlantirish, emotsional intellektni mustahkamlash, texnologik o'zgarishlarga psixologik moslashuvchanlikni shakllantirish hamda mustaqil ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash muhimligini ko'rsatadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan psixologik to'siqlarni kamaytirish, talabalarning o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini oshirish va individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish pedagogik jarayonni tashkil etishning muhim shartlari sifatida baholanadi.

Shunday qilib, kino san'ati ta'limida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali psixologik-pedagogik asoslarini shakllantirish uchun texnologik tayyorgarlikni shaxsiy rivojlanish, kasbiy motivatsiya va ijodiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish zarur. Mazkur yondashuv bo'lajak kino san'ati mutaxassislarining raqamli madaniyatini yuksaltirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda ularni zamonaviy kino industriyasining o'zgaruvchan texnologik talablariga mos kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Блинов В. И., Сергеев И. С., Есенина Е. Ю. Основные идеи дидактической концепции цифрового профессионального образования и обучения //М.: Академия. – 2019.
2. Sternberg R.J. *Beyond IQ: A Triarchic Theory of Human Intelligence.* Cambridge: Cambridge University Press, 1985. ([44, 52-b.])
3. Goleman D. *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ.* New York: Bantam Books, 1995. ([37, 75-79-b.])
4. Lazarus R.S., Folkman S. *Stress, Appraisal, and Coping.* New York: Springer, 1984.
5. Ericsson K.A., Krampe R.T., Tesch-Römer C. The role of deliberate practice in the acquisition of expert performance // *Psychological Review.* 1993. Vol. 100, No. 3. P. 363–406.
6. Aziza T. Developing Information and Communicative Competence of Specialists in Art and Culture Sphere // Eastern European Scientific Journal. – 2019. – № 1.
7. Kurbanova A. Kino san'at ta'limida raqamli transformatsiyani joriy etish dolzarb pedagogik muammo sifatida // ACTA NUUz. – 2025. – T. 1, № 1.4.1. – B. 102–104.
8. Mamadaliev K. R., Kurbanova A. T. Technology of Creation Electronic Manual and Mechanisms of Organization the Teaching Process in accordance with It // Eastern European Scientific Journal. – 2017. – № 1.

KASBIY ETIKA VA PEDAGOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Kazakov Shavkat Norqobilovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Jismoniy madaniyat va sport faoliyati kafedrasi o'qituvchisi dotsent v.b.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishning metodologik asoslari tahlil qilingan. Unda bo'lajak pedagoglarda insonparvarlik, xolislik, adolat, bag'rikenglik, mas'uliyat va madaniy muloqot kabi axloqiy fazilatlarni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishda oliy pedagogik ta'lim mazmuni, ta'lim muhiti, fanlararo integratsiya hamda faol o'qitish metodlarining ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, muammoli vaziyatlar, keys tahlil, debat, rolli o'yinlar va axloqiy dilemmalarni yechish kabi metodlarning talabalarning axloqiy pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot natijasida kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirish ta'lim mazmuni, muhiti va metodlarining o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshirilishi zarurligi asoslangan.*

Kalit so'zlar: *kasbiy etika, pedagogik madaniyat, insonparvarlik, axloqiy kompetensiya, pedagogik ta'lim, xolislik, adolat, bag'rikenglik, ta'lim muhiti, faol o'qitish metodlari, fanlararo integratsiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya.*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *В статье анализируются методологические основы формирования профессиональной этики и педагогической культуры. Особое внимание уделяется развитию у будущих педагогов таких нравственных качеств, как гуманизм, объективность, справедливость, толерантность, ответственность и культура профессионального общения. Раскрывается значение содержания высшего педагогического образования, образовательной среды, междисциплинарной интеграции и активных методов обучения в формировании профессиональной этики и педагогической культуры. Рассматривается роль проблемных ситуаций, кейс-анализа, дебатов, ролевых игр и решения этических дилемм в развитии нравственной позиции и профессиональных компетенций студентов. Обосновано, что формирование профессиональной этики и педагогической культуры должно осуществляться на основе взаимосвязи содержания образования, образовательной среды и педагогических методов.*

Ключевые слова: *профессиональная этика, педагогическая культура, гуманизм, нравственная компетентность, педагогическое образование, объективность, справедливость,*

толерантность, образовательная среда, активные методы обучения, междисциплинарная интеграция, нравственное воспитание.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORMING PROFESSIONAL ETHICS AND PEDAGOGICAL CULTURE

Abstract. *This article analyzes the methodological foundations of developing professional ethics and pedagogical culture. Particular attention is paid to fostering such moral qualities as humanism, objectivity, justice, tolerance, responsibility, and professional communication culture among future teachers. The article highlights the importance of higher pedagogical education, the educational environment, interdisciplinary integration, and active teaching methods in the formation of professional ethics and pedagogical culture. It also examines the role of problem-based situations, case analysis, debates, role-playing, and ethical dilemma-solving in developing students' moral positions and professional competencies. The study substantiates that the formation of professional ethics and pedagogical culture should be implemented through the integrated interaction of educational content, the educational environment, and pedagogical methods.*

Keywords: *professional ethics, pedagogical culture, humanism, moral competence, teacher education, objectivity, justice, tolerance, educational environment, active teaching methods, interdisciplinary integration, moral education.*

KIRISH

Kasbiy etika va pedagogik madaniyatning shakllanishida insonparvarlik yondashuvining ahamiyati shundaki, u o‘qituvchida ichki mas’uliyat tuyg‘usini, faoliyatda xolislikni, axloqiy qarorlar qabul qilishda eng avvalo inson qadrini e’tibor markaziga qo‘yishni rag‘batlantiradi. Shu orqali pedagog faqat dars o‘tuvchi emas, balki shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar muhitini tarbiya qiluvchi ma’naviy yetakchi maqomiga ko‘tariladi. Shuningdek, insonparvarlik tamoyili oliy pedagogik ta’lim mazmunida fanlar orqali axloqiy va madaniy kompetensiyalarni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “Pedagogik etika”, “Pedagogik mahorat” va “Tarbiya nazariyasi” kabi fanlar insonparvar munosabat madaniyatini rivojlantiruvchi nazariy va amaliy bilimlar bilan boyitilgan. Bu fanlarning mazmuni orqali talabalarda axloqiy yetuklik, empatiya, ruhiy muvozanat va shaxsga hurmat asosidagi kasbiy pozitsiya shakllantiriladi. Shu bois, insonparvarlik tamoyili faqat pedagogik faoliyat usuli emas,

balki ta'lim siyosati, mazmuni, muhiti va metodologiyasida markaziy o'rin egallashi zarur bo'lgan umuminsoniy qadriyatdir. U pedagog faoliyatida kasbiy etika va madaniyatni faollashtiruvchi, shaxsni rivojlantiruvchi va ma'naviy kamolotga yetaklovchi yetakchi konsept hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Kasbiy etika va pedagogik madaniyat muammosi bugungi kunda ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim-tarbiya jarayonining insonparvarlik, ijtimoiy adolat va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga tayanishi belgilab qo'yilgan bo'lsa [1], Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, pedagoglar maqomini oshirish hamda ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalash eng muhim vazifalar qatorida ko'rsatilgan [2]. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlar kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirish masalasini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishning dolzarbligini belgilab beradi.

Chet el tadqiqotchilari orasida kanadalik olima Elizabet Kempbell (E. Campbell) o'qituvchi faoliyatining axloqiy mohiyatini chuqur tahlil qilgan. Olimaning fikricha, axloqiy bilim o'qituvchining axloqiy mas'uliyat (moral agency) talablarini anglashi, tushunishi va qabul qilishiga tayanadi; o'qituvchi avvalo axloqli shaxs bo'lishi, shundan keyingina axloqiy tarbiyachi sifatida faoliyat yuritishi mumkin [7]. Muallif kundalik pedagogik faoliyatda uchraydigan axloqiy dilemmalar o'qituvchining axloqiy bilimiga doimiy sinov bo'lishini ta'kidlaydi hamda bu ziddiyatlarni yumshatishning uch yo'nalishini ko'rsatadi: o'qituvchilik kasbiga bo'lgan yangicha qarash, maktab (ta'lim muassasasi) madaniyatini yangilash va pedagog tayyorlash tizimini takomillashtirish [7]. Kempbell qarashlari ushbu maqolada ilgari surilayotgan g'oyalar, ya'ni ta'lim muhiti va oliy ta'lim mazmunining kasbiy etikani shakllantirishdagi o'rni bilan uyg'un keladi.

O'zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida ham o'qituvchi kasbiy faoliyatida axloq va madaniyat masalalari turli jihatdan yoritilgan. Xususan, Sh.F.Mahmudov o'z



monografiyasida o‘qituvchi kasbiy faoliyatida axloq va madaniyatning uyg‘unligini pedagogik mahoratning zaruriy sharti sifatida talqin etadi [5]. N.E.Isoqov esa o‘qituvchida axloqiy kompetensiyalar tizimini rivojlantirish modelini taklif etib, axloqiy fazilatlarni alohida sifat sifatida emas, balki bir-biri bilan bog‘liq kompetensiyalar tizimi sifatida shakllantirish zarurligini asoslaydi [3].Mazkur yondashuv maqolada ko‘rib chiqilgan axloqiy va madaniy kompetensiyalarni o‘quv fanlari mazmuniga integratsiya qilish g‘oyasini ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi.

Ta’limning falsafiy-ma’rifiy asoslari masalasida A.Qo‘chqorov ta’lim falsafasini shaxs kamoloti va ma’naviy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq holda talqin etadi [6]. Sh.F. Mahmudovning pedagogik tahlil va metodologiya masalalariga bag‘ishlangan ishida esa pedagogik hodisalarni metodologik tamoyillar asosida o‘rganish zarurligi ta’kidlanadi [4]. Bu qarashlar kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishning metodologik asoslarini aniqlashda nazariy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, tahlil qilingan manbalar o‘qituvchining axloqiy va madaniy kamoloti masalasiga turli nuqtai nazardan yondashganini ko‘rsatadi: me’yoriy hujjatlar bu vazifaning davlat siyosati darajasidagi ustuvorligini belgilasa [1; 2], xorijiy tadqiqotlar axloqiy bilim va axloqiy mas’uliyatning mohiyatini ochib beradi [7], mahalliy olimlar esa axloqiy kompetensiyalar, axloq va madaniyat uyg‘unligi hamda metodologik yondashuvlarni yoritadi [3–6]. Shu bilan birga, kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishning metodologik asoslarini oliy pedagogik ta’lim mazmuni, muhiti va metodlari uyg‘unligida tizimli yoritish masalasi qo‘shimcha tadqiqotni talab etadi. Aynan shu holat mazkur maqolaning maqsadini belgilaydi.

Xolislik tamoyili ta’lim-tarbiya jarayonida adolat, haqqoniylik va teng huquqlilik prinsiplarining amaliy ifodasi bo‘lib, u har bir o‘quvchi shaxsiga nisbatan bir xil mezonlar asosida munosabat bildirishni talab etadi. Bu tamoyil kasbiy etikaning markaziy yo‘nalishlaridan biri sifatida pedagogning shaxsiy munosabatlari, emotsional qarashlari yoki subyektiv baholaridan xoli holda ish yuritishini ta’minlaydi.



Pedagogning xolis faoliyati uning axloqiy barqarorligi, insonparvar qarashi va madaniy yetukligining belgisidir.

Pedagogik madaniyat kontekstida xolislik o‘qituvchi tomonidan bag‘rikenglik, neytrallik, talabalarning huquqlariga hurmat va teng imkoniyatlar asosida yondashish kabi axloqiy fazilatlar bilan namoyon bo‘ladi. Masalan, xolislik tamoyili o‘quvchilarni baholashdagi adolatli munosabat, jamoadagi faoliyatlarni tashkil etishda hammaning fikrini hisobga olish, turli ijtimoiy kelib chiqish yoki qobiliyatga ega bo‘lgan talabalarni farqlamasdan, ularga teng pedagogik sharoit yaratishda aks etadi. Shu nuqtai nazardan, xolislik nafaqat shaxsiy fazilat, balki institutsional madaniyatning ajralmas qismi sifatida ham ko‘riladi. Bu tamoyil o‘qituvchida yuqori darajadagi axloqiy ongni, o‘z-o‘ziga tanqidiy munosabat va mas’uliyat tuyg‘usini rivojlantiradi. O‘qituvchi o‘z faoliyatida xolislikni ta’minlaganida, o‘quvchilarda adolatlilikka ishonch, ijtimoiy faollik va insonparvar dunyoqarashni shakllantiradi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Yangi O‘zbekiston ta’lim siyosatining yana bir muhim jihati yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, madaniy merosga hurmat va global savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgani bilan ajralib turadi. Bu orqali ta’lim faqat bilim berish vositasi emas, balki jamiyat ma’naviyatini ko‘tarish, barqaror taraqqiyotni ta’minlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizdagi ta’lim siyosatining ustuvor maqsadlari inson kapitali rivoji, ta’lim sifatini oshirish, pedagoglar maqomini yuksaltirish, zamonaviy va barqaror ta’lim muhitini yaratish, eng muhimi, ma’naviy yetuk, vatanparvar va dunyoqarashga ega avlodni kamol toptirishdir.

Milliy o‘quv rejalari va ta’lim dasturlari mazmunida axloqiy va madaniy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi so‘nggi yillarda muhim strategik vazifa sifatida e’tirof etilmoqda. Yangi avlod ta’lim standartlari, jumladan umumta’lim faoliyatini tarkibiy qayta ko‘rib chiqish, fanlar kesimida axloqiy qadriyatlar, estetik

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tafakkur, millatlararo bag‘rikenglik va madaniy ongni shakllantirish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va munosabatlar tizimini kuchaytirishni nazarda tutadi. Xususan,

O‘qituvchi shaxsiyatini shakllantirish jarayonida oliy ta’limning o‘rni va mas’uliyati beqiyos ahamiyat kasb etadi. Oliy pedagogik ta’lim muassasalari aynan mana shu yetuklikni ta’minlovchi bilim, kompetensiya va qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi asosiy institutsional muhit hisoblanadi. Ta’lim muassasalarida faqat nazariy bilimlarni berish bilan kifoyalanmasdan, kelgusi muallimning insoniylik, bag‘rikenglik, ijtimoiy mas’uliyat, madaniyatli muomala, intizom va refleksiyaga bo‘lgan qobiliyatlarini ham rivojlantirish talab etiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘zini avvalo inson va ma’naviy yetakchi sifatida shakllantiradi. Bu borada kanadalik ta’limshunos Piter Maklaren ta’kidlaydi: “O‘qituvchi – jamiyat ongidagi insoniy va axloqiy jarayonlarning tirik in’ikosidir. Shuning uchun ham oliy ta’lim faqat mutaxassis emas, avvalo inson tarbiyalashi lozim”. Bu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasalari nafaqat bilimlar manbai, balki pedagogning shaxsiy qadriyatlari, axloqiy pozitsiyasi va jamiyatdagi yetuk shaxs sifatidagi mavqeyini belgilab beradigan hal qiluvchi bosqich sanaladi. Shu bois, bu jarayonda ta’limning falsafiy-ma’rifiy yo‘nalishi, axloqiy mezonlarga asoslangan tarbiya usullari va amaliy-refleksiv muhitning mavjudligi o‘qituvchi shaxsiyati kamolotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi.

Kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishda o‘quv fanlari hamda ular o‘rtasidagi fanlararo integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, muallim shaxsiyatidagi axloqiy fazilatlar, ijtimoiy mas’uliyat, insoniy munosabat va kasbiy madaniyat kabi xususiyatlar faqat alohida tarbiya yoki nazariy fanlar orqali emas, balki barcha o‘quv predmetlarida umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitilgan, ma’naviy-axloqiy tarbiyani o‘z ichiga olgan bilimlar tizimi orqali shakllanadi. Har bir fan o‘z mazmunida muayyan dunyoqarash, muomala madaniyati, insoniylik tamoyillarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, ularni integratsiyalash orqali o‘qituvchining kasbiy ongida

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bag‘rikenglik, adolat, hamdardlik, mas’uliyat, insof va mulohazalilik kabi etik fazilatlar shakllanadi. Ayniqsa, til va adabiyot, tarix, falsafa, ma’naviyat, huquq, axborot texnologiyalari kabi fanlar o‘rtasidagi integratsiya muallimning axloqiy va madaniy dunyoqarashini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan fanlar orqali faqat bilim emas, balki munosabat, qadriyat va shaxsiy pozitsiyani ham shakllantirish oliy ta’limning dolzarb vazifasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishda oliy ta’lim muassasasidagi ta’lim muhiti hamda talabalarning faolligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ta’lim muhiti bu faqat dars o‘tadigan joy emas, balki o‘zaro munosabatlar, akademik erkinlik, psixologik qo‘llab-quvvatlash, madaniy bag‘rikenglik va axloqiy me’yorlarga asoslangan ijtimoiy makondir. Bu muhit qanchalik ijobiy qadriyat va an’analarga yo‘g‘rilgan bo‘lsa, bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy kamoloti shunchalik mustahkam asosga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, talabalarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi, mustaqil fikr yuritishi, axloqiy pozitsiya bildirishi va konstruktiv muloqot olib borishi pedagogik madaniyatning real amaliyotida muhim mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois ushbu omillar pedagog tayyorgarligi jarayonida yetuk kasbiy shaxsni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Oliy pedagogik ta’lim muassasasidagi ma’naviy-axloqiy muhit bu faqat rasmiy ta’lim jarayoni bilan cheklanmaydigan, balki talabalar, o‘qituvchilar va boshqa ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlardagi umumiy axloqiy ruh, qadriyatlar tizimi va shaxslararo muloqot madaniyatidan iborat bo‘lgan ijtimoiy makondir. Bu muhitda talabaning shaxsiy tarbiyasi, insoniy munosabatlarga bo‘lgan yondashuvi, jamiyat oldidagi mas’uliyat hissi va kasbiy qadriyatlarga sadoqati shakllanadi. Axloqiy muhit qanchalik bag‘rikeng, adolatparvar va qadriyatlarga asoslangan bo‘lsa, talabalarning nafaqat bilim olishi, balki shaxs sifatida kamol topishi uchun ham shunchalik qulay sharoit yaratiladi.

Ma'naviy muhitda oliy ta'lim muassasasining umumiy qadriyat siyosati, o'qituvchi va rahbariyatning shaxsiy namunasi, studentlar kengashi, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, jamoaviy ishlar va klub faoliyatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, universitetda tashkil etiladigan faol muhokamalar, tadqiqot seminarlari, axloqiy dil izhor platformalari orqali talabalar o'z qarashlarini shakllantirish, fikrlashda mustaqillik va axloqiy pozitsiyaga ega bo'lish imkoniga erishadilar. Shu bilan birga, ijtimoiy tajriba universitet muhitida talabaning turli jamoaviy vaziyatlarda ishtirok etishi, yetakchilik ko'nikmalarini namoyon qilishi, mas'uliyatli qarorlar qabul qilishi va axloqiy qiymatlar asosida muomala qilish orqali orttiriladigan muhim tarbiyaviy omildir. Bu tajriba talabani faqat nazariy bilim bilan emas, balki hayotiy qadriyatlar, insoniy munosabatlar va kasbiy etikaga asoslangan muloqot madaniyati bilan ham boyitadi. Universitet muhitidagi bunday ijtimoiy-axloqiy ta'sir pedagog shaxsini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega hisoblanadi.

Faol o'qitish usullari orqali axloqiy tarbiya berish – bu o'quv jarayonini talabalarning faol ishtirokida tashkil etish, ularda mustaqil fikrlash, axloqiy baholash va ma'naviy pozitsiyani shakllantirishni ta'minlashga qaratilgan yondashuvdir. Muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, keys tahlil, debatlar, rolli o'yinlar, axloqiy dilemmalarni yechish kabi metodlar talabalarni muayyan axloqiy holatlar ustida fikr yuritishga, o'zaro muloqot qilishga va munosabat bildirishga undaydi. Bu jarayonda ular real hayotda uchraydigan murakkab ijtimoiy va axloqiy muammolarni tahlil qilib, ularga insofli va mas'uliyatli yondashuvni shakllantiradi. Masalan, "Axloqiy muammo – yechim" formatdagi mashg'ulotlar orqali talabalar nafaqat axloqiy tushunchalarni o'zlashtiradilar, balki ularni turli hayotiy kontekstda qo'llashni ham o'rganadilar. Refleksiv mulohazalar yordamida esa o'z pozitsiyalarini qayta ko'rib chiqish, tanqidiy baholash va shaxsiy axloqiy qarashlarini aniqlash imkoniga ega bo'ladilar.

Bunday faol o'qitish usullari axloqiy ongni uyg'otish, axloqiy qarashlar va fazilatlarni amalda namoyon qilishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quv jarayonini ma'naviy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kamolot uchun muhim poydevorga aylantiradi. Shu bois, faol o‘qitish axloqiy tarbiyada shunchaki didaktik usul emas, balki shaxsiy shakllanish mexanizmi sifatida ham qaraladi.

XULOSA

Umuman, ilmiy nazariyalar va amaliy dasturlardagi umumiy qarashlardan ma’lum bo‘ladiki, kasbiy etika va pedagogik madaniyat ta’lim jarayonining markaziy mazmuni, o‘qituvchi shaxsiyatining asosiy belgisi va jamiyat ma’naviyatining ko‘zgusi sifatida qaralmoqda. Bunday yondashuv ta’limning insonparvarlik, adolat va ma’rifat asosida tashkil etilishini ta’minlaydi.

Oliy pedagogik ta’lim o‘qituvchi shaxsiyatida kasbiy yetuklik va ma’naviy barkamollik uyg‘unligini ta’minlashga qaratilmog‘i lozim. Zamonaviy ta’lim falsafasi va xalqaro amaliyotlar shundan dalolat beradiki, pedagog shaxsiyatida axloqiy qarashlar, madaniy munosabatlar, faol fuqarolik pozitsiyasi va insonparvarlik tamoyillari shakllanmas ekan, ta’limning haqiqiy ijtimoiy samaradorligi ta’minlanmaydi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalari ta’lim muhiti, fan mazmuni va metodik yondashuvlar orqali ma’naviy-axloqiy kamolotni ham ta’minlovchi tizim sifatida ishlashi shart.

Nazariyadan amaliyotgacha bo‘lgan jarayonda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirish ta’lim mazmuni, muhiti va metodlarining o‘zaro uyg‘unligi asosida samarali amalga oshiriladigan kompleks vazifadir. Bu borada ta’lim mazmunida axloqiy va madaniy kompetensiyalarning o‘quv dasturlariga to‘g‘ri va chuqur integratsiya qilinishi ta’lim jarayonining insonparvarlik mohiyatini ta’minlaydi. Ushbu mazmun talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ta’lim muhiti, ya’ni universitetdagi ma’naviy muhit, akademik hamkorlik va ijtimoiy faoliyat imkoniyatlari talabalarning shaxsiy rivojlanishi, axloqiy pozitsiyasining mustahkamlanishi va madaniy dunyoqarashining kengayishi uchun muhim asos hisoblanadi. Talaba faol ishtirokchiga aylanadigan, fikr almashish va



ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mulohaza yuritish imkoniyati bo‘lgan ijtimoiy muhit etik pozitsiyalarni hayotda tatbiq etishga turtki beradi.

Oliy ta’lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ilmiy-nazariy asoslar muhim metodologik tayanch sifatida xizmat qiladi. Bu asoslar nafaqat kasbiy bilimlarni, balki insonning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy kamolotiga oid nazariy qarashlarni ham qamrab oladi. Zero, barkamol pedagog shaxsini shakllantirish bu faqat kasbiy tayyorgarlik emas, balki murakkab ma’naviy jarayon hamdir. Axloq, madaniyat, dunyoqarash va qadriyatlar masalasidagi ilmiy qarashlar ushbu jarayonning nazariy poydevorini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi. Qonun. Ta’lim to‘g‘risida : 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 24.09.2020. № 03/20/637/1313.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida : 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 29.01.2022. № 06/22/60/0082.
3. Isoqov, N. E. O‘qituvchida axloqiy kompetensiyalar tizimini rivojlantirish modeli / N. E. Isoqov // Pedagogika va psixologiya. 2022. № 3. B. 45–52.
4. Mahmudov, Sh. F. Pedagogik tahlil va metodologiya masalalari / Sh. F. Mahmudov. Toshkent : Fan, 2018. B. 57.
5. Mahmudov, Sh. F. O‘qituvchi kasbiy faoliyatida axloq va madaniyat uyg‘unligi : monografiya / Sh. F. Mahmudov. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2021. 180 b.
6. Qo‘chqorov, A. Ta’lim falsafasi / A. Qo‘chqorov. Toshkent : O‘qituvchi, 2019. – B. 117.
7. Campbell, E. The Ethical Teacher / E. Campbell. Maidenhead : Open University Press, 2003. 192 p.

KO'RISH QOBILIYATI BUZILGAN O'QUVCHILARGA INGLIZ TILINI O'RGATISHNING ADAPTIV-DIFFERENSIAL TEXNOLOGIYASI

Mavlonova Shahzoda Turg'unovna
Farg'ona davlat universiteti, Chet tillar kafedrasi katta o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)
E-mail: mavlonovashahzoda1975@gmail.com
ORCID: 0009-0007-0259-7663

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ko'rish qobiliyati buzilgan (past ko'ruvchi va butunlay ko'r) o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda qo'llaniladigan adaptiv-differensial texnologiyaning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy tashkiliy shakllari tahlil qilingan. Tadqiqotda diagnostika, differensiatsiya (mazmun, jarayon, mahsulot va o'quv muhiti bo'yicha), multisensor (eshitish–teri sezgisi–harakat) yondashuv, brayl yozuvi, taktil materiallar, ekrandan o'qish dasturlari (JAWS, NVDA, VoiceOver) hamda audio-vizual texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy-tipologik tahlil va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalangan holda, adaptiv-differensial texnologiyaning to'rt bosqichli tuzilishi (diagnostik, loyihalash, amaliy-tashkiliy, nazorat-baholash) ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari ushbu texnologiyaning qo'llanilishi o'quvchilarning lug'at boyligi, talaffuzi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga, shuningdek ularning ta'lim jarayonidagi mustaqilligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Maqola oxirida umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *adaptiv-differensial texnologiya, ko'rish qobiliyati buzilgan o'quvchilar, inklyuziv ta'lim, ingliz tili o'qitish metodikasi, multisensor yondashuv, brayl yozuvi, assistiv texnologiyalar, individuallashtirilgan ta'lim.*

АДАПТИВНО-ДИФФЕРЕНЦИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ УЧАЩИХСЯ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье проанализированы теоретико-методические основы и практические организационные формы адаптивно-дифференцированной технологии обучения английскому языку учащихся с нарушениями зрения (слабовидящих и незрячих). В исследовании рассмотрены возможности использования диагностики, дифференциации (по содержанию, процессу, продукту и учебной среде), мультисенсорного (слухо-тактильно-двигательного) подхода, шрифта Брайля, тактильных материалов, программ невизуального доступа к экрану (JAWS, NVDA, VoiceOver), а также аудиовизуальных технологий. На основе анализа научной литературы, сравнительно-типологического анализа и метода педагогического наблюдения разработана четырёхэтапная структура адаптивно-дифференцированной технологии: диагностический, проектировочный, практико-организационный и контрольно-оценочный этапы. Результаты исследования показали, что применение данной технологии положительно*

влияет на расширение словарного запаса, развитие произношения и коммуникативной компетенции учащихся, а также на развитие их самостоятельности в учебном процессе. В конце статьи даны практические рекомендации для общеобразовательных и специализированных школ.

Ключевые слова: *адаптивно-дифференцированная технология, учащиеся с нарушением зрения, инклюзивное образование, методика обучения английскому языку, мультисенсорный подход, шрифт Брайля, ассистивные технологии, индивидуализированное обучение.*

ADAPTIVE-DIFFERENTIAL TECHNOLOGY FOR TEACHING ENGLISH TO STUDENTS WITH VISUAL IMPAIRMENTS

Annotation. *This article analyzes the theoretical and methodological foundations, as well as the practical organizational forms, of adaptive-differential technology for teaching English to students with visual impairments (low vision and blindness). The study examines the possibilities of using diagnostics, differentiation (by content, process, product and learning environment), a multisensory (auditory–tactile–kinesthetic) approach, Braille script, tactile materials, screen-reader software (JAWS, NVDA, VoiceOver) and audio-visual technologies. Based on an analysis of scholarly literature, comparative-typological analysis and the method of pedagogical observation, a four-stage structure of adaptive-differential technology has been developed: diagnostic, design, practical-organizational, and control-evaluation stages. The research results showed that the application of this technology has a positive effect on expanding students' vocabulary, developing pronunciation and communicative competence, and on fostering their independence in the learning process. The article concludes with practical recommendations for general-education and specialized schools.*

Keywords: *adaptive-differential technology, students with visual impairment, inclusive education, English language teaching methodology, multisensory approach, Braille script, assistive technologies, individualized instruction.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri - har bir o'quvchining, jumladan, sog'liq imkoniyati cheklangan bolalarning ham sifatli ta'lim olishini ta'minlashdan iborat. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy asoslar yaratilib, umumta'lim maktablarida maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning oddiy tengdoshlari bilan birga ta'lim olish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, chet tili, xususan, ingliz tilini ko'rish qobiliyati buzilgan (past ko'ruvchi va butunlay ko'r) o'quvchilarga o'rgatish metodikasi

respublikamiz pedagogika fanida hamon yetarli darajada o‘rganilmagan sohalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘rish qobiliyati buzilgan o‘quvchilarga chet tilini o‘qitish alohida metodik yondashuvni, ya’ni og‘zaki-eshitish kanallariga, taktil sezgiga va harakat faoliyatiga tayangan holda tashkil etilgan ta’limni talab qiladi. Xususan, S.Susanto va D.Nanda tomonidan o‘tkazilgan etnografik tadqiqotda ko‘rsatilishicha, ko‘rish qobiliyati buzilgan o‘quvchilar bilan ishlashda o‘qituvchining moslashuvchan metodikasi va individual yondashuvi ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shunga o‘xshash xulosaga Keniyada o‘tkazilgan tadqiqotida ham kelingan bo‘lib, unda assistiv texnologiyalarning nisbiy ustunligi ko‘rish qobiliyati buzilgan o‘quvchilarning ingliz tilini o‘zlashtirishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi statistik jihatdan asoslab berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

O‘zbekistonlik tadqiqotchi I.Asrorov tomonidan olib borilgan tahlilda ta’kidlanishicha, respublikamizda ko‘rish imkoniyati cheklangan til o‘rganuvchilarga chet tilini o‘qitish borasida maxsus o‘quv-uslubiy materiallar, moslashtirilgan darsliklar va o‘qituvchilarning tegishli malakasi yetishmasligi asosiy muammolardan biridir. Shu bilan birga, Buxoro davlat universiteti tadqiqotchilari M.Ubaydullayeva va Sh.Hamroyeva tomonidan qayd etilishicha, ko‘r o‘quvchilar bilan ishlashda “Hand-over-Hand” usuli, taktil diagrammalar va brayl yozuvidan foydalanish ularning ingliz tilini his qilib o‘rganishiga xizmat qiladi. Bu esa mazkur sohada yagona, izchil va bosqichma-bosqich tashkil etilgan pedagogik texnologiyaga bo‘lgan ehtiyojni yaqqol ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi - ko‘rish qobiliyati buzilgan o‘quvchilarga ingliz tilini o‘rgatishning adaptiv-differensial texnologiyasini nazariy jihatdan asoslash va uning amaliy tashkiliy bosqichlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: 1) ko‘rish qobiliyati buzilgan o‘quvchilarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tahlil qilish; 2) differensial ta’lim



va multisensor yondashuvning nazariy asoslarini o‘rganish; 3) adaptiv-differensial texnologiyaning bosqichma-bosqich tuzilishini ishlab chiqish; 4) uning qo‘llanilishi bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, quyidagi metodlardan foydalanilgan: ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish (mavzuga oid o‘zbek va xorijiy manbalarni qiyosiy o‘rganish); qiyosiy-tipologik tahlil (differensial ta’limning an’anaviy va zamonaviy shakllarini solishtirish); umumlashtirish va sintez qilish (turli manbalardagi amaliy tavsiyalarni yagona texnologik tizimga birlashtirish); shuningdek, muallifning Bulung‘ur tumanidagi 69-maktabda tarix fanini o‘qitish jarayonida to‘plangan pedagogik kuzatuv tajribasi. Tadqiqot obyekti - ko‘rish qobiliyati buzilgan o‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitish jarayoni, predmeti esa - ushbu jarayonni tashkil etishning adaptiv-differensial texnologik asoslaridir.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

O‘tkazilgan tahlil natijasida ko‘rish qobiliyati buzilgan o‘quvchilarga ingliz tilini o‘rgatishning adaptiv-differensial texnologiyasi to‘rt o‘zaro bog‘liq bosqichdan iborat tizim sifatida ishlab chiqildi.

Diagnostik bosqich

Bu bosqichda o‘quvchining ko‘rish qobiliyati darajasi (past ko‘ruvchi yoki butunlay ko‘r), qoldiq ko‘rish imkoniyatlari, yetakchi idrok kanali (eshitish, teri sezgisi yoki ularning kombinatsiyasi), shuningdek uning ingliz tili bo‘yicha boshlang‘ich bilim darajasi aniqlanadi. Britaniya Kengashi mutaxassislari Lyuis va O‘brayen tomonidan taklif etilgan tasnifga ko‘ra, ko‘rish buzilishining har bir turi (past o‘tkirlik, rang ko‘rmaslik, monoxromatiya, to‘liq ko‘rmaslik) o‘ziga xos qo‘llab-quvvatlash vositalarini talab qiladi - masalan, kontrastli ranglar va katta shrift past ko‘ruvchilar uchun, brayl matni va ekran o‘quvchi dasturlari esa butunlay ko‘rmaydiganlar uchun mos keladi.

Diagnostika natijalari asosida har bir o‘quvchi uchun individual ta’lim profili shakllantiriladi.

Loyihalashtirish bosqichi.

Diagnostika natijalariga tayangan holda o‘qituvchi har bir o‘quvchi yoki o‘quvchilar guruhi uchun individuallashtirilgan o‘quv dasturi (individual ta’lim traektoriyasi) tuzadi. Bunda dars maqsadlari, o‘quv materialining hajmi va murakkablik darajasi, foydalaniladigan didaktik vositalar hamda baholash mezonlari aniq belgilanadi. Bu bosqich O‘zbekiston pedagogika fanida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, bilim darajasi va o‘rganish sur’atini hisobga olishni taqozo etadi.

Amaliy-tashkiliy bosqich.

Ushbu bosqich texnologiyaning markaziy qismi bo‘lib, unda differensiatsiya to‘rt yo‘nalishda amalga oshiriladi:

- mazmun bo‘yicha differensiatsiya: bir xil mavzu doirasida turli murakkablikdagi leksik-grammatik materiallar taqdim etiladi;

- jarayon bo‘yicha differensiatsiya: multisensor (eshitish–teri sezgisi–harakat) usullardan foydalaniladi: audiomatnlar va talaffuz mashqlari, brayl yozuvidagi yoki bo‘rtma harflar bilan yozilgan kartochkalar, uch o‘lchamli (taktil) alifbo modellari, harakatga asoslangan (kinestetik) o‘yinlar;

- mahsulot bo‘yicha differensiatsiya: o‘quvchi bilimini namoyish etish shakli tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi - og‘zaki javob, audioyozuv orqali topshiriq bajarish yoki brayl yozuvida matn tuzish;

- o‘quv muhiti bo‘yicha differensiatsiya: sinf xonasi to‘siqlardan xoli bo‘lishi, yorug‘lik manbai to‘g‘ri joylashtirilishi, zarur hollarda ekrandan o‘qish dasturlari (JAWS, NVDA, VoiceOver) o‘rnatilgan kompyuter yoki mobil qurilmalardan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

J.Xasanbayeva tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda ta’kidlanishicha, aynan multisensor yondashuvning tizimli qo‘llanilishi - taktil grafika, brayl asosidagi darsliklar, audio-vizual texnologiyalar va kinestetik til topshiriqlarining uyg‘unlashtirilishi - o‘quvchilarning lug‘at boyligini, talaffuzini va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samara berishi ko‘rsatilgan.

Nazorat-baholash bosqichi.

Bu bosqichda o‘quvchining bilim va ko‘nikmalarini baholash uning idrok imkoniyatlariga mos shaklda - og‘zaki so‘rov, audio topshiriqlar, brayl yozuvidagi yozma ishlar yoki maxsus dasturiy vositalar yordamida - tashkil etiladi. Baholash mezonlari an’anaviy yozma nazoratdan farqli o‘laroq, o‘quvchining kommunikativ faoliyati, eshitib tushunish va og‘zaki nutq ko‘nikmalariga ko‘proq urg‘u beradi. Olingan natijalar asosida individual ta’lim dasturiga zarur tuzatishlar kiritiladi, ya’ni texnologiya siklik xususiyatga ega bo‘lib, doimiy monitoring va moslashtirishni talab qiladi.

MUHOKAMA

Tadqiqot davomida olingan nazariy xulosalar xorijiy tadqiqotchilarning natijalari bilan uyg‘unlik kasb etadi. Xususan, Kvasyuk va Putistina tomonidan 6-sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarida moslashtirilgan metodik tavsiyalarni qo‘llash natijasida tajriba guruhidagi o‘quvchilarning leksik va grammatik materialni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lgani qayd etilgan. Bu, o‘z navbatida, taklif etilayotgan adaptiv-differensial texnologiyaning bosqichma-bosqich va tizimli tashkil etilishi zarurligini tasdiqlaydi.

Tamma tomonidan El-Oued universiteti va Robbax maktabidagi brayl klubi misolida o‘tkazilgan tadqiqotda ko‘rsatilishicha, assistiv texnologiyalardan tizimli foydalanish ko‘rish qobiliyati buzilgan o‘quvchilarning chet tilida o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, biroq bu borada o‘qituvchilarning maxsus tayyorgarligi yetarli emasligi jiddiy cheklov bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammo O‘zbekiston sharoiti uchun ham dolzarb bo‘lib, Asrorov hamda Ubaydullayeva va

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Hamroyevaning tadqiqotlarida ham respublikamiz umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarida moslashtirilgan o'quv-uslubiy materiallar va malakali kadrlar yetishmasligi alohida ta'kidlangan.

Shu bilan birga, adaptiv-differensial texnologiyaning amaliyotga tatbiq etilishida ma'lum qiyinchiliklar ham mavjud: birinchidan, tuman va qishloq joylardagi maktablarda (jumladan, Bulung'ur tumani maktablarida) assistiv texnologik vositalarning yetishmasligi; ikkinchidan, ingliz tilida brayl yozuvidagi yoki audio formatdagi moslashtirilgan darsliklarning kamligi; uchinchidan, o'qituvchilarning inklyuziv ta'lim metodikasi bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tmaganligi. Bu holatlar mazkur texnologiyaning keng qo'llanilishini murakkablashtiradi va uni bosqichma-bosqich, davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligida joriy etishni taqozo etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ko'rish qobiliyati buzilgan o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatish ularning individual imkoniyatlari va ta'limiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda maxsus pedagogik yondashuvni talab etadi. Tadqiqotda taklif etilgan adaptiv-differensial texnologiya diagnostik, loyihalash, amaliy-tashkiliy hamda nazorat-baholash bosqichlarining izchil uyg'unligi asosida ta'lim jarayonini individuallashtirish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvda Brayl yozuvi, audio materiallar, ekran o'qish dasturlari, taktil vositalar hamda multisensor metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois o'qituvchilarning inklyuziv ta'lim bo'yicha kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, moslashtirilgan o'quv-metodik materiallar va zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash zarur. Mazkur chora-tadbirlarning tizimli amalga oshirilishi ko'rish qobiliyati buzilgan o'quvchilarning ingliz tilini o'zlashtirish darajasini oshirish, mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning ijtimoiy-ta'limiy integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asrorov I.F. O'zbekistonda ko'rish imkoniyati cheklangan til o'rganuvchilarga chet tilini o'qitish: muammo va yechimlar // Oriens ilmiy jurnali. 2022. B. 416–422.

2. Xasanbayeva J.Q. The effectiveness of the multisensory approach in teaching English to visually impaired students // NSIFL 6th International students conference materials. Urganch: Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, 2025. B. 213–217.
3. Ubaydullayeva M.O‘., Hamroyeva Sh.Sh. Teaching English to the visually impaired students. Further methods to educate the blind // “Innovation in the modern education system” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro: BuxDU, 2023. B. 549–552.
4. Abduqodirov A. Ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv. Toshkent: TDPU, 2019.
5. Karimova V. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent: Fan, 2020.
6. O‘rinova G. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim: nazariya va amaliyot. Samarqand, 2022.
7. Qodirova A. Boshlang‘ich ta’limda differensial o‘qitish metodlari. Samarqand: SamDU, 2022.
8. Kvasyuk E.N., Putistina O.V. Technologies for teaching English to visually impaired students at the middle stage // The European Proceedings of Social and Behavioural Sciences (EpSBS). 2020. DOI: 10.15405/epsbs.2020.10.05.407.
9. Susanto S., Nanda D.S. Teaching and learning English for visually impaired students: An ethnographic case study // English Review: Journal of English Education. 2018. Vol. 7, No. 1. P. 83–92.
10. Wachiuri R.N. The effectuality of the relative advantage of assistive technology on teaching and learning integrated English among the visually impaired learners in special secondary schools in Kenya. Nairobi: Kenyatta University, 2015.
11. Tamma S. The impact of using assistive technology on teaching English as a foreign language for students with visual impairments: A case study of Braille club at El Oued University and SVI’s school in Robbah. Batna: University of Batna 2, 2023.
12. Lewis S., O’Brien E. Teaching English to Visually Impaired Students: Making our classes inclusive for visually impaired young learners. Madrid: British Council Spain, IATEFL, 2025.

RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY-MAISHIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA DIFFERENSIAL YONDASHUV TEXNOLOGIYASI

Jo'rayeva Gulmiraxon Zufarjon qizi
Farg'ona davlat universiteti, Chet tillari kafedrasi o'qituvchisi
ORCID: 0009-0002-4628-6199
E-mail: bekb1252@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-maishiy kompetensiyalarini rivojlantirishda differensial yondashuv texnologiyasining nazariy-metodik asoslari tahlil qilingan. Maqolada ijtimoiy-maishiy kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy qismlari - o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, maishiy mehnat ko'nikmalari, kommunikativ ko'nikmalar va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish - yoritilgan. Differensial yondashuvni tashkil etishning diagnostik, guruhlash, individuallashtirilgan mashg'ulot va dinamik monitoring bosqichlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim jarayonida differensial yondashuvning bolalarning mustaqillik darajasini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar, ijtimoiy-maishiy kompetensiya, differensial yondashuv, maktabgacha ta'lim, korreksion pedagogika, individuallashtirish, inklyuziv ta'lim.*

ТЕХНОЛОГИЯ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ПОДХОДА В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНО-БЫТОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С НАРУШЕНИЯМИ РАЗВИТИЯ

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретико-методические основы технологии дифференцированного подхода в развитии социально-бытовых компетенций у детей дошкольного возраста с нарушениями развития. Раскрыты сущность и структурные компоненты социально-бытовой компетенции: навыки самообслуживания, бытового труда, коммуникативные навыки и соблюдение правил безопасности. Обоснованы диагностический, группировочный, индивидуализированный и мониторинговый этапы организации дифференцированного подхода. Результаты исследования показывают значимость дифференцированного подхода в повышении уровня самостоятельности детей в коррекционно-развивающем образовательном процессе.*

Ключевые слова: *дети с нарушениями развития, социально-бытовая компетенция, дифференцированный подход, дошкольное образование, коррекционная педагогика, индивидуализация, инклюзивное образование.*



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

DIFFERENTIATED APPROACH TECHNOLOGY IN DEVELOPING SOCIO-DOMESTIC COMPETENCIES OF PRESCHOOL CHILDREN WITH DEVELOPMENTAL DISABILITIES

Abstract. *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of differentiated approach technology in developing social-everyday competencies among preschool children with developmental disabilities. The essence and structural components of social-everyday competence - self-care skills, household labor skills, communication skills, and compliance with safety rules - are examined. The diagnostic, grouping, individualized-task, and monitoring stages of organizing a differentiated approach are substantiated. The findings demonstrate the significance of the differentiated approach in increasing children's level of independence within the correctional-developmental educational process.*

Keywords: *children with developmental disabilities, social-everyday competence, differentiated approach, preschool education, correctional pedagogy, individualization, inclusive education.*

KIRISH

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularni mustaqil hayotga tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, rivojlanishida turli darajadagi nuqsonlarga ega bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish tizimida ijtimoiy-maishiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasida maxsus va inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, bu boradagi normativ-huquqiy hujjatlar rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ta’lim olish, ijtimoiy hayotga moslashish huquqlarini kafolatlaydi.

Ijtimoiy-maishiy kompetensiya - bu bolaning kundalik turmush faoliyatida mustaqil harakat qilish, o‘ziga xizmat ko‘rsatish, atrofdagilar bilan to‘g‘ri muloqotga kirishish hamda oddiy xavfsizlik qoidalariga rioya qilish qobiliyatlarining yig‘indisidir. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda ushbu ko‘nikmalarning shakllanishi sog‘lom rivojlanayotgan tengdoshlariga nisbatan sekinroq va o‘ziga xos tarzda kechadi, bu esa pedagogdana bolaning individual va tipologik xususiyatlarini chuqur hisobga olishni talab qiladi. Aynan shu nuqtai nazardan differensial yondashuv texnologiyasi

korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim amaliyotida eng samarali vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Maqolaning maqsadi - rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-maishiy kompetensiyalarini rivojlantirishda differensial yondashuv texnologiyasining mazmuni, tuzilishi va amaliy tatbiq etish bosqichlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiy-maishiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi defektologiya, maxsus psixologiya va korreksion pedagogika fanlarida turli yillarda o'rganilgan bo'lib, mavzuga oid tadqiqotlarni nazariy-metodologik, diagnostik, metodik va oilaviy-ijtimoiy yo'nalishlarga ajratish mumkin.

Nazariy-metodologik asos sifatida L.S.Vygotskiyning defektologiyaga oid qarashlari e'tirof etiladi. Olim nuqsonli bolaning rivojlanishini sog'lom tengdoshidan faqat «kam» emas, balki sifat jihatidan o'ziga xos yo'l bilan kechadigan jarayon deb baholaydi. U birlamchi nuqson (organik buzilish) va ikkilamchi nuqson (birlamchi nuqson oqibatida yuzaga keluvchi ijtimoiy-psixologik og'ishlar) tushunchalarini farqlab, pedagogik ishning asosiy vazifasi ikkilamchi buzilishlarning oldini olish va kompensatsiya imkoniyatlarini ishga solish ekanini ta'kidlaydi. Vygotskiyning fikricha, bolaning rivojlanishida eng og'ir oqibatlar nuqsonning o'zi bilan emas, balki uning ijtimoiy muhitdagi o'rniga ta'siri bilan bog'liq bo'ladi. Shu bois ta'lim bolaning saqlanib qolgan imkoniyatlariga tayanishi va uni ertangi rivojlanish darajasiga yo'naltirishi lozim. Olimning «yaqin rivojlanish zonasi» haqidagi g'oyasi esa differensial yondashuvning nazariy tayanchi hisoblanadi [3].

Diagnostik yo'nalishda S.D.Zabramnaya tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Muallif bolalarning aqliy rivojlanish darajasini psixologik-pedagogik jihatdan o'rganish, bola topshiriqni qanday yordam darajasida bajarishini hisobga olish hamda shu asosda bolalarni mos ta'lim sharoitiga yo'naltirish tamoyillarini asoslab bergan. Bu qarashlar

differensial yondashuvning birinchi - diagnostik va guruhlash - bosqichlarini tashkil etishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi [4].

A.A.Kataeva va E.A.Strebeleva maktabgacha oligofrenopedagogika sohasida aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan korreksion ishning tizimini yoritgan. Mualliflar ishni imkon qadar erta boshlash, bolada predmet-amaliy harakatlar, o‘ziga xizmat ko‘rsatish va o‘yin faoliyati ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish, kattalar yordamini asta-sekin kamaytirib, bolaning mustaqilligini oshirib borish zarurligini ko‘rsatadi [5]. Ushbu qarashlar ijtimoiy-maishiy kompetensiyaning o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish va maishiy mehnat ko‘nikmalari tarkibiy qismlarini ajratishda nazariy asos bo‘ldi.

Oilaviy-ijtimoiy yo‘nalishda E.M.Mastyukova va A.G.Moskovkinaning ishlari alohida o‘rin tutadi. Mualliflar rivojlanishida og‘ishlari bo‘lgan bolaning shakllanishida oilaning tarbiyaviy munosabati, ota-onaning bolaga yondashuvi hal qiluvchi omillardan biri ekanini, ota-onalar pedagogik yordam va maslahatga muhtoj bo‘lishini ta’kidlaydi [7]. Bu fikr maktabgacha ta’lim muassasasi va oila talablarining uyg‘unligi korreksion natijalar barqarorligini ta’minlashi haqidagi xulosamizni tasdiqlaydi.

N.N.Malofeev maxsus ta’limning Yevropadagi rivojlanish yo‘lini tahlil qilib, bu tizim nuqsonli bolalarni ajratib o‘qitishdan integratsiya va inklyuziv ta’lim sari o‘zgarib borganini ko‘rsatadi. Olim erta kompleks yordam, bola ehtiyojlariga mos individual yondashuv va mutaxassislarni tayyorlash sifati ta’lim samaradorligini belgilovchi omillar ekanini asoslaydi [6]. Bu fikrlar differensial yondashuvning inklyuziv maktabgacha ta’lim sharoitidagi dolzarbligini ko‘rsatadi.

Milliy ilmiy adabiyotlarda mazkur mavzu bir necha jihatdan yoritilgan: rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni ijtimoiy-maishiy hayotga moslashtirish masalalari [12], maktabgacha yoshda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish [11], ijtimoiy ishonchni rivojlantirishda inklyuziv usullardan foydalanish [10], differensial yondashuv orqali maktabgacha yoshdagi bolalar qobiliyatlarini rivojlantirish omillari [8] hamda

eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning mehnat tarbiyasi [9]. Bu ishlar ijtimoiy ko'nikmalarni maktabgacha yoshdan boshlab shakllantirish, inklyuziv usullar va differensial yondashuvning bolalar rivojlanishidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Ularning huquqiy asosini «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonun [1] hamda «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi [2] tashkil etadi.

Shunday qilib, ko'rib chiqilgan manbalarda differensial yondashuv, inklyuziv ta'lim va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish masalalari asosan alohida-alohida yoritilgan. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-maishiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan differensial yondashuv texnologiyasining bosqichlari esa yetarlicha tizimlashtirilmagan. Mazkur maqola shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi: mavzuga oid ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish; me'yoriy-huquqiy hujjatlarni (O'zbekiston Respublikasi qonunlari, davlat ta'lim dasturlari) o'rganish; qiyosiy-tarixiy tahlil metodi orqali xorijiy va milliy tajribalarni solishtirish; sistemali yondashuv asosida ijtimoiy-maishiy kompetensiya tarkibiy qismlarini tizimlashtirish; shuningdek, korreksion pedagogika va maxsus psixologiya sohasidagi ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va tahlil qilish. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi va «yaqin rivojlanish zonasi» g'oyasi, shuningdek defektologiya va doshkolnaya oligofrenopedagogika sohasidagi tadqiqotlar tashkil etadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Olib borilgan tahlil ijtimoiy-maishiy kompetensiyaning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish imkonini berdi:

1) o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalari - mustaqil kiyinish-yechinish, ovqatlanish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish;

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

2) maishiy mehnat ko‘nikmalari - o‘yinchoq va buyumlarni joyiga qo‘yish, xona tartibini saqlashda ishtirok etish, oddiy uy yumushlarini bajarish;

3) kommunikativ ko‘nikmalar - ehtiyojni so‘z yoki imo-ishora orqali bildirish, yordam so‘rash, tengdoshlar va kattalar bilan muloqotga kirishish;

4) ijtimoiy xulq-atvor va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish ko‘nikmalari - jamoat joylarida o‘zini tutish normalarini bilish, oddiy xavf-xatar holatlarini anglash va ulardan saqlanish.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, differensial yondashuv texnologiyasini tashkil etish quyidagi to‘rt bosqichda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

1-bosqich - diagnostik bosqich: har bir bolaning rivojlanish darajasi, nuqsonining tuzilishi va xarakteri, mavjud potensial imkoniyatlari psixologik-pedagogik diagnostika vositalari orqali aniqlanadi.

2-bosqich - guruhlash bosqichi: diagnostika natijalari asosida bolalar shartli ravishda bir necha tipologik guruhga (masalan, yuqori, o‘rta va past darajadagi mustaqillik guruhlariga) ajratiladi.

3-bosqich - individuallashtirilgan mashg‘ulotlarni loyihalashtirish: har bir guruh uchun mos keladigan topshiriqlar mazmuni, ko‘rgazmali-amaliy vositalar, mashg‘ulot sur’ati va pedagogik yordam darajasi belgilanadi.

4-bosqich - dinamik monitoring va tuzatish: bolaning erishgan yutuqlari muntazam kuzatib boriladi, natijalarga qarab guruh tarkibi va topshiriqlar mazmuni davriy ravishda qayta ko‘rib chiqiladi.

Ushbu jarayonda L.S.Vygotskiyning «yaqin rivojlanish zonasi» g‘oyasi asosiy nazariy tayanch bo‘lib xizmat qiladi: pedagog bolaning mustaqil bajara oladigan faoliyati bilan kattalar yordamida bajara oladigan faoliyati oralig‘idagi zonaga yo‘naltirilgan topshiriqlarni tanlaydi, bu esa rivojlantiruvchi ta’sirning eng yuqori samarasini ta’minlaydi.

MUHOKAMA

Olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy frontal, ya’ni butun guruh uchun bir xil tarzda tashkil etiladigan ta’lim usullari rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning individual xususiyatlarini to‘liq hisobga ololmaydi: natijada ayrim bolalar uchun topshiriqlar haddan tashqari qiyin, boshqalari uchun esa haddan tashqari oson bo‘lib qoladi. Differensial yondashuv esa har bir bolaning «yaqin rivojlanish zonasi» doirasida ish olib borish imkonini beradi, bu esa ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarning barqaror va ongli tarzda shakllanishiga xizmat qiladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, differensial yondashuvni samarali tatbiq etishda bir qator omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi: pedagog-defektologlarning maxsus tayyorgarlik darajasi, korreksion-rivojlantiruvchi muhitning moddiy-texnik jihatdan ta’minlanganligi, shuningdek oila bilan uzviy hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi. Agar oilada bolaga nisbatan qo‘llaniladigan tarbiyaviy yondashuv maktabgacha ta’lim muassasasidagi ish tizimi bilan uyg‘un bo‘lmasa, erishilgan pedagogik natijalar barqaror bo‘lmasligi mumkin.

Shuningdek, differensial yondashuv sof individual yondashuvdan farqli o‘laroq, pedagogga bir vaqtning o‘zida butun guruh bilan ishlash va shu bilan birga har bir bolaning o‘ziga xos ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi, bu esa uni maxsus va inklyuziv maktabgacha ta’lim muassasalari sharoitida amaliy jihatdan ayniqsa qulay va tejamkor texnologiyaga aylantiradi.

XULOSA

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-maishiy kompetensiyalarini rivojlantirishda differensial yondashuv texnologiyasi korreksion-pedagogik jarayonning samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Diagnostika, guruhlash, individuallashtirilgan mashg‘ulot va dinamik monitoring bosqichlaridan iborat model asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bolalarning mustaqillik darajasini bosqichma-bosqich oshirish, ularni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashtirish imkonini beradi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu

texnologiyaning amaliy samaradorligini eksperimental tekshirish, turli nuqson toifalariga ega bo‘lgan bolalar guruhlarida qo‘llash xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi Qonuni: 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son. Toshkent, 2019.
2. «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi. Toshkent, 2022.
3. Выготский, *Л*. С. Основы дефектологии / *Л*. С. Выготский. Москва: Педагогика, 1983. 368 с.
4. Забрамная, С. *Д*. Психолого-педагогическая диагностика умственного развития детей / С. *Д*. Забрамная. Москва: Просвещение, 1995. 112 с.
5. Катаева, А. А. *Дошкольная олигофренопедагогика* / А. А. Катаева, Е. А. Стребелева. Москва: *Владос*, 2001. 208 с.
6. Малофеев, Н. Н. Специальное образование в меняющемся мире. Европа / Н. Н. Малофеев. Москва: Просвещение, 2009. 319 с.
7. Мастюкова, Е. М. Семейное воспитание детей с отклонениями в развитии / Е. М. Мастюкова, А. Г. Московкина. Москва: *Владос*, 2004. 408 с.
8. Differensial yondashuv orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish omillari // Zenodo. 2025. DOI: 10.5281/zenodo.17495498.
9. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning mehnat tarbiyasi // in-Academy.uz. 2024. DOI: 10.5281/zenodo.11244130.
10. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ishonchni rivojlantirishda inklyuziv usullardan foydalanish // Zenodo. 2026. DOI: 10.5281/zenodo.20226027.
11. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakillantirish // Zenodo. – 2026. – DOI: 10.5281/zenodo.20599085.
12. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni ijtimoiy-maishiy hayotga moslashtirish masalalari // Oriental Journal of Education. 2022. URL: https://supportscience.uz/index.php/oje/article/download/433/369/530 (murojaat sanasi: 03.10.2026).

KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNING LINGVOKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Islomova Moxiraxon Inomjonovna
FarDU Chet tillar fakulteti, Chet tillar kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD
ORCID: 0000-0002-5940-7126
E-mail: mokhirakhonislomova@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning lingvokommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Ushbu toifadagi o'quvchilarda axborotni qabul qilishning vizual kanali cheklanganligi sababli til o'rganish jarayonida eshitish, taktil va kinestetik idrokka tayanish zarurligi asoslangan. Tadqiqotda Braill yozuvi, ekran o'qish dasturlari, audio materiallar, interfaol metodlar va universal dizayn tamoyillarini uyg'unlashtirgan integrativ texnologik model taklif etilgan. Model motivatsion-maqsadli, mazmuniy, jarayonli va natijaviy-baholash komponentlaridan iborat. Maqola maxsus va inklyuziv ta'lim sharoitida til o'qituvchilari uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar, lingvokommunikativ kompetensiya, inklyuziv ta'lim, Braill yozuvi, ekran o'qish dasturlari, audio texnologiyalar, universal dizayn, pedagogik texnologiya.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИНГВОКОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У ОБУЧАЮЩИХСЯ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ

Аннотация. *В статье рассмотрены теоретические и методические основы совершенствования технологий развития лингвокоммуникативной компетенции у учащихся с нарушениями зрения. Обосновывается необходимость опоры на слуховое, тактильное и кинестетическое восприятие в процессе изучения языка в условиях ограниченности зрительного канала получения информации. Предлагается интегративная технологическая модель, объединяющая шрифт Брайля, программы экранного доступа, аудиоматериалы, интерактивные методы и принципы универсального дизайна обучения. Модель включает мотивационно-целевой, содержательный, процессуальный и оценочно-результативный компоненты. Материалы статьи могут быть полезны преподавателям языков в условиях специального и инклюзивного образования.*

Ключевые слова: *учащиеся с нарушениями зрения, лингвокоммуникативная компетенция, инклюзивное образование, шрифт Брайля, программы экранного доступа, аудиотехнологии, универсальный дизайн обучения, педагогическая технология.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

IMPROVING TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING THE LINGUO-COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS WITH VISUAL IMPAIRMENTS

Abstract. *The article examines the theoretical and methodological foundations for improving technologies that develop the linguistic and communicative competence of visually impaired learners. It argues that, because the visual channel for receiving information is limited, language learning for these students must rely on auditory, tactile and kinesthetic perception. The study proposes an integrative technological model that combines Braille, screen-reader software, audio materials, interactive methods and Universal Design for Learning principles. The model comprises motivational-targeted, content, procedural and evaluative-outcome components. The findings may be useful for language teachers working in special and inclusive education settings.*

Keywords: *visually impaired learners, linguistic and communicative competence, inclusive education, Braille, screen readers, audio technologies, Universal Design for Learning, pedagogical technology.*

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va har bir bolaning sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida imkoniyati cheklangan bolalarni ta’lim bilan qamrab olish va inklyuziv ta’limni kengaytirish vazifasi alohida belgilangan [3]. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ham ta’lim olishda teng imkoniyatlarni kafolatlaydi [2]. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”da inson kapitalini rivojlantirish, ta’limning inklyuzivligi va sifatini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [1].

Globallashuv sharoitida chet tillarini bilish shaxsning ijtimoiy faolligi, kasbiy imkoniyatlari va axborot olamiga kirish darajasini belgilaydi. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun til nafaqat muloqot vositasi, balki tashqi dunyo bilan aloqa o‘rnatishning asosiy kanallaridan biridir. Shu sababli ularning lingvokommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish ta’limning muhim vazifasi hisoblanadi.

Muammoning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi:

- ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun moslashtirilgan o‘quv materiallari (Braill darsliklar, audio resurslar) yetishmaydi;



- an'anaviy darslarda vizual vositalarga (jadval, rasm, doska yozuvi) ortiqcha tayaniladi;
- o'qituvchilarning tiflopedagogik va tiflotexnologik tayyorgarligi yetarli emas;
- inklyuziv sinflarda individual yondashuvni amalga oshirish qiyin.

Tadqiqotning maqsadi ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning lingvokommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: (1) "lingvokommunikativ kompetensiya" tushunchasining mohiyatini aniqlash; (2) ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning til o'zlashtirish xususiyatlarini tahlil qilish; (3) mavjud texnologiyalarning imkoniyat va cheklovlarini asoslash; (4) takomillashtirilgan texnologik modelni taklif etish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

"Kommunikativ kompetensiya" tushunchasi D.Hymes tomonidan til birliklarini bilishdan tashqari, ularni muayyan ijtimoiy vaziyatda o'rinli qo'llash qobiliyati sifatida ta'riflangan [9]. Keyinchalik M.Canale va M.Swain uni grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlarga ajratdilar [10]. Yevropa Kengashining Umumevropa tillar kompetensiyasi (CEFR) hujjati tilni o'zlashtirishni retseptiv, produktiv, interaktiv va vositachilik faoliyatlari orqali ta'riflaydi [11]. Rus tilshunosligi va pedagogikasida I.A.Zimnyaya kommunikativ kompetensiyani kalit kompetensiyalar tizimida ko'rib, uning shaxsiy-faoliyatli mohiyatini ta'kidlagan [14].

O'zbek metodikasida chet tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv, tilni nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) orqali o'rgatish tamoyillari J.J.Jalolov ilmiy ishlarida yoritilgan [5]. Ushbu maqolada lingvokommunikativ kompetensiya til bilimi (fonetik, leksik, grammatik), nutqiy ko'nikmalar va muloqot strategiyalarining birligi sifatida tushuniladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Defektologiyaning nazariy poydevorini L.S.Vygotsky yaratgan. U nuqsonli bolaning rivojlanishi sifat jihatidan o'ziga xos bo'lib, kompensatsiya mexanizmlari asosida kechishini ta'kidlagan [13]. Uning yaqin rivojlanish zonasi va ijtimoiy hamkorlik haqidagi g'oyalari ham muhim [12]. Ko'rish nuqsonida bolaning dunyoni bilishi eshitish, teginish, hid bilish va nutq orqali qayta qurilib, so'z yetakchi kompensator vositaga aylanadi. Bu til o'rgatishning ahamiyatini yanada oshiradi. Nutq rivojlanishidagi o'ziga xosliklar logopedik nuqtai nazardan ham tahlil qilingan [4].

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda til o'zlashtirishning o'ziga xosliklari

Pedagogik kuzatuvlar va adabiyotlar tahlili quyidagi xususiyatlarni ko'rsatadi:

1. Verbalizm xavfi. O'quvchi so'zni biladi, lekin uning ortidagi obrazni to'liq tasavvur qilmaydi. Shuning uchun leksikani konkret predmetlar, taktil modellar va tavsiflar orqali berish zarur.
2. Eshitish xotirasining kuchliligi. Bu fonetika va tinglab tushunishni rivojlantirishda ustunlik beradi, ammo yozuv va imlo ko'nikmalarini shakllantirishda qo'shimcha vositalar talab etadi.
3. Nonverbal vositalarning cheklanishi. Imo-ishora, mimika va ko'z kontaktidan foydalanish qiyinlashadi. Shu sababli muloqotda intonatsiya, pauza va og'zaki tavsiflarga e'tibor beriladi.
4. Axborotni ketma-ket qabul qilish. Vizual idrokdagi bir lahzalik yaxlit qamrov o'rniga Braill yoki audio orqali ketma-ket o'qish sekinroq kechadi. Bu vaqt va hajmni to'g'ri rejalashtirishni talab qiladi.
5. Motivatsion va ijtimoiy omillar. Hamsuhbatlar bilan o'zaro munosabatda ishonchsizlik va kommunikativ tashvish kuzatilishi mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Mavjud texnologiyalarning tahlili va ularning kamchiliklari

Amaliyotda quyidagi vositalar qo'llaniladi:

- Braill yozuvi va Braill displeylari (taktil o'qish va yozish);

- Ekran o‘qish dasturlari (masalan, NVDA, JAWS) va ovozli yordamchilar;
- Audio kitoblar, podkastlar, nutq sintezi;
- Taktil modellar va relyefli tasvirlar;
- An’anaviy interfaol metodlar (rolli o‘yin, juftlikda ishlash, munozara) [7].

Ularning kamchiliklari quyidagicha: (a) vositalar ko‘pincha alohida-alohida, tizimsiz qo‘llanadi; (b) texnologiyalar til kompetensiyasining barcha komponentlarini (ayniqsa sotsiolingvistik va strategik) qamrab olmaydi; (c) o‘quv materiallari vizual muhitga mo‘ljallab yaratilgani uchun moslashtirishni talab qiladi; (d) natijani baholash mezonlari ko‘rish nuqsoniga moslashtirilmagan. Pedagogik texnologiyalarning umumiy nazariy asoslari esa o‘qitish jarayonini loyihalash, uning bosqichlarini aniq belgilash va natijani diagnostika qilishni talab qiladi [6; 8].

Takomillashtirilgan texnologik model

Tadqiqot jarayonida quyidagi to‘rt komponentli integrativ model taklif etiladi.

1) Motivatsion-maqsadli komponent. Maqsadlar CEFR deskriptorlari asosida, ko‘rish nuqsonining darajasi (to‘liq ko‘rmaslik, past ko‘rish) hisobga olingan holda individual belgilanadi [11]. O‘quvchining real hayotiy ehtiyojlari (masalan, ijtimoiy tarmoqlarda muloqot, onlayn ta’lim, kelajakdagi kasbi) bilan bog‘liq vaziyatlar tanlanadi.

2)Mazmuniy komponent. Materiallar universal dizayn tamoyillari asosida tayyorlanadi: bir xil mazmun bir necha ko‘rinishda (matn, audio, Braill, kattalashtirilgan shrift) taqdim etiladi, ishtirok va ifoda usullari ko‘p variantli bo‘ladi [16]. Multimedia ta’limi nazariyasiga ko‘ra, ortiqcha axborotni bir kanalga yuklamaslik va tinglash hamda taktil kanallarni muvozanatlash kognitiv yuklamani kamaytiradi [15].

Jarayonli komponent. Dars quyidagi bosqichlarda quriladi:

- Tayyorgarlik bosqichi: fonetik mashqlar, tinglash orqali kirish, taktil modellar bilan leksikani tanishtirish.
- Mazmunni o‘zlashtirish bosqichi: audio matn bilan ishlash, Braill yoki ekran o‘qish dasturi orqali o‘qish, og‘zaki tavsif (audio description) usuli.

- Amaliy-muloqot bosqichi: rolli o‘yinlar, juftlik va guruhda hamkorlikda ishlash, o‘rtoqlar yordami (peer tutoring). Bunda yaqin rivojlanish zonasi g‘oyasidan foydalaniladi [12].
- Mustahkamlash bosqichi: ovozli yozuv bilan o‘z nutqini tahlil qilish, mustaqil topshiriqlar.

Natijaviy-baholash komponenti. Baholash ko‘rish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lmagan formatlarda (og‘zaki, audio, Braill, kompyuterda ekran o‘qish dasturi bilan) o‘tkaziladi. Mezonlar: tinglab tushunish aniqligi, nutq ravonligi, leksik boyligi, o‘rinli muloqot qila olishi va strategik ko‘nikmalari (so‘rab aniqlashtirish, parafraz qilish).

Texnologiyani amalga oshirishning pedagogik shartlari

Modelning samarali ishlashi uchun quyidagi shartlar zarur:

1. O‘qituvchining tiflopedagogika va yordamchi texnologiyalar bo‘yicha malakasini oshirish;
2. Moslashtirilgan o‘quv resurslari bazasini yaratish (audio darsliklar, Braill lug‘atlar, ovozli mashqlar);
3. Inklyuziv sinflarda barcha o‘quvchilar uchun ochiq va qulay tilli muhit yaratish, sinfdoshlarni hamkorlikka tayyorlash;
4. Ota-onalar va mutaxassislar (tiflopedagog, logoped, psixolog) bilan hamkorlik;
5. Muntazam diagnostika va individual ta’lim traektoriyasini yuritish.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar

Modelning samaradorligini aniqlash uchun pedagogik tajriba o‘tkazish tavsiya etiladi. Unda tajriba va nazorat guruhlari shakllantirilib, boshlang‘ich va yakuniy kesimlarda tinglab tushunish, nutq ravonligi, leksik zaxira va muloqotga tayyorlik ko‘rsatkichlari solishtiriladi. Natijalar miqdoriy (o‘rtacha ball, statistik ahamiyatlilik) va sifat jihatidan (kuzatuv, suhbat, o‘z-o‘zini baholash anketasi) tahlil qilinadi.

XULOSA

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqot natijalari ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning lingvokommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda ularning individual imkoniyatlari va kompensator mexanizmlarini hisobga olish muhim pedagogik shart ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, eshitish, taktil va kinestetik idrok kanallaridan samarali foydalanish o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish hamda kommunikativ faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mavjud pedagogik texnologiyalarni alohida qo‘llash lingvokommunikativ kompetensiyaning grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik tarkibiy qismlarini kompleks rivojlantirish imkonini cheklashi sababli ularni yagona tizim asosida uyg‘unlashtirish zarur.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan motivatsion-maqsadli, mazmuniy, jarayonli hamda natijaviy-baholash komponentlaridan tashkil topgan integrativ model mazkur muammoni tizimli hal etishga yo‘naltirilgan. Ushbu modelda Brayl yozuvi, ekran o‘qish dasturlari, audio resurslar va universal dizayn tamoyillarining o‘zaro uyg‘unligi ta’lim jarayonining moslashuvchanligi va qulayligini ta’minlaydi. Modelni samarali joriy etish uchun o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, moslashtirilgan o‘quv-metodik resurslar bazasini shakllantirish, inklyuziv ta’lim muhitini yaratish hamda pedagog, tyutor, psixolog va boshqa mutaxassislar hamkorligini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida mazkur modelning pedagogik samaradorligini tajriba-sinov ishlari asosida baholash, shuningdek, sun’iy intellekt, ovozli tavsiflash va boshqa raqamli assistiv texnologiyalarning imkoniyatlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning lingvokommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 464 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-637-son. 2020-yil 23-sentyabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. 2019-yil 29-aprel.
4. Ayupova M.Yu. Logopediya. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2011.
5. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
6. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
7. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. Toshkent: TDPU, 2013.
8. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Moliya, 2003.
9. Hymes D. On Communicative Competence // Pride J.B., Holmes J. (eds.) Sociolinguistics. Harmondsworth: Penguin, 1972. P. 269–293.
10. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. 1980. Vol. 1(1). P. 1–47.
11. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.
12. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
13. Выготский Л.С. Основы дефектологии. М.: Лань, 2003.
14. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.
15. Mayer R.E. Multimedia Learning. 2nd ed. New York: Cambridge University Press, 2009.
16. Rose D.H., Meyer A. Teaching Every Student in the Digital Age: Universal Design for Learning. Alexandria, VA: ASCD, 2002.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

UDK: 371, 126:371.035.3

BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARI PROFESSIONAL TAYYORGARLIGI MAZMUNIDA NAZARIY VA AMALIY INTEGRATSIYANI TA'MINLASH MASALALARI

Mambekova Shaxnoza Kudiyarbekovna
Nizomiy Ganjaviy nomidagi O'zMPU
shaxnozamambekova@gmail.com
ORCID ID: 0009-0000-1152-318X

Annotatsiya. *Maqolada bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari professional tayyorgarligi mazmunida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirish masalalari yoritilgan. Professional tayyorgarlikning texnik-texnologik, psixologik-pedagogik, metodik, raqamli va shaxsiy-kasbiy komponentlari ajratilib, ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'rtasidagi uzilishning sabablari aniqlangan, amaliy yondashuv asosida uni bartaraf etishning gorizontal, vertikal va tashqi integratsiya yo'nalishlari hamda pedagogik shartlari asoslangan.*

Kalit so'zlar: *texnologik ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, amaliy yondashuv, nazariy-amaliy integratsiya, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy kompetensiya.*

ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ТЕОРЕТИКО-ПРАКТИЧЕСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ В СОДЕРЖАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация*. В статье рассматриваются вопросы обеспечения единства теории и практики в содержании профессиональной подготовки будущих учителей технологического образования. Выделены технико-технологический, психолого-педагогический, методический, цифровой и личностно-профессиональный компоненты подготовки, проанализирована их взаимосвязь. Определены причины разрыва между теоретическими и практическими занятиями, на основе практико-ориентированного подхода обоснованы направления горизонтальной, вертикальной и внешней интеграции и педагогические условия её реализации.*

Ключевые слова*: технологическое образование, профессиональная подготовка, практико-ориентированный подход, интеграция теории и практики, будущий учитель, профессиональная компетенция.*

ISSUES OF ENSURING THEORETICAL AND PRACTICAL INTEGRATION IN THE CONTENT OF PROFESSIONAL TRAINING FOR FUTURE TECHNOLOGY EDUCATION TEACHERS

Abstract*. The article examines how theoretical knowledge and practical skills can be integrated in the content of professional training of prospective technology education teachers. Technical-technological,*

psychological-pedagogical, methodological, digital and personal-professional components of training are identified and their interrelation is analysed. The causes of the gap between theoretical and practical classes are determined, and on the basis of a practice-oriented approach, horizontal, vertical and external directions of integration, together with the pedagogical conditions for implementing them, are substantiated.

Keywords: *technology education, professional training, practice-oriented approach, theory–practice integration, prospective teacher, professional competence.*

KIRISH

Texnologik ta'lim maktab o'quvchisini mehnatga, kasb tanlashga va ijodiy faoliyatga tayyorlaydigan fan sifatida o'quv rejasida alohida o'rin tutadi. Bu fanni o'qitadigan pedagog chizmani o'qiy olishi, material va asbob-uskunalar bilan ishlash texnikasini egallagan bo'lishi, qurilmalarni boshqarish uchun dasturlash ko'nikmasiga ega bo'lishi, mehnat xavfsizligi qoidalarini bilishi va bularning barchasini bolalar yoshiga mos shaklda yetkaza olishi kerak. Shuning uchun bo'lajak texnologiya o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini bir nechta fan bilimlarining yig'indisi deb qarab bo'lmaydi: unda dasturlash, texnik, metodik va shaxsiy-kasbiy jihatlar bir butun holda namoyon bo'lishi lozim.

So'nggi yillarda pedagog kadrlar tayyorlash tizimida islohotlar izchil davom etmoqda. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun ta'lim sifatini ta'minlash masalalarini huquqiy jihatdan mustahkamlagan bo'lsa [1], oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqani kuchaytirish alohida vazifa sifatida ko'rsatilgan [2]. Biroq nazariy tayyorgarlik bilan professional faoliyat talablari o'rtasidagi tafovut hozirgi kungacha pedagoglarni tayyorlash tizimining eng nozik joylaridan biri bo'lib qolmoqda, bu holat xalqaro tadqiqotlarda ham qayta-qayta qayd etiladi [8; 9].

Texnologik ta'lim yo'nalishida bu muammo o'ziga xos tus oladi. Talaba ustaxonada buyum yasashni, o'quv laboratoriya xonasida sensorlarni boshqara olishi, mashinada ishlashni yoki loyiha chizmasini bajarishni yaxshi o'zlashtirishi mumkin, ammo xuddi shu ishni maktab o'quvchisiga o'rgatish uchun uni dars mazmuniga aylantirish alohida

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

professional qobiliyat talab qiladi. Maqolaning maqsadi – bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilari professional tayyorgarligi mazmunida nazariy va amaliy komponentlarni integratsiyalash yo‘llarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Maqsadga erishish uchun professional tayyorgarlik mazmunining tarkibi aniqlandi, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilishning ko‘rinishlari tahlil qilindi, integratsiya yo‘nalishlari va uni ta’minlovchi pedagogik shartlar ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta’limda nazariya bilan amaliyotni bog‘lash g‘oyasi yangi emas. J. Dyui bilim tajriba orqali shakllanishini asoslab, har qanday tajriba ham ta’limiy qiymatga ega bo‘lavermasligini, uni ongli tashkil etish zarurligini ta’kidlagan edi [4]. D. Kolb bu fikrni rivojlantirib, o‘rganish jarayonini to‘rt bosqichli sikl ko‘rinishida tasvirladi: aniq tajriba, uni kuzatish va tahlil qilish, umumlashtirish va yangi vaziyatda sinab ko‘rish [5]. D. Shyonning «amaldagi refleksiya» tushunchasi esa professional faoliyatda mutaxassis qaror qabul qilish chog‘ida ham, undan keyin ham o‘z harakatini tahlil qilib borishini ko‘rsatadi [6]. Bo‘lajak o‘qituvchi tayyorgarligi uchun bu qarashlar muhim, chunki ular amaliyotni mustaqil bosqich emas, balki tahlil va umumlashtirish bilan to‘ldiriladigan jarayon sifatida talqin etadi.

L. Shulman o‘qituvchi bilimlarining alohida turi sifatida fan mazmunini o‘qitish usullari bilan qo‘shib o‘zlashtirishni nazarda tutuvchi pedagogik-mazmuniy bilimlarni ajratdi [7]. P. Mishra va M. Koler bu g‘oyani texnologiyalar bilan to‘ldirib, mazmun, pedagogika va texnologiyaning kesishuvini o‘qituvchi bilimining asosi sifatida ko‘rsatdi [10]. F. Korthagen va J. Kessels esa o‘qituvchi tayyorlashdagi an’anaviy yondashuvni tanqid qilib, talabaga avval nazariyani berib, keyin uni amaliyotda qo‘llashni so‘rash o‘zini oqlamasligini, amaliy vaziyatdan chiqib nazariyaga o‘tish yo‘li samaraliroq ekanini asoslab berdi [8]. L. Darling-Xammond tahlil qilgan namunali dasturlarda esa kurs mazmuni va maktabdagi amaliyot uzviy bog‘langani bilan ajralib turishi qayd etilgan [9].

J. Leyv va E. Venger o‘rganishni kasbiy hamjamiyat faoliyatida ishtirok etish sifatida qarab, talabani amaliy muhitga erta jalb etish muhimligini ko‘rsatgan [11].

Rus tilidagi adabiyotlarda bu muammo ko‘proq kontekstli ta’lim va kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. A.A. Verbitskiy o‘quv faoliyatini bosqichma-bosqich kasbiy faoliyatga yaqinlashtirish, ya’ni akademik mashg‘ulotdan o‘quv-kasbiy faoliyat orqali haqiqiy kasbiy faoliyatga o‘tish g‘oyasini ilgari surdi [3]. I.A. Zimnyaya «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarini farqlab, ularning ta’lim natijasini tavsiflashdagi o‘rnini asosladi [12], E.F. Zeer esa mutaxassisning kasbiy rivojlanish bosqichlarini o‘rgandi [13]. V.P. Bespalko pedagogik jarayonni loyihalash va uning natijasini takrorlash mumkinligi masalasini ko‘targan [18].

O‘zbekistonlik olimlarning ishlarida kasbiy kompetentlik, pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim usullari batafsil yoritilgan [14; 15; 16; 17]. Xususan, N.A. Muslimov va hammualliflar kasbiy kompetentlik va kreativlikning mohiyatini ochib bergan [14]. Shunga qaramay, mavjud ishlarda integratsiya, asosan, metod va texnologiya darajasida ko‘riladi; texnologik ta’lim yo‘nalishi uchun mazmun darajasida, ya’ni texnik fanlar va metodik fanlarning o‘zaro bog‘lanishi hamda kurslar kesimida bosqichma-bosqich ta’minlanishi masalasi bizning fikrimizcha, yetarli darajada alohida tahlil qilinmagan. Mazkur maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, me’yoriy hujjatlar va o‘quv rejalarini qiyosiy o‘rganish, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, suhbat hamda tajriba-sinov metodlaridan o‘rganildi. Tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun aniqlashtiruvchi bosqich hujjatlari tahlil qilindi va tayyorlandi, qayta ishlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Professional tayyorgarlik mazmunining tarkibi

Nazariy manbalar va o‘quv rejalari tahlili asosida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisi professional tayyorgarligi mazmunida beshta o‘zaro bog‘liq komponent ajratildi (1-

jadval). Ularning har biri nazariy asosga ham, amaliy ifodaga ham ega bo‘lib, ayni shu juftlik integratsiyaning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi.

1-jadval. Kasbiy tayyorgarlik komponentlari va ularning nazariy-amaliy ifodasi

Komponent	Nazariy asosi	Amaliy ifodasi
Texnik-texnologik	Robototexnika asoslari, materialshunoslik, chizmachilik, ishlov berish texnologiyalari, mehnat xavfsizligi asoslari	Dasturlash orqali qurilmalarni xarakatlantirish, ustaxonada buyum tayyorlash, chizma va texnologik xarita bajarish, jihozlar bilan ishlash
Psixologik-pedagogik	O‘quvchi yosh xususiyatlari, ta’lim nazariyasi, tarbiya asoslari	Maktabda kuzatuv, o‘quvchilar bilan ishlash, sinf muhitini boshqarish
Metodik	Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi, dars loyihalash, baholash	Mikrodars, dars ishlanmasi, o‘quv-didaktik material tayyorlash
Raqamli	Axborot texnologiyalari, 3D modellashtirish, o‘qitishda raqamli vositalar	Virtual laboratoriya, modellashtirish dasturlarida topshiriq bajarish, elektron resurs yaratish
Shaxsiy-kasbiy	Kasbiy qadriyatlar, ijodkorlik, refleksiya haqidagi tasavvurlar	Kasbiy kundalik yuritish, o‘z faoliyatini tahlil qilish, portfolio

Bu tarkib shuni ko‘rsatadiki, texnik komponent o‘z-o‘zicha yetarli emas: talaba dasturlash orqali sensorlarni boshqara olsa-yu, shu ko‘nikmani o‘quvchiga bosqichma-bosqich o‘rgatish yo‘lini bilmasa, professional tayyorgarlik to‘liq deb hisoblanmaydi. Shu bois komponentlar alohida fanlar kesimida emas, yagona kasbiy vazifa atrofida birlashtirilishi kerak.

Nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilishning ko'rinishlari

Tahlil davomida uzilishning bir necha tipik ko'rinishi ajratildi. Birinchisi, texnik fanlar va metodika fanlari ko'pincha bir-biridan alohida o'qitiladi: talaba yog'ochga ishlov berish yoki tikuvchilik amaliyotini bajaradi, lekin bu ishni maktab darsining mazmuniga aylantirish o'quv rejada alohida mashq qilinmaydi. Ikkinchisi, oliy ta'lim muassasasi ustaxonasidagi jihozlar bilan maktab ustaxonasidagi imkoniyatlar o'rtasida farq mavjud bo'lib, talaba maktabga kelganida o'rganganidan boshqacha sharoitga duch keladi. Uchinchisi, pedagogik amaliyotning asosan yuqori kurslarda boshlanishi: shu paytgacha talaba o'qituvchi rolini faqat nazariy tasavvur qilib keladi. To'rtinchisi, baholash tizimida nazariy bilim va tayyor buyum ko'proq baholanadi, o'qitish jarayonini loyihalash va tahlil qilish esa ikkinchi darajada qoladi. Beshinchisi, ishlab chiqarish va kasb-hunar ta'limi muassasalari bilan aloqa ko'p hollarda rasmiy tanishuv bilan cheklanadi.

Integratsiya yo'nalishlari

Amaliy yondashuv asosida integratsiyani uch yo'nalishda tashkil etish maqsadga muvofiq deb topildi. Gorizontal integratsiya bir semestr doirasida texnik va metodik fanlar topshiriqlarini o'zaro bog'lashni nazarda tutadi. Misol uchun, talaba robotot exnika asoslari fanlarida tayyorlagan buyumi asosida metodika fanida 6-sinf uchun dars ishlanmasi va texnologik xarita tuzadi, ya'ni bitta mahsulot ikki fanning natijasiga aylanadi.

Vertikal integratsiya kurslar kesimida professional faoliyatning murakkablashib borishini ta'minlaydi. Birinchi kurslarda asosiy urg'u maktab darslarini kuzatish va tahlil qilishga, ustaxonada texnik ko'nikmalarni shakllantirishga beriladi. Ikkinchi kursda talaba mikrodarslar o'tkazadi, o'quv-didaktik materiallar yaratadi, kichik loyihalarni boshqaradi. Uchinchi kursda esa mustaqil dars o'tkazish va bitiruv ishida o'z faoliyatini tahlil qilish ustuvor bo'ladi. Bu bosqichlilik Verbitskiyning akademik faoliyatdan professional faoliyatga o'tish haqidagi g'oyasi bilan hamohang [3].

Tashqi integratsiya oliy ta'lim muassasasining maktab, kasb-hunar kolleji va ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorligini o'z ichiga oladi. Bunda talaba tashrif buyuruvchi kuzatuvchi emas, amaliy topshiriq bajaruvchi ishtirokchi bo'lishi kerak. Bu holat Leyv va Venger ta'riflagan kasbiy hamjamiyatda ishtirok etish orqali o'rganish g'oyasiga mos keladi [11].

Integratsiyani ta'minlovchi pedagogik shartlar

Tahlil natijalariga ko'ra, yuqoridagi yo'nalishlar quyidagi shartlar bajarilganda samara beradi. Avvalo, har bir texnik topshiriq metodik vazifa bilan juftlanishi kerak: talaba buyumni yasash bilan birga uni o'quvchilarga o'rgatish mantig'ini ham ishlab chiqadi. Ikkinchidan, amaliy faoliyat kasbiy vaziyatga yaqin, ya'ni kontekstli topshiriqlar asosida tashkil etiladi [3]. Uchinchidan, har bir amaliy bosqich refleksiya bilan yakunlanadi: talaba o'z faoliyatini yozma yoki og'zaki tahlil qiladi, bu Kolb va Shyon qarashlariga muvofiq tajribani bilimga aylantiradi [5; 6]. To'rtinchidan, raqamli vositalar, jumladan virtual laboratoriya va modellashtirish dasturlari, texnik va metodik tayyorgarlikni bog'lovchi vosita sifatida qo'llanadi [10]. Beshinchidan, baholash mezonlari faqat bilim va tayyor mahsulotni emas, balki dars loyihalash, uni o'tkazish va tahlil qilish ko'nikmalarini ham qamrab olishi lozim.

XULOSA

Tadqiqot natijalari bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari professional tayyorgarligini rivojlantirishda nazariy va amaliy komponentlarni alohida emas, yagona kasbiy vazifa doirasida birlashtirish zarurligini ko'rsatdi. Professional tayyorgarlik mazmuni texnik-texnologik, psixologik-pedagogik, metodik, raqamli va shaxsiy-kasbiy komponentlardan iborat bo'lib, ular o'zaro bog'liq holda rivojlantirilganda samarali bo'ladi.

Amaliy yondashuv asosida integratsiyani gorizontal (fanlararo), vertikal (kurslar bo'yicha bosqichma-bosqich) va tashqi (maktab hamda ishlab chiqarish bilan hamkorlik) yo'nalishlarida tashkil etish, texnik topshiriqlarni metodik vazifalar bilan juftlash,

refleksiyani muntazam amaliyotga aylantirish va baholash mezonlarini kasbiy faoliyatning to‘liq doirasiga moslash tavsiya etiladi. Olingan natijalardan texnologik ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-son Farmoni, 2019-yil 8-oktabr.
3. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. – М.: Высшая школа, 1991. – 207 с.
4. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – 91 p.
5. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1984. – 256 p.
6. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.
7. Shulman L.S. Those who understand: Knowledge growth in teaching // Educational Researcher. – 1986. – Vol. 15, No. 2. – P. 4–14.
8. Korthagen F.A.J., Kessels J.P.A.M. Linking theory and practice: Changing the pedagogy of teacher education // Educational Researcher. – 1999. – Vol. 28, No. 4. – P. 4–17.
9. Darling-Hammond L. Powerful Teacher Education: Lessons from Exemplary Programs. – San Francisco: Jossey-Bass, 2006. – 372 p.
10. Mishra P., Koehler M.J. Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054.
11. Lave J., Wenger E. Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – 138 p.
12. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 42 с.
13. Зеер Э.Ф. Психология профессионального развития. – М.: Академия, 2006. – 240 с.
14. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тураев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. – Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2019.
15. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
16. Ishmuhamedov R., Abdukodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

17. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
18. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.

THE STRUCTURE, COMPONENTS, AND FUNCTIONS OF ENGLISH SCIENTIFIC-TECHNICAL READING COMPREHENSION COMPETENCE OF FOOD TECHNOLOGY STUDENTS

Abdullayeva Shahnoza Akbaraliyevna
Namangan State Technical University
Namangan, Uzbekistan
e-mail: abdullayevashahnoza85@gmail.com, tel: +998972312112

Abstract. *This article examines the structural composition and functional roles of English scientific-technical reading comprehension competence among students majoring in Food Technology. Drawing on theoretical analysis of English for Specific Purposes (ESP) frameworks, cognitive reading models, and empirical findings from needs analyses in food technology contexts, the study identifies a multi-layered competence structure comprising four interdependent components: linguistic, cognitive-strategic, professional-content, and socio-cultural. Each component serves distinct yet interconnected functions—informational, communicative, developmental, and motivational—within the broader framework of professional training. The findings indicate that reading comprehension competence in this domain is not merely a language skill but a discipline-specific professional competency that mediates access to global scientific knowledge and enables participation in international technical communication. Pedagogical implications emphasize the necessity of integrated instructional approaches that simultaneously address lexical density, strategic reading behaviors, and content-specific schemata.*

Keywords: *English for Specific Purposes, reading comprehension competence, food technology, scientific-technical texts, competence structure*

СТРУКТУРА, КОМПОНЕНТЫ И ФУНКЦИИ КОМПЕТЕНЦИИ В ОБЛАСТИ ПОНИМАНИЯ АНГЛОЯЗЫЧНЫХ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ У СТУДЕНТОВ, ОБУЧАЮЩИХСЯ ПО СПЕЦИАЛЬНОСТИ «ПИЩЕВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ»

Аннотация. *В статье рассматриваются структура и функциональные аспекты компетенции понимания англоязычных научно-технических текстов у студентов, специализирующихся в области пищевых технологий. На основе теоретического анализа подходов к преподаванию английского языка для специальных целей (ESP), когнитивных моделей чтения и эмпирических данных, полученных в ходе анализа потребностей специалистов данной сферы, в исследовании выделена многоуровневая структура компетенции, включающая четыре взаимосвязанных компонента: лингвистический, когнитивно-стратегический, профессионально-содержательный и социокультурный. Каждый компонент выполняет специфические, но взаимосвязанные функции — информационную, коммуникативную, развивающую и мотивационную — в рамках профессиональной подготовки. Результаты исследования*

свидетельствуют о том, что данная компетенция представляет собой не просто языковой навык, а профессиональную компетенцию, специфичную для конкретной дисциплины; она обеспечивает доступ к мировому научному знанию и позволяет участвовать в международной научно-технической коммуникации. Практические выводы для сферы образования подчеркивают необходимость применения комплексных педагогических подходов, учитывающих одновременно лексическую насыщенность текстов, стратегии чтения и профессионально-ориентированные когнитивные схемы.

Ключевые слова: *английский язык для специальных целей (ESP), компетенция понимания прочитанного, пищевые технологии, научно-технические тексты, структура компетенции.*

OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASI TALABALARINING INGLIZ TILI ILMIY-TEXNIK O'QISH IMKONIYATINING TARKIBI, KOMPONENTLARI VA FUNKSIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Oziq-ovqat texnologiyasi mutaxassisligi talabalari orasida ingliz tili ilmiy-texnik o'qishni tushunish kompetensiyasining tarkibiy tarkibi va funktsional rollari o'rganiladi. Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) doiralarining nazariy tahlili, kognitiv o'qish modellari va oziq-ovqat texnologiyalari kontekstidagi ehtiyojlarni tahlil qilishdan olingan empirik topilmalarga asoslanib, tadqiqot to'rtta o'zaro bog'liq komponentdan iborat ko'p qatlamli kompetensiya tuzilishini aniqlaydi: lingvistik, kognitiv-strategik, professional-kontent va ijtimoiy-madaniy. Har bir komponent professional tayyorgarlikning kengroq doirasida alohida, ammo o'zaro bog'liq funktsiyalarni - axborot, kommunikativ, rivojlanish va motivatsion - bajaradi. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, ushbu sohadagi o'qishni tushunish kompetensiyasi nafaqat til ko'nikmasi, balki global ilmiy bilimlarga kirishni vositachilik qiladigan va xalqaro texnik muloqotda ishtirok etish imkonini beruvchi fanga xos professional kompetensiyadir. Pedagogik oqibatlar leksik zichlik, strategik o'qish xatti-harakatlari va kontentga xos sxemalarni bir vaqtning o'zida hal qiladigan integratsiyalashgan o'qitish yondashuvlarining zarurligini ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar*: Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili, o'qishni tushunish kompetensiyasi, oziq-ovqat texnologiyasi, ilmiy-texnik matnlar, kompetensiya tuzilishi*

INTRODUCTION

In an era characterized by rapid globalization of scientific knowledge and technological innovation, the ability to comprehend scientific-technical texts in English has become an indispensable component of professional training across technical disciplines. For students majoring in Food Technology, this competence transcends the boundaries of general language proficiency to function as a critical professional tool that mediates access to international research, technical standards, safety protocols, and

industrial innovations. The global food industry operates through extensive international networks where English serves as the primary lingua franca for scientific communication, regulatory documentation, and technological exchange. Consequently, the capacity to independently read and accurately interpret English-language scientific and technical materials constitutes a foundational element of professional competence for food technology specialists.

English for Specific Purposes (ESP) has emerged as the predominant pedagogical framework for addressing the discipline-specific language needs of such students. Unlike general English instruction, ESP is fundamentally defined by its responsiveness to learners' specific communicative requirements, its alignment with the underlying methodology and activities of the target discipline, and its focus on the language, skills, discourse, and genres appropriate to those activities. Within this framework, reading comprehension occupies a position of particular prominence, especially in contexts where access to specialized knowledge is primarily mediated through written texts. Research in food technology education contexts has consistently identified reading as the most critical skill for academic and professional success, with students reporting vocabulary and reading comprehension as their primary challenges in English-medium technical materials.

This article aims to provide a systematic examination of the structure, components, and functions of English scientific-technical reading comprehension competence among Food Technology students. The central research questions guiding this inquiry are: (1) What are the constituent components of this competence within the specific context of food technology education? (2) How do these components interrelate and function within the broader framework of professional training? (3) What pedagogical implications emerge from understanding the structural nature of this competence? By synthesizing theoretical perspectives on ESP reading competence with empirical findings from food technology contexts, this article seeks to contribute to both the theoretical understanding



of discipline-specific reading competence and the practical development of effective instructional approaches.

METHODS

This study employs a theoretical-analytical methodology, drawing upon systematic review and synthesis of scholarly literature at the intersection of ESP reading comprehension theory, cognitive models of reading, and discipline-specific research in food technology education. The analytical framework is constructed through the following procedures.

First, theoretical foundations were established through examination of prominent models of reading comprehension competence in second language and ESP contexts. Key sources include Khalifa and Weir's cognitive processing model, which delineates reading from word recognition through to creating an intertextual representation, and studies examining component skills critical for ESP reading development, including word-recognition efficiency, vocabulary building, main-idea comprehension, discourse-structure awareness, reading strategies, and reading fluency. These theoretical frameworks provided the analytical categories for identifying competence components.

Second, empirical evidence specific to food technology contexts was identified and synthesized. This included needs analysis studies documenting the actual reading demands and difficulties experienced by food technology students, investigations of specific comprehension challenges in English for Food Technology courses, and studies examining the characteristics of authentic texts in food technology and engineering. The synthesis of these empirical findings was essential for grounding the theoretical framework in the realities of food technology education.

Third, the analytical procedure involved identifying recurring themes and patterns across theoretical and empirical sources to construct a coherent model of competence structure. Components were derived through iterative comparison, seeking convergence between theoretically posited constituent elements and empirically



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

documented areas of student difficulty and professional need. Functions were identified through analysis of how reading competence is deployed in academic and professional contexts as described in the literature.

RESULTS

The analysis revealed that English scientific-technical reading comprehension competence among Food Technology students comprises four interconnected components, each characterized by specific knowledge domains, skills, and functional roles within the broader competence structure.

Linguistic Component

The linguistic component encompasses the lexical, grammatical, and syntactic knowledge systems that underpin comprehension of scientific-technical texts. Within the food technology domain, this component exhibits distinctive characteristics that differentiate it from general English proficiency. At the lexical level, three categories of vocabulary are distinguished: high-frequency general words, academic vocabulary common across disciplines, and technical vocabulary specific to food science and technology. Technical terms constitute the most domain-specific element, including specialized terminology related to preservation processes (pasteurization, fermentation, lyophilization), food chemistry (lipid oxidation, Maillard reaction), microbiology (pathogenic microorganisms, colony-forming units), and quality control (organoleptic properties, shelf-life stability). Research has consistently identified unfamiliar technical vocabulary as a primary obstacle to comprehension, with 72.7% of food technology students reporting frequent difficulty with unfamiliar words, and 81.8% citing insufficient background knowledge as a persistent challenge.

Beyond individual lexical items, the linguistic component includes formulaic sequences and collocations that characterize scientific discourse in food technology. Terms such as "conduct a hazard analysis," "maintain cold chain integrity," or "achieve commercial sterility" function as lexical chunks that facilitate fluent comprehension when



recognized as unified semantic units. The grammatical dimension involves understanding passive constructions frequent in technical descriptions ("the sample was subjected to thermal processing"), nominalizations ("the implementation of quality control procedures"), and complex conditional structures that specify processing parameters and safety requirements. Syntactic complexity, particularly the prevalence of dependent clauses and extended noun phrases, has been identified as a universal difficulty among food technology students, with 100% of respondents in one study reporting challenges with complex syntax.

Further analysis of the lexical dimension reveals that the vocabulary demands of food technology texts are not uniform but vary systematically across text types and communicative purposes. Research articles intended for specialist audiences exhibit the highest density of technical terminology, often exceeding 15–20% of total word tokens, whereas textbook materials and instructional guides typically maintain lower technical density while employing more elaborate explanatory structures. This variation suggests that the linguistic component of reading competence must be understood not as a static inventory of known words but as a flexible capacity to navigate shifting lexical demands across genres. Moreover, the semantic relationships among technical terms in food technology form intricate networks of hyponymy, meronymy, and causal connection—for instance, the relationship between "thermal processing," "sterilization," "pasteurization," and "microbial inactivation"—such that comprehension depends not merely on recognizing individual terms but on understanding their systemic interrelations within the disciplinary knowledge structure.

The morphological dimension of the linguistic component also warrants attention. Food technology terminology frequently employs Greek and Latin roots, prefixes, and suffixes that, once mastered, provide generative capacity for deciphering unfamiliar terms. Prefixes such as "thermo-" (heat), "hydro-" (water), "lipo-" (fat), and "micro-" (small), combined with suffixes such as "-ation" (process), "-ity" (quality), and "-genic"



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

(producing), allow readers to decompose and infer the meanings of novel technical terms. Studies indicate that students who receive explicit instruction in morphological analysis demonstrate significantly improved ability to infer meanings of unfamiliar technical vocabulary in food science texts, suggesting that this aspect of the linguistic component is particularly amenable to pedagogical intervention.

Cognitive-Strategic Component

The cognitive-strategic component comprises the mental processes and deliberate strategies that readers employ to construct meaning from scientific-technical texts. This component operates at two levels: cognitive strategies directly engaged in text processing and metacognitive strategies that regulate and monitor comprehension. Cognitive strategies include skimming for gist, scanning for specific information, identifying organizational patterns, making inferences, and predicting content based on textual and contextual cues. For food technology students, strategic competence involves the ability to navigate specific text types characteristic of the field, including scientific research articles, technical specifications, safety protocols, and regulatory documents.

Metacognitive strategies involve planning reading approaches based on task purposes, monitoring comprehension during reading, and evaluating the success of comprehension efforts. The importance of metacognitive awareness is particularly pronounced in ESP contexts where readers encounter unfamiliar content and specialized terminology. Research indicates that strategy instruction integrated with discipline-specific texts can yield substantial comprehension gains, with one study reporting a 28% improvement in comprehension scores following strategic intervention. Strategy deployment varies according to text familiarity: when reading specialized texts within their field, students tend to rely on domain-specific comprehension strategies, while unfamiliar texts prompt greater dependence on linguistic-level strategies such as dictionary use and word analysis.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bunda sport o‘yinlarining tarbiyaviy samaradorligi o‘qituvchining faoliyatni qanday tashkil etishiga bog‘liq. Agar o‘yin faqat g‘alaba va natijaga yo‘naltirilsa, ayrim hollarda haddan tashqari raqobat, agressivlik yoki salbiy hissiy reaksiyalar yuzaga kelishi mumkin. Aksincha, o‘yin jarayonida hamkorlik, hurmat, adolat, o‘zini nazorat qilish va mas’uliyat kabi qadriyatlarga e’tibor qaratilsa, sportning tarbiyaviy imkoniyati sezilarli darajada oshadi.

Shu asosda sport o‘yinlarini tashkil etishda “o‘yin – tahlil – baholash – xulosa” ketma-ketligidan foydalanish maqsadga muvofiq. O‘yin yakunidan so‘ng o‘quvchilarning xatti-harakatlari muhokama qilinib, ijobiy va salbiy holatlar tahlil etiladi. Bu jarayon o‘quvchilarning o‘z xulqini anglash va baholash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Barqaror xulq-atvorni shakllantirish uchun sport o‘yinlaridan muntazam foydalanish, tarbiyaviy topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, individual yondashuvni ta’minlash va o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Sport o‘yinlarining pedagogik imkoniyatlari va xulq-atvorni shakllantirish bosqichlari

1-jadval

№	Pedagogik imkoniyat / Yo‘nalish	Amaliy namoyon bo‘lishi va vositalari	Shakllanadigan barqaror xulq-atvor sifati
1	Intizom va qoidalarga rioya qilish	O‘yin qoidalariga va hakam qarorlariga so‘zsiz amal qilish, o‘z harakatlarini tartibga solish	Mas’uliyat va tartiblilik, qoidalarni hurmat qilish, intizomlilik
2	Mas’uliyat va burch hissi	Jamoa g‘alabasi uchun shaxsiy mas’uliyatni his etish, o‘z rolini mukammal bajarish	Mas’uliyatlilik, jamoaviylik, jamoa manfaatini ustun qo‘yish
3	Irodaviy sifatlar va qat’iyat	Jismoniy va ruhiy zo‘riqishlarni yengish, mag‘lubiyatda ham mardlik ko‘rsatish	Sabr-toqat, qat’iyatlilik, jasorat, irodaviy barqarorlik
4	Ijtimoiy hamkorlik va muloqot	Jamoadoshlar bilan o‘zaro yordamlashish, umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilish	Hamkorlik, muloqot madaniyati, o‘zaro hurmat va baqamti yashash
5	Hissiy barqarorlik va self-kontrol	Nizoli vaziyatlarda va yutqazganda salbiy his-tuyg‘ularni va tajovuzni jilovlash	O‘zini-o‘zi boshqarish, bosiqlik, emotsional barqarorlik

№	Pedagogik imkoniyat / Yo‘nalish	Amaliy namoyon bo‘lishi va vositalari	Shakllanadigan barqaror xulq-atvor sifati
6	Pedagogik tahlil va o‘z-o‘zini baholash	“O‘yin – tahlil – baholash – xulosa” bosqichlari orqali o‘z xulqini tahlil qilish	O‘z-o‘zini anglash, adolatli baholash, xulq-atvorni to‘g‘rilash

XULOSA

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda barqaror xulq-atvorni shakllantirishda sport o‘yinlari samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ular orqali o‘quvchilarda intizom, mas’uliyat, iroda, o‘zini boshqarish, hamkorlik, muloqot madaniyati va raqibga hurmat kabi ijobiy sifatlarni rivojlantirish mumkin.

Sport o‘yinlarining tarbiyaviy samaradorligini oshirish uchun ularni faqat jismoniy rivojlanish vositasi sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi pedagogik faoliyat sifatida tashkil etish lozim. Bunda o‘yin qoidalariga rioya qilish, jamoaviy hamkorlik, hissiyotlarni boshqarish, nizoli vaziyatlarni to‘g‘ri hal qilish va o‘z xatti-harakatini baholashga alohida e’tibor qaratish zarur.

Demak, sport o‘yinlarini maqsadli, tizimli va yosh xususiyatlariga mos tashkil etish o‘smirlarning barqaror xulq-atvorini shakllantirish, ularni ijtimoiy faol va mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashning muhim pedagogik shartlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev, A. (2022). Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent: Oliy ta’lim nashriyoti.
2. Koshbaxtiyev, I.A., Kerimov, F.A., Akhmatov, M.S. (2005). Valeologiya asoslari: oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent: Fan.
3. Sechenov, I.I. (1991). Optimistik etyudlar. Moskva: Nauka.
4. Lamark, J. (1809). Zoologik falsafa. Parij: Dentu.

5. Lesgaft, P.F. (1911). Jismoniy tarbiya va inson tanasi. Sankt-Peterburg: Imperator akademiyasi matbaasi.

6. Pavlov, I.P. (1927). Fiziologiya bo‘yicha tanlangan asarlar. Moskva: Fan Akademiyasi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. (2016). Bolajon: Maktabgacha ta’lim davlat dasturi. Toshkent: Ta’lim vazirligi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. (2018). Ilk Qadam: Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun davlat o‘quv dasturi. Toshkent: Ta’lim vazirligi.

9. Mogendovich, M.R. (1988). Motor-visseral reflekslar va funksional tayyorgarlik. Moskva: Tibbiyot.

10. UNICEF & UNESCO. (2019). Bolalar rivojlanishi va jismoniy faollik bo‘yicha tavsiyalar. Nyu-York: BMT.

11. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO). (2020). 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun jismoniy faollik, sedentarlik va uyqu bo‘yicha ko‘rsatmalar. Jeneva: WHO.

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI KOGNITIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Jasurbek Abdullayev Xolmirzayevich
Farg'ona davlat universiteti
Jismoniy tarbiya va adaptiv sport nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi
ORCID 0000-0001-6075-3432

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Kreativ yondashuvning mustaqil fikrlash, pedagogik muammolarni hal qilish, innovatsion metodlardan foydalanish, muloqot, hamkorlik va refleksiv faoliyatni rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *kreativ yondashuv, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy ko'nikma, innovatsion ta'lim, refleksiya, kasbiy tayyorgarlik, metodika.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. *В данной статье освещаются педагогические возможности совершенствования методики развития профессиональных навыков будущих учителей на основе креативного подхода. Проанализировано значение креативного подхода в развитии самостоятельного мышления, способности решать педагогические проблемы, использовать инновационные методы, вступать в коммуникацию, сотрудничать и осуществлять рефлексивную деятельность.*

Ключевые слова: *креативный подход, будущий учитель, профессиональные навыки, инновационное образование, рефлексия, профессиональная подготовка, методика.*

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE COGNITIVE COMPETENCE OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Abstract. *This article highlights the pedagogical potential of improving the methodology for developing future teachers' professional skills based on a creative approach. It analyzes the importance of the creative approach in developing independent thinking, the ability to solve pedagogical problems, use innovative methods, communicate and collaborate, and engage in reflective activities.*

Keywords: *creative approach, future teacher, professional skills, innovative education, reflection, professional training, methodology.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Bugungi o'qituvchi faqat tayyor bilimlarni o'quvchilarga yetkazib beruvchi mutaxassis emas, balki ta'lim jarayonini loyihalovchi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qiluvchi, innovatsion yechimlarni ishlab chiquvchi, o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga oluvchi va ularning kreativ fikrlashini rivojlantiruvchi professional sifatida namoyon bo'lishi zarur.

OECD tomonidan o'qituvchining professional kompetensiyasi ko'p o'lchamli hodisa sifatida qaralib, unda fan bo'yicha bilimlar, pedagogik bilimlar, affektiv-motivatsion kompetensiyalar, qaror qabul qilish va pedagogik vaziyatga mos metodlarni tanlash qobiliyati o'zaro bog'liq holda namoyon bo'lishi ta'kidlanadi.

Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida kreativ yondashuvdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki pedagogik faoliyat doimo standart vaziyatlardan iborat bo'lmaydi. O'qituvchi turli xarakter, qobiliyat va ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlaydi. Bunday sharoitda pedagogdan nostandart fikrlash, vaziyatni tezkor tahlil qilish va maqbul pedagogik yechim topish talab etiladi.

Kreativlikni rivojlantirish faqat alohida ijodiy mashg'ulotlar bilan chegaralanmasligi, balki ta'limning mazmuni, metodlari va baholash jarayoniga integratsiya qilinishi lozim. OECD tadqiqotlarida ham ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun pedagoglarning o'zlarining kreativ pedagogik faoliyatini shakllantirish muhimligi qayd etilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash hamda samarali metodik modelni ishlab chiqish.

METODOLOGIYA

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlash, kreativ yondashuvning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishdagi imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi mezon va ko‘rsatkichlarni belgilash vazifalari belgilandi. Shuningdek, kreativ metod va texnologiyalarni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kreativ yondashuv asosidagi metodik modelni ishlab chiqish hamda mazkur metodikaning pedagogik samaradorligini aniqlash tadqiqotning asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

Men nimani to‘g‘ri bajardim?”, “Qaysi jihatni yaxshilashim kerak?”, “Qanday yangi metoddan foydalanishim mumkin?” kabi savollar asosida o‘z-o‘zini baholash tashkil etiladi.

OECD ma’lumotlarida ham boshlang‘ich o‘qituvchi tayyorgarligida nazariya va amaliyotning bog‘lanishi, maktab bilan hamkorlik va autentik o‘quv imkoniyatlarini yaratish muhim shart sifatida ko‘rsatiladi.

Kreativ yondashuv asosida taklif etilayotgan metodik model

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini kreativ yondashuv asosida rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan metodik model ta’lim jarayonini izchil, bosqichma-bosqich va amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan holda tashkil etishni nazarda tutadi. Mazkur model talabalarning kasbiy motivatsiyasini kuchaytirishdan boshlab, pedagogik muammolarni mustaqil hal qilish, ishlab chiqilgan yechimlarni amaliyotda sinab ko‘rish, o‘z faoliyatini refleksiv baholash va yakunda kreativ pedagogik mahsulot yaratishgacha bo‘lgan jarayonni qamrab oladi.

Modelning birinchi bosqichi – motivatsion tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, unda talabalarda tanlagan kasbiga qiziqish va ijobiy munosabat shakllantiriladi. Kreativ fikrlashning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati tushuntirilib, muammoli va nostandart pedagogik vaziyatlar taqdim etiladi. Muammoli savollar, munozara, videolavhalar va

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

"aqliy hujum" metodlari orqali talabalarning faolligi oshiriladi hamda yangicha yechim izlashga yo'naltirilgan kasbiy motivatsiya rivojlantiriladi.

Ikkinchi bosqich – muammoli-kreativ faoliyat bosqichida talabalar real pedagogik faoliyatga yaqin muammoli vaziyatlarni tahlil qilib, ularning sabablarini aniqlaydilar, muqobil yechimlar ishlab chiqadilar va maqbul variantni tanlaydilar. Bu jarayonda case-study, muammoli ta'lim, brainstorming, kichik guruhlarda ishlash va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanilib, mustaqil fikrlash, kreativ g'oya yaratish va muammolarni hal qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Uchinchi bosqich – amaliy faoliyat bosqichida ishlab chiqilgan pedagogik yechimlar mikro-darslar, rolli o'yinlar, pedagogik treninglar, loyiha ishlari va pedagogik amaliyot orqali amalda sinab ko'riladi. Bu bosqich nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmaga aylantirish, mustaqil pedagogik qaror qabul qilish va faoliyat natijasini baholash imkonini beradi.

To'rtinchi bosqich – refleksiv baholash bosqichida talabalar o'z faoliyatini tahlil qilib, kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydilar, xatolar sabablarini baholaydilar hamda faoliyatini takomillashtirish yo'llarini belgilaydilar. Refleksiv kundalik, o'z-o'zini baholash, portfolio va tahliliy savollardan foydalanish kasbiy o'zini anglashni rivojlantiradi.

Beshinchi bosqich – kreativ mahsulot yaratish bosqichida talabalar egallagan bilim va ko'nikmalarini mustaqil pedagogik mahsulot yaratish orqali namoyon etadilar. Bunda innovatsion dars ishlanmasi, metodik tavsiya, pedagogik loyiha, didaktik material, interfaol topshiriq, ta'limiy o'yin yoki innovatsion metod ishlab chiqilishi mumkin. Mazkur bosqich talabaning ijodiy salohiyati va mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorgarligini namoyon etishga xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning bosqichli metodik modeli

1-jadval

Bosqich	Model bosqichlari	Qo'llaniladigan metod va texnologiyalar	Kutilayotgan pedagogik natija
1-bosqich	Motivatsion tayyorgarlik	Muammoli savollar, qisqa videolavhalar, munozaralar, "aqliy hujum" (brainstorming)	Kasbiy motivatsiyani shakllantirish, izlanish va yangicha yechim topishga qiziqish uyotish
2-bosqich	Muammoli-kreativ faoliyat	Case-study, muammoli ta'lim, kichik guruhlarda ishlash, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish	Mustaqil va kreativ fikrlash, muammo sabablarini aniqlash, muqobil yechimlar ishlab chiqish
3-bosqich	Amaliy faoliyat	Mikro-darslar, rolli o'yinlar, pedagogik treninglar, loyiha ishlari va amaliyot	Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, pedagogik qarorlarni mustaqil qabul qilish
4-bosqich	Refleksiv baholash	Refleksiv kundalik, o'z-o'zini baholash varaqalari, portfolio, konstruktiv qayta aloqa	O'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, kuchli/zaif tomonlarni anglash, yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish
5-bosqich	Kreativ mahsulot yaratish	Innovatsion dars ishlanmalari, metodik tavsiyalar, didaktik	Mustaqil pedagogik mahsulot yaratish, amaliy va yaratuvchanlik

Bosqich	Model bosqichlari	Qo'llaniladigan metod va texnologiyalar	Kutilayotgan pedagogik natija
		materiallar, interfaol ta'limiy o'yinlar	kompetensiyasini namoyon etish

Mazkur metodik modelning o'ziga xos jihati shundaki, bosqichlar bir-biridan alohida emas, balki o'zaro uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Motivatsion tayyorgarlik talabaning muammoli faoliyatga kirishishini ta'minlasa, muammoli-kreativ faoliyat pedagogik muammoni mustaqil tahlil qilish va kreativ yechim ishlab chiqishga olib keladi. Amaliy faoliyat ishlab chiqilgan yechimni real yoki modellashtirilgan pedagogik sharoitda sinab ko'rish imkonini beradi. Refleksiv baholash esa amalga oshirilgan faoliyatni tahlil qilish va xatolarni tuzatishga xizmat qiladi. Yakuniy bosqichda kreativ mahsulot yaratish orqali talabaning egallagan kasbiy ko'nikmalari amaliy natija sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, taklif etilayotgan metodik model quyidagi uzviy pedagogik zanjir asosida amalga oshiriladi:

Kreativ motivatsiya → pedagogik muammo → mustaqil izlanish → kreativ yechim → amaliy sinov → refleksiya → kreativ mahsulot → kasbiy ko'nikmaning rivojlanishi.

Mazkur modelni oliy ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish natijasida bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil fikrlash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, kreativ g'oyalar ishlab chiqish, muammolarni hal qilish, innovatsion metodlardan foydalanish, samarali muloqot qilish, hamkorlikda ishlash va o'z pedagogik faoliyatini refleksiv baholash kabi muhim kasbiy ko'nikmalarni kompleks rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

MUHOKAMA

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqot natijalari kreativ yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda kompleks pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatadi.

An’anaviy ta’lim jarayonida talabaning bilimini tekshirish ko‘pincha tayyor bilimlarni qayta ifodalashga yo‘naltiriladi. Kreativ yondashuv esa talabaning bilimni amaliy vaziyatda qo‘llashi, muammoni aniqlashi, turli variantlarni ishlab chiqishi va eng maqbul yechimni tanlashini talab qiladi.

Shu sababli kreativ yondashuvni faqat “ijodiy topshiriq berish” bilan cheklash maqsadga muvofiq emas. U ta’lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari, topshiriqlari va baholash mezonlarining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashi lozim.

UNESCOning zamonaviy pedagogik yo‘nalishlar bo‘yicha materiallarida ham bo‘lajak va amaldagi o‘qituvchilarda kreativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, kommunikatsiya va innovatsion pedagogikalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Kreativ yondashuvning samaradorligi, avvalo, o‘qituvchining o‘zi tomonidan yaratiladigan ta’lim muhitiga bog‘liq. Talaba o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan, xato qilishdan qo‘rqmaydigan, turli yechimlarni taklif qiladigan va o‘z fikrini asoslay oladigan muhitda kreativ faoliyatga ko‘proq jalb qilinadi.

Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativlikni rivojlantirish jarayonida ularning kasbiy ko‘nikmalarini baholash mezonlarini to‘g‘ri belgilash muhim pedagogik ahamiyatga ega. Bunda talabaning faqat yakuniy natijasi yoki topshiriqqa bergan javobi emas, balki muammoni mustaqil aniqlashi, pedagogik vaziyatni tahlil qilishi, kreativ g‘oya ishlab chiqishi, o‘z fikrini asosli dalillar bilan himoya qilishi, yangicha yondashuvlardan foydalanishi, jamoada samarali hamkorlik qilishi hamda o‘z faoliyatini tahlil qilib, unga baho bera olishi ham hisobga olinishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini baholashda mustaqil fikrlash, pedagogik vaziyatni tahlil qilish, kreativ g‘oya ishlab chiqish, pedagogik muammolarni hal qilish, innovatsion metod va texnologiyalardan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

foydalanish, kommunikativ faollik, jamoada hamkorlik qilish hamda refleksiv faoliyat kabi mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur mezonlar talabaning kasbiy faoliyatga qay darajada tayyorligini kompleks baholash imkonini beradi.

Bunda mustaqil fikrlash mezoni talabaning pedagogik masalalarga o‘z nuqtayi nazarini shakllantirishi, muammoni mustaqil tahlil qilishi va turli yechimlarni taklif eta olishi bilan tavsiflanadi. Pedagogik vaziyatni tahlil qilish mezoni esa real ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammoli holatlarni aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va pedagogik jihatdan maqbul yechimlarni belgilash qobiliyatini ifodalaydi. Kreativ g‘oya ishlab chiqish mezoni talabaning an’anaviy yondashuvlardan tashqari yangi, original va samarali pedagogik g‘oyalarni ilgari sura olish qobiliyatini belgilaydi.

Muammoni hal qilish mezoni bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik muammoga nisbatan maqbul yechimni tanlay olishi va uni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini aks ettiradi. Innovatsion metodlardan foydalanish mezoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va kreativ ta’lim vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasini ko‘rsatadi. Kommunikativ faollik esa o‘quvchilar, hamkasblar va boshqa ta’lim subyektlari bilan samarali muloqot o‘rnatish, o‘z fikrini aniq va asosli ifodalash ko‘nikmasi bilan belgilanadi.

Shuningdek, hamkorlik mezoni talabaning jamoada ishlashi, boshqalarning fikrini tinglashi, o‘zaro yordam va fikr almashish asosida umumiy maqsadga erishishi bilan tavsiflanadi. Refleksiv faoliyat mezoni esa bo‘lajak o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilishi, erishilgan natijalarni baholashi, mavjud kamchiliklarni aniqlashi va kelgusidagi faoliyatini takomillashtirish yo‘llarini belgilay olishini anglatadi.

Mazkur mezonlarning kompleks qo‘llanilishi bo‘lajak o‘qituvchilarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki ularning real pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasi, kreativ fikrlashi, kasbiy mustaqilligi va amaliy kompetensiyalarini ham aniqlash imkonini beradi. Shu sababli kreativ yondashuvga asoslangan ta’lim jarayonida baholash

XULOSA

Kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki mustaqil va kreativ fikrlash, pedagogik qaror qabul qilish, samarali muloqot va hamkorlik qilish, pedagogik vaziyatlarni tahlil etish hamda o‘z faoliyatini refleksiv baholash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishni ham talab etishini ko‘rsatdi.

Kreativ yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning nostandart pedagogik vaziyatlarda mustaqil va samarali qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Xususan, case-study, loyiha metodi, rolli o‘yin, brainstorming, muammoli ta’lim va refleksiv topshiriqlardan tizimli foydalanish kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning samarali vositalari sifatida namoyon bo‘ladi. “Muammoli vaziyat – kreativ yechim – amaliy qo‘llash – refleksiya” modeli esa kasbiy ko‘nikmalarni izchil va bosqichma-bosqich shakllantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, kreativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodikani ta’lim jarayoniga izchil tatbiq etish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash va zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan kompetent, kreativ va raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharofat, R., & Nigora, A. (2023). THE ROLE OF GYMNASTICS IN THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF CHILDREN AND ADOLESCENTS. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, *12*, 32-37.
2. Robilova, S. M. (2023). CHARACTERISTICS OF PRACTICAL PHYSICAL DEVELOPMENT OF TEENAGE STUDENTS IN FAMILY-SCHOOL PARTNERSHIP. *Conferencea*, 60-65.
3. Sharofat, R., & Nigora, A. (2023). THE ROLE OF GYMNASTICS IN THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF CHILDREN AND ADOLESCENTS. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, *12*, 32-37.

4. Mamajonovna, R. S. (2023). FEATURES OF PRACTICAL PHYSICAL TRAINING OF ADOLESCENT STUDENTS. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(4), 2371-2375.

5. Robilova, S. M. (2023). O 'SMIR YOSHDAGI O 'QUVCHILARNING JISMONIY MADANIYAT, JISMONIY TARBIYA VA JISMONIY RIVOJLANISH ASOSLARINING AHAMIYATI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, *3*(29), 764-768.

6. Mamajonovna, R. S. (2023). FEATURES OF PRACTICAL PHYSICAL TRAINING OF ADOLESCENT STUDENTS. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(4), 2371-2375.

7. Tukhtaeva, N., Sodiqova, D., & Aripova, Y. Swarm Intelligence-Based Decentralized Mobile Learning Networks for Collaborative E-Learning Optimization in Large-Scale Systems.

8. Борисенко, Е. Г. (2024). АНАЛИЗ ПРАКТИЧЕСКИХ РЕКОМЕНДАЦИЙ ПО ОЗДОРОВЛЕНИЮ СРЕДСТВАМИ ФИТНЕСА. *ББК 75 А13*, 113.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

MINIATYURA KOMPOZITSIYASI ASOSIDA BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Abdullaziz Isomiddinov Anvarjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti (Tasviriy va amaliy san’at ixtisosligi)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirishda miniatyura kompozitsiyasidan pedagogik vosita sifatida foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Unda kreativ tafakkurning pedagogik mazmuni, miniatyura kompozitsiyasining ijodiy fikrlashni faollashtiruvchi xususiyatlari hamda ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan asosiy didaktik tamoyillar yoritilgan. Miniatyura bilan ishlash jarayonida kuzatish, obrazli va assotsiativ fikrlash, kompozitsion yechim izlash, rang va shakl munosabatlarini tahlil qilish kabi faoliyatlarning kreativ tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyati asoslangan. Shuningdek, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan didaktik shartlar va metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *kreativ tafakkur, miniatyura, miniatyura kompozitsiyasi, bo‘lajak o‘qituvchi, tasviriy san’at, didaktik tamoyillar, ijodiy faoliyat, kompozitsiya, obrazli tafakkur, milliy san’at, pedagogik texnologiya.*

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА НА БАЗЕ МИНИАТЮРНОЙ КОМПОЗИЦИИ

Аннотация. *В статье анализируются дидактические возможности использования миниатюрной композиции как педагогического средства развития креативного мышления будущих учителей изобразительного искусства. Раскрываются педагогическое содержание понятия креативного мышления, особенности миниатюрной композиции, активизирующие творческое мышление, а также основные дидактические принципы, применяемые в образовательном процессе. Обосновывается значение таких видов деятельности, как наблюдение, образное и ассоциативное мышление, поиск композиционного решения, анализ взаимосвязи цвета и формы, в развитии креативного мышления в процессе работы с миниатюрой. Также разработаны дидактические условия и методические рекомендации, направленные на развитие творческих возможностей будущих учителей изобразительного искусства.*

Ключевые слова: *креативное мышление, миниатюра, миниатюрная композиция, будущий учитель, изобразительное искусство, дидактические принципы, творческая деятельность, композиция, образное мышление, национальное искусство, педагогическая технология.*

DIDACTIC FOUNDATIONS FOR DEVELOPING THE CREATIVE THINKING OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS BASED ON MINIATURE COMPOSITION

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Abstract. *This article analyzes the didactic potential of using miniature composition as a pedagogical tool for developing the creative thinking of future teachers of fine arts. It examines the pedagogical content of the concept of creative thinking, the features of miniature composition that stimulate creative thinking, and the main didactic principles applied in the educational process. The study substantiates the importance of such activities as observation, imaginative and associative thinking, the search for compositional solutions, and the analysis of the relationship between color and form in developing creative thinking through work with miniature compositions. It also develops didactic conditions and methodological recommendations aimed at enhancing the creative potential of future fine arts teachers.*

Keywords: *creative thinking, miniature, miniature composition, future teacher, fine arts, didactic principles, creative activity, composition, visual thinking, national art, pedagogical technology.*

KIRISH

Bugungi oliy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchini faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirgan mutaxassis sifatida emas, balki yangi pedagogik va ijodiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan, mavjud muammoga nostandart yondasha oladigan, o‘z kasbiy faoliyatini muntazam takomillashtirishga intiladigan ijodkor shaxs sifatida tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tasviriy san’at ta’limida mazkur vazifa o‘ziga xos mazmun kasb etadi. Chunki tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy faoliyati badiiy ko‘rish, obraz yaratish, estetik idrok, kompozitsion tafakkur, rang va shakl bilan ishlash, ijodiy muammoni hal etish hamda o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash kabi bir-biri bilan uzviy bog‘liq qobiliyatlarni talab qiladi.

Kreativlik masalasining zamonaviy pedagogik tadqiqotlardagi ahamiyati ham shundan dalolat beradi. Kreativlik psixologiya, ta’lim, madaniyat va boshqa sohalar kesishmasida o‘rganiladigan murakkab hodisa sifatida qaraladi. Ta’limiy kreativlik esa ijodiy fikrlashni rivojlantirish, yangi g‘oyalarni ilgari surish va ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish bilan bog‘liq.

Tasviriy san’at ta’limida kreativ tafakkurni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida milliy badiiy merosga asoslangan ijodiy topshiriqlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan miniatyura san’ati o‘zining kompozitsion yaxlitligi, obrazlarning ramziy ifodasi, ranglar uyg‘unligi, mayda

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

detallarni umumlashtirish, dekorativlik va hikoyaviylik xususiyatlari bilan bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun muhim pedagogik imkoniyatlarga ega.

Miniatyura kompozitsiyasi bilan ishlash jarayonida talaba tayyor namunani ko‘chiruvchi ijrochi emas, balki badiiy mazmunni anglovchi, tasviriy vositalarni tanlovchi va o‘zining kompozitsion qarorini ishlab chiquvchi faol subyektga aylanadi. Aynan mana shu jihat miniatyura kompozitsiyasini oddiy amaliy mashg‘ulotdan kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi didaktik vositaga aylantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan, kompetensiyaviy va ijodiy yondashuvlar tashkil etadi. Shuningdek, tasviriy san’at ta’limining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, badiiy-amaliy faoliyatni nazariy bilim bilan integratsiyalash tamoyiliga tayaniladi.

Tadqiqotda pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik kuzatish, badiiy-pedagogik faoliyatni modellashtirish hamda metodik loyihalash usullaridan foydalanish mumkin.

Kreativlikni ta’lim jarayonining alohida tarkibiy qismi sifatida o‘rganish zamonaviy ilmiy adabiyotlarda keng rivojlangan. M. A. Boden kreativlikning yangi g‘oyalarni yaratish mexanizmlarini tahlil qilib, kreativ fikrlashning turli bilim va tajriba elementlarini yangicha kombinatsiyalash imkoniyatlariga e’tibor qaratadi. Ushbu nazariy qarashlar tasviriy san’at ta’limiga tatbiq etilganda, talabaning ijodiy faoliyati mavjud badiiy bilimlarni shunchaki takrorlashdan iborat bo‘lmasligi, balki ularni yangi kompozitsion vaziyatlarda qayta tashkil etish, yangicha obraz va shakllar yaratish bilan bog‘lanishi lozimligini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Miniatyura san’ati Sharq xalqlari badiiy tafakkurining muhim ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, unda badiiy mazmun kichik hajmdagi tasviriy makonda katta ma’no va

obrazlar tizimi orqali ifodalanadi. Miniatyura kompozitsiyasining o‘ziga xosligi shundaki, unda makon, vaqt, obraz, rang, ritm va dekorativ shakl ko‘pincha yagona badiiy tizimga birlashtiriladi.

Ta’lim nuqtayi nazaridan bu xususiyatlar talaba uchun bir vaqtning o‘zida bir nechta ijodiy masalani hal etish imkonini beradi. Masalan, talaba berilgan mavzu asosida asosiy g‘oyani aniqlaydi, asosiy va ikkilamchi obrazlarni ajratadi, kompozitsion markazni belgilaydi, tasviriy makonni tashkil etadi, ranglar nisbatini tanlaydi, obrazlarning o‘zaro munosabatini belgilaydi, dekorativ elementlardan foydalanadi va yakuniy badiiy yechimni shakllantiradi.

Bu jarayonlarning har biri kreativ tafakkurning ma’lum bir jihatini faollashtiradi. Miniatyura kompozitsiyasi talabaning “bitta to‘g‘ri javob”ga intilishidan ko‘ra, bir mavzu uchun bir nechta badiiy yechim yaratishiga imkon beradi. Masalan, “Bahor sayli”, “Ustoz va shogird”, “Hunarmandlar mahallasi”, “Kitobxonlik”, “Milliy bayram” kabi mavzularda talabaga tayyor kompozitsiyani takrorlash emas, balki dastlab uch yoki to‘rt xil eskiz ishlab chiqish topshirig‘i berilishi mumkin.

Bunda asosiy didaktik vazifa tayyor mahsulotni tez olish emas, balki variantlar ishlab chiqish jarayonini tashkil etishdir. Kreativ tafakkur aynan shu jarayonda rivojlanadi: talaba birinchi yechim bilan cheklanmaydi, o‘z g‘oyasini qayta ko‘rib chiqadi, boshqa variantlarni izlaydi va ular orasidan mazmun hamda shakl jihatidan maqsadga muvofiq yechimni ishlab chiqadi.

NATIJA

Miniatyura bilan ishlash jarayonida amaliy mashg‘ulot nazariy bilimlardan ajratilmasligi kerak. Talaba miniatyuraning tarixiy rivojlanishi, kompozitsion tuzilishi, rang tizimi, dekorativlik xususiyatlari va badiiy ifoda vositalari haqida yetarli nazariy bilimga ega bo‘lishi zarur. Bunda ilmiylik tamoyili “miniatyurani ko‘chirish” bilan cheklanmasdan, uning badiiy tilini anglashni nazarda tutadi. Talaba biror tarixiy miniatyura namunasini o‘rganganida “qanday chizilgan?” savoli bilan bir qatorda “nima

uchun aynan shunday joylashtirilgan?", "ranglar qanday vazifani bajarmoqda?", "kompozitsion markaz qayerda?", "obrazlar o'rtasidagi munosabat qanday ifodalangan?" kabi savollarga javob izlashga yo'naltirilishi lozim.

Talaba ijodiy faoliyatda faol subyekt bo'lishi kerak. O'qituvchi tayyor yechimni ko'rsatib, talabadan aynan shuni takrorlashni talab qilsa, kreativ tafakkurning rivojlanish imkoniyati torayadi. Shuning uchun mashg'ulotda muammoli savollar, tanlovli topshiriqlar va ochiq ijodiy vazifalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan: "Ushbu mavzuni yana qanday kompozitsion usulda ifodalash mumkin?", "Asosiy obrazni markazga joylashtirmasdan kompozitsiya yaratish mumkinmi?", "Agar ranglar soni uchta bilan cheklansa, mazmun qanday ifodalanadi?" kabi savollar talabaning tayyor qolipdan chiqishiga yordam beradi.

Tasviriy san'atni o'qitishda ko'rgazmalilik alohida ahamiyatga ega. Biroq ko'rgazmalilik faqat tayyor san'at asarlarini ko'rsatishdan iborat bo'lmasligi kerak. Miniatyura kompozitsiyasi bo'yicha ko'rgazmali materiallar "mavzu → g'oya → eskiz → kompozitsion variant → rang yechimi → detal → yakuniy kompozitsiya" ketma-ketligida berilishi mumkin. Shunday tashkil etilgan ko'rgazmalilik talabaning badiiy mahsulotdan tashqari, ijodiy jarayonni ham ko'rishiga imkon beradi.

Kreativ tafakkurni bir yoki ikki mashg'ulot davomida to'liq rivojlantirish mumkin emas. Shu sababli miniatyura kompozitsiyasi bilan ishlash topshiriqlari oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishi lozim. Birinchi bosqichda oddiy geometrik va dekorativ shakllar, ikkinchi bosqichda o'simlik va hayvonot obrazlarini stilizatsiyalash, uchinchi bosqichda inson obrazini kompozitsiyada joylashtirish, to'rtinchi bosqichda ikki-uch obrazli kichik syujet yaratish, beshinchi bosqichda ko'p obrazli kompozitsiya, oltinchi bosqichda esa mustaqil mavzu asosida original miniatyura yaratish topshiriladi.

Tasviriy san'at pedagogini tayyorlashda nazariy bilimning amaliy faoliyat bilan bog'lanishi muhim. Kompozitsiya qonuniyatlarini nazariy tushuntirishning o'zi yetarli emas. Talaba ularni amaliy vaziyatda qo'llay olishi kerak. Masalan, "muvozanat",

"ritm", "kontrast", "kompozitsion markaz", "simmetriya" kabi tushunchalar avval nazariy jihatdan tushuntiriladi, keyin miniatyura eskizida amaliy qo'llanadi. Shu tariqa bilim → amaliy faoliyat → tahlil → qayta ishlash → yakuniy ijodiy mahsulot zanjiri yuzaga keladi.

Talabalarning badiiy qobiliyati, tajribasi, tasavvuri va texnik imkoniyatlari bir xil emas. Shu sababli bitta topshiriq doirasida turli murakkablik darajalarini taklif qilish maqsadga muvofiq. Boshlang'ich darajada tayyor kompozitsion sxema asosida ishlash, o'rta darajada berilgan mavzu asosida mustaqil eskiz yaratish, yuqori darajada esa mavzuni o'zgacha konsepsiyada talqin qilish topshirilishi mumkin.

Miniatyura kompozitsiyasi bilan ishlashda talabaning yakuniy ijodiy qarorini o'zi qabul qilishi muhim. O'qituvchi kompozitsiyani to'liq belgilab bermasligi, balki yo'nalish ko'rsatishi kerak. Bunda "tayyor javob beruvchi o'qituvchi" modelidan "ijodiy faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchi" modeliga o'tish zarur. O'qituvchi muammoli vaziyat yaratadi, manba va material beradi, savollar orqali fikrlashga undaydi, variantlarni muhokama qiladi, texnik maslahat beradi va talabaning mustaqil qarorini qo'llab-quvvatlaydi.

Mazkur tizimda talaba dastlab mavjud badiiy materialni o'rganadi, keyinchalik uni qayta tashkil etadi va nihoyat mustaqil badiiy mahsulot yaratishga o'tadi.

Ayniqsa, "bir mavzu — uch kompozitsiya" usulidan foydalanish samarali bo'lishi mumkin. Masalan, "Ustoz va shogird" mavzusi berilganda talaba birinchi variantda ustozni kompozitsion markazga, ikkinchi variantda shogirdni markazga, uchinchi variantda esa ikki obraz o'rtasidagi harakat va munosabatni markaziy yechimga aylantiradi. Keyinchalik talabadan uch variantning badiiy imkoniyatlarini taqqoslash va nima sababdan ma'lum bir variantni tanlaganini izohlash so'raladi.

XULOSA

Bu usulda ijodiy faoliyat faqat "chizish" bilan tugamaydi. Talaba o'zining badiiy qarorini asoslashni ham o'rganadi. Bu esa bo'lajak o'qituvchi uchun alohida kasbiy ahamiyatga ega miniatyura kompozitsiyasining asosiy pedagogik imkoniyati shundaki,

u talabaning bir vaqtning o'zida bir necha turdagi tafakkur faoliyatini amalga oshirishini talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boden M.A. The Creative Mind: Myths and Mechanisms. 2nd ed. London: Routledge, 2004.
2. Craft A., Jeffrey B., Leibling M. Creativity in Education. London: Continuum, 2001.
3. Jeffrey B., Craft A. Teaching creatively and teaching for creativity: distinctions and relationships // Educational Studies. 2004. Vol. 30, No. 1. P. 77–87. DOI: 10.1080/0305569032000159750.
4. Kaufman J.C., Sternberg R.J. (Eds.). The Cambridge Handbook of Creativity. Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
5. Smith J.K., Smith L.F. Educational Creativity // The Cambridge Handbook of Creativity. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. P. 250–264.
6. Beghetto R.A. Creativity in Teaching // The Cambridge Handbook of Creativity across Domains. Cambridge: Cambridge University Press, 2017. P. 549–564.
7. Beghetto R.A. Creativity in Classrooms // The Cambridge Handbook of Creativity. Cambridge: Cambridge University Press, 2019. P. 587–606.
8. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Toshkent: Sahhof, 2023.
9. Karimova B.E. Kreativ pedagogika. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
10. Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Alqarov I.Sh., Usmanov N.O'. Pedagogika. Toshkent: Noshir, 2011.
11. Taxirovich S. N. et al. BADIIY TASVIR VOSITALARIDA METONIMIYANING LINGVISTIK TAVSIFI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 34. – №. 3. – C. 42-45.
12. Toxirovich S. N. VISUAL ARTS TEACHING METHODOLOGY AND PROBLEMS AND SOLUTIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 5. – C. 569-571.
13. Qoraboyeva Z.M. Tasviriy san'at fanini o'qitishning didaktik prinsiplari // O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar respublika ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiyasi materiallari. 2020.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ИНТЕГРАЦИЯ АУДИТОРНОГО И ЦИФРОВОГО ОБУЧЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИТЕРАТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ.

Насимбекова Алина Владимировна
Базовый докторант 1-курса Ферганского государственного университета.
Email: xromenkova.a.16@gmail.com
ORCID 0009-0007-7776-8754

Аннотация. *В статье рассматриваются педагогические возможности интеграции аудиторного и цифрового обучения в процессе формирования литературной компетенции студентов. Цель исследования заключается в теоретическом обосновании и разработке структурно-содержательной модели интеграции аудиторного и цифрового обучения, направленной на формирование литературной компетенции студентов. В качестве методов применены анализ научно-педагогической литературы, сравнительно-сопоставительный анализ аудиторного и цифрового форматов, педагогическое моделирование и систематизация цифровых средств обучения.*

Ключевые слова: *литературная компетенция, смешанное обучение, аудиторное обучение, цифровое обучение, мультимедийные технологии, художественный текст, интерпретация, читательская деятельность, цифровая образовательная среда.*

INTEGRATING CLASSROOM AND DIGITAL LEARNING IN DEVELOPING STUDENTS' LITERARY COMPETENCE

Abstract*. This article examines the pedagogical potential of integrating classroom and digital learning to develop students' literary competence. The study aims to provide a theoretical rationale for and develop a structural-content model for integrating classroom and digital learning, specifically designed to foster students' literary competence. The research methods employed include an analysis of pedagogical literature, a comparative analysis of classroom and digital formats, pedagogical modeling, and the systematization of digital learning tools.*

Keywords*: literary competence, blended learning, classroom learning, digital learning, multimedia technologies, literary text, interpretation, reading activity, digital educational environment.*

O'QUVCHILARNING ADABIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA SINF VA RAQAMLI TA'LIMNI INTEGRATSIYALASH

Annotatsiya*. Ushbu maqola o'quvchilarning adabiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun sinf va raqamli ta'limni integratsiyalashning pedagogik salohiyatini o'rganadi. Tadqiqot o'quvchilarning*

adabiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan sinf va raqamli ta'limni integratsiyalashning nazariy asosini yaratish va tarkibiy-mazmun modelini ishlab chiqishga qaratilgan. Qo'llaniladigan tadqiqot usullari pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, sinf va raqamli formatlarning qiyosiy tahlili, pedagogik modellashtirish va raqamli ta'lim vositalarini tizimlashtirishni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: *adabiy kompetensiya, aralash ta'lim, sinfda ta'lim, raqamli ta'lim, multimedia texnologiyalari, adabiy matn, talqin, o'qish faoliyati, raqamli ta'lim muhiti.*

ВВЕДЕНИЕ

Цифровая трансформация высшего образования сопровождается изменением не только используемых технических средств, но и содержания, способов организации и характера учебной деятельности студентов. Электронные образовательные платформы, мультимедийные ресурсы, виртуальные библиотеки, интерактивные задания, облачные сервисы и инструменты искусственного интеллекта расширяют возможности доступа к информации, индивидуализации обучения и организации самостоятельной работы. Вместе с тем простое перенесение традиционного занятия в электронную среду не обеспечивает повышения качества образования. Цифровые технологии становятся педагогически значимыми только тогда, когда включаются в методически выстроенную систему и способствуют достижению конкретных образовательных результатов.

Особое значение данная проблема приобретает при обучении литературе. Формирование литературной компетенции невозможно свести к усвоению сведений о писателях, произведениях, направлениях и жанрах. Оно предполагает развитие способности воспринимать художественный текст как эстетическое и культурное целое, понимать его содержание и подтекст, анализировать образную систему, интерпретировать авторскую позицию, сопоставлять различные точки зрения и аргументированно выражать собственное отношение к прочитанному.

В процессе формирования литературной компетенции аудиторное и цифровое обучение выполняют взаимодополняющие функции. Аудиторная

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

работа создает условия для непосредственного общения, коллективного обсуждения, эмоционального восприятия художественного произведения и оперативной педагогической поддержки. Цифровая среда обеспечивает вариативность учебных материалов, мультимодальное представление содержания, индивидуальный темп работы, неоднократное обращение к тексту и фиксацию результатов читательской деятельности.

Необходимость сочетания этих форматов подтверждается исследованиями цифровой образовательной среды. Р. С. Кузнецов и И. С. Кузнецов установили, что при исключительно дистанционном обучении студенты реже испытывают доверие к однокурсникам и преподавателям и реже обращаются к ним за помощью. Авторы связывают дистанционный формат со снижением социального капитала обучающихся, что актуализирует сохранение непосредственного общения в образовательном процессе [1].

Одновременно цифровые технологии предоставляют новые возможности для персонализации, визуализации, организации обратной связи и самостоятельной учебной деятельности. Современные инновации в цифровом образовании связаны с применением искусственного интеллекта, адаптивного обучения, виртуальной и дополненной реальности, геймификации и аналитики образовательных данных [2]. В исследованиях языкового образования также отмечается эффективность цифровых средств при условии их включения в целостную методическую систему [3; 4].

Таким образом, возникает противоречие между расширением возможностей цифрового обучения и необходимостью сохранения диалогического, эмоционального и ценностного характера литературного образования. Разрешение данного противоречия возможно посредством педагогически обоснованной интеграции аудиторного и цифрового компонентов.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Цель исследования — теоретически обосновать и разработать модель интеграции аудиторного и цифрового обучения в процессе формирования литературной компетенции студентов.

Гипотеза исследования состоит в том, что формирование литературной компетенции студентов будет более результативным, если цифровая деятельность не заменяет чтение и аудиторное обсуждение художественного текста, а подготавливает, дополняет и продолжает их.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Исследование носит теоретико-методический характер. Его источниковую базу составили научные публикации, посвященные цифровизации высшего образования, взаимодействию аудиторного и дистанционного форматов, применению цифровых инструментов при формировании предметных и исследовательских компетенций.

Под литературной компетенцией в исследовании понимается интегративное качество личности студента, включающее литературоведческие знания, читательские умения, ценностно-эмоциональное отношение к литературе и способность самостоятельно воспринимать, анализировать, интерпретировать и оценивать художественное произведение.

В структуре литературной компетенции выделены четыре взаимосвязанных компонента:

- **когнитивный** — знание истории и теории литературы, жанров, направлений, художественных методов;
- **аналитико-интерпретационный** — способность анализировать форму и содержание произведения, выявлять авторскую позицию и создавать обоснованную интерпретацию;

- **ценностно-эмоциональный** — способность к сопереживанию, эстетической оценке и соотнесению проблем произведения с личным и социокультурным опытом;
- **коммуникативно-творческий** — способность обсуждать прочитанное, аргументировать позицию и создавать собственные устные, письменные и мультимедийные продукты.

Результаты исследования.

Проведенный анализ позволил установить, что аудиторный и цифровой форматы не должны дублировать друг друга. Каждый из них обладает собственными функциями.

Аудиторное обучение	**Цифровое обучение**
Выразительное чтение и эмоциональное восприятие текста	Предварительное знакомство с историко-культурным контекстом
Непосредственный диалог преподавателя и студентов	Индивидуальный темп изучения материала
Коллективное обсуждение проблем произведения	Доступ к электронным библиотекам и мультимедийным материалам
Аргументация и защита интерпретации	Интерактивная проверка понимания текста
Педагогическое сопровождение сложных этапов анализа	Подготовка цифровых читательских дневников, карт и проектов
Формирование культуры дискуссии	Асинхронное обсуждение и взаимное комментирование работ

Следовательно, аудиторный компонент целесообразно использовать для видов деятельности, требующих диалога, эмоциональной реакции, проблемного обсуждения и непосредственной поддержки преподавателя. Цифровой компонент наиболее эффективен при организации предварительной подготовки,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

самостоятельного поиска, повторения, визуализации и создания мультимедийных продуктов.

Исследование О. О. Захаровой показывает, что результативное внедрение цифровых инструментов предполагает создание методической системы, включающей цели, содержание, функции, этапы и диагностические средства. Автор также подчеркивает значение доступности инструментов для преподавателя и студентов и подтверждает возможность развития предметной компетенции посредством системно организованной цифровой деятельности [4].

Данный принцип может быть перенесен в литературное образование: цифровая платформа должна использоваться не как хранилище файлов, а как пространство организации активной читательской, аналитической и творческой деятельности.

Модель интегрированной работы с художественным текстом.

На основании проведенного анализа разработана трехэтапная модель формирования литературной компетенции.

1. Предтекстовый цифровой этап.

Целью этапа является создание мотивационной и информационной основы для осмысленного чтения произведения.

Студентам могут быть предложены:

- мультимедийная временная шкала жизни и творчества писателя;
- виртуальная экскурсия по литературному музею;
- интерактивная карта историко-культурного пространства произведения;
- видеолекция или подкаст продолжительностью 5–10 минут;
- электронный глоссарий историзмов, диалектизмов и культурных реалий;
- проблемный вопрос, требующий предварительного читательского предположения;



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

- фрагменты театральных постановок, иллюстраций или экранизаций без готового объяснения текста.

На этом этапе цифровые материалы не должны сообщать студентам окончательную интерпретацию произведения. Их назначение заключается в актуализации фоновых знаний, мотивации к чтению и постановке первоначальной проблемы.

2. Аудиторный аналитико-интерпретационный этап.

Центральное место отводится непосредственной работе с художественным текстом.

Преподаватель на данном этапе выступает организатором диалога и помогает студентам перейти от субъективного впечатления к доказательной интерпретации. Основным требованием становится текстовая обоснованность высказываемых суждений.

3. Послетекстовый цифровой этап.

Цель данного этапа — закрепление, рефлексия и творческое применение полученных знаний и умений.

Цифровой продукт должен оцениваться прежде всего по качеству понимания произведения, аргументированности интерпретации и корректности обращения с текстом. Техническая выразительность является дополнительным, но не главным критерием.

Д. А. Казимова, Д. Г. Алиева и Е. А. Спирина рассматривают цифровые технологии как средство формирования компетенций при условии предварительной диагностики уровня студентов и учета их образовательных потребностей. Авторы выделяют такие значимые действия, как поиск и критическая оценка информации, планирование работы, анализ данных и представление результатов [5]. Эти положения могут быть адаптированы к литературному образованию посредством диагностики читательского опыта,

уровня понимания текста и готовности студентов использовать мультимедийные средства.

Педагогические условия реализации модели.

Результаты теоретического анализа позволили определить следующие условия интеграции аудиторного и цифрового обучения:

1. **Подчиненность технологий образовательной цели.** Цифровой инструмент выбирается после определения формируемого умения, а не становится исходной точкой проектирования занятия.

2. **Сохранение художественного текста в центре деятельности.** Видео, иллюстрации, презентации и интерактивные задания не должны вытеснять самостоятельное чтение.

3. **Содержательная связь этапов.** Результаты цифровой подготовки должны использоваться на аудиторном занятии, а итоги обсуждения — развиваться в последующей самостоятельной работе.

4. **Постепенное усложнение деятельности.** Работа организуется от понимания фактического содержания к анализу, интерпретации, оценке и созданию собственного продукта.

5. **Сочетание индивидуальной и коллективной работы.** Индивидуальное чтение дополняется парной, групповой и общекурсной дискуссией.

6. **Регулярная обратная связь.** Преподаватель комментирует не только конечный продукт, но и процесс анализа и интерпретации.

7. **Дифференциация заданий.** Студентам могут предлагаться задания различного уровня сложности и разные форматы представления результата.

8. **Развитие цифровой и информационной грамотности.** Обучающиеся должны уметь проверять источники, соблюдать нормы цитирования и критически оценивать автоматически созданный контент.

ОБСУЖДЕНИЕ РЕЗУЛЬТАТОВ

Разработанная модель позволяет рассматривать смешанное обучение не как механическое чередование аудиторных и онлайн-занятий, а как единую систему взаимосвязанных видов деятельности. Ее педагогическая ценность определяется тем, что каждая среда используется в соответствии со своими дидактическими возможностями.

Цифровой компонент расширяет пространство взаимодействия с произведением: студент получает возможность повторно обращаться к учебным материалам, выбирать темп работы, использовать различные каналы восприятия и создавать собственный мультимедийный продукт. Аудиторный компонент обеспечивает диалог, эмоциональную включенность, коллективное смыслообразование и своевременную коррекцию ошибочных интерпретаций.

Существенным результатом интеграции является изменение позиции студента. Он становится не пассивным получателем готового анализа, а читателем-исследователем, который самостоятельно выдвигает предположения, находит текстовые доказательства, сопоставляет интерпретации и представляет собственную позицию.

Результаты Р. С. и И. С. Кузнецовых подтверждают, что онлайн-взаимодействие не всегда компенсирует социальные функции очного обучения [1]. Поэтому литературная дискуссия, выразительное чтение и обсуждение ценностно-смысловых вопросов должны сохраняться преимущественно в непосредственном взаимодействии.

При использовании искусственного интеллекта необходимо исключить подмену самостоятельной интерпретации автоматически созданным ответом. ИИ целесообразно применять для формулирования альтернативных вопросов, сопоставления версий, поиска противоречий и организации рефлексии. Любое

полученное с его помощью положение должно проверяться по первичному художественному тексту.

Ограничением настоящего исследования является его теоретико-моделирующий характер. Эффективность предложенной модели требует дальнейшей экспериментальной проверки с использованием входной и итоговой диагностики, контрольной и экспериментальной групп и сопоставления динамики компонентов литературной компетенции.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведенное исследование показало, что интеграция аудиторного и цифрового обучения обладает значительным потенциалом для формирования литературной компетенции студентов. Ее эффективность обеспечивается не увеличением количества цифровых средств, а педагогически обоснованным распределением учебной деятельности между двумя средами.

Аудиторное обучение выполняет диалогическую, эмоционально-ценностную, интерпретационную и корректирующую функции. Цифровая среда обеспечивает информационную насыщенность, индивидуализацию, визуализацию, самостоятельность и возможность творческого представления результатов. Их интеграция реализуется в трех взаимосвязанных этапах: предтекстовой цифровой подготовке, аудиторном анализе и послетекстовой мультимедийной деятельности.

Научная значимость исследования заключается в уточнении функций аудиторного и цифрового компонентов применительно к литературному образованию. Практическая значимость состоит в возможности использования предложенной модели при проектировании занятий по истории русской литературы, литературоведению и методике преподавания литературы.

Перспективой дальнейшего исследования является экспериментальная апробация модели, разработка диагностического инструментария и определение динамики когнитивного, аналитико-интерпретационного, ценностно-

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

эмоционального и коммуникативно-творческого компонентов литературной компетенции студентов.

Список использованной литературы

1. Кузнецов Р. С., Кузнецов И. С. Социальный капитал студентов в цифровой образовательной среде: аудиторный и дистанционный форматы обучения // Социологическая наука и социальная практика. 2022. Т. 10. № 3. С. 45–62. DOI: 10.19181/snsp.2022.10.3.9196.
2. Raqamli ta'limdagi yangi innovatsiyalar // INFOCOM.UZ. 14.05.2025. URL: https://infocom.uz/articles/raqamli-talimdagi-yangi-innovatsiyalar.
3. Петрова И. В., Слепнева М. А. Интеграция цифровых технологий и методов обучения в процесс преподавания иностранных языков в технических университетах // Современное педагогическое образование. 2022. № 10. С. 45–49.
4. Захарова О. О. Внедрение цифровых инструментов в процесс развития иноязычной лингвистической компетенции студентов технического вуза (на примере обучения английскому языку) // Педагогика. Вопросы теории и практики. 2023. Т. 8. Вып. 12. DOI: 10.30853/ped20230175.
5. Казимова Д. А., Алиева Д. Г., Спирина Е. А. Интеграция цифровых технологий в процесс формирования исследовательских компетенций студентов высшего учебного заведения // Вестник Карагандинского университета. Серия «Педагогика». 2026. Т. 31. № 2 (122). С. 117–129. DOI: 10.31489/2026Ped2/117-129.

5-6 YOSHLI BILINGVAL BOLALARDA KOMMUNIKATIV-NUTQIY KO'NIKMALARNING TARKIBI, MEZONLARI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Nosirova Gulira'no Muhammadolimovna
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: gulihonnosirova21@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada 5-6 yoshli bilingval bolalarda kommunikativ-nutqiy ko'nikmalarning tarkibi, diagnostik mezonlari va rivojlanish xususiyatlari nazariy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. Kommunikativ kompetensiya keng integral hodisa, kommunikativ-nutqiy ko'nikmalar esa uning real muloqot vaziyatida kuzatiladigan amaliy ifodasi sifatida talqin etiladi. Retseptiv-semantik, leksik-grammatik-ekspressiv, dialogik-pragmatik, narrativ-diskursiv va strategik-bilingval komponentlardan iborat besh komponentli tuzilma taklif etilib, har bir komponent uchun kuzatiladigan indikatorlar va diagnostik topshiriqlar aniqlashtiriladi. Bilingval bolani baholashda til ekspozitsiyasi, tillarning funksional taqsimoti, suhbatdosh va kommunikativ vaziyat hisobga olinishi, kod almashtirish esa avtomatik ravishda kamchilik belgisi sifatida talqin qilinmasligi asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *bilingvizm, kommunikativ-nutqiy ko'nikma, kommunikativ kompetensiya, retseptiv nutq, ekspressiv nutq, dialogik-pragmatik ko'nikma, narrativ diskurs, kod almashtirish, til ekspozitsiyasi, diagnostika.*

СТРУКТУРА, КРИТЕРИИ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНО-РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ У БИЛИНГВАЛЬНЫХ ДЕТЕЙ 5-6 ЛЕТ

Аннотация. *В статье теоретико-методически анализируются структура, диагностические критерии и особенности развития коммуникативно-речевых навыков у билингвальных детей 5-6 лет. Коммуникативная компетентность рассматривается как интегративное явление, а коммуникативно-речевые навыки – как её наблюдаемое проявление в реальной ситуации общения. Предлагается пятикомпонентная структура, включающая рецептивно-семантический, лексико-грамматико-экспрессивный, диалогико-прагматический, нарративно-дискурсивный и стратегически-билингвальный компоненты. Для каждого компонента уточняются наблюдаемые индикаторы и диагностические задания. Обосновывается необходимость учитывать языковую экспозицию, функциональное распределение языков и коммуникативный контекст, а переключение кодов не трактовать автоматически как признак дефицита.*

Ключевые слова: *билингвизм, коммуникативно-речевые навыки, коммуникативная компетентность, рецептивная речь, экспрессивная речь, прагматика, нарратив, переключение кодов, языковая экспозиция, диагностика.*

STRUCTURE, CRITERIA, AND DEVELOPMENTAL FEATURES OF COMMUNICATIVE-SPEECH SKILLS IN 5–6-YEAR-OLD BILINGUAL CHILDREN

Abstract. *The article provides a theoretical and methodological analysis of the structure, diagnostic criteria, and developmental characteristics of communicative-speech skills in bilingual children aged 5-6. Communicative competence is treated as a broad integrative construct, whereas communicative-speech skills are conceptualized as its observable manifestation in real interaction. A five-component structure is proposed: receptive-semantic, lexical-grammatical-expressive, dialogic-pragmatic, narrative-discursive, and strategic-bilingual. Observable indicators and diagnostic tasks are specified for each component. The study argues that assessment should consider language exposure, functional distribution of the two languages, interlocutor and communicative context, and that code-switching should not automatically be interpreted as a sign of communicative deficiency.*

Keywords: *bilingualism, communicative-speech skills, communicative competence, receptive language, expressive language, pragmatics, narrative discourse, code-switching, language exposure, assessment.*

KIRISH

Globallashuv, migratsiya va ko‘p tilli ijtimoiy muhitlarning kengayishi natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarning ikki yoki undan ortiq til bilan muntazam aloqada bo‘lishi tabiiy holatga aylanmoqda. 5–6 yosh davrida bola nafaqat til birliklarini faol o‘zlashtiradi, balki suhbatni boshlash va davom ettirish, savol berish, fikrni tushunarli ifodalash, voqeani izchil hikoya qilish hamda tushunmovchilik yuzaga kelganda muloqotni tiklash strategiyalaridan foydalanishni o‘rganadi. Shu bois bilingval bolaning nutqiy imkoniyatlarini faqat lug‘at boyligi yoki grammatik to‘g‘rilik bilan baholash uning real kommunikativ salohiyatini to‘liq aks ettirmaydi. Bilingval rivojlanishning muhim xususiyati shundaki, bolaning ikki tildagi bilim va tajribasi odatda teng taqsimlanmaydi. Har bir til bilan aloqa miqdori va sifati, oiladagi va ta’lim muhitidagi funksional vazifasi, suhbatdoshlar doirasi hamda faol qo‘llanish chastotasi turlicha bo‘lishi mumkin. Hoff va hammualliflar til ekspozitsiyasi ikki tilli rivojlanishda individual farqlarning muhim manbai ekanini ko‘rsatgan [1]. Thordardottir esa 5 yoshli bilingval bolalarda muayyan tilga ta’sir miqdori retseptiv va ekspressiv lug‘at natijalari bilan sezilarli bog‘liqligini aniqlagan [2]. Shu nuqtayi nazardan maqolaning maqsadi 5–

6 yoshli bilingval bolalarda kommunikativ-nutqiy ko‘nikmalarning tarkibiy tuzilishini aniqlashtirish, ularni baholash uchun mezon va indikatorlarni tizimlashtirish hamda rivojlanish xususiyatlarini bilingval tajriba bilan bog‘liq holda asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bilingval bolalar nutqini baholashda monolingval me’yorlarni mexanik ko‘chirish ehtiyotkorlikni talab qiladi. Bedore va Peña bilingval bolalarda til buzilishlarini aniqlashda ikki til tajribasi va tipik bilingual variativlikni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi [3]. Peña, Bedore va Kesterning tadqiqoti semantik topshiriqlarda ikki til natijalarini birgalikda ko‘rib chiqish bir tildagi bahodan ko‘ra aniqroq tasniflash imkonini berishi mumkinligini ko‘rsatgan [4]. Mazkur yondashuv pedagogik diagnostikada ham bir tildagi past natijani bolaning umumiy kommunikativ salohiyati haqidagi yakuniy hukmga aylantirmaslik zarurligini anglatadi. Kod almashtirish ham alohida metodik izoh talab qiladi. Yow, Tan va Flynn bilingval bolalardagi code-switching xatti-harakatini til kompetensiyasining sodda va bir yoqlama belgisi sifatida talqin qilish mumkin emasligini ko‘rsatadi [5]. Bunday o‘tish suhbatdosh, mavzu, vaziyat, leksik mavjudlik va kommunikativ maqsad bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Demak, baholashda “qaysi tilda gapirdi?” savolidan ko‘ra “kommunikativ vazifani qanday bajardi?” savoli ustuvor bo‘lishi lozim.

Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega. Dastlabki maqola materiallaridagi komponentlar, mezonlar va milliy tadqiqotlar mazmuni saqlangan holda, ularning takroriy qismlari qisqartirildi va IMRAD mantiqiga qayta tuzildi. Tizimli, kommunikativ-faoliyatli, psixolingvistik, lingvodidaktik va individual-differensial yondashuvlar metodologik asos sifatida olindi. Tahlil birligi bolaning shaxsiy “qobiliyati” emas, balki muayyan kommunikativ vaziyatda kuzatiladigan nutqiy-kommunikativ harakat deb belgilandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nazariy tahlil natijasida 5–6 yoshli bilingval bolalarning kommunikativ-nutqiy ko‘nikmalarini besh o‘zaro bog‘liq komponent orqali tavsiflash maqsadga muvofiq deb topildi. Birinchi, retseptiv-semantik komponent suhbatdosh nutqi, savol va ko‘rsatmalar mazmunini tushunish, asosiy semantik aloqalarni ajratish hamda kontekst asosida sodda inferensiya chiqarishni qamrab oladi. Ushbu komponentda bolaning eshitilgan gapni aynan qaytarishi emas, ma’noni vaziyatga mos anglab, unga adekvat javob bera olishi ustuvor mezondir.

Ikkinchi, leksik-grammatik-ekspressiv komponent bolaning fikrini tushunarli va yetarli shaklda ifodalash imkoniyatini tavsiflaydi. Faol lug‘atdan vaziyatga mos foydalanish, grammatik konstruksiyalarni funksional qo‘llash, gaplararo bog‘liqlik va axborotning kommunikativ yetarliligi shu komponentning asosiy ko‘rsatkichlaridir. Bilingval bolada ayrim morfologik yoki sintaktik xatolar mavjudligi kommunikativ maqsadning bajarilmaganini avtomatik anglatmaydi; shu sababli lingvistik aniqlik va kommunikativ tushunarlilik alohida baholanishi kerak.

Uchinchi, dialogik-pragmatik komponent muloqotni boshlash, navbat almashish, suhbatdosh replikasiga mazmunan aloqador javob berish, mavzuni davom ettirish, savol berish va aniqlashtirish kabi ko‘nikmalarni birlashtiradi. Bu komponentda replikalar sonidan ko‘ra ularning kommunikativ funksiyasi muhim. To‘rtinchi, narrativ-diskursiv komponent voqealarni mantiqiy ketma-ketlikda tuzish, sabab-oqibat munosabatlarini ifodalash, referentlarni izchil yuritish va hikoyani yakunlash qobiliyatini qamrab oladi. Narrativ topshiriqlar lingvistik imkoniyatlarni tabiiy kontekstda kuzatishga yordam beradi.

Beshinchi, strategik-bilingval komponent kommunikativ qiyinchilik yuzaga kelganda muloqotni saqlab qolish vositalarini anglatadi. Parafraz, tavsiflash, yordam so‘rash, aniqlashtirish, jestdan foydalanish, ikkinchi til birligini vaqtincha ishga solish va keyin maqsad tiliga qaytish shunday strategiyalar sirasiga kiradi. Mazkur komponent

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bilingval repertuarni “xato” emas, maqsadga yo‘naltirilgan kommunikativ resurs sifatida kuzatish imkonini beradi.

1-jadval.

5-6 yoshli bilingval bolalarda kommunikativ-nutqiy ko‘nikmalarni baholashning komponent–mezon–indikator modeli

Komponent	Asosiy mezon	Kuzatiladigan indikatorlar	Mos diagnostik vazifa
Retseptiv-semantik	Nutq mazmunini vaziyatga mos tushunish	Ko‘rsatmani bajaradi; savol maqsadini anglaydi; sabab–natijani ajratadi	Og‘zaki ko‘rsatma, rasm asosida tushunish savollari
Leksik-grammatik-ekspressiv	Fikrni tushunarli va yetarli ifodalash	Vaziyatga mos so‘z tanlaydi; gaplarni bog‘laydi; yetarli axborot beradi	Predmet/voqea tavsifi, rasm bo‘yicha hikoya
Dialogik-pragmatik	Suhbatni hamkorlikda boshqarish	Muloqotni boshlaydi; navbatni saqlaydi; aniqlashtiradi; mavzuni davom ettiradi	Erkin dialog, rolli o‘yin
Narrativ-diskursiv	Yaxlit hikoya tuzish	Ketma-ketlik, sabab–natija, referentlar aniqligi, yakun	Ketma-ket rasmlar asosida hikoya
Strategik-bilingval	Kommunikativ uzilishni bartaraf etish	Yordam so‘raydi; parafraz qiladi; noverbal vosita va ikki til resursidan maqsadli foydalanadi	Kommunikativ muammo vaziyati, tushunmovchilikni bartaraf etish

Baholashda yuqori, o‘rta va boshlang‘ich darajali tavsiflardan foydalanish mumkin. Yuqori darajada bola kommunikativ vazifani mustaqil bajaradi, nutqiy vositalarni vaziyatga mos tanlaydi va qiyinchilikda strategiyani mustaqil qo‘llaydi. O‘rta darajada asosiy vazifa bajariladi, lekin ayrim holatlarda takroriy savol, vizual tayanch yoki pedagog ko‘magiga ehtiyoj seziladi. Boshlang‘ich darajada esa muloqotni davom ettirish uchun muntazam yordam talab qilinadi. Ushbu darajalar bolaning umumiy “qobiliyatini” emas, aniq vazifadagi mustaqillik va yordam ehtiyojini tavsiflashi kerak. Taklif etilgan besh komponentli tuzilmaning afzalligi shundaki, u bilingval bolaning kommunikativ rivojlanishini faqat til tizimi elementlari bilan cheklamaydi. Real muloqotda bola tinglaydi, ma’noni anglaydi, javob beradi, suhbatni boshqaradi, voqeani yaxlitlashtiradi va zarur bo‘lsa ikki til resurslaridan strategik foydalanadi. Bu faoliyatlar bir vaziyatning o‘zida o‘zaro tutashadi. Shuning uchun diagnostika komponentlarni ajratib kuzatish bilan birga ularning integratsiyalashgan namoyonini ham hisobga olishi kerak.

Bilingval bolalarda ikki tildagi natijalarning mutlaq teng bo‘lmasligi tabiiy. Til ekspozitsiyasi, tilning oiladagi va ta’lim muhitidagi funksiyasi, suhbatdosh va mavzu bo‘yicha foydalanish chastotasi ko‘rsatkichlarga bevosita ta’sir qilishi mumkin [1; 2]. Paradis va Jia til muhiti omillari uzoq muddatli ikkinchi til natijalaridagi individual farqlarni shakllantirishini ko‘rsatgan [6]. Shu sababli diagnostik profilga kamida qisqa til biografiyasi: qaysi til qayerda, kim bilan va qancha vaqt qo‘llanishi haqidagi ma’lumotlar kiritilishi maqsadga muvofiq. Ko‘p manbali baholash ham metodik jihatdan ustun. Strukturaviy topshiriq bolaning muayyan ko‘nikmasini nazorat qilinadigan sharoitda ko‘rsatsa, erkin dialog va o‘yin tabiiy kommunikativ xatti-harakatni ochib beradi. Ota-ona va pedagog kuzatuvi esa kundalik hayotdagi tillar taqsimotini tushunishga yordam beradi. Bir manbadagi past natija boshqa faoliyatdagi dalillar bilan qiyoslanmaguncha yakuniy xulosaga aylantirilmasligi lozim.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqotning cheklovi shundaki, taklif etilgan komponent–mezon–indikator tizimi ushbu maqolada nazariy-metodik model sifatida taqdim etilmoqda. Keyingi bosqichda indikatorlarning mazmuniy validligi ekspertlar yordamida baholanishi, diagnostik vazifalar kognitiv sinovdan o‘tkazilishi, baholovchilararo kelishuv tekshirilishi va turli bilingval profillarda qo‘llash chegaralari aniqlashtirilishi zarur.

XULOSA

5–6 yoshli bilingval bolalarda kommunikativ-nutqiy ko‘nikmalar ko‘p komponentli va vaziyatga bog‘liq tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ularni retseptiv-semantik, leksik-grammatik-ekspressiv, dialogik-pragmatik, narrativ-diskursiv va strategik-bilingval komponentlar birligida tahlil qilish bolaning real kommunikativ imkoniyatlarini chuqurroq ochishga yordam beradi.

Baholashda bir tilli normaga mexanik tayanish, grammatik xatoni kommunikativ muvaffaqiyatsizlik bilan tenglashtirish yoki kod almashtirishni avtomatik kamchilik deb qabul qilish metodik jihatdan ehtiyotkorlikni talab qiladi. Til ekspozitsiyasi va funksional taqsimot haqidagi ma’lumotlar, ko‘p manbali diagnostika va vaziyatga mos topshiriqlar birgalikda qo‘llangandagina rivojlanish profilini asosli talqin qilish mumkin. Taklif etilgan model keyingi bosqichda rivojlantiruvchi metodika hamda diagnostik instrumentlarni yaratish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hoff E., Core C., Place S., Rumiche R., Señor M., Parra M. Dual language exposure and early bilingual development // Journal of Child Language. – 2012. – Vol. 39, No. 1. – P. 1–27.
2. Thordardottir E. The relationship between bilingual exposure and vocabulary development // International Journal of Bilingualism. – 2011. – Vol. 15, No. 4. – P. 426–445.
3. Bedore L. M., Peña E. D. Assessment of bilingual children for identification of language impairment: Current findings and implications for practice // International Journal of Bilingual Education and Bilingualism. – 2008. – Vol. 11, No. 1. – P. 1–29. –
4. Peña E. D., Bedore L. M., Kester E. S. Assessment of language impairment in bilingual children using semantic tasks: Two languages classify better than one // International Journal of Language & Communication Disorders. – 2016. – Vol. 51, No. 2. – P. 192–202.

5. Yow W. Q., Tan J. S. H., Flynn S. Code-switching as a marker of linguistic competence in bilingual children // Bilingualism: Language and Cognition. – 2018. – Vol. 21, No. 5. – P. 1075–1090.

6. Paradis J., Jia R. Bilingual children's long-term outcomes in English as a second language: Language environment factors shape individual differences in catching up with monolinguals // Developmental Science. – 2017. – Vol. 20. – Article e12433. – DOI: 10.1111/desc.12433.

7. Qurbonova M. A. O'zbek bolalar nutqi leksikasining sosiopsixolingvistik tadqiqi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 128 b.

8. Komilova D. A. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish omillari // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2022. – Special Issue 02. – B. 535–539.

9. Mirkasimova Z. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilingval kompetensiyani shakllantirishning lingvodidaktik asoslari (o'zbek-ingliz tillari misolida): PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025.

TINGLASH TURLARINING QIYOSIY TAHLILI VA TA'LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISH MASALALARI

Ziyoda Sobirxonova Temurxon qizi
NamDPI o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
ziyodatemur01@gmail.com, 934488177
https://orcid.org/0009-0006-3277-1696

Annotatsiya: *Tinglash nutqiy faoliyatning eng ko'p qo'llaniladigan, ammo ta'limda kam o'rganilgan turi bo'lib, uning turlari tasnifida tushunchaviy chalkashlik mavjud. Tadqiqotning maqsadi – ilmiy adabiyotlarda mavjud tinglash turlari tasniflarini qiyosiy tahlil qilish va maktab o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda qo'llash mumkin bo'lgan asoslangan shaxsiy tasnif taklif etish. Tadqiqot metodlari: sakkizta manbadagi tasniflarni qiyosiy tahlil qilish va tur nomlarining takrorlanish chastotasini hisoblash. Natijalar: tanqidiy tinglash sakkizta manbaning oltitasida, hissiy-hamdardlik (empatik) tinglash beshtasida, estetik, ijodiy va axborot olish uchun tinglash esa to'rttadan manbada uchraydi; tanlab tinglash, qayd olib tinglash, ishtirokli va ishtiroksiz tinglash kamroq takrorlanadi va mustaqil turdan ko'ra strategiya xususiyatiga ega. Xulosalar: tinglashning beshta funksional turi taklif etildi; har bir tur adabiyotlardagi takrorlanishi bilan asoslandi va namunaviy topshiriq bilan ko'rsatildi. Taklif etilgan tasnif o'qituvchiga dars maqsadiga mos tur va topshiriqni tanlash hamda tinglab tushunish bilan birga tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *tinglash, tinglab tushunish, tinglash turlari, tasnif, tanqidiy, estetik, ijodiy, empatik, ko'nikma*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВИДОВ СЛУШАНИЯ И ВОПРОСОВ ИХ ПРИМЕНЕНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация: *Аудирование – наиболее востребованный, но недостаточно изученный в обучении вид речевой деятельности, а в классификации его видов существует терминологическая путаница. Цель исследования – сравнить классификации видов аудирования, представленные в научной литературе, и предложить обоснованную авторскую классификацию, пригодную для развития навыков понимания на слух у школьников. Методы исследования: сравнительный анализ классификаций из восьми источников и подсчёт частоты повторения названий видов. Результаты: критическое аудирование встречается в шести из восьми источников, эмпатическое – в пяти, эстетическое, творческое и информационное – по четыре раза; селективное аудирование, аудирование с конспектированием и аудирование с участием или без участия встречаются реже и ближе к стратегиям, чем к самостоятельным видам. Выводы: предложено пять функциональных видов аудирования; каждый вид обоснован частотой упоминания в литературе и проиллюстрирован примером задания. Предложенная*

классификация помогает учителю подбирать вид аудирования и задание в соответствии с целью урока и развивать критическое и творческое мышление вместе с пониманием на слух.

Ключевые слова: *аудирование, понимание на слух, виды аудирования, классификация, критическое, эстетическое, творческое, эмпатическое, навык*

COMPARATIVE ANALYSIS OF LISTENING TYPES AND ISSUES REGARDING THEIR APPLICATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract: *Listening is the most frequently used yet least studied type of speech activity in education, and the classification of its types suffers from conceptual confusion. The aim of the study is to compare classifications of listening types found in the scholarly literature and to propose a substantiated original classification that can be used to develop schoolchildren's listening comprehension skills. Research methods: a comparative analysis of classifications from eight sources and a calculation of how often each type name recurs. Results: critical listening appears in six of the eight sources, empathic listening in five, and aesthetic, creative and informational listening in four each; selective listening, note-taking listening and participatory or non-participatory listening recur less often and function more as strategies than as independent types. Conclusions: five functional types of listening are proposed; each is justified by its frequency in the literature and illustrated by one sample task. The proposed classification helps teachers to match the type of listening and the task to the lesson aim and to develop critical and creative thinking together with listening comprehension.*

Keywords: *listening, listening comprehension, types of listening, classification, critical, aesthetic, creative, empathic, skill*

KIRISH

Nutqiy faoliyatning tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish kabi turlari orasida tinglash inson hayotida eng ko‘p vaqt egallaydigan ko‘nikma hisoblanadi: 1930–2008-yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlarda u muloqot vaqtining o‘rtacha 45–50 foizini tashkil qilishi qayd etilgan [1]. Shunga qaramay, tinglash uzoq vaqt o‘z-o‘zidan o‘zlashadigan, alohida o‘qitishni talab qilmaydigan ko‘nikma sifatida qaralgan va shu sababli ta’limda e’tibordan chetda qolgan.

Tinglash eshitishdan farq qiladi: u tovushlarni eshitishdan boshlanib, diqqat, idrok, ma’no berish, bilimni zehnda tartibga solish, tushunish va javob shakllantirish bosqichlaridan o‘tadigan murakkab jarayon bo‘lib, katta bilish yukini talab qiladi [2]. Shu sababli uning o‘z-o‘zidan rivojlanishini kutib bo‘lmaydi, tinglash maqsadli o‘rgatilishi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kerak. Turkiya Milli Ta'lim vazirligining 2019-yilgi Turk tili o'quv dasturi ham o'quvchilarda tinglash/ko'rish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishni maqsad qilgan [3]. Tinglash maqsad va matn mazmuniga mos turda amalga oshirilsa, tinglash ta'limi o'z maqsadiga yaxshiroq erishadi [4]. Lekin tinglash turlari tasnifi to'g'risida bir to'xtamga kelolmaslik, olimlar o'rtasidagi har xil qarshlar maqsaddan uzoqlashtirmoqda. Muammo shundaki, ilmiy adabiyotda "tinglash turi", "tinglash usuli", "tinglash strategiyasi" va "tinglash texnikasi" tushunchalari ko'pincha bir-birining o'rnida qo'llanadi, bu esa tasniflarda chalkashlikka olib keladi. Mualliflar tinglashni ikkitadan (faol va sust tinglash) yettitagacha turga ajratadi va umume'tirof etilgan yagona tasnif mavjud emas.

Biz ko'rib chiqqan manbalarda tasniflar, odatda, ro'yxat shaklida beriladi: qaysi turlarni mualliflarning ko'pchiligi tan olgani, qaysilari esa turdan ko'ra strategiya xususiyatiga ega ekani miqdoriy solishtirilmagan; tanlangan turlar maktab o'quvchisining tinglab tushunish ko'nikmasi va aniq topshiriq shakllari bilan ham bog'lab ko'rsatilmagan. Aynan shu o'rganilmagan jihat tadqiqotning muammosini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi shundan iboratki, tinglash turlari tasniflarini qiyosiy tahlil qilish, adabiyotlarda eng ko'p takrorlangan turlar asosida shaxsiy tasnif taklif etish va uning maktab o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatish. Vazifalar esa quyidagicha: 1) tinglash turlariga oid tasniflarni to'plab, jadvalga kiritish; 2) tur nomlarining takrorlanish chastotasini hisoblash; 3) mustaqil tur va yordamchi strategiyani ajratish mezonini asoslash; 4) eng ko'p takrorlangan turlar asosida shaxsiy tasnif taklif etib, tanlov sababi va xususiyatlarini tushuntirish; 5) har bir tur uchun namunaviy topshiriq tuzish va uning tinglab tushunishdagi ahamiyatini yoritish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tinglash – eshitishdan farqli o‘laroq, diqqatni jamlash va eshitilganga ma’no berishni talab qiladigan jarayon [2]. Tinglash turlari tinglash muhiti va maqsadiga ko‘ra ajratiladi [4]: bir vaziyatda o‘quvchi zavq olish uchun, boshqasida ma’lumot olish yoki fikrni baholash uchun tinglaydi. Ayrim mualliflar turlarni tinglash shakllaridan ham farqlaydi: so‘zlovchi bilan aloqa bo‘lgan (interaktiv) va aloqa bo‘lmagan (noninteraktiv) tinglash tinglovchining munosabat bildirish imkoniyatiga asoslangan shakl bo‘lib, tur hisoblanmaydi. Biz bularni o’rganib chiqib 1-jadvalda sakkizta manbadagi tasniflar umumlashtirdik. Jadvaldagi ma’lumotlar bu manbalardan bevosita emas, asosan Özden va Çarkıt, Kurt hamda Doğan asarlarida keltirilgan tasniflarga tayanib tuzildi.

1-jadval

Tinglash turlarining turli mualliflar bo‘yicha tasnifi

№	Muallif (yil)	Turlar soni	Ajratilgan turlar
1	Wolvin, Coakley (1996)	5	ayirt etuvchi, estetik, samarali, tanqidiy, hissiy-hamdardlik (empatik)
2	Özbay (2015)	5	ayirt etuvchi, muloqot uchun, estetik, tanqidiy, axborot olish uchun
3	Arı (2008)	5	tanlab, ishtirokli, samarali, tanqidiy, hissiy-hamdardlik
4	Kardaş (2020)	5	faol, sust, so‘roq qiluvchi, birlashtiruvchi, ijodiy
5	Van Slyke (1999)	6 (daraja)	sust, sezuvchan, tanlovchi, diqqatli, faol, hissiy-hamdardlik
6	MEB dasturi (2006)	6	ishtirokli/ishtiroksiz, qayd olib, hissiy-hamdardlik, tanqidiy, ijodiy, tanlab

7	Doğan (2024)	7	ishtirokli, ishtiroksiz, tanqidiy, ijodiy, ayirt etuvchi, qayd olib, estetik
8	Özden, Çarkıt (2021)	5	tanqidiy, hissiy-hamdardlik, estetik, ijodiy, tahliliy

Izoh: MEB(Turkiya milliy ta'lim vazirligi) dasturida bu unsurlar "usul va texnikalar" deb nomlangan.

1-jadvaldan ko'rinadiki, tasniflar turlar soni (beshtadan yettitagacha) va tasnif mezoni bo'yicha farq qiladi: ayrimlari tinglash maqsadiga (estetik, tanqidiy, axborot olish), ayrimlari tinglovchining faollik darajasiga (faol/sust, Van Slyke darajalari), yana ayrimlari tinglashni tashkil etish usuliga (qayd olib, tanlab) asoslanadi. Shu bois atamalarda ham ("ayirt etuvchi", "samarali", "axborot olish uchun"), mazmunda ham qisman ustma-ustlik bor.

Ikkinchi farq: MEB dasturi va Doğan tasnifida qayd olib, tanlab, ishtirokli va ishtiroksiz tinglash tur qatorida berilgan, holbuki dasturning o'zida ular "usul va texnika" deb atalgan [4]. Kurudayıoğlu va Kiraz strategiyani tinglash jarayonini rejalashtirish, kuzatish va baholash, usul va texnikani esa unga xizmat qiluvchi vositalar deb farqlaydi [2]. Özden va Çarkıt ham qayd olib tinglash har qanday tinglashda qo'llanishi mumkinligi uchun uni strategiya deb hisoblash maqsadga muvofiq ekanini yozadi [4].

Uchinchi farq: tahliliy tinglash faqat Özden va Çarkıtda mustaqil tur sifatida keltirilgan; u olish, anglash, baholash va javob berish bosqichlaridan iborat va tanqidiy tinglash uchun ham zarur [4].

Tadqiqot metodlari. Maqolada qiyosiy-tahliliy metoddan foydalanildi. Ish quyidagi bosqichlarda bajarildi: 1) tinglash turlari tasnifini bergan sakkizta manba tanlandi va 1-jadvalga kiritildi; 2) mazmunan yaqin atamalar birlashtirildi ("ayirt etuvchi", "samarali" va "axborot olish uchun" – axborot olish toifasiga; "empatik" va "hissiy-hamdardlik" – bitta turga; "faol/sust" alohida hisoblandi); 3) har bir tur nechta manbada uchrashi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

sanaldi (bir manba bir turni bir marta hisoblanadi); 4) mustaqil tur va strategiyani ajratish uchun mezon qo‘llandi: agar unsur o‘ziga xos maqsad va idrok jarayoniga ega bo‘lsa, u tur; agar istalgan turda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan yordamchi usul bo‘lsa, strategiya deb baholandi; 5) natijalar asosida shaxsiy tasnif va namunaviy topshiriqlar ishlab chiqildi. Tadqiqotning cheklovi: manbalar soni sakkizta, asosan turkiy tilli adabiyotdan iborat va ma’lumotlarning bir qismi ikkilamchi manbalar orqali olindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shaxsiy tasnif taklif etishdan avval 1-jadvalda keltirilgan sakkizta manbadagi tinglash turlari alohida-alohida sanab chiqildi va mazmunan bir xil yoki yaqin bo‘lgan atamalar (masalan, “axborot olish uchun”, “bilgilendirici” va “samarali” tinglash) bitta tushuncha ostida birlashtirildi. Shu asosda har bir turning nechta mabada takrorlangani hisoblab chiqildi va 2-jadvalda umumlashtirildi.

2-jadval

№	Tur nomi	Manbalar soni
1	Tanqidiy tinglash	6
2	Hissiy-hamdardlik (empatik) tinglash	5
3	Estetik tinglash	4
4	Ijodiy tinglash	4
5	Axborot olish uchun (ayirt etuvchi) tinglash	4
6	Tanlab tinglash *	3
7	Ishtirokli/ishtiroksiz tinglash *	2
8	Qayd olib tinglash *	2
9	Faol/sust tinglash *	2

Tinglash turlarining takrorlanish chastotasi (8 manba asosida)

* Bu unsurlar mustaqil tur emas, strategiya sifatida baholandi (“Tadqiqot metodlari” bo‘limidagi mezon bo‘yicha).

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Sakkizta manbaning oltitasida tanqidiy tinglash qayd etilgan va u eng barqaror tur. Undan keyin hissiy-hamdardlik (5 manba), so‘ngra estetik, ijodiy va axborot olish uchun tinglash (to‘rttadan) turadi. Tanlab, qayd olib, ishtirokli/ishtiroksiz va faol/sust tinglash esa 2-3 manbada uchraydi va tinglashni tashkil etish usuliga yaqinroq turadi. Bularni barini hisobga olgan holda eng ko‘p takrorlangan beshta tur – tanqidiy, hissiy-hamdardlik, estetik, ijodiy va axborot olish uchun tinglash – shaxsiy tasnif asosi sifatida tanlandi. Tanlovning ikki mezoni bor: birinchidan, turning adabiyotlarda ko‘p takrorlanishi, ya’ni bir necha tadqiqotchi tomonidan tan olinganligi; ikkinchidan, har bir turning o‘ziga xos maqsadi va idrok jarayoni borligi (baholash tanqidiy tinglashga, hissiy ta’sirlanish estetik tinglashga xos; ular bir-birining o‘rnini bosa olmaydi). Tahliliy tinglash faqat bitta manbada uchragani va tanqidiy tinglashning tarkibiy qismi ekani uchun mustaqil tur sifatida kiritilmadi. Quyida har bir tur uchun tanlov sababi, xususiyatlari, tinglab tushunishdagi ahamiyati va bittadan topshiriq keltiriladi.

1) Tanqidiy tinglash

Tanlov sababi: sakkiz manbaning oltitasida qayd etilgan, eng ko‘p takrorlangan tur

Xususiyatlari: o‘quvchi eshitilgan fikr va dalilni savol berib, ijobiy va salbiy tomonlarini betaraf baholaydi. Dasturda bunday tinglash uchun savollar tavsiya etilgan: tinglash maqsadi nima, so‘zlovchi yetarli bilimga ega-mi, mavzu betaraf yoritilyaptimi, axborot dolzarb va ilmiymi?[4].

Tinglab tushunishdagi ahamiyati: o‘quvchi matnni faqat eslab qolmay, uning asoslanganligini so‘rashga o‘rganadi; tanqidiy tinglash tanqidiy fikrlash uchun ham zamin hozirlaydi.

2) Hissiy-hamdardlik (empatik) tinglash

Tanlov sababi: sakkiz manbaning beshtasida qayd etilgan, chastota bo‘yicha ikkinchi o‘rinda

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Xususiyatlari: tinglovchi hukm chiqarmasdan, o‘zini so‘zlovchi o‘rniga qo‘yib, uning his-tuyg‘usi va nuqtai nazarini tushunishga harakat qiladi; bu so‘zlovchining fikrini aynan qabul qilish degani emas [4].

Tinglab tushunishdagi ahamiyati: o‘quvchi so‘zlovchining maqsadi va ichki holatini, ya’ni matn ortidagi ma’noni anglashni o‘rganadi; sinfda boshqacha fikrga hurmat bilan qarash ko‘nikmasi shakllanadi.

3) Estetik tinglash

Tanlov sababi: sakkiz manbaning to‘rttasida qayd etilgan.

Xususiyatlari: asosiy maqsad – zavqlanish, dam olish va badiiy ta’sirlanish; she’r, hikoya, musiqa, teatr va kino shu turga kiradi [4]. Tinglovchi tahlil qilish uchun emas, hissiy va estetik ta’sirni his qilish uchun tinglaydi.

Tinglab tushunishdagi ahamiyati: o‘quvchi tinglashni yoqtirsa, estetik tinglash asosida o‘tkazilgan darslar samaraliroq bo‘ladi; bu tur tinglashga qiziqish va hissiy ishtirokni oshiradi. Bu turda taxmin qilish, zehnda tasvirlash va o‘z tajribasiga bog‘lash kabi strategiyalar foydali [7].

4) Ijodiy tinglash

Tanlov sababi: sakkiz manbaning to‘rttasida qayd etilgan.

Xususiyatlari: o‘quvchi eshitilganlar va oldingi bilimlariga tayanib, yangi fikr, tasavvur yoki yechim yaratadi. 2019-yilgi dastur kazanimlari — voqealarning rivoji va yakuni haqida taxmin qilish, boshqa sarlavha taklif etish — shu turga bog‘lanadi [4].

Tinglab tushunishdagi ahamiyati: o‘quvchi matnni passiv qabul qilishdan chiqib, uni o‘z bilimi bilan bog‘lab qayta tuzadi; taxmin, sarlavha va davom yaratish tinglagan matnni chuqurroq anglashni talab qiladi.

5) Axborot olish uchun (ayirt etuvchi) tinglash

Tanlov sababi: sakkiz manbaning to‘rttasida qayd etilgan.

Xususiyatlari: maqsad – eshitilgan matndan kerakli faktlarni ajratib olish, muhim va muhim bo‘lmagan tafsilotni farqlash va eslab qolish [7]. Bunday tinglash ko‘p amaliy



vaziyatlarda (dars, e'lon, ko'rsatma) qo'llanadi; unda vaqt, sana va raqamlarni yozib olish kabi mashqlar foydali [1].

Tinglab tushunishdagi ahamiyati: bu tinglab tushunishning asosiy, ya'ni matnda aniq aytilganini anglash darajasi; boshqa turlar (baholash, davom yaratish) shu asosga tayanadi.Qayd olib, tanlab va ishtirokli/ishtiroksiz tinglash mustaqil tur sifatida kiritilmadi: ular yuqoridagi beshta turning istalganida qo'llanishi mumkin, masalan, o'quvchi ham tanqidiy, ham axborot olish uchun tinglaganda qayd oladi [2].

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, chastota tahlili tanqidiy tinglashni eng barqaror tur sifatida ko'rsatdi. Bu Çarkıtning demokratik muhitda eshitilgan fikrning to'g'riligini tekshirish va baholash zarurligi haqidagi fikriga mos keladi. Boshqa turlar o'rtasidagi farq bir-ikkita manba bilan cheklangani uchun, ularning o'rnini qat'iy tartib deb emas, umumiy tendensiya deb baholash kerak; natija atamalarni birlashtirish qaroriga ham bog'liq.

Tur va strategiyani ajratish Kurudayıoğlu va Kirazning yondashuviga hamda Özden va Çarkıtning qayd olib tinglash haqidagi fikriga mos keladi. Taklif etilgan tasnif shu bilan birga turlarni tanlashni adabiyotlardagi takrorlanishga tayanib asoslaydi va har bir turni topshiriq shakli bilan bog'laydi.

Tinglab tushunish nuqtai nazaridan qaralganda, turlar tinglab tushunishning turli darajalariga xizmat qiladi: axborot olish uchun tinglash – aniq aytilganini anglash, tanqidiy tinglash – baholash, ijodiy tinglash – matn asosida yangi mazmun yaratish, empatik tinglash – so'zlovchining maqsadi va holatini anglash, estetik tinglash esa tinglashga qiziqish va hissiy ishtirok. Yettinchi sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan yarim-tajriba tadqiqotida tajriba guruhi axborot matni va she'r matni bo'yicha sontestda nazorat guruhidan sezilarli yuqori natija ko'rsatgan, hikoya matni bo'yicha esa guruhlar orasidagi farq sezilarli bo'lmagan [5]. Bu tadqiqotda tinglash turlari emas, matn turlari taqqoslangani uchun natija faqat shuni ko'rsatadiki, turli matnlarda samara turlicha

bo‘lishi mumkin; topshiriq va tinglash turini matnga moslash zarurligi esa faraz sifatida qolib, tajribada tekshirilishi kerak.

Amaliyotda o‘qituvchi avval “bu darsda o‘quvchi nima uchun tinglaydi” degan savolga javob berib, maqsadga mos turni tanlashi kerak. Bir matn doirasida bir necha turdagi topshiriq berish mumkin: masalan, hikoya avval estetik (taassurot), keyin axborot olish (voqealar ketma-ketligi), so‘ngra ijodiy (davomi) tarzda ishlanadi. Bu tavsiya muallifning taklifi bo‘lib, alohida tajriba orqali sinovdan o‘tkazilishi lozim.

XULOSA

Sakkizta manbadagi tasniflar tahlili tinglash turlarida tushunchaviy ustma-ustlik borligini va tur bilan strategiya ko‘pincha aralashtirilishini ko‘rsatdi. Takrorlanish chastotasi bo‘yicha tanqidiy (6), hissiy-hamdardlik (5), estetik, ijodiy va axborot olish uchun tinglash (4 tadan) yetakchilik qiladi; qayd olib, tanlab, ishtirokli va ishtiroksiz tinglash esa strategiya sifatida baholandi. Shu asosda tinglashning beshta funksional turi taklif etildi, har bir tur uchun tanlov sababi, xususiyatlari, tinglab tushunishdagi ahamiyati va namunaviy topshiriq berildi. Taklifning cheklovi – manbalar soni va ikkilamchi manbalarga tayanish; uning samaradorligini maktabda tajriba-sinov orqali tekshirish keyingi tadqiqotlarning vazifasidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Kurt B. Türkçe eğitiminde dinleme eğitimi (Listening education in Turkish language education) // Türkçe eğitimine genel bir bakış (A general overview of Turkish language education). – 3-bo‘lim. – Pegem akademi, 2020. – B. 39–63.
2. Kurudayıoğlu M., Kiraz B. Dinleme stratejileri (Listening strategies) // Ana Dili Eğitimi Dergisi (Journal of Mother Tongue Education). – 2020. – Vol. 8, № 2. – B. 386–409.
3. Millî Eğitim Bakanlığı. Türkçe dersi öğretim programı (İlkokul ve ortaokul 1–8. sınıflar) (Turkish language curriculum for primary and lower secondary grades 1–8). – Ankara: MEB Yayınları, 2019.
4. Özden M., Çarkıt C. Türkçe eğitimi alanında dinleme türlerine genel bir bakış (An overview of listening types in Turkish language education) // International Black Sea Coastline Countries Symposium-VI: proceedings. – Giresun, 2021. – B. 159–165.
5. Doğan B. Web 2.0 araçları ile hazırlanan dinleme etkinliklerinin yedinci sınıf öğrencilerinin dinlediğini anlama ve dinleme motivasyonu düzeyine etkisi (The effect of listening activities

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

prepared with Web 2.0 tools on seventh-grade students' listening comprehension and listening motivation): yuksek lisans tezi. – Aydın: Aydın Adnan Menderes Üniversitesi, 2024. – 201 s.
6. Özkan E., Başkan A. Türkçe öğretmeni adaylarına ait dinleme türlerinin çeşitli değişkenler açısından incelenmesi (Examination of prospective Turkish teachers' listening types in terms of various variables) // Ekev Akademi Dergisi. – 2019. – № 78. – B. 175–190.
7. Özbay M. Anlama teknikleri II: Dinleme eğitimi (Comprehension techniques II: Listening education). – Ankara: Öncü Kitabevi, 2015.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO`LAJAK O`QITUVCHILARNING MUSTAQIL TA'LIM TRAYEKTORIYASINI LOYIHALASHNING ASOSLARI

Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna
Andijon davlat tibbiyot institute Farmatsiya fakulteti
"O`zbek tili va adabiyoti, tillar" kafedrasi v.b dotsenti,
Pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)
zumakovadilbarhon@gmail.com
Telefon: 998710981

Annotatsiya. *Maqolada raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim trayektoriyasini loyihalash metodikasi asoslab beriladi. Tadqiqotning maqsadi talabaning dastlabki tayyorgarlik darajasi, o'quv maqsadlari va o'zlashtirish sur'atiga moslashadigan individual trayektoriyani shakllantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish va uning amaliy qo'llanilish shartlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda adabiyotlar tahlili, pedagogik modellashtirish, so'rovnoma va pedagogik tajriba usullaridan foydalanildi. Natijada besh bosqichli metodika (diagnostika, maqsad qo'yish, modulli loyihalash, qo'llab-quvvatlash va fikr-mulohaza, refleksiya va korreksiya), trayektoriyani shakllantirishning formallashtirilgan modeli, talaba profillari bo'yicha moslashuv qoidalari hamda mustaqil ishni baholash rubrikasi taklif etildi. Metodika oliy ta'lim muassasalarida raqamli o'quv platformalari (LMS) asosida mustaqil ta'limni tashkil etishda qo'llanilishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim muhiti, mustaqil ta'lim, individual ta'lim trayektoriyasi, o'z-o'zini boshqarish, LMS, talaba, metodika.*

ОСНОВЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТРАЕКТОРИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация. *В статье обосновывается методика проектирования траектории самостоятельного обучения студентов в цифровой образовательной среде. Цель исследования — разработка педагогической модели формирования индивидуальной траектории, адаптирующейся к исходному уровню подготовки студента, его учебным целям и темпу освоения материала, а также определение условий её практической реализации. В работе использованы анализ литературы, педагогическое моделирование, анкетирование и педагогический эксперимент. В результате предложены пятиэтапная методика (диагностика, целеполагание, модульное проектирование, сопровождение и обратная связь, рефлексия и коррекция), формализованная модель построения траектории, правила адаптации по профилям студентов и рубрика оценивания самостоятельной работы. Методика может применяться в вузах при организации самостоятельной работы на базе цифровых учебных платформ (LMS).*

Ключевые слова*: цифровая образовательная среда, самостоятельное обучение, индивидуальная образовательная траектория, саморегуляция, LMS, студент, методика.*

FUNDAMENTALS OF DESIGNING INDEPENDENT LEARNING TRAJECTORIES FOR FUTURE TEACHERS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Abstract. *The article substantiates a methodology for designing students' independent learning trajectories in a digital learning environment. The study aims to develop a pedagogical model for building an individual trajectory that adapts to a student's initial level of preparation, learning goals and pace, and to identify the conditions for its implementation. The research employed literature analysis, pedagogical modelling, questionnaires and a pedagogical experiment. As a result, a five-stage methodology is proposed (diagnostics, goal setting, modular design, support and feedback, reflection and correction), together with a formalised trajectory-building model, adaptation rules for student profiles and a rubric for assessing independent work. The methodology can be applied in higher education institutions to organise independent study on the basis of digital learning platforms (LMS).*

Keywords: *digital learning environment, independent learning, individual learning trajectory, self-regulation, LMS, student, methodology.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasi ta’lim jarayonini raqamlashtirish va talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini kengaytirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [1; 2]. Kredit-modul tizimiga o‘tish bilan auditoriya soatlari qisqarib, mustaqil ta’limning ulushi ortmoqda. Biroq mustaqil ishning ko‘pincha bir xil topshiriqlar to‘plami sifatida tashkil etilishi talabaning individual imkoniyatlari, qiziqishi va tayyorgarlik darajasini inobatga olmaydi. Natijada tayyorgarligi yuqori talabalar uchun topshiriqlar zerikarli, past tayyorgarlikdagi talabalar uchun esa haddan tashqari murakkab bo‘lib qoladi.

Individual yondashuvning samaradorligi haqidagi klassik dalillardan biri B. Blum tomonidan ifodalangan «ikki sigma muammosi»dir: individual tyutorlik sharoitida o‘qigan talabalar guruhli ta’limdagi o‘rtacha talabadan sezilarli yuqori natija ko‘rsatgan, shu bois guruhli ta’limda shunga yaqin samaraga erishish yo‘llarini izlash dolzarb vazifa sifatida qo‘yilgan [21]. Raqamli muhit bu vazifani hal etishda yangi imkoniyatlar ochadi: platforma talaba faoliyati to‘g‘risida ma’lumot yig‘adi, mazmunni modullarga ajratadi, tezkor fikr-mulohaza beradi va shartli yo‘naltirishni avtomatlashtiradi.

Tadqiqotda quyidagi tushunchalar ishchi ta'rif sifatida qabul qilindi:

- Raqamli ta'lim muhiti — o'quv kontenti, kommunikatsiya vositalari, baholash mexanizmlari va ta'lim tahlili xizmatlarini birlashtirgan, talabaga masofadan va aralash shaklda o'qish imkonini beradigan axborot-pedagogik tizim (LMS va unga ulangan xizmatlar majmui).
- Mustaqil ta'lim — talabaning o'qituvchi bevosita ishtirokisiz, o'z maqsadi, rejasi va nazoratiga tayanib amalga oshiradigan o'quv faoliyati [3].
- Individual ta'lim trayektoriyasi — talabaning boshlang'ich darajasi, maqsadi va sur'atiga mos ravishda tanlangan va tartibga solingan o'quv modullari, faoliyat turlari, qo'llab-quvvatlash va baholash shakllari ketma-ketligi.
- Trayektoriyani loyihalash metodikasi — trayektoriyani shakllantirish, amalga oshirish va tuzatish bo'yicha o'zaro bog'liq bosqichlar, qoidalar va vositalar tizimi.

Mustaqil ta'lim nazariyasi M. Knowles tomonidan kattalar ta'limi kontekstida o'quvchining o'z o'quv ehtiyojini aniqlash, maqsad qo'yish va natijani baholashdagi faol roliga asoslab ifodalangan [3]. B. Zimmerman va E. Panadero tadqiqotlarida o'z-o'zini boshqarish jarayoni rejalashtirish, bajarish va refleksiya sikli sifatida talqin etiladi [4; 5]; P. Vinn va A. Xadvin esa o'qishni o'z-o'zini boshqaruvchi faoliyat sifatida tahlil qilib, talaba vazifani idrok etishi, maqsad qo'yishi, strategiya tanlashi va natijani kuzatishi bosqichlarini ajratgan [24]. Bu qarashlar trayektoriya talaba tomonidan shakllantirilishi va tuzatilishi lozim, degan metodik xulosaga olib keladi. Raqamli muhitda mustaqil ta'lim Dj. Siemens konnektivizm g'oyalari bilan boyitiladi: bilim tarmoq tugunlari o'rtasidagi aloqalarda shakllanadi va talabaning vazifasi manbalar tarmog'ida yo'l topishdir [6]. D. Garrison va hammualliflarning tadqiqot hamjamiyati modeli onlayn ta'lim sifati uch element — ijtimoiy, kognitiv va o'qituvchi ishtirokining uyg'unligiga bog'liq ekanini ko'rsatadi [7]. N. Dabbag va A. Kitsantas shaxsiy o'quv muhitlari va ijtimoiy vositalar o'z-o'zini boshqarishni qo'llab-quvvatlashi mumkinligini asoslaydi [22]. Texnologiya, pedagogika va fan mazmunining uyg'unligi (TPACK) o'qituvchining



raqamli muhitni loyihalashdagi kompetensiyasini belgilaydi [8]. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvda L. S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi g‘oyasi muhim: topshiriq talabaning mustaqil bajara oladigan darajasidan biroz yuqori, ammo qo‘llab-quvvatlash bilan erishiladigan sathda bo‘lishi kerak [14]. E. Deci va R. Rayan o‘z taqdirini belgilash nazariyasida avtonomiya, kompetentlik va aloqadorlik ehtiyojlarini ichki motivatsiyaning asosi sifatida ko‘rsatadi [13]; bu ehtiyojlar trayektoriyada tanlov imkoniyati, muvaffaqiyat tuyg‘usi va tyutor bilan aloqa orqali qo‘llab-quvvatlanadi.

Empirik tadqiqotlar onlayn muhitda o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalari (vaqtni rejalashtirish, maqsad qo‘yish, yordam izlash, o‘z-o‘zini kuzatish) va o‘zlashtirish natijalari o‘rtasida bog‘liqlik borligini ko‘rsatadi [9; 10]. Ommaviy ochiq onlayn kurslarda maqsad qo‘yish va rejalashtirish strategiyalaridan foydalanuvchi tinglovchilarning kursni tugatish ehtimoli yuqoriroq bo‘lgani qayd etilgan [10]. Ta’lim tahlili (learning analytics) talaba faoliyati bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plab, trayektoriyani shaxsiylashtirish va xavf guruhidagi talabalarni erta aniqlashga imkon beradi [11]. Fikr-mulohazaning ta’lim natijalariga ta’siri ham yuqori baholanadi: u talabaga maqsadga nisbatan qayerda ekanini, qanday ilgarilashi kerakligini aniq ko‘rsatganda samarali bo‘ladi [12; 23].

Rus tilidagi pedagogik adabiyotda individual ta’lim trayektoriyasi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, didaktik moslashuvchanlik va axborot texnologiyalari kontekstida o‘rganilgan [17; 18; 19], o‘zbek pedagogikasida esa bu yo‘nalish ko‘proq pedagogik texnologiyalar va mustaqil ish metodikasi doirasida yoritilgan [20].

Mavjud tadqiqotlar tahlili quyidagi qarama-qarshiliklarni aniqlashga imkon berdi: (1) mustaqil ish ulushining ortishi va uni shaxsiylashtirish metodik mexanizmlarining yetarli emasligi o‘rtasida; (2) LMS texnik imkoniyatlari (shartli kirish, tahlil paneli, rubrikalar) va ulardan trayektoriyani loyihalashda tizimli foydalanilmasligi o‘rtasida; (3) talabalardan o‘z-o‘zini boshqarishni talab qilish va bu ko‘nikmalarni maqsadli shakllantiruvchi bosqichlarning mavjud emasligi o‘rtasida.

Tadqiqot muammosi shundan iboratki, raqamli muhitda mustaqil ta'lim trayektoriyasini bosqichma-bosqich loyihalashning amaliy, takrorlanuvchi metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Tadqiqot maqsadi — talabalarning mustaqil ta'lim trayektoriyasini raqamli muhitda loyihalash metodikasini ishlab chiqish va asoslash.

USULLAR VA MATERIALLAR

Tadqiqot aralash (mixed-methods) yondashuvga asoslandi va uch bosqichda tashkil etildi: (1) nazariy tahlil; (2) pedagogik modellashtirish orqali metodikani ishlab chiqish; (3) metodikani sinash uchun pedagogik tajribani rejalashtirish. Metodika dizayn-tadqiqot mantiqiga muvofiq takroriy sikllarda takomillashtirish nazarda tutiladi: loyihalash, sinash, tahlil va tuzatish. Modellashtirishda trayektoriya besh komponentdan iborat tizim sifatida qaraldi: maqsad, talaba profili, modullar ketma-ketligi, qo‘llab-quvvatlash va refleksiya. Maqsadlarni shakllantirishda Blum taksonomiyasining qayta ko‘rib chiqilgan varianti [28] va SMART tamoyili [26], kontentni loyihalashda multimedia ta'limi tamoyillari [27] hisobga olindi.

Tajriba guruhida mustaqil ta'lim taklif etilgan metodika bo‘yicha LMS (masalan, Moodle) asosida, nazorat guruhida an'anaviy yagona topshiriqlar to‘plami bo‘yicha tashkil etiladi; ikkala guruhda ham auditoriya mashg‘ulotlari bir xil o‘qituvchi tomonidan, bir xil mazmunda o‘tkaziladi. Tajriba davomiyligi — [16 hafta (bir semestr)]. 1-jadvalda tajriba bosqichlari keltirilgan.

1-jadval. Pedagogik tajriba bosqichlari (reja)

Haftalar	Bosqich	Asosiy faoliyat
1–2	Dastlabki o‘lchov	Bilim testi, MSLQ, raqamli savodxonlik so‘rovnomasi; guruhlarni tenglashtirish
2–3	Diagnostika va maqsad qo‘yish	Talaba profilini aniqlash; shaxsiy maqsadlar va individual reja tuzish



Haftalar	Bosqich	Asosiy faoliyat
3–13	Modullar bo‘yicha ishlash	Trayektoriya bo‘yicha mustaqil ish; tyutor qo‘llab-quvvatlovi; modul oxirida refleksiya
8 va 13	Oraliq korreksiya	LMS tahlili va refleksiya asosida trayektoriyani tuzatish
14–16	Yakuniy o‘lchov	Yakuniy test, MSLQ, LMS ko‘rsatkichlari, talabalar fikri

Ma’lumotlar to‘rt manbadan yig‘iladi: (a) dastlabki va yakuniy bilim testlari (ekvivalent shakllarda); (b) o‘z-o‘zini boshqarish va motivatsiyani o‘lchovchi MSLQ so‘rovnomasi [16]; (c) LMS jurnallari (kirish soni, modullarni tugatish ulushi, topshiriq topshirish muddati, test urinishlari); (d) talabalar refleksiya yozuvlari va yakuniy fikr-mulohaza so‘rovnomasi. So‘rovnoma shkalalarining ichki izchilligi Kronbax alfa koeffitsiyenti bilan tekshiriladi.

Metodika samaradorligi to‘rt mezon va ularning ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadi (2-jadval).

2-jadval. Samaradorlik mezonlari va ko‘rsatkichlari

Mezon	Ko‘rsatkich	O‘lchov vositasi
Motivatsion-maqsadli	Maqsadlarning aniqligi va o‘lchanuvchanligi; ichki motivatsiya darajasi	Individual reja tahlili; MSLQ motivatsiya shkalalari
Mazmuniy	O‘zlashtirish darajasi; dastlabki va yakuniy test farqi	Bilim testlari

Mezon	Ko‘rsatkich	O‘lchov vositasi
Faoliyat	Modullarni tugatish ulushi; topshiriqlarni o‘z vaqtida topshirish; LMS faolligi	LMS jurnallari
Refleksiv	O‘z-o‘zini baholash aniqligi; trayektoriyani tuzatishda ishtirok	Refleksiya jurnali; o‘z-o‘zini baholash va o‘qituvchi bahosi farqi

Har bir mezon bo‘yicha uch daraja ajratiladi: past, o‘rta va yuqori. Daraja chegaralari tajriba oldidan ekspertlar (kamida uch nafar) tomonidan kelishiladi. Taqsimotning normalligi Shapiro–Uilk mezoni bilan tekshiriladi. Guruhlararo farq normal taqsimotda Student t-mezoni, aks holda Mann–Uitni U mezoni bilan, guruh ichidagi o‘zgarish juft t-mezoni yoki Uilkokson mezoni bilan baholanadi. Ta’sir kattaligi Koen d koeffitsiyenti bilan ifodalanadi [25]; muhimlik darajasi $p < 0,05$.

Asoslilikka quyidagi tahdidlar nazarda tutiladi: guruhlar o‘rtasida axborot almashinuvi (kontaminatsiya), yangilik effekti, o‘qituvchining ikki guruhga turlicha munosabati. Ularni kamaytirish uchun bir xil kontent, bir xil baholash mezonlari va oldindan kelishilgan o‘qituvchi ssenariysi qo‘llaniladi. Ishtirokchilar ixtiyoriy rozilik bergan, ma’lumotlar anonimlashtiriladi, LMS tahlil ma’lumotlari faqat tadqiqot va o‘quv jarayonini yaxshilash maqsadida ishlatiladi.

NATIJALAR

Nazariy tahlil asosida trayektoriyani loyihalash oltita tamoyilga tayanishi belgilandi:

- Shaxsiylashtirish. Trayektoriya talabaning boshlang‘ich darajasi, qiziqishi va sur’atiga mos bo‘ladi; bu yaqin rivojlanish zonasi g‘oyasiga tayanadi [14].
- Subyektlik. Talaba maqsad qo‘yish, modul tanlash va natijani baholashda faol ishtirok etadi [3; 13].

- Modullilik va moslashuvchanlik. Mazmun nisbatan mustaqil modullarga ajratiladi, ularning ketma-ketligi va hajmi talaba profiliga qarab o‘zgaradi.
- Muntazam va aniq fikr-mulohaza. Talaba har bir bosqichda maqsadga nisbatan qayerda ekanligini va keyingi qadamni biladi [12; 23].
- Refleksivlik va korreksiya. Trayektoriya qat’iy emas: oraliq natijalar asosida tuzatiladi [4; 24].
- Ijtimoiy hamkorlik va o‘qituvchi ishtiroki. Mustaqil ish yakkalanish emas: forum, juftlikda ishlash va tyutor aloqasi saqlanadi [7].

Talaba i uchun trayektoriya quyidagi besh elementli tuzilma sifatida ifodalanadi:

$T_i = (G_i , P_i , M_i , S_i , R_i)$

bunda G_i — talabaning kelishilgan o‘quv maqsadlari to‘plami; P_i — diagnostika natijasida aniqlangan profil (boshlang‘ich, o‘rta yoki ilg‘or); M_i — modullarning tartiblangan ketma-ketligi; S_i — qo‘llab-quvvatlash rejasi (tyutor bilan uchrashuv chastotasi, fikr-mulohaza turi, qo‘shimcha resurslar); R_i — refleksiya nuqtalari va korreksiya qoidalari. Modullar ketma-ketligi majburiy yadro va variativ qismning birlashmasi sifatida shakllanadi:

$M_i = M_yadro \cup f (P_i , G_i)$

bunda M_yadro barcha talabalar uchun majburiy modullar, f (P_i , G_i) esa profil va maqsadga qarab qo‘shiladigan variativ modullar (tayanch takrorlash, chuqurlashtirish yoki amaliy loyiha) funksiyasidir. LMS muhitida bu funksiya shartli kirish qoidalari orqali amalga oshiriladi: masalan, modul boshidagi qisqa test natijasi belgilangan chegaradan past bo‘lsa, talabaga tayanch takrorlash moduli taklif etiladi; chegaradan yuqori bo‘lsa, chuqurlashtirish topshiriqlari ochiladi. Chegara qiymatlari kursning xususiyatiga qarab o‘qituvchi tomonidan belgilanadi.

Besh bosqichli metodika

1-bosqich. Diagnostika. Maqsad — talabaning boshlang‘ich holatini aniqlash. Dastlabki bilim testi, MSLQ asosidagi o‘z-o‘zini boshqarish so‘rovnomasi va raqamli

savodxonlik savollari o‘tkaziladi (Ilova 1). Natija asosida talaba shartli «boshlang‘ich», «o‘rta» yoki «ilg‘or» profilga ajratiladi. Muhim jihat: profil talabaga «yorliq» sifatida emas, rejalashtirish uchun boshlang‘ich nuqta sifatida taqdim etilib, trayektoriya davomida o‘zgarishi mumkinligi tushuntiriladi.

2-bosqich. Maqsad qo‘yish. Talaba o‘qituvchi bilan birgalikda SMART tamoyili [26] asosida shaxsiy o‘quv maqsadlarini shakllantiradi: maqsad aniq, o‘lchanadigan, erishiladigan, dolzarb va muddatli bo‘lishi kerak. Maqsadlar kursning o‘quv natijalari bilan moslashtiriladi va Blum taksonomiyasi [28] bo‘yicha kognitiv darajalarga ajratiladi (eslab qolish, tushunish, qo‘llash, tahlil, baholash, yaratish). Natija individual ta’lim rejasi (Ilova 3) shaklida LMSga joylanadi.

3-bosqich. Modulli loyihalash. Kurs mazmuni mustaqil modullarga ajratiladi; har bir modul quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘quv natijalari, qisqa nazariy kontent (multimedia tamoyillariga muvofiq [27]), amaliy topshiriq, o‘z-o‘zini tekshirish testi va refleksiya savollari. Majburiy yadro va tanlov topshiriqlari belgilanadi. Trayektoriya diagnostika profili va maqsadga qarab LMS shartli kirish qoidalari yordamida shakllantiriladi (3.2-bo‘lim).

4-bosqich. Qo‘llab-quvvatlash va fikr-mulohaza. O‘qituvchi tyutor rolida ishlaydi: avtomatik testlar orqali tezkor, rubrikalar orqali sifatli fikr-mulohaza beradi; LMS tahlil ko‘rsatkichlari (uzoq vaqt kirmagan, muddatni o‘tkazgan, test natijasi pasaygan talabalar) asosida ortda qolayotganlarni aniqlaydi va individual maslahat taklif etadi [11; 12]. Fikr-mulohaza uch savolga javob berishi lozim: maqsad nima, hozirgi holat qanday va keyingi qadam nima [12].

5-bosqich. Refleksiya va korreksiya. Talaba modul oxirida o‘z natijasini maqsad bilan solishtiradi, refleksiya jurnalini yuritadi (Ilova 2): nima yaxshi chiqdi, qiyinchilik nimada, strategiyani qanday o‘zgartirish kerak. Zarurat bo‘lsa trayektoriya qayta tuziladi: qo‘shimcha modul kiritiladi, sur’at o‘zgartiriladi yoki maqsad aniqlashtiriladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Shu bilan o‘z-o‘zini boshqarish sikli (rejalashtirish — bajarish — refleksiya) har modulda takrorlanadi [4].

Metodikaning amaliy qismi — talaba profiliga qarab trayektoriya parametrlarini belgilovchi qoidalar (3-jadval). Jadval tavsiyaviy xarakterga ega: aniq qiymatlar fan va kursning xususiyatiga qarab moslashtiriladi.

3-jadval. Talaba profili bo‘yicha trayektoriya parametrlari

Parametr	Boshlang‘ich profil	O‘rta profil	Ilg‘or profil
Variativ modullar	Tayanch takrorlash va tushuntirish modullari	Asosiy yadro, tanlov bo‘yicha amaliy topshiriqlar	Chuqurlashtirish, tadqiqot va loyiha topshiriqlari
Sur’at	Kengaytirilgan muddatlar, kichik qadamlar	Standart muddatlar	Tezlashtirilgan, moslashuvchan muddatlar
Tyutor qo‘llab-quvvatlovi	Tez-tez qisqa uchrashuvlar, proaktiv xabarlar	Modul oxirida fikr-mulohaza, so‘rov bo‘yicha maslahat	Maslahat so‘rov bo‘yicha, ekspert fikr-mulohazasi
Fikr-mulohaza turi	Qadamma-qadam namunali tushuntirishlar	Rubrika va izohlar	Tanqidiy savollar, tengdoshlar baholashi
O‘z-o‘zini boshqarish ko‘magi	Reja shablonlari, vaqt jadvali, eslatmalar	Refleksiya jurnali	Mustaqil maqsad qo‘yish va rejalash

Har bir bosqichni qo‘llab-quvvatlovchi raqamli vositalar 4-jadvalda keltirilgan. Vositalarni tanlashda ularning o‘quv maqsadiga mosligi va platformaga integratsiyasi

inobatga olinadi; yagona mahsulotga bog‘lanib qolmaslik uchun jadvalda vosita turlari berilgan.

4-jadval. Metodika bosqichlari va ularni qo‘llab-quvvatlovchi raqamli vositalar

Bosqich	Asosiy faoliyat	Raqamli vosita	Kutilayotgan natija
Diagnostika	Test, so‘rovnoma	LMS testlari, onlayn so‘rovnomalar	Talaba profili
Maqsad qo‘yish	SMART maqsadlar	Shaxsiy reja shabloni, forum	Kelishilgan o‘quv maqsadlari
Modulli loyihalash	Mazmunni ketma-ketlashtirish	LMS modullari, shartli kirish, video va interaktiv kontent	Individual trayektoriya
Qo‘llab-quvvatlash	Tyutorlik, fikr-mulohaza	Rubrikalar, chat, videokonferensiya, tahlil paneli	O‘z vaqtida yordam
Refleksiya	O‘z-o‘zini baholash	Refleksiya jurnali, e-portfolio	Trayektoriya korreksiyasi

Faraz qilaylik, «Pedagogik texnologiyalar» fanida «O‘quv jarayonini loyihalash» moduli o‘rganiladi. Diagnostikada uch talaba turli profilga tushdi. Birinchi talaba (boshlang‘ich profil) modul boshidagi testda asosiy tushunchalar bo‘yicha past natija ko‘rsatdi; unga LMS «Tayanch tushunchalar» takrorlash modulini ochadi, topshiriq muddati kengaytiriladi va tyutor bilan haftalik qisqa uchrashuv rejalashtiriladi. Ikkinchi talaba (o‘rta profil) majburiy yadroni bajaradi va tanlov topshiriqlaridan birini (masalan, o‘z fani bo‘yicha dars loyihasi) tanlaydi. Uchinchi talaba (ilg‘or profil) test natijasi yuqori bo‘lgani uchun yadro modulini tezlashtirilgan tartibda o‘tadi va chuqurlashtirish topshirig‘ini — mavjud o‘quv jarayoni loyihalarini tanqidiy tahlil qilishni bajaradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Modul oxirida har uch talaba refleksiya jurnalini to‘ldiradi, tyutor LMS ko‘rsatkichlari bilan solishtirib, keyingi modul uchun trayektoriyani tuzatadi: masalan, birinchi talaba keyingi modulda tayanch takrorlashsiz boshlashi mumkinligi, ikkinchisiga esa qo‘shimcha amaliy mashqlar kerakligi aniqlanadi.

Fikr-mulohaza sifatini ta’minlash va baholashni shaffof qilish uchun mustaqil ishni baholashning analitik rubrikasi taklif etiladi (5-jadval). Rubrika talabaga topshiriq boshlanishidan oldin taqdim etiladi.

5-jadval. Mustaqil ish uchun analitik rubrika

Mezon	Yuqori daraja	O‘rta daraja	Past daraja
Maqsadga mosligi	Natija qo‘yilgan maqsadga to‘liq mos, izchil asoslangan	Maqsadga asosan mos, ayrim jihatlar asoslanmagan	Maqsad bilan bog‘liqlik zaif yoki yo‘q
Mazmun chuqurligi	Tahlil va xulosalar mustaqil, manbalarga tayangan	Asosan bayon, tahlil elementlari bor	Yuzaki, manbasiz
Rejalashtirish va muddat	Reja va muddatga to‘liq rioya qilingan	Qisman rioya, ogohlantirish bilan tuzatilgan	Muddat va reja buzilgan
Refleksiya	Kuchli va zaif tomonlar aniq, keyingi qadam ko‘rsatilgan	Umumiy mulohazalar, qadam noaniq	Refleksiya yo‘q yoki formal

Tahlil metodikaning samarali qo‘llanishi uchun to‘rt guruh shartni belgilaydi:

- Tashkiliy: mustaqil ta'lim uchun ajratilgan vaqt, tyutorlik yuklamasining o'quv yuklamasida hisobga olinishi, talabalarni metodika mohiyati bilan oldindan tanishtirish.
- Texnologik: barqaror LMS, shartli kirish va tahlil funksiyalari, talabalarning qurilma va internetga ishonchli kirishi (raqamli tengsizlikni kamaytirish chora-tadbirlari bilan).
- Metodik: sifatli modulli kontent, rubrikalar, diagnostika vositalari va refleksiya shablonlari kutubxonasi.
- Kadrlar: o'qituvchining modul yaratish, tahlil ma'lumotlarini sharhlash va tyutorlik bo'yicha kompetensiyasi [8]; tegishli malaka oshirish.

MUHOKAMA

Taklif etilgan metodika mustaqil ta'limni yagona topshiriqlar to'plamidan talabaning o'z maqsadi va tayyorgarligiga mos individual yo'lga aylantirishga qaratilgan. Bu yondashuv o'z-o'zini boshqarish nazariyalari bilan mos keladi: rejalashtirish, bajarish va refleksiya sikli har bir modulda takrorlanadi [4; 5; 24]. Onlayn muhitda o'z-o'zini boshqarish strategiyalari o'zlashtirish bilan bog'liqligi haqidagi dalillar [9; 10] metodikada diagnostika va refleksiya bosqichlarining zarurligini asoslaydi. Shu bilan birga, tadqiqot hamjamiyati modeli [7] raqamli muhitda o'qituvchi ishtirokining ahamiyatini ko'rsatadi, shu sababli metodikada o'qituvchi kontent yetkazuvchi emas, balki tyutor va fikr-mulohaza beruvchi sifatida saqlanadi.

Metodikaning mavjud yondashuvlardan farqi uch jihatda ko'rinadi. Birinchidan, shaxsiylashtirish faqat texnik (avtomatik tavsiya) emas, balki talabaning maqsad qo'yishdagi ishtirokiga tayanadi, bu esa avtonomiya ehtiyojini qondiradi [13]. Ikkinchidan, trayektoriya bir martalik tuzilmaydi: refleksiya va LMS tahlili asosida davriy tuzatiladi. Uchinchidan, profil bo'yicha moslashuv qoidalari (3-jadval) metodikani o'qituvchilar uchun amaliy qo'llanma shakliga keltiradi. Metodikadan oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari kurs mustaqil ishini qayta loyihalashda, kafedralar esa mustaqil ta'lim bo'yicha metodik ko'rsatmalar va LMS kurs shablonlarini ishlab

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

chiqishda foydalanishi mumkin. Ilovalardagi shablonlar (diagnostika savollari, refleksiya jurnali, individual reja) tayyor vosita sifatida kursga moslashtirilishi mumkin. Metodika sifatli o‘quv kontenti va LMS infratuzilmasini talab qiladi. (2) O‘qituvchilar uchun modul yaratish va tahlil ma’lumotlarini sharhlash bo‘yicha qo‘shimcha ish yuki paydo bo‘ladi, bu esa o‘qituvchining raqamli kompetensiyasiga bog‘liq [8]. (3) O‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasi past talabalar uchun dastlabki bosqichda ko‘proq qo‘llab-quvvatlash zarur; aks holda erkinlik ortishi ularning ortda qolishiga olib kelishi mumkin. (4) Profil yorlig‘i talabaning o‘zini past baholashiga olib kelmasligi uchun u dinamik va o‘zgaruvchan sifatida taqdim etilishi lozim. (5) Ta’lim tahlili ma’lumotlari bilan ishlashda shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi va shaffoflik masalalari e’tiborga olinishi kerak. (6) Tajriba natijalari bitta muassasa va yo‘nalish doirasida olinsa, umumlashtirish cheklanadi.

Kelgusi tadqiqot yo‘nalishlari: metodikani turli fan va yo‘nalishlarda sinash; uzoq muddatli ta’sirni (keyingi semestrlardagi o‘zlashtirish va o‘z-o‘zini boshqarish) kuzatish; sun’iy intellekt asosidagi tavsiya tizimlarini metodikaga integratsiya qilish va bunda o‘qituvchi nazorati hamda etik talablarni saqlash.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelindi:

- Raqamli ta’lim muhitida talabalarning mustaqil ta’lim trayektoriyasini loyihalash metodikasi besh bosqichdan iborat: diagnostika, maqsad qo‘yish, modulli loyihalash, qo‘llab-quvvatlash va fikr-mulohaza, refleksiya va korreksiya.
- Trayektoriya maqsad, profil, modullar, qo‘llab-quvvatlash va refleksiya elementlaridan iborat tizim sifatida formallashtirildi; modullar ketma-ketligi majburiy yadro va profilga bog‘liq variativ qismdan shakllanadi.
- Metodikaning samarali amalga oshirilishi shaxsiylashtirish, talabaning subyektligi, modullilik, muntazam fikr-mulohaza, refleksivlik va ijtimoiy hamkorlik

tamoyillariga tayanishga, shuningdek o‘qituvchining tyutorlik va raqamli kompetensiyasiga bog‘liq.

- Samaradorlikni baholash uchun motivatsion-maqsadli, mazmuniy, faoliyat va refleksiv mezonlar tizimi, o‘lchov vositalari va statistik tahlil rejasi ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.
3. Knowles M. S. Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers. — New York: Association Press, 1975.
4. Zimmerman B. J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. — 2002. — Vol. 41, No. 2. — P. 64–70.
5. Panadero E. A review of self-regulated learning: Six models and four directions for research // Frontiers in Psychology. — 2017. — Vol. 8. — Article 422.
6. Siemens G. Connectivism: A learning theory for the digital age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. — 2005. — Vol. 2, No. 1. — P. 3–10.
7. Garrison D. R., Anderson T., Archer W. Critical inquiry in a text-based environment: Computer conferencing in higher education // The Internet and Higher Education. — 2000. — Vol. 2, No. 2–3. — P. 87–105.
8. Mishra P., Koehler M. J. Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge // Teachers College Record. — 2006. — Vol. 108, No. 6. — P. 1017–1054.
9. Broadbent J., Poon W. L. Self-regulated learning strategies and academic achievement in online higher education learning environments: A systematic review // The Internet and Higher Education. — 2015. — Vol. 27. — P. 1–13.
10. Kizilcec R. F., Pérez-Sanagustín M., Maldonado J. J. Self-regulated learning strategies predict learner behavior and goal attainment in massive open online courses // Computers & Education. — 2017. — Vol. 104. — P. 18–33.
11. Siemens G., Long P. Penetrating the fog: Analytics in learning and education // EDUCAUSE Review. — 2011. — Vol. 46, No. 5. — P. 30–40.
12. Hattie J., Timperley H. The power of feedback // Review of Educational Research. — 2007. — Vol. 77, No. 1. — P. 81–112.
13. Ryan R. M., Deci E. L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being // American Psychologist. — 2000. — Vol. 55, No. 1. — P. 68–78.

14. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
15. Wiggins G., McTighe J. Understanding by Design. — 2nd ed. — Alexandria, VA: ASCD, 2005.
16. Pintrich P. R., Smith D. A. F., Garcia T., McKeachie W. J. A Manual for the Use of the Motivated Strategies for Learning Questionnaire (MSLQ). — Ann Arbor: University of Michigan, 1991.
17. Хуторской А. В. Современная дидактика. — СПб.: Питер, 2001. — 544 с.
18. Полат Е. С. (ред.) Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. — М.: Академия, 2000.
19. Якиманская И. С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. — М.: Сентябрь, 1996.
20. Yo‘ldoshev J. G., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
21. Bloom B. S. The 2 sigma problem: The search for methods of group instruction as effective as one-to-one tutoring // Educational Researcher. — 1984. — Vol. 13, No. 6. — P. 4–16.
22. Dabbagh N., Kitsantas A. Personal Learning Environments, social media, and self-regulated learning: A natural formula for connecting formal and informal learning // The Internet and Higher Education. — 2012. — Vol. 15, No. 1. — P. 3–8.
23. Black P., Wiliam D. Assessment and classroom learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. — 1998. — Vol. 5, No. 1. — P. 7–74.
24. Winne P. H., Hadwin A. F. Studying as self-regulated learning // Hacker D. J., Dunlosky J., Graesser A. C. (Eds.) Metacognition in Educational Theory and Practice. — Mahwah, NJ: Erlbaum, 1998. — P. 277–304.
25. Cohen J. Statistical Power Analysis for the Behavioral Sciences. — 2nd ed. — Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1988.
26. Doran G. T. There's a S.M.A.R.T. way to write management's goals and objectives // Management Review. — 1981. — Vol. 70, No. 11. — P. 35–36.
27. Mayer R. E. Multimedia Learning. — 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2009.

BO'LAJAK QISHLOQ XO'JALIGI MUTAXASSISLARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Karimov Otabek Kamaldinovich
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti
karimovotabek19900331@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarida ekologik madaniyatni rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilingan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy resurslar, tuproq unumdorligi, suv zaxiralari va biologik xilma-xillik bilan uzviy bog'liqligi ekologik bilim, qadriyat va mas'uliyatni kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllantirishni taqozo etadi. Tadqiqotda ekologik madaniyat tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy komponentlari, rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodologik yondashuvlar hamda pedagogik shart-sharoitlar ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va ekologik yondashuvlarning o'zaro integratsiyasi bo'lajak mutaxassislarning ekologik bilimlarini amaliy kasbiy faoliyat bilan bog'lash imkoniyati nuqtayi nazaridan asoslangan. Shuningdek, ekologik ta'lim mazmunini kasbiy fanlar bilan integratsiyalash, muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari, dala kuzatuvlari va refleksiv faoliyatdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Natijada bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarida ekologik madaniyatni rivojlantirishning konseptual modeli va uni baholashning asosiy mezonlari taklif etilgan.*

Kalit so'zlar*: ekologik madaniyat, bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislari, ekologik ta'lim, ekologik kompetensiya, barqaror rivojlanish, ekologik mas'uliyat, kasbiy tayyorgarlik, metodologik yondashuv, tabiiy resurslar, pedagogik texnologiyalar.*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА

Аннотация. *В статье анализируются теоретико-методологические основы формирования экологической культуры у будущих специалистов сельского хозяйства. Неразрывная связь сельскохозяйственного производства с природными ресурсами (такими как плодородие почв, водные запасы и биоразнообразие) обусловливает необходимость формирования экологических знаний, ценностей и чувства ответственности как неотъемлемых компонентов профессиональной подготовки. В исследовании рассматриваются сущность понятия «экологическая культура», ее структурные компоненты, а также методологические подходы и педагогические условия, способствующие ее развитию. Обосновывается интеграция системного, компетентностного, личностно-ориентированного, деятельностного и экологического подходов с*

точки зрения возможности увязки экологических знаний будущих специалистов с их практической профессиональной деятельностью. Кроме того, анализируется педагогический потенциал интеграции содержания экологического образования с профессиональными дисциплинами и использования проблемных ситуаций, проектной деятельности, полевых наблюдений и рефлексивных практик. В результате предложена концептуальная модель формирования экологической культуры у будущих специалистов сельского хозяйства, а также определены ключевые критерии ее оценки.

***Ключевые слова**: экологическая культура, будущие специалисты сельского хозяйства, экологическое образование, экологическая компетентность, устойчивое развитие, экологическая ответственность, профессиональная подготовка, методологический подход, природные ресурсы, педагогические технологии.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING ECOLOGICAL CULTURE AMONG FUTURE AGRICULTURAL SPECIALISTS

***Abstract**. This article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing ecological culture among future agricultural specialists. The intrinsic link between agricultural production and natural resources—such as soil fertility, water reserves, and biodiversity—necessitates the formation of ecological knowledge, values, and a sense of responsibility as essential components of professional training. The study examines the essence of the concept of ecological culture, its structural components, and the methodological approaches and pedagogical conditions that facilitate its development. The integration of systemic, competency-based, person-oriented, activity-based, and ecological approaches is substantiated in terms of the opportunity to link the ecological knowledge of future specialists with their practical professional activities. Furthermore, the study examines the pedagogical potential of integrating environmental education content with professional disciplines and utilizing problem-based scenarios, project work, field observations, and reflective activities. As a result, a conceptual model for developing environmental culture among future agricultural specialists, along with key criteria for its assessment, is proposed.*

***Keywords:** environmental culture, future agricultural specialists, environmental education, environmental competence, sustainable development, environmental responsibility, professional training, methodological approach, natural resources, pedagogical technologies.*

KIRISH

Hozirgi davrda ekologik muammolarning murakkablashuvi, tabiiy resurslardan foydalanish ko‘lamining kengayishi, iqlim o‘zgarishi va biologik xilma-xillikning qisqarishi jamiyatning barcha sohalarida ekologik mas’uliyatni kuchaytirishni talab

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qilmoqda. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi sohasi insoniyatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bilan birga, tuproq, suv, atmosfera va ekotizimlar holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli qishloq xo‘jaligi mutaxassislarini tayyorlash jarayonida ekologik bilimlar bilan bir qatorda ekologik tafakkur, qadriyatlar, amaliy ko‘nikmalar va mas’uliyatli kasbiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan, 4-maqsad — sifatli ta’lim, 6-maqsad — toza suv va sanitariya, 12-maqsad — mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarish, 13-maqsad — iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash hamda 15-maqsad — quruqlikdagi ekotizimlarni muhofaza qilish ekologik bilim va mas’uliyatni rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq (United Nations, 2015). Mazkur maqsadlar qishloq xo‘jaligi ta’limi mazmunini ekologik barqarorlik tamoyillari asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

UNESCO (2017) barqaror rivojlanish uchun ta’limni insonlarda bilim, ko‘nikma, qadriyat va munosabatlarni shakllantirish orqali barqaror kelajakni ta’minlashga yo‘naltirilgan jarayon sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv ekologik ta’limni alohida fan doirasidagina emas, balki kasbiy tayyorgarlikning barcha bosqichlari va tarkibiy qismlariga integratsiyalash lozimligini ko‘rsatadi.

Ekologik madaniyat tushunchasi ekologik bilimlar yig‘indisidan kengroq mazmunga ega. U insonning tabiatga munosabati, ekologik qadriyatlari, xulq-atvori, faoliyat usullari va atrof-muhitga ta’sirini anglash qobiliyatini qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak qishloq xo‘jaligi mutaxassisining ekologik madaniyati uning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, agroekotizimlarni muhofaza qilishi, ekologik xavflarni oldindan baholashi va ishlab chiqarish samaradorligini ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtira olishi orqali namoyon bo‘ladi. Wiek, Withycombe va Redman (2011) barqaror rivojlanish kompetensiyalarini tahlil qilib, tizimli fikrlash, istiqbolni ko‘ra bilish, strategik harakat qilish, me’yoriy qadriyatlarni anglash va hamkorlik qilish kabi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kompetensiyalarning ahamiyatini asoslagan. Ushbu yondashuvlarni qishloq xo‘jaligi mutaxassislarini tayyorlashga tatbiq etish ekologik muammolarni alohida hodisa sifatida emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy omillar o‘zaro ta’sirining natijasi sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi ekologik madaniyatni rivojlantirish masalasini faqat ekologik fanlarni o‘qitish bilan cheklamasdan, uni bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasi, amaliy faoliyati va shaxsiy mas’uliyati bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi — bo‘lajak qishloq xo‘jaligi mutaxassislarida ekologik madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, uning tarkibiy tuzilishini yoritish hamda pedagogik jarayonda qo‘llash mumkin bo‘lgan konseptual modelni taklif etish.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Ekologik madaniyat tushunchasining ilmiy-pedagogik mazmunini tahlil qilish.
2. Bo‘lajak qishloq xo‘jaligi mutaxassislarida ekologik madaniyatning tarkibiy komponentlarini aniqlash.
3. Ekologik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodologik yondashuvlarni asoslash.
4. Ekologik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va ta’lim metodlarini tavsiflash.
5. Ekologik madaniyat rivojlanganlik darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi mezon va ko‘rsatkichlarni taklif etish.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ekologik madaniyatni bo‘lajak qishloq xo‘jaligi mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi bilan integratsiyalashgan ko‘p komponentli pedagogik hodisa sifatida konseptual asoslashda namoyon bo‘ladi.

METODOLOGIYA

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega bo‘lib, ekologik madaniyatni rivojlantirish muammosini ilmiy manbalar, barqaror rivojlanish konsepsiyalari va kasbiy pedagogika tamoyillari asosida o‘rganishga yo‘naltirildi. Tadqiqot metodologiyasini shakllantirishda ekologik ta’lim, barqaror rivojlanish uchun ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv va ekologik kasbiy faoliyatga oid ilmiy qarashlarga tayanildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi nazariy metodlardan foydalanish nazarda tutildi:

- Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish — ekologik madaniyat, ekologik ta’lim va barqaror rivojlanish kompetensiyalariga oid nazariy qarashlarni o‘rganish.
- Qiyosiy tahlil — turli metodologik yondashuvlarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash.
- Tizimlashtirish va tasniflash — ekologik madaniyatning tarkibiy komponentlari, pedagogik shart-sharoitlari va rivojlantirish vositalarini guruhlash.
- Umumlashtirish — ilmiy manbalardan olingan nazariy xulosalarni umumiy pedagogik tamoyillar bilan bog‘lash.
- Modellashtirish — ekologik madaniyatni rivojlantirishning maqsadli, mazmuniy, jarayonli va natijaviy tarkibiy qismlarini birlashtiruvchi konseptual modelni ishlab chiqish.

Ushbu maqolada yangi empirik ma’lumotlar to‘planmagan. Shuning uchun taklif etilgan model va baholash mezonlari nazariy asoslangan tavsiyalar sifatida qaraladi va ularning amaliy samaradorligi keyingi tajriba-sinov tadqiqotlarida tekshirilishi lozim.

Ekologik madaniyatni rivojlantirishning metodologik yondashuvlari quyidagilar:

Tizimli yondashuv. Mazkur yondashuv ekologik madaniyatni o‘zaro bog‘liq bilim, qadriyat, faoliyat va refleksiya komponentlaridan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Qishloq xo‘jaligida tuproq degradatsiyasi, suvdan samarasiz foydalanish, o‘g‘itlar va pestitsidlarning ekologik ta’siri kabi masalalar bir-biridan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ajratilgan holda emas, balki agroekotizimning umumiy holati bilan bog‘liq tarzda o‘rganilishi kerak.

Kompetensiyaviy yondashuv. Bu yondashuv nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishga alohida e’tibor qaratadi. Bo‘lajak mutaxassis ekologik muammoni aniqlash, uning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, muqobil yechimlarni taqqoslash va ekologik jihatdan asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyasiga ega bo‘lishi lozim.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv. Ushbu yondashuv talabaning individual tajribasi, ehtiyojlari, qiziqishlari va ekologik qadriyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Talabaning tabiatga munosabati va ekologik mas’uliyatini rivojlantirishda mustaqil izlanish, o‘z fikrini asoslash hamda shaxsiy faoliyat natijalarini baholash imkoniyatlari muhimdir.

Faoliyatga asoslangan yondashuv. Ekologik madaniyat amaliy faoliyat jarayonida mustahkamlanadi. Dala kuzatuvlari, tuproq va suv resurslaridan foydalanishga doir vaziyatli topshiriqlar, ekologik loyihalar, muammoli vaziyatlarni hal etish va ishlab chiqarish amaliyoti ekologik bilimlarni kasbiy ko‘nikmalarga aylantirishga xizmat qiladi.

Ekologik yondashuv. Mazkur yondashuv inson, ishlab chiqarish va tabiiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ta’lim mazmunining markaziga qo‘yadi. Bunda tabiiy resurslardan foydalanishning ekologik oqibatlari, ekotizimlar barqarorligi va kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olish asosiy mezonlar sifatida qaraladi.

Integrativ yondashuv. Ekologik bilimlarni agronomiya, tuproqshunoslik, melioratsiya, o‘simliklarni himoya qilish, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va raqamli texnologiyalar bilan bog‘lash ekologik muammolarni kasbiy nuqtayi nazardan kompleks o‘rganish imkonini beradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ekologik madaniyatning tarkibiy komponentlari quyidagilar:

Nazariy tahlil asosida bo‘lajak qishloq xo‘jaligi mutaxassislarining ekologik madaniyatini quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlar orqali tavsiflash mumkin:

6. Kognitiv komponent — ekologik qonuniyatlar, agroekotizimlar, tabiiy resurslar, ekologik xavflar va barqaror qishloq xo‘jaligi usullari haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish.

7. Motivatsion-qadriyatli komponent — tabiatni muhofaza qilishga qiziqish, ekologik qadriyatlarga sodiqlik, kasbiy faoliyatda mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga intilish.

8. Faoliyatli komponent — ekologik bilimlarni amaliyotda qo‘llash, resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan harakatlarni rejalashtirish.

9. Refleksiv-baholash komponenti — o‘z faoliyatining ekologik oqibatlarini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va kelgusidagi faoliyatni takomillashtirish.

10. Kommunikativ-hamkorlik komponenti — ekologik masalalarni muhokama qilish, jamoaviy loyihalarda ishtirok etish va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish.

Mazkur komponentlar alohida mavjud bo‘ladigan unsurlar emas, balki ekologik madaniyatning yaxlit rivojlanishini ta’minlovchi o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardir.

NATIJALAR

Ilmiy manbalar tahlili ekologik madaniyatni bo‘lajak qishloq xo‘jaligi mutaxassisining tabiat haqidagi bilimlari, ekologik qadriyatlari, kasbiy faoliyat usullari va o‘z harakatlari oqibatlarini baholash qobiliyatini birlashtiruvchi kompleks sifat sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. UNESCO (2017) tomonidan ilgari surilgan barqaror rivojlanish uchun ta’lim konsepsiyasida bilimlar bilan bir qatorda qadriyatlar, munosabatlar va harakat qilish qobiliyatining ahamiyati ta’kidlanadi. Wiek va hammualliflar (2011) esa barqaror rivojlanish muammolarini hal qilishda tizimli tahlil,

strategik fikrlash va hamkorlik kompetensiyalarining zarurligini asoslaydi. Ushbu nazariy qarashlar ekologik madaniyatni faqat axborot o‘zlashtirish bilan cheklash mumkin emasligini ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligi sohasi uchun ekologik madaniyatning o‘ziga xosligi uning bevosita kasbiy qarorlar bilan bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Masalan, sug‘orish usulini tanlash, tuproq unumdorligini saqlash, o‘simliklarni himoya qilish vositalaridan foydalanish yoki ishlab chiqarish chiqindilarini boshqarish jarayonlarida ekologik bilim va mas’uliyat muhim ahamiyatga ega. Shu asosda ekologik madaniyatni quyidagicha ta’riflash mumkin: bo‘lajak qishloq xo‘jaligi mutaxassislarining ekologik madaniyati — bu tabiiy muhit qonuniyatlarini anglash, ekologik qadriyatlarni e’tirof etish, kasbiy faoliyatda ekologik maqbul usullarni qo‘llash va o‘z qarorlarining ekologik oqibatlari uchun mas’uliyatni his etishga asoslangan integrativ shaxsiy-kasbiy sifatdir.

Ekologik madaniyatni rivojlantirishning konseptual modeli

Nazariy tahlil asosida ekologik madaniyatni rivojlantirishning to‘rt tarkibiy qismdan iborat konseptual modelini taklif etish mumkin.

Model tarkibiy qismi	Mazmuni	Kutiladigan pedagogik natija
Maqsadli komponent	Ekologik madaniyatni kasbiy tayyorgarlikning muhim natijasi sifatida belgilash	Ta’lim maqsadlarining ekologik yo‘nalganligi
Mazmuniy komponent	Ekologik bilimlar, qadriyatlar, kasbiy vaziyatlar va barqaror qishloq xo‘jaligi masalalarini integratsiyalash	Ekologik bilimlarning tizimliligi va kasbiy ahamiyati

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Jarayonli komponent	Muammoli ta'lim, loyiha ishlari, dala kuzatuvlari, keyslar va refleksiv topshiriqlardan foydalanish	Bilimlarni amaliy ko'nikma va mas'uliyatli faoliyatga aylantirish
Baholash-natijaviy komponent	Ekologik bilim, motivatsiya, amaliy faoliyat va refleksiyani mezonlar asosida baholash	Ekologik madaniyat rivojlanganlik darajasini aniqlash

Modelning samarali ishlashi uning barcha tarkibiy qismlari o'rtasidagi uzviylikka bog'liq. Maqsadlar ta'lim mazmunida aks etishi, mazmun tegishli faoliyat orqali o'zlashtirilishi va natijalar oldindan belgilangan mezonlar yordamida baholanishi zarur.

Birinchidan, ekologik mazmunni kasbiy fanlarga integratsiyalash. Ekologik muammolarni faqat ekologiya fanida emas, balki agronomiya, tuproqshunoslik, sug'orish va melioratsiya, o'simliklarni himoya qilish hamda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini o'qitishda ham yoritish lozim. Bu talabaga ekologik bilimlarning kasbiy ahamiyatini anglash imkonini beradi.

Ikkinchidan, amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish. Dala kuzatuvlari, xo'jalik faoliyatini ekologik tahlil qilish, suv va tuproqdan foydalanishga oid vaziyatlarni o'rganish hamda ekologik loyihalar nazariy bilimlarni real kasbiy muammolar bilan bog'laydi.

Uchinchidan, ekologik qadriyatlar va mas'uliyatni shakllantirish. Ta'lim jarayonida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olish va ekologik xavflarning oldini olishga qaratilgan qarorlarni muhokama qilish talabalar ekologik pozitsiyasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

To‘rtinchidan, fanlararo hamkorlikni kuchaytirish. Ekologik muammolar tabiiy, texnik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq bo‘lgani uchun ularni turli fanlar kesishmasida o‘rganish muhimdir.

Beshinchidan, refleksiv va diagnostik faoliyatni yo‘lga qo‘yish. Talabalarning ekologik loyihalari, amaliy topshiriqlari va mustaqil ishlari tahlil qilinib, ularga asoslangan fikr-mulohazalar berilishi lozim. Bu jarayon talabalarning o‘z yutuq va kamchiliklarini anglashiga yordam beradi.

Ekologik madaniyatning rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun uning har bir komponentiga mos mezon va ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Mezon	Asosiy ko‘rsatkichlar	Baholash usullari
Kognitiv	Ekologik tushunchalarni bilish; ekologik sabab-oqibat aloqalarini tushuntirish; kasbiy ekologik muammolarni aniqlash	Test, yozma topshiriq, og‘zaki savol-javob
Motivatsion-qadriyatli	Ekologik faoliyatga qiziqish; tabiatni muhofaza qilish qadriyatlarini e’tirof etish; kasbiy mas’uliyat	So‘rovnoma, suhbat, refleksiv yozuv
Faoliyatli	Ekologik yechim ishlab chiqish; resurslardan oqilona foydalanish usullarini tanlash; loyiha topshiriqlarini bajarish	Amaliy topshiriq, loyiha, kuzatuv, rubrika

Refleksiv-baholash	O‘z faoliyatining ekologik ta’sirini tahlil qilish; xatolarni aniqlash; yechimlarni takomillashtirish	Portfolio, o‘z-o‘zini baholash, refleksiv hisobot
Kommunikativ-hamkorlik	Ekologik muammolarni asoslab muhokama qilish; jamoaviy yechim ishlab chiqish; fikr almashish	Guruh loyihasi, taqdimot, ekspert baholashi

Ushbu mezonlardan foydalanish ekologik madaniyatni faqat nazariy bilimlar asosida baholashning cheklanganligini bartaraf etishga xizmat qiladi. Biroq baholash vositalari amaliyotga joriy etilishidan oldin ularning ishonchliligi, mazmuniy mosligi va baholash mezonlarining aniqligi tekshirilishi zarur.

MUHOKAMA

Tahlil natijalari bo‘lajak qishloq xo‘jaligi mutaxassislarida ekologik madaniyatni rivojlantirish ko‘p qirrali pedagogik jarayon ekanini ko‘rsatadi. Uning samaradorligi ekologik bilimlarni berish bilangina emas, balki ushbu bilimlarni kasbiy faoliyatga tatbiq etish, ekologik qadriyatlarni shakllantirish va o‘z faoliyatining oqibatlarini anglash imkoniyatlarini yaratish bilan belgilanadi. Wiek va hammualliflar (2011) tomonidan ishlab chiqilgan barqaror rivojlanish kompetensiyalari konsepsiyasi mazkur jarayonning nazariy asoslarini kengaytiradi. Xususan, tizimli fikrlash qobiliyati qishloq xo‘jaligida tabiiy resurslardan foydalanishning o‘zaro bog‘liq oqibatlarini tushunishga yordam beradi. Strategik va istiqbolga yo‘naltirilgan fikrlash esa qisqa muddatli ishlab chiqarish natijalarini uzoq muddatli ekologik barqarorlik bilan muvofiqlashtirishga imkon yaratadi. Lozano va hammualliflar (2017) oliy ta’limda barqaror rivojlanish kompetensiyalarini o‘qitish va rivojlantirish masalasini tahlil qilib, ta’lim jarayonida

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mazkur kompetensiyalarni maqsadli shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu qarash qishloq xo‘jaligi ta’limida ham ekologik mazmunni tasodifiy yoki qo‘shimcha mavzu sifatida emas, balki o‘quv natijalari, o‘qitish metodlari va baholash tizimiga kiritilgan tarkibiy yo‘nalish sifatida ko‘rish kerakligini anglatadi.

Vaziyatli topshiriqlar va loyiha ishlari talabalarni ekologik muammolarning turli yechimlarini taqqoslashga undaydi. Masalan, suv tanqisligi sharoitida sug‘orish usullarini tanlash, tuproq unumdorligini saqlashga qaratilgan agrotexnik tadbirlarni asoslash yoki qishloq xo‘jaligi chiqindilaridan oqilona foydalanish bo‘yicha loyiha ishlab chiqish jarayonida talabalar nazariy bilimlarni amaliy qarorlar bilan bog‘laydi. Bunday topshiriqlarni baholashda faqat yakuniy natija emas, balki talabaning dalillardan foydalanishi, ekologik oqibatlarni hisobga olishi va o‘z tanlovini asoslay olishi ham inobatga olinishi kerak.

Ekologik madaniyatni rivojlantirishda refleksiv faoliyatning ahamiyati ham alohida e’tiborga loyiq. Talaba o‘z qarorlarining ekologik oqibatlarini tahlil qilganida, ekologik mas’uliyat tashqi talab darajasidan shaxsiy kasbiy pozitsiya darajasiga ko‘tarilishi mumkin. Bunda o‘qituvchining vazifasi tayyor xulosalarni berish bilan cheklanmay, talabalarning mustaqil tahlili va asoslangan xulosa chiqarishini qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Shu bilan birga, taklif etilgan yondashuvning ayrim cheklovlari mavjud. Birinchidan, ekologik madaniyatning barcha komponentlarini yagona o‘lchov bilan baholash qiyin, chunki bilim, qadriyat va real xulq-atvor bir xil sur’atda rivojlanmasligi mumkin. Ikkinchidan, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik imkoniyatlari, dala amaliyotini tashkil etish sharoitlari va pedagoglarning metodik tayyorgarligi natijalarga ta’sir qilishi mumkin. Uchinchidan, ekologik qarashlarni so‘rovnoma orqali aniqlash talabaning real faoliyatini to‘liq aks ettirmasligi ehtimoli mavjud. Shu sababli diagnostikada test, kuzatuv, amaliy topshiriq, loyiha va refleksiv hisobotlarni birgalikda qo‘llash maqsadga muvofiq.

Kelgusidagi tadqiqotlarda mazkur konseptual modelni qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida tajriba-sinovdan o‘tkazish, boshlang‘ich va yakuniy diagnostika natijalarini taqqoslash hamda qo‘llanilgan pedagogik metodlarning samaradorligini statistik jihatdan tekshirish lozim. Bunday tadqiqotlar nazariy xulosalarni amaliy dalillar bilan to‘ldirish imkonini beradi.

XULOSA

O‘tkazilgan nazariy-tahliliy ish bo‘lajak qishloq xo‘jaligi mutaxassislarida ekologik madaniyatni rivojlantirish ekologik ta’lim, kasbiy tayyorgarlik va barqaror rivojlanish tamoyillarining o‘zaro integratsiyasini talab qiladigan kompleks pedagogik jarayon ekanini ko‘rsatadi.

Birinchidan, ekologik madaniyatni ekologik bilimlar bilan cheklab bo‘lmaydi. U kognitiv, motivatsion-qadriyatli, faoliyatli, refleksiv-baholash va kommunikativ-hamkorlik komponentlarining o‘zaro uyg‘unligini qamrab oladi.

Ikkinchidan, tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan, ekologik va integrativ metodologik yondashuvlar ekologik madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslarini tashkil etadi. Ularning uyg‘unligi ekologik bilimlarni kasbiy faoliyat va mas’uliyatli qaror qabul qilish bilan bog‘lashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ekologik mazmunni kasbiy fanlarga integratsiyalash, amaliyotga yo‘naltirilgan topshiriqlarni tashkil etish, ekologik qadriyatlarni rivojlantirish va refleksiv baholashni yo‘lga qo‘yish muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida belgilandi.

To‘rtinchidan, ekologik madaniyatning rivojlanganlik darajasini aniqlashda bilim, motivatsiya, amaliy faoliyat, refleksiya va hamkorlik mezonlarini birgalikda qo‘llash maqsadga muvofiq. Bu yondashuv talabaning ekologik tayyorgarligini ko‘p qirrali baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, taklif etilgan konseptual model qishloq xo‘jaligi ta’limida ekologik madaniyatni maqsadli rivojlantirish, o‘quv mazmunini takomillashtirish va

baholash vositalarini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Uning amaliy samaradorligini aniqlash uchun keyingi bosqichda empirik tadqiqotlar, tajriba-sinov ishlari va tegishli statistik tahlillarni amalga oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. United Nations. (2015). Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. United Nations. https://sdgs.un.org/2030agenda
2. UNESCO. (2017). Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000247444
3. Wiek, A., Withycombe, L., & Redman, C. L. (2011). Key competencies in sustainability: A reference framework for academic program development. Sustainability Science, 6, 203–218. https://doi.org/10.1007/s11625-011-0132-6
4. Lozano, R., Merrill, M. Y., Sammalisto, K., Ceulemans, K., & Lozano, F. J. (2017). Connecting competences and pedagogical approaches for sustainable development in higher education: A literature review and framework proposal. Sustainability, 9(10), 1889. https://doi.org/10.3390/su9101889
5. Sterling, S. (2001). Sustainable Education: Re-visioning Learning and Change. Green Books.
6. Orr, D. W. (1992). Ecological Literacy: Education and the Transition to a Postmodern World. State University of New York Press.
7. Tilbury, D. (1995). Environmental education for sustainability: Defining the new focus of environmental education in the 1990s. Environmental Education Research, 1(2), 195–212. https://doi.org/10.1080/1350462950010206
8. Brundiers, K., Wiek, A., & Redman, C. L. (2010). Real-world learning opportunities in sustainability: From classroom into the real world. International Journal of Sustainability in Higher Education, 11(4), 308–324. https://doi.org/10.1108/14676371011077540
9. Food and Agriculture Organization of the United Nations. (2017). The Future of Food and Agriculture: Trends and Challenges. FAO. https://www.fao.org/3/i6583e/i6583e.pdf
10. UNESCO. (2020). Education for Sustainable Development: A Roadmap. UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000374802

UDK: 37.018.43:378:316.614

ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIALIZATION OF STUDENTS IN THE PROCESS OF DISTANCE EDUCATION

Adasheva Mavludakxon Umatalievna
University of Tashkent for Applied Sciences
Associate Professor of the Department of Digital and Fundamental Sciences
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
E-mail: 19mavluda72@gmail.com
ORCID: 0009-0002-3653-7531

Abstract: *This study examines the organizational and methodological foundations of student socialization in distance education and identifies criteria for assessing adaptation to university life.* ***Methods:*** *The research combined systematic and structural analysis of scientific and methodological literature with pedagogical observation, student surveys, self-assessment tests, teacher interviews, and analysis of pedagogical documents. The empirical study involved 158 full-time first-year students at different stages and considered their participation in creative clubs and sports sections.* ***Results:*** *Four assessment criteria were systematized: value and motivation, operational functioning, emotional regulation, and cognitive and informational involvement. Survey and test responses supported a qualitative classification into high, middle, and low socialization levels, reflecting differences in adaptation, satisfaction with student life, group relationships, self-esteem, and emotional well-being. The article describes a positive relationship between active extracurricular participation and successful socialization.* ***Conclusions:*** *Distance education requires coordinated attention to student characteristics, teacher preparedness, interpersonal communication, and material and technical conditions. The proposed assessment framework and methodological recommendations emphasize socially meaningful activity, supportive communication, and exercises for managing emotional difficulties during forced isolation.*

Keywords: *distance education; student socialization; organizational and methodological foundations; first-year students; university adaptation; socialization criteria; extracurricular activities; interpersonal communication; self-assessment; emotional regulation.*

MASOFAVIY TA'LIM JARAYONIDA TALABALAR IJTIMOIYLASHUVINING TASHKILIY VA METODIK ASOSLARI

Annotatsiya: *Maqolada masofaviy ta'lim jarayonida talabalar ijtimoiylashuvining tashkiliy va metodik asoslari hamda universitet hayotiga moslashishni baholash mezonlari o'rganilgan.* ***Metodlar:*** *Tadqiqotda ilmiy va metodik adabiyotlarni tizimli hamda strukturaviy tahlil qilish, pedagogik kuzatish, talabalar so'rovi, o'zini baholash testlari, o'qituvchilar bilan suhbat va pedagogik hujjatlarni tahlil qilish usullaridan foydalanilgan. Empirik tadqiqotning turli bosqichlarida kunduzgi ta'lim shaklida tahsil*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

olayotgan 158 nafar birinchi bosqich talabasi qatnashgan. Ularning ijodiy to'garaklar va sport seksiyalaridagi ishtiroki ham ko'rib chiqilgan. ***Natijalar:*** *Ijtimoiylashuvni baholashning qadriyat va motivatsiya, operatsion faoliyat, emotsional boshqaruv hamda kognitiv va axborotga oid to'rtta mezoni tizimlashtirilgan. So'rov va test javoblari asosida talabalar yuqori, o'rta va past ijtimoiylashuv darajalariga sifat jihatidan ajratilgan. Ushbu darajalar moslashish, talabalik hayotidan qoniqish, guruhdagi munosabatlar, o'zini baholash va emotsional holatdagi farqlar orqali tavsiflangan. Maqolada darsdan tashqari faol ishtirok bilan muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik bayon qilingan.* ***Xulosa:*** *Masofaviy ta'limni tashkil etishda talaba xususiyatlari, o'qituvchi tayyorgarligi, shaxslararo muloqot va moddiy-texnik sharoitlar uyg'unligi muhim. Taklif etilgan mezonlar va metodik tavsiyalar ijtimoiy ahamiyatli faoliyat, qo'llab-quvvatlovchi muloqot hamda majburiy yakkalanish davridagi emotsional qiyinchiliklarni boshqarishga qaratilgan mashqlarni qamrab oladi.*

Kalit so'zlar: *masofaviy ta'lim; talabalar ijtimoiylashuvi; tashkiliy va metodik asoslar; birinchi bosqich talabalari; universitetga moslashish; ijtimoiylashuv mezonlari; darsdan tashqari faoliyat; shaxslararo muloqot; o'zini baholash; emotsional boshqaruv.*

ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЦИАЛИЗАЦИИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: *Рассмотреть организационные и методические основы социализации студентов в дистанционном образовании и определить критерии оценки адаптации к университетской жизни.* ***Методы:*** *Исследование сочетало системный и структурный анализ научной и методической литературы с педагогическим наблюдением, анкетированием студентов, тестами самооценки, беседами с преподавателями и анализом педагогических документов. На различных этапах эмпирического исследования участвовали 158 студентов первого курса очной формы обучения. Рассматривалось также их участие в творческих кружках и спортивных секциях.* ***Результаты:*** *Систематизированы четыре критерия оценки социализации: ценностно-мотивационный, операциональный, эмоционально-регулятивный и когнитивно-информационный. Ответы на вопросы анкет и тестов позволили качественно распределить студентов по высокому, среднему и низкому уровням социализации. Эти уровни характеризовались различиями в адаптации, удовлетворённости студенческой жизнью, взаимоотношениях в группе, самооценке и эмоциональном благополучии. В статье описана положительная связь активного участия во внеучебной деятельности с успешной социализацией. Выделены особенности частичной социализации и трудности студентов, испытывающих неудовлетворённость, одиночество или недостаточную интеграцию в группу.* ***Выводы:*** *Организация дистанционного образования требует согласованного учёта особенностей студентов, подготовленности преподавателей, межличностного общения и материально-технических условий. Предложенные критерии и методические рекомендации предусматривают социально значимую деятельность, поддерживающее общение и упражнения для преодоления эмоциональных трудностей в условиях вынужденной изоляции.*

Ключевые слова: *дистанционное образование; социализация студентов; организационно-методические основы; студенты первого курса; адаптация к университету; критерии социализации; внеучебная деятельность; межличностное общение; самооценка; эмоциональная регуляция.*

INTRODUCTION

The rapid development of the information industry and its influence on science, culture and education lead to changes in the education system in response to the demands of the information society. The current stage of pedagogical theory and practice is characterized by constant change and dynamics. It requires creativity as a professional attribute and the ability to process large amounts of information effectively.

The revision of views on the nature and content of socialization is mainly determined by the informatization of education and the introduction of new information technologies. These technologies change the methods of presenting information and analysing problems. By influencing how problems are posed and investigated, they can also change decision-making. New information technologies therefore function as intellectual tools that affect the essence of education.

The wide spread of new information technologies in the world has created necessary conditions for the emergence and development of a new direction in higher education institutions - distance education based on telecommunication technologies.

Due to the pandemic, the transfer of university students to distance education has put a difficult task of organizing educational activities - online education - in front of higher education institutions. Therefore, the great responsibility and burden of proper reorganization of the educational process fell on the teachers, who were not ready for it and had to learn and teach others at the same time.

One of the main directions of modernization of pedagogical education is the development of a system of continuous training of teachers in the field of using virtual technologies in pedagogical activities. The rapid pace of development of virtual

technologies requires the search for new approaches to improve the teacher's awareness of virtual technologies.

The aim of this study is to substantiate the organizational and methodological foundations of student socialization in distance education and to identify criteria and indicators for assessing the success of this process.

LITERATURE REVIEW AND METHODS

Literature review

The independent work of the student is the basis of the educational process of distance education, scientists studied in N.V.Kazarynova, B.I.Shunevich, G. Yatsenko, S. Stepanenko, V.Yu.Strelnikov's study [1]. A.A.Abdugadirov, A.D.Askarov, U.B. Bakhodirova, U.Sh.Begimkulov, U.I.Inoyatov, D.N.Mamatov, M.U. Makhkamova, among the scientists in our country on the use of information and communication technologies in the educational process, distance learning technologies and electronic learning technologies. It can be observed in the works of S.A. Panjiyev, Sh.E. Qurbanov, and other researchers [2].

In these research works, the content of preparing teachers for the use of information and communication technologies in their professional pedagogical activities, the formation of modern teachers, and the use of unique methods to increase its effectiveness are considered.

The rapid development of information and communication technologies and the growth of their importance in the educational process require a revision of the educational system from the point of view of the approach to the socialization of students.

According to P. V. Plotnikov, the basis of accelerating the socialization of young people is to analyze and study in detail the level, essence, content and criteria of their social activity [3]. The research conducted by him among young people confirmed the assumption that indicators of their social activity are value orientations of social and collectivist orientation.



In the study of P. V. Plotnikov, the system of interrelated criteria of the social activity of a young person is rightly emphasized:

The first criterion comprises ideological and moral concepts that characterize awareness of social activity and the formation of ideas about the need to participate in educational, labour, public and political, moral, spiritual and communicative activities.

The second criterion determines the extent to which a young person has acquired the knowledge, abilities and skills necessary for social activity. It describes the practical dimension of social activity. Its indicators include the formation of scientific knowledge and educational, cognitive, organizational, labour, production, technical, communicative, economic and household skills.

The third criterion is the level of development of the youth's motivation for social activity. This criterion, together with the development of ideological and moral concepts and ideas, describes the direction of social activity, the level of its compliance with the interests of the community and society.

The fourth criterion is self-activity, initiative and responsibility, an active position in the system of collective relations, the level of development of intolerance to any kind of antisocial behavior [3].

Research methods

Theoretical methods: systematic-structural analysis was used in order to systematize theoretical generalizations and experience of socialization of students in higher pedagogical institutes, comparative method was used in the analysis of scientific-methodical literature, periodicals and regulatory documents. The use of these methods was based on objectivity and alternative approaches to the processing of collected factual materials;

Empirical methods included pedagogical observation of students' educational activities, surveys, tests and interviews with teachers. Direct and indirect observation, expert evaluation, self-analysis and self-evaluation were also used. Diagnostic and

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

formative experiments were conducted to determine qualitative indicators of socialization and the effectiveness of distance education.

A total of 158 full-time first-year students participated in the empirical study at different stages. Responses to the Student Survey, together with additional self-assessment and group-integration tests, were used to classify participants into three groups according to the level of success of the socialization process.

Theoretically found approaches, principles and psychological-pedagogical conditions for successful socialization of students require empirical confirmation.

According to the general logic of the research, our empirical studies included:

• development of content, organization and methodology of empirical research;

• substantiation of criteria and indicators for evaluating the level of success of the socialization process of students;

• selection of diagnostic methods to assess the success of student socialization;

• conducting a survey among first-year students in order to determine the level of success of the socialization process at the university;

• to study the conditions created to involve students in extracurricular activities at a higher education institution;

• analysis and generalization of empirical research results.

RESULTS AND DISCUSSION

Distance education is a form of education characterized by specific methods, tools and organizational arrangements. An important condition for its use in the modern education system is that teachers thoroughly master information and virtual technologies.

Currently, in the theory of pedagogy, the educational process is considered as a complex system influenced by its structural elements, objective and subjective factors. The efficiency factors of any didactic system can be divided into four conditional groups:

1. Conditions determined by personal qualities of students;



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

2. Conditions determined by the teacher's personal qualities;

3. Conditions related to interaction and communication between teachers and students;

4. Material and technical conditions of organizing the pedagogical process [4].

In modern sociology, socialization is generally understood as the process of acquisition of behavioral patterns, psychological mechanisms, social norms and values necessary for successful functioning of a person in a given society. Socialization includes all processes of involvement in culture, communication and education, with the help of which a person acquires a social essence and the ability to participate in social life. Thus, socialization works as a process of interaction of the individual with the social environment.

Socialization includes: social knowledge, acquisition of certain practical skills, internalization of certain norms, positions and roles, development of value orientations and relationships, as well as inclusion of a person in active creative activities. Socialization also includes education, because the purposeful effort to inculcate certain skills in a person is complemented by the practice of social activities, his participation in various informal groups, etc. In the process of socialization, great autonomy of the individual is also noted. After all, being a product of society, he is free to independently choose certain values and attitudes, based not only on the general regulatory principles of the environment, but also on his own inclinations.

The basis of the mechanism of socialization is the active and changing activity of a person, with the help of which he participates in the life and culture of society, in the formation of social relations, in mastering common methods of practical activity, consciousness and self-awareness, systems of social direction. occurs during development [5]. Therefore, socialization is a process of mutual and self-awareness during the active activity of an individual.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Based on the analysis of theoretical and empirical studies conducted by local scientists [6; 7] on the components that ensure the success of the socialization process, it was possible to generalize the criteria and indicators of socialization. The content of the criteria is revealed in the relevant indicators that we have chosen to evaluate the level of success in the socialization of students. The main elements of socialization assessment include four criteria: value-motivational, operational, emotional-regulatory and cognitive-informational. Each of them includes relevant subjective and objective, internal and external indicators. In a systematized form, they are presented in Table 1.

Table 1. Assessment criteria and indicators of socialization

№	Criterion name	Indicator content
1.	Value-motivational	attitude to education as a value; treating teachers as mentors; treatment of fellow students as partners in joint activities; attitude to the educational institution as a reference social environment.
2.	Operational	the formation of skills and abilities that ensure entry into the social space of the higher education institution; comfortable (on a subjective level) and productive (on an objective level) functioning as a student.
3.	Emotional-regulatory	internal regulators: adequacy of self-assessment of the individual, communication and results of educational activities, internal locus of control, self-control and volitional qualities, anxiety, adaptability; external regulators: the moral and psychological climate of the group, the education system, the institute of curators and tutors, inclusion in self-governing bodies, inclusion in the

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

		educational and educational process and in extracurricular cultural and recreational, sports activities.
4.	Cognitive-informational	knowledge about the rights, obligations, opportunities of students, awareness of the events of student life at the university; connectivity to official and informal social and informational networks of the course, faculty, university.

It should be emphasized that our research object is characterized by multifactoriality and diversity of socio-economic, moral and spiritual connections, age-specific behavior, which involves the use of a complex of diagnostic methods. During its development, we proceeded from the following principles:

• the complex should include methods aimed at diagnosing the structural components of the socialization of student youth;

• in order to obtain objective results, it was appropriate to study subjects in the context of their life interests;

• an integrative indicator of the success of the socialization process is the orientation of the motivation of recreational activities to satisfy the need for socially significant activities and socially valuable communication [5].

When developing a set of diagnostic methods, we relied on well-known methods of self-assessment studies, adaptation questionnaires and student surveys. Some techniques were adapted to suit our research objectives; including observation of students in organized sports competitions, creative performances, training and exercises; analysis of various pedagogical documents.

Based on M. I. Alekseeva-Volk's view that establishing social relations is one of the mechanisms of socialization, we planned and conducted an empirical study to test the hypothesis of a relationship between successful socialization of first-year students and

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

their extracurricular activities, including participation in creative clubs and sports sections [8].

If we consider the socialization of a person as the process of his integration into a certain social community, then certain levels of such integration can be distinguished, in particular:

• objective (socio-economic), as a result of which the individual takes the primary place;

• functional, which determines the performance of certain functions and roles by a person;

• normative, it determines the readiness of a person to act in a certain way to achieve his goals, corresponds to the goals of team activity;

• interpersonal relationship, which determines the assessment of the environment's attitude to a person, his interaction with him [8].

According to S.S. Koroleva's research, the socialization of first-year students should be considered in the unity of informational, motivational, activity and activity aspects. It revealed the main criteria of socialization of first-year students as an integrative quality:

• informational, related to the processes of information transmission and reception;

• motivational and activation related to the development of positive motivation of students for various types of extracurricular activities;

• activities that include the formation of skills in setting and implementing specific goals, planning, organizing and conducting extracurricular activities in various directions, evaluating the results of these activities [9].

Three levels of socialization were distinguished:

• high level - successful socialization;

• middle level - partial (incomplete) socialization;

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

• low level - unsuccessful socialization.

These three levels can be characterized by objective and subjective indicators of socialization in accordance with the criteria established according to the results of surveys and tests. We describe three selected levels of socialization that have been the focus of research.

High level of socialization

Students at the high level demonstrate successful socialization. They adapt easily to student life, experience a smooth and largely imperceptible adaptation process, and report overall satisfaction with university life. They do not identify aspects of university life with which they are dissatisfied and describe relationships within the student group as friendly. They are satisfied with examination results and have relatively high self-esteem. In the Tree test, their general well-being is characterized by confidence in their abilities, a comfortable emotional state, normal adaptation and a relatively high position in the group.

Middle level of socialization

Students at the middle level demonstrate partial or incomplete socialization. They give positive answers to some questions and negative answers to others. Their attitudes towards study, the university and the group, as well as their self-assessment, are unstable; they cannot be classified consistently at either the high or low level.

Low level of socialization

Students assigned to "Unsuccessful socialization" indicate in the questionnaire that it was difficult to get used to student life, that the adaptation process was difficult and long, and that the overall level of satisfaction with student life is low;

noting several aspects of university life that do not satisfy them, evaluating relations in the student group as indifferent and conflicting, not feeling integrated with the group;



are dissatisfied with the results of the examination session, have relatively low self-esteem and self-esteem, and their general well-being is diagnosed as experiencing loneliness, fatigue, inactivity or passivity according to the "Tree" test.

Thus, the empirical research conducted by us made it possible to obtain information about the difficulties experienced by first-year students in the process of initial socialization at the stage of adaptation. We confirmed the hypothesis of a positive relationship between students' active participation in extracurricular activities and successful socialization.

It is also necessary to know the role of socio-psychological factors in forming the motivation of student representatives for education and professional activity. This is, first of all, the social environment within the educational institution: communication with students, interaction with the administration and teachers. Therefore, such an aspect of the educational process as the formation of educational motivation should be on the agenda of university management bodies.

The proposed set of exercises and methodological recommendations is based on the belief that the main way to overcome difficult situations (the feeling of loneliness in quarantine) is the process of becoming aware of the situation itself. A person understands the problem, analyzes it, begins to think more effectively, and as a result - due to a decrease in social activity, he does not feel such a psycho-physiological balance. We proposed an educational form of work on optimizing the emotional state in a difficult life situation - forced isolation. In its framework, exercises have been developed to help in difficult life situations.

CONCLUSION

The theoretical analysis and synthesis of scientific knowledge support consideration of socialization as a process of personality formation in particular social conditions. In this process, individuals assimilate social experience and integrate the

norms and behavioural patterns of a group and society into their values and behaviour, undergoing personal change.

The analysis of scientific works on this problem showed that research on socialization in distance education is at the edge of scientific research. It became known that it is possible to form a new type of specialist who knows how to work with information, which is the main value of the information society.

Distance education is more cost-effective than traditional didactic systems because it can reach more students. Individualization in a modular didactic system is achieved through the specific characteristics of teaching and the rationalization of the pedagogical process, rather than through an increase in teaching work or a reduction in group size.

In modern conditions, the modular distance didactic system is considered the most effective form of distance education. Its person-oriented approach optimizes the educational process and maintains its integrity in achieving educational goals. It connects the cognitive and personal spheres of students and combines structured management of learning activities with ample opportunities for independent work.

REFERENCES

1. Андреева Д. А. О понятии адаптации, исследование адаптации студентов в условиях учебы в вузе (On the concept of adaptation: a study of student adaptation in university study). // Человек и общество. – Л.: Ленингр. ун-т, 2003. – С. 50–72.
2. Adasheva M. U. Ta'lim tizimida axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llashning dolzarbligi (The relevance of using information and communication technologies in the education system). // Pedagogika. – 2024. – № 2.
3. Плотников П. В. Основы социализации молодежи промышленного региона: монография (Foundations of youth socialization in an industrial region: a monograph). – Донецк: ДонНУ, 2004. – 558 с.
4. Нормаматова М. Виртуалистикада постноклассик эпистемология ғоялари (Ideas of postnonclassical epistemology in virtualistics): фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2018. – 40 б.
5. Каримова В. М. Ижтимоий психология (Social psychology): дарслик. – Тошкент: Фан ва технология, 2012. – 170-б.
6. Ғозиев Э. Г. Муомала психологияси (Psychology of communication). – Тошкент, 2001.

7. Акрамова Ф. А. Ижтимоий психология (Social psychology): ўқув қўлланмаси. – Тошкент: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2007. – 166 б.
8. Алексеева-Волк М. И. Сущность процесса социализации студентов высших учебных заведений (The essence of the socialization process of university students) [Электронный ресурс]. – URL: http://www.rusnauka.com/21_NIEK_2007/Psihologia/24227.doc.htm.
9. Королева С. С. Профессиональная социализация личности в процессе вузовского образования (Professional socialization of the individual in university education). // Вестник университета Российской академии образования. – 2010. – № 2 (50). – С. 77–80.
10. Tucker S. Y. Promoting socialization in distance education. // Turkish Online Journal of Distance Education. – 2012. – Vol. 13. – No. 1. – P. 174–182.
11. Nikishina S., Akhmetova L., Shaimardanova M. Socialization of foreign university students through the formation of reading literacy. – 2020. – URL: https://dspace.kpfu.ru/xmlui/handle/net/163176.
12. Almazova I. G. et al. Analysis and development of effective distance learning practices. // Propositos y representaciones. – 2021. – Article e1125.
13. Irwin C., Berge Z. Socialization in the online classroom. // E-Journal of Instructional Science and Technology. – 2006. – Vol. 9. – No. 1. – n1.
14. Shaimardanova M., Akhmetova L., Nikishina S. Socialization of foreign university students through the formation of reading literacy. // Journal of Social Studies Education Research. – 2020. – Vol. 11. – No. 1. – P. 42–63.
15. Alsubaie M. A. Distance education and the social literacy of elementary school students during the COVID-19 pandemic. // Heliyon. – 2022. – Vol. 8. – No. 7.
16. Mendoza P. Socialization to the academic culture: A framework of inquiry. // Revista de Estudios Sociales. – 2008. – No. 31. – P. 104–117.
17. Yanson R., Johnson R. D. An empirical examination of e-learning design: The role of trainee socialization and complexity in short term training. // Computers & Education. – 2016. – Vol. 101. – P. 43–54.
18. Roreger H., Schmidt T. C. Socialize online learning: Why we should integrate learning content management with Online Social Networks. // 2012 IEEE International Conference on Pervasive Computing and Communications Workshops. – IEEE, 2012. – P. 685–690.
19. Nicol D., Minty I., Sinclair C. The social dimensions of online learning. // Innovations in Education and Teaching International. – 2003. – Vol. 40. – No. 3. – P. 270–280.
20. Mellon C. A. From need to ownership: Socialization into online teaching. // Educational Technology. – 2003. – Vol. 43. – No. 2. – P. 47–50.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

JISMONIY TAYYORGARLIKNING SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA PSIXOLOGIK BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI (XORIJIY ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI ASOSIDA)

Kurbanov J. A.
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi o‘qituvchisi, podpolkovnik
E-mail: javlonk975@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada jismoniy tayyorgarlikning sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish va psixologik barqarorlikni mustahkamlashdagi o‘rni xorijiy ilmiy manbalarni qiyosiy-nazariy tahlil qilish asosida o‘rganilgan. Jismoniy faollikning stressni boshqarish, emotsional o‘zini tartibga solish, kognitiv faoliyat va ijtimoiy moslashuvga ta’sirini izohlovchi biologik, psixologik va ijtimoiy mexanizmlar tizimlashtirilgan. Ta’lim muassasalari hamda yuqori mas’uliyatli kasbiy tayyorgarlik uchun jismoniy mashg‘ulotlarni individuallashtirish, muntazamligini ta’minlash va psixologik qo‘llab-quvvatlash bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar taklif etilgan. Ish nazariy-analitik xususiyatga ega bo‘lib, unda mustaqil pedagogik tajriba natijalari keltirilmagan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tayyorgarlik, jismoniy faollik, sog‘lom turmush tarzi, psixologik barqarorlik, stressga chidamlilik, emotsional o‘zini boshqarish, sport pedagogikasi, kasbiy tayyorgarlik.*

РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ В ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ

Аннотация. *В статье на основе сравнительно-теоретического анализа зарубежных научных публикаций рассматривается роль физической подготовки в формировании здорового образа жизни и укреплении психологической устойчивости. Систематизированы биологические, психологические и социальные механизмы влияния двигательной активности на стрессоустойчивость, эмоциональную саморегуляцию, когнитивные функции и социальную адаптацию. Предложены практические рекомендации по индивидуализации и систематизации занятий физической подготовкой в образовательной и профессиональной среде. Работа носит теоретико-аналитический характер и не содержит результатов самостоятельного педагогического эксперимента.*

Ключевые слова: *физическая подготовка, физическая активность, здоровый образ жизни, психологическая устойчивость, стрессоустойчивость, эмоциональная саморегуляция, спортивная педагогика.*

THE ROLE OF PHYSICAL TRAINING IN PROMOTING A HEALTHY LIFESTYLE AND PSYCHOLOGICAL RESILIENCE

Abstract. *Based on a comparative theoretical review of international research, this article examines the role of physical training in promoting healthy lifestyles and psychological resilience. It systematizes biological, psychological, and social pathways through which physical activity may contribute to stress management, emotional self-regulation, cognitive performance, and social adjustment. Practical recommendations are proposed for individualized and consistent physical training integrated with psychological support in educational and professional settings. This is a theoretical review and does not report original experimental data.*

Keywords: *physical training, physical activity, healthy lifestyle, psychological resilience, stress management, emotional self-regulation, sports pedagogy.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda axborot oqimining ortishi, faoliyat sur'atining tezlashuvi va kamharakat turmush tarzining kengayishi inson salomatligiga yangi talablar qo'ymoqda. Jismoniy tayyorgarlik endilikda faqat kuch, tezkorlik va chidamlilikni rivojlantirish bilan cheklanmay, shaxsning stressli vaziyatlarga moslashishi, ish qobiliyatini saqlashi va sog'lom turmush tarzini kundalik odatga aylantirishi bilan ham bog'liq ko'rilmoqda. Bu masala, ayniqsa, ta'lim oluvchilar va faoliyati katta ruhiy hamda jismoniy zo'riqish bilan bog'liq kasb vakillari uchun muhimdir.

Psixologik barqarorlik deganda shaxsning noqulay vaziyatlarda o'z hissiyotlari va xatti-harakatlarini boshqarishi, o'zgaruvchan talablarga moslashishi hamda qiyinchilikdan keyin faoliyatini qayta tiklash imkoniyati tushuniladi. Mazkur sifat tug'ma va o'zgarmas holat emas: uning rivojlanishiga shaxsiy resurslar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, faoliyat tajribasi va sog'lom odatlar ta'sir ko'rsatadi [2]. Shu jihatdan jismoniy tayyorgarlik salomatlikka yo'naltirilgan tarbiya bilan psixologik tayyorgarlikni bog'lovchi muhim amaliy vosita sifatida o'rganiladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalarida turli yoshdagi kishilar uchun muntazam harakat faoliyati va o'tirib o'tkaziladigan vaqtni cheklashning sog'liqqa foydasi asoslab berilgan [1]. Biroq jismoniy mashg'ulotning psixologik natijasi uning mazmuni, davomiyligi, intensivligi, qatnashuvchining tayyorgarligi va mashg'ulot tashkil etilgan muhitga qarab o'zgaradi. Shu sababli jismoniy faollik bilan psixologik

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

barqarorlik o‘rtasidagi munosabatni bir yoqlama sabab-oqibat bog‘liqligi sifatida talqin qilish yetarli emas.

Maqolaning maqsadi — xorijiy ilmiy tadqiqotlarda bayon etilgan yondashuvlarni umumlashtirish orqali jismoniy tayyorgarlikning sog‘lom turmush tarzi va psixologik barqarorlikni shakllantirishdagi imkoniyatlarini aniqlashtirish hamda ta’lim va kasbiy tayyorgarlik amaliyoti uchun metodik tavsiyalarni asoslash. Tadqiqotning vazifalari jismoniy tayyorgarlikning asosiy tarkibiy jihatlarini tavsiflash, uning psixologik ta’sir mexanizmlarini tizimlashtirish, xorijiy tajribaning tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan tamoyillarini ajratish va amaliy qo‘llash shartlarini belgilashdan iborat.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODLARI

Maqola nazariy-tahliliy tadqiqot shaklida tayyorlandi. Tahlil materiali sifatida jismoniy faollik bo‘yicha xalqaro tavsiyalar, psixologik barqarorlikka oid nazariy ishlar hamda jismoniy mashqlarning kognitiv funksiyalarga ta’sirini ko‘rsatuvchi xorijiy tadqiqotlardan foydalanildi [1–4]. Dastlabki maqolada keltirilgan sport pedagogikasi va sog‘lom turmush tarziga oid umumiy qarashlar ham mazmuniy jihatdan qayta ishlanib, asosiy tadqiqot savoliga muvofiqlashtirildi.

Tadqiqotda ilmiy manbalarni mazmuniy tahlil qilish, tushunchalarni qiyoslash, sababiy mexanizmlarni nazariy modellashtirish va ilmiy-pedagogik umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Muayyan davlatlar kesimida statistik qiyoslash yoki bevosita tajriba-sinov o‘tkazilmagan. Binobarin, quyida berilgan xulosalar muallifning yangi empirik o‘lchovlari emas, mavjud adabiyotlardan olingan ilmiy dalillarning tizimlashtirilgan talqinidir.

Tahlilda «jismoniy madaniyat», «jismoniy faollik» va «jismoniy tayyorgarlik» tushunchalari farqlab qo‘llanildi. Jismoniy madaniyat salomatlik va harakat faoliyati bilan bog‘liq qadriyatlar hamda ijtimoiy amaliyotni ifodalaydi; jismoniy faollik energiya sarfini talab qiladigan har qanday skelet mushaklari harakatini; jismoniy tayyorgarlik esa belgilangan vazifalarni bajarish uchun zarur jismoniy sifatlar va funksional



imkoniyatlarni rivojlantirish jarayonini anglatadi. Mazkur farqlash maqolaning nazariy aniqligini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA NAZARIY ASOSLAR

Psixologik barqarorlik nazariyasida A. Mastenning qarashlari muhim o'rin tutadi. Olim barqarorlikning shakllanishini faqat favqulodda shaxsiy xususiyatlar bilan emas, balki kundalik hayotdagi moslashuv jarayonlari va mavjud himoya resurslari bilan izohlaydi [2]. Bunday yondashuv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini ham shaxsda o'zini boshqarish, maqsadga intilish va qiyinchilikni yengib o'tish tajribasini hosil qiluvchi pedagogik muhit sifatida baholashga imkon beradi.

Jismoniy faollikning fiziologik hamda kognitiv ta'sirini o'rgangan K. Erickson va hammualliflar tadqiqotida aerob mashqlar bilan bog'liq ayrim miya tuzilmalari va xotira ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan [3]. Bunday natijalar jismoniy mashg'ulotning faqat tashqi jismoniy sifatlar emas, balki bilish faoliyati bilan ham aloqadorligini ko'rsatadi. Ayni paytda alohida guruhda olingan natijalarni barcha yoshlar va kasblarga to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etish ilmiy jihatdan ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Xalqaro tavsiyalarda jismoniy faollik me'yorlari yosh, funksional holat va salomatlik imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi [1]. Katta yoshdagilar uchun haftalik o'rtacha intensivlikdagi aerob harakatning tavsiya etiladigan miqdori 150–300 daqiqani tashkil qiladi; mushaklarni mustahkamlovchi mashqlar ham muhim. Ushbu ko'rsatkich umumiy salomatlik me'yori sifatida qo'llanadi, kasbiy yoki harbiy jismoniy tayyorgarlik normativi sifatida esa qabul qilinmasligi kerak.

Jismoniy mashqlar psixologik barqarorlikka bir nechta yo'l orqali ta'sir qilishi mumkin. Biologik yo'nalishda yurak-qon tomir tizimi faoliyati, uyqu va tiklanish jarayonlari; psixologik yo'nalishda o'z imkoniyatini anglash, muvaffaqiyat tajribasi, intizom va emotsiyalarni boshqarish; ijtimoiy yo'nalishda esa hamkorlik, guruhga mansublik va qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Ushbu mexanizmlarning barchasi

har bir kishida bir xil kuch bilan yuzaga chiqmaydi; ularning samarasi mashg‘ulot dasturi va individual sharoitga bog‘liq.

Sport pedagogikasida jismoniy mashqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, yuklama va tiklanish muvozanatini saqlash, faoliyatni muntazam monitoring qilish asosiy metodik talablar sirasiga kiradi. Psixologik barqarorlikni maqsad qilgan dasturlarda ham faqat jismoniy ko‘rsatkichga emas, mashg‘ulotga ijobiy munosabat, xavfsizlik, mustaqil harakat qilish va qiyin vaziyatda o‘zini tutishga e’tibor qaratish kerak.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nazariy tahlil jismoniy tayyorgarlikning sog‘lom turmush tarzi va psixologik barqarorlik bilan aloqasini uch o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda izohlash imkonini berdi. Birinchi yo‘nalish — organizmning funksional moslashuvi: muntazam va moslashtirilgan yuklama chidamlilik, ish qobiliyati hamda tiklanish sifatini qo‘llab-quvvatlaydi. Ikkinchi yo‘nalish — xulqiy-psixologik rivojlanish: belgilangan mashg‘ulot tartibiga rioya qilish, real maqsad qo‘yish va natijani kuzatish o‘zini boshqarish tajribasini kuchaytiradi. Uchinchi yo‘nalish — ijtimoiy tajriba: jamoaviy mashg‘ulotlarda o‘zaro yordam, intizom va hamkorlik ko‘nikmalari rivojlanishi mumkin.

Jismoniy tayyorgarlikning ushbu imkoniyatlarini psixologik barqarorlikning bevosita va kafolatlangan oshishi bilan tenglashtirish mumkin emas. Me’yordan ortiq yuklama, tiklanishning yetishmasligi yoki jazolovchi raqobat muhiti aksincha zo‘riqish va mashg‘ulotga salbiy munosabatni kuchaytirishi mumkin. Shu bois mashg‘ulotning pedagogik qiymati uning qanchalik og‘irligida emas, balki vazifa va ishtirokchi imkoniyatlariga qanchalik mos tashkil etilishida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim muassasalari uchun jismoniy tayyorgarlikning ustuvor vazifasi harakat faolligini barqaror kundalik odatga aylantirishdir. Mashg‘ulotda individual tayyorgarlik darajasini hisobga olish, kichik bosqichli maqsadlar qo‘yish, o‘z-o‘zini baholash imkonini berish va muntazam ijobiy fikr-mulohaza taqdim etish maqsadga muvofiq. Bunda

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

natijani faqat yugurish vaqti yoki mashq soni bilan emas, mashg‘ulotda qatnashish muntazamligi, yuklamaga moslashish va o‘zini boshqarish ko‘nikmasi bilan ham baholash mumkin.

Yuqori mas’uliyatli kasbiy tayyorgarlikda, jumladan, harbiy xizmatchilarni tayyorlash jarayonida jismoniy sifatlar operativ vazifalarni bajarish imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtiriladi. Umumiy chidamlilik, kuch va tezkorlik bilan birga murakkab sharoitda vazifani davom ettirish, guruhda muvofiqlashgan harakat qilish va qaror qabul qilishdagi xotirjamlik muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq maxsus jismoniy mashqlar xavfsizlik, sog‘liq bo‘yicha ruxsat va mutaxassis nazorati ostida tashkil etilishi lozim.

Xorijiy ilmiy qarashlarni mahalliy amaliyotga tatbiq etishda uch tamoyil ajratiladi. Birinchisi — dalillarga tayanish: yuklama va faollik me’yorlarini xalqaro tavsiyalar hamda ishonchli tadqiqotlar bilan qiyoslash. Ikkinchisi — individuallashtirish: bir xil topshiriq barcha ishtirokchilarga teng darajada mos kelmasligini hisobga olish. Uchinchisi — kompleks yondashuv: jismoniy faollikni uyqu, ovqatlanish, tiklanish, psixologik yordam va ijtimoiy muhitdan ajratib ko‘rmaslik. Mazkur tamoyillar muayyan davlatlar dasturlarini mexanik ko‘chirish o‘rniga ilmiy natijalarning mazmunini mahalliy sharoitga moslashtirish imkonini beradi.

Sog‘lom turmush tarzining barqaror shakllanishi uchun faqat mashg‘ulot vaqtida beriladigan ko‘rsatmalar yetarli emas. O‘quvchi yoki xodim o‘zining kundalik harakat faolligini rejalashtira olishi, uzoq davom etgan o‘tirish vaqtini qisqartirishi, uyqu va dam olish tartibini saqlashi hamda salomatligidagi o‘zgarishlarga e’tiborli bo‘lishi kerak. Jismoniy tarbiya bo‘yicha o‘qituvchi esa bu jarayonda nazorat qiluvchi emas, o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantiruvchi pedagogik hamroh vazifasini bajaradi.

Psixologik barqarorlikni baholashda faqat subyektiv kayfiyatga suyanish yetarli emas. Tadqiqot yoki mashg‘ulot monitoringi uchun psixologik holatni aniqlovchi moslashtirilgan valid vositalar, mashg‘ulotga qatnashish qaydlari, jismoniy yuklamani bajarish ko‘rsatkichlari va tiklanishga oid ma’lumotlar birgalikda o‘rganilishi mumkin.

Shu bilan birga, bunday o‘lchovlar maxfiylik va ixtiyoriylik talablariga rioya qilingan holda amalga oshirilishi, ular klinik tashxis o‘rnini bosmasligi zarur.

Raqamli qurilmalar jismoniy faollikni qayd etish, mashg‘ulotlarni eslatish va shaxsiy natijalarni kuzatishga ko‘maklashadi. Masalan, qadamlar soni, harakat davomiyligi va yurak urish chastotasiga oid ma’lumotlar yuklamani muhokama qilishda yordamchi ko‘rsatkich bo‘lishi mumkin. Ammo aqlli qurilmalar taqdim etadigan «stress darajasi» kabi baholarni mustaqil psixologik tashxis sifatida talqin qilish noto‘g‘ri. Texnologiyalar pedagogik maslahat hamda individual qayta aloqa bilan uyg‘unlashtirilgandagina ularning amaliy foydasi ortadi.

Muayyan mashg‘ulot turining boshqasidan mutlaq ustunligini e’lon qilish ilmiy jihatdan asosli emas. Yurish, yugurish, suzish, harakatli o‘yinlar, umumrivojlantiruvchi va nafas mashqlari turli sharoitda qo‘llanishi mumkin. Tanlov qatnashuvchining yoshi, salomatligi, funksional imkoniyati, motivatsiyasi va muassasaning resurslariga ko‘ra amalga oshirilishi zarur. Pedagogik maqsadga yo‘naltirilgan tizimda har bir mashqning vazifasi, kuzatiladigan natijasi va xavfsizlik cheklovi oldindan aniq belgilanishi lozim.

Tahlilning muhim cheklovi shundaki, umumlashtirilgan manbalar turli ilmiy yo‘nalish va tadqiqot dizaynlarini ifodalaydi. Shu bois jismoniy tayyorgarlikning psixologik barqarorlikka ta’sirini raqamli foizlar yoki yagona samaradorlik koeffitsienti bilan ifodalash mazkur ish doirasida mumkin emas. Mazkur maqolaning natijasi statistik isbot emas, balki ilmiy ma’lumotlarga tayangan holda asosiy ta’sir yo‘nalishlari va pedagogik shartlarni tartibga solishdan iborat.

Amaliy tavsiyalar

O‘quv va kasbiy tayyorgarlik dasturlarida jismoniy mashg‘ulotlarni tashkil etishda boshlang‘ich funksional holatni baholash, yuklamani izchil oshirish, shaxsiy rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda qayta tiklanishga vaqt ajratish tavsiya etiladi. Har bir ishtirokchi uchun bajarilishi mumkin bo‘lgan kichik maqsadlar tanlanishi va muvaffaqiyat darajasi muntazam muhokama qilinishi maqsadga muvofiq.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Jismoniy tayyorgarlikni psixologik barqarorlik bilan bog‘lash uchun mashg‘ulot yakunida qisqa refleksiya tashkil etish mumkin: ishtirokchi qaysi vazifada qiyinchilikka duch kelgani, qanday yo‘l bilan uni hal qilgani va keyingi safar nimalarni o‘zgartirishi haqida fikr bildiradi. Bu mashqni faqat harakat takroridan maqsadli o‘quv tajribasiga aylantiradi.

Jamoaviy mashg‘ulotlarda o‘zaro yordam va hamkorlik talab etuvchi vazifalardan foydalanish, muvaffaqiyatni shaxslar o‘rtasidagi keskin taqqoslash emas, individual o‘sish orqali rag‘batlantirish zarur. Jismoniy imkoniyati yoki sog‘lig‘i bo‘yicha cheklovi mavjud ishtirokchilar uchun muqobil faoliyat yo‘llari ko‘zda tutilishi kerak.

Mazkur takliflar amaliyotga joriy etilganda dastur samaradorligini baholash uchun oldingi va keyingi o‘lchovlarga tayangan, nazorat guruhi mavjud bo‘lgan tadqiqotlarni rejalashtirish muhim. Bunday yondashuv pedagogik tavsiyalarning faqat nazariy asoslanganini emas, mahalliy sharoitdagi haqiqiy natijasini ham tekshirish imkonini beradi.

XULOSA

Xorijiy ilmiy adabiyotlarni nazariy-qiyosiy tahlil qilish jismoniy tayyorgarlik sog‘lom turmush tarzi va psixologik barqarorlikni qo‘llab-quvvatlovchi muhim pedagogik omil ekanini ko‘rsatdi. Uning ta’siri faqat jismoniy sifatlarning rivojlanishi bilan cheklanmay, emotsiyalarni tartibga solish, qat’iyat, o‘z imkoniyatini anglash va hamkorlik ko‘nikmalari bilan ham bog‘liq.

Jismoniy mashg‘ulotning ijobiy psixologik ahamiyati muntazamlik, individual moslik, xavfsizlik, pedagogik rag‘bat va yetarli tiklanish shartlari bajarilganda yuzaga chiqishi mumkin. Shu sababli yuklama hajmining ortishi o‘z-o‘zidan psixologik barqarorlikning oshishini anglatmaydi.

Ta’lim va kasbiy tayyorgarlik amaliyotida jismoniy mashqlarni refleksiya, o‘z-o‘zini kuzatish hamda jamoaviy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Raqamli monitoring vositalari yordamchi vazifani bajarishi, psixologik baholash va

malakali mutaxassis xulosasining o‘rnini bosmasligi lozim. Kelgusida taklif etilgan metodik shartlarning samaradorligini O‘zbekiston sharoitida tajriba-sinov ishlari orqali tekshirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. WHO guidelines on physical activity and sedentary behaviour. — Geneva: WHO, 2020. — ISBN 978-92-4-001512-8. https://www.who.int/publications/b/55518
2. Masten A. S. Ordinary magic: Resilience processes in development // American Psychologist. — 2001. — Vol. 56, № 3. — P. 227–238. DOI: 10.1037/0003-066X.56.3.227.
3. Erickson K. I., Voss M. W., Prakash R. S. et al. Exercise training increases size of hippocampus and improves memory // Proceedings of the National Academy of Sciences. — 2011. — Vol. 108, № 7. — P. 3017–3022. DOI: 10.1073/pnas.1015950108.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi Qonuni. — 2015-yil 4-sentabr, O‘RQ-394-son.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. — 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA – PEDAGOG KASBIY KAMOLOTINING UZLUKSIZ TARAQQIYOT SIFATIDA

Xusayinova Go'zal Abdurasulovna, p.f.f.d.(PhD), NamDPI
xusayinovaguzal13@gmail.com
orcid.org/0009-0003-3845-0322
Muxitdinova Jamilaxon Ruslanovna p.f.f.d.(PhD), NamDPI
mjamila73-11@yandex.ru
orcid.org/0009-0001-2663-1906

Annotatsiya: *Maqolada "Pedagogik akmeologiya" fanini o'zlashtirish jarayonida akmeologik qonuniyatlar, mexanizmlar, shart-sharoit va omillar hamda shaxsning o'z-o'zini takomillashtirishi to'g'risidagi bilimlar tizimini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Ta'lim jarayoni subyektlarini akmeologik qo'llab-quvvatlash pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini yuksaltirishni taqozo etishi asoslangan, pedagogik akmeologiyaning tarkibiy komponentlari, akmetexnologiyalar, kasbiy mahorat mezonlari va darajalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik akmeologiya, akme, ontogenez, korreksion pedagogika, kasbiy mahorat, akmetexnologiyalar, pedagogik qobiliyatlar.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ, КАК НЕПРЕРЫВНОЕ РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕДАГОГОВ

Хусайинова Гузал Абдурасуловна (PhD), НамГПИ
xusayinovaguzal13@gmail.com
orcid.org/0009-0003-3845-0322
Мухитдинова Жамилахон Руслановна (PhD), НамГПИ
mjamila73-11@yandex.ru
orcid.org/0009-0001-2663-1906

Аннотация: *В статье проанализированы вопросы формирования системы знаний об акмеологических закономерностях, механизмах, условиях, факторах и самосовершенствовании личности в процессе усвоения дисциплины «Педагогическая акмеология». В статье обосновано, что акмеологическая поддержка субъектов образовательного процесса требует повышения профессиональной компетентности педагогических кадров, а также изложены структурные компоненты педагогической акмеологии, акметехнологии, критерии и уровни профессионального мастерства.*

Ключевые слова: *педагогическая акмеология, акме, онтогенез, коррекционная педагогика, профессиональное мастерство, акметехнологии, педагогические способности.*

PEDAGOGICAL ACMEOLOGY AS A CONTINUOUS DEVELOPMENT OF TEACHERS' PROFESSIONAL EXCELLENCE

Khusayinova Guzal Abdurasulovna, (PhD), NamSPI
xusayinovaguzal13@gmail.com
orcid.org/0009-0003-3845-0322
Mukhitdinova Jamilakhon Ruslanovna (PhD), NamSPI
mjamila73-11@yandex.ru
orcid.org/0009-0001-2663-1906

Abstract: *The article analyzes the issues of forming a system of knowledge about acmeological regularities, mechanisms, conditions, factors, and personal self-improvement in the process of mastering the discipline "Pedagogical Acmeology." It is substantiated in the article that acmeological support for subjects of the educational process requires improving the professional competence of teaching staff, and the structural components of pedagogical acmeology, acmetechnologies, criteria, and levels of professional skill are also outlined.*

Keywords: *pedagogical acmeology, acme, ontogenesis, correctional pedagogy, professional skill, acmetechnologies, pedagogical abilities.*

KIRISH

Hozirgi sharoitda uzluksiz kasbiy takomillashuvga intiluvchi mutaxassislar ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va innovatsion texnologiyalarni jamiyat hayotiga tatbiq etishning muhim resursiga aylanmoqda. Pedagog-tadqiqotchi o‘z faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab, uni o‘z-o‘zini baholash asosida takomillashtirishi hamda kasbiy muammolarni tezkor va kreativ hal eta olishi lozim. Muntazam ravishda o‘z ustida ishlash ehtiyoji esa pedagogning kasbiy mahorati va shaxsiy sifatlariga qo‘yilayotgan talablarning tobora ortib borishi bilan izohlanadi.

Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar pedagogning kasbiy rivojlanishini tasodifiy jarayon sifatida emas, balki ilmiy asoslangan, boshqariladigan va diagnostika qilinadigan jarayon sifatida tashkil etishni taqozo etmoqda. Bu esa pedagogning kasbiy kamolot cho‘qqisiga

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

erishish qonuniyatlarini o‘rganuvchi akmeologik bilimlarga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi. Shu jihatdan, ushbu maqolaning maqsadi pedagogik akmeologiyaning mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari hamda pedagog kasbiy mahoratining mezon va darajalarini nazariy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

“Pedagogik akmeologiya” fanini o‘rganishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – akmeologik qonuniyatlar, mexanizmlar, shart-sharoit va omillar, shuningdek, rivojlanish va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida yuksak cho‘qqilarga erishish yo‘llari haqidagi bilimlar tizimini shakllantirishdan iborat. Oliy ta’lim tizimida akmeologik muammolarni tadqiq etish fanning nazariy-tushunchaviy apparatini aniqlashtirishni hamda oliy, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi pedagoglarining psixologik-pedagogik tayyorgarligini pedagogika, psixologiya va akmeologiya yutuqlari asosida yuksaltirishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Akmeologiya (yunoncha “akme” – eng yuqori nuqta, gullab-yashnash davri va “logos” – ta’limot) – shaxsning yuksak kamolot cho‘qqilariga erishish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, akmeologik yondashuv ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan mohiyatini ochib beradi [1]. Mazkur atama kamolot davri psixologiyasini ifodalovchi tushuncha sifatida N.A.Ribnikov tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan, uning mustaqil fan sifatida taraqqiy etishi esa A.A.Bodalev ishlari bilan bog‘liq [2]. B.G.Ananyev, A.A.Bodalev, A.A.Derkach, N.V.Kuzmina akmeologiyani katta yoshdagi shaxs taraqqiyotini kompleks tadqiq etuvchi fan sifatida talqin etganlar [3].

Akmeologiya yetuklik davrini boshlanishi 18–20 yoshlarga to‘g‘ri keluvchi alohida yosh bosqichi sifatida qaraydi. Bunda organizmning holati me’yorga nisbatan individual xususiyat sifatida baholanadi, shaxsiy xususiyatlar deganda esa insonning voqelikka, o‘ziga va o‘z subyektiv sifatlariga nisbatan shakllangan munosabatlari, ya’ni kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi fazilatlar majmui tushuniladi [4].

Kasbiy faoliyatda “akme” deganda mutaxassis faoliyati mazmunini tashkil etuvchi vazifalarni barqaror ravishda yuqori darajada va muvaffaqiyatli hal etish holati

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

nazarda tutiladi. "Akme"ga erishish obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarning o'zaro ta'siri mahsulidir: uning ichki omillari sifatida iste'dod, qobiliyatlar, jismoniy va ruhiy salomatlikni, tashqi omillari sifatida esa tarbiya, o'qitish sharoitlari va ta'lim sifatini ko'rsatish mumkin [5]. Biroq akmeologiya kasblar kesimidagi "akme"larni kataloglashtirish bilan cheklanganida, u tavsifiy fan darajasida qolib ketgan bo'lar edi. Shu bois u ilk davridanoq turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash strategiya va texnologiyalarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Ijtimoiy, texnik, gumanitar va tabiiy fanlar tutashgan nuqtada yangi ilmiy paradigma sifatida shakllangan akmeologiya katta yoshdagi insonning individ, shaxs va faoliyat subyekti sifatida to'laqonli namoyon bo'lishiga, ya'ni (eng avvalo, kasbiy faoliyatda) "akme"ga erishishiga imkon beruvchi optimal omillar va shart-sharoitlarni aniqlash muammosini hal etadi. Uning taraqqiyoti inson qiyofasini yaxlit o'rganish, xususan, yetuklik bosqichidagi rivojlanish qonuniyatlarini oldingi yosh bosqichlaridagi hayot tarixi bilan uzviy bog'liqlikda tadqiq etish ehtiyojidan kelib chiqadi.

Shaxs kamolotining jismoniy, aqliy, shaxsiy va faoliyat subyekti sifatidagi jihatlari o'zaro bog'liq bo'lsa-da, inson bir vaqtning o'zida barcha cho'qqilarni zabt eta olmaydi. Masalan, sport yutuqlaridagi "akme" shaxslararo munosabatlardagi yetuklik davriga, ilmiy kashfiyotlar cho'qqisi esa salomatlikning eng yuqori nuqtasiga har doim ham mos tushavermaydi [5].

Katta yoshdagi insonning rivojlanishi ko'p jihatdan ontogenezning turli bosqichlaridagi salomatligi, qaysi qadriyatlar uning xatti-harakatlarini belgilovchi shaxsiy qadriyatlarga aylangani, qanday bilish, muloqot va mehnat tajribasini egallagani hamda tanlagan kasbida o'zini qay darajada ro'yobga chiqarayotgani bilan belgilanadi. B.G.Ananyev ta'kidlaganidek, ontogenez – insonning individual rivojlanish jarayoni bo'lib, uning har bir bosqichi o'ziga xos imkoniyatlar va "sensitiv" davrlarga ega [4]. Shu munosabat bilan akmeologiya har bir yosh bosqichida qaysi taraqqiyot cho'qqilari – "mikroakme"larga erishilishi lozimligini aniqlashda pedagogika bilan chambarchas

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

aloqadorlikda ish ko‘radi. Bugungi kunda amaliy akmeologiyaning pedagogik, boshqaruv, siyosiy, harbiy, tibbiy va boshqa tarmoqlari haqida so‘z yuritish mumkin.

Pedagogik talqinda akmeologiya insonning yetuklik davridagi rivojlanishini hamda uning individ, shaxs va faoliyat subyekti (asosan, professional) sifatida taraqqiyot cho‘qqisiga erishishini o‘rganadi. Shu bilan birga, ontogenezning har bir bosqichida bola, o‘smir va o‘spirin rivojlanishini shu yosh uchun xos cho‘qqiga olib chiqishga imkon beruvchi zarur va yetarli shart-sharoitlarni hamda bir bosqich cho‘qqisidan keyingisiga o‘tishni ta’minlovchi tarbiya vositalari tizimini aniqlash ham uning muhim vazifasidir.

Agar rivojlanishning muayyan bosqichida shart-sharoitlar noqulay kechgan bo‘lsa, akmeologiya pedagogika bilan hamkorlikda maxsus tarbiyaviy ta’sirlar va maqsadli faoliyatni tashkil etish orqali hayot yo‘lining oldingi davrida erishilmay qolgan optimal rivojlanishni kompensatsiya qilish hamda rivojlanishdagi og‘ishlarni korreksiyalash yo‘llarini belgilaydi. Masalan, kasallikdan so‘ng organizm tizimlarida qaytarib bo‘lmas buzilishlar yuzaga kelsa, shaxsning individual “akme”ga erishish imkoniyatlari cheklanadi. Axloqiy-ma’naviy rivojlanish uchun noqulay muhitda esa soxta qadriyatlar shakllanib, boshqalarga hurmatsizlik, o‘z kuchiga ishonchsizlik, qiyinchiliklarga bardoshsizlik barqaror xarakter xususiyatiga aylanishi mumkin. Bunday og‘ishlar individuallik tuzilmasiga chuqur singib ketsa, an’anaviy tarbiya vositalari ularni bartaraf etishga yetarli bo‘lmay, shaxsning yetuklik davridagi “akme”si ro‘yobga chiqmaydi.

Xuddi shuningdek, maktab yillarida tanlanadigan mutaxassislikka yuqori motivatsion intilish uchun psixologik zamin hozirlanmagan bo‘lsa, shaxs yuqori malakali mutaxassis darajasiga ko‘tarila olmaydi. Shu bois akmeologiya va pedagogika sog‘lom turmush tarzi va mehnat qobiliyatini saqlashga barqaror munosabatni shakllantiruvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish, pedagoglarning psixologik-pedagogik malakasini oshirish kabi muammolarni hal etishda sa’y-harakatlarini birlashtiradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bu yo‘nalishlardan biri insonning qadriyatli yo‘nalganligini tubdan o‘zgartirish, ya’ni uning hayotini yangi mazmun bilan boyitish, yaqin atrof-muhitiga, o‘ziga, faoliyatiga va bo‘sh vaqtiga munosabatini qayta shakllantirishdir. Bu borada kattalar korreksion pedagogikasi – shaxsning bilish imkoniyatlarini, emotsional-irodaviy sifatlarini, qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat insonni nafaqat mutaxassis, balki, eng avvalo, shaxs sifatida takomillashtirishga xizmat qiladi [5]. Pedagogika va akmeologiyaning navbatdagi umumiy vazifasi katta yoshdagi inson rivojlanishida inqirozlarga olib keluvchi hayotiy vaziyatlarni aniqlash va tasniflashdan iborat.

NATIJALAR

Akmeologiya kompleks fan sifatida individ va shaxs rivojlanishi cho‘qqilari, eng muhimi, kasbiy faoliyatning turli sohalaridagi professional natijalarga erishish fenomenologiyasi, qonuniyatlari va mexanizmlari haqida salmoqli ma’lumotlarni to‘plagan [6; 7]. Pedagogika uchun akmeologlarning shaxsni kasbiy faoliyatning quyi darajasidan yuqori – ijodkor, novator, mohir usta darajasiga ko‘tarilishiga xizmat qiluvchi metodlarni nazariy asoslash va amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan izlanishlari alohida ahamiyatga ega. Ana shu ehtiyoj akmeologiya taraqqiyotida yangi yo‘nalish – pedagogik akmeologiyaning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Pedagogik akmeologiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqishda N.V.Kuzmina tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Olima pedagogik tizimlar samaradorligi bevosita pedagog professionalligiga bog‘liq ekanini asoslab, pedagogik faoliyat mahsuldorligining besh darajasini ajratgan: reproduktiv (o‘zlashtirganini boshqalarga yetkaza olish), adaptiv (bilimlarni tinglovchilar xususiyatlariga moslashtira olish), lokal-modellashtiruvchi (alohida mavzular bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini shakllantirish strategiyasini egallash), tizimli-modellashtiruvchi bilim (fan bo‘yicha yaxlit bilimlar tizimini shakllantira olish) hamda tizimli-modellashtiruvchi faoliyat va xulq-atvor (fanni shaxsni tarbiyalash vositasiga aylantira olish) darajalari [6]. Ushbu

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tasnif pedagog kasbiy o‘sishining ketma-ket bosqichlarini aniq belgilab, akmeologik diagnostika va loyihalash uchun metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik akmeologiya – pedagog faoliyatida professionallik va yuksak malakaga erishish yo‘llarini o‘rganuvchi fan. Zamonaviy kasbiy ta’limda akmeologik yondashuv kasbiy motivatsiyani kuchaytirish, ijodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarishni rag‘batlantirish, pedagogning muvaffaqiyatga erishishi uchun shaxsiy resurslarni aniqlash va ulardan samarali foydalanishni ta’minlashga yo‘naltirilgan. Biroq mazkur sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning ilmiy-pedagogik tajribasi turlicha bo‘lgani bois hozirga qadar pedagogik akmeologiyaning yagona konsepsiyasi ishlab chiqilmagan.

MUHAKAMA

Fikrimizcha, pedagogik akmeologiya konsepsiyasini shakllantirishda quyidagi tarkibiy komponentlarga tayanish maqsadga muvofiq:

1. individuallikning akmeologik konsepsiyasi;
2. pedagogik mukammallikning akmeologik konsepsiyasi;
3. salomatlikning akmeologik konsepsiyasi;
4. amaliy vositalar;
5. akmeologik ko‘mak (qo‘llab-quvvatlash);
6. akmeologik konsultatsiya.

Individuallik – inson taraqqiyotining eng yuqori, ideal bosqichi bo‘lib, insonning individ, shaxs va faoliyat subyekti sifatidagi xususiyatlarini hamda betakror o‘ziga xosliklarini mujassamlashtiradi. Uning rivojlanishi insonning harakat, fiziologik, intellektual, ma’naviy, salomatlik va ijodkorlik salohiyatini kamol toptirish orqali ro‘y beradi. Inson uchun kasbiy faoliyatda o‘zining noyob individualligini anglashi nihoyatda muhim, chunki bu uning mohiyatining yaxlit va haqiqiy holatiga yaqinlashuvidir. Ushbu potensiallarni aniqlash asosida cho‘qqilarga erishish shaxsning harakatlari, xulq-atvor reaksiyalari va faktlarga tayangan holda prognozlanadi [6].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga mo‘ljallangan akmetexnologiyalar sifatida kognitiv faollikni oshirishning quyidagi strategiyalarini maqbul deb hisoblash mumkin [8; 9]:

– **muammoli ta’lim** – tinglovchilarning mavjud bilim va tajribasiga asoslangan rivojlanish trayektoriyasi doirasida muammoli vaziyatlar va pedagogik keyslarni yechish orqali kasbiy ko‘nikmalarni takomillashtiradi;

– **loyihaviy ta’lim** – real yoki simulyatsiya qilingan vaziyatlar vositasida faoliyatni modellashtirish va real amaliyotga moslashish imkonini yaratadi;

– **geymifikatsiya** (o‘yin elementlarini ta’lim kontekstida qo‘llash) – o‘yinning rivojlantiruvchi, korreksion, didaktik va ijtimoiy funksiyalarini pedagogik jarayonga moslashtirib, tinglovchilarda motivatsiya, kreativlik, tashabbuskorlik va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

– **aralash (gibrid) ta’lim** – an’anaviy va raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtirib, ochiqlik, interaktivlik va shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyillari asosida kasbiy ko‘nikmalarni samarali o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

Pedagogik mukammallik pedagogik san’at, kasbiy mahorat va pedagog individualligi bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi. Pedagogik mahorat – pedagogning kasbiy mavjudlik usuli, shaxsiy imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq foydalanishi va “akme”ga ko‘tarilishning muhim shartidir. Inson salomatligini uning umumiy potensialini (individ, shaxs, faoliyat subyekti, individuallik) ro‘yobga chiqarishning maqsadga muvofiqlik tamoyillari asosida ko‘rib chiqish lozim; akmeologik yondashuv salomatlikni ma’rifat va ta’lim bilan uyg‘unlashtiradi. Salomatlikning akmeologik konsepsiyasi uning biologik, psixologik, pedagogik va tibbiy jihatlarini birlashtirib, jismoniy, ruhiy va axloqiy darajalarda salomatlikni saqlash va mustahkamlashni nazarda tutadi.

Amaliy vositalar akmeologik loyihalash, ko‘mak va konsultatsiya metodlarini qamrab oladi. Akmeologik loyihalash hayotiy strategiya va kasbiy rivojlanish yo‘nalishini belgilashda, akmeologik ko‘mak tashkiliy-pedagogik tadbirlarda



qo‘llaniladi. Akmeologik konsultatsiya esa pedagoglarga kasbiy cho‘qqilarga erishish, pedagogik mahoratni egallash, o‘z-o‘zini anglash va ro‘yobga chiqarishda individual yordam ko‘rsatishga qaratilgan [7].

Akmeologiya nuqtai nazaridan professionallik – “akme”ga, ya’ni kasbiy mahorat cho‘qqisiga intiluvchi, o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi shaxsning integral sifatidir [7]. O‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarishning akmeologik texnologiyalarini egallash globallashuv sharoitida pedagogning yuksak kasbiy mahoratiga erishish strategiyasi va taktikasini belgilashga yordam beradi. Pedagogik faoliyat o‘qitish, rivojlantirish, tarbiyalash, diagnostika, korreksiya, konsultatsiya, boshqaruv, refleksiya kabi ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab olib, hamisha nostandart va ko‘p funksiyali vazifalarni hal etishni talab qiladi. A.K.Markovaning fikricha, pedagogning tayyorgarlik darajasi bilan kasbni egallash yo‘llari o‘rtasida muayyan bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bo‘lajak pedagogning individual xususiyatlarini inobatga olish muhimdir [10].

Pedagogning kasbiy mahorati quyidagi mezonlarga muvofiq kelishi lozim [11]:

– **obyektiv mezonlar:** pedagogik faoliyatning asosiy (o‘qitish, rivojlantirish, tarbiyalash) va yordamchi (diagnostika, korreksiya, konsultatsiya, tashkiliy-boshqaruv) turlaridagi samaradorlik;

– **subyektiv mezonlar:** barqaror pedagogik yo‘nalganlik, kasbning qadriyatli mohiyatini anglash, o‘ziga professional sifatida ijobiy munosabat, mehnatdan qoniqish;

– **protsessual mezonlar:** ijtimoiy maqbul, insonparvarlikka yo‘naltirilgan usul va texnologiyalardan foydalanish;

– **natijaviy mezonlar:** o‘quvchilar shaxsiy fazilatlarini shakllantirish va ularni jadal o‘zgarayotgan jamiyat hayotiga tayyorlash kabi jamiyat talab qilayotgan natijalarga erishish.



Pedagogning kasbiy mahorat darajalari – uning pedagogik faoliyatning yuqori ko‘rsatkichlari sari bosib o‘tadigan qadamlari va bosqichlari bo‘lib, ular quyidagilardan iborat [11]:

– **kasbni egallash darajasi** – kasbga moslashish, me’yorlar, usul va texnologiyalarni dastlabki o‘zlashtirish;

– **pedagogik mahorat darajasi** – ilg‘or pedagogik tajribaning eng yaxshi namunalarini yuqori saviyada tatbiq etish, individual yondashuv va talabaga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish;

– **kasbda o‘zini ro‘yobga chiqarish darajasi** – kasb vositasida o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijobiy sifatlarni mustahkamlash, individual faoliyat uslubini qaror toptirish;

– **pedagogik ijodkorlik darajasi** – o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi shakl va metodlarini yaratish bo‘yicha mualliflik takliflarini ilgari surish.

Yuksak kasbiy mahoratga erishish uchun pedagog faoliyat talablariga javob beruvchi va uni o‘zlashtirish muvaffaqiyatini belgilovchi individual-psixologik xususiyatlar majmui – maxsus pedagogik qobiliyatlarga ega bo‘lishi lozim. Ular umumiy qobiliyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bilimlarni o‘zlashtirish va mahoratni amalga oshirishda nisbiy yengillik va samaradorlikni ta’minlaydi. Qobiliyatlar shaxs xususiyatlari bo‘lsa, pedagogik mahorat yuqori saviyada bajariladigan faoliyat harakatlaridir. Pedagogik qobiliyatlar qatoriga kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, talabchanlik, pedagogik takt, tashkilotchilik hamda nutqning soddaligi, ravshanligi va ishonarliligi kiradi.

Pedagogik qobiliyatlarning shakllanganlik darajasi pedagogning kasbiy mahorat darajalari bo‘ylab harakatlanish sur’atini belgilaydi. Masalan, pedagogik kuzatuvchanlik va takt yetarli rivojlanmagan pedagog kasbni egallash darajasida uzoq muddat qolib ketishi mumkin, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik tasavvuri yuqori bo‘lgan pedagog esa nisbatan qisqa vaqtda pedagogik ijodkorlik darajasiga ko‘tariladi. Shu bois

pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida pedagogik qobiliyatlarni akmeologik diagnostika qilish hamda individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalash maqsadga muvofiqdir [7].

XULOSA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik akmeologiya individuallik, pedagogik mukammallik va salomatlik konsepsiyalarini amaliy vositalar – akmeologik loyihalash, ko‘mak va konsultatsiya bilan uyg‘unlashtirgan holda pedagog kasbiy o‘sishining yaxlit tizimini taklif etadi. Muammoli, loyihaviy, gibrid ta’lim va geymifikatsiya kabi akmetexnologiyalar esa ushbu tizimni amaliyotga tatbiq etishning samarali vositalari hisoblanadi.

Pedagogik akmeologiyaning markaziy tushunchalaridan biri pedagogning kasbiy mahorati bo‘lib, u pedagog shaxsining integral xususiyati sifatida kasbiy faoliyatning bir necha turini egallaganlikni hamda ta’lim-tarbiya vazifalarini samarali hal etishni ta’minlovchi kasbiy ahamiyatli psixologik sifatlar majmuini nazarda tutadi. Pedagogning uzluksiz kasbiy rivojlanishini akmeologik yondashuv asosida tashkil etish uning kasbiy kamolot cho‘qqisi – “akme”ga erishishining muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Деркач А.А., Зазыкин В.Г. Акмеология: учебное пособие. – СПб.: Питер, 2003. – 256 с.
2. Bodalev A.A. Akmeologiya o‘quv va ilmiy fan sifatida. – M., 1993.
3. Tillayeva G. Akmeologiya asoslari: o‘quv qo‘llanma. – T.: “Tafakkur Bo‘stoni”, 2014. – 192 b.
4. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1968. – 339 с.
5. Бодалев А.А. Вершина в развитии взрослого человека: характеристики и условия достижения. – М.: Флинта; Наука, 1998. – 168 с.
6. Кузьмина Н.В. Предмет акмеологии. – СПб.: Политехника, 2002. – 189 с.
7. Деркач А.А. Акмеологические основы развития профессионала. – М.: МПСИ; Воронеж: МОДЭК, 2004. – 752 с.
8. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T.: Sano-standart, 2015. – 120 b.

9. Xolmurodov A.Sh. Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlarining malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish: ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 96 b.

10. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. – 308 с.

11. Маркова А.К. Психология труда учителя. – М.: Просвещение, 1993. – 192 с.

12. Abdurasulovna, K. G. (2022). Opportunities for the formation of students' creative thinking in technology classes. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(5), 187-191.

13. Abdurasulovna, X. G. Z., & Qizi, M. O. G. M. (2025). O 'QUV DIDAKTIK TA'MINOT ORQALI BO 'LAJAK PROFESSIONAL TA'LIM MUTAXASSISLARINI KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. Research Focus, 4(Scecial Issue 3), 329-331.

ADABIYOT DARSLIKLARIDA HISSIY-EMOTSIONAL KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Magistrant Abdullayeva Zebiniso Abdurasul qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti
Email: zebinisoabdullayeva007@gmail.com

Annotatsiya. *Adabiyot darsliklarida hissiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha xorijiy va milliy tajribalar tahlil qilinar ekan, o'quvchilarning o'z tuyg'ularini anglash, boshqarish va empatiya ko'nikmalarini shakllantirish uchun samarali model taklif etildi. Qiyosiy, tarkibiy-tahliliy va pedagogik modellashtirish usullari asosida, darsliklarda emotsional kompetensiyalarni chuqur rivojlantirish uchun mustaqil topshiriqlar, mumtoz adabiyotdan zamonaviy hayotga moslashtirilgan mashg'ulotlar va baholash indikatorlari ishlab chiqish zarurligi asoslandi. Bu yondashuv o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy yetukligini kuchaytiradi.*

Kalit so'zlar: *adabiyot darsligi, hissiy kompetensiya, emotsional tarbiya, qiyosiy tahlil, pedagogik modellashtirish, mumtoz adabiyot, empatiya, o'quvchi rivoji.*

РАЗВИТИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ЧУВСТВЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В УЧЕБНИКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. *Сравнительный анализ зарубежного и национального опыта развития эмоционально-чувственных компетенций в учебниках литературы позволил предложить эффективную модель формирования навыков осознания, управления эмоциями и эмпатии у учащихся. Использование сравнительного, структурно-аналитического и педагогического моделирования показало необходимость внедрения самостоятельных заданий, адаптированных классических текстов и новых критериев оценки для глубокого развития эмоциональных компетенций. Такой подход способствует личностному и социальному росту школьников.*

Ключевые слова: *учебник литературы, эмоциональная компетенция, эмоциональное воспитание, сравнительный анализ, педагогическое моделирование, классическая литература, эмпатия, развитие учащихся.*

DEVELOPMENT OF EMOTIONAL AND AFFECTIVE COMPETENCIES IN LITERATURE TEXTBOOKS

Abstract. *Analysis of international and national practices in developing emotional and affective competencies in literature textbooks led to the proposal of an effective model to cultivate students' emotional*

awareness, self-regulation, and empathy. Using comparative, structural-analytical, and pedagogical modeling methods, the study highlights the need for independent tasks, adapted classical materials, and new assessment criteria to deepen emotional competencies. This approach enhances students' personal and social development.

Keywords: *literature textbook, emotional competence, emotional education, comparative analysis, pedagogical modeling, classical literature, empathy, student development.*

KIRISH

So‘nggi yillarda ijtimoiy va madaniy hayotdagi o‘zgarishlar ta’lim tizimida ham yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, o‘quvchilarda hissiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish muhim vazifa sifatida ilgari surilmoqda. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va unga asoslangan o‘quv dasturlari, shuningdek, adabiyot va pedagogikaning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilgan Akbarov fikrlari mazkur masalaning normativ va nazariy asoslarini belgilaydi. Adabiyot darsliklarida hissiy-emotsional tarbiya salohiyati to‘liq ochilmagan bo‘lib, kitobiy bilimlar bilan cheklanib qolish o‘quvchi shaxsini har tomonlama, xususan, emotsional yetuklikka erishishda to‘siq bo‘lmoqda.

Fikrimizcha, adabiy asarlarni o‘rganishda emotsional rezonansga erishish uchun zamonaviy va mumtoz adabiyot namunalaridan samarali foydalanish zarur. Bu jarayonda qiyosiy metod va innovatsion pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Ilmiy va amaliy tahlillar xorijiy tajribada hissiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilayotganini, O‘zbekiston darsliklarida esa bu yo‘nalish yetarli ochilmaganini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi adabiyot darsliklarida hissiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishga doir xorijiy hamda milliy tajribalarning solishtirma tahlilini amalga oshirish va O‘zbekiston sharoitlariga mos modelni yaratishdir. Bu jarayonda qiyosiy va tarkibiy-tahliliy yondashuvlar, mumtoz adabiy manbalarni interpretatsiya qilish va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Hissiy-emotsional kompetensiyalar masalasida turli nazariy yondashuvlar mavjud. Saidbekova emotsional kompetentlikni shaxsning stressni boshqarish va o‘zini tuta olish qobiliyati bilan bog‘laydi; bu kompetensiya psixologik barqarorlik va ijtimoiy moslashuv nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Maxmudova esa ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni ta’lim jarayonida, uzluksiz ta’lim tizimi va raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq holda ko‘radi. Umumiy jihat shundaki, hissiy-emotsional kompetensiya o‘quvchi shaxsining rivojlanishida muhim omil sifatida qaraladi, biroq tarkibiy komponentlari va namoyon bo‘lish shakllarida yakdillik yo‘q.

Urinova adabiyot darsliklarida emotsional tarbiya masalasini bilvosita ko‘rib, adabiy matnlar asosida o‘quvchi shaxsiyatining emotsional-intellektual qatlamini shakllantirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Biroq, emotsional kompetensiya tushunchasi adabiyot darsliklari mazmuniga to‘liq integratsiya qilinmagan; o‘qitish metodlari asosan tahliliy va reproduktiv faoliyat bilan cheklanadi. Bulacan va Macaday-Quioco tadqiqotlarida xorijiy tajribada emotsional intellekt va liderlik ko‘nikmalari o‘rtasidagi bog‘liqlikka urg‘u berilgan, biroq adabiyot darsliklari orqali emotsional sohani boyitish usullari yetarli o‘rganilmagan.

Mumtoz adabiyot izlanishlari asarlarning hissiy-ta’sirchan jihatlarini estetik did tarbiyasi sifatida baholaydi, lekin empatiya va hamdardlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari chuqur metodik yondashuv orqali ochilmagan. Bundan tashqari, kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining farqlanishi borasida ham bir-biriga zid yondashuvlar mavjud.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, hozirgi adabiyot darsliklarida emotsional kompetensiyalarni shakllantirishga oid metodik konsepsiya izchil ishlab chiqilmagan. Fikrimizcha, bu sohada asosiy muammo — hissiy-emotsional kompetensiyalarni adabiyot darsliklari mazmuniga integratsiyalashning zamonaviy modeli va mezonlarini ishlab chiqish zaruratidir. Ana shu yo‘nalishda bizning tadqiqotimiz harakat qilmoqda.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqot metodologiyasini aniqlashda, biz birinchi navbatda qiyosiy va tarkibiy-tahliliy yondashuvlarni tanladik. Fikrimizcha, xorijiy hamda milliy adabiyot darsliklarining hissiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirishdagi yutuq va kamchiliklarini ochib berish uchun aynan qiyosiy tahlil samarali. Bu yondashuv yordamida, masalan, yangi 5-sinf adabiyot darsligidagi interfaol topshiriqlarning (Xasanova tadqiqotida qayd etilgan) o‘quvchida emotsional tafakkur va empatiya rivojiga ta’siri aniqlandi. Tarkibiy-tahliliy metod esa darsliklardagi hissiy-emotsional kompetensiyalarni tashkil etuvchi asosiy komponentlarni ajratish va ularning o‘zaro bog‘liqligini chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Diskursiv tahlilni qo‘llash orqali biz adabiy matnlardagi emotsional kontekst va didaktik vazifalarning muvofiqligini aniqlashga erishdik. Mumtoz adabiyot namunalarining zamonaviy o‘quvchilarga emotsional ta’siri, G‘azal va dostonlardagi his-hayajonlarni talaba ongiga yetkazish mexanizmlari ham ushbu diskursiv tahlil asosida ochib berildi. Kontent-tahlil usuli yordamida darslik matni va mashg‘ulotlarida emotsional kompetensiyalarning aks etishi tez-tezligi va sifat ko‘rsatkichlari o‘rganildi. So‘nggi bosqichda, pedagogik modellashtirish asosida O‘zbekiston ta’limi uchun mos hissiy-emotsional kompetensiyalar modeli va mezonlari ishlab chiqildi. Tahlilimiz ko‘rsatadiki, har bir bosqichda tanlangan metodlar o‘rganilayotgan jarayonning tub mohiyatini, ayniqsa, mumtoz adabiy merosning zamonaviy darsliklarga integratsiyasi imkoniyatlarini ochib beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlilimizga ko‘ra, adabiyot darsliklarida hissiy-emotsional kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari o‘quvchining o‘z tuyg‘ularini anglash va boshqarish, boshqalar his-tuyg‘ularini idrok qilish, empatiya va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan. Bu jihatlar adabiy matnlarni tahlil qilish va qahramonlar ichki dunyosini his etish orqali rivojlanadi. O‘quvchining hissiy identifikatsiyasi, ijtimoiy hamdardligi va muammoli vaziyatlarda moslashuvchan qaror qabul qilishi muhim ahamiyatga ega.

Milliy va xorijiy adabiyot darsliklari taqqosida, xorijiy tajribada emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus topshiriqlarga keng o‘rin beriladi. Masalan, “literary learning” modeli adabiy asarlar orqali hissiy tajriba va o‘zaro anglashuvga erishishni ustuvor deb biladi. O‘zbekistondagi darsliklarda esa emotsional tarbiya ko‘proq matn mazmunini sharhlash va muallif g‘oyasini ochib berish orqali amalga oshiriladi. Bu ikki yondashuvning uyg‘unlik va tafovutlari 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

1-jadval

Xorijiy va milliy adabiyot darsliklarida hissiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish yondashuvlari

Yondashuv	Tarkibiy komponentlar	Afzalliklari	Cheklovlari
Xorijiy (evropa)	Empatiya, o‘z-o‘zini anglash, emotsional refleksiya	Shaxsiy tajribaga asoslangan, interaktiv metodlar	Mahalliy an’analarga mos emas
Amerika	Muomala madaniyati, emotsional nazorat	Innovatsion texnologiyalar, muammoli vaziyatlar	Milliy kontekstdan uzoqligi
O‘zbekiston (amaldagi)	Adabiy obrazlarni tahlil qilish, axloqiy baholash	Mumtoz adabiyotdan foydalanish, axloqiy tarbiya	Hissiy tarbiya maqsadli emas, metodlar cheklangan
Taklif etilayotgan model	Empatiya, emotsional	Xalq va mumtoz adabiyotga asoslangan,	Yangi metodlarni amaliyotga joriy etish zaruriyati

	refleksiya, milliy qadriyat asoslari	kontekstual moslashuv	

Mumtoz adabiyot namunalaridan foydalanishda o‘quvchilarni she’riy ifoda va obrazli tafakkurga jalb qilish, hikmatli misralar asosida axloqiy refleksiya hosil qilish, qahramonlar his-tuyg‘ularini zamonaviy hayot bilan bog‘lash samarali yo‘ldir. Navoiy, Mashrab, Furqat asarlaridagi emotsional tafakkur yoshlar uchun hayotiy tajriba manbai bo‘lishi mumkin.

Taklif etilgan modelda hissiy-emotsional kompetensiyaning asosiy mezonlari belgilanib, zamonaviy darsliklar uchun moslashtirilgan topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi. Model yangi dasturlar uchun asos bo‘lib, darslik yaratuvchilari va metodistlarga aniq tavsiyalar beradi. Hissiy-emotsional kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuv darsliklar mazmunini boyitadi va o‘quvchilar shaxsiy o‘sishi uchun zamin yaratadi.

Tadqiqotimiz asosiy natijasi shuki, adabiyot darsliklarida hissiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy yetukligini oshiradi. Darslik tuzuvchilari va metodistlarga, avvalo, adabiy matnlar orqali o‘quvchi his-tuyg‘ularini anglash, tahlil qilish va aks ettirishga yo‘naltirilgan mustaqil topshiriqlar tizimini kengaytirish tavsiya qilinadi. Shuningdek, mumtoz adabiyot namunalaridan zamonaviy hayotga moslashtirilgan emotsional-refleksiv mashg‘ulotlarni darslik tarkibiga kiritish foydali bo‘ladi.

XULOSA

Yana bir muhim yo‘nalish sifatida, emotsional kompetensiyani baholash uchun yangi mezon va indikatorlarni ishlab chiqish, o‘quvchilarning hissiy taraqqiyotini muntazam monitoring qilish amaliyotini joriy etish mumkin. Xorijiy tajribadagi muvaffaqiyatli metodlardan foydalanib, adabiyot darslarida interaktiv va dramatik faoliyatlarni keng joriy etish ham muhimdir. Keyingi tadqiqotlarda o‘quvchilarning

hissiy-emotsional kompetensiyasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar va darslik variantlarini sinovdan o'tkazish masalalari chuqur o'rganilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 23.09.2020, O'RQ-637-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz
2. Akbarov O. Adabiyot, pedagogika va didaktika // Общество и инновации. – 2021. – T. 2, № 3/S. – B. 28–33. – DOI: 10.47689/2181-1415-vol2-iss2/s-pp28-33
3. Asalxon R. Adabiyot darslarida qiyosiy metoddan foydalanish orqali o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish // Scientific Conference. – 2026. – B. 949–952. – DOI: 10.70728/conf.mag.228
4. Bulacan S.U., Macaday-Quioco D. The Prevalent Skills and Competencies of Emotional Intelligence for Effective Educational Leadership: A Systematic Review of Literature // International Journal Of Multidisciplinary Research And Analysis. – 2024. – Vol. 07, No. 10. – DOI: 10.47191/ijmra/v7-i10-22
5. Leibrandt I. Literary learning: A proposal for using literature for the acquisition of emotional competencies // Journal of Literary Education. – 2022. – No. 6. – P. 132–151. – DOI: 10.7203/jle.6.23656
6. Maxmudova D. O'quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik asoslari // Qo'qon Universiteti Xabarnomasi. – 2025. – T. 16. – B. 201–203. – DOI: 10.54613/ku.v16i.1338
7. Saidbekova K. Emotsional kompetentlik: stressni boshqarish qobiliyati // Qo'qon Universiteti Xabarnomasi. – 2026. – T. 17. – B. 132–134. – DOI: 10.54613/ku.v17i.1378
8. Urinova Z.I. Adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va nutq sofligini shakllantirish tajribalari // Scientific Conference. – 2026. – B. 1290–1293. – DOI: 10.70728/conf.mag.311
9. Xasanova Z.R. Zamonaviy 5-sinf adabiyot darsligining o'quvchiga ta'siri // Scientific Conference. – 2026. – B. 559–562. – DOI: 10.70728/conf.mag.131

UO'K: 355.233

MAXSUS BO'LINMALAR TARKIBIGA KIRUVCHI BALANDLIK MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI

Xidirov Mirxojiddin Sunatillayevich
Ixtisoslashtirilgan o'quv markazi Balandlik-ishg'ol tayyorgarligi sikli boshli g'i, podpolkovnik
E-mail: guzalsmart@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada huquqni muhofaza qilish organlarining maxsus vazifalarni bajaruvchi bo'linmalari tarkibiga kiruvchi balandlik mutaxassislarini tayyorlashning ayrim xususiyatlari yoritilgan. Shahar sharoitida, ayniqsa ko'p qavatli bino va inshootlarda o'tkaziladigan maxsus operatsiyalar eng murakkab va xavfli operatsiyalar qatoriga kirishi, ularni muvaffaqiyatli bajarish balandlik-ishg'ol tayyorgarligi bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talab etishi asoslangan. Balandlik-ishg'ol guruhining tarkibi, balandlik mutaxassisi va muhandislik bo'linmasi xodimining vazifalari, ularni birgalikda tayyorlash zarurati hamda balandlikda ishlashda xavfsizlikni ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Xulosada har bir maxsus operatsiya uchun alohida harakatlar taktikasini ishlab chiqish va shaxsiy tarkibni amaliy yo'nalishda, guruh tarkibida yig'inlar ko'rinishida tayyorlash taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *balandlik-ishg'ol tayyorgarligi, maxsus operatsiya, balandlik mutaxassisi, maxsus tushish vositalari, alpinist anjomlari, maxsus vazifalarni bajaruvchi bo'linma, ishg'ol guruhi, muhandislik bo'linmasi, xavfsizlik.*

НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ-ВЫСОТНИКОВ, ВХОДЯЩИХ В СОСТАВ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПОДРАЗДЕЛЕНИЙ

Хидиров Мирхожиддин Сунатиллаевич
начальник цикла высотно-штурмовой подготовки
Специализированного учебного центра, подполковник
E-mail: guzalsmart@gmail.com

Аннотация. *В статье освещены некоторые особенности подготовки специалистов-высотников, входящих в состав подразделений специального назначения правоохранительных органов. Обосновано, что специальные операции, проводимые в условиях города, особенно в многоэтажных зданиях и сооружениях, относятся к наиболее сложным и опасным, а их успешное выполнение требует теоретических знаний и практических навыков высотно-штурмовой подготовки. Проанализированы состав высотно-штурмовой группы, задачи специалиста-высотника и сотрудника инженерного подразделения, необходимость их совместной подготовки, а также вопросы обеспечения безопасности при работе на высоте. В заключении предложено*

разрабатывать отдельную тактику действий для каждой специальной операции и проводить подготовку личного состава в практической направленности, в составе групп, в форме сборов.

Ключевые слова: *высотно-штурмовая подготовка, специальная операция, специалист-высотник, специальные спусковые устройства, альпинистское снаряжение, подразделение специального назначения, штурмовая группа, инженерное подразделение, безопасность.*

SOME FEATURES OF TRAINING HIGH-ALTITUDE SPECIALISTS OF SPECIAL PURPOSE UNITS

Khidirov Mirkhojiddin Sunatillayevich
Head of the High-Altitude Assault Training Cycle,
Specialized Training Center, Lieutenant Colonel
E-mail: guzalsmart@gmail.com

Abstract. *The article highlights some features of training high-altitude specialists who are members of the special purpose units of law enforcement agencies. It is substantiated that special operations conducted in urban conditions, especially in multi-storey buildings and structures, are among the most complex and dangerous, and their successful performance requires theoretical knowledge and practical skills of high-altitude assault training. The composition of the high-altitude assault group, the tasks of the high-altitude specialist and of the engineering unit officer, the need for their joint training, as well as issues of ensuring safety when working at height are analyzed. In conclusion, it is proposed to develop separate tactics of action for each special operation and to train personnel with a practical orientation, as part of groups, in the form of training camps.*

Keywords: *high-altitude assault training, special operation, high-altitude specialist, special descent devices, climbing equipment, special purpose unit, assault group, engineering unit, safety.*

KIRISH

Kishilik jamiyati shakllangandan beri insonlar va jamiyatlar o‘rtasida turli manfaatlar uchun jang-u jadallar bo‘lib kelgan. Bu janglarda har ikkala tomon uchun ham g‘alabaning muhim kaliti raqibga nisbatan balandroqda, ya'ni hukmron tepalikda bo‘lishdir. Shu o‘rinda tariximizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yozuvchi Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarida tasvirlanishicha, buyuk sarkarda bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur 1526-yil aprel oyida tarixda “Panipat jangi” nomini olgan,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Hindiston sultoni Ibrohim Lodiyga qarshi bo'lgan jangda raqibidan yuqorida turganligi sababli o'zidan salkam o'n barobar ko'p bo'lgan qo'shinni tor-mor etgan [1].

Yuqoridan jang olib borishning afzalliklari quyidagilardan iborat [5]:

– gravitatsiya qonuni – ya'ni tortish kuchi tufayli yuqori qavatlarga hujum qilib yugurib chiqish jangchini holdan toydiradi, pastga tushish esa birmuncha oson;

– yuqoridan pastga o'q uzilganda yashirinishning qiyinligi;

– pastga qarata otish samarasining yuqoriligi hamda granatalarni pastga uloqtirish yuqoriga nisbatan osonligi.

Zamonaviy jamiyat sharoitida huquqni muhofaza qilish organlarining maxsus vazifalarni bajaruvchi bo'linmalari faoliyati tobora o'ziga xos xususiyat kasb etmoqda. Jangovar va favqulodda vaziyatlarda, tezkor-xizmat vazifalarini bajarishda maxsus vazifalarni bajaruvchi bo'linmalar xodimlari oldida ko'pincha binolar, inshootlar va boshqa baland obyektlarga kirish bilan bog'liq qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu vazifalarni hal qilish uchun balandlik-ishg'ol tayyorgarligi bo'yicha kasbiy ko'nikmalar zarur. Shahar sharoitida maxsus operatsiyalarni rejalashtirish va o'tkazish jarayoni eng murakkab va mas'uliyatli hisoblanadi. Baland binolarda maxsus operatsiyani o'tkazish uchun jangovar-taktik guruhlar tuziladi, bunda eng muhim rollardan biri balandlik-ishg'ol guruhiga beriladi. Ilg'or tajribaga ega aksariyat xorijiy davlatlarning maxsus vazifalarni bajaruvchi bo'linmalarida balandlik-ishg'ol guruhi tarkibiga balandlik mutaxassisi lavozimi kiritilgan bo'lib, unga guruhning binoga kirishini ta'minlash bo'yicha asosiy vazifa yuklatilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, maxsus vazifalarni bajaruvchi bo'linmalarning jihozlanishi va taktikasi batafsil yoritiladigan reportajlarda ommaviy axborot vositalariga nisbatan senzura o'rnatilmaganligi, bo'linmalarning o'zlari haddan tashqari ochiqligi, jinoyatchilarga qarshi kurashning eng yangi vositalari va usullarining turli ko'rgazmali mashg'ulotlari va taqdimotlari huquqni muhofaza qilish organlarini to'satdan, oldindan harakat qilish imkoniyatidan mahrum qiladi. Bunday sharoitda maxsus vazifalarni



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bajaruvchi bo‘linmalar xodimlari tomonidan hal etiladigan vazifalar tobora murakkablashib, ularning kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar ortib bormoqda [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalar xodimlarini balandlik-ishg‘ol tayyorgarligiga o‘qitish masalalari, asosan, xorijiy, xususan, Rossiya Federatsiyasi tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, A.M.Fakov maxsus bo‘linmalar xodimlarini fasad alpinizmiga o‘qitish metodikasining xususiyatlarini [2], I.S.Abazov maxsus bo‘linmalar tarkibidagi balandlik mutaxassislarini tayyorlashning o‘ziga xos jihatlarini [3], A.A.Karimov esa taktik-maxsus va o‘q otish tayyorgarligini integratsiyalashning ayrim jihatlarini [4] tadqiq etgan. Balandlikdan turib jang olib borishning afzalliklari ochiq axborot manbalarida ham umumlashtirilgan [5]. Biroq milliy maxsus bo‘linmalar sharoitida balandlik mutaxassislarini, ayniqsa, muhandislik bo‘linmasi xodimlari bilan birgalikda tayyorlash masalalari yetarlicha yoritilmagan.

Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, ilg‘or xorijiy tajribani qiyosiy o‘rganish, ko‘p qavatli binolarda o‘tkaziladigan maxsus operatsiyalar xususiyatlarini tahlil qilish, balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tajribasini umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xonaga texnologik tuynuklar orqali maxsus tushish vositalari yordamida to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirishni amalga oshiruvchi xodimlarning harakatlari texnik va taktik murakkablikka ega bo‘lganligi sababli, ular tomonidan o‘qotar qurol yoki maxsus vositalarni qo‘llash juda katta qiyinchilik tug‘diradi. Maxsus operatsiyalarni rejalashtirish va o‘tkazishda o‘qotar qurollar va maxsus vositalarni qo‘llash bilan bog‘liq vazifalarni balandlik jihozlari yordamida hal qilishga eng tajribali, texnik va taktik jihatdan eng yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan, ekstremal holatda vaziyatni tezda baholay

oladigan va tez o‘zgaruvchan sharoitlarga munosib javob bera oladigan xodimlar jalb etiladi [3].

Ko‘p qavatli binolarda o‘tkazilgan maxsus operatsiyalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijobiy natijalarga erishish balandlik mutaxassislarining tajribasi, kasbiy va texnik tayyorgarligi, tabel qurollari va maxsus vositalarni mukammal egallaganligi, ularni o‘zgaruvchan vaziyatda ishonchli qo‘llash qobiliyati hamda maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalar xodimlarining amaliy mashg‘ulotlarda va balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi bo‘yicha mashg‘ulotlarda oladigan bilimlarining butun majmuasiga bog‘liq.

Maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalarning jangovar faoliyati jarayonida xonaga turli usullar bilan – deraza, eshik, ventilyatsiya tizimi va boshqalar orqali kirish masalasi bir necha bor yuzaga kelgan. Maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linma xodimi turli xizmat vazifalarini hal qilishni ta'minlaydigan zamonaviy maxsus texnik vositalardan foydalanishni bilishi shart.

Ko‘p qavatli binoga kirish uchun balandlik mutaxassislari tomonidan turli taktik usul va uslublar qo‘llanilishi mumkin. Ammo shuni hisobga olish kerakki, bir holatda ma'qul bo‘lgan aniq usul boshqa holatda mutlaqo nomaqbul bo‘lishi mumkin. Shu sababli maxsus operatsiyani rejalashtirish va o‘tkazishda qo‘yilgan vazifani muvaffaqiyatli bajarishga yordam beradigan barcha omillar va taktik harakatlarni kompleks tarzda hisobga olish zarur. Ko‘p qavatli binoga kirishning samarali usullaridan biri ishg‘ol guruhining fasad tomondan portlovchi moddadan foydalanib o‘tish yo‘lagi ochish orqali kirishi hisoblanadi. Bunday holda katta manevrchanlik, yuqori tezlik, deraza teshiklari va tuynuklardan o‘tish qobiliyati ishg‘ol guruhiga boshqa vositalar bilan hal qilinishi shaxsiy tarkib uchun katta talofatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki umuman bajarib bo‘lmaydigan xizmat vazifalarini bajarishni ta'minlaydi [4].

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi – bu dushman joylashgan obyektlar, binolar, inshootlar va yetib borish qiyin bo‘lgan boshqa balandlikdagi joylarda tezkor-jangovar

vazifalarni bajarishni ta'minlovchi usul va uslublar tizimidir. Aslida bu jinoyatchilar zarbani kutmagan joydan binoga kirish orqali tashabbusni qo‘lga olish va kutilmaganlik samarasiga erishgan holda qo‘yilgan vazifani bajarish qobiliyatidir. Shunga ko‘ra maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linma harbiy xizmatchilarining balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi, avvalo, xavfsizlik qoidalari, himoya tizimlari, alpinist anjomlaridan foydalangan holda asosiy bazaviy amaliy harakatlar va atamalarni aniq o‘zlashtirish hamda harakatlarni uyushgan holda majmuaviy bajarishdan boshlanishi kerak.

Shahar sharoitida o‘tkaziladigan maxsus operatsiyalarni rejalashtirishda ko‘p qavatli binolar katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Ko‘p qavatli uylarning o‘ziga xos xususiyatlari operatsiya rahbari tomonidan hisobga olinishi kerak bo‘lgan bir qator qo‘shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ko‘p qavatli binolarda joylashgan xonalarga yorib kirishning o‘ziga xos qiyinchiliklari mavjud bo‘lib, bu o‘z navbatida balandlik tayyorgarligi bo‘yicha maxsus ko‘nikma va bilimlarni talab qiladi. Baland binolarda maxsus operatsiyalarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazishda bir nechta taktik guruhlar tuziladi, bunda balandlik-ishg‘ol guruhiga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu guruh tarkibiga balandlik mutaxassislari va, qoida tariqasida, alpinistik jihozlardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan muhandislik bo‘linmasi xodimlari kiradi.

Shuni hisobga olish kerakki, alpinist anjomlari yordamida ishg‘ol harakatlarini amalga oshiruvchi xodimlar boshqa ishg‘ol guruhlari bilan bir qatorda shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlangan bo‘lishi kerak. Deraza tuynugiga kirgan birinchi xodimdan arqondan ozod bo‘lish, qurolni dushmanga nisbatan qo‘llay bilish va shu bilan birga o‘z xavfsizligini ta'minlash bo‘yicha puxta o‘ylangan harakatlar talab qilinadi. Guruhga kiruvchi xodimlar ishg‘ol obyektini razvedka qilishni bilishlari kerak. Dushman to‘g‘risidagi ma'lumotlar xodimlar tomonidan turli joylashuv usullari, arqonda ko‘tarilish va tushish orqali olinishi mumkin. Alpinizm anjomlaridan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan muhandislik bo‘linmasi xodimi ishg‘ol obyektiga kirishni

ta'minlashi, obyektda bo‘lishi mumkin bo‘lgan portlovchi qurilmani aniqlash va zararsizlantirishni bilishi, shuningdek, ishg‘ol guruhi tarkibida harakat qilib, jinoyatchilarni zararsizlantirishi kerak. Balandlik-ishg‘ol guruhi tarkibidagi muhandislik bo‘linmasi xodimlari birgalikda harakat qilishda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun o‘tish uchun mo‘ljallangan maxsus vositalardan foydalangan holda muntazam ravishda balandlik mashg‘ulotlarini o‘tkazishi, olingan ko‘nikmalarni amaliy va taktik-maxsus mashg‘ulotlarda mustahkamlab borishi kerak [3].

Ko‘p hollarda maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalarda balandlik-ishg‘ol guruhini tayyorlashda sapyor-portlatuvchi mutaxassis vazifasini balandlik mutaxassisi bajaradi. Biroq ushbu xodim bino fasadi orqali obyektga kirish imkonini beradigan joylarda o‘tish uchun zarur bo‘lgan zaryadning qo‘yilish joyi va quvvatini aniqlashda, shuningdek, obyektda portlovchi qurilmalar aniqlanganda ularni zararsizlantirishda yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmaydi. Bunga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, chunki bu butun operatsiyaning barbod bo‘lishiga olib keladi hamda ushbu guruh va umuman barcha guruhlar xodimlarini ishg‘ol qiluvchilarning harakatlariga tayyor turgan jinoyatchilar bilan to‘qnash kelish xavfiga duchor qiladi. Balandlik-ishg‘ol guruhi tarkibiga kiruvchi muhandislik bo‘linmasi xodimi nafaqat yo‘laklar ochish va portlovchi qurilmalarni aniqlash usullarini bilishi, balki alpinist anjomlaridan foydalangan holda balandlik-ishg‘ol guruhi tarkibida harakat qila olishi ham kerak. Shularni inobatga olgan holda balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashga muhandislik bo‘linmalari xodimlarini ham jalb etish zarur. Balandlik-ishg‘ol guruhiga kiruvchi xodimlar alpinist anjomlaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishlari kerak, chunki jihozlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilish xodimni asosiy vazifadan chalg‘itishi mumkin bo‘lgan vaziyatni yuzaga keltiradi [3].

Ko‘p qavatli binolarda vazifalarni bajarishda xavfsizlik bevosita sug‘urtalash usullaridan to‘g‘ri foydalanish va xavfsizlik anjomlarini to‘g‘ri tanlash bilan bog‘liq. Bu masala bo‘linma rahbarlarining doimiy e'tiborini talab qiladi. O‘qitishning boshlang‘ich

bosqichidayoq qachon va qanday sug‘urtalash kerakligini, qo‘llanilayotgan sug‘urtalash usuli va foydalanilayotgan anjomlarning imkoniyatlarini, siltanishning ahamiyati qanday bo‘lishi mumkinligini to‘g‘ri tushunib olish juda muhimdir. Balandlik tayyorgarligi elementlaridan foydalanilgan maxsus operatsiyalar yakunlangandan so‘ng, agar xavfsizlikning asosiy qoidalari buzilgan bo‘lsa, kamchiliklarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, har bir alohida holatda muayyan maxsus operatsiya doirasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan alohida harakatlar taktikasini ishlab chiqish zarur. Balandlik-ishg‘ol guruhi samaradorligi balandlik mutaxassislari va muhandislik bo‘linmasi xodimlarining birgalikdagi tayyorgarligiga, shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanganligiga hamda xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya etilishiga bog‘liq.

Shu asosda maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalar shaxsiy tarkibini tayyorlashni amaliy yo‘nalishda olib borish, mashg‘ulotlarni esa guruh tarkibida, yig‘inlar ko‘rinishida o‘tkazish taklif etiladi. Shunda favqulodda vaziyatlarda xodimlar balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi bo‘yicha bilimlaridan foydalanib, improvizatsiya qila oladilar va shaxsiy tarkib uchun minimal yo‘qotishlar bilan o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishning maqbul variantini topa oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qodirov P. Yulduzli tunlar: roman. – Toshkent, 1979.
2. Факов А.М. Особенности методики обучения сотрудников специальных подразделений МВД России фасадному альпинизму // [jurnal nomi, yili, soni, sahifalari].
3. Абазов И.С. Некоторые особенности подготовки специалистов-высотников, входящих в состав подразделений специального назначения // [jurnal nomi, soni]. – 2018. – [С. …].
4. Каримов А.А. Некоторые аспекты интеграции тактико-специальной и огневой подготовки // [jurnal nomi, soni]. – 2012. – [С. …].
5. Преимущество высоты // Викитропы [Электронный ресурс]. – URL: [havola] (murojaat sanasi: [sana]).

UO'K: 172.15

VATANPARVARLIK FENOMENINING MAZMUN-MOHIYATI VA UNI YOSHLARDA RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI

Abdullayev Sherdil Raxmatullozoda
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o'quv markazi katta o'qituvchisi
E-mail: kookkooc15@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada vatanparvarlik fenomenining mazmun-mohiyati ijtimoiy-falsafiy va axloqiy jihatdan tahlil qilingan. Vatanparvarlik, Vatanni sevish, Vatanga sadoqat, fidoyilik va Vatanga xiyonat tushunchalarining lug'aviy va konseptual talqinlari qiyosiy o'rganilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari hamda dialektik aloqadorligi ochib berilgan. Vatanparvarlikning axloq falsafasidagi tamoyil va fazilat sifatidagi o'rni, uning individual va ijtimoiy shakllari asoslangan. I.Kant, A.N.Radishchev, Abdulla Avloniy, Alisher Navoiy hamda o'zbek tadqiqotchilari Q.Nazarov va E.Qalqanov qarashlari asosida vatanparvarlik fazilatining axloqiy mezonlari – intizomlilik, qat'iyatlilik va mardlik mazmuni izohlangan. Tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan. Xulosada yoshlarda vatanparvarlikni rivojlantirishda ularning qarashlari, milliy va etnik xususiyatlarini inobatga oluvchi tabaqalashtirilgan yondashuv zarurligi asoslangan.*

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik, vatanparvarlik fenomeni, Vatanni sevish, Vatanga sadoqat, fidoyilik, Vatanga xiyonat, axloqiy mezon, intizomlilik, qat'iyatlilik, mardlik, yoshlar.*

СУЩНОСТЬ ФЕНОМЕНА ПАТРИОТИЗМА И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЕГО РАЗВИТИЯ У МОЛОДЁЖИ

Абдуллаев Шердил Рахматуллозода
старший преподаватель Специализированного учебного центра Национальной гвардии Республики Узбекистан
E-mail: kookkooc15@gmail.com

Аннотация. *В статье с социально-философской и этической точек зрения анализируется сущность феномена патриотизма. На основе сравнительного изучения словарных и концептуальных толкований понятий «патриотизм», «любовь к Родине», «верность Родине», «самоотверженность» и «измена Родине» раскрыты их сходства, различия и диалектическая взаимосвязь. Обоснованы место патриотизма в философии морали как принципа и добродетели, а также его индивидуальная и социальная формы. На основе взглядов И.Канта, А.Н.Радищева, Абдуллы Авлони, Алишера Навои, узбекских исследователей К.Назарова и Э.Калканова раскрыто содержание нравственных критериев патриотизма – дисциплинированности, решительности и*

мужества. В исследовании использованы методы единства исторического и логического, сравнительного анализа, анализа и синтеза. В заключении обоснована необходимость дифференцированного подхода к развитию патриотизма у молодёжи с учётом её взглядов, национальных и этнических особенностей.

Ключевые слова: *патриотизм, феномен патриотизма, любовь к Родине, верность Родине, самоотверженность, измена Родине, нравственный критерий, дисциплинированность, решительность, мужество, молодёжь.*

THE ESSENCE OF THE PHENOMENON OF PATRIOTISM AND SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF ITS DEVELOPMENT AMONG YOUTH

Abdullayev Sherdil Rakhmatullozoda
Senior Lecturer, Specialized Training Center of the National Guard of the Republic of Uzbekistan
E-mail: kookkooc15@gmail.com

Abstract. *The article analyzes the essence of the phenomenon of patriotism from socio-philosophical and ethical perspectives. Through a comparative study of the lexical and conceptual interpretations of the notions of patriotism, love for the Motherland, loyalty to the Motherland, self-sacrifice and treason, their similarities, differences and dialectical interrelation are revealed. The place of patriotism in moral philosophy as both a principle and a virtue, as well as its individual and social forms, are substantiated. Drawing on the views of I. Kant, A. N. Radishchev, Abdulla Avloniy, Alisher Navoi and the Uzbek researchers Q. Nazarov and E. Qalqanov, the content of the moral criteria of patriotism – discipline, determination and courage – is explained. The study employs the methods of the unity of the historical and the logical, comparative analysis, analysis and synthesis. The conclusion substantiates the need for a differentiated approach to developing patriotism among young people that takes into account their views and national and ethnic characteristics.*

Keywords: *patriotism, phenomenon of patriotism, love for the Motherland, loyalty to the Motherland, self-sacrifice, treason, moral criterion, discipline, determination, courage, youth.*

KIRISH

Bugungi global kurash muhitida, milliy manfaatlar uchun raqobat kuchayib borayotgan sharoitda yoshlarda yuksak insoniylikka asoslangan chinakam vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishning obyektiv shart-sharoitlari to‘g‘risida yanada chuqurroq o‘ylash taktik va strategik maqsadlarimiz sirasiga kiradi. Negaki,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida, yangicha islohotlar sharoitida vatanparvarlik tarbiyasi jamiyat rivojlanishining asosiy negizi sifatida baholanmoqda.

Vatanparvarlik yuksak axloqiylikni namoyon etadigan tuyg‘u bo‘lib, uning mazmuni Vatanga mehr qo‘yish, Vatanni himoya qilish, uning xavfsizligi va yaxlitligini ta’minlashga bevosita va bilvosita mas’ullik orqali mustahkamlanadi. Shuning uchun ham chinakam vatanparvarlik o‘zidan oilani, oiladan Vatanni, Vatandan insoniyatni ustun qo‘yishni talab etadi. Shu ma’noda mazkur maqolada vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyati va lug‘atlarda ta’riflanishini tahlil qilish maqsad qilingan. Bu maqsadni amalga oshirish uchun vatanparvarlik va Vatanga xiyonat qilish tushunchalarining namoyon bo‘lishi va ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatib berish talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Vatanparvarlik muammosi falsafa, etika, pedagogika va siyosatshunoslik fanlarida turlicha yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Fenomen tushunchasining falsafiy talqini G.Leybnits, F.Shelling, G.Gegel qarashlarida ishlab chiqilgan bo‘lib, qomusiy manbalarda umumlashtirilgan [1]. Vatanparvarlikning axloqiy burch bilan bog‘liqligi I.Kant [3], uning fazilat sifatidagi belgilari esa A.N.Radishchev [4] asarlarida yoritilgan. Sharq ma’naviy merosida mardlik, intizom va Vatan taraqqiyoti masalalari Alisher Navoiy [10] va Abdulla Avloniy [9] asarlarida keng talqin etilgan. O‘zbek olimlaridan Q.Nazarov vatanparvarlikni umumbashariy tushuncha sifatida [6], E.Qalqanov esa uni ijtimoiy ong shakllarining atributiv xususiyati va ijtimoiy-ruhiy hodisa sifatida tadqiq etgan [7]. Vatan himoyasi va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari ilmiy to‘plamlar hamda respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari materiallarida ham o‘z aksini topgan [11; 15]. Biroq vatanparvarlik, Vatanni sevish, Vatanga sadoqat va fidoyilik tushunchalarining konseptual farqlari hamda ularni yoshlarda rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari yetarlicha tizimli tahlil qilinmagan.

Tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik birligi, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tizimli yondashuv hamda matnlarni talqin qilish (germenevtik) usullaridan foydalanildi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqotning manba asosini izohli va qomusiy lug‘atlar, mutafakkirlarning asarlari hamda mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Vatanparvarlik talqinida fenomen (yun. phainomenon – yuz beruvchi) tushunchasini noyob, kam uchraydigan hol yoki buyuk, yagona bo‘lgan inson deyish mumkin. Falsafa tarixida fenomen mohiyat yoki hodisaning ifodasi yohud namoyon bo‘lishi sifatida talqin qilinadi (Leybnits, Shelling, Gegel) [1]. Shu ma’noda vatanparvarlik fenomeni ma’naviy-axloqiy merosdagi in’ikosi ijtimoiy-tarixiy hayotda tub burilish yasagan va xalqning erki, ozodligi hamda kelajagini ta’minlash yo‘lidagi kurashning yo‘lboshchisi va bu faoliyatning axloqiy namunasi sifatida namoyon bo‘lgan shaxslar siymosi bilan belgilanadi. Yovuz bosqinchilarga va istilochilarga qarshi ozodlik bayrog‘ini ko‘targan Shiroq, To‘maris, Spitamen, Mahmud Torobiy, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi ajdodlarimiz jasorati avlodlar uchun vatanparvarlik va shijoat timsoli hisoblanadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida vatanparvarlik – “vatanparvarlarga xos ish, xatti-harakat, xislat” ekanligi qayd etilgan. Ushbu lug‘atda vatanparvar so‘ziga esa “o‘z vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko‘rsatuvchi” sifatida ta’rif berilgan [2, B. 16–17]. Shuningdek, lug‘atda Vatan va vatanparvarlik bilan bog‘liq bir qancha tushunchalar, xususan, vatangado (vatandan kechib, qochib, o‘zga ellarda darbadar yuruvchi, qochqin), vatangadolik, vatandosh, vatanjudolik (vatandan judo holatdagi hayot, shaxsning shunday hayot kechirishi), vatanfurush (o‘z vataniga xiyonat qiluvchi, vatanni sotuvchi), vatanfurushlik kabi so‘zlar ham keltirib o‘tilgan va izohlangan. Umuman olganda, Vatan bilan bog‘liq tushunchalar ikkiga: Vatanga sadoqatni ko‘rsatuvchi va unga xiyonatni anglatuvchi tushunchalarga ajratiladi. Shu ma’noda ularning tahlili, konseptual asoslarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Vatanparvarlik axloq falsafasining asosiy tamoyili hisoblanadi. Vatanparvarlik tamoyil sifatida: birinchidan, insoniy fazilatning ibtidosi, ilk sababi va asosidir; ikkinchidan, har qanday axloqiy xatti-harakat, xulq-atvor va axloqiy faoliyatning boshlang‘ich qoidasidir. Vatanparvarlik xususiyat sifatida esa, uchinchidan, bir qator axloqiy fazilatlarni bir-biri bilan bog‘laydi; to‘rtinchidan, fazilatlarning bir-birini to‘ldirishi va aloqasini ta’minlaydi. Shu ma’noda, vatanparvarlik barcha fazilatlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Har qanday fazilat kabi vatanparvarlik ham muhabbat, burch, mas’uliyat, sadoqat, mardlik, jasorat, shafqat kabi tushunchalarga nisbatan xususiylikka ega bo‘lib, u mehr-oqibat, sodiqlik, ishonch kabi ayrim hodisalarning majmui, umumiy xossasi hamdir.

Vatanparvarlikning asosini harakat va maqsad sari intilish tashkil etgani uchun ham u dogmatiklikdan yiroq. Vatanparvarlik Vatan tushunchasini fidoyilarcha idrok etish, muayyan hudud va xalqqa muhabbat hissi kabi omillar asosida shakllanadi va rivojlanadi.

O‘zbekiston ham turli millat va elatlardan iborat mamlakat sifatida yangicha Vatan tushunchasini shakllantirishga harakat qilmoqda. Bu orqali turli millat va elatlar o‘rtasida tinch-totuv hayot, mas’uliyatli fuqarolikni qaror toptirishga intilmoqda.

Umuman olganda, vatanparvarlik ma’lum bir mamlakatning titul millati uchungina emas, balki unda yashayotgan barcha fuqarolar uchun daxldor tushuncha hisoblanadi. Ma’lum bir mamlakat fuqarosi o‘sha mamlakatdagi asosiy etnik guruh vakili bo‘lmasligi ham mumkin. Chunki bugungi kunda turli shart-sharoit taqozosi bilan boshqa bir mamlakatdan kelib qolib ketgan fuqarolar yoki o‘z tarixiy vatanidan olisda tug‘ilganlar ham mavjud. Ularning ko‘pchiligida «tarixiy Vatan» tushunchasi xayoliy bir qo‘msash, shirin g‘ussa, o‘tkinchi intilish tarzida ifodalanadi. Aslida esa bu Vatanga muhabbat emas, balki o‘z ajdodlariga, olis xotiraga hurmatdan, ekzotik hissiyotlardan kelib chiqadi. Haqiqiy muhabbat esa, sharoit ikki Vatandan birini tanlashni taqozo etganda, hozir yashab turgan Vatani va vatandoshlariga nisbatangina mavjud ekani ayon

bo‘ladi. Shu ma’noda, vatanparvarlik – bu asrlar davomida o‘z vatanida yashagan insonlar manfaatlarining birligini anglash, o‘z xalqining tarixiy o‘tmishiga hurmat, uning yutuqlari uchun g‘urur va ajdodlari, zamondoshlarining muvaffaqiyatsizliklari, falokatlari va xatolari uchun alamni his qilish, yangi, taraqqiy etuvchi narsalarni yaratishga bo‘lgan yuksak intilishning amaldagi ifodasidir.

Vatanparvarlikni individual va ijtimoiy vatanparvarlik sifatida tasniflash mumkin. Individual yoki shaxsiy darajadagi vatanparvarlik insonning ma’naviy dunyoqarashida, ezgu maqsadlarida, axloqiy intilishlarida muhim va barqaror xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy vatanparvarlik esa ijtimoiy tafakkurning jamoaviy kayfiyatlarida, hissiyotlarda, o‘z xalqiga nisbatan munosabatda, hayot tarzida, muhim qadriyatlar tizimida, boshqa xalqlar, ularning tili, tarixi, madaniyatiga bo‘lgan hurmatda namoyon bo‘luvchi qismini ifodalaydi.

Demak, vatanparvarlik va Vatanni sevish tushunchalari o‘rtasida o‘xshash va farqli jihatlar mavjud. Ularni bir-biridan farqlash lozim.

Vatanni sevish – bu Vatan bilan birlashishni anglab yetishni, ya’ni Vatanni o‘zi bilan, o‘zini Vatan bilan birlashishini taqozo etadi. Bu sevgi muayyan shaklga tushgan axloqiylik ko‘rinishiga ega bo‘lib, uning reallikka aylanishi insondan muayyan vaqt va sharoitni talab qiladi.

Vatanparvarlik esa mas’uliyatni taqozo etadi. Bu mas’uliyat, ayni paytda, Vatanni dushmanlardan himoya qilishni, tahdidlarga qarshi kurashishni, Vatanni ravnaq toptirish va unga sadoqat bilan xizmat qilishdek ezgu fazilatlarni qamrab oladi. Burchni anglab yetish esa faqat bilim, tajriba, ko‘nikma, malaka orqali ro‘y beradi. Nemis faylasufi Immanuil Kant bunday burchni huquqiy burch va axloqiy burchga ajratadi. Chunonchi, huquqiy burchni bajarish tashqaridan majbur etilsa, axloqiy burch, aksincha, fazilatga, ya’ni ichki hodisaga, ixtiyor erkinligiga bog‘liq. Shu bois insonning axloqiy burchga muvofiq xatti-harakat qilish qobiliyatini Kant fazilat deb atagan edi [3, C. 216]. Demak, vatanparvarlik ma’lum bir faoliyat, ijtimoiy faollik va mas’uliyatni talab etadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Vatanni sevish shunchaki tuyg'u hisoblansa, vatanparvarlik insonni ma'lum bir amaliy faoliyatga undaydi. Chunki vatanparvarlik mohiyatan insonning kundalik mayda tashvishlardan yuksakka, ulug'vorlikka ko'tarilishidir. Zero, vatanparvar kishining burchi – xayrli ishlar qilishdan, ya'ni biror-bir mukofotga umid bog'lamasdan, imkon qadar odamlarga yordam berishdan va ularning baxtli bo'lishiga ko'maklashishdan iboratdir.

Vatanparvarlik va Vatanni sevish o'rtasidagi ikkinchi farq manfaatdorlik bilan o'lchanadi. Ya'ni Vatanni sevishda manfaatdorlik mavjud bo'ladi. Bunday manfaatdorlik odatda "Vatan menga nima berdi?" degan aqidaga amal qiladi. Vatanparvarlik esa manfaatning har qanday ko'rinishidan xoli bo'lgan beg'araz fazilat bo'lib, unda olish emas, berish ko'proq ahamiyatga ega. Shuning uchun vatanparvarlik fazilati "Men Vatan uchun nima qildim?" degan ezgu aqidaga javob topishga intiladi. Hozirgi davr aynan ikkinchi aqidaga qanday amal qilishga qarab insondagi vatanparvarlik tuyg'usini baholamoqda.

Shu bilan birga, vatanparvarlik insonning amaliy faoliyati hamdir. Chunki inson Vatanni o'ylab, uning taraqqiyoti, yorug' kelajagi yo'lida mehnat qilsa, kurashsa, vatanparvarlik amaliy faoliyatga aylanadi. Bu faoliyat esa barcha xalqlar hayotida yuksak insoniy fazilat sifatida qadrlangan. Rus faylasufi A.N.Radishchev vatanparvarlik fazilatini boshqa fazilatlardan uchta sifat-belgisiga ko'ra farqlaydi. Bular – sharaflilik, xushxulqlik, olijanoblik [4, C. 116]. Shu ma'noda, "chinakam vatanparvar" deganda xalq manfaatlarini ko'zlab ish tutadigan insonlarni tushunish maqsadga muvofiq.

Xiyonat tushunchasi axloqiy tushunchalar turkumiga kiradi. Turli mamlakatlar xalqlari orasida xiyonatga munosabat turlicha bo'lib, bu farqlar shaxsning ma'lum bir yosh va ijtimoiy guruhga mansubligiga, kasbiga, ta'lim darajasi va sifatiga hamda boshqa omillarga bog'liq [5, C. 46]. Albatta, xiyonat ko'p qirrali tushuncha bo'lib, falsafiy, mantiqiy, dunyoviy, psixologik, axloqiy, gender, huquqiy jihatlarga ham ega.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Shu ma'noda, xiyonat – insoniy munosabatlarning qadriga yetmaslik bo'lib, barcha xalqlarda mavjud bo'lgan, kapitalizmdan oldingi davrda o'lim bilan jazolangan tushunchadir. Hozirgi vaqtda u odatda jinoiy huquqbuzarlik hisoblanadi. Xiyonat tushunchasi insonning tabiiy huquqlari kategoriyasini bildiradi, ya'ni insonga sotqindek munosabatda bo'lish yoki uning qilmishini olqishlash har bir insonning vijdon erkinligi masalasidir, lekin davlat uchun emas. Demak, vatanparvarlikka qarama-qarshi tushuncha Vatanga xiyonat qilish hisoblanadi. Jamiyatning ichki barqarorligiga tahdid soluvchi, birdamligini buzuvchi tajovuzlar Vatanga xiyonat qilish asosidagi axloqiy illat sanaladi.

Vatanparvarlik har qanday sharoitda ham ulug'vorligini, kelajakka ishonchni yo'qotmaydigan, inson qalbida doimiy yashaydigan tuyg'u bo'lishini talab qiladi. O'tish davridagi fazilatlar esa taraqqiyotga yo'l ochib berishi bilan o'z funksiyasini bajarib, tarix sahnasidan tushib qoladi. Ular shaxs umrining bir qismi, bir bosqichi hisoblanadi.

Olim Qiyomiddin Nazarov vatanparvarlikni umumbashariy tushuncha sifatida talqin etadi va uni Vatan ravnaqi g'oyasining xususiyatlari bilan bog'laydi. Uning fikricha, "vatanparvarlik tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo'lib, tashqi muhit va davrlar ta'sirida shakllangan, kamolga yetib kelgan ijtimoiy-ruhiy tuyg'udir. U har bir insonning butun umri davomida shakllanib, kengayib va takomillashib boradi. Albatta, inson ulg'ayib, voyaga yetar ekan, u butun Yer yuzi odam bolasi uchun umumiy makon ekanini anglaydi, Ona zamin Quyosh sistemasida inson uchun yagona Vatan ekanini bilib oladi. Shu zaminni asrab-avaylash lozimligini tushunadi. Bunday tasavvurga asoslangan vatanparvarlik umumbashariy tushunchadir" [6, B. 84]. Demak, vatanparvarlik ijtimoiy ong qadriyatlari asosida shakllangan, mansublikni qadrlashga asoslangan dunyoqarash hisoblanadi.

Tadqiqotchi olim E.Qalqanov vatanparvarlikni ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi. Uning fikriga ko'ra, vatanparvarlik ijtimoiy ong shakllarining atributiv xususiyati sifatida namoyon bo'lib, "Vatan" va "vatanparvarlik" tushunchalarining etimologik

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ma'nolari – ona yurt va o'z xalqini sevuvchi ma'nolari insonlarga xos tuyg'u – ruhiy hodisa sifatida berilgan [7, B. 18]. Shuningdek, muallif vatanparvarlik kishining muayyan xalq va hududga yaqinlikni his etishi, o'z-o'zini anglashi va ona yurt, xalqiga vafodorlikning shakllanishi ekanini, uning o'q ildizini esa sadoqat tashkil etishini, sadoqat vatanparvarlikning mavjudlik sharti ekanini ta'kidlaydi. Chunonchi, u vatanparvarlik va baynalminallik inson qalbida ona yurt, xalqiga xos sadoqatning bir-biridan farq qiluvchi va bir-birini taqozo etuvchi ikki qarama-qarshi tomoni ekanini, shuningdek, vatanparvarlikning falsafiy va tarixiy ongga ham xosligini tahlil qiladi va "vatanparvarlik" tushunchasiga quyidagi ta'rifni beradi: "Vatanparvarlik – muayyan geografik hududda, muayyan jamoa – elat, millat doirasida kishilar ruhiyatida yuzaga keladigan, jamiyatning barcha sohalari bilan bog'liq etnogenetik, tabiiy-huquqiy, axloqiy, iqtisodiy va siyosiy, imonlilik his-tuyg'ularidir. U bir qator ijtimoiy ong shakllarining atributiv xususiyatlariga kiradi va muayyan e'tiqod va xatti-harakatning muvofiqlashuvi sifatida amal qiladi. Vatanparvarlik o'ziga xos substansional bir butunlikka ega ruhiy hodisadir" [7, B. 12]. Demak, vatanparvarlik fidoyilik va sadoqatlilik tushunchalari orqali ochiladi. Ularning namoyon bo'lishi shaxsda vatanparvarlikni namoyon qiladi.

Vatanparvarlik tushunchasining axloqiy mazmuni bilan bog'liq yana bir muhim masala – bu uning milliy g'urur, or-nomus kabi axloqiy me'yorlar bilan bog'liq jihatlaridir. Vatanparvarlik bilan bog'liq tushunchalar orasida Vatanni sevish va Vatanga sadoqat tushunchalari ajralib turadi. Quyida ularning axloqiy asoslari, farqli jihatlari va o'zaro dialektik aloqadorligi tahlil qilinadi.

Vatanga sadoqat axloqning oliy tamoyillaridan biri bo'lib, bu tamoyillarni biron-bir shaxs yaratmagan, ular muayyan ijtimoiy munosabatlarga muvofiq hayot jarayonida axloqiy ong shakllari sifatida vujudga kelgan qonun-qoidalar hisoblanadi. Shunga ko'ra umuminsoniy axloq prinsiplari deb jamiyatning ma'naviy ongida ishlab chiqilgan, insonning ma'naviy mohiyatiga, burchiga, hayotining mazmuniga va kishilar o'rtasidagi

o‘zaro aloqalarning tabiatiga taalluqli bo‘lgan umumiy talablarni aks ettiradigan, insonlar faoliyatining umumiy yo‘nalishini ko‘rsatib beradigan va muayyan xulq-atvor normalariga asos bo‘lib xizmat qiladigan qonun-qoidalarga aytiladi.

Vatanga sadoqatga uyg‘un tushuncha sifatida fidoyilikni keltirish to‘g‘ri bo‘ladi. Bu borada izohli lug‘atda “Fidoyilik – boshqalar manfaati yo‘lida o‘z qonuniy manfaatlarini, hatto hayotini qurbon qilishga tayyor turgan, jamiyat uchun umumiy bo‘lgan oliy maqsad va ideallarni deb o‘zidan kecha oladigan kishilar xatti-harakatlarini ifodalovchi ma’naviy tushuncha” [8, B. 586], degan ta’rif keltiriladi. Umuman olganda, inson qalbida mavjud fazilatlar o‘zaro uyg‘un bo‘lib, shaxs kamolotini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Vatanparvarlik fazilatining axloqiy mezonlarini fidoyilik, mas’uliyatlilik, qahramonlik, chidamlilik, sadoqat, oriyat va g‘urur kabi sifatlar tashkil etadi. Ilmiy tahlillar natijasida vatanparvarlikning axloqiy asosini belgilaydigan quyidagi fazilat mezonlarini izohlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Intizomlilik fazilati. Intizom inson tomonidan har bir ishni o‘z vaqtida, tartib bilan amalga oshirishdir. Ma’rifatparvar alloma Abdulla Avloniy intizomni xalq, millat, Vatan taraqqiyoti bilan bog‘laydi. Ayni paytda, har bir millatning rivoji va ravnaqi barcha ishlarni o‘z vaqtida, belgilangan talab va qoidalardan chetga chiqmagan holda tartib bilan ro‘yobga chiqarishga bog‘liq ekanligiga e’tibor qaratadi: “Alhosil, har bir millatning taraqqiy va taoliysi ishlarini vaqtida nizomdan chiqarmay tartibi ila yuritmakg‘a bog‘liqdur. Chunki tartib va nizomni rioya qilmagan kishilarning ishlari hamma vaqt notamom, o‘zlari parishon bo‘lurlar” [9, B. 52–53].

Qat’iyatlilik. Vatanparvarlik fazilatlari orasida bu fazilat muhim ma’naviy-axloqiy ahamiyatga ega. Mazkur tushuncha umuman inson axloqiy faoliyatining asosini, xususan, vatanparvarlik axloqining mezonini tashkil etadi. Bugungi yoshlar o‘zining axloqiy fazilatini qat’iyatli bo‘lish orqali namoyon etsagina, chinakam vatanparvarlikni namoyon etgan bo‘ladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Mardlik. Mardlik fazilatining yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlashdagi ahamiyati yuqoridagi fazilatlarga nisbatan kengqamrovliroqdir. Mardlik qator axloqiy mezonlar asosida yuzaga keladi. Mardlikda rahmdillik, fahmlilik, yalovbardorlik, xushxulqlik, ochiqko‘ngillik, samimiylik, muruvvatlilik, olijanoblik kabi axloqiy sifatlar mujassam bo‘ladi. Mutafakkir va davlat arbobi Mir Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining “Tarbiyat topib, xaromnamakliq qilg‘on navkarlar zikrida” nomli o‘ttiz oltinchi faslida mardlik fazilati bilan bog‘liq axloqiy jihatlarni quyidagicha izohlaydi: “Navkarki, vali ne’matidin rioyat ko‘rgay va bek va maxdumidin tarbiyat va inoyat ko‘rgay. Erlik va insoniyat uldurkim, muqobalasida qulluq va xidmatkorlik, balki yakjihatliq va jonsiporliq qilg‘ay va tilagaykim, anga jon fido etgay to shafqati huquqin ado etgay. Hamiyat ul emaski, maxdum yana birovga ko‘prak multafit bo‘lg‘onidin shikoyat izhor qilg‘ay va gilamandlig‘ guftu guzori, to ish anga yetgaykim, ne’mat kufroni orog‘a tushgay va haq noshinosliq tug‘yoni mojarog‘a surushgay va bu odamiysizliq qochmoqqa munjar bo‘lg‘ay, aduv eshigiga borurg‘a muqarrar bo‘lg‘ay” [10, B. 29].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilganda, vatanparvarlik, fidoyilik, sadoqatlilik, Vatanni sevish tushunchalarining axloqiy asoslari, farqli jihatlari va dialektik aloqadorligi tahlili ularning konseptual jihatdan farqlanishini ko‘rsatadi. Vatanni sevish asosan tuyg‘u va manfaatdorlik bilan bog‘liq bo‘lsa, vatanparvarlik beg‘araz mas’uliyat, burch va amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladi; Vatanga xiyonat esa unga qarama-qarshi axloqiy illat sifatida maydonga chiqadi. Shu bois yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirishda ularning qarashlari, milliy va etnik xususiyatlaridan kelib chiqish va shu asosda yondashish talab etiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, yoshlar tarbiyasida “Vatan menga nima berdi?” emas, balki “Men Vatan uchun nima qildim?” degan aqidani qaror toptirishga yo‘naltirilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish;

ikkinchidan, intizomlilik, qat'iyatlilik va mardlik kabi axloqiy mezonlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga, jumladan, harbiy ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlar mazmuniga tizimli singdirish; uchinchidan, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlar merosi va ajdodlarimiz jasoratiga oid namunalardan vatanparvarlik tarbiyasida keng foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Фалсафа: қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 496 б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси ДИН, 2014. – Б. 16–17.
3. Кант И. Критика способности суждения. – Москва: Мысль, 1982. – С. 216.
4. Кулакова Л.И., Западов В.А. А.Н.Радищев. «Путешествие из Петербурга в Москву»: Комментарий. – Ленинград: Белогор, 1974. – С. 116.
5. Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. – Москва, 2008. – С. 46.
6. Назаров Қ. Ғоялар фалсафаси: тажрибавий қўлланма. – Тошкент: Академия, 2011. – Б. 84.
7. Қалқанов Э.Т. Ватанпарварлик шаклланиши ва амал қилишининг боғлиқлик қонуниятлари (ижтимоий-фалсафий таҳлил): фалс. фан. номз. … дис. автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2011.
8. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2010. – Б. 586.
9. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 52–53.
10. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 29.
11. Ватан ҳимояси – муқаддас бурч / Тузувчилар: Иноятов И.Ю., Абилов М.Ҳ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001.
12. Военный энциклопедический словарь. – Москва: Эксмо-Пресс, 2007. – 1024 с.
13. Гаспринский Исмоилбек. Ҳаёт ва мамот масаласи. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 115–116.
14. Дергач А.А., Зазвыкин В.Г. К проблеме подготовки профессионалов // XXI аср – интеллектуал-инновацион ғоялар асри: Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети, 2014. – Б. 167–171.
15. Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялашда маънавий-ахлоқий мероснинг ўрни: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. – Тошкент, 2015 йил 28 апрель.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

16. Жалолиддин Давоний. Ахлоқи Жалолий. ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида сақланаётган қўлёзма. Инв. № 7703.
17. Жумабоев Й. Осиё этикаси тарихи очерклари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1980. – Б. 20.
18. Жўраев Н. Халқаро терроризм ва минтақавий можаролар. – Тошкент: Маънавият, 2001.
19. Жўраев Т. Миллий давлатчилик: хавфсизлик ва барқарорлик. – Тошкент: Akademiya, 2007.
20. Жўраев Т., Пахрутдинов Ш. Дунёвий давлатчилик ва сиёсийлашган динийлик: азалий мухолифат. – Тошкент, 2008. – 129 б.

HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

To'rayev Sanjar Tohir o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o'quv markazi o'qituvchisi,
Tel:+998970021249, E-mail: sanjarturayev@gmail.com

Annotatsiya. *Zamonaviy geosiyosiy sharoitda harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish davlat xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda, biroq harbiy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari hanuzgacha yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Tadqiqotning maqsadi tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning pedagogik modelini ishlab chiqish va asoslashdir. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, qiyosiy-tipologik usul hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari qo'llanildi. Olib borilgan tadqiqot natijasida o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini belgilovchi tashkiliy-pedagogik shartlar aniqlandi va didaktik tamoyillar tizimi ishlab chiqildi. Muallif tomonidan taklif etilgan pedagogik model simulyatsiyaga asoslangan ta'lim, vaziyatli o'qitish hamda mission command tamoyillarini integratsiyalashgan holda, nazariy bilim va amaliy ko'nikma o'rtasidagi uzilishni bartaraf etishga xizmat qiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi harbiy ta'lim muassasalari sharoitiga moslashtirilgan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan integral modelning yaratilganligida namoyon bo'ladi. Natijalarning amaliy ahamiyati ularni harbiy o'quv muassasalari o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish imkoniyatida ko'rinadi. Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan model harbiy ta'lim sifatini tubdan yaxshilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *baholash, blended learning, diagnostika, didaktika, harbiy yo'riqchi, kursant, gibrid, harbiy pedagogika, harbiy ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, mission command, motivatsiya, o'quv mashg'ulotlari, pedagogik asoslar, pedagogik model, refleksiya, scenario-based learning, simulation-based learning, ta'lim texnologiyalari.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНЫХ ЗАНЯТИЙ В ВОЕННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация. *В современных геополитических условиях повышение уровня профессиональной подготовки военнослужащих становится одним из приоритетных направлений обеспечения государственной безопасности, однако теоретико-методологические основы организации учебных занятий в военно-образовательных учреждениях до сих пор недостаточно систематизированы. Целью исследования является разработка и обоснование педагогической модели организации учебных занятий, направленной на формирование профессиональных компетенций обучающихся. В ходе исследования применялись теоретический анализ, педагогическое наблюдение, сравнительно-typological (сравнительно-типологический)*

метод, а также опытно-экспериментальная работа. В результате проведенного исследования определены организационно-педагогические условия, определяющие эффективность учебных занятий, и разработана система дидактических принципов. Предложенная автором педагогическая модель служит устранению разрыва между теоретическими знаниями и практическими навыками за счет интеграции принципов симуляционного обучения, ситуативного обучения (case-study) и концепции mission command (управления на основе миссии). Научная новизна исследования заключается в создании интегральной модели, основанной на компетентностном подходе, адаптированном к условиям военно-образовательных учреждений. Практическая значимость результатов проявляется в возможности их использования при совершенствовании учебных программ военных учебных заведений. Подводя итог, предложенная модель служит основой для кардинального повышения качества военного образования.

Ключевые слова: *оценка, смешанное обучение (blended learning), диагностика, дидактика, военный инструктор, курсант, гибрид, военная педагогика, военное образование, компетентностный подход, управление на основе миссии (mission command), мотивация, учебные занятия, педагогические основы, педагогическая модель, рефлексия, обучение на основе сценариев (scenario-based learning), симуляционное обучение (simulation-based learning), образовательные технологии.*

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF ORGANIZING EDUCATIONAL TRAINING IN MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract. *In modern geopolitical conditions, improving the level of professional training of military personnel is becoming one of the priority areas for ensuring state security; however, the theoretical and methodological foundations for organizing educational training in military educational institutions remain insufficiently systematized. The purpose of the study is to develop and substantiate a pedagogical model for organizing educational training aimed at developing the professional competencies of trainees. The study utilized theoretical analysis, pedagogical observation, comparative-typological methods, and experimental work. As a result, the organizational and pedagogical conditions determining the effectiveness of educational training were identified, and a system of didactic principles was developed. The pedagogical model proposed by the author serves to bridge the gap between theoretical knowledge and practical skills by integrating simulation-based learning, scenario-based learning, and mission command principles. The scientific novelty of the study lies in the creation of an integral model based on a competence-based approach adapted to the environment of military educational institutions. The practical significance of the results is reflected in the possibility of using them to improve the curricula of military educational institutions. In conclusion, the proposed model serves as a basis for fundamentally improving the quality of military education.*

Keywords: *assessment, blended learning, diagnostics, didactics, military instructor, cadet, hybrid, military pedagogy, military education, competence-based approach, mission command, motivation,*

educational training, pedagogical foundations, pedagogical model, reflection, scenario-based learning, simulation-based learning, educational technologies.

KIRISH

Harbiy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini samarali tashkil etish zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb va murakkab yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur soha ikki mustaqil tizimning kesishish nuqtasida joylashgan bo'lib, bir tomondan umumiy pedagogika va didaktikaning fundamental qonuniyatlari, ikkinchi tomondan esa harbiy xizmatning o'ziga xos ekstremal sharoitlari (psixologik yuklama, vaqt taqchilligi, jangovar muhitga yaqinlashtirilganlik). Shu sababli, harbiy ta'limni faqatgina fuqarolik didaktikasi andozalari yoki faqat taktik qoidalarga tayanib loyihalash metodologik jihatdan kutilgan samarani bermaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek pedagogika maktabining vakillari ko'pincha o'quv jarayonini tashkil etishni faollashtirish va individuallashtirish tamoyillari orqali ko'rib chiqadilar. M.Quronov tomonidan ilgari surilgan yondashuvlarda ta'lim jarayonining tashkiliy-metodik asoslari tinglovchining mustaqil bilim faoliyatini rag'batlantirish bilan bog'lab tushuntiriladi. Bu g'oya harbiy ta'lim sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki zamonaviy jangovar harakatlar faqat buyruqni ijro etishni emas, balki tezkor, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini talab qiladi. Biroq bu yondashuvning cheklovi shundaki, u asosan fuqarolik ta'limi kontekstida ishlab chiqilgan va harbiy intizom, bo'ysinuvchanlik, vaqt bosimi kabi omillarni hisobga olmaydi.

Jumladan, N.A.Muslimov ishlarida kasbiy ta'lim metodikasi va o'qituvchi (yo'riqchi) kompetentligi masalalari markaziy o'rin egallaydi. Bu yondashuvning harbiy ta'limga tatbiq etilishi muhim, chunki harbiy yo'riqchining kasbiy tayyorgarligini nazariy bilim bilan amaliy ko'nikmani birlashtira olish qobiliyati o'quv mashg'ulotining samaradorligini belgilaydigan asosiy omillardan biridir. Shu bilan birga, Muslimov konsepsiyasi yo'riqchining pedagogik kompetentligiga e'tibor qaratib, uning harbiy-



amaliy kompetentligi bilan integratsiyasi masalasini ochiq qoldiradi bu aynan biz aniqlamoqchi bo‘lgan tadqiqot bo‘shlig‘idir.

R.H.Jo‘rayev va R.Ishmuxamedov ishlarida interfaol va innovatsion ta’lim texnologiyalari masalasi ilgari suriladi. Ishmuxamedovning interaktiv metodlar bo‘yicha ishlab chiqilgan yondashuvlari ayniqsa diqqatga sazovor, chunki harbiy mashg‘ulotlarning ko‘p qismi (mashqlar, simulyatsiyalar, jamoaviy topshiriqlar) tabiatan interfaol xususiyatga ega. Ammo bu g‘oyalar asosan maktab va oliy ta’lim sinflari uchun moslashtirilgan bo‘lib, ularni yopiq, intizomga asoslangan harbiy muhitga ko‘chirishda metodik moslashtirish zarurati paydo bo‘ladi. Masalan, erkin muhokama formatining harbiy buyruq tizimi bilan muvozanatlanishi alohida nazariy izlanishni talab qiladi.

B.Xodjayev va Sh.Sharipov ta’lim sifatini boshqarish va pedagogik diagnostika masalalari bilan shug‘ullanadilar. Ularning g‘oyalari o‘quv natijalarini baholash mezonlari nuqtai nazaridan qimmatli, biroq harbiy ta’limda baholash nafaqat bilim, balki jangovar tayyorgarlik, jismoniy bardoshlilik va psixologik barqarorlikni ham qamrab olishi kerak. Bu ko‘p o‘lchovli baholash tizimi ularning asl modelida to‘liq qamrab olinmagan.

U.N.Nishonaliyev va A.Xoliqov ishlarida ta’lim mazmunini loyihalashtirish va kompetentsiyaviy yondashuv masalalari ko‘rib chiqilgan. Kompetentsiyaviy yondashuv g‘oyasi xalqaro harbiy ta’lim standartlari (masalan, Competency-Based Military Training) bilan nazariy yaqinlikka ega, biroq o‘zbek mualliflari tomonidan bu yondashuv hali harbiy soha xususiyatlariga moslashtirilmagan.

Xalqaro pedagogik nazariyalar va tanqidiy sintezni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, xalqaro ta’lim jarayonini tashkil etishning nazariy negizini quyidagi yondashuvlar tashkil etadi:

Benjamin Blumning taksonomiyasi bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash bosqichlarini ierarxik tartibda joylashtiradi. Harbiy ta’lim kontekstida bu model alohida ahamiyatga ega, chunki harbiy ko‘nikmalarni shakllantirish aynan shu

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mantiqqa amal qiladi, jumladan avval nazariy bilim, keyin amaliy ko‘nikma, so‘ngra murakkab vaziyatlarda mustaqil tahlil va qaror qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

John Deweyning tajriba orqali o‘rganish falsafasi harbiy ta’limning amaliy yo‘nalishi bilan tabiiy mos bo‘lib, harbiy mashg‘ulotlarning aksariyati nazariyadan ko‘ra amaliyotga asoslangan. Bu ziddiyatni qanday hal qilish ya’ni qanday qilib amaliy-tajribaviy o‘rganishni saqlab qolgan holda harbiy intizomni buzmaslik keng o‘rganilmagan muammolardan biri sanaladi.

David Kolbning tajribaviy o‘rganish sikli (aniq tajriba, fikrlash-kuzatish, mavhum kontseptuallashtirish, faol eksperimentlash) harbiy simulyatsiya va mashqlardan keyingi tahlil (after-action review) amaliyoti bilan metodologik jihatdan yaqin. Aslida ko‘p zamonaviy harbiy ta’lim tizimlarida after-action review jarayoni Kolb siklining amaliy ko‘rinishi sifatida talqin etilishi mumkin. Bu bizning original modelimiz uchun muhim nazariy ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi.

Robert Gagnening o‘qitishning to‘qqiz bosqichi (e’tiborni jalb qilish, maqsaddan xabardor qilish, oldingi bilimni faollashtirish, mazmunni taqdim etish va hokazolar) tizimli o‘quv mashg‘ulotini loyihalashtirish uchun aniq amaliy algoritm beradi. Bu model harbiy mashg‘ulot rejalashtirishda foydali, biroq u ko‘proq individual darsni loyihalashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ko‘p kunlik yoki ko‘p haftalik kompleks harbiy tayyorgarlik dasturlarini tashkil etish darajasida kengaytirishni talab qiladi.

Donald Schonning amaliyotdagi mulohaza (reflective practitioner) konseptsiyasi tinglovchining o‘z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib, takomillashtirishi g‘oyasiga asoslanadi. Bu g‘oya bizning modelimizdagi “Reflektiv komponent” uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

V.A.Slastenin, Yu.K.Babanskiy va A.A.Verbitskiy postsovet pedagogika maktabining vakillari sifatida ta’lim jarayonini optimallashtirish (Babanskiy), pedagogik faoliyat tizimi (Slastenin) va kontekstli o‘qitish (Verbitskiy) nazariyalarini ishlab chiqqanlar. Verbitskiyning kontekstli o‘qitish nazariyasi o‘quv faoliyatini bo‘lajak kasbiy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

faoliyat kontekstida tashkil etish harbiy ta'lim uchun ayniqsa dolzarb, chunki harbiy o'quv muassasalaridagi mashg'ulotlarning asosiy mazmuni bevosita kelajakdagi jangovar vazifalar kontekstida quriladi. Biroq bu o'qitishning umumiy cheklovi shundaki, ular sovet davri markazlashgan ta'lim modeli sharoitida shakllangan bo'lib, zamonaviy moslashuvchan, texnologiyaga asoslangan ta'lim muhitiga to'liq mos kelmaydi.

Bugungi kunda xorijiy harbiy ta'lim tajribasining tizimi va zamonaviy usullari tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

AQSH harbiy ta'lim tizimi — West Point (AQSH Armiyasi harbiy akademiyasi), Naval Academy (Harbiy-dengiz akademiyasi) va Air Force Academy (Harbiy-havo kuchlari akademiyasi) — dunyodagi eng institutsionallashgan va uzoq muddatli tajribaga ega harbiy ta'lim tizimlaridan biri hisoblanadi. Ushbu akademiyalarning o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish amaliyotida o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Birinchidan, kompetensiyaga asoslangan tayyorgarlik tamoyili nafaqat nazariy deklaratsiya, balki har bir fanning aniq o'lchanadigan natija ko'rsatkichlari orqali amalga oshiriladi. AQSH tajribasida natija ko'rsatkichlari nafaqat fan, balki har bir alohida mashg'ulot darajasida ham belgilanadi bu O'zbekiston harbiy ta'lim muassasalari uchun amaliy jihatdan tatbiq etilishi mumkin bo'lgan, nisbatan kam xarajat talab qiluvchi yo'nalish hisoblanadi.

Ikkinchidan, ssenariy asosidagi o'qitish AQSH harbiy akademiyalarida mashg'ulotning markaziy formatiga aylangan. Bunda tinglovchilarga to'liq aniqlanmagan, ko'p o'zgaruvchan vaziyat taqdim etiladi va ular cheklangan vaqt ichida, cheklangan ma'lumot asosida qaror qabul qilishlari talab etiladi. Mualliflik nuqtai nazaridan, bu yondashuv mustaqil ssenariy asosidagi mashq bilan to'g'ridan-to'g'ri uyg'unlashadi va O'zbekiston sharoitida joriy etilishi eng katta pedagogik samara beradigan yo'nalishlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Uchinchidan, Competency-Based Military Training (CBMT) va Mission command training (missiya-boshqaruv tayyorgarligi) tushunchasi markazlashgan buyruq berish o‘rniga, quyi bo‘g‘in komandirlariga vaziyatga moslashuvchan tashabbus ko‘rsatish vakolatini berishga asoslanadi. Bu yondashuvni tanqidiy baholaganda O‘zbekiston harbiy ta’lim tizimiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri, tanqidsiz ko‘chirib o‘tkazish noto‘g‘ri bo‘ladi, chunki milliy harbiy madaniyat, buyruqbozlik oid huquqiy-institutsional me’yorlar farqlanadi. Shu sababli, mualliflik pozitsiyasi shundan iboratki, mission command g‘oyasini emas, balki uning pedagogik mohiyatini, ya’ni mashg‘ulot davomida harbiy xizmatchiga bosqichma-bosqich, nazorat qilingan tarzda mustaqil qaror qabul qilish maydonini kengaytirish tamoyilini moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Simulation-Based Military Education zamonaviy harbiy ta’limda real jangovar vaziyatlarni xavfsiz, takrorlanuvchan sharoitda modellashtirish imkonini beradi. Bu yondashuvlarning afzalligi xato qilish narxini pasaytirish va murakkab vaziyatlarni ko‘p marta mashq qilish imkoniyatini beradi. Kamchiliklari yuqori texnologik va moliyaviy xarajat, shuningdek simulyatsiya muhitining real jangovar stress darajasini to‘liq qayta yarata olmasligi.

Turkiya Milliy Mudofaa Universitetining tajribasi O‘zbekiston uchun ayniqsa qiziqarli qiyosiy obyekt hisoblanadi, chunki ikki davlat o‘rtasida tarixiy-madaniy yaqinlik, shuningdek, harbiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha o‘xshash institutsional sharoitlar mavjud. Turkiya tajribasida e’tiborga molik jihati harbiy ta’limning bosqichlilik tamoyili, ya’ni harbiy muassasalarda o‘qitishda uzluksiz, izchil kompetensiyaviy o‘sish ta’minlanadi.

Turkiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki dron va kiber-taktikani o‘qitish harbiy ta’limning boshlang‘ich bosqichidanoq amaliyotga kiritiladi, shu bilan bir qatorda Suriya, Iroq, Liviya va Qorabog‘ urushlarida orttirilgan tajribalar o‘quv dasturlariga zudlik bilan tatbiq etiladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

NATO mamlakatlari harbiy ta'lim tizimlarida kuzatiladigan umumiy tendentsiya aralash ta'lim va raqamli jang maydoni texnologiyalarining o'quv mashg'ulotlariga integratsiyalashganligidir. Bunda nazariy-auditoriya mashg'uloti, masofaviy elektron ta'lim moduli va amaliy maydon mashg'uloti yagona didaktik zanjirga birlashtiriladi.

O'zbekiston, AQSh, Turkiya va NATO orasidagi farqlar

Mezon	O'zbekiston	AQSh	Turkiya	NATO standartlari
Boshqaruv falsafasi	Asosan markazlashgan, buyruq-ijro mantig'iga yaqin	Mission Command — tashabbuskor, mustaqil qaror qabul qilish	An'anaviy va zamonaviy uyg'unlik mavjud	Standartlashtirilgan, lekin moslashuvchan
Texnologik baza	Cheklangan, rivojlanish bosqichida	Yuqori va keng simulyatsiya infratuzilmasi	O'rta-yuqori	Yuqori, a'zo davlatlar o'rtasida farqlanadi
Pedagogik-nazariy negiz	Kuchli umumpedagogik meros, harbiy sohaga moslashtirilmagan	Amaliy-tatbiqiy yo'nalish kuchli	Tarixiy merosi va NATO standartlari sintezi	Kompetentsiyaviy, standartlashtirilgan
Yo'riqchi tayyorgarligi	Pedagogik yo'nalish ustun, harbiy-amaliy integratsiya zaif	Harbiy va pedagogik kompetentlik integratsiyalashgan	O'tish jarayonida	Standartlashtirilgan yo'riqchi sertifikatsiyasi
Baholash tizimi	Asosan bilim-markazli baholash	Ko'p o'lchovli (kompetentsiya-markazli) baholash	Aralash model	Kompetentsiyaviy mezonlar

1-jadval. O'zbekiston, AQSh, Turkiya va NATO harbiy ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bu jadvaldan ko‘rinadiki, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi farq nisbatan kichik (ikkalasi ham turkiy davlat, etnik birligi), biroq O‘zbekiston va AQSh va NATO o‘rtasidagi farq institutsional falsafa darajasida chuqurroq bu farq shunchaki texnologik orqada qolish emas, balki ta’lim falsafasining tubdan boshqacha mantiqiy negizidan kelib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni ta’lim tizimining umumiy tamoyillarini, jumladan ta’lim sifatini ta’minlash, uzluksizlik va izchillik tamoyillarini belgilaydi va bu tamoyillar harbiy ta’lim muassasalariga ham tatbiq etiladi, biroq harbiy ta’limning o‘ziga xos jihatlari alohida tartibga soluvchi maxsus normalarni talab etadi. Global tendensiyalar fonida O‘zbekiston harbiy ta’lim tizimining hozirgi holatini tahlil qilganda, quyidagi muammoli zonalar ajralib chiqadi.

Birinchidan, harbiy ta’lim muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayoni umumiy didaktika nazariyalariga asoslanishi bilan birga, harbiy institutsional muhitning o‘ziga xos xususiyatlarini qattiq intizom, jamoaviy mas’uliyat, operativ vaqt cheklovi va yuqori stress sharoitida qaror qabul qilish zaruratini alohida hisobga oluvchi mustaqil pedagogik modelni talab etadi.

Ikkinchidan, o‘zbek pedagogika maktabining boy nazariy merosi asosan fuqarolik ta’limi kontekstida rivojlangan bo‘lib, harbiy ta’limning o‘ziga xos institutsional muhitiga moslashtirilgan alohida nazariy model mavjud emas.

Uchunchidan, mavjud amaliyotda o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish ko‘pincha ko‘rsatmani ijro etish mantiqiga asoslanib, harbiy xizmatchining mustaqil vaziyatli tahlil va qaror qabul qilish kompetensiyasini yetarlicha rivojlantirmaydi, bu esa zamonaviy gibrid va o‘zgaruvchan harbiy muhit talablariga to‘liq javob bermaydi.

To‘rtinchidan, kompetentsiyaviy yondashuv umumiy ta’lim sohasida nazariy jihatdan tanilgan, biroq uning harbiy ko‘nikma va jangovar tayyorgarlikka xos o‘ziga xos kompetentsiya tarkibiy qismlariga aylantirilishi alohida ishlanmagan.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Shu sababli AQSH, Turkiya, NATO mamlakatlaridagi ssenariy asosidagi o‘qitish, formativ jarayonli diagnostika va aralash ta’lim tamoyillari O‘zbekiston harbiy ta’lim tizimiga mexanik ko‘chirish emas, balki tanqidiy moslashtirish orqali tatbiq etilishi lozim.

Model qurilishining nazariy-metodologik asoslanishi

Model yaratishdan oldin, uning qurilish mantiqini izohlash zarur. Model yetti komponentdan iborat bo‘lib, ular ikkita o‘zaro bog‘liq mantiqiy zanjirni tashkil etadi.

1. Statik tarkibiy zanjir — maqsad, mazmun, texnologiya (nima o‘qitiladi va qanday).

2. Dinamik jarayoniy zanjir — motivatsiya, diagnostika, refleksiya, kompetentsiya shakllanishi (jarayon qanday harakatlanadi va natijaga aylanadi).

Bu ikki zanjirning bir-biriga uzluksiz ta’sir ko‘rsatishi modelning markaziy g‘oyasidir chunki harbiy ta’limda mazmun va jarayon hech qachon bir-biridan ajratilgan holda mavjud bo‘lmaydi, har bir mashg‘ulot bir vaqtning o‘zida bilim beradi, motivatsiyani shakllantiradi va harbiy xizmatchining real jangovar tayyorgarligini diagnostika qiladi.

Komponent	Asosiy nazariy manba	Moslashtirish mantig‘i
Maqsadli komponent	O‘zbek pedagogik traditsiyasi (Quronov) + AQSh Mission Command falsafasi	Milliy ta’lim maqsadlari tashabbuskorlik tamoyili bilan boyitiladi
Mazmuniy komponent	Nishonaliyev (mazmun loyihalashtirish) + NATO standartlashtirish tamoyili	Milliy o‘quv dasturi xalqaro modulli tuzilma bilan uyg‘unlashtiriladi
Texnologik komponent	Ishmuxamedov (interfaol metodlar) + Simulation-Based Military Education	Interfaol metodlar simulyatsiya texnologiyalari bilan kengaytiriladi

Komponent	Asosiy nazariy manba	Moslashtirish mantig‘i
Motivatsion komponent	O‘zbek pedagogik traditsiyasi + Turkiya MMU tajribasi	Milliy-vatanparvarlikni rag‘batlantirish bilan birlashtiriladi
Diagnostik komponent	Sharipov (pedagogik diagnostika) + Kompetentsiyaviy baholash	An’anaviy bilim nazorati ko‘p o‘lchovli kompetentsiya o‘lchovi bilan kengaytiriladi
Reflektiv komponent	Schon (reflektiv amaliyotchi) + AQSh After-Action Review amaliyoti	Individual refleksiya jamoaviy tahlilga aylantiriladi
Kompetentsiya shakllantiruvchi komponent	Xoliqov (kompetentsiyaviy yondashuv) + NATO standartlari	Milliy kompetentsiya ta’rifi xalqaro mezonlar bilan kalibrlanadi

2-jadval. Model komponentlarining nazariy manbalari va moslashtirish mantig‘i

Modelning grafik tasviri (sxematik diagramma) quyidagi sxema modelning yetti komponentdan iborat tuzilmasini va ular orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, jumladan teskari aloqa mexanizmini aks ettiradi.



1-rasm. Harbiy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning yetti komponentli pedagogik modeli

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Teskari aloqa (7-komponentdan 1-komponentga: natija tahlili asosida maqsadlar va mazmun doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqiladi).

Komponentlarning izohli tavsifi

Maqsadli komponent — ikki darajali maqsad tizimini nazarda tutadi, bunda strategik daraja (davlat mudofaa ehtiyojlari, milliy harbiy doktrina) va operativ daraja (har bir mashg‘ulotning aniq, o‘lchanadigan natijasi). Mission Command falsafasidan olingan tashabbuskorlik tamoyili shu yerda namoyon bo‘ladi. Maqsad faqat “nimani bilishi kerak” emas, balki “qanday vaziyatda mustaqil qaror qabul qila olishi kerak” tarzida shakllantiriladi.

Mazmuniy komponent — o‘quv dasturi modulli tuzilmada quriladi, bu NATO standartlashtirish tamoyilidan olingan bo‘lib, har bir modul aniq kompetentsiya bilan bog‘lanadi va boshqa modullarga moslashtirilishi mumkin. Bu ayni paytda, milliy o‘quv dasturining o‘ziga xosligini saqlab qoladi.

Texnologik komponent — interfaol metodlar (munozara, kichik guruh ishlari, keys-stadi) bilan simulyatsiya texnologiyalarini (taktik o‘yinlar, virtual mashqlar) birlashtiradi. Muhim nuqta bu komponent O‘zbekiston resurs sharoitiga moslashtirilgan bosqichma-bosqich tatbiq etish strategiyasini nazarda tutadi.

Parallel komponentlar — (Motivatsion, Diagnostik, Reflektiv). Bu uch komponent atayin parallel (vertikal ketma-ketlikda emas) joylashtirilgan, chunki ular bir vaqtning o‘zida, doimiy ravishda ishlaydi va har bir mashg‘ulot davomida kursant bir vaqtning o‘zida motivatsiyalanadi, diagnostika qilinadi va refleksiya jarayonida bo‘ladi. Bu modelning yagona jihatlaridan biri ko‘p mavjud modellarda bu uch jarayon ketma-ket bosqich sifatida berilgan, biz ularni bir-biriga uzluksiz ta’sir ko‘rsatuvchi parallel jarayon sifatida taklif qilamiz.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Kompetentsiya shakllantiruvchi komponent — modelning yakuniy integrativ komponenti, unda barcha oldingi olti komponentning natijasi yagona o‘lchanadigan kompetentsiya profiliga aylanadi.

Teskari aloqa mexanizmi modelning yana bir muhim jihati chiziqli emas, siklik tuzilma. Yettinchi komponentdagi natija tahlili birinchi komponentdagi maqsadlarni qayta ko‘rib chiqishga asos beradi, bu Kolb sikli mantiqini institutsional darajaga ko‘taradi.

Qiyosiy tahlil — xorijiy tajribaning O‘zbekistonga tatbiq etilishi:

Tahlil mezonlari — xorijiy tajribaning O‘zbekiston sharoitida tatbiq etilish darajasini baholash uchun uch mezon qo‘llanildi. Birinchidan, institutsional-madaniy moslik, amaliyotda O‘zbekiston harbiy ta’lim madaniyati va boshqaruv an’analari bilan ziddiyatga kirmasligi. Ikkinchidan, resurs-infratuzilma real imkoniyati amaliyot uchun zarur moliyaviy, texnologik va kadr resurslarining mavjudligi. Uchinchidan, huquqiy-me’yoriy moslik amaliyotning mavjud milliy qonunchilik va harbiy nizomlarga ziddiyatsiz integratsiya imkoniyati. Har bir amaliyot shu uch mezon bo‘yicha baholanib, uch toifaga ajratildi.

After-Action Review (mashg‘ulotdan keyingi jamoaviy tahlil) — bu amaliyot maxsus texnologik infratuzilmani talab qilmaydi u faqat tashkiliy metodik intizomni talab qiladi. Kolb sikli va Schon reflektiv amaliyoti bilan nazariy uyg‘unlikka ega bo‘lib, mavjud o‘zbek pedagogik metodikasi bilan ham ziddiyatga kirmaydi. Shu sababli bu amaliyot darhol, qo‘shimcha resurs talab qilmagan holda joriy etilishi mumkin bo‘lgan amaliyot sifatida baholanadi.

Interfaol o‘qitish metodlarining kengaytirilgan qo‘llanilishi o‘zbek olimlari tomonidan allaqachon ishlab chiqilgan interfaol metodologiya mavjud bo‘lgani uchun, bu metodlarni harbiy mashg‘ulotlarga kengaytirish printsipial yangi resurs emas, balki mavjud metodik bazani qayta yo‘naltirish masalasidir.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Kompetentsiyaviy yondashuvning bosqichma-bosqich joriy etilishi. Xoliqov va Nishonaliyev ishlarida nazariy asos allaqachon mavjud bo'lib, bu yondashuvni harbiy o'quv dasturlariga kiritish institutsional qarshilikdan ko'ra ko'proq metodik ishlanma masalasi ko'rib chiqishni talab etadi.

Mission Command falsafasi (desentralizatsiyalashgan qaror qabul qilish) —ta'lim mashg'ulotlariga tatbiq etiladigan qismi kursantlarga noaniq vaziyatlarda mustaqil fikrlash imkoniyatini beruvchi o'quv vazifalari qisman qabul qilinishi mumkin. Biroq bu falsafaning to'liq institutsional shakli yuqori darajadagi ishonch madaniyatini va kichik komandirlarga keng vakolat berishni talab qiladi, bu esa ko'p mamlakatlarda, jumladan ko'plab postsovet harbiy tizimlarida, mavjud ierarxik boshqaruv an'analariga zid keladi.

Simulation-Based Military Education yondashuvining konseptual qismi (simulyatsiya orqali xavfsiz mashq qilish) universal qiymatga ega, biroq uning to'liq texnologik versiyasi (yuqori darajadagi virtual reallik, qimmat simulyatorlar) sezilarli moliyaviy resursni talab qiladi. Shu sababli bu yondashuv bosqichma-bosqich, arzon texnologik yechimlardan (oddiy kompyuter simulyatsiyalari, stol o'yinlari asosidagi taktik mashqlar) boshlab, resurs imkoniyati o'sishi bilan murakkablashtirilishi kerak bo'lgan yo'nalish sifatida baholanadi.

Blended Learning (aralash o'qitish) tizimi masofaviy va raqamli komponentlarni auditoriya mashg'ulotlari bilan birlashtirish g'oyasi qiymatli, biroq harbiy ta'lim muassasalarining yopiq, xavfsizlik talablariga bog'liq muhitida internet-asoslangan platformalarni keng qo'llash xavfsizlik nuqtai nazaridan cheklovlarga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli bu yondashuv yopiq, lokal tarmoq (internet) asosidagi raqamli materiallar bilan cheklangan shaklda qabul qilinishi maqsadga muvofiq.

XULOSA

1. Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlashda yetti komponentli modelning har bir blokini majburiy tarkibiy qism sifatida joriy etish, buning uchun yagona metodik andoza (shablon) ishlab chiqish tavsiya etiladi.

2. Mashg‘ulotlarning texnologik blokida ssenariy asosidagi mashqlarning ulushini bosqichma-bosqich oshirish, dastlabki bosqichda past xarajatli (kompyuter asosidagi taktik simulyatorlar, rol o‘yinlari) yechimlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

3. Yo‘riqchilar uchun “tuzilgan debrifing” (structured debriefing) metodikasi bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish, chunki refleksiv blokning samarali amalga oshirilishi yo‘riqchining maxsus metodik tayyorgarligini talab etadi.

4. Diagnostika tizimini yakuniy nazoratdan jarayonli baholashga yo‘naltirilgan holda qayta qurish, buning uchun mashg‘ulot davomidagi kuzatuv varaqalari va oraliq baholash mezonlarini ishlab chiqish zarur.

5. Harbiy ta’lim muassasalari va xorijiy hamkor ta’lim institutlari o‘rtasida metodik tajriba almashish dasturlarini kengaytirish, ayniqsa ssenariy asosidagi o‘qitish va simulyatsion texnologiyalar bo‘yicha amaliy treninglarni tashkil etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo‘rayev, R.H. (2019). Uzluksiz ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalar integratsiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Quronov, M. (2018). Milliy tarbiya asoslari, tamoyillar va metodologiya. Toshkent: Ma’naviyat.
3. Muslimov, N.A. (2015). Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Toshkent: Fan.
4. Nishonaliyev, U.N. (2020). Oliy pedagogik ta’lim didaktikasi va modernizatsiyalash strategiyalari. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Xoliqov, A. (2016). Pedagogik mahorat va oliy maktab pedagogikasi. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
6. Sharipov, Sh. (2021). Talabalarning ijodiy-tahliliy fikrlashini rivojlantirish metodologiyasi. Toshkent: Noshir.
7. Xodjayev, B. (2017). Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti: darslik. Toshkent: Sano-standart.
8. Ishmuxamedov, R., Abduqodirov, A. (2019). Ta’limda innovatsion texnologiyalar: amaliy tavsiyalar. Toshkent: Iste’dod.
9. Babanskiy, Yu.K. (1982). Optimization of the Educational Process: A Methodological Approach. Moscow: Progress Publishers.

10. Bloom, B.S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York: Longmans, Green.
11. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
12. Gagne, R.M. (1985). The Conditions of Learning and Theory of Instruction (4th ed.). New York: Holt, Rinehart and Winston.
13. Kolb, D.A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
14. Schon, D.A. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books.
15. Slastenin, V.A. (2002). Pedagogy: A Textbook for Students of Higher Pedagogical Educational Institutions. Moscow: Academia.
16. Verbitskiy, A.A. (1991). Contextual Learning in Higher Education: Theory and Technologies. Moscow: Vysshaya Shkola.
17. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: Adolat.
18. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. (2020). Ta’lim to‘g‘risida (O‘RQ-637-son). O‘zbekiston Respublikasi Qonun Hujjatlari Ma’lumotlari Milliy Bazasi.
19. Department of the Army. (2019). Army Leadership and the Profession (ADP 6-22). Washington, DC: Headquarters, Department of the Army (USA).
20. NATO Standardization Office. (2023). NATO Education and Training Directive (BI-SCD 075-003). Brussels: NATO Headquarters.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

HARBIY KADRLARNI TAYYORLASHDA PEDAGOGIKANING ROLI VA O‘RNI

Mamatqulov Azamat Rustamovich
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi katta o‘qituvchisi.
Tel: 97 708-63-18. E-mail. azamatmamatkulov562@gmail.com

Annotatsiya: *bugungi kunda barcha sohalarda yangiliklarni va rivojlanishlarning omili bilim, izlanish, tajriba va amaliy ko‘nikmalar bo‘lib kelmoqda. Salmoqli natijalar ortida ta’lim va tarbiya turadi. So‘ngi vaqtlarda yurtimizda ta’limga berilayotgan e’tibor, yurtboshimiz boshchiliklarida yangi o‘zbekistonni barpo etishdagi harakatlarimiz boshida ta’lim-tarbiya va ma’naviyat turibdi.*

Tarixdan barchamizga ma’lumki, barcha sivilizastiyalarning debochasida ta’lim va tarbiya, ilm-fan va ma’naviyat turgan, bularga sharoit yaratilishi esa yangi kashfiyotlarga va taraqqiyotga sabab bo‘lgan.

Barcha buyuk insonlar ortida ularga ta’lim va tarbiya bergan ustozlari turishadi, qaysi davlatda ta’lim beruvchilarga shart-sharoit yaratilsa ular e’zozlansa, o‘sha joydan kuchi bilimga ega bo‘lgan insonlar yetishib chiqqan.

Hozirga zamonda yoshlarga ta’lim va tarbiya berishda o‘qituvchi pedagoglarning o‘rni beqiyos, raqamli axborotlar rivoji zamonaviy ta’limda yangi yo‘nalishlarni ochib bermoqda, ammo bu mahoratli pedagogga bo‘lgan ehtiyojni qoplab bera olmaydi, tinglovchining barcha qobiliyatini to‘liq ochilishiga o‘z kasbini ustasi bo‘lgan pedagoglar zaruriyati o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi.

Yurtimizda pedagogik kadrlar tayyorgarligiga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda, bu yo‘nalishda yurtboshimiz tashabbuslari bilan katta islohotlar amalga oshirildi, barcha sohalardagi pedagoglarni tayyorgarligiga zamonaviy yondashuv vujudga keldi.

Pedagoglarni tayyorlashdagi islohotlar harbiy sohani ham chetlab o‘tmadi, harbiylar tayyorgarligi alohida yondashuvni talab etadi.

Kalit so‘zlar: *ta’lim va tarbiya, harbiy ta’lim, pedagogika, harbiy kadrlar, interfaol uslub, harbiy pedagogika, qurolli kuchlar, zamonaviy ta’lim, ta’lim jarayoni.*

РОЛЬ И МЕСТО ПЕДАГОГИКИ В ПОДГОТОВКЕ ВОЕННЫХ КАДРОВ

Аннотация. *В настоящее время фактором инноваций и развития во всех сферах выступают знания, исследования, опыт и практические навыки. За весомыми результатами всегда стоят образование и воспитание. В последние годы в нашей стране огромное внимание уделяется сфере образования, и под руководством главы государства в основе созидания нового узбекистана лежат образование, воспитание и духовность.*

Из истории всем известно, что у истоков любой цивилизации стояли образование и воспитание, наука и духовность, а создание условий для них становилось причиной новых

открытий и прогресса. За спиной каждого великого человека стоят его учителя. В каком государстве создаются условия для педагогов, и они почитаются, оттуда выходят люди с глубокими знаниями.

В современную эпоху роль учителей-педагогов в обучении и воспитании молодежи неоценима. Хотя развитие цифровых технологий открывает новые направления в современном образовании, оно не способно полностью заменить потребность в квалифицированном педагоге; необходимость в педагогах — мастерах своего дела для полного раскрытия потенциала обучающихся не теряет своей актуальности.

Ключевые слова: *образование и воспитание, военное образование, педагогика, военные кадры, интерактивный метод, военная педагогика, вооруженные силы, современное образование, учебный процесс.*

ROLE AND PLACE OF PEDAGOGY IN THE TRAINING OF MILITARY PERSONNEL

Abstract. *Today, knowledge, research, experience, and practical skills serve as the driving factors of innovation and development across all fields. Education and upbringing always stand behind substantial results. In recent years, exceptional attention has been paid to education in our country, and under the leadership of the head of state, the foundation of building new uzbekistan relies on education, upbringing, and spirituality.*

As known from history, education, science, and spirituality stood at the dawn of all civilizations, and creating conditions for them led to new discoveries and progress. Behind every great person are their teachers. In whichever state conditions are created for educators and they are honored, individuals with profound knowledge emerge. In the modern era, the role of teacher-pedagogues in educating and raising youth is invaluable.

Although the development of digital information opens up new directions in modern education, it cannot fully replace the need for a skilled pedagogue; the necessity for pedagogues who are masters of their craft to fully unlock the potential of trainees remains highly relevant. Special attention is paid to the training of pedagogical personnel in our country, large-scale reforms have been implemented in this direction, and a modern approach to training educators in all fields has been established. Reforms in training have not bypassed the military sector, as military training requires a specific approach.

Keywords: *education and upbringing, military education, pedagogy, military personnel, interactive method, military pedagogy, armed forces, modern education, educational process.*

KIRISH

O‘zbekiston sobiq Sovet davlati hududidan ajrab chiqib, o‘z mustaqilligini butun dunyoga e’lon qildi. Mamlakat mustaqil davlat sifatida shakllanish davrini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

boshladi,lekin insonlar ongidagi ma'naviy o'zgarish birdaniga yuz bermadi, 70 yildan ortiq vaqt mobaynida xalqimiz ma'naviyatiga, ma'rifatiga, diniga, ta'lim va tarbiyasiga singdirilgan salbiy ta'sirni yo'qotishga ma'lum vaqt zarur edi.

Tarixdan barchamizga ma'lumki, bizning ajdodlarimiz dunyo sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shib kelgan, ularning sharqona madaniyati va ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan. Ta'lim va tarbiyaga, odob-axloqga katta e'tibor qaratilgan.

Turkiy xalqlar madaniyati, ma'rifati, ta'lim va tarbiya jarayonlarini barcha zamonlarda ham yuksak baholanib kelingan. Ma'rifatli, ilmli insonlarga alohida hurmat ko'rsatilgan, ta'lim va tarbiya berishda katta yutuqlarga erishilgan.

Har qanday davlatning yuksalishi yoki tanazzulga tutishida uning ma'naviyati, madaniyati, ta'lim va tarbiyaga bo'lgan e'tibori muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlarini keltirib o'tsak o'rinli bo'ladi [1].

Kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash, ularni yuksak intellektual salohiyatli, ma'rifat va madaniyatli etib tarbiyalashda birinchi o'rinda oila, mahalla, milliy urf-odatlar, tarixga, qadriyatlar bo'lgan hurmat va eng muhimi ularga ta'lim-tarbiya beruvchi o'qituvchi pedagoglarga katta ahamiyat qaratishi zarur.

Pedagogika (grekcha "tarbiyalash san'ati") – insonni o'qitish va tarbiyalash to'g'risidagi fandir [2].

Vatan osoyishtaligi, tinchligi va ravnaqi yo'lida turli sohada xizmat olib borayotgan fuqarolarning muvaffaqiyatga erishishlarida eng avvalo murabbiy, o'qituvchi pedagoglarning mehnati yotadi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar tayyorgarligini yuqoriga ko'tarishda harbiy pedagoglar o'ziga xos o'ringa ega.

Harbiy pedagogika – bu harbiy xizmatchilar, harbiy bo'linmalarni doimiy yuksak jangovar tayyorgarlikka ega bo'lishlari, tinchlik va urush davridagi sharoitda o'z harbiy

burchini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun yuksak ma'naviy, siyosiy va jangovar xislatlarini, jangovar mahoratini shakllantirish, aqliy va jismoniy kuchlarni rivojlantirish, ma'naviy-ruhiy tayyorgarlikni amalga oshirishning pedagogik qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Harbiy fanlardan ta'lim-tarbiya beruvchi harbiy pedagog o'zida fan bo'yicha bilim, tajribadan tashqari psixologik ta'sir o'tkazish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak, u tinglovchilarga egallagan bilimlarini jangovar vaziyatda qo'llay olishlariga ishontira olishi zarur. Harbiy xizmatchilarga jang maydonida, murakkab ruhiy yuklama ostida, shijoat va vatanparvarlik namoyish etgan holda jangovar vazifani bajarishni o'rgatishi kerak.

Mustaqillik yillaridagi ta'lim-tarbiya yo'nalishlariga jiddiy e'tibor qaratildi, ta'lim tizimida bir qator islohotlar o'tkazildi. Hozirgi kunda zamonaviy talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim tizimi takomillashib bormoqda.

Bugungi kunda ta'lim tizimidagi islohotlar natijasida 2020 yilning 23 sentabrida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilandi, masofaviy ta'lim haqidagi qoidalar o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limini tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish yo'nalishlari ko'rsatib o'tildi [4].

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuning 2-bob 22-moddasida harbiy kadrlarni tayyorlash bo'yicha huquqiy asos belgilab berilgan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bo‘lib, unga ko‘ra xavfsizlik va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar kadrlarni tayyorlashni o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ushbu Qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar [5].

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari harbiy xizmatchilarini (xodimlarini) tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan. Ushbu qonunning 2-bobi 13-moddasida “Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish”ni tashkillashtirish tartibi ko‘rsatib o‘tilgan [6].

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari uchun professional kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, harbiy xizmatchilarning (xodimlarning) malakasini oshirish ta’lim muassasalari, harbiy ta’lim muassasalari, shuningdek boshqa ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining ta’lim muassasalari tinglovchilari va kursantlari Qurolli kuchlarda harbiy xizmatda (xizmatda) deb hisoblanadi, bundan chet ellik fuqarolar mustasno [7].

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari ta’lim muassasalari yuqori malakaga ega o‘qituvchi va professorlar tarkibi bilan butlangan. O‘z tarkibiga oliy ta’lim muassasalarini hamda o‘quv markazlarni mujassamlashtirgan.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari ta’lim muassasalarida xodim va harbiy xizmatchilarga ta’lim-tarbiya berayotgan harbiy pedagoglar faoliyatiga nazar tashlasak, boshqa ta’lim yo‘nalishlardagi pedagogik yo‘nalishlardan farq qilishiga guvoh bo‘lamiz.

Qurolli kuchlar tarkibiga kiruvchi bo‘linmalarida xizmat faoliyatini olib borayotgan harbiy xizmatchilarga ta’lim-tarbiya berishda maxsus tayyorgarlik asosiy hisoblanib, ushbu yo‘nalish bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkillashtirishda harbiy pedagog xodimdan o‘ziga xos xususiyatga ega alohida yondashuv talab etiladi.

Harbiy tayyorgarlik fani – bu Qurolli Kuchlar tarkibidagi bo‘linmalar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning umumiy va professional tayyorgarligi hisoblanib,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

murakkab sharoitlarda turli vazifalarni bajarish ko‘nikmasini o‘rgatishga yo‘naltirilgan fanlardir [8].

Harbiy tayyorgarlik fanlari bo‘yicha mashg‘ulot olib boruvchi harbiy pedagogning asosiy vazifasi harbiy xizmatchilarda faqatgina fan bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarini berish bilan cheklanib qolmasligi kerak, uning asosiy maqsadi harbiy xizmatchi maxsus harbiy tayyorgarlik fanlaridan egallagan bilim va amaliy ko‘nikmalarini murakkab vaziyatda qo‘llay olishni o‘rgatishdan iborat bo‘lishi kerak.

Qurolli kuchlar tarkibidagi bo‘linmalar shaxsiy tarkibi bilan harbiy fanlardan mashg‘ulotlarni tashkillashtirishda zamonaviy interfaol uslublardan, treninglardan foydalanish, harbiy xizmatchilarga murakkab jangovar vaziyatga yaqin sharoitlar yaratish va shu orqali ularda kreativlik (nostandart) fikrlash, qaror qabul qilish va g‘alabaga bo‘lgan motivatsiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Interfaol” tushunchasi inglizcha (“Inter-birgalikda, faol-harakat qilish”) degan ma’noni anglatib, ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchilarni birgalikda faol harakat qilish uslubidir.

Harbiy ta’lim muassasalarida an’anaviy ma’ruzalarni samarali tashkillashtirish maqsadida interfaol uslubdagi ma’ruza mashg‘ulotlaridan foydalanilish tavsiya etildi.

Mashg‘ulotlarni interfaol tarzda tashkillashtirish tinglovchilarni mashg‘ulotlarda faol ishtirokini ta’minlaydi, nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalarda shakllantirishga xizmat qiladi.

Harbiy faoliyatda tahliliy yondashuvni shakllantiradi, tezkor qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Real jangovar vaziyatni modellashtirish imkonini beradi.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan harbiy ta’lim muassasalarida simulyatsiya va sun’iy intellekt integratsiya qilingan trenajyorlarda foydalanish ishlari jadal ravishda olib borilmoqda, interaktiv maketlar, virtual reallik(VR) yordamida jangovar harakatlarni modellashtirish orqali tinglovchilarni turli murakkab jangovar



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

vaziyatlarda qaror qabul qilish, nostandart fikrlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalari takomillashtirilmoqda.

Harbiy ta’limni zamon talablari asosida rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoda yuz berayotgan qurolli to‘qnashuvlarni doimiy tahlil qilib borish, real jang maydonida qo‘llanilayotgan zamonaviy texnologiya, taktik harakatlar o‘rganish va uni harbiy ta’lim jarayoniga tatbiq etish zamon talabi bo‘lib qolmoqda.

Interfaol uslub yuqorida keltirib o‘tilgan harbiy fanlar bilan birgalikda boshqa fanlarni o‘qitishga ham tatbiq etish mumkin, quyida harbiy fanlarda qo‘llanib kelinayotgan interfaol uslub shakllari keltirib o‘tilgan:

1. Aqliy hujum(Brain storming) -muammo bo‘yicha erkin fikrlarni to‘plash va ular asosida yechim topish;

2. Kichik guruhlarda ishlash-ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, topshiriqni birgalikda bajarish;

3. Trening shakli-bu amaliy mashqlar, rolli o‘yinlar, guruh ishlari va guruh mashqlari;

4. Guruh muhokamasi(diskussiya)-bu seminar mashg‘ulotlarini tashkillashtirishda qo‘llaniladi;

5. Keys-stadi(vaziyatli tahlil) taktik masala yechishni o‘rganishda qo‘llash mumkin.

“Trening” (inglizcha training ot train-“o‘rgatish, tarbiyalash”) degan ma’noni anglatib, faol o‘rgatish uslubini qo‘llagan holda bilimlarni oshirish usuli.

“Kreativlik” (lot., ing. “create”-yaratish, “creative”-yaratuvchi, ijodkor) ma’nolarini anglatib, insonning ijodiy (qobiliyati) bo‘lib, fikrlash, his qilish mobaynida paydo bo‘luvchi alohida faoliyatidir.

"Motivatsiya" (lot.movere)-harakatni uyg'otmoq, ruhiy-fiziologik rejaning dinamik jarayoni, inson harakatini boshqarish, maqsad sari yetaklovchi vosita, tashkillashtirish, faollik va bardoshlilik kabi ma'nolarni anglatadi.

XULOSA

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan interfaol uslublarini zamon talablaridan kelib chiqqan holda harbiy tayyorgarlik fanlarida qo'llash bo'linmalarni real jang sharoitida topshirilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishini ta'minlaydi. Harbiy fanlardan mashg'ulot olib boruvchi harbiy pedagog interfaol usullarni o'z faoliyatiga joriy qilar ekan, ushbu uslublarni o'z faniga moslashtirishi va takomillashtirishi zarur. Harbiy fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda harbiy xizmatchilar murakkab jangovar sharoitda harakatlanish, qaror qabul qilish, kuchli ruhiy bosim ostida vazifa bajarish va g'alabaga intilish kabi omillar ta'sirini ham jismonan ham ruhan his qilishlari kerak.

Qurolli kuchlar tarkibidagi bo'linmalar harbiy xizmatchilari bilan harbiy tayyorgarlik fanlaridan mashg'ulotlarni tashkillashtirishda yuqoridagi kabi zamonaviy ta'lim- tarbiya uslublari qo'llanishi harbiy xizmatchilar faoliyatini sifat darajasiga ijobiy ta'sirini o'tkazadi.

Harbiy xizmatchi va xodimlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida, harbiy tayyorgarlik fanlarini o'rgatishda harbiy pedagoglar kreativ (nostandart) uslublarni qo'llanishiga jiddiy e'tibor qaratishlari talab etiladi.

Qurolli kuchlar tarkibidagi o'quv muassasalarda faoliyat olib borayotgan harbiy pedagoglar zamonaviy interfaol uslublardan foydalanishi, mashg'ulotlar davomida harbiy xizmatchilarni fikrlashga undovchi intellektual mashqlar bajartirilishi tinglovchilarda fanga bo'lgan qiziqishni oshishiga va ularni professional tayyorgarlikdan yuqori natijalarga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tarkibiga kiruvchi bo'linmalarda harbiy kadrlarni tayyorlashda harbiy pedagoglarni mahoratini oshirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilmiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

– harbiy tayyorgarlik fanlari bo‘yicha harbiy pedagog zamonaviy pedagogik bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi;

– harbiy tayyorgarlik fanlari bo‘yicha harbiy pedagoglarni tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturlarni takomillashtirish;

– turli murakkab sharoitlarga yaqinlashtirilgan turli interfaol usullar, taktik topshiriqlar, maxsus treninglar ustida ilmiy izlanishlar olib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud ahloq” nomli asarlaridan.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 5 . – T., 2020.,
3. A.Sotib-Oldiyev, A.Karimov “Harbiy pedagogika” Sharq nashriyoti, Toshkent 2009 y.
4.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 2020yilning 23 sentyabrida qabul qilingan.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuning 2-bob, 22-moddasi “Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash” tartibi.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuning 2-bob, 13-moddasi “Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish” tartibi.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 12 noyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma’qullangan.
8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qonunini 21-moddasi.
9. Патрак А.М. Пехенко С.Г. Тактико-специалная подготовка в вопросах и ответах: пособие Част II / под ред. В.В. Горбатова. СПб: Изд-во СПб ун-та МВД России,2013 г.
10. Педагогика // Болшой Энциклопедический словар-2000 г.

KOMMUNIKATIV TIL O'QITISH ASOSIDA O'ZBEK EFL O'QUVCHILARINING OG'ZAKI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH: METODOLOGIK MODEL

Olimjonova Raykhona
https://orcid.org/0009-0006-7697-4815
Afrasiab University - Tashkent
Rayhonaolimjonova2727@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada B1 darajadagi o'zbek umumta'lim maktablari o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki kommunikativ kompetensiyasini Kommunikativ til o'qitish (CLT) yondashuvi asosida rivojlantirishga qaratilgan metodologik model ishlab chiqilgan. Tadqiqot konseptual va metodologik xarakterga ega bo'lib, CLT tamoyillari hamda CEFRning og'zaki nutq va o'zaro muloqot deskriptorlariga asoslanadi. Taklif etilgan model olti hafta davomida 18 ta darsni o'z ichiga oladi va axborot bo'shlig'i topshiriqlari, rolli o'yinlar, munozaralar, hikoya qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish, qaror qabul qilish hamda takroriy nutq amaliyotini birlashtiradi. Shuningdek, o'quvchilarning og'zaki nutqini baholash uchun ravonlik va izchillik, leksik resurs, grammatik diapazon va aniqlik, talaffuz hamda interaktiv muloqot mezonlarini qamrab oluvchi analitik baholash tizimi taklif etiladi. Ushbu model O'zbekiston EFL kontekstida kelgusida empirik tadqiqot o'tkazish va kommunikativ nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so'zlar: kommunikativ til o'qitish, CLT, og'zaki kommunikativ kompetensiya, ingliz tili chet tili sifatida, og'zaki nutq, CEFR, kommunikativ topshiriqlar, O'zbekiston

DEVELOPING UZBEK EFL STUDENTS' ORAL COMMUNICATIVE COMPETENCE THROUGH COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING: A METHODOLOGICAL FRAMEWORK

Abstract. *This article presents a methodological framework for developing the oral communicative competence of B1-level Uzbek secondary-school EFL learners through Communicative Language Teaching (CLT). The study is conceptual and methodological in nature and draws on CLT principles and CEFR-informed descriptors of spoken production and interaction. The proposed framework consists of 18 lessons delivered over six weeks and integrates information-gap tasks, role-play, discussions, storytelling, problem-solving, decision-making, and repeated speaking practice. In addition, an analytic assessment framework is proposed to evaluate learners' oral performance in terms of fluency and coherence, lexical resource, grammatical range and accuracy, pronunciation, and interactive communication. The framework provides a structured methodological basis for the future empirical investigation of communicative speaking development in the Uzbek EFL context and offers practical guidance for organizing speaking instruction through meaningful interaction, systematic language support, and communicative assessment.*

Keywords: *Communicative Language Teaching, CLT, oral communicative competence, EFL, speaking, CEFR, communicative tasks, Uzbekistan*

РАЗВИТИЕ УСТНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЗБЕКСКИХ УЧАЩИХСЯ, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННЫЙ, НА ОСНОВЕ КОММУНИКАТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ

Аннотация. *В статье представлена методологическая модель развития устной коммуникативной компетенции узбекских учащихся средней школы уровня B1, изучающих английский язык как иностранный, на основе коммуникативного обучения языку (CLT). Исследование носит концептуально-методологический характер и опирается на принципы CLT и дескрипторы CEFR, связанные с устной речью и взаимодействием. Предлагаемая модель включает 18 занятий в течение шести недель и объединяет задания с информационным пробелом, ролевые игры, дискуссии, рассказывание историй, решение проблем, принятие решений и повторную речевую практику. Кроме того, предлагается аналитическая система оценивания устной речи по таким критериям, как беглость и связность, лексический ресурс, грамматический диапазон и точность, произношение и интерактивная коммуникация. Разработанная модель может служить методологической основой для дальнейшего эмпирического исследования развития коммуникативных навыков учащихся в условиях преподавания английского языка как иностранного в Узбекистане.*

Ключевые слова: коммуникативное обучение языку, CLT, устная коммуникативная компетенция, английский язык как иностранный, устная речь, CEFR, коммуникативные задания, Узбекистан

INTRODUCTION

Speaking is a challenging component of language learning since one has to retrieve vocabulary, generate discourse, select grammatical structures, articulate oneself, and interact with other people on the spot. In EFL classes, there are few opportunities to use English outside of lessons, which makes classroom interaction essential for speaking practice. One may know vocabulary and grammatical constructions but be still unable to maintain a conversation, express an opinion, and interact spontaneously.

CLT deals with these challenges by treating meaningful communication as a goal and tool of language learning. According to Richards (2006), CLT is an approach that

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

highlights communicative competence and the meaningful use of language. Littlewood (1981) differentiates activities preparing learners for communication and activities involving language use for communicative purposes. These aspects are especially valuable for speaking lessons as they shift time of class interaction from teacher's explanations to student's speaking.

CEFR Companion Volume also provides for the multidimensional nature of spoken language as it gives an overview of oral production and interaction from the standpoint of communicative activities and qualitative features of performance (Council of Europe, 2020). This implies that the teaching of speaking cannot be reduced to grammatical accuracy only. Fluency, coherence, lexical choices, intelligibility, responsiveness, and the maintenance of interaction are to be taken into account.

For Uzbek secondary-school EFL learners, a structured CLT model may prove valuable when students already have experience in learning English for several years and limited confidence in spontaneous speaking. The aim of this article is not to report findings of invented intervention but to offer a theory-grounded framework that is to be applied in a future empirical study.

The theoretical basis of the framework combines communicative competence, interaction, and multidimensional speaking performance. Competence in a language is not only knowledge of separate linguistic elements. In a communicative classroom, learners combine linguistic resources for purposes such as requesting information, expressing preferences, agreeing and disagreeing, storytelling, problem-solving, and maintaining interaction. Richards and Rodgers (2014) emphasize learner participation, functional language use, and interaction in communicative approaches.

Speaking is a complex process with linguistic, discoursive, interactional, and sociocultural components (Burns, 1998). Learners therefore need opportunities to produce extended and relatively fluent speech rather than only short predetermined responses. Feedback should address both communicative effectiveness and linguistic

form. A CEFR-informed perspective can support this process by providing reference points for spoken production and interaction at B1 level while avoiding the claim that a locally developed classroom rubric constitutes an official CEFR certification (Council of Europe, 2020).

Accordingly, the purpose of this article is to present a theory-grounded CLT framework that can later be implemented and empirically tested with Uzbek secondary-school EFL learners. The article does not report invented intervention findings; instead, it specifies the instructional design, assessment procedures, expected methodological outputs, and research questions for a future study.

METHODS

This article uses a conceptual and methodological design. Rather than reporting data from completed participants, it translates established CLT principles and CEFR-informed speaking descriptors into a classroom intervention and assessment plan for future empirical testing. The intended instructional context is B1-level Uzbek secondary-school EFL learners.

2.1 Instructional Design

The intervention consists of 18 lessons delivered during six weeks, with three 45-minute lessons per week. Every lesson follows a flexible four-step structure including a five-minute communicative warm-up, about ten minutes of language support or guided preparation, about twenty minutes of pair/group/class communicative task activity, and ten minutes of feedback/reflection/linguistic focus.

Week	**Primary communicative focus**	**Illustrative activities**
1	Building participation and confidence	Personal information exchange, find-someone-who, short interviews

2	Functional language	Requests, suggestions, advice, arrangements, role-play
3	Expressing and supporting opinions	Ranking tasks, agree/disagree lines, mini-debates
4	Narration and connected speech	Picture stories, sequencing, personal anecdotes
5	Information exchange and problem-solving	Information gaps, jigsaw tasks, collaborative decisions
6	Integration and reflection	Extended discussion, mock speaking tasks, role-play, self-reflection

2.2 Communicative Task-Design Principles

The first principle is the purpose of communication. Learners should have a communicative purpose such as obtaining missing information, reaching a decision, solving a problem, or finding out a partner's opinion. The second principle is balance between support and challenge. Prior to a communicative task, the teacher can provide lexical chunks, questions, discourse markers, and model sentences but not script the interaction. The third principle is repetition. Students can perform a task again with a new partner or a slightly different content to have another chance to formulate their ideas.

The fourth principle is interaction among learners. Pairs and groups allow the involvement of more students simultaneously. The fifth principle is feedback after communication. During fluency-focused stages, too frequent interruption may discourage speaking. Thus, the teacher can take notes of common problems and give



form-focused feedback after the task while noting good communicative techniques as well.

2.3 Proposed Assessment Procedures

In order to test the framework empirically, a parallel pre-test and post-test speaking assessment can be used. Individual assessment can include a short unscored warm-up, a picture-description task, and a discussion task. Scored parts can be assessed according to five analytic criteria: Fluency and Coherence, Lexical Resource, Grammatical Range and Accuracy, Pronunciation, and Interactive Communication. Every criterion can be scored using a five-point rubric, providing a maximum total score of 25 points.

Two independent scorers can assess recorded performances. Raters should undergo rater training consisting in discussing descriptors and analyzing sample recordings. Inter-rater reliability will be reported. Since the rubric is researcher-made and informed by CEFR, the article will have to clearly explain how it is related to CEFR descriptors without declaring the classroom score to be an official CEFR level.

2.4 Research Questions for Empirical Testing

1. How does students' overall oral communicative performance change after a six-week CLT intervention?

2. What changes happen in fluency and coherence, lexical resource, grammatical range and accuracy, pronunciation, and interactive communication?

3. How do students perceive the communicative speaking activities used in the intervention?

RESULTS

Because this is a methodological framework article and no classroom intervention data have yet been collected, the results are presented as the concrete outputs of the framework-development process rather than as empirical learning gains.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

The first output is a six-week sequence of 18 communicative lessons organized around progressively broader speaking demands: participation and confidence, functional language, opinion expression, narration, information exchange and problem-solving, and integrated speaking practice. The lesson structure combines a brief communicative warm-up, targeted language support, an extended communicative task, and post-task feedback or reflection.

The second output is a set of five task-design principles: a genuine communicative purpose, a balance between support and challenge, opportunities for task repetition, substantial learner-to-learner interaction, and feedback after communication. Together, these principles are intended to increase speaking time while maintaining opportunities for linguistic development.

The third output is a CEFR-informed analytic assessment framework. A future pre-test/post-test design can assess five dimensions of oral performance: Fluency and Coherence, Lexical Resource, Grammatical Range and Accuracy, Pronunciation, and Interactive Communication. With five points available for each criterion, the proposed maximum score is 25 points. Recorded performances can be rated independently by two trained scorers, with inter-rater reliability reported in the empirical study.

DISCUSSION

The framework has several practical implications. CLT does not imply that teachers have to stop giving grammar lessons or explanations. Instead, form-focused assistance can be related to communicative need. Thus, phrases used for giving reasons can be introduced prior to ranking discussions, past-time forms to storytelling, and clarifying phrases to information gaps. In this way, linguistic accuracy and communicative use are seen as complementary.

The framework encourages teachers to observe learners' progress along several dimensions. Learners can start speaking and maintaining the interaction much faster than

improving their grammatical accuracy. Analytical scoring can help to reveal such discrepancies and plan further teaching.

The proposed framework reflects the view that communicative practice and attention to linguistic form are complementary rather than competing goals. Language support is linked to immediate communicative needs, while delayed feedback protects fluency-focused interaction from excessive interruption. The framework also recognizes that different dimensions of speaking may develop at different rates; therefore, analytic scoring is preferable to relying only on a single overall speaking score.

4.1 Limitations and Future Research

This article provides a framework for research. Therefore, its proposed benefits require further testing in a classroom. The future research has to collect authentic participant data, get required consent and assent, describe sampling methods, document the intervention, and employ appropriate statistical and qualitative analysis. Comparison and delayed post-tests will strengthen its conclusions.

Future empirical implementation should use authentic participant data and transparent ethical procedures, including required consent and assent. It should also describe participant selection, document intervention fidelity, and use appropriate quantitative and qualitative analyses. Where feasible, a comparison condition and delayed post-test would strengthen the interpretation of any observed changes.

CONCLUSION

A CLT framework can provide Uzbek EFL teachers with a practical tool for organizing speaking instruction through communicative interaction and systematic linguistic assistance. The proposed framework is a six-week model that combines communicative tasks, repeated speaking opportunities, feedback, and CEFR-informed analytic assessment. Its further step is its empirical application with real participants and ethically gathered data. Until then, the framework has to be regarded as pedagogical and methodological suggestion rather than the evidence of gains of a particular intervention.

REFERENCES

1. Burns, A. (1998). Teaching speaking. Annual Review of Applied Linguistics, 18, 102–123. https://doi.org/10.1017/S0267190500003500
2. Council of Europe. (2020). Common European framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment—Companion volume. Council of Europe Publishing.
3. Littlewood, W. (1981). Communicative language teaching: An introduction. Cambridge University Press.
4. Richards, J. C. (2006). Communicative language teaching today. Cambridge University Press.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and methods in language teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BOSHLANG'ICH TA'LIM MAGISTRANTLARINING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

M.A.Jumayeva
Navoiy Davlat Universiteti
Boshlang`ich ta`lim kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya. *Maqolada boshlang'ich ta'lim magistrantlarining tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ilmiy bilim, metodologik qaror va pedagogik amaliyotning o'zaro bog'liqligi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi mazkur kompetensiyaning tarkibini aniqlashtirish hamda uni rivojlantirish va baholashning nazariy modelini taklif etishdan iborat. Maqsadli tanlangan milliy va xalqaro manbalarni konseptual tahlil qilish, qiyoslash va nazariy modellashtirish usullaridan foydalanildi. Natijada muammoli-konseptual, axborot-tahliliy, metodologik-loyihaviy, empirik-analitik, kommunikativ-argumentativ va etik-refleksiv tarkibiy qismlarni birlashtiruvchi model ishlab chiqildi. Modelda kompetensiyaning namoyon bo'lishi magistrantning muammo, tadqiqot savoli, metod, dalil va xulosa o'rtasidagi muvofiqlikni asoslay olishi orqali izohlanadi. Tadqiqot portfoliosi, metodologik qarorlar qaydi va og'zaki himoyani uyg'unlashtiruvchi baholash yondashuvi taklif etiladi. Modelning amaliy samaradorligi keyingi empirik tekshiruvni talab qiladi.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, magistratura, tadqiqotchilik kompetensiyasi, ilmiy metodologiya, dalillarga asoslangan ta'lim, refleksiya, akademik halollik.*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ МАГИСТРАНТОВ В ОБЛАСТИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье анализируется процесс развития исследовательской компетентности у магистрантов, специализирующихся в области начального образования, с акцентом на взаимосвязи между научным знанием, принятием методологических решений и педагогической практикой. Цель исследования — определить компоненты данной компетентности и предложить теоретическую модель ее развития и оценивания. В работе использованы такие методы, как концептуальный анализ отобранных отечественных и зарубежных источников, сравнительный анализ и теоретическое моделирование. В результате была разработана модель, объединяющая проблемно-концептуальный, информационно-аналитический, методолого-проектировочный, эмпирико-аналитический, коммуникативно-аргументационный и этико-рефлексивный компоненты. Проявление компетентности в данной модели объясняется способностью магистранта обосновать согласованность между проблемой, исследовательским вопросом, методом, эмпирическими данными и выводами. Предложен подход*

к оцениванию, сочетающий использование исследовательского портфолио, фиксацию принятых методологических решений и устную защиту. Практическая эффективность модели требует дальнейшего эмпирического исследования.

Ключевые слова: *начальное образование, магистратура, исследовательская компетентность, научная методология, образование, основанное на доказательствах, рефлексия, академическая добросовестность.*

THEORETICAL-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING THE RESEARCH COMPETENCE OF PRIMARY EDUCATION MASTER'S STUDENTS

Abstract. *This article analyzes the development of research competence among master's students in primary education, focusing on the interrelationship between scientific knowledge, methodological decision-making, and pedagogical practice. The study aims to define the components of this competence and propose a theoretical model for its development and assessment. Methods including the conceptual analysis of selected national and international sources, comparative analysis, and theoretical modeling were employed. Consequently, a model was developed that integrates problem-conceptual, information-analytical, methodological-design, empirical-analytical, communicative-argumentative, and ethical-reflective components. In this model, the manifestation of competence is explained by the master's student's ability to substantiate the alignment between the problem, research question, method, evidence, and conclusion. An assessment approach combining a research portfolio, a record of methodological decisions, and an oral defense is proposed. The practical effectiveness of the model requires further empirical investigation.*

Keywords*: primary education, master's degree, research competence, scientific methodology, evidence-based education, reflection, academic integrity.*

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim amaliyotida pedagogik qarorlarning asoslanganligi alohida ahamiyatga ega. O'quvchining matnni tushunishdagi qiyinchiligi, matematik topshiriqni bajarish strategiyasi yoki darsdagi faolligi tashqi jihatdan o'xshash ko'rinsa-da, ularning yuzaga kelish sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Shu bois ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan qaror kuzatuvni ilmiy savolga aylantirish, muqobil izohlarni ko'rib chiqish va tegishli dalillarni baholashni talab qiladi. Magistratura ta'limining vazifalaridan biri bo'lajak mutaxassisni ana shunday asoslangan qarorlar qabul qilishga tayyorlashdir.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

O‘zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida»gi Qonunida ilmiy ijod erkinligi, ilmiy ekspertizaning xolisligi, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish hamda ilm-fan va ta’limning uzviy bog‘liqligi belgilangan [7]. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ham ta’lim, fan va innovatsiya o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirishga yo‘naltirilgan [8]. Ushbu hujjatlar magistrantlarning tadqiqotchilik tayyorgarligini rivojlantirishning milliy institutsional asosini tashkil etadi.

Biroq normativ vazifaning mavjudligi uning ta’lim jarayonida qanday amalga oshirilishi masalasini o‘z-o‘zidan hal qilmaydi. Magistrant ilmiy metodlarning ta’rifini bilishi, bibliografik ro‘yxat tuzishi yoki statistik dasturdan foydalanishi mumkin. Uning tadqiqotchilik kompetensiyasi esa ushbu harakatlarni muayyan ilmiy savolga javob topish uchun asosli birlashtira olganida namoyon bo‘ladi. Demak, tadqiqotchilik tayyorgarligini baholashda bajarilgan ishning hajmi bilan bir qatorda, uni yuzaga keltirgan metodologik qarorlarning sifati ham hisobga olinishi lozim.

Xalqaro adabiyotlarda mazkur kompetensiyaning ta’rifi va o‘lchov vositalari bo‘yicha yagona yondashuv shakllanmagani qayd etiladi. M. Matjašič va J. Vogrincning tizimli sharhi tadqiqotchilik kompetensiyasini aniqlash, rivojlantirish va baholash o‘rtasidagi muvofiqlik muammosini ko‘rsatadi [4]. Bu holat boshlang‘ich ta’lim magistraturasi uchun aniq faoliyat ko‘rsatkichlariga ega modelni ishlab chiqish zaruratini asoslaydi.

Maqolaning maqsadi boshlang‘ich ta’lim magistrantlari tadqiqotchilik kompetensiyasining mazmuniy tuzilishini aniqlashtirish, uni rivojlantirish mexanizmini nazariy asoslash hamda faoliyat natijalariga tayangan baholash mezonlarini taklif etishdan iborat.

Tahlil quyidagi savollarga yo‘naltirildi: tadqiqotchilik kompetensiyasi qaysi o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan tashkil topadi; ushbu qismlar boshlang‘ich ta’lim tadqiqotlarida qanday namoyon bo‘ladi; magistrantning mustaqil metodologik qaror qabul qilishini qanday dalillar asosida baholash mumkin?

ADABIYOTLAR TAHLILI

Milliy metodologik adabiyotlarda ilmiy izlanish bilish, ijod, metodologik yondashuv va olimning ijtimoiy mas'uliyati bilan bog'liq holda talqin qilinadi. N.A. Shermuhamedovaning «Ilmiy tadqiqot metodologiyasi» darsligida mazkur masalalar magistratura tayyorgarligi doirasida yoritilgan [9]. Ushbu yondashuv ilmiy faoliyatni texnik amallar majmuasidan kengroq tushunishga asos beradi. Biroq umumiy metodologik bilimlarni boshlang'ich ta'limga oid aniq tadqiqot vazifalariga tatbiq etish alohida didaktik yechimni talab qiladi.

J. Willison va K. O'Regan tadqiqotchilik ko'nikmalarining rivojlanishini ta'lim jarayonida kuzatish va baholashga imkon beruvchi konseptual asos taklif qilgan [10]. Mazkur ishning ushbu maqola uchun ahamiyati tadqiqotga tayyorgarlikni faqat yakuniy ilmiy mahsulot orqali emas, uning shakllanish jarayoni orqali ham ko'rib chiqish imkoniyatidadir. Bunda magistrantga beriladigan yordam va undan kutiladigan mustaqillik darajasi o'quv vazifalarini loyihalashning muhim masalasiga aylanadi.

I. Agud va G. Ion boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash dasturida tadqiqotning o'rnini talabalar fikri va o'quv dasturlari tahlili orqali o'rgangan. Ularning tadqiqotida talabalar o'zlarini tadqiqot ishlab chiqaruvchisiga nisbatan ko'proq uning iste'molchisi sifatida namoyon etishi qayd etilgan [1]. Mazkur natija boshqa mamlakatdagi muayyan dasturga tegishli bo'lib, uni O'zbekiston magistrantlariga bevosita umumlashtirish mumkin emas. Shunga qaramay, u tayyor ilmiy natijalarni o'zlashtirish bilan mustaqil tadqiqot olib borish o'rtasidagi farqni muhokama qilish uchun asos bo'ladi.

I.M. Castillo-Martínez va M.S. Ramírez-Montoya tadqiqotchilik kompetensiyalari bilan akademik o'qish va yozish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi [3]. Ularning sharhi ilmiy matn yaratish metodologik tayyorgarlikdan ajralgan faoliyat emasligini ko'rsatadi. Mazkur maqolada bu fikr magistrantning yozma ishini fikrlash jarayonining dalili sifatida ko'rib chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi: manbalarni qiyoslash, qarama-

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qarshi natijalarni tushuntirish va xulosaning chegarasini belgilash matnda ko‘rinishi kerak.

OECDning ta’lim sifatiga oid tahlilida ilmiy dalillar va o‘qituvchining kasbiy bilimlari o‘rtasidagi hamkorlikka e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalarini amaliyotga qo‘llashda ularning qaysi sharoitda, kim uchun va qanday mexanizm orqali ahamiyatli ekanini aniqlash zarurligi ta’kidlanadi [6]. Demak, magistrantning tayyorgarligi «qaysi metod samarali?» degan savoldan tashqari, «qanday sharoitda va qaysi o‘quvchilar uchun?» degan savollarga ham yo‘naltirilishi lozim.

Ko‘rib chiqilgan manbalar asosida ushbu maqolada quyidagi metodologik ehtiyoj ajratildi: kompetensiya tarkibini ta’riflash, uni rivojlantiruvchi topshiriqlarni loyihalash va natijalarni baholash bir-biriga moslashtirilishi kerak. Maqolaning nazariy hissasi shu muvofiqlikni boshlang‘ich ta’lim magistraturasi mazmunida ishlab chiqishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot konseptual-nazariy xususiyatga ega. Uning manbaviy asosini maqsadli tanlangan milliy normativ hujjatlar, metodologik adabiyot, o‘qituvchilar tayyorgarligiga oid tadqiqotlar, tizimli sharhlar va xalqaro metodik tavsiyalar tashkil etdi. Tanlashda manbaning tadqiqotchilik kompetensiyasi, ilmiy dalillardan foydalanish, akademik yozuv yoki tadqiqot etikasi masalasiga bevosita aloqadorligi hamda bibliografik ma’lumotlarining tekshirilishi hisobga olindi.

Adabiyotlar tahlili to‘liq tizimli sharh maqomiga da’vo qilmaydi. Manbalar tadqiqot savollarini nazariy asoslash maqsadida tanlandi; nashrlar oqimi bo‘yicha to‘liq bibliometrik qamrov yoki meta-tahlil amalga oshirilmadi.

Konseptual tahlil orqali tadqiqotchilik kompetensiyasining mazmuni aniqlashtirildi. Qiyoslashda manbalarning uch jihati ko‘rib chiqildi: kompetensiyani tashkil etuvchi faoliyatlar, ularni rivojlantirish shartlari va namoyon bo‘lishini baholash imkoniyatlari. Nazariy modellashtirish orqali bu jihatlar boshlang‘ich ta’limga xos vazifalar bilan bog‘landi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Model ichki izchilligining mezoni sifatida har bir tarkibiy qism uchun tegishli ilmiy harakat, kuzatiladigan mahsulot va baholash belgisi mavjudligi qabul qilindi. Maqoladagi pedagogik vaziyatlar tushuntiruvchi misollar hisoblanadi. Ular real tanlanmada o‘tkazilgan tajriba natijalarini ifodalamaydi.

NATIJALAR

Tahlil asosida boshlang‘ich ta’lim magistrantining tadqiqotchilik kompetensiyasi pedagogik muammoni ilmiy savolga aylantirish, unga mos dalillarni olish va baholash, metodologik qarorlarini asoslash hamda xulosalarini etik va refleksiv mas’uliyat bilan taqdim etishga imkon beruvchi yaxlit tayyorgarlik sifatida ta’riflandi.

Mazkur ta’rifda ilmiy bilim va amaliy harakat qarorlarni asoslash orqali birlashadi. Masalan, magistrant eksperiment ta’rifini bilishi mumkin, lekin aynan qaysi savolga javob olish uchun eksperimental dizayn zarurligini tushuntira olmasa, uning metodologik bilimi amaliy qarorga yetarli darajada aylangan deb bo‘lmaydi. Shu sababli modelda kompetensiyaning kuzatiladigan belgisi sifatida asoslangan ilmiy qaror markaziy o‘rin egallaydi.

1-jadval.

Boshlang‘ich ta’lim magistrantining tadqiqotchilik kompetensiyasi tarkibi

Tarkibiy qism	**Asosiy ilmiy harakat**	**Kuzatiladigan faoliyat mahsuloti**	**Baholash belgisi**
Muammoli-konseptual	Amaliy qiyinchilikni ilmiy muammo va tadqiqot savoliga aylantirish	Muammo bayoni, tushunchalar ta’rifi, tadqiqot savoli	Savolning aniqligi, chegaralanganligi va o‘rganish imkoniyati
Axborot-tahliliy	Manbalarni izlash, saralash, qiyoslash	Qidiruv qaydi, manbalar	Manba tanlash asoslari va qarama-qarshi

	va tanqidiy baholash	matritsasi, tahliliy sharh	dalillar hisobga olingani
Metodologik-loyihaviy	Savolga mos dizayn, tanlanma va o‘lchov vositasini tanlash	Tadqiqot protokoli va metod tanlash asosnomasi	Savol, ma’lumot va metod o‘rtasidagi muvofiqlik
Empirik-analitik	Ma’lumotni yig‘ish, tekshirish, tahlil qilish va noaniqlikni baholash	Kodlash qoidalari, tahlil natijalari va izohlari	Tahlilning ma’lumot tuzilishi va metod shartlariga mosligi
Kommunikativ-argumentativ	Natijalarni dalillarga tayangan ilmiy matn va taqdimotda ifodalash	Maqola, tadqiqot hisoboti, og‘zaki himoya	Da’vo, dalil va xulosa o‘rtasidagi izchillik
Etik-refleksiv	Ishtirokchilar huquqlarini hisobga olish va o‘z qarorlarini qayta baholash	Etik asosnoma, cheklovlar bayoni, qarorlar qaydi	Shaffoflik, mas’uliyat va muqobil izohlarga ochiqlik

Jadvaldagi tarkibiy qismlar faoliyatni tahlil qilish uchun ajratilgan. Real tadqiqotda ular o‘zaro bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Manbani tanqidiy o‘qish tadqiqot savolini o‘zgartirishi, o‘lchov vositasini sinab ko‘rish esa dastlabki metodologik qarorni qayta ko‘rib chiqishni talab qilishi mumkin. Etik mas’uliyat ham faqat ma’lumot yig‘ish bosqichiga tegishli emas; u muammo tanlash, ishtirokchilar bilan ishlash, natijalarni talqin qilish va e’lon etish jarayonlarini qamrab oladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ushbu ketma-ketlikdagi har bir o‘tish asoslanishi kerak. Masalan, uchinchi sinf o‘quvchisining matnga oid savolga noto‘g‘ri javob berishi uning matnni tushunish qobiliyati pastligini yakka holda isbotlamaydi. Natijaga so‘z boyligi, topshiriq ko‘rsatmasini anglash, javobni yozma ifodalash yoki matn mazmuni haqidagi dastlabki bilim ta’sir qilishi mumkin. Tadqiqotchi aynan qaysi jihatni o‘rganayotganini belgilamaguncha, olingan ballni izohlash noaniq bo‘lib qoladi.

Shu asosda kompetensiyani rivojlantirishning birinchi sharti tushunchani o‘lchashga o‘tishni asoslash deb belgilandi. Magistrant «o‘qish savodxonligi», «mustaqil fikrlash» yoki «o‘quv motivatsiyasi» kabi keng tushunchalarning qaysi jihatini o‘rganayotganini tushuntirishi zarur. Tanlangan indikator nazariy tushunchaning barcha mazmunini qamrab olmasligi mumkinligi ham qayd etilishi kerak.

Ikkinchi shart muqobil metodologik yechimlarni qiyoslash bilan bog‘liq. «O‘quvchilar topshiriqni qanday strategiyalar orqali bajaradi?» degan savol kuzatuv va faoliyat jarayonini sifat jihatdan tahlil qilishni talab qilishi mumkin. «Ikki o‘qitish sharoitida natijalar qanday farqlanadi?» degan savolda esa guruhlarni qiyoslash dizayni ko‘rib chiqiladi. Metod tanlovi tadqiqot savolining tabiatidan kelib chiqishi lozim.

Uchinchi shart ilmiy izlanishni qayta ishlash va tahrir qilish jarayoni sifatida tashkil etishdan iborat. Magistrantning dastlabki protokoli, unga berilgan taqriz, tuzatishlar va ularning asoslari saqlanadi. Shu tariqa o‘quv natijasi faqat yakuniy matn bilan cheklanmay, ilmiy qarorlarning qanday takomillashgani orqali ham ko‘rinadi.

To‘rtinchi shart faoliyatga asoslangan baholashdir. Tadqiqotchilik kompetensiyasi haqidagi o‘zini o‘zi baholash so‘rovnomasi magistrantning ishonchi va munosabatini o‘rganishga yordam berishi mumkin. Biroq u amaliy bajarish sifatini to‘liq almashtirmaydi. Shu sababli modelda portfolio, vaziyatli topshiriq va og‘zaki himoyani birgalikda qo‘llash taklif etiladi.

2-jadval.

Tadqiqotchilik kompetensiyasini baholash uchun taklif etilayotgan daraja tavsiflari

Mezon	**Ko‘mak bilan bajarish**	**Asoslangan mustaqil bajarish**	**Tanqidiy va moslashuvchan bajarish**
Muammo va savolni shakllantirish	Berilgan namuna bo‘yicha savol tuzadi	Savolni aniq chegaralab, dolzarbligini dalillar bilan asoslaydi	Muqobil muammo talqinlarini qiyoslab, savolni qayta aniqlashtiradi
Manbalar bilan ishlash	Tavsiya etilgan manbalarni mazmunan bayon qiladi	Manbalarni mustaqil saralaydi va natijalarni qiyoslaydi	Qarama-qarshi dalillarni dizayn va kontekst farqlari bilan izohlaydi
Metod tanlash	Tavsiya qilingan usuldan foydalanadi	Metodni tadqiqot savoli va ma’lumot turiga mos tanlaydi	Muqobil dizaynlarni qiyoslab, tanlovning imkoniyat va cheklovlarini asoslaydi
Dalillarni talqin qilish	Natijalarni tavsiflaydi	Dalilga mos xulosa chiqaradi va noaniqlikni ko‘rsatadi	Muqobil izohlarni tekshiradi, xulosaning qo‘llanish chegarasini aniqlaydi
Ilmiy muloqot va refleksiya	Fikrini yo‘naltiruvchi savollar yordamida izohlaydi	Qarorlarini mustaqil himoya qiladi, cheklovlarni tan oladi	Asosli tanqidga ko‘ra qarorini qayta ko‘rib chiqadi va o‘zgarish sababini tushuntiradi

Ushbu darajalarni magistrant shaxsiga qo‘yiladigan umumiy yorliq sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq emas. Bir magistrant manbalar tahlilida yuqori mustaqillikni

ko‘rsatib, statistik talqinda ko‘makka ehtiyoj sezishi mumkin. Shuning uchun dastlab har bir mezon bo‘yicha alohida rivojlanish tavsifi tuzilishi tavsiya etiladi.

Etik talablar ushbu darajalarning barchasi uchun majburiy asos bo‘lib qoladi. Manbani soxtalashtirish yoki ishtirokchilar maxfiyligini buzish boshqa yo‘nalishlardagi yuqori natijalar bilan qoplanadigan kamchilik sifatida qaralmasligi kerak. Aniqlangan muammo tuzatilishi va tegishli qaror qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

MUHOKAMA

Taklif etilgan modelning asosiy metodologik xususiyati kompetensiya tarkibi, o‘quv faoliyati va baholash dalillarini bir tizimda bog‘lashidir. Undagi olti tarkibiy qism o‘z-o‘zicha yangi universal tasnif sifatida ilgari surilmaydi. Nazariy taklifning ahamiyati ularni boshlang‘ich ta’lim magistranti bajaradigan ilmiy vazifalar va tekshiriladigan mahsulotlar bilan muvofiqlashtirishda namoyon bo‘ladi.

Masalan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash mashg‘ulotida faqat bibliografik ro‘yxat tuzish topshirilsa, manbani topish va rasmiylashtirish ko‘nikmasi ko‘rinadi. Ikki tadqiqotning turlicha natijalarini tanlanma, o‘lchov va kontekst nuqtayi nazaridan izohlash vazifasi qo‘yilganda esa axborot-tahliliy va metodologik-loyihaviy tarkibiy qismlar birgalikda namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, topshiriqning bilish talabi kompetensiyaning qaysi jihati rivojlanishini belgilaydi.

Boshlang‘ich ta’limning xususiyatlari modelning amaliy talqiniga muayyan talablar qo‘yadi. Yosh o‘quvchilarga mo‘ljallangan savolnoma yoki diagnostik topshiriq ularning til va yosh imkoniyatlariga mos bo‘lishi kerak. O‘qishdagi qiyinchilikni o‘rganishga qaratilgan topshiriqning o‘zi murakkab ko‘rsatma bilan berilsa, natija o‘rganilayotgan hodisadan tashqari omillar ta’sirini ham aks ettirishi mumkin. Shu bois magistrant topshiriq mazmuni, taqdim etish sharti va baholash mezonini birgalikda asoslay olishi zarur.

Tadqiqot etikasi ham boshlang‘ich ta’limda alohida mazmun kasb etadi. BERAning 2024-yilgi qo‘llanmasida ishtirokchilarning huquqlari, ongli rozilik,

bolalarning ishtirok etishga munosabati va tadqiqotchining mas'uliyatiga e'tibor qaratilgan [2]. Mazkur tamoyillardan kelib chiqib, magistrant bolaning yoshiga mos tushuntirish, tegishli rozilik tartibi, ixtiyoriy qatnashish va ma'lumotlarni himoya qilish masalalarini tadqiqot protokolida oldindan ko'rsatishi lozim. O'qituvchi va tadqiqotchi rollari bir shaxsda birlashganda, bolaning rad etish imkoniyati amalda qanday ta'minlanishi ham o'ylab chiqilishi kerak.

Natijalarni statistik talqin qilishda boshlang'ich ta'limga xos ma'lumotlar tuzilishi hisobga olinadi. Bir sinfdagi o'quvchilar umumiy o'qituvchi, dastur va ta'lim muhiti ta'sirida bo'ladi. Shuning uchun sinflar bo'yicha tashkil etilgan tadqiqotda barcha individual kuzatuvlarni mutlaqo mustaqil deb qabul qilishning asoslanganligi tekshirilishi kerak. Shuningdek, aynan bir o'quvchilarni ikki marta baholash natijalari juftlangan o'lchovlar ekanini anglash metodologik kompetensiyaning muhim belgisidir.

Bir guruhning mashg'ulotdan oldingi va keyingi natijalari yaxshilanishi kuzatilsa, o'sishni faqat qo'llangan metodikaga bog'lash yetarli asosga ega bo'lmasligi mumkin. Tabiiy rivojlanish, test bilan qayta uchrashish va boshqa ta'limiy ta'sirlar muqobil izoh bo'lib qoladi. Magistrantning kompetensiyasi ijobiy natijani taqdim etish bilan birga, uning qanday chegaralarda talqin qilinishini ko'rsata olishida namoyon bo'ladi.

Raqamli vositalar va generativ sun'iy intellekt ilmiy ishning ayrim amallarini tezlashtiradi. Biroq bibliografik yozuvning avtomatik yaratilishi manbaning mavjudligi va mazmunini, statistik jadvalning hosil bo'lishi esa metod tanlovining to'g'riligini kafolatlamaydi. UNESCO tavsiyalarida ham generativ SI bilan ishlashda insonning faol roli, pedagogik maqsad va ma'lumotlar himoyasi markazga qo'yiladi [5]. Shu sababli model doirasida raqamli vositadan foydalanish sifati magistrantning uning natijasini tekshirish va qabul qilgan qarorini tushuntirish qobiliyati orqali baholanadi.

Modelni «Ilmiy tadqiqot metodologiyasi» faniga tatbiq etishda o'zaro bog'langan topshiriqlar ketma-ketligi taklif qilinadi. Dastlab magistrant pedagogik vaziyatni tavsiflab, ilmiy savol tuzadi. Keyin shu savol bo'yicha adabiyotlar matritsasini

tayyorlaydi, metodologik protokol ishlab chiqadi va uning zaif jihatlarini tengdoshlar muhokamasidan o‘tkazadi. Navbatdagi bosqichda axloqiy jihatdan ruxsat etilgan kichik o‘quv tadqiqoti yoki belgilangan o‘quv ma’lumotlari bilan tahlil bajariladi. Yakunda magistrant natijalar, cheklovlar va qarorlarining o‘zgarishini himoya qiladi.

Bu ketma-ketlikda dastlabki va yakuniy ishlarni saqlash muhim. Portfolio tarkibidagi versiyalar ilmiy fikrning qanday rivojlanganini ko‘rsatadi. Ilmiy rahbarning fikri va magistrantning tuzatishi o‘rtasidagi bog‘lanish qayd etilganda, qaysi qaror mustaqil qabul qilingani va qaysi bosqichda yordam zarur bo‘lgani aniqlashadi.

Taklif etilgan modelning chegaralari mavjud. Birinchidan, u tanlangan manbalarning konseptual sinteziga tayangan; mahalliy magistratura dasturlarining amaldagi holati bo‘yicha empirik tashxis o‘tkazilmagan. Ikkinchidan, baholash tavsiflarining turli ekspertlar tomonidan bir xil talqin qilinishi tekshirilmagan. Uchinchidan, model tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligi va turli topshiriqlardagi barqarorligi empirik dalillar bilan tasdiqlanmagan.

Keyingi tadqiqotda mezonlar ekspert muhokamasidan o‘tkazilishi, magistrantlarning topshiriqlarni qanday tushunishi o‘rganilishi va bir xil ishlarning mustaqil baholovchilar tomonidan baholanishi zarur. Ta’limiy samaradorlikni tekshirishda boshlang‘ich tayyorgarlik, ilmiy rahbar ko‘magi va o‘quv guruhi xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Modelning natijasi tayyorlangan maqolalar soni bilan bir qatorda, yangi vaziyatda asosli metodologik qaror qabul qilish qobiliyati orqali baholanishi maqsadga muvofiq.

XULOSA

Boshlang‘ich ta’lim magistrantlarining tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirish, tadqiqot amallarini bajarish va qabul qilingan qarorlarni asoslashning birligini talab qiladi. Mazkur maqolada ushbu birlikni ifodalovchi olti tarkibiy qismli nazariy model taklif etildi.

Modelning markaziy mezoni muammo, tadqiqot savoli, metod, dalil va xulosa o‘rtasidagi muvofiqlikdir. Shu asosda magistrantning tayyorgarligini yakuniy matn sifati bilan birga, uning ilmiy qarorlarini aks ettiruvchi portfolio, metodologik asosnoma va og‘zaki himoya orqali baholash tavsiya qilindi.

Boshlang‘ich ta’limga oid tadqiqotlarda yoshga mos o‘lchov vositalari, sinf konteksti, takroriy o‘lchovlar va bolalar ishtirokidagi tadqiqot etikasi modelning amaliy mazmunini belgilaydi. Raqamli vositalardan foydalanish esa natijalarni tekshirish va mualliflik mas’uliyatini saqlash bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.

Taklifning amaliy ahamiyati «Ilmiy tadqiqot metodologiyasi» fanidagi topshiriqlar, ilmiy rahbarlik va baholash mezonlarini o‘zaro bog‘lash imkoniyatidadir. Modelning samaradorligi hamda baholash mezonlarining ishonchliligi keyingi empirik tadqiqotlarda tekshirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Agud I., Ion G. Research-Based Learning in Initial Teacher Education in Catalonia // Center for Educational Policy Studies Journal. — 2019. — Vol. 9, № 2. — P. 99–118.
2. British Educational Research Association. Ethical Guidelines for Educational Research. — 5th ed. — London : BERA, 2024.
3. Castillo-Martínez I. M., Ramírez-Montoya M. S. Research Competencies to Develop Academic Reading and Writing: A Systematic Literature Review // Frontiers in Education. — 2021. — Vol. 5. — Article 576961.
4. Matjašič M., Vogrinc J. Research Competence of Pre-Service Teachers: A Systematic Literature Review // European Journal of Educational Research. — 2024. — Vol. 13, № 2. — P. 877–894.
5. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. — Paris : UNESCO, 2023.
6. OECD. Unlocking High-Quality Teaching. — Paris : OECD Publishing, 2025. — 244 p.
7. O‘zbekiston Respublikasi. Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida : 2019-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-576-son Qonun.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida : 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmon.
9. Shermuhamedova N. A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi : darslik. — Toshkent : Fan va texnologiya, 2014. — 464 b.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

10. Willison J., O'Regan K. Commonly Known, Commonly Not Known, Totally Unknown: A Framework for Students Becoming Researchers // Higher Education Research & Development. — 2007. — Vol. 26, № 4. — P. 393–409.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Abduvaliyeva Gulchexra Mamadjon qizi
University of Business and Science
Maktabgacha-Boshlang'ich ta'lim va sport faoliyati
kafedrasi o'qituvchi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
gulchehraabduvaliyova@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini individual ta'lim trayektoriyalari asosida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. O'quvchilarning individual xususiyatlari, matnni tushunish darajasi va ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'quv topshiriqlarini tabaqalashtirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish orqali mustaqil o'qish, matnni tahlil qilish, asosiy ma'lumotlarni ajratish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari asoslangan. Individual yondashuvning o'quvchilarning o'qish faoliyatini takomillashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim muhiti, boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, individual ta'lim trayektoriyasi, o'qib tushunish, raqamli resurslar, tabaqalashtirilgan ta'lim, matn tahlili.*

РАЗВИТИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТРАЕКТОРИЙ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация. *В статье рассматриваются педагогические возможности развития читательской грамотности учащихся начальных классов на основе индивидуальных образовательных траекторий в цифровой образовательной среде. Анализируются вопросы дифференциации учебных заданий с учётом индивидуальных особенностей учащихся, уровня понимания текста и образовательных потребностей. Обосновываются возможности использования цифровых образовательных ресурсов для развития самостоятельного чтения, анализа текста, выделения основной информации и формулирования выводов. Раскрывается значение индивидуального подхода в совершенствовании читательской деятельности учащихся.*

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, начальное образование, читательская грамотность, индивидуальная образовательная траектория, понимание текста, цифровые ресурсы, дифференцированное обучение, анализ текста.*

DEVELOPING READING LITERACY AMONG PRIMARY SCHOOL PUPILS THROUGH INDIVIDUAL LEARNING PATHWAYS IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Abstract. *This article examines the pedagogical potential of developing reading literacy among primary school pupils through individual learning pathways in a digital learning environment. It analyses the differentiation of learning tasks according to pupils' individual characteristics, reading comprehension levels, and educational needs. The article also explores the use of digital educational resources to develop independent reading, text analysis, identification of key information, and conclusion-drawing skills. The importance of an individualised approach to improving pupils' reading activities is highlighted.*

Keywords: *digital learning environment, primary education, reading literacy, individual learning pathway, reading comprehension, digital resources, differentiated instruction, text analysis.*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim jarayonini individuallashtirish va o'quv natijalarini yaxshilashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qish savodxonligini rivojlantirish o'quvchilarning matn mazmunini anglash, axborotni tahlil qilish, mustaqil fikrlash va olingan ma'lumotlardan amaliy foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar va raqamli ta'lim resurslari asosida takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajasi, o'qish tezligi, matnni tushunish qobiliyati va individual ta'lim ehtiyojlari bir-biridan farq qiladi. An'anaviy ta'lim jarayonida ushbu farqlarni to'liq hisobga olish muayyan metodik qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Raqamli ta'lim muhiti esa o'quv materiallarini turli murakkablik darajalarida taqdim etish, topshiriqlarni o'quvchilarning tayyorgarligiga moslashtirish va ularning o'zlashtirish natijalarini kuzatish imkonini beradi. Bunday sharoitda individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish har bir o'quvchining imkoniyatlari va ehtiyojlariga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etishga xizmat qiladi. Individual ta'lim trayektoriyasi o'quvchining boshlang'ich tayyorgarligi, o'qish savodxonligi darajasi, o'zlashtirish sur'ati va ta'limiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda belgilanadigan maqsadlar, mazmun, topshiriqlar va pedagogik yordam tizimini anglatadi. Ushbu

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yondashuv asosida o‘quvchilarda matnning asosiy mazmunini aniqlash, muhim axborotni ajratish, matn qismlari o‘rtasidagi mazmuniy bog‘lanishlarni tushunish, xulosa chiqarish va o‘qilgan ma’lumotni yangi vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini izchil rivojlantirish mumkin. Bunda raqamli resurslardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini individual ta’lim trayektoriyalari asosida rivojlantirish masalasi pedagogika, psixologiya, o‘qish metodikasi va raqamli ta’lim texnologiyalari kesishmasida o‘rganiladi. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy qarashlarni tahlil qilishda o‘qish savodxonligining mazmuni, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ta’limni individuallashtirish hamda raqamli vositalarning didaktik imkoniyatlarini o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqish muhimdir.

O‘qish savodxonligi masalasida xalqaro tadqiqotchilardan P. David Pearson va P. D. Gallagherning qarashlari muhim metodik ahamiyatga ega. Ularning o‘qib tushunishni o‘rgatishga doir tadqiqotlarida o‘qituvchi rahbarligidagi faoliyatni bosqichma-bosqich o‘quvchining mustaqil faoliyatiga o‘tkazish tamoyili asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, dastlab o‘qituvchi matnni tushunish strategiyalarini namoyish etadi, keyinchalik o‘quvchilar uning ko‘magida mashq bajaradi va asta-sekin mustaqil ravishda matn mazmunini anglashga o‘tadi[1;2]. Mazkur qarash individual ta’lim trayektoriyalarini tashkil etishda muhim, chunki o‘quvchilarga beriladigan yordam miqdori ularning o‘qib tushunish darajasi va mustaqil ishlash imkoniyatlariga muvofiq belgilanadi.

Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi haqidagi nazariyasi ham individual ta’limni tashkil etishning muhim nazariy asoslaridan biridir. Olim bolaning mustaqil bajara oladigan faoliyati bilan kattalar yoki bilimli tengdoshlari ko‘magida amalga oshirishi mumkin bo‘lgan faoliyati o‘rtasidagi farqni ta’limni rivojlantiruvchi omil sifatida izohlaydi[3]. Ushbu nazariyadan kelib chiqib, o‘qish savodxonligini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

rivojlantirishda topshiriqlarni o‘quvchining mavjud imkoniyatlariga moslashtirish, zarur hollarda yo‘naltiruvchi savollar va qo‘shimcha izohlar berish, keyinchalik yordamni bosqichma-bosqich kamaytirish maqsadga muvofiq. Raqamli ta’lim muhitida bunday yordam interaktiv topshiriqlar, ko‘rsatmalar va individual tavsiyalar orqali tashkil etilishi mumkin.

O‘qish savodxonligining zamonaviy talqini Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan PISA baholash doirasida ham keng yoritilgan. Ushbu yondashuvda o‘qish savodxonligi matnni tushunish bilangina cheklanmay, axborotni topish, undan foydalanish, baholash va mazmun yuzasidan xulosa chiqarish qobiliyatlarini ham qamrab oladi[4]. Mazkur ilmiy qarash boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligini rivojlantirish uchun topshiriqlarni faqat matnni qayta aytib berishga emas, balki tahlil qilish, mazmuniy bog‘lanishlarni aniqlash va mustaqil fikrlashga yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan raqamli ta’lim resurslari turli matnlar, interaktiv savollar va individual topshiriqlar orqali o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, individuallashtirish va raqamli ta’lim muhitida o‘qitish tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqotda o‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish darajasi, axborotni tahlil qilish, asosiy mazmunni ajratish hamda xulosa chiqarish ko‘nikmalarini hisobga olgan holda individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirishga e’tibor qaratiladi. Bunda ta’lim mazmuni, topshiriqlar murakkabligi, pedagogik yordam va o‘quv natijalarini baholash o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida qaraladi. Tadqiqotda tizimli tahlil, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, diagnostik topshiriqlar va o‘quv natijalarini tahlil qilish metodlaridan foydalanish nazarda tutiladi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali o‘qish savodxonligi va individual ta’lim

trayektoriyalarining nazariy asoslari aniqlanadi. Pedagogik kuzatish hamda diagnostik topshiriqlar yordamida o‘quvchilarning matnni tushunish, axborotni izlash, mazmuniy bog‘lanishlarni aniqlash va mustaqil xulosa chiqarish darajasi o‘rganiladi. Olingan natijalar asosida o‘quvchilar ehtiyojlariga mos topshiriqlarni tanlash va ta’lim jarayonini individuallashtirish yo‘llari belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasining muhim tarkibiy qismi individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish mexanizmini belgilashdan iborat. Ushbu jarayon quyidagi ketma-ketlikda tashkil etilishi mumkin: diagnostika → individual ehtiyojlarni aniqlash → mos topshiriqlarni tanlash → mustaqil va yo‘naltirilgan o‘qish faoliyati → natijalarni baholash → ta’lim trayektoriyasini qayta moslashtirish. Bunda diagnostika natijalari o‘quvchining qaysi ko‘nikmalari rivojlanganini va qaysi jihatlarda qo‘shimcha yordam zarurligini aniqlashga xizmat qiladi. Raqamli muhit esa topshiriqlarni tanlash, bajarilgan ishlar natijalarini qayd etish va o‘quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi[4;5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini individual ta’lim trayektoriyalari asosida rivojlantirish o‘quvchilarning bilim darajasi, matnni tushunish qobiliyati va individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olishni talab etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida barcha o‘quvchilarga bir xil murakkablikdagi topshiriqlarni berish ularning individual imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga har doim ham yordam bermaydi. Shu sababli o‘quv materiallarini o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga moslashtirish va ta’lim jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirishda o‘quvchilarning matn mazmunini tushunish, asosiy axborotni ajratish, mazmuniy bog‘lanishlarni aniqlash, xulosa chiqarish va o‘qilgan ma’lumotni amaliy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalari asosiy mezonlar sifatida qaraladi. Mazkur mezonlar asosida topshiriqlarni uch darajada tashkil

etish mumkin: boshlang‘ich darajada matnning bevosita mazmunini aniqlash; o‘rta darajada ma’lumotlarni taqqoslash va sabab-oqibat munosabatlarini tushunish; yuqori darajada esa matnni tanqidiy tahlil qilish, muallif fikrini baholash va mustaqil xulosa chiqarish. Bunday tabaqalashtirish o‘quvchilarning mavjud bilimlarini mustahkamlash bilan birga, keyingi rivojlanish bosqichiga o‘tishiga ham ko‘maklashadi[6].

Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligini individual ta’lim trayektoriyalari asosida rivojlantirish modeli

O‘qish savodxonligi darajasi	Asosiy ko‘nikmalar	Tavsiya etiladigan topshiriqlar	Raqamli ta’lim vositalari	Kutiladigan natija
Boshlang‘ich	Matn mazmunini tushunish, aniq ma’lumotni topish	Matn yuzasidan sodda savollarga javob berish, mos javobni tanlash	Interaktiv matnlar, elektron testlar	Matndagi bevosita ma’lumotlarni aniqlash
O‘rta	Asosiy fikrni ajratish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash	Matn qismlarini taqqoslash, voqealar ketma-ketligini belgilash	Interaktiv topshiriqlar, elektron mashqlar	Matn mazmunini tahlil qilish va bog‘lanishlarni tushunish
Yuqori	Xulosa chiqarish, axborotni baholash, tanqidiy fikrlash	Muallif fikrini tahlil qilish, dalillarni taqqoslash,	Elektron matnlar, muammoli topshiriqlar,	Mustaqil fikrlash va o‘qilgan axborotni baholash

		mustaqil xulosa yozish	raqamli muhokama vositalari	

Raqamli ta'lim resurslari individual ta'lim trayektoriyalarini amalga oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, interaktiv matnlar, elektron topshiriqlar, avtomatik qayta aloqa va o'quv natijalarini qayd etish vositalari yordamida o'quvchilarning qiyinchiliklarini aniqlash hamda ularga mos pedagogik yordam ko'rsatish mumkin. Biroq raqamli vositalardan foydalanishning o'zi o'qish savodxonligining rivojlanishini kafolatlamaydi. Ularning samaradorligi topshiriqlarning didaktik maqsadga muvofiqligi, matnlarning yosh xususiyatlariga mosligi va o'qituvchining metodik rahbarligi bilan belgilanadi. Tahlil natijasida o'qish savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan individual ta'lim jarayonining quyidagi tarkibiy bosqichlarini ajratish mumkin: o'quvchining boshlang'ich bilimlarini diagnostika qilish, individual ehtiyojlarini aniqlash, mos o'quv topshiriqlarini tanlash, mustaqil o'qish faoliyatini tashkil etish va erishilgan natijalarni baholash. Ushbu bosqichlarning izchil amalga oshirilishi o'quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda ta'lim mazmunini zaruratga ko'ra qayta moslashtirish imkonini beradi[7].

XULOSA

Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini individual ta'lim trayektoriyalari asosida rivojlantirish o'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish, o'qib tushunish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish va ta'lim natijalarini muntazam baholashga asoslanadi. Ilmiy tadqiqotlar tahlili raqamli hamda shaxsiylashtirilgan ta'lim texnologiyalari o'qish natijalarini yaxshilash imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatadi. Jumladan, Alrawashdeh va hammualliflarning 27 ta tadqiqotni qamrab olgan meta-tahlilida shaxsiylashtirilgan va adaptiv ta'lim texnologiyalarining o'qish savodxonligiga ijobiy ta'siri aniqlangan.

Tadqiqot mavzusi doirasida individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishning muhim shartlari sifatida o'quvchilarning boshlang'ich o'qish darajasini diagnostika qilish, matnlarni murakkablik darajasiga ko'ra tanlash, topshiriqlarni individuallashtirish, o'z vaqtida pedagogik qayta aloqa berish va o'zlashtirish natijalarini tahlil qilish belgilanadi. Ushbu jarayon o'quvchilarda matn mazmunini anglash, asosiy axborotni ajratish, mazmuniy bog'lanishlarni aniqlash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim. Shunday qilib, raqamli ta'lim vositalarini individual ta'lim trayektoriyalari bilan uyg'unlashtirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. Biroq mazkur yondashuvning muayyan ta'lim sharoitidagi samaradorligi faqat nazariy tahlil bilan cheklanmay, pedagogik tajriba-sinov, diagnostik baholash va statistik tahlil orqali tekshirilishi zarur.

Adabiyotlar ro'yxati

1.Pearson, P. D., Gallagher, M. C. The Instruction of Reading Comprehension. Contemporary Educational Psychology, 1983, 8(3), 317–344.

2.Abduvaliyeva G.M. O'qish darslari samaradorligini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish // Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar. – 2025. – № 2. – B. 1245–1250.

3.Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

4.OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. Paris: OECD Publishing, 2019. DOI: 10.1787/b25efab8-en

5.Abduvaliyeva G.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish samaradorligini modulli ta'lim sharoitida oshiruvchi interfaol metodlarni takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. — Namangan, 2025. — 125 b.

6.Abduvaliyeva G.M Ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi [o'quv qo'llanma] 1-qism. – Namangan: "MASHRAB" nashriyoti, 2026. – 261 bet.

7. Abduvaliyeva G.M Ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi [o'quv qo'llanma] 2-qism. – Namangan: "MASHRAB" nashriyoti, 2026. – 244 bet.

UDK: 378.4:005.336.2:005.963

KORPORATIV OLIY TA'LIM SHAROITIDA RAHBAR-KADRLARNING MALAKASINI OSHIRISH VA SOFT-KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARI KONVERGENSIYASINING MOHIYATI VA TAMOYILLARI

Axrorova Umida Xamidullayevna
University of Business and Science dotsenti
Email: umiaxrorhamid@gmail.com
Tel: (94) 309 08 08
ORCID: 0009-0008-9086-4879

Annotatsiya: *Mazkur maqolada korporativ oliy ta'lim sharoitida rahbar-kadrlarning malakasini oshirish hamda soft-kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonlari konvergensiyasining mohiyati va tamoyillari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda "konvergensiya" tushunchasining pedagogik talqini aniqlashtirilib, u ikki mustaqil kechayotgan jarayonning maqsad, mazmun, texnologiya va baholash darajalarida yaqinlashuvi hamda yagona o'zini-o'zi kuchaytiruvchi kasbiy rivojlanish jarayoniga aylanishi sifatida ta'riflandi. Korporativ universitet modeli konvergensiyaning institutsional asosi sifatida asoslab berildi. Kompetensiyaviy, andragogik, tizimli va tajribaviy o'qitish yondashuvlari asosida konvergensiyaning beshta darajasi (maqsadli, mazmuniy, texnologik, tashkiliy-institutsional, baholash-natijaviy) hamda sakkizta tamoyili (maqsadlar birligi, mazmuniy integratsiya, kontekstuallik, andragogik sub'ektlilik, uzluksizlik, refleksivlik, korporativ madaniyat bilan uyg'unlik, natijaviylik va monitoring) ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari korporativ oliy ta'lim muassasalarida rahbar-kadrlar malakasini oshirish dasturlarini loyihalash va ularning samaradorligini baholashda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *konvergensiya, korporativ oliy ta'lim, korporativ universitet, rahbar-kadrlar, malaka oshirish, soft-kompetensiya, andragogika, kompetensiyaviy yondashuv, tajribaviy o'qitish, pedagogik tamoyillar.*

СУЩНОСТЬ И ПРИНЦИПЫ КОНВЕРГЕНЦИИ ПРОЦЕССОВ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ И РАЗВИТИЯ SOFT-КОМПЕТЕНЦИЙ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ КОРПОРАТИВНОГО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: *В статье теоретически анализируются сущность и принципы конвергенции процессов повышения квалификации и развития soft-компетенций руководящих кадров в условиях корпоративного высшего образования. Уточнено педагогическое толкование понятия «конвергенция», которое определено как сближение двух относительно самостоятельных процессов на уровне целей, содержания, технологий и оценивания и их превращение в единый взаимоусиливающий процесс профессионального развития. Модель*

корпоративного университета обоснована как институциональная основа конвергенции. На основе компетентностного, андрагогического, системного подходов и теории экспериенциального обучения выделены пять уровней конвергенции (целевой, содержательный, технологический, организационно-институциональный, оценочно-результативный) и разработаны восемь принципов: единства целей, содержательной интеграции, контекстуальности, андрагогической субъектности, непрерывности, рефлексивности, согласованности с корпоративной культурой, результативности и мониторинга. Результаты исследования имеют научно-практическое значение для проектирования программ повышения квалификации руководящих кадров и оценки их эффективности в корпоративных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: *конвергенция, корпоративное высшее образование, корпоративный университет, руководящие кадры, повышение квалификации, soft-компетенции, андрагогика, компетентностный подход, экспериенциальное обучение.*

THE ESSENCE AND PRINCIPLES OF CONVERGENCE OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT AND SOFT COMPETENCY DEVELOPMENT OF MANAGERIAL STAFF IN CORPORATE HIGHER EDUCATION

Abstract: *The article provides a theoretical analysis of the essence and principles of convergence between professional development and soft competency development of managerial staff in corporate higher education. The pedagogical meaning of "convergence" is clarified and defined as the coming together of two relatively independent processes at the levels of goals, content, technologies and assessment, and their transformation into a single, mutually reinforcing process of professional growth. The corporate university model is substantiated as the institutional basis of such convergence. Drawing on competency-based, andragogical and systemic approaches and on experiential learning theory, five levels of convergence (goal, content, technological, organizational-institutional, and assessment-outcome) are identified and eight principles are developed: unity of goals, content integration, contextuality, andragogical agency, continuity, reflexivity, alignment with corporate culture, and outcome orientation with monitoring. The findings are of scientific and practical value for designing professional development programmes for managers and evaluating their effectiveness in corporate educational institutions.*

Keywords: *convergence, corporate higher education, corporate university, managerial staff, professional development, soft competencies, andragogy, competency-based approach, experiential learning.*

KIRISH

Bugungi kunda tashkilotlarning raqobatbardoshligi tobora ko‘proq ularning inson kapitali, xususan, rahbar-kadrlarning boshqaruv salohiyati bilan belgilanmoqda. Raqamli transformatsiya, bozor sharoitlarining tez o‘zgarishi va noaniqlik darajasining

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ortishi rahbardan nafaqat sohaviy bilimlarni, balki jamoani yetaklash, ochiq muloqot qilish, murakkab vaziyatda qaror qabul qilish, o‘z hissiyotlarini boshqarish va o‘zgarishlarga moslasha olish kabi sifatlarni ham talab etmoqda. Jahon iqtisodiy forumining “Kelajakdagi kasblar” hisobotida analitik va ijodiy fikrlash, chidamlilik, moslashuvchanlik, yetakchilik va ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish ish beruvchilar uchun eng muhim ko‘nikmalar qatorida qayd etilgan [4]. Iqtisodiy tadqiqotlar ham shaxsiy-ijtimoiy ko‘nikmalarning mehnat bozoridagi muvaffaqiyatga ta’siri kognitiv ko‘rsatkichlar ta’siri bilan qiyoslanadigan darajada ekanini ko‘rsatmoqda [5].

O‘zbekiston Respublikasida ham kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish uzluksiz ta’lim tizimining tarkibiy qismi sifatida mustahkamlangan [1]. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish ustuvor maqsadlar qatorida ko‘rsatilgan [2]. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida esa oliy ta’lim muassasalari bilan ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ta’lim mazmunini amaliyot talablariga yaqinlashtirish vazifalari qo‘yilgan [3].

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda korporativ oliy ta’lim alohida ahamiyat kasb etmoqda. Korporativ universitetlar, korxona huzuridagi ta’lim markazlari va oliy ta’lim muassasalarining korporativ hamkorlik dasturlari tashkilot strategiyasi bilan bevosita bog‘langan o‘quv muhitini yaratadi [6; 7]. Biroq amaliyotda rahbar-kadrlarning malaka oshirishi ko‘pincha sohaviy-texnik bilimlarni yangilashga, soft-kompetensiyalarni rivojlantirish esa alohida, qisqa muddatli treninglarga ajratib qo‘yilmoqda. Natijada ikki jarayon bir-biridan uzilgan holda kechadi: malaka oshirish kursidan keyin rahbar yangi bilimga ega bo‘ladi, ammo uni jamoaga yetkazish, o‘zgarishlarni boshqarish va hamkasblarini ergashtirish ko‘nikmasi yetarli darajada shakllanmaydi; trening esa ishchi kontekstdan uzilganligi sababli uzoq muddatli natija bermaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Shu munosabat bilan malaka oshirish va soft-kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonlarini yagona, o‘zaro kuchaytiruvchi tizimga birlashtirish, ya’ni ularning konvergensiyasini ta’minlash dolzarb ilmiy-pedagogik muammoga aylanmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi korporativ oliy ta’lim sharoitida rahbar-kadrlarning malakasini oshirish va soft-kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonlari konvergensiyasining mohiyatini ochib berish hamda uning pedagogik tamoyillarini ilmiy asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Konvergensiya” (lot. convergere – yaqinlashmoq, bir nuqtaga intilmoq) atamasi dastlab tabiiy fanlarda qo‘llanilgan bo‘lsa, keyinchalik ijtimoiy va gumanitar fanlarga o‘tdi. G.Jenkins konvergensiyani texnologik birlashuvdan ko‘ra kengroq – madaniy jarayon sifatida talqin qilib, unda turli kanallar va ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir yangi sifatni vujudga keltirishini ko‘rsatadi [8]. Pedagogik nuqtai nazardan bu yondashuv muhim: konvergensiya oddiy qo‘shilish yoki mexanik birlashtirish emas, balki ikki jarayonning o‘zaro ta’siri natijasida avvalgi tarkibiy qismlarning hech birida mavjud bo‘lmagan yangi sifatning paydo bo‘lishidir.

Korporativ oliy ta’lim nazariyasi bo‘yicha asosiy manbalardan biri J.Meister tadqiqotlari hisoblanadi. Muallif korporativ universitetni tashkilot strategiyasini xodimlarning bilim va kompetensiyalari orqali amalga oshirishga xizmat qiluvchi ta’lim tuzilmasi sifatida tavsiflaydi hamda uning an’anaviy o‘quv bo‘limlaridan farqi ta’limni biznes maqsadlari bilan uzviy bog‘lashda ekanini ta’kidlaydi [6]. M.Allen tahriri ostidagi qo‘llanmada esa korporativ universitet faoliyatining strategik muvofiqlik, hamkorlikdagi oliy ta’lim muassasalari bilan sheriklik va natijalarni o‘lchash kabi jihatlari tahlil qilingan [7]. Ushbu ishlar konvergensiya uchun institutsional asos aynan korporativ ta’lim muhiti ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbek olimlari tadqiqotlarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish masalalari keng yoritilgan. N.A.Muslimov kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqib, kasbiy rivojlanishni bosqichma-bosqich va uzluksiz kechadigan jarayon sifatida asoslagan [9]. U.Sh.Begimqulov pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslarini yoritib, ta'lim jarayonini axborotlashtirish o'qitish mazmuni va shakllarini qayta tashkil etishni talab qilishini ko'rsatgan [10]. R.Ishmuhamedov va M.Yuldashev interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta'lim oluvchi faolligini oshirishdagi o'rnini tahlil qilganlar [11]. Mazkur tadqiqotlar konvergensiyaning texnologik va mazmuniy darajalarini asoslashda nazariy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

MDH olimlari orasida I.A.Zimnyaya tayanch kompetensiyalarni ta'lim natijasining yangi paradigmasi sifatida tahlil qilib, ularning tarkibida o'zini-o'zi boshqarish, muloqot va hamkorlik bilan bog'liq ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalarni alohida guruhga ajratgan [12]. E.F.Zeer kasbiy rivojlanishni shaxsning kasbiy tayyorgarlik, moslashuv va mahorat bosqichlari orqali o'tuvchi jarayon sifatida tavsiflaydi [13]. S.I.Zmeyev kattalar ta'limi texnologiyasini ishlab chiqib, o'qitishning tinglovchi tajribasiga tayanishi, uning hayotiy va kasbiy ehtiyojlariga mosligi, o'qitish natijalarini darhol amaliyotda qo'llash imkoniyati kabi andragogik tamoyillarni asoslagan [14].

Xorijiy tadqiqotlarda kompetensiyalar nazariyasi L.Spenser va S.Spenser ishlarida tizimli shaklga keltirilgan: mualliflar kompetensiyani yuqori natijali faoliyat bilan sababiy bog'langan shaxsning tub xususiyati sifatida ta'riflab, motivlar, shaxsiy xususiyatlar va o'z-o'zini anglash kabi "ko'rinmas" qatlamlarni rivojlantirish bilim va ko'nikmalarni o'rgatishdan ancha murakkab ekanini qayd etganlar [15]. R.Boyatsis emotsional, ijtimoiy va kognitiv kompetensiyalar klasterlarini ajratib, ularning rahbarlik samaradorligini bashorat qilishdagi ahamiyatini ko'rsatgan [16]. D.Goulman emotsional intellektni o'zini anglash, o'zini boshqarish, motivatsiya, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalar majmui sifatida tavsiflagan [17].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Konvergensiya tamoyillarini asoslash uchun kattalar ta'limi va tajribaviy o'qitish nazariyalari muhim ahamiyatga ega. M.Noulz andragogik modelda kattalarning o'z-o'zini boshqarishga intilishi, tajribaning o'qitish resursi sifatidagi o'rni, o'qishga tayyorlikning hayotiy vazifalar bilan bog'liqligi va muammoga yo'naltirilganlikni asosiy farazlar sifatida ilgari surgan [18]. D.Kolb o'qitishni aniq tajriba, refleksiv kuzatish, abstrakt tushunchalashtirish va faol eksperiment bosqichlaridan iborat sikl sifatida tavsiflagan [19]. J.Mezirou transformatsion o'qitish nazariyasida kattalar o'qishining chuqur natijasi odatiy tasavvurlarni tanqidiy qayta ko'rib chiqish orqali yuzaga kelishini asoslagan [20]. P.Senjning o'qiydigan tashkilot konsepsiyasi esa individual o'qish tashkiliy o'qish bilan uyg'unlashgandagina tashkilot rivojlanishiga xizmat qilishini ko'rsatadi [21].

Tadqiqot metodlari sifatida ilmiy-pedagogik, psixologik va boshqaruvga oid adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy-tanqidiy tahlil, tizimli tahlil va sintez, tushunchalarni aniqlashtirish (kontseptual tahlil), umumlashtirish va nazariy modellashtirish metodlaridan foydalanildi. L.fon Bertalanfining umumiy tizimlar nazariyasi [22] konvergensiyani yaxlit tizim sifatida o'rganish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Konvergensiya tushunchasining pedagogik mohiyati.

Adabiyotlar tahlili rahbar-kadrlarning malaka oshirishi va soft-kompetensiyalarini rivojlantirish an'anaviy ravishda ikki xil mantiqqa bo'ysunishini ko'rsatdi. Malaka oshirish jarayoni asosan bilimga yo'naltirilgan, me'yoriy talablar (o'quv soatlari, sertifikat, attestatsiya) bilan belgilanadigan va sohaviy mazmunga ega bo'lsa, soft-kompetensiyalarni rivojlantirish shaxsga yo'naltirilgan, xulq-atvor o'zgarishini ko'zlovchi va ko'pincha mazmunan "neytral" – ma'lum bir kasbiy vaziyatga bog'lanmagan treninglar shaklida kechadi. Spenserlar ta'kidlaganidek, bilim va ko'nikma qatlamini o'rgatish nisbatan oson, motiv, xususiyat va "men"-obrazga ta'sir

etish esa uzoq muddatli va kontekstga bog‘langan ishni talab qiladi [15]. Shu sababli soft-kompetensiyalarni kasbiy mazmundan ajratib rivojlantirish ham, kasbiy bilimni shaxsiy-ijtimoiy kompetensiyalarsiz berish ham to‘liq natija bermaydi.

O‘tkazilgan tahlil asosida mualliflik ta’rifi taklif etiladi: korporativ oliy ta’lim sharoitida rahbar-kadrlarning malakasini oshirish va soft-kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonlari konvergensiyasi – bu ikki nisbatan mustaqil pedagogik jarayonning maqsad, mazmun, texnologiya, tashkiliy shakl va baholash darajalarida izchil yaqinlashuvi natijasida rahbarning kasbiy-boshqaruv kompetentligi va shaxsiy-ijtimoiy kompetensiyalari bir-birini o‘zaro kuchaytirib rivojlanadigan yagona kasbiy rivojlanish jarayonining shakllanishidir.

Ushbu ta’rifdan konvergensiyaning quyidagi muhim belgilari kelib chiqadi:

- integrativlik – ikki jarayon bir-birini almashtirmaydi, balki umumiy maqsad atrofida birlashadi;
- emerjentlik – birlashuv natijasida har bir jarayonning alohida natijalari yig‘indisidan ortiq bo‘lgan yangi sifat (kasbiy masalani jamoa bilan birga hal qila olish qobiliyati) vujudga keladi;
- kontekstuallik – yaqinlashuv rahbarning real boshqaruv vaziyatlari va tashkilot strategiyasi asosida yuz beradi;
- jarayonlilik – konvergensiya bir martalik tadbir emas, balki bosqichma-bosqich chuqurlashib boruvchi jarayon;
- ikki tomonlamalik – malaka oshirish soft-kompetensiyalarni rivojlantirish uchun mazmun va vaziyat beradi, soft-kompetensiyalar esa o‘zlashtirilgan bilimni amaliyotga ko‘chirish (transfer) mexanizmi vazifasini bajaradi.

Oxirgi belgi alohida ahamiyatga ega. Malaka oshirish natijalarining ish joyiga ko‘chirilmasligi korporativ ta’limning eng keng tarqalgan muammolaridan biridir. D.Kirkpatrikning to‘rt darajali baholash modelida reaksiya va o‘zlashtirish darajalaridan xulq-atvor va natija darajalariga o‘tish aynan shu transferga bog‘liq ekani ko‘rsatilgan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

[24]. Rahbar o‘rgangan yangi boshqaruv yondashuvini jamoaga tushuntira olmasa, qarshilikni bartaraf eta olmasa va o‘zgarishga motivatsiya bera olmasa, bilim faoliyatga aylanmaydi. Demak, soft-kompetensiyalar malaka oshirish samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi.

Korporativ oliy ta’lim konvergensiyaning institutsional asosi sifatida.

Korporativ oliy ta’lim an’anaviy malaka oshirish muassasalaridan uch jihati bilan farq qiladi. Birinchidan, ta’lim maqsadlari tashkilot strategiyasidan kelib chiqadi va rahbarning kasbiy rivojlanishi tashkiliy natijalar bilan bevosita bog‘lanadi [6]. Ikkinchidan, o‘qitish ish joyiga yaqinlashtiriladi: real loyihalar, keyslar va tashkilot muammolari o‘quv materialiga aylanadi. Uchinchidan, oliy ta’lim muassasasi va korporatsiya o‘rtasida sheriklik yuzaga kelib, akademik bilim va korporativ tajriba bir maydonda uchrashadi [7].

Ushbu xususiyatlar konvergensiya uchun qulay muhit yaratadi. M.Lombardo va R.Eyxinger tomonidan amaliyotga kiritilgan “70–20–10” nisbati rahbarlik ko‘nikmalari asosan ish tajribasi (70 foiz), hamkasblar va murabbiylar bilan munosabat (20 foiz) va rasmiy o‘qitish (10 foiz) orqali rivojlanishini ko‘rsatadi [23]. Ushbu nisbatni mutlaq miqdoriy qoida sifatida emas, balki yo‘naltiruvchi g‘oya sifatida qabul qilish to‘g‘ri bo‘lsa-da, u rasmiy malaka oshirish kursining o‘zi soft-kompetensiyalarni rivojlantirish uchun yetarli emasligini, uni ish tajribasi va ijtimoiy o‘qitish bilan uyg‘unlashtirish zarurligini tasdiqlaydi. Korporativ oliy ta’lim formal (o‘quv kurslari), noformal (murabbiylik, loyiha guruhlari) va informal (ish joyidagi tajriba) o‘qitishni yagona dasturga birlashtirish imkonini beruvchi institutsional muhit hisoblanadi.

P.Senjning o‘qiydigan tashkilot konsepsiyasi nuqtai nazaridan konvergensiya individual darajadan tashkiliy darajaga ko‘tariladi: rahbar malaka oshirish jarayonida o‘zlashtirgan bilim va kompetensiyalarni jamoaviy o‘qish, umumiy qarash (shared vision) va tizimli fikrlash orqali tashkilot bo‘ylab tarqatadi [21]. Shu ma’noda rahbar

nafaqat o‘qituvchi ob’ekt, balki tashkiliy o‘qishning tashuvchisi va tashabbuskori sifatida namoyon bo‘ladi.

Konvergensiyaning darajalari.

Tizimli yondashuv asosida konvergensiyaning beshta o‘zaro bog‘liq darajasi ajratildi. Har bir darajada malaka oshirish va soft-kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonlari muayyan tarkibiy qism bo‘yicha yaqinlashadi (1-jadval).

1-jadval

Malaka oshirish va soft-kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonlari konvergensiyasining darajalari

Konvergensiya darajasi	Malaka oshirish jarayonida	Soft-kompetensiyalarni rivojlantirishda	Konvergensiya natijasi
Maqsadli	Kasbiy-sohaviy bilim va ko‘nikmalarni yangilash	Shaxsiy-ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish	Kasbiy vazifani jamoa bilan birga hal qilishni ifodalovchi integrativ natijalar
Mazmuniy	Boshqaruv, iqtisodiyot, huquq, raqamlashtirish modullari	Kommunikatsiya, liderlik, emotsional intellekt, strategik fikrlash	Soft-kompetensiyalar har bir kasbiy mavzu ichiga singdirilgan integratsiyalashgan mazmun
Texnologik	Ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulot	Trening, rolli o‘yin, kouching	Keys, loyiha, action learning, aralash ta’lim orqali

Konvergensiya darajasi	Malaka oshirish jarayonida	Soft-kompetensiyalarni rivojlantirishda	Konvergensiya natijasi
			tajribaviy o‘qitish sikli
Tashkiliy-institutsional	Malaka oshirish muassasasining o‘quv rejasi	Tashkilot ichidagi alohida treninglar	OTM va korporatsiya sherikligi, murabbiylik, ish joyidagi loyihalar
Baholash-natijaviy	Test, yakuniy attestatsiya, sertifikat	O‘z-o‘zini baholash, trener fikri	360 darajali baholash, portfolio, loyiha himoyasi, kechiktirilgan baholash

Maqsadli darajada malaka oshirish natijalari faqat bilim va ko‘nikmalar bilan emas, balki kasbiy vazifani jamoa bilan birgalikda hal qilish qobiliyatini ifodalovchi integrativ natijalar orqali ifodalanadi. Masalan, “raqamli boshqaruv tizimini joriy etish” moduli natijasi “tizim imkoniyatlarini bilish” bilangina emas, “o‘zgarishga qarshilikni aniqlash va jamoani yangi tizimga o‘tkazish rejasini ishlab chiqish” kabi integrativ natija bilan belgilanadi.

Mazmuniy darajada soft-kompetensiyalar alohida “yumshoq ko‘nikmalar moduli” sifatida emas, balki har bir kasbiy mavzuning ichiga singdiriladi. Moliyaviy boshqaruv mavzusida muzokara va asoslash, strategik rejalashtirish mavzusida

jamoaviy qaror qabul qilish va kommunikatsiya, kadrlar siyosati mavzusida emotsional intellekt va fikr-mulohaza berish (feedback) mazmunan bir-biriga bog‘lanadi.

Texnologik darajada keys-stadi, rolli o‘yinlar, loyiha faoliyati, harakatda o‘qitish (action learning), kouching va murabbiylik kabi metodlar bir vaqtda ham kasbiy, ham shaxsiy-ijtimoiy natijaga xizmat qiladi. Bu metodlar D.Kolbning tajribaviy o‘qitish siklini to‘liq amalga oshirish imkonini beradi: rahbar real vaziyatni boshdan kechiradi, uni tahlil qiladi, nazariy umumlashma chiqaradi va yangi yondashuvni amaliyotda sinab ko‘radi [19]. Aralash (blended) o‘qitish platformalari esa ushbu siklni malaka oshirish kursidan keyin ham davom ettirishga xizmat qiladi.

Tashkiliy-institutsional darajada oliy ta’lim muassasasi va korporatsiya o‘rtasidagi sheriklik, rahbarning bevosita boshlig‘i va murabbiyining ishtiroki, ish joyidagi loyihalarni o‘quv topshiriqlari sifatida tan olish mexanizmlari yaratiladi. Bu daraja konvergensiyaning barqarorligini ta’minlaydi.

Baholash-natijaviy darajada an’anaviy test va attestatsiyadan tashqari 360 darajali baholash, portfolio, refleksiv kundaliklar, loyiha natijalarini himoya qilish va kurs tugaganidan keyingi kechiktirilgan baholash qo‘llaniladi. Shu orqali kasbiy bilim va soft-kompetensiyalar alohida-alohida emas, balki ularning integrativ namoyon bo‘lishi – real boshqaruv faoliyatidagi natija baholanadi.

Konvergensiyaning pedagogik tamoyillari.

Tadqiqot jarayonida kompetensiyaviy, andragogik, tizimli va tajribaviy o‘qitish yondashuvlarining asosiy qoidalari umumlashtirilib, konvergensiyani ta’minlovchi sakkizta pedagogik tamoyil ishlab chiqildi.

1. Maqsadlar birligi tamoyili.

Malaka oshirish va soft-kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadlari tashkilot strategiyasidan kelib chiquvchi yagona maqsadlar tizimiga bo‘ysundirilishi lozim. Bu tamoyil korporativ universitetning strategik muvofiqlik g‘oyasiga asoslanadi [6] va dastur loyihalashtirishning dastlabki bosqichida tashkiliy ehtiyojlar, lavozim talablari

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

hamda rahbarning individual rivojlanish ehtiyojlari tahlilini talab qiladi. Maqsadlar birligi buzilgan holatda soft-kompetensiyalar bo‘yicha mashg‘ulotlar rahbar nazarida “qo‘shimcha”, ikkinchi darajali faoliyat sifatida qabul qilinadi.

2. Mazmuniy integratsiya tamoyili.

Soft-kompetensiyalarni rivojlantirish mazmuni kasbiy-boshqaruv mavzulari ichiga singdirilishi, kasbiy mazmun esa shaxsiy-ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun vaziyat va material bo‘lib xizmat qilishi kerak. Bunda I.A.Zimnyaya tomonidan ajratilgan ijtimoiy o‘zaro ta’sir va o‘zini-o‘zi boshqarish kompetensiyalari [12] hamda R.Boyatsis tomonidan tavsiflangan emotsional va ijtimoiy kompetensiyalar klasterlari [16] mazmun tanlashda mo‘ljal bo‘lib xizmat qiladi.

3. Kontekstuallik tamoyili.

O‘qitish rahbarning real boshqaruv vaziyatlari, tashkilotning dolzarb muammolari va ish joyidagi loyihalar asosida tashkil etiladi. M.Noulzning kattalar muammoga yo‘naltirilgan holda va hayotiy vazifalari bilan bog‘liq bilimni o‘zlashtirishga tayyor bo‘lishi haqidagi farazi [18] hamda S.I.Zmeyevning o‘qitish natijalarini darhol amaliyotda qo‘llash tamoyili [14] ushbu tamoyilning nazariy asosini tashkil etadi. Kontekstuallik o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarning ish joyiga ko‘chirilishini ta’minlovchi asosiy shartdir.

4. Andragogik sub’ektlilik tamoyili.

Rahbar-kadr o‘qitish jarayonining passiv ob’ekti emas, balki o‘z kasbiy rivojlanishining faol sub’ekti sifatida qaraladi. U rivojlanish maqsadlarini belgilashda, o‘qitish trayektoriyasini tanlashda va natijalarni baholashda ishtirok etadi. Rahbarning boy boshqaruv tajribasi o‘qitishning muhim resursi sifatida foydalaniladi: tinglovchilar o‘rtasida tajriba almashish, tengdoshlardan o‘rganish (peer learning) va bir-biriga maslahat berish guruhlari soft-kompetensiyalarni rivojlantirishning tabiiy maydoniga aylanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

5. Uzluksizlik tamoyili.

Konvergensiya malaka oshirish kursi muddati bilan cheklanmaydi: u kursdan oldingi diagnostika, kurs davomidagi o‘qitish va kursdan keyingi ish joyidagi qo‘llab-quvvatlash (murabbiylik, kouching, onlayn hamjamiyat) bosqichlarini qamrab oladi. N.A.Muslimov va E.F.Zeer ishlarida asoslangan kasbiy rivojlanishning bosqichma-bosqich va uzluksiz xususiyati [9; 13] ushbu tamoyilning nazariy tayanchi hisoblanadi. Soft-kompetensiyalar qisqa muddatli ta’sir natijasida emas, balki takroriy amaliyot va fikr-mulohaza orqali mustahkamlanadi.

6. Refleksivlik tamoyili.

O‘qitish jarayonining har bir bosqichida rahbarning o‘z boshqaruv faoliyatini, qarorlari va xulq-atvorini tanqidiy tahlil qilishi uchun sharoit yaratiladi. J.Mezirouning transformatsion o‘qitish nazariyasiga ko‘ra, kattalar o‘qishining chuqur natijasi odatiy tasavvur va taxminlarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqish orqali yuzaga keladi [20]. D.Goulman ta’kidlagan o‘zini anglash emotsional intellektning poydevori ekanini [17] hisobga olsak, refleksiya soft-kompetensiyalarni rivojlantirishning markaziy mexanizmi hisoblanadi. Refleksiv kundaliklar, 360 darajali fikr-mulohazalar va kouching suhbatlari ushbu tamoyilni amalga oshirish vositalari bo‘lib xizmat qiladi.

7. Korporativ madaniyat bilan uyg‘unlik tamoyili.

Rivojlantirilayotgan soft-kompetensiyalar tashkilotning qadriyatlari, boshqaruv uslubi va korporativ madaniyatiga mos bo‘lishi, shu bilan birga uni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Malaka oshirishda shakllangan ochiq muloqot va jamoaviy qaror qabul qilish ko‘nikmalari qat’iy ierarxik va yopiq tashkiliy muhitda qo‘llab-quvvatlanmasa, ular tez orada so‘nadi. Shu sababli konvergensiya rahbarning bevosita boshlig‘i va tashkilot yuqori boshqaruvining ishtirokini nazarda tutadi va P.Senje ta’kidlagan individual hamda tashkiliy o‘qishning uyg‘unligiga [21] tayanadi.

8. Natijaviylik va monitoring tamoyili.

Konvergensiya samaradorligi rahbarning real boshqaruv faoliyatidagi o‘zgarishlar va tashkiliy natijalar orqali baholanadi. D.Kirkpatrik modelining to‘rt darajasi (reaksiya, o‘zlashtirish, xulq-atvor, natija) [24] baholash tizimini loyihalashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Monitoring natijalari dastur mazmuni va texnologiyalarini muntazam takomillashtirish uchun qayta aloqa manbai sifatida foydalaniladi, bu esa butun tizimning o‘zini-o‘zi rivojlantirishini ta’minlaydi.

Tamoyillarning o‘zaro bog‘liqligi va amaliy tatbiqi.

Taklif etilgan tamoyillar alohida-alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida amal qiladi. Maqsadlar birligi tamoyili tizimni yo‘naltiruvchi, mazmuniy integratsiya va kontekstuallik tamoyillari uning mazmunini belgilovchi, andragogik sub’ektlilik va refleksivlik tamoyillari ichki harakatlantiruvchi kuchni ta’minlovchi, uzluksizlik va korporativ madaniyat bilan uyg‘unlik tamoyillari barqarorlikni kafolatlovchi, natijaviylik va monitoring tamoyili esa tizimning qayta aloqasini ta’minlovchi vazifani bajaradi. Bu tamoyillar konvergensiyaning yuqorida ajratilgan besh darajasi bilan quyidagicha bog‘lanadi: maqsadli daraja – maqsadlar birligi; mazmuniy daraja – mazmuniy integratsiya va kontekstuallik; texnologik daraja – andragogik sub’ektlilik va refleksivlik; tashkiliy-institutsional daraja – uzluksizlik va korporativ madaniyat bilan uyg‘unlik; baholash-natijaviy daraja – natijaviylik va monitoring.

Tamoyillarni korporativ oliy ta’lim amaliyotiga tatbiq etish quyidagi bosqichlar orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- diagnostik-loyihalash bosqichi – tashkiliy ehtiyojlar va rahbarning kompetensiyalar darajasini aniqlash, individual rivojlanish rejasini tuzish;
- integrativ-o‘qitish bosqichi – kasbiy mazmun va soft-kompetensiyalarni birlashtirgan modullar asosida keys, loyiha va treninglarni o‘tkazish;
- amaliy-transfer bosqichi – ish joyida real loyihani amalga oshirish, murabbiylik va kouching orqali qo‘llab-quvvatlash;

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

- refleksiv-baholash bosqichi – natijalarni 360 darajali baholash, portfolio va loyiha himoyasi orqali baholash, keyingi rivojlanish maqsadlarini belgilash.

Shuni ta'kidlash lozimki, konvergensiya tamoyillarini amalga oshirish ayrim cheklovlarga duch kelishi mumkin. Soft-kompetensiyalarni o'lchash vositalari ko'pincha o'z-o'zini baholash va kuzatuvchilar fikriga tayanadi, bu esa sub'ektivlik xavfini tug'diradi; shu sababli bir nechta manbalarga asoslangan (triangulyatsiya) baholashdan foydalanish zarur. Shuningdek, taklif etilgan tamoyillar nazariy umumlashma natijasi bo'lib, ularning samaradorligi keyingi tadqiqotlarda tajriba-sinov ishlari orqali empirik tasdiqlanishi talab etiladi.

XULOSA

Olib borilgan nazariy tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, korporativ oliy ta'lim sharoitida rahbar-kadrlarning malaka oshirishi va soft-kompetensiyalarini rivojlantirish an'anaviy ravishda bir-biridan ajralgan holda kechishi o'zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga ko'chirilmasligi va treninglar natijasining qisqa muddatliligi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolarni hal etishning samarali yo'li ikki jarayonning konvergensiyasini ta'minlashdir.

Ikkinchidan, konvergensiya ikki nisbatan mustaqil pedagogik jarayonning maqsad, mazmun, texnologiya, tashkiliy shakl va baholash darajalarida izchil yaqinlashuvi natijasida yagona, o'zaro kuchaytiruvchi kasbiy rivojlanish jarayonining shakllanishi sifatida ta'riflandi. Uning muhim belgilari integrativlik, emerjentlik, kontekstuallik, jarayonlilik va ikki tomonlamalik ekani aniqlandi. Konvergensiyada malaka oshirish soft-kompetensiyalar uchun mazmun va vaziyat beradi, soft-kompetensiyalar esa bilimni amaliyotga ko'chirish mexanizmi vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, korporativ oliy ta'lim – strategik muvofiqlik, ish joyiga yaqinlik va akademik-korporativ sheriklik xususiyatlari tufayli – konvergensiyaning institutsional

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

asosi bo‘lib xizmat qiladi hamda formal, noformal va informal o‘qitishni yagona dasturga birlashtirish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, konvergensiyaning maqsadli, mazmuniy, texnologik, tashkiliy-institutsional va baholash-natijaviy darajalari ajratildi hamda uni ta’minlovchi sakkizta pedagogik tamoyil – maqsadlar birligi, mazmuniy integratsiya, kontekstuallik, andragogik sub’ektlilik, uzluksizlik, refleksivlik, korporativ madaniyat bilan uyg‘unlik, natijaviylik va monitoring tamoyillari ilmiy asoslandi.

Tadqiqot natijalari korporativ universitetlar va oliy ta’lim muassasalarining korporativ hamkorlik dasturlarida rahbar-kadrlar uchun malaka oshirish dasturlarini loyihalash, ularning mazmuni va texnologiyalarini takomillashtirish hamda samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin. Keyingi tadqiqotlarda taklif etilgan tamoyillar asosida konvergent malaka oshirish modelining tajriba-sinov ishlari orqali empirik samaradorligini aniqlash maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 23.09.2020-yil, O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 11.09.2023-yil, PF-158-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 08.10.2019-yil, PF-5847-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
4. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2025. – Geneva: World Economic Forum, 2025.
5. Heckman J.J., Kautz T. Hard evidence on soft skills // Labour Economics. – 2012. – Vol. 19(4). – P. 451–464.
6. Meister J.C. Corporate Universities: Lessons in Building a World-Class Work Force. – New York: McGraw-Hill, 1998.
7. Allen M. (Ed.) The Corporate University Handbook: Designing, Managing, and Growing a Successful Program. – New York: AMACOM, 2002.
8. Jenkins H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. – New York: New York University Press, 2006.
9. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped. fan. dok. … diss. – Toshkent, 2007.

10. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari: monografiya. – Toshkent: Fan, 2007.
11. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013.
12. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – № 5. – С. 34–42.
13. Зеер Э.Ф. Психология профессионального развития. – М.: Академия, 2006.
14. Змеёв С.И. Технология обучения взрослых. – М.: Академия, 2002.
15. Spencer L.M., Spencer S.M. Competence at Work: Models for Superior Performance. – New York: Wiley, 1993.
16. Boyatzis R.E. Competencies in the 21st century // Journal of Management Development. – 2008. – Vol. 27(1). – P. 5–12.
17. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 1995.
18. Knowles M.S. The Modern Practice of Adult Education: From Pedagogy to Andragogy. – New York: Cambridge Adult Education, 1980.
19. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984.
20. Mezirow J. Transformative Dimensions of Adult Learning. – San Francisco: Jossey-Bass, 1991.
21. Senge P.M. The Fifth Discipline: The Art and Practice of the Learning Organization. – New York: Doubleday, 1990.
22. Bertalanffy L. von. General System Theory: Foundations, Development, Applications. – New York: George Braziller, 1968.
23. Lombardo M.M., Eichinger R.W. The Career Architect Development Planner. – Minneapolis: Lominger, 1996.
24. Kirkpatrick D.L., Kirkpatrick J.D. Evaluating Training Programs: The Four Levels. 3rd ed. – San Francisco: Berrett-Koehler, 2006.



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH (E. SETON-TOMPSONNING "LOBO" HIKOYASI MISOLIDA)

Muallif: *Qobilova Yorqinoy Hosilovna*
E-mail: *yorqinoyqobilova2@gmail.com*

Annotatsiya. *Maqolada adabiyot darslarida o'quvchilarning refleksiv qobiliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy metodikasi E. Seton-Tompsonning "Lobo" hikoyasi misolida yoritilgan. Tadqiqotda J. Dyui, D. Shyon, D. Kolb va G. Gibbs g'oyalariga tayangan holda uch bosqichli (dars oldi, dars jarayoni, dars keyin) reflektiv o'qish modeli taklif etilgan. Hikoyaning reflektiv imkoniyatlari tahlil qilinib, ularga mos savollar va topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan. Natijalar taklif etilgan model o'quvchilarning matnni tushunish, o'z nuqtai nazarini anglash va qadriyatlarini baholash ko'nikmalarini oshirishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *refleksiya, refleksiv qobiliyat, adabiyot darsi, "Lobo", Seton-Tompson, reflektiv kundalik, tanqidiy fikrlash.*

РАЗВИТИЕ РЕФЛЕКСИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА Э. СЕТОНА-ТОМПСОНА «ЛОБО»)

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические основы и практическая методика развития рефлексивных способностей учащихся на уроках литературы на примере рассказа Э. Сетон-Томпсона «Лобо». Опираясь на идеи Дж. Дьюи, Д. Шёна, Д. Колба и Г. Гиббса, предложена трёхэтапная модель рефлексивного чтения (до урока, на уроке, после урока). Проанализирован рефлексивный потенциал рассказа и разработана система вопросов и заданий. Результаты показывают, что модель способствует развитию умений понимать текст, осознавать собственную позицию и оценивать ценности.*

Ключевые слова: *рефлексия, рефлексивные способности, урок литературы, «Лобо», Сетон-Томпсон, рефлексивный дневник, критическое мышление.*

DEVELOPING STUDENTS' REFLECTIVE ABILITIES IN LITERATURE LESSONS (USING E. SETON-THOMPSON'S STORY "LOBO" AS AN EXAMPLE)

Abstract. *The article examines the theoretical foundations and practical methodology of developing students' reflective ability in literature lessons, using E. Seton-Thompson's story "Lobo" as a case. Drawing on the ideas of J. Dewey, D. Schön, D. Kolb and G. Gibbs, a three-stage reflective reading model (pre-lesson, in-lesson, post-lesson) is proposed. The reflective potential of the story is analysed and a system of questions and tasks is developed. The results indicate that the model supports students' skills of comprehending a text, recognising their own position and evaluating values.*

Keywords: *reflection, reflective ability, literature lesson, "Lobo", Seton-Thompson,reflective journal, critical thinking.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Zamonaviy ta'lim o'quvchidan tayyor bilimni yodlashni emas, balki o'z fikrlash jarayonini kuzatish, baholash va yo'naltira olishni talab qiladi. Bu qobiliyat pedagogika va psixologiyada **refleksiya** deb ataladi. Refleksiv qobiliyat o'quvchining nimani, nima uchun va qanday o'rganganini anglashi, o'z xulosalarini qayta ko'rib chiqishi hamda boshqa nuqtai nazarlarni qabul qila olishini ta'minlaydi.

Adabiyot darslari refleksiyani rivojlantirish uchun eng qulay muhitlardan biridir, chunki badiiy asar o'quvchini qahramonlar tanloviga, axloqiy dilemmalarga va o'z qadriyatlarini qayta ko'rib chiqishga undaydi. Biroq amaliyotda adabiyot darslari ko'pincha syujetni qayta hikoyalash, qahramonlarni tavsiflash va tayyor xulosani yodlash bilan cheklanadi. Natijada o'quvchi asar bilan shaxsiy munosabatga kirishmaydi va refleksiv ko'nikmalar yetarlicha shakllanmaydi.

Refleksiv fikrlash tushunchasi J. Dyuining "Qanday qilib biz fikrlaymiz" asarida tajribani faol va ongli o'ylab chiqish sifatida asoslangan . D. Shyon "harakat ichidagi refleksiya" va "harakatdan keyingi refleksiya" tushunchalarini ajratgan . D. Kolbning tajribaviy o'qish jarayoni (tajriba, kuzatish, umumlashtirish, qo'llash) va G. Gibbsning olti bosqichli reflektiv nazaryasi (tavsif, his-tuyg'ular, baholash, tahlil, xulosa, harakat rejasi) reflektiv o'qitishning amaliy asosini tashkil etadi. Adabiyotni o'qitish nuqtai nazaridan buyuk yozuvchimiz Abdulla Qahhorning so‘zni qanday qo’llash kerakligi, hikoyada aks etgan voqeaning jonli timsolini ko’rishimiz mumkin.

NEGA AYNAN “LOBO” HIKOYASI? Ernest Seton-Tompsonning “Men tanigan yovvoyi hayvonlar” to‘plamiga kiruvchi “Lobo” hikoyasi o‘quvchilarda refleksiv qobiliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadqiqot uchun bir necha jihatdan qulay badiiy asar hisoblanadi:

A) Hikoya Karrumpo vodiysining “qiroli” bo‘lgan bo‘ri Lobo va uni qo‘lga olishga urinayotgan muallif-ovchi o‘rtasidagi ziddiyat asosida qurilgan. Bu holat o‘quvchilarga qahramonlarning xatti-harakatlari, motivlari va qarorlarini tahlil qilish imkonini beradi.

B) Hikoya bayonchisi o‘z harakatlari va munosabatlarini qayta baholaydi. Ushbu jihat o‘quvchilarda o‘z fikrlari va qarashlarini tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

C) Blankaning o‘limi va Loboning tuzoqqa tushishi o‘quvchilarda kuchli hissiy kechinmalarni yuzaga keltirishi mumkin. Bu esa Gibbsning reflektiv siklidagi hissiyotlarni anglash va tahlil qilish bosqichlarini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi.

D) Hikoya inson va tabiat munosabatlari, adolat, shafqat, sadoqat va mas’uliyat kabi qadriyatlar yuzasidan munozara tashkil etish hamda o‘quvchilarning axloqiy qarashlarini qayta ko‘rib chiqishiga yordam beradi.

E) Hikoyaning 7-sinf adabiyot darsligida o‘rganilishi uchun ajratilgan soatlar soni va darslikdagi maqomi tadqiqotning amaliy imkoniyatlarini belgilashda muhim omil hisoblanadi. Agar tegishli darslikda hikoyani o‘rganish uchun to‘rt soat ajratilgani tasdiqlansa, ushbu ma’lumot tadqiqotda asos sifatida keltirilishi mumkin.

TADQIQOT MUAMMOSI. Adabiyot darslarida o‘quvchilarning refleksiv qobiliyatini maqsadli rivojlantirish uchun “Lobo” hikoyasi misolida badiiy matnning didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlaridan qanday foydalanish mumkin?

TADQIQOT MAQSADI. Ernest Seton-Tompsonning “Lobo” hikoyasi asosida o‘quvchilarning refleksiv qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik modelni ishlab chiqish va uning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov orqali baholash.

TADQIQOT VAZIFALARI. O‘quvchilarning hayvonlarni parvarishlash bo‘yicha shaxsiy tajribalarini aniqlash hamda ularning hayvonlar haqidagi dastlabki tasavvurlarini o‘rganish. Refleksiya va refleksiv qobiliyat tushunchalarining mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan tahlil qilish. “Lobo” hikoyasining o‘quvchilarda refleksiv qobiliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi badiiy, hissiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash. Badiiy matn bilan ishlashga asoslangan uch bosqichli metodik modelni ishlab chiqish. O‘quvchilarning refleksiv qobiliyatini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini belgilash.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ishlab chiqilgan metodik modelni pedagogik tajriba-sinovdan o‘tkazish va olingan natijalarni tahlil qilish.

TADQIQOT GIPOTEZASI. Agar adabiyot darslarida badiiy matn bilan ishlash jarayoni refleksiv savollar, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash, rolli munozaralar va reflektiv kundalik yuritish kabi metodlar bilan tizimli ravishda boyitilsa, o‘quvchilarning refleksiv qobiliyati an’anaviy o‘qitish usullari qo‘llaniladigan sharoitga nisbatan samaraliroq rivojlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

1. Tadqiqot dizayni Tadqiqot pedagogik tajriba-sinov shaklida tashkil etildi. Unda tajriba va nazorat guruhlari ishtirok etdi. Tadqiqotning nazariy bosqichida tahlil, qiyosiy tahlil va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Amaliy bosqichda esa pedagogik kuzatish, so‘rovnoma, yozma reflektiv kundalik va statistik tahlil usullari qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning badiiy matnni tushunish, o‘z fikrlarini asoslash, voqealarga turli nuqtai nazardan yondashish hamda dastlabki qarashlarini qayta baholash ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratildi.

2. Tadqiqot ishtirokchilari Tadqiqot Namangan shahridagi 37-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining 7-“A”, 7-“B” va 7-“G” sinflari o‘quvchilari ishtirokida tashkil etildi. Tajriba guruhida 18 nafar, nazorat guruhida esa 5 nafar o‘quvchi qatnashdi. *Izoh: nazorat guruhidagi o‘quvchilar soni dastlabki ma’lumotlar asosida qayta tekshirilishi lozim. Agar bu raqamlar to‘g‘ri bo‘lsa, guruhlar hajmidagi farq tadqiqot natijalarini statistik talqin qilishda hisobga olinishi kerak.*

3. Tadqiqot materiali Tadqiqot materiali sifatida Ernest Seton-Tompsonning “Men tanigan yovvoyi hayvonlar” to‘plamiga kiruvchi “Lobo” hikoyasining o‘zbek tilidagi tarjimasidan foydalanildi.

4. Tajriba guruhida qo‘llanilgan metodik model Tajriba guruhida hikoyani o‘rganish jarayoni uch bosqich asosida tashkil etildi.

1-bosqich. Darsga tayyorgarlik va dastlabki qarashlarni faollashtirish

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ushbu bosqichda o‘quvchilarning bo‘ri va boshqa yovvoyi hayvonlar haqidagi dastlabki tasavvurlari aniqlanadi. Buning uchun quyidagi savol beriladi: “Bo‘ri haqida nimalarni bilaman va u haqida qanday fikrdaman?” O‘quvchilar savolga qisqa yozma javob beradilar. Shuningdek, ulardan uyda yoki boshqa sharoitda qaysi hayvonni parvarishlagani, hayvonlar bilan bog‘liq qanday tajribaga ega ekani so‘raladi. Mazkur faoliyat o‘quvchilarning avvalgi bilimlari, shaxsiy tajribasi va dastlabki munosabatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu javoblar dars yakunida bildirilgan fikrlar bilan taqqoslash uchun saqlab qo‘yiladi. 2-bosqich. Badiiy matn bilan refleksiv ishlash Hikoya mazmunan bir necha qismlarga ajratilgan holda o‘qiladi. Har bir qismdan so‘ng o‘quvchilarga voqealar, qahramonlarning xatti-harakatlari va qarorlari yuzasidan refleksiv savollar beriladi. Ushbu bosqichda quyidagi metodlardan foydalaniladi:

1. “Ikki nuqtai nazar” jadvali. O‘quvchilar Seton va Lobo pozitsiyalarini taqqoslaydilar. Ularning maqsadlari, qarorlari, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlariga matndan dalillar keltirgan holda baho beradilar.

2. “Fikr yo‘lagi” metodi. Qahramon muhim qaror qabul qilishidan oldin o‘quvchilar uning o‘rnida bo‘lganlarida qanday yo‘l tutishlarini izohlaydilar. So‘ngra qahramonning haqiqiy qarori bilan o‘z fikrlarini taqqoslaydilar.

3. “Vijdon sudi” metodi. O‘quvchilar turli rollarni bajaradilar: Loboning xatti-harakatlarini tahlil qiluvchi ishtirokchi, ovchining qarorlarini baholovchi ishtirokchi, tabiat himoyachisi va xolis kuzatuvchi. Munozara davomida har bir ishtirokchi o‘z pozitsiyasini dalillar bilan asoslaydi.

4. Gibbs reflektiv sikli asosidagi savollar. O‘quvchilarning voqeani tasvirlash, his-tuyg‘ularini anglash, vaziyatni baholash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va kelgusidagi harakatlarini rejalashtirish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Gibbs reflektiv siklining asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

Tavsif: Hikoyada nima sodir bo‘ldi?

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

His-tuyg‘ular: Voqealar sizda qanday hislarni uyg‘otdi?
Baholash: Qahramonlarning xatti-harakatlarida qanday ijobiy va salbiy jihatlar bor?
Tahlil: Nima uchun qahramonlar aynan shunday yo‘l tutdilar?
Xulosa: Ushbu voqealardan qanday saboq olish mumkin?
Harakat rejasi: Shunga o‘xshash vaziyatda o‘zingiz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

3-bosqich. Refleksiya va qayta anglash

Dars yakunida o‘quvchilar reflektiv kundalik yuritadilar. Unda quyidagi savollarga javob yozadilar:

Dars boshida Lobo va bo‘rilar haqida qanday fikrda edim?
Hikoyani o‘rgangach, qaysi fikrlarim o‘zgardi?
Fikrimning o‘zgarishiga qaysi voqea yoki dalil sabab bo‘ldi?
Hikoyadagi qaysi qahramonning pozitsiyasini yaxshiroq tushuna boshladim? Nima uchun?
Ushbu hikoyadan hayotim uchun qanday xulosa chiqardim?
Shunga o‘xshash vaziyatga duch kelsam, qanday qaror qabul qilaman?

O‘quvchilarning dars boshidagi dastlabki javoblari bilan dars yakunidagi reflektiv yozuvlari taqqoslanadi. Bunda o‘z qarashlarini qayta ko‘rib chiqish, fikrini dalillar bilan asoslash va xulosa chiqarish ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlar aniqlanadi.

5. Nazorat guruhida ta’lim jarayonini tashkil etish

Nazorat guruhida “Lobo” hikoyasi an’anaviy o‘qitish usullari asosida o‘rganildi. Bunda matnni o‘qish, uning mazmunini qayta hikoya qilish, qahramonlarga tavsif berish va darslikdagi savollarga javob berish usullaridan foydalanildi.

Tajriba va nazorat guruhlarida o‘quvchilarning refleksiv qobiliyatini baholash uchun bir xil mezonlar hamda imkon qadar bir xil sharoitlardan foydalanish ko‘zda tutildi.

6. O‘lchov vositalari va baholash mezonlari

O‘quvchilarning refleksiv qobiliyati to‘rtta mezon asosida, har bir mezon bo‘yicha 0–3 ball oralig‘ida baholandi. Umumiy maksimal natija 12 ballni tashkil etdi.

M1. Matnni tushunish va fikrni asoslash. O‘quvchining matn mazmunini tushunishi, o‘z fikrini hikoyadan olingan dalillar bilan izohlashi baholanadi.
M2. Nuqtai nazarni o‘zgartirish. O‘quvchining voqealarni Lobo, Seton yoki boshqa qahramon pozitsiyasidan ko‘rib chiqishi va turli qarashlarni taqqoslashi baholanadi.
M3. Dastlabki qarashlarni qayta ko‘rib chiqish. O‘quvchining avvalgi fikrlarini tahlil qilishi, ularning qaysi jihatlari o‘zgarganini va nima sababdan o‘zgarganini izohlashi baholanadi.
M4. Qadriyatli xulosa va amaliy bog‘liqlik. O‘quvchining hikoyadan axloqiy xulosa chiqarishi, inson va tabiat munosabatlariga baho berishi hamda xulosalarini hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lashi baholanadi.

Har bir mezon bo‘yicha ballar quyidagi umumiy tavsif asosida belgilanadi: **0 ball:** ko‘nikma namoyon bo‘lmaydi yoki javob berilmaydi. **1 ball:** ko‘nikma boshlang‘ich darajada namoyon bo‘ladi; javob yuzaki yoki dalilsiz. **2 ball:** ko‘nikma yetarli darajada namoyon bo‘ladi; javob asosan asoslangan, biroq tahlilda ayrim kamchiliklar mavjud. **3 ball:** ko‘nikma yuqori darajada namoyon bo‘ladi; javob mustaqil, izchil, dalillarga asoslangan va tahliliy xususiyatga ega. Shuningdek, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini kuzatish va boshqa nuqtai nazarlarni tushunishga intilish darajasini aniqlash uchun besh balli Likert shkalasiga asoslangan so‘rovnomadan foydalanildi. So‘rovnomaga “Men o‘z fikrlarimni tahlil qilaman” va “Boshqa fikrlarni tushunishga harakat qilaman” kabi bayonotlar kiritildi. Reflektiv kundaliklar uch nafar mutaxassis tomonidan mustaqil baholandi. Baholovchilar o‘rtasidagi kelishuv darajasi tegishli statistik ko‘rsatkich yordamida tekshirilishi ko‘zda tutildi. Maqolada ushbu ko‘rsatkichning aniq qiymati faqat real hisob-kitob natijasiga asoslanib keltiriladi.

NATIJALAR

3.1. Hikoyaning reflektiv imkoniyatlari tahlili

Kontent-tahlil natijasida hikoyaning asosiy epizodlari va ularga mos reflektiv topshiriqlar aniqlandi (1-jadval).

Epizod	Reflektiv savol	Rivojlanadigan ko'nikma
Lobo va uning to'dasining ayyorligi, zaharli yemni chetlab o'tishi	Nima uchun muallif dushmanini hurmat qila boshlaydi? Siz-chi?	Nuqtai nazarni o'zgartirish (M2)
Blankaning o'limi va uning jasadidan o'lja sifatida foydalanilishi	Bu epizod sizda qanday his-tuyg'u uyg'otdi? Nima uchun?	His-tuyg'uni anglash (Gibbs: his-tuyg'ular)
Loboning tuzoqqa tushishi	Muallifning qarori to'g'rimidi? Qaysi dalillar sizni shunday fikrga keltirdi?	Dalillash, baholash (M1)
Loboning oxirgi tuni, muallifning pushaymonlik hissi	Muallif nima uchun g'alabadan shod bo'lmadi? Bunday vaziyatda siz nima qilardingiz?	Qadriyatni anglash, harakat rejasi (M4)

1-jadval. "Lobo" hikoyasining reflektiv imkoniyatlari.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, hikoyaning kompozitsiyasi (g'alaba va shu bilan birga yo'qotish hissi) o'quvchini tayyor xulosadan emas, ichki munozaraga undaydi. Bu esa an'anaviy "muallif nima demoqchi?" savolidan farqli ravishda, "men nima deb o'ylayman va nima uchun?" savoliga o'tishga imkon beradi.

3.2. Tajriba-sinov natijalari

Eslatma: quyidagi jadvalga o'zingizning haqiqiy tajriba natijalaringiz kiritiladi.

Mezon	Tajriba guruhi (boshida)	Tajriba guruhi (oxirida)	Nazorat guruhi (boshida)	Nazorat guruhi (oxirida)
M1. Tushunish	4	6	6	8

Mezon	Tajriba guruhi (boshida)	Tajriba guruhi (oxirida)	Nazorat guruhi (boshida)	Nazorat guruhi (oxirida)
M2. Nuqtayi nazarni o'zgartirish	4	5	6	7
M3. O'z qarashlarini qayta ko'rish	3	5	7	7
M4. Qadriyat va harakat	4	5	6	7
Umumiy o'rtacha ball (15 dan)				

2-jadval. Refleksiv qobiliyat darajasining o'rtacha ko'rsatkichlari.

3- O'quvchilar ko'rsatgichi tobora oshganini ko'rish mumkin.

MUHOKAMA

Olingan natijalar reflektiv o'qitishning samaradorligi haqidagi nazariy qarashlarga mos keladi. Kolb va Gibbs modellari tajribani ongli qayta ishlash orqali o'rganish chuqurlashishini ko'rsatadi [3; 4]; "Lobo" hikoyasi esa bu jarayon uchun tayyor tajriba va his-tuyg'ular manbai vazifasini bajaradi. Rozenblat nazariyasiga ko'ra ma'no o'quvchi va matn o'rtasida shakllanadi [5], shu sababli o'quvchining shaxsiy javobini chiqarib tashlaydigan "to'g'ri javob" yondashuvi refleksiyani cheklaydi. Taklif etilgan modelda esa o'quvchi javobi baholashning markaziga qo'yildi.

Muhim jihat: reflektiv savollar ketma-ketligi (tavsif, his-tuyg'u, baho, tahlil, xulosa, harakat) o'quvchini yuzaki taassurotdan asoslangan fikrga olib boradi. "Ikki nuqtai nazar" va "Vijdon sudi" usullari esa Vigotskiy ta'kidlagan ijtimoiy muloqot orqali fikrlashning rivojlanishini ta'minlaydi [6]. Hikoya ekologik axloq masalasini ham

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ko'targanligi sababli, undagi reflektiv ish adabiyotni tabiatga munosabat tarbiyasi bilan bog'lash imkonini beradi.

Tadqiqotning cheklovlari. Tajriba cheklangan miqdordagi o'quvchilar va qisqa muddatda o'tkazildi; reflektiv yozuvlarni baholashda subyektivlik xavfi bor; natijalarni boshqa asarlar va sinflarda tekshirish zarur. Kelgusi tadqiqotlarda uzoq muddatli kuzatuv va boshqa badiiy matnlar bilan solishtirish maqsadga muvofiq.

XULOSA

1. Refleksiv qobiliyat adabiyot darslarida o'quvchining matnni tushunishi, o'z fikrini anglashi va qadriyatiy xulosa chiqarishi bilan bog'liq ko'p qirrali ko'nikma sifatida rivojlantirilishi mumkin.
2. E. Seton-Tompsonning "Lobo" hikoyasi nuqtai nazar almashishi, kuchli his-tuyg'ular va axloqiy dilemma mavjudligi bilan reflektiv o'qish uchun samarali material hisoblanadi.
3. Uch bosqichli model (dars oldi, dars jarayoni, dars keyin), reflektiv savollar tizimi va reflektiv kundalik o'quvchi refleksiyasini tizimli rivojlantirish imkonini beradi.
4. Tavsiya: adabiyot o'qituvchilari darsda "muallif nima demoqchi?" savolidan tashqari, "men nima deb o'ylayman, nima uchun, va nima o'zgardi?" savollariga ham o'rin ajratishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. 7-sinf Adabiyot darsligi. Yangi nashr.Toshkent - 2022 Z. Mirzayeva, K. Jalilov
2. Seton E.T. Men tanigan yovvoyi hayvonlar. 1898
3. Shyon D.A. Reflektiv amaliyotchi: mutaxassislar harakat jarayonida qanday fikrlaydi. Nyu-York: Basik Books,1983
4. Yoshlar bilan suhbat. Abdulla Qahhor. Akademnashr 2017 .
5. Yovvoyi yo'rg'a. E.S. Tompson. Tog'ay Murod tarjimasi . "Sharq" 1996.

ZAMONAVIY DRON TIZIMLARIDA KIBERHUJUMLAR TAHLILI VA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING INNOVATSION YECHIMLARI

Rivojiddinov Doniyor,
KIUT, o'qituvchi
e-mail: doniyorrivojiddinov@gmail.com,
+998 (95) 262 30 50

Annotatsiya: *ushbu maqolada zamonaviy dron tizimlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kiberxavfsizlik tahdidlari va kiberhujumlar tahlil qilingan. Dronlarning boshqaruv, aloqa va navigatsiya tizimlariga ta'sir qiluvchi DoS, Man-In-The-Middle, GPS spoofing, jamming va wormhole kabi hujumlarning xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, dron tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash, ma'lumotlarni himoyalash va kiberhujumlarning oldini olish bo'yicha zamonaviy hamda innovatsion yondashuvlar yoritilgan. Maqolada dasturiy ta'minotni muntazam yangilash, VPN orqali ma'lumotlarni shifrlash, qurilmalar ulanishini cheklash va xavfsiz qaytish (RTH) funksiyasidan foydalanish kabi himoya choralarining ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *dron, kiberxavfsizlik, kiberhujum, axborot xavfsizligi, DoS hujumi, Man-In-The-Middle, GPS spoofing, jamming, wormhole, dron kommunikatsiyasi, ma'lumotlarni himoyalash, innovatsion xavfsizlik.*

АНАЛИЗ КИБЕРАТАК НА СОВРЕМЕННЫЕ СИСТЕМЫ БЕСПИЛОТНЫХ ЛЕТАТЕЛЬНЫХ АППАРАТОВ И ИННОВАЦИОННЫЕ РЕШЕНИЯ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация. *в статье проведён анализ современных угроз кибербезопасности и кибератак, которые могут возникать в системах беспилотных летательных аппаратов (дронов). Рассмотрены особенности таких атак, как DoS, Man-In-The-Middle, GPS spoofing, jamming и wormhole, оказывающих влияние на системы управления, связи и навигации дронов. Также освещены современные и инновационные подходы к обеспечению информационной безопасности, защите данных и предотвращению кибератак в беспилотных системах. Обоснована важность таких мер защиты, как регулярное обновление программного обеспечения, шифрование данных с использованием VPN, ограничение подключаемых устройств и применение функции безопасного возврата дрона (RTH).*

Ключевые слова: *дрон, кибербезопасность, кибератака, информационная безопасность, DoS-атака, Man-In-The-Middle, GPS spoofing, jamming, wormhole, коммуникация дронов, защита данных, инновационные решения безопасности.*

ANALYSIS OF CYBERATTACKS ON MODERN DRONE SYSTEMS AND INNOVATIVE SOLUTIONS FOR ENSURING INFORMATION SECURITY

Abstract. *this article analyzes modern cybersecurity threats and cyberattacks that may occur in unmanned aerial vehicle (UAV) systems. The study examines the characteristics of attacks such as DoS, Man-In-The-Middle, GPS spoofing, jamming, and wormhole attacks, which can affect drone control, communication, and navigation systems. The article also highlights modern and innovative approaches to ensuring information security, protecting data, and preventing cyberattacks in UAV systems. The importance of security measures such as regular software updates, data encryption using VPNs, restricting connected devices, and applying the Return To Home (RTH) function for safe drone recovery is substantiated.*

Keywords: *drone, cybersecurity, cyberattack, information security, DoS attack, Man-In-The-Middle, GPS spoofing, jamming, wormhole, drone communication, data protection, innovative security solutions.*

KIRISH

Xalqaro tadqiqotlarda sun’iy intellekt vositalarining ta’limdagi imkoniyatlari bilan bir qatorda, ulardan foydalanish bilan bog‘liq metodologik va etik muammolar ham keng yoritilgan. Kasneci va hammualliflar generativ sun’iy intellektning ta’lim materiallarini yaratish, individual maslahat berish va o‘quv faoliyatini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini ta’kidlab, ayni vaqtda noto‘g‘ri ma’lumot, algoritmik tarafkashlik va akademik halollik bilan bog‘liq xavflarga e’tibor qaratadilar [4]. Tlili va hammualliflar esa sun’iy intellektga asoslangan chatbotlardan foydalanishda axborot ishonchliligi, maxfiylik, ta’lim sifati va pedagogik nazorat masalalarini muhim omillar sifatida ko‘rsatadilar.



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

UNESCO tavsiyalarida sun'iy intellektning ta'limdagi qo'llanilishi **inson markazidagi yondashuv** asosida tashkil etilishi zarurligi qayd etiladi. Bunda sun'iy intellekt o'qituvchi va talabaning intellektual faoliyatini almashtiruvchi emas, balki ularning imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi [5]. Mazkur yondashuv ijtimoiy fanlarni o'qitishda ayniqsa muhimdir. Chunki ijtimoiy fanlarda faktlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, ularni qiyoslash, turli nazariy pozitsiyalarni tahlil qilish, dalillarni tekshirish va mustaqil xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirish talab etiladi.

Raqamli pedagogika nuqtayi nazaridan o'qituvchining raqamli kompetensiyasi ham muhim metodologik omil hisoblanadi. DigCompEdu modeli pedagogning raqamli resurslardan foydalanish, o'qitish va baholash jarayonini takomillashtirish, ta'lim oluvchilarning faolligini oshirish hamda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishini nazarda tutadi. UNESCOning pedagoglar uchun sun'iy intellekt kompetensiyalari modelida esa AI etikasi, inson markazidagi yondashuv, sun'iy intellekt asoslari, AI-pedagogika va kasbiy rivojlanish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanadi [6]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari ijtimoiy fanlarni o'qitishda sun'iy intellekt va raqamli pedagogika integratsiyasi ta'lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlarini sezilarli darajada yangilash imkonini berishini ko'rsatdi. Tahlil qilingan ilmiy yondashuvlar asosida sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish faqat texnologik ta'minot bilan emas, balki pedagogik maqsadning aniqligi, o'qituvchining raqamli kompetensiyasi, talabaning mustaqil fikrlash darajasi va axborotni tanqidiy baholash qobiliyati bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi.

Ijtimoiy fanlar xususiyatidan kelib chiqib, sun'iy intellektni tayyor bilim beruvchi manba sifatida emas, balki muammoli vaziyatlarni modellashtirish, muqobil fikrlarni shakllantirish, nazariy yondashuvlarni qiyoslash va dalillarni tekshirishga yordam beruvchi pedagogik vosita sifatida qo'llash maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv

talabani passiv axborot qabul qiluvchidan faol tahlilchi subyektga aylantiradi. Ayniqsa, sotsiologiya, falsafa, siyosatshunoslik, dinshunoslik, tarix va boshqa ijtimoiy fanlarda biror masalaga turli nazariy nuqtayi nazardan yondashish imkoniyati sun'iy intellekt vositalarining didaktik ahamiyatini oshiradi. [8]

Tadqiqot natijasida ijtimoiy fanlar ta'limiga mos "O'qituvchi – SI – Talaba" integrativ pedagogik modeli taklif etildi. Mazkur modelda o'qituvchi ta'lim maqsadini belgilovchi, metodik jarayonni boshqaruvchi va axborot sifatini nazorat qiluvchi asosiy subyekt sifatida qaraladi. Sun'iy intellekt esa axborotni qayta ishlash, o'quv materiallarini individuallashtirish, muqobil variantlarni taqdim etish, savollar yaratish va tezkor qayta aloqa berish funksiyasini bajaradi. Talaba esa sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilgan materialni tekshiruvchi, qiyoslovchi, baholovchi va mustaqil ilmiy xulosa shakllantiruvchi faol subyekt sifatida ishtirok etadi.

1-jadval. Ijtimoiy fanlarni o'qitishda "O'qituvchi – SI – Talaba" modelining funksional tuzilishi

Model komponenti	Asosiy funksiyasi	Ta'lim jarayonidagi vazifasi	Kutiladigan pedagogik natija
O'qituvchi	Pedagogik boshqaruv	Maqsad belgilash, topshiriq yaratish, manbalarni saralash, nazorat va baholash	Ta'lim sifati va metodik izchillik ta'minlanadi
Sun'iy intellekt	Raqamli ko'mak	Axborotni tahlil qilish, variantlar yaratish, individual	Ta'lim jarayoni moslashuvchan va

		tavsiyalar berish, tezkor qayta aloqa	individuallashgan tus oladi
Talaba	Faol bilish faoliyati	Axborotni tekshirish, qiyoslash, savol qo‘yish, tahlil va xulosa qilish	Tanqidiy va mustaqil fikrlash rivojlanadi
Raqamli pedagogika	Integratsion muhit	O‘qituvchi, SI va talaba faoliyatini yagona pedagogik tizimga birlashtirish	Interaktiv va kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim shakllanadi
Nazorat va refleksiya	Sifatni baholash	AI natijalarini tekshirish, xatolarni aniqlash, o‘zlashtirish natijalarini tahlil qilish	Akademik halollik va axborot ishonchliligi mustahkamlanadi

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, model komponentlarining har biri mustaqil vazifaga ega bo‘lsa-da, ularning pedagogik samaradorligi o‘zaro integratsiya holatida yuzaga chiqadi. Agar sun’iy intellekt pedagogik nazoratsiz qo‘llansa, talabaning tayyor javoblarga qaramligi kuchayishi, mustaqil tahlil ko‘nikmalari susayishi va noto‘g‘ri axborotdan foydalanish xavfi ortishi mumkin. Aksincha, pedagog tomonidan to‘g‘ri shakllantirilgan topshiriqlar va tekshiruv mexanizmlari SI vositalarini tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi vositaga aylantiradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Konseptual model
Pedagogik maqsad va topshiriq
↓
O‘QITUVCHI
↓ pedagogik boshqaruv va nazorat
SUN’IY INTELLEKT
↓ axborotni qayta ishlash, tavsiya, modellashtirish
TALABA
↓ tekshirish, qiyoslash, tahlil qilish
TANQIDIY VA MUSTAQIL FIKRLASH
↓
REFLEKSIYA VA QAYTA ALOQA
↓
TA’LIM SAMARADORLIGI

Taklif etilgan konseptual modelning ilmiy ahamiyati shundaki, unda sun’iy intellekt ta’lim jarayonining markaziy subyekti sifatida emas, balki o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi pedagogik aloqani kuchaytiruvchi vositachi komponent sifatida talqin qilinadi. Bu esa raqamli pedagogikaning inson markazidagi yondashuv tamoyiliga mos keladi. Mazkur yondashuvda asosiy e’tibor texnologiyaning imkoniyatlariga emas, balki uning pedagogik maqsadga qanchalik xizmat qilishiga qaratiladi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy fanlarda sun’iy intellektdan foydalanish samaradorligini baholashda faqat topshiriqni tez bajarish yoki ma’lumot olish tezligini mezon sifatida qabul qilish yetarli emas. Asosiy mezonlar sifatida talabaning savol qo‘yish qobiliyati, manbani tekshirish ko‘nikmasi, qarama-qarshi pozitsiyalarni tahlil qilishi, dalillarni asoslay olishi va mustaqil xulosa chiqarishi olinishi lozim. Shu sababli “O‘qituvchi – SI – Talaba” modeli ijtimoiy fanlarni o‘qitishda sun’iy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

intellekt va raqamli pedagogika integratsiyasining metodologik asosini ifodalovchi istiqbolli model sifatida baholanishi mumkin. [9]

Mazkur modelning amaliy joriy etilishi o‘qituvchidan yangi raqamli-pedagogik kompetensiyalarni talab etadi. Bunda pedagog sun’iy intellektdan nafaqat foydalanishni, balki uning javoblarini tekshirish, talabaning undan foydalanish usullarini nazorat qilish, akademik halollik tamoyillarini ta’minlash va SI bilan bajarilgan topshiriqlar uchun yangi baholash mezonlarini ishlab chiqishni ham bilishi zarur. Shu tariqa sun’iy intellektning ta’limdagi qiymati texnologiyaning o‘zida emas, balki uni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik tizimga integratsiya qilish darajasida namoyon bo‘ladi.

Mazkur tadqiqotda **tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, umumlashtirish va nazariy sintez** metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot bazasini 2020–2026-yillarda sun’iy intellekt, raqamli pedagogika, generativ AI, raqamli kompetensiya va oliy ta’lim transformatsiyasiga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning konseptual hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasining sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlari tashkil etdi. [10]

Kontent-tahlil jarayonida **pedagogik samaradorlik, tanqidiy fikrlash, raqamli kompetensiya, individual ta’lim, akademik halollik, axborot ishonchliligi va AI etikasi** asosiy tahlil kategoriyalari sifatida belgilandi. Tadqiqotning metodologik pozitsiyasi sun’iy intellektni o‘qituvchini almashtiruvchi vosita sifatida emas, balki **“o‘qituvchi – sun’iy intellekt – talaba”** o‘rtasidagi pedagogik hamkorlikni kuchaytiruvchi mexanizm sifatida talqin qilishga asoslanadi. Bunda o‘qituvchi pedagogik jarayonni boshqaruvchi, sun’iy intellekt yordamchi texnologik vosita, talaba esa axborotni tahlil qiluvchi va mustaqil xulosa shakllantiruvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. [11]

XULOSA

Tadqiqot natijalari ijtimoiy fanlarni o‘qitishda sun’iy intellekt va raqamli pedagogika integratsiyasi ta’lim jarayonining metodik samaradorligini oshirishini

ko‘rsatdi. Mazkur integratsiya o‘qituvchi, sun’iy intellekt va talaba o‘rtasidagi funksional hamkorlikka asoslanib, tanqidiy tafakkur, axborot savodxonligi, individual ta’lim trayektoriyasi hamda akademik mas’uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois ushbu modelni joriy etishda pedagogik maqsad, etik me’yorlar, raqamli kompetensiya va metodik nazoratning o‘zaro uyg‘unligi muhim ilmiy-amaliy shart sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kasneci E., Seßler K., Küchemann S. et al. ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education // Learning and Individual Differences. – 2023. – Vol. 103. – Article 102274. – DOI: 10.1016/j.lindif.2023.102274.
2. Tlili A., Shehata B., Adarkwah M.A., Bozkurt A., Hickey D.T., Huang R., Agyemang B. What if the devil is my guardian angel: ChatGPT as a case study of using chatbots in education // Smart Learning Environments. – 2023. – Vol. 10. – Article 15. – P. 1–24. – DOI: 10.1186/s40561-023-00237-x.
3. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO, 2023. – 48 p. – DOI: 10.54675/EWZM9535.
4. Miao F., Cukurova M. AI Competency Framework for Teachers. – Paris: UNESCO, 2024.
5. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 414 p. – DOI: 10.1787/c74f03de-en.
6. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu / Y. Punie (ed.). – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – EUR 28775 EN. – DOI: 10.2760/159770.
7. Crompton H., Burke D. Artificial intelligence in higher education: the state of the field // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2023. – Vol. 20. – Article 22. – DOI: 10.1186/s41239-023-00392-8.
8. Albadarin Y., Saqr M., Pope N., Tukiainen M. A systematic literature review of empirical research on ChatGPT in education // Discover Education. – 2024. – Vol. 3. – Article 60. – DOI: 10.1007/s44217-024-00138-2.
9. Deng R., Jiang M., Yu X., Lu Y., Liu S. Does ChatGPT enhance student learning? A systematic review and meta-analysis of experimental studies // Computers & Education. – 2025. – Vol. 227. – Article 105224. – DOI: 10.1016/j.compedu.2024.105224.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ–358-son qarori. “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. – Toshkent, 2024.
11. Miao F., Shiohira K., Lao N. AI Competency Framework for Students. – Paris: UNESCO, 2024.

UDK 37.016:744

O'QUV GRAFIK TASVIRLARINING TA'LIMIY FUNKSIYALARI VA ULARNI LOYIHALASH TAMOYILLARI

Qosimjonov Nazirjon Hoshimjon o'g'li
Namangan davlat texnika universiteti o'qituvchisi
ORCID: 0009-0008-5098-4737
El. pochta manzili: nazirjon.painter@gmail.com Tel: +998777770944

Annotatsiya. *Maqolada o'quv grafik tasvirlarining ta'limiy funksiyalari va ularni didaktik loyihalash tamoyillari asoslangan. Tizimli va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida grafik tasvirlarning asosiy funksiyalari tizimlashtirilib, ularni loyihalashning maqsadli, mazmuniy, loyihaviy, amaliy va natijaviy komponentlardan iborat modeli ishlab chiqildi. O'quv grafik tasvirlarini oddiy illyustratsiya emas, balki o'quv mazmunini samarali o'zlashtirishga xizmat qiluvchi mustaqil didaktik vosita sifatida loyihalash zarurati asoslandi.*

Kalit so'zlar: *grafik ta'lim adabiyotlari, o'quv grafik tasvirlari, didaktik loyihalash, grafik ta'lim, vizuallashtirish, fazoviy tasavvur, grafik tafakkur, metodik model.*

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ФУНКЦИИ УЧЕБНЫХ ГРАФИЧЕСКИХ ИЗОБРАЖЕНИЙ И ПРИНЦИПЫ ИХ ПРОЕКТИРОВАНИЯ

Аннотация. *В статье обоснованы образовательные функции учебных графических изображений и принципы их дидактического проектирования. На основе системного и деятельностного подходов с использованием теоретического анализа, сравнения, обобщения и методического моделирования систематизированы основные функции графических изображений и разработана модель их проектирования, включающая целевой, содержательный, проектировочный, практический и результативный компоненты. Обоснована необходимость рассматривать учебные графические изображения как самостоятельное дидактическое средство, обеспечивающее эффективное усвоение учебного содержания.*

Ключевые слова: *графическая образовательная литература, учебные графические изображения, дидактическое проектирование, графическое образование, визуализация, пространственное представление, графическое мышление, методическая модель.*

EDUCATIONAL FUNCTIONS OF INSTRUCTIONAL GRAPHIC IMAGES AND PRINCIPLES OF THEIR DESIGN

Abstract. *The article substantiates the educational functions of instructional graphic images and the principles of their didactic design. Based on systemic and activity-based approaches, using theoretical analysis, comparison, generalization, and methodological modeling, the main functions of graphic images*

were systematized and a design model comprising target, content, design, practical, and outcome components was developed. The study substantiates the need to consider instructional graphic images as independent didactic tools that facilitate the effective acquisition of educational content.

Keywords: *graphic education literature, educational graphic images, didactic design, graphic education, visualization, spatial representation, graphic thinking, methodological model.*

KIRISH

Ta'lim mazmunini o'quvchilarga samarali yetkazishda o'quv adabiyotlarining mazmuni bilan bir qatorda, ularda qo'llaniladigan grafik va vizual materiallarning sifati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, chizmachilik, muhandislik grafikasi va kompyuter grafikasi kabi fanlarda o'quv axborotining muayyan qismi bevosita grafik tasvirlar orqali ifodalanadi. Chizma, sxema, grafik, geometrik model hamda bosqichma-bosqich tasviriy ko'rsatmalar o'quvchilarda fazoviy tasavvurni shakllantirish, grafik axborotni idrok etish va tahlil qilish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash kabi muhim didaktik vazifalarni bajaradi.

Shu bilan birga, o'quv adabiyotida grafik tasvirning mavjudligi uning ta'limiy jihatdan samarali ekanligini o'z-o'zidan ta'minlamaydi. Grafik tasvirning o'quv mazmuniga muvofiqligi, axborotning aniqligi va yetarliligi, kompozitsion tuzilishi, muhim elementlarning vizual jihatdan ajratilishi, matn bilan mazmuniy uyg'unligi hamda o'quvchilarning yosh va tayyorgarlik darajasiga mosligi uning didaktik qiymatini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Demak, grafik tasvirning ta'lim jarayonidagi samaradorligi uning shunchaki mavjudligi bilan emas, balki muayyan o'quv maqsadiga qanchalik yo'naltirilgani va o'quvchining bilish faoliyatini qay darajada qo'llab-quvvatlashi bilan belgilanadi.

Mazkur masala grafik ta'lim adabiyotlari, xususan, maktab chizmachilik darsliklari uchun alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki ushbu fanlarda grafik tasvir nafaqat nazariy ma'lumotni to'ldiruvchi illyustrativ vosita, balki o'quv mazmunining bevosita tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Tasvirning aniqligi, tushunarliligi va mazmuniy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi o'quvchining mavzuni idrok etishi, grafik

obyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni anglash va amaliy grafik faoliyatni bajarishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli o‘quv grafik tasvirlarini yaratish jarayonida ularning texnik va estetik xususiyatlari bilan bir qatorda, ta’limiy vazifasi ham oldindan belgilanishi zarur.

Bunday yondashuv grafik tasvirni loyihalash jarayonini “qanday tasvirlash?” masalasi bilangina cheklab qolmasdan, “nima uchun aynan shu tasvir tanlanadi?”, “u qaysi o‘quv vazifasini bajaradi?”, “qaysi axborotni o‘quvchi uchun vizual jihatdan ajratib ko‘rsatadi?” va “uning bilish faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi kutiladi?” kabi savollar asosida tashkil etishni taqozo etadi. Shundan kelib chiqib, o‘quv grafik tasvirlarini muayyan didaktik maqsad va funksiyaga muvofiq ravishda loyihalash grafik ta’lim adabiyotlari sifatini takomillashtirishning muhim ilmiy-metodik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Mazkur muammo doirasida o‘quv grafik tasvirlarining asosiy ta’limiy funksiyalarini aniqlash, ularni didaktik jihatdan loyihalash tamoyillarini belgilash, tasvirlarning samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish va ularni yaratish hamda ta’lim jarayonida qo‘llashning metodik shartlarini asoslash alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bunday yondashuv grafik tasvirni oddiy illyustrativ material sifatidagi an’anaviy talqindan kengaytirib, uni o‘quv mazmunini anglash, o‘zlashtirish va amaliy faoliyatga tatbiq etishga xizmat qiluvchi maqsadli didaktik vosita sifatida qarash imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada grafik ta’lim adabiyotlarida qo‘llaniladigan o‘quv grafik tasvirlarining ta’limiy funksiyalari va ularni didaktik jihatdan loyihalash tamoyillarini nazariy-metodik jihatdan asoslashga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, o‘quv grafik tasvirlarini loyihalashda maqsad, mazmun, tasvir turi, kompozitsion tashkil etish, matn bilan mazmuniy bog‘lash va pedagogik qo‘llash kabi o‘zaro bog‘liq jihatlarning tizimli yondashuv asosida tashkil etilishi ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Grafik ta'lim metodikasining rivojlanishida chizmalarni bajarish va o'qish, grafik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, fazoviy tasavvurni rivojlantirish masalalari muhim o'rin egallaydi. O'zbekistonda chizmachilik va muhandislik grafikasi metodikasiga R. Horunov, Yu. Qirg'izboev, I. Rahmonov, Sh. Murodov, E. Ro'ziyev, N. Yadgarov va boshqa tadqiqotchilarning ishlari sezilarli hissa qo'shgan. Ushbu tadqiqotlarda grafik ta'limning mazmuni, fazoviy tafakkurni rivojlantirish va grafik ko'nikmalarni shakllantirish masalalari yoritilgan.

O'quv adabiyotlarini yaratish va loyihalash masalalari Q.T. Olimov hamda N.I. Tayloqovning tadqiqotlarida chuqur o'rganilgan. Ular o'quv adabiyotini oddiy axborot manbai emas, balki ta'lim maqsadlari va didaktik vazifalarga muvofiq loyihalanadigan tizim sifatida qarashni asoslagan.

Xorijiy tadqiqotlarda vizual vositalarning didaktik ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Piaget (1970) bolalarning kognitiv rivojlanishida ko'rgazmali materiallarning o'rnini asoslab bergan. Hattie (2009) vizual vositalarning o'quv natijalariga ta'sirini meta-tahlil asosida ko'rsatgan. Zamonaviy yondashuvlarda esa Mayerning multimedia learning nazariyasi, Hegartyning fazoviy idrok bo'yicha tadqiqotlari hamda Swellerning kognitiv yuklama nazariyasi grafik materiallarni didaktik jihatdan to'g'ri tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi [1, 2].

Shunday qilib, mavjud tadqiqotlarda fazoviy tasavvur, grafik tafakkur va o'quv adabiyotlarini loyihalash masalalari keng yoritilgan bo'lsa-da, o'quv grafik tasvirining o'zini alohida didaktik birlik sifatida tizimli tahlil qilish va loyihalash masalasiga yetarlicha e'tibor berilmagan. Ayniqsa, grafik tasvirning mazmuniy, vizual va didaktik xususiyatlarini birgalikda baholash dolzarb ilmiy muammo sifatida qolmoqda.

O'quv grafik tasvirlari grafik ta'lim, xususan, muhandislik grafikasi va chizmachilik fanlarini o'qitishda o'quv mazmunini vizuallashtirish, murakkab tushunchalarni konkretlashtirish, fazoviy munosabatlarni ochib berish va o'quvchining bilish faoliyatini faollashtirish imkonini beruvchi muhim didaktik vositalardan biridir.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ularning darslik va boshqa o‘quv adabiyotlarida mazmunan to‘g‘ri, aniq va zamonaviy talablar asosida ishlab chiqilishi o‘quv materialini idrok etish, fazoviy tasavvurni shakllantirish hamda grafik bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun zarur shartlardan biridir.

Shu sababli grafik ta’lim adabiyotlarini modernizatsiya qilishda tasvirlarning faqat tashqi ko‘rinishi va texnik sifatini yaxshilash bilan cheklanib qolmasdan, ularning o‘quv mazmunini ochib berish, murakkab tushunchalarni konkretlashtirish va o‘quvchining bilish faoliyatini faollashtirish imkoniyatlarini ham hisobga olish zarur [3].

Shunday qilib, mavjud tadqiqotlarni mazmunan uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishga ajratish mumkin:

- ***birinchisi*** — grafik ta’lim jarayonida fazoviy tasavvur va grafik tafakkurni rivojlantirish;
- ***ikkinchisi*** — o‘quv adabiyotlarini didaktik talablar asosida loyihalash va takomillashtirish;
- ***uchinchisi*** — elektron va raqamli ta’lim resurslarining mazmuni hamda tuzilishini didaktik jihatdan modellashtirish.

Mazkur yo‘nalishlar grafik ta’lim uchun samarali o‘quv resurslarini yaratishning muhim nazariy va metodik asoslarini shakllantirgan. Shu bilan birga, ularning kesishgan nuqtasida grafik ta’lim adabiyotlaridagi o‘quv grafik tasvirlarini alohida didaktik birlik sifatida loyihalash masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Mavjud tadqiqotlarda grafik tasvirlardan foydalanishning umumiy metodik imkoniyatlari yoritilgan bo‘lsa-da, tasvirning o‘quv maqsadi, mazmuni, axborot tarkibi, murakkablik darajasi, kompozitsiyasi, matn bilan o‘zaro bog‘liqligi, o‘quvchining bilish faoliyatiga ta’siri va undan foydalanish bosqichlarini yagona tizim asosida belgilash masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Natijada grafik tasvir ko‘pincha matnni to‘ldiruvchi yoki bezaklovchi illyustrativ komponent sifatida qaraladi. Holbuki, grafik ta’limda tasvirning didaktik qiymati uning mavjudligi bilan emas, balki muayyan o‘quv

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

vazifasini hal qilishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, grafik tasvirni oddiy illyustrativ materialdan **maqsadli didaktik vositaga** aylantirishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik-didaktik tahlil va metodik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tahlil obyekti sifatida O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun mo‘ljallangan 8- va 9-sinf chizmachilik darsliklaridagi grafik materiallar tanlab olindi. Baholashda quyidagi mezonlar asos qilib olindi: o‘quv mazmuniga moslik, axborotning aniqligi va yetarliligi, fazoviy axborotning ifodalanish darajasi, tasvirning ko‘rgazmaliligi, matn bilan bog‘liqlik hamda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga moslik.

Shuningdek, xorijiy tajribani o‘rganish maqsadida Belarus Respublikasida nashr etilgan chizmachilik o‘quv qo‘llanmalaridagi grafik materiallar qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot keng ko‘lamli eksperimental sinov sifatida emas, balki mavjud muammolarni aniqlash va didaktik yechimlarni asoslashga qaratilgan nazariy-metodik tahlil sifatida amalga oshirildi.

O‘tkazilgan tahlil natijasida grafik tasvirlar bilan bog‘liq bir qator didaktik muammolar aniqlandi:

- ***Birinchidan***, ayrim darsliklarda grafik tasvirlarning texnik va vizual sifati yetarli emas: chiziqlarning aniqligi past, asosiy va yordamchi elementlar yetarli darajada farqlanmagan, rang va kontrast imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmagan.
- ***Ikkinchidan***, uch o‘lchovli obyektlar ko‘pincha faqat bitta proyeksiya yoki statik tasvir orqali beriladi. Bu esa o‘quvchidan qo‘shimcha aqliy yuklama talab qiladi va fazoviy tuzilishni to‘liq anglashni qiyinlashtiradi.
- ***Uchinchidan***, murakkab jarayonlar (masalan, kesim hosil bo‘lishi yoki oktant shakllanishi) ba’zan bir necha bosqich bir joyda jamlangan holda tasvirlanadi. Natijada

grafik axborot zichlashadi va bosqichlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanish vizual jihatdan noaniq bo‘lib qoladi.

Xususan, 8-sinf darsligining 46-sahifasidagi 13.1-rasmda oktant shakllanishi uch bosqichda ko‘rsatilgan. Ranglar yordamida tekisliklar ajratilgan bo‘lsa-da, tasvirning statik xususiyati fazoviy tuzilishni yaxlit idrok etishni cheklaydi. 53-betdagi 17.2-chizmada geometrik jismlar asosan bitta proyeksiyada berilgan. 9-sinf darsligining 7-sahifasidagi 2.1-chizmada esa kesim hosil bo‘lishi bosqichlari bir joyda jamlanganligi sababli axborot zichlashgan.



1-rasm. 8-sinf darsligining 46-sahifasidagi 13.1-chizma



2-rasm. 8-sinf darsligining 53-betdagi 17.2-chizma

Xorijiy tajriba tahlili bunday muammolarni bartaraf etish imkoniyatini ko‘rsatadi. Xususan, Belarusda nashr etilgan chizmachilikka oid o‘quv adabiyotlarida mavzularning grafik materiallar bilan uyg‘unlashtirilganligi e’tiborga loyiq. Masalan, darslikning 10-

sahifasida "Чертежные материалы, инструменты и принадлежности" mavzusini yoritishda qog'oz turlari, chizg'ich, reysshina, sirkul, lekalo va boshqa chizmachilik asboblari nafaqat matn orqali tavsiflangan, balki ularning real ko'rinishlari bilan ham ifodalangan *(3-4-rasm)*. Bunday uyg'unlik o'quvchida mazkur predmetlarning tashqi ko'rinishi va funksiyasi haqida aniqroq tasavvur shakllanishiga xizmat qiladi [6].



3-rasm. Chizmachilik materiallari, asboblari va moslamalarining grafik tasvirlari.



4-rasm. Sirkul va boshqa asboblar to'plami

Shunga o'xshash yondashuv darslikning boshqa mavzularida ham kuzatiladi. Jumladan, 43-betdagi **"Способы построения сопряжения"** mavzusida turli tutashmalarni tushuntirishda real hayot va texnik amaliyot bilan bog'liq misollardan foydalanilgan. Bunday tasvirlar geometrik tushunchani faqat nazariy yoki abstrakt shaklda emas, balki uning amaliy qo'llanishi bilan bog'liq holda idrok etishga imkon beradi *(5-rasm)*.

Keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, grafik tasvirning didaktik samaradorligi uning shunchaki mavjudligi bilan emas, balki o'quv mazmunini ochib berishi, mavzuni

konkretlashtirishi, nazariy tushunchani amaliy holat bilan bog‘lashi va o‘quvchining grafik hamda fazoviy tasavvurini faollashtirishi bilan belgilanadi.



5-rasm. Tutashmalarni real obyektlar va grafik yechimlar orqali ifodalash.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning asosiy yo‘nalishi mavjud pedagogik, metodik va raqamli ta’lim resurslarini loyihalashga oid ilmiy qarashlarni grafik ta’lim adabiyotlaridagi o‘quv grafik tasvirlariga tatbiq etish, ularning didaktik funksiyalarini tizimlashtirish hamda grafik tasvirlarni maqsadli loyihalashning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.



6-rasm. Grafik materiallarni modernizatsiya qilish jarayoni

Grafik materiallarni modernizatsiya qilish rejalashtirish, loyihalash, baholash, sinov va takomillashtirish bosqichlarida amalga oshiriladi *(6-rasm)*.

1. **Birinchi bosqich — *rejalashtirish**da*** materialning maqsadi, o‘quv mazmunidagi o‘rni, foydalanuvchilar xususiyatlari hamda grafik ifoda turi, rang, format va murakkablik darajasi belgilanadi.

2. **Ikkinchi bosqich — *loyihalash**da*** grafik material zamonaviy dasturlar yordamida ishlab chiqilib, uning texnik aniqligi, kompozitsion yaxlitligi va vizual tushunarliligi ta’minlanadi.

3. **Uchinchi bosqich — *baholash**da*** materialning texnik, vizual va didaktik sifati, o‘quv maqsadiga muvofiqligi hamda fazoviy tasavvur va mustaqil fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

4. **To‘rtinchi bosqich — *sinov va takomillashtirish**da*** material real ta’lim jarayonida sinovdan o‘tkazilib, o‘quvchi va o‘qituvchi fikrlari asosida uning mazmuni, murakkabligi va kompozitsiyasi takomillashtiriladi.

Shunday qilib, **rejalashtirish → loyihalash → baholash → sinov va takomillashtirish** ketma-ketligi grafik materiallarni modernizatsiya qilishning yaxlit metodik siklini tashkil etib, ularning didaktik samaradorligi va o‘quvchilarning o‘zlashtirishiga ta’sirini oshirishga xizmat qiladi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Tadqiqot natijalari grafik ta’lim adabiyotlaridagi o‘quv grafik tasvirlarini faqat axborotni ko‘rgazmali ifodalovchi illyustrativ material sifatida emas, balki muayyan o‘quv maqsadiga yo‘naltirilgan **mustaqil didaktik vosita** sifatida qarash zarurligini ko‘rsatdi. O‘quv grafik tasvirlari grafik ta’lim mazmunining tarkibiy qismi bo‘lib, murakkab tushuncha va jarayonlarni vizuallashtirish, nazariy mazmunni konkretlashtirish, fazoviy munosabatlarni anglash hamda o‘quvchining bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, chizmachilik va muhandislik grafikasi fanlarida grafik tasvirning didaktik ahamiyati yanada ortadi, chunki mazkur fanlarda uch

o‘lchamli obyektlar va ularning fazoviy munosabatlarini ikki o‘lchamli tekislikda ifodalash va idrok etish asosiy o‘quv faoliyatlaridan birini tashkil etadi.

Umuman, tadqiqot natijalari grafik ta’lim adabiyotlaridagi o‘quv grafik tasvirlarini loyihalash jarayonini faqat grafik dizayn yoki texnik tasvir yaratish masalasi sifatida emas, balki o‘quv maqsadi, mazmun, vizual yechim va pedagogik faoliyatning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlovchi kompleks didaktik jarayon sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv grafik tasvirlarning funksional imkoniyatlarini kengaytirib, ularni o‘quvchilarning fazoviy tasavvuri, grafik ko‘nikmalari va o‘quv mazmunini o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan faol didaktik vositaga aylantirish imkonini beradi.

O‘tkazilgan nazariy tahlil asosida o‘quv grafik tasvirlarini didaktik loyihalashning asosiy yo‘nalishlari, tamoyillari, bosqichlari va kutiladigan natijalari tizimlashtirildi. Quyidagi jadvalda grafik tasvirning o‘quv jarayonidagi funksional imkoniyatlari hamda uni samarali didaktik vosita sifatida loyihalashga qo‘yiladigan asosiy talablar umumlashtirilgan *(1-jadval)*.

1-jadval

O‘quv grafik tasvirlarini didaktik loyihalashning nazariy-metodik modeli

Tizim elementi	**Mazmuni**	**Asosiy talab**	**Kutiladigan didaktik natija**
Ta’limiy funksiya	Vizuallashtirish, konkretlashtirish...	Mazmunga muvofiqlik	Tushunishni yengillashtirish
Loyihalash tamoyili	Maqsadlilik, aniqlik...	Didaktik muvofiqlik	Tasvirning funksionalligi
Loyihalash bosqichi	Maqsad → mazmun → tasvir → kompozitsiya...	Izchillik	Tizimli grafik yechim
Baholash mezoni	Aniqlik, ravshanlik, uyg‘unlik...	Mezonlilik	Sifatni nazorat qilish

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Natija	Didaktik vosita sifatida qo‘llash	O‘quv faoliyatiga yo‘naltirish	O‘zlashtirishni qo‘llab-quvvatlash

O’quvchilarning yoshga oid psixologik xususiyatlari va bilish jarayonlarining rivojlanish bosqichlari darslikdagi vizual materiallarni loyihalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 12–16 yosh oralig’idagi o’quvchilar hali to’laqonli abstrakt fikrlash bosqichiga o’tmagan bo’lishi mumkin [7].

Shu bois grafik materiallarning quyidagicha bo’lishi tavsiya etiladi:

- real obyektlar bilan bog‘langan;
- sodda va tushunarli ifodalangan;
- ketma-ket ko‘rinishda berilgan bo‘lishi.

Bundan tashqari, o’quvchilarning individual o’zlashtirish tezligi, vizual idrok qilish qobiliyati va analitik tafakkur darajasiga qarab differensial yondashuv amalga oshirilishi lozim. bu yondashuv har bir o’quvchiga o’zining o’rganish uslubiga mos grafik kontentdan foydalanish imkonini yaratadi [8].

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida grafik ta’lim adabiyotlaridagi ayrim grafik tasvirlarni mazmun va didaktik vazifasini saqlagan holda zamonaviy grafik vositalar asosida qayta ishlab chiqish mumkin. Bunda asosiy maqsad mavjud darslik tasvirlarini shunchaki texnik jihatdan yangilash emas, balki ularning o‘quv mazmunini yanada aniq, tushunarli va ko‘rgazmali ifodalash imkoniyatlarini ko‘rsatishdan iborat.

Shu maqsadda maktab chizmachilik darsliklarida uchraydigan ayrim grafik materiallar asosida namunaviy tasvirlar ishlab chiqildi. Namunalarni tayyorlashda grafik axborotning aniqligi, asosiy elementlarning vizual ajratilishi, fazoviy munosabatlarning tushunarli ifodalanishi, tasvirning kompozitsion yaxlitligi va matn mazmuni bilan bog‘liqligi kabi jihatlarga e’tibor qaratildi. Ayrim murakkab fazoviy

tushunchalarni ifodalashda esa uch o‘lchovli modellashtirish imkoniyatlaridan foydalanish ko‘zda tutildi.

Quyida keltirilgan namunalar mavjud darslik grafik materiallarining muqobil varianti sifatida tavsiya etiladi. Ular yakuniy metodik yechim sifatida emas, balki grafik tasvirlarni didaktik jihatdan takomillashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatuvchi namunaviy grafik ishlanmalar sifatida qaraladi *(7–9-rasm)*.



7-rasm. Oktan hosil bo’lishi (namunaviy rasm)



8-rasm. Geometrik jism proyeksiyalari (namunaviy rasm)



9-rasm. Egri chiziqlarning tabiatda uchrashi (namunaviy rasm)

XULOSA VA TAVSIYALAR

O‘quv grafik tasvirlarini didaktik jihatdan loyihalash grafik ta’lim adabiyotlari mazmunini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bunda grafik tasvirning faqat texnik va estetik jihatlari emas, balki uning o‘quv maqsadiga muvofiqligi, bajaradigan didaktik vazifasi va o‘quvchining bilish faoliyatiga ta’siri ham hisobga olinishi lozim. Tadqiqot doirasida o‘quv grafik tasvirlarining ta’limiy imkoniyatlari, ularni loyihalash tamoyillari hamda grafik va matnli axborotni o‘zaro uyg‘unlashtirish shartlari tahlil qilinib, quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, o‘quv grafik tasviri grafik ta’lim adabiyotlarida oddiy illyustrativ yoki bezak elementi sifatida emas, balki o‘quv mazmunini idrok etish va o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi mustaqil didaktik vosita sifatida qaralishi lozim. Uning asosiy ta’limiy funksiyalari axborotni vizual ifodalash, murakkab tushunchalarni konkretlashtirish, fazoviy tasavvurni shakllantirish, grafik obyektlar va ular o‘rtasidagi munosabatlarni ochib berish hamda amaliy faoliyatning bajarilish ketma-ketligini ko‘rsatish bilan tavsiflanadi.

Ikkinchidan, grafik tasvirning ta’limiy samaradorligi uning mazmun, shakl va taqdim etish usulining o‘zaro muvofiqligiga bog‘liq. Shu sababli tasvirni loyihalashda o‘quv maqsadi va mazmunini aniqlash, mos tasvir turini tanlash, asosiy grafik elementlarni ajratish, kompozitsion tuzilmani belgilash, matn bilan mazmuniy bog‘liqlikni ta’minlash hamda tayyor tasvirni didaktik mezonlar asosida baholash izchil jarayon sifatida tashkil etilishi zarur.

Uchinchidan, grafik va matnli axborotning o‘zaro uyg‘unligi o‘quv materialini tushunarli tashkil etishning muhim shartlaridan biridir. Grafik tasvirning tegishli tushuntirish yoki izoh bilan bevosita bog‘lanishi, uning matndagi mazmuniy o‘rniga muvofiq joylashtirilishi va ortiqcha vizual hamda matnli yuklamaga yo‘l qo‘yilmasligi o‘quvchining axborotni izchil idrok etishiga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan, grafik materiallarni sahifada joylashtirishda tasvir o‘lchami, kompozitsion muvozanat,

elementlar orasidagi masofa, matn va tasvirning gorizontal yoki vertikal bog‘liqligi kabi parametrlar oldindan belgilangan didaktik va vizual mezonlar asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, grafik materiallarni ishlab chiqish va modernizatsiya qilish bir martalik texnik jarayon emas, balki maqsadni belgilash, mazmunni tahlil qilish, grafik yechimni ishlab chiqish, baholash, sinovdan o‘tkazish va zarur hollarda takomillashtirishni qamrab oluvchi yaxlit metodik sikl sifatida tashkil etilishi lozim. Bunday yondashuv grafik tasvirlarning o‘quv mazmuni bilan uzviyligini ta’minlash va ularning didaktik qiymatini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, grafik ta’lim adabiyotlarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Grafik tasvirlarni didaktik maqsad asosida loyihalash. Har bir tasvirni darslikka kiritishdan oldin uning qaysi o‘quv maqsadini amalga oshirishi va o‘quvchida qanday bilim, ko‘nikma yoki tasavvurni shakllantirishga xizmat qilishi aniqlanishi lozim.

2. Past sifatli va mazmunan eskirgan tasvirlarni qayta ishlab chiqish. Chizmachilik va muhandislik grafikasi darsliklaridagi mazmuniy jihatdan yetarli bo‘lmagan, o‘qilishi qiyin yoki zamonaviy ta’lim talablariga mos kelmaydigan grafik materiallarni zamonaviy raqamli grafikalar, vektorli tasvirlar va uch o‘lchamli modellashtirish imkoniyatlari asosida takomillashtirish maqsadga muvofiq.

3. Matn va grafik tasvirning semantik uyg‘unligini ta’minlash. Tasvir, uning qismlari va tegishli tushuntirishlar o‘rtasida aniq mazmuniy bog‘liqlik yaratilishi, izohlarning tasvirga nisbatan qulay joylashtirilishi hamda o‘quvchini ortiqcha vizual qidirishga majbur qiluvchi holatlarga yo‘l qo‘yilmasligi kerak.

4. Sahifaviy dizaynni yagona mezonlar asosida tashkil etish. Grafik obyektlarning o‘lchami, sahifadagi joylashuvi, elementlar orasidagi masofa, matn va tasvirning o‘zaro nisbati hamda sahifa kompozitsiyasi muayyan pedagogik va vizual mezonlar asosida belgilanib, darslikning turli qismlarida imkon qadar izchil qo‘llanilishi lozim.

5. Grafik materiallarni bosqichlilik tamoyili asosida taqdim etish. Ayniqsa, geometrik va texnik mazmundagi murakkab jarayonlarni tushuntirishda yakuniy natijani bitta murakkab tasvirda berish bilan cheklanmasdan, zarur hollarda jarayonning asosiy bosqichlarini ketma-ket grafik ko‘rinishda ifodalash tavsiya etiladi.

6. Grafik tasvirlarni baholash mezonlarini amaliyotga joriy etish. Darslik va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlash jarayonida grafik materiallarning mazmuniy aniqligi, didaktik maqsadga muvofiqligi, vizual ravshanligi, matn bilan uyg‘unligi, kompozitsion tashkil etilishi va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligini baholash imkonini beruvchi mezonlardan foydalanish zarur.

Umuman olganda, o‘quv grafik tasvirlarini didaktik jihatdan loyihalash grafik ta’lim adabiyotlarining mazmuniy va vizual sifatini birgalikda takomillashtirishga xizmat qiluvchi tizimli yondashuvni talab etadi. Bunda tasvirning sifati faqat uning grafik jihatdan mukammalligi bilan emas, balki o‘quv maqsadiga muvofiqligi, bajaradigan ta’limiy funksiyasi, mazmunni ochib berish imkoniyati va o‘quvchining bilish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan baholanishi lozim. Shu asosda ishlab chiqilgan didaktik loyihalash tamoyillari grafik ta’lim adabiyotlarini yaratish, qayta ko‘rib chiqish va modernizatsiya qilish jarayonlari uchun metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning asosiy ***ilmiy natijasi*** o‘quv grafik tasvirlarini funksional, mazmuniy, vizual va metodik jihatlarning o‘zaro birligi asosida loyihalashga imkon beruvchi yaxlit yondashuvning taklif etilganidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Piaget, J. (1970). The Psychology of the Child. New York: Basic Books
2. Hattie, J. (2009). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: Routledge
3. Smile and Learn. (2023, May 25). Visual aids in the classroom. Retrieved February 22, 2025, from https://www.smileandlearn.com/en/visual-aids-in-the-classroom/
4. Raxmanov Ikram va boshqalar. Chizmachilik 8: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik / I. Raxmanov va boshq. To‘ldirilgan va qayta ishlangan 3-nashri. – Toshkent: «O‘qituvchi» NMIU, 2019. – 96 b

5. Rahmonov Ikrom va boshqalar. Chizmachilik 9: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun darslik. To‘ldirilgan va qayta ishlangan 3-nashri – T.: «O‘zbekiston», 2019.–104 b.

6. Беженарь, Ю. П., Чернова, Е. Н., Сементовская, В. В. и др. (2020). Черчение: Учебное пособие для 10 класса учреждений общего среднего образования с русским языком обучения. Народная асвета

7. Piaget, J. (1970). Science of Education and the Psychology of the Child. New York: Viking

8. Tomlinson, C. A. (2001). How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. Alexandria, VA: ASCD

9. N.H.Qosimjonov// Geometrik chizmachilik// O‘quv qo‘llanma// Muhandis noshir// Namangan-2026, 160 bet

10. Usmonjonovich, M. G. U., & O‘G‘Li, N. Q. H. (2023). DIDAKTIK O ‘YINLARDAN FOYDALANIB TALABALARNING GRAFIK SAVODHONLIGINI OSHIRISH. Строительство и образование, 4(5-6), 116-119.

11. Madumarov, K. K., & Qosimjonov, N. (2025). USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN MODERN SELF-DIRECTED LEARNING ENVIRONMENTS (ON THE EXAMPLE OF GRAPHIC DISCIPLINES). Latin American journal of education, 5(5), 413-416.

12. ugli Kasimjonov, N. H., & Gaziev, N. U. (2025). THE PSYCHOLOGICAL AND AESTHETIC IMPACT OF COLOR IN ART: EXPLORING CONTEMPORARY SCIENTIFIC APPROACHES. FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities., 13(5), 409-413.

13. Hoshimjon o‘g‘li, Q. N. (2025). TA’LIMDA GAMIFIKATSIYA: POWERPOINT ASOSIDA DIDAKTIK O ‘YINLARNI YARATISH TEXNOLOGIYASI. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(36), 316-322.

14. A.A.Qahharov (2025). Muhandislik yo‘nalishi talabalarining kreativ fikrlashga o‘rgatishning zamonaviy usullari. Строительство и образование, 4 (6), 153-158.

15. Maxkamov, G. U. (2025). Chizma geometriya va muhandislik grafikasini o’qitishda talabalarning ijodiy fikirlash qobilyatlarini rivojlantirish. Строительство и образование, 4(6), 170-173.

16. Maxkamov, G. U. (2025). Geometrik jismlarning ortogonal proeksiyalarini qurish orqali talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish. Строительство и образование, 4(4), 196-199.

17. Qahharov Abduraxim Abdubannayevich, Jaloldinov Ahror Abdusattor O‘g‘li, & Jaloldinov Nizomjon Abdusattor Og‘li (2024). ISITISH, VENTILYATSIYA VA KONDITSIYALASH TIZIMLARINI LOYIHALASHDA BINO VA INSHOATLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI TA‘MINLASH. Строительство и образование, 3 (2), 43-46.

УДК 378.147:910.1:004.9

"INTERAKTIV GEO-MUHIT" METODOLOGIK PLATFORMASI – GEOGRAFIYA DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Abduraxmonov Botirjon Mirzamahmudovich
Namangan davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: botu7612@gmail.com
Rahimov Ixtiyor Baxtiyor o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi
E-mail: ixtiyorraximov565684@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida geografiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan "Interaktiv Geo-muhit" metodologik platformasining nazariy-metodologik va amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida geo-ta'lim tizimidagi mavjud muammolar, o'qituvchi va o'quvchilarning raqamli vositalarga bo'lgan ehtiyojlari hamda GIS va multimedia texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Taklif etilayotgan platforma uchta asosiy (vizual-didaktik, interaktiv-amaliy, nazorat-tahliliy) blokdan iborat bo'lib, u ta'lim jarayonida o'quvchilarning makoniy tahlil, tadqiqotchilik hamda amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tajriba-sinov natijalari platformadan foydalanish visuzallashtirish darajasini 40% ga oshirishi hamda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada yuqorilatishini isbotladi.*

Kalit so'zlar: *Interaktiv Geo-muhit, geografiya ta'limi, GIS-texnologiyalar, o'yinlashtirish (gamification), raqamli trenajyorlar, illyustrativ elektron lug'at, audio-darslar, makoniy tahlil, kompetensiya.*

МЕТОДИЧЕСКАЯ ПЛАТФОРМА «ИНТЕРАКТИВНАЯ ГЕОСРЕДА» КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ ГЕОГРАФИИ

Аннотация. *В данной статье освещаются теоретико-методологические и практические основы методологической платформы «Интерактивная гео-среда», направленной на повышение эффективности преподавания географии в общеобразовательных школах. В процессе исследования проанализированы существующие проблемы в системе гео-образования, потребности учителей и учащихся в цифровых средствах, а также дидактические возможности ГИС и мультимедийных технологий. Предлагаемая платформа состоит из трех основных блоков (визуально-дидактического, интерактивно-практического, контрольно-аналитического) и служит развитию у учащихся навыков пространственного анализа, исследовательской деятельности и*

практических компетенций. Результаты опытно-экспериментальной работы доказали, что использование платформы повышает уровень визуализации на 40% и существенно увеличивает интерес учащихся к уроку.

Ключевые слова: *Интерактивная гео-среда, географическое образование, ГИС-технологии, геймификация, цифровые тренажеры, иллюстративный электронный словарь, аудиоуроки, пространственный анализ, компетенция.*

THE "INTERACTIVE GEO-ENVIRONMENT" METHODOLOGICAL PLATFORM AS A FACTOR IN ENHANCING THE EFFECTIVENESS OF GEOGRAPHY LESSONS

Abstract. *This article highlights the theoretical, methodological, and practical foundations of the "Interactive Geo-environment" methodological platform aimed at improving the effectiveness of teaching geography in secondary schools. During the research, existing issues in the geo-education system, the needs of teachers and students for digital tools, and the didactic potential of GIS and multimedia technologies were analyzed. The proposed platform consists of three main blocks (visual-didactic, interactive-practical, and control-analytical) and serves to develop students' spatial analysis, research, and practical competencies. The experimental results proved that using the platform increases the level of visualization by 40% and significantly enhances students' engagement in lessons.*

Keywords: *Interactive Geo-environment, geography education, GIS technologies, gamification, digital simulators, illustrative electronic dictionary, audio lessons, spatial analysis, competence.*

KIRISH

Raqamli ta'lim paradigmasi sharoitida geografiya ta'limini modernizatsiya qilish va uni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hamda Geografik Axborot Tizimlari (GIS) bilan integratsiyalash ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi [4]. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasi ijrosi doirasida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va pedagogik innovatsiyalarni keng tatbiq etish bo'yicha tizimli amaliy ishlar olib borilmoqda [1]. Bu borada umumta'lim maktablarida Milliy o'quv dasturi (MO'D) talablari asosida o'quvchilarning amaliy ko'nikma va

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kompetensiyalarini shakllantirish, o‘quv-metodik ta’minotni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish muhim vazifa qilib belgilangan [1, 2].

Jahon tajribasi, xususan, Singapur va Buyuk Britaniya ta’lim tizimlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, geografiya fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalar nafaqat oddiy ko‘rgazmali vosita, balki makoniy tahlil va tadqiqotning asosiy instrumenti sifatida infratuzilmaviy hamda kontent bosqichlarida to‘liq integratsiya qilingan [6].

Biroq umumta’lim maktablaridagi real holat tahlili Milliy o‘quv dasturi (MO‘D) talablari va raqamli resurslar o‘rtasida muayyan metodik uzilishlar hamon saqlanib qolayotganini ko‘rsatmoqda [6]. Ayniqsa, "Iqlim", "Demografiya" va "Iqtisodiy rayonlashtirish" kabi murakkab hamda dinamik o‘zgaruvchi jarayonlarni ifodalovchi mavzularni o‘qitishda an’anaviy "sinf-xarita-doska" uslubining yetarsizligi ko‘zga tashlanmoqda [6].

Ushbu muammolarni bartaraf etish, o‘quvchilarning makoniy fikrlash va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda dars jarayonida tezkor qayta aloqani (feedback) ta’minlash maqsadida "Interaktiv Geo-muhit" metodologik platformasini ishlab chiqish va ta’lim amaliyotiga joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa hisoblanadi [2, 5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Geografiya ta’limida zamonaviy vositalar va raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli aspektlarda o‘rganilgan. V.P. Maksakovskiy o‘z ilmiy ishlarida dunyoning reorpaфик manzarasini shakllantirishda metodologik yondashuvlarning fundamental o‘rnini ko‘rsatib bergan bo‘lsa [4], Yu.S. Reprintseva geografiya ta’limida o‘quvchilarning qadriyatli yo‘nalishlari hamda shaxsiy o‘zini o‘zi anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini tadqiq etgan [7].

So‘nggi yillarda mahalliy metodist olimlar tomonidan geografiya ta’limini raqamlashtirish, GIS-texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha qator izlanishlar olib borildi. Xususan, B.M. Abduraxmonov, I.E. Turdaliyev va I.B.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Raximovlarning tadqiqotlarida geografiya ta'limida interaktiv kartografik qo'llanmalardan foydalanish hamda PISA va STEAM yondashuvlarini integratsiyalash masalalari atroflicha tahlil qilingan [8,10]. B.M. Abduraxmonovning ishlarida qadriyatga yo'naltirilgan ta'lim va raqamli resurslar vositasida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish mexanizmlari yoritib berilgan [1,2]. D. Isabayeva esa geografik ta'limda didaktik materiallarni loyihalash va qo'llashning innovatsion metodikasini ishlab chiqqan [3].

Shu bilan birga, zamonaviy raqamli resurslar, interaktiv platformalar va audio-vizual komplekslarni yaxlit metodologik tizim sifatida geografiya darslariga kompleks integratsiyalash masalasi hali yetarlicha tadqiq qilinmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, pedagogik kuzatuv, so'rovnoma-anketa, qiyosiy-pedagogik tahlil hamda statistik guruhlash usullaridan foydalanildi [2, 9].

Tadqiqotning empirik bazasini Namangan, Andijon, Farg'ona, Buxoro, Jizzax va Xorazm viloyatlaridagi umumta'lim maktablarining geografiya o'qituvchilari va o'quvchilari tashkil etdi (jami 91 nafar respondent-pedagoglar hamda tajriba-sinov sinflari o'quvchilari).

V.A.Ignatova ta’kidlaganidek, sinergetika g‘oyalarini ta’lim jarayoniga faol joriy etishda, birinchi navbatda, an’anaviy pedagogik fikrlash, xamda ta’lim mazmuni yaratuvchilarning fanda anglash modeli va uni ta’limga moslashtirish uchun yarim asr vaqt ketishi xaqidagi farazlari halal bermoqda. Shu sabablarga ko‘ra, sinergentikaning pedagogika fani tizimidagi o‘rni xali to‘liq belgilanmagan[5]. Shunga qaramay, sinergetika tamoyillarini pedagogik nazariya va amaliyotiga joriy etish masalasi tobora muxim axamiyat kasb etmoqda va ushbu nazariyaning aloxida masalalarini ishlab chiqayotgan ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilmoqda. Shu tariqa A.A. Vorojbitova pedagogik sinergetikani o‘qitilayotgan shaxsda shakllanuvchi tarbiyalash va o‘z-o‘zini tarbiyalash, ta’lim va mustaqil ta’lim, o‘qitish va mustaqil o‘rganishlarning qarama-qarshi jarayonlardagi ko‘p omilli o‘zaro ta’sir sintezi sifatida ko‘radi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

V.I.Andreev pedagogik sinergetikani "sinergetika qonuni va qonuniyatlariga, ya'ni pedagogik, aniqrog'i ta'lim-tarbiya tizimini o'z-o'zini tashkillashtirish va o'z-o'zini rivojlantirish qonun va qonuniyatlariga asoslangan pedagogik fan soxasi" deb atashni taklif qiladi[3]. Pedagogik sinergetikani, pedagogik tizimlarni, avvalombor "ochiqlilik", birgalikda yaratish va o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan nuqtai-nazaridan o'rgangan xolda, rivojlantirish masalalarini ishlab chiqishga yangicha yondashishi imkoniyatini beradi, deya hisoblaydi.

Ba'zi pedagogik manbalarda[7] sinergetika "murakkab tizimlarning tartiblanmagan xolatdan tartiblanganiga o'tish jarayonini o'rganadigan va tizim doirasida ularning jami ta'siri xar bir elementni aloxida ta'sirining sodda effektining yuzaga kelishidan ustun keluvchi tizim elementlari o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beradigan fan" sifatida aniqlangan. Shunday qilib, sinergetika pedagogika uchun metodik tamoyillardan biri sifatida gavdalanadi, modomiki pedagogik jarayonda maqsadli o'zaro ta'sir doirasida aynan fanning yangi o'rganilayotgan ta'sirlari kuzatiladi.

Biz buni matematik analiz kursining Karrali integrallar tushunchasi mavzusi yordamida ko'rib chiqaylik.

Ikki karrali integral tushunchasi. Aytaylik, $f(x,y)$ funktsiya yuzaga ega bo'lgan D to'plamda aniqlangan va chegaralangan bo'lsin. D ning

$$P=\{D_1,D_2...D_n\}$$

bo'laklashini olib, berilgan funktsiyaning integral yig'indisini tuzamiz:

$$\sigma=\sum_{k=1}^{n} f(\xi_k,\eta_k)\mu D_k .$$

1-ta'rif. Agar $\forall\varepsilon>0$ son olinganda ham shunday $\delta>0$ son topilsaki, D ning diametri $\lambda_p<\delta$ bo'lgan har qanday P bo'laklash, hamda har bir D_k da olingan ixtiyoriy (ξ_k,η_k) lar uchun

$$|\sigma-J|<\varepsilon$$

tengsizlik bajarilsa, J son σ yig'indining $\lambda_p\to 0$ dagi limiti deyiladi va



$$\lim_{\lambda_p \to 0} \sigma = J$$

kabi belgilanadi.

2-ta'rif. Agar $\lambda_p \to 0$ da $f(x,y)$ funktsiyaning integral yig'indisi limiti mavjud va chekli J ga teng bo'lsa, $f(x,y)$ funktsiya D da integrallanuvchi deyiladi. J soniga esa, $f(x,y)$ funktsiyaning D bo'yicha ikki karrali integrali deyiladi. Uni quyidagicha

$$\iint_D f(x,y)dxdy$$

belgilanadi. Demak,

$$\iint_D f(x,y)dxdy = \lim_{\lambda_p \to 0} \sigma = \lim_{\lambda_p \to 0} \sum_{k=1}^{n} f(\xi_k, \eta_k)\mu D_k \cdot$$

Sinergetika tamoyillarini ta'limda ro'y berayotgan jarayonlarni taxlil qilish uchun qo'llashda, ta'lim tizimi sinergetik sifatida qanchalik ko'rib chiqilishi mumkinligini aniqlash uchun zarur. Buning uchun, u ochiq-oydin, o'z-o'zini tashkillashtirish, nochiziqli tizim sifatidagi sinergetika metodologiyasi nuqtai-nazaridan o'rganilishi lozim.

Sinergetikaning asosiy tushunchalari ochiqlik, nochiziqlilik, tengsizlik hisoblanadi. O'z-o'zini tashkillashtirish nazariyasi bifurkatsiya, fluktuatsiya, dissipativ struktura, attraktor fraktallik kabi nuqtalari bo'lgan tushunchalar bilan ishlaydi. Ta'lim tizimini ochiq deb xisoblash mumkin, zero birinchidan, unda doimo o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida axborotni olishga maqsadli yo'naltirilgan axborot almashinuvi jarayoni kechadi. Ushbu jarayon davomida yangi maqsad, usul va ta'lim vositalari paydo bo'ladi. Ikkinchidan, ta'lim mazmuni o'zgaradi, modomiki u xozirgi paytda o'quvchilar bilimlari va ko'nikmalari tizimiga mos kelmaydi. Jarayonning ham, natijaning ham nochiziqliligi yuzaga keladi. Ta'lim jarayoni natijasi har doim o'z ishtirokchilarining maqsadlaridan farqlanadi. Uchinchidan, doimiy o'sib boryotgan ta'lim axborot maydoni tizimni barqaror muvozanatdan chiqarib yuboradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ma'lumki, sinergetika nochiziqlilik qonuni bo'yicha atrof-muxitni tadrijiylashtirishi tamoyilidan kelib chiqadi. Keng ma'noda, bu g'oya ko'p variantli yoki muqobil tanlovda ifodalanishi mumkin.

Ta'lim tizimida ko'p variantlilik ta'lim muxitida tanlov sharoitlarini yaratish va xar bir sub'ektga muvaffaqiyat yo'lida individual xarakatlanish, mustaqil tanlashni rag'batlantirish xamda qaror qabul qilishdagi mas'uliyat, muqobil va mustaqil yo'lni tanlash imkonini berish xisoblanadi. Ayniqsa, bunday tanlov ta'lim, o'qitish tempining individual traektoriyasini aniqlash imkoniyatlari, savodlilikning turli darajasiga erishish, ta'lim muassasalari, o'quv fanlarining turi va o'qituvchilarni, o'qitish shakli va usullarini, individual vositalar va metodika, hamda ijodiy topshiriqlarni tanlash bilan belgilanadi.

O'z-o'zini tashkillashtirish jarayoni o'zida ixtiyoriy paydo bo'lish, ochiq tengsiz tizimlarda yangi tuzilmalarning nisbatan barqaror mavjudligini aks ettiradi.

Pedagogik tizimda o'z-o'zini tashkillashtirish o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ma'lum o'zaro munosabat mavjudligini ilgari suradiki, bu pedagogik tizimning rivojlanish talablariga mos keladi va o'z xarakatlari ob'ektiv asosidan kelib chiqadi.

Bu esa pedagogik jarayonning rivojlanish mexanizmini tushunishga imkon beradi. Sinergetikaning boshqa muhim tushunchalari xam an'anaviy pedagogikaning kontseptsiyalari bilan to'g'ri mos keladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sinergetika tushunchasining an'anaviy pedagogika bilan mutanosibligi O'z-o'zini tashkillashtirish - tizimning optimal ishlashini ta'minlovchi, o'z-o'zini tuzishni yakunlashda yordam beruvchi, ushbu ta'lim tizimini o'z-o'zini tiklash va o'zgartirishga imkon beruvchi tizimda yuzaga keladigan jarayon yoki jarayonlar majmui.

Tasodifiylik - qat'iy o'quv dasturlaridan chekinish, improvizatsiya moxiyatini jalb etish, intuitsiya, talaba yoki boshqa "kichik" xodisalarning tasodifiy akslari tufayli mashg'ulot stsenariysini o'zgartirish.

Bifurkatsiya - ochiq sistema bir holatdan bir nechta holatga o'tish imkoniyatiga ega va o'sha holatlardan biriga o'tganidan so'ng, ya'ni bu holatni go'yo "tanlaganidan" so'ng, "tanlanmagan" boshqa holatlarga o'tishga imkoniyatini yo'qotadi. Shunday bifurkatsiyalar natijasida rivojlanish jarayoni ortga qaytmaslik xususiyatiga ega bo'ladi.

Attraktor - yuqorida ko'rsatilgan tartibning tartibsizlikka, so'ngra yangi tartibga o'tish jarayonlari uzluksiz davom etaverishi natijasida, oqibatida paydo bo'ladigan muayyan holat sari rivojlanadi va bu holatning nomi "attraktor" deyiladi.

Ushbu va bir qator boshqa kategoriyalar yordamida sinergetika rivojlanishning muayyan fundamental qonunlarini ifodalab beradi.

Fluktuatsiya - muayyan ko'rsatkichning o'zgarib turishini, o'zgarish me'yorlarini ko'rsatuvchi xarakteristika.

Ushbu tamoyillar asosida "Karrali integral" tushunchasi taxlil qilaylik.

1) Faraz qilaylik, $f(x,y)$ funktsiya D to'plamda integrallanuvchi bo'lsin. Agar D nol yuzali l chiziq bilan umumiy ichki nuqtaga ega bo'lmagan bog'lamli D_1 va D_2 to'plamlarga ajralgan bo'lsa, $f(x,y)$ funktsiya har bir D_1 va D_2 larda integrallanuvchi va

$$\iint_D f(x,y)dxdy = \iint_{D_1} f(x,y)dxdy + \iint_{D_{21}} f(x,y)dxdy \qquad (2)$$

bo'ladi.

Aytaylik,

$$P_1 = \left\{D_1^{(1)}, D_1^{(2)}, .., D_1^{(n)}\right\},$$
$$P_2 = \left\{D_2^{(1)}, D_2^{(2)}, .., D_2^{(m)}\right\}$$

lar mos ravishda D_1 va D_2 larning bo'laklashlari bo'lsin. Bu bo'laklashlar D to'plamni

$$P = \left\{D_1^{(1)}, D_2^{(1)}, D_1^{(2)}, D_2^{(2)}, .., D_1^{(n)}, D_2^{(m)}\right\}$$

bo'laklashlarini hosil qiladi.

Agar

$$s_{p_1}(f),\ S_{p_1}(f),\ s_{p_2}(f), S_{p_2}(f),\ s_p(f),\ S_p(f)$$

lar $f(x,y)$ funktsiyaning P_1, P_2, P bo'laklashlariga nisbatan Darbu yig'indilari bo'lsa, unda

$$D_1 \subset D \Rightarrow S_{p_1}(f) - s_{p_1}(f) \le S_p(f) - s_p(f),$$

$$D_2 \subset D \Rightarrow S_{p_2}(f) - s_{p_2}(f) \le S_p(f) - s_p(f)$$

bo'lib,

$$S_p(f) - s_p(f) < \varepsilon \Rightarrow S_{p_1}(f) - s_{p_1}(f) < \varepsilon,\ S_{p_2}(f) - s_{p_2}(f) < \varepsilon$$

bo'ladi. Demak, $f(x,y)$ funktsiya D_1 va D_2 to'plamlarda integrallanuvchi.

Ushbu

$$S_p(f) = S_{p_1}(f) + S_{p_2}(f),\ s_p(f) = s_{p_1}(f) + s_{p_2}(f)$$

tengliklarni e'tiborga olib,

$$\iint_D f(x,y)dxdy = \iint_{D_1} f(x,y)dxdy + \iint_{D_2} f(x,y)dxdy$$

bo'lishini topamiz.

Yuqoridagi xossaning aksi ham o'rinli, ya'ni $f(x,y)$ funktsiyaning har bir D_1 va D_2 to'plamlarda integrallanuvchi bo'lsa, u D da integrallanuvchi bo'lib (2) tenglik o'rinli bo'ladi.

2) Agar $f(x,y)$ funktsiya D da integrallanuvchi bo'lsa, $cf(x,y)$ funktsiya $(c = const)$ ham D da integrallanuvchi va

$$\iint_D cf(x,y)dxdy = c\iint_D f(x,y)dxdy$$

bo'ladi.

3) Agar $f(x,y)$ va $g(x,y)$ funktsiyalar D da integrallanuvchi bo'lsa, $f(x,y) \pm g(x,y)$ funktsiya ham D da integrallanuvchi va

$$\iint_D [f(x,y) \pm g(x,y)]dxdy = \iint_D f(x,y)dxdy \pm \iint_D g(x,y)dxdy$$

bo'ladi.

4) Agar $f(x,y)$ funktsiya D da integrallanuvchi bo'lib $\forall (x,y)\in D$ da $f(x,y)\geq 0$ bo'lsa,

$$\iint\limits_D f(x,y)dxdy \geq 0$$

bo'ladi.

Bu xossaning isboti

$$\lim_{\lambda p\to 0}\sum_{k=1}^{n} f(\xi_k,\eta_k)\mu D_k \geq 0$$

bo'lishidan kelib chiqadi.

5) Agar $f(x,y)$ va $g(x,y)$ funktsiyalar D da integralanuvchi bo'lib, $\forall (x,y)\in D$ uchun $f(x,y)\leq g(x,y)$ bo'lsa, u holda

$$\iint\limits_D f(x,y)dxdy \leq \iint\limits_D g(x,y)dxdy$$

bo'ladi.

6) Agar $f(x,y)$ funktsiya D da integrallanuvchi bo'lsa, u xolda $|f(x,y)|$ funktsiya ham D da integrallanuvchi va

$$\left|\iint\limits_D f(x,y)dxdy\right| \leq \iint\limits_D |f(x,y)|dxdy$$

bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, sinergetika "zamonaviy dunyoda prognozlashtirish va boshqaruv faoliyati uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Sinergetika xar qanday tabiatning ochiq tengsiz tizimlari tadrijining qaysidir universal qonunlarni qidirishga qaratilgan" [6]. Sinergetika g'oyalarini qo'llash orqali, birinchidan, murakkab tashkillashtirilgan tizimlarga ularning rivojlanish yo'llarini aralashtirish mumkin emasligi aniqlanadi; ikkinchidan, sinergetika qoidasiga ko'ra tabiatiga yagona emas, balki rivojlanish yo'lining tabiatiga javob beruvchi shaxsiy to'plamlariga guvoxlik beradi; Uchinchidan, sinergetika xaos ortiqchasini olib tashlash

uchun o‘z-o‘zini tashkillashtirish va tuzilmalarni mustaqil yakunlashi uchun mexanizm sifatida xarakat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi [6].

Demak bundan quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin.

Faraz qilaylik, $f(x,y)$ funktsiya yuzaga ega bo‘lgan D to‘plamda berilgan va chegaralangan bo‘lsin:

$$\exists M = const, \quad \exists m = const \ \forall (x,y) \in D:$$

$$m \le f(x,y) \le M.$$

1-teorema. Agar $f(x,y)$ funktsiya D da integrallanuvchi bo‘lsa, u holda, α son $(m \le \alpha \le M)$ topiladiki,

$$\iint_D f(x,y)dxdy = \alpha \mu D$$

bo‘ladi.

Ikki karrali integralning xossalaridan foydalanib topamiz:

$$m \le f(x,y) \le M \Rightarrow \frac{1}{\mu D}\iint_D f(x,y)dxdy = \alpha \Rightarrow \iint_D f(x,y)dxdy = \alpha \mu D$$

$$(m \le \alpha \le M).$$

Bu teoremadan quyidagi natija kelib chiqadi.

Natija. Agar $f(x,y)$ funktsiya bog‘lamli yopiq D to‘plamda uzluksiz bo‘lsa, u holda shunday $(\xi,\eta) \in D$ nuqta topiladiki,

$$\iint_D f(x,y)dxdy = f(\xi,\eta)\mu D$$

bo‘ladi.

1. Zero sinergetik yondashuvga ko‘ra tizimni tashkil etuvchi elementlar o‘zaro ta’sirda va hamkorlikda bo‘ladi. Bunga fanda tarmoqlar va sohalarning o‘zaro ta’sirda bo‘lishi, ilm-fan taraqqiyot davrida ularning tartib va tartibsizlik holati, nochiziqlilik va muvozanatsizlik, bularning ilm-fan taraqqiy etish davri evalyutsiyaga ta’sirini yaqqol misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

2. Ta'limda sinergetika nuqtai-nazaridan mutloq strukturasizlik, mutloq tartibsizlik yo'q; xattoki xaos xam fan mavzusiga aylanadi. Xaos, tasodifiylik va xatto tartibsizlik ham nafaqat halokatli, balki muayyan sharoitlarda o'zida yaratuvchanlik va konstruktiv ibtidosi bo'lishi mumkin.

3. O'z-o'zini tashkillashtirish g'oyalarining kontseptual-metodologik yangiligi turli tizimlarning nafaqat energiya, axborot, tashqi moddalar oqimi, balki avvalombor o'z ichki imkoniyatlarini qo'lash xisobiga o'z-o'zini rivojlantirishi bilan bog'liqdir.

4. Yangi sinergetik kontseptsiya jamiyat, uning turli tizimostlari, jumladan, ta'lim tizimi kabi murakkab, nochiziqli, tajribalanayotgan ochiq tizimlarning chuqur anglanishiga xissa qo'shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D.X.Turdiboyev, O.G.Gaimnazarov, A.I.Eshniyazov, O.N.Dushaboyev (2023). Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ularning sifatini baholash. Евразийский журнал инноваций и технологий,1 (5, часть 2), 46–52-betlar.

2. Dushaboyev O., Turdiboyev D., Zokirov A. (2020). Improvement of teaching geometry based on pedagogical synergetical principles. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24 (08), p. 5268–5276.

3. Душабоев, О. Н. (2019). Роль принципов синергетического подхода в обучении математике в общеобразовательных школах. Среднее профессиональное образование, (11), с. 53–55.

4. Tojiyev M., Gaymnazarov O.G., Dushaboyev O.D. Ta'lim tizimi sifatini yangilash istiqbollari. "Global oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy uslublari" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyasi. T., 2014, 297-bet.

5. Dushaboyev O.N. Sinergetika va uning ta'lim tizimidaga o'rni. Ta'lim, fan va innovatsiya. T., 2018, 49-bet.

6. Turdiboyev D., Dushaboyev O. Methods of Proving Theorems Training. Eastern European Scientific Journal", Germaniya, 2016, p. 43.

7. Dushaboyev O.N. Sinergetika va uning ta'lim tizimiga tatbiqi. "Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv fanlarining modulli o'qitish metodikasi va amaliyoti" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. T., 2017, 15-bet.

ERASMUS+ DASTURI VOSITASIDA TALABA-YOSHLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Shodiyeva Shohsanam Furqatovna
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining mustaqil izlanuvchisi, Toshkent amaliy fanlar universiteti "Pedagogika" kafedrasi katta o 'qituvchisi
shoksanamshodieva97@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-4841-6142

Annotatsiya. *Mazkur maqolada globallashuv, xalqaro akademik mobillik va oliy ta'limning baynalmilallashuvi sharoitida talaba-yoshlarda madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari Erasmus+ dasturi misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda Erasmus+ dasturining oliy ta'limdagi akademik mobillik, xalqaro hamkorlik, talabalararo muloqot, xorijiy ta'lim muhitida tajriba orttirish, qo'shma loyihalar va raqamli hamkorlik kabi imkoniyatlari madaniyatlararo kompetentlikning kognitiv, affektiv va xulq-atvor komponentlari bilan bog'liq holda yoritilgan. Shuningdek, talabaning boshqa madaniyat vakillari bilan bevosita muloqoti o'zga madaniyatni anglash, stereotiplarni qayta ko'rib chiqish, empatiya, tolerantlik, madaniyatlararo muloqot va moslashuvchan xulq-atvorni shakllantirish uchun pedagogik sharoit yaratishi asoslangan. Maqolada Erasmus+ imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun "mobillikdan oldingi tayyorgarlik – xalqaro ta'limiy tajriba – refleksiv tahlil – mobillikdan keyingi integratsiya" modeli taklif etilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida xalqaro mobillik dasturlarini madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirishning tizimli pedagogik mexanizmiga aylantirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Erasmus+, talaba-yoshlar, madaniyatlararo kompetentlik, madaniyatlararo muloqot, akademik mobillik, xalqaro ta'lim, tolerantlik, empatiya, refleksiya, xalqaro hamkorlik, pedagogik imkoniyat.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В РАМКАХ ПРОГРАММЫ ERASMUS+

Аннотация. *В статье анализируются педагогические возможности развития межкультурной компетентности студентов в условиях глобализации, интернационализации высшего образования и расширения академической мобильности на примере программы Erasmus+. Рассматриваются академическая мобильность, международное сотрудничество, межкультурное взаимодействие студентов, обучение в зарубежной образовательной среде, совместные проекты и цифровое сотрудничество как педагогические ресурсы формирования когнитивного, аффективного и поведенческого компонентов межкультурной компетентности.*

Обосновывается, что непосредственное взаимодействие студентов с представителями других культур создает условия для понимания культурного многообразия, преодоления стереотипов, развития эмпатии, толерантности, коммуникативной гибкости и способности к адаптации. Предлагается модель педагогического сопровождения участия студентов в Erasmus+: «предмобильностная подготовка – международный образовательный опыт – рефлексивный анализ – постмобильностная интеграция». Сделан вывод о необходимости рассматривать международную мобильность не только как академический обмен, но и как целенаправленный педагогический ресурс формирования межкультурной компетентности студентов.

Ключевые слова: *Erasmus+, студенты, межкультурная компетентность, межкультурная коммуникация, академическая мобильность, международное образование, толерантность, эмпатия, рефлексия, международное сотрудничество.*

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING INTERCULTURAL COMPETENCE AMONG STUDENTS THROUGH THE ERASMUS+ PROGRAM

Abstract*. The article analyzes the pedagogical opportunities for developing students' intercultural competence through the Erasmus+ programme in the context of globalization, internationalization of higher education and academic mobility. The study examines academic mobility, international cooperation, intercultural communication, learning in foreign educational environments, joint projects and digital collaboration as pedagogical resources for developing the cognitive, affective and behavioral components of intercultural competence. It is argued that direct interaction with representatives of different cultures creates favorable conditions for understanding cultural diversity, overcoming stereotypes, developing empathy and tolerance, and improving communicative flexibility and adaptability. The article proposes a pedagogical support model for Erasmus+ participation consisting of four interconnected stages: "pre-mobility preparation – international educational experience – reflective analysis – post-mobility integration". The findings demonstrate that international mobility should be considered not merely as an academic exchange mechanism, but also as a purposeful pedagogical resource for developing students' intercultural competence.*

Keywords: *Erasmus+, students, intercultural competence, intercultural communication, academic mobility, international education, tolerance, empathy, reflection, international cooperation.*

KIRISH

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro aloqalarning kengayishi, mehnat bozorining baynalmilallashuvi va oliy ta'lim tizimlarining xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalashuvi zamonaviy mutaxassisdan nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qila olish

qobiliyatini ham talab etmoqda. Bugungi talaba turli millat, til, din, dunyoqarash va ijtimoiy tajribaga ega insonlar bilan hamkorlik qilishi, ularning qarashlarini tushunishi, farqlarni hurmat qilishi va madaniy jihatdan moslashuvchan xatti-harakatni namoyon eta olishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'limda madaniyatlararo kompetentlikni shakllantirish masalasi ta'lim mazmunini xalqaro tajriba bilan boyitish, akademik mobillikni rivojlantirish va talabalarning real madaniyatlararo vaziyatlarda faol ishtirokini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Erasmus+ dasturi mazkur jarayon uchun muhim pedagogik imkoniyatlarni taqdim etadi.

2026-yilgi Erasmus+ Programme Guide oliy ta'lim talabalari uchun o'qish, amaliyot, jismoniy va aralash mobillik shakllarini qo'llab-quvvatlaydi. Dastur doirasida talabalar xorijiy hamkor oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishi, tashkilotlarda amaliyot o'tashi, shuningdek, virtual hamkorlik bilan birlashtirilgan aralash mobillikda ishtirok etishi mumkin. Dastur hujjatlarida mobillik jarayonlari ijtimoiy va madaniyatlararo kompetensiyalar, tanqidiy fikrlash, media savodxonlik va fuqarolik ishtirokini rivojlantirish bilan ham bog'langan.

Erasmus+ning 2021–2027-yillardagi gorizontal ustuvor yo'nalishlari — inklyuziya va xilma-xillik, ekologik barqarorlik, raqamli transformatsiya hamda demokratik hayotda ishtirok etish — zamonaviy talabaning xalqaro va madaniyatlararo tajribasini rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyat yaratadi.

Shu sababli Erasmus+ni faqat akademik almashinuv dasturi sifatida emas, balki talaba-yoshlarda madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirishning kompleks pedagogik mexanizmi sifatida tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi:

Tadqiqotning maqsadi: Erasmus+ dasturining talaba-yoshlarda madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, ularning mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan asoslash hamda xalqaro akademik mobillikni pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: Maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

-madaniyatlararo kompetentlik tushunchasining mazmunini tahlil qilish;

-Erasmus+ dasturining oliy ta'limdagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

-akademik mobillik va madaniyatlararo kompetentlik o'rtasidagi pedagogik bog'liqlikni asoslash;

-Erasmus+ faoliyatlarining madaniyatlararo kompetentlik komponentlariga ta'sirini aniqlash;

-talabalarning mobillikdan oldingi, mobillik jarayonidagi va mobillikdan keyingi faoliyatlarini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash modelini ishlab chiqish.

METODOLOGIYA

Madaniyatlararo kompetentlik turli madaniy guruhlarga mansub insonlar bilan samarali va maqbul tarzda muloqot qilish, ularning madaniy xususiyatlarini tushunish, o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqish va vaziyatga mos xatti-harakatni tanlash imkonini beruvchi kompleks kompetensiya sifatida namoyon bo'ladi. D.K. Deardorff tomonidan ishlab chiqilgan madaniyatlararo kompetentlik modeli mazkur tushunchani oliy ta'lim nuqtayi nazaridan tadqiq etishda muhim nazariy asoslardan biridir. Deardorff tadqiqotida madaniyatlararo kompetentlik xalqaro ta'limning talaba natijasi sifatida ko'rib chiqilib, uning tarkibida munosabatlar, bilim va tushunish, ko'nikmalar, ichki va tashqi natijalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asoslangan.

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, Erasmus+ ishtirokchisining madaniyatlararo kompetentligini quyidagi o'zaro bog'liq komponentlar asosida talqin qilish mumkin:

1. Kognitiv komponent. Talabaning boshqa xalqlar, madaniyatlar, qadriyatlar, urf-odatlar, ta'lim tizimlari va ijtimoiy munosabatlar haqidagi bilimlarini kengaytiradi. Xorijiy ta'lim muhitida yashash va ta'lim olish talabaning madaniyatlar haqidagi stereotipik tasavvurlarini real tajriba asosida qayta ko'rib chiqishiga imkon beradi.

2. Affektiv komponent. Empatiya, tolerantlik, ochiqlik, madaniy farqlarga hurmat, noaniqlikka chidamlilik va boshqa madaniyat vakillariga nisbatan ijobiy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

munosabatni o‘z ichiga oladi. Mazkur komponent ayniqsa bevosita madaniyatlararo muloqot jarayonida rivojlanadi.

3. Xulq-atvor komponenti. Talabaning turli madaniy vaziyatlarda moslashuvchan va samarali harakat qila olishi, muloqot uslubini vaziyatga moslashtirishi, nizolarni konstruktiv hal qilishi va hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi bilan ifodalanadi.

4. Refleksiv komponent. Talabaning o‘z madaniy qarashlari, stereotiplari, xatti-harakatlari va madaniyatlararo tajribasini tahlil qila olishi bilan tavsiflanadi.

Mazkur komponentlarning rivojlanishi bir-biridan ajratilgan holda emas, balki yagona pedagogik jarayon sifatida amalga oshirilishi zarur.

Erasmus+ dasturining madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari. Erasmus+ning oliy ta’lim mobilligi talabalarga xorijiy oliy ta’lim muassasasida ta’lim olish, amaliyot o‘tash va boshqa davlatlarning ta’lim hamda ijtimoiy muhitida tajriba orttirish imkonini beradi. 2026-yilgi dastur qo‘llanmasida talabalar mobilligi barcha ta’lim yo‘nalishlari va ta’lim bosqichlari uchun ochiqligi, shuningdek, jismoniy mobillikni virtual hamkorlik bilan uyg‘unlashtirish imkoniyati mavjudligi qayd etilgan. Erasmus+ning madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirishdagi asosiy pedagogik imkoniyatlarini quyidagi yo‘nalishlarda tizimlashtirish mumkin.

1. Xorijiy ta’lim muhitida bevosita tajriba orttirish. Madaniyatlararo kompetentlikni shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri real madaniyatlararo muhitda faol ishtirok etishdir. Talabaning xorijiy universitetda ta’lim olishi unga boshqa ta’lim madaniyati, akademik muloqot, o‘qituvchi-talaba munosabatlari, baholash mezonlari va kundalik ijtimoiy munosabatlar bilan tanishish imkonini beradi. Bunday tajriba nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan bog‘lash imkonini beradi. Talaba boshqa madaniyat haqida faqat ma’lumot olish bilan cheklanmay, uni kundalik hayotda kuzatadi, tahlil qiladi va o‘z tajribasi bilan taqqoslaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

2. Madaniyatlararo muloqot va hamkorlik. Erasmus+ mobilligi turli mamlakatlardan kelgan talabalar o‘rtasida tabiiy muloqot muhitini shakllantiradi. Qo‘shma seminarlar, guruh loyihalari, ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy tadbirlar talabalarni turli madaniy tajribaga ega tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga undaydi.

Bu jarayonda talaba nafaqat o‘z fikrini ifodalash, balki boshqa insonning nuqtayi nazarini tinglash, tushunish va unga hurmat bilan munosabat bildirishni o‘rganadi.

3. Stereotiplarni qayta ko‘rib chiqish. Madaniyatlararo muloqotning muhim pedagogik natijalaridan biri stereotipik qarashlarning kamayishidir. Talaba ma’lum bir xalq yoki madaniyat haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar yoki norasmiy manbalardan shakllangan tasavvurlarining real hayotdagi murakkab va xilma-xil ko‘rinishini kuzatadi. OECDning PISA Global Competence Framework hujjatida ham boshqa madaniyatlar haqidagi bilimlarning madaniy farqlarni tushunish, noto‘g‘ri tasavvurlar va stereotiplarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqishdagi ahamiyati ta’kidlangan.

Shunday qilib, Erasmus+ tajribasi talabaning “boshqa madaniyat” haqidagi umumlashtirilgan tasavvurini real insoniy munosabatlar orqali yanada differensial va tanqidiy tushunishga olib kelishi mumkin.

4. Empatiya va tolerantlikni rivojlantirish. Xorijiy muhitda yashash talabaning o‘z madaniy qulaylik zonasidan chiqishini talab qiladi. Til, ovqatlanish, kundalik hayot, ta’lim uslubi, ijtimoiy qoidalar va muloqot shakllaridagi farqlar ayrim hollarda noqulaylik tug‘dirishi mumkin. Pedagogik jihatdan bunday vaziyatlar muammo emas, balki o‘quv imkoniyati sifatida qaralishi kerak. Talaba boshqa insonlarning xatti-harakatlarini o‘z madaniy mezonlari bilan baholashdan oldin ularning madaniy kontekstini tushunishga o‘rganadi. Natijada empatiya, tolerantlik va madaniy relativizm elementlari shakllanadi.

5. Akademik va kasbiy moslashuvchanlik. Erasmus+ talabaning turli akademik tizimlarda faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Bu esa mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarda yechim topish, muloqot strategiyasini o‘zgartirish va yangi muhitga

moslashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. 2026-yilgi Erasmus+ Guide xalqaro mobillikning ijtimoiy va madaniyatlararo kompetensiyalar, tanqidiy fikrlash hamda fuqarolik ishtirokini rivojlantirish imkoniyatlariga alohida e’tibor beradi.

6. Raqamli madaniyatlararo hamkorlik. Erasmus+ doirasidagi blended mobility va virtual komponentlar jismoniy mobillik imkoniyati bo‘lmagan talabalar uchun ham xalqaro hamkorlik tajribasini yaratadi. Aralash mobillik jismoniy tashrifni onlayn hamkorlik, qo‘shma topshiriqlar va guruhiy faoliyat bilan birlashtirishga imkon beradi. Bu esa madaniyatlararo kompetentlikni faqat geografik ko‘chish bilan bog‘lamasdan, raqamli kommunikativ makonda ham rivojlantirish imkonini beradi.

Erasmus+ning dasturiy ustuvorliklari va madaniyatlararo kompetentlik. Erasmus+ dasturining 2021–2027-yillardagi to‘rtta gorizontal ustuvorligi madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirish uchun kompleks pedagogik asos yaratadi. (jadvalga qarang)

Erasmus+ ning ustuvorliklari	**Madaniyatlararo kompetentlikka pedagogik ta’siri**
Inklyuziya va xilma-xillik	Turli ijtimoiy va madaniy guruh vakillarini qabul qilish, hurmat qilish va hamkorlik qilish
Raqamli transformatsiya	Turli mamlakatlar vakillari bilan virtual madaniyatlararo muloqot
Ekologik barqarorlik	Umumiy global muammolarni turli madaniy nuqtayi nazarlardan tahlil qilish
Demokratik hayotda ishtirok etish	Dialog, tanqidiy fikrlash, fuqarolik faolligi va xilma-xillikni hurmat qilish

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Mazkur ustuvorliklar madaniyatlararo kompetentlikni faqat "xorijiy madaniyatni bilish" darajasida emas, balki shaxsning ijtimoiy, kommunikativ va fuqarolik faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Yevropa Kengashining Demokratik madaniyat kompetensiyalari bo'yicha Reference Framework modeli kompetensiyalarni qadriyatlar, munosabatlar, ko'nikmalar, bilim va tanqidiy anglashning o'zaro bog'liqligi sifatida ko'rsatadi. Mazkur model turli madaniyat vakillari bilan tinch va samarali hamkorlik qilish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, Erasmus+ faoliyatlarini mazkur kompetensiyalar bilan uyg'unlashtirish talabaning xalqaro tajribasini maqsadli pedagogik natijaga aylantiradi.

Erasmus+ ishtirokchilarini pedagogik qo'llab-quvvatlash modeli. Tadqiqot natijalariga asoslanib, Erasmus+ orqali madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirishning quyidagi to'rt bosqichli pedagogik modeli taklif etiladi:

1-bosqich — Mobillikdan oldingi tayyorgarlik. Mazkur bosqichda talabaga boriladigan mamlakat va universitetning ta'lim tizimi, madaniy qadriyatlari, muloqot me'yorlari va ijtimoiy xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi.

Asosiy metodlar:



2-bosqich — Xalqaro ta’limiy tajriba. Talaba xorijiy ta’lim muhitida:



3-bosqich — Refleksiv tahlil. Talabaning xalqaro tajribasini pedagogik natijaga aylantirishda refleksiya alohida ahamiyatga ega. Talaba quyidagi savollar asosida kundalik yoki elektron portfolio yuritishi mumkin:

1.Bugun men boshqa madaniyat haqida qanday yangi narsani bildim?

2.Qaysi vaziyat mening oldingi qarashlarimni o‘zgartirdi?

3.Qaysi madaniy farq menga qiyinchilik tug‘dirdi?

4.Men ushbu vaziyatda qanday muloqot strategiyasidan foydalandim?

5.Boshqa insonning nuqtayi nazarini qay darajada tushuna oldim?

6.Ushbu tajriba mening o‘z madaniyatim haqidagi qarashlarimga qanday ta’sir qildi?

Ushbu bosqichda o‘qituvchi yoki Erasmus+ koordinatori talabaning faoliyatini muntazam pedagogik kuzatib borishi maqsadga muvofiq.

4-bosqich — Mobillikdan keyingi integratsiya. Talaba xorijiy tajribasini o‘z universiteti va tengdoshlari bilan bo‘lishadi. Bu bosqichda:



orqali xalqaro tajriba institutsional ta’lim jarayoniga integratsiyalanadi.

Shunday qilib, mobillik natijasida shakllangan individual tajriba boshqa talabalar uchun ham pedagogik resursga aylanadi.

Erasmus+ mobilligining pedagogik samaradorligini ta’minlovchi shartlar. Erasmus+ dasturi orqali madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun oliy ta’lim muassasalarida quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiq.

Birinchi shart — maqsadli madaniyatlararo tayyorgarlik. Talabani xorijga yuborishdan oldin unga faqat hujjatlarni rasmiylashtirish va akademik masalalar bo‘yicha emas, balki madaniyatlararo muloqot, madaniy farqlar, stereotiplar, madaniy shok va moslashuv masalalari bo‘yicha ham tayyorgarlik berilishi kerak.

Ikkinchi shart — pedagogik hamrohlik. Mobillik davrida talaba mustaqil qoldirilmasligi, universitet koordinatori yoki mentor bilan muntazam aloqada bo‘lishi lozim. Erasmus+ talabaning til tayyorgarligini ham qo‘llab-quvvatlaydi; dastur doirasida Online Language Support (OLS) imkoniyati mavjud.

Uchinchi shart — faol madaniyatlararo ishtirok. Talabaning faqat darslarda qatnashishi yetarli emas. Uni xalqaro loyihalar, talabalar klublari, madaniy tadbirlar, jamoaviy tadqiqotlar va ijtimoiy faoliyatlarga jalb qilish zarur.

To‘rtinchi shart — refleksiv pedagogika. Talabaning xalqaro tajribasini refleksiya qilish uchun maxsus topshiriqlar, kundalik, portfolio, suhbat va taqdimotlardan foydalanish kerak.

Beshinchi shart — mobillik natijalarini institutsional integratsiya qilish. Qaytgan talabalar o‘z tajribalarini boshqa talabalarga yetkazishi, xalqaro loyihalarda mentor sifatida qatnashishi va universitetning xalqaro faoliyatiga hissa qo‘shishi mumkin.

Madaniyatlararo kompetentlikni baholash mezonlari. Erasmus+ ishtirokchisida madaniyatlararo kompetentlikning rivojlanishini baholash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

Yuqori daraja: Talaba madaniy farqlarni chuqur anglaydi, stereotiplarni tanqidiy tahlil qiladi, turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qiladi, nizoli vaziyatlarda moslashuvchan strategiyalarni qo‘llaydi va o‘z xalqaro tajribasini refleksiv tahlil qila oladi.

O‘rta daraja: Talaba asosiy madaniy farqlarni tushunadi, boshqa madaniyat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi, biroq murakkab madaniyatlararo vaziyatlarda pedagogik ko‘makka ehtiyoj sezishi mumkin.

Boshlang'ich daraja: Talaba boshqa madaniyatlar haqida cheklangan bilimga ega, stereotipik qarashlar mavjud, madaniyatlararo muloqotda qiyinchiliklarga duch keladi va yangi madaniy muhitga moslashishda qo'shimcha pedagogik yordam talab etadi.

Bunda baholash faqat bilimni aniqlash bilan cheklanmasligi, balki real muloqot, refleksiya va xulq-atvor o'zgarishlarini ham qamrab olishi zarur. Yevropa Kengashining RFCDC modeli kompetensiyalarni kuzatiladigan xatti-harakatlar orqali tavsiflash va baholash uchun deskriptorlardan foydalanishni taklif qiladi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Nazariy tahlil natijalari Erasmus+ dasturining madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini uch darajada umumlashtirish mumkinligini ko'rsatdi.

Birinchi daraja — individual rivojlanish. Talabaning bilimlari, dunyoqarashi, empatiyasi, tolerantligi, o'ziga ishonchi va moslashuvchanligi rivojlanadi.

Ikkinchi daraja — kommunikativ rivojlanish. Talaba turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilish, jamoada ishlash, nizolarni konstruktiv hal etish va fikrlar xilma-xilligini qabul qilish tajribasiga ega bo'ladi.

Uchinchi daraja — institutsional rivojlanish. Xalqaro mobillikda ishtirok etgan talabalar tomonidan olib kelingan tajriba oliy ta'lim muassasasining xalqaro hamkorlik, o'quv jarayoni va talabalar faoliyatiga integratsiyalanishi mumkin.

Shu bilan birga, xalqaro mobillikni avtomatik ravishda yuqori darajadagi madaniyatlararo kompetentlikning kafolati sifatida talqin qilish noto'g'ri. Zamonaviy tadqiqotlarda Erasmus talabalarining madaniyatlararo kompetentligini maxsus o'rganish zarurligi ham ko'rsatilmoqda. Demak, asosiy pedagogik muammo "talabani xorijga yuborish" emas, balki **"xalqaro tajribani qanday qilib ta'limiy natijaga aylantirish"** masalasidir. Shu jihatdan taklif etilayotgan modelning asosiy afzalligi mobillik jarayonining barcha bosqichlarini yagona pedagogik tizimga birlashtirishdan iborat.

Modelning umumiy mantiqiy zanjiri quyidagicha ifodalanadi: (Rasmga qarang)



Ushbu tizimda Erasmus+ dasturi tashqi imkoniyat, pedagogik hamrohlik esa ushbu imkoniyatni rivojlantiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi.

XULOSA

O‘tkazilgan nazariy tahlil asosida Erasmus+ dasturi talaba-yoshlarda madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Erasmus+ doirasidagi akademik mobillik, xorijiy ta’lim muhitida faoliyat yuritish, xalqaro talabalar bilan muloqot, qo‘shma loyihalar, amaliyot, raqamli hamkorlik va refleksiv faoliyat talabaning madaniyatlararo tajribasini boyitadi. Shu asosda oliy ta’lim muassasalarida Erasmus+ faoliyatlarini tashkil etishda **“mobillik – muloqot – refleksiya – integratsiya”** tamoyiliga asoslangan pedagogik yondashuvni joriy etish talaba-yoshlarning xalqaro ta’lim makonida samarali faoliyat yuritishiga, madaniy xilma-xillikni qadrlashiga va turli madaniyat vakillari bilan konstruktiv hamkorlik qila olishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Deardorff D.K. Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization // Journal of Studies in International Education. – 2006. – Vol. 10, No. 3. – P. 241–266. – DOI: 10.1177/1028315306287002.

2. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 124 p.

3. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. – Paris: UNESCO, 2015. – 74 p. – ISBN 978-92-3-100102-4.

4. European Commission. Erasmus+ Programme Guide 2026. – Brussels: European Commission, 2025. – 456 p.

5. Shodiyeva Shohsanam Furqatovna – Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining mustaqil izlanuvchisi Xalqaro grant loyihalarining oliy ta’limni rivojlantirishdagi ahamiyati va talaba- yoshlarda madaniyatlararo kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari ISSN 3060-5091 (Online) Farg_ona metodika maktabi – Ферганская методическая школа – Fergana methodical school 2026-yil 2-son. www.ferganamethod.uz 252 DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22038384

6. Shodiyeva Shohsanam Furqatovna Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining mustaqil izlanuvchisi shoksanamshodieva97@gmail.comd.K. DEARDORFFNING MADANIYATLARARO KOMPETENTLIK MODELI ASOSIDA TALABA-YOSHLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2026-yil 8-son C seriya https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i08.046

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

RAQAMLI MEDIA MANTLARI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Niyazmetova Shoxista Kadamboy qizi
Jahon Adabiyoti jurnalida muharrir
shniyazmetova11@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada raqamli media mantlari (video, podkast, ijtimoiy tarmoq, interaktiv platformalar, ta’limiy bloglar) asosida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi asoslab berilgan. Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari tahlil qilinib, ularni shakllantirishning uch bosqichli (qabul qilish – hamkorlikda faoliyat – mustaqil mediamahsulot yaratish) modeli taklif etiladi. Metodikaning mazmuni, vositalari va baholash mezonlari jadval ko‘rinishida keltirilgan. Tadqiqot natijalari raqamli media muhitida kommunikativ faoliyatni maqsadli tashkil etish o‘quvchilarning nutqiy, ijtimoiy-madaniy va strategik ko‘nikmalarini uyg‘un rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ kompetensiya, raqamli media, mediasavodxonlik, interfaol metodlar, mediamahsulot, baholash mezonlari.*

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ МЕДИАТЕКСТОВ

Аннотация. *В статье обоснована методика развития коммуникативной компетенции учащихся на основе цифровых медиаресурсов. Рассмотрены структура компетенции и трёхэтапная модель её формирования: восприятие, совместная деятельность, создание собственного медиапродукта. Представлены таблица содержания и средств методики, а также критерии оценивания.*

Ключевые слова: *коммуникативная компетенция, цифровые медиа, медиаграмотность, интерактивные методы, медиапродукт.*

DEVELOPING STUDENTS’ COMMUNICATIVE COMPETENCE BASED ON DIGITAL MEDIA TEXTS

Abstract. *The article substantiates a methodology for developing students’ communicative competence through digital media resources. It analyses the structure of the competence and proposes a three-stage model: reception, collaborative activity and creation of an original media product. The content, tools and assessment criteria of the methodology are presented in a table.*

Keywords: *communicative competence, digital media, media literacy, interactive methods, media product.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida axborot almashinuvining asosiy qismi raqamli muhitga ko'chgan. O'quvchilar kundalik hayotda video platformalar, messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali faol muloqot qiladi, biroq bu muloqot ko'pincha norasmiy, qisqa va tanqidiy tahlilsiz kechadi. Shu bois maktabning vazifasi raqamli muhitdagi spontan muloqotni maqsadli pedagogik jarayonga aylantirishdan iborat.

O'zbekistonda bu yo'nalish normativ-huquqiy jihatdan ham qo'llab-quvvatlanadi. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1], "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi esa ta'lim sohasini raqamlashtirishni davlat siyosatining tarkibiy qismi sifatida ko'rsatadi [2].

Muammoning dolzarbligi shundaki, raqamli vositalardan foydalanish soni oshgan sari kommunikativ kompetensiyaning real darajasi avtomatik ravishda yuksalmaydi. Texnologiya o'z-o'zidan emas, balki aniq didaktik maqsadga bo'ysundirilgandagina natija beradi. Maqolaning maqsadi — raqamli media mantlari asosida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash va amaliy metodikani taklif etishdir. Maqsaddan quyidagi vazifalar kelib chiqadi: (1) kommunikativ kompetensiya tuzilmasini aniqlash; (2) raqamli media mantlarining didaktik imkoniyatlarini tasniflash; (3) bosqichma-bosqich metodikani va baholash mezonlarini ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA NAZARIY ASOS

"Kommunikativ kompetensiya" tushunchasini ilmiy muomalaga D. Hymes kiritgan. U til haqidagi bilim (grammatik to'g'rilik) bilan uni muayyan vaziyatda o'rinli qo'llay olish qobiliyatini ajratib ko'rsatgan[1] [3]. M. Canale va M. Swain bu g'oyani rivojlantirib, kompetensiyani grammatik, sotsiolingvistik va strategik komponentlarga ajratdi, keyinchalik unga diskursiv komponent qo'shildi[2] [4]. Yevropa Kengashining "Til bilimi bo'yicha umumyevropa kompetensiyalari" hujjati yangilangan nashrida esa

rag‘batlantiruvchi (mediatsiya) faoliyati va onlayn muloqotni alohida faoliyat turi sifatida kiritgan[3] [5].

Pedagogik-psixologik jihatdan metodika L.S. Vygotskiyning ijtimoiy o‘zaro ta’sir nazariyasiga tayanadi: bilim muloqot jarayonida, yaqin rivojlanish zonasida shakllanadi[4] [6]. H. Jenkins ta’kidlagan “ishtirokchi madaniyat” (participatory culture) g‘oyasi ham raqamli muhitda o‘quvchi faqat iste’molchi emas, balki kontent yaratuvchi ekanini asoslaydi [7]. R. Mayer multimedia orqali o‘qitish tamoyillari (matn, ovoz va tasvirning o‘zaro uyg‘unligi, ortiqcha axborotdan qochish) mediamateriallarni didaktik jihatdan to‘g‘ri tanlash mezoni bo‘lib xizmat qiladi[5] [8].

O‘qituvchi tayyorgarligi nuqtayi nazaridan P. Mishra va M. Koehler taklif etgan TPACK modeli texnologik, pedagogik va predmet bilimlarining integratsiyasini talab qiladi[6] [9]. Raqamli kompetensiyalar esa DigComp 2.2 doirasida axborot bilan ishlash, aloqa va hamkorlik, kontent yaratish, xavfsizlik va muammolarni hal etish sohalariga ajratilgan[7] [10]. Texnologiyaning til o‘qitishdagi rolini tarixiy jihatdan M. Warschauer va D. Healey [11], S. Bax [12] tahlil qilgan; ular texnologiyaning samarasi uning pedagogik jarayonga “normallashuvi”, ya’ni oddiy darsning tabiiy qismiga aylanishi bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. M. Prensky “raqamli tub aholi” tushunchasini ilgari surgan bo‘lsa-da [13], keyingi tadqiqotlarda yoshlarning raqamli muhitga moslashuvi bir xil emasligi ta’kidlanadi, shu sababli kompetensiyani maqsadli o‘qitish zarur. O‘zbek metodistlari orasida J.J. Jalolov chet tillarini o‘qitishda kommunikativ yondashuv va interfaol vositalarning ahamiyatini yoritgan [14].

Shunday qilib, mavjud tadqiqotlar kommunikativ kompetensiya va raqamli savodxonlikni alohida ko‘rib chiqadi; ularni yagona metodik tizimda, aniq bosqichlar va baholash mezonlari bilan uyg‘unlashtirish masalasi esa yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: ilmiy-metodik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va qiyoslash; normativ hujjatlarni o‘rganish; pedagogik modellashtirish; tizimli yondashuv. Metodikaning amaliy tatbiqi uchun kuzatuv, so‘rovnoma va kompetensiya darajalarini mezonlar bo‘yicha baholash tavsiya etiladi (tajriba-sinov bosqichi muallif tomonidan o‘z namunasida o‘tkazilib, natijalari alohida tahlil qilinadi).

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Kommunikativ kompetensiyaning tuzilmasi

Adabiyotlar tahlili asosida raqamli media muhitida kommunikativ kompetensiya to‘rt komponentdan iborat deb qabul qilindi: lingvistik (til vositalaridan to‘g‘ri foydalanish), sotsiolingvistik (muloqot vaziyati, auditoriya va janrga mos uslub tanlash), diskursiv (izchil va mantiqiy matn/nutq qurish) hamda strategik (muloqotdagi muammolarni bartaraf etish, axborot manbasini tanqidiy baholash, raqamli xavfsizlikka rioya qilish) [4; 5; 10].

2. Raqamli media mantlarining didaktik imkoniyatlari.

Raqamli media mantlarini o‘quv maqsadiga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin: (a) qabul qilishga mo‘ljallangan (ta’limiy videolar, podkastlar, onlayn maqolalar); (b) hamkorlikka mo‘ljallangan (muhokama forumlari, umumiy hujjatlar, messenjerdagi guruhlar); (c) yaratishga mo‘ljallangan (blog, qisqa video, infografika, ovozli yozuv). Birinchi guruh namunaviy nutq va janrlar bilan tanishtiradi, ikkinchisi real o‘zaro ta’sirni ta’minlaydi, uchinchisi esa o‘quvchini mediamahsulot muallifiga aylantiradi, bu esa Jenkinsning ishtirokchi madaniyat g‘oyasiga mos keladi [7].

3. Uch bosqichli metodika.

1-bosqich — Qabul qilish va tahlil (motivatsion-diagnostik). O‘qituvchi tanlangan raqamli material (masalan, qisqa ilmiy-ommabop video yoki podkast) bo‘yicha tinglash-tushunish va tanqidiy o‘qish topshiriqlarini beradi. O‘quvchilar matnning maqsadi,

auditoriyasi, ishonchliligi va uslubini tahlil qiladi. Material hajmi Mayer tamoyillariga muvofiq cheklanadi, ortiqcha vizual yuklamadan qochiladi [8].

2-bosqich — Hamkorlikdagi faoliyat (amaliy-faol). Kichik guruhlarda onlayn munozara, fikr-mulohaza yozish, umumiy hujjat ustida ishlash, rolli simulyatsiyalar (masalan, onlayn intervyu, fikr bildirish, kelishmovchilikni hal qilish) tashkil etiladi. Bu bosqichda o‘qituvchi yaqin rivojlanish zonasi tamoyiliga ko‘ra “iskala” vazifasini bajaradi: namunalar, yo‘riqnoma va izchil fikr-mulohaza beradi [6].

3-bosqich — Mustaqil mediamahsulot yaratish (ijodiy-natijaviy). O‘quvchilar real auditoriya uchun mini-podkast, blog yozuvi, qisqa video yoki infografika tayyorlaydi, so‘ng uni sinfdoshlari oldida taqdim etib, o‘zaro baholaydi. Bu bosqich strategik va diskursiv komponentlarni integratsiyalashgan holda mustahkamlaydi.

Metodikaning mazmuni va vositalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Raqamli media mantlari asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasi (muallif ishlanmasi)

Bosqich	Raqamli media mantlari	Namunaviy faoliyat	Rivojlantiri-ladigan komponent	Baholash vositasi
1. Qabul qilish va tahlil	Ta’limiy video, podkast, onlayn matnlar	Tinglab-tushunish, manba ishonchliligini baholash, janr tahlili	Lingvistik, sotsiolingvistik	Test, savol-javob, tahliliy varaq
2. Hamkorlikdagi faoliyat	Onlayn forum, umumiy hujjatlar,	Munozara, rolli o‘yin, birgalikda matn tuzish, fikr-mulohaza berish	Diskursiv, strategik	Kuzatuv varaqasi, hamkasb baholashi

Bosqich	Raqamli media mantlari	Namunaviy faoliyat	Rivojlantiri-ladigan komponent	Baholash vositasi
	video-konferensiya			
3. Mediamahsulot yaratish	Blog, mini-podkast, qisqa video, infografika	Loyiha tayyorlash, taqdimot, o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash	Barcha komponentlar (integrativ)	Rubrika asosida portfolio baholashi

O‘quvchilar yutuqlarini baholash uchun rubrika mezonlari ishlab chiqildi: (1) til vositalarining aniqligi; (2) muloqot vaziyatiga mosligi; (3) fikrning izchilligi va dalillanganligi; (4) manbalarni tanqidiy baholash va axborot xavfsizligiga rioya; (5) hamkorlikda ishtirok etish madaniyati. Har bir mezon uch darajada (boshlang‘ich, o‘rta, yuqori) ta’riflanadi, bu esa natijalarni o‘lchash va dinamikani kuzatish imkonini beradi.

4. Metodikani qo‘llashning pedagogik shartlari

Tahlil metodikaning samarali bo‘lishi uchun quyidagi shartlar muhimligini ko‘rsatdi: birinchidan, raqamli vositalar o‘quv maqsadiga bo‘ysundirilishi, texnologiyaning o‘zi maqsadga aylanib qolmasligi kerak [11; 12]; ikkinchidan, o‘qituvchi texnologik, pedagogik va predmet bilimlarini uyg‘unlashtira olishi lozim [9]; uchinchidan, o‘quvchilarning raqamli tayyorgarligi turlicha ekanini hisobga olib, topshiriqlar differensiallashtirilishi zarur [13]; to‘rtinchidan, onlayn muhitda axborot xavfsizligi va muloqot etikasi har bir bosqichga singdirilishi kerak [10]; beshinchidan, baholash faqat natijaga emas, jarayonga ham qaratilishi lozim.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli media mantlari kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda katta didaktik salohiyatga ega, biroq bu salohiyat

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

metodik jihatdan tashkil etilgandagina ro‘yobga chiqadi. Taklif etilgan uch bosqichli metodika (qabul qilish va tahlil – hamkorlikdagi faoliyat – mediamahsulot yaratish) kompetensiyaning lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlarini izchil shakllantirishga imkon beradi. Jadval va rubrika mezonlari metodikani amaliyotga tatbiq etish va natijalarni o‘lchash uchun asos bo‘ladi. Kelgusi tadqiqotlarda metodikaning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali miqdoriy jihatdan tasdiqlash, shuningdek, sun’iy intellekt vositalarining muloqot ko‘nikmalariga ta’sirini o‘rganish maqsadga muvofiq.

IZOHLAR (SNOSKALAR)

[1] Hymes bu g‘oyani N. Chomskiyning “kompetensiya” va “bajarish” (performance) ajratishiga qarshi qo‘ygan: unga ko‘ra, til bilishi ijtimoiy muhitda qo‘llash qoidalarini ham o‘z ichiga oladi.

[2] Canale va Swain (1980) modelida uch komponent bo‘lgan; diskursiv komponent M. Canale tomonidan 1983-yilda qo‘shilgan.

[3] Yevropa Kengashining 2020-yilgi “Companion Volume” nashrida mediatsiya (matn, tushuncha va muloqotni vositachilik qilish) hamda onlayn o‘zaro ta’sir faoliyat turlari sifatida kengaytirilgan.

[4] Yaqin rivojlanish zonasi — bolaning mustaqil bajara oladigan va kattalar yoki hamkasb yordamida bajara oladigan faoliyat darajalari orasidagi masofa.

[5] Mayer tamoyillari qatoriga multimedia, yaqinlik, ortiqchalikdan qochish, signal berish tamoyillari kiradi.

[6] TPACK — Technological Pedagogical Content Knowledge (texnologik-pedagogik-predmet bilimi).

[7] DigComp 2.2 raqamli kompetensiyani besh sohada: axborot va ma’lumotlar savodxonligi, aloqa va hamkorlik, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik, muammolarni hal etishda tavsiflaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. — Toshkent, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. — Toshkent, 2020.
3. Hymes D. On communicative competence // Pride J.B., Holmes J. (eds.). Sociolinguistics. — Harmondsworth: Penguin, 1972. — P. 269–293.
4. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. — 1980. — Vol. 1, No. 1. — P. 1–47.
5. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. — Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. — 278 p.
6. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. — 159 p.
7. Jenkins H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. — New York: New York University Press, 2006. — 308 p.
8. Mayer R.E. Multimedia Learning. 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2009. — 304 p.
9. Mishra P., Koehler M.J. Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge // Teachers College Record. — 2006. — Vol. 108, No. 6. — P. 1017–1054.
10. Vuorikari R., Kluzer S., Punie Y. DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022. — 133 p.
11. Warschauer M., Healey D. Computers and language learning: an overview // Language Teaching. — 1998. — Vol. 31, No. 2. — P. 57–71.
12. Bax S. CALL — past, present and future // System. — 2003. — Vol. 31, No. 1. — P. 13–28.
13. Prensky M. Digital natives, digital immigrants // On the Horizon. — 2001. — Vol. 9, No. 5. — P. 1–6.
14. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2012.

IMPROVING THE QUALITY OF UROLOGY EDUCATION THROUGH INNOVATIVE SIMULATION TECHNOLOGIES AND INTERACTIVE CLINICAL TRAINING

Sayfetdinov Sanjarbek Ikramiddin ugli
Independent Researcher at the Department of Urology,
Andijan State Medical Institute

Abstract. *The continuous development of modern healthcare requires medical education institutions to improve teaching methodologies and introduce innovative approaches that strengthen students' professional competencies. Urology is a complex clinical discipline that combines theoretical knowledge, diagnostic reasoning, practical procedures, and surgical skills. Traditional educational methods do not always provide sufficient opportunities for students to acquire practical experience and develop independent clinical decision-making abilities. This article examines the role of simulation-based education, interactive clinical training, digital learning platforms, and competency-oriented assessment in improving the quality of urology teaching. The study is based on a narrative review of scientific literature and theoretical analysis of contemporary educational approaches. Particular attention is given to the integration of anatomical simulators, virtual clinical scenarios, problem-based learning, and objective structured clinical examinations into undergraduate medical education. The analysis indicates that simulation-based technologies can support the development of procedural competence, clinical reasoning, communication skills, and patient safety awareness. An integrated educational framework is proposed to connect theoretical preparation with practical training and supervised clinical experience.*

Keywords: *urology, medical education, simulation-based learning, innovative technologies, clinical competence, interactive teaching, digital education, practical skills, patient safety.*

ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА УРОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ С ПОМОЩЬЮ ИННОВАЦИОННЫХ СИМУЛЯЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИНТЕРАКТИВНОГО КЛИНИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. *Непрерывное развитие современного здравоохранения требует от медицинских образовательных учреждений совершенствования методик преподавания и внедрения инновационных подходов, способствующих укреплению профессиональных компетенций студентов. Урология — это сложная клиническая дисциплина, сочетающая теоретические знания, навыки клинического мышления, выполнение практических манипуляций и хирургические навыки. Традиционные методы обучения не всегда предоставляют достаточные возможности для получения студентами практического опыта и формирования у них способности к самостоятельному принятию клинических решений. В данной статье рассматривается роль симуляционного обучения, интерактивной клинической подготовки,*

цифровых образовательных платформ и компетентностно-ориентированной оценки в повышении качества преподавания урологии. Исследование базируется на аналитическом обзоре научной литературы и теоретическом анализе современных образовательных подходов. Особое внимание уделяется интеграции анатомических симуляторов, виртуальных клинических сценариев, проблемно-ориентированного обучения и объективного структурированного клинического экзамена в систему подготовки студентов-медиков. Результаты анализа свидетельствуют о том, что симуляционные технологии способствуют развитию процедурной компетентности, клинического мышления, коммуникативных навыков и понимания принципов безопасности пациентов. Предложена комплексная образовательная модель, объединяющая теоретическую подготовку с практическими занятиями и клинической практикой под руководством наставника.

Ключевые слова: *урология, медицинское образование, симуляционное обучение, инновационные технологии, клиническая компетентность, интерактивное обучение, цифровое образование, практические навыки, безопасность пациентов.*

INNOVATSION SIMULYATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA INTERAKTIV KLINIK MASHG'ULOTLAR ORQALI UROLOGIYA TA'LIMI SIFATINI OSHIRISH

Annotatsiya*. Zamonaviy sog'liqni saqlash tizimining uzluksiz rivojlanishi tibbiyot ta'limi muassasalaridan o'qitish uslublarini takomillashtirishni hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlovchi innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Urologiya — nazariy bilimlar, diagnostik fikrlash, amaliy muolajalar va jarrohlik ko'nikmalarini o'zida mujassam etgan murakkab klinik fan hisoblanadi. An'anaviy ta'lim usullari talabalarga amaliy tajriba orttirish va mustaqil ravishda klinik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun har doim ham yetarli imkoniyatlarni taqdim etavermaydi. Ushbu maqolada urologiya bo'yicha ta'lim sifatini oshirishda simulyatsiyaga asoslangan ta'lim, interaktiv klinik mashg'ulotlar, raqamli ta'lim platformalari va kompetensiyaga yo'naltirilgan baholash tizimining o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot ilmiy adabiyotlar sharhi va zamonaviy ta'lim yondashuvlarining nazariy tahliliga asoslangan. Tibbiyot bo'yicha bakalavriat ta'limiga anatomik simulyatorlar, virtual klinik ssenariylar, muammoga asoslangan ta'lim hamda obyektiv tuzilgan klinik imtihonlarni (OSCE) integratsiya qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, simulyatsiyaga asoslangan texnologiyalar muolaja o'tkazish malakasi, klinik fikrlash, muloqot ko'nikmalari va bemor xavfsizligi bo'yicha xabardorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Nazariy tayyorgarlikni amaliy mashg'ulotlar va nazorat ostidagi klinik tajriba bilan bog'lovchi integratsiyalashgan ta'lim tizimi taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *urologiya, tibbiyot ta'limi, simulyatsiyaga asoslangan ta'lim, innovatsion texnologiyalar, klinik kompetensiya, interaktiv ta'lim, raqamli ta'lim, amaliy ko'nikmalar, bemor xavfsizligi.*

INTRODUCTION

The modernization of medical education is one of the most important directions in improving the quality of healthcare services. Rapid advances in diagnostic technologies, minimally invasive procedures, digital healthcare systems, and surgical techniques have increased the requirements for the professional preparation of future physicians. Medical students are expected not only to acquire fundamental theoretical knowledge but also to develop practical competencies, clinical reasoning abilities, and professional responsibility.Urology is a medical specialty that requires comprehensive knowledge of the anatomy, physiology, and pathology of the urinary and male reproductive systems. The educational process includes the study of common urological diseases, diagnostic investigations, clinical examination methods, emergency conditions, and the principles of conservative and surgical treatment.Traditional methods of teaching urology generally include lectures, seminars, clinical demonstrations, and supervised patient examinations. Although these approaches remain essential, they may not always provide sufficient opportunities for students to practice clinical procedures repeatedly. The availability of patients, ethical requirements, time limitations, and differences in clinical exposure can influence the quality of practical training.Simulation-based medical education offers an alternative approach by creating controlled learning environments in which students can practice clinical skills without exposing patients to unnecessary risks. These technologies allow learners to repeat procedures, recognize mistakes, receive immediate feedback, and gradually improve their performance.According to Issenberg et al. (2005), effective simulation-based education is associated with several important instructional characteristics, including repetitive practice, feedback, curriculum integration, and increasing levels of task difficulty [1]. These principles are particularly relevant to urology because many procedures require anatomical knowledge, manual coordination, and strict adherence to patient safety protocols.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Consequently, the integration of innovative simulation technologies into urology education represents a promising strategy for strengthening the relationship between theoretical learning and practical clinical competence.

Relevance of the Study

The increasing complexity of urological practice creates new challenges for medical education. Contemporary urologists use ultrasonography, endoscopy, laser technologies, minimally invasive surgical procedures, and advanced diagnostic systems. Therefore, undergraduate training should introduce students to the principles of modern clinical technologies while ensuring mastery of fundamental medical competencies.One of the major limitations of conventional practical education is the unequal distribution of clinical learning opportunities. Some students may observe or participate in numerous procedures, while others may have limited exposure to particular clinical situations.Simulation-based learning can help address this problem by providing standardized educational experiences. All students can practice essential procedures using anatomical models, interactive software, and structured clinical scenarios.Patient safety represents another important consideration. Invasive procedures performed without sufficient preparation may cause complications. Simulation allows students to acquire basic procedural skills before performing interventions under direct clinical supervision.

Furthermore, innovative technologies can improve student engagement by transforming passive learning into active participation. Interactive clinical scenarios encourage learners to analyze symptoms, interpret diagnostic findings, and formulate appropriate clinical decisions.

The integration of these technologies is therefore relevant to the development of competency-based medical education and the preparation of qualified healthcare professionals.

MATERIALS AND METHODS

The present article was prepared as a narrative review and theoretical pedagogical investigation.Scientific publications addressing simulation-based medical education, innovative teaching methods, virtual reality, clinical skills development, and competency-based assessment were analyzed.The methodological framework included comparative analysis of traditional and simulation-based educational approaches, classification of educational technologies, synthesis of published evidence, and pedagogical modeling.Particular attention was given to simulation technologies applicable to undergraduate urology education, including anatomical task trainers, virtual patient platforms, video-assisted procedural instruction, interactive clinical scenarios, and structured practical examinations.The proposed educational model was developed according to the principles of gradual progression, active student participation, repeated practice, structured feedback, and objective assessment.No original clinical or experimental data were collected. Therefore, the findings represent an evidence-informed theoretical synthesis rather than the results of a completed educational intervention.

RESULTS AND DISCUSSION

Simulation-based education provides students with opportunities to practice clinical procedures in a controlled environment. This approach is particularly important in urology, where many practical skills require precise anatomical orientation, technical accuracy, and careful adherence to safety principles.One of the most common examples is urinary catheterization. Medical students must understand the indications and contraindications for catheterization, select appropriate equipment, maintain aseptic technique, communicate effectively with patients, and recognize possible complications.Anatomical simulators allow students to practice catheterization procedures repeatedly before performing them in clinical settings. The educational process can include instructor demonstration, guided practice, independent performance, and structured feedback.Repeated practice is important because technical

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

skills generally develop through progressive improvement rather than a single demonstration.Simulation also allows educators to identify errors and provide corrective instruction before students encounter similar situations during patient care.Cook et al. (2011) reported that technology-enhanced simulation was associated with improvements in knowledge, skills, and behaviors in health professions education compared with no intervention [2]. These findings support the inclusion of simulation technologies in practical urology training.

Virtual reality technologies represent an important development in modern medical education. These systems create computer-generated environments in which learners can interact with anatomical structures and simulated clinical instruments.In urology, virtual reality can be used to introduce students to the principles of cystoscopy, ureteroscopy, and other endoscopic procedures.Virtual simulators may help students develop spatial orientation, hand–eye coordination, instrument navigation, and understanding of procedural sequences.An important advantage of virtual reality is the opportunity for repeated training without dependence on the availability of real patients or clinical equipment.Some systems can also provide quantitative performance indicators, including procedural duration, technical errors, and instrument movements.However, these indicators should be interpreted carefully. Successful performance in a virtual environment does not automatically demonstrate competence in real clinical practice.

Therefore, virtual reality training should be integrated with theoretical instruction, anatomical education, and supervised clinical experience.

Clinical competence in urology involves not only procedural skills but also the ability to recognize diseases, interpret investigations, and select appropriate management strategies.Interactive clinical scenarios can be used to develop these abilities.For example, students may analyze a simulated case involving a patient with acute flank pain, nausea, and urinary symptoms. They must collect relevant information, formulate a differential

diagnosis, identify appropriate investigations, and recognize warning signs suggesting serious complications.Another scenario may involve acute urinary retention. Students can discuss possible causes, evaluate clinical findings, and determine appropriate initial management while recognizing situations requiring specialist assessment.Clinical scenarios involving hematuria, urinary tract infections, benign prostatic hyperplasia, and testicular torsion can also be incorporated into the curriculum.Such exercises encourage students to connect theoretical knowledge with practical clinical problems.Group discussions and problem-based learning can further improve communication, teamwork, and the ability to justify clinical decisions.

Digital educational technologies provide additional opportunities to improve the accessibility and flexibility of medical education.Electronic learning platforms, instructional videos, interactive anatomical models, online assessments, and virtual patient cases allow students to review educational materials independently.These resources can be particularly useful when students require additional preparation before practical sessions.For example, students may review video demonstrations of urinary catheterization, study the anatomical structure of the urinary tract, and complete interactive questions before attending a simulation laboratory.This approach allows classroom time to focus more strongly on practical exercises and clinical discussion.Digital platforms can also support formative assessment by identifying areas where students require further instruction.Nevertheless, digital resources should be selected according to clearly defined educational objectives and reviewed regularly for scientific accuracy.

Objective assessment is essential for evaluating the effectiveness of practical medical training.Traditional written examinations primarily assess theoretical knowledge and may not adequately demonstrate procedural competence.The Objective Structured Clinical Examination provides an approach for assessing practical skills through standardized clinical stations.In urology, OSCE stations may include urinary

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

catheterization, interpretation of urinalysis findings, clinical assessment of urinary retention, patient counseling, and recognition of emergency conditions.Students can be evaluated using structured checklists that assess preparation, procedural accuracy, infection prevention, communication, clinical reasoning, and professional behavior.The assessment process should include constructive feedback so that students understand their mistakes and can improve their performance.Competency-based evaluation therefore supports both educational quality assurance and individualized student development.

Based on the theoretical analysis, an integrated educational model is proposed for improving practical training in urology.The model begins with theoretical preparation, during which students acquire fundamental knowledge of urological anatomy, physiology, pathology, and clinical principles.The next stage involves digital and interactive learning, including educational videos, virtual anatomical resources, and clinical case analysis.Students subsequently participate in simulation-based procedural training using anatomical models and other available educational technologies.Following simulation exercises, instructors provide structured feedback and evaluate practical performance using standardized assessment criteria.Students who demonstrate the required level of competence may then apply their skills during supervised clinical training.This educational sequence creates a progressive transition from theoretical knowledge to practical performance.The model can be adapted to institutions with different levels of technological and financial resources.For example, universities with limited budgets may begin with affordable anatomical simulators, video-assisted learning, and standardized clinical scenarios before introducing more advanced virtual reality systems.

Despite the advantages of simulation-based education, several challenges may influence its implementation.One important limitation is the cost of advanced simulation equipment. High-fidelity simulators and virtual reality systems may require substantial

financial investment and regular technical maintenance.Another challenge involves faculty preparation. Medical educators must be trained to organize simulation sessions, establish learning objectives, provide structured feedback, and assess performance consistently.The effectiveness of simulation also depends on appropriate integration into the curriculum. Simply introducing technological equipment does not guarantee improved educational outcomes.Educational activities should be designed according to students' level of preparation and the clinical competencies they are expected to acquire.Artificial intelligence may provide additional opportunities for future development. AI-assisted platforms could support interactive case generation, personalized revision activities, and formative feedback.However, the use of AI in medical education requires careful validation, protection of personal information, and continuous supervision by qualified educators.Future research should evaluate the proposed educational model through prospective pedagogical studies.Such investigations could compare conventional teaching with integrated simulation-based instruction using objective outcomes, including theoretical examination scores, OSCE performance, procedural accuracy, and retention of clinical skills.Long-term evaluation should also consider whether improvements observed during simulation are transferred to supervised patient care.

CONCLUSION

The integration of innovative simulation technologies into urology education offers important opportunities for improving the quality of practical medical training.Simulation-based learning enables students to practice essential procedures repeatedly, identify technical errors, and develop clinical competencies in a controlled educational environment.Virtual reality, interactive clinical scenarios, and digital educational resources can support anatomical understanding, diagnostic reasoning, independent learning, and practical preparation.Competency-based assessment provides an objective framework for evaluating students' knowledge and procedural

performance.The proposed integrated educational model combines theoretical instruction, digital learning, simulation-based exercises, structured feedback, and supervised clinical practice.Effective implementation requires clearly defined learning objectives, qualified educators, appropriate resources, and continuous evaluation of educational outcomes.Further empirical research is necessary to determine the effectiveness of this model in specific medical education institutions.Overall, the systematic introduction of innovative simulation technologies represents a promising direction for preparing future physicians to provide safe, competent, and patient-centered urological care.

REFERENCES

1. Issenberg S.B., McGaghie W.C., Petrusa E.R., Lee Gordon D., Scalese R.J. Features and uses of high-fidelity medical simulations that lead to effective learning: A BEME systematic review. *Medical Teacher*. 2005;27(1):10–28. https://doi.org/10.1080/01421590500046924
2. Cook D.A., Hatala R., Brydges R., et al. Technology-enhanced simulation for health professions education: A systematic review and meta-analysis. *JAMA*. 2011;306(9):978–988. https://doi.org/10.1001/jama.2011.1234
3. McGaghie W.C., Issenberg S.B., Petrusa E.R., Scalese R.J. A critical review of simulation-based medical education research: 2003–2009. *Medical Education*. 2010;44(1):50–63.
4. Motola I., Devine L.A., Chung H.S., Sullivan J.E., Issenberg S.B. Simulation in healthcare education: A best evidence practical guide. AMEE Guide No. 82. *Medical Teacher*. 2013;35(10)–e1530.
5. Kneebone R. Simulation in surgical training: Educational issues and practical implications. *Medical Education*. 2003;37(3):267–277.
6. Ericsson K.A. Deliberate practice and acquisition of expert performance: A general overview. *Academic Emergency Medicine*. 2008;15(11):988–994.
7. Cook D.A., Brydges R., Zendejas B., Hamstra S.J., Hatala R. Mastery learning for health professionals using technology-enhanced simulation: A systematic review and meta-analysis. *Academic Medicine*. 2013;88(8):1178–1186.
8. Zendejas B., Brydges R., Wang A.T., Cook D.A. Patient outcomes in simulation-based medical education: A systematic review. *Journal of General Internal Medicine*. 2013;28(8):1078–1089.

DUDUQLANISH NUTQ BUZILISHI SIFATIDA: ETIOLOGIYASI, PATOGENEZI VA ZAMONAVIY ILMIY TALQINLARI

Abdujabborova Dilafruz Nozimjon qizi
Namangan Davlat Pedagogika instituti
Maxsus pedagogika (Logopediya) 2-kurs magistranti
dilafruzabdujabborova@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada duduqlanishning etiologiyasi, patogenezi va uni izohlovchi zamonaviy nazariy modellar tizimlashtirilgan. Tadqiqot narrativ sharh dizaynida bajarildi: so'nggi yigirma yillikdagi genetik, neyrovizualizatsion, psixolingvistik va klinik-psixologik manbalar mavzuviy tahlil qilindi, klassik nazariy asarlar tarixiy ahamiyatiga ko'ra kiritildi. Natijalar duduqlanishni yagona sababga ega holat emas, balki irsiy moyillik, nutq-motor tizimining barqarorligi, til va temperament omillari hamda muhit talablarining o'zaro ta'sirida shakllanadigan ko'p omilli neyrorivojlanish buzilishi sifatida tushunish asosli ekanini ko'rsatdi. Egizaklar tadqiqotlarida irsiylik ko'rsatkichi taxminan 0,7–0,85 oralig'ida bo'lib, neyrovizualizatsiya chap yarimshar nutq-motor tarmoqlari hamda bazal gangliyalar–talamus–po'stloq halqasidagi o'zgarishlarni qayd etadi. Ota-onaning tarbiya uslubi duduqlanishning sababi degan an'anaviy qarash zamonaviy dalillar bilan tasdiqlanmaydi. Xulosa qilinishicha, korreksion ishda bolaning nutq-motor imkoniyatlari bilan muhit talablari nisbatini muvozanatlash, ikkilamchi hissiy-xulq-atvor reaksiyalarining oldini olish va oilani jalb qilish ustuvor ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Duduqlanish; nutq ravonligi buzilishi; etiologiya; patogenez; neyrorivojlanish; irsiy moyillik; bazal gangliyalar; ko'p omilli model; erta aralashuv.*

ЗАИКАНИЕ КАК НАРУШЕНИЕ РЕЧИ: ЭТИОЛОГИЯ, ПАТОГЕНЕЗ И СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Аннотация: *В статье систематизированы этиология, патогенез заикания и современные теоретические модели, объясняющие его природу. Исследование выполнено как нарративный обзор: тематическому анализу подверглись генетические, нейровизуализационные, психолингвистические и клинико-психологические источники последних двадцати лет, а также классические работы. Показано, что заикание целесообразно рассматривать не как состояние с единственной причиной, а как многофакторное нейроразвитийное нарушение, формирующееся при взаимодействии наследственной предрасположенности, устойчивости речемоторной системы, языковых и темпераментных факторов и требований среды. По данным близнецовых исследований, показатель наследуемости составляет примерно 0,7–0,85, а нейровизуализация выявляет изменения в речемоторных сетях левого полушария и в круге «базальные ганглии – таламус – кора». Представление о стиле воспитания родителей как причине заикания современными данными не подтверждается. Сделан вывод, что в коррекционной работе*

приоритетны баланс между речемоторными возможностями ребёнка и требованиями среды, профилактика вторичных эмоционально-поведенческих реакций и вовлечение семьи.

Ключевые слова: *Заикание; нарушение беглости речи; этиология; патогенез; нейроразвитие; наследственная предрасположенность; базальные ганглии; многофакторная модель; раннее вмешательство.*

STUTTERING AS A SPEECH DISORDER: ETIOLOGY, PATHOGENESIS AND CURRENT SCIENTIFIC INTERPRETATIONS

Abstract: *This article systematizes the etiology and pathogenesis of stuttering and the contemporary theoretical models that explain it. The study is a narrative review: genetic, neuroimaging, psycholinguistic and clinical-psychological sources from the last two decades, together with classic theoretical works, were analyzed thematically. The findings support viewing stuttering not as a condition with a single cause but as a multifactorial neurodevelopmental disorder arising from the interaction of genetic predisposition, speech-motor stability, linguistic and temperamental factors, and environmental demands. Twin studies suggest heritability of roughly 0.7–0.85, and neuroimaging reveals alterations in left-hemisphere speech-motor networks and in the basal ganglia–thalamo-cortical loop. The traditional view that parenting style causes stuttering is not supported by current evidence. It is concluded that intervention should prioritize balancing a child's speech-motor capacities against environmental demands, preventing secondary emotional and behavioral reactions, and involving the family.*

Keywords: *Stuttering; fluency disorder; etiology; pathogenesis; neurodevelopment; genetic predisposition; basal ganglia; multifactorial model; early intervention.*

KIRISH

Duduqlanish nutq ravonligining buzilishi bo‘lib, tovush va bo‘g‘inlarning takrorlanishi, tovushlarning cho‘zilishi hamda nutq oqimining to‘satdan to‘xtashi (blok) bilan namoyon bo‘ladi. Xalqaro tasniflarda u ICD-11 da “rivojlanish davridagi nutq ravonligi buzilishi” (6A01.1) [1], DSM-5 da esa “bolalikda boshlanadigan ravonlik buzilishi (duduqlanish)”deb ataladi. Ikkala tasnif ham holatni neyrorivojlanish buzilishlari qatorida ko‘radi.

Kattalar orasida duduqlanish taxminan 1 foiz aholida uchraydi, ammo bolalik davrida uning ro‘yxatga olingan kumulyativ ko‘rsatkichi ancha yuqori: bolalarning taxminan 8–11 foizi hayotining dastlabki yillarida kamida bir marta duduqlanish davrini boshdan kechiradi. Boshlang‘ich davrda duduqlanuvchi bolalarning katta qismi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

(taxminan to‘rtdan uch qismi) logopedik aralashuvsiz yoki unga bog‘liq holda tiklanadi, qolgan qismida esa muammo bolalik va kattalikda saqlanib qoladi. Aynan shu tiklanish–saqlanish ikkiligi duduqlanish patogenezini o‘rganishning markaziy masalasiga aylangan.

Xorijiy adabiyotda duduqlanish nazariyalari bir necha bosqichdan o‘tgan: ruhiy-psixologik tushuntirishlardan neyrofiziologik va ko‘p omilli modellargacha. Rus tilidagi defektologiya an’anasida duduqlanish uzoq vaqt logonevroz sifatida, ya’ni asosan nevrotik asosdagi holat sifatida talqin qilingan va psixokorreksion yo‘nalish ustuvor bo‘lgan. Amaliy ishda bugungi kunda ham duduqlanish sababi sifatida qo‘rqish, ruhiy shikast yoki noto‘g‘ri tarbiya ko‘rsatiladi. Zamonaviy fanda esa genetik va neyrobiologik dalillar to‘plangani sababli bu talqinlar qayta ko‘rib chiqilmoqda. Bu esa ota-ona bilan maslahat ishi va korreksion strategiyani tanlashda amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi duduqlanishning etiologik omillari, patogenetik mexanizmlari va zamonaviy ilmiy talqinlarini tizimlashtirib, ularni logopedik ishning nazariy asosi sifatida asoslashdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yildi:

1. duduqlanishning klinik ko‘rinishi va rivojlanish dinamikasini tavsiflash;

2. genetik, neyrobiologik, til-kognitiv, temperament va muhit omillarining rolini tahlil qilish;

3. duduqlanishni tushuntiruvchi asosiy nazariy modellarni qiyosiy ko‘rib chiqish;

4. tahlil natijalaridan logopedik amaliyot uchun xulosalar chiqarish.

Tadqiqot savoli: duduqlanishni ruhiy yoki tarbiyaviy omillar natijasi sifatida emas, balki ko‘p omilli neyrorivojlanish buzilishi sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan qanchalik asoslangan?

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqot nazariy-analitik (narrativ) sharh sifatida bajarildi. Manbalar xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalari (PubMed, Scopus, Google Scholar) hamda rus tilidagi darslik va monografiyalar orqali izlandi. Kiritish mezonlari: (a) rivojlanish davridagi (bolalikda boshlangan) duduqlanishga oid ishlar; (b) hakamlik qilingan maqolalar, meta-analizlar, tizimli sharhlar, monografiyalar va xalqaro tasniflar; (c) asosan 2000–2025-yillardagi nashrlar, klassik nazariy asarlar esa tarixiy ahamiyatiga ko‘ra davr chegarasidan qat'i nazar. Chiqarish mezonlari: orttirilgan (neyrogen va psixogen) duduqlanishga oid ishlar, alohida klinik holat tavsiflari va ilmiy asoslanmagan aralashuvlar haqidagi nashrlar. Manbalar mavzuviy sintez usulida to‘rt blokka guruhlandi: klinik-epidemiologik ma'lumotlar, etiologik omillar, nazariy modellar va aralashuv dalillari.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Klinik ko‘rinish va tasnif

Duduqlanishning yadro belgilari tovush, bo‘g‘in va bir bo‘g‘inli so‘zlarning takrorlanishi, tovushlarning cho‘zilishi va bloklardir. Tadqiqotlarda ular «duduqlanishga xos uzilishlar» deb ajratiladi va ularni ravon nutqda uchraydigan odatiy ikkilanishlardan (so‘z yoki iboralarning takrorlanishi, tuzatishlar, to‘ldiruvchi so‘zlar) farqlash diagnostik jihatdan muhim hisoblanadi [6, 10]. Odatda 100 ta bo‘g‘inda uch va undan ortiq xos uzilish bo‘lsa, bu klinik jihatdan e'tiborga loyiq deb qaraladi [10].

Yadro belgilardan tashqari, ikkilamchi (qo‘shimcha) xulq-atvor ham shakllanadi: yuz va bo‘yin mushaklarining zo‘riqishi, ko‘z qisish, bosh va qo‘l harakatlari, qiyin tovushlar va so‘zlardan qochish, so‘zni sinonimga almashtirish. Zamonaviy yondashuv holatni uch qatlamda baholashni taklif qiladi: nutqning tashqi ko‘rinishi, ichki kognitiv-hissiy reaksiyalar (qo‘rquv, uyat, o‘zini past baholash) va ijtimoiy hayotdagi cheklanishlar [9]. Shu sababli duduqlanishning og‘irligi faqat uzilishlar chastotasi bilan o‘lchanmaydi.

2. Epidemiologiya va rivojlanish dinamikasi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Duduqlanish ko‘pincha 2–4 yoshda, nutq va grammatika tez rivojlanayotgan davrda boshlanadi. Prospektiv kuzatuvlarga ko‘ra, 3 yoshgacha bolalarning taxminan 11 foizida duduqlanish boshlangan , umumiy kumulyativ ko‘rsatkich esa taxminan 8 foiz atrofida baholanadi . Boshlanish chog‘ida o‘g‘il va qiz bolalar orasidagi nisbat deyarli teng bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan qizlar ko‘proq tiklanadi va kattalarda erkaklar va ayollar nisbati taxminan 4:1 ga yetadi. Tiklanishning katta qismi boshlanishdan keyingi dastlabki ikki yil ichida sodir bo‘ladi .

Muammoning saqlanib qolishi xavfini oshiruvchi omillar sifatida erkak jinsi, oilada saqlanib qolgan duduqlanish holatlarining mavjudligi, boshlanishdan keyin uzoq muddat o‘tishi va uzilishlar chastotasining kamaymasligi ko‘rsatiladi. Bu omillarning aksariyati irsiy va neyrobiologik asosga ishora qiladi.

3. Etiologik omillar

3.1. Irsiy moyillik. Duduqlanuvchi bolalarning taxminan 60 foizida oilaviy anamnezda duduqlanish qayd etiladi, bu esa nutq ravonligi buzilishining oilada to‘planish xususiyatini ko‘rsatadi. Egizaklar tadqiqotlarida irsiylik ko‘rsatkichi yuqori (taxminan 0,7–0,85), bu muhit omillari emas, aynan irsiy omillar moyillikning asosiy qismini tushuntirishini bildiradi. Molekulyar darajada lizosoma fermentlarini yo‘naltirish yo‘lidagi GNPTAB, GNPTG va NAGPA genlaridagi mutatsiyalar duduqlanish bilan bog‘liq topilgan, biroq ular holatlarning faqat kichik qismini tushuntiradi. Yaqinda yuz mingga yaqin duduqlanuvchi shaxsni qamragan keng ko‘lamli genom bo‘yicha tadqiqot ko‘plab genetik joylar (lokuslar) bilan bog‘liqlikni aniqladi va duduqlanishning ko‘p genli (poligen) tabiatini tasdiqladi. Shuning uchun yagona duduqlanish geni emas, ko‘plab genlarning kichik ta’siri yig‘indisi haqida so‘z yuritiladi. Irsiy moyillik taqdir degani emas: u muhit va rivojlanish omillari bilan o‘zaro ta’sirda namoyon bo‘ladi.

3.2. Neyroanatomik va neyrofunksional xususiyatlar. Diffuziya tenzorli tasvirlash chap yarimsharning peri-silviyan sohasida oq modda yaxlitligining

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

pasayishini ko‘rsatdi [16]. Duduqlanuvchi bolalarda ham chap yarimshar nutq-til sohalaridagi kulrang va oq modda xususiyatlarida farqlar topildi, shuningdek, bazal gangliyalar–talamus–po‘stloq va serebellyar tarmoqlar o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikning pasayishi qayd etildi. Funksional tasvirlash tadqiqotlarining meta-analizi duduqlanayotganda o‘ng yarimshar faolligining oshishini va chap eshitish sohasi faolligining pasayishini aniqladi.

Bu ma’lumotlarni P. Alm bazal gangliyalarning ichki ritm berish vazifasi bilan bog‘ladi: bu halqa nutqda keyingi bo‘g‘in harakatini «ishga tushirish» uchun ichki vaqt signalini beradi, duduqlanishda esa shu signal yetarli emas. Bu farazni metronom yoki xor bilan birgalikda o‘qishda nutq ravonlashishi kabi tashqi ritm ta’siri ham qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq neyrovizualizatsiya natijalari bir xil emas va ko‘pgina topilmalar kattalarda olinganligi sababli, ular duduqlanishning sababi emas, uning oqibati yoki kompensatsiyasi bo‘lishi mumkinligi savoli ochiq qolmoqda .

3.3. Nutq-motor nazorati. Nutq — inson bajaradigan eng murakkab motor harakatlardan biri bo‘lib, o‘nlab mushaklarning soniyaning mingdan bir ulushlarida muvofiqlashuvini talab qiladi. M. Maks va hamkasblarining modeliga ko‘ra, duduqlanishda motor buyruqlarini oldindan hisoblovchi «ichki modellar» beqaror yoki yetarlicha faollashmagan bo‘ladi, shuning uchun nutq nazorati eshitish va sensor teskari aloqaga haddan tashqari tayanadi. Kompyuter simulyatsiyasi eshitish teskari aloqasiga ortiqcha tayanish bo‘g‘in takrorlanishlarini keltirib chiqarishi va ravonlikni oshiruvchi sharoitlarni (masalan, xor bilan o‘qish) tushuntirishi mumkinligini ko‘rsatdi.

3.4. Til va kognitiv omillar. Meta-analizlar duduqlanuvchi bolalarning til ko‘rsatkichlari o‘rtacha tengdoshlarnikidan biroz past ekanini ko‘rsatadi, ammo farq kichik va izchil emas. Boshqa sharh esa duduqlanish va til qobiliyati o‘rtasidagi aloqani qayta ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi, chunki duduqlanuvchi bolalarning ko‘pchiligi til rivojlanishida me’yor doirasida bo‘ladi. Psixolingvistik yo‘nalishda Postma va Kolk ilgari surgan yashirin tuzatish gipotezasiga ko‘ra, fonologik kodlashdagi sekinlik

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yoki xatolar nutq jarayonida ichki monitoring orqali aniqlanib tuzatiladi va shu tuzatish jarayonining koʻrinadigan natijasi uzilishlar boʻladi. Shunday qilib, til omili duduqlanishning yagona sababi emas, ammo nutq-til talablari ortgan davrda motor tizimiga qoʻshimcha yuklama berishi mumkin.

3.5. Temperament va hissiy omillar. Duduqlanuvchi maktabgacha yoshdagi bolalar oʻrtacha hissiy reaktivligi yuqoriroq va moslashuvchanligi pastroq temperament xususiyatlariga ega boʻlishi mumkinligi koʻrsatilgan. Ijtimoiy tashvish esa duduqlanuvchi kattalarda keng tarqalgan, biroq u asosan nutq tajribasi toʻplanishi bilan kuchayuvchi ikkilamchi hodisa boʻlib koʻrinadi, temperament esa dastlabki zaiflik omili boʻlishi mumkin. Demak, qoʻrquv va tashvish koʻp hollarda duduqlanishning sababi emas, uning oqibati va tutib turuvchi omilidir.

3.6. Muhit omillari. XX asrning oʻrtalarida V. Jonson ilgari surgan diagnogen nazariyaga koʻra, duduqlanish ota-onaning bolaning normal ikkilanishlarini notoʻgʻri baholashidan boshlanadi. Keyingi genetik va neyrobiologik tadqiqotlar bu nazariyani asosiy tushuntirish sifatida tasdiqlamadi. Shu bilan birga muhit ahamiyatini butunlay inkor etib boʻlmaydi: shoshilinch muloqot, tez gapirish, tez-tez savol berish va katta nutqiy talablar bolaning nutq barqarorligiga qoʻshimcha bosim boʻlishi mumkin. Starkvezer va uning izdoshlari ishlab chiqqan imkoniyatlar va talablar modelida duduqlanish bolaning ravon gapirish imkoniyatlari (motor, til, hissiy) muhit va oʻz-oʻziga qoʻyilgan talablardan past boʻlganda paydo boʻladi. Ota-ona duduqlanishning sababchisi emas, ammo bolaning ravonligini qoʻllab-quvvatlovchi muhitni yaratishda muhim sherikdir.

4. Nazariy modellarning qiyosiy tahlili

Model	Asosiy gʻoya	Kuchli tomoni	Cheklovi
Diagnogen nazariya (Jonson)	Muhitning notoʻgʻri baholashi	Ota-ona bilan ishlash zarurligini koʻrsatdi	Genetik va neyrobiologik

Model	Asosiy g‘oya	Kuchli tomoni	Cheklovi
	duduqlanishni keltirib chiqaradi		dalillar bilan tasdiqlanmagan
Imkoniyat va talablar modeli (Starkvezer)	Imkoniyatlar talablardan past bo‘lsa, duduqlanish paydo bo‘ladi	Amaliy aralashuv uchun tushunarli	«Imkoniyat»ni aniq o‘lchash qiyin
Yashirin tuzatish gipotezasi (Postma, Kolk)	Fonologik kodlash xatolarini tuzatish uzilishga olib keladi	Til jarayonlarini tushuntiradi	Barcha holatlarni qamrab olmaydi
Ichki modellar va teskari aloqa modeli (Maks, Sivier)	Motor nazorat beqaror, eshitish teskari aloqasiga ortiqcha tayanish	Ravonlikni oshiruvchi sharoitlarni izohlaydi	Asosan nazariy va simulyatsion
Bazal gangliyalar va ichki ritm modeli (Alm)	Ichki vaqt signali yetishmaydi	Tashqi ritm ta’sirini tushuntiradi	Bolalikdagi dalillar cheklangan
Ko‘p omilli dinamik yo‘llar nazariyasi (Smit, Veber)	Bir necha sohadagi omillar o‘zaro ta’sirda nutq barqarorligini buzadi	Individual farqlarni va tiklanish-saqlanishni tushuntiradi	Empirik tekshirish davom etmoqda

5. Patogenezning zamonaviy integrativ talqini

Zamonaviy talqinlar orasida eng ko‘p qo‘llab-quvvatlanayotgani Smit va Veberning ko‘p omilli dinamik yo‘llar nazariyasidi. Unga ko‘ra duduqlanish biror bir sohadagi alohida nuqsondan emas, balki motor, til-kognitiv va hissiy-vegetativ omillarning o‘zaro

ta'siridan kelib chiqib, nutq-motor tizimining barqarorligi buzilganda paydo bo'ladi. Bolalarda bu omillarning kombinatsiyasi turlicha bo'lgani uchun duduqlanishning boshlanishi, kechishi va tiklanishi ham individual farq qiladi.

Shu asosda patogenezni to'rt bosqichda tasavvur qilish mumkin. **Birinchi bosqich — moyillik:** irsiy omillar tufayli nutq-motor va vaqt nazorati tarmoqlarining xususiyatlari shakllanadi. **Ikkinchi bosqich — boshlanish:** 2–4 yoshda lug'at va grammatikaning tez o'sishi sababli nutqning murakkabligi ortadi va motor tizimning barqarorligi yetishmaganda xos uzilishlar paydo bo'ladi. **Uchinchi bosqich — tiklanish yoki saqlanish:** bolalarning katta qismida motor tizim yetilishi bilan nutq ravonlashadi, qolgan qismida uzilishlar saqlanadi. **To'rtinchi bosqich — ikkilamchi reaksiyalar:** uzilishlarni sezish, ularga zo'riqish bilan javob berish, qochish va ijtimoiy tashvish paydo bo'ladi, bu esa uzilishlarni kuchaytiruvchi yopiq doira hosil qiladi. Bu mantiq logopedik amaliyot uchun muhim: erta bosqichda asosiy e'tibor nutq-motor barqarorligi va muhit talablari muvozanatiga, keyingi bosqichlarda esa hissiy-xulq-atvor reaksiyalarini ham tuzatishga qaratilishi kerak.

6. Amaliy-pedagogik xulosalar

Birinchidan, bolada duduqlanish aniqlansa, «o'zi o'tib ketadi» degan kutish taktikasi bilan cheklanmaslik, balki erta baholash va kuzatish zarur, chunki tiklanish ehtimoli yuqori bo'lsa-da, uni oldindan aniq bashorat qilib bo'lmaydi . Ikkinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ota-ona ishtirokiga asoslangan Lidkomb dasturi kabi aralashuvlar randomizatsiyalangan sinovlarda samaradorligi ko'rsatilgan yondashuvlar qatoriga kiradi, garchi duduqlanishni davolash bo'yicha tadqiqotlarning metodologik sifati turlicha ekani qayd etilgan bo'lsa-da. Uchinchidan, rus tilidagi an'anada keng qo'llaniladigan kompleks (logopedik, psixologik va tibbiy) yondashuv bugungi dalillar bilan uyg'unlashtirilishi mumkin: duduqlanishning neyrorivojlanish tabiati tan olinganda, psixokorreksiya sababni bartaraf etuvchi emas, ikkilamchi reaksiyalar va hayot sifatini yaxshilovchi komponent sifatida qaraladi. To'rtinchidan,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

duduqlanish kattalarda hayot sifatini sezilarli pasaytirishi mumkin, shuning uchun bola va ota-ona bilan ishlashda nutq ravonligidan tashqari o‘z-o‘zini baholash va ijtimoiy faollikni qo‘llab-quvvatlash ham maqsad qilinadi.

7. Muhokama va cheklovlar

Tahlil natijalari duduqlanishni ruhiy shikast yoki noto‘g‘ri tarbiya oqibati emas, balki irsiy va neyrobiologik asosga ega ko‘p omilli buzilish sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan ancha asosli ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, hech bir model barcha holatlarni to‘liq tushuntirmaydi, bu esa integrativ yondashuvning zarurligini bildiradi.

Maqolaning bir nechta cheklovi bor. Birinchidan, dalillarning ko‘pchiligi ingliz tilida so‘zlashuvchi bolalar va kattalarda olingan. O‘zbek tilining agglyutinativ tuzilishi (uzun qo‘shimchalar zanjiri) nutq-til yuklamasini oshirishi mumkin degan taxmin bor, biroq u hozircha empirik tasdiqlanmagan. Ikkinchidan, o‘zbek-rus ikki tilli muhitning duduqlanishning boshlanishi va tiklanishiga ta’siri yetarlicha o‘rganilmagan, shuningdek, o‘zbek tilida standartlashtirilgan baholash vositalari yetishmaydi. Uchinchidan, duduqlanishga oid madaniy tasavvurlar (sabab va davolash haqidagi qarashlar) ota-onalarning murojaat qilish muddati va hamkorligiga ta’sir qilishi mumkin, bu esa alohida empirik tadqiqotni talab qiladi. To‘rtinchidan, narrativ sharh tizimli sharhga nisbatan manbalar tanlovida sub’ektivlik xavfini saqlab qoladi.

XULOSA

1. Duduqlanish faqat psixologik yoki tarbiya bilan bog‘liq omillar natijasi emas, balki genetik moyillik, nutq-motor tizimi, lingvistik-kognitiv va hissiy omillar hamda atrof-muhit talablarining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan ko‘p omilli neyrorivojlanish buzilishidir.

2. Duduqlanishning yuqori darajada irsiy xususiyatga egaligi va poligen tabiatga ega ekanligi unga moyillik, asosan, genetik omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Biroq, bunday moyillik duduqlanishning rivojlanishini muqarrar qilmaydi.

3. Neyrovizualizatsiya tadqiqotlari chap yarimshardagi nutq-motor tarmoqlari hamda bazal gangliyalar–talamus–bosh miya po‘stlog‘i (korteks) zanjiri bilan bog‘liq xususiyatlarni aniqlaydi. Shunga qaramay, ushbu topilmalar sababmi yoki oqibatmi, degan masala hali ham noaniqligicha qolmoqda.

4. Qo‘rquv, ijtimoiy xavotir va muayyan vaziyatlardan qochishga urinish kabi xatti-harakatlar, asosan, ikkilamchi reaksiyalar hisoblanadi. Biroq ular duduqlanishning saqlanib qolishi va kuchayishida muhim rol o‘ynaydi.

5. Ota-onalar duduqlanishning sababchisi hisoblanmaydi. Biroq ular bolaning imkoniyatlari va unga qo‘yiladigan talablar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratishda asosiy hamkorlardir.

6. O‘zbek tili va madaniyati kontekstida duduqlanishning tarqalishi, boshlanish dinamikasi hamda uning bartaraf etilishiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish kelgusidagi empirik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Health Organization. International classification of diseases, 11th revision (ICD-11). – Geneva: WHO, 2019.
2. American Psychiatric Association. Diagnostic and statistical manual of mental disorders (DSM-5). 5th ed. – Arlington, VA: American Psychiatric Publishing, 2013.
3. Yairi E., Ambrose N. Epidemiology of stuttering: 21st century advances // Journal of Fluency Disorders. – 2013. – Vol. 38(2). – P. 66–87.
4. Reilly S., Onslow M., Packman A., et al. Predicting stuttering onset by the age of 3 years: A prospective, community cohort study // Pediatrics. – 2009. – Vol. 123(1). – P. 270–277.
5. Yairi E., Ambrose N.G. Early childhood stuttering I: Persistency and recovery rates // Journal of Speech, Language, and Hearing Research. – 1999. – Vol. 42(5). – P. 1097–1112.
6. Bloodstein O., Ratner N.B. A handbook on stuttering. 6th ed. – Clifton Park, NY: Thomson Delmar Learning, 2008.
7. Белякова Л.И., Дьякова Е.А. Заикание. – М.: Владос, 1998.
8. Селиверстов В.И. Заикание у детей: психокоррекционные основы. – М.: Владос, 2000.
9. Yaruss J.S., Quesal R.W. Overall Assessment of the Speaker’s Experience of Stuttering (OASES): Documenting multiple outcomes in stuttering treatment // Journal of Fluency Disorders. – 2006. – Vol. 31(2). – P. 90–115.
10. Yairi E., Ambrose N.G. Early childhood stuttering. – Austin, TX: Pro-Ed, 2005.

11. Xasanova, M., & Shodmanov, Q. (2025). DIQQAT YETISHMASLIGI VA GIPERAKTIVLIK SINDROMIGA CHALINGAN BOLALARNING KLINIK VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 7-7.

12. Makhammadsidiqovna, K. M. (2025). ATTENTION DEFICIT AND HYPERACTIVITY DISORDER (ADHD): PARENTAL APPROACH, THE PRACTICAL IMPORTANCE OF THE 30% RULE, AND REHABILITATION TECHNOLOGIES. Advances in Science and Education, 1(7), 25-26.

13. Maxammadsidiqovna, X. M. (2026). ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA INKLYUZIV TA'LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH. Latin American journal of education, 6(1), 505-513.

14. Xasanova, M., & Shodmanov, Q. (2023). Rivojlanishida nuqsoni–diqqat yetishmovchilik sindromi bor bolalarning tibbiy reabilitatsiyasi masalalari.«MAXSUS VA INKLYUZIV TA'LIM: AN'ANA, TAJRIBA VA INNOVATSIYALAR» mavzusida respublika anjumani tezislari to'plami. Nizomiy nomidagi TDPU, 650-653.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

AUTIZM SPEKTRIDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV-NUTQIY RIVOJLANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Abdullayeva Madina Xayrullo qizi
Namangan Davlat Pedagogika instituti
Maxsus pedagogika(Logopediya) 2-kurs magistranti
madinaabdullayeva56787@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolaning maqsadi autizm spektri buzilishi (ASB) bo'lgan bolalarda kommunikativ-nutqiy rivojlanishning ilmiy-nazariy asoslarini tizimlashtirishdan iborat. Tadqiqot nazariy-analitik (narrativ) sharh dizaynida bajarilgan: xalqaro va rus tilidagi ilmiy manbalar mavzuviy sintez usulida tahlil qilinib, normativ rivojlanish nazariyalari, ASBning nazariy modellari hamda aralashuvlarning samaradorlik dalillari o'zaro qiyoslandi. Tahlil normativ rivojlanishning madaniy-tarixiy, pragmatik-ijtimoiy va foydalanishga asoslangan nazariyalarini hamda ASBning ong nazariyasi, ijtimoiy motivatsiya va bashoratli kodlash modellarini qamrab oldi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ASBdagi nutqiy kechikish izolyatsiyalangan nutq nuqsoni emas, balki birgalikdagi e'tibor, ijtimoiy motivatsiya va pragmatik kompetensiyaning erta buzilishi bilan bog'liq ko'p darajali hodisadir. Nutq komponentlari notekis rivojlanadi: pragmatika eng barqaror buzilgan soha bo'lib, bolalarning taxminan to'rtdan bir qismi maktab yoshida ham minimal verbal bo'lib qoladi. Dalillarga tayangan aralashuvlar orasida tabiiy rivojlanish-xulq-atvor yondashuvlari, ota-onalar ishtirokidagi dasturlar va alternativ kommunikatsiya vositalari ilmiy jihatdan eng yaxshi asoslangan yondashuvlar qatoriga kiradi. Xulosa qilinishicha, korreksion ish nutqni "chiqarish"dan avval kommunikativ niyat va ijtimoiy o'zaro ta'sirni shakllantirishga yo'naltirilishi lozim. Olingan xulosalar o'zbek tili kontekstidagi empirik tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *autizm spektri buzilishi; kommunikativ-nutqiy rivojlanish; birgalikdagi e'tibor; pragmatik nutq; ijtimoiy motivatsiya; ong nazariyasi; minimal verbal bolalar; exolaliya; alternativ kommunikatsiya; erta aralashuv.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОММУНИКАТИВНО-РЕЧЕВОГО РАЗВИТИЯ У ДЕТЕЙ С РАССТРОЙСТВОМ АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА

Аннотация: *Цель статьи — систематизировать научно-теоретические основы коммуникативно-речевого развития у детей с расстройством аутистического спектра (РАС). Исследование выполнено как теоретико-аналитический (нарративный) обзор: международные и русскоязычные научные источники проанализированы методом тематического синтеза, при этом сопоставлены теории нормативного развития, теоретические модели РАС и данные об эффективности вмешательств. Анализ охватил культурно-историческую, прагматико-социальную и основанную на употреблении теории нормативного развития, а также модели*

теории разума, социальной мотивации и предсказательного кодирования. Результаты показали, что речевая задержка при РАС является не изолированным языковым дефицитом, а многоуровневым явлением, связанным с ранним нарушением совместного внимания, социальной мотивации и прагматической компетенции. Компоненты языка развиваются неравномерно: прагматика остаётся наиболее устойчиво нарушенной сферой, а примерно каждый четвёртый ребёнок сохраняет минимальную вербальность и в школьном возрасте. К числу наиболее научно обоснованных относятся натуралистические развивающе-поведенческие подходы, программы с участием родителей и средства альтернативной коммуникации. Сделан вывод, что коррекционная работа должна быть направлена не столько на «запуск» речи, сколько на формирование коммуникативного намерения и социального взаимодействия. Полученные выводы формируют теоретическую основу для эмпирических исследований на материале узбекского языка.

Ключевые слова: *расстройство аутистического спектра; коммуникативно-речевое развитие; совместное внимание; прагматика языка; социальная мотивация; теория разума; минимально вербальные дети; эхолалия; альтернативная коммуникация; раннее вмешательство.*

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF COMMUNICATIVE AND SPEECH DEVELOPMENT IN CHILDREN WITH AUTISM SPECTRUM DISORDER

Abstract: *The aim of this article is to systematize the scientific and theoretical foundations of communicative and speech development in children with autism spectrum disorder (ASD). The study was designed as a theoretical-analytical (narrative) review: international and Russian-language sources were analyzed by thematic synthesis, and theories of typical development, theoretical models of ASD, and evidence on intervention effectiveness were compared. The findings indicate that speech delay in ASD is not an isolated language deficit but a multilevel phenomenon linked to early impairments in joint attention, social motivation, and pragmatic competence. Language components develop unevenly: pragmatics remains the most persistently affected domain, and roughly one in four children stays minimally verbal at school age. Naturalistic developmental behavioral interventions, parent-mediated programs, and augmentative and alternative communication are among the best empirically supported approaches. It is concluded that intervention should target communicative intent and social interaction before, or alongside, the elicitation of speech. These conclusions provide a theoretical basis for empirical research in the Uzbek-language context.*

Keywords: *autism spectrum disorder; communicative and speech development; joint attention; pragmatic language; social motivation; theory of mind; minimally verbal children; echolalia; augmentative and alternative communication; early intervention.*

KIRISH

Autizm spektri buzilishi (ASB) erta bolalik davrida namoyon bo‘ladigan neyrorivojlanish holati bo‘lib, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra taxminan har 100 bolaning bittasida qayd etiladi [1]. AQShda 8 yoshli bolalar orasida tarqalish ko‘rsatkichi so‘nggi o‘n yillikda izchil oshgan [2]. Bu o‘sish qisman diagnostik mezonlarning kengayishi va skrining sifatining yaxshilanishi bilan izohlanadi.

ASBning ikki asosiy mezoni ijtimoiy kommunikatsiya va o‘zaro ta’sirdagi doimiy buzilishlar hamda cheklangan, takrorlanuvchi xatti-harakatlardir [3, 4]. Ota-onalar mutaxassisga birinchi murojaatida ko‘pincha nutqning kech paydo bo‘lishi yoki umuman bo‘lmasligidan shikoyat qiladi. Biroq nutqiy ko‘rsatkichlarning o‘zi muammoning mohiyatini to‘liq ochib bermaydi. ASB bo‘lgan bolalarning taxminan to‘rtdan bir qismi maktab yoshida ham minimal verbal bo‘lib qoladi [5]. Ravon so‘zlaydigan bolalarda esa pragmatik nutq, suhbatni davom ettirish va noverbal signallarni tushunishda sezilarli qiyinchiliklar saqlanadi [6, 7].

Chet el adabiyotida kommunikativ-nutqiy rivojlanish ASBning markaziy sohasi sifatida chuqur o‘rganilgan. Birgalikdagi e’tibor [8, 9], ijtimoiy motivatsiya [10, 11], til kichik guruhlari [12] va aralashuvlar samaradorligi [13] bo‘yicha keng empirik baza mavjud. Rus tilidagi defektologiya an’anasida ASB bo‘lgan bolalar bilan ishlash O.S. Nikolskaya, E.R. Baenskaya, M.M. Libling va boshqalarning tadqiqotlarida ishlab chiqilgan [14]. O‘zbek tilidagi ilmiy adabiyotda esa bu masala nazariy jihatdan yetarlicha tizimlashtirilmagan ko‘rinadi. Bu holat quyidagi qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi: amaliyotda nutqni “chiqarish” ustuvor vazifa sifatida qaraladi, xalqaro dalillar esa nutqning ijtimoiy-kommunikativ poydevoriga e’tibor qaratishni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi ASB bo‘lgan bolalarda kommunikativ-nutqiy rivojlanishning ilmiy-nazariy asoslarini tizimlashtirish va ularni korreksion-pedagogik ishning konseptual asosi sifatida asoslashdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

1.“kommunikatsiya”, “til” va “nutq” tushunchalarining farqlanishini aniqlash va ASB kontekstida ta’riflash;

2.normativ kommunikativ-nutqiy rivojlanish qonuniyatlarini nazariy jihatdan tahlil qilish;

3.ASBda kommunikativ-nutqiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflash;

4.ASBni tushuntiruvchi asosiy nazariy modellarning kommunikativ-nutqiy sohaga oid xulosalarini qiyosiy tahlil qilish;

5.dalillarga asoslangan aralashuv yondashuvlarining nazariy asoslarini aniqlash.

Tadqiqot savoli: ASBdagi nutqiy kechikishni izolyatsiyalangan til nuqsoni sifatida emas, balki ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishning erta buzilishi natijasi sifatida izohlash nazariy va empirik jihatdan qanchalik asoslangan?

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotda uchta tushuncha farqlanadi. Kommunikatsiya axborot, niyat va hissiyotlarni har qanday vosita (nigoh, imo-ishora, tovush, so‘z) yordamida ulashish jarayonidir. Til ramziy belgilar va qoidalar tizimi, nutq esa tilning individual amalga oshirilishidir. Bu farq ASB uchun tamoyilan muhim: bola nutqqa ega bo‘lmasdan kommunikativ niyatni ifodalashi mumkin, aksincha, so‘zlarni takrorlab (masalan, exolaliya orqali) kommunikativ maqsadsiz “gapirishi” ham mumkin.

DSM-5 [3] autizm, Asperger sindromi va boshqa kichik tashxislarni yagona “spektr” doirasiga birlashtirdi. Nutq buzilishi ASBning aniqlovchi mezoni emas, balki “nutq buzilishi bilan yoki bo‘lmasdan” ko‘rinishidagi belgilovchi (specifier) sifatida qayd etiladi. ICD-11 da ham funksional til holati bo‘yicha alohida belgilovchilar ko‘zda tutilgan. Bu til va kommunikatsiya darajalarining ASBdagi nisbiy mustaqilligini tan olishni bildiradi. Tarixan L. Kanner “affektiv aloqaning autistik buzilishi” tavsifida nutq xususiyatlarini (ekolaliya, olmosh almashinuvi, mutizm) ijtimoiy izolyatsiyaning ifodasi sifatida ko‘rgan. G. Asperger esa nisbatan saqlangan grammatik nutq bilan ijtimoiy-

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

pragmatik nuqsonlar birikuvini tasvirlagan. Ikkala klassik tavsif ham ASBda nutqning ijtimoiy funksiyasi birlamchi buzilishini ta'kidlaydi.

Normativ kommunikativ-nutqiy rivojlanishning nazariy asoslari

Madaniy-tarixiy yondashuv. L.S. Vygotskiyning [18] ta'limotiga ko'ra, nutq ijtimoiy o'zaro ta'sirda vujudga keladi va keyinchalik ichkilashadi. Bolaning oliy psixik funksiyalari avval kattalar bilan hamkorlikda ("yaqin rivojlanish zonasi"), so'ngra mustaqil ravishda namoyon bo'ladi [19]. Bu qoida ASB uchun muhim nazariy xulosa beradi: ijtimoiy hamkorlik buzilganda nutqning genezisi ham izdan chiqadi.

Pragmatik-ijtimoiy yondashuv. J. Bruner til o'zlashtirishni qo'llab-quvvatlash tizimi (LASS) tushunchasini ilgari surdi: ona va bola o'rtasidagi tez-tez takrorlanuvchi, bashorat qilinadigan o'yin formatlari (masalan, peek-a-boo o'yini) bolaga kommunikativ rollarni o'rgatadi. Bu formatlar ASBda ko'pincha uzilgan yoki bola tomonidan e'tiborsiz qoldiriladi.

Foydalanishga asoslangan nazariya. M. Tomasello nutqni o'zlashtirishning ikki asosiy mexanizmini ajratadi: niyatni o'qish (*intention-reading*) va andozalarni topish (*pattern-finding*). Bola so'zning ma'nosini kattalarning niyatini tushunish orqali, ya'ni birgalikdagi e'tibor doirasida o'zlashtiradi. Birgalikdagi e'tibor rivojlanmasa, so'z va predmet o'rtasidagi bog'lanish shakllanmaydi. Shu sababli birgalikdagi e'tibor til rivojlanishining asosiy ijtimoiy-kognitiv "eshigi" hisoblanadi.

Rivojlanish bosqichlari. Normativ rivojlanishda kommunikativ ketma-ketlik quyidagicha kechadi: nigoh almashinuvi va ijtimoiy tabassum (2–3 oy), turnlar almashinuvi va gu-gu tovushlar (*cooing*, 3–6 oy), jarangli bo'g'inli lallash (6–10 oy), ko'rsatuvchi imo-ishora va protodeklarativ ishoralar (9–14 oy), birinchi so'zlar (12 oy atrofida), ikki so'zli birikmalar (18–24 oy). Bu ketma-ketlik ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarning nutqdan oldin paydo bo'lishini ko'rsatadi.

Kiritish mezonlari: (a) ASB bo'lgan bolalar (0–12 yosh) haqidagi tadqiqotlar; (b) kommunikativ, til yoki nutq ko'rsatkichlariga oid natijalar; (c) hakamlik qilingan jurnal

maqolalari, monografiyalar va xalqaro tasniflar; (d) ingliz, rus yoki o‘zbek tilida nashr etilganlik. Klassik nazariy asarlar tarixiy ahamiyati sababli davr chegarasidan qat’i nazar kiritildi.

Chiqarish mezonlari: alohida klinik holatlar (kazuistik) haqidagi xabarlar, ilmiy asoslanmagan aralashuvlar haqidagi nashrlar va ASB bo‘lmagan klinik guruhlarga oid ishlar.

Tahlil. Manbalar mavzuviy sintez usulida uchta blokka guruhlandi: (1) normativ rivojlanish nazariyalari, (2) ASBning nazariy modellari va empirik xususiyatlari, (3) aralashuvlarning samaradorlik dalillari. Aralashuvlar bo‘yicha xulosalarda meta-analizlar va randomizatsiyalangan nazorat ostidagi sinovlarga ustuvorlik berildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

ASBda kommunikativ-nutqiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari

Prelingvistik davr. Prospektiv kuzatuvlar ikkinchi yoshda kommunikativ chastotaning pastligi, imo-ishoralar sonining kamligi, ismga javob bermaslik, birgalikdagi e’tibor va ko‘rsatuvchi imo-ishoraning yo‘qligi ASBning eng barqaror erta belgilaridan ekanini ko‘rsatadi. Mundy va hamkasblari ASBda noverbal kommunikatsiyaning maxsus buzilishini, ayniqsa *protodeklarativ* ishoralar (e’tiborni ulashish uchun ishora qilish) yetishmasligini aniqladilar. Bola ko‘pincha *protoimperativ* ishoralar (talab uchun) bilan cheklanadi. Bu farq ASBdagi kommunikatsiya “ijtimoiy ulashish”ga emas, “instrumental” maqsadga yo‘nalganini ko‘rsatadi.

Regressiya. ASB bo‘lgan bolalarning bir qismida (tadqiqot metodikasiga qarab, taxminan o‘ndan biridan uchdan bir qismigacha) 1–2 yoshda ilgari o‘zlashtirilgan so‘zlar va ijtimoiy ko‘nikmalarning yo‘qolishi kuzatiladi. Regressiyaning mustaqil kichik guruh tashkil etishi yoki etmasligi bo‘yicha ilmiy munozara davom etmoqda.

Til komponentlari. Til rivojlanishining heterogenligi ASBning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Kjelgaard va Tager-Flusberg uchta nutq profilini ajratdilar: normal, chegaraviy va buzilgan. Buzilgan guruhda fonologik va grammatik

ko‘rsatkichlarda spetsifik til buzilishiga o‘xshash xususiyatlar kuzatildi. Bu natija ASBda nutq buzilishini yagona sxemaga solish mumkin emasligini ko‘rsatadi.

Leksika va semantika. Lug‘at ko‘pincha konkret otlar bilan cheklanadi, mavhum, hissiy va ijtimoiy so‘zlar (masalan, “istayman”, “o‘ylayman”) kechroq o‘zlashtiriladi. *Grammatika.* Grammatik rivojlanish darajasi bolalar orasida keskin farq qiladi: ba’zilarida saqlangan, boshqalarida sezilarli darajada buzilgan. *Pragmatika.* Eng doimiy buzilgan soha: suhbatda navbat kutish, mavzuni saqlash, kontekstga mos ohangni tanlash, metafora va kinoyani tushunishdagi qiyinchiliklar ASBning “yadro” xususiyati sifatida qayd etiladi. *Prosodiya.* Monoton yoki g‘ayritabiiy ohang, nutq tezligi va urg‘u xususiyatlari ASB uchun xarakterlidir.

Exolaliya. Prizant va Duchan bevosita exolaliyaning kommunikativ funksiyalarini (navbat almashinuvi, tasdiqlash, so‘rov, o‘z-o‘zini tartibga solish) ko‘rsatib, uni oddiy “nuqson” emas, ma’noli va funksional hodisa sifatida ko‘rib chiqishni taklif qildilar. Bu nuqtai nazar amaliy ishda exolaliyani “bostirish” emas, uni rivojlantirish uchun asos sifatida ishlatishni asoslaydi.

Minimal verbal bolalar. Maktab yoshidagi bolalarning taxminan 25–30 foizida funksional nutq juda cheklangan yoki yo‘q. Bu guruh tadqiqotlarda uzoq vaqt e’tibordan chetda qolgan va ko‘pincha faqat intellektual nuqson doirasida talqin qilingan. Yangi ma’lumotlarga ko‘ra, to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlashda ularning ancha qismi nutq va alternativ kommunikatsiya vositalarini o‘zlashtiradi.

Kuhl va hamkasblari ASB bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy yuklamali nutqqa (masalan, bolalarga yo‘naltirilgan nutqqa) nisbatan ijtimoiy yuklamasi bo‘lmagan signalni afzal ko‘rishini ko‘rsatdilar. Bu afzallik nutqni qayta ishlashning miya elektr faolligi ko‘rsatkichlari va til ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq edi. Topilma ijtimoiy e’tibor va til o‘zlashtirish o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikning neyrofiziologik dalili sifatida qaraladi: bola nutqni eshitadi, lekin uni ijtimoiy signal sifatida “tanlamaydi” va shu tufayli yetarlicha o‘rganmaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Baholash va aralashuvlarning nazariy asoslari

Baholash. Kommunikativ-nutqiy rivojlanishni baholash til ko‘rsatkichlari bilan cheklanmasligi kerak. ADOS kabi standartlashtirilgan kuzatuv vositalari ijtimoiy-kommunikativ xususiyatlarni tizimli baholaydi. Shuningdek, kommunikativ niyat turlari va qo‘llaniladigan vositalarni aks ettiruvchi funksional kommunikativ profillar tuziladi.

Aralashuv paradigmalari. Tahlil qilingan manbalarda beshta asosiy yondashuv farqlandi:

1.Xulq-atvor (ABA/DTT) yondashuvi. Dastlabki tizimli yondashuv qat’iy tuzilgan, o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan mashg‘ulotlarga asoslangan. Uning asosiy tanqidi ko‘nikmalarning tabiiy sharoitga umumlashtirilmasligi bilan bog‘liq.

2.Tabiiy rivojlanish-xulq-atvor yondashuvlari (NDBI). Xulq-atvor tamoyillarini rivojlanish nazariyasi bilan uyg‘unlashtiradi, bolaning qiziqishi, tabiiy muhit va o‘yin doirasida ishlaydi. Erta Denver modeli (ESDM) bunga misol bo‘lib, randomizatsiyalangan sinovda 18–30 oylik bolalarda til va umumiy rivojlanishning yaxshilanishini ko‘rsatgan.

3.Birgalikdagi e’tibor va simvolik o‘yinga yo‘naltirilgan aralashuvlar. Kasari va hamkasblari [39] birgalikdagi e’tibor va simvolik o‘yinga qaratilgan qisqa muddatli aralashuv kommunikativ ko‘rsatkichlarda sezilarli yaxshilanish berganini ko‘rsatdi. Bu yondashuv Tomasello nazariyasi bilan izchil bog‘lanadi.

4.Transaksion modellar (SCERTS). Ijtimoiy kommunikatsiya, hissiy tartibga solish va transaksion qo‘llab-quvvatlashni birlashtiradi.

5.Alternativ va kengaytiruvchi kommunikatsiya (AKK). Rasmlar almashinuvi tizimi (PECS) va nutq hosil qiluvchi qurilmalar. Kasari va boshq. tadqiqotida minimal verbal bolalarda AKKni naturalistik xulq-atvor aralashuvi bilan birlashtirish nutqiy natijalarni yaxshilagani qayd etilgan. Bu natijalar AKK nutq rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi degan keng tarqalgan xavotirni tasdiqlamaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Dalillar sifati. Sandbank va boshq. 150 ga yaqin tadqiqotni qamragan meta-analizda erta yoshdagi bolalarga qaratilgan aralashuvlarning natijalarini baholadilar va tadqiqotlarning katta qismida tarafkashlik xavfi yuqori ekanini ta'kidladilar. Shuning uchun bitta "universal" yondashuvdan ko'ra, bolaning profiliga moslashtirilgan, ko'p komponentli dastur ilmiy jihatdan asosliroq hisoblanadi.

Muhokama

Tahlil natijalari ASBda kommunikativ-nutqiy rivojlanishni izolyatsiyalangan til hodisasi sifatida emas, balki ijtimoiy-kognitiv rivojlanishning bir qismi sifatida tushunish kerakligini ko'rsatadi. Tomasello va Bruner nazariyalari ASBga oid empirik topilmalar bilan o'zaro mos keladi: birgalikdagi e'tibor va ijtimoiy motivatsiya buzilishi til o'zlashtirishning "kirish" shartlarini zaiflashtiradi. Bu xulosa Vygotskiyning ijtimoiy hamkorlik nutq genezisining manbai ekani haqidagi tezisiga ham mos keladi.

Shu bilan birga, ASB heterogen holat ekani ehtiyotkorlikni talab qiladi. Til profillarining xilma-xilligi bitta nazariya barcha bolalarni tushuntira olmasligini bildiradi. Ong nazariyasi, ijtimoiy motivatsiya va bashoratli kodlash modellari turli darajalarni yoritadi va integrativ yondashuvni talab qiladi.

Amaliy ahamiyati. Nazariy tahlildan bir necha amaliy xulosa kelib chiqadi. Birinchidan, korreksion ishning boshlang'ich nuqtasi "nutqni chiqarish" emas, kommunikativ niyat, birgalikdagi e'tibor va ijtimoiy o'zaro ta'sirni shakllantirish bo'lishi kerak. Ikkinchidan, ekolaliya va AKK kabi hodisalar "to'sqinlik" emas, rivojlanish uchun resurs sifatida qaraladi. Uchinchidan, ota-onalarni mashg'ulotlarga jalb qilish maqsadga muvofiq, chunki kommunikativ o'rganish kundalik hayot kontekstida sodir bo'ladi. To'rtinchidan, minimal verbal bolalarga nisbatan "nutq chiqmasa, imkoniyat yo'q" degan pessimizm ilmiy jihatdan asossiz.

Cheklovlar va kelgusi tadqiqotlar. Birinchidan, dalillarning aksariyati ingliz tilida so'zlashuvchi bolalar bilan olingan. O'zbek tilining agglyutinativ tuzilishi (qo'shimchalar zanjiri, egalik va kelishik shakllari) va ikki tilli (o'zbek-rus) muhit ASB

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bo‘lgan bolalarda til o‘zlashtirishga qanday ta’sir qilishi tahlil qilingan manbalarda yetarlicha yoritilmagan. Ikkinchidan, o‘zbek tilida standartlashtirilgan diagnostik va baholash vositalarining yetishmasligi amaliy va tadqiqot ishlariga to‘sqinlik qiladi. Uchinchidan, madaniy omillar (oilaning kommunikativ uslubi, tashxisga munosabat) ta’sirini empirik o‘rganish zarur. To‘rtinchidan, narrativ sharh tizimli sharhga nisbatan manbalar tanlovidagi sub’ektivlik xavfini saqlab qoladi.

XULOSA

1.ASBda nutqiy kechikish ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishning birlamchi buzilishi bilan chambarchas bog‘liq. Kommunikatsiya, til va nutq tushunchalarini farqlash diagnostika va korreksiya strategiyasini to‘g‘ri tanlash uchun zarur.

2.Normativ rivojlanishda til o‘zlashtirish ijtimoiy hamkorlik, birgalikdagi e’tibor va niyatni o‘qish asosida shakllanadi (Vygotskiy), Bruner , Tomasello). ASBda bu poydevorning buzilishi nutqiy rivojlanishning o‘ziga xos yo‘lini belgilaydi.

3.ASB bo‘lgan bolalarda nutq komponentlari notekis rivojlanadi: pragmatika eng doimiy buzilgan soha, grammatik va leksik ko‘rsatkichlar esa bolaga qarab keskin farq qiladi. Minimal verbal bolalar alohida e’tibor talab qiladigan guruhdir.

4.ASBning nazariy modellari bir-birini to‘ldiruvchi izohlar beradi. Kommunikativ-nutqiy soha uchun ijtimoiy motivatsiya va birgalikdagi e’tibor bo‘yicha dalillar eng izchil hisoblanadi.

5.Tabiiy rivojlanish-xulq-atvor yondashuvlari, ota-onalarni jalb qiluvchi dasturlar va AKK bilan birlashtirilgan usullar ilmiy jihatdan asoslangan yo‘nalishlar qatoriga kiradi; biroq mavjud tadqiqotlarning metodologik sifati cheklangan.

6.O‘zbek tili va madaniy kontekstda ASB bo‘lgan bolalarning kommunikativ-nutqiy rivojlanishini o‘rganish keyingi empirik tadqiqotlar uchun asosiy yo‘nalish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Health Organization. Autism. Fact sheet. – Geneva: WHO, 2023. – URL: https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/autism-spectrum-disorders

2. Maenner M.J., Warren Z., Williams A.R., et al. Prevalence and characteristics of autism spectrum disorder among children aged 8 years — Autism and Developmental Disabilities Monitoring Network, 11 sites, United States, 2020 // MMWR Surveillance Summaries. – 2023. – Vol. 72(2). – P. 1–14.
3. American Psychiatric Association. Diagnostic and statistical manual of mental disorders (DSM-5). 5th ed. – Arlington, VA: American Psychiatric Publishing, 2013.
4. World Health Organization. International classification of diseases, 11th revision (ICD-11). – Geneva: WHO, 2019.
5. Tager-Flusberg H., Kasari C. Minimally verbal school-aged children with autism spectrum disorder: The neglected end of the spectrum // Autism Research. – 2013. – Vol. 6(6). – P. 468–478.
6. Baltaxe C.A.M. Pragmatic deficits in the language of autistic adolescents // Journal of Pediatric Psychology. – 1977. – Vol. 2(4). – P. 176–180.
7. Volden J., Coolican J., Garon N., White J., Bryson S. Brief report: Pragmatic language in autism spectrum disorder: Relationships to measures of ability and disability // Journal of Autism and Developmental Disorders. – 2009. – Vol. 39(2). – P. 388–393.
8. Mundy P., Sigman M., Ungerer J., Sherman T. Defining the social deficits of autism: The contribution of non-verbal communication measures // Journal of Child Psychology and Psychiatry. – 1986. – Vol. 27(5). – P. 657–669.
9. Charman T. Why is joint attention a pivotal skill in autism? // Philosophical Transactions of the Royal Society B. – 2003. – Vol. 358. – P. 315–324.
10. Dawson G., Meltzoff A.N., Osterling J., Rinaldi J., Brown E. Children with autism fail to orient to naturally occurring social stimuli // Journal of Autism and Developmental Disorders. – 1998. – Vol. 28(6). – P. 479–485.
11. Chevallier C., Kohls G., Troiani V., Brodkin E.S., Schultz R.T. The social motivation theory of autism // Trends in Cognitive Sciences. – 2012. – Vol. 16(4). – P. 231–239.
12. Kjelgaard M.M., Tager-Flusberg H. An investigation of language impairment in autism: Implications for genetic subgroups // Language and Cognitive Processes. – 2001. – Vol. 16(2–3). – P. 287–308.
13. Sandbank M., Bottema-Beutel K., Crowley S., et al. Project AIM: Autism intervention meta-analysis for studies of young children // Psychological Bulletin. – 2020. – Vol. 146(1). – P. 1–29.
14. Никольская О.С., Баенская Е.Р., Либлинг М.М. Аутичный ребёнок: пути помощи. – М.: Теревинф, 1997. (Nikolskaya O.S., Baenskaya E.R., Libling M.M. The autistic child: Ways of help).
15. Prizant B.M., Duchan J.F. The functions of immediate echolalia in autistic children // Journal of Speech and Hearing Disorders. – 1981. – Vol. 46(3). – P. 241–249.
16. Kanner L. Autistic disturbances of affective contact // Nervous Child. – 1943. – Vol. 2. – P. 217–250.
17. Asperger H. Die „Autistischen Psychopathen" im Kindesalter // Archiv für

18. Xasanova, M., & Shodmanov, Q. (2025). DIQQAT YETISHMASLIGI VA GIPERAKTIVLIK SINDROMIGA CHALINGAN BOLALARNING KLINIK VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (4), 7-7.

19. Makhammadsidiqovna, K. M. (2025). ATTENTION DEFICIT AND HYPERACTIVITY DISORDER (ADHD): PARENTAL APPROACH, THE PRACTICAL IMPORTANCE OF THE 30% RULE, AND REHABILITATION TECHNOLOGIES. *Advances in Science and Education*, *1*(7), 25-26.

20. Maxammadsidiqovna, X. M. (2026). ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA INKLYUZIV TA'LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH. *Latin American journal of education*, *6*(1), 505-513.

21. Xasanova, M., & Shodmanov, Q. (2023). Rivojlanishida nuqsoni–diqqat yetishmovchilik sindromi bor bolalarning tibbiy reabilitatsiyasi masalalari.«MAXSUS VA INKLYUZIV TA'LIM: AN'ANA, TAJRIBA VA INNOVATSIYALAR» mavzusida respublika anjumani tezislari to'plami. *Nizomiy nomidagi TDPU*, 650-653.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

NUTQ BUZILISHLARINI KORREKSIYALASH MUAMMOSINING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK VA LOGOPEDIK ADABIYOTLARDA O'RGANILISHI

Ahmadjonova Mahliyo Shuxrat qizi
Namangan davlat pedagogika institut
Maxsus pedagogika (Logopediya) II-bisqich magistranti
akhmadjonovamakhliyo0504@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolaning maqsadi nutq buzilishlarini korreksiyalash muammosining pedagogik, psixologik va logopedik adabiyotlarda o'rganilish holatini tizimli tahlil qilish, asosiy yondashuvlarni qiyosiy baholash va hal etilmagan masalalarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-chog'ishtirma tahlil, tizimlashtirish va mazmuniy (kontent) tahlil metodlaridan foydalanildi; o'zbek, rus va ingliz tillaridagi ilmiy manbalar uch yo'nalish bo'yicha guruhlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, psixologik adabiyotlarda nutq faoliyat va tafakkur bilan bog'liq yuqori psixik funksiya sifatida talqin etiladi, pedagogik manbalarda korreksiya ta'lim va tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladi, logopedik tadqiqotlarda esa buzilishlarning tuzilishi, tasnifi va tizimli korreksiya bosqichlari ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, raqamli, interaktiv va multimodal vositalarning korreksiyadagi o'rni, samaradorlikni o'lchash mezonlari hamda o'zbek tili xususiyatlarini hisobga olgan metodik ishlanmalar yetarli o'rganilmagani aniqlandi. Xulosa qilinadiki, muammoni uch fan yo'nalishi natijalarini birlashtiruvchi va zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan integrativ yondashuv asosida o'rganish maqsadga muvofiq.*

Kalit so'zlar: *nutq buzilishlari, korreksiya, logopediya, korreksion pedagogika, nutq psixologiyasi, nutqning umumiy rivojlanmaganligi, fonetik-fonematik rivojlanmaganlik, integrativ yondashuv, adabiyotlar tahlili, interaktiv texnologiyalar.*

ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ КОРРЕКЦИИ НАРУШЕНИЙ РЕЧИ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ, ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ И ЛОГОПЕДИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация: *Целью статьи является системный анализ состояния изучения проблемы коррекции нарушений речи в педагогической, психологической и логопедической литературе, сравнительная оценка основных подходов и выявление нерешённых вопросов. В исследовании применены методы теоретического анализа, сравнительно-сопоставительный анализ, систематизация и содержательный анализ; источники на узбекском, русском и английском языках сгруппированы по трём направлениям. Результаты показали, что в психологической литературе речь трактуется как высшая психическая функция, связанная с деятельностью и мышлением; в педагогических источниках коррекция рассматривается как составная часть процесса обучения и воспитания; в логопедических исследованиях разработаны структура, классификация нарушений и этапы системной коррекции. Вместе с тем выявлена*

недостаточная изученность роли цифровых, интерактивных и мультимодальных средств в коррекции, критериев измерения её эффективности, а также методических разработок с учётом особенностей узбекского языка. Сделан вывод о целесообразности интегративного подхода, объединяющего результаты трёх научных направлений и обогащённого современными технологиями.

Ключевые слова: *нарушения речи, коррекция, логопедия, коррекционная педагогика, психология речи, общее недоразвитие речи, фонетико-фонематическое недоразвитие, интегративный подход, анализ литературы, интерактивные технологии.*

THE STUDY OF THE PROBLEM OF CORRECTING SPEECH DISORDERS IN PEDAGOGICAL, PSYCHOLOGICAL AND SPEECH-THERAPY LITERATURE

Abstract: *The aim of the article is to systematically analyse how the problem of correcting speech disorders has been studied in pedagogical, psychological and speech-therapy literature, to compare the main approaches and to identify unresolved issues. The study employed theoretical analysis, comparative analysis, systematization and content analysis; sources in Uzbek, Russian and English were grouped into three research directions. The results show that psychological literature interprets speech as a higher mental function linked to activity and thinking; pedagogical sources treat correction as an integral part of teaching and upbringing; speech-therapy studies have developed the structure, classification of disorders and stages of systematic correction. At the same time, the role of digital, interactive and multimodal tools in correction, the criteria for measuring its effectiveness, and methodological developments that take the features of the Uzbek language into account remain insufficiently studied. It is concluded that the problem should be studied through an integrative approach that combines the findings of the three disciplines and is enriched with modern technologies.*

Keywords: *speech disorders, correction, speech therapy, corrective pedagogy, psychology of speech, general speech underdevelopment, phonetic-phonemic underdevelopment, integrative approach, literature review, interactive technologies.*

KIRISH

Nutq inson psixik rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va bilim olish faoliyatining asosiy vositasidir. Nutq buzilishlari bolaning muloqotga kirishishi, o'quv materialini o'zlashtirishi, o'qish va yozish ko'nikmalarini egallashi hamda tengdoshlari bilan munosabat o'rnatishida jiddiy to'siq bo'lib, shaxs shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli nutq buzilishlarini erta aniqlash va korreksiyalash maxsus pedagogika, psixologiya va logopediyaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Muammo ko'p tomonlama xarakterga ega. Psixologiya nutqning kelib chiqishi, mexanizmlari va tafakkur bilan aloqasini, pedagogika korreksiyani ta'lim-tarbiya jarayoniga joylash yo'llarini, logopediya esa buzilishlarning tasnifi, diagnostikasi va korreksiya usullarini o'rganadi. Biroq bu tadqiqotlar ko'pincha bir-biridan alohida, o'ziga xos terminologiya bilan olib boriladi; "korreksiya" tushunchasining o'zi ham turli manbalarda turlicha talqin etiladi. O'zbek tilidagi logopedik adabiyotlar esa tahlil qilingan manbalar doirasida asosan darslik va o'quv qo'llanma shaklida mavjud bo'lib, zamonaviy texnologiyalarni korreksiyaga tatbiq etish masalalari yetarli yoritilmagan.

Shu bilan birga quyidagi masalalar o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan: uch fan yo'nalishi qarashlarining yagona konseptual asosda umumlashtirilmagani; (2) korreksiya samaradorligini o'lchashning aniq mezonlari; o'zbek tili tovush va grammatik tizimining xususiyatlarini hisobga olgan korreksion yondashuvlar; (4) interaktiv va multimodal vositalarning korreksiyadagi nazariy asoslari.

Tadqiqotning maqsadi – nutq buzilishlarini korreksiyalash muammosining pedagogik, psixologik va logopedik adabiyotlarda o'rganilish holatini tahlil qilish va keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratishdir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: psixologik adabiyotlarda nutqning mohiyati va buzilish mexanizmlariga oid qarashlarni tahlil qilish; pedagogik adabiyotlarda korreksiya jarayonining tashkil etilishini yoritish; logopedik adabiyotlarda nutq buzilishlari tasnifi va korreksiya bosqichlarini tizimlashtirish; uch yo'nalishni qiyoslab, hal etilmagan masalalarni aniqlash. Tadqiqot obyekti – nutq buzilishlarini korreksiyalash jarayoni, predmeti – bu jarayonning pedagogik, psixologik va logopedik adabiyotlarda yoritilishi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

1. Tadqiqot metodlari va materiallari

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy manbalarning nazariy tahlili va sintezi; qiyosiy-chog'ishtirma tahlil; tizimlashtirish va guruhlash; mazmuniy (kontent) tahlil. Manbalar bazasini o'zbek, rus

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

va ingliz tillaridagi monografiyalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar tashkil etdi. Manbalarni tanlashda uchta mezonga tayanildi: (a) nutq rivojlanishi yoki nutq buzilishlari nazariyasiga bevosita aloqadorligi; (b) korreksiya, kompensatsiya yoki abilitatsiya masalalarini yoritishi; (v) tegishli fan sohasida fundamental va keng e'tirof etilgan asar hisoblanishi. Tahlil uch yo'nalish – psixologik, pedagogik va logopedik – bo'yicha olib borildi va har bir yo'nalishda uch savolga javob izlandi: nutq qanday talqin etiladi; buzilish qanday tushuntiriladi; korreksiya qanday tashkil etiladi. Maqola adabiyotlar sharhi xarakterida bo'lgani uchun unda eksperimental ma'lumotlar keltirilmaydi.

2. Muammoning psixologik asoslari

Psixologik adabiyotlarda nutqning mohiyati va rivojlanishi masalasi L.S. Vigotskiy tadqiqotlarida fundamental nazariy asosga ega bo'ldi. Uning fikricha, nutq dastlab muloqot vositasi sifatida ijtimoiy o'zaro ta'sirda shakllanadi, so'ngra ichki nutqqa aylanib tafakkur vositasiga o'tadi; tafakkur va nutqning genetik ildizlari turlicha bo'lib, bola rivojlanishining muayyan bosqichida ular o'zaro qo'shiladi. Olimning yaqin rivojlanish zonasi va nuqsonli rivojlanishda ijtimoiy kompensatsiya haqidagi g'oyalari nutq buzilishlarini korreksiyalashda kattalar yordami va maxsus tashkil etilgan muhitning hal qiluvchi ahamiyatini asoslab beradi.

A.R. Luriya nutqni miya tuzilmalarining tizimli faoliyati natijasi hamda xulq-atvorni tartibga soluvchi va rejalashtiruvchi omil sifatida o'rgandi; afaziyalarning neyropsixologik tahlili nutq buzilishi mexanizmlarini ochish va korreksiyani buzilgan bo'g'inga yo'naltirish uchun asos bo'ldi. N.I. Jinkin nutq mexanizmlarida kinestetik teskari aloqaning rolini va mazmunni kodlash hamda qayta kodlash jarayonlarini tahlil qildi; A.A. Leontyev esa nutqni motiv, niyat, ichki dasturlash, amalga oshirish va nazorat bosqichlaridan iborat faoliyat sifatida talqin etdi. Bu qarashlar nutq buzilishini faqat artikulyatsiya nuqsoni emas, balki nutq faoliyatining muayyan bo'g'ini izdan chiqishi sifatida baholash imkonini beradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Xorijiy psixologiyada nutq rivojlanishiga turlicha yondashuvlar shakllangan. J. Piaje bolaning egosentrik nutqini aqliy rivojlanishning ma'lum bosqichiga xos hodisa deb hisoblab, yosh ulg'aygani sari uning ijtimoiylashgan nutqqa almashinishini ta'kidlagan [8]; L.S. Vigotskiy esa egosentrik nutqni ichki nutqqa o'tish bosqichi sifatida izohlagan. B. Skinner nutqni takrorlash va mustahkamlash orqali shakllanadigan verbal xulq deb talqin qildi, bu qarash keyinchalik xulqiy usullarga asoslangan korreksion dasturlarning nazariy tayanchi bo'ldi. J. Bruner esa bolaning tilni egallashida kattalar bilan muloqotning barqaror shakllari – til o'zlashtirishni qo'llab-quvvatlash tizimi – hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Demak, psixologik adabiyotlar korreksiyaning nazariy poydevorini yaratadi: nutq ijtimoiy-faoliyatli hodisa bo'lib, uni rivojlantirish uchun muloqot muhiti, faoliyat va yetakchi ruhiy jarayonlarga tayanish zarur.

3. Pedagogik adabiyotlarda korreksiya muammosi

Pedagogik yo'nalishda korreksiya nutq rivojlanishidagi og'ishlarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik ta'sir tizimi sifatida qaraladi. D.B. Elkonin o'yinni maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati sifatida asoslab, rolli o'yin orqali bolaning ijtimoiy munosabatlari, nutqi va ixtiyoriy xulqi rivojlanishini ko'rsatdi. E.M. Mastyukova rivojlanishida muammosi bo'lgan erta va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishni ta'lim, tarbiya va tibbiy tadbirlarning birligi sifatida asosladi. L.S. Volkova tahriridagi logopediya darsligida esa logopediya maxsus pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi va korreksion ish pedagogik jarayonning tamoyillari asosida tashkil etiladi.

Pedagogik manbalarda umumdidaktik tamoyillar – tizimlilik, izchillik, faollik, ko'rgazmalilik – bilan bir qatorda korreksion ishga xos tamoyillar ham ajratiladi: ta'lim va tarbiya birligi, individual-differensial yondashuv, korreksiya va rivojlantirishning uzviyligi, oila bilan hamkorlik. V.I. Seliverstov logopedik ishda o'yin usullarini nutq buzilishi bor bolalarning motivatsiyasi va faolligini oshiruvchi vosita sifatida

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tizimlashtirdi. Shunday qilib, pedagogik adabiyotlar korreksiyaning tashkiliy-metodik jihatini – qanday sharoitda va qaysi usullar bilan olib borilishini – yoritadi.

4. Logopedik adabiyotlarda nutq buzilishlari va ularni korreksiyalash

R.E. Levina rahbarligidagi ilmiy maktab nutq buzilishlarining psixologik-pedagogik tasnifini ishlab chiqdi va nutqning umumiy rivojlanmaganligi (NUR) tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, uning uchta darajasini ajratdi. Keyinchalik T.B. Filicheva va G.V. Chirkina to'rtinchi – nutqning yengil ifodalangan rivojlanmaganligi – darajasini asoslab, bosqichma-bosqich korreksiya tizimini ishlab chiqdi. Logopedik adabiyotlarda og'zaki nutq buzilishlari ovoz (disfoniya, afoniya), temp-ritm (tahilaliya, bradilaliya, duduqlanish), talaffuz (dislaliya, rinolaliya, dizartriya) va tizimli (alaliya, afaziya) buzilishlarga, yozma nutq buzilishlari esa disleksiya va disgrafiyaga ajratiladi.

T.A. Tkachenko maktabgacha yoshdagi bolalar nutqidagi nuqsonlarni tizimli tahlil qilib, korreksion ishni fonematik idrok, lug'at, grammatik qurilish va bog'lanishli nutqni uzviy rivojlantirishga asosladi. R.I. Lalaeva va N.V. Serebryakova NURi bor bolalarda leksika va grammatik qurilishni shakllantirishning aniq metodik tizimini taklif etdi. Nutqni tekshirish va diagnostika metodlari G.V. Chirkina tahriridagi qo'llanmada tizimlashtirilgan. Xorijiy logopedik adabiyotlarda C. Van Riper va L. Emerick talaffuz korreksiyasining an'anaviy bosqichlarini – sensor-perseptiv mashq, tovushni hosil qilish, mustahkamlash va nutqqa ko'chirish – asoslab berdi; J. Bernthal va N. Bankson fonologik jarayonlarga asoslangan yondashuvlarni (masalan, minimal juftliklar usulini) tizimlashtirdi; R. Paul va C. Norbury esa til va muloqot buzilishlarini, jumladan autizm spektri bilan bog'liq muloqot muammolarini dalillarga asoslangan intervensiya nuqtai nazaridan yoritdi.

O'zbek tilidagi logopedik adabiyotlarda nutq buzilishlarining turlari, sabablari, diagnostikasi va korreksiya yo'nalishlari o'quv adabiyoti doirasida tizimlashtirilgan; tahlil qilingan manbalar doirasida ularning aksariyati rus logopediya maktabi tamoyillariga tayanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Adabiyotlar tahlili natijalari 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Nutq buzilishlarini korreksiyalash muammosiga psixologik, pedagogik va logopedik yondashuvlarning qiyosiy tavsifi

Yo'nalish	Asosiy vakillar	Muammoga yondashuv	Cheklovlar
Psixologik	L.S. Vigotskiy, A.R. Luriya, N.I. Jinkin, A.A. Leontyev, J. Piaje, B. Skinner, J. Bruner	Nutq – ijtimoiy kelib chiqishga ega yuqori psixik funksiya va faoliyat turi; buzilish nutq faoliyati bo'g'inlari, miya mexanizmlari yoki muloqot muhiti bilan izohlanadi	Nazariy xarakter ustun; to'g'ridan-to'g'ri korreksion metodikaga o'tkazish imkoniyati cheklangan; nazariyalar o'rtasida munozarali masalalar saqlanib qoladi
Pedagogik	D.B. Elkonin, E.M. Mastyukova, L.S. Volkova, V.I. Seliverstov	Korreksiya – ta'lim va tarbiya jarayonining tarkibiy qismi; o'yin, individual yondashuv va oila bilan hamkorlik muhim hisoblanadi	Nutq buzilishining o'ziga xos tuzilishi yetarli hisobga olinmaydi; samaradorlik mezonlari aniq emas

Yo'nalish	Asosiy vakillar	Muammoga yondashuv	Cheklovlar
Logopedik	R.E. Levina, T.B. Filicheva, G.V. Chirkina, T.A. Tkachenko, R.I. Lalaeva, C. Van Riper, J. Bernthal, N. Bankson, R. Paul, C. Norbury	Buzilish tuzilishi, tasnifi, diagnostikasi va bosqichli tizimli korreksiya ishlab chiqilgan	Asosan slavyan va ingliz tillari materialiga tayanadi; o'zbek tili xususiyatlariga moslashtirish va raqamli vositalarni qo'llash kam yoritilgan

Manba: muallif tahlili asosida tuzilgan.

Tahlil uch yo'nalish o'rtasida umumiy nuqtalar borligini ko'rsatdi. Birinchidan, barcha yo'nalishlarda nutq alohida ajratilgan ko'nikma emas, balki faoliyat va muloqot tarkibidagi hodisa sifatida qaraladi. Ikkinchidan, korreksiya bolaning rivojlanishiga yo'naltirilgan jarayon sifatida tushuniladi, ya'ni faqat nuqsonni bartaraf etish emas, balki ruhiy jarayonlarni birgalikda rivojlantirish nazarda tutiladi. Uchinchidan, tizimlilik, bosqichma-bosqichlik va kompleks yondashuv umumiy talab sifatida ilgari suriladi. Farqlar esa savollar doirasida namoyon bo'ladi: psixologiya "nega shunday buziladi" degan savolga, pedagogika "qanday sharoitda va qaysi usullar bilan o'qitiladi" degan savolga, logopediya esa "nimani va qaysi ketma-ketlikda tuzatish kerak" degan savolga javob izlaydi.

Shu bilan birga, tahlil quyidagi bo‘shliqlarni aniqladi:

1. Terminologik aniqlikning yetishmasligi – “korreksiya”, “kompensatsiya”, “abilitatsiya” va “reabilitatsiya” tushunchalari turli manbalarda har doim ham aniq farqlanmagan holda qo‘llanadi;

2. Tahlil qilingan manbalarda samaradorlik, asosan, sifat tavsiflari orqali baholanadi, obyektiv va takrorlanuvchi ko‘rsatkichlar hamda statistik tahlil esa kam uchraydi;

3. O‘zbek tilining agglyutinativ tuzilishi, qo‘shimchalar tizimi hamda o‘zbek tiliga xos tovushlar (o‘, g‘, q, x, h, ng) slavyan va ingliz tillari materiallariga asoslangan usullarni mexanik ravishda ko‘chirishni cheklaydi hamda fonematik tasavvur va grammatik qurilishni korreksiyalashda alohida yondashuvni talab etadi;

4. Klassik manbalarning katta qismi raqamli texnologiyalar keng tarqalishidan oldin yaratilgan. Shu sababli interaktiv va multimodal vositalardan korreksiya jarayonida foydalanishning nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan;

5. Autizm spektri kabi geterogen guruhlarda muloqot bilan bog‘liq buzilishlar artikulyatsiyadan tashqari kommunikativ-pragmatik jihatlarni ham qamrab oladi. Bunday holatlarda faqat talaffuzga yo‘naltirilgan an’anaviy modellar yetarli bo‘lmaydi.

Muhokama. Yuqoridagi natijalar nutq buzilishlarini korreksiyalash muammosini uch yo‘nalish natijalarini birlashtiruvchi integrativ model asosida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Bunday modelning asosiy tamoyillarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. **Psixologik asos** – nutqni faoliyat va muloqot sifatida talqin qilish, diagnostikani nutq faoliyatining tarkibiy bo‘g‘inlari bo‘yicha olib borish;

2. **Pedagogik tashkil etish** – o‘yin, individual yondashuv, ta’lim va tarbiya birligi hamda oila bilan hamkorlikka tayanish;

3. **Logopedik mazmun** – korreksiyani bosqichma-bosqich tashkil etish, fonematik idrok, talaffuz, lug‘at boyligi, grammatik qurilish va bog‘lanishli nutqni rivojlantirishni izchil amalga oshirish;

4. **Texnologik boyitish** – interaktiv va multimodal vositalardan ko‘rish, eshitish va harakat kanallarini birgalikda faollashtiruvchi qo‘shimcha imkoniyat sifatida foydalanish. Bunday vositalarning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali tekshirilishi lozim;

5. **Monitoring** – boshlang‘ich va yakuniy diagnostika hamda miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida natijalarni baholash.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, u adabiyotlar sharhi xarakteriga ega va tanlangan manbalar doirasi bilan cheklangan. Keyingi bosqichda taklif etilayotgan integrativ yondashuvni o'zbek tili materialida tajriba-sinov orqali tekshirish ko'zda tutiladi.

XULOSA

Nutq buzilishlarini korreksiyalash muammosining pedagogik, psixologik va logopedik adabiyotlarda o'rganilishi tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. Birinchidan, psixologik adabiyotlar nutqning ijtimoiy-faoliyatli mohiyatini va uning buzilish mexanizmlarini ochib berib, korreksiyaning nazariy asosini yaratgan. Ikkinchidan, pedagogik adabiyotlar korreksiyani ta'lim va tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida tashkil etish tamoyillari va usullarini (o'yin, individual yondashuv, oila bilan hamkorlik) asoslagan. Uchinchidan, logopedik adabiyotlarda nutq buzilishlari tasnifi, diagnostikasi va bosqichli tizimli korreksiya ishlab chiqilgan, biroq u asosan slavyan va ingliz tillari materialiga tayanadi.

To'rtinchidan, terminologik aniqlik, samaradorlik mezonlari, o'zbek tili xususiyatlarini hisobga olgan metodikalar hamda interaktiv va multimodal vositalarning nazariy asoslari yetarli ishlab chiqilmagan. Shu sababli muammoni uch yo'nalish natijalarini birlashtirgan integrativ yondashuv asosida, zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlari bilan boyitib o'rganish va uni tajriba-sinovda tekshirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Левина Р.Е. (ред.). Основы теории и практики логопедии. – М.: Просвещение, 1968.
2. Волкова Л.С. (ред.). Логопедия: учебник для студентов дефектологических факультетов педагогических вузов. – М.: Владос, 2003.
3. Ayupova M.Yu. Logopediya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
4. Выготский Л.С. Мышление и речь // Собрание сочинений: в 6 т. Т. 2. – М.: Педагогика, 1982.
5. Лурия А.Р. Язык и сознание. – М.: Изд-во МГУ, 1979.
6. Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – М.: Наука, 1982.

7. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – М.: Смысл, 1997.
8. Piaget J. The Language and Thought of the Child. – London: Routledge & Kegan Paul, 1926.
9. Skinner B.F. Verbal Behavior. – New York: Appleton-Century-Crofts, 1957.
10. Bruner J. Child's Talk: Learning to Use Language. – New York: W.W. Norton, 1983.
11. Эльконин Д.Б. Психология игры. – М.: Педагогика, 1978.
12. Мастюкова Е.М. Лечебная педагогика (ранний и дошкольный возраст). – М.: Владос, 1997.
13. Селиверстов В.И. Игры в логопедической работе с детьми. – М.: Просвещение, 1987.
14. Филичева Т.Б., Чевелева Н.А., Чиркина Г.В. Основы логопедии. – М.: Просвещение, 1989.
15. Ткаченко Т.А. Если дошкольник плохо говорит. – СПб.: Акцидент, 1997.
16. Лалаева Р.И., Серебрякова Н.В. Формирование лексики и грамматического строя у дошкольников с общим недоразвитием речи. – СПб.: Союз, 2001.
17. Xasanova, M., & Shodmanov, Q. (2025). DIQQAT YETISHMASLIGI VA GIPERAKTIVLIK SINDROMIGA CHALINGAN BOLALARNING KLINIK VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (4), 7-7.
18. Makhammadsidiqovna, K. M. (2025). ATTENTION DEFICIT AND HYPERACTIVITY DISORDER (ADHD): PARENTAL APPROACH, THE PRACTICAL IMPORTANCE OF THE 30% RULE, AND REHABILITATION TECHNOLOGIES. *Advances in Science and Education*, *1*(7), 25-26.
19. Maxammadsidiqovna, X. M. (2026). ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA INKLYUZIV TA'LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH. *Latin American journal of education*, *6*(1), 505-513.
20. Xasanova, M., & Shodmanov, Q. (2023). Rivojlanishida nuqsoni–diqqat yetishmovchilik sindromi bor bolalarning tibbiy reabilitatsiyasi masalalari.«MAXSUS VA INKLYUZIV TA'LIM: AN'ANA, TAJRIBA VA INNOVATSIYALAR» mavzusida respublika anjumani tezislari to'plami. *Nizomiy nomidagi TDPU*, 650-653.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ZAMONAVIY RANGTASVIR KOMPOZITSIYASIDA RANG, RITM VA KONTRASTNING BADIIY IFODAVIY IMKONIYATLARI

Yuldashev Sarvar Abdurazzokovich
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,
Rangtasvir kafedrasi katta o'qituvchisi sarvar.artsar@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy rangtasvir kompozitsiyasining muhim tarkibiy unsurlari bo'lgan rang, ritm va kontrastning badiiy-ifodaviy imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Rangtasvirda mazkur vositalarning har biri alohida estetik vazifani bajarishi bilan birga, ular o'zaro uzviy munosabatga kirishgan holda asarning kompozitsion yaxlitligi, semantik mazmuni, emotsional ta'sir kuchi va vizual dinamikasini belgilashi asoslanadi. Zamonaviy san'at jarayonid.a rangning predmetning tashqi belgisini ifodalash vositasidan mustaqil plastik va semantik komponentga aylanishi, ritmning esa faqat takrorlanish emas, balki ko'rish jarayonini boshqaruvchi dinamik tizim sifatida namoyon bo'lishi yoritiladi. Shuningdek, kontrastning rang, yorug'-to'q, issiq-sovuq, katta-kichik, zich-bo'sh, statik-dinamik va fakturaviy qarama-qarshilik shakllari kompozitsion markazni shakllantirish, fazoviy chuqurlikni kuchaytirish hamda tomoshabinning vizual idrokini faollashtirishdagi roli tahlil qilinadi. Maqolada rang, ritm va kontrastning o'zaro uyg'unligi zamonaviy rangtasvirda badiiy obraz yaratishning muhim mexanizmi sifatida talqin etiladi.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy rangtasvir, kompozitsiya, rang, rang munosabatlari, ritm, kontrast, koloristik yechim, vizual idrok, badiiy obraz, kompozitsion muvozanat, plastik ifoda, rangtasvir estetikasi, fazoviy tashkil etish, badiiy yaxlitlik.*

ХУДОЖЕСТВЕННО-ВЫРАЗИТЕЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЦВЕТА, РИТМА И КОНТРАСТА В КОМПОЗИЦИИ СОВРЕМЕННОЙ ЖИВОПИСИ

Аннотация: *В данной статье проводится научно-теоретический анализ художественно-выразительных возможностей цвета, ритма и контраста как важнейших структурных элементов композиции современной живописи. Обосновывается положение о том, что каждый из указанных средств выполняет самостоятельную эстетическую функцию, однако в процессе взаимосвязи они определяют композиционную целостность произведения, его семантическое содержание, эмоциональную силу воздействия и визуальную динамику. Рассматривается трансформация цвета в современном художественном процессе: от средства передачи внешних характеристик предмета до самостоятельного пластического и семантического компонента. Раскрывается также сущность ритма, который проявляется не только в повторении элементов, но и выступает в качестве динамической системы, направляющей зрительное восприятие. Кроме того, анализируется роль различных форм контраста — цветового, светотеневого, теплохолодного, масштабного, плотностного, статико-динамического и*

фактурного — в формировании композиционного центра, усилении пространственной глубины и активизации визуального восприятия зрителя. В статье взаимосвязь и гармоничное сочетание цвета, ритма и контраста рассматриваются как важнейший механизм создания художественного образа в современной живописи.

Ключевые слова: *современная живопись, композиция, цвет, цветовые отношения, ритм, контраст, колористическое решение, визуальное восприятие, художественный образ, композиционное равновесие, пластическая выразительность, эстетика живописи, пространственная организация, художественная целостность.*

THE ARTISTIC AND EXPRESSIVE POSSIBILITIES OF COLOR, RHYTHM, AND CONTRAST IN CONTEMPORARY PAINTING COMPOSITION

Abstract: *This article provides a scientific and theoretical analysis of the artistic and expressive possibilities of color, rhythm, and contrast as essential components of contemporary painting composition. It establishes that, while each of these elements performs a distinct aesthetic function, their interaction determines the compositional unity, semantic content, emotional impact, and visual dynamics of an artwork. The article examines how, in contemporary artistic practice, color has evolved from a means of representing the external characteristics of objects into an independent plastic and semantic component, while rhythm manifests itself not merely as repetition but as a dynamic system that guides the process of visual perception. Furthermore, the role of contrast in its various forms—including chromatic, light-dark, warm-cool, large-small, dense-sparse, static-dynamic, and textural contrasts—is analyzed in terms of its contribution to establishing the compositional focal point, enhancing spatial depth, and stimulating the viewer's visual perception. The article interprets the interplay of color, rhythm, and contrast as a fundamental mechanism for creating artistic imagery in contemporary painting.*

Keywords: *contemporary painting, composition, color, color relationships, rhythm, contrast, coloristic solution, visual perception, artistic image, compositional balance, plastic expression, painting aesthetics, spatial organization, artistic unity.*

KIRISH

Zamonaviy rangtasvir san'atining rivojlanish jarayoni tasviriy ifodaning an'anaviy me'yorlari bilan cheklanib qolmay, rassomning rang, shakl, makon, ritm, faktura va kontrast kabi plastik vositalarga yangicha munosabatini shakllantirmoqda. Bugungi rangtasvirda kompozitsiya faqat tasviriy unsurlarni ma'lum bir yuzada joylashtirish texnikasi emas, balki ko'rish jarayonini tashkil qiluvchi murakkab badiiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bunda rang, ritm va kontrast asarning tashqi ko'rinishini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

belgilaydigan ikkilamchi vositalar emas, balki uning ichki tuzilishi va mazmuniy yo‘nalishini shakllantiruvchi faol omillardir. Kompozitsiyaning muvozanati ham faqat geometrik markaz yoki simmetriya bilan belgilanmaydi; ranglarning vizual og‘irligi, shakllarning o‘lchami, joylashuvi, yorqinligi va kontrast darajasi ham tomoshabinning asarni qanday qabul qilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy kompozitsiyani idrok etishda vizual muvozanat elementlarning o‘lchami, joylashuvi, shakli, yo‘nalishi va rangiga bog‘liq ekanligi zamonaviy eksperimental tadqiqotlarda ham ko‘rsatilgan. Rangning rangtasvirdagi ahamiyatini faqat uning predmetni real tasvirlash imkoniyati bilan chegaralash zamonaviy badiiy tafakkur uchun yetarli emas. Rang asarning emotsional, psixologik va semantik tuzilishini belgilovchi mustaqil vositaga aylangan. Masalan, qizil rang faollik, keskinlik yoki dramatik holatni yuzaga keltirishi mumkin, ko‘k rang esa masofa, sokinlik, sovuqlik yoki tafakkur holatini kuchaytirishi ehtimol. Biroq rangning badiiy ma’nosi uning mutlaq psixologik xususiyatidan emas, avvalo boshqa ranglar bilan munosabatidan kelib chiqadi. Shuning uchun rangtasvirda muayyan rangni alohida emas, balki umumiy koloristik tizim ichida tahlil qilish ilmiy jihatdan to‘g‘riroqdir. Rangning yana bir muhim xususiyati uning fazoni tashkil etish imkoniyatidir. Issiq va sovuq ranglarning qarama-qarshiligi, och va to‘q ranglarning nisbatlari, neytral va faol ranglarning o‘zaro munosabati tasviriy yuzada fazoviy yaqinlik yoki uzoqlik taassurotini shakllantirishi mumkin. Bu hodisa, ayniqsa, abstrakt va shartli rangtasvirda muhim ahamiyatga ega, chunki realistik perspektiva zaiflashgan yoki butunlay yo‘qolgan sharoitda rangning o‘zi fazoviy munosabatlarni tashkil etuvchi omilga aylanadi. Ranglarning o‘zaro kontrasti tomoshabinda shakl va fon, oldingi va keyingi plan, markaz va periferiya kabi munosabatlarni idrok qilishga yordam beradi. Shu sababli rangtasvir kompozitsiyasida rangni fazoviy kategoriya sifatida ham o‘rganish zarur. Rang va makon munosabati ayniqsa abstrakt rangtasvirda yaqqol ko‘rinadi: rang elementlari o‘rtasidagi farq tasvir maydonida figura va fon munosabatini, shuningdek, fazoviy qatlamlarni hosil qilishi mumkin.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Rangning ifodaviy imkoniyatlari ritm bilan bog‘langanda yanada murakkab tus oladi. Ritm rangtasvirda ma’lum bir elementning mexanik takrorlanishi emas. U rang dog‘lari, shakllar, chiziqlar, fakturalar, intervallar yoki yorug‘lik-to‘qlik nisbatlarining takrorlanishi, almashinishi va o‘zgarishi orqali yuzaga keladigan dinamik munosabatdir. Ritmning mavjudligi tomoshabinning nigohini kompozitsiya bo‘ylab harakatlantiradi va uning asarni bir nuqtada to‘xtab qolmasdan yaxlit tizim sifatida qabul qilishiga sharoit yaratadi. Rangtasvir kompozitsiyasida ritm muntazam, notekis, progressiv, pulsatsiyalanuvchi yoki uzilib-qaytuvchi shaklda namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, bir xil kattalikdagi rang dog‘larining teng masofada joylashishi barqaror va sokin ritmni yuzaga keltirsa, ularning hajmi, rang intensivligi yoki oralig‘ining bosqichma-bosqich o‘zgarishi kompozitsiyaga harakat va rivojlanish hissini beradi. San’atshunoslik tadqiqotlarida ham shakllarning takrorlanishi boshqa tasviriy shakllar bilan o‘zaro munosabatda ritmik tuzilmani yuzaga keltirishi va bu jarayon asosiy hamda ikkilamchi kompozitsion munosabatlarni ajratishga xizmat qilishi ko‘rsatilgan.

Ritmning o‘ziga xos jihati shundaki, u tasviriy makonda vaqt hissini yuzaga chiqarishi mumkin. Rangtasvir jismonan statik san’at turi bo‘lsa-da, undagi ritmik takrorlar tomoshabinning nigoh harakatini tashkil etadi. Natijada bir qarashda harakatsiz ko‘ringan kompozitsiya idrok jarayonida dinamik xususiyat kasb etadi. Masalan, diagonallar bo‘ylab takrorlanuvchi rang dog‘lari nigohni bir yo‘nalishda olib borishi, vertikal elementlarning ketma-ketligi esa yuqoriga yoki pastga yo‘nalgan vizual harakatni kuchaytirishi mumkin. Shu jihatdan ritm kompozitsiyaning ichki “vaqti”ni tashkil qiluvchi vosita sifatida qaralishi mumkin. Ayniqsa zamonaviy abstrakt rangtasvirda ritm shaklning o‘zidan ko‘ra rang va interval munosabatlari orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Piet Mondrian ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham rangli va rangsiz tekisliklar, chiziqlar, ularning proporsiyasi va



intervallari o‘rtasidagi munosabatlar muvozanat va ritmni yuzaga keltirishi tahlil qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Rang va ritmning o‘zaro aloqasi kompozitsiyaning emotsional kuchini ham belgilaydi. Agar bir xil rang turli joylarda takrorlansa, u kompozitsiyaning turli qismlarini semantik jihatdan bog‘laydi. Masalan, asarning markaziy qismidagi qizil rang periferik hududdagi kichik qizil dog‘ bilan takrorlansa, ushbu rang ikki makon o‘rtasida vizual aloqa o‘rnatadi. Natijada tomoshabinning nigohi markazdan periferiyaga va yana markazga qaytishi mumkin. Bu jarayon kompozitsion yaxlitlikni mustahkamlaydi. Demak, rangning ritmik qo‘llanilishi nafaqat bezak vazifasini, balki kompozitsiyaning ichki qismlarini bog‘lash vazifasini ham bajaradi. Rangni olib tashlab, asarning ritmik tuzilishini tekshirish mumkinligi haqidagi tadqiqotlar ham rangning ritm tizimida faol komponent ekanini ko‘rsatadi. Kontrast esa rang, ritm va kompozitsion tuzilish o‘rtasidagi munosabatlarni keskinlashtiruvchi muhim vositadir.

Rang kontrasti ayniqsa zamonaviy rangtasvirda kuchli ifodaviy imkoniyatga ega. Komplementar ranglarning yonma-yon qo‘yilishi vizual zo‘riqish va optik faollikni kuchaytiradi. Issiq va sovuq ranglarning qarama-qarshiligi esa fazoviy va psixologik dinamika hosil qilishi mumkin. Bunda kontrastning badiiy samarasi uning kuchi bilangina emas, balki maydoniy nisbat bilan ham belgilanadi. Katta hajmdagi sust rang maydoni ichida kichik hajmdagi faol rang dog‘i kompozitsion markaz vazifasini bajarishi mumkin. Aksincha, bir xil intensivlikdagi ranglarning katta maydonda tarqalishi diqqat markazini bir necha nuqtaga bo‘lib yuboradi. Shunday qilib, kontrastni faqat “ikki rangning farqi” sifatida emas, balki rang, maydon, nisbat va vizual og‘irlikning murakkab munosabati sifatida talqin qilish zarur. Zamonaviy rangtasvirning muhim xususiyatlaridan biri kontrastning faqat rang doirasida emas, balki turli plastik kategoriyalar o‘rtasida ham yuzaga kelishidir. Masalan, silliq fakturaga qarshi qo‘pol faktura, geometrik shaklga qarshi erkin gestual iz, katta massaga qarshi kichik detal, zich

kompozitsion hududga qarshi bo‘sh fazo, gorizontal yo‘nalishga qarshi diagonal yo‘nalish qo‘yilishi mumkin. Bunday kontrastlar asarning plastik tuzilishini boyitib, tomoshabinning vizual tajribasini murakkablashtiradi. Natijada rangtasvirning ifodaviy imkoniyati bitta vositaga emas, bir necha vositaning o‘zaro ta’siriga tayanadi.

Rang, ritm va kontrastning badiiy kuchi ularning alohida mavjudligidan ko‘ra o‘zaro integratsiyasida namoyon bo‘ladi. Rang ritmni hosil qilishi, ritm kontrastning takrorlanish tizimini tashkil qilishi, kontrast esa rang va ritmning ayrim qismlarini ajratib ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli zamonaviy kompozitsiyada bu uch vositani bir-biridan mustaqil holda tahlil qilish metodologik jihatdan cheklangan natijaga olib keladi. Masalan, rassom bir nechta qizil rangli shaklni turli o‘lchamlarda takrorlasa, bu bir vaqtning o‘zida rang ritmini, o‘lcham ritmini va kontrastning dinamik tizimini yaratadi. Shakllar kattalashgani sari ritmik rivojlanish yuzaga keladi, qizil rangning neytral fon bilan qarama-qarshiligi esa kompozitsion faollikni oshiradi. Demak, bitta plastik yechimning o‘zida bir vaqtning o‘zida bir nechta badiiy mexanizm faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Zamonaviy rangtasvirda ushbu vositalarning qo‘llanishi rassomning ijodiy maqsadiga bog‘liq holda turlicha bo‘ladi. Realistik yo‘nalishda rang ko‘proq borliqning ko‘rinish xususiyatlarini ifodalashga xizmat qilishi mumkin bo‘lsa, modernistik va abstrakt tajribalarda rang real predmetdan mustaqil ravishda badiiy mazmun tashuvchisiga aylanishi mumkin. Bu jarayon rangtasvir tarixida rangning predmetni “tasvirlash” vositasidan tasviriy makonni “qurish” vositasiga aylanishi bilan bog‘liq. Shu sababli zamonaviy rassom uchun rangning fizik yoki optik xususiyatlarini bilishning o‘zi yetarli emas; uning kompozitsion, psixologik, semantik va kommunikativ imkoniyatlarini ham anglash talab etiladi. Ayniqsa abstrakt rangtasvirda tomoshabinga tayyor syujet yoki aniq predmet taklif qilinmaganligi sababli kompozitsion mazmun rang, shakl, ritm va kontrast o‘rtasidagi munosabatlardan hosil bo‘ladi. Bunday sharoitda rangtasvirning “mazmuni” ko‘pincha tasvirlangan narsada emas, balki elementlar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zida shakllanadi.

Tomoshabin asarni idrok etish jarayonida avvalo umumiy rang maydonini, keyin esa kontrastli yoki ritmik jihatdan faol qismlarni ajratishi mumkin. Ko‘rish diqqati bunday kompozitsion belgilar yordamida bir nuqtadan ikkinchisiga o‘tadi. Shuning uchun rassomning vazifasi faqat ranglarni chiroyli tanlash emas, balki tomoshabinning nigoh yo‘nalishini ongli ravishda tashkil etishdan iborat. Ranglar orasidagi kuchli farq e’tibor markazini yaratadi, ritmik takrorlanish nigoh harakatini davom ettiradi, kontrastning susayishi esa ko‘rish jarayonini tinchlantiruvchi yoki yakunlovchi hududni hosil qiladi. Shu ma’noda kompozitsiya vizual kommunikatsiyaning o‘ziga xos mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy jihatdan qaralganda, zamonaviy rangtasvir kompozitsiyasida rang, ritm va kontrastni o‘rganish tizimli yondashuvni talab etadi. Rangni faqat koloristika, ritmni faqat takrorlanish, kontrastni esa faqat qarama-qarshilik sifatida o‘rganish ularning badiiy imkoniyatlarini toraytiradi. Ularni yaxlit kompozitsion tizimning o‘zaro bog‘langan elementlari sifatida tahlil qilish orqali asarning plastik va semantik tuzilishini chuqurroq anglash mumkin. Ayniqsa zamonaviy san’atda an’anaviy tasviriy mezonlarning o‘zgarishi rassomga rang va shakl o‘rtasidagi odatiy munosabatlarni buzish, ritmni beqarorlashtirish, kontrastni kuchaytirish yoki aksincha, uni minimal darajaga tushirish imkonini beradi. Bu holat badiiy ifodaning yo‘qligini emas, balki ifoda mexanizmlarining murakkablashganini anglatadi. Zamonaviy san’atda “qoidani buzish”ning o‘zi ham ma’lum badiiy maqsadga bo‘ysundirilgan kompozitsion strategiya bo‘lishi mumkin.

XULOSA

Zamonaviy rangtasvir kompozitsiyasida rang, ritm va kontrast badiiy ifodaning bir-birini to‘ldiruvchi, o‘zaro shartlangan va yaxlit tizimni tashkil etuvchi asosiy vositalaridan hisoblanadi. Rang kompozitsiyaning emotsional va semantik asosini shakllantirib, tasviriy makonni tashkil etadi hamda tomoshabinning psixologik qabuliga ta’sir ko‘rsatadi. Ritm rang, shakl, chiziq va fakturalarning takrorlanishi hamda o‘zgarishi orqali kompozitsiyaga ichki harakat, vaqt va dinamika hissini beradi. Kontrast

esa ushbu elementlar o‘rtasidagi farqlarni kuchaytirib, kompozitsion markaz, vizual ierarxiya, fazoviy chuqurlik va emotsional zo‘riqishni shakllantiradi. Ularning o‘zaro uyg‘unligi natijasida rangtasvir asari oddiy tasviriy obyekt emas, balki murakkab vizual-kommunikativ tizimga aylanadi. Shuning uchun zamonaviy rassomning ijodiy mahorati rang, ritm va kontrastdan foydalanishning o‘zinigina emas, balki ularni muayyan badiiy g‘oya, kompozitsion maqsad va tomoshabinning vizual idroki bilan bog‘lay olish qobiliyatini ham nazarda tutadi. Zamonaviy rangtasvirning rivojlanish tendensiyalari shuni ko‘rsatadiki, kompozitsion ifodaning kuchi ko‘pincha alohida bir vositaning ustunligida emas, balki rangning ritmik tashkil etilishi, kontrastning me’yoriy boshqarilishi va barcha plastik elementlarning yagona badiiy tizimga birlashtirilishida namoyon bo‘ladi. Demak, rang, ritm va kontrastni chuqur nazariy hamda amaliy o‘zlashtirish zamonaviy rangtasvirning estetik imkoniyatlarini kengaytirish, yangi plastik yechimlarni izlash va badiiy obrazning ta’sirchanligini oshirishning muhim shartlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.Abdirasilov, RANGTASVIR, o‘quv qo‘llanma, TOSHKENT «NISO POLIGRAF»2017

2. Rahmatova, S. (2021). TASVIRIY SAN’AT SHAKLLANISHIDA QADIMGI YEVROPA VA SHARQ. Физико-технологического образование, 4(4). извлечено от https://science.jdpu.uz/index.php/phys-tech/article/view/2551

3. S. Abdirasilov, B. Boymetov, N. Tolipov. Tasviriy san`at. – T.: 2006

4. N.Abdullayev . O‘zbekiston san’ati tarixi. Toshkent-2007

5. Abdullayev, O. K. (2025). TALABALARNING KOMPOZITSIYA TUZISH VA TASVIRLASH KO ‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 1-5.

6. Sattarov, F. I., & Usmanova, X. N. Q. (2026). Teaching the subject of composition in specialized art schools. Science and Education, 7(2), 386-389.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

7. Sattarov, F. I., & Lutfullayeva, S. N. Q. (2026). The influence of interactive methods on the development of compositional thinking in painting lessons. Science and Education, 7(2), 356-360.

8. Bobur Abdug'Ani-O'G'Li Nabiyev (2026). Innovative methods for revealing students' individual abilities in painting classes. Science and Education, 7 (3), 349-353..

9. O'G'Likomoldinov, S. J., & Abdirasilov, S. F. (2023). ON THE INTEGRITY OF ILLUSTRATION IN PAINTING LESSONS AND ITS RELATIONSHIP WITH COMPOSITION ACTIVITY. Экономика и социум, (3-2 (106)), 168-171.

TALABA-YOSHLARDA MADANIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLAR

Begmatova Dilnoza Muxtarovna
Samarqand Davlat chet tillar instituti professori v.b.,
Orcid: https://orcid.org/0000-0001-5494-358X
Email:dbegmatova093@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada talaba-yoshlarda madaniy immunitetni shakllantiruvchi pedagogik va psixologik shart-sharoitlar nazariy-tahliliy yondashuv asosida o'rganiladi. Madaniy immunitet shaxsning o'z madaniy qadriyatlarini anglagan holda boshqa madaniyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, manipulyativ axborotni tanqidiy baholashi va mustaqil axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Mahalliy pedagogik adabiyotlar va normativ manbalarni qiyosiy tahlil qilish orqali qiymatli-motivatsion, kognitiv, hissiy-refleksiv hamda xulqiy-amaliy tarkibiy qismlar ajratildi. Universitet sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan diagnostik mezonlar va bosqichma-bosqich rivojlantirish modeli taklif qilinadi. Natijalar konseptual xususiyatga ega bo'lib, ularning empirik samaradorligi keyingi izlanishlarda tekshirilishi lozim.*

Kalit so'zlar: *madaniy immunitet, talaba-yoshlar, pedagogik omillar, psixologik omillar, qadriyatlar, mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, refleksiya.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО ИММУНИТЕТА СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ

Аннотация. *В статье на основе теоретико-аналитического подхода рассматриваются педагогические и психологические факторы формирования культурного иммунитета студентов. Данное понятие раскрывается через осознанное отношение к культурным ценностям, уважение к культурному разнообразию, критическую оценку информационных воздействий и самостоятельный нравственный выбор. На основе анализа узбекской педагогической литературы выделены ценностно-мотивационный, когнитивный, эмоционально-рефлексивный и поведенческий компоненты. Предложены критерии оценивания и поэтапная модель развития культурного иммунитета в вузе. Эффективность предложенной модели требует эмпирической проверки.*

Ключевые слова: *культурный иммунитет, студенческая молодёжь, педагогические факторы, психологические факторы, ценности, медиаграмотность, критическое мышление, рефлексия.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF CULTURAL IMMUNITY AMONG UNIVERSITY STUDENTS

Abstract. *This theoretical and analytical article examines pedagogical and psychological factors shaping cultural immunity among university students. Cultural immunity is conceptualized as the ability to understand one's cultural values, respect cultural diversity, critically assess manipulative information, and make autonomous ethical choices. A comparative review of Uzbek pedagogical scholarship and policy documents identifies value-motivational, cognitive, emotional-reflective, and behavioral components. The article proposes diagnostic criteria and a staged university-level development model. Its conclusions are conceptual rather than empirical, and the effectiveness of the proposed approach requires further field testing.*

Keywords: *cultural immunity, university students, pedagogical factors, psychological factors, values, media literacy, critical thinking, reflection.*

KIRISH

Globallashuv, ta'limning raqamli transformatsiyasi va transmilliy axborot oqimlari talaba-yoshlarning madaniy tajribasini boyitish bilan birga, qadriyatlar tizimining tez o'zgarishi, stereotiplar va manipulyativ xabarlar ta'sirida mustaqil pozitsiyani yo'qotish xavfini ham kuchaytirishi mumkin. Shu sharoitda oliy ta'limning vazifasi talabalarni tashqi madaniy ta'sirdan ajratish emas, balki ularni turli madaniy matn va amaliyotlarni dalillarga asoslanib baholashga, o'z identifikatsiyasini tushunishga va ochiq muloqotga tayyorlashdir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni sifatli ta'lim, shaxs kamoloti va tarbiyaviy jarayon uchun huquqiy zamin yaratadi (6).

"Madaniy immunitet" tushunchasi biologik immunitetning to'g'ridan-to'g'ri nusxasi emas: u shaxsning madaniy axborotga nisbatan ongli tanlov qilishi, ma'naviy-axloqiy me'yorlarni reflektiv o'zlashtirishi va zararli manipulyatsiyaga qarshi tanqidiy munosabat bildirishiga doir pedagogik metaforadir. Bu yondashuv madaniy xilma-xillikka nisbatan bag'rikenglikni inkor etmaydi; aksincha, qadriyatlarda izchillikni saqlagan holda konstruktiv muloqot yuritishni nazarda tutadi. Ma'naviyat tushunchalarini izohlashga bag'ishlangan mahalliy ilmiy manbalarda shaxs, axloq, burch va qadriyatlar o'zaro aloqadorlikda yoritiladi (4).

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Maqolaning maqsadi — talaba-yoshlarda madaniy immunitetni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi pedagogik-psixologik omillarni tizimlashtirish, ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish va oliy ta'lim muassasasi uchun amaliy model taklif qilish. Tadqiqot savoli quyidagicha ifodalanadi: qaysi ta'limiy sharoitlar va shaxsiy psixologik resurslar madaniy axborotni tanqidiy idrok etish hamda mustaqil qadriyatli tanlovni qo'llab-quvvatlaydi? Maqsadga erishish uchun mahalliy pedagogika manbalari, axloqiy tarbiyaga oid tarixiy qarashlar, mediasavodxonlik tadqiqotlari hamda amaldagi strategik hujjatlar tahlil qilindi (1, 5, 7).

ADABIYOTLAR TAHLILI

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari tarbiya, axloqiy tanlov va shaxsiy mas'uliyat masalalarini milliy pedagogik tafakkurning asosiy kategoriyalari sifatida qo'yadi. Muallifning axloqni amaliy xulq va o'zini tarbiyalash bilan bog'lashi madaniy immunitetning qadriyatli asoslarini sharhlash uchun xizmat qiladi (1). Avloniy qarashlariga bag'ishlangan zamonaviy mahalliy tahlilda vijdon, halollik, insoniylik va tarbiya o'rtasidagi munosabatga alohida e'tibor qaratilgan (5). Biroq klassik axloqiy g'oyalarni bugungi raqamli muhitga qo'llashda axborotning ishonchliligi, algoritmik tavsiyalar va ijtimoiy tarmoq bosimi kabi yangi omillarni ham hisobga olish zarur.

R. Mavlonovaning pedagogika bo'yicha darsliklarida tarbiya tamoyillari, shaxs va jamoa munosabati, ta'limiy muhit, pedagogik ta'sir va faoliyatning o'zaro uyg'unligi ochib beriladi (2, 3). Bu qarashlar madaniy immunitetni alohida bir fan yoki bir martalik ma'naviy tadbir natijasiga tenglashtirmaslik, balki uni auditoriya, kampus va norasmiy talabalar hayoti kesishgan muhitda shakllanuvchi kompetensiya sifatida tasavvur qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, an'anaviy tarbiya usullarini faqat nasihat va nazorat bilan cheklash talabalarning mustaqil tanlov ko'nikmasini yetarli darajada rivojlantirmasligi mumkin.

Maqsudov va Qosimova talabalarda mediasavodxonlikning pedagogik zaruratini yoritib, axborotni qabul qilish bilan uni tahlil etish va baholash o'rtasidagi farqni

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ko‘rsatadilar (8). Madaniy immunitetning raqamli jihatini aniqlashda aynan manba tekshiruvi, fakt va fikrni ajratish, vizual manipulyatsiyani payqash, qarama-qarshi qarashlarni solishtirish muhim. Bu ko‘nikmalar madaniy an’analarni tanqidiy inkor etishga emas, ularga oid tasavvurlarni dalilli va mas’uliyatli ravishda asoslashga yo‘naltirilishi lozim.

2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son Farmon bilan yangilangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish va ta’lim sohasini rivojlantirish vazifalari belgilangan (7). Mazkur ustuvorliklar tarbiya va ta’lim birligini zamonaviy kompetensiyalar bilan bog‘lash uchun siyosiy-huquqiy kontekst yaratadi. Adabiyotlar qiyosi shuni anglatadiki, madaniy immunitetning nazariy talqini keng bo‘lsa-da, uni o‘lchash indikatori va pedagogik rivojlantirish bosqichlarini konkretlashtirish masalasi amaliy jihatdan dolzarbdir.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot dizayni nazariy-kontseptual tahlil shaklida tashkil etildi. Materiallar sifatida sakkizta mahalliy manba tanlandi: axloqiy tarbiyaga oid klassik asar, pedagogika darsliklari, ma’naviy atamalar lug‘ati, ikkita ilmiy maqola hamda ta’lim siyosatiga oid ikki normativ hujjat (1–8). Manbalarni tanlash mezonlari mavzuga bevosita yaqinlik, bibliografik identifikatsiya imkoniyati va O‘zbekiston ta’lim muhiti bilan bog‘liqlikdan iborat bo‘ldi. Maqolada so‘rovnoma, eksperiment yoki talabalar shaxsiy ma’lumotlari to‘planmadi.

Tahlilda tushunchaviy ajratish, qiyosiy-pedagogik tahlil, mazmuniy kodlash va tizimli umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Avvalo “madaniy immunitet”, “madaniy identifikatsiya”, “qadriyatli tanlov” va “mediasavodxonlik” mazmunan farqlandi. So‘ng manbalardagi g‘oyalar to‘rt yo‘nalish — motivatsiya, bilish, hissiy-refleksiv boshqaruv hamda xulqiy faoliyat — bo‘yicha tasniflandi. Nihoyat, oliy ta’limdagi qo‘llanish ehtimoli yuqori bo‘lgan ta’lim vositalari va baholash mezonlari loyihalashtirildi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Operatsion ta'rifga ko'ra, madaniy immunitet — talabaning (a) o'z va o'zga madaniyatlar haqida asosli bilimga ega bo'lishi, (b) qadriyatli masalalarda mustaqil pozitsiya shakllantirishi, (c) hissiy bosim va manipulyativ xabarlarga nisbatan o'z reaksiyasini boshqarishi, (d) ziddiyatli vaziyatlarda hurmatli va mas'uliyatli xulq ko'rsatish qobiliyatlarining o'zaro bog'langan tizimi. Ko'rsatkichlar empirik validatsiyadan o'tgan shkala emas, balki keyingi tadqiqotlarda sinovdan o'tkazish uchun taklif etilgan mezonlar majmuidir.

NATIJALAR

Nazariy tahlil natijasida madaniy immunitetni rivojlantiruvchi omillar ikki guruhga ajratildi. Pedagogik omillar — ta'lim mazmunining qadriyatlar bilan integratsiyasi, o'qituvchining dialogik uslubi, akademik halollik madaniyati, media-ta'lim hamda tengdoshlar bilan ijtimoiy loyihalardir. Psixologik omillar — identifikatsiya aniqligi, refleksiya, hissiy o'zini boshqarish, tanqidiy fikrlash motivatsiyasi, ijtimoiy mansublik va o'z qarori uchun javobgarlik hissidir. Ularning birortasi yakka holda yetarli emas: masalan, mediasavodxonlik bo'lmasa, qadriyatli pozitsiya shubhali axborotdan himoyalanmasligi mumkin; bag'rikenglik bo'lmasa, qat'iy identifikatsiya stereotipga aylanishi ehtimoli ortadi.

Muallif tomonidan taklif qilinayotgan pedagogik model to'rt bosqichdan iborat: diagnostika, mazmuniy faollashtirish, amaliy-dialogik mashq va reflektiv baholash. Diagnostikada tayyor xulosani singdirish emas, talabaning mavjud tushunchalari va axborot tahlili malakasi o'rganiladi. Ikkinchi bosqichda mahalliy meros, zamonaviy madaniy hodisalar va universal insoniy tamoyillar qiyoslanadi. Uchinchi bosqichda keys, munozara, faktcheking va jamoaviy loyiha orqali turli nuqtayi nazarlarga asosli javob berish mashq qilinadi. Yakunda portfolio va vaziyatli topshiriqlar orqali individual o'sish dinamikasi tavsiflanadi.

1-jadval. Madaniy immunitetning tarkibiy qismlari va tavsiya etiladigan diagnostik indikatorlar

Tarkibiy qism	**Ta'sir etuvchi omil**	**Kuzatiladigan indikator**	**Ta'limiy vosita**
Qadriyatli-motivatsion	O'zlikni anglash va ijtimoiy mansublik	Tanlov sababini dalillash; xilma-xillikka hurmat	Qadriyatlar xaritasi, biografik refleksiya
Kognitiv-tahliliy	Manbaga ishonchni baholash; mediasavodxonlik	Fakt va fikrni ajratish; bir nechta manbani solishtirish	Manba tahlili, faktcheking, keys
Hissiy-refleksiv	Empatiya; o'zini boshqarish	Bahsda hissiy reaksiyani boshqarish; xatosini tan olish	Reflektiv kundalik, rolli o'yin
Xulqiy-ijtimoiy	Dialogik muhit va fuqarolik faolligi	Turli guruhlar bilan hamkorlik; mas'uliyatli qaror	Jamoaviy loyiha, debat, volontyorlik

Jadvalda ko'rsatilgan indikatorlar nazariy modelning tarkibiy elementlaridir; ular bo'yicha real guruhlar kesimida miqdoriy o'lchov amalga oshirilmagan. Ularni amaliy baholash uchun topshiriqning mazmuniy murakkabligi, baholovchilararo moslik va takroriy o'lchov shartlari oldindan standartlashtirilishi kerak.

Taklif etilayotgan baholash mezonida to'rtta daraja farqlanishi mumkin: boshlang'ich darajada talaba manbalarni yuzaki farqlaydi va qarorini stereotip bilan asoslaydi; rivojlanayotgan darajada muqobil talqinlarni sezadi, lekin dalillarni notekis qo'llaydi; barqaror darajada dalil va qadriyatlar munosabatini mantiqan tushuntiradi; yuqori darajada murakkab bahsda hurmatli muloqot olib borib, yangi faktlar asosida pozitsiyasini mas'uliyat bilan qayta ko'rib chiqadi. Bunday rubrika me'yoriy hukm chiqarish uchun emas, individual o'quv yutuqlarini kuzatish uchun mo'ljallanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ta'lim jarayonida kamida uch xil faoliyat birlashtirilishi maqsadga muvofiq: auditoriyada tarixiy-madaniy matnni qiyosiy o'qish; onlayn muhitda manbaning kelib chiqishi va xolisligini tekshirish; kampusda turli qarashdagi talabalarning hamkorlik loyihasini tashkil etish. O'qituvchining vazifasi javoblarni oldindan belgilab qo'yish emas, balki o'zaro hurmat va dalillilik qoidalariga tayanuvchi munozara me'yorlarini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Ushbu yondashuv pedagogik tarbiya tamoyillarini mediasavodxonlik bilan bog'laydi (2, 8).

MUHOKAMA

Mazkur konseptual natijalar madaniy immunitetning faqat "begona" ta'sirni rad etish orqali shakllanishi haqidagi tor tasavvurni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Madaniy o'zlik hissi qanchalik muhim bo'lmasin, tanqidiy fikrlashsiz va o'zgalarga hurmatsiz u moslashuvchan kompetensiyaga aylanmaydi. Shuning uchun pedagogik maqsad madaniyatlar o'rtasida "to'g'ri–noto'g'ri" yorliqlarini avtomatik qo'yish emas, balki inson qadr-qimmatiga zid manipulyativ usullarni tanish, manbalarni tekshirish va argumentatsiya asosida qaror qilish qobiliyatini mustahkamlashdir. Bu masala ayniqsa qisqa video, emotsional sarlavha va takroriy algoritmik tavsiyalar keng tarqalgan raqamli muhitda dolzarbdir (8).

Psixologik nuqtayi nazardan madaniy immunitet ichki motivatsiya, shaxsiy identifikatsiya va o'z faoliyatini tahlil qila olish bilan bog'liq. Talaba qadriyatlarga oid pozitsiyasini faqat tashqi nazorat sababli namoyon etsa, u yangi axborot muhitida barqaror bo'lmasligi mumkin. Aksincha, tanlov sababini tushunish, o'z xatosini tan olish va qarama-qarshi nuqtayi nazarni tinglash malakasi mustaqil pozitsiyaga zamin yaratadi. Demak, tarbiyaviy baholashda yodlangan shiorlar emas, mazmunli asoslash, muloqot sifati va refleksiya hisobga olinishi lozim (1, 4).

Pedagogik amaliyot uchun asosiy shart — xavfsiz dialogik muhitdir. Talabalar yanglish talqin yoki noaniq savol sabab kamsitilmasligiga ishonsa, manbalarga tanqidiy qarashni ko'proq mashq qiladi. Bunday muhitda o'qituvchi o'z fikrini ham dalillashi,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

manba cheklovlarini tan olishi va bahs qoidalarini barcha ishtirokchilarga bir xil qo‘llashi muhim. Fuqarolik mas’uliyati, madaniy merosni bilish va zamonaviy dunyoqarash o‘zaro ziddiyatli vazifalar sifatida emas, tarbiyaning bir-birini kuchaytiruvchi tarkibiy qismlari sifatida talqin qilinadi (3, 7).

Taklif etilgan modelning cheklovlari mavjud: tahlil sakkizta tanlangan mahalliy manbaga asoslangan; universitetlar, yosh guruhlari yoki ijtimoiy-madaniy muhitlar o‘rtasida empirik taqqoslash o‘tkazilmagan; diagnostik rubrikaning ishonchliligi va validligi baholanmagan. Keyingi bosqichda dastlabki o‘lchov, 8–12 haftalik pedagogik dastur, yakuniy o‘lchov va kechiktirilgan kuzatuvni qamrab olgan aralash metodli tadqiqot maqsadga muvofiq. Tadqiqotda volontyorlik, axborotli rozilik va anonim natijalarni qayta ishlash talablari ta’minlanishi kerak.

Madaniy immunitetni shakllantirish bo‘yicha universitet dasturi faqat tarbiyaviy tadbirlar jadvali bilan baholanmasligi kerak. Dastlab o‘quv dasturlarida madaniyatlararo muloqot, axborot manbalarini tekshirish va axloqiy dilemma mavzularining qaysi fanlarga tabiiy bog‘lanishini aniqlash zarur. So‘ng professor-o‘qituvchilar uchun munozarani boshqarish, bahsda hamma ovozini eshitish va tarafkash baholashni cheklash bo‘yicha qisqa metodik seminarlar tashkil qilinishi mumkin. Talabalar bilan esa bir mavzu yuzasidan turli manbalarni solishtirish, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlarning tilini tahlil qilish va guruh sifatida dalilli qaror ishlab chiqish mashqlari samara berishi ehtimol qilinadi. Muhimi, bu amaliyotlar har bir talabaning dunyoqarashini bir xil andozaga solishni emas, ayni vaqtda birga yashash va tanqidiy muloqot qoidalarini mustahkamlashni ko‘zlaydi.

Metodik kuzatuv uchun talabaning o‘zini baholash varaqasi, o‘qituvchi tomonidan to‘ldiriladigan rubrika va guruh loyihalari portfolio materiallari birgalikda ishlatilishi mumkin. Birgina test savoli madaniy immunitetning murakkab tabiatini to‘liq ifodalamaydi: yodlangan nazariy javob bahsdagi real xulq bilan mos tushmasligi mumkin. Shu sababli baholashda vaziyatga doir izohli javob, teskari aloqadan keyin

pozitsiyani qayta ko‘rish hamda manba dalillarini tekshirish jarayonini kuzatish ko‘proq ma’lumot beradi. Baholashning shaffofligini ta’minlash uchun topshiriqlar va mezonlar oldindan e’lon qilinishi, talabaning diniy yoki shaxsiy e’tiqodi emas, dalillash sifati va fuqarolik muomala me’yorlariga rioyasi baholanishi lozim. Bu tamoyil inklyuziv akademik muhitni saqlash nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, mazkur modelni qo‘llashda hududiy, til va ijtimoiy tajriba xilma-xilligini hisobga olish kerak. Bir hududdagi tarixiy-madaniy misollar boshqa hudud talabalariga bir xil darajada tanish bo‘lmasligi mumkin. Universitet rahbariyati mahalliy muzeylar, kutubxonalar, jamoat tashkilotlari hamda talabalarning ijodiy uyushmalari bilan hamkorlik orqali o‘quv faoliyatini real madaniy tajriba bilan bog‘lashi mumkin. Natijada madaniy immunitet faqat konseptual bilim to‘plami emas, har kuni qo‘llanadigan muloqot, mas’uliyat va hamkorlik ko‘nikmasi sifatida rivojlanadi. Ushbu taxminlarni tasdiqlash uchun nazorat guruhi mavjud bo‘lgan tajriba, o‘quv semestri davomida takroriy baholash va turli mutaxassislik talabalari bo‘yicha alohida tahlil zarur.

XULOSA

Talaba-yoshlarda madaniy immunitetni rivojlantirish ko‘p omilli pedagogik-psixologik jarayon bo‘lib, u qadriyatli identifikatsiya, tanqidiy tafakkur, hissiy o‘zini boshqarish va mas’uliyatli ijtimoiy xulqning birligini talab etadi. O‘qituvchi tomonidan yaratilgan ochiq muhokama muhiti, fanlararo tarbiyaviy integratsiya, mediasavodxonlik mashqlari va jamoaviy loyiha faoliyati ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi istiqbolli mexanizmlar sifatida asoslandi.

Maqolada taklif qilingan to‘rt komponentli model va unga mos diagnostik indikatorlar oliy ta’lim muassasalarida tarbiyaviy dasturlarni loyihalash uchun metodik asos bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur yondashuv samaradorligi hali tajribada tasdiqlanmagan. Uni O‘zbekiston universitetlari kontekstida empirik sinovdan o‘tkazish,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

talabalarning mustaqil fikrlashi va madaniy bag‘rikengligiga ta’sirini uzun muddatli kuzatish kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avloniy, A. (1917). Turkiy guliston yoxud axloq (2-nashr). Toshkent. https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-avloniy/abdulla-avloniy-turkiy-guliston-yoxud-axloq/
2. Mavlonova, R. (2010). Pedagogika. O‘qituvchi. https://akbt.urdu.uz/uz/books/14568
3. Mavlonova, R. (2010). Pedagogika nazariyasi va tarixi. Fan va texnologiya. https://akbt.urdu.uz/uz/books/6242
4. Sultonov, X. (2009). Ma’naviyat: Asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. https://akbt.tkti.uz/uz/books/7088
5. Qosimova, G., & Xoliyorova, M. (2025). Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ta’limiy axloqiy masalalar. Modern Education and Development, 26(3), 262–266. https://inlibrary.uz/index.php/mead/article/view/117980
6. O‘zbekiston Respublikasi. (2020). Ta’lim to‘g‘risida (O‘RQ-637-son Qonun). https://lex.uz/docs/-5013007
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026). Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida (PF-21-son Farmon). https://lex.uz/uz/acts/-8050769
8. Maqsudov, U. Q., & Qosimova, G. E. (2022). Talabalarda media savodxonlikni oshirishning pedagogik asoslari. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2(11), 988–995. https://oriens.uz/journal/article/talabalarda-media-savodxonlikni-oshirishning-pedagogik-asoslari/

УДК 378.147:621.311.4

CASE-BASED TEACHING OF INFRARED THERMOGRAPHIC DIAGNOSTICS OF SUBSTATION EQUIPMENT TO ENERGY ENGINEERING BACHELOR STUDENTS IN DUAL EDUCATION

Abdullabekova D.R.
Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi,
Department of Energy Supply Systems, Head of Department, DSc, Professor.
abdullabekova_94@mail.ru
0009-0003-8887-6831

Abstract: *The article presents a case-based methodology for teaching infrared thermographic diagnostics of substation equipment to bachelor students of the energy supply programme who study in a dual format, alternating university sessions with work at an electrical substation. The methodology was designed from a task analysis of thermographic inspection, international qualification requirements and the typical errors of infrared surveys. Its core is a bank of teaching cases built from 35 radiometric thermograms of station service equipment recorded by the author at a 110 kV substation in Tashkent in June 2026. The article defines learning outcomes on the levels of the revised Bloom taxonomy, aligns a six-week module with the "2+3" dual schedule, proposes an analytic assessment rubric with four performance levels and describes the design of a pedagogical experiment for its validation. The cases deliberately include findings whose severity class changes when emissivity, reflected temperature and the choice of criterion are taken into account, so that students learn to report a diagnosis together with its uncertainty. Effectiveness data will be collected in the 2026/2027 academic year.*

Keywords: *dual education; engineering education; case-based learning; infrared thermography; substation equipment; diagnostic competence; assessment rubric; work-integrated learning*

DUAL TA'LIM SHAROITIDA ENERGETIKA YO'NALISHI BAKALAVRLARIGA PODSTANSIYA JIHOZLARINI INFRAQIZIL TERMOGRAFIK DIAGNOSTIKA QILISHNI KEYSLAR ASOSIDA O'QITISH

Annotatsiya: *Maqolada universitetdagi mashg'ulotlar elektr podstansiyasidagi ish bilan navbatma-navbat olib boriladigan dual shaklda tahsil olayotgan energiya ta'minoti yo'nalishi bakalavrlariga podstansiya jihozlarini infraqizil termografik diagnostika qilishni keyslar asosida o'qitish metodikasi taklif etilgan. Metodika termografik nazorat bo'yicha mehnat harakatlarini tahlil qilish, xalqaro malaka talablari va infraqizil tekshiruvlarning tipik xatolari asosida ishlab chiqilgan. Uning asosini muallif tomonidan 2026-yil iyun oyida Toshkentdagi 110 kV kuchlanishli podstansiyaning o'z ehtiyojlari jihozlarida olingan 35 ta radiometrik termogramma bo'yicha tuzilgan o'quv keyslari banki tashkil etadi. Blumning qayta ko'rib chiqilgan taksonomiyasi darajalari bo'yicha ta'lim natijalari belgilangan, olti*

haftalik modul "2+3" dual jadvali bilan muvofiqlashtirilgan, to'rt darajali analitik baholash rubrikasi taklif qilingan va uni tekshirish uchun pedagogik tajriba rejasi bayon etilgan. Keyslarga nurlanish koeffitsiyenti, aks etgan harorat va mezon tanlovi hisobga olinganda nuqson toifasi o'zgaradigan holatlar ataylab kiritilgan, bu esa talabalarni tashxisni uning noaniqligi bilan birga ko'rsatishga o'rgatadi. Samaradorlik bo'yicha ma'lumotlar 2026/2027 o'quv yilida to'planadi.

Kalit so'zlar: *dual ta'lim; muhandislik ta'limi; keyslar asosida o'qitish; infraqizil termografiya; podstansiya jihozlari; diagnostik kompetensiya; baholash rubrikasi; ish joyida o'qitish*

ОБУЧЕНИЕ БАКАЛАВРОВ-ЭНЕРГЕТИКОВ ИНФРАКРАСНОЙ ТЕРМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКЕ ОБОРУДОВАНИЯ ПОДСТАНЦИЙ НА ОСНОВЕ КЕЙСОВ В УСЛОВИЯХ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: *В статье представлена методика обучения инфракрасной термографической диагностике оборудования подстанций на основе кейсов для бакалавров направления энергоснабжения, обучающихся в дуальной форме с чередованием занятий в университете и работы на электрической подстанции. Методика разработана на основе анализа трудовых действий при тепловизионном контроле, международных квалификационных требований и типичных ошибок инфракрасных обследований. Её основу составляет банк учебных кейсов, построенный по 35 радиометрическим термограммам оборудования собственных нужд, полученным автором на подстанции 110 кВ в Ташкенте в июне 2026 г. Определены результаты обучения по уровням пересмотренной таксономии Блума, шестинедельный модуль согласован с дуальным графиком «2+3», предложена аналитическая рубрика оценивания с четырьмя уровнями и описан план педагогического эксперимента для её проверки. В кейсы намеренно включены находки, категория дефекта которых меняется при учёте излучательной способности, отражённой температуры и выбора критерия, чтобы студенты учились указывать диагноз вместе с его неопределённостью. Данные об эффективности будут получены в 2026/2027 учебном году.*

Ключевые слова: *дуальное образование; инженерное образование; обучение на основе кейсов; инфракрасная термография; оборудование подстанций; диагностическая компетентность; рубрика оценивания; обучение на рабочем месте*

INTRODUCTION

Infrared thermography has become one of the main non-contact methods for finding overheated connections, switching devices and transformer elements at substations under load [1, 2]. A thermal image makes an invisible process visible, and this property has long been used in university physics courses [3]. For an energy

engineer, however, a thermogram is evidence for a maintenance decision. Between the image and the decision lie the emissivity of the surface, the reflected apparent temperature, the load, the choice of a severity criterion and the uncertainty of each of these quantities, and it is in this chain, rather than in operating the camera, that the main sources of error lie [4, 5].

The Law "On Education" recognises dual education as a form of education [6], and the Concept for the development of higher education until 2030 sets the task of bringing training closer to the needs of employers [7]. In the energy sector, the President has instructed higher education institutions to organise dual-education practice for energy students systematically [8]. The Energy Supply Systems department of the Tashkent University of Information Technologies runs such a programme with "Issiqlik elektr stansiyalari" JSC and "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" JSC: classes are held at an electrical substation and a heat centre, and third- and fourth-year students study under a "2+3" schedule (two days at the enterprise, three at the university) in the autumn semester and a "4+1" schedule in the spring.

Without a deliberate methodology, however, the enterprise days turn into observation and the university days remain lectures on radiation physics, and the two halves are never joined into the competence the employer needs: to plan a survey, acquire a valid thermogram, interpret it with its uncertainty and justify a decision. Qualification requirements for thermographers describe this competence not only in terms of camera handling but also in terms of knowledge of measurement errors, criteria and reporting [9], and inspection guidance recommends recording load, ambient conditions and camera settings [10, 11]. The author's survey of station service equipment at a 110 kV substation in a hot climate showed how sensitive the conclusions are to these factors: the same displayed differences could fall into different severity classes depending on the assumed emissivity and reflected temperature, and the rise over ambient air placed every

hotspot in the two highest over-ambient classes [12, 13]. Such observations show where a student's reasoning must be trained and provide authentic teaching material.

The aim of this article is to develop and substantiate a case-based methodology for teaching infrared thermographic diagnostics of substation equipment to energy engineering bachelor students in dual education. The objectives are to define learning outcomes from an analysis of inspection tasks, to build a bank of teaching cases from real thermograms, to align instruction with the dual schedule, to design an assessment rubric and to plan the experiment that will test the methodology. The article reports the design stage; no data on student achievement are presented, because the module will first be taught in the 2026/2027 academic year. The scientific novelty lies in (i) a model of diagnostic competence in thermography that includes the treatment of measurement uncertainty, (ii) a case bank built from authentic substation thermograms with deliberately ambiguous findings, and (iii) the alignment of the case sequence with the "2+3" dual schedule. The practical significance is that the module, the case cards and the rubric can be used directly in dual programmes in energy engineering.

LITERATURE REVIEW

A review of engineering-oriented studies found broad, though uneven, support for active, collaborative and cooperative learning [14], and a meta-analysis of 225 studies in science, engineering and mathematics reported higher examination scores and lower failure rates under active learning [15]. Case-based teaching, one of the inductive methods, starts from a realistic situation and requires the learner to analyse it and make a decision [16]; its use in a mechanical engineering course was perceived positively by students and yielded practical lessons for implementation [17]. Feisel and Rosa identified thirteen fundamental objectives of engineering laboratories, among them instrumentation, data analysis, learning from failure and safety [18].

Experiential learning theory describes a cycle of concrete experience, reflective observation, abstract conceptualisation and active experimentation [19], and the dual

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

format maps naturally onto it: the enterprise provides experience and experimentation, the university provides reflection and concepts. Cognitive apprenticeship adds that novices learn from practitioners who model the task, coach and gradually withdraw support [20]. Work-integrated learning develops employability skills most effectively when placements are structured and the university and workplace share expectations; poor alignment between them is one of its main barriers [21]. Uzbek authors likewise link the effectiveness of dual education in higher education to university–industry partnership, updated curricula and the preparation of teachers [22].

10-umumta'lim maktabi

Pedagog - Mirzaxamdamov Saxovatbek

Mutaxassislik fani - Tarix

Ajratilgan dars yuklamasi - 30 soat.

№	Pedagog	Malaka toifasi/ Sertifikatlar	Dars ehtiyoji (soatlarda)	Mavjud dars miqdori (soatlarda)
1	Mirzaxamdamov Saxovatbek	Oliy toifa Milliy sertifikat	30	30
2	Soliyeva Kamola	Birinchi toifa	30	30

3	Ro‘zioxunov Ne’matillo	Ikkinchi toifaa	20	20
4	Ismoilov Jasurbek	Oliy ma’lumotli toifasiz	30	14
5	Turg‘unova Omadxon	Oliy ma’lumotli toifasiz	30	14
Jami :			140 soat	108 soat

Barchaning platformadagi shaxsiy kabinetiga xuddi shunday protokol jo‘natiladi. Protokol QR kod bilan shifrlanishi uning rasmiylashtirilganini bildiradi. Bunga qadar nomzod pedagoglar hujjat topshirish va mandatlar e’lon qilinishi oralig‘ida o‘zlarining imkoniyatlarini platformaga promt (so‘rov) berish bilan o‘lchab olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, Mirzaxamdamov Saxovatbek Dilshodbek o‘g‘li tashqi pedagog sifatida o‘z fani (Tarix) kesimida muayyan maktabdagi ustozlar bilan o‘zining imkoniyatlarini o‘lchab olishi mumkin bo‘ladi.

Mazkur natijada 5 ta tayyor profil egasining qiyosiy tahlili quyidagicha: Unga ko‘ra, Andijon viloyati, Paxtaobod tumani, 10 – maktabga pedagog nomzod sifatida 5 ta o‘qituvchi Mirzaxamdamov Saxovatbek, Soliyeva Kamola, Ismoilov Jasurbek, Ro‘zioxunov Ne’matillo va Turg‘unova Omadxonlar tarix fani kesimida umumiy 108 soat (ehtiyojlar esa umumiy 140 soat) uchun ariza va hujjat topshirishgan. Unga ko‘ra;

Saxovatbek Mirzaxamdamov Dilshodbek o‘g‘li 3271-1 raqamli ro‘yxatning ustuvorligiga ko‘ra oliy toifa va milliy sertifikatga ega bo‘lgan holda 30 soat dars ehtiyoji bildirgan. U yuqoridagi bilim va malakasining yuqoriligini isbotlovchi hujjatlari bilan dastlabki o‘rinda 30 soat dars ajratilgan.

Soliyeva Kamola 1 toifa darajasi uning uchun so‘ralgan 30 soat berilishini ta’minlagan. Chunki umumiy mavjud 108 soatdan Mirzaxamdamov S. ga ajratilgan 30

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

dan tashqari yana 78 soat dars mavjud. Soliyeva K. Toifasi oliy toifasi yoki milliy sertifikati bo'lmasa-da, undan yuqori darajali pedagoglarning kamligi va dars soatining ko'pligi uning uchun 30 soat dars berilishini ta'minlagan.

Ro'zioxunov Ne'matillo 2-darajali toifa bilan 20 soat uchun ariza topshirgan qoldiq 48 soatdan 20 soat dars ajratib berilgan.

Ismoilov Jasur va Turg'unova Omadxonlar ham 30 soatdan ehtiyoj bildirishgan bo'lsa-da, ularda na toifa va na sertifikat borligi sabab, ikkalasi ham qoldiq 28 soat teng 14 soatdan ajratib berilgan. Shu tariqa oddiy arifmetika orqali chiqarilgan hisob, faqatgina algoritmlar bilan hisoblab chiqilgan. Algoritmlarga ehtiyoj hisoblashning murakkabligi bilan inson omilini chetga surish maqsadi bilan izohlanadi.

Ushbu ilmiy tadqiqot maqolada ko'rib chiqilgan muammo va unga amaliy yechimlardan so'ng sohalar : ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayotda keng ko'lamli foydalar va natijalarga erishishi prognoz qilinadi. Jumladan;

1) **Korrupsiyaga qarshi unumli qarshilik.** Barcha sohalarning rivojlanishi uchun salbiy ko'rsatayotgan korrupsiyaga qarshi kurashning amaliy ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Direktor va pedkengash kabi vakolatli organlarning ishga qabul qilish va dars taqsimotidan vakolatdan jihatdan kesib qo'yilganligi sababli, endi intensiv (yuqori toifali, imtiyozli sertifikatlarga ega holda, oz dars soatiga nisbatan ko'p maosh oluvchi pedagoglar) pedagoglarning ekstensiv (toifasiz, sertifikatsiz, oylik maoshini ko'p dars soatlari hisobiga oluvchi pedagoglar) pedagoglar bilan avtomatik almashinuvi ro'y beradi. Natijada Byudjet hisobidan sarflanayotgan mablag'lar endi to'g'ridan-to'g'ri mo'ljalli tarzda intensiv pedagoglarga sarflanadi.

2) Pedagoglarning potensial ilmiy-malakaviy raqobati kuzatiladi. Har bir pedagog doimiy sof raqobat muhitida qolishi ta'minlanadi, natijada ekstensiv ustozlar ham intensivlashishi prognoz qilinadi. Asosiy 2 ta omil ularni o'z ustida ishlashga undaydi. Birinchisi, dars taqsimotida ozroq dars ulush olib, ozroq oylik maoshga tushib ketib, yashil chiziqdan sariq hududga tushib qolish bo'lsa, ikkinchisi, undan ham

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mudhishrog'i sariq hududdan qizil hududga tushib qolish, ya'ni taqsimotda umuman dars soati ulushi tegmay qolishi xavfi mavjud.

Ish va oylik maoshidan ajrarib qolishi ularning raqobatini ta'minlash bilan bir vaqtda, pedagoglarning bilim-malakasidagi o'sish ya'ni toifa natijalarini yaxshilanishi va tegishli fandan 20 yoki 50 % ustama beruvchi milliy sertifikat shuningdek, "70 % lik" ustamalar pedagoglar uchun kirib kelayotgan mablag'lar turi va oqimini oshishini ta'minlaydi.

3) Pedagoglarning bilim va malakasining ortishi tabiiyki, eng muhimi, maktablarda ta'lim oluvchilarning ham bilim ortishiga olib kelishi kutilmoqda.

TADQIQOTNING EHTIMOLIY KAMCHILIKLARI

Ushbu ilmiy maqolada yuqoridagi kabi puxta tizimlashtirilgan tavsiyalar taklif etilganiga qaramay, EduMatch AI ning bir qator nuqtalarida kichik kamchiliklardan holi emasligini tan olish lozim. Ular quyidagicha tavsiflanadi:

1) **Sinflarning bo'linishida kamchilik**. Dars soatlari raqamli tizimli tarzda bo'lingach, endi kim qaysi sinflarga dars berishi hal qilinmay qolib ketmoqda. Shuningdek, pedagoglarning tez-tez almashinishi hisobiga ta'lim oluvchilar bilan yangi pedagoglar o'rtasidagi munosabatlarning keskin o'zgarishining balanslash muammosi ko'tarilishi mumkin. bu masalaga mo'ljallangan tizim ustida ham ishlamoqda.

2) **Katta mablag' talab qilishi.** Bu tizim tabiiyki Elektron hisoblash mashinalariga tayangani sababli adolatli va shaffof avtomatik saralash uchun ancha ko'p mablag' sarflanishi prognoz qilinadi. Chuki, raqamli va algoritmik olamda har bir so'rov (prompt) tokenlarda hisoblanadi. Bu tokenlarni esa hukumat vazirlik uchun tashqi kompaniyalardan sotib olishiga yoki shunday tizimga asos solishga to'g'ri keladi. Bu katta mablag'lar bilan amalga oshishi hali ma'lum emas.

3) **Toifa va milliy sertifikatlarining xavfsizlik darajasini ta'minlash masalasi**. Pedagoglar Platforma orqali algoritmlar vositasida faqatgina bilim va malaka sertifikatlari asosida saralanayotgan ekan, ular tabiiyki, har qanday choralarni qo'llash

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

hisobiga bo'lsa ham, o'sha sertifikatlarga ega chiqishni hoxlaydi va bu hol 2 ta natijaga olib kelishi mumkin. Birinchisi, pedagoglar kasb etikasiga amal qilib, bilimini oshirib, milliy va toifa sertifikatlariga ega bo'lishadi, ammo o'qitish metodikasi bir tomonlama e'tiborsiz qolib ketishi xavfini ististo etmaymiz. Ikkinchisi esa, mazkur sertifikatlarni olishda bilimni baholash markazlariga pora berish, porada vakolatli shaxslarning o'rtada turib ta'magirlik qilishlari, shuningdek, bilimni baholash agentliklariga test sinovlari natijalariga yoki test sinovlariga kiberhujumlar uyushtirib aralashish holatlari avjiga chiqishi mumkin. shu sababdan ham kiberxavsizlik holatlarini va vaklatli organlarning xodimlari bilan profilaktik suxbatlarni sifati va ta'sirini oshirish kerakligi tavsiya qilinadi.

4) **Pedagoglarning kasbiy so'nishi kuchayishi ehtimoli oshishi**. Modul ishga tushsa, pedagoglar bor diqqat etiborini endi metodika emas, balki bilimlarni yodlashga qaratishi tabiiy va bu ularga qo'shimcha yuklama yuklashi ehtimolini oshiradi.

5) **Birdaniga ishsizlik masalasi ko'tarilishi.** Taqsimotda ekstensiv pedagoglarning yoppasiga ishdan ketishi, ularning ishsiz qolishiga olib kelishi mumkin. Bu ba'zi hollarda jamiyat a'zolarida norozilik va ba'zi hollarda esa ishsiz pedagoglarning jinoyat yo'liga kirib ketish mumkinligi ehtimoldan holi emas. tavsiya shuki, ularga ruhiy va moddiy yordamlar va xizmatlar taklif etilishi ko'zda tutilishi lozim. umuman olganda bu holatda aslida ishsizlar va ishlayotganlarning o'rni almashadi xolos, hech qanday tarzda va uslubda ish o'rni sun'iy kamaytirilmaydi.

6) **Raqamli platformani O'zbekiston Respublikasi ta'limi tizimi unitary (markazlashtirilgan) bo'lgani sabab uni muayyan kichik hududda pilot project qilib amaliyotda sinab ko'rishning noqulayligi** Buning asosiy sababi, platforma agar muayyan hududda (Paxtaobod tumani) ishga tushsa, uning ishdan bo'shatish yoki dars soatlarini ozaytirish kabi ta'sirlari sababli bu hudud pedagoglarining boshqa hudud pedagoglari o'rtasida tavofuq yiriklashib ketishi mumkin va bu esa pedagoglarni bu tumanda ishlashni istamaslik holatlarini keltirib chiqarishi ham mumkin. Agar bu

Respublika bosqichida amalga oshirilsa, Qonunchilikda bir qator qonunlar bilan kesishib qolayotgani sababli bir qator muayyan qaror hujjatlari hattoki amaldagi qonun hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

7) **Yuqorida so‘rovnoma asosida keltirilgan statistika ma’lumotlari vaziyatning faqatgina tashqi va umumiy qiyofasini ifodalaydi**. Statistika to‘laqonli sifat yoki sifatsizlikni o‘rta arifmetikasini belgilab beradi. Shunday ekan, yuqoridagi statistic ma’lumotlarga umumiy vaziyatni ochib beruvchi induktiv natija olish vositasi sifatida qarash lozim. Masalan, direktorlarning korrupsiyaviy holatlarida aksariyat direktorlar bu korrupsion holatlarga u yoki bu ko‘rinishda qo‘l urgani, bu direktorlik lavozimi butunlay yaroqsizligini bildirmaydi.

Tavsiya – statistik raqamlarga shubha bilan qarashni istisno qilmaslik foydadan holi emas..

XULOSA

Mana shu yuqoridagi bir qancha kamchiliklarga qaramay ilmiy maqolada quyidagicha maqsad va vazifalarga erishildi:

1) Amaldagi tartib raqamlashtirilishi ilgari surilib, yangi mexanizm va modul taklif qilindi;

2) Ham maktab ta’limi taraqqiyoti, ham korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli harakat bir vaqtda va bir platformada amalga oshirilishi nazarda tutildi.

3) Olingan ma’lumotlar aniq va mo‘ljalli metodologiya va tamoyillar mezonida o‘lchanildi.

Umumiy xulosa, maqolada ta’lim tizimidagi korrupsiyaga yo’l ochuvchi bo‘shliqlar tizimli va tartibli tahlil qilindi. Amaldagi mezonlar o’z holicha qoldi faqatgina vositalar - mezonlar filtri raqamlashtirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Radjabov S. B. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlarini tayyorlash, tanlash va tayinlash masalalari // Maktab ta’limi : muammolar, izlanishlar va yechimlar. -2025. – № 3. – B. 35 – 48. – URL: https://journal.avloniy.uz/uploads/jurnal_category/3eb9b887a40117cdf8aab25679a968c6.pdf

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

2. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Pedagog kadrlarga lavozim va malaka toifalarini berish davriyligi haqidagi ma’lumotlar bazasi – URL: https://pedkadr.uzedu.uz/

3. Sh.Xamrayev Korrupsiyaga qarshi kurashish davr talabi // Maktab ta’limi : muammolar, izlanishlar va yechimlar. -2025. – № 2 – B. 102 – 107.
URL:
https://journal.avloniy.uz/uploads/jurnal_category/75c740b111d831abbdd84d0da15122a7.pdf

OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA FIZIKA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING ZAMONAVIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Sobirova Lolagul
Termiz davlat pedagogika instituti qoshidagi akademik litsey o`qituvchisi
https://orcid.org/0009-0001-9683-6042
muslimaimamkulova@gmail.com
Qosimov Shavkat Urolovich
Termiz davlat pedagogika instituti , Tabiiy va aniq fanlar fakulteti dekani, ***professor.***
shav_74@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada oliy pedagogik ta'lim tizimida fizika mutaxassislarini tayyorlashning zamonaviy pedagogik asoslari, bo'lajak fizika o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish mazmuni va metodik imkoniyatlari tahlil qilingan. Fizika ta'limining zamonaviy mazmunini takomillashtirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, bo'lajak mutaxassislarning ilmiy-tadqiqotchilik, metodik, kommunikativ, raqamli va muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, oliy pedagogik ta'limda kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, integrativ, muammoli, tadqiqotchilik va raqamli ta'lim yondashuvlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida laboratoriya mashg'ulotlari, virtual laboratoriyalar, modellashtirish, STEM yondashuvi, loyiha ta'limi, muammoli ta'lim va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorlikni oshiruvchi muhim omillar sifatida asoslangan.*

Kalit so'zlar: *oliy pedagogik ta'lim, fizika, bo'lajak fizika o'qituvchisi, kasbiy kompetensiya, pedagogik faoliyat, kompetensiyaviy yondashuv, integrativ yondashuv, STEM ta'lim, laboratoriya mashg'ulotlari, raqamli texnologiyalar, pedagogik mahorat, metodika, kasbiy tayyorgarlik.*

MODERN PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR TRAINING PHYSICS SPECIALISTS IN HIGHER PEDAGOGICAL EDUCATION

Abstract. *The article analyzes the modern pedagogical foundations of training physics specialists in higher pedagogical education and the content and methodological possibilities of developing professional competencies of future physics teachers. Particular attention is paid to improving the content of modern physics education, integrating theoretical knowledge with practical activities, and developing scientific-research, methodological, communicative, digital and problem-solving competencies of future specialists. The pedagogical potential of competency-based, activity-oriented, integrative, problem-based, research-oriented and digital approaches in higher pedagogical education is also considered. The use of laboratory classes, virtual laboratories, modeling, STEM education, project-based learning, problem-based learning*

and modern information and communication technologies is substantiated as an important factor in improving the effectiveness of training future physics teachers.

Key words: *higher pedagogical education, physics, future physics teacher, professional competence, pedagogical activity, competency-based approach, integrative approach, STEM education, laboratory classes, digital technologies, pedagogical mastery, methodology, professional training.*

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ ФИЗИКИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье анализируются современные педагогические основы подготовки специалистов по физике в системе высшего педагогического образования, а также содержание и методические возможности формирования профессиональных компетенций будущих учителей физики. Особое внимание уделяется совершенствованию содержания современного физического образования, интеграции теоретических знаний с практической деятельностью, развитию научно-исследовательских, методических, коммуникативных, цифровых компетенций и способности будущих специалистов решать проблемные ситуации. Рассматриваются педагогические возможности компетентностного, деятельностного, интегративного, проблемного, исследовательского и цифрового подходов в высшем педагогическом образовании. Обосновывается эффективность использования лабораторных занятий, виртуальных лабораторий, моделирования, STEM-подхода, проектного и проблемного обучения, а также современных информационно-коммуникационных технологий в подготовке будущих учителей физики.*

Ключевые слова: *высшее педагогическое образование, физика, будущий учитель физики, профессиональная компетентность, педагогическая деятельность, компетентностный подход, интегративный подход, STEM-образование, лабораторные занятия, цифровые технологии, педагогическое мастерство, методика, профессиональная подготовка.*

KIRISH

Bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim tizimida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni egallagan, o‘z kasbiy faoliyatini ilmiy asosda tashkil eta oladigan mutaxassislarni tayyorlash ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tabiiy va aniq fanlar, jumladan, fizika fanini o‘qitishga tayyorlanayotgan bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish dolzarb pedagogik vazifalardan biridir [1].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Fizika fani tabiatda sodir bo‘ladigan hodisa va jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini o‘rganishi bilan birga, o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, mantiqiy fikrlash, kuzatuvchanlik, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va amaliy masalalarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Shu sababli bo‘lajak fizika o‘qituvchisini tayyorlash jarayonida faqat fizik qonunlar va formulalarni o‘zlashtirishning o‘zi yetarli emas [2]. Ularni pedagogik faoliyatga tatbiq eta olish, murakkab fizik tushunchalarni o‘quvchi yoshiga mos ravishda tushuntirish, tajriba va laboratoriya ishlarini tashkil etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini boshqarish kompetensiyalarini shakllantirish talab etiladi.

Zamonaviy ta’limda o‘qituvchi bilim beruvchi subyekt sifatidagi an’anaviy rolidan tashqari, o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etuvchi, ularni mustaqil izlanishga yo‘naltiruvchi, tadqiqotchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi va ta’lim natijalarini diagnostika qiluvchi pedagog sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu jihatdan bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlash mazmuni ham kasbiy faoliyatning real ehtiyojlariga mos ravishda yangilanib borishi zarur [3,4].

Fizika mutaxassislarini tayyorlashning pedagogik mohiyati. Bo‘lajak fizika o‘qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash – bu talabaning fundamental fizik bilimlarini, pedagogik-psixologik tayyorgarligini, metodik mahoratini, amaliy ko‘nikmalarini va shaxsiy-kasbiy sifatlarini yagona tizim asosida shakllantirish jarayonidir.

Pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi o‘quvchilarning bilim olishini tashkil etish bilan cheklanmaydi. O‘qituvchi o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishi, mustaqil fikrlashi va amaliy faoliyatga tayyorlanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratadi [5].

Bo‘lajak fizika o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlar asosida ko‘rib chiqish mumkin:

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

fundamental fizik bilimlar → pedagogik-psixologik bilimlar → metodik tayyorgarlik → amaliy faoliyat → raqamli kompetensiya → tadqiqotchilik faoliyati → pedagogik mahorat [6-9].

Mazkur komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini belgilaydi.

Fizika mutaxassisini tayyorlashda, avvalo, uning fizik hodisa va qonuniyatlarni chuqur tushunishi, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishi muhim. Shu bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchi mazkur bilimlarni o‘quvchilarga qanday yetkazish, qanday metod va vositalardan foydalanish hamda ta’lim natijasini qanday baholashni ham bilishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak fizika o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini “bilish – tushuntirish – qo‘llash – tadqiq qilish – loyihalash – baholash – refleksiya qilish” ketma-ketligida shakllantirish maqsadga muvofiq.

Oliy pedagogik ta’limda bo‘lajak fizika mutaxassislarini tayyorlashda bir qator zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish zarur.

Kompetensiyaviy yondashuv. Kompetensiyaviy yondashuv talabaning faqat bilimlarni egallashiga emas, balki ularni real kasbiy vaziyatlarda qo‘llay olishiga e’tibor qaratadi. Bo‘lajak fizika o‘qituvchisida quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirish muhim:

fizik-kognitiv kompetensiya;

metodik kompetensiya;

eksperimental-amaliy kompetensiya;

raqamli kompetensiya;

kommunikativ kompetensiya;

muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyasi;

tadqiqotchilik kompetensiyasi;

refleksiv kompetensiya.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bunday yondashuvda ta'lim natijasi talabaning "nimani bilishi" bilan emas, balki "bilimini qayerda, qanday va nima uchun qo'llay olishi" bilan belgilanadi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvda talaba ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida qaraladi. Fizika fanini o'qitishda bu yondashuv laboratoriya mashg'ulotlari, amaliy masalalar, tajribalar, loyihalar va muammoli topshiriqlar orqali amalga oshiriladi.

Masalan, talaba tayyor formulani yodlash o'rniga fizik hodisani kuzatadi, muammoni aniqlaydi, faraz ilgari suradi, tajriba o'tkazadi, natijalarni tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.

METODOLOGIYA

Integrativ yondashuv. Fizika boshqa tabiiy va aniq fanlar bilan uzviy bog'liq. Shu sababli bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda matematika, informatika, kimyo, astronomiya, muhandislik va texnologiya fanlari bilan integratsiyani kuchaytirish muhim [10].

Integrativ yondashuv quyidagi zanjir orqali ifodalanishi mumkin:

fizika → matematika → informatika → modellashtirish → texnologiya → amaliy muammo → innovatsion yechim.

Bu yondashuv bo'lajak o'qituvchining fanlararo fikrlashini rivojlantiradi.

Muammoli ta'lim yondashuvi. Muammoli ta'lim talabaning mustaqil fikrlash va izlanish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Fizika mashg'ulotlarida real hayotiy vaziyatlar asosida muammoli savollar qo'yish samarali natija beradi.

Masalan:

"Nima sababdan muz suv yuzasida suzadi?"

"Nima uchun samolyot qanotining shakli uning ko'tarilishiga ta'sir qiladi?"

"Nima uchun metall buyum yog'och buyumga nisbatan sovuqroq tuyuladi?"

kabi savollar talabani fizik hodisani oddiy yodlash emas, balki uning sababini izlashga undaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqotchilik yondashuvi. Bo‘lajak fizika o‘qituvchisi ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyor bo‘lishi kerak. Buning uchun talabalarni kichik tadqiqotlar, laboratoriya loyihalari, eksperimental topshiriqlar va ilmiy-amaliy loyihalarga jalb etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotchilik faoliyatining metodik algoritmi:

muammoni aniqlash → faraz ilgari surish → metodni tanlash → tajriba o‘tkazish → ma’lumotlarni qayta ishlash → natijalarni tahlil qilish → xulosa chiqarish → taqdimot qilish.

Mazkur jarayon bo‘lajak mutaxassisda ilmiy fikrlash va pedagogik tadqiqot olib borish kompetensiyasini rivojlantiradi.

Fizika mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish.

NATIJA

Oliy pedagogik ta’limda fizika mutaxassislarini tayyorlash samaradorligini oshirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.Bular qatoriga: muammoli ta’lim; loyiha ta’limi; STEM/STEAM yondashuvi; “Flipped classroom”; blended learning; case-study; Design Thinking; virtual laboratoriya; kompyuter modellashtirish; interaktiv ta’lim; raqamli baholash; simulyatsiya texnologiyalari kiradi.

Ayniqsa, virtual laboratoriyalar fizik jarayonlarni xavfsiz va ko‘rgazmali tarzda o‘rganish imkonini beradi. Talaba tajribani virtual muhitda takrorlashi, o‘zgaruvchilarni almashtirishi, natijalarni kuzatishi va nazariy xulosalarni amaliy ma’lumotlar bilan taqqoslashi mumkin.

Kompyuter modellashtirish esa bevosita kuzatish qiyin bo‘lgan jarayonlarni vizual tarzda namoyish etish imkonini beradi. Masalan, mexanik harakat, elektr va magnit maydonlari, to‘lqin jarayonlari, optik hodisalar va atom fizikasi bilan bog‘liq jarayonlarni modellashtirish talabaning abstrakt tafakkurini rivojlantiradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

STEM yondashuvi asosida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlash

STEM yondashuvi fizika ta’limini matematika, texnologiya, muhandislik va informatika bilan integratsiyalash imkonini beradi. Bu yondashuv asosida talaba nafaqat fizik qonunni o‘rganadi, balki undan amaliy muammoni hal qilishda foydalanadi.

Masalan, “Quyosh energiyasidan foydalanish” loyihasida talaba:

fizik qonunlarni o‘rganadi → matematik hisob-kitoblarni amalga oshiradi → qurilma modelini ishlab chiqadi → texnologik vositalardan foydalanadi → tajriba o‘tkazadi → natijani tahlil qiladi.

Bunday faoliyat bo‘lajak o‘qituvchining fanlararo kompetensiyasini rivojlantirib, uni maktab sharoitida zamonaviy STEM mashg‘ulotlarini tashkil etishga tayyorlaydi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarining pedagogik imkoniyatlari. Laboratoriya mashg‘ulotlarini faqat tayyor yo‘riqnomani bajarish asosida emas, balki muammoli va tadqiqotchilik xarakterida tashkil etish samaraliroqdir.

Masalan, talabaga tayyor tajriba algoritmini berish o‘rniga:

“Berilgan fizik hodisani tajriba yordamida qanday isbotlash mumkin?”

degan muammoli topshiriq beriladi.

Bu esa talabaning mustaqil qaror qabul qilish, tajribani loyihalash va natijalarni tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Pedagogik shart-sharoitlar. Oliy pedagogik ta’limda fizika mutaxassislarini samarali tayyorlash uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni ta’minlash zarur:

1. Fundamental va metodik bilimlarning integratsiyasi. Talabaning fizik bilimlari uni o‘qitish metodikasi bilan uzviy bog‘lanishi kerak.

2. Nazariya va amaliyot birligi. Har bir nazariy bilim laboratoriya, amaliy mashg‘ulot yoki real pedagogik vaziyat bilan mustahkamlanishi lozim.

3. Talabaning faol subyekt sifatida ishtiroki. Ta’lim jarayonida mustaqil izlanish, muammoli topshiriq va loyiha faoliyatiga keng o‘rin berilishi zarur.

4. Raqamli ta'lim muhitini yaratish. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, elektron resurslar va raqamli baholash vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilishi kerak.

5. Tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish. Talabalarni ilmiy loyihalar, laboratoriya tadqiqotlari va pedagogik tajriba-sinov ishlariga jalb etish lozim.

6. Individual va differensial yondashuv. Talabalarning tayyorgarlik darajasi va kasbiy qiziqishlarini hisobga olish zarur.

7. Pedagogik amaliyot bilan integratsiya. Oliy ta'limdagi nazariy va amaliy mashg'ulotlar maktabdagi real pedagogik faoliyat bilan uzviy bog'lanishi kerak.

XULOSA

Oliy pedagogik ta'limda fizika mutaxassislarini tayyorlashni zamonaviylashtirish ta'lim mazmunini yangilash, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish va bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini kompleks shakllantirishni talab etadi. Fizika o'qituvchisini tayyorlash jarayonida fundamental bilimlar bilan bir qatorda metodik, eksperimental, kommunikativ, raqamli, tadqiqotchilik va refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirish muhimdir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, integrativ, muammoli va tadqiqotchilik yondashuvlarini o'zaro uyg'unlashtirish bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi. Ayniqsa, laboratoriya mashg'ulotlarini tadqiqotchilik xarakterida tashkil etish, virtual laboratoriyalar va kompyuter modellashtirishdan foydalanish, STEM va loyiha ta'limini joriy etish talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash imkonini beradi.

Shuningdek, bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlashda "bilim – ko'nikma – kompetensiya – amaliy faoliyat – refleksiya" izchilligini ta'minlash muhim metodik shart sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv natijasida oliy pedagogik ta'lim bitiruvchisi nafaqat fizik bilimlarga ega mutaxassis, balki zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llay oladigan, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatini tashkil

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

etadigan, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyor hamda pedagogik vaziyatlarni samarali hal eta oladigan kompetentli o‘qituvchi sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–637-son, 2020-yil 23-sentabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-son Farmoni. – Toshkent, 2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5847-son Farmoni. – Toshkent, 2019.
1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. Avazov Sh., Muslimov N., Qosimov Sh., Xodiev U., Avazov E. Kasb-hunar kollejlarida amaliy kasbiy ta’lim metodikasi va texnologiyalari. – Toshkent: Navro‘z, 2014. – 300 b.
3. Qosimov Sh.U. Kasb-hunar kollejlarida amaliy kasbiy ta’limni tashkil etishning metodik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori ... diss. – Toshkent, 2018. – 166 b.
4. Darling-Hammond L. Teacher Education around the World: What Can We Learn from International Practice? – San Francisco: Jossey-Bass, 2017. – 304 p.
5. Freeman S., Eddy S.L., McDonough M. et al. Active learning increases student performance in science, engineering, and mathematics // Proceedings of the National Academy of Sciences. – 2014. – Vol. 111, No. 23. – P. 8410–8415.
6. Prince M. Does Active Learning Work? A Review of the Research // Journal of Engineering Education. – 2004. – Vol. 93, No. 3. – P. 223–231.
7. Bell S. Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future // The Clearing House. – 2010. – Vol. 83, No. 2. – P. 39–43.
8. Wiggins G., McTighe J. Understanding by Design. – Alexandria, VA: ASCD, 2005.
9. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
10.Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREATIV AXBOROT TA'LIM MUHITINI LOYIHALASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Aliboyev Sobir Xolboyevich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent,
O'zbekiston Milliy universiteti
E-mail: sobiralibayev25575@gmail.com
ORCID: 0000-0003-1617-0875

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta'lim muassasalarida kreativ axborot ta'lim muhitini loyihalashning pedagogik shart-sharoitlari tadqiq etilgan. "Pedagogik omil", "pedagogik shart-sharoit" va "pedagogik mexanizm" tushunchalari o'rtasidagi farq aniqlashtirilgan. Shart-sharoitlarni tanlashning to'rt mezoni zaruriylik, kompleks yetarlilik, boshqariluvchanlik va o'lchanuvchanlik – asoslangan. Shu mezonlar asosida besh guruhdan iborat shart-sharoitlar majmui ishlab chiqilgan: tashkiliy-boshqaruv, didaktik, texnologik, subyektlar tayyorgarligi va ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar. Ularning ierarxik tuzilmasi, "shart-sharoit, mexanizm, natija" bog'liqligi hamda bajarilish darajasini baholovchi integral indeks taklif etilgan. Natijalar kreativ muhitni joriy etishda ustuvorliklarni belgilash va uning sifatini monitoring qilish uchun metodologik asos bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *kreativ axborot ta'lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, pedagogik mexanizm, psixologik xavfsizlik, konstruktiv muvofiqlik, raqamli kompetensiya, oliy ta'lim.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. *В статье исследуются педагогические условия проектирования креативной информационно-образовательной среды в высших учебных заведениях. Уточнено разграничение понятий «педагогический фактор», «педагогическое условие» и «педагогический механизм». Обоснованы четыре критерия отбора условий: необходимость, комплексная достаточность, управляемость и измеримость. На их основе разработан комплекс из пяти групп условий: организационно-управленческих, дидактических, технологических, условий готовности субъектов и социально-психологических. Предложены иерархическая структура условий, связь «условие – механизм – результат» и интегральный индекс степени их выполнения. Результаты служат методологической основой для определения приоритетов внедрения креативной среды и мониторинга её качества.*

Ключевые слова: *креативная информационно-образовательная среда, педагогические условия, педагогический механизм, психологическая безопасность, конструктивное согласование, цифровая компетентность, высшее образование.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DESIGNING A CREATIVE INFORMATION-EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. *The article examines the pedagogical conditions for designing a creative information and educational environment in higher education institutions. The distinction between the concepts of "pedagogical factor", "pedagogical condition" and "pedagogical mechanism" is clarified. Four criteria for selecting conditions are substantiated: necessity, joint sufficiency, manageability, and measurability. On this basis, a set of five groups of conditions is developed: organizational-managerial, didactic, technological, participant readiness, and socio-psychological conditions. A hierarchical structure of the conditions, a "condition – mechanism – outcome" chain, and an integral index of the degree of their fulfilment are proposed. The results provide a methodological basis for setting implementation priorities and monitoring the quality of a creative learning environment.*

Keywords: *creative information and educational environment, pedagogical conditions, pedagogical mechanism, psychological safety, constructive alignment, digital competence, higher education.*

KIRISH

Oliy ta'lim muassasalarida raqamli platformalar, elektron resurslar va sun'iy intellekt vositalarining keng joriy etilishi ta'lim muhitining texnologik imkoniyatlarini sezilarli kengaytirdi. Biroq bir xil texnologik imkoniyatlarga ega muassasalarda talabalarning kreativ faolligi keskin farq qilishi mumkin. Bu holat kreativ muhitning samaradorligi texnologiyalarning mavjudligi bilan emas, balki ular qanday pedagogik shart-sharoitlarda qo'llanayotgani bilan belgilanishini ko'rsatadi. N.Selvin ta'kidlaganidek, texnologiyaning ta'limga ta'siri uning o'zidan emas, balki u joriy etiladigan ijtimoiy-pedagogik kontekstdan kelib chiqadi [15].

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish va pedagogik ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlarda ta'lim jarayonini raqamlashtirish bilan birga, kadrlarning ijodiy va innovatsion salohiyatini rivojlantirish vazifasi ham belgilangan [1; 2; 3]. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun kreativ axborot ta'lim muhitini (KATM) loyihalash qanday shart-sharoitlarni talab qilishini aniq bilish zarur.

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik shart-sharoitlar masalasi keng o'rganilgan bo'lsa-da, ko'plab tadqiqotlarda ular yetarli asoslanmagan ro'yxat ko'rinishida beriladi: shart-



sharoitlarni tanlash mezoni ko‘rsatilmaydi, ularning o‘zaro bog‘liqligi va bajarilganligini tekshirish usuli ochilmaydi. Natijada shart-sharoitlar deklarativ xarakter kasb etadi va amaliyotda boshqaruv qarorlari uchun asos bo‘la olmaydi. Mazkur maqola ana shu muammoni KATMni loyihalash misolida hal etishga qaratilgan. U muallifning KATMni loyihalash yo‘nalishlariga bag‘ishlangan oldingi tadqiqotining davomi hisoblanadi [20].

Tadqiqotning maqsadi - oliy ta’lim muassasalarida kreativ axborot ta’lim muhitini loyihalashning pedagogik shart-sharoitlarini aniq mezonlar asosida tanlash, ularning ierarxik tuzilmasi va ta’sir mexanizmlarini asoslash hamda bajarilish darajasini baholash usulini ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR SHARXI

“Pedagogik shart-sharoit” tushunchasi pedagogika fanining tadqiqot apparatida markaziy o‘rin tutadi. N.V.Ippolitova va N.S.Sterxova bu tushunchaning mohiyatini tahlil qilib, pedagogik shart-sharoitlarni tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik va didaktik turlarga ajratgan hamda ularni pedagogik tizim faoliyati samaradorligini ta’minlovchi imkoniyatlar majmui sifatida talqin qilgan [17]. Ye.V.Yakovlev va N.O.Yakovleva pedagogik konsepsiyani qurishda shart-sharoitlarni nazariy qoidalarning amaliy sohaga proyeksiyasi sifatida ko‘rib chiqqan [18]. V.A.Yasvin ta’lim muhitini shaxs rivojlanishi uchun imkoniyatlar tizimi sifatida asoslab, muhitning sifatini uning imkoniyatlari subyekt tomonidan qay darajada ishga solinishi bilan bog‘lagan [19].

Kreativlikning ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari T.Amabile tomonidan chuqur o‘rganilgan: uning tadqiqotlarida ichki motivatsiya kreativlikning hal qiluvchi omili, haddan tashqari nazorat va tashqi baholash esa uni susaytiruvchi omillar sifatida ko‘rsatilgan [4]. E.Desi va R.Rayanning o‘z-o‘zini belgilash nazariyasiga ko‘ra, ichki motivatsiya uch asosiy psixologik ehtiyoj – avtonomiya, kompetentlik va aloqadorlik qondirilganda shakllanadi [7; 14]. A.Edmondson jamoada “psixologik xavfsizlik”, ya’ni xato qilish yoki savol berish uchun jazolanmaslik ishonchi o‘rganish xulq-atvorining zaruriy sharti ekanligini empirik asoslagan [8]. R.Begetto va J.Kaufman kreativlikning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

"mini-c" darajasini, ya'ni o'quvchi uchun shaxsan yangi bo'lgan mazmunli talqinlarni ajratib, ta'lim jarayonida har bir talabaning kreativ salohiyatini tan olish zarurligini ko'rsatgan [5].

Didaktik shart-sharoitlar nuqtai nazaridan J.Biggs va K.Tangning "konstruktiv muvofiqlik" tamoyili alohida ahamiyatga ega: ta'lim natijalari, o'quv faoliyati va baholash bir-biriga mos kelmasa, talaba baholanadigan narsani o'rganadi, rejalashtirilgan natijani emas [6]. J.Xetti va X.Timperli teskari aloqaning o'quv natijalariga ta'sirini tahlil qilib, uning samaradorligi "Qayerga borayapman? Qanday borayapman? Keyin nima?" savollariga javob berishiga bog'liqligini ko'rsatgan [9]. OECD loyihasida kreativlikni rivojlantiruvchi pedagogik amaliyotlar va ularni baholash rubrikalari ishlab chiqilgan [16].

Subyektlar tayyorgarligi masalasida P.Mishra va M.Koelerning TPACK modeli [11] hamda DigCompEdu ramkasi [13] o'qituvchining texnologik-pedagogik kompetensiyasini tavsiflaydi. YUNESKOning generativ sun'iy intellektdan ta'limda foydalanish bo'yicha qo'llanmasida esa ushbu vositalardan foydalanishning institutsional va axloqiy shartlari belgilangan [10].

Tahlil shuni ko'rsatadiki, KATMga taalluqli shart-sharoitlar turli ilmiy yo'nalishlarda alohida-alohida asoslangan. Biroq ularni yagona mezonlar bo'yicha tanlash, ierarxiyasini aniqlash, ta'sir mexanizmini ochish va bajarilganligini o'lchash imkonini beruvchi yaxlit tizim ishlab chiqilmagan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, muhitli va subyekt-faoliyatli yondashuvlar hamda R.Pouson va N.Tillining realistik baholash konsepsiyasi tashkil etdi [12]. Realistik baholash konsepsiyasiga ko'ra, har qanday pedagogik ta'sir natijasi "kontekst, mexanizm, natija" zanjiri orqali tushuntiriladi: bir xil chora turli sharoitlarda turli mexanizmlarni ishga tushirishi va turli natija berishi mumkin. Bu konsepsiya shart-



sharoitlarni natijaga bevosita emas, mexanizm orqali ta'sir qiluvchi omil sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

NATIJALAR

Tadqiqotda kategorial tahlil, ilmiy manbalar va xalqaro ramkalarni qiyosiy-tahliliy o'rganish, pedagogik modellashtirish hamda indikatorlar tizimini ishlab chiqish usullari qo'llanildi. Maqolada shart-sharoitlar majmuining nazariy asoslanishi bayon etiladi; integral indeksning empirik validatsiyasi tadqiqotning tajriba-sinov bosqichida amalga oshiriladi.

1. Pedagogik omil, shart-sharoit va mexanizm tushunchalarining farqlanishi

Pedagogik tadqiqotlarda "omil", "shart-sharoit" va "mexanizm" tushunchalari ko'pincha sinonim sifatida ishlatiladi. Bu esa shart-sharoitlar ro'yxatining noaniq bo'lishiga olib keladi. KATMni loyihalash uchun ular quyidagicha farqlanadi (1-jadval).

1-jadval.

"Omil", "shart-sharoit" va "mexanizm" tushunchalarining farqlanishi

Tushuncha	Mazmuni	Boshqariluvchanligi	KATMdagi misol
Pedagogik omil	Natijaga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday sabab	Boshqariladigan yoki boshqarilmaydigan	Talabaning oilaviy sharoiti, internet sifati, raqamli platforma mavjudligi
Pedagogik shart-sharoit	Omilni pedagogik maqsadga xizmat qildirish uchun maqsadli yaratilgan va boshqariladigan imkoniyat	Doimo boshqariladi	Platformada ochiq yakunli topshiriqlar va ularni baholash rubrikasining mavjudligi

Tushuncha	Mazmuni	Boshqariluvchanligi	KATMdagi misol
Pedagogik mexanizm	Shart-sharoit talaba faoliyatida qanday o‘zgarish orqali natijaga aylanishini ko‘rsatuvchi jarayon	Kuzatiladi va qo‘llab-quvvatlanadi	Talaba bir nechta muqobil yechim yaratadi, ularni taqqoslaydi va eng yaxshisini asoslaydi

Shu asosda quyidagi ta’rif taklif etiladi: KATMni loyihalashning pedagogik shart-sharoitlari - muhitning talabalar kreativ faoliyatini qo‘zg‘atuvchi mexanizmlarni ishga tushirish imkonini beruvchi, maqsadli yaratiladigan, boshqariladigan va bajarilganligi tekshiriladigan tashkiliy, didaktik, texnologik, subyektiv va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari majmui.

2. Shart-sharoitlarni tanlash mezonlari

Shart-sharoitlar ro‘yxatining asoslanganligini ta’minlash uchun har bir taklif etilayotgan shart to‘rt mezon bo‘yicha tekshirildi.

Zaruriylik mezoni. Shart bajarilmaganda kreativ faoliyat mexanizmi ishga tushmasligi yoki sezilarli zaiflashishi nazariy yoki empirik asoslangan bo‘lishi kerak. Masalan, psixologik xavfsizlik zarur shart hisoblanadi, chunki xato uchun jazolanish xavfi bor sharoitda talaba noodatiy g‘oyani taklif qilishdan qochadi [8].

Kompleks yetarlilik mezoni. Alohida shartlarning birortasi yolg‘iz o‘zi yetarli emas, lekin ularning majmui muhitning asosiy funksiyalarini to‘liq qamrab olishi kerak. Majmuadan biror shartni olib tashlaganda muhitning biror muhim funksiyasi ta’minlanmay qolsa, majmua minimal yetarli hisoblanadi.

Boshqariluvchanlik mezoni. Shart muassasa va o‘qituvchi tomonidan maqsadli yaratilishi va o‘zgartirilishi mumkin bo‘lishi kerak. Talabalarning ijtimoiy kelib chiqishi kabi boshqarilmaydigan omillar shart-sharoit emas, balki hisobga olinadigan kontekst sifatida qaraladi.

O‘lchanuvchanlik mezoni. Har bir shartning bajarilganligini tasdiqlovchi kuzatiladigan indikator va ma’lumot manbai bo‘lishi kerak. Indikatorsiz shart deklaratsiya bo‘lib qoladi va loyihalash jarayonini boshqarishda foydalanib bo‘lmaydi.

3. Pedagogik shart-sharoitlar majmui

To‘rt mezon asosida KATMni loyihalashning besh guruhdan iborat pedagogik shart-sharoitlari majmui ajratildi.

Sh1. Tashkiliy-boshqaruv shart-sharoitlari. Ular muassasa darajasida kreativ muhitni qo‘llab-quvvatlovchi siyosat va resurslarni nazarda tutadi: raqamli transformatsiya strategiyasida kreativ natijalarning maqsad sifatida belgilanishi; kreativ topshiriqlarni loyihalash va baholashga sarflanadigan vaqtning o‘qituvchi yuklamasida hisobga olinishi; sun’iy intellekt vositalaridan akademik halollik doirasida foydalanish reglamentining mavjudligi [10]. Bu shartlar bajarilmasa, kreativ pedagogika alohida o‘qituvchilarning shaxsiy tashabbusi darajasida qoladi va tizimga aylanmaydi.

Sh2. Didaktik shart-sharoitlar. Ularning markazida konstruktiv muvofiqlik turadi [6]: fan dasturida kreativ ta’lim natijasi aniq ifodalanadi, unga mos ochiq yakunli faoliyat tashkil etiladi va aynan shu natija mos rubrika bilan baholanadi. Agar dasturda “kreativ fikrlashni rivojlantirish” maqsad qilib qo‘yilgan bo‘lsa-yu, yakuniy nazorat faqat yagona to‘g‘ri javobli testdan iborat bo‘lsa, talaba test uchun tayyorlanadi va kreativ faoliyat o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Shuningdek, didaktik shartlarga topshiriqlarning murakkabligi bo‘yicha bosqichma-bosqich tuzilishi va jarayonni yo‘naltiruvchi shakllantiruvchi teskari aloqa kiradi [9].

Sh3. Texnologik shart-sharoitlar. Ular raqamli vositalarning kreativ faoliyat bosqichlariga – g‘oya yaratish, prototiplash, hamkorlik, taqdimot va refleksiyaga – funksional mos kelishini, barcha talabalar uchun foydalanish imkoniyatini (shu jumladan, internet aloqasi zaif sharoitda oflayn rejimni) hamda vositalarning yagona LMS doirasida integratsiyalanganligini nazarda tutadi. Bu yerda asosiy talab vositalar sonining ko‘pligi emas, balki ularning funksional yetarliligidir.

Sh4. Subyektlar tayyorgarligi shart-sharoitlari. Ular ikki tomonni qamraydi. O‘qituvchi kreativ topshiriqni loyihalash, kreativ mahsulotni baholash va raqamli vositalarni pedagogik maqsadga muvofiq tanlash kompetensiyasiga ega bo‘lishi kerak. Bu kompetensiya TPACK modeli [11] va DigCompEdu ramkasi [13] asosida diagnostika qilinadi va rivojlantiriladi. Talaba esa raqamli savodxonlik bilan birga o‘z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashga, ya’ni metakognitiv tayyorgarlikka ega bo‘lishi lozim. Bu shart bajarilmasa, eng mukammal loyihalangan muhit ham reproduktiv tarzda ishlatiladi.

Sh5. Ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar. Ular kreativ faoliyatning “ichki dvigateli” bo‘lgan motivatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi. Bu guruhga psixologik xavfsizlik (xato o‘rganish resursi sifatida qabul qilinadi) [8], avtonomiya (topshiriq, vosita va mahsulot shaklini tanlash erkinligi), kompetentlikni his qilish (erishiladigan, lekin chaqiriq beruvchi murakkablik) va aloqadorlik (hamkorlikdagi faoliyat va tengdoshlar bilan o‘zaro qo‘llab-quvvatlash) kiradi [7; 14]. Bunda har bir talabaning “mini-c” darajasidagi kreativ yutug‘i, ya’ni uning o‘zi uchun yangi bo‘lgan g‘oyasi ham qadrlanadi [5].

4. Shart-sharoitlarning ierarxik tuzilmasi

Besh guruh shart-sharoit bir xil darajada emas: ular joriy etish ketma-ketligi va bir-biriga ta’siri bo‘yicha uch qatlamni hosil qiladi (2-jadval).

2-jadval.

Pedagogik shart-sharoitlarning ierarxik tuzilmasi

Qatlam	Shart-sharoitlar	Vazifasi	Bajarilmaganda yuzaga keladigan holat
I. Bazaviy	Sh1 - tashkiliy-boshqaruv; Sh4 - subyektlar tayyorgarligi	Muhitni yaratish va undan foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi	Muhit yaratilmaydi yoki reproduktiv tarzda ishlatiladi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Qatlam	Shart-sharoitlar	Vazifasi	Bajarilmaganda yuzaga keladigan holat
II. Muhit hosil qiluvchi	Sh2 - didaktik; Sh3 - texnologik	Kreativ faoliyat uchun mazmun, topshiriq va vositalarni beradi	Talaba faol, lekin faoliyati yangi mahsulot yaratishga yo‘naltirilmagan
III. Faollashtiruvchi	Sh5 - ijtimoiy-psixologik	Kreativ faoliyatni ichki motivatsiya bilan harakatga keltiradi	Imkoniyatlar mavjud, lekin talaba tavakkal qilishdan qochadi va andozaviy yechimni tanlaydi

Ierarxiyadan muhim amaliy qoida kelib chiqadi, uni “eng zaif shart qoidasi” deb nomlash mumkin: KATMning samaradorligi shartlarning o‘rtacha bajarilish darajasi bilan emas, eng kam bajarilgan shart bilan cheklanadi. Masalan, texnologik shartlar yuqori darajada bajarilib, psixologik xavfsizlik ta’minlanmagan bo‘lsa, talabalar zamonaviy vositalardan faqat xavfsiz, andozaviy topshiriqlarni bajarish uchun foydalanadi. Shu sababli muhitni rivojlantirishda resurslar eng zaif shartni mustahkamlashga ustuvor yo‘naltirilishi kerak.

5. “Shart-sharoit – mexanizm – natija” bog‘liqligi

Realistik baholash konsepsiyasiga muvofiq [12], har bir shart-sharoit talaba faoliyatida muayyan mexanizmni ishga tushirish orqali kreativ natijaga ta’sir qiladi. Bu bog‘liqlik 3-jadvalda keltirilgan. Jadval shart-sharoitlarni bajarish bilan cheklanmay, mexanizm haqiqatan ishga tushganini ham kuzatish zarurligini ko‘rsatadi.

3-jadval.

Shart-sharoitlar, mexanizmlar va kutilayotgan natijalar

Shart-sharoit	Ishga tushadigan mexanizm	Kutilayotgan natija
Sh1. Tashkiliy-boshqaruv	O‘qituvchi kreativ topshiriqlarni loyihalashga vaqt va institutsional qo‘llab-quvvatlash oladi	Kreativ pedagogika tizimli va barqaror qo‘llanadi
Sh2. Didaktik	Talaba baholanadigan natija kreativ ekanini anglab, muqobil yechimlar izlashga yo‘naladi	Muqobil g‘oyalar soni va originalligi ortadi
Sh3. Texnologik	G‘oyani tez prototiplash va jamoaviy takomillashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi	G‘oyalar amaliy pedagogik mahsulotga aylanadi
Sh4. Subyektlar tayyorgarligi	O‘qituvchi kreativ jarayonni yo‘naltiradi, talaba o‘z faoliyatini mustaqil boshqaradi	Raqamli vositalar reproduktiv emas, kreativ maqsadda ishlatiladi
Sh5. Ijtimoiy-psixologik	Xatodan qo‘rqish kamayadi, ichki motivatsiya kuchayadi	Talaba noodatiy g‘oyani taklif qilishga va uni himoya qilishga tayyor bo‘ladi

6. Shart-sharoitlar bajarilish darajasini baholash

O‘lchanuvchanlik mezonini amalga oshirish uchun har bir shart-sharoit guruhi uchun indikatorlar va ma’lumot manbalari belgilandi (4-jadval). Har bir indikator uch ballik shkala bo‘yicha baholanadi: 0 – bajarilmagan, 1 – qisman bajarilgan, 2 – to‘liq bajarilgan.

4-jadval. Shart-sharoitlarning indikatorlari va ma’lumot manbalari

Shart-sharoit	Indikatorlar namunasi	Ma'lumot manbai
Sh1	Strategiyada kreativ natijalarning belgilanganligi; yuklamada vaqtning hisobga olinishi; sun'iy intellekt reglamentining mavjudligi	Muassasa hujjatlari tahlili
Sh2	Fan dasturida kreativ natijalarning mavjudligi; ochiq yakunli topshiriqlar ulushi; kreativ rubrikalar bilan baholash	Fan dasturlari va LMS kurslari auditi
Sh3	Kreativ faoliyat bosqichlarining vositalar bilan qamrab olinishi; oflayn imkoniyat; LMS integratsiyasi	Texnik audit, foydalanish statistikasi
Sh4	O'qituvchilarning DigCompEdu bo'yicha darajasi; talabalarning metakognitiv tayyorgarlik ko'rsatkichi	So'rovnoma, o'z-o'zini baholash, kuzatuv
Sh5	Psixologik xavfsizlik, avtonomiya va ichki motivatsiya ko'rsatkichlari	Talabalar so'rovnomasi, fokus-guruhlar

Har bir guruh bo'yicha bajarilish indeksi quyidagicha hisoblanadi:

$$I_k = \Sigma\, b_i / (2 \cdot n_k),$$

bu yerda b_i – k-guruhdagi i-indikator bali, n_k – k-guruhdagi indikatorlar soni. Indeks 0 dan 1 gacha qiymat oladi. "Eng zaif shart qoidasi"ga muvofiq, muhitning umumiy holati o'rtacha qiymat bilan emas, eng kichik guruh indeksi bilan tavsiflanadi:

$$I = min\ (I_1, I_2, I_3, I_4, I_5).$$

Bunday yondashuv muassasa rahbariyatiga yuqori ko'rsatkichlar ortida yashiringan zaif bo'g'inni aniqlash va resurslarni shu yo'nalishga ustuvor yo'naltirish imkonini beradi.

Indikatorlarning ishonchliligi va indeksning kreativ natijalar bilan bog‘liqligi tajriba-sinov ishlarida tekshirilishi lozim.

1. “Pedagogik omil”, “pedagogik shart-sharoit” va “pedagogik mexanizm” tushunchalari boshqariluvchanlik va natijaga ta’sir qilish usuli bo‘yicha farqlandi. Shu asosda KATMni loyihalashning pedagogik shart-sharoitlari tushunchasining mualliflik ta’rifi taklif etildi.

2. Shart-sharoitlarni tanlashning to‘rt mezoni – zaruriylik, kompleks yetarlilik, boshqariluvchanlik va o‘lchanuvchanlik – asoslandi. Bu mezonlar shart-sharoitlar ro‘yxatini deklarativ tavsifdan tekshiriladigan ilmiy konstruksiyaga aylantiradi.

3. Besh guruhdan iborat shart-sharoitlar majmui ishlab chiqildi: tashkiliy-boshqaruv, didaktik, texnologik, subyektlar tayyorgarligi va ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar. Ularning bazaviy, muhit hosil qiluvchi va faollashtiruvchi qatlamlardan iborat ierarxiyasi hamda “eng zaif shart qoidasi” asoslandi.

4. Har bir shart-sharoitning kreativ natijaga ta’sir mexanizmi ochib berildi, bajarilish darajasini baholash uchun indikatorlar tizimi va integral indeks taklif etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. – URL: https://lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – URL: https://lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – URL: https://lex.uz
4. Amabile T.M. Creativity in Context. – Boulder: Westview Press, 1996. – 317 p.
5. Beghetto R.A., Kaufman J.C. Toward a broader conception of creativity: A case for “mini-c” creativity // Psychology of Aesthetics, Creativity, and the Arts. – 2007. – Vol. 1, No. 2. – P. 73–79.
6. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. – 4th ed. – Maidenhead: Open University Press, 2011. – 389 p.
7. Deci E.L., Ryan R.M. The “what” and “why” of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior // Psychological Inquiry. – 2000. – Vol. 11, No. 4. – P. 227–268.

8. Edmondson A. Psychological safety and learning behavior in work teams // Administrative Science Quarterly. – 1999. – Vol. 44, No. 2. – P. 350–383.
9. Hattie J., Timperley H. The power of feedback // Review of Educational Research. – 2007. – Vol. 77, No. 1. – P. 81–112.
10. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO, 2023. – 44 p.
11. Mishra P., Koehler M.J. Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054.
12. Pawson R., Tilley N. Realistic Evaluation. – London: SAGE Publications, 1997. – 235 p.
13. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p.
14. Ryan R.M., Deci E.L. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. – New York: Guilford Press, 2017. – 756 p.
15. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – 2nd ed. – London: Bloomsbury Academic, 2016. – 240 p.
16. Vincent-Lancrin S., González-Sancho C., Bouckaert M. et al. Fostering Students' Creativity and Critical Thinking: What it Means in School. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 350 p.
17. Ипполитова Н.В., Стерхова Н.С. Анализ понятия «педагогические условия»: сущность, классификация // General and Professional Education. – 2012. – № 1. – С. 8–14.
18. Яковлев Е.В., Яковлева Н.О. Педагогическая концепция: методологические аспекты построения. – М.: Владос, 2006. – 239 с.
19. Ясвин В.А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию. – М.: Смысл, 2001. – 365 с.
20. [Muallif F.I.Sh.] Oliy ta'lim muassasalarida kreativ axborot ta'lim muhitini innovatsion yondashuv asosida loyihalashning asosiy yo'nalishlari // [Jurnal nomi]. – [Yil]. – № [ ]. – B. [ ].

ANVAR OBIDJONNING "DAHSHATLI MESHPOLVON" QISSASIDA FOLKLOR AN'ANALARINING BADIIY TALQINI

Umataliyeva Munojat G'ofurjon qizi
NamDPI O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-kurs magistranti
umataliyevamunojat2@gmail.com 936742017
https://orcid.org/0009-0009-9516-0667

Annotatsiya. *mazkur maqolada anvar obidjonning "dahshatli meshpolvon" qissasida xalq og'zaki ijodi an'analarining badiiy ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda folklorga xos xalqona hikoyachilik, mubolag'a, qo'shiq, duo va olqishlar, qahramonlik motivlari, xalq o'yinlari hamda yumoristik tasvir vositalarining qo'llanilishi yoritiladi. Folklor unsurlarining qahramon xarakterini shakllantirish, syujet rivojini ta'minlash va asarning milliy-estetik ruhini namoyon etishdagi badiiy vazifalari ochib beriladi. Shuningdek, yozuvchining xalq og'zaki ijodi an'analarini zamonaviy bolalar adabiyoti poetikasi bilan uyg'unlashtirish mahorati ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so'zlar: anvar obidjon, "dahshatli meshpolvon", xalq og'zaki ijodi, folklor an'analari, bolalar adabiyoti, qahramonlik motivi, mubolag'a, yumor, milliy ruh.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФОЛЬКЛОРНЫХ ТРАДИЦИЙ В ПОВЕСТИ АНВАРА ОБИДЖОНА «ДАХШАТЛИ МЕШПОЛВОН»

Аннотация. *в данной статье анализируются особенности художественного выражения традиций устного народного творчества в повести анвара обиджона «дахшатли мешполвон». Рассматриваются характерные для фольклора приёмы народного повествования, гипербола, песни, благопожелания и восхваления, героические мотивы, народные игры, а также юмористические средства изображения. Раскрываются художественные функции фольклорных элементов в формировании характера героя, развитии сюжета и выражении национально-эстетического своеобразия произведения. Кроме того, научно-теоретически обосновывается мастерство писателя в гармоничном сочетании традиций устного народного творчества с поэтикой современной детской литературы.*

Ключевые слова: *анвар обиджон, «дахшатли мешполвон», устное народное творчество, фольклорные традиции, детская литература, героический мотив, гипербола, юмор, национальный колорит.*

THE ARTISTIC INTERPRETATION OF FOLKLORE TRADITIONS IN ANVAR OBIDJON'S NOVELLA "DAHSHATLI MESHPOLVON"

Abstract. *this article analyzes the artistic representation of oral folk traditions in anvar obidjon's novella dahshatli meshpolvon. It examines folklore-specific narrative techniques, hyperbole, songs,*



blessings and expressions of praise, heroic motifs, folk games, and humorous devices. The study explores the artistic functions of folklore elements in shaping the protagonist's character, developing the plot, and expressing the work's national and aesthetic identity. Furthermore, it provides a theoretical and scholarly justification of the writer's skill in harmoniously combining oral folk traditions with the poetics of modern children's literature.

Keywords: *anvar obidjon, dahshatli meshpolvon, oral folk traditions, folklore, children's literature, heroic motif, hyperbole, humor, national identity.*

KIRISH

O‘zbek yozma adabiyotining taraqqiyotida xalq og‘zaki ijodining ta’siri katta. Ertak, doston, maqol, matal, qo‘shiq, rivoyat, afsona va xalqona hikoyachilik kabi janr va poetik hodisalar yozma adabiyot vakillarining badiiy tafakkurini boyitib kelgan. Ayniqsa, bolalar adabiyotida folklor an’analaridan foydalanish o‘ziga xos ahamiyatga ega. Chunki xalq og‘zaki ijodiga xos obrazlilik, soddalik, ohangdorlik, mubolag‘a va yumor yosh kitobxonning dunyoqarashiga yaqin badiiy vositalar hisoblanadi. Anvar Obidjon ijodida folklor bilan ijodiy munosabat alohida o‘rin tutadi. Uning “Dahshatli Meshpolvon” asari bu jihatdan e’tiborga molik namunadir. Asarning o‘zida muallif folklor manbai bilan aloqasini bevosita bildiradi: “O‘zbekning dono baxshilariga shogird tushib...” jumlalari buning yorqin dalilidir.

Yozuvchi Meshpolvon haqidagi hikoyalarning xalq orasida turli variantlarda aytilib kelinganini ta’kidlaydi. U bu holatni “zig‘irdekkina haqiqatdan tug‘ilgan” hikoyaning avloddan avlodga o‘tishi bilan izohlaydi. Demak, asarning folklor bilan munosabati uning syujetidangina emas, balki yaratilish konsepsiyasining o‘zidan boshlanadi. O‘zbek folklorining janriy tarkibi, badiiy xususiyatlari va milliy madaniyatdagi o‘rni folklorshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda yoritilgan. Xususan, O. Madayevning “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” darsligida xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlari, janrlari, marosimlari hamda baxshichilik an’analari haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, O. Madayev, M. Jo‘rayev, T. Sabitova va N. Muxitdinova hammuallifligidagi O‘zbek folklori darsligi folklor janrlari, og‘zaki ijod namunalarining

xalq hayotidagi o‘rni va milliy qadriyatlarni o‘rganish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Anvar Obidjon ijodida folklor an’analarining namoyon bo‘lishiga bevosita bag‘ishlangan tadqiqotlardan biri Sayyora Olimovna Hojiyevaning “Anvar Obidjon ijodida folklor stilizatsiyasi: Dahshatli Meshpolvon asari tahlilida” nomli maqolasidir. Unda asarda uchraydigan xalq qo‘shiqlari, xalq o‘yinlari, naql, lof va marosim folklori bilan bog‘liq unsurlarning stilizatsiyasi masalalari ko‘rib chiqilgan. Mazkur tadqiqot mavzuning avval ham ilmiy e’tibor markazida bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu sababli “Dahshatli Meshpolvon” qissasidagi folklor unsurlarini shunchaki sanab o‘tish bilan cheklanmasdan, ularning obraz yaratish, syujet rivoji, qahramonning ruhiy holatini ifodalash va asarning milliy-estetik xususiyatlarini shakllantirishdagi vazifalarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish muhimdir. Ushbu maqolada folklor unsurlarining badiiy vazifalariga, xususan, xalqona hikoyachilik, qo‘shiq, olqish, yumor va qahramonlik motivining o‘zaro munosabatiga e’tibor qaratiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi “Dahshatli Meshpolvon” qissasidagi folklor unsurlarini ularning badiiy-estetik vazifalari asosida tizimli tahlil qilishga yo‘naltirilganidadir. Xususan, xalq qo‘shiqlari va olqishlarning qahramon ruhiyatini ochishdagi o‘rni, mubolag‘a va yumorning Meshpolvon obrazini yaratishdagi ahamiyati, xalq o‘yinlarining milliy koloritni shakllantirishdagi vazifasi hamda qahramonlik motivining xalqona talqini o‘zaro aloqadorlikda ko‘rib chiqiladi. Tahlil natijalari folklor an’analari asarda tayyor shaklda takrorlanib qolmasdan, muallifning individual uslubi va badiiy maqsadiga muvofiq qayta talqin qilinganini ko‘rsatishga qaratiladi. Tadqiqotda tavsifiy, struktur-semantik va qiyosiy-tipologik tahlil usullaridan foydalanildi. Tavsifiy tahlil orqali qissadagi folklorga xos unsurlar aniqlandi va guruhlarga ajratildi. Struktur-semantik tahlil yordamida qo‘shiq, olqish, mubolag‘a, yumor va xalq o‘yinlarining asar mazmuni hamda kompozitsiyasidagi vazifalari o‘rganildi. Qiyosiy-tipologik yondashuv asosida esa qissadagi badiiy vositalarning xalq og‘zaki ijodiga xos umumiy xususiyatlari bilan muallifning individual uslubi o‘rtasidagi

munosabat tahlil qilindi. Tahlilning asosiy manbasi Anvar Obidjonning "Dahshatli Meshpolvon" qissa-dostonining 2019-yilda "Sharq" nashriyotida chop etilgan nashri hisoblanadi. Tahlil birliklari sifatida asardagi xalqona hikoyachilik, she'riy parchalar, duo va olqishlar, xalq o'yinlari hamda yumoristik tasvirlar tanlandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Anvar Obidjon ijodida folklor an'analari va xalqona badiiy ifoda masalalari o'zbek bolalar adabiyotini o'rganishda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Yozuvchi asarlaridagi folklor unsurlari xalq og'zaki ijodining an'anaviy shakllari bilan zamonaviy badiiy tafakkur o'rtasidagi munosabatni aniqlash imkonini beradi. Sayyora Hojiyevaning "Anvar Obidjon ijodida folklor stilizatsiyasi: "Dahshatli Meshpolvon asari tahlilida" nomli maqolasida qissa-dostondagi xalq qo'shiqlari, naql, lof va marosim folkloriga oid unsurlarning badiiy talqini yoritilgan. Mazkur tadqiqot o'rganilayotgan asarning folklor bilan aloqador jihatlarini belgilashda muhim manba hisoblanadi. Muallifning 2026-yilda e'lon qilingan "Anvar Obidjon asarlarida folklor stilizatsiyasi: an'ana va badiiy mahorat" nomli maqolasida esa yozuvchining she'riy va nasriy asarlarida folklor janrlarining o'zgarishi, milliy qadriyatlarning badiiy talqini, obrazlar tizimi va kompozitsiyadagi folklor poetikasi masalalari ko'rib chiqilgan. Ushbu ish folklor stilizatsiyasini yozuvchining individual badiiy uslubi bilan bog'liq holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodiga bag'ishlangan ilmiy va o'quv adabiyotlari ham tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi. Jumladan, T. Mirzayev, O. Safarov va D. O'rayevaning "O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi", O. Safarovning "O'zbek xalq og'zaki ijodi", shuningdek, M. Jo'rayevning folklorshunoslikka oid ishlari folklor janrlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tushunishda nazariy manba vazifasini bajaradi. Ushbu manbalar asardagi folklor namunalarini aniqlash va ularni janriy xususiyatlariga ko'ra tasniflash uchun asos bo'la oladi. Mavjud tadqiqotlar bilan tanishish "Dahshatli Meshpolvon" asaridagi folklor unsurlari ilgari ham o'rganilganini ko'rsatadi. Shu bois

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ushbu maqolada tadqiqot markazi folklor namunalarini qayd etish bilangina cheklanmaydi. Asardagi qo‘shiq, duo va tilaklar, xalqona yumor, mubolag‘a hamda xalq o‘yinlariga oid lavhalarning obrazlar xarakterini ochish, syujet rivojiga ta’sir ko‘rsatish, kompozitsion yaxlitlikni ta’minlash va asarning milliy ruhini kuchaytirishdagi vazifalari tahlil qilinadi. Bu yondashuv maqolaning asosiy tahliliy yo‘nalishini belgilaydi.

Mazkur tadqiqotda Anvar Obidjonning “Dahshatli Meshpolvon” qissa-dostonida qo‘llanilgan folklor unsurlarining janriy xususiyatlari, badiiy ifoda imkoniyatlari va kompozitsion vazifalarini aniqlash maqsadida matniy tahlil, tasniflash, qiyosiy tahlil hamda badiiy-funksional tahlil metodlaridan foydalanildi. Matniy tahlil metodi yordamida asar matnidagi xalq og‘zaki ijodiga xos namunalar, jumladan, xalqona qo‘shiqlar, duo va tilaklar, baxshichilik an’anasiga oid ishoralar, mubolag‘ali tasvirlar va yumoristik ifodalar aniqlandi. Ularning matndagi qo‘llanish o‘rni hamda mazmuniy xususiyatlari o‘rganildi. Tasniflash metodi orqali aniqlangan folklor unsurlari muayyan guruhlarga ajratildi. Jumladan, qo‘shiq va she’riy parchalar, duo va tilaklar, xalq o‘yinlariga oid lavhalar, baxshichilik an’anasi, mubolag‘a va yumor alohida tahlil yo‘nalishlari sifatida belgilandi. Bunday tasnif asardagi folklor materialini tizimli o‘rganish imkonini berdi. Qiyosiy tahlil metodi asarda uchraydigan folklor unsurlarining xalq og‘zaki ijodiga xos an’anaviy shakllar bilan munosabatini yoritishda qo‘llanildi. Bunda folklor an’analarining yozuvchi tomonidan qayta ishlanishi, badiiy vaziyatga moslashtirilishi va individual ijodiy talqinda namoyon bo‘lishiga e’tibor qaratildi. Badiiy-funksional tahlil metodi tadqiqotning asosiy metodlaridan biri bo‘lib, folklor unsurlarining asardagi vazifalarini aniqlashga xizmat qildi. Xususan, ularning qahramon xarakterini ochish, voqealar rivojini jonlantirish, kulgili vaziyat yaratish, milliy ruhni kuchaytirish va kitobxonga estetik ta’sir ko‘rsatishdagi o‘rni tahlil qilindi., Metodlarni qo‘llash natijasida folklor unsurlarining asarda alohida bezak vositasi bo‘lib qolmasdan, balki obrazlar tizimi, syujet va kompozitsiya bilan uzviy bog‘liq holda namoyon



bo‘lishini aniqlash ko‘zda tutildi. Olingan kuzatishlar asar matnidan tanlangan misollar asosida izohlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Baxshichilik an’anasi va folklor poetikasi “Dahshatli Meshpolvon” qissa-dostonining folklor bilan aloqasini belgilovchi muhim jihatlardan biri uning dostonchilik an’analariga munosabatidir. Asarning janriy xususiyati, hikoyachi nutqi va xalqona ifoda usuli matnni xalq og‘zaki ijodi an’analari bilan bog‘liq holda tahlil qilishni taqozo etadi. Baxshichilik an’anasi bilan bog‘liq jihatlar asarda voqealarni hikoya qilish usuli, o‘quvchiga bevosita murojaat va qo‘shiq namunalaridan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Bunday xususiyatlar matnning og‘zaki ijroga xos ohangini kuchaytirib, kitobxon bilan hikoyachi o‘rtasida samimiy muloqot muhitini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan folklor an’anasi asarda faqat mazmuniy manba bo‘lib qolmay, balki hikoya qilish shakli va badiiy ifoda usuliga ham ta’sir ko‘rsatadi.

2. Xalqona qo‘shiqning badiiy vazifasi Asarda Meshpolvonning sevimli qo‘shig‘i sifatida berilgan quyidagi parcha xalqona ohang va yumorga asoslangan:

“Olma yedim baqalog‘idan,
Gilos yedim chaqalog‘idan,
Anjir yedim yapalog‘idan,
Bog‘bon buvaning shapalog‘idan...”

Ushbu parcha asarning yakuniy qismida ham keltirilib, qahramon obrazi bilan uzviy bog‘lanadi. Qo‘shiqning takrorlanishi uning matndagi vazifasini kuchaytiradi: u Meshpolvonni esda qolarli qahramon sifatida gavdalantiradi, asarning xalqona ohangini saqlaydi va voqealar rivojiga yengil, quvnoq ruh bag‘ishlaydi. Parchadagi qofiyadoshlik va kutilmagan yakun o‘quvchida kulgi uyg‘otadi. Shu tariqa qo‘shiq folklorga xos ritm va ifoda imkoniyatlarini yozma adabiyotning individual badiiy uslubi bilan birlashtiradi.

3. Yumor va mubolag‘aning obraz yaratishdagi o‘rni Asarda xavfli vaziyatlarning kulgili

ohangda tasvirlanishi yozuvchining yumordan foydalanish mahoratini ko‘rsatadi. Jumladan, Meshpolvon ilonlarga duch kelganida quyidagicha murojaat qiladi: “Ilon tushga kirsa — boylik,

Voy, munchayam siz chiroylik,

Yashang, ilon afandilar!”

Qahramonning xavfli vaziyatda ilonlarga xushomad qilishi kutilmagan badiiy vaziyatni yuzaga keltiradi. Bunda qo‘rquv va o‘zini himoya qilish ehtiyoji kulgili nutq orqali ifodalanadi. “Ilon afandilar” birikmasi esa jonivorlarga insonlarga xos murojaat shaklini qo‘llash orqali jonlantirish va yumor effektini yuzaga chiqaradi. Mazkur epizod Meshpolvonning noodatiy vaziyatlarda ham topqirlik bilan yo‘l topishga urinadigan xarakterini ochadi. Shunday qilib, yumor faqat o‘quvchini kuldirish vositasi emas, balki qahramonning xulq-atvori va ruhiy holatini ko‘rsatish usuli sifatida ham xizmat qiladi.

4. Xalqona til va hikoyachining o‘quvchiga murojaati Asarda hikoyachining o‘quvchiga bevosita murojaat qilishi, uni voqealar olamiga jalb etishi alohida ahamiyatga ega. Kitobxon bilan suhbatga o‘xshash bunday usul xalq ertaklari va og‘zaki hikoyachilik an’analarini eslatadi. Hikoyachining samimiy ohangi voqealar bilan o‘quvchi o‘rtasidagi masofani qisqartiradi. Natijada asar faqat voqealar ketma-ketligidan iborat bo‘lib qolmay, kitobxon ishtirok etayotgandek taassurot uyg‘otuvchi jonli badiiy muloqotga aylanadi. Ushbu xususiyat bolalar adabiyoti uchun ayniqsa muhim: sodda va xalqona nutq, hazil hamda bevosita murojaat yosh kitobxonning matnga qiziqishini oshiradi.

5. Folklor unsurlarining umumiy badiiy vazifalari Tahlil qilingan misollar folklor unsurlarining qissa-dostonda bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Xalqona qo‘shiq qahramon obrazini individuallashtiradi va asarning quvnoq ohangini mustahkamlaydi. Yumoristik she’riy murojaat kutilmagan vaziyatlarni badiiy jihatdan jonlantiradi. Hikoyachining kitobxonga murojaati esa og‘zaki hikoyachilikka xos samimiylikni kuchaytiradi. Demak, folklor unsurlarining badiiy ahamiyati ularning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

matnda mavjudligi, kitobxon o‘rtasida muloqot o‘rnatish hamda milliy badiiy ruhni ifodalashdagi vazifalari ham muhimdir.

Folklor unsuri	**Asarda namoyon bo‘lishi**	**Badiiy vazifasi**
Xalqona qo‘shiq	“Olma yedim baqalog‘idan…”	Qahramon obrazini individuallashtirish, quvnoq ohang yaratish
Yumoristik she’riy murojaat	“Ilon afandilar” ga murojaat	Kulgili vaziyat yaratish, qahramon xarakterini ochish
Og‘zaki hikoyachilik usuli	Hikoyachining kitobxonga bevosita murojaati	Samimiy muloqot va xalqona ohangni kuchaytirish
Baxshichilik an’anasi	Dostonchilikka xos hikoya qilish va qo‘shiqdan foydalanish	Asarning folklor bilan aloqasini ko‘rsatish

XULOSA

“Dahshatli Meshpolvon” qissasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, Anvar Obidjon folklor an’analaridan asarning mazmuni va shaklini boyituvchi faol badiiy manba sifatida foydalanadi. Asarda xalqona hikoyachilik, mubolag‘a, qo‘shiq, duo va olqish, xalq o‘yinlari, qahramonlik motivlari, yumor va og‘zaki nutq an’analari o‘zaro uyg‘unlashgan. Tahlil qilingan misollar folklor unsurlarining qissada uch xil asosiy vazifani bajarishini ko‘rsatadi: birinchidan, obraz yaratish; ikkinchidan, syujet va xarakter rivojini ta’minlash; uchinchidan, milliy-estetik muhitni shakllantirish. Ayniqsa, Meshpolvonning oddiy bola holatidan el-yurt va ota-onasi uchun kurashuvchi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qahramonga aylanishida xalq dostonlariga xos qahramonlik modeli zamonaviy bolalar adabiyoti bilan uyg‘unlashadi. Anvar Obidjon folklor materialini aynan ko‘chirmaydi. U xalq ijodi namunalarini o‘zining ijodiy tafakkuri orqali qayta ishlaydi va ularga yangi badiiy vazifa yuklaydi. Shu sababli “Dahshatli Meshpolvon”ni folklorizmning bolalar adabiyotidagi o‘ziga xos namoyon bo‘lishini ko‘rsatuvchi muhim asarlardan biri sifatida baholash mumkin. Kelgusida asardagi maqol va matallar, xalqona iboralar, marosim folklori, xalq o‘yinlari, doston obrazlari va folklor motivlarining transformatsiyasini alohida tadqiq etish Anvar Obidjon poetikasini yanada chuqurroq ochib berish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Obidjon A. Dahshatli Meshpolvon: qissa-doston. — Toshkent: “Sharq”, 2019. — 192 b.
2. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.
3. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. — Toshkent: “Musiqa”, 2010.
4. Jamilova B. Bolalar adabiyoti. — Toshkent.
5. Hojiyeva S.O. “Anvar Obidjon ijodida folklor stilizatsiyasi: “Dahshatli Meshpolvon” asari tahlilida.” — 2025.
6. Sadiyeva N.X. “Anvar Obidjonning nasriy asarlarida bolalar obrazining yaratilish usullari.” — 2026.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

STEAM LOYIHALARI ORQALI SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA ILMIY-TADQIQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Ergashboyeva Saboxatxon Po'latjon qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti
Telefon raqam: +998-97-860-17-02
E-mail: ergashboyevasaboxatxon@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchidan mustaqil fikrlovchi, savol qo'yuvchi, dalil izlovchi va muammoni ilmiy asosda hal qila oluvchi faol tadqiqotchiga aylanishini ta'minlash masalasi yoritiladi. Tadqiqotning asosiy e'tibori STEAM loyihalarini sun'iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalash orqali o'quvchilarda ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlariga qaratilgan. Maqolada STEAM yondashuvining fanlararo tabiati hamda sun'iy intellektning axborotni izlash, tahlil qilish, modellashtirish, gipoteza ilgari surish, natijalarni taqqoslash va xulosalashdagi imkoniyatlari o'zaro uyg'unlikda tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchining tadqiqot faoliyatini "muammoni aniqlash – savol qo'yish – gipoteza ilgari surish – ma'lumot to'plash – tajriba o'tkazish – AI yordamida tahlil qilish – natijani baholash – xulosa chiqarish" ketma-ketligida tashkil etish modeli taklif etiladi. Sun'iy intellektdan foydalanishda o'quvchining tayyor javobni qabul qilishi emas, balki AI natijasini tekshirishi, unga tanqidiy yondashishi va mustaqil ilmiy xulosa chiqarishi ustuvor tamoyil sifatida asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *STEAM ta'lim, sun'iy intellekt, ilmiy-tadqiqot ko'nikmalari, loyiha faoliyati, boshlang'ich ta'lim, tadqiqotchilik kompetensiyasi, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, raqamli texnologiyalar.*

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У ОБУЧАЮЩИХСЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАМКАХ STEAM-ПРОЕКТОВ

Аннотация. *В статье рассматривается проблема формирования у учащихся научно-исследовательских навыков посредством интеграции STEAM-проектов и технологий искусственного интеллекта в современном образовательном процессе. Особое внимание уделяется переходу от традиционной модели усвоения готовых знаний к образовательной среде, в которой учащийся выступает активным исследователем, самостоятельно формулирует вопросы, выдвигает гипотезы, собирает и анализирует информацию, проводит эксперименты и формулирует обоснованные выводы. Раскрываются педагогические возможности STEAM-подхода в сочетании с инструментами искусственного интеллекта. Предлагается последовательная модель организации исследовательской деятельности учащихся: выявление проблемы, постановка исследовательского вопроса, выдвижение гипотезы, сбор данных, проведение практического*

эксперимента, анализ результатов с использованием искусственного интеллекта, проверка достоверности информации и формулирование самостоятельного вывода. Особо подчеркивается необходимость формирования критического отношения к результатам, предоставляемым искусственным интеллектом.

Ключевые слова: *STEAM-образование, искусственный интеллект, научно-исследовательские навыки, проектная деятельность, начальное образование, исследовательская компетентность, критическое мышление, креативность, цифровые технологии.*

DEVELOPING SCIENTIFIC RESEARCH SKILLS IN STUDENTS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES THROUGH STEAM PROJECTS

Abstract. *This article examines the pedagogical potential of integrating STEAM projects with artificial intelligence technologies to develop students' scientific research skills in modern education. Particular attention is paid to the transition from a traditional model of knowledge acquisition to an educational environment in which students act as active researchers who formulate questions, propose hypotheses, collect and analyze information, conduct experiments, evaluate evidence, and draw independent conclusions. The study highlights the interdisciplinary nature of STEAM education and explores how artificial intelligence can expand students' opportunities for information search, data analysis, modeling, comparison of results, and creative problem-solving. A research-oriented instructional model is proposed, consisting of several interconnected stages: identifying a problem, formulating a research question, developing a hypothesis, collecting data, conducting an experiment, analyzing the results with the support of artificial intelligence, verifying the reliability of the obtained information, and formulating an evidence-based conclusion. Particular emphasis is placed on the responsible use of artificial intelligence in education.*

Keywords: *STEAM education, artificial intelligence, scientific research skills, project-based learning, primary education, research competence, critical thinking, creativity, digital technologies, interdisciplinary learning.*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar o'quvchiga faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, unda mustaqil fikrlash, muammoni aniqlash, savol qo'yish, ma'lumotlarni izlash va tahlil qilish, tajriba o'tkazish hamda olingan natijalar asosida xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni shakllantirishni talab etmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonining mazmuni va metodikasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

An'anaviy ta'limda o'quvchi ko'pincha o'qituvchi tomonidan berilgan tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy ta'lim esa o'quvchini bilimni mustaqil izlab topuvchi, tekshiruvchi, amaliyotda sinovdan o'tkazuvchi va yangi bilim hosil qiluvchi faol subyektga aylantirishni ko'zda tutadi. Shu nuqtayi nazardan STEAM ta'lim texnologiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

STEAM atamasi Science, Technology, Engineering, Art va Mathematics yo'nalishlarining integratsiyasini anglatadi. Ushbu yondashuvning asosiy xususiyati — o'quvchilarning real hayotdagi muammolarni turli fanlar imkoniyatlaridan foydalangan holda hal qilishidir. Yakman STEAMni fanlararo integratsiyaga asoslangan ta'lim modeli sifatida izohlaydi [10: 3].

Sun'iy intellekt esa ushbu jarayonni yanada kengaytirish imkonini beradi. Biroq AI texnologiyasidan foydalanishning maqsadi o'quvchi o'rniga fikrlash emas, balki uning tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lishi lozim.

Shu sababli STEAM + AI integratsiyasi o'quvchining "men bilaman" pozitsiyasidan "men izlayman – tekshiraman – tajriba qilaman – tahlil qilaman – xulosa chiqaraman" pozitsiyasiga o'tishini ta'minlaydigan istiqbolli pedagogik yondashuv sifatida qaralishi mumkin.

1. STEAM ta'limining ilmiy-tadqiqot faoliyatini shakllantirishdagi imkoniyatlari

STEAM ta'limining muhim jihati shundaki, unda bilimlar alohida fanlar chegarasida emas, balki yagona muammo yoki loyiha atrofida birlashtiriladi. Masalan, "Maktab hududida suvni tejash" loyihasi o'quvchidan biologiya, matematika, texnologiya, muhandislik va san'at elementlarini birgalikda qo'llashni talab qilishi mumkin.

Bunday loyiha davomida o'quvchi:

- muammoni aniqlaydi;
- tadqiqot savolini shakllantiradi;

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

- taxmin yoki gipoteza ilgari suradi;
- kuzatish olib boradi;
- tajriba tashkil qiladi;
- natijalarni qayd etadi;
- ma'lumotlarni taqqoslaydi;
- yechim modelini ishlab chiqadi;
- natijani taqdim etadi.

Bu jarayon ilmiy-tadqiqot faoliyatining asosiy bosqichlarini o'zida mujassamlashtiradi.

J. Dewey ta'limda tajriba va faoliyatning muhimligini ta'kidlab, bilimning o'quvchi tomonidan faol tajriba orqali egallanishi samaraliroq ekanligini asoslagan [4: 78]. Demak, loyiha faoliyati o'quvchini faqat nazariy bilim bilan ta'minlamaydi, balki bilimni amaliy faoliyatda sinab ko'rishga undaydi.

Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi ham o'quvchining faol hamkorlik va muloqot orqali rivojlanishiga e'tibor qaratadi [9: 86]. STEAM loyihalarida guruhli faoliyat, muammoli vaziyat va o'zaro fikr almashish aynan shu imkoniyatni yaratadi.

Shunday qilib, STEAM loyihasi o'quvchi uchun oddiy topshiriq emas, balki kichik ilmiy tadqiqot muhiti vazifasini bajaradi.

2. Sun'iy intellektning o'quvchi tadqiqotchilik faoliyatidagi o'rni

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limga kirib kelishi o'quvchining axborot bilan ishlash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Generativ AI vositalari matn yaratish, savollarni tushuntirish, g'oyalarni shakllantirish, ma'lumotlarni tasniflash va dastlabki tahlil qilish kabi vazifalarda yordamchi vosita bo'la oladi.

Biroq bunda muhim metodik savol tug'iladi: AI o'quvchining tadqiqotini o'zi bajarib bermasligi uchun undan qanday foydalanish kerak?

Bizningcha, asosiy javob — AI ni "javob beruvchi" emas, "tadqiqot hamkori" sifatida qo'llashdir.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Masalan, o‘quvchi “O‘simliklar o‘sishiga yorug‘lik qanday ta’sir qiladi?” degan savolni tadqiq qilmoqda. AI undan:

- tajriba uchun g‘oyalar olish;
- o‘lchash mezonlarini aniqlash;
- jadval tuzilishini ishlab chiqish;
- olingan ma’lumotlarni tartiblash;
- turli gipotezalarni taqqoslash uchun foydalanishi mumkin.

Ammo tajribani o‘quvchining o‘zi o‘tkazishi, real ma’lumotni o‘zi to‘plashi va AI bergan xulosani tekshirishi kerak.

Shu jihatdan AI bilan ishlash jarayonida “AI aytdi – demak, to‘g‘ri” tamoyili emas, balki “AI taklif qildi – men tekshirdim – dalil bilan baholadim” tamoyili ustuvor bo‘lishi zarur.

Bu yondashuv o‘quvchilarda nafaqat raqamli savodxonlik, balki axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlashni ham rivojlantiradi.

3. STEAM + AI asosida ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirish modeli

Maqolada o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish uchun quyidagi **“7 bosqichli STEAM + AI modeli”** taklif etiladi:

1-bosqich — Muammoni aniqlash. O‘quvchiga tayyor mavzu berish o‘rniga real hayotdan muammoli vaziyat taqdim etiladi.

2-bosqich — Tadqiqot savolini yaratish. O‘quvchi “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Agar ... bo‘lsa nima bo‘ladi?” kabi savollar asosida tadqiqot yo‘nalishini belgilaydi.

3-bosqich — Gipoteza ilgari surish. O‘quvchi o‘z taxminini bildiradi va uni qanday tekshirish mumkinligini o‘ylaydi.

4-bosqich — Tajriba va ma’lumot to‘plash. Kuzatish, o‘lchash, tajriba, so‘rovnoma yoki boshqa metodlar yordamida ma’lumotlar yig‘iladi.

5-bosqich — AI yordamida tahlil qilish. Yig‘ilgan ma’lumotlarni tartiblash, guruhlash, jadval tuzish, muqobil izohlarni ko‘rib chiqishda AI vositalaridan foydalaniladi.

6-bosqich — Natijani tekshirish. AI tomonidan berilgan ma’lumot boshqa manbalar, tajriba natijalari va mantiqiy dalillar bilan taqqoslanadi.

7-bosqich — Ilmiy xulosa va taqdimot. O‘quvchi o‘z tadqiqoti natijasini mustaqil ravishda izohlaydi va loyiha mahsulotini taqdim etadi.

Mazkur modelning eng muhim jihati — AI tadqiqot jarayonining markazida emas, balki o‘quvchi tadqiqotini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida joylashtirilishidir.

4. Amaliy loyiha namunasi

Boshlang‘ich sinflarda ushbu modelni “Aqlli mini-bog‘” STEAM loyihasi orqali amalga oshirish mumkin.

Loyiha muammosi: “Maktab sharoitida o‘simlikni suvni kam sarflagan holda qanday samarali o‘stirish mumkin?”

Tadqiqot savoli: “Turli miqdordagi suv o‘simlikning o‘sish tezligiga qanday ta’sir qiladi?”

Gipoteza: “Agar o‘simlikka me’yorida suv berilsa, ortiqcha suv berilgan o‘simlikka qaraganda uning rivojlanishi samaraliroq bo‘lishi mumkin.”

O‘quvchilar bir xil turdagi o‘simliklarni turli sharoitlarda parvarish qiladi. Har kuni o‘simlikning bo‘yi, barglar soni va tashqi holati qayd etiladi.

Yig‘ilgan ma’lumotlar jadvalga joylashtiriladi. Keyinchalik AI vositalari yordamida ma’lumotlarni tartiblash va grafik ko‘rinishga keltirish mumkin.

Loyiha yakunida o‘quvchilar:

- tajriba natijalarini taqqoslaydi;
- dastlabki gipotezasini qayta ko‘rib chiqadi;
- natijalarni izohlaydi;
- suvni tejash bo‘yicha tavsiya ishlab chiqadi;

- maket yoki mini-model yaratadi;
- loyihani taqdim etadi.

Bu jarayonda Science — o‘simlik haqidagi bilimlar, Technology — raqamli vositalar, Engineering — mini-bog‘ modelini yaratish, Art — dizayn va taqdimot, Mathematics — o‘lchash va statistik taqqoslash orqali namoyon bo‘ladi.

Shu tariqa bitta loyiha bir nechta fanlarni yagona tadqiqot muammosi atrofida birlashtiradi.

5. AI bilan ishlashda pedagogik tamoyillar

Sun’iy intellektning ta’limdagi imkoniyatlari keng bo‘lsa-da, undan pedagogik maqsadsiz foydalanish o‘quvchining mustaqil fikrlashiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Shuning uchun STEAM + AI modelida quyidagi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiq:

Birinchi tamoyil **— mustaqillik.** O‘quvchi avvalo o‘z fikrini shakllantiradi, keyin AI yordamidan foydalanadi.

Ikkinchi tamoyil **— tekshirish.** AI tomonidan berilgan har qanday ma’lumot avtomatik ravishda haqiqat sifatida qabul qilinmaydi.

Uchinchi tamoyil **— tajribaga tayanish.** AI tomonidan berilgan nazariy taxmin real tajriba bilan tekshiriladi.

To‘rtinchi tamoyil **— ijodkorlik.** AI tayyor mahsulot yaratib beruvchi vosita emas, balki yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga yordam beruvchi texnologiya sifatida qo‘llanadi.

Beshinchi tamoyil **— raqamli etika.** O‘quvchilarga sun’iy intellektdan xavfsiz, mas’uliyatli va akademik halollik asosida foydalanish tushuntiriladi.

6. Ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini baholash

STEAM + AI asosidagi ta’lim samaradorligini aniqlash uchun o‘quvchining faqat yakuniy mahsuloti emas, balki butun tadqiqot jarayoni baholanishi kerak.

Quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ko‘nikma	Boshlang‘ich daraja	Rivojlanayotgan daraja	Yuqori daraja
Muammoni aniqlash	Muammoni yordam bilan topadi	Muammoni mustaqil aniqlaydi	Muammoni chuqur tahlil qiladi
Savol qo‘yish	Oddiy savol beradi	Tadqiqot savolini shakllantiradi	Muammoli va aniq savol yaratadi
Gipoteza	Tayyor taxminni qabul qiladi	Mustaqil taxmin ilgari suradi	Dalilga asoslangan gipoteza yaratadi
Ma'lumot to‘plash	Ko‘rsatma asosida ishlaydi	Mustaqil ma’lumot yig‘adi	Ma’lumot manbalarini tanqidiy baholaydi
AI bilan ishlash	Tayyor javobni qabul qiladi	AI yordamidan foydalanadi	AI natijasini tekshiradi va tahlil qiladi
Xulosa	Umumiy xulosa qiladi	Natijaga asoslangan xulosa beradi	Dalillarga asoslangan ilmiy xulosa chiqaradi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Mazkur mezonlardan ko‘rinadiki, o‘quvchining AI bilan ishlash qobiliyati faqat texnik ko‘nikma sifatida emas, balki tanqidiy baholash va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasi bilan birgalikda baholanishi lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

STEAM loyihalarini sun’iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalash natijasida o‘quvchining tadqiqot faoliyati bir necha yo‘nalishda rivojlanadi.

Birinchidan, o‘quvchi muammoni ko‘ra olish qobiliyatini rivojlantiradi. Oddiy hayotiy vaziyat tadqiqot obyektiga aylanadi.

Ikkinchidan, o‘quvchi savol berish madaniyatini egallaydi. Bu esa ilmiy tafakkurning muhim shartlaridan biridir.

Uchinchidan, loyiha faoliyati o‘quvchida tajriba va dalilga tayanish odatini shakllantiradi.

To‘rtinchidan, AI bilan ishlash o‘quvchining raqamli va axborot savodxonligini rivojlantiradi.

Beshinchidan, AI natijalarini tekshirish o‘quvchini tanqidiy fikrlashga undaydi.

Eng muhimi, STEAM + AI integratsiyasida o‘quvchi “to‘g‘ri javobni topish”dan ko‘ra javobning qanday hosil bo‘lganini tushunishga o‘rganadi.

Bu esa zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri — bilimni reproduktiv o‘zlashtirishdan uni yaratish va amaliyotda qo‘llashga o‘tishni ta’minlaydi.

XULOSA

Umuman olganda, STEAM loyihalarini sun’iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalash o‘quvchilarda ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali pedagogik imkoniyatlaridan biridir. Ushbu yondashuv o‘quvchini tayyor bilimlarni qabul qiluvchi subyektdan muammoni mustaqil aniqlaydigan, savol qo‘yadigan, gipoteza ilgari suradigan, tajriba o‘tkazadigan, dalillarni tahlil qiladigan va xulosa chiqaradigan faol tadqiqotchiga aylantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida taklif etilgan "muammo – savol – gipoteza – tajriba – AI yordamida tahlil – tekshirish – xulosa" modeli STEAM loyihalarini ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan bog'lashning metodik mexanizmi sifatida qaralishi mumkin.

Bunda sun'iy intellektning vazifasi o'quvchining fikrlash faoliyatini almashtirish emas, balki uning izlanish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Ayniqsa, AI tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish, turli manbalar bilan solishtirish va mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatish o'quvchilarda tanqidiy va ilmiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, STEAM + AI modeli nafaqat fanlararo bilimlarni birlashtiruvchi texnologik yondashuv, balki o'quvchida "savol berish – izlash – sinash – xato qilish – qayta tekshirish – xulosa chiqarish" madaniyatini shakllantiruvchi pedagogik muhit sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur yondashuvni boshlang'ich ta'limdan boshlab tizimli ravishda qo'llash o'quvchilarning ilmiy-tadqiqot, kreativ, tanqidiy va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga, ularni kelajakdagi murakkab muammolarni mustaqil hal qilishga tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] Bybee R.W. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. – Arlington: NSTA Press, 2013. – 136 p.
[2] Bruner J.S. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960. – 97 p.
[3] Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – 91 p.
[4] Dewey J. How We Think. – Boston: D.C. Heath & Co., 1933. – 301 p.
[5] Piaget J. The Origins of Intelligence in Children. – New York: International Universities Press, 1952. – 419 p.
[6] UNESCO. Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers. – Paris: UNESCO, 2021. – 50 p.
[7] UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO, 2023. – 48 p.
[8] Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
[9] Yakman G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education. – 2010.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

[10] Yakman G., Lee H. Exploring the Exemplary STEAM Education in the U.S. as a Practical Educational Framework for Korea // Journal of the Korean Association for Science Education. – 2012. – Vol. 32, No. 6. – P. 1072–1086.

SPORT TAYYORGARLIGI TIZIMIDA JON BOSHIGA MOLIYALASHTIRISH SHAROITIDA TRENERLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODIKASI

Ismailova Dildora Qudratullayevna
Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni
qayta tayyorlash va malakasini oshirish Instituti
mustaqil tadqiqotchisi
ORCID iD: 0009-0007-2303-0084
dildora-ismailova@list.ru

Annotatsiya. *Sport tayyorgarligi tizimida jon boshiga moliyalashtirish mexanizmini joriy etish moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, mashg'ulotlar sifatini yaxshilash va trenerlar faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada jon boshiga moliyalashtirish sharoitida trenerlar faoliyatini tashkil etish, baholash va rag'batlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Trenerlar faoliyati samaradorligini baholashda sportchilar soni, mashg'ulotlarda muntazam ishtirok etishi, jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasi, musobaqalarda erishgan natijalari hamda individual rivojlanish ko'rsatkichlarini hisobga olish zarurati ta'kidlanadi. Moliyaviy mablag'larni taqsimlashda sport turi, sportchilarning yoshi, tayyorgarlik bosqichi va hududiy sharoitlarga mos tabaqalashtirilgan mezonlardan foydalanish muhimligi yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *sport tayyorgarligi tizimi, jon boshiga moliyalashtirish, trenerlar faoliyati, faoliyat samaradorligi, sportchilar tayyorgarligi, , moliyaviy resurslar, sport tashkilotlari, musobaqa natijalari.*

МЕТОДИКА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТРЕНЕРОВ В УСЛОВИЯХ ПОДУШЕВОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ СПОРТИВНОЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация. *Внедрение механизма подушевого финансирования в систему спортивной подготовки является одним из важных факторов рационального использования финансовых ресурсов, повышения качества тренировочного процесса и эффективности деятельности тренеров. В данной статье рассматриваются вопросы организации, оценки и стимулирования деятельности тренеров в условиях подушевого финансирования. При оценке эффективности деятельности тренеров подчёркивается необходимость учитывать количество спортсменов, регулярность посещения ими тренировок, уровень физической и технической подготовки, результаты участия в соревнованиях, а также показатели индивидуального развития. Освещается важность применения дифференцированных критериев распределения финансовых*

средств с учётом вида спорта, возраста спортсменов, этапа их подготовки и территориальных условий.

Ключевые слова: *система спортивной подготовки, подушевое финансирование, деятельность тренеров, эффективность деятельности, подготовка спортсменов, финансовые ресурсы, спортивные организации, результаты соревнований.*

METHODOLOGY FOR IMPROVING COACHING EFFECTIVENESS UNDER PER CAPITA FINANCING IN THE SPORTS TRAINING SYSTEM

Abstract. *The introduction of a per capita financing mechanism into the sports training system is an important factor in ensuring the rational use of financial resources, improving the quality of the training process, and enhancing coaching effectiveness. This article examines the organization, evaluation, and incentive mechanisms related to coaches' activities under per capita financing. When evaluating coaching effectiveness, it is necessary to consider the number of athletes, their regular attendance at training sessions, levels of physical and technical preparedness, competition results, and individual development indicators. The article emphasizes the importance of applying differentiated criteria when allocating financial resources, taking into account the type of sport, athletes' ages, stages of training, and regional conditions.*

Keywords: *sports training system, per capita financing, coaching activity, coaching effectiveness, athlete preparation, financial resources, sports organizations, competition results.*

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni aniqlash, ularni xalqaro musobaqalarga maqsadli tayyorlash hamda sport tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sport tayyorgarligi tizimiga zamonaviy boshqaruv va moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish mavjud resurslardan oqilona foydalanish, mashg'ulotlar sifatini yaxshilash hamda trenerlar faoliyati samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan jon boshiga moliyalashtirish tizimini takomillashtirish sport sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [4, 5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida sport muassasalari trenerlari va xodimlari faoliyati samaradorligini belgilovchi aniq mezonlar hamda malaka

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

talablarini shakllantirish zarurati qayd etilgan. Mazkur Farmonda jismoniy tarbiya va sport tizimini 2025-yilgacha rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, aholining sport bilan muntazam shug‘ullanish darajasini oshirish, sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda trenerlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan [1].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5279-sonli “Sport-ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida sport-ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash va saralashning raqamlashtirilgan tizimini joriy etish vazifalari belgilangan. Qarorda sportchilar, trenerlar va boshqa mutaxassislarni rag‘batlantirish hamda ularning mehnatiga erishilgan natijalar va belgilangan mezonlar asosida haq to‘lash masalalariga ham e’tibor qaratilgan [3].

Jon boshiga moliyalashtirish mexanizmida sport tashkilotiga ajratiladigan mablag‘ miqdori sportchilar soni, sport turi, tayyorgarlik bosqichi va boshqa belgilangan ko‘rsatkichlarga bog‘liq bo‘ladi. Bunday tizim moliyaviy mablag‘larni shaffof va adolatli taqsimlash, sport tashkilotlari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish hamda ko‘rsatilayotgan sport xizmatlari sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, trenerlar zimmasiga sportchilar kontingentini saqlash, mashg‘ulotlar sifatini oshirish va barqaror sport natijalariga erishish bilan bog‘liq mas’uliyat yuklaydi.

Trener sport tayyorgarligi jarayonining asosiy subyekti bo‘lib, sportchilarning jismoniy, texnik, taktik, ma’naviy va psixologik rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Shu sababli trener faoliyati samaradorligini faqat sportchilarning musobaqalarda egallagan o‘rinlari bilan baholash yetarli emas. Baholash jarayonida sportchilarning mashg‘ulotlarda muntazam ishtirok etishi, individual rivojlanish dinamikasi, jismoniy va texnik tayyorgarligi, sport kontingentining saqlanishi, xavfsizlik talablariga rioya qilinishi hamda o‘quv-mashg‘ulot jarayonining sifati ham hisobga olinishi lozim [7, 8].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Jon boshiga moliyalashtirish sharoitida trenerlar faoliyati samaradorligini oshirish uchun shaffof baholash mezonlarini ishlab chiqish, elektron monitoring tizimlarini joriy etish, trenerlarning kasbiy malakasini muntazam oshirib borish va natijadorlikka asoslangan rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Bunda sport turi, sportchilarning yoshi, tayyorgarlik bosqichi, hududiy sharoitlar va sport infratuzilmasining holati kabi omillarni inobatga oluvchi differensial yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq [2, 4, 6].

Mazkur maqolaning maqsadi sport tayyorgarligi tizimida jon boshiga moliyalashtirish sharoitida trenerlar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun trenerlar faoliyatini baholash mezonlarini aniqlash, raqamli monitoring vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish usullarini takomillashtirish hamda ularni sport tashkilotlari faoliyatiga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sport tayyorgarligi tizimida trenerlar faoliyati samaradorligini oshirish va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari milliy hamda xorijiy ilmiy manbalarda keng o‘rganilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son Farmonida sport muassasalari trenerlari va xodimlari faoliyati samaradorligini belgilovchi mezonlar hamda malaka talablarini ishlab chiqish zarurati ko‘rsatib o‘tilgan [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5279-son qarorida esa sport-ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, sportchilarni saralash jarayonlarini raqamlashtirish, trenerlar mehnatini natijadorlik asosida baholash va rag‘batlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan [3].

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar Y.A. Turdimuratov va A.M. Djo‘raboyev jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha 2017–2023-yillarda amalga oshirilgan islohotlarni o‘rganib, trenerlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, sport ta’limi bilan ilmiy tadqiqotlar integratsiyasini kuchaytirish va zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini joriy etish zarurligini ta’kidlaydi [9]. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashning pedagogik jihatlarini tadqiq etgan. Mazkur tadqiqotlarda trenerlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalari yoritilgan bo‘lsa-da, jon boshiga moliyalashtirish sharoitida trener faoliyatini kompleks baholash va rag‘batlantirish metodikasi yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Longxi Li va hammualliflar tomonidan trenerlar ta’limining samaradorligiga bag‘ishlangan tizimli tahlilda trenerlarning kasbiy rivojlanish dasturlari sportchilarning texnik natijalari bilan bir qatorda motivatsiyasi, o‘ziga ishonchi va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan [8]. K. Lervold va hammualliflar mentorlikka asoslangan kasbiy rivojlanish dasturlarini o‘rganib, trener samaradorligini oshirishda uzluksiz ta’lim, tajriba almashish, refleksiv tahlil va tashkiliy qo‘llab-quvvatlash muhim ekanligini aniqlagan [7]. J. Walton va hammualliflar trenerlar samaradorligini oshirishda mentorlik, tajriba almashish, refleksiv tahlil va uzluksiz kasbiy rivojlanish muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv trenerlarni baholash va rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega [10].

Ushbu tadqiqotlar trener faoliyatini faqat musobaqa natijalari asosida emas, balki sportchining jismoniy, texnik, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini qamrab oluvchi kompleks ko‘rsatkichlar asosida baholash zarurligini ko‘rsatadi.Mavjud adabiyotlar tahlili trenerlar faoliyatini baholashda sportchilar soni va musobaqa natijalari bilan cheklanmasdan, ularning mashg‘ulotlardagi ishtiroki, individual rivojlanishi, tayyorgarlik darajasi hamda trenerning kasbiy o‘sishini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Jon boshiga moliyalashtirish va trener faoliyati samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikning yetarli o‘rganilmagani mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

METODLAR

Ushbu tadqiqotda sport tayyorgarligi tizimida jon boshiga moliyalashtirish sharoitida trenerlar faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi:

1. **Tahliliy-metodik yondashuv** – sport sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va metodik materiallarni o'rganish asosida jon boshiga moliyalashtirish hamda trenerlar faoliyatini baholashning asosiy tamoyillarini tahlil qilish.

2. **Taqqoslash va solishtirma tahlil** – O'zbekiston va rivojlangan xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan sportni moliyalashtirish, trenerlar faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimlarini o'zaro taqqoslash, ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash.

3. **Empirik tadqiqot va pedagogik kuzatuv** – sportchilar soni, ularning mashg'ulotlardagi ishtiroki, individual rivojlanishi va musobaqa natijalariga oid ma'lumotlarni tahlil qilish, shuningdek, trenerlarning mashg'ulotlarni tashkil etishi va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishini kuzatish.

Ushbu metodlar asosida jon boshiga moliyalashtirish sharoitida trenerlar faoliyatini baholash mezonlarini takomillashtirish va natijadorlikka asoslangan rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

1-rasm. Trenerlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarining tavsiya etilgan ulushi

Rasmda jon boshiga moliyalashtirish sharoitida trenerlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlari va ularning tavsiya etilgan ulushlari aks ettirilgan. Unga ko‘ra, musobaqa natijalari 25 foiz, sportchilarning individual o‘sishi 20 foiz, mashg‘ulotlarga muntazam qatnashish, sportchilar kontingentini saqlash hamda jismoniy va texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari 15 foizdan, trenerning kasbiy rivojlanishi esa 10 foizni tashkil etadi. Mazkur diagramma trener faoliyatini faqat musobaqa natijalari asosida emas, balki sportchilarning individual rivojlanishi, mashg‘ulotlarda ishtiroki, tayyorgarlik darajasi va trenerning kasbiy salohiyati bo‘yicha kompleks baholash zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu mezonlardan foydalanish jon boshiga ajratiladigan moliyaviy mablag‘larni shaffof taqsimlash, trenerlarni natijadorlik asosida rag‘batlantirish va sport tayyorgarligi sifatini oshirishga xizmat qiladi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari sport tayyorgarligi tizimida jon boshiga moliyalashtirish sharoitida trenerlar faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qancha muhim jihatlarni aniqladi:

– Trenerlar faoliyati samaradorligini faqat sportchilar soni va musobaqalarda erishilgan natijalar asosida baholash yetarli emasligi aniqlandi. Baholash jarayonida sportchilarning individual rivojlanishi, mashg‘ulotlarda muntazam ishtiroki va tayyorgarlik darajasini ham hisobga olish lozim.

– Trener faoliyatini baholashda musobaqa natijalariga 25 foiz, sportchilarning individual o‘sishiga 20 foiz, mashg‘ulotlarga muntazam qatnashish, sportchilar kontingentini saqlash hamda jismoniy va texnik tayyorgarlikka 15 foizdan, trenerning kasbiy rivojlanishiga esa 10 foiz ulush ajratish tavsiya etildi.

– Sport tashkilotlariga ajratiladigan moliyaviy mablag‘larni sportchilar soni bilan bir qatorda, ularning tayyorgarlik darajasi va erishgan natijalariga muvofiq taqsimlash zarurligi aniqlandi.

– Moliyalashtirishda sport turi, sportchilarning yoshi, tayyorgarlik bosqichi, hududiy sharoitlar va sport infratuzilmasining holatini hisobga oluvchi differensial koeffitsiyentlardan foydalanish tavsiya etildi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sport tayyorgarligi tizimida jon boshiga moliyalashtirish mexanizmini samarali tashkil etish trenerlar faoliyati natijadorligi va sportchilar tayyorgarligi sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

1. **Trenerlar faoliyatini kompleks baholash.** Trener faoliyatini faqat sportchilar soni va musobaqa natijalari asosida baholash yetarli emas. Baholashda sportchilarning individual rivojlanishi, mashg‘ulotlarga muntazam qatnashishi, jismoniy va texnik tayyorgarligi, kontingentning saqlanishi hamda trenerning kasbiy rivojlanishi hisobga olinishi zarur [7, 8].

2. **Jon boshiga moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish.** Moliyaviy mablag‘larni taqsimlashda sportchilar soni bilan bir qatorda, sport turi, sportchilarning yoshi, tayyorgarlik bosqichi va hududiy sharoitlarni hisobga oluvchi differensial koeffitsiyentlardan foydalanish lozim. Bu mablag‘larning shaffof va adolatli taqsimlanishiga xizmat qiladi [4, 5].

3. **Raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish.** Sportchilarning mashg‘ulotlardagi ishtiroki, individual rivojlanishi, jismoniy va texnik ko‘rsatkichlari hamda musobaqa natijalarini elektron platformalar orqali muntazam kuzatish muhim. Raqamli monitoring trenerlar faoliyatini xolis baholash va kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi [3, 4].

4. **Trenerlarni rivojlantirish va rag‘batlantirish.** Trenerlarning kasbiy malakasini muntazam oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va

ilg‘or tajribalarni ommalashtirish zarur. Rag‘batlantirish tizimi nafaqat qisqa muddatli musobaqa natijalariga, balki sportchilarning barqaror rivojlanishi va mashg‘ulotlar sifatiga ham bog‘lanishi lozim [2, 6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari sport tayyorgarligi tizimida jon boshiga moliyalashtirish mexanizmini samarali joriy etish trenerlar faoliyati natijadorligini va sportchilar tayyorgarligi sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Trener faoliyatini baholashda faqat sportchilar soni va musobaqa natijalari bilan cheklanmasdan, sportchilarning individual rivojlanishi, mashg‘ulotlarda muntazam ishtiroki, jismoniy va texnik tayyorgarligi, kontingentning saqlanishi hamda trenerning kasbiy rivojlanishini ham hisobga olish zarur. Raqamli monitoring tizimlarini joriy etish sportchilarning rivojlanish dinamikasi va trenerlar faoliyatini muntazam kuzatish, natijalarni xolis baholash hamda mavjud kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish imkonini beradi. Trenerlarning malakasini uzluksiz oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va ilg‘or tajribalarni ommalashtirish sport tayyorgarligi jarayonining samaradorligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020). *O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. PF-5924-son Farmon, 24-yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020). *Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. PQ-4877-son qaror, 3-noyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2021). *Sport ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. PQ-5279-son qaror, 5-noyabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2021). *Sport-ta’lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to‘g‘risida*. PQ-5280-son qaror, 5-noyabr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022). *Davlat sport-ta’lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. PQ-268-son qaror, 6-iyun.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022). *Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. PQ-269-son qaror, 6-iyun.

7. Lervold, K., Sæther, S.A. va Lagestad, P. (2025). "Exploration of factors predicting sport coaches' perceived performance levels following an 18-month mentor-based coach development programme". *Sports*, 13(3), 83-maqola.
8. Li, L., Olson, H.O., Tereschenko, I., Wang, A. va McCleery, J. (2025). "Impact of coach education on coaching effectiveness in youth sport: A systematic review and meta-analysis". *International Journal of Sports Science and Coaching*.
9. Turdimuratov, Y.A. va Djo'raboyev, A.M. (2024). "Yangi O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarni tayyorlashga oid davlat siyosati". *Modern Science and Research*, 3(3), 141–146-betlar.
10.Walton, J. va boshqalar (2024). "A systematic review of coach developers' professional learning". *International Sport Coaching Journal*.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KREATIVLIK VA KREATIV KO`NIKMA TUSHUNCHALARINING PEDAGOGIK –PSIXOLOGIK TAVSIFI

Abduvaliyeva Sarvinoz Tolibjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti o`zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
2-bosqich magistranti
E-mail: sarvinozabduvaliyeva01@gmail.com
Tel: +998940053577

Annotatsiya*: Mazkur maqolada kreativlik va kreativ ko`nikma tushunchalarining pedagogik hamda psixologik mohiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ona tili darslarida o`quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari, pedagogik omillari va metodik imkoniyatlari yoritilgan. Kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy ta'limdagi o`rni hamda ijodiy faoliyatni tashkil etishning samarali usullari ilmiy jihatdan asoslangan.*

***Kalit so`zlar****: kreativlik, kreativ ko`nikma, kreativ tafakkur, pedagogik texnologiya, ona tili ta'limi, ijodiy faoliyat, kompetensiya, divergent fikrlash.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОНЯТИЙ «КРЕАТИВНОСТЬ» И «ТВОРЧЕСКИЕ УМЕНИЯ»

Аннотация: *В данной статье анализируются педагогическая и психологическая сущность понятий креативности и креативных навыков. Освещаются теоретические основы развития креативного мышления учащихся на уроках родного языка, а также педагогические факторы и методические возможности данного процесса. Научно обоснована роль креативной компетентности в современной системе образования.*

Ключевые слова*: креативность, креативные навыки, креативное мышление, педагогическая технология, обучение родному языку, творческая деятельность, компетенция*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERIZATION OF THE CONCEPTS OF CREATIVITY AND CREATIVE SKILLS

Abstract: *This article analyzes the pedagogical and psychological essence of creativity and creative skills. The theoretical foundations of developing students' creative thinking in native language lessons, pedagogical factors, and methodological opportunities are highlighted. The importance of creative competence in modern education and effective methods of organizing creative activity are scientifically substantiated.*

Keywords*: creativity, creative skills, creative thinking, pedagogical technology, native language education, creative activity, competence*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadallik bilan rivojlanayotgan davrda maktablarda ta`lim jarayonini tashkil etish ham yangi bosqichga ko`tarilmoqda. Hozirgi kunda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki o`quvchilarning kreativ fikrlash, mustaqil ishlash va kommunikativ ko`nikmalarini rivojlantirish ham muhim vazifalardan biri sanaladi.

Zamonaviy ta`lim tizimida kreativlik tushunchasi shaxsning mustaqil fikrlashi, yangicha g`oya yaratishi va muammolarga innovatsion yondashuv asosida yechim topa olish qobiliyati sifatida talqin qilinmoqda. Ayni shu davrda ta`limning yana bir asosiy vazifalaridan biri o`quvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish hamda ularni erkin fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, ,,Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo`lib, dunyo miqiyosida o`z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo`sh kelmaydigan insonlar bo`lib kamol topishi, baxtli bo`lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

METODOLOGIYA

Kreativlik atamasi inglizcha ,,create'' – yaratmoq so`zidan olingan bo`lib, shaxsning yangi g`oyalarni yaratish, noodatiy qarorlar qabul qilish va ijodiy faoliyat bilan shug`ullanish qobiliyatini ifodalaydi.

Pedagogik manbalarda kreativlik insonning intellektual salohiyati, ustaqil fikrlashi va ijodiy faolligi bilan bog`liq murakkab hodisa sifatida izoh beriladi.

Amerikalik olim J.Gilford kreativlikni divergent tafakkur bilan bog`lab, uni muammoga turli nuqtayi nazardan yondashish qobiliyati sifatida tavsiflaydi. Uning fikriga ko`ra, kreativ tafakkur ravonlik, moslashuvchanlik,originallik va tafsilotlarni boyitish kabi komponentlardan tashkil topadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Psixolog E.Torrance esa kreativlikni muammolar, bilimdagi bo`shliqlar va nomuvofiqliklarni sezish, ularni aniqlash, yechimlarni izlash, ularni tekshirish va natijalarni ifodalash jarayoni sifatida talqin qiladi. Uning tadqiqotlari kreativ fikrlashni rivojlantirish o`quvchilarning mustaqil qaror qabul qilishigs ijobiy ta'sir ko`rsatishini isbotlaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan olib qarasak, kreativ ko`nikmalar o`quvchilarning turli xil holatlarga yangicha nigoh bilan qarab, noodatiy narsalar o`ylab topishi, ta`lim olish mobaynida esa berilgan topshiriqlarni boshqa rakursdan qarab bajara olishi hamda ijodiy faoliyatni amalga oshirishga xizmat qiluvchi amaliy malakalari majmui hisoblanadi. Bunga mustaqil fikrlash, mammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ijodiy topshiriqlarni bajarish, nutqiy faollik, va zamonaviy g`oyalarni ilgari surish kabi ko`nikmalar kiradi.

Ona tili darslari o`quvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Negaki til inson tafakkuri va muloqotining asosiy vositasi bo`lib, o`quvchilarning erkin fikrlashi va matn yaratish qobiliyatini rivojlantirishga katta yordam beradi. Ayniqsa, matn bilan ishlash, esse yozish, muammoli topshiriqlar va interfaol metodlardan foydalanish kreativ tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. So`nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta`lim tizimi o`quvchilarning kreativ fikrlashini yuksalktirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu sababdan ham ona tili darslarida faqatgina Grammatik bilimlarni o`rgatish emas, balki o`quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish ham dolzarb metodik vazifalardan biri sanaladi. Chunki ta'lim olayotgan yosh avlod kelgusi hayotiy faoliyatida Grammatik bilimlardan tashqari tinglab tushunish, o`qib tushunish, to`g`ri va ravon gapirish, imloviy va uslubiy xatolardan holi yoza olish kabi ko`nikma va qobiliyatlarga ehtiyoj sezadi. Bunday vaziyatda ularga til ta`limi jarayonida erishgan kreativ kompetensiyalari qio`l keladi.

Kreativ ko`nikmalarni rivojlantirish jarayonida o`qituvchining pedagogik mahorati ham muhim o`rin tutadi. O`qituvchi dars berish asnosida erkin ta'lim muhitini yaratishi, o`quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi hamda ularni qo`llab-quvvatlashi, o`z o`rnida innovatsion metodlardan samarali foydalana olishi lozim.

Masalan, ona tili darsida ,,So`z birikmasi va gap'' mavzusini an'anaviy va innovatsion usullar orqali tushuntirilishini ko`rib chiqamiz:

An'anaviy usul: O`qituvchi mavzuni doskada tushuntiradi va qoida beradi. Masalan: ,,Go`zal bog`'' – so`z birikmasi, ,,Bog`lar yashnadi''- gap. So`ng o`quvchilar mavzuga mos mashqlar bajaradilar.

Afzalliklari: Mavzu tartibli tushuntiriladi; vaqt tejaladi; nazariy bilim tez yetkaziladi. Kamchiligi: O`quvchi ko`proq tinglovchi bo`lib qoladi; mustaqil va kreativ fikrlash kam rivojlanadi. Innovatsion usulda esa dars aqliy hujum yoki guruhlarda ishlash, ,,Venn diagrammasi'' kabi metodlar orqali tashkil etilishi mumkin. O`quvchilar gap va so`z birikmalarini ajratadilar hamda o`zlari misollar tuzadilar, fikrlarini izohlar bilan to`ldiradilar.

Afzalliklari: O`quvchilar faol qatnashadi; ijodiy va mustaqil fikrlash rivojlanadi, dars qiziqarli va samarali olib boriladi.

Kamchiligi: ko`proq vaqt talab qiladi; o`qituvchidan yuqori tayyorgarlik talab qilinadi. Bunday usullar orqali dars olib borilsa, o`quvchilar uchun murakkab tuyulgan mavzuni ham qiziqarli, kreativ tarzda yetkazib berish mumkin . Buning uchun yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim beruvchi o`zida kreativ va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirgan bo`lishi kerak. Ana shunda o`quvchilar ham ushbu ko`nikmalarga ega bo`lishi osonlashadi, darsdan ko`zlangan pedagogik maqsadga ham erishiladi.

Zamonaviy dunyoda har bir inson axborot texnologiyalari, internet tizimlaridan boxabar bo`lgan holda hayot kechirar ekan, undagi qulayliklardan ham bahramand bo`ladi, kundalik faoliyatida foydalanadi. Shunga yarasha , ushbu qulayliklarni ta'lim jarayoniga ham o'z o'rnida tatbiq etish muhimdir. Masalan, adabiyot darsida biror shoir

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yoki yozuvchining hayoti va ijodi o`rganiladigan bo`lsa, u haqidagi ma'lumotlarni darslik orqali o`zlashtirib bo`lingach, uning yashagan joyi, muhiti haqidagi real videolarni ochiq internet manbalaridan topib , ekranda havola etilsa , u o`quvchilar tasavvurida yanada yaxshiroq muhrlanadi, tasavvurida jonlanadi. Bu esa darsning samaradorligini oshiradi, o`quvchilarni ijodiy va kreativ fikrlashga undaydi.

XULOSA

Kreativlik va kreativ ko‘nikma tushunchalarining pedagogik-psixologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, aynan bir xil hodisani anglatmaydi. Kreativlik shaxsning yangi, original va muayyan vaziyat uchun samarali g‘oyalarni yaratish salohiyatini ifodalasa, kreativ ko‘nikma ushbu salohiyatning amaliy faoliyatda namoyon bo‘lish shakli sifatida qaraladi. Kreativ tafakkur esa yangi g‘oyalarni yaratish, ularni baholash, qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish bilan bog‘liq kognitiv jarayonlarni qamrab oladi.

Psixologik tadqiqotlarda kreativlikning muhim tarkibiy jihatlari sifatida fikrlar ravonligi, moslashuvchanligi, originalligi va g‘oyani rivojlantirish qobiliyati ko‘rsatiladi. Pedagogik nuqtayi nazardan esa kreativ ko‘nikmalar tayyor bilimlarni takrorlashdan ko‘ra, o‘quvchining mustaqil fikrlashi, muammoga turli nuqtayi nazardan yondashishi, bir nechta yechimlarni ilgari surishi, o‘z g‘oyalarini baholashi va takomillashtirishiga imkon beradigan faoliyat orqali shakllanadi.

Zamonaviy ta’limda kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘quvchining faqat ijodiy mahsulot yaratish qobiliyatini emas, balki muammoli vaziyatni anglash, turli g‘oyalarni ishlab chiqish, ularning maqbulligini baholash va samarali yechimga kelish jarayonini ham qamrab oladi. OECDning PISA 2022 yondashuvida ham kreativ tafakkur g‘oyalarni yaratish, baholash va takomillashtirish kompetensiyasi sifatida talqin qilinishi ushbu yondashuvning zamonaviy pedagogik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Demak, ta’lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish uchun o‘quvchiga faqat ijodiy topshiriqlar berishning o‘zi yetarli emas. Ta’lim muhiti o‘quvchini mustaqil

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

fikrlashga, savol qo‘yishga, muammoning bir nechta yechimini izlashga, o‘z fikrini asoslashga, mavjud g‘oyalarni qayta ishlash va takomillashtirishga yo‘naltirishi lozim. Shu jihatdan kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirish shaxsning intellektual, kommunikativ va muammoli vaziyatlarda mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim pedagogik jarayon hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Mirziyoyev Sh. M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – Toshkent, 2016.
2.Guilford J. P. Creativity // American Psychologist. – 1950. – Vol. 5, No. 9. – P. 444–454.
3.Torrance E. P. Guiding Creative Talent. – Englewood Cliffs, New Jersey: Prentice-Hall, 1962. – 278 p.
4.Torrance E. P. Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-Technical Manual. Research Edition. – Princeton, New Jersey: Personnel Press, 1966. – 95.

OILAVIY SHIFOKORLARNING BOSHQARUVCHANLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Abduvaxobova Nozima Raxmanovna
Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi
abduvahobovanozima74@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada oilaviy shifokorlarning boshqaruvchanlik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari tahlil qilingan. Mexanizm tushunchasi pedagogik jarayonning o'zaro bog'liq va ketma-ket ishlovchi tarkibiy qismlari sifatida talqin etilib, beshta o'zaro bog'liq mexanizm: motivatsion-qadriyatli, mazmuniy-integrativ, texnologik-faoliyatli, kommunikativ-hamkorlik (mentorlik) hamda refleksiv-baholash mexanizmlari asoslab berilgan. Har bir mexanizmning vazifasi, metod va vositalari, kutilayotgan natijalari ko'rsatilgan, ularning ishlashi uchun zarur pedagogik shartlar belgilangan. Natijalardan tibbiyot oliy ta'limi va oilaviy shifokorlarni malaka oshirish tizimida foydalanish mumkin.*

Kalit so'zlar: *pedagogik mexanizm, boshqaruvchanlik kompetensiyasi, oilaviy shifokor, mentorlik, keys-stadi, simulyatsiya, refleksiya, portfolio.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СЕМЕЙНЫХ ВРАЧЕЙ

Аннотация. *В статье проанализированы педагогические механизмы формирования управленческой компетенции семейных врачей. Механизм трактуется как система взаимосвязанных и последовательно действующих элементов педагогического процесса; обоснованы пять механизмов: мотивационно-ценностный, содержательно-интегративный, технологически-деятельностный, коммуникативно-партнёрский (наставнический) и рефлексивно-оценочный. Для каждого механизма указаны функции, методы и средства, ожидаемые результаты и необходимые педагогические условия. Результаты могут быть использованы в системе высшего медицинского образования и повышения квалификации семейных врачей.*

Ключевые слова: *педагогический механизм, управленческая компетенция, семейный врач, наставничество, кейс-метод, симуляция, рефлексия, портфолио.*

PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING THE MANAGERIAL COMPETENCE OF FAMILY DOCTORS

Abstract. *The article analyses the pedagogical mechanisms of developing managerial competence in family physicians. A mechanism is understood as a system of interrelated and consecutively operating*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

elements of the pedagogical process, and five mechanisms are justified: motivational-value, content-integrative, technological-activity, communicative-partnership (mentoring) and reflective-evaluative. For each mechanism, its functions, methods and tools, expected outcomes and necessary pedagogical conditions are specified. The results can be used in medical higher education and in the continuing professional development of family physicians.

Keywords: *pedagogical mechanism, managerial competence, family physician, mentoring, case-based learning, simulation, reflection, portfolio.*

KIRISH

Oilaviy shifokor birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimida aholi bilan eng yaqin aloqada bo‘ladigan mutaxassis bo‘lib, uning faoliyati klinik qarorlar bilan birga tashkiliy va boshqaruv qarorlarini ham qamrab oladi. Uchastka aholisi salomatligini rejalashtirish, hamshira va yordamchi xodimlar bilan ishni uyg‘unlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish, tibbiy xizmat sifatini kuzatish shifokordan boshqaruvchanlik kompetensiyasini talab qiladi. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish va birlamchi bo‘g‘inni mustahkamlashga qaratilgan islohotlar [1; 2] bu talabni yanada dolzarb qilmoqda.

Pedagogik adabiyotlarda kompetensiyani shakllantirish ko‘pincha metod va vositalar to‘plami sifatida tavsiflanadi, biroq natijaga olib keladigan ichki bog‘liqliklar, ya’ni jarayonning "qanday ishlashi" yetarlicha ochib berilmaydi. Mexanizm yondashuvi bu bo‘shliqni to‘ldiradi: u pedagogik jarayonning qaysi tarkibiy qismlari, qanday ketma-ketlikda va qanday o‘zaro ta’sir orqali talabaning shaxsiy o‘zgarishiga olib kelishini ko‘rsatadi. Tibbiyot ta’limida kompetensiyaviy yondashuv natijaga yo‘naltirilganlik, bosqichma-bosqich rivojlanish va doimiy baholashni nazarda tutadi [3], bu esa mexanizm sifatida modellashtirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Kompetensiya tushunchasi Boyatzis va Spencer ishlarida samarali faoliyatni ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma, motiv va shaxsiy xususiyatlar birligi sifatida talqin qilingan [6; 7]. Tibbiyot ta’limida bu g‘oya shifokor faoliyatini rollar va kompetensiyalar tizimi orqali ifodalashga olib keldi. Biroq ko‘plab tadqiqotlarda ta’lim natijasi

tavsiflanadi, natijaga erishish yo‘li esa, ya’ni pedagogik jarayonning ichki harakatlantiruvchi kuchlari, kamdan-kam tahlil qilinadi. Birlamchi yordamning sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘rni [19] oilaviy shifokorning boshqaruvchanlik tayyorgarligini nafaqat ta’limiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega masalaga aylantiradi.

Xalqaro tajribada shifokor tayyorgarligida boshqaruv va liderlik alohida rol sifatida ajratiladi [4], ta’lim islohotlari esa tizimli fikrlash va jamoada ishlash qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan [5]. Ammo oilaviy shifokorning boshqaruvchanlik kompetensiyasi uchun pedagogik mexanizmlar majmuasi, ularning o‘zaro bog‘liqligi va amalga oshirish shartlari alohida ishlab chiqilmagan. Shu bois tadqiqotning **maqsadi** – oilaviy shifokorlarning boshqaruvchanlik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini aniqlash va asoslash. **Vazifalar:** (1) "pedagogik mexanizm" tushunchasining mohiyatini aniqlash; (2) mexanizmlarning tarkibi va vazifalarini asoslash; (3) ularning ishlashi uchun pedagogik shartlarni belgilash; (4) mexanizmlar samaradorligini baholash yo‘llarini ko‘rsatish.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va sintez; tushunchaviy-terminologik tahlil; me’yoriy hujjatlar kontent-tahlili; pedagogik modellashtirish; qiyosiy tahlil. Metodologik asosni tizimli yondashuv, faoliyat yondashuvi, kompetensiyaviy yondashuv [6; 7], tajribaviy ta’lim nazariyasi [8], ijtimoiy-konstruktivizm [9], refleksiv amaliyot konsepsiyasi [10] va kattalar ta’limi tamoyillari [11] tashkil etdi.

Pedagogik mexanizm tushunchasi ta’lim jarayonining bosqichlari, harakatlantiruvchi kuchlari, ular o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklari va natijalarni birlashtiruvchi tizim sifatida qabul qilindi. Mexanizmlarni ajratishda uchta mezondan foydalanildi: (1) mexanizm kompetensiyaning muayyan tarkibiy qismini (motiv, bilim, ko‘nikma, shaxsiy sifat, refleksiya) rivojlantirishi; (2) mexanizm aniq pedagogik vositalarga ega bo‘lishi; (3) mexanizm natijasini kuzatish va baholash mumkinligi.

Samaradorlikni baholash uchun Miller piramidasi [12] va Kirkpatrick modeli [13] asos qilib olindi. Tadqiqot nazariy-metodik xarakterga ega, shu sababli natijalar ishlab chiqilgan model va tavsiyalar ko‘rinishida bayon qilinadi.

Tadqiqot bosqichlari quyidagicha bo‘ldi. Birinchi bosqichda kompetensiya, kompetensiyaviy ta’lim va pedagogik mexanizm tushunchalari bo‘yicha adabiyotlar tahlil qilindi va ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi. Ikkinchi bosqichda oilaviy shifokor faoliyatining boshqaruv jihatlari me’yoriy hujjatlar va xalqaro kompetensiya tizimlari asosida ajratildi. Uchinchi bosqichda ajratilgan jihatlarga mos pedagogik mexanizmlar loyihalandi, ularning vazifalari, vositalari va natijalari belgilandi. To‘rtinchi bosqichda mexanizmlarning ishlashi uchun shartlar va baholash yo‘nalishlari asoslandi. Bu mantiq pedagogik loyihalashning umumiy talablariga mos keladi [20].

NATIJALAR

1. Pedagogik mexanizmlar tizimi

Tahlil natijasida oilaviy shifokorlarning boshqaruvchanlik kompetensiyasini shakllantirish jarayonida beshta o‘zaro bog‘liq pedagogik mexanizm ajratildi. Ular ketma-ket ishlaydi, lekin o‘zaro ta’sir ham ko‘rsatadi: motivatsiya mazmunni o‘zlashtirishga turtki beradi, mazmun faoliyat uchun asos bo‘ladi, hamkorlik va mentorlik faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi, refleksiya esa yangi motivatsiya va maqsadlarni yaratadi (1-jadval).

1-jadval. Pedagogik mexanizmlar, ularning vazifalari va vositalari

Mexanizm	**Vazifasi**	**Pedagogik metod va vositalar**	**Natija**
1. Motivatsion-qadriyatli	Boshqaruv faoliyatiga ichki qiziqish va kasbiy mas’uliyatni shakllantirish	Kasbiy vaziyat tahlili, tajribali shifokorlar bilan uchrashuvlar, individual rivojlanish rejasi, o‘zini baholash	Barqaror motivatsiya, qadriyatlarni anglash

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Mexanizm	**Vazifasi**	**Pedagogik metod va vositalar**	**Natija**
2. Mazmuniy-integrativ	Boshqaruv bilimlarini klinik fanlar bilan bog‘lash	Integrativ modullar, muammoli ma’ruza, me’yoriy hujjatlar tahlili, raqamli kurslar	Tizimli bilimlar
3. Texnologik-faoliyatli	Ko‘nikmalarni real vaziyatga yaqin sharoitda rivojlantirish	Keys-stadi, rolli o‘yinlar, simulyatsiya, loyiha ishi, muammoli o‘qitish	Amaliy ko‘nikmalar, qaror qabul qilish tajribasi
4. Kommunikativ-hamkorlik (mentorlik)	Jamoada ishlash va ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish	Mentorlik, jamoaviy o‘qitish, BTSY muassasasidagi amaliyot, kasbiy hamjamiyatlar	Jamoa bilan ishlash, liderlik
5. Refleksiv-baholash	O‘z faoliyatini tahlil qilish, natijani baholash	Portfolio, refleksiv kundalik, debrifing, 360° baho, loyiha himoyasi	O‘z-o‘zini rivojlantirish, tuzatuvchi harakatlar

Ajratilgan mexanizmlar to‘rt umumiy xususiyatga ega. Birinchidan, yaxlitlik: mexanizmlar alohida ishlamaydi, balki bir-birini to‘ldiradi va birgalikda kompetensiyaning har bir tarkibiy qismiga ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchidan, ketma-ketlik: mexanizmlar ma’lum tartibda ishga tushadi va har bir keyingi bosqichga o‘tish oldingisining natijasiga tayanadi. Uchinchidan, o‘zaro bog‘liqlik: bir mexanizmdagi o‘zgarish boshqalarining samaradorligiga ta’sir qiladi. To‘rtinchidan, tsiklik xususiyat:

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

refleksiv-baholash natijalari yangi motivatsiya va yangi maqsadlarni yaratib, jarayonni sifat jihatidan yuqori darajada qayta boshlaydi.

Mexanizmlar tizimida o‘qituvchi va talabaning rollari ham o‘zgaradi. O‘qituvchi axborotni yetkazuvchidan fasilitatorga, ya’ni talabaning o‘rganish jarayonini tashkil etuvchi, savol beruvchi va fikr-mulohaza beruvchi mutaxassisga aylanadi. Talaba esa passiv tinglovchi emas, balki o‘z o‘rganishi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oluvchi faol ishtirokchi bo‘ladi. Mentor amaliy muhitdagi tajriba ko‘prigi vazifasini bajaradi. Bunday rollar taqsimoti kattalar ta’limi tamoyillariga [11] mos bo‘lib, bo‘lajak shifokorning kasbiy mustaqilligini rivojlantiradi.

2. Motivatsion-qadriyatli mexanizm

Bu mexanizmning asosiy vazifasi talabada boshqaruv faoliyatining shifokor kasbi uchun ahamiyatini anglash va unga nisbatan ijobiy munosabat uyg‘otishdir. Ko‘pincha bo‘lajak shifokorlar boshqaruvni "ma’muriy" yoki "shifokorga xos bo‘lmagan" faoliyat deb qabul qiladi. Pedagogik vazifa bu qarashni o‘zgartirish, boshqaruv qarorlari bemor xavfsizligi va xizmat sifatiga bevosita ta’sir qilishini real misollarda ko‘rsatishdir. Kattalar ta’limi tamoyiliga ko‘ra, o‘rganuvchi bilimning amaliy ahamiyatini ko‘rganda va o‘rganish jarayonida mustaqillikka ega bo‘lganda motivatsiya oshadi [11]. Shuningdek, o‘z kuchiga ishonch (o‘z-o‘ziga samaradorlik) muvaffaqiyatli tajriba orqali kuchayadi [14], shu sababli mexanizm doirasida talaba imkoniyatiga mos, ammo asta-sekin murakkablashuvchi vazifalar bilan ta’minlanadi.

Motivatsion-qadriyatli mexanizm doirasida qadriyatlarni shakllantirish alohida e’tiborga loyiq. Boshqaruvchanlik kompetensiyasi shifokorning mas’uliyati, adolat, bemor manfaatlarini ustun qo‘yish va jamoa oldidagi javobgarlik kabi qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun amaliy vaziyatlar tahlilida etik jihatlarga, masalan, cheklangan resurs sharoitida adolatli qaror qabul qilishga alohida e’tibor beriladi. Talaba ushbu muhokamalar jarayonida boshqaruv qarorlari faqat texnik emas, balki axloqiy ahamiyatga ham ega ekanini anglaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

3. Mazmuniy-integrativ mexanizm

Mazmuniy-integrativ mexanizm boshqaruv bilimlarini mustaqil fan sifatida emas, balki klinik fanlar bilan bog‘liq holda o‘rgatishni ta’minlaydi. Masalan, arterial gipertoniyani o‘rganish jarayonida talaba nafaqat tashxis va davolash tamoyillarini, balki uchastka bo‘yicha bunday bemorlarni hisobga olish, dispanser kuzatuvini rejalashtirish, dori ta’minoti va jamoa a’zolarining vazifalarini ham o‘zlashtiradi. Bunday integratsiya bilimlarning parchalanib qolishini bartaraf etadi va ularning faoliyatda qo‘llanilishiga yordam beradi. Mazmun tanlashda me’yoriy hujjatlar, BTSY muassasalari ish tartiblari va aholi salomatligi ko‘rsatkichlari asos qilinadi.

4. Texnologik-faoliyatli mexanizm

Mazkur mexanizm kompetensiyaning faoliyatli tarkibini rivojlantiradi va markaziy o‘rin tutadi. Uning asosida Kolb siklining "aniq tajriba – kuzatish – tushunchalashtirish – faol sinash" mantig‘i yotadi [8]. Keys-stadi talabani real qaror qabul qilish vaziyatiga olib kiradi: u ma’lumotlarni to‘playdi, muammoni aniqlaydi, variantlarni baholaydi va qaror asoslaydi. Simulyatsion mashg‘ulotlar xavfsiz muhitda xatoga yo‘l qo‘yish va takroriy mashq qilish imkonini beradi; simulyatsiyaning samaradorligi uchun fikr-mulohaza, takroriy mashq va murakkablikning oshib borishi muhimligi aniqlangan [15]. Loyiha ishi (masalan, uchastka uchun profilaktika dasturini tuzish) talabadan mustaqil rejalashtirish, resurs va muddatlarni hisoblash hamda natijani asoslashni talab qiladi.

5. Kommunikativ-hamkorlik (mentorlik) mexanizmi

Boshqaruv ko‘nikmalari ijtimoiy muhitda shakllanadi. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi g‘oyasiga ko‘ra, o‘rganuvchi tajribali sherik yordamida mustaqil bajara olmaydigan vazifani bajarishi mumkin [9]. Wenger amaliyot jamoalari tushunchasida o‘rganishni jamoaga qo‘shilish va undagi ishtirok darajasining ortib borishi sifatida tasvirlaydi [16]. Mentorlik shu g‘oyalarni ta’limga tatbiq etadi: BTSY muassasasidagi tajribali shifokor talabaning boshqaruv topshiriqlarini kuzatadi, maslahat beradi, fikr-mulohaza bildiradi va mustaqillik darajasini asta-sekin

kengaytiradi. Jamoaviy sifatli yordam tamoyillari – umumiy maqsad, aniq rollar, o‘zaro ishonch va samarali muloqot [17] – mexanizm mazmuni uchun tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Mentorlik samarali bo‘lishi uchun mentor tanlash mezonlari (klinik va tashkiliy tajriba, muloqot madaniyati), mentor va talabaning rollari, kuzatuv varaqlari, fikr-mulohaza berish tartibi aniq belgilangan bo‘lishi kerak. Mentorlar uchun qisqa o‘quv kurslari, ya’ni fasilitatsiya va fikr-mulohaza berish bo‘yicha tayyorgarlik mexanizmning ishonchli ishlashini ta’minlaydi.

6. Refleksiv-baholash mexanizmi

Refleksiv-baholash mexanizmi talabada o‘z faoliyatini tahlil qilish va shu asosda kelgusidagi harakatlarni takomillashtirish odatini shakllantiradi. Schön refleksiv amaliyotni kasbiy rivojlanishning asosiy sharti deb hisoblaydi [10]. Amaliyotda bu mexanizm refleksiv kundalik, tuzilmali debrifing, portfolio va ko‘p manbali baholash orqali amalga oshadi. Baholash bir martalik imtihonga emas, balki faoliyat jarayonida to‘plangan dalillarga tayanishi kerak [18]. Miller piramidasining yuqori darajalari – "ko‘rsatadi" va "bajaradi" – aynan simulyatsiya va real amaliyot kuzatuvi orqali baholanadi [12]. Natijalar Kirkpatrick modelining to‘rt darajasi: munosabat, o‘zlashtirish, xatti-harakat va natija bo‘yicha tahlil qilinadi [13] (2-jadval).

2-jadval. Mexanizmlar samaradorligini baholash yo‘nalishlari

Daraja	**Baholash savoli**	**Vosita**
Munosabat	Talaba mashg‘ulotlarni foydali va dolzarb deb hisoblaydimi?	So‘rovnoma, fokus-guruh
O‘zlashtirish	Boshqaruv bilimlari va ko‘nikmalari qay darajada egallandi?	Test, keys yechimi, simulyatsiya baholash varag‘i

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Daraja	Baholash savoli	Vosita
Xatti-harakat	Talaba o‘z amaliyotida boshqaruv usullarini qo‘llayaptimi?	Mentor kuzatuvi, 360° baho, portfolio
Natija	Uchastka va xizmat sifati ko‘rsatkichlari yaxshilandimi?	Sifat ko‘rsatkichlari, bemor va jamoa fikri

Refleksiv-baholash mexanizmini amalga oshirishda quyidagi savollardan foydalanish tavsiya etiladi: qanday qaror qabul qildim va nima uchun; qaysi ma’lumotlarga tayandim; jamoa a’zolarining fikrini qay darajada hisobga oldim; qanday natijaga erishdim va nimani boshqacha qilgan bo‘lardim. Bunday savollar talabaning tanqidiy fikrlashini va o‘z faoliyati uchun mas’uliyatini oshiradi. Portfolio esa bu jarayonning dalillarini to‘playdi: loyihalar, kuzatuv varaqlari, refleksiv yozuvlar va mentor fikr-mulohazalari.

7. Mexanizmlarni o‘quv jarayoniga joriy etish ketma-ketligi

Mexanizmlar o‘quv jarayonida bir vaqtda emas, balki ma’lum ketma-ketlikda va bir-birini qo‘llab-quvvatlagan holda joriy etiladi. Birinchi navbatda motivatsion-qadriyatli mexanizm ishga tushiriladi: talaba boshqaruv sohasidagi ehtiyojini anglaydi va individual maqsad belgilaydi. Shundan so‘ng mazmuniy-integrativ va texnologik-faoliyatli mexanizmlar parallel ishlaydi: nazariy bilimlar amaliy topshiriqlar bilan darhol mustahkamlanadi. Kommunikativ-hamkorlik mexanizmi (mentorlik) faoliyat jarayoniga tayanch bo‘lib, butun o‘quv davri mobaynida davom etadi. Refleksiv-baholash mexanizmi esa har bir bosqich oxirida va yakuniy bosqichda ishlaydi hamda tsiklni qayta boshlaydi (3-jadval).

3-jadval. Mexanizmlarni joriy etishning tavsiya etilgan ketma-ketligi

Davr	**Faol mexanizmlar**	**Asosiy ta'lim faoliyati**
Boshlang'ich davr	Motivatsion-qadriyatli; refleksiv-baholash (diagnostika)	O'zini baholash, kasbiy vaziyat tahlili, individual rejani tuzish
Asosiy davr (I)	Mazmuniy-integrativ; texnologik-faoliyatli; mentorlik	Integrativ modullar, keys-stadi, rolli o'yinlar, BTSY muassasasida kuzatuv
Asosiy davr (II)	Texnologik-faoliyatli; mentorlik; refleksiv-baholash	Simulyatsiya, loyiha ishi, mentor bilan tahlil, debrifing
Yakuniy davr	Refleksiv-baholash; motivatsion-qadriyatli	Portfolio taqdimoti, loyiha himoyasi, 360° baho, keyingi maqsadlarni belgilash

Mazkur ketma-ketlik qat'iy sxema emas, balki yo'riqnoma: guruh tarkibi, o'quv rejasi va muassasa imkoniyatlariga qarab mexanizmlarning vaqt bo'yicha ulushi o'zgartirilishi mumkin. Muhimi – har bir tsiklda talaba tajriba, tahlil, tushunchalashtirish va yangi sinov bosqichlaridan o'tishi, ya'ni o'rganish tsiklining to'liq amalga oshishi.

8. Mexanizmlarning amaliy ko'rinishi: misol

Mexanizmlar bir-biri bilan qanday ishlashini oddiy misolda ko'rsatish mumkin. Faraz qilaylik, talabaga "uchastkada surunkali kasalliklar bilan hisobda turgan bemorlarning profilaktik ko'rikka kelish ko'rsatkichi past" degan vaziyat taqdim etiladi. Motivatsion-qadriyatli mexanizm bosqichida talaba vaziyatning bemor salomatligi uchun oqibatlarini muhokama qiladi va muammoni hal etishda o'z rolini belgilaydi. Mazmuniy-integrativ mexanizm orqali u tegishli klinik tavsiyalarni, hisobga olish tartibini va me'yoriy talablarni o'rganadi. Texnologik-faoliyatli mexanizm doirasida

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

talaba ma'lumotlarni tahlil qiladi, sabablarni aniqlaydi (masalan, ogohlantirish tizimining yo'qligi, qulay vaqt va jamoa vazifalarining noaniqligi) va chaqiruv hamda monitoring rejasini ishlab chiqadi.

Kommunikativ-hamkorlik mexanizmi bosqichida talaba rejani mentor va hamshira bilan muhokama qiladi, vazifalarni taqsimlaydi, taklif va e'tirozlarni hisobga oladi. Nihoyat, refleksiv-baholash mexanizmi talabaga rejaning kuchli va zaif tomonlarini ko'rishga, qaror qabul qilish jarayonidagi o'z xatolarini tahlil qilishga va keyingi harakatlarni belgilashga imkon beradi. Shu tariqa bitta amaliy vaziyat kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlarini birgalikda rivojlantiradi, bu esa mexanizmlarning yaxlitlik va integrativlik xususiyatini ko'rsatadi.

9. Mexanizmlarning ishlashi uchun pedagogik shartlar

Mexanizmlar o'zaro bog'langan tizim sifatida ishlashi uchun quyidagi shartlar zarur: (1) kompetensiyaviy natijalarni aniq belgilash va ularni o'quv dasturi bilan moslashtirish; (2) boshqaruv mazmunini klinik fanlar bilan integratsiyalash; (3) faol va simulyatsion metodlarning ustuvorligi; (4) BTSY muassasalari bilan ta'lim shartnomalari va mentorlik tizimini yo'lga qo'yish; (5) raqamli muhitdan (elektron portfolio, masofaviy modullar) foydalanish; (6) o'qituvchilar va mentorlarning metodik tayyorgarligi; (7) izchil monitoring va baholash tizimi. Bu shartlardan birortasining yetishmasligi mexanizmning zaiflashishiga olib keladi: masalan, mentorlik bo'lmaganda amaliy tajriba tahlilsiz qoladi, refleksiya bo'lmaganda esa tajriba kompetensiyaga aylanmaydi.

MUHOKAMA

Ishlab chiqilgan mexanizmlar tizimi tibbiyot ta'limidagi kompetensiyaviy yondashuvning mantiqiy davomi bo'lib, uni boshqaruv sohasiga mos ravishda konkretlashtiradi. Muhim jihat shundaki, mexanizmlar alohida metodlar yig'indisi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi zanjir: motivatsiya mazmunni, mazmun faoliyatni, hamkorlik va mentorlik tajribani, refleksiya esa yangi ehtiyojlarni yaratadi. Bu tuzilma

Kolb siklidagi tajribaviy o‘rganish mantig‘ini [8] va Miller piramidasining bosqichma-bosqich rivojlanishini [12] amaliy ta’lim tuzilmasiga aylantiradi.

Mexanizmlar yondashuvining afzalligi shundaki, u ta’lim jarayonidagi muammoli nuqtalarni aniqlashga yordam beradi. Agar talabalarda boshqaruv bilimlari yetarli, ammo ko‘nikmalar rivojlanmagan bo‘lsa, texnologik-faoliyatli mexanizmni kuchaytirish kerak; agar ko‘nikmalar bor, ammo faoliyatda qo‘llanmayotgan bo‘lsa, motivatsion yoki mentorlik mexanizmlariga e’tibor qaratish lozim. Shu tarzda tashxis va tuzatish aniqroq bo‘ladi.

Bundan tashqari, mexanizmlar yondashuvi tibbiyot ta’limidagi amaliy muammolarni hal etishga ham yordam beradi. Birinchidan, u o‘qituvchi uchun metodlarni tasodifiy emas, ma’lum vazifa va natijaga bog‘lab tanlash imkonini beradi. Ikkinchidan, u talabaga o‘z o‘rganish jarayonini tushunish, ya’ni qaysi bosqichda qanday natijaga erishishi kerakligini ko‘rish imkonini beradi. Uchinchidan, mexanizmlar tizimi dasturni baholash va takomillashtirish uchun tayanch beradi: har bir mexanizm bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlanib, jarayondagi zaif bo‘g‘inlarni topish mumkin bo‘ladi.

Tadqiqotning cheklovi: mexanizmlar nazariy asoslangan bo‘lib, ularning samaradorligini eksperimental sinov orqali tasdiqlash zarur. Bunda boshqaruvchanlik kompetensiyasini o‘lchaydigan asboblarning ishonchliligi va validligini baholash [18], shuningdek, uzoq muddatli natijalarni kuzatish muhimdir. Shuningdek, mexanizmlarni joriy etish moddiy-texnik resurslar (simulyatsiya markazi, raqamli platforma) va mentorlarning mavjudligiga bog‘liq; resurslar cheklangan oliy ta’lim muassasalari uchun soddalashtirilgan variantlar (keys-stadi, rolli o‘yinlar, hamkor poliklinikalarda mentorlik) tavsiya etiladi.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni ta’kidlash mumkin. Birinchidan, boshqaruv kompetensiyasiga oid natijalarni o‘quv dasturining barcha bosqichlarida, ya’ni kichik kurslardan klinik ordinaturagacha, bosqichma-bosqich murakkablashtirib

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

borish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, tibbiyot oliy ta'limi muassasalari va birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari o'rtasida rasmiy hamkorlik shartnomalari tuzilib, mentorlik tizimi va amaliyot bazalari belgilab qo'yilishi kerak. Uchinchidan, mentor va o'qituvchilar uchun fasilitatsiya, fikr-mulohaza berish va kompetensiyani baholash bo'yicha qisqa o'quv kurslarini tashkil etish zarur. To'rtinchidan, elektron portfolio va masofaviy modullarni joriy etish talabaning individual traektoriyasini kuzatish va tahlil qilishni osonlashtiradi. Beshinchidan, mexanizmlarning samaradorligini davriy monitoring qilish, olingan ma'lumotlar asosida dastur mazmuni va metodlarini yangilab borish kerak.

Nihoyat, mexanizmlar yondashuvini nafaqat oliy ta'limda, balki oilaviy shifokorlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida ham qo'llash mumkin. Faoliyat yuritayotgan shifokorlar uchun mexanizmlar tizimi qisqa muddatli kurslar, amaliy seminarlar, o'zaro kuzatuv va tajriba almashuvi shaklida moslashtirilishi mumkin. Bunda motivatsion-qadriyatli mexanizm ularning real ish tajribasidagi muammolarga, mentorlik esa hamkasblar o'rtasida o'zaro o'rganishga tayanadi.

XULOSA

Oilaviy shifokorlarning boshqaruvchanlik kompetensiyasini shakllantirish beshta o'zaro bog'liq pedagogik mexanizm – motivatsion-qadriyatli, mazmuniy-integrativ, texnologik-faoliyatli, kommunikativ-hamkorlik (mentorlik) va refleksiv-baholash mexanizmlari – orqali amalga oshadi. Har bir mexanizm kompetensiyaning muayyan tarkibiy qismini rivojlantiradi va aniq pedagogik vositalarga ega. Mexanizmlarning samarali ishlashi kompetensiyaviy natijalarni aniq belgilash, mazmunni integratsiyalash, faol va simulyatsion metodlar, mentorlik, raqamli muhit, pedagoglar tayyorgarligi va monitoring tizimi kabi shartlar bilan ta'minlanadi. Samaradorlikni Miller va Kirkpatrick modellari asosida ko'p darajali baholash tavsiya etiladi. Taklif etilgan yondashuv tibbiyot oliy ta'limi va oilaviy shifokorlarni malaka oshirish dasturlarini takomillashtirishda qo'llanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi PF-5590-son "O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni.
3. Frank J.R., Snell L.S., Cate O.T., et al. Competency-based medical education: theory to practice. Medical Teacher. 2010;32(8):638–645.
4. Frank J.R., Snell L., Sherbino J. (eds.). CanMEDS 2015 Physician Competency Framework. Ottawa: Royal College of Physicians and Surgeons of Canada; 2015.
5. Frenk J., Chen L., Bhutta Z.A., et al. Health professionals for a new century: transforming education to strengthen health systems in an interdependent world. Lancet. 2010;376(9756):1923–1958.
6. Boyatzis R.E. The Competent Manager: A Model for Effective Performance. New York: Wiley; 1982.
7. Spencer L.M., Spencer S.M. Competence at Work: Models for Superior Performance. New York: Wiley; 1993.
8. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs: Prentice-Hall; 1984.
9. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press; 1978.
10. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books; 1983.
11. Knowles M.S. Andragogy in Action. San Francisco: Jossey-Bass; 1984.
12. Miller G.E. The assessment of clinical skills/competence/performance. Academic Medicine. 1990;65(9 Suppl):S63–S67.
13. Kirkpatrick D.L. Evaluating Training Programs: The Four Levels. San Francisco: Berrett-Koehler; 1994.
14. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. New York: W.H. Freeman; 1997.
15. Issenberg S.B., McGaghie W.C., Petrusa E.R., et al. Features and uses of high-fidelity medical simulations that lead to effective learning: a BEME systematic review. Medical Teacher. 2005;27(1):10–28.
16. Wenger E. Communities of Practice: Learning, Meaning, and Identity. Cambridge: Cambridge University Press; 1998.
17. Mitchell P., Wynia M., Golden R., et al. Core Principles & Values of Effective Team-Based Health Care. Washington, DC: Institute of Medicine; 2012.
18. Epstein R.M., Hundert E.M. Defining and assessing professional competence. JAMA. 2002;287(2):226–235.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

19. Starfield B., Shi L., Macinko J. Contribution of primary care to health systems and health. Milbank Quarterly. 2005;83(3):457–502.
20. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi; 2004.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ALGEBRAIK IFODALARNI SODDALASHTIRISHDAGI XATOLIKLARNI MATEMATIK SIMULYATSIYA ORQALI BARTARAF ETISHNING METODIK ASOSLARI (8-SINF MISOLIDA)

Ergasheva Shahlo Shoabdullo qizi
Tayanch doktorant, Namangan Davlat Universiteti E-mail: shahloergasheva7@mail.ru
ORCID: *https://orcid.org/0009-0004-0706-7539*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida 8-sinf o'quvchilarining algebraik ifodalarni soddalashtirishda yo'l qo'yadigan xatolari va noto'g'ri tushunchalarini bartaraf etishda matematik simulyatsiyani qo'llashning metodik asoslari yoritilgan. O'quvchilarning algebraik amallarni bajarishdagi tipik xatolari ko'pincha mavhum tushunchalarni vizual va amaliy idrok etish imkoniyati cheklanganligi bilan bog'liq ekanligi ko'rsatilgan. Shu sababli, matematik simulyatsiya vositalarini darslarga tatbiq etish o'quvchilarda algebraik ifodalar ustida amallarni bosqichma-bosqich, interaktiv tarzda kuzatish va anglash imkoniyatini yaratadi. Maqolada simulyatsiyaga asoslangan ta'lim metodikasining didaktik tamoyillari, dars jarayoniga integratsiya qilish bosqichlari va o'quvchilarning bilim sifatiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot yakunida matematika o'qituvchilari va o'quvchilar uchun "MathSim 8-9" dasturini matematika darslarida samarali qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *matematik simulyatsiya, algebraik ifodalar, soddalashtirish, metodik asoslar, 8-sinf, xatolar tahlili, ta'lim texnologiyalari, interaktiv o'qitish.*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УСТРАНЕНИЯ ОШИБОК ПРИ УПРОЩЕНИИ АЛГЕБРАИЧЕСКИХ ВЫРАЖЕНИЙ ПОСРЕДСТВОМ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ СИМУЛЯЦИИ (НА ПРИМЕРЕ 8 КЛАССА)

Аннотация. *В данной статье раскрываются методические основы применения математического симуляции для устранения ошибок и неверных представлений учащихся 8-х классов при упрощении алгебраических выражений в общеобразовательных школах. Показано, что типичные ошибки учащихся при выполнении алгебраических операций часто связаны с ограниченной возможностью визуального и практического восприятия абстрактных понятий. В связи с этим внедрение средств математической симуляции в учебный процесс создаёт возможность поэтажного и интерактивного наблюдения за действиями над алгебраическими выражениями. В статье проанализированы дидактические принципы методики обучения на основе симуляции, этапы её интеграции в учебный процесс, а также влияние на качество знаний учащихся. По итогам исследования были разработаны практические рекомендации для учителей математики и учащихся по эффективному использованию программы «MathSim 8-9» на уроках математики.*

Ключевые слова: *математическая симуляция, алгебраические выражения, упрощение, методические основы, 8 класс, анализ ошибок, образовательные технологии, интерактивное обучение.*

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR ELIMINATING ERRORS IN SIMPLIFYING ALGEBRAIC EXPRESSIONS THROUGH MATHEMATICAL SIMULATION (A CASE STUDY OF GRADE 8)

Abstract. *This article presents the methodological foundations of applying mathematical simulation to eliminate errors and misconceptions among 8th-grade students when simplifying algebraic expressions in general secondary schools. It is shown that students' typical errors in performing algebraic operations are often related to limited opportunities for visual and practical perception of abstract concepts. Consequently, the integration of mathematical simulation tools into the learning process enables students to observe and comprehend operations on algebraic expressions in a step-by-step, interactive manner. The article analyzes the didactic principles of simulation-based teaching methodology, the stages of its integration into the lesson process, and its impact on the quality of students' knowledge. As a result of the study, practical recommendations were developed for mathematics teachers and students on the effective use of the "MathSim 8-9" program in mathematics lessons.*

Keywords: *mathematical simulation, algebraic expressions, simplification, methodological foundations, 8th grade, error analysis, educational technologies, interactive learning.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida matematik bilimlarni egallash sifatini oshirish, ayniqsa algebra fanini o'qitishda o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. 8-sinf matematika kursida algebraik ifodalarni soddalashtirish mavzusi o'quvchilar uchun nisbatan murakkab bo'lib, bu jarayonda ular ko'plab tipik xatolarga yo'l qo'yadilar. Ushbu xatolarning sabablari, asosan, mavhum algebraik tushunchalarni o'quvchilar tomonidan to'liq va to'g'ri anglanmaganligi, shuningdek amallarning ketma-ketligi va mantiqiy asoslarini yetarlicha tushunmaganligi bilan izohlanadi.

Bizning oldingi tadqiqotimizda 8-sinf o'quvchilarining algebraik ifodalarni soddalashtirishdagi xatolari va noto'g'ri tushunchalari konstruktiv tahlil qilingan edi. Ushbu tahlil natijalari o'quvchilarda uchraydigan xatolarning ko'p hollarda tasodifiy emas, balki tizimli, ya'ni ma'lum tushunchalarning noto'g'ri shakllanishi natijasida yuzaga kelishini ko'rsatdi. Bu o'z navbatida an'anaviy o'qitish usullarining ushbu kamchiliklarni bartaraf etishda yetarli darajada samarali emasligini ko'rsatadi va muqobil, zamonaviy metodik yondashuvlarni izlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Yuqorida qayd etilgan muammoni hal etishning samarali yo'llaridan biri — o'quv jarayoniga matematik simulyatsiyani tatbiq etishdir. Matematik simulyatsiya o'quvchiga algebraik amallarni statik shaklda emas, balki dinamik, bosqichma-bosqich va interaktiv tarzda

kuzatish imkonini beradi. Bunday yondashuv mavhum algebraik tushunchalarni vizuallashtirish, o‘quvchining har bir amal natijasini real vaqtda ko‘rishi va o‘z xatosini mustaqil aniqlab, tuzatish ko‘nikmasini shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Shu tariqa, simulyatsiya nafaqat yangi bilim berish vositasi, balki avvalgi tadqiqotda aniqlangan xato va noto‘g‘ri tushunchalarni bartaraf etishning konstruktiv vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 8-sinf matematika darslarida algebraik ifodalarni soddalashtirishga oid xatolarni bartaraf etishda matematik simulyatsiyani qo‘llashning metodik asoslarini ishlab chiqish va ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Simulyatsiyaga asoslangan o‘qitishning didaktik tamoyillarini aniqlash;
2. Simulyatsiya vositalarini dars jarayoniga integratsiya qilish bosqichlarini ishlab chiqish;
3. Ushbu metodikaning o‘quvchilar bilim sifatiga ta’sirini nazariy jihatdan asoslash.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida algebraik ifodalarni o‘qitish, o‘quvchilar xatolarining tabiati va zamonaviy metodik yondashuvlarga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlar ko‘rib chiqildi.

E. K. Moru va M. Mathunya (Lesoto Milliy universiteti) tadqiqotida 8-sinf o‘quvchilarining algebraik ifodalarni soddalashtirishdagi xatolari va noto‘g‘ri tushunchalari konstruktivizm nazariyasi asosida tahlil qilingan. Mualliflar o‘quvchilar xatolarining tasodifiy emasligini, balki ular tomonidan tushunchalarning o‘zlari mustaqil shakllantirgan (konstruksiyalagan), ammo matematik jihatdan noto‘g‘ri bo‘lgan bilim tizimlari natijasi ekanligini asoslab berishadi. Ushbu tadqiqot natijalari bizning ilgari olib borilgan tahlilimiz uchun nazariy poydevor bo‘lib xizmat qilgan va xatolarni bartaraf etishda nafaqat to‘g‘ri javobni ko‘rsatish, balki o‘quvchining noto‘g‘ri konseptual modelini o‘zgartirish zarurligini ko‘rsatadi — bu esa aynan simulyatsiya kabi vizual-interaktiv vositalarning ahamiyatini kuchaytiradi. [1]

N. M. Theba, C. Pournara va S. Takker ishlarida 10-sinf o‘quvchilarining qavslar qatnashgan algebraik ifodalarni soddalashtirishdagi xatolari “struktura sezgisi” (structure sense) tushunchasi orqali tahlil qilingan. Mualliflar o‘quvchilarning ifoda strukturasini to‘g‘ri idrok etmasligi ko‘pincha amallar ketma-ketligini buzilishiga olib kelishini ko‘rsatishadi. Bu tadqiqot algebraik strukturani vizual tarzda anglashning muhimligini ta’kidlaydi, bu esa matematik

simulyatsiya vositalarining strukturani bosqichma-bosqich namoyish etish imkoniyati bilan bevosita bog‘lanadi. [2]

D. Pitta-Pantazi, M. Chimoni va C. Christou tadqiqotida arifmetik fikrlash va harf-belgili algebra o‘rtasidagi munosabat qayta ko‘rib chiqilgan. Mualliflar o‘quvchilarning arifmetikadan algebraga o‘tishida yuzaga keladigan kognitiv qiyinchiliklarni tahlil qilib, harflarning o‘zgaruvchi sifatidagi mohiyatini tushunishdagi uzilishlarni aniqlashadi. Bu natija algebraik tafakkurni shakllantirishda oraliq bosqich sifatida vizual-dinamik vositalardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. [3]

R. Johar va hammuallifları ishida realistik matematik ta’lim (Realistic Mathematics Education) yondashuvi asosida algebraik ifodalarga oid elektron modullar ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqot raqamli ta’lim vositalarining o‘quvchilar tomonidan algebraik tushunchalarni amaliy va kontekstual tarzda o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini isbotlab beradi. Bu natija matematik simulyatsiyaning ham e-modul kabi raqamli vositalar qatorida samarali metodik vosita bo‘la olishini tasdiqlaydi. [4]

S. X. Normurodovaning “Algebraik ifodalarni o‘qitishning zamonaviy metodik yondashuvlari” mavzusidagi ishida mahalliy ta’lim tizimi sharoitida algebraik ifodalarni o‘qitishning ilg‘or metodlari yoritilgan. Muallif zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, jumladan interaktiv va amaliyotga yo‘naltirilgan usullarni qo‘llashning samaradorligini ta’kidlaydi. Ushbu tadqiqot o‘zbek ta’lim tizimi kontekstida olib borilgani bois, bizning tadqiqotimiz uchun mahalliy metodik baza va amaliy tajriba nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.[5]

Mavzu doirasida muallif Sh.Sh.Ergashevaning “Matematika fanini o‘qitishda simulyatsiyalardan foydalanish”, “Maktab ta’limida ko‘paytirishning qulay usullari”, “Darajali tenglamalarni matematik simulyatsiyalardan foydalanib yechish usullari”, “Simmetrik algebraik ifodalarni matematik simulyatsiyadan foydalanib yechish usullari” hamda “Umumta’lim maktablarida kvadrat tenglamalarga doir misollarni yechishning turli usullari” nomli maqolalari o‘rganildi.[8],[9],[10],[11],[12] Mazkur tadqiqotlarda matematik simulyatsiyalardan foydalanish, qulay yechim usullarini tanlash, algebraik ifodalar va tenglamalarni turli usullar asosida yechish hamda

natijalarni tekshirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Ushbu ishlar mazkur maqola mavzusiga mazmunan mos bo'lib, algebraik ifodalarni soddalashtirishda uchraydigan xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etishda Modul-Simulyatsiya-Tekshiruv yondashuvidan foydalanish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan tadqiqotlarning umumlashtirilgan tahlili shuni ko'rsatadiki, algebraik ifodalarni soddalashtirishdagi xatolar dunyo miqyosida keng o'rganilgan muammo bo'lib, ularning sabablari ko'pincha o'quvchilarning struktura sezgisi, konseptual tushunchalar va arifmetik-algebraik tafakkur o'tishidagi kamchiliklar bilan bog'liq. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda ushbu xatolarni bartaraf etishning vositasi sifatida xususan matematik simulyatsiyaning metodik asoslari yetarli darajada chuqur o'rganilmagan, bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini va dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda o'quvchilarda algebraik ifodalarni soddalashtirish ko'nikmasini rivojlantirish maqsadida nazariy tahlil, kuzatish, qiyosiy tahlil, pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar matematika darslari jarayonida o'tkazilgan uzatishlar, mantiqiy masalalar asosida tuzilgan topshiriqlar, diagnostik testlar hamda o'quvchilarning yozma va og'zaki javoblarini tahlil qilish orqali to'plandi. Tadqiqotda matematik simulyatsiya orqali o'quvchiga algebraik ifodalar ustida amallarni (qavslarni ochish, o'xshash hadlarni ixchamlash, ko'paytuvchilarga ajratish va boshqalar) bosqichma-bosqich, vizual tarzda "MathSim 8-9" dasturi orqali kuzatish imkonini beradi. Tadqiqot ob'yekti sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilari va matematika fani o'qituvchilari belgilandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'lim sohasida matematik simulyatsiya o'quvchiga nazariy bilimlarni statik shaklda emas, balki harakatda, o'zgaruvchan parametrlar asosida kuzatish va tushunish imkonini beradi. Algebraik ifodalarni soddalashtirish kontekstida simulyatsiya o'quvchiga har bir matematik amalning (qo'shish, ayirish, ko'paytirish, qavslarni ochish, o'xshash hadlarni ixchamlash) ifoda strukturasiga qanday ta'sir qilishini bosqichma-bosqich va vizual tarzda ko'rsatish imkoniyatini yaratadi.

Simulyatsiyaga asoslangan o'qitish metodikasi quyidagi asosiy didaktik tamoyillarga tayanadi:

- vizuallik tamoyili — mavhum algebraik tushunchalarni ko‘rinish (grafik, animatsiya, rang-belgi) orqali aniq va tushunarli shaklda taqdim etish;
- faollik va mustaqillik tamoyili — o‘quvchining simulyatsiya bilan bevosita o‘zaro ta’sirda bo‘lishi, parametrlarni o‘zgartirish va natijani kuzatishi orqali bilimni mustaqil “qurishi”;
- izchillik va bosqichma-bosqichlik tamoyili — murakkab algebraik amallarni kichik, mantiqiy ketma-ketlikdagi qadamlarga bo‘lib namoyish etish;
- teskari aloqa tamoyili — o‘quvchi xato qilganida buni darhol va aniq tarzda ko‘rishi, shu orqali o‘z xatosini mustaqil anglashi va tuzatishi;
- individuallashtirish tamoyili — har bir o‘quvchining o‘z sur’atida, takroran mashq qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi.

Ushbu tamoyillar konstruktivizm nazariyasiga asoslangan zamonaviy ta’lim yondashuvlari bilan uzviy bog‘liq, chunki ular o‘quvchining bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki faol konstruksiyalovchi subyekt sifatidagi rolini ta’minlaydi.

Simulyatsiyani dars jarayoniga imtegratsiya qilish bosqichlari

Matematik simulyatsiyani 8-sinf algebra darslarida samarali qo‘llash uchun uni dars jarayoniga izchil va metodik asoslangan tarzda integratsiya qilish zarur. Bu borada quyidagi bosqichlardan foydalanish tavsiya etiladi:

Tayyorgarlik bosqichi — o‘qituvchi dars mavzusiga mos simulyatsiya vositasini tanlaydi va undagi modelni mavzuga moslab tayyorlaydi.

Motivatsion bosqich — o‘quvchilar e’tiborini jalb qilish uchun simulyatsiya orqali muammoli vaziyat (masalan, noto‘g‘ri soddalashtirilgan ifoda) namoyish etiladi.

Tushuntirish-namoyish bosqichi — o‘qituvchi simulyatsiya yordamida algebraik amalning har bir qadamini bosqichma-bosqich ko‘rsatadi, parametrlarni o‘zgartirib natijaning qanday farqlanishini tushuntiradi.

Mustaqil amaliyot bosqichi — o‘quvchilar o‘zlari simulyatsiya bilan ishlaydilar: berilgan ifodani bosqichma-bosqich soddalashtiradilar va har bir qadamda tizim tomonidan beriladigan teskari aloqani kuzatadilar.

Refleksiya va mustahkamlash bosqichi — o‘quvchilar simulyatsiya yordamida o‘zlari yo‘l qo‘ygan xatolarni tahlil qiladilar, ularning sababini tushuntirib beradilar va to‘g‘ri yechim algoritmini shakllantiradilar.

Algebraik kasrlarni soddalashtirishdagi xatolar. Algebraik kasrlar bilan ishlashda o‘quvchi ko‘pincha surat va maxrajning tuzilishini to‘liq tahlil qilmasdan qisqartirishga harakat qiladi. $\frac{ab^3}{a^2b-ab^2}$ misolida maxrajni umumiy ko‘paytuvchiga ajratish muhim bosqich hisoblanadi. Ifodani omillarga ajratish orqali maxrajning tuzilishi aniqroq ko‘rinadi va qisqartirish qonuniyat asosida amalga oshiriladi. (1-rasm)



1-rasm.

Shuningdek, $\frac{12m^2-30mn}{30m^2-12mn}$ misolida surat va maxrajdagi umumiy ko‘paytuvchini aniqlash talab etiladi. Bu kabi misollar o‘quvchiga hadlarni alohida qisqartirish bilan butun algebraik ifodaning umumiy ko‘paytuvchisini qisqartirish o‘rtasidagi farqni anglatish uchun xizmat qiladi. (2-rasm)



2-rasm.

$\frac{x^2-y^2}{x+y}$ ifodasida esa kvadratlar ayirmasi formulasidan foydalanish mumkin. $x^2-y^2=(x-y)(x+y)$ ko‘rinishidagi ajratish orqali $x+y$ ifodani qisqartirish ko‘rsatilgan. Bu

usul o‘quvchining formulani tanishi bilan birga uni kerakli vaziyatda qo‘llay olishini ham talab qiladi. (3-rasm)



3-rasm.

Kasrlarni qo‘shish va ayirishdagi xatolar. Kasrlarni qo‘shish va ayirishda o‘quvchilar ko‘pincha suratlarni bevosita qo‘shib, maxrajlarni ham xuddi shunday birlashtirishga urinadilar. Masalan, $\frac{2}{a}+\frac{3}{b}$ ifodasini $\frac{5}{a+b}$ shaklida yozish noto‘g‘ri. Materialdagi to‘g‘ri natija $\frac{3a+2b}{ab}$ ko‘rinishida berilgan bo‘lib, bunda umumiy maxraj hosil qilish bosqichi asosiy ahamiyatga ega. (4-rasm)



4-rasm.

Bir xil maxrajli kasrlarni ayirishda ham minus ishorasi muhim. $\frac{5x+1}{x-2}-\frac{2x-3}{x-2}$ ifodasida ikkinchi kasrning butun surati ayiriladi. Natijada $\frac{3x+4}{x-2}$ hosil bo‘ladi. O‘quvchining faqat birinchi had ishorasini o‘zgartirishi esa noto‘g‘ri natijaga olib keladi. Shu sababli kasrlar ustida

amallarni o‘rgatishda algoritmni ketma-ket bajarish bilan birga har bir bosqichning matematik sababini izohlash maqsadga muvofiqdir. (5-rasm)



5-rasm.

Kasrlarni ko‘paytirish va bo‘lishdagi xatolar. Kasrlarni ko‘paytirishda asosiy muammolardan biri ifodani omillarga ajratmasdan turib qisqartirishga urinishdir. $\frac{x^2-9}{2x}\cdot\frac{4x}{x+3}$ misolida x^2-9 ifodasini kvadratlar ayirmasi sifatida ajratish orqali qisqartirish imkoniyati yuzaga keladi. Natijada ifoda $2x-6$ ko‘rinishiga keltiriladi. (6-rasm)



6-rasm.

Kasrni songa teng boshqa ko‘rinishga keltirishda esa surat va maxrajni bir xil nolga teng bo‘lmagan ko‘paytuvchiga ko‘paytirish tamoyili saqlanishi kerak. $\frac{2}{3x}$ ifodasining maxrajini $6x^2$ ga keltirishda surat ham mos ravishda o‘zgartiriladi.(7-rasm)



7-rasm.

Kasrlarni bo‘lishda eng muhim qoidalardan biri ikkinchi kasrni teskari aylantirishdir. $\frac{6a}{b^2} : \frac{3a}{b}$ misolida aynan shu amal bajarilmasa, butunlay boshqa natija hosil bo‘ladi. To‘g‘ri yondashuv bo‘lishni teskari kasrga ko‘paytirish shakliga o‘tkazishdan boshlanadi. (8-rasm)



8-rasm.

Xato va kamchiliklarni bartaraf etishning ilmiy-amaliy asoslari

Matematik xatoni tuzatishning samarali yo‘li o‘quvchiga faqat “noto‘g‘ri” deb aytish emas, balki xato qaysi bosqichda yuzaga kelganini ko‘rsatishdir. Masalan, qavs oldidagi minusning ta’siri, umumiy maxrajni tanlash, umumiy ko‘paytuvchini ajratish yoki teskari kasrga o‘tkazish kabi amallar alohida tahlil qilinsa, o‘quvchi o‘z xatosining sababini anglay boshlaydi. Bunda vizual model, turli qiymatlar bilan sinab ko‘rish va teskari tekshiruv bir-birini to‘ldiradi. O‘quvchi yechimni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki uni tekshirish, taqqoslash va asoslash imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa algebraik fikrlashning muhim tarkibiy qismlaridan bo‘lgan mantiqiy izchillik va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, matematik simulyatsiyani algebra darslarida tizimli qo‘llash o‘quvchilarning algebraik ifodalarni soddalashtirishdagi tipik xatolarini sezilarli darajada kamaytirish imkoniyatiga ega. Simulyatsiya vositalarining vizual va interaktiv xususiyati o‘quvchilarda mavhum algebraik tushunchalarni anglashni osonlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ishlab chiqilgan metodik model an’anaviy tushuntirish - mashq qilish usuliga nisbatan bir qancha afzalliklarga ega: birinchidan, o‘quvchi xatosini darhol va aniq ko‘radi, bu esa xatoning “mustahkamlanib qolishi” xavfini kamaytiradi; ikkinchidan, o‘quvchi o‘z sur’atida ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi; uchinchidan, o‘qituvchi uchun har bir o‘quvchining qaysi bosqichda qiynalayotganini diagnostik tarzda kuzatish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, metodikani amaliyotga tatbiq etishda o‘qituvchilarning raqamli vositalardan foydalanish malakasi, maktablarning texnik jihozlanganlik darajasi kabi omillar hisobga olinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Moru, E. K., & Mathunya, M. (2022). A constructivist analysis of Grade 8 learners’ errors and misconceptions in simplifying mathematical algebraic expressions. JRAMathEdu (Journal of Research and Advances in Mathematics Education), 7(3), 130–144. https://doi.org/10.23917/jramathedu.v7i3.16784
2. Theba, N. M., Pournara, C., & Takker, S. Simplifying algebraic expressions with brackets: Insights into Grade 10 learners’ structure sense through a study of their errors.
3. Pitta-Pantazi, D., Chimoni, M., & Christou, C. Revisiting the relationship of arithmetical thinking and letter-symbolic algebra.
4. Johar, R., Annisa, D., Mailizar, Zubainur, C. M., Zubaidah, T., Usman, Indriyani, L., & Musa, M. Development of algebraic expressions e-modules through realistic mathematics education approach.
5. Normurodova, S. X. Algebraik ifodalarni o‘qitishning zamonaviy metodik yondashuvlari.
6. S.Alixonov. "Matematika o'qitish metodikasi". T.-"Cho'lpon", 2011.
7. M.Tojiyev, M.Barakayev, A.Xurramov. "Matematika o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma. T.- "Fan va texnologiya" , 2017.
8. Xolmurodov, M. Q., & Ergasheva, Sh. Sh. (2025). Matematika fanini o‘qitishda simulyatsiyalardan foydalanish. NamDU ilmiy axborotnomasi, 5, 1086–1088.
9. Ergasheva, Sh. (2025). Maktab ta’limida ko‘paytirishning qulay usullari. Maktabgacha va maktab ta’limi, 7, 371–374.
10. Ergasheva, Sh. (2025). Darajali tenglamalarni matematik simulyatsiyadan foydalanib yechish usullari. Qo‘qon DPI ilmiy xabarlar, 9, 2154–2162.

11. Ergasheva Sh. (2026). Simmetrik algebraik ifodalarni matematik simulyatsiyadan foydalanib yechish usullari. "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2, 17-21.

12. Ergasheva Sh. (2026). Umumta'lim maktablarida kvadrat tenglamalarga doir misollarni yechishning turli usullari. FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ, 1, 67-72.

UDK 378.147:91

SUN'IY INTELLEKT VA GAT INTEGRATSIYASI ASOSIDA INDIVIDUAL O'QUV TOPSHIRIQLARI, GEOGRAFIK VAZIYATLARNI MODELLASHTIRISH VA AMALIY MASHG'ULOTLAR TIZIMI

Soataliev Yorkinjon
FarDU mustaqil tadqiqotchisi
https://orcid.org/0009-0009-3395-5261
yorkinjonsoataliyev@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) va geografik axborot tizimlari (GAT) integratsiyasi asosida geografiya ta'limida individual o'quv topshiriqlarini shakllantirish, geografik vaziyatlarni modellashtirish va amaliy mashg'ulotlar tizimini tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi talabaning bilim va ko'nikma darajasini hisobga olgan holda SI yordamida individuallashtirilgan topshiriqlar generatsiya qilish hamda GAT vositalari asosida real geografik vaziyatlarni modellashtirish orqali amaliy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tizimni ishlab chiqishdan iborat.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, geografik axborot tizimlari (GAT), individuallashtirilgan ta'lim, geografik vaziyatlarni modellashtirish.*

СИСТЕМА ИНДИВИДУАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ, МОДЕЛИРОВАНИЯ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ СИТУАЦИЙ И ПРАКТИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ГИС

Соаталиев Ёркинжон,
независимый исследователь Ферганского государственного университета
https://orcid.org/0009-0009-3395-5261
yorkinjonsoataliyev@gmail.com

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы формирования индивидуальных учебных заданий, моделирования географических ситуаций и организации системы практических занятий в географическом образовании на основе интеграции искусственного интеллекта (ИИ) и географических информационных систем (ГИС). Целью исследования является разработка методической системы, обеспечивающей генерацию индивидуализированных заданий с учётом уровня знаний и умений обучающегося средствами ИИ, а также развитие практической компетентности через моделирование реальных географических ситуаций на основе инструментов ГИС.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, географические информационные системы (ГИС), индивидуализированное обучение, моделирование географических ситуаций.*

A SYSTEM OF INDIVIDUAL LEARNING TASKS, MODELING OF GEOGRAPHIC SITUATIONS, AND PRACTICAL EXERCISES BASED ON THE INTEGRATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND GIS

Soataliev Yorkinjon,
Independent Researcher at Fergana State University
https://orcid.org/0009-0009-3395-5261
yorkinjonsoataliyev@gmail.com

Abstract. *This article analyzes the formation of individualized learning tasks, the modeling of geographic situations, and the organization of a system of practical exercises in geography education based on the integration of artificial intelligence (AI) and geographic information systems (GIS). The aim of the study is to develop a methodological system that generates individualized tasks according to a student's level of knowledge and skills through AI, and that develops practical competence through the modeling of real geographic situations using GIS tools.*

Keywords: *artificial intelligence, geographic information systems (GIS), individualized learning, modeling of geographic situations.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, xususan sun'iy intellekt (SI) va geografik axborot tizimlari (GAT)ning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi, geografiya fanini o‘qitish metodikasida tubdan yangi yondashuvlarni talab etmoqda. An'anaviy o‘qitish usullari barcha talabalarga bir xil hajm va murakkablikdagi topshiriqlarni taqdim etish bilan cheklanadi, bu esa talabalarning individual bilim darajasi, qiziqishi va kognitiv imkoniyatlaridagi farqlarni hisobga olmaydi. Natijada ba'zi talabalar uchun topshiriqlar juda sodda, boshqalari uchun esa murakkab bo‘lib qoladi, bu o‘z navbatida o‘quv motivatsiyasining pasayishiga olib keladi.

Geografiya fanining o‘ziga xos xususiyati uning fazoviy (prostranstviy) tafakkur, xaritalashtirish va real hududiy vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini talab etishidadir.

Ushbu ko‘nikmalarni an'anaviy, faqat matnli yoki statik xaritalarga asoslangan topshiriqlar orqali to‘liq shakllantirish qiyin. GAT vositalari (ArcGIS Online, QGIS, Google Earth Engine va boshqalar) geografik ma'lumotlarni interaktiv tarzda vizuallashtirish, fazoviy tahlil qilish va real vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi. O‘z navbatida SI texnologiyalari talabaning joriy bilim darajasini diagnostika qilish, unga mos individual topshiriqlarni avtomatik generatsiya qilish hamda o‘quv jarayonini moslashuvchan (adaptiv) tarzda boshqarish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi SI va GAT texnologiyalarini alohida-alohida emas, balki yaxlit integratsiyalashgan metodik tizim sifatida geografiya ta'limiga tatbiq etishning yetarlicha o‘rganilmaganligi bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi - SI yordamida individuallashtirilgan o‘quv topshiriqlarini shakllantirish, GAT vositalari asosida geografik vaziyatlarni modellashtirish hamda ularga asoslangan amaliy mashg‘ulotlar tizimini ishlab chiqish va uning samaradorligini pedagogik eksperiment orqali asoslashdan iborat[1: 23.].

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: 1) SI va GAT integratsiyasiga asoslangan ta'lim modellarining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish; 2) talabaning individual kompetentlik profiliga mos topshiriqlarni generatsiya qiluvchi metodikani ishlab chiqish; 3) GAT asosida geografik vaziyatlarni modellashtirishga asoslangan amaliy mashg‘ulotlar tizimini loyihalashtirish; 4) ishlab chiqilgan tizimning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali aniqlash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, geografik axborot tizimlari (GAT) va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini ta'limga tatbiq etish masalalari mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda asosan alohida yo‘nalishlar sifatida o‘rganilgan. Quyida ushbu tadqiqotlar guruhlarga ajratilib, ularga nisbatan muallif munosabati bayon etiladi.

O‘zbekistonlik olimlardan R.Gaypova, S.T.Abdurahmanov va M.M.Sapaevalar oliy ta'limda geografiya fanini o‘qitishda GAT texnologiyalari bo‘yicha xorijiy

tajribalardan foydalanish usullarini tahlil qilgan [1]. O.Tobirov GAT ning geografiya darslaridagi o‘rnini yoritgan [2], M.A.Rustamova esa maktab geografiya darslarida ko‘rgazmali qurollar va ta'limning texnik vositalaridan foydalanish ahamiyatini asoslagan [5]. Muallif sifatida biz ushbu ishlarning ahamiyatini e'tirof etamiz: ular GAT ni geografiya ta'limiga olib kirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shu bilan birga, bizningcha, mazkur tadqiqotlarda asosiy e'tibor GAT vositalarining imkoniyatlari va didaktik o‘rnini tavsiflashga qaratilgan bo‘lib, talabaning individual kompetentlik profilini hisobga oluvchi tabaqalashtirilgan topshiriqlar tizimi hamda uning samaradorligini eksperimental tekshirish masalalari yetarlicha chuqur yoritilmagan. Rustamova tadqiqoti esa umumiy ko‘rgazmali vositalarga yo‘naltirilgani sababli GAT asosidagi fazoviy modellashtirishni to‘liq qamrab olmaydi.

Xorijiy adabiyotda M.F.Goodchild GAT ni nafaqat texnik vosita, balki geografik axborot haqidagi fan (geographic information science) sifatida asoslab bergan [8]. Bu qarashga to‘liq qo‘shilamiz, chunki talabalarni faqat dasturiy vositalarda ishlashga emas, balki fazoviy tahlil mantiqini anglashga o‘rgatish zarur. J.J.Kerski o‘rta ta'limda GAT ni joriy etish samaradorligini va uni qo‘llashdagi muammolarni o‘rgangan [9], T.R.Baker va S.H.White esa GAT ning o‘quvchilarning munosabati, o‘z kuchiga ishonchi va o‘zlashtirishiga ta'sirini tadqiq etgan [10]. Ushbu ishlar GAT ning pedagogik ahamiyatini tasdiqlaydi, biroq ular asosan maktab ta'limiga yo‘naltirilgan va SI bilan integratsiya qilinmagan. Shu sababli ularning xulosalarini oliy ta'lim sharoitiga bevosita ko‘chirib bo‘lmaydi, balki moslashtirish talab etiladi.

SI ning ta'limdagi o‘rni borasida R.Luckin va hammualliflar SI yordamida individuallashtirilgan o‘qitish, adaptiv baholash va intellektual repetitor tizimlarini rivojlantirish imkoniyatlarini asoslab bergan [11]. O.Zawacki-Richter va boshqalarning tizimli sharhi oliy ta'limda SI bo‘yicha tadqiqotlar profillash va bashorat, baholash, adaptiv tizimlar hamda intellektual repetitorlar yo‘nalishlarida to‘planganini, shu bilan birga pedagogik jihatlar va o‘qituvchilarning ishtiroki yetarli emasligini ko‘rsatadi [12].

Biz so‘nggi xulosani muhim deb hisoblaymiz: SI texnologik yangilik sifatida emas, balki aniq didaktik maqsadga, ya'ni topshiriqlarni talaba darajasiga moslashtirishga xizmat qilishi lozim. Mazkur maqolada SI aynan shu vazifa uchun qo‘llaniladi.

Rus tilidagi tadqiqotlardan A.A.Kolesnikov, D.V.Lisitskiy, Ya.G.Poshivaylo va S.S.Yankelevichning ishi SI dan kartografiyada foydalanishning metodologik jihatlariga bag‘ishlangan [6], N.A.Moiseeva esa texnik yo‘nalishdagi bo‘lajak mutaxassislarni geoinformatika sohasida SI dan foydalanishga tayyorlash xususiyatlarini yoritgan [7]. Biz ushbu ishlarni SI va geoaxborot texnologiyalarining kasbiy ta'limda yaqinlashuvini ko‘rsatuvchi muhim manbalar sifatida baholaymiz. Biroq, bizningcha, ularda geografiya yo‘nalishi talabalari uchun individual topshiriqlarni generatsiya qilish, geografik vaziyatlarni modellashtirish va amaliy mashg‘ulotlarni yagona metodik tizimda birlashtirish masalasi markaziy o‘rin egallamagan.

Xulosa qilib aytganda, GAT va SI bo‘yicha tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, bu ikki texnologiyani yaxlit metodik tizimda birlashtirgan, individual topshiriqlar generatsiyasini, vaziyatlarni modellashtirishni va amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga olgan hamda samaradorligi pedagogik eksperimentda tekshirilgan ishlar yetarli emas. Bu holat mazkur tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot pedagogik eksperiment metodiga asoslangan bo‘lib, nazorat va tajriba guruhlari ishtirokida dastlabki (pre-test) va yakuniy (post-test) diagnostika tartibida olib borildi. Tadqiqotda [muassasa nomi]ning geografiya yo‘nalishi talabalaridan iborat [N] nafar talaba ishtirok etdi, ular tasodifiy tanlov asosida tajriba guruhi (n=[n1]) va nazorat guruhiga (n=[n2]) ajratildi[2:4.].

Tadqiqot besh bosqichda olib borildi. Birinchi, diagnostik bosqichda talabalarning boshlang‘ich bilim va ko‘nikma darajasini aniqlash maqsadida test va amaliy topshiriqlar asosida kompetentlik profili shakllantirildi. Ikkinchi, individual topshiriq generatsiyasi bosqichida sun’iy intellekt asosidagi moslashuvchan tizim har bir talabaning

kompetentlik profiliga mos ravishda murakkablik darajasi tabaqalashtirilgan o‘quv topshiriqlarini avtomatik tarzda shakllantirdi. Uchinchi, GAT asosida vaziyatlarni modellashtirish bosqichida talabalar ArcGIS Online va QGIS platformalari yordamida real hududiy ma’lumotlar - relyef, iqlim, aholi zichligi, tabiiy resurslar - asosida geografik vaziyatlarni, masalan, suv resurslaridan oqilona foydalanish, hududiy rejalashtirish, ekologik xavf zonalarini aniqlash kabi masalalarni modellashtirdilar[3.14.]. To‘rtinchi, amaliy mashg‘ulotlar bosqichida modellashtirilgan vaziyatlar asosida guruh va individual tartibda amaliy topshiriqlar bajarildi, natijalar taqdimot va muhokama shaklida yakunlandi. Beshinchi, yakuniy diagnostika bosqichida tajriba va nazorat guruhlarida fazoviy tahlil, xaritalashtirish va qaror qabul qilish ko‘nikmalari qayta baholandi[7:35.].

Ma’lumotlarni qayta ishlashda statistik tahlil usullaridan - o‘rtacha qiymat, standart chetlanish, Styudent t-mezoni - foydalanildi. Natijalarning ishonchliligi $p<0,05$ darajasida tekshirildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Tajriba-sinov ishlari natijalariga ko‘ra, SI va GAT integratsiyasiga asoslangan metodik tizim qo‘llanilgan tajriba guruhida talabalarning fazoviy tahlil, xaritalashtirish va geografik qaror qabul qilish ko‘nikmalari bo‘yicha ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

Dastlabki diagnostika natijalariga ko‘ra, ikkala guruh o‘rtasida statistik jihatdan sezilarli farq kuzatilmadi (tajriba guruhi - [X1]%, nazorat guruhi - [X2]%; $p>0,05$), bu guruhlarning boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi deyarli teng ekanligini ko‘rsatadi. Yakuniy diagnostika natijalariga ko‘ra esa tajriba guruhida o‘rtacha ko‘rsatkich [Y1]% ga, nazorat guruhida esa [Y2]% ga yetdi ($p<0,05$), bu farq statistik jihatdan ishonchli ekanligini ko‘rsatadi[2:4.].

Shuningdek, individuallashtirilgan topshiriqlar tizimi qo‘llanilgan guruhda talabalarning o‘quv motivatsiyasi va mashg‘ulotlarga faol qatnashish darajasi oshgani,

GAT asosida modellashtirilgan real vaziyatlar bilan ishlash talabalarda fazoviy tafakkur va kasbiy-amaliy kompetentlikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir koʻrsatgani kuzatildi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar sun'iy intellekt va GAT integratsiyasining geografiya ta'limida individuallashtirilgan va amaliyotga yoʻnaltirilgan oʻqitishni tashkil etishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. SI texnologiyalarining talabaning kompetentlik darajasiga moslashuvchan topshiriqlarni shakllantirish imkoniyati an'anaviy, barcha talabalar uchun bir xil topshiriqlar tizimidan farqli oʻlaroq, har bir talabaning rivojlanish ehtiyojiga individual yondashuvni ta'minlaydi.

GAT vositalari esa geografik bilimlarni mavhum, nazariy shaklda emas, balki real hududiy ma'lumotlar asosida, amaliy muammolarni hal etish jarayonida oʻzlashtirish imkonini beradi. Bu, oʻz navbatida, talabalarda nafaqat nazariy bilim, balki kasbiy faoliyatda zarur boʻladigan amaliy koʻnikmalarni - fazoviy tahlil, xaritalashtirish, qaror qabul qilish kabi kompetentsiyalarni rivojlantiradi[5:10.].

Tadqiqot natijalari, shuningdek, bir qator cheklovlarga ega: tadqiqot bir muassasa doirasida, nisbatan cheklangan namunada oʻtkazildi, bu esa natijalarni kengroq kontingentga umumlashtirishni talab qiladi[6:78.]. Kelgusi tadqiqotlarda turli ta'lim muassasalari, turli yoʻnalish talabalari ishtirokida kengroq miqyosdagi tajriba-sinov ishlarini olib borish, shuningdek SI asosidagi topshiriq generatorining algoritmik asoslarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Oʻtkazilgan tadqiqot sun'iy intellekt va geografik axborot tizimlari integratsiyasiga asoslangan individual oʻquv topshiriqlari, geografik vaziyatlarni modellashtirish va amaliy mashgʻulotlar tizimi geografiya ta'limi sifatini oshirishning samarali vositasi ekanligini koʻrsatdi. Ishlab chiqilgan metodik tizim talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, fazoviy tafakkurni rivojlantirish va nazariy bilimlarni amaliyot bilan uzviy bogʻlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida oliy ta'lim muassasalarida geografiya va unga yondosh fanlarni o‘qitishda SI asosidagi moslashuvchan topshiriq tizimlari va GAT platformalarini o‘quv dasturlariga bosqichma-bosqich joriy etish, shuningdek professor-o‘qituvchilarni ushbu texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha metodik jihatdan tayyorlash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gaypova R., Abdurahmanov S.T., Sapaeva M.M. Oliy ta’limda geografiya fanida xorijiy tajribalardan foydalanish usullari (GAT texnologiyalari) // Journal.ndpi.uz, 2025.
2. Tobirov O. Geografiya darslarida geografik axborot tizimlari (GAT)ning o‘rni // O‘zMU jurnali (journals.nuu.uz), 2023.
3. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida sun’iy intellektni joriy qilish orqali ta’lim tizimini takomillashtirish // Zenodo, 2024.
4. Aqlli shahar kontseptsiyasi talablari asosida korporativ geografik axborot tizimini yaratish // Zenodo, 2022.
5. Rustamova M.A. Maktab geografiya darslarida ko‘rgazmali qurollar va ta’limning texnik vositalaridan foydalanishning ahamiyati // Zenodo, 2025.
6. Колесников А.А., Лисицкий Д.В., Пошивайло Я.Г., Янкелевич С.С. Методологические аспекты использования искусственного интеллекта в картографии // Вестник СГУГиТ. - 2026. - Т. 31, №2. - С. 75–87.
7. Моисеева Н.А. Особенности подготовки будущих инженеров технического профиля к применению искусственного интеллекта в области геоинформатики // Информатика и образование. - 2025. - Т. 40, №5. - С. 37–48.
8. Goodchild M.F. Geographical information science // International Journal of Geographical Information Systems. – 1992. – Vol. 6, No. 1. – P. 31–45.
9. Kerski J.J. The implementation and effectiveness of geographic information systems technology and methods in secondary education // Journal of Geography. – 2003. – Vol. 102, No. 3. – P. 128–137.
10. Baker T.R., White S.H. The effects of G.I.S. on students' attitudes, self-efficacy, and achievement in middle school science classrooms // Journal of Geography. – 2003. – Vol. 102, No. 6. – P. 243–254.
11. Luckin R., Holmes W., Griffiths M., Forcier L.B. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. – London: Pearson, 2016.
12. Zawacki-Richter O., Marín V.I., Bond M., Gouverneur F. Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – where are the educators? // International Journal of Educational Technology in Higher Education. 2019. Vol. 16, Article 39.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ADABIY TA'LIMDA BADIIY ASAR TAHLILINING MAQSADI, TAMOYILLARI VA METODIK YONDASHUVLARI

Abdulxorisova Sayyora
Namangan davlat pedagogika instituti magistranti
E-mail: sayyoraabdulxorisova44@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada adabiy ta'lim jarayonida badiiy asar tahlilining nazariy-metodologik asoslari IMRAD talablari asosida yoritiladi. Tadqiqotda badiiy matnni o'qitishning adabiyotshunoslik, pedagogika, psixologiya va lingvodidaktika bilan bog'liq ilmiy negizlari tahlil qilinadi. Maqolada badiiy asar tahlilini o'quvchi shaxsini rivojlantirish, estetik didni shakllantirish, mustaqil fikrlash va matn bilan muloqot ko'nikmasini kuchaytirish vositasi sifatida tashkil etish zarurligi asoslanadi. Tahlil jarayonining nazariy modeli, asosiy metodik tamoyillari hamda o'quv faoliyatida qo'llash mumkin bo'lgan bosqichlari taklif qilinadi.*

Kalit so'zlar: *adabiy ta'lim, badiiy asar tahlili, metodologiya, matn talqini, estetik tarbiya, o'quvchi faolligi, kompetensiyaviy yondashuv.*

ЦЕЛЬ, ПРИНЦИПЫ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АНАЛИЗУ ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В ЛИТЕРАТУРНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В статье в соответствии с требованиями IMRAD рассматриваются теоретико-методологические основы анализа художественного произведения в литературном образовании. Раскрываются литературоведческие, педагогические, психологические и герменевтические аспекты анализа художественного текста. Особое внимание уделяется компетентностному, личностно-ориентированному, коммуникативно-деятельностному и интегративному подходам. Обосновывается необходимость организации анализа художественного произведения как процесса самостоятельного осмысления, интерпретации и оценки текста обучающимися.*

Ключевые слова: *литературное образование, анализ художественного произведения, методология, интерпретация текста, эстетическое воспитание, активность учащегося, компетентностный подход.*

THE PURPOSE, PRINCIPLES, AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO ANALYZING LITERARY WORKS IN LITERATURE EDUCATION

Abstract. *The article examines the theoretical and methodological foundations of literary text analysis in literary education according to IMRAD requirements. The study highlights the interdisciplinary nature of literary analysis and defines its role in developing learners' aesthetic perception,*

independent thinking, interpretive competence and dialogic interaction with a text. The article proposes a methodological model and practical stages for organizing the analysis of literary works in the educational process.

Keywords: *literary education, literary analysis, methodology, text interpretation, aesthetic education, learner activity, competence-based approach.*

KIRISH

Adabiy ta'limning asosiy vazifasi o'quvchini badiiy matnni shunchaki o'qishga emas, balki uni anglash, talqin qilish, baholash va shaxsiy hayotiy tajriba bilan bog'lab fikrlashga o'rgatishdan iborat. Badiiy asar tahlili shu jarayonning markaziy tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki har qanday adabiy bilim o'quvchi ongida aynan matn bilan ishlash, obrazlar tizimini tushunish, muallif g'oyasini ochish, badiiy tasvir vositalarini sezish va asarning ijtimoiy-estetik mazmunini idrok etish orqali shakllanadi.

Bugungi ta'lim tizimida adabiyot fanidan kutilayotgan natija faqat adiblar hayoti va asarlar mazmunini yodlash bilan cheklanmaydi. Zamonaviy o'quvchi badiiy matnga mustaqil savol bera olishi, obrazlar harakatini dalillar asosida izohlashi, voqelik va estetik g'oya o'rtasidagi bog'liqlikni anglay olishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, badiiy asar tahlilining nazariy-metodologik asoslarini chuqur belgilash adabiy ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, amaliy darslarda badiiy asarni tahlil qilish ko'pincha mazmunni qayta hikoya qilish, qahramonlarga umumiy tavsif berish yoki tayyor xulosani o'quvchiga yetkazish bilan chegaralanib qoladi. Bunday yondashuv o'quvchini faol ijodiy fikrlash subyekti sifatida shakllantirmaydi. Aslida esa badiiy tahlil matnni anglashning mantiqiy, estetik, psixologik va kommunikativ jarayonlarini birlashtiruvchi murakkab faoliyatdir.

Tadqiqotning maqsadi adabiy ta'limda badiiy asar tahlilining nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, uning pedagogik imkoniyatlarini ochib berish hamda ta'lim amaliyotida qo'llashga mos metodik modelni asoslashdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida badiiy asar tahlilining ilmiy mohiyatini belgilash, tahlil jarayonida

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qo'llaniladigan yondashuvlarni tizimlashtirish, metodik tamoyillarni aniqlash va dars jarayoni uchun samarali bosqichlarni taklif etish belgilandi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot materiali sifatida adabiyotshunoslik, pedagogika, psixologiya, metodika va matnshunoslikka oid ilmiy manbalar, adabiy ta'lim jarayonida badiiy matn ustida ishlashga doir nazariy qarashlar hamda umumta'lim va oliy ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan tahlil usullari tanlandi. Mavzu nazariy xarakterga ega bo'lgani uchun asosiy e'tibor mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirishga qaratildi.

Maqolada quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi: nazariy tahlil, qiyosiy-taqqoslash, tizimlashtirish, pedagogik kuzatish elementlari, metodik modellashtirish va umumlashtirish. Nazariy tahlil yordamida badiiy asar tahlilining mazmuniy mohiyati ochib berildi. Qiyosiy-taqqoslash metodi orqali an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar o'rtasidagi farqlar aniqlashtirildi. Tizimlashtirish metodi tahlil tamoyillarini bir butun metodologik modelga birlashtirish imkonini berdi.

Tadqiqot metodologiyasi kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, kommunikativ-faoliyatli, hermenevtik va integrativ yondashuvlarga tayandi. Kompetensiyaviy yondashuv o'quvchining badiiy matn bilan ishlashda egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlar majmuasini belgilaydi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchining individual qabul qilish tajribasi, estetik didi va mustaqil munosabatini hisobga oladi. Hermenevtik yondashuv esa badiiy matnni talqin qilish, ma'no qatlamlarini izlash va muallif-o'quvchi muloqotini tashkil etishga imkon beradi.

Tahlil jarayonini ilmiy asoslashda badiiy matnning uch darajali tuzilishi - mazmuniy, obrazli va poetik qatlamlari alohida e'tiborga olindi. Mazmuniy qatlam voqea, mavzu, muammo va g'oyani anglashga xizmat qiladi. Obrazli qatlam qahramonlar tizimi, xarakter, konflikt va muallif pozitsiyasini ochadi. Poetik qatlam esa

til, uslub, kompozitsiya, badiiy tasvir vositalari hamda janr xususiyatlarini tahlil qilishni nazarda tutadi.

1-jadval. Badiiy asar tahlilining nazariy-metodologik komponentlari

Komponent	**Mazmuni**	**Darsdagi vazifasi**	**Kutiladigan natija**
Nazariy asos	Adabiyotshunoslik tushunchalari, janr, obraz, kompozitsiya, konflikt	Matnni ilmiy tushunchalar asosida o'qish	Tahlilning dalilliligi kuchayadi
Metodologik asos	Hermenevtik, kompetensiyaviy, kommunikativ va integrativ yondashuvlar	Tahlil yo'nalishini belgilash	O'quvchi faol subyektga aylanadi
Psixologik asos	Qabul qilish, tasavvur, empatiya, obrazli tafakkur	Asar ta'sirini shaxsiy tajriba bilan bog'lash	Estetik idrok rivojlanadi
Metodik asos	Savol-javob, muammoli tahlil, guruhli ish, izohli o'qish	Darsda amaliy faoliyatni tashkil etish	Mustaqil fikrlash shakllanadi

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida adabiy ta'limda badiiy asar tahlili bir nechta o'zaro bog'liq bosqichlardan iborat murakkab pedagogik jarayon ekani aniqlandi. Bu jarayon faqat matn mazmunini tushuntirish bilan cheklanmay, o'quvchining tafakkuri, nutqi, estetik didi, axloqiy qarashi va kommunikativ madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Demak, badiiy asar tahlili adabiy bilimni o'zlashtirish vositasi bilan birga, shaxsni tarbiyalash va ijtimoiy-madaniy tajribani boyitish mexanizmi hamdir.

Birinchi natija shundan iboratki, badiiy tahlilning samaradorligi uning nazariy asoslanganligiga bevosita bog'liq. Agar o'quvchi obraz, konflikt, kompozitsiya, syujet, badiiy detal, portret, peyzaj, ichki monolog kabi tushunchalarning vazifasini anglamasa, uning tahlili yuzaki bo'lib qoladi. Shu sababli dars jarayonida nazariy tushunchalar quruq ta'rif sifatida emas, balki konkret matn bilan bog'liq holda berilishi lozim.

Ikkinchi natija sifatida tahlil jarayonining metodologik ko'p qirraliligi belgilandi. Badiiy asarni tahlil qilishda faqat adabiyotshunoslik yondashuvi yetarli emas. U pedagogik maqsad, psixologik qabul qilish xususiyatlari, o'quvchining yosh va bilim darajasi, kommunikativ vaziyat hamda tarbiyaviy maqsadlar bilan uyg'unlashishi kerak. Aynan shu uyg'unlik badiiy tahlilni mazmunli, jonli va samarali qiladi.

Uchinchi natija badiiy asar tahlilida o'quvchi faolligining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. O'qituvchi tayyor ma'noni beruvchi yagona manba emas, balki matnni anglash jarayonini tashkil etuvchi yo'lboshchi bo'lishi kerak. O'quvchi esa savol beruvchi, dalil izlovchi, taqqoslovchi, xulosa chiqaruvchi va o'z munosabatini asoslovchi subyekt sifatida ishtirok etadi.

To'rtinchi natija sifatida badiiy asar tahlilining quyidagi bosqichli modeli taklif qilindi: motivatsion tayyorgarlik, birlamchi idrok, matnni mazmuniy tahlil qilish, obrazlar tizimini ochish, poetik vositalarni izohlash, muammoli savollar asosida talqin qilish, umumlashtirish va shaxsiy munosabat bildirish. Ushbu bosqichlar izchil qo'llanganda o'quvchi matn bilan chuqur ishlaydi va adabiy bilim amaliy ko'nikmaga aylanadi.

2-jadval. Badiiy asar tahlilini tashkil etish bosqichlari

Bosqich	**Mazmuni**	**Metodik vositalar**

Motivatsion tayyorgarlik	Mavzu, davr, muammo va o'quvchi tajribasini bog'lash	Savol, suhbat, assotsiatsiya, epigraf
Birlamchi idrok	Asarni o'qish, umumiy taassurot va hissiy qabulni aniqlash	Ifodali o'qish, qisqa munosabat, taassurot yozuvi
Mazmuniy tahlil	Syujet, voqea, mavzu, muammo va g'oyani aniqlash	Reja tuzish, matndan dalil topish, savol-javob
Obrazli tahlil	Qahramonlar xarakteri, konflikt va muallif pozitsiyasini ochish	Taqqoslash, klaster, xarakteristika
Poetik tahlil	Til, uslub, kompozitsiya, badiiy vositalarni izohlash	Izohli tahlil, terminlar bilan ishlash
Umumlashtirish	Xulosa chiqarish, shaxsiy munosabatni asoslash	Esse, munozara, refleksiya

MUHOKAMA

Badiiy asar tahlilining nazariy-metodologik asoslarini belgilashda eng muhim masala - matnni o'quvchiga tayyor ma'no sifatida emas, balki izlanish maydoni sifatida taqdim etishdir. Adabiy matn ko'p qatlamli bo'lgani uchun undagi ma'no har doim savol, dalil, munosabat va talqin orqali ochiladi. Shuning uchun tahlil jarayoni reproduktiv faoliyatdan ko'ra izlanish, muammoli fikrlash va muloqotga asoslanishi zarur.

An'anaviy adabiy ta'limda ko'pincha asarning g'oyasi, qahramonlarning ijobiy yoki salbiy tomoni hamda tarbiyaviy xulosalar oldindan belgilab beriladi. Bunday usul qisqa muddatda mavzuni tushuntirishga yordam bersa-da, o'quvchining mustaqil talqin qilish ko'nikmasini yetarli darajada rivojlantirmaydi. Zamonaviy metodologiya esa

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

o'quvchini matn ustida izlanishga, muallif pozitsiyasini o'zi aniqlashga, qahramon tanlovi va harakatini hayotiy dalillar bilan baholashga undaydi.

Hermenevtik yondashuvning ahamiyati shundaki, u badiiy matnni bir martalik tushuntirish obyekti emas, balki qayta-qayta anglanadigan ma'no tizimi sifatida ko'radi. O'quvchi matnni o'qish jarayonida o'z tajribasi, dunyoqarashi va hissiy qabul qilish darajasi orqali asar bilan muloqotga kirishadi. Shu bois tahlilda yagona tayyor javobdan ko'ra dalillangan, matn bilan asoslangan va mantiqan izchil talqin muhimdir.

Kompetensiyaviy yondashuv badiiy tahlil natijasini o'quvchining amaliy ko'nikmalarida ko'rishga imkon beradi. Masalan, o'quvchi matndan asosiy muammoni ajrata olsa, obrazlar munosabatini izohlasa, badiiy vositaning g'oyaviy-estetik vazifasini tushuntirsa va o'z xulosasini og'zaki yoki yozma shaklda asoslay olsa, tahlil haqiqiy ta'limiy natijaga aylanadi. Demak, badiiy asar tahlilining mezoni faqat to'g'ri javob emas, balki fikr yuritish jarayonining dalilliligi va mustaqilligidir.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv badiiy tahlilda o'quvchining hissiy qabulini ham muhim omil sifatida baholaydi. Adabiyot inson, hayot, qadriyat, orzu, ziddiyat va tanlov haqida fikr yuritishga undaydigan fan bo'lganligi sababli o'quvchi asar qahramoni bilan empatiya qilishi, voqealarga munosabat bildirishi va o'z hayotiy qarashlarini qayta ko'rib chiqishi mumkin. Bu jarayon adabiy ta'limning tarbiyaviy imkoniyatlarini kuchaytiradi.

Metodik nuqtayi nazardan badiiy tahlilni samarali tashkil etish uchun o'qituvchi savollar tizimini puxta tuzishi kerak. Savollar mazmunni eslashga qaratilgan oddiy savollar bilan cheklanmasligi lozim. Ular sabab-oqibatni aniqlash, taqqoslash, baholash, taxmin qilish, dalillash va xulosa chiqarishga undashi zarur. Masalan, 'Qahramon nima qildi?' degan savol bilan birga 'Nima uchun shunday yo'l tutdi?', 'Uning tanlovi asar g'oyasini qanday ochadi?', 'Muallif bu obraz orqali qanday ijtimoiy yoki axloqiy muammoni ko'rsatadi?' kabi savollar tahlilni chuqurlashtiradi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, adabiy ta'limda badiiy asar tahlilining nazariy-metodologik asoslari tizimli ravishda qo'llanganda o'quvchilarda matnni tushunish, nutqiy ifoda, tanqidiy fikrlash, estetik baholash va ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar rivojlanadi. Bu esa adabiyot darslarini quruq ma'lumot berish shaklidan ijodiy, muloqotga asoslangan va shaxsni rivojlantiruvchi ta'lim jarayoniga aylantiradi.

XULOSA

Adabiy ta'limda badiiy asar tahlili nazariy bilim, metodologik yondashuv va metodik amaliyotning uzviy birligiga asoslanadi. Uning samaradorligi matnni mazmuniy, obrazli, poetik va g'oyaviy-estetik jihatdan izchil o'rganish bilan belgilanadi. Badiiy tahlil o'quvchini faqat asar mazmuni bilan tanishtirib qo'ymaydi, balki uni mustaqil fikrlash, dalil keltirish, estetik baholash va shaxsiy munosabat bildirishga o'rgatadi.

Tadqiqot natijasida badiiy asar tahlilining muhim metodologik tayanchlari sifatida kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, kommunikativ-faoliyatli, hermenevtik va integrativ yondashuvlar ajratildi. Ushbu yondashuvlar birgalikda qo'llanganda adabiyot darsi o'quvchi uchun matn, muallif, qahramon va hayotiy tajriba o'rtasidagi muloqot maydoniga aylanadi.

Maqolada taklif etilgan bosqichli model adabiy ta'lim amaliyotida badiiy asarni tahlil qilishni izchil tashkil etishga xizmat qiladi. Motivatsion tayyorgarlik, birlamchi idrok, mazmuniy tahlil, obrazli tahlil, poetik tahlil va umumlashtirish bosqichlari o'quvchining matn bilan faol ishlashini ta'minlaydi. Kelgusida ushbu modelni turli janrdagi asarlar, turli yosh bosqichlari va raqamli ta'lim vositalari bilan bog'liq holda tajribadan o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aristotel. Poetika. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
2. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. - Moskva: Iskusstvo, 1979.
3. Vygotskiy L.S. Myshlenie i rech. - Moskva: Labirint, 1999.
4. Lotman Yu.M. Struktura khudozhestvennogo teksta. - Moskva: Iskusstvo, 1970.
5. Tomashevskiy B.V. Teoriya literatury. Poetika. - Moskva: Aspekt Press, 1996.

6. Halizev V.E. Teoriya literatury. - Moskva: Vysshaya shkola, 2002.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. - Toshkent: Akademnashr, 2018.
8. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. - Toshkent: Sharq, 2004.
9. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1996.
10. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
11. Zunnunov A. Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1992.
12. Karimov N. Adabiyot nazariyasi va metodologiya masalalari. - Toshkent: Fan, 2007.
13. Abdullayeva M. Badiiy matn tahlili va talqin masalalari. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2016.
14. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishga oid qaror va farmonlari. - Toshkent, 2017-2024.

HAMKORLIKKA ASOSLANGAN TA'LIMNING SAMARADORLIGI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Xolmirzayev Shavkat Abdulazizovich
University of Business and Science
Pedagogika va psixologiya kafedrasi, dotsent v.b.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hamkorlikka asoslangan ta'limning samaradorligi va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Hamkorlik pedagogikasining mohiyati, interaktiv, loyiha, muammoli, kooperativ va simulyatsiya metodlarining o'quvchilar faolligi, mas'uliyati va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, o'qituvchining metodik mahorati, individual yondashuv hamda ota-onalar bilan hamkorlikning ta'lim samaradorligiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Hamkorlikka asoslangan ta'limni joriy etishda uchraydigan metodik qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *hamkorlik pedagogikasi, hamkorlikka asoslangan ta'lim, ta'lim samaradorligi, pedagogik imkoniyatlar, interaktiv metodlar, kooperativ ta'lim, loyiha metodi, o'qituvchi mahorati, ota-onalar bilan hamkorlik, ta'limda innovatsiyalar.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ СОТРУДНИЧЕСТВА

Аннотация: *В данной статье анализируются эффективность и педагогические возможности обучения на основе сотрудничества. Раскрываются сущность педагогики сотрудничества и роль интерактивных, проектных, проблемных, кооперативных методов и метода симуляции в развитии активности, ответственности и коммуникативных навыков учащихся. Также рассматривается влияние методического мастерства учителя, индивидуального подхода и сотрудничества с родителями на эффективность образования. Показаны методические трудности, возникающие при внедрении обучения на основе сотрудничества, и пути их преодоления.*

Ключевые слова: *педагогика сотрудничества, обучение на основе сотрудничества, эффективность образования, педагогические возможности, интерактивные методы, кооперативное обучение, проектный метод, мастерство учителя, сотрудничество с родителями, инновации в образовании.*

EFFECTIVENESS AND PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF COLLABORATION-BASED EDUCATION

Abstract: *This article analyzes the effectiveness and pedagogical possibilities of collaboration-based education. It reveals the essence of the pedagogy of cooperation and the role of interactive, project-based, problem-based, cooperative and simulation methods in developing students' activity, responsibility and*

communication skills. The article also considers the influence of the teacher's methodological skills, an individual approach and cooperation with parents on the effectiveness of education. Methodological difficulties that arise in implementing collaboration-based education and ways of overcoming them are shown.

Keywords: *pedagogy of cooperation, collaboration-based education, educational effectiveness, pedagogical possibilities, interactive methods, cooperative learning, project method, teacher skills, cooperation with parents, innovations in education.*

KIRISH

Hamkorlik pedagogikasi zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamjihatlikni, o'rganish va rivojlanish jarayonida umumiy maqsadlar sari birgalikda harakat qilishni ta'minlaydi. Bu g'oyalar XX asrning 80-yillarida Sh.A. Amonashvili kabi pedagoglar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, ta'lim jarayonini o'qituvchi va o'quvchining hurmat hamda ishonchga asoslangan birgalikdagi faoliyati sifatida talqin etadi [1]. Bu yondashuvda ta'lim jarayoni faqat o'qituvchi tomonidan boshqariladigan faoliyat emas, balki o'quvchilarning faol ishtiroki, fikrlari, xohish-istaklari va ehtiyojlariga asoslangan ikki tomonlama aloqalar jarayoni sifatida qaraladi.

Hamkorlikka asoslangan ta'lim o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari bilan cheklanmaydi, u o'quvchilarning bir-biri bilan o'zaro hamkorligini, guruhda birgalikda o'rganishini ham o'z ichiga oladi. Xorijiy tadqiqotlarda bu yo'nalish kooperativ ta'lim nomi bilan o'rganilgan bo'lib, guruh maqsadlari va har bir o'quvchining shaxsiy mas'uliyati uning samaradorligini belgilovchi asosiy shartlardan biri sanaladi [2]. Hamkorlikning muhim unsurlari sifatida ijobiy o'zaro bog'liqlik, yuzma-yuz o'zaro yordam, shaxsiy mas'uliyat, ijtimoiy ko'nikmalar va guruh faoliyatini tahlil qilish ko'rsatiladi [3].

Bugungi kunda o'quvchilardan o'rganilgan materialni qayta aytib berish bilangina cheklanmasdan, olingan bilimni amaliyotda qo'llash, birgalikda ishlash, o'z fikrini asoslash va boshqalarning fikrini hurmat qilish talab etilmoqda. Mustaqil fikrlash,



jamoada ishlash va muloqot kompetensiyalari zamonaviy ta'limning muhim natijalari sifatida qaralmoqda. Bunday natijalarga erishishda faqat o'qituvchi nutqiga tayanadigan o'qitish yetarli bo'lmay qolmoqda. Shu sababli hamkorlikka asoslangan ta'limning samaradorligini va uning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi hamkorlikka asoslangan ta'limning samaradorligi va pedagogik imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslash, uning asosiy metodlarini tahlil qilish hamda uni joriy etishda o'qituvchi va ota-onalarning rolini yoritishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun hamkorlikka asoslangan ta'limning mohiyati va tamoyillarini aniqlash, uning asosiy metodlarini tahlil qilish, samaradorlik omillari va mezonlarini yoritish, o'qituvchi va ota-onalarning rolini ko'rsatish hamda joriy etishdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilash vazifalari qo'yildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hamkorlik pedagogikasi hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish masalalari ko'plab ilmiy manbalarda yoritilgan. M. Toxtaxodjayeva tahriri ostidagi "Pedagogika" asarida ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, metod va shakllari bayon etilgan bo'lib, bu hamkorlikka asoslangan ta'limni nazariy jihatdan tushunish uchun asos bo'ladi [4]. J.G'. Yo'ldoshev va S.A. Usmonovning "Pedagogik texnologiya asoslari" kitobida ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida loyihalash, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini maqsadga yo'naltirish masalalari yoritilgan [5]. N.N. Azizxo'jayevaning "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat" asarida pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'qituvchi mahoratining o'rni ko'rsatilgan [6]. H. Omonov va hammualliflarning "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" kitobida esa pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llash va pedagogik mahorat masalalari tahlil qilingan [7]. D.K. Hotamovaning "Umumiy pedagogika" o'quv qo'llanmasida pedagogika nazariyasi, ta'lim va tarbiya jarayonlarining asoslari bayon etilgan [8].

Keltirilgan manbalarni umumlashtirib aytish mumkinki, hamkorlik pedagogikasining insonparvarlik g‘oyalari, kooperativ ta’limga oid xorijiy tadqiqotlar hamda pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat masalalari ko‘pincha alohida-alohida ko‘rib chiqiladi. Mazkur maqolada esa bu yo‘nalishlar yaxlit tizim sifatida, ya’ni o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-onalar hamkorligi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo‘lib, empirik ma’lumotlar (so‘rov, kuzatuv, eksperiment) to‘plashga tayanmaydi. Unda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Hamkorlikka asoslangan ta’lim metodlari ularning pedagogik imkoniyatlari nuqtai nazaridan guruhlandi, xulosalar esa manbalarni tahlil qilish asosida shakllantirildi. Metodlarni amaliyotga joriy etish yo‘llari dars modeli ko‘rinishida tavsiflandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil hamkorlikka asoslangan ta’limning pedagogik imkoniyatlari uning mohiyati, tamoyillari, metodlari, baholash tizimi hamda o‘qituvchi va oila rolining uyg‘unligi orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

Hamkorlikka asoslangan ta’limning mohiyati va tamoyillari. Hamkorlikka asoslangan ta’limda ta’lim jarayonining ishtirokchilari, ya’ni o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-ona, jarayonning teng huquqli sub’ektlari sifatida qaraladi. O‘quvchi bu yerda ma’lumotni passiv qabul qiluvchi emas, balki o‘z bilimini boshqalar bilan birgalikda quruvchi faol shaxsdir. O‘qituvchi esa jarayonni boshqaruvchi emas, balki uni yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi hamkor sifatida ishtirok etadi.

Tahlil qilingan manbalar asosida hamkorlikka asoslangan ta’limning quyidagi tamoyillarini ajratib ko‘rsatish mumkin: o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonch; guruh uchun umumiy maqsadning mavjudligi; ishtirokchilarning bir-biriga bog‘liqligi; har bir o‘quvchining shaxsiy mas’uliyati; fikrni erkin bildirish imkoniyati; o‘quvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish; guruh faoliyatini birgalikda tahlil qilish. Bu tamoyillardan birining buzilishi hamkorlikni shaklan saqlab

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qolgan holda, mazmunan yo‘qqa chiqarishi mumkin. Masalan, guruhga umumiy topshiriq berilgan, lekin har bir o‘quvchining hissasi baholanmasa, ish asosan eng faol o‘quvchi zimmasiga tushib qoladi.

An’anaviy va hamkorlikka asoslangan ta’limning farqlari. An’anaviy ta’limda asosiy maqsad bilimni tayyor shaklda yetkazish bo‘lib, darsni o‘qituvchi boshqaradi, o‘quvchi esa asosan tinglaydi va o‘zlashtirgan narsasini takrorlaydi. Baholash ko‘pincha yakuniy natijaga qaratiladi, o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa esa dars jarayonining ikkinchi darajali jihati sifatida qaraladi. Hamkorlikka asoslangan ta’limda esa maqsad bilimni o‘zlashtirish bilan birga, uni birgalikda qurish, amaliyotda qo‘llash va shu jarayonda shaxsiy hamda ijtimoiy sifatlarni rivojlantirishdan iborat. Dars jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida fikr almashinuvi doimiy bo‘lib, o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti o‘rganishning asosiy vositasiga aylanadi. Baholash esa natija bilan bir qatorda jarayonni, ya’ni o‘quvchining faolligi va guruhga qo‘shgan hissasini ham qamrab oladi. Bu ikki yondashuv bir-biriga zid emas: amaliyotda ma’ruza va tushuntirish hamkorlik metodlari bilan uyg‘unlashtirilganda yaxshi natija beradi.

Psixologik-pedagogik asoslari. Hamkorlikka asoslangan ta’limning samaradorligi o‘rganish jarayonining ijtimoiy xarakterga ega ekanligi bilan izohlanadi. Bola bilimni yolg‘iz o‘zi emas, balki kattalar va tengdoshlari bilan muloqot jarayonida o‘zlashtiradi. Tengdoshlari bilan fikr almashish, o‘z fikrini boshqalarga tushuntirish, boshqalarning tushuntirishini tinglash o‘quvchining tushunchalarini aniqlashtiradi va chuqurlashtiradi. Bundan tashqari, guruhda o‘quvchi o‘zini jamoaning bir qismi sifatida his qiladi, bu esa uning xavotirini kamaytiradi va o‘quv faoliyatiga bo‘lgan ichki motivatsiyani oshiradi. Guruhdagi muvaffaqiyat o‘quvchida o‘zining kuchiga ishonch hissini shakllantiradi, muvaffaqiyatsizlik esa jamoa bilan birga tahlil qilinib, uni jiddiy ruhiy yuk bo‘lmay, o‘rganish imkoniyatiga aylantiradi.

Interaktiv metodlar. Rolli o‘yinlar, guruhli muhokamalar va muammoli vaziyatlar o‘quvchilarga fikrini bildirish, boshqalar fikrini tinglash va amaliy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ko‘nikmalarni egallash uchun sharoit yaratadi. Bu metodlar o‘quvchilarning o‘quv materialiga munosabatini o‘zgartirib, ularda faol va mas’uliyatli pozitsiyani shakllantirishga yordam beradi. Amaliyotda juftlikda fikr almashish, aqliy hujum, kichik guruhlarda muhokama va zig-zag kabi usullar keng qo‘llaniladi. Ularning umumiy afzalligi shundaki, har bir o‘quvchi darsda gapirish va fikr bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa ayniqsa uyatchan va kam faol o‘quvchilarni jarayonga jalb etishda muhimdir.

Loyiha metodi. O‘quvchilarga mavzularni mustaqil o‘rganish va loyiha asosida yechim topish imkoniyatini berish ularda muammolarni tahlil qilish va chora-tadbirlar ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Loyiha ustida ishlash odatda mavzuni tanlash, rejalashtirish, ijro etish, natijani taqdim etish va baholash bosqichlaridan iborat bo‘ladi. Har bir bosqichda o‘quvchilar vazifalarni o‘zaro taqsimlaydi, bir-birining ishini muvofiqlashtiradi va umumiy natija uchun mas’uliyatni birgalikda o‘z zimmasiga oladi. Masalan, o‘quvchilar yo‘l xavfsizligi, o‘z-o‘zini himoya qilish, tabiiy ofatlar kabi mavzularda loyiha yaratib, bilimlarini amaliyotda qo‘llaydilar.

Muammoli ta’lim metodlari. O‘quvchilarga muammoli vaziyatlarni taqdim etib, ularni guruhlarda muhokama qilish va yechim topishga undash tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish hamda muammolarga mas’uliyatli yondashuvni rivojlantiradi. Bunda o‘qituvchi tayyor javob bermaydi, balki savollar orqali o‘quvchilarni izlanishga yo‘naltiradi. Guruh a’zolari turli yechimlarni taklif qiladi, ularni asoslaydi va eng maqbul variantni birgalikda tanlaydi. Bu jarayon o‘quvchilarda o‘z nuqtai nazarini dalillar bilan himoya qilish hamda boshqalarning dalillarini hurmat bilan tinglash madaniyatini shakllantiradi.

Kooperativ ta’lim metodlari. Bu metodda o‘quvchilar bir-biri bilan hamkorlikda muayyan vazifalarni bajaradilar. Guruhli ishlar, muhokamalar va birgalikda yechim topish jarayonida ular bir-biridan o‘rganadilar va o‘zaro yordam orqali bilimlarini mustahkamlaydilar. Guruhlar odatda uch-besh o‘quvchidan tashkil topadi, a’zolar

o‘rtasida rahbar, yozuvchi, vaqt nazoratchisi va taqdimotchi kabi rollar taqsimlanadi. Rollarning vaqti-vaqti bilan almashtirib turilishi har bir o‘quvchiga turli vazifalarda o‘zini sinab ko‘rish imkonini beradi. Metodning samaradorligi guruh uchun umumiy maqsad qo‘yilishi va har bir o‘quvchining hissasi alohida e’tiborga olinishiga bog‘liq.

Simulyatsiya metodlari. Turli hayotiy vaziyatlarni modellashtirish o‘quvchilarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Masalan, yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatishda simulyatsiya yordamida xavfsiz tajriba orttirish mumkin. Simulyatsiyada o‘quvchilar real hayotda xatoga yo‘l qo‘yish xavfli bo‘lgan vaziyatlarni nazorat ostida sinab ko‘radilar, so‘ngra o‘z harakatlarini guruhda birgalikda tahlil qiladilar. Ushbu metodlar bir-birini to‘ldirib, o‘quvchilarning faolligi, o‘zaro yordami va mas’uliyatini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Baholash va samaradorlik mezonlari. Hamkorlikka asoslangan ta’limning samaradorligini faqat o‘zlashtirish natijalariga qarab baholash yetarli emas. Samaradorlikning mezonlari sifatida o‘quvchilarning darsdagi faolligi, bilim va ko‘nikmalar sifati, o‘quv motivatsiyasi, muloqot va jamoada ishlash madaniyati hamda o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar muhitini ko‘rsatish mumkin. Bu mezonlarni baholash uchun o‘qituvchi kuzatuv varaqalari, baholash mezonlari jadvali (rubrika), o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash, o‘quvchi portfoliosi kabi vositalardan foydalanishi mumkin. Muhim shart shundaki, baholashda guruhning umumiy natijasi ham, har bir o‘quvchining shaxsiy hissasi ham hisobga olinishi kerak, aks holda hamkorlikning adolatliligiga bo‘lgan ishonch yo‘qoladi.

Samaradorlik omillari. Hamkorlikka asoslangan ta’lim o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham o‘zlashtirish imkonini beradi. Guruhda ishlash jarayonida o‘quvchilar bir-birining fikrini hurmat qilishni, jamoaviy muvaffaqiyatga erishish uchun birgalikda harakat qilishni, muloqot va muammolarni hal qilishda o‘zini tutishni o‘rganadilar. Bu ularning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, o‘quvchi o‘z fikri va hissasi guruh uchun

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

muhim ekanini his qilganda, o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi va mas’uliyati ortadi. Bilimi yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchi o‘rtog‘iga tushuntirish jarayonida o‘z bilimini yanada mustahkamlaydi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan o‘quvchi esa tengdoshining tilida berilgan tushuntirishdan foyda ko‘radi.

Pedagogik imkoniyatlari. Hamkorlikka asoslangan ta’limning pedagogik imkoniyatlari bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, u shaxsni rivojlantirish imkoniyatiga ega: o‘quvchi o‘z fikrini bildirish, mas’uliyatni zimmasiga olish va o‘z faoliyatini baholashni o‘rganadi. Ikkinchidan, u kommunikativ madaniyatni shakllantiradi, ya’ni tinglash, savol berish, fikrni dalillash va kelishuvga erishish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Uchinchidan, u tanqidiy va mantiqiy fikrlashni kuchaytiradi, chunki guruhdagi turli fikrlar o‘quvchini o‘z qarashlarini qayta ko‘rib chiqishga undaydi. To‘rtinchidan, hamkorlik sharoitida o‘quvchilarning bilim darajasi va o‘zlashtirish sur’atidagi farqlarni hisobga olish, ularga turli murakkablikdagi vazifalar berish osonlashadi. Nihoyat, raqamli muhitda hamkorlik ham yangi imkoniyatlar ochadi: o‘quvchilar umumiy hujjatlar va onlayn platformalar yordamida masofadan turib birgalikda ishlashi mumkin.

Tarbiyaviy imkoniyatlari. Hamkorlikka asoslangan ta’lim faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, u tarbiyaviy vazifalarni ham hal qiladi. Birgalikda ishlash jarayonida o‘quvchilar o‘zaro hurmat, mas’uliyat, rostgo‘ylik, adolat va yordamga tayyorlik kabi qadriyatlarni amaliy faoliyatda o‘zlashtiradi. Guruhda kelishmovchilik yuzaga kelganda, o‘quvchilar uni janjalsiz, muloqot orqali hal etishni o‘rganadi. Boshqa o‘quvchining muvaffaqiyatidan quvonish va uning qiyinchiligiga hamdard bo‘lish ko‘nikmalari ham ana shunday vaziyatlarda shakllanadi. Shu ma’noda hamkorlikka asoslangan ta’lim ta’lim va tarbiya birligini ta’minlovchi samarali vosita hisoblanadi.

Ta’lim bosqichlariga qarab qo‘llash xususiyatlari. Hamkorlikka asoslangan ta’lim metodlari o‘quvchilarning yoshiga qarab turlicha qo‘llanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘yin elementlari, juftlikda va uch-to‘rt kishilik kichik guruhlarda bajariladigan

qisqa topshiriqlar samarali bo‘ladi, chunki bu yoshdagi bolalarning diqqati qisqa muddatli va ular tengdoshlari bilan harakatda, o‘yin orqali o‘rganishni yaxshi ko‘radi. Bu bosqichda hamkorlik qoidalarini, ya’ni navbat bilan gapirish, boshqani tinglash, yordam so‘rash va yordam berishni o‘rgatish ayniqsa muhimdir. O‘rta sinflarda loyiha ishlari, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish va rolli o‘yinlar ko‘proq o‘rin tutadi, chunki o‘quvchilar murakkabroq vazifalarni mustaqilroq bajarishga qodir bo‘ladi. Yuqori sinflarda hamda oliy ta’limda esa ilmiy loyihalar, keys-stadi, munozara va guruhda tadqiqot ishlarini bajarish kabi shakllar ustuvor bo‘lib, ular talabalarda kasbiy muloqot va jamoada ishlash kompetensiyalarini shakllantiradi.

Inklyuziv ta’limda hamkorlik imkoniyatlari. Hamkorlikka asoslangan ta’lim inklyuziv muhitda ham katta ahamiyatga ega. Sinfda bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va ehtiyojlari turlicha bo‘lgan o‘quvchilar bo‘lganda, guruh ishi har bir o‘quvchiga o‘z imkoniyatiga mos hissa qo‘shish uchun sharoit yaratadi. Masalan, bir o‘quvchi chizma tayyorlashda, boshqasi ma’lumot yig‘ishda, uchinchisi natijani taqdim etishda ishtirok etishi mumkin. Shu tariqa har bir o‘quvchi o‘zini guruh uchun kerakli shaxs sifatida his qiladi, tengdoshlarining unga bo‘lgan munosabati yaxshilanadi. Muhim shart: o‘qituvchi vazifalarni o‘quvchining imkoniyatiga moslab tanlashi va hech bir o‘quvchining chetda qolmasligini ta’minlashi kerak.

Raqamli muhitda hamkorlik. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘quvchilar umumiy elektron hujjatlar, taqdimotlar va onlayn doskalar yordamida birgalikda ishlashi, masofadan turib fikr almashishi va loyihalarini hamkasblari bilan baham ko‘rishi mumkin. Bunday vositalar guruh ishining jarayonini kuzatish, har bir a’zoning hissasini ko‘rish va o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish imkonini ham beradi. Biroq texnologiya o‘z-o‘zidan hamkorlikni ta’minlamaydi: u faqat puxta o‘ylangan topshiriq va aniq rollar mavjud bo‘lgandagina foydali bo‘ladi, aks holda o‘quvchilar ekran oldida alohida-alohida ishlab, shaklan birgalikda ishlayotgandek tuyulishi mumkin.

Hamkorlikka asoslangan darsni tashkil etish modeli. Yuqoridagi metodlarni amaliyotda qo‘llash uchun dars modelini keltiramiz. Masalan, “Yo‘l xavfsizligi” mavzusidagi dars motivatsion bosqich bilan boshlanadi: o‘qituvchi o‘quvchilarga kundalik hayotdagi yo‘l vaziyatini taqdim etib, ularni fikr almashishga undaydi. Keyin o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi, rollar taqsimlanadi va har bir guruhga turli vaziyat yoki vazifa beriladi. Guruhlar vazifani birgalikda muhokama qiladi, yechim variantlarini ishlab chiqadi va kerak bo‘lsa, simulyatsiya shaklida sahnalashtiradi. Navbatdagi bosqichda guruhlar natijalarini taqdim etadi, boshqa guruhlar savol beradi va fikr bildiradi. Dars yakunida o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda xulosa chiqaradi, har bir o‘quvchi guruh ishidagi o‘z hissasini baholaydi va nimalarni o‘rganganini ifodalaydi. Dars natijasi uyga vazifa sifatida oila a’zolari bilan muhokama qilinishi mumkin, bu esa ota-onalarni jarayonga jalb etadi.

Oliy ta’lim sharoitida hamkorlikka asoslangan dars boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin. Masalan, pedagogika yo‘nalishi talabalari bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotda o‘qituvchi real maktab amaliyotidan olingan vaziyatni (keys) taqdim etadi. Talabalar kichik guruhlarda vaziyatni tahlil qiladi, muammoni aniqlaydi, uning sabablarini ko‘rsatadi va bir necha yechim variantini ishlab chiqadi. Guruhlar o‘z yechimini taqdim etadi, boshqa guruhlar esa uni asoslilik va amalga oshirish mumkinligi jihatidan baholaydi. Mashg‘ulot yakunida talabalar o‘zlari tanlagan yechim bo‘yicha qisqa yozma refleksiya tayyorlaydi. Bunday dars talabalarda nazariy bilimni amaliy vaziyatga tatbiq etish, jamoada ishlash va o‘z kasbiy qarorini asoslash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Hamkorlikka asoslangan ta’lim milliy ta’lim an’analari bilan ham uzviy bog‘liq. O‘zbek xalqining ustoz-shogird an’anasida bilim ustozdan shogirdga muloqot, ibrat va birgalikdagi amaliy faoliyat orqali berilgan. Bu an’anada ustozning shogirdga g‘amxo‘rligi, shogirdning ustozga hurmati va ikkala tomonning umumiy maqsad yo‘lida hamkorligi muhim o‘rin tutgan. Zamonaviy hamkorlik pedagogikasi shu g‘oyalarni



yangi sharoitda, ya'ni sinf-dars tizimida va guruh ishlari orqali davom ettiradi. Shuning uchun hamkorlik metodlarini joriy etishda milliy qadriyatlarga tayanish ularning o'quvchilar va ota-onalar tomonidan tabiiy qabul qilinishiga yordam beradi.

O'qituvchining roli va metodik yondashuvlar. Hamkorlik pedagogikasi o'qituvchi faoliyatini o'quvchi markazli qilishga qaratilgan. Bu yondashuvda o'qituvchi faqat bilimni uzatuvchi emas, balki o'quvchilarni o'zaro faoliyatga jalb qiluvchi va o'rganish jarayonini tashkil etuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Hamkorlik pedagogikasi ustoz-shogird an'analarini rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi [9]. O'qituvchi o'quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari va yoshini hisobga olishi, ularni fikr almashishga va turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga undashi lozim. Bunda o'qituvchining individual yondashuvni tanlashi va o'quvchilarning fikrini tinglash, muhokamaga rag'batlantirish ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi dars davomida guruhlar ishini kuzatadi, kerak bo'lganda yo'naltiruvchi savollar beradi, lekin o'quvchilar o'rniga qaror qabul qilmaydi. Shuningdek, u ijobiy muhitni saqlashi, o'quvchilarning bir-birini hurmat qilishiga erishishi va xatoga yo'l qo'ygan o'quvchini qoralamasdan, uning xatosidan o'rganish imkoniyatini yaratishi zarur.

Hamkorlik madaniyatini shakllantirish. Hamkorlik ko'nikmalari o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, ular maxsus o'rgatilishi kerak. O'quvchilar guruhda ishlashga tayyor bo'lishi uchun o'qituvchi avvalo hamkorlik qoidalarini ular bilan birgalikda ishlab chiqadi: bir-birini tinglash, gapni bo'lmaslik, tanqidni shaxsga emas, fikrga qaratish, yordam so'rashdan xijolat bo'lmaslik kabi qoidalar sinf hayotining odatiy me'yoriga aylanishi lozim. Sinfda ishonch va xavfsizlik muhiti yaratilsa, o'quvchilar xato qilishdan qo'rqmay, o'z fikrini ochiq bildiradi. Aksincha, xato uchun qoralash yoki masxara qilish muhiti hamkorlikni susaytiradi. Shu sababli o'qituvchining shaxsiy namunasi, ya'ni o'quvchilar bilan muloqotdagi hurmati, sabr-toqati va adolatliligi hamkorlik madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

O‘qituvchining kasbiy rivojlanishi. Hamkorlikka asoslangan ta’limni muvaffaqiyatli joriy etish o‘qituvchining o‘zi ham hamkorlikka ochiq bo‘lishini talab qiladi. Metodik birlashmalarda tajriba almashish, hamkasblarning darslarini kuzatish, o‘zaro ochiq darslar o‘tkazish va dars tahlilini birgalikda muhokama qilish o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshiradi. O‘qituvchi har bir dars yakunida o‘z faoliyatini tahlil qilib, qaysi metod o‘quvchilarni jalb qilgani, qaysi topshiriq qiyinchilik tug‘dirgani va guruhlar ishi qanday tashkil etilgani haqida xulosa chiqarishi, keyingi darsni shunga muvofiq rejalashtirishi lozim. Bunday refleksiya o‘qituvchiga metodlarni mexanik ko‘chirib olishdan qutulib, ularni o‘z sinfining xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradi.

Ota-onalar bilan hamkorlik. Ta’lim muassasasi va oila o‘rtasidagi hamkorlik o‘quvchilarning o‘rgangan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. O‘qituvchilar bilan birgalikda ishlagan ota-onalar farzandlarining muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Oilada hamkorlik pedagogikasi asosida bolalarda tashkilotchilik xulqini tarbiyalash mumkinligi ham ko‘rsatilgan [10]. Ota-onalar bilan hamkorlik ota-onalar yig‘ilishlari, ochiq darslar, individual suhbatlar, umumiy loyihalarda ishtirok etish hamda messenjer va elektron kundalik orqali muntazam aloqa kabi shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Bunda o‘qituvchi ota-onalarga faqat o‘quvchining kamchiliklari haqida emas, balki uning yutuqlari haqida ham xabar berib borishi, ota-onalarni esa farzandining o‘quv faoliyatiga shaxsiy mas’uliyat bilan yondashishga undashi muhimdir.

Samaradorlikni ta’minlovchi shartlar. Hamkorlikka asoslangan ta’limning samaradorligi bir qator tashkiliy-pedagogik shartlarga bog‘liq. Birinchi navbatda, o‘qituvchi hamkorlik metodlarini nazariy va amaliy jihatdan egallagan bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, o‘quv xonasining jihozlanishi guruh ishiga mos bo‘lishi, ya’ni o‘quvchilar bir-biriga qarab o‘tirib, erkin muloqot qila olishi kerak. Uchinchidan, dars rejasi hamkorlik uchun yetarli vaqtni ko‘zda tutishi shart: shoshilinch, vaqt yetishmaydigan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

darsda guruh ishi sayoz va rasmiy tus oladi. To‘rtinchidan, ta’lim muassasasi rahbariyati o‘qituvchilarning yangi metodlarni sinab ko‘rishini qo‘llab-quvvatlashi, metodik yordam ko‘rsatishi lozim. Nihoyat, ota-onalar hamkorlik metodlarining mohiyatini tushunsa, ular farzandining guruh ishidagi ishtirokini to‘g‘ri baholaydi va uyda ham shu ruhda qo‘llab-quvvatlaydi.

Metodik qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Hamkorlikka asoslangan ta’limning samaradorligi ayrim cheklovlarga ham ega. Metodikani noto‘g‘ri tanlash, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olmaslik va darsni shablon asosida olib borish metodik xatoliklarga olib kelishi mumkin. Material murakkab yoki bolalar uchun tushunarsiz tarzda taqdim etilsa, o‘quvchilarning faolligi va qiziqishi pasayadi. Bundan tashqari, hamkorlik pedagogikasini samarali qo‘llash o‘qituvchidan yuqori pedagogik mahorat va doimiy o‘z ustida ishlashni talab qiladi.

Amaliyotda yana bir qancha muammolar uchrashi mumkin. Guruh ishida faol o‘quvchilar ishni o‘z zimmasiga olib, kam faol o‘quvchilar chetda qolishi, guruhlarda ishchan muhit o‘rniga shovqin va tartibsizlik paydo bo‘lishi, guruh ishini adolatli baholashning qiyinligi hamda dars vaqtining yetishmasligi shular jumlasidandir. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun guruhlarni o‘quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzish, har bir a’zoga aniq rol va vazifa berish, rollarni almashtirib turish, ishni boshlashdan oldin hamkorlik qoidalarini o‘quvchilar bilan birgalikda belgilab olish, baholashda shaxsiy va guruh hissasini uyg‘unlashtirish tavsiya etiladi. Vaqt masalasida esa guruh ishining har bir bosqichiga aniq vaqt ajratish va topshiriqlarni darsning maqsadiga mos ravishda tanlash yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil hamkorlikka asoslangan ta’lim samarali va keng pedagogik imkoniyatlarga ega yondashuv ekanini ko‘rsatdi. Interaktiv, loyiha, muammoli, kooperativ va simulyatsiya metodlari o‘quvchilarning faolligi, mas’uliyati, tanqidiy fikrlashi va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ta’lim samaradorligi

o‘qituvchining pedagogik mahoratiga, individual yondashuviga va ota-onalar bilan hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishiga bog‘liqdir. Hamkorlikning samaradorligi guruh uchun umumiy maqsad, har bir o‘quvchining shaxsiy mas’uliyati va adolatli baholash tizimi mavjud bo‘lgandagina ta’minlanadi.

Shunday qilib, hamkorlikka asoslangan ta’lim zamonaviy maktab va oliy ta’lim muassasasi oldida turgan ta’limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalarni birgalikda hal etishga imkon beruvchi yondashuvdir. Uning samaradorligi alohida metodlarni mexanik qo‘llashda emas, balki hamkorlik tamoyillariga amal qilish, o‘qituvchining mahorati, ishonch va hurmat muhitini yaratish hamda oila bilan yaqin aloqada ekanida namoyon bo‘ladi.

Hamkorlikka asoslangan ta’limni amaliyotga joriy etish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: o‘qituvchilarning metodik malakasini doimiy oshirib borish; metodlarni o‘quvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga moslashtirish; guruh ishini baholashda shaxsiy va jamoaviy hissani birgalikda hisobga oladigan mezonlar ishlab chiqish; ota-onalarni ta’lim jarayoniga muntazam jalb qilish; hamkorlik metodlarini raqamli vositalar bilan boyitish. Bundan tashqari, kelgusi tadqiqotlarda hamkorlikka asoslangan ta’lim samaradorligini empirik usullar bilan, ya’ni kuzatuv, so‘rov va pedagogik tajriba-sinov orqali o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Амонашвили Ш.А. Здравствуйте, дети! – М.: Просвещение, 1983.
2. Slavin R.E. Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice. 2nd ed. – Boston: Allyn & Bacon, 1995.
3. Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperation and Competition: Theory and Research. – Edina (MN): Interaction Book Company, 1989.
4. Pedagogika / M. Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
5. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
6. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2006.
7. Omonov H., Xo‘jayev N., Madyarova S., Eshchonov E. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009.
8. Hotamova D.K. Umumiy pedagogika: o‘quv qo‘llanma. – Buxoro, 2024. – 152 b.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

9. Xolmirzayev Sh.A. Ustoz-shogird an'analarini rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasining ahamiyati // Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2024. – 56(2). – B. 76–78.
10. Xolmirzayev Sh. Hamkorlik pedagogika asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada tashkilotchilik xulqlarini tarbiyalash // Вестник физической культуры и спорта Нукусского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта. – 2024. – 1(4).

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

АДАПТАЦИЯ СТУДЕНТОВ К КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ОБУЧЕНИЯ

Шарахматова Анора Комилжон кизи
преподаватель кафедры Педагогики
Чирчикского государственного педагогического университета
Электронная почта: anora.p1994@gmail.com

Аннотация. *В данной статье рассматривается междисциплинарное содержание понятия «адаптация» и его специфические особенности в контексте реформирования высшего образования и перехода на кредитно-модульную систему обучения. Исследованы структура и компоненты педагогико-психологической адаптации как интегрального феномена, раскрыта этапность вхождения студентов в образовательную среду вуза и обоснован теоретический механизм адаптационного процесса.*

Ключевые слова: *адаптация, кредитно-модульная система, дидактическая адаптация, социальная адаптация, педагогико-психологическая адаптация, интегральная система, высшее образование.*

TALABALARNING KREDIT-MODUL O‘QITISH TIZIMIGA MOSLASHUVI

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’lim tizimini isloh qilish va kredit-modul tizimiga o’tish sharoitida “adaptatsiya” tushunchasining fanlararo qo’llanilishi hamda uning o’ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Pedagogik-psixologik adaptatsiyaning tarkibiy tuzilishi, komponentlari va talabalarning oliy ta’lim muassasasi ta’lim muhitiga moslashuv bosqichlari tahlil qilinib, adaptatsion jarayonning nazariy mexanizmi asoslab berilgan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *adaptatsiya, kredit-modul tizimi, didaktik adaptatsiya, ijtimoiy moslashuv, pedagogik-psixologik adaptatsiya, integral tizim, oliy ta’lim.*

STUDENT ADAPTATION TO THE CREDIT-MODULE SYSTEM OF INSTRUCTION

Abstract. *This article examines the interdisciplinary concept of adaptation and its specific features in the context of higher education reforms and the transition to the credit-modular system. The structural components of pedagogical and psychological adaptation as an integral phenomenon are analyzed, stages of students' integration into the higher educational environment are revealed, and a theoretical mechanism of the adaptation process is substantiated.*

Keywords: *adaptation, credit-modular system, didactic adaptation, social adaptation, pedagogical and psychological adaptation, integral system, higher education.*

ВВЕДЕНИЕ

Глубокие реформы, осуществляемые в системе высшего образования Республики Узбекистан, в частности внедрение кредитно-модульной системы

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

обучения [1], обусловливают возникновение качественно новых требований к деятельности субъектов образовательного процесса. Внедрение кредитно-модульной системы способствовало совершенствованию всех направлений образовательного процесса: повышая его общую эффективность и ориентируя студентов на самостоятельный поиск знаний, данная система играет ключевую роль в подготовке квалифицированных кадров, отвечающих современным требованиям.

Переход на кредитно-модульную модель усиливает требования как к профессорско-преподавательскому составу высших учебных заведений, так и к уровню их профессиональной ответственности. Данная образовательная система способствует развитию у обучающихся инициативности, творческой активности и устойчивого интереса к обучению, что обеспечивает существенное повышение качества образования.

Вместе с тем образовательная практика свидетельствует о наличии выраженных противоречий между требованиями общества и государства к качеству подготовки выпускников и реальным уровнем психологической, социальной и академической готовности абитуриентов. Данные противоречия особенно отчётливо проявляются на стыке двух ключевых уровней непрерывного образования — старших классов общеобразовательной школы и начального этапа высшего образования. Это обусловливает возникновение явлений дезадаптации, снижение учебной мотивации, а также появление социально-психологических барьеров в процессе вхождения первокурсников в образовательную среду высшей школы. В связи с этим особую актуальность приобретает научное осмысление сущности педагогико-психологической адаптации студентов к новым условиям обучения, исследование её механизмов, этапов и динамики.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Методологическую основу исследования составили системный, деятельностный и личностно-ориентированный подходы к исследованию

процессов социализации и адаптации личности в образовательной среде. В работе использован комплекс теоретических методов исследования:

Историко-философский и понятийно-категориальный анализ генезиса категории «адаптация» в междисциплинарном дискурсе (включая философские концепции Гераклита, Аристотеля, Г. Гегеля, И. Канта, М. Мерло-Понти, Х. Ортеги-и-Гассета, М. Хайдеггера, К. Ясперса);

Теоретический анализ социально-биологических, психологических и педагогических теорий адаптации человека к условиям жизнедеятельности и образовательной среды (труды Я.П. Гичева, И.И. Шмальгаузена, Д.К. Беляева, Ю.И. Новоженова, Г.И. Царегородцева, Г.А. Балла, В.М. Шепеля, Н.Д. Левитова, В.А. Крутецкого, А.А. Реана);

Метод структурно-функционального и компонентного моделирования адаптационного процесса с опорой на концепции поэтапной адаптации к вузовскому обучению (С.М. Мадорская, Л.Л. Редько, Ю.А. Лобейко);

Нормативно-правовой анализ регламентирующих документов системы высшего образования Республики Узбекистан [1].

В качестве базовой категории в работе рассматривается педагогико-психологическая адаптация, интегрирующая процессы аккомодации и ассимиляции и детерминируемая собственной преобразующей деятельностью личности студента.

РЕЗУЛЬТАТЫ

В результате междисциплинарного анализа установлено, что феномен адаптации охватывает широкий спектр проявлений: биологическую, физиологическую, социальную, педагогическую, психологическую, интеллектуальную, эмоциональную, профессиональную, художественную, учебную, литературную, техническую и лингвистическую формы. На этой основе уточнено содержание понятия применительно к высшей школе:

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Педагогико-психологическая адаптация представляет собой интегральный феномен, формирующийся в результате диалектического взаимодействия официально-институциональных требований образовательного процесса, системы социальных отношений и содержания дидактической деятельности, а также психологических ресурсов и процессов рефлексивного самосознания студента в условиях вуза. Данный процесс находит отражение в единстве институциональной, социальной, дидактической и психологической форм адаптации и выступает ведущим фактором саморегуляции и академической успешности обучающегося.

На основе теоретико-методологического анализа разработан структурно-логический механизм педагогико-психологической адаптации студентов к образовательной среде вуза, систематизирующий ключевые формы, структурные компоненты и динамические этапы процесса:

Процесс адаптации в рамках механизма дифференцирован по этапам:

1. Первый этап: первичная ориентация и адаптация студента к социальной среде высшего учебного заведения, ознакомление с микросредой, организационными условиями и базовыми регламентами кредитно-модульной системы;

2. Второй этап: оценочное взаимодействие и усвоение студентом принятых академических и социальных норм, ценностей, традиций вузовской среды и нормативных требований избранной профессиональной направленности;

3. Третий этап: активное микросоциальное взаимодействие и интеграция в системах отношений «студент – преподаватель», «студент – тьютор», «студент – психолог», «студент – студенческое сообщество».

ОБСУЖДЕНИЕ

Сопоставление выявленных этапов с динамикой академического обучения показывает, что первые два этапа приходятся преимущественно на первый и второй курсы бакалавриата. Это обусловлено тем, что в начальный период

обучения студенты сталкиваются с комплексом психолого-педагогических барьеров, в том числе с недостатком субъектной инициативности перед лицом организационных изменений. Учебная деятельность обучающихся первого и второго курсов зачастую сохраняет репродуктивный характер и реализуется через стереотипные действия, направленные на первичное накопление новых образовательных компетенций.

Этап развернутого «активного взаимодействия адаптанта со средой» полноценно реализуется на третьем и четвёртом курсах обучения. По мере накопления академического и социального опыта студенты старших курсов совершают качественный переход от репродуктивной и стереотипной деятельности к творческой, исследовательской и практико-ориентированной. Это позволяет им достигать качественно более высоких результатов во взаимодействии со всеми субъектами образовательной среды и оказывать преобразующее воздействие на саму среду.

Активное взаимодействие обучающегося с образовательной и социальной средой вуза находит концентрированное выражение в зрелой жизненной позиции. Данная позиция позволяет преодолевать кризисные точки адаптационных этапов, продуктивно выстраивать коммуникации, осваивать профессиональные стандарты и ценности, что закладывает надежную основу для последующей творческой самореализации. Многоаспектность педагогико-психологической адаптации обеспечивает гибкую смену ведущих видов деятельности, запускает механизмы конструктивной идентификации и личностной автономии, способствуя формированию целостного статуса «студента высшего учебного заведения».

Анализ адаптивных возможностей образовательной среды, создание условий для её дидактической оптимизации, превенция и оперативная коррекция дезадаптивных состояний, а также поддержание психологического благополучия и рефлексивного потенциала обучающихся выступают важнейшими научно-

практическими задачами. Их решение является определяющим именно на начальном этапе высшего образования, где формируется фундамент будущей профессиональной компетентности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённое исследование позволяет сформулировать следующие ключевые выводы:

1. Внедрение кредитно-модульной системы обучения в Республике Узбекистан кардинально модернизирует образовательный процесс, предъявляя повышенные требования к самостоятельности обучающихся и стимулируя необходимость целенаправленного психолого-педагогического сопровождения их адаптации.

2. Педагогико-психологическая адаптация обоснована как многомерный интегральный феномен, объединяющий официальную, социальную, дидактическую и психологическую формы, а также опирающийся на деятельностный, ценностный, мотивационный и рефлексивный компоненты личности.

3. Адаптационный процесс носит закономерный стадиальный характер — от первичного ознакомления и нормативного усвоения требований на 1–2 курсах (с преобладанием репродуктивных форм) до активного преобразующего взаимодействия на старших курсах, итогом которого выступает сформированная субъектная позиция выпускника.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ / REFERENCES

1. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 31 декабря 2020 года № 824 «О мерах по совершенствованию системы, связанной с организацией образовательного процесса в высших учебных заведениях».

2. Балл Г. А. Понятие адаптации и его значение для психологии личности // Вопросы психологии. – 1989. – № 1. – С. 92–100.

3. Реан А. А., Кудашев А. Р., Баранов А. А. Психология адаптации личности. – СПб. : Прайм-ЕВРОЗНАК, 2008. – 479 с.



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

4. Редько Л. Л., Лобейко Ю. А. Психолого-педагогическая поддержка адаптации студента-первокурсника в вузе : учебное пособие. – М. : Илекса, 2008. – 296 с.
5. Мадорская С. М. Проблема социальной адаптации студентов к учебному процессу (конкретно-социологический анализ) : диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук. – Минск, 2006. – 239 с.
6. Шарахматова А. К., Мусурманов Р. Адаптация студентов к кредитно-модульной системе обучения // «Образование и наука в XXI веке» : международный научно-электронный журнал. – 2022. – Вып. 22(4). – С. 898–904.

UDK: 378:37.017.92

PEDAGOGIK OLIY TA'LIMDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USPENSKIY MODELI

Raximov Kodirjon Karimberdiyevich
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: rakhimovk1155@gmail.com
ORCID: 0000-0001-7380-1923

Annotatsiya: *Maqolaning maqsadi V.A.Uspenskiyning ilmiy-pedagogik faoliyatidan qayta tiklangan tamoyillar asosida pedagogik oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish modelini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda aksiologik, faoliyatli va sistemaviy yondashuvlar uyg'unlashtirilib, tizimli-strukturaviy tahlil, tarixiy-pedagogik rekonstruksiya, kontekstual tahlil hamda pedagogik modellashtirish usullari qo'llanildi. Olimning hujjatlashtirilgan faoliyati tadqiqotchi talqinidan farqlanib, taklif etilgan model muallif ishlanmasi sifatida belgilandi. Natijada haqiqiy ishga jalb etish, madaniy meros materialiga tayanish, ustoz namunasining izchilligi va natijaning uzoq muddatliligi modelning asosiy tamoyillari sifatida ajratildi. Ushbu tamoyillar asosida maqsadli, mazmuniy, texnologik va natijaviy bloklardan iborat tizim loyihalanib, uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi funksional bog'lanishlar belgilandi. Tarbiyaviy ishni kasbiy tayyorgarlikdan ajratish va uning natijasini o'tkazilgan tadbirlar soni bilan baholashdagi cheklovlar tahlil qilindi. Baholashda pedagogik amaliyot davridagi real xulq-atvor va kasbiy qarorlarning qadriyatli asosiga e'tibor qaratildi. Rasmiylashuv xavfini kamaytirish uchun baholashni rivojlantiruvchi suhbat bilan bog'lash tavsiya etildi. Xulosada ma'naviy-axloqiy tarbiyani o'quv va ilmiy faoliyat mazmuniga singdirish, talabalarni madaniy merosga oid davomli loyihalarga jalb etish va ularga haqiqiy mas'uliyat yuklash zarurligi asoslandi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik model, samaradorlik, Viktor Uspenskiy, haqiqiy ish, madaniy meros, g'amxo'rlik etikasi, xarakter tarbiyasi, ustoz namunasi, oliy pedagogik ta'lim.*

XULOSA

12–14 yoshli maktab o‘quvchilarida neyromuskulyar mashqlarni me’yorlash jismoniy tayyorgarlik bilan birga harakat texnikasi, topshiriq murakkabligi va yuklamaga individual javobni hisobga olishga asoslanishi lozim. Me’yorlashning amaliy

birligi muayyan mashqqa tayyorgarlikdir. Bir o‘quvchi turli mashqlarda har xil o‘zlashtirish bosqichida bo‘lishi mumkin.

Ishda dastlabki baholash, mashqqa mos bosqichni aniqlash, boshlang‘ich yuklamani tanlash va qayta baholashdan iborat metodik model taklif etildi. Yuklamani oshirishda texnikaning barqarorligi asosiy shart sifatida belgilandi. Hajm, davomiylik yoki murakkablikni izchil o‘zgartirish hamda bajarilgan yuklamani qayd etish darsdagi pedagogik qarorlarni aniqroq qiladi.

Taklif qilingan jadvallar o‘qituvchi uchun dastlabki metodik yo‘nalish beradi. Ularni universal yosh normativlari sifatida qo‘llashdan oldin sonli me’yorlar, kuzatuv mezonlarining ishonchliligi va metodikaning harakatlarni boshqarish qobiliyatiga ta’siri maktab sharoitida tekshirilishi kerak. Nazoratli pedagogik tajriba ushbu modelning amaliy samaradorligini aniqlash uchun keyingi zarur bosqich hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Lin J., Zhang R., Shen J., Zhou A. Effects of school-based neuromuscular training on fundamental movement skills and physical fitness in children: a systematic review // PeerJ. – 2022. – Vol. 10. – e13726. DOI: 10.7717/peerj.13726.
2. Li M., Crotti M., Martins R. et al. The Road to Designing Integrated Neuromuscular Training Programs for Children and Adolescents: A Systematic Review and Meta-Analysis // Journal of Strength and Conditioning Research. – 2025. – Vol. 39, № 10. – P. e1105–e1122. DOI: 10.1519/JSC.0000000000005186.
3. Lloyd R.S., Faigenbaum A.D., Stone M.H. et al. Position statement on youth resistance training: the 2014 International Consensus // British Journal of Sports Medicine. – 2014. – Vol. 48, № 7. – P. 498–505. DOI: 10.1136/bjsports-2013-092952.
4. Myer G.D., Faigenbaum A.D., Chu D.A. et al. Integrative training for children and adolescents: techniques and practices for reducing sports-related injuries and enhancing athletic performance // The Physician and Sportsmedicine. – 2011. – Vol. 39, № 1. – P. 74–84. DOI: 10.3810/psm.2011.02.1854.
5. Faigenbaum A.D., Farrell A., Fabiano M. et al. Effects of integrative neuromuscular training on fitness performance in children // Pediatric Exercise Science. – 2011. – Vol. 23, № 4. – P. 573–584. DOI: 10.1123/pes.23.4.573.

6. Alonso-Aubin D.A., Moya del Saz I., Martínez-Guardado I., Chulvi-Medrano I. An Integrative Neuromuscular Training Program in Physical Education Classes Improves Strength and Speed Performance // Healthcare. – 2025. – Vol. 13, № 12. – Art. 1372. DOI: 10.3390/healthcare13121372.
7. Gebel A., Lesinski M., Behm D.G., Granacher U. Effects and Dose-Response Relationship of Balance Training on Balance Performance in Youth: A Systematic Review and Meta-Analysis // Sports Medicine. – 2018. – Vol. 48, № 9. – P. 2067–2089. DOI: 10.1007/s40279-018-0926-0.
8. Robertson R.J., Goss F.L., Andreacci J.L. et al. Validation of the Children's OMNI-Resistance Exercise Scale of perceived exertion // Medicine & Science in Sports & Exercise. – 2005. – Vol. 37, № 5. – P. 819–826. DOI: 10.1249/01.MSS.0000162619.33236.F1.
9. Lesinski M., Prieske O., Granacher U. Effects and dose-response relationships of resistance training on physical performance in youth athletes: a systematic review and meta-analysis // British Journal of Sports Medicine. – 2016. – Vol. 50, № 13. – P. 781–795. DOI: 10.1136/bjsports-2015-095497.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nuralxanova Raushan Sabitovna
E-mail: *nurxanovarushan@gmail.com*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish muammosi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik omillar, jumladan, bilish faolligi, tafakkur operatsiyalari, diqqat, nutq va refleksiv faoliyatning ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, raqamli ta'lim vositalaridan maqsadli foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, dalillarni baholashi va asoslangan xulosalar chiqarishiga ta'siri ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *tanqidiy fikrlash, pedagogik-psixologik omillar, bilish faolligi, muammoli ta'lim, dialogik muloqot, refleksiv faoliyat, raqamli ta'lim vositalari.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. *В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения проанализирована проблема развития навыков критического мышления у учащихся начальных классов в условиях цифрового образования. Освещены педагогико-психологические факторы, влияющие на развитие критического мышления, в том числе значение познавательной активности, мыслительных операций, внимания, речи и рефлексивной деятельности. Также рассматривается влияние целенаправленного использования цифровых образовательных средств на самостоятельное мышление учащихся, оценку фактов и формулирование обоснованных выводов.*

Ключевые слова: *критическое мышление, педагогико-психологические факторы, познавательная активность, проблемное обучение, диалогическое общение, рефлексивная деятельность, цифровые образовательные инструменты.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPING CRITICAL THINKING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. *This article analyzes the problem of developing critical thinking skills in primary school students within the context of digital education from scientific-theoretical and practical perspectives. The pedagogical and psychological factors influencing the development of critical thinking, including the significance of cognitive activity, mental operations, attention, speech, and reflective activity, have been highlighted. It also examines the impact of purposeful use of digital educational tools on students' independent thinking, fact-evaluation, and the formulation of well-founded conclusions.*

Key words: *critical thinking, pedagogical and psychological factors, cognitive activity, problem-based learning, dialogic communication, reflexive activity, formative assessment, digital educational tools.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarga tayyor bilimlarni yetkazish bilan bir qatorda, ularni axborotni mustaqil tahlil qilish, turli fikrlarni taqqoslash, dalillarni baholash va asoslangan xulosalar chiqarishga o'rgatish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli axborot oqimining kengayishi sharoitida o'quvchining har qanday ma'lumotni tayyor bilim sifatida qabul qilmasdan, uning mazmunini anglash, ishonchliligini tekshirish va muayyan mezonlar asosida baholash qobiliyatini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim davri o'quvchi shaxsining intellektual rivojlanishi, bilishga bo'lgan qiziqishi, mustaqil mulohaza yuritishi va o'quv faoliyatiga munosabati shakllanadigan muhim bosqich bo'lib, bu davrda tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolaning bilimlarni samarali o'zlashtirishiga, o'z fikrlarini asoslashga, muammoning turli yechimlarini izlash va o'z xulosalarini qayta ko'rib chiqishiga ham xizmat qilishi lozim. Raqamli ta'lim muhiti ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Interaktiv topshiriqlar, animatsiyalar, elektron ta'lim resurslari, raqamli matnlar va virtual muammoli vaziyatlar o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishi mumkin, lekin tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni kafolatlamaydi. Buning uchun raqamli resurslar aniq didaktik maqsad, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va fikrlash faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar bilan uyg'unlashtirilishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinf

o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi pedagogik va psixologik omillarni o‘rganish raqamli ta’lim texnologiyalarini ilmiy asosda tashkil etish uchun muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tanqidiy fikrlash muammosi pedagogika, psixologiya, falsafa va ta’lim metodikasi doirasida keng o‘rganilgan bo‘lib, mazkur tushunchani izohlashda fikrlashning tahliliy, mantiqiy, baholovchi va refleksiv jihatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Tanqidiy fikrlashning tarkibiy tuzilishini o‘rganishda P.A. Facione tomonidan ishlab chiqilgan yondashuv alohida ahamiyatga ega. Olim tanqidiy fikrlashni talqin qilish, tahlil, baholash, xulosa chiqarish, izohlash va o‘z fikrlash faoliyatini nazorat qilish kabi intellektual ko‘nikmalar majmui sifatida tavsiflaydi [3]. Ushbu yondashuv tanqidiy fikrlashning ko‘p komponentli xususiyatini ochib beradi. Boshlang‘ich ta’lim amaliyotida mazkur ko‘nikmalar o‘quvchilarning matn mazmunini tahlil qilishi, voqea-hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashi, berilgan dalillarning ahamiyatini baholashi va o‘z javoblarini asoslab berishida namoyon bo‘ladi. Zero, tanqidiy fikrlashning o‘zi axborotlarni o‘zlashtirishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab o‘ylash jarayoni [1] hisoblanadi. L.Vygotskiyning madaniy-tarixiy yondashuvi nuqtayi nazaridan, bolaning bilish rivojlanishi ijtimoiy hamkorlik, muloqot va pedagogik qo‘llab-quvvatlash bilan uzviy bog‘liq [5]. Bu yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga murakkab vazifalarni mustaqil bajarishni talab qilishdan oldin, ularni savollar, yo‘naltiruvchi ko‘rsatmalar va hamkorlikdagi faoliyat orqali qo‘llab-quvvatlash muhimligini anglatadi. Raqamli ta’lim sharoitida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi texnologik vositalar va pedagogik yondashuvlarning o‘zaro aloqadorligi nuqtayi nazaridan ham o‘rganilmoqda. Xususan, 2024-yilda “Thinking Skills and Creativity” jurnalida chop etilgan tadqiqotda boshlang‘ich ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish samaradorligi pedagogik yondashuvlar, texnologik vositalar va maktab muhiti o‘rtasidagi muvofiqlik bilan bog‘liq holda tahlil qilingan [2]. Mazkur tadqiqot

raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishda ularning mavjudligi bilangina cheklanmasdan, o'quvchilarni faol fikrlashga undaydigan didaktik topshiriqlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Boshqa tadqiqotlarda esa boshlang'ich ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning matn bilan ishlash, dialogik muloqot, raqamli texnologiyalar va amaliy faoliyatga asoslangan yondashuvlari tahlil qilingan [4]. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarni faol fikrlashga jalb etish, mustaqil mulohaza yuritish va o'z fikrlarini asoslash ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quv materiallari mazmuni hamda pedagogik muloqotning ahamiyatini ko'rsatadi.Mazkur ilmiy qarashlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda psixologik rivojlanish qonuniyatlari, o'qituvchining pedagogik boshqaruvi va raqamli vositalarning didaktik imkoniyatlarini birgalikda hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot raqamli ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslashga yo'naltirilgan. Tadqiqot jarayonida shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatga asoslangan hamda tizimli yondashuvlar metodologik asos sifatida tanlab olindi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, raqamli ta'lim vositalaridan maqsadli foydalanish, muammoli vaziyatlarni yaratish va refleksiv faoliyatni tashkil etish tamoyillariga tayanildi. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy manbalarni umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanish orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, avvalo, ularning yoshga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Kichik maktab yoshida bolalarning bilish jarayonlari, jumladan, idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutqi rivojlanib boradi. Shu sababli tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan

topshiriqlar o‘quvchilarning mavjud bilimlari, hayotiy tajribasi va aqliy imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etilishi kerak. Mazkur jarayonda quyidagi psixologik xususiyatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, bilish faolligi va qiziquvchanlik. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari atrofdagi hodisalarning sabablarini bilishga, yangiliklarni o‘rganishga va savollarga javob topishga intiladilar. Ushbu tabiiy qiziquvchanlikni tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik omili sifatida qarash mumkin. Masalan, raqamli ta’lim resursida bir-biridan farq qiluvchi ikkita tasvir namoyish etilib, o‘quvchidan ular o‘rtasidagi farqlarni aniqlash va bu farqlarning sabablarini tushuntirish so‘ralishi mumkin. Ikkinchidan, tafakkur operatsiyalarining rivojlanishi. Taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, tasniflash va sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash tanqidiy fikrlashning muhim tarkibiy qismlaridir. Boshlang‘ich sinflarda bu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun o‘quvchilarga faqat to‘g‘ri javobni topish emas, balki bu javobga qanday kelganini izohlash imkonini beruvchi topshiriqlar berilishi lozim. Uchinchidan, diqqat va axborotni saralash qobiliyati. Raqamli muhitda matn, tasvir, ovoz va animatsiyalar bir vaqtda taqdim etilishi mumkin. Bu imkoniyatlar o‘quvchining qiziqishini oshirishi bilan birga, ortiqcha axborot sababli uning diqqatini chalg‘itishi ham mumkin. Shu bois raqamli materiallar mazmunan aniq, yoshga mos va ortiqcha bezaklardan xoli bo‘lishi maqsadga muvofiq. To‘rtinchidan, nutq va o‘z fikrini asoslash qobiliyati. O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasini aniqlashda ularning o‘zaro muloqot jarayonidagi faoliyatini kuzatish muhim metodlardan biri hisoblanadi. Kuzatish usuli orqali o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati, o‘z fikrini ifodalash hamda boshqalar bilan samarali muloqot o‘rnatish ko‘nikmalarini tahlil qilish va o‘zaro taqqoslash imkoniyati yaratiladi [6]. Tanqidiy fikrlash o‘quvchining faqat ichki aqliy faoliyatida emas, balki o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma tarzda ifodalashida ham namoyon bo‘ladi. “Nima uchun bunday deb o‘ylaysan?”, “Qanday daliling bor?”, “Boshqa yechim bo‘lishi mumkinmi?” kabi savollar o‘quvchini fikrini asoslashga undaydi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan ta’lim

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

jarayonining mazmuni, metodlari, vositalari va baholash mezonlari muhim o‘rin tutadi. O‘quvchi tayyor ma’lumotni takrorlovchi emas, balki uni anglaydigan, tekshiradigan, tahlil qiladigan va o‘z xulosasini shakllantiradigan faol subyekt sifatida ishtirok etishi lozim. Bunda quyidagi pedagogik xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Muammoli ta’lim vaziyatlarini yaratish. O‘quvchilarga bir nechta ehtimoliy javobga ega savollar, kundalik hayotdan olingan muammolar va turli yechimlarni talab qiladigan vazifalarni taqdim etish ularning mustaqil fikrlashini faollashtiradi. Masalan, raqamli taqdimotda o‘simlikning o‘sishi uchun zarur shartlar aks ettiriladi va o‘quvchilardan berilgan vaziyatda nima uchun o‘simlik yaxshi rivojlanmaganini tushuntirish so‘raladi. Dialogik va hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Guruhli muhokamalar, juftlikda ishlash, o‘zaro savol berish va turli fikrlarni taqqoslash o‘quvchilarning dalillash hamda boshqalarning nuqtayi nazarini tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga tayyor xulosani bermasdan, ularni asosli fikrga yo‘naltiruvchi savollar bilan qo‘llab-quvvatlaydi. Muammoga bir nechta yechim izlash. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘quvchilarni faqat bitta javobni topishga emas, balki muammoni turli usullarda hal qilishga o‘rgatish zarur. Bunday topshiriqlar muqobil fikrlash, yechimlarni taqqoslash va eng maqbul variantni tanlashga yordam beradi. Ta’lim mazmunini hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash. O‘quvchilarga kundalik hayotda uchraydigan vaziyatlar asosida topshiriqlar berish o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llash va mustaqil qaror qabul qilish imkonini yaratadi. Masalan, berilgan xarita asosida manzilga borish yo‘llarini taqqoslash yoki biror xulosa uchun qaysi dalil muhimligini aniqlash mumkin. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishi psixologik imkoniyatlar va pedagogik shart-sharoitlarning o‘zaro ta’siri natijasida amalga oshadi. O‘quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olmasdan murakkab topshiriqlarni berish yoki pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilmagan raqamli vositalardan foydalanish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Mazkur bog‘liqlikni quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin (1-rasmga qarang):



1-rasm. Raqamli ta'lim sharoitida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish omillarining o'zaro bog'liqligi

Tahlillar asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagi metodik tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiq: topshiriqlarni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirish; oddiy tahliliy vazifalardan murakkabroq muammoli vazifalarga bosqichma-bosqich o'tish; o'quvchidan javob bilan birga uning sababini ham izohlashni talab qilish; turli fikrlarni hurmat qilish va dalillar asosida baholash madaniyatini shakllantirish; raqamli vositalardan maqsadli, xavfsiz va me'yorida foydalanish; o'quvchining fikrlash jarayonini kuzatish, qayta aloqa berish va o'z-o'zini baholashiga imkon yaratish. Mazkur tamoyillar raqamli ta'lim vositalarini tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik tizimning tarkibiy qismi sifatida ko'rish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan nazariy tahlillar natijasida raqamli ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish murakkab pedagogik-psixologik jarayon ekanligi aniqlandi. Ushbu jarayon o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilish faoliyati, mustaqil fikrlashga bo‘lgan ehtiyoji va o‘z fikrini ifodalash imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liq. Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib aytish mumkinki, raqamli ta’lim sharoitida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqishda psixologik xususiyatlar, pedagogik metodlar va raqamli didaktik vositalarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash nazariy hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abatov J.B. Talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning pedagogik texnologiyasini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – Nukus, 2025. – 56 b. – B. 12.
2. Falloon G. Investigating pedagogical, technological and school factors underpinning effective ‘critical thinking curricula’ in K-6 education. // Thinking Skills and Creativity, 2024. – №51. – 16 p.
3. Facione P.A. Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction: Executive Summary. – Millbrae, CA: California Academic Press, 1990. – 21 p.
4. Jegstad K.M. et al. Approaches to critical thinking in primary education classrooms: A systematic review. // Educational Research Review, 2025. – №48. – 26 p.
5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 160 p.
6. Xodjayeva F.O. O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish va uning muhim jihatlari. / Zamonaviy ta’lim, – 2017. №6, 43-47 b.

EKOLOGIK MIGRATSIYA ASPEKTLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI

Xazratov Asqar Suvonovich
"Vatan" Universiteti Kommunikatsiya va axborot texnologiyalar kafedrasi assisenti o'qituvchisi
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-9852-1057
E-mail: hazratovaskar@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola ekologik migratsiyaning ta'lim jarayoniga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Ekologik omillar, masalan, iqlim o'zgarishlari, tabiiy ofatlar va resurslarning kamayishi, odamlarni yangi hududlarga ko'chishga majbur qiladi. Bunday migratsiya jarayonlari ta'lim tizimida qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, jumladan, migrant talabalar uchun yangi muhitga moslashish, madaniy xilma-xillik va ta'lim sifatini ta'minlash. Maqolada ekologik migratsiyaning ta'lim jarayoniga ta'siri, shuningdek, pedagogik yondashuvlar va strategiyalarni ishlab chiqish orqali bu muammolarni hal qilish yo'llari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Ekologik migratsiya, ekologik inqiroz, ta'lim jarayoni, iqlim o'zgarishlari, tabiiy ofatlar, madaniy xilma-xillik, pedagogik yondashuvlar, ijtimoiy integratsiya, migrant talabalar, ta'lim sifatini ta'minlash.*

ASPECTS OF ENVIRONMENTAL MIGRATION AND ITS IMPACT ON THE EDUCATIONAL PROCESS

Xazratov Asqar Suvonovich
Assistant Lecturer, Department of Communication and Information Technologies, "Vatan" University
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-9852-1057
E-mail: hazratovaskar@gmail.com

Abstract. *This article is devoted to studying the impact of ecological migration on the educational process. Ecological factors, such as climate change, natural disasters and resource depletion, force people to move to new areas. Such migration processes can create a number of problems in the education system, including the adaptation of migrant students to a new environment, ensuring cultural diversity and the quality of education. The article examines the impact of ecological migration on the educational process, as well as ways to solve these problems by developing pedagogical approaches and strategies.*

Keywords: *Ecological migration, ecological crisis, educational process, climate change, natural disasters, cultural diversity, pedagogical approaches, social integration, migrant students, ensuring the quality of education*

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

АСПЕКТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ МИГРАЦИИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС

Хазратов Аскар Сувонович
Ассистент-преподаватель кафедры коммуникационных и информационных технологий, Университет «Ватан»
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-9852-1057
E-mail: hazratovaskar@gmail.com

Аннотация. *Статья посвящена изучению влияния экологической миграции на образовательный процесс. Экологические факторы, такие как изменение климата, стихийные бедствия и истощение ресурсов, заставляют людей переезжать в новые районы. Такие миграционные процессы могут создавать ряд проблем в системе образования, включая адаптацию студентов-мигрантов к новой среде, обеспечение культурного разнообразия и качества образования. В статье рассматривается влияние экологической миграции на образовательный процесс, а также пути решения этих проблем путем разработки педагогических подходов и стратегий.*

Ключевые слова: *Экологическая миграция, экологический кризис, образовательный процесс, изменение климата, стихийные бедствия, культурное разнообразие, педагогические подходы, социальная интеграция, студенты-мигранты, обеспечение качества образования*

KIRISH

Bugungi kunda global muammolar ichida ekologik inqiroz insoniyat taqdiriga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgan muhim omillardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida “Inson qadri uchun” tamoyili, jamiyat va davlat tizimida esa “Inson-jamiyat-davlat” yondashuvi asosiy g‘oya sifatida ilgari surilmoqda. Bu yondashuv yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mazmunida chuqur o‘rin olgan bo‘lib, ayniqsa, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash borasida tub burilishlarga yo‘l ochmoqda. Pedagogik nuqtai nazardan, ekologik migratsiya jarayonlari ta’lim tizimida qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ekologik migratsiya va uning ta’lim jarayoniga ta’siri, nafaqat individual talabalarning, balki butun jamiyatning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimining bu



jarayonlardagi roli, o‘z navbatida, ekologik muammolarni yechishda hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ajralmas unsur hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

“Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) 2021-yildagi hisobotlarida keltirilishicha, 2020-yilda 30 milliondan ortiq kishi iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlar tufayli o‘z uy-joylarini tark etishga majbur bo‘lgan” [1]. Zilzilalar, toshqinlar, qurg'oqchilik kabi ekstremal tabiiy hodisalar insoniyatning yashash muhitiga bevosita ta'sir ko‘rsatib, migratsiya oqimlarini shakllantiradi. Misol uchun, 2010-yilda Gaitida ro‘y bergan halokatli zilzila 1,5 milliondan ortiq aholining vaqtinchalik boshpana izlashiga sabab bo‘lgan. 2019-yilda Hindiston va Bangladeshda kuzatilgan kuchli musson yomg'irlari natijasida yuzaga kelgan toshqinlar 2 milliondan ziyod odamni ko‘chirishga olib keldi. "Global Environmental Change" jurnalida 2019-yilda chop etilgan ilmiy maqolada ta'kidlanishicha, iqlim o‘zgarishi tufayli kelajakda 200 millionga yaqin odam iqlim migratsiyasiga duch kelishi mumkin” [2]. Bu, o‘z navbatida, ta'lim tizimi va qadriyatlarga jiddiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Migratsiya natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar, madaniy integratsiya masalalari va ta'lim olish imkoniyatlarining cheklanishi kabi muammolar insoniyat ning oldida turgan jiddiy vazifalardir.

Tadqiqotchi Z. B. Jo‘rayevning fikricha, “Ekologik migratsiya — bu shunchaki ko‘chish emas, balki yashash va yashab qolish o‘rtasidagi tanlovdir” [1]. Bu fikr, ekologik migratsiyaning faqatgina geografik joylashuvni o‘zgartirishdan iborat emasligini, balki inson hayotining asosiy jihatlaridan biri — mavjudlik va hayot davomiyligini ta’minlash jarayoni ekanligini ta’kidlaydi. Ekologik muammolar, masalan, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslarning kamayishi, odamlarni o‘z yashash joylarini tark etishga majbur qilmoqda. Bu jarayon, o‘z navbatida, insonlarning hayot sifati va sog‘lig‘iga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda ham bir qator ekologik muammolar, ayniqsa, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslarning kamayishi bilan bog‘liq holda, ekologik migratsiyani kuchaytiruvchi omillardan biri sifatida tavfsiflanadi. Ushbu muammolar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Suv tanqisligi: O‘zbekistonning ko‘plab hududlari suv resurslariga qaram. Amudaryo va Sirdaryo kabi asosiy daryolarning suvi kamayishi, qishloq xo‘jaligida sug‘orish uchun foydalanishning ortishi natijasida yuzaga kelmoqda. Suv tanqisligi esa aholi uchun yashash sharoitlarini og‘irlashtiradi va odamlarni yangi joylarga ko‘chishga majbur qiladi.

2. Iqlim o‘zgarishi: O‘zbekiston iqlim o‘zgarishidan jiddiy ta’sir ko‘rmoqda. Haroratning ko‘tarilishi, yomg‘irlar miqdorining o‘zgarishi va qurg‘oqchilik holatlari qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solmoqda. Bunday sharoitlar qishloq aholisi uchun yashash joylarini tark etishga sabab bo‘ladi.

3. Cho‘llanish: O‘zbekistonning ko‘plab mintaqalarida yerlarning cho‘llanishi muammosi mavjud. Bu jarayon, asosan, noto‘g‘ri agrar amaliyotlar, suv resurslaridan noto‘g‘ri foydalanish va iqlim o‘zgarishi natijasida yuzaga kelmoqda. Cho‘llanish natijasida yerlar unumdorligini yo‘qotadi va bu hududlarda yashovchi aholi uchun hayot qiyinlashadi, natijada migratsiya kuchayadi.

4. Havo ifloslanishi: Sanoat va transportdan kelib chiqadigan havo ifloslanishi ham O‘zbekistonda muhim muammolardan biridir. Bu holat, aholi salomatligiga zarar yetkazib, odamlarni sog‘lom yashash sharoitlari izlashga majbur qiladi.

5. Tabiiy resurslarning kamayishi: Xar bir mintaqaning tabiiy boyliklari, cheklangan. Ularning kamayishi iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi va aholini boshqa hududlarga ko‘chishga undaydi.

Ushbu ekologik muammolar O‘zbekistonda ekologik migratsiyani kuchaytiruvchi omillar sifatida ko‘rilishi lozim. Aholi o‘z yashash joylarida to‘g‘ri sharoitlar bo‘lmasa, ular yangi imkoniyatlar izlash maqsadida boshqa hududlarga yoki mamlakatlarga ko‘chishga majbur bo‘lishadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Ekologik migratsiya va ekologik muammolar ta'lim tizimida bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Quyidagi omillarni koʻrsatish mumkin:

1. Ta'lim olish imkoniyatlarining cheklanishi: Ekologik muammolar, masalan, suv tanqisligi yoki yerlarning choʻllanishi, aholini koʻchirishga olib keladi. Bu esa koʻchayotgan aholi uchun yangi joylarda ta'lim olish imkoniyatlarini cheklaydi, chunki yangi maktablar va ta'lim muassasalariga kirish qiyinlashadi.

2. Maktablarning yopilishi: Qishloq joylarida ekologik muammolar tufayli aholi kamayishi maktablarning yopilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa oʻquvchilar uchun ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kamaytiradi.

3. Ta'lim sifati pasayishi: Maktablar yopilganda yoki oʻquvchilar kamaysa, ta'lim sifati pasayishi mumkin. Oʻqituvchilar soni kamayishi, resurslar yetishmasligi va sinflarda oʻquvchilar sonining oshishi ta'lim sifatini salbiy ta'sir qiladi.

4. Oʻqituvchilarni yoʻqotish: Ekologik migratsiya natijasida oʻqituvchilar ham boshqa hududlarga koʻchishi mumkin. Bu esa ta'lim jarayonini zaiflashtiradi va yangi oʻqituvchilarni jalb qilishda qiyinchiliklarga olib keladi.

5. Psixologik ta'sir: Ekologik migratsiya jarayoni bolalar va oʻsmirlarning psixologik holatiga salbiy ta'sir koʻrsatishi mumkin. Oʻzgarishlarga moslashish, yangi muhitda ijtimoiy integratsiya qilish va oʻqish jarayonida qiyinchiliklar ularning ta'lim olishiga salbiy ta'sir koʻrsatishi mumkin.

6. Ta'lim dasturlarining moslashuvi: Ekologik muammolar sababli migratsiya jarayonida yangi hududlarda ta'lim dasturlari va tizimlari oʻzgarishi mumkin. Bu esa oʻquvchilarning oldingi bilimlarini qoʻllashda qiyinchiliklarga olib keladi.

7. Iqtisodiy muammolar: Ekologik migratsiya koʻpincha iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bogʻliq boʻladi. Iqtisodiy vaziyatning yomonlashishi ta'limga ajratiladigan mablagʻlarni kamaytirishi va ta'lim sifatini pasaytirishi mumkin.

MUHOKAMA

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqotchi O.Rasulov ta'kidlaganidek, "Ekologik barqarorlik sharoitida ijtimoiy muhitning yaxshilanishi aholining majburiy ko'chish ehtimolini kamaytiradi, bu esa konstitutsiyaviy erkinliklar amalda ro'yobga chiqishini bildiradi" [2]. Bu fikr O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida insonning sog'lom va xavfsiz atrof-muhitga bo'lgan huquqi (49-modda) bilan hamohangdir. Jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish, shaharsozlik faoliyatida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash, ekologik monitoring tizimlarini rivojlantirish orqali fuqarolarning ekologik muammolarga nisbatan ongli munosabati kuchaymoqda. Bu esa insoniyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning nafaqat ijtimoiy, balki huquqiy-falsafiy ifodasidir. Falsafa doktori S. Yo'ldoshev bu borada shunday deydi: "Tabiat va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni anglash fuqarolik ongini, mas'uliyatli yashash tamoyillarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi" [3]. Xalqaro miqyosda esa Lester Braunning "Ekologik qochqin" atamasini ilk bor 1976-yilda kiritganini esga olsak, u o'z tadqiqotlarida shunday deydi: "Kelajakda suv taqchilligi, cho'llanish va iqlim o'zgarishi millionlab insonlarni o'z yurtini tark etishga majbur qiladi. Bular ekologik muhojirlarning yangi toifalarini vujudga keltiradi"[4]. Bu prognoz bugungi kunda Orolbo'yi hududida yuzaga kelgan migratsion oqimlarda o'z aksini topmoqda. Ekologik migratsiya esa bugungi kunda inson erkinligi, yashash huquqi va tabiat bilan uzviy aloqaning sinovi sifatida namoyon bo'lmoqda. Uni nafaqat tabiiy yoki iqtisodiy omil, balki inson va makon o'rtasidagi ontologik bog'liqlik sifatida ko'rish lozim. M.Merlo-Ponti ta'biri bilan aytganda, "inson makonda yashamaydi, balki makon bilan yashaydi" [5], degan g'oya bu boradagi falsafiy qarashlarni mustahkamlaydi.

Mamlakatimizda bu kabi holatlarni oldini olish uchundavlat miqyosida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda, xususan, Orolbo'yi mintaqasida amalga oshirilayotgan ekologik tiklash ishlari, xususan, 2018-yildan boshlab 1,8 million gektardan ortiq maydonda ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilgani, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar ko'magida "Yashil makon", "Qum bar'yerlari"41 kabi loyihalarning

boshlanganligi ekologik migratsiya bosimini kamaytirishga xizmat qilmoqda [6]. Ushbu jarayon aholining o‘z yashash hududida qolishiga rag‘bat yaratmoqda va insonning o‘z vatanida tinch, sog‘lom va qulay hayot kechirish huquqini ta’minlashda muhim omilga aylanmoqda. Orolbo‘yi hududida amalga oshirilayotgan ekologik tiklash ishlari, aholining yashash sharoitini yaxshilash, ekologik madaniyatni shakllantirish va konstitutsiyaviy kafolatlar ekologik migratsiyani kamaytirish va inson qadriyatlarini tiklashda muhim ahamiyatga ega. Bu esa ekologik adolat sari intilishni, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni huquqiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa

Iqlim o‘zgarishining salbiy ta'sirlarini yumshatish va migratsiyaga moslashish strategiyalarini amalga oshirish, shuningdek, ta'lim orqali yosh avlodni ekologik ongli qilib tarbiyalash orqali barqaror kelajakni ta'minlash jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda milliy qadriyatlar va madaniy merosning saqlanib qolishi, shuningdek, global muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Buning uchun ta'lim tizimida ekologik bilimlarni mujassam etuvchi dasturlarni joriy etish, madaniy integratsiyani qo‘llab-quvvatlovchi innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish va jamiyatda ijtimoiy birdamlikni rivojlantirish zarurdir. Bu jarayonlar, o‘z navbatida, insonlarning yurtiga bo‘lgan munosabatini chuqurlashtiradi va global miqyosda yanada barqaror va beqaror vaziyatlarda yashashga qodir bo‘lgan avlodni tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshonjonov B.Z. “Migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish texnologiyalari” 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2025. B:- 55
2. Eshonjonov B.Z. Migrant oila farzandlarida qadriyatlarni shakllantirishda interaktiv metodlarning ahamiyati // NamDU ilmiy Axborotnomasi, 2025-yil №5 B.1138-1140.
3. Eshonjonov B.Z. Aksiologik yondashuvlarni shakllantirish ijtimoiy zarurat sifatida // Kasb-hunar ta’limi. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal. 2024-yil, 12-son. 90-94-bet. (13.00.00 №19)4. Brown L. Political ideologies: A reader and guide. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – 400 p. – P. 34.
5. Мерло-Понти М. Феноменология восприятия. – М.: Наука, 1999. – 512 с.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yilgi tahrir. Rasmiy veb-sayt: https://konstitutsiya.gov.uz/oz .
7. Orol fojiasiga konstitutsiya darajasida e’tibor. Bu nimani o‘zgartiradi? // Kun.uz. – 2022. 21 oktabr. URL: https://kun.uz/07184999

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA BELBOG‘LI KURASH BO‘YICHA INTEGRATSIYALASHGAN AMALIY TAYYORGARLIK VA KASBIY PORTFOLIONI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Jumakulov Zoxidjon Patidinovich
Andijon davlat universiteti,
Yakka kurash sport turlari kafedrasi dotsenti
e-mail: jumaqulovzohidjon88@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolaning maqsadi bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini belbog‘li kurash bo‘yicha tayyorlashda amaliy mashg‘ulot va kasbiy portfolioni yagona didaktik jarayonga birlashtiruvchi metodik modelni ishlab chiqishdir. Nazariy-metodik tadqiqot 2001–2025-yillardagi 18 ta taqrizdan o‘tgan ilmiy maqola va 4 ta rasmiy-me’yoriy manbani maqsadli tanlash, tematik tahlil, qiyosiy sintez va pedagogik modellashtirishga tayandi. Predmet-texnik, pedagogik-loyihalash, xavfsizlik, tahliliy-baholash va refleksiv-rivojlantiruvchi tarkiblarni bog‘lovchi olti bosqichli model, portfolioning sakkiz turdagi majburiy dalili hamda 100 ballik analitik rubrika taklif etildi. Har bir kasbiy vazifa portfolio dalili, mezonli qayta aloqa va takomillashtirilgan variant bilan yakunlanadi. Modelning ilmiy yangiligi texnik-taktik tayyorgarlikni o‘qitish, xavfsizlik, kuzatish, baholash va refleksiya bilan “vazifa–dalil–mezon–takomillashtirish” zanjirida integratsiyalashidadir. Konseptual modelning samaradorligi keyingi tajriba-sinovda tekshirilishi lozim.*

Kalit so‘zlar: *belbog‘li kurash, amaliy tayyorgarlik, kasbiy portfolio, mikroo‘qitish, autentik baholash, refleksiya, qayta aloqa.*

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕГРИРОВАННОЙ ПРАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ПОРТФОЛИО ПО ПОЯСНОЙ БОРЬБЕ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *Цель статьи — разработать методическую модель, объединяющую практическую подготовку по поясной борьбе и профессиональное портфолио в единый процесс подготовки будущих учителей физической культуры. Теоретико-методическое исследование основано на целевом отборе 18 рецензируемых статей 2001–2025 годов и 4 официальных источников, тематическом анализе, сравнительном синтезе и педагогическом моделировании. Предложены шестиступенчатая модель, восемь обязательных видов доказательств портфолио и аналитическая рубрика на 100 баллов. Каждый профессиональный этап завершается созданием доказательства, критериальной обратной связью и улучшенной версией. Научная новизна состоит в интеграции техники и тактики поясной борьбы с обучением, безопасностью, наблюдением, оцениванием и рефлексией в цепочке «задача–доказательство–критерий–совершенствование». Эффективность концептуальной модели требует эмпирической проверки.*

Ключевые слова: *поясная борьба, практическая подготовка, профессиональное портфолио, микрообучение, аутентичное оценивание, рефлексия, обратная связь.*

A METHODOLOGY FOR DEVELOPING INTEGRATED PRACTICAL TRAINING AND PROFESSIONAL PORTFOLIOS IN BELT WRESTLING AMONG PRE-SERVICE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Abstract. *This article develops a model that integrates practical belt-wrestling preparation with a professional portfolio in pre-service physical education teacher education. The theoretical study used purposive selection of 18 peer-reviewed articles published in 2001–2025 and four official sources, thematic analysis, comparative synthesis and pedagogical modelling. A six-stage model, eight mandatory portfolio evidence types and a 100-point analytic rubric are proposed. Each professional task produces evidence that receives criterion-based feedback and is revised. The model integrates belt-wrestling technique and tactics with teaching, safety, observation, assessment and reflection through a "task–evidence–criterion–revision" chain. The portfolio thus functions as a formative mechanism rather than a repository. The conceptual model and rubric require subsequent empirical validation.*

Keywords: *belt wrestling, practical preparation, professional portfolio, microteaching, authentic assessment, reflection, feedback.*

KIRISH

Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassis tayyorlash faqat harakatlarni namoyish eta olish bilan cheklanmaydi. O‘qituvchi o‘quv vazifasini loyihalashi, texnik harakatni didaktik ketma-ketlikka ajratishi, xavfsiz muhit yaratishi, bajarilishni kuzatishi, asoslangan qayta aloqa berishi va o‘z faoliyatini tahlil qilishi kerak. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, kadrlar tayyorlash hamda fuqarolarning jismoniy kamolotini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlari sifatida belgilangan [1]. Etnosport turlarini ommalashtirishga qaratilgan davlat choralarida esa milliy sport merosini ta’lim, musobaqa va ommaviy tadbirlar orqali rivojlantirish vazifalari ilgari surilgan [2]. Shu jihatdan belbog‘li kurash bo‘yicha malakali pedagog tayyorlash sport texnikasini saqlash bilan birga uni zamonaviy didaktika asosida o‘rgatish masalasini ham qamrab oladi.

United World Wrestling belbog‘li kurashni turli milliy uslublarni umumiy me’yorlar asosida rivojlantiradigan sport yo‘nalishi sifatida tartibga soladi; qoidalarning mazmuni ushlash, baholash, ruxsat etilgan harakatlar va sportchining xavfsizligiga bevosita taalluqlidir [3]. Demak, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi texnik-taktik bilim, pedagogik muloqot, qoidalarga rioya qilish, xavfni boshqarish va xolis baholashning birligida namoyon bo‘ladi. Xalqaro jismoniy tarbiya o‘qituvchisini tayyorlash standartlari ham predmet mazmuni, harakat mahorati, rejalashtirish, o‘qitish, baholash va professional mas’uliyatni o‘zaro bog‘liq natijalar sifatida ko‘rsatadi [4].

Amaliyotda mashq bajarish, dars fragmenti, kuzatuv, xavfsizlik nazorati va refleksiya ko‘pincha alohida topshiriqlarga ajraladi. Talabaning nima bajargani ko‘rinsa-da, pedagogik qarori, dalili va qayta aloqadan keyingi o‘zgarishi izchil qayd etilmaydi. Portfolio faqat sertifikatlar papkasi bo‘lib qolmasligi uchun amaliy faoliyatni dalil, mezon va takomillashtirish bilan bog‘laydigan didaktik mexanizm zarur.

Tadqiqotning maqsadi — bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida belbog‘li kurash bo‘yicha integratsiyalashgan amaliy tayyorgarlik va kasbiy portfolioni shakllantirish metodikasini nazariy jihatdan asoslash. Maqsadga muvofiq uchta savol qo‘yildi: 1) integratsiyalashgan amaliy tayyorgarlik qaysi tarkibiy qismlarni qamrab olishi kerak; 2) portfolio amaliy mashg‘ulotning yakuniy hisoboti emas, balki o‘qitish vositasi sifatida qanday ishlaydi; 3) portfolio dalillarini qaysi mezonlar orqali baholash mumkin?

ADABIYOTLAR TAHLILI

Amaliyotga tayangan pedagogik ta’lim bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy faoliyatning qayta-qayta bajariladigan, kuzatiladigan va tahlil qilinadigan vazifalariga jalb etadi. Ward va hammualliflar jismoniy tarbiya o‘qituvchisini tayyorlashda amaliyotga tayangan yondashuvni o‘quv mazmuni, pedagogik topshiriq va murabbiylik yordamining izchil birligi sifatida talqin qiladi [5]. Jismoniy tarbiya uchun asosiy amaliyotlar o‘quv vazifasini tushuntirish, namoyish, kuzatish, xatoni aniqlash, qayta



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

aloqa va mashg‘ulotni boshqarish kabi ko‘p vaziyatda takrorlanadigan pedagogik harakatlarni ajratishga imkon beradi [6]. Harakatni o‘rgatishda murakkablikni bosqichma-bosqich oshirish va “ishchi model”lardan foydalanish talabaning texnik bilimini real o‘qitish qaroriga aylantiradi [7].

Predmet mazmunini bilish jismoniy tarbiya pedagogikasida harakatning asosiy elementlari, tipik xatolari, tuzatish signallari va murakkablashtirish yo‘lini anglashni talab qiladi [8]. Modellarga asoslangan yondashuv ta’lim maqsadi va o‘quvchi ehtiyojiga mos pedagogik yechimni ongli tanlashni tavsiya etadi [9]. Universitet topshiriqlarini real amaliyot bilan bog‘lash kasbiy bilimning vaziyatga ko‘chishini qo‘llab-quvvatlaydi [10]; kasbiy vazifani kichik qismlarda sinash, fikr olish va qayta bajarish esa amaliy mahoratni rivojlantiradi [11].

Portfolio samarasi uning maqsadi, mazmuni, baholash tartibi va institutsional sharoitiga bog‘liq [12]. Hujjatlashtirish, taqdimot, baholash va rivojlantirish portfoliolari farqlanadi; maqsad noaniq bo‘lsa, artefaktlar to‘plami kasbiy o‘sishni ko‘rsatmaydi [13]. Elektron platformaning o‘zi ham refleksiyani yuzaga keltirmaydi: yo‘riqnoma, vaqt, muntazam maslahat va topshiriqlararo bog‘lanish zarur [14].

Refleksiya tajribani oddiy tasvirlashdan pedagogik qarorning sababini, natijasini va keyingi o‘zgarishni tushuntirishga o‘tgandagina professional rivojlanish vositasiga aylanadi [15]. Video asosidagi kuzatuv talabaning darsdagi harakat va o‘quvchi javobini qayta ko‘rishi, e’tiborni aniq epizodga qaratishi hamda dalilli muhokama olib borishiga yordam beradi [16]. Biroq video faqat yozuv sifatida saqlansa, uning o‘quv qiymati cheklangan bo‘ladi; kuzatuv mezoni va savollar bilan ishlash zarur. Qayta aloqa samarali bo‘lishi uchun u maqsad, joriy bajarilish va keyingi qadam o‘rtasidagi tafovutni ochib berishi kerak [17].

Autentik baholash kasbiy vazifa, sharoit, natija, mezon va ijtimoiy kontekstni muvofiqlashtiradi [18]. Talaba real faoliyatga yaqin vazifani bajaradi, mezonlarni oldindan biladi va natijani qayta ishlaydi; murakkab vazifa, amaliy mahsulot, transfer,

metakognitsiya va qayta aloqa uning muhim belgilaridir [19]. Biroq amaliy topshiriq, portfolio, video va refleksiyani belbog‘li kurashning texnik-taktik, xavfsizlik hamda qoidaviy xususiyatlari bilan bir siklda bog‘lovchi konseptual yechim aniqlashtirilmagan.

Tadqiqot nazariy-metodik va konseptual dizaynda amalga oshirildi. Inson ishtirokidagi tajriba o‘tkazilmadi, empirik samaradorlik ko‘rsatkichlari hisoblanmadi. Manbalar korpusi maqsadli tanlash asosida shakllantirildi: jismoniy tarbiya o‘qituvchisini tayyorlash, amaliyotga tayangan pedagogik ta’lim, predmet mazmuni, portfolio, refleksiya, video-tahlil, qayta aloqa, pedagogik rag‘batlantirish va autentik baholashga bevosita aloqador 2001–2025-yillardagi 18 ta taqrizdan o‘tgan ilmiy maqola tanlandi. Manbaning mavjudligi nashriyot sahifasi va DOI orqali tekshirildi. Shuningdek, O‘zbekistonning ikki rasmiy hujjati, belbog‘li kurash qoidalariga oid xalqaro rasmiy manba hamda jismoniy tarbiya o‘qituvchisini tayyorlash standartlari kiritildi.

Tahlil to‘rt bosqichda bajarildi. Birinchi bosqichda manbalardan kasbiy vazifa, amaliyot, dalil, refleksiya va baholashga oid tushunchalar ajratildi. Ikkinchi bosqichda ular belbog‘li kurash o‘qituvchisining predmet-texnik, pedagogik, xavfsizlik, tahliliy va professional vazifalari bilan qiyoslandi. Uchinchi bosqichda har bir amaliy vazifani portfolio dalili, baholash mezoni, qayta aloqa va qayta ishlangan natija bilan bog‘lovchi didaktik zanjir loyihalandi. To‘rtinchi bosqichda model tarkibi va 100 ballik analitik rubrika tuzildi. Modelning asoslanganligi nazariy moslik, ichki mantiq, amaliy vazifaga yaqinlik va mezonlarning kuzatiluvchanligi orqali baholandi; empirik validlik mazkur tadqiqot doirasiga kirmaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Integratsiyalashgan amaliy tayyorgarlik deganda belbog‘li kurashning texnik-taktik mazmuni, uni o‘qitish metodikasi, xavfsizlik va qoidalar, kuzatish-baholash hamda refleksiv kasbiy rivojlanishning yagona professional vazifa atrofida tashkil etilishi tushuniladi. Integratsiya mavzularni bir darsda yonma-yon berish emas. U talabaning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

muayyan vazifani bajarish jarayonida bir nechta bilim va harakat turini birgalikda qo‘llashi, qarorini dalil bilan ko‘rsatishi va qayta aloqa asosida takomillashtirishini anglatadi.

1-jadval. Integratsiyalashgan amaliy tayyorgarlikning tarkibiy tuzilishi

Tarkib	Kasbiy mazmun	Kuzatiladigan faoliyat	Portfolio dalili
Predmet-texnik	Asosiy holat, ushlash, muvozanatdan chiqarish, tashlash, qarshi harakat va taktik bog‘lanish	Harakatni xavfsiz namoyish etadi; asosiy nuqtalar va tipik xatolarni izohlaydi	Izohli video; texnik karta; xato va tuzatish signallari jadvali
Pedagogik-loyihalash	Maqsad, vazifa, ketma-ketlik, differensiallashtirish, muloqot va dars boshqaruvi	Dars fragmentini rejalashtiradi va mikroo‘qitish orqali amalga oshiradi	Dars ishlanmasi; mikroo‘qitish videosi; topshiriq kartasi
Xavfsizlik va me’yoriy	Gilam, jihoz, juftlik, sug‘urtalash, yuklama, taqiqlangan harakat va qoidalar	Xavfni oldindan aniqlaydi; to‘xtatish va himoya choralarini qo‘llaydi	Xavfsizlik chek-listi; vaziyatli qaror; qoidalar bo‘yicha test yoki hakamlik protokoli
Tahliliy-baholash	Kuzatuv indikatorlari, ijro sifati, mezon, qayta aloqa va o‘zlashtirish dinamikasi	Aniq epizodni dalil bilan tahlil qiladi; keyingi o‘quv qadamini belgilaydi	Kuzatuv varaqasi; mezonli baho; vaqt belgili video-izoh; qayta aloqa yozuvi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tarkib	Kasbiy mazmun	Kuzatiladigan faoliyat	Portfolio dalili
Refleksiv-rivojlantiruvchi	Kasbiy o‘zini baholash, etik mas’uliyat, maqsad va takomillashtirish rejasi	Kuchli va zaif tomonini dalil bilan asoslaydi; natijani qayta ishlaydi	Refleksiv hisobot; dastlabki va takomillashtirilgan variant; individual rivojlanish rejasi

Birinchi jadvaldagi tarkiblar alohida fan bloklari sifatida emas, bitta topshiriq doirasida bog‘lanadi. Masalan, talaba “boshlang‘ich o‘rganuvchiga muvozanatdan chiqarish va tashlashga tayyorlovchi dars fragmentini o‘tkazish” vazifasini oladi. U texnik mazmunni tanlaydi, o‘rgatish ketma-ketligini tuzadi, xavfsizlik shartlarini belgilaydi, mikroo‘qitishni videoga qayd etadi, sherik va o‘qituvchi mezonlari asosida epizodlarni tahlil qiladi hamda dars ishlanmasining ikkinchi variantini tayyorlaydi. Shunday qilib, natija faqat video yoki reja emas, balki qarorning o‘zgarishini ko‘rsatadigan dalillar tizimidir.

Metodika oltita bosqichdan iborat: 1) diagnostika va shaxsiy maqsad; 2) tushuntirish, namoyish, xavfsiz juftlash hamda xatoni tuzatishga doir modellashtirilgan amaliyot; 3) vazifa aniqligi, namoyish, vaqt va xavfsizlik kuzatiladigan mikroo‘qitish; 4) vaqt belgili epizod asosidagi video-tahlil va qayta aloqa; 5) dars, kuzatuv, baholash, hakamlik yoki tashkiliy faoliyatni bog‘lovchi kengaytirilgan kasbiy vazifa; 6) dastlabki dalil, qayta aloqa va yaxshilangan natijani asosli tanlashga qaratilgan portfolio kuratsiyasi va himoyasi.

2-jadval. Kasbiy portfolioni baholash uchun taklif etilayotgan analitik rubrika

Mezon	Asosiy indikator	Dalil misoli	Ball
Texnik-taktik mazmun va ketma-ketlik	Harakatning asosiy nuqtalari to‘g‘ri; topshiriqlar oddiydan murakkabga; xato va tuzatish aniq	Texnik karta, izohli video, topshiriqlar ketma-ketligi	25
Pedagogik loyihalash va amalga oshirish	Maqsad o‘lchanadigan; ko‘rsatma tushunarli; mashq va vaqt maqsadga mos; differensiallashtirish mavjud	Dars ishlanmasi, mikroo‘qitish videosi	20
Xavfsizlik, qoidalar va kasbiy etika	Xavf oldindan aniqlangan; sug‘urtalash va to‘xtatish chorasi to‘g‘ri; qoidalar hamda shaxsiy daxlsizlikka rioya qilingan	Chek-list, vaziyatli qaror, rozilik va maxfiylik qaydi	15
Kuzatish, baholash va tahlil	Indikatorlar aniq; xulosa kuzatilgan dalilga tayangan; keyingi o‘quv qadami asoslangan	Kuzatuv varaqasi, vaqt belgili video-izoh	15
Qayta aloqa, refleksiya va takomillashtirish	Qayta aloqa maqsad bilan bog‘langan; talaba o‘zgarishni dalillaydi; yangi variant oldingisidan asosli farqlanadi	Qayta aloqa yozuvi, ikki variant qiyosi, refleksiv hisobot	15

Mezon	Asosiy indikator	Dalil misoli	Ball
Portfolio kuratsiyasi va raqamli yaxlitlik	Dalillar izchil nomlangan; manba va mualliflik ko‘rsatilgan; tanlov asoslangan; fayllar ochiladi va tartibli	Mundarija, metama’lumot, havolalar, rivojlanish rejasi	10
Jami			**100**

Metodikaning markaziy mexanizmi “kasbiy vazifa–kuzatiladigan bajarish–portfolio dalili–mezonli qayta aloqa–takomillashtirilgan bajarish–refleksiya” siklidir. Ushbu sikl amaliyotni rivojlantiriladigan faoliyatga aylantiradi. Portfolioga sakkiz turdagi dalil kiritiladi: 1) boshlang‘ich o‘zini baholash va maqsad; 2) dars ishlanmasi; 3) texnik-taktik namoyishning izohli videosi; 4) xavfsizlik chek-listi; 5) kuzatuv va xatolar tahlili; 6) mikroo‘qitish videosi va qayta aloqa; 7) qoidalar, hakamlik yoki tashkiliy hujjat; 8) dastlabki va takomillashtirilgan variantlar qiyosi, yakuniy refleksiya hamda rivojlanish rejasi. Dalilning mavjudligi kompetensiyani avtomatik anglatmaydi; rubrikada mahsulot soni emas, texnik-pedagogik qaror, xavfsizlik, dalilli tahlil va takomillashtirish sifati baholanadi.

Har bir mezon yuqori, yetarli, bazaviy va boshlang‘ich darajada tavsiflanadi. Xavfsizlikka oid jiddiy buzilish umumiy ball yuqori bo‘lsa ham topshiriqni qayta bajarishni talab qilishi kerak. Ball chegaralari va tavsiflovchilar tajriba-sinovda ekspertlar kelishuvi hamda baholovchilararo ishonchlilik asosida aniqlashtiriladi.

Tashkiliy jihatdan mezon va namuna ish boshlanishidan oldin beriladi, har bir katta dalil kamida bir marta qayta ishlanadi. Videoga olishda rozilik, maqsadli foydalanish, saqlash muddati va kirish huquqi tartibga solinadi; professional etika va raqamli xavfsizlik ham baholanadi.

Model kasbiy vazifani takroriy mashq qilish [5; 11], asosiy pedagogik amaliyot va o‘qitish ketma-ketligi [6; 7], shuningdek, vazifa, sharoit, mezon va natijani muvofiqlashtiruvchi autentik baholashga [18; 19] mos keladi. Har bir dalil amaliy vazifa va uning takomillashtirilgan varianti bilan bog‘langani sababli refleksiya “nima qildim?”dan “qaysi dalil qarorimni tasdiqlaydi va nimani o‘zgartiraman?”ga o‘tadi.

Nazariya, shaxsiy tajriba va real kasbiy vaziyatning muntazam bog‘lanishi o‘qituvchi ta’limining ta’sirini kuchaytiradi [20]. Taklif etilgan sikl texnik bilimni dars rejasiga, rejalashtirishni mikroo‘qitishga, uni kuzatiladigan dalilga, dalilni esa rivojlanish qaroriga aylantiradi.

Portfolio siklidagi rag‘bat artefaktlar soniga emas, talabaning dalilga tayangan takomillashtirish harakatiga qaratilishi kerak. M.X. Jumakulova maqsadli va me’yorli rag‘bat o‘quv motivatsiyasi hamda kognitiv faollikni qo‘llab-quvvatlashini qayd etadi [21]. Uning aralash ta’limga oid tadqiqotida raqamli vositalar va motivatsion strategiyalarni uyg‘unlashtirish faol ishtirok hamda mustaqil o‘rganish bilan bog‘langan [22]. Demak, portfolio metodikasida rag‘bat sifatli qayta ishlash, asoslangan refleksiya va navbatdagi kasbiy maqsadni qo‘llab-quvvatlashi lozim. Model konseptual bo‘lib, rubrika hali ekspert validatsiyasi va baholovchilararo ishonchlilik bo‘yicha tekshirilmagan.

XULOSA VA AMALIY TAVSIYALAR

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining belbog‘li kurash bo‘yicha tayyorgarligi texnik harakatni bajara olish bilan yakunlanmaydi. Kasbiy tayyorgarlik predmet-texnik bilim, pedagogik loyihalash, xavfsizlik va qoidalar, kuzatish-baholash, qayta aloqa va refleksiyani real vazifa doirasida birlashtirishi kerak. Nazariy tahlil asosida ishlab chiqilgan olti bosqichli metodika diagnostika va maqsad belgilashdan boshlanib, modellashtirilgan amaliyot, mikroo‘qitish, video-tahlil, kengaytirilgan kasbiy vazifa hamda portfolio kuratsiyasi va himoyasi bilan yakunlanadi.

Portfolio natijalarni saqlash vositasi emas, “vazifa–dalil–mezon–qayta aloqa–takomillashtirish–refleksiya” zanjiriga tayangan rivojlantiruvchi baholash

mexanizmidir. Sakkiz turdagi dalil talabaning texnik, pedagogik, xavfsizlik, tahliliy va refleksiv kompetensiyalarini ko‘rsatadi; 100 ballik rubrika esa hujjatlar sonini emas, kasbiy qaror va o‘zgarish sifatini baholaydi.

Amaliy joriy etishda: 1) har bir amaliy mashg‘ulot uchun kuzatiladigan kasbiy natija va portfolio dalilini oldindan belgilash; 2) mikroo‘qitish va video-tahlilni muntazam siklda tashkil etish; 3) xavfsizlikni alohida nazariy mavzu emas, har bir topshiriqning majburiy mezoni qilish; 4) dastlabki va takomillashtirilgan variantni birga saqlash; 5) yakuniy bahoni o‘qituvchi bahosi, talabaning o‘zini baholashi va zarur hollarda tengdosh dalili bilan triangulyatsiya qilish tavsiya etiladi.

Keyingi bosqichda modelni pilot sinovdan o‘tkazish, rubrikani ekspertlar bilan validatsiya qilish, baholovchilararo kelishuv hamda texnik-pedagogik bajarish va refleksiyadagi o‘zgarishlarni aniqlash zarur. Shundagina samaradorlik haqida empirik xulosa chiqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi. Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida: O‘RQ-394-son Qonun, 2015-yil 4-sentabr. URL: https://lex.uz/docs/-2742233
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: PQ-259-son qaror, 2022-yil 25-may. URL: https://lex.uz/uz/docs/-6035637
3. United World Wrestling. Belt Wrestling Rules. URL: https://uww.org/governance/belt-wrestling-rules (murojaat sanasi: 22.08.2026).
4. SHAPE America. National Standards & Guidelines for Physical Education Teacher Education. Reston, VA: SHAPE America, 2017. URL: https://shapeamerica.org/accreditation/peteacherprep/
5. Ward P., Dervent F., Devrilmez E., Iserbyt P., Kim I., Ko B., Santiago J.A., Tsuda E., Xie X. Practice-Based Teacher Education in Physical Education // Journal of Teaching in Physical Education. 2023. Vol. 42, No. 3. P. 442–451. DOI: https://doi.org/10.1123/jtpe.2022-0047
6. Ward P. Core Practices for Teaching Physical Education: Recommendations for Teacher Education // Journal of Teaching in Physical Education. 2021. Vol. 40, No. 1. P. 98–108. DOI: https://doi.org/10.1123/jtpe.2019-0114
7. Ward P., Ayvazo S., Dervent F., Iserbyt P., Kim I. Instructional Progression and the Role of Working Models in Physical Education // Quest. 2020. Vol. 72, No. 4. P. 410–429. DOI: https://doi.org/10.1080/00336297.2020.1766521

8. Hastie P.A. A Primer on Content Knowledge in Physical Education Research // Journal of Teaching in Physical Education. 2022. Vol. 41, No. 1. P. 165–170. DOI: https://doi.org/10.1123/jtpe.2020-0221
9. Casey A., MacPhail A. Adopting a Models-Based Approach to Teaching Physical Education // Physical Education and Sport Pedagogy. 2018. Vol. 23, No. 3. P. 294–310. DOI: https://doi.org/10.1080/17408989.2018.1429588
10. Jenset I.S., Klette K., Hammerness K. Grounding Teacher Education in Practice Around the World: An Examination of Teacher Education Coursework in Teacher Education Programs in Finland, Norway, and the United States // Journal of Teacher Education. 2018. Vol. 69, No. 2. P. 184–197. DOI: https://doi.org/10.1177/0022487117728248

OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASASI KURSANTLARIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLI TARBIYA VA TANQIDIY FIKRLASHNING O'RNI

Uralov Umid Xolmuratovich
O`zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi podpolkovnik
umiduralov45@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada oliy harbiy ta'lim muassasasi kursantlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasi qadriyatli tarbiya va tanqidiy fikrlashning o'zaro aloqasi asosida tahlil qilinadi. Mafkuraviy immunitetning mazmuni faqat tashqi g'oyaviy ta'sirlarga qarshilik ko'rsatish bilan cheklanmasligi, balki axborotni anglash, uning mazmunini mustaqil baholash va shaxsiy pozitsiyani asoslash qobiliyatlari bilan ham bog'liq ekani yoritiladi. Harbiy ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishni muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muloqot va refleksiya bilan uyg'unlashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *mafkuraviy immunitet, kursant, harbiy ta'lim, qadriyatli tarbiya, tanqidiy fikrlash, mafkuraviy kompetentlik, mustaqil fikr, pedagogik yondashuv.*

РОЛЬ ЦЕННОСТНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА СРЕДИ КУРСАНТОВ ВЫСШИХ ВОЕННЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация: *В данной статье анализируется развитие идеологического иммунитета среди курсантов высших военных учебных заведений, с акцентом на взаимодействии ценностного образования и критического мышления. Подчеркивается, что идеологический иммунитет не ограничивается лишь сопротивлением внешним идеологическим влияниям; он включает в себя способность понимать информацию, самостоятельно оценивать ее содержание и обосновывать собственную позицию. В статье предлагаются рекомендации по интеграции усвоения национальных и универсальных человеческих ценностей — в контексте военного образования — с анализом проблемных ситуаций, диалогом и рефлексией.*

Ключевые слова*: идеологический иммунитет, курсант, военное образование, ценностное образование, критическое мышление, идеологическая компетентность, независимое мышление, педагогический подход.*

THE ROLE OF VALUE-BASED EDUCATION AND CRITICAL THINKING IN DEVELOPING IDEOLOGICAL IMMUNITY AMONG CADETS AT HIGHER MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: *This article analyzes the development of ideological immunity among cadets at higher military educational institutions, focusing on the interplay between value-based education and critical thinking. It highlights that ideological immunity is not limited merely to resisting external ideological influences; rather, it encompasses the ability to comprehend information, independently evaluate its content, and substantiate one's own personal stance. The article offers recommendations for integrating the internalization of national and universal human values—within the context of military education—with the analysis of problematic situations, dialogue, and reflection.*

Keywords: *ideological immunity, cadet, military education, value-based education, critical thinking, ideological competence, independent thought, pedagogical approach.*

KIRISH

Bo‘lajak ofitserni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida uning nazariy bilimlari, jismoniy tayyorgarligi va amaliy ko‘nikmalari bilan bir qatorda, dunyoqarashi hamda ma’naviy-axloqiy pozitsiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Chunki ofitserning xizmat faoliyati ko‘pincha mas’uliyatli qarorlar qabul qilish, turli toifadagi insonlar bilan muloqot qilish va murakkab vaziyatlarda o‘zini to‘g‘ri boshqarish bilan bog‘liq. Bunday sharoitda uning tashqi axborot ta’sirlariga munosabati, qadriyatlarga sodiqligi va mustaqil fikrlash qobiliyati kasbiy tayyorgarlikning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Bugungi axborot muhitida inson turli mazmundagi xabarlar, qarashlar va talqinlarga duch keladi. Ularning barchasi ham ishonchli dalillarga asoslanmagan bo‘lishi mumkin. Ayrim xabarlar voqeaning faqat bir qismini ko‘rsatadi, ayrimlari esa hissiyotga ta’sir qilish orqali muayyan fikrni qabul qildirishga urinadi. Bunday vaziyatda axborotni shunchaki qabul qilish yoki rad etishning o‘zi yetarli emas. Uning manbasini aniqlash, dalillarni tekshirish, mazmunini mavjud bilimlar bilan taqqoslash va asoslangan xulosaga kelish talab etiladi.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasi aynan shu jihatdan muhimdir. Uni faqat nomaqbul g‘oyalardan xabardor qilish yoki muayyan qarashlarni yod oldirish orqali rivojlantirish mumkin emas. Kursant o‘zining qadriyatli pozitsiyasini anglab yetishi, uni dalillar bilan asoslay olishi va turli axborot ta’sirlari sharoitida mustaqil xulosa chiqarishga o‘rganishi lozim.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

O‘zbekiston Respublikasida harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish va yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga doir huquqiy asoslar shakllantirilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son qarori harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Shuningdek, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qaror yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini rivojlantirish masalalariga taalluqlidir. Mazkur hujjatlarning mazmuni harbiy ta’limda ma’naviy tarbiya, bilim va mustaqil fikrlashni bir-biridan ajratmagan holda tashkil etish zarurligini asoslash uchun muhimdir. Maqolaning maqsadi oliy harbiy ta’lim muassasasi kursantlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda qadriyatli tarbiya va tanqidiy fikrlashning o‘rnini ochib berish hamda ularni o‘quv-tarbiyaviy jarayonda uyg‘unlashtirishga doir pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODLARI

Maqolani tayyorlashda pedagogik va ilmiy-metodik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy yondashuv, tushunchalarni mazmunan tahlil etish hamda pedagogik umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Mafkuraviy immunitet masalasi bo‘lajak ofitserlarning mafkuraviy kompetentliligini rivojlantirish muammosi bilan bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi.

Tahlilning asosiy e’tibori ikki jihatga qaratildi. Birinchisi — kursantning milliy va umuminsoniy qadriyatlar, harbiy burch va kasbiy mas’uliyat haqidagi tasavvurlarini ongli ravishda shakllantirish. Ikkinchisi — bu tasavvurlarni turli axborot va ijtimoiy vaziyatlarda mustaqil fikrlash, dalillarni baholash hamda mas’uliyatli qaror chiqarish bilan bog‘lash.

Maqola nazariy-tahliliy xususiyatga ega. Unda alohida tajriba-sinov yoki so‘rovnoma o‘tkazilgani haqida da’vo qilinmaydi. Shu bois keltirilgan pedagogik tavsiyalar amaliyotda qo‘llash uchun metodik takliflar sifatida qaraladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

NATIJALAR VA TAHLIL

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishning mazmuni

Mafkuraviy immunitet tushunchasini faqat muayyan qarashlarga qarshi turish qobiliyati bilan izohlash uning mazmunini toraytirib qo‘yadi. Shaxsning barqarorligi, avvalo, nimaga tayanib fikr yuritishi, qanday qadriyatlarni muhim deb bilishi va qarorlarini qanday asoslashiga bog‘liq. Agar kursant o‘z pozitsiyasining mazmunini anglamasa, tashqi ta’sirni rad etishga qaratilgan tayyor ko‘rsatmalar har doim ham yetarli bo‘lmaydi. Shu nuqtayi nazardan, mafkuraviy immunitetni kursantning qadriyatli qarashlarini ongli ravishda anglash, turli g‘oyaviy va axborot ta’sirlarini baholash hamda o‘z pozitsiyasini asoslashga tayyorligi bilan bog‘liq shaxsiy sifat sifatida talqin qilish mumkin. Bunday yondashuv immunitetni passiv himoyalanishdan faol anglash va baholash darajasiga olib chiqadi.

Bo‘lajak ofitser uchun bu masala kasbiy xususiyatga ham ega. Uning faoliyati faqat o‘z qarashlarini himoya qilish bilan chegaralanmaydi. Ofitser axborotga munosabatida vazminlikni saqlashi, vaziyatni bir tomonlama baholamasligi, xizmat burchi va qonuniy talablarni hisobga olishi kerak. Shuning uchun mafkuraviy immunitetni rivojlantirish jarayonida qadriyatli tarbiya, huquqiy madaniyat va mustaqil fikrlash bir-birini to‘ldirishi zarur.

Kursantning mafkuraviy barqarorligi uning faqat nazariy savollarga to‘g‘ri javob berishida emas, balki amaliy vaziyatni qanday tushunishi va qanday qaror chiqarishida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, ijtimoiy tarmoqda harbiy xizmat yoki davlat faoliyatiga oid hissiy mazmundagi xabar tarqalgan vaziyatni olaylik. Bunday holatda kursant xabarni darhol haqiqat deb qabul qilmasligi, uni tekshirmasdan boshqalarga tarqatmasligi, manbani va dalillarni aniqlashga intilishi lozim. Mazkur jarayonda uning mavjud bilimlari, qadriyatlari va tahliliy ko‘nikmalari birgalikda namoyon bo‘ladi. Demak, mafkuraviy immunitetni shakllantirishda faqat ma’lumot berish emas, balki kursantni mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatish ham muhim pedagogik vazifadir.

Qadriyatli tarbiyaning ahamiyati

Qadriyatli tarbiya kursantning o‘z faoliyati va qarorlariga ma’no beradigan qarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Vatanga sadoqat, burchga mas’uliyat bilan yondashish, qonuniylik, halollik, inson qadr-qimmatini hurmat qilish va jamoa manfaatlarini anglash kabi qadriyatlar bo‘lajak ofitserning kasbiy shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Biroq bu qadriyatlar faqat ma’ruza yoki targ‘ibot shaklida bayon etilganda, ularning kursantning shaxsiy qarashlariga qanchalik singgani har doim ham aniq ko‘rinmaydi. Qadriyatning shaxsiy e’tiqodga aylanishi uchun kursant uning mazmunini tushunishi, hayotiy misollar bilan bog‘lashi va turli vaziyatlarda qanday namoyon bo‘lishini anglab yetishi kerak. Masalan, mas’uliyat tushunchasini o‘rganish bilan mas’uliyatli qaror qabul qilish bir xil jarayon emas. Birinchi holatda kursant tushunchani izohlaydi; ikkinchisida esa muayyan vaziyatning oqibatlarini hisobga olib, o‘z tanlovini asoslaydi.

Shu sababli tarbiyaviy mashg‘ulotlarda tarixiy misollar, harbiy xizmatga oid vaziyatlar, axloqiy dilemmalar va ochiq muloqotdan foydalanish maqsadga muvofiq. Muhokama davomida kursantdan faqat kutilayotgan javobni aytish emas, balki nima sababdan aynan shu xulosaga kelganini tushuntirish ham so‘ralishi kerak. Bu usul uning qadriyatlarga munosabatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Ustoz va komandirlarning shaxsiy namunasi ham katta ahamiyatga ega. Kursantlar qadriyatlarning amaliy ifodasini nafaqat o‘quv materiallaridan, balki kundalik muomala, adolatli munosabat, vazifaga mas’uliyat bilan yondashish va jamoada o‘zini tutish orqali ham o‘rganadilar. Agar tarbiyaviy mashg‘ulotlarda ilgari surilgan talablar kundalik muhitda namoyon bo‘lmasa, ularning tarbiyaviy ta’siri susayishi mumkin. Shuning uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish alohida tadbirlar bilan cheklanmasdan, ta’lim muassasasidagi umumiy tarbiyaviy muhit bilan bog‘liq holda tashkil etilishi lozim.

Tanqidiy fikrlash — mafkuraviy immunitetning amaliy asosi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tanqidiy fikrlash axborotni inkor etish yoki har qanday fikrga shubha bilan qarash degani emas. Uning mohiyati ma'lumotni tekshirish, dalil bilan taxminni farqlash, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish va xulosaning qanchalik asoslanganini baholashdan iborat. Bunday ko'nikmalar kursantga axborot oqimida mustaqil yo'nalish topish va hissiy ta'sir ostida shoshilinch qaror chiqarmaslikka yordam beradi. Harbiy ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun tayyor ma'lumotni eslab qolishga asoslangan mashg'ulotlar bilan cheklanmaslik kerak. Kursantga muammo qo'yilishi, unga tegishli dalillar taqdim etilishi va vaziyatni mustaqil tahlil qilish imkoniyati berilishi lozim. Bunda topshiriqning maqsadi kursantni oldindan belgilangan javobga majburlash emas, balki uning fikrlash jarayoni va dalillardan foydalanish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Masalan, mashg'ulotda mazmuni bir-biridan farq qiluvchi ikkita axborot materiali taqdim etilishi mumkin. Kursant ularning muallifi, manbasi, e'lon qilingan vaqti, keltirilgan dalillari va xulosalarini taqqoslaydi. Shundan so'ng qaysi ma'lumotni ishonchliroq deb hisoblashini va bu qarorga qanday asosda kelganini tushuntiradi. Agar dalillar yetarli bo'lmasa, qo'shimcha tekshiruv zarurligini aytishi ham asosli fikrlashning belgisi hisoblanadi.

Bunday topshiriqlar kursantga har qanday xabarni avtomatik ravishda qabul qilish yoki rad etish o'rniga, uning mazmunini tahlil qilishni o'rgatadi. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlash huquqiy va axloqiy mas'uliyatdan ajralmasligi kerak. Axborotni tekshirish jarayonida xizmatga oid ma'lumotlarni oshkor etmaslik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va tekshirilmagan xabarlarni tarqatmaslik kabi talablar ham e'tiborga olinishi zarur. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli vaziyatlar bilan ishlash, guruh muhokamasi, savol-javob, yozma tahlil va refleksiya kabi usullar qo'l keladi. Bunda har bir mashg'ulotning mazmuni kursantlarning tayyorgarlik darajasi va o'quv maqsadlariga moslashtirilishi kerak.

Qadriyat va mustaqil fikrlashning o'zaro bog'liqligi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Qadriyatli tarbiya va tanqidiy fikrlash bir-biridan ajratilgan holda rivojlantirilsa, ularning imkoniyatlari cheklanib qolishi mumkin. Qadriyatlar kursantning nima uchun mas'uliyatli qaror qabul qilishi kerakligini anglashiga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash esa bu qarorni qanday dalillar va mulohazalar asosida qabul qilishni belgilaydi. Qadriyatli pozitsiya yetarli darajada anglanmagan holatda shaxs tashqi ta'sirlarga nisbatan o'z qarashlarini asoslashda qiynalishi mumkin. Boshqa tomondan, tanqidiy tahlil ko'nikmasi rivojlanmagan bo'lsa, inson o'ziga tanish yoki hissiy jihatdan ma'qul bo'lgan xabarni tekshirmasdan qabul qilishi ehtimoli mavjud. Shu sababli ushbu ikki yo'nalishning uyg'unligi mafkuraviy immunitetni shakllantirishning muhim sharti sifatida qaralishi lozim.

Harbiy ta'lim muassasasida bunday uyg'unlikni ta'minlash uchun mashg'ulot mazmuni, tarbiyaviy ishlar va kundalik amaliyot o'rtasida izchillik bo'lishi zarur. Nazariy mashg'ulotda o'rganilgan qadriyat amaliy vaziyatni tahlil qilishda qo'llanishi, keyin esa kursantning o'z qarori va xatti-harakatiga baho berishi orqali mustahkamlanishi mumkin.

Masalan, jamoat xavfsizligiga taalluqli shartli vaziyatda kursant bir vaqtning o'zida bir nechta talabni hisobga olishi mumkin: qonuniylikka rioya qilish, fuqarolarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, axborotning ishonchliligini aniqlash va xizmat vazifasini mas'uliyat bilan bajarish. Bunday vaziyatni muhokama qilish orqali qadriyatlar mavhum tushuncha bo'lib qolmaydi, balki kasbiy qaror qabul qilish bilan bog'lanadi. Mazkur yondashuvning yana bir afzalligi — kursantning fikrini asoslashga o'rgatishidir. Ustoz tomonidan bildirilgan fikrni shunchaki takrorlash o'rniga, kursant tegishli dalillarni keltirishi, muqobil qarashlarni ko'rib chiqishi va o'z xulosasining sabablarini tushuntirishi lozim. Bu jarayonda pedagogning vazifasi faqat to'g'ri javobni aytish emas, balki fikrlash madaniyatini rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo'yicha pedagogik tavsiyalar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tahlillar asosida harbiy ta’lim muassasasida mafkuraviy immunitetni rivojlantirishga doir bir nechta amaliy yo‘nalishni ajratish mumkin.

Birinchidan, tarbiyaviy mashg‘ulotlarning mazmuni kursantlar uchun muhim bo‘lgan real hayotiy va kasbiy vaziyatlar bilan bog‘lanishi lozim. Bu ularga o‘rganilayotgan qadriyatlarning amaliy ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Ikkinchidan, axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini muntazam mashq qildirish kerak. Xabar manbasini aniqlash, dalillarni tekshirish, fakt va muallif talqinini farqlash hamda xulosaning asoslanganligini baholash kabi topshiriqlar mashg‘ulotlarning mazmuniga kiritilishi mumkin.

Uchinchidan, kursantlarga o‘z fikrini erkin va dalillar bilan ifodalash imkoniyati yaratilishi zarur. Muhokama davomida fikrlar o‘rtasidagi farqni shaxsiy nizoga aylantirmaslik, asosli e’tiroz bildirish va boshqa nuqtayi nazarni tinglash madaniyatiga e’tibor berish lozim.

To‘rtinchidan, ustoz va komandirlarning shaxsiy namunasini tarbiyaviy ishlarning ajralmas qismi sifatida ko‘rish kerak. Adolat, talabchanlik, qonuniylik va mas’uliyat kundalik faoliyatda namoyon bo‘lgandagina tarbiyaviy talablar yanada ishonchli mazmun kasb etadi.

Beshinchidan, kursantning rivojlanishini faqat mashg‘ulotdagi ishtiroki yoki nazariy savollarga bergan javoblari bilan cheklab baholamaslik kerak. Uning vaziyatni tahlil qilishi, xulosasini asoslay olishi va qayta aloqa asosida o‘z fikrini takomillashtirishi ham e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq.

Ushbu tavsiyalar tayyor va o‘zgarmas dastur sifatida emas, balki harbiy ta’lim muassasasining o‘quv rejalari, fan dasturlari va tarbiyaviy vazifalariga moslashtiriladigan metodik yo‘nalishlar sifatida qaralishi lozim.

MUHOKAMA

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishga oid yondashuvlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur masalani faqat targ‘ibot-tashviqot tadbirlari bilan hal etib bo‘lmaydi. Bunday tadbirlar ma’lum bilim va tushunchalarni yetkazishi mumkin, biroq kursantning axborotni mustaqil baholash qobiliyatini rivojlantirish uchun amaliy tahlil va fikr almashish imkoniyatlari ham zarur. Qadriyatli tarbiya va tanqidiy fikrlashni birlashtirish mafkuraviy immunitetni shaxsning ongli pozitsiyasi bilan bog‘lash imkonini beradi. Bu yondashuvda kursant tashqi ta’sirni shunchaki rad etuvchi emas, balki uning mazmunini tahlil qiladigan, dalillarni tekshiradigan va o‘z qarorini mas’uliyat bilan qabul qiladigan shaxs sifatida shakllanadi. Shu bilan birga, mazkur yondashuvni amaliyotga tatbiq etish pedagoglardan muammoli vaziyatlarni to‘g‘ri tanlash, muhokamani boshqarish va kursantlarning fikrlash jarayonini xolis baholash ko‘nikmalarini talab qiladi. Mashg‘ulotning samarasi faqat mavzuning dolzarbligi bilan emas, balki topshiriqning maqsadi, kursantning faol ishtiroki va olingan natijalar yuzasidan berilgan qayta aloqa bilan ham bog‘liq. Maqolaning asosiy xulosasi shundan iboratki, mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda qadriyatlar va tanqidiy fikrlashni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularni yagona pedagogik jarayonning o‘zaro bog‘liq jihatlari sifatida tashkil etish muhimdir.

XULOSA

Oliy harbiy ta’lim muassasasi kursantlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, mustaqil fikrlashi va kasbiy mas’uliyatini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq. Mafkuraviy barqarorlikni faqat tashqi ta’sirlarga qarshilik ko‘rsatish sifatida talqin qilish yetarli emas. Kursant axborotning mazmunini tahlil qilishi, dalillarni tekshirishi, o‘z qadriyatli pozitsiyasini tushunishi va qarorlarini asoslay olishi lozim.

Qadriyatli tarbiya kursantning xizmat burchi, qonuniylik, vatanparvarlik va mas’uliyat haqidagi qarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tanqidiy fikrlash esa bu qarashlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, axborot ta’sirlarini baholash va asosli xulosalar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

chiqarish imkonini beradi. Shu sababli mazkur yo‘nalishlarni o‘quv mashg‘ulotlari, muammoli vaziyatlar, guruh muhokamalari va refleksiv topshiriqlar orqali uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq.

Maqola doirasidagi tahlil asosida mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan bog‘lash, axborotni tekshirish ko‘nikmalarini muntazam mashq qildirish, kursantlarning fikrini dalillar bilan asoslashiga imkon yaratish va ustozlarning shaxsiy namunasiga e’tibor berish muhimligi asoslandi. Ushbu tavsiyalarni harbiy ta’lim muassasasining o‘ziga xos sharoitlariga moslashtirish hamda tajriba-sinov orqali tekshirish kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
5. Musurmonova O. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘qituvchilarni kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
6. Shokirov Sh. Ideologik immunitet kasbiy sifat sifatida harbiy xizmatchilarda // Jamiyat va innovatsiyalar. 2020. 1-jild, maxsus son 1. B. 490–495.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARNING NUTQIY VA HARAKAT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA LOGORITMIK VA MUSIQIY-RITMIK MASHQLARDAN FOYDALANISH

Goipova Nodira Baxtiyor qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD).
ORCID: 0009-0003-1877-7088

Annotatsiya: *Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning nutqiy va harakat faoliyatini rivojlantirishda logoritmik hamda musiqiy-ritmik mashqlardan foydalanishning pedagogik va korreksion imkoniyatlari yoritilgan. Logoritmika, musiqa, ritm, harakat va nutqni uyg'unlashtiruvchi samarali metod sifatida bolaning talaffuzi, eshitish diqqati, xotirasi, muvofiqlashtirish qobiliyati va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada musiqiy-ritmik mashqlarning bolalar nutqini faollashtirish, harakatlarni muvofiqlashtirish, emotsional holatni barqarorlashtirish hamda jamoada muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, mashg'ulotlarni individual yondashuv, bolaning imkoniyatlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, alohida ta'lim ehtiyojlari, logoritmika, musiqiy-ritmik mashqlar, nutqiy rivojlanish, harakat faoliyati, korreksion pedagogika.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛОГОРИТМИЧЕСКИХ И МУЗЫКАЛЬНО-РИТМИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ В РАЗВИТИИ РЕЧЕВЫХ И ДВИГАТЕЛЬНЫХ ФУНКЦИЙ У ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: *В статье освещаются педагогические и коррекционные возможности использования логоритмических и музыкально-ритмических упражнений для развития речевой и двигательной активности детей с особыми образовательными потребностями в условиях инклюзивного образования. Логоритмика, объединяющая музыку, ритм, движение и речь, способствует улучшению произношения, слухового внимания, памяти, координации и социальной активности ребёнка. Анализируется значение музыкально-ритмических упражнений в активизации речи детей, координации движений, стабилизации эмоционального состояния и формировании навыков общения в коллективе. Особое внимание уделяется индивидуальному подходу и учёту возможностей и особенностей развития каждого ребёнка.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, особые образовательные потребности, логоритмика, музыкально-ритмические упражнения, речевое развитие, двигательная активность, коррекционная педагогика.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

THE USE OF LOGORHYTHMIC AND MUSICAL-RHYTHMIC EXERCISES IN DEVELOPING THE SPEECH AND MOTOR FUNCTIONS OF CHILDREN WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS WITHIN AN INCLUSIVE EDUCATION SETTING

Annotation: *This article examines the pedagogical and corrective potential of logorhythmic and musical-rhythmic exercises in developing the speech and motor activity of children with special educational needs in inclusive education settings. Logorhythmics combines music, rhythm, movement, and speech, contributing to the improvement of pronunciation, auditory attention, memory, coordination, and social activity. The article analyzes the role of musical-rhythmic exercises in stimulating children's speech, coordinating movements, stabilizing emotional states, and developing communication skills in group settings. Recommendations are also provided for organizing activities based on an individualized approach and taking into account each child's abilities and developmental characteristics.*

Keywords: *Inclusive education, special educational needs, logorhythmics, musical-rhythmic exercises, speech development, motor activity, corrective pedagogy.*

KIRISH

Logoritmika bu korreksion va rivojlantiruvchi jarayonga integrativ yondashuv sifatida, alohida yordamga muhtoj bolalarda nutq ko'nikmalarini, umumiy va mayda matorikani rivojlantirishga qaratilgan musiqiy, ritmik, nozik harakatlar, umumiy tana harakatlar va nutq elementlarining noyob kombinatsiyasini ifodalaydi. Ushbu mavzuning dolzarbligi rivojlanishdagi buzulishlar, nutq buzilishlarini tuzatishning zamonaviy va samarali usullariga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borishi, shuningdek, sog‘lom va alohida ta‘lim ehtiyojlari bor bolalarning uyg'un rivojlanishiga yordam beradigan inklyuziv ta'lim muhitini yaratish zarurati bilan bog'liq. Ushbu maqolaning maqsadlari korreksion va rivojlanish jarayonida logoritmikaning rolini tahlil qilish va uning turli rivojlanish kamchiliklari bo‘lgan bolalarda umumiy rivojlanish nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sirini aniq lashdan iborat. Logoritmika, rivojlanishdagi buzilishlar nutq buzilishlarini tuzatish usuli sifatida, bolalar bilan ishlashda faol qo'llaniladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolada mayda va umumiy harakat faolligi qanchalik ko'p bo'lsa, nutq rivojlanishi shunchalik yaxshi bo'ladi. Umumiy va nutq harakat qobiliyatlari o'rtasidagi bog'liqlik



I.V.Pavlov, A.A.Leontyev va A.R.Luriya kabi ko'plab yetakchi olimlarning tadqiqotlari bilan o'rganilgan va tasdiqlangan. Bola harakat qobiliyatlarini o'zlashtirar ekan, muvofiqlashtirish rivojlanadi. Harakat rivojlanishi nutq ishtirokida sodir bo'ladi. Oyoqlar, tana, qo'llar va bosh uchun mashqlarni aniq, dinamik bajarish artikulyar organlarni: lablar, til, pastki jag' va boshqalarni takomillashtirishga tayyorlaydi. Harakatni rivojlantirish nutq va musiqa bilan birlashtirilishi kerak. M.O.Efimova o'z ishida xozirgi kuning dolzarb muammolarining biriga qaratadi, yani nutq terapiyasini inklyuziv ta'lim sharoitida integratsiyalashga e'tiborini qaratadi. U korreksion mashg'ulotlarini tashkil qilishning turli yondashuvlarini o'rganib chiqdi va logoritmik vositalardan foydalanish nafaqat nutq ko'nikmalarini yaxshilashga, balki bolalarda ijtimoiy va hissiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ham hissa qo'shishi haqida xulosaga keldi. Efimova yanada inklyuziv ta'lim muhitini yaratish uchun kundalik amaliyotga logoritmik mashg'ulotlarni kiritishni taklif qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Logoritmika - bu bolalarda, ayniqsa alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bolalarda rivojlanish va nutq ko'nikmalarini yaxshilash uchun musiqa, ritm va nutq elementlarini birlashtirgan tuzatish va rivojlantirish ishlari usulidir. Bu yondashuv turli xil faoliyat turlarini kombinatsiyalash tamoyillariga asoslangan bo'lib, bu yanada dinamik va qiziqarli ta'lim muhitini yaratishga imkon beradi. Logoritmika rivojlantirish va nutq terapiyasi amaliyotida muhim rol o'ynaydi, chunki u nafaqat nutq buzilishlarini tuzatishga yordam beradi, balki bolalarda qo'pol motorika, motor koordinatsiyasi va hissiy rivojlanishni ham rivojlantiradi. Logoritmikaning psixologik va pedagogik jihatlari musiqa va ritm bolaning normal rivojlanishi va psixoemotsional holatiga qanday ta'sir qilishini tushunishni o'z ichiga oladi. Logoritmika mashg'ulotlari bezovtalikni kamaytirishga, o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshirishga va shaxslararo munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi. Ritmik mashqlar nutq va harakat uchun mas'ul bo'lgan miyaning turli sohalarini faollashtiradi, bu esa o'z navbatida nutq



ko'nikmalarini yanada samarali egallashga yordam beradi. Logoritmik mashqlar o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismlari bo'lgan diqqat, xotira va eshitish idrokini rivojlantirishga yordam beradi. Logoritmik mashqlarning asosiy tamoyillari har bir bolaga individual yondashuv, o'yinli mashg'ulotlardan foydalanish va mashg'ulotlar davomida hissiy jihatdan qulay muhit yaratishni o'z ichiga oladi. Logoritmik usullar oddiy ritmik mashqlardan tortib murakkab musiqiy va o'ynoqi formatlargacha bo'lgan turlarni o'z ichiga oladi. Asosiy usullar qatoriga musiqa asboblaridan foydalanib ritm yaratish, musiqaga mos ravishda harakatlar bajarish va nutq mashqlarini musiqiy o'yinlarga integratsiya qilish kiradi. Bu usullar nafaqat nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki bolalarning umumiy jismoniy tayyorgarligini ham mustahkamlaydi. Logoritmika mashg'ulotlarining asosiy maqsadi nogiron bolalarda nutq buzilishlarini tuzatishdir. Mashg'ulotlar fonetik va fonemik xatolarni bartaraf etish, artikulyatsion motorikani rivojlantirish va nutqning umumiy rivojlanishini yaxshilashga qaratilgan. Logoritmika korreksion mashg‘ulotlarda nutq ustida ishlash uchun o'yin shakllaridan foydalanish imkoniyatini beradi, bu esa korreksion jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Fonemik idrok va artikulyatsiyani rivojlantirish logoritmika mashg'ulotlarining asosiy maqsadlaridan biridir. Fonemik idrok nutq tovushlari va ularning kombinatsiyalarini farqlash qobiliyatini o'z ichiga oladi, bu esa to'g'ri talaffuz va tilni tushunish uchun asosdir. Logoritmika chuqurroq o'rganishga yordam beradigan ritm va musiqa orqali ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan turli xil mashqlarni taklif etadi. Ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarni rivojlantirish ham logoritmika mashg'ulotlarining muhim maqsadi hisoblanadi. Mashg'ulot davomida bolalar bir-biri bilan muloqot qilishni o'rganadilar va hamkorlik va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Mashg'ulotlarning hissiy komponenti bolalarga o'z his-tuyg'ularini musiqa va harakat orqali ifoda etishga yordam beradi, bu esa ijobiy o'ziga ishonch va o'ziga ishonchni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Logoritmik mashg'ulotning tuzilishi odatda bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi: tayyorgarlik, asosiy va yakuniy. Tayyorgarlik bosqichida

bolalar oddiy ritmik mashqlar yoki musiqiy o'yinlar orqali mashg'ulotga tayyorlanadilar. Asosiy bosqich nutq va motor ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan turli vazifalarni bajarishni o'z ichiga oladi. Yakuniy bosqich mashg'ulotni yakunlash va muvaffaqiyatlar va kamchiliklarni muhokama qilishga bag'ishlangan. Logoritmik mashg'ulotlar uchun turli xil materiallar va cholg'ular qo'llaniladi. Baraban, ksilofon zarbli cholg'u asboblari ritm yaratishga va eshitish idrokini rivojlantirishga yordam beradi. Nutqni rivojlantirish o'yinlarida ishlatilishi mumkin bo'lgan materiallar yoki harakatlar tasvirlangan kartalar ham qo'llaniladi. Logoritmik mashg'ulotlar doirasidagi mashqlar va o'yinlarga misollar sifatida musiqa cholg'ularidan foydalangan holda ritmik o'yinlar, so'zlar yoki iboralarni talaffuz qilish bilan musiqaga raqs mashqlari va ritmdan foydalangan holda diqqat va xotira o'yinlari kiradi. Bunday mashg'ulotlar nafaqat nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga, balki bolalarning umumiy jismoniy faolligini ham rag'batlantiradi, bu esa o'quv jarayonini yanada keng qamrovli va samarali qiladi. Logoritmikani inklyuziv ta'lim jarayoniga integratsiya qilish tizimli yondashuvni va bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Bolalarning darslarda faol ishtirok etishini rag'batlantiradigan ijobiy hissiy muhit yaratishdan boshlash muhimdir. Pedagoglarga darsning turli bosqichlarida, logoritmik elementlarni qo'shish tavsiya etiladi. Inklyuziv talimda nafaqat bolalarning umumiy rivojlanishiga balki nutqni rivojlantirishga ham hissa qo'shadigan ritmik mashqlar, musiqiy o'yinlar va raqs elementlaridan foydalanish orqali erishish mumkin. Inklyuziv ta‘limda logoritmikadan foydalanish jarayonida darslarning turli formatlarini ham ko'rib chiqish kerak: individual, guruhli va kombinatsiyalangan. Chunki inklyuziv ta‘limda dars mazmunini bolalarning tayyorgarlik darajasi va qiziqishlariga qarab moslashtirish muhimdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inklyuziv ta‘limda logoritmik mashqlarning samaradorligini niqlash uchun o'quv yili davomida har chorakda baholash o'tkaziladi. Bolada rivojlanish jarayoniga tasiri va natijalar bolalarning nutqini rivojlantirishdagi natijalar , musiqaga qay darjada

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

baho berganliklarini, ritm hissi kabi musiqiy qobiliyatlarning shakllanganligi, eshitish qobiliyati va og'zaki xotiraning yaxshilanganligini, so'z boyligining oshganligini, artikulyatsiyaning yaxshilanganligini va nozik motorikaning yaxshilanganligini tahlil qilinadi. Inklyuziv ta‘limda logoritmik mashqlardan foydalanish undan tashqari video va audio yozuvlar kabi multimedia resurslaridan foydalanish inklyuziv ta‘limda korreksion jarayonini sezilarli darajada boyitishi va uni bolalar uchun yanada qiziqarli qilishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, logoritmika mashqlari alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan tuzatuvchi va rivojlantirish ishlarining samarali usuli hisoblanadi. Logoritmikani ta'lim jarayoniga integratsiya qilish nutq ko'nikmalarini yaxshilashga, fonemik idrokni rivojlantirishga va bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda alohida ta‘lim ehtiyojlari bolgan bolalarning rivojlanishiga logoritmik aralashuvlarning samaradorligi shunchalik kattaki, uni nafaqat tuzatish vositasi sifatida, balki, eng avvalo, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarining oldini olish vositasi sifatida ham amaliyotga joriy etish kerak. Logoritmik o'yinlar va mashqlardan muntazam foydalanish nogiron bolalarga o'zlarining individualligini ifoda etish imkonini beradi. Inklyuziv ta‘lim sharoitida alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning nutqiy va harakat faoliyatini rivojlantirishda logoritmik va musiqiy-ritmik mashqlar samarali korreksion-pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu mashqlar musiqa, ritm, harakat va nutqni bir butun jarayonda uyg‘unlashtirib, bolalarning talaffuzi, so‘z boyligi, eshitish diqqati, xotirasi, harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyati va ijtimoiy moslashuvini rivojlantiradi. Mashg‘ulotlarning muntazam, izchil va bolaning individual imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etilishi ijobiy natijalarni ta‘minlaydi. Logoritmik faoliyat bolalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirib, ularning ta‘lim jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rustamova, G. Z. X. Q., & Mahamadjonova, D. N. Q. (2026). Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Science and Education, 7(3), 372-376. 2.Botirali ogli, X. A. (2025). Current Problems Of Inclusive Education: Challenges And Perspectives. European International Journal of Pedagogics, 5(06), 26-29.3.

3. Шукуржанова, М., & Рафикова, Р. А. (2026). Игра и воображение: влияние цифровых технологий. *Science and Education*, *7*(5), 486-490.

4. Islomjonova, M. S., & Voxobova, M. S. (2026, April). THE ROLE OF THE FAMILY ENVIRONMENT IN THE DEVELOPMENT OF A CHILD'S SPEECH. In *Claritas Conference Platform* (No. 4, pp. 44-47).

5. Rustamova, G., & Rakhmatullayeva, Z. (2026, January). THE INTERRELATIONSHIP BETWEEN APPEARANCE AND SELF-ATTITUDE DURING ADOLESCENCE. In Claritas Conference Platform (No. 1, pp. 26-29).

6. Botirali ogli, X. A. (2023). 4. STEAM pedagogik texnologiyasi: integratsiya orqali o'rganishni kuchaytirish. Innovative technologies in construction Scientific Journal, 1(1).

7. Tojibaeva, A. A. K., & Hasanboyeva, K. M. K. (2026). The environment for speech development in the family and its importance. Science and Education, 7(3), 696-699

8. Xasanboyev, A. B. O. G. L. (2026). Pedagogika yo 'nalishi talabalarining tarbiyaviy ish ko 'nikmalarini STEAM yondashuv asosida rivojlantirish mexanizmi. Science and Education, 7(2), 311-317.

9 . Tojibaeva, A. A. K., & Abdumamatova, Z. A. Q. (2026, February). ATTENTION DEFICIT IN CHILDRENAND TECHNOLOGIES FOR ELIMINATING ADDICTION AND HYPERACTIVITY SYNDROME. In Claritas Conference Platform (No. 2, pp. 34-36).

10. Goipova, N. B., & Erkinova, M. M. Q. (2025). Bola nutqini rivojlanishida eshitish va ko 'rishning ahamiyati. Science and Education, 6(6), 741-744.

11. Olimjonovna, R. Z. (2026). EMOTSIONAL INTELLEKTDA GENDER FARQLAR MUAMMOSI. KELAJAK SARI YANGI O'ZBEKISTON: ILM-FAN, TEXNOLOGIYA VA TA'LIM, 4(1), 138-144. 12. Goipova, N. B. Q., & Uraimjonova, Z. I. Q. (2025). Nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari. Science and Education, 6(5), 387-392.

13. Tojibaeva, A. A. K., & Kholmamatova, Z. K. K. (2026). AUTISM SPECTRUM DISORDER-MODERN CONCEPTS AND APPROACHES. European Review of Contemporary Arts and Humanities, 2(2), 25-27.

14. Rustamova, G., & Rakhmatullayeva, Z. (2026, January). THE INTERRELATIONSHIP BETWEEN APPEARANCE AND SELF-ATTITUDE DURING ADOLESCENCE. In Claritas Conference Platform (No. 1, pp. 26-29).

15. Qizi, T. O. A. (2024). NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARNING DIQQATINI TEKSHIRISH METODIKASI. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(59), 347-350.

16. Rustamova, G. K. Q., & Sharipova, E. Z. A. Q. (2026, February). THE IMPACT OF ATTENTION AND MEMORY ON LEARNING EFFECTIVENESS. In Claritas Conference Platform (No. 2, pp. 51-54).

17. Xasanboyeva, X., & Goipova, NB (2026). OILADA NUTQNI RIVOJLANTIRISH MUHITI VA UNING AHAMIYATI. *Zamonaviy san'at va gumanitar fanlar bo'yicha Yevropa sharhi , 2* (4), 110-112.
18. Karimova, N. B., & Voxobova, M. S. (2026, April). DEVELOPING COMMUNICATIVE SKILLS IN AUTISM SPECTRUM DISORDER. In *Claritas Conference Platform* (No. 4, pp. 48-52).
19. Yandashaliyeva, S. N., & Voxobova, M. S. (2026). NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALARNING DIQQAT-E'TIBOR XUSUSIYATLARI VA ULARNI TEKSHIRISH METODIKALARI. *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*, (4), 38-40.
20. Эркинова, Р. М. К., & Рафикова, Р. А. (2026). Проектная и исследовательская деятельность как способ поддержания учебной мотивации и социализации в больнице. *Science and Education*, *7*(6), 275-280.
21. EDUCATION, S. I. I. I. INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA NUTQIDA NUQSONI BO 'LGAN O 'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH.

УДК 378.147:37.015.3:316.752

СИНЕРГЕТИЧЕСКИЕ ЗАКОНОМЕРНОСТИ СТАНОВЛЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ЦЕННОСТНОЙ ПОЗИЦИИ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Rayimjonova Nodira Lochin qizi
Namangan davlat pedagogika instituti 1-bosqich tayanch doktoranti
Elektron manzil: nlochinbekovna01@gmail.com
ORCID: 0009-0002-3776-1666

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретико-методологические основания и синергетические закономерности становления профессионально-ценностной позиции студентов в системе высшего педагогического образования. Актуальность исследования обусловлена необходимостью совершенствования профессиональной подготовки будущих педагогов в условиях трансформации образовательной среды, цифровизации обучения и повышения требований к нравственно-этической, социальной и профессиональной ответственности педагогических кадров. Особое внимание уделяется применению синергетического подхода, позволяющего рассматривать формирование профессиональных ценностей как сложный, нелинейный, открытый и самоорганизующийся процесс.*

На основе теоретического анализа философской, психолого-педагогической и научно-методической литературы раскрывается сущность профессионально-ценностной позиции будущего педагога, определяются её структурные компоненты, внутренние механизмы и педагогические условия развития.

Ключевые слова: *синергетика, синергетический подход, профессиональные ценности, ценностные ориентации, профессионально-ценностная позиция, педагогическое образование, самоорганизация, нелинейность, профессиональная идентичность, рефлексия.*

SYNERGETIC PATTERNS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' PROFESSIONAL VALUE ORIENTATION IN HIGHER TEACHER EDUCATION

Annotation. *The article examines the theoretical and methodological foundations and synergetic patterns underlying the development of students' professional value orientation within the system of higher pedagogical education. The relevance of the study is determined by the need to improve the professional training of future teachers in the context of the transformation of the educational environment, the digitalization of learning, and increasing demands for the moral and ethical, social, and professional responsibility of teaching staff. Particular attention is paid to the application of the synergetic approach, which makes it possible to view the formation of professional values as a complex, nonlinear, open, and self-organizing process.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Based on a theoretical analysis of philosophical, psychological and pedagogical, and scientific and methodological literature, the article elucidates the essence of the professional value orientation of future teachers and identifies its structural components, internal mechanisms, and pedagogical conditions for development.

Keywords: *synergetics, synergetic approach, professional values, value orientations, professional value orientation, teacher education, self-organization, nonlinearity, professional identity, reflection.*

OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARNING KASBIY-QADRIYATLI POZITSIYASI SHAKLLANISHINING SINERGETIK QONUNIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarning kasbiy-qadriyatli pozitsiyasini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va sinergetik qonuniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning dolzarbligi ta'lim muhitining transformatsiyasi, ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi hamda pedagog kadrlarning axloqiy, ijtimoiy va kasbiy mas'uliyatiga qo'yilayotgan talablarning ortib borishi sharoitida bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish zarurati bilan belgilanadi. Kasbiy qadriyatlarning shakllanishini murakkab, chiziqli bo'lmagan, ochiq va o'z-o'zini tashkil etuvchi jarayon sifatida ko'rib chiqish imkonini beruvchi sinergetik yondashuvni qo'llashga alohida e'tibor qaratiladi.*

Ikkinchidan, integratsiya o'quv faoliyatining "muammo – tadqiqot – g'oya – dizayn – prototip – sinov – takomillashtirish – taqdimot" sikli asosida tashkil etilishiga sharoit yaratadi. Bunday sikl o'quvchini tayyor javobni qabul qiluvchi subyektdan muammoni hal qiluvchi faol subyektga aylantiradi. Zamonaviy tizimli tadqiqotlarda real hayot muammolari, izlanish, dizayn va jamoaviy faoliyat integratsiyalashgan STEM/STEAM ta'limining takrorlanuvchi tamoyillari sifatida qayd etilishi ushbu natijani qo'llab-quvvatlaydi.

Uchinchidan, fanlararo integratsiya kreativ va tanqidiy fikrlashning bir vaqtda namoyon bo'lishiga imkon beradi. Kreativ fikrlash muqobil g'oyalarni ishlab chiqish, yangi dizayn yoki model yaratishda, tanqidiy fikrlash esa dalillarni tekshirish, cheklovlarni aniqlash va yechimning samaradorligini asoslashda namoyon bo'ladi. Biroq adabiyotlar kreativlikning STEAMdagi real o'quv natijasi sifatida muntazam va aniq o'lchanishi hali yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganini ko'rsatadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

To'rtinchidan, integratsiyaning samaradorligi fanlarning barchasini teng miqdorda ishlatish bilan emas, balki har bir komponentning muammoni hal qilishga zarur bo'lgan aniq funksiyani bajarishi bilan belgilanadi. 2026-yilgi tizimli sharhda ham STEAM intervensiyalarida fanlar rollari turlicha ekanligi, ayrim hollarda esa STEAM atamasi fanlarning mazmuniy ishtirokini yetarlicha ifodalamagani qayd etilgan.

Beshinchidan, STEAM integratsiyasi uchun baholash tizimi ham integrallashgan bo'lishi kerak. Yakuniy mahsulot bilan bir qatorda muammoni tushunish, fanlararo bilimlarni bog'lash, dizayn qarorlarini asoslash, hisob-kitoblarning aniqligi, prototipni sinash, jamoaviy hamkorlik, refleksiya va takomillashtirish kabi mezonlar baholanishi lozim. Bu yondashuv integratsiyani faqat "chiroyli loyiha" yaratish darajasidan chiqarib, o'quvchining real kompetensiyalarini aniqlashga imkon beradi.

Umuman olganda, tahlil natijalari STEAM integratsiyasini uch o'zaro bog'liq mezon orqali tavsiflash imkonini beradi: birinchisi — mazmuniy bog'liqlik, ya'ni fan bilimlarining bitta muammoni tushuntirish va yechishga xizmat qilishi; ikkinchisi — faoliyatning yaxlitligi, ya'ni tadqiqot, dizayn, hisoblash, yaratish va sinov bosqichlarining uzviyligi; uchinchisi — natijaviy transfer, ya'ni o'quvchining o'zlashtirilgan bilimlarni yangi vaziyatda qo'llay olishi. Mazkur uch mezon kelgusida STEAM darslarini loyihalash va empirik baholash uchun metodik asos bo'la oladi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar STEAM ta'limida fanlararo integratsiyani oddiy fanlar yig'indisi sifatida emas, balki yagona muammo va umumiy faoliyat mahsuli atrofida bilimlarning funksional birlashuvi sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuvda integratsiyaning markaziy birligi fan emas, balki o'quvchi yechishi lozim bo'lgan real yoki modellashtirilgan muammo hisoblanadi. Shunda matematika hisoblash va modellashtirish vositasiga, tabiiy fanlar sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga, texnologiya ma'lumot va raqamli vositalarni boshqarishga, muhandislik dizayn va

prototiplashga, san'at esa kreativ konsepsiya, vizual kommunikatsiya va estetik yechimga xizmat qiladi.

Mazkur talqin STEAMning nazariy asoslari bo'yicha avvalgi tadqiqotlar bilan uyg'unlashadi. Xususan, Perignat va Katz-Buonincontro STEAM adabiyotlarida integratsiyaning turli shakllari mavjudligini ko'rsatib, fanlarni birlashtirish darajasi va san'at komponentining funksiyasi bir xil emasligini qayd etgan. Shu jihatdan, "STEAM darsi" degan nomning o'zi integratsiya chuqurligini kafolatlamaydi; integratsiya o'quv vazifasi, faoliyat jarayoni va kutilayotgan natijalarda ko'rinishi kerak.

Muhokamaning muhim jihatlaridan biri "A" komponentining o'rniga taalluqlidir. San'atni faqat bezak, rasmiylashtirish yoki yakuniy taqdimot vositasiga aylantirish STEAMning mazmunini toraytiradi. San'at va dizayn elementlari muammoni boshqacha ko'rish, g'oyalarni vizuallashtirish, foydalanuvchi tajribasini hisobga olish, shakl va funksiyani uyg'unlashtirish hamda bir nechta yechim orasidan tanlash jarayonida faol ishtirok etgandagina integratsiyaning mazmuniy komponentiga aylanadi. Bu jihat STEAM bo'yicha tizimli tadqiqotlarda san'at komponentining mustaqil pedagogik funksiyasini aniqlash masalasi hali ham muhimligini ko'rsatadi

Boshqa tomondan, fanlararo integratsiya o'quv jarayonini avtomatik ravishda samaraliroq qilmaydi. Integratsiyalashgan topshiriq haddan tashqari murakkab tuzilsa, o'quvchi asosiy fan mazmunini chuqur o'zlashtirishdan chalg'ishi mumkin. Shu sababli integratsiya "ko'proq fan — ko'proq natija" tamoyiliga emas, "zarur bilim — aniq vazifa — asoslangan mahsulot" tamoyiliga tayanishi lozim. O'qituvchi har bir komponentning vazifasini oldindan belgilab, ularning bir-biriga qanday bog'lanishini ko'rsatishi kerak.

Natijalarni baholash masalasida ham shunga o'xshash muammo kuzatiladi. Agar faqat yakuniy loyiha yoki prototip baholansa, o'quvchining fanlararo fikrlash jarayoni yetarlicha aks etmaydi. Aksincha, jarayonli baholashda muammoni aniqlash, gipoteza ilgari surish, ma'lumot to'plash, hisoblash, dizayn qarorini asoslash, prototipni sinash, xatoni aniqlash va yechimni qayta ishlab chiqish kabi bosqichlar ham hisobga olinadi. Bu

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yondashuv integratsiyalashgan ta'limning epistemik xususiyatlarini yaxshiroq ifodalaydi.

STEAM integratsiyasining yana bir muhim imkoniyati — o'quvchilarning fanlararo transfer qobiliyatini rivojlantirishdir. O'quvchi bir fan doirasida o'rgangan tushuncha yoki usulni boshqa kontekstda qo'llay boshlaganda bilim funksional tus oladi. Masalan, matematik nisbat va foiz tushunchalari energiya sarfini hisoblashda, informatika ma'lumotlarni qayta ishlashda, fizika energiya samaradorligini izohlashda, muhandislik esa tejovchi qurilma modelini yaratishda birlashishi mumkin. Natijada bilimlar alohida "bo'laklar" emas, balki muammoni hal qilishga xizmat qiluvchi yagona tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, o'qituvchining metodik tayyorgarligi integratsiyaning asosiy shartlaridan biridir. Fanlararo loyihani rejalashtirishda o'qituvchi faqat o'z fanining mazmunini emas, balki boshqa fanlarning loyiha ichidagi funksiyasini ham tushunishi zarur. Bu esa hamkorlikdagi rejalashtirish, umumiy rubrikalar, fanlararo loyiha banki va o'qituvchilar o'rtasida metodik koordinatsiyani talab qiladi. Demak, STEAMni joriy etish faqat o'quvchi faoliyatini emas, balki pedagogik hamkorlik modelini ham o'zgartiradi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, mazkur bosqichda bevosita maktab tajribasida eksperimental va nazorat guruhlarini taqqoslash orqali statistik samaradorlik ko'rsatkichi olinmagan. Shuning uchun keyingi empirik tadqiqotlarda ishlab chiqilgan modelni turli yosh guruhlari, fanlar va ta'lim sharoitlarida sinovdan o'tkazish hamda valid va ishonchli baholash vositalari bilan tekshirish zarur.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida STEAM ta'limida fanlararo integratsiya zamonaviy maktab ta'limining mazmunini real hayot muammolari bilan bog'lash, o'quvchilarning turli fanlarga oid bilimlarini yagona faoliyat doirasida qo'llash va yuqori darajadagi fikrlash jarayonlarini rivojlantirish imkonini beruvchi kompleks pedagogik yondashuv sifatida tavsiflandi.

Birinchidan, samarali integratsiyaning asosiy birligi alohida fan emas, balki fanlararo yechimni talab qiladigan muammo hisoblanadi. Ikkinchidan, STEAM komponentlari o'zaro funksional aloqada bo'lishi, ya'ni har bir fan loyiha maqsadiga real hissa qo'shishi kerak. Uchinchidan, o'quv faoliyati tadqiqot, modellashtirish, dizayn, prototiplash, sinov va refleksiya kabi bosqichlarni qamrab olgan sikl asosida tashkil etilganda integratsiyaning pedagogik imkoniyatlari to'liqroq namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, STEAMda baholash faqat tayyor mahsulotga emas, balki uning yaratilish jarayoniga ham yo'naltirilishi zarur. Mazkur yondashuv o'quvchining ilmiy fikrlashi, matematik savodxonligi, texnologik faoliyati, muhandislik dizayni, kreativligi, hamkorligi va refleksiv qobiliyatlarini birgalikda aniqlash imkonini beradi. Beshinchidan, integratsiya sifatini fanlar soni bilan emas, balki bilimlar o'rtasidagi real bog'lanish, umumiy muammo va o'quvchining bilimni yangi vaziyatga ko'chira olish qobiliyati bilan baholash maqsadga muvofiq.

Kelgusidagi empirik tadqiqotlarda taklif etilgan integratsiya modelini umumta'lim maktablarining turli bosqichlarida sinovdan o'tkazish, fanlararo loyihalarning o'quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashiga ta'sirini eksperimental dizayn asosida aniqlash, shuningdek integratsiyalashgan baholash rubrikalarining validligi va ishonchliligini tekshirish zarur.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, STEAMning ilmiy-metodik qiymati besh fan nomini bir darsga jamlashda emas, balki o'quvchini murakkab muammoni turli fanlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish, dalillangan yechim yaratish, uni sinash va takomillashtirishga olib boradigan yaxlit ta'limiy muhitni shakllantirishdadir. Bunday muhitda fanlararo integratsiya nafaqat bilimlarni birlashtiradi, balki bilimdan amaliy faoliyatda foydalanish madaniyatini ham rivojlantiradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Yakman G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education // PATT-19 Conference Proceedings. – Salt Lake City, 2008.

2. Quigley C. F., Herro D., Jamil F. M. Developing a Conceptual Model of STEAM Teaching Practices // School Science and Mathematics. – 2017. – Vol. 117, No. 1–2. – P. 1–12.
3. Perignat E., Katz-Buonincontro J. STEAM in practice and research: An integrative literature review // Thinking Skills and Creativity. – 2019. – Vol. 31. – P. 31–43. – DOI: 10.1016/j.tsc.2018.10.002.
4. Henriksen D. Full STEAM ahead: Creativity in excellent STEM teaching practices // The STEAM Journal. – 2014. – Vol. 1, No. 2. – P. 15–24.
5. Herro D., Quigley C. Exploring teachers' attitudes toward STEAM education // Journal of Science Education and Technology. – 2017. – Vol. 26. – P. 1–13.
6. Mo'minova M. U. Strategic Management of General Secondary Schools Modeling Processes // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – Belgium, 2023. – Vol. 24. – P. 13–17. – ISSN 2795-739X. – URL: https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/4907/4126
7. Sanz-Camarero R., Ortiz-Revilla J., Greca I. M. The Impact of Integrated STEAM Education on Arts Education: A Systematic Review // Education Sciences. – 2023. – Vol. 13, No. 11. – Article 1139. – DOI: 10.3390/educsci13111139.
8. White D., Delaney S. Full STEAM ahead, but who has the map? A PRISMA systematic review on the incorporation of interdisciplinary learning into schools // LUMAT: International Journal on Math, Science and Technology Education. – 2021. – Vol. 9, No. 2.
9. Mo'minova M. U. "Developing Students' Critical Thinking Through Interdisciplinary Projects". International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – Vol. 5, Issue 11. – P. 2458–2461. – ISSN 2692-515X. IF:9.23. https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/8322/12209
10. Salonen A., Sormunen K., Eronen L., Kokko S. The roles of S-T-E-A-M disciplines in STEAM education: systematic literature review of intervention studies // International Journal of Technology and Design Education. – 2026. – DOI: 10.1007/s10798-026-10124-4.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA DIAGNOSTIKA VOSITALARI

G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti, o'qituvchi
E-mail: shayxislomgayniddinov95@gmail.com
ORCID: 0009-0002-0928-3177

Annotatsiya: *Tadqiqot maqsadi — bo'lajak o'qituvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash pedagogik tizimining samarali amalga oshirilishini ta'minlovchi zarur va yetarli shart-sharoitlarni aniqlash hamda tizimning tashxis-natijaviy blokini ta'minlovchi diagnostika vositalarini ishlab chiqish. Tadqiqot metodlari: pedagogik shart-sharoitlar nazariyasiga oid adabiyotlar tahlili; ekspert baholash (24 nafar ekspert, 5 ballik shkala, reytinglash); ekspertlar fikri kelishuvini Kendall konkordatsiya koeffitsiyenti orqali baholash; diagnostika vositalarini mazmuniy validlik va ishonchlilik (Kronbax alfa) talablari asosida loyihalash. Tadqiqot natijalari: 12 ta dastlabki shart-sharoitdan ($W = 0,71$; $p < 0,01$) oltita zarur va yetarli shart-sharoit ajratildi — modulni o'quv rejasiga kiritish va malaka talablarida aks ettirish; professor-o'qituvchilarni maqsadli tayyorlash (36 soatlik kurs); real xalqaro ma'lumotlar va topshiriqlar banki; raqamli muhit va o'quv-uslubiy ta'minot; refleksiv va hamkorlik muhiti; milliy-tadqiqot instituti va maktablar bilan hamkorlik. Har bir shart-sharoitning mazmuni, amalga oshirish mexanizmi va tekshirish ko'rsatkichlari, shuningdek, kompetentlikning 16 ko'rsatkichini o'lchovchi diagnostika vositalari (test, amaliy va keys-topshiriqlar, anketa, refleksiv vositalar) hamda ularni 0–2 ball shkalasiga keltirish qoidalari yoritildi. Xulosalar: aniqlangan shart-sharoitlar o'zaro bog'liq tizimni tashkil etadi; ularning yetarliligi va diagnostika vositalarining ishonchliligi tajriba-sinov ishlarida tekshiriladi.*

Kalit so'zlar: *pedagogik shart-sharoitlar, ekspert baholash, Kendall koeffitsiyenti, malaka oshirish, diagnostika vositalari, test, anketa, refleksiv so'rovnoma, xalqaro baholash kompetentligi.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ И ДИАГНОСТИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТАРИЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К МЕЖДУНАРОДНЫМ ОЦЕНОЧНЫМ ПРОГРАММАМ

Гайниддинов Шайхислом Толибжон угли, преподаватель Наманганского государственного педагогического института

Аннотация: *Цель исследования — определить необходимые и достаточные условия эффективной реализации педагогической системы подготовки будущих учителей к международным оценочным программам и разработать диагностический инструментарий для её диагностико-результативного блока. Методы исследования: анализ литературы по теории*

педагогических условий; экспертная оценка (24 эксперта, пятибалльная шкала, ранжирование); оценка согласованности мнений экспертов с помощью коэффициента конкордации Кендалла; проектирование диагностических средств с учётом требований содержательной валидности и надёжности (альфа Кронбаха). Результаты исследования: из 12 первоначальных условий (W = 0,71; p < 0,01) выделены шесть необходимых и достаточных — включение модуля в учебный план и отражение компетенции в квалификационных требованиях; целевая подготовка преподавателей (36-часовой курс); реальные международные данные и банк заданий; цифровая среда и учебно-методическое обеспечение; рефлексивная среда сотрудничества; взаимодействие с национальным исследовательским институтом и школами. Раскрыты содержание, механизмы реализации и показатели проверки каждого условия, а также диагностический инструментарий, измеряющий 16 показателей компетентности (тест, практические и кейс-задания, анкета, рефлексивные средства), и правила приведения результатов к шкале 0–2 балла. Выводы: выявленные условия образуют взаимосвязанную систему; их достаточность и надёжность инструментария проверяются в ходе опытно-экспериментальной работы.

Ключевые слова: *педагогические условия, экспертная оценка, коэффициент Кендалла, повышение квалификации, диагностический инструментарий, тест, анкета, рефлексивный опросник, компетентность в области международного оценивания.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS AND DIAGNOSTIC TOOLS FOR PREPARING PRE-SERVICE TEACHERS FOR INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMMES

Gayniddinov Shaykhislom Tolibjon ugli, Lecturer, Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: *The purpose of the study is to identify the necessary and sufficient conditions for the effective implementation of the pedagogical system for preparing pre-service teachers for international assessment programmes and to develop diagnostic tools for its diagnostic-evaluative block. Research methods: analysis of the literature on the theory of pedagogical conditions; expert evaluation (24 experts, a five-point scale, ranking); assessment of expert agreement using Kendall's coefficient of concordance; design of diagnostic tools in line with the requirements of content validity and reliability (Cronbach's alpha). Results: of 12 initial conditions (W = 0.71; p < 0.01), six necessary and sufficient conditions were identified — inclusion of the module in the curriculum and of the competence in qualification requirements; targeted preparation of university lecturers (a 36-hour course); authentic international data and a task bank; a digital environment and teaching materials; a reflective, collaborative learning environment; and cooperation with the national research institute and schools. The content, implementation mechanisms and verification indicators of each condition are described, together with the diagnostic tools measuring the 16 competence indicators (test, practical and case tasks, questionnaire, reflective tools) and the rules for converting results to a 0–2 scale. Conclusions: the identified conditions form an interrelated system; their sufficiency and the reliability of the tools are to be verified in experimental work.*

Keywords: *pedagogical conditions, expert evaluation, Kendall's W, professional development, diagnostic tools, test, questionnaire, reflective survey, international assessment competence.*

KIRISH

Pedagogik tizim modelining samarali amalga oshirilishi uning bloklari mazmuniga qanchalik bog'liq bo'lsa, tizim faoliyat yuritadigan muhit — pedagogik shart-sharoitlarga ham shunchalik bog'liq. Oldingi tadqiqotlarimizda bo'lajak o'qituvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning pedagogik tizimi modeli, modul dasturi va vositalar tizimi asoslangan [1; 2; 3]. Biroq tizimni amaliyotga joriy etishni ta'minlovchi shart-sharoitlar majmuasi va uning natijadorligini o'lchovchi diagnostika vositalari alohida o'rganilmagan.

Maqolaning maqsadi — tizimni amalga oshirishning zarur va yetarli pedagogik shart-sharoitlarini ekspert baholash asosida aniqlash hamda tizimning tashxis-natijaviy blokini ta'minlovchi diagnostika vositalarini tavsiflashdir. Tadqiqot vazifalari: 1) pedagogik shart-sharoitlar tushunchasi va ularni aniqlash metodikasini asoslash; 2) dastlabki shart-sharoitlar ro'yxatini ekspert baholash orqali reytinglash va zarur hamda yetarli shart-sharoitlarni ajratish; 3) har bir shart-sharoitning mazmuni, amalga oshirish mexanizmi va tekshirish ko'rsatkichlarini belgilash; 4) kompetentlik ko'rsatkichlarini o'lchovchi diagnostika vositalari to'plami va natijalarni darajalarga keltirish qoidalarini ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik shart-sharoitlar ta'lim jarayonining maqsadga erishishini ta'minlovchi, ongli yaratiladigan tashkiliy, mazmuniy, metodik va psixologik omillar majmuasi sifatida ta'riflanadi (N. V. Ippolitova, N. S. Sterxova) [4]; ular tashqi va ichki, zarur va yetarli turlarga bo'linadi. Ekspert baholash metodikasi va Kendall konkordatsiya koeffitsiyenti pedagogik tadqiqotlarda shart-sharoitlarni reytinglashda keng qo'llaniladi [5]. Diagnostika vositalarini ishlab chiqishda mazmuniy validlik (ekspert tekshiruvi) va ishonchlilik (Kronbax alfa) talablariga amal qilinadi [6]. TALIS

2024 ma'lumotlari o'qituvchilar malaka oshirishining eng samarali shakli hamkorlik ekanini ko'rsatadi [7]. O'qituvchining baholash savodxonligi [10], o'z samaradorligiga ishonchi [11] va o'qituvchi tayyorlashning xalqaro tajribasi [12] bo'yicha tadqiqotlar shart-sharoitlar mazmunini belgilashda tayanch bo'ldi.

Metodlar. Tadqiqotda shart-sharoitlar uch manba (model tuzilmasi, amaliyot kamchiliklari, ekspert so'rovi) asosida aniqlandi. Ekspertlar — pedagogika OTMlari professor-o'qituvchilari (12 nafar), xalqaro baholash fanini o'qitganlar (4), amaliyot rahbarlari (4), milliy-tadqiqot instituti mutaxassislari (4); jami 24 nafar. Baholash 5 ballik shkalada o'tkazildi va natijalar reytinglandi; ekspertlar fikrining kelishuvi Kendall konkordatsiya koeffitsiyenti (W) va χ^2 mezoni orqali tekshirildi. Diagnostika vositalari mezon-ko'rsatkich tuzilmasi asosida loyihalandi va mazmuniy validlik hamda ishonchlilik talablariga muvofiq tekshirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ekspert baholash natijalari 1-jadvalda keltirilgan. O'rtacha 4,0 balldan yuqori baho olgan va standart chetlanishi kichik (0,41–0,65) oltita shart-sharoit asosiy sifatida qabul qilindi; 7–8-shart-sharoitlar ularga qo'shildi, 9–12 "foydali, lekin zarur emas" deb topildi. $W = 0,71$ ($\chi^2 = 187,4$; $p < 0,01$) ekspertlar fikri kelishuvining yuqori ekanini ko'rsatadi.

1-jadval

Shart-sharoitlarning ekspert bahosi (n = 24)

№	Shart-sharoit	O'rtacha	SD	Reyting
1	Modulni o'quv rejasiga kiritish; malaka talablarida kompetensiya	4,8	0,41	1
2	Professor-o'qituvchilarni maqsadli tayyorlash	4,7	0,46	2
3	Real xalqaro ma'lumotlar va topshiriqlar banki	4,6	0,50	3
4	Raqamli muhit va o'quv-uslubiy ta'minot	4,4	0,58	4
5	Refleksiv va hamkorlik muhiti	4,3	0,62	5

6	Milliy-tadqiqot instituti va maktablar bilan hamkorlik	4,1	0,65	6
7	Modulni amaliyot bilan bir semestrda o‘tkazish	3,9	0,74	7
8	Talabalarni milliy tadqiqotlar jamoasiga jalb etish	3,6	0,88	8
9–12	Alohida laboratoriya; xorijiy hamkorlik; ingliz tili elementlari; moddiy rag‘bat	2,5–3,3	0,92–1,08	9–12

Shart-sharoitlarning mazmuni. Tashkiliy-normativ shart-sharoit modulni amaldagi tanlov fani o‘rnida (4 kredit, 6–7-semestr) joriy etish, pedagogik amaliyot dasturiga uch topshiriq kiritish va malaka talablariga “o‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirish va uni xalqaro mezonlar asosida baholash” kompetensiyasini (bilim–ko‘nikma–malaka darajalarida ifodalangan) kiritishni nazarda tutadi. Kadrlar shart-sharoiti 36 soatlik “Xalqaro baholash dasturlari: o‘qituvchi uchun amaliy kurs” dasturi (9 mavzu, 10 soat ma’ruza, 26 soat amaliy; o‘qituvchi modulning barcha vositalarini talaba rolida bajaradi) va “metodik juftlik” (pedagog + fan metodisti) amaliyotini o‘z ichiga oladi. Resurs shart-sharoiti amaldagi ramkalar va hisobotlar, ochiq xalqaro topshiriqlar, milliy hisobotlar, 150 dan ortiq blokli topshiriqlar banki va o‘quv ma’lumotlar to‘plamlarini; texnologik shart-sharoit — Moodle asosidagi platforma (8 funksional bo‘lim) va o‘quv-uslubiy majmuani; psixologik-pedagogik shart-sharoit — subyekt-subyekt munosabatlari, o‘zaro baholash, refleksiv kundalik, portfolio, xatoga o‘rganish materiali sifatida munosabatni; tashkiliy-ijtimoiy shart-sharoit — milliy-tadqiqot instituti (master-klasslar, materiallar, ko‘ngilli ishtirok) va maktablar (amaliyot bazalari, seminarlar) bilan kelishuvlarni qamrab oladi.

Shart-sharoitlar o‘zaro bog‘liq tizimni tashkil etadi: normativ shart-sharoit boshqalariga asos beradi, kadrlar shart-sharoiti amalga oshiruvchi subyektni

tayyorlaydi, resurs va texnologik shart-sharoitlar mazmunni jonlantiradi, hamkorlik ularni tashqi manba bilan boyitadi.

Diagnostika vositalari. Tashxis-natijaviy blok uchun 16 ko‘rsatkichni o‘lchovchi vositalar to‘plami ishlab chiqildi (2-jadval). Har ko‘rsatkich 0–2 ball shkalasiga keltiriladi; mezon bo‘yicha maksimal 8, umumiy 32 ball; shakllanganlik koeffitsiyenti K = n/N (past — <0,5; o‘rta — 0,5–0,8; yuqori — ≥0,8). Kirish va yakuniy diagnostikada parallel variantlar qo‘llaniladi; faoliyat va tahliliy mezonlar ikki mustaqil ekspert tomonidan baholanadi; refleksiv ko‘rsatkichlar kamida ikki manba (talaba va kuzatuvchi) asosida.

2-jadval

Diagnostika vositalari va 0–2 ball shkalasiga keltirish

Mezon	Vosita	Shkalaga keltirish
Bilish	40 savolli test (28 yopiq, 12 ochiq; 4 ko‘rsatkich × 10; R/Q/T — 40/40/20%); Kronbax $\alpha \geq 0,7$	<50% — 0; 50–79% — 1; ≥80% — 2
Faoliyat	Tahlil kartasi (etalon bilan); topshiriqlar bloki tuzish (ekspert varaqasi, 16 ball); 10 javobni kodlash (ekspert kodi bilan kelishuv); dars loyihasi (4 mezon × 2)	Karta: ≥10/12 — 2, 7–9 — 1; blok: 13–16 — 2, 9–12 — 1; kodlash: ≥80% — 2, 60–79% — 1; dars: 7–8 — 2, 4–6 — 1
Tahliliy	Hisobotni o‘qish (5 savol); sinf natijalari keysi; 3 qaror va asoslash (ekspert varaqasi); 6 bayonotni “asosli/asossiz/ma’lumot yetarli emas” deb baholash	Har topshiriq 0–2; 6 bayonot: 5–6 — 2, 3–4 — 1
Refleksiv	Munosabat anketasi (15 bayonot, 5 teskari, Likert); TALIS asosida o‘z-o‘zini baholash va kuzatuv mosligi + refleksiv	Anketa: ≤2,5 — 0, 2,6–3,9 — 1, ≥4,0 — 2; tafovut <0,5 — 2, 0,5–1,0 — 1, >1,0 — 0

	esse; rivojlanish rejasi sifati; protsedura keysi	

Tizimni joriy etish uch bosqichda (tayyorlov — bir semestr; sinov — bir o‘quv yili; kengaytirish — 2–3 yil) rejalashtirildi; asosiy xavflar (o‘qituvchilar qarshiligi, resurslarning eskirishi, kafedralararo muvofiqlashtirish, “testga o‘qitish” tendensiyasi, diagnostika ishonchliligi) va ularni boshqarish choralari belgilandi.

XULOSA

Bo‘lajak o‘qituvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash pedagogik tizimining samarali amalga oshirilishi uchun ekspert baholash asosida oltita zarur va yetarli shart-sharoit aniqlandi va ularning har biri uchun amalga oshirish mexanizmi hamda tekshirish ko‘rsatkichlari belgilandi. Kompetentlikning 16 ko‘rsatkichini o‘lchovchi diagnostika vositalari to‘plami va natijalarni darajalarga keltirish qoidalari ishlab chiqildi. Shart-sharoitlarning yetarliligi va vositalarning ishonchliligi tajriba-sinov ishlarida tekshiriladi; ekspert so‘rovi natijalari va test ishonchliligi ko‘rsatkichlari real tadqiqot ma’lumotlari asosida aniqlashtiriladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. G‘ayniddinov Sh.T. Bo‘lajak o‘qituvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning pedagogik tizimi modeli // Nashrga topshirilgan, 2026. (Gayniddinov Sh.T. Model of the pedagogical system for preparing pre-service teachers for international assessment programmes // Submitted for publication, 2026.)

2. G‘ayniddinov Sh.T. Tayyorlash mazmunini pedagogika OTM o‘quv jarayoniga integratsiyalash // Nashrga topshirilgan, 2026. (Gayniddinov Sh.T. Integrating the training content into the educational process of a pedagogical university // Submitted for publication, 2026.)

3. G‘ayniddinov Sh.T. Topshiriqlar, keyslar va simulyatsion mashg‘ulotlar tizimi // Nashrga topshirilgan, 2026. (Gayniddinov Sh.T. A system of tasks, cases and simulation sessions // Submitted for publication, 2026.)

4. Ипполитова Н.В., Стерхова Н.С. Анализ понятия «педагогические условия»: сущность, классификация // General and Professional Education. – 2012. – № 1. – С. 8–14. (Ippolitova N.V., Sterkhova N.S. Analysis of the concept of “pedagogical conditions”: essence, classification // General and Professional Education. – 2012. – No. 1. – P. 8–14.)

5. Новиков Д.А., Новочадов В.В. Статистические методы в медико-биологическом эксперименте. – Волгоград: ВолГМУ, 2005. – 84 с. (Novikov D.A., Novochadov V.V. Statistical methods in biomedical experiment. – Volgograd, 2005. – 84 p.)
6. Taber K.S. The use of Cronbach's alpha when developing and reporting research instruments in science education // Research in Science Education. – 2018. – Vol. 48. – P. 1273–1296.
7. OECD. Results from TALIS 2024: The State of Teaching. – Paris: OECD Publishing, 2025.
8. Muslimov N.A. va b. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T.: Sano-standart, 2015. – 120 b. (Muslimov N.A. et al. Fundamentals of pedagogical competence and creativity. – Tashkent: Sano-standart, 2015. – 120 p.)
9. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с. (Bespalko V.P. Components of pedagogical technology. – Moscow: Pedagogika, 1989. – 192 p.)
10. DeLuca C. et al. Teacher assessment literacy // Educational Assessment, Evaluation and Accountability. – 2016. – Vol. 28, No. 3. – P. 251–272.
11. Klassen R.M., Tze V.M.C. Teachers' self-efficacy, personality, and teaching effectiveness: A meta-analysis // Educational Research Review. – 2014. – Vol. 12. – P. 59–76.
12. Darling-Hammond L. Teacher education around the world // European Journal of Teacher Education. – 2017. – Vol. 40, No. 3. – P. 291–309.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ONA TILI DARSLARIDA INTERAKTIV METODLAR VA KRITIK TAFAKKUR TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH

Qurbonaliyeva Durdona Azimjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy fanlar fakulteti,
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 2-bosqich magistranti
durdonaqurbonaliyeva1208@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili va adabiyot darslarida interaktiv metodlar hamda kritik tafakkurni rivojlantiruvchi texnologiyalarni qo'llashning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ona tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning matnni tushunish, fikrini og'zaki va yozma ravishda asoslab berish hamda axborotni tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirishda interaktiv yondashuvning ahamiyati asoslab beriladi. Tahlil natijalari tilni bilim sifatida emas, balki fikrlash va muloqot vositasi sifatida o'rgatish zarurligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *ona tili, interaktiv metodlar, kritik tafakkur, maktab ta'limi, matn tahlili, kooperativ o'qitish.*

ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ И ТЕХНОЛОГИЙ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические основы и практические возможности применения интерактивных методов и технологий развития критического мышления на уроках родного языка в общеобразовательной школе.*

Ключевые слова: *родной язык, интерактивные методы, критическое мышление, школа.*

APPLYING INTERACTIVE METHODS AND CRITICAL THINKING TECHNOLOGIES IN NATIVE LANGUAGE LESSONS

Abstract. *The article examines the theoretical foundations and practical possibilities of applying interactive methods and critical thinking technologies in mother tongue and literature lessons at general secondary schools.*

Keywords: *mother tongue, interactive methods, critical thinking, school education.*

KIRISH

Ona tili fani o'quvchilarning milliy o'zlikni anglashi, til orqali fikrlash va muloqot qilish madaniyatini shakllantirishda markaziy o'rin tutadi. Biroq an'anaviy darslarda ko'pincha qoidalarni yodlash, matnni qayta so'zlash va mashqlarni mexanik bajarish

ustun bo‘lib, o‘quvchining mustaqil fikrlashi va o‘z qarashini asoslashi yetarlicha rivojlanmaydi. Holbuki, zamonaviy ta’lim o‘quvchidan axborotni tanqidiy o‘qish, dalil keltirish va boshqalar bilan muloqotda fikrni aniq ifodalash talab qiladi.

Shu sababli ona tili darslarida o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantiradigan interaktiv metodlar va kritik tafakkurni rivojlantiruvchi texnologiyalarni qo‘llash dolzarb hisoblanadi. Ammo ularning nazariy asoslari va ona tili fani xususiyatlariga moslashtirilishi yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Maqolaning maqsadi interaktiv metodlar va kritik tafakkur texnologiyalarini ona tili va adabiyot darslariga moslashtirish imkoniyatlarini asoslash hamda ularning samaradorlik shartlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot quyidagi vazifalarni belgilaydi: (1) interaktiv ta’lim va kritik tafakkur tushunchalarining mazmunini aniqlash; (2) ona tili darslarida qo‘llaniladigan asosiy metodlarni tahlil qilish; (3) ularni qo‘llashning shartlari va to‘siqlarini ko‘rsatish.

MATERIAL VA USULLAR

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy usul va adabiyotlar sharhi (literature review) qo‘llanildi. Tahlil uchun ta’lim nazariyasi bo‘yicha klassik asarlar (J. Dyui, L. S. Vygotskiy, P. Freire), kritik tafakkur bo‘yicha xalqaro ekspertlar konsensusi (P. Facione, 1990), R. Pol va L. Elderning metodik ishlari, B. Bloom taksonomiyasi hamda kooperativ o‘qitish bo‘yicha D. va R. Jonsonning tadqiqotlari tanlandi.

Manbalarni tanlash mezonlari: (a) ilmiy nashrlarda chop etilgan yoki xalqaro miqyosda e’tirof etilgan bo‘lishi; (b) interaktiv metodlar yoki kritik tafakkur bilan bevosita bog‘liqligi; (c) umumiy o‘rta ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi mumkinligi. Har bir metod uchta mezon bo‘yicha baholandi: o‘quvchining fikrlash ko‘nikmalari (tahlil, baholash, xulosa chiqarish), muloqot va hamkorlik ko‘nikmalari hamda o‘z bilish jarayonini nazorat qilish (metakognitsiya).

Maqola empirik eksperiment emas, balki nazariy-metodik tahlil sifatida rejalashtirilgan. Shu sababli natijalar mavjud ilmiy adabiyotlar sintezi asosida

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

shakllantirilgan va ularning amaliy samaradorligi keyingi pedagogik tajriba-sinov ishlari uchun gipoteza sifatida qaraladi.

NATIJALAR

1. Ona tili ta'limida interaktivlikning nazariy asoslari

Dyuiga koʻra, bilim tayyor holda berilmasdan, oʻquvchining amaliy faoliyati va tajribasi orqali shakllanadi. Ona tili darsida bu tamoyil oʻquvchi matn ustida ishlash, unga savol berish, oʻz fikrini yozma yoki ogʻzaki bayon etish orqali amalga oshadi. Til qoidalari ham mavhum koʻrinishda emas, balki matn ichida, real nutqiy vaziyatda oʻrganilganda puxta oʻzlashtiriladi.

Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi sinfda oʻquvchilarning birgalikdagi faoliyati muhimligini koʻrsatadi. Oʻquvchi mustaqil yecha olmaydigan topshiriqni oʻqituvchi yoki kuchliroq sinfdoshi yordamida bajarib, keyin mustaqil bajarishga oʻtadi. Shu sababli juftlikda va guruhda ishlash ona tili darslarining rivojlantiruvchi vositasiga aylanadi.

2. Kritik tafakkur ona tili kontekstida

P. Facione (1990) kritik tafakkurni tahlil, baholash, xulosa chiqarish, izohlash, tushuntirish va oʻz-oʻzini nazorat qilish koʻnikmalari majmui sifatida belgilaydi. Ona tili fani bu koʻnikmalarni eng tabiiy shaklda rivojlantirish imkonini beradi, chunki matn tahlili, nutq madaniyati va insho yozish aynan shu jarayonlarga asoslanadi. Masalan, badiiy matnda muallif qarashini aniqlash, unga dalil topish va oʻz munosabatini asoslash kritik tafakkurning amaliy ifodasidir.

3. Ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan interaktiv metodlar

Muammoli vaziyat. Darsda oʻquvchilarga matnga oid bahsli savol beriladi, masalan: "Asar qahramoni harakati toʻgʻrimi?" Sinf ikki guruhga boʻlinib, oʻz javobini matndan olingan parcha bilan asoslaydi. Bu metod matnni chuqur oʻqish va dalil keltirish koʻnikmasini rivojlantiradi.

Kooperativ o‘qitish. Sinf 4–5 kishilik guruhlarga bo‘linadi, har bir o‘quvchiga aniq vazifa (yozuvchi, kotib, sharhlovchi, vaqt nazoratchisi) beriladi. Shu tarzda o‘quvchilar birgalikda ishlashni va shaxsiy javobgarlikni o‘rganadi. Johnson va hamkorlarining modeli shu tamoyilga asoslanadi.

“Insert” texnologiyasi. O‘quvchi matnni o‘qish davomida belgilar qo‘yadi: ✓ – tanish, + – yangi bilim, – – qarama-qarshi, ? – tushunarsiz. Bu usul o‘qishni passiv jarayondan faol tahlilga aylantiradi.

“BBB” jadvali. Mavzu boshida o‘quvchi nimani bilishini, nimani bilishni xohlashini yozadi, dars oxirida esa nimani bilib olganini qayd etadi. Bu o‘quvchining o‘z bilim darajasini baholashiga yordam beradi.

“Venn diagrammasi”. Ikki tushuncha yoki ikki qahramonni solishtirish uchun qo‘llaniladi, masalan, so‘z turkumlari yoki ikki asar obrazi o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar.

“Sinkveyn” (5 qatorli she’r). Mavzu yoki obraz qisqa, qat’iy tuzilmali ijodiy yozuv bilan umumlashtiriladi: 1-qator – bir so‘z (ot), 2-qator – ikki sifat, 3-qator – uch fe’l, 4-qator – to‘rt so‘zli ibora, 5-qator – bitta sinonim-xulosa. Bu usul so‘z boyligi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

“FMS” texnologiyasi. O‘quvchi fikrini bayon etadi (Fikr), uni asoslaydi (Mulohaza), misol va savol bilan yakunlaydi (Savol). Insho va og‘zaki nutq mashg‘ulotlarida bu usul mantiqiy izchillikni rivojlantiradi.

Sokratik savollash. O‘qituvchi savollar ketma-ketligi orqali o‘quvchini o‘z javobini aniqlashtirishga va asoslashga yo‘naltiradi: “Nima uchun bunday deyapsiz?”, “Matnning qaysi qismi buni tasdiqlaydi?”, “Bu fikrga qarshi qanday dalil bo‘lishi mumkin?”

Munozara va bahs. Mavzuga oid qarama-qarshi qarashlar o‘rtasida qoidalar asosida muhokama tashkil etiladi. O‘quvchi boshqa tomon fikrini hurmat qilib, o‘z argumentini aniq ifodalashni o‘rganadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

4. Interaktiv metodlar va kritik tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik

Interaktiv metodlar o‘quvchiga gapirish, tinglash va savol berish imkonini beradi; kritik tafakkur esa bu muloqotning sifatini belgilaydi. Masalan, guruh muhokamasida o‘quvchi faqat o‘z fikrini aytmaydi, balki tengdoshining dalilini tekshiradi, matnga qayta murojaat qiladi va o‘z xulosasini o‘zgartirishi mumkin. Bu jarayon nutq madaniyati bilan birga tanqidiy fikrlash madaniyatini shakllantiradi.

5. Samaradorlik ko‘rsatkichlari

Nazariy tahlil interaktiv metodlarni tizimli qo‘llash quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantirishga ijobiy ta’sir qilishini ko‘rsatadi: matnni tushunish va mazmunni izohlash; fikrni dalil bilan asoslash; og‘zaki va yozma nutqda aniq ifodalash; guruhda hamkorlik qilish; axborotni tanqidiy baholash; o‘z o‘qish va yozish jarayonini nazorat qilish.

MUHOKAMA

Olingan natijalar interaktiv metodlar ona tili darslarida ta’lim maqsadlariga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Biroq ularning samaradorligi bir qator shartlarga bog‘liq. Birinchidan, metod mashg‘ulotning aniq maqsadiga bog‘lanishi kerak: “Insert” ni matnni tahlil qilishda, sinkveynni esa so‘z boyligini mustahkamlashda qo‘llash mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi. Ikkinchidan, topshiriq o‘quvchilarning yoshi va tayyorgarlik darajasiga mos bo‘lishi lozim: juda oson vazifa faollik keltirib chiqarmaydi, juda murakkabi esa motivatsiyani pasaytiradi. Uchinchidan, baholash faqat yakuniy javobga emas, balki o‘quvchining fikrlash jarayoniga ham qaratilishi kerak.

Amaliyotda uchraydigan to‘siqlar ham mavjud: dars vaqtining cheklanganligi, guruhda ishtirokning notekisligi (ayrim o‘quvchilar faol, boshqalar passiv bo‘lishi), o‘quvchilarning an’anaviy “yodlash” tajribasiga ko‘nikkanligi va o‘qituvchining metodik tayyorgarligi yetarli bo‘lmasligi. Ularni bartaraf etish uchun metodlarni bosqichma-bosqich joriy etish, guruh qoidalarini dars boshida aniq belgilash va o‘qituvchilar uchun amaliy seminarlar tashkil etish tavsiya etiladi.

Shuningdek, interaktiv metodlarni o‘zbek tili ta’limi sharoitiga moslashtirish muhim. Chet el tajribasi mahalliy til xususiyatlari, adabiy matnlar va milliy an’analar hisobga olingan holda qayta ishlanishi kerak. Milliy pedagogik merosimizdagi savol-javob, bahs va hikmatli so‘zlar tahlili ushbu metodlar uchun boy zamin yaratadi.

Maqolaning cheklovi shundaki, tahlil nazariy adabiyotlarga asoslangan. Metodlarning maktab sinflaridagi miqdoriy samaradorligi alohida pedagogik tajriba-sinov ishlarida aniqlanishi lozim.

XULOSA

Tadqiqot natijalari interaktiv metodlar va kritik tafakkur texnologiyalari ona tili darslarining samaradorligini oshirishda muhim vosita ekanini ko‘rsatdi. Ular o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchidan fikrlovchi va muloqot qiluvchi faol ishtirokchiga aylantiradi.

Tilni bilim sifatida emas, balki fikrlash va muloqot vositasi sifatida o‘rgatish ushbu texnologiyalarning asosiy g‘oyasidir. Kelgusida ularning turli sinf va yosh guruhlaridagi samaradorligini pedagogik tajriba-sinov orqali o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bloom B. S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: David McKay, 1956.
2. Anderson L. W., Krathwohl D. R. (eds.) A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. – New York: Longman, 2001.
3. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
4. Facione P. A. Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction (The Delphi Report). – Millbrae, CA: California Academic Press, 1990.
5. Johnson D. W., Johnson R. T., Smith K. A. Active Learning: Cooperation in the College Classroom. – Edina, MN: Interaction Book Company, 1998.
6. Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. – Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, 2006.
7. Vygotskiy L. S. Psixologiya va ta’lim nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990 (tarjima).
8. Freire P. Pedagogika ezilganlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018 (tarjima).

7-SINF O‘QUVCHILARIDA MUSTAQIL SO‘Z TURKUMIGA OID GRAMMATIK BILIMLARNI ALGORITMIK MASHQLAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH

Ne’matjonova Dildora
Namangan davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti 2-bosqich magistranti
Filologxonim26@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumta’lim maktablari 7-sinf o’quvchilari bilan birgalikda o’tkazilgan dars jarayonida mustaqil so‘z turkumiga oid grammatik kompetensiyalarni algoritmik mashqlar yordamida samarali o‘rgatish metodikasi bayon qilingan.Algoritmik mashq yordamida o‘quvchilar qoidani shunchaki yodlamaydi, balki izchil o‘rganish va ularning ma’no turlarini konteksda topa olishni o’rganadi.Shuningdek algoritmik mashqlar asosida shartli algoritm modeli va amaliy mashqlar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *Ona tili ta’limi, mustaqil so’z turkum, algoritmik mashq,algoritmik modul, grammatik kompetensiya.*

DEVELOPING GRAMMATICAL KNOWLEDGE OF INDEPENDENT WORD CLASSES THROUGH ALGORITHMIC EXERCISES AMONG 7TH-GRADE STUDENTS

Abstract. *This article presents a methodology for effectively teaching grammatical competencies related to independent word classes through algorithmic exercises in the educational process involving 7th-grade students at general secondary schools. Algorithmic exercises help students not only memorize grammatical rules but also learn to apply them systematically and identify their meanings in context. The article also provides a conditional algorithmic model and practical exercises based on algorithmic methods.*

Keywords: *mother tongue education, independent word classes, algorithmic exercise, algorithmic model, grammatical competence.*

РАЗВИТИЕ ГРАММАТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ О САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ ЧАСТЯХ РЕЧИ У УЧАЩИХСЯ 7-Х КЛАССОВ С ПОМОЩЬЮ АЛГОРИТМИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ

Аннотация. *В статье представлена методика эффективного формирования грамматических компетенций, связанных с самостоятельными частями речи, посредством алгоритмических упражнений в процессе обучения учащихся 7-х классов общеобразовательных школ. Алгоритмические упражнения помогают учащимся не только запоминать*

грамматические правила, но и последовательно применять их на практике, а также определять значения слов в контексте. Кроме того, в статье представлены условная модель алгоритма и практические упражнения, основанные на алгоритмическом подходе.

Ключевые слова: *обучение родному языку, самостоятельные части речи, алгоритмическое упражнение, алгоритмическая модель, грамматическая компетенция.*

KIRISH

Bugungi rivojlanib borayotgan ta'lim tizimida o'quvchilarning ona tili ona tili o'qitishdagi ayrim kamchiliklari va ularga metodik yechimlar tahlil qilingan. Hozirgi kunda o'quvchilarning til birliklarini shuchaki yod olib, matnda amaliy qo'llash masalasida qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Shu sababli, ta'limga algoritmik yondashuv metidikasini olib kirish maqsadga muvofiq. Algoritmik mashqlar o'quvchlarga qoidani bosqichma-bosqich tahlil qilishni o'rgatadi.U so'zga savol beradi; ma'nosini aniqlaydi va grammatik belgilarini tekshiradi.

Mazkur tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Mustaqil so'z turkumlarini o'rgatishda algoritmik yondashuvning didaktik imkoniyatlari
2. Mustaqil so'z turkumlarini morfologik tahlil qilishda algoritmik mashqlarning o'rni
3. Mustaqil so'z turkumlariga oid algoritmik mashqlarga namunalar
4. Tajriba-sinov ishini baholash

Mustaqil so'z turkumlarini algoritmik tahlil qilish jarayoni bir-biri bilan bog'liq bosqichlardan tashkil topadi.Har bir bosqich o'quvchining muayyan tahliliy amalni bajarishga xizmat qiladi.

METODLAR

Mazkur tadqiqot 7-sinf ona tili darsida "son so'z turkumi" mavzusini o'qitishda algoritmik mashqlar asosida o'qitishning metodik imkoniyatlarini tahlil qildik.Tadqiqotim amaliy dars jarayonida tashkil etildi sifat yondashuvi va pedagogik kuzatish usulidan foydalandim.

Tadqiqot ishtirokchilari. Tadqiqotda umumiy o‘rta ta’lim maktabning 7-d sinfda tahsil oluvchi 25 nafar o’quvchi ishtirok etdi. Mashg‘ulot ona tili o‘quv dasturiga muvofiq tashkil etiladi.

Tadqiqot metodikasi. Dars jarayonida son so‘z turkumini aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan bosqichma-bosqich algoritmik mashqlardan foydalanildi.Algoritmik topshiriqlar o‘quvchilarning grammatik tahlil faoliyatini izchil foydalanish, tahlil bosqichlari o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni aniqlash va yakuniy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini yaxshilash maqsadida ishlab chiqildi.

1-bosqich Matn bilan tanishish gapdagi son so‘z turkumini aniqlash

2-bosqich So’roq berish va ma’nosini aniqlash. So‘zning ma’no turini aniqlash.

3-So‘zning tuzilishini aniqlash. (sodda,murakkab,juft,takroriy)

4-bosqich son so‘z tarkibidagi qo’shimchalarni aniqlash (morfemik tahlil)

5-bosqich Gapdagi vazifasini aniqlash

6-bosqich Yakuniy xulosa chiqarish

Ushbu ketma-ketlilik barcha holatlarda o‘zgarmas qoida sifatida emas, o‘quvchiga tahlilni tashkil etishda yordam beradigan metodik model sanaladi. Mashqlarning qiyin murakkabligiga qarab ayrim bosqichlar qisqartirilishi yoki chuqurlashtirilishi mumkin.

NATIJALAR

7-D sinf ona tili darsida “son so‘z turkumi” mavzusini o‘rganishda algoritmik mashqlardan foydalanish jarayoni sifat jihatdan kuzatildi. Mashg‘ulotda 25 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Dars davomida o‘quvchilarning son so‘z turkumiga oid so‘zlarni aniqlash, ularning manosini farqlash hamda grammatik xususiyatlarini izchil tahlil qilish kuzatildi.

Topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar uchun bosqichma-bosqich algoritmli topshiriqlardan foydalaniladi.Ushbu kuzatish davomida algoritmik izchillik o‘quvchiga tahlilni tartibli va yo‘nalishli o‘rgatish imkonini beradi. Shuningdek,algoritmik mashqlar o‘quvchining mustaqil ishlashini tashkil etish va topshiriqlarni ketma-ket bajarish

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

imkonini beradi, lekin mazkur kuzatish natijalari algoritmik mashqlarning samaradorligini aniqlash uchun yetarli emas.Buning uchun o‘quvchilarning dastlabki va yakuniy bilimlarini maxsus mezonlar asosida taqqoslash talab etiladi. Son so’z turkumi mavzusida ishlab chiqilgan algoritm o‘quvchilarning so‘zni aniqlashdan boshlab uning gammatik xususiyatlarini izohlashgacha bo’lgan faoliyatni izchil tashkil etildi.Bunday yondashuv o‘quvchilar grammatik bilimlarini amaliy topshiriq asosida mustaqil aniqlashi uchun samarali bo‘lishi mumkin.

Algoritm asosida namunaviy tahlil;

Tahlil uchun gap: “Musobaqada uchta o‘quvchi birinchi o‘rinni egalladi.”

1. “Uchta” so‘zining tahlili

Tahlil birligi	uchta
So‘rog‘i	nechta?
So‘z turkumi	son
Ma’no turi	dona son
Tuzilishi	sodda
Morfemik tarkibi	uch + ta; -ta dona miqdorini ifodalovchi shakl
Gapdagi vazifasi	“o‘quvchi” so‘zini miqdor jihatdan aniqlagan aniqlovchi
Xulosa	“Uchta” — sodda tuzilishli dona son, gapda aniqlovchi vazifasida kelgan.

XULOSA

7- sinfda o‘tkazilgan ona tili darslarida “son so‘z turkumi” mavzusini o‘rganishda algoritmik mashqlardan foydalanish bo‘yicha olib borilgan sifat jihatidan kuzatishlar quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Algoritm sxemani ishlatish o‘quvchillarga tahlilni aniq va ketma-ket bajarish imkonini beradi. Algoritm

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar yoshi va topshiriqlarning murakkablik darajasini hisobga olish kerak. Algoritm o'quvchiga tayyor javobni yodlashni emas, grammatik xususiyatlarni aniqlash va mustaqil xulosalashga ko'maklashadi. Algoritmik mashqlar ona tili ta'limida qo'llash istiqbolli va samarali metodika hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Qosimova K, Matchonov S, G'ulomov X Yo'ldosheva Sh, Sariyev Sh. Ona tili oqitish metodikasi Toshkent: Bayoz,2022 -304 b
2. O.Roziqov,Mels Mahmudov,Baxtiyor Adizov, va Alijon Hamroyev, 2005 "Yangi asr nashriyoti" 388 b
3. L.N.Landa Algotrimizatsii i obuchenii - prosvesheniye,1966 - 524b
4. O'zbekiston Respubikasi umumiy o'rta ta'lim maktabkari uchun 7-sinf ona tili darsligi

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

YOSH FUTBOLCHILARNI TARBIYALASHDA INNOVATSION USULLAR

Bekzod Nodirov
Namangan davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti, (PhD)
E-mail: nodirov0505@gmail.com

Annotatsiya:*Ushbu maqolada 15-16 yoshli futbolchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion usullardan foydalanish, mashg'ulot yuklamalarini energetik yo'nalishlar asosida rejalashtirish va nazorat qilish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda anaerob-alaktat, anaerob-glikolitik, aerob-anaerob hamda aerob yo'nalishdagi mashqlar mazmuni, davomiyligi va yurak urish chastotasi ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar yuklamalarni tabaqalashtirib qo'llash, texnik-taktik harakatlarni yuqori fiziologik yuklama sharoitida bajarish, tezkorlik, chidamlilik va maxsus ish qobiliyatini kompleks rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatdi. Natijalar mashg'ulot samaradorligini oshirishda individual yondashuv, yuklamalarni oqilona almashlash va funksional holatni muntazam nazorat qilish muhimligini asoslaydi. Musobaqaga moslashuvni takomillashtirish.*

Kalit so'zlar: *futbolchilar, innovatsion usullar, mashg'ulot, yuklama, energetik yo'nalish, anaerob, aerob, tezkorlik, chidamlilik, texnika, taktika, YuQS.*

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ В ПОДГОТОВКЕ ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ

Аннотация: *В статье освещаются вопросы применения инновационных методов в подготовке футболистов 15-16 лет, планирования и контроля тренировочных нагрузок с учетом их энергетической направленности. Проанализированы упражнения анаэробно-алактатной, анаэробно-гликолитической, аэробно-анаэробной и аэробной направленности, их продолжительность и показатели частоты сердечных сокращений. Полученные данные показывают возможности дифференцированного применения нагрузок, выполнения технико-тактических действий в условиях высокой физиологической напряженности, комплексного развития быстроты, выносливости и специальной работоспособности. Результаты обосновывают значение индивидуального подхода, рационального чередования нагрузок и систематического контроля функционального состояния футболистов для повышения эффективности учебно-тренировочного процесса. При подготовке.*

Ключевые слова: *футболисты, инновационные методы, тренировка, нагрузка, энергетическая направленность, анаэробный, аэробный, быстрота, выносливость, техника, тактика, ЧСС.*

INNOVATIVE METHODS IN DEVELOPING YOUNG FOOTBALLERS

Abstract: *The article examines innovative methods in training football players aged 15-16, focusing on planning and controlling training loads according to energy orientation. Exercises of anaerobic alactic, anaerobic glycolytic, aerobic-anaerobic, and aerobic directions were analyzed by content, duration,*

and heart rate indicators. The findings demonstrate differentiated load application, technical and tactical actions under high physiological stress, and development of speed, endurance, and work capacity. The results substantiate individualization, alternation of loads, and monitoring of players' functional state to improve training effectiveness.

Keywords: *football players, innovative methods, training, load, energy orientation, anaerobic, aerobic, speed, endurance, technique, tactics, heart rate.*

KIRISH

Bugungi kunda jahon futbolida raqobatning tobora kuchayib borishi yosh futbolchilarni tayyorlash tizimini ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, futbolchilarning istiqboldagi sport natijalarini belgilovchi muhim bosqichlardan biri bo'lgan 15-16 yosh davrida ularning jismoniy, funksional, texnik-taktik va psixologik imkoniyatlarini kompleks rivojlantirish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur yosh davrida organizmda kechayotgan morfofunksional va psixofiziologik o'zgarishlarni hisobga olmagan holda mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish sportchining rivojlanish sur'atiga, ish qobiliyatiga hamda texnik-taktik mahoratining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Zamonaviy futbol yuqori tezlik, tezkor qaror qabul qilish, harakatlarning koordinatsion murakkabligi, texnik usullarning aniqligi va o'yin davomida yuqori ish qobiliyatini uzoq vaqt saqlab qolish bilan tavsiflanadi. Shu sababli yosh futbolchilarni tayyorlash jarayonida faqat an'anaviy mashg'ulot vositalaridan foydalanish bilan cheklanib qolmasdan, sportchining individual imkoniyatlarini hisobga oluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalar, maxsus texnik mashqlar, o'yin metodlari, funksional nazorat va zamonaviy testlash vositalarini tizimli ravishda qo'llash zarur. Ushbu maqolada ham aynan 15-16 yoshli futbolchilarning ish qobiliyatini rivojlantirish, mashg'ulot yuklamalarini ilmiy asosda rejalashtirish va nazorat qilish masalalariga ustuvor e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot maqsadi.

15-16 yoshli futbolchilarni tarbiyalashda innovatsion usullardan foydalanib, tehnik-taktik harakatlarini yaxshilash.

Tadqiqot vazifalari.

15-16 yoshli futbolchilarni tarbiyalashda innovatsion usullardan foydalangan holda tehnik-taktik harakatlarini yaxshilashdan iborat.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

Olib borilgan tadqiqot davomida 15-16 yoshli futbolchilarni tarbiyalashda innovatsion usullardan foydalanish jarayonida nazorat testlari olindi.

Mazkur jadvalda 15-16 yoshli futbolchilarning tajriba boshidagi texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari nazorat va tajriba guruhlari kesimida solishtirilgan (n=30). Jadval ma’lumotlari ilmiy-statistik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, guruhlar o‘rtasida boshlang‘ich bosqichda sezilarli farq mavjud emasligi aniqlanadi, bu esa keyingi pedagogik tajriba natijalarini ishonchli baholash uchun muhim metodologik asos yaratadi.

1-jadval

15-16 yoshli futbolchilarining tadqiqod boshida texnik tayyorgarligini oshirish bo‘yicha ko‘rsatkichlarini solishtirish (n=30)

T/r	Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi		Tajriba guruhi		t	P
		$\overline{X} \pm \sigma$	V %	$\overline{X} \pm \sigma$	V %		
1	30 m ga yuqori startda to‘pni olib yurish (soniya)	5,92±0,75	12,67	6,06±0,79	12,96	0,61	>0,05

1-jadval davomi

2	To‘pni uzoq masofaga yo‘llash o‘ng va chap oyoqda *(m)*	26,83±3,90	14,55	26,13± 3,91	14,96	0,60	>0,05
		24,30±3,81	15,66	24,87±3,97	15,96	0,49	>0,05
3	To‘pni o‘ynatish ikkita oyoqda (s*oni)*	100,48±16,46	16,38	102,17±17,36	16,99	0,34	>0,05
4	30 m. dan fishkalar orasidan to‘pni olib yurib 16 m. dan darvozani belgilangan joyiga zarba berish (soniya)	6,05±0,64	10,59	6,18±0,68	10,95	0,70	>0,05
5	Qo‘l bilan yon chiziqdan to‘pni o‘yinga kiritish (m)	170,58±2,38	13,54	170,15±2,39	13,93	0,60	>0,05

Mazkur jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, 15-16 yoshli futbolchilarning tajriba boshidagi texnik tayyorgarligi nazorat va tajriba guruhlarida bir xil darajada bo‘lib, statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlanmagan. Bu esa keyingi ilmiy izlanishlar va pedagogik tajribalar uchun muhim metodologik zamin yaratadi hamda qo‘llaniladigan mashg‘ulot usullarining haqiqiy samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Olib borilgan nazorat testi shuni korsatadiki umumiy olgan natijalar, jadvaldagi barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha P>0,05 natijalari kuzatilgani juda muhim ilmiy xulosaga olib keladi: tajriba boshida nazorat va tajriba guruhlari o‘rtasida texnik tayyorgarlik darajasi bo‘yicha ishonchli farq mavjud emas. Bu esa pedagogik tajriba metodikasining to‘g‘ri tashkil etilganligini, ya’ni guruhlarning boshlang‘ich sharoitlari tenglashtirilganligini bildiradi. Statistik jihatdan bunday tenglik eksperimentning ichki ishonchliligini (internal validity) ta’minlaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Olingan natijalar asosida aerob-anaerobli yo‘nalishli yuklamalar futbolchilar uchun eng optimal hisoblanib o‘quv mashg‘ulot jarayonini tashkil etishda va o‘tkazishda bu yo‘nalishli yuklamalar eng asosiy va samarali ekanligi isbotlandi.

15-16 yoshli futbolchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonida yuklamalarni yo‘nalishiga qarab taqsimlashda mashqlarning energetik ta’minoti, davomiyligi, takrorlanish soni hamda yurak urish chastotasining (YuQS) o‘rtacha va tebranish ko‘rsatkichlari asosiy mezon sifatida belgilangan. Jadval ma’lumotlari mashg‘ulot vositalarining anaerob-alaktat, anaerob-glikolitik, aerob-anaerob va aerob yo‘nalishlarda tizimli qo‘llanilishini ko‘rsatadi.

2-jadval

“15-16 yoshli futbolchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonida yuklamalarni energetik yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlash va yurak urish chastotasi ko‘rsatkichlari”

№	**Mashqlarni mazmuni**	**vaqti**	**O‘rtacha YuQS, zar/daq**	**Yurak urishning tebranish chegarasi zar/daq**
	Anaerob-alaktat yo‘nalishi			
1.	10 metr masofaga keskin yugurish 10-12 marta. Takrorlash orasida dam olish 60-70 s.	2,5s	138	132-142
2.	30-40 metr masofaga keskin yugurish 5-6 marta. Takrorlash orasida dam olish -100-200 s.	6-7s	145	140-148
3.	Maksimal tezlikda to‘pni olib borish va 30-40 m darvozaga tepish	7-8s	173	170-176
4.	Sakrashli mashqlar majmuasi (g‘ov, o‘rindiq v.b) 20-30m masofada	10-12s	155	150-160

Anaerob-glikolitik yo'nalishi				
5.	30-40 m. 3-4 tezlanishlardan iborat seriyasi. Pauza	70-80s	184	182-186
6.	Mokkisimon yugurishning turlari, to'pni juftlikda, uchtalikda uzatish 3-5 tarorlanishlar bilan	50-60s	196	186-202
7.	Uzatishlar va to'pni to'rtalikda joy almashinishi bilan olib borish.	7-10s	196	188-204
8.	Flangalardan maydon o'rtasiga to'pni uzatish	5-7min	188	168-198
Aerob-anaerob yo'nalishi				
9.	Maydonda o'yin mashqlarni ijrosi. 4 o'yinchi, 2 to'p. Keskin yugurish-10m, to'pni olib borish - 5m	3-5min	164	162-168
10	To'pni uzoqga uzatish. Bir joyda to'p bilan o'ynash	7-10min	176	164-182
11.	Juftlik va uchtalik holda to'pni olib borish butun maydon bo'ylab	15-20min	168	154-180
12.	Aldamchi harakatlar to'p bilan bajarish, darvozaga urish va qayta o'z zonaga qaytish.	5-8min	174	162-182
13.	Kvadrat 4x2. To'pni fazoda ushlab turish, ikki martaba to'pga tegish.	15 min	165	144-186

2-jadval davomi

14	O'yin 3x3 neytral bo'lgan shtraf maydonchasidan.	10 min	184	170-198
15.	O'yin 7x7 neytral zonada maydonni o'rtasida	15 min	165	152-180
16.	O'yin 5x5 uchta jamoa bilan maydonning yarimida, ikkita darvoza. Ikkita jamoa o'ynaganda, uchinchisi dam oladi.	10 min	168	156-184
17.	Himoyaga qarshi hujum - 2x1;3x2; 4x3	20 min	174	156-183
18.	Sport o'yinlari (regbi, basketbol)	15-20min	165	144-186
19.	Mini-futbol maydonchada 40x30m, 7x7	15-20min	174	155-183
	Aerob yo'nalishli			
20.	Joyida umum rivovojlantiruvchi mashqlarni bajarish	5-8 min	110	105-115
21.	800-1000m bir tekisda yugurish	2,5-4min	132	128-136
22.	Krossli tayyorgarlik. 3000-4000m.yugurish	15-18min	152	145-160
23.	Basseynda suzish	10-15min	130	125-135
24.	Kvadrat 4x2 ikki marta to'pga tegish	5-7min	135	124-148
25.	Joyida turgan holda to'pni harakatlantirish. To'pni juftlikda uzatish 10-15 m masofaga.	10-12 min	136	125-147
26.	Yo'nalishni o'zgartirib to'pni olib borish	3-5 min	120	110-130

Izoh: s-soniya, daq-daqiqa, zar-zarba, m-metr.

Anaerob-alaktat yo'nalishidagi yuklamalar qisqa muddatli va yuqori tezlikda bajariladigan mashqlar orqali amalga oshirilgan. Jumladan, 10 metrga keskin yugurish, 30-40 metrga tezlanish, maksimal tezlikda to'pni olib borish va darvozaga zarba berish, shuningdek, sakrashli mashqlar majmuasi ushbu yo'nalishning asosiy vositalarini tashkil etgan. Mazkur mashqlarning davomiyligi 2,5-12 soniya oralig'ida bo'lib, YuQSning o'rtacha qiymati 138-173 zarb/min ni tashkil etgan. Qisqa davomiylik va yuqori



intensivlikning uyg‘unligi futbolchilarda tezkor-kuch sifatlari, maksimal tezlik, tezlanish qobiliyati hamda qisqa muddatli kuchlanishlarni samarali bajarish imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, 10 metrga keskin yugurishning 10-12 marta takrorlanishi va takrorlashlar oralig‘ida 60-70 soniyalik dam olishning belgilanishi yuqori intensivlikdagi harakatlarni sifatli bajarish uchun yetarli tiklanish sharoitini yaratadi.

Anaerob-glikolitik yo‘nalishdagi mashqlar nisbatan uzoqroq davom etuvchi va yuqori intensivlikda bajariladigan yuklamalarni o‘z ichiga oladi. 30-40 metrga 3-4 marta tezlanishlardan iborat seriyalar, mokkisimon yugurishlar, juftlik va uchliklarda to‘p uzatish, shuningdek, harakatlanish jarayonida to‘pni uzatish mashqlarida YuQSning o‘rtacha qiymati 184-196 zarb/min gacha yetgan. YuQS tebranish chegaralarining 182-204 zarb/min oralig‘ida bo‘lishi ushbu mashqlarning yuqori intensivlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur vositalar futbolchilarning anaerob ish qobiliyatini, tezlikka chidamliligini, takroriy yuqori intensivlikdagi harakatlarni bajarish qobiliyatini va musobaqa faoliyatida yuzaga keladigan qisqa muddatli maksimal zo‘riqishlarga moslashuvini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, aerob-anaerob yo‘nalishdagi yuklamalar mashg‘ulot vositalari tarkibida eng katta va xilma-xil guruhni tashkil etadi. Ushbu yo‘nalishga maydondagi o‘yin mashqlari, to‘pni uzoq masofaga uzatish, juftlik va uchliklarda butun maydon bo‘ylab to‘p olib borish, aldovchi harakatlar, 4x2 kvadrat, 3x3, 7x7, 5x5 o‘yinlar, himoyaga qarshi hujum vaziyatlari (2x1, 3x2, 4x3), sport o‘yinlari va mini-futbol mashqlari kiritilgan. Ushbu mashqlarning davomiyligi 3-5 daqiqadan 20 daqiqagacha bo‘lib, YuQSning o‘rtacha qiymati 164-196 zarb/min oralig‘ida qayd etilgan.

Aerob-anaerob yo‘nalishdagi mashqlarning asosiy afzalligi shundaki, ular futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini yuqori fiziologik yuklama sharoitida bajarishini ta’minlaydi. Xususan, 3x3, 5x5 va 7x7 ko‘rinishidagi kichik tarkibli o‘yinlar, himoyaga qarshi hujum vaziyatlari hamda mini-futbol mashqlari davomida futbolchilar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tezlanish, to‘xtash, yo‘nalishni o‘zgartirish, to‘pni olib yurish, uzatish, qaror qabul qilish va zarba berish kabi harakatlarni uzluksiz ravishda bajaradilar. Shu sababli ushbu vositalar nafaqat maxsus chidamlilikni, balki futbolchining texnik-taktik tayyorgarligini ham kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, jadval ma’lumotlari 15-16 yoshli futbolchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonida yuklamalarni faqat bir energetik yo‘nalishda emas, balki o‘zaro bog‘liq holda qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Anaerob-alaktat mashqlar qisqa muddatli maksimal tezlik va kuch imkoniyatlarini, anaerob-glikolitik mashqlar yuqori intensivlikdagi ish qobiliyati va tezlikka chidamlilikni, aerob-anaerob mashqlar maxsus chidamlilik va texnik-taktik faoliyatni, aerob mashqlar esa umumiy chidamlilik va tiklanish imkoniyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Shuningdek, YuQS ko‘rsatkichlarining mashqlar yo‘nalishiga qarab farqlanishi yuklamalarni individual nazorat qilish va dozalashtirish uchun muhim mezon ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 184-196 zarb/min darajasidagi YuQS bilan bajariladigan anaerob-glikolitik va aerob-anaerob mashqlar yuqori fiziologik zo‘riqish bilan tavsiflanadi. Shu bois 15-16 yoshli futbolchilarda bunday yuklamalarni rejalashtirishda mashq davomiyligi, takrorlanish soni, seriyalar oralig‘idagi dam olish vaqti hamda futbolchining funksional holatini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv-mashg‘ulot jarayonida energetik yo‘nalishlarning oqilona almashinishi futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini kompleks shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Bunda yuqori intensivlikdagi anaerob yuklamalardan so‘ng tiklanishga yo‘naltirilgan aerob vositalarning qo‘llanilishi, shuningdek, texnik-taktik mazmundagi o‘yin mashqlarining aerob-anaerob yuklamalar bilan uyg‘unlashtirilishi 15-16 yoshli futbolchilarning musobaqa faoliyatiga xos bo‘lgan o‘zgaruvchan intensivlikdagi harakatlarga moslashuvini ta’minlaydi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari 15-17 yoshli futbolchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion usullardan foydalanish, mashg‘ulot yuklamalarini ilmiy asosda rejalashtirish va nazorat qilish texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tajriba boshida nazorat va tajriba guruhlari ko‘rsatkichlari o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farq aniqlanmagani tadqiqotning metodologik asoslarini ta’minladi. Mashg‘ulotlarda anaerob-alaktat, anaerob-glikolitik, aerob-anaerob hamda aerob yo‘nalishdagi yuklamalarni izchil uyg‘unlashtirish futbolchilarning tezkorlik, tezlikka chidamlilik, maxsus va umumiy chidamlilik sifatlarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, aerob-anaerob yo‘nalishdagi o‘yin mashqlari texnik-taktik harakatlarni yuqori fiziologik yuklama sharoitida bajarishni ta’minlaydi. YuQS ko‘rsatkichlarini hisobga olish esa yuklamalarni individual dozalashtirish va mashg‘ulot samaradorligini oshirish uchun muhim mezon hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Matveyev L.P. Теория и методика физической культуры.-Москва: Физкультура и спорт, 1991.
2. Platonov V.N. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и её практические приложения. -Киев: Олимпийская литература, 2015.
3. Verkhoshansky Y.V., Siff M.C. Supertraining. 6th ed. -Ultimate Athlete Concepts, 2009.
4. Stolen T., Chamari K., Castagna C., Wisloff U. *Physiology of Soccer*. Sports Medicine, 2005, 35(6), 501–536.
5. UEFA. Time for Action: UEFA Women's Football Strategy 2024-2030.
6. R.S.Salomov - *Sport mashg‘ulotining nazariyasi va uslubiyati*. Toshkent.
7. Yusupov N.M. Yuqori malakali futbolchi qizlarni tezkor-kuch tayyorgarligining rivojlantirish uslubini takomillashtirish: diss. … p.f.b.f.d. (PhD) / Chirchiq- 2018. – B. 4-5-36.
8. B.H.Nodirov MALAKALI FUTBOLCHI QIZLARNING O‘QUV MASHG‘ULOT JARAYONIDA YUKLAMALARINI ORGANIZIMGA TA’SIRINI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Research Focus, 3(9), 114-116.

5-SINF ADABIYOT DARSLARIDA XUDOYBERDI TO'XTABOYEV HAYOTI VA IJODINI O'QITISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Alisherova Mavluda Alimardon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti
Email: mavludaalisherova1@gmail.com
Tel: +998931938399

Annotatsiya: *Maqolada 5-sinf adabiyot darslarida o'zbek bolalar adabiyotining yirik vakili Xudoyberdi To'xtaboyev hayoti va ijodini o'rgatishda grafik organayzerlardan foydalanishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritiladi. O'quvchilarning yosh xususiyatlari, matnni idrok etish jarayoni va adabiy-tahliliy kompetensiyalarini rivojlantirish ehtiyojidan kelib chiqib, klaster, vaqt chizig'i, konseptual xarita, Venn diagrammasi, "Baliq skeleti", voqealar zanjiri va qahramon xaritasi kabi vositalardan foydalanish yo'llari tavsiflanadi. Maqolada darsning motivatsiya, yangi bilimni o'zlashtirish, mustahkamlash va refleksiya bosqichlariga mos topshiriqlar, baholash mezonlari taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *Xudoyberdi To'xtaboyev, adabiyot ta'limi, 5-sinf, grafik organayzer, klaster, konseptual xarita, Venn diagrammasi, qahramon tahlili, o'qish savodxonligi, ijodiy fikrlash.*

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГРАФИЧЕСКИХ ОРГАНАЙЗЕРОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА ХУДОЙБЕРДИ ТУХТАБОЕВА НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ В 5-М КЛАССЕ

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования графических органайзеров при изучении жизни и творчества Худойберди Тухтабаева на уроках литературы в 5-м классе. С учётом возрастных особенностей учащихся описываются способы применения кластера, временной шкалы, концептуальной карты, диаграммы Венна, схемы «рыбий скелет», цепочки событий и карты литературного героя. Предлагаются задания для этапов мотивации, усвоения нового материала, закрепления и рефлексии, а также критерии оценивания.*

Ключевые слова *: Худойберди Тухтабаев, литературное образование, 5-й класс, графические органайзеры, кластер, концептуальная карта, диаграмма Венна, анализ персонажа, читательская грамотность, творческое мышление.*

METHODS OF USING GRAPHIC ORGANIZERS IN TEACHING THE LIFE AND WORK OF KHUDOYBERDI TOKHTABOYEV IN 5TH-GRADE LITERATURE CLASSES

Annotation: *The article explores theoretical and practical ways of using graphic organizers to teach the life and works of Xudoyberdi To'xtaboyev in Grade 5 literature lessons. Taking into account learners' age-related characteristics and the development of literary analysis skills, it presents methods for applying clustering, timelines, concept maps, Venn diagrams, fishbone diagrams, plot chains, and character maps. Sample tasks are aligned with lesson stages: motivation, acquisition of new knowledge, consolidation, and reflection. The article also proposes assessment criteria.*

Keywords: *Xudoyberdi To'xtaboyev, literature education, Grade 5, graphic organizers, cluster, concept map, Venn diagram, character analysis, reading literacy, creative thinking.*

KIRISH

Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarning badiiy tafakkurini shakllantirish, adabiy asarlarni mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ijodiy fikrlash qobiliyatini yuksaltirish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfida adabiyot fanini o'qitish o'quvchilarning badiiy olamni idrok etishi, adabiy qahramonlar xarakterini anglab yetishi va asar mazmunidan tegishli xulosalar chiqarishida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda o'quvchilarga adiblarning hayoti va ijodiy merosi haqida ma'lumot berish bilan bir qatorda, ularning asarlarini chuqurroq tushunish, voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va shaxsiy munosabatini asoslash imkoniyatini yaratish zarur. Shu maqsadda grafik organayzerlardan foydalanish samarali metodik vosita bo'lib, ular o'quv materialini tizimlashtirish, muhim ma'lumotlarni o'zaro bog'lash hamda o'quvchilarning mustaqil va mantiqiy fikrlash faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, Xudoyberdi To'xtaboyevning hayoti va ijodini o'rganishda grafik organayzerlarni maqsadga muvofiq qo'llash adib ijodining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish va adabiy ta'lim samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Xudoyberdi To'xtaboyev o'zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotida muhim o'rin tutgan adiblardan biridir. Uning asarlarida bolalik olami, samimiylik, topqirlik, orzu, mas'uliyat, do'stlik va insoniy fazilatlar kabi mavzular turli badiiy vaziyatlar orqali yoritiladi. Adib ijodini o'rganish o'quvchilarga nafaqat adabiy bilim beradi, balki qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, sabab va oqibatni farqlash, hayotiy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

vaziyatlar haqida fikr yuritish imkonini ham yaratadi. Bunda o‘qituvchi asarning sinf darsligi va o‘quv dasturida berilgan parchalariga tayanishi, muallif hayotiga oid ma’lumotlarni ishonchli manbalar bilan tekshirishi zarur.

Grafik organayzerlar axborotni ko‘rinarli, tartibli va o‘zaro bog‘langan shaklda ifodalashga yordam beradigan didaktik vositalardir. Ular o‘quvchining o‘qiganini qayta tuzishi, asosiy va ikkinchi darajali ma’lumotlarni ajratishi, o‘xshashlik va farqlarni aniqlashi hamda o‘z xulosasini asoslashiga xizmat qiladi. Grafik organayzerning qiymati chiroyli chizma yaratishda emas, balki o‘quvchini fikrlash jarayoniga jalb etishidadir. U tayyor javoblarni ko‘chirish vositasiga aylanib qolmasligi, aksincha, savol berish, dalil topish va xulosa chiqarishga undashi lozim.

Mavzuning dolzarbligi uch omil bilan belgilanadi: birinchidan, 5-sinf o‘quvchilarida abstrakt tahlil ko‘nikmalari shakllanib borayotganligi sababli murakkab ma’lumotni ko‘rgazmali tuzilmaga joylashtirish ehtiyoji mavjud; ikkinchidan, adib hayoti va ijodini bir-biridan uzilgan faktlar tarzida emas, o‘zaro aloqador tizim sifatida o‘rgatish zarur; uchinchidan, adabiy ta’limda o‘quvchi faolligi, hamkorlik va mustaqil fikr bildirishni kuchaytiruvchi metodik yechimlarga ehtiyoj bor.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta’lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarini tizimlashtirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va o‘quv materialini chuqur anglashiga yordam beruvchi metodik vositalardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda ham grafik organayzerlarning didaktik imkoniyatlari, ularni ona tili mashg‘ulotlari va boshqa fanlarni o‘qitish jarayoniga tatbiq etish masalalari bo‘yicha ilmiy-metodik izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Shohista Xoldorovaning “Ona tili mashg‘ulotlarida grafik organayzerlardan foydalanish” nomli maqolasida grafik organayzerlarning ona tili ta’limidagi imkoniyatlari va ularni dars jarayonida qo‘llash usullari yoritilgan. Muallif klaster, “BBB” texnologiyasi, tushunchalar tahlili, toifalash jadvali va chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar kabi vositalardan foydalanishga e’tibor qaratadi. Mazkur tadqiqotning

metodik ahamiyati shundaki, unda o‘quv materialini tartibga solish va o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda grafik organayzerlarning o‘rni ko‘rsatilgan. Ushbu yondashuvni adabiyot darslariga tatbiq etish orqali o‘quvchilarga yozuvchining hayoti, ijodiy faoliyati va asarlari haqidagi ma’lumotlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish imkonini yaratish mumkin.

Shaxrizoda G‘ofurovaning “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish kompetentligini rivojlantirish modeli va metodikasi” nomli tadqiqotida bo‘lajak o‘qituvchilarning grafik organayzerlardan foydalanish kompetentligini shakllantirish masalasi o‘rganilgan. Muallif ushbu kompetentlikni rivojlantirishning strukturaviy-funksional modeli va metodikasini asoslaydi. Tadqiqotning mazkur maqola uchun ahamiyati grafik organayzerlardan foydalanish o‘qituvchining metodik tayyorgarligi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatishidadir. Binobarin, 5-sinf adabiyot darslarida grafik organayzerlarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchi ularni dars maqsadi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va o‘rganilayotgan badiiy materialga muvofiq tanlashi zarur.

Yusufjon Nabijanovning “Grafik organayzer tushunchasining mohiyati va uning turlari” nomli maqolasida grafik organayzerlarning mazmuni, turlari hamda ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Muallif ularning o‘quvchilarda mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini yoritadi. Ushbu qarashlar adabiyot ta’limida grafik organayzerlardan foydalanishning nazariy asoslarini belgilashga yordam beradi. Xususan, klaster orqali yozuvchining ijodiy merosini umumlashtirish, Venn diagrammasi yordamida asar qahramonlarini taqqoslash, konseptual xarita orqali yozuvchi hayoti, ijodi va asarlari o‘rtasidagi aloqalarni ochib berish mumkin.

Adabiyot ta’limida interfaol metodlardan foydalanish masalasiga doir tadqiqotlar ham mazkur mavzuning metodik asoslarini boyitadi. Jumladan, Barnoxon Yakubovaning “Shoyim Bo‘tayev asarlarini o‘qitishda interfaol metodlardan

foydalanish" nomli maqolasida badiiy asarlarni o'rgatishda klaster, Venn diagrammasi va ijodiy topshiriqlardan foydalanish masalalari yoritilgan. Muallifning yondashuvi adabiy matnni tahlil qilish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va asar mazmunini faol o'zlashtirishga yo'naltirilgan. Ushbu metodik qarashlarni Xudoyberdi To'xtaboyev ijodini o'rganishga moslashtirish orqali o'quvchilarning yozuvchi asarlaridagi qahramonlar, voqealar va g'oyalarni mustaqil tahlil qilish faoliyatini tashkil etish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Grafik organayzer — ma'lumot, tushuncha, voqea yoki g'oyalar o'rtasidagi munosabatni vizual shaklda ko'rsatadigan tuzilma. Uning asosiy vazifasi axborotni shunchaki bezash emas, balki o'quvchi tafakkurini tartibga solishdir. Masalan, klaster mavzu atrofidagi dastlabki tasavvurlarni ochadi; vaqt chizig'i voqealarning ketma-ketligini aniqlashtiradi; konseptual xarita tushunchalar o'rtasidagi sababiy yoki mazmuniy aloqani ko'rsatadi; Venn diagrammasi ikki obraz yoki ikki matnni qiyoslashga yordam beradi; "Baliq skeleti" muammo, sabab, dalil va xulosani bir tizimga birlashtiradi.

Adabiyot darsida grafik organayzerlar o'qishdan oldin, o'qish davomida va o'qishdan keyin qo'llanishi mumkin. O'qishdan oldin klaster yoki savollar xaritasi avvalgi bilimni faollashtiradi. O'qish davomida voqealar zanjiri va qahramon xaritasi muhim detallarni qayd etadi. O'qishdan keyin Venn diagrammasi, "Baliq skeleti" yoki xulosa jadvali tahlil va refleksiyani ta'minlaydi. Bitta darsda juda ko'p organayzer ishlatish shart emas; maqsadga mos ikki yoki uch vositani chuqur qo'llash ko'pincha samaraliroq bo'ladi. Beshinchi sinf o'quvchilari boshlang'ich ta'limdan fanlar bo'yicha tizimli o'qitishga o'tish davrida bo'ladilar. Ular konkret misol, tasvir, rang va aniq savollar orqali ma'lumotni osonroq tashkil qilishi mumkin. Shu bilan birga, o'quvchilarning o'qish tezligi, lug'at boyligi va matnni mustaqil tahlil qilish darajasi bir xil bo'lmaydi. Shuning uchun grafik organayzerlar sodda shakldan murakkab shaklga

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qarab berilishi, ko‘rsatmalar qisqa va tushunarli bo‘lishi, zarur holatda so‘zlar banki yoki namunaviy boshlanishlar taqdim etilishi kerak. Masalan, dastlab o‘quvchi “Adib haqida nimalarni bilaman?” degan savolga klaster tuzadi. Keyingi bosqichda muallif hayotiga oid tekshirilgan ma’lumotlar vaqt chizig‘iga joylanadi. So‘ng asar qahramonining maqsadi, xatti-harakati, oqibati va o‘quvchi munosabati qahramon xaritasida ifodalanadi. O‘quvchi tajriba orttirgan sari tayyor sarlavhali jadvallardan bo‘sh sxemalarga, undan esa mustaqil tuzilma yaratishga o‘tishi mumkin.

5-sinf o‘quvchilar uchun ularning yosh va mavzuni qabul qilish darajasiga qarab grafik organayzerlarni dars jarayoniga quyidagi bosqichlarda qo‘llash mumkin: 1) kutilayotgan natijani belgilash; 2) o‘quv matni va asosiy tushunchalarni ajratish; 3) maqsadga mos grafik organayzerni tanlash; 4) savol va topshiriqlarni tayyorlash; 5) individual, juftlik yoki guruhli ish shaklini belgilash; 6) natijani mezon asosida baholash; 7) refleksiya va qayta aloqa tashkil etish. O‘qituvchi avval “o‘quvchi dars oxirida nimani bajara oladi?” degan savolga javob topadi, keyin organayzerni tanlaydi. Aksincha, avval chiroyli sxema tanlab, so‘ng unga mos mazmun izlash metodik jihatdan maqsadga muvofiq emas.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xudoyberdi To‘xtaboyev hayotiga oid ma’lumotlarni o‘rganishda vaqt chizig‘i biografik faktlarni izchil joylashtirish, voqealar ketma-ketligini tushunish va muallifning ijodiy yo‘li haqida umumiy tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi. O‘qituvchi doskada gorizontal chiziq chizib, uni “hayot”, “ta’lim”, “mehnat faoliyati”, “ijodiy faoliyat” kabi yo‘nalishlarga ajratishi mumkin. O‘quvchilar darslikda berilgan yoki o‘qituvchi oldindan tekshirgan ma’lumotlarni tegishli bo‘limlarga joylaydi. Masalan: “Matndan adib hayotiga oid beshta muhim ma’lumotni ajrating. Ularni vaqt chizig‘iga joylashtiring. Har bir ma’lumot yoniga bu fakt nima uchun muhimligini bir jumlada yozing.” Bunda faqat sanalarni ko‘chirish bilan cheklanmaslik lozim. O‘quvchi, masalan, adibning hayotiy tajribasi va bolalar dunyosiga qiziqishi ijod mavzulari bilan qanday bog‘lanishi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mumkinligi haqida taxmin bildiradi. Taxmin bilan tasdiqlangan faktni farqlash uchun "manbada aytilgan" va "mening xulosam" degan ikki belgi ishlatilishi mumkin. Vaqt chizig'i yakunida o'quvchilar juftlikda bir-birining ishini tekshiradi: ma'lumotning manbasi ko'rsatilganmi, ketma-ketlik to'g'rimi, muhim faktlar tanlanganmi, izoh mazmunan asoslanganmi? O'qituvchi sanalarni yodlashdan tashqari biografik axborotni tanlash va izohlash qobiliyatiga ham e'tibor qaratadi.

Bundan tashqari, Venn diagrammasini ham dars jarayonida qo'llash mumkin. Venn diagrammasi ikki qahramon, ikki vaziyat yoki ikki asar parchasining o'xshash va farqli tomonlarini aniqlashga xizmat qiladi. Ikki kesishuvchi doiraning chap qismiga birinchi obrazga xos belgilar, o'ng qismiga ikkinchi obrazga xos belgilar, kesishgan qismiga esa umumiy xususiyatlar yoziladi. Qiyoslash uchun bir xil mezonlardan foydalanish zarur: maqsad, xatti-harakat, muammoga munosabat, boshqa qahramonlar bilan aloqa va voqea yakunidagi holat. O'qituvchi o'quvchilarni shaxsiy taassurotni matn dalili bilan bog'lashga undaydi. Masalan, "ikkala qahramon ham topqir" degan fikr bildirilsa, o'quvchi har bir obrazning topqirligini ko'rsatuvchi vaziyatni aytishi kerak. Agar qiyoslash ikki asar emas, bitta asardagi ikki qahramon o'rtasida tashkil qilinsa, darslikda o'rganilgan matn doirasidan chiqilmaydi. Venn diagrammasi yakunida "Eng muhim farq nimada?" degan savolga ikki-uch gap bilan javob yozdirish umumlashtirish ko'nikmasini mustahkamlaydi.

Quyida turli grafik organayzerlardan foydalanishning maqsad va natijalarini keltirib o'tamiz:

Grafik organayzer	Asosiy maqsad	O'quvchining natijasi
Klaster	Avvalgi bilimni faollashtirish va tushunchalarni guruhlash	Kalit so'zlar xaritasi
Vaqt chizig'i	Biografik faktlarni izchil joylashtirish	Sanalar va qisqa izohlar

Qahramon xaritasi	Obrazni dalillar asosida tahlil qilish	Xususiyat, dalil va munosabat
Voqealar zanjiri	Syujet va sabab-oqibatni anglash	Ketma-ket voqealar sxemasi
Venn diagrammasi	O‘xshashlik va farqlarni aniqlash	Qiyosiy xulosa
Baliq skeleti	Muammo, sabab va natijani tahlil qilish	Dalillangan xulosa
Konseptual xarita	Tushunchalar orasidagi aloqani ko‘rsatish	Bog‘lanishlar tizimi

XULOSA

Grafik organayzerlarning muhim afzalliklaridan biri — o‘quvchi fikrini ko‘rinadigan mahsulotga aylantirishidir. O‘qituvchi o‘quvchining qaysi faktni muhim deb bilganini, qaysi sababni ko‘rsatganini, qaysi dalilga tayanganini tezroq ko‘ra oladi. O‘quvchi esa o‘z fikrini qayta ko‘rib chiqishi, sherigining qarashi bilan qiyoslashi va xatolarini tuzatishi mumkin. Bunday jarayon shakllantiruvchi baholashga mos keladi, chunki o‘qituvchi yakuniy ball bilan cheklanmay, o‘quvchiga aniq qayta aloqa beradi. Shu bilan birga, grafik organayzerlardan foydalanishning cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, chizma to‘ldirishga haddan tashqari ko‘p vaqt sarflansa, badiiy matnni o‘qish va muhokama qilish uchun vaqt kamayadi. Ikkinchidan, o‘quvchilar mazmunni tushunmasdan kalit so‘zlarni ko‘chirishi mumkin. Uchinchidan, barcha o‘quvchilar uchun bir xil ko‘rgazmali shakl qulay bo‘lavermaydi. Bu muammolarni kamaytirish uchun organayzerlar sodda, maqsadli va matnga bog‘langan bo‘lishi, o‘qituvchi tayyor javobni bermasdan, yo‘naltiruvchi savollar bilan ko‘maklashishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yo‘ldoshev Q., Madayev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Respublika o‘quv-metodik markazi, 1994.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

2. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
3. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Shafoat Nur Fayz, 2023.
4. M. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Aloqachi, 2018.
5. To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2017.

BOBORAHIM MASHRAB HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Abdug'offorova Gulxayo Abdurashid qizi
Namangan davlat pedagogika instituti magistranti
gulxayoabdugofforova2627@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada XVII asrning ikkinchi yarmi - XVIII asr boshlaridagi o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Boborahim Mashrab hayoti va ijodini o'rganish adabiy ta'limning pedagogik muammosi sifatida tadqiq etilgan. Pedagogik muammo ta'lim maqsadi bilan uni amalga oshirishning mavjud mazmuni, metodlari va shart-sharoitlari o'rtasidagi ilmiy-amaliy ziddiyat sifatida talqin qilinadi. Mashrab merosini o'rganishning manbashunoslik-biografik, matnshunoslik, adabiy-estetik va didaktik-metodik yo'nalishlari asoslab berilgan, shoir biografiyasi va asarlarini o'qitishdagi beshta asosiy ziddiyat aniqlangan. Tadqiqot natijasida yetti ilmiy-metodik tamoyil, she'riy matnni to'rt bosqichli ko'p qatlamli tahlil qilish modeli, muammoli savollar tizimi taklif etilgan hamda muammoning mualliflik ta'rifi berilgan.*

Kalit so'zlar: *Boborahim Mashrab, adabiy ta'lim, pedagogik muammo, manbaviy savodxonlik, "Qissai Mashrab", tasavvufiy ramz, ko'p qatlamli tahlil, muammoli ta'lim.*

ИЗУЧЕНИЕ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА БОБОРАХИМА МАШРАБА КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. *В статье изучение жизни и творчества Бобораҳима Машраба - крупного представителя узбекской классической литературы второй половины XVII - начала XVIII века - рассматривается как педагогическая проблема литературного образования. Педагогическая проблема трактуется как научно-практическое противоречие между целью обучения и существующими содержанием, методами и условиями её достижения. Обоснованы источниковедческо-биографическое, текстологическое, литературно-эстетическое и дидактико-методическое направления изучения наследия поэта, выявлены пять основных противоречий в его преподавании. Предложены семь научно-методических принципов, четырёхэтапная модель многоуровневого анализа поэтического текста, система проблемных вопросов, а также авторское определение исследуемой проблемы.*

Ключевые слова: *Бобораҳим Машраб, литературное образование, педагогическая проблема, источниковедческая грамотность, «Киссаи Машраб», суфийская символика, многоуровневый анализ, проблемное обучение.*

THE STUDY OF THE LIFE AND WORK OF BOBORAHIM MASHRAB AS A PEDAGOGICAL ISSUE

Abstract. *The article examines the study of the life and work of Boborahim Mashrab, a major figure of Uzbek classical literature of the late 17th and early 18th centuries, as a pedagogical problem of literary education. A pedagogical problem is understood as a scientific and practical contradiction between the goal*



of instruction and the existing content, methods and conditions for achieving it. Four interrelated directions for studying the poet's legacy are substantiated - source-biographical, textological, literary-aesthetic and didactic-methodological - and five core contradictions in teaching his biography and works are identified. As a result, seven scientific and methodological principles, a four-stage model of multi-layered analysis of poetic text and a system of problem-based questions are proposed, and an author's definition of the problem is formulated.

Keywords: *Boborahim Mashrab, literary education, pedagogical problem, source literacy, "Qissai Mashrab", Sufi symbolism, multi-layered analysis, problem-based learning.*

KIRISH

Adabiy ta'limning asosiy vazifasi o'quvchiga muayyan ijodkor haqida biografik ma'lumotlar berish yoki badiiy asar mazmunini qayta hikoyalatish bilangina cheklanmaydi. Badiiy adabiyotni o'qitish jarayonida o'quvchining estetik didini rivojlantirish, matnni mustaqil tahlil qilish, undagi badiiy va hayotiy haqiqatni anglash, o'z munosabatini dalillar asosida ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish ko'zda tutiladi. Adabiyot o'qitish metodikasi adabiyotshunoslik va pedagogika fanlarining imkoniyatlarini birlashtirgan holda badiiy asarni kimga, nima maqsadda va qanday usullar vositasida o'rgatish masalalarini tadqiq etadi [5]. Shu sababli ijodkor hayoti va asarlarini o'rganish mazmun tanlash, uni o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirish hamda ta'limiy natijalarni belgilash bilan bog'liq murakkab pedagogik jarayondir.

Boborahim Mashrab XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asr boshlaridagi o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lib, uning hayoti va ijodiy faoliyati asosan Markaziy Osiyo hududlari bilan bog'liq kechgan. Shoirning xalq orasida keng shuhrat qozonishi natijasida uning shaxsi atrofida ko'plab hikoyat, rivoyat, naql va afsonalar yuzaga kelgan. Mashrab adabiy merosida ishqiy, tasavvufiy, qalandarona hamda ijtimoiy mazmundagi qarashlarning o'zaro tutashib ketishi uning ijodini o'rganishni murakkab, ayni paytda katta tarbiyaviy imkoniyatga ega jarayonga aylantiradi.

Mashrab merosini o‘qitishdagi murakkablik, avvalo, shoir shaxsining ko‘p qirrali tabiatidan kelib chiqadi. Bir tomondan, Mashrab mumtoz she’riyat an’analarini davom ettirgan iste’dodli lirik shoir; ikkinchi tomondan, uning asarlarida tasavvufiy tafakkur va qalandarlik dunyoqarashi muhim o‘rin egallaydi; uchinchi tomondan, shoir ijodida insonning real kechinmalari, jamiyatdagi adolatsizlik, riyokorlik, zo‘ravonlik va ma’naviy tubanlikka nisbatan keskin munosabat aks etgan. Demak, Mashrabni faqat “tasavvuf shoiri”, “isyonkor shoir” yoki “ishq kuychisi” kabi bitta sifat doirasida o‘rganish uning badiiy olamini to‘liq ochib bermaydi.

Mazkur tadqiqotda pedagogik muammo tushunchasi ta’lim oldiga qo‘yilgan maqsad bilan ushbu maqsadni amalga oshirishning mavjud mazmuni, metodlari va shart-sharoitlari o‘rtasidagi ilmiy-amaliy ziddiyat sifatida tushuniladi. Bu nuqtai nazardan Mashrab hayoti va ijodini o‘rganishdagi pedagogik muammo shoir merosining katta ma’rifiy, estetik va ma’naviy imkoniyatlarga ega ekanligi bilan uni ta’lim oluvchilarga ilmiy asoslangan, tushunarli, xolis va ta’sirchan shaklda yetkazish metodikasi yetarlicha tizimlashtirilmaganligi o‘rtasidagi nomuvofiqlikda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotning maqsadi - Boborahim Mashrab hayoti va ijodini o‘rganishdagi pedagogik muammoning mohiyati, tarkibiy yo‘nalishlari va ziddiyatlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishning ilmiy-metodik tamoyillarini asoslashdan iborat. Maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi: shoir haqidagi tarixiy, rivoyaviy va matniy manbalarning ta’limdagi maqomini aniqlash; Mashrab merosini o‘rganishning asosiy yo‘nalishlarini tizimlashtirish; o‘qitish jarayonidagi asosiy ziddiyatlarni ochib berish; ilmiy-metodik tamoyillar va she’riy matnni tahlil qilish modelini ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shoir hayotiga oid muhim adabiy-biografik manbalardan biri “Qissai Mashrab” yoki “Qissai Shoh Mashrab” nomlari bilan ma’lum bo‘lgan asardir [1]. Unda Mashrabning hayot yo‘li, safarlari, ustozlari, qalandarona faoliyati va she’rlari haqida



qimmatli ma'lumotlar bilan birga karomat, g'ayrioddiy xatti-harakat, latifa, naql va afsonaviy voqealar ham berilgan. Mashrab to'g'risidagi ayrim ma'lumotlar Maleho Samarqandiyning "Muzakkir ul-ashob", Ziyovuddin Bog'istoniyning "Tazkirai qalandaron" asarlari hamda XVIII–XIX asrlarda yaratilgan boshqa tarixiy manbalarda uchraydi.

Shoirning tavallud sanasi masalasida adabiyotshunoslar turli xulosalarga kelgan. M. Zokirov Mashrab she'rlaridan biridagi yoshga oid ma'lumotga tayanib, tug'ilgan yilini 1640–1641-yillar deb taxmin qilgan. J. Yusupov qo'lyozma va tazkiralardagi dalillarni o'rganib, 1653-yilni asosliroq deb hisoblagan. R. Orzibekov ham keyingi qarashni ma'qullab, shoir hayotini 1653–1711-yillar doirasida yoritadi [2]. R. Orzibekov, shuningdek, XX asrning 60–70-yillaridagi tadqiqotlarda Mashrab she'riyatidagi ilohiy-tasavvufiy mazmunga yetarli e'tibor qaratilmaganini, keyingi davr talqinlarida esa, aksincha, butun merosni faqat tasavvuf doirasida izohlashga moyillik kuchayganini qayd etadi [2].

Matnshunoslik nuqtai nazaridan shoir she'rlari muallifning o'zi tomonidan tartib berilgan mukammal devon shaklida saqlanmagan: ular "Devonai Mashrab", "Qissai Mashrab", turli bayozlar, tazkiralar va keyingi to'plamlar orqali yetib kelgan. A. Jumanazar "Mabdai nur" asarining muallifligi yuzasidan qariyb bir asr davom etgan bahslarni tahlil qilib, uni Ro'ziboy Mashrab nomi bilan bog'lovchi qo'lyozma va matniy dalillar mavjudligini ko'rsatadi hamda bu xulosalar yangi manbashunoslik tadqiqotlarini talab qilishini ta'kidlaydi [3]. O'zbekiston Milliy kutubxonasi elektron fondida mavjud, Mirzo Kenjabek tomonidan nashrga tayyorlangan "Mashrab. She'rlar" to'plami ta'limda asosiy she'riy matnlarni tanlash uchun tayanch manba bo'la oladi.

Pedagogik yo'nalishda M. Hoshimxonovning doktorlik tadqiqotida Mashrab merosining ijtimoiy-pedagogik mazmuni va undan talabalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishida foydalanish imkoniyatlari maxsus o'rganilgan [4]. Adabiyot o'qitish metodikasiga doir ishlarda ijodkor biografiyasini quruq fakt va sanalar yig'indisiga

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

aylantirish o‘quvchining hissiz munosabatiga sabab bo‘lishi, biografik ma’lumot badiiy asar tahlilining tabiiy tayanchi ekani ta’kidlangan [5]. Muammoli ta’lim nazariyasida esa o‘quvchini tayyor bilimni qabul qilishdan ko‘ra qarama-qarshilikni ko‘rish, taxmin ilgari surish, dalillarni tekshirish va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirish g‘oyasi asoslangan [6; 7].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Mashrab merosining manbashunoslik, adabiyotshunoslik va tarbiyaviy jihatlari alohida-alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularni yagona ta’limiy tizimga birlashtiruvchi, bahsli ma’lumotlarning maqomini o‘quv jarayonida aniq belgilashga yo‘naltirilgan metodik yondashuv yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot nazariy-metodik xarakterga ega bo‘lib, unda ilmiy-pedagogik va adabiyotshunoslik manbalarini nazariy tahlil qilish, biografik va matniy manbalarni qiyosiy-manbashunoslik tahlili, metodik adabiyotlarning kontent-tahlili, tizimli-strukturaviy yondashuv, pedagogik modellashtirish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Taklif etilgan tamoyillar va tahlil modelining samaradorligi keyingi bosqichda tajriba-sinov ishlari orqali tekshirilishi ko‘zda tutilgan.

NATIJALAR

1. Mashrab merosini o‘rganishning tarkibiy yo‘nalishlari

Tadqiqot natijasida Boborahim Mashrab hayoti va ijodini o‘rganish muammosini to‘rtta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Mashrab merosini o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	**Mazmuni**	**Ta’limiy natija**
Manbashunoslik-biografik	Shoir hayotiga oid ma’lumotlar qaysi manbalarga asoslanganini aniqlash	Fakt, rivoyat va ilmiy taxminni farqlash

Matnshunoslik	She'rlarning muallifligi va nashrlar ishonchliligini baholash	Matnning tekshirilgan nashriga tayanish
Adabiy-estetik	Poetik shakl, obraz, ramz, ohang va uslubni tushuntirish	Badiiy shakl va mazmun birligini idrok etish
Didaktik-metodik	Ilmiy mazmunni ongli o'zlashtirishni ta'minlovchi metodlarni belgilash	Dalillangan mustaqil talqin

2. Manbaviy aniqlik va bahsli ma'lumotlar maqomi

"Qissai Mashrab"dagi barcha voqealarni tarixiy hujjat darajasidagi aniq fakt sifatida taqdim etish to'g'ri emasligi aniqlandi. Darsda "tarixiy manbalarda qayd etilishicha", "qissada hikoya qilinishicha", "rivoyatga ko'ra", "tadqiqotchilar fikricha" kabi ilmiy aniqlikni ifodalovchi birikmalardan foydalanish o'quvchiga fakt, badiiy talqin, rivoyat va ilmiy taxmin o'rtasidagi farqni anglatadi. Natijada biografiyani o'rganish sanalarni yodlashdan manbani tanqidiy o'qish faoliyatiga aylanadi.

Shoir tavallud sanasiga doir qarashlarning turlichaligi (2-jadval) o'qitishda kamchilik sifatida emas, o'quvchining tadqiqotchilik fikrini rivojlantiruvchi didaktik imkoniyat sifatida baholandi: o'quvchi tayyor hukmni yodlamaydi, balki dalillarni solishtiradi va xulosaning qanday shakllanishini kuzatadi.

2-jadval

Mashrabning tavallud sanasi haqidagi ilmiy qarashlar

Tadqiqotchi	**Taklif etilgan sana**	**Asos**
M. Zokirov	1640–1641-yillar	She'rlardan biridagi yoshga oid avtobiografik ma'lumot

J. Yusupov	1653-yil	Qo‘lyozma va tazkiralardagi dalillar
R. Orzibekov [2]	1653–1711-yillar	J. Yusupov qarashini ma’qullash

Muallifligi munozarali asarlar, xususan, “Mabdai nur”ni “Boborahim Mashrabning asari” tarzida mutlaq hukm bilan berish o‘rniga “Mashrabga nisbat berib kelingan asar”, “muallifligi yuzasidan turli ilmiy qarashlar mavjud bo‘lgan manba” kabi aniqlashtiruvchi ifodalardan foydalanish ilmiy xolislikni ta’minlaydi. Har qanday nashrdagi matnni qo‘lyozmaning o‘zi bilan tenglashtirmaslik, zarur o‘rinlarda boshqa nashrlar bilan qiyoslash lozim.

3. She’riy matnni ko‘p qatlamli tahlil qilish modeli

Mashrab she’riyatida dunyoviylik va tasavvufiylik bir-birini inkor etuvchi tushunchalar emas, ayrim matnlarda o‘zaro aloqador ma’no qatlamlari ekani inobatga olinib, to‘rt bosqichli tahlil modeli taklif etildi:

1. **Lug‘aviy bosqich** - she’rning lug‘aviy mazmuni, arabcha-forscha so‘zlar va mumtoz atamalar ochiladi;
2. **Ramziy bosqich** - oshiq, ma’shuqa, may, yor, hijron, vasl, sahro, yo‘l kabi obrazlarning mumtoz adabiyotdagi ramziy vazifasi o‘rganiladi;
3. **Kontekstual bosqich** - she’rning tarixiy-madaniy konteksti va muallifning ruhiy holati tahlil qilinadi;
4. **Poetik bosqich** – vazn, qofiya, radif, takror, tazod, mubolag‘a va ohang bilan mazmun o‘rtasidagi munosabat aniqlanadi.

Har bir dars uchun tayanch so‘zlar lug‘ati, tarixiy va tasavvufiy tushunchalarning qisqa sharhi, obrazlar tizimini ko‘rsatuvchi sxema hamda ifodali o‘qish namunasi tayyorlanishi lozim. Nasriy izoh faqat tushunish uchun yordamchi vosita bo‘lib, badiiy matn o‘rnini egallamasligi kerak: o‘quvchi dastlab she’r ohangini his etadi, keyin lug‘aviy va ramziy mazmunni aniqlaydi, yakunda o‘z talqinini matndagi dalillar bilan asoslaydi.

4. Biografiya va ijod birligi

Avval shoir hayotidagi voqealarni ketma-ket bayon qilib, keyin she'rlarni alohida o'rganish o'rniga biografik ma'lumotni muayyan matn bilan bog'lash samaraliroq ekani asoslandi. Qalandarona safarlar haqidagi ma'lumotlar g'urbat va darbadarlik kayfiyati ifodalangan she'rlar bilan; ijtimoiy muhitga munosabat adolatsizlik va riyokorlikni qoralovchi misralar bilan; tasavvufiy tarbiya haqidagi ma'lumotlar esa ishq, Haq, vasl va ruhiy kamolot tushunchalari ishtirok etgan matnlar bilan uyg'unlikda yoritiladi. Bunda biografik voqea she'rni tushuntirish uchun kontekst, she'r esa shoir shaxsiyatini anglash uchun badiiy dalil vazifasini bajaradi. Qissalardagi karomat bilan bog'liq voqealar muhokama qilinganda manoqibiy adabiyotga xos jihatlar tushuntiriladi, aks holda o'quvchi tarixiy shaxs, qissa qahramoni va xalq tasavvuridagi avliyo obrazini farqlay olmaydi.

5. Muammoli savollar tizimi

Izohli o'qish, qiyosiy tahlil, kichik tadqiqot, matnga asoslangan munozara va refleksiv yozuv usullari bilan uyg'un qo'llanadigan muammoli savollar tizimi ishlab chiqildi:

1. Nima sababdan Mashrab hayotiga oid ayrim ma'lumotlar turli manbalarda bir-biridan farq qiladi?
2. Qissadagi qaysi voqealar tarixiy fakt, qaysilari badiiy-rivoyaviy talqin sifatida baholanishi mumkin?
3. Muayyan she'rdagi ishq obrazining dunyoviy yoki ilohiy mazmunga egaligini qanday dalillar asosida aniqlaymiz?
4. Shoirning keskin tanqidi e'tiqodning o'ziga emas, riyokorlik va soxta taqvodorlikka qaratilganini matndan qanday asoslash mumkin?
5. She'rning musiqiy ohangi uning mazmuniga qanday ta'sir qilmoqda?

6. O'qitishdagi asosiy ziddiyatlar

Mashrab hayoti va ijodini o'rganishdagi pedagogik muammoning asosiy ziddiyatlari quyidagicha umumlashtirildi:

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

1. shoir merosining tarixiy, falsafiy va poetik boyligi bilan dars vaqtining cheklanganligi o‘rtasidagi ziddiyat;
2. biografik va matniy manbalarning ko‘pligi hamda ayrim ma’lumotlarning bahsliligi bilan o‘quv materialida aniq va izchil mazmun berish zarurati o‘rtasidagi nomuvofiqlik;
3. mumtoz she’riyatning ramziy-tasavvufiy tabiati bilan o‘quvchilarning ko‘pincha so‘zma-so‘z idrok etishi o‘rtasidagi tafovut;
4. meros tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish zarurati bilan she’riyatni sun’iy ravishda axloqiy shiorlarga bo‘ysundirish xavfi o‘rtasidagi ziddiyat;
5. o‘qituvchining ilmiy talqini bilan o‘quvchining mustaqil fikrlashi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash zarurati.

7. Ilmiy-metodik tamoyillar

Aniqlangan ziddiyatlarni bartaraf etish uchun quyidagi tamoyillar asoslandi:

1. **Manbaviy aniqlik tamoyili** – tarixiy fakt, rivoyat, ilmiy taxmin va badiiy talqinni bir-biridan farqlab ko‘rsatish.
2. **Hayot va ijod birligi tamoyili** – biografik ma’lumotlarni muayyan she’r va badiiy hodisalar bilan bog‘lab o‘rganish.
3. **Matn markaziyligi tamoyili** – har qanday g‘oyaviy yoki tasavvufiy xulosani she’r matnidagi dalillarga tayangan holda asoslash.
4. **Ko‘p qatlamli talqin tamoyili** – dunyoviy, tasavvufiy, ijtimoiy va estetik mazmunlarni o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilish.
5. **Yoshga muvofiqlik tamoyili** – murakkab atama va ramzlarni o‘quvchining tayyorgarligiga mos bosqichlarda tushuntirish.
6. **Dialogik va muammoli ta’lim tamoyili** – o‘quvchini savol qo‘yish, dalil izlash, talqinlarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarishga jalb etish.
7. **Ilmiy xolislik tamoyili** – bahsli masalalarda turli ilmiy qarashlarni ko‘rsatish va hech bir taxminni dalilsiz yakuniy haqiqat sifatida bermaslik.

8. Muammoning mualliflik ta'rifi

Boborahim Mashrab hayoti va ijodini o'rganishning pedagogik muammosi – shoir haqidagi tarixiy, rivoyaviy va matniy manbalarni ilmiy jihatdan farqlash, uning murakkab badiiy-tasavvufiy merosini o'quvchining yosh va bilim darajasiga mos ravishda sharhlash, ayni paytda estetik idrok, manbaviy savodxonlik va dalillangan mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi yaxlit metodik tizimga bo'lgan ehtiyoj bilan mavjud ta'lim amaliyoti o'rtasidagi ziddiyatdir.

MUHOKAMA

Olingan natijalar R. Orzibekov tomonidan qayd etilgan ikki qarama-qarshi tendensiya - tasavvufiy mazmunni e'tiborsiz qoldirish va, aksincha, butun merosni faqat tasavvuf doirasida izohlash - ta'lim amaliyotida ham takrorlanishi mumkinligini ko'rsatadi [2]. Shoirning har bir ishqiy she'rini faqat ilohiy muhabbat ifodasi deb talqin qilish ham, undagi ramziy-ma'rifiy mazmunni butunlay inkor etib, faqat dunyoviy sevgi namunasi sifatida baholash ham ilmiy jihatdan cheklangan yondashuvdir. Orzibekov Mashrabning ayrim mustazodlarida real inson go'zalligi va hayotiy muhabbat tasvirlanganini alohida ko'rsatadi [2]. Taklif etilgan ko'p qatlamli talqin va matn markaziyligi tamoyillari aynan shu ikki xavfni muvozanatlashga xizmat qiladi.

Mumtoz she'riyatdagi tasavvufiy tushunchalar va ramzlar tayyorgarliksiz o'quvchi tomonidan so'zma-so'z qabul qilinishi mumkin. Ayrim o'quvchilar "may", "yor", "kuyish", "o'lim" yoki "devonalik" kabi obrazlarni faqat lug'aviy ma'noda tushunadi; boshqalari esa o'qituvchi aytgan tayyor tasavvufiy izohni matn bilan tekshirmasdan takrorlaydi. Har ikkala holatda ham mustaqil adabiy tafakkur rivojlanmaydi. Shu jihatdan muammoli ta'lim nazariyasi [6; 7] bilan uyg'unlashgan savollar tizimi yagona tayyor javobni takrorlashni emas, matn va manbalarga tayangan holda fikr bildirishni talab qiladi.

Mashrab merosining tarbiyaviy imkoniyatlari insoniylik, adolat, rostgo'ylik, mehr-shafqat, ma'naviy poklanish, riyokorlikka murosasizlik va komillikka intilish

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

g‘oyalari bilan belgilanadi; bu jihat M. Hoshimxonov tadqiqotida ham asoslangan [4]. Biroq badiiy asarning tarbiyaviy imkoniyatidan foydalanish uni nasihatlar majmuasiga aylantirish degani emas. Agar o‘qituvchi she’rning badiiy shakli, lirik qahramon kechinmasi va obrazlar tizimini chetlab o‘tib, faqat axloqiy xulosa chiqarishga intilsa, asarning estetik ta’siri susayadi. Shu bois tarbiyaviy xulosa tahlil boshida tayyor holda berilmay, badiiy kuzatish, savol-javob, qiyoslash va umumlashtirish jarayonida o‘quvchining o‘zi tomonidan chiqarilishi lozim.

Tadqiqotning cheklovi uning nazariy-metodik xarakterga egaligidir: taklif etilgan tamoyillar va tahlil modelining samaradorligi empirik ma’lumotlar asosida hali tekshirilmagan. Keyingi tadqiqotlarda turli ta’lim bosqichlarida tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish, o‘quvchilarning manbaviy savodxonligi va matnga asoslangan talqin ko‘nikmalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish rejalashtirilgan.

XULOSA

Boborahim Mashrab hayoti va ijodini samarali o‘rganish shoirga oid ma’lumotlar hajmini ko‘paytirish bilangina hal bo‘lmaydi. Buning uchun o‘quv materiali ilmiy saralanishi, bahsli ma’lumotlarning maqomi aniq ko‘rsatilishi, biografiya she’riy matn bilan uyg‘unlashtirilishi, mumtoz ramz va tushunchalar bosqichma-bosqich izohlanishi hamda o‘quvchining shaxsiy talqiniga imkon yaratilishi zarur. Tadqiqotda Mashrab merosini o‘rganishning to‘rt yo‘nalishi, o‘qitishdagi besh asosiy ziddiyat, yetti ilmiy-metodik tamoyil va to‘rt bosqichli ko‘p qatlamli tahlil modeli asoslandi, muammoning mualliflik ta’rifi berildi. Ana shunday yondashuv Mashrab merosini tarixiy-adabiy ma’lumot sifatida o‘zlashtirish bilan birga, undan o‘quvchilarning badiiy tafakkuri, estetik didi, ma’naviy mas’uliyati va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qissai Mashrab. – Toshkent: Yozuvchi, 1992.
2. Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVII – XIX asrning I yarmi): o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 272 b.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

3. Jumanazar A. "Mabdai nur" va kalavaning ikki uchi [Elektron resurs]. – URL: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdusattor-jumanazar-mabdai-nur-va-kalavaning-ikki-uchi.html (murojaat sanasi: 14.10.2026).

4. Hoshimxonov M. Ijtimoiy-pedagogik fikrlar negizida talabalarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash tizimini takomillashtirish (Boborahim Mashrab asarlari misolida): ped. fan. d-ri (DSc) diss. avtoref. – Jizzax, 2023.

5. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy va metodik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

6. Лернер И.Я. Проблемное обучение. – М.: Знание, 1974. – 64 с.

7. Махмутов М.И. Проблемное обучение: основные вопросы теории. – М.: Педагогика, 1975. – 368 с.

JADID HIKOYALARI POETIKASINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY ADABIY-TA’LIMIY YONDASHUVLAR

Usmonjonova Sevinch Akramjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti,o‘zbek tili va adabiyoti
2-bosqich magistranti
e-mail:usmonjonovasevinch@gmail.com
htps://orcid.org/009-0005-5906-2681

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jadid hikoyalari poetikasini o‘qitishda zamonaviy adabiy-ta’limiy yondashuvlardan foydalanish masalalari yoritilgan. Unda jadid hikoyalarining poetik xususiyatlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish, ularni talaba-markazli va kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitishning metodik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda tarixiy-kontekstual, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, taksonomik, texnologik va differensial yondashuvlarning jadid hikoyalari poetikasini o‘zlashtirishdagi o‘rni ochib berilgan. Shuningdek, tarixiy-adabiy bilim, analitik hamda qadriyat-baholash kompetensiyalarini shakllantirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Jadid hikoyalarini o‘qitishda “matndan metodga” tamoyiliga tayanish, badiiy matnning poetik xususiyatidan kelib chiqib metod va usullarni tanlash, talabaning mustaqil estetik idroki va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish zarurligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *jadid adabiyoti, jadid hikoyalari, hikoya poetikasi, adabiy ta’lim, zamonaviy yondashuvlar, kompetensiyaviy yondashuv, tarixiy-kontekstual yondashuv, tanqidiy fikrlash, Blum taksonomiyasi, differensial yondashuv, adabiyot o‘qitish metodikasi, badiiy matn tahlili.*

СОВРЕМЕННЫЕ ЛИТЕРАТУРНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ПРЕПОДАВАНИЮ ПОЭТИКИ ДЖАДИДСКИХ РАССКАЗОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы использования современных литературно-образовательных подходов при обучении поэтике джадидских рассказов. Анализируются методические возможности изучения поэтических особенностей джадидских рассказов на основе студентоцентрированного и компетентностного подходов. Раскрывается значение историко-контекстуального подхода, подхода, направленного на развитие критического мышления, таксономического, технологического и дифференцированного подходов в процессе освоения поэтики джадидской прозы. Особое внимание уделяется формированию историко-литературной, аналитической и ценностно-оценочной компетенций студентов. Обосновывается необходимость применения принципа «от текста к методу», предполагающего выбор методов и приемов обучения с учетом поэтических особенностей художественного текста. Подчеркивается значение самостоятельного эстетического восприятия, критического мышления и активной познавательной деятельности студентов при изучении джадидских рассказов.*

Ключевые слова: *джадидская литература, джадидские рассказы, поэтика рассказа, литературное образование, современные подходы, компетентностный подход, историко-контекстуальный подход, критическое мышление, таксономия Блума, дифференцированный подход, методика преподавания литературы, анализ художественного текста.*

MODERN LITERARY AND EDUCATIONAL APPROACHES TO TEACHING THE POETICS OF JADID SHORT STORIES

Abstract. *This article examines the use of modern literary and educational approaches in teaching the poetics of Jadid short stories. It analyzes the methodological potential of studying the poetic features of Jadid short stories through student-centered and competency-based approaches. Particular attention is paid to the role of historical-contextual, critical-thinking-oriented, taxonomic, technological, and differentiated approaches in teaching the poetics of Jadid prose. The article focuses on the development of students' historical-literary, analytical, and value-evaluative competencies. The necessity of applying the "from text to method" principle is substantiated, which implies selecting teaching methods and techniques based on the poetic characteristics of a literary text. The importance of developing students' independent aesthetic perception, critical thinking, and active participation in the learning process through the study of Jadid short stories is also emphasized.*

Keywords: *Jadid literature, Jadid short stories, poetics of the short story, literary education, modern approaches, competency-based approach, historical-contextual approach, critical thinking, Bloom's taxonomy, differentiated approach, methods of teaching literature, literary text analysis.*

KIRISH

Metodika fanida "yondashuv", "metod" va "usul" tushunchalari o'zaro ierarxik munosabatda bo'ladi: yondashuv ta'lim jarayonining umumiy strategik yo'nalishini, metod ushbu yo'nalishni amalga oshirishning asosiy yo'lini, usul esa metod doirasidagi konkret texnikani bildiradi. Q. Husanboyeva va R. Niyozmetova ta'kidlaganidek, zamonaviy adabiy ta'lim an'anaviy, muallif-markazli, tushuntirish-illyustrativ yondashuvdan talaba-markazli, faollashtiruvchi yondashuvga tomon izchil harakatlanmoqda. B. To'xliyev ham adabiyot o'qitish metodikasini "badiiy asarni sof axborot sifatida yetkazish" emas, balki "o'quvchida mustaqil estetik idrok ko'nikmasini shakllantirish" jarayoni sifatida ta'riflaydi. Ushbu ikki ta'rif jadid hikoyalari poetikasini o'qitish metodikasini ishlab chiqishning nazariy tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "metod" va "usul" bir xil hodisaning ikki nomi emas. Q. Husanboyeva va R. Niyozmetova metodni "ta'lim maqsadiga erishishning yirik, ko'p bosqichli yo'li" sifatida, usulni esa "metod tarkibidagi aniq, bir martalik texnik amal" sifatida farqlaydi. Masalan, *"tahlil metodi"* yirik kategoriya bo'lsa, uning tarkibidagi *"klaster tuzish"*, *"insert belgilash"* kabi aniq harakatlar usul hisoblanadi. Ushbu farqlash tasodifiy terminologik nozik masala emas: u metodikani ishlab chiqishda qaysi darajada – strategik yoki taktik darajada – qaror qabul qilinayotganini aniq belgilash imkonini beradi va keyingi paragraflarda taqdim etiladigan har bir vositaning o'z o'rnini to'g'ri tushunishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan jadid hikoyalari poetikasini o'qitish uch turdagi kompetensiyani shakllantirishga qaratilishi lozim: tarixiy-adabiy bilim kompetensiyasi (jadidchilik harakati, davriy matbuot, ijodkorlar haqida ma'lumot), analitik kompetensiya (birinchi bobda ishlab chiqilgan to'rt komponentli model – obraz, xronotop, kompozitsiya, til – asosida matnni mustaqil tahlil qilish ko'nikmasi) va qadriyat-baholash kompetensiyasi (jadid hikoyalarida ilgari surilgan g'oyalarni zamonaviy nuqtai nazardan tanqidiy idrok etish). Bu uch kompetensiya bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o'zaro uzviy bog'liqlikda shakllantirilishi kerak: tarixiy bilimsiz analitik tahlil yuzaki bo'lib qoladi, analitik ko'nikmasiz esa baholash asossiz, hissiy xarakter kasb etadi.

Shuningdek, jadid hikoyalari poetikasini o'qitishda estetik-qadriyat yondashuvi ham e'tiborga olinishi lozim: birinchi bobda ko'rsatilganidek, bu hikoyalar sof estetik zavq berish emas, balki ma'rifiy-tarbiyaviy vazifani bajarish maqsadida yaratilgan. Shu sababli ularni faqat "badiiylik mezoni" (til go'zalligi, obrazlar chuquri) bo'yicha emas, balki "g'oyaviy-tarbiyaviy ta'sir mezoni" bo'yicha ham baholashga o'rgatish zarur. Bu ikki mezonning birgalikda qo'llanilishi talabada adabiy hodisani bir yoqlama emas, ko'p qirrali baholash ko'nikmasini shakllantiradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Metodik jihatdan tarixiy kontekst berishning ikki yo‘li mavjud: *“oldindan taqdimot”* (matn o‘qilishidan oldin qisqa tarixiy ma’lumot beriladi) va *“yo‘l-yo‘lakay izoh”* (tarixiy ma’lumot matn o‘qilishi jarayonida, kerakli o‘rinlarda kiritiladi). Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ikkinchi yo‘l birinchisiga qaraganda samaraliroq, chunki bu holda tarixiy ma’lumot mavhum, matndan uzilgan holda emas, balki aynan zarur bo‘lgan kontekstda, matn bilan bevosita bog‘liq holda taqdim etiladi va shu sababli talaba xotirasida yaxshiroq saqlanadi.

Tarixiy-kontekstual yondashuv jadid hikoyalari poetikasini o‘qitishda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki – birinchi bobda ko‘rsatilganidek – bu janr davriy matbuot (“Sadoi Turkiston”, “Oyna”) bilan genetik jihatdan bog‘liq holda shakllangan va uning poetik xususiyatlari (ochiq didaktik uslub, publitsistik unsurlar) bevosita tarixiy vaziyat bilan izohlanadi. Shu sababli jadid hikoyasini “vaqtdan tashqarida” turgan mavhum badiiy matn sifatida emas, balki aniq tarixiy davrning adabiy hujjati sifatida o‘qitish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv adabiyot fanini tarix fani bilan integratsiyalashni, dars jarayoniga davr voqeligiga oid qo‘shimcha ma’lumotlarni kiritishni taqozo etadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yondashuvi xalqaro pedagogik amaliyotda *“O‘qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish”* (Reading and Writing for Critical Thinking – RWCT) dasturi doirasida ishlab chiqilgan bo‘lib, klaster, insert, FSMU kabi keng tarqalgan usullarning nazariy negizini tashkil etadi. Ushbu yondashuvning jadid hikoyalari poetikasini o‘qitishga mosligi tasodifiy emas: birinchi bobda aniqlanganidek, jadid hikoyalarining o‘zi tanqidiy pozitsiyadan yozilgan – ular jaholat, illat, adolatsizlikni ochiq “fosh etish” maqsadini ko‘zlagan. Demak, mazmun bilan metod o‘rtasida tabiiy uyg‘unlik mavjud: tanqidiy pafosga ega matnni tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi usullar bilan o‘qitish nafaqat metodik, balki mazmuniy jihatdan ham asoslidir.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Metodika fanida yana bir muhim tamoyil – "matndan metodga", ya'ni metodning tanlanishi avvalo adabiy matnning o'zi tomonidan "buyurtma qilinishi" tamoyili e'tirof etiladi. Boshqacha aytganda, metod avval tanlanib, keyin unga mos matn izlanmaydi; aksincha, matnning poetik xususiyati (masalan, jadid hikoyalarida yaqqol ifodalangan ziddiyatga asoslangan kompozitsiya) qaysi metod samaraliroq bo'lishini o'zi belgilaydi. Bu tamoyil, ayniqsa, ilmiy jihatdan asossiz, "moda" bo'lgani uchun tanlangan metodlardan saqlanish zarurligini ko'rsatadi: har bir metod ma'lum bir poetik xususiyatga xizmat qilgandagina o'z samarasini beradi.

Ta'lim maqsadlarini ierarxik tashkil etishda B. Blumning taksonomiyasi keng qo'llaniladi: *bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash bosqichlari*. Ushbu ierarxiyani jadid hikoyalari poetikasini o'qitishga tatbiq etilsa, quyidagi bosqichli maqsadlar tizimi hosil bo'ladi: bilish bosqichida talaba asar syujeti va muallif haqida ma'lumotga ega bo'ladi; tushunish bosqichida matndagi g'oyaviy qatlamni izohlaydi; qo'llash bosqichida birinchi bobda ishlab chiqilgan to'rt bosqichli kompozitsion modelni yangi matnga nisbatan qo'llaydi; tahlil bosqichida obrazlar tizimi va badiiy vositalarni ajratib ko'rsatadi; sintez bosqichida bir necha asarni qiyosiy tahlil qiladi; baholash bosqichida esa hikoyaning zamonaviy ahamiyatini mustaqil baholaydi. Bu ierarxiya keyingi paragrafda taqdim etiladigan konkret metodlarni tanlash mezoni vazifasini bajaradi.

B. To'xliyev an'anaviy va zamonaviy metodika o'rtasidagi farqni yana bir muhim jihat orqali izohlaydi: an'anaviy metodikada o'qituvchi asarni "tayyor tahlil" ko'rinishida taqdim etadi va talaba bu tahlilni yozib olib yodlaydi, zamonaviy metodikada esa o'qituvchi tahlil jarayonini "boshqaruvchi", natijani esa talabaning o'zi "quruvchi" bo'ladi. Jadid hikoyalari poetikasini o'qitishda bu farq alohida amaliy ahamiyat kasb etadi: birinchi bobda ishlab chiqilgan to'rt komponentli poetik model talabaga tayyor xulosa sifatida berilishi emas, balki talabaning o'zi tomonidan – 2.2-paragrafda ta'riflanadigan metodlar yordamida – qayta "kashf etilishi" maqsadga muvofiqroqdir.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jadid hikoyalarini o‘qitishda uchraydigan asosiy metodik qiyinchilik – matn darajasidagi murakkablik muammosidir. Yuqorida ko‘rsatilganidek, bu hikoyalar eski o‘zbek adabiy tili, arabcha-forscha o‘zlashmalarga boy leksika va davr voqeligiga xos realiylar (uslubi jadid maktabi, davriy matbuot atamalari, urf-odat nomlari) bilan yozilgan. Zamonaviy talaba uchun bunday matn birlamchi o‘qishdayoq tushunish to‘sig‘iga uchraydi. Shu sababli metodika “moslashtirilgan o‘qish” bosqichini alohida ajratishi lozim: darsdan oldin yoki dars boshida qiyin so‘zlar lug‘ati taqdim etiladi, tarixiy realiylar qisqacha izohlanadi, faqat shundan keyin matnning o‘zi bilan ishlashga o‘tiladi.

Ushbu ikki qiyinchilikni yechishda o‘qituvchining o‘zi ham tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lishi shart: u nafaqat adabiyotshunoslik, balki jadid davri tarixi, davriy matbuot tarixi va eski o‘zbek tili leksikasi bo‘yicha ham yetarli bilimga ega bo‘lishi lozim. Bu talab metodika sohasida o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslari dasturiga jadid davri adabiyoti bo‘yicha maxsus modulni kiritish zarurligini ko‘rsatadi – biroq bu masala mazkur tadqiqotning bevosita predmeti bo‘lmagani sababli, faqat metodik eslatma tarzida qayd etiladi.

Ikkinchi qiyinchilik – g‘oyaviy-mafkuraviy moslashtirish muammosi. Jadid hikoyalari ochiq targ‘ibiy-didaktik xarakterga ega bo‘lib, bu uslub zamonaviy o‘quvchiga notabiiy, hatto “ortiqcha nasihatomuz” tuyulishi mumkin. Metodika bu holatni kamchilik sifatida emas, balki davr adabiyotining tabiiy xususiyati sifatida taqdim etishi, talabada “davr matni sifatida o‘qish” kompetensiyasini shakllantirishi zarur: ya’ni talaba matnni bugungi badiiy me’yor bilan emas, o‘sha davr ijtimoiy-ma’rifiy vazifasi nuqtai nazaridan baholashni o‘rganadi. Bunday tarixiy-nisbiy idrok metodikasi, o‘z navbatida, talabada umumiy adabiy-tarixiy tafakkurni ham rivojlantiradi.

Zamonaviy adabiy ta'limning yana bir muhim jihati – baholashning shaklini qayta ko'rib chiqishdir. An'anaviy nazorat shakllari (yozma bayon, savol-javob) ko'pincha faqat "bilish" va "tushunish" darajasini tekshiradi, biroq yuqorida ta'riflangan taksonomik ierarxiyaning yuqori pog'onalari – tahlil, sintez, baholash – boshqacha, ko'proq amaliy-ijodiy xarakterdagi baholash vositalarini talab qiladi. Shu sababli 2.2 va 2.3-paragraflarda taqdim etiladigan metod va topshiriqlarning aksariyati baholash vositasi sifatida ham qo'llanilishi mumkin bo'lgan tarzda – ya'ni jarayon va natijani bir vaqtda ko'rsatadigan tarzda – loyihalashtirilgan.

Sh.Ziyayevaning ta'kidlashicha, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash dars samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi, chunki bunday texnologiyalar bilim uzatishning bir tomonlama shaklidan talabaning bilim qurilishida faol ishtirok etadigan ikki tomonlama jarayonga o'tishni ta'minlaydi. Jadid hikoyalari poetikasini o'qitishga nisbatan bu xulosa alohida dolzarblik kasb etadi: birinchi bobda ko'rsatilganidek, bu hikoyalarning o'zi ham o'z davrida o'quvchini passiv tinglovchidan faol fikrlovchiga aylantirish maqsadini ko'zlagan (ma'rifiy-tashviqiy vazifa), demak ularni o'qitish jarayoni ham xuddi shu mantiqqa – passivlikdan faollikka o'tish mantig'iga – asoslanishi tabiiy hisoblanadi.

Shu bilan birga, individuallashtirish talabalarni qat'iy "kuchli", "o'rta", "zaif" toifalarga doimiy ajratish degani emas: bu tasnif faqat konkret topshiriq doirasida, vaqtinchalik xarakterga ega bo'lishi, mavzudan-mavzuga o'zgarib turishi mumkin. Aks holda toifalash talabada uzoq muddatli "men zaifman" degan salbiy o'z-o'zini baholashni shakllantirish xavfini tug'diradi, bu esa metodikaning asosiy maqsadi – barcha talabada matnga nisbatan ijobiy, faol munosabat uyg'otish – bilan ziddiyatga kiradi.

XULOSA

Barcha talabalar bir xil tayyorgarlik saviyasiga ega bo'lmagani sabab, individuallashtirilgan (differensial) yondashuv ham metodikaning ajralmas qismi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bo‘lishi lozim. Amaliyotda bu quyidagicha amalga oshirilishi mumkin: kuchli tayyorgarlikka ega talabalarga matnni mustaqil tahlil qilish va qiyoslash topshiriqlari, o‘rtacha darajadagi talabalarga qo‘llanma savollar asosidagi yo‘naltirilgan tahlil, boshlang‘ich darajadagi talabalarga esa avval o‘qituvchi bilan birgalikda bajariladigan namunaviy tahlil taqdim etiladi. Bunday uch bosqichli farqlash bir xil topshiriqni barcha talabaga majburiy tarzda yuklash o‘rniga, har bir talabaning “yaqin rivojlanish zonasi”da ishlashini ta’minlaydi.

Yuqorida ta’riflangan yondashuvlar – kompetensiyaviy, tarixiy-kontekstual, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi, taksonomik va texnologik – bir-biridan mustaqil emas, balki yaxlit metodik tizimning tarkibiy qismlari sifatida amal qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Bloom B.S. (ed.) Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. — New York: David McKay Company, 1956.
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. 1-kitob. — Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022. — 394 b.
3. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. — Toshkent. 2009. B. 56.
4. UNESCO Institute for Lifelong Learning. Reading and Writing for Critical Thinking (RWCT): Effective Literacy and Numeracy Practices Database (LitBase). — Manba: www.uil.unesco.org.
5. Ziyayeva Sh.R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Uslubiy qo‘llanma. 2024. 47-b

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

TALABALARDA HARAKAT KOORDINATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA YENGIL ATLETIKA MASHQLARINING AHAMIYATI

Jahongirov Shahriyor Djahongirovich
Namangan davlat pedagogika instituti professori

Annotatsiya: *Maqolada talabalarda harakat koordinatsiyasini shakllantirish va takomillashtirishda yengil atletika mashqlarining pedagogik ahamiyati yoritiladi. Harakat koordinatsiyasi harakatlarni makon, vaqt va kuch jihatidan aniq boshqarish, tezkor vaziyatlarda harakat dasturini o'zgartirish hamda muvozanatni saqlash qobiliyati sifatida qaraladi. Yengil atletikaning yugurish, sakrash, uloqtirish, tezlanish, to'xtash va yo'nalishni o'zgartirishga oid mashqlari koordinatsion qobiliyatlarni kompleks rivojlantirish uchun qulay vosita ekanligi asoslanadi. Mashqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, tezlik va masofani o'zgartirish, ritmni almashtirish, turli start holatlaridan foydalanish hamda individual imkoniyatlarni hisobga olishning metodik jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan. Natijalar yengil atletika mashqlarini maqsadli tanlash talabalarning muvozanat, reaksiya tezligi, fazoviy mo'ljal olish, harakat aniqligi va ritmni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *harakat koordinatsiyasi, talaba, yengil atletika, yugurish, sakrash, uloqtirish, muvozanat, chaqqonlik, jismoniy tarbiya, koordinatsion qobiliyat.*

ЗНАЧЕНИЕ ЛЕГКОАТЛЕТИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ В РАЗВИТИИ КООРДИНАЦИИ ДВИЖЕНИЙ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация: *В статье раскрывается педагогическое значение легкоатлетических упражнений в формировании и совершенствовании двигательной координации студентов. Двигательная координация рассматривается как способность точно управлять движениями в пространстве, времени и по величине усилия, сохранять равновесие и своевременно изменять двигательную программу в изменяющихся условиях. Обосновывается целесообразность использования бега, прыжков, метаний, ускорений, остановок и упражнений со сменой направления для комплексного развития координационных способностей. Рассматриваются методические особенности постепенного усложнения упражнений, изменения скорости и дистанции, варьирования ритма, применения различных исходных положений и учета индивидуальных возможностей студентов. Использованы методы теоретического анализа, педагогического наблюдения, сравнения и обобщения. Показано, что целенаправленное применение легкоатлетических упражнений способствует развитию равновесия, быстроты реакции, пространственной ориентации, точности движений и способности управлять ритмом.*

Ключевые слова: *двигательная координация, студент, легкая атлетика, бег, прыжки, метания, равновесие, ловкость, физическое воспитание, координационные способности.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

THE SIGNIFICANCE OF TRACK AND FIELD EXERCISES IN DEVELOPING MOVEMENT COORDINATION IN STUDENTS

Abstract: *The article examines the pedagogical significance of athletics exercises in developing and improving students' motor coordination. Motor coordination is considered as the ability to control movements accurately in space, time and effort, maintain balance, and adapt motor actions to changing conditions. Running, jumping, throwing, acceleration, stopping and direction-changing exercises are considered effective means for the comprehensive development of coordination abilities. The methodological importance of gradually increasing exercise complexity, varying speed and distance, changing movement rhythm, using different starting positions and considering individual abilities is discussed. The study applies theoretical analysis, pedagogical observation, comparison and generalization. The findings indicate that purposeful use of athletics exercises can contribute to balance, reaction speed, spatial orientation, movement accuracy and rhythm control.*

Keywords: *motor coordination, students, athletics, running, jumping, throwing, balance, agility, physical education, coordination abilities.*

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda talabalarning nafaqat kuch, tezlik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlarini, balki harakatlarni boshqarish qobiliyatini ham rivojlantirish muhim hisoblanadi. Harakat koordinatsiyasi murakkab motor faoliyatning tarkibiy qismi bo'lib, u harakatlarni aniq, tejamkor va maqsadga muvofiq bajarish imkonini beradi. Ayniqsa, o'quv va sport faoliyatida tez o'zgaruvchi vaziyatlarga moslashish, muvozanatni saqlash, harakat yo'nalishini o'zgartirish va zarur kuchni to'g'ri taqsimlash koordinatsion tayyorgarlik bilan chambarchas bog'liq.

Yengil atletika mashqlari mazkur vazifani hal etishda katta imkoniyatlarga ega. Yugurish mashqlarida oyoq-qo'l harakatlarining uyg'unligi, qadam ritmi va tana holatini boshqarish; sakrashlarda depsinish, uchish va qo'nish bosqichlarini muvofiqlashtirish; uloqtirishlarda esa tayanch-harakat apparati bo'g'inlarining ketma-ketligi va kuchni kerakli yo'nalishda uzatish talab etiladi. Shu sababli yengil atletika mashqlarini koordinatsion yo'nalishda tanlash jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining ta'limiy va rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishi mumkin.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti jismoniy faollikning jismoniy tayyorgarlik, kognitiv faoliyat va umumiy farovonlik bilan bog‘liq ijobiy jihatlarini qayd etadi hamda faoliyatni yosh va individual imkoniyatlarga mos, xavfsiz va xilma-xil tashkil etishni tavsiya qiladi [1]. Bu yondashuv oliy ta’limdagi jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari uchun ham metodik ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jismoniy tarbiya nazariyasida koordinatsion qobiliyatlar harakatlarni tez va aniq boshqarish, yangi harakatlarni o‘zlashtirish, o‘zgaruvchan vaziyatga moslashish hamda ortiqcha mushak zo‘riqishlarini kamaytirish bilan tavsiflanadi. Yengil atletika mazmuni esa tabiiy lokomotsiyalar va siklik hamda asiklik harakatlarning xilma-xilligini birlashtiradi. Shu jihatdan u koordinatsion tayyorgarlik uchun universal vosita sifatida qaralishi mumkin.

Zatsiorskiy va Kraemer jismoniy tayyorgarlikni tashkil etishda harakatlarni boshqarish, yuklamani bosqichma-bosqich o‘zgartirish va mashqni maqsadga muvofiq tanlashning muhimligini ko‘rsatadi [2]. Lyax koordinatsion qobiliyatlarning rivojlanishida harakat vazifalarining xilma-xilligi, aniqlik va tezlik talablarining o‘zgarishi hamda murakkab koordinatsion topshiriqlardan foydalanishni muhim deb hisoblaydi [3]. Matveyevning jismoniy tarbiya nazariyasiga oid qarashlari esa mashg‘ulot mazmunini tizimli tashkil etish, yuklama va tiklanish nisbatini hisobga olish zarurligini asoslaydi [4].

So‘nggi tadqiqotlarda koordinatsion mashqlarni jismoniy tarbiya darslariga kiritish sensor-motor koordinatsiya va biomotor ko‘rsatkichlarni rivojlantirish bilan bog‘liq ekani qayd etilgan [5]. Biroq oliy ta’lim sharoitida aynan yengil atletika mashqlarining koordinatsion tarkibini tizimli ravishda ochib berish, mashqlarni soddadan murakkabga tamoyili asosida birlashtirish va individual yuklama bilan uyg‘unlashtirish masalasi alohida metodik yondashuvni talab etadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqotda nazariy tahlil, ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘rganish, pedagogik kuzatuv, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tahlil jarayonida yengil atletikaning yugurish, sakrash va uloqtirish mashqlari koordinatsion talablar nuqtayi nazaridan guruhlandi. Mashqlarni tanlashda harakat aniqligi, ritm, muvozanat, fazoviy mo‘ljal, reaksiya va harakatlarni qayta tashkil etish imkoniyatlari asosiy mezon sifatida belgilandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijalari yengil atletika mashqlarining koordinatsion ta’siri ularning tashqi ko‘rinishidan ko‘ra, bajarilish sharti va metodik tashkil etilishiga ko‘proq bog‘liqligini ko‘rsatadi. Masalan, oddiy 30–60 metrga yugurish mashqi avvalo tezlik va tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilsa, shu mashqni turli start holatlaridan boshlash, signal bo‘yicha yo‘nalishni almashtirish, qadam ritmini o‘zgartirish yoki belgilangan nuqtalarda tezlikni boshqarish orqali uning koordinatsion mazmunini kuchaytirish mumkin.

Sakrash mashqlarida koordinatsion talab yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Bir oyoqda sakrash, ketma-ket to‘siqlardan o‘tish, belgilangan zonaga aniq qo‘nish, yugurib kelib depsinish va qo‘nish fazalarini uyg‘unlashtirish talabaning tana holatini nazorat qilishini talab etadi. Bunday mashqlarni bajarishda qo‘nish texnikasiga alohida e’tibor berish, avval past to‘siqlardan foydalanish va keyinchalik murakkablikni oshirish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda mashqning xavfsizligi va talabaning individual tayyorgarligi asosiy mezon bo‘lishi lozim.

Uloqtirish mashqlari esa kuchni ketma-ket va aniq uzatish qobiliyatini shakllantiradi. To‘pni nishonga uloqtirish, turli masofalardan aniq uloqtirish, tana burilishi bilan uloqtirish kabi mashqlarda oyoq, gavda va qo‘l harakatlari yagona motor zanjirga birlashadi. Bu esa fazoviy aniqlik va harakatni vaqt bo‘yicha muvofiqlashtirishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Koordinatsion tayyorgarlikni samarali tashkil etish uchun mashqlarni to‘rt bosqichda murakkablashtirish mumkin: birinchi bosqichda texnik harakatni o‘zlashtirish; ikkinchi bosqichda tezlik yoki takrorlar sonini o‘zgartirish; uchinchi bosqichda tashqi signal, yo‘nalish yoki ritmni almashtirish; to‘rtinchi bosqichda esa bir nechta koordinatsion vazifani birlashtirish. Masalan, talaba avval to‘g‘ri chiziqda yuguradi, keyin signal asosida yo‘nalishini o‘zgartiradi, undan so‘ng to‘siqdan o‘tadi va belgilangan nishonga to‘p uloqtiradi. Bunday kombinatsiyalar harakatlarni qayta tashkil etish va tezkor qaror qabul qilishni talab qiladi.

Mashg‘ulot samaradorligini oshirishda individual yondashuv ham muhim. Talabalarning jismoniy tayyorgarligi bir xil bo‘lmagani sababli masofa, takrorlash soni, harakat tezligi va dam olish oralig‘i differensial belgilanadi. Jismoniy yuklamani bosqichma-bosqich oshirish va xavfsiz sharoit yaratish muhim. WHO tavsiyalarida ham jismoniy faollikni shaxsning yoshi va imkoniyatlariga moslashtirish, yuklamani asta-sekin oshirish hamda xavfsiz va teng imkoniyatli sharoit yaratish zarurligi ta’kidlanadi [1].

Pedagogik nuqtayi nazardan koordinatsion mashqlarni faqat alohida mashq sifatida emas, balki darsning tayyorlov, asosiy va yakuniy qismlariga mantiqiy integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Tayyorlov qismida oddiy ritmik va muvozanat mashqlari, asosiy qismda yugurish-sakrash-uloqtirish kombinatsiyalari, yakuniy qismda esa harakatlarni aniqlik va nazorat bilan bajarishga qaratilgan yengil topshiriqlar berilishi mumkin. Shu tariqa koordinatsiya jismoniy tarbiya mashg‘ulotining barcha tarkibiy qismlarini birlashtiruvchi omilga aylanadi.

XULOSA

Yengil atletika mashqlari talabalarda harakat koordinatsiyasini shakllantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlarga ega. Yugurish, sakrash va uloqtirish mashqlarining turli variantlarini maqsadli tanlash orqali muvozanat, fazoviy mo‘ljal, reaksiya tezligi, harakat aniqligi, ritm va kuchni boshqarish ko‘nikmalarini kompleks

rivojlantirish mumkin. Mashqlarni soddadan murakkabga tamoyili asosida tashkil etish, tashqi shartlarni o‘zgartirish va individual imkoniyatlarni hisobga olish koordinatsion ta’sirni kuchaytiradi. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalarida yengil atletika mashg‘ulotlarini tashkil etishda koordinatsion yo‘nalishga ega topshiriqlarni tizimli ravishda qo‘llash talabalarning harakat madaniyati va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning samarali pedagogik vositalaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Болтобаев, С. А., Азизов, С. В., Жураев, Т. Ж., Рахманов, М. У., Жахангиров, Ш. Ж., & Мухторжонова, Н. (2020). Влияние переживаний, тревоги и стресса на соревновательную успешность у спортсменов и их преодоление. Наука и мир, 2(1), 24-27.
2. Болтобаев, С. А., Азизов, С. В., Азизов, Н. Н., Рахманов, М. У., Жахангиров, Ш. Ж., & Мухторжонова, Н. (2020). СТРЕСС И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА УСПЕШНОСТЬ СПОРТСМЕНОВ. In Теоретические и прикладные проблемы современной науки и образования (pp. 48-52).
3. Болтобаев, С. А., Азизов, С. В., Азизов, Н. Н., Рахманов, М. У., Жахангиров, Ш. Ж., & Мухторжонова, Н. (2020). УПРАВЛЕНИЕ СТРЕССОМ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ СПОРТСМЕНОВ. In Теоретические и прикладные проблемы современной науки и образования (pp. 52-59).
4. Azizov, N. N., Gaziyey, N. R., Boltobaev, S. A., & Zhakhangirov, S. Z. (2019). STUDYING THE ATTENTION AND SPECIFICALLY STRESSOGENOUS CONDITIONS OF SPORTSMAN. Scientific Bulletin of Namangan State University.—2019.—1 (3).—P, 303-306.
5. Boltabayev, S., Kostikova, O., Azizov, S., Azizova, R., Makhmudjanov, A., Ummatov, N., & Jakhongirov, S. (2025). Effects of swimming and running training on the physical condition and working capacity of students. Trends in Physical Education and Sport, 1(1), 12-20.
6. Boltobaev, S. A., Azizov, S. V., & Zhakhongirov, S. Z. (2019). THE STUDY OF THE PECULIARITIES OF INDUVICALLY-PSYCHOLOGICAL AND SPECIFICALLY STRESSOGENIC CONDITIONS OF SPORTSMEN. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(3), 307-312.
7. Djahongirov, S. D. (2025). METHODOLOGY FOR DEVELOPING SPEED-STRENGTH QUALITIES OF SCHOOLCHILDREN THROUGH ATHLETICS. Research Focus, 4(1), 128-131.

8. JAHONGIROV, S. (2024). EFFECTIVE METHODS OF INCREASING THE PHYSICAL FITNESS OF 13-14-YEAR-OLD ATHLETES. INTERNATIONAL JOURNAL, 4(12), 273-278.
9. DJAHONGIROV, S. (2024). TECHNOLOGY FOR IMPROVING SPEED-STRENGTH PHYSICAL QUALITIES OF SKILLED ATHLETES. EUROPEAN INTERNATIONAL JOURNAL OF PEDAGOGICS Учредители: European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 4(12), 211-214.
10. DJAHONGIROV, S. (2024). PEDAGOGICAL MECHANISM FOR EFFECTIVELY ORGANIZING ATHLETICS LESSONS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HUMANITY RESEARCH Учредители: The USA Journals, 4(12), 261-267.
11. Болтабоев, С. А., Азизов, С. В., & Джахангиров, Ш. Д. (2020). STRESS AND ITS INFLUENCE ON SUCCESS OF ATHLETES. Актуальные научные исследования в современном мире, (6-5), 59-62.

STRATEGIK MAQSADLAR – MAKTAB BOSHQARUVINING PEDAGOGIK ASOSI SIFATIDA

Mo'minova Muxayyo Usmanovna
Namangan davlat pedagogika institute Intellektual fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchisi
Email: muhayyo7371@gmail.com
ORCID:https://orcid.org/0009-0002-9558-8339
Tel: *+998932625511*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarishda strategik maqsadlarni belgilashning nazariy-pedagogik hamda metodologik asoslari tadqiq etilgan. Xx asrning 80-yillaridan boshlab ta'lim menejmentida shakllangan maqsadli yondashuv va strategik rejalashtirishning rivojlanish bosqichlari, shuningdek, boshqaruv subyektlari (maktab rahbari, pedagogik jamoa, o'quvchilar va ota-onalar) o'rtasidagi ko'p darajali hamkorlik mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida ta'lim va tarbiya maqsadlarining uzviyligini ta'minlovchi hamda rasmiylatchilikni bartaraf etuvchi «maqsadlar daraxti» modeli asoslab berildi va maktab boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so'zlar: *strategik maqsad, ta'lim menejmenti, maktab boshqaruvi, umumiy o'rta ta'lim, pedagogik maqsadlilik, «maqsadlar daraxti», ta'lim va tarbiya uzviyligi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.*

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ЦЕЛИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА УПРАВЛЕНИЯ ШКОЛОЙ

Аннотация. *В данной статье исследованы теоретико-педагогические и методологические основы определения стратегических целей в организации и управлении деятельностью общеобразовательных школ. Проанализированы этапы развития целевого подхода и стратегического планирования в менеджменте образования начиная с 80-х годов xx века, а также механизмы многоуровневого взаимодействия субъектов управления (руководителя школы, педагогического коллектива, учащихся и родителей). В результате исследования обоснована модель «дерева целей» обеспечивающая взаимосвязь целей обучения и воспитания и устраняющая формализм, а также разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию управления школой.*

Ключевые слова: *стратегическая цель, менеджмент в образовании, управление школой, общее среднее образование, педагогическая целесообразность, «дерево целей», взаимосвязь обучения и воспитания, личностно-ориентированное обучение.*

STRATEGIC GOALS AS THE PEDAGOGICAL FOUNDATION OF SCHOOL MANAGEMENT

Abstract. *This article examines the theoretical, pedagogical, and methodological foundations of strategic goal setting in the organization and management of general secondary schools. The development stages of the goal-oriented approach and strategic planning in educational management since the 1980s, as well as multi-level interaction mechanisms among management entities (school principal, teaching staff, students, and parents) are analyzed. As a result of the study, a "goals tree" model that ensures the integration of educational and developmental objectives while eliminating formalism is substantiated, and scientific-practical recommendations for improving school administration are developed.*

Keywords: *strategic goal, educational management, school administration, general secondary education, pedagogical expediency, "tree of goals", integration of education and training, person-centered approach.*

KIRISH

Zamonaviy davrda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va uning sifatini oshirish umumiy o'rta ta'lim maktablari (UO'TM) faoliyatini zamonaviy menejment tamoyillari asosida tashkil etishni talab etmoqda. Maktab boshqaruvida o'zgarmas (statik) rejalashtirishdan doimiy rivojlanish va strategik maqsadlarga yo'naltirilgan vaqtinchalik (dinamik) boshqaruvga o'tish zarurati tobora ortib bormoqda.

XX asrning 80-yillaridan boshlab jahon va milliy pedagogikada «strategik maqsadni belgilash» muammosi ta'lim menejmentining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bunga asosiy sabab ta'lim subyektlarida inson omilining birinchi o'ringa chiqishi, o'quv-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarning ustuvor ahamiyat kasb etishidir.

Pedagogik faoliyat va boshqaruv jarayonida «maqsad» tushunchasi o'ziga xos murakkab va serqirra tuzilishga ega. Maktab rahbarining strategik va operativ faoliyatida, bir tomondan, jamiyat va davlat tomonidan qo'yiladigan ijtimoiy-pedagogik buyurtma namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, muayyan pedagogik jamoa, alohida o'qituvchi hamda o'quvchining individual ehtiyojlari va imkoniyatlari o'z aksini topadi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi UO'TMda ta'lim va tarbiya jarayonlarini maqsadli boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, strategik maqsadlarni iyerarxik

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

shakllantirish hamda ta'lim sifatini oshirishda «maqsadlar daraxti» modelini amaliyotga keng tatbiq etish zaruriyati bilan belgilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda xronologik, tizimli-tahliliy hamda qiyosiy-pedagogik tamoyillar asosida ta'lim menejmenti va strategik rejalashtirishga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar sinchkovlik bilan o'rganildi va umumlashtirildi.

Tadqiqotning metodologik va nazariy bazasini quyidagi yondashuv hamda metodlar tashkil etdi:

1. Tizimli va tarkibiy-funksional yondashuv: UO'TMni murakkab, ochiq va rivojlanuvchi ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida tadqiq etish, uning ichki va tashqi muhit bilan aloqadorligini tahlil qilish.

2. Pedagogik va menejerlik integratsiyasi: O.E. Lebedevning ta'lim maqsadlari strukturasi va «maqsadlar zanjiri» nazariyasi; V.S. Lazarev va V.M. Lizinskiylarning maktab jamoasini boshqarish, diagnostika hamda strategik rejalashtirish bo'yicha ilmiy konsepsiyalari; R.X. Djurayev hamda S.T. Turg'unovlarning ta'lim menejmenti va maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy qarashlari; M.U. Mo'minovaning maktab ta'limida boshqaruv mexanizmlarini strategiyalash hamda didaktik-menejerlik integratsiyasiga oid amaliy tadqiqotlari.

3. Modellashtirish va pedagogik diagnostika metodlari: Ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlar o'rtasidagi interaktiv bog'liqlikni aks ettiruvchi «maqsadlar daraxti» (Goals Tree) modelini loyihalash.

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida UO'TM faoliyatini tashkil etish va boshqarishda strategik maqsadlarni belgilashning nazariy-amaliy mexanizmlari hamda pedagogik shart-sharoitlari tizimlashtirildi.

1. Maqsad tushunchasining pedagogik va boshqaruv funksiyalari

Maqsad inson faoliyatida kutilayotgan istiqbol natijaning ideal hamda subyektiv obrazi sifatida namoyon bo'ladi. Boshqaruv va pedagogik jarayonda maqsad quyidagi uchta ustuvor mohiyat va funksiyani bajaradi:

Ideal obraz: Kutilayotgan pedagogik natijaning shaxs va jamoa shuuridagi maqsaddoshlik akslanishi.

Faoliyat mezoni: Muayyan ta'limiy-tarbiyaviy harakatlar, usullar va bosqichli jarayonlar orqali namoyon bo'ladigan amaliy ko'rsatkich.

Integrativ natija: Subyektiv va obyektiv omillarni, shuningdek, resurslar imkoniyatini jamlovchi yakuniy ta'limiy mahsulot.

2. Boshqaruv subyektlarining ko'p darajali iyerarxiyasi

Maktab faoliyatida strategik maqsadlar faqat yuqoridan pastga yo'naltirilgan buyruq va ko'rsatmalar orqali emas, balki barcha boshqaruv subyektlarining o'zaro hamkorligi asosida shakllanishi kerakligi asoslandi:

1. Pedagogik jamoa va maktab rahbariyati darajasi: Maktabning umumiy rivojlanish va strategik missiyasini (ijtimoiy buyurtma) belgilash.
2. O'qituvchi (pedagog) darajasi: Fan doirasida xususiy-metodik hamda didaktik maqsadlarni loyihalash.
3. O'quvchi darajasi: Bilish motivatsiyasi, o'z-o'zini rivojlantirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.
4. Ota-onala doirasidagi tarbiyaviy maqsadlar.

3. «Maqsadlar daraxti» modelining iyerarxik tuzilishi

Ta'lim va tarbiya jarayonida strategik va operativ maqsadlar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash maqsadida quyidagi «Maqsadlar daraxti» tuzilmasi ishlab chiqildi:

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim va tarbiya maqsadlarini bir-biridan ajratilgan holda ko'rib bo'lmaydi. Ta'limiy maqsadlar o'quvchilar tomonidan bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishini

ta'minlasa, tarbiyaviy maqsadlar shaxsning atrof-muhitga, jamiyatga, mehnatga va o'z-o'ziga bo'lgan qadriyatli munosabatlarini belgilaydi.

Tadqiqot davomida quyidagi munozarali hamda ustuvor jihatlar ajratib ko'rsatildi:

Rasmiylatchilik (formalizm) xavfi: Amaliyotchi pedagoglar o'rtasida tarbiya maqsadlarini o'quv fani mazmuniga sun'iy ravishda payvand qilish yoki har bir darsda barcha tarbiyaviy maqsadlarni qamrab olishga urinish holatlari uchraydi. Nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu kabi harakatlar ta'lim sifatining pasayishiga hamda maqsadsiz soxta rejalashtirishga olib keladi.

Baholash mezonlarining ko'p mezonliligi: Shaxsning ma'naviy-axloqiy va intellektual sifatlarini (bilimlilik, mas'uliyat, mehnatsevarlik, estetik va ekologik madaniyat) faqatgina birgina universal mezon yoki baho bilan o'lchab bo'lmaydi. Bu esa har bir strategik va operativ maqsad uchun alohida diagnostik mezonlar tizimini talab etadi.

Rahbarning boshqaruv kompetensiyasi: Maktab rahbari strategik maqsadlarni belgilashda muassasaning tashkiliy holatini, pedagogik jamoaning salohiyatini, o'quvchilar kontingentining xususiyatlarini va hududiy-ijtimoiy ehtiyojlarni yaxlit holda inobatga olishi lozim.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatini tashkil etish va boshqarishda strategik maqsadlarni belgilash ta'lim tizimining yaxlitligi, samaradorligi hamda raqobatbardoshligini ta'minlovchi hal qiluvchi pedagogik-menejerlik omilidir. Maqsadlarni iyerarxik shaklda «maqsadlar daraxti» modeli asosida rejalashtirish maktab rahbariga hamda pedagogik jamoaga ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda va natijaga yo'naltirilgan holda boshqarish imkonini beradi.

Tadqiqot xulosalaridan kelib chiqqan holda quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Integratsiyalashgan strategik rejalashtirish: Maktabni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda «pedagogik jamoa – o‘qituvchi – o‘quvchi – ota-ona» o‘rtasidagi ko‘p darajali maqsadlar muvofiqligi va uyg‘unligini ta’minlash.

1. Rasmiylatchilikdan voz kechish va moslashuvchanlik: Tarbiyaviy va ta’limiy maqsadlarni har bir dars hamda mashg‘ulotning xususiyatidan kelib chiqib, tabiiy hamda diagnostik o‘lchanadigan tarzda belgilash.

2. Kriterial va kompleks baholash tizimini joriy etish: O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy va bilish faoliyati natijalarini baholashda yagona bir yoqlama baho o‘rniga ko‘p variantli (kriterial) yondashuvlardan foydalanish.

3. Maktab rahbarlarining strategik kompetensiyasini oshirish: Maktab rahbarlari hamda o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlarning strategik menejment, pedagogik diagnostika va *goal-setting* (maqsad belgilash) yo‘nalishida malakasini oshirish kurslarini muntazam tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Djurayev, R. X., & Turg‘unov, S. T. (2006). *Ta’lim menejmenti: O‘quv qo‘llanma* [Educational Management: Study Guide]. Toshkent: Voris. – 23-b. *URL:* https://ziyouz.com/books/darsliklar/ta_lim_menejmenti.pdf

2. Turg‘unov, S. T. (2007). *Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari* (Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi) [Theoretical Foundations of Management Activities of General Secondary Education School Principals (Doctoral dissertation)]. Toshkent. – 26-b.*URL:* http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/ResearchRender/12458

3. Lazarev, V. S. (1995). *Rukovodstvo pedagogicheskim kollektivom: modeli i metody* [Directing a Pedagogical Team: Models and Methods]. Moscow: Pedagogika. – p. 158. *URL:*[suspicious link removed]

4. Mo‘minova, M. U. (2026). Matematika ta’limida boshqaruv mexanizmlari: didaktik va menejerlik yondashuvlar integratsiyasi. *Ilm Vaqti (Science Time)*, 4(6/2), 240. *DOI / URL:* https://uzresearchers.com/ index. php/stj/article/view/6867

5. Lebedev, O. E. (1984). *Realizatsiya tseley obshchego srednego obrazovaniya. Problemy struktury* [Implementation of the Goals of General Secondary Education. Structural Issues]. Moscow: Pedagogika. – p. 264. *URL:* https://search.rsl.ru/ru/record/01001223945

6. Lizinskiy, V. M. (1997). *Psikhologo-pedagogicheskiy i upravlencheskiy dnevnik direktora shkoly* [Psychological-Pedagogical and Managerial Diary of a School Principal]. Moscow: Pedagogicheskiy poisk. – p. 64. *URL:* https://pedlib.ru/Books/1/0246/index.shtml

7. *Obshchestvennye nauki v Uzbekistane* [Social Sciences in Uzbekistan]. Archive of Scientific Articles. *URL:* https://academy.uz/uz/news/obshchestvennye-nauki-v-uzbekistane

8. Mo‘minova, M. U. (2026). Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ta’lim tizimini boshqarishni strategiyalash tizimi. *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 1(12), 408–414. *URL:* https://universaljournal.uz/index.php/uj/article/view/12408

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KOGNITIV MOSLASHUVCHANLIGINING NAZARIY VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Xakimova Nafosat Solijon qizi
Namangan Davlat pedagogika institute tayanch doktoranti
E.mail: nafosathakomovagmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-0742-333X

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishning mazmuni, bosqichlari va pedagogik-psixologik xususiyatlari yoritilgan. Kognitiv moslashuvchanlik bolaning o'zgaruvchan vaziyat va faoliyat sharoitlariga moslashishi, mavjud bilim va tajribasini yangi sharoitga ko'chira olishi, faoliyat strategiyasini o'zgartirishi hamda muqobil yechimlarni izlab topish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish jarayoni diagnostik-motivatsion, shakllantiruvchi-amaliy hamda mustahkamlovchi-refleksiv bosqichlar asosida tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Har bir bosqichning maqsadi, vazifalari, mazmuni va kutiladigan natijalari ochib beriladi. Shuningdek, kreativ-konstruktiv faoliyatning bolaning diqqatini boshqarish, ishchi xotirasini faollashtirish, kognitiv almashtirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish, strategiyani o'zgartirish va muqobil yechimlarni yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari asoslanadi. Tadqiqot natijasida kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishning tizimlilik, izchillik, individual yondashuv, faoliyatga yo'naltirilganlik va refleksivlik tamoyillariga asoslanishi zarurligi ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar *maktabgacha yosh, kognitiv moslashuvchanlik, kognitiv rivojlanish, rivojlantirish bosqichlari, diagnostik-motivatsion bosqich, shakllantiruvchi bosqich, refleksiya, kreativ-konstruktiv faoliyat, ijodiy fikrlash, muammoli vaziyat, kognitiv almashtirish*

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНОЙ ГИБКОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В статье рассматриваются содержание, этапы и педагогико-психологические характеристики развития когнитивной гибкости у детей дошкольного возраста. Когнитивная гибкость понимается как способность ребенка адаптироваться к изменяющимся ситуациям и условиям деятельности, переносить имеющиеся знания и опыт в новые условия, изменять стратегию деятельности и находить альтернативные решения. В исследовании анализируются возможности организации процесса развития когнитивной гибкости на основе диагностико-мотивационного, формо-практического и подкрепляюще-рефлексивного этапов. Раскрываются цель, задачи, содержание и ожидаемые результаты каждого этапа. Также обосновываются педагогические возможности творчески-конструктивной деятельности в развитии у ребенка навыков управления вниманием, активации рабочей памяти,*

когнитивного переключения, решения проблемных ситуаций, изменения стратегий и создания альтернативных решений. Результаты исследования показывают, что развитие когнитивной гибкости должно основываться на принципах систематичности, последовательности, индивидуального подхода, деятельностной ориентации и рефлексивности.

Ключевые слова: *дошкольный возраст, когнитивная гибкость, когнитивное развитие, стадии развития, диагностико-мотивационная стадия, формирующая стадия, рефлексия, творческо-конструктивная деятельность, творческое мышление, проблемная ситуация, когнитивное замещение.*

STAGES OF DEVELOPING COGNITIVE FLEXIBILITY IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract*. This article outlines the content, stages, and pedagogical-psychological characteristics of developing cognitive flexibility in preschool children. Cognitive flexibility is defined as a child's ability to adapt to changing situations and activity conditions, transfer existing knowledge and experience to new contexts, modify activity strategies, and seek alternative solutions. The study analyzes the potential for organizing the development of cognitive flexibility through three stages: diagnostic-motivational, formative-practical, and consolidating-reflective. The objectives, tasks, content, and expected outcomes of each stage are detailed. Furthermore, the study substantiates the pedagogical potential of creative-constructive activities in developing skills such as attention management, working memory activation, cognitive shifting, problem-solving, strategy modification, and the generation of alternative solutions. The research findings demonstrate that the development of cognitive flexibility must be grounded in the principles of systematicity, consistency, an individual approach, activity orientation, and reflexivity.*

Keywords*: preschool age, cognitive flexibility, cognitive development, developmental stages, diagnostic-motivational stage, formative stage, reflection, creative-constructive activity, creative thinking, problem situation, cognitive shifting.*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bolalarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishini taqozo qil moqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim davrida bolalarning qiziqishi, kuzatuvchanligi va bilishga bo'lgan intilishi nihoyatda kuchli bo'ladi. Shu bois, aynan katta yoshdagi maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish, kognitiv

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

moslashuvchanlik dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Bolalarda erta yoshdan boshlab ilmiy-tadqiqotga oid ko‘nikmalarni shakllantirish, ularning atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatini rivojlantirish hamda tafakkurini mustahkamlash muhim omil hisoblanadi. Kognitiv moslashuvchanlik nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish, balki kelajakda jamiyatga faol, izlanuvchan va bilimga chanqoq shaxslarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.Maktabgacha yosh – bu bolaning shaxs sifatida shakllanishida poydevor qo‘yiladigan davr bo‘lib, ushbu bosqichda bola faolligi, qiziqishi, bilishga bo‘lgan ehtiyoji nihoyatda yuqori bo‘ladi. Shu sababli, aynan maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarining intellektual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, ularda mustaqil fikrlash va kuzatish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shunday qilib, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish – ularning tabiiy qiziqishlari va bilimga chanqoqligini to‘g‘ri yo‘naltirish, o‘zini anglashga undash, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratish demakdir. Bu mavzuni o‘rganish orqali bolalar ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish va zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan innovatsion shaxsni voyaga yetkazishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish maqsad qilinadi. Maktabgacha yosh davrida tafakkur harakat, obraz va amaliy tajriba bilan uzviy rivojlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijiy tadqiqotlarda kognitiv moslashuvchanlik ijro funksiyalarining tarkibiy qismi sifatida o‘rganilgan. A.Diamond uning ishchi xotira va tormozlovchi nazorat bilan o‘zaro aloqadorligini ochib bergan; P.D.Zelazo va J.Frye bolaning qoidalarni anglash hamda o‘zgargan talabga muvofiq faoliyat usulini almashtirish jarayonlarini tadqiq qilgan. A.Miyake, N.P.Friedman, S.Monsell va L.Cepeda ishlarida vazifalar o‘rtasida almashinish, kognitiv nazorat va ijro funksiyalarining tuzilishi aniqlashtirilgan. S.Doebel kognitiv moslashuvchanlik rivojini bolaning maqsadi, tajribasi va ijtimoiy vaziyat bilan bog‘liq holda izohlagan. Ushbu tadqiqotlarda maktabgacha yosh kognitiv

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

moslashuvchanlik jadal shakllanadigan davr ekanligi hamda uni maxsus topshiriqlar vositasida aniqlash mumkinligi asoslangan. Xususan, P.D.Zelazo tomonidan taklif etilgan belgilar bo‘yicha kartochkalarni saralash topshirig‘i bolaning bir qoidadan boshqasiga o‘ta olish qobiliyatini baholashda keng qo‘llanadi.

Z.T.Nishanova, G.K.Alimova, A.G‘.Turg‘unboyeva va M.X.Asranboyeva maktabgacha yoshdagi bolaning psixik rivojlanishini idrok, xotira, diqqat, tafakkur, xayol va nutqning o‘zaro aloqadorligi orqali tushuntiradi. Mualliflar mazkur yosh davrida ko‘rgazmali-harakatli tafakkurdan ko‘rgazmali-obrazli tafakkurga o‘tish, predmet belgilarini taqqoslash, umumlashtirish va guruhlash imkoniyatlari kengayishini ta’kidlaydi. Bu o‘zgarishlar bolaning obyektni faqat bitta belgi asosida emas, turli xususiyatlar birligida idrok etishiga zamin yaratadi. Aynan belgilash asosini almashtirish, predmetlarni yangi mezon bo‘yicha qayta guruhlash va oldingi tasnif usulidan voz kecha olish kognitiv moslashuvchanlikning dastlabki ko‘rinishlari hisoblanadi.

L.S. Vygotskiy fikricha, ijod inson tafakkurining yuqori bosqichi bo‘lib, u ijtimoiy tajribaning samarasi sifatida qaraladi. Ta’lim jarayonida ijodkorlikni rag‘batlantirish o‘quvchilarni yangicha fikrlashga undaydi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi. Ijodiy fikrlovchi shaxsni tarbi-yalashda o‘qituvchining yondashuvi, dars metodikasi, o‘quv muhiti muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonda interaktiv metodlar, muammoli vazifalar, loyihaviy faoliyat, jamoaviy ishlar keng qo‘llaniladi.

Rus psixologi A.A.Lyubinskaya olib borgan tadqiqotlarga ko’ra bolalarda tanish predmetlarni idrok qilish kichik bog’cha yoshidan boshlab shakllanadi faqatgina bu davrda ular predmetning ajralmas bo’lgan biror bir belgisiga asoslanadi. Katta yoshga kelib esa predmetlarni farqlash ko’nikmasi hosil qiladilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish bolaning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bosqich tashkil etiladigan pedagogik-psixologik jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayon bolaning mavjud bilish imkoniyatlarini aniqlash, moslashuvchan fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni turli faoliyatlarda qo‘llash va mustahkamlashni nazarda tutadi. Kognitiv moslashuvchanlikning rivojlanishi bevosita diqqat, ishchi xotira, inhibitiv nazorat, kognitiv almashtirish, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash kabi kognitiv jarayonlarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Quyidagi keltirilga metodlar kognitiv moslashuvchanlikning asosi bo’lib xizmat qiladi.

- Rolli va didaktik o’yinlar orqali o’rganish metodlari. Rolli o’yinlar bolaning hayotiy vaziyatlarini tahlil qilish orqali muammolarni hal qilish ko’nikmalarni rivojlantradi. Ertak qahramonlari rollari, oila muhiti bilan bog’liq rollar bolalarni ijodiy va salbiy fazilatlarni tez va oson ajratib olishga yordam beradi. Didaktik o’yin- bolalarni qiziqishini oshirishga, yangi bilimlarni oson o’zlashtrishga yordam beradi. Ushbu o’yin orqali boladagi kognitiv ko’nikmalarning shakllanishi mumkin.
- Sensor rivojlanish metodidan Reggio Emilia yondashuvi- sensor rivojlanish dunyo mamlakatlari tan olgan rivojlanish turi hisoblanadi. Maktabgacha katta yoshdagi bola sezgi a’zolari orqali yangi bilimni o’zlashtrishi bu eng katta samara beradi, mayda motorika aqliy rivojlanishning asosi hisoblanadi, u to’g’ridan-to’g’ri miyadagi neyronlarga tasir qiladi. Shu sababli bola bilan qo’l va barmoq harakat mashqlari, tajibalar uning bilish jarayonini rivojlantrishga yordam beradi. Reggio Emilia yondashuvi bolaga hurmat va uning salohiyatiga ishonish asosida quriladi. Bu yondashuv bolalarni standart testlar va aniq bilimlar uchun emas balki hayotning murakkabligiga tayyorlash, ularning kritik fikrlash, ijodkorlik va muammoni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantrishga qaratilgan. Ushbu yondashuvning asosiy savollaridan biri “Bola nimaga qiziqadi va u nima haqida o’ylayapti?”
- Muammoli vazifalar va boshqotirmalar, ijodiy tafakkuni rivojlantrish metodlari- muammoli vaziyatlar bolani mantiqiy fikrlashga undaydi va fikrlash faolligini oshiradi, muloqot jarayoni jadallashadi, o’z fikrini bayon qila oladi. Ijodiy



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tafakkurni rivojlantrish metodlari esa bolalardagi tasavvur qilish, xotira va bilish jarayonlarini rivojlantrishga xizmat qiladi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish zamonaviy maktabgacha ta'limning muhim vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Chunki mazkur yosh davrida bolaning bilish jarayonlari jadal rivojlanib, u atrof-muhitdagi o'zgarishlarni anglash, yangi bilim va tajribalarni o'zlashtirish, faoliyat shartlarini qabul qilish hamda mavjud harakat usullarini yangi vaziyatga ko'chirish imkoniyatlarini egallab boradi. Kognitiv moslashuvchanlikning yetarli darajada shakllanishi bolaning faqatgina intellektual rivojlanishiga emas, balki uning mustaqil faoliyat yuritishi, tengdoshlari bilan hamkorlik qilishi, muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilishi va ta'lim jarayoniga moslashishiga ham xizmat qiladi. Kreativ-konstruktiv faoliyat jarayonida bola obyektlarning shakli, vazifasi va o'zaro bog'lanishini tahlil qiladi, mavjud qismlarni yangicha kombinatsiyalaydi, qurilayotgan modelni sinovdan o'tkazadi hamda natijaga muvofiq dastlabki rejasini o'zgartiradi. Bunday faoliyat kognitiv moslashuvchanlikning vazifalar o'rtasida almashinish, belgilarni qayta tasniflash, muqobil g'oya ilgari surish va samarasiz strategiyani yangisi bilan almashtirish kabi ko'rsatkichlarini tabiiy sharoitda namoyon etadi. Kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish jarayoni bolaning tabiiy bilishga bo'lgan ehtiyoji, qiziqishi va faol ishtirokiga asoslangan holda tashkil etilishi lozim. Bunda bolaga tayyor bilim yoki faoliyat usulini berishdan ko'ra, uni turli variantlarni izlash, mavjud strategiyani o'zgartirish, yangicha yechimlarni sinab ko'rish va o'z faoliyati natijasini baholashga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish uzluksiz, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan pedagogik-psixologik jarayon sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Mazkur jarayonning mazmunini ishlab chiqishda kognitiv moslashuvchanlikning tarkibiy komponentlari, maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari,

o‘yin va ijodiy faoliyatning rivojlantiruvchi imkoniyatlari hamda ta’lim jarayonining individual xususiyatlari hisobga olinadi. Shu asosda maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish jarayonini shartli ravishda diagnostik-motivatsion, shakllantiruvchi-amaliy va mustahkamlovchi-refleksiv bosqichlarga ajratish mumkin. Kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish jarayoni bolaning tabiiy bilishga bo‘lgan ehtiyoji, qiziqishi va faol ishtirokiga asoslangan holda tashkil etilishi lozim. Bunda bolaga tayyor bilim yoki faoliyat usulini berishdan ko‘ra, uni turli variantlarni izlash, mavjud strategiyani o‘zgartirish, yangicha yechimlarni sinab ko‘rish va o‘z faoliyati natijasini baholashga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish uzluksiz, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan pedagogik-psixologik jarayon sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.



Diagnostik-motivatsion bosqichida kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishning dastlabki bosqichi bolaning mavjud kognitiv imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantirish jarayoniga ijobiy motivatsiyani shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu bosqichda bolaning kognitiv moslashuvchanligining dastlabki darajasi, ya’ni o‘zgaruvchan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

shartlarga munosabati, yangi qoidalarni qabul qilishi, diqqatni bir faoliyatdan boshqasiga ko‘chira olishi, faoliyat strategiyasini o‘zgartira olishi va muqobil yechimlarni izlashga tayyorligi aniqlanadi. Diagnostik jarayonda bolaning tabiiy faoliyatiga yaqin bo‘lgan topshiriqlardan foydalanish muhimdir. Chunki maktabgacha yoshdagi bola o‘z imkoniyatlarini ko‘proq o‘yin, konstruktorlik, tasviriy faoliyat va amaliy harakatlar orqali namoyon etadi. Shu sababli diagnostik topshiriqlar bolaning yoshiga mos, qiziqarli va ortiqcha psixologik bosimni yuzaga keltirmaydigan shaklda tashkil etilishi lozim.

Shakllantiruvch-amaliy bosqich kognitiv moslashuvchanlikni maqsadli rivojlantirishning asosiy bosqichi hisoblanadi. Unda birinchi bosqichda aniqlangan ehtiyoj va qiyinchiliklardan kelib chiqib, maxsus pedagogik shart-sharoitlar va rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi. Shakllantiruvchi bosqichning asosiy maqsadi bolaning **fikrlash strategiyasini o‘zgartirish, yangi qoida va shartlarga moslashish, muqobil variantlarni izlash, faoliyatni rejalashtirish va yuzaga kelgan muammolarni mustaqil hal qilish** ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Bu bosqichda topshiriqlarning murakkabligi asta-sekin oshirib boriladi. Dastlab bola bir faoliyat doirasida oddiy o‘zgarishlarga moslashishga o‘rgatiladi. Keyinchalik esa faoliyat shartlari bir necha marta o‘zgartiriladigan, bir nechta yechimga ega bo‘lgan va mustaqil qaror qabul qilishni talab etadigan vazifalar taklif qilinadi.

Mustahkamlovchi-refleksiv bosqichida shakllangan kognitiv moslashuvchanlik ko‘nikmalarini turli faoliyatlarda mustahkamlash va ularni yangi, ilgari uchramagan vaziyatlarga ko‘chirishga e’tibor qaratiladi. Bola endilikda faqat tarbiyachi tomonidan berilgan topshiriqni bajaruvchi emas, balki o‘z faoliyatini qisman mustaqil tashkil etuvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Mazkur bosqichda topshiriqlar bolaning kundalik hayoti, o‘yin faoliyati, konstruktiv faoliyati, tasviriy faoliyati va tengdoshlari bilan hamkorligi bilan bog‘lanadi. Masalan, qurilgan konstruksiya buzilib qolsa, bola “Nima sababdan buzildi?”, “Uni qanday mustahkamlash mumkin?”, “Boshqa qanday materialdan foydalanish mumkin?” kabi savollar asosida yangi yechim izlaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Refleksiya jarayonida bolaning o‘z faoliyatini anglashiga alohida e’tibor beriladi. Tarbiyachi quyidagi savollardan foydalanishi mumkin:

- “Sen bu vazifani qanday bajarding?”
- “Nima qiyin bo‘ldi?”
- “Qiyinchilikni qanday hal qilding?”
- “Boshqa usuldan foydalanish mumkinmi?”
- “Agar topshiriq sharti o‘zgarsa, nima qilasan?”
- “Keyingi safar nimani boshqacha bajararding?”

Bunday savollar bolaning nafaqat natijani, balki o‘z fikrlash jarayonini anglashiga yordam beradi. Natijada metakognitiv elementlar, ya’ni bola tomonidan o‘z faoliyatini kuzatish, baholash va zarur hollarda o‘zgartirish qobiliyati shakllanadi.

Kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishning mazkur bosqichlari bir-biridan mutlaqo ajralgan jarayonlar emas. Ular o‘zaro bog‘langan bo‘lib, har bir keyingi bosqich avvalgi bosqichda shakllangan ko‘nikmalarga tayanadi. Diagnostik-motivatsion bosqichda aniqlangan individual xususiyatlar shakllantiruvchi bosqich mazmunini belgilashga xizmat qiladi. Shakllantiruvchi bosqichda egallangan ko‘nikmalar esa mustahkamlovchi-refleksiv bosqichda turli vaziyatlarga ko‘chiriladi.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv moslashuvchanlikning shakllanishi bolaning bilish jarayonlari, mustaqil fikrlashi va o‘zgaruvchan vaziyatlarga moslashish imkoniyatlarini belgilovchi muhim psixologik-pedagogik jarayonlardan biridir. Tadqiqot natijalarini nazariy tahlil qilish asosida kognitiv moslashuvchanlik diqqatni ko‘chirish, ishchi xotira, inhibitiv nazorat, kognitiv almashtirish, muammolarni turli usullar orqali hal qilish va yangi vaziyatlarga moslashish kabi o‘zaro bog‘liq komponentlar majmuasidan tashkil topishi aniqlandi.

Mazkur qobiliyatning rivojlanishida pedagogik va psixologik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, rivojlantiruvchi ta’lim muhiti, o‘yin faoliyati, muammoli

vaziyatlarni tashkil etish, pedagogik muloqot, individual yondashuv, bolaning mustaqilligini qo'llab-quvvatlash hamda ijobiy emotsional muhit kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish uchun muhim

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Djamilova N., Khakimova N. The Impact of Creativity on the Development of Cognitive Skills of Preschool Children Age 5–7. ISSN: 2692-5206, Impact Factor: 12.23. American Academic Publishers, Volume 05, Issue 02, 2025. Journal: https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai
2. T.S.Kalekeva "sonlarni obrazlar bilan bog'lash orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantrish metodikasi" ilmiy maqola Nukus 2021-y
3. P.Yusupova "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" "O'qituvchi nashriyoti" 1993y 68-b
4. M.Q.Qodirova "Maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv faoliyatini riojlantrish" ilmiy ommaviy maqolalar info@jdpu.uz
5. Sh.muhammedova MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR KOGNITIV RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) Халқаро анжуман тўплами. Тошкент 676.b
6. Vigotiskiy, L.S.Mind in society: The development of Higher psychological processes. Cambridge 1978. 159
7. M.G.Davletshin, Sh.Do'stmuhammedova, M.Mavlonova va b. "Yosh va pedagogik psixologiya' O'quv qo'llanma Toshkent-2007 y 53-b
8. B.N. Alchurazova "Ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning o'ziga xosligi " Inter educational. https://cyberleninka.ru/

TEXNOLOGIK TA'LIMDA O'QUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Mahmudov Ilxom Baxrom o'g'li
Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta'lim) 1-kurs magistrant talabasi
Gmail: mahmudovilxom63@gmail.com
Tel:+998932473803
ORCID:https://orcid.org/0009-0008-4516-307X
Ilmiy rahbar: Nurmamatov Zuhriddin Shavkat o'g'li
Shahrisabz davlat pedagogika institutining Aniq fanlar oliy pedagogika maktabi «Texnologik ta'lim» kafedrasi dotsent vazifasini bajaruvchisi, falsafa doktori (PhD)
Elektron pochta: zuxriddinnurmamatov50@gmail.com
Tel.: +998 91 214 42 26
ORCID: https://orcid.org/0009-0004-9710-8014

Annotatsiya. *Mazkur maqolada texnologik ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari yoritilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchidan nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirish, balki mustaqil fikrlash, muammoni turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqish, yangi g'oyalarni ilgari surish, amaliy faoliyat jarayonida mustaqil yechim ishlab chiqish kabi kompetensiyalarni egallash talab etiladi. Texnologik ta'lim o'zining amaliy yo'nalganligi, loyihaviy faoliyat, modellashtirish, konstruktorlik va ijodiy topshiriqlar bilan bog'liqligi sababli o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish uchun muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Maqolada muammoli ta'lim, loyiha metodi, kreativ topshiriqlar, dizayn faoliyati, guruhli ish, "aqliy hujum", STEAM yondashuvi hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, texnologik ta'limda ijodkorlikni rivojlantirishning metodik shartlari va samaradorlik mezonlari asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *texnologik ta'lim, ijodkorlik, kreativlik, ijodiy qobiliyat, innovatsion ta'lim, loyiha metodi, muammoli ta'lim, STEAM, amaliy faoliyat, mustaqil fikrlash, konstruktorlik, pedagogik metodika.*

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE ABILITIES IN TECHNOLOGICAL EDUCATION

Abstract. *This article examines the pedagogical and methodological foundations for developing students' creative abilities in the process of technology education. In the modern education system, students are expected not only to acquire ready-made knowledge but also to develop competencies such as independent thinking, viewing problems from different perspectives, generating new ideas, and developing*

independent solutions through practical activities. Due to its practical orientation, project-based activities, modeling, construction, and creative tasks, technology education provides significant pedagogical opportunities for fostering students' creativity. The article analyzes the importance of problem-based learning, the project method, creative tasks, design activities, group work, brainstorming, the STEAM approach, and the use of digital technologies in developing students' creative potential. Furthermore, the methodological conditions for developing creativity in technology education and the criteria for evaluating the effectiveness of this process are substantiated.

***Keywords**: technology education, creativity, creative abilities, innovative education, project method, problem-based learning, STEAM, practical activity, independent thinking, construction, pedagogical methodology.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

***Аннотация.** В данной статье освещаются педагогические и методические основы развития творческих способностей учащихся в процессе технологического образования. В современной системе образования от учащихся требуется не только усвоение готовых знаний, но и формирование таких компетенций, как самостоятельное мышление, рассмотрение проблемы с различных точек зрения, выдвижение новых идей и разработка самостоятельных решений в процессе практической деятельности. Технологическое образование, благодаря своей практической направленности, проектной деятельности, моделированию, конструированию и творческим заданиям, обладает значительными педагогическими возможностями для формирования и развития творческих способностей учащихся. В статье анализируется значение проблемного обучения, метода проектов, креативных заданий, дизайнерской деятельности, групповой работы, метода «мозгового штурма», STEAM-подхода, а также использования цифровых технологий в развитии творческого потенциала учащихся. Кроме того, обосновываются методические условия развития творческих способностей и критерии оценки эффективности данного процесса в технологическом образовании.*

***Ключевые слова:** технологическое образование, творчество, креативность, творческие способности, инновационное образование, метод проектов, проблемное обучение, STEAM, практическая деятельность, самостоятельное мышление, конструирование, педагогическая методика.*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar o'quvchilarning bilimlarni tayyor shaklda qabul qilishi bilan cheklanib qolmasdan, ularni mustaqil ravishda izlash, tahlil qilish, amaliyotga tatbiq etish va yangi g'oyalar yaratishga

yo‘naltirishni talab etmoqda. Ayniqsa, texnologik ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki texnologik fanlar nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy faoliyatni ham nazarda tutadi. O‘quvchi ma’lum bir buyum, model yoki loyiha yaratish jarayonida nafaqat mavjud bilimlarini qo‘llaydi, balki material tanlash, shakl va dizaynni belgilash, texnologik jarayonni rejalashtirish, yuzaga kelgan muammoga yechim topish va yakuniy natijani baholash kabi bir qator ijodiy operatsiyalarni amalga oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ijodkorlik tushunchasi pedagogik nuqtayi nazardan shaxsning mavjud bilim, tajriba va tasavvurlar asosida yangi g‘oya, mahsulot yoki yechim yaratish qobiliyati bilan tavsiflanadi. J. Guilford ijodkorlikni divergent fikrlash bilan bog‘lab, bir muammo yuzasidan bir nechta ehtimoliy yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatiga e’tibor qaratgan.[3] E.P. Torrance esa ijodiy fikrlash jarayonida muammoni aniqlash, farazlarni ilgari surish, ularni tekshirish va natijalarni ifodalash kabi jarayonlarning muhimligini ta’kidlagan.[5] Mazkur ilmiy qarashlar texnologik ta’lim uchun ham muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki texnologik faoliyat jarayonida o‘quvchi ko‘pincha yagona tayyor javobga ega bo‘lmagan amaliy vaziyat bilan yuzma-yuz keladi.

Texnologik ta’limning o‘ziga xos jihati shundaki, unda o‘quvchining bilimi bevosita faoliyat orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, ma’lum bir buyumni loyihalashtirish jarayonida o‘quvchi uning qanday shaklda bo‘lishi, qaysi materialdan tayyorlanishi, qanday texnologik ketma-ketlikda bajarilishi va estetik jihatdan qanday ko‘rinishga ega bo‘lishi haqida mustaqil qaror qabul qiladi. Shu sababli texnologik ta’limni faqat mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish vositasi sifatida emas, balki o‘quvchilarning ijodiy, texnik va muhandislik tafakkurini rivojlantiruvchi pedagogik muhit sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, avvalo, ta’lim jarayonida ijodiy muhitni yaratishni talab etadi. Bunday muhitda o‘quvchi xato qilishdan

qo‘rqmasligi, o‘z fikrini erkin ifodalashi, bir masalaga bir nechta yechim taklif qilishi va o‘z g‘oyasini asoslay olishi kerak. An’anaviy ta’limda o‘qituvchi ko‘pincha tayyor bilimlarni tushuntiruvchi va nazorat qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo‘lsa, ijodkorlikka yo‘naltirilgan texnologik ta’limda uning roli o‘zgaradi. O‘qituvchi o‘quvchiga tayyor yechimni berishdan ko‘ra, uni muammoni mustaqil hal qilishga yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi pedagog sifatida faoliyat yuritadi.

Texnologik ta’limda ijodkorlikni rivojlantirishning samarali usullaridan biri muammoli ta’lim metodidan foydalanishdir. Muammoli topshiriqda o‘quvchiga oddiy takrorlashni talab qiluvchi vazifa emas, balki mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni talab qiladigan vaziyat taqdim etiladi. Masalan, o‘quvchilarga ma’lum miqdordagi materialdan foydalanib, muayyan funksiyani bajaradigan buyum yaratish vazifasi berilishi mumkin. Bunday topshiriqda o‘quvchi tayyor namunani aynan takrorlamaydi, balki o‘z imkoniyatlari va bilimlariga tayangan holda turli yechimlarni izlaydi. Natijada uning divergent fikrlashi, muammoga moslashuvchan yondashuvi va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Loyiha metodi ham texnologik ta’limda ijodkorlikni shakllantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Loyiha faoliyati o‘quvchidan muammoni aniqlash, maqsadni belgilash, zarur ma’lumotlarni izlash, reja tuzish, mahsulot yaratish va natijani taqdim etishni talab qiladi. J. Dewey va uning izdoshlari tomonidan ilgari surilgan faoliyatga asoslangan ta’lim g‘oyalari o‘quvchining bilimni bevosita amaliy faoliyat orqali egallashining pedagogik ahamiyatini ko‘rsatib bergan.[2] Texnologik fanlarda loyiha metodi ayniqsa qulaydir, chunki uning yakunida o‘quvchi real mahsulot yoki model yaratishi mumkin.

Loyiha topshiriqlarini o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlariga moslashtirish muhim hisoblanadi. Boshlang‘ich bosqichlarda oddiy konstruktiv topshiriqlar, maketlar va bezak buyumlari bilan ishlash orqali ijodiy qiziqishni

shakllantirish mumkin. Keyingi bosqichlarda o‘quvchilarga maishiy muammolarni hal qiluvchi moslamalar, ekologik yo‘nalishdagi mahsulotlar yoki energiya tejamkor modellar yaratish taklif qilinishi mumkin. Yuqori sinflarda esa raqamli loyihalash, 3D modellashtirish, robototexnika va dasturlash elementlarini texnologik faoliyat bilan integratsiyalash imkoniyati mavjud.

Ijodkorlikni rivojlantirishda “aqliy hujum” metodidan foydalanish ham samarali natija beradi. Mazkur metod orqali o‘quvchilar ma’lum muammo yuzasidan qisqa vaqt ichida imkon qadar ko‘p g‘oyalarni ilgari suradilar. Dastlab g‘oyalarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi keskin baholanmaydi. Keyinchalik ilgari surilgan takliflar tahlil qilinib, amaliy jihatdan eng maqbul variantlar tanlanadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda erkin fikrlash, yangi g‘oya taklif qilish va o‘z fikrini himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Texnologik ta’limda dizayn faoliyati ham ijodkorlikni shakllantirishning muhim vositasidir. Dizayn jarayonida o‘quvchi buyumning faqat funksional xususiyatlarini emas, balki uning estetik ko‘rinishini ham hisobga oladi. Rang, shakl, material, proporsiya va foydalanish qulayligi kabi omillarning uyg‘unligi o‘quvchidan kompleks fikrlashni talab qiladi. Shu sababli dizayn topshiriqlari texnik va estetik tafakkurning birgalikda rivojlanishiga yordam beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Texnologik ta’limni STEAM yondashuvi bilan uyg‘unlashtirish ham o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. STEAM yondashuvi fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani o‘zaro integratsiyalashga asoslanadi. Mazkur yondashuvda o‘quvchi biror mahsulot yoki yechim yaratish jarayonida turli fanlardan olgan bilimlarini birgalikda qo‘llaydi. Masalan, ekologik muammoni hal qilishga qaratilgan loyiha davomida o‘quvchi biologiya va ekologiyaga oid bilimlardan, matematik hisob-kitoblardan, texnologik konstruksiyalashdan va dizayn elementlaridan foydalanishi mumkin.[7]

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi texnologik ta'limda ijodiy faoliyatning mazmunini ham kengaytirmoqda. Kompyuter grafikasi, 3D modellashtirish, raqamli dizayn, robototexnika va dasturlash vositalari o'quvchilarga o'z g'oyalarini virtual muhitda ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish imkonini beradi. Masalan, 3D modellashtirish dasturlari yordamida o'quvchi real material sarflamasdan turib o'z loyihasining bir nechta variantini ishlab chiqishi mumkin. Bu esa ijodiy tajriba o'tkazish imkoniyatlarini kengaytiradi va xatolarni aniqlash jarayonini tezlashtiradi.

Texnologik ta'limda ijodkorlikni rivojlantirish metodikasining muhim jihatlaridan yana biri topshiriqlarning murakkabligini bosqichma-bosqich oshirib borishdir. O'quvchiga haddan tashqari murakkab vazifa berilishi uning ijodiy faolligini pasaytirishi mumkin. Aksincha, juda oddiy topshiriqlar o'quvchining yangi yechim izlash ehtiyojini kamaytiradi. Shu sababli topshiriqlar o'quvchining mavjud bilim va ko'nikmalariga mos bo'lishi, biroq undan qo'shimcha izlanish va mustaqil qaror qabul qilishni talab qilishi kerak.

O'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olish ham muhim metodik shartlardan biridir. Har bir o'quvchining qiziqishi, tasavvuri, texnik ko'nikmasi va ijodiy fikrlash darajasi bir xil bo'lmaydi. Ayrim o'quvchilar konstruktiv topshiriqlarga qiziqsa, boshqalari dizayn, modellashtirish yoki texnik hisob-kitoblarga ko'proq moyil bo'lishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi turli shakldagi topshiriqlarni taklif qilishi va o'quvchiga ma'lum darajada tanlov imkoniyatini berishi maqsadga muvofiq.

Ijodkorlikni baholash masalasi ham texnologik ta'lim metodikasida alohida ahamiyatga ega. An'anaviy baholashda ko'pincha yakuniy natijaning to'g'riligi asosiy mezon sifatida olinadi. Ijodiy faoliyatda esa faqat tayyor mahsulotni emas, balki o'quvchining g'oya yaratish jarayoni, muammoni hal qilish usuli, mustaqilligi, yangi yechimlardan foydalanishi va o'z ishini asoslay olishi ham hisobga olinishi kerak. E.P. Torrance tomonidan ishlab chiqilgan ijodiy fikrlash mezonlarida g'oyalar ravonligi, moslashuvchanligi, o'ziga xosligi va g'oyani rivojlantirish qobiliyatiga alohida e'tibor

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

beriladi.[5] Ushbu mezonlardan texnologik ta'limdagi ijodiy topshiriqlarni baholashda foydalanish mumkin.

O'qituvchi tomonidan beriladigan fikr-mulohaza ham o'quvchining ijodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Faqat kamchiliklarni ko'rsatish o'quvchining ijodiy tashabbusini pasaytirishi mumkin. Shu sababli baholash jarayonida o'quvchining kuchli tomonlarini aniqlash, uning g'oyasidagi ijobiy jihatlarni ko'rsatish va takomillashtirish uchun aniq tavsiyalar berish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv o'quvchida o'z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatni shakllantiradi.

Guruhli faoliyat ham ijodkorlikni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Guruhda ishlash jarayonida o'quvchilar turli fikrlarni eshitadilar, o'z takliflarini boshqalarning g'oyalari bilan taqqoslaydilar va umumiy yechim ishlab chiqadilar. Shu bilan birga, guruhdagi hamkorlik o'quvchilarda muloqot qilish, fikrni asoslash, murosaga kelish va jamoaviy qaror qabul qilish kabi ijtimoiy kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy ta'lim konsepsiyasida ham bilim va ko'nikmalarning rivojlanishida ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati alohida ta'kidlangan.[6]

Texnologik ta'limda ijodkorlikni rivojlantirish uchun o'quvchining real hayotiy muammolar bilan bog'liq vazifalarni bajarishi ham muhim. Masalan, uy sharoitida elektr energiyasini tejash, suvdan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, kichik xonalar uchun qulay jihoz yaratish yoki kundalik hayotda foydalaniladigan buyumni takomillashtirish kabi vazifalar o'quvchini amaliy muammo haqida fikrlashga undaydi. Bunday topshiriqlar o'quvchining texnologik bilimlarini hayotiy ehtiyojlar bilan bog'laydi va uning ijodiy faoliyatga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

Ijodkorlikni rivojlantirish jarayonida o'qituvchi tomonidan xavfsiz va erkin psixologik muhit yaratilishi ham muhimdir. O'quvchi o'z g'oyasi boshqalar tomonidan darhol rad etilmasligiga ishonch hosil qilgan taqdirdagina yangi takliflarni ilgari surishga moyil bo'ladi. Shuning uchun texnologik mashg'ulotlarda o'quvchilarning

noodatiy g‘oyalarini muhokama qilish, ularning afzallik va kamchiliklarini birgalikda tahlil qilish hamda xatoni o‘rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilishga o‘rgatish lozim.

Texnologik ta’limda ijodkorlikni rivojlantirish metodikasining samaradorligini aniqlash uchun bir qator mezonlardan foydalanish mumkin. O‘quvchining mustaqil ravishda g‘oya taklif qilishi, bir muammoga bir nechta yechim ishlab chiqishi, yangi material yoki texnologiyani izlab topishi, loyihani mustaqil rejalashtirishi, o‘z ishini asoslay olishi va yakuniy mahsulotni takomillashtirishga intilishi shunday mezonlar qatoriga kiradi. Bunda faqat natija emas, balki ijodiy faoliyat jarayonining o‘zi ham baholanishi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, texnologik ta’lim o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun ta’lim jarayonini tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki muammolarni mustaqil hal qilish, loyihalash, modellashtirish, tajriba o‘tkazish va yangi mahsulot yaratishga yo‘naltirish zarur. Muammoli ta’lim, loyiha metodi, “aqliy hujum”, dizayn faoliyati, guruhli ish, STEAM yondashuvi va raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Bunda o‘qituvchi nazorat qiluvchi emas, balki o‘quvchining ijodiy izlanishini tashkil etuvchi va qo‘llab-quvvatlovchi pedagog sifatida faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq. Texnologik ta’limda ijodkorlikni tizimli ravishda rivojlantirish natijasida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish, amaliy loyihalarni ishlab chiqish va o‘z faoliyatini baholash kompetensiyalari shakllanadi. Bu esa zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan mustaqil, tashabbuskor va ijodiy fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

1. Amabile T. M. Creativity in Context: Update to the Social Psychology of Creativity. – Boulder: Westview Press, 1996. – 336 p.
2. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – 91 p.
3. Guilford J. P. Creativity // American Psychologist. – 1950. – Vol. 5, No. 9. – P. 444–454.
4. Runco M. A., Jaeger G. J. The Standard Definition of Creativity // Creativity Research Journal. – 2012. – Vol. 24, No. 1. – P. 92–96.
5. Torrance E. P. Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-Technical Manual. – Lexington, MA: Personnel Press, 1974.
6. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
7. Yakman G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education // PATT Conference Proceedings. – 2008.

ADABIYOT DARSLARIDA EPIK ASARLAR ORQALI MILLIY VA UMUMBASHARIY QADRIYATLARNI O'RGATISHNING INTERAKTIV METODIKASI

Abdulxayeva Xurshida Xamzabek qizi
Namangan davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti
mutaxassisi 2-kurs magistranti
abdulxayevaxurshida0319@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada adabiyot darslarida epik (nasriy) asarlar tahlili vositasida o'quvchilarga milliy va umumbashariy qadriyatlarni singdirishning interaktiv metodikasi yoritilgan. An'anaviy "tayyor xabarni berish" (message extraction) usulining cheklanganligi tahlil qilinib, "dialogik izlanish" (dialogic inquiry), rolli kvestlar hamda muammoli muhokamalar samaradorligi asoslangan. B. To'qliyevning adabiyot o'qitish metodikasi tamoyillari zamonaviy xalqaro tajriba bilan uyg'unlashtirilgan. Tadqiqot natijalari adabiy matnni interaktiv va dialogik tahlil qilish o'quvchilarning axloqiy sezgirligi, empartiyasi va qadriyatlarni shaxsiy e'tiqodga aylantirish darajasini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar*: epik turlar, nasriy asarlar, milliy qadriyatlar, umumbashariy qadriyatlar, dialogik ta'lim, b. To'qliyev metodikasi, interaktiv kvest, adabiyot ta'limi.*

INTERACTIVE METHODOLOGY FOR TEACHING NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES THROUGH EPIC WORKS IN LITERATURE CLASSES

Abctract: *this study explores an interactive pedagogical methodology for instilling national and universal human values in secondary school students through the analysis of epic (narrative) prose works in literature classes. Examining the limitations of traditional, one-way "message extraction" models, the article substantiates the efficacy of dialogic inquiry, role-based quests, and moral dilemma discussions. The conceptual framework synthesizes the traditional literature teaching principles established by b. Toqliyev with contemporary international research. Empirical findings demonstrate that interactive and dialogic analysis of narrative texts significantly enhances students' moral sensitivity, empathetic engagement, and the internalization of prosocial values into personal conviction.*

Keywords*: epic genres, narrative prose, national values, universal values, dialogic education, b. Toqliyev methodology, interactive quest, literature pedagogy.*

ИНТЕРАКТИВНАЯ МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ ЧЕРЕЗ ЭПИЧЕСКИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация: *в данной статье освещается интерактивная методика привития учащимся национальных и общечеловеческих ценностей в процессе анализа эпических (прозаических) произведений на уроках литературы. Обоснована ограниченность традиционного метода*

«передачи готовой информации» (message extraction) и проанализирована эффективность проблемных дискуссий, «диалогического исследования» (dialogic inquiry) и ролевых квестов. Применительно к методике преподавания литературы б. Толипова концептуальные основы интегрированы с современным международным опытом. Результаты исследования показывают, что интерактивный и диалогический анализ литературного текста существенно повышает нравственную чуткость учащихся, эмпатию и способность трансформировать ценности в личные убеждения.

***Ключевые слова**: эпические жанры, прозаические произведения, национальные ценности, общечеловеческие ценности, диалогическое обучение, методика б. Толипова, интерактивный квест, литературное образование.*

KIRISH

Globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda ta'lim tizimi oldida turgan eng mas'uliyatli vazifalardan biri o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash bilan birga umumbashariy insoniy qadriyatlarni shakllantirishdir. Adabiy asarlarda yoritilgan boy qadriyatlarimiz, va umuminsoniy qadriyatlarni obrazlar xarakterida anglashiladi. Ularni zamonaviy interaktiv metodlar orqali o'quvchilar tafakkurida shakllantirish lozim. O'zbekona qadriyatlarni xalqona qadriyatlardan ajratish va o'zaro bog'liqligini tushunib yetishlari muhim masaladir. Adabiyot ta'limi, xususan, teran syujet va mukammal xarakterlar to'qnashuviga ega bo'lgan epik (nasriy) asarlar ushbu ma'naviy-axloqiy maqsadni amalga oshirishda asosiy pedagogik manba hisoblanadi.

METODOLOGIYA

O'zbek adabiyot o'qitish metodikasi maktabi vakili B. To'qliyev ta'kidlaganidek, adabiyot darslarida nasriy asarlarni o'rgatish shunchaki syujet va voqealar rivojini yodlatish emas, balki badiiy epizodlar tahlili vositasida o'quvchining ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish jarayonidir. Biroq an'anaviy pedagogik amaliyotda qadriyatlarni o'rgatish ko'p holatlarda bir tomonlama, ya'ni "tayyor xabarni berish" (message extraction) modeli orqali amalga oshirib kelinmoqda. Bunda o'qituvchi tayyor axloqiy qoidalarni uqtiradi, o'quvchi esa matndan uni shunchaki izlab topadi. Xalqaro tadqiqotlar (Luciano, 2022; D'Olimpio, 2018) shuni ko'rsatadiki, bunday bir tomonlama va majburiy yondashuv o'quvchilarda mustaqil axloqiy fikrlash hamda qadriyatlarni ichki e'tiqodga aylantirish (ethical internalization) jarayonini ta'minlay olmaydi.

Adabiyot o‘qitish jarayonida epik turning janrlari (ertak, masal, rivoyat, hikoya, qissa, roman va dostonlar) o‘quvchilarning yosh va ruhiy holatlariga mos tarzda bosqichma-bosqich o‘rgatiladi:

5–6-sinflarda: Hadislar, masallar, ertak va rivoyatlar orqali to‘g‘rilik, halollik, ota-onaga hurmat va bag‘rikenglik kabi boshlang‘ich axloqiy va milliy qadriyatlar singdiriladi. Masalan, «Ochko‘zlik», «Axloq», «Harakatda barakat» hikoyalari hamda didaktik masallar o‘quvchilarda ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi farqni anglashga yordam beradi.

7–9-sinflarda: Tarixiy va adabiy dostonlar, qissalar hamda ma’rifiy hikoyalar orqali vatanparvarlik, erkinlik va komil inson g‘oyalari ilgari suriladi. Qahramonlar ruhiyatining tahlili o‘quvchida estetik va ijtimoiy dunyoqarashni kengaytiradi.

10–11-sinflarda: «Qutadg‘u bilig», «Qissai Rabg‘uziy», «O‘tkan kunlar», «Kecha va kunduz» singari yirik epik asarlar orqali milliy o‘zlikni anglash, adolat, davlatchilik va umumbashariy insonparvarlik qadriyatlari chuqur tahlil qilinadi.

Epik asarlar xalqlar hayotining turli muhim bosqichlarini, tarixini, ijtimoiy-axloqiy ziddiyatlarni, insoniy munosabatlarni, shaxslarning o‘zaro aloqalarini obrazlar vositasida chuqur yorinitib beruvchi badiiy asardir. Epik asarlarning asosiy xususiyatlari voqeabopligi, hayotiyligi, obrazli tafakkurning kengligidir. Epik asarlar tahlili o‘quvchida nafaqat insoniy qadriyatlarni, balki falsafiy qarashlarni boyitadi. Epik asarlarda milliy qadriyatlarimiz bo‘lgan urf-odatlarimiz bor. «Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo‘l» kabi maqollardan anglashiladiki, hech bir millatda aks etmagan “siz”lab murojaat qilish bebaho qadriyatlarimizdan biridir. Bu kabi milliyligimiz asarlarda turli sohalarda, turli ijtimoiy muhitlarda namoyon bo‘ladi. Mehmondo‘stlik, saxovat va saxiylik, andisha-yu ibo-hayo insoniy munosabatlarda aks etadi. Oila muqaddasligi, mahalla va qo‘shnichilik, hashar o‘zbekligimizni ko‘rsatib turadi. Hattoki, ma’naviy va ilmiy merosimiz mumtoz adabiyotda, ajdodlar xotirasida, Vatanga sadoqat va muhabbatida yaqqol ko‘rinib turadi.

Zamonaviy ilmiy izlanishlar (Rosyida, 2025; Gasser, 2026; Dammert, 2026) adabiyot ta’limida "dialogik izlanish" (dialogic inquiry) va interaktiv yondashuvga o‘tish zarurligini isbotlamoqda. Epik asarlardagi axloqiy muammolar (moral dilemmas) bo‘yicha o‘tkaziladigan jamoaviy bahs-munozaralar va interaktiv topshiriqlar o‘quvchilarning emotsional idrokini hamda tahliliy fikrlashini oshiradi. O‘zbekiston maktablarida o‘tkazilgan tajriba-sinovlar ham

(Anvarxojayevna, 2025) nasriy matnlarni dialogik mulohaza bilan birga o‘rgatish o‘quvchilarda halollik, jasorat va empartiya kabi prosotsial normalarni singdirishda yuqori samaradorlik berganini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning maqsadi shundan iboratki: B. To‘qliyevning epizodli tahlil tamoyillariga tayanib, epik asarlarni o‘rgatishda adabiy tur xususiyatlariga mos keladigan interaktiv-dialogik metodik modelni ishlab chiqish va uning amaliy samaradorligini baholash.

Adabiy ta’limda shunchaki voqealar rivojini yodlatish emas, balki asardagi ma’naviy-axloqiy muammolarni o‘quvchi o‘z hayotiy tajribasi bilan bog‘lay olishi muhim. Quyidagi metodlar qadriyatli yondashuvni ta’minlaydi:

A) "Qahramon o‘rnida men bo‘lganimda..." interaktiv metodi

Ushbu usul o‘quvchini asar qahramonining ma’naviy tanlovi oldiga qo‘yadi va bag‘rikenglik, andisha hamda adolat kabi qadriyatlarni baholashga o‘rgatadi.

Amaliy misol («O‘tkan kunlar» romani asosida):

Savol: "Agar siz Otabek o‘rnida bo‘lganingizda, Zaynab va Kumush o‘rtasidagi nizoga qanday yechim topgan bo‘lardingiz?"

O‘quvchi tahlili: Asardagi muammoni anglab, milliy oilaviy qadriyatlar va mas’uliyat nuqtai nazaridan qahramonning qarorlarini pragmatik va axloqiy tahlil qiladi.

B) Epik obrazni SWOT-tahlil qilish metodi

Badiiy asar qahramonining xarakteridagi milliy va umuminsoniy fazilatlarni har tomonlama baholashga xizmat qiladi.

Amaliy misol (Shuhratning «Oltin zanglamas» romanidagi Jannat obrazi):

Kuchli jihatlari(S): Sabrli, qanoatli, harakatchan, mehribon, sadoqatli (Milliy va insoniy fazilatlar).

Zaif jihatlari (W): Sodda, ishonuvchan, farzandsizlik.

Imkoniyatlari (O): Farzand asrab olib yashashi va ma’naviy matonat ko‘rsatishi.

Tahdidlar (T): Ering xiyonati, ruhiy bosim va yolg‘izlik.

C) SKRAYBING (Scribe) metodi Epik asar syujetidagi milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi epizodlarni (masalan, O‘tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasidagi «Eng og‘ir gunoh» hikoyasi) vizual tasvirlar, ramzlar va rasmlar ketma-ketligi orqali aks ettirish. Bu o‘quvchining vizual va emotsional xotirasini faollashtiradi.



Tadqiqotda epik asarlar (hikoya, qissa va ertaklar) tahlilida o‘quvchilar faolligini va axloqiy idrokini oshiruvchi uch bosqichli interaktiv metodik model va kvest-o‘yin texnologiyasi sinovdan o‘tkazildi:

BOSQICHLAR	METODLAR
1-bosqich	Qahramon nigohi
2-bosqich	Muqobil yakun va dilemma
3-bosqich	Ma’naviy labirint (Kvest)

"**Qahramon nigohi**" *(Character-Perspective Storytelling):* O‘quvchilar asardagi markaziy konflikt yuzaga kelgan epizodda bosh va ikkinchi darajali qahramonlar o‘rniga o‘zlarini qo‘yib, monolog yoki intervyu tayyorlaydilar (Asanova, 2026). Bu usul empartiya va shaxsiy mas’uliyatni his qilishni rivojlantiradi.

"**Muqobil yakun va axloqiy dilemma**" *(Reflective Dilemma):* Kichik guruhlarda asar kulminatsiyasidagi milliy (andisha, hurmat, oqibat) va umumbashariy (adolat, tinchlik, bag‘rikenglik) qadriyatlar to‘qnashuvi muhokama qilinadi (Soni, 2025). Guruhlar qahramon

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qaroriga muqobil yechimlar taklif etadi.

"**Ma'naviy labirint**" *adabiy kvesti:* O'quvchilar uchta stantsiya bo'yicha topshiriqlarni bajaradilar:

1-stantsiya (Qadriyat kaliti): Matndagi iqtiboslardan milliy va umumbashariy qadriyatlarni ajratish.

2-stantsiya (Tahririyat xonasi): Asarning axloqiy va qadriyatli yakunini qayta shakllantirish.

3-stantsiya (Axloqiy sud): Rollarga bo'lingan holda qahramonning xatti-harakatlarini baholash.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Interaktiv va dialogik usullar asosida tashkil etilgan adabiyot darslari natijasida quyidagi ijobiy pedagogik ko'rsatkichlarga erishildi: Empartiya va axloqiy mantiqning oshishi: O'quvchilarning asar qahramonlarini shunchaki "yaxshi" yoki "yomon"ga ajratmay, ularning xatti-harakatlarini empartiya va axloqiy mantiq nuqtai nazaridan tahlil qilish ko'rsatkichi sezilarli oshdi. Bu natija Ismail (2025) tomonidan aniqlangan empartiya va axloqiy fikrlash o'sishi haqidagi xalqaro ko'rsatkichlar bilan to'liq mos keladi.

Qadriyatlarni idrok etish sifatining O'zgarishi: O'quvchilar milliy urf-odatlar va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurroq anglab yetdilar. Kichik guruhlardagi dialogik muhokamalar (Quality Talk) o'quvchilarning samimiy savollar berishi hamda mantiqiy asoslangan xulosalar chiqarishini ta'minladi (Dammert, 2026).

O'qituvchi va o'quvchi rolining o'zgarishi: O'qituvchining darsdagi monologik yetakchilik roli fasilitatorlikka (yo'naltiruvchilikka) o'tdi (Rosyida, 2025), bu esa o'quvchilarning adabiy matnga nisbatan bo'lgan qiziqishi va faolligini oshirdi.

Olingan natijalar adabiyot darslarida epik asarlar orqali qadriyatlarni singdirish avtomatik jarayon emasligini ko'rsatadi (D'Olimpio, 2018). Matnni shunchaki o'qib berish yoki majburiy qoidalarni yodlatish o'quvchida qadriyatli e'tiqodni shakllantira olmaydi. Epik asarlar o'quvchilar uchun axloqiy sinov maydoni (moral laboratory) vazifasini o'taydi. O'quvchi kvest va dialogik muhokamalarga kirishgandagina xavfsiz xayoliy muhitda qaror qabul qilishni hamda buning oqibatlarini anglashni o'rganadi (Rosyida, 2025). Milliy qadriyatlarni umumbashariy mezonlar bilan uyg'unlikda tahlil qilish o'quvchilarda dunyoqarash kengligini shakllantiradi.

XULOSA

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Epik asarlarni o‘rgatishda adabiyotshunoslik nazariyasini ortiqcha yuklamasdan, ma’naviy komillik va insoniy fazilatlarni tarbiyalashga ustuvorlik berish lozim. Badiiy tahlil jarayonida o‘quvchiga matn mazmunidan kelib chiqib pragmatik va muammoli topshiriqlar berilishi ularning dunyoqarashi va nutq madaniyatini shakllantiradi. pik tur janrlarini tahlil qilishda Psixologik (qahramonlar ichki kechinmasi), Sotsiologik (jamiyat va shaxs munosabati) hamda Komparativ (qiyosiy) metodlardan unumli foydalanish milliy va umumbashariy qadriyatlarning doimiyligini isbotlaydi.

B. To‘qliyevning epizodli tahlil metodikasiga asoslangan va xalqaro tajriba bilan boyitilgan ushbu 3 bosqichli interaktiv kvest modeli adabiyot darsliklari hamda o‘quv-metodik qo‘llanmalarini boyitishda amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. To‘qliyev, B. (2010). Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
2. Anvarxojayevna, F. (2025). Integration of dialogic reflection and fairy-tale narratives in primary school value education. Journal of Pedagogy and Educational Research, 14(2), 45-58.
3. Dammert, A. (2026). Dialogic literature teaching and student moral reasoning. Educational Psychology Review, 38(1), 112-129.
4. D’Olimpio, L. (2018). Media and Moral Education: A Philosophy of Critical Engagement. Routledge.
4. Gasser, L. (2026). Promoting moral reasoning through narrative fiction in small group discussions. Journal of Moral Education, 55(1), 23-41.
5. Ismail, M. (2025). Narrative-driven empathy formation and ethical reasoning in pre-service teachers. Teaching and Teacher Education, 118, 103-119.
6. Luciano, C. (2022). Three pedagogical paradigms of sociomoral learning through narrative fiction. Review of Educational Research, 92(3), 341-375.
7. Rosyida, A. (2025). From value transmission to value transformation in literature pedagogy. Pedagogy, Culture & Society, 33(2), 201-218.

VOCABULARY ORGANIZATION AND ITS ROLE IN LANGUAGE LEARNING

Ayturayev Majidkhon Mavlankhanovich
PhD, Associate Professor
Namangan State Institute of Foreign Languages
E-mail: majidkhonayturaev@gmail.com

Abstract. The article discusses the importance of vocabulary in teaching and learning English and the methodical organization of vocabulary teaching. It is shown that the methodical organization of vocabulary teaching depends on the type of speech activity it is intended to develop. Particular attention is paid to the methodological typology of lexical difficulties, the selection of the lexical minimum and its criteria, the ways of presenting and semantizing new words and the types of lexical exercises, as well as to vocabulary as material for speech and to the lexical side of listening, speaking, reading and writing.

Keywords: vocabulary, lexical minimum, methodical organization, methodological typology, selection criteria, semantization, lexical side of listening, lexical side of speaking, lexical side of writing, synonyms, antonyms, homonyms.

LUG‘AT BOYLIGINI TIZIMLASHTIRISH VA UNING TIL O‘RGANISHDAGI ROLI

Annotatsiya. Maqolada ingliz tilini o‘qitish va o‘rganishda lug‘atning ahamiyati hamda leksikani o‘qitishni metodik tashkil etish masalalari yoritilgan. Leksikani o‘qitishni metodik tashkil etish qaysi nutq faoliyati turini rivojlantirishga qaratilganiga bog‘liq ekanligi ko‘rsatib berilgan. Leksik qiyinchiliklarning metodik tipologiyasi, leksik minimumni tanlash va uning mezonlari, yangi so‘zlarni tanishtirish va semantizatsiya qilish usullari, leksik mashqlar turlari, shuningdek, nutq materiali sifatidagi lug‘at hamda tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuvning leksik tomoniga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: lug’at, leksik minimum, metodik tashkil etish, metodik tipologiya, tanlash mezonlari, semantizatsiya, tinglab tushunishning leksik tomoni, nutqning leksik tomoni, yozuvning leksik tomoni, sinonim, antonim, omonim.

ОРГАНИЗАЦИЯ ЛЕКСИКИ И ЕЕ РОЛЬ В ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА

Аннотация. В статье рассматриваются значение лексики в обучении и изучении английского языка, а также вопросы методической организации обучения лексике. Показано, что методическая организация обучения лексике зависит от того, на развитие какого вида речевой деятельности она направлена. Особое внимание уделяется методической типологии лексических трудностей, отбору лексического минимума и его критериям, способам введения и семантизации новых слов, типам лексических упражнений, а также лексике как материалу речи и лексической стороне аудирования, говорения, чтения и письма.

Ключевые слова: лексика, лексический минимум, методическая организация, методическая типология, критерии отбора, семантизация, лексическая сторона аудирования, лексическая сторона говорения, лексическая сторона письма, синоним, антоним, омоним.

INTRODUCTION

In the methodology of teaching a foreign language, language material is one of the areas studied in detail. To express a thought in speech or to understand the expressed thought, it is required to be able to use language material. In modern teaching practice, the concept of language material is interpreted in two different senses: (1) a set of lexical, grammatical, phonetic, and other linguistic units; (2) a set of units selected from the language system based on educational goals, called the language minimum, which is considered foreign language material for students. [2.1]

Vocabulary teaching forms the foundation of language instruction. Vocabulary may be defined as the body of words and word combinations a learner has acquired. Without mastering it, a learner can neither study a language nor fully perform any type of speech activity, since vocabulary serves as the very material of speech.

The aim of this article is to consider the methodical organization of teaching English vocabulary, the methodological typology of lexical difficulties, the principles of selecting the lexical minimum and the stages of work on vocabulary in relation to different types of speech activity.

MATERIALS AND METHODS

The material of the study comprised the works of Uzbek and foreign methodologists on teaching foreign language vocabulary (J.J. Jalolov, G.T. Makhkamova, Sh.S. Ashurov, S.F. Shatilov and others), as well as the English language program for general secondary schools. Theoretical analysis of methodological literature, comparison, generalization and systematization of the views of scholars on the selection, typology and teaching of vocabulary were used as the main research methods.

RESULTS

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

1. Methodical organization of teaching English vocabulary

The teaching of vocabulary should begin with its methodical organization, the character of which is determined by the type of speech activity to be developed. Such organization embraces teaching the lexical aspects of speech as well as forming, developing and automating learners' lexical skills.

The following table shows what the methodology of vocabulary teaching involves.

➢ Methodical organization of vocabulary teaching

➢ Selection

➢ Work on vocabulary

➢ Allocation

➢ Methodological typology

➢ Enter (explain, introduce, teach)

➢ Strengthening

➢ Mastering

➢ Form, Meaning, Usage

The lexical aspects of listening, speaking, reading and writing differ considerably, and teaching them depends on the type of speech activity concerned. Consequently, the way vocabulary teaching is organized varies from one activity to another. Nevertheless, its core components always remain the same – methodical organization, selection, distribution, methodological typology and work on vocabulary; what changes is the selection itself, the typology, the distribution, as well as the forms, types, quality and content of the work. The following factors complicate methodical organization and must be taken into account: 1) the time allotted to vocabulary teaching; 2) the age of learners; 3) the learning objectives; 4) the stage of instruction; 5) the teacher's professional skills; 6) the abstract or concrete nature of a word's meaning. [4.1]

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Difficulties in word processing:

a) For every word (in form, meaning, in use)

b) Connection of English, native language and Russian.

Creation of methodological typology of vocabulary is an urgent task of modern methodology.

2. Methodological typology of vocabulary

By summarizing the most important types of difficulties encountered in both active and passive vocabulary, we can note the following.

In active vocabulary, difficulties arise from the independent and auxiliary use of words, their free or restricted combinability, similarity in pronunciation and synonymy. Further difficulties stem from the differences between English and Uzbek in the use of grammatical forms, in word meanings and in the combinability of words.

In passive vocabulary, the difficulties concern the syllabic structure of words, polysemy, and the use of a word in basic and auxiliary functions as well as in direct and figurative meanings. Methodological typology also takes into account the similarity in pronunciation between words of the target language and the resemblance of English words to native words that differ from them in meaning.

The teacher can identify and characterize the vocabulary to be learned and the difficulties that may arise before it is assimilated (in some cases by comparison with Uzbek). After that, appropriate methods, techniques and exercises are chosen for each type of word. As a result, the nature of each word is taken into account and less time is needed to learn it, because each type of word is taught by the method, technique or exercise that suits it best. [5.1]

English vocabulary is taken separately and compared with Uzbek vocabulary, which provides a methodological typology for the use of meaning and form.

For example: a map, a pen, a pencil, a table, to see, to like, to want; The difficulty of teaching a map, a pen, a pencil, a table is that the pupils can see them with their own

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

eyes or through the picture, so they have some difficulties with the words see, like, and want as it is more difficult to show them in a picture, and here it is better to show it by action. So, there are two ways to divide these 8 words into 2 types:

1) the images or the subject matter and

2) we use the methods of demonstration.

3. The lexical side of speech activities

Material for speech is of primary importance, since speech cannot exist without it. A learner can understand English speech by listening to it and recognizing the meanings of words learnt earlier. If the words or their meanings are unknown, the information and the meaning of the utterance remain unclear. Therefore, in working on the lexical side of listening comprehension, the ability to hear and recognize words is widely developed, as aural recognition of vocabulary has its own specific features and difficulties.

The lexical side of speaking also has its own peculiarities: learners cannot speak without knowing the necessary words, and even when they know them, they must be able to use them in the right place. The lexical side of reading likewise presents difficulties: to obtain information from a text and to understand its meaning and content, the reader must know and understand its words in advance.

Work on the lexical side of writing is also necessary: learners must be able to spell, pronounce and read a word in order to convey meaningful and accurate information in writing.

From the above, it is clear that everyone needs vocabulary. For this reason, vocabulary plays an important role in teaching students speech activities.

4. The lexical minimum and the principles of its selection

A person understands roughly four times as many words as he or she actively uses in speech. Educated adults use 6,000 to 10,000 words in their native language, whereas everyday communication in European languages relies on only 1,500 to 2,500 words. Thus, even in the native language people use a limited vocabulary. Since the time

available for learning a foreign language is strictly limited, the vocabulary that pupils must learn at secondary school has to be clearly defined. This selected vocabulary is called the lexical minimum in methodology, and the question of its selection has a long history.

Vocabulary teaching should correspond to the goals and objectives of the school, which are defined in the foreign language programs for pupils of schools, academic lyceums and colleges.

Teaching lexical material is a goal and a means to teach speech activities in a foreign language program. The new program sets the minimum number of lexical units for per class. It includes 300 lexical units for Grade 5, 300 lexical units for Grade 6, 250 Lexical units for Grade 7, 150 Lexical units for Grade 8, and 100 Lexical units for Grade 9. In total, 1100 vocabulary units will be taught at the secondary school according to the program requirement. [1.1] The curriculum for academic lyceums and vocational colleges also provides vocabulary numbers. According to the curriculum the learners must be able to use the vocabulary in the types of speech activities that are used in their speech, for understanding, speaking, and writing.

♦ The vocabulary of a developed language studied by lexicology comprises hundreds of thousands of words, yet educated adults know about 6,000–10,000 words in their native language and use only 1,500–2,500 of them in everyday life.

One of the well-known Uzbek methodologists, J.Jalolov, put forward the following ideas regarding the selection of vocabulary. The concept of the term "selection" in methodology is familiar to teachers. However, this concept has not been scientifically and methodologically defined. The phenomenon of creating a microsystem intended for the student's study of the language macrosystem based on criteria developed in science is called methodological selection. When starting to select the lexicon, the methodologist uses the following methodological concepts: "source of selection," "selection criteria," "selection unit."

The source of selection is understood as the "selection" of the forming lexical minimum from the language system. Usually, the linguistic minimum, including the vocabulary, is selected from the speech of the studied language. More precisely, the active minimum is selected from paired speech in literary works or from a recorded phonogram of colloquial-literary speech.

The passive minimum is selected based on collections (fragments) from written literature. Active vocabulary is taken from live speech and used in the student's oral speech, while passive vocabulary is selected from written sources and intended for use in the student's written speech.

Some authors include the source of selection in the concept of a selection event. The active part of the school minimum of foreign language vocabulary consists of about 1000 lexical units. On this basis, passive lexical units are selected again in accordance with the school educational conditions. The volume of vocabulary depends directly on the number of study hours.

Selection criteria refer to the measures and indicators used to determine the value of the lexicon. Three categories of criteria are used in connection with each other: calculation criteria, methodological1 and linguistic criteria.

Calculation criteria are a means of achieving fair indicators of word usage, which include criteria of frequency of use and prevalence. The meaning of the term multiple use refers to the total number of words used in the source. Widespreadness refers to the number of sources that contain this word.

It has been scientifically proven that when used together, they yield positive results. Accordingly, the prevalence criterion is the first. Additionally, the criterion of the availability of words (French: dispoisibilité) can be used (this criterion was first used by M. West, and in the fifties of the last century, it was creatively refined by French methodologists R. Mischa and J. Hugenheim using the audiovisual method). Its essence is the criterion for choosing the words that are in the mind of the speaker.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

The second category consists of criteria used to determine the purpose of teaching and speech topics. Among them, in addition to the consideration of topics, one can find criteria for describing concepts and semantic significance.

The remaining selection criteria belong to the third group. These are the criteria accepted in such names: combination of words, the possibility of word formation, polysemy, stylistic unlimitedness, delimitation (isolation) of synonyms and participation in sentence formation. According to the combination criterion, it is required that the chosen word can be combined with others as much as possible. According to the word-formation criterion, the number of derivative units from them should be large. Special attention is also paid to the choice of polysemous words. Unrestrictedness in style is understood as a criterion for selecting words used in all types of speech activity and on various topics, rather than those used in a narrow circle. Only some of the synonymous words or a single member of the synonymous series are selected. It is also recommended to select auxiliary words that are necessary for the structure of foreign language sentences. [3.1]

A balance has to be found between a limited vocabulary and the practically unlimited lexicon of a language. As early as the 17th century, J.A. Comenius limited his selection to 800 words. Later, the most frequently used words of German, English and French were systematized (1960). [2.2]

It contains 3,000 words and 1000 of them are active. Glossary words are selected based on the following principles:

- ♦ The principle of attachment.
- ♦ The principle of stylistic restraint
- ♦ Semantic Principle (Nagel, Bolsen)
- ♦ Meaningful and clear words
- ♦ The principle of word-making (the most meaningful words)



♦ The principle of speech

♦ Frequently used words for high school students

5. Work on vocabulary: presentation, semantization and exercises

Technology of Methodology - type of words in terms of word processing and sorting by assimilation. It should not be confused with the concept of grouping. Group:

♦ Categorization by topic

♦ May be structured

There are some difficulties in word processing:

♦ Difficulties associated with certain words;

♦ Difference between foreign language and native words meaning and usage. For example: "Uzbek -zo'r and Turkish-zo'r"

Difficulties between foreign words (homonym, homophone, homograph).

• Presentation -

Introduction: Form-pronunciation, orthography, transcription

♦ Meaning (semantics)

♦ Using

Methods of Explanation(semantization): With translation-without rendering

♦ Subject

♦ Movement

♦ Picture

♦ Drawing

♦ Synonym

♦ Antonyms

♦ Homonym

♦ Explanation

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

♦ Context

Exercise- to develop lexical skills:

Demonstrate use of the word;

Type of Exercises:

Recipe:

- Development of the vocabulary

- Expand the dictionary content

- To develop the skills of noticing, realizing, finding

Reproductive:

- Use and usage

- Make a comment

In reproduction - usage, processing

Mastering is a free choice of vocabulary

- Free use of vocabulary;

- To master, to learn - to know at a skill level.

Simple cognition means remembering the word, recognizing the form.

DISCUSSION

There are 2 ways to use vocabulary typology:

Way 1: a) according to the word form

b) according to the meaning

Comparison of English and native words G. Palmer, H. R. Hughes, R. Lado, S. Porakova, N. V. Nikolayev, M. Latushkina, S. Kalinina worked in this direction. Way 2: take into account the difficulty of using words in spoken language.

In this case we take into account the ability to combine words, as well as the function of speech.

Charles Frieze, Maurice and Yakushina worked in this direction.

3 Types of typologies of vocabulary problems in recent times by Professor Berman:

a) on the form and meaning of lexical units in Russian and foreign languages;

b) the foreign language vocabulary being studied by its nature;

(c) directs the speakers of other languages to listen and speak a foreign language.

In language teaching methodology, it is known that the most frequently used words of the first millennium allow for the comprehension of 80% of the content of a medium-difficulty text, while the second millennium increases this possibility by 8–10%, the third by 4%, and the fourth and fifth by only 2%. Two thousand basic words are enough to extract 85–90 percent of the information from the text.

However, as noted above, we are talking about lexicon that is specially selected according to existing scientific criteria.

CONCLUSION

The main purpose of teaching foreign languages at secondary school is to enable pupils to communicate in the language, which is impossible without a sufficient vocabulary: without mastering the vocabulary of a language one can neither understand nor speak it. In addition, acquiring new vocabulary broadens learners' outlook and enriches their philological knowledge.

Lexicology studies the overall structure and history of the vocabulary of a language and the words that constitute it. Vocabulary is a constantly developing component of language; it is extremely difficult to count the words of any language precisely, since some old words fall out of use while new ones enter the dictionary.

REFERENCES

1. Ingliz tili o‘quv fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun dastur. T. 1999 y.
2. J.J. Jalolov O‘rta maktabda ingliz tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, O`qituvchi nashriyoti 1997 yil.
3. J.J. Jalolov Chet tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, O`qituvchi nashriyoti 2012 yil
4. J.J. Jalolov, G.T. Makhkamova, Sh.S. Ashurov English Language Teaching Methodology (theory and practice).- T.: ”Fan va texnologiya”, 2015
5. Shatilov S.F. Metodika obucheniya nemetskomu yaziyku v sredney shkole, L. Prosveshenie 1977 god, str. 65-72, T.: 2003.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARIDA DUAL TA'LIM ASOSIDA MUSTAQIL KASBIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TA'MINOTI

Tumanov Uktamjon Fazliddin o'g'li
University of Business and Science dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0001-8348-8050
email: tumanov.uktamjon1992@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida dual ta'lim tizimi asosida mustaqil kasbiy faoliyatni rivojlantirishning pedagogik-didaktik asoslari tadqiq etilgan. Oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasini ta'minlovchi didaktik ta'minotning to'rtta asosiy komponenti: normativ-metodik, o'quv-axborot, amaliy-texnologik va diagnostik-refleksiv komponentlar mazmuni ilmiy asoslangan. Shuningdek, talabalarda mustaqil kasbiy faoliyatning rivojlanganlik darajalarini (reproduktiv, produktiv, kreativ-innovatsion) baholovchi mezon va ko'rsatkichlar tizimi taklif etilgan. O'tkazilgan pedagogik eksperiment natijalari asosida ishlab chiqilgan didaktik ta'minotning samaradorligi matematik-statistik usullar yordamida isbotlangan.*

Kalit so'zlar: *texnologik ta'lim, dual ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, mustaqil kasbiy faoliyat, didaktik ta'minot, kasbiy kompetentlik, ishlab chiqarish amaliyoti, o'quv-ishlab chiqarish klasteri, mezonlar va ko'rsatkichlar.*

ДИДАКТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ДУАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация: *В данной статье исследованы педагогические и дидактические основы развития самостоятельной профессиональной деятельности будущих учителей технологического образования на основе дуальной системы обучения в высших педагогических образовательных учреждениях. Научно обосновано содержание четырех базовых компонентов дидактического обеспечения: нормативно-методического, учебно-информационного, практико-технологического и диагностико-рефлексивного, обеспечивающих интеграцию вуза и производственных предприятий. Также предложена система критериев и показателей для оценки уровней развития самостоятельной профессиональной деятельности студентов (репродуктивный, продуктивный, креативно-инновационный). Эффективность разработанного*

дидактического обеспечения подтверждена результатами педагогического эксперимента с применением методов математической статистики.

Ключевые слова: *технологическое образование, дуальное обучение, будущий учитель, самостоятельная профессиональная деятельность, дидактическое обеспечение, профессиональная компетентность, производственная практика, учебно-производственный кластер, критерии и показатели.*

DIDACTIC SUPPORT FOR THE DEVELOPMENT OF INDEPENDENT PROFESSIONAL ACTIVITY OF FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION TEACHERS BASED ON DUAL EDUCATION

Abstract: *This article investigates the pedagogical and didactic foundations for developing independent professional activity among future technological education teachers based on the dual education system in higher pedagogical educational institutions. The content of four essential components of didactic support is scientifically substantiated: normative-methodological, educational-informational, practical-technological, and diagnostic-reflective components, ensuring the synergy between higher education institutions and industrial enterprises. Furthermore, a comprehensive system of criteria and indicators is proposed to evaluate students' levels of independent professional activity (reproductive, productive, creative-innovative). The effectiveness of the developed didactic support is validated through pedagogical experimental results utilizing mathematical and statistical analysis methods.*

Keywords: *technological education, dual education, future teacher, independent professional activity, didactic support, professional competence, industrial internship, educational-industrial cluster, criteria and indicators.*

KIRISH

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va sanoat tarmoqlarining jadal modernizatsiyalashuvi ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi mazmuniga tubdan yangicha talablarni qo'ymoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida oliy ta'lim tizimini real iqtisodiyot tarmoqlari, xususan, ilg'or ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish strategik vazifa sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ–4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" [1]gi Qarori hamda oliy ta'limda dual ta'lim shaklini tatbiq etishga doir me'yoriy-huquqiy asoslar pedagog

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kadrlarni tayyorlashda amaliyotga yo‘naltirilgan uzluksiz ta’lim modeliga o‘tishni taqozo etmoqda.

Hozirgi bosqichda texnologik ta’lim o‘qituvchisi nafaqat pedagogik-psixologik bilimlarga, balki zamonaviy materiallarga ishlov berish, konstruktorlik-loyihalash, dasturiy boshqariladigan avtomatlashtirilgan dastgohlar va raqamli ishlab chiqarish texnologiyalarini chuqur egallagan, eng muhimi, o‘zgaruvchan sharoitlarda mustaqil kasbiy faoliyat yurita oladigan mutaxassis bo‘lishi lozim. Biroq an’anaviy ta’lim amaliyotida talabalarning mustaqil faoliyati ko‘p hollarda auditoriya topshiriqlari va passiv tanishuv amaliyotlari doirasida chegaralanib qolmoqda. Bu holat bo‘lajak o‘qituvchilarning real korxona muhitida murakkab texnologik jarayonlarni mustaqil tahlil qilish, loyihalash va boshqarish ko‘nikmalarida uzilishlarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur ziddiyatni samarali bartaraf etishning muhim didaktik yo‘li — dual ta’lim tamoyillari asosida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining mustaqil kasbiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan yaxlit didaktik ta’minotni yaratish va amaliyotga tatbiq etishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kasbiy ta’limda dual ta’lim tizimi, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mustaqilligi va ularning kompetentligini shakllantirish masalalari xalqaro hamda mahalliy pedagogik tadqiqotlarda yetakchi o‘rin egallaydi.

O‘zbekistonda kasb ta’limi pedagoglarini tayyorlashning nazariy va amaliy asoslarini tizimli tadqiq etgan professor Muslimov N.A. haqli ravishda ta’kidlaganidek: “Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish jarayoni ta’lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasi o‘rtasidagi uzviy didaktik integratsiyani, talabaning mustaqil ijodiy-amaliy faolligini ta’minlashni talab etadi” [2;315-b.]. Olimning ushbu metodologik qarashi pedagogik ta’limda ishlab chiqarish korxonasi bilan o‘zaro hamkorlik shunchaki formal amaliyot emas, balki chuqur didaktik asoslangan uzluksiz jarayon bo‘lishi zarurligini yaqqol ko‘rsatadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Dual ta'lim tizimining xalqaro tajribasi va uning institutsional mohiyatini tadqiq qilgan nemis pedagog-olimi Deissinger T. o'zining fundamental tadqiqotlarida shunday yozadi: "Dual tizimning asosiy kuchi shundaki, u nazariy bilimlarni bevosita ish joyidagi real amaliyot bilan sinxronlashtiradi va o'rganuvchida mustaqil qaror qabul qilish madaniyatini shakllantiradi"[3; 101-b.]. Mazkur fikr texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarida mustaqil faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishda real ishlab chiqarish maydonining beqiyos motivatsion va amaliy muhit ekanligini asoslab beradi.

Kasbiy faoliyat psixologiyasi va mustaqillik tushunchasining ichki mexanizmlarini yoritgan Markova A.K. o'z tadqiqotida quyidagi qat'iy ta'rifni keltiradi: "Kasbiy mustaqillik — bu mutaxassisning o'z kasbiy vazifalarini tashqi ko'rsatmalarsiz, o'zining ichki intellektual va amaliy salohiyatiga tayanib maqsadli, samarali va mustaqil hal eta olish qobiliyatidir"[4; 308-b.]. Ushbu konseptual yondashuv mustaqil kasbiy faoliyatning shaxs ichki motivatsiyasi va intellektual faolligi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ifodalaydi.

Shaxsning kasbiy shakllanishida amaliy faoliyatning o'rnini o'rgangan taniqli olim Zeer E.F. mazkur jarayonni baholar ekan: "Shaxsning kasbiy shakllanishida mustaqil amaliy faoliyat kompetentlikning shakllanish omili bo'lib, u real ishlab chiqarish vaziyatlarida muammolarni mustaqil bartaraf etish jarayonida namoyon bo'ladi"[5; 336-b.] deya e'tirof etadi. Bu xulosa dual ta'lim sharoitida talabalarga real ishlab chiqarish muammolarini mustaqil hal etishga yo'naltirilgan topshiriqlar berish lozimligini dalillaydi.

Pedagogik mahorat va mustaqil kasbiy faoliyatni modellashtirish masalalarini tadqiq etgan Xoliqov A.A. o'qituvchining kasbiy kamolotida mustaqillik omiliga to'xtalib: "Pedagogik mahorat va mustaqil kasbiy faoliyat o'qituvchining o'quv-ishlab chiqarish jarayonini mustaqil loyihalash, didaktik vositalarni maqsadga muvofiq tanlash va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati bilan belgilanadi"[6; 420-b.] deb ta'kidlaydi. Mazkur

qoida texnologik ta'lim o'qituvchisining muhandislik va pedagogik faoliyatni uyg'un ravishda mustaqil rejalashtira olishini talab etadi.

Texnologik ta'lim talabalarini kasbiy-amaliy faoliyatga tayyorlash bo'yicha izlanishlar olib borgan Shomurodov O.H. o'z dissertatsion ishida quyidagi muhim jihatni ilgari suradi: "Texnologik ta'lim o'qituvchisini tayyorlashda dual ta'limning didaktik ta'minoti o'quv-ishlab chiqarish klasteri talablariga to'liq javob berishi va talabalarning mustaqil texnologik faoliyatini rag'batlantirishi zarur" [7; 164-b.]. Bu esa oliy ta'lim muassasalari va korxona o'rtasidagi didaktik vositalar yaxlitligini ta'minlash dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Bünning F. [8], Ko'chimov Sh.N. [9], Rauner F. [10], Ismailova Z.K. [11] hamda Euler D. [12] larning ilmiy izlanishlarida kasbiy ta'limda klasterli yondashuv va dual ta'lim modellari chuqur tahlil etilgan. Biroq mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aynan bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida dual ta'lim vositasida mustaqil kasbiy faoliyatni rivojlantirishning tizimli didaktik ta'minoti (uning normativ, o'quv-axborot, amaliy-texnologik, diagnostik bloklari) yaxlit holda ishlab chiqilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli-faoliyatli, kompetensiyaviy, klasterli hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlari tashkil etdi. Tadqiqotda quyidagi metodlar majmuasidan foydalanildi:

1. Nazariy metodlar: ilmiy, pedagogik, psixologik adabiyotlar va davlat ta'lim standartlarini qiyosiy tahlil qilish, pedagogik tizimlarni modellashtirish, didaktik loyihalash, umumlashtirish.

2. Empirik metodlar: pedagogik kuzatuv, anketa-so'rovnomalari, ekspert baholash, talabalarning mustaqil loyihalari va tayyorlagan buyumlari sifatini ekspertiza qilish.

3. Pedagogik eksperiment: 2024–2026-yillar mobaynida Andijon davlat pedagogika instituti, Guliston davlat pedagogika instituti hamda Nukus davlat pedagogika instituti Texnologik ta'lim yo'nalishlari talabalari hamda sanoat korxonalari bazasida o'tkazildi.

4. Matematik-statistik metodlar: natijalarning ishonchliligini baholashda Pirsonning muvofiqlik mezoni (chi-kvadrat, χ^2) hamda Studentning t-mezoni qo'llanildi.

Tadqiqot davomida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida dual ta'lim asosida mustaqil kasbiy faoliyatni rivojlantirishning didaktik ta'minoti ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Didaktik ta'minot — bu ta'lim maqsadi, mazmuni, shakli, metodlari va nazorat mexanizmlarini yagona tizimga birlashtiruvchi, talabalarning oliy ta'lim muassasalari va korxona sharoitida mustaqil faoliyat yuritishini kafolatlovchi pedagogik vositalar kompleksidir.

Didaktik ta'minot o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan to'rtta asosiy invariant komponentni o'z ichiga oladi:

1. Normativ-metodik komponent: Oliy ta'lim muassasalari va korxona o'rtasidagi shartnomalar, integratsiyalashgan modulli dual o'quv rejalari, "Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi", "Texnologiya va dizayn" fanlarining korxona talablariga moslashtirilgan dasturlari, talabalarning individual mustaqil ish traektoriyalari hamda korxona mentorlari (ustozlari) uchun metodik qo'llanmalar.

2. O'quv-axborot (didaktik) komponenti: talabalarning mustaqil ta'limini ta'minlovchi elektron darsliklar, animatsiyali texnologik xaritalar, stanok va asboblarning 3D modellashtirish simulyatorlari, dual ta'lim veb-platformasi hamda real ishlab chiqarish muammolarini aks ettiruvchi amaliy keyslar bazasi.

3. Amaliy-texnologik komponent: bevosita ishlab chiqarish sexlarida mustaqil bajariladigan texnologik operatsiyalar, konstruktorlik-loyihalash topshiriqlari, ratsionalizatorlik takliflari, shuningdek, maktab o'quvchilari uchun texnologiya darslarining ishlab chiqarishga oid amaliy qismini mustaqil modellashtirish.

4. Diagnostik-refleksiv komponent: mustaqil faoliyat natijalarini ko'p omilli baholash mezonlari, elektron portfoliosi, o'z-o'zini diagnostika qilish so'rovnomalari hamda oliy ta'lim muassasalari o'qituvchisi va korxona ustozining qo'shma baholash reyting jadvallari.

Talabalarning mustaqil kasbiy faoliyati rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun quyidagi mezon va ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi:

• Motivatsion-qadriyatli mezon: texnologik ta’limga qiziqish, kasbiy burch va mas’uliyatni anglash, mustaqil kasbiy o‘sishga intilish.

• Kognitiv-operatsional mezon: zamonaviy materiallar va ishlab chiqarish texnologiyalari bo‘yicha chuqur bilimlar, texnologik jarayonlarni mustaqil tahlil qilish va algoritmik qarorlar qabul qilish ko‘nikmasi.

• Amaliy-texnologik mezon: zamonaviy dastgoh va asbob-uskunalarda mustaqil ishlash, texnologik xaritalarni mustaqil tuza olish, nostandart ishlab chiqarish vaziyatlarida maqbul yechim topish va sifatli mahsulot tayyorlash.

• Refleksiv-baholash mezoni: o‘z amaliy faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qilish, xatolarni o‘z vaqtida aniqlab mustaqil bartaraf etish, o‘z kasbiy mahoratini doimiy baholab borish.

Mazkur mezonlar asosida mustaqil kasbiy faoliyatning uchta darajasi aniqlandi: reproduktiv (past), produktiv (o‘rta) va kreativ-innovatsion (yuqori). Pedagogik eksperiment davomida olingan yakuniy natijalar 1-jadvalda ifodalangan.

1-jadval. Tajriba va nazorat guruhlarida mustaqil kasbiy faoliyat rivojlanish darajalari dinamikasi (%)

Mustaqil kasbiy faoliyat darajalari	**Eksperiment bosqichlari**	**Tajriba guruhi (TG, n=74)**	**Nazorat guruhi (NG, n=74)**	**Dinamika farqi (ΔTG - ΔNG)**
Reproduktiv (past)	Eksperiment boshida Eksperiment oxirida	51.4 % 14.9 %	52.7 % 39.2 %	-23.0 % (TG da keskin pasaygan)

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Mustaqil kasbiy faoliyat darajalari	Eksperiment bosqichlari	Tajriba guruhi (TG, n=74)	Nazorat guruhi (NG, n=74)	Dinamika farqi (ΔTG - ΔNG)
Produktiv (o‘rta)	Eksperiment boshida Eksperiment oxirida	36.5 % 52.7 %	35.1 % 45.9 %	+5.4 % (TG da barqaror o‘sish)
Kreativ-innovatsion (yuqori)	Eksperiment boshida Eksperiment oxirida	12.1 % 32.4 %	12.2 % 14.9 %	+17.6 % (TG da yuqori samaradorlik)

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida reproduktiv (past) darajadagi talabalar ulushi 51.4 foizdan 14.9 foizgacha kamaygan (kamayish 36.5%), nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich bor-yo‘g‘i 13.5 foizga qisqargan. Eng e’tiborlisi, tajriba guruhida kreativ-innovatsion (yuqori) darajadagi talabalar ko‘rsatkichi 12.1 foizdan 32.4 foizga yetib, 20.3 foiz mutlaq o‘sish qayd etildi (nazorat guruhida o‘sish atigi 2.7 foizni tashkil etdi). Pirson mezoniga ko‘ra hisoblangan χ^2_emp = 12.84 miqdori kritik qiymatdan (χ^2_krit = 5.99; df=2; $p<0.01$) sezilarli darajada yuqori bo‘lib, tajriba guruhidagi ijobiy siljishlar ishlab chiqilgan didaktik ta’minotning yuqori samaradorligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalari Germaniya va Avstriya kabi dual ta’lim rivojlangan mamlakatlarning tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilinganda, taklif etilgan modelning o‘ziga xos konseptual afzalliklari namoyon bo‘ldi. Germaniya Kasbiy ta’lim federal instituti (BIBB) modelida o‘quvchilar asosan tor doiradagi ishlab chiqarish operatsiyalarini mustaqil bajarishga o‘rgatilsa, bizning tadqiqotimizda bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisining muhandislik-texnologik va pedagogik-metodik faoliyati sinxron tarzda rivojlantirildi.



Olimlar Muslimov N.A. [1] va Shomurodov O.H. [6] larning nazariy konsepsiyalarida keltirilgan integrativ yondashuv amaliyotda aynan didaktik ta'minotning to'rtlik tizimi (normativ, axborot, amaliy va diagnostik) orqali to'liq o'z yechimini topdi. Deissinger T. [2] va Zeer E.F. [4] larning mustaqillik real muammoli vaziyatlarda shakllanishi to'g'risidagi tezislari amaliy-texnologik komponentda qo'llanilgan muammoli-ishlab chiqarish keyslari orqali empirik tasdiqlandi. Natijalar shuni isbotlaydiki, talabalarni korxona ustozlari bilan hamkorlikda mustaqil kasbiy faoliyatga yo'naltirish ularning texnologik intuitsiyasi, konstruktorlik tafakkuri va kasbiy mas'uliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida mustaqil kasbiy faoliyatni rivojlantirish oliy ta'lim muassasasidagi nazariy tayyorgarlik va korxonadagi real ishlab chiqarish jarayonlarining dual sinteziga tayanadi; bu yondashuv talabani passiv ijrochidan mustaqil muhandislik-pedagogik qaror qabul qiluvchi mutaxassisga aylantiradi. Didaktik ta'minotning tizimliligi esa taklif etilgan to'rt komponentli tizim (normativ-metodik, o'quv-axborot, amaliy-texnologik va diagnostik-refleksiv) talabaning korxonadagi individual o'quv traektoriyasini rejalashtirishdan tortib, ishlab chiqarish keyslarini mustaqil hal qilish va yakuniy natijani baholashgacha bo'lgan barcha bosqichlarni uzviy qamrab oladi. Amaliy qo'llanilishi esa mazkur didaktik ta'minot texnologik ta'lim o'quv rejalariga korxona talablari asosidagi modulli bloklarni kiritish, ishlab chiqarish mentorligi institutini mustahkamlash hamda talabalarning individual "Mustaqil amaliyot elektron portfeli" tizimini joriy etish uchun tayyor metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ–4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori https://lex.uz

2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish: Ped. fan. dok. ... diss. — Toshkent: TDPU, 2007. — 315 b.

3. Deissinger T. The German dual system of vocational education and training: Its history, structure and contemporary challenges // International Journal of Training Research. — 2015. — Vol. 13, No. 2. — P. 101–116.
4. Маркова А.К. Психология профессионализма. — М.: Международный гуманитарный фонд 'Знание', 1996. — 308 с.
5. Зеер Э.Ф. Психология профессий: Учебное пособие для студентов вузов. — М.: Академический Проект; Фонд 'Мир', 2005. — 336 с.
6. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat: Darslik. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2011. — 420 b.
7. Shomurodov O.H. Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy-amaliy faoliyatga tayyorlash metodikasi: Ped. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) ... diss. — Samarqand: SamDU, 2021. — 164 b.
8. Bünning F. Approaches to the implementation of dual study programmes in technical teacher training // TVET@Asia. — 2019. — Issue 13. — P. 1–15.
9. Ko'chimov Sh.N. Oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim tizimini joriy etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari // Zamonaviy ta'lim. — Toshkent, 2022. — № 4. — B. 12–19.
10. Rauner F., Smith E. Rediscovering Apprenticeship: Research Findings of the International Network on Innovative Apprenticeship (INAP). — Dordrecht: Springer, 2010. — 254 p.
11. Ismailova Z.K. Kasbiy pedagogika: O'quv qo'llanma. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. — 280 b.
12. Euler D. Germany's dual system of vocational education and training: A model for other countries? — Gütersloh: Bertelsmann Stiftung, 2013. — 88 p.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING TAHLILIY VA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Abduvaliyeva Madina
NamDPI 2-bosqich magistranti
mabduvaliyeva85@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik asoslari nazariy-tahliliy yondashuv asosida yoritilgan. Tanqidiy fikrlash tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy komponentlari va badiiy matn bilan ishlash jarayonida ushbu ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bloom taksonomiyasiga tayanib, adabiy topshiriqlarning kognitiv darajalari ko'rsatiladi hamda bosqichma-bosqich didaktik model taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *adabiy ta'lim, tahliliy fikrlash, tanqidiy fikrlash, didaktika, Bloom taksonomiyasi, badiiy matn, reseptiv nazariya, scaffolding.*

DIDACTIC FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' ANALYTICAL AND CRITICAL THINKING SKILLS IN LITERARY EDUCATION

Abstract. *This article examines the didactic foundations for developing students' analytical and critical thinking skills within the process of literary education, employing a theoretical-analytical approach. It analyzes the essence of critical thinking, its constituent components, and the opportunities for fostering these skills while engaging with literary texts. Drawing on Bloom's Taxonomy, the article outlines the cognitive levels of literary tasks and proposes a step-by-step didactic model.*

Keywords: *literary education, analytical thinking, critical thinking, didactics, Bloom's Taxonomy, literary text, reception theory, scaffolding.*

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ АНАЛИТИЧЕСКОГО И КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ЛИТЕРАТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье на основе теоретико-аналитического подхода рассматриваются дидактические основы развития навыков аналитического и критического мышления учащихся в процессе литературного образования. Анализируются сущность критического мышления, его составляющие компоненты и возможности формирования данных навыков при работе с литературными текстами. С опорой на таксономию Блума определяются когнитивные уровни заданий по литературе и предлагается поэтапная дидактическая модель.*

Ключевые слова: *литературное образование, аналитическое мышление, критическое мышление, дидактика, таксономия Блума, литературный текст, теория рецепции, скаффолдинг.*

KIRISH

Adabiyot darslari o‘quvchining badiiy matn bilan muloqotini, shaxsiy idrokini va qadriyatlar tizimini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchidan nafaqat asar mazmunini bilish, balki uni tahlil qilish, dalillar asosida baholash va o‘z fikrini asoslab bayon etish talab etiladi. Shu sababli adabiy ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini izchil rivojlantirishdir.

Amaliyotda adabiyot darslarining katta qismi matn mazmunini qayta hikoya qilish, asosiy voqealarni eslab qolish va xarakterlarni yodlash darajasida qoladi. Bunday yondashuv o‘quvchini tayyor xulosalarni qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllantiradi, mustaqil talqin qilish va baholash ko‘nikmalarini esa yetarlicha rivojlantirmaydi. Shu bois adabiy ta’limning didaktik asoslarini qayta ko‘rib chiqish va fikrlash ko‘nikmalarini maqsadli shakllantirish imkonini beruvchi modellarni ishlab chiqish zarur.

Maqolaning maqsadi adabiy ta’lim jarayonida tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-didaktik asoslarini aniqlash hamda ushbu jarayonni tashkil etish uchun bosqichma-bosqich model taklif etishdan iborat.

METODOLOGIYA

Tadqiqot nazariy-tahliliy yondashuvga asoslangan. Unda tanqidiy fikrlash, tahliliy fikrlash va reseptiv adabiy nazariya bo‘yicha klassik va zamonaviy pedagogik-psixologik manbalar o‘rganildi, ularning asosiy tushunchalari taqqoslandi hamda adabiy ta’lim sharoitiga moslashtirildi. Kognitiv darajalarni tasniflash uchun B.S.Blum taksonomiyasining L.V.Anderson va D.R.Krathvol tomonidan 2001 yilda qayta ko‘rib chiqilgan varianti asos qilib olindi.

Maqolada empirik tajriba-sinov ma’lumotlari keltirilmaydi. Taklif etilgan model nazariy tahlil natijasida ishlab chiqilgan bo‘lib, uning samaradorligi keyingi pedagogik eksperiment orqali tekshirilishi lozim. Shu sababli natijalar tasdiqlangan empirik xulosa emas, balki asoslangan didaktik taklif sifatida talqin etiladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

NATIJALAR

1. Tushunchalarning mazmuni

Robert Ennis tanqidiy fikrlashni nimaga ishonish yoki nima qilish kerakligi haqida asosli qaror qabul qilishga qaratilgan oqilona va mulohazali fikrlash sifatida izohlaydi. Ushbu ta'rif tanqidiy fikrlashni tayyor bilimlarni yodlash emas, balki dalillarni tekshirish va xulosalarni asoslash jarayoni sifatida ko'rsatadi.

Peter Facione ekspertlar konsensusi (Delphi hisoboti, 1990) asosida tanqidiy fikrlashning oltita asosiy ko'nikmasini ajratadi: talqin qilish, tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish, izohlash va o'z-o'zini nazorat qilish. Ushbu tuzilma adabiy matn bilan ishlashda ham to'liq qo'llanilishi mumkin: talqin matn ma'nosini anglashni, tahlil uning tarkibiy qismlarini ajratishni, baholash esa talqinning dalillar bilan asoslanganligini tekshirishni anglatadi.

Tahliliy fikrlash tanqidiy fikrlashdan oldingi bosqich sifatida qaralishi mumkin. Uning mohiyati badiiy asarni tarkibiy elementlarga — syujet, kompozitsiya, personaj, til va obraz tizimiga — ajratish hamda ular o'rtasidagi sabab-natijaviy va ma'noviy bog'lanishlarni aniqlashdan iborat. Tanqidiy fikrlash esa shu tahlil natijalarini qabul qilish, qarama-qarshi qarashlar bilan solishtirish va asosli baho berish bosqichini o'z ichiga oladi.

2. Nazariy asoslar

Adabiy ta'limda reseptiv nazariyaning ahamiyati Louise Rosenblattning «Reader, Text, Poem» (1978) asarida ilgari surilgan transaksion yondashuvda ko'rinadi. Rosenblatt ma'noni na faqat matnda, na faqat o'quvchi ongida mavjud deb hisoblaydi; u o'quvchi va matn o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladi. Demak, o'quvchini talqin jarayoniga jalb etish ham tahlil, ham tanqidiy fikrlashning zaruriy shartidir.

Lev Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi o'quvchi mustaqil bajara oladigan vazifalar bilan kattalar yordamida bajarilishi mumkin bo'lgan vazifalar o'rtasidagi oraliqni ko'rsatadi. Ushbu oraliqda Vud, Bruner va Ross

(1976) tomonidan «scaffolding» deb nomlangan bosqichma-bosqich yordam ko‘rsatish strategiyasi samarali bo‘ladi. Bu strategiya o‘qituvchiga yordamni asta-sekin kamaytirib, o‘quvchini mustaqil fikrlashga yo‘naltirish imkonini beradi.

Metyu Lipmanning «Thinking in Education» (2003) asarida ilgari surilgan «tadqiqot jamiyati» (community of inquiry) g‘oyasi esa fikrlashni guruhda, savol-javob va muhokama orqali rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Adabiy dars ushbu yondashuv uchun qulay muhit bo‘lib xizmat qiladi, chunki matn bo‘yicha turli talqinlar bir-birini to‘ldirishi va sinovdan o‘tkazilishi mumkin.

3. Kognitiv darajalar va adabiy topshiriqlar

Bloom taksonomiyasi o‘quv maqsadlarini oddiy eslab qolishdan oltinchi, eng yuqori darajagacha bo‘lgan kognitiv jarayonlar ketma-ketligida tasniflaydi. Tahliliy va tanqidiy fikrlashning rivojlanishi uchun topshiriqlar quyi darajalardan yuqori darajalarga bosqichma-bosqich o‘tishi lozim. 1-jadvalda ushbu darajalarning adabiy ta’lim materialida qanday ifodalanishi ko‘rsatilgan.

1-jadval. Bloom taksonomiyasining kognitiv darajalari va ularga mos adabiy topshiriqlar

Daraja	Kognitiv jarayon	Adabiy topshiriq misoli
Eslab qolish	Asosiy faktlarni tiklash	Asardagi voqealar ketma-ketligini ayting.
Tushunish	Ma’noni izohlash	Asar nomining ramziy ma’nosini izohlang.
Qo‘llash	Bilimni yangi matnga tatbiq etish	Ushbu asarda o‘rganilgan badiiy vosita boshqa parchada qayerda uchrashini ko‘rsating.
Tahlil qilish	Tarkibiy qismlarni ajratish va bog‘lash	Personaj xarakteri rivojini uning hal qiluvchi harakatlari bilan bog‘lang.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Daraja	Kognitiv jarayon	Adabiy topshiriq misoli
Baholash	Mezon asosida xulosa chiqarish	Muallif tanlagan yechim qanchalik ishonarli ekanini matn dalillari bilan asoslang.
Yaratish	Yangi mahsulot yoki muqobil talqin yaratish	Asar yakunini muqobil tarzda yozing va o‘zgartirish sabablarini tushuntiring.

Jadvaldan ko‘rinadiki, tahlil va baholash darajasidagi topshiriqlar tanqidiy fikrlashning asosiy ko‘nikmalarini bevosita shakllantiradi. Shu sababli adabiy darslarda topshiriqlar tizimi eslab qolishdan boshlanib, baholash va yaratish darajasiga bosqichma-bosqich ko‘tarilishi tavsiya etiladi.

4. Taklif etilgan didaktik model

Adabiy ta’limda tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun to‘rt bosqichli model taklif etiladi: (1) kontekstga kirish, (2) matnni mustaqil o‘qish va dastlabki talqin, (3) savollar orqali chuqurlashtirilgan tahlil, (4) baholash va refleksiya. Har bir bosqichda o‘qituvchi yordami Vygotskiy zonasiga muvofiq kamayib boradi.

Modelning natijaviyligini baholash uchun 2-jadvalda ko‘nikmalarning uch darajali mezonlari keltirilgan. Ushbu mezonlar o‘quvchi javoblarini kuzatish va ularni boshlang‘ich, o‘rta hamda yuqori darajalarga ajratish uchun qo‘llanilishi mumkin.

2-jadval. Tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining baholash mezonlari

Ko‘nikma	Boshlang‘ich daraja	O‘rta daraja	Yuqori daraja
Matnni talqin qilish	Asosiy g‘oyani umumiy shaklda aytadi	G‘oyani tafsilotlar bilan izohlaydi	G‘oyani ko‘p qatlamli talqin qiladi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ko‘nikma	Boshlang‘ich daraja	O‘rta daraja	Yuqori daraja
Dalil keltirish	Matnga umumiy ishora qiladi	Aniq parcha yoki epizod keltiradi	Dalillarni tanlaydi va ularning chegarasini ko‘rsatadi
Muqobil qarashni baholash	Faqat o‘z fikrini bildiradi	Boshqa qarashni tinglaydi va eslatadi	Qarashlarni solishtirib asosli xulosa chiqaradi
Fikrni asoslash (refleksiya)	«Menimcha» deb boshlaydi	Fikrining sababini ko‘rsatadi	O‘z taxminlarini tekshiradi va o‘zgartira oladi

MUHOKAMA

Taklif etilgan model adabiy ta’limning an’anaviy yondashuvidan asosan ikki jihatda farq qiladi. Birinchidan, u o‘quvchini tayyor xulosani qabul qiluvchi emas, balki talqin qiluvchi subyekt sifatida ko‘radi. Ikkinchidan, baholash mezonlari fikrlash sifatini aniq ko‘rsatkichlar orqali o‘lchash imkonini beradi. Bu esa o‘qituvchiga o‘quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatish va topshiriqlarni individual ehtiyojga moslashtirish imkonini beradi.

Biroq modelning cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, taklif etilgan mezonlar empirik sinovdan o‘tkazilmagan. Ikkinchidan, tanqidiy fikrlashni baholash subyektiv omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin, shu sababli baholovchilar o‘rtasidagi kelishuvni ta’minlash alohida tadqiqot talab etadi. Uchinchidan, modelning samaradorligi o‘qituvchining metodik tayyorgarligiga bog‘liq bo‘ladi: savollarni formal bajarish fikrlashni rivojlantirmasligi mumkin. Shu sababli keyingi tadqiqotlarda model o‘zbek

klassik va zamonaviy nasri, jumladan Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani materialida sinovdan o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

XULOSA

Adabiy ta'limda tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish talabi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bu jarayonning nazariy asosi Ennis va Facionening tanqidiy fikrlash tuzilmalari, Rosenblattning reseptiv nazariyasi, Vygotskiy va Vud–Bruner–Rossning yordam ko'rsatish g'oyalari hamda Bloom taksonomiyasida mujassam.

Taklif etilgan to'rt bosqichli model va ikki jadvalda keltirilgan topshiriqlar hamda mezonlar adabiy darslarni fikrlashga yo'naltirilgan jarayonga aylantirish uchun amaliy vosita bo'lishi mumkin. Modelning samaradorligini aniqlash uchun pedagogik eksperiment o'tkazish va natijalarni statistik tahlil qilish keyingi ilmiy izlanishlarning vazifasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Bloom B.S. (ed.). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain. — New York: David McKay, 1956.
2. Anderson L.W., Krathwohl D.R. (eds.). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. — New York: Longman, 2001.
3. Ennis R.H. A Logical Basis for Measuring Critical Thinking Skills // Educational Leadership. — 1985. — Vol. 43, No. 2. — P. 44–48.
4. Facione P.A. Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction (The Delphi Report). — Millbrae, CA: California Academic Press, 1990.
5. Lipman M. Thinking in Education. — 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
6. Rosenblatt L.M. The Reader, the Text, the Poem: The Transactional Theory of the Literary Work. — Carbondale: Southern Illinois University Press, 1978.
7. Vygotskiy L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
8. Wood D., Bruner J.S., Ross G. The Role of Tutoring in Problem Solving // Journal of Child Psychology and Psychiatry. — 1976. — Vol. 17, No. 2. — P. 89–100.

RUS TILINI O'RGANISHDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Xabibullayeva Madinabonu Abdurashid qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rus tilini o'rganish jarayonida tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishning lingvodidaktik va metodik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tinglab tushunish nutq faoliyatining muhim turi sifatida o'quvchining og'zaki axborotni qabul qilishi, mazmunini anglab yetishi, asosiy va ikkilamchi ma'lumotlarni farqlashi hamda eshitilgan axborotga munosabat bildirishini ta'minlaydi. Tadqiqotda tinglab tushunish jarayonida uchraydigan fonetik, leksik, grammatik, psixologik va mazmuniy qiyinchiliklar o'rganilib, ularni bartaraf etishga xizmat qiluvchi mashqlar tizimi tahlil qilindi. Audiomatn bilan ishlashning tinglashdan oldingi, tinglash jarayonidagi va tinglashdan keyingi bosqichlarini izchil tashkil etish o'quvchilarning eshitilgan nutqni tushunish darajasini oshirishga xizmat qilishi asoslandi. Shuningdek, autentik audio va videomateriallar, takroriy tinglash, tayanch so'zlar, mazmunni bashorat qilish, savol-javob, qisqa qayta hikoya qilish kabi metodlarning amaliy ahamiyati yoritildi.*

Kalit so'zlar: *rus tili, tinglab tushunish, nutq faoliyati, audiomatn, kommunikativ kompetensiya, autentik material, fonetik ko'nikma, leksik kompetensiya, tinglash strategiyasi.*

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ АУДИРОВАНИЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА

Аннотация*. В статье анализируются лингводидактические и методические аспекты развития навыков аудирования в процессе изучения русского языка. Будучи важнейшим видом речевой деятельности, аудирование позволяет обучающимся воспринимать устную информацию, понимать её содержание, разграничивать главные и второстепенные детали, а также реагировать на услышанное. В работе рассматриваются фонетические, лексические, грамматические, психологические и содержательные трудности, возникающие при аудировании, и анализируется система упражнений, направленных на их преодоление. Установлено, что систематическая организация работы с аудиотекстами — на этапах до прослушивания, во время него и после — способствует лучшему пониманию устной речи. Кроме того, подчёркивается практическая значимость таких методов, как использование аутентичных аудио- и видеоматериалов, многократное прослушивание, опора на ключевые слова, прогнозирование содержания, работа с вопросами и ответами, а также краткий пересказ.*

Ключевые слова: *русский язык, аудирование, речевая деятельность, аудиотекст, коммуникативная компетенция, аутентичный материал, фонетический навык, лексическая компетенция, стратегия аудирования.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

DEVELOPING LISTENING COMPREHENSION SKILLS IN LEARNING RUSSIAN

Abstract. *This article analyzes the linguodidactic and methodological aspects of developing listening comprehension skills during the process of learning Russian. As a crucial form of speech activity, listening comprehension enables learners to receive oral information, grasp its content, distinguish between primary and secondary details, and respond to what they have heard. The study examines the phonetic, lexical, grammatical, psychological, and content-related challenges encountered during listening comprehension and analyzes a system of exercises designed to overcome them. It is argued that a structured approach—incorporating pre-listening, while-listening, and post-listening stages—effectively enhances students' ability to understand spoken language. Furthermore, the practical significance of various methods is highlighted, including the use of authentic audio and video materials, repeated listening, key words, content prediction, question-and-answer exercises, and brief retelling.*

Keywords: *Russian language, listening comprehension, speech activity, audio text, communicative competence, authentic material, phonetic skills, lexical competence, listening strategies.*

KIRISH

Bugungi kunda chet tillarini, jumladan, rus tilini o‘qitishda o‘quvchining til birliklarini nazariy bilishi bilan bir qatorda ulardan real kommunikativ vaziyatlarda foydalana olishi muhim hisoblanadi. Til o‘rganish jarayonida o‘qish, yozish, gapirish va tinglab tushunish ko‘nikmalari o‘zaro bog‘liq holda shakllanadi. Ular orasida tinglab tushunish alohida ahamiyatga ega, chunki tabiiy muloqotda suhbatdoshning fikrini anglamasdan turib unga mazmunli javob berish yoki muloqotni davom ettirish mumkin emas.

Tinglab tushunish oddiy eshitish jarayonidan farq qiladi. O‘quvchi tovushlarni eshitish bilan cheklanmaydi, balki ularni ma’lum fonema, so‘z va grammatik birliklar sifatida ajratadi, ularning o‘zaro munosabatini anglaydi va umumiy mazmunni shakllantiradi. Rus tilini o‘rganayotgan o‘zbek tilida so‘zlashuvchi o‘quvchilarda bu jarayon ayrim qiyinchiliklar bilan kechishi tabiiy. Rus tilidagi urg‘u, tovushlarning nutq oqimidagi o‘zgarishi, tez talaffuz, notanish so‘zlar, murakkab grammatik konstruksiyalar hamda so‘zlovchining individual talaffuz xususiyatlari eshitilgan axborotni anglashga ta’sir qiladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Zamonaviy til o‘qitish metodikasida tinglab tushunish kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Common European Framework of Reference for Languages hujjatida ham og‘zaki nutqni qabul qilish til kompetensiyasining muhim faoliyatlaridan biri sifatida tavsiflanadi. Shu sababli rus tili mashg‘ulotlarida tinglab tushunish alohida epizodik topshiriq emas, balki muntazam va bosqichma-bosqich rivojlantiriladigan ko‘nikma bo‘lishi lozim.

Mazkur tadqiqotning maqsadi rus tilini o‘rganishda tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirish jarayonining asosiy qiyinchiliklarini tahlil qilish hamda audiomatn bilan samarali ishlash usullarini aniqlashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, tavsiflash, qiyoslash, umumlashtirish va pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirish masalasi chet tilini o‘qitish metodikasi, psixolingvistika hamda kommunikativ yondashuv nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqildi. Metodik asos sifatida I. A. Zimnyayaning nutq faoliyati va tinglab tushunishning psixologik mexanizmlariga oid qarashlari, E. I. Passovning kommunikativ ta’lim konsepsiyasi, J. J. Wilsonning tinglashni o‘rgatish metodikasiga oid yondashuvlari, M. Rostning tinglash jarayonining kognitiv xususiyatlari haqidagi tadqiqotlari hamda CEFR tavsiyalaridan foydalanildi.

Tahlilda audiomatn bilan ishlash jarayoni uch bosqichga ajratildi: tinglashdan oldingi faoliyat, bevosita tinglash jarayoni va tinglashdan keyingi faoliyat. Har bir bosqichda bajariladigan topshiriqlarning o‘quvchining mazmunni anglashiga qanday yordam berishi metodik jihatdan baholandi. Shuningdek, tinglab tushunishga ta’sir qiluvchi omillar fonetik, leksik-grammatik, mazmuniy va psixologik guruhlarga ajratilib o‘rganildi.

NATIJALAR VA TAHLIL

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rus tilini o‘rganishda tinglab tushunish bilan bog‘liq muammolar, avvalo, o‘quvchining yozma shaklda bilgan til birligini jonli nutqda taniy olmasligi bilan bog‘liq. O‘quvchi ma’lum bir so‘zni darslikda ko‘rgan, uning ma’nosini bilgan bo‘lishi mumkin, biroq ushbu so‘z tabiiy tezlikdagi nutqda boshqa birliklar bilan birga talaffuz qilinganda uni darhol ajrata olmaydi. Demak, lug‘at boyligining mavjudligi tinglab tushunishni avtomatik ravishda ta’minlamaydi. Leksik birlikning eshitish obrazi ham o‘quvchi xotirasida shakllanishi zarur.

Rus tilining fonetik tizimi tinglab tushunishda muhim omillardan biridir. So‘z urg‘usining o‘zgaruvchanligi, urg‘usiz unlilarning talaffuzdagi o‘zgarishi, undoshlarning jarangli yoki jarangsiz talaffuz qilinishi o‘rganuvchi uchun qiyinchilik tug‘diradi. Masalan, o‘quvchi so‘zning yozma shakliga yaxshi tanish bo‘lsa ham, uning real talaffuzini birinchi eshitishda tanimasligi mumkin. Bunday holatlarda minimal fonetik birliklardan boshlab so‘z birikmalari va yaxlit gaplargacha bo‘lgan mashqlarni izchil tashkil qilish samarali natija beradi. Bir-biriga yaqin tovushlarni farqlash, eshitilgan so‘zni variantlar orasidan aniqlash va urg‘uli bo‘g‘inni topish kabi mashqlar boshlang‘ich bosqichda ayniqsa foydalidir.

Tinglab tushunishda ikkinchi muhim omil nutq tezligidir. O‘quv materiallaridagi haddan tashqari sekinlashtirilgan nutq dastlab o‘quvchiga qulaylik yaratishi mumkin, ammo bunday materiallardan uzoq vaqt foydalanish tabiiy rus nutqiga moslashishni qiyinlashtiradi. Shu sababli audioyozuvlarning tezligi o‘quvchi darajasiga mos ravishda bosqichma-bosqich tabiiy nutqqa yaqinlashtirilishi maqsadga muvofiq. Boshlang‘ich bosqichda aniq talaffuz qilingan qisqa dialoglar, keyingi bosqichlarda esa suhbat, intervyu, yangilik, e’lon va kundalik hayotga oid autentik materiallardan foydalanish mumkin.

Tahlil jarayonida tinglashdan oldingi bosqichning ahamiyati yuqori ekanligi aniqlandi. O‘quvchiga hech qanday tayyorgarliksiz murakkab audiomatn berilishi uning e’tiborini mazmunni tushunishdan ko‘ra notanish so‘zlarni aniqlashga yo‘naltirishi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mumkin. Tinglashdan oldin mavzu haqida qisqa suhbat o‘tkazish, rasm yoki sarlavha asosida matn mazmunini taxmin qilish, asosiy tayanch so‘zlar bilan tanishtirish o‘quvchining mavjud bilimlarini faollashtiradi. Masalan, “В магазине” mavzusidagi dialogni tinglashdan oldin o‘quvchilardan do‘konda qanday iboralar ishlatilishini so‘rash ularning keyingi axborotni qabul qilishiga tayanch yaratadi.

Biroq tinglashdan oldin matndagi barcha yangi so‘zlarni tushuntirib berish maqsadga muvofiq emas. Bunday yondashuv o‘quvchini kontekst orqali ma’noni aniqlash imkoniyatidan mahrum qiladi. O‘quvchi real hayotda ham suhbatdosh nutqidagi barcha so‘zlarni bilmasligi mumkin. Shuning uchun metodik jihatdan matnning umumiy mazmunini tushunishga to‘sqinlik qiladigan asosiy birliklarni oldindan tushuntirish, qolgan birliklarning ma’nosini esa kontekst asosida aniqlashga imkon berish samaraliroqdir.

Bevosita tinglash bosqichida o‘quvchiga aniq vazifa berilishi muhim. “Matnni tinglang” shaklidagi umumiy ko‘rsatma yetarli natija bermaydi. O‘quvchi nima uchun tinglayotganini bilishi kerak. Masalan, “Suhbat qayerda sodir bo‘layotganini aniqlang”, “Qahramonning asosiy muammosini toping”, “Uchta asosiy faktni yozib oling” kabi vazifalar diqqatni muhim axborotga yo‘naltiradi. Bu usul o‘quvchining har bir so‘zni tushunishga bo‘lgan ortiqcha intilishini kamaytiradi.

Tinglashni bir necha marta tashkil qilish ham samarali, biroq har bir takroriy tinglash bir xil maqsadda amalga oshirilmasligi kerak. Birinchi tinglashda umumiy mazmunni aniqlash, ikkinchi tinglashda muhim tafsilotlarni topish, zarur hollarda uchinchi tinglashda til birliklariga e’tibor qaratish mumkin. Masalan, birinchi tinglashdan so‘ng “Matn nima haqida?” degan savol berilsa, ikkinchi tinglashda vaqt, joy, sabab, ishtirokchilar yoki voqealar ketma-ketligini aniqlash topshiriladi. Natijada tinglash oddiy takrorlash emas, balki mazmunni tobora chuqurroq anglash jarayoniga aylanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Muhim natijalardan yana biri shundaki, o‘quvchini audiomatndagi har bir so‘zni tarjima qilishga o‘rgatish tinglab tushunish tezligini pasaytirishi mumkin. O‘quvchi ruscha nutqni eshitishi bilan uni ichki ravishda ona tiliga tarjima qilishga harakat qilsa, keyingi axborotni qabul qilishda kechikish yuzaga keladi. Shu sababli tinglab tushunish mashqlarida umumiy mazmun, tayanch fikr va kommunikativ maqsadni bevosita rus tilida anglashga yo‘naltirilgan topshiriqlar ustun bo‘lishi lozim.

Tinglab tushunishning rivojlanishida qisqa muddatli xotira ham katta rol o‘ynaydi. Uzun jumlani eshitgan o‘quvchi uning boshidagi ma’lumotni unutib qo‘ysa, jumlaning umumiy mazmunini aniqlashi qiyinlashadi. Buni rivojlantirish uchun qisqa gaplarni eshitib takrorlash, muhim so‘zlarni yozib olish, voqealar ketma-ketligini tiklash, raqam va sanalarni aniqlash kabi topshiriqlar foydalidir. Bunda maqsad audiomatnni so‘zma-so‘z yodlash emas, balki mazmunni saqlab qolishdir.

Tinglashdan keyingi bosqich tinglab tushunishni gapirish va yozish ko‘nikmalari bilan bog‘lash imkonini beradi. O‘quvchilarga matn bo‘yicha savollarga javob berish, voqealarni ketma-ket joylashtirish, eshitilgan fikrni qisqacha qayta hikoya qilish, qahramon harakatiga munosabat bildirish yoki dialogni davom ettirish topshiriqlari berilishi mumkin. Masalan, ikki kishining sayohat haqidagi suhbatini tinglagan o‘quvchilarga “Siz qaysi variantni tanlagan bo‘lardingiz va nima uchun?” degan savolning berilishi tinglashdan olingan axborotni mustaqil nutqqa aylantiradi.

Autentik materiallardan foydalanish ham alohida ahamiyatga ega. Maxsus o‘quv maqsadida yozilgan matnlar grammatik va leksik jihatdan o‘quvchi darajasiga moslashtirilgan bo‘ladi, lekin real nutqning barcha xususiyatlarini aks ettirmasligi mumkin. Autentik materiallarda tabiiy intonatsiya, pauza, takror, nutq tezligining o‘zgarishi va turli ovoz xususiyatlari mavjud bo‘ladi. Shuning uchun o‘quvchining darajasi oshgani sari qisqa autentik materiallarni dars jarayoniga kiritib borish zarur. Bunda materialning murakkabligi o‘quvchining bilim darajasidan keskin yuqori bo‘lmasligi kerak.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Audio va videomateriallarni birgalikda qo‘llash ham ijobiy imkoniyat yaratadi. Videoda yuz ifodasi, imo-ishora, vaziyat, joy va harakatlar o‘quvchiga mazmunni aniqlash uchun qo‘shimcha kontekst beradi. Boshlang‘ich va o‘rta darajada video orqali tinglash o‘quvchining tushunishiga yordam bersa, keyinchalik faqat audio asosidagi mashqlarni ko‘paytirish eshitish orqali axborotni mustaqil qayta ishlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Tahlillar tinglab tushunishda psixologik omilni ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Ayrim o‘quvchilar birinchi notanish so‘zga duch kelishi bilan keyingi nutqni tinglashdan chalg‘iydi. Natijada bitta tushunilmagan birlik butun matnni tushunishga to‘sqinlik qiladi. O‘qituvchi o‘quvchida “har bir so‘zni tushunish shart” degan tasavvurni kamaytirishi va kontekst orqali umumiy mazmunni anglash strategiyasini shakllantirishi kerak. Buning uchun ba’zan matnda notanish so‘zlar bo‘lishiga qaramay, asosiy g‘oyani aniqlashga qaratilgan topshiriqlardan foydalanish foydalidir.

O‘quv materiallarini tanlashda mazmunning qiziqarliligi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. O‘quvchining kundalik hayoti, ta’limi, kasbi, sayohat, texnologiya, madaniyat va ijtimoiy munosabatlarga oid materiallar tinglash motivatsiyasini oshiradi. Mazmun o‘quvchiga qiziq bo‘lsa, u notanish birliklarga qaramay umumiy fikrni aniqlashga ko‘proq intiladi. Shunday qilib, audiomatnning lingvistik murakkabligi bilan bir qatorda uning kommunikativ va mazmuniy qiymati ham muhimdir.

Tinglab tushunishni baholashda ham faqat bitta turdagi test bilan cheklanmaslik lozim. To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javobni belgilash, variantlardan tanlash, bo‘sh joylarni to‘ldirish kabi yopiq topshiriqlar nazorat uchun qulay bo‘lsa-da, ular o‘quvchining mazmunni qay darajada chuqur anglaganini har doim ham to‘liq ko‘rsatmaydi. Shu sababli qisqa javob berish, asosiy fikrni ifodalash, voqeani qayta hikoya qilish va eshitilgan axborotga munosabat bildirish kabi ochiq topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Olib borilgan tahlillar asosida rus tilida tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirishning samarali modeli “tayyorgarlik – umumiy tinglash – tanlab tinglash – batafsil tinglash – nutqiy faoliyat” ketma-ketligida tashkil qilinishi mumkinligi aniqlandi. Birinchi bosqich o‘quvchining mavjud bilimlarini faollashtiradi. Ikkinchi bosqich audiomatnning umumiy mazmunini aniqlashga xizmat qiladi. Uchinchi va to‘rtinchi bosqichlarda muayyan ma’lumotlar hamda mazmuniy detallar ajratiladi. Yakuniy bosqichda esa olingan axborot gapirish yoki yozish faoliyatida qo‘llanadi. Bunday ketma-ketlik tinglashni passiv qabul qilishdan faol kommunikativ jarayonga aylantiradi.

Umuman olganda, natijalar tinglab tushunish ko‘nikmasi bir yoki bir necha dars davomida shakllanadigan qobiliyat emasligini ko‘rsatadi. U muntazam mashq, murakkablikning bosqichma-bosqich oshirilishi va turli kommunikativ vaziyatlarda audio axborot bilan ishlash natijasida rivojlanadi. O‘qituvchining vazifasi faqat audioyozuvni qo‘yib berish va javoblarni tekshirishdan iborat emas. U o‘quvchiga qanday tinglash, muhim axborotni qanday ajratish, notanish so‘z mavjud bo‘lganda qanday strategiyadan foydalanish va eshitilgan ma’lumotni keyingi kommunikativ faoliyatga qanday olib o‘tishni ham o‘rgatishi kerak.

MUHOKAMA

Olingan natijalar tinglab tushunishning kommunikativ til o‘qitish tizimida mustaqil va ayni paytda boshqa nutq faoliyati turlari bilan bog‘liq ko‘nikma ekanligini ko‘rsatadi. Passovning kommunikativ yondashuvi til materialini muloqot vaziyatlari bilan bog‘lash zarurligini ta’kidlaydi. Bu tamoyil tinglab tushunishda ayniqsa muhim, chunki o‘quvchi eshitilgan birliklarni alohida grammatik shakllar sifatida emas, ma’lum kommunikativ vazifaning tarkibiy qismi sifatida qabul qilishi kerak.

Zimnyaya tomonidan nutq faoliyatining psixologik mexanizmlariga berilgan e’tibor tinglab tushunishning xotira, idrok, diqqat va mazmuniy taxmin bilan bog‘liqligini tushuntirish imkonini beradi. Rost ham tinglash jarayonini faqat tovushlarni aniqlash emas, balki eshitilgan axborotni faol qayta ishlash jarayoni sifatida ko‘rsatadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Shu jihatdan o‘quvchiga tayyor mazmunni berishdan ko‘ra, unga mazmunni mustaqil aniqlash strategiyalarini o‘rgatish samaraliroq hisoblanadi.

Wilsonning tinglashni o‘rgatishga oid metodik tavsiyalari ham tinglashdan oldingi, tinglash paytidagi va undan keyingi faoliyatning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqot doirasidagi tahlillar ushbu yondashuv rus tilini o‘qitishda ham samarali qo‘llanishi mumkinligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi o‘quvchilarga rus tilining fonetik xususiyatlarini tabiiy nutq tarkibida muntazam eshittirish tinglab tushunish kompetensiyasini shakllantirishda muhimdir.

XULOSA

Rus tilini o‘rganishda tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning zarur shartlaridan biridir. Tadqiqot natijalari tinglab tushunishga fonetik, leksik-grammatik, psixologik va mazmuniy omillar birgalikda ta’sir qilishini ko‘rsatdi. Shu sababli ushbu ko‘nikmani rivojlantirish faqat audioyozuvlarni ko‘p tinglash bilan cheklanmasligi, balki maxsus ishlab chiqilgan mashqlar va tinglash strategiyalariga asoslanishi lozim.

Audiomatn bilan ishlashni tinglashdan oldingi, tinglash jarayonidagi va tinglashdan keyingi bosqichlarda tashkil qilish, umumiy mazmundan tafsilotlarga tomon harakat qilish, autentik materiallardan bosqichma-bosqich foydalanish, takroriy tinglashga turli vazifalar yuklash hamda tinglashni gapirish va yozish bilan bog‘lash samarali metodik yechim hisoblanadi. Eng muhimi, o‘quvchi har bir so‘zni tushunishga emas, balki nutqning asosiy mazmuni, kommunikativ maqsadi va zarur axborotini anglashga o‘rgatilishi kerak.

Shunday qilib, rus tili mashg‘ulotlarida tinglab tushunish muntazam, izchil va kommunikativ maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida tashkil etilganda o‘quvchilarning nafaqat eshitilgan nutqni tushunish qobiliyati, balki lug‘at boyligi, talaffuzi, og‘zaki nutqi va umumiy kommunikativ kompetensiyasi ham rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зимняя И. А. Психология обучения иностранным языкам в школе. – Москва: Просвещение, 1991.
2. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – Москва: Просвещение, 1991.
3. Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. – Москва: Академия, 2006.
4. Щукин А. Н. Обучение иностранным языкам: теория и практика. – Москва: Филоматис, 2006.
5. Rost M. Teaching and Researching Listening. 2nd ed. – Harlow: Pearson Education, 2011.
6. Wilson J. J. How to Teach Listening. – Harlow: Pearson Longman, 2008.
7. Field J. Listening in the Language Classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
8. Vandergrift L., Goh C. C. M. Teaching and Learning Second Language Listening: Metacognition in Action. – New York: Routledge, 2012.
9. Brown S. Teaching Listening. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
10. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA G‘OYAVIY-MAFKURAVIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Xo‘jaqulov Oybek Aloxonovich
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak pedagoglarda g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda an’anaviy ma’ruza-tadbir shaklidagi ishning cheklovlari aniqlanadi va uning o‘rniga tahliliy mashqlarga asoslangan metodik tizim taklif etiladi. Muallif o‘qituvchining bahsli masalalardagi to‘rt xil rolini qiyosiy tahlil qilib, ularning har birining pedagogik natijasini baholaydi. Metodik tizim beshta mashq turini — matn tahlili, pozitsiyalarni qiyoslash, qarshi dalilni asoslash, manba ishonchliligini tekshirish va kasbiy vaziyat tahlilini — o‘z ichiga oladi hamda ularning bosqichma-bosqich qo‘llanilish tartibi asoslanadi. Baholash tizimi talaba qarashining mazmuniga emas, uni asoslash sifatiga qaratilgani metodikaning o‘zak tamoyili sifatida ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentlik, metodika, bo‘lajak pedagog, tahliliy mashq, bahsli masala, o‘qituvchi roli, dalil bilan ishlash, baholash mezoni*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ИДЕЙНО-МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Ходжакулов Ойбек Алохонович
исследователь Наманганского государственного университета
Наманган, Узбекистан

Аннотация. *В статье рассматривается вопрос совершенствования методики развития идейно-мировоззренческой компетентности у будущих педагогов. Выявляются ограничения традиционной лекционно-мероприятийной формы работы, вместо которой предлагается методическая система, основанная на аналитических упражнениях. Автор сопоставительно анализирует четыре роли преподавателя при обсуждении спорных вопросов и оценивает педагогический результат каждой из них. Методическая система включает пять типов упражнений — анализ текста, сопоставление позиций, обоснование контрдовода, проверку надёжности источника и анализ профессиональной ситуации — и обосновывает порядок их поэтапного применения. Стержневым принципом методики выступает направленность системы оценивания не на содержание взглядов студента, а на качество их обоснования.*

Ключевые слова: *идейно-мировоззренческая компетентность, методика, будущий педагог, аналитическое упражнение, спорный вопрос, роль преподавателя, работа с доводами, критерий оценивания*

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING IDEOLOGICAL AND WORLDVIEW COMPETENCE IN PROSPECTIVE TEACHERS

Khojakulov Oybek Alokhonovich
Researcher, Namangan State University
Namangan, Uzbekistan

Annotation. *The article examines the question of improving the methodology for developing ideological and worldview competence in prospective teachers. The limitations of the traditional lecture-and-event format are identified, and a methodological system based on analytical exercises is proposed in its place. The author comparatively analyses four roles a teacher may adopt when handling controversial issues and assesses the pedagogical outcome of each. The methodological system comprises five types of exercise — text analysis, comparison of positions, justification of a counter-argument, verification of source reliability, and analysis of a professional situation — and the sequence of their stage-by-stage application is substantiated. The core principle of the methodology is that the assessment system is directed not at the content of the student's views but at the quality of their justification.*

Keywords: *ideological and worldview competence, methodology, prospective teacher, analytical exercise, controversial issue, teacher role, working with arguments, assessment criterion*

KIRISH

Oliy pedagogik ta'limda g'oyaviy-mafkuraviy tarbiya masalasi uzoq vaqtdan buyon tashkiliy ish shakli sifatida qaraladi: ma'ruzalar o'qiladi, uchrashuvlar o'tkaziladi, tadbirlar rejalashtiriladi va hisobot beriladi. Bu ishlarning o'z o'rni bor, ammo ularning pedagogik samarasi odatda tekshirilmaydi. Natijada ta'lim muassasasi qancha tadbir o'tkazganini biladi, lekin talabaning fikrlash usulida qanday o'zgarish yuz berganini bilmaydi.

Metodika masalasining mohiyati shu farqda yotadi. Agar maqsad talabani ayrim g'oyalar bilan tanishtirish bo'lsa, ma'ruza yetarli vosita. Agar maqsad talabada mafkuraviy mazmunni mustaqil tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish bo'lsa, ma'ruza yetarli emas: tahlil qobiliyati faqat tahlil qilish jarayonida o'sadi, uni tinglash orqali o'zlashtirib bo'lmaydi. Shu sababli metodikani takomillashtirish mavzularni ko'paytirish emas, ish turini o'zgartirish masalasidir.

Mazkur maqolaning maqsadi bo‘lajak pedagoglarda g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning metodik tizimini ishlab chiqish va asoslashdan iborat. Vazifalar quyidagicha belgilanadi: an’anaviy ish shakllarining cheklovlarini aniqlash; o‘qituvchining bahsli masalalardagi mumkin bo‘lgan rollarini qiyoslash va ularning natijasini baholash; tahliliy mashqlarning turlarini belgilash va ularni bosqichlarga taqsimlash; baholash mezonlarini shakllantirish.

Tadqiqotda g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentlik deganda mafkuraviy mazmunni tushunish, tahlil qilish, baholash va bu qobiliyatni kasbiy faoliyatda qo‘llash qobiliyati tushuniladi. Bu ta’rifda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihat shundaki, kompetentlik ayrim qarashlar to‘plamini qabul qilish bilan emas, mazmun bilan ishlash qobiliyati bilan belgilanadi. Bunday tushunish kompetentlik haqidagi zamonaviy qarashlarga mos keladi: kompetentlik har doim vaziyatda namoyon bo‘ladigan qobiliyat sifatida ta’riflanadi.

Metodikani takomillashtirish zaruratini amaliy kuzatish ham tasdiqlaydi. Pedagogika yo‘nalishi bitiruvchilari maktabda ishlay boshlaganda o‘quvchilarning bahsli savollariga duch keladilar — tarixiy voqea baholari, diniy va dunyoviy qadriyatlar munosabati, ijtimoiy adolat masalalari. Bunday savollarga tayyor formula bilan javob berish mumkin emas: o‘quvchi formulani sezadi va ishonchini yo‘qotadi. Javob berish uchun o‘qituvchining o‘zi mavzuni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bahsli masalalarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha nazariy asos T.Kellining ishlarida shakllantirilgan. Kelli o‘qituvchining to‘rt xil rolini ajratadi: betaraf sukut — o‘qituvchi bahsli mavzuni umuman ko‘tarmaydi; betaraf bayonchi — mavzuni ko‘taradi, lekin barcha qarashlarni teng deb taqdim etadi va o‘z fikrini aytmaydi; targ‘ibotchi — faqat bir pozitsiyani asosli deb ko‘rsatadi; majburlamay bildiruvchi — barcha jiddiy qarashlarni dalillari bilan bayon etadi, o‘z pozitsiyasini ham ochiq aytadi, lekin talabaning qarshi fikriga ochiq qoladi. Kelli oxirgi rolni pedagogik jihatdan eng samarali deb baholaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

D.Hess va P.Makevoyning ko‘p yillik maktab kuzatuvlariga asoslangan tadqiqoti bu nazariy ajratishni empirik ma’lumot bilan to‘ldiradi. Mualliflar bahsli masalalar muntazam muhokama qilinadigan sinflarda o‘quvchilarning dalil bilan ishlash qobiliyati va o‘zga fikrga bardoshi yuqori bo‘lishini aniqlaganlar. Shu bilan birga ular muhokamaning muvaffaqiyati o‘qituvchining tayyorgarligiga bog‘liqligini ta’kidlaydilar: tayyorlanmagan muhokama mavzuni chuqurlashtirish o‘rniga guruhda bezovtalik keltirib chiqarishi mumkin.

R.Dirdenning ta’lim va indoktrinatsiya farqi haqidagi tahlili metodikaning chegarasini belgilashga yordam beradi. Dirden farqni mazmunda emas, usulda ko‘radi: agar qarash dalili bilan, muqobili ko‘rsatilgan holda va tekshirishga ochiq shaklda yetkazilsa, bu ta’lim; agar qarash yakka haqiqat sifatida, muqobilini yashirib va shubhani taqiqlab yetkazilsa, bu indoktrinatsiya. H.Siygelning tanqidiy ratsionallik haqidagi ishlari shu chizgini davom ettirib, ta’limning maqsadi o‘quvchini dalilga asoslangan hukm chiqarishga qodir shaxs qilib tarbiyalash ekanini asoslaydi.

Mafkuraviy ta’sirga qarshilik mexanizmini tushuntirishda U.Makgayrning inokulatsiya nazariyasi alohida o‘rin tutadi. Makgayr tajribalarda bir qarashni faqat qo‘llab-quvvatlovchi dalillar bilan o‘rgangan odam keyinchalik qarshi dalilga duch kelganda tez taslim bo‘lishini, kuchsizlashtirilgan qarshi dalillarni oldindan tahlil qilgan odam esa ancha barqaror bo‘lishini ko‘rsatdi. J.Komptonning keyingi tahlillari bu natijalarni axborot muhiti sharoitiga tatbiq etadi. J.Mezirouning transformativ o‘qitish nazariyasi, J.Vestxaymer va J.Keynning fuqarolik ta’limi modellari hamda J.Benksning ko‘p madaniyatli ta’lim tamoyillari metodik tizimning qolgan qismlari uchun nazariy asos beradi.

Ko‘rib chiqilgan manbalarning qiyosiy tahlili ikki jihatni aniqlashga imkon beradi. Birinchidan, chet el tadqiqotlarida bahsli masalalarni muhokama qilish metodikasi asosan umumta’lim maktabi va fuqarolik ta’limi sharoitida ishlab chiqilgan; oliy pedagogik ta’lim, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchining o‘zini bunday muhokamani

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

boshqarishga tayyorlash masalasi kamroq o‘rganilgan. Ikkinchidan, mahalliy pedagogik adabiyotda g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiya masalasi ko‘pincha tashkiliy ish shakllari tavsifi bilan cheklanadi va mashq darajasidagi metodik yechimlar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur maqolada aynan shu bo‘shliq to‘ldirishga harakat qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-metodik xarakterga ega. Unda qiyosiy tahlil, tushunchaviy tahlil va metodik loyihalash usullaridan foydalanilgan. Qiyosiy tahlil o‘qituvchining bahsli masalalardagi rollarini yonma-yon qo‘yib, ularning pedagogik natijasini baholash uchun qo‘llanildi. Tushunchaviy tahlil ta’lim va indoktrinatsiya chegarasini belgilovchi mezonlarni aniqlashga xizmat qildi.

Metodik loyihalash bosqichida mashq turlari tanlandi va ularning izchilligi asoslandi. Tanlash mezoni quyidagicha bo‘ldi: har bir mashq g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentlikning aniq bir komponentini ishga solishi, bajarilishi kuzatilishi va natijasi baholanishi lozim. Shu mezon bo‘yicha tadbir shaklidagi ish turlari — qatnashish faktidan boshqa natija bermaydigani uchun — tizimga kiritilmadi. Tadqiqotda empirik sinov o‘tkazilmagan; taklif etilayotgan tizim keyingi tajriba-sinov ishi uchun loyiha sifatida taqdim etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘qituvchi rollarining qiyosiy tahlili metodikaning boshlang‘ich nuqtasini aniqlaydi. Betaraf sukut roli masalani guruh muhokamasidan chiqaradi, lekin talabaning hayotidan chiqarmaydi: u javobni baribir izlaydi va izlashni nazoratsiz manbalarda davom ettiradi. Betaraf bayonchi roli barcha qarashlarni teng deb ko‘rsatib, dalil kuchi o‘lchovini yo‘qotadi va talabada barcha fikr teng degan noto‘g‘ri xulosani mustahkamlaydi. Targ‘ibotchi roli esa qisqa muddatda tashqi muvofiqlik beradi, ammo talabada mustaqil asoslash qobiliyatini shakllantirmaydi. Shu sababli metodik tizim majburlamay bildiruvchi roliga asoslanadi: o‘qituvchi jiddiy qarashlarni dalillari bilan



bayon etadi, o‘z pozitsiyasini ham asoslab aytadi va talabaning qarshi dalilini jazolanmay bildirish huquqini ta’minlaydi.

Tahlil asosida beshta mashq turi ajratildi. Birinchi tur — matn tahlili: talabaga mafkuraviy mazmunga ega matn beriladi va unda tasdiq nima, dalil nima, hissiy ta’sir vositasi nima ekanini ajratish topshiriladi. Ikkinchi tur — pozitsiyalarni qiyoslash: bir masalaga oid ikki qarash yonma-yon qo‘yilib, ularning dalil bazasi, kuchli va zaif jihatlari aniqlanadi. Uchinchi tur — qarshi dalilni asoslash: talaba o‘zi qo‘llab-quvvatlamaydigan pozitsiyani eng kuchli shaklda bayon etadi; bu mashq o‘zga fikrni soddalashtirib tanqid qilish odatini buzadi.

To‘rtinchi tur — manba ishonchliligini tekshirish: talaba axborot manbasini aniqlaydi, dastlabki va ikkilamchi manbani farqlaydi, raqam yoki iqtibosning asl manbasiga qaytadi. Beshinchi tur — kasbiy vaziyat tahlili: talabaga maktab sharoitidan olingan vaziyat beriladi (o‘quvchining o‘tkir savoli, ota-onaning e’tirozi, sinfdagi mafkuraviy bahs) va u javob variantini ishlab chiqadi hamda uni asoslaydi. Bu tur kompetentlikning faoliyat komponentini ishga soladi va bitiruvchini haqiqiy kasbiy vaziyatga tayyorlaydi.

Mashqlarning amalda qanday ko‘rinishini bir misolda aniqlashtirish mumkin. Uchinchi tur — qarshi dalilni asoslash mashqi — quyidagi tartibda bajariladi: talaba o‘zi qo‘llab-quvvatlamaydigan pozitsiyani tanlaydi; uning eng kuchli uch dalilini yozma bayon etadi; so‘ngra o‘z pozitsiyasidan turib bu dalillarga javob beradi. Mashq natijasi ikki mezon bo‘yicha baholanadi: muqobil pozitsiya soddalashtirilmasdan, egasi tanimaydigan shaklga keltirilmasdan bayon etilganmi va javoblar dalilga qaratilganmi yoki pozitsiya egasiga qaratilganmi. Tajriba ko‘rsatadiki, aynan birinchi mezon boshlang‘ich bosqichda eng ko‘p qiyinchilik tug‘diradi.

Mashqlarning qo‘llanilish izchilligi uch bosqichda asoslanadi. Tayyorlov bosqichida birinchi va to‘rtinchi turlar ustunlik qiladi: talaba dalil, tasdiq va manba bilan ishlashning texnik ko‘nikmasini o‘zlashtiradi. Asosiy bosqichda ikkinchi va uchinchi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

turlar markazga chiqadi: talaba pozitsiyalarni qiyoslashni va qarshi dalilni halol bayon etishni o‘rganadi. Yakuniy bosqichda beshinchi tur yetakchi bo‘ladi: o‘zlashtirilgan qobiliyat kasbiy vaziyatga ko‘chiriladi. Bu izchillik tasodifiy emas: oxirgi bosqich mashqlari oldingi bosqichlarda shakllangan ko‘nikmalarni talab qiladi.

Metodikaning o‘zak tamoyili baholash mezonlarida ifodalanadi. Baholashda talabaning qanday xulosaga kelgani emas, xulosani qanday asoslagani e’tiborga olinadi. Aniq mezonlar quyidagilar: tasdiqni dalil bilan ta’minlash; muqobil pozitsiyani buzmasdan bayon etish; o‘z pozitsiyasining zaif jihatini ko‘rsatish; manbaga to‘g‘ri murojaat qilish; xulosani dalil doirasidan oshirmaslik. Bu mezonlar talabaga oldindan e’lon qilinishi lozim, chunki yashirin mezon talabani o‘qituvchi kutayotgan javobni taxmin qilishga majbur qiladi va bu metodikaning maqsadiga qarama-qarshi natija beradi.

Metodik tizimning qo‘llanilishi muayyan tashkiliy shartlarni talab qiladi. Muhokamaga asoslangan mashqlar katta auditoriyada samara bermaydi: har bir talabaning fikr bildirish imkoniyati bo‘lishi lozim, shu sababli guruh hajmi cheklangan bo‘lishi kerak. Mashqning yozma qismi majburiy: og‘zaki bahsda eng tez gapiradigan talaba ustunlik qiladi, yozma shakl esa barcha talabaning fikrlash izini ko‘rsatadi. Bundan tashqari har bir mashq uchun vaqt budjeti aniq belgilanishi kerak, aks holda muhokama mavzudan chetga chiqadi va tahliliy maqsad yo‘qoladi.

MUHOKAMA

Taklif etilayotgan metodikaga nisbatan birinchi e’tiroz amaliy xarakterda: bahsli masalalarni muhokama qilish guruhda ziddiyat keltirib chiqarmaydimi? Bu xavf real, lekin uning manbasi muhokamaning o‘zi emas, muhokamaning tartibsizligidir. Hess va Makevoy kuzatuvlari ko‘rsatadiki, oldindan qoidalar belgilangan, mavzu doirasi aniqlashtirilgan va o‘qituvchi tayyorgarlik ko‘rgan muhokama guruhda bezovtalik emas, aksincha o‘zaro hurmat madaniyatini mustahkamlaydi. Shu sababli metodik



tizimda muhokama qoidalarini oldindan kelishib olish alohida bosqich sifatida koʻrsatiladi.

Ikkinchi e'tiroz nazariy: qarshi dalilni asoslash mashqi talabada shubha uygʻotib, uning pozitsiyasini kuchsizlashtirmaydimi? Makgayrning inokulatsiya tajribalari bunga teskari javob beradi. Faqat tasdiqlovchi dalillar bilan oʻrgangan pozitsiya birinchi jiddiy e'tiroz oldida beqarorlik koʻrsatadi; qarshi dalillarni oldindan tahlil qilgan odamning pozitsiyasi esa ancha barqaror boʻladi. Pedagogik xulosa aniq: qarshi dalildan himoya qilish emas, u bilan ishlashni oʻrgatish barqarorlik beradi.

Uchinchi masala — metodikaning oʻqituvchiga qoʻyadigan talabi. Taklif etilayotgan tizim oʻqituvchidan mavzuni bir necha nuqtai nazardan bilishni, oʻz pozitsiyasini dalil bilan asoslashni va talabaning qarshi fikriga xotirjam munosabatda boʻlishni talab qiladi. Bu talab yengil emas va oʻqituvchining oʻzi uchun ham tayyorgarlik zarurligini koʻrsatadi. Shu nuqtada metodikaning qoʻllanilish shartini aniq belgilash lozim: tizim faqat oʻqituvchi tegishli tayyorgarlikdan oʻtgan sharoitda kutilgan natijani beradi.

Oxirida metodikaning da'vo chegarasini aniq belgilash lozim. Taklif etilayotgan tizim talabaning gʻoyaviy qarashlarini oʻzgartirishni maqsad qilmaydi va bunday natijani kafolatlamaydi. Uning maqsadi cheklangan va aniq: talabada oʻz qarashini asoslash, muqobil qarashni tushunish va mafkuraviy mazmunni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish. Bu qobiliyat qanday xulosaga olib kelishi talabaning oʻz ishi boʻlib qoladi. Metodikaning qiymati ham shundadir: u natijani belgilamaydi, balki natijaga asosli yoʻl bilan borish koʻnikmasini beradi.

XULOSA

Tadqiqot gʻoyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mavzular sonini oshirish emas, ish turini oʻzgartirish masalasi ekanini koʻrsatdi. Tadbir shaklidagi ish qatnashish faktidan boshqa natija bermaydi; tahliliy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mashq esa talabaning fikrlash usulida kuzatiladigan o‘zgarish hosil qiladi. Shu sababli metodik tizimning asosiga tadbir emas, mashq qo‘yiladi.

Ishlab chiqilgan metodik tizim beshta mashq turini — matn tahlili, pozitsiyalarni qiyoslash, qarshi dalilni asoslash, manba ishonchliligini tekshirish va kasbiy vaziyat tahlilini — o‘z ichiga oladi va ularni uch bosqichga taqsimlaydi. Tizim o‘qituvchining majburlamay bildiruvchi roliga tayanadi; bu rol talabada mustaqil asoslash qobiliyatini shakllantirish uchun eng samarali hisoblanadi. Baholash tizimi talabaning qarashi mazmuniga emas, uni asoslash sifatiga qaratiladi va mezonlar oldindan e’lon qilinadi.

Tadqiqot natijalari nazariy-metodik loyiha darajasida bo‘lib, tizimning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali tekshirilishi lozim. Keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlar: har bir mashq turi uchun topshiriqlar bankini shakllantirish; baholash mezonlari bo‘yicha reyting jadvalini ishlab chiqish; tizimni pedagogika yo‘nalishi talabalari bilan sinovdan o‘tkazish va natijalarni nazorat guruhi bilan qiyoslash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. McGuire W.J. Inducing Resistance to Persuasion: Some Contemporary Approaches // Advances in Experimental Social Psychology. Vol. 1. – New York: Academic Press, 1964. – P. 191–229.
2. Dearden R.F. Controversial Issues and the Curriculum // Journal of Curriculum Studies. – 1981. – Vol. 13, No. 1. – P. 37–44.
3. Kelly T.E. Discussing Controversial Issues: Four Perspectives on the Teacher's Role // Theory and Research in Social Education. – 1986. – Vol. 14, No. 2. – P. 113–138.
4. Siegel H. Educating Reason: Rationality, Critical Thinking and Education. – New York: Routledge, 1988. – 208 p.
5. Mezirow J. Transformative Dimensions of Adult Learning. – San Francisco: Jossey-Bass, 1991. – 247 p.
6. Banks J.A. Diversity and Citizenship Education: Global Perspectives. – San Francisco: Jossey-Bass, 2004. – 488 p.
7. Westheimer J., Kahne J. What Kind of Citizen? The Politics of Educating for Democracy // American Educational Research Journal. – 2004. – Vol. 41, No. 2. – P. 237–269.
8. Hess D.E. Controversy in the Classroom: The Democratic Power of Discussion. – New York: Routledge, 2009. – 194 p.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

9. Compton J. Inoculation Theory // The SAGE Handbook of Persuasion: Developments in Theory and Practice. – Thousand Oaks: SAGE, 2013. – P. 220–236.
10. Hess D.E., McAvoy P. The Political Classroom: Evidence and Ethics in Democratic Education. – New York: Routledge, 2015. – 262 p.

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING IJODKORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV METODLARNING O‘RNI

Uzaqova Ziyoda Farxod qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti
E-mail: uzaqovaziyoda7@gmail.com
Tel.: +998 77 308 75 99
ORCID: 0009-0000-0370-6234

Pedagoglarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda milliy qonunchilikni o‘rganish o‘quv mazmunining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim. Bunda qonunlarning nomi va umumiy mazmunini bilish bilan cheklanmay, tegishli huquqiy qoidalarning pedagogik faoliyatdagi ahamiyatini tushuntirishga e’tibor qaratiladi.«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun ta’lim sohasidagi munosabatlarni tushunish uchun asos yaratadi. «Pedagogning maqomi to‘g‘risida»gi Qonun esa pedagogning kasbiy faoliyati, huquq va majburiyatlari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi.Huquqiy ta’lim jarayonida ushbu hujjatlarni o‘rganish uch bosqichda tashkil etilishi mumkin. Birinchi bosqichda tegishli huquqiy norma aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda uning mazmuni va qo‘llanish shartlari tahlil qilinadi. Uchinchi bosqichda norma kasbiy vaziyatga tatbiq etilib, xulosa asoslanadi.Bunday yondashuv huquqiy axborotni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi. Shu bilan birga, normativ-huquqiy hujjatlar yangilanib borishi mumkinligi sababli mashg‘ulotlarda faqat rasmiy manbalardan foydalanish va hujjatning amaldagi tahririni tekshirish zarur.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda kasbiy rivojlanish jarayonining samaradorligini baholashda o‘quv natijalarini aniq belgilash, dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlarni taqqoslash hamda o‘zgarishlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashga e’tibor beriladi.Mazkur tadqiqotning o‘ziga xos jihati huquqiy madaniyatni pedagoglarning malaka oshirish jarayonida rivojlantirishga qaratilganidir. Bunda huquqiy bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga, ularni kasbiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlari ham muhim hisoblanadi.Tajriba

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

guruhida yuqori va o‘rta darajadagi natijalarning sezilarli oshgani huquqiy ta’limni amaliyotga yo‘naltirish masalasini yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq ushbu natijani xalqaro tadqiqotlar bilan to‘liq qiyoslash uchun metodikaning aniq tavsifi, tanlanma shakllantirish tartibi va diagnostik vositalarning xususiyatlari yetarli darajada ochib berilishi lozim.Shuningdek, ilmiy yangilikni faqat natijalar oshgani bilan asoslash yetarli emas. Yangilik huquqiy madaniyatni rivojlantirishning taklif etilgan metodik modeli, diagnostik mezonlari yoki uni amaliyotga tatbiq etish shartlari bilan aniq ifodalanishi kerak.

Tadqiqotning ilmiy hissasi bir nechta yo‘nalishda ifodalanadi.

Birinchidan, malaka oshirish tizimida huquqiy madaniyatni rivojlantirish huquqiy bilimlarni egallash, amaliy vaziyatlarni tahlil qilish va kasbiy qarorlarni asoslash bilan bog‘liq kompleks pedagogik vazifa sifatida yoritildi.

Ikkinchidan, uchta hududdagi pedagogik mahorat markazlariga taalluqli 478 nafar respondentning taqdim etilgan ma’lumotlari asosida boshlang‘ich va yakuniy natijalar qiyoslandi.

Uchinchidan, tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘zgarishlar tavsifiy ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilinib, natijalarni pedagogik jihatdan izohlashning imkoniyatlari va cheklovlari belgilandi.

To‘rtinchidan, huquqiy ta’limni takomillashtirish uchun amaliy keyslar, normativ hujjatlar bilan mustaqil ishlash, interfaol metodlar va refleksiv baholashdan foydalanishga doir tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ushbu ilmiy hissa taqdim etilgan materiallar doirasida asoslanadi. Metodikaning uzoq muddatli samaradorligi, barcha hududlarga umumlashtirilishi yoki huquqiy madaniyatning barcha tarkibiy qismlariga ta’siri haqida qo‘shimcha dalillarsiz qat’iy xulosa chiqarilmaydi.

Tadqiqot natijalarini talqin qilishda bir nechta cheklovlarni hisobga olish lozim.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Birinchidan, tadqiqot tavsifida Andijon viloyati ham tilga olingan bo‘lsa-da, asosiy hududiy jadvalda Namangan, Farg‘ona va Jizzax viloyatlari ko‘rsatilgan. Hududlar ro‘yxati yakuniy maqolada birlamchi hujjatlar asosida aniqlashtirilishi zarur.

Ikkinchidan, respondentlar soni bo‘yicha ayrim tavsiflarda tajriba va nazorat guruhlari 238 va 240 nafar tartibida keltirilgan, test jadvalida esa tajriba guruhi 240, nazorat guruhi 238 nafar deb berilgan. Ushbu tafovutni bartaraf etish uchun birlamchi ro‘yxatlar va test bayonnomalari tekshirilishi kerak.

Uchinchidan, test topshiriqlarining to‘liq matni, baholash chegaralari va diagnostik vositalarning ishonchliligi haqidagi ma’lumotlar cheklangan. Bu holat natijalarni qayta tekshirish va boshqa tadqiqotlar bilan taqqoslash imkoniyatini kamaytiradi.

To‘rtinchidan, pedagogik ta’sirning davomiyligi, mashg‘ulotlar soni va nazorat guruhida qo‘llangan o‘qitish usullari batafsil bayon etilmagan. Shu sababli natijalardagi farqni faqat tajriba metodikasiga bog‘lash uchun qo‘shimcha dalillar talab etiladi.

Beshinchidan, respondentlarning individual boshlang‘ich va yakuniy natijalari taqdim etilmagan. Shu bois guruhlar bo‘yicha umumiy o‘zgarishlarni aniqlash mumkin bo‘lsa-da, har bir tinglovchining rivojlanish trayektoriyasini baholash cheklangan.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu cheklovlarni bartaraf etish uchun test vositalarini standartlashtirish, guruhlarni shakllantirish tartibini aniq hujjatlashtirish, individual natijalarni anonim shaklda saqlash va malaka oshirish kursidan keyingi kuzatuvni tashkil etish tavsiya etiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari malaka oshirish tizimida tinglovchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish huquqiy bilimlarni o‘zlashtirish, qonuniylikka munosabat, kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish va huquqiy asoslangan qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq kompleks pedagogik jarayon ekanini ko‘rsatadi.Namangan, Farg‘ona va Jizzax viloyatlaridagi pedagogik mahorat markazlariga taalluqli 478 nafar respondentning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

taqdim etilgan ma'lumotlari asosida tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki hamda yakuniy test natijalari qiyoslandi.

Tajriba guruhida yuqori va o'rta darajadagi natijalar ulushi 25,4 foizdan 69,2 foizga oshgan. Nazorat guruhida esa ushbu ko'rsatkich 24,8 foizdan 28,6 foizga o'zgargan. Ikki guruhdagi o'zgarishlar o'rtasidagi tavsifiy farq taxminan 40,0 foiz punktni tashkil etgan.Mazkur natijalar tajriba guruhida ijobiy siljishlar sezilarli bo'lganini ko'rsatadi. Biroq ushbu farqning sababiy mazmunini aniqlash uchun pedagogik ta'sirning aniq tavsifi, guruhlarni shakllantirish tartibi va diagnostik vositalarning ishonchliligi qo'shimcha tekshirilishi zarur.Tadqiqotning muhim xulosalaridan biri shuki, huquqiy madaniyatni rivojlantirishni faqat huquqiy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan cheklash maqsadga muvofiq emas. Huquqiy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash, normativ hujjatlarning amaldagi tahriri bilan ishlash va o'z qarorini huquqiy jihatdan asoslash imkoniyatlari ham o'quv jarayoniga kiritilishi kerak[9].

Amaliy tavsiyalar

Birinchi tavsiya — huquqiy modullar mazmunini kasbiy ehtiyojlarga moslashtirish. Malaka oshirish dasturlarida pedagogning kundalik faoliyatida uchraydigan huquqiy vaziyatlar, kasbiy huquqlar, majburiyatlar va ta'lim oluvchilarning qonuniy manfaatlariga taalluqli masalalarga e'tibor qaratish lozim.

Ikkinchi tavsiya — normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Tinglovchilar tegishli hujjatni topish, amaldagi tahririni tekshirish, tegishli normani aniqlash va huquqiy xulosani asoslashga o'rgatilishi zarur.

Uchinchi tavsiya — amaliy keyslar va interfaol metodlardan maqsadli foydalanish. Har bir mashg'ulot uchun aniq o'quv natijasi belgilanib, topshiriqlar tinglovchilarning mustaqil fikrlashi va huquqiy asoslangan qaror qabul qilishini rivojlantirishga yo'naltirilishi kerak.

To‘rtinchi tavsiya — huquqiy madaniyatni ko‘p yo‘nalishli baholash. Huquqiy bilimlar test orqali, amaliy ko‘nikmalar vaziyatli topshiriqlar yordamida, huquqiy qadriyatlarga munosabat esa tegishli so‘rovnomalar orqali o‘rganilishi mumkin. Bunda har bir vositaning o‘lchash vazifasi aniq belgilanishi zarur.

Beshinchi tavsiya — tajriba-sinov hujjatlarini standartlashtirish. Respondentlar soni, guruhlar tarkibi, test natijalari, baholash mezonlari va statistik hisoblar yagona qayd tizimida yuritilishi lozim.

Oltinchi tavsiya — uzoq muddatli natijalarni baholash. Malaka oshirish kursi tugaganidan keyin qayta diagnostika o‘tkazish va imkon qadar tinglovchilarning huquqiy bilimlarini real kasbiy faoliyatda qo‘llash holatini kuzatish tavsiya etiladi.

Malaka oshirish tizimida tinglovchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish pedagoglarning kasbiy kompetentligini mustahkamlash, ta’lim jarayonida qonuniylikni ta’minlash va huquqiy mas’uliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim yo‘nalishdir.Taqdim etilgan tajriba-sinov ma’lumotlari tajriba guruhida yuqori va o‘rta darajadagi natijalar ulushi sezilarli oshganini ko‘rsatadi. Bu holat huquqiy ta’limni amaliy kasbiy vaziyatlar, interfaol metodlar va normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalari bilan uyg‘unlashtirishni yanada chuqurroq o‘rganish uchun asos yaratadi.Tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini kuchaytirish uchun guruhlar tarkibidagi tafovutlarni bartaraf etish, diagnostik vositalarning xususiyatlarini batafsil ko‘rsatish va statistik hisoblarni birlamchi ma’lumotlar asosida qayta tekshirish zarur.

Shunday qilib, huquqiy madaniyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan malaka oshirish dasturlari huquqiy bilimlarni amaliy kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtirgan, natijalari muntazam baholanadigan va milliy qonunchilikdagi o‘zgarishlarga moslashtirib boriladigan tizim asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni. — URL: https://lex.uz/uz/acts/-4149765

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. — URL: https://lex.uz/docs/-5013007

3. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-son «Pedagogning maqomi to‘g‘risida»gi Qonuni. — URL: https://lex.uz/docs/-6786401

4. Tadjixanov U., Saidov A.X. *Huquqiy madaniyat nazariyasi*. 1–2-jildlar. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998.

5. Boymirzayeva R. Huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish tizimida shakllantirish // Общество и инновации. — 2023. — Vol. 4, No. 1. — B. 146–153. — DOI: https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss1-pp146-153

6. Boimirzayeva R.K. Methods of Developing the Legal Culture of Teachers of the Public Education System in the Process of Professional Development // Oriental Journal of Education. — 2025. — Vol. 5, No. 7. — B. 155–162. — DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-oje-05-07-20

7. Boymirzayeva R. Malaka oshirish jarayonida pedagoglarning huquqiy madaniyatni rivojlantirish metodlari // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. — 2025. — Vol. 3, No. 10. — DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17493007

8. Gadjiyeva P.D. Interaktivnye metody kak sredstvo modernizatsii pravovogo obucheniya // Innovatsii v obrazovanii. — 2011. — № 1. — S. 81–87.

9. Boymirzayeva R. Xalq ta’limi pedagoglarini malakasini oshirish jarayonida huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga oid xorij tajribasi // Science Problems and Research. — 2025. — Vol. 5, No. 1. — DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I1Y2025N57

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

1–4-SINF INGLIZ TILI DARSLIKLARIDA TALAFFUZ MASHQLARINING O‘RNI VA MAZMUNI

Jo'rayeva Dilafruz Nuriddinovna
Navoiy viloyati Navoiy shahar Alishr Navoiy nomidagi ona tiliga ixtisoslashtirilgan maktab ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 1–4-sinflari uchun moslashtirilgan "Guess What!" ingliz tili darsliklarida talaffuzga xizmat qiluvchi mashqlarning o‘rni, mazmuni va sinflar bo‘yicha murakkablashuvi o‘rganildi. Tadqiqot materialini to‘rtta Student's Book, jami 440 sahifa va 36 asosiy bo‘lim tashkil etdi. Kontent-tahlil, qiyosiy-pedagogik tahlil, topshiriq ko‘rsatmalarini kodlash va qo‘lda verifikatsiya qilish usullari yordamida ochiq fonetik rubrikalar, eshitish, takrorlash, ritmik aytim, qo‘shiq, savol-javob, dialog va o‘qib-tinglash topshiriqlari ajratildi. Natijalar 1-sinfda alohida harf-tovush bog‘lanishlari, 2-sinfda undosh juftliklar, 3-sinfda unli va undosh digraflar, 4-sinfda esa murakkab harf birikmalari hamda undosh klasterlari izchil berilganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, so‘z va gap urg‘usi, intonatsiya, ritm va pauza ko‘proq qo‘shiq, ritmik aytim hamda dialog tarkibida bilvosita shakllantirilishi, talaffuz diagnostikasi, o‘zini va juftini baholash vositalari esa yetarli darajada ochilmagani aniqlandi. Darslik topshiriqlarini maqsadli fonetik diagnostika, minimal juftliklar, audio taqqoslash va nutqiy vaziyatda qayta nazorat qilish bilan boyitish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar. *boshlang‘ich ta'lim, ingliz tili darsligi, talaffuz mashqi, kontent-tahlil, fonetik rubrika, tinglab farqlash, ritmik aytim, intonatsiya, diagnostika, o‘quv-metodik majmua.*

РОЛЬ И СОДЕРЖАНИЕ УПРАЖНЕНИЙ ПО ПРОИЗНОШЕНИЮ В УЧЕБНИКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ 1–4 КЛАССОВ

Аннотация. *В статье исследуются место, содержание и усложнение по классам упражнений, направленных на формирование произношения в адаптированных для общеобразовательных школ Узбекистана учебниках английского языка "Guess What!" для 1–4 классов. Материал исследования составили четыре Student's Book общим объёмом 440 страниц и 36 основных разделов. На основе контент-анализа, сравнительно-педагогического анализа, кодирования инструкций и ручной верификации выделены специальные фонетические рубрики, задания на слушание, повторение, ритмическое проговаривание, песни, диалоги, вопросы и ответы, чтение с прослушиванием. Установлено, что в 1 классе преобладают связи между отдельной буквой и звуком, во 2 классе — пары согласных, в 3 классе — гласные и согласные диграфы, а в 4 классе — более сложные буквосочетания и кластеры согласных. Вместе с тем словесное и фразовое ударение, интонация, ритм и паузация формируются преимущественно косвенно в песнях, ритмических текстах и диалогах. Недостаточно представлены диагностика произношения, самооценка и взаимная оценка. Предложены способы дополнения учебников целевой диагностикой,*

минимальными парами, сравнением аудиозаписей и повторным контролем произношения в речевой ситуации.

Ключевые слова. *начальное образование, учебник английского языка, произносительное упражнение, контент-анализ, фонетическая рубрика, слуховая дифференциация, ритмическое проговаривание, интонация, диагностика, учебно-методический комплекс.*

THE ROLE AND CONTENT OF PRONUNCIATION ACTIVITIES IN ENGLISH TEXTBOOKS FOR GRADES 1–4

Abstract. *The article examines the role, content and grade-by-grade progression of pronunciation-oriented activities in the "Guess What!" English textbooks adapted for Grades 1–4 in Uzbekistan's general secondary schools. The corpus comprised four Student's Books, totalling 440 pages and 36 main units. Content analysis, comparative pedagogical analysis, coding of task instructions and manual verification were used to identify explicit phonics sections and activities involving listening, repetition, chants, songs, questions and answers, dialogues, and reading while listening. The findings show a progression from single letter-sound relations in Grade 1 to consonant pairs in Grade 2, vowel and consonant digraphs in Grade 3, and more complex spelling patterns and consonant clusters in Grade 4. Word and sentence stress, intonation, rhythm and pausing, however, are mostly addressed implicitly through songs, chants and dialogues. Pronunciation diagnosis, self-assessment and peer assessment are not sufficiently explicit. The study therefore proposes supplementing the textbook activities with focused diagnosis, minimal-pair work, audio comparison and repeated assessment in short communicative situations.*

Keywords. *primary education, English textbook, pronunciation activity, content analysis, phonics section, auditory discrimination, chant, intonation, diagnosis, teaching package.*

KIRISH

Boshlang'ich sinfda darslik o'quvchi, o'qituvchi va o'quv dasturi o'rtasidagi asosiy vositachidir. Unda berilgan topshiriqning shakli faqat darsda nima bajarilishini emas, o'quvchi til hodisasini qanday idrok etishini ham belgilaydi. Talaffuz nuqtayi nazaridan "Listen and say", "Listen and repeat", "Say the chant", "Sing the song" yoki "Ask and answer" kabi ko'rsatmalar bir xil vazifani bajarmaydi. Birinchilari nutq namunasini eshitish va qayta yaratishga xizmat qilsa, keyingilari ritm, intonatsiya va talaffuz birligini muloqotga ko'chirish imkonini beradi. Shu bois darslikda talaffuzga oid topshiriq borligini qayd etishning o'zi yetarli emas; uning qaysi fonetik komponentni, qanday ketma-ketlikda va qay darajada mustaqil nazorat bilan shakllantirishi aniqlanishi kerak.

Talaffuz koʻnikmasi tovushlarni aniq aytish bilangina chegaralanmaydi. Tushunarli ogʻzaki nutq segmental birliklar, soʻz va gap urgʻusi, intonatsiya, ritm, bogʻlanish va pauzaning oʻzaro uygʻunligiga tayanadi [8; 16, 133–135-b.]. Shuning uchun darslik tahlilida harf-tovush bogʻlanishlari bilan bir qatorda tinglab farqlash, ritmik takrorlash, gap ohangi, dialogdagi tabiiylik va oʻquvchining oʻz talaffuzini nazorat qilishi kabi jihatlar ham hisobga olinishi lozim. Bu, ayniqsa, yozilishi va aytilishi oʻrtasida muntazam moslik boʻlmagan ingliz tilini oʻrganishda muhim.

Oʻzbekiston maktablari uchun moslashtirilgan "Guess What!" majmuasi Student's Book bilan birga Workbook, Flashcards, Word cards, audio va video materiallarni ham qamrab oladi [1–4]. Bunday majmua talaffuzni koʻrish, eshitish, taqlid, harakat va muloqot orqali shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Biroq darsning amaliy yoʻnalishini koʻp hollarda aynan Student's Bookdagi topshiriq koʻrsatmasi belgilagani sababli, mazkur maqolada tahlil birinchi navbatda shu toʻrtta asosiy darslikka qaratildi.

Tadqiqotning maqsadi 1–4-sinf "Guess What!" Student's Booklarida talaffuzga xizmat qiluvchi topshiriqlarning turi, takrorlanish muntazamligi, fonetik mazmuni va sinflararo murakkablashuvini aniqlash, ularning kuchli hamda toʻldirilishi lozim boʻlgan jihatlarini metodik nuqtayi nazardan baholashdan iborat. Maqsadga muvofiq quyidagi savollar qoʻyildi: darsliklarda talaffuz qaysi topshiriq turlari orqali berilgan; ochiq fonetik material 1-sinfdan 4-sinfgacha qanday rivojlangan; segmental va prosodik komponentlar oʻrtasida qanday nisbat mavjud; diagnostika va refleksiya darslik tuzilishida qay darajada koʻrinadi?

ADABIYOTLAR TAHLILI

Darslikni baholashga doir tadqiqotlarda A. Cunningsworth oʻquv materialini faqat mavzular roʻyxati yoki tashqi dizayn orqali emas, oʻquvchi ehtiyoji, til mazmunining tanlanishi, koʻnikmalar nisbati, metodik moslashuvchanlik va amaliy qoʻllanish mezonlari boʻyicha tahlil qilishni taklif etadi [5]. Bu yondashuv talaffuz topshiriqlariga tatbiq etilganda "mashq mavjudmi?" degan savoldan "mashq oʻquvchini eshitishdan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mustaqil nutqqa olib boradimi?" degan savolga o'tishni talab qiladi. Cunningsworthning modeli umumiy darslik bahosiga mos bo'lsa-da, u fonetik komponentlar va talaffuz xatosini aniqlash mexanizmini alohida batafsillashtirmaydi.

B. Tomlinson o'quv materiali o'quvchiga mazmunli tajriba berishi, e'tiborni jalb qilishi, tilni real qo'llashga tayyorlashi va o'qituvchi tomonidan moslashtirishga ochiq bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi [6]. Uning qarashida material tayyor mahsulot emas, o'rganish jarayonida qayta ishlanadigan vositadir. I. McGrath esa darslikni tanlashdan tashqari, undan foydalanish jarayonidagi adaptatsiya va qo'shimcha material yaratishni tizimli bosqich sifatida ko'radi [7]. Mazkur ikki yondashuvning umumiy tomoni shundaki, darslikdagi topshiriq o'quvchilar guruhining aniq ehtiyojini to'liq qoplamasa, o'qituvchi uni qisqartirishi, kengaytirishi, qayta tartiblashi yoki yangi diagnostik element bilan to'ldirishi mumkin.

Talaffuz mazmunini belgilashda M. Celce-Murcia, D.M. Brinton, J.M. Goodwin va B. Grinerning modeli muhim. Mualliflar talaffuzni segmental va suprasegmental birliklarning birligi sifatida talqin qilib, eshitib farqlash, boshqariladigan mashq va kommunikativ qo'llash o'rtasidagi bog'liqlikni asoslaydi [8]. G. Kelly ham o'qituvchi talaffuz muammosini faqat tovushni ko'rsatish bilan hal qila olmasligini, o'quvchi eshitishi, artikulyatsiyani anglashi va shaklni nutqda qo'llashi lozimligini ko'rsatadi [9]. Shu jihatdan darslikdagi "Listen and repeat" zarur boshlanish bo'lsa-da, u yakuniy metodik natija emas.

J.M. Levis talaffuz ta'limining mezoni ona tilida so'zlashuvchiga aynan o'xshashlik emas, balki tushunarlilik va muloqot samaradorligi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi [10, 369–377-b.]. Ushbu g'oya darslik tahlilida muhim farqni yuzaga chiqaradi: fonetik rubrika tovushni mashq qildirishi mumkin, ammo o'sha tovush qisqa savol-javob yoki dialogda tinglovchi tomonidan to'g'ri qabul qilinmasa, ko'nikma hali kommunikativ bosqichga o'tmagan bo'ladi. CEFR Companion Volume fonologik nazoratni tovush

artikulyatsiyasi va prosodik xususiyatlar bilan bog‘laydi, baholashda esa umumiy tushunarlilikni markazga qo‘yadi [16, 133–135-b.].

Bolalar uchun materiallar masalasida L. Cameron topshiriqning qisqa, aniq, ko‘rgazmali va faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘lishini muhim deb hisoblaydi [11]. A. Pinter boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchi tilni harakat, o‘yin, takroriy ritual va ijtimoiy hamkorlik orqali samaraliroq o‘zlashtirishini qayd etadi [12]. J.K. Shin va J. Crandall esa qo‘shiq, ritmik aytim, hikoya, rasm va jismoniy harakatni birlashtiruvchi topshiriqlar nafaqat motivatsiyani, balki tovush shaklini xotirada saqlashni ham qo‘llab-quvvatlashini ko‘rsatadi [13]. Bu qarashlar darslikdagi qo‘shiq va ritmik aytimni bezak sifatida emas, prosodik mashq sifatida ko‘rishga asos beradi.

O‘zbek metodikasida J.J. Jalolov chet til o‘qitish mazmuni, mashqlar tizimi va nutq faoliyati turlarining o‘zaro bog‘liqligini asoslab, til materialini amaliy nutqqa yo‘naltirish zarurligini ta’kidlaydi [14]. A.A. Abduazizovning ingliz va o‘zbek tillari fonetik tizimlariga oid ishlari ikki tildagi tovush tuzilishi bir xil emasligini, o‘rganuvchi uchun qiyin birliklarni tanlashda qiyosiy fonetik tahlil zarurligini ko‘rsatadi [15]. A.E. Rustamovaning maktabgacha yoshdagi bolalarda inglizcha talaffuzni shakllantirishga bag‘ishlangan tadqiqotida erta yosh, taqlid, audio namuna va o‘yinli mashqlarning ahamiyati ochilgan [17]. Biroq maktabgacha bosqichga tegishli xulosalarni maktab darsligiga to‘liq ko‘chirish mumkin emas: 1–4-sinflarda yozuv, o‘qish, sinf bo‘yicha dasturiy izchillik va baholash talablari ham hisobga olinadi.

Adabiyotlar qiyosi uchta metodik bo‘shliqni ko‘rsatdi. Birinchidan, darslikni baholashga doir umumiy mezonlarda talaffuz komponentlari ko‘pincha alohida kodlanmaydi. Ikkinchidan, talaffuz metodikasiga doir ishlarda mashqlar ketma-ketligi batafsil tushuntiriladi, lekin aynan O‘zbekiston maktablarida qo‘llanayotgan 1–4-sinf darsliklarining sinflararo rivoji kam tahlil qilingan. Uchinchidan, topshiriq soni, fonetik nishon va diagnostik imkoniyat odatda birgalikda baholanmaydi. Mazkur maqola shu uch yo‘nalishni bitta tahlil ramkasida birlashtiradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot korpusiga O‘zbekiston uchun 2021-yilda moslashtirilgan “Guess What!” seriyasining 1-, 2-, 3- va 4-sinf Student’s Booklari kiritildi [1–4]. Har bir kitob 110 sahifadan iborat bo‘lib, umumiy hajm 440 sahifani tashkil etdi. Har bir sinf darsligida to‘qqizta asosiy mavzuli bo‘lim mavjud; shunday qilib, sinflararo qiyos uchun 36 ta asosiy bo‘lim tahlil qilindi. Workbook, flashcards, word cards, audio va video materiallar majmuaning tarkibiy qismi sifatida e’tirof etildi, ammo miqdoriy hisob faqat taqdim etilgan Student’s Book matni va topshiriq ko‘rsatmalari bilan chegaralandi.

Tahlil ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda PDF matnlari elektron ko‘rinishda ajratilib, talaffuzga aloqador topshiriq ko‘rsatmalari kalit birikmalar bo‘yicha qidirildi. Ikkinchi bosqichda topilgan holatlar darslik sahifalarida qo‘lda tekshirildi, topshiriqning vazifasi va yonidagi vizual hamda nutqiy material bilan birga talqin qilindi. Elektron sanash natijasi faqat ko‘rsatma iborasining uchrash chastotasini bildirdi; bir topshiriqda ikki kod bir vaqtda uchrashi mumkinligi sababli ustunlar umumiy mashqlar soni sifatida qo‘shilmadi.

Kodlash mezonlari yetti guruhdan tuzildi: 1) maxsus fonetik rubrika va uning nishoni; 2) retseptiv topshiriqlar — eshitish va tovush shaklini tanish; 3) imitatsion-reproduktiv topshiriqlar — aytish va takrorlash; 4) prosodik-musiqiy topshiriqlar — ritmik aytim va qo‘shiq; 5) kommunikativ topshiriqlar — savol-javob va dialog; 6) integrativ topshiriqlar — o‘qish, tinglash va ijro etish; 7) diagnostik-refleksiv vositalar — xatoni aniqlash, o‘zini yoki juftini mezon asosida baholash. Darsliklar sinf, topshiriq turi, fonetik nishon va kutiladigan nutqiy amal bo‘yicha qiyoslandi.

Tadqiqot tavsifiy kontent-tahlil va qiyosiy-pedagogik tahlil xususiyatiga ega. Chastotalar darslik tuzilishidagi ustuvorlikni ko‘rsatish uchun ishlatildi, sifat tahlili esa mashqning talaffuzga qanday xizmat qilishini izohladi. Natijalarning ishonchliligini oshirish maqsadida maxsus fonetik rubrikalar joylashgan sahifalar vizual tekshirildi.

Tahlil audio fayllarning akustik sifati yoki darsda o‘qituvchi tomonidan qanday qo‘llanganini baholamaydi; bu holat tadqiqotning chegarasi sifatida qabul qilindi.

NATIJALAR

3.1. Fonetik materialning sinflar bo‘yicha murakkablashuvi

To‘rtta darslikning har birida talaffuz uchun muntazam maxsus rubrika ajratilgan. 1–2-sinflarda u “Animal sounds”, 3–4-sinflarda esa “Say it!” nomi bilan berilgan. Har bir sinfdagi to‘qqizta asosiy bo‘limda bittadan fonetik nishon mavjud. Demak, korpus bo‘yicha jami 36 ta ochiq fonetik markaz aniqlandi. Rubrika nomining o‘zgarishi ham metodik siljishni ifodalaydi: dastlab tovush hayvon obrazi, rang va sodda gap bilan esda qoldirilsa, keyinchalik o‘quvchi harf birikmasini yaxlit gap ichida aytadi.

1-jadval. Darsliklardagi ochiq fonetik materialning rivojlanishi

Sinf	Rubrika	9 bo‘limdagi fonetik nishonlar	Metodik yo‘nalish
1-sinf	Animal sounds	p; a; d; t; b; i; e; u; o	Alohida harf-tovush bog‘lanishi, alliteratsiya va qisqa obrazli gap.
2-sinf	Animal sounds	g–h; f–v; j–y; r–l; m–n; s–z; c–k; qu–x; w–wh	Undosh juftliklari va yozuvdagi turli ifodalarni qiyosiy idrok etish.
3-sinf	Say it!	ue/ew/oo; ee/ea; a/ai; i/igh; oa/ow; th; sh; ch; ph/f	Unli va undosh digraflari, bir tovushning turli grafemalarda ifodalanishi.
4-sinf	Say it!	ow/ou; oy/oi; ur/ir; cr; ar; ck; nd; fr; sp	Murakkab harf birikmalari, so‘z ichidagi undosh klasterlari va ravon aytish.

Manba: 1–4-sinf Student’s Booklaridagi “Animal sounds” va “Say it!” rubrikalari asosida muallif tomonidan tuzildi [1–4].

1-jadval 1-sinfdan 4-sinfgacha oddiydan murakkabga yo‘nalgan fonetik izchillik mavjudligini ko‘rsatadi. 1-sinfda p, a, d, t kabi alohida belgilar va ularning tovush qiymati sodda alliterativ gaplarda mustahkamlanadi. 2-sinfda ikkita belgi yonma-yon qo‘yilib, masalan, r–l yoki w–wh kabi birliklarga e’tibor qaratiladi. 3-sinfda “ee/ea”, “i/igh”, “oa/ow” kabi grafik variantlar hamda “th”, “sh”, “ch” singari digraflar paydo bo‘ladi. 4-sinfda “cr”, “nd”, “fr”, “sp” kabi undosh klasterlariga o‘tilishi o‘quvchidan alohida tovushni aytishdan ko‘ra tovushlar ketma-ketligini ravon birlashtirishni talab qiladi.

Mazkur ketma-ketlikning kuchli tomoni grafik shakl va audio namunaning muntazam bog‘lanishidir. Biroq fonetik nishonlar asosan segmental darajada tanlangan. So‘z urg‘usi, gap urg‘usi yoki intonatsiya uchun shunga o‘xshash alohida, nomlangan va sinflar bo‘yicha rivojlanadigan rubrika kuzatilmadi. Natijada prosodik ko‘nikma keyingi mashqlar tarkibida bilvosita yuzaga keladi va uning sifati o‘qituvchi beradigan namuna hamda qayta aloqa bilan bevosita bog‘liq bo‘lib qoladi.

3.2. Talaffuzga xizmat qiluvchi topshiriq turlari

Darsliklarda talaffuz faqat maxsus fonetik rubrika bilan cheklanmagan. Tinglash, aytish, ritmik aytim, qo‘shiq, savol-javob va dialog topshiriqlari ham tovush shaklini eshitish, qayta yaratish va nutqiy vaziyatda qo‘llashga xizmat qiladi. Topshiriq ko‘rsatmalarining chastotasi sinflar o‘rtasidagi metodik siljishni ko‘rsatadi.

2-jadval. Talaffuzga aloqador topshiriq ko‘rsatmalarining uchrash chastotasi

Topshiriq ko‘rsatmasi	1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf
Listen, point, and say/repeat	12	9	9	9
Listen and say	32	29	16	12
Listen and repeat	0	0	54	54
Look and say	15	13	0	0

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Topshiriq ko‘rsatmasi	1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf
Say/repeat the chant	9	9	18	18
Sing the song	9	9	9	9
Ask and answer	5	10	23	22
Read and listen	0	0	14	14
Listen and repeat. Then act	0	0	9	9

Izoh: sonlar elektron matnda aniqlanib, darslik sahifalarida tekshirilgan ko‘rsatma iboralari chastotasidir. Ayrim topshiriqlar ikki kodga mos kelgani sababli satrlar umumiy mashqlar soni sifatida qo‘shilmaydi. 1–2-sinflarda “Listen and repeat” funksiyasi ko‘pincha “Listen and say” shaklida ifodalangan.

1–2-sinflarda “Listen and say” hamda “Look and say”ning ko‘pligi o‘quvchining rasm, audio namuna va og‘zaki taqlidga tayanganini ko‘rsatadi. Bu yoshda o‘qish ko‘nikmasi endigina shakllanayotgani uchun topshiriqning ko‘rish va eshitishni birlashtirishi asosli. “Listen and repeat” iborasining 1–2-sinf matnida uchramagani takrorlash yo‘q degani emas; ayni faoliyat “Listen and say” ko‘rsatmasi bilan tashkil etilgan. Shuning uchun tahlilda termin chastotasi va pedagogik funksiya bir-biridan farqlandi.

3–4-sinflarda “Ask and answer”, “Read and listen” hamda “Listen and repeat. Then act” topshiriqlarining ko‘payishi talaffuzni yakka takrordan dialog va ijroga ko‘chirish imkonini kengaytiradi. O‘quvchi matnni ko‘radi, audio namunani eshitadi, gapni takrorlaydi va personaj rolida ijro etadi. Bu ketma-ketlik segmental aniqlik bilan birga gap ohangi, ritm va pauzani ham tabiiyroq mashq qilishga sharoit yaratadi. Ayniqsa, savol-javoblarning 1-sinfdagi 5 holatdan 3–4-sinflarda 22–23 holatga yetishi kommunikativ faollikning bosqichma-bosqich ortganini ko‘rsatadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Qo‘shiq barcha sinflarda muntazam, ritmik aytim esa har bir asosiy bo‘limda takrorlanadi. 3–4-sinflarda ritmik aytim ko‘rsatmasining 18 marta qayd etilishi uning bo‘lim ichidagi va yakuniy jamlanmadagi takroriy berilishi bilan bog‘liq. Bunday qaytish fonetik shaklni mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, darslik o‘qituvchidan qaysi urg‘uli bo‘g‘in, qaysi intonatsion burilish yoki qayerdagi pauzaga e’tibor qaratishni har doim ham alohida belgilamaydi. Demak, qo‘shiq va ritmik aytimning prosodik qiymati o‘qituvchi ularni maqsadli talaffuz mashqiga aylantirgandagina to‘liq namoyon bo‘ladi.

3.3. Darsliklarning didaktik imkoniyati va aniqlangan bo‘shliqlar

Tahlil natijalari darsliklarda talaffuzning uch darajasi mavjudligini ko‘rsatdi. Birinchi daraja — fonetik nishonni ajratish va audio namuna bilan bog‘lash. Ikkinchi daraja — nishonni so‘z, gap, ritmik aytim va qo‘shiqda takrorlash. Uchinchi daraja — savol-javob, dialog yoki rolli ijroda qo‘llash. Bunday tuzilish Celce-Murcia va hammualliflar taklif qilgan eshitishdan kommunikativ qo‘llashga o‘tish mantiqiga qisman mos keladi [8]. Biroq ketma-ketlikda boshlang‘ich diagnostika va natijadan keyingi refleksiya aniq ko‘rinmaydi.

3-jadval. Talaffuz komponentlarining darsliklarda yoritilishi va to‘ldirish yo‘li

Tahlil komponenti	Darslikdagi holat	Metodik to‘ldirish
Tovush va harf-tovush bog‘lanishi	Barcha sinflarda maxsus rubrika orqali ochiq va izchil berilgan.	Qiyin tovushlarni ona tili bilan qiyoslash, artikulyatsion ko‘rsatma berish.
Fonematik eshituv	Audio tinglash mavjud, ammo o‘xshash tovushni tanlash har doim alohida emas.	Minimal juftlik, ortiqcha so‘zni topish va eshitib belgilash topshiriqlari.

Tahlil komponenti	Darslikdagi holat	Metodik to‘ldirish
So‘z va gap urg‘usi	Qo‘shiq, ritmik aytim va dialogda bilvosita namoyon bo‘ladi.	Urg‘uli bo‘g‘inni belgilash, chapak yoki ritm chizig‘i bilan ko‘rsatish.
Intonatsiya, ritm va pauza	Audio va ijro topshiriqlarida mavjud, alohida mezon sifatida kam ochilgan.	Ohang yo‘nalishi, mazmuniy pauza va savol-javob intonatsiyasini ajratish.
Kommunikativ qo‘llash	3–4-sinflarda savol-javob, dialog va rolli ijro orqali kuchayadi.	Fonetik nishonni saqlagan holda yangi vaziyatda qisqa erkin dialog tuzish.
Diagnostika va refleksiya	Maxsus talaffuz kartasi, o‘zini va juftini baholash mezoni ochiq berilmagan.	Audio portfel, kuzatuv varag‘i, mezonli o‘zaro baholash va qayta yozib olish.

Manba: darslik topshiriqlari [1–4] va talaffuz metodikasiga oid mezonlar [8–10; 16] asosida muallif tomonidan tuzildi.

Darsliklarning eng kuchli didaktik jihati — muntazamlik va multimodallik. Fonetik nishon bir marotaba nazariy izoh bilan cheklanmaydi; u rasm, audio, gap, ritm, qo‘shiq yoki dialog bilan bog‘lanadi. Bunday tuzilish boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilarning qisqa diqqat, taqlid, harakat va obrazga ehtiyojiga mos keladi [11–13]. Bundan tashqari, sinflararo murakkablashuv darsliklar o‘rtasida uzviylik borligini ko‘rsatadi.

Asosiy bo‘shliq diagnostik aniqlik bilan bog‘liq. Student’s Bookda o‘quvchi [θ] tovushini [s] yoki [t] bilan, [ð] tovushini [z] yoki [d] bilan, [w] tovushini [v] bilan almashtirayotganini aniqlashga mo‘ljallangan muntazam topshiriqlar tizimi ko‘rinmaydi. “Th” yoki “w/wh” rubrikasining mavjudligi muammoni ko‘rsatadi, ammo xatoning turini aniqlash, individual mashq tanlash va keyingi natijani qayta o‘lchash

uchun qo‘shimcha vosita kerak. O‘zbek va ingliz tillarining fonetik farqlarini hisobga olish aynan shu bosqichda zarur [15].

Ikkinchi bo‘shliq segmental va prosodik mazmun nisbati bilan bog‘liq. Tovush va grafemalar nomlangan, sahifada ko‘zga tashlanadi va bo‘limlar bo‘yicha aniq taqsimlangan. Urg‘u, intonatsiya, ritm va pauza esa asosan audio namunaning ichida qoladi. O‘quvchi eshitgan ohangni taqlid qilishi mumkin, biroq nimaga e’tibor qaratganini anglamasa, yangi gapda shu xususiyatni mustaqil qo‘llash qiyinlashadi. Shu sababli o‘qituvchi prosodik nishonni sodda belgi — urg‘uli bo‘g‘in ostiga chiziq, ohang strelkasi, ritm kataklari yoki pauza belgisi orqali ko‘rsatishi maqsadga muvofiq.

MUHOKAMA

Natijalar darsliklar talaffuzni alohida mavzu sifatida chetga surmaganini, aksincha, har bir asosiy bo‘limda qayta uchraydigan tizimli elementga aylantirganini ko‘rsatdi. Bu darslikka qo‘yiladigan muntazamlik, darajalanish va ko‘nikmalar integratsiyasi talablariga mos keladi [5–7]. Ayniqsa, 1–2-sinflardagi ko‘rish-eshitish-taqlid zanjiri hamda 3–4-sinflardagi o‘qish-tinglash-takrorlash-ijro zanjiri yosh imkoniyatlariga mos qurilgan. Shu ma’noda majmua o‘qituvchiga tayyor metodik tayanch beradi.

Biroq darslikdagi ko‘p sonli takrorlash topshirig‘i avtomatik ravishda talaffuz sifati oshishini bildirmaydi. O‘quvchi noto‘g‘ri eshitgan yoki noto‘g‘ri artikulyatsiya qilgan birlikni ko‘p marta takrorlasa, xato mustahkamlanishi ham mumkin. Kelly va Celce-Murcia hammualliflarining qarashlariga ko‘ra, samarali mashq eshitib ajratish, artikulyatsiyani anglash, nazoratli aytish va kommunikativ qo‘llashni birlashtirishi kerak [8; 9]. Darslik topshiriqlarida bu bosqichlarning ayrimlari mavjud, ammo ular har doim diagnostika natijasiga qarab tanlanmagan.

Shu sababli darslikni o‘zgartirishdan ko‘ra, undan foydalanish algoritmini aniqlashtirish amaliy jihatdan maqbulroq. Masalan, “Listen and repeat” topshirig‘i oldidan o‘qituvchi ikki so‘zni eshittirib, o‘quvchiga maqsadli tovushni farqlatadi; keyin og‘iz va til holatini ko‘rsatadi; darslikdagi audio namuna asosida xor va individual

takrorlashni tashkil etadi; so‘ng “Ask and answer” yoki mini-dialogda shu birlikning saqlanishini tekshiradi. Oxirida o‘quvchi qisqa audio yozuvini dastlabki namuna bilan taqqoslaydi. Bitta darslik topshirig‘i shu tariqa diagnostika va refleksiya bilan to‘ldiriladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, to‘rt bosqichli qo‘shimcha ish tavsiya etiladi. Birinchi bosqichda 30–60 soniyalik eshitib farqlash topshirig‘i o‘tkaziladi. Ikkinchi bosqichda darslikdagi maxsus fonetik rubrika va audio namuna bilan ishlanadi. Uchinchi bosqichda ritmik aytim, qo‘shiq yoki dialog orqali tovush urg‘u va intonatsiya bilan birlashtiriladi. To‘rtinchi bosqichda o‘quvchi yangi nutqiy vaziyatda qisqa gap aytadi va bir aniq mezon bo‘yicha o‘zini yoki juftini baholaydi. Mezonlar sonining kamligi kichik yosh uchun muhim: bir topshiriqda “tovush aniq aytildimi?” yoki “savol ohangi saqlandimi?” kabi bitta kuzatiladigan belgi yetarli.

Darslik tahlili shuningdek o‘quv-metodik majmua qismlarini o‘zaro bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi. Student’s Book fonetik nishon va asosiy nutqiy vaziyatni beradi; audio va video to‘g‘ri namuna yaratadi; flashcards hamda word cards tezkor farqlash va guruhlashga xizmat qiladi; Workbook esa mustaqil mustahkamlash uchun ishlatilishi mumkin. O‘qituvchi ushbu vositalarni bitta diagnostik maqsad atrofida birlashtirsa, majmua tarkibiy qismlari tarqoq resurs emas, izchil metodik tizimga aylanadi.

Natijalarni talqin qilishda ikki cheklov hisobga olinishi kerak. Birinchidan, maqola faqat Student’s Booklarning yozma va vizual tuzilishini o‘rgandi; audio yozuvlarning fonetik sifati, Workbookdagi mashqlar va o‘qituvchining real darsdagi adaptatsiyasi alohida empirik tahlilni talab qiladi. Ikkinchidan, topshiriq ko‘rsatmasi chastotasi ta’lim samaradorligining bevosita o‘lchovi emas. Keyingi tadqiqotlarda mazkur darsliklar asosida tashkil etilgan darslar kuzatilib, o‘quvchilarning tovush aniqligi, urg‘u, intonatsiya, ritm va nutqiy vaziyatda qo‘llash ko‘rsatkichlari bilan bog‘lanishi lozim.

XULOSA

1–4-sinf “Guess What!” Student’s Booklari tahlili talaffuz materiali darsliklarda muntazam, ko‘rgazmali va sinflar bo‘yicha izchil berilganini ko‘rsatdi. Har bir sinfdagi

to‘qqizta maxsus fonetik rubrika alohida harf-tovush bog‘lanishidan undosh juftliklari, digraflar va murakkab klasterlargacha bo‘lgan rivojlanishni ta’minlaydi. Tinglash, aytish, ritmik aytim va qo‘shiq boshlang‘ich bosqichda ustun bo‘lsa, 3–4-sinflarda savol-javob, o‘qib-tinglash va rolli ijro talaffuzni muloqotga ko‘chirish imkonini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, darsliklardagi ochiq fonetik mazmun asosan segmental birliklarga qaratilgan. So‘z va gap urg‘usi, intonatsiya, ritm va pauza qo‘shiq, ritmik aytim va dialoglarda mavjud bo‘lsa-da, mustaqil nishon va baholash mezoni sifatida yetarlicha aniqlashtirilmagan. Talaffuz xatosining turini belgilash, boshlang‘ich va takroriy diagnostika, o‘zini hamda juftini baholash vositalari ham o‘qituvchi tomonidan qo‘shimcha tashkil etilishi kerak.

Shuning uchun darslik topshiriqlaridan samarali foydalanish “diagnostika — eshitib farqlash — artikulyatsiya — darslik asosidagi mashq — nutqiy qo‘llash — refleksiya” ketma-ketligida qurilishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv darslikning mavjud kuchli tomonlarini saqlaydi, shu bilan birga o‘zbek o‘quvchilariga xos fonetik qiyinchiliklar va prosodik ko‘nikmalarni maqsadli nazorat qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Reed S., Bentley K.; Koustaff L. (series ed.). Guess What! Student’s Book 1 — Grade 1. Uzbekistan edition. Cambridge: Cambridge University Press, 2021. 110 p. ISBN 978-9943-7470-4-3.

2. Reed S., Bentley K.; Koustaff L. (series ed.). Guess What! Student’s Book 2 — Grade 2. Uzbekistan edition. Cambridge: Cambridge University Press, 2021. 110 p. ISBN 978-9943-7470-7-4.

3. Reed S., Bentley K.; Koustaff L. (series ed.). EFL Guess What! Grade 3 Student’s Book. Uzbekistan edition. Cambridge: Cambridge University Press, 2021. 110 p. ISBN 978-9943-7471-0-4.

4. Reed S., Bentley K.; Koustaff L. (series ed.). EFL Guess What! Student’s Book 4 — Grade 4. Uzbekistan edition. Cambridge: Cambridge University Press, 2021. 110 p. ISBN 978-9943-7471-3-5.

5. Cunningsworth A. Choosing Your Coursebook. Oxford: Heinemann, 1995. 153 p.

6. Tomlinson B. (ed.). Materials Development in Language Teaching. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2011. 472 p.

7. McGrath I. Materials Evaluation and Design for Language Teaching. 2nd ed. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2016. 356 p.
8. Celce-Murcia M., Brinton D.M., Goodwin J.M., Griner B. Teaching Pronunciation: A Course Book and Reference Guide. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
9. Kelly G. How to Teach Pronunciation. Harlow: Longman, 2000. 154 p.
10. Levis J.M. Changing contexts and shifting paradigms in pronunciation teaching // TESOL Quarterly. 2005. Vol. 39, No. 3. P. 369–377. https://doi.org/10.2307/3588485.
11. Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. Cambridge: Cambridge University Press, 2001. 258 p.
12. Pinter A. Teaching Young Language Learners. 2nd ed. Oxford: Oxford University Press, 2017.
13. Shin J.K., Crandall J. Teaching Young Learners English: From Theory to Practice. Boston: National Geographic Learning/Cengage Learning, 2014.
14. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2012. 432 b.
15. Abduazizov A.A. Ingliz tili fonetikasi. Toshkent: Musiqa, 2007.
16. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment — Companion Volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. 278 p.
17. Rustamova A.E. Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tilini o'qitishda talaffuzni shakllantirish va rivojlantirish (ingliz tili materialida): pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Samarqand, 2021.

ODDIY VA PATOLOGIK SHAROITDA SPORTCHILARNING ASAB TIZIMI XUSUSIYATLARI

Raximova Yulduzxon Ergashevna
Farg'ona davlat universiteti Jismoniy tarbiya va adaptiv sport nazariyasi kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari nomzodi
bebbizonson@gmail.com
+998908484244
ORCID ID 0009-0007-0837-9907

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sportchilar asab tizimining jismoniy faoliyat sharoitidagi funksional xususiyatlari, organizmning jismoniy yuklamalarga moslashish mexanizmlari hamda ortiqcha zo'riqish, surunkali charchash, ruhiy stress va nevrologik shikastlanishlar natijasida yuzaga keladigan patologik o'zgarishlar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *sport tibbiyoti, asab tizimi, markaziy asab tizimi, jismoniy yuklama, harakat koordinatsiyasi, vegetativ boshqaruv.*

CHARACTERISTICS OF THE NERVOUS SYSTEM OF ATHLETES IN NORMAL AND PATHOLOGICAL CONDITIONS

Annotation. *This article analyzes the functional characteristics of the nervous system in the conditions of physical activity of athletes, the mechanisms of adaptation of the body to physical loads, as well as pathological changes caused by overexertion, chronic fatigue, mental stress and neurological damage.*

Keywords: *sports medicine, nervous system, central nervous system, physical load, motor coordination, autonomic control.*

ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ НЕРВНОЙ СИСТЕМЫ СПОРТСМЕНОВ В НОРМЕ И ПРИ ПАТОЛОГИИ

Аннотация. *В статье анализируются функциональные особенности нервной системы спортсменов в условиях физической нагрузки, механизмы адаптации организма к физическим нагрузкам, а также патологические изменения, возникающие в результате перенапряжения, хронического утомления, психического стресса и неврологических повреждений.*

Ключевые слова: *спортивная медицина, нервная система, центральная нервная система, физическая нагрузка, координация движений, вегетативный контроль.*

KIRISH

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Zamonaviy sportda yuqori natijalarga erishish sportchining jismoniy kuchi, tezligi va chidamliligigagina emas, balki asab tizimining funksional imkoniyatlari, harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyati, diqqat barqarorligi va organizmning o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish darajasiga ham bog‘liq. Asab tizimi organizmdagi barcha fiziologik jarayonlarni o‘zaro muvofiqlashtirib, tashqi muhitdan keladigan axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va tegishli javob reaksiyasini shakllantirishni ta’minlaydi. Ayniqsa, sport faoliyatida harakatlarning aniqligi, reaksiya tezligi, muvozanatni saqlash va murakkab vaziyatlarda tez qaror qabul qilish asab tizimining samarali faoliyati bilan chambarchas bog‘liq.

Sport mashg‘ulotlari organizm uchun muayyan darajadagi fiziologik stress hisoblanadi. Oqilona rejalashtirilgan jismoniy yuklamalar asab-mushak boshqaruvining takomillashishiga, harakat ko‘nikmalarining mustahkamlanishiga va organizmning funksional imkoniyatlari ortishiga yordam beradi. Biroq yuklamaning me’yoridan oshishi, tiklanishning yetarli bo‘lmasligi, uyqu buzilishi, energiya va oziq moddalarining yetishmasligi hamda doimiy ruhiy bosim organizmning moslashuv imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shu sababli sportchilarning asab tizimini o‘rganish nafaqat sport natijalarini yaxshilash, balki kasalliklar va jarohatlarning oldini olish nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi oddiy fiziologik va patologik sharoitlarda sportchilar asab tizimining faoliyatini tahlil qilish, jismoniy yuklamalarga moslashish mexanizmlarini yoritish hamda asab tizimi salomatligini saqlashga qaratilgan profilaktik yondashuvlarni asoslashdan iborat.

METODOLOGIYA

Asab tizimining tuzilishi va funksional faoliyati sportchining harakat imkoniyatlarini belgilovchi asosiy biologik mexanizmlardan biridir. Markaziy asab tizimi bosh miya va orqa miyadan, periferik asab tizimi esa nervlar va nerv tugunlaridan tashkil topgan. Bosh miya harakatlarni rejalashtirish, vaziyatni baholash, diqqat va qaror

qabul qilish jarayonlarida qatnashadi. Miyacha harakatlarning aniqligi, muvozanat va koordinatsiyani ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Orqa miya esa reflektor faoliyat va nerv impulslarining o'tkazilishida ishtirok etadi. Somatik asab tizimi skelet mushaklari faoliyatini boshqarishda, vegetativ asab tizimi esa yurak-qon tomir, nafas olish, hazm qilish va boshqa ichki fiziologik jarayonlarni muvofiqlashtirishda qatnashadi.

Sport faoliyatida harakat oddiy mushak qisqarishi bilan cheklanmaydi. Har qanday maqsadli harakat sezgi a'zolari orqali axborotni qabul qilish, markaziy asab tizimida uni tahlil qilish, tegishli motor buyruqlarni shakllantirish va mushaklar faoliyatini boshqarish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Harakat davomida mushaklar, paylar va bo'g'imlardan kelayotgan qayta aloqa axboroti harakatning aniqligini nazorat qilish imkonini beradi. Masalan, futbolchi to'pning tezligi va yo'nalishini baholab, tana holatini o'zgartiradi va zarur harakatni amalga oshiradi. Boks, gimnastika, kurash va boshqa sport turlarida ham sezgi axborotlarini tez qayta ishlash, vaziyatni oldindan baholash va muvofiqlashgan harakat bajarish sport mahoratining muhim tarkibiy qismidir.

Oddiy fiziologik sharoitda muntazam, bosqichma-bosqich oshirib boriladigan va sportchining individual imkoniyatlariga moslashtirilgan mashg'ulotlar asab-mushak tizimining samaradorligini oshirishi mumkin. Takroriy texnik mashqlar natijasida harakat ko'nikmalari mustahkamlanadi, mushak guruhlarining o'zaro muvofiqlashuvi takomillashadi va ortiqcha harakatlar kamayadi. Shartli reflekslar hamda harakat stereotiplarining shakllanishi sportchiga murakkab texnik elementlarni nisbatan barqaror bajarish imkonini beradi. Biroq bunday ko'nikmalar o'zgarmas holat emas: charchash, ruhiy zo'riqish, uyqusizlik va diqqatning pasayishi harakat aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Asab tizimining funksional holati sportchining reaksiya tezligida ham namoyon bo'ladi. Reaksiya vaqti tashqi signalni sezish, uni markaziy asab tizimida qayta ishlash, qaror qabul qilish va harakatni boshlash uchun sarflangan vaqt bilan belgilanadi.

Sportchining tajribasi, mashq turi, diqqat darajasi, charchash holati va vaziyatning murakkabligi ushbu ko‘rsatkichga ta’sir etadi. Shu bilan birga, sport natijasini faqat reaksiya vaqtiga qarab baholash mumkin emas, chunki harakatning aniqligi, qaror sifatining yuqoriligi va vaziyatni oldindan anglash qobiliyati ham katta ahamiyatga ega.

Jismoniy yuklama vaqtida vegetativ asab tizimi faoliyatida ham muhim o‘zgarishlar yuz beradi. Simpatik boshqaruvning faollashishi yurak urish tezligining ortishi, qon aylanishining qayta taqsimlanishi va ishlayotgan mushaklarning energiya hamda kislorod bilan ta’minlanishiga xizmat qiladi. Yuklama tugagach, tiklanish jarayonida parasimpatik boshqaruvning roli ortadi. Yurak urish tezligining tiklanish dinamikasi sportchining tayyorgarligi, yuklama darajasi, suyuqlik holati, uyqu sifati va boshqa omillarga bog‘liq. Shuning uchun vegetativ ko‘rsatkichlarni baholashda bir martalik natijadan ko‘ra, standart sharoitda olingan takroriy o‘lchovlar va sportchining individual ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash muhimroqdir.

Fiziologik moslashuvning samaradorligi yuklama va tiklanish o‘rtasidagi muvozanatga bog‘liq. Yetarli dam olish bilan uyg‘unlashtirilgan mashg‘ulotlar sportchining ish qobiliyatini rivojlantirishi mumkin. Aksincha, yuklamaning muntazam ravishda tiklanish imkoniyatidan oshib ketishi charchashning to‘planishiga, sport natijalarining pasayishiga va umumiy salomatlikning yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatlarda diqqatning susayishi, harakat koordinatsiyasining buzilishi, odatdagi mashqlarni bajarish qiyinlashishi, uyqu va kayfiyat o‘zgarishlari kuzatiladi. Ushbu belgilar ortiqcha yuklama bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, biroq ularni faqat asab tizimi charchashi bilan izohlash to‘g‘ri emas. Kamqonlik, infeksiyalar, energiya yetishmovchiligi, endokrin buzilishlar va boshqa kasalliklar ham o‘xshash belgilarni keltirib chiqarishi mumkin.

Patologik sharoitlarda asab tizimining faoliyati jismoniy yoki ruhiy zo‘riqish, travmatik ta’sirlar, ayrim kasalliklar va organizmning ichki muhitidagi o‘zgarishlar natijasida buzilishi mumkin. Sportda alohida e’tibor talab qiladigan holatlardan biri bosh

miya jarohatlaridir. Boshga zarba, to‘qnashuv yoki yiqilish natijasida miya chayqalishi yuz berishi mumkin. Bunda bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, ko‘ngil aynishi, muvozanatning buzilishi, diqqat va xotira bilan bog‘liq qiyinchiliklar kuzatiladi. Hushdan ketishning yo‘qligi miya chayqalishini inkor etmaydi. Bosh miya jarohatiga shubha tug‘ilganda sportchini mashg‘ulotdan darhol chetlatish, tibbiy baholashdan o‘tkazish va tegishli mutaxassis ruxsatisiz sportga qaytarmaslik zarur.

Periferik nervlarning siqilishi, cho‘zilishi yoki bevosita shikastlanishi ham sportchilarda uchraydigan muammolardandir. Bunday holatlarda og‘riq, uvishish, sezuvchanlikning pasayishi yoki mushak kuchsizligi paydo bo‘lishi mumkin. Belgilarning keskin boshlanishi, kuchayib borishi yoki harakatning sezilarli cheklanishi tibbiy tekshiruvni talab qiladi. Shuningdek, jismoniy yuklama, issiq muhit, suvsizlanish va ayrim kasalliklar vegetativ boshqaruvga ta’sir etib, bosh aylanishi, holsizlik yoki yurak urishining o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday belgilarni avtomatik ravishda vegetativ asab tizimi buzilishi deb baholash mumkin emas; yurak-qon tomir va boshqa sabablarni ham tekshirish lozim.

Sportchining ruhiy holati asab tizimi faoliyatining ajralmas tarkibiy qismidir. Musobaqa oldidagi hayajon ma’lum darajada tabiiy bo‘lib, ayrim vaziyatlarda diqqat va faollikni oshirishi mumkin. Ammo haddan tashqari xavotir, uzoq davom etadigan stress, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish va uyquning buzilishi qaror qabul qilish hamda harakatlarni aniq bajarish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ruhiy zo‘riqish jismoniy charchash bilan birga kechganda tiklanish jarayoni yanada murakkablashishi mumkin. Shu bois sport tayyorgarligida psixologik barqarorlikni rivojlantirish, dam olish vaqtini ta’minlash, mashg‘ulot va musobaqa talablarini muvozanatlash muhimdir.

Asab tizimi salomatligini baholashda klinik kuzatuv va funksional sinamalar bir-birini to‘ldiradi. Shifokor sportchining shikoyatlarini, nevrologik holatini, mushak kuchi va sezuvchanligini, reflekslarini hamda koordinatsiyasini tekshirishi mumkin. Romberg sinamasi muvozanatni, barmoq-burun va tovon-tizza sinamalari esa ayrim

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

koordinatsion funksiyalarni baholashda qo‘llanadi. Reaksiya vaqtini aniqlash uchun standartlashtirilgan qurilmalar yoki testlardan foydalanish mumkin. Ortostatik sinama esa yotgan holatdan tik turgan holatga o‘tganda yurak urishi va qon bosimining o‘zgarishini kuzatishga yordam beradi. Biroq ushbu sinamalarning hech biri alohida holda barcha nevrologik yoki vegetativ buzilishlarni aniqlay olmaydi. Natijalar sportchining yoshi, tayyorgarlik darajasi, individual xususiyatlari va boshqa klinik ma’lumotlar bilan birgalikda baholanishi kerak.

Sport dietologiyasi asab tizimining faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda muhim o‘rin tutadi. Sportchining energiyaga bo‘lgan ehtiyoji qoplanmasligi, uzoq davom etadigan cheklovchi parhezlar va yetarli ovqatlanmaslik charchash, tiklanishning yomonlashishi hamda kayfiyat o‘zgarishlariga olib kelishi mumkin. Uglevodlar jismoniy faoliyat uchun muhim energiya manbai bo‘lsa, oqsillar to‘qimalarning tiklanishi va yangilanishida, yog‘lar esa hujayra tuzilmalari va energiya almashinuvida ishtirok etadi. Vitaminlar va minerallar asab tizimi hamda boshqa fiziologik jarayonlarning me’yorida kechishi uchun zarur. Masalan, ayrim vitaminlar yoki temir yetishmovchiligi holsizlik va ish qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Biroq alomatlarning o‘zi muayyan modda yetishmovchiligini isbotlamaydi; zarur hollarda laborator tekshiruv va mutaxassis bahosi talab etiladi.

Farmakologik vositalardan foydalanishda ham alohida ehtiyotkorlik zarur. Uyqu chaqiruvchi, tinchlantiruvchi yoki rag‘batlantiruvchi preparatlar reaksiya tezligi, diqqat, muvozanat va boshqa funksiyalarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun sportchi o‘zicha dori vositalarini qabul qilmasligi, har qanday preparatni shifokor bilan kelishishi va amaldagi antidoping qoidalariga rioya qilishi kerak. Sport natijalarini tez oshirish maqsadida nazoratsiz farmakologik vositalardan foydalanish sog‘liq uchun xavf tug‘dirishi mumkin. Asab tizimi salomatligini saqlashning asosiy yo‘li preparatlar bilan cheklanmaydi; yuklamani oqilona rejalashtirish, uyqu, to‘g‘ri ovqatlanish, suyuqlik muvozanati va sifatli tiklanish birgalikda ta’minlanishi lozim.

XULOSA

Shunday qilib, sportchilarda asab tizimining funksional holatini nazorat qilish kompleks yondashuvni talab qiladi. Mashg‘ulot jarayonida harakat sifati, subyektiv charchash, uyqu, kayfiyat va sport natijalaridagi o‘zgarishlarni kuzatish muhim profilaktik ahamiyatga ega. Belgilar uzoq davom etsa, kuchaysa yoki nevrologik shikastlanishdan shubha tug‘ilsa, ularni oddiy charchash deb qabul qilmasdan, malakali tibbiy ko‘rikdan o‘tish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayrapetyans L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. va texnologiya, 2012. 208 b.
2. Allamuratov Sh.I. Fiziologiya va sport fiziologiyasi. : T.: Fan T.: Turon-Iqbol, 2010. 216 b.
3. Boltayev Z.B. Voleybol nazariyasi va uslubiyati.
4. Bairbekov M.G. Sport maxoratini oshirish (Voleybol). 160 b.
5. Mamajonovna, R. S. (2023). FEATURES OF PRACTICAL PHYSICAL TRAINING OF ADOLESCENT STUDENTS. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(4), 2371-2375.
6. Tukhtaeva, N., Sodiqova, D., & Aripova, Y. Swarm Intelligence-Based Decentralized Mobile Learning Networks for Collaborative E-Learning Optimization in Large-Scale Systems.
7. Борисенко, Е. Г. (2024). АНАЛИЗ ПРАКТИЧЕСКИХ РЕКОМЕНДАЦИЙ ПО ОЗДОРОВЛЕНИЮ СРЕДСТВАМИ ФИТНЕСА. *ББК 75 А13*, 113.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJOBIY PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA TALABALARNING O'QUV-BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

To`raqulova Azizaxon Nosirjon qizi
Andijon davlat tibbiyot instituti
"O`zbek tili va adabiyoti, tillar" kafedrasi o`qituvchisi
azizaturakulova@icloud.com

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta'lim muassasalarida ijobiy psixologik muhitni shakllantirish orqali talabalarning o'quv-bilish faolligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari nazariy va metodik jihatdan asoslanadi. Ijobiy psixologik muhitning mazmuni, tarkibiy qismlari va o'quv-bilish faolligiga ta'sir etish yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida ushbu mexanizmlarni takomillashtirishning ko'p komponentli modeli, uning mezonlari, ko'rsatkichlari va rivojlanish darajalari ishlab chiqilgan. Maqola oliy ta'lim o'qituvchilari, kurator va psixologlari uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *ijobiy psixologik muhit, o'quv-bilish faolligi, pedagogik mexanizm, oliy ta'lim, talaba, motivatsiya, psixologik xavfsizlik, hamkorlikda o'qitish, refleksiya.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЗИТИВНОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. *В статье теоретически и методически обосновываются педагогические механизмы развития учебно-познавательной активности студентов на основе формирования позитивной психологической среды в высших образовательных учреждениях. Раскрываются сущность и структурные компоненты позитивной психологической среды, пути её влияния на учебно-познавательную активность. Разработана многокомпонентная модель совершенствования данных механизмов с критериями, показателями и уровнями развития.*

Ключевые слова*: позитивная психологическая среда, обучение и познавательная деятельность, педагогический механизм, высшее образование, студент, мотивация, психологическая безопасность, совместное обучение, рефлексия.*

IMPROVING PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS' EDUCATIONAL-COGNITIVE ACTIVITY BASED ON THE FORMATION OF A POSITIVE PSYCHOLOGICAL ENVIRONMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Abstract. *The article theoretically and methodically substantiates pedagogical mechanisms for developing students' learning and cognitive activity through the formation of a positive psychological environment in higher education institutions. The essence and structural components of a positive psychological environment and the ways it influences learning and cognitive activity are analyzed. A multicomponent model for improving these mechanisms, with criteria, indicators and levels of development, is proposed.*

Keywords: *positive psychological environment, learning and cognitive activity, pedagogical mechanism, higher education, student, motivation, psychological safety, collaborative learning, reflection.*

KIRISH

Oliy ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichida kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning muhim sharti — talabaning ta'lim jarayonidagi faol, mustaqil va ongli ishtirokini ta'minlashdir. Bilimlarni tayyor holda qabul qiluvchi talaba emas, balki ularni izlovchi, tahlil qiluvchi va amalda qo'llovchi, o'z o'quv faoliyatini boshqara oluvchi shaxs jamiyatga zarur bo'lib bormoqda. Axborot hajmining tez o'sishi, kasbiy faoliyat sharoitlarining o'zgaruvchanligi va raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi talabalardan uzluksiz o'rganish, tanqidiy fikrlash va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini talab etmoqda.

Shu bilan birga, pedagogik amaliyot kuzatuvlari talabalarning o'quv-bilish faolligi doim ham yetarli darajada emasligini ko'rsatadi. Passiv tinglash, baholarga yo'nalganlik, xato qilishdan qo'rqish, fikr bildirishda ikkilanish, guruhdagi o'zaro munosabatlarda ishonch yetishmasligi, o'qituvchi bilan muloqotdagi masofa, o'quv yuklamasi va moslashuv bilan bog'liq stress hodisalari bunga sabab bo'ladi. Ya'ni faollik faqat metodik vositalar yoki o'quv materialining mazmuniga emas, balki ta'lim jarayoni kechadigan psixologik muhitga ham chambarchas bog'liq.

Psixologik muhit talabaning o'zini qanday his qilishi, o'z imkoniyatlariga ishonishi, xatoga munosabati, o'qituvchi va guruhdoshlar bilan aloqasi, ta'limdagi qadrlanganlik hissini belgilaydi. Qulay, hurmat va hamkorlikka asoslangan, ijobiy emotsiyalarga boy muhitda talaba o'rganishga ichki qiziqish bildiradi, tashabbus ko'rsatadi va murakkab

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

vazifalardan qochmaydi. Aksincha, tahdidli, haddan tashqari raqobatli yoki befarq muhit bilim olish istagini susaytiradi.

Muammoning dolzarbligiga qaramay, amaliyotda ijobiy psixologik muhitni shakllantirish ko'pincha o'z-o'zidan, tizimsiz amalga oshiriladi; uni o'quv-bilish faolligini rivojlantirish bilan bog'lovchi pedagogik mexanizmlar yetarlicha asoslanmagan, ularni baholash mezonlari va bosqichlari aniq ishlab chiqilmagan. Mazkur holat tadqiqot muammosini belgilaydi: oliy ta'lim sharoitida ijobiy psixologik muhitni shakllantirish orqali talabalarning o'quv-bilish faolligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini qanday takomillashtirish mumkin?

Tadqiqotning maqsadi — oliy ta'lim muassasalarida ijobiy psixologik muhitni shakllantirish asosida talabalarning o'quv-bilish faolligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini nazariy asoslash va takomillashtirish modelini ishlab chiqishdir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: (1) «ijobiy psixologik muhit» va «o'quv-bilish faolligi» tushunchalarining mazmunini aniqlash; (2) ijobiy psixologik muhitning tarkibiy qismlarini ajratish; (3) uning o'quv-bilish faolligiga ta'sir yo'llarini aniqlash; (4) pedagogik mexanizmlar tizimini ishlab chiqish; (5) mexanizmlar samaradorligini baholash mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalarini belgilash.

ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologik muhit muammosi pedagogika va psixologiyada turli nuqtai nazardan o'rganilgan. Gumanistik yo'nalish vakillari (A. Maslou, K. Rojers) shaxsning o'sishi uchun xavfsizlik, qabul qilinganlik va hurmat zarurligini ta'kidlaydi. Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasida xavfsizlik va tegishlilik ehtiyojlari bilim olish va o'zini namoyon qilish ehtiyojlaridan oldin qondirilishi lozimligi ko'rsatilgan [7]. K. Rojers o'qituvchining samimiyligi, so'zsiz qabul qilishi va empatiyasi o'rganish uchun qulay sharoit yaratishini asoslagan.

Ijobiy psixologiya (M. Seligman, M. Chiksentmixayi) shaxsning kuchli tomonlari, ijobiy hissiyotlar, ishtiyoq va ma'no izlashga e'tibor qaratadi [10]. B. Fredriksonning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

«kengaytirish va qurish» nazariyasiga ko'ra, ijobiy emotsiyalar shaxsning diqqat va fikrlash doirasini kengaytiradi, ijodiy yondashuvni rag'batlantiradi va uzoq muddatli resurslarni — bilim, ko'nikma, ijtimoiy aloqalarni — shakllantiradi [5]. R. Pekrunning «nazorat-qadriyat» nazariyasi esa o'quv faoliyatida kechadigan emotsiyalar (zavq, qiziqish, g'urur, tashvish, zerikish) o'quv motivatsiyasi, strategiyalar va natijaga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi [9].

Motivatsiya nazariyalari orasida E. Disi va R. Rayanning o'z-o'zini belgilash nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Unga ko'ra, ichki motivatsiya uch asosiy psixologik ehtiyoj — avtonomiya, kompetentlik va bog'liqlik ehtiyojlari qondirilganda shakllanadi [3]. Bu ehtiyojlarni qo'llab-quvvatlaydigan muhit talabaning o'quv faolligini oshiradi. A. Banduraning o'z-o'zini samarali deb bilish (self-efficacy) haqidagi qarashlari talabaning o'z imkoniyatlariga ishonchi uning urinishlari, qat'iyati va natijalariga ta'sir etishini asoslaydi [1]. K. Dvekning o'sish tafakkuri (growth mindset) konsepsiyasi qobiliyatlarni rivojlanuvchi deb qabul qilish xatoni o'rganish imkoniyati sifatida ko'rishga olib kelishini ko'rsatadi [4].

L. S. Vigotskiy ta'limni shaxs rivojlanishining yetakchi omili sifatida talqin qilib, yaqin rivojlanish zonasi va ijtimoiy hamkorlikning ahamiyatini asoslagan [11]. A. N. Leontyev va boshqa faoliyat nazariyasi vakillari bilishning faoliyat jarayonida shakllanishini ta'kidlaydi [8]. Hamkorlikda o'qitish bo'yicha D. va R. Jonsonlar tadqiqotlari ijobiy o'zaro bog'liqlik, individual mas'uliyat va guruhli muloqot o'quv natijalarini oshirishini ko'rsatgan [6]. B. Zimmermanning o'z-o'zini boshqarib o'rganish modeli talabaning rejalashtirish, nazorat va refleksiya orqali o'z o'quv faoliyatini boshqarishini tavsiflaydi [12].

O'quv jarayoniga jalb qilinganlik (engagement) bo'yicha J. Fredriks, F. Blumenfeld va A. Paris xulq-atvor, emotsional va kognitiv komponentlarni ajratgan [2]. J. Kuhning tadqiqotlarida talabalarning o'quv va ijtimoiy faoliyatga jalb etilishi ta'lim sifatining muhim ko'rsatkichi sifatida talqin etilgan [13]. Shunday qilib, mavjud ilmiy ishlar ijobiy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

muhit va faollik o'rtasidagi bog'liqlikni asoslaydi, biroq ularda oliy ta'lim sharoitida muhitni shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini yaxlit tizim sifatida tavsiflash va takomillashtirish masalasi yetarlicha yoritilmagan. Ushbu bo'shliqni to'ldirish mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Ta'lim muhiti muammosi milliy ta'lim sharoitida ham dolzarb. Oliy ta'limni isloh qilish, kredit-modul tizimini joriy etish, talabaga erkinlik va mustaqil ta'limga keng imkoniyat berish talabaning o'quv jarayonidagi o'rni va mas'uliyatini oshirmoqda. Bunday sharoitda talabaning o'z o'quv yo'lini boshqara olishi uchun unda ishonch, avtonomiya va ichki motivatsiya zarur. Shu bois psixologik muhitni o'quv jarayonining zaruriy pedagogik sharti sifatida o'rganish va uni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy oliy ta'lim talablariga mos keladi.

MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqot mixed-methods (aralash) yondashuvga tayanadi va quyidagi metodlardan foydalanishni nazarda tutadi.

Nazariy metodlar: ilmiy-pedagogik, psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, solishtirish, tizimlashtirish, umumlashtirish; tushunchalarni tahlil qilish; pedagogik modellashtirish. Ushbu metodlar yordamida tushunchalarning mazmuni, muhitning tarkibiy qismlari va mexanizmlar tizimi aniqlandi.

Empirik metodlar: pedagogik kuzatuv; talabalar o'rtasida so'rovnoma va anketalar (o'quv motivatsiyasi, psixologik xavfsizlik, o'qituvchi va guruhdoshlar bilan munosabatdan qoniqish, o'quv-bilish faolligi o'zini baholash); o'qituvchilar va kuratorlar bilan suhbat; fokus-guruh muhokamalari; o'quv natijalarini tahlil qilish. Tajriba-sinov ishlari nazorat va tajriba guruhlarini tanlashni, boshlang'ich va yakuniy kesimlarni o'tkazishni nazarda tutadi.

Tadqiqot dizayni. Pedagogik tajriba uch bosqichda rejalashtirildi. Aniqlovchi bosqichda talabalarning o'quv-bilish faolligi va muhitning holati tashxis qilinadi. Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhlarida takomillashtirilgan mexanizmlar tizimi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

joriy etiladi, nazorat guruhlarida o'qitish an'anaviy tarzda davom etadi. Yakunlovchi bosqichda natijalar takroriy tashxis orqali solishtiriladi.

Baholash vositalari. O'quv-bilish faolligi uchta komponent bo'yicha baholanadi: motivatsion-emotsional (qiziqish, ijobiy munosabat, ichki motivatsiya), kognitiv-faoliyatli (mustaqil izlanish, tanqidiy tahlil, o'quv strategiyalaridan foydalanish) va xulq-atvor (darslardagi ishtirok, tashabbus, vazifalarni bajarishdagi qat'iyat). Ijobiy psixologik muhit esa o'qituvchi-talaba va talaba-talaba munosabatlari, psixologik xavfsizlik, qo'llab-quvvatlash, o'quv yuklamasi va ta'lim muhitidan qoniqish ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish. Miqdoriy ma'lumotlar tavsifiy statistika va guruhlararo solishtirish (masalan, Styudent t-mezoni yoki Mann–Uitni mezoni) yordamida, sifat ma'lumotlari esa kontent-tahlil orqali qayta ishlanadi. Axloqiy tamoyillarga rioya qilinadi: ishtirok ixtiyoriy, ma'lumotlar anonim va maxfiy saqlanadi.

Mazkur maqolada nazariy-metodik natijalar, ya'ni mexanizmlar modeli, mezonlar va darajalar taqdim etiladi; tajriba-sinov ishlarining miqdoriy natijalari alohida nashrda yoritilishi mumkin.

NATIJALAR

4.1. Asosiy tushunchalarning mazmuni. Tahlil natijasida «ijobiy psixologik muhit» tushunchasi quyidagicha aniqlandi: bu — oliy ta'lim muassasasida talabaning xavfsizlik, qabul qilinganlik, hurmat, qo'llab-quvvatlash va hamkorlik hislarini ta'minlaydigan, ijobiy emotsiyalar va ichki motivatsiyani rag'batlantiradigan, shaxsning o'quv faoliyatida o'zini namoyon qilishi va rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratuvchi ijtimoiy-psixologik va pedagogik munosabatlar tizimi. «O'quv-bilish faolligi» esa talabaning bilimlarni egallashga ichki ehtiyoji, mustaqil izlanishi, o'quv faoliyatini rejalashtirishi, boshqarishi va baholashi, tashabbus va qat'iyat ko'rsatishida namoyon bo'ladigan integrativ shaxsiy sifat sifatida ta'riflandi.

4.2. Ijobiy psixologik muhitning tarkibiy qismlari. Tadqiqot ijobiy psixologik muhitning beshta o'zaro bog'liq tarkibiy qismini ajratish imkonini berdi:

1) Psixologik xavfsizlik — talaba fikr bildirish, savol berish va xato qilishdan qo'rqmaydigan, tanqid shaxsga emas, balki ishga qaratiladigan muhit.

2) Subyekt-subyekt munosabatlari — o'qituvchi va talaba o'rtasida hurmat, ishonch, ochiq muloqot, talabaning shaxsiy fikriga e'tibor.

3) Hamkorlik va guruh birdamligi — talabalar o'rtasida o'zaro yordam, jamoaviy mas'uliyat, raqobat o'rniga sog'lom hamkorlik.

4) Motivatsion-emotsional qo'llab-quvvatlash — muvaffaqiyat vaziyatlari, ijobiy emotsiyalar, yutuqlarni e'tirof etish, ma'noli va qiziqarli vazifalar.

5) Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar — o'quv yuklamasining maqbulligi, o'quv jarayonining shaffofligi, baholash mezonlarining aniqligi, psixologik-pedagogik xizmat va fizik-ma'rifiy muhit.

4.3. Muhit va faollik o'rtasidagi bog'liqlik mexanizmi. Nazariy tahlil muhit omillarining talaba faolligiga to'rt yo'l orqali ta'sir etishini ko'rsatdi. Birinchidan, emotsional yo'l: xavfsizlik va ijobiy emotsiyalar tashvishni kamaytiradi, qiziqish va ishtiyoqni oshiradi. Ikkinchidan, motivatsion yo'l: avtonomiya, kompetentlik va bog'liqlik ehtiyojlari qondirilishi ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Uchinchidan, kognitiv yo'l: xato qilishdan qo'rqmaslik tanqidiy va ijodiy fikrlash, murakkab vazifalarni sinab ko'rishga imkon beradi. To'rtinchidan, ijtimoiy yo'l: hamkorlik va muloqot bilimlarni birgalikda yaratish va o'zaro o'rgatishga olib keladi.

4.4. Pedagogik mexanizmlar tizimi. Tadqiqot natijasida ijobiy psixologik muhitni shakllantirish va o'quv-bilish faolligini rivojlantirishning oltita o'zaro bog'liq pedagogik mexanizmi ajratildi va takomillashtirish yo'nalishlari belgilandi.

Birinchi mexanizm — motivatsion-qadriyatli mexanizm. U talabaning o'quv faoliyatiga ichki qiziqishini uyg'otishga qaratilgan. Takomillashtirish yo'nalishlari: o'quv mavzularini kasbiy faoliyat bilan bog'lash; talabaga tanlov imkoniyati berish (mavzu,

topshiriq shakli, ish sur'ati); o'quv maqsadlarini talaba bilan birgalikda belgilash; muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratish; ma'noli va dolzarb amaliy topshiriqlardan foydalanish.

Ikkinchi mexanizm — kommunikativ-hamkorlik mexanizmi. U o'qituvchi-talaba va talaba-talaba munosabatlarini sifat jihatidan yangilaydi. Takomillashtirish yo'nalishlari: dialogik o'qitish, muammoli suhbat, kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish (jigsaw, kooperativ loyihalar, juft ishlar), tengdosh-o'qituvchi (peer-learning) amaliyoti, o'qituvchining faol tinglash va empatik muloqot madaniyatini oshirish.

Uchinchi mexanizm — psixologik xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi. Unga quyidagilar kiradi: xatoni o'rganish manbai sifatida qabul qilish madaniyatini shakllantirish; shaxsga emas, ishga qaratilgan konstruktiv teskari aloqa; baholash mezonlarini oldindan ochiq e'lon qilish; shakllantiruvchi baholashni keng qo'llash; talabalarning fikrini hurmat qilish qoidalarini guruh bilan birgalikda ishlab chiqish.

To'rtinchi mexanizm — faol va interfaol metodlarni qo'llash mexanizmi. U talabani o'quv jarayonining subyektiga aylantiradi. Takomillashtirish yo'nalishlari: keys-stadi, loyihaviy o'qitish, munozara va debatlar, rolli va biznes o'yinlar, muammoli ma'ruza, «teskari sinf» (flipped classroom), raqamli platformalar va simulyatsiyalardan foydalanish. Bunda metodlar faqat tashqi shakl emas, balki talabaning tahlil, asoslash va qaror qabul qilish faoliyatini rag'batlantirishi lozim.

Beshinchi mexanizm — refleksiv-boshqaruvchi mexanizm. U talabaning o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Takomillashtirish yo'nalishlari: o'quv kundaligi va portfolio yuritish, o'z-o'zini baholash varaqalari, dars oxiridagi qisqa refleksiya, shaxsiy o'quv maqsadlari va rejalari, o'z-o'zini boshqarib o'rganish strategiyalarini o'rgatish.

Oltinchi mexanizm — psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmi. U talabaning moslashuvi, stress va qiyinchiliklarida yordam ko'rsatadi. Takomillashtirish yo'nalishlari: birinchi kurs talabalari uchun moslashuv dasturlari; kuratorlik faoliyati;

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

psixolog bilan maslahat va treninglar (stressni boshqarish, vaqtni rejalashtirish, muloqot madaniyati); o'quv yuklamasi va psixologik holatni kuzatib borish; xavf guruhidagi talabalar bilan individual ishlash.

4.5. Mexanizmlarni amalga oshirishning pedagogik shartlari. Mexanizmlar samarali ishlashi uchun quyidagi shartlar zarur: (a) o'qituvchilarning psixologik-pedagogik va kommunikativ kompetensiyasini muntazam oshirish; (b) ta'lim muassasasi rahbariyatining qo'llab-quvvatlashi va muhitni monitoring qilish tizimi; (c) o'quv rejalari va dasturlarida talabaga erkinlik va tanlov imkoniyatlari; (d) baholash tizimining shaffofligi va shakllantiruvchi xarakteri; (e) psixologik xizmat bilan hamkorlik; (f) raqamli vositalardan pedagogik maqsadda foydalanish; (g) talabalar o'zini o'zi boshqarish organlari va ijtimoiy faollikni qo'llab-quvvatlash.

4.6. Samaradorlik mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalari. Takomillashtirilgan mexanizmlar samaradorligini baholash uchun uchta mezon ajratildi. Motivatsion-emotsional mezon ko'rsatkichlari: o'quv faoliyatiga qiziqish, ichki motivatsiya darajasi, ijobiy emotsiyalar, o'z imkoniyatlariga ishonch. Kognitiv-faoliyatli mezon ko'rsatkichlari: mustaqil izlanish, o'quv strategiyalaridan foydalanish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, o'z faoliyatini rejalashtirish va baholash. Xulq-atvor mezoni ko'rsatkichlari: mashg'ulotlardagi ishtirok, tashabbus, qat'iyat, hamkorlikda ishlash, o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarish.

Shu mezonlar asosida o'quv-bilish faolligining uchta darajasi tavsiflandi. Past (reproduktiv) darajada talaba asosan o'qituvchi talabi bilan harakat qiladi, tashabbus kam, qiziqish vaziyatli, baho olishga yo'nalgan. O'rta (qisman izlanuvchi) darajada talaba topshiriqlarni mustaqil bajaradi, qiziqish barqarorroq, biroq murakkab vaziyatlarda yordamga muhtoj, refleksiya cheklangan. Yuqori (ijodiy-izlanuvchi) darajada talaba o'quv maqsadlarini mustaqil belgilaydi, tashabbus ko'rsatadi, tanqidiy tahlil qiladi, strategiyalarni ongli tanlaydi, hamkorlikda faol ishtirok etadi va o'z faoliyatini refleksiv baholaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

4.7. Takomillashtirishning bosqichma-bosqich modeli. Modelda to'rt bosqich ajratildi: (1) tashxis bosqichi — muhit va faollik holatini aniqlash; (2) loyihalash bosqichi — mexanizmlarni muayyan fan va guruh sharoitiga moslashtirish, o'qituvchilar bilan hamkorlikda reja tuzish; (3) amalga oshirish bosqichi — mexanizmlarni dars, mustaqil ta'lim va tarbiyaviy ishlarda qo'llash; (4) baholash va tuzatish bosqichi — natijalarni monitoring qilish, tahlil qilish va tizimga o'zgartirishlar kiritish. Bu bosqichlar tsiklik xarakterga ega bo'lib, har bir tsikl yakunida olingan ma'lumotlar keyingi tsikl uchun asos bo'ladi.

4.8. Mexanizmlarni o'quv mashg'ulotida amalga oshirish namunasi. Modelni amaliyotga tatbiq etishni misol bilan ko'rsatish mumkin. Faraz qilaylik, pedagogika yo'nalishi ikkinchi kurs talabalari bilan «Pedagogik psixologiya» fanidan amaliy mashg'ulot o'tkazilmoqda. Mashg'ulot boshida o'qituvchi 3–5 daqiqalik «kayfiyat va kutish» aylanasini o'tkazadi: talabalar mavzu bo'yicha nimani bilishlarini, nimani bilishni xohlashlarini qisqa bildiradi. Bu faoliyat psixologik xavfsizlikni ta'minlaydi, talabalarning fikri muhimligini ko'rsatadi va motivatsion-qadriyatli mexanizmni ishga tushiradi. Keyin o'qituvchi mavzuni kasbiy vaziyat orqali taqdim etadi: masalan, maktabda o'quvchilar faolligi pasayib ketgan sinf rahbari muammosi tahlil qilinadi.

Asosiy qismda talabalar 4–5 kishilik guruhlarda hamkorlikda ishlaydi: har bir a'zo muammoning bir jihatini o'rganadi, so'ngra birgalikda yagona yechim tayyorlaydi (jigsaw usuli). Ish jarayonida o'qituvchi nazoratchi emas, balki maslahatchi va fasilitator vazifasini bajaradi: savollar beradi, yo'naltiruvchi izohlar qiladi, guruhlar o'rtasidagi muloqotni kuzatadi. Guruhlar yechimni taqdim etganda boshqa guruhlar konstruktiv teskari aloqa beradi, bunda «nimasi yaxshi chiqdi», «nimani yanada rivojlantirish mumkin» tamoyillariga amal qilinadi. Bunday tuzilma kommunikativ-hamkorlik va psixologik xavfsizlik mexanizmlarini uyg'unlashtiradi, xato qilish esa jazolanmaydi, balki o'rganish imkoniyati sifatida qaraladi.



Yakuniy qismda refleksiv-boshqaruvchi mexanizm ishga tushiriladi. Talabalar o'quv kundaligiga uchta savolga javob yozadi: bugun nimani yangi bilib oldim; qaysi jihatlar qiyin bo'ldi va nima yordam berdi; keyingi mashg'ulotgacha qanday maqsadimni belgilayman. Talaba shu orqali o'z o'quv jarayonining muallifi ekanini his qiladi. Mustaqil ta'lim topshirig'ida esa talabaga tanlov beriladi: amaliy keys yechish, kichik tadqiqot o'tkazish yoki o'quv materiali tayyorlash. Bu avtonomiya ehtiyojini qondiradi va ichki motivatsiyani qo'llab-quvvatlaydi.

Mashg'ulot yakunida o'qituvchi shakllantiruvchi baholashdan foydalanadi: baho asosida talabaning ishtiroki, tahlil sifati, hamkorlikdagi hissasi va refleksiyasi ko'rib chiqiladi, oldindan ma'lum bo'lgan mezonlar asosida individual tavsiyalar beriladi. Shaxsiy qiyinchiliklari kuzatilgan talabalar psixolog bilan maslahatlashishga yo'naltiriladi. Shu tariqa mexanizmlar alohida usullar to'plami sifatida emas, balki yaxlit tizim sifatida amalga oshiriladi.

4.9. O'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar. Mexanizmlarning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga bog'liq. Tahlil o'qituvchi kompetensiyasining quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatdi: (1) psixologik-pedagogik bilimlar — talabalar yosh xususiyatlari, motivatsiya, emotsiyalar va guruh dinamikasini tushunish; (2) kommunikativ ko'nikmalar — faol tinglash, aniq va hurmatli fikr bildirish, konstruktiv teskari aloqa berish, nizolarni hal qilish; (3) emotsional intellekt — o'z his-tuyg'ularini boshqarish va talabalarning holatini sezish; (4) metodik kompetensiya — faol va interfaol metodlarni loyihalash, shakllantiruvchi baholashni qo'llash; (5) refleksiv kompetensiya — o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish; (6) raqamli kompetensiya — raqamli platformalar va vositalardan pedagogik maqsadda foydalanish. Ushbu jihatlarni rivojlantirish uchun amaliy treninglar, hamkasblar bilan o'zaro darslarga qatnashish (peer observation), supervizion muhokamalar va ilg'or tajriba almashinuvi tavsiya etiladi.

Alohida ta'kidlash joizki, o'qituvchi namunasi muhit shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'qituvchining o'z xatosini ochiq tan olishi, talabaning savoliga hurmat bilan javob berishi, kechikkan yoki qiyin talabaga nisbatan sabr-toqat ko'rsatishi guruhda tegishli me'yorlarni shakllantiradi. Aksincha, kinoya, shaxsga qaratilgan tanqid yoki adolatsiz baholash muhitni sezilarli darajada yomonlashtiradi va faollikni susaytiradi. Shu sababli muhit sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar o'qituvchi shaxsiga e'tiborni ham o'z ichiga olishi kerak.

MUHOKAMA

Olingan natijalar ijobiy psixologik muhit va talabalarning o'quv-bilish faolligi o'rtasida pedagogik jihatdan boshqariladigan bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Gumanistik va ijobiy psixologiya, o'z-o'zini belgilash nazariyasi, ijtimoiy-madaniy yondashuv va faoliyat nazariyasi qarashlari bilan mos holda, tadqiqotda muhit faollikka bir nechta yo'l — emotsional, motivatsion, kognitiv va ijtimoiy — orqali ta'sir etishi ko'rsatildi [3; 5; 9; 11].

Mavjud tadqiqotlardan farqli ravishda, ishda muhitni faqat «qulay shart-sharoit» sifatida emas, balki maqsadli pedagogik mexanizmlar tizimi orqali shakllantiriladigan va boshqariladigan hodisa sifatida talqin etish taklif etiladi. Bu esa o'qituvchi uchun aniq amaliy yo'nalishlarni — dars tashkil etish, baholash, muloqot, refleksiya va qo'llab-quvvatlash bo'yicha — taqdim etadi. Modelning bosqichma-bosqich va tsiklik tuzilishi uni turli fanlar va ta'lim yo'nalishlariga moslashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ba'zi cheklovlarni ham e'tiborga olish kerak. Birinchidan, psixologik muhit murakkab va ko'p omilli hodisa bo'lib, uning ta'sirini boshqa omillardan (talabaning dastlabki tayyorgarligi, shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit) ajratib baholash qiyin. Ikkinchidan, ijobiy muhitni «hamma narsaga ruxsat» yoki talabchanlikni kamaytirish sifatida talqin qilish xato: tadqiqotga ko'ra, samarali muhit yuqori kutishlar va qo'llab-quvvatlash uyg'unligiga tayanadi. Uchinchidan, modelni joriy etish o'qituvchilarning tayyorgarligi va tashkiliy qo'llab-quvvatlash darajasiga

bog'liq. To'rtinchidan, ishlab chiqilgan mexanizmlarning miqdoriy samaradorligi turli oliy ta'lim muassasalarida eksperimental tekshirilishi lozim.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat — raqamli va sun'iy intellekt vositalarining muhitni shakllantirishdagi o'rni. Raqamli platformalar talabaga o'z sur'atida o'rganish, tezkor teskari aloqa olish va o'zini sinab ko'rish imkonini beradi, bu esa avtonomiya va kompetentlik hislarini kuchaytiradi. Biroq texnologiyalar o'qituvchi va talaba o'rtasidagi shaxsiy muloqotni almashtira olmaydi: ular faqat insoniy munosabatlarga asoslangan ijobiy muhitni to'ldirishi mumkin. Shu sababli raqamli vositalarni joriy etishda ham psixologik xavfsizlik, ma'lumotlar maxfiyligi va talabaning o'z fikrini erkin bildirishi tamoyillariga rioya qilish zarur.

Amaliy ahamiyati: model oliy ta'lim o'qituvchilari, kuratorlar, psixologlar va fakultet rahbariyati tomonidan o'quv jarayonini loyihalash, muhit monitoringini yo'lga qo'yish, malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlar yo'nalishlari sifatida modelning turli yo'nalishlar (pedagogika, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, texnika) bo'yicha samaradorligini solishtirish, raqamli va sun'iy intellekt vositalarining muhitni shakllantirishdagi o'rnini o'rganish, uzoq muddatli ta'sirni kuzatish (longitudinal tadqiqot) mumkin.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning o'quv-bilish faolligini rivojlantirish ijobiy psixologik muhitni maqsadli shakllantirish bilan uzviy bog'liq. Ijobiy psixologik muhit psixologik xavfsizlik, subyekt-subyekt munosabatlari, hamkorlik, motivatsion-emotsional qo'llab-quvvatlash va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlardan iborat tizim sifatida aniqlandi.

Faollikni rivojlantirishning oltita pedagogik mexanizmi — motivatsion-qadriyatli, kommunikativ-hamkorlik, psixologik xavfsizlikni ta'minlash, faol va interfaol metodlarni qo'llash, refleksiv-boshqaruvchi va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari — asoslandi hamda ularni takomillashtirish yo'nalishlari belgilandi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Samaradorlikni baholash uchun motivatsion-emotsional, kognitiv-faoliyatli va xulq-atvor mezonlari, ularning ko'rsatkichlari va faollikning past, o'rta, yuqori darajalari ishlab chiqildi. Bosqichma-bosqich (tashxis, loyihalash, amalga oshirish, baholash) model amaliyotga joriy etish uchun asos bo'ladi.

Takliflar: (1) o'qituvchilar malaka oshirish dasturlariga psixologik xavfsizlik, konstruktiv teskari aloqa va hamkorlikda o'qitish modullarini kiritish; (2) oliy ta'lim muassasalarida ta'lim muhiti monitoringini muntazam o'tkazish; (3) baholash tizimida shakllantiruvchi baholash ulushini oshirish; (4) birinchi kurs talabalari uchun moslashuv va kuratorlik dasturlarini kuchaytirish; (5) psixologik xizmat va o'quv bo'limlari hamkorligini yo'lga qo'yish; (6) talabalarda refleksiya va o'z-o'zini boshqarib o'rganish ko'nikmalarini tizimli shakllantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bandura A. Self-efficacy: The Exercise of Control. New York: W.H. Freeman, 1997.
2. Fredricks J.A., Blumenfeld P.C., Paris A.H. School engagement: potential of the concept, state of the evidence // Review of Educational Research, 2004, 74(1): 59–109.
3. Deci E.L., Ryan R.M. The "what" and "why" of goal pursuits: human needs and the self-determination of behavior // Psychological Inquiry, 2000, 11(4): 227–268.
4. Dweck C.S. Mindset: The New Psychology of Success. New York: Random House, 2006.
5. Fredrickson B.L. The role of positive emotions in positive psychology: the broaden-and-build theory of positive emotions // American Psychologist, 2001, 56(3): 218–226.
6. Johnson D.W., Johnson R.T. An educational psychology success story: social interdependence theory and cooperative learning // Educational Researcher, 2009, 38(5): 365–379.
7. Maslow A.H. A theory of human motivation // Psychological Review, 1943, 50(4): 370–396.
8. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. М.: Политиздат, 1975.
9. Pekrun R. The control-value theory of achievement emotions: assumptions, corollaries, and implications for educational research and practice // Educational Psychology Review, 2006, 18(4): 315–341.
10. Seligman M.E.P., Csikszentmihalyi M. Positive psychology: an introduction // American Psychologist, 2000, 55(1): 5–14.
11. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
12. Zimmerman B.J. Becoming a self-regulated learner: an overview // Theory Into Practice, 2002, 41(2): 64–70.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

13. Kuh G.D. What student affairs professionals need to know about student engagement // Journal of College Student Development, 2009, 50(6): 683–706.
14. Rogers C.R., Freiberg H.J. Freedom to Learn. 3rd ed. New York: Macmillan, 1994.

UDK:796

15-16 YOSHLI TAEKVONDOCHILARDA AYLANMA HARAKAT YUKLAMASI TA'SIRIDA O'NG VA CHAP OYOQDA ZARBA BERISH ANIQLIGINI TAJRIBA DAVOMIDA SHAKLLANISH SAMARADORLIGI

Raxmatov Bektosh Shomurodovich
professor, p.f.b.f.d (PhD)
Email: bektosh.raxmatov.91@mail.ru
ORCID: 0009-0006-5106-1665

Annotachiya: *mazkur maqolada 15-16 yoshli taekvondochilarda tanani chap va o'ng tomonlarga aylantirish ta'sirida oyoq bilan zarba berish aniqligini pedagogik tajriba davomida o'zgarish dinamikasi taxlil qilingan. Aniqlandiki, tanani chap tomonga, ayniqsa uni o'ng tomonga aylantirish ta'sirida oyoq bilan zarba berish aniqligi keskin tushib ketishi mumkin yekan. Bunday xolat ushbu taekvondochilarda muvozanat saqlash funksiyasini boshqaruvchi vestibulyar analizatori o'ta "zaif" rivojlanganligi bilan asoslangan.*

Kalit so'zlar: *taekvondo, sportchilar, aylanma harakatlar, aylanma harakat yuklamasi, o'ng oyoq zarbalari, chap oyoq zarbalari, zarba aniqligi, texnik tayyorgarlik, harakat koordinatsiyasi.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ТОЧНОСТИ УДАРОВ ПРАВОЙ И ЛЕВОЙ НОГОЙ У ТАЭКВОНДИСТОВ 15–16 ЛЕТ В УСЛОВИЯХ НАГРУЗКИ, СВЯЗАННОЙ С ВРАЩАТЕЛЬНЫМИ ДВИЖЕНИЯМИ, В ХОДЕ ЭКСПЕРИМЕНТА

Аннотация: *в статье анализируется динамика изменения точности ударов ногой у таэквондистов 15-16 лет под влиянием поворотов корпуса влево и вправо. Выяснилось, что поворот корпуса влево, особенно вправо, может резко снизить точность ударов ногой. Это связано с тем, что у этих тхэквондистов вестибулярный анализатор, контролирующий функцию равновесия, очень «слаб».*

Ключевые слова: *таэквондо, спортсмены, вращательные движения, нагрузка, связанная с вращательными движениями, удары правой ногой, удары левой ногой, точность ударов, техническая подготовка, координация движений.*

EFFECTIVENESS OF DEVELOPING RIGHT- AND LEFT-LEG KICKING ACCURACY IN 15–16-YEAR-OLD TAEKWONDO ATHLETES UNDER ROTATIONAL MOVEMENT LOAD DURING AN EXPERIMENT

Annotation: *the article analyzes the dynamics of changes in the accuracy of the impact of the foot on taekwondoists 15-16 years under the influence of corpus rotations left and right. It became clear that the rotation of the corpus to the left, especially to the right, can sharply reduce the accuracy of the impact of the foot. This is due to the fact that these taekwondoists have a vestibular analyzer, which controls the function of balance, very "weak".*

Keywords: *taekwondo, athletes, rotational movements, rotational movement load, right-leg kicks, left-leg kicks, kicking accuracy, technical training, movement coordination.*

KIRISH

Tadqiqot natijalarining aniqligini ta'minlash uchun modifikatsiyalashtirilgan va ishlab chiqilgan yangi pedagogik testlar ko'p sonli yosh taekvondochilar (68 nafar) hamda taekvondochi talabalar (55 nafar) jalb qilingan "test-retest" sinovlaridan o'tkazildi. Sinovlarni o'tkazishda standartlashtirilgan texnologik talablarga rioya qilindi. Ushbu jarayon O'zbekiston taekvondo VT assotsiatsiyasi tomonidan tayinlangan "trener-ekspertlar" ishtirokida amalga oshirildi. Testlarning ob'ektiv axborot beruvchi qiymati O'zbekiston taekvondo VT assotsiatsiyasi dalolatnomasi bilan tasdiqlandi va "IP CONSULTING CENTER" tomonidan intellektual mulk sifatida rasmiylashtirildi (guvohnoma raqami № 003351). Tadqiqotlar natijalari matematik statistika usullari (n, min, max, x, z, l, r) yordamida tabaqalashtirilgan tartibda qiyosiy tahlil qilindi va ularning ishonchliligi ochib berildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Taekvondo bellashuvlarida taktik manyovrlarni amalga oshirish davomida tanani turli tomonlarga burish yoki aylantirish elementlari ko'p martalab takrorlanishi ma'lumdir. Mutaxassis-olimlarning e'tirofiga qaraganda, bunday burilma-aylanma harakatlar to'g'ridan-to'g'ri vestibulyar analizatoriga ta'sir etib, "chayqalish'' reaksiyasini yuzaga keltiradi. Natijada,bunday holat muvozanat saqlash koordinatsiyasini izdan chiqishiga va xarakat aniqligini keskin susayishiga olib kelar yekan [1, 2, 3, 4, 5]. Ehtimol qilinadiki, agar taekvondochilarda dinamik muvozanatni saqlash qobiliyati vestibulokinetik mashqlar (joyda, yurish-yugurish davomida aylanma-

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

burilma harakat mashqlari) yordamida muntazam shakllantirib berilsa, yopchage, apchage holatlaridan va harakatlanish davomida ijro etiladigan zarbalar aniqligi barqarorlashadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Olingan natijalardan ma'lum bo'ldiki, tanani aylanma yo'nalishda harakatlantirmasdan, joydan manekenning bosh qismiga o'ng oyoq bilan 6 imkoniyatdan aniq zarbalar berish soni NGda tajribadan avval 4,5±0,53 marta bilan ifodalangan bo'lsa, tajribadan keyin ushbu ko'rsatkich 5,1±0,59 martani tashkil etdi yoki zarba aniqligining o'sish sur'ati 0,6 martaga teng bo'ldi, xolos ($P<0,05$). TGda mazkur ko'rsatkichlar muvofiq ravishda 4,3±0,6 va 5,6±0,77 marta bilan namoyish etilgan yoki zarba aniqligining 10 oylik o'sish sur'ati 1,3 martagacha ortdi ($P<0,001$) 1-jadvalga qarang). Shu test chap oyoq bilan ijro etilganda zarba aniqligi NGda tajribadan oldin 3,3±9,36 martaga, tajribadan keyin 3,6±0,38 martaga teng bo'lganligi aniqlandi yoki zarba berish aniqligining o'sish sur'ati 0,3 marta bilan ifodalangan ($P>0,05$). TGda mazkur ko'rsatkich tajribadan avval 3,5±0,48 martaga teng, tajriba yakunida 4,5±0,6 martaga teng bo'lgan yoki zarbalar aniqligi 1,0 martaga o'sgan ($P<0,001$).

Ko'rinib turibdiki, an'anaviy mashg'ulotlarda shug'ullanib kelgan NGda o'ng oyoqda ham, chap oyoqda ham zarba berish aniqligi jadal o'smagan yoki ushbu ko'rsatkichlar mavofiq ravishda 0,6 va 0,2 martani tashkil etgan. Shu bilan bir qatorda o'zining tayyorgarlik jarayonida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan maxsus eksperimental mashqlarni muntazam qo'llab borgan TGda o'ng oyoqda berilgan zarbalar aniqligi tajriba yakuniga kelib 1,3 martaga o'sgan bo'lsa, chap oyoq bilan ijro etilgan zarbalar aniqligi 1,4 martagacha ortgan.

1-jadval

Nazorat va tajriba guruhlariga mansub 15-16 yoshli taekvondochilarda tanani 15 marta chap tomonga aylantirish yuklamasidan so'ng oyoq bilan maneken boshiga zarba berish aniqligining pedagogik tajriba davomida o'sish sur'ati

Testlar	Guruh	Tajribadan avval			Tajribadan keyin			O'sish sur'ati		t	P
		$\overline{X}$	σ	V %	$\overline{X}$	Σ	V %	absolyut	nisbiy		
Tanani aylantirmasdan maneken boshiga zarba berish (6 imkoniyat-dan/marta): - o'ng oyoqda	NG	4,5	0,53	11,78	5,1	0,59	11,57	0,6	13,33	2,62	<0,05
	TG	4,3	0,6	13,95	5,6	0,77	13,75	1,3	30,23	4,61	<0,001
- chap oyoqda	NG	3,3	0,36	10,91	3,6	0,38	10,56	0,3	9,09	1,99	>0,05
	TG	3,5	0,48	13,71	4,5	0,6	13,33	1	28,57	4,51	<0,001
Asimmetrik farq	NG	1,6			1,8			0,2	12,50		
	TG	1,7			1,1			-0,6	35,29		
Tanani 15 marta chap tomonga aylantirishdan so'ng manenken boshiga oyoq bilan zarba berish (6 imkoniyatdan/marta): - o'ng oyoqda	NG	2,5	0,27	10,80	2,8	0,3	10,71	0,3	12,00	2,57	<0,05
	TG	2,8	0,38	13,57	3,6	0,48	13,33	0,8	28,57	4,53	<0,001
- chap oyoqda	NG	1,3	0,17	13,08	1,5	0,19	12,67	0,2	15,38	2,72	<0,05
	TG	1,6	0,23	14,38	2,1	0,3	14,29	0,5	31,25	4,58	<0,001
Asimmetrik farq	NG	1,6			1,3			-0,3	18,75		
	TG	1,4			0,9			-0,5	35,71		

Активация W
Чтобы активиро
раздел "Параме

Bu borada yana bir muhim e'tiborga loyiq joyi shundaki, NGda o'ng va chap oyoq bilan zarba berish aniqligi o'rtasida tajribadan avval 1,6 martaga teng asimmetrik farq qayd etilgan bo'lsa, tajribadan keyin ushbu farq 1,8 martagacha ortganligi aniqlandi yoki asimmetrik farqning kengayish darajasi 0,2 marta bilan ifodalandi (1-rasmga qarang). Boshqacha qilib aytganda NGda chap oyoq bilan zarba berish aniqligi o'ng oyoqda zarba berish aniqligiga nisbatan ancha sust shakllangan ekan, deb ta'kidlash mumkin.

Agar tadqiqotda ishtirok etgan barcha taekvondochilar o'naqay bo'lgani e'tiborga olinsa, demak, ishonch bilan e'tirof etish mumkinki, 15-16 yoshli taekvondochilar bilan olib borilayotgan an'anaviy mashg'ulotlarda zarbalarga o'rgatishda ham, ularni takomillashtirishda ham asosan yetakchi o'ng oyoqqa ustuvorlik berilar ekan. Bunday holat zarbalar texnikasi va ularning aniqligi mashg'ulotlarda bir xil simmetrik nisbatda shakllantirilmasligidan darak beradi. O'z navbatida, o'rgatish va takomillashtirish jarayoniga bunday metodik tartibda yondashish texnik-taktik usullar ko'lamini chegaralab qo'yadi va yetakchi oyoqqa katta yuklama tushishiga sabab bo'lib, shu oyoq mushaklarida toliqish alomatlari kuchayishiga turtki beradi.

Shu bilan bir qatorda tajriba davomida o‘zining tayyorgarlik jarayonida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan maxsus mashqlar bloklarini muntazam qo‘llab borgan TGda o‘ng va chap oyoqda bajarilgan zarbalar aniqligi o‘rtasida kuzatilgan asimmetrik farq tajribadan avval NGda qayd etilgan zarbalar aniqligidan deyarli farq qilmadi va 1,3 martani tashkil etdi. Lekin, tajriba yakuniga kelib mazkur guruhda (TGda) zarbalar aniqligi o‘rtasida yuzaga kelgan asimmetrik farq 0,6 martagacha qisqardi yoki shu farq 1,1 martagacha simmetrizatsiyalashdi. Boshqacha qilib aytganda TGda qo‘llanilgan eksperimental mashqlar ta’sirida chap oyoqda berilgan zarbalar aniqligi o‘ng oyoq bilan ijro etilgan aniq zarbalar soniga maksimal darajada yaqinlashdi. Demak, ta’kidlash mumkinki, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan va TGda qo‘llanilgan eksperimental mashqlar progressiv samaradorlik xususiyatiga ega ekan.



Izoh: 1 – tajribadan avval; 2 – tajribadan keyin; 3 – asimmetrik farqni simmetrizatsiyalanish darajasi; - NG; - TG.

1-rasm. Nazorat va tajriba guruhlarida o‘ng va chap oyoq bilan berilgan zarbalar aniqligi o‘rtasida qayd etilgan asimmetrik farqning tajriba yakuniga kelib simmetrizatsiyalanish sur’ati

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bunday xulosa ushbu guruhlarda tanani 15 marta turli tomonlarga (chap va o‘ng) aylantirish ta’sirida o‘ng va chap oyoq bilan zarba berish aniqligini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalarida ham o‘z isbotini topdi. Jumladan, tanani 15 marta chap tomonga aylantirishdan so‘ng maneken boshiga o‘ng oyoq bilan zarba berish aniqligi NGda tajribadan avval 2,5±0,27 martagacha tushib ketdi. Tajribadan so‘ng esa zarbalar aniqligi (2,8±0,3 marta) 0,3 martagacha o‘sdi, xolos (P>0,05). TGda esa ushbu ko‘rsatkich tajribadan avval keskin o‘zgarish bilan farqlanmadi va 2,8±0,38 martani tashkil etdi. Lekin, tajriba yakuniga kelib mazkur guruhda o‘ng oyoq bilan zarba berish aniqligi 3,6±0,48 martagacha ko‘tarildi (P<0,001) yoki zarbalar aniqligi 0,8 martaga o‘sdi.

Tanani 15 marta chap tomonga aylantirib, chap oyoq bilan zarba berish aniqligi NGda tajribadan avval 1,3±0,17 martani, tajribadan keyin 1,5±0,19 martani tashkil etdi yoki zarbalar aniqligining 10 oylik o‘sish sur’ati 0,2 martaga teng bo‘ldi (P<0,05). TGda mazkur ko‘rsatkichlar muvofiq ravishda 1,6±0,23 va 2,1±0,3 marta bilan qayd etildi yoki bu guruhda zarbalar aniqligining o‘sish sur’ati 0,5 martagacha yetdi (P<0,001).

Ko‘rinib turibdiki, tajriba davomida eksperimental mashqlar bilan muntazam shug‘ullanib borgan TGda chap oyoqda (“noqulay” oyoqda) bajarilgan zarbalar aniqligi tajriba yakuniga kelib o‘ng oyoq bilan ijro etilgan zarbalar aniqligiga yaqinlashgan.

O‘ng va chap oyoqda berilgan zarbalar aniqligi o‘rtasida qayd etilgan asimmetrik farq ham TGda ijobiy o‘zgarish ko‘rsatkichlari bilan namoyish etildi. Masalan, NGda bunday asimmetrik farq tajribadan oldin 1,6 martani, tajribadan keyin 1,3 martani tashkil etdi. TGda esa bu ko‘rsatkichlar tajriba boshida 1,1 martaga teng bo‘lgan bo‘lsa, tajriba yakuniga kelib dastlab qayd etilgan asimmetrik farq 0,8 martagacha simmetrizatsiyalashdi (2-rasmga qarang).

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37



Izoh: 1 – tajribadan avval; 2 – tajribadan keyin; 3 – asimmetrik farqning simmetrizatsiyalanish darajasi; - NG; - TG.

2-rasm. Nazorat va tajriba guruhlarida tanani 15 marta chap tomonga aylantirishdan so'ng o'ng va chap oyoq bilan berilgan zarbalar aniqligi o'rtasida qayd etilgan asimmetrik farqning tajriba yakuniga kelib simmetrizatsiyalanish sur'ati

Ko'rinib turibdiki, TGda qo'llanilgan eksperimental mashqlar ta'sirida o'ng va chap oyoq bilan amalga oshirilgan zarbalar aniqligi o'rtasida dastlab kuzatilgan asimmetrik farq tajriba yakuniga kelib maksimal darajada simmetrizatsiyalashgan. Demak, ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, ushbu guruhda qo'llanilgan eksperimental mazmunli maxsus mashqlar majmuasi chap ("noqulay") oyoqda berilgan zarbalar sonini o'ng ("qulay") oyoqda ijro etilgan aniq zarbalar soniga yaqinlashtirgan.

Tinch holatda (tanani aylantirmasdan) va tanani chap yoki qulay tomonga aylantirishdan so'ng o'ng hamda chap oyoq bilan zarbalar aniqligi bo'yicha qayd etilgan progressiv yo'nalishli natijalar tanani o'ng yoki noqulay tomonga aylantirish yuklamasidan so'ng berilgan zarbalar aniqligida ham kuzatildi. Bu borada shuni e'tirof etish joizki, tinch holatda, ya'ni tanani aylantirmasdan maneken boshiga (nishon) o'ng

va chap oyoq bilan zarba berish aniqligini baholash testi takroran qo‘llanilganda qayd etilgan natijalar keskin farq qiluvchi ko‘rsatkichlar bilan namoyish etilmadi (1-jadval, 1-2-rasmga qarang). Ammo, tanani 15 marta o‘ng tomonga aylantirishdan so‘ng maneken boshiga o‘ng va chap oyoq bilan aniq zarbalar berish ko‘rsatkichlari tanani chap tomonga aylantirishdan so‘ng o‘ng hamda chap oyoqda berilgan zarbalar aniqligidan keskin farq qildi.

XULOSA

Yuqorida qiyosiy tahlil qilingan tajriba natijalariga asosan bir qator xulosalarni e’tirof etish mumkin. Birinchidan an’anaviy mashg‘ulotlarda shug‘ullanib kelgan NGga mansub yosh taekvondochilarda teng holatda o‘ng oyoq bilan 6 urinish bo‘yicha zarba berish aniqligi tajribadan avval 4,5±0,53 martani tashkil etgan bo‘lsa, tajriba yakuniga kelib ushbu ko‘rsatkich 5,1±0,59 martagacha o‘sdi xolos.

Tajriba davomida muvozanat saqlash turg‘unliini oshirishga mo‘ljallangan vestibulosomatik mashqlarni muntazam bajarib borgan TG da esa ushbu ko‘rsatkichlar muvofiq ravishda 4,3±0,60 -5,6±0,77 marta bilan ifodalandi. Ikkinchidan, tajribadan avval o‘ng va chap oyoqda zarba berish aniqligi tanani chap tomonga, ayniqsa o‘naqaylar uchun noqulay bo‘lgan o‘ng tomonga aylantirish ta’sirida ikki guruhda ham keskin tushib ketganligi kuzatildi. Lekin tajriba yakuniga kelib, shu muddat ichida eksperimental mazmunli mashg‘ulotlarda shug‘ullanib kelgan TG dagi yosh taekvondchilarda o‘ng oyoqda ham, chap oyoqda ham zarba berish aniqligi aylanma harakat ta’sirida ijro etilishiga qaramasdan samarali o‘sganligi qayd etildi. Demak, taekvondochilar tayyorlash amaliyotida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ixtisoslashtirilgan texnik va vestibulosomatik mashqlar zarba aniqligini oshirish va uni barqarorligida o‘ta samarali vosita deb ta’kidlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Александрова В.А. Взаимосвязь частоты сердечных сокращений и критериев оценки соревновательной программы в спортивных бальных танцах. Москва. 2012. – 12-17 с.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

2.Анохин П.К. Биология и нейрофизиология условного рефлекса/монография. – М.: Медицина, 1968. – 566 с.

3. Безверхов В.П. Преступления против собственности, совершаемые путем обмана и злоупотребления доверием, в уголовном праве России Диссертации по праву 2008. – 96-101 с.

4. Бердичевская Е.М., Гронская А.С. Функциональные асимметрии и спорт // Руководство по функциональной межполушарной асимметрии. – М.: Научный мир, 2009. – С. 647-691.

5. Безруких М.М. Возрастные особенности организации и регуляции произвольных движений у детей и подростков / М.М. Безруких, Л.Е. Любомирский. – М.: Образование от А до Я, 2000. – 319 с.

UDK 372.41

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQIY KOMPONENTLARI: TUSHUNCHA MAZMUNI, TARKIBI VA ADABIY ASAR BILAN BOG'LIQLIGI

Obidova Shohsanam G'anijon qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: shohsanamobidova757@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada boshlang'ich ta'lim metodikasida sinonim sifatida qo'llanib kelinayotgan "nutqiy kompetensiya" va "nutqiy komponent" tushunchalarining o'zaro munosabati nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Lingvistik, kommunikativ, metodik-darajaviy va kompetensiyaviy yondashuvlarning qiyosiy tahlili asosida nutqiy komponentlar tushunchasiga ta'rif berilgan va uning mavjud ta'riflardan farq qiluvchi to'rt belgisi asoslangan. Fonetik, leksik, grammatik va diskursiv komponentlarning mazmuni hamda ularning badiiy matnni idrok etish, tushunish va qayta yaratish jarayoni bilan bog'liqligi ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *nutqiy kompetensiya, nutqiy komponent, nutqiy komponentlar ta'rifi, diskursiv komponent, badiiy matn, boshlang'ich ta'lim, psixolingvistik model.*

РЕЧЕВЫЕ КОМПОНЕНТЫ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: КОНЦЕПТУАЛЬНОЕ СОДЕРЖАНИЕ, СТРУКТУРА И СВЯЗЬ С ЛИТЕРАТУРНЫМИ ПРОИЗВЕДЕНИЯМИ

Аннотация. *В статье теоретически анализируется соотношение понятий «речевая компетенция» и «речевой компонент», которые в методике начального обучения нередко используются как синонимы. На основе сравнительного анализа лингвистического, коммуникативного, методико-уровневого и компетентностного подходов разработано авторское определение понятия «речевые компоненты» и обоснованы четыре признака, отличающие его от существующих определений. Раскрыто содержание фонетического, лексического, грамматического и дискурсивного компонентов и их связь с процессом восприятия, понимания и воссоздания художественного текста.*

Ключевые слова: *речевая компетенция, речевой компонент, авторское определение, дискурсивный компонент, художественный текст, начальное образование, психолингвистическая модель.*

SPEECH COMPONENTS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS: CONCEPTUAL CONTENT, STRUCTURE, AND CONNECTION TO LITERARY WORKS

Abstract. *The article provides a theoretical analysis of the relationship between the concepts of "speech competence" and "speech component", which are often used as synonyms in primary-education*

methodology. Based on a comparative analysis of linguistic, communicative, methodological-level and competence-based approaches, the author's definition of speech components is developed and four features distinguishing it from existing definitions are substantiated. The content of the phonetic, lexical, grammatical and discourse components and their connection with the perception, comprehension and re-creation of a literary text are revealed.

Keywords: *speech competence, speech component, author's definition, discourse component, literary text, primary education, psycholinguistic model.*

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilash jarayonida o'quvchi nutqini rivojlantirish masalasi yangicha talqin talab qilmoqda. Ilmiy-metodik adabiyotlarda o'quvchi nutqining sifat ko'rsatkichlarini ifodalash uchun "nutqiy kompetensiya", "kommunikativ kompetensiya", "nutqiy ko'nikma" kabi tushunchalar qo'llanadi [1; 2]. Ayni paytda "nutqiy komponent" atamasi ham tobora keng ishlatilmoqda, biroq u ko'pincha "nutqiy kompetensiya" bilan sinonim sifatida qo'llanadi va aniq ta'rifga ega emas.

Atamaning noaniqligi metodik muammolarni keltirib chiqaradi: agar tushunchaning tarkibi aniq belgilanmasa, uni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimini va rivojlanganlik darajasini baholash mezonlarini ham aniq belgilab bo'lmaydi. Bundan tashqari, boshlang'ich sinfda nutq asosan badiiy asar materialida rivojlantirilsa-da, mavjud ta'riflarda nutqiy komponentlarning badiiy matn bilan ishlash jarayonida qanday faollashishi yaxlit holda aks etmagan.

Tadqiqotning maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy komponentlari tushunchasining mazmuni va tarkibini aniqlashtirish, unga ta'rif berish va adabiy asar bilan bog'liqligini asoslash.

METODLAR

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-tipologik tahlil va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Nutqiy kompetensiya va uning tarkibiga oid qarashlar to'rt yondashuv bo'yicha guruhlab o'rganildi: lingvistik yondashuv, ya'ni N.Xomskiy qarashlari,, kommunikativ yondashuv, ya'ni D.Xaymz, M.Kaneyl va M.Sueyn qarashlari,, metodik-darajaviy yondashuv, ya'ni M.R.Lvov, S.Matchonov, Sh.M.Mahmatmurodov va R.D.Jo'raqulov qarashlari, hamda kompetensiyaviy yondashuv, ya'ni K.S.Temirova va S.B.Qorayev qarashlari. Har bir yondashuvda nutqning qaysi jihatiga urg'u berilgani, tushunchaning tarkibi va uning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

boshlang‘ich ta’lim amaliyotiga muvofiqligi qiyoslandi. Nutq hosil qilishning psixolingvistik modeli [3] komponentlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun nazariy asos sifatida olindi.

NATIJALAR

Yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, lingvistik yondashuvda asosiy e’tibor til tizimini bilishga qaratiladi: N.Xomskiy tilni o‘zlashtirishni tug‘ma lingvistik qobiliyat bilan izohlaydi [4]. D.Xaymz bu yondashuvga muqobil ravishda kommunikativ kompetensiya tushunchasini kiritib, tilni muloqot vaziyatiga mos qo‘llay olish qobiliyatini ham uning tarkibiga qo‘shgan [5]. M.Kaneyl va M.Sueyn kommunikativ kompetensiya tarkibida grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlarni ajratadi [6]. Metodik-darajaviy yondashuvda M.R.Lvov kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar nutqi ustidagi ishni talaffuz, leksik, grammatik va matn darajalarida tashkil etishni taklif qiladi [7]. O‘zbek metodikasida ham shunga o‘xshash ajratish an’anaga ega: Sh.M.Mahmatmurodov va R.D.Jo‘raqulov ertaklar asosida nutq o‘stirishni lug‘at, grammatik tuzilish, tovush madaniyati va bog‘langan nutq yo‘nalishlariga ajratadi [8, 4–7-b.]. Kompetensiyaviy yondashuvda esa asosiy urg‘u til bilimlarini nutq faoliyatida amalda qo‘llash qobiliyatiga beriladi [1; 2].

Bu yondashuvlarning har biri nutqning muayyan tomonini aniqlab beradi, biroq ularning birortasida nutqiy komponentlarning badiiy asarni idrok etish va talqin qilish jarayonida qanday faollashishi yaxlit ifodalanmagan.

Tahlil asosida biz ikki tushunchani farqlashni taklif etamiz. Nutqiy kompetensiya natija, ya’ni o‘quvchining og‘zaki va yozma muloqotda fikrini aniq, izchil va vaziyatga mos ifodalash hamda boshqalar nutqini tushunish qobiliyatini ifodalovchi integrativ sifatdir. Nutqiy komponentlar esa ana shu natijaga olib boruvchi, pedagogik ta’sir bevosita yo‘naltiriladigan tarkibiy qismlardir. Boshqacha aytganda, kompetensiya nima shakllanishi kerakligini, komponentlar esa uni nima orqali shakllantirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi tahlil asosida biz quyidagicha ta’rif beramiz: boshlang‘ich sinf o‘quvchisining nutqiy komponentlari – badiiy matnni idrok etish, tushunish va qayta yaratish jarayonida faollashadigan, o‘quvchiga o‘z fikrini to‘g‘ri talaffuz, o‘rinli so‘z tanlovi, grammatik to‘g‘ri shakl va mantiqiy izchil matn orqali ifodalash imkonini beruvchi, o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi fonetik, leksik, grammatik hamda diskursiv qobiliyatlarning yaxlit tizimi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bizning fikrimizcha, ushbu ta'rif mavjud ta'riflardan to'rt belgi bilan farq qiladi. Birinchisi, manbaga bog'liqlik: komponentlar mavhum til qobiliyati sifatida emas, balki badiiy matn bilan ishlash jarayonida faollashadigan qobiliyatlar sifatida talqin etiladi. Ikkinchisi, jarayonlilik: ta'rifda badiiy matn bilan ishlashning uch bosqichi – idrok etish, tushunish va qayta yaratish aks etgan. Uchinchisi, tizimlilik: to'rt komponent alohida ko'nikmalar yig'indisi emas, balki biri ikkinchisini taqozo etuvchi yaxlit tizim sifatida qaraladi. To'rtinchisi, o'lchanuvchanlik: har bir komponent kuzatiladigan nutqiy harakat orqali ifodalangani uchun uning rivojlanish darajasini aniq mezonlar asosida baholash mumkin.

Fonetik komponent tovushlarni adabiy talaffuz me'yorlariga muvofiq aytish, urg'u, pauza va ohangga rioya qilish hamda badiiy matnni ifodali o'qish qobiliyatini; leksik komponent badiiy matndan o'zlashtirilgan so'z va iboralarni anglash va o'z nutqida o'rinli qo'llash qobiliyatini; grammatik komponent so'z shakllarini to'g'ri yasash va maqsadga ko'ra turli gaplarni tuzish qobiliyatini; diskursiv komponent esa fikrni mantiqiy izchillikda bayon qilish, matnni qayta hikoya qilish, reja asosida og'zaki va yozma matn yaratish, dialog va monologda ishtirok etish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Komponentlarning o'zaro bog'liqligi nutq hosil qilish modelida yaqqol ko'rinadi. A.A.Leontyev nutqiy harakatni motiv va niyatning paydo bo'lishi, fikrni ichki nutqda rejalashtirish, uni leksik-grammatik jihatdan shakllantirish va tashqi nutqda ro'yobga chiqarish bosqichlaridan iborat jarayon sifatida tavsiflaydi [3]. Bu modelga ko'ra, diskursiv komponent motiv va rejalashtirish bosqichlariga, leksik va grammatik komponentlar shakllantirish bosqichiga, fonetik komponent esa ro'yobga chiqarish bosqichiga mos keladi. Demak, o'quvchi nutqidagi kamchilik har doim ham talaffuz yoki imloda emas, ko'pincha fikrni rejalashtirish bosqichida yuzaga keladi. Ushbu ta'rif asosida ishlab chiqilgan metodik model 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Adabiy asarlar vositasida nutqiy komponentlarni rivojlantirishning metodik modeli

MUHOKAMA

Biz bergan ta'rifda kommunikativ yondashuvda alohida ajratiladigan pragmatik jihat diskursiv komponent tarkibida qaraladi. Buning sababi shundaki, kichik maktab yoshida,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

xususan, 4-sinfda nutqni vaziyat va suhbatdoshga moslashtirish mustaqil ko‘nikma sifatida emas, balki matn yaratish va dialogda ishtirok etish jarayonida shakllanadi. Bu yechim A.Q.G‘ulomov va B.Sh.Qobilova fikri bilan ham hamohang: mualliflar o‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan talablar ro‘yxatini nutqning vaziyatga mosligidan boshlab, so‘zlovchi tinglovchining kimligini va uning ehtiyojini hisobga olishi lozimligini ta’kidlaydi [9, 12–13-b.].

Ta’rifning manbaga bog‘liqlik belgisi adabiy asarning nutqni rivojlantirishdagi o‘rni bilan asoslanadi. Badiiy matn o‘quvchiga nutq namunasini beradi, nutq uchun mazmun manbai bo‘ladi va nutqiy vaziyat yaratadi. A.G‘.Muhiddinov dars jarayonidagi o‘quv nutq faoliyati tabiiy nutq faoliyatidan nutqning sababi va maqsadi jihatidan farq qilishini, nutq ko‘nikmalarini shakllantirish uchun eng qulay sharoit tabiiy nutq vaziyatida bo‘lishini ko‘rsatadi [10, 28–29-b.]. Fikrimizcha, adabiy asar bu tafovutni qisqartiradi: asar uyg‘otgan taassurot o‘quvchida o‘z fikrini bildirishga ichki ehtiyoj tug‘diradi. Badiiy adabiyot o‘qish bilan empatiya o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi xalqaro tadqiqot natijalari [11] ham bu fikrni quvvatlaydi.

Ta’rifning jarayonlilik belgisi esa yosh xususiyatlari bilan izohlanadi. D.A.Muminova boshlang‘ich ta’lim davrini “kitobxonlik faolligi” bosqichi deb belgilab, bu davrda o‘quvchilar kattalar bilan hamkorlikda o‘qishdan asta-sekin mustaqil o‘qishga o‘tishini ko‘rsatadi [12, 15–16-b.]. Nutqiy komponentlarning rivojlanishi ham shu qonuniyatga bo‘ysunadi: o‘quvchi namunaga taqliddan mustaqil va ijodiy nutqqa o‘tadi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida “nutqiy kompetensiya” va “nutqiy komponent” tushunchalari natija va unga olib boruvchi tarkibiy qismlar sifatida farqlandi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining nutqiy komponentlari badiiy matnni idrok etish, tushunish va qayta yaratish jarayonida faollashadigan fonetik, leksik, grammatik va diskursiv qobiliyatlarning yaxlit tizimi sifatida ta’riflandi. Ta’rif manbaga bog‘liqlik, jarayonlilik, tizimlilik va o‘lchanuvchanlik belgilari bilan mavjud ta’riflardan farqlanadi. Taklif etilgan ta’rif nutqiy komponentlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimini va ularning rivojlanganlik darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Temirova K.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish // Pedagogik mahorat. – 2022. – № 6.

2. Qorayev S.B., Tirkashev N.I. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari // Academic Research in Educational Sciences. – 2022. – Vol. 3, Issue 1.
3. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – М.: Смысл, 1997.
4. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, MA: MIT Press, 1965.
5. Hymes D. On communicative competence // Sociolinguistics / Eds. J.B. Pride, J. Holmes. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
6. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–47.
7. Львов М.Р. Методика развития речи младших школьников. – М.: Просвещение, 1985.
8. Маҳматмуродов Ш.М., Жўрақулов Р.Д. Болалар нутқини ўстириш: Боғча тарбиячилари учун қўлланма. – Самарқанд: СамВЎМОИ, 1994.
9. Ғуломов А.Қ., Қобилова Б.Ш. Нутқ ўстириш машғулотлари: Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
10. Муҳиддинов А.Ғ. Ўқув жараёнида нутқ фаолияти: Она тили ва адабиёт ўқитувчилари учун методик қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
11. Mar R.A., Oatley K., Peterson J.B. Exploring the link between reading fiction and empathy: Ruling out individual differences and examining outcomes // Communications. – 2009. – Vol. 34, No. 4. – P. 407–428.
12. Muminova D.A. Kitobxonlik vositasida talabalarni shaxsiy ijtimoiylashtirishning metodik tizimi: Ped. fan. dokt. (DSc) diss. avtoref. – Chirchiq, 2024.

RAQAMLI TA'LIM MUHITI VA UNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Abdullayev Abubakir Narzullayevich
Toshkent xalqaro Kimyo universitetining Samarqand filiali dotsenti
abdullayevabubakir73@gmail.com
Inatov Abror Ismatovich
Toshkent xalqaro Kimyo universitetining Samarqand filiali dotsenti
inatov84abror@gmail.com
Kulmirzayeva Zarina Urokboyevna
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
zarina.kulmirzaeva@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhitining mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari va zamonaviy oliy ta'lim tizimidagi pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish, individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish, interaktiv o'qitish metodlaridan foydalanish hamda ta'lim natijalarini raqamli tahlil qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xorijiy va rus tilidagi ilmiy tadqiqotlar asosida raqamli ta'lim muhitining didaktik, kommunikativ, motivatsion va nazorat-baholash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, raqamli ta'lim muhitining samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar va undan oliy ta'limda foydalanishni takomillashtirish yo'nalishlari asoslangan.*

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim muhiti, raqamli pedagogika, oliy ta'lim, mustaqil ta'lim, elektron ta'lim, raqamli kompetensiya, ta'lim analitikasi, individual ta'lim trayektoriyasi, interaktiv metodlar, bulutli texnologiyalar.*

ЦИФРОВАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СРЕДА И ЕЁ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ

Аннотация. *В статье с научно-теоретической точки зрения анализируются сущность цифровой образовательной среды, её структурные компоненты и педагогические возможности в современной системе высшего образования. Особое внимание уделяется организации образовательного процесса на основе цифровых технологий, развитию самостоятельной учебной деятельности студентов, формированию индивидуальных образовательных траекторий, использованию интерактивных методов обучения, а также цифровому анализу результатов обучения. На основе зарубежных и русскоязычных научных исследований раскрываются дидактические, коммуникативные, мотивационные возможности цифровой образовательной среды, а также её потенциал в области контроля и оценки знаний. Кроме того, обосновываются*

педагогические условия, обеспечивающие эффективность цифровой образовательной среды, и определяются направления совершенствования её использования в высшем образовании.

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, цифровая педагогика, высшее образование, самостоятельное обучение, электронное обучение, цифровая компетентность, образовательная аналитика, индивидуальная образовательная траектория, интерактивные методы, облачные технологии.*

DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT AND ITS PEDAGOGICAL POSSIBILITIES

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the essence of the digital learning environment, its structural components, and its pedagogical possibilities in the modern higher education system. Particular attention is paid to organizing the educational process through digital technologies, developing students' independent learning activities, establishing individual learning pathways, applying interactive teaching methods, and conducting digital analysis of learning outcomes. Based on international and Russian-language scientific research, the article explores the didactic, communicative, and motivational potential of the digital learning environment, as well as its capabilities in monitoring and assessing learning outcomes. Furthermore, the pedagogical conditions necessary to ensure the effectiveness of the digital learning environment are substantiated, and key areas for improving its implementation in higher education are identified.

Keywords: digital learning environment, digital pedagogy, higher education, independent learning, e-learning, digital competence, learning analytics, individual learning pathway, interactive methods, cloud technologies.

KIRISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimining mazmuni, tashkiliy shakllari va metodik ta'minotini takomillashtirishni taqozo etmoqda. An'anaviy ta'lim modelidan raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan ta'lim modeliga o'tish jarayoni pedagogik faoliyatni tashkil etish, o'quv materiallarini taqdim etish, bilimlarni nazorat qilish va ta'lim natijalarini baholashga yangicha yondashuvlarni shakllantirmoqda. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan [1]. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda raqamli ta'lim muhitini pedagogik jihatdan asoslangan holda loyihalash muhim ahamiyatga ega. Chunki texnologik vositalarning mavjudligi o'z-o'zidan ta'lim sifatining oshishini kafolatlamaydi. Ularning samaradorligi o'quv maqsadlariga muvofiqligi, pedagogik metodlar bilan uyg'unligi, talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olishi va mustaqil o'rganish faoliyatini qo'llab-quvvatlashiga bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida raqamli ta'lim muhitini shakllantirish, elektron resurslardan foydalanish va talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ularning tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish va o'quv jarayonini takomillashtirish vositasi sifatida qaraladi.

MDH davlatlari olimlari, jumladan, E.S. Polat va uning hamkasblari masofaviy ta'limni tashkil etish, elektron o'quv kurslarini yaratish hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalarini o'rganganlar. Ularning ishlari raqamli ta'limda metodik yondashuvning muhimligini ko'rsatadi.

Xorijiy olimlardan R. Mayer multimedia vositalari yordamida o'qitishning samaradorligini o'rgangan. C. Redecker esa pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarini yoritgan. UNESCO tadqiqotlarida ham raqamli texnologiyalardan ta'lim maqsadlariga muvofiq va samarali foydalanish zarurligi ta'kidlanadi.

Umuman olganda, olimlarning tadqiqotlari raqamli ta'lim muhiti o'quv jarayonini individuallashtirish, talabalarning faolligini oshirish va mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu imkoniyatlardan samarali

foydalanish uchun raqamli vositalarni to‘g‘ri tanlash va ularni pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtirish muhimdir.

P. Long va G. Siemens ta’limda ma’lumotlar va analitik yondashuvlardan foydalanish o‘quv jarayonini chuqurroq tushunish, talabalarni o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash hamda ta’lim sifatini takomillashtirish uchun muhim imkoniyatlar yaratishini ta’kidlaydi [2]. C. Romero va S. Ventura tadqiqotlarida esa ta’lim ma’lumotlarini tahlil qilishning o‘quv jarayonini o‘rganish va takomillashtirishdagi ahamiyati yoritilgan [3]. Maqolaning maqsadi raqamli ta’lim muhitining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish, uning asosiy tarkibiy komponentlarini aniqlash va oliy ta’lim jarayonida samarali foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi. Maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni qiyosiy o‘rganish, raqamli ta’lim muhitining tarkibiy qismlarini tizimlashtirish, pedagogik imkoniyatlarni tasniflash hamda ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari, ta’lim analitikasi bo‘yicha xalqaro ilmiy maqolalar, rus tilidagi tadqiqotlar hamda muallif tomonidan taqdim etilgan PDF materiallar tashkil etdi. Maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda yangi empirik tajriba o‘tkazilganligi yoki statistik natijalar olinganligi da’vo qilinmaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Raqamli ta’lim muhitining mazmuni va tarkibiy tuzilishi

Raqamli ta’lim muhiti — ta’lim maqsadlarini amalga oshirish uchun raqamli texnologiyalar, elektron ta’lim resurslari, pedagogik metodlar, kommunikatsiya vositalari, baholash mexanizmlari va ta’lim ishtirokchilarining o‘zaro hamkorligini birlashtiruvchi pedagogik-axborot tizimidir. Mazkur muhitda talaba tayyor axborotni

qabul qiluvchi subyekt bo‘lib qolmasdan, bilimlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, qayta ishlash, amaliy vazifalarni bajarish va o‘z ta’lim natijalarini baholash jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Raqamli ta’lim muhitining asosiy tarkibiy komponentlarini quyidagicha tasniflash mumkin.

1-jadval. Raqamli ta’lim muhitining tarkibiy komponentlari va ularning pedagogik vazifalari

T/r	Tarkibiy komponent	Asosiy mazmuni	Pedagogik vazifasi
1	Texnologik	Kompyuterlar, mobil qurilmalar, internet va bulutli xizmatlar	Ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratish
2	Mazmuniy	Elektron darsliklar, videodarslar, taqdimotlar va virtual laboratoriyalar	O‘quv materiallarini tushunarli shaklda taqdim etish
3	Didaktik	O‘qitish metodlari, muammoli topshiriqlar, amaliy mashqlar va loyihalar	Bilimlarni o‘zlashtirish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish
4	Kommunikativ	Elektron forumlar, videokonferensiyalar, chatlar va hamkorlik hujjatlari	Muloqot va hamkorlikni rivojlantirish
5	Nazorat-baholash	Elektron testlar, baholash mezonlari, topshiriqlar va elektron portfolio	O‘quv natijalarini aniqlash va qayta aloqa berish

6	Analitik	Faoliyat hisobotlari, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va raqamli izlar	Ta’limdagi qiyinchiliklarni aniqlash va pedagogik qarorlarni takomillashtirish

Jadvaldan ko‘rinadiki, raqamli ta’lim muhiti o‘zaro uzviy bog‘langan oltita tarkibiy komponentdan tashkil topadi. Texnologik va mazmuniy komponentlar ta’limni amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratadi, didaktik va kommunikativ komponentlar o‘quv faoliyatini tashkil etadi, nazorat-baholash va analitik komponentlar esa ta’lim natijalarini aniqlash hamda pedagogik jarayonni takomillashtirishga xizmat qiladi.

C. Romero va S. Ventura tadqiqotlarida ta’lim ma’lumotlarini tahlil qilish elektron ta’lim muhitida yuz berayotgan jarayonlarni tushunish va ta’limni takomillashtirish uchun muhim yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqilgan [3]. Bu yondashuv raqamli muhitning analitik komponentini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Raqamli ta’lim muhiti ta’lim jarayonining mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari va natijalarini takomillashtirish imkonini beradi.

Birinchi imkoniyat — ta’limni individuallashtirish. Raqamli muhit talabaga o‘zlashtirish tezligi, bilim darajasi va individual ehtiyojlariga mos ravishda o‘quv materiallarini tanlash imkonini beradi. Elektron kurslarda turli murakkablikdagi topshiriqlar, qo‘shimcha manbalar va bosqichma-bosqich bajariladigan mashqlarni joylashtirish mumkin. Natijada talabalar o‘zlariga mos ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ikkinchi imkoniyat — mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish. Raqamli muhit mustaqil ta’limni rejalashtirish, o‘quv resurslarini izlash, topshiriqlarni bajarish, natijalarni tekshirish va o‘z faoliyatini tahlil qilish uchun sharoit yaratadi. Talaba o‘quv materiallaridan darsdan tashqari vaqtda foydalanishi, topshiriqlarni belgilangan muddatda bajarishi va bilimlaridagi bo‘shliqlarni aniqlashi mumkin.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Uchinchi imkoniyat — interaktiv va muammoli o‘qitishni tashkil etish. Raqamli vositalar orqali testlar, interaktiv mashqlar, virtual tajribalar, simulyatsiyalar, loyiha ishlari va muammoli vaziyatlarni o‘quv jarayoniga kiritish mumkin. Masalan, informatika fanida algoritmlarni o‘rganishda talabalarga algoritmning blok-sxemasini tuzish, dastur kodini ishlab chiqish, xatolarni aniqlash va natijalarni taqqoslash topshiriqlari berilishi mumkin.

To‘rtinchi imkoniyat — hamkorlikda o‘qitish. Google Workspace, Google Classroom va Moodle kabi platformalar orqali guruhli topshiriqlarni tashkil etish, hujjatlarni birgalikda tahrirlash, muhokamalar olib borish va o‘zaro baholashni amalga oshirish mumkin. Bunday faoliyat talabalarda fikr almashish, dalillarni asoslash, jamoada ishlash va umumiy natija uchun mas’uliyatni his etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Beshinchi imkoniyat — tezkor qayta aloqa va formatif baholash. Elektron testlar, avtomatik tekshiriladigan topshiriqlar va elektron portfolio vositalari talabaga o‘z natijalari haqida tezkor ma’lumot olish imkonini beradi. Pedagog esa ko‘p uchraydigan xatolarni aniqlab, keyingi mashg‘ulotlarni shu muammolarga yo‘naltirishi mumkin.

Raqamli ta’lim muhitining muhim imkoniyatlaridan biri ta’lim jarayonida shakllanadigan ma’lumotlarni pedagogik maqsadlarda tahlil qilishdir. Siemens va Long [2], Ferguson [4] hamda Romero va Ventura [3] tadqiqotlarida ta’lim analitikasi va ta’lim ma’lumotlarini tahlil qilishning ta’lim sifatini yaxshilashdagi ahamiyati yoritilgan. Ta’lim analitikasi (Learning Analytics) talabalar va ularning ta’lim sharoitlari haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish, o‘lchash, tahlil qilish va natijalarni taqdim etish orqali ta’lim jarayonini tushunish hamda takomillashtirishga yo‘naltiriladi. Ta’lim ma’lumotlarini tahlil qilish (Educational Data Mining) esa ta’lim sohasidagi ma’lumotlardan qonuniyatlarni aniqlash uchun statistik va hisoblash usullaridan foydalanishga urg‘u beradi [3; 4].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

I. A. Semyonkina va P. V. Prusakovaning 2023-yilda chop etilgan nazariy sharhida ta'lim ma'lumotlarini tahlil qilishning talabalar xulq-atvori, o'zlashtirish natijalari, ta'lim dasturlarini takomillashtirish va oliy ta'lim samaradorligini oshirish bilan bog'liq yo'nalishlari ko'rib chiqilgan [5]. Y. Y. Dyulichevaning 2024-yildagi tadqiqotida ta'lim analitikasining ma'lumotlar to'plamlari, metodlari va vositalari tizimlashtirilgan [6]. D. A. Boyarinovning 2025-yildagi maqolasida ta'lim analitikasi makro-, mezo- va mikro darajalarda ko'rib chiqilgan [7].

Mazkur ilmiy yondashuvlar asosida raqamli ta'lim muhitidagi pedagogik analitikani quyidagi darajalarda tashkil etish mumkin.

2-jadval. Raqamli ta'lim muhitida ta'lim analitikasining darajalari

Daraja	Tahlil obyekti	Kutiladigan pedagogik qaror
Mikro	Alohida talabaning topshiriqlari, natijalari va o'zlashtirish dinamikasi	Individual maslahat va qo'shimcha topshiriqlar berish
Mezo	Fan, guruh yoki elektron kurs faoliyati	Murakkab mavzularni qayta tushuntirish va metodlarni takomillashtirish
Makro	Ta'lim dasturi yoki oliy ta'lim muassasasi ko'rsatkichlari	Ta'lim resurslarini taqsimlash va rivojlanish strategiyasini belgilash

Ta'lim analitikasi yordamida talabaning elektron kursga kirish chastotasi, materiallar bilan ishlashi, topshiriqlarni topshirish muddati, test natijalari va hamkorlikdagi faoliyati kabi ko'rsatkichlarni kuzatish mumkin. Biroq ushbu ko'rsatkichlarni talabaning bilim darajasi bilan to'liq tenglashtirish mumkin emas. Shu sababli raqamli ma'lumotlar pedagogik kuzatish, amaliy topshiriqlar sifati va boshqa baholash natijalari bilan birgalikda talqin qilinishi lozim.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Raqamli ta’lim muhitining pedagogik imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun texnologik infratuzilma bilan bir qatorda didaktik, tashkiliy va metodik shart-sharoitlar ham ta’minlanishi zarur.

Birinchi shart — ta’lim maqsadlari va raqamli vositalar o‘rtasidagi muvofiqlik. Har bir texnologiya muayyan pedagogik vazifani bajarishi kerak. Masalan, elektron testlar bilimlarni nazorat qilish, virtual laboratoriyalar amaliy tajribalarni modellashtirish, bulutli hujjatlar esa hamkorlikda ishlashni tashkil etishga xizmat qiladi.

Ikkinchi shart — sifatli raqamli o‘quv kontentini yaratish. Elektron materiallar ilmiy jihatdan ishonchli, mantiqiy izchil, tushunarli va talabalarning tayyorgarlik darajasiga mos bo‘lishi lozim. Kontent tarkibida nazariy ma’lumotlar bilan birga amaliy topshiriqlar, mustaqil ishlash uchun ko‘rsatmalar, o‘z-o‘zini tekshirish savollari va tavsiya etilgan manbalar bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Uchinchi shart — pedagog va talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish. Pedagog raqamli vositalardan foydalanish bilan cheklanib qolmasdan, ularni ta’lim maqsadlariga mos tanlash, elektron topshiriqlarni loyihalash, natijalarni tahlil qilish va talabalarga samarali qayta aloqa berish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

To‘rtinchi shart — mustaqil ta’limni metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash. Talabaga elektron resurslarni taqdim etishning o‘zi yetarli emas. Uning mustaqil faoliyatini tashkil etish uchun aniq maqsadlar, bosqichma-bosqich topshiriqlar, muddatlar, baholash mezonlari va o‘z faoliyatini tahlil qilish vositalari ishlab chiqilishi kerak.

Beshinchi shart — inklyuzivlik va texnologik foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash. Raqamli resurslar turli qurilmalarda ishlashi, mobil ekranlarga moslashishi va internet imkoniyatlari cheklangan talabalar uchun muqobil foydalanish usullarini nazarda tutishi lozim.

Oltinchi shart — axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish. Talabalarning shaxsiy ma’lumotlari, baholari va platformadagi faoliyatiga oid

yozuvlardan foydalanishda maxfiylik, ma'lumotlarni himoyalash va vakolatlarni cheklash talablariga rioya etish zarur.

Yuqoridagi nazariy qarashlarni umumlashtirib, oliy ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim muhitini tashkil etishning quyidagi pedagogik modelini taklif etish mumkin.

1. Maqsadli komponent Ta'lim maqsadlari, kutiladigan natijalar va raqamli kompetensiyalarni belgilash
2. Mazmuniy komponent Elektron darsliklar, videodarslar, amaliy topshiriqlar va raqamli resurslarni tanlash
3. Faoliyatli komponent Mustaqil ta'lim, interaktiv mashqlar, loyiha ishlari va hamkorlikdagi faoliyat
4. Nazorat va analitika komponenti Testlar, topshiriqlar natijalari, pedagogik qayta aloqa va o'quv faoliyatini tahlil qilish
5. Korreksion va rivojlantiruvchi komponent Aniqlangan qiyinchiliklarni bartaraf etish, metodikani yangilash va individual yordam ko'rsatish

↓

1-rasm. Raqamli ta'lim muhitini tashkil etishning pedagogik modeli.

Taklif etilgan modelning asosiy xususiyati ta'lim jarayonining uzluksizligi va qayta aloqaga asoslanganligidir. Dastlab ta'lim maqsadlari belgilanadi, so'ng ularga mos kontent va faoliyat turlari tanlanadi. Talabalarning natijalari baholanib, olingan ma'lumotlar asosida keyingi pedagogik faoliyat takomillashtiriladi. Masalan, "Informatikaning nazariy asoslari" fanida raqamli ta'lim muhitini nazariy materiallarni elektron kursga joylashtirish, videodars va taqdimotlar tayyorlash, interaktiv testlar ishlab chiqish, mustaqil amaliy topshiriqlarni murakkablik darajasi bo'yicha taqsimlash,

individual tavsiyalar berish va baholash natijalarini tahlil qilish orqali tashkil etish mumkin. Raqamli ta'lim muhitining imkoniyatlari bilan bir qatorda, uning samaradorligiga ta'sir etuvchi ayrim cheklovlar ham mavjud. Texnik infratuzilmaning yetarli emasligi va internetga ulanishdagi muammolar talabalarning elektron resurslardan foydalanish imkoniyatini cheklashi mumkin. Buni bartaraf etish uchun mobil qurilmalarga mos, hajmi kichik va zarur hollarda oflayn foydalanish mumkin bo'lgan materiallarni tayyorlash maqsadga muvofiq.

Raqamli muhitda o'quv faoliyatini noto'g'ri tashkil etish talabalarning diqqatini chalg'itishi yoki ortiqcha axborot yuklamasini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli elektron kurslar mazmuni mantiqiy qismlarga ajratilishi, topshiriqlar hajmi me'yorlashtirilishi va o'quv maqsadlari aniq ko'rsatilishi zarur. Platformadagi faollik ko'rsatkichlarini o'quv natijalari bilan aynanlashtirish noto'g'ri pedagogik xulosalarga olib kelishi mumkin. Raqamli izlar tahlili an'anaviy baholash, amaliy ishlar va pedagogik kuzatish natijalari bilan birgalikda olib borilishi kerak. Shuningdek, raqamli muhit pedagog va talaba o'rtasidagi bevosita muloqotning o'rnini to'liq egallamasligi lozim.

Demak, raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi texnologik vositalarni ko'paytirish bilangina emas, balki ularni ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi.

XULOSA

O'tkazilgan nazariy tahlil raqamli ta'lim muhiti zamonaviy oliy ta'lim tizimini takomillashtirishning muhim pedagogik vositasi ekanligini ko'rsatadi. Uning imkoniyatlari elektron resurslardan foydalanish bilan cheklanmay, ta'limni individuallashtirish, mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirish, interaktiv o'qitishni tashkil etish, hamkorlikni kuchaytirish va ta'lim natijalarini tahlil qilishni ham qamrab oladi. Raqamli ta'lim muhiti texnologik, mazmuniy, didaktik, kommunikativ, nazorat-baholash va analitik komponentlarning o'zaro integratsiyasiga asoslangan yaxlit pedagogik tizim sifatida qaralishi lozim. Raqamli texnologiyalar talabalarning mustaqil

ta'lim faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq ulardan samarali foydalanish maqsadli topshiriqlar, metodik ko'rsatmalar, aniq baholash mezonlari va pedagogik qayta aloqani talab etadi. Ta'lim analitikasi o'quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni aniqlash, individual yordamni tashkil etish va ta'lim metodikasini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Raqamli ta'lim muhitining samaradorligi pedagoglarning raqamli kompetensiyasi, elektron kontent sifati, texnologik infratuzilma, inklyuzivlik, axborot xavfsizligi va ta'lim oluvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishga bog'liq. Raqamli ta'lim muhitini rivojlantirishda maqsadlarni belgilash, kontentni loyihalash, o'quv faoliyatini tashkil etish, natijalarni tahlil qilish va metodikani takomillashtirish bosqichlarini birlashtiruvchi tizimli yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, raqamli ta'lim muhitining pedagogik salohiyati texnologik vositalarning mavjudligi bilan emas, balki ularning ta'lim maqsadlariga muvofiq, metodik jihatdan asoslangan va talabaning faol o'rganishini qo'llab-quvvatlaydigan tarzda qo'llanilishi bilan belgilanadi. Mazkur yondashuv oliy ta'lim sifatini oshirish, talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va zamonaviy ta'lim talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. — Toshkent, 2019.
2. Long, P., Siemens, G. Penetrating the Fog: Analytics in Learning and Education // EDUCAUSE Review. — 2011. — Vol. 46, No. 5. — P. 30–32.
3. Romero, C., Ventura, S. Educational Data Mining: A Review of the State of the Art // IEEE Transactions on Systems, Man, and Cybernetics, Part C: Applications and Reviews. — 2010. — Vol. 40, No. 6. — P. 601–618.
4. Ferguson, R. Learning Analytics: Drivers, Developments and Challenges // International Journal of Technology Enhanced Learning. — 2012. — Vol. 4, No. 5/6. — P. 304–317.

5. Семёнкина, И. А., Прусакова, П. В. Направления исследований в области анализа образовательных данных в высшей школе: теоретический обзор // Педагогика. Вопросы теории и практики. — 2023. — Т. 8, вып. 7. — С. 761–770. — DOI: 10.30853/ped20230111.

6. Дюличева, Ю. Ю. Применение учебной аналитики в высшем образовании: датасеты, методы и инструменты // Высшее образование в России. — 2024. — Т. 33, № 5. — С. 86–111. — DOI: 10.31992/0869-3617-2024-33-5-86-111.

7. Бояринов, Д. А. Учебная аналитика на современном этапе цифровизации образования // Проблемы современного образования. — 2025. — № 5. — С. 68–77. — DOI: 10.31862/2218-8711-2025-5-68-77.

8. Ежкова, В. Г., Щербак, В. В. Новый подход к цифровой аналитике обучения студентов на образовательной платформе Moodle // Вестник Самарского государственного технического университета. Серия: Психолого-педагогические науки. — 2026. — Т. 23, № 1. — С. 64–76. — DOI: 10.17673/vsgtu-pps.2026.1.5.

9. Шипунова, О. Д., Поздеева, Е. Г., Евсеева, Л. И. Университетская экосистема как предмет образовательной аналитики // ДИСКУРС. — 2023. — Т. 9, № 3. — С. 18–31. — DOI: 10.32603/2412-8562-2023-9-3-18-31.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQIDA UCHRAYDIGAN KAMCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Tursunova Saida Isakovna
Termiz davlat pedagogika institute,
Boshlang'ich ta'lim kafedra dotsent, p.f.f,d (PhD)

Annotatsiya*. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqida uchraydigan asosiy kamchiliklar, ularning kelib chiqish sabablari hamda ushbu kamchiliklarni bartaraf etishning pedagogik usullari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning to'g'ri talaffuz qilish, fikrni izchil bayon etish, lug'at boyligini oshirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qituvchining o'rni tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, og'zaki nutq, nutq madaniyati, talaffuz, lug'at boyligi, muloqot, nutqiy kamchiliklar, ifodali o'qish, kommunikativ kompetensiya.*

НЕДОСТАТКИ В УСТНОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ И СПОСОБЫ ИХ УСТРАНЕНИЯ

Турсунова Саида Исаковна
Термезский государственный педагогический институт, доцент кафедры начального образования, кандидат наук.

Аннотация. *В данной статье рассматриваются основные недостатки устной речи учащихся начальной школы, их причины и педагогические методы устранения этих недостатков. Также анализируется роль учителя в развитии у учащихся правильного произношения, связного изложения мыслей, словарного запаса и навыков самостоятельного мышления.*

Ключевые слова: *начальное образование, устная речь, культура речи, произношение, словарный запас, коммуникация, речевые расстройства, экспрессивное чтение, коммуникативная компетентность.*

DEFICIENCIES IN THE ORAL SPEECH OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS AND WAYS TO OVERCOME THEM

Tursunova Saida Isakovna
Termez State Pedagogical Institute, Associate Professor at the Department of Primary Education, PhD in Pedagogical Sciences

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Abstract. *This article examines the primary shortcomings in the oral speech of primary school students, the causes of these issues, and pedagogical methods for addressing them. Furthermore, it analyzes the teacher's role in helping students develop skills such as correct pronunciation, coherent expression of ideas, vocabulary expansion, and independent thinking.*

Keywords: *primary education, oral speech, culture of speech, pronunciation, vocabulary, communication, speech deficiencies, expressive reading, communicative competence.*

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishi, bilimlarni o'zlashtirishi va muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bu davrda og'zaki nutqni rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki o'quvchi o'z fikrini og'zaki ifodalash orqali atrofdagilar bilan muloqot qiladi, o'zlashtirgan bilimlarini namoyon etadi va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etadi.

Og'zaki nutq inson tafakkurining namoyon bo'lish shakllaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi bolaning aqliy, hissiy va ijtimoiy kamoloti bilan uzviy bog'liqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy ko'nikmalarni to'g'ri shakllantirish keyingi ta'lim bosqichlarida bilimlarni muvaffaqiyatli egallash uchun ham muhim asos yaratadi.

Biroq ayrim o'quvchilarning og'zaki nutqida tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish, so'zlarni o'rinli qo'llay olmaslik, gaplarni grammatik jihatdan noto'g'ri tuzish, fikrni izchil bayon etishda qiynalish va muloqot jarayonida tortinchoqlik kabi kamchiliklar uchraydi. Ushbu muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldidagi muhim pedagogik vazifalardan biridir.

METODOLOGIYA

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqida uchraydigan asosiy kamchiliklar

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqi turli omillar ta'sirida rivojlanadi. Har bir bolaning nutqiy rivojlanish sur'ati, lug'at boyligi, tovushlarni talaffuz qilish darajasi va fikrlash xususiyatlari bir-biridan farq qilishi mumkin. Shu sababli nutqdagi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kamchiliklarni aniqlashda o‘quvchining yoshi, individual xususiyatlari va ta’lim muhiti hisobga olinishi lozim.

Birinchidan, tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish. Ayrim o‘quvchilar so‘z tarkibidagi tovushlarni aniq talaffuz qila olmaydi, ayrim tovushlarni boshqa tovushlar bilan almashtiradi yoki so‘zlarni noaniq aytadi. Bunday holatlar bolaning fikrini boshqalarga tushunarli yetkazishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Tovush talaffuzidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda artikulyatsion mashqlar, tovushlarni farqlash topshiriqlari, tez aytishlar va she’rlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Agar qiyinchilik uzoq davom etsa, logoped mutaxassis bilan hamkorlik qilish zarur.

Ikkinchidan, lug‘at boyligining yetarli emasligi. O‘quvchi o‘z fikrini ifodalash uchun kerakli so‘zlarni topishda qiynalishi, bir xil so‘zlarni takrorlashi yoki so‘z ma’nosini to‘liq anglamasdan qo‘llashi mumkin. Buning sabablari orasida kitob o‘qishga qiziqishning pastligi, suhbat va muloqot imkoniyatlarining cheklanganligi hamda yangi so‘zlarni amaliyotda qo‘llashning kamligi bo‘lishi mumkin. Lug‘at boyligini oshirish uchun badiiy asarlarni o‘qish, yangi so‘zlarning ma’nosini tushuntirish, sinonim va antonimlarni o‘rgatish, rasmlar asosida hikoya tuzdirish samarali usullardan hisoblanadi.

Uchinchidan, grammatik xatolarga yo‘l qo‘yish. Ba’zi o‘quvchilar so‘zlarni o‘zaro bog‘lash, qo‘shimchalardan to‘g‘ri foydalanish, gap bo‘laklarini o‘rinli joylashtirish va grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzishda qiynaladilar. Natijada ularning nutqi mazmunan tushunarli bo‘lsa-da, grammatik jihatdan noto‘g‘ri shakllanishi mumkin. Bu kamchiliklarni kamaytirish uchun gap tuzish, so‘zlarni o‘zgartirish, gaplarni davom ettirish va matnni qayta hikoya qilish kabi mashqlardan foydalanish lozim.

To‘rtinchidan, fikrni izchil va mantiqiy bayon eta olmaslik. O‘quvchi voqea-hodisalarni ketma-ketlikda tasvirlash, sabab va natijani tushuntirish yoki biror mavzu yuzasidan mustaqil hikoya tuzishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Ba’zan fikrlar bir-biri bilan mantiqan bog‘lanmaydi, voqealar tartibi buziladi yoki asosiy mazmun

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ikkinchi darajali ma'lumotlar bilan almashib ketadi. Bunday holatlarda reja asosida hikoya tuzish, ketma-ket rasmlar yordamida voqealarni bayon qilish, ertaklarni qayta hikoya qilish va savollarga to'liq javob berish mashqlari yaxshi samara beradi.

Beshinchidan, nutqning ravonligi va ifodaliligidagi kamchiliklar. Ayrim o'quvchilar juda sekin yoki haddan tashqari tez gapiradi, so'zlar orasida noo'rin tanaffuslar qiladi, ovoz balandligi va ohangini vaziyatga moslashtira olmaydi. Shuningdek, tinish belgilariga muvofiq pauza qilish va gapning mazmuniga mos ohang tanlashda qiynalishi mumkin. Ifodali o'qish, she'r yodlash, rollarga bo'lib o'qish va dialoglar tashkil etish orqali ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin.

Oltinchidan, muloqot madaniyatiga oid kamchiliklar. Ba'zi o'quvchilar suhbatdoshining fikrini bo'lish, savolga mavzudan chetga chiqib javob berish, o'z fikrini asoslay olmaslik yoki jamoa oldida gapirishdan tortinish kabi holatlarni namoyon etadilar. Bunday muammolarni bartaraf etishda o'quvchilar uchun erkin va qo'llab-quvvatlovchi muloqot muhitini yaratish muhimdir. Juftlikda ishlash, kichik guruhlarda muhokama qilish, savol-javob va rolli o'yinlar o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

2. Og'zaki nutqdagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablari

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqida uchraydigan kamchiliklar bir nechta omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Birinchi omil - oiladagi nutqiy muhit. Bola dastlabki nutqiy ko'nikmalarni oilada egallaydi. Ota-onalarning farzand bilan muntazam suhbatlashishi, uning savollariga javob berishi, ertak va hikoyalar o'qib berishi nutq rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, muloqotning kamligi va bolaning fikr bildirishiga yetarli imkoniyat berilmasligi uning nutqiy faolligini cheklashi mumkin.

Ikkinchi omil - ta'lim jarayonining tashkil etilishi. Darslarda o'quvchilarga faqat tayyor ma'lumotlarni tinglash imkoniyati berilib, mustaqil gapirish, munozara qilish va hikoya tuzish uchun yetarli vaqt ajratilmasa, ularning og'zaki nutqi sekin rivojlanishi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mumkin. Shuning uchun dars jarayonida har bir o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlash zarur.

Uchinchi omil - individual rivojlanish xususiyatlari. Ayrim bolalarda tovush talaffuzi, eshitib farqlash, nutqni tushunish yoki fikrni ifodalash bilan bog‘liq o‘ziga xos qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Bunday vaziyatlarda bolani boshqa o‘quvchilar bilan taqqoslash o‘rniga uning individual ehtiyojlarini aniqlash va mos yordam ko‘rsatish lozim.

To‘rtinchi omil - kitobxonlik va nutqiy tajribaning yetarli emasligi. Badiiy adabiyot bilan muntazam tanishish bolaning so‘z boyligini kengaytiradi, gap tuzish ko‘nikmasini rivojlantiradi va tasavvurini boyitadi. Shu bois boshlang‘ich sinflarda yoshga mos matnlarni o‘qish va ular yuzasidan suhbat tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, raqamli qurilmalardan bir tomonlama foydalanish, ya’ni bolaning ko‘proq tayyor videolarni tomosha qilishi va jonli muloqotda kam qatnashishi ham nutqiy mashq imkoniyatlarini kamaytirishi mumkin. Bunda raqamli vositalarni butunlay cheklashdan ko‘ra, ulardan maqsadli foydalanish va jonli suhbatga yetarli vaqt ajratish maqsadga muvofiqdir.

3. Og‘zaki nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etishning samarali usullari

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirish izchil, maqsadli va tizimli tashkil etilgan pedagogik faoliyatni talab qiladi. Bunda quyidagi usullardan foydalanish mumkin.

Suhbat va savol-javob usuli. O‘qituvchi dars davomida o‘quvchilarga ochiq savollar berishi, ularni o‘z fikrini to‘liq ifodalashga undashi lozim. Masalan, “Hikoyadagi qahramon nima uchun shunday yo‘l tutdi?”, “Sen uning o‘rnida bo‘lganingda nima qilarding?” kabi savollar mustaqil fikrlash va nutqiy faollikni oshiradi.

Rasmlar asosida hikoya tuzish. O‘quvchilarga mavzuga mos rasm yoki ketma-ket rasmlar taqdim etiladi. Ular rasmda tasvirlangan voqealarni izohlaydilar,

qahramonlarning harakatlarini tasvirlaydilar va voqealar asosida kichik hikoya tuzadilar. Bu usul lug‘at boyligi, tasviriy nutq va mantiqiy izchillikni rivojlantiradi.

Qayta hikoyalash usuli. O‘quvchilar o‘qilgan matn, ertak yoki hikoyaning mazmunini o‘z so‘zlari bilan bayon qiladilar. Dastlab matnni qisqa qismlarga ajratish, tayanch so‘zlardan foydalanish va savollar asosida hikoyalash tavsiya etiladi. Keyinchalik o‘quvchilardan matnni mustaqil va izchil qayta hikoya qilish talab etiladi.

Didaktik va rolli o‘yinlar. “Do‘konda”, “Kutubxonada”, “Mehmon kutish”, “Shifokor qabulida” kabi rolli o‘yinlar o‘quvchilarni kundalik hayotga oid vaziyatlarda muloqot qilishga o‘rgatadi. Bu jarayonda bolalar savol berish, javob qaytarish, murojaat shakllaridan foydalanish va suhbatdoshini tinglash ko‘nikmalarini egallaydilar.

Tez aytishlar va she’rlar bilan ishlash. Tez aytishlar tovushlarni aniq talaffuz qilish, nutq a’zolarining harakatchanligini mashq qildirish va nutq ravonligini oshirishga yordam beradi. She’rlarni ifodali yodlash esa ohang, urg‘u, pauza va talaffuz ustida ishlash imkonini beradi. Mashqlar bolaning yoshiga va individual imkoniyatlariga mos tanlanishi kerak.

Lug‘at ustida ishlash. Har bir yangi matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarga notanish so‘zlarning ma’nosi tushuntirilishi, ushbu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzdirilishi va ularni kundalik muloqotda qo‘llashga yo‘naltirilishi lozim. So‘zlarni mavzular bo‘yicha guruhlash, ma’nodosh va zid ma’noli so‘zlarni topish ham samarali hisoblanadi.

Mustaqil fikr bildirishga o‘rgatish. O‘quvchilarga biror mavzu yuzasidan o‘z munosabatini bildirish, fikrini dalillar bilan asoslash va xulosa chiqarish imkoniyati berilishi kerak. Masalan, “Kitob o‘qish nima uchun foydali?”, “Tabiatni qanday asrashimiz mumkin?” kabi mavzularda kichik munozaralar tashkil etish mumkin.

4. O‘qituvchi va ota-onalarning hamkorligi

O‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda maktab va oila hamkorligi muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi dars jarayonida bolaning nutqiy imkoniyatlarini kuzatib borishi, uchrayotgan qiyinchiliklarni aniqlashi va tegishli mashqlarni rejalashtirishi

lozim. Ota-onalar esa uy sharoitida farzandlari bilan muntazam suhbatlashish, kitob o‘qish, voqealarni qayta hikoya qilish va kundalik faoliyat yuzasidan fikr almashishga e’tibor qaratishlari kerak.

Bolaga nutqiy xatolari sababli qo‘pol tanbeh berish, uni boshqalar oldida kamsitish yoki boshqa o‘quvchilar bilan taqqoslash tavsiya etilmaydi. Bunday yondashuv bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi va muloqotdan qochishiga sabab bo‘lishi mumkin. Aksincha, uning harakatlarini rag‘batlantirish, xatolarini muloyimlik bilan tuzatish va mustaqil fikr bildirishiga imkon yaratish lozim.

Agar talaffuz, nutqni tushunish yoki fikrni ifodalashdagi qiyinchiliklar uzoq vaqt davom etsa va bolaning ta’lim olishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatsa, tegishli mutaxassislar, jumladan, logoped va zarur hollarda boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiqdir.

5. Og‘zaki nutqni rivojlantirish natijalarini baholash

Nutqni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarning samaradorligini aniqlash uchun o‘quvchilarning nutqiy faoliyati muntazam kuzatib borilishi kerak. Baholash jarayonida quyidagi mezonlarga e’tibor qaratish mumkin:

tovushlarni aniq va tushunarli talaffuz qilish;

so‘zlarni ma’nosiga mos va o‘rinli qo‘llash;

grammatik jihatdan to‘g‘ri gaplar tuzish;

fikrni izchil va mantiqiy bayon etish;

savollarga mazmunli javob berish;

suhbat davomida tinglash va navbat bilan gapirish;

nutqning ravonligi, ifodaliligi va vaziyatga mosligi.

Baholashda faqat xatolar sonini hisoblash bilan cheklanib qolmaslik lozim. O‘quvchining avvalgi natijalari bilan keyingi rivojlanishini taqqoslash, uning faolligi va mustaqilligini hisobga olish muhimdir. Bu yondashuv o‘qituvchiga individual ta’limiy vazifalarni belgilash va samarali usullarni tanlash imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqida uchraydigan kamchiliklar ularning ta’lim olishi, fikrlash faoliyati va ijtimoiy muloqotiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, lug‘at boyligining cheklanganligi, grammatik xatolar, fikrni izchil bayon eta olmaslik va muloqot madaniyatidagi qiyinchiliklar nutqni rivojlantirish jarayonida alohida e’tibor talab qiladi.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun darslarda suhbat, savol-javob, qayta hikoyalash, rasmlar asosida hikoya tuzish, rolli o‘yinlar, ifodali o‘qish va lug‘at ustida ishlash kabi metodlardan muntazam foydalanish zarur. Shu bilan birga, o‘qituvchi va ota-onalarning hamkorligi, bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda qulay nutqiy muhit yaratish katta ahamiyatga ega.

Eng muhimi, har bir o‘quvchiga o‘z fikrini erkin, ravon va tushunarli ifodalash imkoniyatini yaratish lozim. Og‘zaki nutqni tizimli rivojlantirish orqali o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, mustaqil fikrlashi, bilimlarni o‘zlashtirishi va kelajakdagi ta’lim faoliyati uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2.O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va boshlang‘ich ta’limga oid o‘quv dasturlari.
3.Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. - Toshkent.
4.G‘ulomov A., Qodirov M. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. - Toshkent.
5.Boshlang‘ich sinflar uchun ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklari hamda metodik qo‘llanmalar.
6. Пономарева Людмила Ивановна Турсунова Саида Исаковна. Развитие словесного творчества младших школьников на уроках литературного чтения. Ялта 2024. 2024/2/28. Том 82
7. Tursunova, S., & Chorshanbiyevna, C. S. (2025). OG ‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA OTA-ONALAR ROLI. ACUMEN: INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH; Vol. 2 No. 10 (2025): ACUMEN: INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH; 172-176.
8. Абзаиров, Т., & Каршиев, А. (2025). Корректирование артикуляционных органов через гласные и согласные при обучении русскому языку студентов факультетов физической

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

культуры высших учебных заведений Узбекистана. ACUMEN: INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH; Vol. 2 No. 6 (2025): ACUMEN: INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH; 147-158.

9. Tursunova, S. I. (2025). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINI O 'QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA MATNNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. ACUMEN: INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH; Vol. 2 No. 3 (2025): ACUMEN: INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH; 109-113.

FAVQULODDA HOLATLARDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH: NAZARIY-HUQUQIY YONDASHUVLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Norov Sherali Abduraimovich
Ilmiy rahbar: Xaydarov Kamol Ashurovich
norovsheralibarsa@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashning nazariy-huquqiy asoslari, davlat organlari faoliyatining o'ziga xos jihatlari hamda favqulodda vaziyatlar sharoitida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda jamoat xavfsizligi, favqulodda vaziyat, davlat boshqaruvi va huquqiy tartibot tushunchalarining o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, favqulodda holatlarda davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijasida jamoat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *favqulodda holat, jamoat xavfsizligi, favqulodda vaziyat, huquq tartibot, davlat organlari, fuqarolar huquqlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoatchilik, davlat boshqaruvi.*

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Аннотация: *В статье анализируются теоретико-правовые основы обеспечения общественной безопасности в условиях чрезвычайного положения, особенности деятельности государственных органов, а также вопросы обеспечения прав и свобод граждан в чрезвычайных ситуациях. Раскрывается взаимосвязь понятий общественной безопасности, чрезвычайной ситуации, государственного управления и правопорядка. Особое внимание уделяется совершенствованию взаимодействия государственных органов, органов местного самоуправления, правоохранительных структур и общественности в условиях чрезвычайных ситуаций. На основе проведённого исследования разработаны практические предложения по совершенствованию правовых и организационных механизмов обеспечения общественной безопасности.*

Ключевые слова: *чрезвычайное положение, общественная безопасность, чрезвычайная ситуация, правопорядок, государственные органы, права граждан, правоохранительные органы, общественность, государственное управление.*

ENSURING PUBLIC SAFETY IN EMERGENCY SITUATIONS: THEORETICAL-LEGAL APPROACHES AND PROSPECTS FOR IMPROVEMENT

Abstract: *This article analyzes the theoretical and legal foundations of ensuring public safety during emergencies, the specific features of public authorities' activities, and the protection of citizens' rights and freedoms in emergency situations. The study examines the relationship between public safety, emergency situations, public administration and law and order. Particular attention is paid to improving cooperation among state authorities, local self-government bodies, law enforcement agencies and the public during emergencies. Based on the research findings, practical proposals are developed to improve the legal and organizational mechanisms for ensuring public safety.*

Keywords: *state of emergency, public safety, emergency situation, law and order, public authorities, citizens' rights, law enforcement agencies, public participation, public administration.*

KIRISH

Bugungi kunda tabiiy va texnogen xususiyatdagi xavflarning yuzaga kelishi, shuningdek, jamiyat xavfsizligiga tahdidlarning kuchayishi davlat tomonidan jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini muntazam takomillashtirishni talab etmoqda. Favqulodda vaziyatlarda aholining hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, muhim infratuzilmaning barqaror faoliyatini ta'minlash hamda yuzaga kelgan xavflarning oqibatlarini kamaytirish davlat boshqaruvining muhim vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi mas'uliyati ham konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan.

Jamoat xavfsizligi jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar hamda boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holatini anglatadi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash esa siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarning yaxlit tizimi sifatida namoyon bo'ladi [2]. Shu sababli favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashning nazariy-huquqiy asoslarini o'rganish va mavjud mexanizmlarni takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Favqulodda holatlarda davlat organlari faoliyatining samaradorligi, ular o'rtasidagi vakolatlarning aniq taqsimlanishi va o'zaro hamkorlik mexanizmlarining

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, favqulodda sharoitda xavfsizlikni ta'minlash jarayonida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini qonuniylik, zarurat va mutanosiblik tamoyillari asosida ta'minlash muhimdir. Mazkur masalalarning nazariy va huquqiy jihatdan tadqiq etilishi favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Favqulodda vaziyatlar va jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari huquqshunoslik, davlat boshqaruvi va xavfsizlik sohalarining muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasida jamoat xavfsizligini ta'minlash davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolar hamda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi belgilangan [2].

Huquqiy adabiyotlarda favqulodda holat odatda davlat xavfsizligi, fuqarolarning hayoti va sog'lig'i, konstitutsiyaviy tuzum yoki jamoat tartibiga jiddiy xavf tug'ilganda qo'llaniladigan maxsus huquqiy rejim sifatida izohlanadi. Jamoat xavfsizligi masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda esa davlat organlari va huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning o'zaro hamkorligi, profilaktik faoliyat, aholining xavfsizlik jarayonlaridagi ishtiroki va axborot almashinuvi muhim omillar sifatida ko'rsatiladi.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi asosiy huquqiy munosabatlar esa 2022-yil 17-avgustdagi O'RQ-790-son Qonun bilan tartibga solinadi. Mazkur qonunda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish, aholi va hududlarni muhofaza qilish hamda tegishli davlat organlarining vakolatlari belgilangan [3]. Mazkur huquqiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash faqat bitta davlat organining vazifasi emas, balki o'zaro hamkorlikka asoslangan kompleks tizim hisoblanadi.

Favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasi bir qator ilmiy va o'quv adabiyotlarida yoritilgan. Jumladan, I.Yu. Fozilovning "Jamoat xavfsizligi asoslari

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

fani tushunchasi" nomli o'quv qo'llanmasida jamoat xavfsizligining nazariy asoslari, uning maqsadi, vazifalari va funksiyalari bayon etilgan. Ushbu yondashuv favqulodda holatlarda davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va xavfsizlikni ta'minlashning nazariy asoslarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega [8].

O. Qudratov va T. G'aniyevning "Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi" darsligida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, talafotlarni kamaytirish va ularning oqibatlarini bartaraf etish masalalariga e'tibor qaratilgan. Mazkur qarashlar jamoat xavfsizligini ta'minlashda profilaktik tadbirlar va aholini muhofaza qilish mexanizmlarining o'rnini ochib beradi [9].

Shuningdek, I. Nigmatov va M. Tojiyevning "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi" darsligida aholi va moddiy boyliklarni muhofaza qilish, qutqaruv hamda tiklash ishlarini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy va tashkiliy jihatlari yoritilgan. Ushbu manbalar tahlili favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash uchun nazariy bilimlar, huquqiy tartibga solish va amaliy choralarni o'zaro uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi [10].

Shu bilan birga, favqulodda holatlarda turli davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish, axborot almashinuvi tezkorligini oshirish va aholining xavfsizlik bo'yicha xabardorligini yaxshilash masalalari qo'shimcha ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashning nazariy va huquqiy jihatlarini o'rganish maqsadida tizimli, formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy va tahliliy metodlardan foydalanildi. Formal-yuridik metod yordamida jamoat xavfsizligi va favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Qiyosiy-huquqiy metod orqali jamoat xavfsizligini ta'minlashning turli yondashuvlari tahlil qilindi. Tizimli yondashuv asosida davlat organlari, huquqni

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

muhofaza qiluvchi tuzilmalar, mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligi o‘rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash ko‘p subyektli va kompleks jarayon hisoblanadi. Uning samaradorligi, avvalo, huquqiy tartibga solish, boshqaruvning tezkorligi va davlat organlari o‘rtasidagi muvofiqlashtirilgan hamkorlikka bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy maqsadi tegishli munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi ham belgilangan [6].

Tadqiqot natijasida favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlashning quyidagi asosiy yo‘nalishlari aniqlandi:

Birinchidan, huquqiy yo‘nalish. Favqulodda vaziyatlarda davlat organlarining vakolatlari va o‘zaro hamkorlik tartibi aniq belgilangan bo‘lishi zarur.

Ikkinchidan, tashkiliy yo‘nalish. Favqulodda holat yuzaga kelganda turli davlat organlari faoliyatining yagona boshqaruv va muvofiqlashtirish mexanizmi asosida tashkil etilishi muhim.

Uchinchidan, axborot yo‘nalishi. Aholiga favqulodda vaziyat haqida tezkor, aniq va ishonchli axborot yetkazish xavfsizlikni ta’minlashning muhim shartlaridan biridir.

To‘rtinchidan, profilaktik yo‘nalish. Favqulodda vaziyat yuzaga kelgandan keyin oqibatlarni bartaraf etish bilan bir qatorda, xavflarni oldindan aniqlash va ularning oldini olishga ustuvor ahamiyat berish lozim.

Beshinchidan, inson huquqlarini ta’minlash. Favqulodda holatlarda xavfsizlikni ta’minlash choralari qonuniylik va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini hurmat qilish tamoyillariga asoslanishi kerak. Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida ham qonuniylik,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, ochiqlik va shaffoflik asosiy tamoyillar sifatida belgilangan [7].

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimida davlat boshqaruvi organlarining vakolatlari ham muhim o‘rin tutadi. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga rahbarlik qilish respublika, hududiy va mahalliy darajalarda tegishli vakolatli organlar orqali amalga oshiriladi [3]. Bundan tashqari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish favqulodda holatlarda xavfsizlikni ta’minlash samaradorligini oshirishi mumkin. Raqamli monitoring, tezkor xabardor qilish tizimlari, elektron axborot almashinuvi va ma’lumotlarni tahlil qilish vositalari xavflarni tezroq aniqlash hamda ularga javob berish imkonini beradi. Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va vakolatli davlat organlari kuch va vositalarining doimiy tayyorligini ta’minlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [4].

Shuningdek, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega. Aholiga eng yaqin bo‘lgan ushbu tuzilmalar hududdagi xavflarni tezkor aniqlash, aholini xabardor qilish va davlat organlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining o‘zaro uyg‘unligiga asoslanishi lozim.

Amaldagi qonunchilik favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishning huquqiy asoslarini belgilab bergan. Shu bilan birga, amaliy mexanizmlarni yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud [5].

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Favqulodda holatlarda davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikning yagona tezkor algoritmini ishlab chiqish.

2. Aholini favqulodda vaziyatlar haqida xabardor qilishning zamonaviy raqamli tizimlarini yanada rivojlantirish.

3. Mahalla va davlat organlari o‘rtasidagi axborot almashinuvini kuchaytirish.

4. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha profilaktik tadbirlarni kengaytirish.

5. Davlat organlari xodimlarining favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo‘yicha amaliy tayyorgarligini muntazam oshirish.

6. Favqulodda holatlarda inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish.

7.Jamoat xavfsizligini ta’minlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish.

8. Fuqarolarning favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish bo‘yicha huquqiy va amaliy bilimlarini oshirish.

Shunday qilib, favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlashning samaradorligi, avvalo, qonuniylik, tezkor boshqaruv, idoralararo hamkorlik, profilaktika, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va inson huquqlarini ta’minlash tamoyillarining uyg‘unligiga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi O‘RQ-790-son Qonuni. “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunchilik hujjatlari.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining jamoat xavfsizligini ta’minlash va favqulodda vaziyatlarning oldini olishga oid farmon va qarorlari.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishga oid normativ-huquqiy hujjatlari.
7. Davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qilish faoliyatiga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar.
8. Fozilov I.Yu. Jamoat xavfsizligi asoslari fani tushunchasi: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2022.
9. Qudratov O., G‘aniyev T. Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
10. Nigmatov I., Tojiyev M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2011.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA REFLEKSIV-BAHOLASH KOMPETENSIYASINI INTERAKTIV QAYTA ALOQA PLATFORMALARI (KAHOOT!, MENTIMETER, SOCRATIVE, PADLET) YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Yo‘ldashev Axrorjon Egamnazar o‘g‘li
Qo‘qon universiteti, Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrasi o‘qituvchisi
ORCID: 0000-0002-8752-5381
E-mail: boss.axrorjon92@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak pedagoglarda refleksiv-baholash kompetensiyasini interaktiv qayta aloqa platformalari yordamida rivojlantirish metodikasi asoslangan. Kompetensiyaning to‘rt tarkibiy qismi va uch darajasi belgilangan, Mentimeter, Socrative, Kahoot!, Padlet va Plickers asosidagi to‘rt bosqichli siklik metodika taklif etilgan. Dastlabki diagnostikada (n = 72) talabalarning 61,1 % i refleksiv-baholovchi mezon bo‘yicha o‘rta darajada ekani aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *refleksiv-baholash kompetensiyasi, interaktiv qayta aloqa, Kahoot!, Mentimeter, Socrative, Padlet, bo‘lajak pedagog, formativ baholash, raqamli madaniyat.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКСИВНО-ОЦЕНОЧНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕРАКТИВНЫХ ПЛАТФОРМ ДЛЯ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (KAHOOT!, MENTIMETER, SOCRATIVE, PADLET)

Аннотация*. В статье обоснована методика развития рефлексивно-оценочной компетенции будущих педагогов с помощью интерактивных платформ обратной связи. Выделены четыре компонента и три уровня компетенции, предложена четырёхэтапная цикличная методика на основе Mentimeter, Socrative, Kahoot!, Padlet и Plickers. Входная диагностика (n = 72) показала, что 61,1 % студентов находятся на среднем уровне по рефлексивно-оценочному критерию.*

Ключевые слова: *рефлексивно-оценочная компетенция, интерактивная обратная связь, Kahoot!, Mentimeter, Socrative, Padlet, будущий педагог, формирующее оценивание, цифровая культура.*

A METHODOLOGY FOR DEVELOPING REFLECTIVE-EVALUATIVE COMPETENCE IN FUTURE EDUCATORS USING INTERACTIVE FEEDBACK PLATFORMS (KAHOOT!, MENTIMETER, SOCRATIVE, PADLET)

Annotation. *The article substantiates a methodology for developing the reflective-assessment competence of future teachers through interactive feedback platforms. Four components and three levels of the competence are defined, and a four-stage cyclical methodology based on Mentimeter, Socrative, Kahoot!,*

Padlet and Plickers is proposed. Baseline diagnostics (n = 72) showed that 61.1 % of students are at the medium level on the reflective-assessment criterion.

Keywords: *reflective-assessment competence, interactive feedback, Kahoot!, Mentimeter, Socrative, Padlet, future teacher, formative assessment, digital culture.*

KIRISH

Raqamli muhitda pedagog nafaqat vositadan foydalanishi, balki o‘z faoliyatini tahlil qilishi, o‘quvchilar natijalarini baholashi va shu asosda keyingi qadamni rejalashtirishi lozim. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan [1], “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun esa ta’lim natijalarini baholashni muhim tamoyil sifatida mustahkamlaydi [2]. DigCompEdu doirasida “baholash va qayta aloqa” pedagog raqamli kompetentligining alohida yo‘nalishi hisoblanadi [3]; YuNESKOning AKT kompetensiyalari doirasi ham texnologiyani baholash amaliyoti bilan bog‘laydi [4].

D. Schön “refleksiv amaliyotchi” o‘z qarorlarini harakat jarayonida va undan keyin tahlil qilishini [5], D. Boud va hammualliflar esa tajribadan o‘rganishni qayta baholash sikli sifatida tavsiflagan [6]. P. Black va D. Wiliam formativ baholashning o‘quv natijalariga ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan [7]; J. Hattie va H. Timperley qayta aloqa samarasi “qayerga boryapman, qanday ketyapman, keyin nima” savollariga javob berishiga bog‘liqligini asoslagan [8]; D. Nicol va D. Macfarlane-Dick qayta aloqaning o‘zini o‘zi tartibga solishdagi rolini [9], D. Carless va D. Boud “qayta aloqa savodxonligi”ni [10], B. Zimmerman esa rejalashtirish – bajarish – o‘z-o‘zini baholash siklini [11] ochib bergan.

Kahoot! bo‘yicha adabiyotlar sharhi platformaning faollik va o‘zlashtirishga ijobiy ta’sirini qayd etadi [12]. Biroq platformalar asosan o‘quvchilarni faollashtirish vositasi sifatida o‘rganilgan, bo‘lajak pedagogning o‘zida refleksiv-baholash kompetensiyasini shakllantirish vositasi sifatida esa kam tadqiq etilgan. Muallifning avvalgi ishlarida raqamli madaniyatning tarkibi [13] va tizimli-funksional modeli [14] yoritilib, refleksiv-baholovchi mezon yetti mezondan biri sifatida ajratilgan; mazkur maqola shu mezonni chuqurlashtiradi.

Tadqiqotning maqsadi – refleksiv-baholash kompetensiyasini interaktiv qayta aloqa platformalari yordamida rivojlantirish metodikasini asoslash va dastlabki diagnostika orqali uning ehtiyojini aniqlash. **Gipoteza:** platforma hisobotlariga tayangan "maqsad – baholash – qayta aloqa – tahlil va reja" sikli muntazam qo'llansa, tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar ulushi nazorat guruhiga nisbatan ortadi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Dizayn va ishtirokchilar. Tadqiqot kvazieksperimental dizaynda (tajriba va nazorat guruhlari, boshlang'ich va yakuniy kesimlar) rejalashtirilgan. Tajriba Qo'qon universiteti va Termiz davlat pedagogika institutining 2–3-kurs boshlang'ich ta'lim, maktabgacha ta'lim hamda xorijiy til va adabiyoti yo'nalishlari talabalari ishtirokida o'tkaziladi (jami 200 nafar: tajriba guruhi – 100, nazorat guruhi – 100). Maqolada dastlabki kesimning hozirgacha to'plangan qismi (80 nafar: 72 tajriba va 8 nazorat guruhi talabasi) tahlil qilindi.

Kompetensiya tarkibi. Refleksiv-baholash kompetensiyasi deganda bo'lajak pedagogning o'z raqamli faoliyati va o'quvchilar natijalarini tizimli tahlil qilish, raqamli baholash vositalarini loyihalash, qayta aloqa berish va qabul qilish hamda rivojlanish rejasini tuzish qobiliyati tushunildi. Uning to'rt tarkibiy qismi va uch darajasi refleksiya sikli [5; 6], qayta aloqa savollari [8] va DigCompEduning baholash yo'nalishi [3] asosida belgilandi (1-rasm).



1-rasm. Refleksiv-baholash kompetensiyasining tarkibiy qismlari va rivojlanish darajalari

Diagnostik vosita. Ma'lumotlar Google Forms orqali talaba kodi bilan yig'ildi. Raqamli madaniyatning yetti mezoni uch pog'onali tavsifiy shkalada baholandi (1 – past, 2 – o'rta, 3 – yuqori). Refleksiv-baholovchi mezonda 1 ball "o'z faoliyatimni kamdan-kam tahlil qilaman", 2 ball "topshiriqdan so'ng baholayman, lekin tizimli rejaga aylantirmayman", 3 ball "muntazam tahlil qilib, aniq rivojlanish rejasi belgilayman" tavsifiga mos keladi. Ochiq savollar orqali foydalanilayotgan platformalar aniqlandi.

Metodika. Tajriba guruhida kompetensiya to'rt bosqichli sikl orqali rivojlantiriladi (2-rasm): (1) Mentimeter yoki Socrative so'rovi bilan maqsad qo'yish va diagnostika; (2) Kahoot!, Socrative yoki Plickersda baholash vositasini loyihalash va savollarni yozma asoslash; (3) Padlet doskasida "kuchli tomon – tuzatish – taklif" tuzilmasidagi tengdosh qayta aloqasi [8; 9]; (4) platforma hisobotlari asosida xatolarni tahlil qilib, 2–3 bandli rivojlanish rejasini tuzish [6; 11]. Tahlil bosqichi natijasi keyingi mashg'ulot maqsadini belgilaydi. Nazorat guruhida mashg'ulotlar an'anaviy shaklda o'tiladi.



2-rasm. Refleksiv-baholash kompetensiyasini rivojlantirishning siklik metodikasi va platformalar

Statistik tahlil va etika. Tartibli ma'lumotlar uchun guruhlararo farq Mann–Whitney U, mezonlararo bog'liqlik Spearman korrelyatsiyasi bilan baholandi; yakuniy kesimda juftlangan o'zgarish Wilcoxon mezoni bilan tekshiriladi ($p < 0,05$). Ishtirok ixtiyoriy bo'lib, shaxsni aniqlovchi ma'lumotlar tahlilga kiritilmadi.

NATIJALAR

Tajriba guruhida yetti mezon bo'yicha darajalar taqsimoti 3-rasmda keltirilgan. Refleksiv-baholovchi mezon bo'yicha talabalarning 22,2 % i (16 nafar) yuqori, 61,1 % i (44 nafar) o'rta va 16,7 % i (12 nafar) past darajada bo'ldi (o'rtacha ball – 2,06): ko'pchilik o'z faoliyatini baholaydi, lekin buni tizimli rejaga aylantirmaydi. Metodik-ijodiy mezonda 30,6 % past, 45,8 % o'rta, 23,6 % yuqori daraja qayd etildi.



3-rasm. Dastlabki diagnostika: tajriba guruhida mezonlar bo'yicha darajalar taqsimoti (%), n = 72

Nazorat guruhi hozircha kichik ($n = 8$) bo'lgani uchun uning foizlari ishonchli emas; dastlabki kesimda guruhlar o'rtasida sezilarli farq aniqlanmadi (Mann–Whitney, $p = 0,86$). Umumiy tanlamada ($n = 80$) refleksiv-baholovchi mezon axloqiy-huquqiy ($\varrho = 0,46$; $p < 0,001$), texnologik-amaliy ($\varrho = 0,35$; $p = 0,002$), kommunikativ ($\varrho = 0,28$; $p = 0,011$),

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kognitiv-axborotli (ϱ = 0,26; p = 0,022) va metodik-ijodiy (ϱ = 0,26; p = 0,021) mezonlar bilan bog‘liq bo‘ldi.

Ochiq savolda talabalar eng ko‘p Kahoot! (18), Google Forms (15), Quizizz (7) va Moodle (2) platformalarini keltirgan: test yaratish vositalari tanish, hamkorlikdagi doska va hisobotlar tahlili esa kam uchraydi. Natijalar Qo‘qon universitetining Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrasida o‘quv jarayoniga joriy etildi (2026-yil 5-oktyabrdagi 01/03-1706-son ma’lumotnoma, 200 nafar talaba). Joriy etish doirasida talabalar QR-kodli uslubiy qo‘llanma va dars ishlanmalari, Google Sites va Wix platformalarida 30 ta ta’lim sayti tayyorladi, “Elektron ta’lim resurslari” o‘quv qo‘llanmasi nashr etildi [15], amaliyot kundaligi bo‘limiga ega “Yulduzlar” raqamli platformasi (yulduzlaredu.netlify.app) ishlab chiqildi.

MUHOKAMA

Talabalarning katta qismi (61,1 %) refleksiv-baholashning o‘rta bosqichida: ular baholashni qo‘llaydi, lekin tizimli tahlil va rejalashtirishga o‘tmagan. Bu qayta aloqaning “keyin nima?” savoli [8] va qayta aloqadan foydalanish bosqichi [10] yetishmasligi bilan izohlanadi; metodikaning 4-bosqichi aynan shu bo‘shliqqa qaratilgan. Axloqiy-huquqiy mezon bilan bog‘liqlik (ϱ = 0,46) refleksiya va kasbiy mas’uliyatning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi qarashlarga [5; 6] mos keladi, biroq ikkala mezon ham o‘z-o‘zini baholashga asoslangani uchun bu bog‘liqlik oshirib ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin.

Platformaning o‘zi kompetensiyani shakllantirmaydi: talabalar test yaratishni biladi, ammo natijalarni tahlil qilish va reja tuzish alohida o‘rgatilishi kerak. Shu sababli metodikada har bir bosqich yozma mahsulot (asoslash, izoh, reja) bilan yakunlanadi. **Cheklovlar:** guruhlar tasodifiy shakllantirilmagan; har bir mezon bitta o‘z-o‘zini baholash savoli bilan o‘lchangan; nazorat guruhi hozircha kichik va yakuniy diagnostika yakunlanmagan, shu sababli samaradorlik haqidagi xulosa keyingi bosqichda beriladi.

XULOSA

Refleksiv-baholash kompetensiyasi refleksiv tahlil, baholash vositalarini loyihalash, qayta aloqa madaniyati va rivojlanish rejasidan iborat tizim sifatida asoslandi hamda uni Mentimeter, Socrative, Kahoot!, Plickers va Padlet yordamida rivojlantirishning to‘rt bosqichli siklik metodikasi ishlab chiqildi. Dastlabki diagnostikada tajriba guruhi talabalarining 22,2 % i yuqori, 61,1 % i o‘rta, 16,7 % i past darajada ekani hamda mezonning axloqiy-huquqiy (ϱ = 0,46) va texnologik-amaliy (ϱ = 0,35) mezonlar bilan bog‘liqligi aniqlandi. Metodika 200 nafar talaba ishtirokida joriy etildi; uning samaradorligi yakuniy diagnostika natijalariga ko‘ra baholanadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – URL: https://lex.uz/docs/5030957.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son. – URL: https://lex.uz/docs/5013007.
3. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – DOI: 10.2760/159770.
4. UNESCO ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. – Paris: UNESCO, 2018.
5. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983.
6. Boud D., Keogh R., Walker D. Reflection: Turning Experience into Learning. – London: Kogan Page, 1985.
7. Black P., Wiliam D. Assessment and classroom learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. – 1998. – Vol. 5, No. 1. – P. 7–74. – DOI: 10.1080/0969595980050102.
8. Hattie J., Timperley H. The power of feedback // Review of Educational Research. – 2007. – Vol. 77, No. 1. – P. 81–112. – DOI: 10.3102/003465430298487.
9. Nicol D.J., Macfarlane-Dick D. Formative assessment and self-regulated learning: a model and seven principles of good feedback practice // Studies in Higher Education. – 2006. – Vol. 31, No. 2. – P. 199–218. – DOI: 10.1080/03075070600572090.
10. Carless D., Boud D. The development of student feedback literacy: enabling uptake of feedback // Assessment & Evaluation in Higher Education. – 2018. – Vol. 43, No. 8. – P. 1315–1325. – DOI: 10.1080/02602938.2018.1463354.
11. Zimmerman B.J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. – 2002. – Vol. 41, No. 2. – P. 64–70. – DOI: 10.1207/s15430421tip4102_2.
12. Wang A.I., Tahir R. The effect of using Kahoot! for learning – A literature review // Computers & Education. – 2020. – Vol. 149. – Article 103818. – DOI: 10.1016/j.compedu.2019.103818.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

13. Yo‘ldashev A.E. Digital culture of future teachers: essence, structure and components // Altum International Conference Platform. – 2026. – P. 15–20.

15. Yo‘ldashev A.E. Elektron ta’lim resurslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: SCIENCE PRINT MChJ, 2026. – 232 b.

TA'LIM TIZIMIDA FUNKSIONAL SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MOHIYATI

Qozaqova Shahnoza Rahimjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich magistranti
E-mail: Shahnozaqozaqova4@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada funksional savodxonlikning nazariy asoslari, uning pedagogik-psixologik mohiyati, tarkibiy qismlari hamda ta'lim jarayonida rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Funksional savodxonlik shaxsning o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyati sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda UNESCO va OECD hujjatlari, PISA xalqaro baholash ramkalari hamda o'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilingan. Natijalar funksional savodxonlikni shakllantirishda kontekstli o'quv topshiriqlari, metakognitiv strategiyalar va o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi muhim ekanini ko'rsatadi. Maqola umumiy o'rta va oliy ta'lim pedagoglari uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *funksional savodxonlik; pedagogik psixologiya; kompetensiya; PISA; metakognitsiya; kontekstli ta'lim; savodxonlik strategiyalari.*

ПОНЯТИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ЕГО ПЕДАГОГО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические основы функциональной грамотности, её педагогико-психологическая сущность, структурные компоненты и пути развития в системе образования. Функциональная грамотность трактуется как способность человека применять усвоенные знания и умения в реальных жизненных ситуациях. Анализ опирается на документы UNESCO и OECD, рамки международного исследования PISA и труды отечественных и зарубежных учёных. Показано, что формирование функциональной грамотности требует контекстных учебных заданий, развития метакогнитивных стратегий и профессиональной готовности педагогов. Материалы статьи имеют практическое значение для педагогов общего и высшего образования.*

Ключевые слова: *функциональная грамотность; педагогическая психология; компетентность; PISA; метакогниция; контекстное обучение.*

THE CONCEPT OF FUNCTIONAL LITERACY IN THE EDUCATIONAL SYSTEM AND ITS PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL ESSENCE

Abstract. *The article examines the theoretical foundations of functional literacy, its pedagogical and psychological nature, structural components, and ways of developing it within the education system.*

Functional literacy is interpreted as the ability to apply acquired knowledge and skills in real-life situations. The analysis draws on UNESCO and OECD documents, the PISA assessment frameworks, and the work of both foreign and Uzbek researchers. The study shows that developing functional literacy requires contextualized learning tasks, metacognitive strategies, and the professional preparedness of teachers. The findings are relevant for teachers and researchers in general and higher education.

Keywords: *functional literacy; educational psychology; competence; PISA; metacognition; contextual learning; literacy strategies.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyat axborot hajmi tez o‘sayotgan, texnologiyalar kundalik hayotni chuqur o‘zgartirayotgan sharoitda shaxsdan nafaqat o‘qish, yozish va hisoblash ko‘nikmalariga ega bo‘lishni, balki bu ko‘nikmalarni turli hayotiy, kasbiy va fuqarolik vaziyatlarda samarali qo‘llashni talab qilmoqda. Shu sababli an’anaviy savodxonlik tushunchasi kengayib, funksional savodxonlik deb ataladigan yondashuv ta’lim nazariyasi va amaliyotining markaziy masalalaridan biriga aylandi. UNESCO hujjatlarida savodxonlik faqat matnni o‘qish va yozish bilan cheklanmasligi, balki shaxsning o‘z guruhi va jamiyatining samarali faoliyatida ishtirok etishini ta’minlovchi amaliy qobiliyat sifatida qaralishi ta’kidlangan (UNESCO, 2006).

Mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchi va talabalarning xalqaro baholash ko‘rsatkichlarini yaxshilash hamda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020) doirasidagi islohotlar funksional savodxonlikka bo‘lgan qiziqishni kuchaytirmoqda. Biroq mahalliy tadqiqotlarda bu tushunchaning nazariy mazmuni, pedagogik-psixologik mexanizmlari va tarkibiy qismlari turlicha talqin etilmoqda, ayrim hollarda esa u faqat fan natijalari bilan tenglashtirilmoqda. Shuning uchun funksional savodxonlikni yaxlit nazariy model sifatida tahlil qilish hamda uni rivojlantirish yo‘llarini aniqlashtirish dolzarb ilmiy vazifadir.

Maqolaning maqsadi funksional savodxonlikning nazariy asoslarini, uning pedagogik-psixologik xususiyatlarini, tarkibiy komponentlarini va rivojlantirish usullarini xalqaro tajriba hamda mahalliy tadqiqotlar asosida tahlil qilishdir.

METODOLOGIYA

Tadqiqot nazariy-tahliliy yo‘nalishda olib borildi. Manbalarni tanlashda uch mezon qo‘llanildi: (1) xalqaro tashkilotlarning rasmiy hujjatlari (UNESCO, OECD) va PISA baholash tadqiqotlarining metodologik nashrlari; (2) funksional savodxonlik nazariyasi bo‘yicha tan olingan xorijiy va mahalliy olimlarning asarlari; (3) so‘nggi yillarda O‘zbekiston ilmiy jurnallarida chop etilgan, funksional savodxonlikning pedagogik jihatlarini yoritgan maqolalar. Har bir manba uchun asosiy tushunchalar, ta’rif yondashuvi va empirik dalillar qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlil uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda tushunchaning evolyutsiyasi va turli ta’riflari o‘rganildi. Ikkinchi bosqichda uning pedagogik-psixologik mexanizmlari kognitiv, motivatsion va metakognitiv yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil qilindi. Uchinchi bosqichda rivojlantirish usullari ta’lim mazmuni, o‘qitish texnologiyalari va baholash amaliyoti kesimida solishtirildi. Tadqiqotning cheklovi shundaki, u eksperimental emas, balki sintezga asoslangan nazariy tahlil bo‘lib, natijalarni keng ko‘lamli empirik tekshiruv bilan sinab ko‘rish zarur.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Funksional savodxonlikning nazariy asoslari

Savodxonlikning zamonaviy talqini ikki yo‘nalishda rivojlandi. Birinchisi savodxonlikni shaxsning ichki kognitiv qobiliyati sifatida qaraydigan individual yondashuv bo‘lib, u o‘qish-yozish texnikasi va asosiy hisoblash ko‘nikmalari bilan belgilanadi. Ikkinchisi savodxonlikni ijtimoiy amaliyot sifatida talqin qiladi. Street (1984) bu yo‘nalishning asoschilaridan biri hisoblanadi: uning fikricha, savodxonlik neytral texnik ko‘nikma emas, balki muayyan madaniy va ijtimoiy kontekstda shakllanadigan amaliyotlar majmuidir. Gee (2015) ham savodxonlikni turli diskurslar va ijtimoiy identifikatsiyalar bilan bog‘liq holda tahlil qilib, uni ijtimoiy amaliyotlar doirasida ko‘rib chiqadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Funksional savodxonlik ushbu ikki yondashuvni birlashtiradi. Kirsch va Jungeblut (1986) AQSh aholisi savodxonligini tadqiq etar ekan, uni matnli, hujjatli va miqdoriy ko‘rinishlarga ajratdi hamda kundalik vazifalarni bajarish qobiliyati orqali o‘lchadi. Bu yondashuv keyinchalik OECD tomonidan kengaytirildi: OECD (2013; 2016) tadqiqotlarida savodxonlik axborotni olish, tushunish, baholash va undan foydalanish qobiliyati sifatida talqin qilinib, raqamli muhit bilan bog‘lanadi.

PISA dasturi ushbu g‘oyani maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun operatsionalashtirdi. OECD (2019) hisobotida o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik bilimlarni yodlash emas, balki ularni real hayotiy kontekstlarda qo‘llash va muammolarni yechishda faollashtirish qobiliyati sifatida ta’riflanadi. Ushbu ta’rif funksional savodxonlikning mohiyatini aks ettiradi: bilim va ko‘nikma faqat ularni yangi vaziyatga ko‘chira olganda “funksional” bo‘ladi.

Shunday qilib, funksional savodxonlikni shaxsning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va qadriyatlarini hayotiy, kasbiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda maqsadga muvofiq, mustaqil va ijodiy qo‘llash qobiliyati sifatida ta’riflash mumkin. Mahalliy tadqiqotchilarning ishlarida ham bu talqin ko‘rinadi: funksional savodxonlik an’anaviy savodxonlikni to‘ldiruvchi, uning amaliy yakuni bo‘lgan kompetensiya sifatida qaraladi.

2. Pedagogik-psixologik xususiyatlari

Funksional savodxonlik psixologik jihatdan bir necha o‘zaro bog‘liq mexanizmlar orqali namoyon bo‘ladi. Birinchidan, u kognitiv jarayonlar, ya’ni diqqat, xotira, tahlil va sintez bilan bog‘liq. Bloom taksonomiyasining yuqori darajalari, ayniqsa tahlil, baholash va yaratish, funksional savodxonlikning asosiy tayanchi hisoblanadi.

Ikkinchidan, motivatsion komponent muhim ahamiyatga ega. Bandura (1997) o‘z-o‘zini samarali deb bilish (self-efficacy) tushunchasini asoslab, shaxsning o‘z qobiliyatiga bo‘lgan ishonchi uning murakkab vazifalarga intilishi va qiyinchiliklarga chidamliligini belgilashini ko‘rsatgan. Funksional savodxonlikka ega shaxs yangi vaziyatda “bu masalani hal qila olaman” deb hisoblaydi, bu esa faol harakatni rag‘batlantiradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Uchinchidan, ijtimoiy-madaniy omil ahamiyatlidir. Vygotskiy (1978) bilimning shaxs tomonidan ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayonida, yaqin rivojlanish zonasi doirasida o‘zlashtirilishini ta’kidlagan. Bu holat funksional savodxonlikni rivojlantirishda hamkorlikdagi ta’lim, muhokama va o‘qituvchi yordamining muhimligini asoslaydi. Pedagogik nuqtai nazardan, bu savodxonlik faqat individual mashqlar bilan emas, balki ijtimoiy tajriba bilan shakllanadi.

To‘rtinchidan, metakognitiv nazorat muhim o‘rin tutadi. Funksional savodxonlikka ega shaxs o‘z fikrlash jarayonini kuzata oladi, strategiyani tanlaydi va natijani baholaydi. Bu xususiyat PISA baholash ramkalarida ham alohida ta’kidlanadi. Ushbu xususiyatlar ta’lim jarayonida uch yo‘nalishni belgilaydi: o‘quv topshiriqlarining kontekstliligi, o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlovchi metodlar va refleksiv baholash.

3. Tarkibiy qismlari

Xalqaro tadqiqotlar va mahalliy tahlillar asosida funksional savodxonlikning quyidagi asosiy komponentlarini ajratish mumkin: (a) matnli-axborot komponenti, ya’ni matnni o‘qish, tushunish va undan ma’lumot olish; (b) matematik-miqdoriy komponent, ya’ni miqdoriy ma’lumotlarni talqin qilish va hisob-kitob asosida qaror qabul qilish; (c) tabiiy-ilmiy komponent, ya’ni ilmiy dalillarni tushunish va hayotiy masalalarni ilmiy asosda baholash; (d) raqamli-axborot komponenti, ya’ni raqamli muhitda axborotni izlash, tekshirish va xavfsiz foydalanish; (e) moliyaviy-fuqarolik komponenti, ya’ni iqtisodiy va huquqiy vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish; (f) metakognitiv-refleksiv komponent, ya’ni o‘z bilim va faoliyatini kuzatish hamda tuzatish.

Ushbu komponentlar ro‘yxati PISA va OECD ramkalari asosida sintez qilingan bo‘lib, ularning har biri alohida fan doirasida ham, fanlararo integratsiyada ham namoyon bo‘ladi. Mahalliy olimlarning kimyo, biologiya va matematika fanlari kesimidagi funksional savodxonlikni baholash bo‘yicha ishlari bu komponentlarni fan mazmuniga moslashtirish mumkinligini ko‘rsatadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

4. Rivojlantirish usullari

Tahlil natijalariga ko‘ra, funksional savodxonlikni rivojlantirishning quyidagi yo‘nalishlari samarali hisoblanadi: (1) kontekstli ta’lim mazmuni, ya’ni darslik masalalarini real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirish; (2) faol va muammoli o‘qitish, jumladan loyiha, keys-stadi va muammoli vaziyatlar usullari; (3) matnlar bilan ishlash strategiyalarini o‘rgatish, ya’ni asosiy g‘oyani topish, manbani baholash va tanqidiy o‘qish; (4) raqamli savodxonlikni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish; (5) shakllantiruvchi baholash, jumladan portfel, refleksiv kundalik va PISA uslubidagi topshiriqlar; (6) o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi. Oxirgi yo‘nalish alohida ahamiyatga ega, chunki bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining funksional savodxonligi darajasi ta’lim sifatining muhim omili sifatida e’tirof etilmoqda.

4.1. Mahalliy kontekst va ilmiy yangilik

O‘zbekiston ta’lim tizimi sharoitida funksional savodxonlikni rivojlantirish ikki xil qarshilikka duch kelishi mumkin. Birinchisi, an’anaviy ta’lim modelida bilimni yodlash va reproduktiv topshiriqlarga ustunlik berilishi bilan bog‘liq. Ikkinchisi, o‘qituvchilarda xalqaro baholash ramkalarining mohiyati va ulardan amaliy foydalanish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Shu sababli maqolada taklif etilgan yondashuv, ya’ni komponentlarni fan mazmuni bilan integratsiyalash va o‘qituvchi tayyorgarligini birlashtirish, o‘zbekistonlik ta’lim sharoitiga moslashtirilgan model sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin.

Ilmiy yangilik shundaki, ko‘pgina mahalliy ishlarda funksional savodxonlik alohida fan yoki bosqich doirasida tahlil qilinadi. Bu maqolada esa tushuncha umumiy pedagogik-psixologik model sifatida yaxlit qaralib, uning mexanizmlari, komponentlari va rivojlantirish yo‘nalishlari o‘zaro bog‘lanadi. Bunday yondashuv keyingi empirik tadqiqotlar uchun aniq gipotezalar ishlab chiqish imkonini beradi.

5. Muhokama

Tahlil natijalari funksional savodxonlikni yagona, lekin ko‘p qirrali hodisa sifatida ko‘rish zarurligini tasdiqlaydi. Eng muhim jihat shundaki, u bilim hajmi bilan emas, balki bilimni qo‘llash sifati bilan o‘lchanadi. Bu xulosa PISA natijalarini talqin qilishda ham muhim: o‘quvchilar fakt va qoidalarni yaxshi bilishlari mumkin, ammo ularni yangi va noaniq vaziyatda qo‘llashda qiyinchilikka duch kelishadi (OECD, 2019). Demak, ta’lim tizimida nazorat va baholash mazmunan o‘zgarishi kerak.

Ikkinchi natija shuki, komponentlar o‘zaro bog‘liq. Matnni tushunish matematik masalaning shartini anglashga, raqamli axborotni baholash esa ilmiy dalillarni tanqidiy tahlil qilishga yordam beradi. Shuning uchun funksional savodxonlikni alohida qo‘shimcha mashg‘ulot sifatida emas, balki barcha fanlar mazmunining tarkibiy qismi sifatida rejalashtirish samaraliroq ko‘rinadi.

Uchinchi natija o‘qituvchi omiliga taalluqli. Agar pedagog kontekstli va metakognitiv yondashuvni amalda qo‘llay olmasa, bu g‘oyalar darslik darajasida qoladi. Shu sababli kasbiy tayyorgarlik dasturlariga funksional savodxonlikni rivojlantirish metodikasini kiritish zarur.

Maqolaning ilmiy yangiligi uch jihatda namoyon bo‘ladi: birinchidan, ijtimoiy-amaliy va psixologik yondashuvlarni yagona model doirasida birlashtiradi; ikkinchidan, komponentlarni PISA ramkalari va mahalliy ta’lim sharoitiga moslashtirib ko‘rsatadi; uchinchidan, pedagoglarni tayyorlash bilan rivojlantirish mexanizmlarini bog‘laydi. Cheklovlar esa tadqiqotning nazariy-tahliliy xarakterida va empirik ma’lumotlarning yetarli emasligidadir. Kelgusida O‘zbekiston maktablari va oliy ta’lim muassasalarida eksperimental tekshiruvlar o‘tkazish zarur.

Muhokamaning yana bir jihati shundaki, funksional savodxonlikni baholash va rivojlantirish bir-biridan ajralmasligi kerak. PISA tajribasi shuni ko‘rsatadiki, baholash natijalari ta’lim mazmunini qayta ko‘rib chiqish uchun asos bo‘lganda, ular haqiqiy

o‘zgarishlarga xizmat qiladi. Aks holda baholash faqat nazorat vositasiga aylanib, o‘qitish sifatiga ta’sir ko‘rsatmaydi.

Shuningdek, raqamli muhit funksional savodxonlikning yangi qirrasini ochmoqda. Axborot ko‘pligi sharoitida shaxsdan manbalarni solishtirish, ishonchliligini baholash va noto‘g‘ri axborotni aniqlash ko‘nikmalari talab etiladi. Bu komponent an’anaviy savodxonlik modellarida kam yoritilgan bo‘lib, kelgusi tadqiqotlarda alohida e’tiborga loyiq.

XULOSA

Funksional savodxonlik zamonaviy ta’lim tizimining markaziy maqsadlaridan biri sifatida nafaqat bilim berish, balki bilimni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Uning nazariy asosi ijtimoiy amaliyot va individual kognitiv qobiliyat g‘oyalarini birlashtiradi, pedagogik-psixologik mohiyati esa kognitiv, motivatsion, ijtimoiy-madaniy va metakognitiv mexanizmlarda namoyon bo‘ladi.

Tarkibiy jihatdan funksional savodxonlik matnli-axborot, matematik-miqdoriy, tabiiy-ilmiy, raqamli, moliyaviy-fuqarolik hamda metakognitiv komponentlardan iborat. Uni rivojlantirish kontekstli ta’lim mazmuni, faol o‘qitish usullari, shakllantiruvchi baholash va o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi orqali amalga oshiriladi.

Olingan natijalar oliy ta’lim muassasalarida pedagoglarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim darsliklari va baholash vositalarini yangilash uchun nazariy asos bo‘la oladi. Kelgusidagi tadqiqotlarni empirik ma’lumotlarga tayangan holda davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control. New York: W. H. Freeman.
2. Gee, J. P. (2015). Social linguistics and literacies: Ideology in discourses (4th ed.). London: Routledge.
3. Kirsch, I. S., & Jungeblut, A. (1986). Literacy: Profiles of America’s young adults. Princeton, NJ: Educational Testing Service.
4. OECD. (2013). OECD skills outlook 2013: First results from the survey of adult skills. Paris: OECD Publishing.

5. OECD. (2016). Skills matter: Further results from the survey of adult skills. Paris: OECD Publishing.
6. OECD. (2019). PISA 2018 results (Volume I): What students know and can do. Paris: OECD Publishing.
7. Street, B. V. (1984). Literacy in theory and practice. Cambridge: Cambridge University Press.
8. UNESCO. (2006). Education for all global monitoring report 2006: Literacy for life. Paris: UNESCO Publishing.
9. Vygotskiy, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
10. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (2020). Toshkent.
[Muallif F.I.Sh.] (yil). “Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarning funksional savodxonligi” [to‘liq sarlavha kiritilsin]. Inscience.uz jurnali, [jild, son, sahifalar].
[Muallif F.I.Sh.] (yil). “Kimyo fanidan talabalarning funksional savodxonligini baholashning konsepsiyasi” [to‘liq ma’lumot kiritilsin]. Jurnal nomi, [jild, son, sahifalar].
[Muallif F.I.Sh.] (yil). “Fundamental bilimlar va funksional savodxonlik” [to‘liq ma’lumot kiritilsin]. Inlibrary.uz.
[Muallif F.I.Sh.] (yil). “Zamonaviy ta’limda funksional savodxonlik va ta’lim texnologiyalarining uyg‘unligi” [to‘liq ma’lumot kiritilsin]. Inlibrary.uz.

UO'K: 372.881.111.1

INGLIZ TILIDA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA JARAYONGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV: KONSEPTUAL ASOSLAR VA METODIK TAMOYILLAR

Abduqahhorova Mahliyo Farhodjon qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: makhliyoabdukakhkhorova@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumta'lim maktablarining 10–11-sinf o'quvchilarida ingliz tilida yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda jarayonga yo'naltirilgan yondashuvning nazariy asoslari va metodik tamoyillari tahlil qilinadi. Yozma nutqning kognitiv, lingvistik va kommunikativ xususiyatlari yoritilib, yozish faoliyatini faqat yakuniy matn sifatini baholash bilan cheklashning metodik jihatdan cheklangan tomonlari ko'rib chiqiladi. Flower va Hayesning yozuv jarayoniga oid kognitiv modeli hamda ikkinchi tilda yozishni o'rgatish bo'yicha ilmiy qarashlar asosida rejalashtirish, dastlabki qoralama yaratish, qayta ko'rib chiqish, tahrirlash va yakuniy matnni taqdim etish bosqichlarining o'zaro aloqasi izohlanadi. Shuningdek, yuqori sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari va ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda fikr-mulohaza, o'zini o'zi baholash va hamkorlikda yozishning metodik imkoniyatlari asoslanadi. Maqolada asoslangan metodik tamoyillar keyingi tajriba-sinov ishlari uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *yozma nutq, yozma nutq ko'nikmalari, ingliz tili ta'limi, jarayonga yo'naltirilgan yondashuv, kognitiv jarayon, rejalashtirish, qoralama, qayta ko'rib chiqish, tahrirlash, yuqori sinf o'quvchilari.*

A PROCESS-ORIENTED APPROACH TO DEVELOPING WRITING SKILLS IN ENGLISH: CONCEPTUAL FOUNDATIONS AND METHODOLOGICAL PRINCIPLES

Abdukakhkhorova Makhliyo Farhodjon qizi
Basic doctoral student, Namangan State University
E-mail: makhliyoabdukakhkhorova@mail.ru

Abstract. *This article analyzes the theoretical foundations and methodological principles of the process-oriented approach to developing English writing skills among students in Grades 10–11 of general secondary schools. It explores the cognitive, linguistic, and communicative characteristics of writing and examines the methodological limitations of restricting writing instruction to the assessment of the quality of the final written product. Drawing on Flower and Hayes's cognitive process model of writing and scholarly perspectives on second-language writing instruction, the article explains the interrelationship*

between the stages of planning, drafting, revising, editing, and presenting the final text. Furthermore, it substantiates the methodological potential of feedback, self-assessment, and collaborative writing, taking into account the age-related characteristics and educational needs of upper-secondary school students. The methodological principles substantiated in the article may serve as a theoretical basis for subsequent experimental research.

Keywords: *writing, writing skills, English language teaching, process-oriented approach, cognitive process, planning, drafting, revising, editing, upper-secondary school students.*

ПРОЦЕССНО-ОРИЕНТИРОВАННЫЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ

Абдукаххорова Махлиё Фарходжон кизи
Базовый докторант Наманганского государственного университета
E-mail: makhliyoabdukakhkhorova@mail.ru

Аннотация. *В статье анализируются теоретические основы и методические принципы процессно-ориентированного подхода к развитию навыков письменной речи на английском языке у учащихся 10–11-х классов общеобразовательных школ. Раскрываются когнитивные, лингвистические и коммуникативные особенности письменной речи, а также рассматриваются методические ограничения подхода, при котором обучение письму сводится исключительно к оцениванию качества итогового текста. На основе когнитивной модели процесса письма Л. Флауэр и Дж. Хейса, а также научных взглядов на обучение письменной речи на втором языке раскрывается взаимосвязь таких этапов, как планирование, создание первоначального черновика, пересмотр и доработка текста, редактирование и представление окончательного варианта. Кроме того, обосновываются методические возможности использования обратной связи, самооценивания и совместной работы над текстом с учётом возрастных особенностей и образовательных потребностей учащихся старших классов. Обоснованные в статье методические принципы могут служить теоретической основой для последующих опытно-экспериментальных исследований.*

Ключевые слова: *письменная речь, навыки письменной речи, обучение английскому языку, процессно-ориентированный подход, когнитивный процесс, планирование, черновик, пересмотр текста, редактирование, учащиеся старших классов.*

KIRISH

Globallashuv sharoitida ingliz tilida yozma muloqot qila olish chet tili ta'limining muhim natijalaridan biri hisoblanadi. Yozma nutq orqali o'quvchi o'z fikrini izchil bayon

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qiladi, ma'lumotni saralaydi, dalillarni tartibga soladi va muayyan kommunikativ maqsadga muvofiq matn yaratadi. Shu sababli ingliz tilida yozishni o'rgatish faqat grammatik qoidalar, so'z boyligi va imlo me'yorlarini o'zlashtirish bilan cheklanmasligi lozim. U mazmun yaratish, fikrni tashkil etish, matnni o'quvchi yoki adresat ehtiyojiga moslashtirish va yozilgan matnni takomillashtirishni ham qamrab oladi.

10–11-sinf o'quvchilarida yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi alohida metodik ahamiyatga ega. Ushbu bosqichda o'quvchilardan nafaqat sodda gaplar tuzish, balki o'z nuqtayi nazarini asoslash, fikrlarni mantiqiy bog'lash, matn tuzilishini saqlash va turli yozma topshiriqlar talablariga rioya qilish kutiladi. Bunday vazifalarni bajarishda til birliklarini bilish muhim bo'lsa-da, ularning o'zi izchil va kommunikativ jihatdan samarali matn yaratishni kafolatlamaydi.

Mazkur muammo yozish jarayonini tashkil etishga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi. Jarayonga yo'naltirilgan yondashuvda o'quvchining faoliyati faqat tayyor matn bilan emas, balki g'oyalarni shakllantirish, rejalashtirish, qoralama yozish, mazmunni qayta ko'rib chiqish va matnni tahrirlash bosqichlari bilan birgalikda o'rganiladi. British Council materiallarida ham ushbu yondashuv yozishning alohida bosqichlarini o'rgatish va ularning har biriga maqsadli vaqt ajratish bilan tavsiflanadi [1]. Maqolaning maqsadi — 10–11-sinf o'quvchilarining ingliz tilida yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda jarayonga yo'naltirilgan yondashuvning konseptual asoslari va asosiy metodik tamoyillarini nazariy jihatdan tahlil qilish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yozishni jarayon sifatida o'rganishga oid ilmiy qarashlar XX asrning 70–80-yillarida faol shakllana boshlagan. L. Flower va J. Hayes yozuv jarayonining kognitiv modelini ishlab chiqib, rejalashtirish, fikrni matnga aylantirish va qayta ko'rib chiqish jarayonlari qat'iy chiziqli emas, balki takrorlanuvchi tarzda kechishini asoslagan [2]. V. Zamel ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotgan talabalarning yozish jarayonini kuzatib, tajribali yozuvchilar matnni qayta ko'rib chiqishda avvalo mazmun va

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

g‘oyalarga e’tibor qaratishini, kam tajribali yozuvchilar esa ko‘proq alohida so‘z va jumlalardagi xatolarni tuzatish bilan cheklanishini ko‘rsatgan [3].

K. Hyland ikkinchi tilda yozishni o‘rgatishda yozuvchi, matn va o‘quvchi (adresat) omillarini birgalikda hisobga olish zarurligini ta’kidlab, jarayonga yo‘naltirilgan ishni janr va topshiriq talablari bilan bog‘laydi [4]. R. Badger va G. White mahsulotga, jarayonga va janrga yo‘naltirilgan yondashuvlarning kuchli tomonlarini birlashtiruvchi jarayon-janr yondashuvini taklif qilgan [5]. K. Hyland va F. Hyland ikkinchi tilda yozishda o‘qituvchi va tengdosh fikr-mulohazasiga oid tadqiqotlarni umumlashtirib, fikr-mulohazaning samarasi uning berilish shakli va o‘quvchining undan qanday foydalanishiga bog‘liqligini ko‘rsatadi [6]. O‘zbekistonda J.J. Jalolov chet til o‘qitish metodikasida yozuv va yozma nutqni o‘rgatish masalalarini nutq faoliyati turlari tizimida ko‘rib chiqqan [7]. Biroq jarayonga yo‘naltirilgan yondashuvni umumta’lim maktablarining 10–11-sinflarida ingliz tilida yozma nutqni rivojlantirishga tatbiq etishning metodik tamoyillari hali yetarlicha yoritilmagan bo‘lib, bu mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va metodik talqin usullaridan foydalanildi. Tahlilning asosiy nazariy manbalarini L. Flower va J. Hayesning yozuv jarayoniga oid kognitiv modeli, K. Hylandning ikkinchi tilda yozishni o‘rgatish bo‘yicha qarashlari hamda British Council tomonidan taqdim etilgan jarayonga yo‘naltirilgan yozuv metodikasiga oid materiallar tashkil etdi [1; 2; 4]. Ushbu manbalar maktab o‘quvchilarida yozma nutqni rivojlantirish muammosiga bevosita tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan nazariy va metodik jihatlarni aniqlash maqsadida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yozma nutqni rivojlantirishning konseptual asoslari. Yozma nutq murakkab faoliyat bo‘lib, unda lingvistik bilimlar bilan bir qatorda mazmunni rejalashtirish,

fikrlarni tanlash, ularni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish va o‘quvchi uchun tushunarli shaklda ifodalash jarayonlari ham ishtirok etadi. Yozuvchi matn yaratish davomida o‘z maqsadini, mavzuni, mavjud bilimlarini va adresatning ehtiyojlarini hisobga oladi. Shu jihatdan yozish tayyor til birliklarini ketma-ket qo‘llashdan ko‘ra kengroq mazmun kasb etadi. Flower va Hayes yozish jarayonini kognitiv faoliyat sifatida izohlab, yozuvchining maqsad qo‘yishi, rejalashtirishi, matn yaratishi va yozilganini qayta ko‘rib chiqishiga e’tibor qaratadi [2]. Ushbu qarash yozishni oldindan belgilangan, qat’iy ketma-ketlikdagi amallar yig‘indisi sifatida emas, balki yozuvchi ehtiyojga qarab turli jarayonlarga qayta murojaat qiladigan faoliyat sifatida tushunishga asos bo‘ladi.

Mazkur nazariy nuqtayi nazardan kelib chiqib, 10–11-sinf o‘quvchilariga yozma nutqni o‘rgatishda faqat tayyor matndagi xatolarni aniqlashga e’tibor qaratish yetarli emas. O‘quvchi matn yozishga kirishishdan oldin nima haqida yozishini, asosiy fikrini qanday ifodalashini va matn qismlarini qanday bog‘lashini aniqlashi kerak. Dastlabki qoralama yaratilgach esa uning mazmuni, mantiqiy izchilligi va til vositalari qayta ko‘rib chiqiladi. Hyland ikkinchi tilda yozishni o‘rgatishda matn yaratish strategiyalari bilan bir qatorda janr xususiyatlari, topshiriq talablari, fikr-mulohaza va baholash masalalariga ham e’tibor qaratadi [4]. Bu yondashuv maktab ta’limi uchun muhim metodik xulosaga olib keladi: o‘quvchi yozish jarayonini o‘zlashtirish bilan birga, aynan qanday matn yozayotgani va ushbu matn qanday kommunikativ vazifani bajarishini ham anglab borishi lozim.

Demak, jarayonga yo‘naltirilgan yondashuvning konseptual asosini uchta o‘zaro bog‘liq jihat tashkil etadi: yozishni kognitiv faoliyat sifatida tushunish, matnni kommunikativ maqsadga muvofiq yaratish va yozilgan matnni izchil takomillashtirish. Bu jihatlar ingliz tilida yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning yagona metodik tizimida uyg‘unlashishi zarur.

Mahsulotga va jarayonga yo‘naltirilgan yondashuvlarning metodik farqlari. Mahsulotga yo‘naltirilgan yondashuvda asosiy e’tibor yozuvning yakuniy natijasiga,

ya'ni tayyor matnning grammatik, leksik, imloviy va kompozitsion talablariga muvofiqligiga qaratiladi. Bunda namunaviy matnni tahlil qilish, uning tuzilishini o'rganish va shu asosda o'xshash matn yaratish kabi usullar qo'llanishi mumkin. Bunday ish shakllari o'quvchilarga matn tuzilishi va til me'yorlarini o'zlashtirishda yordam beradi. Biroq ta'lim faqat yakuniy mahsulotni tekshirish bilan cheklansa, o'quvchining fikrni qanday shakllantirgani, mazmunni qanday tashkil etgani va dastlabki matnini qanday takomillashtirgani yetarlicha e'tiborga olinmasligi mumkin. Xatolarni yakuniy ish topshirilgandan keyin ko'rsatish ham o'quvchiga ularni ayni yozish jarayonida tahlil qilish va tuzatish imkoniyatini bermaydi. British Council metodik materiallarida fikr-mulohazaning qoralamalar orasida berilishi yozish jarayonini qo'llab-quvvatlashning muhim jihati sifatida ta'kidlanadi [1].

Jarayonga yo'naltirilgan yondashuvda esa yakuniy matn muhimligicha qoladi, biroq unga olib boradigan faoliyat ham o'qitishning alohida maqsadiga aylanadi. O'quvchi matn yaratish davomida g'oyalarni shakllantirish, reja tuzish, dastlabki variantni yozish, mazmunni qayta ko'rib chiqish va til jihatidan tahrirlashni o'rganadi. O'qituvchi faqat tayyor ishni baholovchi emas, balki jarayonning tegishli bosqichlarida yo'naltiruvchi va yordam beruvchi vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga, ikki yondashuvni bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi qo'yish to'g'ri emas. Yuqori sinf o'quvchilarida yozma nutqni samarali rivojlantirish uchun namunaviy matnlar, grammatik mashqlar va aniq baholash mezonlari jarayonga yo'naltirilgan ish bilan uyg'unlashtirilishi mumkin. Bunda asosiy farq mazkur vositalarning mavjudligida emas, balki ular yozish jarayonida qanday maqsadda va qaysi bosqichda qo'llanishidadir [5].

Jarayonga yo'naltirilgan yozuvning asosiy bosqichlari. Jarayonga yo'naltirilgan metodikada ko'pincha quyidagi faoliyat bosqichlari ajratiladi: yozishdan oldingi tayyorgarlik, dastlabki qoralama yaratish, matnni qayta ko'rib chiqish, tahrirlash va yakuniy variantni taqdim etish [1]. Ularni metodik rejalashtirishda alohida bosqichlar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

sifatida ko‘rsatish mumkin, ammo amaliy yozish faoliyatida ular doimo qat’iy ketma-ketlikda kechmaydi. Masalan, matnni qayta o‘qish davomida o‘quvchi dastlabki rejasiga qaytishi yoki yangi fikr paydo bo‘lgach, matnning ayrim qismlarini qayta yozishi mumkin [2].

Dastlab, yozishdan oldingi tayyorgarlik bosqichida o‘quvchilar mavzu bilan tanishadi, mavjud bilimlarini faollashtiradi, g‘oyalarni to‘playdi va ularni tartibga soladi. Aqliy xarita tuzish, savol-javob, kalit so‘zlarni guruhlash, mavzuga oid qisqa matnni o‘qish va reja tuzish kabi topshiriqlar shu bosqichda qo‘llanishi mumkin. Masalan, “Should school students use digital devices for learning?” mavzusida fikr bildirishdan oldin o‘quvchilar ijobiy va salbiy jihatlarni ajratib, har bir fikr uchun dalil yoki misol tayyorlaydi.

Ikkinchi bosqich hisoblangan dastlabki qoralama yaratishda o‘quvchi yig‘ilgan g‘oyalarni matnga aylantiradi. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi fikrlarni muayyan tuzilma asosida ifodalashdir. O‘qituvchi o‘quvchiga kirish, asosiy qism va xulosa o‘rtasidagi bog‘lanishni saqlash, mavzudan chetga chiqmaslik hamda fikrlarni mantiqiy tartibda bayon etishda yordam beradi. Dastlabki qoralamada barcha til xatolarini darhol bartaraf etishni talab qilish o‘rniga, avvalo mazmun va matnning umumiy tashkil etilishiga e’tibor berish maqsadga muvofiq.

Uchinchi bosqich, ya’ni qayta ko‘rib chiqish jarayonida matnning mazmuni, dalillarning yetarliligi, fikrlar o‘rtasidagi bog‘lanish va kommunikativ maqsadga muvofiqligi tahlil qilinadi. O‘quvchi o‘ziga “Asosiy fikrim tushunarlimi?”, “Dalillarim yetarlimi?”, “Paragraflar bir-biriga mantiqan bog‘langanmi?” kabi savollarni berishi mumkin. Juftlikda ishlash jarayonida sinfdoshi matnning tushunarli va izchil jihatlari, shuningdek, aniqlashtirish talab qiladigan o‘rinlari haqida fikr bildiradi.

To‘rtinchi bosqich bo‘lgan tahrirlashda grammatik shakllar, so‘z tanlovi, imlo, tinish belgilari va gaplarning tuzilishi tekshiriladi. Qayta ko‘rib chiqish bilan tahrirlash o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, metodik jihatdan ular turli vazifalarni bajaradi: birinchisi

ko‘proq mazmun va tuzilishga, ikkinchisi esa til me’yorlariga qaratiladi. Bunday farqlash o‘quvchiga matnni qanday tartibda takomillashtirishni tushunishga yordam beradi.

So‘nggi bosqichda, ya’ni yakuniy variantni taqdim etishda o‘quvchi qayta ishlangan matnni belgilangan formatda topshiradi yoki auditoriyaga taqdim qiladi. Yakuniy baholashda nafaqat til xatolari, balki topshiriq talabiga muvofiqlik, mazmunning izchilligi, matn tuzilishi va adresatga moslik ham hisobga olinishi lozim. Shu tariqa yakuniy matn oldingi bosqichlarda amalga oshirilgan ishlarning natijasi sifatida qaraladi.

Yuqori sinflarda yondashuvni qo‘llashning metodik tamoyillari. Jarayonga yo‘naltirilgan yondashuvni yuqori sinflarda qo‘llash umumiy nazariy bosqichlarni o‘quvchilarning ta’lim ehtiyojlari va topshiriq xususiyatlariga moslashtirishni talab qiladi. Bunda quyidagi metodik tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, kommunikativ maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili. Har bir yozma topshiriq o‘quvchiga nima uchun, kimga va qanday vaziyatda yozayotganini anglash imkonini berishi kerak. Shaxsiy fikr bildirish, maktab tadbiri haqida xabar tayyorlash, muayyan masala yuzasidan dalillangan fikr yozish yoki rasmiy elektron xat tuzish kabi topshiriqlar matnning maqsadi va adresatini aniq belgilashga yordam beradi [8].

Ikkinchidan, bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlash tamoyili. O‘qituvchi topshiriqni bir yo‘la bajarishni talab qilish o‘rniga, uni kichik va tushunarli vazifalarga ajratadi. Masalan, avval mavzu yuzasidan g‘oyalar to‘planadi, keyin reja tuziladi, undan so‘ng qoralama yoziladi va oxirida matn takomillashtiriladi. O‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab reja namunalari, bog‘lovchi birliklar ro‘yxati yoki savol ko‘rinishidagi yo‘riqnomalar berilishi mumkin. Bunday yordam o‘quvchining mustaqil ishlashiga bosqichma-bosqich o‘tishni ko‘zda tutadi.

Uchinchidan, qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish tamoyili. O‘quvchiga birinchi qoralama yakuniy natija emasligi, matnni qayta ishlash yozish faoliyatining tabiiy qismi ekanligi tushuntirilishi kerak. Bunda tuzatishlar faqat xatolarni yo‘qotishga



emas, balki fikrni aniqroq ifodalash, dalillarni yaxshilash va matn tuzilishini takomillashtirishga ham qaratiladi.

To‘rtinchidan, mazmunli fikr-mulohaza tamoyili. O‘qituvchi fikr-mulohazasi o‘quvchiga matnining kuchli jihatlarini va keyingi takomillashtirish yo‘nalishlarini anglash imkonini berishi lozim. “Yaxshi” yoki “xato” kabi umumiy baholardan ko‘ra, “asosiy fikringiz aniq, lekin ikkinchi dalilni misol bilan mustahkamlang” singari aniq tavsiyalar ko‘proq yo‘naltiruvchi ahamiyatga ega [6]. Juftlikda fikr almashish ham oldindan belgilangan mezonlar asosida tashkil etilishi kerak.

Beshinchidan, o‘zini o‘zi baholash va refleksiya tamoyili. O‘quvchilar o‘z matnini tekshirish uchun qisqa nazorat ro‘yxatidan foydalanishi mumkin. Unda mavzuga muvofiqlik, asosiy fikrning aniqligi, paragraflarning izchilligi, bog‘lovchi vositalarning qo‘llanishi va grammatik to‘g‘rilik kabi mezonlar aks ettiriladi. Yozishdan keyingi refleksiyada o‘quvchi qaysi bosqichda qiynalganini va keyingi topshiriqda nimani yaxshilashini qayd etadi [9].

Oltinchidan, mazmun va til aniqligini uyg‘un rivojlantirish tamoyili. Jarayonga yo‘naltirilgan yondashuv grammatik to‘g‘rilikni ikkinchi darajaga tushirmaydi. Aksincha, mazmunni shakllantirish va matnni tahrirlash vazifalarini farqlash orqali til me’yorlariga maqsadli e’tibor qaratish imkonini beradi. O‘quvchi dastlab fikrini ifodalashga, keyingi bosqichda esa uni grammatik va leksik jihatdan aniqroq bayon etishga yo‘naltiriladi.

Yettinchidan, individual va hamkorlikdagi faoliyatni uyg‘unlashtirish tamoyili. Mustaqil yozish o‘quvchining shaxsiy fikrini ifodalash imkonini bersa, juftlikda matnni ko‘rib chiqish boshqa o‘quvchining nuqtayi nazarini anglashga yordam beradi. Biroq tengdoshlar fikr-mulohazasi o‘qituvchi ko‘magini to‘liq almashtirmaydi; uning vazifasi o‘quvchilarni matnni mezonlar asosida tahlil qilishga o‘rgatishdir.

MUHOKAMA

Jarayonga yo‘naltirilgan yondashuvda baholash faqat yakuniy matn uchun qo‘yiladigan ball bilan chegaralanmasligi lozim. O‘quvchining reja tuzishi, qoralama yaratishi, fikr-mulohazadan foydalanishi va matnini qayta ishlashi ham o‘qitish jarayonida kuzatilishi mumkin. Bunda har bir bosqich uchun alohida ball berish majburiy emas; asosiy maqsad o‘quvchining yozish faoliyatini tushunish va unga kerakli metodik yordamni ko‘rsatishdir.

Baholash mezonlari bir necha yo‘nalishni qamrab olishi mumkin: topshiriq maqsadiga muvofiqlik, mazmunning to‘liqligi, matnning mantiqiy va kompozitsion izchilligi, leksik-grammatik vositalardan foydalanish hamda imlo va tinish belgilariga rioya qilish. Mezonlar topshiriq turiga moslashtirilishi va o‘quvchilarga yozishdan oldin tushuntirilishi kerak. Masalan, dalillangan fikr matni uchun pozitsiyaning aniqligi va dalillarning asoslanganligi muhim bo‘lsa, elektron xat uchun adresatga mos uslub va kommunikativ maqsadning bajarilishi ustuvor bo‘lishi mumkin.

O‘quvchi matnining birinchi va keyingi variantlarini qiyoslash o‘zgarishlarni ko‘rish imkonini beradi. Biroq matnning yaxshilanishi faqat grammatik xatolar sonining kamayishi bilan o‘lchanmasligi kerak. Mazmunning aniqlashuvi, dalillarning kuchayishi, paragraflarning mantiqiy bog‘lanishi va matnning o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lishi ham hisobga olinishi lozim.

Yozma ishlar to‘plami yoki portfolio o‘quvchining turli topshiriqlar bo‘yicha qoralamalari va yakuniy variantlarini saqlashga xizmat qilishi mumkin. Bu vosita o‘qituvchiga o‘quvchining qaysi jihatlarda muntazam qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlash va keyingi mashg‘ulotlarni rejalashtirish imkonini beradi. Portfolio o‘z-o‘zidan samaradorlikni kafolatlamaydi; uning pedagogik qiymati saqlangan materiallarning tahlil qilinishi va natijalarning keyingi o‘qitish qarorlarida qo‘llanishiga bog‘liq.

Tahlil qilingan nazariy qarashlar jarayonga yo‘naltirilgan yondashuvni 10–11-sinf o‘quvchilarining ingliz tilida yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun metodik

jihatdan asosli yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. L. Flower va J. Hayes modeli yozishni kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq holda izohlasa, Hylandning ishlari ikkinchi tilda yozishni o‘rgatishda matn janri, yozish strategiyalari va fikr-mulohazaning o‘rnini yoritadi [2; 4]. British Council materiallari esa nazariy g‘oyalarni dars jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan amaliy bosqichlar bilan bog‘laydi [1]. Mazkur manbalar turli vazifalarni bajaradi: kognitiv model yozuv jarayonining nazariy mohiyatini tushuntiradi, ikkinchi tilda yozish metodikasi yozma topshiriqlarni o‘rgatish masalalarini kengaytiradi, amaliy metodik materiallar esa bosqichlarni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Ularni birgalikda talqin qilish yuqori sinf o‘quvchilarida yozishni faqat yakuniy mahsulotni baholashga asoslangan faoliyat sifatida emas, balki boshqariladigan va qayta ko‘rib chiqiladigan ta’lim jarayoni sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ushbu nazariy tahlil jarayonga yo‘naltirilgan yondashuvning O‘zbekiston maktablaridagi 10–11-sinf o‘quvchilari uchun samaradorligini tajriba yo‘li bilan isbotlangan deb hisoblashga asos bermaydi. Bunday xulosaga kelish uchun maktab sharoitida maxsus tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o‘quvchilarning boshlang‘ich va yakuniy yozma ishlarini bir xil mezonlar asosida tahlil qilish hamda olingan natijalarni tegishli usullar bilan tekshirish zarur. Demak, maqolada asoslangan metodik tamoyillar keyingi empirik tadqiqotlar uchun nazariy va metodik asos vazifasini bajaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jarayonga yo‘naltirilgan yondashuv ingliz tilida yozma nutqni rivojlantirishni faqat yakuniy matn sifatini tekshirish bilan cheklamasdan, matn yaratish davomida bajariladigan kognitiv, lingvistik va kommunikativ faoliyatni ham ta’lim maqsadiga aylantiradi. Uning nazariy asoslari yozishni rejalashtirish, matn yaratish va qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘liq jarayonlar orqali tushuntirish imkonini beradi. 10–11-sinf o‘quvchilari bilan ishlashda kommunikativ maqsadga yo‘naltirilganlik, bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlash, mazmunni qayta ko‘rib chiqish, aniq fikr-mulohaza, o‘zini o‘zi baholash mazmun va til aniqligini uyg‘un rivojlantirish hamda individual va

hamkorlikdagi faoliyatni uyg‘unlashtirish tamoyillari muhimdir. Ushbu tamoyillar yozish topshiriqlarini izchil tashkil etish, o‘quvchiga o‘z matnini takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatish va baholashni o‘qitish jarayoni bilan bog‘lash imkonini beradi.

Shunday qilib, jarayonga yo‘naltirilgan yondashuvni yuqori sinflarda qo‘llash tayyor matnni tekshirishdan yozish jarayonini maqsadli tashkil etishga o‘tishni anglatadi. Uning O‘zbekiston umumta’lim maktablarining 10–11-sinflaridagi amaliy samaradorligi esa o‘quv dasturlari, mavjud ta’lim sharoitlari va o‘quvchilarning yozma ishlarini tahlil qilish asosida alohida tekshirilishi lozim.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ingliz tili o‘qituvchilari uchun yozma topshiriqlarni bosqichma-bosqich tashkil etishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish, darslik va o‘quv qo‘llanmalaridagi yozma topshiriqlarni rejalashtirish, qoralama yozish va qayta ko‘rib chiqish bosqichlarini qamrab oladigan tarzda boyitish hamda o‘quvchilar uchun topshiriq turiga mos baholash mezonlari va o‘zini o‘zi tekshirish varaqalarini tayyorlash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. British Council. Process writing // TeachingEnglish. – URL: https://www.teachingenglish.org.uk/professional-development/teachers/teaching-knowledge-database/n-p/process-writing (murojaat sanasi: 21.10.2026).
2. Flower L., Hayes J.R. A Cognitive Process Theory of Writing // College Composition and Communication. – 1981. – Vol. 32, No. 4. – P. 365–387. – DOI: 10.2307/356600.
3. Zamel V. The Composing Processes of Advanced ESL Students: Six Case Studies // TESOL Quarterly. – 1983. – Vol. 17, No. 2. – P. 165–187.
4. Hyland K. Second Language Writing. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 299 p.
5. Badger R., White G. A Process Genre Approach to Teaching Writing // ELT Journal. – 2000. – Vol. 54, No. 2. – P. 153–160. – DOI: 10.1093/elt/54.2.153.
6. Hyland K., Hyland F. Feedback on Second Language Students' Writing // Language Teaching. – 2006. – Vol. 39, No. 2. – P. 83–101.
7. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
8. Nation I.S.P. Teaching ESL/EFL Reading and Writing. – New York: Routledge, 2009.
9. Harmer J. How to Teach Writing. – Harlow: Pearson Education Limited, 2004.

UO'K: 372.881.111.1

YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILIDAGI SOTSIOLINGVISTIK QIYINCHILIKLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH TEXNOLOGIYALARI

Rahmatullayeva Maktuba Abdushukur qizi
Namangan davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti
13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
E-mail: maktubaraxmatullayeva01@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari ingliz tilida muloqot qilishda duch keladigan sotsiolingvistik qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish texnologiyalari tahlil qilinadi. Sotsiolingvistik kompetensiyaning kommunikativ kompetensiya tarkibidagi o'rni D. Hymes, M. Canale va M. Swain hamda Yevropa umumiy kompetensiyalar tizimi (CEFR) qarashlari asosida yoritiladi. O'quvchilar qiyinchiliklari muloqot vaziyatiga mos uslubni tanlash, xushmuomalalik vositalaridan foydalanish, iltimos, uzr so'rash va rad etish kabi nutqiy aktlarni madaniy me'yorlarga muvofiq bajarish hamda madaniy jihatdan belgilangan leksik birliklarni tushunish yo'nalishlarida guruhlanadi. Ularni bartaraf etishda rolli o'yinlar, vaziyatli topshiriqlar, autentik materiallar asosida diskursni tahlil qilish va loyiha texnologiyasining metodik imkoniyatlari asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *sotsiolingvistik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, nutqiy akt, xushmuomalalik, nutq uslubi, yuqori sinf o'quvchilari, rolli o'yin, vaziyatli topshiriq, autentik material.*

SOCIOLINGUISTIC DIFFICULTIES OF UPPER-SECONDARY SCHOOL STUDENTS IN ENGLISH AND TECHNOLOGIES FOR OVERCOMING THEM

Rakhmatullayeva Maktuba Abdushukur qizi
2nd-year basic doctoral student, Namangan State University
13.00.02 – Theory and Methodology of Education and Upbringing
E-mail: maktubaraxmatullayeva01@gmail.com

Abstract. *The article analyzes the sociolinguistic difficulties that upper-secondary school students face when communicating in English and the technologies for overcoming them. The place of sociolinguistic competence within communicative competence is discussed on the basis of the views of D. Hymes, M. Canale and M. Swain, and the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR). Students' difficulties are grouped into choosing a register appropriate to the communicative situation, using politeness strategies, performing speech acts (requests, apologies, refusals) in line with cultural norms, and understanding culturally marked vocabulary. The methodological potential of role plays, situational tasks, discourse analysis of authentic materials and project-based learning for overcoming these difficulties is substantiated.*

Keywords: *sociolinguistic competence, communicative competence, speech act, politeness, register, upper-secondary school students, role play, situational task, authentic materials.*

СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ И ТЕХНОЛОГИИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ

Рахматуллаева Мактуба Абдушукур кизи
Базовый докторант 2-го курса Наманганского государственного университета
13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания
E-mail: maktubaraxmatullayeva01@gmail.com

Аннотация. *В статье анализируются социолингвистические трудности, с которыми сталкиваются учащиеся старших классов общеобразовательных школ при общении на английском языке, а также технологии их преодоления. Место социолингвистической компетенции в структуре коммуникативной компетенции раскрывается на основе взглядов Д. Хаймса, М. Канале и М. Свейн, а также Общеевропейских компетенций владения иностранным языком (CEFR). Трудности учащихся сгруппированы по следующим направлениям: выбор стиля речи в соответствии с ситуацией общения, использование средств вежливости, выполнение речевых актов (просьба, извинение, отказ) с учётом культурных норм и понимание культурно маркированной лексики. Обосновываются методические возможности ролевых игр, ситуативных заданий, анализа дискурса на основе аутентичных материалов и проектной технологии в преодолении этих трудностей.*

Ключевые слова: *социолингвистическая компетенция, коммуникативная компетенция, речевой акт, вежливость, стиль речи, учащиеся старших классов, ролевая игра, ситуативное задание, аутентичные материалы.*

KIRISH

O‘zbekistonda chet tillarni o‘qitish tizimini isloh qilish chet tilida erkin muloqot qila oladigan yoshlarni tayyorlashni asosiy maqsad sifatida belgilab berdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son qarori bilan chet tillarni o‘rganishning uzluksiz tizimi va xalqaro me’yorlarga moslashtirilgan ta’lim standartlarini joriy etish vazifasi qo‘yildi [1]. Mazkur talablar o‘quvchidan nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri, balki muloqot vaziyatiga mos nutq tuzish ko‘nikmasini ham talab qiladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Amaliyotda yuqori sinf o‘quvchilari grammatika va lug‘atni ancha yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lsa-da, real muloqotda ko‘pincha vaziyatga nomuvofiq ifodalarni qo‘llaydi. Masalan, o‘qituvchiga elektron xatda do‘stona “Hey, send me the file” shaklida murojaat qilish yoki iltimosni ona tilidagi qolipni so‘zma-so‘z o‘girib ifodalash holatlari uchraydi. Bunday xatolar grammatik emas, balki sotsiolingvistik xarakterga ega bo‘lib, suhbatdoshda qo‘pollik yoki xushmuomalasizlik taassurotini qoldirishi mumkin.

Shu sababli yuqori sinf o‘quvchilarining sotsiolingvistik qiyinchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etishning samarali texnologiyalarini asoslash dolzarb metodik vazifa hisoblanadi. Maqolaning maqsadi 10–11-sinf o‘quvchilari ingliz tilida muloqot qilishda duch keladigan sotsiolingvistik qiyinchiliklarni tasniflash va ularni bartaraf etishga xizmat qiluvchi ta’lim texnologiyalarining metodik imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“Kommunikativ kompetensiya” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan D. Hymes til bilimini faqat grammatik to‘g‘rilik bilan cheklash mumkin emasligini, so‘zlovchi nimani, kimga, qachon va qanday aytish kerakligini ham bilishi lozimligini ta’kidlagan [2]. M. Canale va M. Swain kommunikativ kompetensiya tarkibida grammatik va strategik kompetensiyalar bilan bir qatorda sotsiolingvistik kompetensiyani alohida ajratib, uni ijtimoiy-madaniy qoidalar va diskurs qoidalarini bilish sifatida izohlagan [3].

Yevropa umumiy kompetensiyalar tizimi (CEFR) sotsiolingvistik kompetensiyani ijtimoiy munosabatlarning lingvistik belgilari, xushmuomalalik konvensiyalari, xalq donoligi ifodalari, uslubiy farqlar, dialekt va talaffuz xususiyatlarini qamrab oluvchi tarkibiy qism sifatida tavsiflaydi [4]. 2020-yilda nashr etilgan qo‘shimcha jildda esa sotsiolingvistik muvofiqlik uchun har bir daraja bo‘yicha deskriptorlar aniqlashtirilgan [5]. L. Bachman sotsiolingvistik kompetensiyani pragmatik kompetensiya tarkibida

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ko‘rib, dialekt va uslubga sezgirlik, nutqning tabiiyligi hamda madaniy ishoralarni tushunish qobiliyatini ajratadi [6].

Sotsiolingvistik me’yorlarning mazmunini J. Holmes muloqot ishtirokchilari, vaziyat, mavzu va muloqot vazifasi kabi ijtimoiy omillar orqali tushuntiradi. U ijtimoiy masofa, maqom va rasmiylik darajasi tilni tanlashga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatadi [7]. P. Brown va S. Levinsonning xushmuomalalik nazariyasi esa iltimos, uzr so‘rash va rad etish kabi nutqiy aktlarda suhbatdoshning “yuz”ini saqlashga qaratilgan strategiyalarni tahlil qilish uchun nazariy asos bo‘ladi [8].

Chet tili ta’limi nuqtayi nazaridan K. Bardovi-Harlig va Z. Dörnyei tadqiqoti muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, tilni chet tili sifatida o‘rganayotgan o‘quvchilar grammatik xatolarni pragmatik me’yorlarning buzilishidan jiddiyroq deb baholaydi, ya’ni sotsiopragmatik xatolarni kamroq sezadi [9]. M. Byram madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modelida bilim, munosabat va ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirishni taklif qiladi [10]. N. Ishihara va A. Cohen pragmatik va sotsiolingvistik me’yorlarni maqsadli, ochiq tarzda o‘rgatish zarurligini asoslaydi [11]. O‘zbek metodikasida J.J. Jalolov chet tilini o‘qitishning kommunikativ yo‘nalishini nutq faoliyati turlari va muloqot vaziyatlari bilan bog‘lab yoritgan [12]. Biroq yuqori sinf o‘quvchilarining sotsiolingvistik qiyinchiliklarini tasniflash va ularni bartaraf etish texnologiyalarini maktab sharoitiga moslashtirish masalasi hali yetarlicha o‘rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tasniflash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Sotsiolingvistik qiyinchiliklarni guruhlashda CEFR tizimidagi sotsiolingvistik kompetensiya tarkibiy qismlari va J. Holmes ajratgan ijtimoiy omillar asosiy mezon sifatida olindi [4; 7]. Ta’lim texnologiyalarini tanlashda ularning har bir qiyinchilik turiga qanday metodik ta’sir

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ko‘rsatishi, yuqori sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari va maktab darsining tashkiliy imkoniyatlari hisobga olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sotsiolingvistik qiyinchiliklar tasnifi. Nazariy tahlil yuqori sinf o‘quvchilarining sotsiolingvistik qiyinchiliklarini to‘rt guruhga ajratish imkonini berdi. Birinchi guruh nutq uslubini tanlash bilan bog‘liq. O‘quvchilar rasmiy va norasmiy vaziyatlar farqini anglasa-da, ingliz tilida ularni ifodalovchi vositalarni yetarli bilmaydi. Natijada rasmiy xatda “wanna”, “gonna” kabi so‘zlashuv shakllari qo‘llanadi yoki, aksincha, do‘st bilan suhbatda haddan tashqari rasmiy iboralar ishlatiladi.

Ikkinchi guruh xushmuomalalik vositalaridan foydalanish bilan bog‘liq. Ingliz tilida iltimos ko‘pincha bilvosita shaklda, “Could you…?”, “Would you mind…?”, “I was wondering if…” kabi qoliplar orqali ifodalanadi. O‘quvchilar esa buyruq maylidagi “Give me…” yoki faqat “please” qo‘shilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaklni afzal ko‘radi. P. Brown va S. Levinson nazariyasiga ko‘ra, bunday shakl suhbatdosh erkinligini cheklovchi harakat sifatida qabul qilinishi mumkin [8].

Uchinchi guruh nutqiy aktlarni madaniy me’yorlarga muvofiq bajarish bilan bog‘liq. Rad etishda ingliz tilida odatda minnatdorlik, afsus va sabab ketma-ketligi qo‘llanadi (“Thanks for asking, but I’m afraid I can’t…”). O‘quvchilar esa ko‘pincha qisqa “No” bilan cheklanadi yoki ona tilidagi qolipni so‘zma-so‘z o‘giradi. Bu holat ona tilidan pragmatik ko‘chirish (transfer) natijasidir.

To‘rtinchi guruh madaniy jihatdan belgilangan leksik birliklar bilan bog‘liq. Idiomalar, xalq donoligi ifodalari, murojaat shakllari (“Sir”, “Madam”, ismni qo‘llash), so‘zlashuv nutqiga xos qisqartmalar va madaniy realiyalarni tushunish o‘quvchilar uchun alohida qiyinchilik tug‘diradi. CEFR ham bu birliklarni sotsiolingvistik kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraydi [4].

Qiyinchiliklarni bartaraf etish texnologiyalari. Aniqlangan qiyinchiliklar ularni bartaraf etishda bir nechta ta’lim texnologiyasini uyg‘unlashtirishni talab qiladi. 1-

jadvalda har bir qiyinchilik turi uchun eng mos texnologiya va topshiriq namunasi keltirilgan.

1-jadval. Sotsiolingvistik qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish texnologiyalari

Qiyinchilik turi	**Xato namunasi**	**Asosiy texnologiya**	**Topshiriq namunasi**
Nutq uslubini tanlash	Rasmiy xatda “wanna”, “gonna”	Autentik materiallar asosida diskurs tahlili	Bitta mazmundagi rasmiy va norasmiy xatlarni qiyoslash
Xushmuomalalik vositalari	“Give me your notes.”	Vaziyatli topshiriqlar	Bir iltimosni do‘st, o‘qituvchi va notanish kishiga moslab aytish
Nutqiy aktlarni bajarish	Taklifga faqat “No” deb javob	Rolli o‘yin	Taklifni rad etish, uzr so‘rash vaziyatlarini sahnalashtirish
Madaniy leksika	Idioma yoki murojaat shaklini so‘zma-so‘z tushunish	Loyiha texnologiyasi	Ingliz va o‘zbek muloqot odatlarini qiyoslovchi mini-loyiha

Rolli o‘yinlar o‘quvchiga turli ijtimoiy rollarda nutq tuzish imkonini beradi. Rol kartochkasida ishtirokchilarning yoshi, maqomi va o‘zaro munosabati aniq ko‘rsatilganda, o‘quvchi uslub va xushmuomalalik vositalarini ongli ravishda tanlaydi. O‘yindan keyingi muhokamada qaysi ifodalar vaziyatga mos kelgani tahlil qilinadi.

Vaziyatli topshiriqlar bir xil mazmunni turli suhbatdoshga moslab ifodalashni talab qiladi. Masalan, darsdan ruxsat so‘rash vaziyati sinfdosh, sinf rahbari va maktab

direktoriga murojaat shaklida bajariladi. Bu J. Holmes ta'kidlagan ijtimoiy masofa va maqom omillarini amalda his qilishga yordam beradi [7].

Autentik materiallar asosida diskurs tahlili o'quvchining sotsiolingvistik sezgirligini oshiradi. Film parchalari, elektron xatlar va intervyularda ona tilida so'zlovchilar iltimos, uzr va rad etishni qanday ifodalashi kuzatiladi. N. Ishihara va A. Cohen ta'kidlaganidek, me'yorlarni ochiq tushuntirish va qiyoslash o'quvchining ularni mustaqil qo'llashiga zamin yaratadi [11].

Loyiha texnologiyasi madaniyatlararo taqqoslashni chuqurlashtiradi. O'quvchilar ingliz va o'zbek tillaridagi salomlashish, murojaat, mehmondo'stlik yoki minnatdorlik bildirish odatlarini o'rganib, natijani taqdimot yoki plakat shaklida himoya qiladi. M. Byram modeliga ko'ra, bunday faoliyat o'z madaniyatini boshqa madaniyat bilan qiyoslash orqali madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiradi [10].

MUHOKAMA

Tahlil natijalari yuqori sinf o'quvchilarining sotsiolingvistik qiyinchiliklari asosan bilim yetishmasligidan emas, balki ingliz tilidagi muloqot me'yorlarining maqsadli o'rgatilmasligidan kelib chiqishini ko'rsatadi. Bu xulosa K. Bardovi-Harlig va Z. Dörnyei qayd etgan holatga mos keladi: chet tili sifatida o'qitish sharoitida o'quvchi asosan grammatik to'g'rilikka e'tibor beradi, sotsiopragmatik me'yorlar esa e'tibordan chetda qoladi [9].

Shu bilan birga, taklif etilgan texnologiyalarni alohida-alohida emas, balki izchil tizim sifatida qo'llash maqsadga muvofiq. Avval autentik materiallar asosida me'yor kuzatiladi va tushuntiriladi, keyin vaziyatli topshiriqlarda boshqariladigan mashq qilinadi, so'ng rolli o'yinlarda erkin qo'llanadi, loyiha ishida esa madaniyatlararo umumlashtiriladi. Bunday ketma-ketlik o'quvchini me'yorni anglashdan uni mustaqil qo'llashgacha bosqichma-bosqich olib boradi.

Sotsiolingvistik kompetensiyani baholash ham alohida e'tibor talab qiladi. Baholashda faqat grammatik to'g'rilik emas, balki uslubning vaziyatga muvofiqligi,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

xushmuomalalik vositalarining o‘rinli qo‘llanishi va nutqiy aktning madaniy me’yorga mosligi hisobga olinishi lozim. CEFR qo‘shimcha jildidagi sotsiolingvistik muvofiqlik deskriptorlari bunday mezonlarni ishlab chiqishda tayanch bo‘lishi mumkin [5]. Ayni paytda mazkur nazariy xulosalarning samaradorligi maktab sharoitida o‘tkaziladigan tajriba-sinov ishlari orqali tekshirilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sotsiolingvistik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning ajralmas qismi bo‘lib, u o‘quvchining nutqini nafaqat to‘g‘ri, balki vaziyatga mos va madaniy jihatdan o‘rinli bo‘lishini ta’minlaydi. Yuqori sinf o‘quvchilarining bu sohadagi qiyinchiliklari nutq uslubini tanlash, xushmuomalalik vositalaridan foydalanish, nutqiy aktlarni madaniy me’yorlarga muvofiq bajarish va madaniy jihatdan belgilangan leksikani tushunish bilan bog‘liq.

Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etishda rolli o‘yinlar, vaziyatli topshiriqlar, autentik materiallar asosida diskurs tahlili va loyiha texnologiyasi samarali vosita bo‘la oladi. Ularning ta’siri me’yorni kuzatish, boshqariladigan mashq, erkin qo‘llash va madaniyatlararo umumlashtirish bosqichlari izchil tashkil etilganda kuchayadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, ingliz tili darslarida sotsiolingvistik me’yorlarni maqsadli va ochiq o‘rgatishga alohida vaqt ajratish, o‘quv-metodik majmualardagi muloqot topshiriqlarini ishtirokchilarning maqomi va ijtimoiy masofasi aniq ko‘rsatilgan vaziyatlar bilan boyitish hamda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini baholash mezonlariga sotsiolingvistik muvofiqlik ko‘rsatkichini kiritish taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son qarori.
2. Hymes D. On Communicative Competence // Pride J.B., Holmes J. (eds.). Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
3. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–47.
4. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

5. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.
6. Bachman L.F. Fundamental Considerations in Language Testing. – Oxford: Oxford University Press, 1990.
7. Holmes J. An Introduction to Sociolinguistics. – 4th ed. – London; New York: Routledge, 2013.
8. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
9. Bardovi-Harlig K., Dörnyei Z. Do Language Learners Recognize Pragmatic Violations? Pragmatic Versus Grammatical Awareness in Instructed L2 Learning // TESOL Quarterly. – 1998. – Vol. 32, No. 2. – P. 233–259.
10. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997.
11. Ishihara N., Cohen A.D. Teaching and Learning Pragmatics: Where Language and Culture Meet. – Harlow: Pearson Longman, 2010.
12. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

O‘ZBEK VA BOSHQA TILLARDA TO‘Y LEKSIKASINING STILISTIK XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL-USLUBIY TABIATI

Uzakova Lola Anvarovna
lola.uzakova.tea@gmail.com
Katta o‘qituvchi f.f.f.d(Ph.D)
Oziq ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro institute

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek, ingliz, nemis, fransuz va ispan tillaridagi to‘y leksikasining stilistik xususiyatlari hamda funksional-uslubiy tabiati tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarjima stilistikasidagi “uslub tadqiqi” va “stilistik tahlil” yondashuvlari, shuningdek, badiiy va poetik leksikaning kundalik tildan farqlanishi borasidagi qarashlar ko‘rib chiqiladi. To‘y leksikasining ekspressivligi emotivlar, ya’ni emotiv-indekslar, emotiv-obrazlar va emotiv-ramzlar misolida o‘rganilib, ularning marosim muhtashamligini shakllantirishdagi, ijtimoiy rollarni kodlashtirishdagi hamda sotsiomadaniy normalarni mustahkamlash yoki o‘zgartirishdagi o‘rni ochib beriladi. Badiiy asarlardan olingan misollar asosida to‘y birliklari neytral nomlovchi vositalar emas, balki kuchli emotsional-ekspressiv stilistik vosita ekanligi dalillanadi. Shuningdek, to‘y leksikasini faqat lug‘aviy ma’no darajasida o‘rganish uning estetik, emotsional va kontekstual qiymatini yo‘qotishga olib kelishi asoslanadi. Tahlil jadval va besh tildan olingan qiyosiy misollar bilan boyitilgan bo‘lib, to‘y diskursining ijtimoiy ongni shakllantirishdagi rolini ko‘rsatadi. Maqola natijalari qiyosiy tilshunoslik, stilistika, diskurs tahlili va tarjimashunoslik sohalarida, shuningdek, marosim matnlarini tarjima qilish amaliyotida qo‘llanilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *to‘y leksikasi, stilistika, ekspressivlik, emotivlar, tarjima stilistikasi, madaniy-lingvistik birliklar, diskurs, qiyosiy tahlil*

СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И ФУНКЦИОНАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА СВАДЕБНОЙ ЛЕКСИКИ В УЗБЕКСКОМ И ДРУГИХ ЯЗЫКАХ

Узакова Лола Анваровна
lola.uzakova.tea@gmail.com
Старший преподаватель, доктор
философии по филологическим наукам (Ph.D.)
Международный институт пищевой технологии и инженерии

Аннотация. *В статье анализируются стилистические особенности и функционально-стилистическая природа свадебной лексики в узбекском, английском, немецком, французском и испанском языках. Рассматриваются подходы «изучение стиля» и «стилистический анализ» в*

переводческой стилистике, а также позиции исследователей относительно отличия поэтической и художественной лексики от повседневного языка. Экспрессивность свадебной лексики изучается на примере эмотивов: эмотивов-индексов, эмотивов-образов и эмотивов-символов, раскрывается их роль в создании торжественности обряда, кодировании социальных ролей, закреплении и трансформации социокультурных норм. На материале примеров из художественных произведений доказывается, что свадебные единицы являются не нейтральными номинативными средствами, а мощным эмоционально-экспрессивным стилистическим инструментом. Кроме того, обосновывается, что изучение свадебной лексики лишь на уровне словарных значений приводит к утрате её эстетической, эмоциональной и контекстуальной ценности. Анализ сопровождается таблицей и примерами из пяти языков, показывающими роль свадебного дискурса в формировании общественного сознания. Результаты работы могут быть использованы в сопоставительном языкознании, стилистике, дискурс-анализе и переводоведении, а также в практике перевода обрядовых текстов.

Ключевые слова: *свадебная лексика, стилистика, экспрессивность, эмотивы, переводческая стилистика, культурно-языковые единицы, дискурс, сопоставительный анализ*

STYLISTIC FEATURES AND FUNCTIONAL-STYLISTIC NATURE OF WEDDING VOCABULARY IN UZBEK AND OTHER LANGUAGES

Uzakova Lola Anvarovna
lola.uzakova.tea@gmail.com
Senior Lecturer, Doctor of Philosophy in Philology (Ph.D)
International Institute of Food Technology and Engineering

Annotation. *The article analyzes the stylistic features and functional-stylistic nature of wedding vocabulary in Uzbek, English, German, French and Spanish. It examines the "study of style" and "stylistic analysis" approaches in translational stylistics, as well as scholarly views on whether poetic and literary vocabulary differs from everyday language. The expressiveness of wedding vocabulary is studied through emotives, namely emotive indices, emotive images and emotive symbols, and their role in creating the solemnity of the ceremony, encoding social roles, and reinforcing or transforming sociocultural norms is revealed. On the basis of examples from fiction, it is shown that wedding-related units are not neutral nominative devices but a powerful emotional-expressive stylistic resource. It is also argued that studying wedding vocabulary only at the level of dictionary meaning leads to the loss of its aesthetic, emotional and contextual value. The findings may be applied in comparative linguistics, stylistics, discourse analysis and translation studies.*

Keywords: *wedding vocabulary, stylistics, expressiveness, emotives, translational stylistics, culture-specific units, discourse, comparative analysis*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

To‘y leksikasining stilistik xususiyatlarini tadqiq etish jarayoni tadqiqotchi yoki tarjimon interpretatsiyasining manba matn semantikasi bilan yaqinlashuvini nazarda tutadi. Mazkur jarayon natijasida muallifning o‘ziga xos nutqiy tabiati qo‘llanilgan stilistik vositalar va madaniy-lingvistik omillar bilan uyg‘unlashib, yaxlit sintezni tashkil etadi.

Xususan, to‘y leksikasiga oid ekspozitsiv bayon hamda dialogik nutq kompozitsiyasi o‘zaro integratsiyalashgan gibrid janrlarda masalan, lirik-dramatik to‘y folklorida arxaizm va metaforalar, tabrik hamda tilaklar diskursida modallik ifodalovchi so‘zlar, taklifnomalar matnida terminologik va rasmiy leksika, badiiy adabiyotdagi to‘y tasvirlarida esa dialektizm va idiolektlar o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Mazkur leksik-stilistik qatlamlarni differensial aspektda tadqiq etish zamonaviy filologiyaning ustuvor va dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

METODOLOGIYA

K.Malmker o‘zining tarjima stilistikasiga bag‘ishlangan “What happened to God and the angels...” tadqiqotida bir-biridan konseptual farq qiluvchi ikki asosiy yondashuvni ilgari suradi.”[1] “Uslub tadqiqi”/ study of style yondashuvida asosiy e’tibor semantik mazmundan ko‘ra, ko‘proq lingvistik shakl hamda strukturaviy-sintaktik qurilishga qaratiladi.

To‘y leksikasi kontekstida bu marosimiy birliklarning morfologik tarkibi va sintaktik valentligini o‘rganishni nazarda tutadi. “Stilistik tahlil”/ stylistic analysis yondashuvida esa muayyan leksik tanlovlarni yuzaga keltirgan kognitiv motivlar va transformatsion jarayonlar tadqiq etiladi. Bunda ekvivalentga ega bo‘lmagan milliy-madaniy birliklarning tanlanish sabablari va ularning matndagi pragmatik funksiyasi tahlil markaziga qo‘yiladi.

Bundan tashqari, yuqorida qayd etilgan stilistik yondashuvlar asosida to‘y leksikasining individual qarorlar qabul qilish jarayonidagi rolini tadqiq etish matnning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

diskursiv tabiatini fundamental darajada anglash imkonini beradi. Mazkur leksikaning lingvostilistik spetsifikasini dalillashda, tahlil jarayonini bevosita kontekstual xususiyatlar asosida tashkil etish metodologik jihatdan katta ilmiy qiymatga ega.

Shu munosabat bilan, zamonaviy tilshunoslikda badiiy va diskursiv matnlar leksikasini stilistik tahlil qilish muammosi uzoq vaqtdan buyon tilshunos hamda matnshunos olimlar o‘rtasidagi fundamental bahslarga sabab bo‘lib kelmoqda. Xususan, J.Ostin[2], K.Malmjaer[3], P.Simpson va G.Hol[4], Vidovson[5], J.Eser[6], J.Veber[7], D.Kristal va D.Deivi[8], D.Birch[9], M.Short va G.Lich[10], K.Vales[11]kabi olimlar poetik va ekspressiv leksika o‘ziga xos tabiatga ega va u kundalik so‘z boyligidan farq qiladi, deb hisoblaydilar. Aksincha, R.Fovler[12] va G.Leech[13]esa maxsus matnlar leksikasini kundalik tildan ajratish asossiz ekanligini ilgari suradilar.

Yana bir ixtilof tahlilda stilistik metodologiyaning haqliligi bilan bog‘liq. To‘y leksikasini stilistik bo‘yoqlarga e’tibor qaratmasdan, sof lingvistik aspektdagina o‘rganish uni shunchaki til birliklarining mexanik majmuasi darajasiga tushirib qo‘yadi.

Chunonchi, asosiy diqqat-e’tibor faqat leksik birliklarni masalan, o‘zbek tilidagi fotiha to‘yi, quda-andachilik, inglizcha bridal shower[14]/ qizlar majlisi, rehearsal dinner[15]/ tayyorgarlik ziyofati, nemischa Polterabend[16]/ idish sindirish marosimi, Brautentführung[17]/ kelin qochirish, fransuzcha vin d’honneur[18]/ nikohdan keyingi mehmondorchilik, corbeille de mariage[19]/ to‘y sovg‘alari, ispancha las arras[20]/ nikoh to‘yi tangalari marosimi va tornaboda[21]/ to‘ydan ertasi kungi ziyofat kabi tushunchalarni shunchaki instrumental ro‘yxatga olish yoki lug‘aviy ma’nosini tekshirish bilan cheklanib qoladi. Bu esa so‘zning yaxlit to‘y va marosim matni tarkibidagi estetik, emotsional-ekspressiv va kontekstual qiymatini inkor etadi; oqibatda nutqning ayniqsa, to‘y tabriklari, lirik qo‘shiqlar va urf-odat janrlarining o‘ziga xos milliy-madaniy va badiiy jozibasini yo‘qotishiga olib keladi.

Ta’kidlash joizki, mazkur metodologik, kognitiv, pragmatik va stilistik yondashuvlar to‘y leksikasining stilistik paradigmasini tizimlashtirishda hamda ushbu

leksikaning boshqa tillarga tarjima qilingan matnlardagi lingvistik va badiiy qimmatini xolis baholashda fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi.

To‘y leksikasining lisoniy va stilistik tabiatini tadqiq etish, uni nafaqat axborot almashish vositasi, balki adresat idrokini muayyan ijtimoiy maqsadga yo‘naltiruvchi murakkab kommunikativ tizim sifatida talqin qilishni taqozo etadi. Mazkur diskurs doirasida qo‘llaniladigan lisoniy birliklar tinglovchiga hissiy ta’sir ko‘rsatish, uning estetik va ijtimoiy qarashlarini shakllantirish hamda marosimning pragmatik mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

Ushbu faslda biz to‘y leksikasining stilistik imkoniyatlarini ko‘rib chiqishda uning fundamental tushunchalaridan biri bo‘lgan ekspressivlik hodisasiga alohida to‘xtalamiz. Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan to‘y leksikasining ifodaviyligi va emotsional to‘yinganligi lingvistik, ekstralingvistik hamda stilistik vositalar majmuasi orqali ta’minlanadi.

To‘y leksikasidagi ekspressivlikning lisoniy tabiati, birinchi navbatda, emotivlar - nutqning hissiy-ekspressiv bo‘yog‘ini yuzaga keltiruvchi leksik-stilistik birliklarning faol qo‘llanishida namoyon bo‘ladi. To‘y nutqi va matnlarida tinglovchida hissiy rezonans uyg‘otish hamda tantanavor ruhni saqlash maqsadida quyidagi vositalardan keng foydalaniladi: tasviriy vositalar - metafora, epitet, giperbola va oksyumoronlar; sintaktik vositalar: ritorik so‘roqlar, ritorik undovlar va inversiyalar; paralingvistik vositalar: yozma matnlarda grafik urg‘ular masalan, shrift o‘zgarishi, ranglar jilosi, kursiv va nutqiy jarayonda intonatsion urg‘ular. Keltirlgan vositalarning barchasi yaxlitlikda to‘y leksikasining estetik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi E.Vorobyovaning konseptual qarashlariga ko‘ra, “muayyan leksik birlik turli emotsional holatlarni transformatsiya qilish xususiyatiga ega. Emotsiyalar barcha insonlar uchun universal hodisa hisoblansa-da, differensial lingvomadaniy guruhlarda ularning namoyon bo‘lish konstruktlari va me’yorlari farqlanadi hamda ushbu lingvistik spetsifika til sathida to‘liq in’ikos etadi.”[22] Fasl davomida ushbu stilistik vositalarning har biri aniq misollar yordamida tahlilga tortiladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Z.Isxakova konsepsiyasiga binoan, “emotivlar matn interpretatsiyasini sotsiomadaniy kontekst bilan bog‘lovchi deiktik markerlar hisoblanadi. Muallif tasnifidagi uchta lisoniy kategoriyani to‘y leksikasi misolida pragmatik jihatdan quyidagicha talqin qilish mumkin: emotiv-indekslar – to‘yning yoki uning ishtirokchilarining unikal va mutloq xarakterini leksik sathda aniq ko‘rsatuvchi birliklardir.” Masalan: “yagona”, “betakror”, inglizcha: “unrivaled”/tengsiz, Nemischa: “einzigartig”/betakror, fransuzcha: “inégalable”/tengi yo‘q, ispancha“incomparable”/qiyossiz. Emotiv-obrazlar - tinglovchi ko‘z o‘ngida vizual tasavvurlarni shakllantiruvchi semiotik konstruksiyalar masalan, “nurli chehra”, “visol onlari”, “oqshom malikasi”, inglizcha: “blushing bride”/baxsh etilgan emotsiya tufayli yuzi qizargan kelin obrazi, nemischa: “strahlendes Paar”/ nur sochayotgan/baxtiyor juftlik, fransuzcha: “beauté radieuse”/taralayotgan go‘zallik; emotiv-ramzlar - barqaror ijtimoiy normalarni o‘zida aks ettiruvchi madaniy belgilar masalan, “kelinsalom”, “duo”, “nasl davomiyligi”, inglizcha: “wedding vows”[23]/nikoh qasamyodi, nemischa: “Brautbrot”/kelin noni - farovonlik va baraka ramzi, fransuzcha: “échange des alliances”/uzuk almashish marosimi - abadiylik simvoli, ispancha: “las arras” /nikohda almashiladigan 13 ta tanga - moddiy hamjihatlik ramzi.

Shuningdek, to‘y diskursida emotivlar ko‘pincha sifatning orttirma darajalari va baholovchi leksika orqali namoyon bo‘lib, marosimning muhtashamligini shakllantiradi. Masalan, nikoh to‘yi marosimidagi nutqlarda “eng baxtli kun”, “ulug‘ ayyom” kabi sifatlashlarning qo‘llanilishi kunning ahamiyatini oshiradi.

Emotiv-obrazlar metafora va epitetlar yordamida marosim jozibasini vizuallashtiradi. To‘y taklifnomalari yoki tabriklarida uchraydigan “ikki qalbning tutashishi” yoki “baxt qasri” kabi birikmalar shunday obrazli emotivlardandir.

Emotiv-simvollar esa, A.Kirilinaning ta’kidlashicha, “takrorlanuvchi andozalar orqali gender rollarini mustahkamlaydi.” O‘zbek to‘y leksikasida erkaklar uchun “oila

ustuni", "xonadon boshlig'i", ayollar uchun esa "fayzli uy bekasi", "ro'zg'or farishtasi" kabi turg'un birikmalar ijtimoiy stereotiplarni aks ettiradi.

Shunday qilib, to'y diskursidagi ekspressivlik - bu shunchaki hissiy ta'sirni kuchaytirish vositasi emas, balki ijtimoiy ongni shakllantirishning kuchli stilistik qurolidir. To'y tili marosim tashkilotchisi yoki so'zlovchi va ishtirokchi o'rtasida vositachi bo'lish bilan birga, mavjud sotsiomadaniy normalarni mustahkamlovchi yoki o'zgarib borayotgan ijtimoiy qarashlarga muvofiq ularni transformatsiya qiluvchi regulyator vazifasini ham o'taydi. Yuqoridagi xulosalarga tayanib, to'y diskursining ijtimoiy ongni shakllantirish va sotsiomadaniy normalarni transformatsiya qilishga xizmat qiluvchi asosiy stilistik vositalari tizimlashtirildi hamda quyidagi qiyosiy 1-jadval asosida tahlil qilindi.

To'y diskursining ijtimoiy ongni shakllantirish va sotsiomadaniy normalarni transformatsiya qilishga xizmat qiluvchi asosiy stilistik vositalari.

1-jadval

Kategoriya	Ta'rifi	**To'y leksikasidan misol**
Emotiv-indekslar	Mutlaqlik va ustunlikni ifodalaydi	"Often when newly married couples went on the usual round of honeymoon visits, they lingered in some pleasant home until the birth of their second child."Ko'pincha, yangi turmush qurgan kelin-kuyovlar to'ydan keyingi odatiy qarindosh-urug' va yaqinlar yo'qloviga chiqishganda, qaysidir yoqimli, fayzli xonadonda ikkinchi farzandlari dunyoga kelguncha qolib ketishardi.
Emotiv-obrazlar	Tasavvurda rasm-vizual hosil qiladi	"Hech yanglishmayman, dedi Zaynab, - siz uylanishdayoq uni suyub olg'ansiz, meni bo'lsa... men: ota-onangizning orzularicha, - dedi va ko'ziga jiq yosh oldi."

Emotiv-ramzlar	Subyektiv-baholovchi ijtimoiy rollar	"The light-minded woman had been discovering good matches for her daughter almost from the year of her birth."[26]/Ushbu subutsiz ayol qizi dunyoga kelibdiki, unga munosib juft topish ilinjida yurardi.

Keltirilgan jadvalda to'y diskursiga xos leksik birliklarning uchta asosiy funksional toifasi ochib berilgan: emotiv-indekslar"newly married couples", "honeymoon visits" to'y an'analarining jamiyatdagi barqaror va mutloq o'rnini ko'rsatadi. Emotiv-obrazlar A.Qodiriydagi "uylanish", "ota-onaning orzulari"to'y konseptini qahramonning ichki kechinmalari bilan bog'lab, matnda vizual-dramatik manzara hosil qiladi. Emotiv-ramzlar - "good matches" oilaviy rollarni ifodalash bilan birga, "light-minded" epiteti orqali diskursda subyektiv-baholovchi va kesatiqli konnotatsiya kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, badiiy diskursda to'y leksikasi shunchaki marosimni ifodalovchi neytral birliklar emas, balki kuchli emotsional-ekspressiv stilistik vositadir. U matnda sotsiomadaniy normalarni kodlashtiradi masalan, honeymoon/asal oyi, ota-ona orzusi, shuningdek, ijtimoiy rollarga subyektiv baho berib masalan, good matches/yaxshi juft, qahramonlarning ruhiy holatini ramziy obrazlar orqali vizuallashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Malmkjaer K. What happened to God and the angels: an exercise in translational stylistics. Target 15 (1). Amsterdam: John Benjamins, 2003. DOI: 10.1075/target.15.1.03mal P.37-58.
2. Austin J.L. How to do things with words. Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1962. – P.166
3. Malmkjaer K. Stylistics.The Linguistic Encyclopedia. Ed. by K. Malmkjaer. London: Routledge, 1991.
4. Simpson P., Hall G. Discourse analysis and stylistics. Annual Review of Applied Linguistics, 2002. – Vol. 22. – P. 136-149.

5. Widdowson H.G. Stylistics: An approach to stylistic analysis. The Stylistics reader: From Roman Jakobson to the Present. Ed. by J.J. Weber. New York: Arnold, 1996. – P. 138-148.
6. Esser J. English Linguistic Stylistics. Tubingen: M. Niemeyer, 1993
7. Weber J.J., Ed. The Stylistics Reader: From Roman Jakobson to the Present. New York: Arnold, 1996. – 312 p.
8. Crystal D., Davy D. Investigating English style. London: Routledge, 2016. – 264 p.
9. Birch D. Language, literature and critical practice: Ways of analyzing text. London: Routledge, 1989. – 186 p.
10. Short M.H., Leech G.N. Style in fiction: A linguistic introduction to English fictional prose. London: Routledge, 2013. – 404 p.
11. Wales K. A dictionary of stylistics. 3rd ed. Harlow: Longman, 2011. – 496 p.
12. Fowler R. Studying literature as language. The Stylistics reader: From Roman Jakobson to the Present / Ed. by J.J. Weber. New York: Arnold, 1996. – P. 196-205.
13. Leech G. Stylistics. Discourse and literature. Ed. by T.A. van Dijk. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins, 1985. – Vol. 3. – P. 39-57.
14. https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/bridal-shower
15. https://dictionary.cambridge.org/spellcheck/english/?q=rehearsal+dinner
16. collinsdictionary.com/dictionary/german-english/polterabend
17. https://en.langenscheidt.com/german-english/brautentfuehrung
18. https://www.wordreference.com/fren/vin%20d%27honneur
19. https://www.collinsdictionary.com/dictionary/french-english/corbeille-de-mariage
20. https://context.reverso.net/traduccion/espanol-ingles/las+arras
21. https://tureng.com/en/spanish-english/tornaboda
22. Воробьева Е.Ю. Роль когнитивной метафоры в процессе вербализации эмоций (на материале французского языка). Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2025. – Т. 28. – № 1. – С. 52–65.
23. Исхакова З.З. Эмотивно-дейктическая константа в семиосфере: монография. – Москва: ФЛИНТА: Наука, 2014. – 352 с.
24. Mitchell M. Gone with the Wind. Global Grey, 2021. – P. 101.
25. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 176 б.
26. Hardy T. Tess of the d'Urbervilles. London: James R. Osgood, McIlvaine and Co., 1891.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQIY FAOLIYAT TURLARIDAN FOYDALANISH

Aliyeva Ravshanoy,
Namangan Namangan viloyat pedagogik mahorat markazi, Maktabgacha,boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi o'qituvchisi.
aliyevaravshanoy18@jmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda musiqiy faoliyat turlarining o'rni hamda pedagogik-psixologik mexanizmlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqiy-ritmik harakatlar, bolalar musiqa cholg'ularida chalish hamda musiqiy-dramatik ijodkorlik kabi asosiy yo'nalishlarning bolaning kognitiv, hissiy, motorik va estetik rivojlanishiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, mashg'ulotlarni zamonaviy interaktiv texnologiyalar, integratsiyalashgan yondashuv hamda improvizatsiya metodlari asosida tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar va amaliy modellar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, ijodiy qobiliyat, musiqiy faoliyat, musiqiy idrok, qo'shiq kuylash, musiqiy-ritmik harakatlar, bolalar cholg'ulari, improvizatsiya, estetik tarbiya, pedagogik integratsiya.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РАЗЛИЧНЫХ ВИДОВ МУЗЫКАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

В данной статье научно и практически анализируются роль и психолого-педагогические механизмы использования различных видов музыкальной деятельности в формировании и развитии творческих способностей детей дошкольного возраста. Рассматривается влияние слушания музыки, пения, музыкально-ритмических движений, игры на детских музыкальных инструментах и музыкально-драматического творчества на когнитивное, эмоциональное, моторное и эстетическое развитие ребенка. Разработаны методические рекомендации и практические модели организации занятий на основе современных интерактивных технологий, интегрированного подхода и методов импровизации.

Ключевые слова: *дошкольное образование, творческие способности, музыкальная деятельность, музыкальное восприятие, пение, музыкально-ритмические движения, детские инструменты, импровизация, эстетическое воспитание, педагогическая интеграция.*

THE USE OF VARIOUS TYPES OF MUSICAL ACTIVITIES IN DEVELOPING THE CREATIVE ABILITIES OF PRESCHOOL CHILDREN

This article provides a scientific and practical analysis of the role and psychological-pedagogical mechanisms of utilizing musical activities in fostering and developing the creative abilities of preschool

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

children. It examines the impact of music listening, singing, musical-rhythmic movements, playing children's musical instruments, and musical-dramatic creativity on cognitive, emotional, motor, and aesthetic development. Methodological recommendations and practical frameworks are formulated, emphasizing interactive technologies, integrated educational approaches, and improvisation techniques.

Keywords: *preschool education, creative abilities, musical activities, musical perception, singing, musical-rhythmic movements, children's musical instruments, improvisation, aesthetic education, pedagogical integration.*

KIRISH

Sivilizatsiya taraqqiyoti o'ta iqtidorli insonlarga bog'liqligiga hech kim shubha qilmaydi. Butun sayyoramizning turmush sharoiti va kelajagini yaxshilashga bo'lgan eng katta umidlar ijodiy fikrlaydigan yoshlar bilan bog'liq bo'lishiga qaramay, bolalikda ular odatda «ochilish» va o'zlarining individualligini ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi. Biroq, bu har doim ham shaxs uchun ham, butun jamiyat uchun ham fojiali emas. Ijodiy samaradorlikka hissa qo'shadigan xarakter xususiyatlarini ancha erta aniqlash mumkin. Zamonaviy ta'limning eng muxim vazifalaridan biri shaxs tarbiyasida yangicha yondashuvni tashkil etishdir. Bu jarayonlar bolaning ijodiy faol, mustaqil fikrlovchi, muloqotchan va turli vaziyatlarga moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi. Zamonaviy pedagogika va psixologiya soxasida xar bir bolani tarbiyalash va taraqqiyotda birinchi navbatda bolaning shaxsiyati, iste'dodi, ijodkorligi va qobiliyatini rivojlantirish chuqur ahamiyat etishini tasdiqlamoqda [1].

Amerikalik psixolog Abraxam Maslouning fikricha shaxsga ta'sir etuvchi irsiyat, tarbiya, atrof-muxit kabi omillar bolaning kamol topishida muxim axamiyatga ega xamda bu faoliyat davomida bolada [2]:

- ijodiy tasavvurni rivojlantirish;

-ijodiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish;

-fikrlashda tizimlilik;

-harakatchanlik qobiliyati yoki o'z-o'zini rivojlantirish;

- yechim qidirish uchun kuch va imkoniyat topish;

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

- ijodiy intuitsiya;

- nutq rivojlanishi kabi jixatlarga aloxida e'tibor berish zarur.

Torrens ijodkorlikni «betartiblikdan tashkariga chiqish» deb yuritib, fikrlash jarayonini tasvirlaydi. Torrens ijodiy fikrlashga o'rgatishning 4 ta asosiy sababini keltirdi [3]:

1. Ijodiy fikrlash yaxshi ruxiy salomatlik va shaxsiyatni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Ijodiy fikrlash yangi bilimlarni egallashga olib keladi.

3. Ijodiy fikrlash kunlik muammolarni hal kilishda yordam beradi.

4. Ijodiy fikrlash bugungi va kelajak avlodlarning xayotida yordam beradi.

Bola o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'ganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bolalarning ijodiy qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun uzoq yillar davomida poydevor qo'yiladi va ma'lum faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda bolaning o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Bola ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur [4].



1-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillar.

Ijodiy qobiliyatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etuvchi omillar bilan bir qatorda uning taraqqiyotiga salbiy ta'sir etuvchi holatlar ham mavjud. Ota- onalarga tavsiyalar [5-7]:

■ bolangizning dunyoqarashini boyitish, ijodiyni rivojlantirish maqsadida ko'proq har xil voqealarga boy kitoblami o'qib bering;

■ o'zingizning kasbingiz haqida gapirib bering va ishxonangizga sayrga olib boring, kasb tanlash ehtiyoji tug'iladi;

■ bolangizni tez-tez sayrlarga olib chiqing, ijodiy rivojlanadi;

■ sayr vaqtida tabiatdagi ranglar, predmetlar va hayvonot dunyosi haqida to'liq tushuncha bering, ekologik tarbiyasi oshadi;

■ bolangiz savol bersa urushmang, savollariga to'liq javob bering, ongi o'sadi;

■ bolangizni mustaqil ish qilishga o'rgating, u katta bo'layotganini his



qilsin;

■ bolangizga oilasini sevishga, ardoqlashga o'rgating, zero Vatan ostonadan boshlanadi;

Shunday qilib, bolalar ijodiy qobiliyatlarini uning ijtimoiy-psixologik taraqqiyoti mahsuli bo'lib, muntazam o'zaro ta'sir etib boruvchi ko'plab omillarning inson ruhiyatiga ta'siri natijasi hamda ta'limga pedagogik-psixologik tayyorlikning eng muhim ko'rsatikichidir.

METODOLOGIYA

Ijodiy rivojlantirish omillari bolaning ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, ijodiy qobiliyat maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rinadi va uni o'zining faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi. Ta'limda ijodiy qobiliyat shunchaki bir ehtiyoj emas, balki uning avangardidir: boshqa har qanday tizim deyarli har doim shu qadar ko'p yangilik va tajribalar bilan o'zining progressiv rivojlanishi haqiqatini tasdiqlay olmaydi. Ta'limning jamiyatdagi o'zgaruvchan roli ko'plab ijodiy tafakkur sohiblariga va innovatsion jarayonlarga olib keldi. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ham ularga xos bo'lgan ijodiy qobiliyat xususiyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanishi uchun zamin bo'lgan sifatlarning mavjudligi va mustaqil fikrlash ko'nikmasining taraqqiyoti bolaga ta'lim jarayonidagi turli vaziyatlarga muvaffaqiyatli moslashish, o'zgargan holatlarni anglay olish hamda o'zining bilish jarayonlari va xulq-atvorini unga mos tarzda yo'naltira olish imkonini beradi.

NATIJA

Musiqa bolaga bevosita emotsional ta’sir etib, unga javoban dastlabki xatti-harakatlar qilishi, keyinchalik asosiy musiqiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun zamin yaratadi. Ushbu yo‘nalishda bolaning rivojlanishi muvoffaqiyatli kechishi uchun musiqa tarbiyasi ishini amalga oshirishda musiqa va bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish lozim. Pedagog bolani maktabgacha bo‘lgan yosh davridanoq musiqa bilan

muloqot qilishga o‘rgatib, oddiy (bolalar musiqa asboblarida aytilgan yoki ijro etilgan) kuylarni tinglash tajribasining ortib borishi, ovozi yoki harakatlari bilan unga javob qaytarishi, keyingi rivojlanish bosqichida faol musiqiy faoliyat yuritishiga poydevor yaratadi. Bolalarning barcha musiqiy faoliyat turlarini rivojlantirishdan ko‘zlangan maqsad – musiqani sensor (hissiy) idrok etish qobiliyatini shakllantirishdir. Ularda musiqiysensor qobiliyatni rivojlantirish asosida tovushning to‘rtta xususiyati, ya’ni: tovushning baland-pastligi, uzun-qisqaligi, tembr va kuchini diqqat bilan tinglash, farqlash, ifoda etish yotadi. Shu o‘rinda bir narsani aytish kerak, musiqiy qobiliyati bo‘lgan barcha insonlarning avlodlari ham musiqiy qobiliyatga ega bo‘ladi, degan fikrga qo‘shilmaymiz. Ularning bolalarida musiqaga layoqat bo‘lishi mumkin, lekin shu layoqat rivojlantirilmasa, layoqat qobiliyatga aylanmay, ya‘ni shakllanmay qoladi. Zero, musiqa yosh avlodning ma‘naviy, badiiy – axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g‘ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, fikr doirasini kengaytirishga, ijodiy mahorati va badiiy didi o‘sishiga, mustaqilligi va tashabbuskorligini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musiqiy faoliyat bola miyasining har ikki yarim sharini baravar faollashtiruvchi, eshitish, ko‘rish, harakat va nutq markazlarini sinxronlashtiruvchi universal vositadir. Ushbu jarayon shunchaki tayyor musiqiy namunalarni takrorlashdan iborat bo‘lib qolmasdan, bolada mustaqil fikrlash, erkin improvizatsiya qilish hamda nostandart ijodiy yechimlar topish layoqatini uyg‘otishga xizmat qilishi zarur.

Musiqa san’ati o‘zining emotsional ta’sir kuchi, obrazliligi va ko‘p qirraliligi bilan bolaning ichki dunyosini boyitishda beqiyos vositadir. Musiqiy faoliyat orqali bola dunyoni tovushlar, ohanglar va ritmik tuzilmalar vositasida anglaydi. Bolalikdagi ijodiy intilishlar ko‘pincha musiqiy o‘yinlar, qo‘shiq to‘qish, ritmik harakatlar orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois musiqiy faoliyat turlarini tizimli tashkil etish bolalarning ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishning yetakchi omillaridan biri hisoblanadi.Bolalar ijodkorligi kattalarning professional ijodidan tubdan farq qiladi. Agar professional ijodda

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan yangi moddiy yoki ma’naviy mahsulot yaratish bosh mezon bo‘lsa, maktabgacha yoshdagi bolalar ijodida jarayonning o‘zi va uning bola ruhiyatiga ko‘rsatadigan ta’siri birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Musiqa bolalarga cheksiz quvonch va shodlik bag’ishlovchi muhim estetik tarbiya vositasidir. Bolalar musiqa eshitish qobiliyatini, musiqadan emotsional ta’sirlanish hislatlarini shakllantirmay ularni musiqaning sehrli olamiga olib kirish kutilgan natijani bermaydi, o’zining tarbiyaviy ahamiyatini yo’qotishi mumkin. Eng kichik yoshdan boshlab bolalar musiqiy tovushlarni boshqa atrofdagi shovqinli tovushlardan farqlay boshlaydilar. Ular eshitgan musiqalarga diqqatlarini qaratadilar,tinchlanib tinglaydilar, unga javoban o’z xatti-harakatlar majmuasini namoyon qiladilar, kuladilar, qiyqiradilar va turli xarakatlar ko’rsatadilar. Ularning yoshi kattalasha borishi bilan musiqaga bo’lgan munosabatlari ham o’sib murakkablasha boradi. Endilikda musiqa asarlari xarakterlari, ifoda vositalarini anglaydigan, nisbatan murakkab psixologik qobiliyatlarga ega bo’la boradilar. bolalarni estetik va ahloqiy jixatdan tarbiyalashda alohida o’rin tutadi. Maktabgacha ta’limdagi musiqiy tarbiya estetik tarbiyaning muhim sohasidir.

Musiqa bolalar uchun quvonch va kechinmalar dunyosi bo’lib, musiqiy va amaliy faoliyat turlarida namoyon bo’ladi, ya’ni musiqa tinglash, qo’shiq aytish, musiqa jo’rligida xarakat qilish va bolalar musiqa asboblarini chalish jarayonida ularda hissiy tuyg’ulari rivojlanib boradi

Bolalarning vaqtlarini to’g’ri taqsimlash, ularga kerakli bilimlarni berishda, maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik vazifalarni to’g’ri qo’yish muhim.

Musiqaga qabul qilinadigan (tinglash orqali) ob’ekt yoki o’quv fani sifatida ham qarash mumkin. Shuningdek, unga boshqa tomondan, ya’ni kundalik, ijtimoiy hayotimizning ajralmas (xuddi uyqu va ovqat kabi) bir bo’lagi sifatida yondoshish ham mumkin.

Musiqa insonga bevosita va kuchli emotsional ta'sir etuvchi vositadir. Insonning hissiy kechinmalari bilan bog'liq voqea va hodisalar aksariyat hollarda musiqa bilan hamohang tarzda kechadi.

Musiqa bolalarni rivojlantirish uchun boy manbadir. Bolalarda hissiyotning rivojlanishiga ko'maklashishi musiqaning eng yaqqol namoyon bo'ladigan rolidir: alla bolalarni tinchlantiradi va xotirjam qiladi, alla eshitib uxlagan bolalar o'z qo'g'irchoqlariga ham alla aytadilar. Tinchlantiruvchi musiqa albatta qo'shiq bo'lishi shart emas. Barcha zamonlarda va xalqlarda onalar o'z go'daklariga takrorlanuvchi ikki notali ohangni past ovozda kuylaganlar. Har bir madaniyatda mehr-muhabbat va bayramlar xaqidagi oddiy qo'shiqlar mavjudki, bolalar ularni yodlay oladilar va bu ularga o'z his- tuyg'ularini ifodalashga yordam beradi.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda musiqiy faoliyat turlaridan oqilona foydalanish ularning nafaqat musiqiy iqtidorini, balki shaxsiy sifatlarini, intellektual salohiyatini va atrof-olamga nisbatan qiziquvchanligini tarbiyalaydi. Musiqa tinglash orqali ichki tasavvur va his-tuyg'ular boyisa, qo'shiq aytish va cholg'uda chalish orqali mustaqil yaratuvchanlik ko'nikmalari shakllanadi; musiqiy-ritmik harakatlar esa bolaga o'z hislarini erkin va dadil ifoda etish imkonini beradi. Mazkur jarayon an'anaviy yodlatish usullaridan voz kechib, izlanuvchanlik, improvizatsiya va erkin o'yin texnologiyalariga asoslangandagina kutilgan pedagogik samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2019.
2. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat o'quv dasturi. — Toshkent, 2022.
3. Vetlugina N.A. *Vozrastnie osobennosti muzikalnogo vospriyatiya detey.* — Moskva: Prosveshchenie, 2018.
4. Teplov B.M. *Psixologiya muzikalnix sposobnostey.* — Moskva: Nauka, 2013.
5. Hasanova Sh., Qilicheva M. *Maktabgacha yoshdagi bolalarni musiqiy tarbiyalash metodikasi.* — Toshkent: O'qituvchi, 2020.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

6. Radinova O.P. *Muzikalnoe vospitanie doshkolnikov.* — Moskva: Akademiya, 2019.
7. Orff C. *The Schulwerk: Music for Children.* — Schott Music, 2015.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

QISHLOQ UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHI QIZLARIDA JISMONIY YETUKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING GENDER-DIFFERENSIAL PEDAGOGIK MODELI

Yuldashov Ikrom Abdulaziziovich
Farg'ona davlat universiteti
Jismoniy madaniyat va sport faoliyati fakulteti dekani dotsent, p.f.b.f.d. (PhD).
kommersant142@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-6269-819X
+99893 972 77 05

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qishloq umumta'lim maktablarida tahsil oluvchi o'quvchi qizlarning jismoniy va neyromotor yetukligini ta'minlashga qaratilgan innovatsion gender-differensial pedagogik modelning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy muammosi sifatida an'anaviy jismoniy tarbiya dasturlarining qishloq joylaridagi xos ijtimoiy-ekologik muhitga va qizlarning o'ziga xos neyrofiziologik ehtiyojlariga mos kelmasligi ko'rsatib o'tilgan. Ishlab chiqilgan modelning ilmiy mohiyati jismoniy rivojlanishni faqatgina fiziologik jarayon sifatida emas, balki «miya — harakat — ijtimoiy rol» integrativ uchligi asosida tahlil qilishdan iborat. An'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, mazkur model etnopedagogik adaptatsiya mexanizmlari va kognitiv-motor kompetentlikni oshirishni maqsad qilgan. Modelning asosiy metodologik parametrlari diagnostik-sensor, mazmuniy-modulli, faoliyatni rag'batlantirish va baholash bloklarining uzluksiz aloqadorligi orqali ochib berilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, neyropedagogik yondashuv resurslar cheklangan qishloq sharoitida ham qizlarning sog'lom motor odatlarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *neyromotor faollik, gender-differensial yondashuv, motor kompetentlik, etnopedagogik adaptatsiya, neyropedagogika, qishloq maktablari, jismoniy yetuklik, ijtimoiy disbalans, kognitiv-motor integratsiya, sensomotor rivojlanish.*

ГЕНДЕРНО-ДИФФЕРЕНЦИРОВАННАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ЗРЕЛОСТИ У УЧЕНИЦ СЕЛЬСКИХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

Аннотация. *В данной статье исследуются научно-теоретические основы инновационной гендерно-дифференцированной педагогической модели, направленной на обеспечение физической и нейромоторной зрелости учениц сельских общеобразовательных школ. В качестве основной проблемы исследования выделяется несоответствие традиционных программ физического воспитания специфической социально-экологической среде сельской местности и особым нейрофизиологическим потребностям девочек. Научная суть разработанной модели заключается*

в анализе физического развития не только как физиологического процесса, но и на основе интегративной триады «мозг — движение — социальная роль». В отличие от традиционных подходов, данная модель нацелена на механизмы этнопедагогической адаптации и повышение когнитивно-моторной компетентности. Основные методологические параметры модели раскрыты через непрерывную взаимосвязь диагностико-сенсорного, содержательно-модульного, стимулирующего и оценочного блоков. Результаты показывают, что нейропедагогический подход позволяет достичь высокой эффективности в формировании здоровых моторных привычек у девочек даже в условиях ограниченных ресурсов сельской местности.

Ключевые слова: *нейромоторная активность, гендерно-дифференцированный подход, двигательная компетентность, этнопедагогическая адаптация, нейропедагогика, сельские школы, физическая зрелость, социальный дисбаланс, когнитивно-моторная интеграция, сенсомоторное развитие.*

GENDER-DIFFERENTIAL PEDAGOGICAL MODEL FOR DEVELOPING PHYSICAL MATURITY IN RURAL SECONDARY SCHOOLGIRLS

Abstract. *This article investigates the scientific and theoretical foundations of an innovative gender-differential pedagogical model aimed at ensuring the physical and neuromotor maturity of schoolgirls studying in rural secondary schools. The core problem of the research is identified as the mismatch of traditional physical education programs with the specific socio-ecological environment of rural areas and the unique neurophysiological needs of adolescent girls. The scientific essence of the developed model lies in analyzing physical development not merely as a physiological process, but based on the integrative triad of "brain — movement — social role." Unlike traditional approaches, this model targets ethno-pedagogical adaptation mechanisms and the enhancement of cognitive-motor competence. The main methodological parameters of the model are revealed through the continuous interconnection of diagnostic-sensory, content-modular, activity-stimulating, and evaluation blocks. The results indicate that the neuropedagogical approach enables high efficiency in forming healthy motor habits in girls, even in the resource-constrained conditions of rural environments.*

Keywords: *neuromotor activity, gender-differentiated approach, motor competence, ethnopedagogical adaptation, neuropedagogy, rural schools, physical maturity, social imbalance, cognitive-motor integration, sensorimotor development.*

KIRISH

Zamonaviy sport pedagogikasi va fiziologiyasining dolzarb muammolaridan biri bu o‘sib kelayotgan avlodning harakatlanish faolligini ta’minlashdir. Biroq, bugungi kunga qadar olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, qishloq umumta’lim maktablarida tahsil oluvchi qizlarning jismoniy rivojlanishida an’anaviy dars modullari

va standart meyorlar o‘zining kutilgan samarasini bermayapti. Buning asosiy sababi mahalliy va milliy o‘quv dasturlarida gender xususiyatlari va qishloq joylarining ijtimoiy-psixologik landshafti to‘liq inobatga olinmaganligidir.

Qishloq sharoitida qizlarning harakat defitsiti murakkab fenomen bo‘lib, u faqatgina jismoniy mashqlarning yetishmasligi bilan emas, balki psixologik cheklovlar, stereotiplar va ijtimoiy muhitning disbalansi bilan izohlanadi. An’anaviy jismoniy tarbiya darslari ko‘pincha normativ-markazlashgan (tezlik, kuch, chidamlilik bo‘yicha standartlarni topshirishga qaratilgan) va ko‘proq o‘g‘il bolalarning motor profiliga moslashgan agressiv raqobat muhitini yaratadi. Qishloq qizlari uchun bunday muhit stressogen hisoblanib, neyromotor faollikni rag‘batlantirish o‘rniga, himoya-tormozlanish reaksiyalarini keltirib chiqaradi. Natijada, qizlarda motor kompetentlikning pasayishi, harakat koordinatsiyasining buzilishi va uzoq muddatli gipodinamiya kuzatiladi. Shu bois, qizlarning jismoniy va neyromotor yetukligini ta’minlash uchun ularning biologik va ijtimoiy xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan, qishloq muhitiga moslashgan (etnopedagogik) yangi avlod differensial modellarini yaratish obyektiv zaruratdir.

METODOLOGIK PARADIGMA

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi jismoniy rivojlanishni shunchaki mushak ishi yoki fiziologik sarf sifatida emas, balki «miya — harakat — ijtimoiy rol» integrativ uchligi sifatida talqin qiluvchi neyropedagogik paradigmaga asoslanadi. Inson harakati neyron tarmoqlarning o‘zaro murakkab munosabati mahsulidir. O‘smirlik davridagi qizlarda gormonal o‘zgarishlar fonida markaziy nerv tizimining plastikligi va sensomotor integratsiya jarayonlari o‘ziga xos kechadi.

Gender xususiyatlarining biologik differensiatsiyasi nuqtai nazaridan, qizlarning tayanch-harakat apparati biomexanikasi (og‘irlik markazining pastroq joylashuvi, tos suyaklarining kengligi, mushak tolalarining gistologik tarkibi) fazoviy koordinatsiya, muvozanat va ritmik harakatlarni talab qiluvchi mashqlarga ko‘proq moyil bo‘ladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Biroq, an'anaviy paradigma ko'pincha bunga zid ravishda, ulardan kuch-tezlik xususiyatlarini talab qiladi.

Ijtimoiy differensiatsiya esa qishloq qizlarining kundalik turmush tarzida namoyon bo'ladi. Qishloq sharoitida qizlarning ko'p vaqti mikro-motor faoliyat (uy ro'zg'or ishlari, o'tirgan holdagi mehnat) bilan band bo'lib, makro-motor (keng fazoviy va amplitudali harakatlar) faoliyat cheklangan. Shu sababli, bizning metodologiyamiz harakatni ijtimoiy-madaniy kontekstda qayta qurishni, ya'ni etnopedagogik adaptatsiya orqali qizlar ongida «sport – bu yot va uyatli mashg'ulot emas, balki sog'lomlashtiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi jarayon» degan kognitiv sxemalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

PEDAGOGIK MODEL TUZILISHI (RESULTS - CONCEPTUAL MODEL)

Olib borilgan nazariy va empirik tahlillar asosida qishloq maktablari o'quvchi qizlari uchun maxsus «Gender-differensial pedagogik model» ishlab chiqildi. Mazkur model o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan to'rtta tizimli blokdan tashkil topgan:

A. Diagnostik-sensor blok. Bu blok an'anaviy jismoniy tayyorgarlikni o'lchash mezonlaridan voz kechib, o'quvchi qizlarning neyromotor holatini baholashga yo'naltirilgan. Unda postural nazorat (qaddi-qomatni ushlash), statik va dinamik muvozanat, sensomotor reaksiya tezligi va harakatlarni fazoviy-vaqt jihatidan differensiatsiya qilish qobiliyatlari o'rganiladi. Shuningdek, jismoniy tarbiya darslariga nisbatan psixologik to'siqlar diagnostika qilinadi.

B. Mazmuniy-modulli blok. Bu modelning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, dastur mazmunini tubdan o'zgartiradi. Qizlar uchun agressiv kontaktli sport turlari o'rniga kognitiv-motor integratsiyani kuchaytiruvchi modullar kiritiladi:

Ritmik va neyro-gimnastika: Miyaning ikki yarim shari faoliyatini sinxronlashtiruvchi assimetrik mashqlar.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Etnopedagogik harakatli o‘yinlar: Milliy mentalitetga xos bo‘lgan, qizlar psixologik jihatdan begonasiramaydigan mahalliy o‘yinlarning transformatsiya qilingan sport variantlari (masalan, murakkablashtirilgan sakrash va chiziqli o‘yinlar).

Postural va rekreatsion modullar: Qishloq xo‘jaligidagi bir xil turdagi mehnat natijasida yuzaga keladigan skolioz va lordozning oldini oluvchi terapevtik mashqlar.

V. Faoliyatni rag‘batlantirish bloki. Ushbu blok motivatsion-hissiy sohani boshqaradi. Qishloq qizlarini faollashtirish uchun ekstrinsiv (tashqi baho uchun) motivatsiyadan intrinsiv (ichki qoniqish) motivatsiyaga o‘tish ta’minlanadi. Bunda o‘qituvchining roli «buyruq beruvchi instruktor»dan «kognitiv-motor fasilitator»ga o‘zgaradi. Qizlar uchun xato qilishdan qo‘rqmaydigan, sog‘lom raqobatdan ko‘ra kooperativ (hamkorlikdagi) faoliyat ustun bo‘lgan xavfsiz muhit yaratiladi.

G. Baholash mezonlari (Ipsativ yondashuv). O‘quvchilarni umumiy normativlarga qarab emas, balki ularning o‘zlarining avvalgi natijalariga nisbatan o‘sish dinamikasini (ipsativ baholash) hisobga oladigan tizim qo‘llaniladi. Bunda neyromotor yetuklikning shakllanishi — murakkab koordinatsion harakatlarni tez va xatosiz bajara olish kompetensiyasi asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

ILMIY MUHOKAMA

Ishlab chiqilgan gender-differensial modelni qishloq maktablarining amaliy dasturiga integratsiya qilish birinchi qarashda murakkabdek tuyulishi mumkin, chunki bu muassasalarda ko‘pincha zamonaviy sport inventarlari va maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan neyropedagoglar yetishmaydi. Biroq, ushbu modelning eng kuchli ilmiy isboti va amaliy ahamiyati uning resurslarga qaram emasligidadir.

Model qimmatbaho trenajyorlar yoki ideal sport zallarini talab qilmaydi. Etnopedagogik adaptatsiya va neyromotor mashqlar tabiiy landshaftda (maktab hovlisi, ochiq maydonlar) mavjud bo‘lgan oddiy geometrik chiziqlar, tabiiy to‘siqlar va oddiy predmetlar (koptok, arqon, tayoqchalar) yordamida ham yuqori samara bilan amalga oshirilishi mumkin.

Bundan tashqari, qishloq maktablaridagi jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun mazkur model doirasida qisqa muddatli malaka oshirish kurslari orqali ularni harakat fiziologiyasidan neyropedagogikaga yo‘naltirish mumkinligi xorijiy olimlar (Ennis, 2018; Bailey et al., 2019) tadqiqotlarida o‘z tasdig‘ini topgan. Bizning modelimiz O‘zbekistonning qishloq hududlari ijtimoiy landshaftiga to‘liq moslashtirilgan bo‘lib, u qizlarda harakat madaniyatini shakllantirish barobarida, ularning jamiyatdagi ijtimoiy roliga doir stereotiplarni yumshatishga va o‘ziga ishonchni (self-efficacy) orttirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA NAZARIY YANGILIK

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot sport pedagogikasi va jismoniy tarbiya nazariyasiga fundamental hissa qo‘shadi. Uning nazariy yangiligi shundan iboratki, u jismoniy tarbiya jarayonini mexanik mashqlar yig‘indisidan neyromotor va ijtimoiy-kognitiv terapiya vositasiga aylantiradi. Qishloq umumta’lim maktablari qizlari uchun ishlab chiqilgan gender-differensial pedagogik model harakat faolligini sun’iy normativlar asosida emas, balki ayol organizmining tabiiy neyrofiziologik imkoniyatlari va etnopedagogik muhit resurslari asosida shakllantiradi. Bu esa kelgusida sog‘lom onalik, yuqori kognitiv qobiliyat va faol hayot tarzini tanlovchi yangi avlodni tarbiyalashning muhim kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Аттестация Комиссияси (ОАК) талаблари асосида ҳимоя қилинган диссертациялар фонди материаллари (2020-2025 йй.). interactive.oak.uz.
2. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш.Х. (2021). Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. Тошкент: ЎзДЖТСУ нашриёти, 245 б.
3. Қосимов, А. С. (2023). "Ўсмир ёшидаги ўқувчиларнинг координацион қобилиятларини нейропедагогик воситалар ёрдамида ривожлантириш." Педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент.
4. Раҳимова, Г. М. (2022). "Қишлоқ мактабларида қизлар спорт тўгаракларини ташкил этишнинг этнопедагогик хусусиятлари." *Ўзбекистон педагогика фанлари ахборотномаси*, 4(12), 45-52.
5. Bailey, R., Armour, K., Kirk, D., et al. (2019). The educational benefits claimed for physical education and school sport: an academic review. *Research Papers in Education*, 24(1), 1-27.

6. Casey, A., & Goodyear, V. A. (2020). Can cooperative learning achieve the four learning outcomes of physical education? A review of literature. *Quest*, 67(1), 56-72.
7. Ennis, C. D. (2018). Educating students for a lifetime of physical activity: Enhancing mindfulness, motivation, and meaning. *Research Quarterly for Exercise and Sport*, 88(3), 260-268.
8. Laukkanen, A., Pesola, A., Havu-Mäkinen, P., et al. (2021). Relationship between motor competence and physical activity in girls: A neuro-pedagogical perspective. *European Physical Education Review*, 26(2), 345-360.
9. Stodden, D. F., Goodway, J. D., Langendorfer, S. J., et al. (2022). A developmental perspective on the role of motor skill competence in physical activity: An emergent relationship. *Quest*, 60(2), 290-306.
10.Tomporowski, P. D., McCullick, B., & Pesce, C. (2020). Enhancing children's cognition with physical activity games. *Human Kinetics*.
11.Юнусова, Ю. М. (2023). "Қизларнинг мотор-компетентлигини баҳолашда ипсатив ёндашув технологиялари." *Спорт ва илм*, 2(8), 112-118.
12.Холмуродов, Л. Қ. (2024). "Жисмоний тарбия жараёнида мия ярим шарлари ассиметриясини инобатга олишнинг сенсомотор жиҳатлари." Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) автореферати. Самарқанд.

11–14 YOSHLI BOKSCHI QIZLARDA UMUMIY VA MAXSUS TEZKOR-KUCH VOSITALARINI UYG'UNLASHTIRISH HAMDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI ME'YORLASH XUSUSIYATLARI

Xasanov Shoxjaxon G'olibjon o'g'li
Jismoniy tarbiya nazariyasi kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD).
Shox0403.sx@gmail.com
ORCID: 0009-0008-9877-8772
Tel: +998 90 301 17 00
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'quv-mashq guruhlarida shug'ullanuvchi 11–14 yoshli bokschi qizlarda umumiy va maxsus yo'nalishdagi tezkor-kuch vositalarini o'zaro uyg'unlashtirish (sopryajyon usulda qo'llash) hamda haftalik mikrosikllar doirasida mashg'ulot yuklamalarini oqilona me'yorlash masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida ballistik, pliometrik, izometrik-portlovchi va boksga xos zarba mashqlarining biomexanik o'xshashlik darajasi hamda bioenergetik tiklanish qonuniyatlari tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, umumiy portlovchi mashqlarni (tibbiy to'p uloqtirish, gorizontal va lateral sakrashlar) bevosita maxsus zarba kombinatsiyalari bilan bitta mashg'ulot blokida ketma-ket birlashtirish nerv-mushak tizimining faollashuvdan keyingi quvvatlanish (PAPE) mexanizmini ishga tushiradi va hosil qilingan kuchni yakka hamda seriyali zarbalarga ijobiy ko'chirish (transfer) koeffitsiyentini oshiradi. Maqolada 11–14 yoshli bokschi qizlar uchun tezkor-kuch bloklarining davomiyligi, shiddat zonalari, takrorlar soni va dam olish intervallarini me'yorlash bo'yicha aniq metodik parametrlar ishlab chiqildi.*

Kalit so'zlar: *bokschi qizlar, 11–14 yosh, umumiy va maxsus vositalar, uyg'unlashtirilgan tayyorgarlik, yuklamani me'yorlash, ballistik va pliometrik mashqlar, ijobiy ko'chish, dam olish intervali, mikrosikl.*

ОСОБЕННОСТИ СОПРЯЖЕНИЯ ОБЩИХ И СПЕЦИАЛЬНЫХ СКОРОСТНО-СИЛОВЫХ СРЕДСТВ И НОРМИРОВАНИЯ ТРЕНИРОВОЧНЫХ НАГРУЗОК У ДЕВОЧЕК-БОКСЕРОВ 11–14 ЛЕТ

Аннотация. *В данной статье исследованы вопросы рационального сопряжения общих и специальных скоростно-силовых средств, а также нормирования тренировочных нагрузок в рамках недельных микроциклов у девочек-боксеров 11–14 лет учебно-тренировочных групп. В ходе работы проанализированы биомеханическое сходство баллистических, плиометрических, изометрически-взрывных и специализированных ударных упражнений, а также закономерности биоэнергетического восстановления юных спортсменок. Результаты показали, что последовательное объединение общих взрывных упражнений (броски набивного мяча,*

горизонтальные и латеральные прыжки) со специальными ударными комбинациями в едином тренировочном блоке активирует механизм постактивационного усиления (PAPE) нервно-мышечной системы и повышает эффективность переноса силового потенциала на одиночные и серийные удары. Разработаны конкретные методические параметры дозирования продолжительности рабочих серий, зон интенсивности и интервалов отдыха для девочек-боксеров 11–14 лет.

Ключевые слова: *девочки-боксеры, 11–14 лет, общие и специальные средства, сопряженная подготовка, нормирование нагрузки, баллистические и плиометрические упражнения, положительный перенос, интервал отдыха, микроцикл.*

CHARACTERISTICS OF INTEGRATING GENERAL AND SPECIAL SPEED-STRENGTH MEANS AND REGULATING TRAINING LOADS IN 11–14-YEAR-OLD FEMALE BOXERS

Abstract. *This article investigates the rational integration of general and special speed-strength training means and the regulation of training loads within weekly microcycles for 11–14-year-old female boxers in training groups. The study analyzes the biomechanical similarity of ballistic, plyometric, isometric-explosive, and boxing-specific punching exercises, as well as the patterns of bioenergetic recovery in young female athletes. The findings demonstrate that sequentially combining general explosive exercises (medicine ball throws, horizontal and lateral jumps) with specialized punching combinations within a unified training block triggers the post-activation performance enhancement (PAPE) mechanism of the neuromuscular system and increases the positive transfer of force potential to single and serial punches. Specific methodological parameters for dosing work bout duration, intensity zones, repetition volume, and rest intervals have been developed for 11–14-year-old female boxers.*

Keywords: *female boxers, 11–14 years, general and special means, conjugate training, load regulation, ballistic and plyometric exercises, positive transfer, rest interval, microcycle.*

KIRISH

Zamonaviy boks nazariyasi va amaliyotida yosh sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish masalasi ularni shunchaki alohida ko‘rsatkich sifatida oshirishdan ko‘ra, jangovar harakatlar tizimiga samarali ko‘chirish (transfer qilish) muammosi bilan ko‘proq bog‘lanmoqda [1; 5; 9]. Ayniqsa, o‘quv-mashq bosqichida (11–14 yosh) shug‘ullanayotgan bokschi qizlar tayyorgarligida umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT) vositalari orqali hosil qilingan kuch va portlash qobiliyatini maxsus

zarba harakatlariga aylantirish mexanizmi murabbiylar oldidagi eng murakkab metodik vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda [11; 13].

Kuzatuvlar va ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quv-mashq guruhlarida tezkor-kuch ustida ishlashda ko‘pincha ikki xil biryoqlama yondashuvga yo‘l qo‘yiladi. Birinchi holatda, mashg‘ulotlarda umumiy kuch va sakrash mashqlari (turnikda tortilish, qo‘llarni bukib-yozish, vertikal sakrashlar, og‘ir to‘plar bilan ishlash) ko‘p bajariladi, biroq ularning zarba vektorlari, gavda rotatsiyasi va oyoq-qo‘l fazaviy uyg‘unligi bilan bog‘liqligi ta’minlanmaydi [4; 6]. Natijada sportchi qizning umumiy jismoniy test ko‘rsatkichlari o‘ssa-da, ringdagi zarba tezligi va impulsi deyarli o‘zgarmaydi. Ikkinchi holatda esa, murabbiylar faqat boks qopi, lapa yoki juftlikda ko‘p martalik zarba berish bilan cheklanib, tezkor-kuch o‘rniga tezkor-chidamlilik rejimiga o‘tib ketadilar [8; 12]. Bu esa 11–14 yoshli qizlarda nerv-mushak tizimining erta toliqishiga, harakat texnikasining buzilishiga hamda tezkor motor birliklar faolligining pasayishiga olib keladi.

Mazkur metodik uzilishni bartaraf etishning eng samarali yo‘li — umumiy va maxsus tezkor-kuch vositalarini biomexanik va fiziologik jihatdan uyg‘unlashtirish (sopryajyon-ketma-ket qo‘llash) hamda yuklama parametrlarini (ish davomiyligi, qarshilik miqdori, takrorlar soni va dam olish intervallarini) yosh organizmning bioenergetik xususiyatlariga mos ravishda qat’iy me’yorlashdir [2; 3; 7].

Shundan kelib chiqqan holda, ushbu tadqiqotning maqsadi 11–14 yoshli bokschi qizlarning o‘quv-mashq jarayonida umumiy va maxsus tezkor-kuch vositalarini uyg‘unlashtirish tamoyillarini asoslash hamda mashg‘ulot yuklamalarini me’yorlashning amaliy parametrlarini ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida sport mashg‘ulotlarini rejalashtirish va yuklamalarni me’yorlashga oid 2010–2026 yillar oralig‘ida xalqaro ilmiy bazalar (Scopus, Web of Science, PubMed) hamda respublika ilmiy nashrlarida e’lon qilingan 88 ta ixtisoslashtirilgan ilmiy manba tanlab olindi va tahlil qilindi. Asosiy e’tibor yakkakurash

turlarida kompleks va uyg‘unlashtirilgan (conjugate/complex training) mashg‘ulot usullari, o‘smir qizlarda kreatinfosfat (alaktat) energiya tizimining tiklanish dinamikasi, ballistik va pliometrik yuklamalar me’yori hamda zarba biomexanikasiga bag‘ishlangan ishlarga qaratildi [1–5; 8–10].

Ilmiy izlanishda mantiqiy-tizimli tahlil, biomexanik modellashtirish, mashg‘ulot yuklamalarini qiyosiy tasniflash va pedagogik loyihalash usullari qo‘llanildi. Tezkor-kuch vositalarini saralash va me’yorlashda to‘rtta metodik talab belgilab olindi: 1) dinamik muvofiqlik tamoyili (yordamchi mashqning kuch yo‘nalishi, harakat amplitudasi va mushaklarning qisqarish rejimi bo‘yicha boks zarbasiga yaqinligi); 2) bioenergetik tozalik (mashqning glikolitik charchash zonasiga o‘tib ketmasdan, alaktat-anaerob rejimda bajarilishi); 3) faollashuvdan keyingi kuchayish (PAPE — Post-Activation Performance Enhancement) effektidan foydalanish; 4) 11–14 yoshli qizlarning tayanch-harakat apparati uchun xavfsizlik me’yori.

NATIJALAR

O‘tkazilgan nazariy va metodik tahlillar 11–14 yoshli bokschi qizlarda tezkor-kuch sifatini rivojlantirish vositalarini to‘rtta funksional guruhga ajratish va ularni «umumiydan — maxsusga, oddiy vektorli harakatdan — ko‘p bo‘g‘inli zarba harakatiga» tamoyili asosida yagona mashg‘ulot zanjiriga birlashtirish zarurligini ko‘rsatdi [4; 6; 11].

Birinchi guruh — pastki bo‘g‘inlarning start va reaktiv quvvatini oshiruvchi pliometrik vositalar. Boksda har qanday kuchli zarba oyoqning tayanch bilan o‘zaro ta’siri (tayanch reaksiyasi kuchi)dan boshlanadi [9; 10]. Biroq bokschi qizlar uchun baland tumbalardan sakrash yoki chuqur sakrashlar (depth jumps) bo‘g‘imlarga haddan tashqari zarbali yuklama bergani sababli, 11–14 yoshda past va o‘rta amplitudali gorizontal, lateral (yon tomonga) va diagonal sakrashlar, jangovar holatda oyoq almashtirib sakrashlar hamda koordinatsion narvonchadagi reaktiv siljishlar eng maqbul vosita hisoblanadi [3; 5].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ikkinchi guruh — gavda (korpus) va yelka kamarining rotatsion-ballistik quvvatini rivojlantiruvchi vositalar. Oddiy kuch mashqlarida (masalan, yotgan holda shtanga yoki gantel siqishda) harakat oxirida inersiyani to‘xtatish uchun antagonist mushaklar tormozlovchi rejimda ishlaydi, bu esa boks zarbasining biomexanikasiga ziddir [6; 7]. Ballistik mashqlarda (1–2 kg vaznli tibbiy to‘pni jangovar holatdan to‘g‘ri, yon va pastdan devorga yoki sherikka portlovchi tarzda uloqtirishda) tezlanish harakatning butun fazasi davomida, to to‘p qo‘ldan chiqib ketgunga qadar davom etadi. Bu harakat o‘zining kinematik va dinamik tuzilishi bo‘yicha to‘g‘ri va yon zarbalarga 85–90% mos keladi.

Uchinchi guruh — maxsus yo‘naltirilgan qarshilikli va yengillashtirilgan vositalar. Bunga yengil rezina amortizatorlar (espanderlar) qarshiligida zarba imitatsiyasi, juda yengil (150–250 g) gantellar bilan qisqa muddatli «soya bilan jang» hamda kontrast usul (avval qarshilik bilan, so‘ngra darhol erkin holatda maksimal tezlikda zarba berish) kiradi [11; 14]. Mazkur vositalar zarba boshlanishidagi start tezligini va oyoq-tos-gavda-qo‘l zanjiridagi mushaklararo koordinatsiyani keskin yaxshilaydi.

To‘rtinchi guruh — boksga xos maxsus tezkor-kuch vositalari. Bular murabbiy lapasida, maxsus boks qoplarida va devor yostiqchalarida bajariladigan yakka portlovchi zarbalar hamda 2–4 zarbadan iborat qisqa maksimal seriyalardir [8; 12].

Tadqiqotda ushbu to‘rt guruh vositalarini mashg‘ulotning asosiy qismida «uyg‘unlashtirilgan juftliklar» (kompleks bloklar) shaklida qo‘llash sxemasi ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval.

11–14 yoshli bokschi qizlar uchun umumiy va maxsus tezkor-kuch vositalarini uyg‘unlashtirish (kompleks bloklar) tuzilmasi

Blok yo‘nalishi	1-komponent (Bazaviy/ballistik	2-komponent (Maxsus boksga xos	Biomexanik va fiziologik samara

	faollashtiruvchi vosita)	transformatsiyalovchi vosita)	
1-blok: To‘g‘ri zarbalar (djeb, kross) start tezligi va impulsini oshirish	Jangovar holatdan 1–1,5 kg tibbiy to‘pni ko‘krak va iyak sathidan devorga maksimal tezlikda to‘g‘riga uloqtirish (5–6 marta)	20–30 soniya tanaffusdan so‘ng boks qopida yoki lapada uzoq masofadan qadam tashlab 2 ta to‘g‘ri (1–2) portlovchi zarba berish (5–6 seriya)	Pastki bo‘g‘in va yelka kamarida hosil qilingan ballistik impulsning to‘g‘ri chiziqli zarba tezligiga bevosita ko‘chishi ta’minlanadi.
2-blok: Yon va pastdan zarbalar (xuk, apperkot) rotatsion quvvatini oshirish	Yarim o‘tirgan va jangovar holatdan 1,5–2 kg tibbiy to‘pni gavdani burgan holda yon tomondan devorga uloqtirish (har qo‘lda 4–5 marta)	30 soniya tanaffusdan so‘ng yaqin va o‘rta masofadan qopda «yon-pastdan-yon» (3–6–3) maksimal tezkor zarba seriyasi (4–5 seriya)	Tos va gavda oblik (qiyshiq) mushaklarining buralish energiyasi qisqa amplitudali zarbalar kuchiga transformatsiya qilinadi.
3-blok: Oyoq-qo‘l fazaviy uyg‘unligi va hujumga o‘tish reaktivligini oshirish	Past to‘siqchalar (15–20 sm) ustidan jangovar holatni saqlab oldinga-orqaga va yonlarga reaktiv sakrashlar (6–8 soniya)	20 soniya tanaffusdan so‘ng himoya harakati (chetga qadam yoki og‘ish) va darhol 3 zarbali tezkor javob hujumi (5 seriya)	Oyoq kafti reaktivligi va tayanchdan tez ajralish hisobiga himoyadan hujumga o‘tish vaqti (reaksiya-

			harakat fazasi) qisqaradi.
4-blok: Seriyali zarbalarda tezlik-kuch barqarorligini shakllantirish	Yengil rezina espander qarshiligida 6 soniya davomida yuqori chastotali zarba imitatsiyasi	Espanderni yechib, 30 soniyadan so‘ng 5 soniya davomida erkin holatda («soya bilan jang» yoki lapada) maksimal tezlikda seriya (3–4 marta)	Kontrast effekt hisobiga motor birliklar safarbarligi ortadi, qo‘l chiqish tezligi va seriya chastotasi yuqori darajada saqlanadi.

Tadqiqotning ikkinchi muhim natijasi — 11–14 yoshli bokschi qizlarda tezkor-kuch yuklamalarini me’yorlashning bioenergetik va fiziologik chegaralarini aniqlash bo‘ldi. Ma’lumki, maksimal quvvat va portlovchi tezlik faqat kreatinfosfat (ATF-KrF) energiya manbai hisobiga, laktat (sut kislotasi) to‘planmasdan bajarilganda rivojlanadi [2; 7]. O‘smir qizlarda mushak ichidagi kreatinfosfat zaxirasi katta yoshli sportchilarga nisbatan kamroq bo‘lib, maksimal shiddatdagi ishning 6–8-soniyasidan keyin quvvat chiqishi keskin pasaya boshlaydi va glikolitik jarayonlar qo‘shiladi [3; 10].

Agar murabbiy tezkor-kuch mashqini 12–15 soniyadan ortiq davom ettirsa yoki seriyalar orasida qisqa (30–40 soniya) dam bersa, mashq o‘zining tezkor-kuch yo‘nalishini yo‘qotib, chidamlilik mashqiga aylanib qoladi. Bunday holatda markaziy asab tizimi va tez qisqaruvchi (II tip) mushak tolalari toliqib, zarba texnikasi buziladi. Shu bois 11–14 yoshli bokschi qizlar uchun yuklama parametrlarini yosh pog‘onalari bo‘yicha qat’iy differensiallashtirish zarur (2-jadval).

2-jadval.

11–14 yoshli bokschi qizlar uchun tezkor-kuch mashg‘ulot yuklamalarini me’yorlashning metodik parametrlari

Yuklama koʻrsatkichlari	11–12 yosh (Boshlangʻich oʻquv-mashq bosqichi)	12–13 yosh (Oʻsish tezlanishi davri)	13–14 yosh (Chuqurlashtirilgan oʻquv-mashq bosqichi)
Bitta ish seriyasining davomiyligi (soniya)	4–6 soniya (yoki 4–5 ta yakka portlovchi harakat)	5–7 soniya (yoki 5–6 ta bogʻlangan harakat)	6–8 soniya (yoki 6–8 ta maksimal shiddatli harakat)
Tashqi qarshilik miqdori (tibbiy toʻp / gantel vazni)	Toʻp: 1,0 kg; Gantel: 100–150 g; oʻz tana vazni	Toʻp: 1,0–1,5 kg; Gantel: 150–200 g; yengil espander	Toʻp: 1,5–2,0 kg; Gantel: 200–250 g; oʻrta espander
Harakatni bajarish shiddati (tezlik-quvvat talabi)	Submaksimal va maksimal (85–95%, texnik aniqlik ustuvor)	Submaksimal (85–90%, muvozanat va tayanch nazorati ustuvor)	Maksimal (95–100%, texnik barqarorlik saqlangan holda)
Seriyalar orasidagi dam olish intervali	90–120 soniya (faol boʻshashish va nafas mashqlari)	90–120 soniya (muvozanat va boʻshashish mashqlari)	60–90 soniya (seriyalar orasida), 3–4 daqiqa (bloklar orasida)
Bitta mashgʻulotdagi tezkor-kuch blokining umumiy vaqti	12–15 daqiqa (tayyorgarlik qismidan keyin darhol)	15–18 daqiqa (asosiy qismning birinchi yarmida)	18–22 daqiqa (asosiy qismning birinchi yarmida)
Haftalik mikrosikldagi mashgʻulotlar soni	Haftasiga 2 marta (kamida 48 soatlik oraliq bilan)	Haftasiga 2 marta (48–72 soatlik tiklanish bilan)	Haftasiga 2–3 marta (yuklama

			yo‘nalishini almashtirib)

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 11–14 yoshli bokschi qizlarda tezkor-kuch bloklari mashg‘ulotning oxirida emas, balki organizm charchamagan, markaziy asab tizimi qo‘zg‘aluvchanligi optimal bo‘lgan vaqtda — umumiy va maxsus qizib olish (razminka) tugashi bilanoq, asosiy qismning dastlabki 15–20 daqiqasida o‘tkazilishi shart [1; 4]. Mashg‘ulot yakunida charchoq fonida bajarilgan portlovchi mashqlar nafaqat kutilgan rivojlantiruvchi samarani bermaydi, balki tizza, to‘piq va yelka bo‘g‘imlarida mikrojarohatlar xavfini oshiradi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar sport fiziologiyasi va yakkakurashlar metodikasidagi zamonaviy ilmiy qarashlar bilan to‘liq hamohangdir. Xususan, L.P. Matveyev va Yu.V. Verxoshanskiylarning «uyg‘unlashtirilgan-ketma-ket ta’sir» konsepsiyasi hamda zamonaviy xorijiy tadqiqotlardagi «kompleks va kontrast mashg‘ulot» (Complex/Contrast Training) nazariyalari shuni tasdiqlaydiki, bazaviy ballistik yuklama va maxsus sport harakati bir-biridan haftalab ajratib qo‘yilganda, yosh sportchilarda neyromotor ko‘chish (transfer) sust kechadi [1; 6; 7]. Aksincha, tibbiy to‘p uloqtirish yoki reaktiv sakrashdan so‘ng 20–30 soniya ichida maxsus zarba kombinatsiyasini bajarish markaziy asab tizimida «izli qo‘zg‘alish» (PAPE) holatini yuzaga keltiradi. Natijada bokschi qiz zarbani odatdagidan ko‘ra ko‘proq motor birliklarni safarbar etgan holda, yuqori boshlang‘ich tezlik bilan bajaradi [5; 9].

Shu bilan birga, 11–14 yoshli qizlar kontingenti bilan ishlashda ushbu metodikani kattalar sportidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirib olish mumkin emas. Xorijiy adabiyotlarda kattalar uchun PAPE protokoli sifatida 80–90% maksimal og‘irlikdagi shtanga bilan o‘tirib-turish tavsiya etilsa [6], 11–14 yoshli qizlarda bunday og‘ir yuklama umurtqa pog‘onasi va o‘sish zonalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [2; 3]. Biz tomonimizdan asoslangan modelda esa og‘ir shtangalar o‘rniga xavfsiz ballistik uloqtirishlar, yengil espanderlar va

past amplitudali gorizontal-lateral sakrashlar faollashtiruvchi vosita sifatida tanlab olindi. Bu yondashuv bo‘g‘imlarga tushadigan aksial (vertikal bosimli) yuklamani minimallashtirgan holda, nerv-mushak tizimini yuqori darajada faollashtirish imkonini beradi [10; 13].

Muhokama jarayonida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan yana bir muhim jihat — haftalik mikrosikl ichida yuklamalarni taqsimlashdir. Ko‘pchilik murabbiylar har kuni mashg‘ulotda oz-ozdan tezkor-kuch mashqlarini berishga harakat qiladilar. Biroq fiziologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori shiddatli neyromotor va pliometrik yuklamalardan so‘ng 11–14 yoshli qizlarning markaziy asab tizimi hamda mushak-pay apparati to‘liq tiklanishi uchun kamida 48 soat vaqt talab etiladi [2; 4]. Shu sababli haftalik 6 kunlik mikrosiklda maxsus uyg‘unlashtirilgan tezkor-kuch bloklarini seshanba va juma (yoki dushanba va payshanba) kunlariga joylashtirish, qolgan kunlarda esa texnik-taktik mahorat, koordinatsiya, egiluvchanlik va aerob tiklanish ustida ishlash eng oqilona strategiya hisoblanadi [1; 12].

Bundan tashqari, mashg‘ulot jarayonida yuklamani me’yorlashning tashqi (soniya, takrorlar soni) ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda ichki va sifat mezonlariga ham tayanish zarur. Agar 6 soniyalik seriyaning oxirgi 2 soniyasida qiz bolaning zarba tezligi sezilarli darajada tushib ketsa, tirsaklar ochilib ketsa yoki zarbadan so‘ng ikki oyoqdagi muvozanat yo‘qolsa — bu belgilangan yuklama me’yori mazkur sportchi uchun og‘irlik qilayotganini bildiradi [8; 14]. Bunday vaziyatda takrorlar sonini majburan oxiriga yetkazish emas, balki ish vaqtini 1–2 soniyaga qisqartirish yoki dam olish intervalini uzaytirish pedagogik jihatdan to‘g‘ri qaror bo‘ladi.

XULOSA

1. 11–14 yoshli bokschi qizlarda umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalari orqali hosil qilingan kuch potensialini zarba samaradorligiga o‘tkazishning eng ta’sirchan mexanizmi — biomexanik jihatdan o‘xshash bo‘lgan ballistik, pliometrik va maxsus zarba mashqlarini yagona mashg‘ulot blokida uyg‘unlashtirib (ketma-ket) qo‘llashdir.

2. O‘quv-mashq guruhidagi qizlar uchun xavfsiz va yuqori ko‘chuvchanlikka ega faollashtiruvchi vositalar sifatida 1–2 kg vaznli tibbiy to‘plarni jangovar holatdan turli yo‘nalishlarda uloqtirish, past to‘siqlardan gorizontal-lateral reaktiv sakrashlar hamda yengil rezina espanderlar bilan kontrast mashqlar xizmat qiladi.

3. Tezkor-kuch mashqlarini me’yorlashda bioenergetik tozalik (alaktat-anaerob rejim) qat’iy saqlanishi shart: bitta ish seriyasining davomiyligi 11–12 yoshda 4–6 soniyadan, 13–14 yoshda esa 6–8 soniyadan oshmasligi, seriyalar orasidagi dam olish intervali esa 60–120 soniyani tashkil etishi lozim.

4. Mashg‘ulot tuzilmasida tezkor-kuch bloklari charchoq yuzaga kelmasdan oldin — asosiy qismning dastlabki 15–20 daqiqasida, haftalik mikrosiklda esa kamida 48 soatlik tiklanish oralig‘i bilan haftasiga 2–3 marta o‘tkazilganda markaziy asab tizimi va tayanch-harakat apparatining barqaror moslashuvi ta’minlanadi.

5. Yuklama me’yorining maqbulligini baholashda faqat bajarilgan zarbalar yoki sakrashlar soniga emas, balki seriya davomida harakat tezligining saqlanishi, tayanch muvozanati va zarba texnikasining buzilmasligi kabi sifat mezonlariga ustuvorlik berish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bompa T.O., Buzzichelli C. Periodization: Theory and Methodology of Training. 6th ed. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2019. – 392 p.
2. Lloyd R.S., Faigenbaum A.D., Stone M.H. va boshq. Position statement on youth resistance training: the 2014 International Consensus // British Journal of Sports Medicine. – 2014. – Vol. 48(7). – B. 498–505.
3. Lesinski M., Prieske O., Granacher U. Effects and dose-response relationships of resistance training on physical performance in youth athletes: a systematic review and meta-analysis // British Journal of Sports Medicine. – 2016. – Vol. 50(13). – B. 781–795.
4. Ramirez-Campillo R., Moran J., Chaabene H. va boshq. Methodological characteristics and future directions for plyometric jump training research: a scoping review update // Sports Medicine. – 2020. – Vol. 50(6). – B. 1055–1079.
5. Seitz L.B., Haff G.G. Factors modulating post-activation potentiation of jump, sprint, throw, and upper-body ballistic performances: A systematic review with meta-analysis // Sports Medicine. – 2016. – Vol. 46(2). – B. 231–240.

6. Cormie P., McGuigan M.R., Newton R.U. Developing maximal neuromuscular power: Part 2 – training considerations for improving maximal power production // Sports Medicine. – 2011. – Vol. 41(2). – B. 125–146.
7. Turner A.N., Comfort P. Periodization: Advanced Strength and Conditioning. – London: Routledge, 2022. – 368 p.
8. Ruddock A., Wilson D., Thompson S. va boshq. Strength and conditioning for professional boxing: recommendations for physical preparation // Strength and Conditioning Journal. – 2016. – Vol. 38(3). – B. 81–88.
9. Stanley E., Thomson E., Smith G., Lamb K.L. An analysis of the three-dimensional kinetics and kinematics of maximal effort punches among amateur boxers // International Journal of Performance Analysis in Sport. – 2018. – Vol. 18(5). – B. 835–854.
10. Dunn E.C., Humberstone C.E., Iredale K.F., Blazevich A.J. A damaging punch: assessment and application of cuff-based and force-plate technologies in female and male boxers // European Journal of Sport Science. – 2021. – Vol. 21(4). – B. 512–520.
11. Xalmuxamedov R.D., Tajibayev S.S., Rajabov G'.Q. Malakali bokschilarning ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish. – Toshkent: O'zDJTSU, 2020. – 184 b.
12. Kiprich S.B., Berinchik D.Yu. Spetsialnaya fizicheskaya podgotovka bokserov na osnove kontrolya sorevnovatelnoy deyatelnosti // Fizicheskoye vospitaniye studentov. – 2015. – № 3. – B. 20–27.
13. Turdiyev F.K., Xadiyatullayev Z.Sh. O'quv-mashq guruhidagi bokschi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarlik dinamikasi // Fan-Sportga ilmiy-nazariy jurnali. – 2023. – № 6. – B. 44–48.
14. Kamandulis S., Bruzas V., Mockus P. va boshq. Specific endurance va speed-strength training adaptations in amateur boxers // Journal of Strength and Conditioning Research. – 2018. – Vol. 32(4). – B. 1020–1028.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

QISHLOQ UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHI QIZLARIDA QADDI-QOMAT BUZILISHLARINI BARTARAF ETISHDA TABAQALASHTIRILGAN JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINING SAMARADORLIGI

Yuldashov Ikrom Abdulaziziovich
Farg'ona davlat universiteti
Jismoniy madaniyat va sport faoliyati fakulteti dekani dotsent, p.f.b.f.d. (PhD).
kommersant142@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-6269-819X
+99893 972 77 05

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qishloq umumta'lim maktablari 7–8-sinf o'quvchi qizlari orasida keng tarqalgan postural deformatsiyalar (qaddi-qomat buzilishlari, ko'krak kifozi va bel lordozi disbalansi) hamda ularni jismoniy tarbiya darslarida tabaqalashtirilgan korreksion vositalar yordamida bartaraf etish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida qishloq qizlarining maishiy mehnat yuklamalari va maktabdagi uzoq statik holati natijasida yuzaga keluvchi mushak disbalansi aniqlandi. Ishlab chiqilgan tabaqalashtirilgan korreksion mashqlar majmuasi (stretching, gavdani muvozanatlovchi parter mashqlari va izometrik yuklamalar) 6 oy davomida pedagogik tajriba-sinovdan o'tkazildi (jami n=60). Olingan natijalar tajriba guruhida orqa mushaklari kuch chidamliligi, umurtqa pog'onasi harakatchanligi va tana geometriyasi ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli ravishda yaxshilanganini ko'rsatdi ($p < 0.05$).*

Kalit so'zlar: *qishloq maktabi, o'quvchi qizlar, qaddi-qomat buzilishi, postural disbalans, tabaqalashtirilgan yuklama, korreksion gimnastika, kuch chidamliligi.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННЫХ ЗАНЯТИЙ ПО ФИЗИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ В КОРРЕКЦИИ НАРУШЕНИЙ ОСАНКИ У ДЕВОЧЕК, ОБУЧАЮЩИХСЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ

Аннотация. *В данной стате исследуэтся проблема постуралных нарушений (деформатсий осанки, грудного кифоза и дисбаланса поясничного лордоза) среди девочек 7–8 классов селских общеобразовательных школ и их коррекция средствами дифференцированного физического воспитания. Выявлены особенности мышечного дисбаланса, возникающего в результате сочетания бытовой физической нагрузки и длителного статического сидения. Разработанный комплекс дифференцированных коррекционных упражнений (стретчинг, партерная гимнастика и изометрическиэ нагрузки) апробирован в ходе 6-месячного педагогического эксперимента (н=60). Полученные данные подтвердили статистически достоверноэ улучшениэ показательей силовой*

выносливости мышц спины, подвижности позвоночника и геометрии тела в экспериментальной группе по сравнению с контролной (n < 0,05).

Ключевые слова: *селская школа, школнисы, нарушения осанки, постуралный дисбаланс, дифференцированная нагрузка, коррекционная гимнастика, силовая выносливост.*

EFFECTIVENESS OF DIFFERENTIATED PHYSICAL EDUCATION CLASSES IN CORRECTING POSTURAL DISORDERS AMONG FEMALE STUDENTS IN RURAL GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Abstract. *This study examines the prevalence of postural disorders (thoracic kyphosis and lumbar lordosis imbalance) among 7th–8th grade female students in rural comprehensive schools and their remediation through differentiated physical education protocols. The study identifies muscle imbalances caused by the interaction of asymmetrical domestic labor and prolonged sedentary school hours. A specialized complex of differentiated corrective exercises (stretching, mat exercises, and isometric core stabilization) was evaluated across a 6-month pedagogical experiment (n=60). Empirical results demonstrated statistically significant improvements in back extensor endurance, spinal mobility, and body symmetry parameters in the experimental group compared to the control group (p < 0.05).*

Keywords: *rural school, female students, postural disorders, muscle imbalance, differentiated loading, corrective gymnastics, strength endurance.*

KIRISH

O‘smirlik davri (12–14 yosh) qiz bolalar organizmida suyak-bo‘g‘in tizimining tez sur’atlar bilan o‘sishi, ikkilamchi jinsiy belgilarning rivojlanishi va gormonal qayta qurilishlar bilan xarakterlanadi [2]. Ayni shu bosqichda umurtqa pog‘onasi tashqi mexanik omillarga va noto‘g‘ri statik yuklamalarga o‘ta ta’sirchan bo‘lib qoladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va zamonaviy pediatrik tadqiqotlar ma’lumotlariga ko‘ra, maktab o‘quvchilari orasida funksional qaddi-qomat buzilishlari 45% dan 65% gacha bo‘lgan ko‘rsatkichni tashkil etmoqda [7, 9]. Qishloq umumta’lim maktablarida tahsil oluvchi qizlar orasida esa bu muammo ikki hissa keskin tus oladi:

Qishloq sharoitida qizlar suv tashish, hovli va tomorqa ishlari, kichik yoshdagi bolalarni ko‘tarish kabi yumushlarni bajarishda og‘irlikni ko‘pincha bir qo‘lda yoki gavdani bir tomonga egib bajaradilar. Bu ko‘krak va bel sohasi mushaklarida asimmetrik tonusni yuzaga keltiradi [3].

Partada soatlab noto‘g‘ri egilib o‘tirish bo‘yin-yelka va trapetsiyasimon mushaklarining surunkali spazmiga, qorin va orqa bo‘ylama mushaklarining bo‘shashib ketishiga (postural ingibitsiyaga) olib keladi [6]. Maktabdagi standart jismoniy tarbiya darslari normativlarni (yugurish, sakrash, to‘p uloqtirish) bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lib, umurtqa pog‘onasi chuqur mushaklarini mustahkamlash va mavjud deformatsiyalarni tuzatishga qaratilgan maxsus korreksion vositalarni o‘z ichiga olmaydi [4].

Yuqoridagi omillar qishloq maktablarida qizlarning jismoniy tarbiyasiga shunchaki umumiy sport mashg‘ulotlari sifatida emas, balki ularning tana tuzilishidagi kamchiliklarni bartaraf etuvchi tabaqalashtirilgan korreksion yondashuv sifatida qarashni taqozo etadi.

Tadqiqot maqsadi — qishloq maktabi o‘quvchi qizlarida qaddi-qomat buzilishlarini bartaraf etish va jismoniy rivojlanishini muvozanatlashga qaratilgan tabaqalashtirilgan mashg‘ulotlar majmuasi samaradorligini tajriba yo‘li bilan asoslashdan iborat.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODLARI

Dastlabki somatoskopik ko‘rik (tana simmetriyasini vizual va antropometrik baholash) asosida funksional qaddi-qomat buzilishlari (skoliotik holat, ko‘krak kifozi kuchayishi) aniqlangan 60 nafar o‘quvchi qiz saralab olindi va 2 ta guruhga ajratildi:

Nazorat guruhi (NG, n=30): Amaldagi davlat standartlari asosidagi an’anaviy jismoniy tarbiya dasturi bo‘yicha mashg‘ulot olib bordi.

Tajriba guruhi (TG, n=30): An’anaviy dars tuzilishiga integratsiya qilingan tabaqalashtirilgan korreksion mashqlar tizimi bo‘yicha shug‘ullandi.

Tajriba guruhi uchun har bir 45 daqiqalik jismoniy tarbiya darsi tarkibidan 15–18 daqiqa vaqt ajratilib, quyidagi yo‘naltirilgan bloklar joriy etildi:

Ko‘krakning katta mushaklari, bo‘yinning orqa qismi va sonning orqa guruh mushaklaridagi gipertonusni kamaytiruvchi statik cho‘zilishlar (umurtqani bo‘shatish uchun).

Umurtqa pog‘onasiga tushadigan vertikal gravitatsion yuklamani olib tashlagan holda, qorin pressi va orqaning chuqur mushaklarini (m. multifidus, m. erector spinae) faollashtiruvchi mashqlar («qayiqcha», «ko‘prikcha», «diagonal qo‘l-oyoq ko‘tarish»). Gavda muvozanatini saqlovchi mushaklar korseti uchun 20–30 soniyalik statik ushlab turish harakatlari (planka modifikatsiyalari, fitbol yoki gimnastika tayoqchalari bilan simmetrik mashqlar). Qizlarga uy va dars sharoitida og‘irlikni ikkala oyoqqa teng taqsimlash, partada to‘g‘ri o‘tirish biomexanikasi amaliy o‘rgatildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tajriba-sinov boshida har ikkala guruhdagi qizlarning funksional va biomexanik ko‘rsatkichlari deyarli bir xil darajada past ekanligi qayd etildi ($p > 0.05$). Xususan, Yelka ko‘rsatkichi indeksi o‘rtacha 83–84% atrofida bo‘lib, bu barcha sinaluvchilarda ko‘krak kifozining funksional buzilishi (bukchayish) mavjudligini ko‘rsatdi. 6 oylik tabaqalashtirilgan korreksion dastur yakunida olingan qiyosiy natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

7–8-sinf o‘quvchi qizlarining qaddi-qomat va funksional holati ko‘rsatkichlari dinamikasi (n=60)

Test va ko‘rsatkichlar nomi	Guruh	Tajribadan oldin ($X^{-}\pm\sigma$)	Tajribadan keyin ($X^{-}\pm\sigma$)	O‘sish (%)	Statistik ishonchlilik (t;p)
Orqa mushaklari chidamliligi (statik ushlab turish, sek)	NG	38.4 \pm 4.2	43.1 \pm 3.9	+12.2\%	$t = 20.9$; $p < 0.001$
	TG	37.9 \pm 4.5	64.8 \pm 4.1	+71.0\%	
Qorin mushaklari chidamliligi (30 sek, takrorlar soni)	NG	13.5 \pm 2.1	15.1 \pm 1.9	11.8\%	$t = 13.2$; $p < 0.001$
	TG	13.2 \pm 2.3	21.4 \pm 1.8	62.1\%	

Umurtqa egiluvchanligi (oldinga egilish, sm)	**NG** **TG**	5.8 \pm 1.6 5.9 \pm 1.5	6.9 \pm 1.4 11.2 \pm 1.3	18.9\% +89.8\%	$t = 12.3$; $p < 0.001$
Yelka ko‘rsatkichi indeksi (YEKI) (%)	**NG** **TG**	83.6 \pm 2.8 83.9 \pm 2.6	85.4 \pm 2.5 91.8 \pm 2.1	+2.1\% +9.4\%	$t = 10.7$; $p < 0.01$

Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki:Mushak korsetining mustahkamlanishi: Orqa mushaklarining statik chidamliligi TG qizlarida dastlabki 37.9 \pm 4.5 soniyadan 64.8 \pm 4.1 soniyagacha (o‘sish 71.0%) yetdi. NG da esa ushbu ko‘rsatkich faqat 12.2% ga oshdi. Bu vertikal holatda gavdani ushlab turuvchi mushaklarning charchoqqa chidamliligi sezilarli oshganidan dalolat beradi. Tana geometriyasi va simmetriyasi: TG da Yelka ko‘rsatkichi indeksi 91.8 pm 2.1 % ga yetdi. Bu ko‘rsatkich meyoriy qiymatga (90–100%) mos kelib, qizlarda ko‘krak qafasining ochilishi, yelkalarning orqaga tortilib, bukchayish holati funksional jihatdan tuzatilganini tasdiqlaydi. Umurtqa harakatchanligi: Egiluvchanlik bo‘yicha TG da 89.8% lik o‘sish kuzatilib, umurtqalararo disklar va boylamlarning elastikligi yaxshilandi.

MUHOKAMA

Amalga oshirilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, qishloq maktablarida qizlarning jismoniy rivojlanishidagi asosiy muammo shunchaki «kam harakatlilik» emas, balki noto‘g‘ri yo‘naltirilgan harakatlar balansi hisoblanadi [1, 5]. Kundalik uy yumushlari va og‘ir yuk ko‘tarish qizlarning yelka va bel sohasini zo‘riqtiradi, lekin umurtqa pog‘onasini to‘g‘ri ushlab turuvchi chuqur stabillashtiruvchi mushaklarni rivojlantirmaydi. Standart darsdagi yugurish yoki to‘p o‘yinlari esa ushbu spazmga tushgan mushaklarni yanada zo‘riqtirishi mumkin. Biz qo‘llagan tabaqalashtirilgan korreksion yondashuv quyidagi sabablarga ko‘ra yuqori samara berdi:

Spazmga uchragan ko‘krak va yelka mushaklari stretching orqali cho‘zib bo‘shatilgandan keyingina orqaning bo‘shashgan mushaklari kuchlantirildi. Bu mushaklar disbalansini bartaraf etdi [8]. Parter (yerda yotib bajariladigan) mashqlari umurtqa pog‘onasiga tushadigan tana og‘irligi bosimini kamaytirdi, natijada mashqlar bel sohasiga hech qanday og‘riqsiz va xavfsiz bajarildi. Qaddi-qomatning to‘g‘rilanishi, yelkalarning chiroyli ochilishi o‘smir qizlarda o‘z tanasiga bo‘lgan ishonchni oshirdi va ularning darsga faol qatnashishiga turtki bo‘ldi [10].

XULOSA

Qishloq umumta’lim maktabi o‘quvchi qizlarida funksional qaddi-qomat buzilishlarining yuqori darajasi ularning kundalik maishiy hayot tarzi va maktabdagi uzoq vaqtli statik o‘tirish holati bilan bevosita bog‘liq. Jismoniy tarbiya darslariga tabaqalashtirilgan korreksion mashqlar tizimini (parter gimnastikasi, stretching va izometrik stabilizatsiya) integratsiya qilish qizlarning umurtqa pog‘onasi mushak korsetini mustahkamlaydi, yelka asimmetriyasini bartaraf etadi va umumiy harakat sifatlarini oshiradi ($p < 0.001$). Taklif etilgan mashqlar majmuasi maxsus qimmatbaho jihozlarni talab qilmaydi, maktabning oddiy sport zalida yoki moslashtirilgan maydonchasida to‘liq amalga oshirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktabrdagi PF-6099-son «Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.
2. Azimov I., Sobitov Sh. Sport fiziologiyasi. – Toshkent: «O‘qituvchi», 2018. – 280 b.
3. Mahkamov M. Maktab o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi. // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2021. – 52 b.
4. Salomov R.SH. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. 1-jild. – Toshkent: «ITA-PRESS», 2015. – 296 b.
5. Usmonxo‘jayev T.S., Xo‘jayev P. Harakatli o‘yinlar. – Toshkent: «O‘qituvchi», 2017. – 192 b.
6. Armstrong, N., & van Mechelen, W. (Eds.). (2017). Youth Physical Activity and Sedentary Behavior: Challenges and Solutions. Human Kinetics.

7. World Health Organization. (2020). WHO guidelines on physical activity and sedentary behaviour: for children and adolescents, adults and older adults. Geneva: World Health Organization.
8. Kendall, F. P., McCreary, E. K., Provance, P. G., Rodgers, M. M., & Romani, W. A. (2015). Muscles: Testing and Function with Posture and Pain (5th ed.). Lippincott Williams & Wilkins.
9. Latalski, M., Bylina, J., Fatyga, M., et al. (2013). Risk factors of postural defects in children at school age. Annals of Agricultural and Environmental Medicine, 20(3), 583–587.
10.Telford, R. M., Telford, R. D., Olive, L. S., Cochrane, T., & Davey, R. (2016). Why are girls less physically active than boys? Findings from the LOOK Longitudinal Study. PLoS ONE, 11(3), e0150041.

O'QUV-MASHQ BOSQICHIDA BOKSCHI QIZLARNING UMUMIY VA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI

Xasanov Shoxjaxon G'olibjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti,
Yakkakurash sport turlari nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
Shox0403.sx@gmail.com
ORCID: 0009-0008-9877-8772
Tel: +998 90 301 17 00

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'quv-mashq bosqichidagi 11–14 yoshli bokschi qizlarning (n=168: nazorat guruhi n=84, tajriba guruhi n=84) umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini, tezkor-kuch ko'rsatkichlarini hamda nazorat sparringidagi texnik-taktik samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik eksperiment natijalari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *bokschi qizlar, o'quv-mashq bosqichi, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik, tezkor-kuch sifati, pedagogik eksperiment, IMU sensor, texnik-taktik samaradorlik, Cohen effekt o'lchami.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ ОБЩЕЙ И СПЕЦИАЛЬНОЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ДЕВУШЕК-БОКСЕРОВ НА УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНОМ ЭТАПЕ

Аннотация. *В статье проанализированы результаты педагогического эксперимента по повышению общей и специальной физической подготовленности, скоростно-силовых качеств и технико-тактической эффективности девушек-боксеров 11–14 лет (n=168: контрольная группа n=84, экспериментальная группа n=84) на учебно-тренировочном этапе.*

Ключевые слова: *девушки-боксеры, учебно-тренировочный этап, общая и специальная физическая подготовленность, скоростно-силовые качества, педагогический эксперимент, IMU-сенсор, технико-тактическая эффективность, размер эффекта Коэна.*

EFFECTIVENESS OF IMPROVING GENERAL AND SPECIAL PHYSICAL FITNESS OF FEMALE BOXERS AT THE TRAINING STAGE

Abstract. *This article analyzes the results of a pedagogical experiment aimed at improving general and special physical fitness, speed-strength indicators, and technical-tactical sparring effectiveness in 11–14-year-old female boxers (n=168: control group n=84, experimental group n=84) at the training stage.*

Keywords: *female boxers, training stage, general and special physical fitness, speed-strength qualities, pedagogical experiment, IMU sensor, technical-tactical effectiveness, Cohen's d effect size.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Ayollar boksida yuqori sport natijalariga erishish ko‘p yillik tayyorgarlikning o‘quv-mashq bosqichida (11–14 yosh) umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning qanchalik mutanosib va ilmiy asosda shakllantirilganiga bevosita bog‘liqdir [1, 13, 15]. Boks nazariyasi va metodikasida o‘tkazilgan zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv-mashq bosqichida umumiy jismoniy tayyorgarlikni (UJT) maxsus zarba biomexanikasidan ajratgan holda olib borish yoki, aksincha, tayanch-harakat apparati poydevorini mustahkamlamasdan erta maxsus zarba hajmini oshirish sportchi qizlarda 17–24-haftalardayoq funksional “plato” (o‘sishning to‘xtashi) va texnik barqarorlikning buzilishiga olib keladi [3, 6, 7].

P. Davis va hammualliflar [4], I. Loturco va boshqalar [8] hamda E.C. Dunn va hammualliflar [5] tadqiqotlarida bokschining jangdagi ustunligi pastki tana eksploziv kuchi, gavda rotatsion quvvati, kuchning rivojlanish tezligi (RFD) va uchinchi raund oxirigacha zarba impulsini yo‘qotmaslik qobiliyati bilan belgilanishi isbotlangan. Mahalliy olimlar (R.D. Xalmuxamedov, V.N. Shin, S.S. Tajibaev, G‘.Q. Rajabov [15]; F.K. Turdiyev, Z.Sh. Xadiyatullayev [12, 14]) bokschi qizlar tayyorgarligida UJT va MJT vositalarini integratsiyalash zarurligini ta’kidlagan bo‘lsalar-da, 11–14 yoshli bokschi qizlarda sensorli-instrumental nazorat va biologik yetilish (PHV) asosida tabaqalashtirilgan metodikaning UJT, MJT hamda real sparringdagi texnik-taktik natijadorlikka ta’siri katta tanlanmada (n=168) eksperimental jihatdan yetarli asoslanmagan edi.

Tadqiqot maqsadi — o‘quv-mashq bosqichidagi 11–14 yoshli bokschi qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini, tezkor-kuch sifatini hamda texnik-taktik samaradorligini oshirishda mualliflik intellektual-adaptiv siklik metodikasining samaradorligini pedagogik eksperiment orqali aniqlash va statistik asoslashdan iborat.

TADQIQOT USULLARI VA TASHKIL ETILISHI

Asosiy pedagogik eksperiment Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlaridagi sport maktablari bazasida 11–14 yoshli 168 nafar bokschi qiz ishtirokida o‘tkazildi. Ishtirokchilar boshlang‘ich ko‘rsatkichlari teng bo‘lgan ($p>0,05$) nazorat guruhi (NG, n=84: 11–12 yosh — 42, 13–14 yosh — 42) va tajriba guruhi (TG, n=84: 11–12 yosh — 42, 13–14 yosh — 42) ga ajratildi. Har ikkala guruh haftasiga 4 marta 90 daqiqadan (shundan 3 ta mashg‘ulotda tezkor-kuch bloklari) shug‘ullandi; 144 ta mashg‘ulot instrumental nazoratga olindi. Nazorat guruhi amaldagi an’anaviy dastur bo‘yicha (UJT:MJT nisbati 70:30 va 60:40), tajriba guruhi esa umumiy mashg‘ulot vaqti teng saqlangan holda mualliflik metodikasi — 6 ta “o‘zaro tuzatuvchi juftlik”, 7 stansiyali aylanma mashg‘ulot, 6 zonali rangli rezina qarshilikli jilet-trenajyor, 9-o‘qli IMU sensor moduli va “Boxing Force” mobil ilovasi hamda 6 raundli progressiv sparring-transfer tartibnomasi asosida mashg‘ulot olib bordi.

Samaradorlikni baholash uchun tajriba boshida, oraliq kesimlarda (har 4 haftada plato diagnostikasi bilan) va tajriba yakunida 8 ta UJT testi, 7 ta MJT testi, 7 ta maxsus tezkor-kuch testi, 6 ta IMU sensor parametri va 3 raundlik nazorat sparringidagi 4 ta texnik-taktik ko‘rsatkich (ekspertlar muvofiqligi $\kappa=0,82$) olindi. Statistik tahlilda IBM SPSS Statistics 26.0 dasturi yordamida Studentning mustaqil va juftlashtirilgan t-mezoni, nisbiy o‘sish ($\Delta\%$), metodikaning sof qo‘shimcha samaradorligi (Samara% = TG $\Delta\%$ − NG $\Delta\%$), Cohen effekt o‘lchami (d: 0,20 — kichik; 0,50 — o‘rtacha; ≥0,80 — yuqori effekt), yosh nazorat qilingan Pearson korrelyatsiyasi (r) va determinatsiya koeffitsienti (r^2) hamda integral samaradorlik koeffitsienti $ISK = \Sigma(|di| \times wi) / \Sigma wi$ hisoblandi.

TADQIQOT NATIJALARI

Pedagogik eksperiment yakunida umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT) blokining barcha 8 ta ko‘rsatkichi bo‘yicha tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli ustunlikka erishdi (1-jadval). TGda nisbiy yaxshilanish +11,5% (oldinga egilish) dan +16,2% (qo‘llarni bukib-yozish) va +15,4% (30 s turnikda tortilish)

gacha bo‘lib, NGdagi o‘sishdan (+5,4% dan +8,8% gacha) o‘rtacha 6,1% sof qo‘shimcha samaradorlikka ustun bo‘ldi (Cohen d=0,47–0,96).

1-jadval.

Bokschi qizlarning umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT) ko‘rsatkichlari dinamikasi (*p<0,001; **p<0,01; n=84; n=84)

UJT test ko‘rsatkichi	NG boshl.	TG boshl.	NG yakun.	TG yakun.	NG/TG Δ%	Samara	t (p); d
60 m yugurish (s)	9,93±0,12	9,77±0,12	9,38±0,11	8,62±0,11	−5,5 / −11,8%	+6,3 %	4,80*; 0,74
100 m yugurish (s)	16,63±0,23	16,17±0,23	15,73±0,22	14,10±0,22	−5,4 / −12,8%	+7,4 %	5,20*; 0,80
1000 m yugurish (s)	278,0±3,80	285,0±3,80	254,4±1,15	249,4±1,15	−8,5 / −12,5%	+4,0 %	3,10**; 0,48
Qo‘llarni bukib-yozish (marta)	16,96±0,24	17,20±0,24	18,45±0,19	19,99±0,18	+8,8 / +16,2%	+7,4 %	5,87*; 0,91
Oldinga egilish (sm)	11,16±0,18	10,84±0,18	12,05±0,01	12,08±0,01	+8,0 / +11,5%	+3,5 %	3,08**; 0,47
Uzunlikka sakrash (sm)	166,5±2,48	171,5±2,48	178,7±2,03	196,5±2,03	+7,3 / +14,6%	+7,3 %	6,20*; 0,96
4×10 m mokisimon (s)	8,70±0,11	8,90±0,11	8,13±0,06	7,70±0,06	−6,6 / −13,5%	+6,9 %	5,40*; 0,83
30 s turnikda tortilish (marta)	10,25±0,25	10,68±0,25	11,04±0,15	12,32±0,17	+7,7 / +15,4%	+7,7 %	5,68*; 0,88

Maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) va maxsus tezkor-kuch testlari blokida mualliflik metodikasining ta’siri yanada yuqori bo‘ldi (2-jadval). Barcha 14 ta maxsus ko‘rsatkich bo‘yicha guruhlararo farq p<0,001 darajasida ishonchli bo‘lib, sof qo‘shimcha

samaradorlik MJT blokida o‘rtacha +7,0% ni, maxsus tezkor-kuch blokida esa +7,6% ni tashkil etdi. Ayniqsa maksimal zarba kuchi (TG: 162,0±1,56 N, NG: 147,0±1,56 N; t=6,80; d=1,06), boks turishidan 3 kg to‘p uloqtirish (TG: 5,73±0,03 m, NG: 5,45±0,03 m; t=6,49; d=1,01) hamda o‘ng va chap qo‘lda 3 kg to‘p uloqtirish (d=0,99 va d=0,95) ko‘rsatkichlarida eng yuqori effekt o‘lchamlari qayd etildi. Shuningdek, haftalik monitoringda 17–24-haftalarda kuzatilgan plato zonasi (4 haftalik o‘sish <1,5%) rezina rangini, dam oralig‘ini va stansiyalar ketma-ketligini mikro-o‘zgartirish orqali muvaffaqiyatli yengib o‘tildi va 25–36-haftalarda o‘sish trendi qayta tiklandi.

2-jadval.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) va tezkor-kuch ko‘rsatkichlarining o‘zgarish dinamikasi (barcha p<0,001; n=84; n=84)

Maxsus va tezkor-kuch testlari	NG boshl.	TG boshl.	NG yakun.	TG yakun.	NG/TG Δ%	Samara	t; d
15 s to‘g‘ri zarbalar (marta) [MJT]	31,00±0,49	30,38±0,48	33,17±0,22	34,89±0,22	+7,0 / +14,9%	+7,9 %	5,54; 0,86
15 s yon zarbalar (marta) [MJT]	23,96±0,41	24,68±0,40	25,65±0,34	28,23±0,34	+7,1 / +14,4%	+7,3 %	5,33; 0,83
15 s pastdan zarbalar (marta) [MJT]	21,71±0,38	22,43±0,38	23,13±0,32	25,58±0,32	+6,5 / +14,1%	+7,5 %	5,40; 0,84
3 daq. qopga zarbalar (marta) [MJT]	264,0±3,79	269,0±3,80	285,1±3,37	301,3±3,37	+8,0 / +12,0%	+4,0 %	3,40; 0,53
3 kg to‘p chap qo‘l (m) [MJT]	5,00±0,07	4,90±0,07	5,38±0,03	5,65±0,03	+7,6 / +15,4%	+7,8 %	6,10; 0,95
3 kg to‘p o‘ng qo‘l (m) [MJT]	5,02±0,07	5,14±0,07	5,40±0,06	5,95±0,06	+7,5 / +15,8%	+8,3 %	6,40; 0,99
10×10 m maxsus mokisimon (s) [MJT]	30,91±0,40	30,29±0,40	28,59±0,37	26,17±0,37	−7,5 / −13,6%	+6,1 %	4,60; 0,71

30 m yugurish (s) [Tezkor-kuch]	5,70±0,06	5,60±0,06	5,36±0,06	4,86±0,06	−6,1 / −13,2%	+7,1 %	5,59; 0,87
30 s disk 5 kg itarish (marta)	18,08±0,31	18,63±0,31	19,45±0,25	21,56±0,25	+7,6 / +15,7%	+8,1 %	5,91; 0,92
8 s zarbalar soni (marta)	25,32±0,40	25,94±0,40	27,26±0,33	29,86±0,33	+7,7 / +15,1%	+7,4 %	5,54; 0,86
8 s 1 kg gantel bilan (marta)	28,10±0,43	27,54±0,43	30,31±0,19	31,79±0,18	+7,9 / +15,4%	+7,6 %	5,60; 0,87
3 kg to‘p boks turishidan (m)	5,07±0,07	4,95±0,07	5,45±0,03	5,73±0,03	+7,5 / +15,8%	+8,2 %	6,49; 1,01
Maksimal zarba kuchi (N)	136,4±2,07	139,6±2,07	147,0±1,56	162,0±1,56	+7,8 / +16,0%	+8,2 %	6,80; 1,06
8 s o‘rtacha zarba kuchi (N)	94,24±1,42	91,78±1,42	101,6±0,49	105,3±0,49	+7,8 / +14,7%	+6,9 %	5,31; 0,82

Jismoniy va tezkor-kuch ko‘rsatkichlaridagi o‘sish bevosita IMU sensor moduli parametrlariga hamda 3 raundlik nazorat sparringidagi texnik-taktik samaradorlikka ko‘chdi (3-jadval). Shuningdek, biologik yetilish bosqichlari bo‘yicha qayta guruhlangan tahlil (PHV oldi n=54, PHV davri n=62, PHV keyingi n=52) va 11–12 hamda 13–14 yosh kichik guruhlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, 11–12 yoshda bazaviy kuch-chidamlilik (qo‘llarni bukib-yozish +32,4%, 30 s turnikda tortilish +24,8%), 13–14 yoshda esa maxsus zarba tezligi (15 s to‘g‘ri zarbalar +28,5%, yon zarbalar +26,3%) ustuvor rivojlandi.

3-jadval.

IMU sensor moduli ko‘rsatkichlari va nazorat sparringidagi texnik-taktik samaradorlikning yakuniy qiyosiy tavsifi (n=84; n=84)

Ko‘rsatkich yo‘nalishi va nomi	NG yakuniy ($\bar{X}$±m)	TG yakuniy ($\bar{X}$±m)	TG dinamikasi (boshl.→yakun.)	t (p<0,001)	Effekt / Izoh
Pik tezlik Vpik (m/s) [IMU sensor]	6,18±0,09	7,42±0,08	5,95 → 7,42 (+24,7%)	8,82	V% 13,78%→9,57 %
Pik kuch Fpik (N) [IMU sensor]	267,2±4,30	332,8±4,10	254,3 → 332,8 (+30,8%)	8,75	NGda o‘sish +5,2%
Kuch rivojlanish tezligi RFD (N/s) [IMU]	1932±29,5	2418±28,2	1875 → 2418 (+29,0%)	8,42	Erta neyro-portlash
Chap-o‘ng asimmetriya AI (%) [IMU]	14,2±0,32	9,8±0,28	14,9 → 9,8 (−34,2% kamayish)	7,28	Yashil me’yor (<10%)
Charchoqda tezlik saqlanishi TS (%) [IMU]	80,1±0,82	87,6±0,75	79,2 → 87,6 (+8,4 f.p.)	5,18	Pasayish 14,3%
Zarba impulsi J (N·s) [IMU sensor]	1,98±0,03	2,46±0,03	1,88 → 2,46 (+30,9%)	8,15	Kuch×vaqt birligi
Sparringda aniq zarbalar soni (marta)	50,90±0,73	56,80±0,70	47,4 → 56,8 (+19,8%)	3,48	d = 0,54 (o‘rta-yuqori)
Texnik aniqlik koeffitsienti (%)	53,90±0,82	60,50±0,80	52,80 → 60,50 (+7,7 f.p.)	3,72	d = 0,57 (o‘rta-yuqori)
Hujum faolligi koeffitsienti (sh.b.)	2,13±0,03	2,42±0,03	2,08 → 2,42 (+16,3%)	4,10	d = 0,63 (yuqori)

Muvaffaqiyatli birlashmalar soni (marta)	7,80±0,12	9,20±0,11	7,50 → 9,20 (+22,7%)	4,25	d = 0,65; ISK = 0,949

MUHOKAMA

O‘tkazilgan pedagogik eksperiment natijalari mualliflik metodikasining barcha baholash bloklarida tizimli ustunlik berganini ko‘rsatdi. Birinchidan, tajriba yakunida yosh omili nazorat qilingan post-test korrelyatsion modelda barcha 12 ta juftlik bo‘yicha bog‘liqlik kuchi o‘rtacha $\Delta r = +0{,}082$ ga oshdi: 10×10 m maxsus mokisimon yugurish va muvaffaqiyatli birlashmalar o‘rtasida $r = -0{,}680$ dan $r = -0{,}742$ gacha (determinatsiya koeffitsienti $r^2 = 55{,}1\%$), 15 s to‘g‘ri zarbalar va texnik aniqlik o‘rtasida $r = +0{,}530$ dan $r = +0{,}628$ gacha ($r^2 = 39{,}4\%$), 15 s yon zarbalar va birlashmalar o‘rtasida $r = +0{,}557$ dan $r = +0{,}641$ gacha ($r^2 = 41{,}1\%$) hamda 3 daqiqalik qop testi va hujum faolligi o‘rtasida $r = +0{,}497$ dan $r = +0{,}586$ gacha ($r^2 = 34{,}3\%$) mustahkamlandi. Bu holat H. Chaabène [3], P. Davis [4] va I. Loturco [8] ta’kidlagan jismoniy sifatlarning texnik-taktik mahoratga bevosita transformatsiyasi (transferi) mualliflik metodikasi ta’sirida yuqori darajada ro‘yobga chiqqanini isbotlaydi.

Ikkinchidan, 3-jadvalda qayd etilgan IMU sensor natijalari — pik tezlikning 7,42 m/s gacha (+24,7%), pik kuchning 332,8 N gacha (+30,8%) va kuch rivojlanish tezligining (RFD) 2418 N/s gacha (+29,0%) o‘sishi hamda chap-o‘ng asimmetriya indeksining 14,9% dan 9,8% gacha pasayishi — tana vaznining ikki guruhda deyarli bir xil (+2,8% va +3,1%) o‘sgani fonida yuz berdi. Bu P. Aagaard va J.L. Andersen [2] hamda N.A. Maffiuletti va hammualliflar [9] qayd etganidek, tezkor-kuch o‘sishi mushak gipertrofiyasi hisobiga emas, balki motor birliklarining erta safarbarligi va mushaklararo koordinatsiyaning sifat jihatdan takomillashuvi hisobiga sodir bo‘lganini tasdiqlaydi. Besh blok bo‘yicha hisoblangan integral samaradorlik koeffitsienti ISK = 0,949 (UJT hissasi 0,148; MJT hissasi 0,399; texnik-taktik samaradorlik hissasi 0,252; Boxing Force monitoring hissasi 0,095;

yoshga farqlovchi blok 0,055) va baholangan 30 ta ko‘rsatkichning 76,7 foizida o‘rtacha-yuqori hamda yuqori effekt (d≥0,70) olingani metodikaning yuqori amaliy qiymatini ko‘rsatadi.

XULOSA VA AMALIY TAVSIYALAR

1. O‘quv-mashq bosqichidagi 11–14 yoshli bokschi qizlarda mualliflik metodikasining qo‘llanilishi UJT blokida o‘rtacha +6,1% (d=0,47–0,96), MJT blokida +7,0% (d=0,53–0,99) va maxsus tezkor-kuch testlarida +7,6% (d=0,82–1,06) sof qo‘shimcha o‘sishni ta’minlab, an’anaviy dasturga nisbatan o‘rtacha 2,5 baravar yuqori rivojlanish sur’atini namoyon etdi ($p<0,001$).

2. Instrumental IMU monitoringida pik tezlik +24,7%, pik kuch +30,8%, RFD +29,0% va zarba impulsi +30,9% ga oshib, chap-o‘ng asimmetriya indeksi 14,9% dan 9,8% gacha qisqardi, bu esa 3 raundlik nazorat sparringida aniq zarbalar sonining 56,80 tagacha (+19,8%), texnik aniqlikning 60,50% gacha va muvaffaqiyatli birlashmalarning 9,20 martagacha (+22,7%) o‘sishiga olib keldi.

3. Sport maktablari amaliyotiga 12 oylik 4 blokli dasturni, 6 zonali rangli rezina qarshilikli jilet-trenajyor va “Boxing Force” mobil ilovasini joriy etish, shuningdek chap-o‘ng asimmetriya AI >12% bo‘lganda 2 hafta davomida nodominant qo‘l yuklamasini 50% ga oshirib, dominant qo‘l yuklamasini 30% ga kamaytirish algoritmini qo‘llash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-apreldagi PQ-5099-son “Boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. — Toshkent: Lex.uz.

2. Aagaard P., Andersen J.L. Neural adaptations to resistance training and explosive strength gains // Journal of Applied Physiology. — 2018. — Vol. 124. — P. 1530–1540.

3. Chaabène H., Tabben M., Mkaouer B. et al. Amateur boxing: physical and physiological attributes // Sports Medicine. — 2015. — Vol. 45, № 3. — P. 337–352.

4. Davis P., Benson P.R., Pitty J.D. et al. Performance analysis of elite female amateur boxers and comparison with their male counterparts // International Journal of Performance Analysis in Sport. — 2016. — Vol. 16, № 1. — P. 55–71.

5. Dunn E.C., Humberstone C., Iredale F. et al. The effect of fatiguing lower-body exercise on punch forces in amateur boxers // Journal of Strength and Conditioning Research. — 2022. — Vol. 36, № 7. — P. 1918–1924.

6. Hukkanen E., Häkkinen K. Effects of sparring load on reaction speed and punch force during the precompetition and competition periods in boxing // Journal of Strength and Conditioning Research. — 2017. — Vol. 31, № 6. — P. 1563–1568.

7. Issurin V.B. Benefits and limitations of block periodized training approaches to athletes' preparation: a review // Sports Medicine. — 2016. — Vol. 46, № 3. — P. 329–338.

8. Loturco I., Nakamura F.Y., Artioli G.G. et al. Strength and power qualities are highly associated with punching impact in elite amateur boxers // Journal of Strength and Conditioning Research. — 2016. — Vol. 30, № 1. — P. 109–116.

9. Maffiuletti N.A., Aagaard P., Blazevich A.J. et al. Rate of force development: physiological and methodological considerations // European Journal of Applied Physiology. — 2016. — Vol. 116. — P. 1091–1116.

10. Piorkowski B.A., Lees A., Barton G.J. Single maximal versus combination punch kinematics // Sports Biomechanics. — 2011. — Vol. 10, № 1. — P. 1–11.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA DARSGA IJOBIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR

Tursunbayeva Yulduz Radj qizi
Chirchiq davlat pedagigika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishning xorijiy pedagogik tajribalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Finlandiya, Yaponiya, Singapur va boshqa mamlakatlar ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan o'quvchi faolligini oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, hamkorlikda o'qitish, o'yin texnologiyalaridan foydalanish hamda o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishga qaratilgan yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, xorijiy tajribalarni O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimiga moslashtirishning ustuvor yo'nalishlari va pedagogik shart-sharoitlari asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, ijobiy munosabat, o'quv motivatsiyasi, xorijiy tajriba, pedagogik texnologiya, o'quvchi faolligi, hamkorlikda o'qitish, mustaqil fikrlash, individual yondashuv, ta'lim sifati.*

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ПОЛОЖИТЕЛЬНОГО ОТНОШЕНИЯ К УРОКУ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются зарубежные педагогические подходы к формированию и развитию положительного отношения учащихся начальных классов к урокам. Анализируется опыт Финляндии, Японии и Сингапура, включая поддержку самостоятельности учащихся, обучение в сотрудничестве, развитие критического мышления, использование дидактических игр и учет индивидуальных образовательных потребностей. Обосновываются возможности адаптации эффективных подходов к условиям начального образования Узбекистана.*

Ключевые слова: *начальное образование, положительное отношение к уроку, учебная мотивация, зарубежный опыт, педагогические технологии, активность учащихся, сотрудничество, самостоятельное мышление, индивидуальный подход.*

FOREIGN EXPERIENCES IN FORMING AND DEVELOPING PRIMARY SCHOOL PUPILS' POSITIVE ATTITUDES TOWARD LESSONS

Abstract. *This article examines international pedagogical approaches to forming and developing primary school pupils' positive attitudes toward lessons. It discusses practices associated with Finland, Japan, and Singapore, including support for learner autonomy, collaborative learning, critical thinking, educational games, and attention to individual learning needs. The article outlines ways to adapt relevant approaches to the context of primary education in Uzbekistan.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Keywords: *primary education, positive attitude toward lessons, learning motivation, international experience, pedagogical technologies, pupil engagement, collaborative learning, independent thinking, individual approach.*

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda, ularda o‘qishga bo‘lgan qiziqish, bilim olishga intilish, mustaqil fikrlash va o‘z imkoniyatlariga ishonchni shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning maktabga, o‘qituvchiga, sinfdoshlariga va o‘quv faoliyatiga munosabati tarkib topadigan muhim davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda shakllangan ijobiy munosabat keyingi ta’lim bosqichlarida o‘quvchining faolligi, bilim olishga intilishi va o‘zlashtirish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘quvchining darsga ijobiy munosabati faqat darsni yoqtirish yoki topshiriqlarni bajarish istagi bilan cheklanmaydi. U o‘quv faoliyatiga qiziqish, yangi bilimlarni egallashga intilish, qiyinchiliklarni yengishga tayyorlik, o‘qituvchi va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, o‘z natijalarini baholash hamda o‘z faoliyatini takomillashtirish kabi tarkibiy jihatlarni qamrab oladi.

Xorijiy ta’lim tajribasida o‘quvchilarning motivatsiyasini rivojlantirish, ularni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish va psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishga alohida e’tibor qaratiladi. O‘quvchining mustaqilligi, o‘zini muvaffaqiyatli his qilishi va jamoaga mansublik tuyg‘usi uning ta’lim jarayonidagi faolligi bilan bog‘liq muhim omillar sifatida qaraladi. Boshlang‘ich va o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili ham ushbu psixologik ehtiyojlarning qondirilishi ichki motivatsiya va o‘quv jarayoniga jalb etilish bilan ijobiy bog‘liqligini ko‘rsatadi [1].

Shu nuqtayi nazardan, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or pedagogik tajribalarini o‘rganish, ularning samarali jihatlarini aniqlash va milliy ta’lim sharoitiga moslashtirish

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘quvchilarning ta’limga munosabati, motivatsiyasi va o‘quv faoliyatidagi ishtirokini o‘rganish pedagogika hamda ta’lim psixologiyasining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Ushbu masalani ilmiy jihatdan izohlashda o‘zini o‘zi belgilash nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Mazkur nazariyaga ko‘ra, shaxsning ichki motivatsiyasi rivojlanishida mustaqillik, kompetentlik va boshqalar bilan ijobiy aloqada bo‘lish ehtiyojlari muhim o‘rin tutadi. Niemiec va Ryan ushbu yondashuvning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilib, o‘quvchining psixologik ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlash uning mustaqil o‘rganishi, ta’limdagi faolligi va farovonligiga xizmat qilishini ta’kidlaydi [2].

Yaponiya boshlang‘ich maktablarida olib borilgan tadqiqotlarda o‘qituvchining o‘quvchiga mustaqillik berishi, uning fikrini tinglashi va individual imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlashi ichki motivatsiyaning shakllanishi bilan bog‘liqligi o‘rganilgan [3]. Shuningdek, yapon boshlang‘ich maktablaridagi chet tilini o‘rganish jarayoniga bag‘ishlangan tadqiqotlarda o‘quvchilarning darsdagi ishtiroki, o‘qituvchi tomonidan yaratilgan muhit va motivatsiya o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik aniqlangan [4].

Singapur tadqiqotchilari Wang va hammualliflarining izlanishlarida ham o‘quvchining mustaqilligi, o‘z imkoniyatlarini his qilishi va ijtimoiy aloqalari motivatsion jarayonlar bilan bog‘liq holda tahlil qilingan [5]. Tadqiqot asosan o‘rta maktab o‘quvchilariga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, undagi nazariy qarashlar boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash masalasini tushunishda ham foydali hisoblanadi.

Mazkur maqolada xorijiy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-pedagogik tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi xorijiy tajribalarda qo‘llaniladigan samarali pedagogik yondashuvlarni aniqlash

hamda ularni O‘zbekiston boshlang‘ich ta’limi sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Finlandiya tajribasi: o‘quvchi ehtiyojlari va individual yondashuv

Finlandiya ta’lim tizimining muhim xususiyatlaridan biri o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi, mustaqil fikrlashi va ta’lim jarayonidagi faol ishtirokiga e’tibor qaratilishidir. Ta’lim jarayonida o‘quvchining yosh xususiyatlari, qiziqishlari va o‘zlashtirish imkoniyatlarini hisobga olish muhim pedagogik tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quv topshiriqlarini bolaning kundalik hayoti bilan bog‘lash, savol-javob, kuzatish, tajriba o‘tkazish va ijodiy faoliyatdan foydalanish dars mazmunini tushunarli hamda qiziqarli tashkil etishga yordam beradi. O‘quvchiga o‘z fikrini bildirish va topshiriqni bajarishning turli usullarini tanlash imkoniyatini berish uning mustaqilligini rivojlantiradi.

Finlandiya tajribasidan kelib chiqadigan muhim pedagogik xulosa shundan iboratki, o‘quvchida darsga ijobiy munosabatni shakllantirish uchun faqat rag‘batlantirishning o‘zi yetarli emas. Dars mazmunining tushunarliligi, topshiriqlarning bolaning imkoniyatlariga mosligi va muvaffaqiyatga erishish uchun zarur yordamning mavjudligi ham muhimdir.

Mazkur tajribani milliy ta’lim amaliyotida qo‘llash uchun o‘qituvchi topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra tabaqalashtirishi, o‘quvchilarning fikrlarini tinglashi va xatolarni o‘rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qiladigan muhit yaratishi lozim.

Yaponiya tajribasi: hamkorlik, intizom va faol o‘rganish

Yaponiya boshlang‘ich ta’limida jamoada ishlash, o‘zaro yordam, mas’uliyat va muntazam o‘rganish madaniyatiga katta ahamiyat beriladi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini ifodalash, boshqalarning mulohazalarini tinglash va umumiy xulosaga kelish orqali nafaqat bilim oladilar, balki ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Yapon boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining chet tilini o‘rganish motivatsiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotda o‘qituvchining mustaqillikni qo‘llab-quvvatlashi o‘quvchilarning ichki motivatsiyasi bilan bog‘liqligi aniqlangan [3]. Boshqa bir tadqiqotda esa o‘quvchilarning darsdagi faolligi va motivatsiyasi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik ta’kidlangan [4].

Ushbu tajriba boshlang‘ich sinflarda juftlikda ishlash, kichik guruhlarda muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, o‘zaro tekshirish va jamoaviy topshiriqlardan foydalanishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Masalan, o‘qish darsida o‘quvchilar matn qahramonining xatti-harakatlarini muhokama qilishi, matematika darsida masalani yechishning turli usullarini taqqoslashi mumkin.

Bunda o‘qituvchining vazifasi faqat topshiriqni nazorat qilish emas, balki har bir bolaning guruh faoliyatida ishtirok etishini ta’minlashdan iborat. Tortinchoq yoki o‘z fikrini ifodalashda qiynaladigan o‘quvchilarga ham fikr bildirish uchun qulay sharoit yaratilishi zarur.

Singapur tajribasi: o‘quvchi faolligi va fikrlash ko‘nikmalari

Singapur ta’lim tajribasida bilimlarni mexanik yodlash bilan cheklanmasdan, ularni tushunish, amalda qo‘llash va muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarni savol berishga, o‘z fikrini dalillashga va turli yechimlarni izlashga undash ta’lim jarayonidagi faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Wang va hammualliflari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda o‘quvchilarning mustaqillik, kompetentlik va ijtimoiy aloqalarga oid psixologik ehtiyojlari ularning motivatsiyasi va o‘qish jarayonidan oladigan qoniqishi bilan bog‘liq holda o‘rganilgan [5]. Tadqiqot o‘rta maktab o‘quvchilarini qamrab olganligi sababli, uning natijalarini boshlang‘ich sinflarga bevosita ko‘chirish emas, balki umumiy nazariy tamoyillar sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ushbu yondashuvni boshlang‘ich sinflarda qo‘llashda muammoli savollar, mantiqiy topshiriqlar, hayotiy vaziyatlar, didaktik o‘yinlar va kichik loyihalardan foydalanish mumkin. Masalan, matematika darsida o‘quvchilarga faqat tayyor formulani qo‘llash topshirig‘i emas, balki bir masalani turli usullar bilan yechish vazifasi ham beriladi.

Bunday faoliyat o‘quvchiga o‘z fikrining ahamiyatini his qilish, izlanishdan zavqlanish va yangi bilimlarni mustaqil egallash imkonini beradi. Natijada dars o‘qituvchi ma’lumot beradigan jarayondan o‘quvchi faol qatnashadigan o‘rganish muhitiga aylanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda motivatsiya va psixologik qo‘llab-quvvatlash

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda o‘quv motivatsiyasini rivojlantirishning muhim sharti sifatida bolaning psixologik ehtiyojlarini hisobga olish masalasi alohida o‘rganiladi. Boshlang‘ich va o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarga oid tadqiqotlarning tizimli tahlilida mustaqillik, kompetentlik va ijtimoiy aloqalarga bo‘lgan ehtiyojlarning qondirilishi ichki motivatsiya hamda ta’lim jarayoniga jalb etilish bilan ijobiy bog‘liqligi aniqlangan [1].

- Mustaqillikni qo‘llab-quvvatlash: o‘quvchiga tanlash, fikr bildirish va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berish.
- Kompetentlikni rivojlantirish: bolaning imkoniyatiga mos topshiriqlar berish va muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur yordamni ko‘rsatish.
- Ijobiy munosabatlarni shakllantirish: sinfda o‘zaro hurmat, hamkorlik va o‘zaro yordam muhitini yaratish.
- Mazmunli rag‘batlantirish: faqat baho yoki sovrin bilan emas, balki o‘quvchining sa’y-harakati, izlanishi va rivojlanishini e’tirof etish.
- Xatolarga ijobiy munosabat: xatoni jazolash uchun sabab sifatida emas, balki o‘rganish va rivojlanish imkoniyati sifatida talqin qilish.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bu tamoyillar o‘quvchining darsga munosabatini tashqi nazoratga bog‘liq holatdan asta-sekin ichki qiziqish va ongli ishtirok asosidagi munosabatga aylantirishga ko‘maklashadi.

XORIJIY TAJRIBALARNI O‘ZBEKISTON BOSHLANG‘ICH TA’LIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI

Xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini milliy ta’lim tizimiga tatbiq etishda ularning tashkiliy shakllarini to‘liq ko‘chirib olish emas, balki samarali pedagogik tamoyillarini mahalliy sharoit, o‘quv dasturlari, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va mavjud resurslarga moslashtirish muhimdir.

Birinchidan, darslarni o‘quvchi faolligiga yo‘naltirish lozim. Buning uchun muammoli savollar, didaktik o‘yinlar, kichik loyihalar, juftlik va guruhli topshiriqlar muntazam qo‘llanilishi mumkin. Bunday ish shakllari o‘quvchilarga bilimni tayyor holda qabul qilish bilan cheklanmasdan, uni izlash va amalda qo‘llash imkonini beradi.

Ikkinchidan, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bir xil topshiriq barcha bolalarda bir xil qiziqish yoki muvaffaqiyatni yuzaga keltirmaydi. Shu sababli topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra moslashtirish, qo‘shimcha yordamga muhtoj o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash va yuqori tayyorgarlikka ega bolalarga ijodiy vazifalar berish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, sinfda psixologik jihatdan xavfsiz muhit yaratish muhim. O‘quvchi xato javob berishdan qo‘rqmasligi, savol berishi va o‘z fikrini erkin ifodalashi kerak. O‘qituvchining samimiy munosabati, adolatli baholashi va konstruktiv fikr-mulohazasi bolada o‘ziga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

To‘rtinchidan, baholash jarayonini rivojlantiruvchi xususiyatga ega qilish lozim. Faqat yakuniy natijani baholash bilan cheklanmasdan, o‘quvchining harakati, oldingi natijalariga nisbatan o‘sishi va mustaqil ishlashdagi yutuqlarini ham e’tirof etish zarur. O‘quvchiga xatosini qanday tuzatish mumkinligini tushuntirish uning keyingi faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Beshinchidan, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim. Oilada bolaning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab-quvvatlash, kitob o‘qish va yangi narsalarni o‘rganishga sharoit yaratish maktabdagi pedagogik ishlarni to‘ldiradi.

Mazkur yo‘nalishlarni amalga oshirish uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish, ilg‘or tajribalar almashinuvini yo‘lga qo‘yish va dars samaradorligini muntazam kuzatib borish talab etiladi. Shu bilan birga, qo‘llanilayotgan usullarning natijasi o‘quvchilarning darsdagi ishtiroki, savol berish faolligi, topshiriqlarni bajarishga intilishi va o‘z fikrini ifodalashidagi o‘zgarishlar orqali baholanishi mumkin.

XULOSA

Xorijiy pedagogik tajribalar tahlili boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish ko‘p omilli pedagogik jarayon ekanini ko‘rsatadi. Finlandiya tajribasi o‘quvchining individual ehtiyojlari va mustaqilligini qo‘llab-quvvatlashga, Yaponiya tajribasi hamkorlik va o‘zaro mas’uliyatga, Singapur tajribasi esa faol fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratishi bilan ahamiyatlidir.

Ilmiy adabiyotlar tahlili o‘quvchining mustaqilligi, o‘z imkoniyatlariga ishonchi va ijtimoiy aloqalarining qo‘llab-quvvatlanishi ichki motivatsiya hamda ta’lim jarayoniga jalb etilish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi darslarni o‘quvchi faol ishtirok etadigan, xatolarni o‘rganish imkoniyati sifatida qabul qiladigan va har bir bolaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan tarzda tashkil etishi zarur.

Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston boshlang‘ich ta’limiga tatbiq etishda milliy qadriyatlar, davlat ta’lim standartlari, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlari hamda maktablarning real imkoniyatlari hisobga olinishi lozim. Hamkorlikda o‘qitish, didaktik o‘yinlar, muammoli ta’lim, tabaqalashtirilgan topshiriqlar, rivojlantiruvchi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

baholash va ota-onalar bilan hamkorlikni uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning darsga qiziqishini rivojlantirish uchun amaliy imkoniyat yaratadi.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirishda xorijiy tajribalardan maqsadli va tanqidiy foydalanish, ularni milliy pedagogik sharoitga moslashtirish hamda natijadorligini muntazam o‘rganib borish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboyeva M., D. Inog‘omova. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. – Toshkent, 2012.
2. Inoyatov U.Xodjayev B. Umumta’limiy kompetensiyalarni loyihalashtirishning kontseptual asoslari // Xalq ta’limi ilmiy-metodik jurnali, 2016.
3. Inog‘omova S. Mantiqiy fikrlash //Boshlang‘ich ta’lim. – Toshkent, 2000.
4. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-sinf. – Toshkent, 2021.
5. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-sinf . –Toshkent, 2021
6. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 3-sinf. – Toshkent, 2022.
7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2010..
8.Qosimova.G.H. Boshlang‘ish sinf o‘quvshilarida o‘z faoliyatini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari. – Toshkent: Fan, 2007.
9. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

FAVQULODDA VAZIYATLAR SHAROITIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TAMINLASHDA NAZARIY- HUQUQIY ASOSLARI

Jo'rayev Iskandar Ubaydullayevich
Ilmiy maslahatchi: p.f.n., dotsent G'.Alimov
orzuhavas63@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligi tushunchalarining nazariy-huquqiy mazmuni, ularning o'zaro aloqadorligi va huquqiy tartibga solish mexanizmlari tadqiq etilgan. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholi hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, jamoat tartibini saqlash hamda davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va jamoat xavfsizligini ta'minlashga oid normativ-huquqiy hujjatlari o'rganilgan. Shuningdek, favqulodda vaziyatlarda inson huquqlarini ta'minlash, axborot almashinuvi, idoralararo hamkorlik va profilaktik tadbirlarni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *favqulodda vaziyat, jamoat xavfsizligi, nazariy-huquqiy tahlil, huquqiy tartibga solish, fuqaro muhofazasi, jamoat tartibi, profilaktika, inson huquqlari, davlat organlari, xavfsizlik mexanizmlari.*

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ

Аннотация: *В статье исследуется теоретико-правовое содержание понятий общественной безопасности в чрезвычайных ситуациях, их взаимосвязь и механизмы правового регулирования. Анализируются вопросы предупреждения чрезвычайных ситуаций, защиты жизни и здоровья населения, обеспечения общественного порядка и координации деятельности государственных органов. Рассматриваются нормативно-правовые акты Республики Узбекистан, регулирующие защиту населения и территорий от чрезвычайных ситуаций и обеспечение общественной безопасности. Особое внимание уделяется защите прав человека, обмену информацией, межведомственному взаимодействию и совершенствованию профилактических мероприятий. По результатам исследования сформулированы научно-практические рекомендации, направленные на повышение эффективности правовых и организационных механизмов обеспечения общественной безопасности.*

Ключевые слова: *чрезвычайная ситуация, общественная безопасность, теоретико-правовой анализ, правовое регулирование, гражданская защита, общественный порядок, профилактика, права человека, государственные органы, механизмы безопасности.*

THEORETICAL AND LEGAL FOUNDATIONS FOR ENSURING PUBLIC SAFETY IN EMERGENCY SITUATIONS

Abstract: *This article examines the theoretical and legal meaning of public safety in emergency situations, the relationship between its principal concepts, and the mechanisms of legal regulation. It analyzes the prevention of emergencies, the protection of human life and health, the maintenance of public order, and the coordination of public authorities. The study reviews the legislation of the Republic of Uzbekistan concerning the protection of the population and territories against emergencies and the provision of public safety. Particular attention is given to human rights protection, information exchange, interagency cooperation, and the improvement of preventive measures. Based on the analysis, the article proposes practical recommendations for strengthening the legal and organizational mechanisms used to ensure public safety during emergencies.*

Keywords: *emergency situation, public safety, theoretical and legal analysis, legal regulation, civil protection, public order, prevention, human rights, public authorities, safety mechanisms.*

KIRISH

Zamonaviy sharoitda aholi hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, jamoat tartibini saqlash hamda jamiyatning barqaror faoliyatini ta’minlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tabiiy ofatlar, texnogen avariyalar, yong‘inlar, ekologik xavflar va boshqa favqulodda hodisalar insonlarning kundalik hayotiga, iqtisodiy faoliyatga, ijtimoiy infratuzilmaga hamda davlat boshqaruvi tizimiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlashning nazariy va huquqiy asoslarini chuqur o‘rganish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash tushunchasi faqat xavf yuzaga kelgan paytda tartibni saqlash yoki qutqaruv ishlarini tashkil etish bilan cheklanmaydi. U xavflarni oldindan aniqlash, ularning oldini olish, aholini ogohlantirish, xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish, jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish va normal hayot faoliyatini tiklash kabi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarni qamrab oladi. O‘zbekiston Respublikasida mazkur sohadagi huquqiy munosabatlarning asosiy manbalaridan biri 2022-yil 17-avgustdagi O‘RQ-790-sonli “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun hisoblanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-sonli “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni jamoat

xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalar favqulodda vaziyatlarning oldini olish, davlat organlari hamkorligini rivojlantirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda xavfsizlikni ta'minlash faoliyatining samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan muhimdir.

Tadqiqotning dolzarbligi favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligi tushunchasining mazmunini aniqlashtirish, uning boshqa huquqiy kategoriyalar bilan aloqasini ochib berish va amaliy faoliyatda uchraydigan tashkiliy-huquqiy masalalarni tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligi tushunchalarining nazariy-huquqiy xususiyatlarini ochib berish, amaldagi huquqiy tartibga solish mexanizmlarini tahlil qilish va ularni takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti: favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlardan iborat. Tadqiqot predmeti esa mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar, nazariy qarashlar, tashkiliy mexanizmlar va ularni takomillashtirish yo'nalishlarini qamrab oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalarini har tomonlama o'rganishga imkon beruvchi umumilmiy va maxsus huquqiy metodlardan foydalanildi. Tizimli tahlil metodi jamoat xavfsizligini ta'minlashni davlat organlari, maxsus xizmatlar, mahalliy boshqaruv organlari va fuqarolar ishtirok etadigan yaxlit tizim sifatida o'rganish imkonini berdi. Ushbu metod orqali xavfsizlikning alohida tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi. Formal-yuridik metod O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik va jamoat xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy

hujjatlarning mazmunini o‘rganishda qo‘llanildi. Mazkur metod huquqiy normalarning maqsadi, mazmuni va tartibga solish yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qildi. Qiyosiy-huquqiy metod milliy huquqiy yondashuvlarni xalqaro miqyosda favqulodda vaziyatlar xavfini kamaytirishga qaratilgan tamoyillar bilan taqqoslash uchun qo‘llanildi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015–2030-yillarga mo‘ljallangan Senday tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish doiraviy dasturidagi xavflarni oldindan kamaytirish va tayyorgarlikni kuchaytirish yondashuvlari hisobga olindi. Mantiqiy tahlil va umumlashtirish metodlari mavjud nazariy qarashlarni tizimlashtirish, jamoat xavfsizligining muhim xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish va ilmiy xulosalarni shakllantirishda foydalanildi. Tahlil va sintez metodlari favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularga javob qaytarish va oqibatlarini bartaraf etish jarayonlarini alohida hamda o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish imkonini berdi. Tadqiqotning metodologik asosini qonuniylik, inson huquqlarini hurmat qilish, xavflarning oldini olish, davlat organlari hamkorligi va ko‘riladigan choralar mutanosibligi tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqot normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilishga asoslangan. Shu bois maqolada empirik so‘rovnoma yoki statistik tajriba natijalari keltirilmagan; xulosalar huquqiy va nazariy tahlildan kelib chiqib shakllantirilgan.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR SHARHI

Favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasi davlat boshqaruvi, ma’muriy huquq, konstitutsiyaviy huquq va fuqaro muhofazasi yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu masalani o‘rganishda normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro dasturlar va xavfsizlikka oid nazariy yondashuvlar muhim manba hisoblanadi.

Birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi insonning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishning konstitutsiyaviy asoslarini belgilaydi. Mazkur normalar favqulodda vaziyatlarda davlat organlari tomonidan ko‘riladigan choralarni inson huquqlari bilan uyg‘unlashtirish uchun huquqiy mezon vazifasini

bajaradi.O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-790-sonli Qonuni favqulodda vaziyatlardan aholi va hududlarni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Unda vakolatli organlarning vazifalari, fuqarolarning tegishli sohadagi huquq va majburiyatlari, favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish bilan bog‘liq munosabatlarning huquqiy asoslari belgilangan. Ushbu qonun favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta’minlashning milliy huquqiy mexanizmlarini o‘rganish uchun asosiy manbalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-27-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi jamoat xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy va institutsional jihatlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Konsepsiyada davlat organlari faoliyatini takomillashtirish, jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kabi yo‘nalishlarga e’tibor qaratilgan. Xalqaro manbalar orasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Senday tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish doiraviy dasturi alohida o‘rin tutadi. Ushbu dastur xavflarni tushunish, xavflarni boshqarish tizimini mustahkamlash, barqarorlikka investitsiya kiritish va favqulodda vaziyatlarga samarali tayyorgarlik ko‘rish kabi ustuvor yo‘nalishlarni belgilaydi. Mazkur yondashuv favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish bilan bir qatorda, ularning ehtimoli va salbiy ta’sirini oldindan kamaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Adabiyotlar va huquqiy manbalarni tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, jamoat xavfsizligi faqat huquqni muhofaza qilish faoliyati bilan cheklanmaydi. U favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholining tayyorgarligini oshirish, ijtimoiy infratuzilmani muhofaza qilish va davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni ham qamrab oladi. Shu bilan birga, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi va fuqaro muhofazasi tushunchalarining chegaralarini aniq farqlash muhimdir. Ularning vazifalari bir-birini to‘ldirsa-da, mazmuni va amaliy qo‘llanish doirasi jihatidan aynan bir xil emas. Shu sababli mazkur tushunchalarni yagona tizim doirasida, biroq ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tahlil qilish zarur.



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

FAVQULODDA VAZIYATLARDA JAMOAT XAVFSIZLIGINING NAZARIY-HUQUQIY MAZMUNI:

Jamoat xavfsizligi shaxs, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini turli xavf va tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan ijtimoiy-huquqiy holat sifatida qaralishi mumkin. Favqulodda vaziyatlarda ushbu tushuncha yanada keng mazmun kasb etib, insonlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, jamoat tartibini muhofaza qilish, xavfli hududlarni nazorat qilish va zarur yordamni tashkil etish kabi vazifalarni qamrab oladi.

Favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligining asosiy xususiyati xavfning tez o‘zgarishi va bir vaqtning o‘zida bir nechta ijtimoiy manfaatlarga ta’sir ko‘rsatishidir. Masalan, tabiiy ofat sodir bo‘lgan hududda fuqarolarni evakuatsiya qilish bilan bir qatorda, transport harakatini tartibga solish, tibbiy yordam ko‘rsatish, moddiy boyliklarni muhofaza qilish va ishonchli axborot tarqatish talab etilishi mumkin. Mazkur tushunchani to‘g‘ri anglash uchun bir-biri bilan bog‘liq, ammo mazmunan farqlanuvchi kategoriyalarni ajratish lozim. Jamoat xavfsizligi — shaxs, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini xavf-xatarlardan himoya qilishga qaratilgan keng qamrovli tushuncha. Jamoat tartibi — jamoat joylarida fuqarolarning xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hamda ijtimoiy qoidalar tizimi bilan bog‘liq tushuncha. Fuqaro muhofazasi — aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlar oqibatlaridan muhofaza qilish, zarur tayyorgarlik va himoya tadbirlarini tashkil etish bilan bog‘liq faoliyat yo‘nalishi. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish — xavf manbalarini aniqlash, ularning yuzaga kelish ehtimolini kamaytirish va ehtimoliy oqibatlarni cheklashga qaratilgan choralar majmui. Ushbu tushunchalar o‘zaro uzviy bog‘langan. Masalan, favqulodda vaziyatda jamoat tartibining saqlanishi evakuatsiya va qutqaruv ishlarining samarali amalga oshishiga yordam beradi. Shu bilan birga, jamoat tartibini saqlash jamoat xavfsizligini ta’minlashning faqat bir qismi bo‘lib, xavflarni oldindan aniqlash va aholining hayotini muhofaza qilish kabi vazifalarni to‘liq qamrab olmaydi.

Nazariy jihatdan favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini uchta o‘zaro bog‘liq tarkibiy yo‘nalishga ajratish mumkin. Birinchi yo‘nalish — huquqiy yo‘nalish. U vakolatli organlarning huquq va majburiyatlari, fuqarolarning huquqiy maqomi, xavfsizlik choralarini qo‘llash asoslari va javobgarlik masalalarini qamrab oladi. Ikkinchi yo‘nalish — tashkiliy-boshqaruv yo‘nalishi. U davlat organlari va maxsus xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish, axborot almashish, resurslarni taqsimlash va tezkor qarorlar qabul qilishni o‘z ichiga oladi. Uchinchi yo‘nalish — ijtimoiy-profilaktik yo‘nalish. U aholining xavfsizlik madaniyatini oshirish, o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish, fuqarolarni ogohlantirish va jamoatchilik bilan hamkorlikni rivojlantirishga qaratiladi. Mazkur yo‘nalishlarning o‘zaro uyg‘unligi favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimining izchil ishlashi uchun muhim shart hisoblanadi.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI VA SUBYEKTLARI

Favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash huquqiy asoslangan faoliyat bo‘lib, davlat organlari va boshqa vakolatli subyektlarning vazifalari qonunchilikda belgilangan vakolatlar doirasida amalga oshirilishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi insonning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilishning oliy huquqiy asosini tashkil etadi. Favqulodda vaziyatlarda ham davlat organlari faoliyati qonuniylik va inson qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishi kerak. O‘RQ-790-sonli Qonun favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu qonun doirasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni prognoz qilish, aholini tayyorlash va oqibatlarni bartaraf etish kabi vazifalar muhim o‘rin egallaydi. PF-27-sonli Farmon bilan tasdiqlangan Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi esa jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish, davlat organlari hamkorligini takomillashtirish va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etishga yo‘naltirilgan. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta’minlashda quyidagi subyektlarning vazifalari

alohida ahamiyatga ega. Favqulodda vaziyatlar sohasidagi vakolatli organlar xavflarning oldini olish, aholini ogohlantirish, qutqaruv ishlarini tashkil etish va tegishli xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirishda ishtirok etadi. Ichki ishlar organlari o‘z vakolatlari doirasida favqulodda vaziyat hududlarida jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishga ko‘maklashadi. Milliy gvardiya qonunchilikda belgilangan vakolatlari doirasida favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish jarayonida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etadi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari hududiy ehtiyojlarni aniqlash, tegishli tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va aholiga zarur yordam ko‘rsatish tadbirlarida ishtirok etadi. Sog‘liqni saqlash muassasalari jabrlanganlarga tibbiy yordam ko‘rsatish, ularni tegishli muassasalarga yetkazish va sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq zarur choralarni amalga oshiradi. Fuqarolar va jamoat institutlari xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, rasmiy ogohlantirishlarga amal qilish, tegishli xizmatlarni xavf haqida xabardor etish va qonunchilikda belgilangan tartibda hamkorlik qilish orqali xavfsizlikni ta’minlashga hissa qo‘shadi. Mazkur subyektlarning samarali hamkorligi uchun vazifalarning aniq taqsimlanishi, tezkor axborot almashinuvi va harakatlarni muvofiqlashtirish mexanizmlari muhim hisoblanadi. Bunda bir organ vakolatining boshqa organ vakolati bilan asossiz takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, qaror qabul qilish mas’uliyatini aniq belgilash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish zarur.

FAVQULODDA VAZIYATLARDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH TAMOYILLARI VA MUAMMOLARI

Favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash bir qator fundamental tamoyillarga asoslanishi kerak.

Birinchidan, qonuniylik tamoyili davlat organlarining harakatlari amaldagi qonunchilikka va belgilangan vakolatlarga muvofiq bo‘lishini talab qiladi. Favqulodda vaziyatning mavjudligi huquqiy asoslarsiz qarorlar qabul qilishga asos bo‘la olmaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ikkinchidan, inson hayoti va sog‘lig‘ining ustuvorligi tamoyili xavfsizlik choralarini belgilashda insonlarni himoya qilishni asosiy mezon sifatida e’tirof etadi.

Uchinchidan, oldini olish tamoyili xavflar yuzaga kelishidan avval ularni aniqlash va kamaytirish choralarini ko‘rishni nazarda tutadi. Bu yondashuv favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishga sarflanadigan kuch va resurslarni samarali rejalashtirishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, muvofiqlashtirish tamoyili vakolatli organlarning o‘zaro hamkorligini, axborot almashuvini va yagona maqsad yo‘lida faoliyat yuritishini ta’minlashga qaratilgan.

Beshinchidan, mutanosiblik tamoyili xavfsizlikni ta’minlash maqsadida ko‘riladigan choralar yuzaga kelgan xavfning darajasi va xususiyatiga mos bo‘lishini talab qiladi. Fuqarolarning huquqlariga ta’sir ko‘rsatuvchi choralar qonuniy asosga ega bo‘lishi va zarur doiradan oshmasligi kerak.

Oltinchidan, axborotning ishonchliligi tamoyili aholini xavf haqida o‘z vaqtida va tushunarli shaklda xabardor qilishni nazarda tutadi. Favqulodda vaziyatlarda rasmiy axborotning kechikishi yoki noto‘g‘ri ma’lumotlarning tarqalishi aholining xavfsiz xatti-harakatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

O‘tkazilgan nazariy-huquqiy tahlil natijasida favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlashga oid bir necha muhim xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, jamoat xavfsizligi tushunchasi favqulodda vaziyatlarda keng qamrovli mazmunga ega bo‘lib, faqat jamoat tartibini saqlash bilan cheklanmaydi. U inson hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish, xavflarning oldini olish, davlat organlari hamkorligi va ijtimoiy barqarorlikni saqlashni ham qamrab oladi.

Ikkinchidan, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi va fuqaro muhofazasi o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, ularning vazifalari va qo‘llanish doirasi farqlanadi. Ushbu tushunchalarni aniq



farqlash davlat organlari vakolatlarini belgilash va ilmiy tahlilning izchilligini ta'minlashga yordam beradi.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga oid qonunchiligi va Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi mazkur sohadagi huquqiy hamda tashkiliy faoliyat uchun muhim asos yaratadi. Shu bilan birga, huquqiy normalarning amaliy ijrosi, idoralararo hamkorlik va aholining tayyorgarligi xavfsizlik tizimining natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, xavfsizlikni ta'minlashda oldini olish va tayyorgarlik choralariga e'tibor qaratish muhimdir. Favqulodda vaziyat sodir bo'lgandan keyingi tezkor harakatlar zarur bo'lsa-da, xavflarni oldindan aniqlash, aholini o'qitish va muntazam mashg'ulotlar tashkil etish salbiy oqibatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Beshinchidan, inson huquqlarini himoya qilish va xavfsizlik choralarining mutanosibligini ta'minlash alohida ahamiyatga ega. Favqulodda vaziyatlarda qabul qilinadigan qarorlar nafaqat tezkor, balki huquqiy jihatdan asoslangan va tushunarli bo'lishi lozim. Ushbu natijalar jamoat xavfsizligini ta'minlashda huquqiy tartibga solish, samarali boshqaruv va profilaktik tadbirlar bir-birini to'ldiruvchi elementlar ekanini ko'rsatadi.

XULOSA

Favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligi tushunchalarining nazariy-huquqiy tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur soha shaxs, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini xavf-xatarlardan himoya qilishga qaratilgan ko'p tarkibli ijtimoiy-huquqiy tizim hisoblanadi. Jamoat xavfsizligini ta'minlashning samaradorligi normativ-huquqiy asoslarning mavjudligi bilangina belgilanmaydi. U davlat organlarining o'zaro hamkorligi, vakolatlarning aniq taqsimlanishi, aholining tayyorgarligi, axborot almashinuvi va xavflarning oldini olish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlarning sifatiga ham bog'liq.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

1. Favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligi tushunchasi jamoat tartibi va fuqaro muhofazasi tushunchalaridan kengroq mazmunga ega bo‘lib, ularni o‘zaro bog‘lovchi umumiy xavfsizlik maqsadlarini qamrab oladi.

2. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-790-sonli Qonuni va PF-27-sonli Farmoni mazkur sohadagi huquqiy tartibga solishning muhim manbalari hisoblanadi.

3. Favqulodda vaziyatlarda vakolatli organlarning hamkorligi, axborot almashinuvi va harakatlarni muvofiqlashtirish xavfsizlikni ta’minlashning asosiy tashkiliy shartlaridan biridir.

4. Xavflarning oldini olish, aholini tayyorlash va ishonchli ogohlantirish tizimlarini rivojlantirish favqulodda vaziyatlarning salbiy oqibatlarini kamaytirishda muhim o‘rin tutadi.

5. Favqulodda vaziyatlarda ko‘riladigan barcha choralar qonuniylik, inson huquqlarini hurmat qilish va mutanosiblik talablariga muvofiq amalga oshirilishi zarur.

AMALIY TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Huquqiy tushunchalarni aniqlashtirish. Jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tushunchalarining o‘zaro aloqasi hamda farqlarini ilmiy-amaliy qo‘llanmalarda izchil yoritish maqsadga muvofiq.

2. Idoralararo hamkorlikni kuchaytirish. Favqulodda vaziyatlarda vakolatli organlarning vazifalari, axborot almashish tartibi va o‘zaro muvofiqlashtirish mexanizmlarini amaliy mashg‘ulotlar orqali muntazam sinovdan o‘tkazish tavsiya etiladi.

3. Aholining xavfsizlik savodxonligini oshirish. Ta’lim muassasalari, mahallalar va korxonalarda favqulodda vaziyatlarda harakat qilish qoidalariga bag‘ishlangan tushuntirish tadbirlari hamda o‘quv mashg‘ulotlarini muntazam tashkil etish lozim.

4. Ogohlantirish tizimlarini takomillashtirish. Aholiga xavf haqida tezkor, ishonchli va

tushunarli ma'lumot yetkazish uchun zamonaviy aloqa vositalari va rasmiy axborot kanallaridan samarali foydalanish zarur.

5. Aholining ehtiyojmand qatlamlarini muhofaza qilish. Bolalar, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va mustaqil harakatlanishda qiynaladigan fuqarolar uchun evakuatsiya hamda yordam ko'rsatish tartiblarini oldindan rejalashtirish tavsiya etiladi.

6. Xavflarni oldindan baholash. Xavf yuqori bo'lgan hududlar va obyektlarda profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, monitoring va prognozlash natijalaridan rejalashtirish jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq.

7. Inson huquqlari kafolatlarini mustahkamlash. Favqulodda vaziyatlarda qo'llaniladigan cheklovlar va boshqa choralar qonuniy, zarur va mutanosib bo'lishi, fuqarolarga ularning huquqlari va mavjud tartiblar haqida tushunarli ma'lumot berilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 2023-yil 30-aprelda referendum orqali qabul qilingan. — https://lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi O'RQ-790-sonli "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. — https://lex.uz/acts/-6161244

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-sonli "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. — https://lex.uz/acts/-5749291

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 171-son qarori bilan tasdiqlangan Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi to'g'risidagi nizom. — https://lex.uz

5. United Nations. Sendai Framework for Disaster Risk Reduction 2015–2030. Geneva: United Nations, 2015. — https://www.undrr.org/publication/sendai-framework-disaster-risk-reduction-2015-2030

6. United Nations Office for Disaster Risk Reduction (UNDRR). Disaster Risk Reduction: Terminology and Guidance. — https://www.undrr.org/terminology

7. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — https://lex.uz

8. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining rasmiy axborot resursi. https://fvv.uz

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. — https://president.uz

PROFESSIONAL TA'LIM O'QITUVCHILARIDA RAQAMLI KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Daminova Yulduz Salimovna
Qarshi davlat universiteti
Texnologik ta'lim kafedrasi mudiri pedagogika fanlari falsafa doktori PhD, dotsent
ORCID RAQAM 0009-0003-8214-3178
Email:yulduzdaminova86@gmail.com

Annotatsiya.*Maqolada professional ta'lim o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy pedagogik mexanizmlari tahlil qilinadi. DigCompEdu, UNESCO ICT-CFT va TPACK konsepsiyalari qiyosiy o'rganilib, kompetensiyaga asoslangan tashxis, individual o'quv trayektoriyasi, amaliy mikrodars, mentorlik, elektron portfolio va reflektiv monitoringdan iborat integrativ model taklif etiladi. Tadqiqot adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlarning sifat jihatidan kontent-tahliliga asoslangan; eksperimental samaradorlik da'vo qilinmaydi. Natijada besh mezonli baholash rubrikasi hamda bosqichli joriy etish algoritmi ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar:*professional ta'lim, raqamli kompetentlik, raqamli didaktika, DigCompEdu, TPACK, mentorlik, mikrodars, elektron portfolio, refleksiya, raqamli baholash.*

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УЧИТЕЛЕЙ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация.*В статье анализируются теоретические основы и педагогические механизмы развития цифровой компетентности преподавателей профессионального образования. На основе сравнительного анализа DigCompEdu, UNESCO ICT-CFT и TPACK предложена модель, объединяющая диагностику, индивидуальную траекторию, микропреподавание, наставничество, электронное портфолио и рефлексивный мониторинг. Исследование носит аналитико-концептуальный характер и не предполагает экспериментально подтвержденных эффектов.*

Ключевые слова: *профессиональное образование, цифровая компетентность, цифровая дидактика, наставничество, электронное портфолио.*

MODERN PEDAGOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPMENT OF DIGITAL COMPETENCE IN PROFESSIONAL EDUCATION TEACHERS

Abstract. *This article examines the theoretical foundations and pedagogical mechanisms of developing digital competence among vocational education teachers. A comparative review of DigCompEdu, UNESCO ICT-CFT and TPACK informs an integrated model encompassing diagnostic*

assessment, personalized learning pathways, microteaching, mentoring, e-portfolios and reflective monitoring. The study is conceptual and does not claim empirically validated intervention effects.

Keywords: *vocational education, digital competence, digital pedagogy, mentoring, microteaching, e-portfolio.*

KIRISH

Professional ta'lim tizimida raqamli transformatsiya faqat elektron platformalar bilan ta'minlash emas, balki kasbiy faoliyatga mos o'quv maqsadlari, metodlar, baholash hamda o'quvchilar bilan hamkorlikni qayta tashkil etishni anglatadi. Ishlab chiqarish texnologiyalarining yangilanishi, aralash o'qitish va real hamda virtual laboratoriyalar uyg'unligi o'qituvchidan texnologiyani pedagogik maqsadga muvofiq qo'llashni talab etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va professional ta'lim islohotlari mazkur masalaning institutsional ahamiyatini belgilaydi [11, 12].

DigCompEdu raqamli kompetentlikni oltita yo'nalishdagi 22 kompetensiya sifatida tavsiflaydi; UNESCO ICT-CFT esa o'qituvchining kasbiy faoliyatida AKTdan foydalanishni bilimni egallash, chuqurlashtirish va yaratish darajalari orqali yoritadi [1, 2]. Shu bilan birga, professional ta'limning ustaxona, simulyator, amaliy ko'nikma va ish beruvchi bilan hamkorlikka tayangan o'ziga xos xususiyatlari umumiy standartlarni sohaga moslashtirishni taqozo etadi.

Tadqiqot maqsadi — professional ta'lim o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirish uchun diagnostika, kasbiy vazifaga asoslangan o'qish va natijalarni baholashni birlashtiruvchi zamonaviy pedagogik mexanizmlar tizimini nazariy jihatdan asoslash va loyihalash. Tadqiqot savoli: kompetensiya doiralarini real kasbiy dars jarayoni bilan bog'lovchi qanday pedagogik shartlar va ketma-ket amallar barqaror rivojlanishga xizmat qilishi mumkin?

ADABIYOTLAR TAHLILI

Redecker tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu doirasi professional muloqot, raqamli resurslar, o'qitish va o'rganish, baholash, ta'lim oluvchilar imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning raqamli kompetentligini shakllantirish yo'nalishlarini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qamrab oladi [1]. UNESCO ICT-CFT professional rivojlanishni bir martalik trening emas, davomiy o‘qish jarayoni sifatida talqin etadi [2]. Mazkur doiralar diagnostika vositasini tuzish uchun muhim, biroq ularni tayyor holatda ko‘chirib olish mahalliy ta’lim dasturi va infratuzilmadagi tafovutlarni e’tiborsiz qoldirishi mumkin.

Mishra va Koehler ishlab chiqqan TPACK nazariyasiga ko‘ra, raqamli texnologiyani samarali integratsiyalash texnologik, pedagogik va fan mazmuniga oid bilimlarning o‘zaro kesishuvini talab qiladi [3]. Koehler, Mishra va Cain ham ayni bog‘liqlikni o‘qituvchilar tayyorgarligida amaliy jihatdan izohlaydi [4]. Demak, alohida dasturiy ilovalarni o‘rgatish bilan cheklanish o‘rniga, muayyan kasbiy mavzu uchun didaktik ssenariy ishlab chiqish ustuvor bo‘lishi lozim.

Siemensning konnektivizm yondashuvi raqamli tarmoqlar va bilim manbalari bilan bog‘lanish qobiliyatini ta’kidlaydi [5]. Garrison va Kanuka aralash ta’limning pedagogik o‘zgarish salohiyatini ko‘rsatadi [6]; Hattie va Timperley esa sifatli teskari aloqa o‘rganish jarayonini boshqarishdagi asosiy omil ekanini asoslaydi [7]. Zimmerman o‘zini o‘zi tartibga soluvchi o‘qishning rejalash, kuzatish va refleksiya jihatlarini tushuntiradi [8]. OECD raqamli ta’lim ekotizimidagi institutsional muvofiqlashuvga, UNESCO esa texnologiyaning ta’limdagi natijasi uning pedagogik maqsadga mosligiga bog‘liqligiga urg‘u beradi [9, 10].

Mahalliy tadqiqotda S. Uralov ishlab chiqarish ta’limi ustalarining raqamli kompetentligini rivojlantirishda muntazam malaka oshirish, onlayn seminar va masofaviy platformalardan foydalanish ahamiyatini ko‘rsatgan [16]. Sh. Xujakulov va T. Kadirov nazariya-amaliyot integratsiyasidagi uzilishlar hamda reflektiv faoliyatni kuchaytirish zaruriyatini tahlil qilgan [17]. Milliy strategik hujjatlar [13–15] bilan birga ushbu ilmiy ishlanmalar raqamli kompetentlikni kasbiy-amaliy faoliyatga bog‘lab baholash zarurligini ko‘rsatadi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Ish analitik-konseptual tadqiqot sifatida bajarildi. Manbalar korpusiga 10 ta xalqaro ilmiy va institutsional nashr hamda 7 ta mahalliy manba (5 ta normativ hujjat, 2 ta ilmiy maqola) kiritildi. Tanlash mezonlari: o‘qituvchining raqamli kompetentligi yoki professional ta’limga bevosita aloqadorlik; kontseptual asoslanganlik; tadqiqot savoliga tatbiq etish imkoniyati. Manbalar tematik kontent-tahlil, qiyosiy tahlil va pedagogik modellashtirish asosida o‘rganildi.

Tahlil birliklari sifatida kompetensiya komponenti, rivojlantirish vositasi, pedagogik faoliyat mahsuli va baholash indikatori belgilandi. Dastlab DigCompEdu va ICT-CFT tarkiblari solishtirildi; keyin TPACK asosida amaliy darsga integratsiya tamoyili aniqlandi; yakunda bosqichli mexanizm va mezonlar loyihalashtirildi. Taklif etilgan indikatorlar ekspert muhokamasi va keyingi empirik sinov uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ular real respondentlardan olingan statistik ma’lumot emas.

NATIJALAR

Tahlil natijasida raqamli kompetentlik professional ta’lim o‘qituvchisining kasbiy vazifalarni raqamli resurslar yordamida pedagogik, etik va xavfsiz tarzda rejalash, amalga oshirish, baholash hamda takomillashtirishga tayyorligi sifatida operatsion ta’riflandi. Bu ta’rif texnik ko‘nikmalar bilan bir qatorda metodik qaror qabul qilish va faoliyat mahsulini ham qamrab oladi.

1-jadval. Raqamli kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari

Mexanizm	**Amaliy mazmuni**	**Kuzatiladigan natija**
Diagnostik-adaptiv	Vaziyatli topshiriq, o‘zini baholash va kuzatuv	Kompetensiya profili, ehtiyoj xaritasi
Loyiha-amaliy	Kasbiy modul uchun raqamli mikrodars va simulyatsiya	Dars ssenariysi, resurs prototipi
Hamkorlik-mentorlik	Juftlikda dars tahlili, metodik jamoa	Teskari aloqa va tahrirlangan ishlanma

Reflektiv-portfolioli	Elektron dalillar to‘plami va o‘z-o‘zini tahlil	Rivojlanish dinamikasi, portfolio
Monitoring-baholash	Rubrika asosida ekspertiza va qayta topshiriq	Mezonlar bo‘yicha qayta baholash

Taklif etilayotgan modelda birinchi bosqich — boshlang‘ich tashxis: o‘qituvchi muayyan kasb moduli uchun material tanlaydi, raqamli baholash vazifasini bajaradi va axborot xavfsizligi bo‘yicha vaziyatni hal qiladi. Ikkinchi bosqichda natijaga mos individual o‘qish trayektoriyasi belgilanadi. Uchinchi bosqichda mentor yordamida mikrodars ishlab chiqilib, sinovdan o‘tkaziladi. To‘rtinchi bosqichda dalillar elektron portfolioga kiritilib, ekspert fikri olinadi. Beshinchi bosqich — qayta baholash va keyingi maqsadni yangilashdir.



1-rasm. Raqamli kompetentlikni rivojlantirishning mualliflik konseptual modeli

Modelning ishlash sharti shundaki, har bir raqamli faoliyat aniq kasbiy natijaga xizmat qilsin. Masalan, avtomatlashtirish fanida virtual simulyator texnik nosozlikni aniqlashga, tibbiy yo‘nalishdagi professional ta’limda klinik vaziyat simulyatsiyasi qaror qabul qilishga, servis sohasida elektron buyurtma muhiti esa mijoz bilan ishlashga yo‘naltiriladi. Bunda vositani ishlata olish emas, o‘quvchi kompetensiyasining namoyon bo‘lishi asosiy dalil hisoblanadi.

2-jadval. Baholash rubrikasi va namunaviy indikatori

Mezon	**Dalil (indikator)**	**Vazn**
Raqamli resurs	Mualliflik yoki moslashtirilgan sifatli elektron material	20%

Didaktik integratsiya	Maqsad–metod–texnologiya mosligi aks etgan mikrodars	25%
Raqamli baholash	Rubrika, onlayn topshiriq va konstruktiv teskari aloqa	20%
Etika va xavfsizlik	Mualliflik huquqi, ma'lumotlarni himoya qilish qoidalari	15%
Refleksiya va rivojlanish	Portfolio, mentor fikri, takomillashtirish rejasi	20%

Har bir mezon 0–4 ballik tavsiflovchi shkala bo'yicha baholanadi: 0 — dalil yo'q; 1 — boshlang'ich; 2 — qisman mustaqil; 3 — mustaqil va izchil; 4 — innovatsion, asoslangan hamda boshqalarga tatbiq etiladigan amaliyot. Integral ko'rsatkich (IK) quyidagi formula orqali hisoblanadi: $IK = \Sigma (b_i / 4 \times w_i)$, bunda b_i — mezon bali, w_i — foizdagi vazn. Ushbu formula diagnostik vosita loyihasi sifatida berilgan, uning ishonchliligi empirik tekshiruvni talab etadi.



2-rasm. Taklif etilgan rubrika mezonlari vaznlarining taqsimoti (empirik natija emas)

MUHOKAMA

Taklif etilgan mexanizmlarning ustunligi — o'qituvchini oddiy "raqamli vosita foydalanuvchisi" rolidan o'z darsi uchun didaktik yechim loyihalovchisiga aylantirishga qaratilganidadir. Diagnostika–amaliy faoliyat–refleksiya sikli UNESCOning uzluksiz kasbiy rivojlanish g'oyasi [2] va Zimmermanning o'zini boshqarish modeli [8] bilan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

uyg‘unlashadi. Mikrodars va portfolioga tayangan baholash TPACKdagi fan, pedagogika va texnologiya uyg‘unligini ko‘rinadigan mahsulotga aylantiradi [3, 4].

Biroq raqamli kompetentlikning oshishi avtomatik tarzda ta’lim sifatining oshishini anglatmaydi. Infratuzilmaning notekisligi, internet tezligi, dasturiy ta’minot narxi, o‘qituvchining vaqt yuklamasi, kiberxavfsizlik hamda ma’lumotlar maxfiyligi samaradorlikka ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli past resursli sharoitlar uchun oflayn kontent, ochiq ta’lim resurslari, mobil qurilmaga mos vazifalar va guruhli mentorlik variantlari rejalashtirilishi kerak [9, 10].

Institutsional darajada uchta shart muhim: (a) rahbariyat tomonidan vaqt va rag‘bat ajratilishi; (b) metodik birlashmalarda o‘zaro kuzatuv va tajriba almashishning yo‘lga qo‘yilishi; (c) baholash mezonlarining fan va kasb standartlari bilan muvofiqligi. Professional ta’lim islohotlari hamda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” ustuvorliklari nuqtayi nazaridan bunday tizim o‘qituvchi malakasini oshirishni muassasa ehtiyojlariga bog‘lashga imkon beradi [12, 13].

Tadqiqot cheklovi shundaki, model hali real professional ta’lim muassasasida eksperimentdan o‘tkazilmagan; mezonlarning ekspertlararo muvofiqligi, test–retest barqarorligi va o‘quvchi natijalariga ta’siri o‘lchanmagan. Keyingi bosqichda turli kasb yo‘nalishlari o‘qituvchilari uchun oldingi–keyingi o‘lchovli kvazieksperimental tadqiqot o‘tkazish, o‘qituvchi portfoliolari va o‘quvchi faoliyati dalillarini triangulyatsiya qilish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Raqamli kompetentlik professional ta’lim o‘qituvchisining texnik savodxonligidan kengroq bo‘lib, fan mazmuni, pedagogik metod, baholash, xavfsizlik va refleksiyani birlashtiradigan kasbiy sifatdir. DigCompEdu, UNESCO ICT-CFT va TPACK yondashuvlarini qiyosiy qo‘llash kompetensiyalarni kasbiy-amaliy topshiriqlar orqali rivojlantirishga imkon beruvchi nazariy asos yaratadi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy-amaliy mahsuli besh bosqichli model, pedagogik mexanizmlar jadvali va vaznli baholash rubrikasidir. Uni joriy etishda diagnostika, individual trayektoriya, mikrodars, mentorlik, portfolio va takroriy baholash yaxlit sikl tarzida tashkil etilishi tavsiya qilinadi. Ushbu tavsiyalarning natijadorligi keyingi empirik tadqiqotda tekshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Redecker, C. (2017). European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu (Y. Punie, Ed.). Publications Office of the European Union. https://doi.org/10.2760/159770
2. UNESCO. (2018). UNESCO ICT Competency Framework for Teachers (Version 3). UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000265721
3. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054. https://doi.org/10.1111/j.1467-9620.2006.00684.x
4. Koehler, M. J., Mishra, P., & Cain, W. (2013). What is technological pedagogical content knowledge (TPACK)? Journal of Education, 193(3), 13–19. https://doi.org/10.1177/002205741319300303
5. Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3–10.
6. Garrison, D. R., & Kanuka, H. (2004). Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. The Internet and Higher Education, 7(2), 95–105. https://doi.org/10.1016/j.iheduc.2004.02.001
7. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The power of feedback. Review of Educational Research, 77(1), 81–112. https://doi.org/10.3102/003465430298487
8. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. Theory Into Practice, 41(2), 64–70. https://doi.org/10.1207/s15430421tip4102_2
9. OECD. (2023). OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/c74f03de-en
10. UNESCO. (2023). Global Education Monitoring Report 2023: Technology in education—A tool on whose terms? UNESCO. https://www.unesco.org/gem-report/en/2023-technology
11. O‘zbekiston Respublikasi. (2020). “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonun (23-sentabr). https://lex.uz/docs/-5013007
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (PF-5812-son Farmon, 6-sentabr). https://lex.uz/docs/-4500926

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PF-6079-son Farmon, 5-oktabr). https://lex.uz/docs/-5030957

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PF-6108-son Farmon, 6-noyabr). https://lex.uz/docs/-5085999

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida (PF-158-son Farmon, 11-sentabr). https://lex.uz/docs/-6600413

16. Uralov, S. A. (2022). Professional ta’limda ishlab chiqarish ta’limi ustalarining raqamli kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika, (6). https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/2484/5813/63d14e50444ae___Pedagogika%206.2022.pdf

17. Xujakulov, Sh. A., & Kadirov, T. B. (2026). Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda nazariya va amaliyot integratsiyasi muammolari. Maktabgacha va maktab ta’limi. https://doi.org/10.5281/zenodo.18721485

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KASBIY MAZMUNDAGI INGLIZ TILI MATNLARINI O'ZLASHTIRISHDA DIQQATNI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI

Zaripova Aziza Shaxobiddinovna
SamDChTI (PhD) katta o'qituvchisi
Zaripovaaziza23@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nofilologik yo'nalish talabalarining ingliz tilini o'rganish jarayonida diqqatni strategik boshqarishni takomillashtirishning lingvodidaktik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda diqqat ingliz tilini o'zlashtirishning faqat psixologik-kognitiv sharti sifatida emas, balki talaba tomonidan maqsadli ravishda boshqarilishi mumkin bo'lgan lingvodidaktik resurs sifatida talqin qilinadi. "Diqqatni strategik boshqarish" tushunchasining mazmuni aniqlashtirilib, uning maqsadli, selektiv-kognitiv, regulyativ, metakognitiv va refleksiv komponentlari asoslangan. Shuningdek, diqqatni strategik boshqarishning "maqsadni belgilash – fokuslash – saqlash – qayta yo'naltirish – monitoring – refleksiya" izchilligiga asoslangan mexanizmi taklif etilgan. Nofilologik talabalar uchun mazkur strategiyalarning reading, listening, vocabulary, speaking va writing faoliyatlariga integratsiyalashuvi yoritilgan. Tadqiqot natijasida diqqatni strategik boshqarishni rivojlantirishning lingvodidaktik konseptual modeli va metodik tizimi taklif qilinib, uning talabaning ingliz tilini o'rganishdagi mustaqilligi, o'z-o'zini monitoring qilishi va o'quv faoliyatini ongli tashkil etishiga xizmat qilishi asoslangan.*

Kalit so'zlar: *diqqat, diqqatni strategik boshqarish, lingvodidaktika, nofilologik talabalar, metakognitiv strategiyalar, kognitiv strategiyalar, refleksiya, strategik kompetensiya.*

МОДЕЛЬ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ВНИМАНИЕМ ПРИ ОСВОЕНИИ АНГЛОЯЗЫЧНЫХ ТЕКСТОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО КОНТЕНТА

Аннотация. *В статье рассматриваются лингводидактические основы совершенствования стратегического управления вниманием в процессе изучения английского языка студентами нефилологических направлений подготовки. В исследовании внимание интерпретируется не только как психолого-когнитивное условие усвоения английского языка, но и как лингводидактический ресурс, которым студент может целенаправленно управлять. Уточняется содержание понятия «стратегическое управление вниманием» и обосновываются его целевой, селективно-когнитивный, регулятивный, метакогнитивный и рефлексивный компоненты. Кроме того, предлагается механизм стратегического управления вниманием, основанный на последовательности этапов «постановка цели – фокусировка – поддержание внимания – переключение внимания – мониторинг – рефлексия». Раскрываются особенности интеграции данных стратегий в виды речевой деятельности, включая чтение (reading), аудирование (listening), освоение лексики (vocabulary), говорение (speaking) и письмо (writing), применительно к студентам нефилологических направлений подготовки. По результатам*

исследования предложены концептуальная лингводидактическая модель и методическая система развития стратегического управления вниманием. Обосновано, что их применение способствует развитию самостоятельности студентов в изучении английского языка, совершенствованию навыков самоконтроля и осознанной организации учебной деятельности.

***Ключевые слова**: внимание, стратегическое управление вниманием, лингводидактика, студенты нефилологических направлений подготовки, метакогнитивные стратегии, когнитивные стратегии, рефлексия, стратегическая компетенция.*

A MODEL OF STRATEGIC ATTENTION MANAGEMENT IN MASTERING ENGLISH LANGUAGE TEXTS IN PROFESSIONAL CONTENT

***Abstract.** This article examines the linguodidactic foundations for enhancing strategic attention management in the process of English language learning among students enrolled in non-linguistic academic programs. Attention is conceptualized not merely as a psychocognitive prerequisite for English language acquisition, but also as a linguodidactic resource that students can deliberately regulate. The concept of "strategic attention management" is clarified, and its goal-oriented, selective-cognitive, regulatory, metacognitive, and reflective components are theoretically substantiated. Furthermore, a mechanism for strategic attention management is proposed based on the following sequence: "goal setting – focusing – sustaining attention – attentional shifting – monitoring – reflection." The article also explores how these strategies can be integrated into reading, listening, vocabulary acquisition, speaking, and writing activities for students in non-linguistic academic programs. Based on the findings, a conceptual linguodidactic model and a methodological framework for developing strategic attention management are proposed. Their potential contribution to fostering learner autonomy in English language learning, strengthening self-monitoring skills, and promoting the conscious organization of learning activities is substantiated.*

***Keywords:** attention, strategic attention management, linguodidactics, students in non-linguistic academic programs, metacognitive strategies, cognitive strategies, reflection, strategic competence.*

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida xorijiy tilni o'qitish jarayoni talabaning faqat lingvistik bilimlarini shakllantirish bilan cheklanmay, uning o'quv faoliyatini mustaqil tashkil etishi, axborotni tanlashi, o'quv vazifasiga maqsadli yo'naltirilishi va o'z faoliyatini nazorat qila olishini ham taqozo etmoqda. Ayniqsa, nofilologik yo'nalishlarda ingliz tilini o'rganish jarayoni talabaning bir vaqtning o'zida til birliklari, kasbiy terminologiya, mazmuniy axborot hamda turli kommunikativ vazifalar bilan ishlashini

talab qiladi. Bunday sharoitda talabaning o‘quv materialiga e’tiborini yo‘naltirish va uni maqsadga muvofiq ravishda saqlab turish masalasi ingliz tilini o‘qitish metodikasining muhim jihatlaridan biriga aylanadi.

Ikkinchi yoki xorijiy tilni o‘zlashtirish jarayonida diqqatning ahamiyati lingvistik axborotni anglash va qayta ishlash bilan bevosita bog‘liq. Xususan, ikkinchi tilni o‘zlashtirishda o‘quvchining lingvistik shakl va mazmunga ongli ravishda e’tibor qaratishi “noticing” jarayoni bilan bog‘lanadi; tadqiqotlarda topshiriqning diqqatga bo‘lgan talabi hamda individual attentional imkoniyatlar lingvistik birliklarning sezilishi va qayta ishlanishiga ta’sir qilishi qayd etilgan. Shu jihatdan diqqatni ingliz tilini o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan tabiiy psixologik holat sifatida emas, balki maqsadli ravishda tashkil etilishi va boshqarilishi mumkin bo‘lgan o‘quv resursi sifatida ko‘rib chiqish dolzarbdir.

Zamonaviy til ta’limida strategik va o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganish masalalariga e’tiborning kuchayishi ham ushbu yondashuvni nazariy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. Til o‘rganuvchi strategiyalari bo‘yicha tadqiqotlarda strategik faoliyat tobora o‘z-o‘zini boshqarish, maqsad qo‘yish, monitoring va refleksiya jarayonlari bilan bog‘lanmoqda. Rose va hammualliflarning tizimli tahlili til o‘rganuvchi strategiyalarini o‘rganishda self-regulation yondashuvining tobora muhim o‘rin egallayotganini ko‘rsatadi. Keyingi tadqiqotlarda ham xorijiy tilni o‘rganishda metakognitiv strategiyalar, motivatsion boshqaruv va o‘quv jarayonini mustaqil nazorat qilishga alohida e’tibor qaratilayotgani qayd etilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Samarali va qiziqarli o’quv jarayonlarini tashkil qilish hozirgi kungacha har dolzarb masalalardan biri bo’lib kelmoqda. V. Ch. Velde tomonidan kompetensiyaga oid yondashuv doirasida ilgari surilgan qarashlar [1] kompetensiyani shakllantirish masalasini o‘rganishda nazariy asos sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Ushbu yondashuvni kasbiy mazmundagi ingliz tili matnlarini o‘zlashtirish jarayoniga tatbiq

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

etish talabalarning faqat matn mazmunini tushunishiga emas, balki egallangan bilim va ko‘nikmalarni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishiga ham e’tibor qaratishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, diqqatni strategik boshqarish kasbiy kompetensiyaning tarkibiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi pedagogik vositalardan biri sifatida qaralishi mumkin.

I. A. Zimnyayaning kompetensiyaviy yondashuvga bag‘ishlangan tadqiqotida [2] ta’lim natijalarini belgilash, bilim va faoliyat usullarini o‘zaro bog‘lash masalalari yoritilgan. Mazkur qarashlar kasbiy mazmundagi matnlarni o‘qitishda talabaning faolligi, mustaqil qaror qabul qilishi va o‘quv faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etishiga e’tibor qaratish uchun metodologik asos bo‘la oladi. Bunda diqqatni strategik boshqarish talabaning matn bilan ishlashdan oldin maqsad belgilashi, o‘qish jarayonida muhim axborotga e’tiborini yo‘naltirishi va yakunda tushunish darajasini baholashini nazarda tutadi.

Terminologik bilimlarni shakllantirish ham kasbiy matnlarni o‘zlashtirishning muhim shartlaridan biridir. “5 эффективных приемов терминологической работы” nomli elektron manbada [3] terminologik material bilan ishlashga doir amaliy yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Kasbiy matnlarda uchraydigan yangi atamalarni aniqlash, ularning kontekstdagi ma’nosini tushunish, muhim tushunchalarni guruhlash va takrorlash kabi faoliyatlar talabaning diqqatini muayyan axborot birliklariga yo‘naltirishga yordam berishi mumkin. Biroq terminologik ishning samaradorligi faqat yangi so‘zlarni yodlash bilan emas, balki ularni matnning umumiy mazmuni bilan bog‘lay olish bilan ham belgilanadi.

V. P. Parnachev va hammualliflar tomonidan tayyorlangan geologik terminlar va tushunchalar lug‘ati [4] kasbiy terminologiyani tizimlashtirishga qaratilgan manba sifatida ahamiyatga ega. Ushbu turdagi lug‘atlar ma’lum bir sohada qo‘llanadigan atamalarning mazmunini aniqlashtirish, ularni tasniflash va matnni tushunishda yuzaga keladigan leksik qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvni ingliz tilidagi muhandislik, transport, logistika yoki boshqa kasbiy yo‘nalishlarga oid

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

matnlar bilan ishlashga moslashtirish mumkin. Bunda talaba terminologik birliklarni matndan ajratib olish bilan birga, ularning kasbiy vazifasi va kontekstual ma'nosini ham tahlil qilishi lozim.

N. Safarova va M. Imomovning geografiya fanlaridagi taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalariga bag'ishlangan o'quv-uslubiy majmuasi [5] fan mazmunini zamonaviy ta'lim yondashuvlari bilan uyg'unlashtirish masalasini yoritishda qo'shimcha manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu manbani kasbiy ingliz tili ta'limiga tatbiq etishda fanlararo integratsiya tamoyiliga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Xususan, talabalarga o'z mutaxassisligi bo'yicha ingliz tilidagi matnlarni taqdim etish til o'rganish jarayonini kasbiy bilimlarni rivojlantirish bilan bog'lash imkonini beradi.

Diqqatning o'quv faoliyatidagi o'rnini ilmiy jihatdan tushuntirishda J. H. Flavellning metakognitsiya va kognitiv monitoringga oid tadqiqoti muhim ahamiyatga ega. Olim kognitiv faoliyatni nazorat qilishni metakognitiv bilimlar, metakognitiv tajribalar, maqsadlar va strategiyalar o'rtasidagi munosabatlar orqali izohlaydi [6]. Ushbu nazariy qarashlar kasbiy matnni o'qish jarayonida talabaning o'z tushunish darajasini kuzatishi, qiyinchiliklarni aniqlashi va zarur hollarda o'qish strategiyasini o'zgartirishi mumkinligini asoslashga yordam beradi. Demak, diqqatni strategik boshqarish faqat tashqi chalg'ituvchi omillarni kamaytirish emas, balki o'z kognitiv faoliyatini anglash va tartibga solishni ham qamrab oladi.

R. L. Oxford tomonidan ishlab chiqilgan til o'rganish strategiyalari yondashuvida [7] o'quv strategiyalarining til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Muallifning yondashuvi strategiyalarni maqsadli tanlash va ulardan o'quv vazifasiga muvofiq foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Kasbiy mazmundagi matnlarni o'zlashtirishda ushbu qarashlar matnni umumiy ko'zdan kechirish, kalit so'zlarni aniqlash, asosiy va ikkilamchi axborotni farqlash, kontekstdan foydalanish hamda o'qilgan ma'lumotni qayta ifodalash kabi usullarni tizimli qo'llash uchun nazariy asos yaratadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

J. M. O'Malley va A. U. Chamotning ikkinchi tilni o'zlashtirish strategiyalariga bag'ishlangan tadqiqoti [8] til o'rganishni kognitiv axborotni qayta ishlash jarayoni bilan bog'laydi. Mualliflar o'quv strategiyalarini axborotni tushunish, o'zlashtirish va xotirada saqlashni yaxshilashga xizmat qiladigan faoliyat usullari sifatida izohlaydi. Ushbu qarashlar kasbiy matnlar bilan ishlashda diqqatni ongli ravishda muayyan axborotga yo'naltirish, matnni mazmuniy qismlarga ajratish va yangi ma'lumotlarni avvalgi bilimlar bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, strategiyalardan foydalanish ko'nikmasi mashq qilish orqali shakllanishi va asta-sekin mustaqil faoliyatga aylanishi mumkin.

R. W. Schmidtning ikkinchi tilni o'rganishda ongli idrok va e'tiborning roliga bag'ishlangan maqolasi [9] mazkur mavzu uchun alohida nazariy ahamiyatga ega. Muallif til materialidagi ayrim birliklarni ongli ravishda payqash, ya'ni noticing, ularni o'zlashtirish jarayonida muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Kasbiy matnlarni o'qishda bu tamoyil talabaning yangi terminlar, grammatik tuzilmalar va mazmuniy bog'lanishlarga ongli e'tibor qaratishi bilan izohlanadi. Biroq e'tiborning mavjudligi o'z-o'zidan to'liq tushunishni kafolatlamaydi; natija matnning murakkabligi, talabaning avvalgi bilimlari va tanlangan o'quv strategiyalariga ham bog'liq.

N. J. Andersonning metakognitiv o'qish strategiyalariga oid ishlari [10] ikkinchi tilda matnni tushunish jarayonini rejalashtirish, strategiyani tanlash, uning qo'llanilishini kuzatish va natijani baholash bosqichlari orqali ko'rib chiqishga imkon beradi. Ushbu yondashuvga muvofiq, talaba matnni o'qish davomida tushunmagan qismini aniqlashi, zarur hollarda qayta o'qishi, kontekstga murojaat qilishi yoki termin ma'nosini tekshirishi mumkin. Shunday qilib, diqqatni boshqarish matnni bir maromda o'qishdan ko'ra, o'qish maqsadiga qarab diqqatni qayta taqsimlashni ham anglatadi.

B. J. Zimmerman o'zini o'zi boshqarib o'rganish nazariyasida talabaning maqsad belgilashi, vaqtni rejalashtirishi, o'quv strategiyalaridan foydalanishi va natijalarini baholashiga e'tibor qaratadi [11]. Mazkur nazariya kasbiy matnlarni o'zlashtirishda

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

talabaning o‘qish jarayonini mustaqil boshqarishiga asos yaratadi. Masalan, matnni o‘qishdan oldin maqsadni aniqlash, o‘qish vaqtida tushunishni nazorat qilish va yakunda o‘zlashtirilgan terminlar hamda asosiy fikrlarni tekshirish orqali strategik boshqaruv bosqichlarini amaliyotga tatbiq etish mumkin.

L. Vandergrift va hammualliflarning metakognitiv xabardorlikni baholashga oid tadqiqoti [12] tilni o‘zlashtirishda rejalashtirish, diqqatni yo‘naltirish, muammolarni hal qilish va natijani baholash kabi strategiyalarni o‘rganish muhimligini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot tinglab tushunish ko‘nikmasiga qaratilgan bo‘lsa-da, undagi metakognitiv strategiyalar haqidagi qarashlardan kasbiy matnlarni o‘qib tushunish jarayonida ham ehtiyotkorlik bilan foydalanish mumkin. Bunda aynan o‘qish ko‘nikmasiga moslashtirilgan topshiriqlar va baholash mezonlari ishlab chiqilishi lozim..

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning muayyan qismi diqqatni til o‘zlashtirishning kognitiv mexanizmlaridan biri sifatida yoki strategik ta’limni umumiy o‘z-o‘zini boshqarish doirasida o‘rganadi. Mazkur ikki yo‘nalishning kesishgan nuqtasida, ya’ni talabaning aynan o‘z diqqatini strategik boshqarishi masalasi lingvodidaktik jihatdan alohida tizim sifatida yetarlicha konseptual asoslashni talab etadi. Ayniqsa, nofilologik yo‘nalish talabalarida ingliz tili bilan bir qatorda kasbiy mazmun va terminologiyaning ham o‘zlashtirilishi diqqatni tanlash, saqlash, qayta yo‘naltirish va monitoring qilishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda diqqatni strategik boshqarish ingliz tilini o‘rganish jarayonida talabaning diqqat obyektini maqsadli tanlashi, diqqatni muayyan o‘quv vazifasiga yo‘naltirishi, uni saqlashi, zarur holatlarda qayta yo‘naltirishi, chalg‘ituvchi omillarni nazorat qilishi hamda o‘z diqqat faoliyatini monitoring va refleksiya qilishi bilan tavsiflanadigan strategik-metakognitiv faoliyat sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi nofilologik yo‘nalish talabalarining ingliz tilini o‘rganishida diqqatni strategik boshqarishni takomillashtirishning lingvodidaktik asoslarini aniqlash

hamda ushbu jarayonning konseptual va metodik modelini ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: diqqatning ingliz tilini o‘rganish jarayonidagi lingvodidaktik funksiyasini aniqlash; “diqqatni strategik boshqarish” tushunchasining mazmunini aniqlashtirish; nofilologik talabalar uchun diqqatni boshqarish strategiyalarini tizimlashtirish; strategik boshqaruvning maqsadli, kognitiv, metakognitiv, faoliyatga oid va refleksiv komponentlarini asoslash; ingliz tilini o‘qitish jarayonida mazkur strategiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik tizimni ishlab chiqish.

TADIQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy lingvodidaktik, kognitiv, metakognitiv va strategik yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasi tashkil etadi. Tadqiqotda ingliz tilini o‘rganish jarayonida talabaning diqqatini boshqarish masalasi til o‘rganuvchining o‘quv faoliyatini mustaqil tashkil etishi, o‘z faoliyatini monitoring qilishi va natijalarini refleksiv baholashi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning lingvodidaktik yondashuvi diqqatni til o‘rganish jarayonining tarkibiy elementi sifatida qarashga imkon beradi. Ushbu yondashuv asosida diqqatning reading, listening, vocabulary, speaking va writing kabi til faoliyatlari bilan o‘zaro aloqasi tahlil qilinadi. Bunda diqqat alohida psixologik mashq obyekti sifatida emas, balki muayyan til topshirig‘ini bajarish jarayonida maqsadli ravishda boshqariladigan o‘quv resursi sifatida talqin qilinadi. Kognitiv yondashuv asosida talabaning ingliz tilidagi axborotni tanlashi, muhim va ikkilamchi ma’lumotni farqlashi, til birliklarini qayta ishlashi hamda diqqatni bir faoliyatdan ikkinchisiga yo‘naltirishi tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv diqqatni strategik boshqarishning selektivlik, fokuslash va diqqatni qayta yo‘naltirish kabi mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Metakognitiv yondashuv esa talabaning o‘z diqqat faoliyatini anglash, rejalashtirish, monitoring qilish, nazorat qilish va refleksiya orqali baholash imkoniyatlarini asoslash uchun qo‘llanadi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotda diqqatni

strategik boshqarishning metakognitiv komponenti alohida ahamiyat kasb etadi. Talaba nafaqat topshiriqni bajaradi, balki topshiriqni bajarish jarayonida diqqatini qanday boshqarganini ham tahlil qiladi.

Strategik yondashuv doirasida esa talabaning o‘quv vazifasiga mos strategiyani ongli ravishda tanlashi va undan maqsadga muvofiq foydalanishi asosiy mezon sifatida olinadi. Bunda strategik faoliyat quyidagi izchillik asosida talqin qilinadi:

Maqsadni belgilash → strategiyani tanlash → diqqatni fokuslash → diqqatni saqlash → qayta yo‘naltirish → monitoring → refleksiya.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanish nazarda tutiladi:
Nazariy tahlil — diqqat, noticing, til o‘rganuvchi strategiyalari, metakognitiv faoliyat, o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganish va lingvodidaktik yondashuvlarga oid ilmiy manbalarni o‘rganish hamda umumlashtirish uchun qo‘llanadi.

Qiyosiy tahlil — diqqatning psixologik, kognitiv va lingvodidaktik talqinlarini qiyoslash, shuningdek, umumiy o‘quv strategiyalari bilan diqqatni strategik boshqarish strategiyalarining o‘ziga xos jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi.
Modellashtirish metodi — nofilologik talabalarining ingliz tilini o‘rganishida diqqatni strategik boshqarishning maqsadi, tamoyillari, komponentlari, mexanizmlari, metodlari va kutiladigan natijalarini yaxlit tizim sifatida ifodalash uchun foydalaniladi.

Kuzatish metodi — ingliz tili darslarida talabalarning diqqatni saqlashi, topshiriqdan chalg‘ishi, diqqatni qayta yo‘naltirishi va o‘z faoliyatini monitoring qilish xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

So‘rovnoma va o‘z-o‘zini baholash — talabalarning diqqatni boshqarishdagi mavjud strategiyalarini, chalg‘ituvchi omillarni, o‘z diqqat faoliyatini nazorat qilish va refleksiya qilish darajasini aniqlash uchun qo‘llanishi mumkin.

Pedagogik tajriba-sinov — ishlab chiqilgan metodik tizimning samaradorligini aniqlash bosqichida qo‘llanadi. Tajriba-sinov jarayonida tajriba va nazorat guruhlarining

o‘quv faoliyati, diqqatni strategik boshqarish ko‘rsatkichlari hamda ingliz tilidagi topshiriqlarni bajarish natijalari qiyosiy tahlil qilinishi mumkin.

Tadqiqotning metodik modeli “o‘qituvchi tomonidan diqqatni boshqarish”dan “talabaning o‘z diqqatini mustaqil strategik boshqarishi”ga bosqichma-bosqich o‘tish tamoyiliga asoslanadi. Dastlab o‘qituvchi diqqat obyektini belgilaydi, strategiyani namoyish etadi va talabaning faoliyatini yo‘naltiradi. Keyingi bosqichda strategiya talaba bilan hamkorlikda qo‘llanadi. Yakuniy bosqichda esa talaba o‘quv topshirig‘ining xususiyatidan kelib chiqib, mos diqqat strategiyasini mustaqil tanlaydi va uning samaradorligini refleksiv baholaydi. Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi diqqatni oddiy “e’tibor berish” holatidan strategik boshqariladigan o‘quv faoliyatiga aylantirishga yo‘naltirilgan. Ushbu metodologik asos maqolada taklif etilayotgan lingvodidaktik konsepsiyaning nazariy va metodik jihatdan izchil shakllantirilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi diqqatni faqat psixologik yoki kognitiv hodisa sifatida emas, balki ingliz tilini o‘rganish jarayonida maqsadli boshqariladigan lingvodidaktik resurs sifatida talqin qilish, shuningdek, nofilologik talabalar uchun diqqatni strategik boshqarishning bosqichlari va metodik mexanizmlarini asoslash bilan belgilanadi.

2. Diqqatni strategik boshqarish tushunchasining lingvodidaktik mohiyati. Diqqat insonning muayyan obyekt, hodisa yoki faoliyatga ongli ravishda yo‘naltirilishi va uning muhim jihatlarini tanlab idrok etishi bilan bog‘liq kognitiv jarayonlardan biridir. Xorijiy tilni o‘zlashtirish jarayonida diqqatning ahamiyati, avvalo, o‘quvchining tilga oid axborotni sezishi, ajratishi va qayta ishlashi bilan belgilanadi. Ikkinchi tilni o‘zlashtirishda ongli ravishda e’tibor qaratish va “noticing” jarayonining roli R. Schmidt tomonidan alohida asoslangan bo‘lib, muallif til inputidagi ayrim birliklarning o‘quvchi tomonidan sezilishi ularning keyingi o‘zlashtirilishi uchun muhim ekanligini ta’kidlaydi.

Biroq til o‘rganish jarayonida diqqatning samaradorligi faqat uning mavjudligi bilan belgilanmaydi. O‘quvchi muayyan topshiriqni bajarish jarayonida nimaga e’tibor

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qaratishi, diqqatini qancha vaqt saqlashi, bir faoliyatdan ikkinchisiga o‘tishda uni qayta yo‘naltirishi va topshiriq davomida o‘z faoliyatini nazorat qilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan diqqatni ingliz tilini o‘rganishning passiv psixologik sharti sifatida emas, balki o‘quvchining maqsadli faoliyati orqali boshqarilishi mumkin bo‘lgan resurs sifatida talqin qilish lingvodidaktik nuqtayi nazardan muhimdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Til o‘rganuvchi strategiyalari bo‘yicha tadqiqotlarda ham o‘quvchining maqsad qo‘yishi, rejalashtirishi, monitoring qilishi va o‘z faoliyatini baholashi tobora ko‘proq self-regulation, ya’ni o‘z-o‘zini boshqarish jarayoni bilan bog‘lanmoqda. Rose va hammualliflar tomonidan amalga oshirilgan tizimli tahlilda til o‘rganuvchi strategiyalarini tadqiq etishda o‘z-o‘zini boshqarish yondashuvining kuchayib borayotgani ko‘rsatilgan. Shuningdek, xorijiy til ta’limiga oid tadqiqotlarda metakognitiv strategiyalar rejalashtirish, monitoring va baholash orqali o‘quvchining o‘z o‘quv faoliyatini boshqarishiga xizmat qilishi qayd etilgan.

Mazkur nazariy qarashlardan kelib chiqib, ushbu tadqiqotda diqqatni strategik boshqarish tushunchasi talabaning ingliz tilini o‘rganish jarayonida o‘quv maqsadiga muvofiq ravishda diqqat obyektini tanlashi, uni muayyan vazifaga yo‘naltirishi va saqlashi, zarur holatlarda qayta yo‘naltirishi, chalg‘ituvchi omillarni nazorat qilishi hamda o‘z diqqat faoliyatini monitoring va refleksiya asosida baholashi jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Ushbu ta’rifda “strategik” komponentning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Chunki diqqatni strategik boshqarish oddiygina diqqatni jamlashni emas, balki maqsadga yo‘naltirilgan, ongli, izchil va nazorat qilinadigan faoliyatni nazarda tutadi. Bunda talaba tayyor strategiyani mexanik ravishda qo‘llamaydi, balki topshiriqning mazmuni, murakkabligi, til ko‘nikmasi va o‘zining individual holatidan kelib chiqib, mos strategiyani tanlaydi. O‘z-o‘zini boshqarib til o‘rganishga oid tadqiqotlarda ham

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

strategiyalar, o‘quv vazifasi, o‘rganuvchi va ta’lim muhiti o‘rtasidagi o‘zaro munosabat muhim omil sifatida ko‘rsatiladi.

Nofilologik yo‘nalish talabalari uchun ushbu jarayon yanada o‘ziga xos xususiyatga ega. Chunki ular ingliz tilini o‘rganishda nafaqat umumiy til birliklarini, balki o‘z mutaxassisligi bilan bog‘liq terminlar, tushunchalar va kasbiy mazmunni ham bir vaqtning o‘zida qayta ishlaydilar. Masalan, geografiya yo‘nalishi talabasi ingliz tilidagi kasbiy matnni o‘qish jarayonida yangi leksik birlikning shakli va ma’nosiga, uning kontekstdagi vazifasiga hamda geografik mazmuniga bir vaqtning o‘zida e’tibor qaratishi mumkin. Shu sababli nofilologik ta’limda diqqatni boshqarish til materiali va kasbiy mazmunning integratsiyasi asosida tashkil etilishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, diqqatni strategik boshqarishning lingvodidaktik mexanizmini quyidagi izchillikda ifodalash mumkin:

Maqsadni belgilash → diqqat obyektini tanlash → diqqatni fokuslash → diqqatni saqlash → diqqatni qayta yo‘naltirish → monitoring → refleksiya va baholash.

Mazkur ketma-ketlik diqqatni bir martalik “jamlanish” holati sifatida emas, balki o‘quv topshirig‘i davomida takroran amalga oshiriladigan dinamik jarayon sifatida ko‘rsatadi. Bunda dastlab talaba topshiriq maqsadini anglaydi va asosiy diqqat obyektini belgilaydi. Keyingi bosqichda u zarur til yoki mazmuniy birliklarga diqqatini yo‘naltiradi va uni topshiriqni bajarish davomida saqlaydi. Agar tashqi yoki ichki chalg‘ituvchi omillar sababli diqqat susaysa, talaba uni qayta yo‘naltirish strategiyasidan foydalanadi. Yakunda esa o‘z faoliyatini baholab, qaysi strategiya samarali bo‘lganini aniqlaydi. Shunday qilib, diqqatni strategik boshqarishning lingvodidaktik mohiyati uch darajada namoyon bo‘ladi: maqsadli yo‘naltirish, jarayonni boshqarish va natijani refleksiv baholash. Birinchi darajada talaba o‘quv vazifasi uchun muhim bo‘lgan axborotni tanlaydi; ikkinchi darajada diqqatini saqlaydi, qayta yo‘naltiradi va chalg‘ituvchi omillarni nazorat qiladi; uchinchi darajada esa o‘z diqqat faoliyatini tahlil qilib, keyingi o‘quv vazifalari uchun samarali strategiyalarni belgilaydi. Shu asosda

diqqatni strategik boshqarishning quyidagi komponentlarini ajratish mumkin (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Komponent	Mazmuni	Talabaning faoliyati
Maqsadli	Diqqat maqsadini belgilash	"Nimaga e'tibor berishim kerak?"
Selektiv-kognitiv	Muhim axborotni ajratish	Kalit so'z, termin va asosiy fikrni tanlash
Regulyativ	Diqqatni saqlash va qayta yo'naltirish	Chalg'iganda topshiriqqa qaytish
Metakognitiv	O'z faoliyatini monitoring qilish	"Men vazifani to'g'ri bajaryapmanmi?"
Refleksiv	Natijani baholash	"Qaysi strategiya menga yordam berdi?"

Mazkur komponentlarning o'zaro integratsiyasi natijasida talabaning diqqatni mustaqil ravishda boshqarish qobiliyati shakllanadi. Demak, lingvodidaktik nuqtayi nazardan diqqatni strategik boshqarish alohida psixologik mashq emas, balki ingliz tilini o'rganishning mazmuni, topshiriqlari, strategiyalari va refleksiv faoliyati bilan integratsiyalashgan jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Natijada, nofilologik yo'nalish talabalarining ingliz tilini o'rganishida diqqatni strategik boshqarish "diqqatni jamlash"dan "diqqatni ongli ravishda boshqarish"ga, "o'qituvchi tomonidan nazorat qilish"dan "talabaning o'z faoliyatini boshqarishi"ga o'tishni ta'minlovchi lingvodidaktik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

3. Diqqatni strategik boshqarishni rivojlantirishning metodik tizimi

Nofilologik yo'nalish talabalarining ingliz tilini o'rganishida diqqatni strategik boshqarishni rivojlantirish faqat talabaning diqqatini dars jarayonida jamlashga qaratilgan alohida mashqlar yig'indisi sifatida emas, balki ta'lim maqsadi, mazmuni,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

strategiyalari, topshiriqlari, o‘qituvchi faoliyati va talabaning refleksiv faoliyatini o‘zaro bog‘lovchi yaxlit metodik tizim sifatida tashkil etilishi lozim. Bunda diqqat o‘quv faoliyatining barcha bosqichlariga integratsiyalashadi.

Ikkinchi tilni o‘zlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar diqqatning til inputidagi muhim birliklarni sezish va qayta ishlash bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Xususan, Schmidtning “noticing” konsepsiyasida o‘rganuvchining til inputiga ongli ravishda e’tibor qaratishi til o‘zlashtirish jarayonining muhim sharti sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, keyingi empirik tadqiqotlarda diqqat miqdori va uning taqsimlanishi lug‘at o‘zlashtirish natijalari bilan bog‘liqligi, jumladan, ingliz tilidagi maqsadli birliklarga ajratilgan diqqat o‘rganish natijalariga ta’sir qilishi ko‘rsatilgan.

Shu asosda taklif etilayotgan metodik tizimning markaziy tamoyili **“diqqatni o‘qitish” emas, balki “diqqatni boshqarish strategiyalarini o‘rgatish”**dan iborat. Bunda o‘qituvchi dastlab talabaga qaysi axborotga e’tibor qaratish kerakligini ko‘rsatadi, keyinchalik esa ushbu boshqaruvni bosqichma-bosqich talabaning o‘ziga topshiradi. Natijada tashqi boshqaruvdan ichki boshqaruvga o‘tish yuzaga keladi. Mazkur metodik tizim quyidagi bosqichlar asosida tashkil etiladi:

1. Maqsadni anglash → 2. Diqqat obyektini aniqlash → 3. Strategiyani tanlash → 4. Diqqatni amalga oshirish va saqlash → 5. Diqqatni qayta yo‘naltirish → 6. Monitoring → 7. Refleksiya va baholash.

3.1. Reading faoliyatida diqqatni strategik boshqarish. Reading jarayonida diqqatni strategik boshqarish talabaning matndagi barcha birliklarni bir xil darajada qayta ishlashidan ko‘ra, o‘quv vazifasi uchun muhim bo‘lgan axborotni tanlashiga asoslanadi. Bu jarayonda talaba matnni o‘qishdan oldin diqqat obyektini belgilashi, o‘qish jarayonida ushbu obyektni izchil kuzatishi va o‘qishdan keyin o‘z strategiyasining samaradorligini baholashi kerak. Masalan, kasbiy yo‘nalishga oid matn bilan ishlashda talaba quyidagi topshiriqni bajarishi mumkin:

a) Pre-reading: “Matndan uchta asosiy geografik terminni topishga tayyorlaning.”

b) While-reading: terminlarni ajratish, ularning kontekstdagi ma'nosini aniqlash va asosiy fikr bilan bog'lash.

c) Post-reading: "Qaysi strategiya sizga terminlarni tezroq topishga yordam berdi?" Bunday tashkil etishda diqqat tasodifiy ravishda emas, oldindan belgilangan maqsad asosida yo'naltiriladi.

3.2. Listening faoliyatida diqqatni strategik boshqarish. Listening jarayonida axborotning bir marta yoki cheklangan miqdorda taqdim etilishi diqqatni boshqarishning alohida ahamiyatini yuzaga chiqaradi. Shu sababli talaba tinglashdan oldin qanday ma'lumotni aniqlashi kerakligini bilishi, tinglash davomida asosiy axborotni ikkilamchi ma'lumotdan ajrata olishi va tushunmay qolgan birlik sababli butun audio mazmunidan uzilib qolmasligi zarur. Bunda quyidagi strategik ketma-ketlikdan foydalanish mumkin:

Predict → Focus → Select → Recover → Monitor → Reflect

ya'ni:

Taxmin qilish → Fokuslash → Tanlash → Diqqatni tiklash → Monitoring → Refleksiya.

Masalan, talaba audio tinglashdan oldin beshta kalit so'zni belgilaydi. Tinglash jarayonida aynan shu birliklarga e'tibor qaratadi. Agar biror jumlani tushunmay qolsa, butun e'tiborini o'sha jumlaga "qotirib qo'ymasdan", keyingi axborotga qayta yo'naltiradi. Tinglashdan so'ng esa qaysi bosqichda diqqatini yo'qotganini aniqlaydi. Bu yerda muhim metodik prinsip — diqqatni yo'qotmaslik emas, yo'qolgan diqqatni qayta tiklash strategiyasini shakllantirishdir.

3.3. Vocabulary faoliyatida diqqatni strategik boshqarish. Lug'at o'rganishda diqqatning roli ayniqsa muhimdir. Tadqiqotlarda yangi L2 birliklariga ajratilgan e'tibor ularning keyingi o'zlashtirilishi bilan bog'liqligi ko'rsatilgan. Shu sababli yangi so'zlarni oddiy takrorlash o'rniga talabaning diqqatini so'zning bir nechta muhim jihatlariga navbatma-navbat yo'naltirish mumkin:

word form → pronunciation → meaning → context → collocation → usage

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Masalan, erosion terminini o‘rganishda talaba:

so‘z shakliga;

talaffuziga;

ma’nosiga;

matndagi kontekstiga;

u bilan qo‘llanadigan birliklarga;

o‘z nutqida ishlatilishiga

diqqatini bosqichma-bosqich yo‘naltiradi.

Bunday yondashuvda diqqatning obyekti doimiy emas, balki maqsadga qarab boshqariladigan va ko‘chiriladigan xususiyatga ega bo‘ladi.

3.4. Speaking faoliyatida diqqatni strategik boshqarish. Speaking jarayonida talaba bir vaqtning o‘zida suhbatdoshning nutqini tushunish, o‘z fikrini rejalashtirish, mos leksik birlikni tanlash va grammatik shaklni nazorat qilishga harakat qiladi. Shuning uchun bu faoliyatda diqqatni taqsimlash va qayta yo‘naltirish strategiyalari muhimdir. Masalan, juftlikdagi suhbatda talaba:

Listen → Identify the key idea → Plan response → Speak → Monitor → Repair

ketma-ketligidan foydalanishi mumkin.

Agar talaba suhbatdoshining biror jumlasini tushunmasa, muloqotni to‘xtatib qo‘yish o‘rniga aniqlashtirish strategiyasidan foydalanadi:

Could you repeat that?

Do you mean that…?

Could you explain what you mean?

Shu tariqa til kommunikatsiyasida diqqatni boshqarish nutqning uzluksizligini ham ta’minlashga xizmat qiladi.

3.5. Diqqatni monitoring qilish va refleksiya. Metodik tizimning boshqa mashqlardan asosiy farqi shundaki, talaba topshiriqni bajarish bilan cheklanmaydi. U topshiriq davomida o‘z diqqatini ham kuzatadi. Metakognitiv tadqiqotlarda monitoring va control

o‘quvchining o‘z kognitiv resurslarini boshqarishining asosiy funksiyalari sifatida ko‘riladi. O‘z-o‘zini boshqarib o‘rganish modellarida esa rejalashtirish, monitoring, nazorat va refleksiya o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida qaraladi. Shu sababli har bir topshiriq yakunida qisqa refleksiv savollar berish mumkin:

What did I focus on?

What distracted me?

When did I lose focus?

How did I return to the task?

Which strategy was effective?

What will I do differently next time?

Bunday savollar talabaning diqqat jarayonini anglashiga va keyingi topshiriqda yanada ongli strategiya tanlashiga imkon beradi.

3.6. Metodik tizimning o‘qituvchi va talaba faoliyatidagi o‘zgarishi. Taklif qilinayotgan tizimda o‘qituvchining roli ham bosqichma-bosqich o‘zgaradi. Dastlab o‘qituvchi diqqat obyektini belgilaydi va strategiyani namoyish etadi. Keyingi bosqichda talaba strategiyani o‘qituvchi ko‘magida qo‘llaydi. Yakuniy bosqichda esa talaba topshiriq xususiyatidan kelib chiqib, mos diqqat strategiyasini mustaqil tanlaydi. Shu asosda metodik jarayonni quyidagicha ifodalash mumkin:

O‘qituvchi modeli → Birgalikda boshqarish → Talabaning mustaqil strategik boshqaruvi.

Bu jarayonni quyidagi jadval orqali ko‘rsatish mumkin (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Bosqich	O‘qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
Yo‘naltirish	Diqqat obyektini ko‘rsatadi	Maqsadni anglaydi
Namoyish	Strategiyani model qiladi	Strategiyani kuzatadi
Amaliyot	Yo‘naltiruvchi savollar beradi	Strategiyani qo‘llaydi
Monitoring	Jarayonni kuzatadi	O‘z diqqatini nazorat qiladi
Mustaqillik	Minimal yordam beradi	Strategiyani mustaqil tanlaydi

Refleksiya	Tahlilga yo'naltiradi	Natijani baholaydi

XULOSA

Demak, metodik tizimning asosiy natijasi talabaning faqat topshiriqqa ko'proq vaqt davomida e'tibor qaratishi emas, balki qachon, nimaga, nima sababdan va qanday usulda e'tibor qaratishini ongli ravishda boshqarishi bilan belgilanadi. Shu jihatdan mazkur tizimda diqqatni strategik boshqarish ingliz tilini o'rganishning alohida komponenti emas, balki reading, listening, vocabulary va speaking kabi faoliyatlarning ichki strategik mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1] Ch. Velde, "Crossing borders: An alternative conception of competence," in Proc. 27th SCIJTREA Conference, 1997, pp. 27–35.

[2] И. А. Зимняя, Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Москва, Россия: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.

[3] "5 эффективных приемов терминологической работы," EduNeo. [Online]. Available: https://www.eduneo.ru/5-effektivnyx-priemov-terminologicheskoj-raboty/. [Accessed: Oct. 26, 2026].

[4] В. П. Парначев, И. А. Вылцан, М. Г. Танзыбаев, А. Н. Рудой, and И. В. Котельникова, Словарь геологических терминов и понятий. Электронный ресурс: образовательный портал, предоставленный в исходном списке: http://window.edu.ru/resource/330/7330.

[5] Н. Сафарова and М. Имомов, География фанларининг тараққиёт тенденциялари ва инновациялари: ўқув-услубий мажмуа. Тошкент, Ўзбекистон, 2017, 147 б.

[6] J. H. Flavell, "Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry," American Psychologist, vol. 34, no. 10, pp. 906–911, 1979, doi: 10.1037/0003-066X.34.10.906.

[7] R. L. Oxford, Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. New York, NY, USA: Newbury House, 1990.

[8] J. M. O'Malley and A. U. Chamot, Learning Strategies in Second Language Acquisition. Cambridge, U.K.: Cambridge University Press, 1990.

[9] R. W. Schmidt, "The role of consciousness in second language learning," Applied Linguistics, vol. 11, no. 2, pp. 129–158, 1990, doi: 10.1093/applin/11.2.129.

[10] N. J. Anderson, "Metacognitive reading strategies increase L2 performance," The Language Teacher, 2003. [Online]. Available: https://jalt-publications.org/old_tlt/articles/2003/07/anderson.

[11] Asadova G.T., Yusupova G.T. Challenges in identifying the author's worldview in literery texts // Journal of new century innovations. – 2025. – Volume 69, Issue 2. – P. 119-124.

[12] Ochilboyeva, I. A. Qizi. Enhancing the role of authentic materials in teaching process / I. A. Qizi Ochilboyeva // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Vol. 12, no. 6. – P. 257-260.

[13] Bozorova, M. Ingliz tilidagi agromatnlarda deyksisning grounding nazariyasi asosidagi tahlili / M. Bozorova // Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar. – 2025. – Vol. 2, no. 4. – P. 265-269.

[14] M. Mardiyeva. Frazeologik birliklarni tarjima qilishning muqobil usullari haqida. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 674-676 (2024).

[15] Zaripova A.Sh. Xorijiy tillarda o'qishni tushunish nazariyalari // Inter Education Global Study. – 2024. – № . – B. 78–85.

[16] Zaripova A.Sh. Theoretical features of teaching terms to students of non-philological directions in English language lessons // Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2026. – Vol. 54. – P. 187–189.

[17] Zaripova A.Sh., Al-Zurfi A.F.H. Engaging design of English lessons in non-philological classes // Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2026. – Vol. 7, No. 3. – P. 87–90.

[18] Zaripova A.Sh. Language as the mirror of a nation: the strategic role of the state language in social development // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 20. – Vol. 69, No. 1. – B. 286–288.

[19] Nizomiddinovich, E. M. (2025). The impact of mobile phone in learning. American Journal of Education and Learning, 3(1), 931-936

[20] Shermatov, A. A. (2023). Some features of implicature in English and Uzbek literary texts. International Engineering Journal for Research & Development, *8*(6), 1–5.

[21] Khujakulov R. The rich tapestry of folk medicine terminology: a reflection of cultural specificity in English // Miasto Przyszłości. – 2024. – Vol. . – P. 1619–1621.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

UO'K: 372.4

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI NUTQIY FAOLLIGINI HARAKAT SEMALI LEKSEMALAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI VA UNI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI

Ne'matova Mahfuza Ma'rufjon qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
nematovamahfuza33@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy faolligini harakat semali leksemalar vositasida rivojlantirishning pedagogik tizimi yoritilgan. Tizimning maqsad-motivatsion, mazmuniy, jarayon-texnologik va nazorat-baholash komponentlari asoslab berilgan. Harakat semali leksemalarning didaktik guruhlari, ular asosida tuzilgan bosqichli mashqlar turkumi hamda tizimni samarali amalga oshirishning pedagogik shartlari ochib berilgan. Nutqiy faollikni baholash mezonlari va darajalari taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *nutqiy faollik, harakat semasi, leksema, harakat fe'llari, pedagogik tizim, pedagogik shart, boshlang'ich ta'lim, lug'at boyligi.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ПОСРЕДСТВОМ ЛЕКСЕМ С ПРЕДМЕТНО-СЕМАНТИЧЕСКИМ ЗНАЧЕНИЕМ И УСЛОВИЯ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ

Аннотация. *В статье рассматривается педагогическая система развития речевой активности учащихся начальных классов посредством лексем с семой движения. Обоснованы целевой мотивационный, содержательный, процессуально-технологический и контрольно-оценочный компоненты системы. Раскрыты дидактические группы лексем с семой движения, поэтапный комплекс упражнений на их основе и педагогические условия эффективной реализации системы. Предложены критерии и уровни оценки речевой активности.*

Ключевые слова: *речевая активность, сема движения, лексема, глаголы движения, педагогическая система, педагогическое условие, начальное образование, словарный запас.*

A PEDAGOGICAL SYSTEM FOR DEVELOPING THE SPEECH ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH ACTION-SEMANTICS LEXEMES AND THE CONDITIONS FOR ITS IMPLEMENTATION

Abstract. *The article describes a pedagogical system for developing the speech activity of primary school pupils by means of lexemes with the seme of motion. The goal-motivational, content, procedural-technological and control-evaluative components of the system are substantiated. Didactic groups of motion*

lexemes, a staged set of exercises based on them and the pedagogical conditions for the effective implementation of the system are presented. Criteria and levels for assessing speech activity are proposed.

Keywords: *speech activity, seme of motion, lexeme, verbs of motion, pedagogical system, pedagogical condition, primary education, vocabulary.*

KIRISH

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim oldiga qo‘yilgan asosiy talablardan biri o‘quvchilarda funksional savodxonlik, mustaqil fikrlash va o‘z fikrini erkin ifoda eta olish ko‘nikmasini shakllantirishdir. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham kommunikativ kompetensiya ta’lim natijalarining muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida belgilangan. Mamlakatimizning o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok eta boshlagani ham o‘quvchining matnni tushunishi va tushunganini o‘z so‘zlari bilan bayon qila olishiga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirdi.

Nutqiy faollik boshlang‘ich sinf o‘quvchisining o‘quv faoliyati muvaffaqiyatini belgilovchi omillardan biridir. Darsda o‘z fikrini bildirishga intiladigan, savol beradigan, javobini asoslab beradigan o‘quvchi yangi bilimni ham tezroq o‘zlashtiradi. Biroq kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, 2–4-sinf o‘quvchilarining ko‘pchiligi matnni qayta hikoya qilganda *yurmoq*, *bormoq*, *qilmoq* kabi umumiy ma’noli fe’llar bilan cheklanadi, harakatning qanday bajarilganini aniqlashtirmaydi, bir so‘zni bir necha marta takrorlaydi. Natijada ularning nutqi qisqa, siyqa va obrazsiz bo‘lib qoladi.

Muammoning dolzarbligi yana bir jihat bilan bog‘liq. Bugungi o‘quvchi bo‘sh vaqtining katta qismini ekran qarshisida o‘tkazadi, jonli muloqot va tengdoshlar bilan harakatli o‘yinlar esa kamayib bormoqda. Natijada bolaning harakat tajribasi ham, uni so‘z bilan ifodalash amaliyoti ham torayadi. Bu holat maktabda nutqni harakat bilan uyg‘un holda rivojlantiruvchi, o‘quvchini gapirishga tabiiy ravishda undaydigan metodik yechimlarga ehtiyojni oshiradi.

Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf yoshidagi bola tabiatan harakatchan bo‘ladi, o‘yin va taqlidni yaxshi ko‘radi, o‘zi bajargan narsani esa yaxshiroq eslab qoladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bolaning boy harakat tajribasi bilan uni ifodalovchi lug‘atining kambag‘alligi o‘rtasidagi ziddiyat metodik ish uchun samarali yo‘nalishni ochadi. Mazkur maqolaning maqsadi harakat semali leksemalarni nutqiy faollikni rivojlantirish vositasi sifatida qo‘llashga asoslangan pedagogik tizimni yoritish va uni amalga oshirishning pedagogik shartlarini aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Nutqiy faoliyat nazariyasi psixolingvistikada keng ishlab chiqilgan. A.A. Leontyev nutqiy faoliyatni kommunikativ maqsadga bo‘ysundirilgan nutqiy harakatlar tizimi sifatida tavsiflagan. I.A. Zimnyaya esa nutqiy faoliyatning motivi, predmet mazmuni va mahsuloti, ya’ni nutqiy ifodaning o‘zi alohida ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi. L.S. Vigotskiy bolada so‘z ma’nosi aniq, vaziyatga bog‘liq umumlashmalardan mavhum tushunchalar tomon rivojlanishini ko‘rsatib bergan. Bundan boshlang‘ich sinfda lug‘at ishini bola ko‘ra oladigan, ushlay oladigan yoki o‘zi bajara oladigan narsalarni ifodalovchi so‘zlardan boshlash maqsadga muvofiq degan xulosa kelib chiqadi.

Nutq o‘stirish metodikasida M.R. Lvov o‘quvchilar lug‘atini boyitish yangi so‘z darhol bolaning o‘z nutqida qo‘llangandagina samarali bo‘lishini asoslagan. T.A. Ladijenskaya og‘zaki nutqni rivojlantirishda nutqiy vaziyat va kommunikativ vazifaning yetakchi rolini ko‘rsatgan. O‘zbek metodikasida K. Qosimova va hammualliflar yangi so‘zlarni kuzatish, taqqoslash va gapda qo‘llash orqali tanishtirishni tavsiya etadilar hamda o‘quvchilar aniq ma’noli fe’llar o‘rnida umumiy fe’llarni qo‘llashga moyil ekanini qayd etadilar.

Sema nazariyasi o‘zbek tilshunosligida H. Ne’matov va R. Rasulov tomonidan izchil ishlab chiqilgan. Ularning qarashlariga ko‘ra, leksemalar umumiy integral sema asosida guruhlarga birlashadi va farqlovchi semalar orqali bir-biridan ajraladi. O‘zbek tilidagi fe’llarning ma’no guruhlari A. Hojiyev tadqiqotlarida batafsil yoritilgan. Harakat

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

semasi fe'l leksikasining katta qismi uchun integral sema bo'lib, u ot, sifat, ravish va taqlid so'zlarda ham uchraydi.

Tipologik tilshunoslikda L. Talmi harakat hodisasining shakl, fon, yo'l va tarz komponentlarini ajratib, tillar ulardan qaysi birini asosiy fe'lda ifodalashiga ko'ra farqlanishini ko'rsatgan. D. Slobin esa bu farqlar bolalarning hikoya qilish uslubiga, ular e'tibor beradigan tafsilotlarga va hikoyani tashkil etishiga ta'sir qilishini aniqlagan. Boshqa turkiy tillar singari o'zbek tilida ham harakat yo'nalishi odatda asosiy fe'lda, harakat tarzi esa ravishdosh orqali ifodalanadi. Bu xususiyat metodik nuqtayi nazardan katta imkoniyat yaratadi, chunki o'quvchi bir voqeani faqat tarz komponentini qo'shish yoki almashtirish orqali tobora aniqroq tasvirlashni o'rganadi.

Xorijiy tadqiqotlarda harakat va til o'rtasidagi bog'liqlik tajribada isbotlangan. A. Glenberg va M. Kaschak harakatni ifodalovchi gapni tushunish shu yo'nalishdagi jismoniy harakatni yengillashtirishini aniqlagan. F. Pulvermyuller tadqiqotlarida harakat fe'llarini idrok etish bosh miyaning harakatni boshqaruvchi qismlarini faollashtirishi ko'rsatilgan. Demak, harakat bilan bog'liq so'zlar xotirada harakat dasturlari bilan birga saqlanadi va shu sababli bola uchun yorqinroq hamda esda qolarliroq bo'ladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud ishlarda harakat fe'llari asosan grammatik material sifatida o'rganilgan, ularning nutqiy faollikni oshirishdagi imkoniyati esa yetarlicha tizimlashtirilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, modellashtirish, pedagogik kuzatuv, suhbat va o'quvchilar nutqi namunalarini tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali nutqiy faoliyat, sema va harakat fe'llariga oid psixolingvistik, lingvistik va metodik manbalar o'rganildi. Modellashtirish metodi pedagogik tizimning tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalarni aniqlash imkonini berdi. Pedagogik kuzatuv va suhbatlar esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqida harakat semali

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

leksemalarning qanday qo‘llanishini, qaysi so‘zlar faol, qaysilari esa passiv lug‘atda qolib ketishini aniqlashga xizmat qildi.

Nutqiy faollikni aniqlashda o‘quvchilarning tanish matnni qayta hikoya qilishi, rasm asosida hikoya tuzishi va berilgan vaziyat bo‘yicha dialog olib borishi yozib olinib, tahlil qilinadi. Har bir nutq namunasida qo‘llangan harakat semali leksemalar soni va xilma-xilligi, so‘z tanlashning aniqligi, ifodaning hajmi va bog‘lanishliligi, shuningdek, o‘quvchining muloqotdagi tashabbuskorligi hisobga olinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda nutqiy faollik tushunchasiga quyidagicha ishchi ta’rif berildi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining nutqiy faolligi deganda uning muloqotga ichki ehtiyoji, nutqiy vaziyatda tashabbus ko‘rsatishi, fikrini aniq va xilma-xil lug‘aviy vositalar bilan, bog‘lanishli tarzda ifoda eta olishi hamda o‘z nutqini nazorat qilishga intilishining yaxlit birligi tushuniladi. Ushbu ta’rifda motivatsion, leksik, kommunikativ va refleksiv jihatlar birlashtirilgan bo‘lib, ular keyinchalik baholash mezonlariga asos bo‘ldi.

Ishlab chiqilgan pedagogik tizim to‘rt o‘zaro bog‘liq komponentdan iborat. Maqsad-motivatsion komponent o‘quvchida so‘zga qiziqish va gapirish ehtiyojini uyg‘otishga qaratilgan. Mazmuniy komponent harakat semali leksemalarning didaktik guruhlari va ular uchraydigan badiiy matnlarni o‘z ichiga oladi. Jarayon-texnologik komponent bosqichli mashqlar, o‘yinlar va interaktiv metodlarni qamrab oladi. Nazorat-baholash komponenti esa mezonlar, darajalar va natijani tahlil qilish vositalaridan tashkil topadi. Tizim tarkibi 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Pedagogik tizim komponentlari

Komponent	Mazmuni
Maqsad-motivatsion	Nutqiy ehtiyojni uyg‘otish, so‘zga qiziqish, o‘yin orqali rag‘batlantirish

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Mazmuniy	Harakat semali leksemalarning didaktik guruhlari, badiiy matnlar, sinf lug‘ati
Jarayon-texnologik	Bosqichli mashqlar turkumi, didaktik o‘yinlar, dramatizatsiya, guruhda ishlash
Nazorat-baholash	Mezonlar, darajalar, kuzatuv varaqasi, nutq namunalarini tahlil qilish

Mazmuniy komponentning markazida harakat semali leksemalar turadi. Ularni o‘quvchiga yetkazishda qat’iy lingvistik tasnifdan ko‘ra bola harakatni qanchalik oson idrok eta olishi, bajara olishi va nomlay olishiga asoslangan didaktik guruhlash qulayroq. Birinchi guruhni joydan joyga ko‘chishni bildiruvchi *yurmoq*, *yugurmoq*, *chopmoq*, *sakramoq*, *emaklamoq*, *o‘rmalamoq*, *suzmoq*, *uchmoq* kabi fe’llar tashkil etadi. Ular sahnalashtirishga eng qulay bo‘lib, hayvonlar haqidagi ertak va masallarda ko‘p uchraydi. Ikkinchi guruhga harakat yo‘nalishini bildiruvchi *kirmoq*, *chiqmoq*, *tushmoq*, *ko‘tarilmoq*, *o‘tmoq*, *qaytmoq* fe’llari kiradi. Ular birinchi guruh bilan birikib, *yugurib chiqdi*, *o‘rmalab tushdi* kabi ifodali qurilmalarni hosil qiladi.

Uchinchi guruh narsa bilan bajariladigan harakatlarni, masalan, *olmoq*, *ko‘tarmoq*, *tashlamoq*, *irg‘itmoq*, *itarmoq*, *tortmoq* fe’llarini qamrab oladi. To‘rtinchi guruhni tana holatining o‘zgarishini bildiruvchi *o‘tirmoq*, *turmoq*, *egilmoq*, *cho‘kkalamoq*, *burilmoq* fe’llari tashkil qiladi va ular, ayniqsa, 1-sinfda harakatli daqiqalar bilan uyg‘un holda qo‘llanadi. Nutqning aniqligini oshirishda beshinchi guruh alohida ahamiyatga ega. Unga harakatning tarzi va tezligini aniqlashtiruvchi *odimlamoq*, *imillamoq*, *lapanglamoq*, *gandiraklamoq*, *shoshmoq*, *irg‘ishlamoq* kabi leksemalar kiradi. *Yurmoq – odimlamoq – imillamoq – lapanglamoq* sinonimik qatori o‘quvchiga so‘z tanlash tinglovchi ko‘z oldida gavdalanadigan manzarani o‘zgartirishini ko‘rsatadi. Oltinchi guruhni harakat semasi mavjud bo‘lgan fe’ldan boshqa so‘zlar, ya’ni *yugurish*, *poyga*, *qadam* kabi otlar, *chaqqon*, *ildam*, *sekin* kabi sifat va ravishlar hamda *lip-lip*, *gup-gup* kabi taqlid so‘zlar tashkil etadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Harakat semali leksemalar ustida ishlashda o‘zbek tilining ravishdoshli qurilmalari alohida e’tiborga loyiq. *Kirdi* fe’li faqat yo‘nalishni bildiradi, *yugurib kirdi*, *sekin kirdi*, *imillab kirdi*, *hovliqib kirdi* birikmalari esa bir xil yo‘nalishdagi harakatni turli manzaralarda gavdalantiradi. Nazarimizda, o‘quvchini aynan shu imkoniyatdan foydalanishga o‘rgatish nutqning obrazliligini oshirishning eng qisqa yo‘lidir. Shu bois mashqlar turkumida yo‘nalish fe’li bilan tarz ravishdoshini birlashtirishga qaratilgan topshiriqlar muntazam takrorlanadi.

Jarayon-texnologik komponent «harakatdan so‘zga, so‘zdan gapga, gapdan matnga» tamoyili asosida to‘rt bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi, tayyorlov bosqichida o‘quvchi harakatni bajaradi yoki kuzatadi va uni nomlaydi. Masalan, «Ko‘rsat va ayt» o‘yinida bir o‘quvchi harakatni ko‘rsatadi, sinf esa uni eng aniq fe’l bilan atashga harakat qiladi. Hali aytilmagan har bir yangi so‘z uchun jamoaga ball beriladi. Bu bosqichda bola so‘zning ma’nosini ta’rif orqali emas, o‘z tanasi orqali his qiladi.

Ikkinchi, leksik-semantik bosqichda bir guruhdagi so‘zlar taqqoslanadi, aniqroq sinonim izlanadi, harakat tarzi ravishdosh orqali aniqlashtiriladi. «Aniqroq so‘zni top» topshirig‘ida o‘quvchilar ertakdan olingan gapdagi *yurdi* fe’lini ifodaliroq so‘z bilan almashtiradilar va ma’no qanday o‘zgarganini tushuntiradilar. Masalan, *Toshbaqa imillab yurdi* va *Quyon chopqillab ketdi* gaplari qahramonlarning xarakterini ham ochib beradi. «Bir vaziyat, uch manzara» mashqida esa bitta voqea uch xil harakat tarzi bilan tasvirlanadi va o‘quvchi ravishdoshning ma’no yaratishdagi rolini his qiladi.

Uchinchi, nutqiy-kommunikativ bosqichda o‘quvchilar real yoki tasavvurdagi vaziyat asosida gap va qisqa dialoglar tuzadilar. «Buyruqni bajar va tushuntir» o‘yinida juftlikdagi bir o‘quvchi topshiriq beradi, ikkinchisi uni bajarib, nima qilganini aytib beradi. Rolli o‘yinlarda bolalar ertak qahramonlariga aylanib, ularning harakatlarini ham ijro etadilar, ham so‘z bilan izohlaydilar. Bunday vaziyatlarda gapirish o‘quvchi uchun tabiiy ehtiyojga aylanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

To‘rtinchi, ijodiy bosqichda o‘quvchilar tanish matnni qayta hikoya qiladilar va mustaqil hikoya tuzadilar. «Harakatlanuvchi hikoya» topshirig‘ida guruhlarga rasmli kartochkalar beriladi va ular har bir qahramon boshqacha harakat qiladigan hikoya tuzishlari kerak bo‘ladi. Shuningdek, o‘qish darslarida uchragan harakat semali leksemalar «Sinf lug‘ati»ga yozib boriladi, nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida esa o‘quvchilar ulardan o‘z hikoya va insholarida foydalanadilar. Ayyor tulki *sekin o‘rmalab keldi*, jasur bola esa *dadil qadam tashladi* kabi misollarni tahlil qilish o‘quvchiga to‘g‘ri tanlangan fe’l faqat axborot emas, baho ham tashishini anglatadi.

Badiiy matn harakat semali leksemalarni o‘rgatishda eng boy manba hisoblanadi. Ertak, masal va hikoyalarda voqea qahramonlarning harakati orqali rivojlanadi, harakatning qanday bajarilishi esa ko‘pincha qahramonning xarakterini ochib beradi. Shoshqaloq qahramon *hovliqib* yuguradi, ehtiyotkor qahramon *oyog‘ining uchida* yuradi, yalqov qahramon esa *lapanglab* qadam tashlaydi. O‘quvchi bunday farqlarni payqay boshlagach, so‘zni faqat ma’lumot tashuvchi birlik sifatida emas, balki tasvir va baho vositasi sifatida idrok eta boshlaydi. Ta’kidlash joizki, shu sababli tizimda o‘qish savodxonligi darsliklaridagi matnlar va sinfdan tashqari o‘qish uchun tanlangan asarlar mazmuniy komponentning tayanch qismi sifatida belgilandi.

O‘qituvchining roli ham o‘zgaradi. U tayyor so‘zni tushuntiruvchi emas, balki nutqiy vaziyatni yaratuvchi, o‘yinni boshqaruvchi va o‘quvchining har bir urinishini rag‘batlantiruvchi tashkilotchiga aylanadi. O‘qituvchi o‘quvchi xato qilganda uni to‘xtatmasdan, aniqroq so‘zni savol orqali taklif qiladi, masalan, «Quyon shunchaki yurdimi yoki boshqacha harakat qildimi?» deb so‘raydi. Bu usul o‘quvchida o‘z nutqini nazorat qilish ko‘nikmasini shakllantiradi va nutqiy faollikning refleksiv jihatini rivojlantiradi.

Tizimning darsdagi qo‘llanishini «Quyon bilan toshbaqa» masalini o‘qish misolida ko‘rib chiqamiz. Darsning boshida o‘qituvchi sinfni ikki jamoaga ajratadi va har bir jamoa masalda qahramonlarning qanday harakat qilganini bildiruvchi so‘zlarni

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

topishi kerakligini e'lon qiladi. Matn o'qilgach, jamoalar navbatma-navbat so'z aytadi, har bir to'g'ri topilgan so'z doskadagi «poyga yo'li»da jamoa belgisini bir qadam oldinga suradi. Keyin o'quvchilar toshbaqa va quyonning harakatini pantomima orqali ko'rsatadilar, sinf esa ularni *imillamoq*, *sudralmoq*, *chopqillamoq*, *sakrab-sakrab yugurmoq* kabi aniq so'zlar bilan nomlaydi. Shundan so'ng har bir jamoa masalni qahramonlardan biri nomidan qayta hikoya qiladi va unda kamida beshta harakat semali leksemadan foydalanishi talab etiladi. Darsning yakunida topilgan so'zlar «Sinf lug'ati»ga yoziladi, eng ko'p va eng aniq so'z ishlatgan jamoa «So'z chempioni» nishonini oladi.

Bunday dars tuzilmasida o'quvchi bir mashg'ulot davomida so'zni eshitadi, harakat orqali his qiladi, sinfdoshlari bilan muhokama qiladi va o'z nutqida qo'llaydi. Ball va nishonlar musobaqa ruhini yaratadi, biroq ular o'z-o'zidan maqsad emas, balki gapirishga undovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, odatda darsda jim o'tiradigan o'quvchilar ham pantomima va jamoaviy o'yin vaziyatida faollasha boshlaydi, chunki ulardan dastlab so'z emas, harakat talab qilinadi va bu nutqqa o'tishni yengillashtiradi.

Tabaqalashtirilgan yondashuv nuqtayi nazaridan topshiriqlar uch murakkablik darajasida tuziladi. Nutqi sust rivojlangan o'quvchilarga harakatni nomlash va tayyor gapni to'ldirish topshiriqlari beriladi. O'rta darajadagi o'quvchilar sinonimlarni taqqoslash va gap tuzish bilan shug'ullanadi. Nutqi yaxshi rivojlangan o'quvchilarga esa mustaqil hikoya tuzish, qahramon nomidan gapirish va sinfdoshlarining nutqini baholash vazifasi yuklanadi. Shu tariqa har bir o'quvchi o'z imkoniyatiga mos, ammo undan bir oz yuqori darajadagi vazifani bajaradi.

Tizimning samaradorligi qator pedagogik shartlarga bog'liq ekani aniqlandi. Avvalo, harakat va so'zning birligi ta'minlanishi lozim, ya'ni yangi so'z imkon qadar harakat yoki uning ko'rgazmali tasviri bilan birga taqdim etiladi. Ikkinchidan, ish o'qish savodxonligi darsliklaridagi va sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan badiiy matnlarga tayanishi kerak, chunki aynan badiiy matnda harakat semali leksemalar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

obrazli va hissiy kontekstda namoyon bo'ladi. Uchinchidan, o'yin va gamifikatsiya elementlari, jumladan, ball, nishon va jamoaviy musobaqalar o'quvchining ichki motivatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi. To'rtinchidan, o'quvchilarning nutqiy rivojlanish darajasiga ko'ra topshiriqlarni tabaqalashtirish zarur. Nihoyat, nutqiy faollik muntazam kuzatilib, natijalar o'qituvchi tomonidan qayd etib borilishi talab etiladi.

Nazorat-baholash komponentida to'rt mezon belgilandi. Motivatsion-tashabbuskorlik mezoni o'quvchining javob berishga, savol berishga va sinfdoshining fikrini to'ldirishga intilishini ko'rsatadi. Leksik mezon nutqda qo'llangan harakat semali leksemalarning soni va xilma-xilligi bilan o'lchanadi. Aniqlik mezoni tanlangan so'zning vaziyatga mos kelishini, masalan, chaqaloq haqida *yuradi* emas, *emaklaydi* deyilishini baholaydi. Bog'lanishlilik mezoni esa hikoyadagi harakatlarning mantiqiy ketma-ketligi va ravishdosh hamda payt so'zlari orqali bog'lanishini nazarda tutadi. Har bir mezon bo'yicha yuqori, o'rta va past daraja ajratildi.

Yuqori darajadagi o'quvchi muloqotga o'zi kirishadi, matnni qayta hikoya qilganda harakatni turli leksemalar bilan aniq ifodalaydi, sinonimlar orasidan vaziyatga mosini tanlay oladi va voqealarni mantiqiy izchillikda bayon qiladi. O'rta darajadagi o'quvchi o'qituvchining savoli yoki yo'naltiruvchi topshirig'idan so'ng faollashadi, nutqida harakat semali leksemalar uchrasa-da, ular asosan umumiy ma'noli so'zlar bilan cheklanadi, harakat tarzini aniqlashtirish holatlari kam bo'ladi. Past darajadagi o'quvchi esa javob berishga qiynaladi, fikrini qisqa va uzuq-yuluq gaplar bilan ifodalaydi, bir xil fe'lni takror qo'llaydi va voqealar ketma-ketligini saqlay olmaydi. Darajalarning bunday tavsifi o'qituvchiga har bir o'quvchining nutqiy rivojlanishini kuzatib borish va unga mos topshiriq tanlash imkonini beradi.

Ishlab chiqilgan tizim alohida mashg'ulotlarni talab qilmaydi, balki amaldagi o'qish savodxonligi darslari va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari tarkibiga uyg'un holda kiritiladi. Har bir darsda harakat semali leksemalar bilan bog'liq bitta yoki ikkita topshiriq berilishi kifoya, chunki muhim omil topshiriqlar soni emas, balki ularning

muntazamligi va izchilligidir. Shuningdek, raqamli ta'lim vositalaridan, jumladan, audio matnlar va interaktiv o'yinlardan foydalanish o'quvchining matnni tinglash, harakatni tasavvur qilish va uni so'z bilan ifodalash jarayonlarini o'zaro bog'lashga yordam beradi. Ota-onalar ham uyda bola bilan harakatli o'yinlar o'tkazib, uning harakatlarini so'z bilan nomlashga undashi orqali bu jarayonga qo'shilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Harakat semali leksemalar o'zbek tili lug'atining keng, tizimli tashkil topgan va boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun psixologik jihatdan qulay qatlamini tashkil etadi. Ularning aniqligi, bolaning harakat tajribasi bilan bog'liqligi va hikoyadagi markaziy o'rni ularni nutqiy faollikni rivojlantirishning tabiiy vositasiga aylantiradi.

Maqsad-motivatsion, mazmuniy, jarayon-texnologik va nazorat-baholash komponentlaridan iborat pedagogik tizim harakat semali leksemalarni passiv lug'atdan faol nutqqa o'tkazishni ta'minlaydi. «Harakatdan so'zga, so'zdan gapga, gapdan matnga» tamoyiliga asoslangan bosqichli mashqlar turkumi o'quvchilarning ko'proq, aniqroq va ishtiyoq bilan gapirishiga yordam beradi. Tizimning samaradorligi harakat va so'z birligi, badiiy matnga tayanish, o'yin va gamifikatsiya, tabaqalashtirilgan yondashuv hamda muntazam diagnostika kabi pedagogik shartlarga bog'liq.

Taklif sifatida o'qish savodxonligi darslarida harakat semali leksemalardan iborat sinf lug'atini yuritish, har bir mavzuga harakatli didaktik o'yinlarni kiritish hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ushbu yo'nalishda metodik tavsiyalar ishlab chiqishni ko'rsatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni. https://lex.uz/docs/4312785
2. Hojiyev A. Fe'l. – T.: Fan, 1973. – 192 b.
3. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T.: O'qituvchi, 1995. – 128 b.

4. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009. – 352 b.
5. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.
6. Зимняя И.А. Лингвопсихология речевой деятельности. – М.; Воронеж: МОДЭК, 2001. – 432 с.
7. Ладыженская Т.А. Система работы по развитию устной речи учащихся. – М.: Просвещение, 1975. – 255 с.
8. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М.: Просвещение, 1969. – 214 с.
9. Львов М.Р. Речь младших школьников и пути её развития. – М.: Просвещение, 1975. – 176 с.
10. Glenberg A.M., Kaschak M.P. Grounding language in action // Psychonomic Bulletin & Review. – 2002. – Vol. 9, No. 3. – P. 558–565.
11. Mullis I.V.S., von Davier M., Foy P., Fishbein B., Reynolds K.A., Wry E. PIRLS 2021 International Results in Reading. – Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center, 2023.
12. Pulvermüller F. Brain mechanisms linking language and action // Nature Reviews Neuroscience. – 2005. – Vol. 6, No. 7. – P. 576–582.
13. Slobin D.I. From “thought and language” to “thinking for speaking” // Gumperz J.J., Levinson S.C. (eds.) Rethinking Linguistic Relativity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996. – P. 70–96.
14. Talmy L. Lexicalization patterns: semantic structure in lexical forms // Shopen T. (ed.) Language Typology and Syntactic Description. Vol. 3. – Cambridge: Cambridge University Press, 1985. – P. 57–149.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KLINIK KEYSLAR ORQALI TALABALARNING DIAGNOSTIC KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELI: TUZILMASI, PEDAGOGIC MEXANIZMLARI VA SAMARADORLIGI

Abduraxmonov Niyozbek Xamdamjon o'g'li
Umumiy jarrohlik kafedrasi assistenti, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Farg'ona O'zbekiston
E-mail: doctoranx@gmail.com, https://orcid.org/0009-0009-5744-6752

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tibbiy ta'lim jarayonida klinik keyslar asosida talabalarning diagnostik kompetentligini rivojlantirish modelining mazmuni, tuzilmasi va pedagogik mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqotning dolzarbligi bo'lajak shifokorlarda klinik vaziyatlarni tahlil qilish, simptomlar o'rtasidagi sababiy bog'liqliklarni aniqlash, differensial tashxisni shakllantirish hamda dalillarga asoslangan klinik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati bilan belgilanadi. Taklif etilayotgan model reflektiv diagnostik ta'lim (RDL), fanlararo klinik keyslar integratsiyasi (ICI) va DEAR reflektiv algoritmini (Describe, Explain, Analyse, Reflect) o'zaro uyg'unlashtirishga asoslanadi. Modelning mazmuni diagnostik tafakkur, vizual-diagnostik idrok, kommunikativ hamkorlik va reflektiv-metakognitiv faoliyat kabi tarkibiy komponentlar orqali ochib beriladi. Tadqiqotda klinik keyslar, simulyatsion mashg'ulotlar va obyektiv strukturaviy klinik imtihon (OSCE) elementlaridan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Model samaradorligini baholash diagnostik kompetentlik mezonlari, darajalari va pedagogik tajriba-sinov natijalarini qiyosiy tahlil qilish asosida amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Maqola tibbiy ta'limda nazariy bilimlarni amaliy diagnostik faoliyat bilan integratsiyalashga qaratilgan metodik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *tibbiy ta'lim, klinik keys, diagnostik kompetentlik, klinik fikrlash, reflektiv ta'lim, fanlararo integratsiya, simulyatsion ta'lim, OSCE.*

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ДИАГНОСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ КЛИНИЧЕСКИХ КЕЙСОВ: СТРУКТУРА, ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Аннотация: *В статье рассматриваются содержание, структура и педагогические механизмы модели развития диагностической компетентности студентов в процессе медицинского образования на основе клинических кейсов. Актуальность исследования обусловлена необходимостью формирования у будущих врачей навыков анализа клинических ситуаций, выявления причинно-следственных связей между симптомами, построения дифференциального диагноза и принятия клинических решений, основанных на доказательных данных. Предлагаемая модель основана на интеграции рефлексивного диагностического обучения (RDL), междисциплинарной интеграции клинических кейсов (ICI) и рефлексивного алгоритма DEAR*

(Describe, Explain, Analyse, Reflect — описание, объяснение, анализ, рефлексия). Содержание модели раскрывается через такие структурные компоненты, как диагностическое мышление, визуально-диагностическое восприятие, коммуникативное взаимодействие и рефлексивно-метакогнитивная деятельность. В исследовании рассматриваются возможности использования клинических кейсов, симуляционных занятий и элементов объективного структурированного клинического экзамена (OSCE). Оценка эффективности модели предусматривает анализ критериев и уровней сформированности диагностической компетентности, а также сравнительный анализ результатов педагогического эксперимента. Статья направлена на совершенствование методических подходов к интеграции теоретических знаний и практической диагностической деятельности в медицинском образовании.

Ключевые слова: *медицинское образование, клинический кейс, диагностическая компетентность, клиническое мышление, рефлексивное обучение, междисциплинарная интеграция, симуляционное обучение, объективный структурированный клинический экзамен (OSCE).*

THE MODEL FOR DEVELOPING STUDENTS' DIAGNOSTIC COMPETENCE THROUGH CLINICAL CASES: STRUCTURE, PEDAGOGICAL MECHANISMS, AND EFFECTIVENESS

Abstract: *This article examines the content, structure, and pedagogical mechanisms of a model designed to develop students' diagnostic competence in medical education through clinical cases. The relevance of the study is determined by the need to develop future physicians' skills in analyzing clinical situations, identifying causal relationships between symptoms, formulating differential diagnoses, and making evidence-based clinical decisions. The proposed model is based on the integration of Reflective Diagnostic Learning (RDL), Interdisciplinary Clinical Case Integration (ICI), and the DEAR reflective algorithm (Describe, Explain, Analyse, Reflect). The model's content is revealed through such structural components as diagnostic reasoning, visual diagnostic perception, communicative collaboration, and reflective-metacognitive activity. The study explores the potential of using clinical cases, simulation-based sessions, and elements of the Objective Structured Clinical Examination (OSCE). The effectiveness of the model is to be assessed through diagnostic competence criteria and levels, as well as a comparative analysis of the results of a pedagogical experiment. The article aims to improve methodological approaches to integrating theoretical knowledge with practical diagnostic activities in medical education.*

Keywords: *medical education, clinical case, diagnostic competence, clinical reasoning, reflective learning, interdisciplinary integration, simulation-based learning, Objective Structured Clinical Examination (OSCE).*

KIRISH

Zamonaviy tibbiy ta'limning muhim vazifalaridan biri nazariy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassisni tayyorlash bilan bir qatorda, klinik vaziyatlarni mustaqil tahlil qila



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

oladigan, diagnostik taxminlarni shakllantiradigan va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qiladigan bo‘lajak shifokorning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan iborat. Ushbu jarayonda diagnostik kompetentlik shifokorning klinik ma’lumotlarni yig‘ish, ularni tizimli tahlil qilish, ehtimoliy tashxislarni farqlash va asoslangan xulosaga kelish qobiliyatini ifodalovchi muhim kasbiy sifat hisoblanadi.

An’anaviy ta’limda bilimlarni o‘zlashtirish va nazariy materiallarni qayta bayon qilishga katta e’tibor qaratilishi mumkin. Biroq klinik amaliyotda samarali faoliyat yuritish uchun talaba bilimlarni nostandart vaziyatlarda qo‘llash, yetishmayotgan ma’lumotlarni aniqlash, muqobil diagnostik taxminlarni solishtirish va o‘z qarorlarini asoslashni ham o‘rganishi zarur. Shu sababli klinik keyslar asosida tashkil etilgan ta’lim diagnostik kompetentlikni rivojlantirishning istiqbolli pedagogik vositalaridan biri sifatida qaraladi.

Klinik keys — muayyan klinik vaziyat, bemorning shikoyatlari, anamnestik ma’lumotlari, obyektiv tekshiruv natijalari va zarur hollarda instrumental yoki laborator tekshiruv ko‘rsatkichlarini birlashtiruvchi o‘quv materiali hisoblanadi. Keys bilan ishlash jarayonida talaba ma’lumotlarni shunchaki eslab qolmaydi, balki ularni tahlil qiladi, klinik belgilar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlaydi, differensial tashxis variantlarini shakllantiradi va o‘z qarorining mantiqiy asoslarini izohlaydi.

Klinik keyslarning pedagogik imkoniyatlari ularni alohida topshiriq sifatida qo‘llash bilan cheklanmaydi. Ularning samaradorligi maqsad, mazmun, ta’lim metodlari, o‘qituvchi va talaba faoliyati, baholash mezonlari hamda reflektiv tahlil o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydigan yaxlit modelga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, klinik keyslar asosida diagnostik kompetentlikni rivojlantirish modelini ishlab chiqish va uning tarkibiy komponentlarini pedagogik jihatdan asoslash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi klinik keyslar orqali talabalarning diagnostik kompetentligini rivojlantirish modelining tuzilmasi, pedagogik mexanizmlari va uni ta’lim jarayoniga joriy etish shartlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilarni qamrab oladi:

1. Diagnostik kompetentlikning mazmuni va tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish.

2. Klinik keyslar asosida diagnostik kompetentlikni rivojlantirish modelining asosiy bloklarini ishlab chiqish.

3. RDL, ICI va DEAR yondashuvlarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash mexanizmlarini belgilash.

4. Talabalarning diagnostik kompetentligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini asoslash.

5. Model samaradorligini pedagogik tajriba-sinov natijalari asosida baholash metodikasini belgilash.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati klinik keyslar bilan ishlash jarayonini diagnostik tafakkur, fanlararo integratsiya, reflektiv tahlil va kompetentlikni baholash mexanizmlari bilan tizimli bog‘lash imkoniyatini asoslashda namoyon bo‘ladi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Tadqiqot metodologiyasi kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan va reflektiv yondashuvlar uyg‘unligiga asoslanadi. Ushbu yondashuvlar diagnostik kompetentlikni alohida bilim yoki ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida emas, balki klinik vaziyatni anglash, tahlil qilish, qaror qabul qilish va natijalarni reflektiv baholashni birlashtiruvchi yaxlit kasbiy sifat sifatida o‘rganishga imkon beradi.

Tadqiqotning pedagogik modeli o‘zaro bog‘langan maqsadli, mazmuniy, jarayonli, baholash-diagnostik va natijaviy bloklardan tashkil topadi.

Maqsadli blok klinik keyslar orqali talabalarning diagnostik kompetentligini rivojlantirish maqsadi va vazifalarini belgilaydi.

Mazmuniy blok oftalmologiya faniga oid klinik vaziyatlar, simptomlar, tekshiruv natijalari, differensial tashxis topshiriqlari va klinik qarorlarni asoslash materiallarini qamrab oladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Jarayonli blok reflektiv diagnostik ta'lim (RDL), fanlararo klinik keyslar integratsiyasi (ICI), DEAR algoritmi, guruhli muhokama, simulyatsion mashg'ulotlar va klinik vaziyatlarni bosqichma-bosqich tahlil qilish usullarini birlashtiradi.

Baholash-diagnostik blok talabalarning bilimlari, amaliy ko'nikmalari, klinik fikrlashi, kommunikativ faoliyati va reflektiv qobiliyatlarini belgilangan mezonlar asosida baholashni nazarda tutadi. Bunda klinik vazifalarni bajarish, strukturaviy kuzatuv, keys yechimlarini tahlil qilish va zarur hollarda OSCE stansiyalaridan foydalanish mumkin.

Natijaviy blok diagnostik kompetentlikning rivojlanish darajasini, talabaning klinik vaziyatni tahlil qilish sifatini va diagnostik qarorlarni asoslash qobiliyatidagi o'zgarishlarni aks ettiradi.

Diagnostik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida uchta o'zaro bog'liq metodik mexanizmga alohida e'tibor qaratiladi. Birinchisi, RDL yondashuvi orqali talabaning klinik ma'lumotlarni tahlil qilishi va o'z diagnostik qarorlarini qayta ko'rib chiqishi tashkil etiladi. Ikkinchisi, ICI yondashuvi yordamida oftalmologik vaziyatlar anatomiya, fiziologiya, patologiya, farmakologiya va boshqa tegishli fanlar bilimlari bilan bog'lanadi. Uchinchisi, DEAR algoritmi klinik vaziyatni tavsiflash, tushuntirish, tahlil qilish va refleksiya bosqichlarini izchil amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Modelni baholash uchun diagnostik kompetentlikning quyidagi tarkibiy komponentlarini ajratish taklif etiladi:

• Klinik-kognitiv komponent: klinik ma'lumotlarni tahlil qilish, diagnostik taxminlarni shakllantirish va differensial tashxisni asoslash.

• Vizual-diagnostik komponent: oftalmologik belgilarni kuzatish, klinik tasvirlar va tekshiruv natijalarini talqin qilish.

• Kommunikativ-kooperativ komponent: anamnez yig'ish, savollarni maqsadli tuzish, klinik ma'lumotlarni muhokama qilish va jamoada ishlash.

• Reflektiv-metakognitiv komponent: qabul qilingan qarorlarni qayta baholash, xatolarni aniqlash, tahlil qilish va keyingi faoliyatni takomillashtirish.

Model samaradorligini tekshirishda tajriba va nazorat guruhlarining boshlang‘ich hamda yakuniy natijalarini qiyoslash, kompetentlik darajalaridagi o‘zgarishlarni aniqlash va tegishli statistik mezonlardan foydalanish rejalashtiriladi. Tajriba-sinovning haqiqiy ishtirokchilari, bosqichlari, diagnostik vositalari va statistik natijalari tadqiqotning birlamchi ma’lumotlari asosida bayon qilinishi lozim.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqotda jami 450 nafar «Davolash ishi» yo‘nalishi talabalarining diagnostik kompetentlik darajalari tahlil qilindi. Shundan 227 nafari tajriba guruhini, 223 nafari esa nazorat guruhini tashkil etdi. Tajriba guruhi tarkibida 32 nafar xorijiy guruh talabasi va 195 nafar o‘zbek guruh talabasi, nazorat guruhida esa mos ravishda 30 va 193 nafar talaba ishtirok etdi.

Taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, tajriba guruhida diagnostik kompetentlikning yuqori darajasi 104 nafar talabada (45,8%), o‘rta darajasi 89 nafar talabada (39,2%) va past darajasi 34 nafar talabada (15,0%) qayd etilgan. Nazorat guruhida esa yuqori daraja 56 nafar (25,1%), o‘rta daraja 91 nafar (40,8%) va past daraja 76 nafar (34,1%) talabada kuzatilgan.

Guruhlar kesimidagi taqsimot diagnostik kompetentlikning yuqori darajasi tajriba guruhida 20,7 foiz punktga ko‘proq ekanini ko‘rsatdi. Past darajadagi talabalar ulushi tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan 19,1 foiz punktga kam bo‘ldi.

Taqsimotlar o‘rtasidagi farqni dastlabki statistik baholash uchun Pearsonning χ^2 mezoni qo‘llanildi. Hisoblash natijasida $\chi^2(2)=30,43$, $p<0,001$ qiymatlari olindi. Cramér V ko‘rsatkichi taxminan 0,26 ni tashkil etdi. Bu natijalar, agar guruhlar mustaqil bo‘lsa va ikkala guruhda bir xil baholash mezonlari qo‘llangan bo‘lsa, diagnostik kompetentlik darajalarining taqsimoti guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan farq qilishini ko‘rsatadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Shu bilan birga, mazkur tahlilning o‘zi klinik keyslar asosidagi ta’lim modelining sababiy samaradorligini to‘liq tasdiqlamaydi. Bunday xulosa chiqarish uchun boshlang‘ich va yakuniy diagnostik ko‘rsatkichlar, guruhlarni shakllantirish tartibi, tajriba davomiyligi hamda baholash vositalarining ishonchliligi haqida qo‘shimcha ma’lumotlar zarur.

1-jadval. Tajriba va nazorat guruhlarida diagnostik kompetentlik darajalari

Daraja	**Tajriba guruhi, n**	**Tajriba guruhi, %**	**Nazorat guruhi, n**	**Nazorat guruhi, %**
Yuqori	104	45,8	56	25,1
O‘rta	89	39,2	91	40,8
Past	34	15,0	76	34,1
Jami	**227**	**100,0**	**223**	**100,0**

MUHOKAMA

Olingan natijalar klinik keyslar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida diagnostik kompetentlik darajalarini tahlil qilish muhimligini ko‘rsatadi. Tajriba guruhida yuqori darajadagi ko‘rsatkichlarning nisbatan katta ulushga ega ekanligi klinik vaziyatlarni tahlil qilishga yo‘naltirilgan ta’lim shakllarini chuqurroq o‘rganish uchun asos yaratadi. Biroq tadqiqot dizayni va o‘lchovlarning vaqt bo‘yicha ketma-ketligi aniqlashtirilmaguncha, mazkur farqni faqat qo‘llangan pedagogik model ta’siri bilan izohlash to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Klinik fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro adabiyotlarda faol o‘qitish, strukturaviy refleksiya, differensial tashxisni asoslash va maqsadli qayta aloqa kabi usullarning ahamiyati qayd etilgan. Xu va hammualliflar tomonidan o‘tkazilgan tizimli sharhda klinik diagnostik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan turli yondashuvlar tahlil qilinib, strukturaviy refleksiya, o‘z fikrini tushuntirish va differensial tashxis variantlarini shakllantirishga yordam beradigan usullar istiqbolli yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatilgan (Xu et al., 2021).

Taklif etilayotgan modelning muhim jihati klinik keysni faqat bilimni tekshirish vositasi sifatida emas, balki diagnostik fikrlash jarayonini bosqichma-bosqich shakllantiruvchi pedagogik vosita sifatida tashkil etishdan iborat. Bunda talaba klinik belgilarni aniqlash, muammoni qisqacha ifodalash, ehtimoliy tashxislarni shakllantirish, ularni qiyoslash, tekshiruv ma'lumotlarini talqin qilish va qarorini dalillar bilan asoslash bosqichlaridan o'tadi.

Oftalmologiya fanida klinik keyslar vizual diagnostika bilan bog'liq topshiriqlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, qizargan ko'z, ko'rish o'tkirligining pasayishi, ko'z og'rig'i yoki ko'rish maydonidagi o'zgarishlar bilan bog'liq vaziyatlarda talaba simptomlarni alohida-alohida yodlash o'rniga ularning klinik ahamiyatini baholashi, xavf belgilarini ajratishi va differensial tashxisni asoslashni o'rganadi. Bunday keyslar o'qituvchi nazorati ostida muhokama qilinishi va diagnostik xatolar tahlili bilan yakunlanishi lozim.

RDL yondashuvi talabaning o'z qarorlarini qayta ko'rib chiqishi va reflektiv tahlil olib borishiga xizmat qilishi mumkin. ICI yondashuvi esa klinik vaziyatni bir nechta fanlar doirasida tahlil qilish imkonini beradi. DEAR algoritmi orqali tavsiflash, tushuntirish, tahlil qilish va refleksiya bosqichlarining izchil bajarilishi o'quv faoliyatini tizimlashtirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu uch yondashuvning mazkur tadqiqotdagi alohida hissasini aniqlash uchun ularning amaliy qo'llanishi va baholash natijalari alohida hujjatlashtirilishi zarur.

Diagnostik kompetentlikni baholashda faqat yakuniy tashxisning to'g'riligini hisobga olish yetarli emas. Talabaning muhim klinik ma'lumotlarni tanlashi, differensial tashxis variantlarini asosli shakllantirishi, tekshiruv natijalarini talqin qilishi, qaror qabul qilish mantiqini tushuntirishi va o'z xatolarini tahlil qilishi ham baholanishi kerak. Shu maqsadda analitik baholash rubrikalari, standartlashtirilgan klinik vazifalar va OSCE stansiyalaridan foydalanish mumkin.

Tadqiqotning muhim cheklovi shundaki, hozirgi ma'lumotlar guruhlar kesimidagi diagnostik kompetentlik darajalarini aks ettiradi, biroq boshlang'ich va yakuniy o'lchovlar taqdim etilmagan. Shuningdek, baholash mezonlari, o'lchov vositalarining validligi, tajriba davomiyligi va guruhlar o'rtasidagi boshlang'ich farqlar haqida qo'shimcha ma'lumot zarur. Kelgusidagi tahlilda ushbu omillar hisobga olinishi natijalarni yanada ishonchli talqin qilishga imkon beradi.

XULOSA

Klinik keyslar orqali talabalarning diagnostik kompetentligini rivojlantirish modeli tibbiy ta'limda nazariy bilimlarni klinik vaziyatlarni tahlil qilish, differensial tashxisni asoslash va reflektiv baholash bilan integratsiyalashga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv sifatida taklif etiladi.

Tadqiqotda taqdim etilgan 450 nafar talaba haqidagi ma'lumotlar tajriba va nazorat guruhlarida diagnostik kompetentlik darajalarining turlicha taqsimlanganini ko'rsatdi. Tajriba guruhida yuqori darajadagi ko'rsatkich 45,8%, nazorat guruhida esa 25,1% ni tashkil etdi. Past darajadagi ko'rsatkichlar mos ravishda 15,0% va 34,1% bo'ldi. Guruhlararo taqsimotning dastlabki statistik tahlilida statistik ahamiyatli farq aniqlandi.

Biroq mazkur natijalarni pedagogik modelning yakuniy samaradorligi sifatida talqin qilishdan oldin boshlang'ich va yakuniy o'lchovlarni, guruhlarni shakllantirish shartlarini va baholash vositalarining ishonchliligini aniqlashtirish zarur.

Taklif etilayotgan modelni ta'lim amaliyotida qo'llash klinik keyslarni maqsadli tanlash, diagnostik kompetentlik komponentlarini aniq belgilash, strukturaviy refleksiya va muntazam qayta aloqani tashkil etish hamda baholash natijalarini tizimli tahlil qilishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xu H., Ang B. W., Soh J. Y., Ponnamperuma G. G. Methods to Improve Diagnostic Reasoning in Undergraduate Medical Education in the Clinical Setting: a Systematic Review // Journal of General Internal Medicine. 2021. Vol. 36, No. 9. P. 2745–2754. DOI: https://doi.org/10.1007/s11606-021-06916-0

2. Delavari S., Pourahmadi M. Teaching and learning clinical reasoning skill in undergraduate medical students: A scoping review // PLOS ONE. 2024. Bibliographic details should be verified on the publisher's page: https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC11482728/
3. Schmidt H. G., Mamede S. How to improve the teaching of clinical reasoning: a narrative review and a proposal // Medical Education. 2015. DOI: https://doi.org/10.1111/medu.12775.
4. 1. Xu H., Ang B.W., Soh J.Y., Ponnamperuma G.G. Methods to Improve Diagnostic Reasoning in Undergraduate Medical Education in the Clinical Setting: A Systematic Review // Journal of General Internal Medicine. 2021. Vol. 36, No. 9. P. 2745–2754. https://doi.org/10.1007/s11606-021-06916-0
2. Delavari S., Barzkar F., Rikers R.M.J.P., Pourahmadi M., Soltani Arabshahi S.K., et al. Teaching and Learning Clinical Reasoning Skill in Undergraduate Medical Students: A Scoping Review // PLOS ONE. 2024. Vol. 19, No. 10. Article e0309606. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0309606
3. Schmidt H.G., Mamede S. How to Improve the Teaching of Clinical Reasoning: A Narrative Review and a Proposal // Medical Education. 2015. Vol. 49, No. 10. P. 961–973. https://doi.org/10.1111/medu.12775
4. Cooper N., Bartlett M., Gay S., Hammond A., Lillicrap M., Matthan J., Singh M. Consensus Statement on the Content of Clinical Reasoning Curricula in Undergraduate Medical Education // Medical Teacher. 2021. Vol. 43, No. 2. P. 152–159. https://doi.org/10.1080/0142159X.2020.1842343
5. Cen X.Y., Hua Y., Niu S., Yu T. Application of Case-Based Learning in Medical Student Education: A Meta-Analysis // European Review for Medical and Pharmacological Sciences. 2021. Vol. 25, No. 8. P. 3173–3181. https://doi.org/10.26355/eurrev_202104_25726
6. Abdurakhmonov N.K. The Role of Clinical Case-Based Learning in Developing Diagnostic Skills of Medical Students // International Journal of Medical Sciences. 2025. Vol. 5, No. 9. Maqola sahifasi: https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijms/article/view/6395
7. Abdurakhmonov N.K. Features of Teaching Ophthalmology Based on Clinical Cases // EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements. 2025. Vol. 1, No. 10. P. 99–104. https://brightmindpublishing.com/index.php/ev/issue/view/20
8. Turaeva Y.M., Abdurakhmonov N.K. Distinctive Features of Teaching Based on Clinical Cases in the Field of Ophthalmology // Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. 2025. Vol. 4, No. 9. P. 1181–1184. https://ijmri.de/index.php/jmsi/article/view/2402
ijmri.de
9. Abduraxmonov N.X. Talabalarda diagnostik kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari // Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlari. 2025. № 10, C seriya. B. 112–117. https://kokandsu.uz/scientific_journals/journal_697f54da133a7.pdf .
C seriya



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

10. Abdurakhmonov N.K. Pedagogical and Psychological Factors in Developing Diagnostic Competence Through Clinical Case-Based Learning in Ophthalmology // Shokh Library. 2025. Vol. 1, No. 10. https://www.wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/5704

РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ СРЕДСТВАМИ РЕЧЕВОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ

Акмалова Дилдора Тохировна
доцент Наманганского государственного института
иностранных языков имени Исхокхона Ибрата

Аннотация. *В статье рассматривается развитие управленческой компетентности будущих педагогов средствами речевого взаимодействия в системе высшего образования. Исследуются возможности использования ситуационных заданий, межкультурного подхода и рефлексивного анализа коммуникативных решений для формирования управленческих умений. Экспериментальная работа охватила 429 студентов Наманганского государственного университета, Ферганского государственного университета, Каршинского государственного университета, Джизакского государственного педагогического университета и Бухарского государственного педагогического института. В экспериментальной группе высокий уровень сформированности управленческой компетентности выявлен у 53% студентов, в контрольной группе у 27%; низкий уровень у 16% и 42%. Полученные результаты подтверждают эффективность применения речевого взаимодействия в профессиональную подготовку будущих педагогов.*

Ключевые слова: *управленческая компетентность, будущий педагог, речевое взаимодействие, межкультурный подход, педагогическая коммуникация, профессиональная подготовка, рефлексия, экспериментальное исследование.*

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI NUTQIY TA’SIR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH

Akmalova Dildora Tohirovna
Namangan davlat instituti dotsenti
xorijiy tillar bo‘yicha Is’hoqxon Ibrat nomidagi

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning boshqaruv kompetentligini nutqiy muloqot vositalari orqali rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirish uchun vaziyatli topshiriqlar, madaniyatlararo yondashuv va kommunikativ qarorlarning refleksiv tahlilidan foydalanish imkoniyatlari o‘rganiladi. Tajriba-sinov ishlariga Namangan davlat universiteti, Farg‘ona davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti va Buxoro davlat pedagogika institutlarining 429 nafar talabalari jalb etildi. Tajriba guruhida boshqaruv kompetentligining yuqori darajada shakllanganligi 53%, nazorat guruhida 27%; past darajada*

shakllanganligi 16% va 42% talabalarda aniqlandi. Olingan natijalar bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda nutqiy o'zaro ta'sirni qo'llash samaradorligini tasdiqlaydi.

Tayanch iboralar: *boshqaruv kompetensiyasi, bo'lajak pedagog, nutqiy o'zaro ta'sir, madaniyatlararo yondashuv, pedagogik muloqot, kasbiy tayyorgarlik, refleksiya, eksperimental tadqiqot.*

DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS' MANAGERIAL COMPETENCE THROUGH SPEECH INTERACTION

Abstract. *The article examines the development of future teachers' managerial competence through speech interaction in higher education. It explores the potential of situational tasks, the intercultural approach, and reflective analysis of communicative decisions in developing managerial skills. The experimental study involved 429 students from Namangan State University, Fergana State University, Karshi State University, Jizzakh State Pedagogical University, and Bukhara State Pedagogical Institute. In the experimental group, 53% of students demonstrated a high level of managerial competence, compared with 27% in the control group. A low level was identified in 16% of students in the experimental group and 42% in the control group. The results indicate the effectiveness of incorporating speech interaction into the professional training of future teachers.*

Keywords: *managerial competence, future teacher, speech interaction, intercultural approach, pedagogical communication, professional training, reflection, experimental study.*

ВВЕДЕНИЕ

Профессиональная деятельность педагога предполагает постоянное решение управленческих задач, определение целей учебной деятельности, формулирование требований, распределение заданий, организации сотрудничества, регулировании возникающих разногласий и оценки достигнутых результатов. Значительная часть этих действий осуществляется посредством речи. От того, насколько точно сформулирована задача, обоснованно выражена оценка и своевременно скорректировано взаимодействие, зависит характер совместной деятельности участников образовательного процесса [1].

В связи с этим управленческую компетентность будущего педагога необходимо рассматривать как результат профессиональной подготовки, предполагающий способность применять знания при решении педагогических ситуаций, выбирать способы взаимодействия с учетом поставленных целей и



оценивать последствия принятых решений [5]. Освоение теоретических положений об организации образовательного процесса само по себе не гарантирует готовности к таким действиям. Для развития соответствующих умений студенту необходим опыт анализа ситуаций, выбора речевых стратегий, аргументации решений и последующей рефлексии.

Особую значимость эта проблема приобретает в условиях многоязычной и поликультурной образовательной среды Узбекистана [2; 3; 4; 8]. Участники образовательного процесса могут по-разному воспринимать замечания, выражать несогласие, реагировать на оценку и понимать коммуникативные намерения собеседника. Поэтому будущему педагогу важно учитывать обстоятельства общения, языковой и культурный опыт его участников, а также возможные последствия собственных речевых действий.

Несмотря на внимание исследователей к профессиональной компетентности педагога и педагогическому взаимодействию, требует дальнейшего изучения вопрос о том, каким образом целенаправленная организация речевого взаимодействия может способствовать развитию управленческой компетентности студентов и как изменения этой компетентности могут быть оценены по установленным критериям. Данная проблема определила направленность настоящего исследования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Теоретическую основу исследования составили компетентностный подход к профессиональной подготовке, положения о рефлексивном осмыслении профессиональных действий и представления о межкультурном характере педагогической коммуникации. При разработке исследовательской логики учитывались работы М. Байрама, Д. Шёна, Г. Спиллейна [4; 5; 6] и др. авторов, рассматривающих межкультурную компетентность, профессиональную рефлексию и распределение управленческих функций в образовательной среде.



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

В исследовании участвовали 429 студентов пяти высших образовательных организаций: Наманганского государственного университета, Ферганского государственного университета, Каршинского государственного университета, Джизакского государственного педагогического университета и Бухарского государственного педагогического института. Контрольную группу составили 213 студентов, экспериментальную 216 студентов. Исследование было направлено на оценку сформированности управленческой компетентности будущих педагогов. При анализе учитывались мотивационно-ценностный, когнитивный, деятельностный и рефлексивный компоненты, которые характеризуют соответственно отношение будущего педагога к управленческим функциям и взаимодействию; понимание задач и принципов педагогического управления; способность выбирать и применять способы организации совместной деятельности; готовность анализировать принятые решения и корректировать собственные действия.

В качестве содержательных оснований оценки рассматривались понимание управленческой деятельности, анализ педагогических ситуаций, обоснованность решений, организация образовательного процесса, регулирование взаимодействия, разрешение конфликтных ситуаций, коммуникативная гибкость, прогнозирование результатов и адаптация действий к изменяющимся обстоятельствам. Сформированность компетентности оценивалась по трем уровням: высокому, среднему и низкому.

В процессе профессиональной подготовки использовались задания ситуационного характера, предполагающие анализ обстоятельств педагогического общения, выбор возможной речевой стратегии, аргументацию управленческого решения и последующее осмысление его ожидаемых последствий. При рассмотрении межкультурных ситуаций внимание уделялось различиям в

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

восприятии замечаний, выражении несогласия и интерпретации коммуникативных намерений [2; 3; 4; 8].

Для обработки результатов применялись сопоставление показателей контрольной и экспериментальной групп и анализ процентного распределения студентов по уровням сформированности компетентности. В представленных сводных данных итоговые показатели контрольной группы составляют 27% по высокому уровню, 31% по среднему и 42% по низкому; в экспериментальной группе — 53%, 31% и 16% соответственно. Эти значения использованы в последующем анализе.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Речь в педагогической деятельности выполняет несколько взаимосвязанных функций. С ее помощью преподаватель задает направление учебной работы, разъясняет требования, согласует действия участников, поддерживает обратную связь и регулирует возникающие затруднения. Управленческий характер речи проявляется в ее связи с целью, конкретной ситуацией и предполагаемым результатом взаимодействия[1; 6].

Например, формулирование задания требует точного определения ожидаемого результата и условий выполнения. Организация групповой работы связана с распределением функций, согласованием действий и установлением порядка обсуждения. При возникновении разногласий педагог должен определить причину затруднения, предоставить участникам возможность изложить свои позиции и направить обсуждение к обоснованному решению. Таким образом, качество речевого взаимодействия непосредственно связано с умением организовывать совместную деятельность.

Для будущего педагога существенна способность выбирать речевые средства с учетом характера ситуации. Категоричное замечание может усилить напряжение, тогда как уточняющий вопрос позволит выяснить причины ошибки



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

и сохранить рабочее взаимодействие. При обсуждении спорного вопроса проблематизация помогает выявить противоречие и побуждает участников предложить варианты решения. Стратегия согласования предполагает сопоставление аргументов и поиск приемлемого решения. Рефлексивная стратегия направлена на осмысление причин возникшего затруднения и оценку последствий предпринятых действий [5; 7].

Освоение этих стратегий требует систематической работы. Студенту необходимо анализировать не только содержание собственного высказывания, но и его функцию: какую задачу оно решает, как может быть воспринято собеседником и какое влияние способно оказать на дальнейшее взаимодействие. Такая работа переводит знания о педагогической коммуникации в плоскость профессиональных решений.

Межкультурный подход приобретает особое значение в образовательной среде, где взаимодействуют участники с различным языковым и культурным опытом [2–4; 8].. Различия могут проявляться в способах выражения критики, отношении к статусу собеседника, допустимой степени прямоты высказывания и готовности открыто выражать несогласие. Вследствие этого внешняя реакция обучающегося не всегда позволяет однозначно установить его отношение к ситуации. Будущему педагогу важно избегать поспешных выводов и уточнять смысл коммуникативной реакции. Если обучающийся не отвечает на замечание, педагог может проверить, правильно ли поняты требования, предложить сформулировать вопросы или предоставить время для обдумывания. При открытом несогласии целесообразно выяснить основания позиции обучающегося, отделить содержательный спор от личного конфликта и организовать обсуждение на основе аргументов.

Подобные ситуации целесообразно включать в профессиональную подготовку студентов в форме учебных кейсов. В ходе работы студентам



предлагается представить себя в роли учителя, проанализировать условия ситуации, определить возможные причины поведения участников и разработать несколько вариантов речевого реагирования. Затем варианты сопоставляются по их предполагаемым последствиям, обоснованности и соответствию цели педагогического взаимодействия.

Рефлексивное обсуждение позволяет студентам обосновать выбор способа общения, сопоставить его с возможными альтернативами и оценить влияние речевых формулировок на ход взаимодействия [5; 7]. Речевые действия при этом анализируются с точки зрения их соответствия поставленной управленческой цели и возможных последствий для участников взаимодействия.

Экспериментальная работа была ориентирована на развитие способности будущих педагогов решать управленческие задачи посредством анализа и организации речевого взаимодействия. Содержание заданий охватывало ситуации постановки учебных целей, организации совместной деятельности, регулирования коммуникации, разрешения разногласий и оценки результатов.

Важное место отводилось последовательности профессионального действия: анализ ситуации, определение цели, выбор способа взаимодействия, обоснование решения и рефлексивная оценка. Такая последовательность позволяла рассматривать управленческую компетентность как интегративное образование, проявляющееся в согласованности знаний, ценностных установок, практических умений и рефлексии [1; 5; 6].

Оценка по трем уровням позволяла сопоставить итоговое распределение студентов в контрольной и экспериментальной группах. Высокий уровень отражал способность самостоятельно анализировать педагогические ситуации, аргументированно выбирать способы организации взаимодействия и учитывать возможные последствия решений. Средний уровень характеризовался частичной самостоятельностью при решении задач и потребностью в дополнительном

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

обосновании выбранных действий. Низкий уровень указывал на затруднения при анализе ситуации, выборе адекватного способа взаимодействия и прогнозировании результата.

Следует подчеркнуть, что уровень сформированности определялся совокупностью оцениваемых показателей, а не отдельным коммуникативным умением. Это позволяло избежать сведения управленческой компетентности исключительно к речевой правильности или способности поддерживать разговор. Сопоставление результатов контрольной и экспериментальной групп представлены в таблице 1.

Таблица 1. Итоговое распределение студентов по уровням сформированности управленческой компетентности

Уровень	**Контрольная группа, чел.**	**Контрольная группа, %**	**Экспериментальная группа, чел.**	**Экспериментальная группа, %**
Высокий	58	27	114	53
Средний	66	31	67	31
Низкий	89	42	35	16
Всего	**213**	**100**	**216**	**100**

Сопоставление итоговых показателей обнаруживает различия в распределении студентов контрольной и экспериментальной групп по уровням сформированности управленческой компетентности. В экспериментальной группе высокий уровень выявлен у 53% студентов, в контрольной — у 27%. Разница составляет 26 процентных пунктов. При этом доля студентов с низким уровнем в экспериментальной группе равна 16%, тогда как в контрольной она достигает 42%. Разница по этому показателю также составляет 26 процентных пунктов.

Доля студентов со средним уровнем в обеих группах одинакова и составляет 31%. Это означает, что различия в итоговом распределении проявились прежде всего в соотношении высокого и низкого уровней. В экспериментальной группе больше студентов отнесены к высокому уровню и меньше — к низкому. Такая картина согласуется с предположением о значении целенаправленной работы над управленческими действиями будущего педагога, включая выбор речевых стратегий и анализ последствий коммуникации.

Полученные данные следует интерпретировать с учетом содержания экспериментальной работы. Ситуационные задания создают условия для анализа управленческих задач, а последующая рефлексия помогает студентам соотносить принятое решение с его целью и предполагаемым результатом. Межкультурная составляющая расширяет анализ ситуации за счет учета особенностей участников взаимодействия и возможных различий в интерпретации высказываний [2–4; 8]. В совокупности эти элементы могут поддерживать развитие управленческих умений, необходимых будущему педагогу.

Вместе с тем итоговое распределение по уровням само по себе не позволяет установить, какой именно компонент подготовки оказал наибольшее влияние на результат. Для такого вывода требуется отдельный анализ изменений по каждому критерию, а также сопоставление исходных и итоговых данных. В представленных материалах имеются расхождения между отдельными показателями таблицы 4.2 и сводными таблицами, поэтому выводы по динамике отдельных критериев следует формулировать после проверки исходных расчетов.

Кроме того, в материалах исследования упоминается применение критерия Стьюдента и критерия χ^2 Пирсона при уровне значимости $p<0,05$. Однако для независимого подтверждения статистической значимости необходимы соответствующие расчетные значения, сведения о проверяемых гипотезах и исходные данные. Поэтому в настоящем анализе основной акцент сделан на



фактически представленных итоговых частотах и процентных различиях, без самостоятельного утверждения о статистической значимости различий.

В целом результаты указывают на перспективность включения управляемого речевого взаимодействия в профессиональную подготовку будущих педагогов. Его развивающий потенциал определяется связью речевого действия с анализом ситуации, принятием решения, организацией совместной деятельности и последующей рефлексией. Дальнейшее исследование должно уточнить динамику каждого компонента управленческой компетентности и проверить устойчивость выявленных различий при использовании исходных данных экспериментальной работы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Развитие управленческой компетентности будущих педагогов предполагает освоение способов постановки целей, организации совместной деятельности, регулирования взаимодействия и оценки результатов. Речь выступает одним из основных средств реализации этих функций, поскольку через нее педагог формулирует требования, координирует действия участников, разрешает разногласия и обеспечивает обратную связь.

Межкультурный подход позволяет учитывать особенности восприятия и речевого поведения участников образовательного процесса. Его включение в профессиональную подготовку расширяет возможности анализа педагогических ситуаций и помогает будущим педагогам выбирать способы взаимодействия с учетом цели общения, обстоятельств и возможных последствий принятого решения. Существенную роль при этом играют ситуационные задания и рефлексивное обсуждение, позволяющие осмыслить основания выбранной стратегии [5; 7].

Сводные результаты экспериментального исследования, охватившего 429 студентов пяти высших образовательных организаций Узбекистана, выявили

различия в итоговом распределении уровней управленческой компетентности контрольной и экспериментальной групп. Высокий уровень был зафиксирован у 53% студентов экспериментальной группы и 27% студентов контрольной группы; низкий уровень — у 16% и 42% соответственно. Эти результаты свидетельствуют о перспективности применения целенаправленных средств речевого взаимодействия в подготовке будущих педагогов, хотя окончательные выводы об эффективности требуют согласования всех таблиц, проверки исходных данных и представления статистических расчетов.

Практическое значение исследования заключается в возможности использовать его положения при разработке учебных кейсов, заданий по анализу педагогических ситуаций и средств оценки управленческих умений студентов. Перспективным направлением дальнейшей работы является уточнение критериев и индикаторов каждого компонента управленческой компетентности, а также изучение связи между характером речевых решений и изменениями итоговых показателей.

Список литературы:

1. Акмалова Д.Т. Методические условия формирования управленческой компетентности будущих учителей русского языка через освоение технологий управления дискурсом // Slavica Beliana. 2026. С. 206–213.
2. Богословский В.И., Жукова Т.А., Климова И.И. Изменения подготовки педагогов к межкультурному взаимодействию: региональный аспект // Вестник Томского государственного педагогического университета. 2022. № 5. С. 58–66.
3. Дильдина Н.А., Быстрай Е.Б., Артеменко Б.А., Евтушенко И.Н., Белова Л.А. Формирование межкультурной компетенции будущих педагогов // Вестник Тверского государственного университета. Серия: Педагогика и психология. 2023. № 4. С. 176–188.
4. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Clevedon: Multilingual Matters, 1997.
5. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books, 1983.
6. Spillane J.P. Distributed Leadership. San Francisco: Jossey-Bass, 2006.
7. Gibbs G. Learning by Doing: A Guide to Teaching and Learning Methods. Oxford: Further Education Unit, Oxford Polytechnic, 1988.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

8. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.

TALABALARNING FAOLLIGI VA ONGLILIGINI SUN'IY INTELLEKT USULLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH: PEDAGOGIK MODEL VA EMPIRIK TAHLIL

Yunusova Minovvarxon Sabirovna
O'zbekiston milliy universiteti mustaqil tadqiqotchi
ORCID iD: 0000-0002-8180-4689
yminovvar@gmail.com

Annotatsiya. *Zamonaviy oliy ta'lim muhitida talabalarning passiv axborot qabul qiluvchidan mustaqil va ongli bilim egallovchi subyektga aylanishi ta'lim sifatini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Pedagogik tizimda onglilik va faollik tamoyillarini integratsiya qilish kognitiv va metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.*

Tadqiqotda pedagogik eksperiment, Blum taksonomiyasiga asoslangan kognitiv baholash, Kolbning tajribaviy ta'lim sikli (Experiential Learning Cycle) modeli hamda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Nazorat va tajriba guruhlari jalb etildi.

Tajriba guruhida onglilik va kognitiv faollik darajasi nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ahamiyatli darajada yuqori ekanligi isbotlandi. Mustaqil tahlil va akademik o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari 16.5% ga oshdi. Ishlab chiqilgan didaktik model talabalarning akademik o'zlashtirishi va metakognitiv salohiyatini oshirishda yuqori samaradorlikni ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: *pedagogik tizim, onglilik va faollik, kognitiv asinxronlik, metakognitsiya, Blum taksonomiyasi, Kolb sikli, pedagogik eksperiment.*

РАЗВИТИЕ АКТИВНОСТИ И СОЗНАТЕЛНОСТИ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ МЕТОДОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ И ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Юнусова Миноввархон Сабировна
Национальный университет Узбекистана независимый исследователь
yminovvar@gmail.com

Аннотация. *В современной среде высшего образования трансформация студентов из пассивных получателей информатсии в самостоятельных и осознанных субъектов, приобретающих знания, является основным фактором повышения качества образования. Интеграция принципов осознанности и активности в педагогическую систему напрямую влияет на развитие когнитивных и метакогнитивных навыков.*

В исследовании использовалис педагогический эксперимент, когнитивная отсенка на основе таксономии Блума, модель цикла экспериментального обучения Колба, а также методы

математического и статистического анализа. Были задействованы контролная и эксперименталная группы. Было доказано, что уровен осознанности и когнитивной активности в эксперименталной группе был статистически значимо выше, чем в контролной группе (n<0,05). Навыки независимого анализа и академического самоорганизатсии увеличилис на 16,5%. Разработанная дидактическая модель показала высокую эффективност в повышении академической компетентности и метакогнитивного потенциала студентов.

Ключевыэ слова: *педагогическая система, осознанност и активност, когнитивная асинхронност, метакогниция, таксономия Блума, цикл Колба, педагогический эксперимент.*

DEVELOPING STUDENT ENGAGEMENT AND CONSCIOUSNESS THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE METHODS: A PEDAGOGICAL MODEL AND EMPIRICAL ANALYSIS

Yunusova Minovvarxon Sabirovna
National University of Uzbekistan independent researcher
yminovvar@gmail.com

Abstract. *In the modern environment of higher education, the transformation of students from passive receivers of information to independent and conscious knowledge-acquiring subjects is the main factor in improving the quality of education. Integration of the principles of awareness and activity in the pedagogical system has a direct impact on the development of cognitive and metacognitive skills.*

Pedagogical experiment, cognitive assessment based on Bloom's taxonomy, Kolb's Experiential Learning Cycle model and mathematical-statistical analysis methods were used in the research. Control and experimental groups were involved.

It was proved that the level of consciousness and cognitive activity in the experimental group was statistically significantly higher than in the control group. Independent analysis and academic self-management skills increased by 16.5%. The developed didactic model showed high efficiency in increasing students' academic mastery and metacognitive potential.

Key words: *pedagogical system, awareness and activity, cognitive asynchrony, metacognition, Bloom's taxonomy, Kolb's cycle, pedagogical experiment.*

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim transformatsiyasi jarayonida axborot jamiyatining jadal rivojlanishi va intellektual mehnatga bo'lgan talabning ortishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining bosh maqsadi shunchaki tayyor nazariy bilim va axborotlarni uzatishdan iborat bo'lmay, balki bo'lajak

mutaxassislarda mustaqil fikrlash, ongli qaror qabul qilish va o‘z bilish faoliyatini mustaqil boshqarish (self-regulated learning) ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir[10]. Axborot oqimi cheksiz darajada ortgan hozirgi sharoitda an’anaviy, ya’ni talabani passiv axborot qabul qiluvchi subyekt sifatida ko‘ruvchi ta’lim modellari o‘z samaradorligini batamom yo‘qotmoqda. Shu sababli, pedagogik tizimda talabalarning kognitiv va metakognitiv[8] faolligini oshirishga yo‘naltirilgan yangi didaktik yondashuvlarni joriy etish akademik va amaliy jihatdan o‘ta dolzarb masaladir. Ushbu tadqiqotning asosiy muammosi oliy ta’lim amaliyotida tez-tez kuzatiladigan kognitiv asinxronlik bilan bog‘liq. Ya’ni, nazariy bilimlarni berish jarayoni va talabalarning ushbu bilimlarni ongli ravishda anglashi, mantiqiy kayta ishlashi hamda amaliyotga mustaqil tatbiq etishi o‘rtasida sezilarli uzilish mavjud. Aksariyat talabalar o‘quv materialini reproduktiv, ya’ni shunchaki yodlash va takrorlash darajasida o‘zlashtiradi. Bu holat ularda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni mustaqil yechish va kreativ yondashuv salohiyatining yetarlicha rivojlanmasligiga olib kelmoqda. Bu muammoni hal etish uchun pedagogik tizimning muhim tamoyillaridan bo‘lgan onglilik va faollik elementlarini yangi didaktik vazifalar asosida qayta ko‘rib chiqish talab etiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning maqsadi – oliy ta’limning pedagogik tizimida talabalarning ongliligi va kognitiv faolligini oshirishga qaratilgan ko‘p komponentli didaktik modelni ishlab chiqish va uning samaradorligini empirik jihatdan asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi: onglilik va faollik tamoyillarining kognitiv-pedagogik va psixolog asoslarini tahlil qilish; talabalarning metakognitiv faolligini oshirishga xizmat qiluvchi uch bosqichli didaktik model va algoritmni shakllantirish; pedagogik eksperiment o‘tkazish orqali taklif etilgan modelning akademik o‘zlashtirish va kognitiv faollik darajasiga ta’sirini matematik-statistik usullar yordamida baholash.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Nazariy jihatdan ushbu tadqiqot L.S. Vigotskiyning ijtimoiy-konstruktivizm va yaqin rivojlanish hududi konsepsiyalariga, S.L. Rubinshteynning faoliyat yondashuvi (onglilik va faollik birligi tamoyili)ga, D. Kolbning[9] tajribaviy ta'lim sikli (Experiential Learning Cycle) va B. Blumning[6] kognitiv taksonomiyasiga tayanadi. Ushbu manbalar talabaning reproduktiv bosqichdan metakognitiv va kreativ fikrlash bosqichiga o'tish qonuniyatlarini ilmiy asoslab beradi. Tadqiqotning yangiligi onglilik va faollikni rivojlantirishning uch bosqichli: aksiologik-motivatsion, kognitiv-protsessual va ryefleksiv-metakognitiv yaxlit didaktik modelining ishlab chiqilganida hamda uning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari tizimi yaratilganida namoyon bo'ladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa olingan natijalar va taklif etilgan algoritmdan professor-o'qituvchilar tomonidan fan dasturlarini tuzishda, mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etishda hamda talabalarning kognitiv ko'nikmalarini baholashda keng foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan belgilandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagogik tizimda onglilik talabaning o'quv maqsadlari, qo'llanilayotgan metodlar va kutilayotgan akademik natijalar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqadorligini va ichki mohiyatini chuqur anglashini bildiradi. Faollik esa ushbu ongli anglashning tashqi amaliy, kognitiv va amaliy-harakatlardagi intensiv namoyon bo'lish jarayonidir. Ta'lim jarayonida onglilik va faollik bir-birini to'ldiruvchi va birgalikda rivojlanuvchi kategoriyalar hisoblanadi. Ushbu konsepsiyani amaliyotga joriy etish maqsadida uchta o'zaro bog'liq komponentdan iborat didaktik model va uni amalga oshirish algoritmi ishlab chiqildi.

Pedagogik modelning birinchi bosqichi – aksiologik-motivatsion blok bo'lib, u talabalarda o'quv vazifalariga nisbatan ichki ehtiyoj, qadriyatli munosabat va mas'uliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan. Bu bosqichda o'qituvchi va talaba birgalikda o'quv maqsadlarini SMART[9] mezonlari (aniq, o'lchanadigan, erishiladigan, muhim va vaqt bilan chegaralangan) asosida dekompozitsiya qiladi. Talaba "Bu bilim

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

menga kelajakdagi kasbiy faoliyatimda va shaxsiy rivojlanishimda nima beradi?" degan savolga aniq javob topishi lozim.

Aksiologik-motivatsion blok maqsadi: talabalarda raqamli huquq va axborot texnologiyalarini o'rganishga nisbatan ongli qadriyatli yondashuvni shakllantirish.

SMART mezonlari asosida maqsadni dekompozitsiya qilish:

Aniq: "Lex.uz" milliy qonunchilik bazasi va xorijiy elektron platformalardan foydalanib, muayyan huquqiy muammo yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlar sharhini tayyorlash[4].

O'lchanadigan: Qonun hujjatlaridagi kolliziyalarni (qarama-qarshiliklarni) aniqlash va tahlil qilish matricasini tuzish.

Erishiladigan: Sun'iy intellekt va semantik qidiruv tizimlari yordamida tegishli sud amaliyoti pretsedentlarini topish va guruhda muhokama qilish.

Muhim: Kelajakdagi advokatlik, konsalting yoki davlat xizmati faoliyatida raqamli ko'nikmalarning zarurligini anglash.

Vaqt bilan chegaralangan: 1 hafta iqtisodiy/huquqiy keys uchun raqamli hisobot tayyorlash.

Amaliy topshiriq: Talabalar o'zlariga quyidagi savolni berib, mini-esse yozadilar: "Huquqiy axborot texnologiyalarini egallash mening kelajakdagi yuridik amaliyotimda masalan, raqamli shartnomalarni tuzish yoki kiberjinoyatlar oldini olishda qanday afzalliklar beradi?"

Ikkinchi bosqich – kognitiv-protsessual blok bo'lib, u D. Kolbning[9] tajribaviy ta'lim sikli asosida mashg'ulotlarni tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu bosqich to'rt bosqichli algoritm asosida kechadi: konkret tajriba muammoli vaziyatga duch kelish, refleksiv kuzatuv jarayonni muhokama qilish va sabablarini izlash, mavhum konseptualizatsiya nazariy xulosalar va modellarni shakllantirish va faol eksperiment yangi bilimni amaliy keyslarda sinashdan iborat bo'ldi.

Kognitiv-protsessual blok (D. Kolb sikli asosida) maqsadi: raqamli huquqiy instrumentlarni amaliyotda sinab ko‘rish va nazariy bilimlarni chuqurlashtirish.

D. Kolb[9] sikli bosqichlari bo‘yicha topshiriqlar:

1-bosqich: konkret tajriba (muammoli vaziyat). Talabalarga ma’lumotlar bazasida eskirgan yoki amalda o‘z kuchini yo‘qotgan normani topish va uning huquqiy oqibatlarini ko‘rish vazifasi berildi.

2-bosqich: ryefleksiv kuzatuv. “Nima uchun bu norma amaliyotda ziddiyat keltirib chiqardi?” degan savol ostida elektron bazadagi qidiruv algoritmlari va hujjatlarning o‘zgarish tarixi tahlil qilindi.

3-bosqich: mavhum konseptualizatsiya. Normativ-huquqiy hujjatlarni raqamli tizimlarda qayta ishlash hamda elektron hukumat platformalarining ishlash prinsiplari bo‘yicha nazariy modellar (masalan, smart-kontraktlarning huquqiy tabiati) shakllantiriladi.

4-bosqich: faol eksperiment. Talabalar sun’iy intellekt modellari va prompt injiniring vositalari yordamida muayyan shartnoma loyihasini tuzib, uning yuridik xavfsizligini amaliy keyslarda tekshirib ko‘radilar.

Uchinchi bosqich – refleksiv-metakognitiv blok bo‘lib, u B. Blum[5] taksonomiyasining yuqori bosqichlari bo‘lgan Tahlil (Analysis), Baholash (Evaluation) va Yaratish (Creation) darajasidagi muammoli topshiriqlarni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda talaba shunchaki ma’lumotni eslab qolmaydi, balki uni tanqidiy tahlil qiladi, turli yondashuvlarni solishtiradi va yangi, muqobil muammoli yechimlarni yaratdi. Bundan tashqari, ushbu bosqichda metakognitiv kundaliklar va o‘z-o‘zini baholash (self-assessment) varaqlaridan foydalanildi.

Refleksiv-metakognitiv blok maqsadi: yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘quv jarayonini mustaqil boshqarish. B.Blum[6] taksonomiyasining yuqori bosqichlari asosida topshiriqlar:

Tahlil: "Elektron hukumat" tizimi orqali fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash va himoya qilishda yuzaga keladigan xavflarni O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni[1] talablari asosida taqqoslab tahlil qilish.

Baholash: Sud hujjatlarini avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qiluvchi sun'iy intellekt dasturlarining qarorlarini tanqidiy baholash va inson omilining rolini himoya qilib ilmiy yondashuvni asoslab berish.

Yaratish: Ommaviy nizolarni sudgacha hal etish uchun mo'ljallangan "Online Dispute Resolution" onlayn mediatsiya platformasining huquqiy konsepsiyasi va loyihasini ishlab chiqish.

Metakognitiv vositalar: har bir amaliy mashg'ulot so'nggida talabalar o'z faoliyatini baholash uchun metakognitiv kundalik to'ldiradilar: "Bugungi mashg'ulotda qaysi raqamli vositani o'zlashtirishda qiynaldim va uni qanday bartaraf etdim?" "Qo'llanilgan algoritmlar kelajakdagi kasbiy qarorlarimga qanday ta'sir ko'rsatadi?"savollarga javob berish orqali talabalar onglilik ko'nikmalari rivojlantirildi. "Huquqiy axborot texnologiyalari" moduli doirasida yuqoridagi 3 ta bosqichga asoslangan amaliy keys hamda talabalarning kognitiv va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish darajasini baholashga mo'ljallangan kompleks baholash mezonlari ishlab chiqildi. Integratsiyalashgan amaliy keys nomi: "Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlovchi smart-platformani yuridik va raqamli auditi". Keys mazmuni va muammoli vaziyat "FinTech-Innovations" MCHJ fuqarolarga avtomatik tarzda mikrodaroz berish uchun sun'iy intellekt (SI) nizomlaridan foydalanadigan va shaxsiy ma'lumotlarni to'playdigan veb-platformani ishga tushirdi. Platforma foydalanuvchilarning kredit tarixi, ijtimoiy tarmoqdagi faolligi va geopozitsiyasini to'plab, avtomatik ravishda skoring (reyting) chiqaradi. Ammo bir nechta fuqarolar o'z shaxsiy ma'lumotlari noqonuniy to'planganligi hamda SI algoritmi asossiz ravishda kredit ajratishni rad etganligi to'g'risida shikoyat qilishdi.

Bosqichlar bo'yicha tahlilini keltirildi:

1-bosqich aksiologik-motivatsion blok:

Topshiriq: Talaba sifatida ushbu keysda IT-huquqshunosning rolini aniqlang va SMART mezonlari asosida o‘z o‘quv/amaliy maqsadingizni shakllantiring.

Savol: Raqamli muhitda fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlari va huquqlarini himoya qilish nima uchun jamiyat va sizning kasbiy nufuzingiz uchun muhim?

2-bosqich kognitiv-protsessual blok - D. Kolb sikli:

Konkret tajriba: platformaning foydalanuvchi shartnomasi va shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash bo‘yicha ommaviy ofertasini tahlil qiling.

Refleksiv kuzatuv: elektron qonunchilik bazalari “Lex.uz” va semantik qidiruv vositalaridan foydalanib, O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi va “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi[2] qonunlaridagi qaysi normalar buzilganligini aniqlang.

Mavhum konseptualizatsiya: avtomatlashtirilgan SI qarorlarining yuridik javobgarligi va raqamli dalillarning asoslanganligi bo‘yicha xulosa/model ishlab chiqing.

Faol eksperiment: Sun’iy intellekt modellari (prompt injiniring) yordamida kompaniya uchun shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashga rozilik olishning muqobil huquqiy shablonini tayyorlang va xavfsizligini sinang.

3-bosqich ryefleksiv-metakognitiv blok - Blum taksonomiyasi:

Tahlil: platformaning SI algoritmidagi xolislik (bias) va yuridik xavflarni taqqoslang.

Baholash: SI tomonidan inson aralashuvisiz chiqarilgan kredit berishni rad etish qarorining qonuniyligini tanqidiy baholang.

Yaratish: kompleks yuridik va raqamli audit hisobotini hamda muammoni sudgacha hal etish bo‘yicha tavsiyalarni shakllantiring kabi topshiriqlar berish orqali talabalarda onglilik va kognetiv faollikga erishildi.

Baholash talabalarning onglilik bilim va refleksiya va faollik amaliy harakat va yechim ko‘rsatkichlari asosida 100 ballik tizimda amalga oshirildi:

Blok / Mezon	**Past ko‘rsatkich (0-59%)**	**O‘rta ko‘rsatkich (60-79%)**	**Yuqori ko‘rsatkich (80-100%)**
1. Aksiologik-motivatsion blok *(15% ball)*	Maqsad aniq qo‘yilmagan; IT-huquqshunosning rolini va raqamli ko‘nikmalarning kasbiy muhimligini yuzaki tushunadi.	SMART mezoni qisman qo‘llanilgan; raqamli texnologiyalarning huquqdagi o‘rnini tushunadi, lekin shaxsiy motivlar sust.	SMART mezonlari to‘liq shakllantirilgan; raqamli huquqning qadriyatli o‘rni va kasbiy mas’uliyatni ongli anglaydi.
2. Kognitiv-protsessual blok (Kolb sikli) *(35% ball)*	Elektron qonunchilik bazalaridan (Lex.uz va boshq.) qidirishda qiynaladi; SI vositalarini va keys muammosini amaliyotda tahlil qila olmaydi.	Normativ hujjatlarni va SI natijalarini topa oladi, ammo refleksiv va konseptual tahlilda xatoliklarga yo‘l qo‘yadi.	Axborot texnologiyalari va qidiruv algoritmlaridan erkin foydalanadi; Kolb sikli bo‘yicha muammoni tizimli yechadi.
3. Refleksiv-metakognitiv blok (Blum	Shunchaki faktologik ma’lumotni	Muammoni tahlil qiladi va baholaydi, lekin	Muammoni chuqur tanqidiy tahlil qiladi; SI

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Blok / Mezon	**Past ko‘rsatkich (0-59%)**	**O‘rta ko‘rsatkich (60-79%)**	**Yuqori ko‘rsatkich (80-100%)**
taksonomiyasi) *(40% ball)*	keltiradi; tanqidiy tahlil, baholash va yangi huquqiy yechim yaratish ko‘nikmasi rivojlanmagan.	muqobil va innovatsion huquqiy loyiha/hujjat yaratishda sustlik qiladi.	va raqamli tizimlar xatarini xolis baholaydi va mukammal yangi yechim (ODR/hujjat) yaratadi.
4. Metakognitiv refleksiya va kundalik *(10% ball)*	Metakognitiv kundalikni yuzaki yoki rasmiyatchilik uchun to‘ldiradi; o‘z xato va yutuqlarini tahlil qila olmaydi.	Shaxsiy o‘quv jarayoni va duch kelingan qiyinchiliklarni qisman aniqlaydi va tuzatish kiritadi.	O‘z-o‘zini baholash (Self-assessment) va metakognitiv tahlilni mukammal yuritadi; kasbiy rivojlanish trayektoriyasini aniq ko‘radi.

“Huquqiy axborot texnologiyalari” moduli bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining samaradorligini baholash uchun 100 ballik mezon natijalari asosida Styudentning t-kriteriysi mezoni yordamida statistik tahlil modeli keltirilgan.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqotda 2 ta guruh ishtirok etdi: **Nazorat guruhi (NG, n = 30)** - an'anaviy metodika bo'yicha va **Tajriba guruhi (TG, m = 30)** – taklif etilgan 3 bosqichli didaktik model va keyslar asosida ta'lim berilgan.

Blok / Mezon (Maks. ball)	**Nazorat guruhi (n=30)**	**Tajriba guruhi (m=30)**	**O'sish darajasi (Δ)**
Aksiologik-motivatsion blok (15 ball)	10.2	13.6	+3.4
Kognitiv-protsessual blok (35 ball)	23.5	30.8	+7.3
Refleksiv-metakognitiv blok (40 ball)	25.1	34.7	+9.6
Metakognitiv kundalik va refleksiya (10 ball)	6.1	8.9	+2.8
Jami integral ball (100 ball)	**64.9**	**88.0**	**+23.1**

Ishlab chiqilgan raqamli pedagogik model hamda yuridik prompt-injiniring metodikasining pedagogik samaradorligini baholashda miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarining xolisligini ta'minlash maqsadida matematik-statistik tahlilning Styudent t-mezonidan foydalanildi.Tadqiqotda tajriba va nazorat guruhlarining o'rtacha tanlanma qiymatlari o'rtasida statistik jihatdan muhim farqlarning mavjudligini tekshirish uchun dastlab o'rtacha qiymatlar tengligi haqidagi $H_0: a_x = a_y$ tanlanmalarning tanlangan ko'rsatkichlar bo'yicha o'rtacha qiymatlari tengligi haqidagi faraz ilgari surildi. Ushbu nol gipotezaga qarama-qarshi o'laroq, tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqlar tasodifiy emas, balki taklif etilgan metodikaning ta'siri oqibatida

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yuzaga kelganligini ko‘rsatuvchi muqobil gipoteza $H_1: a_x^1 a_y$ ekanligini yuqoridagi ma’lumotlar asosida Styudent-Fisher statistikasi orqali tekshirildi.

$$T_{m\ 1\ n} = \frac{\left|\overline{y} - \overline{x}\right|}{\sqrt{\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}}}$$

Agar $T>T_r=t$ bo‘lsa, N_0 faraz rad etilib, N_1 faraz qabul qilindi. Tajriba-sinov ishlari nihoyasida, tajriba guruhidagi talabalarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan 1,16 (16%) yuqori ko‘rsatkichga ega ekanligi jadval va diagramma ma’lumotlariga ko‘ra yuqori ekanligiga amin bo‘lindi. Bu joriy qilingan usul samarador ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Zamonaviy raqamli asrda yurisprudensiya va axborot texnologiyalarining integratsiyalashuvi bo‘lajak huquqshunoslardan nafaqat klassik qonunlarni yod olishni, balki raqamli muhitda tezkor qaror qabul qilish, sun’iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish va kibermakonda huquqiy xavfsizlikni ta’minlash ko‘nikmalarini talab etadi.“Huquqiy axborot texnologiyalari” moduli doirasida ishlab chiqilgan mazkur didaktik model ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi:

Aksiologik-motivatsion blok orqali talabalar raqamli vositalarni o‘zlashtirishning shaxsiy va kasbiy ahamiyatini anglaydilar hamda SMART mezonlari asosida o‘z oldilariga aniq maqsad qo‘yishni o‘rganadilar.

Kognitiv-protsessual blok (D. Kolb sikli) nazariy bilimlarni real raqamli muammolar “Lex.uz” bazasi, elektron hukumat platformalari va SI loyihalari bilan bog‘lab, amaliy tajriba orqali mustahkamlash imkonini beradi.

Refleksiv-metakognitiv blok (B. Blum taksonomiyasi) esa talabalarda yuqori darajadagi tanqidiy tahlil, muqobil huquqiy yechimlarni yaratish hamda o‘z-o‘zini doimiy rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Umuman olganda, taqdim etilgan model **onglilik va faollik** uyg‘unligiga asoslanib, talabani passiv tinglovchidan faol raqamli huquqiy tadqiqotchi va amaliyotchiga



aylantiradi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizda raqamli hukumat va raqamli iqtisodiyot sharoitida yuridik xizmatlar sifatini keskin oshirishga xizmat qiluvchi malakali kadrlarni tayyorlashni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ-547-son “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/4396419
2. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi O‘RQ-764-son “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/5963982
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy yetish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son Qarori. https://lex.uz/docs/5297051
4. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi(Lex.uz). https://lex.uz/
5. L.W.Anderson & D.R.Krathwohl. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman. 2001.
6. B.S.Bloom. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain. New York: David McKay Company. 1956.
7. G.T.Doran, There`s a S.M.A.R.T. way to write management's goals and objectives. Management Review, 70(11), 35–36. 1981.
8. J.H.Flavell Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. American Psychologist, 34(10), 906–911.1979.
9. D.A.Kolb, Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.1984.
10. D.Sattorov Modern trends and innovations in the development of higher education. Perspectives of Higher Education Development, 19(1). 2026.

YUQORI SINF O'QUVCHILARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI

Umuxanov Nodirjon Bobirovich
University of Business and Science Ingliz tili o'qituvchisi
+998912811171
nodirbekumukhanov@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada yuqori sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi leksik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi lingvodidaktik yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinadi. Maqsadli va tasodifiy o'zlashtirish, leksik-formulaik, korpusga tayangan, texnologik hamda kommunikativ-faoliyatli yondashuvlarning didaktik imkoniyatlari o'zlashtirish mexanizmi, o'qitish birligi va nutqqa ko'chirish samaradorligi nuqtai nazaridan baholanadi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, ilmiy adabiyotlarni qiyosiy o'rganish, konseptual umumlashtirish va metodik modellashtirish usullariga asoslanadi. Tahlil natijasida alohida yondashuvlarning cheklovlarini o'zaro to'ldirish, leksik materialni mazmunli vazifalar orqali produktiv nutqqa olib chiqish va takrorni o'quv sikllari bo'ylab tashkil etish zarurligi asoslanadi. Yuqori sinf o'quvchilarining yosh-psixologik xususiyatlari, retseptiv va produktiv lug'at o'rtasidagi tafovut, kollokatsion xatolar hamda tayyorgarlik darajasining turlicha ekanligi hisobga olinib, kommunikativ vazifa sikliga tayangan integrativ metodik model taklif etiladi. Modelning nazariy imkoniyatlari va uni amaliy tekshirish uchun zarur diagnostik ko'rsatkichlar ajratiladi.*

Kalit so'zlar: *leksik kompetensiya, yuqori sinf, lingvodidaktik yondashuv, maqsadli o'qitish, tasodifiy o'zlashtirish, kollokatsiya, kommunikativ vazifa, differensial yondashuv.*

ИНТЕГРАЦИЯ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В РАЗВИТИЕ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ

Аннотация. *В статье проводится сравнительный анализ лингводидактических подходов к развитию лексической компетенции старшеклассников при изучении английского языка. Рассматриваются возможности эксплицитного и имплицитного усвоения лексики, лексико-фразового, корпусного, технологического и коммуникативно-деятельностного подходов. Исследование носит теоретико-аналитический характер и основано на сопоставлении научных источников, концептуальном обобщении и методическом моделировании. Установлено, что продуктивное использование словарного запаса требует сочетания целенаправленной работы с языковыми единицами, многократного контекстного предъявления и решения содержательных коммуникативных задач. С учётом возрастных особенностей учащихся, различий между рецептивным и продуктивным словарём, коллокационных ошибок и неоднородности языковой подготовки предложена интегративная модель, организованная вокруг цикла коммуникативного задания. Обозначены критерии её последующей эмпирической проверки.*



Ключевые слова: *лексическая компетенция, старшие классы, лингводидактика, эксплицитное обучение, имплицитное усвоение, коллокация, коммуникативное задание, дифференциация.*

THE INTEGRATION OF MODERN METHODOLOGICAL APPROACHES IN DEVELOPING THE LEXICAL COMPETENCE OF SENIOR-GRADE STUDENTS

Abstract. *This article offers a comparative theoretical analysis of linguodidactic approaches to developing English lexical competence among upper-secondary school learners. Explicit instruction, incidental vocabulary learning, lexical and formulaic instruction, corpus-informed practices, educational technology, and communicative task-based learning are examined in terms of their learning mechanisms, units of instruction, and contribution to productive language use. The study employs comparative literature analysis, conceptual synthesis, and pedagogical modelling rather than reporting experimental outcomes. The analysis suggests that isolated vocabulary practice is insufficient to ensure flexible lexical retrieval in communication. A coherent instructional sequence should combine selective explicit attention to high-value vocabulary, repeated encounters in meaningful input, collocational awareness, communicative production, and spaced recycling. The article also considers adolescent learners' metacognitive development, motivational priorities, affective barriers, and heterogeneous proficiency levels. On this basis, an integrative model centred on a communicative task cycle is proposed, alongside indicators for its future empirical evaluation.*

Keywords: *lexical competence, upper-secondary education, linguodidactic approaches, explicit instruction, incidental learning, collocations, task-based language teaching, differentiation.*

KIRISH

Ingliz tilini o‘qitishda leksik kompetensiya faqat so‘zlarning ma’nosini eslab qolish bilan belgilanmaydi. O‘quvchi o‘z fikrini ifodalash uchun kerakli birlikni tanlashi, uni grammatik va leksik qurshovga moslashtirishi, muloqot vaziyatining uslubiy talablarini hisobga olishi hamda so‘z topilmagan holatda kommunikativ strategiyalardan foydalanishi zarur. Shu jihatdan leksik tayyorgarlikning asosiy mezoni yodlangan birliklar miqdori emas, ularning mazmunli nutqda ishga tushishidir. Yuqori sinflarda mazkur masala alohida dolzarblik kasb etadi. O‘quvchilar kundalik mavzulardagi ko‘plab birliklarni tanisa-da, mustaqil munozara, dalillash yoki muammoga yechim taklif qilish jarayonida leksik tanlov qiyinlashishi mumkin. Retseptiv bilimning produktiv faoliyatga yetarli darajada ko‘chmasligi, so‘zlarning odatiy birikuvlarini bilmaslik va leksik o‘zini o‘zi boshqarish strategiyalarining sustligi o‘qitish mazmunini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi [2; 3].

Maqolaning maqsadi yuqori sinf o‘quvchilari leksik kompetensiyasini rivojlantirishda qo‘llanadigan asosiy lingvodidaktik yondashuvlarning o‘zaro munosabatini aniqlash hamda ularning imkoniyatlarini kommunikativ vazifa sikli doirasida birlashtirishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda quyidagi savollarga e’tibor qaratiladi: turli yondashuvlar leksik bilimning qaysi tomonini samaraliroq qo‘llab-quvvatlaydi; yuqori sinf o‘quvchisining yosh va tayyorgarlik xususiyatlari qanday metodik talablarni yuzaga keltiradi; integratsiya qanday bosqichli o‘quv faoliyatida amalga oshirilishi mumkin?

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-metodik xarakterga ega. Uning manbaviy asosini ikkinchi til leksikasini o‘zlashtirish, kollokatsiyalar, korpus didaktikasi, kommunikativ vazifalarga asoslangan ta’lim va milliy chet til o‘qitish metodikasiga oid ilmiy ishlar tashkil etadi. Tahlilda I.S.P. Nationning leksik o‘qitish tamoyillari, S. Webb va P. Nationning so‘z o‘zlashtirish mexanizmlari, N.Schmitt va D.Schmittning lug‘at o‘qitish haqidagi umumlashmalari, shuningdek, R. Ellis va hammualliflarining vazifaga asoslangan ta’limga doir qarashlari tayanch sifatida olindi [1; 4].

Qiyosiy tahlil uchun ikkita mezon belgilandi: birinchisi, o‘zlashtirish mexanizmi (maqsadli yoki mazmunga yo‘naltirilgan bilvosita o‘zlashtirish); ikkinchisi, o‘qitish birligi (yakka so‘z, so‘z birikmasi, kontekst yoki yaxlit kommunikativ faoliyat). Qo‘shimcha ravishda yondashuvning produktiv nutqqa ko‘chirish imkoniyati, dars vaqti talabi va o‘quvchi mustaqilligini rivojlantirish salohiyati hisobga olindi. Qiyosiy tahlil natijalari metodik sintez asosida umumlashtirildi.

Mazkur ishda o‘quvchilar ishtirokida yangi tajriba-sinov o‘tkazilmagan, nazorat va tajriba guruhlarining statistik natijalari keltirilmagan. Shuning uchun quyida taqdim etiladigan natijalar empirik samaradorlikning isboti emas, manbalarga tayangan konseptual xulosalar va keyingi sinov uchun metodik takliflardir.

NATIJALAR

Ilmiy manbalarni taqqoslash leksik kompetensiyani rivojlantirishda yagona yondashuv bilan cheklanish maqsadga muvofiq emasligini ko‘rsatdi. Maqsadli o‘qitish shakl va ma’no o‘rtasidagi bog‘lanishni nisbatan tez o‘rnatadi, biroq o‘zlashtirilgan birlikning erkin muloqotda qo‘llanishini o‘z-o‘zidan ta’minlamaydi. Keng o‘qish va

tinglash esa birliklarni tabiiy kontekstda takror uchratishga sharoit yaratadi, lekin alohida so‘zning qachon va qay darajada o‘zlashtirilishini aniq boshqarish qiyin [1].

Maqsadli leksik ishda so‘zlarni chastotasi va kommunikativ ahamiyatiga ko‘ra tanlash, ularni semantik aloqalari hamda odatiy birikuvlari bilan birga o‘rgatish muhim. Xotirada saqlashni mustahkamlash uchun materialga vaqt oralig‘i bilan qaytish va so‘zni xotiradan mustaqil tiklash talab etiladi. T.Nakataning takrorlash oralig‘iga bag‘ishlangan tadqiqoti takrorni vaqt bo‘ylab taqsimlash ahamiyatini ko‘rsatadi [5]. Demak, yangi birlikning dastlabki taqdimoti keyingi darslardagi mazmunli qo‘llanish bilan uzviy bog‘lanishi lozim.

Tasodifiy o‘zlashtirish mexanizmi, aksincha, keng hajmdagi tushunarli til materialini talab qiladi. Video va audiomateriallar, moslashtirilgan matnlar, o‘quvchining qiziqishiga mos o‘qish resurslari leksik uchrashuvlar sonini oshiradi. E.Peters va S. Webbning videokontent bo‘yicha izlanishi, shuningdek, T.Uchihara va hammualliflarining meta-tahlili takroriy uchrashuvlarning leksik o‘zlashtirish bilan bog‘liqligini asoslaydi [6; 7]. Biroq yangi so‘zni faqat tanib olish uni bahs-munozarada mustaqil ishlatish darajasiga teng emas.

Leksik-formulaik yondashuv mazkur tafovutning muhim jihatini ochadi. Tabiiy nutqda so‘zlar ko‘pincha alohida emas, kollokatsiya va tayyor ifoda birliklari tarkibida namoyon bo‘ladi. Masalan, qaror qabul qilish mazmunini ifodalashda make a decision birikmasini bilish faqat decision so‘zining tarjimasini bilishdan amaliyroqdir. F. Boersning tahlili birikuvni matnda ajratib ko‘rsatishning o‘zi yetarli emasligini, uni faol qo‘llashga olib chiqish zarurligini ta’kidlaydi [8].

Korpusga tayangan yondashuv birlikning haqiqiy qo‘llanishini kuzatish imkonini beradi. O‘qituvchi tanlab bergan konkordans satrlari asosida o‘quvchilar fe’lning tipik to‘ldiruvchilari, birikuvlari yoki uslubiy cheklovlarini mustaqil aniqlashi mumkin. A.Boulton va T.Cobbning meta-tahlilida korpus bilan ishlashning ijobiy imkoniyatlari qayd etilgan, ayni vaqtda o‘quvchilarning tayyorgarligi va topshiriq sifati muhim shart sifatida ko‘rsatilgan [9]. Maktab amaliyotida to‘liq korpus dasturidan ko‘ra oldindan saralangan namunalar bilan ishlash maqbulroqdir.

Texnologik vositalarning didaktik qimmati ular qanday topshiriqqa xizmat qilishiga bog‘liq. Elektron lug‘at, interval takrorlash dasturi yoki interaktiv platforma leksik faoliyatni tashkil etishni yengillashtiradi, biroq mazmunsiz mexanik mashqni o‘z-o‘zidan kommunikativ

faoliyatga aylantirmaydi [10]. Raqamli kartochkalarga faqat so‘z–tarjima juftligini emas, kollokatsiya, namunaviy gap va qisqa vaziyatni kiritish leksik bilimning ko‘p qirrali rivojlanishiga ko‘proq mos keladi. Yondashuvlarning vazifalari quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

Lingvodidaktik yondashuvlarning leksik kompetensiyani rivojlantirishdagi funksiyalari

Yondashuvlar	Asosiy imkoniyati	Kamchiligi	Integrativ modeldagi o‘rni
Maqsadli o‘qitish	Yadro leksikani ongli egallash	Vaqt sarfi; nutqqa ko‘chish kafolatlanmaydi	Vazifa oldidan tayyorlash va til fokusi
Tasodifiy o‘zlashtirish	Tabiiy kontekst va takroriy uchrashuv	Natijaning sekinligi va notekisligi	Matn, audio va video orqali kirish oqimi
Leksik-formulaik	Kollokatsion aniqlik va tabiiylik	Faol qo‘llashsiz sust mustahkamlanish	Birikuvni sezdirish, qayta ishlatish
Korpusga tayangan	Haqiqiy qo‘llanish namunalarini kuzatish	Metodik tayyorgarlik talabi	Saralangan konkordans bilan ishlash
Texnologik	Takror, moslashtirish, resurs xilma-xilligi	Vositaning maqsadga aylanishi	Siklning yordamchi infratuzilmasi
Kommunikativ vazifa	Bilimni mazmunli nutqda faollashtirish	Leksik maqsad e’tibordan chetda qolishi mumkin	Barcha faoliyatni bog‘lovchi markaziy birlik

Tahlil natijasida birlashtiruvchi tashkiliy birlik sifatida kommunikativ vazifa sikli tanlandi. Bu tanlovning asosi shundaki, vazifa o‘quvchidan muayyan mazmunni yetkazishni, kelishuvga erishishni yoki amaliy natija yaratishni talab etadi. Til vositalari ayni ehtiyoj bilan tanlanadi; zarur birliklar oldindan tayyorlanadi, bajarish jarayonidagi kamchiliklar esa vazifadan keyin qayta ko‘rib chiqiladi [4].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Taklif etilayotgan model to‘rt o‘zaro bog‘liq bosqichdan iborat: 1) diagnostika va leksik tayyorlov; 2) mazmunli kommunikativ vazifani bajarish; 3) til fokusi va tahrir; 4) yangi vaziyatda qayta qo‘llash. Birinchi bosqichda maqsadli birikuvlar tanlanadi va zarur tayanch beriladi. Ikkinchi bosqichda o‘quvchi axborot almashadi, muammoni muhokama qiladi yoki qarorni asoslaydi. Uchinchi bosqichda qo‘llangan leksikaning aniqligi, birikuvchanligi va vaziyatga mosligi tekshiriladi. To‘rtinchi bosqichda o‘sha birliklar boshqa auditoriya yoki o‘zgargan vazifa sharoitida qayta ishlatiladi. Bu tartib Nationning mazmunga yo‘naltirilgan kirish, mazmunga yo‘naltirilgan chiqish, til shakliga e’tibor va ravonlikni rivojlantirish oqimlarini uyg‘unlashtirish g‘oyasiga mos keladi [1].

Yuqori sinf o‘quvchisining yosh-psixologik profili mazkur modelni moslashtirishda muhim. Mavhum-mantiqiy fikrlashning rivojlanishi ma’no farqlarini qiyoslash, so‘z yasalishini tahlil qilish va kollokatsion qonuniyatlarni kuzatish imkonini kengaytiradi. Shu bilan birga, tengdoshlar bahosiga sezgirlik, xato qilishdan cho‘chish va til darajalarining turlicha bo‘lishi hamkorlik faoliyatini ehtiyotkorlik bilan tashkil etishni talab qiladi. Bosqichli tayanchning asta-sekin qisqartirilishi bu jihatdan metodik ahamiyatga ega [11; 12].

Modelni baholashda bir martalik so‘z testiga tayanish yetarli emas. Retseptiv va produktiv leksik bilim, kollokatsion aniqlik, semantik moslik, leksik xilma-xillik, ravonlik hamda strategik mustaqillik alohida kuzatilishi lozim. Mazkur ko‘rsatkichlarni og‘zaki va yozma nutq namunalari, qisqa diagnostik topshiriqlar, kuzatuv varaqalari hamda o‘quvchi portfeli orqali aniqlash mumkin [13; 14].

MUHOKAMA

Olingan nazariy natijalar leksik kompetensiyani rivojlantirishda ikki chekka yondashuvdan voz kechish zarurligini ko‘rsatadi. Bir tomondan, faqat so‘z ro‘yxatlarini yodlash til materialining mazmunli qo‘llanishiga yetarli sharoit yaratmaydi. Ikkinchi tomondan, o‘quvchini faqat erkin muloqotga jalb etish ham leksik o‘sishni kafolatlamaydi: u o‘ziga tanish cheklangan birliklar bilan vazifani bajarishi mumkin. Shu sababli kommunikativ erkinlik maqsadli leksik ishlov bilan birga tashkil etilishi lozim [2; 4].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bu masala, ayniqsa, yuqori sinfda seziladi. O‘quvchining maqsadi kundalik faktlarni nomlashdan fikrni asoslash, munosabat bildirish, ehtimolni ifodalash va muqobil qarashlarni taqqoslashga o‘tadi. Demak, leksik minimumning mavzuviy kengayishi bilan bir qatorda, argumentatsiya birliklari, bog‘lovchi ifodalar, baholovchi birikmalar va uslubiy variantlar ham izchil o‘rgatilishi kerak. CEFR Companion Volume hujjatida til repertuarining vaziyatga mos va moslashuvchan qo‘llanishiga berilgan e’tibor mazkur yo‘nalish bilan uyg‘unlashadi [15].

Mahalliy metodika an’anasidagi til mashqi, shartli-nutqiy mashq va nutq mashqi izchilligi integrativ modelni amaliy jihatdan tushuntirishga yordam beradi. J.J. Jalolov hamda J.J. Jalolov, G.T. Makhkamova va Sh.S. Ashurovlar ishlarida til materialini bosqichma-bosqich egallash va nutqiy qo‘llash bilan bog‘lashga e’tibor qaratilgan [16; 17]. Kommunikativ vazifa sikli ushbu izchillikni inkor etmaydi, balki uni aniq mazmunli natija atrofida qayta tashkil etadi. Vazifadan oldingi mashqlar maqsadga xizmat qiladigan tayyorlovga, vazifadan keyingi tahlil esa o‘quvchi ehtiyojidan kelib chiqadigan qayta ishlovga aylanadi.

Integratsiya mexanik ravishda ko‘plab metodlarni bitta darsga jamlashni anglatmaydi. Uning mezoni funksional muvofiqlikdir: yangi birlikni tez anglatish uchun qisqa izoh yoki tarjima, tabiiy birikuvni ko‘rsatish uchun kontekst, uzoq muddatli eslab qolish uchun interval takror, faol qo‘llash uchun esa kommunikativ vazifa tanlanadi. Bu taqsimot o‘qituvchiga cheklangan vaqtni maqsadga muvofiq boshqarish imkonini beradi.

Differensial yondashuvda ham umumiy kommunikativ natija saqlanadi, biroq unga erishish vositalari o‘quvchining ehtiyojiga qarab farqlanadi. Leksik tayyorgarligi sustroq o‘quvchiga tayanch iboralar va qisqa reja berilishi, kuchliroq o‘quvchidan esa muqobil ifodalar, aniq kollokatsiyalar yoki murakkabroq dalillash talab qilinishi mumkin. Bunday tashkil etish bir sinf ichida turli darajadagi o‘quvchilarni umumiy faoliyatga jalb etish imkonini yaratadi. Tayanchning vaqt o‘tishi bilan kamaytirilishi mustaqillikni rivojlantirish uchun zarur [12].

Raqamli va generativ sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishda ham shu metodik mantiq ustuvor bo‘lishi kerak. Vosita so‘zning kontekstlarini topish, birikuv variantlarini qiyoslash, shaxsiy matn bo‘yicha qayta aloqa olishga yordam berishi mumkin. Biroq o‘quvchi o‘rniga tayyor nutq mahsulini yaratish uning leksik tanlov va xotiradan tiklash faoliyatini cheklaydi. Shu bois texnologiya yordamchi resurs sifatida ishlatiladi, yakuniy kommunikativ mahsulot esa o‘quvchining mustaqil faoliyatini aks ettirishi kerak.

Taklif etilgan modelning cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, uning amaliy samaradorligi mazkur maqolada tajriba-sinov ma'lumotlari bilan tasdiqlanmagan. Ikkinchidan, vazifa sifati, o'qituvchining tayyorgarligi, sinf hajmi va o'quvchining boshlang'ich darajasi natijalarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Uchinchidan, leksik o'sishni faqat ishlatilgan yangi so'zlar soni bilan baholash mazmunan tor yondashuv bo'ladi; qo'llanish aniqligi, kontekstga moslik va kechiktirilgan eslab qolish ham tekshirilishi zarur. Kelgusidagi tadqiqotlarda dastlabki va yakuniy diagnostika, qiyosiy guruhlar hamda og'zaki-yozma nutq namunalarini birgalikda tahlil qilish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Yuqori sinf o'quvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishga oid lingvodidaktik yondashuvlar qiyosi ularning o'zaro raqobatidan ko'ra funksional to'ldiruvchanligi muhimroq ekanini ko'rsatdi. Maqsadli o'qitish yadro leksikani ongli egallashga, mazmunga yo'naltirilgan kirish oqimi takroriy kontekstli uchrashuvlarga, formulaik va korpusga tayangan ish kollokatsion aniqlikka, kommunikativ vazifa esa leksik bilimning produktiv nutqqa ko'chishiga xizmat qiladi.

Yuqori sinf o'quvchilarining tahliliy tafakkuri, shaxsiy maqsadga yo'naltirilgan motivatsiyasi va tengdoshlar bilan muloqotga ehtiyoji kommunikativ vazifalarga asoslangan o'qitish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Ayni paytda retseptiv-produktiv tafovut, tayyorgarlikning turlicha bo'lishi va xato qilishdan cho'chish metodik tayanch, differensial tashkil etish hamda psixologik xavfsiz muhitni talab qiladi.

Shu asosda diagnostika va tayyorlov, mazmunli vazifa, til fokusi hamda qayta qo'llash bosqichlaridan tashkil topgan integrativ model taklif etildi. Modelning asosiy afzalligi leksikani alohida yodlash obyekti sifatida emas, o'quvchining aniq kommunikativ maqsadiga xizmat qiluvchi resurs sifatida tashkil etishidir. Uning samaradorligini tasdiqlash esa keyingi empirik tadqiqot va ko'p mezonli baholashni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2013.
2. Schmitt N., Schmitt D. Vocabulary in Language Teaching. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2020.

3. Webb S., Nation P. How Vocabulary is Learned. Oxford: Oxford University Press, 2017.
4. Ellis R., Skehan P., Li S., Shintani N., Lambert C. Task-Based Language Teaching: Theory and Practice. Cambridge: Cambridge University Press, 2020.
5. Nakata T. Effects of expanding and equal spacing on second language vocabulary learning: Does gradually increasing spacing increase vocabulary learning? Studies in Second Language Acquisition. 2015. Vol. 37, no. 4. P. 677–711.
6. Peters E., Webb S. Incidental vocabulary acquisition through viewing L2 television. Studies in Second Language Acquisition. 2018. Vol. 40, no. 3. P. 551–577.
7. Uchihara T., Webb S., Yanagisawa A. The effects of repetition on incidental vocabulary learning: A meta-analysis of correlational studies. Language Learning. 2019. Vol. 69, no. 3. P. 559–599.
8. Boers F. Evaluating Second Language Vocabulary and Grammar Instruction: A Synthesis of the Research on Teaching Words, Phrases, and Patterns. New York: Routledge, 2021.
9. Boulton A., Cobb T. Corpus use in language learning: A meta-analysis. Language Learning. 2017. Vol. 67, no. 2. P. 348–393.
10. Golonka E.M., Bowles A.R., Frank V.M., Richardson D.L., Freynik S. Technologies for foreign language learning: A review of technology types and their effectiveness. Computer Assisted Language Learning. 2014. Vol. 27, no. 1. P. 70–105.
11. Dóczi B., Kormos J. Longitudinal Developments in Vocabulary Knowledge and Lexical Organization. Oxford: Oxford University Press, 2016.
12. Kenjayev A. Ingliz tili darslarida o‘quvchilarning yozuv kompetensiyasini «skafolding» modeli yordamida rivojlantirish texnologiyasi (10–11-sinflar misolida): PhD dissertatsiyasi. Namangan, 2025.
13. Schmitt N. Researching Vocabulary: A Vocabulary Research Manual. Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2010.
14. Milton J., Fitzpatrick T. (eds.). Dimensions of Vocabulary Knowledge. Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2014.
15. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.
16. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
17. Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching Methodology (Theory and Practice). Tashkent: Fan va texnologiya, 2015.

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASH ASOSIDA AKADEMIK HALOLLIKKA OID KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI (FALSAFA FANINI O'QITISH MISOLIDA)

Raximjanova Muqaddas Dilmurod qizi
Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
muqaddasrahimjanova61@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada talabalarda akademik halollikka oid kompetensiyalarni tanqidiy fikrlash asosida takomillashtirish metodikasi ishlab chiqiladi. Muallif akademik halollikni intizomiy talab emas, bilishga oid kompetentlik sifatida talqin qilib, uning to'rt komponentli tuzilmasini – manba bilan ishlash, mualliflik pozitsiyasini shakllantirish, dalil keltirish va o'z ishini o'zi baholash komponentlarini asoslaydi. Aniqlash va jazolashga asoslangan an'anaviy yondashuvning cheklovlari ko'rsatilib, uning o'rniga ta'lim jarayonining o'zini qayta qurishga qaratilgan uch bosqichli metodik tizim taklif etiladi. Falsafa fanini o'qitish misolida beshta topshiriq turi va ularga mos baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Tadqiqotda akademik halollikni ta'minlashning nazorat va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha xorijiy olimlar o'rtasidagi ilmiy bahs tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *akademik halollik, tanqidiy fikrlash, kompetensiya, falsafa fani, mualliflik pozitsiyasi, dalil keltirish, baholash mezonlari, metodik tizim*

МЕТОДИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ АКАДЕМИЧЕСКОЙ ЧЕСТНОСТИ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЛОСОФИИ)

Рахимжанова Мукаддас Дилмурод кизи
Базовый докторант Наманганского
государственного педагогического института
muqaddasrahimjanova61@gmail.com

Аннотация. *В статье разрабатывается методика совершенствования компетенций академической честности у студентов на основе критического мышления. Трактуя академическую честность не как дисциплинарное требование, а как познавательную компетентность, автор обосновывает её четырёхкомпонентную структуру: работа с источником, формирование авторской позиции, аргументация и самооценка собственной работы. Показаны ограничения традиционного подхода, основанного на выявлении и наказании, и вместо него предлагается трёхэтапная методическая система, направленная на перестройку самого образовательного процесса. На примере преподавания философии разработаны пять типов*

заданий и соответствующие им критерии оценивания. В исследовании анализируется научная полемика зарубежных учёных о контрольном и образовательном направлениях обеспечения академической честности.

Ключевые слова: *академическая честность, критическое мышление, компетенция, философия, авторская позиция, аргументация, критерии оценивания, методическая система*

A METHODOLOGY FOR IMPROVING ACADEMIC INTEGRITY COMPETENCES IN STUDENTS ON THE BASIS OF CRITICAL THINKING (A CASE STUDY OF TEACHING PHILOSOPHY)

Rakhimjanova Mukaddas Dilmurod kizi
Basic Doctoral Student at Namangan State Pedagogical Institute
muqaddasrahimjanova61@gmail.com

Annotation. *The article develops a methodology for improving students' academic integrity competences on the basis of critical thinking. Interpreting academic integrity not as a disciplinary requirement but as an epistemic competence, the author substantiates its four-component structure: working with sources, forming an authorial position, constructing arguments, and self-assessment of one's own work. The limitations of the traditional approach based on detection and punishment are demonstrated, and a three-stage methodological system aimed at restructuring the educational process itself is proposed instead. Using the teaching of philosophy as a case study, five types of assignment and the corresponding assessment criteria are developed. The study analyses the scholarly debate between foreign researchers on the regulatory and educational approaches to ensuring academic integrity.*

Keywords: *academic integrity, critical thinking, competence, philosophy, authorial position, argumentation, assessment criteria, methodological system*

KIRISH

Oliy ta'lim tizimida akademik halollik masalasi so'nggi yillarda alohida dolzarblik kasb etdi. Bu dolzarblikning sababi faqat buzilish hollarining ko'payishida emas, balki muammoning o'zi mohiyatan o'zgarganidadir. An'anaviy tasavvurga ko'ra akademik halollik buzilishi o'zlashtirishdagi qiyinchilikni yengishning noqonuniy yo'li, ya'ni intizomiy xatti-harakat deb qaralgan. Bugungi sharoitda esa masala boshqa tekislikka ko'chdi: axborot va tayyor matnga kirish deyarli cheksiz bo'lgan muhitda talaba oldidagi asosiy sinov ma'lumot topish emas, o'z mustaqil pozitsiyasini shakllantirish bo'lib qoldi.

Mazkur o‘zgarish muammoning tahlil darajasini ham o‘zgartiradi. Agar akademik halollik buzilishi faqat intizomiy hodisa bo‘lganida, unga qarshi kurash nazorat vositalarini takomillashtirish bilan hal qilinar edi. Amaliyot esa boshqacha manzarani ko‘rsatmoqda: matnlarning o‘xshashligini aniqlovchi dasturlar ko‘chirmaning shaklini topadi, lekin mustaqil fikrning mavjudligini aniqlay olmaydi. O‘zgartirilgan, qayta bayon etilgan yoki sun’iy vositalar yordamida yaratilgan matn rasmiy jihatdan original bo‘lishi mumkin, biroq unda talabaning o‘z mulohazasi bo‘lmaydi. Shu tariqa nazoratga asoslangan yondashuv o‘zining asosiy maqsadiga erisha olmay qoladi. Shu nuqtada tadqiqotning asosiy farazini shakllantirish mumkin: akademik halollik buzilishi ko‘p hollarda axloqiy tanlovning emas, bilishga oid qobiliyatning yetishmasligidan kelib chiqadi. O‘z pozitsiyasini shakllantira olmagan, manbalarni qiyoslashni va dalil keltirishni bilmaydigan talaba oldida haqiqatda tanlov qolmaydi – u topshirish uchun o‘zganing matnidan boshqa hech narsaga ega emas. Bu faraz muammoning yechimini ham boshqa tomonga yo‘naltiradi: taqiq va jazodan ko‘ra qobiliyat shakllantirish birlamchi vazifaga aylanadi. Akademik halollik tushunchasining o‘zi tarixiy jihatdan nisbatan yangi. Uning zamonaviy mazmuni universitet ilmiy jamoasining ichki qoidalaridan, xususan mualliflikni tan olish va boshqa tadqiqotchining hissasini ko‘rsatish an’anasidan kelib chiqqan. Bu kelib chiqish muhim jihatni ochadi: akademik halollik dastlab tashqi nazorat vositasi emas, ilmiy muloqotning ichki sharti sifatida shakllangan. Iqtibos keltirish qoidasi jazodan qochish uchun emas, o‘quvchiga fikrning manbasini ko‘rsatib, uni tekshirish imkonini berish uchun ishlab chiqilgan. Mazkur kelib chiqishni eslash amaliy ahamiyatga ega, zero u qoidaning ma’nosini tiklaydi. Talabaga iqtibos qoidasi faqat rasmiy talab sifatida taqdim etilsa, u uni ortiqcha yuk deb qabul qiladi va imkon bo‘lganda chetlab o‘tishga harakat qiladi. Qoidaning bilishga oid vazifasi tushuntirilsa – ya’ni manba ko‘rsatilishi o‘quvchiga tekshirish imkonini berishi aytilsa – u mulohaza madaniyatining qismiga aylanadi. Shu sababli metodik tizimda qoidani o‘rgatish emas, uning asosini tushuntirish birlamchi vazifa hisoblanadi. Aynan shu

nuqtada tanqidiy fikrlash masalaga kiradi. Tanqidiy fikrlash bu yerda umumiy intellektual fazilat sifatida emas, aniq operatsiyalar majmui sifatida tushuniladi: manbani baholash, tasdiq bilan dalilni ajratish, muqobil talqinni ko‘rish, o‘z xulosasining asosini ko‘rsatish va uni qayta ko‘rib chiqishga ochiq bo‘lish. Bu operatsiyalarning har biri akademik halollikning muayyan talabi bilan bevosita bog‘lanadi. Manbani baholash qobiliyati iqtibos madaniyatining asosini tashkil etadi; dalil keltirish qobiliyati mualliflik pozitsiyasini mumkin qiladi; o‘z ishini tanqidiy ko‘rib chiqish qobiliyati esa o‘zlashtirilgan va o‘zgalardan olingan fikrni ajratish imkonini beradi. Masalaning yangi keskinligi matn yaratuvchi raqamli vositalarning keng tarqalishi bilan bog‘liq. Bu vositalar talaba oldiga mohiyatan yangi vaziyat qo‘yadi: endi tayyor matn topish emas, buyurtma bo‘yicha yaratilgan matn olish mumkin bo‘ldi. O‘xshashlikni aniqlashga asoslangan nazorat tizimi bunday matnni tanimaydi, zero u hech qayerdan ko‘chirilmagan. Bu holat nazorat paradigmasining texnik chegarasini ko‘rsatadi va muqobil yondashuv izlashni zaruratga aylantiradi. Shuni ham qayd etish lozimki, akademik halollikni iqtibos texnikasini o‘rgatish bilan tenglashtirish keng tarqalgan, biroq yetarli bo‘lmagan yondashuvdir. Rasmiylashtirish qoidalarini bilgan, lekin o‘z pozitsiyasiga ega bo‘lmagan talaba qoidalarga to‘liq rioya qilgan holda ham mustaqil ish yaratmaydi: uning matni to‘g‘ri rasmiylashtirilgan iqtiboslar zanjiridan iborat bo‘lib qoladi. Demak texnik ko‘nikma zarur, biroq u kompetensiyaning faqat bir komponentini tashkil etadi. Tadqiqot predmetining falsafa fani doirasida aniqlashtirilishi tasodifiy emas. Falsafa boshqa fanlardan bir muhim jihati bilan farq qiladi: unda o‘rganiladigan predmetning o‘zi mulohaza, dalil va tanqiddan iborat. Fizika yoki tarix fanida tanqidiy fikrlash o‘quv materialiga nisbatan tashqi vosita bo‘lib qoladi; falsafada esa u bir vaqtning o‘zida ham vosita, ham mazmundir. Falsafiy matnni o‘qish dalil tuzilmasini ajratishni talab qiladi, falsafiy masalani muhokama qilish esa o‘z pozitsiyasini asoslashni taqozo etadi. Shu sababli falsafa fani akademik halollik kompetensiyalarini shakllantirish uchun eng qulay muhitni beradi va ayni paytda bu kompetensiyalarsiz o‘zlashtirilishi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mumkin bo‘lmagan fan hisoblanadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati ham aniq belgilanadi. Taklif etilayotgan metodik tizim falsafa fani mashg‘ulotlarida bevosita qo‘llanishi mumkin bo‘lgan topshiriq turlari va baholash mezonlarini beradi. Bundan tashqari ishlab chiqilgan mezonlar o‘qituvchiga talabaning mustaqil ishini baholashda aniq tayanch nuqtasini taqdim etadi va baholashdagi subyektivlikni kamaytiradi; bu esa akademik halollik talabining o‘zi ham shaffof va asoslangan bo‘lishini ta’minlaydi. Masalani kompetensiyaviy yondashuv doirasida qo‘yish ham alohida asoslashni talab qiladi. Akademik halollik odatda qadriyat yoki me’yor sifatida tavsiflanadi; kompetensiya tushunchasi esa harakat qobiliyatini bildiradi. Bu ikki talqin bir-birini inkor etmaydi, biroq ularning pedagogik oqibatlari farq qiladi. Qadriyat sifatidagi talqin tarbiyaviy ishni targ‘ibot shakliga olib keladi: halollik haqida so‘zlanadi, uning ahamiyati tushuntiriladi, buzilishning oqibatlari eslatiladi. Kompetensiya sifatidagi talqin esa mashq talab qiladi: talaba manba bilan ishlashni, dalil tuzishni va o‘z matnini tekshirishni amalda bajarib o‘rganadi. Tadqiqotda ikkinchi talqin asos qilib olinadi, zero birinchisining samarasi mavjud tadqiqotlarda past baholangan. Tadqiqotning maqsadi talabalarda tanqidiy fikrlash asosida akademik halollikka oid kompetensiyalarni takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish va uni falsafa fanini o‘qitish misolida asoslashdan iborat. Bu maqsaddan quyidagi vazifalar kelib chiqadi: akademik halollik kompetensiyasining mazmunini aniqlash va uni intizomiy talabdan farqlash; kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasini asoslash; mavjud yondashuvlarning cheklovlarini ko‘rsatish; metodik tizimni bosqichlar bo‘yicha ishlab chiqish; falsafa fani materialida topshiriq turlarini va baholash mezonlarini belgilash.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid milliy tadqiqotlar orasida M.Sh.Tokumbetovaning oliy ta’lim muassasalari talabalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlariga bag‘ishlangan ishi alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotchi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni alohida mashg‘ulot yoki alohida fan doirasidagi vazifa emas,



balki ta'lim jarayonining butun tashkiliy tartibiga bog'liq natija sifatida ko'rib chiqadi. Uning yondashuvidagi uslubiy jihat mazkur maqola uchun bevosita ahamiyatlidir: agar tanqidiy fikrlash shart-sharoitlarga bog'liq bo'lsa, akademik halollik ham – u tanqidiy fikrlashga tayangani uchun – tashkiliy tartib o'zgarmay turib takomillashmaydi. Bundan muhim xulosa kelib chiqadi: akademik halollikni ta'minlash bo'yicha alohida tadbirlar, agar ular baholash tizimi va topshiriq turlari bilan qo'llab-quvvatlanmasa, barqaror natija bermaydi. S.Ergashbaevning uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishga oid tadqiqotlari masalaning qadriyatga oid jihatini ochadi. Muallif ma'naviy-falsafiy dunyoqarashning shakllanishini bir martalik tadbirlar natijasi emas, uzluksiz va bosqichma-bosqich kechadigan jarayon sifatida talqin qiladi hamda bu jarayonda falsafiy bilimlarning o'rnini alohida ko'rsatadi. Mazkur qarash akademik halollik masalasiga tatbiq etilganda muhim nazariy asos beradi: halollik ham yakka talab sifatida emas, uzluksiz shakllanadigan ichki pozitsiya sifatida qaralishi lozim. Shu bilan birga tadqiqotchining uzluksizlik tamoyili metodik tizimning bosqichli qurilishini asoslashga xizmat qiladi. M.M.Mirzaolimjon o'g'li va E.Shohbozbekning Yangi O'zbekistonning ta'lim siyosati va universitetlarning yangi modellariga bag'ishlangan ishi masalaning institutsional kontekstini belgilaydi. Mualliflar universitet modelining o'zgarishi o'quv jarayonining tashkil etilishiga, jumladan mustaqil ishning o'rniga va baholash tartibiga ta'sir qilishini ko'rsatadilar. Bu kuzatuv mazkur tadqiqot uchun ahamiyatli, zero akademik halollik muammosining keskinligi aynan mustaqil ishning ulushi oshgan sharoitda ortadi. Ikki milliy tadqiqotning qiyoslanishi ularning bir-birini to'ldirishini ko'rsatadi. Tokumbetova tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning tashkiliy shartlarini belgilaydi, Ergashbaev esa qadriyat asosining uzluksiz shakllanishini asoslaydi. Akademik halollik masalasi aynan shu ikki chiziqning kesishmasida joylashadi: u bir vaqtning o'zida ham bilishga oid qobiliyat, ham ichki qadriyat pozitsiyasini talab qiladi va bu ikkisidan birortasi yetishmasa, barqaror natija bermaydi.

METODOLOGIK QISM

Tadqiqot nazariy-metodik xarakterga ega bo‘lib, unda bir-birini to‘ldiruvchi usullar majmui qo‘llanilgan va ularning har biri aniq vazifani bajargan. Tushunchaviy tahlil usuli ishning birinchi bosqichida ishlatildi: uning yordamida akademik halollik, akademik intizom, iqtibos madaniyati va mualliflik tushunchalari izchil farqlandi. Bu farqlash uslubiy zarurat hisoblanadi, zero kundalik va me’yoriy nutqda bu atamalar almashtirib ishlatiladi va bunday almashtirish pedagogik vazifaning noaniq qo‘yilishiga olib keladi. Tahlil davomida akademik halollik me’yorga bo‘ysunish emas, muayyan bilish operatsiyalarini bajarish qobiliyati sifatida ta’riflandi va aynan shu ta’rif keyingi barcha xulosalarning asosi bo‘ldi.N Tizimli yondashuv kompetensiyani alohida ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida emas, o‘zaro bog‘liq komponentlar tuzilmasi sifatida ko‘rish imkonini berdi. Bu yondashuvning afzalligi shundaki, u komponentlar o‘rtasidagi bog‘lanishni tahlil qilishga va biror komponentning yetishmasligi butun kompetensiyaning ishlamasligiga olib kelishini ko‘rsatishga majbur qiladi. Tarkibiy-funksional tahlil har bir komponentning akademik halollik talablaridagi aniq vazifasini belgilash uchun qo‘llanildi: qaysi komponent qaysi talabni ta’minlashi aniqlandi va shu asosda komponentlarning to‘liqligi tekshirildi.

NATIJALAR

Tadqiqotning birinchi natijasi akademik halollik kompetensiyasining to‘rt komponentli tuzilmasini asoslashdan iborat. Manba bilan ishlash komponenti manbani aniqlash, uning ishonchliligini baholash, dastlabki va ikkilamchi manbani farqlash hamda iqtibosni to‘g‘ri rasmiylashtirish qobiliyatlarini qamrab oladi. Mualliflik pozitsiyasini shakllantirish komponenti o‘zlashtirilgan materialga nisbatan o‘z munosabatini belgilash va uni aniq ifodalash qobiliyatini bildiradi. Dalil keltirish komponenti tasdiqni asos bilan ta’minlash, muqobil qarashni hisobga olish va xulosani dalil doirasidan oshirmaslik qobiliyatini o‘z ichiga oladi. O‘z ishini o‘zi baholash komponenti esa matnning qaysi qismi o‘zlashtirilgan, qaysi qismi o‘zganing fikri ekanini

ajratish va bu farqni matnda ko‘rsatish qobiliyatini anglatadi. Komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi tahlilning ikkinchi natijasini beradi. Manba bilan ishlash komponenti rivojlangan, biroq mualliflik pozitsiyasi shakllanmagan talaba to‘g‘ri rasmiylashtirilgan, lekin o‘z fikri bo‘lmagan matn yaratadi; bunday matn rasmiy jihatdan talablarga javob beradi, mohiyatan esa akademik halollikning maqsadini bajarmaydi. Aksincha, o‘z fikri bo‘lgan, biroq dalil keltirish komponenti zaif talaba asossiz da’volar to‘plamini taqdim etadi. Shu sababli metodik tizim barcha komponentlarni parallel rivojlantirishi lozim.

MUHOKAMA

Akademik halollikni ta’minlash yo‘llari bo‘yicha xorijiy adabiyotda ikki yo‘nalish o‘rtasida uzoq davom etgan ilmiy bahs mavjud. Birinchi yo‘nalishning eng taniqli vakili D.Makkeyb bo‘lib, u hammualliflari bilan birga o‘n yillar davomida olib borilgan keng ko‘lamli tadqiqotlarda akademik nohalollikning tarqalishini o‘rgangan. Makkeyb va uning hammualliflarining asosiy xulosasi shundaki, talabaning xatti-harakatiga hal qiluvchi ta’sirni shaxsiy xususiyatlar emas, institutsional muhit ko‘rsatadi: tengdoshlarning xatti-harakati haqidagi tasavvur, qoidalarning aniqligi, ularning izchil qo‘llanilishi va halollik majburiyatining rasmiy tizimi. Bu pozitsiyadan amaliy xulosa kelib chiqadi – akademik halollikni ta’minlash uchun avvalo me’yoriy muhitni mustahkamlash, qoidalarni oydinlashtirish va ularning bajarilishini izchil nazorat qilish lozim. Ikkinchi yo‘nalishni T.Bertram Gallant ifodalaydi. U akademik nohalollikni intizomiy muammo deb qarashning o‘zini tanqid qilib, uni ta’lim va o‘qitish muammosi sifatida ko‘rib chiqishni taklif etadi. Bertram Gallantning dalili quyidagicha: nazorat tizimi qanchalik mukammal bo‘lmasin, u faqat buzilish hollarini aniqlaydi, lekin talabaning o‘z ishini yaratish qobiliyatini oshirmaydi; nohalollikning manbai esa ko‘pincha aynan shu qobiliyatning yetishmasligida yotadi. Uning fikricha, muammoning ildizi ta’lim jarayonining tashkil etilishida — topshiriqlarning turida, mustaqil ishning qo‘llab-quvvatlanishida va baholash tizimining mazmunidadir. Ikki pozitsiya o‘rtasidagi bahs mohiyatan ta’sir obyektiga tegishli. Makkeyb yondashuvi muhitga, Bertram Gallant

yondashuvi esa qobiliyatga ta’sir qilishni taklif etadi. Bahsning hal qiluvchi nuqtasi quyidagi savolda jamlanadi: talaba o‘zganing ishidan foydalanganda u tanlov qilyaptimi yoki tanlov imkoniyati yo‘qligi uchun shunday yo‘l tutyaptimi? Birinchi javob to‘g‘ri bo‘lsa, nazorat va me’yoriy muhit birlamchi vosita bo‘ladi; ikkinchi javob to‘g‘ri bo‘lsa, nazoratning samarasi chegaralangan bo‘lib qoladi. Mazkur tadqiqotda ikki pozitsiyani qarama-qarshi emas, bir-birini to‘ldiruvchi deb baholash asoslanadi, biroq ularning o‘rni teng emas. Makkeyb aniqlagan muhit omillarining ta’siri shubhasiz va me’yoriy tartibning aniqligi zarur shart hisoblanadi. Shu bilan birga bu shart yetarli emas: aniq qoidalar mavjud bo‘lgan, lekin talabada mustaqil matn yaratish qobiliyati shakllanmagan sharoitda qoidalar faqat buzilishni yashirish usullarini murakkablashtiradi. Bundan tashqari zamonaviy sharoitda nazorat yondashuvi texnik chegaraga duch keldi: matn yaratish vositalarining rivojlanishi o‘xshashlikni aniqlashga asoslangan nazoratning asosiy mexanizmini kuchsizlantirdi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot akademik halollik masalasini intizomiy talab darajasidan bilishga oid kompetentlik darajasiga ko‘chirish nazariy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan samaraliroq ekanini ko‘rsatdi. Bu ko‘chirishning asosi quyidagi kuzatuvda yotadi: akademik halollikning buzilishi ko‘p hollarda axloqiy tanlovning emas, o‘z pozitsiyasini shakllantirish va asoslash qobiliyatining yetishmasligining natijasidir. Tadqiqot natijasida akademik halollik kompetensiyasining to‘rt komponentli tuzilmasi – manba bilan ishlash, mualliflik pozitsiyasini shakllantirish, dalil keltirish va o‘z ishini o‘zi baholash komponentlari – asoslandi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi ko‘rsatildi. Komponentlardan birining yetishmasligi qolganlarining samarasini yo‘qqa chiqarishi dalillandi, bu esa metodik tizimda ularni parallel rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dewey J. How We Think. – Boston: D.C. Heath & Co., 1910. – 224 p.

2. Ennis R.H. A Concept of Critical Thinking // Harvard Educational Review. – 1962. – Vol. 32, No. 1. – P. 81–111.
3. Siegel H. Educating Reason: Rationality, Critical Thinking and Education. – New York: Routledge, 1988. – 208 p.
4. McCabe D.L., Trevino L.K., Butterfield K.D. Cheating in Academic Institutions: A Decade of Research // Ethics & Behavior. – 2001. – Vol. 11, No. 3. – P. 219–232.
5. Weinert F.E. Concept of Competence: A Conceptual Clarification // Defining and Selecting Key Competencies. – Seattle: Hogrefe & Huber, 2001. – P. 45–65.
6. Bertram Gallant T. Academic Integrity in the Twenty-First Century: A Teaching and Learning Imperative. – San Francisco: Jossey-Bass, 2008. – 143 p.
7. Ergashbaev S. O‘zbekiston sharoitida uzluksiz ta’lim tizimi orqali yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish // Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – Т. 1, № 1. – С. 314–316.
8. Ergashbayev S. Uzluksiz ta’lim tashkil etish orqali yoshlarning ma’naviy-falsafiy dunyoqarashini yuksaltirish // Bulletin of Contemporary Researches: Multidisciplinary. – 2025. – Vol. 1, No. 1. – P. 10–13.
9. Mirzaolimjon og‘li M.M., Shohbozbek E. Yangi O‘zbekistonning ta’lim siyosati va universitetlarning yangi modellari // Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. – 2025. – T. 16, № 1. – B. 325–328.
10. Tokumbetova M.Sh. OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2025. – № 3(7). – B. 8–13.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕГРИРОВАННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Мирзакбарова Севда Вахиддиновна
Преподаватель-стажёр кафедры русского языка и литературы
Наманганского государственного института иностранных языков
имени Исхокхона Ибрата
Наманган, Республика Узбекистан
sevda6666mir@gmail.com.
https://orcid.org/0009-0002-6189-7563

Аннотация. *В статье исследуются теоретико-методологические основы формирования интегрированных компетенций будущих учителей английского языка в системе высшего педагогического образования. Актуальность исследования определяется необходимостью совершенствования профессиональной подготовки педагогических кадров в условиях цифровизации образовательного пространства, развития междисциплинарного взаимодействия и повышения требований к качеству и результативности преподавания иностранных языков. Особое внимание уделяется междисциплинарной интеграции, использованию цифровых образовательных технологий, организации практико-ориентированного обучения и развитию профессиональной рефлексии студентов. На основе анализа современной научно-педагогической литературы предложена концептуальная модель формирования интегрированных компетенций будущих учителей английского языка, включающая целевой, содержательный, организационно-деятельностный и оценочно-результативный компоненты.*

Ключевые слова: *интегрированные компетенции, методологические основы, профессиональная подготовка, будущие учителя английского языка, компетентностный подход, системный подход, интегративный подход.*

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING INTEGRATSIYALASHGAN KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Mirzakbarova Sevda Vahiddinovna
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
Rus tili va adabiyoti kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
Namangan, O‘zbekiston Respublikasi
sevda6666mir@gmail.com.
https://orcid.org/0009-0002-6189-7563

Annotatsiya.*Mazkur maqolada oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining integratsiyalashgan kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi ta'limning raqamli transformatsiyasi, fanlararo aloqalarning kengayishi hamda chet tillarini o'qitish sifatiga qo'yilayotgan talablarning ortishi sharoitida pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining integratsiyalashgan kompetensiyalarini maqsadli shakllantirishni ta'minlovchi metodologik yondashuvlar, tamoyillar va pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.*

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni qiyosiy o'rganish, zamonaviy ta'lim konsepsiyalarini tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalaniladi. O'tkazilgan nazariy tahlil asosida metodologik yondashuvlarni kompleks qo'llash zarurati asoslanadi hamda ularning bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash mazmuni, shakllari va metodlarini takomillashtirishdagi ahamiyati aniqlanadi.

Kalit so'zlar: *integratsiyalashgan kompetensiyalar, metodologik asoslar, kasbiy tayyorgarlik, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, kompetensiyaviy yondashuv, tizimli yondashuv, integrativ yondashuv.*

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING INTEGRATED COMPETENCIES OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Mirzakbarova Sevda Vakhiddinovna
Trainee Lecturer, Department of Russian Language and Literature
Namangan State Institute of Foreign Languages named after Is'hokhon Ibrat
Namangan, Republic of Uzbekistan
sevda6666mir@gmail.com.
https://orcid.org/0009-0002-6189-7563

Abstract. *The article examines the theoretical and methodological foundations for developing integrated competencies of future English language teachers within the higher teacher education system. The relevance of the study is determined by the need to modernize professional teacher preparation in the context of digital transformation in education, expanding interdisciplinary connections, and increasing demands on the quality of foreign language teaching. The study aims to provide a theoretical justification for the methodological approaches, principles, and pedagogical conditions that facilitate the purposeful development of integrated competencies among prospective English language teachers.*

Particular attention is paid to implementing interdisciplinary integration, employing digital educational technologies, organizing practice-oriented learning activities, and developing students' ability to independently solve professional and pedagogical problems.

The study employs theoretical analysis, comparative examination of scholarly and pedagogical literature, systematization, and synthesis of contemporary educational concepts. Based on the theoretical

analysis, the article substantiates the necessity of combining methodological approaches and identifies their significance for improving the content, forms, and methods of professional preparation for future English language teachers.

Keywords: *integrated competencies, methodological foundations, professional teacher preparation, future English language teachers, competency-based approach, systems approach, integrative approach, interdisciplinary integration.*

ВВЕДЕНИЕ

Современный этап развития высшего педагогического образования характеризуется существенными изменениями в требованиях к профессиональной подготовке будущих учителей иностранных языков. Глобализация образовательного пространства, интенсивное развитие цифровых технологий, расширение международного сотрудничества и внедрение инновационных методов обучения обусловливают необходимость формирования педагогических кадров, способных эффективно осуществлять профессиональную деятельность в динамично изменяющихся условиях.

Особое значение данные процессы приобретают в системе подготовки будущих учителей английского языка, профессиональная деятельность которых предполагает не только высокий уровень владения иностранным языком, но и способность интегрировать лингвистические знания, методические умения, цифровые инструменты, межкультурный опыт и навыки педагогического взаимодействия.

Традиционная предметно ориентированная модель профессиональной подготовки не всегда обеспечивает необходимую взаимосвязь между теоретическими знаниями студентов и их практическим применением в образовательной деятельности. В результате возникает противоречие между комплексным характером профессиональных задач современного учителя английского языка и недостаточной интеграцией отдельных компонентов его подготовки.

Анализ современных исследований показывает, что профессиональная компетентность преподавателя всё чаще рассматривается в контексте взаимодействия педагогических, технологических и организационных факторов. Так, О. Вольфарт и И. Вагнер в обзорном исследовании, посвящённом роли преподавателей в цифровизации образования, подчёркивают значимость педагогических условий и профессиональной готовности учителя к использованию цифровых технологий [1].

В исследовании Г. Эмир и Г. Янгын-Экши рассматриваются возможности международного сетевого взаимодействия в подготовке будущих учителей английского языка. Авторы анализируют потенциал телесотрудничества для развития межкультурных, технологических и педагогических компетенций студентов [2].

Указанные исследования свидетельствуют о необходимости пересмотра традиционных подходов к профессиональной подготовке педагогических кадров и поиска методологических решений, обеспечивающих согласованное развитие различных компонентов профессиональной компетентности.

В рамках настоящего исследования интегрированные компетенции будущего учителя английского языка рассматриваются как целостная система взаимосвязанных знаний, практических умений, профессиональных установок и способов деятельности, обеспечивающих способность эффективно решать комплексные педагогические задачи посредством согласованного применения лингвистических, коммуникативных, методических, цифровых, межкультурных и рефлексивных ресурсов.

В отличие от изолированного формирования отдельных компетенций, интегративная подготовка ориентирована на установление устойчивых функциональных связей между ними. Например, организация коммуникативного задания на английском языке требует от будущего преподавателя одновременного

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

применения языковых знаний, методических приёмов, навыков межкультурного взаимодействия и умений оценивать образовательные результаты.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Методологическая организация исследования основывается на положениях современной педагогической науки, рассматривающей профессиональное образование как целостную систему формирования знаний, умений, ценностных установок и практического опыта будущего специалиста.

Исследование имеет теоретико-аналитический характер и направлено на выявление методологических закономерностей формирования интегрированных компетенций будущих учителей английского языка.

В качестве теоретической базы использованы современные научные публикации 2022–2025 годов, посвящённые профессиональной подготовке педагогов, цифровой компетентности, междисциплинарной интеграции, технологически ориентированному обучению и совершенствованию педагогического образования.

При разработке методологической основы исследования применялись следующие методы:

Теоретический анализ позволил рассмотреть современные научные представления о профессиональной компетентности будущего учителя и определить место интегрированных компетенций в структуре педагогической подготовки.

Сравнительный анализ использовался для выявления общих и отличительных характеристик системного, компетентностного, интегративного, деятельностного и коммуникативного подходов.

Систематизация обеспечила классификацию структурных компонентов интегрированных компетенций и установление взаимосвязей между ними.

Педагогическое моделирование применялось для разработки концептуальной модели формирования интегрированных компетенций будущих учителей английского языка.

Обобщение позволило сформулировать теоретические выводы относительно педагогических условий и механизмов интеграции профессиональных компетенций.

Теоретическую основу исследования составляют несколько взаимосвязанных методологических подходов.

Системный подход

Системный подход предполагает рассмотрение профессиональной подготовки будущего учителя английского языка как целостной педагогической системы, элементы которой находятся в постоянном взаимодействии.

В рамках данного подхода лингвистическая, коммуникативная, методическая, цифровая и рефлексивная компетенции рассматриваются не как автономные результаты обучения, а как взаимозависимые составляющие профессиональной готовности.

Системность формирования интегрированных компетенций проявляется в согласовании образовательных целей, содержания учебных дисциплин, методов преподавания, форм практической деятельности и способов оценивания образовательных результатов.

Компетентностный подход

Компетентностный подход ориентирован на формирование способности будущего педагога применять приобретённые знания и умения в реальных профессиональных ситуациях.

В отличие от модели обучения, основанной преимущественно на воспроизведении теоретической информации, компетентностная подготовка предполагает выполнение практических заданий, решение педагогических



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

проблем, проектирование учебных занятий и анализ результатов собственной деятельности.

Для будущего учителя английского языка данный подход имеет особое значение, поскольку эффективность профессиональной деятельности определяется не только уровнем языковой подготовки, но и способностью организовать образовательный процесс с учётом индивидуальных особенностей обучающихся.

Интегративный подход

Интегративный подход выступает центральным методологическим основанием исследования.

Его сущность заключается в объединении содержания различных учебных дисциплин, образовательных технологий и видов профессиональной деятельности в единую систему подготовки будущего учителя.

Интеграция реализуется посредством установления междисциплинарных связей между практическим курсом английского языка, теоретической грамматикой, лексикологией, методикой преподавания иностранных языков, педагогикой, психологией и информационными технологиями.

Особое значение приобретает переход от формального объединения учебного материала к содержательной интеграции, при которой знания из различных дисциплин используются для решения единой профессионально-педагогической задачи.

Деятельностный подход

Деятельностный подход предполагает формирование интегрированных компетенций посредством активного участия студентов в учебной, исследовательской и профессионально ориентированной деятельности.

Основными формами реализации данного подхода выступают педагогическое проектирование, анализ профессиональных ситуаций,



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

моделирование учебных занятий, микропреподавание, работа с цифровыми образовательными платформами и педагогическая практика.

Важным результатом деятельностного подхода становится переход от теоретического освоения педагогических знаний к самостоятельному выполнению профессиональных действий.

Личностно ориентированный подход

Личностно ориентированный подход предусматривает учёт индивидуальных образовательных потребностей, профессиональных интересов и возможностей будущих учителей английского языка.

Его реализация предполагает создание условий для самостоятельного выбора образовательных ресурсов, разработки индивидуальных проектов, формирования профессиональной мотивации и развития способности к самообразованию.

Данный подход способствует становлению профессиональной идентичности будущего педагога и формированию ответственности за результаты собственной деятельности.

Коммуникативный подход

Коммуникативный подход направлен на развитие способности будущего учителя эффективно использовать английский язык в различных образовательных и межкультурных ситуациях.

Его методологическая значимость заключается в объединении языковой подготовки с практическими задачами педагогического общения.

В процессе реализации коммуникативного подхода студенты осваивают способы организации диалогического взаимодействия, проведения дискуссий, управления учебной коммуникацией и создания условий для развития речевой активности обучающихся.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Таким образом, совокупность рассмотренных подходов образует методологическую основу формирования интегрированных компетенций будущих учителей английского языка.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Проведённый теоретический анализ позволил определить структуру интегрированных компетенций будущего учителя английского языка и разработать концептуальную модель их формирования.

В рамках исследования установлено, что интегрированные компетенции представляют собой многокомпонентное образование, включающее взаимосвязанные составляющие профессиональной готовности будущего педагога.

Концептуальная модель формирования интегрированных компетенций

В результате теоретического исследования разработана концептуальная модель, включающая четыре взаимосвязанных компонента.

Целевой компонент определяет общую направленность профессиональной подготовки на формирование интегрированных компетенций будущего учителя английского языка.

Его содержание включает постановку образовательных целей, определение планируемых результатов и установление требований к профессиональной готовности выпускников.

Содержательный компонент предусматривает интеграцию лингвистических, психолого-педагогических, методических и цифровых знаний.

Важнейшим условием реализации данного компонента является согласование содержания учебных дисциплин с профессиональными задачами будущего учителя.

Организационно-деятельностный компонент включает методы, формы и средства формирования интегрированных компетенций.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

В качестве основных педагогических инструментов предлагается использовать проектное обучение, проблемные задания, кейс-метод, микропреподавание, междисциплинарные проекты, цифровые образовательные платформы и педагогическую практику.

Оценочно-результативный компонент направлен на определение уровня сформированности интегрированных компетенций.

Его реализация предполагает применение комплексных диагностических заданий, педагогического наблюдения, анализа учебных проектов, самооценки и экспертной оценки результатов профессионально ориентированной деятельности студентов.

Предложенная модель имеет теоретический характер и требует дальнейшей экспериментальной проверки в условиях высшего педагогического образования.

Критерии оценки сформированности интегрированных компетенций

Для определения уровня сформированности интегрированных компетенций предлагается использовать четыре взаимосвязанных критерия.

Когнитивный критерий отражает степень усвоения лингвистических, методических, педагогических и технологических знаний.

Операционально-деятельностный критерий характеризует способность применять приобретённые знания при решении практических профессиональных задач.

Мотивационно-ценностный критерий определяет уровень профессиональной мотивации, осознания значимости педагогической деятельности и готовности к профессиональному развитию.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Рефлексивно-оценочный критерий характеризует способность анализировать результаты собственной деятельности, выявлять профессиональные затруднения и определять способы их преодоления.

На основе указанных критериев целесообразно выделить три уровня сформированности интегрированных компетенций: высокий, средний и низкий.

Высокий уровень характеризуется самостоятельным и осознанным применением различных профессиональных компетенций в комплексных педагогических ситуациях.

Средний уровень предполагает наличие необходимых знаний и умений при частичной зависимости от методической поддержки преподавателя.

Низкий уровень характеризуется фрагментарностью профессиональных знаний, затруднениями при их интеграции и недостаточной самостоятельностью в решении педагогических задач.

Предложенная система критериев может использоваться при разработке диагностического инструментария для последующей экспериментальной проверки эффективности модели.

Особое значение приобретает проблема взаимодействия традиционных компонентов профессиональной подготовки с современными цифровыми образовательными технологиями.

В исследовании С. Хайне, М. Крепф и Й. Кёниг подчёркивается необходимость концептуального уточнения профессиональной цифровой компетентности преподавателя, поскольку различные исследования используют неодинаковые подходы к определению её содержания [3].

Данное положение имеет принципиальное значение для формирования интегрированных компетенций будущих учителей английского языка.

Цифровая компетенция не должна рассматриваться исключительно как способность пользоваться компьютерными программами и электронными

образовательными платформами. Она предполагает педагогически обоснованный выбор цифровых инструментов, их адаптацию к образовательным целям и оценку влияния технологий на качество обучения.

Например, использование интерактивных упражнений при изучении английской грамматики требует от будущего преподавателя сочетания языковых знаний, методических умений и цифровой грамотности.

При этом эффективность цифровых ресурсов определяется не количеством используемых технологий, а степенью их соответствия содержанию и задачам учебного занятия.

Значимым направлением формирования интегрированных компетенций выступает развитие межкультурного взаимодействия.

Г. Эмир и Г. Янгын-Экши рассматривают телесотрудничество как перспективное направление подготовки будущих учителей английского языка, позволяющее объединять языковое обучение, межкультурную коммуникацию и технологическую подготовку [2].

Данный подход представляется особенно актуальным в условиях расширения международного образовательного сотрудничества.

Отдельного внимания заслуживает проблема непрерывного профессионального развития будущих педагогов.

Д. Масуми и О. Норузи рассматривают становление цифровой компетентности начинающих преподавателей во взаимосвязи с профессиональным опытом, наставничеством и организационными условиями образовательной среды [4].

На основании данного положения можно предположить, что формирование интегрированных компетенций должно продолжаться не только в период университетского обучения, но и на последующих этапах профессионального становления учителя.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Особую роль в этом процессе играет педагогическая практика, обеспечивающая возможность применения теоретических знаний в реальных условиях образовательного учреждения.

Для будущих учителей английского языка педагогическая практика должна включать выполнение комплексных заданий, направленных на одновременное развитие нескольких профессиональных компетенций.

Например, студентам может быть предложено разработать и провести фрагмент урока английского языка с использованием цифровых образовательных ресурсов, коммуникативных заданий и элементов межкультурного содержания.

В процессе выполнения такого задания будущий преподаватель должен продемонстрировать способность выбирать языковой материал, определять образовательные цели, применять методические приёмы, организовывать взаимодействие обучающихся и оценивать результаты учебной деятельности.

Подобная организация подготовки позволяет преодолеть разобщённость отдельных дисциплин и способствует формированию целостного профессионального опыта.

При организации образовательного процесса целесообразно предусматривать междисциплинарные учебные модули, объединяющие содержание нескольких профессиональных дисциплин.

Например, модуль «Проектирование современного урока английского языка» может включать изучение языкового материала, разработку методических заданий, применение цифровых технологий, моделирование педагогического общения и рефлексивный анализ проведённого занятия.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённое теоретическое исследование позволило определить методологические основы формирования интегрированных компетенций будущих

учителей английского языка и обосновать необходимость их комплексного развития в системе высшего педагогического образования.

Установлено, что интегрированные компетенции представляют собой целостную систему взаимосвязанных лингвистических, коммуникативных, методических, цифровых, межкультурных и рефлексивных компонентов, обеспечивающих готовность будущего педагога к решению комплексных профессиональных задач.

Методологическую основу формирования интегрированных компетенций составляет совокупность системного, компетентностного, интегративного, деятельностного, личностно ориентированного и коммуникативного подходов.

Особое значение принадлежит интегративному подходу, обеспечивающему объединение содержания различных учебных дисциплин, образовательных технологий и видов профессиональной деятельности.

На основе теоретического анализа сформулированы основные принципы формирования интегрированных компетенций: целостность, междисциплинарность, практическая направленность, непрерывность, вариативность, рефлексивность и цифровая интеграция.

Предложена концептуальная модель формирования интегрированных компетенций будущих учителей английского языка, включающая целевой, содержательный, организационно-деятельностный и оценочно-результативный компоненты.

Разработаны теоретические критерии оценки сформированности интегрированных компетенций, позволяющие определить когнитивные, операционально-деятельностные, мотивационно-ценностные и рефлексивно-оценочные характеристики профессиональной готовности будущих педагогов.

Практическая значимость исследования заключается в возможности использования предложенных методологических положений при

совершенствовании образовательных программ, разработке междисциплинарных модулей, организации педагогической практики и создании диагностических материалов.

Перспективы дальнейшего исследования связаны с экспериментальной проверкой предложенной модели, разработкой системы интегрированных учебных заданий и определением педагогических условий, обеспечивающих устойчивое развитие профессиональных компетенций будущих учителей английского языка.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Wohlfart O., Wagner I. Teachers' role in digitalizing education: An umbrella review // Educational Technology Research and Development. – 2023. – Vol. 71. P. 339–365. DOI: 10.1007/s11423-022-10166-0.
2. Emir G., Yangın-Ekşi G. The role of telecollaboration in English language teacher education: A systematic review // Smart Learning Environments. – 2024. – Vol. 11. – Article 3. DOI: 10.1186/s40561-024-00290-0.
3. Heine S., Krepf M., König J. Digital resources as an aspect of teacher professional digital competence: One term, different definitions – a systematic review // Education and Information Technologies. – 2023. – Vol. 28. – P. 3711–3738. DOI: 10.1007/s10639-022-11321-z.
4. Masoumi D., Noroozi O. Developing early career teachers' professional digital competence: A systematic literature review // European Journal of Teacher Education. – 2025. – Vol. 48. – № 3. – P. 644–666. DOI: 10.1080/02619768.2023.2229006.
5. Shokeen A., Kaur B. Factors Influencing Digital Competence of Pre-Service Teachers: A Systematic Review of Literature // Indian Journal of Educational Technology. – 2022. – Vol. 4. – № 1. – P. 218–229.
6. Yalçin T., Bozyiğit E. A Review of Studies on Digital Competence in Teaching English as a Foreign Language // Studies in Linguistics, Culture, and FLT. – 2023. – Vol. 11. – № 3. – P. 82–101.
7. Revuelta-Domínguez F.-I., Guerra-Antequera J., González-Pérez A., Pedrera-Rodríguez M.-I., González-Fernández A. Digital Teaching Competence: A Systematic Review // Sustainability. – 2022. –Vol. 14.– № 11. – Article 6428. DOI: 10.3390/su14116428.
8. Ye L., Ismail H. H., Abdul Aziz A. Innovative Strategies for TPACK Development in Pre-Service English Teacher Education in the 21st Century: A Systematic Review // Forum for Linguistic Studies. – 2024. – Vol. 6. – № 6. DOI: 10.30564/fls.v6i6.7308.
9. Zeng M., Abdullah Z., Cheah K. S. L. Pre-service Teachers' Digital Competence: A Systematic Review of Factors, Frameworks, and Global Patterns // International Journal of Learning, Teaching and Educational Research. – 2025. – Vol. 24. – № 8. DOI: 10.26803/ijlter.24.8.10.

MAXSUS MAQSADLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA O'QISH KO'NIKMALARINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Dadabayev Zafar Zakirovich
Namangan davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar kafedrasi mudiri
ORCID: 0009-0000-4729-442X
E-mail: zucker_ru@mail.ru
Tel.: +998934935885

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maxsus maqsadlarda ingliz tilini o'qitish jarayonida o'qish ko'nikmalarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixiy, lingvodidaktik hamda metodik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitishning yuzaga kelishi, uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy omillar, shuningdek, turli davrlarda o'qish faoliyatiga nisbatan shakllangan yondashuvlar o'rganiladi. Xususan, grammatik-tarjima metodiga asoslangan an'anaviy o'qitishdan kommunikativ, kognitiv, strategik va kompetensiyaviy yondashuvlargacha bo'lgan rivojlanish jarayoni yoritiladi. Shuningdek, sohaga oid matnlarni o'qib tushunishda lingvistik bilimlar, kasbiy terminologiya, oldingi bilimlar, matn tuzilishi va o'qish strategiyalarining o'zaro aloqadorligi ochib beriladi. Maqolada maxsus maqsadlarda ingliz tilini o'qitishda o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning bosqichli modeli taklif etilib, uning kimyo yo'nalishi talabalari misolida qo'llanish imkoniyatlari tavsiflanadi.*

Kalit so'zlar*: maxsus maqsadlarda ingliz tili, ESP, o'qish ko'nikmasi, o'qish kompetensiyasi, kasbiy matn, lingvodidaktika, o'qish strategiyalari, kommunikativ yondashuv, kognitiv yondashuv, kimyo terminologiyasi.*

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ДЛЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЦЕЛЕЙ

Аннотация. *В статье рассматриваются этапы формирования и развития навыков чтения в процессе обучения английскому языку для специальных целей (ESP) с исторической, лингводидактической и методической точек зрения. Анализируются становление ESP, социально-экономические и научные факторы его развития, а также эволюция подходов к обучению чтению профессионально ориентированных текстов. Особое внимание уделяется переходу от традиционных грамматико-переводных методов к коммуникативному, когнитивному, стратегическому и компетентностному подходам. Раскрывается взаимосвязь языковых знаний, профессиональной терминологии, фоновых знаний, структуры текста и стратегий чтения. Предлагается поэтапная модель развития навыков чтения и рассматриваются возможности её применения в обучении студентов химических направлений.*

***Ключевые слова**: английский язык для специальных целей, ESP, навыки чтения, читательская компетенция, профессиональный текст, лингводидактика, стратегии чтения, когнитивный подход, химическая терминология.*

STAGES OF READING SKILL DEVELOPMENT IN TEACHING ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES

***Abstract.** This article examines the stages of reading skill formation and development in English for Specific Purposes (ESP) from historical, linguodidactic, and methodological perspectives. It analyzes the emergence of ESP, the socioeconomic and scientific factors influencing its development, and the evolution of approaches to reading professionally oriented texts. Particular attention is paid to the transition from traditional grammar-translation methods to communicative, cognitive, strategic, and competency-based approaches. The article explores the relationship between linguistic knowledge, professional terminology, background knowledge, text structure, and reading strategies. A stage-based model for developing ESP reading skills is proposed, with particular emphasis on its potential application in teaching English to chemistry students.*

***Keywords**: English for Specific Purposes, ESP, reading skills, reading competence, professional texts, linguodidactics, reading strategies, communicative approach, cognitive approach, chemistry terminology.*

KIRISH

Zamonaviy globallashuv, xalqaro ilmiy hamkorlik va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida ingliz tili turli kasbiy sohalarda xalqaro muloqot va ilmiy axborot almashinuvining muhim vositalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, tabiiy fanlar, texnika, tibbiyot, iqtisodiyot va muhandislik kabi yo‘nalishlarda tahsil olayotgan mutaxassislar uchun ingliz tilidagi ilmiy va kasbiy adabiyotlarni mustaqil o‘qish, tahlil qilish hamda ulardan amaliy faoliyatda foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri talabalarni nafaqat kundalik muloqotga tayyorlash, balki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga mos til kompetensiyalarini rivojlantirishdan iboratdir. Mazkur ehtiyoj ingliz tilini maxsus maqsadlarda o‘qitish — English for Specific Purposes (ESP) yondashuvining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratdi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ESP umumiy ingliz tilini o‘qitishdan, avvalo, o‘quvchilarning aniq akademik yoki kasbiy ehtiyojlariga yo‘naltirilganligi bilan farqlanadi. Bu yondashuvda til o‘rganish mustaqil maqsad sifatida emas, balki muayyan sohadagi bilimlarni egallash, ilmiy axborotlardan foydalanish va kasbiy vazifalarni bajarish vositasi sifatida qaraladi. Hutchinson va Waters (1987) ESPni o‘qitishning alohida til turi yoki yagona metod emas, balki o‘rganuvchilarning ehtiyojlariga asoslangan yondashuv sifatida izohlaydilar. Mazkur qarash ESP ta’limida o‘qish faoliyatining o‘rnini belgilash uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy va kasbiy faoliyatda o‘qish ko‘nikmasi alohida ahamiyatga ega. Chunki mutaxassis yangi ilmiy natijalar, tadqiqotlar, texnologik yangiliklar va kasbiy tavsiyalar bilan ko‘pincha yozma manbalar orqali tanishadi. Xususan, kimyo yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar ingliz tilidagi ilmiy maqolalar, laboratoriya yo‘riqnomalari, tajriba tavsiflari, kimyoviy jarayonlar haqidagi matnlar va texnik hujjatlarni tushunishga ehtiyoj sezadilar. Biroq bunday matnlarni o‘qib tushunish umumiy ingliz tilidagi matnlarni o‘qishdan muayyan jihatlari bilan farqlanadi. Kasbiy matnlarda terminologik birliklar, murakkab grammatik konstruksiyalar, ilmiy uslubga xos sintaktik shakllar, grafik va jadvallar, shuningdek, sohaga oid oldingi bilimlar muhim o‘rin tutadi.

Shuning uchun maxsus maqsadlarda ingliz tilini o‘qitishda o‘qish ko‘nikmalarining qanday tarixiy va metodik bosqichlar asosida rivojlanganini o‘rganish, mavjud yondashuvlarni tizimlashtirish hamda ularni zamonaviy ta’lim amaliyotiga moslashtirish dolzarb ilmiy-metodik masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi — maxsus maqsadlarda ingliz tilini o‘qitishda o‘qish ko‘nikmalarining tarixiy-metodik rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda nofilologik yo‘nalish talabalari uchun o‘qish kompetensiyasini shakllantirishning bosqichli modelini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maxsus maqsadlarda ingliz tilini o‘qitish va o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish muammolari xorijiy til ta’limi metodikasida keng tadqiq etilgan. Ushbu yo‘nalishning nazariy asoslarini ishlab chiqishda J. Swales, T. Hutchinson, A. Waters, T. Dudley-Evans, M. J. St John, F. Grellet, C. Nuttall, W. Grabe va P. D. Pearson kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyatga ega.

Hutchinson va Watersning (1987) English for Specific Purposes: A Learning-centred Approach asarida ESPning shakllanishi va rivojlanishi o‘rganuvchilar ehtiyojlari, tilshunoslikdagi o‘zgarishlar hamda o‘qitish nazariyalarining taraqqiyoti bilan bog‘liq holda izohlangan. Mualliflar ESP rivojlanishini besh asosiy yo‘nalish orqali tavsiflaydilar: registr tahlili, diskurs va ritorik tahlil, maqsadli vaziyat tahlili, ko‘nikma va strategiyalar tahlili hamda o‘rganishga yo‘naltirilgan yondashuv. Ushbu yo‘nalishlar qat’iy chegaralangan davrlar emas, balki ESP metodikasining rivojlanishidagi ustuvor tendensiyalarni ifodalaydi.

Swales (1990) ilmiy matnlarning janriy xususiyatlarini tadqiq etib, akademik diskursni tushunishda matnning kommunikativ maqsadi va tuzilishini aniqlash muhimligini asoslagan. Uning janr tahliliga oid qarashlari talabalarga ilmiy maqolalarning kirish, metodologiya, natijalar va muhokama qismlarini maqsadli o‘qishni o‘rgatishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dudley-Evans va St John (1998) ESP ta’limining o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflab, o‘quv dasturi va materiallarini tanlashda ehtiyojlar tahlili, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi hamda kasbiy vazifalarni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydilar.

Grellet (1981) o‘qish faoliyatini rivojlantirishda matnning umumiy mazmunini aniqlash, kerakli ma’lumotni izlab topish, batafsil o‘qish va xulosa chiqarish kabi faoliyat turlarini metodik jihatdan yoritgan.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Nuttall (1996) o‘qishni faol ma’no yaratish jarayoni sifatida talqin etib, matn mazmunini tushunishda o‘quvchining til bilimi va oldingi tajribasi o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatgan.

Grabe (2009) esa ikkinchi tilda o‘qishni rivojlantirishning lingvistik, kognitiv va strategik asoslarini tizimli tahlil qilib, ravon o‘qish, so‘zlarni tanib olish, matn mazmunini integratsiyalash va tushunishni nazorat qilish jarayonlariga e’tibor qaratgan.

Carrell va Eisterhold (1983) tomonidan ishlab chiqilgan sxema nazariyasiga oid qarashlar ham kasbiy matnlarni o‘qitishda muhimdir. Unga ko‘ra, o‘quvchining matn mavzusi haqidagi oldingi bilimlari yangi axborotni tushunish va talqin qilishga ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, maxsus maqsadlarda ingliz tilini o‘qitishda o‘qish faoliyatiga bo‘lgan yondashuv dastlab til birliklarini tushunishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, keyinchalik matnning kommunikativ vazifasi, o‘quvchining kognitiv faoliyati, strategik mustaqilligi va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda maxsus maqsadlarda ingliz tilini o‘qitish va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid ilmiy-metodik manbalar o‘rganildi.

Tadqiqot davomida tarixiy-retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tarixiy-retrospektiv tahlil orqali ESP rivojlanishidagi metodik tendensiyalar va ularning o‘qish faoliyatiga ta’siri o‘rganildi. Qiyosiy tahlil yordamida turli yondashuvlarning maqsadi, o‘qish jarayoniga munosabati va amaliy imkoniyatlari solishtirildi. Tizimlashtirish metodi asosida o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishning asosiy tarkibiy qismlari aniqlanib, ularni o‘zaro bog‘liq bosqichlar shaklida tashkil etish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Pedagogik modellashtirish yordamida nofilologik yo‘nalish

talabalari, xususan, kimyo sohasi uchun o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqotda eksperimental sinov o‘tkazilmaganligi sababli taklif etilgan modelning samaradorligi empirik natija sifatida emas, balki kelgusida tajriba-sinov orqali tekshirilishi mumkin bo‘lgan metodik taklif sifatida talqin etiladi.

ASOSIY QISM

1. Maxsus maqsadlarda ingliz tilini o‘qitishning shakllanishi va o‘qish faoliyatining dastlabki rivojlanishi

Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o‘qitishning shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro iqtisodiy, ilmiy va texnologik munosabatlarning kengayishi bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda ilm-fan, texnika, sanoat va xalqaro savdoning rivojlanishi ingliz tilini muayyan kasbiy ehtiyojlar asosida o‘rganishga bo‘lgan talabni kuchaytirdi.

Dastlab ingliz tilini o‘qitishda grammatik qoidalarni o‘zlashtirish, so‘zlarni yodlash va matnlarni tarjima qilish asosiy metodik vositalardan hisoblangan. Bunday yondashuvda o‘qish faoliyati ko‘pincha grammatik tuzilmalarni aniqlash va matn mazmunini ona tiliga tarjima qilish orqali tashkil etilgan.

An’anaviy grammatik-tarjima metodida matn bilan ishlash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilgan:

1. Matndagi notanish so‘zlarning ma’nosini aniqlash.
2. Grammatik konstruksiyalarni tahlil qilish.
3. Gaplarni ona tiliga tarjima qilish.
4. Matnning umumiy mazmunini bayon etish.
5. Matn yuzasidan savollarga javob berish.

Mazkur metod ilmiy matnlardagi grammatik tuzilmalarni tushunish va terminlarning muqobillarini aniqlashda muayyan imkoniyatlarga ega bo‘lgan. Biroq unda o‘qishning tezkorligi, axborotni tanlab olish, muallif pozitsiyasini aniqlash va



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

matndagi g‘oyalarni tanqidiy baholash kabi ko‘nikmalar yetarli darajada markaziy o‘rin egallamagan. Masalan, kimyo yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba Chemical reactions involve the transformation of substances into new products jumlasini tarjima qilishi mumkin. Ammo ilmiy matnni to‘laqonli tushunish uchun u kimyoviy reaksiyaning mohiyatini, matndagi sabab-oqibat munosabatlarini va mazkur axborotning kasbiy ahamiyatini ham anglay olishi zarur.

Demak, o‘qish faoliyatini faqat tarjima bilan chegaralash kasbiy matn mazmunini chuqur tushunish uchun yetarli emas. Aynan shu ehtiyoj keyingi davrlarda ESP doirasida o‘qishga nisbatan yangi metodik yondashuvlarning rivojlanishiga turtki berdi.

2. Registr tahliliga asoslangan bosqich (1960-yillar va 1970-yillarning boshlari)

ESP rivojlanishining dastlabki muhim bosqichlaridan biri registr tahlili (Register Analysis) bilan bog‘liqdir.

Registr muayyan kommunikativ vaziyat yoki kasbiy faoliyatga xos til birliklari va ularning qo‘llanish xususiyatlarini anglatadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, ilmiy va texnik matnlar umumiy ingliz tilidagi matnlardan leksik hamda grammatik xususiyatlari bilan farqlanadi. Registr tahlilining asosiy maqsadi turli kasbiy sohalarda ko‘p uchraydigan til birliklarini aniqlash va ularni o‘quv materiallariga kiritishdan iborat bo‘lgan.

Masalan, kimyoga oid inglizcha matnlarda quyidagi til birliklari muhim o‘rin egallaydi: kasbiy terminlar: compound, solution, reaction, catalyst, molecule, concentration; majhul nisbat shakllari: is heated, was dissolved, is measured, is obtained; nominalizatsiyalar: oxidation, reduction, evaporation, crystallization; sabab-oqibatni ifodalovchi birliklar: therefore, consequently, as a result, due to.

Registr tahliliga asoslangan o‘qitishda talabalarning ilmiy matnlarga xos terminologik va grammatik birliklarni tanib olish ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratilgan.

Misol uchun, “The solution was heated to 80°C” jumlasini tushunishda talaba solution terminining ma’nosini, was heated majhul nisbat shaklini va harorat ko‘rsatkichining vazifasini aniqlashi kerak.

Ushbu yondashuvning afzalligi o‘quv materiallarini kasbiy til xususiyatlariga moslashtirish imkoniyatini yaratganligidadir. Biroq uning cheklangan tomoni shundaki, matn ko‘pincha alohida so‘zlar va grammatik birliklar yig‘indisi sifatida tahlil qilingan.

Natijada matnning umumiy kommunikativ maqsadi, mantiqiy tuzilishi va muallif tomonidan ilgari surilgan asosiy g‘oyalar yetarli darajada yoritilmagan.

Shunday bo‘lsa-da, registr tahlili ESP metodikasining shakllanishida muhim tarixiy bosqich bo‘lib, keyingi diskurs va janr tahlili yondashuvlarining rivojlanishiga asos yaratgan.

3. Diskurs va ritorik tahlil bosqichi (1970-yillar)

ESP rivojlanishining keyingi bosqichida tadqiqotchilar e’tibori alohida til birliklaridan yaxlit matnning tuzilishi va mazmuniy bog‘liqligiga qaratildi.

Ushbu yondashuv diskurs yoki ritorik tahlil (Discourse or Rhetorical Analysis) deb nomlanadi. Diskurs tahlilida matn bir-biri bilan mantiqiy va mazmuniy jihatdan bog‘langan gaplar tizimi sifatida qaraladi. Bunda asosiy e’tibor matn qismlari o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash, muallifning kommunikativ maqsadini tushunish hamda axborotning qanday ketma-ketlikda bayon etilganini anglashga qaratiladi.

Ilmiy matnlarda axborot odatda muayyan mantiqiy tuzilma asosida ifodalanadi. Jumladan, muammo va yechim, sabab va natija, jarayon va uning bosqichlari, taqqoslash hamda tasniflash kabi tuzilmalar keng qo‘llanadi.

Masalan, kimyoviy jarayonni tavsiflovchi matn quyidagi ketma-ketlikka ega bo‘lishi mumkin:

Muammoning qo‘yilishi

Problem identification

Tajriba sharoitining tavsifi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Experimental conditions

Jarayon va kuzatishlar

Procedure and observations

Natijalar va xulosa

Results and conclusion

Ushbu tuzilmani tushunish talabaning matndan asosiy axborotni ajratib olishi va ilmiy jarayonning mantiqiy ketma-ketligini anglashiga yordam beradi.

Diskurs tahlili bosqichida o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagi faoliyat turlariga e’tibor kuchaydi: matnning asosiy g‘oyasini aniqlash, abzatslar o‘rtasidagi bog‘lanishni tushunish, bog‘lovchi vositalarni aniqlash, ma’lumotlarni mantiqiy tartibga keltirish va matn mazmunini umumlashtirish. Mazkur yondashuv o‘qish faoliyatini alohida gaplarni tarjima qilishdan yaxlit matn mazmunini tushunish darajasiga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi.

4. Maqsadli vaziyat va ehtiyojlar tahliliga asoslangan bosqich

ESP metodikasining navbatdagi rivojlanish yo‘nalishi maqsadli vaziyat tahlili (Target Situation Analysis) bilan bog‘liq.

Mazkur yondashuvning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, ingliz tilini o‘qitish mazmuni o‘quvchining kelajakda ushbu tildan qanday maqsadlarda foydalanishiga qarab belgilanishi kerak. Hutchinson va Waters (1987) ESP dasturlarini ishlab chiqishda maqsadli vaziyatni aniqlash va o‘rganuvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish zarurligini asoslaydilar. Bu bosqichda o‘qish faoliyati umumiy til mashqi sifatida emas, balki aniq akademik va kasbiy vazifalarni bajarish vositasi sifatida qarala boshladi.

Masalan, kimyo yo‘nalishi talabalarining o‘qishga oid ehtiyojlari quyidagilar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin: ingliz tilidagi kimyo darsliklarini o‘qib tushunish, ilmiy maqolalardan kerakli ma’lumotlarni ajratib olish, laboratoriya ishlariga oid yo‘riqnomalarni tushunish, kimyoviy moddalar va jarayonlar haqidagi texnik tavsiflarni

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

o‘qish, ilmiy tadqiqot natijalarini tahlil qilish, xorijiy ilmiy manbalardan mustaqil foydalanish.

Shu nuqtayi nazardan, barcha nofilologik yo‘nalish talabalariga bir xil mazmundagi o‘qish materiallarini taqdim etish ularning kasbiy ehtiyojlarini to‘liq qondirmasligi mumkin. Masalan, tibbiyot yo‘nalishidagi talaba uchun klinik tadqiqot matnlari muhim bo‘lsa, kimyo yo‘nalishidagi talaba uchun laboratoriya jarayonlari, moddalar xossalari va eksperimental tadqiqotlar haqidagi matnlar dolzarbroq hisoblanadi.

Maqsadli vaziyat tahlili o‘qish materiallarini tanlashda ularning kasbiy dolzarbligi, murakkablik darajasi, autentikligi va amaliy vazifalar bilan bog‘liqligini hisobga olish imkonini beradi. Natijada o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni o‘rganuvchining aniq ehtiyojlari va kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan uzviy bog‘lanadi.

5. O‘qish ko‘nikmalari va strategiyalariga asoslangan bosqich (1980-yillar)

XX asrning 1980-yillariga kelib ESP doirasida o‘qish faoliyatining kognitiv va strategik jihatlariga qiziqish kuchaydi.

Mazkur bosqichda matnni tushunish faqat til birliklarini bilishga emas, balki o‘quvchining axborotni qayta ishlash, oldingi bilimlarini faollashtirish va o‘qish jarayonini boshqarish qobiliyatiga ham bog‘liq ekanligi e’tirof etildi.

O‘qish jarayonida talaba matndagi barcha so‘zlarni bir xil darajada tahlil qilishi shart emas. Aksincha, o‘qish maqsadiga qarab turli strategiyalardan foydalanish samaraliroq bo‘lishi mumkin.

1-jadval. Maxsus maqsadlarda ingliz tilini o‘qitishda asosiy o‘qish strategiyalari

Strategiya	Mazmuni	Kasbiy matndagi vazifasi
Skimming	Matnning umumiy mazmunini tez aniqlash	Maqolaning asosiy mavzusini tushunish

Scanning	Muayyan ma'lumotni izlab topish	Formula, harorat yoki natijani topish
Intensive reading	Matnni batafsil o'rganish	Ilmiy izoh va jarayonni chuqur tushunish
Extensive reading	Keng hajmdagi matnlarni o'qish	Kasbiy bilim va lug'at boyligini oshirish
Predicting	Matn mazmunini oldindan taxmin qilish	Sarlavha asosida mavzuni aniqlash
Inferring	Yashirin ma'noni kontekst asosida chiqarish	Noma'lum termin yoki ilmiy xulosani anglash
Summarizing	Asosiy ma'lumotlarni umumlashtirish	Maqolaning qisqa mazmunini tuzish

Mazkur strategiyalarni maqsadga muvofiq qo'llash talabalarni matnning har bir so'zini tarjima qilishga haddan tashqari bog'lanib qolishdan saqlaydi.

Masalan, talaba kimyoviy tajriba haqidagi ilmiy maqoladan faqat tajriba harorati va davomiyligini aniqlashi kerak bo'lsa, scanning strategiyasidan foydalanishi mumkin. Agar talaba maqolaning umumiy ilmiy yo'nalishini tushunmoqchi bo'lsa, skimming strategiyasi mos keladi. Tajriba natijalarini chuqur tahlil qilish talab etilganda esa intensive reading strategiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Grabe (2009) ikkinchi tilda o'qish jarayonini o'rganishda ravonlik, lug'at bilimi, matn tuzilishini anglash va strategik o'qishning o'zaro bog'liqligini keng yoritadi. Shunday qilib, strategik yondashuv o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishni matn mazmunini passiv qabul qilishdan faol va maqsadli axborot izlash jarayoniga aylantiradi.

6. O'rganishga yo'naltirilgan va kognitiv yondashuv bosqichi

ESP rivojlanishida o‘rganishga yo‘naltirilgan yondashuv (Learning-centred Approach) muhim o‘rin tutadi.

Ushbu yondashuvning asosiy xususiyati o‘quv jarayonini faqat o‘rgatiladigan til materiali asosida emas, balki o‘rganuvchining bilim olish mexanizmlari, individual imkoniyatlari, motivatsiyasi va ehtiyojlari asosida tashkil etishdan iboratdir.

O‘qish jarayoni murakkab psixolingvistik faoliyat bo‘lib, unda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va oldingi bilimlar o‘zaro aloqador holda ishtirok etadi.

Ilmiy matnni o‘qiyotgan talaba bir vaqtning o‘zida bir nechta kognitiv vazifani bajaradi: so‘zlarni tanib oladi, grammatik tuzilmalarni tahlil qiladi, terminlarni kasbiy tushunchalar bilan bog‘laydi, gaplar o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlarni aniqlaydi va umumiy mazmunni shakllantiradi. O‘qishning kognitiv mexanizmlarini izohlashda ikki asosiy jarayon alohida ahamiyatga ega.

Pastdan yuqoriga yo‘naltirilgan jarayon (bottom-up processing) matnni harflar, so‘zlar, grammatik tuzilmalar va gaplar orqali tushunishni anglatadi.

Yuqoridan pastga yo‘naltirilgan jarayon (top-down processing) esa o‘quvchining mavzu haqidagi oldingi bilimlari, tajribasi va taxminlariga tayanib matn mazmunini talqin qilishini bildiradi.

Kasbiy matnlarni samarali o‘qishda ushbu jarayonlar o‘zaro ta’sirda bo‘ladi.

Masalan, kimyo talabasi The catalyst increases the reaction rate without being consumed jumlasini o‘qiganda, avvalo, uning grammatik va leksik tuzilishini tahlil qiladi. Shu bilan birga, katalizator haqidagi oldingi kasbiy bilimlaridan foydalanib, jumlaning ilmiy mazmunini tushunadi.

Demak, matnni anglashda til bilimi va sohaga oid bilimlar bir-birini to‘ldiradi. Bu jarayonda o‘qituvchining vazifasi talabaga tayyor tarjimani taqdim etish emas, balki uning mustaqil tushunish faoliyatini tashkil etish, kerakli yordamni bosqichma-bosqich ko‘rsatish va keyinchalik ushbu yordamni kamaytirib borishdan iborat.

7. Janrga asoslangan va kommunikativ yondashuvlarning rivojlanishi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ESP metodikasining keyingi rivojlanishida janr tahlili (Genre Analysis) muhim ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi.

Janr tahlili muayyan kasbiy yoki akademik hamjamiyatda qo‘llanadigan matnlarning kommunikativ maqsadi, tarkibiy tuzilishi va til xususiyatlarini o‘rganishga asoslanadi.

Swales (1990) ilmiy diskursni o‘rganishda janrning kommunikativ maqsadi va matnning ritorik tashkil etilishini muhim mezonlar sifatida ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv ilmiy maqola, laboratoriya hisoboti, annotatsiya, texnik yo‘riqnoma va ilmiy sharh kabi matn turlarini o‘qitishda katta ahamiyatga ega.

Masalan, ilmiy maqolalar ko‘pincha IMRaD modeliga asoslanadi:

I

Introduction / Kirish

M

Methods / Metodlar

R

Results / Natijalar

D

Discussion / Muhokama

Ilmiy maqolaning tuzilishini bilgan talaba o‘ziga kerakli ma’lumotni tezroq aniqlashi mumkin. Masalan, tadqiqot qanday o‘tkazilganini bilish uchun Methods, asosiy natijalarni o‘rganish uchun esa Results bo‘limiga murojaat qiladi.

Shuningdek, janrga asoslangan yondashuv talabalarni matnning faqat mazmunini emas, balki uning nima maqsadda yozilganini ham tushunishga o‘rgatadi. Dudley-Evans va St John (1998) ESP doirasida diskurs va janr tahlilining rivojlanishi kasbiy matnlarni o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirganini qayd etadilar.

Janrga asoslangan yondashuvning kommunikativ ta'lim bilan integratsiyasi o'qish jarayonida olingan axborotdan keyingi faoliyatda foydalanishni ham nazarda tutadi.

Masalan, talaba ilmiy maqolani o'qib, uning asosiy natijalarini guruhda muhokama qilishi, boshqa tadqiqot bilan taqqoslashi yoki qisqa ilmiy xulosa yozishi mumkin. Bunday integratsiya o'qish ko'nikmasini boshqa nutq faoliyati turlari bilan bog'laydi hamda kasbiy kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi.

8. Zamonaviy raqamli va kompetensiyaviy yondashuv bosqichi

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi maxsus maqsadlarda ingliz tilini o'qitishning mazmuni va shakllariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Elektron ilmiy jurnallar, raqamli kutubxonalar, ilmiy ma'lumotlar bazalari va interaktiv ta'lim platformalarining keng qo'llanishi o'qish faoliyatining yangi shakllarini yuzaga keltirdi. An'anaviy bosma matnlardan farqli ravishda raqamli ilmiy materiallar gipermurojaatlar, grafiklar, jadvallar, animatsiyalar va boshqa multimodal elementlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Shu sababli zamonaviy mutaxassis uchun matnni lingvistik jihatdan tushunish bilan bir qatorda, raqamli manbalarni tanlash, ularning ishonchliligini baholash va turli manbalardagi axborotlarni qiyoslash ko'nikmalari ham zarur.

Kompetensiyaviy yondashuvda o'qish ko'nikmasi alohida til faoliyati sifatida emas, balki kasbiy muammolarni hal etishda foydalaniladigan integrativ kompetensiya sifatida qaraladi. Mazkur kompetensiya lingvistik, kognitiv, strategik, axborot-tahliliy va kasbiy komponentlarni birlashtiradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida sun'iy intellektga asoslangan vositalar, elektron lug'atlar, terminologik bazalar va raqamli annotatsiya dasturlaridan ham foydalanish mumkin. Biroq bu vositalar talabalar o'rniga matnni talqin qilishga emas, balki ularning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mustaqil o‘qish, tahlil qilish va xulosa chiqarish faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilishi lozim.

Xususan, avtomatik tarjima natijalarini asl matn bilan taqqoslash, terminlarning kontekstdagi ma’nosini tekshirish va ilmiy ma’lumotlarning birlamchi manbasini aniqlash muhim metodik vazifalardir. Zamonaviy ESP ta’limida o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishning yakuniy maqsadi talabalarni mustaqil ravishda kasbiy axborot olish, uni tanqidiy baholash va amaliy faoliyatda qo‘llashga tayyorlashdan iboratdir.

9. O‘qish ko‘nikmalarining tarixiy-metodik rivojlanish bosqichlarini umumlashtirish

Yuqorida ko‘rib chiqilgan yondashuvlar ESP ta’limida o‘qish faoliyatining bosqichma-bosqich murakkablashib borganini ko‘rsatadi.

2-jadval. ESP doirasida o‘qish ko‘nikmalarining rivojlanish bosqichlari

Bosqich	Asosiy yo‘nalish	O‘qish faoliyatidagi ustuvor maqsad
An’anaviy metodik zamin	Grammatik-tarjima	So‘z va gaplarni tushunish, tarjima qilish
1960–1970-yillar boshlari	Registr tahlili	Kasbiy leksika va grammatik tuzilmalarni aniqlash
1970-yillar	Diskurs tahlili	Yaxlit matnning mantiqiy tuzilishini tushunish
1970–1980-yillar	Maqsadli vaziyat tahlili	Kasbiy ehtiyojlarga mos axborotni o‘qish
1980-yillar	Ko‘nikma va strategiyalar	Axborotni maqsadli izlash va qayta ishlash

1980-yillardan	O‘rganishga yo‘naltirilgan yondashuv	Kognitiv faoliyat va mustaqillikni rivojlantirish
1990-yillardan	Janr va kommunikativ tahlil	Matnning kommunikativ maqsadini anglash
XXI asr	Raqamli va kompetensiyaviy yondashuv	Axborotni tanqidiy baholash va kasbiy qo‘llash

Jadvalda keltirilgan davriy chegaralar nisbiy xarakterga ega. Mazkur yondashuvlar bir-birini to‘liq almashtirmagan, balki o‘zaro boyitib, zamonaviy ESP metodikasining kompleks xususiyatini shakllantirgan.

Xususan, bugungi kunda kasbiy matnlarni o‘qitishda registr tahlili, diskurs tahlili, strategik o‘qish, janr tahlili va raqamli savodxonlik elementlaridan birgalikda foydalanish maqsadga muvofiq.

10. Nofilologik yo‘nalish talabalarida o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishning bosqichli modeli

Tarixiy-metodik yondashuvlarni umumlashtirish asosida nofilologik yo‘nalish talabalarining kasbiy matnlarni o‘qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun besh bosqichli model taklif etiladi.

Ushbu model tarixiy rivojlanish davrlarini emas, balki o‘quv jarayonida ko‘nikmalarni shakllantirish ketma-ketligini ifodalaydi.

1) Tayyorlov-motivatsion bosqich

Kasbiy ehtiyojlarni aniqlash va oldingi bilimlarni faollashtirish

2) Leksik-grammatik bosqich

Terminologiya va ilmiy til tuzilmalarini o‘zlashtirish

3) Strategik-o‘qish bosqichi

Matndan axborotni izlash, ajratish va tushunish

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

4) Tahliliy-interpretativ bosqich

Ilmiy axborotni talqin qilish va tanqidiy baholash

5) Mustaqil-kasbiy bosqich

O‘qilgan bilimlarni kasbiy vazifalarda qo‘llash

Birinchi bosqich — tayyorlov-motivatsion bosqich. Bu bosqichda talabalarning ingliz tilini bilish darajasi, kasbiy qiziqishlari, o‘qish ehtiyojlari va oldingi bilimlari aniqlanadi. O‘qituvchi mavzuga oid savollar, rasmlar, diagrammalar va qisqa matnlardan foydalanib, talabalarni yangi axborotni qabul qilishga tayyorlaydi.

Ikkinchi bosqich — leksik-grammatik bosqich. Talabalar sohaga oid asosiy terminlar, so‘z birikmalari, ilmiy matnlarga xos grammatik tuzilmalar va terminlarning kontekstual ma’nolarini o‘zlashtiradilar. Ushbu bosqich keyingi murakkab matnlarni tushunish uchun lingvistik asos yaratadi.

Uchinchi bosqich — strategik-o‘qish bosqichi. Talabalar o‘qish maqsadiga qarab tegishli strategiyalarni tanlash, matnning asosiy mazmunini aniqlash, kerakli ma’lumotni topish va notanish birliklarning ma’nosini kontekst asosida taxmin qilishni mashq qiladilar.

To‘rtinchi bosqich — tahliliy-interpretativ bosqich. Talabalar ilmiy matnlardagi dalillar, xulosalar, sabab-oqibat munosabatlari va muallifning asosiy g‘oyalarini tahlil qiladilar. Turli ilmiy manbalardagi axborotlarni taqqoslash hamda asoslangan xulosalar chiqarish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Beshinchi bosqich — mustaqil-kasbiy bosqich. Talabalar ingliz tilidagi ilmiy va kasbiy manbalardan mustaqil foydalanadilar, o‘qilgan axborotni amaliy topshiriqlarni bajarish, ilmiy izlanishlar olib borish va kasbiy muammolarni hal etishda qo‘llaydilar.

Mazkur modelning asosiy xususiyati o‘qish ko‘nikmalarini oddiy lingvistik tushunishdan mustaqil kasbiy faoliyat darajasigacha rivojlantirishga yo‘naltirilganligidadir.

11. Kimyo yo‘nalishi talabalarida o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishning amaliy imkoniyatlari

Taklif etilgan modelni kimyo yo‘nalishi talabalariga moslashtirishda autentik yoki pedagogik maqsadda moslashtirilgan ilmiy matnlardan foydalanish muhimdir.

O‘quv materiallarini tanlashda talabalar tayyorgarligi, kimyo fanining mazmuni, kasbiy terminologiyaning murakkabligi va o‘qishdan ko‘zlangan maqsad hisobga olinishi kerak. Masalan, Factors Affecting the Rate of Chemical Reactions mavzusidagi matn asosida quyidagi o‘quv faoliyatlarini tashkil etish mumkin.

3-jadval. Kimyo yo‘nalishi talabalari uchun o‘qish topshiriqlarining bosqichli tizimi

Bosqich	Topshiriq namunasi	Rivojlantiriladigan ko‘nikma
Tayyorlov	Reaksiya tezligiga ta’sir etuvchi omillarni sanash	Oldingi bilimlarni faollashtirish
Monitoring-baholash	So'rovnomalar, faoliyat hisobotlari, pedagogik kuzatuv va tahlil	So'rovnomalar, faoliyat hisobotlari, pedagogik kuzatuv va tahlil	Qoniqish darajasi, ishtirok muntazamligi, belgilangan pedagogik natijalarga erishish

Izoh: jadval muallif tomonidan ishlab chiqilgan konseptual model asosida shakllantirilgan.

Taklif etilgan modelni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalarining turistik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari bir xil emasligini hisobga olish zarur. Xususan, yirik shaharlarda joylashgan universitetlar transport va turistik xizmatlardan foydalanish jihatidan muayyan ustunliklarga ega bo'lishi mumkin. Tarixiy-madaniy yoki tabiiy turistik obyektlarga yaqin hududlarda joylashgan oliy ta'lim muassasalari esa mahalliy resurslar asosida qisqa muddatli turistik dasturlarni tashkil etish imkoniyatiga ega. Shu sababli modelni tatbiq etishda barcha oliy ta'lim muassasalari uchun yagona marshrutlar yoki bir xil turistik tadbirlarni belgilash emas, balki umumiy tashkiliy-pedagogik tamoyillar asosida hududiy imkoniyatlarga mos dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Talabalar turizmini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan yana biri turistik faoliyatni oliy ta'lim muassasalarining ta'limiy va tarbiyaviy vazifalari bilan integratsiyalash hisoblanadi. Bunda tarix, geografiya, ekologiya, madaniyatshunoslik, iqtisodiyot, arxitektura va boshqa ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun turistik dasturlar tegishli fanlarning mazmuni bilan bog'lanishi mumkin. Masalan, tarix yo'nalishi talabalari uchun tarixiy obidalar va muzeylarga tashriflar, ekologiya yo'nalishi talabalari uchun tabiiy hududlarni o'rganish, iqtisodiyot va turizm yo'nalishi talabalari

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

uchun esa turistik infratuzilma va xizmat ko‘rsatish tizimlarini kuzatishga qaratilgan dasturlar tashkil etilishi mumkin. Bunday yondashuv turistik faoliyatning ta’limiy maqsadga yo‘naltirilganligini kuchaytiradi hamda talabalarning nazariy bilimlarini amaliy kuzatuvlar bilan boyitish imkonini beradi.

Shu bilan birga, turistik faoliyatning pedagogik natijadorligini oshirish uchun sayohatning uch bosqichli tuzilmasidan foydalanish taklif etiladi. Birinchi bosqichda talabalar turistik hudud, marshrut va o‘rganiladigan obyektlar haqida dastlabki ma’lumotlar bilan tanishtiriladi hamda tegishli o‘quv topshiriqlari belgilanadi. Ikkinchi bosqichda turistik faoliyat bevosita amalga oshirilib, kuzatuvlar, amaliy topshiriqlar va jamoaviy faoliyat tashkil etiladi. Uchinchi bosqichda esa sayohat natijalari umumlashtirilib, talabalar tomonidan olingan bilim va tajribalar muhokama qilinadi. Mazkur ketma-ketlik turistik faoliyatning maqsadga yo‘naltirilganligini ta’minlash hamda uning pedagogik natijalarini aniqlash uchun metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan konseptual modelning amaliy ahamiyati talabalar turizmini rivojlantirishga doir tashkiliy qarorlarni pedagogik maqsadlar bilan muvofiqlashtirish imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Model oliy ta’lim muassasalarida turistik faoliyatning mavjud holatini tahlil qilish, rivojlanishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, istiqbolli dasturlarni rejalashtirish va natijalarni baholash uchun nazariy asos sifatida foydalanilishi mumkin. Biroq uning samaradorligini tasdiqlash uchun keyingi tadqiqotlarda turli oliy ta’lim muassasalari misolida amaliy sinovlar, talabalar so‘rovnomalari va monitoring natijalariga asoslangan empirik baholashlarni amalga oshirish zarur.

XULOSA

Oliy ta’lim muassasalarida talabalar turizmini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini nazariy jihatdan o‘rganish turistik faoliyatni ta’limiy, tarbiyaviy va ijtimoiy rivojlanish vazifalari bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etish

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

zarurligini ko‘rsatdi. Talabalar turizmining pedagogik imkoniyatlari sayohat va ekskursiyalarning o‘tkazilishi bilangina belgilanmaydi, balki ularning maqsadga yo‘naltirilganligi, mazmuniy asoslanganligi, talabalar ehtiyojlariga mosligi hamda natijalarni baholash mexanizmlarining mavjudligiga bog‘liq. Shu sababli turistik faoliyatni oliy ta’lim muassasalarining umumiy ta’lim-tarbiya tizimiga integratsiyalash va uni izchil rejalashtirish muhim tashkiliy-pedagogik vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotda talabalar turizmini rivojlantirishga ta’sir etuvchi tashkiliy-boshqaruv, pedagogik-metodik, ijtimoiy-iqtisodiy, motivatsion, infratuzilmaviy va xavfsizlik omillari tizimlashtirildi. Ushbu omillarning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda motivatsion, tashkiliy-boshqaruv, faoliyatga yo‘naltirilgan hamda monitoring-baholash komponentlaridan tashkil topgan konseptual model taklif etildi. Modelning asosiy xususiyati talabalar ehtiyojlarini aniqlash, turistik dasturlarni rejalashtirish, ularni pedagogik mazmun bilan boyitish va erishilgan natijalarni baholash jarayonlarini yagona tizimda birlashtirishdan iborat.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida talabalar turizmini rivojlantirishda hududiy turistik resurslar, ta’lim yo‘nalishlari va tashkiliy imkoniyatlarni hisobga olgan holda moslashuvchan dasturlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda turistik faoliyatni o‘quv jarayoni va auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlar bilan uyg‘unlashtirish, talabalar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, turistik marshrutlar uchun pedagogik topshiriqlar ishlab chiqish hamda natijadorlik monitoringini yo‘lga qo‘yish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilanadi.

Taklif etilgan tashkiliy-pedagogik model nazariy xarakterga ega bo‘lib, uning amaliy samaradorligi keyingi empirik tadqiqotlarda tekshirilishi lozim. Kelgusida turli hududlarda joylashgan oliy ta’lim muassasalari ishtirokida model komponentlarini sinovdan o‘tkazish, talabalar turistik faolligining o‘zgarishini baholash va pedagogik natijadorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish tadqiqotning istiqbolli yo‘nalishlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi O‘RQ-549-son «Turizm to‘g‘risida»gi Qonuni. LexUZ hujjati.

2. Boltaboyev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. - Toshkent, 2018.

3. Нафасов Д.Ш. Педагогические возможности студенческого туризма в системе образования // Педагогические исследования. - 2024. - Вып. 1. - С. 22-33.

4. Akhrorova N.U. Strategic framework for the advancement of student tourism development // Green Economy and Development. - 2024. - Vol. 2. - No. 9.

5. Джахангиров К. Основные направления развития образовательного туризма в Узбекистане // Экономическое развитие и анализ. - 2025. - Т. 3. - № 11. - С. 87-95. - DOI: 10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss11-pp87-95.

6. Зайцева Л.А., Красильникова Н.В. Молодежный и студенческий туризм как вектор в развитии туриндустрии и образования: опыт реализации программы на региональном уровне // Научный результат. Педагогика и психология образования. - 2023. - Т. 9. - № 4. - С. 18-26. - DOI: 10.18413/2313-8971-2023-9-4-0-2.

7. Chau S. Antecedents and outcomes of educational travel in higher education // Journal of Hospitality, Leisure, Sport & Tourism Education. - 2021. - Vol. 29. - Article 100331. - DOI: 10.1016/j.jhlste.2021.100331.

8. Chau S., Ren L. How Does Educational Travel Promote Lifelong Learning? // International Journal of Tourism Research. - 2024. - Vol. 26. - No. 4. - Article e2731. - DOI: 10.1002/jtr.2731.

9. Stone M.J., Petrick J.F. The Educational Benefits of Travel Experiences: A Literature Review // Journal of Travel Research. - 2013. - Vol. 52. - No. 6. - P. 731-744. - DOI: 10.1177/0047287513500588.

10.Chen S.X., Yu L., Tse S.W.T., Zhang Y. When travel teaches: Unpacking student outcomes in educational tourism // Tourism Management Perspectives. - 2025. - Vol. 58. - Article 101385. - DOI: 10.1016/j.tmp.2025.101385.

UDK: 796.5:796.015.6:378

SPORT-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI VOSITASIDA TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI

Yuldashev Ixtiyor Mamatovich
O'zDJTSU, Sport o'yinlari nazariyasi va uslubiyati
kafedrasi dotsenti v.b.
Email: yuldashev3025@gmail.com
ORCID: 0009-0007-4585-5618

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sport-sog'lomlashtirish turizmi vositalaridan foydalanish orqali oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy faolligini oshirish samaradorligi eksperimental asosda o'rganilgan. Tadqiqotda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Jismoniy madaniyat hamda Sport faoliyati ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan 20-24 yoshdagi 40 nafar III bosqich talabasi ishtirok etgan. Ishtirokchilar tajriba va nazorat guruhlariga ajratilib, olti hafta davomida tajriba guruhida sport-sog'lomlashtirish turizmi elementlarini o'z ichiga olgan mashg'ulotlar tashkil etilgan. Talabalarning jismoniy tayyorgarligi va faolligi 2000 metrga yugurish, IPAQ-SF so'rovnomasi hamda bir daqiqalik puls tiklanishi ko'rsatkichlari asosida baholangan. Tajriba yakunida tajriba guruhida 2000 metrga yugurish natijasi 8,20 foizga yaxshilangan, haftalik jismoniy faollik 19,10 foizga va bir daqiqalik puls tiklanishi 29,17 foizga oshgan. Olingan natijalar sport-sog'lomlashtirish turizmi vositalarini talabalar jismoniy tarbiyasi jarayoniga integratsiyalash istiqbollarini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Sport-sog'lomlashtirish turizmi, jismoniy faollik, talabalar, turistik yurish, jismoniy tayyorgarlik, chidamlilik, IPAQ-SF, puls tiklanishi, pedagogik tajriba.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ СРЕДСТВАМИ СПОРТИВНО-ОЗДОРОВИТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА

Аннотация: *В статье представлены результаты экспериментального исследования эффективности применения средств спортивно-оздоровительного туризма для повышения физической активности студентов высшего учебного заведения. В исследовании приняли участие 40 студентов мужского пола в возрасте 20-24 лет, обучающихся на третьем курсе по направлениям «Физическая культура» и «Спортивная деятельность» Узбекского государственного университета физической культуры и спорта. Участники были распределены на экспериментальную и контрольную группы по 20 человек. В течение шести недель в экспериментальной группе проводились занятия с включением элементов спортивно-оздоровительного туризма. Оценка физической подготовленности и двигательной активности студентов осуществлялась на основе результатов бега на 2000 метров, международного опросника физической активности IPAQ-SF и показателей восстановления частоты сердечных сокращений*

за первую минуту после физической нагрузки. По завершении эксперимента в экспериментальной группе результат бега на 2000 метров улучшился на 8,20 %, недельная физическая активность увеличилась на 19,10 %, а показатель восстановления частоты сердечных сокращений - на 29,17 %. Полученные результаты свидетельствуют о перспективности интеграции средств спортивно-оздоровительного туризма в процесс физического воспитания студентов.

Ключевые слова: *спортивно-оздоровительный туризм, физическая активность, студенты, туристический поход, физическая подготовленность, выносливость, IPAQ-SF, восстановление частоты сердечных сокращений, педагогический эксперимент.*

EFFECTIVENESS OF ENHANCING STUDENTS' PHYSICAL ACTIVITY THROUGH SPORTS AND RECREATIONAL TOURISM

Abstract: *This article presents the results of an experimental study evaluating the effectiveness of sports and recreational tourism activities in enhancing physical activity among university students. The study involved 40 male third-year students aged 20-24 years enrolled in the Physical Education and Sports Studies programs at the Uzbek State University of Physical Education and Sport. The participants were divided into an experimental group and a control group, with 20 students in each. Over a six-week period, the experimental group participated in a training program incorporating elements of sports and recreational tourism. Physical fitness and activity levels were assessed using a 2000-meter running test, the International Physical Activity Questionnaire-Short Form (IPAQ-SF), and one-minute heart rate recovery following physical exertion. At the end of the intervention, the experimental group demonstrated an 8.20% improvement in 2000-meter running performance, a 19.10% increase in weekly physical activity, and a 29.17% improvement in one-minute heart rate recovery. These findings suggest that integrating sports and recreational tourism activities into university physical education programs may be a promising approach to promoting students' physical activity and functional fitness.*

Keywords: *sports and recreational tourism, physical activity, university students, hiking, physical fitness, endurance, IPAQ-SF, heart rate recovery, pedagogical experiment.*

KIRISH

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning jismoniy faolligini oshirish, ularning funksional imkoniyatlarini rivojlantirish va sog'lom turmush tarziga bo'lgan munosabatini mustahkamlash jismoniy tarbiya tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarda muntazam jismoniy faollik yurak-qon tomir tizimi salomatligini saqlash, jismoniy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tayyorgarlikni rivojlantirish va harakatsiz turmush tarzi bilan bog‘liq xavflarni kamaytirishning muhim omili sifatida baholangan [1].

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quv yuklamalarining ortishi, raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘lamining kengayishi va kundalik harakat faoliyatining cheklanishi talabalarning jismoniy faolligini tizimli tashkil etishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. D.X.Ding va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda jismoniy faollikning yetarli emasligi nafaqat individual salomatlik, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan ham bog‘liq muammo ekanligi asoslangan [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Talabalar jismoniy tarbiyasida an’anaviy mashg‘ulotlar bilan bir qatorda tabiiy muhitda tashkil etiladigan harakat faoliyati shakllaridan foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega. Sport-sog‘lomlashtirish turizmi ana shunday vositalardan biri bo‘lib, u davomli yurish, o‘zgaruvchan relyef sharoitida harakatlanish va jismoniy yuklamani boshqarish elementlarini birlashtiradi. J.Pretty va hammualliflar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda tabiiy muhitda bajariladigan jismoniy faoliyatning ruhiy holat va salomatlik bilan bog‘liq ayrim ko‘rsatkichlarga ijobiy ta’siri qayd etilgan [3].

Tabiiy muhitdagi jismoniy mashg‘ulotlarning samaradorligi ularning mazmuni, davomiyligi va intensivligiga bog‘liq. J.Thompson Coon va boshqa mualliflar tomonidan bajarilgan tizimli tahlilda ochiq havodagi jismoniy faoliyatning ayrim psixologik ko‘rsatkichlarga ijobiy ta’siri aniqlangan. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda metodologik farqlar mavjudligi sababli natijalarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish zarurligi ta’kidlangan [4].

Sport-sog‘lomlashtirish turizmi mashg‘ulotlarining samaradorligini faqat turistik marshrutni bosib o‘tish natijalari orqali baholash yetarli emas. Bunda talabalarning umumiy jismoniy tayyorgarligi, haftalik jismoniy faolligi va standart yuklamadan keyingi funksional tiklanish ko‘rsatkichlarini birgalikda tahlil qilish zarur. Jismoniy

faollikni baholashda xalqaro IPAQ so‘rovnomasining qo‘llanish imkoniyatlari C.L.Craig va boshqa olimlarning tadqiqotlarida asoslangan [5].

Yurak urish chastotasining jismoniy yuklamadan keyingi tiklanishi organizmning funksional holatini baholashda qo‘llanadigan ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. C.R.Cole va boshqa tadqiqotchilar yurak urish chastotasining yuklamadan keyingi tiklanish tezligi muhim fiziologik axborot berishini ko‘rsatgan [6]. Biroq ushbu ko‘rsatkichni talqin qilishda yuklama turi va o‘lchash sharoitlarini hisobga olish zarur.

Shu nuqtayi nazardan sport-sog‘lomlashtirish turizmi vositalarini oliy ta’lim muassasalarining jismoniy tarbiya jarayoniga kiritish va ularning samaradorligini miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida baholash ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi sport-sog‘lomlashtirish turizmi vositalariga asoslangan olti haftalik mashg‘ulotlar dasturining talabalarning umumiy chidamliligi, haftalik jismoniy faolligi va jismoniy yuklamadan keyingi puls tiklanishiga ta’sirini baholashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida tashkil etilgan. Unda Jismoniy madaniyat hamda Sport faoliyati ta’lim yo‘nalishlarining III bosqichida tahsil olayotgan 20-24 yoshdagi 40 nafar erkak talaba ishtirok etgan. Ishtirokchilar 20 nafardan tajriba guruhi (TG) va nazorat guruhiga (NG) ajratilgan.

Pedagogik tajriba olti hafta davom etgan. Tajriba guruhida haftasiga uch marta, jami 18 ta mashg‘ulot tashkil etilgan. Mashg‘ulotlarning ikkitasi universitet hududida, bittasi esa Toshkent viloyatining Humson hududidagi tabiiy relyef sharoitida turistik yurish shaklida o‘tkazilgan. Nazorat guruhi talabalari odatiy o‘quv dasturi doirasidagi jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida ishtirok etgan.

Tajriba guruhi dasturida umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari, davomli yurish, harakat sur’atini boshqarish va tabiiy relyef sharoitida harakatlanish elementlari uyg‘unlashtirilgan. Turistik mashg‘ulotlar talabalarning jismoniy tayyorgarligi va marshrut sharoitlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan.

Mashg‘ulotlar jarayonida yurak urish chastotasini kuzatish uchun Polar Team tizimi va Polar H9 sensorlaridan foydalanilgan. Turistik marshrutlarning masofasi, davomiyligi va balandlik o‘zgarishlarini qayd etishda Strava ilovasidan foydalanilgan. Ushbu ma’lumotlar mashg‘ulot yuklamasini nazorat qilishga xizmat qilgan. Talabalarning haftalik jismoniy faolligi IPAQ-SF so‘rovnomasi asosida baholanib, natijalar metabolik ekvivalent (MET) va faoliyat davomiyligi ko‘paytmasi orqali MET-daqiqa/hafta birliklarida ifodalandi

Tadqiqot boshida va yakunida uchta nazorat ko‘rsatkichi baholangan.

2000 metrga yugurish. Test standart 400 metrlik stadion yugurish yo‘lagida o‘tkazilgan. Talabalar besh aylana yugurib, masofani bosib o‘tishga sarflagan vaqt soniyalarda qayd etilgan. Natijaning kamayishi umumiy chidamlilik ko‘rsatkichining yaxshilanishi sifatida baholangan [5, 7].

Haftalik jismoniy faollik. Talabalarning jismoniy faolligi IPAQ-SF qisqa xalqaro so‘rovnomasi asosida aniqlangan. Natijalar haftalik MET-daqiqa ko‘rinishida ifodalangan. Ushbu ko‘rsatkich turli intensivlikdagi jismoniy faoliyatning haftalik umumiy hajmini baholash imkonini bergan [7].

Bir daqiqalik puls tiklanishi. Standart jismoniy yuklama sifatida 2000 metrga yugurish testi qo‘llangan. Yugurish yakunlangach va tiklanishning 60-soniyasida yurak urish chastotasi qayd etilgan. Ikki qiymat orasidagi farq bir daqiqalik puls tiklanishi ko‘rsatkichi sifatida hisoblangan [6, 8].

Puls tiklanishi quyidagi formula orqali aniqlangan.

$$\mathbf{PT_{60} = YuUCh_0 - YuUCh_{60}\ (1)}$$

Bu yerda $YuUCh_0$ yugurish tugagandan keyingi yurak urish chastotasini, $YuUCh_{60}$ esa tiklanishning 60-soniyasidagi yurak urish chastotasini bildiradi.

Tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlashda o‘rtacha arifmetik qiymat, standart og‘ish va nisbiy o‘zgarish hisoblangan. Tajriba hamda nazorat guruhlarining alohida vaqt nuqtalaridagi ko‘rsatkichlarini taqqoslash uchun mustaqil tanlanmalarga

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mo‘ljallangan t-mezoni qo‘llangan. Statistik ahamiyatlilik chegarasi $p<0,05$ darajasida belgilangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Olti haftalik pedagogik tajriba davomida tajriba va nazorat guruhlarida jismoniy tayyorgarlik hamda funksional holat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi kuzatilgan.

1-jadval. Sport-sog‘lomlashtirish turizmi mashg‘ulotlari ta’sirida talabalarning jismoniy faolligi va funksional ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi (n=40)

Nazorat ko‘rsatkichlari	Guruh	Tajribadan oldin ($\bar{X} \pm \sigma$)	Tajribadan keyin ($\bar{X} \pm \sigma$)	Nisbiy o‘zgarish (%)	t	p
2000 metrga yugurish (soniya)	TG	622 ± 41,5	571 ± 35,8	8,20	-3,47	<0,005
	NG	623 ± 40,8	612 ± 38,8	1,77		
Haftalik jismoniy faollik (MET-daqiqa/hafta)	TG	2461 ± 380	2931 ± 245	19,10	3,71	<0,001
	NG	2460 ± 385	2570 ± 360	4,47		
Bir daqiqalik puls tiklanishi (zarba/daq.)	TG	24 ± 5,2	31 ± 5,5	29,17	3,58	<0,001
	NG	23 ± 5,0	25 ± 5,1	8,70		

Izoh. *Jadvaldagi t va p qiymatlari tajriba yakunida TG va NG o‘rtasidagi farqni ifodalaydi. Ular TG qatorida texnik qulaylik uchun joylashtirilgan. Nisbiy o‘zgarishlar har bir guruhning o‘rtacha qiymatlari asosida hisoblangan.*

2000 metrga yugurish natijalarining o‘zgarishi

Tajriba boshlanishida 2000 metrga yugurish bo‘yicha tajriba guruhining o‘rtacha natijasi 622±41,5 soniyani, nazorat guruhida esa 623±40,8 soniyani tashkil etgan. Mazkur qiymatlar guruhlarning dastlabki umumiy chidamlilik ko‘rsatkichlari bir-biriga yaqin bo‘lganini ko‘rsatadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Olti haftalik mashg‘ulotlardan keyin tajriba guruhida masofani bosib o‘tish vaqti o‘rtacha 571±35,8 soniyagacha kamaygan. Dastlabki ko‘rsatkichga nisbatan yaxshilanish 51 soniya yoki 8,20 foizni tashkil etgan.

Nazorat guruhida esa yugurish natijasi 623±40,8 soniyadan 612±38,8 soniyagacha yaxshilangan. O‘rtacha farq 11 soniya yoki 1,77 foizga teng bo‘lgan.

Tajriba yakunida guruhlar o‘rtasidagi farq 41 soniyani tashkil etgan va statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan (t=-3,47, p=0,005).

Ushbu natijalar tajriba guruhida umumiy chidamlilik ko‘rsatkichining nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq darajada yaxshilanganini tavsiflaydi.

Haftalik jismoniy faollik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

IPAQ-SF so‘rovnomasi asosida aniqlangan haftalik jismoniy faollik tajriba boshlanishida TGda 2461±380 MET-daqiqa/haftani, NGda esa 2460±385 MET-daqiqa/haftani tashkil etgan.

Tajriba yakunida TGning o‘rtacha ko‘rsatkichi 2931±245 MET-daqiqa/haftaga yetgan. Dastlabki qiymatga nisbatan o‘sish 470 MET-daqiqa/hafta yoki 19,10 foizni tashkil qilgan.

NGda mazkur ko‘rsatkich 2570±360 MET-daqiqa/haftagacha oshgan. Nisbiy o‘sish 4,47 foizga teng bo‘lgan.

Tajriba yakunidagi guruhlararo farq 361 MET-daqiqa/haftani tashkil etgan va statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan (t=3,71, p=0,001).

Olingan natijalar sport-sog‘lomlashtirish turizmi elementlari kiritilgan mashg‘ulotlar dasturida ishtirok etgan talabalarning haftalik jismoniy faollik hajmi yuqoriroq bo‘lganini ko‘rsatadi.

Bir daqiqalik puls tiklanishi ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

Tajriba boshlanishida standart 2000 metrlik yugurish yuklamasidan keyingi bir daqiqalik puls tiklanishi TGda 24±5,2 zarba/daqiqani, NGda esa 23±5,0 zarba/daqiqani tashkil etgan.

Tajriba yakunida TGning o‘rtacha ko‘rsatkichi 31±5,5 zarba/daqiqaga yetgan. Dastlabki natijaga nisbatan o‘sish 7 zarba/daqiqa yoki 29,17 foizga teng bo‘lgan.

NGda puls tiklanishi 23±5,0 zarba/daqiqadan 25±5,1 zarba/daqiqagacha oshgan. Nisbiy o‘sish 8,70 foizni tashkil etgan.

Tajriba yakunida TG va NG o‘rtasidagi farq 6 zarba/daqiqaga teng bo‘lib, statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan (t=3,58, p=0,001).

Bir daqiqalik puls tiklanishi ko‘rsatkichining oshishi jismoniy yuklamadan keyingi dastlabki tiklanish davrida yurak urish chastotasi tezroq pasayganini bildiradi. Shu bilan birga, ushbu ko‘rsatkichga yugurish intensivligi, yuklama yakunidagi yurak urish chastotasi va tiklanish sharoiti ham ta’sir qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari sport-sog‘lomlashtirish turizmi vositalaridan foydalanilgan olti haftalik mashg‘ulotlar dasturi davomida talabalarning umumiy chidamliligi, haftalik jismoniy faolligi va dastlabki funksional tiklanish ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganini ko‘rsatdi.

Tajriba guruhida 2000 metrga yugurish natijasining yaxshilanishi mashg‘ulotlar tarkibidagi davomli harakat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Tabiiy relyef sharoitida tashkil etilgan turistik yurishlar tekis maydondagi mashqlardan farqli ravishda harakat sur’ati va mushak faoliyatini o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirishni talab etadi. Bunday yuklamalar umumiy chidamlilikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni mazmunan boyitishi mumkin.

Haftalik jismoniy faollik ko‘rsatkichining ortishi sport-sog‘lomlashtirish turizmi dasturining muhim natijalaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Tajriba guruhida jismoniy faollikning 19,10 foizga oshgani, nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkich 4,47 foizni tashkil etgani dastur davomida harakat faoliyati hajmi turlicha o‘zgarganini ko‘rsatadi.

Biroq ushbu natijani talabalarning mashg‘ulotlardan tashqari mustaqil jismoniy faolligi oshganining bevosita dalili sifatida talqin qilish mumkin emas. IPAQ-SF

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

so‘rovnomasi haftalik umumiy jismoniy faollikni baholaydi va uning tarkibiga tashkil etilgan mashg‘ulotlar davomida bajarilgan harakat faoliyati ham kirishi mumkin.

Puls tiklanishi ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi tajriba guruhida yuklamadan keyingi dastlabki tiklanish jarayoni ko‘rsatkichlari yaxshilanganini bildiradi. Shu bilan birga, ushbu ko‘rsatkichni talabalarning yurak-qon tomir tizimi funksional imkoniyatlari to‘liq yaxshilanganining yagona mezoni sifatida qabul qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Tajriba boshlanishida guruhlarning uchala ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rtacha natijalari bir-biriga yaqin bo‘lgan. Tajriba yakunida esa TG va NG o‘rtasidagi farqlar barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha statistik ahamiyatli bo‘lgan.

Shu o‘rinda statistik tahlilning chegarasini hisobga olish zarur. Tadqiqotda tajribadan oldingi va keyingi individual o‘lchovlar juftligi mavjud bo‘lmagani sababli har bir ishtirokchining o‘zgarishi bo‘yicha juftlangan t-mezoni hamda guruhlar o‘zgarishlari farqining bevosita statistik sinovi bajarilmagan. Shu bois yakuniy guruhlararo farqlar dastur samaradorligi haqidagi xulosalarni qo‘llab-quvvatlasa-da, uning sababiy ta’sirini mustaqil ravishda to‘liq isbotlamaydi.

Tadqiqot natijalari sport-sog‘lomlashtirish turizmi vositalarini jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga kiritish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Bunday dasturlarda tabiiy muhitdagi harakat faoliyatini stadion va universitet hududidagi mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish, yuklama intensivligini monitoring qilish hamda natijalarni bir nechta nazorat ko‘rsatkichlari orqali baholash maqsadga muvofiq.

XULOSA

O‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari sport-sog‘lomlashtirish turizmi vositalariga asoslangan olti haftalik mashg‘ulotlar dasturida ishtirok etgan talabalarning jismoniy faolligi va funksional ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganini ko‘rsatdi.

Tajriba guruhida 2000 metrga yugurish natijasi 8,20 foizga yaxshilangan bo‘lsa, nazorat guruhida mazkur ko‘rsatkich 1,77 foizni tashkil etdi. Haftalik jismoniy faollik

TGda 19,10 foizga, NGda 4,47 foizga oshdi. Bir daqiqalik puls tiklanishi ko‘rsatkichi esa mos ravishda 29,17 va 8,70 foizga yaxshilandi.

Tajriba yakunida uchala nazorat ko‘rsatkichi bo‘yicha guruhlar o‘rtasida statistik ahamiyatli farqlar aniqlangan. Bu sport-sog‘lomlashtirish turizmi elementlarini o‘z ichiga olgan mashg‘ulotlar dasturining istiqbolli ekanligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar asosida sport-sog‘lomlashtirish turizmi mashg‘ulotlarini oliy ta’lim muassasalari jismoniy tarbiya jarayoniga tizimli kiritish, tabiiy relyef sharoitidagi yurishlarni umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari bilan uyg‘unlashtirish va jismoniy yuklamalarni raqamli monitoring vositalari yordamida nazorat qilish tavsiya etiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ishtirokchilarning individual o‘lchov natijalarini saqlash, mashg‘ulot yuklamalarini guruhlar o‘rtasida muvofiqlashtirish va uzoqroq muddatli pedagogik tajribalarni tashkil etish sport-sog‘lomlashtirish turizmi dasturlarining samaradorligini yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bull F.C., Al-Ansari S.S., Biddle S., Borodulin K., Buman M.P., Cardon G. et al. World Health Organization 2020 guidelines on physical activity and sedentary behaviour // British Journal of Sports Medicine. – 2020. – Vol. 54, No. 24. – P. 1451–1462. – DOI: 10.1136/bjsports-2020-102955.
2. Ding D., Lawson K.D., Kolbe-Alexander T.L., Finkelstein E.A., Katzmarzyk P.T., van Mechelen W., Pratt M. The economic burden of physical inactivity: a global analysis of major non-communicable diseases // The Lancet. – 2016. – Vol. 388, No. 10051. – P. 1311–1324. – DOI: 10.1016/S0140-6736(16)30383-X.
3. Pretty J., Peacock J., Sellens M., Griffin M. The mental and physical health outcomes of green exercise // International Journal of Environmental Health Research. – 2005. – Vol. 15, No. 5. – P. 319–337. – DOI: 10.1080/09603120500155963.
4. Thompson Coon J., Boddy K., Stein K., Whear R., Barton J., Depledge M.H. Does participating in physical activity in outdoor natural environments have a greater effect on physical and mental wellbeing than physical activity indoors? A systematic review // Environmental Science & Technology. – 2011. – Vol. 45, No. 5. – P. 1761–1772. – DOI: 10.1021/es102947t.
5. Craig C.L., Marshall A.L., Sjöström M., Bauman A.E., Booth M.L., Ainsworth B.E. et al. International physical activity questionnaire: 12-country reliability and validity // Medicine & Science in Sports & Exercise. – 2003. – Vol. 35, No. 8. – P. 1381–1395. – DOI: 10.1249/01.MSS.0000078924.61453.FB.

6. Cole C.R., Blackstone E.H., Pashkow F.J., Snader C.E., Lauer M.S. Heart-rate recovery immediately after exercise as a predictor of mortality // The New England Journal of Medicine. – 1999. – Vol. 341, No. 18. – P. 1351–1357. – DOI: 10.1056/NEJM199910283411804.

7. Lee P.H., Macfarlane D.J., Lam T.H., Stewart S.M. Validity of the International Physical Activity Questionnaire Short Form (IPAQ-SF): a systematic review // International Journal of Behavioral Nutrition and Physical Activity. – 2011. – Vol. 8. – Article 115. – DOI: 10.1186/1479-5868-8-115.

8. Daanen H.A.M., Lamberts R.P., Kallen V.L., Jin A., Van Meeteren N.L.U. A systematic review on heart-rate recovery to monitor changes in training status in athletes // International Journal of Sports Physiology and Performance. – 2012. – Vol. 7, No. 3. – P. 251–260. – DOI: 10.1123/ijspp.7.3.251.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI

Boymirzayeva Mohira Shavkatjonovna
"Tashkent International University" Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti, PhD.

Annotatsiya. *Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi zamonaviy pedagogik ta'limning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada kasbiy kompetentlik tushunchasining mohiyati, tarkibiy qismlari va uni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbiy kompetentlik integrativ xususiyat bo'lib, kommunikativ, lingvistik, metodik-didaktik, psixologik-pedagogik, raqamli va madaniy kompetensiyalardan iborat. Ushbu kompetentlikni rivojlantirish o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalar, amaliyot va refleksiyani qo'llash orqali amalga oshiriladi. Maqola bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar beradi.*

Kalit so'zlar: *bo'lajak chet tili o'qituvchisi, kasbiy kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, metodik kompetentlik, raqamli kompetentlik, pedagogik model, CEFR.*

PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS

Abstract. *The professional competence of future foreign language teachers is one of the key issues in modern teacher education. This article analyzes the essence of the concept of professional competence, its constituent components, and the pedagogical conditions for its development. The research findings indicate that professional competence is an integrative quality comprising communicative, linguistic, methodological-didactic, psychological-pedagogical, digital, and intercultural competencies. The development of this competence is achieved through the application of innovative technologies, practical training, and reflection in the educational process. The article provides recommendations for improving the professional training of future foreign language teachers.*

Keywords: *future foreign language teacher, professional competence, communicative competence, methodological competence, digital competence, pedagogical model, CEFR.*

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация. *Профессиональная компетентность будущих преподавателей иностранного языка является одной из ключевых проблем современного педагогического образования. В данной статье анализируются сущность понятия профессиональной компетентности, её структурные компоненты и педагогические условия её формирования. Результаты исследования показывают, что профессиональная компетентность представляет собой интегративное качество, включающее коммуникативную, лингвистическую, методико-дидактическую,*

психолого-педагогическую, цифровую и межкультурную компетенции. Развитие данной компетентности осуществляется посредством применения инновационных технологий, практической подготовки и рефлексии в образовательном процессе. В статье представлены рекомендации по совершенствованию профессиональной подготовки будущих преподавателей иностранного языка.

Ключевые слова: *будущий преподаватель иностранного языка, профессиональная компетентность, коммуникативная компетентность, методическая компетентность, цифровая компетентность, педагогическая модель, CEFR.*

KIRISH

Zamonaviy globallashuv va raqamli texnologiyalar rivoji sharoitida chet tili o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar keskin oshmoqda. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi nafaqat til bilimini, balki uni o‘quvchilarga samarali yetkazish, intermadaniy kommunikatsiyani shakllantirish va o‘quv jarayonini zamonaviy usullar bilan tashkil etish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.

“Kasbiy kompetentlik” tushunchasi bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarni real professional vaziyatlarda samarali qo‘llash qobiliyatini bildiradi. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisi uchun bu kompetentlik integrativ xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi va pedagogik, psixologik hamda tilshunoslik sohalaridagi kompetensiyalar majmuasidan iborat.

Bugungi globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitishga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Xalqaro hamkorlik, ilm-fan, ta’lim, iqtisodiyot va madaniyatlararo aloqalarning kengayishi chet tillarini puxta egallagan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etmoqda. Bu jarayonda chet tili o‘qituvchisining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki chet tili o‘qituvchisi nafaqat til bilimlarini o‘rgatuvchi mutaxassis, balki o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiya, mustaqil fikrlash, madaniyatlararo muloqot va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi pedagog hisoblanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchidan faqat nazariy bilimlarga ega bo'lish emas, balki ushbu bilimlarni amaliy faoliyatda samarali qo'llay olish, ta'lim jarayonini mustaqil tashkil etish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va pedagogik vaziyatlarga mos ravishda qaror qabul qilish talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish oliy pedagogik ta'limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik tushunchasi pedagogika, psixologiya va kasbiy ta'lim nazariyasida muhim o'rin egallaydi. Mazkur tushuncha mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tajriba, shaxsiy sifatlar va kasbiy qadriyatlar majmuini ifodalaydi. Bo'lajak chet tili o'qituvchisining kasbiy kompetentligi esa tilshunoslik, pedagogika, psixologiya, chet tilini o'qitish metodikasi, kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar bo'yicha bilimlarni o'zaro uyg'unlashtirgan holda ta'lim jarayonida qo'llay olish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham chet tillarini o'qitish sifatini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, xalqaro ta'lim standartlariga mos mutaxassislarni tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda o'z kasbiy faoliyatini muntazam tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu sababli bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligining nazariy asoslarini o'rganish, uning tarkibiy qismlarini aniqlash va shakllantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlarini belgilash mazkur maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi quyidagilardan kelib chiqadi: O'zbekiston ta'lim tizimida chet tillari o'qitish sifatini oshirish, raqamli kompetentsiyalarni rivojlantirish va xalqaro standartlarga (CEFR) moslashish zarurati. Ushbu maqolada bo'lajak chet tili



o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligining mohiyati, tarkibi va shakllantirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Asosiy qism

Pedagogik adabiyotlarda “kompetentlik” tushunchasi muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarning yaxlit tizimi sifatida izohlanadi. Kompetentlik shaxsning egallagan bilimlarini muayyan vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llashi, mavjud muammolarni mustaqil hal qilishi va faoliyat natijalarini baholay olishi bilan tavsiflanadi. “Kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, ular mazmun jihatidan farqlanadi. Kompetensiya muayyan faoliyatni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va talablar majmuini anglatsa, kompetentlik shaxsning ana shu imkoniyatlarni amaliy faoliyatda samarali namoyon eta olish darajasini ifodalaydi.

Kasbiy kompetentlik o‘qituvchining pedagogik faoliyatga tayyorligi, kasbiy bilimlarni egallaganligi, ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlay olishi, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishi va ta’lim natijalarini tahlil qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Demak, kasbiy kompetentlik faqat nazariy bilimlar yig‘indisi emas, balki bilim, amaliy tajriba, kasbiy mahorat va shaxsiy sifatlarning o‘zaro integratsiyasidir.

Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi umumiy pedagogik kompetentlikdan tashqari, o‘ziga xos lingvistik va kommunikativ xususiyatlarga ham ega. Chunki chet tilini o‘qitish jarayoni tilning grammatik, leksik va fonetik xususiyatlarini o‘rgatish bilan bir qatorda, undan real kommunikativ vaziyatlarda foydalanish qobiliyatini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Shu jihatdan, bo‘lajak chet tili o‘qituvchisi tilni chuqur bilishi, uni o‘qitish metodikasini puxta egallashi, turli yoshdagi va bilim darajasidagi ta’lim oluvchilar bilan ishlay olishi, shuningdek, madaniyatlararo muloqot jarayonlarini samarali tashkil etishi lozim.

Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi murakkab va ko‘p tarkibli pedagogik hodisa hisoblanadi. Uni shakllantirish jarayonida bir-biri bilan uzviy bog‘liq

bo‘lgan bir nechta kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, lingvistik kompetensiya chet tilining fonetik, leksik, grammatik va sintaktik me’yorlarini bilish hamda ulardan to‘g‘ri foydalanish qobiliyatini anglatadi. Bo‘lajak o‘qituvchi tilning nazariy asoslarini chuqur o‘zlashtirishi, og‘zaki va yozma nutqda adabiy til me’yorlariga rioya qilishi, til birliklarining ma’no va qo‘llanish xususiyatlarini tushuntira olishi zarur. Lingvistik kompetensiyaning yetarli darajada shakllanganligi o‘qituvchiga til materiallarini ilmiy asosda izohlash, o‘quvchilarda to‘g‘ri talaffuz, grammatik savodxonlik va boy lug‘at zaxirasini rivojlantirish imkonini beradi.

Kommunikativ kompetensiya chet tilida turli kommunikativ vaziyatlarda samarali muloqot olib borish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi o‘quvchilarda ushbu to‘rt nutq faoliyati turini rivojlantirish uchun kommunikativ topshiriqlar, dialoglar, munozaralar, rolli o‘yinlar va interaktiv mashqlardan foydalanishi lozim. Kommunikativ kompetensiya nafaqat til vositalaridan to‘g‘ri foydalanish, balki muloqot maqsadi, vaziyati va suhbatdoshning xususiyatlariga mos ravishda fikr bildirishni ham nazarda tutadi.

Metodik-didaktik kompetensiya chet tilini o‘qitishning zamonaviy metodlari, tamoyillari, shakllari va vositalarini bilish hamda ularni ta’lim jarayonida maqsadga muvofiq qo‘llash qobiliyatidir. Mazkur kompetensiyaga darsni rejalashtirish, o‘quv materiallarini tanlash va moslashtirish, mashg‘ulotlarni tashkil etish, o‘quvchilarning bilimini baholash hamda ta’lim natijalarini tahlil qilish kiradi. Bo‘lajak o‘qituvchi ta’lim jarayonida an’anaviy va zamonaviy metodlarni uyg‘unlashtira olishi, o‘quvchilarning bilim darajasi va ehtiyojlariga mos topshiriqlar ishlab chiqishi, ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan metodik yechimlarni tanlay bilishi zarur.

Psixologik-pedagogik kompetensiya o‘qituvchining ta’lim oluvchilarning yosh, individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olishi, ular bilan samarali pedagogik munosabat o‘rnatishi va qulay ta’lim muhitini yaratish qobiliyatini anglatadi. Chet tilini



o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning motivatsiyasi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va psixologik holati muhim ahamiyatga ega. Shu sababli o‘qituvchi ta’lim oluvchilarni rag‘batlantirish, ularning xatolariga to‘g‘ri munosabat bildirish va individual yondashuvni ta’minlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Bunday yondashuv o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlash va ta’lim jarayonida faol ishtirokini ta’minlashga yordam beradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchining kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Raqamli kompetensiya elektron ta’lim platformalari, multimedia vositalari, interaktiv dasturlar, onlayn lug‘atlar va sun’iy intellektga asoslangan ta’lim resurslaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisi raqamli vositalar yordamida o‘quv materiallarini yaratish, mustaqil ta’limni tashkil etish va o‘quvchilarning bilimini nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo‘lishi lozim. Ayniqsa, elektron resurslar orqali audio va videomateriallardan foydalanish, virtual muloqot muhitini yaratish hamda interaktiv topshiriqlarni ishlab chiqish chet tilini o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Chet tilini o‘qitish faqat til birliklarini o‘rgatish bilan cheklanmaydi, balki shu tilda so‘zlashuvchi xalqlarning tarixi, urf-odatlari, qadriyatlari va madaniy xususiyatlarini ham o‘rganishni talab qiladi. Shu jihatdan madaniyatlararo kompetensiya turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish, madaniy farqlarni anglash, hurmat qilish va ularni ta’lim jarayonida to‘g‘ri talqin etish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisi o‘quvchilarga til o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatini tanishtirish bilan birga, o‘z milliy qadriyatlari va madaniy merosini ham boshqa xalqlarga to‘g‘ri yetkazish ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim. Mazkur kompetensiyalar bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lib, bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining yaxlit kasbiy tayyorgarligini ta’minlaydi. Ulardan birortasining yetarli darajada rivojlanmaganligi pedagogik faoliyat samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish tizimli, izchil va maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni talab etadi. Ushbu jarayon oliy ta’lim muassasalarida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish asosida tashkil etilishi lozim. Avvalo, ta’lim jarayonida kommunikativ yondashuvni keng qo‘llash zarur. Kommunikativ yondashuv talabalarning chet tilida erkin fikr bildirish, o‘zaro muloqot qilish va real hayotiy vaziyatlarda til vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunda munozara, loyiha ishi, muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar va guruhli topshiriqlardan foydalanish samarali natija beradi. Mazkur metodlar talabalarning nafaqat til bilimlarini, balki mustaqil fikrlash, jamoada ishlash va o‘z nuqtayi nazarini asoslash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish muhim hisoblanadi. Interaktiv ta’lim metodlari, elektron ta’lim resurslari, multimedia vositalari va masofaviy ta’lim platformalari talabalarning mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonini individuallashtirish, ta’lim oluvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish va o‘zlashtirish darajasini muntazam nazorat qilishga yordam beradi. Bunda texnologiyalardan foydalanish ta’limning asosiy maqsadiga xizmat qilishi, ya’ni talabalarning bilim, ko‘nikma va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik amaliyotning uzluksizligini ta’minlash ham alohida ahamiyatga ega. Talabalar nazariy bilimlarini maktab va boshqa ta’lim muassasalaridagi amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlashi, dars kuzatish, dars ishlanmalarini tayyorlash, mustaqil dars o‘tish va o‘z faoliyatini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Bu jarayon ularda kasbiy mas’uliyat, pedagogik mahorat va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, pedagogik amaliyot davomida yuzaga keladigan turli ta’limiy vaziyatlarni mustaqil hal etish talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirishga yordam beradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda refleksiv faoliyatni rivojlantirish ham muhim o‘rin tutadi. Refleksiya o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilishi, erishilgan natijalarni baholashi, mavjud kamchiliklarni aniqlashi va kelgusidagi faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan jarayondir. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish ularning o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashi, kasbiy faoliyatidagi muammolarni aniqlashi va ularni bartaraf etish yo‘llarini izlashiga yordam beradi. Shu bilan birga, talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ham zarur. Zamonaviy o‘qituvchi o‘z bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishi, yangi metodik yondashuvlarni o‘rganishi va kasbiy rivojlanishga intilishi lozim. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarda uzluksiz ta’lim olish, ilmiy izlanish olib borish va o‘z ustida ishlash madaniyatini shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Chet tillarini o‘qitishda Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) – Tillarni bilishning umumevropa mezonlari muhim nazariy va amaliy asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu tizim tilni bilish darajasini A1, A2, B1, B2, C1 va C2 bosqichlari orqali belgilaydi. CEFR talablari til o‘rganuvchilarning kommunikativ faoliyatini rivojlantirish, til kompetensiyalarini baholash va ta’lim natijalarini xalqaro mezonlar asosida aniqlashga xizmat qiladi. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilari mazkur mezonlarni nafaqat til bilish darajasini aniqlash vositasi, balki o‘quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etishning metodik asosi sifatida ham o‘zlashtirishlari lozim.

O‘qituvchi CEFR talablariga muvofiq o‘quvchilarning til bilish darajasini aniqlashi, ularga mos o‘quv materiallarini tanlashi, kommunikativ topshiriqlarni ishlab chiqishi va baholash mezonlarini belgilashi zarur. Bu esa ta’lim jarayonining izchilligi, shaffofligi va samaradorligini ta’minlaydi. Shuningdek, CEFRning kommunikativ faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvi bo‘lajak o‘qituvchilarda tilni amaliy qo‘llash, madaniyatlararo



muloqotga kirishish va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Natijada kasbiy tayyorgarlik xalqaro ta'lim talablariga muvofiq takomillashadi.

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini samarali shakllantirish uchun ta'lim jarayonida maqsad, mazmun, metod, vosita va natijalarni o'zaro bog'liq holda tashkil etish muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonini motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatga yo'naltirilgan, raqamli-innovatsion va refleksiv-baholash kabi tarkibiy qismlar asosida tashkil etish mumkin. Motivatsion-qadriyatli tarkibiy qism talabalarda kasbga qiziqish, pedagogik faoliyatga mas'uliyat va kasbiy rivojlanishga intilishni shakllantirishga xizmat qiladi. Kognitiv tarkibiy qism lingvistik, pedagogik, psixologik va metodik bilimlarni egallashni nazarda tutadi. Faoliyatga yo'naltirilgan tarkibiy qism esa nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, dars tashkil etish va kommunikativ faoliyatni samarali amalga oshirish bilan tavsiflanadi. Raqamli-innovatsion tarkibiy qism axborot texnologiyalari va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini qamrab olsa, refleksiv-baholash tarkibiy qism o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish qobiliyatini ifodalaydi.

Mazkur tarkibiy qismlarning samaradorligi ularning o'zaro uyg'unligiga bog'liq. Masalan, talabaning kasbiy bilimlarga ega bo'lishi muhim, biroq bu bilimlarni amaliy pedagogik vaziyatlarda qo'llay olmasa, uning kasbiy kompetentligi to'liq shakllangan deb bo'lmaydi. Xuddi shuningdek, zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmasi metodik bilimlar va pedagogik maqsadlar bilan uyg'unlashgan taqdirdagina yuqori natija beradi. Shu bois oliy ta'lim jarayonida nazariy mashg'ulotlar, amaliy darslar, pedagogik amaliyot, mustaqil ta'lim va refleksiv tahlilni yagona tizim sifatida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Разработана и апробирована трёхэтапная 12-недельная методика (107 часов, система комбинаций К-1 — К-6) совершенствования техники защиты и контратаки у высококвалифицированных тхэквондистов. Эксперимент охватил 80 спортсменов из пяти областей Узбекистана. В экспериментальной группе зафиксировано статистически значимое улучшение по всем 7 показателям ($p < 0,01$). Ключевой результат: transition time сократилось с 0,381 до 0,179 с (↓53%). Размер эффекта Коэна составил от 1,72 до 2,63 — категория «большого эффекта». Сравнение с контрольной группой выявило существенное превосходство ЭГ: transition time ↓53% против ↓6%, точность блоков ↑47% против ↑9%, эффективность контратаки ↑168% против ↑11%. Эти данные однозначно подтверждают педагогическую эффективность методики. Методика успешно применена во всех пяти областях — Ферганской, Андижанской, Наманганской, Самаркандской и Навоийской. Межрегиональные различия обосновывают необходимость дифференцированного подхода. Разработанная методика рекомендуется для внедрения в спортивных школах тхэквондо Узбекистана, тренировочных центрах и в работе тренеров с высококвалифицированными спортсменами.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Косимова Н.Р. Научно-методическая деятельность в избранном виде спорта тхэквондо.Учебное пособие.2026г. 140с.

2. Toshmatov B.K. O'zbekiston taekvondochilarining musobaqa faoliyati tahlili // Sport va sog'lom turmush tarzi. — 2020. — № 3. — B. 45–52.
3. Pўlatov L.A. Takomillashtirish metodikasi: PhD diss. — Toshkent: JTSInstituti, 2023. — 156 b.
4. Jum'anov A.R. Jangovar harakat kombinatsiyalarini takomillashtirish: PhD diss. — Toshkent: JTSInstituti, 2026. — 151 b.
5. Nakamura T., Park J.K. Biomechanical Classification of Taekwondo Defensive Techniques // Journal of Sports Science. — 2011. — Vol. 29, No. 4. — P. 341–358.
6. Tornello F., Capranica L. Time-Motion Analysis of Youth Olympic Taekwondo Combats // Journal of Strength and Conditioning Research. — 2014. — Vol. 28, No. 1. — P. 223–231.
7. Raxmatov B.Sh. Vestibulosomatik mashqlar samaradorligi: PhD diss. — Toshkent: O'zDJTSU, 2022. — 142 b.
8. Yusupova N.Sh. Innovatsion texnologiya asosida nazorat metodikasi: PhD diss. — Toshkent: O'zDJTSU, 2023. — 138 b.
9. Ernayeva G.H. Psixo-emotional o'zgarishlar va tibbiy-psixologik yordam: PhD diss. — Toshkent: RSTMAP, 2025. — 162 b.
10. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. — Moskva: Sovetskiy sport, 2015. — 1432 s.
11. Shulika Yu.A. Taekwondo WTF. Teoriya i metodika. Tom 1. — Krasnodar: UMTs, 2007. — 732 s.
12. Eom H.J. Biomechanical Analysis of Dollyo Chagi // Journal of Korean Physical Education Association. — 2015. — Vol. 54, No. 2. — P. 677–689.
13. Falco C. et al. Influence of the Distance in a Roundhouse Kick's Execution Time // Journal of Biomechanics. — 2009. — Vol. 42, No. 3. — P. 242–248.
14. Kazemi M. et al. A Profile of Olympic Taekwondo Competitors // Journal of Sports Science and Medicine. — 2006. — Vol. 5 (CSSI). — P. 114–121.
15. Kwon Y.U. Counterattack Techniques in WTF Taekwondo. — Seoul: KISS, 1998. — 203 p.

UDK: 37.014

TA'LIM MODERNIZATSIYASINI BAHOLASHNING IJTIMOIY-SIFAT MEZONLARI: MIQDORIY KO'RSATKICHLARDAN SIFAT KO'RSATKICHLARIGA

Jurayev Alisher Tulqinboyevich
University of Business and Science katta o'qituvchisi, falsafa fanlari doktori (PhD)
Email: alisherumida1987@gmail.com
Tel: +998 99 270 00 20

Annotatsiya: *mazkur maqolada ta'lim modernizatsiyasini baholashning ijtimoiy-sifat mezonlari tizimi ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida yoritilgan. Tadqiqotda dialektik, tizimli, aksiologik va institutsional tahlil metodlari, shuningdek me'yoriy-huquqiy hujjatlar va mustaqil empirik tadqiqot ma'lumotlarini tahlil qilishdan foydalanilgan. Sifat, ochiqlik va qamrov, adolat, samaradorlik, moslashuvchanlik hamda milliy o'zlikdan iborat olti mezonning mazmuni, ularni ifodalashi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar va har bir mezon bo'yicha faqat miqdoriy o'lchovlarga tayanishning cheklanganligi aniqlashtirilgan. Ijtimoiy adolatning kirish, sifat va natija o'lchovlari, samaradorlikning mikro- va makrodarajalari, "adolatli samaradorlik" tamoyili hamda mezonlar o'rtasidagi ziddiyatlar — samaradorlik va adolat, global standartlar va milliy o'zlik, qamrov va sifat — alohida ko'rib chiqilgan. Mezonlar tizimi O'zbekistonda 2017-yildan buyon amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlariga tatbiq etilib, islohotlar qamrov va moslashuvchanlik bo'yicha katta yutuqlarga erishgani, samaradorlik bo'yicha qisman natija bergani, sifat, adolat va milliy o'zlik bo'yicha esa yangi vazifalarni kun tartibiga qo'ygani ko'rsatilgan, bu notekislikning asosiy sababi esa miqdoriy ko'rsatkichlar ustuvorligi ekani asoslangan. Tahlil natijalari islohotlar monitoringini ijtimoiy-sifat ko'rsatkichlari bilan to'ldirish hamda nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ikki tomonlama baholash uchun metodologik asos yaratadi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim modernizatsiyasi, baholash mezonlari, ijtimoiy-sifat ko'rsatkichlari, ta'lim sifati, ijtimoiy adolat, samaradorlik, adolatli samaradorlik, milliy o'zlik, nodavlat sektor, davlat-xususiy sheriklik.*

СОЦИАЛЬНО-КАЧЕСТВЕННЫЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ МОДЕРНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ: ОТ КОЛИЧЕСТВЕННЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ К КАЧЕСТВЕННЫМ

Аннотация: *в статье на основе социально-философского анализа раскрывается система социально-качественных критериев оценки модернизации образования. В исследовании использованы диалектический, системный, аксиологический и институциональный методы анализа, а также анализ нормативно-правовых актов и данных независимого эмпирического исследования. Уточнены содержание шести критериев — качества, открытости и охвата,*

справедливости, эффективности, гибкости и национальной идентичности, — возможные показатели для их выражения, а также ограниченность опоры исключительно на количественные измерения по каждому критерию. Отдельно рассмотрены измерения социальной справедливости (доступ, качество и результат), микро- и макроуровни эффективности, принцип «справедливой эффективности» и противоречия между критериями — эффективностью и справедливостью, глобальными стандартами и национальной идентичностью, охватом и качеством. Система критериев применена к образовательным реформам, осуществляемым в Узбекистане с 2017 года; показано, что реформы достигли значительных успехов по охвату и гибкости, дали частичный результат по эффективности, а по качеству, справедливости и национальной идентичности поставили новые задачи, а основной причиной такой неравномерности является приоритет количественных показателей. Результаты анализа создают методологическую основу для дополнения мониторинга реформ социально-качественными показателями и двусторонней оценки проектов негосударственного сектора и государственно-частного партнёрства.

Ключевые слова: *модернизация образования, критерии оценки, социально-качественные показатели, качество образования, социальная справедливость, эффективность, справедливая эффективность, национальная идентичность, негосударственный сектор, государственно-частное партнёрство.*

SOCIAL-QUALITATIVE CRITERIA FOR ASSESSING EDUCATION MODERNIZATION: FROM QUANTITATIVE TO QUALITATIVE INDICATORS

Abstract: *this article examines, through socio-philosophical analysis, a system of social-qualitative criteria for assessing education modernization. The study employs dialectical, systemic, axiological and institutional methods, together with an analysis of legal and regulatory acts and of data from an independent empirical study. It clarifies the content of six criteria — quality, openness and coverage, equity, efficiency, flexibility, and national identity — the indicators that may express them, and the limits of relying solely on quantitative measures for each criterion. The article separately considers the access, quality and outcome dimensions of social justice, the micro- and macro-levels of efficiency, the principle of "equitable efficiency", and the tensions between criteria — efficiency and equity, global standards and national identity, coverage and quality. The system of criteria is applied to the education reforms implemented in Uzbekistan since 2017, showing that the reforms have achieved major gains in coverage and flexibility, partial results in efficiency, while setting new tasks in quality, equity and national identity, and that the main reason for this unevenness is the priority given to quantitative indicators. The findings provide a methodological basis for supplementing reform monitoring with social-qualitative indicators and for a two-sided assessment of non-state sector and public-private partnership projects.*

Keywords: *education modernization, assessment criteria, social-qualitative indicators, quality of education, social justice, efficiency, equitable efficiency, national identity, non-state sector, public-private partnership.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Ta’lim modernizatsiyasi haqidagi har qanday bahs ertami-kechmi bitta savolga borib taqaladi: amalga oshirilgan o‘zgarishlar haqiqatan ham yangilanishmi yoki shunchaki tizim hajmining kattalashuvimi? Amaliyotda bu savolga ko‘pincha eng oson yig‘iladigan ma’lumotlar — ochilgan muassasalar soni, yangi o‘quv o‘rinlari, qamrov foizi, reytingdagi o‘rin — orqali javob beriladi. Bunday raqamlar islohotning ko‘lamini aniq ko‘rsatadi, biroq uning ijtimoiy mazmunini — ta’lim imkoniyatlari kimga va qanday shartlarda yetib borayotganini, jamiyatning ta’limga ishonchi ortayotganini yoki milliy qadriyatlar uzluksizligi saqlanayotganini — ochib bermaydi.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan modernizatsiya miqdoriy o‘sishning o‘zi emas, balki ta’lim tizimining yangi sifat holatiga o‘tishidir. Shu sababli uni baholash mezonlari ham ko‘lamni emas, sifat siljishini qayd etishi lozim. Mavjud tadqiqotlarda ta’lim sifati, ijtimoiy adolat yoki samaradorlik ko‘pincha alohida-alohida, turli fanlar doirasida o‘rganilgan: pedagogika sifatga, siyosiy falsafa adolatga, iqtisodiyot esa samaradorlikka e’tibor qaratgan. Ularni modernizatsiyani baholashning yaxlit, o‘zaro bog‘liq tizimiga birlashtiruvchi, mezonlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni ochiq tahlil qiluvchi hamda bu tizimni nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklik amaliyotiga tatbiq etuvchi ijtimoiy-falsafiy ishlar esa yetarli emas.

Mazkur maqolaning maqsadi — ta’lim modernizatsiyasini baholashning olti mezonli ijtimoiy-sifat tizimini asoslash, har bir mezon bo‘yicha miqdoriy o‘lchovlarning cheklanganligini ko‘rsatish, mezonlar o‘rtasidagi asosiy ziddiyatlarni aniqlash hamda ushbu tizimni O‘zbekistondagi ta’lim islohotlarini baholashga tatbiq etishdan iborat.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta’lim sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib, maktabgacha va oliy ta’lim bilan qamrov keskin oshdi, nodavlat ta’lim tashkilotlari va sheriklik loyihalari tizimning ko‘zga ko‘rinarli qismiga aylandi. Ayni paytda mamlakatning uzoq muddatli strategik hujjatlarida ta’limga oid maqsadlar asosan miqdoriy qiymatlarda ifodalanmoqda. Bunday sharoitda islohotlar natijasini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qaysi mezonlar asosida baholash masalasi nazariy bahs doirasidan chiqib, amaliy boshqaruv masalasiga aylanadi: baholash mezoni, oxir-oqibat, islohotning o‘zi nimaga intilishini ham belgilaydi.

Maqola quyidagicha tuzilgan: dastlab ta’lim modernizatsiyasini baholash muammosiga oid nazariy yondashuvlar va tadqiqot metodlari tavsiflanadi; so‘ngra olti mezonning har biri mazmuni, ko‘rsatkichlari va miqdoriy o‘lchovning cheklovlari nuqtai nazaridan tahlil qilinadi; keyin mezonlar o‘rtasidagi ziddiyatlar ko‘rib chiqilib, tizim O‘zbekiston islohotlariga tatbiq etiladi; yakunda xulosa va tavsiyalar beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ta’lim modernizatsiyasini baholash mezonlarining nazariy ildizlari modernizatsiya nazariyasining o‘z rivojida yotadi. Klassik bosqichda shakllangan inson kapitali nazariyasi ta’limni iste’mol emas, balki kelajakda daromad keltiradigan investitsiya deb talqin qilib, unga xarajat va natija nisbati mezonini qo‘llashga yo‘l ochdi (1); samaradorlik mezoni aynan shu an’anadan kelib chiqadi. P.Burdye va J.-K.Passeron esa ta’lim tizimi madaniy kapitalni teng taqsimlamay, hukmron qatlamlar ustunligini qayta ishlab chiqarishini ko‘rsatib (2), modernizatsiyani faqat texnik-iqtisodiy o‘lchov bilan baholashning cheklanganligini fosh etdi va nazariyaga ijtimoiy adolat mezonini olib kirdi. Sh.N.Eyzenshtadtning “ko‘p modernlik” konsepsiyasi zamonaviylik har bir sivilizatsiyaning madaniy an’analari bilan o‘zaro ta’sirda turli shakllarda namoyon bo‘lishini asoslab (3), milliy o‘zlik mezoniga nazariy zamin yaratdi. E.Giddens ilgari surgan refleksiv modernizatsiya g‘oyasi esa jamiyatni o‘z institutlarini doimiy qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi (4) — ta’limga tatbiqan bu tizimning bir martalik islohot bilan cheklanmay, o‘zini muntazam baholaydigan ochiq tizimga aylanishini, ya’ni moslashuvchanlik mezonini anglatadi. Modernizatsiya tushunchasining falsafiy genezisi alohida tadqiqot mavzusi bo‘lgani uchun bu yerda faqat baholash mezonlari bilan bog‘liq jihatlarni qayd etish bilan cheklanamiz.

Xalqaro hujjatlarda ham ta'lim natijasini bir o'lchov bilan ifodalashdan voz kechish tendensiyasi kuzatiladi. BMT Bosh Assambleyasi 2015-yilda qabul qilgan Barqaror rivojlanish maqsadlarining to'rtinchisi hamma uchun inklyuziv, adolatli va sifatli ta'limni hamda umrbod ta'lim imkoniyatlarini nazarda tutadi (5), ya'ni qamrov, adolat va sifatni bir-biridan ajratmagan holda talab qiladi. YuNESKOning 2021/2-yilgi Global ta'lim monitoringi hisobotida esa nodavlat subyektlarni taqiqlash yoki siqib chiqarish emas, balki sifat, adolat va ta'limga teng kirish mezonlari asosida oqilona tartibga solish zarurligi ko'rsatilgan (6). Bu yondashuv baholash mezonlarini ta'lim tizimidagi subyektlar tarkibi bilan bevosita bog'laydi.

Ta'lim sifati tushunchasi baholash muammosining markazida turadi. O.D.Rahimov sifatni uch ma'noda — eng yuqori natija, qo'yilgan maqsadga to'la erishish va faoliyatning izchil takomillashuvi sifatida tushunish mumkinligini ko'rsatadi (7, 11-b.). Bu talqin sifatning statik daraja emas, balki jarayon ekanini ta'kidlaydi; biroq ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan sifatning o'zi modernizatsiya natijasini to'liq ifodalay olmaydi, chunki u sifatli ta'limdan kim foydalanayotganini ko'rsatmaydi.

Adolat mezonining falsafiy asoslari XX asrning ikkinchi yarmidagi siyosiy falsafada ishlab chiqilgan. Dj.Roulz imkoniyatlarning adolatli tengligi va tengsizlik faqat eng kam imkoniyatli guruhlarga foyda keltirgandagina oqlanishini nazarda tutuvchi "farq tamoyili"ni asosladi (8). M.Uolzerning "murakkab tenglik" konsepsiyasiga ko'ra, bir sohadagi ustunlik — masalan, pul — boshqa soha ne'matlariga, jumladan ta'limga ega bo'lish vositasiga aylanmasligi kerak (9). A.Sen esa adolat haqidagi bahs markazini resurslar taqsimotidan insonning real imkoniyatlariga ko'chirdi (10); bundan ta'lim siyosati uchun muhim xulosa kelib chiqadi: islohot muvaffaqiyati qurilgan binolar yoki jalb qilingan mablag' hajmi bilan emas, balki insonlar, ayniqsa imkoniyati cheklangan guruhlar imkoniyatlarining qanchalik kengaygani bilan o'lchanishi lozim.

Adolat va samaradorlik munosabatini A.Okun bozor iqtisodiyotidagi "katta murosa" sifatida ifodalab, tenglikka qaratilgan qayta taqsimlash samaradorlikdagi



muayyan yo‘qotish evaziga kechishini va bu yo‘qotishning chegarasi jamiyatning qadriyatiy tanlovi ekanini ko‘rsatdi (11). N.A.Mixalchenkova ta’lim siyosatida bu ziddiyat elitar oliy ta’limdan ommaviyga o‘tish jarayonida keskinlashishini, amaliyotda esa ratsionallik tamoyili ustun kelayotganini qayd etadi (12, c. 22–23); uning kuzatishicha, keng kirish imkoniyati haqidagi ritorikaga qaramay, oliy ta’lim ijtimoiy tabaqalanishni chuqurlashtirib, tengsizlikning yangi shakllarini yuzaga chiqarmoqda (12, c. 30–31). Bu xulosa qamrovning o‘sishi o‘z-o‘zidan adolatni ta’minlamasligini ko‘rsatadi.

Milliy tadqiqotlarda ta’lim islohotlarining natijalari asosan oliy ta’lim misolida o‘rganilgan. A.A.Egamberdiyev sinergetik yondashuv asosida 2016–2017-yillarni oliy ta’lim transformatsiyasining boshlanish nuqtasi deb baholab, tarmoqning tez kengayishi tizimga muayyan beqarorlik olib kirganini va uni rivojlanish yo‘lini tanlash vaziyatiga keltirganini ko‘rsatadi (13, 17-b.); u, shuningdek, oliygohni tadbirkorlik subyekti sifatida ko‘rishning uzoq muddatli ijtimoiy xatarlaridan ogohlantiradi (13, 25-b.). N.S.Jumaniyazova talabalar bilimini baholashning milliy tizimi xalqaro tizimlar bilan hamkorlikda qayta ko‘rib chiqilganini va oliygohlar milliy reytingi uchun sifat ko‘rsatkichlari tayyorlanganini qayd etib, ta’limni islohotlarga sekin moslashadigan soha deb hisoblaydi (14, 17-b.).

Faqat miqdoriy va rasmiy ko‘rsatkichlarga tayangan nazoratning xatarlari xorijiy tajribada ham yaqqol namoyon bo‘lgan. Yu.X.Risbekov Hindiston misolida universitetlarning hisobdorlik tizimi sifat muammosidagi zaif bo‘g‘in bo‘lib qolayotganini, muntazam ravishda faqat moliyaviy tekshiruv o‘tkazilib, akademik faoliyat bahosi rasmiy ko‘rsatkichlardan nariga o‘tmasligini ko‘rsatadi (15, c. 37). T.L.Klyachko esa Rossiyadagi “Ta’lim” milliy loyihasi misolida ishtirokchilar motivatsiyasi so‘nib, loyihaning rasmiyatchilikka aylanib qolishi xavfidan ogohlantiradi (16).

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ko‘rib chiqilgan tadqiqotlar baholash muammosining turli qirralarini yoritadi, ammo sifat, qamrov, adolat, samaradorlik, moslashuvchanlik va milliy o‘zlikni bitta tizimda, ular o‘rtasidagi ziddiyatlarni hisobga olgan holda birlashtiruvchi va uni muayyan mamlakat islohotlariga tatbiq etuvchi yondashuv alohida ijtimoiy-falsafiy tahlilni talab etadi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda ta’lim modernizatsiyasini baholash mezonlarini asoslash va ularni amaliyotga tatbiq etish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

• dialektik metod — mezonlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni va ularni muvozanatlashtirish yo‘llarini aniqlash;

• tizimli yondashuv — olti mezonni bir-birini to‘ldiruvchi va cheklovchi yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish;

• aksiologik tahlil — mezonlarning qadriyatiy asoslarini (adolat, ishonch, milliy qadriyatlar) aniqlashtirish;

• institutsional tahlil — rasmiy qoidalar va norasmiy amaliyotning baholash natijalariga ta’sirini o‘rganish;

• qiyosiy tahlil — xorijiy tajribada miqdoriy o‘sish bilan sifat va adolat o‘rtasidagi nomuvofiqlik holatlarini solishtirish;

• me’yoriy-huquqiy hujjatlar va ikkilamchi empirik ma’lumotlar tahlili — O‘zbekiston islohotlarini mezonlar bo‘yicha baholash.

Empirik asos sifatida maktabgacha ta’limdagi davlat-xususiy sheriklikka bag‘ishlangan 2023-yilgi mustaqil tadqiqot hisobotidan foydalanildi (17). Unda yetti hududda o‘tkazilgan so‘rovda xususiy tadbirkorlar, maktabgacha ta’lim tuman bo‘limlari, hokimliklar, banklar xodimlari va ota-onalardan iborat 413 nafar respondent qatnashgan (17, 22–23-b.). Me’yoriy manbalar sifatida Prezidentning 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3276-son qarori va unga berilgan rasmiy sharh (18), Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-noyabrdagi 944-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom (19)

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmon bilan tasdiqlangan yangilangan tahriri (20) tahlil qilindi.

Har bir mezon to'rt savol bo'yicha bir xil tartibda tahlil qilindi: uning mazmuni nima; uni qanday ko'rsatkichlar orqali ifodalash mumkin; faqat miqdoriy o'lchov unda nimani ko'rinmas qilib qo'yadi; u qaysi mezon bilan ziddiyatga kirishi mumkin. Bunday yagona sxema mezonlarni bir asosda qiyoslash, so'ngra ularni islohotlar amaliyotiga bir xil talablar bilan tatbiq etish imkonini berdi. Tatbiq bosqichida har bir mezon bo'yicha islohotlarning natijalari "katta yutuq", "qisman natija" yoki "yangi vazifa" sifatida sifat jihatdan baholandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijasida ta'lim modernizatsiyasining natijadorligini o'zaro bog'liq oltita mezon asosida baholash maqsadga muvofiq ekani asoslandi:

• sifat — ta'lim natijalarining shaxs, jamiyat va mehnat bozori ehtiyojlariga mosligi;

• ochiqlik va qamrov — ta'limning barcha ijtimoiy qatlamlar va hududlar uchun mavjudligi;

• adolat — ta'lim olish imkoniyatlarining ijtimoiy kelib chiqish, daromad va yashash joyidan qat'i nazar tengligi;

• samaradorlik — sarflangan resurslar va erishilgan natijalar nisbati;

• moslashuvchanlik — tizimning tashqi o'zgarishlarga tez javob bera olishi;

• milliy o'zlik — ta'limning milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlab qolish hamda rivojlantirish qobiliyati.

Ushbu tizimning asosiy g'oyasi shundaki, u islohotlar natijasini muassasalar, o'quv o'rinlari soni va qamrov foizi kabi miqdoriy ko'rsatkichlardan ijtimoiy-sifat ko'rsatkichlariga — ta'lim imkoniyatlarining adolatli taqsimlanishi, ta'limga ijtimoiy ishonch va milliy qadriyatlar uzluksizligiga — o'tib baholashni talab qiladi. Bunda miqdoriy o'sish inkor etilmaydi, biroq u boshqa mezonlar bilan uyg'un bo'lgandagina modernizatsiya sifatida e'tirof etiladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Sifat mezoni (7) ta'lim natijalarining shaxs, jamiyat va mehnat bozori talablariga muvofiqligini ifodalaydi. Dissertatsiya doirasida uni ifodalovchi ko'rsatkichlar sifatida ta'lim oluvchilarning yutuqlari, pedagoglarning malakasi, mustaqil baholash natijalari hamda professional va oliy ta'lim bitiruvchilarining ishga joylashish darajasi taklif etiladi. Sifatni faqat miqdoriy o'lchash xavfi shundaki, ko'rsatkich nazorat obyektiga aylangach, uning o'zi ta'sir ostida qoladi. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, maktabgacha ta'lim tuman bo'limlari vakillarining 26 foizdan ortig'i tadbirkorlar qo'shimcha subsidiya olish uchun bolalar sonini oshirib ko'rsatishini qayd etgan (17, 30-b.). Demak, subsidiyaga bog'langan son ko'rsatkichi ta'lim sifati haqida emas, balki hisobot intizomi haqida ma'lumot bera boshlaydi. Hindiston tajribasida ham hisobdorlik moliyaviy tekshiruv va rasmiy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolgan (15, c. 37). Shu sababli sifat mezoni hujjatlar to'liqligini tekshiruvchi jarayon nazoratini emas, balki natijaga yo'naltirilgan nazorat va mustaqil sifat baholashni talab qiladi.

Ochiqlik va qamrov mezoni ta'limning barcha ijtimoiy qatlamlar va hududlar uchun mavjudligini o'lchaydi. Uning ko'rsatkichlari — qamrov foizi, muassasalar va o'quv o'rinlari soni, nodavlat muassasalarning hududlar bo'yicha taqsimoti — eng oson o'lchanadigan va shu sababli boshqaruv amaliyotida eng ko'p qo'llanadigan ko'rsatkichlardir. Biroq qamrov foizi kim qamrab olinganini va u qanday sifatdagi ta'lim olayotganini ko'rsatmaydi. N.A.Mixalchenkova Braziliya misolida xususiy oliy ta'limdagi o'rinlarning ko'payishi tizimni demokratik qilib qo'ymaganini, bozor tamoyillariga bo'ysungan tijorat ta'limi esa ijtimoiy kafolat emas, individual imtiyozga aylanganini ko'rsatadi (12, c. 241). Bundan qamrov mezoni zaruriy, ammo yetarli bo'lmagan mezon ekani kelib chiqadi: u adolat va sifat mezonlari bilan birga qo'llangandagina modernizatsiyaning haqiqiy ko'rsatkichiga aylanadi.

Adolat mezoni (8; 9; 10) ta'lim olish imkoniyatlarining ijtimoiy kelib chiqish, daromad va yashash joyiga bog'liq bo'lmasligini talab qiladi. Tadqiqotda u uch o'lchovda aniqlashtirildi: kirish adolati — ta'limdan foydalanish imkoniyatining ijtimoiy-iqtisodiy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

holat, yashash joyi, jinsi, sog‘lig‘i va boshqa omillardan qat’i nazar ta’minlanishi; sifat adolati — turli ijtimoiy guruhlar va hududlar uchun ta’lim sifatining keskin farqlanmasligi; natija adolati — ta’lim natijalari va ular bilan bog‘liq ijtimoiy mobillik imkoniyatlarining ijtimoiy kelib chiqishga kam bog‘liq bo‘lishi. Bu o‘lchovlarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar sifatida nodavlat va sheriklik asosidagi muassasalarda ijtimoiy ko‘makka muhtoj oilalar farzandlarining ulushi, imtiyozli o‘rinlar kvotasining bajarilishi, muassasalarning qishloq va chekka hududlardagi ulushi ko‘rsatiladi. O‘rtacha qamrov ko‘rsatkichi esa adolat muammosini yashiradi: tizim umuman kengayishi bilan birga, xususiy sherik eng daromadli segmentlarni — yirik shaharlar va to‘lov qobiliyati yuqori oilalarni — tanlab olib, “qimmat” segmentlarni davlatga qoldirishi mumkin. Bunday holatda ta’lim tizimi sifatli, ammo qimmat segment va resurslari yetishmaydigan ommaviy segmentga bo‘linadi, qamrov statistikasi esa bu bo‘linishni qayd etmaydi.

Samaradorlik mezoni (1; 11) sarflangan resurslar va erishilgan natijalar nisbatini ifodalaydi. Tadqiqotda uning ikki darajasi farqlandi: mikrodarajadagi (institutsional) samaradorlik — alohida muassasa yoki loyihaning xarajat va natija nisbati; makrodarajadagi (ijtimoiy) samaradorlik — butun ta’lim tizimining barcha uchun sifatli ta’limni ta’minlash, inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy mobillikni kuchaytirish vazifalarini qanchalik bajarayotgani. Loyiha darajasida u byudjet samaradorligi, ya’ni bir ta’lim oluvchiga to‘g‘ri keladigan davlat xarajatining muqobil davlat yechimi bilan taqqoslanishi orqali o‘lchanadi. Faqat moliyaviy ko‘rsatkichga tayanishning xavfi shundaki, alohida muassasaning samaradorligi “qimmat” ta’lim oluvchilarni — nogironligi bo‘lgan bolalar, chekka hudud aholisi, kam ta’minlangan oilalar farzandlarini — tizimdan chiqarib tashlash hisobiga ham oshirilishi mumkin. Mikrodarajadagi bunday “yutuq” jamiyat miqyosida samarasizlikka aylanadi, chunki ta’limsiz qolgan har bir inson yo‘qotilgan salohiyat va kelajakdagi ijtimoiy xarajat manbaidir. Shu bois mikrodarajadagi samaradorlik makrodarajadagi samaradorlikka xizmat qilgandagina oqlanadi.

Moslashuvchanlik mezoni (4) tizimning tashqi o‘zgarishlarga — mehnat bozori, texnologiyalar va jamiyat ehtiyojlaridagi siljishlarga — tez javob bera olishini o‘lchaydi. Uning ko‘rsatkichlari sifatida ta’lim muassasalari mustaqilligining kengayishi, ta’lim xizmatlari va dasturlarining xilma-xilligi hamda tizimning mehnat bozori talablariga javob berish tezligi ko‘rib chiqiladi. Biroq dasturlar sonining ortishi ularning jamiyat uchun zarur yo‘nalishlarga xizmat qilishini anglatmaydi. Bozor mantig‘iga ko‘ra, nodavlat oliy ta’lim muassasalari kam xarajat talab qiladigan va talabgorlar ko‘p bo‘lgan yo‘nalishlarni afzal ko‘rishga moyil, qimmat laboratoriya bazasini talab qiladigan muhandislik va tabiiy fanlar esa ko‘proq davlat zimmasida qoladi. Shu sababli moslashuvchanlikni o‘lchashda nodavlat oliy ta’lim muassasalarida muhandislik va tabiiy fanlar yo‘nalishlari ulushi kabi tarkibiy ko‘rsatkich ham hisobga olinishi kerak.

Milliy o‘zlik mezoni (3) ta’limning milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlash hamda rivojlantirish qobiliyatini ifodalaydi. Bu mezon miqdoriy o‘lchovga eng kam bo‘ysunadi va aynan shu sababli baholash amaliyotida e’tibordan chetda qolish xavfi eng yuqori. Ikkilamchi modernizatsiyani boshdan kechirayotgan mamlakatlarda u ayniqsa dolzarb, chunki N.A.Mixalchenkova ko‘rsatganidek, bunday sharoitda modernizatsiya osongina “vesternizatsiya”ga aylanib ketishi mumkin (12, c. 39). Dissertatsiyada bu mezon “institutsional tarjima” tamoyili orqali konkretlashtiriladi: xorijdan olingan institutlar milliy an’analar bilan bog‘lanadi — endaument fondi vaqf an’anasining, dual ta’lim ustoz-shogird an’anasining, jamoatchilik nazorati esa mahalla va hashar an’analarining zamonaviy davomi sifatida talqin etiladi. Bunday bog‘lanish yangi institutlarning “o‘ziniki” sifatida qabul qilinishini osonlashtiradi. Mezonni bilvosita ifodalovchi ko‘rsatkichlar sifatida jamoatchilik monitoringida ishtirok etayotgan mahalla va nodavlat notijorat tashkilotlari soni, ta’limga yo‘naltirilgan xayriya va endaument mablag‘lari hajmini ko‘rsatish mumkin.

Ijtimoiy-sifat ko‘rsatkichlari orasida ta’limga ijtimoiy ishonch alohida o‘rin tutadi, chunki u barcha mezonlarning norasmiy, qadriyatiy-madaniy darajadagi natijasini aks

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ettiradi. Hisobotga ko‘ra, tadbirkorlarning 53 foizi tanlovni ochiq va xolis deb hisoblamaydi, 70 foizi komissiya qaroriga qanday shikoyat qilishni bilmaydi (17, 26–27-b.). Bunday ma’lumotlar muassasalar soni ko‘rsatkichida aks etmaydi, biroq aynan ular sheriklikning barqarorligini belgilaydi. Shu bois ishonch darajasini muntazam sotsiologik so‘rovlar asosida o‘lchash ijtimoiy-sifat baholashning zaruriy qismi hisoblanadi.

Mezonlar bir-biriga zid kelishi mumkin, va modernizatsiya siyosatining ijtimoiy-falsafiy mazmuni ko‘p jihatdan ana shu ziddiyatlarni oqilona muvozanatlashtirishdan iborat. Birinchi va eng keskin ziddiyat — samaradorlik va adolat o‘rtasida. A.Okun bu munosabatni o‘zaro almashtiriladigan qadriyatlar murosasi sifatida ko‘rgan bo‘lsa (11), tadqiqotda ishlab chiqilgan “adolatli samaradorlik” konsepsiyasi ularni ierarxik munosabatda ko‘radi: ijtimoiy adolat talablari (kirish, sifat va natija adolati) chegaraviy shart, samaradorlik esa shu chegaralar ichida resurslardan oqilona foydalanish vositasi sifatida amal qiladi. Bu Roulzning adolatni ijtimoiy institutlarning birinchi fazilati deb bilish g‘oyasiga yaqin (8). Ayni paytda resurslar cheklangan sharoitda samarasizlik ham adolatsizlikning bir ko‘rinishidir, chunki behuda sarflangan har bir mablag‘ ta’lim olishi mumkin bo‘lgan, ammo undan mahrum bo‘lgan kimningdir hisobiga sarflanadi. Demak, samaradorlik ham axloqiy talab bo‘lib, jamoat mablag‘lariga nisbatan mas’uliyatni ifodalaydi.

Ikkinchi ziddiyat — global standartlar va milliy o‘zlik o‘rtasida. Xalqaro reyting va standartlarga moslashish sifatni oshirish imkonini beradi, biroq ular rivojlangan mamlakatlarning ta’lim modellari asosida shakllangani uchun mexanik ko‘chirilganda milliy an’analar, til va qadriyatlar tizimini zaiflashtirishi mumkin. Ziddiyatning ikki qutbi — to‘liq unifikatsiya va izolyatsiya — birdek nomaqbul; uning dialektik yechimi sifatida global ta’lim makoniga milliy subyektlikni saqlagan holda integratsiyalashuvni nazarda tutuvchi “moslashuvchan integratsiya” tamoyili taklif etiladi. Uchinchi ziddiyat



— qamrov va sifat o‘rtasida: qamrovni tez oshirish sifat uchun zarur moddiy, kadrlar va institutsional resurslar yetishmovchiligi bilan to‘qnash keladi.

Mezonlar turli darajalarda qo‘llanganda ham ziddiyatga kirishishi mumkin. Shu sababli tadqiqotda uch darajali baholash tizimi taklif etiladi. Loyiha darajasida sheriklik loyihasi besh mezon — kirish imkoniyati, sifat, hududiy muvozanat, byudjet samaradorligi va barqarorlik — bo‘yicha baholanadi; bu mezonlar olti mezonli tizimni loyiha darajasida konkretlashtiradi. Loyiha moliyaviy ko‘rsatkichlar (byudjet tejamkorligi, investitsiyalar hajmi, qurilish muddatlari) bo‘yicha ham, ijtimoiy ko‘rsatkichlar (qamrov, imtiyozli toifalar ulushi, ta’lim natijalari, hududiy taqsimot) bo‘yicha ham ijobiy natija bergandagina muvaffaqiyatli hisoblanadi. Tizim darajasida esa butun sheriklik siyosati olti mezon asosida baholanadi. Darajalar o‘zaro bog‘liq: masalan, poytaxtdagi har bir nodavlat muassasa alohida samarali bo‘lsa-da, ularning birgalikdagi ta’siri hududiy tengsizlikni oshirishi mumkin. Bunday holat loyiha darajasidagi ijobiy baho siyosatni qayta ko‘rib chiqishdan ozod qilmasligini ko‘rsatadi.

Olti mezonli tizimni O‘zbekistonda 2017-yildan boshlangan ta’lim islohotlariga tatbiq etish quyidagi manzarani beradi. Islohotlar arafasida litsenziyaga ega nodavlat umumta’lim maktablari atigi 43 ta, ya’ni jami maktablarning 0,4 foizi bo‘lib, ulardan 27 tasi Toshkent shahrida joylashgan edi (18). 2017-yilda maktabgacha ta’lim muassasalari 3–6 yoshli bolalarning qariyb 25,4 foizini qamragan bo‘lsa (17, 8-b.), 2022-yil yakunida bu ko‘rsatkich 70 foizga yetgan, hisobot tayyorlangan paytda esa nodavlat maktabgacha muassasalar soni 21505 tani tashkil etgan (17, 8–9-b.). Demak, ochiqlik va qamrov mezoni bo‘yicha islohotlar eng yuqori natijaga erishdi, bunda nodavlat sektor va sheriklik muhim rol o‘ynadi. Moslashuvchanlik bo‘yicha ham ijobiy siljish sezilarli: ta’lim muassasalarining mustaqilligi kengaydi, ta’lim xizmatlari va dasturlari xilma-xillashdi.

Samaradorlik mezoni bo‘yicha natija qisman. Sheriklik mexanizmlari byudjet imkoniyatlari cheklangan sharoitda xususiy resurslarni safarbar etib, qamrovni tez oshirish imkonini berdi. Biroq sheriklikning makrodarajadagi samaradorligi, ya’ni

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

byudjet mablag‘lari va ijtimoiy natijalar nisbati hali mustaqil baholanmagan, sheriklik natijalari esa, hisobotda qayd etilishicha, yagona tizimda kuzatilmaydi (17, 11-b.).

Sifat va adolat mezonlari bo‘yicha natijalar ziddiyatli. Sifat sohasida oliygohlar milliy reytingi uchun ko‘rsatkichlar ishlab chiqilishi va baholash tizimining xalqaro hamkorlikda qayta ko‘rib chiqilishi (14, 17-b.) kabi muhim qadamlar qo‘yildi. Ammo qamrovning jadal o‘sishi sharoitida pedagog kadrlar malakasi, o‘quv-uslubiy ta’minot va sifat nazorati bir xil sur’atda rivojlanmadi: sheriklik asosidagi maktabgacha muassasalar rahbar va pedagoglari davlat muassasalaridagi attestatsiya talablaridan tashqarida qolmoqda (17, 17–18-b.). Adolat sohasida nodavlat maktablarda o‘quvchilarning kamida 10 foizini ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardan grant asosida bepul o‘qitish talabi (18, 4-band), sheriklik asosidagi bog‘chalarda tarbiyalanuvchilarning 25 foizini imtiyozli qabul qilish majburiyati (19, 8-band) hamda olis va chekka hududlar uchun subsidiya miqdorini davlat muassasasidagi xarajatning 75 foizigacha oshirish imkoniyati (19, 7-band) kabi mexanizmlar yaratildi. Bu mexanizmlar adolatning kirish o‘lchovini institutsional jihatdan mustahkamlaydi, biroq nodavlat sektorning yirik shaharlarda to‘planishi, pullik xizmatlarning kam ta’minlangan oilalar uchun qimmatligi saqlanib qolmoqda, kvotalar ijrosini mustaqil baholash tizimi esa shakllanmagan.

Milliy o‘zlik mezoni bo‘yicha islohotlarda milliy qadriyatlarni saqlash vazifasi muntazam ta’kidlanadi; masalan, nodavlat ta’lim muassasalariga yurtimizdan chiqqan buyuk olim va jamiyat arboblari nomini berish tavsiya etilgan (18, 6-band). Biroq vaqf, hashar va mahalla kabi an’anaviy institutlarning sheriklik salohiyati hali to‘liq ishga solinmagan. Umuman olganda, islohotlar qamrov va moslashuvchanlik bo‘yicha katta yutuqlarga erishdi, samaradorlik bo‘yicha qisman natija berdi, sifat, adolat va milliy o‘zlik bo‘yicha esa yangi vazifalarni kun tartibiga qo‘ydi.

Bunday notekis manzaraning sababi islohotlarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlaridan biri — miqdoriy ko‘rsatkichlar ustuvorligi bilan bog‘liq. Islohotlarning dastlabki ikki bosqichida — institutsional ochilish (2017–2019) hamda huquqiy

institutsionallashuv va miqdoriy kengayish (2020–2022) bosqichlarida — asosiy e'tibor qamrov darajasi, muassasalar va o'rinlar soniga qaratildi. Bu boshlang'ich imkoniyatlarning cheklanganligi bilan izohlanadi va o'z davri uchun oqlangan edi. Biroq "yuqoridan" boshlangan modernizatsiyada miqdoriy ko'rsatkich quyi bo'g'indagi ijrochilar uchun islohotning ijtimoiy maqsadi o'rnini egallab qolishi mumkin: asosiy motiv yuqori organga hisobot berishga aylanadi, sheriklik esa "topshiriq" sifatida idrok etilib, rasmiy shakli saqlangani holda ijtimoiy mazmunini yo'qotadi. T.L.Klyachko qayd etgan rasmiyatchilik xavfi (16) ham, bolalar sonini oshirib ko'rsatish holatlari (17, 30-b.) ham ana shu mantiqning ifodasidir.

Uchinchi bosqichda — 2023-yildan boshlangan strategik integratsiya bosqichida — islohotlarning ustuvor vazifasi miqdoriy kengayishdan sifat, adolat va barqarorlikka ko'chmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining yangilangan tahririda har bir ko'rsatkich uchun 2025-yilgi bazaviy va 2026–2030-yillarga yillik maqsadli qiymat belgilangan, ijro esa raqamli monitoring qilinib, yashil, sariq va qizil darajalarda baholanadi (20, 1-ilova). Biroq ta'limga oid ko'rsatkichlar asosan qamrov, nodavlat tashkilotlar ulushi va reytinglar kabi miqdoriy qiymatlardan iborat. Shu sababli olti mezonga asoslangan ko'rsatkichlarni mustaqil, raqobatlashuvchi tizim sifatida emas, balki ana shu monitoringning ijtimoiy-sifat qatlami sifatida joriy etish maqsadga muvofiq. Bu qatlam uch guruhdan iborat bo'lishi mumkin: sheriklik jarayonining ochiqligi va adolatliligi ko'rsatkichlari; sheriklik natijalarining ijtimoiy ko'rsatkichlari; sheriklikka ishonch va ijtimoiy ishtirok ko'rsatkichlari. Boshqacha aytganda, strategiya islohotning "qancha" bo'lishini belgilasa, ijtimoiy-sifat mezonlari uning "qanday" bo'lishini o'lchaydi.

Tadqiqotning ayrim cheklovlarini ham qayd etish lozim. Birinchidan, tadqiqot nazariy-falsafiy xarakterga ega bo'lib, taklif etilgan ko'rsatkichlarning o'lchov usullari, vaznlari va chegaraviy qiymatlari hali ishlab chiqilmagan. Ikkinchidan, asosiy empirik manba maktabgacha ta'lim sohasiga tegishli va korrupsiya xatarlarini baholashga

yo‘naltirilgan; shu sababli unda muammolar ijobiy natijalarga qaraganda ko‘proq aks etgan, respondentlarning bir qismi esa so‘rov anonimligiga shubha bildirgan. Uchinchidan, umumiy o‘rta va oliy ta’lim bo‘yicha xulosalar asosan me’yoriy hujjatlar va ikkilamchi ma’lumotlarga tayanadi va alohida empirik tekshiruvni talab qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida ta’lim modernizatsiyasini baholashning o‘zaro bog‘liq olti mezonli ijtimoiy-sifat tizimi — sifat, ochiqlik va qamrov, adolat, samaradorlik, moslashuvchanlik va milliy o‘zlik — asoslandi; har bir mezonning mazmuni, uni ifodalovchi ko‘rsatkichlar va faqat miqdoriy o‘lchovga tayanishning cheklovlari aniqlashtirildi. Adolatning kirish, sifat va natija o‘lchovlari, samaradorlikning mikro- va makrodarajalari hamda mezonlarni loyiha va tizim darajalarida qo‘llash tartibi ko‘rsatib berildi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, miqdoriy o‘sish modernizatsiyaning zaruriy, ammo yetarli bo‘lmagan sharti bo‘lib, u boshqa mezonlar bilan uyg‘un bo‘lgandagina yangi sifat holatiga o‘tish sifatida e’tirof etilishi mumkin. Mezonlar o‘rtasidagi ziddiyatlar — samaradorlik va adolat, global standartlar va milliy o‘zlik, qamrov va sifat — modernizatsiya siyosatining muvozanatlashtirilishi lozim bo‘lgan qutblarini ifodalaydi; ulardan eng keskini “adolatli samaradorlik” tamoyili, ya’ni adolatni chegaraviy shart, samaradorlikni esa shu chegaralar ichidagi vosita sifatida ko‘rish orqali hal etiladi. O‘zbekiston islohotlari qamrov va moslashuvchanlik bo‘yicha katta yutuqlarga erishgan, samaradorlik bo‘yicha qisman natija bergan bo‘lsa, sifat, adolat va milliy o‘zlik bo‘yicha yangi vazifalar kun tartibiga chiqdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagilar tavsiya etiladi: “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining yillik monitoringini jarayonning ochiqligi va adolatliligi, natijalarning ijtimoiy ko‘rsatkichlari hamda ishonch va ijtimoiy ishtirok ko‘rsatkichlaridan iborat ijtimoiy-sifat qatlami bilan to‘ldirish; nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyaviy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ikki tomonlama baholash va

imtiyozlarni ijtimoiy natijalar bilan bog‘lash; hujjatlar to‘liqligiga yo‘naltirilgan nazoratdan natijaga asoslangan nazorat va mustaqil sifat baholashga o‘tish; grant va imtiyozli qabul kvotalarining ijrosini ochiq hisobot va jamoatchilik nazorati orqali kuzatish; sheriklik ishtirokchilarining ishonch darajasini muntazam sotsiologik so‘rovlar orqali o‘lchash; yangi institutlarni joriy etishda ularni vaqf, ustoz-shogird, mahalla va hashar kabi milliy an’analar bilan bog‘lash.

Kelgusi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish sifatida taklif etilgan ko‘rsatkichlarni operatsionallashtirish, ularning o‘lchov usullari va vaznlarini ishlab chiqish, shuningdek mezonlar tizimini umumiy o‘rta va oliy ta’lim misolida empirik tekshirish, jumladan nodavlat oliy ta’lim muassasalarining yo‘nalishlar tarkibini statistik ma’lumotlar asosida o‘rganish ko‘rsatilishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, dissertatsion tadqiqotda ishlab chiqilgan ijtimoiy yo‘naltirilgan polisubyekt sheriklik modelining baholash-mezoniy blokini amaliy asoslash uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Becker, G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. New York: Columbia University Press, 1964.
2. Bourdieu, P., Passeron, J.-C. La reproduction: éléments pour une théorie du système d’enseignement. Paris: Éditions de Minuit, 1970.
3. Eisenstadt, S.N. Multiple Modernities // Daedalus. 2000. Vol. 129, No. 1. P. 1–29.
4. Giddens, A. The Consequences of Modernity. Stanford: Stanford University Press, 1990.
5. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development: Resolution adopted by the General Assembly on 25 September 2015 (A/RES/70/1). New York: United Nations, 2015.
6. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2021/2: Non-state Actors in Education: Who Chooses? Who Loses? Paris: UNESCO, 2021. ISBN 978-92-3-100493-3.
7. Рахимов, О.Д. Таълим сифати – ҳаёт сифати: ўқув-услубий қўлланма. Қарши, 2015.
8. Rawls, J. A Theory of Justice. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1971.
9. Walzer, M. Spheres of Justice: A Defense of Pluralism and Equality. New York: Basic Books, 1983.
10. Sen, A. Development as Freedom. New York: Alfred A. Knopf, 1999.
11. Okun, A.M. Equality and Efficiency: The Big Tradeoff. Washington, DC: Brookings Institution, 1975.

12. Михальченкова, Н.А. Политические детерминанты государственной политики в сфере высшего образования: соотношение глобального и национального: дис. … д-ра полит. наук: 23.00.02. СПб., 2017.
13. Эгамбердиев, А.А. Ўзбекистонда олий таълим тизими трансформациясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили: фалсафа фанлари доктори (DSc) дисс. автореф. Андижон, 2022.
14. Жуманиязова, Н.С. Ўзбекистон олий таълим тизими модернизациялашувининг ижтимоий-фалсафий таҳлили: фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. Тошкент, 2022.
15. Рысбеков, Ю.Х. О зарубежном опыте профессионального образования: обзор. [Т.], 2020. 70 с.
16. Клячко, Т.Л. Национальный проект «Образование»: преимущества и риски // Экономическое развитие России. 2019. Т. 26, № 6. С. 49–51.
17. Давлат-хусусий шериклик асосида мактабгача таълим муассасаларини ташкил этиш ва фаолият кўрсатишида ноҳалоллик ва коррупция хавф-хатари омилларини баҳолашнинг якуний ҳисоботи. [Т.]: «Юксалиш» умуммиллий ҳаракати, Ўзбекистон Республикаси Коррупцияга қарши курашиш агентлиги, 2023.
18. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 15 сентябрдаги "Нодавлат таълим хизматлари кўрсатиш фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3276-сон қарори ва унга шарҳ // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz).
19. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 22 ноябрдаги "Мактабгача таълим соҳасида давлат-хусусий шериклик шаклларини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 944-сон қарори билан тасдиқланган Низом (2021 йил 11 августдаги 510-сон қарор таҳририда) // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz).
20. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 16 февралдаги "Мамлакат тараққиётининг 2030 йилгача мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида ислоҳотларни изчил давом эттириш ва янги босқичга олиб чиқишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-21-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz).

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

O'ZBEKISTON IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI DARSLARIDA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Xolova Salomat Toirovna
Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi S. Vosiqova nomidagi akademik litsey Umumta'lim fanlari kafedrasi geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta'lim muassasalarida O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi darslarida hududiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Yalpi hududiy mahsulot, bandlik, investitsiya va kambag'allik kabi ko'rsatkichlar bilan ishlash bosqichlari, amaliy mashg'ulotlar va baholash mezonlari tahlil qilingan. Natijalar statistik ma'lumotlar bilan ishlashga asoslangan faoliyat o'quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantirishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *hududiy rivojlanish, iqtisodiy ko'rsatkichlar, tahliliy ko'nikma, O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi ta'limi, kartogramma, amaliy mashg'ulot.*

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ АНАЛИЗА ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В КУРСАХ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ И СОЦИАЛЬНОЙ ГЕОГРАФИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования навыков анализа показателей регионального экономического развития в рамках учебных курсов по экономической и социальной географии Узбекистана в высших учебных заведениях. Описываются этапы работы с такими показателями, как валовой региональный продукт (ВРП), занятость, инвестиции и уровень бедности, а также структура практических занятий и критерии оценивания. Результаты показывают, что деятельность, связанная с анализом статистических данных, способствует развитию у студентов аналитического мышления.*

Ключевые слова*: региональное развитие, экономические показатели, аналитические навыки, преподавание экономической и социальной географии Узбекистана, картограмма, практическое занятие.*

DEVELOPING SKILLS FOR ANALYZING REGIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT INDICATORS IN COURSES ON THE ECONOMIC AND SOCIAL GEOGRAPHY OF UZBEKISTAN

Abstract*. This article examines the theoretical and practical aspects of developing skills for analyzing regional economic development indicators within courses on the economic and social geography*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

of Uzbekistan at higher education institutions. It explores the stages of working with indicators such as Gross Regional Product (GRP), employment, investment, and poverty, as well as the structure of practical exercises and assessment criteria. The findings indicate that activities centered on working with statistical data foster the development of students' analytical thinking.

Keywords: *regional development, economic indicators, analytical skills, education in the economic and social geography of Uzbekistan, cartogram, practical exercise.*

KIRISH

O‘zbekistonda hududlarni uyg‘un va barqaror rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini baholash, ularning ustunlik va muammolarini aniqlash uchun statistik ko‘rsatkichlarni tahlil qila oladigan mutaxassislar zarur. Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim sifatini oshirish, o’quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1; 2]. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham hududlar salohiyatidan samarali foydalanish va inson kapitalini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Geografik tafakkur va fazoviy tahlilni rivojlantirishga oid ilmiy qarashlarda xarita, statistik ma’lumot va hududiy axborotlar bilan ishlash muhim o‘rin egallaydi. D. Sintonning 2023-yilda chop etilgan “GIS, Geospatial Technology, and Spatial Thinking in Geography Education” nomli ilmiy sharhida geografik axborot tizimlari va raqamli xaritalarning ta’lim jarayonidagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Muallif geografik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning fazoviy fikrlashi va hududiy muammolarni tahlil qilishiga yordam berishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, texnologiyadan foydalanishning o‘zi yetarli emasligi, uning aniq o‘quv maqsadi va metodik topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirilishi zarurligini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O’zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fani bu jihatdan keng imkoniyatlarga ega, chunki u hududlarni ularning tabiiy sharoiti, aholisi va xo‘jaligi birligida o‘rganadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Biroq amaliyotda o'quvchilar ko'pincha tayyor raqamlarni yodlash bilan cheklanadi, ko'rsatkichlarning mohiyatini tushunmaydi va ular asosida mustaqil xulosa chiqara olmaydi. Shu sababli hududiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish ko'nikmalarini maqsadli va tizimli shakllantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga oid darslik va qo'llanmalarda hududlarning xo'jalik tuzilmasi, ixtisoslashuvi va rivojlanish darajasini baholash usullari yoritilgan [4]. Pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan ishlarda esa ko'nikma bilimni amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyati sifatida talqin qilinadi va u faqat mashq, takrorlash hamda real vaziyatlarda qo'llash orqali shakllanishi ta'kidlanadi [5; 6; 7]. Ta'limning faoliyatga yo'naltirilgan bo'lishi, o'quvchi o'qituvchi bilan hamkorlikda natijaga erishishi zamonaviy yondashuvlarning asosi hisoblanadi [8].

Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatish, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Hududiy rivojlanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar mazmuni jihatidan guruhlandi va har bir guruh bo'yicha o'quvchilar bajaradigan faoliyat turlari belgilandi.

Hududiy iqtisodiy rivojlanishni baholashda odatda quyidagi ko'rsatkichlar guruhidan foydalaniladi: yalpi hududiy mahsulot va uning aholi jon boshiga hisoblangan qiymati; sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining hajmi; investitsiyalar va eksport; bandlik, ishsizlik va daromad darajasi; kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi; kambag'allik darajasi. O'quvchi avvalo ushbu ko'rsatkichlarning mohiyatini, o'lchov birligini va hisoblash usulini bilishi kerak. Faqat shundan keyingina ularni taqqoslash va izohlash mumkin.

Tahlil ko'nikmasi bir necha tarkibiy qismdan iborat bo'lib, ularni bosqichma-bosqich shakllantirish samarali bo'ladi (1-jadval).

1-jadval.

Tahliliy ko'nikma tarkibi va o'quv faoliyati

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
Umuman olganda, raqamli vositalarning şaxs emotsional holatiga ta'sirini örganiş bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Raqamli texnologiyalardan ongli, me'yorida va maqsadli foydalaniş insonning ruhiy farovonligini saqlaş, emotsional barqarorligini mustahkamlaş hamda soğlom turmuş tarzini şakllantirişga yordam beradi. Demak, raqamli vositalarning imkoniyatlaridan samarali foydalaniş bilan bir qatorda, ularning inson ruhiyatiga ta'sirini anglaş va şaxsiy hayotda muvozanatni saqlaş har bir inson uçun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi 637-son Qonuni – 2020 y., 23 sentyabr. https://lex.uz/docs/-5013007

2. Ş.M. Mirziyoyev . "Yangi Özbekiston strategiyasi". — Toşkent: Özbekiston, 2021. https://www.gazeta.uz/oz/2021/09/09/book/

3. Xurramova, M.A. Raqamli texnologiyalar va inson psixologiyasiga ta'siri. — Psixologiya ilmiy jurnali, 2025, № 2.

4. Dehkanov, Ş.M. Ijtimoiy tarmoqlarning yoşlar ongiga ta'sirining klinik tahlili. — Ta'limda yangiça yondaşuv – innovatsiya sari qöyilgan qadam konferensiyasi materiallari, 2024. — B. 1109–1112.

5. Nazirova, D.D. Şaxs psixoemotsional barqarorligiga raqamli ijtimoiy muhit ta'sirining ijtimoiy-psixologik jihatlari. — Yoş olimlar ilmiy jurnali, 2026, 4-jild, 72-son, 4–6-betlar.

6. Muhamedova, D.Ğ., Mullaboyeva, N.M., Rasulov, A.I. Umumiy psixologiya. — Toşkent: Ma'rifat, 2023. 7. M. G. Davletşin " Yoş va pedagogik psixologiya". — Toşkent: Öqituvçi, 2017. https://turan-edu.uz/media/books/2026/02/06/Yoş-Davrlari-Va-Pedagogik-Psixologiya.pdf

7. B. Xudoyberdiyev "Milliy qadriyatlar va yoşlar tarbiyasi". — Toşkent: Yangi asr avlodi, 2018. https://journals.tersu.uz/files/2026/conf-01/toplam2_070526.pdf

УДК 378.147:811.161

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА: КОММУНИКАТИВНО-КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД И СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Набулин Рашид Рамилевич,
Преподаватель кафедры Русского языка и литературы
Наманганского государственного университета

***Аннотация**: В данной статье рассматриваются актуальные проблемы совершенствования методики преподавания русского языка в системе высшего образования Республики Узбекистан. Методологическую основу составляют анализ научно-методической литературы, сопоставление педагогических подходов, систематизация теоретических положений и обобщение методического опыта. Особое внимание в статье уделено использованию проблемных заданий, учебных дискуссий, проектной деятельности, цифровых образовательных ресурсов и профессионально ориентированных коммуникативных ситуаций, а также предложены методические решения, направленные на повышение учебной мотивации, развитие самостоятельности студентов и формирование способности применять русский язык в академической и профессиональной коммуникации.*

***Ключевые слова:** методика преподавания, русский язык, коммуникативная компетенция, компетентностный подход, образовательные технологии, речевая деятельность, цифровое обучение, учебная мотивация, профессиональная коммуникация.*

IMPROVING RUSSIAN LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY: THE COMMUNICATIVE-COMPETENCE APPROACH AND MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Nabulin Rashid Ramilovich
Lecturer, Department of Russian Language and Literature
Namangan State University

***Annotation.** The article examines current issues in improving the methodology of teaching the Russian language in the higher education system of the Republic of Uzbekistan. The methodological framework of the study is based on the analysis of scholarly and methodological literature, a comparative analysis of pedagogical approaches, the systematization of theoretical principles, and the generalization of teaching experience. Particular attention is paid to the use of problem-based tasks, classroom discussions, project-based learning, digital educational resources, and professionally oriented communicative*

situations. The article also proposes methodological solutions aimed at enhancing students' learning motivation, developing their independence, and fostering their ability to use the Russian language in academic and professional communication.

Keywords: *Russian language teaching methodology, Russian language, communicative competence, competence-based approach, educational technologies, speech activity, digital learning, learning motivation, professional communication, higher education.*

RUS TILINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: KOMMUNIKATIV-KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV VA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Nabulin Rashid Ramilovich
Namangan davlat universiteti Rus tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida rus tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning metodologik asosini ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish, nazariy qoidalarni tizimlashtirish hamda pedagogik tajribani umumlashtirish tashkil etgan. Muammoli topshiriqlar, o'quv munozaralari, loyihaviy ta'lim, raqamli ta'lim resurslari va kasbiy yo'naltirilgan kommunikativ vaziyatlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirish, mustaqilligini rivojlantirish hamda rus tilidan akademik va kasbiy muloqot jarayonida foydalanish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan metodik yechimlar taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *rus tilini o'qitish metodikasi, rus tili, kommunikativ kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim texnologiyalari, nutqiy faoliyat, raqamli ta'lim, o'quv motivatsiyasi, kasbiy muloqot, oliy ta'lim.*

ВВЕДЕНИЕ

В условиях модернизации системы высшего образования Республики Узбекистан особую актуальность приобретает совершенствование методики преподавания русского языка. Владение русским языком расширяет возможности, способствует доступу к научной информации, развитию профессиональных навыков и участию студентов в межкультурной коммуникации. В связи с этим преподавание русского языка в вузе должно быть ориентировано не только на усвоение грамматических правил и лексических единиц, но и на формирование

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

способности использовать язык в конкретных учебных, социальных и профессиональных ситуациях.

Традиционная организация занятий, при которой основное внимание уделяется объяснению теоретического материала, выполнению однотипных упражнений и воспроизведению готовых образцов, не всегда обеспечивает достаточный уровень самостоятельной речевой деятельности студентов. Знание грамматических правил само по себе не гарантирует способности поддерживать диалог, аргументировать собственную позицию, составлять академические тексты и участвовать в профессиональном общении. Следовательно, возникает необходимость в поиске таких методических решений, которые обеспечивают взаимосвязь языковой подготовки и практического применения полученных знаний.

Статья подготовлена в соответствии с приоритетными направлениями развития системы высшего образования Республики Узбекистан, определёнными в Законе Республики Узбекистан «Об образовании» [1], а также в рамках реализации задач, обозначенных в Постановление Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» [3]. Данные нормативные документы ориентированы на повышение качества подготовки высококвалифицированных специалистов, развитие научного потенциала и совершенствование образовательного процесса.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОВ

Методика преподавания русского языка - это область педагогической науки, которая исследует закономерности обучения языку, содержание образования, принципы организации учебного процесса, методы формирования речевых умений и способы оценки результатов обучения. В научно-методической литературе можно выделить несколько направлений, имеющих значение для



совершенствования преподавания русского языка в высшей школе: коммуникативное обучение, компетентностный подход, деятельностная организация учебного процесса и применение современных образовательных технологий.

В работах Е. И. Пассова коммуникативное обучение рассматривается через организацию учебного процесса, ориентированного на речевое взаимодействие. В рамках такого подхода язык осваивается не только как система правил, но и как средство общения. Для вузовского обучения особенно важно, чтобы речевые задания соответствовали интеллектуальному уровню студентов и были связаны с реальными задачами академической и профессиональной коммуникации. Например, вместо изолированного упражнения на употребление сложноподчинённых предложений можно предложить студентам аргументировать решение определённой проблемы, представить результаты исследования или обсудить профессиональную ситуацию с обязательным использованием изучаемых грамматических конструкций. Существенное значение имеет компетентностный подход, предполагающий ориентацию обучения на формирование способности применять знания в практической деятельности. В контексте преподавания русского языка компетентность не ограничивается знанием лексики, грамматики и орфографии. Она включает умение понимать содержание высказывания, выбирать языковые средства в соответствии с ситуацией общения, строить связный текст и учитывать особенности адресата.

Важный вклад в разработку методических основ обучения русскому языку как иностранному внес А. Н. Щукин. В трудах А. Н. Щукина систематизированы подходы к организации обучения иностранному языку, методы формирования речевых навыков и принципы отбора учебного материала [14]. Для преподавания русского языка в многоязычной аудитории эти положения важны прежде всего с



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

точки зрения необходимости учитывать исходный уровень студентов, цели изучения языка и условия его дальнейшего использования.

Коммуникативно-компетентностный подход – это организация обучения таким образом, чтобы усвоение языковых средств происходило в тесной связи с их практическим использованием. Применение данного подхода предполагает соблюдение нескольких методических условий:

-учебные задания должны иметь понятную коммуникативную цель. Студент должен осознавать, зачем он выполняет задание: чтобы сообщить информацию, выразить мнение, убедить собеседника, уточнить сведения или решить профессиональную проблему;

-необходимо обеспечивать взаимосвязь видов речевой деятельности. Чтение научного текста может служить основой для дискуссии, аудирование лекции - для составления конспекта, а подготовка письменного сообщения - для последующего устного выступления;

-следует предусматривать постепенное усложнение заданий. На начальном этапе студенты могут использовать речевые опоры, образцы диалогов и тематические словари. По мере развития навыков объём подсказок сокращается, а самостоятельность речевой деятельности увеличивается;

-оценивание должно учитывать не только грамматическую правильность, но и достижение коммуникативной цели, логичность высказывания, связность текста, соответствие речевого оформления ситуации общения и способность аргументировать собственную позицию.

Практическая реализация подхода возможна посредством ролевых игр, учебных дискуссий, анализа проблемных ситуаций, проектной работы и моделирования профессионального общения. Например, студентам филологических направлений можно предложить подготовить мини-доклад о языковом явлении, обсудить особенности художественного текста или провести

фрагмент учебного занятия. Для студентов нефилологических специальностей целесообразно использовать задания, связанные с подготовкой деловых писем, презентацией проекта, обсуждением профессиональной проблемы и составлением кратких аналитических сообщений. Подобная организация занятий позволяет соединить изучение языковой системы с формированием навыков, необходимых для дальнейшего обучения и профессиональной деятельности.

Коммуникативно-компетентностный подход предполагает дифференциацию учебного материала с учётом будущей профессиональной деятельности студентов. Поэтому содержание заданий для филологических и нефилологических направлений должно различаться (см.Таблицу 1).

Таблица 1

Формы практических заданий для студентов филологических и нефилологических направлений

Направление	**Метод**	**Учебное задание**
Филология	*Аналитический метод*	Проанализировать языковые и стилистические особенности предложенного художественного текста.
Филология	*Метод учебной дискуссии*	Обсудить проблему авторской позиции в литературном произведении, аргументируя собственную точку зрения.
Филология	*Метод микропреподавания*	Подготовить и провести 5-минутный фрагмент занятия по русской грамматике.

Медицина	*Метод профессионального моделирования*	Составить диалог между врачом и пациентом с использованием медицинской терминологии.
Юриспруденция	*Метод ролевой игры*	Смоделировать беседу юриста с клиентом по вопросам оформления документов.
Экономика	*Метод деловой коммуникации*	Подготовить устную презентацию бизнес-проекта и ответить на вопросы аудитории.
Информационные технологии	*Метод проблемного обучения*	Обсудить проблему информационной безопасности и подготовить краткий аналитический доклад.
Педагогика	*Метод педагогического моделирования*	Разработать фрагмент урока русского языка и представить его перед учебной группой.

Для практической реализации современных образовательных технологий на занятиях по русскому языку целесообразно использовать систему дидактических упражнений и игр, направленных на развитие основных видов речевой деятельности: аудирования, говорения, чтения и письма. Предлагаемые упражнения способствуют закреплению грамматического и лексического материала, расширению словарного запаса, формированию навыков самостоятельного мышления и развитию коммуникативной компетенции студентов (см.Таблицу 2). Их содержание ориентировано не только на усвоение теоретических знаний, но и на практическое применение русского языка в учебных, повседневных и профессиональных ситуациях.

Таблица 2

Система дидактических упражнений

Упражнение 1. Раскройте скобки, выбрав подходящую форму глагола. Обратите внимание на лицо, число, время и вид глагола.

Я регулярно _____ научную литературу. *(читать)*

Сейчас исследователь _____ результаты эксперимента. *(анализировать)*

В прошлом семестре мы _____ новый курс. *(изучать)*

Вчера преподаватель подробно _____ новый материал. *(объяснить)*

К следующей неделе студенты _____ курсовые работы. *(закончить)*

Упражнение 2. Восстановите правильный порядок слов. Составьте грамматически правильные предложения. Затем подчеркните грамматическую основу.

университет / в / современные / мы / изучаем / методы / исследования

_____

научную / студент / интересную / статью / прочитал

_____ _____

преподаватель / новую / подробно / тему / объяснил

_____

после / встретились / друзья / занятий / университетских

_____ _____

была / посвящена / конференция / вопросам / современной / науки

_____ _____

Упражнение 3. Поставьте слова в скобках в правильную форму. Обратите внимание на согласование подлежащего, сказуемого и определения.

Несколько студентов _____ участие в конференции. *(принять)*

Большинство участников _____ с предложенным решением. *(согласиться)*

Новая программа _____ в следующем учебном году. *(начать работать)*

Двадцать один студент _____ успешно экзамен. *(сдать)*

Большая часть работы _____ уже выполнена. *(быть)*

Упражнение 4. Замените повторяющиеся существительные подходящими местоимениями. **Образец:** *Студент прочитал **статью** и сделал выводы из **статьи**. - Студент прочитал статью и сделал выводы **из неё**.*

Преподаватель объяснил студентам новую тему и попросил студентов выполнить задание.

_____ _____

Исследователь изучил результаты эксперимента и проанализировал результаты эксперимента.

_____

Мы получили новую информацию и использовали новую информацию в работе.

_____

Студенты встретились с преподавателем и задали преподавателю несколько вопросов.

_____

Систематическое использование упражнений в таком формате способствует развитию коммуникативной компетенции студентов, совершенствованию устной и письменной речи, расширению активного словарного запаса и формированию навыков самостоятельной работы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Совершенствование методики преподавания русского языка в высшей школе Республики Узбекистан предполагает переход от преимущественно репродуктивной организации учебного процесса к модели, ориентированной на

развитие самостоятельной речевой деятельности студентов. При этом усвоение языковых норм должно рассматриваться не как конечная цель обучения, а как необходимая основа практического использования русского языка в академической, социальной и профессиональной коммуникации.

Совершенствование методики преподавания русского языка требует использования таких методов обучения, которые позволяют студентам не только усваивать теоретические знания, но и применять их на практике. Коммуникативно-компетентностный подход помогает сделать учебный процесс более содержательным и ориентированным на развитие речевых навыков. Рассмотренные методы и упражнения показывают, что эффективное обучение русскому языку возможно при сочетании грамматической подготовки, практических заданий и активного речевого взаимодействия. Особое значение имеет связь учебного материала с будущей специальностью студентов, поскольку она позволяет использовать русский язык в реальных профессиональных ситуациях.

Предложенные упражнения могут применяться на практических занятиях для закрепления грамматических тем, развития устной и письменной речи, обогащения словарного запаса и повышения самостоятельности студентов. Использование дискуссий, ролевых игр, проблемных заданий и современных образовательных технологий делает занятия более интересными и способствует активному участию студентов в учебном процессе. Сочетание традиционных методов обучения с современными образовательными технологиями способствует повышению качества преподавания русского языка, развитию коммуникативных умений и формированию навыков, необходимых студентам для дальнейшей учёбы и профессиональной деятельности.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

I. Нормативно-правовые документы

1. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» № ЗРУ-637 от 23 сентября 2020 года (Электронный ресурс). URL:https://lex.uz/ru/docs/5013009 (дата обращения: 03.11.2026)
2. Указ Президента Республики Узбекистан №УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» (Электронный ресурс) URL:https://lex.uz/ru/docs/4545887 (дата обращения: 03.11.2026).
3. Постановление Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева №ПП-2909 от 19 мая 2021 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекиста». URL:https://www.lex.uz/ru/docs/3171587 (дата обращения: 03.11.2026).

II. Научная и учебная литература

4. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. — М.: КомКнига, 2004. — 527 с.
5. Валгина Н.С., Розенталь Д.Э., Фомина М.И. Современный русский язык: Учебник / Под редакцией Н.С. Валгиной. -- 6-е изд., перераб. и доп. - М.: Логос, 2002. - 528 с.
6. Кузнецов, Н.Ю. Русская грамматика / Под ред. Н.Ю. Кузнецова. — Москва: Просвещение, 2008. — 576 с.
7. Кузнецов С. А. Большой толковый словарь русского языка. Авторская редакция, 2000. 1536 с.
8. Методика преподавания русского языка в школе: Учебник для студ. высш. пед. учеб. заведений / Под ред. М. Т. Бара нова. - М.: Издательский центр «Академия», 2001. - 368 с.
9. Морковкин В. В., Богачева Г. Ф., Луцкая Н. М. Словарь Большой универсальный словарь русского языка — М.: АСТ-ПРЕСС КНИГА, 2019.
10. Ожегов С. И. Толковый словарь русского языка / С. И. Ожегов, Н. Ю. Шведова. — М.: Азбуковник, 1999. — 944 с.
11. Розенталь Д. Э. Практическая стилистика русского языка. — М.: Айрис-Пресс, 2003. — 384 с.
12. Тихонов В. Н., Русская грамматика: Теоретический курс. — Москва: Высшая школа, 2004. — с. 156.
13. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. Учебное пособие. Изд. 4-е, доп. — М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009 г. 312
14. Щукин А.Н. Обучение иностранным языкам. Теория и практика. Учебное пособие для преподавателей и студентов. — 2-е изд., испр. и доп. — М.: Филоматис, 2006. — 480 с.
15. Черняк В. Д., Дунев А. И., Ефремов В. А., Сергеева Е. В. Русский язык и культура речи. М.: Юрайт. 2024. 390 с.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARNI SOG'LOMLASHTIRISH VA ORTIQCHA VAZNNI KAMAYTIRISHDA GIMNASTIK MASHQLAR SAMARADORLIGI

O'razova Muborak Yuldoshevna
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Taekvondo va Sport faoliyati kafedrasi dotsenti p.f.b.f.d (PhD)
Email:muborakurazova03@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada reproduktiv yoshdagi ayollarda ortiqcha vazn muammosi, uning salomatlikka ta'siri hamda gimnastik mashqlar orqali sog'lomlashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda muntazam bajariladigan gimnastik mashqlar organizmning funksional holatini yaxshilashi, modda almashinuvini faollashtirishi hamda ortiqcha vaznni kamaytirishda samarali vosita ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *reproduktiv yosh, ortiqcha vazn, gimnastika, sog'lomlashtirish, jismoniy mashqlar, ayollar salomatligi.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ГИМНАСТИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ ЗДОРОВЬЯ ЖЕНЩИН РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА И СНИЖЕНИЯ ИЗБЫТОЧНОГО ВЕСА

Аннотация. *В данной статье анализируется проблема избыточного веса у женщин репродуктивного возраста, его влияние на здоровье и возможности оздоровления с помощью гимнастических упражнений. В исследовании обосновано, что регулярно выполняемые гимнастические упражнения улучшают функциональное состояние организма, активизируют обмен веществ и являются эффективным средством снижения лишнего веса.*

Ключевые слова: *репродуктивный возраст, избыточный вес, гимнастика, оздоровление, физические упражнения, женское здоровье.*

THE EFFECTIVENESS OF GYMNASTIC EXERCISES IN IMPROVING THE HEALTH OF WOMEN OF REPRODUCTIVE AGE AND REDUCING EXCESS WEIGHT

Abstract. *This article analyzes the problem of excess weight in women of reproductive age, its impact on health, and health improvement opportunities through gymnastic exercises. The study substantiates that regularly performed gymnastic exercises improve the functional state of the body, activate metabolism, and are an effective means of reducing excess weight.*

Keywords: *reproductive age, excess weight, gymnastics, health improvement, physical exercise, women's health.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining jismoniy faolligini oshirish hamda turli kasalliklarning oldini olish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ayollar salomatligini mustahkamlash, ularning jismoniy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va reproduktiv salomatligini saqlash muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda turmush tarzining o‘zgarishi, kamharakatlilik, noto‘g‘ri ovqatlanish va stress omillari natijasida reproduktiv yoshdagi ayollar orasida ortiqcha vazn va semizlik muammosi tobora keng tarqalib bormoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, ortiqcha vazn yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet, gormonal buzilishlar va reproduktiv tizim kasalliklarining rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.Reproduktiv yoshdagi ayollar organizmi o‘ziga xos fiziologik xususiyatlarga ega bo‘lib, bu davrda organizmning gormonal tizimi faol ishlaydi. Ortiqcha vazn esa ushbu tizim faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, homiladorlik jarayoni va umumiy sog‘liq holatiga ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli reproduktiv yoshdagi ayollarda ortiqcha vaznni kamaytirish hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Jismoniy mashqlar, xususan sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashqlari organizm faoliyatini yaxshilash, mushak tizimini mustahkamlash, qon aylanishini faollashtirish va energiya almashinuvi jarayonlarini jadallashtirishda muhim ahamiyatga ega. Gimnastika mashqlari boshqa jismoniy faoliyat turlariga nisbatan ayollar organizmiga moslashuvchanligi, yuklamaning bosqichma-bosqich oshirilishi hamda harakatlarning nazorat qilinishi bilan ajralib turadi. Shu bois reproduktiv yoshdagi ayollarda ortiqcha vaznni kamaytirish va sog‘lomlashtirish jarayonida gimnastik mashqlarning samaradorligini ilmiy asosda o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada reproduktiv yoshdagi ayollarda ortiqcha vaznni kamaytirish hamda sog‘lomlashtirish jarayonida gimnastik mashqlarni qo‘llashning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilinadi va ularning organizmga ta’siri yoritiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot reproduktiv yoshdagi ayollarda ortiqcha vaznni kamaytirish hamda jismoniy holatini yaxshilashda gimnastik mashqlarning samaradorligini aniqlash maqsadida tashkil etildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

- ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik kuzatuv;
- pedagogik tajriba;
- antropometrik o‘lchovlar;
- funksional testlar;
- matematik-statistik tahlil.

Tadqiqot 20–35 yosh oralig‘idagi reproduktiv yoshdagi ayollar ishtirokida olib borildi. Ishtirokchilar ikki guruhga ajratildi:

- nazorat guruhi
- eksperimental guruhi

Nazorat guruhida an’anaviy jismoniy mashqlar bajarildi, eksperimental guruhda esa maxsus ishlab chiqilgan sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashqlari dasturi qo‘llanildi.

Mashg‘ulotlar haftasiga **3–4 marta**, har biri **40–60 daqiqa** davomida o‘tkazildi. Mashg‘ulotlar quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ldi:

1. tayyorlov qismi (yengil gimnastika mashqlari)
2. asosiy qism (yog‘ yoqishga qaratilgan mashqlar)
3. yakuniy qism (bo‘shashtiruvchi mashqlar)

Tadqiqot natijalari Tadqiqot jarayonida olingan natijalar nazorat va eksperimental guruh ko‘rsatkichlari o‘rtasida qiyosiy tahlil qilindi.

DASTLABKI NATIJALAR

Tadqiqot boshida har ikki guruh ishtirokchilarining antropometrik ko‘rsatkichlari o‘rtasida sezilarli farq aniqlanmadi ($p>0,05$). Boshlang‘ich o‘lchov natijalari quyidagilarni

ko‘rsatdi: tana massasi indeksi me’yoridan yuqori, jismoniy chidamlilik darajasi past, mushak tizimi rivojlanish darajasi yetarli emas Bu holat reproduktiv yoshdagi ayollarda jismoniy faollik yetarli emasligini ko‘rsatdi. Tadqiqotning boshlang‘ich bosqichida reproduktiv yoshdagi ayollarning antropometrik hamda funksional ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida dastlabki test sinovlari o‘tkazildi. Tadqiqotda jami 40 nafar reproduktiv yoshdagi ayol ishtirok etdi. Ular teng ravishda nazorat guruhi (NG) va eksperimental guruh (EG) ga ajratildi.

Boshlang‘ich o‘lchovlar natijalariga ko‘ra, har ikki guruh ko‘rsatkichlari o‘rtasida statistik jihatdan sezilarli farq aniqlanmadi (**p>0,05**). Bu esa tajriba boshlanishida guruhlarning jismoniy rivojlanish darajasi deyarli bir xil ekanligini ko‘rsatadi. Antropometrik va funksional ko‘rsatkichlar quyidagi jadvalda keltirilgan**.**

1-jadval

Tadqiqot ishtirokchilarining boshlang‘ich antropometrik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	**Nazorat guruhi (n=20)**	**Eksperimental guruhi (n=20)**	**Farq (%)**
O‘rtacha tana vazni (kg)	74,6 ± 3,2	75,1 ± 3,5	0,7 %
Tana massasi indeksi (BMI)	27,8 ± 1,4	28,1 ± 1,3	1,0 %
Bel aylanası (sm)	86,4 ± 3,8	87,2 ± 3,5	0,9 %
Son aylanası (sm)	104,3 ± 4,1	105,1 ± 3,9	0,7 %
1000 m yurish vaqti (daq.)	9,42 ± 0,6	9,38 ± 0,5	0,4 %

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tadqiqot boshlanishida har ikki guruhning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari bir-biriga yaqin bo‘lgan. Tana massasi indeksi ko‘rsatkichlari o‘rtacha 27–28 birlik atrofida bo‘lib, bu ortiqcha vazn kategoriyasiga kiradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ishtirokchilarning tana massasi indeksiga ko‘ra taqsimlanishi

Boshlang‘ich bosqichda ayollar BMI ko‘rsatkichlariga ko‘ra quyidagicha taqsimlandi:

BMI kategoriyasi	Ishtirokchilar soni	Foiz (%)
Me’yoriy vazn	8	20 %
Ortiqcha vazn	22	55 %
Semizlik (I daraja)	10	25

Natijalar shuni ko‘rsatdiki: 55 % ayollarda ortiqcha vazn mavjud 25 % ayollarda semizlikning boshlang‘ich darajasi faqat 20 % ayollarda vazn me’yoriy Jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari Jismoniy tayyorgarlikni baholash uchun yurish testi, mushak chidamliligi va umumiy jismoniy faollik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Ko‘rsatkich	Past daraja	O‘rtacha daraja	Yaxshi daraja
Jismoniy chidamlilik	48 %	37 %	15 %
Mushak chidamliligi	52 %	33 %	15 %
Umumiy jismoniy faollik			

Tahlil natijalariga ko‘ra: ayollarning **48–52 %** da jismoniy chidamlilik past darajada **33–40 %** o‘rtacha darajada faqat **15 %** yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ega

Statistik tahlil

Matematik-statistik tahlil natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi: guruhlar o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli emas ($p>0,05$) o‘rtacha tana vazni ko‘rsatkichlari orasidagi farq 1 % dan kam antropometrik ko‘rsatkichlar deyarli bir xil Bu holat eksperimental mashg‘ulotlar samaradorligini keyingi bosqichda obyektiv baholash imkonini beradi.

Umumiy tahlil

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, reproduktiv yoshdagi ayollar orasida: ortiqcha tana vazni keng tarqalgan jismoniy faollik darajasi past mushak tizimi rivojlanishi yetarli emas Mazkur omillar organizmda moddalar almashinuvi jarayonining sekinlashishiga,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yog‘ to‘planishining ortishiga hamda umumiy sog‘liq ko‘rsatkichlarining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli reproduktiv yoshdagi ayollarda ortiqcha vaznni kamaytirish va sog‘lomlashtirish maqsadida maxsus gimnastik mashqlar majmuasini qo‘llash zarurati ilmiy jihatdan asoslandi.

Eksperimental dasturdan keyingi natijalar 12–16 haftalik sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashg‘ulotlari yakunlangandan so‘ng tadqiqot ishtirokchilarining antropometrik va funksional ko‘rsatkichlari qayta o‘lchandi hamda nazorat va eksperimental guruh natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar eksperimental guruhda sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganligini ko‘rsatdi.

Tana vazni ko‘rsatkichlari

Eksperimental guruhda o‘tkazilgan muntazam gimnastika mashg‘ulotlari natijasida ayollarning tana vazni sezilarli darajada kamaydi. Tadqiqot yakunida eksperimental guruh ishtirokchilarida tana vazni o‘rtacha **5–9 % ga kamayganligi** qayd etildi. Bu esa mashg‘ulotlar jarayonida energiya sarfining oshishi, metabolik jarayonlarning faollashuvi hamda yog‘ almashinuvi tezlashishi bilan izohlanadi.

Nazorat guruhida esa an’anaviy jismoniy mashqlar bajarilgan bo‘lib, ushbu guruhda tana vazni kamayishi nisbatan past darajada kuzatildi. Tadqiqot yakuniga ko‘ra nazorat guruhida tana vazni o‘rtacha **2–3 % ga kamayganligi** qayd etildi. Statistik tahlil natijalari eksperimental guruhda kuzatilgan o‘zgarishlar nazorat guruhiga nisbatan **ishonchli darajada yuqori ekanligini (p<0,05)** ko‘rsatdi.

Antropometrik ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlar

Eksperimental dastur natijasida ayollarning tana proporsiyalarida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, bel aylanasida o‘rtacha **6–10 %**, son aylanasida esa **5–8 %** kamayish qayd etildi. Bu natijalar sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashqlari yog‘ to‘planishi ko‘proq kuzatiladigan tana sohalariga samarali ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi. Nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkichlar nisbatan kam o‘zgardi. Bel aylanasida **2–3 %**, son aylanasida esa **1–2 %** atrofida kamayish kuzatildi.

Tana massasi indeksi (BMI): Eksperimental guruhda tana vazni kamayishi bilan birga tana massasi indeksi ham sezilarli darajada yaxshilandi. Tadqiqot yakuniga ko‘ra BMI ko‘rsatkichlari o‘rtacha 8–10 % ga kamaydi, bu esa ishtirokchilarning aksariyatida ortiqcha vazn ko‘rsatkichlarining me’yoriy diapazonga yaqinlashganini ko‘rsatadi. Nazorat guruhida esa BMI ko‘rsatkichlarida o‘zgarish 3–4 % atrofida bo‘ldi. Jismoniy chidamlilik ko‘rsatkichlari: Gimnastika mashg‘ulotlari nafaqat antropometrik ko‘rsatkichlarga, balki ayollarning jismoniy tayyorgarlik darajasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. 1000 metr yurish testi natijalari eksperimental guruhda 10–15 % ga yaxshilangani qayd etildi. Bu esa yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyatining yaxshilanganligini ko‘rsatadi. Nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkichlar 4–6 % atrofida yaxshilandi.

Mushak chidamliligi: Eksperimental guruhda qorin, son va bel mushaklarining chidamliligi ham sezilarli darajada oshdi. Mashqlarni bajarish davomiyligi o‘rtacha 15–18 % ga ortdi. Bu esa muntazam gimnastika mashg‘ulotlari mushak tizimini mustahkamlashda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Nazorat guruhida esa mushak chidamliligi 6–8 % ga oshdi.

Umumiy tahlil: Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, maxsus ishlab chiqilgan sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashqlari majmuasi reproduktiv yoshdagi ayollarda ortiqcha vaznni kamaytirish, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish hamda organizmning funksional imkoniyatlarini yaxshilashda yuqori samaradorlikka ega.Eksperimental guruhda kuzatilgan ijobiy o‘zgarishlar nazorat guruhiga nisbatan statistik ishonchli darajada yuqori bo‘lib, bu sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashqlari metodikasining amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

12–16 haftalik mashg‘ulotlardan so‘ng eksperimental guruhda ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.Tana vazni: Eksperimental guruh ayollarida tana vazni o‘rtacha 5–9 % ga kamaydi. Nazorat guruhida esa vazn kamayishi 2–3 % atrofida bo‘ldi. Tana massasi indeksi: Eksperimental guruhda BMI ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi va

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

normal diapazonga yaqinlashdi. Antropometrik ko‘rsatkichlar Bel aylanasida 7–10 %, son aylanasida 5–8 % kamayish kuzatildi. Jismoniy chidamlilik 1000 metr yurish testi natijalari eksperimental guruhda 12–15 % ga yaxshilandi. Bu esa gimnastik mashqlar organizmning energetik almashinuv jarayonlarini faollashtirganini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Olib borilgan tadqiqot natijalari reproduktiv yoshdagi ayollarni sog‘lomlashtirish va ortiqcha tana vaznini kamaytirishda sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashqlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Eksperimental mashg‘ulotlar jarayonida ayollarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari, antropometrik o‘lchovlari hamda umumiy funksional holatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Bu esa gimnastik mashqlar organizmning fiziologik jarayonlariga kompleks ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan gimnastika mashqlari majmuasi turli mushak guruhlarini faol ishlashga jalb etdi. Ayniqsa qorin, son, bel va dumba mushaklariga qaratilgan mashqlar energiya sarfini oshirish orqali organizmda yog‘ almashinuvi jarayonlarini jadallashtirdi. Natijada tana vaznining kamayishi hamda tana proporsiyalarining yaxshilanishi kuzatildi. Bu jarayon metabolik faollikning oshishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, muntazam jismoniy mashg‘ulotlar energiya balansining me’yorlashuviga yordam beradi. Shuningdek, muntazam gimnastika mashg‘ulotlari yurak-qon tomir tizimi faoliyatini ham ijobiy tomonga o‘zgartirdi. Tadqiqot davomida ishtirokchilarda yurak urish tezligining me’yorlashuvi, nafas olish tizimi faoliyatining yaxshilanishi hamda umumiy jismoniy chidamlilikning oshishi kuzatildi. Bu esa jismoniy mashqlar organizmning funksional imkoniyatlarini kengaytirib, umumiy sog‘liq ko‘rsatkichlarini mustahkamlashini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashqlarini muntazam ravishda bajarish sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Muntazam jismoniy faollik nafaqat tana vaznini me’yorlashtirishga yordam beradi, balki turli surunkali kasalliklarning oldini

olishga ham xizmat qiladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashqlari reproduktiv yoshdagi ayollarni sog‘lomlashtirish, ortiqcha vaznni kamaytirish va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatdi. Shu sababli ushbu mashg‘ulot metodikasini jismoniy tarbiya tizimida, sog‘lomlashtirish markazlarida hamda ayollar salomatligini mustahkamlashga qaratilgan dasturlarda keng qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida reproduktiv yoshdagi ayollarni sog‘lomlashtirish va ortiqcha vaznni kamaytirishda gimnastik mashqlar muhim vosita ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Reproduktiv yoshdagi ayollarda ortiqcha vazn keng tarqalgan muammolardan biri bo‘lib, u sog‘liq uchun salbiy oqibatlarga olib keladi.
2. Sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashqlari tana vaznini kamaytirish va jismoniy holatni yaxshilashda samarali vosita hisoblanadi.
3. Maxsus ishlab chiqilgan gimnastika mashqlari majmuasi tana massasi indeksini kamaytirish hamda antropometrik ko‘rsatkichlarni yaxshilashga yordam beradi.
4. Muntazam jismoniy mashg‘ulotlar organizmning metabolik jarayonlarini faollashtiradi va energiya sarfini oshiradi.
5. Gimnastika mashqlari reproduktiv yoshdagi ayollarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.
6. Ishlab chiqilgan metodika sog‘lomlashtirish markazlari, sport klublari va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida keng qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent.
2. Kerimov F.A. Sport mashg‘ulotlari nazariyasi. Toshkent.
3. Matveyev L.P. Teoriya i metodika fizicheskoy kulturi. Moskva.
4. Ашмарин Б.А. Теория и методика физического воспитания. Москва.
5. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov.

«TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING O'QUV-BILISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION-PEDAGOGIK ASOSLARI»

Xudoyqulova Dilrabo Shodmonovna
Renessans universiteti dotsenti

Annotatsiya. *Maqolada ta'lim jarayonida talabalarning o'quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion-pedagogik asoslari tahlil qilingan. O'quv-bilish kompetensiyasining mazmun-mohiyati, uni shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat va raqamli ta'lim resurslarining ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, talabalarning mustaqil fikrlashi, axborotni izlash va tahlil qilish, bilimlarni tizimlashtirish hamda ularni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik va psixologik omillar yoritilgan. O'quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi muhim pedagogik shart sifatida asoslangan.*

Kalit so'zlar. *O'quv-bilish kompetensiyasi, innovatsion ta'lim, pedagogik texnologiya, mustaqil fikrlash, bilish faoliyati, muammoli ta'lim, interaktiv metodlar, loyihaviy faoliyat, raqamli ta'lim resurslari, refleksiya, ta'lim samaradorligi.*

«ИННОВАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ»

Аннотация. *В статье анализируются инновационно-педагогические основы развития учебно-познавательной компетентности обучающихся в рамках образовательного процесса. Раскрывается сущность учебно-познавательной компетентности, подчеркивается значимость инновационных педагогических технологий, интерактивных методов, проблемного обучения, проектной деятельности и цифровых образовательных ресурсов в ее формировании. Кроме того, рассматриваются психолого-педагогические факторы, влияющие на развитие у обучающихся навыков самостоятельного мышления, поиска и анализа информации, систематизации знаний, а также их применения в практической деятельности. Интеграция различных инновационных подходов определяется как важнейшее педагогическое условие развития учебно-познавательной компетентности.*

Ключевые слова: *учебно-познавательная компетентность, инновационное образование, педагогическая технология, самостоятельное мышление, познавательная деятельность, проблемное обучение, интерактивные методы, проектная деятельность, цифровые образовательные ресурсы, рефлексия, эффективность обучения.*



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

"INNOVATIVE-PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' LEARNING-COGNITIVE COMPETENCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS"

Abstract. *This article analyzes the innovative-pedagogical foundations for developing students' learning-cognitive competence within the educational process. It explores the essence of learning-cognitive competence and highlights the significance of innovative pedagogical technologies, interactive methods, problem-based learning, project-based activities, and digital educational resources in its formation. Furthermore, the article examines the pedagogical and psychological factors that influence the development of students' skills in independent thinking, information seeking and analysis, systematization of knowledge, and the application of knowledge in practical activities. The integration of various innovative approaches is established as a crucial pedagogical prerequisite for developing learning-cognitive competence.*

Keywords: *Learning-cognitive competence, innovative education, pedagogical technology, independent thinking, cognitive activity, problem-based learning, interactive methods, project-based activity, digital educational resources, reflection, educational effectiveness.*

KIRISH

Ta'lim jarayonida talabalarning o'quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri bo'lib, ta'lim sifatini oshirish, shaxsning intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda mustaqil bilish faoliyatini takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur jarayon ta'lim oluvchining nafaqat muayyan bilimlar tizimini egallashi, balki o'zlashtirilgan bilimlarni anglash, tahlil qilish, tizimlashtirish, amaliy faoliyatda qo'llash va yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Shu jihatdan, o'quv-bilish kompetensiyasi shaxsning intellektual, kognitiv, motivatsion va faoliyatga doir imkoniyatlarini o'zaro birlashtiruvchi murakkab pedagogik hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash o'quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirishning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi. Bunda ta'lim mazmuni, metodlari va vositalarini zamonaviy axborot muhiti, ilmiy-texnologik taraqqiyot hamda jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish

alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, interfaol, muammoli, loyihaviy, hamkorlikka asoslangan, rivojlantiruvchi va tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rag'batlantirish va o'quv faoliyatiga ijodiy yondashuvini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, raqamli ta'lim resurslari, infografik materiallar, elektron platformalar va interaktiv o'quv vositalaridan foydalanish axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, umumlashtirish hamda amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Innovatsion-pedagogik yondashuvning mazmuni, avvalo, talabaning ta'lim jarayonidagi faol subyekt sifatidagi mavqeini mustahkamlash bilan belgilanadi. An'anaviy ta'limda bilimlarni o'zlashtirish ko'proq tayyor axborotni qabul qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, innovatsion ta'lim muhitida talaba bilimlarni mustaqil izlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mavjud qarashlarni taqqoslash va shaxsiy xulosalar ishlab chiqish jarayonining bevosita ishtirokchisiga aylanadi. Bunday yondashuv bilimlarni shunchaki axborot sifatida o'zlashtirishdan ularni anglash, mazmunan qayta ishlash va amaliy faoliyatga tatbiq etish darajasiga olib chiqadi. Natijada talabalarda bilish mustaqilligi, tanqidiy tafakkur va intellektual faollik rivojlanishi uchun zarur pedagogik imkoniyatlar yuzaga keladi.

O'quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirishda ta'lim jarayonini ilmiy izlanish va ijodiy faoliyat bilan integratsiyalash ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Ta'lim mazmuniga ilmiy izlanish elementlari, innovatsion loyihalar, muammoli topshiriqlar va loyiha faoliyatini kiritish talabalarning nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan bog'lash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, muayyan muammoga mustaqil yechim izlash, turli axborot manbalarini o'rganish, dalillarni tahlil qilish va muqobil xulosalarni asoslash jarayonlari ilmiy tafakkur hamda ijodiy yondashuvning shakllanishiga xizmat qiladi. Bunda talaba nafaqat mavjud bilimlarni o'zlashtiradi, balki yangi bilimlarni izlash, ularni qayta ishlash va mustaqil bilim mahsulini yaratishga yo'naltirilgan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

faoliyatni ham amalga oshiradi. Shu tariqa o‘quv-bilish kompetensiyasining kognitiv, intellektual, ijodiy va refleksiv jihatlari o‘zaro aloqadorlikda rivojlanadi.

O‘quv-bilish kompetensiyasining rivojlanishida motivatsion omillar ham alohida o‘rin tutadi. Motivatsiya talabaning bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyojini faollashtiruvchi, bilish faoliyatini maqsadli yo‘naltiruvchi va mustaqil izlanishga undovchi psixologik-pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Uning mazmuni talabaning ta’lim jarayoniga ongli munosabati, bilimlarni egallashga bo‘lgan qiziqishi, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilishi va erishilgan natijalarni anglashida ifodalanadi. Shu nuqtayi nazardan, o‘quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi o‘zaro bog‘liq motivatsion omillarni hisobga olish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, ichki ehtiyoj va bilishga bo‘lgan qiziqish. Mazkur omil talabaning o‘quv-bilish faoliyatiga ongli ravishda kirishishi va uni izchil davom ettirishini ta’minlovchi muhim shartlardan biridir. Bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyojning shakllanishi talabaning muayyan bilim sohasi mazmuniga qiziqishi, yangi ma’lumotlarni egallashga intilishi hamda o‘z intellektual imkoniyatlarini kengaytirishga bo‘lgan ehtiyoji bilan belgilanadi. Ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar, izlanishga undovchi topshiriqlar va mustaqil ta’lim faoliyatidan foydalanish mazkur ehtiyojni faollashtirishga yordam beradi. Bunda talaba tayyor bilimlarni qabul qiluvchi subyektdan mustaqil ravishda bilim izlovchi, ularni tahlil qiluvchi va yangi xulosalar shakllantiruvchi faol bilish subyektiga aylanadi.

Ikkinchidan, bilish faoliyati maqsadining aniqligi va anglanganligi. O‘quv-bilish kompetensiyasining rivojlanishi talabaning o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalar mazmunini, ularning kutilayotgan natijalarini va shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishidagi ahamiyatini anglashiga bog‘liq. Maqsadning aniq belgilanishi bilish faoliyatini tartibga soladi, o‘quv vazifalarini ongli bajarishga va ta’lim natijalariga mas’uliyat bilan yondashishga undaydi. Shu sababli pedagogik jarayonda o‘quv maqsadlarini tushuntirish, egallanayotgan bilimlarning amaliy va kasbiy ahamiyatini ochib berish



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

hamda mustaqil ta'limning natijadorligini ta'minlash muhimdir. Natijada talabalarda o'z bilish faoliyatini rejalashtirish, belgilangan maqsadga muvofiq harakat qilish va olingan natijalarni baholash ko'nikmalari rivojlanadi.

Uchinchidan, o'z intellektual imkoniyatlariga ishonch va muvaffaqiyatga intilish. Talabaning o'z bilimlari, qobiliyati va imkoniyatlariga ishonishi mustaqil bilish faoliyatini amalga oshirishning muhim psixologik shartidir. O'z imkoniyatlariga ishongan talaba murakkab o'quv vazifalarini bajarishga intiladi, muammoli vaziyatlarga mustaqil yondashadi va turli yechimlarni izlashga harakat qiladi. Aksincha, o'z imkoniyatlariga nisbatan ishonchsizlik tashabbuskorlikning susayishi va mustaqil qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois ta'lim jarayonida talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, mustaqil fikr bildirish, ijodiy topshiriqlarni bajarish va o'z bilimlarini namoyon etishlari uchun pedagogik imkoniyatlar yaratish zarur. Pedagogning konstruktiv fikr-mulohazalari, qo'llab-quvvatlashi va natijalarni xolis baholashi talabalarning o'z intellektual salohiyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

To'rtinchidan, ijobiy rag'batlantirish va erishilgan natijalarning ahamiyatini anglash. Rag'batlantirish talabalarning bilish faoliyatiga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash va keyingi intilishlarini kuchaytirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. U moddiy va ma'naviy shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Biroq rag'batlantirishning samaradorligi faqat tashqi mukofot yoki baholash bilan belgilanmaydi. Talabaning mustaqil izlanishlari, ijodiy g'oyalari, ilmiy tashabbuslari va erishgan natijalarining e'tirof etilishi ham uning bilish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish, mavjud yutuq va kamchiliklarni aniqlash hamda kelgusi faoliyat yo'nalishlarini belgilash imkoniyati refleksiv ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu esa talabaning o'z-o'zini baholash, o'z faoliyatini takomillashtirish va mustaqil ta'lim olishga bo'lgan intilishini kuchaytiradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Yuqoridagi nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalari, mustaqil izlanish faoliyati va motivatsion omillarni alohida-alohida emas, balki o‘zaro integratsiyalashgan pedagogik tizim sifatida tashkil etish muhimdir. Bunda ta’lim mazmunining muammoli va izlanishga yo‘naltirilganligi, o‘qitish metodlarining talaba faolligini ta’minlashi, raqamli vositalarning bilish imkoniyatlarini kengaytirishi hamda motivatsion muhitning mustaqil faoliyatni rag‘batlantirishi o‘zaro uyg‘unlashadi. Mazkur uyg‘unlik talabalarning axborot bilan ishlash, mustaqil fikrlash, bilimlarni amaliyotda qo‘llash, ijodiy yechimlar ishlab chiqish va o‘z bilish faoliyati natijalarini baholash qobiliyatlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

- ✓ hududlar kesimida muntazam musobaqalar tizimining yanada kengaytirilishi zarurligi;
- ✓ bolalar va o‘smirlarni sport mashg‘ulotlariga jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish ehtiyoji.

Ushbu muammolarni bartaraf etishda davlat sport tashkilotlari, federatsiyalar, ta’lim muassasalari va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Shu asosda flag futbolni rivojlantirishning istiqboldagi asosiy yo‘nalishlari sifatida maktab va oliy ta’lim muassasalarida sport to‘garaklarini ko‘paytirish, hududiy musobaqalarni muntazam o‘tkazish, murabbiylar tayyorlash tizimini takomillashtirish, xalqaro tajribani o‘rganish va yoshlar terma jamoalarini shakllantirishni belgilash mumkin.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Olimpiya dasturiga kiritilgan ushbu sport turi O‘zbekiston uchun ham xalqaro sport maydonida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Shu sababli yosh sportchilarni uzoq muddatli tayyorlash, ularning texnik-taktik mahoratini oshirish va xalqaro musobaqalarda ishtirok etishi uchun zarur tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

XULOSA

O‘tkazilgan nazariy-tahliliy tadqiqotlar asosida O‘zbekistonda flag futbol sport turini rivojlantirish va ommalashtirish jismoniy tarbiya hamda ommaviy sport tizimini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ekanligi aniqlandi.

Flag futbolning o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, jismoniy to‘qnashuvlarning cheklanganligi, jamoaviy harakatlarga asoslanganligi va turli yoshdagi ishtirokchilar uchun moslashtirish imkoniyati uning ta’lim muassasalarida keng qo‘llanishiga sharoit yaratadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi:

O‘zbekistonda flag futbolni rivojlantirish uchun federatsiya va uning hududiy bo‘limlari faoliyatini ta’lim muassasalari hamda sport tashkilotlari bilan uzviy hamkorlikda tashkil etish zarur.

Umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida flag futbol to‘garaklarini tashkil etish orqali yoshlarning sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish, jismoniy faolligini kengaytirish va yangi sportchilar zaxirasini shakllantirish mumkin.

Flag futbol bo‘yicha malakali murabbiylar tayyorlash, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy bilimlarini oshirish va zamonaviy o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqish sport turining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab, tuman, viloyat va respublika miqyosidagi musobaqalarni muntazam tashkil etish orqali yosh sportchilarni aniqlash, ularning mahoratini oshirish va istiqbolli terma jamoalarni shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Flag futbolni rivojlantirish jarayonida qizlar va ayollar ishtirokini kengaytirish, hududlarda sport infratuzilmasini takomillashtirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, O‘zbekistonda flag futbol sport turini rivojlantirish kompleks tashkiliy-pedagogik yondashuvni talab etadi. Ushbu sport turini ta’lim tizimi, ommaviy sport va professional tayyorgarlik jarayonlari bilan integratsiyalash orqali uning mamlakatimizda ommalashuviga, yoshlar sporti rivojiga hamda xalqaro sport musobaqalarida munosib ishtirok etadigan sportchilarni tayyorlashga zamin yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi PQ-115-sonli «Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. – https://lex.uz/acts/-6426271
2. FIFA. Football for Schools comes to Uzbekistan. – 2023. – FIFA rasmiy sayti.
3. Uzbekistan American Football and Flag Football Federation. Rasmiy ma’lumotlar. – UAFFF rasmiy sayti.
4. O‘zbekiston Amerika futboli va Flag futboli federatsiyasi. Hududiy bo‘limlar faoliyati. – Federatsiya hududiy bo‘limlari.
5. Farg‘ona viloyatida ilk bor U-13 Flag futbol chempionati yakunlandi. – 29.09.2026. – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
6. Завьялова Т.П., Стародубцева И.В. Теория и методика физического воспитания дошкольников: учебное пособие. – 2-е изд. – Москва: Юрайт, 2025. – 282 с.

SPORTCHILARDA JISMONIY ZO'RIQISH NATIJASIDA KELIB CHIQADIGAN TIBBIY HOLATLARDA KARDIOPROTEKTORLAR VA ANTIOKSIDANTLARNING TABIIY YO'LLAR BILAN OLDINI OLISH

Raximova Yulduzxon Ergashevna
Farg'ona davlat universiteti
Jismoniy tarbiya va adaptiv sport nazariyasi kafedrasi katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari nomzodi
bebbizonson@gmail.com +998908484244
ORCID ID 0009-0007-0837-9907

Annotatsiya: *Maqolada sportchilarda yuqori jismoniy yuklama ta'sirida yurak-qon tomir tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan funksional o'zgarishlar, oksidlovchi stress va tiklanish jarayonlari yoritiladi. Kardioprotektiv ta'sirga ega tabiiy oziq-ovqatlar, antioksidant vitaminlar, minerallar, polifenollar va omega-3 yog' kislotalarining ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Sportchi, jismoniy zo'riqish, yurak-qon tomir tizimi, kardioproteksiya, antioksidant, oksidlovchi stress, erkin radikallar, tabiiy ovqatlanish, tiklanish, elektrolitlar.*

ЕСТЕСТВЕННАЯ ПРОФИЛАКТИКА КАРДИОПРОТЕКТОРОВ И АНТИОКСИДАНТОВ ПРИ ЗАБОЛЕВАНИЯХ, ВЫЗВАННЫХ ФИЗИЧЕСКИМИ НАГРУЗКАМИ У СПОРТСМЕНОВ

Аннотация: *В статье рассматриваются возможные функциональные изменения, окислительный стресс и процессы восстановления в сердечно-сосудистой системе спортсменов под воздействием высоких физических нагрузок. Анализируется важность натуральных продуктов, антиоксидантных витаминов, минералов, полифенолов и жирных кислот омега-3, обладающих кардиопротекторным действием.*

Ключевые слова: *Спортсмен, физическая нагрузка, сердечно-сосудистая система, кардиопротекция, антиоксидант, окислительный стресс, свободные радикалы, натуральное питание, восстановление, электролиты.*

NATURAL PREVENTION OF CARDIOPROTECTORS AND ANTIOXIDANTS IN DISEASES CAUSED BY PHYSICAL EXERTION IN ATHLETES

Abstract: The article discusses possible functional changes, oxidative stress, and recovery processes in the cardiovascular system of athletes under the influence of high physical exertion.

The importance of natural products, antioxidant vitamins, minerals, polyphenols, and omega-3 fatty acids with cardioprotective effects is analyzed.

Keywords: Athlete, physical activity, cardiovascular system, cardioprotection, antioxidant, oxidative stress, free radicals, natural nutrition, recovery, electrolytes.

KIRISH

Zamonaviy sportda natijaga erishish uchun mashg‘ulotlar hajmi va jadalligi ortib bormoqda. Yuqori yuklama sportchining yurak-qon tomir, nafas olish, asab va mushak tizimlariga katta talab qo‘yadi. Me’yorida va to‘g‘ri rejalashtirilgan jismoniy mashq yurak faoliyatini mustahkamlaydi, qon aylanishini yaxshilaydi hamda organizmning moslashuv imkoniyatlarini oshiradi. Biroq yuklama tiklanish imkoniyatidan oshib ketsa, suvsizlanish, issiq urishi, elektrolitlar muvozanatining buzilishi, ortiqcha charchash va ayrim hollarda yurak ritmi bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Shu sababli sport tibbiyotida kardioproteksiya — yurak va qon tomirlarni xavf omillaridan asrash, ularning funksional holatini kuzatish va tiklanishni to‘g‘ri tashkil etish — muhim yo‘nalish hisoblanadi. Antioksidant himoya esa hujayralarda oksidlovchi va antioksidlovchi jarayonlar muvozanatini saqlashga xizmat qiladi. Bu ikki yo‘nalish bir-birini to‘ldiradi, ammo ularni faqat vitamin yoki biologik faol qo‘shimcha qabul qilish bilan tenglashtirish noto‘g‘ri.

Sportchilarda zo‘riqish bilan bog‘liq xavflarni kamaytirishda tabiiy ovqatlanish, mashg‘ulotni oqilona rejalashtirish va tiklanish choralarining ilmiy asoslarini tushuntirish.

1. Jismoniy zo‘riqishning yurak-qon tomir tizimiga ta’siri

Jismoniy mashq vaqtida ishlayotgan mushaklarga kislorod va oziq moddalar yetkazib berish ehtiyoji ortadi. Natijada yurak urish tezligi, yurakdan haydaladigan qon miqdori va nafas olish jadalligi ko‘tariladi. Muntazam mashg‘ulotlar natijasida yurakning fiziologik moslashuvi rivojlanishi mumkin: tinch holatdagi puls pasayadi, bir urishda haydaladigan qon hajmi ortadi, mushaklarning kisloroddan foydalanish samaradorligi yaxshilanadi.

Bu moslashuvlar sog‘lom sportchida kutiladigan holatlardir. Biroq fiziologik moslashuvni patologik holatdan farqlash zarur. Haddan tashqari yuklama, yetarli dam olmaslik, infeksiya bilan mashq qilish, suvsizlanish, issiq muhit, uyqusizlik yoki ayrim yashirin kasalliklar yurak faoliyatiga ortiqcha bosim tushirishi mumkin.

Zo‘riqish bilan bog‘liq asosiy xavfli holatlar

1-jadval

Holat	Kelib chiqish omillari	E’tibor beriladigan belgilar
Suvsizlanish	Ko‘p terlash, suyuqlikni kam ichish	Chanqash, bosh aylanishi, holsizlik, siydikning to‘q rangga kirishi
Elektrolitlar buzilishi	Natriy va boshqa tuzlarning yo‘qotilishi, noto‘g‘ri suyuqlik ichish	Mushak tortishishi, ko‘ngil aynishi, kuchli holsizlik; og‘ir holatda ong buzilishi
Issiqlikdan holsizlanish	Issiq va nam muhitda uzoq mashq	Bosh og‘rig‘i, ko‘p terlash, ko‘ngil aynishi, bosh aylanishi
Yurak ritmi buzilishi	Yurak kasalligi, infeksiya, elektrolitlar o‘zgarishi yoki ortiqcha zo‘riqish	Yurakning notekis urishi, ko‘krakdagi noqulaylik, hushdan ketish
Ortiqcha mashq sindromi	Yuklama va tiklanish nomutanosibligi	Uzoq davom etuvchi charchoq, natijaning pasayishi, uyqu va kayfiyat buzilishi

Ko‘krakda bosuvchi og‘riq, hushdan ketish, odatdagidan keskin nafas qisishi, yurak urishining keskin notekisligi yoki mashq vaqtida yiqilish oddiy charchoq deb qabul qilinmasligi kerak. Bunday vaziyatda mashq darhol to‘xtatiladi va shoshilinch tibbiy yordam chaqiriladi. Issiq urishiga shubha bo‘lsa, sportchini sovitish va tez tibbiy yordam ko‘rsatish hayotiy ahamiyatga ega [2].

Kardioproteksiya — yurakni dori bilan «kuchaytirish» degani emas. Sport amaliyotida u xavf omillarini aniqlash, yuklamani moslashtirish, yetarli energiya va

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

suyuqlik bilan ta’minlash, uyqu va tiklanishni yaxshilash, kasallik paytida mashq qilmaslik hamda zarur tibbiy tekshiruvlardan o‘tishni anglatadi.

Hujayralarda energiya ishlab chiqarish jarayonida reaktiv kislorod birikmalari (erkin radikallar va boshqa faol molekulalar) hosil bo‘ladi. Jismoniy mashq paytida mushaklar faol ishlagani uchun ularning miqdori vaqtincha ortishi mumkin. Bu holatning o‘zi doimo zararli emas: me’yoridagi oksidlovchi signal mushaklarning mashqqa moslashuvi, mitoxondriyalar faoliyati va organizmning o‘z antioksidant himoya tizimini kuchaytirishda qatnashadi.

Agar yuklama haddan tashqari yuqori bo‘lsa, tiklanish yetarli bo‘lmasa, uyqu va ovqatlanish buzilsa yoki kasallik mavjud bo‘lsa, oksidlovchi jarayonlar antioksidant himoya imkoniyatidan ustun kelishi mumkin. Shunda oksidlovchi stress kuchayib, hujayra membranalari, oqsillar va boshqa tuzilmalarga zarar yetkazishi ehtimoli ortadi. Demak, maqsad erkin radikallarni butunlay yo‘qotish emas, balki organizmda muvozanatni saqlashdir.

Organizm antioksidant himoyani o‘zi ham ta’minlaydi. Superoksid dismutaza, katalaza va glutation peroksidaza kabi fermentlar faol kislorod birikmalarini zararsizlantirishda qatnashadi. Ularning ishlashi uchun rux, mis, marganes va selen kabi mikroelementlar zarur. Glutation tizimi esa hujayraning muhim himoya mexanizmlaridan biridir. Muntazam, me’yorlangan mashqlar ushbu ichki himoya tizimlarining moslashuviga yordam beradi.

Antioksidantlarning asosiy guruhlari va tabiiy manbalari

2-jadval

Modda	**Organizmdagi vazifasi**	**Tabiiy oziq-ovqat manbalari**
C vitamini	Suv muhitida antioksidant himoya, kollagen sintezi	Qalampir, na’matak, sitrus, kivi, karam, ko‘katlar

E vitamini	Hujayra membranalaridagi yog‘larni oksidlanishdan himoya qilish	Kungaboqar urug‘i, bodom, yong‘oq, o‘simlik moylari
Karotinoidlar	Hujayralarni oksidlovchi ta’sirdan himoyalash	Sabzi, qovoq, pomidor, ismaloq, o‘rik
Polifenollar va flavonoidlar	Antioksidant va signal yo‘llarini boshqarishda ishtirok etish	Rezavor mevalar, uzum, anor, dukkaklilar, choy
Selen, rux, mis, marganes	Antioksidant fermentlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash	Baliq, tuxum, go‘sht, dukkakli, don, yong‘oq
Omega-3 yog‘ kislotalari	Yurak-qon tomir salomatligi va yallig‘lanish jarayonlarini boshqarishda ishtirok etish	Yog‘li baliq, yong‘oq, zig‘ir va chia urug‘i

Muhim ilmiy nuqta: oziq-ovqat tarkibidagi antioksidantlar turli moddalar bilan birgalikda, tabiiy muhitda iste’mol qilinadi. Shu sababli rang-barang sabzavot va mevalarni ratsionga kiritish ko‘pincha alohida yuqori dozali kapsulalardan afzal hisoblanadi [1].

Yurak-qon tomir tizimini qo‘llab-quvvatlashda bitta «mo‘jizaviy» mahsulot mavjud emas. Eng samarali yondashuv — kun davomida turli oziq-ovqat guruhlarini muvozanatli iste’mol qilish, umumiy energiya ehtiyojini qoplash va ortiqcha cheklovlardan qochishdir.

Yurak uchun foydali oziq-ovqat guruhlari. Sabzavot va mevalar. Har kuni turli rangdagi sabzavot-mevalarni tanlash C vitamini, karotinoidlar, kaliy, folat va polifenollar bilan ta’minlaydi. Qizil pomidor, to‘q yashil ko‘kat, sabzi, qovoq, olma, rezavorlar va sitrus mevalar ratsionni boyitadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Butun don mahsulotlari. Suli, grechka, jigarrang guruch, arpa va butun donli non murakkab uglevod, tola va B guruhi vitaminlari manbaidir. Ular mashg‘ulot uchun energiya beradi va yurak-qon tomir salomatligini qo‘llab-quvvatlaydigan ovqatlanish uslubining bir qismidir. Sifatli oqsil. Baliq, tuxum, sut-qatiq mahsulotlari, yog‘siz go‘sht, loviya, no‘xat va yasmiq mushaklarning tiklanishi uchun zarur aminokislotalarni beradi. Yog‘li baliq omega-3 yog‘ kislotalariga boy.

Foydali yog‘lar. Yong‘oq, bodom, urug‘lar va zaytun yoki boshqa o‘simlik moylari to‘yinmagan yog‘ kislotalari hamda E vitamini bilan ta’minlaydi. Ularni me’yorida iste’mol qilish kerak, chunki yog‘lar energiyaga boy. Tuz va qayta ishlangan mahsulotlar. Tuzni me’yorida ishlatish, juda sho‘r gazaklar, kolbasa mahsulotlari, trans-yog‘lar va ko‘p shakarli ichimliklarni cheklash maqsadga muvofiq. Biroq sportchida natriy yo‘qotilishi ko‘p bo‘ladigan uzoq mashqlarda tuzga ehtiyoj individual baholanadi.

Tabiiy kardioprotektiv mahsulotlar jadvali

3-jadval

Mahsulot	**Asosiy foydali tarkib**	**Sportchi ratsionida qo‘llash**
Yog‘li baliq	EPA va DHA omega-3	Haftasiga 1–2 marta, allergiya va tibbiy cheklovlarni hisobga olib
Lavlagi	Nitratlar, folat	Mashqdan oldingi ratsionga ovqat sifatida; bosim dorilari bilan ehtiyotkorlik
Anor va rezavorlar	Polifenollar, antosianinlar	Meva yoki shakarsiz ichimlik ko‘rinishida
Yong‘oq va urug‘lar	To‘yinmagan yog‘lar, E vitamini	Kichik porsiyada, energiya ehtiyojiga mos
Ko‘kat va karam	C vitamini, folat, karotinoidlar	Har kuni turli taomlar tarkibida

Suli va grechka	Tola, magniy, murakkab uglevod	Nonushta yoki asosiy ovqat tarkibida

Lavlagi sharbati yoki boshqa konsentratlar hamma sportchiga bir xil ta'sir qilmaydi. Qon bosimi past bo'lgan, dori qabul qiladigan yoki buyrak kasalligi bor sportchi bunday mahsulotlarni muntazam ko'p miqdorda iste'mol qilishdan oldin shifokor bilan maslahatlashishi lozim.

Kardioproteksiya faqat ovqatlanish bilan cheklanmaydi. Mashg'ulot yuklamasi, dam olish, uyqu va iqlim sharoiti yurak faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuklama sportchining tayyorgarlik darajasiga mos ravishda bosqichma-bosqich oshirilishi kerak. Keskin ravishda mashg'ulot hajmi yoki jadalligini ko'paytirish ortiqcha charchash va jarohatlanish xavfini oshiradi.

Suv tana haroratini boshqarish, qon hajmini saqlash va oziq moddalarni tashish uchun zarur. Ter bilan suv bilan birga natriy va boshqa elektrolitlar ham yo'qotiladi. Mashqdan oldin chanqoq va siydik rangiga e'tibor berish, mashq davomida sharoit va terlash darajasiga mos ichish, mashqdan keyin yo'qotilgan suyuqlikni asta-sekin tiklash kerak. Uzoq davom etadigan, issiq sharoitdagi yoki ko'p terlash bilan kechadigan mashqlarda elektrolitli ichimlik talab qilinishi mumkin.

Suvni majburan haddan tashqari ko'p ichish ham xavfli: bu qondagi natriy miqdorini suyultirib, mashq bilan bog'liq giponatriyemiyaga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ichimlik rejasi sport turi, davomiylik, ob-havo, terlash tezligi va sportchining individual xususiyatlariga moslashtiriladi.

Uyqu vaqtida asab, gormonal va immun tizimlar tiklanadi. Uyqu yetishmasligi yurak urishining tinch holatdagi ko'rsatkichlariga, kayfiyatga, diqqatga va mashq sifatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Sportchi muntazam uyqu vaqtini saqlashi, kechki payt kofein va energetik ichimliklarni cheklashi, og'ir mashg'ulotlardan keyin tiklanish uchun yetarli vaqt ajratishi lozim.

Amaliy kunlik profilaktika rejasi

4-jadval

Vaqt	**Tavsiya etiladigan odat**
Ertalab	Uyqu sifati, umumiy holat va tinch holatdagi pulsni kuzatish; muvozanatli nonushta
Mashqdan oldin	Yengil hazm bo‘ladigan ovqat, suyuqlik; qizish mashqlarini bajarish
Mashq vaqtida	Yuklama va tana belgilarini nazorat qilish; zaruratga ko‘ra suv/elektrolit
Mashqdan keyin	Suyuqlikni tiklash, oqsil va uglevodli ovqat, sovush mashqlari
Kechqurun	To‘yimli kechki ovqat, ekran va kofeinni kamaytirish, yetarli uyqu

Tabiiy mahsulotlar foydali bo‘lishi mumkin, ammo ular yurak kasalligini davolamaydi va shifokor tavsiyasini almashtirmaydi. Sportchi yurak urishidagi yangi o‘zgarishlar, ko‘krak og‘rig‘i, hushdan ketish, sababsiz nafas qisishi yoki mashq natijasining keskin pasayishini sezsa, tibbiy ko‘rikdan o‘tishi zarur. Oilada yoshligida to‘satdan yurakdan vafot etish holatlari bo‘lganida ham sport shifokori bilan maslahatlashish muhim.

C va E vitaminlari, polifenollar hamda boshqa antioksidantlar organizm uchun muhim. Biroq yuqori dozali antioksidant qo‘shimchalarni uzoq muddat qabul qilish mashqqa moslashish jarayonidagi foydali oksidlovchi signallarni susaytirishi mumkin. Shu sababli birinchi tanlov — sabzavot, meva, butun don, yong‘oq, urug‘ va baliqqa boy ratsion. Qo‘shimcha faqat aniqlangan yetishmovchilik, ovqatlanishdagi kamchilik yoki mutaxassis belgilagan alohida ehtiyoj bo‘lsa ko‘rib chiqiladi [1].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

«Tabiiy» degani har doim xavfsiz degani emas. O‘simlik ekstraktlari va konsentratlar dorilar bilan o‘zaro ta’sirga kirishishi, qon bosimi yoki qon ivishiga ta’sir qilishi mumkin. Sportchi har qanday qo‘shimchani qabul qilishdan oldin shifokor yoki sport dietologi bilan maslahatlashishi, mahsulotning tarkibi va sifat nazoratini tekshirishi kerak.

Sportchilar uchun asosiy profilaktik tavsiyalar

✓ Yuklama hajmi va jadalligini tayyorgarlik darajasiga mos ravishda bosqichma-bosqich oshirish.

✓ Isitma, virusli infeksiya, ko‘krak og‘rig‘i yoki kuchli holsizlik paytida mashq qilmaslik.

✓ Har kuni rang-barang sabzavot va mevalar, butun don, sifatli oqsil va foydali yog‘larni iste’mol qilish.

✓ Uzoq va issiq sharoitdagi mashqlarda suyuqlik hamda elektrolit yo‘qotilishini hisobga olish.

✓ Uyqu va dam olishni mashg‘ulot rejasining majburiy qismi deb bilish.

✓ Yurak-qon tomir xavf omillari va shubhali simptomlar bo‘lsa, tibbiy tekshiruvdan o‘tish.

✓ Vitamin va antioksidantlarni yuqori dozada o‘zboshimchalik bilan qabul qilmaslik.

XULOSA

Sportchilarda jismoniy zo‘riqish bilan bog‘liq yurak-qon tomir va oksidlovchi stress xavflarining oldini olish kompleks yondashuvni talab qiladi. Me’yorlangan mashg‘ulot, yetarli tiklanish, sifatli uyqu, suyuqlik-elektrolit muvozanati va turli tabiiy oziq-ovqatlarga boy ratsion yurak faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning asosiy omillaridir. Antioksidantlar organizm himoyasida muhim o‘rin tutadi, biroq ularning eng maqbul manbai — odatiy ovqatlanishdir. Yuqori dozali qo‘shimchalar esa har doim ham foyda bermaydi va ayrim holatlarda mashqqa moslashishni susaytirishi mumkin. Eng to‘g‘ri

yo'l — sportchining yoshi, jinsi, sport turi, yuklama hajmi, sog'lig'i va laborator tekshiruvlariga mos individual profilaktika rejasini tuzish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. International Society of Sports Nutrition. International Society of Sports Nutrition position stand: effects of dietary antioxidants on exercise and sports performance. Journal of the International Society of Sports Nutrition. 2026;23(1):2629828. doi:10.1080/15502783.2026.2629828.
2. Roberts W.O. et al. ACSM Expert Consensus Statement on Exertional Heat Illness: Recognition, Management, and Return to Activity. Current Sports Medicine Reports. 2023;22(4):134–149. doi:10.1249/JSR.0000000000001058.
3. Thomas D.T., Erdman K.A., Burke L.M. Nutrition and Athletic Performance. Journal of the Academy of Nutrition and Dietetics. 2016;116(3):501–528. doi:10.1016/j.jand.2015.12.006.
4. Mountjoy M. et al. 2023 International Olympic Committee's consensus statement on Relative Energy Deficiency in Sport (REDs). British Journal of Sports Medicine. 2023;57:1073–1097.
5. World Health Organization. Healthy diet. WHO fact sheet. Ovqatlanish va yurak-qon tomir salomatligi bo'yicha umumiy tavsiyalar.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ УСЛУГАМИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Акрамова Нозима Акрамовна,
PhD, независимый соискатель университета Oriental, консультант по вопросам лицензирования и академического развития «Academic Development Group»

Аннотация. *В статье рассматриваются методологические подходы к управлению образовательными услугами высшего образования в условиях цифровой трансформации. Цель исследования: обосновать комплексный подход к управлению образовательными услугами на основе интеграции образовательных, информационных и организационных процессов университета. Методологическую основу составили системный подход, сравнительный и структурно-функциональный анализ научной литературы. В результате исследования разграничены понятия цифровизации отдельных функций и цифровой трансформации управления образовательными услугами. Предложен авторский методологический подход, объединяющий четыре взаимосвязанных компонента: образовательный, информационно-аналитический, организационно-управленческий и экосистемный. Определено значение образовательных данных для персонализации обучения, поддержки управленческих решений и совершенствования взаимодействия университета с внешней средой. Обосновано, что цифровая трансформация предполагает не только внедрение технологий, но и изменение взаимосвязей между образовательными и управленческими процессами. Предложенный подход формирует теоретическую основу для совершенствования системы управления образовательными услугами и разработки стратегии цифрового развития университетов.*

Ключевые слова: *цифровая трансформация, высшее образование, образовательные услуги, методологический подход, управление образованием, образовательные данные, цифровая образовательная среда, экосистемный подход.*

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Akramova Nozima Akramovna
PhD, Oriental universiteti mustaqil izlanuvchisi, «Academic Development Group»ning litsenziyalash va akademik rivojlanish masalalari bo'yicha maslahatchisi

Annotatsiya. *Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim xizmatlarini boshqarishning metodologik yondashuvlari tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi universitetning ta'lim, axborot va*

tashkiliy jarayonlarini integratsiyalash asosida ta'lim xizmatlarini boshqarishga kompleks yondashuvni ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, ilmiy adabiyotlarning qiyosiy va tarkibiy-funksional tahlili tashkil etadi. Tadqiqot natijasida alohida funksiyalarni raqamlashtirish va ta'lim xizmatlarini boshqarishning raqamli transformatsiyasi o'rtasidagi farqlar aniqlashtirilgan. Ta'lim, axborot-tahliliy, tashkiliy-boshqaruv va ekotizimli komponentlarni birlashtiruvchi mualliflik metodologik yondashuvi taklif etilgan. Ta'lim ma'lumotlarining o'qitishni individuallashtirish, boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash va universitetning tashqi muhit bilan hamkorligini takomillashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Raqamli transformatsiya nafaqat texnologiyalarni joriy etishni, balki ta'lim va boshqaruv jarayonlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zgartirishni ham nazarda tutishi asoslangan. Taklif etilgan yondashuv oliy ta'lim xizmatlarini boshqarish tizimini takomillashtirish va universitetlarning raqamli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *raqamli transformatsiya, oliy ta'lim, ta'lim xizmatlari, metodologik yondashuv, ta'limni boshqarish, ta'lim ma'lumotlari, raqamli ta'lim muhiti, ekotizimli yondashuv.*

METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION SERVICES IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION

Akramova Nozima Akramovna,
PhD, Independent Researcher at Oriental University, Consultant for Licensing and Academic Development at Academic Development Group

Abstract. *This article examines methodological approaches to managing higher education services in the context of digital transformation. The study aims to substantiate an integrated approach to educational service management based on the interconnection of educational, informational, and organizational processes within universities. The research methodology is based on a systems approach, comparative analysis, and structural-functional analysis of academic literature. The study distinguishes between the digitalization of individual university functions and the digital transformation of educational service management. An original methodological framework comprising four interconnected components educational, information-analytical, organizational-managerial, and ecosystem-orientedis proposed. The role of educational data in personalized learning, management decision support, and university engagement with external stakeholders is examined. The findings suggest that digital transformation involves not merely the adoption of technologies but also changes in the relationships between educational and managerial processes. The proposed framework provides a theoretical foundation for improving educational service management and developing institutional digital transformation strategies.*

Keywords: *digital transformation, higher education, educational services, methodological framework, educational management, educational data, digital learning environment, ecosystem approach.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ВВЕДЕНИЕ

Цифровые технологии уже стали частью повседневной работы университетов. Электронные образовательные платформы, дистанционные форматы, цифровые сервисы, системы управления данными используются и в обучении, и в административной деятельности. Однако само наличие этих инструментов еще мало говорит о глубине произошедших изменений. Университет может быть хорошо оснащен технологически и при этом сохранять прежнюю модель организации образовательного процесса и управления им.

Именно здесь, на наш взгляд, проходит важная граница между цифровизацией отдельных функций и цифровой трансформацией. В первом случае технология упрощает или автоматизирует уже существующий процесс. Во втором меняется сам способ его организации: иначе используются данные, принимаются управленческие решения, выстраивается взаимодействие со студентом, преподавателем и внешними участниками образовательного процесса. Для управления услугами высшего образования это различие имеет принципиальное значение.

В научной литературе цифровая трансформация высшего образования рассматривается с разных позиций. Значительная часть исследований сосредоточена непосредственно на образовательном процессе. L. A. Leiva, M. Matera и J. Schöning связывают развитие цифровой среды с расширением доступа к образовательным ресурсам и новыми формами взаимодействия человека с цифровыми системами [1; 2]. S. M. Yahodzynskyi и O. S. Karpliuk делают другой акцент а именно на индивидуализации обучения и возможности построения более гибких образовательных программ [4; 5].

Эти направления тесно связаны, хотя речь идет не об одном и том же. Доступность цифрового контента сама по себе еще не обеспечивает индивидуального характера обучения. Для этого университету необходимо

понимать, как студент осваивает материал, где возникают затруднения и насколько выбранный формат соответствует его образовательной траектории. Поэтому нам представляется более продуктивным рассматривать цифровые технологии не только с позиции предоставления образовательного контента, но и с точки зрения тех данных, которые возникают в процессе обучения и могут использоваться для его последующей корректировки.

O. V. Sklyarenko, S. M. Yahodzynskyi, O. Y. Nikolayevskyi и A. V. Nevzorov связывают применение цифровых интерактивных технологий с развитием критического мышления и изменением способов работы студентов с учебным материалом [6]. O. O. Khomenko, M. V. Paustovska и I. A. Onyshchuk обращают внимание на вовлеченность обучающихся и формирование компетенций, необходимых для дальнейшей профессиональной деятельности [7]. В этих исследованиях хорошо прослеживается изменение самого образовательного процесса. Однако для университета остается другой вопрос: каким образом подобные изменения должны быть включены в систему управления образовательными услугами?

Этот вопрос изучен значительно слабее.

Стратегический аспект представлен, в частности, в работе «Strategic Management Models for Digital Universities in the New Economy», где цифровое развитие связывается с управленческой моделью университета, его инновационным потенциалом и способностью адаптироваться к изменяющимся условиям [8]. С такой постановкой вопроса мы в целом согласны. Вместе с тем стратегического уровня недостаточно, если цифровые изменения остаются разрозненными внутри самого университета. Образовательная платформа может развиваться отдельно от системы управления данными, административные сервисы отдельно от образовательного процесса, а взаимодействие с

работодателями и другими организациями практически не затрагивать цифровую среду вуза.

В этом и состоит, на наш взгляд, один из нерешенных вопросов. В литературе достаточно подробно представлены отдельные стороны цифровой трансформации цифровое обучение, интерактивные технологии, персонализация, стратегическое управление. Значительно реже они рассматриваются как части одной системы управления услугами высшего образования. Между тем именно их несогласованность может ограничивать эффект цифровых изменений даже при достаточно развитой технологической инфраструктуре университета.

Поэтому в данной работе цифровая трансформация рассматривается не как расширение набора используемых университетом технологий, а как изменение связей между образовательным процессом, данными, внутренними управленческими механизмами и внешней средой вуза.

Цель исследования обосновать методологический подход к управлению услугами высшего образования в условиях цифровой трансформации на основе анализа изменений образовательных и управленческих процессов, определить его основные компоненты и характер их взаимосвязи в цифровой среде университета.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Исследование носило теоретико-аналитический характер. В качестве исходного материала использованы научные публикации, в которых рассматриваются цифровая трансформация высшего образования, организация цифрового обучения, управление университетом и работа с образовательными данными [1–16]. При анализе литературы нас интересовало прежде всего то, какие изменения происходят в управлении образовательными услугами при переходе от использования отдельных цифровых инструментов к более целостной цифровой среде университета.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Материалы сопоставлялись по содержанию и той роли, которую цифровые решения выполняют в деятельности вуза. В результате удалось выделить несколько устойчиво повторяющихся направлений: изменения непосредственно в образовательном процессе, использование данных для анализа и принятия решений, перестройка внутренних управленческих процессов и расширение цифрового взаимодействия университета с внешней средой. Отдельно рассматривался вопрос о том, где заканчивается обычная цифровизация существующих функций и начинается изменение самой модели управления.

Полученные положения были систематизированы с использованием сравнительного и структурно-функционального анализа. Их последующее обобщение проводилось с позиции системного подхода, поскольку рассматривать образовательные, информационные и управленческие изменения отдельно друг от друга в данном случае представляется недостаточным. Такое сопоставление стало основой для выделения четырех взаимосвязанных компонентов управления услугами высшего образования: образовательного, информационно-аналитического, организационно-управленческого и экосистемного.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Проведенный анализ позволил установить, что в условиях цифровой трансформации управление услугами высшего образования выходит за рамки традиционной организации учебного процесса и приобретает системный характер. Определены четыре взаимосвязанных направления его изменения: управление образовательным процессом, управление образовательными данными, цифровизация организационно-управленческих процессов и взаимодействие университета с внешней образовательной и инновационной средой.

В управлении образовательным процессом установлено смещение от унифицированной модели предоставления образовательных услуг к более гибкой организации обучения. Ее основными характеристиками являются сочетание



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

очных и цифровых форм, расширение дистанционного доступа к образовательным ресурсам, возможность формирования индивидуальной образовательной траектории и оперативная корректировка содержания обучения.

Второе направление связано с использованием образовательных данных. Цифровой след студента, результаты текущего контроля, динамика успеваемости, характер работы с учебными материалами и другие данные формируют информационную основу для мониторинга образовательного процесса, выявления академических затруднений и поддержки управленческих решений.

В организационно-управленческом направлении определены автоматизация административных процессов, развитие электронных сервисов по принципу «единого окна», интеграция информационных систем и использование больших массивов данных. Установлено, что отдельное внедрение таких инструментов представляет собой цифровизацию отдельных функций, тогда как цифровая трансформация предполагает изменение самой модели управления образовательными услугами.

Четвертое направление охватывает взаимодействие университета с внешней средой. Цифровые технологии расширяют возможности сотрудничества с другими университетами, научными организациями, предприятиями, инновационной инфраструктурой и рынком труда, формируя более открытую модель предоставления и развития образовательных услуг.

На основе полученных результатов сформирован методологический подход к управлению услугами высшего образования в условиях цифровой трансформации, основанный на взаимосвязи четырех компонентов: образовательного, информационно-аналитического, организационно-управленческого и экосистемного. В отличие от фрагментарного внедрения отдельных цифровых решений, данный подход предусматривает их интеграцию в единую систему

управления образовательными услугами и включение цифровых изменений в стратегию развития университета (рис. 1).



Рисунок 1. Методологический подход к управлению услугами высшего образования в условиях цифровой трансформации

ОБСУЖДЕНИЕ

Полученные результаты несколько меняют привычный взгляд на цифровизацию высшего образования. Вопрос, на наш взгляд, уже не сводится к тому, сколько цифровых решений использует университет и насколько современна его техническая инфраструктура. Более существенным становится другое: меняется ли под влиянием этих решений само управление образовательными услугами. Проведенный анализ показал, что такие изменения затрагивают сразу несколько связанных между собой областей — организацию обучения, работу с образовательными данными, внутренние управленческие процессы и взаимодействие университета с внешней средой.

Это различие представляется принципиальным. Университет может использовать электронную образовательную платформу, цифровой документооборот, онлайн-курсы, системы прокторинга и при этом в основном

сохранять прежнюю организацию работы. В таком случае правильнее говорить о цифровизации отдельных процессов. Цифровая трансформация начинается там, где меняется не носитель информации, а способ организации образовательной услуги и принятия решений.

Подобное понимание согласуется с исследованиями, в которых цифровой университет рассматривается уже не как совокупность отдельных технологий, а как более сложная организационная система [8]. Вместе с тем полученные нами результаты позволяют расширить этот тезис применительно именно к управлению образовательными услугами. Технологическая оснащенность здесь выступает только одним из условий. Если цифровые решения существуют независимо друг от друга и не связаны с образовательными и управленческими задачами, их количество мало говорит о глубине произошедших изменений.

Особенно отчетливо это видно на уровне образовательного процесса. L. A. Leiva, M. Matera и J. Schöning связывают возможности цифровых и интерактивных технологий с расширением доступа к образовательным материалам и изменением взаимодействия пользователя с цифровой средой [1; 2]. S. M. Yahodzynskyi и O. S. Karpliuk обращают внимание на индивидуализацию обучения [4; 5]. Эти положения подтверждаются и результатами нашего анализа, однако здесь мы видим еще один аспект. Персонализация становится управляемой только тогда, когда университет располагает информацией о том, как именно учится конкретный студент. Без этого индивидуальная образовательная траектория во многом остается заданной заранее конструкцией студенту предлагают выбор, но сама система практически не реагирует на изменение его результатов.

Работа с образовательными данными эту ситуацию меняет. Результаты текущего контроля, темп выполнения заданий, повторные обращения к материалам, динамика успеваемости и другие элементы цифрового следа позволяют увидеть учебный процесс не только в его конечной точке. Итоговая



оценка показывает результат. Цифровой след, при грамотной работе с ним, дает возможность увидеть путь к этому результату. Для управления образовательной услугой это существенно, поскольку появляется возможность реагировать не после возникновения академической задолженности, а раньше.

Именно здесь информационно-аналитический компонент предложенного подхода приобретает самостоятельное значение. Мы считаем, что образовательные данные не следует воспринимать только как технический продукт цифровой платформы. Это управленческий ресурс. На их основе можно выявлять устойчивые затруднения, корректировать отдельные элементы образовательной траектории, предлагать дополнительные материалы и принимать решения о необходимой поддержке студента.

Однако возможности цифрового следа легко переоценить. Накопление большого объема данных само по себе еще ничего не улучшает.

Чем подробнее университет фиксирует действия обучающегося, тем острее становится вопрос о том, какие именно сведения действительно необходимы для управления качеством образования. Не вся цифровая активность одинаково информативна. Кроме того, прогноз, сформированный на основе предыдущего поведения студента, не должен превращаться в заранее присвоенную ему характеристику. Поэтому использование образовательной аналитики требует не только технической инфраструктуры, но и понятных правил работы с данными: целей их сбора, доступа, интерпретации и последующего применения.

Похожая осторожность необходима и при использовании искусственного интеллекта. Его возможности в обработке больших массивов информации делают такие системы полезными для образовательной аналитики и поддержки решений. Но именно для поддержки, а не для безусловной передачи решения алгоритму. Особенно когда речь идет об оценивании студента, изменении его образовательной траектории или прогнозировании академических результатов. На наш взгляд,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

управленческая ценность искусственного интеллекта в университете определяется не степенью автономности системы, а тем, насколько она помогает преподавателю и администрации увидеть то, что трудно обнаружить при обычной обработке данных.

Отдельного внимания требует организационно-управленческий компонент. Электронные сервисы по принципу «единого окна», интеграция информационных систем, автоматизация административных процедур действительно сокращают число разрозненных операций. Но для студента цифровая образовательная услуга должна восприниматься как единый процесс. Если обучение находится в одной системе, расписание — в другой, административные услуги — в третьей, а получение необходимой информации по-прежнему требует обращения в несколько подразделений, цифровизация состоялась технически, но не организационно.

Поэтому в предложенном нами подходе интеграция рассматривается не как чисто техническая задача. Она затрагивает распределение функций между подразделениями, движение информации и сам порядок принятия решений. В этом отношении полученные результаты близки к позиции авторов, рассматривающих стратегическое управление как одно из условий развития цифрового университета [8]. Различие состоит в акценте: для управления образовательными услугами важна не просто общая цифровая стратегия вуза, а согласованность конкретных процессов, с которыми сталкиваются студент, преподаватель и администрация.

Есть еще одно изменение, которое трудно считать второстепенным. Цифровая среда постепенно выводит образовательную услугу за физические границы университета.

Распространение дистанционного обучения, цифровых платформ и онлайн-контроля уменьшило зависимость части образовательного процесса от

местонахождения студента [12–14]. Это не означает, что география потеряла значение. Для программ, предполагающих лабораторную, клиническую или другую практическую подготовку, физическая инфраструктура остается необходимой. Но для значительной части теоретического обучения расстояние уже не является тем ограничением, каким оно было раньше.

Отсюда меняется и положение самого университета. Он взаимодействует не только со своими студентами и преподавателями. На образовательную услугу начинают непосредственно влиять связи с другими вузами, научными организациями, работодателями, профессиональной средой и инновационной инфраструктурой. Возможность совместной исследовательской работы и использования общих цифровых ресурсов независимо от организационной и территориальной принадлежности участников отмечается и в других исследованиях [15; 16].

Именно поэтому четвертый компонент предложенного нами методологического подхода определен как экосистемный. На наш взгляд, его нельзя заменить просто понятием «внешние связи университета». Разница в том, что речь идет не о периодическом сотрудничестве с работодателем или другой образовательной организацией, а о включении внешних участников в процессы формирования, обновления и реализации образовательной услуги. Требования рынка труда могут влиять на содержание программы, профессиональная среда — на набор формируемых компетенций, другие университеты и научные организации — на доступные студентам образовательные и исследовательские ресурсы.

В этом месте четыре выделенных компонента фактически сходятся. Индивидуальная образовательная траектория невозможна без данных. Данные малоценны, если они не используются в управленческих решениях. Внутренние

цифровые процессы дают ограниченный эффект, если университет остается закрытой системой и слабо реагирует на изменения внешней среды.

Поэтому полученный результат мы не рассматриваем как перечень четырех самостоятельных направлений цифровизации. Смысл предложенного методологического подхода заключается именно в их взаимосвязи. Образовательный компонент определяет, что и каким образом получает студент; информационно-аналитический дает основание для корректировки процесса; организационно-управленческий обеспечивает реализацию принятых решений; экосистемный связывает образовательную услугу с изменениями за пределами самого университета.

В этом, на наш взгляд, и проходит содержательная граница между цифровизацией и цифровой трансформацией управления услугами высшего образования. Первая может происходить фрагментарно — через внедрение отдельных платформ и сервисов. Вторая требует изменения связей между процессами. Поэтому зрелость цифровой среды университета целесообразно оценивать не только по наличию технологий, но и по тому, насколько образовательные данные, управленческие решения, организация обучения и внешние взаимодействия работают как части одной системы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведенное исследование позволило разграничить цифровизацию отдельных функций университета и цифровую трансформацию управления образовательными услугами. Использование электронных платформ, дистанционных технологий, цифрового документооборота и аналитических систем относится к цифровизации отдельных процессов. Трансформация предполагает изменение самой модели управления, при которой образовательные процессы, данные, управленческие решения и взаимодействие с внешней средой объединяются в единую систему.

По результатам исследования обоснован методологический подход, включающий четыре компонента: образовательный, информационно-аналитический, организационно-управленческий и экосистемный. Образовательный компонент связан с организацией и персонализацией обучения; информационно-аналитический — со сбором и использованием образовательных данных; организационно-управленческий — с интеграцией цифровых решений во внутренние процессы вуза; экосистемный — с взаимодействием университета с образовательными и научными организациями, работодателями и инновационной средой.

Установлено, что результативность цифровой трансформации зависит от согласованного развития всех четырех компонентов. Их разрозненное внедрение приводит к фрагментарности: информационные системы не образуют единой среды, накопленные данные не всегда используются при принятии решений, а цифровое обновление образовательных процессов может происходить без достаточной связи с запросами внешней среды.

Отдельное значение имеет работа с образовательными данными. Цифровой след позволяет выявлять изменения в учебной активности студента, обнаруживать затруднения до итогового контроля и использовать полученную информацию при корректировке образовательной траектории. При этом применение таких данных требует четкого определения целей их сбора, порядка использования и границ применения алгоритмических прогнозов.

Полученные результаты показывают, что дальнейшее развитие цифрового университета связано не с увеличением числа используемых технологий как таковых. Основной задачей становится их интеграция в управление образовательными услугами. Для этого необходимы согласованная работа с данными, организационная взаимосвязь цифровых процессов и включение цифровой трансформации в стратегию развития университета.

В результате предложенный методологический подход позволяет рассматривать цифровую трансформацию не как набор самостоятельных технологических решений, а как изменение системы управления услугами высшего образования, в которой четыре выделенных компонента выполняют разные функции, но работают во взаимосвязи.

Список использованной литературы:

1. Leiva, L. A., Matera, M., & Schöning, J. (2023). PACMHCI V7, MHCI, September 2023 Editorial. Proceedings of the ACM on Human-Computer Interaction, 7(MHCI), Article No. 191, 1–2. https://doi.org/10.1145/3604238
2. Komninos, A., Santoro, C., Gavalas, D., Schöning, J., Matera, M., & Leiva, L. A. (2023). Proceedings of the 25th International Conference on Mobile Human-Computer Interaction, Companion, MobileHCI 2023, Athens, Greece.
3. Soroko, D., Savino, G. L., & Gray, N. (2018). How can AI earn trust of system administrators in the IT-security domain? Conference acronym XX, Woodstock, NY.
4. Yahodzynskyi, S. M. (2015). Global information networks in socio-cultural perspective: Monograph. Kyiv: Ahrar Media Hrup.
5. Karpliuk, S. O. (2019). Features of digitalization of the educational process in higher education. In Information and digital educational space of Ukraine: Transformational processes and development prospects (pp. 188–197). Materials of the methodological seminar of the National Academy of Pedagogical Sciences of Ukraine.
6. Sklyarenko, O. V., Yahodzynskyi, S. M., Nikolayevskyi, O. Y., & Nevzorov, A. V. (2024). Digital interactive technologies of learning as an integral part of the modern educational process. Innovative Pedagogy, no. 68 (2), pp. 51–55. DOI: https://doi.org/10.32782/2663-6085/2024/68.2.51
7. Khomenko, O. O., Paustovska, M. V., & Onyshchuk, I. A. (2024). The impact of interactive technologies on the learning process and the development of higher education applicants. Scientific Innovations and Advanced Technologies, no. 5(33), pp. 1222–1231. DOI: https://doi.org/10.52058/2786-5274-2024-5(33)-1222-1231
8. Bobro, N. (2024). Strategic management models for digital universities in the new economy. International Journal of Economics and Business Administration, no. 12(3), pp. 3–11. DOI: https://doi.org/10.35808/ijeba/850
9. Dushchenko, O. (2021). The current state of digital transformation in education. Physics and Mathematics Education, no. 28(2), pp. 40–45. DOI: https://doi.org/10.31110/2413-1571-2021-028-2-007 (accessed December 1, 2024).
8. G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 64 b.
9. G‘ulomov A.Q. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 68 b.
10. Sultanova A. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy metodlardan foydalanish // Science and Society. – 2025. – 8-son, 2-qism. – B. 51–53.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVNING DIDAKTIK ASOSLARI

Xazratkulova Shoira Noraliyevna
Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
shoiraxazratkulova@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda Tarbiya darslarini tashkil etishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning didaktik asoslari yoritiladi. O'quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va hayotiy tajribasini hisobga olishning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida individuallashtirish, mustaqil fikrlash, hamkorlik, hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va refleksiyani qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada Tarbiya darslarini o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishga doir metodik tavsiyalar taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, boshlang'ich ta'lim, Tarbiya fani, didaktik tamoyillar, individuallashtirish, mustaqil fikrlash, refleksiya, tarbiyaviy metodika.*

DIDACTIC FOUNDATIONS OF A PERSON-CENTERED APPROACH IN ORGANIZING CHARACTER EDUCATION LESSONS IN PRIMARY GRADES

Abstract*. This article highlights the didactic foundations of a student-centered approach to organizing Upbringing lessons in primary grades. The pedagogical significance of considering students' individual characteristics, interests, needs, and life experience is analyzed. The possibilities of individualization, independent thinking, cooperation, analysis of life situations, and the application of reflection in the educational process are also considered. The article offers methodological recommendations for organizing upbringing lessons in a student-centered manner.*

Keywords: *student-centered education, primary education, science of upbringing, didactic principles, individualization, independent thinking, reflection, educational methodology.*

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА В ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ПО ВОСПИТАНИЮ ХАРАКТЕРА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация*. В данной статье освещаются дидактические основы личностно-ориентированного подхода к организации уроков воспитания в начальных классах. Анализируется педагогическая значимость учета индивидуальных особенностей, интересов, потребностей и жизненного опыта учащихся. Также рассматриваются возможности индивидуализации, самостоятельного мышления, сотрудничества, анализа жизненных ситуаций и применения*

рефлексии в образовательном процессе. В статье предлагаются методические рекомендации по организации уроков воспитания, ориентированных на личность учащегося.

***Ключевые слова**: личностно-ориентированное образование, начальное образование, наука воспитания, дидактические принципы, индивидуализация, самостоятельное мышление, рефлексия, воспитательная методика.*

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda, ularning ma’naviy-axloqiy rivojlanishini ta’minlash, mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy munosabatlarda mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning shaxsiy sifatlari, qadriyatlarga munosabati, muloqot madaniyati va ijtimoiy xulq-atvoriga oid dastlabki tasavvurlari shakllanadigan muhim davrdir.

“Tarbiya” darslarida halollik, hurmat, mas’uliyat, do‘stlik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik va vatanparvarlik kabi tushunchalarni o‘rgatishda barcha o‘quvchilarga bir xil yondashish har doim ham kutilgan natijani bermaydi. O‘quvchilarning oilaviy muhiti, qiziqishlari, hissiy tajribasi va mavzuni tushunish darajasi turlicha bo‘lishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv “Tarbiya” darslarini tashkil etishning muhim metodologik va didaktik yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonida o‘quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olishni, uni ta’limiy faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida e’tirof etishni nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar belgilangan bo‘lib, ushbu huquqiy asos ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘quvchi manfaatlari va ta’lim sifatiga e’tibor qaratish uchun muhim ahamiyatga ega [1]. Mazkur talablarni Tarbiya fanining mazmuni va vazifalari bilan uyg‘unlashtirish o‘qituvchidan metodik jihatdan asoslangan yondashuvni talab etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari psixologik xususiyatlari, hayotiy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tajribasi, qiziqishlari va ijtimoiy muhitiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Barcha o‘quvchilarga bir xil usulda murojaat qilish, faqat tushuntirish va tayyor xulosalarni yod oldirishga asoslangan darslar ularning mustaqil fikrlashi hamda shaxsiy tajribasini yetarli darajada faollashtirmasligi mumkin. Shu bois tarbiyaviy ta’lim mazmunini o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirish, ularning faol ishtiroki va fikr bildirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning nazariy asoslari pedagogika va psixologiya fanlarida ishlab chiqilgan insonparvarlik, faoliyatga asoslangan ta’lim, ijtimoiy o‘zaro ta’sir va individual rivojlanish haqidagi qarashlar bilan chambarchas bog‘liq.

Amerikalik psixolog va pedagog Karl Rojersning ta’limga oid qarashlarida o‘quvchining shaxsiy tajribasi, ichki motivatsiyasi, mustaqilligi va rivojlanishi uchun qulay ta’limiy muhit yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Uning Freedom to Learn asarida o‘quvchini faol o‘rganuvchi sifatida qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ishonchli munosabat o‘rnatish hamda mazmunli o‘rganishga sharoit yaratish g‘oyalari yoritilgan [2]. Ushbu qarashlar “Tarbiya” darslarida o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin ifodalashi, axloqiy vaziyatlarga nisbatan munosabat bildirishi va o‘z tajribasini ta’lim jarayoniga olib kirishi uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Jon Dyui ta’limni tajriba va faoliyat bilan bog‘liq jarayon sifatida talqin etadi. Uning Experience and Education asarida ta’limiy tajribaning sifati, o‘quvchining faol ishtiroki va o‘rganish jarayonining hayot bilan aloqadorligi muhim o‘rin tutadi [3]. Ushbu yondashuv nuqtayi nazaridan, Tarbiya darslarida axloqiy tushunchalarni faqat nazariy bayon qilish bilan cheklanmasdan, ularni kundalik hayotdagi vaziyatlar, o‘zaro munosabatlar va amaliy faoliyat bilan bog‘lash maqsadga muvofiq.

Lev Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi bolaning bilish va rivojlanish jarayonida ijtimoiy muhit, muloqot hamda kattalar va tengdoshlar bilan hamkorlikning ahamiyatini asoslaydi [4]. Bu qarashlar Tarbiya darslarida juftlikda



ishlash, guruhli muhokama, o‘zaro yordam va o‘qituvchining yo‘naltiruvchi ko‘magidan foydalanishning nazariy asoslarini tushuntirish imkonini beradi.

K.E. Tomlinson tomonidan ishlab chiqilgan differensial ta’limga oid qarashlarda o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, qiziqishlari va ta’limiy ehtiyojlarini hisobga olish muhim hisoblanadi [5]. Mazkur qarashlarni Tarbiya darslariga tatbiq etish orqali topshiriqlarni o‘quvchilarning imkoniyatlariga moslashtirish, turli faoliyat shakllarini taklif qilish va o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ishtirok etishiga sharoit yaratish mumkin.

METODOLOGIYA

Tahlil qilingan nazariy manbalar shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning bir nechta o‘zaro bog‘liq jihatlarini ko‘rsatadi: o‘quvchi shaxsini hurmat qilish, uning tajribasiga tayanish, faoliyat orqali o‘rganish, ijtimoiy hamkorlikni tashkil etish va individual farqlarni hisobga olish. Bu jihatlar boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy mazmunni o‘zlashtirish bilan birga, o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi [6-8].

Shu bilan birga, mazkur nazariy qarashlarni Tarbiya fanining aniq mavzulari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari va dars maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish zarur. Umumiy pedagogik tamoyillarni fan mazmuniga mos metodik topshiriqlar, savollar, hayotiy vaziyatlar va baholash mezonlari orqali amaliyotga tatbiq etish muhim metodik vazifa hisoblanadi.

NATIJA

Boshlang‘ich sinflarda Tarbiya darslarini tashkil etishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning nazariy asoslari:

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv. Ta’lim jarayonini o‘quvchining individual xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishga qaratilgan pedagogik yondashuv. Bunda o‘quvchi tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi emas, balki faol fikrlovchi va ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi subyekt sifatida qaraladi.

Boshlang‘ich sinflarda Tarbiya darslarini tashkil etishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning didaktik asoslari esa, ta’lim maqsadi, mazmuni, tamoyillari, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari va natijalarini belgilovchi nazariy-amaliy qoidalar majmui hisoblanadi. Tarbiya darslarini o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga mos tashkil etish yo‘llarini anglatadi.

Individual ta’limiy ehtiyojlarga o‘quvchilarning qiziqishlari, tayyorgarlik darajasi, o‘zlashtirish sur’ati, muloqot qilish usuli va qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyojlaridagi farqlarni kiritish mumkin. O‘qituvchi darsni rejalashtirishda bu farqlarni hisobga olishi lozim.

1-jadval

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning didaktik asoslarini quyidagi tamoyillar orqali ochib berish mumkin.

Didaktik tamoyil	**Mazmuni**	**Tarbiya darslarda qo‘llanilishi**
O‘quvchi shaxsini hurmat qilish	Har bir bolaning fikri, hissiyoti va individual xususiyatlarini e’tirof etish	O‘quvchilarning fikrini tinglash, kamsitmasdan munosabat bildirish
Individuallashtirish	Ta’limni o‘quvchining ehtiyoji va imkoniyatlariga moslashtirish	Turli murakkablikdagi savol va topshiriqlardan foydalanish
Faollik va mustaqillik	O‘quvchini fikrlash, izlanish va qaror qabul qilishga jalb etish	Axloqiy vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish
Hayot bilan bog‘liqlik	Tarbiyaviy mazmunni real hayotiy tajribaga bog‘lash	Maktabdagi do‘stlik, oiladagi mas’uliyat va jamoat joyidagi odob haqida suhbatlashish

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Hamkorlik	O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va muloqot	Juftlik va kichik guruhlarda muammolarni muhokama qilish
Refleksivlik	O‘quvchining o‘z fikri va xatti-harakatlarini tahlil qilishi	Dars oxirida “Bugun nimani angladim?” savoliga javob berish
Yoshga muvofiqlik	Mazmun va faoliyatni bolaning rivojlanish darajasiga moslashtirish	1-sinfda tasvir va o‘yinlardan, 4-sinfda murakkabroq vaziyatlar tahlilidan foydalanish

Ushbu tamoyillar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshirilganda samaraliroq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limda Tarbiya darslarini tashkil etishda shaxsga yo‘naltirilgan metodlarni shunchaki sanab o‘tishdan ko‘ra, ularning tarbiyaviy maqsadga qanday xizmat qilishini tushuntirish muhim. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda qo‘llaniladigan metodlarga quyidagilarni keltirib o‘tamiz:

1. Rolli o‘yinlar. O‘quvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarda muayyan rollarni bajaradilar. Masalan, sinfdoshiga yordam berish, nizoni tinch yo‘l bilan hal qilish yoki topib olingan buyum egasini izlash. Bu metod axloqiy tanlovni tushunish va boshqa insonning nuqtayi nazarini hisobga olishga yordam beradi.

2. Muammoli vaziyatlar tahlili. O‘quvchilarga bir nechta yechimga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaziyat taqdim etiladi. Ular vaziyatni tahlil qiladi, o‘z qarashlarini izohlaydi va tanlovining oqibatlarini muhokama qiladi.

3. Hamkorlikda o‘qitish. Juftlik va guruhlarda ishlash orqali bolalar bir-birini tinglash, fikrini asoslash, kelishuvga erishish va umumiy qaror qabul qilishni o‘rganadilar.

4. Refleksiv metodlar. “Men bugun nimani o‘rgandim?”, “Qaysi qarorni to‘g‘ri deb hisoblayman va nima uchun?” kabi savollar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlari va xatti-harakatlarini tahlil qiladilar.

5. Kichik loyiha metodi. Masalan, “Bizning sinfimizda o‘zaro hurmat”, “Yaxshi do‘st qanday bo‘ladi?” mavzularida hikoya yoki jamoaviy taqdimot tayyorlash. Bu metod o‘quvchilarga o‘z qiziqishi va qobiliyatiga mos faoliyat turini tanlash imkonini beradi.

MUHOKAMA

Nazariy manbalar tahlili shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy mazmuni o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida e’tirof etish, uning tajribasiga tayanish, ijtimoiy hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash va individual farqlarni hisobga olish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu qarashlarni Tarbiya darslariga tatbiq etish o‘qituvchining rolini ham o‘zgartiradi. O‘qituvchi faqat axloqiy me’yorlarni tushuntiruvchi shaxs emas, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, o‘zaro muloqoti va hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishini tashkil etuvchi pedagog sifatida faoliyat yuritadi.

Shu bilan birga, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv barcha o‘quvchilarga mutlaqo turli mazmun berish yoki umumiy tarbiyaviy maqsadlardan voz kechishni anglatmaydi. Aksincha, umumiy ta’lim maqsadlariga erishish uchun mazmunni o‘zlashtirish yo‘llari, topshiriqlar, yordam shakllari va faoliyat usullarini o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish nazarda tutiladi.

Yondashuvni amalga oshirishda vaqt taqsimoti, katta sinflarda har bir o‘quvchini kuzatish, topshiriqlarni tayyorlash va baholash mezonlarini belgilash kabi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu muammolarni bartaraf etish uchun o‘qituvchi oldindan tayyorlangan topshiriqlar to‘plami, sodda kuzatuv mezonlari, juftlikdagi faoliyat va qisqa refleksiv mashqlardan foydalanishi mumkin.

Demak, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning metodik samaradorligi faqat alohida interfaol metodlardan foydalanish bilan emas, balki dars maqsadi, topshiriqlar,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

o‘quvchi faoliyati, qayta aloqa va baholashning o‘zaro uyg‘unligi bilan belgilanadi. Biroq ushbu xulosa nazariy-metodik tahlil doirasida shakllantirilgan bo‘lib, uni empirik natijalar bilan mustahkamlash kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim vazifa hisoblanadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O‘tkazilgan nazariy-metodik tahlil boshlang‘ich sinflarda “Tarbiya” darslarini tashkil etishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning didaktik ahamiyatini ochib berishga imkon berdi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va hayotiy tajribasini hisobga olish orqali tarbiyaviy mazmunni anglash hamda uni kundalik hayot bilan bog‘lash uchun sharoit yaratadi.

Tahlil asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchini tarbiyaviy ta’limning faol ishtirokchisi sifatida ko‘rishni talab qiladi. O‘quvchi o‘z fikrini ifodalashi, vaziyatlarni tahlil qilishi, savollar berishi va qarorlarini asoslash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, o‘quvchi shaxsini hurmat qilish, individuallashtirish, faollik, hayot bilan bog‘liqlik, hamkorlik va refleksivlik mazkur yondashuvni amalga oshirishda muhim didaktik tamoyillar hisoblanadi. Ushbu tamoyillar darsning maqsadi, mazmuni va metodlarida o‘z ifodasini topishi lozim.

Uchinchidan, muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar, guruhli muhokamalar, tanlovga asoslangan topshiriqlar va refleksiv mashqlar “Tarbiya” darslarida o‘quvchilarning faol ishtirokini tashkil etish uchun metodik imkoniyatlar yaratadi. Bunda metodlarni tanlash dars maqsadi va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga bog‘liq bo‘lishi zarur.

To‘rtinchidan, taklif etilgan bosqichli metodik model o‘quvchilar ehtiyojlarini aniqlash, darsni loyihalash, faol ta’limni tashkil etish, refleksiya va baholash hamda keyingi ta’limni moslashtirish jarayonlarini o‘zaro bog‘laydi. Ushbu modelni amaliyotda

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

sinash va natijalarini tahlil qilish uning imkoniyatlarini yanada aniqroq belgilashga yordam beradi.

Beshinchidan, baholash jarayonida o‘quvchining shaxsiga umumiy baho berishdan ko‘ra, uning fikrlash, muloqot, hamkorlik va refleksiya ko‘nikmalarini aniq mezonlar asosida kuzatish maqsadga muvofiq.

Maktab o‘qituvchilari uchun quyidagi metodik tavsiyalar taklif etiladi:

-Darsni rejalashtirishda o‘quvchilarning avvalgi tajribasi va mavzu bo‘yicha dastlabki tasavvurlarini aniqlash.

-Bir mavzu doirasida turli murakkablikdagi va bajarish shakli turlicha bo‘lgan topshiriqlardan foydalanish.

-Axloqiy tushunchalarni hayotiy vaziyatlar, hikoyalar va o‘quvchilarga tanish munosabatlar bilan bog‘lash.

-Har bir o‘quvchiga fikr bildirish, savol berish va o‘z qarorini izohlash imkoniyatini yaratish.

-Guruhli ishda barcha o‘quvchilarning ishtirokini ta’minlash va o‘zaro hurmat qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish.

-Dars yakunida qisqa refleksiv topshiriqlar orqali o‘quvchilarning xulosalarini aniqlash.

-Baholashda faqat yakuniy javobni emas, balki fikrni asoslash, boshqalarni tinglash va qaror oqibatlarini tushunish kabi ko‘nikmalarni ham hisobga olish.

-Taklif etilgan metodik modelni kelgusida turli sinflarda tajriba-sinovdan o‘tkazish, kuzatuv natijalarini tahlil qilish va zarur hollarda takomillashtirish.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda Tarbiya darslarini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish o‘quvchilarning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, tarbiyaviy mazmunni hayotiy tajriba bilan bog‘lash va ta’lim jarayonidagi faol ishtirokini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin. Mazkur yondashuvning amaliy samaradorligini ishonchli aniqlash uchun esa taklif etilgan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

metodik tavsiyalarni real ta'lim sharoitida sinash va olingan natijalarni ilmiy mezonlar asosida baholash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/5013007 .

2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqishma-bosqish amaliyotga joriy etish shora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son qarori.

3.Rogers, C. R. Freedom to Learn: A View of What Education Might Become. Columbus, Ohio: Charles E. Merrill Publishing Company, 1969.

4.Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Edited by M. Cole, V. John-Steiner, S. Scribner, and E. Souberman. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

5.Tomlinson, C. A. How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms. 3rd ed. Alexandria, VA: ASCD, 2017.

6. Хазраткулова Ш.Н. «Совершенствование методов воспитания на занятиях в начальных классах». Международной научно-практической конференции. АЭТЕРНА. УФА. 1 августа 2022 г.

7. Khazratkulova Shoira Noralievna. Use of modern teaching methods in education of Students in primary schools. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal. Indiya. 2022 yil fevral. (123-126-b.)

8. Sh.N.Khazratkulova "Education directed to students in teaching the science of education in primary grades distinctive aspects". Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) April 2023.

TEXNOLOGIYA FANI ÖQUV DASTURLARIDA ROBOTOTEXNIKANI QÖLLAŞNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Usmanova Sayyora Pardaqulovna
Şahrisabz davlat pedagogika instituti
Texnologik ta'lim yönalişi 1-kurs magistranti
E-mail: *usmanovasayyora896@gmail.com*
tel: *+998882544240*
orcid: *https://orcid.org/0009-0008-1334-030X*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumiy örta ta'lim muassasalari dasturlariga robototexnika elementlarini tatbiq etiş masalasi pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Faol ta'lim va loyihaviy yondaşuv nazariyalariga tayangan holda, robototexnika vositalari öquvçilarning algoritmik tafakkurini kengaytiriş, amaliy muammolarni hal etiş hamda jamoada işlaş könikmalarini şakllantirişdagi ahamiyati oçib beriladi. Şuningdek, öquv jarayonining mazmunini boşlanğiç, örta va yuqori sinflar kesimida bosqiçma-bosqiç taşkil etiş modeli ilgari surilib, amaliyotda yuzaga keladigan qiyinçiliklar va ularning yeçimlari muhokama qilinadi.*

Kalit sözlar*: robototexnika, umumiy örta ta'lim, STEAM, faol örganiş, loyihaviy öqitiş, algoritmik fikrlaş.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕГРАЦИИ РОБОТОТЕХНИКИ В УЧЕБНЫЕ ПРОГРАММЫ ПО ТЕХНОЛОГИИ

Аннотация. *В статье с педагогической точки зрения анализируется включение робототехники в программы общего среднего образования. На основе активного обучения и проектного обучения показана роль робототехники в развитии алгоритмического мышления, умения решать проблемы и навыков сотрудничества. Предлагается поэтапное распределение содержания для начальных, средних и старших классов, а также обсуждаются основные препятствия внедрения и пути их преодоления.*

Ключевые слова: *робототехника, общее среднее образование, STEAM, active learning, проектное обучение, алгоритмическое мышление.*

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR INTEGRATING ROBOTICS INTO TECHNOLOGY CURRICULA

Abstract*. The article analyses the integration of robotics into general secondary sçool curricula from a pedagogical perspective. Drawing on active learning and project-based learning, it examines how robotics supports algorithmic thinking, problem solving and collaboration. A staged distribution of content*

for primary, middle and upper grades is proposed, and the main barriers to implementation and possible solutions are discussed.

Keywords: *robotics, general secondary education, STEAM, active learning, project-based learning, algorithmic thinking.*

KIRIŞ

Bugungi kunda ösib kelayotgan yoş avlod kundalik hayotda va kelgusidagi kasbiy faoliyatida raqamlaşgan hamda avtomatlaşgan muhit bilan yuzma-yuz kelmoqda. Şu bois, zamonaviy maktab oldida öquvçilarga faqat tayyor bilim berişgina emas, balki ularda murakkab hayotiy vaziyatlarda mustaqil fikrlaş, tahlil qiliş va töğri qaror qabul qiliş layoqatini tarbiyalaş talabi köndalang turibdi. Ta'lim sifatini yuksaltiriş, yoşlarni zamonaviy kompetentsiyalar bilan qurollantiriş hamda öquv jarayonini raqamli texnologiyalar asosida takomillaştiriş masalalari mamlakatimizda qabul qilingan strategik hujjatlarda, jumladan, "Raqamli Özbekiston — 2030" strategiyasida ustuvor vazifa etib belgilangan [1; 2; 3; 4]. Bugungi kunda robototexnika ana şu dolzarb vazifalarni muvaffaqiyatli hal etişda muhim ta'limiy vosita sifatida e'tirof etilmoqda, çunki u bir neçta fan sohalariga oid nazariy bilimlarni yagona ijodiy jarayonda birlaştiradi.

Respublikamiz maktablarida sönggi yillarda dasturlaş, STEAM yönalişi va robototexnika böyiça turli tögaraklar faoliyati kengayib bormoqda. Biroq amaliyot şuni körsatmoqdaki, aksariyat hollarda bu kabi maşğulotlar asosiy öquv dasturlaridan ajralgan holda, faqat qöşimça ta'lim doirasida çeklanib qolmoqda. Şu sababli, mazkur maqolaning asosiy maqsadi — robototexnikani umumta'lim maktablari dasturlariga uzviy kiritişning pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan asoslaş hamda amaliy mexanizmlarini işlab çiqişdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Robototexnika elementlarini öquv jarayoniga tatbiq etiş öqitişni taşkil etişning faol metodlariga bevosita tayanadi. Taniqli olim S. Papertning ilmiy qaraşlariga köra, öquvçi

bilimni tayyor holda özlaştirmaydi, balki muayyan ob'ektni yaratiş va loyihalaş jarayonida uni özi kaşf etadi [5].

Xorijiy tadqiqotlar ham robototexnikaning ta'limiy imkoniyatlari yuqori ekanini tasdiqlamoqda. Jumladan, F. Benittining olib borgan tizimli tahliliga köra, robototexnikadan foydalaniş aniq fanlar, xususan, matematika va fizika tuşunçalarini çuqur özlaştirişda, şuningdek, öquvçilarning mantiqiy tafakkurini östirişda muhim ahamiyat kasb etadi [6]. Biroq uning ta'limiy samaradorligi köp jihatdan pedagogik yondaşuv va öqitiş metodikasining qançalik töğri tanlanganiga boğliqdir. Demak, texnikaning özigina emas, balki uning ta'lim jarayoniga qanday uslubda integratsiya qilinişi hal qiluvçi natijani beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qöllaş va bölajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlaş masalalari mahalliy olimlarimiz tomonidan ham keng örganilgan. Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida öquvçi-talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantiriş [7], axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida öqituvçilarning kasbiy kompetentsiyasini yuksaltiriş [8], şuningdek, zamonaviy ta'lim innovatsiyalari va pedagogik faoliyatni takomillaştirişga bağişlangan ilmiy izlanişlar [9; 10] mavzuning nazariy poydevorini taşkil etadi.

Robototexnikani bosqiçma-bosqiç joriy etiş Ta'lim mazmunini öquvçilarning yoş va psixologik xususiyatlariga mos ravişda bosqiçma-bosqiç taqsimlaş maqsadga muvofiqdir.

1. Boşlanğiç sinflarda asosiy e'tibor harakat ketma-ketligi, fazoviy yönaliş va sabab-oqibat boğliqligini tuşunişga qaratiladi. Bunda oddiy konstruktorlar va dasturlaş elementi mavjud öyinçoq-robotlar qöl keladi, çunki ular mavhum tasavvurlarni köz bilan körinadigan aniq harakatlarga aylantiradi.

2. Örta sinflarda blokli dasturlaş muhitlari (misol uçun, Scratç yoki mBlock) hamda Arduino mikrokontrollerlari asosidagi sodda loyihalarni bajarişga kirişiladi. Uşbu

bosqiçda sikl, şartli operatorlar va özgaruvçilar kabi tuşunçalar fizika va matematika fanlari bilan çambarças boğlanib, tezlik, masofa hamda burçak ölçovlari robotning real harakati misolida sinab köriladi.

3. Yuqori sinflarda esa öquvçilar sensorlar, avtomatlaştirilgan boşqaruv tizimlari va matnli dasturlaş tillari (Python, C++) bilan işlaş könikmasini egallaydilar. Bu bosqiçda bajariladigan tadqiqot xarakteridagi loyihalar (masalan, mikroiqlimni boşqariş yoki avtomatik suğoriş qurilmalarini yiğiş) öquvçilarni ongli ravişda kasb-hunarga yönaltiriş vazifasini ham bajaradi.

Texnologiya fanini öqitişda zamonaviy yondaşuvlardan, xususan, sun'iy intellekt vositalari va ilğor metodikalardan foydalaniş öquvçilarning ijodiy faolligini oşiradi [11; 12]. Robototexnika esa bu jarayonlarni amaliy loyihalar orqali boyitadi.

Metodik nuqtai nazardan, loyihaviy öqitiş usuli eng maqbul yondaşuv hisoblanadi. Öquvçilar avvalo muammoni aniqlaydilar, uning yeçimini loyihalaydilar, prototip yasab, uni sinovdan ötkadilar va yuzaga kelgan xatolarni bartaraf etadilar. Guruhli iş jarayonida rollarning taqsimlanişi (konstruktor, dasturçi, sinovçi) har bir öquvçining öz qiziqişidan kelib çiqib tajriba orttirişiga imkon beradi. Öz navbatida, özlaştir genini baholaşda faqat tayyor qurilma emas, balki ijodiy yondaşuv va jamoadagi faollik ham inobatga olinişi lozim.

TAHLIL, NATIJALAR VA MULOHAZA

Amaliyotda robototexnikani joriy etişda ba'zi tösiqlar uçrab turadi. Birinçidan, jihozlarning qimmatligi va maktablarning moddiy-texnik bazasidagi tafovutlar. Bu muammoni arzon mikrokontrollerlar, muqobil materiallardan yasalgan detallar hamda virtual simulyatsiya dasturlaridan foydalaniş orqali hal etiş mumkin. Ikkinçidan, pedagog kadrarning tayyorgarlik darajasi. Köpçilik öqituvçilar robototexnika böyiça maxsus tajribaga ega emas, şuning uçun maqsadli malaka oşiriş kurslarini taşkil etiş va ilğor tajribalarni ommalaştiriş zarur. Uçinçidan, yagona öquv-metodik ta'minotning

yetişmasligi bölib, uni yengiş uçun yoş davrlariga mos keluvçi metodik qöllanmalar va oçiq ta'lim resurslarini yaratiş talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ötkazilgan tahlillar şuni körsatadiki, robototexnika ta'lim jarayonida nazariya va amaliyotni uzviy boğlovçi ta'sirçan vositadir. Uning muvaffaqiyati qimmatbaho jihozlar soniga emas, balki puxta işlab çiqilgan öquv mazmuni, töğri tanlangan loyihaviy yondaşuv hamda öqituvçining kasbiy mahoratiga tayanadi. Kelgusida mazkur yönalişda maxsus tajriba-sinov işlarini taşkil etiş taklif etilayotgan pedagogik yondaşuvlarning samaradorligini yanada aniqroq baholaşga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Ş.M. Yangi Özbekiston strategiyasi. – Toşkent: Özbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Ş.M. Yangi Özbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toşkent: Özbekiston, 2022.
3. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "«Raqamli Özbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlaş va uni samarali amalga oşiriş çora-tadbirlari töğrisida"gi Farmoni. https://lex.uz/en/docs/5031048
4. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgaça möljallangan ustuvor yönalişlari doirasida islohotlarni izçil davom ettiriş va yangi bosqiçga olib çiqişning qöşimça çora-tadbirlari töğrisida"gi Farmoni.
5. Papert S. Mindstorms: Çildren, Computers, and Powerful Ideas. – New York: Basic Books, 1980.
6. Benitti F.B.V. Exploring the educational potential of robotics in sçools: A systematic review // Computers & Education. – 2012. – Vol. 58, No. 3. – P. 978–988.
7. Raxmatov A.A. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiriş // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – 2026.
8. Xayitov J.X. Axborot texnologiyalarini qöllaş orqali texnologiya fani öqituvçilarining kompetentligini rivojlantiriş. Monografiya. – T.: Publişing High Future, 2025. – 112 b.
9. Nurmamatov Z.Ş. Innovatsiyalarning röli va ahamiyati ta'limda // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – 2023. – 1-son. – 645–650-b.
10. Nurmamatov Z.Ş. Bölajak texnologiya fani öqituvçisini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlaş // Fan, ta'lim va texnikani innovatsion rivojlantiriş masalalari. – Andijon, 2022. – 31–34-b.
11. Tursunova S.J. Texnologiya darslarida sun'iy intellektdan foydalanib öquvçilarning ijodkorlik kompetensiyalarini şakllantiriş metodikasi // Farğona metodika maktabi. – 2026. – 5-son. – 363–366-b. https://doi.org/10.5281/zenodo.23599026
12. Mahmudov I.B. Texnologik ta'limda öquvçilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiriş metodikasi // Ta'lim va taraqqiyot. – 2026. – 5-son. – 1662–1670-b.

TEXNOLOGIK TA'LIMDA STEAM YONDAŞUVI ASOSIDA TALABALARNING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRIŞ

Djumanova Gulçiroy Ziyadullayevna
Şahrisabz davlat pedagogika institute 1-kurs magistr talabasi
gulçeraoydjumanova@gmail.com
+998994514342

Annotatsiya. *Uşbu maqolada texnologik ta'lim jarayonida STEAM yondaşuvi asosida talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirişning pedagogik imkoniyatlari va metodik jihatlari yoritilgan. STEAM ta'limining fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika yönalişlarini özaro integratsiyalaşga asoslangan mazmuni tahlil qilingan. Şuningdek, texnologik ta'lim maşğulotlarida fanlararo boğliqlikni ta'minlaş, muammoli vaziyatlarni hal etiş, loyihalaş, modellaştiriş hamda amaliy topşiriqlarni bajariş orqali talabalarning ijodiy va innovatsion salohiyatini rivojlantiriş masalalariga e'tibor qaratilgan. Talabalarda mustaqil fikrlaş, nostandart yeçimlarni işlab çiqiş, yangi ğoyalarni amaliyotga tatbiq etiş va jamoada işlaş könikmalarini şakllantirişda STEAM yondaşuvining ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida texnologik ta'limda STEAM yondaşuvini samarali taşkil etişga doir metodik tavsiyalar işlab çiqişning nazariy asoslari körib çiqilgan.*

Kalit sözlar: *STEAM ta'limi, texnologik ta'lim, innovatsion faoliyat, innovatsion kompetensiya, fanlararo integratsiya, loyihalaş, modellaştiriş, ijodkorlik, muammoli ta'lim, amaliy faoliyat.*

РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ STEAM-ПОДХОДА

Аннотация. *В данной статье рассматриваются педагогические возможности и методические аспекты развития инновационной деятельности студентов на основе STEAM-подхода в процессе технологического образования. Анализируется содержание STEAM-образования, основанного на интеграции науки, технологий, инженерии, искусства и математики. Особое внимание уделяется вопросам обеспечения межпредметной интеграции, решения проблемных ситуаций, проектирования, моделирования и выполнения практических заданий на занятиях по технологическому образованию. Обосновывается значение STEAM-подхода в формировании у студентов самостоятельного мышления, способности разрабатывать нестандартные решения, применять новые идеи на практике, а также развивать творческий потенциал и навыки командной работы. Рассматриваются теоретические основы разработки методических рекомендаций по эффективной организации STEAM-подхода в технологическом образовании.*

Ключевые слова: *STEAM-образование, технологическое образование, инновационная деятельность, инновационная компетентность, межпредметная интеграция, проектирование, моделирование, , проблемное обучение, практическая деятельность.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

DEVELOPING STUDENTS' INNOVATIVE ACTIVITY IN TECHNOLOGICAL EDUCATION BASED ON THE STEAM APPROACH

Abstract. *This article examines the pedagogical potential and methodological aspects of developing students' innovative activities through the STEAM approaç in teçnological education. It analyzes the content of STEAM education, whiç is based on the integration of Science, Teçnology, Engineering, Arts, and Mathematics. Particular attention is paid to ensuring interdisciplinary integration, solving problem-based situations, designing, modeling, and completing practical tasks within teçnological education classes. The article substantiates the importance of the STEAM approaç in developing students' independent thinking, ability to generate innovative solutions, apply new ideas in practice, enhance creative potential, and acquire teamwork skills. Furthermore, it considers the theoretical foundations for developing methodological recommendations aimed at the effective implementation of the STEAM approaç in teçnological education.*

Keywords: *STEAM education, teçnological education, innovative activity, innovative competence, interdisciplinary integration, design, modeling, creativity, problem-based learning, practical activity.*

KIRIŞ

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan globallaşuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanişi hamda işlab çiqariş jarayonlarining modernizatsiyalaşuvi bölajak mutaxassislardan nafaqat nazariy bilimlarga ega bölişni, balki ularni amaliy faoliyatda qöllaş, mustaqil qaror qabul qiliş, muammolarga ijodiy yondaşiş va yangi ğoyalarni işlab çiqiş qobiliyatiga ega bölişni talab etmoqda. Ayniqsa, texnologik ta'lim yönalişida tahsil olayotgan talabalarni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlaşda ularning innovatsion tafakkuri, texnik ijodkorligi va loyihalaş kompetensiyalarini rivojlantiriş muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

An'anaviy ta'lim jarayonida fanlar böyiça bilimlarni alohida özlaştirişga ustuvor ahamiyat berilişi ayrim hollarda nazariy bilimlarni real hayotiy va işlab çiqariş muammolari bilan boğlaş imkoniyatlarini çeklaşi mumkin. Şu nuqtayi nazardan, ta'lim mazmunini integratsiyalaş, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyğunlaştiriş hamda talabalarning mustaqil izlanişiga asoslangan ta'lim texnologiyalarini joriy etiş zarurati ortib bormoqda. Mazkur jarayonda STEAM yondaşuvi fan, texnologiya, muhandislik,

san'at va matematika sohalarini özaro uyğunlaştirgan holda ta'lim oluvçilarning kompleks fikrlaşini rivojlantirişga xizmat qiluvçi samarali pedagogik yondaşuv sifatida namoyon böladi.

Mazkur masalaning dolzarbligi texnologik ta'limda nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyat örtasidagi uzviylikni kuçaytiriş, fanlararo integratsiyani ta'minlaş hamda talabalarning innovatsion salohiyatidan samarali foydalaniş zarurati bilan belgilanadi. Şu sababli STEAM yondaşuvini texnologik ta'lim mazmuniga maqsadli integratsiyalaş, uni amalga oşirişning pedagogik şart-şaroitlari va metodik mexanizmlarini aniqlaş muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi texnologik ta'lim jarayonida STEAM yondaşuvi asosida talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirişning pedagogik imkoniyatlarini aniqlaş hamda uni samarali taşkil etişga yönaltirilgan metodik yondaşuvlarni asoslaşdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- STEAM yondaşuvining pedagogik va didaktik xususiyatlarini tahlil qiliş;
- texnologik ta'limda innovatsion faoliyatni rivojlantirişning mazmuni va tarkibiy jihatlarini aniqlaştiriş;
- STEAM yondaşuvi asosida loyihalaş, modellaştiriş va muammoli ta'lim topşiriqlaridan foydalaniş imkoniyatlarini örganiş;
- talabalarning ijodiy, texnik va innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirişga xizmat qiluvçi metodik yondaşuvlarni asoslaş.

Tadqiqot obyekti sifatida texnologik ta'lim jarayoni, predmeti sifatida esa uşbu jarayonda STEAM yondaşuvi asosida talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantiriş mazmuni, şakllari va metodik vositalari belgilandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

STEAM yondaşuvining pedagogik asoslari, uning ta'lim jarayonidagi integrativ imkoniyatlari hamda talabalarning ijodiy va innovatsion salohiyatini rivojlantirişdagi örni qator xorijiy va mahalliy tadqiqotçilarning ilmiy izlanişlarida öz aksini topgan.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Mazkur yönalişdagi ilmiy manbalarni örganiş STEAM ta'limining mazmuni, metodik xususiyatlari va texnologik ta'lim bilan uzviy aloqadorligini aniqlaş imkonini beradi.

STEAM ta'limi konsepsiyasining şakllanişida Georgette Yakman tomonidan ilgari surilgan ilmiy qaraşlar muhim örin tutadi. Tadqiqotçi STEM tarkibiga san'at (Arts) yönalişini integratsiyalaş orqali fanlararo ta'limning yaxlit modelini şakllantiriş ğoyasini asoslagan. Uşbu yondaşuvda san'at faqat estetik faoliyat bilan çeklanmay, balki ijodiy fikrlaş, dizayn, tasavvur va yangi ğoyalarni işlab çiqiş jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Mazkur qaraş texnologik ta'limda talabalarning texnik bilimlarini ijodiy loyihalaş faoliyati bilan uyğunlaştiriş uçun nazariy asos bölib xizmat qiladi.

T. Kelley va J. Knowles (2016) integratsiyalaşgan STEM ta'limining konseptual asoslarini işlab çiqib, fan, texnologiya, muhandislik va matematika bilimlarini real hayotiy muammolarni hal etiş jarayonida özaro boğliq holda qöllaş zarurligini ta'kidlaydilar. Mualliflarning yondaşuvida muhandislik loyihalaş, ilmiy izlaniş, texnologik savodxonlik va matematik tafakkur özaro aloqador ta'limiy faoliyat sifatida qaraladi. Uşbu ilmiy qaraşlardan kelib çiqib aytiş mumkinki, texnologik ta'limda talabalarga tayyor bilimlarni beriş bilan çeklanmasdan, ularni amaliy muammolarni mustaqil hal etişga yönaltiriş muhim ahamiyatga ega.

Perignat va Katz-Buonincontro (2019) tomonidan olib borilgan STEAM ta'limiga oid integrativ adabiyotlar tahlilida uşbu yondaşuvning ijodkorlik, muammolarni hal etiş va fanlararo fikrlaşni rivojlantiriş imkoniyatlari örganilgan. Tadqiqotçilar STEAM ta'limiga oid ilmiy işlarda uning mazmuni va san'at komponentining talqinida turli yondaşuvlar mavjudligini aniqlaganlar. Şuningdek, ijodkorlik va muammoli vaziyatlarni hal etiş könikmalarini rivojlantiriş STEAM ta'limining muhim maqsadlari sifatida e'tirof etilsa-da, ayrim tadqiqotlarda uşbu natijalarni baholaş mezonlari yetarliça işlab çiqilmaganini qayd etganlar. Bu holat texnologik ta'limda innovatsion faoliyatni nafaqat şakllantiriş, balki uning rivojlaniş darajasini aniqlaş mezonlarini ham işlab çiqiş zarurligini körsatadi.

A. Leavy, L. Dick, M. Meletiou-Mavrotheris, E. Paparistodemou va E. Stylianou (2023) tomonidan STEAM ta'limida zamonaviy texnologiyalardan foydalanişga bağişlangan tizimli tadqiqotda 43 ta ilmiy iş tahlil qilingan. Mualliflar raqamli texnologiyalar, robototexnika, virtual va kengaytirilgan reallik vositalarining STEAM ta'limidagi imkoniyatlarini örganganlar. Tadqiqot natijalari zamonaviy texnologiyalar talabalarning ijodkorligi, innovatsion fikrlaşi, hamkorlikda işlaşi va muammolarni hal etiş könikmalarini rivojlantiriş uçun muhim imkoniyatlar yaratişini körsatadi. Şu bilan birga, mualliflar STEAM tarkibidagi barça fan yönalişlarini mazmunan uyğunlaştiriş va ta'lim natijalarini ilmiy asosda baholaş masalalariga alohida e'tibor qaratiş lozimligini ta'kidlaydilar.

Yuqoridagi ilmiy qaraşlar tahlili şuni körsatadiki, STEAM yondaşuvi talabalarning bilimlarini fanlararo integratsiya asosida boyitiş, ularni amaliy vaziyatlarda qöllaş va ijodiy yeçimlar işlab çiqişga yönaltiriş imkonini beradi. Biroq mazkur yondaşuvni texnologik ta'limning özига xos mazmuni bilan uyğunlaştiriş, talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantiriş bosqiçlarini belgilaş hamda uning samaradorligini baholaş mezonlarini aniqlaştiriş masalalari yanada çuqurroq metodik tadqiqotlarni talab etadi. Şu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotda STEAM yondaşuvining integrativ imkoniyatlarini texnologik ta'lim jarayoniga tatbiq etiş, loyihalaş va modellaştiriş faoliyati orqali talabalarning mustaqil fikrlaşi, ijodiy taşabbusi hamda innovatsion yeçimlar işlab çiqiş qobiliyatini rivojlantiriş masalalariga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot texnologik ta'lim jarayonida STEAM yondaşuvi asosida talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirişning pedagogik va metodik imkoniyatlarini aniqlaşga yönaltirilgan. Tadqiqot metodologiyasining asosini tizimli, kompetensiyaviy va integrativ yondaşuvlar taşkil etadi. Tizimli yondaşuv texnologik ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari va kutiladigan natijalarini özaro boğliq

holda örganişga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondaşuv talabalarning nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qöllaş, mustaqil qaror qabul qiliş va innovatsion yeçimlar işlab çiqiş qobiliyatlarini rivojlantirişga qaratiladi. Integrativ yondaşuv esa fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika yönalişlari örtasidagi mazmuniy aloqadorlikni ta'minlaşni nazarda tutadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalaniş nazarda tutiladi:

Nazariy tahlil metodi – STEAM ta'limi, texnologik ta'lim, innovatsion faoliyat va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirişga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni örganiş, mavjud ilmiy qaraşlarni taqqoslaş va umumlaştiriş maqsadida qöllaniladi.

Qiyosiy tahlil metodi – an'anaviy ta'lim yondaşuvlari bilan STEAM asosida taşkil etilgan integrativ ta'lim faoliyatining mazmuniy va metodik xususiyatlarini taqqoslaş imkonini beradi.

Modellaştiriş metodi – texnologik ta'limda talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirişga yönaltirilgan STEAM asosidagi ta'lim modelini işlab çiqiş, uning tarkibiy qismlari va ular örtasidagi funksional boğliqlikni aniqlaşda qöllaniladi.

Pedagogik kuzatiş metodi – ta'lim jarayonida talabalarning loyiha faoliyatidagi iştiroki, ijodiy taşabbusi, muammolarni hal etiş usullari va jamoaviy hamkorlik könikmalarini örganişga xizmat qiladi.

Umumlaştiriş va tizimlaştiriş metodlari – örganilgan nazariy ma'lumotlar hamda metodik yondaşuvlarni tartibga soliş, tadqiqot yönalişiga mos ilmiy xulosalarni şakllantiriş uçun foydalaniladi.

STEAM yondaşuvini texnologik ta'limga tatbiq etiş jarayoni özaro uzviy boğliq bölgan bir neça bosqiç asosida taşkil etilişi maqsadga muvofiq. Birinçi bosqiçda talabalarning mavjud bilimlari va amaliy tayyorgarligi hisobga olinib, muayyan muammoli vaziyat aniqlanadi. Ikkinçi bosqiçda muammoni hal etişga qaratilgan ğoyalar işlab çiqilib, fanlararo bilimlar asosida loyiha konsepsiyasi şakllantiriladi. Uçinçi bosqiçda loyihalaş, modellaştiriş va amaliy konstruksiyalaş işlari amalga oşiriladi.

Yakuniy bosqiçda yaratilgan loyiha natijalari tahlil qilinadi, baholanadi va takomillaştiriş böyiça takliflar işlab çiqiladi.

Mazkur metodologik yondaşuv asosida talabalarning innovatsion faoliyatini baholaşda törtta asosiy mezonga e'tibor qaratiladi: motivatsion mezon – innovatsion faoliyatga qiziqiş va taşabbuskorlik; kognitiv mezon – fanlararo bilimlarni özlaştiriş va ulardan foydalaniş; amaliy-faoliyat mezoni – loyihalaş, modellaştiriş va amaliy yeçimlarni işlab çiqiş qobiliyati; refleksiv-baholaş mezoni – öz faoliyati natijalarini tahlil qiliş, xatolarni aniqlaş va takomillaştiriş imkoniyatlarini belgilaş.

Şunday qilib, tanlangan metodologik yondaşuvlar STEAM ta'limining nazariy imkoniyatlarini texnologik ta'limning amaliy mazmuni bilan uyğunlaştiriş hamda talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirişga xizmat qiluvçi yaxlit metodik tizimni asoslaş imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Texnologik ta'lim jarayonida talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantiriş ta'lim mazmunini zamonaviy pedagogik yondaşuvlar asosida takomillaştirişni talab etadi. Mazkur jarayonda STEAM yondaşuvi nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalaş, fanlararo aloqadorlikni ta'minlaş va talabalarning mustaqil ijodiy izlanişlarini faollaştiriş imkoniyatiga ega. Bunda ta'lim oluvçi tayyor bilimlarni özlaştiruvçi subyekt sifatida emas, balki muammoni aniqlaş, ğoya işlab çiqiş, loyihalaş va amaliy natijaga erişiş jarayonining faol iştirokçisi sifatida namoyon böladi.

STEAM yondaşuvining texnologik ta'limdagi samaradorligi, avvalo, uning tarkibiy yönalişlari örtasidagi uzviy boğliqlik bilan belgilanadi. Xususan, tabiiy fanlar yaratilayotgan texnologik yeçimlarning ilmiy asoslarini anglaşga, texnologiya zamonaviy vositalardan foydalanişga, muhandislik loyihalaş va konstruksiyalaşga, san'at estetik va dizayn talablarini hisobga olişga, matematika esa hisob-kitoblar hamda ölçaş işlarini bajarişga xizmat qiladi. Uşbu yönalişlarning birgalikdagi qöllanilişi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

talabalarda yaxlit fikrlaş va murakkab vazifalarni kompleks hal etiş qobiliyatini rivojlantiradi.

Talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirişda loyiha asosida ta'lim beriş alohida metodik ahamiyatga ega. Masalan, talabalar tomonidan energiya tejamkor maişiy qurilma maketini yaratiş topşiriği berilganda, ular dastlab muammoni örganadilar, mavjud yeçimlarni tahlil qiladilar, loyiha ğoyasini işlab çiqadilar va uning modelini yaratadilar. Uşbu jarayonda fizik bilimlar, matematik hisob-kitoblar, texnik loyihalaş, zamonaviy texnologiyalardan foydalaniş hamda dizayn elementlari özaro uyğunlaşadi. Natijada talabalarda nafaqat amaliy könikmalar, balki yangi ğoyalarni ilgari suriş, muqobil yeçimlarni baholaş va öz qarorlarini asoslaş qobiliyatlari ham rivojlanadi.

Tahlillar asosida texnologik ta'limda STEAM yondaşuvi orqali innovatsion faoliyatni rivojlantirişning quyidagi metodik mexanizmlari muhim deb hisoblanadi:

Birinçidan, muammoli vaziyatlarni yaratiş. Talabalarga real hayot va işlab çiqariş jarayonlari bilan boğliq muammolarni taqdim etiş ularning mustaqil izlanişi, muammoning sabablarini aniqlaşi va yeçimlar işlab çiqişiga şaroit yaratadi.

Ikkinçidan, fanlararo integratsiyani ta'minlaş. Turli fanlarga oid bilimlarni yagona loyiha doirasida birlaştiriş talabalarning bilimlarni alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida qöllaş qobiliyatini şakllantiradi.

Uçinçidan, loyihalaş va modellaştiriş faoliyatini taşkil etiş. Ğoyalarni çizma, maket, model yoki raqamli loyiha şaklida ifodalaş talabalarning texnik tafakkuri, fazoviy tasavvuri va konstruktiv fikrlaşini rivojlantiradi.

Törtinçidan, hamkorlikda işlaş va natijalarni taqdim etiş. Guruhiy loyihalar talabalarni özaro fikr almaşiş, vazifalarni taqsimlaş, jamoaviy qaror qabul qiliş va öz işlanmalarini ilmiy-amaliy jihatdan asoslaşga örgatadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Beşinçidan, refleksiv tahlil va takomillaştiriş. Yaratilgan loyiha natijalarini baholaş, mavjud kamçiliklarni aniqlaş va ularni bartaraf etiş yöllarini işlab çiqiş innovatsion faoliyatning uzluksiz rivojlanişini ta'minlaydi.

Tadqiqot doirasida talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantiriş jarayonini baholaş uçun motivatsion, kognitiv, amaliy-faoliyat va refleksiv mezonlarning özaro boğliqligi muhim metodik asos sifatida belgilandi. Mazkur mezonlar talabaning innovatsion faoliyatga bölgan qiziqişidan boşlab, bilimlarni amaliyotda qöllaşi, mustaqil işlanma yaratişi va öz faoliyatini tahlil qila olişigaça bölgan jarayonni qamrab oladi.

Olib borilgan nazariy-metodik tahlillar STEAM yondaşuvini texnologik ta'limga integratsiyalaş talabalarning ijodiy taşabbusini qöllab-quvvatlaş, fanlararo bilimlardan foydalaniş va amaliy muammolarga innovatsion yeçimlar işlab çiqiş imkoniyatlarini kengaytirişini körsatadi. Ayniqsa, loyiha faoliyatini muammoli ta'lim, modellaştiriş va refleksiv baholaş bilan uyğunlaştiriş innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirişning metodik yaxlitligini ta'minlaydi.

Şu asosda texnologik ta'limda STEAM yondaşuvi samaradorligi faqat zamonaviy texnik vositalardan foydalaniş bilan emas, balki ta'lim mazmunining integratsiyalaşuvi, talabalarning mustaqil faoliyati, amaliy loyihalarning mazmuni va pedagogik rahbarlikning maqsadga muvofiq taşkil etilişi bilan belgilanadi, degan ilmiy xulosaga keliş mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

masalalariga bag'ishlangan milliy manbalar tanlandi. Tanlov mezonlari: mavzuga bevosita aloqadorlik, ilmiy asoslanganlik va nazariy ahamiyat.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichi sifatida eruditsiyani rivojlantirish bo'yicha pedagogik tajribani rejalashtirish nazarda tutiladi: boshlang'ich tashxis (bilim doirasi, o'qish madaniyati, qiziqishlar, tanqidiy fikrlash testlari va so'rovnomalar), shakllantiruvchi bosqich (taklif etilgan mexanizmlarni tajriba guruhlarida qo'llash) va yakuniy tashxis. Mazkur maqolada nazariy-metodik natijalar — tushuncha, tuzilma, vazifalar, mexanizmlar, mezonlar va darajalar — taqdim etilib, empirik ma'lumotlar keyingi nashrlarda yoritilishi mumkin.

Tadqiqot ilmiy halollik, manbalarga to'g'ri havola va akademik etika tamoyillariga rioya qilgan holda olib borildi.

NATIJALAR

4.1. Eruditsiya tushunchasining mazmuni. Tahlil natijasida eruditsiya ta'lim nuqtayi nazaridan quyidagicha ta'riflandi: eruditsiya — shaxsning turli bilim sohalarida keng, tizimlashtirilgan va o'zaro bog'langan bilimlarga ega bo'lishi, ularni madaniy-tarixiy kontekstda tushunishi, tanqidiy baholashi hamda o'quv va kasbiy faoliyatda mulohaza bilan qo'llay olishi, shuningdek, doimiy bilim izlashga ichki ehtiyoj sezishida namoyon bo'ladigan integrativ shaxsiy sifatdir.

Bu ta'rifdan eruditsiyani yaqin tushunchalardan farqlash mumkin. Axborotlanganlik (informirovannost) — ma'lumotlarning mavjudligi, lekin ularning tizimga bog'langani shart emas. Bilim — muayyan sohadagi o'zlashtirilgan ma'lumotlar va tushunchalar; eruditsiya esa bir necha sohadagi bilimlarni o'zaro bog'lash va keng kontekstda ko'rish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Kompetensiya — bilim, ko'nikma va munosabatlarning faoliyatda namoyon bo'lishi; eruditsiya kompetensiyaning bilim asosini kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Intellekt — fikrlash qobiliyati; eruditsiya esa shu qobiliyat ishlaydigan «material» va kontekstni ta'minlaydi. Madaniy savodxonlik —

jamiyatda umumiy tushunish uchun zarur bo'lgan baza; eruditsiya undan kengroq va shaxsiy qiziqishlar bilan chuqurlashadi.

4.2. Eruditsiyaning tarkibiy qismlari. Tahlil eruditsiyaning oltita o'zaro bog'liq komponentini ajratish imkonini berdi:

1) Bilim-mazmuniy komponent — fan, san'at, tarix, adabiyot, texnologiya va jamiyat bo'yicha keng va aniq bilimlar zaxirasi; asosiy tushunchalar va tamoyillarni bilish.

2) Tizimlashtiruvchi (konseptual) komponent — bilimlarni o'zaro bog'lash, sabab-oqibat aloqalarini ko'rish, fanlararo bog'lanishlarni topish, bilimlarni sxemalar va tushunchalar tizimiga birlashtirish.

3) Madaniy-tarixiy komponent — milliy va jahon madaniyati, tarixi, ma'naviy merosini bilish va qadrlash; madaniy kontekstda fikrlash.

4) Axborot-metodologik komponent — manbalar bilan ishlash, ularning ishonchliligini baholash, ilmiy tadqiqot usullarini bilish, raqamli axborot madaniyati.

5) Tanqidiy-refleksiv komponent — bilimlarni tahlil qilish, asoslash, faktni fikrdan ajratish, o'z bilim chegaralarini anglash (metakognitsiya).

6) Motivatsion-qadriyatli komponent — bilimga qiziqish, o'qish va izlanish ehtiyoji, bilimdonlikni qadriyat sifatida qabul qilish, ilmiy halollik.

4.3. Eruditsiyaning ta'lim jarayonidagi vazifalari. Nazariy tahlil eruditsiyaning ta'limda bir nechta asosiy vazifa bajarishini ko'rsatdi.

Birinchi — o'rganishni osonlashtirish vazifasi. Mavjud bilimlar yangi ma'lumot uchun «tayanch nuqtalar» yaratadi: talaba yangi tushunchani oldingi bilimlariga bog'lab, tezroq va chuqurroq tushunadi, yaxshiroq eslab qoladi [2; 14]. Bilimi keng talaba matnni o'qiyotganda ko'proq narsani kontekstdan tushunadi, ko'rsatilgan misol va ishoralarni anglaydi.

Ikkinchi — fikrlash uchun material berish vazifasi. Tanqidiy fikrlash «bo'sh joyda» sodir bo'lmaydi: tahlil qilish, taqqoslash, baholash uchun tahlil qilinadigan mazmun va

mezonlar kerak [1; 6]. Bilim zaxirasi kam bo'lsa, tanqidiy fikrlash yuzaki xulosalarga aylanishi mumkin.

Uchinchi — bilimlarni ko'chirish (transfer) vazifasi. Tizimlashgan va o'zaro bog'langan bilim bir sohada o'zlashtirilgan g'oyalarni boshqa sohada qo'llashga imkon beradi, bu esa muammolarni hal etishda ijodiy yondashuvni rag'batlantiradi [3; 4].

To'rtinchi — kommunikativ va ijtimoiy vazifa. Keng bilimga ega shaxs munozarada asoslangan fikr bildiradi, boshqalarning pozitsiyasini tushunadi, madaniy kontekstda muloqot qiladi, «madaniy savodxonlik» uning jamiyatda faol ishtirokini ta'minlaydi [8].

Beshinchi — motivatsion va tarbiyaviy vazifa. Bilim doirasi kengaygani sari talabada yangi savollar tug'iladi, qiziqish ortadi, «bilganim sari bilmaganim ko'p ekan» degan ma'rifatli kamtarlik shakllanadi. Shu bilan birga eruditsiya milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, ma'naviy yetuklikni shakllantirishga xizmat qiladi [9].

4.4. Eruditsiya va zamonaviy axborot muhiti. Sun'iy intellekt va qidiruv tizimlari davrida eruditsiyaning ahamiyati kamaymaydi, aksincha ortadi. Birinchidan, axborotni topish uchun nima izlash kerakligini va qanday savol berishni bilish kerak. Ikkinchidan, tizim bergan javobning to'g'ri-noto'g'riligini baholash uchun mavzu bo'yicha asosiy bilimlar zarur. Uchinchidan, ma'lumotlar oqimida tartib o'rnatish va ularni yagona kontekstga joylash uchun konseptual tizim kerak. Shu bois «hammasi topiladi» tamoyili bilimning o'rnini bosa olmaydi, biroq bilim olishning yangi shakllarini ochadi: eruditsiya endi yodlashga emas, tanlash, tahlil qilish va bog'lashga tayanishi lozim.

4.5. O'qituvchi eruditsiyasi. O'qituvchining eruditsiyasi ta'lim sifatining muhim sharti hisoblanadi. Erudit o'qituvchi o'z fanining chegarasidan chiqib, fanlararo bog'lanishlarni ko'rsatadi, murakkab savollarga ishonchli javob beradi, talabalar qiziqishini qo'llab-quvvatlaydi, misollar va tarixiy-madaniy ma'lumotlar bilan mavzuni jonlantiradi. Talabalar uchun o'qituvchi bilimdonlik namunasi: o'qituvchining kitob o'qishga, yangi bilim izlashga bo'lgan munosabati talabalarga ta'sir qiladi. Shu bilan birga, o'qituvchi eruditsiyasi o'zini ko'rsatish emas, talabaning tushunishiga xizmat

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qilishi, bilmaganini tan olish va birgalikda izlash madaniyatini ham o'z ichiga olishi kerak.

4.6. Eruditsiyani rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari. Tahlil asosida ettita mexanizm ajratildi.

1) Mazmunni tizimlashtirish mexanizmi: fan mazmunini asosiy tushunchalar va tamoyillar atrofida qurish, tushunchalar xaritalari (concept map), jadval va sxemalardan foydalanish, takrorlash va bog'lashni muntazam tashkil etish.

2) Fanlararo integratsiya mexanizmi: bitta mavzuni turli fanlar nuqtayi nazaridan yoritish (masalan, tarix, adabiyot va texnologiya kesimida), integrativ loyihalar, fanlararo seminarlar.

3) O'qish madaniyatini shakllantirish mexanizmi: ilmiy, badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarni o'qishni rag'batlantirish, o'qish kundaligi, kitob muhokamalari, ilmiy klublar, kutubxona va elektron resurslar bilan ishlash.

4) Tadqiqotga yo'naltirilgan o'qitish mexanizmi: kichik tadqiqotlar, referat va esse yozish, ilmiy konferensiyalarda ishtirok, manbalarni qiyosiy tahlil qilish va ularning ishonchliligini baholash.

5) Dialog va munozara mexanizmi: debatlar, seminarlar, «kitobxonlar davrasi», o'zaro o'qitish; bilimlarni og'zaki bayon etish va asoslash.

6) Raqamli va axborot muhiti mexanizmi: raqamli kutubxonalar, onlayn kurslar, ochiq ta'lim resurslari, SI vositalaridan manbalarni tekshirish va fikrlash uchun foydalanish; axborot gigienasi va tanqidiy baholash ko'nikmalarini o'rgatish.

7) Refleksiv-motivatsion mexanizm: shaxsiy bilim maqsadlari, portfolio, bilim xaritasi, o'z bilimlaridagi bo'shliqlarni aniqlash va ularni to'ldirish rejasi, muvaffaqiyatni e'tirof etish.

4.7. Mezonlar, ko'rsatkichlar va darajalar. Eruditsiyani baholash uchun uchta mezon taklif etiladi. Bilim-mazmuniy mezon ko'rsatkichlari: bilim doirasining kengligi, asosiy tushunchalarni bilish, aniqlik va to'g'rilik. Tizimli-tanqidiy mezon ko'rsatkichlari:

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bilimlarni bog'lash, fanlararo aloqalarni topish, manbalarni baholash, asoslangan xulosa chiqarish. Motivatsion-madaniy mezon ko'rsatkichlari: o'qish va izlanishga qiziqish, madaniy-tarixiy savodxonlik, ilmiy halollik, o'z bilim chegaralarini anglash.

Mezonlar asosida eruditsiyaning uchta darajasi tavsiflandi. Boshlang'ich (fragmentar) darajada bilimlar tarqoq, asosan o'quv dasturi doirasi bilan cheklangan, bog'lanishlar zaif, qiziqish vaziyatli. O'rta (tizimlashgan) darajada talaba bir yoki bir necha sohada bilimlarni tizimga soladi, ba'zi fanlararo bog'lanishlarni ko'radi, manbalar bilan mustaqil ishlay oladi, biroq tanqidiy baholash va ijodiy qo'llash cheklangan. Yuqori (integrativ-ijodiy) darajada keng bilimlar tizimga birlashgan, madaniy-tarixiy kontekstda tushuniladi, talaba manbalarni tanqidiy baholaydi, bilimlarni yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llaydi, doimiy bilim izlashga ichki ehtiyoj sezadi va uni boshqalarga ham ulashadi.

4.8. Eruditsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulot namunasi. Nazariy modelni amaliyotga tatbiq etishni umumiy yo'nalishdagi bir mashg'ulot misolida ko'rsatish mumkin. Faraz qilaylik, oliy ta'limning pedagogika yo'nalishi talabalari bilan «Ta'lim tarixi va ma'naviy meros» mavzusida seminar o'tkaziladi. Mashg'ulotning kirish qismida o'qituvchi talabalarning mavzu bo'yicha dastlabki bilimlarini aniqlovchi qisqa so'rov va «bilim xaritasi» tuzish topshirig'ini beradi: talaba mavzu bo'yicha nimani bilishini, qaysi tushunchalar bir-biri bilan bog'liqligini va nimani bilmasligini belgilaydi. Bu faoliyat bilimlarni faollashtiradi va refleksiv-motivatsion mexanizmni ishga tushiradi.

Asosiy qismda talabalar kichik guruhlarda turli manbalar — tarixiy hujjatlar, ilmiy maqolalar, badiiy asoslar va raqamli arxivlar — bilan ishlaydi. Har bir guruh mavzuning bir jihatini (masalan, ta'lim an'analari, mashhur mutafakkirlarning pedagogik qarashlari, hozirgi ta'lim siyosati) o'rganib, manbalarning ishonchliligini baholaydi, so'ngra «jigsaw» usulida boshqa guruhlar bilan bilimlarni almashadi. O'qituvchi savollar yordamida fanlararo bog'lanishlarni ko'rsatadi: tarixiy voqealar, falsafiy g'oyalar, adabiy asarlar va zamonaviy pedagogik amaliyot o'rtasidagi aloqalar muhokama qilinadi. Bu

mazmunni tizimlashtirish, fanlararo integratsiya va tadqiqotga yo'naltirilgan o'qitish mexanizmlarini birlashtiradi.

Yakuniy qismda munozara o'tkaziladi: «Ma'naviy merosdan bugungi ta'limda qanday foydalanish mumkin?» savoli bo'yicha talabalar asoslangan fikr bildiradi, o'z pozitsiyasini manbalar bilan dalillaydi. Mustaqil ishda talabaga o'qish kundaligini yuritish, bitta ilmiy-ommabop kitobni tanlab o'qish va qisqa taqrizi yozish topshiriladi. Baholashda faqat faktlarni bilish emas, bilimlarni bog'lash, manbalarni tanqidiy baholash va fikrni asoslash ham hisobga olinadi. Shu tariqa mashg'ulot eruditsiyaning barcha komponentlariga ta'sir ko'rsatadi.

4.9. Turli ta'lim bosqichlarida eruditsiyani rivojlantirish xususiyatlari. Eruditsiyani rivojlantirish yosh va ta'lim bosqichiga qarab o'ziga xoslikka ega. Umumta'lim maktabining boshlang'ich sinflarida asosiy e'tibor qiziqishni uyg'otish, o'qish odatini shakllantirish, atrof-olam haqida keng tasavvur berishga qaratiladi; bu yerda o'yin, hikoya, ekskursiya va kitob bilan tanishtirish samarali. O'rta va yuqori sinflarda fanlar bo'yicha tizimli bilimlar, fanlararo bog'lanishlar, manbalar bilan ishlash va dastlabki tadqiqot ko'nikmalari shakllantiriladi. Kasb-hunar ta'limi va kollejlarda eruditsiya kasbiy faoliyat bilan bog'lanadi: kasb tarixi, texnologiyalar rivoji va kasbiy etika bo'yicha keng bilimlar kasbiy mahoratning asosi sifatida rivojlantiriladi. Oliy ta'limda esa eruditsiya ilmiy tafakkur, tadqiqot madaniyati, mutaxassislik bo'yicha chuqur va fanlararo bilimlar, tanqidiy va ijodiy fikrlash bilan uyg'unlashadi.

Mazkur xususiyatlar eruditsiyani rivojlantirish mexanizmlarini bosqichlar bo'yicha moslashtirish zarurligini ko'rsatadi: bir xil usul barcha yosh guruhlariga mos kelmaydi. Shu bilan birga, hamma bosqichlarda umumiy tamoyil saqlanadi — bilim tizimlashgan, ma'noga ega va qiziqish bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak, o'qituvchi esa bilimdonlik namunasi bo'lib xizmat qilishi lozim.

4.10. Eruditsiya va kasbiy tayyorgarlik. Eruditsiya kasbiy ta'limda ham alohida ahamiyatga ega. Mutaxassis o'z sohasining texnik jihatlarini bilibgina qolmay, uning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tarixi, tashqi aloqalari, boshqa sohalar bilan bog'lanishi va jamiyatdagi o'rnini tushunishi kerak. Masalan, bo'lajak shifokor uchun tibbiyot tarixi, psixologiya va etika bo'yicha keng bilim bemor bilan muloqotda va murakkab qarorlar qabul qilishda yordam beradi; bo'lajak o'qituvchi uchun pedagogika tarixi, adabiyot, san'at va texnologiyalar bo'yicha bilimlar dars mazmunini boyitadi; muhandis uchun esa fan va jamiyat aloqalarini tushunish texnik yechimlarning ijtimoiy oqibatlarini baholashga imkon beradi. Shu ma'noda eruditsiya tor ixtisoslik bilan keng ma'rifat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in vazifasini o'taydi va mutaxassisning o'zgaruvchan mehnat bozoriga moslashuvini osonlashtiradi.

Shuningdek, eruditsiya kasbiy kompetensiyalarning shakllanish sifatiga ta'sir qiladi: keng bilim zaxirasi yangi texnologiyalar va yondashuvlarni tezroq o'zlashtirish, noaniq vaziyatlarda to'g'ri yo'nalish tanlash va jamoa bilan samarali hamkorlik qilishga yordam beradi. Shu bois oliy ta'lim o'quv rejalarida umumkasbiy va gumanitar fanlarning o'rni, ularning ixtisoslik fanlari bilan uyg'unligi masalasi alohida e'tiborga loyiq.

MUHOKAMA

Olingan natijalar eruditsiyani ta'limda ikki ekstremaldan — «yodlash va faktlarga ortiqcha ishonish» hamda «bilim keraksiz, asosiysi ko'nikma» qarashlaridan — farqli yaxlit pedagogik kategoriya sifatida ko'rish mumkinligini ko'rsatadi. Kognitiv psixologiya va ta'lim nazariyasi ma'lumotlari bilan mos holda [2; 4; 12; 14], mustahkam va tizimlashgan bilim zaxirasi tushunish, xotira va fikrlash samaradorligining sharti sifatida talqin etildi. Shu bilan birga, eruditsiya o'z-o'zidan maqsad emas: u kompetensiya, tanqidiy fikrlash va ma'naviy yetuklik bilan birgalikda ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning muhim jihati — eruditsiyani faqat «hajm» sifatida emas, bilimlar tuzilishi, madaniy kontekst va motivatsiya birligi sifatida talqin etish. Bu o'qituvchiga eruditsiyani rivojlantirishda faqat ma'lumot berish bilan emas, mazmunni

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tizimlashtirish, bog'lash, tadqiqot, dialog va refleksiya orqali ish ko'rish zarurligini ko'rsatadi. Taklif etilgan yetti mexanizm turli fanlar va ta'lim bosqichlariga moslashtirilishi mumkin.

Muhokamada ayrim xavf va cheklovlarni ham ta'kidlash kerak. Birinchidan, eruditsiyani rivojlantirishda o'quv yuklamasining haddan oshishi va yuzakilik xavfi mavjud: «hamma narsadan ozgina» bilish chuqur tushunishni almashtira olmaydi, shuning uchun kenglik chuqurlik bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Ikkinchidan, eruditsiyani raqobat yoki o'zini ko'rsatish vositasiga aylantirish ta'limdagi ijobiy muhitga zarar yetkazishi mumkin; bilimdonlik hamkorlik va kamtarlik bilan birga rivojlanishi kerak. Uchinchidan, eruditsiyani baholash murakkab, standart testlar uning tizimlilik va madaniy jihatlarini to'liq qamrab olmaydi, shu sababli mezonlar kuzatuv, portfolio, loyihalar va suhbat bilan to'ldirilishi lozim. To'rtinchidan, taklif etilgan model empirik jihatdan turli ta'lim muassasalarida sinovdan o'tkazilishi kerak.

Milliy ta'lim an'analari nuqtayi nazaridan ham eruditsiya muhim qadriyat sifatida e'tirof etiladi: Sharq mutafakkirlari bilimdonlikni bir necha ilm sohalarini egallash, ularni ma'naviy kamolot bilan uyg'unlashtirish bilan bog'lagan. Bu an'ana zamonaviy ta'limda eruditsiyani faqat intellektual emas, balki axloqiy-ma'naviy sifat sifatida ham tarbiyalash zarurligini ko'rsatadi: bilim jamiyat manfaatiga xizmat qilganda, halollik va mas'uliyat bilan qo'llanganda haqiqiy qadriyatga aylanadi [9; 10].

Amaliy ahamiyati: model maktab, kollej va oliy ta'lim o'qituvchilari tomonidan o'quv jarayonini loyihalashda, dasturlar va baholash vositalarini ishlab chiqishda, malaka oshirishda foydalanilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlar uchun yo'nalishlar: eruditsiyaning turli yo'nalishdagi talabalarda rivojlanish xususiyatlarini o'rganish; eruditsiya va akademik yutuqlar, tanqidiy fikrlash o'rtasidagi bog'liqlikni miqdoriy aniqlash; SI vositalarining eruditsiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlari va xavflarini eksperimental baholash.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

XULOSA

Ta'lim jarayonida eruditsiya o'quv va kasbiy faoliyatning samaradorligini belgilovchi muhim shaxsiy sifatdir. U bilim-mazmuniy, tizimlashtiruvchi, madaniy-tarixiy, axborot-metodologik, tanqidiy-refleksiv va motivatsion-qadriyatli komponentlardan iborat tizim sifatida aniqlandi. Eruditsiya yangi bilimlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi, tanqidiy fikrlash uchun material beradi, bilimlarni ko'chirishga yordam beradi, muloqot va ijtimoiy faollikni kengaytiradi hamda o'rganishga motivatsiyani kuchaytiradi.

Sun'iy intellekt va cheksiz axborot davrida eruditsiyaning ahamiyati kamaymaydi: u axborotni tanlash, baholash va bog'lash uchun zarur asos bo'lib qoladi. Eruditsiyani rivojlantirishning yettita pedagogik mexanizmi — mazmunni tizimlashtirish, fanlararo integratsiya, o'qish madaniyati, tadqiqotga yo'naltirilgan o'qitish, dialog va munozara, raqamli axborot muhiti hamda refleksiv-motivatsion mexanizm — asoslandi, samaradorlikni baholash uchun mezonlar, ko'rsatkichlar va uch darajali tavsif ishlab chiqildi.

Takliflar: (1) o'quv dasturlarida fanlararo bog'lanishlar va tushunchalar tizimiga e'tiborni kuchaytirish; (2) o'qish madaniyatini rivojlantirish dasturlarini joriy etish; (3) talabalarni kichik tadqiqotlar, munozara va loyihalarga keng jalb qilish; (4) raqamli resurslar va SI vositalaridan axborotni tanqidiy baholash ko'nikmasi bilan birga foydalanish; (5) o'qituvchilarning kasbiy va umumiy eruditsiyasini oshiruvchi malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish; (6) eruditsiya darajasini baholashda test bilan birga portfolio va loyihalardan foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anderson L.W., Krathwohl D.R. (eds.) A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001.
2. Bransford J.D., Brown A.L., Cocking R.R. (eds.) How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School. – Washington, DC: National Academy Press, 2000.
3. Bruner J.S. The Process of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960.

4. Chi M.T.H., Feltovich P.J., Glaser R. Categorization and representation of physics problems by experts and novices // Cognitive Science, 1981, 5(2): 121–152.
5. Dewey J. How We Think. – Boston: D.C. Heath, 1910.
6. Ennis R.H. A taxonomy of critical thinking dispositions and abilities // Teaching Thinking Skills: Theory and Practice / ed. J.B. Baron, R.J. Sternberg. – New York: W.H. Freeman, 1987. – P. 9–26.
7. Ericsson K.A., Krampe R.T., Tesch-Römer C. The role of deliberate practice in the acquisition of expert performance // Psychological Review, 1993, 100(3): 363–406.
8. Hirsch E.D. Cultural Literacy: What Every American Needs to Know. – Boston: Houghton Mifflin, 1987.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
11. Sternberg R.J. Wisdom, Intelligence, and Creativity Synthesized. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
12. Sweller J. Cognitive load during problem solving: effects on learning // Cognitive Science, 1988, 12(2): 257–285.
13. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
14. Willingham D.T. How knowledge helps: it speeds and strengthens reading comprehension, learning – and thinking // American Educator, 2006, 30(1): 30–37.
15. Willingham D.T. Why Don't Students Like School? – San Francisco: Jossey-Bass, 2009.

YOŞ PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATGA MOSLAŞUVINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Orifjonova Nazokat
Andijon davlat tibbiyot instituti,
Özbek tili va adabiyoti kafedrasi stajor-assistent öqituvçisi
E-mail: nazokatabdulazizova1998@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada yoş pedagoglarning kasbiy faoliyatga moslaşuvi jarayoniga ta'sir etuvçi psixologik omillar nazariy jihatdan tahlil qilingan. Moslaşuvning şaxsiy, motivatsion, kommunikativ va ijtimoiy-psixologik komponentlari ajratib körsatilgan. Öz-özini samarali his etiş (self-efficacy), kasbiy motivatsiya, hissiy barqarorlik, stressga çidamlilik hamda ustoz-murabbiylik muhiti moslaşuvning asosiy omillari sifatida asoslangan. Maqola yakunida yoş pedagoglarning moslaşuvini qöllab-quvvatlaşga qaratilgan psixologik-pedagogik tavsiyalar berilgan.*

Kalit sözlar: *yoş pedagog, kasbiy moslaşuv, psixologik omillar, kasbiy motivatsiya, öz-özini samarali his etiş, hissiy kuyiş, ustoz-murabbiylik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ АДАПТАЦИИ МОЛОДЫХ ПЕДАГОГОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *В статье теоретически проанализированы психологические факторы, влияющие на процесс профессиональной адаптации молодых педагогов. Выделены личностный, мотивационный, коммуникативный и социально-психологический компоненты адаптации. Обоснована роль самоэффективности, профессиональной мотивации, эмоциональной устойчивости, стрессоустойчивости и наставничества. Предложены психолого-педагогические рекомендации по поддержке молодых специалистов.*

Ключевые слова: *молодой педагог, профессиональная адаптация, психологические факторы, профессиональная мотивация, самоэффективность, эмоциональное выгорание, наставничество.*

PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE ADAPTATION OF YOUNG EDUCATORS TO PROFESSIONAL ACTIVITY

Abstract. *The article provides a theoretical analysis of the psychological factors that influence the professional adaptation of young teachers. The personal, motivational, communicative and socio-psychological components of adaptation are identified. The roles of self-efficacy, professional motivation, emotional stability, stress resilience and mentoring are substantiated. Psychological and pedagogical recommendations for supporting early-career teachers are offered.*

Keywords: *young teacher, professional adaptation, psychological factors, professional motivation, self-efficacy, burnout, mentoring.*

KIRIŞ

Ta'lim tizimini isloh qiliş şaroitida pedagog kadrlarning kasbiy mahorati va şaxsiy barqarorligiga qöyilayotgan talablar ortib bormoqda. Oliy ta'lim muassasasiga yangi kelgan yoş öqituvçi uçun dastlabki yillar kasbiy şakllanişning eng nozik va hal qiluvçi bosqiçi hisoblanadi. Aynan şu davrda nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan töqnaşadi, şaxsning kasbiy özligi şakllanadi, iş joyidagi ijtimoiy rollar özlaştiriladi.

Tadqiqotlar şuni körsatadiki, kasbga kirişning dastlabki yillarida yoş mutaxassislar öquv jarayonini taşkil etiş, auditoriyani boşqariş, hamkasblar bilan munosabat örnatiş va yuqori iş yuklamasiga çidaş bilan boğliq qiyinçiliklarga duç keladi (Veenman, 1984). Bu qiyinçiliklar öz vaqtida psixologik qöllab-quvvatlanmasa, kasbiy qoniqmaslik, hissiy toliqiş va hatto kasbni tark etişga olib kelişi mumkin.

Moslaşuv muammosi ayniqsa tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida öziga xos xususiyatga ega. Bu yerda umumiy fanlar, jumladan, özbek tili va adabiyoti öqituvçisi öz fanining tibbiyot ta'limidagi örnini anglaşi, öziga xos auditoriya (tibbiyot yönalişidagi talabalar) bilan işlaş uslublarini egallaşi lozim.

Tadqiqotning maqsadi – yoş pedagoglarning kasbiy faoliyatga moslaşuviga ta'sir etuvçi psixologik omillarni aniqlaş va tizimlaştiriş.

Tadqiqotning vazifalari: (1) "kasbiy moslaşuv" tuşunçasining mazmunini aniqlaştiriş; (2) moslaşuvning psixologik omillarini ajratib körsatiş; (3) yoş pedagoglarni qöllab-quvvatlaş böyiça tavsiyalar işlab çiqiş.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Psixologiyada moslaşuv (adaptatsiya) şaxsning özgargan muhit talablariga faol könikiş va şu bilan birga muhitni öz ehtiyojlariga muvofiq özgartiriş jarayoni sifatida talqin qilinadi. Kasbiy moslaşuv esa şaxsning yangi kasbiy muhitga, faoliyat mazmuni, normalari va ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirib borişi, bu jarayonda özining kasbiy imkoniyatlarini anglaşi va faoliyatdan qoniqiş hosil qilişini öz içiga oladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

A. Bandura (1997) işlarida öz-özini samarali his etiş, ya'ni şaxsning muayyan vazifani uddalay olişiga bölgan işonçi xulq-atvor va faoliyat natijalarining muhim belgilovçisi sifatida körsatilgan. M. Tsçannen-Moran va A. Woolfolk Hoy (2001) bu ğoyani pedagogik faoliyatga tatbiq etib, öqituvçining samaradorlik e'tiqodi öquv jarayonini boşqariş, talabalarni rağbatlantiriş va öqitiş strategiyalarini tanlaşga ta'sir qilişini asoslagan. K. Maslaç va S. Jackson (1981) hissiy kuyiş sindromini emotsional toliqiş, deperzonalizatsiya va şaxsiy yutuqlarning pasayişi kabi ölçamlar orqali tavsiflagan. S. Hobfoll (1989) resurslarni saqlaş nazariyasi asosida stress va moslaşuv örtasidagi boğliqlikni izohlagan. Rus psixologiyasida moslaşuv muammosi ijtimoiy-pedagogik psixologiya doirasida A. A. Rean va Ya. L. Kolominskiy tomonidan ham tahlil qilingan (Rean, Kolominskiy, 1999).

Maqolada nazariy-tahliliy yondaşuv, qiyosiy tahlil, tizimlaştiriş va umumlaştiriş usullaridan foydalanildi. Muallifning özbek tili va adabiyoti fanini tibbiyot oliy ta'lim muassasasida öqitişdagi stajor-öqituvçilik tajribasi ham tahlilga asos böldi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijasida yoş pedagoglarning kasbiy moslaşuvini belgilovçi psixologik omillarni tört guruhga ajratiş mumkin.

1. Şaxsiy-psixologik omillar. Bularga öz-özini samarali his etiş, öz-özini baholaş, hissiy barqarorlik, stressga çidamlilik, taşvişlaniş darajasi va refleksiya qobiliyati kiradi. Özига işonçi past yoş öqituvçi odatda dars jarayonida taşabbus körsatişdan tiyiladi, talabalar tanqidiga haddan taşqari sezgir böladi, bu esa moslaşuvni sekinlaştiradi. Aksinça, yuqori refleksivlik öz xatolarini tahlil qilib, ulardan örganiş imkonini beradi.

2. Motivatsion omillar. Kasbga içki qiziqiş, kasbiy qadriyatlar, ösiş istagi va faoliyat ma'nosini anglaş moslaşuvning harakatlantiruvçi kuçidir. Içki motivatsiya ustun bölgan öqituvçilar qiyinçiliklarni kasbiy sinov sifatida qabul qiladi, taşqi **motivatsiya (maoş,** mavqe) ustun bölganlarda esa moslaşuv beqaror keçişi mumkin. Tibbiyot oliy ta'lim muassasasida til va adabiyot öqituvçisi uçun öz fanining talabalar nutq madaniyati,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bemor bilan muloqot va kasbiy etika şakllanişidagi ahamiyatini anglaş motivatsiyani sezilarli kuçaytiradi.

3. Kommunikativ va ijtimoiy-psixologik omillar. Bu guruhga jamoadagi psixologik iqlim, hamkasblar va kafedra mudiri bilan munosabatlar, talabalar bilan pedagogik muloqot madaniyati, jamoaviy normalarni qabul qiliş kiradi. Yoş pedagog uçun "yangi kelgan" maqomi köpinça özini noqulay his qiliş, tajribali hamkasblar oldida öz fikrini bildirişdan çöçiş bilan birga keladi. Jamoaning qöllab-quvvatlovçi muhiti bu tösiqni kamaytiradi.

4. Taşkiliy-psixologik omillar. Iş yuklamasining me'yorligi, vazifalarning aniqligi, ustoz-murabbiylik tizimining mavjudligi, kasbiy rivojlaniş imkoniyatlari va rağbatlantiriş mexanizmlari. Ustoz-murabbiylik yoş öqituvçiga nafaqat metodik yordam, balki hissiy qöllab-quvvatlaş ham beradi, kasbiy özlikni şakllantiradi.

Moslaşuv jarayonini şartli ravişda uç bosqiçga ajratiş mumkin: (a) könikiş bosqiçi (birinçi yil) – faoliyat talablari, qoidalar va muhitni örganiş; (b) faol moslaşiş bosqiçi – öz uslubini şakllantiriş, metodik mustaqillikka erişiş; (c) barqarorlaşuv bosqiçi – kasbiy özlikning mustahkamlanişi va faoliyatdan qoniqiş. Omillarning ta'siri bosqiçlarga qarab özgaradi: dastlab taşkiliy va ijtimoiy-psixologik omillar, keyinçalik şaxsiy va motivatsion omillar yetakçilik qiladi.

Muhokama şuni körsatadiki, omillar özaro boğliq: masalan, jamoada qöllab-quvvatlovçi muhit öz-özini samarali his etişni oşiradi, bu esa öz navbatida motivatsiyani kuçaytiradi va hissiy kuyiş xavfini kamaytiradi. Şu bois moslaşuvni faqat bitta omil orqali tuşuntiriş yetarli emas, tizimli yondaşuv zarur.

Yuqoridagi tahlil asosida quyidagi tavsiyalar işlab çiqildi:

- har bir yoş pedagogga tajribali ustoz-murabbiy biriktiriş va özaro dars qatnaşiş amaliyotini yölga qöyiş;
- dastlabki yilda iş yuklamasini bosqiçma-bosqiç oşiriş;
- psixologik diagnostika (kasbiy motivatsiya, taşviş, hissiy kuyiş darajasini aniqlaş)ni muntazam ötkaziş;

- stressni boşqariş, pedagogik muloqot va refleksiya böyiça trening va seminarlar taşkil etiş;
- kafedrada oçiq va qöllab-quvvatlovçi muloqot muhitini şakllantiriş, yoş öqituvçilar yutuqlarini e'tirof etiş.

Kasbiy moslaşuvning psixologik mazmuni va tarkibiy tuzilişi

Kasbiy moslaşuv yoş mutaxassisning yangi mehnat şaroitiga şunçaki könikişi bilan çeklanmaydi. U kasbiy vazifalarni anglaş, muassasa me'yorlarini özlaştiriş, hamkasblar bilan samarali munosabat örnatiş, öz imkoniyatlarini baholaş va kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilişga bosqiçma-bosqiç ötişni qamrab oladi. Uşbu jarayonda şaxs va kasbiy muhit bir-biriga özaro ta'sir körsatadi: pedagog muassasa talablariga moslaşadi, şu bilan birga öz tajribasi va taşabbuslari orqali ta'lim jarayonining takomillaşişiga hissa qöşadi.

Moslaşuvning muvaffaqiyati faqat darsni rejalaştiriş yoki fan mazmunini biliş bilan belgilanmaydi. Pedagogik faoliyat bilim, könikma, hissiy boşqaruv, muloqot, öz faoliyatini tahlil qiliş va kasbiy qadriyatlarning uyğunligini talab etadi. Şu sababli yoş pedagogning moslaşuvini şaxsiy, motivatsion, kommunikativ, ijtimoiy-psixologik va taşkiliy omillar özaro ta'sir qiladigan yaxlit tizim sifatida körib çiqiş maqsadga muvofiq.

Kasbiy moslaşuvni uçta özaro boğliq yönalişda tavsiflaş mumkin. Birinçisi — faoliyatga moslaşuv: darsni rejalaştiriş, öquv materialini tanlaş, maşğulot vaqtini taqsimlaş va ta'lim natijalarini baholaş. Ikkinçisi — ijtimoiy moslaşuv: jamoa me'yorlarini özlaştiriş, hamkasblar va rahbariyat bilan hamkorlik qiliş, muassasa madaniyatini tuşuniş. Uçinçisi — şaxsiy-kasbiy moslaşuv: pedagogik rolni qabul qiliş, kasbiy özlikni şakllantiriş, muvaffaqiyat va qiyinçiliklarga real baho beriş hamda öz ustida işlaşga tayyorlik. Bu yönalişlardan biridagi qiyinçilik boşqa yönalişlarga ham ta'sir körsatişi mumkin.

Öz-özini samarali his etiş va kasbiy işonç

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Yoş pedagogning öz-özini samarali his etişi uning muayyan pedagogik vazifalarni bajarişga qodir ekaniga bölgan işonçini anglatadi. Bandura (1997) yondaşuvida bu işonç insonning vaziyatni qanday baholaşi, qiyinçilik oldida qança sa'y-harakat körsatişi va muvaffaqiyatsizlikdan keyin faoliyatni davom ettirişiga ta'sir qiluvçi omillardan biri hisoblanadi. Pedagogik faoliyatda öz samaradorligiga işonç darsni boşqariş, talabalarning faolligini rağbatlantiriş va mos metodlarni tanlaş bilan boğliq.

Iş faoliyatining dastlabki davrida yoş öqituvçi özini tajribali hamkasblari bilan taqqoslaşi va ayrim kamçiliklarini umumiy qobiliyatsizlik belgisi sifatida qabul qilişi mumkin. Bunday holatda aniq va konstruktiv fikr-mulohaza, kiçik maqsadlarni belgilaş hamda özidagi ijobiy özgarişlarni qayd etiş muhimdir. Masalan, birinçi maşğulotda vaqtni töğri taqsimlay olmagan pedagog keyingi dars uçun bosqiçma-bosqiç reja tuzişi, ustoz bilan uni muhokama qilişi va natijani qayta tahlil qilişi mumkin.

Kasbiy işonçni oşiriş öqituvçining xatolarini inkor etiş yoki öz imkoniyatlarini ortiqça baholaşni anglatmaydi. Aksinça, öz kuçli va rivojlantirilişi zarur bölgan jihatlarini xolis anglaş, yordam söraşdan tortinmaslik va tajribadan xulosa çiqariş moslaşuvning barqaror şakllanişiga yordam beradi.

Kasbiy motivatsiya va kasbiy qadriyatlar

Kasbiy motivatsiya yoş pedagogning faoliyatga kirişişi, qiyinçiliklarga munosabati va öz ustida işlaşga intilişini belgilovçi muhim omildir. Içki motivatsiya fanga qiziqiş, talabalarning rivojlanişiga hissa qöşiş, bilimni yetkazişdan qoniqiş va kasbiy mahoratni oşiriş istagi bilan namoyon böladi. Taşqi motivatsiya esa iş haqi, lavozim, ijtimoiy e'tirof va mehnat şaroitlari kabi omillar bilan boğliq. Amaliyotda bu motivlar bir-birini istisno qilmaydi; köpinça ular birgalikda faoliyatga ta'sir körsatadi.

Kasbiy motivatsiya barqaror bölişi uçun pedagog öz işining mazmuni va ijtimoiy ahamiyatini tuşunişi zarur. Tibbiyot oliy ta'lim muassasasida umumta'lim fanlarini öqituvçi pedagog, jumladan, özbek tili va adabiyoti öqituvçisi, fan mazmunini bölajak şifokorlarning nutq madaniyati, bemor bilan muloqoti, kasbiy etikasi va hujjatlar bilan



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

işlaş könikmalari bilan boğlab tuşuntirişi mumkin. Bunday kasbiy ma'no pedagogning öz faoliyatini muassasaning umumiy maqsadlari bilan boğlaşiga yordam beradi.

Motivatsiyani qöllab-quvvatlaş uçun yoş pedagogga erişiş mumkin bölgan maqsadlar qöyiş, metodik taşabbus körsatiş, malaka oşiriş tadbirlarida qatnaşiş va öz yutuqlarini tahlil qiliş imkoniyatlari berilişi kerak. Faqat kamçiliklarga e'tibor qaratiş esa mehnatdan qoniqişni pasaytirib, taşabbuskorlikni çeklaşi mumkin.

Hissiy barqarorlik, stress va kasbiy kuyiş xavfi

Pedagogik faoliyat doimiy muloqot, vaqt çeklovlari, natijalar uçun mas'uliyat va turli ehtiyojlarga ega talabalar bilan işlaşni talab qiladi. Yangi iş boşlagan öqituvçi bu talablarni özlaştiriş bilan birga yangi jamoaga kirişişi va kasbiy maqomini şakllantirişi sababli qöşimça zöriqişni boşdan keçirişi mumkin. Stressning mavjudligi öz-özidan moslaşuv muvaffaqiyatsizligini anglatmaydi; uning davomiyligi, kuçi, şaxsning mavjud resurslari va yordam oliş imkoniyati muhim ahamiyatga ega.

Hobfollning (1989) resurslarni saqlaş yondaşuvi nuqtayi nazaridan, inson özi uçun muhim bölgan resurslarni yöqotiş xavfi yoki ularning kamayişini sezganda stressni boşdan keçirişi mumkin. Yoş pedagog uçun vaqt, kasbiy bilim, jamoa kömagi, soğlom dam oliş, öziga işonç va metodik materiallar muhim resurslar hisoblanadi. Vazifalar aniq taqsimlanmasa yoki yordam yetarli bölmasa, bu resurslar tez sarflanişi mumkin. Aksinça, rejalaştiriş, hamkorlik va muntazam fikr-mulohaza mavjud resurslarni mustahkamlaydi.

Maslaç va Jackson (1981) kasbiy kuyişni hissiy toliqiş, depersonalizatsiya va şaxsiy yutuqlarni past baholaş kabi tarkibiy qismlar orqali tavsiflagan. Yoş pedagogda uzoq davom etuvçi çarçoq, talabalardan hissiy jihatdan uzoqlaşiş yoki öz mehnati samarasiga işonmaslik kuzatilsa, bu holatni e'tiborsiz qoldirmaslik lozim. Biroq alohida belgi asosida taşxis qöyib bölmaydi; zarurat tuğilganda mutaxassis kömagi va iş şaroitlarini baholaş talab etiladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Stressni boşqariş böyiça amaliy çoralar orasida iş kunini rejalaştiriş, vazifalarni ustuvorlik böyiça ajratiş, darsdan keyin qisqa refleksiya qiliş, dam oliş vaqtini saqlaş, hamkasblar bilan tajriba almaşiş va zarur hollarda rahbariyatdan yordam söraş mavjud. Taşkilot darajasida esa vazifalarning aniqligi, adolatli yuklama, hurmatga asoslangan muloqot va yangi xodimni muntazam qöllab-quvvatlaş muhim.

Pedagogik muloqot va ijtimoiy-psixologik muhit

Yoş pedagogning moslaşuvi köp jihatdan uning talabalar, hamkasblar va rahbariyat bilan munosabatlariga boğliq. Pedagogik muloqot faqat axborot yetkaziş emas, balki özaro hurmat, aniq talablar, tinglaş, fikr-mulohaza beriş va nizolarni konstruktiv hal qilişni ham qamrab oladi. Muloqotda izçillik va adolat saqlansa, talabalar bilan işonçli munosabat şakllantiriş osonlaşadi.

Yangi jamoaga kirgan mutaxassis muassasaning norasmiy qoidalari va hamkorlik usullarini darhol anglamasligi mumkin. U savol berişdan uyalişi yoki öz fikrini bildirişda ehtiyotkorlik qilişi ehtimol. Şu sababli kafedrada savollarni erkin beriş, dars işlanmalarini muhokama qiliş va qiyinçiliklarni ayblovsiz körib çiqiş mumkin bölgan muhitni yaratiş muhim. Psixologik xavfsizlik mavjud bölgan jamoada xatolar jazolanişdan qörqiladigan holat emas, balki örganiş va takomillaşiş uçun sabab sifatida köriladi.

Tibbiyot yönalişidagi talabalar bilan işlaşda fan mazmunini ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan boğlaş, nazariy materialni amaliy vaziyatlar orqali tuşuntiriş va faol iştirokni rağbatlantiriş foydali. Masalan, nutq madaniyati mavzusini bemorga tuşunarli izoh beriş, hamkasb bilan aniq muloqot qiliş yoki kasbiy odobga rioya etiş vaziyatlari bilan boğlaş mumkin. Bunday yondaşuv fan ahamiyatini oçib beradi va pedagogning öz faoliyatidan qoniqişini kuçaytirişi mumkin.

Ustoz-murabbiylik va taşkiliy qöllab-quvvatlaş

Ustoz-murabbiylik yoş pedagogning kasbiy moslaşuvini qöllab-quvvatlaşning amaliy mexanizmlaridan biridir. Tajribali pedagog yangi xodimga dars rejasini tuziş, öquv materialini tanlaş, talabalar bilimini baholaş va auditoriyadagi murakkab

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

vaziyatlarni hal qilişda yordam berişi mumkin. Bunday hamkorlik faqat tayyor namunalarni beriş bilan çeklanmasdan, qarorlarning sabablarini tuşuntiriş va yoş pedagogning mustaqil fikrlaşini rivojlantirişga yönaltirilişi lozim.

Samarali mentorlik oldindan kelişilgan maqsadlar, muntazam uçraşuvlar, özaro dars kuzatuvi va hurmatga asoslangan fikr-mulohazani nazarda tutadi. Dars kuzatuvi nazorat yoki jazolaş vositasi sifatida emas, balki kasbiy rivojlaniş manbai sifatida taşkil etilganda köproq samara beradi. Yoş pedagog ham öz navbatida öziga qiyin bölgan vaziyatlarni oçiq aytişi, takliflarni tahlil qilişi va öz uslubini şakllantirişga intilişi zarur.

Taşkiliy qöllab-quvvatlaş iş yuklamasining tuşunarli taqsimlanişi, xizmat vazifalarining aniq belgilanişi, zarur metodik resurslarning mavjudligi va kasbiy rivojlaniş imkoniyatlarini öz içiga oladi. Dastlabki davrda yangi vazifalarni bosqiçma-bosqiç özlaştiriş, ma'muriy talablar haqida aniq ma'lumot beriş va murojaat qiliş mumkin bölgan mas'ul şaxsni belgilaş noaniqlikni kamaytiradi.

Kasbiy moslaşuv bosqiçlarining amaliy tavsifi

Moslaşuv şartli ravişda könikiş, faol moslaşiş va barqarorlaşuv bosqiçlariga ajratilişi mumkin. Könikiş bosqiçida pedagog muassasa qoidalari, öquv dasturlari, hujjatlar va jamoa bilan tanişadi. Bu davrda aniq yöriqnoma, mentor yordami va kundalik işni rejalaştiriş alohida ahamiyatga ega.

Faol moslaşiş bosqiçida yoş mutaxassis öqitiş usullarini tajribadan ötkazadi, talabalar ehtiyojlarini yaxşiroq anglaydi va öz pedagogik uslubini şakllantiradi. Bu bosqiçda darslarni tahlil qiliş, hamkasblardan fikr oliş va kasbiy maqsadlarni yangilab boriş foydali. Barqarorlaşuv bosqiçida esa kasbiy özlik mustahkamlanadi, pedagog öz faoliyatini mustaqil rejalaştiradi va rivojlaniş yönalişlarini ongli tanlaydi.

Mazkur bosqiçlar qat'iy muddatlar bilan çegaralanmaydi. Ularning davomiyligi iş şaroiti, avvalgi tajriba, metodik tayyorgarlik, jamoa kömagi va şaxsiy xususiyatlarga qarab farqlanişi mumkin. Şu bois yoş pedagogning rivojlanişini barça xodimlar uçun bir

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

xil mezon bilan baholaşdan köra, individual ehtiyoj va özgarişlarni hisobga oliş maqsadga muvofiq.

Moslaşuvni qöllab-quvvatlaş böyiça amaliy model

Yuqoridagi nazariy tahlil asosida oliy ta'lim muassasalarida yoş pedagoglarni qöllab-quvvatlaşning özaro boğliq tört yönalişli modelini taklif etiş mumkin. Birinçi yönaliş — diagnostik va taniştiruv işlari: yangi xodimning ehtiyojlarini aniqlaş, lavozim vazifalari, içki tartib va mavjud resurslar haqida ma'lumot beriş. Diagnostika natijalari xodimni yorliqlaş uçun emas, yordamni uning ehtiyojiga moslaştiriş uçun işlatilişi kerak.

Ikkinçi yönaliş — metodik yordam: dars rejasini işlab çiqiş, baholaş mezonlarini aniqlaştiriş, zamonaviy ta'lim metodlarini örganiş va tajribali hamkasb darslarini kuzatiş. Uçinçi yönaliş — psixologik va kommunikativ könikmalarni rivojlantiriş: stressni boşqariş, nizolarni hal qiliş, samarali muloqot va refleksiya böyiça maşğulotlar. Törtinçi yönaliş — muntazam monitoring: yoş pedagog bilan kelişilgan muddatlarda suhbatlaşiş, erişilgan yutuqlar va mavjud qiyinçiliklarni körib çiqiş, zarur bölsa qöllab-quvvatlaş rejasini yangilaş.

Modelning samaradorligini baholaşda faqat rasmiy hujjatlarning bajarilişiga tayanib qolmaslik lozim. Yoş pedagogning kasbiy işonçi, işidan qoniqişi, jamoaga qöşilganlik hissi, metodik mustaqilligi va hissiy holati haqida muntazam fikr oliş mumkin. Bunda maxfiylik, ixtiyoriylik va ma'lumotlardan maqsadga muvofiq foydalaniş tamoyillariga rioya qiliş zarur.

Tadqiqotning çeklovlari va kelgusidagi yönalişlar

Mazkur maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega bölib, unda mavjud ilmiy adabiyotlar va kasbiy moslaşuvga doir tuşunçalar tizimlaştirildi. Şu sababli keltirilgan omillarni muayyan oliy ta'lim muassasasida statistik jihatdan tasdiqlangan natijalar sifatida talqin qiliş mumkin emas. Keyingi tadqiqotlarda yoş pedagoglarning moslaşuv darajasi, kasbiy motivatsiyasi, öz-özini samarali his etişi, stress va jamoaviy qöllab-quvvatlaş örtasidagi boğliqlik empirik usullar orqali tekşirilişi mumkin.

Buning uçun anonim sörovnoma, yarim tuzilgan suhbat, dars kuzatuvi va tegişli standartlaştirilgan psixodiagnostik metodikalardan foydalaniş mumkin. Iştirokçilar soni, tanlanma xususiyatlari, qöllanilgan metodikalar, ma'lumotlarni tahlil qiliş usullari va natijalar aniq körsatilişi zarur. Agar turli fakultet yoki ta'lim muassasalari qiyoslansa, iş yuklamasi, pedagogik tajriba, mentorlik mavjudligi va taşkiliy muhit kabi omillar ham hisobga olinişi lozim.

XULOSA

Yoş pedagoglarning kasbiy faoliyatga moslaşuvi şaxs va ta'lim muassasasi örtasidagi özaro ta'sirga asoslangan murakkab jarayondir. Uning muvaffaqiyati öz-özini samarali his etiş, içki va taşqi kasbiy motivatsiya, hissiy barqarorlik, stressni boşqariş, pedagogik muloqot, jamoaning psixologik iqlimi hamda taşkiliy qöllab-quvvatlaş bilan çambarças boğliq. Uşbu omillar bir-biridan ajralgan holda emas, balki özaro ta'sir qiluvçi tizim sifatida qaralişi lozim.

Yoş mutaxassisga faqat talablar qöyiş yetarli emas; uning kasbiy rivojlanişi uçun zarur şaroitlarni yaratiş ham muhimdir. Tajribali ustoz biriktiriş, metodik maslahatlar, adolatli iş taqsimoti, muntazam konstruktiv fikr-mulohaza va oçiq muloqot muhiti moslaşuvdagi noaniqlikni kamaytirişi mumkin. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida esa umumiy fanlarni bölajak şifokorlarning kasbiy ehtiyojlari bilan boğlaş pedagogning faoliyat mazmunini çuqurroq anglaşiga yordam beradi.

Kelgusidagi empirik tadqiqotlar uşbu nazariy xulosalarni amaliy ma'lumotlar bilan tekşiriş, moslaşuvdagi xavf va himoya omillarini aniqlaş hamda yoş pedagoglar uçun samarali qöllab-quvvatlaş dasturlarini işlab çiqişga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bandura A. Self-efficacy: The exercise of control. – New York: W.H. Freeman, 1997. – 604 p.
2. Hobfoll S.E. Conservation of resources: A new attempt at conceptualizing stress // American Psychologist. – 1989. – Vol. 44(3). – P. 513–524.
3. Maslach C., Jackson S.E. The measurement of experienced burnout // Journal of Occupational Behaviour. – 1981. – Vol. 2(2). – P. 99–113.
4. Tschannen-Moran M., Woolfolk Hoy A. Teacher efficacy: Capturing an elusive construct // Teaching and Teacher Education. – 2001. – Vol. 17(7). – P. 783–805.
5. Veenman S. Perceived problems of beginning teachers // Review of Educational Research. – 1984. – Vol. 54(2). – P. 143–178.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

6. Реан А.А., Коломинский Я.Л. Социальная педагогическая психология. – СПб.: Питер, 1999. – 416 с.

DUAL TA'LIM JARAYONIDA FIZIKANI VIZUALLASHTIRIB O'QITISHNING METODIK MODELI VA UNING TARKIBIY KOMPONENTLARI

Bobomurodova O'g'ilshod O'tam qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Ilmiy rahbar Alisher Tursunov Isoqovich
Termiz davlat universiteti falsafa fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada dual ta'lim jarayonida fizikani vizuallashtirib o'qitishning metodik modeli, uning nazariy-metodologik asoslari hamda tarkibiy komponentlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etilgan. Fizika fanini o'qitishda ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasi hamkorligini yo'lga qo'yish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash hamda fizik hodisa va qonuniyatlarni vizual vositalar orqali o'zlashtirishning didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, metodik modelning maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-jarayonli, texnologik, baholash va natijaviy komponentlari o'zaro uzviy bog'liqlikda tavsiflangan. Taklif etilayotgan model orqali o'quvchilarda fizik bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash, texnologik jarayonlarni tahlil qilish, mustaqil fikrlash va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, fizika ta'limi, vizuallashtirish, metodik model, didaktik shart-sharoitlar, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, vizual vositalar, interaktiv texnologiyalar, amaliy mashg'ulot, kasbiy kompetensiya.

МЕТОДИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ВИЗУАЛИЗИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ ФИЗИКЕ В ПРОЦЕССЕ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ЕЁ СТРУКТУРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ

Аннотация. В статье рассматриваются методическая модель визуализированного обучения физике в процессе дуального образования, её теоретико-методологические основы и структурные компоненты. Раскрываются дидактические возможности взаимодействия образовательного учреждения и производственного предприятия, интеграции теоретических знаний с практической деятельностью, а также усвоения физических явлений и закономерностей посредством визуальных средств обучения. Структурные компоненты методической модели, включая целевой, содержательный, организационно-процессуальный, технологический, оценочный и результативный компоненты, охарактеризованы в их взаимосвязи. Обоснованы возможности предлагаемой модели для развития у обучающихся навыков применения физических знаний в практических ситуациях, анализа технологических процессов, самостоятельного мышления и профессиональных компетенций.

Ключевые слова: дуальное образование, физическое образование, визуализация, методическая модель, дидактические условия, интеграция образования и производства, визуальные средства, интерактивные технологии, практическое занятие, профессиональная компетенция.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

METHODOLOGICAL MODEL OF VISUALIZED PHYSICS TEACHING IN THE DUAL EDUCATION PROCESS AND ITS STRUCTURAL COMPONENTS

Abstract. This article examines the methodological model of visualized physics teaching in the dual education process, its theoretical and methodological foundations, and its structural components. It highlights the didactic potential of cooperation between educational institutions and industrial enterprises, the integration of theoretical knowledge with practical activities, and the acquisition of physical phenomena and laws through visual learning tools. The structural components of the proposed methodological model, including its target, content, organizational-process, technological, assessment, and outcome components, are analyzed in their interrelationship. The article substantiates the potential of the model to develop learners' ability to apply physics knowledge in practical situations, analyze technological processes, think independently, and acquire professional competencies.

Keywords: dual education, physics education, visualization, methodological model, didactic conditions, integration of education and industry, visual learning tools, interactive technologies, practical training, professional competence.

KIRISH

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida yuz berayotgan innovatsion o'zgarishlar, ishlab chiqarish jarayonlarining raqamlashtirilishi, zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda mehnat bozorida yuqori malakali, amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojning ortishi ta'lim mazmuni va metodikasini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lashga yo'naltirilgan dual ta'lim tizimi ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasi o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur tizimda ta'lim oluvchilar nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida egallash bilan bir qatorda, ularni bevosita ishlab chiqarish muhitida qo'llash, texnologik jarayonlarni kuzatish va kasbiy faoliyatga oid amaliy tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

